The convergence of individual and collective history is particularly evident in *Who Ate Up All the Shinga?* The novel portrays the Japanese colonial assimilation policy, the suppression of the Korean language, and the family’s migration from the countryside to Seoul as decisive forces shaping the protagonist’s identity. In *Was That Mountain Really There?*, the death of the narrator’s brother during the Korean War, the repeated occupation of Seoul by opposing military forces, and the devastating consequences of war for ordinary civilians are all reconstructed through deeply personal memories. As a result, the suffering experienced by Park’s family becomes inseparable from the collective historical memory of the Korean nation.

Ultimately, Park Wan-suh’s autobiographical novels do not present war as a sequence of objective historical facts but reconstruct it through the interaction of personal memory, traumatic experience, and artistic imagination. Memories are not organized according to strict chronological order but emerge as they persist within the author’s consciousness. Individual life stories thereby transcend the boundaries of private experience and become part of the collective memory of an entire generation that endured the Korean War. Consequently, Park Wan-suh’s autobiographical fiction offers a profound psychological and aesthetic interpretation of historical reality while providing a valuable foundation for contemporary scholarship in autobiography studies, memory studies, trauma studies, and Korean literary criticism.

References

1. Butler J. *Giving an Account of Oneself*. – New York: Fordham University Press, 2005. – 82 p.

2. Caruth C. *Unclaimed Experience: Trauma, Narrative, and History*. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2016. – 208 p.

3. Smith S., Watson J. *Reading Autobiography: A Guide for Interpreting Life Narratives*. 2nd ed. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 2010. – 409 p.
4. Бахтин М. М. Формы времени и хронотопа в романе // Бахтин М. Литературно-критические статьи. – Москва: Художественная литература, 1986. – С. 121–290.
5. Карим Б. Руҳият алифбоси. – Ташкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – С. 166.Рубанов А. Л. Очерки по истории Семиреченского края // История г. Семиреченска. URL: http://semirechensk-history.ru/ocherki (дата обращения: 20.04.2011).

ALQOV BIRLIKLARINING O‘ZBEK VA INGLIZ LINGVOMADANIYATLARIDAGI LAKUNAR XUSUSIYATLARI

Qurbanbayeva Nilufar Ilxamovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi,
mustaqil izlanuvchi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21884727

Annotatsiya. Mazkur tezisda o‘zbek tilidagi alqov birliklari - olqish, duo va tilaklarning ingliz lingvomadaniyatidagi muqobillari qiyosiy tahlil qilinadi. Alqov makrotizimini tashkil etuvchi birliklarning ekvivalentlik va lakunarlik darajalari aniqlanib, baraka, rizq, qut kabi madaniy kodlarning tarjimada bo‘shliq hosil qilish sabablari lingvokulturologik nuqtai nazardan yoritiladi.
Kalit so‘zlar: alqov, olqish, duo, tilak, lakuna, ekvivalentlik, lingvomadaniyat, madaniy kod, nutqiy akt.

Аннотация. В данных тезисах проводится сопоставительный анализ узбекских благопожелательных единиц - олқиш, дуо и тилак - и их эквивалентов в английской лингвокультуре. Определяются степени эквивалентности и лакунарности единиц, образующих макросистему благопожеланий, а также раскрываются лингвокультурологические причины возникновения лакун при передаче культурных кодов барака, ризқ, қут.
Ключевые слова: благопожелание, благословение, молитва, пожелание, лакуна, эквивалентность, лингвокультура, культурный код, речевой акт.

Abstract. This paper presents a comparative analysis of Uzbek blessing units - olqish, duo and tilak - and their equivalents in English linguoculture. The degrees of equivalence and lacunarity of the units forming the blessing macrosystem are identified, and the linguocultural reasons for the emergence of lacunae in rendering the cultural codes baraka, rizq and qut are revealed.
Key words: blessing, benediction, prayer, good wish, lacuna, equivalence, linguoculture, cultural code, speech act.

Har bir xalqning tili uning ma’naviy olamini, dunyoni idrok etish tarzini va qadriyatlar tizimini o‘zida aks ettiruvchi ko‘zgudir. Ayniqsa, ezgu niyat va xayrixohlikni ifodalovchi nutqiy birliklar - alqovlar milliy mentalitetning eng yorqin namoyon bo‘lish shakllaridan biri sanaladi. O‘zbek lingvomadaniyatida alqov tushunchasi ostida biz olqish, duo va tilak birliklarini yaxlit makrotizim sifatida birlashtiramiz. Ushbu uchlik yagona illokutiv maqsad - tinglovchiga ezgulik tilash bilan bog‘langan bo‘lsa-da, ularning har biri o‘ziga xos pragmatik, uslubiy va lingvokulturologik xususiyatlarga ega.

Nutqiy aktlar nazariyasi doirasida alqovlar xulq-atvoriy (J. Ostin tasnifiga ko‘ra “behabitive”) yoki ifodaviy (J. Serl tasnifiga ko‘ra “expressive”) aktlar sirasiga kiritiladi. J. Ostin nutqning ijtimoiy xulq-atvor bilan bog‘liq shakllarini alohida guruhga ajratar ekan, tabrik, minnatdorchilik va xayrixohlik ifodalarini shu qatorga qo‘shadi [5. 1962:B.83]. J. Serl esa so‘zlovchining ruhiy holatini ifodalovchi aktlarni ekspressivlar deb nomlaydi [8. 1969:B.67]. Biroq alqov birliklari sof ekspressivlikdan tashqari, adresatning kelajagiga ta’sir etish niyatini ham o‘z ichiga olishi bilan ajralib turadi: olqish va duoda so‘zning magik kuchiga ishonch, ya’ni verbal harakat orqali voqelikni o‘zgartirish mumkinligi haqidagi arxaik tasavvur saqlanib qolgan.

O‘zbek folklorshunosligida olqish janri maxsus tadqiq etilgan bo‘lib, uning qarg‘ish bilan binar oppozitsiya hosil qilishi, marosim folklori bilan uzviy bog‘liqligi ko‘rsatib berilgan [2. 1994: B.12]. Ammo olqish, duo va tilakning yaxlit alqov makrotizimi sifatida, qiyosiy lingvokulturologiya nuqtai nazaridan o‘rganilishi hozirgi o‘zbek tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bizning kuzatishlarimizga ko‘ra, uchlik a’zolari quyidagicha farqlanadi: olqish - folklor an’anasiga tayanuvchi, ko‘pincha ritmik-sintaktik qoliplarga ega arxaik birlik (umringdan baraka top, ilohim baxting ochilsin); duo - diniy-ma’naviy komponent ustuvor bo‘lgan, Yaratganga murojaat ma’nosi saqlangan birlik (Alloh o‘z panohida asrasin); tilak - dunyoviylashgan, zamonaviy muloqotda faol qo‘llanuvchi neytral birlik (omad tilayman, ishlaringizga rivoj). Ingliz tilida “God bless you”, “bless your heart”, “best wishes”, “good luck”, “congratulations” kabi ifodalar alqov funksiyasini bajaradi. Biroq ularning aksariyati diniy-magik komponentini yo‘qotib, etiket formulasiga aylangan. Masalan, aksa urgan kishiga aytiladigan “bless you” iborasi hozirgi ingliz nutqida avtomatlashgan reaksiya bo‘lib, so‘zlovchi uning dastlabki diniy mazmunini deyarli anglamaydi.

A. Vejbitskaya ta’kidlaganidek, har bir madaniyatning kommunikativ ssenariylarini universal semantik metatil vositasida tavsiflash madaniyatlararo farqlarni obyektiv aniqlash imkonini beradi [9. 1991: B.25]. Ushbu yondashuvni alqov birliklariga tatbiq etsak, o‘zbek olqishlarining semantik strukturasida “men senga yaxshilik bo‘lishini xohlayman + men buni Yaratgandan so‘rayman + so‘zim ijobat bo‘lishiga ishonaman” komponentlari mavjudligi, ingliz muqobillarida esa uchinchi komponent - so‘zning ijobat kuchiga ishonch - ko‘p hollarda so‘nganligi ma’lum bo‘ladi.

Lakunarlik nazariyasi nuqtai nazaridan alqov birliklarini uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh - to‘liq yoki qisman ekvivalentlikka ega birliklar: yo‘l bo‘lsin ma’nosidagi safar oldi tilaklari (oq yo‘l - have a safe trip, bon voyage), tug‘ilgan kun tabriklari (tug‘ilgan kuning muborak - happy birthday) kabi universal kommunikativ vaziyatlarga xos alqovlar. Ikkinchi guruh - qisman lakunar birliklar: ularning denotativ mazmuni tarjima qilinsa-da, konnotativ-madaniy yuklamasi yo‘qoladi. Masalan, qo‘ling dard ko‘rmasin olqishi taomdan so‘ng aytilib, mehnat va muruvvatni ulug‘lash ma’nosi bilan boyitilgan; uning inglizcha muqobili thank you, it was delicious faqat minnatdorchilikni ifodalaydi, xolos. Uchinchi guruh - mutlaq lakunalar: baraka, rizq, qut, oq kabi madaniy kodlar asosiga qurilgan alqovlar (barakasini bersin, rizqing ulug‘ bo‘lsin, oq fotiha, qutlug‘ bo‘lsin). Bu birliklar ingliz lingvomadaniyatida na leksik, na konseptual muqobilga ega.

Baraka konsepti alohida e’tiborga molik. U moddiy va ma’naviy ne’matning ilohiy manbadan kelib, miqdoran emas, sifatan ko‘payishini anglatadi. Barakali ro‘zg‘or - bu boy ro‘zg‘or emas, balki ozida qanoat, farovonlik va xotirjamlik mavjud ro‘zg‘ordir. Ingliz tilidagi abundance, prosperity, blessing leksemalari bu mazmunni faqat qisman qoplaydi, chunki ularda “ilohiy manba + sifat ustuvorligi + qanoat” semalari yaxlit holda mavjud emas. Shu bois barakasini bersin alqovi tarjimada muqarrar ravishda semantik yo‘qotishga uchraydi. Xuddi shunday, rizq konsepti “har bir jonzotga azaldan belgilab qo‘yilgan nasiba” ma’nosini tashiydi va uning zamirida taqdir falsafasi yotadi - bu mazmun ingliz lingvomadaniyati uchun konseptual lakuna hisoblanadi.

Alqovlarning badiiy matndagi voqelanishi ham qiyosiy tahlil uchun boy material beradi. O‘tkir Hoshimov asarlarida ona tilidan chiqqan olqishlar personaj nutqining eng ta’sirchan unsuri sifatida namoyon bo‘ladi: ularda oq sifatlovchisi (oq yuvib, oq tarasin; oq sut bergan ona) poklik, halollik va rozilik kodlarini birlashtiradi. Bunday birliklarni ingliz tiliga o‘girishda tarjimon yo tavsifiy tarjimaga, yo funksional almashtirishga murojaat qilishga majbur bo‘ladi, natijada matnning milliy-madaniy bo‘yog‘i xiralashadi. Bu holat V. Maslova ta’kidlagan qoidani tasdiqlaydi: til birliklarining madaniy semantikasi ayni shu madaniyat sohiblari uchun tabiiy, boshqa madaniyat vakillari uchun esa maxsus sharhtalab bo‘ladi [3. 2001: B.35].

Alqov birliklarining pragmatik jihati xushmuomalalik nazariyasi bilan ham chambarchas bog‘liq. P. Braun va S. Levinson konsepsiyasiga ko‘ra, adresatning ijobiy yuzini qo‘llab-quvvatlovchi strategiyalar sirasiga xayrixohlik ifodalari ham kiradi [6. 1987: B.101]. O‘zbek muloqot madaniyatida alqovlar ana shunday ijobiy xushmuomalalik strategiyasining markaziy vositasi bo‘lib, ularning qo‘llanish chastotasi ingliz muloqotidagidan sezilarli yuqori. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek nutqida alqov kundalik muloqotning deyarli barcha vaziyatlarida - savdo-sotiqda, mehmondorchilikda, xayrlashuvda, hatto begonalar bilan muloqotda ham faol ishlatiladi. Ingliz muloqotida esa xayrixohlik ko‘proq konvensional etiket formulalari orqali, hissiy-ekspressiv bo‘yoqsiz ifodalanadi. Ushbu tafovut ikki lingvomadaniyatning kollektivistik va individualistik xarakteri bilan izohlanadi [4. 2008: B.212].

Alqov birliklarining situativ tasnifi ham lakunarlik darajasini aniqlashda muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi. To‘y marosimi bilan bog‘liq alqovlar (qo‘sha qaringlar, baxtli bo‘linglar, to‘ylar muborak) o‘zbek lingvomadaniyatida boy sinonimik qatorni tashkil etsa, ingliz tilida bu vaziyat asosan congratulations va wishing you a lifetime of happiness kabi cheklangan formulalar bilan qoplanadi. Qo‘sha qaringlar alqovi zamiridagi “umr yo‘ldoshi bilan birga qarish - oliy baxt” konsepti ingliz muqobillarida verballashmagan. Motam vaziyatidagi alqovlar qiyosida ham chuqur tafovut kuzatiladi: o‘zbek tilida marhumga qarata (joylari jannatda bo‘lsin, nurda yotsin) va musibat egalariga qarata (bardam bo‘ling, oxiri baxayr bo‘lsin) aytiladigan birliklar farqlansa, ingliz muloqotida asosiy urg‘u hamdardlik ifodasiga (my condolences, sorry for your loss) tushadi, ya’ni illokutiv maqsadning o‘zi boshqacha taqsimlangan. Farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq alqovlarda esa (ilohim uzoq umr bersin, katta bo‘lsin, oq yuvib, oq tarasin) umr madaniy kodi markaziy o‘rin tutadi.

G‘afur G‘ulom nasrida alqov va uning binar oppozitsiyasi bo‘lgan qarg‘ish birliklari xalq nutqining jonli manzarasini yaratish vositasi sifatida qo‘llanadi. “Shum bola” qissasidagi personajlar nutqida olqishlar ijtimoiy munosabatlar ko‘rsatkichi - yosh, mavqe va samimiyat darajasining markeri vazifasini bajaradi.

Bunday matnlarni qiyosiy tahlil manbai sifatida tanlash tasodifiy emas: badiiy diskurs alqovlarning tabiiy pragmatik muhitini, ya’ni real muloqot vaziyatiga maksimal yaqin kontekstni taqdim etadi. Lingvokulturologik tahlilda V. Karasik taklif etgan qadriyat, tushuncha va obraz komponentlarini yaxlit o‘rganish tamoyili [1. 2002: B.118] alqov konseptlarining ichki tuzilishini ochishga xizmat qiladi: masalan, qut konsepti obraz komponentida “uy-ro‘zg‘orga kirib keluvchi ne’mat”, tushuncha komponentida “baxt-saodat, davlat”, qadriyat komponentida esa “ilohiy marhamatning moddiy timsoli” sifatida gavdalanadi. Biz avvalgi tadqiqotimizda duo, istak va tilaklarning kontekstual qo‘llanilishi hamda diskursiv xususiyatlarini tahlil etib, ularning muloqot vaziyatiga bog‘liq ravishda semantik-pragmatik modifikatsiyaga uchrashini ko‘rsatgan edik [7. 2025: B.312]. Mazkur tezisda ilgari surilayotgan lakunarlik tasnifi o‘sha kuzatishlarning mantiqiy davomi bo‘lib, alqov makrotizimini qiyosiy aspektda yaxlit tavsiflash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatlarida alqov birliklari asimmetrik munosabatda bo‘lib, bu asimmetriya uch omil bilan belgilanadi: birinchidan, o‘zbek alqovlarida diniy-magik komponentning faol saqlanganligi va ingliz muqobillarida uning desemantizatsiyasi; ikkinchidan, baraka, rizq, qut, oq kabi madaniy kodlarning ingliz konseptosferasida mutlaq lakuna ekanligi; uchinchidan, ikki muloqot madaniyatida xushmuomalalik strategiyalarining turlicha taqsimlanganligi. Alqov birliklarining lakunar xususiyatlarini aniqlash nafaqat qiyosiy tilshunoslik, balki tarjimashunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va lingvodidaktika uchun ham muhim nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.

2. Қучқоров Т. Ўзбек фольклорида олқиш ва қарғишлар: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 25 б.

3. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.

4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 300 б.

5. Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – 166 p.

6. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.

7. Ilxamovna Q. N. Duo, istak va tilaklarning kontextual qo‘llanilishi va diskursiv xususiyatlari //Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar. – 2025. – T. 1. – №. 7. – C. 238-240.

8. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.

9. Wierzbicka A. Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. – Berlin: Mouton de Gruyter, 1991. – 502 p.

KONNOTATIV MA’NONING IKKI TILDA SAQLANISHI: CHOG‘ISHTIRMA-SEMANTIK TAHLIL (BADIIY TASVIR VOSITALARI MISOLIDA)

Radjapova Intizor Egamberganovna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch
Email: radjapovaintizor70389@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21884893

Annotatsiya. Ushbu tezisda badiiy tasvir vositalaridagi konnotativ ma’noning o‘zbek va ingliz tillarida saqlanishi masalasi chog‘ishtirma-semantik jihatdan tahlil qilinadi. Konnotatsiyaning emotsional, baholovchi, ekspressiv va uslubiy-funksional komponentlari metafora, epitet, o‘xshatish va frazeologik birliklar misolida qiyoslanadi. Tadqiqotda universal va milliy-madaniy hususiyatidagi konnotatsiya turlari ajratilib, ularning tarjimada saqlanish yoki transformatsiyaga uchrash sabablari izohlanadi.

Kalit so‘zlar: konnotativ ma’no, badiiy tasvir vositalari, chog‘ishtirma-semantik tahlil, metafora, epitet, frazeologik birlik, milliy-madaniy konnotatsiya, tarjima.

Аннотация. В данном тезисе в сравнительно-семантическом аспекте анализируется вопрос сохранения коннотативного значения художественных изобразительных средств в узбекском и английском языках. Эмоциональный, оценочный, экспрессивный и стилистико-функциональный компоненты коннотации сопоставляются на материале метафоры, эпитета, сравнения и фразеологических единиц. В исследовании выделяются универсальный и национально-культурный типы коннотации, объясняются причины их сохранения или трансформации при переводе.

Ключевые слова: коннотативное значение, художественные изобразительные средства, сравнительно-семантический анализ, метафора, эпитет, фразеологическая единица, национально-культурная коннотация, перевод.

Annotation. This thesis presents a comparative-semantic analysis of how connotative meaning in artistic imagery devices is preserved in the Uzbek and English languages. The emotional, evaluative, expressive, and stylistic-functional components of connotation are compared using metaphors, epithets, similes, and phraseological units as examples. The study distinguishes between universal and nationally-culturally specific types of connotation, explaining the reasons behind their preservation or transformation in translation.

Key words: connotative meaning, artistic imagery devices, comparative-semantic analysis, metaphor, epithet, phraseological unit, national-cultural connotation, translation.

Til birligining lug‘aviy ma’nosi ikki asosiy qatlamdan - denotativ va konnotativ ma’nodan tashkil topadi. Denotativ ma’no obyektiv borliqdagi predmet yoki hodisani bevosita nomlasa, konnotativ ma’no so‘zning emotsional-baholovchi, ekspressiv va uslubiy “qo‘shimcha ma’no qatlami”ni tashkil etadi. Badiiy tasvir vositalari: metafora, epitet, o‘xshatish, frazeologik birliklar aynan shu konnotativ qatlamning eng zich ifodalanish maydoni hisoblanadi, shu sababli ularning tarjimada saqlanishi yoki yo‘qotilishi til tizimlari o‘rtasidagi chog‘ishtirma-semantik farqlarni yorqin namoyon etadi.

Mazkur tezisning maqsadi - o‘zbek va ingliz tillari misolida badiiy tasvir vositalaridagi konnotativ ma’noning struktur-semantik tabiatini qiyosiy tahlil qilish hamda uning tarjima jarayonida saqlanish yoki transformatsiyaga uchrash sabablarini chog‘ishtirma tilshunoslik nuqtai nazaridan izohlashdan iborat.

Konnotatsiyaning tarkibiy qismlari. Zamonaviy semantikada konnotativ ma’no odatda to‘rt tarkibiy qismga ajratiladi: emotsional (his-tuyg‘u ifodasi), baholovchi (ijobiy/salbiy baho), ekspressiv (ta’kid, kuchaytirish) va funksional-uslubiy (nutq uslubiga bog‘liqlik) komponentlar. Bu komponentlarning har biri ikki tilda turlicha “zichlik” bilan namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilidagi “sher yurak” birikmasi shaxsning botirligini ifodalab, kuchli ijobiy baholovchi konnotatsiyaga ega. Ingliz tilidagi funksional ekvivalenti “lion-hearted” ham xuddi shunday ijobiy baho konnotatsiyasini saqlaydi, chunki “sher” obrazi ikki madaniyatda ham kuch-qudrat ramzi sifatida umumiy xarakterga ega.

Milliy-madaniy konnotatsiya va uning tarjimada yo‘qolishi. Biroq har ikki til uchun ham xos bo‘lmagan, faqat bitta lingvomadaniyatga tegishli obrazlar konnotativ ma’noning tarjimada qisman yoki to‘liq yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida “tulki” obrazi “ayyorlik” konnotatsiyasini ingliz tilidagi “fox” bilan umumiy holda saqlasa-da, o‘zbek xalq og‘zaki ijodida “tulki” bilan bog‘liq qo‘shimcha frazeologik-konnotativ ma’nolar (masalan, “tulki bo‘lib qolmoq”) ingliz tiliga so‘zma-so‘z tarjima

qilinganda tushunarsiz bo‘lib qoladi, chunki bu ma’no ingliz lingvomadaniyatida frazeologik jihatdan mustahkamlanmagan. Bu holat lakunarlik hodisasi deb ataladi va u konnotativ ma’noning tarjimada transformatsiyaga uchrashining asosiy sabablaridan biridir.

Ekspressiv-baholovchi konnotatsiyaning struktur ifodalanishi. Epitetlar misolida qaraladigan bo‘lsa, o‘zbek tilidagi “gulday qiz” birikmasi ijobiy estetik baho konnotatsiyasini bildirib, ingliz tilida “flower-like girl” yoki ko‘proq “as fair as a flower” tarzida beriladi. Bu yerda struktur farq shundaki, o‘zbek tili qiyoslashni sifatdosh yasovchi “-day/-dek” qo‘shimchasi orqali sintetik yo‘l bilan ifodalasa, ingliz tili buni analitik konstruksiya (“as... as”) yordamida amalga oshiradi. Konnotativ ma’noning o‘zi - ijobiy baho, estetik xarakter saqlanadi, biroq uning grammatik ifodalanish shakli tubdan farqlanadi, bu esa tarjimada uslubiy ekvivalentlikka erishishni murakkablashtiradi. Bizning oldingi tadqiqotimizda ham metafora va epitetning o‘zbek va ingliz tillaridagi funksional-semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilingan bo‘lib, unda bu ikki tasvir vositasining semantik yuki til tizimidagi struktur farqlarga qaramay funksional jihatdan katta darajada mos kelishi asoslab berilgan edi [7]. Mazkur tezisda bu xulosalar konnotativ semantika nuqtai nazaridan yanada rivojlantiriladi.

Konnotativ ma’noni saqlash usullari. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, konnotativ ma’noning tarjimada saqlanishi uchun quyidagi usullar samarali hisoblanadi: 1) funksional ekvivalent qidirish, manba tildagi obrazni to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki maqsad tilda xuddi shunday konnotativ vazifani bajaruvchi boshqa obraz bilan almashtirish; 2) kompensatsiya, bir o‘rinda yo‘qolgan konnotativ bo‘yoqni matnning boshqa qismida qoplash; 3) izohli tarjima, milliy-madaniy konnotatsiyaga ega birliklarni qisqa izoh bilan berish. Bu usullarning tanlanishi konnotatsiyaning turiga (umumiy yoki milliy-xos) bevosita bog‘liq.

O‘xshatishlardagi konnotativ assimetriya. O‘xshatish konstruksiyalari ham konnotativ ma'noning yorqin namoyon bo‘lish maydoni hisoblanadi. O‘zbek tilida “bo‘ridek och” birikmasi nafaqat fizik ochlik holatini, balki qo‘shimcha ravishda tajovuzkorlik, shafqatsizlik konnotatsiyasini ham o‘zida mujassam etadi. Ingliz tilidagi “as hungry as a wolf” iborasi asosiy fizik ochlik ma’noni saqlasa-da, undagi tajovuzkorlik konnotatsiyasi o‘zbek tilidagidek kuchli emas, chunki ingliz lingvomadaniyatida “bo‘ri” obrazi bilan bog‘liq assotsiativ maydon birmuncha torroq. Bunday konnotativ assimetriya hodisasi tarjimon oldida qiyin tanlov muammosini keltirib chiqaradi: yoki denotativ ma’noni asosiy vazifa deb hisoblab so‘zma-so‘z tarjima qilish, yoki konnotativ to‘liqlikni saqlash uchun matnga qo‘shimcha leksik vositalar (masalan, kuchaytiruvchi sifatlar) kiritish.

Uslubiy-funksional konnotatsiya masalasi. Konnotatsiyaning yana bir muhim qismi - uslubiy-funksional komponent, ya’ni so‘z yoki iboraning ma’lum nutq uslubiga (so‘zlashuv, kitobiy, sheva, arxaik va h.k.) bog‘liqligi. Badiiy matnda muallif qahramon nutqini individuallashtirish uchun ko‘pincha sheva yoki so‘zlashuv uslubiga xos birliklardan foydalanadi, bu esa qo‘shimcha uslubiy-ekspressiv konnotatsiya yaratadi. Bunday birliklarni boshqa tilga o‘girishda ularning uslubiy “belgisi” (masalan, oddiy xalq nutqiga xosligi) saqlanishi zarur, aks holda tarjima matni asliyat tildagi ijtimoiy-uslubiy tabaqalanishni yo‘qotadi. Bu - konnotativ ma’noning yana bir, ko‘pincha e’tibordan chetda qoladigan qatlami bo‘lib, kelgusi tadqiqotlarda alohida chuqur o‘rganishni talab qiladi.

Metaforik konnotatsiyaning qiyosiy jihati. Metafora - konnotativ ma’noning eng yuqori zichlikda to‘plangan tasvir vositalaridan biri. O‘zbek tilida”ko‘ngli tog‘” (sabr-toqatli, matonatli kishi haqida) birikmasi kuchli ijobiy-baholovchi konnotatsiyaga ega bo‘lib, bunda “tog‘” obrazi mustahkamlik, ulug‘vorlik assotsiatsiyasini yuzaga keltiradi. Ingliz tilida bu obrazga zohiran yaqin “a heart of stone” iborasi mavjud bo‘lsa-da, uning ma’nosi aksincha - his-tuyg‘usizlik, qattiqqo‘llikni ifodalaydi. Demak, bir xil tabiat obrazi (tog‘/tosh - mustahkam jism) ikki tilda qarama-qarshi konnotativ yo‘nalishga ega bo‘lishi mumkin. Bu holat konnotativ ma’noning til tashqi voqelik bilan emas, balki har bir lingvomadaniyatning ichki assotsiativ tizimi bilan bog‘liqligini yana bir bor tasdiqlaydi va tarjimonlarga so‘zma-so‘z (kalka) tarjimadan ehtiyot bo‘lish zarurligini ko‘rsatadi.

Frazeologik birliklardagi konnotativ ma’no. Frazeologizmlar konnotativ ma’noning eng barqaror shakllaridan biri bo‘lib, ular tarkibidagi konnotatsiya asrlar davomida xalq tafakkuri orqali shakllangan. O‘zbek tilidagi “iti egasini tanimaydi” kabi ibora kuchli salbiy baho konnotatsiyasini ifodalasa, ingliz tilida funksional ekvivalent sifatida “to bite the hand that feeds you” iborasi keladi. Ikki ibora turli obrazlarga (it/qo‘l) asoslangan bo‘lsa-da, konnotativ ma’no - minnatdorchilikni unutish, nonko‘rlik - to‘liq mos keladi. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, konnotativ ekvivalentlikka erishish uchun ba'zan obrazni to‘liq almashtirish zarur bo‘ladi, ammo konnotativ-funksional ma’no saqlanishi shart.

Xulosa. O‘tkazilgan chog‘ishtirma-semantik tahlil shuni ko‘rsatdiki, badiiy tasvir vositalaridagi konnotativ ma’no ikki turga bo‘linadi: umumiy xarakterdagi konnotatsiya (ikki tilda ham nisbatan bir xil

saqlanadi) va milliy-madaniy xarakterdagi konnotatsiya (tarjimada transformatsiyaga yoki qisman yo‘qolishga uchraydi). Ushbu farqlanish chog‘ishtirma tilshunoslik uchun konnotativ semantikani tipologik jihatdan tasniflashning yangi mezonini taklif etadi va amaliy tarjimashunoslikda konnotativ ekvivalentlikka erishish usullarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – М.: Наука, 1986. – 143 с.
2. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990. – 253 с.
3. Маҳмудов Н. Тил ва таффакур кўринишлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – 320 б.
4. Виноградов В.С. Введение в переводоведение. – М.: ИОСО РАО, 2001. – 224 с.
5. Абдуазизов А.А. Тилшунослик назариясига кириш. – Тошкент: Шарқ, 2010. – 176 б.
6. Newmark P. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988. – 292 p.
7. Egamberganovna R.I. Metafora va epitetning o‘zbek va ingliz tillarida funksional-semantik xususiyatlari // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar. – 2025. – T. 1. – №. 7. – S. 241-242.

KOGNITIV GRAMMATIKA KOGNITIV TILSHUNOSLIKNING BO‘LIMI SIFATIDA

Qurbonova Kamola Abdurahmonovna
Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti 2-kurs talabasi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21886047

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kognitiv grammatikaning shakllanishi, nazariy asoslari va zamonaviy kognitiv tilshunoslikdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda kognitiv grammatikaning asosiy tamoyillari, jumladan, ramziy birlik, qo‘llanishga asoslangan yondashuv, grammatik birliklarning ma’noviy tabiati hamda leksika-grammatika uzluksizligi yoritilgan. Tadqiqot natijalari kognitiv grammatikaning grammatik hodisalarni inson tafakkuri, konseptual tizimi va nutqiy tajribasi bilan uzviy bog‘liq holda izohlashini hamda uning zamonaviy tilshunoslikdagi nazariy va amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.*
Kalit so‘zlar: *kognitiv tilshunoslik, kognitiv grammatika, ramziy birlik tamoyili,* qo‘llanishga asoslangan yondashuv, grammatikalashuv nazariyasi, konseptual strukturalash *konseptual metafora, kategoriyalashtirish, domenlar nazariyasi, obraz-sxema, konseptual tizim, ensiklopedik ma’no, ideallashtirilgan kognitiv model.*
Annotation: *This article examines the formation, theoretical foundations, and role of Cognitive Grammar in contemporary cognitive linguistics. The study discusses the fundamental principles of Cognitive Grammar, including the symbolic thesis, the usage-based approach, the semantic nature of grammatical units, and the lexicon–grammar continuum. The findings demonstrate that Cognitive Grammar explains grammatical phenomena through their close relationship with human cognition, conceptual systems, and language use, highlighting its theoretical and practical significance in modern linguistic research.*
Key words: *cognitive linguistics, cognitive semantics, conceptual metaphor, categorization, domain theory, image schema, conceptual system, encyclopedic meaning, idealized cognitive model.*
Аннотация: *В данной статье анализируются становление, теоретические основы и место когнитивной грамматики в современной когнитивной лингвистике. В исследовании рассматриваются основные принципы когнитивной грамматики, включая принцип символической единицы, подход, основанный на употреблении языка (usage-based approach), семантическую природу грамматических единиц, а также континуум «лексика – грамматика». Результаты исследования показывают, что когнитивная грамматика объясняет грамматические явления в их тесной взаимосвязи с человеческим мышлением, концептуальной системой и речевой практикой, что определяет её теоретическую и практическую значимость в современной лингвистике.*
Ключевые слова: *когнитивная лингвистика, когнитивная семантика, концептуальная метафора, категоризация, теория доменов, образ-схема, концептуальная система, энциклопедическое значение, идеализированная когнитивная модель.*

Kognitiv tilshunoslik fani insonning bilish jarayonida tilning ahamiyatini o‘rganadi. Kognitiv tilshunoslik markazida tushuncha turadi, ya’ni fonetik, leksik, grammatik jihatdan shakllangan til va uning qoidalari orqali inson ongida tushuncha paydo bo‘ladi. Turli qoliplarga solingan belgilar tizimi ongda saralanib, ideallashadi. Tushunchalar birlashib, yangi ma’lumot haqida tasavvur hosil bo‘ladi. Til psixologik, kommunikativ va madaniy omillarning o‘zaro ta’sirini aks ettiradi, ya’ni til va uning tuzilishi ong qanday ishlashini ko‘rsatadi. Tilning kognitiv vazifasi esa inson ongida ma’nolarni tartibga solish va saqlash usullarini tushunishni o‘z ichiga oladi. Bu jihatlarni o‘rganishda kognitiv tilshunoslik juda muhim. Bu fanning vazifasi insonning qanday bilim turlariga ega ekanligini, ular qanday shakllarda saqlanishi va qanday qo‘llanishini o‘rganishdir. Ushbu fan til va ongning o‘zaro munosabatiga turlicha yondashuv asosida qaraydi. Shu nuqtayi nazardan kognitiv tilshunoslik uchta asosiy bo‘limga bo‘linadi:

– kognitiv fonologiya;
– kognitiv semantika;
– kognitiv grammatika.

Ushbu bo‘limlar tilni qoidalar tizimi sifatida emas, inson tafakkuri va kognitiv jarayonlar bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Ularning har biri alohida xususiyatlarga ega. Bu bo‘limlar ichida kognitiv grammatika bo‘limi alohida ajralib turadi. Kognitiv grammatika kognitiv tilshunoslikning bir qismi bo‘lib, tilni grammatik qoidalar va tuzilishlar bilan birga insonning idroki, fikrlashi va his-tuyg‘ulari bilan bog‘liq

holda o‘rganadi. Kognitiv grammatikada tilni o‘rganish faqat sintaksis yoki morfologiyaga asoslanmaydi, balki ularning ma’noviy jihatlariga ham e’tibor qaratiladi, ya’ni grammatik tuzilmalar inson tajribasi, idroki va madaniyati bilan birgalikda tahlil qilinadi. Masalan, inson o‘z ongida grammatik qoidalarni shakllantirib, so‘z va so‘z birikmalarini tizimlashtiradi va ulardan ma’no hosil qiladi. Agar gap tarkibidagi tartib o‘zgarsa, anglashiladigan ma’no ham o‘zgaradi[Qurbonova, 2026 : B. 17]. Kognitiv grammatika grammatikani insonning umumiy bilish tizimi bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvda grammatika mustaqil, formal qoidalar majmuyi emas, balki insonning dunyoni idrok etishi, tajribasi va konseptual bilimlarini ifodalovchi tizim sifatida qaraladi. Shu sababli kognitiv grammatika til birliklarining shakliy tuzilishidan ko‘ra ularning mazmunni hosil qilishdagi kognitiv funksiyalariga alohida e’tibor qaratadi. Kognitiv grammatika yagona nazariy modeldan iborat emas, balki turli ilmiy yondashuvlarni o‘zida birlashtiruvchi konseptual yo‘nalish hisoblanadi. Mazkur yo‘nalish doirasida ayrim tadqiqotchilar grammatik kategoriyalarning kognitiv asoslarini va ularning inson tafakkuridagi mexanizmlarini o‘rganishga e’tibor bersa, boshqalari grammatik konstruksiyalarni tilning asosiy birliklari sifatida tavsiflaydi. Yana bir guruh olimlar esa grammatik shakllarning tarixiy taraqqiyoti va grammatikalashuv jarayonlarini tahlil qilib, leksik birliklarning asta-sekin grammatik vositalarga aylanish mexanizmlarini izohlaydi. Leksika kabi grammatika ham konseptual mazmunni tuzilmaga solish va uni ramziy shaklda ifodalash vazifasini bajaradi. Shu bois grammatika ham obrazli xususiyatga ega. Muayyan grammatik konstruksiya yoki grammatik morfemadan foydalanganimizda, kommunikativ maqsadga muvofiq ravishda tasvirlanayotgan vaziyatni ma'lum bir nuqtai nazardan konseptuallashtiruvchi obrazni tanlaymiz[Langacker, 1986 : B. 15].

Kognitiv grammatikaning asosiy nazariy tamoyillaridan biri ramziy birlik tamoyili hisoblanadi[Ungerer&Schmid, 1996 : B. 476]. Ushbu tamoyilga ko‘ra tilning har qanday grammatik birligi shakl va ma’noning ajralmas birligidan tashkil topadi. Demak, grammatik birliklar faqat formal tuzilma emas, balki muayyan konseptual mazmunni ham ifodalaydi. Shu sababli kognitiv tilshunoslikda grammatikani ma’nodan mustaqil holda o‘rganish mumkin emas. Ramziy birlik ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat: semantik qutb va fonologik qutb. Semantik qutb til birligi orqali ifodalanadigan konseptual mazmunni anglatsa, fonologik qutb ushbu mazmunning tovush, yozuv yoki ishora vositasidagi ifodasini bildiradi. Mazkur ikki komponent inson ongidagi til bilimlari tizimida o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, ulardan biri ikkinchisiz mavjud bo‘la olmaydi. Shuning uchun til birliklari faqat tovushlar ketma-ketligi sifatida emas, balki ma’no tashuvchi konseptual strukturalar sifatida talqin qilinadi. Kognitiv grammatikaning bu yondashuvi klassik struktural tilshunoslikdagi ramz haqidagi qarashlar bilan ma’lum darajada uyg‘unlashadi. Biroq kognitiv model ramziy birliklarni insonning konseptual tizimi va bilish jarayonlari bilan yanada chuqurroq bog‘laydi. Til birliklariga inson ongida saqlanadigan va nutq jarayonida faollashadigan bilimlar tizimining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Mazkur tamoyil grammatik konstruksiyalarni ham mustaqil ma’no egasi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Masalan, bir xil voqelikni ifodalovchi aniq va majhul nisbatdagi gaplar mazmun jihatidan o‘xshash bo‘lsa-da, ularning konseptual yo‘nalishi farqlanadi. Aniq nisbat konstruksiyasi harakatni bajaruvchisiga e’tibor qaratsa, majhul nisbat konstruksiyasi harakat ta’siriga uchragan obyektni markazga olib chiqadi. Demak, grammatik shaklning tanlanishi axborotning qanday konseptuallashtirilishi va tinglovchiga qanday nuqtayi nazardan taqdim etilishi bilan bevosita bog‘liq. Shu tariqa kognitiv grammatika leksik birliklar va grammatik konstruksiyalar o‘rtasida qat’iy chegara mavjud emasligini ta’kidlaydi. Har ikkisi ham shakl va ma’noning uyg‘unlashgan ramziy birliklari bo‘lib, ular faqat ma’noning umumlashganlik darajasi bilan farqlanadi. Leksik birliklar nisbatan aniq konseptual mazmunni ifodalasa, grammatik konstruksiyalar umumlashgan va sxematik ma’nolarni aks ettiradi. Aynan shu yondashuv kognitiv grammatikaning leksika va grammatika uzluksizligi haqidagi muhim nazariy g‘oyasini tashkil etadi. Qolaversa, grammatika murakkab konseptualizatsiyalarni shakllantirish va ularni ramziy ifodalash vositasidir, biroq uni ushbu konseptualizatsiyalarning o‘zi bilan aynan tenglashtirib bo‘lmaydi. Tarkibiy tuzilma ham o‘ziga xos tayanch konstruksiya bo‘lib, u bizga murakkab semantik tuzilmaga erishish imkonini beradi[Langacker, 2001 : B. 184].

Kognitiv grammatikaning yana bir muhim nazariy tamoyili qo‘llanishga asoslangan yondashuv hisoblanadi[Ungerer&Schmid, 1996 : B. 478]. Ushbu yondashuvga ko‘ra insonning grammatik bilimlari tug‘ma va o‘zgarmas tizim sifatida emas, balki tilning real kommunikativ vaziyatlarda muntazam qo‘llanilishi natijasida shakllanadi. Boshqacha aytganda, til haqidagi bilim nutq faoliyati davomida to‘plangan tajribalarni umumlashtirish va takroriy til birliklarini ongda mustahkamlash orqali hosil bo‘ladi. Mazkur tamoyilga ko‘ra tilni bilish va undan foydalanish jarayonlari bir-biridan ajratilmaydi. Til birliklari

qanchalik ko‘p va turli kommunikativ vaziyatlarda qo‘llansa, ular shunchalik barqaror kognitiv tuzilmalarga aylanadi. Shunga ko‘ra grammatik bilimlar amaliy nutq tajribasidan kelib chiqadi va keyingi nutq faoliyatini boshqaruvchi bilimlar bazasini shakllantiradi. Shu sababli kognitiv grammatika til kompetensiyasi va nutq faoliyatini qarama-qarshi hodisalar sifatida emas, balki o‘zaro ta’sir qiluvchi yagona jarayon sifatida talqin qiladi. Kognitiv modelda har bir nutqiy voqea shakl va ma’noning birgalikdagi namoyon bo‘lishi sifatida qaraladi. Nutq jarayonida so‘zlovchi bir tomondan konseptual mazmunni shakllantirsa, ikkinchi tomondan uni tovush, yozuv yoki boshqa kommunikativ vositalar orqali ifodalaydi. Natijada til birliklarining semantik va fonologik tomonlari bir vaqtning o‘zida faollashadi hamda ular o‘rtasidagi bog‘liqlik inson ongida mustahkamlanib boradi. Qo‘llanishga asoslangan yondashuv grammatik bilimlarning dinamik tabiatini ham e’tirof etadi, ya’ni til tizimi doimiy ravishda yangi nutqiy tajribalar ta’sirida boyib, takomillashib boradi. Muntazam qo‘llaniladigan konstruksiyalar va til birliklari asta-sekin an’anaviylashadi hamda tilning barqaror grammatik elementlariga aylanadi. Shu tariqa tilni qo‘llash grammatik bilimlarning shakllanishiga xizmat qilsa, mavjud grammatik bilimlar esa keyingi nutq jarayonining samarali amalga oshishini ta’minlaydi. Aynan ana shu ikki tomonlama munosabat kognitiv grammatikaning qo‘llanishga asoslangan modelining asosiy mohiyatini tashkil etadi.

Shuningdek, kognitiv tilshunoslik doirasida grammatika yagona nazariy model asosida emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi bir nechta yondashuvlar orqali tadqiq etiladi. Ushbu yondashuvlarning barchasi tilning ramziy tabiati, grammatik birliklarning ma’noliligi hamda til va bilish jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligini e’tirof etadi. Shunga qaramay, ular grammatik hodisalarni izohlashda turli nazariy tamoyillar va tadqiqot obyektlariga tayanadi. Kognitiv grammatika rivojida muhim o‘rin tutuvchi yondashuvlardan biri Leonard Talmi tomonidan ishlab chiqilgan konseptual strukturalash tizimi modeli hisoblanadi. Ushbu modelga ko‘ra tilning leksik va grammatik birliklari til konseptual tizimining turli darajalarini aks ettiradi. Leksik birliklar voqelik haqidagi aniq va boy mazmunni ifodalasa, grammatik birliklar nisbatan umumlashgan, sxemaviy va strukturaviy ma’nolarni kodlaydi. Kognitiv grammatikaning eng mukammal nazariy modeli esa Ronald Langaker tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv grammatika hisoblanadi. Ushbu yondashuv grammatik birliklarning shakllanishi va qo‘llanilishini ta’minlovchi kognitiv mexanizmlarni izohlashga qaratilgan. Langaker grammatik va leksik birliklarni bir-biridan keskin ajratmaydi, aksincha ularni inson ongida saqlanadigan yagona ramziy birliklar tizimining tarkibiy qismlari sifatida izohlaydi. Shu bois uning nazariyasida grammatika insonning konseptual bilimlari, tajribasi va nutq faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan dinamik tizim sifatida qaraladi. Kognitiv grammatikaning yana bir muhim tadqiqot yo‘nalishi grammatikalashuv nazariyasidir[Ungerer&Schmid, 1996 : B. 482]. Ushbu yondashuv til taraqqiyoti jarayonida mustaqil leksik birliklarning bosqichma-bosqich grammatik vositalarga aylanish mexanizmlarini o‘rganadi. Grammatikalashuv nazariyasi grammatik kategoriyalarning tayyor va o‘zgarmas tizim emasligini, balki tilning tarixiy rivojlanishi hamda nutqiy amaliyot ta’sirida muntazam shakllanib borishini ko‘rsatadi. Umuman olganda, kognitiv grammatikaning barcha nazariy yo‘nalishlari grammatikani inson tafakkuri, konseptual tizimi va nutq tajribasi bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida talqin qiladi. Ular o‘rtasidagi asosiy farq grammatik birliklarning tuzilishi, ma’no hosil bo‘lish mexanizmlari hamda til tizimini tashkil etuvchi birliklarni izohlash usullarida namoyon bo‘ladi. Biroq mazkur yondashuvlarning barchasi grammatikani formal qoidalar tizimi emas, balki ma’no va bilish jarayonlariga asoslangan kognitiv tizim sifatida baholashi bilan o‘zaro mushtarakdir. Kognitiv yondashuv grammatikalashuvni faqat til shakllarining o‘zgarishi sifatida emas, balki inson tafakkuri, konseptualizatsiya va kommunikativ ehtiyojlarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan dinamik jarayon sifatida talqin qiladi. Mazkur nazariyaga ko‘ra til birliklari nutqda muntazam qo‘llanishi, ma’noning umumlashuvi hamda konseptual qayta talqin qilinishi natijasida yangi grammatik vazifalarni bajarishga moslashadi. Natijada avval mustaqil leksik ma’noga ega bo‘lgan birliklar vaqt o‘tishi bilan grammatik ko‘rsatkichlarga aylanishi mumkin. Kognitiv grammatikalashuvni izohlovchi bir necha nazariy modellar mavjud. Ulardan biri metaforik kengayish modeli bo‘lib, u grammatik ma’nolarning konseptual metafora asosida shakllanishini tushuntiradi. Ronald Langaker tomonidan ilgari surilgan subyektivlashuv modeli esa grammatik ma’nolarning shakllanishida so‘zlovchining nuqtayi nazari, baholashi va subyektiv munosabatining tobora kuchayib borishini asosiy omil sifatida ko‘rsatadi.

Qolaversa, kognitiv tilshunoslikda grammatika tushunchasi an’anaviy yondashuvlarga nisbatan ancha keng talqin qilinadi. Unga faqat so‘z yasalishi, morfologiya yoki gap tuzilishini ifodalovchi qoidalar majmuyi sifatida emas, balki inson ongida shakllangan va til birliklarining qo‘llanishini ta’minlaydigan konseptual bilimlar tizimi sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan grammatika tilning fonologik,

morfologik, sintaktik va semantik jihatlarini yagona kognitiv tizim doirasida birlashtiradi. Kognitiv grammatika nazariyasiga ko‘ra grammatik bilimlar insonning nutq tajribasi asosida shakllanadi va doimiy ravishda boyib boradi. Shuning uchun grammatika qat’iy formal qoidalar majmuyi emas, balki shakl va ma’noning o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan ramziy birliklar tizimi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, kognitiv grammatika til hodisalarini inson tafakkuri va konseptual bilimlari bilan uyg‘un holda izohlovchi zamonaviy lingvistik yo‘nalishlardan biridir. Ushbu tadqiqot kognitiv grammatikaning nazariy asoslarini tizimli yoritish va uning boshqa grammatik yondashuvlardan farqli jihatlarini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari kognitiv grammatikaning til birliklarini ma'no va qo‘llanish nuqtai nazaridan tahlil qilishda muhim metodologik asos ekanligini ko‘rsatadi. Kelgusida mazkur yondashuvni o‘zbek tili materiallari asosida chuqurroq tadqiq etish hamda uni amaliy tilshunoslik yo‘nalishlarida qo‘llash dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Evans V, Green M. Cognitive Linguistics (An Introduction) – Edinburgh: Edinburgh university press, 2006. – 830 p.
2. Langacker R. W. An introduction to cognitive grammar.//Cognitive science, 10(1), 1986. – P. 1-40.
3. Langacker R. W. Discourse in cognitive grammar.// Cognitive linguistics, 12(2), 2001. – P. 143-188.
4. Qurbonova K. Kognitiv tilshunoslikka oid atamalarning izohli lug‘ati. – Namangan: Mashrab, 2026. – 44 b.
5. Ungerer F. H, Schmid H. J. An Introduction to Cognitive Linguistics. – London, New York: Longman, 1996. – 383 p.

TURKISTON QO‘MITASI OZIQ-OVQAT MUAMMOSI YECHIMI YO‘LIDA

Valiyeva Nafisa Abdumajitovna
Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti
nafisavaliyeva6@gmail.com +998905539181
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21886120

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkiston qo‘mitasining mintaqada yuzaga kelgan oziq-ovqat muammosini bartaraf etish borasidagi faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda Birinchi jahon urushi va undan keyingi siyosiy-iqtisodiy inqiroz sharoitida oziq-ovqat ta’minotining izdan chiqish sabablari, qo‘mita tomonidan amalga oshirilgan taqsimot, ta’minot va nazorat choralari hamda ularning samaradorligi tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, markaziy hokimiyatning oziq-ovqat siyosati, mahalliy aholining ijtimoiy ahvoli va iqtisodiy qiyinchiliklarning boshqaruv tizimiga ta’siri tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari Turkiston qo‘mitasining oziq-ovqat inqirozini yumshatish yo‘lidagi faoliyatini tarixiy nuqtai nazardan baholash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Turkiston qo‘mitasi, oziq-ovqat muammosi, oziq-ovqat ta’minoti, Turkiston o‘lkasi, Birinchi jahon urushi, iqtisodiy inqiroz, taqsimot siyosati, g‘alla ta’minoti, ijtimoiy siyosat, tarixiy manbalar.

Аннотация. В статье рассматривается деятельность Туркестанского комитета по решению продовольственной проблемы в регионе. Анализируются причины продовольственного кризиса в условиях Первой мировой войны и последовавшего социально-экономического кризиса, меры Комитета по организации снабжения, распределению продовольствия и контролю за его поставками. Особое внимание уделено продовольственной политике центральной власти, социально-экономическому положению местного населения и влиянию кризиса на систему управления. Исследование основано на исторических источниках и позволяет объективно оценить деятельность Туркестанского комитета в сфере продовольственного обеспечения.

Ключевые слова: Туркестанский комитет, продовольственная проблема, продовольственное обеспечение, Туркестанский край, Первая мировая война, экономический кризис, распределение продовольствия, зерновое снабжение, социальная политика, исторические источники.

Abstract. This article examines the activities of the Turkestan Committee in addressing the food crisis in the region. It analyzes the causes of food shortages during the First World War and the subsequent socio-economic crisis, as well as the Committee's measures to organize food supply, distribution, and control. Particular attention is given to the food policy of the central authorities, the socio-economic conditions of the local population, and the impact of the crisis on the administrative system. Based on historical sources, the study provides an objective assessment of the Turkestan Committee's efforts to mitigate the food crisis in Turkestan.

Keywords: Turkestan Committee, food crisis, food supply, Turkestan Region, First World War, economic crisis, food distribution, grain supply, social policy, historical sources.

Turkiston Rossiya tomonidan zabt etilgandan keyin, asrlar davomida o'zini-o'zi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab kelgan o'lka aholisini g'alla ekishni qisqartirish hisobiga, keskin ravishda paxta ekishni ko'paytirishga yo'naltirildi. Rossiya imperiyasi uchun Turkiston paxtasi harbiy-strategik ahamiyatga molik bo'ldi. O'lka Rossiya tasarrufiga kiritilgandan so'ng asta-sekin asosiy e'tiborni an'anaviy ekinlarni, xususan, oziq-ovqatda eng muhim o'rin tutgan g'alla mahsulotlarini ekishni qisqartirish hisobiga, imperiya to'qimachilik sanoatida muhim bo'lgan paxta ekishga qaratildi. Bu jarayon Rossiya tomonidan Turkistonni istilosidan keyin asta-sekin boshlangan bo'lsa-da, XIX asr oxiri-XX asr boshlaridan, mumkin qadar, unumdor yerlardan paxta hosilini yig'ishtirib olishga qaratildi.

Rossiyaning Birinchi jahon urushi (1914-1918) yillarida ishtiroki Turkiston paxtasiga bo'lgan talab va extiyojni yanada kuchaytirib yubordi. Urush tufayli, o'n yillar davomida Rossiya, Kavkazorti g'allasiga bo'lgan qaramlik yanada kuchayib, o'zaro aloqalarni izdan chiqqani yaqqol namoyon bo'la boshladi. Rossiyadan g'alla keltirish keskin qisqarib, Turkistonda ocharchilik[1] hamda qahatchilik[2] hukm sura boshladi. Urush boshlanishi pulning qadrsizlanishiga olib keldi.

G'allani saqlash, pulni saqlashdan ko'ra qadrliroq bo'la boshladi. 1916 yil 23 sentyabridan oziq-ovqat ta'minotidagi muammolar tufayli g'allaga qat'iy narx belgilandi va buning natijasida, g'allasi borlar, uni yashirishga tushdilar. 1916 yil oxiriga kelganda g'alla talab va taklif orasidagi farq 600 mln. Pud[3] ni

tashkil qildi. Shundan kelib chiqib, Rossiya Davlat dumasi raisi Rodzyanko 1917 yili imperatorga oziq-ovqat razvyorstkasi siyosati to'la-to'kis barbod bo'lganini bildirdi. Bor g'allani ham taqsimot va qat'iy belgilangan narxdan qo'rqib, quloq[4] va pomeshchiklar o'z omborlaridan chiqarmay, “yaxshi kunlar va erkin narx belgilanib qolishini” kutdi. Chunki 1916 yildagi g'allaning erkin narxi, qat'iy belgilangan narxdan 3 barobar ko'p edi. Hokimiyat tepasida kelgan Muvaqqat hukumat, zudlik bilan oziq-ovqat razvyortkasini e'lon qildi.

Shunday tahlikali damlarda o'lkada o'z faoliyatini boshlagan Turkiston qo'mitasi oldidagi eng muhim vazifalardan biri, u ham bo'lsa, davom etayotgan urushda harbiylarni oziq-ovqat bilan ta'minlashda uzilishlarga yo'l qo'ymaslik, o'lka aholisini o'rtasida boshlangan ocharchilikni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish edi. Boshqacharoq ifodalaganda, Turkiston aholisi o'zi och bo'lgan holda... urushda ishtirok etayotgan harbiylarning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qo'llab-quvvatlashga mahkum bo'lib, mazkur masaladagi barcha tashkiliy masalalar Turkiston qo'mitasi zimmasida edi.

Turkistonda oziq-ovqat muammosi yechimida, joylardagi och aholining ko'payib borayotgani, ammo holatni kundan-kunga ko'payib borayotgani, ammo holatni o'zgartirish amri-mahol bo'layotgani qayd etilgan. Masalan, mintaqadagi ocharchilik dahshati xususida, “Najot” gazetasi 1917 yil 28 aprelida bergan ma'lumotiga ko'ra, “aholi ochlikdan qutulish uchun xotun-bolalarin sotib Afg'onistonga ko'charlar... Marg'inon-“Jamiyati xayriya” tarafidan ochlar uchun ochilgan oshxona go'zal natijalar ko'rsatmakda, faqir xalq ehsonli zotlardan g'oyat mamnudir. [1916] 28 dekabrdan 14-nchi yanvargacha 30678 so'm 96 tiyin [ko'mak] yig'ilib, 14951 so'm 65 tiyin xarajat qilingan” deyiladi.[5]

Ko'rinib turibdiki, Turkistonda ocharchilik, oziq-ovqat muammosi 1916 yildayoq boshlanib, joylardagi milliy tashkilotlar tomonidan hali 1917 yil fevral` inqilobi bo'lmasidan avvalroq xayriya yordamlari boshlangan edi. Ammo fevral` inqilobi ham, aniqrog'i Muvaqqat hukumat va uning tarkibi o'z faoliyatini boshlagan Turkiston qo'mitasi ham, o'lka bo'ylab kundan-kunga o'z qamrovini kengaytirib, aholini o'z domiga tortib borayotgan ocharchilikni bartaraf etishda ojiz edilar. Masalan, Turkiston qo'mitasi o'lkadagi ocharchilik muamosini hal etish yo'lida ko'rgan, dastlabki chora-tadbirlaridan biri, joylardagi tub aholisini oziq-ovqat muammosiga emas, balki Muvaqqat hukumatdan ocharchilik muammosi yechimida mablag'dan yordam berishini so'rab…. Avvalo bu “Prjevalsk uezdidagi rus aholisining ko'rgan zararlari (Xitoydan qaytayotgan qochoq qirg'iz-qozoqlar tomonidan ruslar bilan ixtiloflar)ni qoplash uchun sarf qilinadi...[6]

Buning uchun [Turkiston] qo'mitasi 10 million so'm berishni so'rab... So'ngra hamma qirg'izlarga yordam bermoq uchun yana 5 million so'm so'raydi. Turkiston qo'mitasiga ko'ra, qirg'izlarning yerlari bosib olingani uchun ocharchilik boshlanib ketgani sababli, “Prjevalsk uezdi qochoqlarini qirg'izlarga qaraganda ikki barobar ko'p yordam olishlari kerak edi”.[7] Turkiston qo'mitasi raisi N. N. Shepkin o'lkadagi oziq-ovqat taqchilligini bartaraf etish bo'yicha Muvaqqat hukumatga aprel-may oylarda telegramma yuborib, joylarda oziq-ovqat ta'minoti tangligiga e'tibor qaratib, “Turkistonda oziq-ovqat masalasi juda mushkul ahvolda. Qurg'oqchilik natijasida ochlik boshlandi. Bir pud unning narxi 24 so'mga chiqdi, may oyida berish uchun hech qanday oziq-ovqat yo'q...” deb qayd etgan. Ayni paytda Turkiston qo'mitasi oziq-ovqat tangligini yengillashtirish yo'lida, bo'sh yotgan yerlarga to'q dehqonlar... yordami bilan g'alla ekishga qaror qildi.[8]

Turkiston qo'mitasi tomonidan olib borilayotgan sa'y-harakatlar, 1917 yil fevral inqilobidan keyin izdan chiqqan o'zaro aloqalarni tezda tiklash imkonini bermadi. O'lkada vujudga kelgan ocharchilikni bartaraf etishda, faqat Turkiston qo'mitasida najot kutish, kutilgan natijani bermasligiga ishonch hosil qilgan milliy-siyosiy tashkilotlar aholini ocharchilik azob-uqubatlaridan qutqarishda keskin chora-tadbirlar ko'rish qo'lidan bordilar.

Xususan, 1917 yil 6 iyunda “Hurriyat” gazetasida chop etilgan ma'lumotga ko'ra. “Sho'roi Islomiya” tomonidan qabul qilingan qarorda, aholi o'rtasida non va non mahsulotlari bo'yicha munosabat bildirib, unda quyidagilar belgilangan:

1. Vujudga kelgan oziq-ovqat taqchilligini bartaraf etish yuzasidan, musulmon aholisi nonvoylari oliy navli nonlarni bir qadog'ini[9] yetmish besh tiyindan ortig'iga sotmasin.
2. Xonadon-uyda pishirilgan non va “Osiyo” nonlarining qadog'ini yetmish besh tiyindan ortiqqa sotmasin.
3. Joylarda o'tirib sotadigan nonfurushlar oldida tarozisi bo'lsin (Nonnning og'irligini, zarurat deb topilsa, o'lchash uchun-N.V.).
4. Yo'lma-yo'l, ko'tarib va o'tirib non sotuvchilar zimmasida: agar xaridor nonni tarozida tortib olmoqni istasa, bemalol tortib bersin.

5. Belgilansinki, nonvoyxona egasi tomonidan pishgan va kuymagan nonnigina sotuvga chiqarsin. Nonlar achchiq undan yopilmasin va uning ta'mi sho'r bo'lmasin.[10]

Lekin oziq-ovqat muammosi orqaga chekinmay, ahvol kundan-kunga og'irlashib boraverdi.

Turkiston qo'mitasi o'z faoliyatini boshlashga ulgurib-ulgurmasidan, o'lkada vujudga kelgan oziq-ovqat muammosini yechish zaruriyati bilan to'qnashdi. Xususan, 1917 yil 20 aprelida Turkiston qishloq xo'jaligi jamiyati, Qishloq xo'jaligi kasaba uyushmalari xodimlari, Yer ishlari ittifoqi Toshkent va uezd ijroiya qo'mitasining birlashgan majlisi o'tkazilib, unda Turkiston qishloq xo'jaligi jamiyati prezidenti R. Shreder ma'ruza qilib, o'lkada oziq-ovqat taqchilligi natijasida ocharchilik vujudga kelgani, holat kundan-kunga og'irlashib borayotgani to'g'risida gapirdi. O'lkada vujudga kelgan bu ayanchli holat yuzasidan, yaqinda o'z faoliyatini boshlagan Turkiston qo'mitasiga murojaat qilib, o'lka boshqaruviga kirishgan qo'mitaga ocharchilik sabablarini izhor qilib, quyidagilarni bildirildi:

-ob-havo noqulay keldi. 1916-1917 yil qishi va joriy yil bahorida deyarli yog'ingarchilik bo'lmadi;

-shu yil mart oyi oxiri va aprel` oyida sovuq tushib, harorat muzlashga bordi va birdaniga issiq kelib, g'alla ekinlari nobud bo'ldi;

-daryolarda suvni kamligidan hayvonlar qirilib ketdi;

-vujudga kelgan holat tufayli sabzavot va uzumchilik amalda keskin qasqarib ketdi;

-birlashgan majlis Turkiston qo'mitasidan zudlik bilan yordam berish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishni Muvaqqat hukumatdan so'rash zarur deb hisoblaydi;

-o'lkada “Ocharchilikka qarshi kurash va boquvchisizlik” (“Ocharchilik qo'mitasi”) komissiyasi tuzish kerak.[11]

Yuqorida qayd etilgan birlashgan majlis yana 27 aprelda o'z ishini davom ettirib, oziq-ovqat muammosi bo'yicha 7 punktdan iborat qo'shimcha qaror qabul qilgan. Mazkur qarorda, Turkiston qo'mitasi tomonidan zudlik bilan oziq-ovqat muammosi yechimi uchun “Maxsus jamg'arma” tashkil qilish zarur deb hisoblab, ushbu jamg'arma hisobidan ajratiladigan pulni qishloq xo'jaligida faoliyat olib boradiganlar va aholi o'rtasida foizsiz foydalanishga berish so'ralgan.

Shuningdek, Turkiston qo'mitasi aholisining iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun may oyi (1917)dan kredit inspektsiyasi, kooperativlar va boshqa jamoat tashkilotlari tashkil qilishni so'ralgan. “Maxsus jamg'arma”dan ajratilgan mablag'ning taqsimoti bilan shug'ullanish Turkiston qo'mitasi vakillari, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi turli tashkilotlar: Turkiston qishloq xo'jaligi jamiyati, yer ishlari bo'yicha ittifoqi, Qishloq xo'jaligi kasaba uyushmalari ittifoqi va boshqalar hamda oziq-ovqat qo'mitalarining o'lka, viloyatlardagi ijroiya qo'mitalari, turli jamoat tashkilotlaridan iborat komissiya zimmasiga yuklatilishi kerakligi qayd etilgan.[12]

Shuningdek, och aholi uchun oziq-ovqat tayyorlash va uning taqsimotini uyushtirish, hayvonlarga yem-xashak tayyorlash ishlarini tuziladigan “Ocharchilikka qarshi kurash va boquvchisizlik” (“Ocharchilik qo'mitasi”) qo'mitasi o'z faoliyatini keng miqyosda: ovul, qishloq va qishloq jamiyati va boshqalarda olib borib, o'z faoliyatini yuritishda joylardagi oziq-ovqat tashkilotlari bilan yaqindan aloqani olib boradi. Aholini oziq-ovqat bilan ta'minoti yo'lidagi vazifalarni bajarishda o'z vakolati doirasidan chetga chiqmasligi, xususan, mahalliy hamda umumiy miqyosda musodara qilish bilan shug'ullanmasligi kerak deb qayd etilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи жилд. – Тошкент.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти (ЎзМЭ),. 2007. – Б. 162.

2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Бешинчи жилд. – Тошкент.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти (Ўз МЭ), 2008. – Б. 271.

3. Абуллаев М., Мўминов Х. Ўзбекистон тарихидан атамаларнинг изоҳли луғати. - Тошкент.: “Turon zamin ziyo”, 2014. - Б.167.

4. Бекмуҳаммедов Ҳ. Ю. Тарих терминларининг изоҳли луғати. -Тошкент: “Ўқитувчи”, 1986. - Б. 127.

5. Туркистонда очарчилик. Қаҳатчилик. 1917-1924 йилларда Туркистон матбуотида очарчилик ва қаҳатчилик муаммосининг ёритилиши. Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. -Б. 16

6. Вахабов М. Ташкент в период трех революций. Ташкент: Государственное издательство Узбекской ССР, 1957. -С. 154

7. Вахабов М. Ташкент в период трех революций. Ташкент: Государственное издательство Узбекской ССР, 1957. -С. 154

8. Абдуллаев М., Мўминов Х. Ўзбекистон тарихидан атамаларнинг изоҳли луғати. - Тошкент.: “Turon zamin ziyo”, 2014. - Б.256
9. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар I жилд. Тошкент: “Akademnashr”, 2018. - Б. 476
10. Расулов А., Режаббоев Н. Туркистонда очарчиликка қарши кураш (1917-1924). Тошкент: JAVOHIR-NASHR, 2025. -Б. 30-31
11. Расулов А., Режаббоев Н. Туркистонда очарчиликка қарши кураш (1917-1924). Тошкент: JAVOHIR-NASHR, 2025. -Б. 31

JORJ ORUELNING “1984” ROMANIDA “URUSH” KONSEPTI TALQINI

Qurbonova Kamola Abdurahmonovna
Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21886250

Annotatsiya: Mazkur maqolada urush konseptining kognitiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda urush konseptining til va tafakkurdagi ifodalanishi, uning konseptual belgilari hamda Jorj Oruelning “1984” romanida namoyon bo‘lishi o‘rganiladi. Asarda urushning an’anaviy mazmunidan farqli ravishda uning doimiylik, nazorat, propaganda va hokimiyatni saqlash vositasi sifatidagi konseptual xususiyatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari urush konseptining badiiy matnda yangi semantik qirralar kasb etishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kognitiv tilshunoslik, konsept, konseptosfera, Jorj Oruel, badiiy matn, konseptual tahlil, “urush” konsepti, diskurs.

Annotation: This article analyzes the cognitive characteristics of the concept of war. The study examines the representation of the concept of war in language and cognition, its conceptual features, and its manifestation in George Orwell's novel 1984. Unlike its traditional understanding, the novel conceptualizes war as a means of permanence, control, propaganda, and the preservation of political power. The findings demonstrate that the concept of war acquires new semantic dimensions within literary discourse.

Key words: cognitive linguistics, concept, conceptual sphere, George Orwell, literary text, conceptual analysis, the concept of "war", discourse.

Аннотация: В данной статье анализируются когнитивные особенности концепта «война». В исследовании рассматриваются репрезентация концепта войны в языке и мышлении, его концептуальные признаки, а также особенности его воплощения в романе Джорджа Оруэлла «1984». В романе война, в отличие от её традиционного понимания, концептуализируется как средство постоянства, контроля, пропаганды и сохранения политической власти. Результаты исследования показывают, что в художественном дискурсе концепт «война» приобретает новые семантические измерения.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, концепт, концептосфера, Жорж Оруэлл, художественный текст, концептуальный анализ, концепт «война», дискурс.

Kirish. Kognitiv tilshunoslik sohasining asosiy termini konsept hisoblanadi. Yangi axborotlarning ongda shakllanishi va ularning til orqali aks etishida konsept muhim rol o‘ynaydi. U o‘zida obyektning barcha xususiyatlarini jamlaydi. Ma’lum bir tildagi konseptlarni tahlil qilish orqali ularning insonlar ongida qanday shakllanganligi va ahamiyatini o‘rganish mumkin. Shu bois konseptlar tadqiqiga bu soha rivoji uchun qo‘yiladigan qadam deyish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Rus tilshunosligida “konsept” tushunchasi XIX asr oxirida asosiy atama maqomini oldi va shundan beri u haqida ko‘plab ta’riflar paydo bo‘ldi[Yigitaliyeva, 2024 : B. 15]. “Konsept” atamasi, uning mohiyati va tuzilishi D.Y.Apresyan, N.D.Arutyunova, Y.S.Stepanova, A.P.Babushkin, A.A.Zalevskiy, R.I.Pavilenis, E.S.Kubryakova, A.A.Leontev, V.I.Karasika, V.A.Pishchalnikova, I.A.Sternina, G.G.Slishkin va boshqalar tomonidan ko‘rib chiqilgan.

O‘zbek tili konseptosferasi tadqiqi doirasida o‘zbek tadqiqotchilari tomonidan bir talay ilmiy ishlar yaratilgan. N.R.Umarovaning Alisher Navoiy asarlarining lisoniy-konseptual tadqiqiga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasi[Умарова, 2021], A.I.Ziyayevning go‘zallik/xunuklik va xursandchilik/qayg‘u binar oppozitsiyalarining komponent tahlili[Зияев, 2009], Z.Ma’rupovaning mumtoz badiiy matnlarda “go‘zallik” konsepti[Маърупова, 2022], qiyosiy aspektda A.K.Xalillayevning ispan va o‘zbek tillarida “mardlik” konsepti[Халиллаев, 2022], Z.O.Aminovaning ingliz va o‘zbek tillarida “yurak” konsepti[Аминова, 2022], G.A.Usenovaning ingliz va qoraqalpoq tillarida “ona” konsepti[Усенова, 2021], M.M.Raxmatovaning ingliz, o‘zbek va tojik tillarida “go‘zallik” konsepti[Рахматова, 2019], Sh.X.Djabbarovning ingliz va o‘zbek tillarida “vaqt” konsepti[Джаббаров, 2022] tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlari shular jumlasidandir.

Natijalar va muhokama. O‘zbek tilida mavjud konseptlar tahlili orqali o‘zbek tili konseptosferasi haqida batafsil ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Ayniqsa, badiiy matnlarda ularning o‘zgacha talqinlari mavjud. Bu holatni BBC tomonidan tuzilgan “Insoniyat tarixidagi eng zo‘r 200 kitob” reytingida

sakkizinchi o‘rinni egallagan “1984” asari orqali kuzatish mumkin. Jorj Oruelning qalamiga mansub bo‘lgan ushbu asar Karim Bahriyev tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan hamda asar matnlari tarkibida “urush” konseptining o‘zgacha tavsifi keltirilgan.

Ma’lumki, “urush” konsepti turli xususiyatlarni qamrab oladi. Badiiy adabiyotda esa ushbu konsept yozuvchi va shoirlar tomonidan turli yondashuvlar asosida ifodalanadi. Jumladan, Jorj Oruelning “1984” romanida asosiy g‘oyalardan biri sifatida “urush” konsepti boshqa yozuvchilarning asarlarida uchramaydigan turli xususiyatlarga ega ekanligi bilan ko‘zga tashlanadi. Masalan, asarning mohiyatini tashkil etuvchi uch asosiy g‘oyadan biri urush haqidadir: “Urush – tinchlikdir. Erk – qullikdir. Bilimsizlik – kuchdir”. Ushbu fikrlardan ko‘rinadiki, asarda ko‘zda tutilgan siyosatning asosiy quroli urush hisoblanadi. Ushbu tuzum o‘z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida insonlarning urush bilan bog‘liq qo‘rquvidan foydalanadi.

Shuningdek, reallikda urush bilan bog‘liq eng muhim xususiyat uning tugovchanlik xususiyatiga egaligidir. Romanda esa “urush” konsepti davomiylik xususiyati bilan gavdalanadi. Buni quyidagi parchada ko‘rish mumkin: “Uinston mamlakat urush holatida bo‘lmagan biror zamonni aniq eslay olmaydi”. Urushning davomiyligi uning ta’sirini doimiy saqlab turishga yordam beradi. Urushning doimiy borishini nazorat qiluvchi va uni kerakli vositalar bilan ta’minlovchi alohida vazirlik ham mavjud bo‘lib, Tinchlik vazirligi deb atalgan.

Qolaversa, urushda har ikki tomondan birining muvaffaqiyati va boshqasining mag‘lubiyati kafolatlanadi. Asarda tasvirlangan “urush” konseptida esa bu xususiyat ham farqlanadi. Bu fikrimizning dalilini quyidagi parchada ko‘rish mumkin: “U yoki bu tarkibda uchta buyuk davlatlar doimiy urush olib boradilar, bu urushlar yigirma besh yildan buyon davom etmoqda. Biroq urush XX asrning birinchi yarmida bo‘lgani kabi hech narsadan tap tortilmaydigan, hayot-mamot urushi emas. Bugungi urushlar cheklangan maqsadlari bo‘lgan harbiy harakatlardir, ayni paytda g‘animlar bir-birlarini yo‘q qila olmaydilar, urushdan moddiy manfaatlari yo‘q va bir-birlariga g‘oyaviy jihatdan qarama-qarshi emas”. Urushda bir-biri ustidan g‘oliblik da’vosidan voz kechishning mohiyati shundaki, bu orqali ushbu davlatlar o‘z fuqarolarini bir-biri bilan aloqada bo‘lishdan va shafqatsiz tuzum haqidagi ma’lumotlar tarqalishidan saqlab qoladilar. Urush tugamasa, chegaralar doimiy saqlab qolinadi, aholi xavotirda ushlab turiladi, ichki siyosiy tuzum ishiga aralashuvchi taraf bo‘lmaydi. Biroq urushdagi bu holatlar uning ziyonlarini kamaytirmaydi: “… urushni olib borish usullari va unga bo‘lgan ustuvor munosabatlarda shafqatsizlik va qon to‘kish kamaydi, deb o‘ylash xato bo‘lardi. Aksincha, barcha mamlakatlarda harbiy talvasa umumiy va doimiy xarakterga ega, zo‘ravonlik, talon-tarojlar, bolalarning o‘ldirilishi, butun aholini qul qilib olish, asirlarga qarshi tiriklayin qaynatish, ko‘mib yuborishgacha boradigan qatag‘onlar singari aktlar – agar g‘anim tomonidan emas, o‘z askarlari tomonidan qilinsa, me’yordagi ish va hatto jasorat hisoblanadi”. Urushdagi ushbu shafqatsizliklar insonlardagi doimiy qo‘rquvni ta’minlaydi va ularning e’tiborini siyosatdan olib qochib, urushga qaratadi. Bu jarayonda aholi sonining kamayishi, xalqning aziyat chekishi hokimiyat istagidan ustun turmaydi.

Shu bilan birga, insonlar urush haqida faqat uning amalda ekanini bila oladilar. Bu bilan reallikdagi urushning fron ortidagi ahamiyati pasayadi. Bu holat quyidagi parchadan ayon bo‘ladi: “Janglar – jang bo‘layotgan paytda – olis chegaralarda boradi, oddiy fuqaro ularning qay yerdaligini faqat taxmin qilishi mumkin, xolos, yoki jang kommunikatsiyalarni kuzatib yuradigan, suzib yuruvchi qal’alar atrofida jang bo‘lishi mumkin. Tamaddun markazlarida urush iste’mol mahsulotlarining doimiy tanqisligi va gohi-gohida o‘nlab odamlarni halok etadigan raketalar portlashi ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin”. “Urush” konseptining ushbu xususiyati bir vaqtning o‘zida insonlarga ayonlik va frontdan uzoqlik holatlarini keltirib chiqaradi. Bu holatdagi urushning asl maqsadi insonlarning bandligini ta’minlash va siyosiy tuzumni saqlab qolishdir. Ushbu g‘oya quyidagi parchada ko‘rinadi: “Zamonaviy urushning asosiy maqsadi – umumiy hayot darajasini ko‘tarmasdan turib, mashina mahsulotlarini sarf etish demakdir”.

Yuqorida tahlil qilingan namunalar orqali Jorj Ourelning “1984” romanida tasvirlangan “urush” konseptini quyidagicha tasvirlash mumkin:

1-jadval

Reallikdagi “urush” konseptiga oid xususiyatlar	Romandagi “urush” konseptiga oid xususiyatlar
Vaqtinchalik	Doimiy
G‘olib va mag‘lub mavjud	G‘olib va mag‘lub mavjud emas
Mafkuraviy	Strategik
Uzluksiz qurbon	Chegaralangan qurbon
Harbiy mojaro	Nazorat vositasi

Muvaqqat tahdid	Abadiy tahdid
Tashqi qarshilik	Ichki nazorat
Maqsadli	Manipulyativ
Haqiqiy dushman	Soxta dushman

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, “urush” konseptini kognitiv nuqtayi nazardan o‘rganish til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Ushbu konsept turli tarixiy, siyosiy va madaniy sharoitlarda yangi semantik mazmun bilan boyib borishi sababli uning badiiy diskursdagi ifodalanish mexanizmlarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Konseptual tahlil nafaqat urush haqidagi tasavvurlarning shakllanishini, balki muallifning ideologik qarashlari va jamiyat ongiga ta’sir etuvchi kognitiv modellarni ham aniqlashga xizmat qiladi. Shu bois urush konseptini zamonaviy kognitiv tilshunoslik, diskurs tahlili va lingvokulturologiya doirasida yanada kengroq o‘rganish kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Оруэлл Ж. 1984. – Тошкент: Nihol, 2020. – 296 б.
2. Yigitaliyeva Sh.I. O‘zbek tilida “yaxshilik” konseptining voqelanishi: Filol. fan. b. fals. d-ri ... dis. avtoref. – Qo‘qon, 2024. – 137 b.
3. Аминова З.О. Инглиз ва ўзбек тилларида “heart/юрак” концептининг вербаллашуви ва лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дис. автореф. – Қарши, 2022. – 56 б.
4. Джаббаров Ш.Х. Вақт концептосферасининг когнитив-метафорик, лингвофалсафий ва лингвомаданий таҳлили (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида): Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дис. автореф. – Термиз, 2022. – 53 б.
5. Маърупова З. Мумтоз бадиий матнларда “гўзаллик” концептининг вербаллашуви: Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дис. автореф. – Фарғона, 2022
6. Рахматова М.М. Инглиз, ўзбек ва тожик миллий маданиятида “гўзаллик” концептининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дис. автореф. – Бухоро, 2019. – 50 б.
7. Умарова Н.Р. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дис. – Фарғона, 2021. – 269 б.
8. Усенова Г.А. Mother/ona концепти идентификаторларининг лингвомаданий хусусиятлари (инглиз ва қорақалпоқ тиллари мисолида): Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дис. автореф. – Нукус, 2021. – 49 б.
9. Халиллаев А.К. Испан ва ўзбек тилларида “hombria/мардлик” концепти қўлланишининг лингвокогнитив ва лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент, 2022. – 48 б.

ТРАНСФОРМАЦИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ФУНКЦИИ САНАТОРНО-КУРОРТНОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА ОТ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНЫХ ГАРАНТИЙ К РЫНОЧНОМУ ПРОДУКТУ

Исраилова Максуда Валериевна
Независимый исследователь Ферганского государственного университета
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21886335

Аннотация: В статье анализируется трансформация социальной функции санаторно-курортного комплекса в условиях рыночной экономики. Рассмотрены изменения институциональной структуры комплекса, особенности функционирования профсоюзных, ведомственных и частных санаториев. Обоснован дифференцированный подход к управлению различными секторами комплекса и формирование отраслевой ассоциации, как органа горизонтальной интеграции частных санаториев.
Ключевые слова: санаторно-курортный комплекс, социальная функция, профсоюзы, коммерциализация, рыночная трансформация.
Annotatsiya: Maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida sanatoriy-kurort majmuasining ijtimoiy funksiyasi o‘zgarishi tahlil qilingan. Majmuaning institutsional tuzilmasidagi o‘zgarishlar, hamda kasaba uyushma, idoraviy va xususiy sanatoriylar faoliyatining o‘ziga xos jihatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, majmuaning turli tarmoqlarini boshqarishga differensial yondashuv, va xususiy sanatoriylarning gorizontal integratsiyalashuvi vositasi sifatida tarmoq assotsiatsiyasini shakllantirish zarurati asoslab berilgan.
Kalit so‘zlar: sanatoriy-kurort majmuasi, ijtimoiy funksiya, kasaba uyushmalari, tijoratlashtirish, bozor transformatsiyasi.
Abstract: This article analyzes the transformation of the social function of the health resort complex under a market economy. It examines changes in the complex’s institutional structure and the specific features of how trade union, departmental, and private health resorts operate. It justifies a differentiated approach to managing the various sectors of the complex and the formation of an industry association as a body for the horizontal integration of private sanatoriums.
Keywords: sanatorium-resort complex, social function, labor unions, commercialization, market transformation.

По данным официальной статистики на конец 2024 года в Узбекистане насчитывалось 235 санаториев, общей мощностью 22,6 тысяч койко-мест. Современная структура санаторно-курортного комплекса (СКК) — это результат исторической трансформации форм собственности санаторно-курортных учреждений, которая на данный момент включает три группы санаториев: ведомственные санатории, находящиеся на балансе крупных предприятий, министерств и ведомств; санатории, находящиеся в ведении Главного санаторно-курортного управления федерации профсоюзов Узбекистана; санатории, находящиеся в частной собственности. Санатории, входящие в каждую группу, коренным образом отличаются друг от друга целями, организационными моделями, системами финансирования и механизмами управления.

Санаторно-курортная деятельность Узбекистана институционально сложилась как часть общесоюзной модели оздоровительного туризма — уникальной по своей организационно-экономической природе системы, не имевшей аналогов в мировой практике. Объединяющая в себе медицинскую, рекреационную и туристскую составляющие, санаторно-курортная деятельность имеет ярко выраженную социальную функцию, что отличает её от моделей оздоровительного wellness- и spa-туризма, распространённых в зарубежных странах.

Советский этап развития стал периодом не только институционального становления, но и активного развития санаторно-курортной деятельности как отрасли. В этот период окончательно сформировался основной тип лечебных учреждений на курортах - санаторий. Санаторно-курортное лечение вошло в состав трехэтапной системы советского оздоровления населения «поликлиника → стационар → санаторий». Была создана и внедрена централизованная система планирования и управления санаторно-курортной отраслью, что обеспечивало её стабильное функционирование, развитие и выполнение социальных функций. Ключевым инструментом доступности санаторно-курортных услуг стала система льготных и бесплатных путёвок. Часть путёвок бесплатно выдавалась таким категориям граждан как участники Великой отечественной войны, инвалиды, Герои труда, пенсионеры. Остальная часть распределялась среди членов профсоюза с оплатой 10-

30% стоимости путёвки. Таким образом профсоюзы являлись механизмом обеспечения социальной политики государства, и фактически выполняли функции министерства: распределение путёвок, управление здравницами, финансирование оздоровления через фонд социального страхования и контроль над всей инфраструктурой СКК.




Рисунок 1. Динамика основных показателей развития СКК за период с 1995 по 2024 год (*составлено автором)*

После обретения независимости в период с 1991 до 1999 год СКК Узбекистана находился в стагнации. Рыночные реформы, которые начались в 2000 году, связаны с началом приватизации крупных предприятий, расформирования ведомств. Доля ведомственных и санаторно-курортных организаций в структуре СКК постепенно сокращалось, за счёт создания частных санаториев, большинство которых являлось микро фирмами и малыми предприятиями. По данным официальной статистики уже в 2018 году число субъектов малого бизнеса составило 114 единиц, а 30,5 % из общего числа отдыхающих в санаториях было обслужено субъектами малого и среднего бизнеса[1.2022: с33-34]. К 2023 году число микрофирм и малых предприятий составило 191 единицу, а доля обслуженных в них посетителей достигла 43,8%[2.2024: с 33-34].

Переход к рыночным отношениям трансформировал не только организационно-экономическую структуру СКК, но характер его социальной и медицинской функции.

На современном этапе санаторно-курортное лечение перестало быть элементом системы здравоохранения, однако это не уменьшило его медицинской значимости. Научно доказанная медицинская эффективность, накопленный клинический опыт, рекомендации врачей и положительные результаты пациентов поддерживают востребованность санаторно-курортного лечения. Несмотря на то, что рост доходов населения, открытые границы и государственная политика, направленная на развитие туризма, значительно расширили выбор мест и форматов поездок с целью оздоровления, растущая статистика отдыхающих показывает, что при необходимости профилактики и реабилитации население по-прежнему выбирает санатории.

Социальная значимость санаторно-курортной сферы также существенно трансформировалась. Государство продолжает обеспечивать доступность санаторно-курортного лечения для отдельных категорий граждан: инвалидов, ветеранов войны и труда, пенсионеров. Однако механизм социальной поддержки изменился и приобрёл адресный характер и осуществляется в цифровом формате. Порядок распределения, выдачи путёвок, а также порядок получения услуг на едином портале mygov.uz утверждён Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 19 ноября 2021 года № 693.[3.2021]

Несмотря на сокращение масштабов социальной поддержки, основным институтом, реализующим социальную функцию, продолжает оставаться Федерация профсоюзов Узбекистана, которая по состоянию на 2025 год охватывает 8 миллионов человек, или 38% трудоспособного населения страны [4.2025]. За период с 2017-2025 год , была значительно расширена

инфраструктурная база профсоюзных санаториев , в частности в Сурхандарьинской области были построены санатории "Термез марвариди," "Ходжаипок," в Сырдарьинской области - "Янгиер," в Самаркандской области - "Абу Али ибн Сино," в городе Ташкенте - "Чинобод Плаза," в Ташкентской области - "Кухинур," "Заркент", в 10 санаториях была проведена реконструкция. [5.2025] В результате на сегодняшний день в ведении Профсоюзов Узбекистана находится более 30 санаториев, которые посредством системы льготных путёвок, обеспечены стабильным потоком отдыхающих, вне зависимости от рыночной конкуренции. Система льгот, по которой получают путёвки около 43% отдыхающих, включает бесплатное и частично оплачиваемое предоставление путёвок [4.2026], остальная часть отдыхающих покупает путёвки по полной стоимости, что указывает на частичную коммерциализация деятельности. Таким образом, несмотря на масштаб профсоюзного движения, его санаторно-курортная инфраструктура объективно не способна выполнять функцию массовой социальной гарантии в прежнем, советском понимании, оставаясь скорее адресным и ограниченным механизмом поддержки членов профсоюза.

Частные санатории не связаны с системой льготных путёвок и работают в рыночных условиях и ориентируются на изменчивый потребительский спрос. Их конкурентоспособность определяется качеством сервиса, разнообразием оздоровительных программ и гибкой ценовой политикой, учитывающей сезонность. Коммерциализация деятельности частных санаториев приводит к отходу от «лечения» как основной цели поездки в санаторий , и приводит к их перепрофилированию в организации для отдыха, «поскольку бизнесу дешевле, быстрее и проще создать инфраструктуру для отдыха, чем для восстановительной медицины».[6. 2021: с.62-77] О тенденции отхода от медицинской концепции предоставления услуг в масштабах отрасли косвенно говорит сокращение сроков пребывания отдыхающих в расчёте на один санаторий с 14,6 дней в 2013 году до уровня 7,8 дня в 2023 году и незначительным ростом до 9,5 дня в 2024 году. Тогда как классические программы санаторно-курортного лечения имеют продолжительность 14-21 день.

Проведённый анализ показывает, что на современном этапе санаторно-курортная деятельность в Узбекистане трансформируется от распределительной социальной гарантии к рыночному продукту. Если в советское время отдых в санатории был социальной поддержкой и частью системы организованного отдыха работающего населения, то сейчас, по большей части, это предмет личного выбора потребителя. Социальная функция санаториев не исчезает, а сужается и становится адресной, тогда как коммерциализация деятельности приводит к формированию в частном секторе нового сервис-ориентированного оздоровительного продукта по типу spa-, wellness, wellbeing- туризма, развитого за рубежом.

Социально ориентированные профсоюзные санатории и частные санатории, целью которых является получение прибыли, функционируют в различных моделях оказания услуг. В этих условиях развитие санаторно-курортного комплекса Узбекистана требует дифференцированного подхода к управлению. Если группа профсоюзных санаториев обладает сформированной институциональной системой управления, то частные санатории разрознены. Создание отраслевой ассоциации, как органа горизонтальной интеграции частных санаторно-курортных организаций, позволит обеспечить представление их интересов в государственных органах, координацию совместной деятельности по разработке новых оздоровительных программ, подготовке кадров, консолидации усилий в научных исследованиях и продвижении национального продукта на внутреннем и мировом рынке.

Список использованной литературы

1. O‘zbekistonda turizm: statistik to‘plam (2018-2021). Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, 2022. — 33-34 c.
2. O‘zbekistonda turizm: statistik to‘plam(2020-2023) . Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, 2024. — 33-34 c.
3. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «О внедрении информационных технологий в области выдачи населению путевок для лечения в санатории» от 19.11.2021 г. № 693
4. Материалы IX Съезда Федерации профсоюзов Узбекистана, ноябрь 2025 г URL: https://ctuca.org/
5. Официальный сайт Главного санаторно-курортного управления Федерации профсоюзов Узбекистана https://www.sihatgoh.uz/about

6. Баснина Т.Д. Управление санаторно-курортным комплексом: основные проблемы и тенденции развития / Т.Д. Баснина, Л.А. Валитова, М.Ю. Шерешева. — DOI 10.29141/2218-5003-2021-12-1-5. // Управленец. — 2021. — Т. 12, № 1. — С. 62–77.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA TRANSFORMATSIYA YONDASHUVI ASOSIDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Turaboyev Azamat Maxamadullayevich
University of Business and Science
pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
turaboevazamat@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21887274

Annotatsiya: Mazkur maqolada transformatsiya yondashuvi asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirish mexanizmlarining nazariy-metodologik asoslari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda refleksiya, kasbiy identifikatsiya, milliy qadriyatlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda pedagogik qo‘llab-quvvatlashning o‘zaro integratsiyasiga tayangan holda taklif etilgan mexanizmlarning mazmun-mohiyati va amaliy samaradorligi yoritiladi. Shuningdek, maqolada oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi omillar, hulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: milliy qadriyatlar, ongli munosabat, kasbiy mas’uliyat, refleksiv tafakkur, mustaqil qaror qabul qilish, qobiliyat, pedagogika, milliy identiklik, diagnostik mezonlar, indikatorlar, dunyoqarash, milliy dastur.

MECHANISMS FOR FOSTERING NATIONAL SELF-AWARENESS IN PROSPECTIVE PRIMARY SCHOOL TEACHERS BASED ON A TRANSFORMATIONAL APPROACH.

Abstract: This article presents a systematic analysis of the theoretical and methodological foundations regarding mechanisms to develop national self-awareness in prospective primary school teachers, utilizing a transformational approach. The study elucidates the essence and practical effectiveness of the proposed mechanisms, which are grounded in the integration of reflection, professional identity, national values, innovative pedagogical technologies, and pedagogical support. Furthermore, the article outlines the factors contributing to the development of national self-awareness among prospective primary school teachers in higher education institutions and presents relevant conclusions and recommendations.
Keywords: national values, conscious attitude, professional responsibility, reflective thinking, independent decision-making, aptitude, pedagogy, national identity, diagnostic criteria, indicators, worldview, national program.

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ НА ОСНОВЕ ТРАНСФОРМАЦИОННОГО ПОДХОДА

Аннотация: В данной статье представлен систематический анализ теоретических и методологических основ механизмов развития национального самосознания у будущих учителей начальной школы с использованием трансформационного подхода. Исследование раскрывает сущность и практическую эффективность предложенных механизмов, основанных на интеграции рефлексии, профессиональной идентичности, национальных ценностей, инновационных педагогических технологий и педагогической поддержки. Кроме того, в статье изложены факторы, способствующие развитию национального самосознания у будущих учителей начальной школы в высших учебных заведениях, и представлены соответствующие выводы и рекомендации.
Ключевые слова: национальные ценности, осознанное отношение, профессиональная ответственность, рефлексивное мышление, самостоятельное принятие решений, способности, педагогика, национальная идентичность, диагностические критерии, показатели, мировоззрение, национальная программа.

KIRISH. Hozirgi globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti va axborot makonining tobora kengayib borishi yosh avlodning milliy o‘zligini anglashini rivojlantirish masalasini pedagogika fanining ustuvor ilmiy yo‘nalishlaridan biriga aylantirmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy xotiraga sadoqat, Vatanga daxldorlik hissi, fuqarolik mas’uliyati hamda ma’naviy yetuklikni rivojlantirish kelajak avlodni barkamol etib

tarbiyalashning muhim shartlaridan hisoblanadi. Chunki boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi o‘quvchilarga faqat bilim beruvchi mutaxassis emas, balki ularning ma’naviy dunyoqarashi, milliy o‘zligini anglashi va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi tarbiyachi sifatida ham faoliyat yuritadi. Shu bois pedagog kadrlarni tayyorlash tizimida milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri sanaladi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga olib chiqish hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF–134-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dastur” hamda “O‘zbekiston-2030” strategiyasida ta’lim mazmunini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish, pedagoglarning kasbiy mahoratini muntazam oshirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirish hamda innovatsion pedagogik yondashuvlardan samarali foydalanish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda transformatsiya yondashuvi muhim metodologik asos sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuv shaxsning mavjud bilimlari, hayotiy tajribasi, qadriyatlari va dunyoqarashini tanqidiy-refleksiv tahlil qilish orqali ularni yangi mazmun bilan boyitishga qaratilgan. Transformatsion o‘zgarishlar jarayonida bo‘lajak pedagog o‘z qarashlarini qayta baholaydi, yangi bilimlarni mavjud tajribasi bilan uyg‘unlashtiradi va ularni shaxsiy e’tiqodi hamda kasbiy faoliyati bilan integratsiyalashga erishadi. Natijada unda milliy qadriyatlarga ongli munosabat, kasbiy mas’uliyat, refleksiv tafakkur, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va pedagogik pozitsiyaning barqarorligi shakllanadi.

Milliy o‘zlikni anglash shaxsning o‘z millatiga mansubligini anglash, milliy qadriyatlar va tarixiy-madaniy merosni qadrlash, Vatan taraqqiyotiga daxldorlik hissini his etish hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘un holda faoliyat yuritish kompetensiyasini ifodalovchi ko‘p qirrali pedagogik-psixologik hodisadir. Shu sababli uni rivojlantirish faqat nazariy bilimlarni egallash bilan chegaralanmaydi. Ushbu jarayon refleksiv faoliyatni tashkil etish, qadriyatlar tizimining transformatsiyasi, amaliy tajribani boyitish, ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish hamda shaxsning uzluksiz kasbiy o‘zini rivojlantirishini ta’minlovchi mexanizmlarning uzviy integratsiyasini talab etadi.

MAVZUGA ADABIYOTLAR TAHLILI. Hozirgi globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti, madaniyatlararo hamkorlikning kengayishi hamda ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan islohotlar sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirish masalasi pedagogika fanining ustuvor tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu muammo pedagogika, psixologiya, falsafa, sotsiologiya va madaniyatshunoslik kabi fanlarning o‘zaro integratsiyasi asosida o‘rganilib, uning nazariy va metodologik asoslari turli ilmiy maktablar tomonidan boyitib borilgan.

Milliy o‘zlikni anglashning ilmiy mohiyatini izohlashda shaxs identifikatsiyasi nazariyalari muhim o‘rin egallaydi. Bu borada E. Erikson tomonidan ishlab chiqilgan psixososial rivojlanish nazariyasi alohida e’tiborga loyiq. Olim identiklikni shaxsning o‘zini anglash, jamiyatdagi o‘rnini belgilash hamda hayotiy maqsad va qadriyatlarini shakllantirish jarayoni sifatida tavsiflaydi. Eriksonning qarashlariga ko‘ra, identiklik shaxsning ma’naviy yetukligi va ijtimoiy barqarorligini ta’minlovchi muhim psixologik omildir. Mazkur nazariy yondashuv milliy o‘zlikni anglashni shaxsning milliy qadriyatlarni o‘zlashtirishi, milliy madaniyat bilan o‘zini uyg‘unlashtirishi va fuqarolik mas’uliyatini anglash jarayoni sifatida talqin etish imkonini beradi.

Milliy identiklikning ijtimoiy jihatlari chet el olimlaridan H.Tajfel va J. Turner tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy identiklik nazariyasida keng yoritilgan. Ularning fikricha, insonning muayyan ijtimoiy guruhga mansublik hissi va mazkur guruh qadriyatlarini qabul qilishi identiklikning asosiy mezonlaridan biridir.[4] Ushbu konsepsiya bo‘lajak pedagoglarda kasbiy hamda milliy identiklikni uyg‘un rivojlantirishning nazariy asoslarini belgilashda muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy identiklikning psixologik xususiyatlari G. M. Soldatova tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan. Olim milliy identiklikni shaxsning etnik va madaniy mansubligini anglash, milliy qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirish hamda tolerantlik tamoyillarini rivojlantirish bilan bog‘liq murakkab psixologik

tizim sifatida tavsiflaydi. Uning ilmiy ishlari milliy o‘zlikni anglash darajasini aniqlash va baholash metodikalarini ishlab chiqishda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

Shaxs qadriyatlarini shakllantirish masalalari M. Rokeach va Sh. Schwartz tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. M. Rokeach qadriyatlarni insonning xulq-atvori va faoliyatini boshqaruvchi barqaror e’tiqodlar tizimi sifatida izohlasa, Sh. Schwartz qadriyatlarning universal modelini ishlab chiqib, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unligi shaxs kamolotining muhim omili ekanligini asoslab beradi. Ushbu ilmiy qarashlar bo‘lajak o‘qituvchilarda milliy qadriyatlarga tayangan kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’limdagi transformatsiya yondashuvining ilmiy negizi J. Mezirow tomonidan ishlab chiqilgan transformativ ta’lim nazariyasiga tayanadi. Olimning ta’kidlashicha, transformativ ta’lim shaxsning mavjud qarashlari, tajribasi va qadriyatlarini tanqidiy tahlil qilish orqali yangicha dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda refleksiya, tanqidiy fikrlash, muloqot, tajribani qayta ko‘rib chiqish hamda yangi bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash asosiy o‘rin tutadi. Mazkur nazariya bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirishning innovatsion pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish uchun mustahkam metodologik poydevor yaratadi.

P.Freire ta’limni inson ongini rivojlantiruvchi va ijtimoiy o‘zgarishlarni yuzaga keltiruvchi jarayon sifatida baholaydi. Uning dialogik ta’lim konsepsiyasiga ko‘ra, ta’lim oluvchi bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki o‘z tajribasi asosida uni faol ravishda yaratadigan subyektdir. Shu nuqtai nazardan, milliy o‘zlikni anglashni shakllantirishda muammoli ta’lim, interfaol metodlar hamda refleksiv faoliyatdan foydalanishning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Konstruktivistik ta’lim nazariyasi namoyandalari J. Piaje va L. Vigotskiy bilimning shaxs tomonidan faol tarzda shakllantirilishini asoslab berganlar. Ayniqsa, Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasida shaxs tafakkurining rivojlanishi ijtimoiy muhit, madaniy tajriba va qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi. Ushbu ilmiy yondashuv milliy qadriyatlarni pedagogik jarayon mazmuniga integratsiya qilishning nazariy asoslarini belgilaydi.

O‘zbekiston olimlari ham milliy o‘zlikni anglash muammosini turli ilmiy yo‘nalishlarda keng tadqiq etganlar. Jumladan, S. S. Otamurotov milliy taraqqiyot, milliy g‘oya hamda globallashuv sharoitida milliy identiklikni saqlash masalalarini tahlil qilib, milliy o‘zlikni anglashni jamiyat rivojlanishining muhim omillaridan biri sifatida baholaydi. Olimning fikricha, tarixiy xotira, milliy til, madaniyat va qadriyatlar o‘zaro uyg‘un holda milliy identiklikning shakllanishiga xizmat qiladi.

N.Jo‘rayev ilmiy izlanishlarida tarixiy xotira va milliy tafakkurning rivojlanish qonuniyatlari tahlil qilinib, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. A. Erkayev esa milliy g‘oya, ma’naviyat va milliy tafakkur masalalarini tadqiq etib, milliy o‘zlikni anglashni jamiyat ma’naviy xavfsizligini ta’minlovchi muhim omil sifatida talqin qiladi.

Pedagogika yo‘nalishida Q. Hoshimov, R. Mavlonova [6], M. Ochilov, B. Xodjayev [5], N. Egamberdiyeva va boshqa olimlarning ilmiy ishlari milliy tarbiya, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim hamda bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash masalalariga bag‘ishlangan. Ushbu tadqiqotlar milliy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirishning nazariy hamda amaliy asoslarini shakllantirishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

So‘nggi yillarda transformatsiya yondashuvi asosida ta’limni tashkil etishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarda refleksiv pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli pedagogika va uzluksiz kasbiy rivojlanish konsepsiyalarini integratsiyalash zarurligi alohida qayd etilmoqda. Biroq mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, transformativ ta’lim nazariyasini milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirish jarayoni bilan kompleks bog‘lash masalasi hali yetarli darajada o‘rganilmagan. Xususan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida transformatsiya yondashuvi asosida milliy o‘zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari, bosqichlari, diagnostik mezonlari, indikatorlari hamda metodik ta’minoti tizimli ravishda ishlab chiqilmagan.

O‘rganilgan ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, milliy o‘zlikni anglash, identiklik, qadriyatlar tizimi, transformatsiya va kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari yetarlicha yoritilgan bo‘lsa-da, ularni yagona pedagogik model doirasida o‘zaro integratsiyalashga qaratilgan tadqiqotlar soni cheklangan. Shu bois transformatsiya yondashuvi asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy o‘zlikni anglashni shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, ularning tarkibiy komponentlari, pedagogik shart-sharoitlari, baholash mezonlari va amaliy texnologiyalarini ilmiy asoslash zamonaviy pedagogika fanining muhim ilmiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot ana shu ilmiy ehtiyojni qondirishga qaratilib, transformatsiya yondashuv hamda milliy qadriyatlar integratsiyasi asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf

o‘qituvchilarining kasbiy va milliy identikligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Xulosa va tavsiyalar. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirish masalasi globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiyoti hamda oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida alohida dolzarblik kasb etishini ko‘rsatdi. Milliy o‘zlikni anglash shaxsning milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini shakllantirish bilan bir qatorda, uning fuqarolik mas’uliyati, kasbiy o‘zini anglash, pedagogik mahorati va ma’naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga ham bevosita ta’sir etuvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi.

Tadqiqot doirasida transformatsiya yondashuvining nazariy va metodologik asoslari kompleks tahlil qilinib, E. Erikson, H. Tajfel, J. Turner, G. M. Soldatova, M. Rokeach, Sh. Schwartz, J. Mezirow, P. Freire, J. Piaje hamda L. Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar milliy identiklikni rivojlantirishning psixologik, pedagogik va ijtimoiy-madaniy mexanizmlarini tushuntirishda muhim ilmiy poydevor vazifasini bajarishi aniqlandi.

Tahlillar transformatsiya yondashuvi talabalarning dunyoqarashi va kasbiy pozitsiyasini sifat jihatidan yangilashga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yondashuv ekanligini tasdiqladi. Ushbu yondashuv refleksiya, tanqidiy tafakkur, qadriyatlarni qayta baholash, shaxsiy tajribani boyitish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning milliy o‘zligini anglash darajasini izchil rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirishning to‘rtta asosiy tarkibiy qismi aniqlandi. Ular motivatsion-qadriyatli, kognitiv, refleksiv-faoliyat hamda kasbiy-identifikatsion komponentlardan iborat bo‘lib, o‘zaro uzviy bog‘langan holda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy va milliy identikligini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mazkur jarayonning samaradorligini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar ham belgilandi. Jumladan, milliy qadriyatlarni o‘quv jarayoni mazmuniga integratsiya qilish, interfaol va refleksiv metodlardan foydalanish, raqamli ta’lim vositalarini milliy mazmun bilan boyitish, talabalarning mustaqil izlanishlari hamda loyiha faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalarni tizimli ravishda qo‘llash yuqori natijadorlikni ta’minlovchi omillar sifatida baholandi.

Nazariy tahlillar asosida transformatsiya yondashuvi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy qadriyatlarga sodiqlik, fuqarolik pozitsiyasi, pedagogik refleksiya, kasbiy motivatsiya, innovatsion fikrlash va ijtimoiy faollik kabi sifatlarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi isbotlandi. Natijada ular ta’lim-tarbiya jarayonini milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi asosida tashkil etishga tayyor, zamonaviy kompetensiyalarga ega pedagog sifatida shakllanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Umuman olganda, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan transformatsiya yondashuviga asoslangan pedagogik mexanizmlar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining milliy o‘zligini anglashni tizimli rivojlantirish, kasbiy kompetentligini takomillashtirish hamda zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy model sifatida tavsiya etilishi mumkin.

Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan o‘quv dasturlarini takomillashtirish jarayonida transformatsiya yondashuvi asosida milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirishga qaratilgan maxsus fanlar, modullar va o‘quv kurslarini joriy etish maqsadga muvofiq.

Pedagogika hamda boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlari talabalarining kasbiy identikligini mustahkamlash maqsadida refleksiv mashg‘ulotlar, treninglar, muammoli vaziyatlar tahlili va loyiha faoliyatlarini muntazam tashkil etish tavsiya etiladi.

Milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirish jarayonida transformativ ta’lim texnologiyalari, muammoli o‘qitish, keys-metod, debat, portfolio, refleksiv kundalik hamda zamonaviy raqamli platformalardan uyg‘un holda foydalanish samaradorlikni oshiradi.

Talabalarning milliy o‘zlikni anglash darajasini baholash maqsadida motivatsion-qadriyatli, bilish, faoliyat va refleksiv ko‘rsatkichlarga tayangan diagnostik mezonlar hamda baholash vositalarini ishlab chiqish va ta’lim amaliyotiga tatbiq etish zarur.

Pedagogik amaliyot davrida talabalarning tarixiy meros, xalq pedagogikasi, milliy madaniyat va ma’naviy qadriyatlarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilishi lozim.

Boshlang‘ich ta’lim fanlarining metodik ta’minotini milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, madaniy meros va fuqarolik mas’uliyati mazmuni bilan boyitish orqali ta’lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari kengayadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari, elektron portfolio, virtual muzeylar, raqamli kutubxonalar va multimedia resurslaridan foydalanish talabalarning milliy o‘zlikni anglash jarayonini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Oila, mahalla, maktab va oliy ta’lim muassasalari hamkorligini uzviy tashkil etish orqali milliy qadriyatlar va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirishning yaxlit pedagogik tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1–2-jildlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
4. Tajfel, H. (1979). *Individuals and Groups in Social Psychology.* British Journal of Social and Clinical Psychology, 18(2), 183–190
5. Xodjayev, B.X. *Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: Sano-standart, 2017.
6. Mavlonova, R., Rahmonqulova, N., Vohidova, N. *Pedagogika nazariyasi va tarixi*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
7. Xalilova N.I., Amirova O.Q. Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022. – 456 b.
8. G‘oziyev E.G‘. *Psixologiya.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – 352 b.
9. Otamurotov S.S. *Globallashuv va millat.* – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
10. SHAXSDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI A To‘raboyev - MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI JURNALI, 2025 Related articles All 2 versions https://doi.org/10.5281/zenodo.15641133
11. Baxtiyor, Q. (2024). THE CORRELATION RELATIONSHIP OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY IN ADOLESCENTS WITH ACHIEVEMENT.
12. Qayumov, B. Z. (2025). O‘SMIRLARDA KREATIVLIK NAMOYON BO‘LISHINING HUDUDIY TAFOVUTLARI. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI JURNALI, 3(6).

IKKI MILLATLI OILALARDA PSIXOLOGIK MOSLASHUVNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Roziqova Malika Olim qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21898608

Annnotatsiya. Ushbu maqolada ikki millatli oilalarda psixologik moslashuvni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Ikki millatli oilalarda psixologik moslashuvga ta’sir qiluvchi omillar, madaniy qadriyatlar farqi, kommunikativ kompetensiya, empatiya, oilaviy rollarni kelishish va hissiy yaqinlik tahlil qilinadi. Maqolada madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini oshirish, empatiyani rivojlantirish, oilaviy rollarni muvofiqlashtirish va umumiy qadriyatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan kompleks psixologik yondashuv tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: ikki millatli oila, moslashuv, akkulturatsiya, madaniyatlararo muloqot, tolerantlik, empatiya, nikoh barqarorligi, hissiy yaqinlik.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические основы развития психологической адаптации в биэтнических семьях. Рассматриваются факторы, влияющие на психологическую адаптацию в биэтнических семьях, различия в культурных ценностях, коммуникативная компетентность, эмпатия, координация семейных ролей и эмоциональная близость. В статье рекомендуется комплексный психологический подход, направленный на улучшение навыков межкультурной коммуникации, развитие эмпатии, координацию семейных ролей и формирование общих ценностей.

Ключевые слова: биэтническая семья, адаптация, аккультурация, межкультурная коммуникация, толерантность, эмпатия, стабильность брака, эмоциональная близость.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical foundations of the development of psychological adaptation in biethnic families. Factors affecting psychological adaptation in biethnic families, differences in cultural values, communicative competence, empathy, coordination of family roles, and emotional closeness are analyzed. The article recommends a comprehensive psychological approach aimed at improving intercultural communication skills, developing empathy, coordinating family roles, and forming common values.

Keywords: biethnic family, adaptation, acculturation, intercultural communication, tolerance, empathy, marital stability, emotional closeness.

Hozirgi kunda jahonda madaniyatlararo aloqalar va millatlararo munosabatlar ijtimoiy amaliyotda keng tarqalgan bo‘lib, buning natijasida etnik aralash nikohlar soni ortib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi, migratsiya oqimining kuchayishi hamda, ayniqsa, yoshlar ta’limi uchun dunyo eshiklarining ochiqligi nafaqat jahonda, balki mamlakatimizda ham millatlararo nikohlarning ortib borayotganini kuzatishimiz mumkin [9].

Psixologik moslashuv — bu er-xotinning o‘zaro tushunishi, hissiy yaqinligi va oilaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ko‘p qirrali, murakkab psixologik jarayon [1; 2]. Ikki millatli oilalarda ushbu jarayon bir millatli oilalarga nisbatan yanada murakkab tus oladi, chunki u nafaqat shaxslararo moslashuvni, balki, o‘zgacha madaniyat, urf-odatlar va so‘zlashuv tilining farq qilinishi sabab ham oila a’zolarining moslashuv jarayonida madaniyatlararo muloqot, qadriyatlar uyg’unligi va rolli kutilmalar muvofiqligini ham qamrab oladi.

Psixologik moslashuvning nazariy asoslari bir qator fundamental ilmiy konsepsiyalarga tayanadi. Bu borada bir qator nazariyala ishlab chiqilgan bo‘lib, ulardan biri sifatida J. Berryning akkulturatsiya nazariyasini keltirishimiz mumkin. Ushbu nazariyada J.Berry yangi madaniy muhitga moslashish to‘rtta strategiya — integratsiya, assimilyatsiya, separatsiya va marginalizatsiya — orqali amalga oshirilishini asoslaydi [1]. Birinchi strategiya integratsiyada shaxs o‘z madaniyatini saqlab qolish bilan birga boshqa madaniyatni ham o‘zida mujassamlashtiradi. Assimilyatsiya strategiyasida esa, shaxs o‘z madaniyatidan voz kechib o‘zga madaniyatga singib ketadi va bora bora ichki nizolarni keltirib chiqaradi. Separatsiyada esa o‘z madaniyatini saqlab qolish maqsadida o‘zga madaniyatni qabul qlmaydi, ya’ni cheklaydi. To‘rtinchi strategiyada marginalizatsyada esa shaxs na o‘zini madaniyatini saqlab qoladi, na boshqa madaniyatni qabul qiladi. Natijada esa moslashuvda qiyinchiliklarga duch keladi. Ushbu nazariyaga ko‘ra,

moslashuvning interatsiya strategiyasi eng samarali va eng maqbul usul hisoblanadi, sababi u har ikki madaniyatning ijobiy jihatlarini o‘zida mujassam etadi va psixologik salomatlikni saqlashga yordam beradi.

M. Bennett madaniyatlararo sezgirlik modeli shaxsning etnosentrik qarashlardan etnorelativ qarashlarga bosqichma-bosqich o‘tishi muvaffaqiyatli moslashuvning asosiy psixologik sharti ekanligini ta’kidlaydi [3]. Ushbu model etnosentrizm (inkor etish, mudofaa, minimizatsiya) va etnorelativizm (tan olish, moslashish, integratsiya) bosqichlari orqali moslashish jarayonini tavsiflaydi. Ikki millatli oilalarda sheriklar madaniyatlararo sezgirlikning qanchalik yuqori darajasiga ega bo‘lsa, o‘zaro tushunish va moslashish imkoniyatlari shunchalik keng bo‘ladi.

M. Bowen oila tizimlar nazariyasida oilani yagona tizim sifatida talqin etib, oiladagi har qanday o‘zgarish barcha a’zolarga ta’sir qilishini ko‘rsatadi [4]. Ushbu yondashuv ikki millatli oilalardagi psixologik moslashuvni faqat individual darajada emas, balki tizimli — er-xotin, farzandlar va keng oila a’zolari munosabatlari majmuasi sifatida o‘rganish zarurligini asoslaydi. R.S. Lazarus va S. Folkman stressga moslashish nazariyasida esa shaxsning stressorlarni kognitiv baholashi va ularga nisbatan tanlagan munosabat strategiyalari moslashuv natijasini belgilashini ko‘rsatadi [2], bu ikki millatli oilalarda yuzaga keladigan madaniy ziddiyatlarni boshqarishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili ikki millatli oilalarda psixologik moslashuvga ta’sir qiluvchi omillarni bir necha guruhga ajratish mumkinligini ko‘rsatadi. C.J. Falicov ko‘p madaniyatli oila terapiyasi konsepsiyasida oilaviy rollarni kelishish, madaniy qadriyatlar uyg’unligi, kommunikativ kompetensiya va empatiyaning psixologik moslashuvdagi markaziy o‘rnini ta’kidlaydi [5]. Shuningdek, qarindoshlar bilan munosabat va farzand tarbiyasidagi yondashuv farqlari ikki millatli oilalarda muhim psixologik tarang’liklar manbai bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

F. Walsh oila barqarorligi (resilience) konsepsiyasida qiyinchiliklar yengish jarayonida oilaviy aloqadorlik, umumiy e’tiqod tizimi va moslashuvchan muloqot tizimining muhimligini asoslaydi [6]. Ikki millatli oilalarda barqarorlik omiliga madaniy xilma-xillikni boylik sifatida qabul qilish, har ikki madaniyatning ijobiy jihatlarini oilaviy hayotga tatbiq etish va madaniy farqlarni nizoga emas, boyitishga yo‘naltirish kiradi. J. Gottman tadqiqotlari esa nikoh barqarorligini ta’minlashda konstruktiv muloqot, o‘zaro hurmat va hissiy qo‘llab-quvvatlashning hal qiluvchi rol o‘ynashini empirik jihatdan tasdiqlaydi [7].

Ikki millatli oilalarda psixologik moslashuvni rivojlantirish bo‘yicha amaliy yondashuvlar majmuasini ishlab chiqish bir qator psixologik yo‘nalishlar va metodlarga asoslanadi. K. Rodjers shaxs markazli terapiya konsepsiyasida empatiya, shartsiz ijobiy munosabat va autentiklikning psixologik o‘sish va moslashuvdagi o‘rnini ko‘rsatadi [8]. Ushbu tamoyillar ikki millatli oilalar uchun mo‘ljallangan psixologik yordam dasturlarining metodologik asosini tashkil etadi.

Psixologik moslashuvni rivojlantirishga yo‘naltirilgan trening dasturlari quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi maqsadga muvofiq:

– madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish turli madaniy kontekstlarda samarali muloqot qilish, noto‘g’ri tushunishlarning oldini olish va madaniy farqlarni muloqotda hisobga olish;

– empatiya va hissiy intellektni oshirish sherik madaniyatining his-tuyg’ular ifodasini, hissiy ehtiyojlarini va munosabat uslubini tushunish hamda qabul qilish;

– oilaviy rollarni muvofiqlashtirish uy xo‘jaligi, ota-onalik, moliyaviy va ijtimoiy rollarda o‘zaro kutilmalar va da’volarni ochiq muhokama qilish va kelishish;

– nizolarni konstruktiv hal qilish madaniy farqlardan kelib chiqadigan kelishmovchiliklarni muloqot va murosaga yo‘naltirish;

– hissiy yaqinlikni mustahkamlash sheriklar o‘rtasida ishonch, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va psixologik xavfsizlik muhitini yaratish;

– umumiy oilaviy qadriyatlarni shakllantirishchi har ikki madaniyatning musbat jihatlarini sintez qilish orqali oilaga xos yagona qadriyatlar tizimini yaratish.

Ushbu yo‘nalishlarni kompleks tarzda amalga oshirish ikki millatli oilalarda sog’lom psixologik muhitni shakllantirishga, madaniy farqlarni boylik sifatida qabul qilishga va oilaviy munosabatlarning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, ikki millatli oilalarda psixologik moslashuv — bu shaxsiy, oilaviy va madaniy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadigan ko‘p qirrali jarayon. Uning nazariy asoslari J. Berry, M. Bennett, M. Bowen va R.S. Lazarus kabi olimlarning akkulturatsiya, madaniyatlararo sezgirlik, oila tizimlar va stressga moslashish nazariyalarida mustahkam ilmiy zamin topgan. Amaliy asos sifatida esa madaniyatlararo muloqot, empatiya, rolli muvofiqlik, hissiy yaqinlik va umumiy qadriyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompleks psixologik trening dasturlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ushbu yondashuv ikki millatli oilalarda psixologik moslashuvni muvaffaqiyatli rivojlantirishning asosiy shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berry, J. W. (1997). Immigration, acculturation, and adaptation. *Applied psychology*, *46*(1), 5-34.
2. Folkman, S. (2020). Stress: appraisal and coping. In *Encyclopedia of behavioral medicine* (pp. 2177-2179). Cham: Springer International Publishing.
3. Bennett M.J. Basic Concepts of Intercultural Communication: Paradigms, Principles, and Practices. Boston: Intercultural Press, 2013. 296 p.
4. Bowen, M. (1993). *Family therapy in clinical practice*. Bloomsbury Publishing PLC.
5. Falicov C.J. Multicultural Perspectives in Family Therapy. New York: Guilford Press, 2014. 402 p.
6. Walsh F. Strengthening Family Resilience. 3rd ed. New York: Guilford Press, 2016. 422 p.
7. Gottman J.M., Silver N. The Seven Principles for Making Marriage Work. New York: Harmony Books, 2015. 320 p.
8. Rogers C.R. On Becoming a Person: A Therapist’s View of Psychotherapy. Boston: Houghton Mifflin, 1961. 420 p.
9. Roziqova, M. (2025). Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari. *Maktabgacha va Maktab Ta’limi Jurnali*, 675094.
10. Roziqova, M. O. Q. (2026). RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MILLATLARARO NIKOHLARNING SHAKLLANISHIGA TA’SIRI. *Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi*, (4), 52-54.

RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA KICHIK MAKTAB YOSHI O‘QUVCHILARINING O‘QUV MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Babajanova Gulmira Muratbayevna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Xorijiy filologiya fakulteti tyutori.
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21898927

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli ta'lim sharoitida kichik maktab yoshi o‘quvchilarining o‘quv motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarni boshlang‘ich ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, interaktiv metodlar va gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishi hamda ichki motivatsiyasini rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, kichik maktab yoshining psixologik xususiyatlari va o‘qituvchining pedagogik mahorati zamonaviy ilmiy manbalar asosida asoslangan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta'lim, o‘quv motivatsiyasi, kichik maktab yoshi, boshlang‘ich ta'lim, gamifikatsiya, interaktiv metodlar, AKT, raqamli kompetensiya.

Abstract. This article analyzes the pedagogical foundations of developing learning motivation in primary school students in digital education. The role of integrating digital technologies into the primary education process, using interactive methods and gamification elements in developing students' interest in knowledge and internal motivation is highlighted. Also, the psychological characteristics of primary school students and the pedagogical skills of the teacher are based on modern scientific sources.

Keywords: digital education, learning motivation, primary school age, primary education, gamification, interactive methods, ICT, digital competence.

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические основы развития учебной мотивации у учащихся начальной школы в условиях цифрового образования. Подчеркивается роль интеграции цифровых технологий в процесс начального образования, использования интерактивных методов и элементов геймификации в развитии интереса учащихся к знаниям и внутренней мотивации. Также на основе современных научных источников рассматриваются психологические характеристики учащихся начальной школы и педагогические навыки учителя.

Ключевые слова: цифровое образование, учебная мотивация, начальная школа, начальное образование, геймификация, интерактивные методы, ИКТ, цифровая компетентность.

Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari jadal rivojlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ta'lim tizimini raqamlashtirishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilaydi [1]. Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ham raqamli vositalarning zamonaviy o‘quv jarayonini tashkil etishdagi ahamiyatini asoslaydi [2].

Kichik maktab yoshi bolaning shaxs sifatida shakllanishida, bilish jarayonlari va o‘quv motivlarining rivojlanishida muhim davr hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, agar o‘quvchida ta'lim olishga nisbatan motivatsiya yetishmasa, buning sababi ko‘pincha muvaffaqiyatsizlik tajribasi, intellektual passivlik yoki xulq-atvordagi og‘ishlar bilan bog‘liq bo‘ladi [3]. Shu bilan birga, o‘quv motivatsiyasining shakllanishi oila a'zolari bilan munosabatlar va bolaning yetakchi faoliyati orqali ham belgilanadi [4]. Aynan shu bois o‘quv motivatsiyasini rivojlantirish ta'lim psixologiyasi va pedagogikasining muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [3].

Ilmiy adabiyotlarda o‘quv motivatsiyasini rivojlantirishning nazariy-psixologik va pedagogik asoslari alohida tahlil qilinib, unda ichki (intrinsik) va tashqi (ekstrinsik) motivatsiya tushunchalari o‘rtasidagi farq ilmiy asoslangan hamda ularning bilishga, hissiy va ijtimoiy mexanizmlar bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan [3]. Xususan, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘quv motivatsiyasini shakllantirishda o‘quvchi-markazli, o‘yinga asoslangan va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlarning ahamiyati alohida ta'kidlanadi, bunda rivojlangan davlatlar — jumladan Finlyandiya, Yaponiya va Kanada — tajribasi barqaror motivatsiyani shakllantirishning samarali modeli sifatida keltiriladi [3].

Kichik maktab yoshi davrida bolaning psixikasida sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi: bu davr bolani maktab ta'limiga tayyorlash hamda uning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirish nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi [5]. Bu yoshdagi bolalarning diqqati, xotirasi va emotsional holati hali barqaror

shakllanmagan bo‘lib, bu holat ularning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabatiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Shu sababli o‘qituvchidan nafaqat metodik, balki bolaning yosh psixologik xususiyatlarini chuqur bilish ham talab etiladi [5].

So‘nggi yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlarda gamifikatsiya — ya'ni o‘yin elementlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish — o‘quv jarayonini yanada samarali va jalb qiluvchi qilish vositasi sifatida ko‘rsatiladi. Bu usul o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, o‘rganish jarayonini interaktiv va qiziqarli qilishga xizmat qiladi [6]. Gamifikatsiya elementlarini (ball, reyting, missiya tizimlarini) o‘quv jarayoniga joriy etish tizimini yaratishga qaratilgan tadqiqotlar ham bu yondashuvning o‘quvchilar bilimini oshirishdagi amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi [7]. Shuningdek, raqamli ta'limni pedagogik-psixologik nuqtai nazardan tahlil qiluvchi ishlarda zamonaviy raqamli vositalarning o‘quvchining bilishga bo‘lgan tabiiy ehtiyojini kuchaytirish imkoniyatiga ega ekanligi ko‘rsatilgan [8].

Interfaol metodlar va o‘yin orqali o‘qitish, xususan turli ko‘rgazmali va bilimdonlik faoliyatlari, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish hamda ularni faol ishtirok etishga undashda muhim rol o‘ynaydi. Bunday metodlar o‘quvchi-markazli ta'limni tashkil etishga xizmat qiladi: o‘quvchilar o‘z qiziqishlari asosida faoliyat tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Raqamli ta'lim sharoitida pedagogning vazifasi faqat axborotni uzatish bilan cheklanmaydi. U o‘quv faoliyatini tashkil etuvchi va motivatsiyani qo‘llab-quvvatlovchi fasilitator sifatida faoliyat yuritadi. Bunda o‘qituvchidan raqamli vositalarni nafaqat texnik jihatdan bilish, balki ularni o‘quvchining yosh va individual xususiyatlariga moslashtirib qo‘llay olish mahorati talab etiladi [1; 5]. Interaktiv metodlar, elektron ta'lim platformalari va gamifikatsiya elementlaridan maqsadli foydalanish kichik maktab yoshidagi bolalarda o‘quv faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi [6; 7].

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta'lim muhitida o‘quv motivatsiyasini rivojlantirish pedagogik, psixologik va texnologik omillarning uyg‘unligini talab etadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy raqamli vositalardan, xususan gamifikatsiya va interfaol metodlardan, ilmiy asoslangan holda foydalanish o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi [3; 6; 7]. Bu esa boshlang‘ich ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi va kelgusi tadqiqotlarda amaliy-eksperimental tekshiruvlar orqali chuqurroq o‘rganilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A.A. Ta'limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son Farmoni “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. – www.lex.uz/docs/5030957.
3. Botirovna, Q. F. (2026). PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING LEARNING MOTIVATION AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Shokh Articles Library*, *1*(1), 706-710.
4. Turumbetova, A. Y. (2024). PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF FORMATION OF LEARNING MOTIVATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, *5*(06), 196-204.
5. Qizi, A. R. B., Qizi, A. M. A., & O‘g‘li, O. O. B. (2025). KICHIK MAKTAB YOSHI DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI. *Central Asian Journal of Education and Innovation*, *4*(5-2), 120-122.
6. Sobirovna, S. Y. (2025). GAMIFIKATSIYA (O ‘YIN ELEMENTLARINI QO ‘LLASH): TA’LIM JARAYONINI QIZIQARLI VA SAMARALI QILISH. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, *2*(2), 37-41.
7. Rahmonova N. (2025). O‘quvchilarning bilimini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanish tizimini yaratish. Research and Implementation, 3(12), 24–28. Retrieved from https://rai-journal.uz/index.php/rai/article/view/1824
8. qizi Solixova, R. N. Q. (2025). DIGITAL EDUCATION: PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS FROM A SOCIOLINGUISTIC VIEWPOINT. *O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari*, 268-272.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA GEORTONIM KOMPONENTLI XULQ-ATVOR KONSEPTI IFODALOVCHI PAREMIYALAR

Pulatova Muhayyo Azimboyevna
UrDU tayanch doktarant
muhayyo_pulatova@mail.ru
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21899007

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida geortonim komponentli xulq-atvor konsepti ifodalovchi paremiyalar lingvokognitiv va lingvomadaniy jihatdan tahlilga tortiladi.
Kalit so‘zlar: paremiya, geortonim, konsept, konseptual metofra, antroposentrik, kognitiv, lingvomadaniy.
Abstract: This article presents a linguocognitive and linguocultural analysis of paremias in English and Uzbek that express the concept of behavior and contain geortonymic components.
Keywords: paremia, heortonym, concept, conceptual metaphor, anthropocentric, cognitive, cultural.
Аннотация: В данной статье с лингвокогнитивной и лингвокультурной точек зрения анализируются паремии, выражающие поведенческие концепции с георфоническим компонентом в английском и узбекском языках.
Ключевые слова: паремия, георфон, концепция, концептуальная метафора, антропоцентрический подход, когнитивный подход, лингвокультурный подход.

Kirish. Konsept antroposentrik tilshunoslik, xususan, lingvomadaniyatshunoslik fani doirasida ham ko‘p ishlatiladigan tushuncha hisoblanadi. Atoqli ot tarkibli paremiyalarda onomastik komponent tushunchani emas, konseptni faollashtiradi. Biroq bu turdagi paremiyalar boshqa lingvomadaniyatda ifodalanganda tushunchaga teng bo‘lib qolishi mumkin, chunki konseptning milliy madaniy qatlamlari boshqa tilda mavjud emas. Shu jihatdan, lingvokulturologiya yo‘nalishida faoliyat olib borayotgan olimlar uchun konsept ma’lum lisoniy madaniyatning o‘ziga xosligi belgisidir va bu belgilar borliq narsa hodisalarning har bir millat, elat turmush tarzi, yashash ehtiyoji, madaniyatiga mos holda idrok etilishi va kategoriyalashtirilishiga bog‘liq. Kognitiv lingvistikada esa konsept til birliklarining ma’nosi bilan bog‘liq holda o‘rganiladi va shunga binoan tafakkur birligi sifatida qaralayotgan konseptni qoliplashtirishda til birliklariga tayaniladi [13; 283].

Geortonim – har qanday bayram, festival, xotira kunlari va mana shu xildagi marosim va tadbirlarga berilgan atoqli ot[2; 39]. Ingliz va o‘zbek tillarining lisoniy manzarasida paremiyalar, xususan, geortonim komponentli paremiyalar mazmunini to‘laqonli anglash ayrim hollarda murakkablik tug’diradi. Bunday vaziyatlarda paremiyalar tarkibida qo‘llangan geortonimning antroposentrik tasnifi, ular bilan bog’liq konseptlarning inson tafakkurida shakllanish va rivojlanish bosqichlari, shuningdek, paremiyaning tarkibiy tuzilishi hamda umumiy semantik mazmuni haqidagi bilimlar ushbu birliklarning mohiyatini chuqurroq talqin qilishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Kognitiv tilshunoslikda konsept inson miyasi va tafakkuri orqali o‘rganiladi. Amerika kognitiv maktabi vakillari G.Lakoff, M.Johnson, E.Rosch; rus kognitiv maktabi vakillari – Y.S.Kubryakova, Z.D.Popova, I.A.Sterninlar konsept tushunchasiga, asosan, kognitiv jihatdan yondoshganlar. Lingvokulturologiyada, konsept madaniyat va xalq tafakkuri doirasida tadqiq qilinadi. Moskvada XX asrning oxirida to‘rtta lingvokulturologik maktab: V.N.Teliya maktabi, V.V.Vorobyov va V.M.Sheklein maktabi, N.D.Artyunova maktabi, Y.S.Stepanov maktabi vujudga keladi va ular lingvomadaniy birliklarni turli jabhalarda o‘rganadi[1; 24]. Ingliz va o‘zbek tilshunosligida geortonim tarkibli paremiyalarning xulq-atvor konsepti ifodalashi alohida tahlilga tortilgan ishlar uchramaydi. Ushbu maqolada ikki tildagi paremiyalar paremiologik lug’atlar va maqollar to‘plamlaridan olinib tahlil qilindi va manbaalar havola shaklida ko‘rsatildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi atoqli ot komponentli paremiyalar antroposentrik paradigma doirasida kognitiv, lingvomadaniy metodlar bilan birga sinxron, diaxron, komponent tahlil va boshqa metodlardan foydalangan holda konseptual tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida har bir tilning maqol va matallari shu tilda so‘zlashuvchi xalqning kognitiv tafakkuri mahsuli ekani asoslab beriladi hamda paremiyalar tarkibidagi turli onomastik birliklar muayyan konseptlarni ifodalashi va milliy-madaniy bilimlarni aks ettirishi yoritiladi.

Tahlil va natijalar. Ingliz tilidagi A dog is for life, not just for Christmas [3; 69], A green Yule makes a fat churchyard [4; 97], If Candlemas day be sunny and bright, winter will have another flight [4; 36], Candlemas day, put beans in the clay; put candles and candlesticks away [4; 38], Saint Swithun’s day, if thou be fair, for forty days it will remain [4; 180], On Saint Thomas the Divine kill all turkeys, geese, and swine [4; 138], Barnaby bright, Barnaby bright, the longest day and the shortest night [4; 37] kabi paremiyalarda Christmas, Yule, Candlemas, Saint Swithun’s day kabi geortonimlar tabiiy-mavsumiy va irm-sirim freymlar doirasida idrok etiladi. Oxirgi uchta paremiyada turli xil kognitiv usullar bilan agionim geortonimga aylangan.

“*A dog is for life, not just for Christmas*” [3; 69] paremiyasida *Christmas* – geortonimi vaqtinchalik ishtiyoq va uzoq muddatli mas’uliyat o‘rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi. Bayram kayfiyati vaqtinchalik lekin mas’uliyat abadiy degan kognitiv sxemaga asoslanadi. Bu maqol “Mas’uliyatsizlik” mikrokonseptining zamonaviy ingliz paremiologiyasidagi eng yorqin ifodasidir.

“A green Yule makes a fat churchyard” [4; 97] paremiyasi insonning avlodlar davomida to‘plangan mavsumiy kuzatuv tajribasini bayram nomi orqali ixcham shaklga keltirish qobiliyatini namoyon etadi. Yule — qadimgi german va skandinav xalqlarining qishki kun to‘xtashi (winter solstice, 21–22 dekabr) munosabati bilan nishonlangan an’anaviy bayramidir. Paremiya xalq ongida faqat diniy sana emas, balki qish, sovuq va tabiat muvozanati bilan bog’liq keng madaniy freymni ifodalaydi. Paremiyada Yule — tabiiy alomat metaforasi hisoblanadi va iliq qish kasallik va o‘lim ko‘payishi bildiradi. Bu bog’liqlik abstrakt mantiqqa emas, avlodlar kuzatuviga asoslangan tajribaviy bilimga tayanadi. “Fat churchyard” iborasi metonimiya orqali o‘lim ko‘pligi hodisasini ixcham va ta’sirli tarzda ifodalaydi.

O‘zbek tilidagi Arafa kuni yolg’on gapirganning namoz kuni yuzi qora [5; 257], Hayitdan keyin Arafa [5; 420], Yomg’ir kuni ot tanlama, hayit kuni qiz tanlama![6; 98], Xayit – hammaniki, to‘y – tegishliniki [7; 253], Xayitdan keyin xinani ketingga qo‘y [M5. 1987, 342], Xayosizga – har kuni hayit [8; 341], Siyrak elak kunda kerak, taxta elak xayitda kerak [6; 185], Betamizga besh kun xayit [6; 42], Bilganga bir kun hayit, bilmaganga – uch kun [6; 43], Qurbon, qurbonda to‘ymaganni xudo urgan [5; 363], Ikki jinni qo‘shildi – bo‘ldi bir Qurbon Hayit [9; 128] Navro‘zdan so‘ng qish bo‘lmas, Mezondan so‘ng yoz bo‘lmas [6; 148], [10; 127]; [8; 177]; [11; 31]; [12; 476] kabi paremiyalarida Hayit, Arafa, Navro‘z, Qurbon kabi bayram nomlari paremiya tarkibida kelganda vaqt belgilovchisi yoki axloqiy me’yor o‘lchovi sifatida ishlatiladi. Bayram kuni inson xulqini baholash uchun kognitiv tayanch nuqtasiga aylanadi. O‘zbek tilidagi geortonim tarkibli paremiyalar antroposentrik jihatdan baholovchi funksiyaga ega jamiyat bilan muloqot vositasi bo‘lsa, ingliz tilida tabiyat bilan muloqot vositasidir.

“Navro‘zdan so‘ng qish bo‘lmas, mezondan so‘ng yoz bo‘lmas” [6; 148] Ushbu paremiyada Navro‘z va Mezon geortonimlari oddiy kalendar sanasi sifatida emas, balki inson ongida mavsumiy o‘tishni belgilovchi kognitiv chegara nuqtalari sifatida idrok etiladi. Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan bu hodisa freym tushunchasi bilan izohlanadi. Har bir geortonim o‘zi bilan birga tabiat holati, ijtimoiy marosim va xalq kuzatuvi kabi bilimlar majmuasini faollashtiradi. Paremiyada vaqt — orqaga qaytarib bo‘lmaydigan narsa konseptual metaforasi ishlatilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni ko‘rsatish mumkinki, ikkala tilda ham geortonim tarkibli paremiyalarda xalq milliy dunyoqarashi aks etadi. Ingliz tilida Christmas, Yule, Candlemas, Saint Swithun’s day kabi geortonimlar asosan tabiiy-mavsumiy freym doirasida idrok etilib, inson tabiat hodisalarini kuzatish va bashorat qilish tajribasini ixcham ko’rsatib beradi. O‘zbek tilida esa Hayit, Arafa, Qurbon, Navro‘z kabi bayram nomlari, aksincha, ijtimoiy-axloqiy freym doirasida faoliyat yuritadi. Ular vaqt belgilovchisi vazifasini bajarish bilan birga, insonning xulq-atvorini, halolligini, jamiyat oldidagi mas'uliyatini baholash uchun kognitiv tayanch nuqtasiga aylanadi. O‘zbek tilidagi geortonim tarkibli paremiyalar birinchi navbatda jamiyat bilan muloqot vositasi sifatida shakllangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi TDUTAI universiteti, 2019. – 248 b.

2. Rajabov F. O‘zbek onomastikasi. – Qarshi: Intellekt nashriyoti, 2023. – 221 b.

3. The dictionary of modern proverbs. Charles C. Doyle, Wolfgang Mieder, Fred Shapiro New Haven and London, Yale University Press, 2012. P 308.

4. Speake J., Simpson J. Oxford Dictionary of Proverbs. Fifth edition. – N.Y.: Oxford University Press, 2008. – 625p.

5. T. Mirzayev, A, Musoqulov, B Sarimsoqov. O’zbek xalq maqollari. Toshent: “Sharq”, 2019. - 512b.

6. Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Т., 1984. 289 б.
7. Е. Сиддиқов. Қанотли сўзлар: Maqollar, matallar, hikmatli so’zlar. – Т.: Ёш гвардия, 1986.— 256 б.
8. Шотурсин шомақсудов. Шухрат Шораҳмедов. Нега шундай деймиз. Тошкент, Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987. – 352б.
9. Шомақсудов Шотурсун, Шораҳмедов Шуҳрат. Маънолар махзани. - Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. - 448 б.
10. Shomirza Turdimov, Yo’ldosh rahmatov. MAQOLLAR. O’zbek xalq maqollari. – Toshkent: “zabarjad Media”, 2024. – 272b.
11. Sultonov Vohid.X. “Xorazm xalq maqollari” Xorazm: “Mahmud Az-Zamaxshariy” 2024. – 60 b.
12. O’zbek xalq maqollari. T. Mirzayev, A, Musoqulov, B Sarimsoqov Toshent: “Sharq”, 2005. - 512b.
13. Сафаров. Ш. Семантика. – Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2013. – Б.347

JADIDCHILIK HARAKATINING IJTIMOIY TARKIBI VA PEDAGOGIK AHAMIYATI.

Ahmedov Temurjon Yusubbayevich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21899088

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakatining ijtimoiy tarkibi va uning millat ma’rifati hamda taraqqiyotidagi pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif jadidchilik shunchaki ziyolilar guruhi emas, balki ularning tarkibiga ilg‘or fikrli ulamolar, savdogarlar, sanoatchilar va yosh hunarmandlarni birlashtirgan keng qamrovli ijtimoiy harakat bo‘lganini ochib beradi. Tadqiqot ishida jadidlarning ta’lim tizimini isloh qilish, “usuli jadid” (yangi usul) maktablarini tashkil etish, darsliklar yaratish va dunyoviy bilimlarni targ‘ib qilish borasidagi xizmatlari pedagogik nuqtai nazardan baholangan. Shuningdek, harakat namoyandalarining barkamol avlod tarbiyasi, xotin-qizlar ta’limi va milliy o‘zlikni anglash g‘oyalari bugungi kun zamonaviy ta’lim tizimi uchun ham muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilishi alohida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, Turkiston ziyolilari, ijtimoiy tarkib, usuli jadid, pedagogik islohotlar, milliy ma’rifatparvarlik, darsliklar, dunyoviy ta’lim, tarbiya, milliy o‘zlikni anglash.

Аннотация. В данном исследовании анализируется социальный состав джадидского движения, возникшего в Туркестане в конце XIX — начале XX века, и рассматривается его педагогическое значение для просвещения и прогресса нации. Автор показывает, что джадидизм представлял собой не просто группу интеллектуалов, а широкое общественное движение, объединившее прогрессивно мыслящих религиозных деятелей, купцов, промышленников и молодых ремесленников. В работе с педагогической точки зрения оценивается вклад джадидов в реформирование системы образования, создание школ системы «усуль-и джадид» (нового метода), разработку учебных пособий и распространение светских знаний. Кроме того, обосновывается, каким образом идеи движения, касающиеся воспитания гармонично развитого поколения, женского образования и национального самосознания, служат важными ориентирами для современной системы образования.

Ключевые слова: джадидизм, туркестанская интеллигенция, социальный состав, «усуль-и джадид» (новый метод), педагогические реформы, национальное просвещение, учебники, светское образование, воспитание, национальное самосознание.

Abstract. This study analyzes the social composition of the Jadid movement—which emerged in Turkestan during the late 19th and early 20th centuries—and examines its pedagogical significance regarding the enlightenment and progress of the nation. The author demonstrates that Jadidism was not merely a group of intellectuals but a broad social movement uniting progressive religious scholars, merchants, industrialists, and young artisans. The study evaluates, from a pedagogical perspective, the Jadids' contributions to reforming the education system, establishing “usul-i jadid” (new method) schools, creating textbooks, and promoting secular knowledge. Furthermore, it substantiates how the movement's ideas concerning the upbringing of a well-rounded generation, women's education, and national self-awareness serve as vital guiding principles for today's modern education system.

Keywords: Jadidism, Turkestan intelligentsia, social composition, “usul-i jadid” (new method), pedagogical reforms, national enlightenment, textbooks, secular education, upbringing, national self-awareness.

Kirish. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida vujudga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish va istiqlol g‘oyalarining tamal toshini qo‘ygan eng muhim tarixiy hodisalardan biridir. Bugungi kunda O‘zbekistonda yangi Renessans poydevorini yaratish, uchinchi renessans g‘oyalarini ilgari surish va ta’lim tizimini tubdan isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Ushbu maqolada jadidlarning ma’rifiy merosi, ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari va milliy o‘zlikni anglash yo‘lidagi kurashini o‘rganish nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jadidchilikning ijtimoiy bazasini va ularning pedagogik konseptlarini chuqur tahlil qilish, bugungi kun zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish va hozirgi yoshlar qalbida milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tarixshunoslikda jadidchilik harakati ko‘p hollarda faqat tor doiradagi ziyolilar yoxud adiblar faoliyati sifatida talqin qilinadi, bu esa uning keng qamrovli ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyatini to‘liq

ochib bermaydi. Bu harakatning ijtimoiy tarkibini tashkil etgan turli qatlamlar (boy savdogarlar, hunarmandlar, ilg‘or ulamolar) o‘rtasidagi aloqalar hamda ularning iqtisodiy-ijtimoiy drayver sifatidagi roli mukammal tizimlashtirilmagan. Bundan tashqari, jadid pedagogikasining “usuli jadid” maktablaridan ancha kengroq bo‘lgan konseptual asoslari — dunyoviy va diniy ilmlar integratsiyasi, xotin-qizlar ta’limi hamda milliy tarbiya metodologiyasi bugungi kun pedagogika fani nuqtai nazaridan yetarlicha yaxlit holda tadqiq etilmagan.

Ushbu tadqiqotning asl maqsadi-Jadidchilik harakatining ijtimoiy tarkibiy qismlarini har tomonlama tasniflash hamda ularning o‘lka ma’rifatparvarlik tizimiga ko‘rsatgan pedagogik ta’sirini aniqlashdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqib, harakatning ijtimoiy asoslarini (sarmoyadorlar va ijrochilar hamkorligi), jadid maktablarining ta’limiy-tarbiyaviy o‘ziga xosliklarini hamda ularning bugungi zamonaviy o‘zbek pedagogikasi uchun ahamiyatli bo‘lgan jihatlarini ochib berish vazifasi belgilangan.

Mazkur harakatning ijtimoiy tarkibi va pedagogik qarashlarini chuqur anglash uchun tarixchi, sotsiolog va pedagog olimlarning tadqiqotlariga murojaat qilish lozim. Quyida ushbu mavzu doirasidagi 4 ta asosiy fundamental manbaning qisqacha adabiyot sharhi (tahlili) keltirilgan:

1. Adeeb Khalid — “The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia” (Markaziy Osiyoda musulmon madaniy islohotchiligi siyosati: Jadidchilik)

Ushbu manba xalqaro miqyosda jadidchilik tarixini tizimli o‘rgangan eng nufuzli manbalardan biridir.

Edib Xolid jadidlarni shunchaki diniy islohotchilar emas, balki yangi ijtimoiy qatlam — “yangi ziyolilar” (yangi o‘qimishlilar) sifatida tahlil qiladi. Muallif harakatning ijtimoiy tarkibida matbaa, gazeta va jadid maktablari atrofida birlashgan yoshlarni ko‘rsatib beradi.

Mazkur kitobda “usuli jadid” maktablarining an’anaviy maktab-madrasalardan farqi, darsliklar yaratish jarayoni va savodxonlikni oshirish orqali jamiyatni modernizatsiya qilish (yangilash) g‘oyalari ijtimoiy-siyosiy kontekstda ochib berilgan.

2. D. Alimova — “Jadidchilik harakati: mafkurasi, shakllanishi va rivojlanishi”

Ushbu manba O‘zbekiston tarixshunosligida jadidchilikning ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy ildizlarini ochib bergan fundamental tadqiqot hisoblanadi.

Akademik D. Alimova jadidchilikning ijtimoiy tarkibini juda aniq tasniflab bergan. U harakat nafaqat ijodkor ziyolilardan, balki o‘lka taraqqiyoti uchun mablag‘ ajratgan yirik o‘zbek sarmoyadorlari (boylar, savdogarlar, sanoatchilar — masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, boy, boyvachchalar) va ilg‘or ulamolardan iborat bo‘lganini arxiv hujjatlari asosida isbotlaydi.

Mazkur manbaning pedagogik ahamiyati shundaki, Muallif jadidlarning pedagogik qarashlari milliy mustaqillik va o‘zlikni anglash g‘oyasi bilan qanchalik uzviy bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi. Ta’lim tizimidagi islohotlar — millatni asoratdan qutqarishning bosh omili sifatida baholangan.

3. S. Dolimov, U. Dolimov — “Jadidchilik va jadidlar pedagogikasi” / U. Dolimov — “Turkistonda jadid maktablari”.

Ushbu manba Jadidchilikning bevosita pedagogik yo‘nalishi, ta’lim metodikasi va darsliklar tarixiga bag‘ishlangan eng mukammal tadqiqotlardan biridir.

Yuqoridagi asarlarda jadidlarning maktab islohotlari, dars jadvallari, o‘qitish usullari va maktab boshqaruvi tizimi pedagogik jihatdan tahlil qilingan.

Mualliflar Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi avval”, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Riyozun-nosihin”, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi darsliklarining tarkibi va tarbiyaviy metodikasini ochib berishadi. Asar jadid pedagogikasining dunyoviy va diniy ilmlarni uyg‘unlashtirish tamoyilini tahlil qilishda bosh manba bo‘lib xizmat qiladi.

4. Begali Qosimov — “Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik”

Ushbu manbaning mohiyati shundan iboratki, O‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiyoti va ma’rifatparvarlik harakatini o‘rganish bo‘yicha maktab yaratgan olimning eng salmoqli asari hisoblanadi.

B. Qosimov jadidlarning ijtimoiy muhitini va ularning o‘zaro tarmoqlarini (masalan, “Nashriyot” shirkati, “Ko‘mak” jamiyati) tahlil qiladi. U jadidlarni jamiyatning eng faol va fidoyi qatlami sifatida ta’riflaydi.

Kitobda harakat namoyandalarining (Fitrat, Cho‘lpon, Avloniy, Hamza va b.) badiiy va publitsistik asarlaridagi pedagogik g‘oyalar — xotin-qizlar ta’limi, axloqiy tarbiya va til masalalari adabiy-pedagogik rakursdan mukammal tahlil etilgan.

Yuqoridagi barcha manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tarixshunoslik (Edib Xolid) ko‘proq jadidchilikning ijtimoiy-siyosiy strukturasi va modernizatsiyasiga e’tibor qaratsa, mahalliy tadqiqotchilar

(D. Alimova, U. Dolimov, B. Qosimov) harakatning ijtimoiy bazasi bilan birga, uning milliy-pedagogik metodologiyasi va tarbiyaviy konsepsiyalarini ichkaridan chuqur yoritib berishgan.

Tadqiqotda jadidchilik harakatining ijtimoiy qatlamlari va ularning pedagogik merosini ham tarixiy, ham bugungi kun ta’lim tizimi prizmasidan turib o‘rganish uchun aralash metodologik yondashuv (sifat va miqdoriy usullar uyg‘unligi) tanlab olindi.

Tadqiqotning amaliy qismida quyidagi uchta asosiy usul qo‘llanildi:

1. Sifatli intervyu (Ekspertlar so‘rovi)

Jadidchilikning ijtimoiy tuzilishi va ularning pedagogik konseptlarini chuqur ilmiy tahlil qilish maqsadida soha mutaxassislari bilan maqsadli intervyular o‘tkazildi.

Jadidshunos tarixchi olimlar, pedagogika bo‘yicha professor-o‘qituvchilar va muzey ilmiy xodimlari (jami 10 ta ekspert).

Intervyu davomida jadidlarning “usuli jaded” maktablarida qo‘llagan psixologik-pedagogik metodlari, dunyoviy va diniy ta’lim integratsiyasi hamda harakatning iqtisodiy tayanchi bo‘lgan boylar va ulamolar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarning mohiyati haqida yarim-strukturalashgan savollar berildi.

Ushbu usul tarixiy manbalarda yuzaki yoritilgan ijtimoiy munosabatlarni ekspertlar yordamida chuqurroq anglash va pedagogik g‘oyalarning falsafiy asoslarini ochib berishga xizmat qildi.

2. Anketa so‘rovnomasi (Miqdoriy tahlil)

Jadidlar ilgari surgan pedagogik g‘oyalar va tarbiya metodlarining bugungi kun zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni va ulardan xabardorlik darajasini aniqlash maqsadida miqdoriy so‘rovnoma tashkil etildi.

Umumta’lim maktablari o‘qituvchilari, pedagogika yo‘nalishi talabalari va maktab o‘quvchilarining ota-onalari (jami 150 ta respondent).

Anketa savollari respondentlarning Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi jadidlarning pedagogik asarlari (masalan, “Turkiy guliston yoxud axloq”) haqidagi bilimlarini hamda zamonaviy maktablarda ularning qaysi metodlaridan (interaktivlik, axloqiy tarbiya prinsiplari) foydalanish zarurligi haqidagi fikrlarini baholashga qaratildi.

So‘rovnoma natijalari orqali jadid pedagogikasining jamiyatdagi bugungi nufuzi va uni darsliklarga tizimli kiritish ehtiyoji statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilindi.

3. Pedagogik tajriba-sinov (Eksperiment)

Jadidlarning pedagogik qarashlari, xususan, axloqiy tarbiya va tanqidiy fikrlashni shakllantirish metodikasining bugungi yoshlar tarbiyasidagi samaradorligini tekshirish uchun qisqa muddatli tajriba o‘tkazildi.

Tanlab olingan maktabning yuqori sinf o‘quvchilari o‘rtasida “Tarix” va “Tarbiya” darslarida jadid o‘qitish tizimining elementlari sinab ko‘rildi. Xususan, tajriba (eksperiment) guruhida darslar an’anaviy ma’ruzadan voz kechib, jadidlarning matbuot va teatr orqali jamiyatni uyg‘otish metodiga taqlidan “bahs-munozara (debatlar)” va “sahnali ko‘rinishlar” shaklida tashkil etildi. Nazorat guruhida esa darslar odatiy darslik dasturi asosida o‘tildi.

Tajriba yakunida eksperiment guruhidagi o‘quvchilarning milliy tarixga bo‘lgan qiziqishi, mustaqil va tanqidiy fikrlash darajasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi pedagogik testlar orqali aniqlandi. Bu esa jadid pedagogikasining bugungi kun uchun ham universal va samarali ekanini amalda isbotladi.

Mazkur uchta usulning birgalikda qo‘llanishi tadqiqotning faqatgina tarixiy nazariya bo‘lib qolmasdan, balki zamonaviy ta’lim tizimiga amaliy tavsiyalar bera oladigan fundamental ish bo‘lishini ta’minlaydi.

Yuqorida o‘tkazilgan ekspertlar intervyusi, 150 nafar respondent (o‘qituvchilar, talabalar va ota-onalar) o‘rtasidagi anketa so‘rovi hamda pedagogik tajriba-sinov ishlari natijasida quyidagi muhim ma’lumotlar qo‘lga kiritildi.

1. Jadidchilik harakatining ijtimoiy tarkibi tahlili

Ekspertlar va arxiv hujjatlari tahliliga ko‘ra, Turkistondagi jadidchilik harakati faqatgina ijodkor ziyolilardan iborat bo‘lmagan. Harakatning real ijtimoiy tarkibi va ularning moliyaviy-g‘oyaviy hissasi quyidagi nisbatda aniqlandi:

Ijtimoiy qatlam	Harakatdagi asosiy funksiyasi (roli)	Foizdagi ulushi (%)
Ijodkor ziyolilar va adiblar	G‘oyaviy rahbarlik, darsliklar yozish, matbuot va teatr	35%
Milliy sarmoyadorlar (Boylar/Savdogarlar)	Maktablarni, gazeta va nashriyotlarni moliyalashtirish	25%
Ilg‘or va islohotchi ulamolar	Diniy ta’limni modernizatsiya qilish, harakatni huquqiy qo‘llash	20%
Yosh hunarmandlar va xizmatchilar	Maktabxonlar, gazeta tarqatuvchilar va teatr aktyorlari	20%

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, harakatning deyarli 45% qismini (sarmoyadorlar va ulamolar) iqtisodiy va diniy elitaga mansub qatlam tashkil etgan. Bu esa jadidchilikning o‘z davrida juda kuchli ijtimoiy-iqtisodiy bazaga ega bo‘lganidan dalolat beradi.

2. Anketa so‘rovnomasi natijalari

“Jadid pedagogikasining qaysi jihatlarini bugungi kun maktablarida qo‘llash zarur?” degan savolga olingan javoblar statistikasi quyidagi strukturani ko‘rsatdi:

Dunyoviy va diniy bilimlarni uyg‘unlashtirish: 42%
Tanqidiy fikrlash va interaktiv metodlar (Debatlar, teatr): 28%
Axloqiy tarbiya (Abdulla Avloniy metodikasi): 20%
Xotin-qizlar ta’limini kuchaytirish: 10%

Ushbu natijalarni aniqroq yoritish va respondentlarning umumiy xabardorlik darajasini ko‘rish uchun quyidagi grafik hisobot tayyorlandi:

[Jadid pedagogikasi elementlarini bugungi kunda qo‘llash zaruriyati]

Bilimlar integratsiyasi (Dunyoviy + Diniy)	42%
Tanqidiy fikrlash va interaktivlik	28%
Axloqiy tarbiya tizimi	20%
Xotin-qizlar ta’limi islohoti	10%

3. Pedagogik tajriba-sinov (Eksperiment) natijalari

Jadid o‘qitish metodlari (bahs-munozara, mustaqil fikrlash, publitsistik tahlil) qo‘llanilgan Eksperiment guruhi hamda an’anaviy usulda o‘qitilgan Nazorat guruhi o‘rtasidagi yakuniy test va amaliy topshiriqlar natijalari solishtirildi (100 ballik tizimda):

Baholash mezonlari (Indikatorlar)	Nazorat guruhi (O‘rtacha ball)	Eksperiment guruhi (O‘rtacha ball)	Farq (O‘sish dinamikasi)
Tarixiy jarayonlarni tanqidiy tahlil qilish	62 ball	84 ball	+ 22 ball
Mustaqil va erkin fikrni bayon etish	58 ball	89 ball	+ 31 ball

Baholash mezonlari (Indikatorlar)	Nazorat guruhi (O‘rtacha ball)	Eksperiment guruhi (O‘rtacha ball)	Farq (O‘sish dinamikasi)
Milliy g‘oyaga oid bilimlarni o‘zlashtirish	70 ball	91 ball	+ 21 ball

Pedagogik eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, jadidlarning interaktiv va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim elementlari qo‘llanilganda o‘quvchilarning mustaqil va erkin fikrlash qobiliyati eng yuqori o‘sishni (+31 ball) qayd etdi. Bu esa jadid pedagogikasi prinsiplarining bugungi Uchinchi Renessans yoshlarini tarbiyalashda naqadar samarali ekanini eksperimental tarzda isbotlaydi.

Olingan miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari shunchaki statistik ma’lumotlar emas, balki jadidchilik harakatining tabiati va uning bugungi kun ta’lim tizimidagi o‘rni haqida bir qancha fundamental xulosalarni ochib beradi. Natijalar quyidagi muhim jihatlarni anglatadi:

1. Ijtimoiy tarkib: Jadidchilik — yaxlit ijtimoiy ekotizim.

Tadqiqot natijalarida harakat tarkibining deyarli 45% qismini milliy sarmoyadorlar va ilg‘or ulamolar tashkil etgani ko‘rindi. Bu shuni anglatadiki:

Jadidchilik faqatgina adabiyotchi ziyolilarning sentimental (hissiy) harakati bo‘lmagan. U g‘oya (ziyolilar) + kapital (savdogarlar) + huquqiy-diniy himoya (ulamolar) birlashgan real kuch edi.

Bu ittifoq o‘z davrida milliy burjuaziyaning shakllanayotganidan va jamiyatning elita qatlamlari mustamlakachilik kishanlaridan qutulish uchun ta’limni asosiy qurol deb bilganidan dalolat beradi.

2. Bilimlar integratsiyasi: Bugungi kun uchun eng katta ehtiyoj

Anketa so‘rovnomasida respondentlarning 42% qismi dunyoviy va diniy bilimlarni uyg‘unlashtirish tamoyilini bugungi kun uchun ham eng zarur deb topdi.

Bu natija jamiyatda axloqiy va intellektual ta’lim o‘rtasidagi uzilishdan xavotir borligini ko‘rsatadi.

Jadidlarning “usuli jadid” maktablarida bir vaqtning o‘zida ham Qur’on, ham geografiya, matematika, tabiatshunoslik fanlari o‘qitilgan. Bugungi kunda yoshlarda dunyoviy ilm bilan birga kuchli ma’naviy-axloqiy immunitetni shakllantirishda aynan shu integratsiya metodologiyasidan andoza olish zarurligi anglashiladi.

3. Eksperiment natijasi: Erkin fikr — taraqqiyot drayveri.

Pedagogik tajriba-sinovda jadid metodlari qo‘llanilgan guruhda mustaqil va erkin fikrlashning eng yuqori dinamikani (+31 ball) ko‘rsatgani juda muhim signaldir.

Jadidlar teatrni “ibratxona”, matbuotni esa “millat ko‘zgusi” deb atashgan va o‘quvchilarni yodlashga emas, tahlil qilishga o‘rgatishgan.

Bu natija shuni anglatadiki, bugungi kun maktablarida ham an’anaviy subyekt-obyekt (o‘qituvchi gapiradi, o‘quvchi eshitadi) munosabatlaridan voz kechib, jadidlar singari ta’limga interaktiv, bahs-munozaraga asoslangan metodlarni olib kirish o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini keskin oshiradi.

Natijalar jadidlar yaratgan pedagogik model o‘z davri uchun ham, bugungi Uchinchi Renessans poydevorini yaratish davri uchun ham universal tizim ekanligini anglatadi. Jadidlar ta’limni shunchaki savodxonlik quroli emas, balki milliy o‘zlikni anglash va millatni modernizatsiya qilish (yangilash) mexanizmi sifatida loyihalashtirishgan.

Barcha yuqoridagi o‘tkazilgan tadqiqotlar, arxiv materiallari tahlili, ekspertlar so‘rovi va pedagogik tajriba-sinov ishlari jadidchilik harakatining ijtimoiy asosi va ma’rifiy merosi haqida quyidagi yakuniy xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

XIX asrdagi Jadidchilik harakati shunchaki tor doiradagi ma’rifatparvar ijodkorlar guruhi emas, balki tarkibida milliy sarmoyadorlar (25%) va ilg‘or ulamolarni (20%) birlashtirgan, o‘z davrining kuchli ijtimoiy-iqtisodiy drayveri bo‘lgan tizimli ittifoq edi. Iqtisodiy kapital va g‘oyaviy intilishning birlashishi Turkistonda milliy uyg‘onishning moddiy bazasini yaratgan.

Jadidlarning “usuli jadid” tizimi faqat savodxonlikni oshirishga emas, balki dunyoviy va diniy bilimlarni uyg‘unlashtirishga, shaxs erkinligi hamda milliy o‘zlikni anglashga qaratilgan yaxlit pedagogik konsepsiya bo‘lgan.

Bugungi kun ta’lim jarayonida jadid pedagogikasi elementlaridan (debatlar, sahnali tahlil, publitsistik bahslar) foydalanish o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘rsatkichini (eng yuqori

ko‘rsatkich: +31 ball) keskin oshiradi. Bu esa jadid metodlarining bugungi Uchinchi Renessans yoshlarini tarbiyalashda ham o‘ta samarali ekanini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari va xulosalaridan kelib chiqib, zamonaviy ta’lim va ijtimoiy tizimni takomillashtirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “Tarix” va “Tarbiya” fanlari dasturlariga jadid pedagoglarining (Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori) axloqiy va tarbiyaviy asarlarini shunchaki ma’lumot sifatida emas, balki amaliy keyslar va tahliliy topshiriqlar sifatida kiritish.

Maktab va oliy ta’lim muassasalarida jadidlarning matbuot va teatr orqali jamiyat muammolarini tahlil qilish metodiga tayanib, yoshlarning nutq madaniyati, erkin va tanqidiy fikrlashini rivojlantiruvchi intellektual debat va teatr-studiyalar faoliyatini tizimli yo‘lga qo‘yish.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarining o‘quv dasturlariga “Jadid pedagogikasi va zamonaviy ta’lim metodikasi” nomli maxsus modullarni kiritish orqali zamonaviy o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini boyitish.

Jadid ziyolilarining pedagogik merosi, darsliklari va maqolalarining elektron platformasini (mobil ilova va veb-sayt) yaratish hamda undan pedagogika yo‘nalishi talabalari va yosh tadqiqotchilar uchun ochiq manba sifatida foydalanishni ta’minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va farmonlari

a) Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // Xalq so‘zi, 2022-yil 22-dekabr.

II. Fundamental va zamonaviy tadqiqotlar (Kitoblar, monografiyalar)

a) Alimova D.A. Jadidchilik harakati: mafkurasi, shakllanishi va rivojlanishi. – Toshkent: “Akademiya”, 2000. – 140 b.

b) Xolid Adeeb. Markaziy Osiyoda musulmon madaniy islohotchiligi siyosati: Jadidchilik (Ingliz tilidan tarjima). – Toshkent: “Akademnashr”, 2022. – 416 b.

s) Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2002. – 400 b.

d)Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari.–Toshkent: “Universitet”,2006.–128 b.

e) Dolimov S., Dolimov U. Jadidchilik va jadidlar pedagogikasi. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1993. – 96 b.

f) Ergashev K. Turkistonda jadidchilik harakati va uning ijtimoiy-pedagogik yo‘nalishlari. – Toshkent: “Fan”, 2003. – 160 b.

III. Jadid namoyandalarining pedagogik va tarixiy asarlari

a) Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992. – 160 b.

b) Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchi: B. Qosimov). – Toshkent: “Ma’naviyat”, 1999. – 280 b.

s) Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar (Tuzuvchi va so‘zboshi muallifi: S. Ahmad). – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2003. – 304 b.

d) Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 1998. – 112 b.

IV. Ilmiy maqolalar va davriy nashrlar

a) Karimov N. Jadidchilik – milliy istiqlol mafkurasining asosi // O‘zbekiston tili va adabiyoti. – Toshkent, 2019. – № 3. – B. 12-18.

b) Ziyayeva D.X. Turkiston jadidlarining ijtimoiy-siyosiy dasturlarida ta’lim islohoti masalalari // Sharqshunoslik. – Toshkent, 2021. – № 2. – B. 45-53.

s) Raxmonova M. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlarida axloqiy tarbiya tizimi // Pedagogika. – Toshkent, 2024. – № 1. – B. 89-95.

V. Elektron ta’lim resurslari

a) O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti rasmiy sayti: www.history-institute.uz

b) ZiyoNET axborot-ta’lim tarmog‘i (Jadidlar merosi bo‘limi): www.ziyonet.uz.

ISHLAB CHIQARISH SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHDA KADRLAR TAYYORGARLIGI

Sharopov Temirmalik Rustam o‘g‘li
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0007-1436-7531
E-mail: sharopovtemirmalik@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21899146

Annotatsiya: Zamonaviy ishlab chiqarish sohasida raqamli texnologiyalarning, jumladan sun’iy intellekt, robototexnika, IoT, katta ma’lumotlar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining keng joriy etilishi korxonalar faoliyatining samaradorligini keskin oshirish imkoniyatini berayotgan bo‘lsa-da, bunday innovatsiyalarni samarali qo‘llash uchun malakali, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega kadrlar tayyorgarligi dolzarb muammo sifatida qolmoqda. Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimining ishlab chiqarish sohasidagi yangi texnologik talablarga moslashuvchanligi, kadrlar tayyorgarligidagi mavjud kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Xususan, dual ta’lim tizimi, korxona-ta’lim muassasasi hamkorligi, amaliy yo‘naltirilgan dasturlar hamda doimiy kasbiy rivojlanish (life-long learning) mexanizmlarining ahamiyati alohida ta’kidlanadi. O‘zbekiston sharoitida sanoat korxonalari bilan oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini mustahkamlash orqali ishlab chiqarish samaradorligini barqaror oshirishning ilmiy-asoslangan yechimlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy texnologiyalar, ishlab chiqarish sohasi, kadrlar tayyorgarligi, oliy ta’lim, sanoat 4.0, raqamli transformatsiya, dual ta’lim, amaliy malaka, innovatsion rivojlanish, kasbiy kompetensiyalar

Аннотация: Несмотря на широкое внедрение цифровых технологий, включая искусственный интеллект, робототехнику, Интернет вещей, большие данные и автоматизированные системы управления в современном производстве, предоставляющее возможность значительно повысить эффективность предприятий, подготовка квалифицированных кадров с современными знаниями и навыками для эффективного использования таких инноваций остается актуальной проблемой. В статье анализируется адаптивность системы высшего образования к новым технологическим требованиям производственного сектора, существующие недостатки в подготовке кадров и пути их устранения. В частности, подчеркивается важность дуальной системы образования, сотрудничества предприятий и учебных заведений, практико-ориентированных программ и механизмов непрерывного профессионального развития (обучения на протяжении всей жизни). В условиях Узбекистана предлагаются научно обоснованные решения для устойчивого повышения эффективности производства путем усиления интеграционных процессов между промышленными предприятиями и высшими учебными заведениями.

Ключевые слова: современные технологии, производственный сектор, подготовка кадров, высшее образование, индустрия 4.0, цифровая трансформация, дуальное образование, практические навыки, инновационное развитие, профессиональные компетенции.

Abstract: Although the widespread introduction of digital technologies, including artificial intelligence, robotics, IoT, big data, and automated control systems in modern production, provides an opportunity to dramatically increase the efficiency of enterprises, the training of qualified personnel with modern knowledge and skills for the effective use of such innovations remains an urgent problem. This article analyzes the adaptability of the higher education system to new technological requirements in the production sector, existing shortcomings in personnel training, and ways to eliminate them. In particular, the importance of the dual education system, enterprise-educational institution cooperation, practice-oriented programs, and mechanisms for continuous professional development (life-long learning) is emphasized. In the conditions of Uzbekistan, scientifically based solutions are proposed for sustainably increasing production efficiency by strengthening integration processes between industrial enterprises and higher educational institutions.

Keywords: modern technologies, manufacturing sector, personnel training, higher education, industry 4.0, digital transformation, dual education, practical skills, innovative development, professional competencies.

Kirish. Bugungi kunda dunyo iqtisodiyoti sanoat inqilobi 4.0 davri deb atalayotgan raqamli transformatsiya bosqichida rivojlanayotir. Bu jarayonda ishlab chiqarish sohasi ham tub o‘zgarishlarga duch kelyapti: sun’iy intellekt, robototexnika, Internet narsalar tizimi (IoT), katta ma’lumotlar (Big Data), bulutli hisoblash kabi zamonaviy texnologiyalar korxonalarning ish faoliyatini avtomatlashtirish, resurslarni tejamkor foydalanish hamda mahsulot sifatini keskin yaxshilash imkonini berayotgan. Biroq, texnologik yechimlarning o‘zi ishlab chiqarish samaradorligini avtomatik ravishda oshirmaydi. Aksincha, ularni samarali joriy etish va boshqarish uchun yangi kompetensiyalarga ega, moslashuvchan hamda innovatsion fikrlay oladigan kadrlar tayyorgarligi asosiy omil sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston ham sanoat sohasini zamon talablariga moslashtirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish tizimini shakllantirish yo‘lida qat'iy qadamlar qo‘yayotgan bo‘lsa-da, korxonalarda joriy etilayotgan yangi texnologiyalarga mos keladigan mutaxassislarning yetishmasligi amaliy jihatdan katta to‘sqinlikka aylanmoqda. Oliy ta’lim tizimi hozirda an’anaviy yondashuvlar asosida qurilgan bo‘lib, ko‘pincha amaliyotdagi real ehtiyojlardan ortda qolayotgan dasturlar hamda zamonaviy laboratoriyasiz ta’lim jarayonlari bilan chegaralanib qolmoqda. Shu sababli ham zamonaviy ishlab chiqarish muhitida faqat bilim emas, balki amaliy ko‘nikma, texnologik savodxonlik hamda doimiy o‘rganish qobiliyatiga ega kadrlarni tayyorlash – sanoat rivojlanishining strategik yo‘nalishlaridan biriga aylanib ketdi.

Ushbu maqolada ishlab chiqarish sohasida zamonaviy texnologiyalarni samarali qo‘llashning asosida yotuvchi kadrlar tayyorgarligi tizimini tahlil qilish, mavjud muammolar hamda ularni hal qilish uchun taklif etiladigan yechimlar – ayniqsa oliy ta’lim va ishlab chiqarish sohasi o‘rtasidagi integratsiya orqali – ilmiy jihatdan yoritiladi. Maqolaning asosiy maqsadi – zamonaviy texnologik muhitda raqobatbardosh korxonalarni shakllantirishda oliy ta’limning strategik rolini ko‘rsatish hamda kadrlar tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – ishlab chiqarish sohasida zamonaviy texnologiyalarni samarali joriy etish jarayonida kadrlar tayyorgarligining ahamiyatini ilmiy asoslab, oliy ta’lim tizimining sanoat ehtiyojlariga mos kelish darajasini tahlil qilish hamda ushbu moslikni oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir. Zamonaviy ishlab chiqarish muhitida faqat texnologik infrastrukturaning mavjudligi emas, balki uni tushunib, boshqara oladigan malakali kadrlarning mavjudligi ham xuddi shunchalik muhimdir. Shu bilan birga, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda texnologik yangilanish va kadrlar tayyorgarligi o‘rtasidagi bo‘shliq hali ham keng saqlanib kelmoqda. Shu sababli ham ushbu tadqiqot kadrlar tayyorgarligi tizimini amaliy ehtiyojlarga qanday moslashtirish mumkinligini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

— ishlab chiqarish sohasida qo‘llanilayotgan zamonaviy texnologiyalarning turlari hamda ularni samarali boshqarish uchun talab qilinadigan kasbiy kompetensiyalarni aniqlash;

— oliy ta’lim muassasalarida kadrlar tayyorgarligining joriy holatini, ayniqsa amaliy yo‘naltirilgan bilim va ko‘nikmalar darajasini tahlil qilish;

— korxonalarda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash jarayonida kadrlar tayyorgarligidagi asosiy muammolar va ularning sabablarini aniqlash;

— xalqaro tajriba (ayniqsa, Germaniya, Janubiy Koreya va Singapur kabi mamlakatlar) asosida kadrlar tayyorgarligini takomillashtirishning samarali mexanizmlarini o‘rganish;

— oliy ta’lim tizimi, sanoat korxonalari hamda davlat organlari o‘rtasida uch tomonlama hamkorlikni mustahkamlash orqali kadrlar tayyorgarligini amaliy va innovatsion yo‘naltirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Ushbu vazifalarni bajarish orqali tadqiqot nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda milliy kadrlar tizimini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda nazariy ham, amaliy ham jihatdan chuqur tahlil olib borish maqsadida aralash (mixed methods) yondashuv qo‘llangan bo‘lib, u sifat (qualitative) va miqdoriy (quantitative) tadqiqot metodlarining integratsiyasiga asoslangan. Tadqiqotning nazariy bazasi sifatida zamonaviy ta’lim nazariyalari, kompetensiyaga asoslangan yondashuv (competency-based approach), sanoat 4.0 tushunchasi hamda kadrlar rivojlanishi modeli kabi ilmiy ishlar tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Davlat statistika qo‘mitasi kabi rasmiy manbalardan olingan hujjatlar, strategik dasturlar hamda statistik ma’lumotlar ham tahlil ob’ektiga kiritilgan.

Amaliy jihatdan esa so‘rovnomalar, mutaxassislar bilan suhbatlar (intervyu), ishlab chiqarish korxonalari hamda oliy ta’lim muassasalarining amaliyot doiralarini kuzatish (observation) kabi sifat metodlari qo‘llangan. So‘rovnomalar orqali sanoat korxonalarida ishlovchi mutaxassislarning zamonaviy texnologiyalarga mos kelish darajasi, oliy o‘quv yurti bitiruvchilarining amaliy ko‘nikmalari hamda ish beruvchilarning ehtiyojlari aniqlangan. Intervyular esa ta’lim sohasi mutaxassislari, korxona menejerlari hamda davlat vakillari bilan o‘tkazilib, kadrlar tayyorgarligidagi tizimiy muammolar hamda ularni hal qilish bo‘yicha takliflar to‘g‘ridan-to‘g‘ri manba sifatida yig‘ilgan.

Miqdoriy jihatdan esa O‘zbekiston bo‘ylab turli sohalardagi korxonalar va oliy ta’lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida statistik tahlil (masalan, kadrlar yetishmovchiligi darajasi, texnologik jihozlanganlik darajasi va ular o‘rtasidagi bog‘liqlik) o‘tkazilgan. Xalqaro tajriba ham taqqoslovchi (komparativ) tahlil orqali o‘rganilgan, jumladan Germaniya, Janubiy Koreya va Singapur kabi mamlakatlarning sanoat-kadrlar tayyorgarligi tizimlari O‘zbekiston sharoitiga moslab o‘rganilgan.

Shunday qilib, ushbu metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchliligini, amaliy qo‘llanilish imkoniyatini hamda taklif etilayotgan yechimlarning realistik asosga ega ekanligini ta’minlaydi.

Asosiy natijalar. Olib borilgan tadqiqot jarayonida ishlab chiqarish sohasida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanishda kadrlar tayyorgarligining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlangan. Birinchi navbatda, sanoat korxonalari bilan o‘tkazilgan so‘rovnomalar hamda intervyular natijasida zamonaviy ishlab chiqarish muhitida faqat an’anaviy kasbiy bilimlar emas, balki raqamli savodxonlik, dasturlash asoslari, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari (SCADA, PLC), sensorli monitoring hamda ma’lumotlarni tahlil qilish ko‘nikmalariga ega mutaxassislarning talabi keskin ortayotgani aniqlangan. Biroq, oliy ta’lim muassasalaridan chiqqan bitiruvchilarning aksariyati ushbu kompetensiyalarga ega emasligi, ularning amaliy tajriba darajasi pastligi hamda texnologik yangilanishlarga moslashish qobiliyati yetarli emasligi korxona vakillari tomonidan takroriy ta’kidlangan.

Ikkinchi natija sifatida, oliy ta’lim dasturlarining joriy holatida nazariy bilimlarga nisbatan amaliy yo‘naltirilgan modullarning yetishmasligi, zamonaviy laboratoriyalar va simulatorlarning kamligi, shuningdek, o‘qituvchilarning o‘zlarining ham yangi texnologiyalar bilan yetarlicha tanish bo‘lmasligi tadqiqot natijalarida aniq ko‘rsatilgan. Ayniqsa, texnika-mexanika yo‘nalishlarida o‘qitish dasturlari ko‘pincha 10–15 yil oldingi standartlar asosida qurilgani, yangi texnologik standartlarga (masalan, ISO, IFR, Industry 4.0 komponentlari) mos kelmasligi aniqlangan.

Uchinchidan, xalqaro tajriba tahlili natijasida dual ta’lim tizimi, korxona-ta’lim hamkorligi, hamda xodimlarni doimiy qayta tayyorlash (life-long learning) mexanizmlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarish samaradorligi ancha yuqori darajada ekanligi ko‘rsatildi. Masalan, Germaniyada "duale Ausbildung" tizimi tufayli talabalar o‘qish davrida o‘z kasbini amaliy sharoitda o‘rganadi va bitirgach, korxonalarda darhol ishga qo‘shiladi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda bunday mexanizmlar hali dastlabki bosqichda qolganligi, ularning qonuniy ham, moliyaviy ham bazasi yetarli rivojlanmaganligi aniqlangan.

Nihoyat, tadqiqot natijasida oliy ta’lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari hamda davlat idoralari o‘rtasida uch tomonlama hamkorlikni mustahkamlash orqali kadrlar tayyorgarligini amaliy va innovatsion yo‘naltirishning real yo‘llari aniqlangan. Jumladan, korxonalar bilan hamkorlikda amaliyot markazlarini tashkil etish, virtual laboratoriyalar yaratish, o‘qituvchilarni zamonaviy texnologiyalarga o‘qitish, hamda kasbga yo‘naltirilgan kichik modulli dasturlarni joriy etish kabi takliflar ishlab chiqilgan.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy ishlab chiqarishni rivojlantirishda texnologiyalar emas, balki ularni tushunib, boshqara oladigan inson kapitali asosiy omildir. Shu sababli ham kelajakda sanoat rivojlanishini ta’minlash uchun oliy ta’limni sanoat ehtiyojlariga dinamik moslashtirish – strategik zarurat sifatida qaralishi lozim.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy ishlab chiqarish sohasida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi — bu nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini, balki butun iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning ham asosidir. Biroq, texnologik yangilanishlarning o‘zi avtomatik ravishda ijobiy natijalarga olib kelmaydi. Ushbu tadqiqot natijalari ko‘rsatib turadiki, zamonaviy ishlab chiqarish muhitida texnologiyalarni samarali qo‘llash, ularni sozlash, nazorat qilish hamda rivojlantirish uchun yangi kompetensiyalarga ega, moslashuvchan va innovatsion fikrlay oladigan kadrlar tayyorgarligi hal qiluvchi omil sifatida qaralishi kerak.

Olib borilgan tahlil va amaliy tekshiruvlar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi hali ham sanoat sohasidagi tez o‘zgarayotgan talablarga to‘liq mos kelmayotgan. Dasturlar, o‘quv-uslubiy bazalar hamda o‘qituvchilarning malakasi ko‘pincha amaliyotdan ortda qolgan holda saqlanib kelmoqda. Natijada, korxonalar zamonaviy jihozlar sotib olgan bo‘lsalar ham, ularni to‘liq quvvatida foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmay qolmoqda. Bu esa resurslarning samarasiz sarflanishiga, raqobatbardoshlik darajasining pastligiga hamda innovatsiyalarni joriy etish jarayonining sekinlashishiga sabab bo‘lmoqda.

Xalqaro tajriba esa shuni tushuntiradiki, raqamli transformatsiya davrida muvaffaqiyatli ishlab chiqarish faqat sifatli texnologiyaga emas, balki sifatli kadrlarga ham bog‘liq. Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur kabi mamlakatlar sanoat va ta’lim tizimlarini chuqur integratsiya qilish orqali yoshlarni ish bozori ehtiyojlariga mos malaka bilan ta’minlab kelmoqda. Shu sababli, O‘zbekistonda ham oliy ta’limni ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirish, dual ta’lim tizimini keng joriy etish, korxonalar bilan doimiy hamkorlikni mustahkamlash hamda mutaxassislarni doimiy qayta tayyorlash mexanizmlarini rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy texnologiyalar — kelajak sanoatining qurilish bloklari bo‘lsa, malakali kadrlar — shu bloklarni to‘g‘ri joyiga qo‘yadigan ustalar. Shu ustalarni tayyorlash esa oliy ta’lim tizimining eng muhim vazifasidir. Faqat ta’lim, sanoat va davlatning uch tomonlama hamkorligi orqali ishlab chiqarish sohasida raqamli transformatsiya barqaror va samarali amalga oshirilishi mumkin. Shu yo‘lda qo‘llangan har bir qadam — milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga, eksport salohiyatining oshishiga hamda yosh avlodning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги ПФ-6097-сонли “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони Манба: https://lex.uz/uz/docs/5073447
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ–5847-сон Фармони билан тасдиқланган “Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси”. Манба: https://lex.uz/docs/4545884
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”даги ПҚ–3775-сонли қарори. Манба: https://lex.uz/docs/4545884
4. World Economic Forum. *The Future of Jobs Report 2023*. – Geneva: WEF, 2023.
5. Schwab, K. *The Fourth Industrial Revolution*. – Crown Business, 2016.
6. UNESCO. *Engineering for Sustainable Development: Delivering on the Sustainable Development Goals*. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.
7. German Federal Ministry of Education and Research. *Dual Vocational Training System: The German Model*. – Berlin, 2022.
8. Lee, J., Bagheri, B., & Kao, H. A. (2015). A cyber-physical systems architecture for Industry 4.0-based manufacturing systems. *Manufacturing Letters*, 3, 18–23. https://doi.org/10.1016/j.mfglet.2014.12.001
9. Davlat statistika qo‘mitasi. *Sanoat korxonalari tomonidan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish to‘g‘risida statistik ma’lumotlar (2024)*. – Toshkent.
10. Karimov, A. N. (2023). Sanoat 4.0: O‘zbekiston sharoitida kadrlar tayyorgarligining yangi yondashuvlari. *Oliy ta’lim muammolari*, №2 (48), 45–56.
11. ILO. *Skills for a greener and more digital future: Policy responses in Asia and the Pacific*. – Bangkok: International Labour Organization, 2022.
12. OECD. *Getting Skills Right: Future-Ready Adult Learning Systems*. – Paris: OECD Publishing, 2023.
13. Kim, S., & Park, J. (2021). Industry–University Collaboration Models in South Korea: Lessons for Developing Countries. *Journal of Technology Management & Innovation*, 16(3), 89–98.
14. Kodirov I, Training engineers on the basis of dual education through the cooperation of karshi state technical university and muborak thermal power center enterprise, Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, Volume:12,Issue09, September-2025. Манба: https://wosjournals.com/index.php/shokh/article/view/4129
15. Rebeka C. Tucker, Sarita J. Robinson, Champika L. Liyanage, Proceso L. Fernandez Jr., Leah Amor Cortez, Darryl Roy Montebon, Sarintip Tantanee, Sorraya Khiewnavawongsa, Nida Chaimoon,

K. D. N. Weerasinghe, K. S. L. Gunawardena & Ranjith Dissanayake, Манба: Bridging Academia and Enterprise: A Framework for C. Success. Манба:https://link.springer.com/article/10.1007/s13132-024-02360-7

16. Низамов А.Б ва бошқалар, Енгил Саноат Тармоқлари Рақобатбардошлик Омилларини Баҳолаш. 2023 Miasto Przyszłości, 36, 186–188. Retrieved from https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1500

17. ШШ оглы Ганиев, АО Очилов, МШ кизы Суюнова, Актуальные вопросы цифровой трансформации в Новом Узбекистане и за его пределами, Экономический профессиональный журнал. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=FlqmKcEAAAAJ&citation_for_view=FlqmKcEAAAAJ:UeHWp8X0CEIC

18. ODX G‘aniyev Shaxzod Shuhrat o‘g‘li, Ilm fan xabarnomasi, Yurtimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida kadrlar tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=FlqmKcEAAAAJ&citation_for_view=FlqmKcEAAAAJ:qUcmZB5y_30C

19. IFS G‘aniyev Shaxzod Shuhrat o‘g‘li, ilm fan xabarnomasi, O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot sharoitida inson resurslarini samarali boshqarishning ustuvor yo‘nalishlari, https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=FlqmKcEAAAAJ&citation_for_view=FlqmKcEAAAAJ:ZeXyd9-uunAC

20. ASA G‘aniyev Shaxzod Shuhrat o‘g‘li, Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS), Priority directions for effective human resource management in the context of the digital economy in the republic of Uzbekistan, https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=FlqmKcEAAAAJ&citation_for_view=FlqmKcEAAAAJ:hC7cP41nSMkC

MENEJMENT FAOLIYATIDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI

Abdufattoxova Hadichaxon Abdurasul qizi
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti magistranti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21899224

Annotatsiya. Maqolada menejment faoliyatida sun’iy intellektning o‘rni boshqaruv funksiyalari, qaror qabul qilish jarayoni hamda tashkilotning raqamli transformatsiyasi nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, funksional guruhlash va jarayonli modellashtirish usullaridan foydalanilgan. Strategik rejalashtirish, moliyaviy boshqaruv, marketing, inson resurslari, logistika va operatsion nazoratda sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari tizimlashtirilgan. Bundan tashqari “ma’lumot–tahlil–qaror–ijro–nazorat” boshqaruv sikli hamda sun’iy intellektni bosqichma-bosqich joriy etish yo‘l xaritasi taklif qilingan. Tahlil natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt menejerni to‘liq almashtiruvchi vosita emas, balki ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi va qarorlar sifatini oshiruvchi intellektual yordamchi sifatida yuqori samara berishi, mazkur samaradorlik ma’lumotlar sifati, inson nazorati, algoritmik shaffoflik, axborot xavfsizligi va xodimlar kompetensiyasiga bevosita bog‘liq ekanligi ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, menejment, boshqaruv qarori, avtomatlashtirish, raqamli transformatsiya, strategik rejalashtirish, inson–AI hamkorligi, ma’lumotlar tahlili, algoritmik boshqaruv, risk.

Abstract. The article analyzes the role of artificial intelligence in management activities from the perspectives of managerial functions, decision-making processes, and organizational digital transformation. The study employs comparative analysis, functional grouping, and process modeling methods. The opportunities for using artificial intelligence in strategic planning, financial management, marketing, human resource management, logistics, and operational control are systematically classified. In addition, a “data–analysis–decision–implementation–control” management cycle and a roadmap for the phased implementation of artificial intelligence are proposed. According to the findings, artificial intelligence is not a tool that completely replaces managers, but rather an intelligent assistant that improves the speed of data processing and the quality of managerial decisions. It is scientifically substantiated that the effectiveness of artificial intelligence directly depends on data quality, human oversight, algorithmic transparency, information security, and employee competencies.

Keywords: artificial intelligence, management, managerial decision, automation, digital transformation, human–AI collaboration, data analytics, algorithmic governance.

Аннотация. В статье анализируется роль искусственного интеллекта в управленческой деятельности с точки зрения управленческих функций, процессов принятия решений и цифровой трансформации организации. В исследовании используются методы сравнительного анализа, функциональной группировки и моделирования процессов. Систематизированы возможности применения искусственного интеллекта в стратегическом планировании, финансовом управлении, маркетинге, управлении персоналом, логистике и оперативном контроле. Кроме того, предложен управленческий цикл «информация-анализ-решение-исполнение-контроль» и дорожная карта поэтапного внедрения искусственного интеллекта. По результатам анализа, искусственный интеллект не является инструментом, полностью заменяющим менеджера, но высокоэффективен в качестве интеллектуального помощника, повышающего скорость обработки данных и качество принимаемых решений, причем эта эффективность напрямую зависит от качества данных, человеческого контроля, алгоритмической прозрачности, информационной безопасности и компетентности сотрудников.

Ключевые слова: искусственный интеллект, менеджмент, управленческие решения, автоматизация, цифровая трансформация, стратегическое планирование, сотрудничество человека и ИИ, анализ данных, алгоритмическое управление, риск.

Kirish. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tashkilotlar faoliyati tobora ko‘proq ma’lumotlarga tayangan holda boshqarilmoqda. Bozor talabining tez o‘zgarishi, raqobatning kuchayishi, mijozlar xulq-atvorining murakkablashuvi va operatsion jarayonlarning ko‘payishi rahbarlardan qisqa vaqt ichida asoslangan qaror qabul qilishni talab etadi. Bunday sharoitda sun’iy intellekt katta hajmdagi ma’lumotlardan qonuniyatlarni aniqlash, prognoz tuzish, muqobil ssenariylarni baholash va takrorlanuvchi vazifalarni avtomatlashtirish orqali menejmentning axborot-tahliliy imkoniyatlarini kengaytiradi [3, 2018: B.115; 4, 2018: B.585].


O‘zbekistonda raqamli boshqaruv va sun’iy intellektni rivojlantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi raqamli transformatsiyaning institutsional asoslarini belgilagan bo‘lsa, 2030-yilgacha sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi ushbu texnologiyalarni iqtisodiyot va boshqaruv jarayonlariga tizimli tatbiq etishni nazarda tutadi [1, 2020; 2, 2024]. Bu holat korxona va tashkilotlarda sun’iy intellektning texnik imkoniyatlarinigina emas, balki uning menejmentdagi funksional o‘rnini ham ilmiy jihatdan asoslash zaruratini kuchaytiradi.

Menejmentning asosiy funksiyalarida sun’iy intellektdan foydalanish yo‘nalishlarini tizimlashtirish, inson va algoritm o‘rtasidagi vazifalar taqsimotini aniqlash hamda tashkilotlarda sun’iy intellektni mas’uliyatli joriy etish uchun amaliy model ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot obyekti sifatida tashkilotlarning menejment faoliyati, predmeti sifatida esa sun’iy intellekt vositalarining boshqaruv qarorlariga, funksional jarayonlarga va tashkilot samaradorligiga ta’siri olindi. Ishda ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish, menejment funksiyalarini dekompozitsiya qilish, sun’iy intellekt imkoniyatlarini funksional guruhlash, jarayonli modellashtirish va risklarni matritsali baholash usullaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot konseptual-tahliliy xususiyatga ega bo‘lib, keltirilgan modellar ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish asosida shakllantirildi.

Menejment funksiyalarida sun’iy intellektning roli. Menejmentning rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya va nazorat funksiyalari axborotni yig‘ish, qayta ishlash va talqin qilish bilan chambarchas bog‘liq. Sun’iy intellekt aynan shu axborot zanjirining tezligi va aniqligini oshiradi. Biroq texnologiyaning real qiymati alohida algoritmda emas, balki u boshqaruv jarayoniga qanchalik to‘g‘ri integratsiya qilinganida namoyon bo‘ladi.

Strategik rejalashtirishda sun’iy intellekt bozor dinamikasi, sotuvlar, xarajatlar va tashqi omillar haqidagi ma’lumotlar asosida ssenariylar yaratadi. Moliyaviy boshqaruvda pul oqimi va xarajat tuzilmasini tahlil qilish, anomal operatsiyalarni aniqlash va byudjet variantlarini solishtirishga yordam beradi. Marketingda mijozlarni segmentlash, talabni prognozlash va individual takliflarni shakllantirish imkonini beradi. Inson resurslarini boshqarishda kompetensiyalar xaritasini tuzish, o‘qitish ehtiyojlarini aniqlash va ish yuklamasini tahlil qilishda foydalaniladi. Logistika va operatsion boshqaruvda esa talab prognozi, marshrutlarni optimallashtirish, zaxiralarni boshqarish hamda uskunalarga profilaktik xizmat ko‘rsatishni rejalashtirishda muhim o‘rin tutadi [5, 2019; B.67; 6, 2021; B.193; 7, 2021 B.2].



1-rasm. Sun’iy intellekt bilan qo‘llab-quvvatlanadigan menejment sikli *(muallif ishlanmasi).*

1-rasmda sun’iy intellekt ishtirokidagi boshqaruv jarayoni yopiq sikl sifatida ifodalangan. Dastlab turli manbalardan ma’lumotlar yig‘iladi, keyin ular algoritmlar yordamida qayta ishlanadi va rahbarga qaror variantlari taqdim etiladi. Qabul qilingan qaror ijro jarayoniga uzatiladi, natijalar KPI va boshqa nazorat ko‘rsatkichlari orqali baholanadi. Olingan natija yangi ma’lumot sifatida tizimga qaytishi modelning doimiy o‘rganishi va boshqaruv sifatining bosqichma-bosqich yaxshilanishini ta’minlaydi.

1-jadval. *Menejment yo‘nalishlarida sun’iy intellektdan foydalanish xaritasi*


Menejment yo‘nalishi	AI bajaradigan vazifa	Kutiladigan boshqaruv natijasi	Baholash ko‘rsatkichi	Rahbarning roli
Strategik rejalashtirish	Trend va ssenariylarni prognozlash	Noaniqlik sharoitida muqobil qarorlarni solishtirish	Prognoz xatosi; reja bajarilishi	Maqsad, cheklov va strategik ustuvorliklarni belgilash
Moliyaviy boshqaruv	Pul oqimi, xarajat va risklarni tahlil qilish	Byudjet intizomi va resurs taqsimotini yaxshilash	Xarajat og‘ishi; likvidlik; risk hodisalari	Risk darajasi va moliyaviy siyosat bo‘yicha yakuniy qaror
Marketing va sotuv	Segmentlash, talab prognozi, tavsiya tizimi	Mijozga mos taklif va sotuv samaradorligi	Konversiya; mijozni saqlash; prognoz aniqligi	Brend, etik me’yor va mijoz qiymatini muvofiqlashtirish
Inson resurslari	Kompetensiya tahlili, o‘qitish va ish yuklamasi	Xodim salohiyatidan oqilona foydalanish	Kadrlar almashinuvi; o‘qitish natijasi; ish yuklamasi	Adolat, maxfiylik va insoniy kontekstni ta’minlash
Logistika va ta’minot	Talab, zaxira va marshrutlarni optimallashtirish	Yetkazib berish uzluksizligi va zaxira xarajatlarini muvozanatlash	Yetkazib berish vaqti; zaxira aylanishi	Favqulodda holat va hamkorlar bilan kelishuvlarni boshqarish
Operatsion nazorat	Jarayon monitoringi va anomaliyani aniqlash	Muammo yuzaga kelishidan oldin ogohlantirish	To‘xtab qolish vaqti; nuqsonlar; sikl davomiyligi	Ogohlantirishlarni ustuvorlashtirish va javobgarlikni taqsimlash

Manba: ilmiy manbalarni umumlashtirish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Sun’iy intellektning menejmentdagi o‘rni barcha qarorlarni algoritmga topshirish bilan emas, qaror turiga mos vakolat taqsimoti bilan belgilanadi. Takrorlanuvchi, aniq qoidalarga ega va katta hajmdagi ma’lumotga asoslangan operatsion vazifalar avtomatlashtirish uchun qulay. Yarim tuzilmali taktik qarorlarda algoritm variantlarni hisoblaydi, menejer esa vaziyatning institutsional, ijtimoiy va etik jihatlarini baholaydi. Strategik qarorlarda esa maqsad, qadriyat, javobgarlik va uzoq muddatli oqibatlar inson rahbarligida qolishi lozim [4, 2018: B.588; 5, 2019; B.67; 6, 2021; B.193].

Mazkur yondashuv “avtomatlashtirish–kuchaytirish” muvozanatiga asoslanadi. Avtomatlashtirish vaqt va xarajatni qisqartirsa, kuchaytirish menejerning tahliliy salohiyatini kengaytiradi. Faqat avtomatlashtirishga urg‘u berish xodimlarda qarshilik, kontekstni yo‘qotish va algoritmga ortiqcha ishonish xavfini kuchaytiradi. Shu sababli samarali modelda sun’iy intellekt tavsiya beradi, qarorning muhim qismi izohlanadi, mas’ul shaxs aniqlanadi va natija muntazam audit qilinadi.

Ko‘plab tashkilotlarda sun’iy intellekt loyihalari texnologik yechim xarid qilishdan boshlanadi. Amalda esa avvalo boshqaruv muammosi, uning iqtisodiy qiymati va o‘lchanadigan ko‘rsatkichlari aniqlanishi kerak. Shundan keyingina ma’lumotlar tayyorligi, model tanlovi, inson nazorati va integratsiya masalalari bosqichma-bosqich hal etiladi. Bunday ketma-ketlik katta xarajatli, ammo amaliy natija bermaydigan loyihalar xavfini kamaytiradi [3].



2-rasm. Menejmentga sun’iy intellektni joriy etish yo‘l xaritasi

2-rasmdagi yo‘l xaritasi besh bosqichni qamrab oladi. Diagnostika bosqichida boshqaruv muammosi va KPIlar belgilanadi. Ma’lumotlar tayyorligi bosqichida ma’lumotlarning sifati, qonuniyligi, egaligi va xavfsizligi tekshiriladi. Pilot loyiha texnologiyaning cheklangan jarayondagi foydasini sinash imkonini beradi. Boshqaruv va integratsiya bosqichida modelning izohlanishi, inson nazorati, audit tartibi va mavjud axborot tizimlari bilan integratsiyasi yo‘lga qo‘yiladi. Masshtablash esa xodimlarni o‘qitish, natijalarni baholash va modelni doimiy yangilash bilan birga olib boriladi.

Sun’iy intellekt menejment samaradorligini oshirishi bilan birga yangi boshqaruv xavflarini ham yuzaga keltiradi. Sifatsiz yoki biryoqlama ma’lumot algoritmik xatoni ko‘paytiradi; izohlanmaydigan model qarorning asosini tushunishni qiyinlashtiradi; maxfiy ma’lumotlardan noto‘g‘ri foydalanish huquqiy va reputatsion zarar keltirishi mumkin. Bundan tashqari, algoritm tavsiyasiga ortiqcha ishonish menejerning mustaqil fikrlashini susaytiradi. Shuning uchun AI loyihasi texnik audit bilan cheklanmay, tashkiliy, etik va axborot xavfsizligi nazoratini ham qamrab olishi lozim.

2-jadval. *Sun’iy intellektdan foydalanishdagi xavflar va boshqaruv choralari*

Xavf turi	Menejmentga ta’siri	Erta ogohlantiruvchi belgi	Boshqaruv chorasi
Ma’lumot sifati pastligi	Noto‘g‘ri prognoz va noto‘g‘ri ustuvorlik	Bir xil savolga keskin o‘zgaruvchan natijalar	Ma’lumotlar katalogi, sifat standartlari va mas’ul egani belgilash
Algoritmik tarafkashlik	Xodim yoki mijozlarga nisbatan adolatsiz qaror	Ayrim guruhlarda tizimli salbiy natija	Tanlama audit, fairness ko‘rsatkichlari va insoniy qayta ko‘rib chiqish
Izohlanmaslik	Qarorni asoslash va javobgarlikni belgilash qiyinlashadi	Rahbar tavsiyaning sababini tushuntira olmaydi	Izohlanadigan model, qaror protokoli va model kartasi
Maxfiylik va kiberxavf	Ma’lumot sizishi va reputatsion zarar	Ruxsatsiz kirish, noma’lum integratsiya yoki log yo‘qligi	Kirish nazorati, shifrlash, segmentatsiya va xavfsizlik auditi
Avtomatlashtirishga ortiqcha ishonch	Kontekst va istisnolar e’tibordan chetda qoladi	Tavsiyalar tekshirilmasdan qabul qilinadi	Muhim qarorlar uchun “human-in-the-loop” va ikki bosqichli tasdiq
Tashkiliy qarshilik	Loyiha qabul qilinmaydi yoki yashirin chetlab o‘tiladi	Foydalanish darajasi past, qo‘lda parallel jarayon saqlanadi	Xodimlarni jalb etish, o‘qitish va rol o‘zgarishini ochiq tushuntirish

Manba: Sun’iy intellektdan foydalanishdagi xavflar va boshqaruv choralari muallif ishlanmasi.

Natijalar va muhokama. O‘tkazilgan tahlil menejment faoliyatida sun’iy intellektning rolini to‘rtta asosiy mexanizm orqali ifodalash mumkinligini ko‘rsatdi. Birinchidan, u ma’lumotlarni qayta ishlash

vaqtini qisqartirib, boshqaruvning tezkorligini oshiradi. Ikkinchidan, ko‘p sonli omillarni bir vaqtda hisobga olish orqali prognoz va tahlil sifatini yaxshilaydi. Uchinchidan, mijoz, xodim yoki jarayon xususiyatlariga moslashtirilgan boshqaruv choralarini shakllantiradi. To‘rtinchidan, takrorlanuvchi operatsiyalarni avtomatlashtirib, menejer vaqtini murakkab va ijodiy vazifalarga yo‘naltiradi.

Shu bilan birga, sun’iy intellektning mavjudligi avtomatik ravishda yuqori samaradorlikni anglatmaydi. Natija “algoritmning kuchi”dan ko‘ra, ma’lumotlar sifati, boshqaruv jarayonining aniqligi, mas’uliyat taqsimoti va xodimlarning texnologiyani qabul qilishiga ko‘proq bog‘liq. Demak, AI joriy etish loyihasi IT bo‘limining alohida tashabbusi emas, balki rahbariyat, funksional bo‘linmalar, ma’lumotlar mutaxassislari, yuristlar va axborot xavfsizligi xodimlari ishtirokidagi kompleks tashkiliy o‘zgarish sifatida boshqarilishi kerak.

Menejment nuqtai nazaridan eng maqbul yondashuv — qarorlarni to‘liq algoritmlashtirish emas, balki inson va sun’iy intellektning kuchli tomonlarini birlashtirishdir. Algoritm tezlik, hajm va takrorlanuvchanlikda ustun bo‘lsa, inson maqsad qo‘yish, mas’uliyatni anglash, noodatiy vaziyatni talqin qilish, qadriyatlar va manfaatlar muvozanatini ta’minlashda ustunlikka ega. Shuning uchun zamonaviy menejerning yangi kompetensiyasi faqat AI vositasidan foydalanish emas, balki uning natijasini savol ostiga qo‘yish, tekshirish va tashkilot maqsadiga mos talqin qilishdan iborat.

Amaliy tavsiyalar

1. Boshqaruv muammosidan boshlash. AI loyihasi uchun avvalo aniq muammo, iqtisodiy qiymat, foydalanuvchi va o‘lchanadigan KPI belgilanadi.

2. Ma’lumotlar boshqaruvini yo‘lga qo‘yish. Ma’lumot manbalari, sifat mezonlari, kirish huquqi, saqlash muddati va mas’ul shaxslar reglamentlashtiriladi.

3. Pilotdan masshtabga o‘tish. Cheklangan jarayonda sinov natijasi tasdiqlanmasdan turib, tizim butun tashkilotga joriy etilmaydi.

4. Inson nazoratini saqlash. Xodimlar taqdiri, katta moliyaviy majburiyat, huquqiy yoki reputatsion oqibatga ega qarorlar yakuniy insoniy tasdiqdan o‘tadi.

5. Xodimlar kompetensiyasini oshirish. Rahbar va mutaxassislar uchun ma’lumotlar savodxonligi, prompt tuzish, natijani tekshirish va AI etikasi bo‘yicha o‘quv dasturlari tashkil etiladi.

6. Natijani muntazam audit qilish. Model aniqligi bilan bir qatorda biznes natijasi, tarafkashlik, maxfiylik, xavfsizlik va foydalanuvchi ishonchi ham baholanadi.

Xulosa. Sun’iy intellekt menejment faoliyatining axborot-tahliliy asosini kuchaytiruvchi strategik vositadir. U rejalashtirish, moliyaviy tahlil, marketing, inson resurslari, logistika va operatsion nazoratda ma’lumotlardan tezroq va izchilroq foydalanish imkonini beradi. Biroq uning asosiy o‘rni menejerni almashtirishda emas, balki rahbarning qaror qabul qilish salohiyatini kengaytirishda namoyon bo‘ladi.

Sun’iy intellektdan foydalanish samaradorligi texnologik modelning aniqligi bilan birga ma’lumotlar sifati, inson nazorati, algoritmik shaffoflik, axborot xavfsizligi va xodimlar kompetensiyasiga bog‘liq. Shuning uchun tashkilotlarda AI joriy etish bosqichma-bosqich, o‘lchanadigan, audit qilinadigan va inson markazidagi boshqaruv tamoyillari asosida amalga oshirilishi lozim. Ana shunday yondashuv sun’iy intellektni zamonaviy menejmentning ishonchli va barqaror intellektual yordamchisiga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

3. Davenport T. H., Ronanki R. Artificial Intelligence for the Real World // Harvard Business Review. – 2018. – Vol. 96, No. 1. – P. 108–116.

4. Jarrahi M. H. Artificial intelligence and the future of work: Human–AI symbiosis in organizational decision making // Business Horizons. – 2018. – Vol. 61, No. 4. – P. 577–586. DOI: 10.1016/j.bushor.2018.03.007.

5. Shrestha Y. R., Ben-Menahem S. M., von Krogh G. Organizational Decision-Making Structures in the Age of Artificial Intelligence // California Management Review. – 2019. – Vol. 61, No. 4. – P. 66–83.

6. Raisch S., Krakowski S. Artificial Intelligence and Management: The Automation–Augmentation Paradox // Academy of Management Review. – 2021. – Vol. 46, No. 1. – P. 192–210. DOI: 10.5465/amr.2018.0072.

7. Dwivedi Y. K. et al. Artificial Intelligence (AI): Multidisciplinary perspectives on emerging challenges, opportunities, and agenda for research, practice and policy // International Journal of Information Management. – 2021. – Vol. 57. – Article 101994.

UDK: 631.81:635.262

TUPROQDAGI MAKRO VA MIKROELEMENTLARNING MIQDORI VA ULARNING BATAT HOSILIGA TA’SIRI

Jumanova Barno Boboqulovna
Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti Tayanch doktoranti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21899398

Annotatsiya: Mazkur maqolada och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida tuproqdagi makro va mikroelementlarning miqdori hamda ularning batat (shirin kartoshka) ekinining o‘sishi va hosildorligiga ta’siri o‘rganilgan. Batat (Ipomoea batatas L.) – yuqori oziqaviy qiymatga ega, issiqsevar va tuproq unumdorligiga talabchan ekin hisoblanadi. Batatning yuqori va sifatli hosil berishi bevosita tuproqdagi makro va mikroelementlar miqdori hamda ularning o‘simlik tomonidan o‘zlashtirilish darajasiga bog‘liq. Tuproqdagi oziqa elementlarining muvozanati buzilganda hosildorlik pasayadi, tuganaklar sifati yomonlashadi va kasalliklarga chidamlilik kamayadi. Tadqiqotlar dala va laboratoriya sharoitida olib borilib, tuproqning agroximik ko‘rsatkichlari, jumladan azot, fosfor, kaliy, kalsiy, magniy kabi makroelementlar hamda temir, rux, marganets, mis va bor kabi mikroelementlarning miqdori aniqlangan. Olingan natijalar asosida oziq elementlar bilan ta’minlanganlik darajasi batat ekinining vegetativ rivojlanishi, ildiz hosil bo‘lishi va hosildorlik ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, makro va mikroelementlar bilan muvozanatli ta’minlangan tuproqlarda batat hosildorligi 25–40 % gacha yuqori bo‘ladi. Ayniqsa, kaliy va fosforning optimal miqdori tuganak massasini oshiradi, mikroelementlar esa sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi. Tuproqdagi makro va mikroelementlar batatning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga bevosita ta’sir etadi. Yuqori hosil olish uchun tuproqning agroximik tahlilini o‘tkazish, o‘g‘itlarni ilmiy asosda va me’yorida qo‘llash zarur. Makroelementlar vegetativ va generativ rivojlanishni ta’minlasa, mikroelementlar fiziologik jarayonlarni faollashtirib, tuganaklar sifati va hosil barqarorligini oshiradi.

Kalit so’zlar: batat, shirin kartoshka, och tusli bo‘z tuproq, makroelementlar, mikroelementlar, tuproq oziqlanishi, agroximik tahlil, hosildorlik, mineral oziqlanish.

Аннотация: В данной статье изучается содержание макро- и микроэлементов в почве и их влияние на рост и урожайность батата на светло-серых почвах. Батат (Ipomoea batatas L.) — культура с высокой питательной ценностью, теплолюбивая и требовательная к плодородию почвы. Высокая и высококачественная урожайность батата напрямую зависит от содержания макро- и микроэлементов в почве и уровня их поглощения растением. При нарушении баланса питательных веществ в почве снижается продуктивность, ухудшается качество клубней и снижается устойчивость к болезням. Исследования проводились в полевых и лабораторных условиях, определялись агрохимические показатели почвы, включая содержание макроэлементов, таких как азот, фосфор, калий, кальций, магний, и микроэлементов, таких как железо, цинк, марганец, медь и бор. На основании полученных результатов научно доказано, что уровень обеспеченности питательными веществами оказывает существенное влияние на вегетативное развитие, формирование корней и показатели урожайности батата.

Научные исследования показывают, что урожайность батата на 25–40% выше в почвах со сбалансированным содержанием макро- и микроэлементов. В частности, оптимальное количество калия и фосфора увеличивает массу клубней, а микроэлементы улучшают качественные показатели. Макро- и микроэлементы в почве напрямую влияют на рост, развитие и урожайность батата. Для получения высоких урожаев необходимо проводить агрохимический анализ почвы и применять удобрения на научной основе и в умеренных количествах. Макроэлементы обеспечивают вегетативное и генеративное развитие, а микроэлементы активизируют физиологические процессы, повышая качество клубней и стабильность урожая.

Ключевые слова: батат, светло-серая почва, макроэлементы, микроэлементы, питание почвы, агрохимический анализ, урожайность, минеральное питание.

Abstract: This article studies the content of macro and microelements in the soil and their effect on the growth and yield of sweet potato (sweet potato) in light gray soils. Sweet potato (Ipomoea batatas L.) is a crop with high nutritional value, heat-loving and demanding on soil fertility. High and high-quality

sweet potato yields directly depend on the content of macro and microelements in the soil and the level of their absorption by the plant. When the balance of nutrients in the soil is disturbed, productivity decreases, the quality of tubers deteriorates, and resistance to diseases decreases. Research was conducted in field and laboratory conditions, and agrochemical indicators of the soil were determined, including the content of macroelements such as nitrogen, phosphorus, potassium, calcium, magnesium, and microelements such as iron, zinc, manganese, copper, and boron. Based on the results obtained, it is scientifically proven that the level of nutrient supply has a significant impact on the vegetative development, root formation and yield indicators of sweet potato crops.

Scientific studies show that sweet potato yields are 25–40% higher in soils with a balanced supply of macro and microelements. In particular, the optimal amount of potassium and phosphorus increases the tuber mass, and microelements improve quality indicators. Macro and microelements in the soil directly affect the growth, development and yield of sweet potatoes. To obtain high yields, it is necessary to conduct agrochemical analysis of the soil and apply fertilizers on a scientific basis and in moderation. Macroelements ensure vegetative and generative development, while microelements activate physiological processes, increasing the quality of tubers and yield stability.

Keywords: sweet potato, light gray soil, macroelements, microelements, soil nutrition, agrochemical analysis, yield, mineral nutrition.

Kirish. Qishloq xo‘jaligida ekinlardan yuqori va sifatli hosil olish ko‘p jihatdan tuproqning oziqa elementlari bilan ta’minlanganlik darajasiga bog‘liqdir. Ayniqsa, och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida yetishtiriladigan batat (shirin kartoshka) ekinining o‘sishi va hosildorligi tuproqdagi makro va mikroelementlar miqdoriga bevosita bog‘liq bo‘lib, bu elementlarning yetishmasligi yoki nomutanosibligi o‘simliklarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [1; 45-72 c., 2; 112-135 c., 3; 56-78 c., 4; 210-245 c., 5; 33-60 c.].

Shu bois mazkur ishda tuproqdagi asosiy makro va mikroelementlarning miqdorini aniqlash hamda ularning batat ekinining o‘sishi va hosildorligiga ta’sirini ilmiy jihatdan baholash maqsad qilib olindi. Tadqiqot natijalari batat ekinini yetishtirishda tuproq unumdorligini oshirish va ilmiy asoslangan agrotexnik tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi: Och tusli bo‘z tuproqlar sharoitida batat (shirin kartoshka) ekinining ko‘chat qalinligining hosildorlikka ta’sirini ilmiy asosda aniqlash va optimal ko‘chat qalinligini belgilash.

Tadqiqot natijalari: 2023–2025 yillarda Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti markaziy tajriba maydonida o‘tkazilgan tadqiqotlar doirasida tuproqdagi makro va mikroelementlarning batat hosiliga ta’siri va ularning havo harorati bilan bog‘liqligi tahlil qilindi.

Batat yetishtirishda hosildorlikni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri tuproqdagi makro va mikroelementlarning miqdori hisoblanadi. Tuproqdagi azot (N), fosfor (P), kaliy (K) kabi makroelementlar o‘simliklarning vegetativ o‘sishi va meva berishi uchun zarur bo‘lib, ular ildiz tizimi rivojlanishi va o‘sish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, mikroelementlar (sink, bor, temir, marganets kabi) ham o‘sish jarayonlarida metabolik funksiyalarni ta’minlab, o‘simliklarning stressga chidamliligini oshiradi va meva sifatini yaxshilaydi.

Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, tuproqdagi elementlar va ularning o‘zaro muvozanati batat hosiliga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Maxsus ekish sxemalari, ayniqsa 90 × 30 sm oralig‘ida, tuproqdagi elementlardan samarali foydalanishni ta’minlab, o‘simliklarning ildiz tizimini yaxshilaydi va resurslar raqobatini kamaytiradi. Shu sababli, ushbu sxemada o‘rtacha hosildorlik boshqa sxemalarga nisbatan ancha yuqori bo‘ldi.

Shu bilan birga, hosildorlik ko‘rsatkichlarining variatsiya darajasi tahlilida 90 × 20 sm va 90 × 30 sm sxemalarida o‘zgarishlar biroz katta ekanligi aniqlandi. Bu esa o‘simlik zichligi ortishi tufayli tuproq resurslari, xususan suv va oziqa moddalari uchun raqobatning kuchayishini bildiradi. Natijada o‘zaro kurashish natijasida ayrim o‘simliklar hosil berishda pastroq natijalarga erishishi mumkin. Biroq, 90 × 30 sm sxemada bu raqobat optimal darajada bo‘lib, tuproqdan foydalanish samaradorligi yuqori ekanligi aniqlandi (jadval. 1).

Jadval 1 Tuproqdagi makro- va mikroelementlarning miqdori va ularning batat hosiliga ta’siri

Nav nomi	Ekish me’yori	Tuproqdagi N (mg/100g)	Tuproqdagi P (mg/100g)	Tuproqdagi K (mg/100g)	Mikroelementlar (mg/kg)	O‘rtacha hosildorlik (t/ha)
Tayloqi	Nazorat	0,18	0,12	0,2	Zn 3,1; Mn 2,2; B 0,8	17,8
	90 × 20 sm	0,21	0,15	0,28	Zn 3,5; Mn 2,5; B 1,0	29,1
	90 × 30 sm	0,23	0,18	0,32	Zn 3,8; Mn 2,8; B 1,2	36,1
	90 × 40 sm	0,19	0,14	0,25	Zn 3,2; Mn 2,3; B 0,9	22,3
Sochaki nur	Nazorat	0,17	0,11	0,18	Zn 3,0; Mn 2,0; B 0,7	16,5
	90 × 20 sm	0,2	0,14	0,23	Zn 3,3; Mn 2,3; B 0,9	18,2
	90 × 30 sm	0,22	0,17	0,3	Zn 3,6; Mn 2,6; B 1,1	33,6
	90 × 40 sm	0,18	0,13	0,21	Zn 3,1; Mn 2,1; B 0,8	18,9
O'rtacha hosildorlik						24,06
Sx						0,74
HCp (0,5%)						4,7
Cy%						2,9

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tuproqdagi makro- va mikroelementlarning miqdori batat o‘sishi va hosildorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Maxsus ekish sxemalari, ayniqsa 90 × 30 sm oralig‘i, tuproq resurslaridan samarali foydalanish imkonini yaratib, hosildorlikni maksimal darajada oshiradi.

Tuproqdagi azot (N), fosfor (P) va kaliy (K) miqdori o‘simliklarning vegetativ o‘sishi, ildiz tizimi rivojlanishi va hosil shakllanishi uchun muhim hisoblanadi. Jadval natijalariga ko‘ra, 90 × 30 sm sxemada Tayloqi navida N – 0,23 mg/100g, P – 0,18 mg/100g, K – 0,32 mg/100g darajada bo‘lib, o‘rtacha hosildorlik 36,1 t/ha ni tashkil etdi. Shuningdek, Sochaki nur navida ham ushbu sxemada makroelementlar optimal miqdorda bo‘lib, o‘rtacha hosildorlik 33,6 t/ha ni tashkil qildi. Nazorat va 90×40 sm variantlarida esa N, P va K miqdori nisbatan past bo‘lib, hosildorlik ham pastroq bo‘ldi (Tayloqi navida 17,8–22,3 t/ha, Sochaki nur navida 16,5–18,9 t/ha).

Mikroelementlar o‘simlik metabolizmi, stressga chidamlilik va oziqa moddalari assimilyatsiyasida muhim rol o‘ynaydi. 90 × 30 sm sxemada Zn 3,8–3,6 mg/kg, Mn 2,8–2,6 mg/kg va B 1,2–1,1 mg/kg bo‘lib, o‘simliklarning optimal rivojlanishi va hosil shakllanishini ta’minladi. Boshqa variantlarda mikroelementlar miqdori nisbatan past bo‘lib, bu hosildorlikning kamayishiga sabab bo‘ldi.

Ob-havo sharoitlari ham batat hosiliga bevosita ta’sir etuvchi muhim omildir. Tadqiqot yillari davomida olingan havo harorati ma’lumotlarini tahlil qilganda, o‘simliklarning yuqori hosil berishi bilan yoz oylaridagi havo haroratining o‘rtacha yuqori bo‘lishi o‘rtasida kuchli musbat bog‘liqlik aniqlanadi. Ayniqsa, iyun va iyul oylarida havo harorati 31–32 °S atrofida bo‘lib, bu davrda batat o‘simligi fotosintez jarayonlarini maksimal darajada faoliyat ko‘rsatadi.

Biroq, 2024 yil bahorida kuzatilgan nisbatan pastroq harorat (mart-aprel oylarida o‘rtacha 18–22 °S) o‘simliklarning o‘sish jarayonini sekinlashtirib, hosildorlikda biroz pasayishlarga olib keldi. Bu natija o‘simliklar o‘suv davrida haroratning juda muhim agroekologik faktor ekanligini ko‘rsatadi. Haroratning pastligi o‘simliklarning metabolik jarayonlarini sekinlashtirib, ildiz va barg o‘sishini cheklashi, natijada oziqa moddalari va suvni o‘zlashtirish imkoniyatlarini kamaytirishi mumkin.

Jadval ko‘rsatkichlaridan ko‘rinib turibdiki, tuproqdagi elementlarning optimal miqdori va ularning o‘zaro muvozanati batat hosilini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, 90 × 30 sm sxema barcha elementlardan samarali foydalanishga imkon berib, hosildorlikni maksimal darajaga olib chiqdi. Ushbu sxemada Tayloqi navida hosildorlik 36,1 t/ha, Sochaki nur navida 33,6 t/ha bo‘ldi, bu boshqa variantlar bilan solishtirganda ancha yuqori natija.

Korrelyatsiya tahlillari ham bu bog‘liqlikni tasdiqlaydi: 90 × 30 sm sxema asosida Tayloqi navining hosildorligi bilan havo harorati o‘rtasida +0,87, Sochaki nur navining hosildorligi bilan esa +0,83 kabi yuqori musbat korrelyatsiya aniqlangan. Bu raqamlar havo harorati o‘zgarishlari va hosildorlik o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘lanish mavjudligini bildiradi. Demak, optimal harorat sharoitida tuproqdagi elementlarning ta’siri yanada samarali bo‘ladi va hosil oshadi (jadval. 2).

Jadval 2. Hosildorlik va havo harorati o‘rtasidagi Pearson korrelyatsiya koeffitsienti (Qarshi-2023-2025 yy.).

Nav nomi	Ekish me’yori	Korrelyatsiya koeffitsienti (r)	Izoh
Tayloqi	90 × 30 sm	+0,87	Kuchli musbat korrelyatsiya
Sochaki nur	90 × 30 sm	+0,83	Kuchli musbat korrelyatsiya

Tuproqdagi makro- va mikroelementlarning yetarliligi va ularning tuproq va o‘simlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqligi 90 × 30 sm ekish sxemasida aniq seziladi. Bu sxemada tuproqdagi oziqa moddalari samarali o‘zlashtiriladi, o‘simlik ildizlari yaxshiroq rivojlanadi, bu esa hosilning yuqori bo‘lishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, elementlarning yetishmasligi yoki o‘simlik zichligi noto‘g‘ri tanlangan variantlarda hosildorlik pastroq bo‘ladi.

Umuman olganda, hosildorlik o‘zgarishlari tuproqning agrohimik xususiyatlari va havo sharoitlarining o‘zgarishlari bilan chambarchas bog‘liq. Tuproq va ob-havo omillari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir hosilning barqarorligi va sifatini belgilaydi. Shu sababli, batat yetishtirishda tuproqni to‘g‘ri o‘rgatish va tuproqdagi makro- va mikroelementlar balansini saqlash, shuningdek, ekish sxemasini iqlim sharoitlariga moslashtirish juda muhimdir.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tuproqdagi makroelementlar (N, P, K) va mikroelementlar (Zn, Mn, B) batat ekinining hosildorligiga sezilarli ta’sir qiladi. Optimal ko‘chat qalinligi va ekish me’yorlari sharoitida tuproq oziqa elementlari bilan yaxshi ta’minlangan holda o‘simliklarning vegetativ rivojlanishi va ildiz hosili ortadi.

Statistik tahlil bo‘yicha o‘rtacha hosildorlik 24,06 t/ha, Sx = 0,74 va Cy% = 2,9% ni tashkil etib, natijalar ishonchli ekanini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, eng yuqori hosildorlik optimal oziqlanish va ko‘chat qalinligi sharoitida kuzatildi, bu esa batat yetishtirishda agrotexnik tavsiyalarni optimallashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Dospexov B.A. *Metodika polevogo opyta.* – Moskva: Agropromizdat, 1985. B. 45–72.

2. Mineyev V.G. *Agroximiya.* – Moskva: MGU nashriyoti, 2004. B. 112–135.

3. Ortiqov T., Karimov A. *Tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. B. 56–78.

4. Mengel K., Kirkby E.A. *Principles of Plant Nutrition.* – Dordrecht: Kluwer Academic Publishers, 2001. P. 210–245.

5. Woolfe J.A. *Sweet Potato: An Untapped Food Resource.* – Cambridge University Press, 1992. P. 33–60.

INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA REKLAMA SLOGANLARINI TARJIMA QILISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV

Sherqulova Mahliyo Xasan qizi
Tayanch doktorant, O‘zDJTU
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21899478

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilidagi reklama sloganlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda kommunikativ yondashuvning nazariy va amaliy asoslari tadqiq etiladi. Reklama sloganlari iste’molchilar ongiga ta’sir etuvchi muhim kommunikativ vosita sifatida baholanib, ularni tarjima qilishda lingvistik ekvivalentlik bilan bir qatorda pragmatik va madaniy omillarning ham ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot davomida mashhur xalqaro kompaniyalar sloganlari tahlil qilinib, kommunikativ yondashuv asosida amalga oshirilgan tarjimalarning samaradorligi o‘rganildi. Natijalar reklama sloganlarini tarjima qilishda kommunikativ maqsadni saqlash ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: reklama slogani, kommunikativ yondashuv, tarjimashunoslik, pragmatika, lokalizatsiya, marketing kommunikatsiyasi, ekvivalentlik, reklama tili, brend, madaniy moslashtirish.

Аннотация. В данной статье исследуются теоретические и практические основы коммуникативного подхода при переводе рекламных слоганов с английского языка на узбекский. Рекламные слоганы рассматриваются как важное средство воздействия на сознание потребителей. Особое внимание уделяется прагматическим и культурным аспектам перевода наряду с лингвистической эквивалентностью. На основе анализа слоганов международных брендов определяются наиболее эффективные стратегии перевода.

Ключевые слова: рекламный слоган, коммуникативный подход, переводоведение, прагматика, локализация, бренд, маркетинговая коммуникация, язык рекламы, эквивалентность.

Abstract. This article investigates the theoretical and practical foundations of the communicative approach in translating advertising slogans from English into Uzbek. Advertising slogans are regarded as powerful communicative tools influencing consumer behavior. The study emphasizes not only linguistic equivalence but also pragmatic and cultural adaptation. Through the analysis of internationally recognized brand slogans, the effectiveness of communicative translation strategies is evaluated. The findings indicate that preserving communicative impact is more important than maintaining literal equivalence.

Keywords: advertising slogan, communicative approach, translation studies, pragmatics, localization, branding, equivalence, marketing communication, advertising language, cultural adaptation.

KIRISH. XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi hamda xalqaro savdo aloqalarining kengayishi natijasida reklama kommunikatsiyasi jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylandi. Bugungi kunda transmilliy kompaniyalar o‘z mahsulot va xizmatlarini turli mamlakatlar bozorlariga olib chiqishda reklama vositalaridan faol foydalanmoqda. Reklama nafaqat mahsulot haqida axborot berish, balki iste’molchi ongiga ta’sir ko‘rsatish, muayyan ehtiyojlarni shakllantirish va xarid motivatsiyasini yuzaga keltirish vazifasini ham bajaradi. Shu sababli reklama tili lingvistika, kommunikatsiya, marketing va tarjimashunoslikning kesishgan nuqtasida shakllangan murakkab kommunikativ hodisa sifatida qaraladi [Cook. 2001: B.15].

Reklama matnining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri slogan hisoblanadi. Slogan reklama xabarining qisqa, lo‘nda, esda qoluvchi va yuqori ta’sirchanlikka ega bo‘lgan kommunikativ birligidir. U mahsulot yoki xizmatning asosiy g’oyasini ifodalash, brend imijini shakllantirish va iste’molchining hissiy-emotsional dunyosiga ta’sir ko‘rsatish vazifalarini bajaradi. Aynan slogan reklama xabarining uzoq vaqt xotirada saqlanib qolishini ta’minlaydi hamda brendning identifikatsion elementi sifatida xizmat qiladi [Goddard. 2002: B.9].

Reklama sloganlarining kommunikativ xususiyati ularni boshqa matn turlaridan ajratib turadi. Sloganlar ko‘pincha metafora, alliteratsiya, emotsional-ekspressiv birliklar, so‘z o‘yinlari, imperativ konstruktsiyalar va pragmatik implikatsiyalar asosida quriladi. Natijada sloganlarning asosiy maqsadi ma’lumot yetkazishdan ko‘ra, auditoriyada ma’lum munosabatni shakllantirish va uni muayyan harakatga undashdan iborat bo‘ladi [Baker. 2018: B.245].

Bunday xususiyatlar reklama sloganlarini tarjima qilish jarayonini murakkablashtiradi. Chunki slogan tarjimasida faqat semantik mazmunni saqlash yetarli emas. Tarjima maqsadli auditoriyada asl matn hosil qilgan kommunikativ ta’sirni ham qayta yaratishi lozim. Aks holda lingvistik jihatdan to‘g’ri tarjima

reklama nuqtai nazaridan samarasiz bo‘lib qolishi mumkin. Shu bois reklama tarjimasi zamonaviy tarjimashunoslikda pragmatik va kommunikativ yondashuvlar asosida o‘rganilmoqda [House. 2015: B.56].

Tarjimashunoslik tarixida uzoq vaqt davomida ekvivalentlik nazariyasi markaziy o‘rinni egallab kelgan. E. Nida dinamik ekvivalentlik nazariyasida tarjimaning asosiy maqsadi maqsadli auditoriyada asl matn bilan teng ta’sir hosil qilishdan iborat ekanligini ta’kidlaydi [Nida. 1964: B.159]. Keyinchalik P. Newmark kommunikativ tarjima konsepsiyasini ishlab chiqib, tarjimaning muvaffaqiyati ma’no ko‘chirishdan ko‘ra, kommunikativ samaradorlik bilan baholanishi lozimligini qayd etgan [Newmark. 1988: B.39]. Ayniqsa reklama matnlari tarjimasida ushbu yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, H. Vermeer tomonidan ishlab chiqilgan Skopos nazariyasiga ko‘ra, tarjima strategiyasini tanlashda tarjimaning maqsadi hal qiluvchi omil hisoblanadi [Vermeer. 1989: B.173]. Reklama sloganlari tarjimasida ham tarjimaning asosiy maqsadi iste’molchiga ta’sir ko‘rsatish, brend imijini saqlash va xarid motivatsiyasini shakllantirishdan iborat bo‘lganligi sababli kommunikativ ekvivalentlik lingvistik ekvivalentlikdan ustun turadi.

Ingliz va o‘zbek tillari turli til oilalariga mansub bo‘lishi, ularning madaniy qadriyatlari, mentaliteti hamda pragmatik me’yorlari o‘rtasidagi farqlar reklama sloganlarini tarjima qilishda qo‘shimcha murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Ingliz tilida samarali bo‘lgan reklama modeli o‘zbek auditoriyasi uchun kutilgan ta’sirni bermasligi mumkin. Shu sababli tarjima jarayonida lokalizatsiya, pragmatik adaptatsiya va madaniy moslashtirish usullaridan foydalanish zarurati yuzaga keladi [Munday. 2016: B.103].

Mazkur tadqiqotning maqsadi ingliz tilidagi reklama sloganlarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda kommunikativ yondashuvning nazariy asoslarini yoritish, sloganlarning lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlash hamda kommunikativ ekvivalentlikni ta’minlashda qo‘llaniladigan tarjima strategiyalarini tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism. Reklama zamonaviy ommaviy kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, uning asosiy vazifasi mahsulot yoki xizmat haqida axborot berish bilangina cheklanmaydi. Reklama iste’molchining ehtiyojlari, qarashlari va xarid qilish motivlarini shakllantirish orqali uning xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan reklama matni informativ, ekspressiv va persuasiv funksiyalarni o‘zida mujassamlashtirgan murakkab kommunikativ tizim hisoblanadi [Cook. 2001: B.22].

Reklama matnining markaziy elementi slogan bo‘lib, u brendning asosiy g’oyasi va qadriyatlarini qisqa, lo‘nda hamda esda qolarli shaklda ifodalaydi. Sloganlarning asosiy afzalligi ularning ixchamligi, ritmik tuzilishi va yuqori emotsional ta’sir kuchiga egaligidadir. Ular reklama xabarining mazmunini umumlashtiradi, iste’molchi xotirasida brendni mustahkamlaydi hamda mahsulotning raqobatchilar orasida ajralib turishini ta’minlaydi [Goddard. 2002: B.17].

Lingvistik nuqtai nazardan sloganlar ko‘pincha metafora, metonimiya, alliteratsiya, takror, ellipsis, imperativ gaplar va so‘z o‘yinlari kabi stilistik vositalarga asoslanadi. Ushbu vositalar reklamaning estetik qiymatini oshirish bilan birga, uning kommunikativ samaradorligini ham kuchaytiradi. Ayniqsa, ingliz tilidagi sloganlarda qisqalik va obrazlilik ustuvor hisoblanadi. Bunday birliklarni boshqa tilga tarjima qilishda ularning shaklini emas, balki kommunikativ vazifasini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi [Munday. 2016: B.94].

Tarjimashunoslikda reklama matnlarini tarjima qilish masalasi kommunikativ tarjima nazariyasi bilan chambarchas bog’liq. P. Newmark kommunikativ tarjimani maqsadli auditoriyada asl matn hosil qilgan ta’sirni qayta yaratishga qaratilgan tarjima turi sifatida tavsiflaydi [Newmark. 1988: B.39]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, tarjimon matnning grammatik tuzilishi yoki alohida leksik birliklarini emas, balki uning kommunikativ maqsadini ustuvor deb bilishi lozim.

E. Nida tomonidan ishlab chiqilgan dinamik ekvivalentlik nazariyasi ham reklama tarjimasida muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Olim tarjimaning muvaffaqiyatini maqsadli auditoriyaning reaksiyasi orqali baholashni taklif etadi. Ya’ni tarjima o‘quvchisi yoki tinglovchisida asl matn auditoriyasiga yaqin kommunikativ ta’sir yuzaga kelishi lozim [Nida. 1964: B.166]. Reklama sloganlarida aynan ushbu tamoyil eng muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Reklama tarjimasida kommunikativ yondashuvning yana bir nazariy poydevori H. Vermeerning Skopos nazariyasi bilan bog’liq. Mazkur nazariyaga ko‘ra, tarjima strategiyasini tanlash tarjimaning yakuniy maqsadi bilan belgilanadi [Vermeer. 1989: B.173]. Agar reklama sloganining maqsadi xaridorni mahsulotni sotib olishga undash bo‘lsa, tarjimada ham aynan shu vazifa ustuvor hisoblanadi. Zarurat tug’ilganda tarjimon matn shaklini o‘zgartirishi, yangi leksik vositalardan foydalanishi yoki madaniy adaptatsiyani amalga oshirishi mumkin.

M. Baker reklama matnlarida pragmatik ekvivalentlik tushunchasiga alohida e’tibor qaratadi. Uning fikricha, pragmatik ekvivalentlik matnning yashirin ma’nolari, kommunikativ niyatlari va kontekstual xususiyatlarini maqsadli auditoriyaga mos tarzda yetkazishni anglatadi [Baker. 2018: B.250]. Reklama sloganlarini tarjima qilishda aynan pragmatik ekvivalentlik ko‘pincha lingvistik ekvivalentlikdan ustun turadi.

So‘nggi yillarda tarjimashunoslikda lokalizatsiya tushunchasi ham keng qo‘llanilmoqda. Lokalizatsiya mahsulot yoki reklama matnini maqsadli auditoriyaning til, madaniyat, urf-odat va qadriyatlariga moslashtirish jarayonidir. Reklama sloganlari tarjimasida lokalizatsiya orqali iste’molchining milliy mentalitetiga mos bo‘lgan til vositalari tanlanadi. Natijada reklama nafaqat tushunarli, balki ishonchli va ta’sirchan ham bo‘ladi [House. 2015: B.72].

Shunday qilib, reklama sloganlarini tarjima qilishda kommunikativ yondashuv lingvistik, pragmatik va madaniy omillarni uyg’un holda hisobga olishni talab etadi. Mazkur yondashuv tarjimonga slogan mazmunini oddiy ko‘chirish emas, balki uning kommunikativ funksiyasini maqsadli auditoriya ehtiyojlariga mos ravishda qayta yaratish imkonini beradi. Natijada tarjima qilingan slogan asl reklama matni kabi emotsional ta’sir ko‘rsatadi, brend imijini mustahkamlaydi va reklama kommunikatsiyasining asosiy maqsadini samarali amalga oshiradi.

Reklama sloganlarini tarjima qilish tarjimashunoslikning eng murakkab yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunga sabab sloganlarning qisqa hajmda katta kommunikativ yukni o‘zida mujassamlashtirishi, ularda emotsional-ekspressiv vositalarning faol qo‘llanishi hamda muayyan madaniy konnotatsiyalarning mavjudligidir. Reklama matnining asosiy maqsadi iste’molchining e’tiborini jalb qilish, mahsulotga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish va uni xarid qilishga undashdan iborat bo‘lganligi sababli tarjima jarayonida nafaqat semantik mazmun, balki pragmatik ta’sir ham saqlanishi zarur [Newmark. 1988: B.40].

Reklama sloganlarini tarjima qilishda uchraydigan muammolarni shartli ravishda lingvistik, pragmatik va lingvomadaniy guruhlarga ajratish mumkin.

Lingvistik muammolar, avvalo, ingliz va o‘zbek tillarining grammatik hamda uslubiy tizimidagi farqlar bilan bog’liq. Ingliz tilidagi sloganlar odatda juda ixcham bo‘lib, bir yoki ikki so‘zdan tashkil topadi. O‘zbek tilida esa mazmunni to‘liq ifodalash uchun qo‘shimcha grammatik vositalardan foydalanishga to‘g’ri keladi.

Masalan, Nike kompaniyasining “*Just Do It”* sloganida atigi uchta so‘z ishlatilgan. So‘zma-so‘z tarjima “*Shunchaki qil”* ko‘rinishida bo‘lsa-da, ushbu variant o‘zbek tilida tabiiy eshitilmaydi va reklamaning motivatsion ruhini yetarlicha ifodalamaydi. Shu sababli “*Harakat qil!”, “Maqsading sari intil!”* yoki *“Orzularingni ro‘yobga chiqar!”* kabi variantlar kommunikativ jihatdan samaraliroq hisoblanadi. Bu yerda tarjima shakl emas, balki funksiya asosida amalga oshirilgan [Baker. 2018: B.247].

Shuningdek, Apple kompaniyasining *“Think Different*” sloganida ingliz tilining grammatik me’yorlari ataylab buzilgan. Aslida grammatik jihatdan “Think Differently” shakli to‘g’ri bo‘lsa-da, reklama kreativligini oshirish maqsadida sifat turkumidagi *different* qo‘llangan. O‘zbek tilidagi “*Boshqacha fikrla”* tarjimasi ushbu uslubiy o‘ziga xoslikni muvaffaqiyatli aks ettiradi.

Reklama sloganlarini tarjima qilishdagi eng muhim muammolardan biri pragmatik ekvivalentlikni ta’minlash hisoblanadi. Bir xil mazmunga ega bo‘lgan ibora turli madaniyatlarda turlicha hissiy ta’sir uyg’otishi mumkin.

Masalan, KFC kompaniyasining mashhur “*Finger Lickin’ Good*” sloganini so‘zma-so‘z “*Barmoqlarni yalagudek mazali*” tarzida tarjima qilish mumkin. Biroq o‘zbek madaniyatida bunday ifoda tabiiy qabul qilinmaydi. Shu sababli *“Mazasi og‘zingizda qoladi”* yoki *“Har luqmasi huzur bag’ishlaydi”* kabi pragmatik adaptatsiya qilingan variantlar reklama maqsadini samaraliroq amalga oshiradi.

Reklama matnlari ko‘pincha ma’lum bir xalqning urf-odatlari, qadriyatlari va madaniy stereotiplariga tayanadi. Ingliz tilidagi ayrim sloganlarda uchraydigan madaniy birliklar o‘zbek tilida bevosita muqobilga ega emas.

Masalan, Coca-Cola kompaniyasining “*Open Happiness*” sloganidagi open fe’li ingliz tilida metaforik ma’noda “baxtni his qilishni boshlash” mazmunini anglatadi. Uni “*Baxtni oching*” tarzida tarjima qilish grammatik jihatdan to‘g’ri bo‘lsa-da, tabiiy emas. “*Quvonchni his eting”, “Quvonch sari yo‘l oching”* yoki “*Quvonchni ulashing”* kabi variantlar o‘zbek auditoriyasi uchun ancha tabiiy va ta’sirchan hisoblanadi.

Reklama sloganlarida alliteratsiya, qofiya va so‘z o‘yinlari keng qo‘llaniladi. Bunday birliklarni boshqa tilga aynan ko‘chirish deyarli imkonsiz.

Masalan, M&M’s shokoladining “*Melts in Your Mouth, Not in Your Hands*” sloganida *mouth* va *hands* birliklari orqali ritmik uyg’unlik yaratilgan. O‘zbek tilida “*Og’zingizda eriydi, qo‘lingizda emas”* varianti mazmunni saqlaydi, biroq fonetik uyg’unlik yo‘qoladi. Shu sababli reklama tarjimasida ritmik shakldan ko‘ra, iste’molchiga ko‘rsatadigan ta’sir ustuvor hisoblanadi.

Tahlil qilingan sloganlar shuni ko‘rsatadiki, reklama tarjimasida kommunikativ adaptatsiya eng samarali strategiyalardan biri hisoblanadi. Ushbu strategiya yordamida tarjimon slogan mazmunini emas, balki uning auditoriyaga ko‘rsatadigan ta’sirini qayta yaratishga intiladi. Natijada reklama matni maqsadli til me’yorlariga moslashadi, iste’molchi tomonidan tabiiy qabul qilinadi hamda reklamaning persuasiv vazifasi saqlanib qoladi.

Shunday qilib, reklama sloganlarini tarjima qilish jarayonida lingvistik aniqlik, pragmatik ekvivalentlik va madaniy moslashtirish o‘zaro uyg’un holda qo‘llanilgandagina yuqori kommunikativ samaradorlikka erishish mumkin. Mazkur omillar kommunikativ yondashuvning reklama tarjimasidagi amaliy ustunligini yaqqol namoyon etadi [Vermeer. 1989: B.176; House. 2015: B.81].

Mazkur tadqiqotda xalqaro miqyosda keng qo‘llaniladigan reklama sloganlari kommunikativ yondashuv asosida tahlil qilindi. Tahlilda sloganlarning lingvistik tuzilishi, pragmatik maqsadi, madaniy moslashuv darajasi hamda o‘zbek tiliga tarjima qilish strategiyalari o‘rganildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, reklama sloganlarini tarjima qilishda kommunikativ ekvivalentlikni ta’minlash ko‘pincha so‘zma-so‘z tarjimadan ko‘ra samaraliroq natija beradi.

Nike kompaniyasining *“Just Do It”* slogani reklama tarixidagi eng muvaffaqiyatli sloganlardan biri hisoblanadi. Mazkur slogan insonni qat’iyatli bo‘lishga, ikkilanmasdan harakat qilishga undaydi. Ingliz tilidagi just so‘zi mazkur kontekstda “oddiygina” ma’nosidan ko‘ra, “ikkilanma”, “kechiktirma” mazmunini ifodalaydi.

So‘zma-so‘z tarjima – *Shunchaki qil*

Kommunikativ tarjima – *Harakat qil!, Maqsading sari intil!*

Mazkur tarjimalarda buyruq ohangi saqlanib qolgan bo‘lib, o‘zbek auditoriyasi uchun tabiiy va motivatsion ta’sir kuchliroq namoyon bo‘ladi. Bu holat kommunikativ tarjimaning lingvistik ekvivalentlikdan ustunligini ko‘rsatadi [Newmark. 1988: B.45].

Coca-Cola – *Open Happiness*

Mazkur slogan mahsulotni iste’mol qilish orqali quvonch hissini boshdan kechirish g’oyasiga asoslanadi.

So‘zma-so‘z tarjima:*Baxtni oching.*

Kommunikativ tarjima: *Quvonchni his eting yoki "Quvonch sari yo‘l oching.*

Bu yerda *open* fe’li metaforik ma’noda qo‘llanganligi sababli pragmatik adaptatsiya zarur bo‘ladi.

McDonald’s – *I’m Lovin’ It*

Slogan ingliz tilining og’zaki uslubida yaratilgan bo‘lib, samimiylik va oddiylikni ifodalaydi.

So‘zma-so‘z tarjima: *Men buni sevaman.*

Kommunikativ tarjima: *Mazasi juda yoqadi! yoki Sevimli ta’m!*

Mazkur variantlar reklamaning emotsional ta’sirini oshirishga xizmat qiladi.

KFC – *Finger Lickin’ Good*

Mazkur slogan ingliz tilida metaforik obrazga asoslangan.

So‘zma-so‘z tarjima: *Barmoqlarni yalagudek mazali.*

Kommunikativ tarjima: *Mazasi tilingizda qoladi yoki Har luqmasi huzur bag’ishlaydi.*

Tarjimada milliy madaniyat hisobga olinganligi sababli reklamaning persuasiv ta’siri kuchayadi.

Mastercard – *There are some things money can’t buy. For everything else, there’s Mastercard.* Mazkur slogan reklama diskursida emotsional va ratsional argumentlarning uyg’unligiga asoslangan.

Kommunikativ tarjima: *Pul bilan sotib bo‘lmaydigan qadriyatlar bor. Qolgan barcha ehtiyojlar uchun − Mastercard.*

Tarjimada reklamaning asosiy g’oyasi to‘liq saqlangan.

Yuqoridagi misollar tahlili shuni ko‘rsatadiki, reklama sloganlarini tarjima qilishda uch asosiy strategiya kuzatiladi:

1. Kommunikativ tarjima – slogan auditoriyaga ko‘rsatadigan ta’sirni saqlashga qaratiladi.
2. Pragmatik adaptatsiya – madaniy va psixologik xususiyatlar hisobga olinadi.
3. Lokalizatsiya – slogan maqsadli auditoriyaning til me’yorlari va milliy qadriyatlariga moslashtiriladi.

Aynan kommunikativ yondashuv reklama sloganlarining persuasiv vazifasini saqlab qolishda eng samarali usul hisoblanadi. Tarjimon reklama matnining tashqi shaklini emas, balki uning kommunikativ maqsadi va pragmatik ta’sirini qayta yaratishga intilishi lozim. Shu sababli reklama sloganlari tarjimasida lingvistik ekvivalentlik ikkinchi darajali ahamiyat kasb etib, kommunikativ ekvivalentlik asosiy mezonga aylanadi [House. 2015: B.84; Munday. 2016: B.110].

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilidan o‘zbek tiliga reklama sloganlarini tarjima qilishda kommunikativ yondashuv eng maqbul va samarali usullardan biri hisoblanadi. Reklama sloganlarining asosiy vazifasi iste’molchiga ta’sir ko‘rsatish bo‘lganligi sababli tarjima jarayonida lingvistik ekvivalentlikdan ko‘ra kommunikativ ekvivalentlik muhimroq ahamiyat kasb etadi.

Tarjimon reklama sloganlarini tarjima qilishda ma’no, pragmatik ta’sir va madaniy moslikni uyg’unlashtirishi zarur. Kelgusida o‘zbek tilidagi reklama tarjimalarini yanada takomillashtirish uchun lokalizatsiya va pragmatik adaptatsiya usullaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Newmark P. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988.
2. Munday J. Introducing Translation Studies. – London: Routledge, 2016.
3. Cook G. The Discourse of Advertising. – London: Routledge, 2001.
4. Goddard A. The Language of Advertising. – London: Routledge, 2002.
5. Komissarov V.N. Theory of Translation. – Moscow: Higher School Publishing, 1990
6. Nida E. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964.
7. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 2018.
8. Vermeer H. Skopos and Commission in Translational Action. – Heidelberg: Groos, 1989.

FRANSUZ TILINI O‘RGANISHDA TALAFFUZ KO‘NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION USULLARI

Bagautdinova Ilmira Salavatovna
Tayanch doktorant (PhD)
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Toshkent shahri
is.bagautdinova@uzswlu.uz
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21899586

Annotatsiya. Maqola O‘zbekistonda kasbiy ta’limning raqamli transformatsiyasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Fransuz tilini o‘rganishda fonetik ko‘nikmalarni monitoring qilish va rivojlantirishni avtomatlashtirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) qo‘llash maqsadga muvofiqligi asoslandi. Ilmiy yangilik talabalarning talaffuz kompetensiyasini mehnat bozorining dolzarb talablariga muvofiq takomillashtirish uchun raqamli tizimlardan foydalanish modelini ishlab chiqishdan iborat.
Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim muhiti, kasbiy ta’lim, fonetik kompetensiya, fransuz tili, AKT, monitoringni avtomatlashtirish, O‘zbekiston mehnat bozori.

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ПРОИЗНОСИТЕЛЬНЫХ НАВЫКОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. Статья посвящена исследованию цифровой трансформации профессионального образования в Узбекистане. Обоснована целесообразность применения информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) для автоматизации мониторинга и развития фонетических навыков при изучении французского языка. Научная новизна заключается в разработке модели использования цифровых систем для совершенствования произносительной компетенции студентов в соответствии с актуальными требованиями рынка труда.
Ключевые слова: цифровая образовательная среда, профессиональное образование, фонетическая компетенция, французский язык, ИКТ, автоматизация мониторинга, рынок труда Узбекистана.

INNOVATIVE METHODS IN IMPROVING PRONUNCIATION SKILLS WHEN LEARNING FRENCH

Abstract. This article examines the digital transformation of vocational education in Uzbekistan. It justifies the use of information and communication technologies (ICT) to automate the monitoring and development of phonetic skills in the study of French. The scientific novelty lies in the development of a model for using digital systems to improve students’ pronunciation skills in line with the current demands of the labour market.
Keywords: digital learning environment, vocational education, phonetic competence, French, ICT, automated monitoring, Uzbekistan’s labour market.

Introduction. Against the backdrop of the global digital transformation of higher education, the issue of enhancing the professional competences of future specialists is taking on strategic importance. In accordance with Decree No. UP-60 of the President of the Republic of Uzbekistan dated 28 January 2022 “On the Development Strategy for New Uzbekistan for 2022–2026”, the priority task for higher education is to radically improve the quality of training through the introduction of digital technologies and the harmonisation of national standards with the CEFR international descriptors.

The digital transformation of the modern educational paradigm marks a fundamental shift from the linear delivery of learning content to a model of dynamic management of individual learning pathways. Against the backdrop of the globalisation of vocational education, the introduction of ICT-based learning management systems enables the transformation of the educational environment: from the passive storage of teaching materials to the predictive monitoring of students’ academic progress [6. 2022: P.2914]. This technological evolution is becoming a critical factor in scaling up vocational education in Uzbekistan, where it is necessary to maintain high standards of training quality whilst significantly increasing student intake and adapting to the demands of the labour market [3. 2026: P.28].

Traditional methods of educational assessment are often characterised by their sporadic nature and subjectivity, which makes it difficult to identify gaps in learning in a timely manner. The scientific novelty of this study lies in overcoming these limitations by integrating predictive analytics tools directly into the LMS (Learning Management System) architecture. The proposed model ensures continuous data collection and analysis, enabling the prompt adjustment of study programmes in real time, based on objective metrics of the acquisition of specific professional skills [5. 2022: P. 87].

In the context of digitalisation, the development of linguistic competences—in particular, the phonetic component when learning French—presents a particular challenge. Traditional classroom methods do not always allow for individualised articulation correction for each student in large groups. Consequently, the integration of ASR (Automatic Speech Recognition) technologies into a university's digital ecosystem is becoming an essential prerequisite for training competitive professionals [2. 2026: P. 204].

The aim of this study is to develop and provide a theoretical justification for a model of a digital ecosystem based on an LMS, designed to optimise the process of developing professional competences. To achieve this aim, the following tasks are addressed: systematising the functional capabilities of modern Learning Management Systems (LMS) in the context of professional training; identifying key determinants for the objective monitoring of competence acquisition levels; and designing an algorithm for the adaptive adjustment of the educational process based on predictive analytics data.

Main Body. The theoretical foundation of this study is based on a comprehensive approach to the study of the mechanisms underlying the acquisition of phonological systems in the process of foreign language learning. The object of the study is the process of developing students' phonetic competence in the context of learning French as a foreign language. Within this process, the focus is on transforming theoretical knowledge of the sound structure of the language into stable articulation skills. The subject of the study is the set of methods and tools for digital pronunciation correction, implemented using Automatic Speech Recognition (ASR) technologies.

The methodological basis of this work consists of two fundamental concepts of applied linguistics. Firstly, there is R. Lado's theory of linguistic interference [1. 2023: P. 2], which allows the occurrence of phonetic errors to be interpreted as the result of the influence of the phonological system of the native (Uzbek) language on the target (French). According to Lado, the most challenging areas of learning arise at points where articulation positions do not coincide, which requires the development of specific corrective strategies. Secondly, the study draws on the monitor hypothesis and S. Krashen's theory of second language acquisition [4. 2019: P. 85], which emphasises the importance of providing learners with the opportunity to receive regular 'comprehensible input' and immediate feedback.

The scientific novelty of this approach lies in viewing phonetics not as an abstract set of rules, but as a complex psychophysical skill. Phonetic activity is distinctly 'mechanical' in nature, requiring high-frequency repetition and sensorimotor consolidation. In this regard, the integration of modern ICT is viewed as a tool for optimising the training cycle, providing the intensive practice necessary for the automation of articulatory movements and the overcoming of interference barriers [7. 2025: P.3]

To achieve the set objective and address the research questions, a set of complementary methods was applied to ensure the comprehensiveness and reliability of the results obtained. The choice of methods was dictated by the interdisciplinary nature of the work, which lies at the intersection of linguistics, pedagogy and information technology.

The first stage of the work involved a theoretical analysis of the academic literature on the phonology of the French language and recent advances in the field of ASR technology. During this analysis, approaches to studying the articulatory characteristics of the French language were systematised, and the technological capabilities of ASR (Automatic Speech Recognition) algorithms for assessing pronunciation accuracy were identified. This enabled the formation of a conceptual framework for the development of a digital correction model.

A contrastive analysis approach was employed to identify areas of potential phonetic difficulty. As part of this approach, a comparison was carried out between the phonological systems of French and Uzbek. Particular attention was paid to identifying deficient sound units — elements of French phonetics that have no direct equivalents in the Uzbek language (in particular, the system of nasal vowels and specific labialised sounds). This method provided a scientific basis for selecting specific exercises for digital correction, focusing on the 'high-risk' areas where the likelihood of interference is greatest.

The research hypothesis was empirically tested through a pedagogical experiment. An ICT tool based on ASR technology was introduced into the educational process. During the experiment, the students were divided into two groups:

1. A control group, which was taught using traditional methods based on auditory perception and imitating the teacher’s pronunciation.

2. An experimental group, in whose learning process a digital correction tool was used, providing instant visualisation and assessment of the accuracy of articulation.

A statistical method was used to verify the effectiveness of the tool. Performance was assessed by analysing the dynamics of phonetic errors in both groups. A comparison of pronunciation accuracy indicators before and after the experiment was carried out using methods of mathematical statistics (in particular, Student’s t-test for independent samples). This made it possible to mathematically confirm the significance of differences in the rates of phonetic competence development and to establish the extent to which ASR technologies influence the reduction in the frequency and severity of phonetic errors.

The introduction of innovative ASR technologies into Uzbekistan’s educational environment faces a number of systemic barriers that require a comprehensive approach:

- Infrastructure: The main obstacle is the ‘digital divide’. Uneven access to high-speed internet and modern computer equipment between urban centres and regional educational institutions creates inequality in educational opportunities, limiting the scalability of high-tech solutions.

- Linguistic aspect: Global platforms (Duolingo) prove to be of limited effectiveness for Uzbek students due to a failure to account for the specific characteristics of the Uzbek phonetic system. These systems do not take into account the interference caused by the absence of certain French phonemes in the Uzbek language (for example, nasal vowels). Without adapting the algorithms to the specific language pair (Uzbek–French), a digital tool is unable to provide an accurate diagnosis of errors.

- Pedagogical aspect: The need to adhere to the TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) model [8. 2024: P.187–190]. Successful implementation requires teachers to possess not merely basic computer literacy, but the integration of three components of knowledge: technological, pedagogical and subject-specific. A lack of competence among teachers at the intersection of these areas hinders the effective use of ICT as a teaching tool, rather than a mere supplement to the textbook.

Research findings. The study involved a comprehensive analysis of the factors influencing the effectiveness of integrating digital technologies into foreign language teaching at higher education institutions in Uzbekistan. The data obtained enable us to identify three key problem areas: infrastructure, language technology, and professional competence.

The infrastructure analysis revealed the existence of a pronounced “digital divide”. Despite a general increase in internet accessibility, 42% of respondents (students and lecturers at regional universities) noted unstable connections and poor-quality equipment in teaching rooms. This creates conditions for an intermittent learning process, reducing students’ engagement in interactive online activities.

The language technology aspect revealed a critical shortage of localised software. Testing of popular EdTech platforms demonstrated low speech recognition accuracy (ASR) when processing the accent typical of Uzbek-speaking students. The recognition error rate averages 25–30% in the early stages of learning, which leads to the formation of incorrect phonetic patterns and reduces motivation to use automated self-assessment systems.

An analysis of teaching staff competencies revealed a discrepancy between their level of technical proficiency and the extent to which technology is integrated into their teaching methods. According to the survey results, 65% of teachers use digital tools merely as an aid (such as showing presentations or playing videos), without applying them to the design of complex interactive tasks. The study confirmed a skills gap within the TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) model: teachers have a good command of subject matter and technology separately, but lack the ability to synthesise them into a unified pedagogical strategy.

Thus, the results indicate that the current digital transformation is predominantly technical in nature, rather than methodological. This limits the potential of digital tools as means of transforming cognitive processes in foreign language learning.

Conclusion. This study has provided a comprehensive assessment of the current state of digitalisation in foreign language teaching at higher education institutions in Uzbekistan. Based on the data obtained, it can be concluded that, despite the active introduction of IT tools, the process of integrating technology into the educational environment remains fragmented and predominantly technical.

The main obstacles to a high-quality transformation of teaching are infrastructural instability, the poor adaptability of foreign software products to the local phonetic context, and a methodological gap in the training of teaching staff. It has been found that the lack of synergy between technological capabilities and pedagogical design (the TPACK model) undermines the potential of digital platforms, reducing them to mere visualisation tools rather than instruments of active learning.

To overcome these barriers, it is necessary to shift the focus from the quantitative expansion of the technical infrastructure to the qualitative development of teachers’ methodological competence. It is recommended that specialised EdTech solutions be developed, taking into account the linguistic characteristics of the target audience, and that programmes for the continuous improvement of teachers’ digital competences be implemented. Further research should focus on investigating the impact of adaptive intelligent systems on students’ individual learning trajectories within a digital environment.

References

1. Amjed Al-Rickaby. (2023). The Survival of Contrastive Analysis Hypothesis: A Look Under the Hood. Theory and Practice in Language Studies Vol.13(1):1-7.DOI:10.17507/tpls.1301.01. https://www.researchgate.net/publication/366740806_The_Survival_of_Contrastive_Analysis_Hypothesis_A_Look_Under_the_Hood

2. Bagautdinova, I. S. (2026). Developing phonetic competence in students when teaching french using ICT. Foreign Languages in Uzbekistan (journalfledu.com), 66(1), 202–219. https://doi.org/10.36078/1767726141.

3. Bagautdinova, I. S. (2026). Developing pronunciation skills in French-language students using ICT. Universum: Psychology and Education, 2 (2 (140)), 26–32. doi: 10.32743/UniPsy.2026.140.2.21938.

4. Degtyareva, I. L.. Stephen Krashen’s Acquisition-Learning Hypothesis // Eurasian Scientific Journal. 2019. No. 12. pp. 85–86. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/gipoteza-usvoeniya-obucheniya-stivena-krashena (accessed 22 July 2026).

5. Eltunova, I. B., Nikolaeva, L. V., Gorokhovskaya, N. A. (2022). Digitalisation tools as a means of improving the quality of education. Modern Teacher Education, (9), pp. 86–89. URL: (accessed 4 June 2026).

6. Mian, Y., Khalid, F., Qun, A. and Ismail, S. (2022) Learning Analytics in Education, Advantages and Issues: A Systematic Literature Review. Creative Education, 13, pp. 2913–2920. doi: 10.4236/ce.2022.139183.

7. Ruijia, Z., Wenling, L., & Xuemei, Z. (2025). The impact of Information and Communication Technology (ICT) on learning outcomes in early childhood and primary education: a meta-analysis of moderating factors. Frontiers in Psychology, pp. 1–16, 1540169. https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC12213516/

8. Zeyan, G. (2024). A strategy for promoting the TPACK model in the training of students specialising in primary and secondary education. Modern Teacher Education, (9), 187–190. doi: 10.24412/2587-8328-2024-9-187-190.

FOLKLORIZMLARNING LEKSIKOGRAFIYA SOHASIDA TUTGAN O‘RNI

Tursunova Dilshoda Xoldin qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: tursunovadilshoda314@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21899659

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq og‘zaki ijodiga oid bo‘lgan birliklarning – folklorizmlarning lug‘atlarda berilishi izohlangan. Til va xalq og‘zaki ijodi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yoritishda leksikografiyaning o‘rni alohida ta’kidlangan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilgan folklorizmlar “Folklor asarlari tiliga xos so‘zlarning izohli lug‘ati” hamda “Alpomish” dostonining izohli lug‘ati” bilan qiyoslab o‘rganilgan. Xususan, “bovur”, “donakor”, “badik”, “harba”, “sursat” kabi folklorga oid leksik birliklar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, leksikografiya, folklorizm, bovir, donakor, badik, harba, sursat.

Аннотация. В данной статье рассматривается отражение единиц, относящихся к устному народному творчеству — фольклоризмов — в словарях. Особо подчеркивается роль лексикографии в освещении тесной взаимосвязи между языком и устным народным творчеством. Фольклоризмы, представленные в «Толковом словаре языка», были изучены в сравнении с «Толковым словарём слов, характерных для языка фольклорных произведений» и «Толковым словарём эпоса «Алпомиш». В частности, анализируются такие фольклорные лексические единицы, как «бовур», «донакор», «бадик», «харба». «сурсат».

Ключевые слова: устное народное творчество, лексикография, фольклоризм, бовир, донакор, бадик, харба, сурсат.

Abstract. This article discusses the representation of units related to oral folk art — folklorisms — in dictionaries. The role of lexicography in highlighting the close relationship between language and oral folk creativity is particularly emphasized. The folklorisms presented in the “Explanatory Dictionary of the Uzbek Language” were studied through a comparative analysis with the “Explanatory Dictionary of Words Characteristic of the Language of Folklore Works” and the “Explanatory Dictionary of the Epic “Alpomish”. In particular, such folkloric lexical units as “bovur,” “donakor,” “badik,” “harba,” and “sursat” are analyzed.

Keywords: oral folk art, lexicography, folklorism, bovir, donakor, badik, harba, sursat.

Folklor namunalari barcha davrlarda ijodkorlarning estetik idealini boyitishga ta’sir ko‘rsata olgan. Xalq og‘zaki ijodida yig‘ilgan ijodiy tajribalar yozma adabiyot shakllanishida muhim zamin bo‘lib xizmat qilib kelgan.

Folklor an’analari deganda, xalq og‘zaki ijodiga xos ifoda uslubi, badiiy shakllar va tasvir vositalari, epik motiv va obrazlar, marosim hamda urf-odatlarga xos tushuncha va qarashlarning faqat folklor asarlarida saqlanib qolishi, ularni poetik ifodalashning davom ettirilishi anglashiladi. Ammo yozma adabiyotda folklor an’analari davom etmaydi, balki folklor materiali aynan o‘zlashtirilishi yoki g‘oyaviy-badiiy, kompozitsion jihatdan biroz o‘zgartirilib, unga ijodiy ishlov berilishi mumkin. Demak, folklor ta’sirida yozma adabiyot namunasiga folklor an’analariga xos hodisalarning badiiy mahorat bilan singdirilishidan, qayta talqin etilishidan *folklorizmlar* yuzaga keladi. Bundan folklorizmlarning xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyot xususiyatlarini o‘zida sinkretlashtirgan badiiy-ijodiy hosila ekanligi anglashiladi. Negaki, folklorizmda folklor materiali yozma adabiyot qonuniyatlariga muvofiq individual ijodkorning badiiy mahorati, hissiy kechinmalari, qarashlari hisobiga yanada boyitiladi.

Folklorizmning muhim tomoni shundaki, u folklor va yozma adabiyot munosabatining davomiyligini ta’minlaydi. Shuning uchun B.Sarimsoqov folklorizmlar tabiatini tadqiq qilar ekan: “Folklor va yozma adabiyot munosabati o‘z ichiga ijodkor ijodidagi oddiy folklorizmlarni aniqlashdan tortib, ijodiy metod munosabati, xalqchillik, milliylik va baynalmilallik, ijodkorning folklordan ijodiy foydalanish yo‘llari va usullari, u yoki bu san’atkor mahoratining yo‘nalishi va unda folklor an’analarining ta’siri muammolarigacha qamrab oladi”, - degan haqqoniy fikrni ilgari suradi. [Sarimsoqov, 1976:85] Chunki og‘zaki va yozma adabiyot munosabati keng qamrovlidir. Ammo bu munosabat o‘zagida ikki masala: folklorlashuv va folklorizm turadi. Boshqa masalalar shu ikki tushuncha atrofida birlashadi.

Bugun ko‘plab olimlarimiz, tadqiqotchilarimiz tomonidan folklorga xos so‘zlarning izohli lug‘atlari yaratilib kelinyapti. Jumladan, T.Mirzayev, S.Fidokor, J.Eshonqulovlarning hammualliflikda yaratilgan “Alpomish asarining izohli lug‘ati”, D.Urinbayevaning “Folklor asarlariga xos so‘zlarning izohli lug‘ati”, S.Ro‘zimboyev, H.Ro‘zmetovlarning “Folklor atamalari qisqacha lug‘ati” kabi lug‘atlari shular jumlasidandir. Bu kabi lug‘atlarda xalq og‘zaki ijodida uchraydigan oddiy folklorizmlarning izohini ko‘rishimiz mumkin. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham folklorga xos so‘zlarning 165 ta namunasini uchratamiz. Ammo ba’zi folklorizmlarning izohi lug‘atlarda turlicha kelganligini kuzatamiz.

Jumladan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da folklorga oid so‘z deb qaralgan *Bovur* so‘zining izohiga to‘xtalamiz.

Bovur *shv. folk.* 1 Bag‘ir, jigar; dil, ko‘ngil. *O‘ynashgin, kulishgin yoshlik davringga, Haq muyassar qiladi qorday bovringga.* “Gulxiromon”. *Seni ko‘rib, bolam tushdi yodimga, Bola deb jigarim-bovrim kuyadir.* U. Po‘lkan, Bir bahor dostoni. (O‘TIL. I tom. 293b)

Bu so‘zni S.Ashirboyev ham “O‘zbek shevalari lug‘ati”ga kiritganligini uchratdik.

Bavïr – 1. Jigar: Qojïŋ bavrïni qoγïrïp jep jürsäŋ, közіŋ jaxšï körädoγon boladï – Qo‘yning jigarini qovirib yeb yursang, ko‘zing yaxshi ko‘radigan bo‘ladi.

2. Qarindosh: Kečaγï kägännärіŋ bäri bavïrlarïmïsïjdï – Kechagi kelganlarning barchasi qarindoshlarimiz edi.

Agar biz *Bovur* so‘zining etimologiyasiga nazar tashlasak, sof turkiy, juda qadimiy ekanligini anglaymiz.

S.Ashirboyev *Badik* so‘zining Turkiston shevasiga xos ekanligini aytgan bo‘lsa, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da folklorizm sifatida berilgan.

Badik II *folk. etn.* Bemorni so‘z yoki ashula aytish yo‘li bilan davolash usuli; duoxonlik, avrash. *Bunga so‘zning magik qudratiga asoslanuvchi kinna, badik, avrash, burey-burey hamda mavsum-marosim qo‘shiqlaridan “Sust xotin”, “Choy momo” kabilar mansub.* “O‘TA”. (O‘TIL. I tom. 135 b)

Bädik – gapdon, haqiqat bo‘lmagan narsalarni ko‘p gapiruvchi: Ej bädik, qojčï, čarčap kettik – Ey mahmadona, gapingdan to‘xta, bizni charchatib yubording.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da folklorga xos so‘z sifatida keltirilgan *Danakor* so‘zining aniq etimologiyasi haqida ma’lumot uchramaydi. So‘z tarkibiga qarab “dana” – donishmand, aqlli, bilimli, “-kor” – ish qiluvchi ma’nolarini bildirishiga qarab “bilimli odam”, “dono kishi” kabi semalarga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu so‘zning manbalarda turli ma’nolarda kelayotganligini kuzatamiz.

Danakor, donakor *folk.* Vositachi, vakil. *Momang donakor bo‘lib ishni sozlasa, Yotarsan oyimning qorday bag‘rida.* “Gulxiromon”. *Qabul qilgin, bolam, shunday to‘rani! Momang danakor bo‘lib keldi oraga.* “Gulxiromon”. (O‘TIL. I tom. 554b)

Dänäkär – shumshuk (aynan emas): Šundaj adamnar bar-da, bir näsäni ap, ja bomasa, jep örgänip qaγan jeriga bezbet bop qajta-qajta käläberädi, ularnï dänäkär dijmis, häräkätini dänikip qaγan dijmis. – Shunday odamlar borki, bir joydan doim olib (pul sarflamay) yoki yeb o‘rganib qolgan joyga bezbetlarcha qayta-qayta kelaveradi, ularni shumshuk, donakor deymiz, harakatini dänikip (o‘rganib) qolgan deymiz. [Ashirboyev, 2026:29]

Ba’zi folklorga xos so‘zlarimiz borki, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da boshqa, T.Mirzayev, J.Eshonqulov, Selim Fidokorning “Alpomish” dostonining izohli lug‘ati”da boshqa, D.Urinbayevaning “Folklor asarlari tiliga xos so‘zlarning izohli lug‘ati”da boshqa ma’noda berilganligini uchratamiz.

Xususan, *Harba* arabcha so‘z bo‘lib, “sanchqi qurol”, “jang quroli” kabi ma’nolarni bildiradi. O‘zbek tilida kelgan holatlarda “hiyla”, “bosim o‘tkazish usuli” ma’nolarida keladi. Ammo “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da harba so‘zining arab lug‘atlarida kelgan ma’nosi bilan berilganligini ko‘ramiz.

Harba [nayza , sanchqi] folk. Nayza, qilich kabi jang qurollari. Odam ko‘p-da, hamma o‘rtaga olib, Har tarafdan har xil harbalar solib, Endi tushdi qilich olib g‘azoga, Bek Go‘ro‘g‘li qoldi endi qamalib. “Xushkeldi”. (O‘TIL. 5 tom. 508b]

Harba – hamla, qarshi hujum. Tayoq yeb Hakimbek harba qilmadi, Bobosining qilgan ishin bilmadi, Tayoq o‘tib tanda toqat qolmadi. [Mirzayev, 2007:161]

Sursat *esk. folk.* O‘lpon, soliq. *Uchqur eding, qanotingdan qayrilding, Yuguruk bo‘lsang, tuyog‘ingdan tayrilding, Biz ovqatdan, sen sursatdan ayrilding.* “Alpomish”. [O‘TIL. 3 tom. 595 b]

Sursat – yerdan olinadigan foydadan to‘lanadigan soliq, to‘lovning bir turi. Yugruk bo‘lsang, tuyog‘ingdan tayrilding, Biz ovqatdan, sen sursatdan ayrilding. [Mirzayev, 2007:161]

Sursat – harbiy qo‘shin va amaldorlarga beriladigan oylik maosh. Uchqur eding qanotingdan qayrilding, Yugruk bo‘lsang, tuyog‘ingdan tayrilding, Biz ovqatdan, sen sursatdan ayrilding. [Urinbayeva, 2017:182]

“Folklor asarlari tiliga xos so‘zlarning izohli lug‘ati”da *tog‘da yolg‘iz oyoq og‘ir yo‘l* – jo‘nog‘ar tarzida berilgan. Ammo “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da xuddi shu ta’rif jo‘nag‘ay deb ko‘rsatilgan. Bunday tafovut bo‘lishiga sabab, doston matnlarining turli baxshilar tomonidan kuylangan variantlariga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari vaqtlar o‘tishi bilan so‘zlarning tarkibida bo‘ladigan o‘zgarishlarga ham bog‘liq.

ulday jaynab, suqsurday bo‘ylab, parvoz aylab, taraqqos boylab, ostida Jiyronqush oti har usulda o‘ynab. (Ravshan. 10) Ushbu misolda taraqqos boylab folklorizmi keltirilgan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *gijinglab turmoq, noz-ishva qilmoq* kabi ma’nolarda berilgan. D.Urinbayevaning izohli lug‘atida esa *chiroyi ochilib, tovlanib, yashnab turmoq* tarzida berilgan.

Xalq og‘zaki ijodida adabiy normadagi, o‘zining nozik, nafis ma’nolari bilan boyitadigan juda ko‘p so‘zlar mavjud. Bizningcha, folklorga xos so‘zlarni “Izohli lug‘atlar”da berishda ularning shevaga yoki folklorga mos kelish-kelmasligiga e’tibor berish lug‘atning qimmatini oshiradi.

Lekin normani payqash, normativ hollarni ajratib olish akademik L.V.Shcherba aytganidek, oson ish emas. Izohli lug‘atni yaratishda ayrim xato va kamchiliklar, munozarali hollar bo‘lishi tabiiydir. Folklorga oid so‘zlarni izohli lug‘atda berishda, avvalo, ularning farqlarini aniqlash, ma’nolarini o ‘rganish, prinsiplarini ishlab chiqish lozim bo‘ladi. Bunda leksikologiya, leksikografiya va dialektologiya kabi sohalar muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Folklorizmlarni leksikografik jihatdan tahlil qilar ekanmiz, ayrim so‘zlarning adabiy tilda muqobili borligini, ayrim so‘zlarning esa shevada ekvivalenti mavjudligini o‘rgandik. Yana shunday so‘zlar ham uchradiki, ular aytilish davri hamda ijro etilgan shaxs tomonidan rang-baranglikka uchrab, turli xil ma’no kasb etganligini aniqladik.

Izohli lug‘atlarda berilgan folklorizmlarning ma’nosi borasidagi tafovutlar sheva hamda lahjalarga borib taqaladi. Folklorizmlar xalq og‘zaki ijodi mahsuli bo‘lganligi uchun, ular har yerda har xil talaffuz qilinadi. Masalan, qipchoq shevasiga oid: halak – toliqqan, qiynalgan; ovora, sarson; alp – bahodir; ang – sodda. Xorazm shevasiga oid: mengzamoq – o‘xshatmoq; gitmoq – ketmoq; gizlanmoq – yashirinmoq, bekinmoq.

Bundan tashqari izohli lug‘atlarda kelib chiqishi jihatidan turli tillarga mansub bo‘lgan folklorizmlar ham bor. Jumladan, *forschadan – bangi, mo‘g‘ulchadan – bahodir, arabchadan – jumla, arabcha+forschadan – selob* kabi folklorizmlardir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, xalq og‘zaki ijodiga xos so‘zlarning til xususiyatlarini o‘rganish, ularning leksikografiya sohasida tutgan o‘rnini tahlil qilish bugungi tilshunoslarimiz oldida turgan vazifalardan sanaladi. Zero folklorizmlar har qaysi davrda ham badiiy adabiyotimizni bezab turuvchi so‘zlar bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S., O‘zbek shevalari lug‘ati. – Toshkent:Bookmany Print. 2026. 29-b.
2. Мирзаев Т., Эшонқул Ж., Фидокор С. «Алпомиш» достонининг изоҳли луғати. – Тошкент: «Elmus-Press-Media», 2007. – 161 б.
3. Urinbayeva D. Folklor asarlari tiliga xos so‘zlarning izohli lug‘ati. – Samarqand, 2017. – 182 b.
4. Sarimsoqov B. Folklor va yozma adabiyot munosabatlariga doir izlanishlar // O‘zbek tili va adabiyoti. 1976. №5. – B. 85.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – 679 б.

ПСИХОЛОГО – ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОДЕРЖАНИЯ АФОРИЗМОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

Кодиров Улугбек Мирахмад угли
Самостоятельный соискатель НамГПИ
Учитель – ментор русского языка и литературы (РКИ)
qodirov_01@inbox.ru
Сатаров А.Х. к.п.н.,доцент
кафедры креативной педагогики и психологии
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21901211

Аннотация. В данной статье рассматриваются психолого – педагогические основы использования афоризмов при обучении русскому языку. Раскрывается понятие афоризма на основе определений и анализируется роль афоризмов в развитии речи, мышления и нравственного воспитания учащихся. Особое внимание уделяется методике применения афоризмов на уроках русского языка, их воспитательному и образовательному значению, тому как афоризмы способствуют повышению интереса к изучению русского языка, формированию культуры речи и развитию коммуникативных навыков обучающихся.

Ключевые слова: афоризм, русский язык, педагогика, психололгия, развитие речи, обучение, воспитание, методика преподавания, культура речи, мышление, учащиеся.

Annotatsiya. Ushbu maqolada rus tilini o'qitishda aforizmlardan foydalanishning psixologik va pedagogik asoslari ko'rib chiqiladi. Aforizm tushunchasi ta'riflar yordamida o'rganiladi va aforizmlarning o'quvchilar nutqi, tafakkuri va axloqiy tarbiyasini rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Rus tili darslarida aforizmlardan foydalanish usullariga, ularning ta'limiy va rivojlantiruvchi ahamiyatiga, shuningdek, aforizmlarning rus tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirishga, nutq madaniyatini rivojlantirishga va o'quvchilarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga qanday hissa qo'shishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: aforizm, rus tili, pedagogika, psixologiya, nutqni rivojlantirish, ta'lim, tarbiya, o'qitish usullari, nutq madaniyati, fikrlash, o'quvchilar.

Annotation. This article examines the psychological and pedagogical foundations of using aphorisms in teaching Russian. The concept of aphorism is explored using definitions and the role of aphorisms in the development of students' speech, thinking, and moral education is analyzed. Particular attention is paid to the methods of using aphorisms in Russian language lessons, their educational and developmental value, and how aphorisms contribute to increased interest in learning Russian, the development of a culture of speech, and the development of students' communication skills.

Keywords: aphorism, Russian language, pedagogy, psychology, speech development, education, upbringing, teaching methods, speech culture, thinking, students.

В современной методике преподавания русского языка особое внимание уделяется развитию речи, мышления и культурной компетенции учащихся. Одним из эффективных средств обучения являются афоризмы. Они представляют собой краткие, содержательные и выразительные высказывания, которые обладают воспитательной, познавательной и языковой ценностью. Использование афоризмов на уроках русского языка способствует развитию словарного запаса, формированию грамотной речи, развитию логического мышления и нравственных качеств обучающихся.

Актуальность данной темы заключается в том, что афоризмы помогают сделать процесс обучения более интересным, содержательным и воспитательно направленным. Через краткие мудрые высказывания учащиеся знакомятся с культурой речи, образностью русского языка и духовными ценностями общества.

Понятие афоризма. Термин «афоризм» происходит от греческого слова *aphorismos*, что означает «краткое изречение» или «определение». В научной литературе существуют различные определения данного понятия.

Известный русский лексикограф в «Толковом словаре русского языка» определяет афоризм как краткое выразительное изречение, содержащее обобщенную и законченную мысль. Такое определение подчеркивает основные признаки афоризма: лаконичность, выразительность и глубину содержания. [6]

По нашему мнению, афоризм представляет собой особую форму художественной мысли, в которой в сжатом виде отражаются жизненный опыт, философские идеи и нравственные ценности общества. Исследователь отмечает, что афоризмы отличаются точностью языка, эмоциональной насыщенностью и способностью воздействовать на мышление человека. Таким образом, афоризм можно рассматривать не только как языковую единицу, но и как педагогическое средство обучения и воспитания.

Психологические аспекты восприятия афоризмов

Афоризмы, как элемент культуры и языка, представляют собой не только словесные конструкции, но и способ передачи знаний и жизненного опыта. Психология восприятия афоризмов включает в себя несколько ключевых аспектов: [3]

1. Эмоциональное восприятие. Афоризмы часто вызывают эмоциональный отклик, что способствует их запоминанию. Исследования показывают, что эмоционально насыщенные фразы лучше усваиваются и запоминаются.
2. Ассоциативное мышление. Афоризмы могут активизировать ассоциации, что важно для разработки критического мышления. Они предоставляет возможность учащимся сопоставлять и анализировать различные идеи и концепции.
3. Личностная идентификация. Практика показывает, что учащиеся чаще идентифицируют себя с содержанием афоризмов, что способствует формированию их личной мотивации к изучению языка. [3]

Мы в своем исследование используем психологическую терминологию для того, чтобы выделить значение психологического подхода к применению афаризмов в процессе обучения русскому языку. Обращая внимания на эмоциональные влияния афаризмов в педагогическом действие учителя как важное средство развитие интереса и включение учащихся в живые творческие мышления с позиции героев произведения.

Афоризмы как средство обучения

Как показывает наше исследование использование афоризмов в преподавании русского языка разнообразит учебный процесс и создает атмосферу, способствующую глубокому пониманию предмета. Рассмотрим несколько аспектов, как афоризмы могут быть использованы в обучении:

1. Развитие критического мышления. Обсуждение афоризмов позволяет развивать критическое мышление. Ученики могут анализировать их содержание, обсуждать контекст и понятийный смысл.
2. Улучшение языковых навыков. Афоризм способствует обучению навыкам чтения и письма, так как учащиеся учатся выражать свои мысли более чётко и лаконично.
3. Формирование культурной грамотности. Понимание и анализ афоризмов позволяет учащимся погрузиться в культуру русского языка, узнать больше о традициях и мировосприятии народа.

Практические рекомендации по использованию афоризмов

Для эффективного применения афоризмов в обучении русскому языку учителю необходимо учитывать несколько практических рекомендаций:

1. Выбор подходящих афоризмов. Учителя должны выбирать афоризмы, соответствующие уровню развития учащихся, а также их интересам и жизненному опыту.
2. Интеграция афоризмов в уроки. Афоризмы можно использовать как вводный элемент занятия, для объяснения новой темы или в качестве заключительного рефлексивного момента.
3. Создание дискуссий. Обсуждение афоризмов в группах может способствовать развитию навыков аргументации и критического анализа, а также углубляет понимание языка и темы.

Педагогическое значение афоризмов

Афоризмы имеют большое значение в процессе обучения русскому языку. Их педагогическая ценность проявляется в нескольких направлениях.

Развитие речи учащихся

Афоризмы помогают учащимся усваивать богатство русского языка, развивать словарный запас и формировать навыки правильного построения предложений. Краткость и выразительность афоризмов делают их удобными для анализа на уроках русского языка.

Например:

«Краткость — сестра таланта».

Данное высказывание помогает учащимся понять значение лаконичной и точной речи.

Формирование нравственных качеств

Многие афоризмы содержат моральные и жизненные ценности. Они воспитывают уважение к труду, знаниям, честности и культуре общения.

Например:

«Ученье — свет, а неученье — тьма».

Такие выражения способствуют воспитанию положительных качеств личности и формированию мировоззрения учащихся.

Развитие мышления Афоризмы требуют осмысления и анализа. Работа с ними развивает логическое и критическое мышление учащихся, умение делать выводы и выражать собственное мнение. При обсуждении афоризмов учащиеся учатся: анализировать смысл высказывания; объяснять скрытую мысль; приводить жизненные примеры; строить аргументированные ответы.

Повышение интереса к изучению русского языка Использование ярких и мудрых выражений делает уроки более интересными и эмоционально насыщенными. Афоризмы могут использоваться: в начале урока как мотивация; при объяснении новой темы; в качестве материала для грамматического анализа; для развития устной и письменной речи.

Методика использования афоризмов на уроках русского языка В процессе обучения русский язык афоризмы могут применяться различными способами.

Лексическая работа Учитель объясняет значение незнакомых слов, содержащихся в афоризме, что способствует расширению словарного запаса учащихся.

Грамматический анализ Афоризмы удобны для разбора синтаксических конструкций, определения частей речи и изучения пунктуации. Например: «Слово — серебро, молчание — золото»

На основе данного афоризма можно изучать тире в простом предложении.

Развитие письменной речи Учащимся можно предложить: написать сочинение по афоризму; выразить собственное мнение; подобрать похожие высказывания; объяснить смысл выражения.

Дискуссия и обсуждение Обсуждение афоризмов развивает коммуникативные навыки учащихся и формирует культуру речи. Например, учащимся можно предложить обсудить смысл высказывания: «Человек живёт век, а учится всю жизнь».

Воспитательный аспект афоризмов

Афоризмы являются важным средством духовно-нравственного воспитания. Они помогают формировать: уважение к родному языку; любовь к знаниям; культуру общения; патриотические и гуманистические ценности. Через мудрые высказывания учащиеся знакомятся с культурным наследием русского народа и мировой литературы.

Заключение

Таким образом, афоризмы играют важную роль в обучении русскому языку. Они способствуют развитию речи, мышления и нравственных качеств учащихся. Использование афоризмов на уроках помогает сделать образовательный процесс более эффективным, интересным и воспитательно значимым.

Определения афоризма, представленные и, подтверждают, что афоризм является не только литературным жанром, но и важным педагогическим средством в обучении и воспитание учащихся. Поэтому применение афоризмов в преподавании русского языка имеет большое методическое и воспитательное значение.

Список литературы

1. Выготский, Л. С. *Психология и педагогика*. — М.: Педагогика, 1982
2. Петров, А. И. *Афоризм в русской литературе и языке*. — Санкт-Петербург: Летний сад, 2015
3. Расторгуев, Е. В. *Эмоциональный интеллект и его роль в обучении языкам* — Владивосток: Дальний Восток, 2020
4. Русский язык и культура речи: учебник для студентов педагогических вузов. — М., 2019.
5. Серафимова, Н. Н. *Развитие критического мышления в образовательном процессе*. М.: Наука, 2019

6. Толковый словарь русского языка. — М.: Мир и образование, 2021.
7. Теория и особенности афоризмов в современной филологии. — учебное пособие. — М.: 2020.
8. Фаворский, Н. А. *Русский язык в контексте культурной идентичности*. — Екатеринбург: Уральский университет, 2018

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INKLYUZIV MUHITNI YAXSHILASHDA ZAMONAVIY KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Rahmatullayeva Sabohat Sa’dullayevna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi assistent o‘qituvchisi
E– mail: sabohatsadullayevna66@gmail.com
Orcid: 0009– 0005– 6893– 3864
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21901290

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida inklyuziv ta’lim muhitini rivojlantirish va uning sifatini oshirishda zamonaviy kompyuter hamda yordamchi (assistiv) texnologiyalarning o‘rni ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarning psixofizik xususiyatlariga moslashtirilgan raqamli ta’lim resurslari, interfaol dasturlar, multimediali ilovalar va korreksion-pedagogik dasturiy vositalarning ta’lim samaradorligiga ta’siri yoritib berilgan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining inklyuziv va raqamli kompetentligini rivojlantirish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish metodikasi bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, zamonaviy kompyuter texnologiyalari, assistiv texnologiyalar, alohida ta’lim ehtiyojlari, raqamli ta’lim muhiti, korreksion pedagogika, interfaol ta’lim.

Аннотация. В данной статье научно-педагогически анализируется роль современных компьютерных и ассистивных технологий в развитии и улучшении качества инклюзивной образовательной среды в начальной школе. Освещается влияние цифровых образовательных ресурсов, интерактивных программ, мультимедийных приложений и коррекционно-педагогических программных средств, адаптированных к психофизическим особенностям учащихся с особыми образовательными потребностями, на эффективность обучения. Также разработаны практические рекомендации по развитию инклюзивной и цифровой компетентности учителей начальных классов и методике эффективного использования ИКТ.
Ключевые слова: инклюзивное образование, начальное образование, современные компьютерные технологии, ассистивные технологии, особые образовательные потребности, цифровая образовательная среда, коррекционная педагогика, интерактивное обучение.

Abstract. This article provides a scientific and pedagogical analysis of the role of modern computer and assistive technologies in developing and improving the quality of an inclusive educational environment in primary education. It highlights the impact of digital educational resources, interactive software, multimedia applications, and correctional-pedagogical tools tailored to the psychophysical characteristics of students with special educational needs. Furthermore, practical recommendations have been developed regarding the enhancement of primary school teachers' inclusive and digital competence and the methodology of effectively utilizing information and communication technologies.
Keywords: inclusive education, primary education, modern computer technologies, assistive technologies, special educational needs, digital learning environment, correctional pedagogy, interactive learning.

1. KIRISH. Zamonaviy dunyoda ta’lim tizimining asosiy tamoyillaridan biri barcha bolalar uchun, ularning jismoniy, ruhiy, intellektual va boshqa imkoniyatlaridan qat’i nazar, teng va sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratishdir. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, xususan, inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni jamiyatga va umumta’lim jarayoniga moslashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli davlat siyosati amalga oshirilmoqda. Inklyuziv ta’lim — bu shunchaki jismoniy jihatdan bolalarni bir sinf xonasiga jamlash emas, balki har bir o‘quvchining o‘ziga xos imkoniyatlari, ehtiyojlari hamda qobiliyatlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan o‘quv muhitini barpo etish jarayonidir [1. 2021:B.15].

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi inson shaxsining shakllanishi, uning ijtimoiy ko‘nikmalari, muloqot qobiliyati hamda asosiy bilim, ko‘nikma va malakalarining poydevori qo‘yiladigan eng mas’uliyatli davr hisoblanadi. Ayniqsa, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan (ATEB) bolalar uchun boshlang‘ich sinf davrida to‘g‘ri va samarali tashkil etilgan inklyuziv muhit ularning kelgusi hayotida ijtimoiy adaptatsiya jarayonini yengillashtiradi. Biologik va psixofizik cheklovlarni yengib o‘tishda traditional o‘qitish metodlari ba’zan

yetarli bo‘lmaydi. Shu sababli, boshlang‘ich ta’lim jarayoniga zamonaviy kompyuter texnologiyalarini va axborot-kommunikatsiya vositalarini joriy etish o‘ta dolzarb masalaga aylanmoqda [2. 2019:B.88].

Zamonaviy kompyuter texnologiyalari inklyuziv sinflarda o‘quv jarayonini individuallashtirish, differensiyalash hamda ko‘rsatmalilik darajasini oshirishda ulkan imkoniyatlar eshigini ochadi. Raqamli vositalar, komp’yuter dasturlari, interfaol doskalar, maxsus moslashtirilgan klaviaturalar, ekran o‘qish dasturlari hamda multimediali o‘quv materiallari alohida ehtiyojli o‘quvchilarning axborotni qabul qilish, qayta ishlash va o‘zlashtirish tezligini sezilarli darajada oshiradi [3. 2022:B.104]. Ushbu tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich ta’limda inklyuziv muhitni yaxshilashda zamonaviy kompyuter va yordamchi texnologiyalarning nazariy-metodik asoslarini o‘rganish, ularning amaliy samaradorligini tahlil qilish va o‘qituvchilar uchun ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

2. ADABIYOTLAR TAHLILI VA NAZARIY ASOSLAR. Inklyuziv ta’limda raqamli va kompyuter texnologiyalarini qo‘llash masalasi jahon hamda mahalliy pedagogika, psixologiya va defektologiya fanlarining diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Xalqaro miqyosda X.Vygotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasi va 'psixik rivojlanishning yaqin zonasi' nazariyasi inklyuziv ta’limning psixologik poydevorini tashkil etadi. Vygotskiy ta’kidlaganidek, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolada 'birlamchi nuqson' emas, balki uning oqibatida kelib chiqadigan 'ikkilamchi ijtimoiy oqibatlar' asosiy to‘siq hisoblanadi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari esa aynan ushu ikkilamchi to‘siqlarni bartaraf etishda kompensatorlik va korreksion vazifasini bajaradi [4. 1983:B.142].

Xalqaro olimlar J.Dede, M.Swarbrick va R.Florian o‘z ilmiy izlanishlarida inklyuziv ta’limda axborot texnologiyalarining o‘rni va ularni sinf muhitiga integratsiyalash modellari haqida to‘xtalib o‘tganlar. Florian va Hegarty ta’kidlashicha, kompyuter texnologiyalari alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun shunchaki texnik vosita emas, balki ularni tengdoshlari bilan teng huquqli muloqot va o‘quv jarayoniga jalb etuvchi 'ko‘prik' vazifasini o‘taydi [5. 2004:B.62]. Yordamchi texnologiyalar (assistive technology) bolaning jismoniy yoki sezgi organlaridagi cheklovlarni yengib o‘tish va umumta’lim dasturini to‘liq o‘zlashtirish imkonini beradi.

O‘zbekistonlik olim va tadqiqotchilardan L.R.Mo‘minova, M.Y.Ayupova, D.A.Nurkeldiyeva, Sh.M.Amiridova va boshqalarning ishlarida maxsus hamda inklyuziv ta’limda korreksion-pedagogik yondashuvlar, o‘quvchilarning nutqiy, ko‘rish, eshitish va tayanch-harakat a’zolaridagi buzilishlarni kompyuter dasturlari orqali korreksiya qilish masalalari atroflicha o‘rganilgan [6. 2018:B.75]. L.Mo‘minova ta’kidlashicha, boshlang‘ich sinf o‘quvchisining yosh xususiyati vizual va emotsional idrok etishga moyil bo‘ladi. Kompyuter grafikalari, animatsiya, tovushli va interfaol mashqlar bolaning diqqat barqarorligini oshiradi hamda o‘quv motivatsiyasini kuchaytiradi [7. 2020:B.45].

Raqamli ta’lim muhitida inklyuzivlikni ta’minlash borasida ham so‘nggi yillarda qator konsepsiyalar va xalqaro standartlar shakllandi. Masalan, Universal Design for Learning (UDL) — Ta’lim uchun universal dizayn konsepsiyasi har bir o‘quvchiga axborotni taqdim etishning turli usullarini (multimodal yondashuv), bilim va ko‘nikmalarni namoyish etishning turli shakllarini va o‘quv jarayoniga jalb qilishning turlicha vositalarini taqdim etishni nazarda tutadi [8. 2018:B.112]. Kompyuter texnologiyalari UDL tamoyillarini boshlang‘ich sinf xonasida amaliyotga tatbiq etishning eng samarali vositasi hisoblanadi.

3. TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqot jarayonida boshlang‘ich ta’limda inklyuziv muhitni yaxshilashda zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini aniqlash maqsadida majmuali va tizimli metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy va metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, inklyuziv pedagogika, kompyuter-o‘qitish va korreksion-pedagogik yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot doirasida quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi:

1. Ilmiy-nazariy tahlil va sintez: Inklyuziv ta’lim va raqamli texnologiyalar bo‘yicha mahalliy va xorijiy adabiyotlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda ta’lim standartlari chuqur o‘rganildi va tahlil qilindi.

2. Pedagogik kuzatuv va monitoring: Boshlang‘ich sinflardagi inklyuziv dars jarayonlari, alohida ehtiyojli o‘quvchilarning kompyuter vositalari bilan ishlash xatti-harakatlari, ularning diqqati, ishtiyoqi va bilimlarni o‘zlashtirish darajasi kuzatildi.

3. So‘rovnoma va suhbat: Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, maxsus pedagoglar hamda o‘quvchilarning ota-onalari o‘rtasida kompyuter texnologiyalarini qo‘llash borasidagi muammolar va ehtiyojlarni aniqlash bo‘yicha so‘rovnomalar o o‘tkazildi.

4. Pedagogik tajriba-sinov ishlari: Boshlang‘ich ta’lim muassasalarida tashkil etilgan inklyuziv sinflarda zamonaviy kompyuter va assistiv texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha maxsus ishlab chiqilgan dasturlar va metodik topsiriqlar tajribadan o‘tkazildi.

4. TAHLIL VA NATIJALAR. Boshlang‘ich sinflarda inklyuziv ta’lim muhitini samarali tashkil etishda kompyuter texnologiyalarini qo‘llash o‘quvchilarning nozologik (buzilish turi) xususiyatlariga ko‘ra diferensiallashgan yondashuvni talab etadi. O‘tkazilgan tadqiqotlar va amaliy kuzatishlar natijasida zamonaviy kompyuter texnologiyalarining boshlang‘ich ta’limdagi qo‘llanish sohalari va ularning samaradorligi quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ldi:

A) Ko‘rish imkoniyati cheklangan va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilar uchun texnologiyalar. Boshlang‘ich sinfda zaif ko‘ruvchi bolalarga ma’lumotni yetkazishda ekran va matnni kattalashtiruvchi dasturlar (Magnifiers), matnni tovushga aylantiruvchi (Text-to-Speech) dasturlar (masalan, JAWS, NVDA) hamda Brayl alifbosida kirituvchi va chiquvchi kompyuter qurilmalari (Braille Displays) alohida o‘rin tutadi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchiga umumiy darslik va tarqatma materiallarni eshitish va ushlab ko‘rish orqali mustaqil o‘zlashtirish imkonini berdi. Natijada bunday o‘quvchilarning o‘quv topsiriqlarini bajarish tezligi 40-45% ga oshgani kuzatildi.

B) Eshitish imkoniyati cheklangan va zaif eshituvchi o‘quvchilar uchun texnologiyalar. Eshitishda nuqsoni bor boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun vizual axborot hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kompyuter va planhetlar orqali taqdim etiladigan vizual animatsiyalar, subtitrli va imo-ishora tiliga tarjima qilingan multimedia vositalari, hamda nutqni matnga aylantiruvchi (Speech-to-Text) ilovalar dars samaradorligini keskin oshiradi. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, vizual-kompyuterli modeldan foydalanilganda zaif eshituvchi o‘quvchilarning yangi so‘zlar va tushunchalarni o‘zlashtirish darajasi 35% ga yuqoriladi.

D) Tayanch-harakat a’zolari buzilgan o‘quvchilar uchun texnologiyalar. Mayda motorikasi yoki harakatlanish imkoniyati cheklangan bolalar uchun standart klaviatura va sichqonchadan foydalanish murakkablik tug‘diradi. Ular uchun moslashtirilgan muloqot tugmalari, ko‘z harakati bilan boshqariladigan kompyuter tizimlari (Eye-Tracking), sensorli ekranlar hamda ovozli buyruqlar orqali boshqariladigan dasturiy ta’minotlar qo‘llanildi. Bu vositalar bolaga yozuv va chizmachilik mashqlarini kompyuter ekranida qiyinchiliksiz bajarish imkoniyatini yaratdi.

E) Intellektual rivojlanishida va diqqatida nuqsoni bo‘lgan (DAH, autizm) o‘quvchilar uchun texnologiyalar. Ruhiy rivojlanishi orqada qolgan yoki autistik spektri bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘yinli kompyuter dasturlari va interfaol trenajyorlar yuqori korreksion natija beradi. Rasm, tovush va interaktiv elementlarga boy bo‘lgan kompyuter o‘yinlari bolaning diqqatini jamlash, mantiqiy fikrlash hamda xotirani rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol doska orqali topsiriqlarni bajarish o‘quvchilarda jamoada ishlash va muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirdi.

Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanilgan inklyuziv sinflarda (Tajriba guruhi) va an’anaviy metodlar qo‘llanilgan sinflarda (Nazorat guruhi) o‘quvchilarning asosiy ko‘rsatkichlari solishtirildi. Natijalar quyidagi jadvalda uz aksini topgan:

Ko‘rsatkichlar va mezonlar	Nazorat guruhi (An’anaviy usul)	Tajriba guruhi (Kompyuter texnologiyalari)	O‘sish ko‘rsatkich i (%)
O‘quv materialini idrok etish va o‘zlashtirish darajasi	58%	84%	+26%
O‘quvchilarning darsdagi diqqati va motivatsiyasi	52%	88%	+36%
Tengdoshlari bilan muloqot va ijtimoiy moslashuv	61%	82%	+21%
Mustaqil topsiriq bajarish ko‘nikmasi	45%	76%	+31%

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, boshlang‘ich ta’limda zamonaviy kompyuter texnologiyalarining qo‘llanilishi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarning darsdagi motivatsiyasini 36% ga, o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasini 26% ga va mustaqil ishlash ko‘nikmasini 31% ga oshirish imkonini berdi. Bu esa raqamli va assistiv vositalarning inklyuziv ta’lim sifatini oshirishdagi amaliy samaradorligini to‘liq tasdiqlaydi [9. 2021:B.167].

5. MUHOKAMA. Olingan natijalar boshlang‘ich ta’limda inklyuziv muhitni yaxshilash jarayoni kompleks yondashuvni talab etishini ko‘rsatadi. Kompyuter texnologiyalarini shunchaki sinfga olib kirish

yetarli emas. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ushbu texnologiyalardan pedagogik va psixologik jihatdan to‘g‘ri, me’yorida hamda maqsadli foydalana olishi lozim.

Tadqiqot jarayonida ta’lim amaliyotida uchraydigan bir qator muammolar va to‘siqlar ham aniqlandi. Birinchidan, umumta’lim maktablarining hammasi ham maxsus assistiv kompyuter qurilmalari va dasturiy ta’minotlar bilan yetarli darajada ta’minlanmagan. Ikkinchidan, ko‘plab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida inklyuziv ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha maxsus raqamli kompetentlik va metodik ko‘nikmalar yetishmaydi. Uchinchidan, O‘zbek tilidagi maxsus korreksion va ta’limiy dasturiy vositalar hamda mobil ilovalarning soni hali ham cheklangan [10. 2023:B.52].

Ushbu muammolarni hal etish uchun pedagogik kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimiga Inklyuziv ta’limda axborot-kommunikatsiya va assistiv texnologiyalar' maxsus modulini kiritish maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchi kompyuterni shunchaki ko‘rgazmali vosita sifatida emas, balki har bir bolaning individual ehtiyojiga moslashtirilgan korreksion-didaktik qurol sifatida qo‘llay olishi zarur.

6. XULOSA VA TAVSIYALAR. O‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishi natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari boshlang‘ich ta’limda inklyuziv muhitni yaratish va takomillashtirishning, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning jismoniy hamda ruhiy cheklovlarini kompensatsiya qilishning eng samarali vositasidir.

2. Kompyuter va assistiv texnologiyalarni pedagogik jarayonga oqilona integratsiyalash o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish sifatini oshiradi, darsga bo‘lgan qiziqishini va diqqat barqarorligini ta’minlaydi hamda ularning ijtimoiy moslashuvini tezlashtiradi.

3. Inklyuziv sinflarda raqamli texnologiyalardan foydalanish Ta’lim uchun universal dizayn (UDL) tamoyillariga to‘liq mos keladi va ta’limda tenglik va do‘stona muhitni qaror toptirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

• Boshlang‘ich sinflar uchun o‘zbek tilidagi interfaol va korreksion dasturiy vositalar, mobil ilovalar va elektron darsliklar bazasini kengaytirish;

• Pedagogika institutlari va universitetlarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda inklyuziv va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish;

• Maktablarni alohida ehtiyojli o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan zamonaviy assistiv kompyuter qurilmalari (senso‘rli ekranlar, ovozli dasturlar, maxsus klaviaturalar) bilan bosqichma-bosqich ta’minlash;

• O‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasida alohida ehtiyojli bolalarni kompyuter texnologiyalari orqali o‘qitish va rivojlantirish bo‘yicha metodik hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

7. Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amiridova Sh.M. Inklyuziv ta'lim asoslari va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 180 b.

2. Ayupova M.Y. Logopediya va korreksion pedagogika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2019. – 256 b.

3. Dede C. The Role of Information and Communication Technologies in Inclusive Education. // Journal of Special Education Technology, 2022. – Vol. 37(2). – P. 102-115.

4. Выготский Л.С. Собрание сочинений: В 6-ти т. Т. 5. Основы дефектологии. – Москва: Педагогика, 1983. – 368 с.

5. Florian R., Hegarty S. ICT and Special Educational Needs: A Tool for Inclusion. – Open University Press, 2004. – 184 p.

6. Mo‘minova L.R. Maxsus va inklyuziv ta'limda zamonaviy pedtexnologiyalar. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018. – 140 b.

7. Nurkeldiyeva D.A. Boshlang‘ich sinf inklyuziv ta'limida psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 128 b.

8. ROSE D.H., Meyer A. Universal Design for Learning: Theory and Practice. – Wakefield, MA: CAST Professional Publishing, 2018. – 210 p.

9. Roziyeva D.S. Ta’limda raqamli texnologiyalar va inklyuzivlik. – Samarqand: SamDU nashri, 2021. – 215 b.

10. Yuldashev U.X. Boshlang‘ich ta'limda axborot texnologiyalarini qo‘llash metodikasi. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2023. – 160 b.

УДК: 633.862.4:631.531.04

ИНДИГОФЕРАНИНГ КЎЧАТ ҚАЛИНЛИГИ ВА КЎЧАТЛАР САҚЛАНУВЧАНЛИГИГА ЭКИШ МУДДАТИ ҲАМДА МЕЪЁРИНИ ТАЪСИРИ

Абдуназарова Гавҳар Аслиддин қизи
таянч докторант,
Сурайё Негматова Тешаевна
қ.х.ф.д., профессор,
Пахта селекцияси, уруғчилиги ва етиштириш агротехнолгиялари илмий-тадқиқот институти
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21901423

Аннотация: мазкур мақолада Жиззах вилоятининг ўтлоқи бўз тупроқлари шароида парваришланган дуккакли экин индигофера (*Indigofera tinctoria* L.) нинг кўчат қалинлиги ва кўчатлар сақланувчанлигига экиш муддати ҳамда меъёрини таъсири баён қилинган. Индигофера 15-20 апрел муддатида гектарига 1,5-2,0 кг меъёрларда экилганда юқори кўчат олиш учун мақбул муддат ва меъёр ҳисобланиб, кўчатлар сақланувчанлиги 2,2 фоизгача юқори бўлиши илмий изоҳланган.

Калит сўзлар: *Indigofera tinctoria* L., ўтлоқи бўз тупроқ, кўчат қалинлиги, экиш муддати, экиш меъёри

Аннотация: В данной статье изложены результаты исследований по изучению влияния сроков и норм высева на густоту стояния растений и сохранность всходов бобовой культуры индигоферы (*Indigofera tinctoria* L.), возделываемой на лугово-серозёмных почвах Джизакской области. Установлено, что посев индигоферы в сроки 15–20 апреля с нормой высева 1,5–2,0 кг/га является оптимальным для получения высокой густоты всходов, при этом сохранность растений повышалась до 2,2 %, что получило научное обоснование.

Ключевые слова: *Indigofera tinctoria* L., лугово-серозёмная почва, густота стояния растений, сроки посева, норма высева.

Abstract: This article presents the results of research on the effects of sowing dates and seeding rates on plant density and seedling survival of the leguminous crop indigofera (*Indigofera tinctoria* L.) cultivated under the meadow gray soil conditions of Jizzakh region. The study revealed that sowing indigofera during April 15–20 at a seeding rate of 1.5–2.0 kg/ha was the optimal practice for obtaining a high plant population, while seedling survival increased by up to 2.2%, which was scientifically substantiated.

Keywords: *Indigofera tinctoria* L., meadow gray soil, plant density, sowing date, seeding rate.

Дунёда бугунги кунда инсоният олдида глобал исиш, сув танқислиги, азон қатламининг емирилиши каби муаммолар қаторида сифатли ва экологик тоза маҳсулотлар истеъмоли масаласи ҳам кўндаланг турибди. Айни кезда турли омиллар сабаб тупроқ унумдорлиги бормоқда. Уларни тиклаш, ҳар қандай шароитда юқори озуқавий қийматга эга экин турларини яратиш ва етиштириш бугуннинг долзарб масалаларидан бирига айланди. Шундай экинлардан бири ноанъанавий дуккакли экин – индигоферани парваришлаш, янги навларини яратиш бўйича кенг кўламдаги илмий-тадқиқотлар олиб борилмоқда. Индигоферанинг ўзига хос етиштириш технологияларни илмий асосларига таяниб, оқсилга бой кўк масса ва дон ҳосили ҳамда табиий индиго бўёғи хом-ашёси етиштирмоқдалар. Шу билан биргаликда тупроқ мелиоратив ҳолатини яхшилаш, чорвачиликда оқсилга бой ем-хашак ва фармацевтика учун хом-ашё олиш бўйича илмий изланишлар олиб борилмоқда.

G.B.Baird ва бошқалар [4. 1957; P. 89-93] ни таъкидлашича, индигофера (Indigofera tinctoria) Жанубий Осиёдан келиб чиққан бўлиб, 4000 йилдан ортиқ вақт давомида у дунёдаги кўк бўёқнинг асосий манбаи бўлиб келган. Синтетик алтернативлардан фарқли ўлароқ, унинг пигменти толаларга органик равишда боғланиб, ранг ўзгаришига чидамли ранглар ҳосил қилади. Баргларида индиго пигментини ферментация орқали индиго пигментига айлантирадиди индикан ҳосил бўлади.

G.Peter ва бошқалар [8. 1994; P. 637-645] ни фикрича, индигоферанинг янги турлари Австралияда ўрганилган бўлиб, индигофера турлари Африканинг шимолидан Осиёга, у ердан Австралияга тарқалган. Шунингдек, бу ўсимлик олдинлари Жануби-Шарқий Осиё ва Япониянинг бошқа қисмларида кенг тарқалган бўлса, ҳозирда айрим ҳудудларидагина учратиш мумкин.

Шимолий-Шарқий ва Жанубий Ҳиндистонда ва Ғарбий Африканинг айрим ҳудудларида ҳозирги кунда ҳам етиштирилади А.Рахимов [3. 2009; 11-б.].

S.Chandrasekaran [5. 2018; P. 136-138] маълумотларига кўра, индигофера туркум ўсимликлари кўпроқ йиллик ҳарорат юқори бўлган мамлакатларда кенг тарқалган. Худди шундай минтақалардан бири Африка мамлакатлари ҳисобланади. Африкада ҳам *Indigofera* туркумига мансуб кўплаб турларни учратиш мумкин. Бу ерда ушбу ўсимликлардан дезинфекцияловчи, даволовчи, татуировка, матоларга ранг бериш мақсадларида кенг фойданилади.

С.Негматова ва бошқалар [1. 2022; 241-242-б., 2. 2023; 16-20-б.] томонидан дуккакли экин индигоферадан юқори дон ҳосили олиш учун уни апрел ойининг учинчи ўн кунлигида гектарига 3 кг дан экиш ҳамда экиш билан 1,0 л/га, ғунчалаш ва гуллаш фазаларида 1,6 л/га меъёрида Геогумат биостимуляторини қўллаш тавсия этилган.

D. Mishra ва бошқалар [6. 2020; P. 289-299, 9. 2015; P. 7544-7547] томонидан индигофера (*I. Tinctoria)* нинг таркиби ўрганилганда кўплаб алкалоидлар, флавоноидлар, танинлар, феноллар, сапонинлар, гликозидлар, терпеноидлар каби биофаол ва фитокимёвий бирикмалар гуруҳи мавжудлиги аниқланган.

M.N. Saraswathi ва бошқалар [10. 2012; P. 164-169] ўз тадқиқотлари орқали индигофера (*I. tinctoria*) илдизлари, поялари ва барглари доривор ўсимлик сифатида термоген, лаксатиф, трихоген, балғам чиқарувчи, антигелминтик, гастропатик, спленомегалия, сефалалгия, кардиопатия, гепатопротектив антинеопластик воситалар, эпилепсия, невропатия, бронхит ва соч тўкили каби муаммоларни ҳал этишда ишлатилиши мумкинлигини асослаганлар M. Pawmitha [7. 2016; P. 14-24].

Индигофера (Indigofera tinctoria L.) қадимий маданий ўсимликлардан бири бўлиб, ўсимлик табиий индиго бўёғини олишда асосий манба сифатида тарихан катта аҳамият касб этади. Бугунги кунда индигофера нафақат табиий бўёқ ишлаб чиқаришда, балки тупроқ унумдорлигини ошириш, чорва учун озуқа тайёрлаш, фармацевтика ва косметика соҳаларида ҳам кенг қўлланилмоқда. Ушбулардан келиб чиқиб, Республикамизнинг турли тупроқ шароитларида индигоферани парваришлаш агротехнологиялари ишлаб чиқиш долзарбдир.

Дала тажрибалари Жиззах вилоятининг ўтлоқи бўз тупроқлари шароитида ўтказилиб, индигоферанинг “Феруз-1” нави турли муддат ва меъёрларда экилган. Тажриба 9 та вариантдан иборат бўлиб, умумий эгаллаган майдони 0,25 гектар.

Индигофера ўсимлиги мамлакатимизда етиштирилаётди экинлар орасида ноанъанавий экин бўлганлиги сабабли, унинг уруғчилиги билан шуғулланиб деҳқон-фермерларга етказиб берувчи ташкилотлар йўқ. Шунинг учун индигоферадан мўл ва сифатли ҳосил олишда ўсимликнинг кўчат қалинлиги ва кўчатларнинг сақланувчанлик даражасини ўрганиш ҳам муҳим аҳамиятга эга.

Тажрибанинг 2025 йилда олинган маълумотларга кўра, индигофера турли муддат ва меъёрларда экилганда кўчат қалинлиги амал даври бошида 100800-170800 туп/га тенг бўлиб, амал даврининг охирига келиб кўчат қалинлиги 94900-157300 туп/га бўлиб, 5900-13500 тупгача камайиб борди (1-жадвал).

1-жадвал. Экиш муддати ва меъёрини индигоферанинг кўчат қалинлигига таъсири, 2025 йил.

Вариантлар	Кўчат қалинлиги, туп/га		Кўчат сақланув-чанлиги, %	Кўчат нобуд бўлиши, %
	Амал даври боши	Амал даври охири		
1-вариант	100800	94900	94,2	5,8
2-вариант	137000	127800	93,3	6,7
3-вариант	165000	151800	92,0	8,0
4-вариант	104800	98900	94,4	5,6
5-вариант	143000	133300	93,2	6,8
6-вариант	170800	157300	92,1	7,9
7-вариант	102600	96600	94,2	5,8
8-вариант	139500	129900	93,1	6,9
9-вариант	170000	156700	92,2	7,8

Кўчатларни амал даври охирида камайиб кетишига амал даври давомида агротехник тадбирлар яъни, озиқлантириш, қатор орасига ишлаш учун техникаларни кириши, бегона ўтлар, зараркунанда ҳашоратлар ва касалликлар, фенологик кузатувларда ўсимликлардан намуналар олиш ҳамда ноқулай об-ҳаво шароитлари таъсир этади.

Амал даври охирида кўчатларни сақланувчанлигига экиш муддатларини таъсири ўрганилганда муддатлар орасида сезиларли фарқ кузатилмади. Яъни, индигофера эрта муддатда экилганда кўчатлар сақланувчанлиги 94,2 - 93,3 - 92,0 %, ўрта муддатда экилдида 94,4 - 93,2 - 92,1 % ва кеч муддатда экилганда 94,2 – 93,1 - 92,2 % бўлиб, 0,1-0,2 % га фарқ қилган.

Кўчатларни сақланувчанлига экиш меъёрларини таъсири кузатилганда экиш меъёри ошиб бориши билан кўчатларни нобуд бўлиши ҳам ошиб борди. Масалан, индигофера 05-10.04 муддатида гектарига 1,5; 2,0; 2,5 кг меъёрларда экилганда амал даври охирида кўчат қалинлиги 94900-127800-151800 туп/га бўлиб, экиш меъёри гектарига 0,5-1,0 кг га ошиб бориши билан кўчатларни сақланувчанлиги 0,9-2,2% гача камайиб борди. Ушбу қонуният барча экиш муддатларида ҳам кузатилиб, индигофера 15-20.04 муддатида экилганда кўчатларни нобуд бўлиши нисбатан камроқ бўлди.

Хулоса. Жиззах вилоятининг ўтлоқи бўз тупроқлари шароитида индигофера ўсимлиги уруғларини дон ҳосили учун апрел ойининг 15-20 саналарида гектарига 1,5-2,0 кг дан экиш уни бир текис униб чиқиши учун мақбул шароит ҳисобланиб, кўчатларнинг сақланувчанлик даражаси юқори бўлиб, ўсимликнинг кейинги ўсиш-ривожланишида, ҳосил элементларини кўпроқ тўпланишига ҳамда ҳосилни ошишига замин яратади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Негматова, С.Т., Якубов Г.К., Ахмедов Ш.Е. Efficiency of crowing indigo (nil paint). //“Қишлоқ хўжалиги фани ва тўқимачилик саноатининг ютуқлари, инновациялари, технологиялари ва ривожланиш истиқболлари” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий симпозиум материаллари тўплами. 2022 йил, 17-18 август. Б. 241-242.

2. Негматова С.Т., Хасанов Ш.Б., Нуруллаева М.Ш., Атаева С.С. Индигоферада дуккаклар шаклланиши ва дон ҳосилига биостимуляторларнинг таъсири. //Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал Хоразм Маъмун академияси. 2023. № 2/1 (98). Б. 16-20.

3. Рахимов А. Тупроққа дармон ўсимлик. Жамият. 2009, № 1. (170). – Б. 11.

4. Baird G.B., M. Rodriguez, B. Martinez, and P. Sanchez. *Crotalaria juncea*-a green manure. DIA Boletin de Divulgacion 2. Havana, Cuba. 1957. -P. 89-93

5. Chandrasekaran Swaminathan. Phytochemical analysis and antibacterial and antioxidant properties of Indigofera tinctoria L. //Asian Journal of Pharmaceutical and Clinical Research. India-2018. Vol 11, Issue 6. - P.136-138.

6. Mishra D.N., Gomare K.S., Sheelwant S.V. GC-MS Analysis and Phytochemical Screening of Indigofera tinctoria (Linn.) Leaf Extract Characterizing its Medicinal Use //International Journal of Ayurvedic Medicine. 2020. Vol 11 (2), - P. 289-299.

7. Pawmitha M.F., Paheerathan V. Effectiveness of Root Decoction of Indigofera tinctoria on Peptic Ulcer (Gunmam) // International Journal Advanced Ayurveda and Pharmacy Research. 2016. Volume 2, - P. 14-24

8. Peter G., Wilson., Rjss Rowe. The Indigofera trita complex (Fabaceae Indigofereae) in Australia. //Telopea Journal o Plant Systematic. 1994. Volume 5(4): - P. 637-645.

9. Prashanth G.K., Krishnaiah G.M., Sathyananda H.M. Qualitative Phytochemical Screening and GCMS Analysis of the Leaves of *Indigofera tinctoria* //International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology. 2015. Vol 4, - P. 7544-7547.

10. Saraswathi M.N., Karthikeyan M., Rajasekar S., Gopal V. Indigofera tinctoria Linn - A Phytopharmacological Review //International Journal of Research in Pharmaceutical and Biomedical Sciences. 2012. 3(1), - P. 164-169

BOSHLANG‘ICH SINF AQLI ZAIF O‘QUVCHILARINING O‘QUV-IJTIMOIY FAOLIYATINI PEDAGOGIK QO‘LLAB-QUVVATLASH

Arslanova Madinaxon Mansurovna
MTTDMQTMOI
“Maktabgacha va inklyuziv ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21901503

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf aqli zaif o‘quvchilarining o‘quv-ijtimoiy faoliyatini samarali tashkil etishda pedagog kompetensiyalarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Pedagogning metodik, psixologik, kommunikativ hamda korreksion kompetensiyalarini rivojlantirish ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida asoslangan.
Kalit so‘zlar: kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, maxsus ta’lim, inklyuziv ta’lim, aqli zaif o‘quvchilar, korreksion pedagogika, ijtimoiy faoliyat, pedagogik mahorat.
Аннотация. В статье проанализированы роль и значение профессиональных компетенций педагога в эффективной организации учебно-социальной деятельности обучающихся с интеллектуальными нарушениями младшего школьного возраста. Обосновано, что развитие методической, психологической, коммуникативной и коррекционно-педагогической компетентности педагога является одним из ключевых факторов повышения эффективности образовательного процесса.
Ключевые слова: компетенция, компетентностный подход, специальное образование, инклюзивное образование, обучающиеся с интеллектуальными нарушениями, коррекционная педагогика, социальная активность, педагогическое мастерство.
Abstract. This article examines the role and significance of teachers' professional competencies in the effective organization of the educational and social activities of primary school students with intellectual disabilities. It substantiates that the development of teachers' methodological, psychological, communicative, and corrective-pedagogical competencies is a key factor in improving the effectiveness of the educational process.
Keywords: competence, competency-based approach, special education, inclusive education, students with intellectual disabilities, corrective pedagogy, social activity, pedagogical competence.

So‘nggi yillarda jahon miqyosida inklyuziv va maxsus ta’lim tizimini takomillashtirish ta’lim sohasidagi eng ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG 4) barcha insonlar uchun inklyuziv, adolatli va sifatli ta’limni ta’minlash hamda butun hayot davomida ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishni nazarda tutadi [2]. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish, ayniqsa alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalar bilan ishlash salohiyatini rivojlantirishni talab etadi.

UNESCO ta’kidlashicha, inklyuziv ta’limning samaradorligi, birinchi navbatda, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, individuallashtirilgan ta’limni tashkil eta olish mahorati hamda har bir o‘quvchining ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim muhitini yaratish qobiliyati bilan belgilanadi [1].

Mamlakatimizda ham alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun sifatli ta’lim muhitini shakllantirish, ularning ta’lim olish huquqini ta’minlash hamda inklyuziv ta’limni bosqichma-bosqich keng joriy etishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar doirasida pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, maxsus pedagogika va korreksion ta’lim texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish, shuningdek, ta’lim jarayonida zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvlarni qo‘llashga alohida e’tibor qaratilmoqda [3]. Bu esa xalqaro talablar hamda milliy ta’lim siyosatining o‘zaro uyg‘unligi asosida maxsus ta’lim tizimi samaradorligini oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Boshlang‘ich sinf tahsil olayotgan aqli zaif o‘quvchilarning psixofiziologik, kognitiv va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari ular bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya jarayoniga alohida talablarni belgilaydi. Mazkur toifadagi o‘quvchilarning diqqati, xotirasi, nutqi, tafakkuri hamda bilish jarayonlarida kuzatiladigan o‘ziga xosliklar pedagogdan yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlik, maxsus pedagogik bilim, korreksion texnologiyalarni qo‘llash mahorati hamda amaliy kompetensiyalarni talab etadi.

Zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvga muvofiq pedagog endi faqat bilim beruvchi emas, balki ta’lim jarayonini boshqaruvchi, korreksion-rivojlantiruvchi muhit yaratuvchi, o‘quvchining shaxsiy

imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiluvchi hamda uning ijtimoiylashuvini ta’minlovchi mutaxassis sifatida qaraladi [5.2015: B.]. Shu bois pedagog kompetensiyalarini rivojlantirish maxsus ta’lim tizimi samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Pedagogning metodik kompetensiyasi o‘quv materialini o‘quvchilarning psixofiziologik imkoniyatlariga moslashtirish, differensial va individual ta’limni tashkil etish, innovasion pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari hamda interfaol metodlarni maqsadli qo‘llash orqali ta’lim sifati va korreksion ishlarning samaradorligini oshirish imkonini beradi. Xususan, ko‘rgazmalilik, amaliy mashqlar, rolli o‘yinlar va kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlar o‘quvchilarning bilish faolligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagog faoliyatida psixologik kompetensiya ham muhim o‘rin tutadi. Chunki aqli zaif o‘quvchilarning emosional holati, motivatsiyasi, qiziqishlari va individual ehtiyojlarini inobatga olmasdan turib ta’lim jarayonida yuqori natijaga erishish mushkul. Shu nuqtai nazardan pedagog har bir o‘quvchining rivojlanish dinamikasini muntazam tahlil qilishi, ijobiy psixologik muhit yaratishi hamda o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini shakllantirishi lozim.

Shu bilan birga, kommunikativ kompetensiya ham korreksion-pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Samarali ta’lim jarayoni pedagog, o‘quvchi, ota-ona, psixolog, logoped va defektolog o‘rtasidagi tizimli hamkorlik asosida tashkil etilganda yuqori natija beradi. Bunday hamkorlik bolaning ta’limdagi muvaffaqiyatini ta’minlash bilan birga uning ijtimoiy moslashuvi va mustaqil hayot ko‘nikmalarining rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Korreksion-pedagogik jarayonda kompetentli pedagog o‘quvchilarning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyati, mehnat faoliyatiga tayyorgarligi hamda hayotiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga e’tibor qaratadi [4. 1999: B.133]. Bu jarayonda ta’lim, tarbiya va korreksiyaning uzviyligi ta’minlanib, har bir o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlari va rivojlanish ehtiyojlari inobatga olinadi.

Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yuqori kasbiy kompetensiyaga ega pedagoglar faoliyat yuritadigan maxsus ta’lim muassasalarida aqli zaif o‘quvchilarning bilish faolligi, ijtimoiy munosabatlari, mustaqil hayot ko‘nikmalari va ta’lim natijalari nisbatan yuqori darajada shakllanadi. Bu esa pedagog kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish, ularning malakasini oshirish hamda innovasion korreksion texnologiyalarni amaliyotga keng tatbiq etish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqot doirasida boshlang‘ich sinf aqli zaif o‘quvchilarining o‘quv-ijtimoiy faoliyatini tashkil etishga xizmat qiluvchi pedagog kompetensiyalarining o‘zaro bog‘liq modeli takomillashtirildi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida korreksion-pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar hamda amaliy mexanizmlar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari pedagogning kasbiy kompetensiyasi boshlang‘ich sinf aqli zaif o‘quvchilarining o‘quv-ijtimoiy faoliyatini samarali tashkil etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Metodik, psixologik, kommunikativ va korreksion kompetensiyalarning o‘zaro integratsiyasi o‘quvchilarning bilish faolligini faollashtirish, ijtimoiy moslashuvini kuchaytirish hamda mustaqil hayotga tayyorgarligini ta’minlashning muhim pedagogik sharti hisoblanadi.

Shu munosabat bilan maxsus ta’lim muassasalari pedagoglarining kompetensiyalarini baholash mezonlarini takomillashtirish, ularning malakasini uzluksiz oshirish, innovasion pedagogik va raqamli texnologiyalarni ta’lim amaliyotiga keng joriy etish hamda ilmiy-metodik ta’minotni kuchaytirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, pedagog kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish maxsus ta’lim sifati, korreksion-pedagogik jarayon samaradorligi hamda aqli zaif o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishning muhim sharti bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois mazkur yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, ilg‘or xorijiy va milliy pedagogik tajribalarni integratsiya qilish hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan innovasion modellarni amaliyotga joriy etish ustuvor ilmiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. UNESCO. Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All. Paris, 2005.
2. Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. UNESCO, 1994.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ–4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
4. Гонеев А.Д. Основы коррекционной педагогики / А. Д. Гонеев. – М: Академия, 1999. – 272 с.

стр-113

5. Дмитриев А.А. О подготовке кадров для системы специального и инклюзивного образования в свете его модернизации // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Педагогика. 2015. № 4.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV TA’LIM MUHITINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI

Axrarova Gulrux Gulamkadirovna
Uchtepa tumani MMTB tasarrufidagi 531-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori,
MTTDMQTMOI mustaqil tadqiqotchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21901633

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim muhitini boshqarishning amaldagi holati mahalliy va xorijiy tajriba asosida tahlil qilinadi. O‘zbekistonda inklyuziv guruhlarni tashkil etish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni yo‘naltirish, pedagoglar va rahbarlar tayyorgarligi, monitoring hamda resurslardan foydalanish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yoritilgan. Xorijiy tajribada tarmoqlararo hamkorlik, oilaga yo‘naltirilgan xizmat, aniq ma’lumotlar bazasi, rejalashtirish va sifat nazoratining ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Tahlil asosida mahalliy amaliyotning kuchli tomonlari, mavjud muammolari va boshqaruvni takomillashtirish yo‘llari sodda ilmiy tilda bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim muhiti, maktabgacha ta’lim tashkiloti, boshqaruv, inklyuziv guruh, alohida ta’lim ehtiyoji, monitoring, tarmoqlararo hamkorlik, ota-onalar bilan hamkorlik, xorijiy tajriba, ta’lim sifati.

Abstract: The article analyzes the current management of inclusive educational environments in preschool organizations through national and international experience. It reviews the establishment of inclusive groups in Uzbekistan, referral procedures for children with special educational needs, staff and leadership preparation, monitoring and resource use. International practice highlights cross-sector cooperation, family-centred services, reliable data, planning and quality assurance. Based on the analysis, the strengths, existing problems and practical directions for improving management are presented in clear academic language.

Keywords: inclusive educational environment, preschool organization, management, inclusive group, special educational needs, monitoring, cross-sector cooperation, family partnership, international experience, quality of education.

Аннотация: В статье анализируется современное состояние управления инклюзивной образовательной средой в дошкольных образовательных организациях на основе национального и зарубежного опыта. Рассматриваются организация инклюзивных групп в Узбекистане, направление детей с особыми образовательными потребностями, подготовка педагогов и руководителей, мониторинг и использование ресурсов. В зарубежной практике показано значение межведомственного сотрудничества, семейно-ориентированных услуг, достоверных данных, планирования и контроля качества. На основе анализа простым научным языком раскрыты сильные стороны, существующие проблемы и пути совершенствования управления.

Ключевые слова: инклюзивная образовательная среда, дошкольная образовательная организация, управление, инклюзивная группа, особые образовательные потребности, мониторинг, межведомственное сотрудничество, работа с семьёй, зарубежный опыт, качество образования.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotining vazifasi faqat bolani maktabga tayyorlash bilan cheklanmaydi. U har bir bolaning jismoniy, aqliy, nutqiy, ijtimoiy va hissiy rivojlanishi uchun teng imkoniyat yaratishi kerak. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ham tengdoshlari bilan birga o‘ynash, muloqot qilish va ta’lim olish huquqiga ega. Shu sababli inklyuziv ta’lim muhiti maktabgacha ta’lim sifatining muhim ko‘rsatkichiga aylanmoqda.

Inklyuziv muhitni yaratish faqat bolani oddiy guruhga qabul qilish yoki bino kirishiga pandus o‘rnatishdan iborat emas. Bu jarayon ta’lim mazmunini moslashtirish, pedagoglarni tayyorlash, logoped, psixolog, maxsus pedagog va tibbiy xodimlar hamkorligini yo‘lga qo‘yish, ota-onalar bilan muntazam ishlash, resurslarni to‘g‘ri taqsimlash hamda bolaning rivojlanishini kuzatishni talab etadi. Bularning barchasi boshqaruv bilan bog‘liq.

UNESCO erta bolalik davrini bola rivojlanishidagi eng muhim bosqichlardan biri deb baholaydi. Tashkil etilgan sifatli va inklyuziv maktabgacha ta’lim bolaning kelgusidagi o‘qishi, hissiy farovonligi va jamiyatga moslashishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi [7]. Shuning uchun amaliyotdagi mavjud holatni faqat guruhlar soni bilan emas, balki boshqaruv sifati, xizmatlarning muvofiqligi, bola ishtiroki va oilaning qoniqishi bilan baholash zarur.

Maqolaning maqsadi O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv muhitni boshqarishning amaldagi holatini rasmiy ma’lumotlar asosida tahlil qilish, uni xorijiy tajriba bilan qiyoslash va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

O‘zbekistonda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni ta’limga jalb etish bo‘yicha huquqiy va tashkiliy asoslar bosqichma-bosqich shakllanmoqda. 2024-yildagi 46-son qaror bilan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalarning vazifalari va bolalarni davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga, ixtisoslashtirilgan yoki inklyuziv guruhlarga yo‘naltirish tartibi belgilangan [1]. Mazkur tizim bolaning ehtiyojini aniqlash va unga mos ta’lim shaklini tavsiya qilishga xizmat qiladi.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilda 208 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkilotida tajriba-sinov tarzida 434 ta inklyuziv guruh tashkil etilgan va ularga 1 223 nafar nogironligi bo‘lgan bola jalb qilingan [2]. Bu raqamlar maktabgacha ta’limda inklyuziv yondashuv amaliy bosqichga o‘tayotganini ko‘rsatadi. Muhim jihati shundaki, jarayon faqat bitta hududda emas, turli tashkilotlarda sinab ko‘rilmoqda.

Biroq guruh ochishning o‘zi yetarli natija bermaydi. Har bir guruhda bolaning ehtiyojini biladigan pedagog, moslashtirilgan material, qulay jismoniy muhit va mutaxassislar yordami bo‘lishi kerak. Aks holda, bola guruhda bo‘ladi, ammo mashg‘ulot va o‘yinlarda to‘liq ishtirok eta olmaydi. Shuning uchun boshqaruvda “qamrov” bilan bir qatorda “ishtirok” va “rivojlanish natijasi” ham asosiy mezon bo‘lishi lozim.

O‘zbekistonda “Imkon” va “Umid” kabi maktabgacha ta’lim va reabilitatsiya markazlari ham faoliyat yuritmoqda. UNESCOning 2026-yilgi mamlakat tahlilida ushbu turdagi muassasalarda 576 ta guruhda qariyb 6 ming nafar bola ta’lim olayotgani, ularning 52 foizi nogironligi bo‘lgan bolalar ekani va 91 foizi bepul xizmatdan foydalanishi qayd etilgan [3]. Bu tajriba ta’lim, korreksiya va reabilitatsiyani bir joyda uyg‘unlashtirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, UNESCO tahlilida mazkur muassasalarning ayrimlari mavjud quvvatidan to‘liq foydalanmayotgani ham aytilgan [3]. Bu holat faqat joy yaratish emas, balki ota-onalarni xabardor qilish, yo‘llanma berish tartibini soddalashtirish, transport va hududiy qulaylikni hisobga olish kerakligini ko‘rsatadi. Boshqaruvda xizmat mavjudligi bilan undan real foydalanish o‘rtasidagi farq muntazam o‘rganilishi zarur.

Pedagog va rahbarlarning tayyorgarligi ham inklyuziv muhit sifatiga bevosita ta’sir qiladi. 2025-yilda maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standarti tasdiqlangan [4]. Bundan tashqari, davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorligiga nomzodlarni menejerlik kurslarida o‘qitish va sertifikatlash tizimi joriy etilgan [5]. Bu hujjatlar xodimlar faoliyatini aniq talablar asosida rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

Amaliyotda esa rahbarning umumiy menejerlik ko‘nikmasi bilan inklyuziv boshqaruv ko‘nikmasi bir xil emas. Inklyuziv guruhni boshqarish uchun rahbar alohida ta’lim ehtiyojlarini tushunishi, pedagoglar o‘rtasida vazifalarni taqsimlashi, mutaxassislar konsiliumini tashkil etishi, ota-onalar bilan murakkab suhbatlarni olib borishi va bola rivojlanishiga oid ma’lumotlardan qaror qabul qilishda foydalana olishi kerak.

Mahalliy amaliyotning kuchli jihati — inklyuziv guruhlarni tashkil etish, yo‘naltirish tizimini tartibga solish va maxsus markazlar tajribasini rivojlantirish bo‘yicha amaliy qadamlar mavjudligidir. Zaif jihati esa hududlar o‘rtasidagi imkoniyatlar bir xil emasligi, tor mutaxassislar yetishmasligi, ayrim pedagoglarning inklyuziv metodlarga tayyor emasligi va monitoringning ko‘pincha hujjat tekshirish bilan cheklanib qolishidir.

UNICEFning O‘zbekiston bo‘yicha siyosiy tahlilida inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun tarmoqlararo hamkorlik, strategik reja, monitoring va sifatni ta’minlash tizimini kuchaytirish tavsiya etilgan [6]. Ushbu tavsiyalar maktabgacha ta’lim uchun ham dolzarb, chunki bolaning ehtiyoji ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlari kesishgan joyda namoyon bo‘ladi.

Xorijiy tajribada inklyuziv maktabgacha ta’lim bitta tashkilotning ichki vazifasi sifatida emas, balki bir necha tizimning hamkorligi sifatida qaraladi. UNICEFning global so‘rovida erta bolalikni rivojlantirish va erta yordam dasturlarining 91 foizida ko‘p tarmoqli rahbarlik, 77 foizida esa turli sohalar ishtiroki mavjudligi aniqlangan [9]. Bu ma’lumot inklyuziv xizmatlar ta’lim tashkiloti, tibbiyot, ijtimoiy himoya va oila hamkorligida samaraliroq ishlashini ko‘rsatadi.

Bolgariyaning “Together from the Kindergarten” tajribasida inklyuziv maktabgacha ta’limni boshqarish bir necha tayanchga asoslangan: aniq qonunchilik, davlat strategiyasi, vazirliklararo hamkorlik, bolalar haqida ajratilgan va o‘z vaqtida yangilanadigan ma’lumotlar, rejalashtirish hamda byudjetlashtirish

[8]. Bu modelda alohida ehtiyojli bola haqidagi qaror faqat bog‘cha rahbari yoki bitta mutaxassis tomonidan qabul qilinmaydi.

Xorijiy tajribada oilaga yo‘naltirilgan yondashuv ham muhim. Ota-ona bolaning muammosi haqida ma’lumot beruvchi shaxs emas, balki rejalashtirish va baholashning teng huquqli ishtirokchisi sifatida qaraladi. Oila bilan birgalikda bolaning kuchli tomoni, qiyinchiliklari, kundalik ehtiyojlari va rivojlanish maqsadlari belgilanadi. Bu yondashuv tashkilotdagi va uydagi tarbiyaviy harakatlarni bir-biriga moslashtiradi.

Yana bir muhim tajriba — ma’lumotga asoslangan boshqaruvdir. Xorijiy tizimlarda faqat nechta bola qabul qilingani emas, balki bola qanchalik faol qatnashayotgani, qanday rivojlanayotgani, pedagog qanday moslashtirish qo‘llayotgani, ota-onaning xizmatdan qoniqishi va jamoaning hamkorligi kuzatiladi. Natijalar keyingi reja va resurs taqsimotiga ta’sir qiladi.

Xorijiy tajribani to‘liq ko‘chirib olish to‘g‘ri emas. Har bir mamlakatning qonunchiligi, moliyaviy imkoniyati va kadrlar tizimi turlicha. Ammo ayrim tamoyillar umumiy: bola markazda bo‘lishi, xizmatlar bir-biri bilan bog‘lanishi, pedagogga amaliy yordam berilishi, oilaning ovozi eshitilishi va natijalar muntazam o‘lchanishi kerak.

Mahalliy va xorijiy tajribani qiyoslash O‘zbekistonda inklyuziv maktabgacha ta’limni rivojlantirish uchun zarur tashkiliy poydevor bosqichma-bosqich shakllanayotganini ko‘rsatadi. Inklyuziv guruhlar sonining ortib borayotgani, bolalarni tegishli ta’lim shakliga yo‘naltirish tartibining mavjudligi, rahbar va pedagoglar faoliyatiga qo‘yilayotgan kasbiy talablarning yangilanayotgani bu yo‘nalishdagi muhim ijobiy o‘zgarishlardir. Shu bilan birga, xorijiy tajriba mazkur poydevorni tarmoqlararo boshqaruv, oilaviy sheriklik, muntazam monitoring va resurslardan oqilona foydalanish orqali yanada mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi.

Inklyuziv ta’lim muhitini samarali boshqarish uchun har bir inklyuziv guruh bo‘yicha aniq boshqaruv xaritasi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Ushbu xaritada bolaning individual ehtiyoji, mas’ul pedagog va mutaxassislar, ota-onaning ishtiroki, ta’limni moslashtirish usullari, kuzatuv muddati hamda kutilayotgan natijalar ko‘rsatilishi lozim. Bunday hujjat faqat hisobot uchun to‘ldiriladigan shakl bo‘lib qolmasdan, amaliy faoliyatni boshqaruvchi vosita sifatida xizmat qilishi kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida muntazam psixologik-pedagogik konsilium tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega. Konsiliumda rahbar, tarbiyachi, logoped, psixolog, maxsus pedagog, tibbiy xodim va ota-ona bolaning holatini birgalikda muhokama qiladi. Bunday jamoaviy yondashuv turli mutaxassislarning tavsiyalarini bir maqsadga yo‘naltirishga, qarama-qarshi xulosalarning oldini olishga va bolaning rivojlanishi uchun yagona reja ishlab chiqishga yordam beradi.

Inklyuziv muhitni baholash mezonlarini ham kengaytirish zarur. Hozirgi nazoratda hujjatlar, jihozlar va sanitariya holati muhim o‘rin tutadi. Biroq inklyuziv ta’lim sifatini aniqlashda bolaning mashg‘ulotdagi ishtiroki, tengdoshlari bilan muloqoti, mustaqillik darajasi, pedagogik moslashtirish sifati va ota-onalarning qoniqishi ham hisobga olinishi kerak. Shundagina monitoring faqat tashqi nazorat emas, balki rivojlanishni boshqarish vositasiga aylanadi.

Pedagoglar uchun bir martalik seminarlar o‘rniga uzluksiz metodik yordam tizimini yaratish lozim. Amaliy keyslar, mashg‘ulotlarni kuzatish, mentorlik, videomuhokama va kichik superviziya pedagogning real muammolarni hal etish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Pedagog muammoga duch kelganida kimga murojaat qilishini va qanday yordam olishini aniq bilishi kerak.

Hududiy resurs tarmog‘ini rivojlantirish ham dolzarbdir. Har bir maktabgacha ta’lim tashkilotida barcha tor mutaxassislarni doimiy saqlash imkoniyati bo‘lmasligi mumkin. Shu sababli bir nechta tashkilotga xizmat ko‘rsatuvchi mobil logoped, psixolog va maxsus pedagog guruhlarini tashkil etish, masofaviy maslahatlar yo‘lga qo‘yish hamda umumiy metodik resurs bazasini yaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ota-onalar bilan hamkorlikni rasmiy yig‘ilish shaklidan amaliy sheriklik darajasiga olib chiqish zarur. Ota-onaga bolaning faqat muammolari emas, balki uning kuchli tomonlari, qiziqishlari va rivojlanishidagi ijobiy o‘zgarishlar ham muntazam tushuntirilishi kerak. Bola bo‘yicha qarorlar ota-onaga tayyor shaklda taqdim etilmasdan, u bilan birgalikda ishlab chiqilganda hamkorlik ancha samarali bo‘ladi.

Hududlar kesimida ochiq va tushunarli ma’lumotlar tizimini shakllantirish ham boshqaruv sifatini oshiradi. Inklyuziv guruhlar soni bilan birga ulardagi bolalar, pedagog va mutaxassislar ta’minoti, mavjud to‘siqlar hamda rivojlanish natijalari haqida umumlashtirilgan ma’lumotlar mavjud bo‘lsa, boshqaruv qarorlari aniqroq va asosliroq qabul qilinadi.

Inklyuziv muhitni boshqarish ehtiyojni aniqlash, mavjud sharoitni baholash, jamoaviy reja tuzish, resurslarni taqsimlash, ta’lim jarayonini moslashtirish, natijalarni kuzatish va zarur o‘zgarishlarni kiritishdan iborat uzluksiz sikl sifatida tashkil etilishi lozim. Mazkur jarayon bir martalik tadbir emas, balki muntazam takrorlanadigan boshqaruv amaliyoti bo‘lishi kerak.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv muhitni rivojlantirish bo‘yicha muhim amaliy qadamlar tashlangan. 2025-yilda 208 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkilotida 434 ta inklyuziv guruh tashkil etilgani va ularga 1223 nafar bola jalb qilingani jarayonning kengayayotganini ko‘rsatadi [2]. “Imkon” va “Umid” markazlari esa ta’lim va reabilitatsiyani birlashtirish bo‘yicha muhim tajriba hisoblanadi [3].

Shu bilan birga, inklyuziv ta’lim sifati faqat ochilgan guruhlar soni bilan belgilanmaydi. Pedagoglarning tayyorgarligi, mutaxassislar hamkorligi, oilaning ishtiroki, jismoniy va didaktik muhitning mosligi hamda rivojlanish natijalari birgalikda hisobga olinishi kerak.

Xorijiy tajriba inklyuziv maktabgacha ta’limda ko‘p tarmoqli boshqaruv, aniq ma’lumot, oilaga yo‘naltirilgan xizmat va sifat monitoringi muhimligini ko‘rsatadi [8; 9]. Ushbu tamoyillarni milliy sharoitga mos ravishda joriy etish amaldagi tizimning samaradorligini oshiradi.

Keyingi bosqichda asosiy e’tibor guruhlar sonini ko‘paytirish bilan birga, har bir bolaning real ishtiroki va rivojlanishini ta’minlaydigan boshqaruv mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-yanvardagi 46-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. 2025-yil yakunlari bo‘yicha sarhisob brifingi. – Toshkent, 2025.

3. UNESCO. Uzbekistan: Global Education Monitoring Report country case study. – 2026.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-iyuldagi 423-son “Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-avgustdagi 531-son “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitish...” to‘g‘risidagi qarori.

6. UNICEF Uzbekistan. Legislation and Policy Review of Inclusive Education in Uzbekistan. Policy Brief.

7. UNESCO. Early Childhood Care and Education: What You Need to Know.

8. UNICEF. Integrating Systems and Services for Inclusive Preschool: “Together from the Kindergarten” in Bulgaria. Case Study, 2021.

9. UNICEF. Global Survey of Inclusive Early Childhood Development and Early Childhood Intervention Programs. – 2019.

BO‘LAJAK LOGOPEDLARNI METAKOGNITIV-DIAGNOSTIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Maxsus pedagogika” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21901730

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak logopedlarda metakognitiv-diagnostik kompetentlikni rivojlantirishning milliy va xorijiy tajribasi sodda ilmiy tilda tahlil qilingan. O‘zbekiston pedagogik ta’lim tizimidagi mustaqil ta’lim, “4+2” modeli, raqamli resurslar va amaliy tayyorgarlikning imkoniyatlari yoritilgan. Rossiya, Belarus, Germaniya va Yevropa tajribasidagi klinik mulohaza, refleksiv nazorat, dalillarga asoslangan amaliyot, superviziya hamda mutaxassislararo hamkorlikning ahamiyati ko‘rsatilgan. Milliy tizimning tashkiliy va metodik kuchli tomonlarini xorijiy tajribaning refleksiv-diagnostik mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirish bo‘lajak logopedlarning mustaqil fikrlashi, diagnostik xulosa chiqarishi va kasbiy qarorlarini baholashiga yordam berishi asoslangan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak logoped, metakognitiv kompetentlik, diagnostik kompetentlik, klinik mulohaza, refleksiya, dalillarga asoslangan amaliyot, superviziya, kasbiy tayyorgarlik, milliy tajriba, xorijiy tajriba.

Abstract: The article analyzes national and international experience in developing metacognitive-diagnostic competence in future speech therapists in a clear academic style. It discusses independent learning, the “4+2” model, digital resources and practice-oriented training in Uzbekistan. The importance of clinical reasoning, reflective control, evidence-based practice, supervision and interdisciplinary cooperation in Russian, Belarusian, German and European experience is highlighted. The study argues that combining the organizational and methodological strengths of the national system with reflective and diagnostic mechanisms used abroad supports independent thinking, diagnostic decision-making and professional self-evaluation in future speech therapists.

Keywords: future speech therapist, metacognitive competence, diagnostic competence, clinical reasoning, reflection, evidence-based practice, supervision, professional training, national experience, international experience.

Аннотация: В статье простым научным языком проанализирован национальный и зарубежный опыт развития метакогнитивно-диагностической компетентности будущих логопедов. Рассмотрены возможности самостоятельного обучения, модели «4+2», цифровых ресурсов и практической подготовки в системе педагогического образования Узбекистана. Показано значение клинического мышления, рефлексивного контроля, доказательной практики, супервизии и междисциплинарного взаимодействия в опыте России, Беларуси, Германии и европейских стран. Обосновано, что сочетание организационно-методических преимуществ национальной системы с зарубежными рефлексивно-диагностическими механизмами способствует развитию самостоятельного мышления, диагностических решений и профессиональной самооценки будущих логопедов.

Ключевые слова: будущий логопед, метакогнитивная компетентность, диагностическая компетентность, клиническое мышление, рефлексия, доказательная практика, супервизия, профессиональная подготовка, национальный опыт, зарубежный опыт.

Zamonaviy logopedik faoliyat mutaxassisdan faqat nutq buzilishlari haqidagi nazariy bilimlarni bilishni emas, balki real vaziyatni tahlil qilish, muammoning sabablarini aniqlash, diagnostik ma’lumotlarni solishtirish va asoslangan korreksion qaror qabul qilishni ham talab etadi. Har bir bolaning rivojlanish tarixi, nutqiy holati, oilaviy muhiti va ta’lim sharoiti turlicha bo‘lgani sababli barcha holatlarga bir xil tayyor algoritmni qo‘llash mumkin emas. Bo‘lajak logoped har bir vaziyatda o‘z bilimini qayta tashkil etishi, zarur ma’lumotni tanlashi va qabul qilgan qarorini tekshira olishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan metakognitiv-diagnostik kompetentlik tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Metakognitiv kompetentlik shaxsning o‘z fikrlash va o‘rganish jarayonini anglash, uni rejalashtirish, nazorat qilish va baholash qobiliyatini bildiradi. Diagnostik kompetentlik esa bolaning nutqiy holatini o‘rganish, asosiy belgilarni ajratish, ehtimoliy sabablarni solishtirish, xulosa chiqarish va korreksion

yo‘nalishni belgilashga tayyorlikni anglatadi. Mazkur ikki sifat birlashganda bo‘lajak logoped nafaqat nima qilishni, balki nima sababdan aynan shu yo‘lni tanlaganini ham tushuntira oladi.

Bugungi kunda pedagog kadrlar tayyorlash tizimida mustaqil fikrlash, amaliyot bilan nazariyani bog‘lash, raqamli manbalardan foydalanish va o‘z faoliyatini refleksiv tahlil qilishga katta e’tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ–289-son qarorida pedagogik ta’lim sifatini oshirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etish, talabalarning mustaqil ta’lim olishi, tizimli tahlil va ijodiy fikrlashini rivojlantirish vazifalari belgilangan [1]. Ushbu talablar bo‘lajak logopedlarning metakognitiv-diagnostik tayyorgarligini rivojlantirish uchun muhim normativ va tashkiliy asos yaratadi.

Maqolaning maqsadi bo‘lajak logopedlarda metakognitiv-diagnostik kompetentlikni rivojlantirishda milliy va xorijiy tajribaning ahamiyatini ochib berish hamda ularni ta’lim jarayonida uyg‘unlashtirishning amaliy yo‘llarini ko‘rsatishdan iborat.

Bo‘lajak logopedning diagnostik faoliyati bir necha ketma-ket bosqichdan iborat. Avvalo u bolaning nutqiy holatini kuzatadi, ota-ona va pedagoglardan ma’lumot oladi, kerakli diagnostik topshiriqlarni tanlaydi. Keyin olingan natijalarni tahlil qiladi, o‘xshash belgilarni solishtiradi va taxminiy xulosa chiqaradi. Shundan so‘ng xulosaning to‘g‘riligini tekshiradi va korreksion ish yo‘nalishini belgilaydi. Bu jarayonda xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun talaba o‘z fikrlashini nazorat qila olishi kerak.

Metakognitiv yondashuv talabani tayyor javobni yodlab olishdan ko‘ra, qaror qabul qilish yo‘lini tushunishga o‘rgatadi. Masalan, talaba bolada tovush talaffuzi buzilganini ko‘rishi mumkin. Biroq u faqat tashqi belgiga qarab xulosa chiqarmasligi, artikulyatsion apparat holati, fonematik eshituv, nafas, ovoz, umumiy motorika va boshqa omillarni ham tekshirishi zarur. Metakognitiv fikrlash unga “Men qaysi ma’lumotga tayandim?”, “Qaysi ma’lumot yetishmayapti?”, “Xulosamni yana qanday tekshirish mumkin?” kabi savollarni berishga yordam beradi.

Milliy tajribada bo‘lajak logopedlarni tayyorlashning asosiy kuchli tomoni ta’limning tizimli tashkil etilishidir. Maxsus pedagogika yo‘nalishining malaka talabida kasbiy faoliyat, amaliyot, fanlar va kompetensiyalar o‘zaro bog‘liq holda belgilangan [2]. Talaba anatomiya, fiziologiya, psixologiya, logopediya, diagnostika va korreksion metodika bo‘yicha bilimlarni bosqichma-bosqich egallaydi. Bu izchillik kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy ta’lim tizimida “4+2” modelining joriy etilishi nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi. Talaba haftaning muayyan kunlarida oliy ta’lim muassasasida nazariy bilim oladi, qolgan kunlarda esa ta’lim tashkilotida amaliyot o‘taydi. Bunday yondashuv unga bolalarni muntazam kuzatish, o‘rgangan usullarini real sharoitda qo‘llash va o‘z faoliyatini qayta tahlil qilish imkonini beradi. Amaliyot davomida faqat hisobot yozish emas, balki kuzatuv kundaligi, diagnostik protokol va refleksiv tahlildan foydalanish metakognitiv tayyorgarlikni yanada kuchaytiradi.

Raqamli ta’lim resurslari ham bo‘lajak logopedning mustaqil ishlash imkoniyatini kengaytiradi. Elektron darslik, ilmiy maqola, videoyozuv, diagnostik platforma va elektron portfolio yordamida talaba zarur ma’lumotni tez topishi, uni saralashi va o‘z ehtiyojiga mos tarzda o‘rganishi mumkin. Masalan, logopedik mashg‘ulot videoyozuvini qayta ko‘rish orqali talaba mashg‘ulot paytida e’tibor bermagan bolaning reaksiyalarini aniqlaydi. Bu o‘z faoliyatini kuzatish va tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Rossiya ta’lim dasturlarida bo‘lajak logopedlarning axborotni izlash, tanqidiy tahlil qilish, tizimli fikrlash va kasbiy vaziyatda mustaqil qaror qabul qilishiga e’tibor beriladi [3]. Bu yondashuv talabaning bilimni tayyor shaklda qabul qilmasdan, uni tahlil qilish va muayyan vaziyatga moslashtirishini taqozo etadi. Diagnostik vaziyatlarda bunday ko‘nikma turli belgilar orasidan asosiylarini ajratish va muqobil taxminlarni solishtirishda ayniqsa muhimdir.

Belarus tajribasida kompetensiyalar universal, bazaviy-professional va ixtisoslashgan yo‘nalishlarga ajratiladi [4]. Bunday bosqichli tuzilma bo‘lajak logopedning umumiy fikrlash madaniyati, pedagogik tayyorgarligi va tor kasbiy ko‘nikmalarini o‘zaro bog‘lash imkonini beradi. Talaba avval umumiy tahlil va muloqot ko‘nikmalarini egallaydi, keyin maxsus diagnostika va korreksiya usullarini o‘zlashtiradi. Bu esa kasbiy tayyorgarlikning yaxlitligini ta’minlaydi.

Germaniya tajribasining muhim jihati logopedik ta’limda ilmiy tadqiqot, klinik amaliyot va refleksiyani birlashtirishdir. Talaba diagnostik vositani shunchaki qo‘llamaydi, balki nima uchun aynan shu vositani tanlaganini tushuntiradi. Olingan ma’lumotlarni tartibga soladi, ilmiy manbalar bilan solishtiradi va o‘z qarorining kuchli hamda zaif tomonlarini baholaydi. Bu yondashuv diagnostik fikrlashni chuqurlashtiradi va mutaxassisning kasbiy mas’uliyatini oshiradi.

Yevropa logopedlari professional profilida baholash, diagnostika, terapiya, maslahat, tadqiqot, hamkorlik va superviziya o‘zaro bog‘liq faoliyatlar sifatida ko‘rsatilgan [5]. Ushbu modelda klinik mulohaza markaziy o‘rin tutadi. Klinik mulohaza yuritish mutaxassisning faktlarni yig‘ishi, ularni tahlil qilishi, bir nechta ehtimoliy xulosalarni tekshirishi va eng asoslangan qarorni tanlashini anglatadi. Bu jarayon bo‘lajak logopedning metakognitiv boshqaruvini rivojlantiradi.

Dalillarga asoslangan amaliyot xorijiy tajribaning yana bir muhim tomoni hisoblanadi. Bunda logoped qaror qabul qilishda uch manbani birlashtiradi: ilmiy tadqiqot natijalari, o‘z kasbiy tajribasi va bolaning individual ehtiyojlari. Masalan, biror korreksion metod ilmiy jihatdan samarali deb topilgan bo‘lsa ham, u har bir bola uchun bir xil natija bermasligi mumkin. Shuning uchun logoped bolaning yoshi, rivojlanish darajasi, motivatsiyasi va oilaviy sharoitini hisobga olishi kerak.

Superviziya ham bo‘lajak mutaxassisning kasbiy o‘sishida katta ahamiyatga ega. Superviziya jarayonida talaba yoki yosh logoped tajribali mutaxassis bilan o‘z ishini muhokama qiladi. U mashg‘ulotning muvaffaqiyatli va qiyin jihatlarini tahlil qiladi, boshqa yechimlarni ko‘rib chiqadi va keyingi ish uchun reja tuzadi. Bunday jarayon xatoni yashirish emas, balki undan o‘rganish madaniyatini shakllantiradi.

Mutaxassislararo hamkorlik ham logopedik faoliyatning ajralmas qismidir. Ko‘p hollarda bolaning nutqiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar psixologik, nevrologik, eshitish yoki umumiy rivojlanish omillari bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli logoped psixolog, maxsus pedagog, shifokor va ota-ona bilan birgalikda ishlashi kerak. Bo‘lajak logoped boshqa mutaxassislarning fikrini tinglash, umumiy maqsadni belgilash va birgalikda qaror qabul qilishga o‘rganishi lozim.

Milliy va xorijiy tajribani qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, milliy modelda me’yoriy-huquqiy asos, ta’limning izchilligi va amaliyotga yo‘naltirilganlik kuchli. Xorijiy modellar esa klinik mulohaza, refleksiv nazorat, dalillarga asoslangan amaliyot va superviziya kabi ichki kasbiy mexanizmlarga ko‘proq e’tibor beradi. Shu sababli ularni qarama-qarshi qo‘yish emas, balki o‘zaro to‘ldirish maqsadga muvofiqdir.

Bo‘lajak logopedlarda metakognitiv-diagnostik kompetentlikni rivojlantirish uchun o‘quv jarayoniga diagnostik keyslarni kiritish samarali hisoblanadi. Keysda bolaning nutqiy holati, kuzatuv natijalari, ota-ona ma’lumoti va boshqa belgilar beriladi. Talaba mavjud faktlarni ajratadi, taxminiy xulosalarni yozadi, qo‘shimcha ma’lumot zarurligini aniqlaydi va yakuniy qarorini asoslaydi. Bunday topshiriq tayyor javobdan ko‘ra fikrlash jarayonini rivojlantiradi.

Refleksiv kundalik ham oddiy, ammo foydali vosita hisoblanadi. Har bir amaliy mashg‘ulotdan keyin talaba “Nima muvaffaqiyatli bo‘ldi?”, “Qaysi qiyinchilik yuz berdi?”, “Nima sababdan bunday bo‘ldi?”, “Keyingi safar nimani o‘zgartiraman?” kabi savollarga yozma javob beradi. Vaqt o‘tishi bilan talaba o‘z kasbiy rivojlanishini ko‘ra boshlaydi va takrorlanayotgan xatolarini aniqlaydi.

Videotahlil bo‘lajak logopedlarning kuzatuvchanligini oshiradi. Talaba o‘z mashg‘ulotini yoki namunaviy logopedik jarayonni videoda ko‘rib, pedagogning savollari, bolaning javoblari, tana tili va diqqat holatini tahlil qiladi. Videoni bir necha marta ko‘rish real vaqt davomida sezilmagan muhim belgilarni aniqlashga yordam beradi.

Ta’lim jarayonida mikro-superviziya tashkil etish ham mumkin. Bunda kichik guruh talabalari o‘zlari bajargan diagnostik vazifani o‘qituvchi va guruhdoshlar bilan muhokama qiladilar. Muhokama tanqid qilish uchun emas, balki qarorni yaxshilash uchun olib boriladi. Bu talabada o‘z fikrini asoslash, boshqa nuqtayi nazarni qabul qilish va xulosani qayta ko‘rib chiqish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Baholash tizimida ham o‘zgarish zarur. Faqat yakuniy to‘g‘ri javobni baholash yetarli emas. Talabaning ma’lumotni qanday yig‘gani, qaysi belgilarni asosiy deb tanlagani, qaysi taxminlarni tekshirgani va o‘z xulosasini qanday asoslagani ham hisobga olinishi kerak. Shunda baholash talabaning nafaqat bilimini, balki fikrlash sifatini ham ko‘rsatadi.

Bo‘lajak logopedlarning metakognitiv-diagnostik kompetentligini shakllantirish uchun “Diagnostik fikrlash va refleksiya” nomli maxsus qisqa modul ishlab chiqish mumkin. Modulda diagnostik rejalashtirish, klinik mulohaza, xatolarni tahlil qilish, dalillarga asoslangan qaror, superviziya va mutaxassislararo hamkorlik mavzulari yoritiladi. Nazariy mashg‘ulotlar real keyslar, videomateriallar va amaliy vazifalar bilan mustahkamlanadi.

Bo‘lajak logopedlarda metakognitiv-diagnostik kompetentlikni rivojlantirish zamonaviy maxsus pedagogik ta’limning muhim vazifalaridan biridir. Mazkur kompetentlik talabaning diagnostik bilimga ega bo‘lishi bilan cheklanmay, o‘z fikrlash jarayonini anglash, qarorini tekshirish, xatolarini tuzatish va korreksion yo‘nalishni asoslashiga yordam beradi.

Milliy tajriba bo‘lajak logopedlarni tayyorlash uchun tizimli, me’yoriy va amaliy poydevor yaratadi. Xorijiy tajriba esa klinik mulohaza, refleksiv nazorat, dalillarga asoslangan amaliyot, superviziya va mutaxassislararo hamkorlik orqali kasbiy tayyorgarlikni chuqurlashtiradi. Ushbu ikki yo‘nalishning birlashtirilishi talabaning mustaqil va mas’uliyatli mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida diagnostik keyslar, refleksiv kundalik, videotahlil, elektron portfolio, mikro-superviziya va fanlararo muhokamalardan foydalanish tavsiya etiladi. Baholashda esa faqat yakuniy javob emas, balki talabaning qaror qabul qilish jarayoni ham hisobga olinishi lozim. Bo‘lajak logopedlarning metakognitiv-diagnostik kompetentligini rivojlantirish milliy ta’limning tizimliligi va xorijiy tajribaning refleksiv-diagnostik imkoniyatlarini uyg‘unlashtirish asosida samarali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ–289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. 60110300 – Maxsus pedagogika bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talabi. – Toshkent, 2025.

3. Образовательная программа высшего образования по направлению подготовки 44.03.03 Специальное (дефектологическое) образование. Профиль «Логопедия». – Москва, 2019.

4. Образовательный стандарт высшего образования ОСВО 1-03 03 01-2021. Специальность «Логопедия». – Республика Беларусь, 2022.

5. European Speech and Language Therapy Association. Professional Profile of the Speech and Language Therapist. – 2019.

6. Алмазова А.А. Развитие профессиональной языковой личности студентов-логопедов в процессе лингвистической подготовки. – Москва: МПГУ, 2014.

VITAGEN IXTIROCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ILMIY-TADQIQOTLAR TAHLILI

Shokirov Xasanboy Tuychiboy o‘g‘li
Doktorant (DSc) Namangan davlat pedagogika instituti, Namangan
hasanboyshokirov6@gmail.com
ORCID: 0009-0000-8685-0409
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21901787

Annotatsiya: Ushbu maqola “To‘qimachilik muhandisligi ta’lim yo‘nalishlarida talabalarida vitagen ixtirochilik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari” mavzusi doirasida ixtirochilik, uning asl mazmuni, pedagogikaning yangi yondashuvlari va talabalarda vitagen ixtirochilik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari, ularning ixtirochilik, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish oid ilmiy natijalari, usullari va yechimlari tahlil qilingan. Umumiy olganda, vitagen ixtirochilik kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarni tahlil qilish bo‘lajak muhandislarning ixtirochilik qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishdagi mavjud muammolarni aniqlash va uni bartaraf etish uchun aniq yechimlarni taklif qilishga xizmat qiladi.
Kalit so‘zlar: To‘qimachilik muhandisligi, vitagen-tajriba, ixtirochilik, pedagogik texnologiya, ijodkorlik, refleksiya, muhandislik, innovatsion texnologiya, kompetensiya.

АНАЛИЗ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ВИТАГЕННЫХ ИЗОБРЕТАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ

Аннотация: В данной статье в рамках темы «Технологии развития витагенной изобретательской компетентности у студентов текстильных инженерных направлений» проанализированы сущность изобретательства, новые педагогические подчоды, а также научные взгляды местных исследователей, направленные на развитие у студентов витагенных изобретательских компетенций, их научные результаты, методы и решения по развитию изобретательских и творческих способностей. В целом, анализ научно-исследовательских работ, направленных на развитие витагенных изобретательских компетенций, служит выявлению существующих проблем в формировании и развитии изобретательских способностей будущих инженеров, а также предложению конкретных решений для их устранения.
Ключевые слова: текстильная инженерия, витагенный опыт, изобретательство, педагогическая технология, творчество, рефлексия, инженерия, инновационная технология, компетенция.

ANALYSIS OF RESEARCH DIRECTED TOWARDS DEVELOPING VITAGENIC INVENTIVE COMPETENCIES

Abstract: This article analyzes the essence of inventiveness, new pedagogical approaches, as well as the scientific views of local researchers aimed at developing vitagenic inventive competencies in students within the framework of the topic “Technologies for developing vitagenic inventive competence in students of textile engineering specialties” including their scientific results, methods, and solutions for developing inventive and creative abilities. Overall, analyzing research work aimed at developing vitagenic inventive competencies serves to identify existing promlems in forming and developing the inventive capabilities of future engineers and to propose specific solutions for overcoming them.
Keywords: Textile engineering, vitagen, inventiveness, experience, creativity, reflection, engineering, innovative solution, competence.

Kirish. Bugungi kunda to‘qimachilik sanoatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, yangi mahsulot turlarini yaratish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish uchun yuqori malakali muhandis kadrlar zarurdir. Shu sabali oliy ta’lim muassasalarining muhandislik yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki ularning ijodiy fikrlash, muammolarni mustaqil hal qilish va innovatsion g‘oyalar ishlab chiqish qobiliyatlarini ham rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. To‘qimachilik muhandisligi ta’lim yo‘nalishlarida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini

shakllantirish va rivojlantirish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ularning texnik tafakkurlarini oshirib, vitagen ta’lim texnologiyalaridan amalda foydalanish imkonini beradi. Shu o‘rinda vitagen va vitagen ta’lim texnologiyasi kabi tushunchalarni pedagogika va to‘qimachilik sanoatidagi ahamiyati va ushbu sohalarni ilmiy-tadqiqot ishining integratsiyasiga to‘xtalib, to‘liq ma’lumot keltirishimiz lozim. Shu sharoitda to‘qimachilik muhandisligi talabalarida vitagen ixtirochilik kompetensiyalarini rivojlantirish xalqaro darajada malakali, moslashuvchan va innovatsion kadrlar tayyorlash zarurati bilan bog‘liqdir.

Dunyo ilmiy maydonida mazkur mavzu kompetensiyaviy ta’lim, tajribaga asoslangan o‘qitish, dizayn tafakkuri, muammoga asoslangan va loyiha asosidagi ta’lim, aralash ta’lim hamda to‘qimachilik muhandisligi uchun raqamli-didaktik muhitlarni yaratish yo‘nalishlarida o‘rganilmoqda. Muhandislik ta’limidagi zamonaviy tadqiqotlarda kompetensiyalarni baholash usullari, talabaning real muammo bilan ishlashi, prototiplash, refleksiya, jamoaviy muhokama va natijani amaliy qiymatga aylantirish mexanizmlari alohida ahamiyat kasb etadi. Dizayn tafakkuri texnik yechimni foydalanuvchi ehtiyoji va tajriba bilan bog‘lashni kuchaytirsa, aralash ta’limga oid izlanishlar to‘qimachilik muhandisligi fanlarida nazariy bilim, virtual muhit va amaliy topshiriqlarni yopiq qayta aloqa tizimida birlashtirish imkoniyatini ko‘rsatadi.

Asosiy qism. Bu nuqtada “pedagogik texnologiya” va “rivojlantirish texnologiyasi” o‘rtasidagi nisbat aniqlashni talab qiladi. Pedagogik texnologiya umumiy ma’noda o‘quv jarayonini maqsadga muvofiq loyihalash, tashkil etish va diagnostika qilishning tizimli modelidir. Rivojlantirish texnologiyasi esa ushbu umumiy modelning turli natijalar ichidan aynan bir ma’lum sifatni — bizning holatda vitagen ixtirochilik kompetensiyasini — izchil rivojlantirishga fokuslangan maxsus ko‘rinishidir. Bunda natija “mavzuni o‘zlashtirish” emas, balki tajribani ixtirochilik faoliyatiga aylantira oladigan subyektni shakllantirish bo‘ladi. Shuning uchun bunday texnologiyada mavzu bayoni, amaliy topshiriq, refleksiya va diagnostika bir-biridan ajralgan bloklar emas, balki yagona rivojlanish trayektoriyasining bosqichlari sifatida ishlashi kerak.

Mazkur konseptual asoslarni milliy pedagogik tafakkurdagi kasbiy shakllanish va texnologik yondashuvlar bilan qiyoslash masalaning amaliy qirrasini ochadi.

O‘zbekiston pedagogik tafakkurida “pedagogik texnologiya” va “kasbiy shakllanish” kategoriyalari alohida ilmiy istiqbolga ega bo‘lib, keyingi yillarda kompetensiyaviy paradigmaga bog‘lanib bormoqda. O‘.Tolipov va M.Usmonboyeva ishlari pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslari hamda nazariya-amaliyot birligini ishlab chiqishga qaratilgani bilan muhimdir, bu yo‘nalish ta’lim jarayonini protsessual va natijaviy dizayn sifatida ko‘rish an’anasini mustahkamladi [1]. O‘zbek ilmiy maktabida kasbiy tayyorgarlikni faqat predmet bilimlari bilan emas, kasbiy rivojlanishning tizimli mexanizmlari bilan bog‘lash an’anasi ham shakllandi. Natijada O‘zbekiston adabiyotlarida pedagogik texnologiya “dars usuli” darajasida emas, kasbiy sifatlarni shakllantirishni boshqaruvchi tizim darajasida talqin qilina boshladi.

So‘nggi yillardagi o‘zbek dissertatsion adabiyotlari kompetensiyani tobora ko‘proq texnologik va ko‘p komponentli kategoriya sifatida ko‘rmoqda. R.Rasulovaning matn yaratish kompetensiyasini innovatsion texnologiyalar asosida shakllantirishga bag‘ishlangan PhD avtoreferatida kompetensiya mazmuni innovatsion texnologiya bilan birga qo‘yiladi [2]. Boshqa dissertatsiya izlanishlarda ham kompetensiya an’anaviy “bilim–ko‘nikma–malaka” triadasidan kengroq birlik sifatida sharhlanib, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va akmeologik yondashuvlar metodik loyihalash bilan bog‘lanadi. Bu manbalar mavzu jihatidan turlicha bo‘lsa-da, barchasida umumiy bir nuqta mavjud, kompetensiya mazmuni u rivojlanadigan texnologiyadan ajratib tushunilmayapti. Shu jihatdan mahalliy adabiyotlar kompetensiyani shunchaki yakuniy natija emas, balki o‘quv muhitida bosqichma-bosqich shakllantiriladigan integrativ sifat sifatida ko‘rishga intiladi. Ayni paytda bu integrativ sifatning ixtirochilik, texnik qarama-qarshilikni yechish va mahsulot yaratish darajasiga qanday ko‘tarilishi maxsus aniqlashtirishni talab qiladi.

Boshqa tomondan, o‘zbekistonlik tadqiqotchilar kompetensiyani ijodiy va mustaqil fikrlash bilan bog‘lashga intilgan bo‘lsalar-da, bu bog‘lanish hamma vaqt “ixtirochilik” darajasiga chiqavermaydi. Bilish faolligi va refleksiv mustaqillik haqidagi o‘zbek pedagogik qarashlari S.Sharipovning o‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlash haqidagi doktorlik tadqiqotida kasbiy ijodkorlikni uzluksiz rivojlanadigan sifat sifatida talqin qilish bilan yaqinlashadi [3]. Bu yondashuvlar biz uchun juda yaqin, chunki vitagen ixtirochilik kompetensiyasi ham mustaqil fikr va kasbiy ijodkorlik birligiga tayanadi. Ammo shu bilan birga aytish joizki, bu manbalarda, asosan, pedagogik ta’lim yoki umumiy kompetensiyalar markazda turadi, ixtirochilikning aynan muhandislik-konstruktorlik, texnik ziddiyatlarni yechish va innovatsion taklif ishlab

chiqish bilan bog‘langan, vitagen tajriba asosidagi integrallashgan modeli hali yetarlicha aniq shakllanmagan. Demak, mahalliy yondashuvlar mustaqil fikr va kasbiy ijodkorlikni pedagogik maqsad sifatida asoslaydi, lekin bu maqsadni muhandislik vazifasining texnik ziddiyatlari, prototip tanlovi, patent qidiruvi va ishlab chiqarishdagi real cheklovlar bilan bog‘laydigan operatsion darajaga olib chiqish uchun qo‘shimcha metodik ko‘prik zarur bo‘ladi.

Shu sababli o‘zbek ilmiy maktabiga tanqidiy, biroq konstruktiv yondashuv zarur. Bir tomondan, unda pedagogik texnologiya, kompetensiya, kasbiy shakllanish, mustaqil fikrlash va ijodkorlikka oid boy nazariy resurs mavjud. Ikkinchi tomondan esa ushbu resurslar ko‘pincha bir-biridan alohida yo‘nalishlar sifatida rivojlangan, texnologiya alohida, kompetensiya alohida, ijodkorlik alohida, muhandislik kasbiyligi alohida ko‘rilgan. Tadqiqotimizning nazariy vazifasi aynan shu tarqoqlikni bartaraf etib, vitagenlik, ixtirochilik va muhandislik kompetensiyasini yagona kategorik maydonda birlashtirishdir. Aks holda, to‘qimachilik muhandisligi talabasining laboratoriya, loyiha va ishlab chiqarish tajribasidan kelib chiqadigan real innovatsion salohiyati pedagogik tilda to‘liq ifodalanmay qoladi.

Xulosa. To‘qimachilik muhandisligi ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan bo‘lajak muhandislarning bilim, malaka, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishda ixtirochilik, ijodkorlik qobiliyatini shakllantirib uni rivojlantirish muhim pedagogik masala hisoblanadi. Shuning uchun, vitagen ixtirochilik kompetensiyasini oshirishda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilish usuli orqali amalga oshirildi. Ushbu tahlillar, innovatsion yechim va texnologiyalarni ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Tolipov O‘. Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent: Fan, 2006.

2. Rasulova R. B. Umumta’lim maktablarining 7–9-sinf o‘quvchilarida matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Chirchiq, 2023.

3. Sharipov Sh. S. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti: pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. Toshkent, 2012.

4. Pirniyazova M. K. “Vitagen tajriba asosida talabalarda tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ustuvor tamoyillari”/ “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish yo‘nalishlari va istiqbollari yoshlar nigohida” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya Toshkent – 2024. 67-bet.

5. Davletnazarova D. Vitagen ta’lim asosida talabalarning axborot-analitik kompetensiyalarini rivojlantirish // ResearchBib Journal. – 2024. – Vol. 2, No. 3. – B. 860.b.

6. Ruzieva D.I., Rustamova N.R. Vitagen hamda vitagen ta’lim tushunchasiga oid nazariy tadqiqotlar tahlili // Talim va innovatsion tadqiqotlar. – 2021. – №4. – B. 442-446.

7. Shokirov Kh. Pedagogical and psychological aspects of developing research competencies in higher education // “London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation 2025. – Angliya. - B. 675-676.

8. Shokirov X.T., Abdullayeva O.S. Bo‘lajak muhandislarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik-psixologik jihatlari // Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnali – Namangan, NamDPI. 2026. - №2 - B. 800-804. https://journal.namspi.uz/journaldetails/29

9. Shokirov X.T. To‘qimachilik muhandisligi ta’lim yo‘nalishlari talabalarida vitagen ixtirochilik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalarining nazariy va metodik asoslari // Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnali – Namangan, NamDPI. 2026. - №3 - B.1410-1419. https://journal.namspi.uz/journaldetails/31

10. Shokirov X.T., Abdullayeva O.S. To‘qimachilik muhandisligi ta’lim yo‘nalishlarida raqamli pedagogika va innovatsion yondashuvlarni tashkil etish // “Uzluksiz ta’limda innovatsion pedagogika: Raqamli ta’lim texnologiyalari va kreativ o‘qitish yondashuvlari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami. - Namangan, UBS. 24-25 aprel 2026 y. - B 536-539. https://doi.org/10.5281/zenodo.20178682

11. Shokirov X.T. To‘qimachilik muhandisligi ta’lim yo‘nalishlari talabalarida vitagen ixtirochilik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar tahlili // “Pedagogik ta’lim va tarbiya transformatsiyasida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning konseptual asoslari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami. - Namangan, NamDPI. 23-iyun 2026 y. - B 540-543. https://smartquillpublishing.uz/uz/articles/toqimachilik-muhandisligi-talim-yonalishlari-talabalarida-vitagen-ixtirochilik-kompetensiyalarini-rivojlantirishga-qaratilgan-ilmiy-tadqiqotlar-tahlili

12. Abduazizova Veronika Vadimovna, & Shokirov Hasanboy Tuychiboy ogli. (2025). Modern Methods of Pedagogical Potential Development of Researchers in Technical Universities. *International Journal of Pedagogics*, *5*(06), 293–296. https://doi.org/10.37547/ijp/Volume05Issue06-79

13. Inamova, M., Yuldashev, K., Berdalieva, M., Shamsiddinov, E., & Shokirov, K. (2026). Optimization of gin saws for sustainable and eco-friendly cotton processing. In *EPJ Web of Conferences* (Vol. 345, p. 01023). EDP Sciences.

14. Khasanboy, Shokirov, and Sarimsakov Olimjon. "Investigation of the Movement of Cotton Seeds Along the Groove Formed on the Surface of the Grate in the Working Chamber of the Saw Fiber Separator." *International Journal on Orange Technologies*, vol. 3, no. 9, 2021, pp. 103-110, doi:10.31149/ijot.v3i9.2222.

XORAZM TAMG‘ALARI VA TURKIY TANGALARDA ASTRAL-TOTEMISTIK SEMANTIKA

Mahliyo Misrbekova
Samarqand davlat chet tillari instituti o‘qituvchisi
E-mail: misrbekovamahliyo1234@gmail.com
Orcid: https://orcid.org/0009-0003-8756-1053
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21901853

Annotatsiya: Maqolada Xorazm mintaqasi va turkiy xoqonliklar davlatchiligi misolida astral va totemistik belgilarning semantik tahlili berilgan. Xorazm petroglif-tamg‘alari, Turkiy-numizmatik tadqiqotlar asosida ramziy tizimning davlat legitimatsiyasi va siyosiy-huquqiy funksiyalar kasb etish jarayoni ko‘rib chiqilgan. Xorazm va turkiy xoqonliklar hududiy va siyosiy jihatdan mustaqil ikki tuzilma sifatida yangi ilmiy yondashuv asosida ramziy tizimning qiyosiy tipologik namuna sifatida tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: astral belgilar, totemistik ramzlar, Xorazm, turkiy xoqonliklar, tangalar, petroglif, tamg‘a, Choch numizmatikasi.
Аннотация: В статье представлен семантический анализ астральных и тотемистических символов на примере государственности Хорезма и тюркских каганатов. На основе исследований хорезмских петроглифов и тамг, а также тюркской нумизматики рассматривается процесс формирования символической системы, выполнявшей функции государственной легитимации и политико-правового регулирования. Хорезм и тюркские каганаты, представлявшие собой две самостоятельные в территориальном и политическом отношении государственные структуры, анализируются на основе нового научного подхода как сравнительно-типологические модели символических систем.
Ключевые слова: астральные символы, тотемистические символы, Хорезм, тюркские каганаты, монеты, петроглиф, тамга, нумизматика Чача.
Abstract: This article presents a semantic analysis of astral and totemic symbols through the examples of the statehood of Khorezm and the Turkic Khaganates. Based on studies of Khorezmian petroglyphs and tamgas, as well as Turkic numismatic evidence, the paper examines the process by which the symbolic system acquired functions of state legitimization and political-legal authority. Khorezm and the Turkic Khaganates, regarded as two territorially and politically independent state entities, are analyzed through a new scholarly approach as comparative typological models of symbolic systems.
Keywords: astral symbols, totemic symbols, Khorezm, Turkic Khaganates, coins, petroglyphs, tamga, Chach numismatics.

O‘rta Osiyo davlatchiligi tarixida moddiy madaniyat yodgorliklaridagi ramziy tasvirlar yozma manbalar yetishmaydigan davrlarni to‘ldiruvchi mustaqil manba vazifasini bajaradi. Astral (quyosh, oy, yulduz) va totemistik (hayvon kulti) motivlar Xorazm va turkiy xoqonliklar davlatchiligida muhim mafkuraviy rol o‘ynagan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, Xorazm va turkiy xoqonliklar hududiy jihatdan qo‘shni bo‘lsa-da, siyosiy jihatdan mustaqil ikki tuzilma edi: mavjud tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Xorazm Turk xoqonligi davrida ham o‘z siyosiy mustaqilligini saqlab qolgan, turkiy tangalar esa asosan Choch (Toshkent) vohasiga tegishli bo‘lib, G‘arbiy Turk xoqonligi bevosita nazorat qilgan boshqa mintaqada zarb etilgan. Shunga qaramay, ikkala mintaqada ham astral-totemistik ramzlarning davlatda qonuniylik vositasiga aylanish jarayoni tipologik jihatdan o‘xshash yo‘nalishni namoyon etadi, bu esa ularni qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

I.V. Chernishning Prisariqamish deltasidagi ko‘p yillik tadqiqotlariga ko‘ra, Xorazm mintaqasidagi piktografik yodgorliklar miloddan avvalgi VII asrdan XVII asrgacha, ya’ni deyarli 24 asr mobaynida rivojlanib kelgan bo‘lib, bu belgi an’anasining davlatchilik institutlari bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Turkiy xoqonliklar davrida esa Choch vohasida tanga zarb qilish orqali o‘xshash institutsionalizatsiya jarayoni mustaqil ravishda kuzatiladi. Maqolada ushbu ikkita mustaqil, ammo tipologik jihatdan qiyoslanadigan misolda ramziy tizim arxeologik, numizmatik va semiotik tahlil asosida ko‘rib chiqiladi; metodologik jihatdan Yu.M. Lotmanning ramziy tizimni matn sifatida talqin qilish g‘oyasiga tayaniladi, bunga ko‘ra har qanday belgilar majmuasi o‘z strukturaviy bog‘liqliklari orqali o‘qiladi[1].

I.V. Chernishning Prisariqamish deltasidagi ko‘p yillik tadqiqotlari Xorazm shimolidagi besh g‘or shahrida petroglif va tamg‘a an’anasining uzluksiz davom etganligini aniqlagan. Ot tasvirlari alohida o‘rin

tutadi: Qadimgi insonlar tasavvurida ot boshi tong, ko‘zlar quyosh, tanasi yil, tuyoqlari yer, tananing old qismi chiqayotgan quyosh, orqa qismi botayotgan quyosh ma’nosini anglatganligini qayd etadi [2]; bu kosmik ramziyat hukmdorning koinot tartibi bilan uyg‘unligini, ya’ni «osmon-yer» bog‘lovchisi sifatidagi rolini ifodalagan.

Xoch shaklidagi hayvon tasvirlari astral harakat yo‘nalishining ramziy ko‘rsatkichi hisoblangan; Bu tasvirlar quyosh belgilari bilan birgalikda dalalarni xochnakroch ishlash amaliyoti va asosiy geografik koordinatalar tushunchasining shakllanishini aks ettirgan. Tamg‘alarning evolyutsiyasi esa ularning dastlabki urug‘ belgisidan hududiy tegishlilik va siyosiy konfederatsiya ramziga aylanish jarayonini ko‘rsatadi:

Ilk o‘rta asrlarda turkiy xoqonliklarning tanga zarb qilishi davlatchilik institutlarining rasmiylashuvidan dalolat beradi. G‘. Boboyorovning kuzatishlariga ko‘ra, tanga zarb qilish orqali har bir davlat o‘z mustaqilligi va hokimiyat legitimatsiyasini namoyon etgan; Tun yabg‘u-xoqon tangalaridagi tasvirlar ushbu jarayonning yorqin namunasi hisoblanadi. Tangalardagi sher tasviri kuch, jasorat va hokimiyat ramzi sifatida ishlatilgan, Umay ilohasi esa unumdorlik, homiylik va davlat boshqaruvidagi xotun (malika) shaxsiyatining ramziylashuvi bo‘lgan[3]. Qadimgi turkiy bitiktoshlardagi ma’lumotlarga asoslanib, xoqonga hamroh bo‘lgan xotunning ramziy ma’noda Umayga tenglashtirilganligini, ya’ni unumdorlik va baraka manbai sifatida qaralganligini ta’kidlaydi.

Turkiy tangalarda yarim oy, yulduz, o‘q-yoy, qilich, aso (hassa) va zoomorf taxt kabi elementlarning birikishi ularning nafaqat diniy, balki siyosiy-huquqiy ma’no kasb etganligini ko‘rsatadi. Yarim oy ustida yulduz tasviri qadimgi turklar tomonidan g‘alaba ramzi deb hisoblangan, bu esa Yaqin Sharq mifologiyasidagi astral ramzlar evolyutsiyasi jumladan, Bobil mifologiyasidagi Sin va Ishtar bilan bog‘liq an’analar bilan ma’lum darajada o‘xshashlik kasb etadi; astral belgilar Tangridan xoqonga berilgan «qut» tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lsa, totemistik hayvonlar va qurol-yarog‘lar harbiy qudrat va sulolaviy uzluksizlikni ifodalagan. Aso tasviri donishmandlik, uzoq umrlilik va kuch-qudrat ramzi hisoblangan Afrosiyob devoriy rasmlarida (650-yillar) turk amaldorlaridan birining asoga suyangancha tasvirlangani ushbu ramzning hokimiyat atributi sifatidagi o‘rnini tasdiqlaydi [4], zoomorf taxt va qilich tasvirlari esa harbiy jasorat va oliy hokimiyatning vizual ifodasi bo‘lib xizmat qilgan. Ba’zi noyob Choch tangalaridagi ikonografik kompozitsiyalar otliq hukmdor va Umay ilohasiga tenglashtirilgan xotun tasvirlari Tangridan xoqonga beriladigan «qut»ni uzatish g‘oyasini ifodalashi mumkinligi taxmin qilinadi, bu esa astral va totemistik ramzlarning davlat mafkurasidagi integratsiyalashgan rolidan dalolat beradi.

Xorazm mintaqasida qadimgi qoya belgilari va tamg‘a an’anasi mahalliy Xorazmshohlar davlatchiligi doirasida davlat ramzi sifatida rasmiylashgan bo‘lsa, undan mustaqil ravishda, ilk o‘rta asrlarda Choch vohasida G‘arbiy Turk xoqonligi ta’sirida tanga zarb qilish an’anasi rivojlangan. Xorazm tamg‘alarining qadimgi Sharq yozuv tizimlari bilan tipologik o‘xshashligi mintaqaning sak-massaget madaniy doirasidagi mustaqil o‘rnini tasdiqlaydi.

Belgilar har ikkala mintaqada ham vaqt o‘tishi bilan diniy-mafkuraviy ma’nosini saqlab qolgan holda yangi huquqiy-siyosiy funksiyalarni mustaqil ravishda kasb etgan: Xorazm tamg‘alari hududiy tegishlilik va qabila konfederatsiyalarini belgilashd, turkiy tangalar esa davlat mustaqilligi va hokimiyat legitimatsiyasini e’lon qilishda ishlatilgan, ya’ni har ikki holatda ham ramziy tizim qabila darajasidan davlat institutsionalizatsiyasi darajasiga ko‘tarilgan. Tamg‘alarning Choch, Farg‘ona, Sug‘d va Xorazm tangalaridagi turli shakllari mintaqadagi turli siyosiy subyektlarning o‘ziga xosligini va mustaqil legitimatsiya mexanizmlarini aks ettiradi. Bunday qiyosiy tahlil O‘rta Osiyoning qadimgi va o‘rta asr davlatchilik tarixini yanada chuqurroq o‘rganish, turli mintaqaviy an’analar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Лотман Ю.М. Структура художественного текста // Лотман Ю.М. Об искусстве. — СПб.: Искусство–СПБ, 1998. — С. 14–285.
2. Черныш И.В. Искусственные пещерные жилища в обрывах останцевых возвышенностей Присарыкамышской дельты и наскальные рисунки в них (по материалам полевых исследований 1974–1994 гг.). – Балашиха, 1996. – Депонировано в Российском СпелеоИнфоЦентре 01.05.96 N 012.
3. Boboyorov G‘. Tun yabg‘u-xoqon (risola). – T.: ABU MATBUOT-KONSALT, 2011. – 48 b.

4. Normamatova H.A. G‘arbiy Turk xoqonligi chog‘i Choch tangalarida davlatchilik an’analarining aks etishi. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2026. – 67 b.

TIL BIRLIKLARINING NOMLOVCHI VOSITA MAQOMI XUSUSIDA

Tursunova Nodirabegim Fayzullo qizi
f.f.f.d (PhD) ADCHTI, Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi
nodira.tursunova.93@mail.ru
Tojimaxammadova Dilafruz Ikromjon qizi
ADCHTI, 1-kurs magistratura talabasi
d14758379@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21901955

Annotatsiya. Mazkur maqolada til birliklarining nominativ tabiati, so‘zning gnoseologik va semiologik xususiyatlari hamda til, tafakkur va borliq o‘rtasidagi munosabatlar tahlil qilinadi. Nomlash nazariyasining tarixiy ildizlari antik davr tilshunosligi va falsafiy qarashlari asosida yoritilib, V. Gumboldt, F. de Sossyur, E. Sepir, B. Uorf kabi olimlarning konsepsiyalari ilmiy jihatdan sharhlanadi. Shuningdek, til birliklarining paradigmatik va sintagmatik munosabatlari, milliy-madaniy tafakkur bilan bog‘liqligi hamda nominatsiya jarayonining lingvistik mohiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: nomlash, nominatsiya, til birligi, so‘z, semantika, semiotika, gnoseologiya, paradigmatika, sintagmatika, tafakkur, til va borliq.

Abstract. This article analyzes the nominative nature of language units, the gnoseological and semiological features of words, as well as the relationship between language, thought, and reality. The historical foundations of nomination theory are examined on the basis of ancient linguistic and philosophical views, while the concepts of scholars such as Wilhelm von Humboldt, Ferdinand de Saussure, Edward Sapir, and Benjamin Lee Whorf are interpreted from a scientific perspective. In addition, the paradigmatic and syntagmatic relations of language units, their connection with national and cultural thinking, and the linguistic essence of the nomination process are elucidated.

Keywords: nomination, language unit, word, semiotics, semantics, cognition, paradigmatics, syntagmatics, language and thought.

Аннотация. В данной статье рассматриваются номинативная природа языковых единиц, гносеологические и семиологические особенности слова, а также взаимосвязь языка, мышления и объективной реальности. Исторические основы теории номинации анализируются на материале античных лингвистических и философских взглядов, а научные концепции В. фон Гумбольдта, Ф. де Соссюра, Э. Сепира и Б. Уорфа интерпретируются с лингвистической точки зрения. Кроме того, раскрываются парадигматические и синтагматические отношения языковых единиц, их связь с национально-культурным мышлением, а также лингвистическая сущность процесса номинации.

Ключевые слова: номинация, языковая единица, слово, семиотика, семантика, мышление, язык и реальность.

Kirish. So‘z barcha davrlarda turli mamlakat tilshunoslarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Chunki tilning mavjudligi va rivojlanishi bevosita so‘z bilan bog‘liqdir. Dastlabki taqlidiy birliklardan boshlab zamonaviy terminologik tizimlargacha bo‘lgan barcha lisoniy qatlamlar tilshunoslikning muhim tadqiqot obyektini tashkil etadi. Har qanday tilning lug‘aviy boyligi, avvalo, undagi so‘z va iboralar tizimi orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli so‘zning tabiati, uning shakllanishi, ma’no ifodalash imkoniyatlari hamda nominativ vazifasi tilshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyo tillarining leksik va frazeologik tarkibi ko‘plab lug‘atlar va ilmiy manbalarda tavsiflangan bo‘lsa-da, so‘zning universal ilmiy ta’rifi hanuzgacha to‘liq shakllanmagan. Bu holat turli tillarning gnoseologik va semiologik xususiyatlari bilan izohlanadi. Chunki har bir tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlari, grammatik qurilishi hamda milliy-madaniy tafakkuri o‘ziga xos bo‘lib, ular so‘zning shakllanishi va qo‘llanishida muhim o‘rin tutadi [6, 11].

Til birliklarining nominativ tabiati inson tafakkuri, borliqni idrok etish va uni til orqali ifodalash jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir. Inson atrofidagi predmet va hodisalarni anglash orqali ularga nom beradi hamda shu tariqa tilning nominativ tizimi shakllanadi. Shu jihatdan qaralganda, til faqat kommunikativ vosita emas, balki insonning bilish faoliyati, madaniy tajribasi va ijtimoiy tafakkurini aks ettiruvchi murakkab semiotik tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Nomlash jarayonining lingvistik mohiyatini o‘rganish qadimgi davrlardan boshlab tilshunos va faylasuflarning diqqat markazida bo‘lgan. Antik davr mutafakkirlari, keyinchalik esa struktur tilshunoslik

va zamonaviy semiotika vakillari til birliklarining nominativ xususiyatlarini turli nuqtayi nazardan tahlil qilganlar. Ayniqsa, V. Gumboldt, F. de Sossyur, E. Sepir va B. Uorflarning ilmiy qarashlari til, tafakkur va borliq o‘rtasidagi munosabatlarni chuqur yoritishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [1].

Mazkur maqolada til birliklarining nominativ tabiati, ularning gnoseologik va semiologik xususiyatlari hamda tilning inson tafakkuri bilan bog‘liqligi ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tavsifiy, qiyosiy-tahliliy hamda semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Til birliklarining nominativ tabiati antik davr falsafasi, struktur tilshunoslik va zamonaviy semiotika nazariyalari asosida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida V. Gumboldt, F. de Sossyur, E. Sepir, B. Uorf, Ch. Pirs kabi olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi.

Asosiy qism. Nomlash masalasi qadimgi davrlardanoq falsafiy tafakkurning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllangan. Antik davr mutafakkirlari — Platon, Aristotel, Diogen va Varro kabi olimlar so‘zning tabiati, uning predmet bilan munosabati hamda nomlashning mohiyati haqida dastlabki ilmiy qarashlarni ilgari surganlar. Xususan, Platonning “Kratil” dialogida nomlarning tabiiy yoki shartli ravishda paydo bo‘lishi masalasi muhokama qilinadi. Aristotel esa til birliklarini tafakkur va mantiq bilan bog‘liq holda tahlil qilgan. Bu qarashlar keyinchalik nominatsiya nazariyasining shakllanishiga nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan.

Til birliklari nafaqat nominativ vazifani bajaradi, balki xalqning madaniyati, urf-odatlari, dunyoqarashi va milliy tafakkurini ham aks ettiradi. Shu sababli turli xalqlarning olamni idrok etish xususiyatlari ularning leksik va frazeologik tizimida yaqqol namoyon bo‘ladi[8,46]. Masalan, ayrim xalqlarda tabiat hodisalari, qarindoshlik munosabatlari yoki milliy qadriyatlar bilan bog‘liq so‘zlarning juda ko‘pligi ularning hayot tarzi va tarixiy taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir. Demak, til birliklari insonning ijtimoiy-madaniy tajribasini saqlovchi va avloddan-avlodga yetkazuvchi vosita sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Nomlash jarayoni inson tafakkuri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, inson dastlab predmet va hodisalarni idrok etadi, keyinchalik esa ularni ma’lum nom orqali ifodalaydi. Shu tariqa tilning nominativ tizimi shakllanadi. Har qanday nom ma’lum bir tushunchaning lisoniy ifodasi bo‘lib, u inson ongidagi bilish jarayonining mahsuli hisoblanadi. Tilshunoslikda nominatsiya masalasi semantika, onomasiologiya, semiotika va kognitiv lingvistika kabi yo‘nalishlar bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganiladi.

Til va tafakkur munosabati. Til va tafakkur o‘rtasidagi munosabat tilshunoslikning eng murakkab va muhim masalalaridan biri hisoblanadi. V. Gumboldt ta’limotiga ko‘ra, til xalq ruhiyatining mahsuli bo‘lib, har bir xalq dunyoni o‘z tili orqali idrok etadi[1, 58]. Olim tilni tayyor mahsulot emas, balki doimiy harakatdagi ijodiy faoliyat sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, til inson tafakkurining shakllanishida faol ishtirok etadi va xalqning milliy dunyoqarashini ifodalaydi.

Keyinchalik L. Vaysgerber, E. Sepir va B. Uorf tilning borliqni idrok etishdagi faol rolini yanada rivojlantirdilar. Xususan, Sepir–Uorf gipotezasiga ko‘ra, insonning dunyoni qanday ko‘rishi va tushunishi uning tili bilan bog‘liqdir. Til nafaqat fikrni ifodalaydi, balki insonning tafakkur tarzini ham ma’lum darajada shakllantiradi. Shu sababli turli tillarda bir xil predmet yoki hodisalarning turlicha nomlanishi xalqlarning borliqni turlicha idrok etishini ko‘rsatadi.

Tilning semiologik tabiati esa F. de Sossyur tomonidan ilmiy asoslangan bo‘lib, u tilni belgilar tizimi sifatida talqin qiladi[2]. Olim til belgisi ikki tomonlama mohiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi: ifodalovchi (signifiant) va ifodalanuvchi (signifié). F. de Sossyur til tizimidagi paradigmatik va sintagmatik munosabatlarni asosiy lingvistik tamoyillar sifatida izohlaydi. Paradigmatik munosabat til birliklarining tizimdagi o‘zaro aloqalarini bildirsa, sintagmatik munosabat ularning nutq jarayonidagi ketma-ket bog‘lanishini ifodalaydi.

Til va tafakkur munosabatini o‘rganish zamonaviy lingvistikaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Chunki insonning borliqni anglashi, tushunchalarni shakllantirishi va muloqot jarayoni bevosita til orqali amalga oshadi. Shu jihatdan til inson tafakkurining asosiy ifoda vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, til birliklarining nominativ tabiati inson tafakkuri, madaniyati va borliqni idrok etish jarayoni bilan uzviy bog‘liqdir. Inson atrofidagi predmet va hodisalarni anglash orqali ularga nom beradi hamda shu asosda tilning nominativ tizimi shakllanadi. Har qanday nom insonning bilish faoliyati mahsuli sifatida yuzaga kelib, u nafaqat predmetni ifodalaydi, balki unga bo‘lgan munosabatni ham aks ettiradi. Shu sababli til birliklari inson tafakkurining semantik modeli sifatida namoyon bo‘ladi.

Turli xalqlarning yashash muhiti, mentaliteti va tarixiy taraqqiyoti ularning til birliklarida aks etadi. Ayniqsa, milliy-madaniy xususiyatlar leksik va frazeologik birliklarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida “mehmondo‘stlik”, “hashar”, “mahalla” kabi birliklar xalqning ijtimoiy-madaniy hayoti bilan chambarchas bog‘liq tushunchalarni ifodalaydi. Ingliz tilida esa “privacy” tushunchasi insonning shaxsiy hududi va mustaqilligiga bo‘lgan munosabatni bildiradi. Yapon tilidagi “komorebi” so‘zi daraxt barglari orasidan tushayotgan quyosh nurini ifodalab, tabiatga estetik munosabatni aks ettiradi. Bu kabi misollar til birliklari xalqning dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, til birliklarida borliqni obrazli tarzda ifodalash holatlari ham keng uchraydi. Masalan, o‘zbek tilidagi “bahor keldi”, “o‘rmon uxlayapti” kabi birikmalarda tabiat hodisalari insoniy xususiyatlar bilan ifodalanadi. Ingliz tilida “Time flies” (“Vaqt uchadi”) yoki “The sun smiled down on us” (“Quyosh bizga kulib boqdi”) kabi birliklar ham personifikatsiya hodisasi asosida yuzaga kelgan. Rus tilidagi “Море сердилось” (“Dengiz g‘azablandi”) birikmasida ham tabiat hodisasining obrazli ifodasi kuzatiladi. Ushbu misollar nominatsiya jarayonida inson tafakkuri va tasavvurining muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida til va tafakkur munosabatining gnoseologik hamda semiologik jihatlari o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘lishi aniqlandi. Til insonning borliqni idrok etishi, tushunchalarni shakllantirishi va ularni muloqot jarayonida ifodalashida asosiy vosita vazifasini bajaradi. Shu jihatdan qaralganda, til birliklari inson tafakkurining tashqi ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, til birliklarining paradigmatik va sintagmatik xususiyatlari ularning semantik imkoniyatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Paradigmatik munosabat til birliklarining tizim ichidagi o‘zaro semantik aloqalarini belgilasa, sintagmatik munosabat ularning nutq jarayonidagi ketma-ket bog‘lanishini ifodalaydi. Masalan, “katta”, “ulkan”, “buyuk” so‘zlari paradigmatik qator hosil qilsa, “katta uy”, “buyuk inson”, “ulkan bino” kabi birikmalar sintagmatik munosabat asosida yuzaga keladi. Ushbu ikki yo‘nalish til birliklarining ma’no hosil qilish mexanizmini aniqlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, nominatsiya jarayoni oddiy nomlash hodisasi bo‘libgina qolmay, balki inson tafakkuri, milliy dunyoqarashi va ijtimoiy tajribasi bilan chambarchas bog‘liq murakkab lingvistik jarayondir. Shu bois til birliklarining nominativ mohiyatini o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Xulosa. Til birliklari inson tafakkuri va borliq o‘rtasidagi asosiy vosita hisoblanadi. So‘zning nominativ tabiati gnoseologik va semiologik jihatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tilning funksional imkoniyatlarini belgilaydi. Nomlash jarayoni insonning mental faoliyati mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi va har bir xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. – М.: Прогресс, 1985.
2. Соссюр Ф. де. Труды по языкознанию. – Екатеринбург: Университет, 1999.
3. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993.
4. Вайсгербер Й. Л. Родной язык и формирование духа. – М.: МГУ, 1993.
5. Пирс Ч. С. Собрание сочинений. – Кембридж, 1965.
6. Umarxo‘jayev M.E. So‘z dunyosi – Til dunyosi. – Andijon, 2023.
7. Равшанов М. Номинатив бирликларнинг семиологик ва лексикографик тавсифи. – Тошкент, 2019.
8. Nodirabegim Tursunova. *The interplay of sign, signifier, and concept in linguistic theory* // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika – Foreign Linguistics and Linguodidactics. – 2025. – № 3. – B. 45–52. – Available at: inScience Journal

UDK: 316.7.930.27

YOSHLAR MA‘NAVIY TARBIYASIDA TARIXIY OBIDALARDAN FOYDALANISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI VA SUBYEKTIV OMILLARI

Ziyodov Husniddinxon Isomiddinxon o’g’li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlarni o‘qitish metodikasi (ma’naviyat asoslari) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
Email:husniddinziyodov01@gmail.com
Orcid:https://orcid.org/0009-0005-2329-2469
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21902019

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’lim tizimida hamda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish darslarida yoshlar ma’naviy tarbiyasini yuksaltirishda tarixiy-me’moriy obidalardan foydalanishning subyektiv zaruriyati va subyektiv omillari tahlil qilinadi. Ushbu moddiy-madaniy manbalar zamonaviy pedagogik metodlar bilan birgalikda talabalarda subyektiv vatan tuyg‘usi (sense of the Motherland), milliy g‘urur (national pride) va shaxsning barkamol rivojlanishini (harmonious development) shakllantirishda samarali vosita ekanligi ilmiy asoslanadi.

Kalit so‘zlar: subyektiv zaruriyat, subyektiv omillar, vatan tuyg‘usi, milliy g‘urur, tarixiy obidalar, ma’naviy tarbiya, oliy ta’lim, barkamol shaxs, pedagogik mahorat, ijtimoiy-gumanitar fanlar.

Аннотация. В статье анализируются субъективная необходимость и субъективные факторы использования историко-архитектурных памятников для совершенствования духовно-нравственного воспитания молодежи в системе высшего образования и в процессе преподавания социально-гуманитарных дисциплин. Обосновывается, каким образом эти памятники материальной культуры в сочетании с современными педагогическими методами выступают эффективными средствами формирования у студентов чувства любви к Родине, национальной гордости и гармоничного развития личности.

Ключевые слова: субъективная необходимость, субъективные факторы, чувство любви к Родине, национальная гордость, исторические памятники, духовно-нравственное воспитание, высшее образование, гармоничная личность, педагогическое мастерство, социально-гуманитарные дисциплины.

Abstract. The article analyzes the subjective necessity and subjective factors involved in utilizing historical-architectural monuments to enhance the spiritual upbringing of young people within the higher education system and during the teaching of social sciences and humanities. It provides a scientific rationale for how these material-cultural resources, when combined with modern pedagogical methods, serve as effective tools for fostering a sense of the Motherland, national pride, and the harmonious development of the individual among students.

Keywords: subjective necessity, subjective factors, sense of the Motherland, national pride, historical monuments, spiritual upbringing, higher education, harmonious personality, pedagogical skill, social sciences and humanities.

Globallashuv sharoitida oliy ta’lim tizimi ikki xil tazyiq ostida turibdi: bir tomondan, jahon ta’lim standartlariga integratsiyalashuv talabi; ikkinchi tomondan, milliy madaniy va intellektual merosni saqlab qolish zarurati. O’zbekiston oliy ta’limi uchun bu muammo ayniqsa dolzarbdir, chunki respublika nafaqat jahon ta’lim makoniga kirish, balki boy moddiy-madaniy va tarixiy an’anasini- jumladan, jahonga mashhur Buxoro, Xiva, Qo‘qon, Samarqand, Toshkent kabi muqaddas shaharlar me’morchiligini-zamonaviy ta’lim hamda talabalar tarbiyasi jarayoniga organik tarzda kiritish imkoniyatini izlaydi[1. 2024:B.105].

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni, xususan, ”O‘zbekiston tarixi” kursini o’qitishda milliy madaniy va me’moriy meros hali ham yetarlicha samarali foydalanilmayapti: ko’plab universitetlarda saroylar, madrasalar, maqbaralar va qadimiy qal’alar faqat o‘tmish faktlari majmuasi sifatida, zamonaviy hayot, ma’naviy transformatsiyalar va shaxs kamoloti bilan bog’lanishi ko’rsatilmagan holda o’rgatiladi[2. 2024:B.105]. Bu esa talabaning o’z madaniy ildizlariga, tug‘ilib o‘sgan mahallasi va shahri tarixiga befarqligini kuchaytiradi va gumanitar ta’limning yoshlarda subyektiv vatan tuyg‘usini (sense of the Motherland) shakllantirishdagi amaliy samaradorligini pasaytiradi.

Ushbu maqolaning maqsadi tarixiy-me’moriy obidalar merosini oliy ta’limda ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida zamonaviy pedagogik metodlar bilan birgalikda o’qitishning konseptual asoslarini ishlab chiqish va bu orqali gumanitar ta’lim samaradorligini hamda yoshlar ma’naviyatini oshirishning yo’llarini ko’rsatishdir[3. 2024:B.105]. Quyidagi savollar ko’rib chiqiladi:

1. Nima uchun tarixiy obidalar va madaniy meros zamonaviy gumanitar ta’lim hamda yoshlarda milliy g‘ururni (national pride) shakllantirish uchun dolzarb?
2. Bu merosni o’qitishda va ta’lim tizimiga integratsiya qilishda qanday zamonaviy pedagogik metodlar samarali?
3. Interdistsiplinar yondashuv va Turkiston obidalarini o'rganish talabaning barkamol rivojlanishida qanday rol o’ynaydi?
4. Kutilgan ta’lim natijalari (learning outcomes) va shakllanadigan ma'naviy-tarbiyaviy mezonlar qanday bo’lishi kerak?

Adabiyotlar tahlili. Gumanitar ta’limning demokratiya, fuqarolik jamiyati va inson kamoloti uchun ahamiyatini M. Nussbaum ishonchli tarzda asoslagan. Uning ta’kidlashicha, faqat texnik va iqtisodiy ko’nikmalar emas, balki tanqidiy tafakkur, empatiya va axloqiy mulohaza ko’nikmalari ham zamonaviy ta’limning ajralmas qismi bo’lishi shart. Tarixiy-ma’naviy meros tizimi, jamiyat hayotini yangilash, ta’lim sohasini tubdan isloh qilish hamda yoshlar ma’naviy olamini global mafkuraviy xurujlar va “ommaviy madaniyat” ta’siridan himoya qilish siyosati aynan shu yuqori axloqiy ong, o‘zlikni anglash va milliy fazilatlarni rivojlantirish uchun boy material beradi[4. 2023:B.26].

J. McGinnis va M. Marmura kabi zamonaviy tadqiqotchilar Sharq intellektual va falsafiy qadriyatlarini akademik muhitda o’qitish metodologiyasini ishlab chiqishga muhim hissa qo’shgan bo‘lsalar, G. Berdiyeva o‘tish davrida jamiyatda mafkuraviy bo‘shliq paydo bo‘lishi xavfining oldini olishda tarixiy tajriba sotsiologiyasini tizimlashtirgan[5. 2023:B.26-27]. Akademik N.N. Konrad inson va jamiyat haqidagi ilmlarning barcha sohalaridagi Sharq nazariy fikrini o’rganish zarurligini, chunki bu sohalar Sharqda g‘oyat muvaffaqiyatli ishlab chiqilganligini ko‘rsatgan bo‘lsa, Karl Yaspers Yevropa markazchilik qarashlarini tanqid ostiga olib, ekzistensializm va inson tabiati kamoloti yo‘lida Sharq falsafiy hamda diniy-madaniy merosiga murojaat qilish muqarrar ekanligini, Osiyo zamonaviy fan uchun zaruriy qo‘shimcha bo‘lishini isbotlagan[6. 2023:B.29].

A. Treiger esa qadimiy meros falsafasini zamonaviy epistemologiya bilan bog’lash imkoniyatlarini ko’rsatib, bu ma’naviy poydevorning yoshlar axloqiy xulq-atvorini tartibga soluvchi aktual falsafiy ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Zardo‘stiylikdan oldingi mifologik dunyoqarash, mil.avv. 6-7 ming yilliklarga oid Joytun madaniyati qoldiqlari (uylarni to‘rtburchak shaklda qurish va turli ranglarda bo‘yash) hamda sak, massaget, sug‘d va xorazmiylar tarixiga oid xalq og‘zaki ijodi namunalari (“To’maris”, “Shiroq” afsonalari) yoshlarda or-nomus, ozodlik, erkinlik va vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishda aktual falsafiy material bo‘lib xizmat qiladi[7. 2023:B.30].

Bloom taksonomiyasi bo’yicha tarixiy-ma’naviy meros manbalari, fuqarolik jamiyatida bitta mafkurani majburan singdirish (dogmatizm) xavfini anglash, insoniyat tarixining yaxlitligini ifodalovchi sivilizatsiyaviy yondashuv kabi murakkab falsafiy tizimlar bilan ishlash - tahlil, baholash, yaratish - oliy darajali kognitiv ko’nikmalarni va nochiziqli tafakkur tarzini faollashtiradi[8. 2023:B.28-30]. H.G. Gadamerning germenevtik suhbat metodi esa talabaga qadimiy “Avesto” merosining 2700 yillik falsafasini, Gerodot “Tarix”ida tilga olingan ajdodlar jasoratini hamda qadimiy manzilgohlar poydevoridagi insonparvar urf-odatlarni shunchaki o‘tmish xronikasi deb emas, balki o‘z shaxsiy hayotiy kontekstida, mikrokoinot va makrokoinot uyg‘unligi hamda inson ichki dunyosini anglash doirasida qayta talqin qilishga, shaxsiy ma’noni kashf etishga imkon beradi[9. 2023:B.29-30]. Bu ikki metodning kombinatsiyasi yoshlar ma’naviy tarbiyasida subyektiv omillarni faollashtirishda ayniqsa samarali bo’lishi mumkin.

Adabiyot tahlili shuni ko’rsatadiki, milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini rivojlantiruvchi tarixiy obidalarning falsafiy-tarbiyaviy salohiyatini zamonaviy pedagogik metodlar bilan birgalikda o’qitishga bag’ishlangan maxsus tadqiqotlar - ayniqsa O’zbekiston oliy ta’limi kontekstida, o‘quvchilar, murabbiylar va talabalarning hamkorligi doirasida-hali yetarlicha shakllanmagan. Ushbu bo’shliq ushbu maqolaning asosiy yo’nalishini belgilaydi.

Metodologiya. Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslanadi: Tahliliy-sintetik metod - ziyorat turizmini shunchaki madaniy hodisa yoki diniy an’ana emas, balki “Yangi O‘zbekiston” sharoitida talabalar ongida haqiqiy vatanparvarlik va insonparvarlik fazilatlarini tarkib toptirishning konseptual metodologik asosi sifatida pedagogik maqsadlar uchun tizimlashtirishga xizmat qiladi[10. 2023:B.383]. Retrospektiv-qiyosiy metod orqali o‘tmish va hozirgi ziyoratchilarning empirik kuzatuvlari hamda ziyoratgohlar tavsiflariga oid

tarixiy materiallar bilan zamonaviy yoshlarning ma’naviy-axloqiy ehtiyojlari va o‘lkashunoslik madaniyati o‘rtasidagi vorisiylik munosabatlari aniqlanadi[11. 2023:B.384]. Konstruktiv-model metodi esa madaniy meros obyektlari muhitida talabalarni mehr-oqibatli bo‘lish hamda xalq qahramonlariga sodiqlik tamoyillari ruhida kamol toptirish, ta’lim tizimida “ziyorat odobi” kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi yangi integratsiyalashgan o‘qitish modelini ishlab chiqish imkonini beradi[12. 2023:B.385]. Tadqiqotda birlamchi manbalar sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi PF-5328-son hamda 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 100-son qarori, hududlardagi madaniy meros va ziyoratgoh obyektlari xronikalari, ikkilamchi manbalar sifatida esa zamonaviy ziyorat turizmi pedagogikasi hamda milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlangan fundamental tadqiqotlar qo’llandi[13. 2023:B.383].

Tahlil va natijalar. Yoshlar ma’naviy tarbiyasida ziyorat turizmi va tarixiy-ma’naviy obidalar salohiyatidan foydalanish jarayonida talabaning intellektual va axloqiy kamoloti uchun to’rtta fundamental g‘oya mavjud bo’lib, konsepsiyalari zamonaviy gumanitar ta’limning asosiy maqsadlari bilan to’g’ri mos keladi:

Tarixiy xotira va axloqning birligi. Tarixiy obidalarni va muqaddas qadamjolarni o‘rganish shunchaki sayohat qilish emas, balki talabalarni iymon-e’tiqod, poklik, sabr-toqat, halollik, to‘g‘ri so‘zlik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash demakdir. Qadamjo va ziyoratgohlardagi avliyo, pir, said, xo‘ja kabi tarixiy shaxslar hayotini hamda Alisher Navoiy asarlaridagi valiylar, ya’ni “komil insonlar” merosini o'rganish yoshlar ongida kamtarlik, muloyimlik, saxiylik va sabrlilik singari yuksak shaxsiy axloq birligini ta’minlaydi, bu esa zamonaviy “axloqiy ta’lim” konseptsiyasi bilan uyg’undir[14. 2023:B.386].

Tanqidiy tafakkur ustuvorligi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, milliy tarixni yoshlarimiz qalbiga, shuuriga singdirish lozim. Tarixning turli davrlarida yo‘qolib ketgan tarixiy meros, yodgorlik va obidalarni arxeologik dalillar asosida ilmiy tahlil qilish orqali o‘rganish talabalarni tarixdan saboq olishga, mustaqil xulosa chiqarishga va voqelikni chuqur hamda tanqidiy baholashga undaydi[15. 2023:B.386].

Idrok etishning bosqichliligi. Ziyorat muhitida o‘quvchilar dunyoqarashi quyi darajadan (turizmning turli tarmoqlarini, kognitiv ehtiyojlarni, hissiy va estetik taassurotlar olishni tushunish, hissiy idrok) yuqori darajaga (tarix ilmi va tarixiy tafakkur bilan qurollanish, yangi munosabatlar tizimlarini qurish va ijtimoiy tajribani ongli o‘zlashtirish, qalbiy idrok) ko’tariladi - bu kognitiv o‘sish Bloom taksonomiyasi bilan g‘oyat mushtarakdir[16. 2023:B.383].

Milliy o’zlikni anglash. O‘zbekiston hududidagi muqaddas qadamjolar tarixini o‘rganish, vatanni dushmanlardan himoya qilish uchun jonini bergan Pahlavon Mahmud, Shayx Najmiddin Kubro va Sohibqiron Amir Temur kabi buyuk ajdodlar timsolida sadoqat, mardlik va vatanparvarlikni anglash talabada milliy g’urur, vatanga muhabbat va global fikrlash uyg’unligini shakllantiradi[17.2023:B.385].

Quyida madaniy meros obyektlari va ziyorat turizmini o‘qitishda samarali bo’lishi mumkin bo’lgan to’rtta zamonaviy metod tavsiya etiladi:

Germenevtik suhbat (Gadamer metodi). Talabalar o‘tmish tariximizga oid manbalarni o‘rganib, uning ma’nosini avval o’z tillarida, so’ngra zamonaviy hayot vaziyatlariga nisbatan ifodalaydilar. Misol: „Ziyoratgohlar tarixi va avliyolar shaxsini, Alisher Navoiy dostonlaridagi komil inson xislatlarini tahlil qilib, “bugungi globallashuv davrida insoniy halollik va sabr-toqat tamoyillari qanday aks etmoqda?” savoliga javob yozish. Bu yondashuv ma’lumotlarni shunchaki yod olishdan ularni mazmunan anglashga o’tishni ta’minlaydi[18. 2023:B.386].

Case study (muammo-vaziyat) metodi. Talabaga real hayotdan olingan axloqiy-ma’naviy muammo beriladi (masalan: yoshlar ongida ota-bobolar ruhi-pokiga e’zoz va hurmat odobini, qiyinchiliklarni yengish qobiliyatini qanday kuchaytirish mumkin?). U bu muammoni avval muqaddas qadamjolarni piyoda yurib ziyorat qilish qoidalari (ongli intizom, qat’iyat va mas’uliyat), so’ngra shaxsda o‘z-o‘zini tarbiyalash imkoniyatlari, oxirida esa o’zining shaxsiy yondashuvu asosida tahlili. Taqqoslash, baholash va o’z fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdir[19. 2023:B.386].

Interdistsiplinar integratsiya. Tarixiy yodgorliklar salohiyati faqat bitta fan doirasida emas-davlat normativ-huquqiy hujjatlari, iqtisodiyot falsafasi, sotsiologiya, etika va madaniyatshunoslik kurslari bilan ham bog’lanadi. Sayohatchilar o‘rtasida o‘zaro tushunish va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish vazifalari hamda tabiiy sharoitda vujudga kelgan chashma-buloqlar, shifobaxsh tabiiy-ma’naviy maskanlarning o’rganilishi ijtimoiy psixologiya, ekologiya va jamoaviy pedagogika fanlari bilan o‘zaro kesishadi[20. 2023:B.384]. Bunday integratsiya talabaning bilimini yaxlit ko’rishga o’rgatadi.

Qiyosiy tahlil metodi. Turli turistik va ziyorat maskanlarining, kasb-hunar pirlari ziyoratgohlarining (duradgorlik, temirchilik) inson shaxsiyatida bilim, ko‘nikma hamda qobiliyatlarni sinash, o‘z-o‘zini tarbiyalash xususiyatlarini qiyoslab, talabalar argumentlarni tanqidiy baholash ko’nikmasini rivojlantiradilar. Bu metod milliy tarix prinsiplari va xalqaro turizm qonuniyatlarini qiyoslashga kengaytirish imkonini beradi[21. 2023:B.386].

Tavsiya etilgan konseptual model joriy etilganidan so’ng quyidagi ta’lim natijalariga (learning outcomes) erishish kutiladi:

- Talabalar milliy tarixiy-madaniy merosni va arxeologik dalillarni mazmuniy anglash va mustaqil tahlil qilish ko’nikmasiga ega bo’ladilar;
- Tanqidiy fikrlash va nochiziqli mulohaza yuritish faolligi oshib, dunyoqarash Bloom taksonomiyasining yuqori bosqichlariga ko’tariladi;
- Axloqiy muammolarni hal qilishda, ongli intizom, kommunikativ ko‘nikmalar va o‘z-o‘zini tarbiyalash mezonlarini belgilashda ma’naviy argumentlardan foydalanish malakasi shakllanadi;
- Milliy qadriyatlar, iymon-e’tiqod va jamiyat munosabatlari o’rtasidagi muvozanat chuqurroq anglashiladi;
- Ijtimoiy-gumanitar fanlarga, ziyorat turizmini, pirlar tarixini va o‘lkashunoslikni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va motivatsiya ortadi[22. 2023:B.386].

Xulosa va takliflar

Ushbu tadqiqot shuni ko’rsatdiki, tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar salohiyati oliy ta’lim ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida faqatgina o‘tmish voqealari aks etgan ko‘rgazmali material sifatida emas, balki zamonaviy pedagogik metodlar-germenevtik suhbat, case study, interdistsiplinar integratsiya va qiyosiy tahlil-bilan birgalikda qo’llanilganda talabaning vatanparvarlik, ma’naviy-axloqiy va sotsial-kommunikativ kamolotiga bevosita hissa qo’shadigan faol o’quv resursiga aylanishi mumkin. Ziyorat turizmi vositasida Alisher Navoiy asarlaridagi komil inson g‘oyalarini, kasb-hunar pirlari an’analarini va xalq qahramonlari jasoratini o‘rganish talabalarda kamtarlik, sabr-toqat, ongli intizom hamda jismoniy va ma’naviy qat’iyatlilik xislatlarini shakllantirishning bosh mezoni hisoblanadi.

Quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. O’zbekiston oliy ta’lim muassasalarida talabalarning vatanparvarlik tarbiyasini, iymon-e’tiqodini va tarixiy dunyoqarashini oshirish maqsadida madaniy meros obyektlariga va muqaddas qadamjolarga subyektiv jismoniy jasorat talab qiladigan faol (piyoda) ekskursiyalarni amaliy komponent sifatida joriy etish;
2. Mavjud ijtimoiy-gumanitar darsliklar va o’quv dasturlarida asrlar davomida shakllangan “ziyorat odobi” qoidalarini, milliy urf-odatlar va an’anaviy hunarmandchilik tarixi poydevorini zamonaviy kundalik hayot, muloqot madaniyati va kasbiy ko‘nikmalar bilan bog’laydigan keys-topshiriqlar bilan birga kiritish;
3. O’qituvchilar va murabbiylarning malakasini oshirish dasturlariga tarixiy joylarni, ziyoratgohlarni hamda ularning tabiiy komponentlarini (chashma-buloqlar, shifobaxsh tuproqlar) “ochiq osmon ostidagi darsxona” modelida zamonaviy pedagogik metodlar bilan o’qitish bo’yicha maxsus metodik modul kiritish;
4. Talabalar uchun tarixning turli davrlarida yo‘qolib ketgan tarixiy meros, yodgorlik va obidalarni arxeologik dalillar asosida ilmiy tahlil qilishga qaratilgan hamda o‘zbek tilidagi ilmiy sharhlar, raqamli media-qo‘llanmalar va taqdimot loyihalarini birga nashr etish;
5. Kelajakda shunday integrativ o’qitish modelining, yoshlar ongida nochiziqli tafakkurni shakllantirish va yangi estetik taassurotlar olish samarasini eksperimental tadqiqotlar yordamida empirik tekshirish.

Yakunida ta’kidlash lozimki, tarixiy obidalar va ziyorat turizmi resurslarini oliy ta’limga integratsiyalash - bu nafaqat ajdodlar an’anasini saqlab qolish, balki zamonaviy gumanitar ta’limning sifatini oshirish va talabani ruhiy-intellektual, kommunikativ hamda chinakam vatanparvar shaxs sifatida kamol toptirishning samarali yo’lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Botirova N.R. The significance of architectural monuments in increasing the effectiveness of history lessons. // European International Journal of Pedagogics. Volume 04, Issue 12, 2024. – P. 105.
2. Botirova N.R. The significance of architectural monuments in increasing the effectiveness of history lessons. // European International Journal of Pedagogics. Volume 04, Issue 12, 2024. – P. 105.

3. Botirova N.R. The significance of architectural monuments in increasing the effectiveness of history lessons. // European International Journal of Pedagogics. Volume 04, Issue 12, 2024. – P. 105.
4. Berdiyeva G. A. Yoshlar tarbiyasida tarixiy-ma’naviy merosning o’rni. // Journal of Fundamental Studies. Volume 1, Issue 10, October 2023. – P. 26.
5. Berdiyeva G. A. Yoshlar tarbiyasida tarixiy-ma’naviy merosning o’rni. // Journal of Fundamental Studies. Volume 1, Issue 10, October 2023. – P. 26-27.
6. Berdiyeva G. A. Yoshlar tarbiyasida tarixiy-ma’naviy merosning o’rni. // Journal of Fundamental Studies. Volume 1, Issue 10, October 2023. – P. 29.
7. Berdiyeva G. A. Yoshlar tarbiyasida tarixiy-ma’naviy merosning o’rni. // Journal of Fundamental Studies. Volume 1, Issue 10, October 2023. – P. 30.
8. Berdiyeva G. A. Yoshlar tarbiyasida tarixiy-ma’naviy merosning o’rni. // Journal of Fundamental Studies. Volume 1, Issue 10, October 2023. – P. 28-30.
9. Berdiyeva G. A. Yoshlar tarbiyasida tarixiy-ma’naviy merosning o’rni. // Journal of Fundamental Studies. Volume 1, Issue 10, October 2023. – P. 29-30.
10. Eshchanova X.X. Ziyorat turizmi asosida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish mexanizmlari. // Муаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. № 1, 2023. – P. 383.
11. Eshchanova X.X. Ziyorat turizmi asosida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish mexanizmlari. // Муаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. № 1, 2023. – P. 384.
12. Eshchanova X.X. Ziyorat turizmi asosida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish mexanizmlari. // Муаллим ҳәм үзликсиз билимленiдриў. № 1, 2023. – P. 385.
13. Eshchanova X.X. Ziyorat turizmi asosida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish mexanizmlari. // Муаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. № 1, 2023. – P. 383.
14. Eshchanova X.X. Ziyorat turizmi asosida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish mexanizmlari. // Муаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. № 1, 2023. – P. 386.
15. Eshchanova X.X. Ziyorat turizmi asosida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish mexanizmlari. // Муаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. № 1, 2023. – P. 386.
16. Eshchanova X.X. Ziyorat turizmi asosida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish mexanizmlari. // Муаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. № 1, 2023. – P. 383.
17. Eshchanova X.X. Ziyorat turizmi asosida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish mexanizmlari. // Муаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. № 1, 2023. – P. 385.
18. Eshchanova X.X. Ziyorat turizmi asosida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish mexanizmlari. // Муаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. № 1, 2023. – P. 386.
19. Eshchanova X.X. Ziyorat turizmi asosida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish mexanizmlari. // Муаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. № 1, 2023. – P. 386.
20. Eshchanova X.X. Ziyorat turizmi asosida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish mexanizmlari. // Муаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. № 1, 2023. – P. 384.
21. Eshchanova X.X. Ziyorat turizmi asosida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish mexanizmlari. // Муаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. № 1, 2023. – P. 386.
22. Eshchanova X.X. Ziyorat turizmi asosida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish mexanizmlari. // Муаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. № 1, 2023. – P. 386.

УДК: 332.334.4:631.6

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИГА МЎЛЖАЛЛАНГАН СУҒОРИЛАДИГАН ЕРЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ҲИСОБИНИ ЮРИТИШ НАТИЖАЛАРИНИ ҚЎЛЛАШНИНГ УСЛУБИЙ-АМАЛИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Хожиев Кучкор Мамадиёрович
“Ўздаверлойиҳа” ДИЛИ бош директори маслаҳатчиси, қ.х.ф.ф.д. (PhD), катта илмий ходим
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21902172

Анатация. Мазкур мақолада қишлоқ хўжалигига мўлжалланган суғориладиган ерлардан фойдаланишни ташкил этишда ер ҳисоби натижаларини қўллашнинг услубий-амалий хусусиятлари тадқиқ этилган. Ер ресурсларининг миқдор ва сифат кўрсаткичлари, жумладан, тупроқ бонитировкаси, агрокимёвий ва мелиоратив ҳолатга оид маълумотларни бошқарув қарорларини қабул қилиш, норматив қийматни аниқлаш ҳамда ер ресурсларидан самарали фойдаланишдаги аҳамияти асосланган. Шунингдек, қишлоқ хўжалигида амалга оширилаётган институционал ислоҳотлар ва рақамлаштириш жараёнлари шароитида ер ҳисоби натижаларидан фойдаланишнинг долзарблиги ёритилган. Тадқиқот натижалари ер кадастри маълумотларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш ва суғориладиган ерларни барқарор бошқаришни такомиллаштиришга хизмат қилади..

Калит сўзлар. Ер ҳисоби, ер фонди тоифалари, ер турлари, контур, гектар, ер кадастри, маъмурий-ҳудудий бирлик, қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар, суғориладиган ерлар, ер баланси.

Аннотация. В статье исследованы методические и практические особенности применения результатов учёта земель при организации использования орошаемых земель сельскохозяйственного назначения. Обоснована значимость количественных и качественных показателей земельных ресурсов, включая данные бонитировки почв, агрохимических обследований и мелиоративного состояния, для принятия управленческих решений, определения нормативной стоимости земель и обеспечения эффективного использования земельных ресурсов. Особое внимание уделено возрастанию роли результатов учёта земель в условиях проводимых институциональных реформ и цифровой трансформации сельского хозяйства. Результаты исследования направлены на повышение эффективности использования данных государственного земельного кадастра и совершенствование устойчивого управления орошаемыми землями сельскохозяйственного назначения.

Ключевые слова: учёт земель, категории земельного фонда, виды земель, земельный контур, гектар, государственный земельный кадастр, административно-территориальная единица, земли сельскохозяйственного назначения, орошаемые земли, земельный баланс.

Abstract. This article examines the methodological and practical aspects of applying land accounting results in the organization of the use of irrigated agricultural lands. The study substantiates the significance of quantitative and qualitative land resource indicators, including soil bonitation, agrochemical characteristics, and reclamation status data, for managerial decision-making, determination of normative land value, and ensuring the efficient use of land resources. Particular attention is paid to the increasing importance of utilizing land accounting results in the context of ongoing institutional reforms and digital transformation in the agricultural sector. The findings contribute to improving the efficiency of the use of state land cadastre information and enhancing the sustainable management of irrigated agricultural lands.

Keywords: land accounting, land fund categories, land types, land contour, hectare, state land cadastre, administrative-territorial unit, agricultural land, irrigated land, land balance.

Кириш. Ер ресурсларининг ҳолати тўғрисидаги миллий ҳисобот ҳар йили тайёрланади ҳамда бутун мамлакат ва маъмурий-ҳудудий бирликлар бўйича ерларнинг миқдор ва сифат ҳолати ҳамда уларнинг баҳоси, ерларнинг тоифаларга бўлиниши, тармоқлар, ер участкаларининг эгалари, ер участкасидан фойдаланувчилар, ер участкаси ижарачилари, мулкдорлари бўйича тақсимланиши тўғрисидаги маълумотларни ва ер кадастрига оид бошқа ахборотни ўз ичига олади [2].

Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган суғориладиган ерлардан фойдаланишни ташкил этиш - мамлакат иқтисодиётининг муҳим стратегик йўналишларидан бири ҳисобланади. Ушбу жараённинг

самарадорлиги кўп жиҳатдан ер ресурсларининг ҳисоби натижаларини қанчалик тўғри, тўлиқ ва ўз вақтида амалиётга татбиқ этилишига боғлиқ. Бошқача қилиб айтганда, тупроқ бонитировкаси, агрокимёвий тадқиқотлар, мелиоратив ҳолат тавсифи каби сифат ва миқдорий жиҳатдан ҳисоб маълумотлари айни вақтда норматив қийматни аниқлашда, қишлоқ хўжалиги экинларини жойлаштиришда, ерларни реализация қилишда, ер ижара ҳақини белгилашда фаол қўлланилса, улар чин маънода стратегик ресурс вазифасини бажаради.

Республикамизда сўнгги йилларда амалга оширилаётган қишлоқ хўжалигидаги ислоҳотлар — кластер тизимининг жорий этилиши, фермер ва деҳқон хўжаликларининг ерлардан фойдаланиш бўйича ҳуқуқларининг кенгайиши, ерларни аукционга чиқариш тартибининг жорий қилиниши, норматив қийматнинг такомиллаштирилиши, шунингдек, рақамлаштириш чора-тадбирлари - ерлар ҳисоби натижаларидан фойдаланишнинг муҳимлигини янада оширди.

Ерлар ҳисоби натижаларининг амалда қўлланиш йўналишларидан энг муҳимларидан бири - қишлоқ хўжалиги экинларини оқилона жойлаштириш масаласи ҳисобланади. Ҳар бир экин тури муайян тупроқ-иқлим шароитига талабчан бўлиб, агар экин ўзига номунофиқ ер участкасида экилса, ҳосилдорлик пасайиб, ишлаб чиқариш ҳаражатлари ошиб, охир оқибатда хўжалик зарар кўриши мумкин. Айнан шу боис тупроқ бонитировкаси, агрокимёвий тадқиқот ва мелиоратив ҳолат маълумотларини инобатга олган ҳолда қишлоқ хўжалиги экинларини жойлаштириш бугунги кунда қишлоқ хўжалиги самарадорлигини оширишнинг асосий йўлларидан бири сифатида қаралади.

Амалиётда қишлоқ хўжалиги экинларини жойлаштиришда қуйидаги йўналишларга риоя қилиниши лозим. Биринчидан, балл бонитети юқори (81–100) бўлган ерларга кўп даромадли ва агрономик жиҳатдан талабчан экинлар - пахта, бошоқли дон, сабзавот экинлари экиш назарда тутилади. Иккинчидан, балл бонитети ўрта (41–80 балл) бўлган ерларда дон-дуккакли экинлар, мойли экинлар (кунгабоқар, соя), кунжут, картошка, полиз экинларини экиш белгиланади. Учинчидан, балл бонитети паст (40 баллгача) бўлган ерларда асосан - арпа, жўхори, маккажўхори, шунингдек, ем-хашак экинлари экиш мақсадга мувофиқ. Тупроғи кучли шўрланган ёки оғир мелиоратив ҳолатдаги ерларда эса шўрга чидамли экинлар ва махсус мелиоратив экинлар экилиши тавсия қилинади.

Шу билан бирга, амалиётда қишлоқ экинларини жойлаштириш билан боғлиқ айрим муаммолар кузатилади. Хусусан, баъзи ҳудудларда тупроқ бонитет балларининг эскирганлиги ва агрокимёвий маълумотларнинг ўз вақтида янгиланмаганлиги сабабли экинларни жойлаштириш режалари ерларнинг ҳақиқий ҳолатини акс эттирмайди. Натижада, балл бонитети юқори бўлган ерлар сифатида қайд этилган, аммо ҳақиқатда сифат жиҳатдан пасайган ерларга юқори талабли экинлар жойлаштирилади ва кутилган самарага эришилмайди. Бу ҳол ерлар сифат ҳисобини мунтазам янгилаб бориш зарурлигини яна бир бор тасдиқлайди (1-жадвал).

1-жадвал.

Республика бўйича қишлоқ хўжалиги экинларини асосий майдонларга жойлаштириш.

Т/р	Қишлоқ хўжалиги экин турлари	2021-йил ҳосили учун		2022-йил ҳосили учун		2023-йил ҳосили учун		2024-йил ҳосили учун		2025-йил ҳосили учун		Фарқи,+,- 2021-йилга нисбатан	
		Режа, га	Амалда экилган майдон	Режа, га	Амалда экилган майдон	Режа, га	Амалда экилган майдон	Режа, га	Амалда экилган майдон	Режа, га	Амалда экилган майдон	Режа, га	Амалда экилган майдон
1	Ғўза	1032557	1021210	1034223	1017158	1020551	1017918	1012445	998758	875615	906136	-156942	-115074
2	Каннабис, тамаки	13633	6973	15027	5618	8527	7727	10532	8796	13265	5241	-368	-1732
3	Бошоқли дон экинлари	1038104	1045448	1031857	1 033713	1009479	1024600	1011307	1029647	997010	1018121	-41094	-27327
4	Маккажўхори дон учун	51331	43247	46161	47162	52790	53284	0	57910	0	0	-51331	-43247
5	Шоли	70046	70477	57063	61988	46958	36196	36143	52874	51851	90528	-18195	20051
6	Дуккакли дон экинлари	74367	70768	58842	50113	38669	40148	44670	56138	85006	66333	10639	-4435
7	Мойли экинлар	125330	110140	142856	107334	174508	141330	160697	80781	180732	107216	55402	-2924
8	Сабзавот	166384	162986	154070	158267	155740	152094	212546	98946	225253	168962	58869	5976
9	Полиз	71507	69910	72721	75288	72266	78177	73824	59701	72973	66701	1466	-3209
10	Картошка	50740	48844	115548	93529	106237	105268	116826	58637	121972	82377	71232	33533
11	Озуқа (ем-хашак) экинлар	339742	323708	377546	356317	430719	420748	437803	270684	505000	440793	165258	117085
12	Бошқа экинлар	20133	20749	8010	7186	5859	9906	1666	747	9839	6318	-10294	-14431
13	Паст балл бонитет-ли ерларда кўп йил-лик дарахтзорлар	94431	85024	79693	57078	56824	50780	28963	16581	8539	29769	-85892	-55255
	Жами	3148305	3079484	3193615	3070753	3179126	3138175	3147420	2790200	3147055	2988495	-1250	-90989

Ер ҳисоби натижаларининг амалий қўлланишидаги яна бир муҳим йўналиш - ер участкаларининг норматив қийматини аниқлаш ва шу асосда аукционга чиқарилаётган қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерларнинг дастлабки нархлари, ер солиғи ставкалари, ижара ҳақи, гаров қиймати каби иқтисодий кўрсаткичларни шакллантиришдир. Ерларнинг норматив қиймати - ерларнинг табиий ва иқтисодий хусусиятлари, унинг жойлашуви, инфратузилма билан таъминланганлик даражаси, агрокимёвий ҳолати ҳамда бонитет балли асосида ҳисобланувчи иқтисодий кўрсаткичдир. Бу кўрсатгич ер солиғи, ижара ҳақи, ер участкаларига оид муомалаларда асос бўлиб хизмат қилади.

Республикамизда қишлоқ хўжалиги ерларининг норматив қиймати Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 26 ноябрдаги 744-сон қарори ва ишлаб чиқилган тегишли услубий йўриқномалар асосида аниқланади. Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган бир гектар ернинг норматив қийматини аниқлашда қуйидаги кўрсаткичлардан фойдаланилади:

ер участкасининг қишлоқ хўжалиги ер тури;

тупроқнинг сифатини баҳолаш кўрсаткичлари;

қишлоқ хўжалиги экинлари, кўп йиллик дарахтлар ва ем-хашакбоп экин майдонларининг норматив ҳосилдорлиги;

базавий ҳисоблаш миқдори;

фойда рентабеллиги;

ер участкасини ижарага олиш муддати;

минтақавий коэффициент;

сув билан таъминланганлик коэффициенти;

ҳосил нобуд бўлишини ҳисобга олиш коэффициенти;

экин турларининг норматив ҳосилдорлик коэффициенти

Бироқ, амалда қишлоқ хўжалиги ерларининг норматив қиймати тизими ҳам бир қатор муаммоларга эга. Биринчидан, норматив қиймат шаклланишида қўлланилаётган бонитет балл ва агрокимёвий маълумотлар кўп жойда эскирган. Бу эса айрим участкаларнинг қиймати ноадолатли тарзда юқори ёки паст белгиланишига олиб келади. Иккинчидан, норматив қийматни ҳисоблашнинг услубий асоси шаффоф эмас - фермер ва тадбиркорлар ўз ер участкасининг қиймати қандай шаклланганлигини осонликча тушуниб ола олмайдилар. Учинчидан, норматив қиймат бозор қийматидан жиддий фарқ қилиши мумкин — баъзи ҳолларда у бозор қийматидан паст, баъзан эса

юқори. Шу боис кадастр баҳолаш услубини халқаро стандартларга мослаштириш ва шаффофлаштириш бугуннинг муҳим вазифаларидан бири ҳисобланади.

Хулоса. Мавжуд сув ва ер ресурсларидан самарали фойдаланишни таъминлаш мақсадида жойлардаги очиқ дренаж ва коллекторларни, шунингдек, каналларни ёпиқ тизимга ўтказиш орқали қўшимча равишда катта майдонда экин ерлар очилади. Янги ерларни ташкил этишда ер тузиш лойиҳаларини ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади. Шу билан бирга, ер тузиш лойиҳалари илмий ва амалий аҳамиятга эга ҳисобланиб, республикамизда ер ресурслардан самарали фойдаланиш ҳамда ерларни муҳофаза қилишда, шунингдек, ерларнинг ҳисобини ер фонди тоифалари бўйича тўғри ва тўлиқ юритишда асос бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг Ер кодекси.
2. Ўзбекистон Республикасининг Давлат ер кадастри тўғрисидаги Қонуни.
3. Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий-ҳудудий тузилиши тўғрисидаги Қонуни.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 7 сентябрдаги ПФ-6061-сон Фармони.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 30 октябрдаги 578-сонли қарори.
6. Бобожонов А.Р. “Ер кадастри” Тошкент, ТИМИ, 2011 й.
7. Рахимов В.Р, Бабажанов А.Р Давлат кадастри асослари. Тошкент, ТТУ 2012й.
8. А.Темур “Темур тузуклари” асари.
9. “Qomus.info” onlayn ensiklopediyasi.
10. 2025 йил 1 январь ҳолатига Миллий ер ҳисоботи. Кадастр агентлиги-2025.

TO‘QQAL’A OSSUARIYLARINING YASALISH USLUBLARI VA ULARDAGI SUYAKLARNING JOYLASHTIRISH TARTIBLARI

Jo‘raboyev Ismoiljon Mahamadjon o‘g‘li
Arxeologiya yo‘nalishi magistri Urganch Davlat Universiteti
Tel: +998976200422 E-mail: ismoils423@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21902227

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm vohasi To‘q-qal’a qabristonidan topilgan ossuariylarning yasalish texnikasi va ularda inson suyaklarining joylashtirish tartiblari A.V.Gudkova manbalari asosida tahlil qilinadi. Maqolada alebastrli, sopol va tosh ossuariylarining tayyorlanish usullari, ularning o‘lchamlari va shakl xilma-xilliklari tavsiflab o‘tiladi.
Kalit so‘zlar: To‘q qal’a, ossuariy, naus, zardushtiylik, suyaklar joylashuvi, A.V.Gudkova, Xorazm vohasi.
Аннотация. В данной статье на основе материалов А.В. Гудковой анализируется техника изготовления оссуариев, обнаруженных на некрополе Ток-кала в Хорезмском оазисе, а также порядок размещения в них человеческих костей. В статье описываются способы изготовления алебастровых, керамических и каменных оссуариев, их размеры и разнообразие форм.
Ключевые слова: Ток-кала, оссуарий, наус, зороастризм, расположение костей, А.В. Гудкова, Хорезмский оазис.
Abstract. This article, based on the materials of A.V. Gudkova, analyzes the manufacturing techniques of ossuaries discovered at the Toq-qal'a necropolis in the Khorezm oasis, as well as the arrangement of human bones within them. The article describes the production methods of plaster (alabaster), ceramic, and stone ossuaries, along with their dimensions and variety of forms.
Keywords: Toq-qal'a, ossuary, naus, Zoroastrianism, bone arrangement, A.V. Gudkova, Khorezm oasis.

KIRISH. To‘qqal’a yodgorligi va shu nomdagi qabriston Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahridan 14 km shimoli-g‘arbdagi To‘qtog‘ tepaligi shimoli-sharqiy va sharqiy yonbag‘rida joylashgan. Ushbu yodgorlik va qabriston shahar aholisining Sirdaryoning quyi oqimidan ko‘chib kelishi natijasida vujudga kelgan va XI asrgacha faoliyat ko‘rsatgan Kerder mintaqasining bir qismi hisoblanadi [3. 1964:B.80-92]. Qabristonda 1960, 1962, 1964-yillarda A.V. Gudkova tomonidan olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida bir qancha kraniologik, osteologik ma’lumotlar to‘planadi.

O‘zbekiston Respublikasi FA Qoraqalpog‘iston filiali arxeologik jamoasi 1968-yilda qabristonni o‘rganish ishlarini davom ettiradi. Olingan kraniologik va osteologik ma’lumotlar asosida T.K. Xodjayov 1971–1973-yillarda aholi antropologiyasini o‘rganadi [12. 1971:B.68-72; 13. 1973:B.63-101].

To‘qqal’a qabristoni taxminan 4 gektarni tashkil qilib, u ushbu manzilgoh devorlari tashqi tomonida joylashadi. Qabriston asosan nauslardan iborat bo‘lib, ularga zardushtiylik an’anasiga muvofiq go‘shtlari tanasidan tozalangan suyaklar joylangan. Ossuariy va nauslarning g‘isht qalinligi kuchli yuvilib ketgan joylarda — tepalikning IV raqamli qazishmasida o‘tkazilgan tik yonbag‘rida hamda V raqamli qazishma maydonida o‘tkazilgan sharqiy yonbag‘rida aniqlanadi. Qabriston to‘g‘risidagi asosiy ma’lumotlar IV qazishmadan olinadi [3. 1964:B.85].

V raqamli qazishmadan bir dona naus qoldig‘i aniqlangan bo‘lib, taxminlarga ko‘ra 4×5 m o‘lchamdagi, pishiq, xom g‘ishtli devorlarga ega bo‘lgan to‘rtburchak kamera ko‘rinishidagi inshoot hisoblangan. Kameraning o‘lchami 2,5×2,5 m. Janubiy devor qalinligi 2,3 m, qolgan devorlarning qalinligi esa 1,1 m ni tashkil qilgan. Naus devorlari uchun foydalanilgan g‘isht o‘lchamlari 30×30×7 sm. Naus qurilgan sath ustidagi kul, ko‘mir, qora chirindi va sopol parchalari ingichka qatlamni hosil qilib, u ayni vaqtda nausning poli vazifasini ham o‘tagan. Kamera ichidan butun ossuariylar topilmaydi, ammo uning tevarak-atrofidan ko‘plab ossuariy parchalari aniqlanadi. Kameraning janubi-sharqiy va janubi-g‘arbiy burchaklarida loy kesaklari va g‘isht parchalaridan terilgan sodda to‘siqlar aniqlanadi. Janubi-g‘arbiy to‘siq bo‘sh, janubi-sharqiy to‘siqdan esa uchta inson bosh suyagi va oyoq-qo‘llarining uzun suyaklari aniqlanadi. Ushbu to‘siq yonidan kichik chuqurchada burchaklari yumaloqlangan, oyoqsiz, to‘rtburchak shaklli sopol ossuariyning bir qismi aniqlanib, uning ichidan it suyaklari topiladi. Nausning shimoliy tomonida tuproqqa ko‘milgan, ichida bolalar suyaklari dafn etilgan qo‘lda yasalgan ro‘zg‘or xumchalari ham topib o‘rganiladi [3. 1964:B.86].

№4 raqamli qazishmadan ikkita — №1 va №2 nauslar to‘liq ochib o‘rganiladi.

№1 naus 30×30×8 sm hajmdagi xom g‘ishtlardan qurilib, hozirgi kunda 1 m balandlikdagi qismi saqlanib qolgan. Naus o‘lchamlari 4×4 m bo‘lib, ichida kichik kamera joylashgan. Kameraning uchta devori bo‘ylab 20 sm balandlikdagi supa o‘tgan bo‘lib, supa ustidagi maxsus uyalarda 3 ta alebastrdan yasalgan ossuariy topiladi. Shuningdek, devorga afrig‘iylar davriga oid xum o‘rnatilgan bo‘lib, uning ichidan inson bosh suyaklari va boshqa tana a’zolari suyaklari topiladi. Undan tashqari o‘ndan ortiq ossuariy parchalari aniqlangan bo‘lib, ularning ko‘pi qattiq shikastlangan, ayrimlarining esa oyoqchalari va tub qismlari saqlanib qolgan.

№2 naus nisbatan yaxshi saqlanib qolgan. U 11×6 m o‘lchamdagi, yer ostiga yarim ko‘milgan ikki xonali inshoot hisoblanadi. Kichik (2,7×4,8 m) xonaning devorlarida ossuariylarni qo‘yish uchun 10 ta tokcha bo‘lsa, katta (3×6 m) xonaning devorlarida tokchalar mavjudligini tadqiqotchilar aniqlay olmagan. Xonaning poliga tuproq ustidan qum qatlami to‘shalgan. Qum sathidan yuqoridagi devorlar esa loy suvoq bilan suvalgan. Tadqiqotlar jarayonida nauslarning yer ostiga yarim ko‘milgan konstruksiyasi A.V. Gudkovada qiziqish uyg‘otadi; tadqiqotchi bunday qurilish an’anasini zardushtiylik tasavvurlarining mahalliy jihatlari bilan bog‘laydi [3. 1964:B.89].

Katta xonaning polida singan ossuariy va sochilib yotgan suyak qoldiqlari ham aniqlanadi. Kichik xonadan esa 50 dan ortiq ossuariy, shuningdek 2 ta sopol va 1 ta tosh ossuariy hamda xum ichiga qilingan bola dafni topiladi. Xonani tadqiq etish davomida u butunlay singan ossuariylar, ularning qopqoqlari, bosh va boshqa tana a’zolari suyaklari bilan to‘lib ketganligi aniqlanadi. Tokchalarning birida bosh suyaklar va boshqa suyaklar solingan qopqoq ossuariy vazifasini bajarib turganligi guvohi bo‘linadi. Xonaning shimoliy qismidagi ossuariylar dastlab tartib bilan joylashtirilgan, keyinchalik esa duch kelgan yerga shoshilinch tarzda tartibsiz joylashtirilgan. Bu esa ushbu joyda nauslardan foydalanishning to‘xtatilishi va yashiringan ossuariylarning tahqirlanganligi haqidagi xulosani yuzaga keltiradi.

Ikki sopol ossuariy burchaklari yumaloqlangan to‘rtburchak qutilar ko‘rinishiga ega bo‘lib, ulardan biri to‘rt oyoqli, ikkinchisi esa oyoqsiz ko‘rinishga ega bo‘lgan. Ularning qopqoqlari qo‘ziqorincha yoki sharsimon tutqichli shaklga ega bo‘lgan. Oyoqchasiz ossuariy qopqog‘ining qarama-qarshi ikki burchagida chuqurchalar ishlangan; odatiy holatda bunday chuqurchalar har bir burchakda mavjud bo‘lib, ikki chuqurchali ko‘rinish esa birinchi marta uchraganligi tadqiqotchilar tomonidan bildiriladi [7. 1962:B.55]. Har ikki ossuariy afrig‘iylar davri xumlarini yasashda qo‘llaniladigan dag‘al loy qorishmasidan tayyorlangan. Bunday turdagi sopol ossuariylar Tuproqqal’adan ham topilib, ular VI–VII asrlarga oid deb hisoblanadi [9. 1948:B.149]. Tosh ossuariylar va uning qopqog‘i butun qumtosh bo‘laklaridan o‘yib ishlangan [2. 1948:B.150-155; 10. 1949-1953:B.164]. Ossuariyning yon devorlarida va qopqog‘ining har ikki tomonida doira shaklidagi teshiklar ochilgan bo‘lib, ular orqali qopqoqning surilib ketishiga yo‘l qo‘ymaydigan mahkamlagichlar o‘tkazilgan bo‘lishi mumkinligi taxmin qilinadi.

Alebastrli ossuariylar to‘rt oyoqli, usti yassilangan to‘rt nishabli qopqoqli to‘rtburchak quticha shakliga ega hisoblanadi. Ularning o‘rtacha o‘lchamlari: balandligi va kengligi 28 sm dan, uzunligi 45 sm, qopqoq bilan birga balandligi 42 sm ni tashkil qiladi. Bunday ossuariylar Xorazmda faqat afrig‘iylar davridagina mavjud bo‘lgan; shuningdek, ushbu tuzilishdagi ossuariylar Quyuqqal’a qabristonidan ham topiladi [5. 1959:B.128].

Ossuariylarda saqlanib qolgan izlar ularning yasalish jarayonini qisman tiklash imkonini beradi. Ossuariylarni tayyorlashning asosiy usuli — ularni qolipga butunlay yoki qismlarga bo‘lib quyish bo‘lgan. Butunlay quyishda qo‘sh qolipdan foydalanilgan bo‘lib, tayyorlash vaqtida u ossuariyning oyoqlari tepaga qaragan holatda o‘rnatilgan. Taxtalardan ko‘pincha tashqi burchaklar yasashda foydalanilgan va natijada aniq qirralar hosil bo‘lgan. Ossuariylarni yasovchi qolipning qolgan qismi loydan bo‘lgan. Bunday usulda tayyorlangan ossuariylarning tubi va oyoqlarining pastki qismi notekis chiqish ehtimoli mavjud bo‘lib, ba’zan ularni qo‘l bilan silliqlashgan yoki pichoq bilan to‘g‘rilashgan. Boshqa holatlarda esa qolipda alohida qismlar quyib olinib, keyinchalik ular bir-biriga birlashtirilgan. Yirik ossuariylarning devorlari ba’zan bir necha bosqichda, ganchni qatlam-qatlam qilib quyish orqali yasalib, tayyor bo‘lgan ossuariylarning sifatsiz qismlari tashqi tomondan qo‘shimcha ganch qatlami bilan suvalgan. Qolipning ossuariyning ichki yuzasiga tegib turadigan qismlariga ko‘pincha qum sepilgan — bu usulning davomi sifatida bugungi kunda ham qo‘l mehnati asosida quyiladigan g‘ishtlar qoliplariga qum sepish an’anasi saqlanib qolganini aytishimiz mumkin. Qopqoqlar doimo yer qolipda, chetiga yog‘och rama qo‘yilgan holda butunlay quyilgan. Quyish paytida qopqoqning tashqi qavariq yuzasi pastga qaragan bo‘lgan, ichki tomoni esa qo‘l bilan silliqlangan. Qopqoq qirralarining tashqi tomondan aniqligi qolipning sifatiga bog‘liq bo‘lgan; ba’zan tayyor bo‘lgandan keyin qopqoqning tashqi tomoni biroz to‘g‘rilangan va kesib

pardozlangan. Ossuariylar har doim yakka tartibda tayyorlangan. Bunday usuldagi ossuariylar So‘g‘dning sopol ossuariylarida ham mavjud bo‘lgan [6. 1950:B.47].

Kichik xonadagi ossuariylarning devor va qopqoq qismlarida qora bo‘yoq bilan bitilgan jami 54 ta yozuv aniqlangan bo‘lib, ulardan 49 tasini tiklash imkoni yuzaga kelgan. Ayrim yozuvlar bir necha satrda batafsil yozilgan bo‘lib, ayrimlari esa faqat bir so‘zdan iborat bo‘lgan. Yozuvlar asosan ossuariylarning yon tomoniga o‘ngdan chapga qarata yozilgan, ayrim holatda esa yozuvlar ham ossuariy, ham qopqoq qismlariga teng yozilgan. Yozuvlarni o‘qish bilan shug‘ullangan S.P. Tolstov ularda sanalar ham borligini aniqlab, eng qadimiysi 605-yilni ko‘rsatishini ma’lum qiladi [3. 1964:B.94]. Yozuvlarning alifbosi Tuproqqal’adan topilgan qadimgi Xorazm hujjatlari alifbosining rivojlangan shakli bo‘lib, bunday alifboda Yakka Porson yodgorligidan topilgan hujjatlar ham bitilgani aniqlanadi [11. 1962:B.257-258].

XULOSA. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, qabristonning manzilgoh devorlaridan tashqarida joylashishi Panjikent, Poykent va Kofir-qal’a qabristonlari joylashuviga ham mos keladi.

V raqamli qazishmada aniqlangan naus qurilgan sath ustiga kul, ko‘mir va sopol buyumlari kabi turli-xil ashyolarning to‘shalishi bevosita zardushtiylik ta’limoti bilan bog‘liq hisoblanadi; tuproq sofligini saqlash maqsadida ossuariy va tuproq orasida shunday sun’iy qatlam hosil qilingan, deb taxmin qilishimiz mumkin. Bu an’ana bugungi kunda ham ma’lum ko‘rinishlarda yetib kelgan bo‘lib, Xorazm vohasida odatga ko‘ra janoza o‘qilishi oldidan o‘sha maydonga qum sepilgan. Qum shamolga uchib ketgandan so‘ng, yer yana tozalik holatida qolishi maqsad qilingan. Ba’zi holatlarda esa tobut beda o‘sadigan yerda qo‘yiladi yoki maydon ustiga gilam, mato kabi maxsus vositalar to‘shaladi.

Ossuariylarda odatda bir shaxsning suyaklari joylashtirilgan bo‘lib, ikki holat bundan mustasno hisoblanadi. Ularning birida ikkita kattalar bosh suyagi, ikkinchisida esa ikkita kattalar va bir dona bolaning bosh suyaklari aniqlanadi. Ossuariylarning birida it suyaklarining dafn etilishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xorazm vohasining ko‘plab hududlarida ruh o‘z uyiga it yoki mushuk ko‘rinishida kelishiga ishonilgan. Dafn tartiblarida it bilan bog‘liq kultlarning mavjudligini yuqorida tavsiflangan it suyagining dafn etilishi yoki ossuariylardagi tasvirlarda it suratining aks etilishidan bilib olishimiz mumkin. Bu an’analarning mohiyatini zardushtiylik qonuniyatlari bilan bog‘lab o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zardushtiylik qonuniyatlariga ko‘ra it alohida e’zozlanadigan hayvon sifatida ajralib turgan; uning hayoti, farovonligi yoki o‘limi insonlarnikiga teng munosabatda bo‘lishi belgilangan, jasadini dafn qilishda ham insonnikidek muomala qilish buyurilgan. Xorazm vohasidagi ikki ziyoratgohda it ushbu qadamjodagi muqaddas shaxs bilan bir e’tiqodda ekanligi qayd etiladi. Ulardan biri Ko‘hna Mizdahkon majmuasidagi Shamun-nabi maqbarasi bo‘lib, rivoyatga ko‘ra it Shamun-nabining haloskori hisoblanadi: Shamun-nabi yovuz dushmani Gyaur bilan kurashayotganda it uni yengishda egasiga hamrohlik qiladi [4. 1949:B.87-88]. Ikkinchi ziyoratgoh — Ko‘hna Urganchdagi Najmiddin Kubro majmuasi bo‘lib, unda it shayxning sodiq hamrohi hisoblangan; qabr yaqinidagi qalandarxonada darveshlar itlarni saqlab-boqishgani haqida ma’lumot keltiriladi [8. 2018:B.310]. Xorazm vohasidagi boshqa hududlarda ham itlarning jag‘ suyaklari topilgan bo‘lib, bu holat itlarga alohida ahamiyat berilganligini bildiradi [1. 1960:B.101; 14. 1961:B.218].

Xulosa qilib aytganda, To‘qqal’a mozor-qo‘rg‘onining ahamiyati Xorazm vohasining dafn tartiblari bilan bog‘liq ko‘plab masalalarga yechim izlashda beqiyos hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Альбаум Л.И. Балалык-тепе. К истории материальной культуры и искусства Тохаристана. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1960.

2. Вязигин С.А. Оссуарии с городища Калалы-гыр 1 Ташаузской области ТуркмССР // ВДИ. – 1948.

3. Гудкова А.В. Ток-кала. – Ташкент: Фан, 1964.

4. Кнорозов Ю.В. Мазар Шамун-наби // Советская этнография. – 1949.

5. Неразик Е.Е., Рапопорт Ю.А. Куюк-кала в 1956 г. // МХЭ. Вып. 1. – М., 1959.

6. Пугаченкова Г.А. Элементы согдийской архитектуры на среднеазиатских терракотах // ТИИА АН УзССР. Т. 2. – 1950.

7. Рапопорт Ю.А. Об изображении на Бартымском блюде, найденном в 1951 г. // СА. – 1962.

8. Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф одатлари. – Урганч: Қувончбек-Машхура, 2018.

9. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – М., 1948.

10. Толстов С.П. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция АН СССР в 1949–1953 гг.

11. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М., 1962.
12. Ходжайов Т.К. Краниологический материал второй половины VIII–X вв. из Токкалы // ВКФ. – 1971.
13. Ходжайов Т.К. К антропологии населения Токкалы (Древний Дарсан) // Вопросы антропологии и материальной культуры Кердера. – Ташкент: Фан, 1973.
14. Шишкина Г.В. Раннесредневековая сельская усадьба под Самаркандом // История материальной культуры Узбекистана. Вып. 2. – Ташкент, 1961.

QADRIYATLAR TIZIMI O'ZGARISHINING OILAVIY MUNOSABATLARGA PSIXOLOGIK TA'SIRI

Umarova Shohida Absalomovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
Chirchiq, O‘zbekiston
ORCID: 0009-0004-3214-2588 E-mail: umarovashohida018@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21902284

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadriyatlar tizimining zamonaviy jamiyat sharoitida transformatsiyalanishi va uning oilaviy munosabatla rga ko‘rsatadigan ijtimoiy-psixologik ta'siri tahlil qilinadi. Oila a'zolarining qadriyatlaridagi tafovutlar, avlodlararo qarashlar farqi, individualizm va an'anaviylik o‘rtasidagi ziddiyatlarning oiladagi emotsional muhit, o‘zaro ishonch, muloqot sifati hamda psixologik barqarorlikka ta'siri yoritilgan. Shuningdek, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashning psixologik omillari va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.
Kalit so‘zlar: qadriyatlar tizimi, oila, oilaviy munosabatlar, psixologik ta'sir, transformatsiya, shaxs, ijtimoiy muhit, kommunikatsiya.
Abstract: This article analyzes the transformation of the value system in modern society and its socio-psychological impact on family relations. The article discusses the impact of differences in the values of family members, differences in intergenerational views, conflicts between individualism and traditionalism on the emotional environment, mutual trust, quality of communication, and psychological stability in the family. Psychological factors and practical recommendations for strengthening family values are also described.
Keywords: value system, family, family relations, psychological impact, transformation, personality, social environment, communication.
Аннотация: В данной статье анализируется трансформация системы ценностей в современном обществе и её социально-психологическое влияние на семейные отношения. Рассматривается влияние различий в ценностях членов семьи, различий во взглядах поколений, конфликтов между индивидуализмом и традиционализмом на эмоциональную среду, взаимное доверие, качество общения и психологическую стабильность в семье. Также описываются психологические факторы и практические рекомендации по укреплению семейных ценностей.
Ключевые слова: система ценностей, семья, семейные отношения, психологическое воздействие, трансформация, личность, социальная среда, общение.

Kirish: Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti bo‘lib, unda shakllanadigan qadriyatlar shaxsning dunyoqarashi, xulq-atvori va ijtimoiy faolligini belgilaydi. So‘nggi yillarda globallashuv, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, urbanizatsiya, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar natijasida insonlarning qadriyatlar tizimida sezilarli transformatsiyalar yuz bermoqda. Mazkur jarayon oilaviy munosabatlarning mazmuni va sifatiga ham bevosita ta'sir ko‘rsatmoqda. Qadriyatlarning o‘zgarishi ba'zan oilada yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirsa, ayrim hollarda esa nizolar, tushunmovchiliklar, avlodlararo ziddiyatlar va psixologik tanglikni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli ushbu muammoni psixologik jihatdan o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotda tizimli va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar asosida nazariy hamda empirik metodlardan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, anketa so‘rovi, psixologik test va kuzatish metodlari qo‘llanildi. Olingan ma'lumotlar matematik-statistik usullar, jumladan tavsifiy statistika va korrelyatsion tahlil yordamida qayta ishlanib, qadriyatlar tizimi o‘zgarishining oilaviy munosabatlarga psixologik ta'siri baholandi.

Asosiy qism: Qadriyatlar tizimi shaxsning hayotiy maqsadlari, e'tiqodi, axloqiy me'yorlari va xulq-atvorini tartibga soluvchi muhim psixologik mexanizm hisoblanadi. U insonning qaror qabul qilishi, ijtimoiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yishi va hayotdagi ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Oilada shakllanadigan qadriyatlar esa shaxsning ijtimoiylashuvi, ma'naviy kamoloti va psixologik rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Oila a'zolari o‘rtasida shakllangan qadriyatlar tizimi ularning o‘zaro ishonchi, hamkorligi, emotsional yaqinligi hamda oilaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Urbanizatsiya, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, iqtisodiy munosabatlarning o‘zgarishi va madaniyatlararo aloqalarning kengayishi natijasida jamiyatda qadriyatlar

tizimida sezilarli transformatsiyalar kuzatilmoqda. Mazkur jarayon oilaviy munosabatlarning mazmuni, oilaviy rollar va mas'uliyat taqsimotiga ham bevosita ta'sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, an'anaviy oilaviy qadriyatlarning zamonaviy qarashlar bilan uyg‘unlashuvi yoki qarama-qarshiligi oilada yangi psixologik vaziyatlarni yuzaga keltirmoqda. Hozirgi davrda oilalarda kuzatilayotgan asosiy o‘zgarishlardan biri individual manfaatlarning jamoaviy manfaatlardan ustun qo‘yilishidir. Natijada oila a'zolari o‘rtasidagi o‘zaro mas'uliyat, mehr-oqibat, hurmat va hamjihatlik kabi qadriyatlarning mazmuni o‘zgarib, shaxsiy mustaqillik va individual ehtiyojlarga ko‘proq e'tibor qaratilmoqda. Bu esa ayrim hollarda oila ichidagi psixologik muvozanatning buzilishiga, muloqot sifatining pasayishiga va oilaviy nizolarning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.

Psixologik nuqtai nazardan, oila a'zolarining qadriyatlari bir-biriga mos kelmasligi quyidagi salbiy holatlarni yuzaga keltirishi mumkin:

1. oilada samarali muloqotning buzilishi va kommunikativ to‘siqlarning kuchayishi;
2. er-xotin o‘rtasidagi emotsional yaqinlik hamda o‘zaro ishonchning pasayishi;
3. ota-ona va farzandlar o‘rtasida avlodlararo qarashlar tafovutining kuchayishi;
4. oilaviy rollar va mas'uliyatlarning qayta taqsimlanishi natijasida kelishmovchiliklarning yuzaga kelishi;
5. psixologik stress, emotsional zo‘riqish va oilaviy nizolarning ortishi.

Oilada kommunikativ muammolarning kuchayishi. Qadriyatlar tizimidagi tafovut oila a'zolari o‘rtasida o‘zaro tushunish va samarali muloqotning susayishiga olib keladi. Natijada fikr almashish jarayonida kelishmovchiliklar, bir-birini tinglamaslik va nizoli vaziyatlar ko‘payadi.

Er-xotin o‘rtasidagi emotsional yaqinlikning pasayishi. Hayotiy maqsadlar va qadriyatlardagi farqlar er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, mehr-muhabbat va psixologik yaqinlikning kamayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu esa oilaviy munosabatlarning barqarorligiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi.

Ota-ona va farzandlar o‘rtasida avlodlararo kelishmovchiliklarning ortishi. Zamonaviy va an'anaviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatdagi tafovut avlodlar o‘rtasida dunyoqarash farqlarini yuzaga keltiradi. Bunday holat tarbiya usullari, hayotiy qarashlar va qaror qabul qilishda ziddiyatlarni kuchaytiradi.

Oilaviy rollarning qayta taqsimlanishi. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning o‘zgarishi natijasida oiladagi an'anaviy rol va vazifalar qayta shakllanadi. Bu jarayon moslashuv muvaffaqiyatli kechganda oilaviy hamkorlikni kuchaytirishi, aks holda esa kelishmovchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Psixologik stress va oilaviy nizolarning ko‘payishi. Qadriyatlardagi nomuvofiqlik oila a'zolarida emotsional zo‘riqish, tashvish va ruhiy bosimni kuchaytiradi. Uzoq davom etuvchi psixologik stress esa oilaviy nizolarning tez-tez takrorlanishi hamda oiladagi psixologik muhitning yomonlashishiga olib keladi.

Shu bilan birga, qadriyatlar uyg‘un shakllangan oilalarda psixologik iqlim barqaror bo‘ladi. Bunday oilalarda o‘zaro hurmat, ishonch, hamkorlik va emotsional qo‘llab-quvvatlash yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, nizolar konstruktiv muloqot orqali hal etiladi. Oila a'zolari bir-birining fikrini hurmat qiladi, qarorlar o‘zaro kelishuv asosida qabul qilinadi va bu oilaning mustahkamligini ta'minlaydi. Zamonaviy axborot makoni, internet va ijtimoiy tarmoqlar ham qadriyatlar tizimining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko‘rsatmoqda. Turli madaniyatlar, hayot tarzi va qarashlarning ommaviy axborot vositalari orqali tez tarqalishi yoshlarning dunyoqarashi va hayotiy ustuvorliklarini o‘zgartirmoqda. Natijada ayrim hollarda ota-onalar va farzandlar o‘rtasida qadriyatlarga bo‘lgan munosabatda tafovutlar paydo bo‘lib, bu oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sir etishi mumkin. Biroq oilada ochiq muloqot, o‘zaro hurmat va psixologik qo‘llab-quvvatlash mavjud bo‘lsa, bunday tafovutlar konstruktiv tarzda bartaraf etiladi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qadriyatlar tizimining o‘zgarishi oilaviy munosabatlarga faqat salbiy emas, balki ijobiy ta'sir ham ko‘rsatishi mumkin. Agar oila a'zolari yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashish, bir-birini tushunish va umumiy maqsadlarni belgilashga intilsalar, qadriyatlar transformatsiyasi oilaning rivojlanishi va psixologik barqarorligini ta'minlovchi omilga aylanadi. Shu sababli oilalarda psixologik madaniyatni yuksaltirish, samarali muloqotni rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta'minlash hamda oilaviy tarbiyani takomillashtirish bugungi kunda muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Qadriyatlar tizimi oilaviy munosabatlarning psixologik asosini tashkil etuvchi muhim omillardan biridir. Oila a'zolarining hayotga, mehnatga, tarbiyaga, o‘zaro mas'uliyatga va axloqiy me'yorlarga bo‘lgan munosabati ularning qadriyatlar tizimi orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur tizimdagi o‘zgarishlar oiladagi shaxslararo munosabatlarning mazmuni va sifatiga bevosita ta'sir etadi. Zamonaviy jamiyatda globallashuv, urbanizatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ta'lim imkoniyatlarining kengayishi hamda iqtisodiy munosabatlarning o‘zgarishi natijasida oilalarda qadriyatlar transformatsiyasi

kuzatilmoqda. An'anaviy oilalarda ustuvor bo‘lgan jamoaviylik, kattalarga hurmat, oila manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yish kabi qadriyatlar asta-sekin individual erkinlik, shaxsiy rivojlanish va mustaqil qaror qabul qilish kabi zamonaviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashmoqda. Ushbu jarayon ayrim oilalarda ijobiy natijalar bersa, ayrim hollarda psixologik ziddiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Qadriyatlar tizimidagi tafovut eng avvalo oiladagi muloqot sifatiga ta'sir ko‘rsatadi. Oila a'zolarining hayotiy qarashlari va ustuvor maqsadlari bir-biridan farq qilganda o‘zaro tushunish qiyinlashadi, samarali muloqot susayadi va nizoli vaziyatlar ko‘payadi. Ayniqsa, er-xotin yoki ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi qadriyatlarga oid qarashlarning mos kelmasligi oiladagi psixologik iqlimning yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Er-xotin munosabatlarida qadriyatlar uyg‘unligi oilaviy barqarorlikning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Oilaviy mas'uliyat, farzand tarbiyasi, moliyaviy boshqaruv yoki kasbiy faoliyatga doir qarashlarning keskin farqlanishi emotsional yaqinlikning pasayishiga, o‘zaro ishonchning susayishiga va nizolarning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Bunday vaziyatlarda sheriklarning bir-birini tushunishi va qo‘llab-quvvatlashi kamayib, oiladagi psixologik muvozanat izdan chiqishi mumkin.

Qadriyatlar transformatsiyasi ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarga ham sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi yoshlarning dunyoqarashi va qadriyatlarini tez o‘zgartirmoqda. Natijada ota-onalarning an'anaviy qarashlari bilan farzandlarning zamonaviy qarashlari o‘rtasida tafovut yuzaga keladi. Bu esa tarbiya usullariga, oilaviy qarorlarni qabul qilishga va o‘zaro ishonch darajasiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Shuningdek, qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar oilaviy rollarning qayta shakllanishiga ham olib kelmoqda. Ayollarning mehnat bozoridagi faolligi, erkaklarning farzand tarbiyasidagi ishtirokining ortishi va oiladagi vazifalarning teng taqsimlanishi zamonaviy oilalarning muhim xususiyatiga aylanmoqda. Agar oila a'zolari ushbu o‘zgarishlarni o‘zaro kelishuv va hurmat asosida qabul qilsalar, oilaviy munosabatlar yanada mustahkamlanadi. Aks holda esa rollar bilan bog‘liq kelishmovchiliklar psixologik zo‘riqishni kuchaytiradi. Qadriyatlar tizimidagi nomuvofiqlik oila a'zolarining ruhiy holatiga ham ta'sir qiladi. Doimiy kelishmovchilik, bir-birini tushunmaslik va emotsional qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi stress, xavotir, tushkunlik va oilaviy nizolarning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Bunday holat uzoq davom etsa, oilaviy barqarorlik izdan chiqishi, ajralish xavfi ortishi va farzandlarning psixologik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bilan birga, qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar har doim ham salbiy oqibatlarga olib kelmaydi. Agar oilada ochiq muloqot, o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va psixologik qo‘llab-quvvatlash mavjud bo‘lsa, yangi qadriyatlar oilaning zamonaviy sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashishiga xizmat qiladi. Oila a'zolarining umumiy maqsad va qadriyatlar atrofida birlashishi emotsional yaqinlikni mustahkamlaydi, nizolarni konstruktiv hal etish imkonini yaratadi hamda oilaning psixologik barqarorligini ta'minlaydi. Demak, qadriyatlar tizimining o‘zgarishi oilaviy munosabatlarning psixologik xususiyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lib, uning ta'siri oila a'zolarining o‘zaro muloqoti, emotsional yaqinligi, ishonchi, oilaviy rollarni qabul qilishi va psixologik moslashuv darajasida namoyon bo‘ladi. Shu sababli oilalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta'minlash, psixologik madaniyatni rivojlantirish hamda konstruktiv muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish oilaviy barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

Oilaviy munosabatlarda qadriyatlar tizimining o‘zgarishi har doim ham salbiy hodisa sifatida baholanmaydi. Aksincha, bu jarayon jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va madaniy rivojlanishning tabiiy natijasi hisoblanadi. Muhim jihat shundaki, oila a'zolarining yangi qadriyatlarni qanday qabul qilishi, ularga moslasha olishi hamda mavjud oilaviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtira bilishi oiladagi psixologik muhitning barqarorligini belgilaydi. Agar oila a'zolari o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va hamkorlik tamoyillari asosida yangi qarashlarni qabul qilsalar, qadriyatlar transformatsiyasi oilaning rivojlanishi, o‘zaro ishonchning mustahkamlanishi va oilaviy munosabatlarning yanada takomillashishiga xizmat qiladi. Psixologik moslashuv darajasi yuqori bo‘lgan oilalarda o‘zgarishlar konstruktiv xarakter kasb etadi. Bunday oilalarda oila a'zolari bir-birining fikri va ehtiyojlarini inobatga oladi, yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni ochiq muloqot va o‘zaro murosaga asoslangan holda hal etadi. Natijada oilada emotsional yaqinlik, o‘zaro ishonch va psixologik qo‘llab-quvvatlash muhiti shakllanadi. Bu esa oilaning tashqi ijtimoiy o‘zgarishlarga nisbatan moslashuvchanligini oshirib, uning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. Aksincha, psixologik moslashuv darajasi past bo‘lgan oilalarda qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar turli ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Oila a'zolarining bir-birining qarashlarini qabul qilmasligi, an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar, o‘zaro muloqotning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi emotsional uzoqlashish, ishonchning pasayishi va oilaviy nizolarning kuchayishiga olib keladi. Bunday vaziyatlarda oiladagi psixologik iqlim yomonlashadi, stress va xavotir kuchayadi hamda oilaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Ayrim hollarda esa uzoq davom etgan ziddiyatlar

oilaning parchalanish xavfini ham oshirishi mumkin. hu sababli oilalarda sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish, psixologik madaniyatni rivojlantirish va konstruktiv muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Oila a'zolarida bir-birini tinglash, fikrlarni hurmat qilish, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash madaniyatini rivojlantirish qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlarning salbiy oqibatlarini kamaytiradi. Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta'minlash, oilaviy tarbiya jarayonida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash hamda oilalarga psixologik maslahat va treninglar tashkil etish oilaviy munosabatlarning barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Demak, qadriyatlar tizimining o‘zgarishi oilaviy munosabatlarning rivojlanishiga ikki tomonlama ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Mazkur jarayonning ijobiy yoki salbiy kechishi, avvalo, oila a'zolarining psixologik moslashuv darajasi, o‘zaro muloqot sifati, emotsional qo‘llab-quvvatlash muhiti hamda umumiy qadriyatlar atrofida birlasha olish qobiliyatiga bog‘liq. Shu jihatdan oilalarda psixologik madaniyatni rivojlantirish va qadriyatlar uyg‘unligini ta'minlash zamonaviy oilaviy siyosat hamda psixologik xizmatlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Xulosa. Qadriyatlar tizimining o‘zgarishi zamonaviy jamiyat rivojlanishining tabiiy va muqarrar jarayoni bo‘lib, u oilaviy munosabatlarning mazmuni, shakli hamda psixologik xususiyatlariga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. O‘tkazilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oila a'zolari o‘rtasidagi qadriyatlar uyg‘unligi o‘zaro ishonch, hurmat, emotsional yaqinlik, samarali muloqot va oilaviy barqarorlikni ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Aksincha, qadriyatlar tizimidagi tafovutlar oilaviy nizolar, avlodlararo kelishmovchiliklar, kommunikativ muammolar, emotsional uzoqlashish hamda psixologik zo‘riqishlarning kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, qadriyatlar transformatsiyasi har doim ham salbiy oqibatlarga olib kelmaydi. Agar oila a'zolari yangi ijtimoiy sharoitlarga moslasha olsa, o‘zaro hurmat va bag‘rikenglik tamoyillariga amal qilsa hamda ochiq muloqotni yo‘lga qo‘ysa, qadriyatlardagi o‘zgarishlar oilaning rivojlanishi va psixologik barqarorligini mustahkamlovchi omilga aylanishi mumkin. Demak, oiladagi psixologik muhitning sifati ko‘p jihatdan oila a'zolarining qadriyatlarga munosabati va ularni uyg‘unlashtirish qobiliyatiga bog‘liq. Shu sababli oilalarda sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish, samarali muloqot madaniyatini rivojlantirish, o‘zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlash, shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Kelgusida mazkur yo‘nalishda empirik tadqiqotlar olib borish va qadriyatlar tizimining turli ijtimoiy guruhlardagi o‘zgarishlarini chuqurroq o‘rganish oilaviy munosabatlarni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.

2. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2021.

3.Schwartz S.H. A Theory of Basic Human Values. In: Handbook of Basic Principles and Values. Oxford University Press, 2021.

4.Hofstede G., Hofstede G.J., Minkov M. Cultures and Organizations: Software of the Mind. 4th ed. New York: McGraw-Hill, 2023.

5. Walsh F. Strengthening Family Resilience. 4th ed. New York: Guilford Press, 2021.

6. Bronfenbrenner U., Morris P.A. The Bioecological Model of Human Development. In: Handbook of Child Psychology and Developmental Science. 8th ed. Wiley, 2022.

7. UNICEF. The State of the World's Children 2024: The Future of Childhood. New York: UNICEF, 2024.

8. World Health Organization (WHO). World Mental Health Report: Transforming Mental Health for All. Geneva: WHO, 2022.

9. United Nations. World Social Report 2024: Social Development in Times of Global Change. New York: United Nations, 2024.

10.UNESCO. Global Education Monitoring Report 2024/25. Paris: UNESCO, 2024.

ZANJABIL (ZINGIBER OFFICINALE ROSC.) ENDOFIT BAKTERIYALARINING TUPROQSIZ TIZIMDA MIKROBIAL BIOSTIMULYATOR SIFATIDAGI SALOHIYATI

Kurbanova Nigora Baxramjonovna
PhD talaba *“TIQXMMI” MTU huzuridagi*
Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti
kurbanova.n8708@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21902370

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda zanjabil (Zingiber officinale Rosc.) o'simligidan ajratilgan endofit bakteriyalarning o'simlik o'sishini rag'batlantiruvchi xususiyatlari va ularning gidroponik tizimda mikrobial biostimulyator sifatidagi samaradorligi baholandi. Endofit bakteriyalarning fosfatni eritish, siderofor hosil qilish va fitopatogen zamburug'larga qarshi antagonistik faolligi o'rganildi. Tadqiqot natijalari bakteriyalarning zanjabilning vegetativ o'sishi, ildiz tizimi rivojlanishi hamda biomassa to'planishini rag'batlantirishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: zanjabil, endofit bakteriyalar, tuproqsiz tizim, mikrobial biostimulyator, fosfatni eritish, siderofor, antagonistik faollik.

Аннотация: В данном исследовании была проведена оценка ростостимулирующих свойств эндофитных бактерий, выделенных из растения имбиря (*Zingiber officinale* Rosc.), а также их эффективности в качестве микробных биостимуляторов в условиях гидропонной системы. Изучены способность эндофитных бактерий к солюбилизации фосфатов, образованию сидерофоров и их антагонистическая активность в отношении фитопатогенных грибов. Результаты исследования показали, что применение данных бактерий способствует усилению вегетативного роста имбиря, развитию корневой системы и накоплению биомассы

Ключевые слова: имбирь, эндофитные бактерии, беспочвенная система, микробный биостимулятор, солюбилизация фосфатов, сидерофоры, антагонистическая активность.


Abstract: In this study, the plant growth-promoting properties of endophytic bacteria isolated from ginger (*Zingiber officinale* Rosc.) and their effectiveness as microbial biostimulants in a hydroponic system were evaluated. The phosphate-solubilizing ability, siderophore production, and antagonistic activity of the endophytic bacteria against phytopathogenic fungi were investigated. The results demonstrated that these bacteria enhanced the vegetative growth of ginger, promoted root system development, and increased biomass accumulation.

Keywords: ginger, endophytic bacteria, soilless system, microbial biostimulant, phosphate solubilization, siderophores, antagonistic activity.

Global iqlim o'zgarishi, tuproq degradatsiyasi va mineral o'g'itlardan ortiqcha foydalanish qishloq xo'jaligida ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda [1. 2023:B.3]. Mikrobial biostimulyatorlar o'simliklarning oziqa elementlarini o'zlashtirishini yaxshilash, fiziologik holatini mustahkamlash va turli stress omillariga moslashuvini oshirishda istiqbolli biologik vositalardan biri hisoblanadi [2. 2022:B.245]. Ayniqsa, dorivor o'simliklarni tuproqsiz (gidroponik) tizimlarda yetishtirishda foydali endofit bakteriyalardan foydalanish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Zanjabil (Zingiber officinale Rosc.) — Zingiberaceae oilasiga mansub ko‘p yillik bir urug‘pallali dorivor va ziravor o‘simlik bo‘lib, dunyoning tropik va subtropik hududlarida keng yetishtiriladi. Uning yer osti poyasi (rizomasi) oziq-ovqat, farmatsevtika va kosmetika sanoatida qimmatli xomashyo sifatida keng qo‘llaniladi [6. 2017:B.23]. Zanjabil yangi, quritilgan, kukun, ekstrakt hamda efir moyi shakllarida iste’mol qilinadi. Tarkibidagi gingerol, shogaol va zingeron kabi biologik faol birikmalar tufayli antioksidant, yallig‘lanishga qarshi, antimikrob va immunomodulyator xususiyatlarga ega bo‘lib, zamonaviy tibbiyot hamda funksional oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi [7. 2008:B. 3]. Tadqiqotda zanjabil o'simligining ichki to'qimalaridan endofit bakteriyalar ajratilib, ularning o'simlik o'sishini rag'batlantiruvchi xususiyatlari laboratoriya sharoitida baholandi. Endofitlar o‘simlik organizmi bilan o‘zaro manfaatli simbioz hosil qilib, uning o‘sishi va rivojlanishini turli mexanizmlar orqali qo‘llab-quvvatlaydi [9. 2023: B. 2]. Ular fitogormonlar (auksinlar, giberellinlar va sitokininlar) hamda boshqa o‘sishni rag‘batlantiruvchi metabolitlarni sintez qilish orqali o‘simlikning vegetativ rivojlanishi va ildiz tizimining shakllanishini jadallashtiradi [8.2025:B. 992]. Bundan tashqari, endofitlar fosfatni eruvchan shaklga o‘tkazish, sideroforlar ishlab chiqarish va boshqa foydali

metabolitlarni ajratish orqali oziqa elementlarining o‘zlashtirilishini yaxshilaydi [3. 2014:B.161]. Ular fitopatogen mikroorganizmlarga qarshi antagonistik faollik ko‘rsatib, ular bilan joy va ozuqa moddalari uchun raqobatlashishi, mikroblarga qarshi birikmalar ishlab chiqarishi yoki kasalliklardan himoya qilish uchun o'simliklarda himoya reaksiyalarini qo'zg'atishi mumkin hamda tizimli rezistentlikni induksiya qiladi [4. 2021:B.97]. Shuningdek, ayrim endofitlar og‘ir metallar va boshqa toksik birikmalarni zararsizlantirish yoki ularning o‘simlik tomonidan o‘zlashtirilishini tartibga solish orqali fitoremediatsiya jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli endofit bakteriyalar ekologik xavfsiz va barqaror qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda istiqbolli mikrobial biostimulyatorlar sifatida e'tirof etilmoqda.



Variantlar	Umumiy uzunlik (sm)	Poya vazni (gr)	Poyalar uzunligi (sm)	Barglar soni (dona)	Barglar kengligi (sm)	Ildiz uzunligigi (sm)	Ildiz vazni (gr)	SPAD ko'rsatkichi	Umumiy quruq (gr)	Poya quruq (gr)	Ildiz quruq ygr)
Coconut +Mineral	30,1	15,2	24,25	8	1,4	11	14,9	32,10	3,73	3,37	1,36
Coconut +Mineral+ Khumic	25,8	14,7	21,2	7	1,4	12	10,8	32,80	2,05	1,36	0,70
Coconut +Mineral+ Bakteriya1	35,1	17,5	24,5	8	1,5	14,2	17,6	37,20	2,43	1,43	0,99
Coconut +Mineral +Bakteriya2	35,3	21,5	20,2	7	1,4	12,4	13,8	36,90	2,53	1,75	0,75
Kora +Mineral	6,8	3,8	16	5	1,0	8	3,0	36,40	0,45	0,28	0,14
Kora +Mineral + Khumic	19,6	9,5	18	7	1,1	10,5	10,1	33,20	1,40	0,76	0,64
Kora+Mineral+ Bakteriya1	21,9	9,6	17,2	7	1,3	12	12,3	31,30	2,29	0,84	1,45
Kora +Mineral +Bakteriya2	19,1	9,8	14,6	7	1,1	8	9,3	26,90	1,31	0,79	0,52
Apilka +Mineral	59,3	32,1	28,2	9	1,3	14	27,1	35,20	5,24	2,94	2,30
Apilka +Mineral + Khumic	85,8	52,9	33	7	1,4	21,4	32,8	32,60	6,56	4,55	2,01
Apilka +Mineral+ Bakteriya1	63,1	32,9	22,1	7	1,6	15	30,2	34,80	4,33	2,48	1,85
Apilka +Mineral +Bakteriya2	53,1	36,9	26,5	7	1,3	12	16,2	39,90	3,99	3,05	0,94

Zanjabil (*Zingiber officinale* Rosc.) o‘simligining ildiz, poya va barglaridan endofit mikroorganizmlar Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti, Biologik tadqiqotlar va oziq-ovqat xavfsizligi laboratoriyasida ajratib olindi. O‘simlik namunalari 70 % etanol va 10 % NaClO eritmalari yordamida yuzaki sterilizatsiya qilinib, steril distillangan suv bilan yuvildi. Sterillangan to‘qimalardan tayyorlangan kesmalar go‘sht-peptonli agar (MPA) va Chapek-Doks ozuqa muhitlariga ekildi hamda 28 °C da 4–5 kun davomida inkubatsiya qilindi. Hosil bo‘lgan koloniyalar morfologik belgilari (shakli, rangi, sirti va konsistensiyasi) bo‘yicha tanlab olinib, sof kulturalar hosil qilish uchun qayta ekildi. Yuzaki sterilizatsiya samaradorligi steril suvning oxirgi yuvindisini ozuqa muhitlariga ekish orqali nazorat qilindi. Qayta ekish natijasida 13 ta sof bakterial izolat ajratib olindi va ularning morfologik hamda o‘simlik o‘sishini rag‘batlantiruvchi (PGPR) xususiyatlari o‘rganildi. Xususan, izolatlarning fosfatni eritish qobiliyati, siderofor hosil qilishi hamda fitopatogen zamburug‘larga nisbatan antagonistik faolligi

baholandi. Olingan natijalar asosida yuqori biologik faollikka ega istiqbolli shtammlar keyingi tuproqsiz tizim tajribalarda mikrobial biostimulyator sifatida qo‘llash uchun tanlab olindi.

Zanjabil (*Zingiber officinale* Rosc.) o'simligidan ajratib olingan 13 ta endofit bakteriya izolatining fitopatogen zamburug'lar – *Fusarium solani* va *Fusarium oxysporum* ga qarshi antagonistik faolligi *dual culture* usuli yordamida baholandi. Antagonistik faollik zamburug' mitseliylarining radial o'sishini ingibirlash darajasi (PIRG) bo'yicha aniqlandi. Tadqiqot natijalari bakteriya izolyatlari orasida antagonistik faollik sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatdi. Eng yuqori antifungal faollik *F. solani* ga nisbatan BB2 (53,4%), BB2a (52,9%) va BC1 (51,7%) izolyatlarida, *F. oxysporum* ga nisbatan esa BBII (55,9%), BB2a (50,0%) va BB2 (49,1%) izolyatlarida qayd etildi. Ushbu izolyatlar bakteriya koloniyasi atrofida zamburug' mitseliylarining o'sishini sezilarli darajada cheklab, ularning radial rivojlanishini susaytirdi. O'rta darajadagi antagonistik faollik PC1, PC2 va PB4 izolyatlarida kuzatilgan bo'lsa, BC2, BC3, IC1 va BBA izolyatlarida ingibitsiya darajasi nisbatan past bo'ldi. Olingan natijalar BB2, BB2a, BC1 va BBII izolyatlarining fitopatogen *Fusarium* turlariga qarshi yuqori antagonistik potensialga ega ekanligini hamda ularni istiqbolli biologik nazorat agentlari va mikrobial biostimulyatorlar sifatida qo'llash mumkinligini ko'rsatdi.

Faol bakteriya shtammlari tuproqsiz tizimda yetishtirilayotgan zanjabil o'simliklariga qo'llanildi. Turli substratlarda tuproqsiz sharoitda yetishtirilgan zanjabil (*Zingiber officinale* Rosc.) o‘simligining vegetativ o‘sishi nazorat va endofit bakteriyalar asosidagi bioo‘g‘it qo‘llangan variantlarda baholandi. Vegetatsiya davrida o‘simliklarning poya balandligi va barglar soni muntazam kuzatib borildi. Olingan natijalar substrat turi hamda endofit bakteriyalar asosidagi mikrobial biostimulyatorlarning o‘simlik o‘sishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini aniqladi. Kokos substratida *Bakteriya 1* qo‘llanilgan variantda vegetativ o‘sish ko‘rsatkichlari yaxshilanib, umumiy o‘simlik uzunligi 35,1 sm, ildiz uzunligi 14,2 sm, ildiz biomassasi 17,6 g va SPAD ko‘rsatkichi 37,2 ni tashkil etdi. Yog’och qirindisi substrati eng yuqori samaradorlikni namoyon qilib, Khumic preparati qo‘llanilgan variantda o‘simlikning umumiy uzunligi 85,8 sm, poya vazni 52,9 g, ildiz uzunligi 21,4 sm, ildiz vazni 32,8 g hamda umumiy quruq biomassa 6,56 g ga yetdi. *Bakteriya 2* bilan ishlov berilgan yog’och qirindisi variantida esa SPAD ko‘rsatkichi 39,9 ga yetib, fotosintetik faollikning yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Kora substratida o‘simliklarning o‘sishi boshqa substratlarga nisbatan sustroq kuzatildi. Umuman olganda, endofit bakteriyalar va mikrobial biostimulyatorlarni mos substratlar bilan birgalikda qo‘llash zanjabilning vegetativ rivojlanishi, ildiz tizimi shakllanishi, biomassa to‘planishi hamda fotosintetik faolligini oshirib, gidroponik tizimda yetishtirish samaradorligini sezilarli darajada yaxshiladi.

Olingan natijalar zanjabil (*Zingiber officinale* Rosc.) endofit bakteriyalarining o‘simlik o‘sishini rag‘batlantiruvchi (PGPR) xususiyatlarga ega ekanligini tasdiqladi. Ajratib olingan 13 ta bakteriya izolatlari orasida BB2, BB2a, BC1 va BBII shtammlari *Fusarium solani* hamda *Fusarium oxysporum* ga qarshi yuqori antagonistik faollik namoyon etib, ularning biologik himoya vositasi sifatidagi istiqbolini ko‘rsatdi. Gidroponik tajribalarda esa endofit bakteriyalar qo‘llanilgan variantlarda o‘simlikning vegetativ o‘sishi, ildiz tizimining rivojlanishi, biomassa to‘planishi va SPAD ko‘rsatkichlari nazoratga nisbatan yuqori bo‘ldi . Ayniqsa, yog‘och qirindisi substrati mikrobial biostimulyatorlar bilan uyg‘un qo‘llanilganda eng yuqori o‘sish ko‘rsatkichlari qayd etildi. Bu natijalar substrat turi va foydali mikroorganizmlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir gidroponik tizimda zanjabil yetishtirish samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi [5. 2023:B.35].

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijasida zanjabil o‘simligidan 13 ta endofit bakteriya izolatlari ajratib olinib, ularning PGPR xususiyatlari va fitopatogen zamburug‘larga qarshi antagonistik faolligi aniqlandi. BB2, BB2a, BC1 va BBII izolyatlari yuqori biologik faollik ko‘rsatib, istiqbolli mikrobial biostimulyatorlar sifatida tanlab olindi. Ushbu bakteriyalarni gidroponik tizimda mos substratlar bilan birgalikda qo‘llash zanjabilning vegetativ rivojlanishi, ildiz biomassasi, fotosintetik faolligi va umumiy hosildorligini yaxshiladi. Olingan natijalar endofit bakteriyalar asosidagi biologik preparatlardan gidroponik tizimlarda zanjabil yetishtirish samaradorligini oshirish hamda ekologik xavfsiz va barqaror agrotexnologiyalarni rivojlantirishda samarali foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Backer R., Rokem J.S., Ilangumaran G. va boshqalar. Plant biostimulants: Promoting plant growth and sustainable agriculture. *Frontiers in Plant Science*. Lausanne: Frontiers Media SA, 2023.

2. Bonaterra A., Badosa E., Daranas N., Francés J., Roselló G., Montesinos E. Bacteria as biological control agents of plant diseases. *Microorganisms*. Basel: MDPI, 2022.

3. Jasim B., Joseph A.A., John C.J., Mathew J., Radhakrishnan E.K. Plant growth promoting potential of endophytic bacteria associated with medicinal plants. *Microbiological Research*. Amsterdam: Elsevier, 2014.

4. Jabborova, D., Davranov, K., Jabbarov, Z. *et al.* Impact of Growth-Promoting Endophytic Bacteria on Ginger Plant Growth. *Indian J Microbiol* 65, 991–1000 (2025). https://doi.org/10.1007/s12088-024-01379-3

5. Compant S., Samad A., Faist H., Sessitsch A. A review on the plant microbiome and endophytic bacteria for sustainable agriculture. *Applied Microbiology and Biotechnology*. Berlin: Springer, 2021.

6. Rouphael Y., Colla G. Toward sustainable agriculture through plant biostimulants. *Agronomy*. Basel: MDPI, 2023.

7. Liu Y, Wu L, Wu X, Li H, Liao Q, Zhang X, Sun Z, Li W. Analysis of microbial diversity in soil under ginger cultivation. Scientifica 2017:23.
https:// doi. org/ 10. 1155/ 2017/ 82568 65.

8. Takeda J, De Silva S, Muthuraman P, Rahman SM, Kawet L Spices in Sri Lanka, India and Bangladesh with special reference to the usages and consumptions. Agric Bull, 2008. 93:1–25

9. Egamberdieva D., Jabborova D., Berg G. Synergistic interactions between beneficial microorganisms and medicinal plants under sustainable cultivation. *Plants*. Basel: MDPI, 2023.

INNOVATIVE APPROACHES TO DEVELOPING STUDENTS’ SPIRITUAL AND MORAL COMPETENCIES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

Umarjonova Sevinch Tolibjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Xorijiy til va adabiyoti:ingliz tili yo’nalishi 1-bosqich talabasi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21902444

Abstract: In today's rapidly developing world, the issue of fostering students' spiritual and moral competencies in the process of foreign language education has become increasingly important. In foreign language teaching, it is essential not only to apply innovative approaches but also to develop communication culture, intercultural understanding, and ethical values. This article analyzes the effectiveness of innovative pedagogical technologies, interactive teaching methods, and digital educational tools that contribute to the development of students' spiritual and moral competencies in foreign language education. Furthermore, it substantiates that the use of innovative approaches in foreign language teaching positively influences not only students' language competence but also their spiritual growth and personal development.

Key words: Foreign language education, spiritual competence, moral competence, innovative approaches, competency-based approach, interactive teaching methods, artificial intelligence, digital education, intercultural communicative competence, university students

Annotatsiya: Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonamizda talaba-yoshlarda xorijiy til ta'limi jarayonida ma'naviy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chet tilini o'qitish jarayonida nafaqat innovatsion yondashuvlarni shakllantirish, balki muloqot madaniyati, madaniyatlararo tushuncha hamda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish muhim hisoblanib kelmoqda. Ushbu maqolada xorijiy til ta'limida talabalarning ma'naviy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va raqamli ta'lim vositalarining samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy til ta'limida innovatsion yondashuvlardan foydalanish talabalarning til kompetensiyasi bilan bir qatorda ularning ma'naviy kamoloti va shaxs sifatida rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: Xorijiy til ta'limi, ma'naviy kompetensiya, innovatsion yondashuvlar, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar, sun'iy intellekt, raqamli ta'lim, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya, talaba-yoshlar

Аннотация: В условиях стремительного развития современного общества особую актуальность приобретает вопрос формирования духовно-нравственных компетенций студентов в процессе обучения иностранным языкам. В процессе преподавания иностранного языка важное значение имеет не только применение инновационных подходов, но и развитие культуры общения, межкультурного взаимопонимания и нравственных ценностей. В данной статье анализируется эффективность инновационных педагогических технологий, интерактивных методов обучения и цифровых образовательных средств, способствующих развитию духовно-нравственных компетенций студентов в процессе обучения иностранным языкам. Кроме того, обосновывается, что использование инновационных подходов в обучении иностранным языкам положительно влияет не только на формирование языковой компетенции студентов, но и на их духовное развитие и становление личности.

Ключевые слова: Обучение иностранным языкам, духовная компетентность, нравственная компетентность, инновационные подходы, компетентностный подход, интерактивные методы обучения, искусственный интеллект, цифровое образование, межкультурная коммуникативная компетенция, студенты.

Introduction. In world practice, special attention is paid to the effective use of the unique national spirituality and moral values that have been formed over centuries by different nations and peoples in the development of a country. Furthermore, from this perspective, leading higher education institutions have recognized the integration of historical and socio-economic development characteristics, rich cultural heritage, and national traditions into the educational content as one of the key factors in ensuring the effectiveness of teacher training.

Around the world, there is an increasing need to fundamentally reform and improve the education system on a scientific basis.In our country, ongoing reforms aimed at developing the higher education system and improving the quality of education, taking into account the needs of the social and economic sectors, as well as effectively organizing scientific and innovative activities, are expanding opportunities to encourage students to engage in spiritual and educational activities and to strengthen their motivation toward quality education.

Main body. Nowadays era of globalization and rapid technological advancement, the scope of foreign language education has expanded significantly. Teaching a foreign language is no longer limited to developing grammar, vocabulary, and communication skills. One of the primary objectives of modern education is to foster students' spiritual and moral competencies. Spiritual and moral competence refers to an individual's ability to follow ethical principles, respect universal human values, demonstrate tolerance, responsibility, honesty, cooperation, and effectively communicate with people from different cultural backgrounds. Since foreign language education provides opportunities for intercultural communication, it creates a favorable environment for developing these competencies. The application of innovative approaches plays a crucial role in enhancing students' spiritual and moral competencies. Interactive teaching methods, Project-Based Learning (PBL), Problem-Based Learning, debates, role-playing activities, and case studies not only improve students' language proficiency but also develop their critical thinking, teamwork, and sense of responsibility. For example, organizing classroom discussions on topics such as environmental protection, human rights, family values, and intercultural communication encourages students to express their opinions confidently while respecting the perspectives of others. Such learning activities help students develop tolerance, empathy, and ethical decision-making skills, which are essential components of spiritual competence.

The rapid development of digital educational technologies and artificial intelligence has also introduced new opportunities for foreign language education. Online learning platforms, virtual communication environments, digital libraries, and AI-powered language learning applications enable students to access authentic materials, communicate with international learners, and experience different cultures. Artificial intelligence can provide personalized learning pathways, analyze students' written and spoken performance, and offer immediate feedback, making the learning process more efficient and engaging. However, the effective use of these technologies also requires students to demonstrate academic integrity, digital responsibility, and ethical behavior when using information resources, which are important aspects of spiritual and moral competence.

Another effective way to foster students' spiritual competencies is through the use of authentic literary works, articles, documentaries, and multimedia resources in foreign language classrooms. Learning about the traditions, customs, beliefs, and lifestyles of different nations broadens students' perspectives and encourages respect for cultural diversity. Teachers play a significant role in this process, not only as language instructors but also as mentors who guide students' moral and personal development. By selecting meaningful educational materials and designing interactive activities, teachers can create a learning environment that supports both linguistic achievement and character development. Additionally, experimental methods can also be applied to measure students’ socialization levels. In this method, students are assigned various tasks through which their social skills and language application abilities are tested. The results of these experiments provide clear indicators for evaluating students’ socialization. Furthermore, practical tools such as meetings and seminars are considered effective in measuring students’ socialization levels. During these activities, students have the opportunity to express their opinions freely, participate in discussions, and develop teamwork skills. These processes contribute significantly to improving students’ socialization levels. The effectiveness of developing students’ spiritual and moral competencies in foreign language education largely depends on the teaching strategies selected by the instructor. Modern pedagogical approaches emphasize that students should not be passive recipients of knowledge but active participants in the learning process. In this regard, collaborative learning, reflective approaches, and communicative methods play a significant role. Such methods encourage students to express their ideas freely, listen carefully to others, and respect different viewpoints.

As a result, students develop important spiritual and moral qualities such as communication culture, tolerance, empathy, and social responsibility.The use of authentic educational materials is another important factor in fostering spiritual and moral competencies in foreign language teaching. Texts, literary works, articles, podcasts, and videos taken from real-life sources allow students to become familiar with the traditions, values, and lifestyles of other nations. This process promotes respect for cultural diversity,

open-mindedness, and tolerance. Moreover, analyzing various cultural situations helps students understand potential challenges in international communication and develop appropriate responses to them. Therefore, authentic materials contribute not only to language acquisition but also to the formation of intercultural awareness and ethical behavior. Among innovative technologies, artificial intelligence occupies a special place in foreign language education. AI-based platforms provide opportunities for personalized learning, error analysis, and improvement of students’ written and spoken performance. However, when using these technologies, issues such as information security, academic integrity, and respect for intellectual property rights should not be ignored. Teachers should guide students to use artificial intelligence not merely as a tool for obtaining ready-made answers but as a supportive instrument for independent learning and knowledge enhancement. Such an approach helps students develop responsibility, honesty, and ethical attitudes toward learningIn addition, service-learning projects, international online collaboration projects, and virtual exchange programs are effective tools for strengthening students’ spiritual competencies. Through these activities, students communicate with peers from different countries, exchange opinions, and work together to find solutions to global problems. Participation in such projects develops civic responsibility, mutual respect, cooperation, and social engagement. Students learn that language is not only a means of communication but also a bridge that connects people from different cultural and social backgrounds.

In general, the development of spiritual and moral competencies in foreign language education is a continuous and systematic process. To organize this process effectively, it is necessary to combine innovative pedagogical technologies with national and universal values. Only in this case can students who study a foreign language become not only linguistically competent but also spiritually mature, culturally aware, socially responsible, and ethically conscious individuals. Such an approach contributes to improving the quality of higher education, preparing competitive specialists, and enhancing the spiritual potential of the younger generation. Therefore, integrating innovative approaches into foreign language teaching should remain one of the priority directions of modern education, as it supports both students’ professional development and their personal and moral growth.

Conclusion. In conclusion, innovative approaches to foreign language education contribute not only to the improvement of students' language competence but also to their spiritual growth, intercultural awareness, and social responsibility. The effective integration of modern pedagogical technologies, interactive teaching methods, and artificial intelligence creates opportunities for educating students who are capable of communicating confidently in a foreign language while demonstrating ethical values, respect for diversity, and a strong sense of responsibility.

Therefore, further development and implementation of innovative approaches aimed at strengthening students' spiritual and moral competencies should remain one of the key priorities of contemporary foreign language education.

References:

1. Jalolov K.M. Methods of Teaching Foreign Languages. Tashkent: Teacher.
2. Ergashev M. Problems of Socialization in Uzbekistan. Monograph. Tashkent: Turon Iqbol, [2018, 128 p.]
3. Ellis R. The Study of Second Language Acquisition. Oxford University Press.
4. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Compeetence
5. Clevedon “Multilingual Teaching Matters, [2001. 167 page]
6. Mansurjonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. - [Toshkent: O’qituvchi, 2019. 147 b.]
7. A.Pardayev, Ta’limda innovatsion texnologiyalar. [- Toshkent: Iste’dod, 2018]
8. Jalolov J. M. Chet tili o’qitish metodikasi. -[Toshkent: O’qituvchi, 2012]

XALQARO BIZNESDA INFLUENSER MARKETING ORQALI TURIZM XIZMATLARINI TARG‘IB QILISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI

Rixsiyev Nusratilla Kudratillayevich
Bilim va ko‘nikmalarni baholash markazi MCH mutaxassisi
Tel: +998994815515 Email: nusratilla.88@gmail.com
Orcid: https://orcid.org/0009-0008-0777-9340
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21902491

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro turizm bozorida influenser marketingning zamonaviy marketing vositasi sifatidagi ahamiyati tahlil qilingan. Ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yurituvchi kontent yaratuvchilar (influenserlar) orqali turistik yo‘nalishlarni targ‘ib qilishning afzalliklari, xorijiy tajribalar hamda O‘zbekiston turizm sektorida ushbu marketing usulidan foydalanish istiqbollari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, influenser marketing turistik brendning xalqaro tan olinishini oshirish, xorijiy turistlarni jalb qilish va turizm xizmatlari eksportini kengaytirishda samarali vosita hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: xalqaro biznes, turizm, influenser marketing, SMM, raqamli marketing, turizm eksporti, brending, ijtimoiy tarmoqlar.

Аннотация. В данной статье проанализировано значение инфлюенсер-маркетинга как современного маркетингового инструмента на международном туристическом рынке. Исследованы преимущества продвижения туристических направлений через создателей контента (инфлюенсеров), активно работающих в социальных сетях, рассмотрен зарубежный опыт, а также перспективы применения данного маркетингового подхода в туристическом секторе Узбекистана. Результаты исследования показывают, что инфлюенсер-маркетинг является эффективным инструментом повышения международной узнаваемости туристического бренда, привлечения иностранных туристов и расширения экспорта туристических услуг.

Ключевые слова: международный бизнес, туризм, инфлюенсер-маркетинг, SMM, цифровой маркетинг, экспорт туристических услуг, брендинг, социальные сети.

Abstract. This article analyzes the significance of influencer marketing as a modern marketing tool in the international tourism market. It examines the advantages of promoting tourist destinations through content creators (influencers) active on social media platforms, reviews international experience, and explores the prospects for applying this marketing approach in Uzbekistan’s tourism sector. The findings indicate that influencer marketing is an effective instrument for enhancing the international recognition of tourism brands, attracting foreign tourists, and expanding tourism service exports.

Keywords: international business, tourism, influencer marketing, social media marketing (SMM), digital marketing, tourism exports, branding, social media.

Kirish. So‘nggi yillarda raqamli kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi natijasida marketing strategiyalarida sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda millionlab kuzatuvchilarga ega bo‘lgan influenserlar iste’molchilarning xarid qilish va sayohat tanlash qarorlariga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada xalqaro turizm industriyasida influenser marketing alohida marketing yo‘nalishi sifatida shakllandi.

Globallashuv va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi xalqaro biznesda turizm xizmatlarini targ‘ib qilish usullarini tubdan o‘zgartirmoqda. Xususan, katta ijtimoiy media auditoriyasiga ega influencer marketing xalqaro bozorda turizm mahsulotlari va xizmatlarini samarali targ‘ib qilishning asosiy vositasiga aylandi. Ushbu yondashuv potensial sayyohlar bilan ishonchni mustahkamlashga, mamlakatning turizm jozibadorligini oshirishga va turizm eksportini kengaytirishga yordam beradi.

Bugungi turist reklama bannerlaridan ko‘ra real sayohatchilar tajribasi, videobloglar va ijtimoiy tarmoqlardagi tavsiyalarga ko‘proq ishonadi. Shu sababli turizm tashkilotlari mashhur kontent yaratuvchilar bilan hamkorlikni marketing strategiyasining muhim qismi sifatida ko‘rmoqda.

O‘zbekistonning tarixiy shaharlari, milliy madaniyati, gastronomiyasi va tabiiy maskanlari xalqaro auditoriya uchun katta qiziqish uyg‘otadi. Ushbu salohiyatni dunyo bozoriga samarali olib chiqishda influenser marketingdan tizimli foydalanish mamlakat turizm eksportini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi[1].

Influencer marketing – bu ijtimoiy tarmoqlarda katta auditoriyaga ega shaxslar orqali mahsulot, xizmat yoki hududni targ‘ib qilishga asoslangan marketing usulidir. Turizm sohasida bu usul sayyohlik maskanlari, mehmonxonalar, milliy taomlar va madaniy tadbirlarni tabiiy hamda ishonchli tarzda namoyish etish imkonini beradi.

Bugungi kunda Instagram, TikTok va YouTube platformalari turizm marketingining eng samarali kanallaridan hisoblanadi. Sayohat blogerlari tomonidan tayyorlangan videolar millionlab foydalanuvchilarga yetib boradi va potensial turistlarda sayohat qilish istagini shakllantiradi. Ayniqsa qisqa videolar (Shorts, Reels va TikTok) yosh auditoriya orasida yuqori samaradorlikka ega.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Tailand va Indoneziya turizmni rivojlantirishda mashhur blogerlar bilan uzoq muddatli hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Ushbu davlatlar milliy turizm brendini targ‘ib qilish uchun professional media kampaniyalari, ko‘p tilli kontent va xalqaro media hamkorlikdan foydalanmoqda[4].

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va Farg‘ona vodiysining turistik salohiyatini targ‘ib qiluvchi videolar soni ortmoqda. Biroq xorijiy auditoriyaga mo‘ljallangan professional kontent, ingliz tilidagi media materiallar va xalqaro influenserlar bilan tizimli hamkorlik hali yetarli darajada rivojlanmagan.

Influencer marketingning yana bir ustunligi shundaki, u an’anaviy reklamalarga nisbatan yuqori ishonch darajasini shakllantiradi. Turistlar reklama roliklaridan ko‘ra haqiqiy sayohat taassurotlari aks etgan videolarga ko‘proq e’tibor beradi. Shu sababli foydalanuvchilar yaratgan kontent (User Generated Content) ham zamonaviy turizm marketingining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda[5].

Bundan tashqari, sun’iy intellekt asosidagi analitik platformalar yordamida auditoriyaning qiziqishlari, geografik joylashuvi va xulq-atvori tahlil qilinib, reklama kampaniyalarining samaradorligi oshirilishi mumkin. Bu esa marketing xarajatlarini optimallashtirish va investitsiya rentabelligini oshirish imkonini beradi.

Xulosa.

Xalqaro biznes sharoitida influenser marketing turizm xizmatlarini targ‘ib qilishning innovatsion va samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Mazkur marketing usuli milliy turizm brendining xalqaro tan olinishini kuchaytirish, xorijiy turistlar oqimini ko‘paytirish va xizmatlar eksportini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishni rivojlantirish uchun xalqaro blogerlar bilan hamkorlikni kengaytirish, ingliz va boshqa xorijiy tillarda sifatli kontent yaratish, sun’iy intellekt asosidagi marketing tahlillarini joriy etish hamda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Ushbu chora-tadbirlar mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. Turizm sohasiga oid statistik va tahliliy hisobotlar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Turizm va xizmatlar sohasi statistik ma’lumotlari.
3. Kotler P., Keller K. Marketing Management. 16th ed. Pearson, 2022.
4. Chaffey D., Ellis-Chadwick F. Digital Marketing. 8th ed. Pearson, 2022.
5. Tuten T., Solomon M. Social Media Marketing. Sage Publications, 2023.
6. UN Tourism. World Tourism Barometer. 2024.
7. Organisation for Economic Co-operation and Development. Tourism Trends and Policies. 2024.
8. UN Trade and Development. Digital Economy Report. 2024.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY O‘ZINI O‘ZI RIVOJLANTIRISHINING DOLZARBLIGI

Tursunpo‘latova Sadbarxon Xusanboy qizi
Mustaqil tadqiqotchi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21902601

Annotatsiya: Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar bo‘lajak pedagoglarning kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirishni dolzarb pedagogik muammoga aylantirmoqda. Mazkur tezisda kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishning nazariy asoslari, zamonaviy pedagog faoliyatiga qo‘yilayotgan talablar hamda raqamli ta’lim texnologiyalarining ushbu jarayondagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, bo‘lajak pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlashda raqamli ta’lim muhitining ahamiyati asoslanib, ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarning istiqbollari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, raqamli ta’lim texnologiyalari, bo‘lajak pedagog, kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish, uzluksiz ta’lim, raqamli kompetentlik, refleksiv faoliyat, self-development.

Аннотация: В условиях цифровой трансформации системы образования формирование навыков профессионального саморазвития будущих педагогов становится одной из актуальных педагогических проблем. В тезисе рассматриваются теоретические основы профессионального саморазвития, современные требования к профессиональной деятельности педагога, а также педагогические возможности цифровых образовательных технологий в развитии данных навыков. Обоснована роль цифровой образовательной среды в обеспечении непрерывного профессионального развития будущих педагогов и определены перспективные направления дальнейших исследований.

Ключевые слова: цифровая трансформация, цифровые образовательные технологии, будущий педагог, профессиональное саморазвитие, непрерывное образование, цифровая компетентность, рефлексивная деятельность, self-development.

Abstract: In the context of digital transformation, developing future teachers’ professional self-development skills has become one of the key challenges of modern education. This paper analyzes the theoretical foundations of professional self-development, contemporary requirements for the teaching profession, and the pedagogical potential of digital educational technologies in fostering these skills. It also substantiates the role of the digital learning environment in ensuring continuous professional development and outlines promising directions for further research in this field.

Keywords: digital transformation, digital educational technologies, future teachers, professional self-development, lifelong learning, digital competence, reflective practice, self-development.

Kirish: XXI asrda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi, sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi hamda bilimlar iqtisodiyotining shakllanishi ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirmoqda. Mazkur jarayonlar natijasida pedagog kasbining mazmuni ham yangilanib, zamonaviy pedagogdan nafaqat chuqur kasbiy bilim va metodik tayyorgarlik, balki raqamli kompetentlik, refleksiv fikrlash, innovatsion faoliyat yuritish hamda uzluksiz kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish qobiliyatiga ega bo‘lish talab etilmoqda. UNESCO ta’kidlaganidek, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning ta’lim tizimiga keng joriy etilishi pedagoglardan yangi kompetensiyalarni muntazam ravishda egallashni hamda o‘z kasbiy faoliyatini doimiy takomillashtirib borishni talab qiladi. Jahon amaliyotida pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta’minlash bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, A. Bandura, B. Zimmerman, D. Schön, M. Knowles, L. Darling-Hammond va boshqa olimlarning ilmiy ishlari pedagogning kasbiy rivojlanishi, o‘zini o‘zi boshqarish, refleksiv faoliyati hamda uzluksiz ta’lim jarayonining nazariy asoslarini yoritishga xizmat qilgan[1]. So‘nggi yillarda esa tadqiqotlar ko‘proq pedagoglarning raqamli kompetentligini rivojlantirish, sun’iy intellekt vositalarini ta’limga integratsiya qilish va raqamli ta’lim muhitini takomillashtirish masalalariga qaratilmoqda. Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda asosan raqamli kompetentlikni rivojlantirish yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalari keng tadqiq etilgan bo‘lsa-da, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishini aynan raqamli transformatsiya sharoitida qanday qo‘llab-quvvatlash, bu jarayonni tashkil etuvchi pedagogik mexanizmlar va samarali texnologiyalar masalasi yetarli darajada ochib berilmagan. Ayniqsa, pedagogika yo‘nalishi talabalarida kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish

ko‘nikmalarini shakllantirishning zamonaviy pedagogik yechimlarini ishlab chiqishga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

O‘zbekistonda ham ta’lim tizimini raqamlashtirish, sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish hamda raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ta’lim sifatini oshirish, pedagoglarning raqamli kompetentligini rivojlantirish va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan[2]. Bu esa bo‘lajak pedagoglarning kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishini ta’minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Mazkur tezisning maqsadi raqamli transformatsiya sharoitida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishining dolzarbligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash hamda raqamli ta’lim texnologiyalarining ushbu jarayondagi pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism: Raqamli transformatsiya nafaqat ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan texnologiyalarni yangiladi, balki pedagogning kasbiy faoliyatiga qo‘yiladigan talablarni ham tubdan o‘zgartirdi. Bugungi kunda pedagogdan faqat o‘z fanini mukammal bilish talab etilmaydi; u raqamli ta’lim muhitini samarali boshqara olishi, sun’iy intellekt vositalaridan oqilona foydalanishi, o‘quvchilarning individual ta’lim ehtiyojlarini aniqlay olishi hamda o‘z kasbiy faoliyatini muntazam tahlil qilib borishi zarur. Shu jihatdan pedagogning kasbiy muvaffaqiyati uning uzluksiz o‘qishga, yangi bilimlarni mustaqil egallashga va o‘z kasbiy kompetensiyalarini muntazam takomillashtirishga tayyorligi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish pedagog shaxsining ichki motivatsiyasi, refleksiv faoliyati, mustaqil ta’lim olishi va kasbiy maqsadlarini ongli ravishda rejalashtirishiga asoslangan uzluksiz jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayon pedagogga mavjud kasbiy kompetensiyalarini baholash, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash, innovatsion pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirish hamda ta’lim sifatini oshirish imkonini beradi. A. Bandura kasbiy rivojlanishning muhim omili sifatida shaxsning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchini (self-efficacy) ko‘rsatsa, B. Zimmerman o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalari samarali o‘qish va kasbiy rivojlanishning asosini tashkil etishini ilmiy jihatdan asoslaydi [3;4]. D. Schön esa pedagogning refleksiv faoliyati uning kasbiy mahoratini takomillashtirishning muhim sharti ekanligini ta’kidlaydi [5].

So‘nggi yillarda raqamli ta’lim texnologiyalari pedagoglarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi muhim vositaga aylanmoqda. Ta’limni boshqarish platformalari (Learning Management Systems), elektron portfoliolar, ochiq onlayn kurslar (MOOC), sun’iy intellektga asoslangan maslahat tizimlari, adaptiv o‘qitish platformalari hamda o‘quv analitikasi vositalari pedagoglarga individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish, kasbiy faoliyatini monitoring qilish va refleksiya yuritish imkonini bermoqda. Ayniqsa, generativ sun’iy intellekt vositalari (masalan, ChatGPT, Gemini, Microsoft Copilot va boshqalar) metodik materiallar tayyorlash, dars loyihalarini ishlab chiqish, ilmiy axborotni tahlil qilish va mustaqil o‘qishni tashkil etishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Biroq ushbu vositalardan samarali foydalanish faqat texnik ko‘nikmalar bilan emas, balki pedagogning o‘zini o‘zi rivojlantirishga bo‘lgan ichki ehtiyoji va refleksiv yondashuvi bilan ham belgilanadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda pedagoglarning kasbiy rivojlanishi masalasi raqamli transformatsiya jarayonlari bilan uzviy bog’liq holda tadqiq etilmoqda. L. Darling-Hammond pedagogning kasbiy rivojlanishini ta’lim sifatini oshirishning asosiy omili sifatida baholab, samarali professional rivojlanish uzluksiz, amaliyotga yo‘naltirilgan va refleksiv faoliyat bilan integratsiyalashgan bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi. H. Timperley esa pedagogning kasbiy o‘sishi ta’lim natijalarini yaxshilashga xizmat qiladigan tizimli va uzluksiz o‘rganish jarayoni ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Raqamli ta’lim texnologiyalarining pedagog faoliyatiga integratsiyalashuvi masalasi P. Mishra va M. Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK modeli[6], shuningdek C. Redeckerning DigCompEdu konsepsiyasi orqali yoritilgan[7]. Ushbu yondashuvlarda pedagogning texnologik, pedagogik va predmetga oid bilimlarini uyg’un rivojlantirish zarurligi asoslangan. J. Tondeur va hamkorlari bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida raqamli kompetentlikni rivojlantirish oliy ta’lim dasturlarining ajralmas qismi bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydilar.

Shu bilan birga, M. Fullan va N. Selwyn ta’limni raqamlashtirish jarayonini faqat texnologiyalarni joriy etish bilan cheklab bo‘lmasligini, uning muvaffaqiyati pedagoglarning o‘zgarishlarga tayyorligi, kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoji va refleksiv madaniyatiga bog’liqligini qayd etadilar. Bu fikrlar raqamli transformatsiya sharoitida pedagog shaxsining faol pozitsiyasi hal qiluvchi omil ekanligini ko‘rsatadi.

Shunga qaramay, mavjud ilmiy tadqiqotlarning aksariyati pedagoglarning raqamli kompetentligini rivojlantirish yoki ta’lim jarayoniga texnologiyalarni integratsiya qilish masalalariga qaratilgan. Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasini raqamli ta’lim vositalari asosida kompleks tarzda ishlab chiqish va ilmiy asoslash masalasi hali yetarlicha tadqiq etilmagan. Muallifning fikricha, aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirish pedagogika yo‘nalishi talabalarini zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Muallifning fikricha, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishini ta’minlash faqat alohida raqamli vositalardan foydalanish bilan emas, balki motivatsiya, refleksiya, mustaqil ta’lim, raqamli kompetentlik va kasbiy faoliyatni tahlil qilishni o‘zaro uyg‘unlashtirgan yaxlit pedagogik tizimni yaratish orqali amalga oshirilishi mumkin. Aynan shu yondashuv pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladigan samarali pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa: Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya sharoitida pedagog kasbining mazmuni va unga qo‘yiladigan kasbiy talablar sezilarli darajada o‘zgarmoqda. Zamonaviy pedagogdan nafaqat kasbiy bilim va metodik tayyorgarlik, balki raqamli kompetentlik, refleksiv fikrlash, mustaqil ta’lim olish hamda uzluksiz kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish qobiliyatiga ega bo‘lish talab etilmoqda. Shu jihatdan kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish pedagogning individual fazilati emas, balki ta’lim sifati va pedagogik faoliyat samaradorligini ta’minlovchi strategik kompetensiya sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim texnologiyalari bo‘lajak pedagoglarning kasbiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish faqat raqamli vositalarning mavjudligi bilan emas, balki talabalarda o‘zini o‘zi rivojlantirish motivatsiyasi, refleksiv faoliyati, mustaqil ta’lim olish madaniyati va raqamli kompetentligining uyg‘un rivojlanganligi bilan belgilanadi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlovchi yaxlit pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur.

Muallifning fikricha, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarni takomillashtirishda raqamli ta’lim texnologiyalari, sun’iy intellekt vositalari, refleksiv ta’lim metodlari hamda individual ta’lim trayektoriyalarini o‘zaro integratsiyalash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash bilan birga, ularni zamonaviy ta’lim muhitida samarali faoliyat yuritishga tayyorlash uchun mustahkam pedagogik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish ko‘nikmalarini raqamli ta’lim texnologiyalari asosida shakllantirishning pedagogik modeli, mezonlari, indikatorlari va samaradorligini baholash metodikasini ishlab chiqish muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Zimmerman B.J. Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview // *Theory Into Practice*. 2002. Vol. 41(2). P. 64–70.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son Farmoni «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida.
3. Bandura, A. (2013). Regulative function of perceived self-efficacy. In *Personnel selection and classification* (pp. 261-271). Psychology Press.
4. Cleary T. J., Zimmerman B. J. Self-regulation empowerment program: A school-based program to enhance self-regulated and self-motivated cycles of student learning //Psychology in the Schools. – 2004. – Т. 41. – №. 5. – С. 537-550.
5. Zeichner, Kenneth M., and Daniel P. Liston. *Reflective teaching: An introduction*. Routledge, 2013.
6. Celik, Ismail, Ismail Sahin, and Ahmet Oguz Akturk. "Analysis of the relations among the components of technological pedagogical and content knowledge (TPACK): A structural equation model." *Journal of educational computing research* 51.1 (2014): 1-22.
7. Xuramovich, Shomirzaev Maxmatmurod. "Texnologik ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli transformatsiya." *konferensiya* 1.2 (2025): 173-179.
8. Qizi, T. S. H. (2023). Ta’lim muassasalarida boshqaruv usul va uslublarini takomillashtirish. *Research focus*, *2*(1), 303-311.

9. Tursunpo‘latova, s. H. (2025). Oliy ta’lim muassalarida ta’lim-tarbiyaning zamonaviy shakllar,“masofaviy va gibrid ta’lim” asnosida. *Inter education & global study*, (1 (1)), 250-261.

145«O'ZBEKISTON QALQONI»: RAHBAR SHAXSINING STRESSGA BARQARORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MILLIY PEDAGOGIK MODELI

Umarov Toxirjon Mamurjonovich,
Qo'qon universiteti tayanch doktoranti
kokanduni2019@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21902687

Annotatsiya. Maqolada rahbar shaxsining stressga barqarorligini rivojlantirishga qaratilgan «O'zbekiston Qalqoni» nomli muallif pedagogik modeli taqdim etiladi. Model o'zbek pedagogik merosi – jadidchilik ta'limoti, islom ma'naviy an'anasi va mahalla instituti – hamda zamonaviy stressbardoshlik nazariyalarining tanqidiy sintezi asosida ishlab chiqilgan. Model uch qatlam va oltita komponentdan iborat integral tuzilmaga ega bo'lib, individual va tizimiy darajalarni bir vaqtda qamrab oladi. Har bir komponent uchun milliy manba, zamonaviy nazariy asos, pedagogik usul va validlashtirilgan o'lchash vositasi belgilangan. Model o'zbek liderlik pedagogikasida stressbardoshlikka bag'ishlangan birinchi yaxlit nazariy-amaliy tuzilma hisoblanadi.

Kalit so'zlar: stressbardoshlik, rahbar shaxsi, pedagogik model, jadidchilik pedagogikasi, mahalla instituti, milliy-madaniy adaptatsiya, liderlik pedagogikasi, sabr, himmat, muraqaba.

Аннотация. В статье представлена авторская педагогическая модель «Щит Узбекистана», направленная на развитие стрессоустойчивости личности руководителя. Модель разработана на основе критического синтеза узбекского педагогического наследия – джадидского учения, исламской духовной традиции и института махалли – с современными теориями стрессоустойчивости. Модель имеет интегральную структуру, состоящую из трёх слоёв и шести компонентов, и одновременно охватывает индивидуальный и системный уровни. Для каждого компонента определены национальный источник, современная теоретическая основа, педагогический метод и валидизированный инструмент измерения. Модель является первой целостной теоретико-практической структурой стрессоустойчивости в узбекской педагогике лидерства.

Ключевые слова: стрессоустойчивость, личность руководителя, педагогическая модель, джадидская педагогика, институт махалли, национально-культурная адаптация, педагогика лидерства, терпение, устремлённость, муракаба.

Annotation. The article presents the author's pedagogical model «Shield of Uzbekistan», aimed at developing the stress resilience of the leader's personality. The model is built on a critical synthesis of Uzbek pedagogical heritage – Jadid teaching, the Islamic spiritual tradition and the mahalla institution – with contemporary resilience theories. It has an integral structure of three layers and six components and simultaneously addresses the individual and systemic levels. For each component a national source, a modern theoretical foundation, a pedagogical method and a validated measurement instrument are defined. The model constitutes the first holistic theoretical and practical framework of stress resilience in Uzbek leadership pedagogy.

Keywords: stress resilience, leader's personality, pedagogical model, Jadid pedagogy, mahalla institution, national-cultural adaptation, leadership pedagogy, patience, aspiration, muraqaba.

Kirish. Globallashuv sharoitida ta'lim muassasalari va davlat boshqaruvi tizimida faoliyat yuritayotgan rahbarlarga tushayotgan psixologik yuk sezilarli darajada ortdi. Rahbar shaxsining stressga barqarorligi endilikda shaxsiy fazilat doirasidan chiqib, boshqaruv samaradorligini va butun tashkilot faoliyatining sifatini belgilovchi omilga aylandi. Shu bois mazkur sifatni maqsadli pedagogik vositalar orqali shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biri sanaladi.

Jahon pedagogikasida stressbardoshlikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator modellar ishlab chiqilgan va empirik jihatdan tekshirilgan. Biroq ularning aksariyati G'arbning individualistik madaniy kontekstida yaratilgan bo'lib, kollektivistik jamiyatlarga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirilganda samaradorligini yo'qotishi mumkin. Boshqa tomondan, o'zbek pedagogik merosida shaxsning ruhiy barqarorligi, sabr-toqati, iroda kuchi va oqilona qaror qabul qilish qobiliyatiga oid boy nazariy qatlam mavjud bo'lsa-da, u zamonaviy ilmiy tildan foydalangan holda operatsionallashtirilmagan.

Mazkur maqolaning maqsadi – ushbu ikki qatlamni sintez qilib, o'zbek rahbar shaxsining stressbardoshligini rivojlantirishga qaratilgan milliy sharoitga moslashtirilgan pedagogik modelni taqdim etishdan iborat.

Modelni ishlab chiqishning metodologik tamoyillari

Model to'rtta metodologik tamoyil asosida qurilgan. Birinchi tamoyil – tanqidiy adaptatsiya: global modellarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki ularning empirik jihatdan tasdiqlangan funksional mexanizmlarini o'zbek milliy-madaniy kontekstiga moslashtirish. Ikkinchi tamoyil – milliy merosga asoslanish: jadidchilik pedagogikasi, islom ma'naviy an'anasi va mahalla instituti zamonaviy ilmiy nazariyalar bilan uyg'unlashtiriladi. Uchinchi tamoyil – ikki darajalilik: model individual (shaxsiy ko'nikmalar) va tizimiy (tashkiliy muhit) darajalarni bir vaqtda qamrab oladi. To'rtinchi tamoyil – operatsionallik: har bir komponent aniq pedagogik vosita va validlashtirilgan o'lchash mexanizmiga ega bo'lishi shart – aynan shu xususiyat modelni nazariy spekulyatsiyadan ajratib turadi.

Modelning nazariy negizini bir necha yo'nalishdagi tadqiqotlar tashkil etadi: stressni kognitiv baholash nazariyasi [8. 1984:P.141], salutogenez va qat'iyat hissi konsepsiyasi [1. 1987:P.15], resurslarni saqlash nazariyasi [5. 1989:P.516], psixologik kapital konsepsiyasi [9. 2007:P.20] hamda barqarorlikning ijtimoiy-ekologik talqini [12. 2012:P.14]. Masten ta'kidlaganidek, barqarorlik yagona superqobiliyatga emas, balki ko'p sonli resurslarning uyg'unligiga tayanadi [10. 2014:P.8] – ushbu tamoyil taklif etilayotgan modelning tuzilish mantiqini belgilaydi.

Modelning nomi va konseptual asosi

Muallif tomonidan taklif etilayotgan model «O'ZBEKISTON QALQONI» deb nomlanadi. Nom tanlashning metodologik asosi quyidagicha: nazariy modellar ko'pincha abstrakt nomlanadi, biroq pedagogik amaliyotda model nomi madaniy rezonansga ega bo'lishi, uni eslab qolish va qo'llashni osonlashtirishi zarur. «Qalqon» metaforasi uch sababga ko'ra tanlangan: birinchidan, qalqon – ruhiy himoya vositasi sifatida stressbardoshlikning mohiyatini bevosita ifodalaydi; ikkinchidan, Temuriylar davri va o'zbek an'anaviy jangovar madaniyatida qalqon jasorat hamda himmat ramzi hisoblanadi; uchinchidan, «O'zbekiston» qo'shimchasi modelning milliy kontekstga xosligini, ya'ni uning G'arb modellarining bevosita ko'chirmasi emasligini ta'kidlaydi.

Model uch qatlam va oltita komponentdan iborat integral tuzilmaga ega. Ushbu tuzilma ierarxik emas – oltita komponent bir-birini kuchaytiradi va to'ldiradi. Psixologik nuqtai nazardan bu «bufferlar tizimi»ga o'xshaydi: biror komponent zaifroq bo'lganda, qolganlari uning vazifasini qisman qoplay oladi.

Modelning uch qatlamli tuzilmasi

Birinchi qatlam – milliy ma'naviy asos. Ushbu qatlam «Qalqon»ning ichki yadrosini tashkil etadi. Birinchi komponent – «Sabr-Shijoat». Avloniyning uch qatlamli sabr modeli – «balo kelib musibatga chidamak», «nafsni istakdan tiyilmak» va «bandachilikni doimo tutmak» – passiv kutishni emas, aktiv kurashishni anglatadi [13. 1992:B.23]. Bu Lazarus va Folkmanning muammoga yo'naltirilgan coping konsepsiyasi bilan yetmish yildan ortiq temporal parallel hosil qiladi [8. 1984:P.150]. Ikkinchi komponent – «Himmat-Niyat». Avloniy himmatni «ulug' ishlarga intilish» sifatida ta'riflab, uni shaxsiy manfaatdan emas, xalq manfaatidan kelib chiqadigan yuqori maqsad sifatida ko'rsatadi [13. 1992:B.34]. Bu Frankl logoterapiyasidagi hayot mazmuni tushunchasi [3. 1959:P.104] hamda Antonovskyning mazmunlilik komponenti [1. 1987:P.19] bilan struktural jihatdan mos keladi.

Ikkinchi qatlam – kognitiv-emotsional ko'nikmalar. Uchinchi komponent – «Baholash-Boshqarish» – Lazarusning kognitiv baholash nazariyasini va Golemanning emotsional intellekt konsepsiyasidagi o'z-o'zini boshqarish elementini birlashtiradi [4. 1995:P.43]. O'zbek pedagogik merosida bu Avloniyning «aql bilan tortib ko'rish» tamoyilining zamonaviy operatsionallashtirilishidir. To'rtinchi komponent – «Hushyorlik-Muraqaba» – Kabat-Zinnning MBSR metodologiyasini islom an'anasidagi muraqaba, tafakkur va zikr amaliyoti bilan uyg'unlashtiradi [6. 1990:P.21]. Bu o'zbek rahbari uchun eng madaniy jihatdan qulay komponent hisoblanadi, chunki u «chet el texnikasi» sifatida emas, milliy ma'naviy an'ananing zamonaviy ilmiy asoslanishi sifatida taqdim etiladi.

Uchinchi qatlam – ijtimoiy-ekologik resurslar. Bu qatlam modelning G'arb modellarida mavjud bo'lmagan qismidir. Beshinchi komponent – «Milliy Birlik» – Munavvar Qorining ilm-axloq-milliy ong triadasini [14. 2001:B.12] va Banduraning jamoaviy o'z-samaradorlik nazariyasini [2. 1997:P.477] birlashtiradi. Oltinchi komponent – «Mahalla Resursi» – modelning eng o'ziga xos xususiyati bo'lib, unda mahalla instituti stressbardoshlikning rasmiy pedagogik resursi sifatida tan olinadi. Hobfoll nazariyasida mahalla ijtimoiy shartli resurslar kategoriyasiga kiradi [5. 1989:P.518], Ungar tadqiqotlari esa eng barqaror shaxslar ko'pincha eng kuchli ijtimoiy tarmoqqa ega ekanligini ko'rsatadi [12. 2012:P.20]. Ayni paytda

mazkur resursdan tanqidiy foydalanish zarur: mahalla ijtimoiy qo'llab-quvvatlash manbai sifatida qabul qilinadi, biroq individual avtonomiyani cheklovchi nazorat mexanizmi sifatida emas.

1-jadval. «O'zbekiston Qalqoni» modelining oltita komponenti (muallif tomonidan tuzilgan)

Komponent	O'zbek milliy merosi	Zamonaviy nazariy asos	O'lchash vositasi
1. SABR-SHIJOAT	Avloniy uch qatlamli sabr (1913); shijoat fazilati	Lazarus va Folkman aktiv coping (1984); Meichenbaum stress inokulatsiyasi (1985)	CD-RISC (o'zbek adaptatsiyasi)
2. HIMMAT-NIYAT	Avloniy himmat tushunchasi; islom pedagogikasida niyat	Frankl logoterapiyasi (1959); Antonovsky SOC mazmunliligi (1987)	SOC-29 mazmunlilik subshkalasi; MLQ
3. BAHOLASH-BOSHQARISH	Avloniy «aql bilan tortib ko'rish» tamoyili	Lazarus kognitiv baholash (1984); Goleman EQ (1995)	CERQ; MSCEIT
4. HUSHYORLIK-MURAQABA	Islom an'anasida muraqaba, tafakkur, zikr	Kabat-Zinn MBSR (1990)	FFMQ (o'zbek adaptatsiyasi)
5. MILLIY BIRLIK	Munavvar Qori triadasi (1902); «ma'naviy baquvvatlik» (2008)	Bandura jamoaviy o'z-samaradorlik (1997)	CSES; SOC-29 anglashilish subshkalasi
6. MAHALLA RESURSI	Mahalla instituti; o'zaro yordam madaniyati	Hobfoll COR nazariyasi (1989); Ungar ijtimoiy-ekologik barqarorlik (2012)	MSPSS; COR resurs inventori

Ikki darajali tatbiq strategiyasi

Barqarorlik pedagogikasiga yo'naltirilgan tanqidlarga javob sifatida model ikki darajali tatbiq strategiyasiga ega. Individual darajada, birinchidan, «Rahbar Stressbardoshligi Pasporti» taklif etiladi – har bir rahbar uchun oltita komponent bo'yicha kuchli va zaif tomonlarni aniqlash asosida tuziladigan individual rivojlanish rejasi. Ikkinchidan, olti oylik «Qalqon» rivojlanish dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, unda har oy bitta komponentga bag'ishlanadi: sabr-shijoat, himmat-niyat, baholash-boshqarish, hushyorlik-muraqaba, milliy birlik va mahalla resursi.

Tizimiy darajada quyidagi o'zgarishlar zarur: rahbar kadrlarni tayyorlash dasturlarida stressbardoshlikni yordamchi element emas, asosiy kompetensiya bloki sifatida belgilash; ta'lim muassasalarida «whole-institution» yondashuvini joriy etish, ya'ni o'qituvchilar va rahbariyatning birgalikda dasturda ishtirok etishi; tashkiliy muhit auditini o'tkazish – rol aniqligi, vakolat darajasi va psixologik xavfsizlikni baholash. Mazkur ikki daraja bir-birini almashtirmaydi, balki parallel amalga oshirilib, o'zaro kuchaytiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Modelni amalga oshirishning bosqichli rejasi

Model uch bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich (1–2 yil) – ilmiy asoslash va pilot sinov: qo'llaniladigan o'lchash instrumentlarining validlashtirilgan o'zbek adaptatsiyasini ishlab chiqish, bir necha muassasada nazorat guruhi bilan pilot tadqiqot o'tkazish. Ikkinchi bosqich (3–5 yil) – kengaytirish va institutsionallashtirish: pilot natijalari asosida modelni malaka oshirish dasturlariga kiritish hamda mintaqaviy darajada sertifikatlangan trenerlar tayyorlash tizimini yaratish. Uchinchi bosqich (5–10 yil) – milliy miqyosga ko'tarish va Markaziy Osiyo mamlakatlariga adaptatsiya imkoniyatlarini o'rganish.

Modelning cheklovlari

Ilmiy halollik talabiga muvofiq modelning cheklovlarini ochiq tan olish zarur. Birinchi cheklov – empirik tekshiruvning hozircha yakunlanmaganligi: model nazariy sintez asosida ishlab chiqilgan bo'lib, hozirda uni mustaqil ekspert baholashdan o'tkazish bosqichi olib borilmoqda. Bu holat modelni «nazariy jihatdan asoslangan, biroq empirik jihatdan hali to'liq tasdiqlanmagan» maqomiga qo'yadi. Ikkinchi cheklov – kontekstual chegaralar: model asosan shahar va viloyat markazi rahbarlari uchun mo'ljallangan bo'lib, qishloq hududlari, ayol rahbarlar va turli soha mutaxassislari uchun alohida adaptatsiya talab etilishi mumkin. Uchinchi cheklov – tizimiy o'zgarishlarning murakkabligi: ular siyosiy iroda, moliyaviy resurs va ma'muriy hamkorlikni taqozo etadi.

Xulosa

Taklif etilayotgan «O'zbekiston Qalqoni» pedagogik modeli o'zbek liderlik pedagogikasida rahbar shaxsining stressbardoshligiga bag'ishlangan birinchi yaxlit nazariy-amaliy tuzilma hisoblanadi. Modelning ilmiy yangiligi uch jihatda namoyon bo'ladi: birinchidan, u milliy pedagogik meros bilan zamonaviy ilmiy nazariyalar o'rtasida metodologik ko'prik vazifasini bajaradi; ikkinchidan, individual va tizimiy darajalarni yagona tuzilmada birlashtiradi; uchinchidan, mahalla institutini stressbardoshlikning rasmiy pedagogik resursi sifatida ilmiy muomalaga kiritadi – bu G'arb modellarida uchramaydigan original element.

Modelning har bir komponenti aniq pedagogik usul va validlashtirilgan o'lchash vositasiga ega bo'lganligi uni empirik tekshirishga tayyor holatga keltiradi. Keyingi tadqiqot yo'nalishi – modelni mustaqil ekspert baholashdan o'tkazish va nazorat guruhi ishtirokida pilot sinovini amalga oshirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Antonovsky A. Unraveling the Mystery of Health: How People Manage Stress and Stay Well. – San Francisco: Jossey-Bass, 1987. – 218 p.

2. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. – New York: W. H. Freeman, 1997. – 604 p.

3. Frankl V. E. Man's Search for Meaning. – Boston: Beacon Press, 1959. – 184 p.

4. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995. – 352 p.

5. Hobfoll S. E. Conservation of Resources: A New Attempt at Conceptualizing Stress // American Psychologist. – 1989. – Vol. 44, № 3. – P. 513–524.

6. Kabat-Zinn J. Full Catastrophe Living. – New York: Delta, 1990. – 467 p.

7. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.

8. Lazarus R. S., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. – New York: Springer, 1984. – 445 p.

9. Luthans F., Youssef C. M., Avolio B. J. Psychological Capital: Developing the Human Competitive Edge. – Oxford: Oxford University Press, 2007. – 246 p.

10. Masten A. S. Ordinary Magic: Resilience in Development. – New York: Guilford Press, 2014. – 370 p.

11. Meichenbaum D. Stress Inoculation Training. – New York: Pergamon Press, 1985. – 115 p.

12. Ungar M. The Social Ecology of Resilience: A Handbook of Theory and Practice. – New York: Springer, 2012. – 466 p.

13. Авлоний А. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 96 б.

14. Мунаввар Қори А. Адиби аввал. – Тошкент: Маънавият, 2001. – 48 б.

SOCIAL ACTOR BEHIND CAMERA: VIDEO PRODUCTION, SPEAKING ANXIETY AND SELF-EFFICACY

Ezel Öztunç[1]
[1]University of Sağlık Bilimleri - Samarkand State Medical University
Lecturer of Turkish Language
e-mail: ezelloztunc@gmail.com ORCID iD: 0009-0005-0761-0914
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21902778

Abstract. This study investigates the impact of iterative digital video production on foreign language speaking anxiety and self-efficacy among A2-level learners of Turkish in Uzbekistan. The theoretical framework is grounded in the Affective Filter Hypothesis, Foreign Language Classroom Anxiety Theory, and Self-Efficacy Theory. Utilizing a convergent parallel mixed-methods design, the study was conducted with 50 students in Samarkand. Data were collected via an analytical rubric, a learner experience survey, and open-ended interview forms, and analyzed using descriptive statistics and content analysis. Results indicate that iterative video production significantly reduced speaking anxiety, boosted confidence in fluent language use, and normalized making linguistic errors. The opportunity to re-record videos created a safe learning environment, enabling learners to perceive themselves not just as passive language learners, but as active "social agents" and "cultural ambassadors". Consequently, the systematic integration of asynchronous, iterative digital tasks into foreign language curricula is recommended.

Keywords: Foreign Language Speaking Anxiety, Self-Efficacy, Iterative Digital Video Production, Social Agent, Teaching Turkish as a Foreign Language, Uzbekistan.

Аннотация. В данном исследовании изучается влияние итеративного создания цифровых видеороликов на тревожность при устном изучении иностранного языка и самоэффективность среди изучающих турецкий язык на уровне А2 в Узбекистане. Теоретическая основа исследования базируется на гипотезе аффективного фильтра, теории тревожности в классе иностранного языка и теории самоэффективности. В исследовании, проведенном с использованием конвергентного параллельного смешанного метода, приняли участие 50 студентов из Самарканда. Данные были собраны с помощью аналитической рубрики, опросника об опыте учащихся и открытых интервью, а анализ проводился с использованием описательной статистики и контент-анализа. Результаты показывают, что итеративное создание видеороликов значительно снизило тревожность при устном изучении, повысило уверенность в беглом использовании языка и нормализовало совершение языковых ошибок. Возможность перезаписывать видео создала безопасную учебную среду, позволив учащимся воспринимать себя не просто как пассивных изучающих язык, а как активных «социальных агентов» и «культурных послов». Следовательно, рекомендуется систематическая интеграция асинхронных, итеративных цифровых заданий в учебные программы по иностранным языкам.

Ключевые слова: Тревога при разговорной практике на иностранном языке, Самоэффективность, Итеративное создание цифровых видеороликов, Социальный агент, Преподавание турецкого языка как иностранного, Узбекистан.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot O'zbekistonda turk tilini A2 darajasida o'rganayotganlar orasida chet tilida so'zlashish xavotiri va o'ziga ishonchga takroriy raqamli video ishlab chiqarishning ta'sirini o'rganadi. Nazariy asos Affektiv Filtr Gipotezasi, Chet tili Sinfidagi xavotir nazariyasi va O'ziga ishonch nazariyasiga asoslangan. Konvergent parallel aralash usullar dizaynidan foydalangan holda, tadqiqot Samarqanddagi 50 talaba bilan o'tkazildi. Ma'lumotlar analitik rubrika, o'rganuvchi tajribasi so'rovnomasi va ochiq intervyu shakllari orqali to'plandi va tavsifiy statistika va kontent tahlili yordamida tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, takroriy video ishlab chiqarish nutq xavotirini sezilarli darajada kamaytirdi, ravon tildan foydalanishga ishonchni oshirdi va lingvistik xatolarga yo'l qo'yishni normallashtirdi. Videolarni qayta yozib olish imkoniyati xavfsiz o'quv muhitini yaratdi, bu o'quvchilarga o'zlarini nafaqat passiv til o'rganuvchilar, balki faol "ijtimoiy agentlar" va "madaniy elchilar" sifatida qabul qilish imkonini berdi. Natijada, asinxron, takroriy raqamli vazifalarni chet tili o'quv dasturiga tizimli ravishda integratsiya qilish tavsiya etiladi. Kalit so'zlar: Chet tilida gapirish xavotiri, O'ziga ishonch, Takroriy raqamli video ishlab chiqarish, Ijtimoiy agent, Turk tilini chet tili sifatida o'qitish, O'zbekiston.

INTRODUCTION. In recent years, the integration of digital technologies into educational environments has radically reshaped classroom dynamics and pedagogical roles in foreign language teaching. This transformation has elevated technology beyond a passive medium for presenting lesson materials, creating interactive spaces where learners actively navigate their cognitive and affective language acquisition processes. Uzbekistan, currently executing comprehensive digitalization reforms across its educational system, seeks to incorporate these innovative methodologies into language curricula to align with international standards. However, the mere presence of digital tools does not automatically dismantle the psychological barriers learners face. Instead, technological capabilities must be paired with thoughtful pedagogical designs tailored to address students' affective needs.

Communicative competence remains a primary benchmark of foreign language proficiency. Yet, many learners experience severe apprehension during oral production due to fear of making errors, peer pressure, and negative evaluation. Recognized in the literature as Foreign Language Speaking Anxiety (FLSA), this condition restricts active participation, undermines self-efficacy, and ultimately hinders language acquisition. While Krashen's Affective Filter Hypothesis posits that heightened anxiety blocks language input, Horwitz et al. demonstrate that spontaneous classroom speaking tasks often exacerbate affective strain. Furthermore, Bandura’s Self-Efficacy Theory underscores that a learner's belief in their ability to accomplish a task is pivotal to sustained learning effort. Creating psychologically safe learning environments that mitigate speaking anxiety and normalize linguistic errors as natural steps in learning is therefore crucial.

Iterative digital video production—a process-oriented model—alleviates this affective burden by allowing learners to record, review, evaluate, and re-record their performances at their own pace. This asynchronous, self-regulated setup transforms the fear of making mistakes into a practice of cognitive rehearsal and continuous refinement. Although research on digital tasks is growing, empirical studies examining the impact of iterative video production on speaking anxiety and self-efficacy specifically within the Uzbekistani context of teaching Turkish as a foreign language remain scarce.

The distinct contribution of this study lies in addressing iterative video production not merely as a technological assignment, but as a holistic pedagogical framework that lowers anxiety barriers, strengthens self-efficacy, and empowers learners as active "social agents" communicating in the target language. Accordingly, this study employs a mixed-methods design to investigate the impact of iterative digital video production on FLSA and self-efficacy among A2-level learners of Turkish in Uzbekistan. To achieve this objective, the following research questions were addressed:

1. How does the iterative digital video production process affect learners' foreign language speaking anxiety?
2. What impact does this process have on learners' self-efficacy beliefs and their positioning as social agents?
3. What are the learners' overall experiences and perceptions regarding the instructional value of iterative digital video production?

THEORETICAL FRAMEWORK. Foreign language acquisition is not merely a cognitive process of decoding grammatical structures; it is intimately bound to the learner’s affective state. Among the most potent affective variables constraining oral production is Foreign Language Speaking Anxiety (FLSA). Conceptualized by Horwitz, Horwitz, and Cope (1986) as a situation-specific phenomenon, FLSA stems from apprehension over linguistic errors, fear of public embarrassment, and negative evaluation. Spontaneous, unprompted speaking demands in traditional classrooms often trigger defensiveness, reducing students' willingness to take communicative risks. Krashen’s (1982) Affective Filter Hypothesis posits that heightened anxiety, low motivation, and compromised self-confidence construct a psychological barrier. When this filter is high, target language input—regardless of its quality—fails to reach the Language Acquisition Device (LAD). Conversely, in safe environments where errors are normalized as intrinsic steps of learning, the affective filter drops, enabling input processing and facilitating speech output.

Lowering affective barriers directly enhances learner agency and self-efficacy. Rooted in Bandura’s (1977) Social Cognitive Theory, self-efficacy denotes an individual’s internal belief in their capacity to execute specific tasks. While learners with high self-efficacy perceive linguistic hurdles as challenges to overcome, low self-efficacy coupled with speaking anxiety pushes students into communicative withdrawal. Bandura identifies "mastery experiences" as the primary source of self-efficacy. Thus, instructional designs that absorb speaking anxiety and provide controlled success experiences simultaneously elevate learners' self-efficacy beliefs.

Integrating digital technologies into language pedagogy enables asynchronous task designs that scaffolding self-efficacy while mitigating affective barriers. The focal point of this study—iterative digital video production—refers to a cyclic process wherein learners record, review, self-evaluate, revise, and re-record their oral performances until achieving a finalized product. This iterative structure eliminates the immediate, irreversible pressure of traditional classroom speech. Each re-recording serves as a cognitive rehearsal, activating self-regulation as students evaluate their own performance. Consequently, errors transition from indicators of failure into manageable opportunities for improvement.

This framework aligns seamlessly with the Action-Oriented Approach highlighted in the CEFR Companion Volume (Council of Europe, 2020). Here, the learner is viewed not as a passive recipient of knowledge, but as an active "social agent" carrying out purposeful tasks within societal and digital ecosystems. Asynchronous video tasks transform the target language from a artificial classroom exercise into a functional tool for real-world self-expression. Grounded in Attwell's (2007) Personal Learning Environment (PLE) framework, granting learners full control over their production process reinforces task ownership. In summary, this theoretical matrix posits that iterative video production lowers speaking anxiety, fosters self-efficacy through mastery experiences, and empowers learners as active social agents communicating in the target language.

METHODOLOGY. Research Design

This study employed a convergent parallel mixed-methods design to investigate the impact of iterative digital video production on foreign language speaking anxiety (FLSA) and self-efficacy among A2-level learners of Turkish. Quantitative and qualitative data were collected concurrently, analyzed independently, and subsequently integrated during interpretation. This design enabled a comprehensive triangulation of the pedagogical intervention, validating its affective and communicative outcomes through both numerical metrics and qualitative student perspectives.

Participants

The study group comprised 50 A2-level learners of Turkish in Samarkand, Uzbekistan, during the spring semester of the 2025–2026 academic year. Criterion sampling, a purposeful sampling method, was utilized. Selection criteria included: (a) enrollment in an official A2-level Turkish language program in Samarkand, and (b) basic digital literacy required to operate video recording and editing applications. Participation was strictly voluntary, and absolute data confidentiality was assured.

Iterative Digital Video Production Process

Unlike conventional single-take speaking tasks, the iterative digital video production framework adopted a cyclic structure encompassing planning, draft recording, reviewing, self-evaluation, revision, and re-recording. This structure allowed learners to observe their own performance, recognize linguistic gaps, and normalize errors as natural steps in learning. Participants produced individual 2-to-5-minute digital videos within their Personal Learning Environments (PLE). To ensure contextual relevance, tasks were centered around three thematic options: *My Turkish Journey*, *A Day in Samarkand*, and *Two States One Nation*. Students retained full autonomy to re-record and edit their videos until final submission, fostering self-paced learning without affective pressure.

Data Collection Instruments

Three distinct instruments were employed to ensure data triangulation and internal validity. Student video assignments were assessed using a 5-point Analytic Rubrik covering four criteria: *linguistic accuracy*, *presentation*, *content quality*, and *technological competence*. Additionally, a Learner Experience Survey featuring Likert-scale items and an open-ended Interview Form were administered to capture the affective, motivational, and social agency dimensions of the process.

Table1. Digital Task Evaluation Criteria (Analytical Rubric)

Evaluation Criteria	Criterion Description	Score (1-5)
Linguistic Accuracy	Accuracy of grammatical structures, vocabulary choice, and pronunciation in the target language.	
Presentation and Interaction	Speaking fluency, use of body language, oratory skills and the digital connection established with the audience.	
Content Quality	Suitability of digital content to the chosen topic, originality and quality of cultural transfer for the target audience.	

Technological Competence	Image and sound quality, digital editing (montage) skills and effective use of multimodal tools.	

Student Experience Survey

We administered a survey comprising seven Likert-scale items and one open-ended question to measure students' motivation, self-confidence, and social interaction. The open-ended question specifically examined the impact of the video recording process on anxiety, error perception, and self-regulation skills.

Table2. Student Experience Survey Structure and Item Distribution

Item No	Measured Dimension	Covered Themes	No. of Items	Response Scale
1 - 4	Affective Domain	Language learning motivation, speaking confidence and anxiety management.	4	5-point Likert*
5 - 7	Socio-Cultural Domain	Cultural ambassadorship, social agency, and functional language use.	3	5-point Likert*
8	Student Opinion	Individual views, suggestions, and experiences regarding the process.	1	Open-ended
Total			8	
(*) 5-Point Likert Scale: 1: Strongly Disagree, 2: Disagree, 3: Neutral, 4: Agree, 5: Strongly Agree (**) Question 8 was formulated as: 'How did the video production process as a Cultural Ambassador make you feel? Please share your experiences and suggestions.'				

Scoring and Reliability To ensure objectivity, the videos produced by students were evaluated using an analytical rubric by two independent experts in the field of Teaching Turkish as a Foreign Language (TTFL). To establish inter-rater reliability, their scores were compared, and minor discrepancies were reviewed item-by-item and resolved through consensus to reach final scores.

Data Analysis

- Quantitative Data: Rubric scores and survey responses were analyzed using descriptive statistics, including frequency (f), percentage (%), mean (M), and standard deviation (SD), and presented in tables.
- Qualitative Data: Content analysis was applied to the open-ended responses. The data were digitized and coded line-by-line; themes were then structured based on both the theoretical framework (Krashen, Horwitz, Bandura) and the inductive patterns emerging from the data itself. Key themes included *speaking anxiety*, *self-efficacy*, *transformation of error perception*, *self-regulation*, and *social agency*. Findings were supported and interpreted using direct, anonymized quotes from participants (e.g., S1, S2).

Ethical Considerations Scientific research and publication ethics were strictly followed throughout the study, and informed consent was obtained from all participants. To protect confidentiality, participant names were anonymized using coded identifiers (e.g., Student 1: S1, Student 2: S2).

4. FINDINGS

4.1. Quantitative Findings: Digital Task Performance

The videos prepared by students in their Personal Learning Environments (PLE) were evaluated with an analytical rubric by two expert instructors. Descriptive statistics regarding the evaluation results are presented in Table 3.

Table 3. Digital Task Evaluation Results (Analytical Rubric)

Assessment Criteria	Min. Score	Max. Score	Mean (M)
Linguistic Accuracy	3.0	5.0	3.68
Presentation and Interaction	3.0	5.0	3.84
Content Quality	3.0	5.0	3.76

Technological Competence	3.0	5.0	3.56
GENERAL AVERAGE	3.0	5.0	3.71

All criteria exceeding the 3.50 threshold in the rubric demonstrates the overall success of the implementation. The highest performance was observed in "Presentation and Interaction" (M=3.84), indicating that asynchronous tasks effectively supported students' body language, voice control, and digital engagement. Conversely, the lowest mean score in "Technological Competence" (M=3.56) confirms that students prioritized linguistic and social roles over technical video editing.

Graph 1. Digital Task Evaluation Results (Visual Distribution)




Figure 1 illustrates the distribution of rubric scores across criteria. The absence of sharp disparities among dimensions indicates that students performed consistently across all criteria. This confirms that iterative digital video tasks foster not only core language skills but also integrated communicative and content-creation competencies simultaneously.

4.2. Student Experience Survey Results

Following the implementation, the 7-item Likert-scale Student Experience Survey measured participants' affective (motivation, self-confidence, anxiety) and socio-cultural attitudes. The resulting frequency (f) and percentage (%) distributions are detailed in Table 4.

Table 4. Student Experience Survey Results

Item No	Item Content	Strongly Agree		Agree		Undecided		Total (f)
		f	%	f	%	f	%	
Q1	Preparing videos increased my motivation for Turkish.	42	%84	8	% 16	0	0%	50
Q2	Speaking Turkish to the camera reduced my in-class speaking anxiety.	29	%58	16	% 32	5	10%	50
Q3	My self-confidence in using Turkish fluently increased.	47	%94	3	% 6	0	0%	50
Q4	I learned new vocabulary and grammatical structures while preparing the script.	40	%80	10	% 20	0	0%	50
Q5	I felt like a "Social Agent" in the digital world while filming the videos.	34	%68	16	32%	0	0%	50
Q6	This task strengthened my role as a "Cultural Ambassador" between Uzbekistan and Türkiye.	45	%90	5	10%	0	0%	50
Q7	I used Turkish as a functional tool for real-world communication.	42	%84	8	% 16	0	0%	50


As shown in Table 4, responses were overwhelmingly concentrated in the "Strongly Agree" and "Agree" categories, reflecting a highly positive reception of the implementation.

A significant 94% of participants stated that video preparation boosted their self-confidence and self-efficacy in speaking fluent Turkish (Q3). Furthermore, 90% felt the task positioned them as active "cultural ambassadors" between Turkey and Uzbekistan (Q6). Motivationally, 84% noted that the process increased their motivation to learn Turkish (Q1) and allowed them to experience the language as a practical, real-life communication tool (Q7).

Conversely, item Q2—focusing on speaking anxiety—showed a slightly higher "Undecided" rate (10%), suggesting that asynchronous tasks could not completely eliminate deep-seated classroom speaking anxiety (Horwitz et al., 1986) for every student. Nevertheless, 90% of participants overall agreed that iterative asynchronous video creation was highly effective in mitigating speaking anxiety.

Additionally, 80% highlighted cognitive gains through vocabulary and structural acquisition during scriptwriting (Q4), while 68% viewed themselves as "social agents" rather than passive learners while generating digital content (Q5)

Graph 2. General distribution of data and categorical concentration



4.3. Qualitative Findings: Content Analysis

Content analysis of the open-ended items and interview forms revealed three main themes:

1. Self-Confidence Development and Anxiety Management: The opportunity to re-record was the primary factor in reducing anxiety. Framing errors as natural learning steps, students built confidence through self-paced home practice (S10: *"At first, I felt intense excitement and fear in front of the camera. However, being able to re-record the video by myself at home repeatedly was very helpful. I identified my mistakes, re-recorded the video, and my self-expression skills and self-confidence improved.")*

2. Identity Transformation as "Social Agents" and "Cultural Ambassadors": Functional language use shifted students from passive learners to active cultural representatives. Participants reported feeling empowered while showcasing Samarkand and bridging Uzbek-Turkish cultural connections (S13: *"Preparing a video as a cultural ambassador was not just an assignment for me; it became a vital mission. While explaining Samarkand and the brotherhood between the two states, I felt like a truly valuable and important person.")*

3. Cognitive Gains and Self-Regulation: Asynchronous video creation fostered autonomous learning. Awareness of a broader audience motivated students to use dictionaries, acquire vocabulary, and refine pronunciation during scriptwriting (S12: *"I thought about how the video would be watched by people in Türkiye, so I recorded it over and over again until I found the best, most flawless version. While writing the script, I looked up words in the dictionary, learned new vocabulary, and paid close attention to my pronunciation."*)

4. General Evaluation of Findings

Overall results demonstrate that iterative digital video creation optimizes communicative performance, lowers affective filters (Krashen, 1982), and strengthens self-efficacy. High scores in presentation skills (M = 3.84) alongside survey satisfaction empirically validate the value of digital task-based approaches in Teaching Turkish as a Foreign Language (TTFL).

5. CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

5.1. Conclusions

- Lowering Affective Filters: 90% of participants reported reduced speaking anxiety. The option to record and revise videos repeatedly created a psychologically safe space, confirming Krashen's (1982) Affective Filter Hypothesis.
- Enhanced Self-Efficacy and Self-Regulation: 94% of students noted gains in speaking confidence. Each attempt fostered mastery experiences (Bandura, 1977) and self-regulation, reflected in a high overall mean performance (M = 3.71).
- Adoption of the "Social Agent" Role: All students identified as "Social Agents." Aligned with the Action-Oriented Approach (CoE, 2020), language transitioned from a classroom exercise to a functional communication tool.
- Linguistic vs. Technical Focus: Achieving the highest score in Presentation and Interaction (M = 3.84) and the lowest in Technological Competence (M = 3.56) confirms that students prioritized linguistic output over technical video editing.

5.2. Recommendations

1. Curriculum: Asynchronous, iterative video tasks should be systematically integrated into language curricula using contextual, intercultural themes (e.g., "A Day in Samarkand").
2. Pedagogy: Instructors should favor iterative scaffolding—allowing self-paced corrections—over single-instance grading. Short technical guides or peer-support groups should assist students facing technological or anxiety barriers.
3. Future Research: Future longitudinal studies should examine the effects of iterative video creation across higher proficiency levels (B1–C1) and investigate how peer feedback influences grammatical accuracy over time.

REFERENCES

- Attwell, G. (2007). Personal Learning Environments: The future of education? Elearning Papers, 2(1), 1-8.
- Bandura, A. (1977). Self-efficacy: Toward a unifying theory of behavioral change. Psychological Review, 84(2), 191-215. https://doi.org/10.1037/0033-295X.84.2.191
- Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment – Companion volume. Council of Europe Publishing. https://www.coe.int/lang-cefr
- Horwitz, E. K., Horwitz, M. B., & Cope, J. (1986). Foreign language classroom anxiety. The Modern Language Journal, 70(2), 125-132. https://doi.org/10.1111/j.1540-4781.1986.tb05256.x
- Krashen, S. (1982). Principles and practice in second language acquisition. Pergamon Press.

TIL O‘RGANISH STRATEGIYALARI BO‘YICHA DASTLABKI TANQIDLAR: NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR TAHLILI

Umarova Nigora Amirjon qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti 2-kurs tayanch doktoranti
Telefon: +99890 3180789 Email: nirnazarova2991@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21902875

Annotatsiya. Til o‘rganish strategiyalari (Language Learning Strategies) ikkinchi va chet tillarini o‘rganish jarayonini tushuntirish va samaradorligini oshirish maqsadida keng o‘rganilgan muhim yo‘nalishlardan biridir. biroq, 1980-yillarga kelib, ushbu sohada bir qator nazariy va amaliy muammolar mavjudligi aniqlangan. Ushbu tadqiqot ishida til o‘rganish strategiyalari (keyingi o‘rinlarda TO‘S deb yuritiladi) bo‘yicha dastlabki tanqidlar tahlil qilinadi hamda strategiyalarni aniqlash, tasniflash va o‘qitish bilan bog‘liq muammolar yoritiladi. Tadqiqotchilar strategiyalar tushunchasining noaniqligi, ichki psixologik jarayonlarni o‘lchashdagi qiyinchiliklar, madaniy kontekstga moslashuv muammolarini ta’kidlab o‘tganlar. Maqola TO‘S nazariyasining rivojlanishidagi muhim tanqidiy bosqichni yoritadi hamda kelajakdagi tadqiqotlar uchun asosiy yo‘nalishlarni ko‘rsatib beradi.
Kalit so‘zlar: Til o‘rganish strategiyalari, til ta’limi, til o‘rganish nazariyasi, o‘quv strategiyalari, psixologik jarayon, empirik tadqiqot.

EARLY CRITICISM OF LANGUAGE LEARNING STRATEGIES: ANALYSIS OF THEORETICAL AND PRACTICAL PROBLEMS

Abstract. Language Learning Strategies represent one of the important areas widely studied in order to explain the process of learning second and foreign languages and to improve its effectiveness. However, by the 1980s, a number of theoretical and practical problems in this fielf had been identified. This research paper analyzes the early critisisms of Language Learning Strategies (hereinafter referred to as LLS) and highlights the problems related to the identification, classification, and teaching of these strategies. Researchers have emphasized the ambiguity of the concept of strategies, difficulties in measuring internal psychological processes, and challenges related to adaptation to different cultural contexts. This article sheds light on an important critical stage in the development of the theory of language learning strategies and outlines the main directions for future research.
Key words: Language Learning Strategies, language education, language learning theory, learning strategies, psychological processes, empirical research

РАННИЕ КРИТИЧЕСКИЕ ОЦЕНКИ СТРАТЕГИИ ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКА: АНАЛИЗ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ И ПРАКТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ

Аннотация. Стратегии изучения языка (Language Learning Strategies) предоставляют собой одно из важных направлений, широко изучаемых с целью объяснения процесса изучения второго и иностранного языков и повышения его эффективности. Однако к 1980-м годам было выявлено наличие ряд теоретических и практических проблем в данной области. В данной научной работе анализируются ранние критические взгляды на стратегии изучения языка (далее именуемые LLS) и освещаются проблемы, связанные с определением, классификаций и обучением данным стратегиям. Исследователи подчеркивали неопределенность понятия стратегий, трудности измерения внутренних психологических процессов, а также проблемы адаптации к различным культурным контекстам. Статья освещает важный критический этап в развитии теории стратегии изучения языка и определяет основные направления для будущих исследований.
Ключевые слова: стратегии изучения языка, языковые образование, теория изучения языка, учебные стратегии, психологические процессы, эмпирическое исследование.

Kirish. TO‘S ikkinchi va xorijiy til o‘rganish jarayonida talabalar tomonidan qo‘llanadigan ongli yoki yarim ongli harakatlar va usullarni ifodalaydi. Ushbu yo‘nalish 1970-yillarning oxiri va 1980-yillarning boshlarida katta qiziqish uyg‘otgan bo‘lib, ko‘plab tadqiqotchilar muvaffaqiyatli til o‘rganuvchilar qanday strategiyalardan foydalanishini aniqlashga harakat qilganlar. Biroq vaqt o‘tishi bilan

TO‘S nazariyasi va amaliyoti bilan bog‘liq muammolar yuzaga chiqa boshladi. 1980- yillarga kelib, bir qator olimlar ushbu sohada jiddiy nazariy va metodologik kamchiliklar mavjudligini aniqladilar. Ushbu tanqidlar TO‘S tushunchasini qayta ko‘rib chiqish, uning ilmiy asoslarini mustahkamlash va amaliy qo‘llanilishini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. *A.Cohen va E.Macaro* tadqiqotida turli tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan TO‘Sga oid dastlabki tanqidlar va ularga mos yechimlar jamlangan bo‘lib, ular quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan.[1.2007:B.17-20] (1-jadvalga qarang):

1-jadval. Til o‘rganuvchi strategiyalariga oid dastlabki tanqidlar va yechimlar

Tanqid yo‘nalishi	Asosiy tanqidlar	Tadqiqotchilar/Yillar	Kelgusidagi yechimlar/Tavsiyalar
Nazariy muammolar	- Ong jarayonlari yashirin; - Ichki va tashqi xatti-harakat orasidagi aloqaning kuchsizligi; - Strategiyalar mavhumligi.	H.Seliger (1983), R.Ellis (1986), E.Stevick (1990)	Strategiyalarni ongli jarayon deb hisoblash kerak (R.Oxford va A.Cohen, 1992); Strategiyalarni to‘plamda baholash
Atamalar chalkashligi	- “strategiya”, “taktika”, “jarayon” kabi so‘zlar bir-birini almashtirib ishlatilgan; Tasniflar o‘zaro bi-biriga zid.	R.Ellis (1986), R.Oxford (1990), A.Wenden (1987)	“Strategiya” va “taktika”ni qat’iy ajratmaslik; - Foydasiz tasniflardan qochish.
Empirik dalil yetishmas-ligi	- Strategiyalar muavaffaqiyat olib kelishini isbotlovchi empirik dalillarning kamligi	J.Rees-Miller (1993), G.Porte (1988)	Strategiyalarni testlashga asoslangan o‘qitish modelini yaratish (A.Chamot va J.Rubin, 1994)
Amaliy qiyinchiliklar	- O‘qituvchi strategiyani bevosita kuzata olmaydi; - Strategiyani o‘rgatish murakkab	J.Rees-Miller (1993)	- Faol strategiyalarni mustahkamlovchi o‘qitish modelini yaratish; Talabaning reflektiv tahlili
Kognitiv yetishmovchilik	Til o‘rganuvchi strategiyalari o‘quv nuqsoni bo‘lganlar uchun mos emas; - Ular noto‘g‘ri baholanadi.	R.Sparks va L.Ganshow (1993)	- Muammolarning aniq sabablarini aniqlash; - Individual yondashish

Demak, TO‘S bo‘yicha dastlabki tanqidlarning asosiy qismi nazariy va tushunchaviy muammolar bilan bog‘liq bo‘lgan. Tadqiqotchilar strategiyalarni aniqlash va o‘lchash jarayoni murakkab ekanini ta’kidladilar. *H.Seliger* fikriga ko‘ra, TO‘S ko‘pincha ichki va ong osti jarayon bo‘lib, ularni aniqlash yoki tasvirlash qiyin. *R.Ellis* TO‘Sni tasniflash tizimi mukammal psixologik asosga ega emasligini tan oldi va uni vaqtinchalik yechim sifatida baholadi. U TO‘S bilan bog‘liq bir necha muhim muammolarni ko‘rsatdi. Birinchidan, strategiya taktika va jarayon kabi atamalar ko‘pincha bir-biri bilan almashtirib ishlatilgan. Ikkinchidan, inson ongidagi jarayonlarni to‘liq tushunish qiyinligi sababli strategiyalarni aniqlash murakkablashadi. *R.Ellis* bu holatni “ko‘zni bog‘lab xonada yashirin buyumni izlash”ga o‘xshatgan. *E.Stevick* esa ushbu tanqidlarni yanada kengaytirib, TO‘Sning hajm va abstraktsiya muammosini ko‘rsatadi. Uning fikricha, ayrim strategiyalar juda umumiy yoki mavhum bo‘lib, ularni aniq o‘lchash qiyin. Bundan tashqari, tashqi xatti-harakatlar bilan ongdagi jarayonlar o‘rtasida aniq bog‘lanish mavjud emas. TO‘S faqat talabaning qilayotgan ishlarini emas, balki u o‘ylayotgan deb hisoblangan jarayonlarni ham o‘z ichiga oladi.

TO‘Sning amaliy qo‘llanishi ham tanqid ostiga olingan. *J.Rees-Miller* TO‘S haqidagi xabardorlik til o‘rganish muvaffaqiyatiga bevosita sabab bo‘lishini ko‘rsatadigan yetarli empirik dalillar mavjud amasligini ta’kidlaydi. U o‘quv vaqtining katta qismini strategiyalarni o‘rgatishga sarflash xavfli bo‘lishi mumkinligini qayd etdi. *R.Sparks* va *L.Ganshow* strategiyalar tushunchasi juda keng va aniqlikdan yiroq ekanini aytib, ayniqsa o‘rganishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan talabalar uchun bu yondashuv har doim ham foydali emasligini ta’kidladilar. Ularning fikriga ko‘ra, noaniq strategiyalar talabalarni noto‘g‘ri baholashga olib kelishi mumkin.

Tanqidlar avj olganiga qaramay, ayrim tadqiqotchilar ushbu muammolarni hal qilish yo‘llarini izlashga harakat qildilar. *R.Oksford* va *A.Cohen* TO‘S ongli ravishda qo‘llanilishi kerakligini ta’kidladilar. Ularning fikricha, bir nechta strategiyani birgalikda qo‘llash o‘rganish samaradorligini oshirishi mumkin.

Shuningdek, ular tadqiqotchilar nazariy muammolardan qochmasligi, balki ularni chuqur o‘rganib, ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqishi zarurligini qayd etdilar.

Xulosa. TO‘S bo‘yicha dastlabki tadqiqotlar til ta’limi sohasida muhim o‘rin egallagan bo‘lsada, ushbu yo‘nalish bir qator nazariy va amaliy muammolar bilan yuzlashgan. Strategiya tushunchasining aniq ta’rifi mavjud emasligi, ichki psixologik jarayonlarni o‘lchasdagi qiyinchiliklar, madaniy kontekstga moslashuv muammolari va empirik dalillarning yetishmasligi ushbu sohaning asosiy muammolari hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar ongli ravishda qo‘llash va ularni samarali kombinatsiyalash orqali til o‘rganish jarayonini yanada rivojlantirish mumkinligini ko‘rsatmoqda. Kelajakdagi tadqiqotlar TO‘Sni aniqlash, tasniflash va ularni o‘qitish metodikasini yanada takomillashtirishga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Cohen, A.D. and Macaro, E. (2007) Language learner strategies: Thirty years of research and practice, Oxford University Press, 348p. p.p.17-20
2. Cohen, A.D. and Weaver S.J. (2005) Styles and strategies-based Instruction: A teachers’ guide, University of Minnesota, CARLA working paper series, 178p.
5. Александрова А.Ю. Туристские кластеры: содержание, границы, механизм функционирования // Современные проблемы сервиса и туризма. – 2007. – №1. – С. 51-61.

6. Porter M.E. The Adam Smith Address: Location, Clusters, and the “New” Microeconomics of Competition // Business Economics. – 1998. – Vol. 33, No. 1. – P. 7-13.

7. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 332 b.

SKUTER POREYONIMLARINING NOMINATSION XUSUSIYATLARI VA LINGVISTIK TAHLILI

Muhammadaliyev Mirzohid Nosirjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: bekhmirzokhid27@mail.ru
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21903168

Annotatsiya. Mazkur maqolada skuter poreyonimlarining nominatsion xususiyatlari hamda ularning leksik-semantik jihatlari tahlil qilinadi. Skuter poreyonimlarining shakllanish tamoyillari va asosiy nominatsion modellari yoritilib, ularning transport onomastikasidagi o‘rni aniqlanadi.
Kalit so‘zlar: *skuter poreyonimi, poreyonim, nominatsiya, leksik-semantik xususiyat, transport onomastikasi, nomlash tamoyillari, onomastik birlik.*
Аннотация. В данной статье анализируются номинативные особенности скутерных порейонимов и их лексико-семантические характеристики. Рассматриваются принципы формирования названий скутеров и основные номинативные модели, а также определяется их место в транспортной ономастике.
Ключевые слова: *скутерный порейоним, порейоним, номинация, лексико-семантические особенности, транспортная ономастика, принципы наименования, ономастическая единица.*
Abstract. This article analyzes the nominative features and lexical-semantic characteristics of scooter poreionyms. It examines the principles of scooter name formation and the main nominative models, and identifies their role in transport onomastics.
Keywords: *scooter poreionym, poreionym, nomination, lexical-semantic characteristics, transport onomastics, naming principles, onomastic unit.*

Transport onomastikasida poreyonimlarni tadqiq etish transport poreyonimlarining nominatsion va semantik xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Skuter poreyonimlari texnologik rivojlanish, brending va marketing omillari ta'sirida shakllanadigan o'ziga xos onomastik birliklar hisoblanadi. Mazkur maqolada skuter poreyonimlarining nomlanish tamoyillari hamda ularning leksik-semantik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Skuter [ing. scooter – samokat < scoot – ketmoq; yurmoq] 1 Elektr toki yordamida harakatlanadigan ikki g‘ildirakli kichik mototsikl; moped [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 6-jildli, 4-jild. – Toshkent:G‘afur G‘ulom nomidagi nashiryot-matbaa ijodiy uyi, 2023, 687-bet.]. “Scooter” so‘zi “scoot” fe’lidan kelib chiqqan bo‘lib, u tez harakat qilish degan ma’noni anglatadi. “Scoot” – bu so‘z 18-asr boshlarida (taxminan 1730-yilda) paydo bo‘lgan bo‘lib, ehtimol shotland tilidan olingan. U tez yurish, chaqqonlik bilan harakat qilish degan ma’noni bildiradi. “Scooter” – bu so‘z “scoot” so‘ziga -er qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil bo‘lgan. Ya’ni, tez harakat qiluvchi narsa yoki hrakatga yordam beruvchi moslama degan ma’noni bildiradi. “Scooter” so‘zi dastlab 20-asr boshlarida bolalar o‘yinchoqlari – oyoq bilan itarib harakatlantiriladigan, rul va g‘ildiraklarga ega kichik platformani ifodalash uchun ishlatilgan.

1900-yillar boshlarida “scooter” so‘zi bolalar uchun mo‘ljallangan oyoq bilan itariladigan skuterga nisbatan ishlatilgan. Hozirgi kunda “scooter” so‘zi ikkala – ham oddiy oyoq bilan harakatlantiriladigan, ham elektr skuterlarga nisbatan qo‘llaniladi, ayniqsa shaharlarda foydalaniladi [https://www.etymonline.com/word/scooter].

Skuter poreyonimlari nominatsion xususiyatlariga ko‘ra quydagi turlarga ajratiladi:

1. Akronimlar asosida shakllangan skuter poreyonimlari. Akronim – bu bir nechta so‘zlarni qisqartirib, yangi so‘z (nom) hosil qilish usuli.

Honda PCX (125/160/150 e:HEV) – Personal Comfort Xaloon (PCX). “Shaxsiy qulaylik”, “sportiv nafislik” g‘oyalarini ifodalaydi.

Honda ADV (160/350) – adventure (ADV). Tog‘lar, yo‘lsiz yo‘llar, sarguzashtga mo‘ljallangan transport g‘oyasini bildiradi.

Hero XOOM – akronim sifatida talqin qilinadi: ba’zida XOOM = eXtreme Zoom or Motion deb reklama qilinadi. Yoshlar uchun mo‘ljallangan zamonaviy, tezkor skuter.

TVS Ntorq – Ntorq – Next Torque (Yangi aylanish moment). Texnik jihatdan kuchli skuter konsepsiyasini bildiradi.

Yamaha FASCINO – rasmiy akronim sifatida emas, ammo ba’zi reklama manbalarida “Fascino” – fashion +innovation deb talqin qilinadi va zamonaviy dizayn hamda innovatsion texnologiyalay uyg‘unligini ifodalaydi.

Akronimlar asosida shakllangan skuter poreyonimlari ixchamligi, esda qoluvchanligi va marketing samaradorligi bilan ajralib turadi. Ular transport vositalarining funksional xususiyatlarini qisqa shaklda ifodalaydi.

2. Eponim – bu biror shaxs yoki joy nomi asosida yaratilgan nomdir. Eponim – transport markalari yoki modellari bo‘lib, ular asoschilarining va mashhur shaxslarning ism/familiyasidan olingan. Bular antroponimik eponimlar deb ataladi. Antroponik (shaxs nomlari) eponimlar bilan atalgan skuter nomlari.

Bajaj Chetak – Hindistonlik hukmdor Maharana Pratapning afsonaviy oti “Chetak” nomi bilan atalgan, sadoqat va jasorat ramzini ifodalaydi.

Peugeot Django – fransuz jazz gitarachisi Django Reinhardt sharafiga nomlangan.

Lambretti V-Special “Pirelli Edition” – Pirelli - bu kompaniya nomi bo‘lsa-da, aslida asoschisi Giovanni Battista Pirelli bo‘lgan. Shaxs asos solgan brend orqali modelni shaxsga bog‘lanish mavjud.

Peugeot Django – Django Reinhardt – mashhur fransuz jazz gitara ijrochisi. Skuterning retro dizayni 1950-yillar uslubida yaratilgan, Django Reinhardt davrida san’at va madaniyatni ifodalaydi.

Vespa 946 Emporio Armani – italiyalik mashhur dizayner Giorgio Armani bilan hamkorlikda ishlab chiqarilgan ushbu model Vespa brendining yuqori dizayn va texnologiyalarini ko‘rsatadi.

Eponim asosidagi skuter poreyonimlari tarixiy shaxslar, brend asoschilari yoki mashhur nomlar bilan bog‘lanib, mahsulotning nufuzi va tarixiy qadiryatini oshirishga xizmat qiladi.

3.Gidronimlar (suv obyektlari va inshootlari nomlari) bilan atalgan skuter nomlari.

Suzuki Marine – Marine – dengizga oid. Bu nom dengiz, suv muhiti va ekologik hayot tarziga ishora qiladi.

Vespa Lagoon – Lagoon – ichki dengiz yoki ko‘l. “Lagoon” – sokin, chiroyli suv havzasini bildiradi. Modelning yumshoq dizayni va sukunatga urg‘u shu nomga mos keladi.

Yamaha Aqua – Aqua – lotincha “suv” degani, keng talqinda suv bilan bog‘liq barcha holatlarni ifodalaydi. Skuter ekologik jihatdan toza, suvga yaqin dizayn bilan ishlab chiqarilgan.

Gidronim asosidagi poreyonimlar mahsulotda xotirjamlik va tabiiy obraz yaratadi hamda marketingda ramziy vosita sifatida qo‘llaniladi.

4. Kommersial (savdo) nom – bu mahsulot yoki texnika bozorga chiqarishda marketing va brend strategiyasiga asoslanib qo‘yilgan nomlar. Marketing maqsadida yaratilgan skuter poreyonimlari.

BONVI – elektr mototsikllarni ishlab chiqaruvchi brend. Bu nom aniq ma’noga ega emas, marketing maqsadida tanlangan. BONVI – O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi mahalliy brend. Bon – fransuz tilida “yaxshi” degan ma’no beradi. VI – lotin yoki italyancha “hayot” yoki “sayohat” so‘zlaridan kelgan bo‘lishi mumkin (ya’ni yaxshi sayohat). “Bonvi” – bu “yaxshi hayot” yoki “yoqimli harakat”, “yo‘l zavqi” kabi ijobiy, harakatchanlikni anglatuvchi nom sifatida talqin qilinadi. Marketingda katta harflar chiroyli ko‘ringani uchun shunday yozilgan.Modellari: Bonvi 2210, BONVI CKT-5917, BONVI CKT-5678, BONVI 5473.

Bodo – skuter va mototsikllarni ishlab chiqaruvchi Xitoy brend. Bu nom aniq bir ma’noga ega emas. Xitoy brendlari ko‘pincha bunday nomlarni tijorat va marketing maqsadida yaratadilar, Bodo ham turli tillarda oson talaffuz qilinadi va o‘ziga jalb qiladi.

Yadea – elektr skuterlar ishlab chiqaruvchi brend. “Ya” – oson esda qolishi uchun , marketing maqsadida tanlangan. “Dea” – yunon tilidan olingan bo‘lib, “xudoning onasi” yoki “ilohiy” ma’nosini anglatadi. Bu nom brendning zamonaviy va ishonchli imijini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kommersial poreyonimlar mahsulotni bozorda ajratib ko‘rsatish, xaridor e’tiborini jalb etish va brend imijini shakllantirish vazifasini bajaradi.

5. Metafora asosida shakllangan skuter poreyonimlari.

Armada motors (elektr skuterlar) – “Armada” so‘zi ispan tilidan kirib kelgan bo‘lib, dastlab harbiy flot, kemalar to‘plami degan ma’noni bildiradi. Lotincha “armare” – “qurollantirmoq” fe’lidan kelib chiqqan. Kuch, harbiy tayyorgarlik, jiddiylik va jamoaviy harakat obrazini uyg‘otadi. “Armada” nomi yirik, bardoshli, yo‘l tanlamaydigan harbiy uslubdagi dizayn, ko‘proq erkaklar auditoriyasiga yo‘naltirilgan skuterlar.

Aprilia SR Motard 125/160 – “motard” so‘zi tog‘ yo‘llarida harakatlanadigan skuterlarga taalluqli.Bu nom sport, shiddat, kuch, jasorat va ekstremal harakat kabi ramziy ma’nolarni beradi. Tog‘li hududlar uchun moslashtirilgan sportiv skuter; kuchli shassi va barqaror yurishi bilan ajralib turadi.

Aprilla Scarabeo – Scarabeo – italyanchada “skarabeo qo‘ng‘izi”. Skarabeo qadimgi Misrdagi muqaddas, kuchli va uzoq umr timsoli bo‘lgan. Skuter esa ishonchlilik, mustahkamlik va o‘ziga xoslik metaforasi bilan nomlangan.

Honda Vision – vision – “tasavvur”, “kelajak qarashi”, “orzu”. Skuter nomi kelajakka qaragan, zamonaviy, ilg‘or texnologiyali transport vositasini anglatadi. Metaforik jihatdan, haydovchi o‘z yo‘lini oldindan ko‘ra oladigan, maqsadli inson deb tasvirlanadi.

Kymco Agility – Agility – “epchillik”, “tezlik harakatlanish qobiliyati”. Bu nom epchillik, yengil harakat va shahar ko‘chalarida tez manevr qilish imkoniyatini beradi. Metafora – shahar yo‘llarida yo‘l topa oladigan chaqqon vosita.

Peugeot Speedfight – speed – “tezlik”, Fight – “kurash”. Bu nom orqali sportiv ruh, tezlik uchun raqobat va harakatga chanqoqlikni ifodalaydi. Skuter tezlikni sevuvchilar uchun yaratilgan.

Piaggio Typhoon – “typhoon” (dovul) – tabiat kuchi. Dovul obrazidagi kuch va tezlik hayvoniy kuchga tenglashtirilgan metaforadir.

SYM Joyride – Joyride – inglizcha ibora bo‘lib, “zavqli sayr” degani. Bu nom orqali skuter haydashi quvonchli, yengillik va maqsadsiz sayrdek yoqimli tajriba sifatida tasvirlanadi. “Sayohat bu – zavq” degan metafora asosida.

Vespa Liberty – “liberty ”– ingliz tilida “erkinlik” degani. Bu nom insonlarga harakatdagi ozodlik, cheklovlarsiz hayot tarzini eslatadi. Skuter shaharda mustaqil harakatlanish vositasi sifatida, erkinlik metaforasi bilan bog‘langan.

Velomax – “velo” lotin tilidagi “velox” (tez, chaqqon) so‘zidan kelib chiqqan. Ko‘p tillarda “velo” so‘zi velosipedga oid barcha narsalarga ishora qiladi. “Max” – “maksimal” yoki “eng yuqori” degani. Ingliz tilidagi “maximum” so‘zining qisqartmasi. Velomax –“ eng yuqori tezlikdagi harakat vositasi” degan ma’noni anglatadi. Bu nom tezlik, kuch, harakatchanlik va sport ruhini bildiruvchi obraz yaratadi.O‘zbekiston, Rossiya, Qozog‘iston bozorlarida keng tarqalgan.Modellari: W7 Velomax, 60V/20Ah.

Yamaha BWs (Big Wheel Scooter) – “Bws” nomi marketingda “bleast” (yovvoyi hayvon) obraziga ishora qilingan. Qattiq tuzilishi, noteks yo‘llar uchun mo‘ljallangan. Hayvoniy kuch, yovvoyi tabiat obrazi orqali modelning mustahkamligi hamda yo‘ltanlamas xususiyati ifodalanadi.

Metaforik poreyonimlar skuterning texnik xususiyatlaridan tashqari tezlik, erkinlik, kuch va zamonaviylik kabi ramziy ma’nolarni ifodalaydi.

Zoonim (hayvon nomlari) asosida shakllangan skuter poreyonimlari.

Ko‘plab skuterlarni nomlashda hayvonning xususiyatlariga (tezlik, kuch, epchillik va boshqa) ishora qiladi – bu metaforik va brend ko‘rinishini kuchaytiradi.

Italjet Dragster – Dragster o‘zi poyga vositasi, ammo modelda ko‘pincha ajdarho (dragon) dizayni yoki shiori ishlatiladi. Dragster dizaynida ajdarhoga o‘xshatish mavjud, kuchli va agressiv metafora yaratadi. Bu “fantastik hayvon” asosidagi nomlashga yaqin.

Kymco Super 8 R “Panther Edition” – panther – qora leopard. Maxsus dizayn seriyasida ishlatilgan. Panther – kuch, jim harakati va hujumkorlik timsoli sifatida. Sportiv, kuchli va agressiv harakatga urg‘u beradi.

Peugeot Kisbee – Kisbee nomining aniq hayvon bilan bog‘liqligi yo‘q, ammo model reklama materialida tez-tez chaqqon qushlar (masalan, swift) bilan taqqoslanadi. Qush obrazidagi metafora – yengillik va epchillikni anglatadi.

SYM Wolf – wolf-bo‘ri. Mustaqillik, kuch va yo‘ldan cheklanmaslik ramzi sifatida. Bo‘ri - yolg‘iz yuruvchi, kuchli va o‘z yo‘lini tanlaydigan hayvon.

Vespa – italyanchada “ari” degan ma’noni anglatadi. Skuterning old dizayni va motor tovushi ari shiviriga oxshagani uchun shunday nomlangan. Ari – chaqqon, kichik, lekin faol. Shahar ichda tez va epchil harakatni ifodalaydi.

Ornitonim (qush nomlari) asosida shakllangan skuter poreyonimlari.

Drongo – bu brend O‘zbekistonda keng tarqalgan. Afrika va Osiyo hududlarida uchraydigan qush turining nomi (dicruridae – lot. ekzotik qush). “Drongo” poreyonimi skuter uchun tezlik, chaqqonlik, moslashuvchanlik va shahar sharoitida erkin harakat tushunchasini uyg‘otadi. Qush obrazining qo‘llanishi bu transportni yengil va epchil deb tasavvur qilishga yordam beradi [https://www.iucnredlist.org/species].

Zoonim va ornitonimlar asosidagi poreyonimlar hayvon va qushlarning tabiiy xususiyatlarini skuter obraziga ko‘chirib, uning epchilligi, tezligi va harakatchanligini ifodalaydi.

6. Numeronim (raqamlar) asosida nomlangan skuter nomlari. Bu raqamlar odatda dvigatel hajmi, model kuchi yoki seriyasini bildiradi.

Aprilia SR 160 – 160 dvigatel hajmini bildiradi. O‘rta oralig‘da bo‘lgan sportiv model.

Honda Dio 110 – 110 cc dvigatel hajmini bildiradi. Kichik hajmli shahar ichida yengil harakatga mo‘ljallangan skuter.

Hero Destini 125 – 125 cc hajmli shahar uchun avtomatik skuter. Oila uchun qulay, ishonchli model.

Kymco Like 150i – dvigatel hajmi 150 cc, “i” - yonilg‘i tizimi. Retro dizayndagi zamonaviy, kuchli shahar skuteri.

Piaggio Liberty 125/150 - 125, 150 cc hajmdagi dvigatel. Erkinlik (liberty) go‘yasini kuch bilan uyg‘unlashtirgan.

Suzuki Access 125 – 125 cc hajmli dvigatel. Kundalik foydalanish uchun oddiy va qulay skuter.

SYM Jet 14 125/200 – 125, 200 cc hajmdagi dvigatel. Sportive ko‘rinishli, o‘rta kuchdagi skuter.

TVS Ntorq 125 - dvigatel hajmi 125 kub santimetr. Yoshlar uchun mo‘ljallangan sportiv ko‘rinishli skuter.

Vespa Primavera 150 – klassik Vespa modeli, 150 cc hajmga ega. Retro uslubida, ammo kuchli va zamonaviy skuter.

Yamaha Ray ZR 125 - dvigatel hajmi 125. Yengil, ammo kuchli shahar skuteri.

Nimeronimlar skuter modelining texnik ko‘rsatkichlarini ifodalash bilan birga, ularni o‘zaro farqlashning muhim nominativ vositasi hisoblanadi.

7. Skuter topoporeyonimlar – toponim (joy nomlari) bilan atalgan skuter poreyonimlari.

Kymco Like 50 NYC Edition – “NYC” – New York City, AQSHning eng mashhur shahri. “NYC Edition” – tezkorlik, energiya, zamonaviylik va shahar hayotini ifodalaydi. Bu nom orqali shahar ichida harakatlanish uchun qulay model yaratilganini anglatadi.

Lambretta V-Special Rome Edition – “Rome” – Italiya poytaxti, qadimiy tarix va madaniyat markazi. Bu nom skuterga jiddiylik, tarixiylik va italyan merosiga sadoqat ruhini beradi.

SYM Firenze (Florence) – “Frinze” – italyan tilida Florence, madaniyat va san’at markazi. Bu nom nafislik va estetik qadriyatlarni anglatadi. Skuter modeli nafis dizayn va yumshoqlik bilan ajralib turadi.

Peugeot Django Paris – “Paris” – Fransiyaning poytaxti, san’at va uslub markazi. “Django” modelining “Paris” versiyasi retro va romantic uslubni anglatadi.

Vespa Milano – “Milano” Italiyaning shimolidagi mashhur moda markazi. Bu nom orqali Vespa brendi o‘zining italyancha nafisligi, zamonaviylik dizayni va shahar hayoti uslubini ta’kidlaydi. “Milano” brend uchun uslub va murakkablik ramzi sifatida ishlatiladi.

Vespa Primavera – “Primavera” italyan tilida “bahor” degan ma’noni anglatadi, lekin Italiyaning ayrim joy nomlarida ham uchraydi.

Yamaha Neo’s (Paris, Tokyo versiyasi) – “Paris”, “Tokyo” – jahonning mashhur shaharlari. Bu nomlar skuterning zamonaviylik, shahar hayotiga mos, texnologik va tez harakatlanuvchi transport vositasi ekanligini bildiradi. Paris – romantik va klassik, Tokyo – futuristik va texnologik.

Oronimlar (tog‘ nomlari) bilan nomlangan skuter nomi. Bunday nomlar odatda kuch, barqarorlik, balandlik yoki tabiiy mustaqillik kabi tushunchalarni ifodalaydi.

Yamaha Zuma 125 – “Zuma” Kaliforniyadagi Zuma tog‘i va plyaji nomidan olingan. (Zuma Beach). Bu model o‘zining sarguzashtbop ko‘rinishi bilan ko‘proq tog‘li va yo‘lsiz joylarda harakat qilishga moslashtirilgan. Bu nom modelning sarguzashtga yo‘naltirilgan xarakterini va tabiiy landshaftlarga mosligini ifodalaydi.

Skuter poreyonimlari asosan akronim, eponim, metafora, toponim, zoonim, ornitonim, numeronim va kommersial nomlash usullari asosida shakllanadi. Ularning nominatsiyasida texnik xususiyat, marketing strategiyasi hamda ramziy ma'no muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Superanskaya A. V. Obshchaya teoriya imeni sobstvennogo. Moskva: Nauka, 973.
2. Podolskaya N. V. Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii. Moskva: Nauka, 1988.
3. Ernazarov T., Begmatov E. O'zbek onomastikasi asoslari. Toshkent: Fan, 2012.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 4-jild. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023

ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕАЛИЙ В ПРОИЗВЕДЕНИИ И ИХ СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ В ПЕРЕВОДЕ

Ахунбабаева Наргиза Хамиджановна
Наманганский государственный технический университет Докторант 3 курса
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21903224

Аннотация. Основной целью данного научного исследования является прагматический анализ произведения «Tamburlaine the conqueror» и выявление соотношений и различий между оригиналом и художественным переводом. В данном научном исследовании были использованы методы сопоставительного, лингвопрагматического, историко-диахронического и системного анализов. В статье рассмотрены примеры использования реалий в произведении «Tamburlaine the conqueror» и вместе с этим произведено сравнительно-прагматическое изучение перевода этих реалий на русском и узбекском языках. В результате, были выявлены адекватные и ошибочные использование реалий, как в оригинале, так и в переводных текстах. Вывод даётся в конце статьи.
Ключевые слова: реалия, прагматика, оригинал, анализ, произведение, сравнительный, язык, выявление, соотношение, художественный.

Annotatsiya. Mazku ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadi – «Tamburlaine the Conqueror» asarini pragmatik tahlil qilish hamda original va badiiy tarjima o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashdan iborat. Ushbu ilmiy tadqiqotda qiyosiy, lingvopragmatik, tarixiy-diaxronik va tizimli tahlil usullari qo‘llanildi. Maqolada «Tamburlaine the Conqueror» asarida realiyalar ishlatilishiga oid misollar ko‘rib chiqilib, ushbu realiyalarning rus va o‘zbek tillaridagi tarjimalarining qiyosiy-pragmatik o‘rganilishi amalga oshirildi. Natijada, realiyalarning original va tarjima matnlardagi adekvat hamda noto‘g‘ri ishlatilishi aniqlangan. Xulosa maqola yakunida berilgan.
Kalit so’zlar. realiya, pragmatika, original, tahlil, asar, qiyosiy, til, aniqlash, mutanosiblik, badiiy.

Annotation: The main objective of this scientific study is the pragmatic analysis of the book *Tamburlaine the Conqueror* and the identification of correlations and differences between the original text and its translations. The methods of comparative, linguo-pragmatic, historical-diachronic, and systemic analysis are used in the research. The article examines examples of the use of realia in *Tamburlaine the Conqueror* and conducts a comparative-pragmatic study of the translation of these realia into Russian and Uzbek. As a result, both adequate and erroneous uses of realia were identified in the original text as well as in the translated versions. The conclusion is presented at the end of the article.
Key words: realia, pragmatics, original, analysis, work, comparative, language, identification, correlation, literary.

Согласно С.Влахову и С.Флорину реалии относятся к без эквивалентной или труднопереводимой лексике, перевод которых требует немалого труда даже от самого искусного мастера слова. “Слово «реалия» - латинское прилагательное среднего рода множественного числа (realis, - e, мн. realia – «вещественный», «действительный»), превратившийся под влиянием аналогичных лексических категорий в существительное” [1. 2006: С.20]. Именно реалии отражают в себе особенности культуры и обычаев того народа, на языке которого она произошла. Следовательно, прежде чем перевести реалию, её сначала необходимо распознать, а для этого переводчик должен не только искусно владеть ИЯ и ПЯ, но он также должен быть хорошо осведомлён о культуре, традициях, обычаях и истории народа, о котором идёт речь в произведении. Целью данного научного исследования является прагматический анализ произведения «Tamburlaine the conqueror» и выявление соотношений и различий как употребления реалий в оригинале, так и их соответствующие переводы.

Объектом для научного анализа художественного перевода с точки зрения сопоставительной лингвопрагматики были выбраны произведение английской писательницы Хилды Хукхэм и его переводы на узбекском и русском языках. На узбекском языке произведение было переведено Хасаном Турабековым и Шерали Сокином, на русском языке перевод был осуществлён узбекским историком, профессором и доктором исторических наук Гогой Абраровичем Хидоятовым.

Рассмотрим пример не только использования восточных реалий, но и случай с их заменой на европейские: “The khan fled, abandoning his kingdom to save his life” [2. 1962: С.89]. *Хан бежал,*

оставив своё королевство, чтобы спасти свою жизнь (курсив наш А.Н.) Здесь речь идёт о Могулистане и его хане Хизр-ходжи. Как мы видим, в подлиннике адекватно используется восточная реалия khan посредством транслитерации, что означает *хан/хон*, эта лексема является восточной/региональной реалией, так как этот титул возник в Центральной Азии, у тюрко-монгольских народов. Он использовался в Монгольской империи, Золотой Орде, Хивинском, Кокандском и других ханствах. Согласно классификации реалий Влахова С. лексема *хан* относится к общественно-политическим реалиям [1. 2006: С.69]. Но далее идёт слово kingdom, которое переводится как королевство. *Kingdom* произошло от слова *king*, то есть *король*. Лексема *Kingdom* происходит из старо Саксонского *kuningdom.* Kingdom-come – «загробный мир, потусторонняя жизнь» (1785), происходит из *Отче наш*, где это архаичная форма простого сослагательного наклонения («да придет Царствие Твое») в отношении духовного правления Бога или Христа [7]. Из всего вышесказанного следует вывод что лексема *kingdom* это европейская реалия. Здесь мы видим случай с родовидовой заменой реалий, в результате чего произошла потеря колорита, а именно национального/восточного колорита. А это значить, что хан не может управлять королевством, он может управлять только ханством. Мы считаем, что правильнее было бы здесь передать слово *ханство* посредством метода транслитерации, то есть как *khanate*. В процессе изучения подлинника произведения мы не раз убеждались в том, что автор не только скрупулёзно изучала историю Средней Азии, её традиции и обычаи, но она владела неплохо и узбекским языком, так как часто давала переводы географических местностей, или просто ключевых фраз, которые она использовала в своей книге. Но местами в своём произведении она использует европейские реалии, так как с точки зрения прагматического намерения автора, её книга в первую очередь предназначалась именно для западного читателя, и для того чтобы ему было легче воспринимать и понимать информацию автор использует естественные для западной аудитории реалии. А теперь, рассмотрим узбекский вариант перевода: “Хон ўзининг саройини, ҳарамини ташлаб қочди” [3.1999: С.84]. Здесь мы видим лексемы саройини и ҳарамини через которые переводчик передаёт значение слова kingdom. *Сарой* — 1. изначально — роскошное и величественное здание, дворец, служивший резиденцией правителей (хана, шаха, эмира и др.). Впоследствии это название стали получать различные богато украшенные здания с просторными дворами. 2. в Средние века на Востоке — караван-сарай, место остановки караванов. *Ҳарам* (*араб. «запретная территория»*) — 1. у мусульман — священное место, где запрещены кровопролитие и ношение оружия (например, территория вокруг Каабы). 2. в мусульманских странах — часть дома правителя, вельможи или богача, предназначенная для проживания женщин. В переносном смысле — жёны и наложницы владельца дома [https://qomus.info/encyclopedia]. Дело в том, что автор под словом kingdom имела ввиду ханство в целом. То есть государство, управляемое ханом. Но переводчики на узбекском языке используют лексические единицы, не означающие форму государственного образования. Они дают более узкие понятия означающие дворец, то есть территорию, год он проживал со своей семьёй и свитой. В этом контексте мы считаем уместным использование реалии *хонлик*, так как логически оно уместно при адекватном переводе. Русский вариант перевода получился эквивалентным подлиннику: “Хан бежал, оставив своё царство” [4. 1994: С.87]. Как мы видим, слово kingdom наш мастер слова переводит в эквивалентном порядке как царство. Человек, хорошо осведомлённый в истории царской России, понимает, что слово *царство* происходит от древне-русск. *цьсарь* [9]. Лексема *царь* «властитель, государь» относится к общественно-политическим реалиям [1.2006: С.69], но особенно характерна для Руси. Следовательно, русский перевод был сделан эквивалентным образом, но с потерей восточного колорита. С целью сохранения национального и исторического колорита, в русском переводе мы считаем целесообразным использование национальной реалии *ханство*.

Рассмотрим очередной пример ошибочного использования реалии со стороны автора: “He found a time, moreover, to order the construction of a shrine at Yasi (now the town of Turkestan) on the banks of the Sir-Darya in honor of the tomb of the twelfth century Turkish shaykh Ahmad Yasavi” [1. 1962: С.90]. Что в эквивалентном переводе звучит, таким образом, *Более того, он нашел время, чтобы приказать построить храм в Ясы (ныне Туркестан) на берегу Сырдарьи в честь могилы турецкого шейха XII века Ахмада Ясави. (Курсив наш. А.Н.).* Здесь интересно будет обратить внимание на лексему Turkish, что означает всё то, что относится к Турции, её народу и языку [10] и исторически всё то, что связано с Оттоманской империей [11], территория которой как мы знаем, не охватывала Среднюю Азию. Что касается *Ахмада Ясави, а именно* Ходжа Ахме́да Ясави́, в народе

известного как *Хазре́т Султа́н*, то он родился в 1103, Сайрам (современный Казахстан) — и умер в 1166, Туркестан — являлся среднеазиатским философом, исламский проповедником и суфийскийм поэтом [9], Из этого следует, что он никак не мог быть *турецким* шейхом. Автор путает турецкую реалию Turkish (в данном контексте используется как культурно-этническая характеристика) с реалией *Turkic*, которая в переводе с английского имеет значение *тюркский* [11] или означает все тюркские народы и языки, включая турок, казахов, узбеков, кыргызов, татар и другие [10]. Путаница здесь произошла по той причине, что вышеназванные слова являются паронимами. Они похожи по звучанию и написанию, но имеют разные значения. Так как Ахмад Ясави принадлежал тюркским народам, то мы считаем, что с точки зрения этнолингвистики правильно здесь было бы использование реалии "Turkic" (тюркский), так как Ахмад Ясави был тюрком, но не турком. Наши мастера слова, как на узбекском, так и на русском языках, спешат исправить эту ошибку автора адекватным образом: “Бу ерда у, айни замонда, Сирдарьё соҳилларида жойлашган Яссида улуғ туркий шайх Аҳмад Яссавий қабри устида мақбара қуриш ишлари билан ҳам шуғулланганди” [3. 1999:С.85]. “Он занимался здесь также строительством храма в Яси на берегах Сырдарьи в честь тюркского шейха Ахмада Ясави” [4. 1994:С.88]. Но мы отметили здесь единственное упущение переводчиков на обоих языках. Они опускают фразу (now the town of Turkestan), что означает *(ныне Туркестан)*.

Из вышеперечисленных умозаключений, основанных на проведённых прагматических анализах, мы сделали вывод, что перевод реалий может стать «камнем преткновения» для любого, даже самого искусного мастера слова. А это значить, что будь то автор, который пишет книгу о стране и его народе, или переводчик, который взялся переводить такого рода произведение, они оба должны, прежде чем приступить к своей работе, изучить историю, культуру, традиции и обычаи данной страны и её народа. Они должны неоднократно посетить рассматриваемую страну и прожить в ней определённое время, чтобы хорошо ознакомиться с бытом и культурой её народа, так как именно реалии отражают в себе особенности культуры и обычаев того народа, на языке которого она произошла.

Использованная литература

1. С.И.Влахов, С.П.Флорин, Непереводимое в переводе. Издание третье. – М.: Р. Валент, 2006. – 447 б.
2. Hilda Hookham. Tamburlaine the conqueror. London: Hodder and Stoughton, 1962. – 344 б.
3. Ҳильда Ҳукҳэм. Етти иқлим султони: Ҳужжатли-тарихий қисса/Пер. С рус./. – Т.: Адолат, 1999. – 320 б.
4. Хилда Хукхэм. Властитель семи созвездий: Док. – ист.повесть / / Пер. с англ. Г.Хидоятова /. – Т.: Адолат, 1994. – 320 б.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати III. – Т.: Университет, 2009. – 283 б.
6. Раҳматуллаев. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Т.: Университет, 2000. – 532 б.
7. https://www.etymonline.com.
8. https://qomus.info/encyclopedia.
9. https://ru.wiktionary.org.
10. https://dictionary.cambridge.org.
11. ABBYY Lingvo x3, Electronic Dictionary.

PIRLS BAHOLASH DASTURI DOIRASIDA O‘QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Eshonkulova Hilola Rajab qizi
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21903284

Annotatsiya. Ushbu maqolada PIRLS xalqaro baholash tadqiqoti, unda yurtimizning ilk bor ishtiroki hamda Singapurning PIRLS tadqiqoti yaxshi ko‘rsatgich qayd etish omillari haqida bayon etilgan.
Kalit so‘zlar. PIRLS, o‘qish savodxonligi, o‘qib tushunish, Singapur.
Аннотация. В статье описывается международное исследование PIRLS, первое участие в нем нашей страны и факторы, которые привели к хорошим результатам Сингапура в исследовании PIRLS.
Ключие слова. Ключевые слова. PIRLS, грамотность чтения, понимание прочитанного, Сингапур.
Annotation. This article describes the PIRLS international assessment reasearch, our country's first participation in it, and the factors that led to Singapore's good performance in the PIRLS study.
Keywords. Keywords: PIRLS, reading literacy, reading comprehension, Singapore

Har bir zamon, davrning o‘z sohalari uchun yangilanishlari, evrilishlari shu sohaning va yondosh sohalarning yanada ham rivojini ta’minlaydi. Ta’lim sohasidagi yuksalish boshqa sohalarning o‘sishi uchun asos vazifasini o‘taydi. Ta’limdagi olib borayotgan yo‘limiz qanchalik to‘g‘ri muvofiqligini aniqlash uchun xalqaro baholash dasturlariga ehtiyoj paydo bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori qabul qilinib, ta’limga oid turli xil xalqaro baholash dasturlari orqali ta’limdagi yutuq va kamchiliklarga yanada obyektiv nazar tashlashimiz uchun vosita bo‘ldi[1].

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish va o‘qish savodxonligini baholashga qaratilgan tadqiqot - PIRLS xalqaro baholash tizimidir. Bu baholash tizimida Respublikamiznining PIRLS-2021 da 4-sinf o‘quvchilarining ishtiroki va ular qayd etgan natijalar o‘quvchilarmizning matnni o‘qib va uni tushunish darajalari ko‘rsatgichlari 57 ta mamlakat va 8 ta mamlakat hududlari ichida pastroq natija kiritgan[2].

Ma’lumot uchun: O‘zbekiston tadqiqotda 2016-yilda 1-sinfga borgan o‘quvchilar qatnashgan. Bundan oldin UNISEF o‘tkazgan tadqiqot 4-sinf o‘quvchilarining yarmidan ko‘prog‘i o‘qigan matnni tushunmasligini ko‘rsatgandi[3].

PIRLS xalqaro tadqiqotida yuqori natijalarga erishib kelayotgan mamlakatlardanga – Singapur va Rossiyani aytib o‘tish mumkin. Ushbu yutuq Singapurning erta savodxonlikni rivojlantirishga e’tibori, o‘qish asoslariga diqqat qaratgani va o‘qishni o‘rgatishda uslubiy yondashuvi bilan bog‘langan.

Birinchidan, Singapurda o‘qib tushunish texnikalari o‘rgatishga moslashtirilgan va o‘qish dasturlari bolalarni sevimli o‘qishni targ‘ib qilish kabi usullarni kengaytirgan.

O‘qish strategiyalaridan foydalanish o‘qish jarayonini passiv faoliyatdan faol kognitiv jarayonga aylantiradi. O‘qish savodxonligini rivojlantirishda kognitiv strategiyalar o‘quvchilarning bilish faoliyatini bevosita faollashtiradi, metakognitiv strategiyalar esa bu jarayonni ongli boshqarish imkonini beradi [5].

Ikkinchidan, o‘quvchilarda o‘qish savodxonligini paydo qilish uchun o‘zini kasbiga bag‘ishlagan o‘rgatuvchilarning – doimiy kasbiy rivojlanishi.

Uchinchidan, bolalarni o‘qishga rag‘batlantiruvchi uy atmosferasi va ota-onalarning faolligi o‘qish savodxonligining rivojlanishiga omillardan biri bo‘ladi.

To‘rtinchidan, Singapur, shuningdek, o‘qishni tushunish texnikasini aniq o‘rgatish va keng qamrovli o‘qish dasturlari orqali o‘qishni targ‘ib qilish kabi muvaffaqiyatli o‘qitish usullarini rivojlantirgan.

Singapurda ota-onalar farzandlarini o‘qish qobilyatlarini yaxshilashga yordam berishlari uchun quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. Faol o‘qish. Ota-ona farzandini o‘qishi uchun rag‘batlantirishi, ruhlantirishdagi turtkisi. Bunda ota-ona farzandini o‘qiyotgan matnini diqqat bilan o‘qishi(ya’ni o‘qigan qismlarining muhimlari tagiga chizishi, eslatma sifatida yozishi), bolaning o‘qiganlari haqida undan so‘rashi, savol-javob qilishi va uning matn haqidagi umumlashtirishini tinglashi kabilarni kiritsa bo‘ladi.

2. Shug‘ullanish, shug‘ullanish va yana shug‘ulllanish. Bolaning o‘qiganlarini takrorlab borishi. Biror masala yoki fikrni tushunmaguncha doimiy ravishda shunga o‘xshash mashqlarni ustida mashg‘ul bo‘lishiga ahamiyat berishi.

3. Tartib. Farzandlari o‘quv materiallarini, qaydlarini va uy ishlarini rejalashtirishga o‘rgatishlari – bu o‘qish mobaynida duch kelishi mumkin bo‘lgan stresslarni yengishga o‘qishdagi natijasi o‘sishiga yordam berishi.

4. Aql xaritasi. Bolalarning o‘qiyotgan har bir matnni eslab qolish va uni tushunishining visual ko‘rinishidir. Bu keyinchalik bu xaritalar orqali o‘qigan matnini xotirada saqlashi, qayta tiklashi va undan ma’lumotnoma sifatida foydalanishi uchun qo‘l keladi.

5. Jamoaviy o‘rganish. Farzandining o‘qishi sinfdoshlari yoki do‘stlari bilan birgalikda amalga oshirishi ancha foydali. Bolani do‘stlari bilan o‘qishga va birgalikda ular o‘qiganlari bo‘yicha tajriba amashishiga undash.

Singapurda ota-onalarning farzandlari uchun faol o‘qish, shug‘ullanish, tartib, aql xaritasi, jamoaviy o‘rganish kabilarni kun tartibiga kiritish orqali ularda o‘z salohiyatini ko‘rsatish va muvafaqqiyatini namoyish etishga yordam beradi deb hisoblanadi[4].

Rossiyaning ham PIRLS tadqiqotida yaxshi o‘rinlarni egallashiga bog‘liq faktorlar mavjud bo‘lib, ularga:

- ota-onalar, o‘qituvchilar va yosh maktab o‘quvchilarining o‘rtasida o‘qish doirasini kengaytirish, o‘qish ko'nikmalarini oshirish, oila va maktab darajasida o‘qishga yuqori motivatsiyani qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan munosabatni saqlash;
- ota-onalarning bolalarni maktabga sifatli tayyorlash, ota-onalarning bolalar bilan faol faoliyati, o‘qish malakasini egallash uchun mustahkam zamin yaratish, ayrim hollarda esa bu ko‘nikmani maktabgacha o‘zlashtirishdan manfaatdorligi;
- boshlang‘ich umumiy ta'limda nafaqat badiiy adabiyot, balki ilmiy-ommabop matnlar ustida ham ishlash muhimligini mustahkamlash;
- ongli o‘qish va axborot bilan ishlashni shakllantirish;
- o‘qishni o'rgatishning mahalliy usullari yutuqlari, darsliklarga yangi matn formatlarini joriy etish bilan bog‘liq innovatsiyalarning oqilona kombinatsiyasi;
- o‘qishda qiynalayotgan o‘quvchilar bilan ishlashda puxta o‘ylangan ilmiy-uslubiy yondashuvlarning mavjudligi, o‘zlashtirishi sust bo‘lgan bolalarga ko‘proq e‘tibor qaratilgan tabaqalashtirilgan ishlardan foydalanish. Shu bilan birga, tushunmasdan o‘qish darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan tanqidiy fikrlar aniqlandi[6].

“O‘quvchilarimizni bizning o‘tmishimizga emas, ularning kelajagiga tayyorlash”[7] bizning ta’limda olib borayotgan say-harakatlarimiz kelajak avlodning yaxshi erta uchun poydevor vazifasini o‘taydi. PIRLS taqdqiqotlari tushunish ko‘rsatgichlarining oshishiga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori

2. A.Ismailov va b. O‘qish savodxonligi bo‘yicha xalqaro natijalar. - TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqot markazi, Linch ta’lim va inson taraqqiyoti maktabi, Boston kolleji va Ta’limdagi yutuqlarni baholash xalqaro asstsiatsiyasi. T.: 2023y

3. K.Jalilov. PIRLS tadqiqotlarida ilk bor ishtirok etgan O‘zbekiston 57 mamlakat orasida 49-o‘rinni egalladi // gazeta.uz, 2023-yil.

4. 4. Top Study Techniques for Primary School Students in Singapore // Sigaram Tamil Tuition. – URL: https://sigaramtamiltuition.com/top-study-techniques-for-primary-school-students-in-singapore/

5. H.R.Eshonkulova. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirish strategiyalari // “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali, 2025-yil, oktyabr, 11-son, 414-411-b.

6. М.И.Кузнецова. Международное сравнительное исследование PIRLS: возможности использования результатов для совершенствования читательской грамотности российских младших школьников // Дидактика и методика образования, 2017.

7. A.Shlyayxer. Jahon miqyosidagi ta’lim. XXI asr maktab tizimini qanday barpo etmoq kerak? / umumiy tahrir D.Norboyeva. –Toshkent: “Zamin Nashr” nashriyoti, 2022-yil, -34-b.

MEDIAMATNDA EKOLOGIYAGA OID NEOLOGIZMLARNING TARJIMA MASALALARI

Rahimova Mohinur Qahramon qizi
rahimovamohinur0303@gmail.com
Tayanch doktorant O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21903380

Annotatsiya. Hozirgi vaqtda global iqlim o‘zgarishi, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish konsepsiyalarining dolzarblashuvi natijasida mediadiskursda ekologik leksika jadal ravishda yangilanib, tobora boyib bormoqda, ya’ni bu sohada ko‘plab yangi atama va iboralar tez-tez tilga kirib kelmoqda. Maqolada zamonaviy mediamatnlarda ekologiyaga oid shu kabi neologizmlarning vujudga kelish omillari va ularning tarjima jarayonida uchraydigan bir qator lingvistik muammolar ilmiy asosda kompleks tahlil qilingan. Mediadiskursda mazkur ekologik neologizmlarning shakllanishi va transformatsiyasi jarayoniga xos lingvokulturologik xususiyatlar hamda ularni o‘zbek tiliga adekvat tarzda o‘girish metodologiyasi komparativ-tipologik hamda deskriptiv tadqiq usullari asosida atroflicha o‘rganildi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, ekologik neologizmlarni tarjima qilish jarayonida ekvivalentlik darajasini saqlash, matnning pragmatik moslashuvini ta’minlash hamda kognitiv-semantik transformatsiyalarni to‘g‘ri amalga oshirish katta ahamiyatga ega, chunki aynan shu jihatlar original matnning mazmuni va pragmatik ta’sirini to‘liq yetkazishga xizmat qiladi. Shuningdek, mediamatnlardagi ekologik terminologiyani o‘zbek tiliga tarjima qilishda transkripsiya, transliteratsiya, kalkalash va tushuntirish (izohli tarjima) usullaridan foydalanish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Bu esa tarjima jarayonida lingvistik hamda madaniy omillarga birdek e’tibor qaratish lozimligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: ekologik neologizm, mediamatn, tarjima strategiyasi, ekvivalentlik, pragmatik adaptatsiya, terminologik leksika, diskurs tahlili.

Аннотация. В настоящее время в связи с актуализацией глобальных климатических изменений, охраны окружающей среды и концепции устойчивого развития в медиадискурсе наблюдается активное обновление и обогащение экологической лексики, то есть в данной сфере регулярно появляются новые термины и выражения. В статье научно обосновано и комплексно проанализированы причины возникновения таких экологических неологизмов в современных медиатекстах, а также лингвистические проблемы, возникающие при их переводе. Лингвокультурные особенности формирования и трансформации данных неологизмов, а также методология их адекватного перевода на узбекский язык исследованы на основе сравнительно-типологического и дескриптивного методов. Результаты показывают, что при переводе экологических неологизмов важно сохранять степень эквивалентности, обеспечивать прагматическую адаптацию и правильно осуществлять когнитивно-семантические трансформации. Кроме того, обосновано применение транскрипции, транслитерации, калькирования и описательного (толкательного) перевода, что подтверждает необходимость учитывать как лингвистические, так и культурные факторы в переводческом процессе.

Ключевые слова: экологический неологизм, медиатекст, стратегия перевода, эквивалентность, прагматическая адаптация, терминологическая лексика, дискурсивный анализ.

Abstract. At present, due to the growing relevance of global climate change, environmental protection, and sustainable development concepts, ecological vocabulary in media discourse is rapidly expanding and being enriched with new terms and expressions. The article provides a scientifically grounded and comprehensive analysis of the emergence of such ecological neologisms in modern media texts and the linguistic problems encountered during their translation. The linguo-cultural features of the formation and transformation of these neologisms, as well as the methodology of their adequate translation into the Uzbek language, have been studied using comparative-typological and descriptive methods. The findings show that maintaining equivalence, ensuring pragmatic adaptation, and accurately performing cognitive-semantic transformations are crucial in the translation of ecological neologisms. Furthermore, the study substantiates the application of transcription, transliteration, calquing, and explanatory translation methods, emphasizing the need to consider both linguistic and cultural factors in the translation process.

Keywords: ecological neologism, media text, translation strategy, equivalence, pragmatic adaptation, terminological lexicon, discourse analysis.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida medialingvistika sohasida ekologik muammolarga bag'ishlangan matnlar hajmi sezilarli darajada ortib bormoqda. XXI asr boshlarida ekologik xavf-xatarlar, iqlim o'zgarishi va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari jahon hamjamiyatining diqqat markaziga aylandi. Natijada, ommaviy axborot vositalarida ekologik leksikaning intensiv yangilanishi, yangi atamalar va iboralarning paydo bo'lishi kuzatilmoqda. Mediamatnlarda ekologik neologizmlarning faol ishlatilishi va ularning tillararo kommunikatsiyada o'ziga xos translatsion muammolar tug'dirayotganligi tarjimashunoslik fanida alohida tadqiqot ob'ektiga aylanmoqda. Tillar kontakti sharoitida yangi terminologik birliklarning o'zlashtirilishi jarayonida lingvistik va ekstralingvistik omillarning o'zaro ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi (Haugen, 1972). Ekologik neologizmlarning o'zbek tiliga adekvat tarjimasi muammosi nafaqat lingvistik, balki madaniyatlararo kommunikatsiya nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mediamatnlarda ekologik diskursning shakllanishida neologizmlar muhim rol o'ynaydi, zero ular yangi tushunchalar, hodisalar va jarayonlarni nominatsiya qilish funksiyasini bajaradi. "Carbon footprint", "greenwashing", "climate justice", "circular economy" kabi atamalar XXI asrning oxirgi o'n yilliklarida ekologik medialingvistikaning asosiy birliklariga aylandi. Biroq, bu terminlarning o'zbek tiliga tarjimasi jarayonida bir qator muammolar yuzaga keladi. Terminologik leksikaning tarjimasi maxsus bilimlarni talab qiladi va ko'pincha pragmatik moslashtirishni zarur qiladi (Shveitser, 1988). O'zbek tilida ekologik terminologiyaning shakllanishi nisbatan kech boshlangani va terminologik tizimning to'liq shakllanmaganligi tarjimonlar uchun qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirmoqda. O'zbek tilida ilmiy-texnik terminologiyaning rivojlanishida rus tilining ta'siri va so'nggi yillarda ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirishlarning ko'payayotganligi qayd etilgan (Safarov, 2008). Ekologik neologizmlarning mediamatnlardagi funktsional xususiyatlari ularning pragmatik yuklanganligida namoyon bo'ladi. Mediadiskursda ekologik leksika nafaqat axborot uzatish, balki ijtimoiy ongni shakllantirish, ekologik masalalarga e'tiborni jalb qilish va ma'lum xatti-harakatlarni rag'batlantirish maqsadlarida qo'llaniladi. Tarjimada pragmatik maqsadga erishish uchun mazmuniy va shakl transformatsiyalarining zarurligini e'tirof etish lozim (Komissarov, 1990). O'zbek mediamatnlarida ekologik neologizmlarning qabul qilinishi va ularning tiliy tizimga integratsiyasi jarayonida bir nechta transformatsion modellar kuzatiladi. Transcription va transliteratsiya eng keng tarqalgan usullar hisoblanadi, masalan: "ekologiya" < ecology, "klimat" < climate, "emissiya" < emission. Biroq, murakkab terminologik birikmalarning tarjimasi ancha qiyin kechadi va ko'pincha deskriptiv usulga murojaat qilishni talab etadi.

Metodlar. Tadqiqotda ekologik neologizmlarning tarjima strategiyalarini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Kuzatish metodi orqali 2020-2024 yillarda ingliz va o'zbek tilidagi ekologik mediamatnlardan 500 dan ortiq neologizmlar to'plandi va tahlil qilindi. Komparativ-tipologik metod yordamida ekologik neologizmlarning manba va maqsad tillardagi strukturaviy-semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Deskriptiv metod orqali tarjima transformatsiyalari tasniflandi va ularning qo'llanilish chastotasi aniqlandi. Kontekstual tahlil usuli bilan neologizmlarning pragmatik potentsiali va diskursiv funksiyalari o'rganildi. Komponent tahlil metodi terminologik birliklarning semantik strukturasini aniqlashda ishlatildi. Tarjima jarayonida transformatsion modellarni aniqlash uchun manba va maqsad tillaridagi matnlarning sinxron taqqoslashi muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan (Barkhudarov, 1975).

Tadqiqot materiallari sifatida xalqaro ekologik tashkilotlar (UN Environment Programme, World Wildlife Fund, Greenpeace), ilmiy jurnallar (Nature Climate Change, Environmental Science & Technology), yirik media resurslari (BBC, The Guardian, CNN) va o'zbek tilidagi ommaviy axborot vositalari (Kun.uz, Gazeta.uz, Daryo.uz) saytlaridagi ekologik matnlar tanlab olindi. Materiallar tanlashda reprezentativlik, autentiklik va aktuallik mezonlari asosiy ko'rsatkichlar bo'ldi. Ekologik neologizmlarning ishlatilish konteksti, ularning funktsional-stilistik xususiyatlari va tarjima ekvivalentlari maxsus leksikografik kartalarida qayd etildi. Terminologik leksikaning tarjimasi uchun kontekstual va situativ tahlilning zarurligini alohida ta'kidlash lozim (Newmark, 1988).

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ekologik neologizmlarning o'zbek tiliga tarjimasi jarayonida to'rtta asosiy strategiya qo'llaniladi. Birinchidan, transkripsiya va transliteratsiya usuli, bu usul yordamida "carbon footprint" → "karbon footprint", "greenwashing" → "grinvoshing" kabi variantlar yaratilmoqda, biroq bu turdagi tarjimalar ko'pincha tushunarsizlik keltirib chiqaradi va qo'shimcha tushuntirish talab qiladi. Tarjimada transkripsiya usulining chegaralanganligini va uni faqat muqobil yo'q bo'lgan hollarda qo'llash zarurligini e'tirof etish kerak (Retsker, 1974). Ikkinchidan, kalkalash usuli, masalan "circular economy" → "aylanma iqtisodiyot", "climate justice" → "iqlim adolati" shaklida

qo'llanilmoqda, bu usul terminning ichki strukturasini saqlaydi va tushunchani nisbatan aniqroq etkazadi. Kalkalash usulining murakkab terminologik birikmalarni tarjima qilishda samaradorligi qayd etilgan (Catford, 1965). Uchinchidan, deskriptiv yoki tushuntirish usuli, bu usul ayniqsa o'zbek tilida ekvivalenti mavjud bo'lmagan neologizmlar uchun qo'llaniladi. Masalan, "rewilding" → "yovvoyi tabiatni tiklash jarayoni", "biocapacity" → "ekotizimlarning biologik mahsuldorlik qobiliyati", "ecocide" → "ekologik muhitni qasdan yo'q qilish jinoyati" kabi variantlar yaratiladi. Deskriptiv tarjima aniqlik va tushunarligi bilan ajralib turadi, biroq uning kamchiligi – hajmning oshishi va stilistik nomutanosiblik hisoblanadi. Tushuntirish usulining pragmatik samaradorligi yuqori bo'lishiga qaramay, uning uzoq muddatli istiqbolsizligi, zero til iqtisodiylik printsipiga asoslanadi (Fedorov, 1983). To'rtinchidan, kombinatsion usul, bu yerda bir nechta strategiyalar birgalikda qo'llaniladi. Masalan, "net-zero emissions" → "nol (net-zero) emissiyalar" yoki "carbon offset" → "karbon kompensatsiyasi (carbon offset)" shaklida, ya'ni transliteratsiya va kalkalash usullari birlashtiriladi, bu esa terminologik aniqlik va tushunarlikni ta'minlaydi.

Statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek mediamatnlarida ekologik neologizmlarning tarjimasi uchun eng keng tarqalgan usul – kalkalash (42%), keyin deskriptiv tarjima (28%), transkripsiya/transliteratsiya (18%) va kombinatsion usul (12%) keladi. Dinamik ekvivalentlik nazariyasiga ko'ra, tarjimaning muvaffaqiyati nafaqat lingvistik ekvivalentlikda, balki maqsad auditoriyada manba matndagiga o'xshash ta'sir ko'rsatish qobiliyatida namoyon bo'ladi (Nida, Taber, 1969). O'zbek mediamatnlarida ekologik neologizmlarning qabul qilinishi bosqichli jarayon sifatida kechmoqda. Dastlab yangi termin transliteratsiya shaklida kiritiladi va qavs ichida tushuntirish beriladi, masalan: "Grinvoshing (greenwashing) – kompaniyalarning o'z mahsulot yoki xizmatlarini ekologik jihatdan xavfsiz qilib ko'rsatish uchun aldamchi marketing strategiyasi". Keyinchalik, agar termin mediada faol ishlatila boshlasa, kalkalangan yoki deskriptiv variant barqarorlashadi va mustaqil qo'llaniladigan birlikka aylanadi.

Ekologik neologizmlarning semantik tahlili ularning ko'pchiligining metaforik asos ustida shakllanganligini ko'rsatadi. "Green economy", "blue carbon", "carbon footprint" kabi terminlarda rang belgilovchi leksemalar ekologik xususiyatlarni simvollashtiradi. Metaforalarning konseptual tizimimizni shakllantirish va yangi tushunchalarni anglashda muhim roli ta'kidlangan (Lakoff, Johnson, 1980). O'zbek tiliga tarjimada bu metaforik komponentni saqlash yoki yo'qotish masalasi muhim hisoblanadi. "Green economy" → "yashil iqtisodiyot" variantida metafora saqlanadi va bu termin o'zbek tilida ham tushunarli, ammo "blue carbon" (okean ekotizimlari tomonidan tutilgan uglerod) → "ko'k uglerod" varianti o'zbek tilida noaniq semantikaga ega va qo'shimcha tushuntirish talab qiladi. Tillararo tarjimada ma'no yo'qolishining muqarrarligi va tarjimonning vazifasi – minimal yo'qotish bilan maksimal ekvivalentlikni ta'minlashda ekanligi qayd etilgan (Jakobson, 2000).

Munozaralar. Ekologik neologizmlarning mediamatnlarda tarjimasi masalasi tarjimashunoslik nazariyasida bir nechta muhim savollar tug'diradi. Birinchi muhim masala – terminologik standartlashtirish muammosi. O'zbek tilida ekologik terminologiya uchun yagona terminologik lug'at va standartlar mavjud emas, natijada turli tarjimonlar bir xil neologizmlarni har xil tarjima qiladilar. Masalan, "sustainability" termini "barqarorlik", "uzluksizlik", "doimiylik" kabi variantlarda uchraydi, "biodiversity" termini "bioturlilik", "biologik xilma-xillik", "tabiat xilma-xilligi" shakllarida qo'llaniladi. Terminologik ekvivalentlikning aniqligini ta'minlash uchun maxsus terminologik lug'atlar yaratish va standartlashtirish zarurligini e'tirof etish lozim (Latyshev, 2000). O'zbek tilida ekologik terminologiyaning rivojlanishi uchun davlat dasturlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va tilshunoslar hamjamiyatining birgalikdagi sa'y-harakatlari zarur.

Ikkinchi muhim masala – pragmatik adaptatsiya darajasi. Mediamatnlar uchun xarakterli bo'lgan ekspressivlik, baholash va ta'sir ko'rsatishni maqsad qilgan tiliy vositalar tarjimada qanday darajada saqlanishi kerak? "Climate emergency", "ecological catastrophe", "planetary crisis" kabi emotsional-baholash yuklamali terminlar o'zbek tilida to'liq ekvivalentlikni talab qiladimi yoki maqsad auditoriyaning madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda yumshatilishi kerakmi? Tarjimaning maqsad madaniyat normalari bilan moslashtirilishining zarurligini va tarjimonning ikkilamchi matnga yaratuvchi sifatida rolini e'tirof etish kerak (Toury, 1995). O'zbek mediamatnlarida ekologik neologizmlarning qabul qilinishi kontekstida madaniy va ideologik omillarning ta'siri ham e'tiborga olinishi lozim. Masalan, "climate justice" (iqlim adolati) termini ijtimoiy adolat va inson huquqlari kontekstida iqlim o'zgarishining turli jamiyatlarga teng bo'lmagan ta'sirini anglatadi, bu tushunchaning o'zbek madaniyati va ijtimoiy kontekstida qabul qilinishi va tushunilishi maxsus tadqiqotni talab qiladi.

Uchinchidan, diachronik jihat – ekologik neologizmlarning vaqt o'tishi bilan o'zbek tilida qanday o'zlashishi va barqarorlashishi masalasi. Ba'zi terminlar vaqtinchalik modaga aylangan so'zlar darajasida qoladi, boshqalari esa til tizimiga to'liq integratsiyalanadi va keyingi avlod uchun oddiy leksemaga aylanadi. Tillar kontakti natijasida o'zlashtirilgan so'zlarning til tizimida barqarorlashish jarayoni tavsiflanishi zarur (Weinreich, 1953). O'zbek tilida "ekologiya", "emissiya", "monitoring" kabi terminlar allaqachon to'liq o'zlashgan va yangi so'z sifatida qabul qilinmaydi, "karbon footprint", "grinvoshing" kabi yangi neologizmlarning kelajakdagi taqdiri esa noaniq. Mediadiskursda ekologik terminologiyaning ishlatilish chastotasi va konteksti ularning til tizimiga kirishining asosiy omili hisoblanadi. Tiliy o'zgarishlarning ijtimoiy shartilanganligini va ommaviy kommunikatsiya vositalarining bu jarayondagi rolini inobatga olish zarur (Bloomfield, 1968).

To'rtinchidan, professional va ommaviy diskurs o'rtasidagi farq masalasi. Ilmiy-texnik matnlarda ekologik terminlarning aniq va standartlashtirilgan tarjimasi talab qilinadi, ammo media matnlarida populyarizatsiya va ommalashtirish maqsadida soddalashtirilgan variantlar qo'llaniladi. "Overt" (ochiq) va "covert" (yashirin) tarjima o'rtasidagi farqni aniqlash va har bir turdagi tarjima uchun maxsus strategiyalarning zarurligini asoslash muhim (House, 1997). O'zbek medialingvistikasida ekologik terminologiya ikki darajali tizim sifatida rivojlanmoqda: professional-ilmiy daraja (maxsus adabiyotlar, ilmiy maqolalar, ekspert xulosalar) va ommaviy-publitsistik daraja (gazeta maqolalari, televizion ko'rsatuvlar, ijtimoiy media). Bu ikki daraja o'rtasida terminologik farqlanishlar mavjud va ular tarjima strategiyasini tanlashda hisobga olinishi zarur.

Xulosa. Mediamatnlarda ekologik neologizmlarning tarjimasi zamonaviy tarjimashunoslik fanida dolzarb va murakkab muammo hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ekologik neologizmlarning o'zbek tiliga adekват tarjimasi uchun kompleks yondashuv zarur. Kalkalash usuli strukturaviy ekvivalentlikni ta'minlaydi va yangi terminlarning til tizimiga organik integratsiyasini imkon beradi, deskriptiv usul esa aniqlik va tushunarligi bilan ajralib turadi. Transkripsiya va transliteratsiya usullari cheklangan qo'llanilishga ega bo'lib, faqat muqobil variant mavjud bo'lmagan hollarda maqsadga muvofiqdir. Ekologik terminologiyaning o'zbek tilida standartlashtirish va barqarorlashishi jarayoni hali yakunlanmagan va keyingi tadqiqotlarni talab qiladi. Medialingvistikada ekologik diskursning rivojlanishi bilan birga yangi neologizmlarning paydo bo'lishi davom etmoqda va tarjima strategiyalari ham doimiy takomillashtirishni zarur qiladi. O'zbek tilida ekologik terminologik tizimning shakllanishi uchun davlat dasturlari, ilmiy-tadqiqot ishlarining intensivlashtirilishi va terminologik lug'atlarning yaratilishi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бархударов Л.С. Язык и перевод. – Москва: Международные отношения, 1975. – 240 с.
2. Блумфилд Л. Язык. – Москва: Прогресс, 1968. – 608 с.
3. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – Москва: Высшая школа, 1990. – 253 с.
4. Латышев Л.К. Технология перевода. – Москва: НВИ-ТЕЗАУРУС, 2000. – 280 с.
5. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – Москва: Международные отношения, 1974. – 216 с.
6. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Тошкент: Yangi asr avlodi, 2008. – 124 б.
7. Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – Москва: Высшая школа, 1983. – 303 с.
8. Швейцер А.Д. Теория перевода: Статус, проблемы, аспекты. – Москва: Наука, 1988. – 215 с.
9. Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. – London: Oxford University Press, 1965. – 103 p.
10. Haugen E. The Ecology of Language. – Stanford: Stanford University Press, 1972. – 366 p.
11. House J. Translation Quality Assessment: A Model Revisited. – Tübingen: Gunter Narr Verlag, 1997. – 207 p.
12. Jakobson R. On Linguistic Aspects of Translation // The Translation Studies Reader / Ed. by L.Venuti. – London: Routledge, 2000. – P. 232-239.
13. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.

14. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.
15. Nida E., Taber C. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: E.J.Brill, 1969. – 220 p.
16. Toury G. Descriptive Translation Studies and Beyond. – Amsterdam: John Benjamins Publishing, 1995. – 311 p.
17. Weinreich U. Languages in Contact. – New York: Linguistic Circle of New York, 1953. – 148 p.

REFERENCES

1. Barkhudarov, L.S. (1975) Language and Translation. Moscow: International Relations. 240 p.
2. Bloomfield, L. (1968) Language. Moscow: Progress. 608 p.
3. Komissarov, V.N. (1990) Theory of Translation (Linguistic Aspects). Moscow: Higher School. 253 p.
4. Latyshev, L.K. (2000) Translation Technology. Moscow: NVI-THESAURUS. 280 p.
5. Retsker, Ya.I. (1974) Translation Theory and Translation Practice. Moscow: International Relations. 216 p.
6. Safarov, Sh. (2008) Cognitive Linguistics. Tashkent: Yangi asr avlodi. 124 p.
7. Fedorov, A.V. (1983) Fundamentals of General Translation Theory. Moscow: Higher School. 303 p.
8. Schweitzer, A.D. (1988) Translation Theory: Status, Problems, Aspects. Moscow: Nauka. 215 p.
9. Catford, J.C. (1965) A Linguistic Theory of Translation. London: Oxford University Press. 103 p.
10. Haugen, E. (1972) The Ecology of Language. Stanford: Stanford University Press. 366 p.
11. House, J. (1997) Translation Quality Assessment: A Model Revisited. Tübingen: Gunter Narr Verlag. 207 p.
12. Jakobson, R. (2000) On Linguistic Aspects of Translation. The Translation Studies Reader / Ed. by L.Venuti. London: Routledge. P. 232-239.
13. Lakoff, G., Johnson, M. (1980) Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press. 242 p.
14. Newmark, P. (1988) A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall. 292 p.
15. Nida, E., Taber, C. (1969) The Theory and Practice of Translation. Leiden: E.J.Brill. 220 p.
16. Toury, G. (1995) Descriptive Translation Studies and Beyond. Amsterdam: John Benjamins Publishing. 311 p.
17. Weinreich, U. (1953) Languages in Contact. New York: Linguistic Circle of New York. 148 p.

GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEK TILINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Avalboyeva Shahzoda
Sharof Rashidov nomidagi SamDU filologiya fakulteti magistranti
avalboyevashahzoda@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21903428

Annotatsiya: Ushbu maqolada globalizatsiya jarayonining o‘zbek tiliga ta’siri, zamonaviy til taraqqiyotidagi asosiy yo‘nalishlar, yangi so‘z va atamalarning kirib kelishi, axborot texnologiyalari hamda ommaviy kommunikatsiya vositalarining til rivojidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘zbek tilining milliy xususiyatlarini saqlash va uni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish masalalari yoritiladi.
Kalit so‘zlar: globalizatsiya, o‘zbek tili, til taraqqiyoti, neologizm, terminologiya, raqamli kommunikatsiya, til siyosati.
Аннотация: В данной статье анализируется влияние процессов глобализации на узбекский язык, рассматриваются основные направления развития современного языка, процессы проникновения новых слов и терминов, а также роль информационных технологий и средств массовой коммуникации в развитии языка. Кроме того, освещаются вопросы сохранения национальных особенностей узбекского языка и его развития в соответствии с современными требованиями.
Ключевые слова: глобализация, узбекский язык, развитие языка, неологизм, терминология, цифровая коммуникация, языковая политика.
Abstract: This article examines the impact of globalization on the Uzbek language and analyzes the main trends in its modern development, including the introduction of new words and terms, as well as the role of information technologies and mass communication in language development. It also highlights the issues of preserving the national characteristics of the Uzbek language while promoting its development in accordance with contemporary requirements.
Keywords: globalization, Uzbek language, language development, neologism, terminology, digital communication, language policy.

XXI asrda globallashuv jarayonlari barcha sohalar qatori tillarning rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Dunyo xalqlari o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ilmiy va madaniy aloqalarning kuchayishi natijasida tillar o‘zaro ta’sirga kirishmoqda. Bunday jarayon o‘zbek tilining lug‘at tarkibi, uslubiy imkoniyatlari va qo‘llanish doirasida ham sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. O‘zbek tili bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarida faol qo‘llanayotgan, ilm-fan, ta’lim, ommaviy axborot vositalari va raqamli texnologiyalar sohasida rivojlanib borayotgan tillardan biridir. Shu bilan birga, globallashuv sharoitida til oldida yangi vazifalar va muammolar ham paydo bo‘lmoqda[1.67].

Globalizatsiyaning asosiy belgilaridan biri turli xalqlar o‘rtasidagi aloqa va axborot almashinuvining tezlashuvidir. Bu jarayon natijasida o‘zbek tiliga ko‘plab yangi tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar kirib kelmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, marketing, biznes va ilm-fan sohalarida ingliz tilidan o‘zlashgan atamalar ko‘paymoqda.

Masalan, “internet”, “marketing”, “brend”, “startap”, “onlayn”, “platforma” kabi terminlar kundalik nutqda faol ishlatilmoqda. Bunday o‘zlashmalar tilning lug‘at boyligini oshiradi, yangi tushunchalarni ifodalash imkonini kengaytiradi. Biroq o‘zlashma so‘zlardan foydalanishda ularning o‘zbek tili me’yorlariga moslashuvi va maqsadga muvofiq qo‘llanishiga e’tibor berish zarur.

Hozirgi davr o‘zbek tili leksikasida kuzatilayotgan muhim tendensiyalardan biri – neologizmlarning ko‘payishidir. Fan va texnika taraqqiyoti natijasida yangi tushunchalar paydo bo‘lmoqda va ular til vositasida ifodalanmoqda.
Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar tilning rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet muloqoti natijasida qisqartmalar, yangi iboralar, aralash til birliklari keng tarqalmoqda. Yoshlar nutqida kuzatilayotgan bunday holatlar tilshunoslikda yangi tadqiqot yo‘nalishlarini yuzaga keltirmoqda.

Til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida mashhur olim Edvard Sapir shunday ta’kidlaydi: “Til madaniyatni ifodalovchi eng muhim vositalardan biridir.” Darhaqiqat, har bir xalqning tili uning madaniyati, an’analari va dunyoqarashini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu sababli globalizatsiya jarayonida milliy tillarni saqlash va rivojlantirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi [3:74].

XX asrda o‘zbek xalqining yagona milliy tili har tomonlama o‘sdi va yuksaldi, uning fonetik tizimiga ma’lum darajada o‘zgarishlar kiritildi –unlilar tarkibi ixchamlashdi, undoshlar tarkibiga ba’zi bir yangi fonemalar kelib qo‘shildi, tilning lug‘at tarkibi yangi so‘z va iboralar hisobiga boyidi, so‘z ma’nolari kengaydi, eskirib qolgan so‘zlar iste’moldan chiqib ketdi, o‘zbek tilining grammatik qurilishi takomillashdi[2. P. 101].

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi o‘zbek tilining elektron makondagi imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Elektron lug‘atlar, onlayn tarjima tizimlari, matn tahlili dasturlari va til korpuslarini yaratish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. O‘zbek tilining raqamli resurslarini rivojlantirish nafaqat tilni saqlash, balki uni xalqaro axborot maydonida yanada faol qo‘llash imkonini beradi. Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishidagi tadqiqotlar kelajakda o‘zbek tilining texnologik imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunos olimi A. Nurmonov tilning milliy taraqqiyotdagi ahamiyati haqida shunday fikr bildiradi: “Til millatning tarixiy xotirasi va madaniy merosini saqlovchi muhim omildir.” Shu bois globalizatsiya sharoitida milliy tillarni rivojlantirish, ularning ilm-fan, ta’lim va axborot sohalaridagi qo‘llanishini kengaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi[1:204].

O‘zbek tilining milliy xususiyatlarini saqlash masalasi Globallashuv sharoitida tillar o‘rtasidagi aloqalar kuchaygani sari milliy tilning o‘ziga xosligini saqlash masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Til faqat aloqa vositasi emas, balki xalqning tarixi, madaniyati va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim qadriyatdir.

Shuning uchun zamonaviy taraqqiyot talablarini hisobga olgan holda yangi terminlarni yaratish, o‘zbek tilining ilmiy uslubini rivojlantirish va adabiy til me’yorlariga rioya qilish muhim ahamiyatga ega.

Globalizatsiya sharoitida o‘zbek tili doimiy rivojlanish va yangilanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Yangi so‘zlarning kirib kelishi, raqamli texnologiyalar ta’siri va xalqaro aloqalarning kengayishi til taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Shu bilan birga, globallashuv jarayonida o‘zbek tilining milliy xususiyatlarini asrash, uni ilm-fan va texnologiya tili sifatida rivojlantirish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. O‘zbek tilining kelajakdagi taraqqiyoti zamonaviy jarayonlarga moslashish va milliy til qadriyatlarini uyg‘unlashtirishga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нурмонов А. Тилшунослик назарияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 2012. –256 б.
2. ШвейцерА.Д. Современная социолингвистика. М.: ИМО, 1998. –С. 230.
3. Crystal D. Language and Globalization. –Cambridge: Cambridge University Press, 2003. –224 p.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
5. “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2019.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
7. Jo‘rayev M. Til va milliy ong. – Toshkent: Fan, 2015.
8. Nurmonov A. Til siyosati va jamiyat. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
9. UNESCO. Languages in a Globalized World. – Paris, 2018.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Davlat tilini rivojlantirish dasturi 2020–2030. – Toshkent, 2020.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA SANOAT KORXONALARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o‘g‘li
Farg’ona Davlat Tehnika Universiteti tayanch doktoranti,
Farg’ona Davlat Tehnika Universiteti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21903490

Annotatsiya. Ushbu tezisda zamonaviy iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarini raqamli transformatsiya qilish jarayoni bosqichma-bosqich yondashuv asosida tahlil qilinadi. An'anaviy ishlab chiqarishdan aqlli korxonaga o'tishning beshta ketma-ket bosqichi — an'anaviy holat, raqamlashtirish, digitalizatsiya, raqamli transformatsiya va raqamli yetuklik — ajratib ko'rsatiladi hamda ularning mazmuni, texnologik asoslari va boshqaruv xususiyatlari yoritiladi. Muallif tomonidan bosqichlar bo'yicha yaxlit model taklif etilib, uni O'zbekiston sanoat korxonalari amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlari asoslanadi.

Kalit so'zlar: *raqamli transformatsiya, sanoat korxonasi, Sanoat 4.0, raqamlashtirish, digitalizatsiya, raqamli yetuklik, kiber-fizik tizimlar, raqamli iqtisodiyot.*

Jahon iqtisodiyotining zamonaviy taraqqiyoti to'rtinchi sanoat inqilobi (Sanoat 4.0) g'oyalari va raqamli texnologiyalarning jadal joriy etilishi bilan bevosita bog'liq. Sun'iy intellekt, narsalar interneti (IoT), katta ma'lumotlar, bulutli hisoblash va kiber-fizik tizimlar sanoat korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlarini, boshqaruv modellarini va raqobat strategiyalarini tubdan o'zgartirmoqda. Bunday sharoitda korxonaning raqobatbardoshligi uning raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish darajasiga tobora ko'proq bog'liq bo'lib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasining qabul qilinishi milliy iqtisodiyotni, jumladan sanoat tarmog'ini raqamlashtirishga davlat siyosati darajasida ustuvor yo'nalish maqomini berdi. Shu munosabat bilan sanoat korxonalarining raqamli transformatsiya jarayonini bosqichlarga ajratib o'rganish hamda har bir bosqichga xos vazifalar va texnologik yechimlarni aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Sanoat korxonasining raqamli transformatsiyasi bir martalik loyiha emas, balki uzoq muddatli, evolyutsion va bosqichma-bosqich kechadigan jarayondir. Ilmiy adabiyotlar tahlili va amaliy tajriba umumlashtirilib, ushbu jarayonning quyidagi beshta asosiy bosqichini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi — an'anaviy (analog) bosqichda korxona faoliyati asosan qo'lda va qog'oz hujjatlar asosida yuritiladi. Ishlab chiqarish jihozlari alohida ishlaydi, tizimlararo axborot almashinuvi minimal darajada bo'lib, boshqaruv qarorlari to'planib qolgan va ko'pincha kechikkan ma'lumotlarga tayanadi. Bu bosqich raqamli rivojlanishning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi.

Ikkinchi — raqamlashtirish (digitization) bosqichida analog ma'lumotlar raqamli shaklga o'tkaziladi va asosiy axborot tizimlari joriy etiladi. Korxona ERP, elektron hujjat aylanishi va ma'lumotlar bazalaridan foydalana boshlaydi. Bu bosqichda diqqat markazida ma'lumotlarni to'plash, saqlash va tartibga solish turadi, biroq jarayonlarning mohiyati o'zgarmaydi.

Uchinchi — digitalizatsiya (digitalization) bosqichida raqamli vositalar yordamida mavjud biznes-jarayonlar optimallashtiriladi va o'zaro bog'lanadi. Ishlab chiqarishni bajarish tizimlari (MES), sanoat interneti (IIoT), sensorlar va ma'lumotlar tahlili joriy etilib, real vaqt rejimida monitoring va tahlil imkoniyati paydo bo'ladi. Natijada jarayonlar samaradorligi, tezkorligi va shaffofligi sezilarli ravishda oshadi.

To'rtinchi — raqamli transformatsiya (digital transformation) bosqichida nafaqat jarayonlar, balki korxonaning biznes-modeli, qiymat yaratish zanjiri va korporativ madaniyati ham qayta quriladi. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, bulutli platformalar va raqamli egizak (digital twin) texnologiyalari integratsiyalashtirilib, yangi mahsulot va xizmatlar hamda mijozga yo'naltirilgan qiymat takliflari shakllantiriladi. Bu bosqichda raqamli o'zgarishlar strategik ustuvorlik maqomiga ega bo'ladi.

Beshinchi — raqamli yetuklik (aqlli korxona) bosqichida korxona to'liq integratsiyalashgan, ma'lumotlarga asoslangan va yuqori darajada avtonom tizimga aylanadi. Kiber-fizik tizimlar, mashinali o'rganish va avtonom boshqaruv yechimlari asosida qarorlar qismining o'zi avtomatlashtiriladi. Korxona ta'minotchilar, hamkorlar va iste'molchilar bilan yagona raqamli ekotizim doirasida uzluksiz o'zaro aloqada bo'ladi. Bu Sanoat 4.0 va inson-markazli Sanoat 5.0 tamoyillariga muvofiq keladigan eng yuqori rivojlanish darajasidir.

Bosqichlarning asosiy tavsiflari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan (1-jadval).

1-jadval

Sanoat korxonasini raqamli transformatsiya qilishning rivojlanish bosqichlari

Bosqich	Asosiy mazmuni	Yetakchi texnologiyalar	Boshqaruv fokusi
1. An'anaviy (analog)	Jarayonlar qo'lda va qog'oz asosida boshqariladi; raqamli integratsiya mavjud emas.	Alohida avtomatlashtirilgan dastgohlar, oddiy hisoblash vositalari.	Ishlab chiqarish hajmi va xarajatlar nazorati.
2. Raqamlashtirish (digitization)	Analog ma'lumotlar raqamli shaklga o'tkaziladi, asosiy AT-tizimlar joriy etiladi.	ERP, elektron hujjat aylanishi, ma'lumotlar bazalari, kompyuter tarmoqlari.	Ma'lumotlarni yig'ish va saqlashni tartibga solish.
3. Digitalizatsiya (digitalization)	Mavjud jarayonlar raqamli vositalar yordamida optimallashtiriladi va o'zaro bog'lanadi.	MES, IIoT, sanoat sensorlari, ma'lumotlar tahlili (analytics).	Jarayonlar samaradorligi va tezkorligini oshirish.
4. Raqamli transformatsiya (digital transformation)	Biznes-model, qiymat yaratish zanjiri va korporativ madaniyat tubdan qayta quriladi.	Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, bulutli platformalar, raqamli egizak.	Yangi qiymat taklifi va mijozga yo'naltirilgan modellar.
5. Raqamli yetuklik (aqlli korxona)	To'liq integratsiyalashgan, ma'lumotlarga asoslangan avtonom korxona (Sanoat 4.0/5.0).	Kiber-fizik tizimlar, mashinali o'rganish, avtonom tizimlar, raqamli ekotizim.	Uzluksiz innovatsiya va ekotizim ichida hamkorlik.

Taklif etilayotgan model korxonalarga o'zlarining raqamli yetuklik darajasini baholash, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda navbatdagi bosqichga o'tish uchun aniq maqsadli chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish imkonini beradi. Muhim jihat shundaki, bosqichlar oralig'ida sakrash — masalan, raqamlashtirishni to'liq amalga oshirmasdan raqamli transformatsiyaga o'tishga urinish — ko'pincha resurslarning behuda sarflanishiga va loyihalarning muvaffaqiyatsizligiga olib keladi.

Sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi ketma-ket beshta bosqich — an'anaviy holat, raqamlashtirish, digitalizatsiya, raqamli transformatsiya va raqamli yetuklikni o'z ichiga oladigan yaxlit jarayondir. Har bir bosqich o'ziga xos texnologik asos va boshqaruv vazifalariga ega bo'lib, muvaffaqiyatli o'tish avvalgi bosqichda shakllangan raqamli poydevorga tayanadi. O'zbekiston sanoat korxonalari uchun ushbu bosqichli yondashuvni qo'llash raqamli o'zgarishlarni tizimli, izchil va resurslarni oqilona sarflagan holda amalga oshirish, pirovardida esa korxonalar raqobatbardoshligi va mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni. — Toshkent, 2020.

2. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. — Geneva: World Economic Forum, 2016. — 172 p.

3. Westerman G., Bonnet D., McAfee A. Leading Digital: Turning Technology into Business Transformation. — Boston: Harvard Business Review Press, 2014. — 292 p.

4. Kagermann H., Wahlster W., Helbig J. Recommendations for Implementing the Strategic Initiative INDUSTRIE 4.0. — Frankfurt: Acatech, 2013. — 82 p.

JISMONIY TARBIYA TA’LIMIDA O‘QUVCHILARNING KOGNITIV RIVOJLANISHINI TA’MINLASH MEXANIZMLARI

Sharipov Odilbek Abdukaxorovich
Termiz Davlat Universiteti akademik litseyi Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari
E-mail: odilbek.sharipov@bk.ru
https://orcid.org/0009-0000-2540-5918
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21903559

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya ta’limida o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishini ta’minlashning pedagogik mexanizmlari tahlil qilingan. Jismoniy mashqlarni ta’limning zamonaviy metodlari bilan integratsiyalash, muammoli vaziyatlar yaratish, interfaol yondashuvlardan foydalanish hamda refleksiv faoliyatni tashkil etish orqali o‘quvchilarning diqqat, xotira, tafakkur, qaror qabul qilish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, kognitiv rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar va ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, kognitiv rivojlanish, kognitiv faollik, bilish jarayoni, pedagogik mexanizmlar, interfaol metodlar, jismoniy mashqlar, ta’lim samaradorligi, o‘quvchi, refleksiya.

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические механизмы обеспечения когнитивного развития учащихся в процессе физического воспитания. Освещаются возможности развития внимания, памяти, мышления, навыков принятия решений и творческого мышления посредством интеграции физических упражнений с современными образовательными технологиями, применения интерактивных методов обучения, создания проблемных ситуаций и организации рефлексивной деятельности. Обосновано влияние данных механизмов на повышение эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: физическое воспитание, когнитивное развитие, когнитивная активность, познавательная деятельность, педагогические механизмы, интерактивные методы, физические упражнения, эффективность обучения, учащиеся, рефлексия.

Abstract. This article examines the pedagogical mechanisms for ensuring students’ cognitive development in physical education. It highlights the potential for improving attention, memory, thinking, decision-making, and creative thinking through the integration of physical exercises with modern educational approaches, the use of interactive teaching methods, problem-based learning, and reflective activities. The study also substantiates the impact of these mechanisms on enhancing the effectiveness and quality of the educational process.

Keywords: physical education, cognitive development, cognitive activity, learning process, pedagogical mechanisms, interactive methods, physical exercises, educational effectiveness, students, reflection.

Bugungi globallashgan va axborotga boy dunyoda ta’lim tizimi nafaqat o‘quvchilarga nazariy bilim berish, balki ularning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, mantiqiy xulosa chiqarish va real hayotdagi vaziyatlarda tez va aniq qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish kabi vazifalarga duch kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, jismoniy tarbiya nafaqat jismoniy rivojlanishni rag‘batlantiruvchi fan, balki o‘quvchilarning intellektual salohiyati, kognitiv jarayonlari va kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi muhim pedagogik vosita sifatida ham tan olingan.

Zamonaviy ta’lim paradigmasida o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Kognitiv rivojlanish - bu o‘quvchining atrof-muhitni idrok etishi, shuningdek, axborotni tushunishi, qayta ishlashi, tahlil qilishi, umumlashtirishi va amaliy qo‘llanilishi bilan bog‘liq intellektual faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirishdir. Kognitiv rivojlanishning asosiy tarkibiy qismlari diqqat, idrok, xotira, mulohaza yuritish, nutq, ijodkorlik va refleksiv fikrlashdir va bu jarayonlarning rivojlanish darajasi o‘quvchilarning o‘quv natijalari va shaxsiy o‘sishi uchun juda muhimdir[1].

So‘nggi ilmiy tadqiqotlar shuni isbotladiki, muntazam jismoniy faollik nafaqat fiziologik farovonlikni yaxshilaydi, balki miyaning funksional faolligini faollashtiradi, neyronlararo aloqalarni mustahkamlaydi va diqqatni jamlash, xotira, ijro funksiyalari va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun jismoniy tarbiya darslarini o‘quvchilarning kognitiv salohiyatini

rivojlantirishga qaratilgan metodologik yondashuvlar asosida tashkil etish zamonaviy pedagogikada dolzarb masala hisoblanadi.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu islohotlar jismoniy tarbiya mazmunini takomillashtirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish bilan birga, o‘quvchilarning intellektual va kognitiv salohiyatini rivojlantirishni ham asosiy maqsad sifatida belgilaydi. Darhaqiqat, bugungi kunda ta’lim sifati nafaqat akademik yutuqlar, balki o‘quvchilarning analitik fikrlashi, muammolarni hal qilish qobiliyatlari, muloqot qobiliyati va ijodkorligi bilan ham baholanadi[2].

Jismoniy tarbiya darslari amaliy yo‘nalishi bilan boshqa fanlardan farq qiladi. Ushbu darslarda harakat mashqlari, sport o‘yinlari, jamoaviy mashqlar, estafeta poygalari va muammolarni hal qilishni o‘rganish orqali o‘quvchilar nafaqat jismoniy harakatlarni o‘zlashtiradilar, balki vaziyatni tahlil qilish, harakatlarni rejalashtirish, taktik qarorlar qabul qilish, jamoaviy ish va o‘zini o‘zi baholash kabi kognitiv kompetensiyalarni ham rivojlantiradilar. Xususan, interaktiv usullar, loyihaga asoslangan o‘qitish, o‘yin texnologiyalari, raqamli vositalardan foydalanish va refleksiv tahlil elementlarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarning kognitiv faolligini sezilarli darajada oshiradi.

Biroq, tajriba shuni ko‘rsatadiki, aksariyat o‘rta maktablarda jismoniy tarbiya darslari ko‘proq jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilgan, shu bilan birga o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik mexanizmlar, o‘quv qo‘llanmalari va baholash mezonlaridan foydalanish yetarlicha rivojlanmagan. Natijada, jismoniy tarbiyaning ta’limiy va rivojlantuvchi imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayapti. Bu esa ushbu sohada ilmiy asoslangan metodologik tavsiyalarni ishlab chiqish va kognitiv yondashuv asosida jismoniy tarbiya mazmunini takomillashtirish zaruratini tug‘diradi.

Shu munosabat bilan, jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishini ta’minlash mexanizmlarini aniqlash, ularning pedagogik salohiyatini tadqiq qilish hamda samarali usul va texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish dolzarb ilmiy va pedagogik masala hisoblanadi[3].

Zamonaviy jamiyatda avtomatlashtirish va kompyuterlashtirishning jadal rivojlanishi natijasida jismoniy mehnat ulushi sezilarli darajada kamaydi. Aqliy mehnatning jismoniy faoliyatdan ustun qo‘yilishi inson tanasiga xos bo‘lgan tabiiy jismoniy faollikning pasayishiga olib keladi.

Ta’lim muassasasida o‘qish o‘quvchilardan doimiy ravishda o‘zgaruvchan psixo-emotsional stressni boshdan kechirishni talab qiladi. Bu stress, ayniqsa imtihonlar paytida eng yuqori cho‘qqiga chiqadi. Bundan tashqari, bu stress, turli xil salbiy atrof-muhit omillari bilan birgalikda, neyropsixiatrik kasalliklar va turli xil nevrotik yoki psixotik holatlarning rivojlanish xavfini oshirishi mumkin.

Bugungi kunda o‘quvchi-talabalarga qo‘yiladigan talablar nafaqat ularning intellektual va aqliy salohiyatini, balki o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish qobiliyatini ham qamrab oladi. Biroq, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy mavqe, shaxsiy qoniqish va ma’naviy yetuklik kabi omillarning jismoniy faoliyatga bo‘lgan motivatsiyasiga ta’siri tufayli o‘quvchi-talabalarning jismoniy faoliyatga qiziqishi o‘rta maktabdan katta sinfga o‘tgan sari barqaror ravishda pasayib bormoqda[4].

Muntazam jismoniy mashqlar yoki jismoniy tayyorgarlikning ijobiy ta’siri quyidagi o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi:

markaziy asab tizimi faoliyatining yaxshilanishi: muntazam ravishda jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanadigan odamlarda asab tizimining giper qo‘zg‘aluvchanligi pasayadi, shu bilan birga jismoniy faoliyat paytida uning funksional imkoniyatlari oshadi;

tayanch-harakat tizimida ijobiy morfofunksional o‘zgarishlar;

dam olish vaqtida energiya sarfining kamayishi;

jismoniy faollikdan keyin tiklanish (reabilitatsiya) davrining sezilarli darajada qisqarishi [1].

Bundan tashqari, tanani chiniqtirish yana bir muhim ta’sirga ega: u tananing stress, yuqori yoki past haroratlar, nurlanish va turli jarohatlar kabi salbiy atrof-muhit omillaridan o‘zini himoya qilish qobiliyatini oshiradi.

Inson yashaydigan va o‘qiydigan muhit o‘quvchining o‘quv natijalariga va tananing o‘quv yuklamalariga moslashish qobiliyatiga bevosita ta’sir qiladi. O‘quvchi-talabalar intensiv aqliy mehnat bilan shug‘ullanadigan va odatiy ish kuni bo‘lgan mutaxassislarga qaraganda ko‘proq o‘quv yuklamasiga duch kelishadi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning o‘quv faoliyati ko‘pincha vaqt nuqtai nazaridan oqilona rejalashtirilmagan. Uy vazifasi, testlar va bilimlarni baholash ham notekis taqsimlanganligi sababli, bu ruhiy stressning kuchayishiga va natijalarning pasayishiga olib kelishi mumkin[5].

Muntazam jismoniy faollik taktik fikrlashni va vaziyatlarni tezda tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu, ayniqsa, sport va jang san’atlarida muhimdir. Ushbu sport turlari oldindan belgilangan, standartlashtirilgan jismoniy faollik dasturlariga ega emasligi sababli, sportchilar doimiy ravishda kuzatib borish, tahlil qilish va o‘zgaruvchan vaziyatlarga tezda moslashishlari kerak. Shunday qilib, jismoniy tarbiya kognitiv jarayonlarni, xususan, diqqat, fikrlash, qaror qabul qilish va vaziyatni baholash ko‘nikmalarini izchil rivojlantiradi.

Umuman aytganda, jismoniy tarbiya nafaqat o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishini, balki ularning kognitiv salohiyatini shakllantirishda ham muhim pedagogik omil hisoblanadi. Muntazam va ilmiy jihatdan tashkil etilgan jismoniy tarbiya darslari diqqat, xotira, mulohaza yuritish, tez qaror qabul qilish, muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash kabi kognitiv jarayonlarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Interaktiv usullar, muammoga asoslangan o‘rganish, o‘yin texnologiyalari, refleksiv yondashuvlar va zamonaviy pedagogik vositalarni jismoniy tarbiya darslariga integratsiya qilish o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishi samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, sport o‘yinlari va jamoaviy mashqlar o‘quvchilarning strategik fikrlash, muloqot, hamkorlik va vaziyatga qarab qaror qabul qilishdagi kompetensiyalarini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya darslari nafaqat jismoniy ko‘nikmalarni rivojlantirish vositasi sifatida, balki shaxsning intellektual va kognitiv rivojlanishini ta’minlaydigan keng qamrovli pedagogik jarayon sifatida ham tashkil etilishi kerak. Shu maqsadda ta’lim jarayoniga innovatsion usullar va texnologiyalarni joriy etish, kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida dars mazmunini yaxshilash va o‘quvchilarning kognitiv faolligini rag‘batlantiruvchi metodologik mexanizmlardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Kelajakda jismoniy tarbiya darslarida kognitiv rivojlanishni baholash mezonlarini ishlab chiqish va raqamli ta’lim texnologiyalari va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik salohiyatini o‘rganish ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlar uchun ustuvor vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бурцев В.А., Бурцева Е.В. Экспериментальное исследование когнитивного компонента спортивной культуры студентов в процессе занятий настольным теннисом // Международный журнал экспериментального образования, 2018. № 4. С. 12-18.
2. Bruner, J. Self-making and world-making [Text] / J. Bruner // Journal of Aesthetic Education. - 1991. - Vol. 25. - №1. - P. 67-78.
3. Hanke, U. The German Memorandum on Physical Education and School Sports and its consequences for physical education teachers and coach education [Text] / U. Hanke // International Journal of Physical Education A Review Publication. - 2011. - V.1. - Issue 1. - P.2-6.
4. Давыдов, В.В. Проблемы развивающего обучения [Текст]: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / В.В. Давыдов. - М.: Академия, 2004. - 282 с.
5. Даутова, О.Б. Проектирование учебно-познавательной деятельности школьника на уроке в условиях ФГОС / О.Б. Даутова. - С-Пб.: КАРО. - 2016. - 184 с.

SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH USULLARI

Mamurov Doniyor Eldorovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti tadqiqotchisi (PhD)
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21903637

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini kompleks baholashning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda innovatsion faoliyat natijadorligini aniqlashda qo‘llaniladigan moliyaviy, strategik va kompleks baholash yondashuvlari tahlil qilinib, ularning afzalliklari hamda amaliy qo‘llash imkoniyatlari yoritilgan. Xususan, investitsiyalar rentabelligi, sof joriy qiymat, ichki rentabellik normasi, asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari, muvozanatlashtirilgan ko‘rsatkichlar tizimi hamda resurs–jarayon–natija modeli asosida innovatsion faoliyat samaradorligini baholashning ilmiy-uslubiy asoslari ochib berilgan. Shuningdek, texnologik yangilanish, ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsion mahsulotlar ulushi va korxonalarning raqobatbardoshligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni kompleks baholash tizimini takomillashtirish, boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish hamda innovatsion rivojlanish strategiyalarini samarali shakllantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: innovatsion faoliyat, sanoat korxonasi, innovatsion samaradorlik, kompleks baholash, investitsiyalar rentabelligi, sof joriy qiymat, ichki rentabellik normasi, asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari, muvozanatlashtirilgan ko‘rsatkichlar tizimi, raqobatbardoshlik.

Аннотация. В статье исследованы теоретические и практические аспекты комплексной оценки эффективности инновационной деятельности промышленных предприятий. Рассмотрены современные финансовые, стратегические и комплексные подходы к оценке инновационной деятельности, раскрыты их преимущества и особенности практического применения. Особое внимание уделено таким инструментам оценки, как рентабельность инвестиций, чистая приведённая стоимость, внутренняя норма доходности, ключевые показатели эффективности, система сбалансированных показателей и модель «ресурсы – процесс – результат». Также проанализирована взаимосвязь между технологическим обновлением, эффективностью производства, долей инновационной продукции и конкурентоспособностью предприятий. Полученные результаты могут быть использованы при совершенствовании системы комплексной оценки инновационной деятельности и разработке эффективной стратегии инновационного развития промышленных предприятий.

Ключевые слова: инновационная деятельность, промышленное предприятие, инновационная эффективность, комплексная оценка, рентабельность инвестиций, чистая приведённая стоимость, внутренняя норма доходности, ключевые показатели эффективности, система сбалансированных показателей, конкурентоспособность.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of the comprehensive assessment of innovation performance in industrial enterprises. The study analyzes financial, strategic, and integrated approaches to evaluating innovation activities and highlights their practical significance. Particular attention is given to investment return, net present value, internal rate of return, key performance indicators, the balanced scorecard system, and the input–process–output model as methodological tools for assessing innovation performance. The relationship between technological modernization, production efficiency, the share of innovative products, and enterprise competitiveness is also investigated. The findings contribute to improving comprehensive innovation assessment systems, enhancing managerial decision-making, and supporting the development of effective innovation strategies for industrial enterprises.

Keywords: innovation activity, industrial enterprise, innovation performance, comprehensive assessment, return on investment, net present value, internal rate of return, key performance indicators, balanced scorecard, competitiveness.

Kirish. Jahon iqtisodiyotida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri innovatsion samaradorligi hisoblanadi. Texnologik yangilanish sur’atlarining ortishi, ishlab chiqarish jarayonlarining raqamlashtirilishi hamda global bozor talab tarkibining o‘zgarishi korxonalar faoliyatida ana’anavi usullarni yuritishni cheklab qo‘ymoqda. Bunday sharoitda innovatsiyalar yaratish,

joriy etish va ularning iqtisodiy natijadorligini baholash masalasi sanoat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda. Innovatsion faoliyat samaradorligini ilmiy asoslangan mezonlar orqali aniqlash sanaot korxonalarining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini shakllantirishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotini modetnizatsiya qilish jarayonida sanoat tarmoqlarida innovatsion faollikni kuchaytirish davlat iqtisodiyot siyosatining markaziy yo‘nalishlaridan biri sifatida nomoyon bo‘lmoqda. Yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish hamda yuqori qo‘shilgan qiymat ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish korxonalar oldiga samaradorlikni baholashning zamonaviy uslub mexanizmlarini ishlab chiqish vazifasini qo‘ymoqda. Amaliyotda innovatsion faoliyat natijalarini faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar orqali baholash yetarli emasligi kuzatilmoqda. Innovatsiyalarning texnologik, tashkiliy, ijtimoiy va institutsional ta’sirini kompleks tahlil qilish ehtiyoji yuzaga kelmoqda.

Innovatsion faoliyat samaradorligini baholashga oid turli nazariy yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular orasida resursli yondashuv, tizimli yondashuv, institutsional konsepsiyalar hamda integrallashgan baholash modellari alohifa o‘rin egallaydi. Mazkur yondashuvlarning aksariyati rivojlangan davlatlar sanoat korxonalarida keng qo‘llanilib iqtisodiy va innovatsion samaradorlikni oshirishga zamin yaratib kelmoqda.

Sanoat korxonalari iqtisodiyotning ustun sohalaridan biri bo‘lib, mamlakatning umumiy iqtisodiy o‘sishi va ijtimoiy barqarorligiga katta hissa qo‘shadi. Bugungi kunda raqobatbardoshlikni ta’minlash va bozor talablari bilan bir qadamda yurish uchun sanoat korxonalari innovatsion faoliyatni keng joriy etishi talab etiladi. Innovatsiya – bu yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan mahsulotlar, texnologiyalar yoki jarayonlar yaratish va joriy qilish jarayoni bo‘lib, u korxonaning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy sanoatda innovatsiya nafaqat mahsulotlarning sifatini oshirish, balki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va resurslardan yanada samarali foydalanish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali korxonalar yangi bozor segmentlarini zabt etishi, global bozorga chiqishi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashi mumkin. Innovatsiya natijasida ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtiriladi, bu esa mehnat unumdorligini oshiradi va inson xatosini kamaytiradi.Sanoat korxonalari uchun innovatsion faoliyatni yo‘lga qo‘yishning eng muhim afzalliklaridan biri – bu raqobat ustunligini yaratishdir [1, B 181-185].

Asosiy qism. Innovatsion samaradorlik bevosita innovatsion faoliyat bilan bog‘liq bo‘lib, Sanoat korxonasi innovatsion rivojlanishining asosiy maqsadi - joriy etilayotgan texnologik yechimlar, boshqaruvning yangi usullari, yangi mahsulot yoki xizmat ishlab chiqarish tarkibidagi o‘zgarishlar tufayli ichki omillarni maqsadli ravishda o‘zgartirish orqali raqobatdosh ustunliklarni oshirish, uning iqtisodiy foydasini saqlab qolishdir [2, B. 44-66].

Hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonalari innovatsion rivojlanishining uchta asosiy usuli mavjud:

1) sotish kanallarini kengaytirish, bu esa o‘z navbatida yangi bozor ulushlarini egallashni, aholini yangi ish o‘rinlari bilan ta’minlashni, mijozlar bazasini kengaytirishni o‘z ichiga oladi va bularning barchasi birgalikda korxona daromadlarining oshishiga olib keladi;

2) texnologik rivojlanish, korxonaning ishlab chiqarish sohasidagi salohiyatini yangilash jarayonini ta’minlashga, pirovard natijada mehnat unumdorligini oshirishga, shuningdek, xom ashyo tannarxining pasayishiga olib keladi. Natijada korxona daromadi oshadi, atrof-muhitga ekologik yuk kamayadi, korxona ichida innovatsiyalarni joriy etish samaradorligi oshadi;


3) ijtimoiy rivojlanish, shu jumladan ijtimoiy muhitning sifat xususiyatlarining oshishi, bu xodimlar mehnatini tashkil etishning yaxshilanishiga, shuningdek, ushbu sohadagi majburiyatlarga ishonchning ortishiga olib keladi.

Sanoat korxonalarning innovatsion rivojlanishining murakkab xususiyati ularning innovatsion faoliyati bilan tavsiflanadi. Innovatsion faoliyat holatning va raqobatbardoshlikning moslashuvchan ko‘rsatkichi sanaladi [3, B. 81-88].

Innovatsion strategiyani ishlab chiqish jarayonida innovatsion rivojlanish modelini shakllantirish asosiy vazifalardan biri bo‘lib, bunda innovatsiyalar strategik maqsadlarga erishishning ham natijasi, ham yo‘li sifatida xizmat qiladi. Korxonalar innovatsion faoliyati ularning raqobatbardoshlik darajasiga ta’sir ko‘rsatadi (1-rasm).

Nazariy jihatdan innovatsion faoliyat samaradorligini tahlil qilishda keng qo‘llaniladigan yondashuvlardan biri bu input-output modeli hisoblanadi. Ushbu modelga ko‘ra innovatsion faoliyat resurslar (input), jarayon (process), natijalar (output) va yakuniy ta’sir (outcome) bosqichlari orqali izchil ravishda tahlil qilinadi. Resurslar sifatida moliyaviy mablag‘lar, ilmiy-tadqiqot xarajatlari, inson kapitali

va texnologik imkoniyatlar qaraladi. Jarayon bosqichida esa ushbu resurslarning qanday boshqarilayotgani, ya’ni ilmiy izlanishlar, tajriba-konstruktorlik ishlari va innovatsion boshqaruv mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi. Natijalar bosqichida yangi mahsulotlar, xizmatlar, patentlar va texnologiyalar yaratilishi kuzatiladi, yakuniy bosqichda esa ushbu innovatsiyalarning iqtisodiy samarasi – daromadning oshishi, xarajatlarning kamayishi va bozor ulushining kengayishi bilan ifodalanadi [4, B 22-31].



1-rasm. Sanoat korxonasi innovatsion faoliyati natijalari va raqobatbardoshligi o‘rtasidagi funksional bog‘liqlik

Innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda kompleks yondashuv alohida o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, samaradorlik faqat moliyaviy natijalar bilan emas, balki texnologik, bozor va ijtimoiy ko‘rsatkichlar tizimi orqali aniqlanishi lozim. Moliyaviy ko‘rsatkichlar sifatida investitsiya rentabelligi (ROI), sof joriy qiymat (NPV) va ichki rentabellik normasi (IRR) qo‘llaniladi. Shu bilan birga, texnologik ko‘rsatkichlar – yangi mahsulotlar soni, patentlar miqdori va ishlab chiqarishning texnologik darajasi – innovatsion faoliyatning sifat jihatlarini ifodalaydi. Bozor ko‘rsatkichlari, jumladan sotuv hajmi, bozor ulushi va eksport salohiyati innovatsiyalarning tijorat muvaffaqiyatini ko‘rsatadi. Ijtimoiy ko‘rsatkichlar esa ish o‘rinlari yaratish, xodimlar malakasini oshirish va innovatsion madaniyatni shakllantirish orqali baholanadi [5, B. 33-45].

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda innovatsion faoliyat samaradorligini umumlashtirilgan holda ifodalash uchun integrallashgan ko‘rsatkich – samaradorlik indeksi keng qo‘llanilmoqda. Ushbu indeks odatda natijalar va sarflangan resurslarnisbatini ifodalaydi, ya’ni innovatsion faoliyatdan olingan iqtisodiy va texnologik foyda uning uchun sarflangan mablag‘lar va resurslarga nisbatan baholanadi. Mazkur yondashuv soddaligi va amaliy qulayligi bilan ajralib turadi, chunki u turli ko‘rsatkichlarni yagona mezonga keltirish imkonini beradi. Shu bilan birga, faqat kvantitativ ko‘rsatkichlarga asoslanish innovatsion faoliyatning barcha jihatlarini to‘liq aks ettirmasligi mumkin [6, B. 128-135].

Korxonalarda innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda turli usullar keng qo‘llanilib, ular o‘zining metodologik yondashuvi va amaliy ahamiyati bilan farqlanadi. Ushbu usullarni shartli ravishda moliyaviy, strategik va kompleks baholash yondashuvlariga ajratish mumkin.

Birinchidan, moliyaviy baholash usullari innovatsion faoliyat samaradorligini aniqlashda eng an’anaviy va keng tarqalgan yondashuv hisoblanadi. Ushbu usullar doirasida investitsiya rentabelligi (ROI), sof joriy qiymat (NPV) va ichki rentabelliknormasi (IRR) kabi ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi. Mazkur indikatorlar innovatsion loyihalarning iqtisodiy jihatdan qanchalik foydali ekanligini aniqlash imkonini beradi. Biroq, ushbu usullarning asosiy kamchiligi shundaki, ular asosan qisqa muddatli moliyaviy natijalarga e’tibor qaratadi va innovatsiyaning uzoq muddatli strategik hamda ijtimoiy ta’sirini to‘liq aks ettirmaydi.

“Ikkinchidan, zamonaviy korxonalarda strategik baholash vositasi sifatida Balanced Scorecard (BSC) tizimi keng qo‘llanilmoqda. Ushbu yondashuv innovatsion faoliyatni faqat moliyaviy natijalar orqali emas, balki mijozlar ehtiyojini qondirish darajasi, ichki biznes jarayonlari samaradorligi hamda o‘rganish va rivojlanish imkoniyatlari orqali kompleks tarzda baholashni nazarda tutadi. BSC tizimi innovatsiyalarni korxonaning umumiy strategiyasi bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi va uzoq muddatli rivojlanish uchun muhim asos yaratadi.

Uchinchidan, KPI (Key Performance Indicators) tizimi innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda muhim amaliy vosita sifatida qo‘llaniladi. Ushbu yondashuvda korxona faoliyati aniq o‘lchovli ko‘rsatkichlar orqali baholanadi. Jumladan, yangi mahsulotlar ulushi, innovatsiyalardan olingan daromad ulushi, ilmiytadqiqot xarajatlarining samaradorligi kabi indikatorlar keng qo‘llaniladi. KPI tizimi korxonaga o‘z faoliyatini doimiy monitoring qilish va zarur hollarda tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

To‘rtinchidan, zamonaviy amaliyotda kompleks va integratsiyalashgan yondashuvlar tobora keng qo‘llanilmoqda. Bunda moliyaviy, texnologik va ijtimoiy ko‘rsatkichlar yagona tizimga birlashtirilib, innovatsion faoliyatning umumiy samaradorligi aniqlanadi. Ushbu yondashuv innovatsion jarayonlarning barcha jihatlarini qamrab olishi bilan ajralib turadi va eng obyektiv baholash imkonini beradi. Innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda aynan integratsiyalashgan yondashuvlardan foydalanish eng maqbul hisoblanadi, chunki u korxonaning real holatini har tomonlama aks ettiradi va strategik qarorlar qabul qilish uchun mustahkam asos yaratadi” [7, B. 710-719].

Xulosa. Sanoat korxonalarida texnologik yangilanish innovatsion rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga integratsiyalash korxonalarga ishlab chiqarish siklini qisqartirish, mehnat unumdorligini oshirish va resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish imkonini beradi. Texnologik yangilanish darajasi yuqori bo‘lgan korxonalarda innovatsion mahsulotlar ulushi ortadi, ishlab chiqarish tannarxi pasayadi hamda eksport salohiyati kengayadi. Mazkur holat innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda texnologik indikatorlarning ustuvor o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Ilmiy tadqiqotlar texnologik yangilanish va innovatsion samaradorlik o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Korxonalarda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, yuqori unumdor ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy texnik infratuzilmaning joriy etilishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi hamda iqtisodiy natijadorlikni oshiradi. Texnologik yangilanish jarayonining samaradorligi ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, energiya sig‘imi, innovatsion mahsulot hajmi va texnologik moslashuvchanlik ko‘rsatkichlari orqali aniqlanadi.

Innovatsion faoliyat samaradorligini baholash metodologiyasida texnologik yangilanishning kompleks indikatorlar tizimi asosida tahlil qilinishi ilmiy jihatdan muhim hisoblanadi. Mazkur indikatorlar tarkibiga asosiy fondlarning yangilanish koeffitsienti, ishlab chiqarishning avtomatlashtirish darajasi, texnologik innovatsiyalar ulushi hamda ilmiy-tadqiqot ishlanmalariga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi kiradi. Ushbu ko‘rsatkichlar sanoat korxonalarining texnologik rivojlanish sur’atlarini aniqlash va innovatsion strategiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Texnologik yangilanishning yuqori darajasi sanoat korxonalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Innovatsion texnologiyalarni samarali joriy etgan korxonalar ishlab chiqarish jarayonlarida moslashuvchanlikka erishadi, bozor talablariga tez javob qaytaradi hamda global raqobat muhitida ustun mavqeni shakllantiradi. Shu nuqtayi nazardan texnologik yangilanish innovatsion faoliyat samaradorligini baholashning muhim metodologik elementi sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida innovatsion samaradorlikni oshirish maqsadida quyidagi takliflar beriladi:

1. Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini baholashda moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda texnologik, tashkiliy va bozor ko‘rsatkichlarini qamrab oluvchi kompleks baholash tizimini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq.

2. Innovatsion faoliyat natijalarini doimiy monitoring qilish maqsadida raqamli tahlil platformalari va asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) tizimidan keng foydalanish korxonalarda boshqaruv qarorlarining aniqligi hamda innovatsion rivojlanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Морозов Д.И. Принципы инновационного развития предприятия / Д. И. Морозов // Актуальные вопросы экономических наук. – 2010. – № 15 (1). – С. 181–185.

2. Yuldasheva N.A “Sanoat korxonalarini boshqarishda innovatsion strategiyani rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslari” Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. Andijon-2024

3. Павлова Е.Г. Инновационный потенциал организации малого и среднего бизнеса / Е. Г. Павлова // Проблемы управления. – 2007. – № 1. – С. 81–88

4. Головачев В И. Инновационная сфера как определяющий фактор качества экономического развития / В.И.Головачев В.Н. Рябых С.А.Форофонтов // Социально-экономические явления и процессы. – 2015. – Т. 10. – № 7. – С. 22-31. – EDN UMCJYH.

5. Fatxutdinov,R.A. Innovatsion menejment. B. 33-45 https://scholar.google.com/scholar

6. Davlatova,O. Innovatsion faoliyat samaradorligini baholash usullari. B. 128-135 https://scholar.google.com/scholar?

7. Gafurova U.F. Innovatsion faoliyat samaradorligini baholashning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy tahlili (korxonalar misolida) // Marketing ilmiy, amaliy va ommabop jurnali. – 2026. – №1. – B. 710–719.

8. Muallif ishlanmasi.

CLIL TEXNOLOGIYASI ASOSIDA FIZIKA TA’LIMIDA VIRTUAL LABORATORIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Kamalov Amangeldi Bazarbaevich
Ajiniyoz nomidagi NDPI fizika kafedrasi professori
Jumamuratova Nawbahar Saatbaevna
Ajiniyoz nomidagi NDPI magistri
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21903708

Annotatsiya. Ushbu tezisda CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasi asosida fizika ta’limida virtual laboratoriyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda PhET, Labster va boshqa zamonaviy raqamli platformalarning CLIL yondashuvi bilan uyg‘unlashtirilishi natijasida o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi, amaliy ko‘nikmalari, ilmiy tafakkuri va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan hamda ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: CLIL texnologiyasi, fizika ta’limi, virtual laboratoriyalar, raqamli ta’lim, PhET simulyatsiyalari, ingliz tili, fan va til integratsiyasi, interaktiv o‘qitish, pedagogik imkoniyatlar, kommunikativ kompetensiya, fizik terminologiya, ta’lim samaradorligi.

Аннотация. В данном тезисе анализируются педагогические возможности использования виртуальных лабораторий в физическом образовании на основе технологии CLIL (Content and Language Integrated Learning). В исследовании освещена роль PhET, Labster и других современных цифровых платформ в развитии интереса учащихся к науке, практических навыков, научного мышления и коммуникативных компетенций в результате интеграции с CLIL-подходом, а также обоснована их значимость в повышении эффективности образования.

Ключевые слова: технология CLIL, физическое образование, виртуальные лаборатории, цифровое образование, симуляции PhET, английский язык, интеграция науки и языка, интерактивное обучение, педагогические возможности, коммуникативная компетенция, физическая терминология, эффективность образования.

Abstract. This thesis analyzes the pedagogical possibilities of using virtual laboratories in physics education based on CLIL (Content and Language Integrated Learning) technology. The study highlights the role of PhET, Labster, and other modern digital platforms in developing students' interest in science, practical skills, scientific thinking, and communicative competencies as a result of their integration with the CLIL approach, and substantiates their significance in increasing educational efficiency.

Keywords: CLIL technology, physics education, virtual laboratories, digital education, PhET simulations, English language, science and language integration, interactive learning, pedagogical opportunities, communicative competence, physical terminology, educational effectiveness.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimini raqamlashtirish hamda fan va chet tilini integratsiyalash zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasi o‘quvchilarning fan bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtirish bilan birga, ularning xorijiy tilda muloqot qilish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, CLIL yondashuvi raqamli ta'lim muhiti bilan uyg‘unlashganda o‘quvchilarning darsdagi faolligi va ta’limdan qoniqish darajasi sezilarli oshadi [1].Shuningdek, virtual laboratoriyalarni fizika ta’limiga joriy etish murakkab fizik hodisalarni modellashtirish, tajribalarni xavfsiz va interaktiv muhitda bajarish hamda o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tadqiqotlarda virtual laboratoriyalar konseptual bilimlarni shakllantirishda an’anaviy laboratoriyalar bilan teng, ayrim holatlarda esa samaraliroq natija berishi ta’kidlangan [2]. Shu sababli CLIL texnologiyasini virtual laboratoriyalar bilan uyg‘unlashtirish fizika fanini o‘qitish sifatini oshirish, o‘quvchilarning ingliz tilidagi fizik terminologiyani o‘zlashtirishini qo‘llab-quvvatlash hamda ularning kommunikativ va tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning istiqbolli pedagogik yechimlaridan biri hisoblanadi.

CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasi zamonaviy ta’limda fan mazmuni va chet tilini integratsiyalashga asoslangan innovatsion pedagogik yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarga bir vaqtning o'zida fan bo'yicha nazariy bilimlarni egallash, sohaga oid terminologiyani o‘zlashtirish hamda xorijiy tilda samarali muloqot qilish kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, fizika fanini CLIL asosida o‘qitish o‘quvchilarning fizik qonuniyatlarni chuqur

anglashiga, ilmiy tushunchalarni tahlil qilishiga, tajriba natijalarini izohlashiga va fizik terminlarni ingliz tilida to‘g‘ri qo‘llashiga xizmat qiladi. Bunda o‘quvchilar faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki kuzatuvchi, tahlil qiluvchi va xulosa chiqaruvchi faol subyekt sifatida ishtirok etadilar.

2025-yilda Cambridge University Press tomonidan nashr etilgan Content and Language Integrated Learning (CLIL) asarida CLIL metodologiyasining asosini tashkil etuvchi 4C modeli (Content, Communication, Cognition va Culture) o‘quvchilarning fan mazmunini o‘zlashtirishi, til ko'nikmalarini rivojlantirishi, tanqidiy fikrlashni shakllantirishi hamda madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim omili sifatida e’tirof etilgan [3]. Mazkur konsepsiya fizika darslarida ham o‘quvchilarning predmet kompetensiyasi va ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini uyg’un rivojlantirish uchun mustahkam metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Virtual laboratoriyalar zamonaviy fizika ta’limining muhim tarkibiy qismiga aylanib, o‘quvchilarga murakkab fizik hodisalarni vizual kuzatish, tajribalarni xavfsiz muhitda bir necha bor takrorlash hamda olingan natijalarni mustaqil tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. An’anaviy laboratoriyalardan farqli ravishda, virtual laboratoriyalar maxsus jihozlar, katta mablag‘ yoki murakkab infratuzilmani talab qilmaydi. Shu sababli ular laboratoriya jihozlari yetarli bo‘lmagan ta’lim muassasalarida ham sifatli amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish imkonini beradi. Fizika darslarida PhET Interactive Simulations, Labster va boshqa raqamli platformalardan foydalanish elektr, mexanika, optika, molekulyar fizika va termodinamika kabi mavzularni o‘quvchilar uchun yanada tushunarli va qiziqarli qiladi. Simulyatsiyalar yordamida o‘quvchilar fizik kattaliklar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni real vaqt rejimida kuzatadilar, parametrlarni mustaqil o‘zgartiradilar va tajriba natijalarini tahlil qilish orqali ilmiy xulosalar chiqarishni o‘rganadilar. Bu esa ularning konseptual bilimlarini mustahkamlash, tanqidiy fikrlashini rivojlantirish va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Virtual laboratoriyalardan foydalanish o‘quvchilarning o‘quv yutuqlariga o‘rtacha ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan hamda ular ta’lim samaradorligini oshirishda istiqbolli pedagogik vosita ekanligi ta’kidlangan [4]. Mazkur natijalar virtual laboratoriyalarni CLIL texnologiyasi bilan uyg‘unlashtirish fizika ta’limining sifatini yanada oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratishini ko‘rsatadi.

CLIL texnologiyasini virtual laboratoriyalar bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning fizik terminologiyani ingliz tilida tabiiy va mazmunli tarzda o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. An’anaviy darslarda terminlar ko‘pincha alohida yodlanadigan tushunchalar sifatida o‘rganilsa, CLIL yondashuvida ular amaliy faoliyat jarayonida qo‘llaniladi. Masalan, PhET simulyatsiyalaridan foydalanish davomida o‘quvchilar *voltage* (kuchlanish), *current* (tok kuchi), *resistance* (qarshilik), *force* (kuch), *acceleration* (tezlanish) va *energy* (energiya) kabi fizik atamalarni tajriba bajarish, natijalarni tahlil qilish va muhokama qilish jarayonida faol ishlatadilar. Bu esa terminlarning mazmunini chuqurroq anglash, ularni nutqda to‘g‘ri qo‘llash hamda ilmiy matnlarni tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, virtual laboratoriyalar o‘quvchilarning mustaqil ishlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, tajriba natijalarini taqqoslash va ilmiy xulosalar chiqarish kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Shu sababli CLIL va virtual laboratoriyalar integratsiyasi nafaqat fan bo‘yicha bilimlarni mustahkamlaydi, balki o‘quvchilarning ingliz tilidagi akademik savodxonligi, tanqidiy fikrlashi va kommunikativ kompetensiyasining rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarda CLIL yondashuvini raqamli ta’lim vositalari bilan uyg'unlashtirish o‘quvchilarning fan mazmunini chuqurroq o‘zlashtirishi, motivatsiyasini oshirishi hamda chet tilida muloqot qilish kompetensiyasini rivojlantirishga samarali hissa qo‘shishi qayd etilgan [5].

CLIL texnologiyasi asosida tashkil etilgan fizika darslarida virtual laboratoriyalardan foydalanish o‘quvchilarning ilmiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Virtual tajribalarni bajarish jarayonida o‘quvchilar kuzatish, gipoteza ilgari surish, natijalarni tahlil qilish va xulosalarni ingliz tilida ifodalashga o‘rganadilar. Bu jarayon nafaqat fizik bilimlarning mustahkamlanishiga, balki o‘quvchilarning ilmiy fikrlarini mantiqiy bayon etish, guruhda hamkorlik qilish va ilmiy munozaralarda faol ishtirok etish ko‘nikmalarining rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, virtual laboratoriyalar asosida tashkil etilgan topshiriqlar o‘quvchilarni izlanishga undaydi, ularning muammoli vaziyatlarni hal qilish va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantiradi. CLIL yondashuvida bunday faoliyat fan mazmunini o‘zlashtirish bilan birga ingliz tilidagi akademik nutqni rivojlantirish uchun ham qulay sharoit yaratadi.

Virtual laboratoriyalar asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar modeli bo‘lajak fizika o‘qituvchilarida tadqiqotchilik ko‘nikmalari, ijtimoiy muloqot va ilmiy kommunikatsiyani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega [6].

CLIL texnologiyasi va virtual laboratoriyalar integratsiyasi o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Zamonaviy ta’limda tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, kommunikativ kompetensiya, raqamli savodxonlik va ijodiy yondashuv asosiy kompetensiyalar sifatida e'tirof etiladi.Virtual laboratoriyalar orqali tashkil etilgan CLIL darslarida o‘quvchilar fizik hodisalarni modellashtirish, eksperiment natijalarini tahlil qilish, muammolarga yechim topish hamda o‘z fikrlarini ingliz tilida asoslab berish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Natijada ular nafaqat fizik tushunchalarni chuqurroq o‘zlashtiradilar, balki xalqaro ta’lim va ilmiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni ham egallaydilar. Shu nuqtai nazardan, virtual laboratoriyalar va CLIL texnologiyasining uyg‘unligi fizika ta’limini zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Virtual laboratoriyalarni zamonaviy ta’limning ajralmas qismi sifatida baholab, ular moslashuvchan, interaktiv va teng ta’lim imkoniyatlarini yaratish orqali talabalarning o‘quv natijalarini yaxshilashga xizmat qilishini qayd etadilar [7].

Xulosa qilib aytganda, CLIL texnologiyasi asosida fizika ta’limida virtual laboratoriyalardan foydalanish o‘quvchilarning fan bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtirish, ingliz tilidagi fizik terminologiyani samarali o‘zlashtirish hamda kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega. Virtual laboratoriyalar fizik hodisalarni vizual modellashtirish, tajribalarni xavfsiz va interaktiv muhitda tashkil etish hamda nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, CLIL texnologiyasi va virtual laboratoriyalar integratsiyasi o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati, raqamli kompetensiyasi va muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Shuningdek, mazkur yondashuv xalqaro ta’lim standartlariga mos ravishda fan va tilni integratsiyalash orqali fizika ta’limining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kelgusida fizika ta’limi jarayoniga CLIL texnologiyasi asosida PhET, Labster va boshqa zamonaviy virtual laboratoriyalarni keng joriy etish, ularning didaktik imkoniyatlarini chuqur o‘rganish hamda mazkur yondashuvning o‘quvchilarning o‘quv natijalari va til kompetensiyasiga ta'sirini eksperimental tadqiqotlar asosida baholash maqsadga muvofiqdir. Mazkur yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy izlanishlar fizika ta'limi sifatini yanada oshirish hamda innovatsion ta’lim texnologiyalarini amaliyotga samarali tatbiq etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yang, W.-H., & Yang, L.-Z. (2022). Evaluating Learners' Satisfaction with a Distance Online CLIL Lesson During the Pandemic. English Teaching & Learning, 46, 179–201.

2. Kapici, H. Ö., Akcay, H., & Cakir, H. (2022). Investigating the Effects of Different Levels of Guidance in Inquiry-Based Hands-on and Virtual Science Laboratories. International Journal of Science Education, 44(2), 324–345.

3. Banegas, D.L., Hemmi,C. ,Bower,J. (2025). Content and Language Integrated Learning (CLIL). Cambridge University Press.

4. Santos, M. L., & Prudente, M. (2022). Effectiveness of Virtual Laboratories in Science Education: A Meta-Analysis. International Journal of Information and Education Technology, 12(2), 150–156.

5. Yang, W.-H., & Yang, L.-Z. (2022). Evaluating Learners' Satisfaction with a Distance Online CLIL Lesson During the Pandemic. English Teaching & Learning, 46, 179–201.

6. Fatmaryanti, S. D., Pratiwi, U., Akhdinirwanto, R. W., & Sulisworo, D. (2022). A Task Model for Supporting Virtual Laboratory Based on Inquiry Skills, Social and Scientific Communication. International Journal of Evaluation and Research in Education, 11(1), 385–391.

7. Hassan, J., Devi, A., & Ray, B. (2022). Virtual Laboratories in Tertiary Education: Case Study Analysis by Learning Theories. Education Sciences, 12(8), 554.

XURSHID DAVRON IJODIDA GRADUONIMLARNING VOQELANISHI

Sultanova Xurshida Uktamjanovna
O‘zMU O‘zbek filologiyasi, magistr
sultanovakhurshida323@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21903761

Annotatsiya. Mazkur maqolada graduonimlarni o’rganish masalalari atroflicha talqin qilingan hamda publitsistik uslubga oid matnlarda qo’llangan graduonimlar Xurshid Davron ijodi misolida tahlil qilingan.
Kalit so’zlar: leksik-semantik, graduonim, publitsistik uslub, lug‘aviy graduonimiya, nutqiy graduonimiya, darajalanish hodisasi
Абстрактный. В данной статье подробно трактуются вопросы изучения градуонимов и анализируются градуомимы, используемые в текстах публицистического стиля, на примере творчества Хуршида Даврона.
Ключевые слова: лексико-семантика, градуоним, публицистический стиль, лексическая градуонимия, речевая градуонимия, феномен градации.
Abstract. This article comprehensively interprets the issues of studying graduonyms and analyzes the graduonyms used in texts related to the journalistic style using the example of the work of Khurshid Davron.
Keywords: lexical-semantic, graduonym, journalistic style, lexical graduonymy, speech graduonymy, the phenomenon of gradation

Tilshunoslikda leksik-sematik hodisalardan biri sifatida e’tirof qilinadigan graduonimiya hodisasi lug‘aviy birliklarning o‘zaro ma’noviy munosabatiga ko‘ra ma’lum bir darajalanish qatorini hosil etishi bilan asoslanadi. Graduonimiya hodisasi fanga qadimdan ma’lum bo‘lib, unda leksemalarning ma’noviy guruhlari a’zolari belgining ko‘p yoki kamligiga ko‘ra darajalanadi. Darajalanish qatori a’zolari kamida uchta bo‘ladi [1.2020:B.134]. Graduonimiya, ya’ni darajalanish hodisasi badiiy adabiyotda, she’riyatda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Belgini darajalab keluvchi so‘zlar qatorini tuzish va uni alohida hodisa sifatida ajratib ko‘rsatish Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida uchraydi. Mutafakkir *yig‘i* holatini ifodalovchi *ingramoq - singramoq - yig‘lamsinmoq - siqtamoq - yig‘lamoq-o‘kurmak - hoy-hoy yig‘lamoq* so‘zlarining barchasini bir umumiy ma’no - *iztirob chekib, uni ifodalash* ma’nosi atrofiga birlashishini va belgi darajasining o‘sib borishini ta’kidlaydi [2. 2023:B.69].

Darajalanish hodisasi tilshunoslikda tadqiqot obyekti sifatida o‘zbek tilshunosligida 1989-yilda so‘zlararo ma’noviy munosabatlarning bir ko‘rinishi sifatida talqin etilib, unga graduonimiya hodisasi deb nom berildi [3.2016:B.7]. Darajalanish hodisasi yuzasidan o‘zbek tilshunosligida bir qator ishlar yaratildi. Xususan, R.Safarova, Sh.Orifjonovalarning nomzodlik [4.1996:B.47; 5.1996:B.26], O.Bozorov, J.Djumaboyeva va G‘.Rahmonovlarning doktorlik dissertatsiyalarida [6.1997:B.51; 3.2016:B.63; 7.2018:B.52] o‘zbek tilida darajalanish hodisasining mazmuni, lug‘aviy sinonimiya va graduonimiyaning o‘zaro munosabati, so‘z turkumlarida voqelanishi hamda turli tizimli tillarda graduonimiyaning qiyosiy tahlili tadqiq etilgan.

Sinonimiya va antonimiya hodisalarini birlashtirgan va 0 nuqtadan har ikki tomonga qarab yo‘naltirish mumkin bo‘lgan leksemalarda sifat ko‘rsatkichi miqdor ko‘rsatkichiga tomon o‘zgarib boradi. Sinonimik qatordagi leksemalar odatda, bitta umumiy denotatga ega bo‘ladi, sinonimik paradigmada so‘zlar uslubiy bo‘yoqdorligiga ko‘ra farqlanadi. Graduonimiyada esa so‘zlar turli denotatlarni ifodalab kelsa-da, ular o‘zaro miqdor jihatdan bir paradigmaga birlashadi. Ya’ni miqdorning o‘sib yoki kamayib borishi graduonimik qatorni hosil qilishning bosh omili hisoblanadi. Graduonimlarda sifat belgilarining, so‘zlarning ma’nosi bilan bir qatorda ular ifodalagan ma’noning miqdori har xil bo‘ladi.

So‘zlarning darajalanish qatorini ajratishda asosiy omil ma’noviy omil sanaladi, ya’ni darajalanish qatoridagi har bir so‘zda ma’lum bir belgining turlicha darajalanishiga ishora mavjuddir. Graduonimik qatordagi har bir so‘z ma’lum bir belgining darajalanishini ifodalashiga ko‘ra graduonimik paradigma a’zosi hisoblanadi. Ushbu paradigma a’zolari o‘zaro ma’nodosh bo‘lishi ham, ma’nodosh bo‘lmasligi ham mumkin.

Darajalanish hodisasi Xurshid Davron publitsistikasida quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

Lug‘aviy graduonimiya (darajalanish). Lug‘aviy graduonimiyada so‘zlar ifodalagan ma’nolardagi belgining ortib yoki kamayib borishi ularni bir graduonimik paradigmaga birlashtirih uchun asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Xurshid Davron publitsistik asarlarida lisoniy darajalanishdan unumli

foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin: “O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati” da payt ravishlarida zamonning oldin - keyinligi *kecha - bugun- erta -indin* kabi leksemalarda darajalanishi keltirilgan [8.2009:B.24]. Xurshid Davronning “Ma’naviy hayot” jurnalining 2023-yil 1-sonida jurnalist Shodmonqul Salom bilan e’lon qilingan suhbatida ushbu darajalanish biroz boshqacharoq ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: *“Biz bugun emas, erta emas, kecha anglashimiz lozim bo‘lgan haqiqat shundaki, navqiron davlatchiligimiz taraqqiyoti yanada yuksalishini istasak, bugun - har soatu har daqiqada zarurligi sezilayotgan milliy g‘oya - mafkuramiz va ideal - kamoli matlubimiz nimadan iborat ekanligini, har bir inson, eng avvalo saflarimizga qo‘shilgan nasllar uchun aniq-ravshan ko‘rsatishimiz shart.”*[9]. Ushbu misolimizda vaqt miqdorining kamayib borishini ifodalagan graduonimlarni ko‘rishimiz mumkin: *bugun - soat - daqiqa* kabi. Sh.Bobojonov vaqt miqdorining ortib borishini quyidagicha izohlaydi: *lahza - on - soniya - daqiqa - soat - kun - sutka - hafta - oy - yil - asr era* [8.2009:B.25]. Muallif *bugun* so‘zini kun ma’nosida qo‘laganini hisobga olsak, maqola matnida keltirilgan *bugun - soat - daqiqa* so‘zlarida vaqt miqdorining kamayib borishi voqelanganini guvohi bo‘lamiz.

Xuddi shu suhbatda berilgan keyingi misolni tadqiqqa tortamiz” *“Millat deganda ham, jamiyat deganda ham avvalo odamlarni tushunamiz”*[9]. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da MILLAT so‘zi “kishilarning yagona tilda so‘zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo‘lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi” deya izohlangan [14.2023:B.193]. JAMIYAT leksemasi esa arabcha “yig‘ilish; uyushma; guruh” kabi ma’nolarni anglatadi [15.2023:B.620]. ODAM so‘zi “fikrlash, so‘zlash va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan shu tufayli boshqa mahluqotdan ustun turuvchi jonli zot; kishi, inson” kabi ma’nolarni anglatishi qayd etilgan [14.2023:B.433]. “O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati” da yuqoridagi leksemalar darajalanuvchi so‘zlar qatorida keltirilmagan. Ammo hajm ko‘lamining katta-kichikligiga ko‘ra darajalanishni hosil qiluvchi bu leksemalarda miqdor belgisining kamayib borishi *millat - jamiyat - odamlar* graduonimik qatorida o‘z aksini topgan.

Misollardagi lisoniy graduonimik qator a’zolari darajaning ortib borishi tartibida, miqdorning, sifatning oshishi, bo‘yoqdorlik va ekspressivlikning kuchayishi tartibida voqelanmoqda. Publitsistik matnda voqea-hodisaning tavsifi jarayonida bu kabi lisoniy darajalangan leksemalardan foydalanish bildirilayotgan fikrning realligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu ma’noda adib fikrning butun ma’no nozikliklari bilan ifodalaydigan so‘zni tanlaydi. Adib graduonimik qator a’zolaridan shunday mahorat bilan foydalanganki, natijada bu publitsistik uslub tilini boyitib, ma’lumot o‘quvchiga to‘liq tarzda yetib borishini ta’minlagan.

Nutqiy, uslubiy graduonimiya (darajalanish). Graduonimiya hodisasi sinonimiya, antonimiya, omonimiya kabi leksik - semantik munosabatlarni ifodalovchi til hodisasidir. Leksemalarda mavjud emotsional ottenkalar belgi darajasining ortiq yoki kamligiga ham asoslanadi. Belgi darajasining ortiqligi leksemaning ta’sirchanligini ta’minlaydi, hissiy bo‘yoqdorlikni vugudga keltiradi. Publitsistik uslubda bo‘yoqdorlikni ta’minlash uchun so‘zlarning kontekstual ma’nolaridan ham unumli foydalanish mumkin. Muallif ifodalayotgan fikrining ekspressivligini oshirish uchun nafaqat leksik graduonimiyadan, balki nutqiy graduonimiyadan, ya’ni gradatsiyadan o‘rnida foydalanishi muhim hisoblanadi. Ushbu ikki tushuncha izohiga to‘xtalsak. O‘zbek tilshunosligida “graduonimiya” termini ilk bor 1989-yilda so‘zlararo ma’noviy munosabatlarning bir ko‘rinishi sifatida “graduonimiya” tarzida ishlatilgan. Bu hodisaga lug‘aviy darajalanish sifatida baho berilgan va leksik ma’nolari muayyan belgi - xususiyatning turli darajalari bilan bog‘langan leksik - semantik guruhlarning o‘zaro farqlanishi ilmiy baholangan [2.2023:B.73].

M. Yo‘ldoshev “Matn lingvistikasi” nomli o‘quv qo‘llanmasida gradatsiya (lot.gradatio – zinapoya, bosqichma bosqich kuchaytirish) nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma’nosini kuchaytirib borishdan iborat uslubiy jarayon deya izohlanadi [10.2021:B.122]. Cho‘lpon publitsistik asarlarini lingvistik jihatdan tahlil qilgan D.Ne’matova gradatsiyani “ma’noning kuchaytirlgan takrori” deb qayd etadi hamda gradatsiya usulining ko‘proq uyushiq bo‘laklarda namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi [11.2004:B.118]. “Graduonimiya” leksik - semantik munosabatlarni ifodalovchi til hodisasi sifatida namoyon bo‘lsa, “gradatsiya” esa stilistik vosita sifatida nutqda voqelanadigan hodisadir. Tilshunos J.Jumaboyeva ta’kidlashicha, graduonimiya termini ostida faqat bitta leksemaning lug‘aviy ma’nosi asosida darajalanish tushuniladi. Gradatsiya esa stilistik figuradir, ya’ni gradatsiya bitta matn tarkibida qo‘llangan ibora, metafora, metonimik ko‘chma ma’nolarning kuchayib, pasayib borishini ifodalaydi [3.2016:B.27]. Demak, graduonimiya hodisasi leksemalardagi belgining ortib yoki kamayib borishi natijasida o‘zaro zidlanishni hosil qiluvchi, leksik - semantik munosabatni ifodalovchi hodisadir.

Xurshid Davron publitsistikasida lisoniy darajalanish bilan bir qatorda nutqiy darajalanish ham qo‘llanganligining guvohi bo‘lamiz. Jumladan, muallifning 2015-yida e’lon qilingan “Ustoz ibrati” nomli maqolasida ish-harakat leksemalari ifodalagan ma’noning uslub talabi bilan darajalab ko‘rsatilish holati quyidagi misolda aks etgan: *“Olayotgan nafasimiz ham she’r bilan, ijod bilan to‘yingan, yangi chiqqan kitobgina emas, gazetada bosilgan hikoya, hatto bittagina she’r yuz minglab yuraklarni hayajonga solganini ko‘rib, bilib, his qilib turardik.”*[12]. Keltirilgan misoldagi *ko‘rib - bilib - his qilib turardik* kabi birliklar morfologik tarkibiga ko‘ra sodda va qo‘shma so‘zlar hisoblanib, bir matn tarkibida ketma-ket qo‘llanib, ma’noning kuchayib borishini ta’minlamoqda.

Yana shunday misollarga to‘xtalamiz: *“Bu shuning uchun ham kerakki, zimmamizda tarix yuklagan vazifani va bugungi taraqqiyot yo‘limizni belgilamog‘i, ya’ni biz bu mafkura, bu kamoli matlub asosida yashamog‘imiz, farzand tarbiyalamog‘imiz, qonunlar tuzmog‘imiz, tashkilotlar qurmog‘imiz, istiqbol shukuhini ko‘nglimizda o‘stirib, avaylab-asrab kelajak avlodlarimizga yetkazmog‘imiz lozim.”*[9]. Ushbu misolda qo‘llangan *yashamog‘imiz-tarbiyalamog‘imiz- tuzmog‘imiz-qurmog‘imiz-yetkazmog‘imiz lozim* kabi murakkab kesimlar ish- harakatdan anglashilgan maqsadning ortib borishi asosida darajalanishni yuzaga keltirgan. Lekin bu darajalanish ushbu leksemalarning denotativ darajalanishi asosidagi joylashuvini aks ettirmaydi hamda lisoniy hodisa hisoblanmaydi. Chunki mazkur leksemalar matn ichidagina darajalanishni yuzaga keltirmoqda. Matndan tashqarida esa graduallik hosil qilmaydi.

Xurshid Davron publitsistikasida kishilarga xos bo‘lgan harakter-xususiyat ma’nosining darajalanishini ham uchratish mumkin: *“Mehr ildizi esa bolaligimizda, umrimizning beg‘ubor faslida. Uni yo‘qotib qo‘yishdan asrasin. Mabodo yo‘qotib qo‘yilsa, yuzsizlikka, xiyonatga, imonsizlikka va so‘zfurushlikka yo‘l ochiladi.”*[13]. “Gulxan” jurnalining 2012-yil 12- sonida “Bolalikning oppoq ranglari” nomi ostida Xurshid Davron bilan suhbat berilgan. Maqola matnini tahlil qilsak: YUZSIZLIK. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da bu leksemaga “yuzsiz (ra’y- andishani bilmaydigan, or- nomussiz, uyatsiz) ga xos ish, xatti- harakat” deb izoh berilgan [16.2023:B.302]. XIYONAT. Asli arabcha “makr, hiyla; xoinlik, munofiqlik, vafosizlik” kabi ma’nolarni anglatuvchi ushbu so‘z o‘zbek tilida “ahdni buzish, birovning ishinchini yoki ishonib topshirgan narsasini suiste’mol qilish” degan ma’nolarni ifodalaydi [16.2023:B.54]. IYMONSIZLIK. Ushbu so‘z asli arabcha “Allohga ishonch; diniy e’tiqod” kabi ma’nolarni anglatuvchi i(y)mon so‘zidan hosil qilingan bo‘lib, “Xudoga ishonchi, e’tiqodi yo‘q, xudodan qaytgan, dindan qaytgan” kabi ma’nolarni ifodalaydi. SO‘ZFURUSHLIK. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da ushbu leksemaning ma’nosi keltirilmagan. Ammo ushbu lug‘atda berilgan so‘zbozlik so‘zi anglatgan ma’no so‘zfurushlik so‘zi izohiga yaqin ma’noni ifodalashining guvohi bo‘lamiz: SO‘ZBOZLIK. “Quruq gap, safsata sotish, safsatabozlik” kabi ma’nolari bilan so‘zning asli naqadar qudratli kuchga ega ekanligini, uni behuda sarflamaslik kerakligini ifodalaydi [16.2023:B.820]. Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, *yuzsizlik* > *xiyonat* > *imonsizlik* > *so‘zfurushlik* leksemalari “or- nomussiz, munofiq, dindan qaytgan, safsataboz” semalari asosida nutqiy darajalanishni yuzaga keltirmoqda.

Mazkur suhbat matnida adib tomonidan fikr ta’sirchanligini oshirish, matn ekspressivligini ta’minlash maqsadida matndan tashqarida denotativ jihatdan graduallikni hosil qilmaydigan leksik birliklar bir graduonimik qatorda shunday terilganki, natijada bu hodisa kishilarga xos bo‘lgan belgi- xususiyat ma’nosining o‘sib borishini ta’minlagan.

Kishilarga xos bo‘lgan xususiyatni ifodalovchi uslubiy graduonimlarni adibning “Ma’naviy hayot” jurnalining 2023-yil 1-sonida e’lon qilingan “Umrni ma’noga to‘ldirmoq zavqi” nomli suhbatida ham uchratishimiz mumkin: *“Jahondagi barcha xalqlarning o‘ziga xos fe’l-atvori ya’ni milliy sajiyasi, turmush tarzi, hayotiy aqidalari mavjud.”*[9]. Muallif juft so‘z va tobe bog‘lanishli otli birikmalarni qo‘llash orqali leksemalar ma’nosidagi belgining gradual o‘sishi jihatdan darajalanishini yuzaga keltirgan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, darajalanish hodisasi butun borliqning uzluksizligini hamda uzviyligini ta’minlashga xizmat qiladi. Publitsistik matnda esa graduonimiya va gradatsiya fikrni sodda, ta’sirchan, aniq va takrorlarsiz ifodalash imkonini beradi. Xurshid Davron publitsistik uslubi tahlili shuni ko‘rsatadiki, adib maqola, esse va suhbatlari tilida yuqorida qayd etilgan hodisalardan hissiy bo‘yoqdorlikni oshirish, ifodalilikni ta’minlash maqsadida unumli foydalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: “Innovatsiya -Ziyo”, 2020.
2. M.M.Masharipov. Mahmudxo‘ja Behbudiy publitsistikasining lekik xususiyatlari. Filol. Fan. bo‘yicha falsafa dokt. diss. Guliston Davlat Universiteti. 2023.
3. Джумабоева Ж. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик ҳамда стилистик градуонимия. Фил.фан.докт....дисс. автореф. –Тошкент. 2016.

4. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабат турлари. –Тошкент: Ўкитувчи, 1996.
5. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия. Филол. фан. ном. ..дисс. автореф. – Тошкент. 1996.
6. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Фил. фан. докт....дисс.автореф. –Тошкент. 1997.
7. Раҳмонов Ғ. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати. Фил. фан. докт....дисс.автореф. 2018.
8. Bobojonov Sh., Ikromov I. O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
9. https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/umrni-manoga-xurshid-davron.html
10. M. Yo‘Ldoshev, S. Muhamedova, M. Saparniyazova. Matn lingvistikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Ishonchli hamkor”, 2021.
11. Неъматова Донохон Саиджалоловна. Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлили. Филол. фан. ном. дисс.– Тошкент, 2004.
12. https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/xurshid-davron-ustoz-ibrati.html
13. https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/bolalikning-oppoq-ranglari-xurshid-davron-bilan-suhbat.html
14. O‘TIL, III. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nom. nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
15. O‘TIL, II. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nom. nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
16. O‘TIL, VI. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nom. nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.

UDK: 37.091.3:372.882

ADABIY TA’LIMDA KOLLABORATIV YONDASHUV TURLARI VA ULARNING KONSEPTUAL-METODIK ASOSLARI

Normahamatova Inoyatxon Maxmudovna
Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi
normaxamatovainoyatxon@mail.com
https://orcid.org/0009-0002-9836-0591
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21903816

Annotatsiya. Maqolada umumta’lim muassasalarida adabiy talim jarayonini zamonaviy pedagogik paradigmalar va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim talablari asosida takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etildi. Unda adabiy matnni idrok etish, estetik-badiiy qatlamlarini ochish va o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda an’anaviy yondashuvlarning metodik imkoniyatlari cheklangani asoslab berildi. Tadqiqot doirasida adabiy ta’limda kollaborativ yondashuv turlari (guruhli hamkorlikdagi o‘qitish, o‘zaro o‘qitish, juftlikdagi muhokama) tasniflanib, ularning konseptual-metodik asoslari ochib berildi. Shuningdek, o‘tkazilgan eksperimental-sinov ishlarining natijalari tahlil qilinib, ijobiy o‘zaro bog’liqlik va shaxsiy javobgarlik tamoyillariga asoslangan darslar o‘quvchilarning adabiy-estetik kompetensiyalari hamda muloqot madaniyatini rivojlantirihda yuqori samaradorlik ko‘rsatishi isbotlandi. Tadqiqot natijalari umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot darslarini tashkil etishda metodik tavsiya sifatida xizmat qiladi.
Kalit so‘zlar: adabiy ta’lim, kollaborativ yondashuv, konseptual asos, metodik ta’minot, pedagogik shart-sharoit.
Abstract: This article scientifically and pedagogically substantiates the types of collaborative approach and their conceptual and methodological foundations in organizing literature education in secondary schools. Effective forms of developing students' joint activities in analyzing literary texts are revealed. Based on L.S. Vygotsky's theory of socio-cultural development, the conceptual principles of the collaborative method are defined, and the results of experimental work proving the high efficiency of educational forms such as group cooperation, reciprocal teaching, and pair discussions are analyzed.
Keywords: Literature education, collaborative approach, conceptual framework, methodological support, pedagogical conditions.
Аннотация: В данной статье научно-педагогически обоснованы виды коллаборативного подхода и их концептуально-методические основы в организации литературного образования в общеобразовательных школах. Раскрыты эффективные формы развития совместной деятельности учащихся при анализе художественного текста. На основе теории социально-культурного развития Л.С. Выготского определены концептуальные принципы коллаборативного метода, а также проанализированы результаты опытно-экспериментальной работы, доказывающие высокую эффективность таких форм обучения, как групповое сотрудничество, взаимообучение и обсуждение в парах.
Ключевые слова: Литературное образование, коллаборативный подход, концептуальная основа, методическое обеспечение, педагогические условия.

Kirish. Jahon ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, mustaqil va ijodiy yondashuv hamda jamoada samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirish pedagogika fani oldida turgan eng ustuvor vazifalardan biridir. “Adabiy ta’lim jarayoni shunchaki badiiy asar syujetini o‘zlashtirish yoki muallif tarjimayi holini yod olish bilan cheklanib qolmasligi, balki matn ortidagi g’oyaviy-estetik qatlamlarni ochish, o‘quvchining shaxsiy munosabatini rivojlantirish hamda ma’naviy olamini boyitishga xizmat qilishi lozim” [1. 45]. Biroq amaldagi dars jarayonlarining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, aksariyat hollarda an’anaviy, ya’ni o‘qituvchining ustunligiga va tayyor bilimlarni uzatishga asoslangan yondashuvlar saqlanib qolmoqda. Bu holat o‘quvchilarning passiv pozitsiyada bo‘lishiga, ularning mustaqil fikrlashi va matnni chuqur tahlil qilish ko‘nikmalarining yetarli darajada rivojlanmasligiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun o‘quvchilarni faol bilim oluvchiga aylantiruvchi, o‘zaro hamkorlik va jamoaviy faoliyatga asoslangan kollaborativ texnologiyalarni adabiy ta’limga tatbiq etish zarurati yuzaga kelmoqda [2.112] .

Kollaborativ yondashuv ta’lim oluvchilarning umumiy intellektual maqsad sari birgalikda harakat qilishi, fikr almashishi va bir-birining tafakkurini boyitishini ta’minlaydi. Pedagogika nazariyasida bu yondashuv shaxsga yo‘nltirilgan talim tamoyillari va ijtimoiy-konstruktivistik g’oyalar bilan uzviy bog’liqdir] 3.89]. Shu nuqtayi nazardan, adabiy ta’lim jarayonida kollaborativ yondashuv turlarining konseptual-metodik asoslarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida adabiy ta’limni tashkil etishda kollaborativ yondashuv turlarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ularning konseptual-metodik asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berishdir. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni belgilab olish zarur:

-adabiy ta’limda kollaborativ yondashuvning nazariy-metodologik asoslarini o‘rganish;

-amaliyotda qo‘llanadigan kollaborativ yondashuv turlari (guruhli hamkorlik, o‘zaro o‘qitish, juftlikdagi muhokama) ni tasniflash;

-badiiy matnni tahlil qilishda hamkorlikdagi o‘qitish shakllarining samaradorligini eksperimental jihatdan baholash va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Adabiyotlar tahlili. Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning badiiy asarni estetik idrok etish darajasini yuksaltirish, ularda tanqidiy tafakkur va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi pedagogika fanining doimiy diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ilmiy-pedagogik manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning faolligini oshirish va dars samaradorligini ta’minlashga qaratilgan yondashuvlar davr talabidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich takomillashib borgan.

O‘zbek pedagogikasida adabiy ta’limni tashkil etish va uning uslubiy asoslarini takomillashtirish masalalari Q.Yo‘ldoshev, B.To‘xliyev, S.Matchonov kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida keng yoritilgan. Jumladan, Q.Yo‘ldoshev o‘z ilmiy izlanishlarida badiiy matnni tahlil qilish jarayonida o‘quvchining shaxsiy munosabati, badiiy idrok etish xususiyatlari hamda muallif niyatini ochib berish metodikasiga alohida e’tibor qaratgan [2.178]. Shuningdek, S.Matchonov va B.To‘xliyevlarning tadqiqotlarida adabiyot darslarida interfaol va guruhli ishlash shakllaridan foydalanish o‘quvchilarning og’zaki nutqi, muloqot madaniyati hamda o‘quv-bilish faolligini oshirishda muhim omil ekani ilmiy jihatdan asoslab berilgan [3.53].

Kollaborativ yondashuvning konseptual va metodik asoslari xorij olimlarining ilmiy tadqiqotlarida chuqur o‘rganilgan. Xususan, D.Jonson va R.Jonsonlarning ilmiy ishlarida guruhli hamkorlikdagi o‘qitishning ijobiy o‘zaro bog’liqlik, shaxsiy javobgarlik va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi o‘ rni nazariy va amaliy jihatdan isbotlab berilgan. “Hamkorlikdagi o‘qitish bu-o‘quvchilar umumiy o‘quv maqsadiga erishish yo‘lida kichik guruhlarda birgalikda harakat qiladigan, bunda har bir guruh a’zosining ham o‘zlashtirishi, ham sheriklarining muvaffaqiyati uchun mas’ul bo‘lishini ta’minlaydigan pedagogik muhitdir [5.78]. Mualliflar hamkorlikka asoslangan muhit o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini yaxshilash bilan birga ularda jamoada muammolarni hal etish madaniyatini shakllantirishini ta’kidlaydilar.

Pedagogik-psixologik jihatdan kollaborativ yondashuv L.Vigotskiyning “Ijtimoiy-madaniy rivojlanish” va “Yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga tayanadi. Unga ko‘ra o‘quvchi yakka tartibda o‘zlashtirishda qiynaladigan murakkab badiiy-falsafiy matnlarni tengdoshlari bilan o‘zaro muloqot muhitida muvaffaqiyatli idrok etishi mumkin. Muallif : “Bola mustaqil ravishda qila olmaydigan, lekin hamkorlikda, yo‘l-yo‘riq yordamida yoki tengdoshlari ko‘magida bajara oladigan narsa uning yaqin rivojlanish zonasini belgilaydi”, - deb ta’kidlaydi. [4.250].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida adabiy ta’limda kollaborativ yondashuv turlarining konseptual-metodik asoslarini ochib berish maqsadida tizimli-tahliliy, qiyosiy-pedagogik, pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma va eksperimental-sinov metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinflarida adabiyot darslarini tashkil etishning amaldagi holatini o‘rganish va o‘quvchilarning badiiy matnni idrok etish darajasini aniqlashga qaratildi. Eksperimental – sinov ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirildi: 1.Diagnostik-tahliliy bosqich. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari yuqori sinf o‘quvchilarining badiiy asarlarni mustaqil tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda o‘z fikrini asoslash va jamoada ishlash ko‘nikmalari o‘rganildi. An’anaviy darslarda o‘quvchilarning faollik darajasi va matnni tushunish ko‘rsatkichlari qayd etildi. 2.Eksperimental bosqich. O‘quv jarayonida kollaborativ yondashuv turlari (guruhli hamkorlikdagi o‘qitish, o‘zaro o‘qitish va juftlikdagi muhokama) maxsus metodik ishlanmalar asosida joriy etildi. Bunda badiiy matnlar yirik mavzuli qismlarga bo‘linib, o‘quvchilarga taqsimlandi. Har bir guruhda rollar (matnni tahlil qiluvchi, savol tuzuvchi, izohlovchi va taqdimotchi) taqsimlab chiqildi. 3. Natijalarni baholash va tahlil qilish bosqichi. Eksperimental va nazorat guruhlaridan olingan natijalar qiyosiy tahlil qilindi, statistik ma’lumotlar qayta ishlandi va pedagogik samaradorlik darajasi aniqlandi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot jarayonida olib borilgan eksperimental-sinov ishlari adabiy ta’limda kollaborativ yondashuv turlaridan foydalanish o‘quvchilarning o‘quv-bilish faolligini keskin oshirib, badiiy asarni idrok etish darajasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishini amalda tasdiqladi. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-pedagogik natijalar qayd etildi va statistik tahlil qilindi:

-jamoaviy matn tahlili (Collaborative Text Analysis) samaradorligi. Yirik hajmli epik yoki dramatik asarlarni o‘rganishda sinfni kichik guruhlarga bo‘lib o‘qitish o‘quvchilarning asar syujeti va g’oyaviy mazmunini o‘zlashtirish vaqtini maqbullashtirib, chuqur tahlil qilish imkoniyatini berdi. Ta’lim oluvchilar faqatgina matn voqealarini bayon qilish bilan cheklanib qolmay, balki qahramonlarning psixologik holati, muallif mahorati va asarning tagma’nolarini ochib berishda bir-birlarining fikrlarini boyitdilar;

-o‘zaro o‘qitish (Reciprocal Teaching) texnologiyasining natijalari. Ushbu metod asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilar mustaqil ravishda savollar tuzish, matnning murakkab o‘rinlarini izohlash va keyingi voqealarni oldindan aytib berish ko‘nikmalarini egalladilar. Natijada, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va nutqiy muloqot darajasi oshdi;

-juftlikdagi muhokama (Peer Discussion-Think-Pair-Share) texnologiyasining o‘ziga xos samaradorligi. Badiiy asar tahlilida o‘quvchilarning juftlikda ishlashini tashkil etish har bir ishtirokchining muloqot jarayonidan chetda qolmasligini ta’minladi. Juftlikdagi muhokama bosqichida o‘quvchilar o‘qituvchi oldida javob berishdagi psixologik to‘siq (xavotir va hayajon) ni yengib, o‘z fikrini erkin, ishonchli bayon qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ldilar. Ushbu metod matn mazmuni yuzasidan tezkor savol-javob o‘tkazish, qahramonlarninh xatti-harakatlariga munosbat bildirish va muallif g’oyasini shaxsiy hayotiy tajriba bilan qiyoslashda yuqori natija berdi.

-statistik ko‘rsatkichlar. Eksperimental sinflarda o‘quvchilarning adabiy -estetik kompetensiyalari va matnni tahlil qilish malakalari nazorat sinflariga nisbatan yuqori ekani aniqlandi. Ijobiy o‘zaro bog’liqlik va shaxsiy javobgarlik tamoyillariga asoslangan darslar ta’lim oluvchilarning o‘zaro munosabatlarini yaxshilab, o ‘qishga bo ‘lgan motivatsiyasini kuchaytirdi.

Metodik jihatdan kollaborativ yondashuvni adabiy ta’limga tatbiq etishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish muhim:

-badiiy asar tanlashda o‘quvchilarniing yosh, psixologik xususiyatlari va estetik tayyorgarlik darajasini hisobga olish;

-guruhli ishlarda har bir ishtirokchining aniq vazifaga ega bo‘lishini ta’minlash va shaxsiy javobgarlik muhitini yaratish;

-o‘qituvchining vazifasini “bilim beruvchi” dan “fasilitator va yo‘naltiruvchi” darajasiga o‘tkazish. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kollaborativ yondashuv o‘quvchilarda nafaqat adabiy-estetik bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi, balki ularda bag’rikenglik, o‘zgalar nuqtayi nazarini hurmat qilish, jamoada muammoli vaziyatlarni hal etish kabi kompetensiyalarni ham rivojlantiradi.

Xulosa. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida adabiy ta’lim jarayonini kollaborativ yondashuv asosida tashkil etish zamonaviy pedagogikaning ustuvor talablaridan biri hisoblanadi. Adabiy ta’limda guruhli hamkorlik, o‘zaro o‘qitish va juftlikdagi muhokama kabi kollaborativ turlardan foydalanish o‘quvchilarning badiiy matnni idrok etish va chuqur tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlik ko‘rsatdi. Shu bilan birgalikda, kollaborativ yondashuvning konseptual-metodik asoslari ijtimoiy-konstruktivistik g’oyalar hamda L.Vigotskiyning “Ijtimoiy-madaniy rivojlanish” nazariyasiga tayanib, ta’lim oluvchilarning intellektual va shaxsiy o‘sishini ta’minlaydi.

Kelgusida ushbu yondashuvni raqamli ta’lim muhiti va zamonaviy interfaol vositalar bilan uyg’unlashtirgan holda yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova K, Matchonov S, G’ulomova X, Yo‘ldoshev J, Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi.-Toshkent. :2009.-352 b.
2. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari.-Toshkent. : 1996. 152 b.
3. Matchonov S, Azimova L, Ziyovuddinova M. Boshlang’ich sinflarda adabiy ta’lim.-Toshkent. : 2010. 144 b.
4. Выгоцкий. Мышление и речь.- Москва. : 2000.- 352 b.
5. Jonson D, Jonson R. Learning Together and Alone: Cooperative , Competitive and Individualistic Learning.- Boston. : 1994. -292 b.
6. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi.- Toshkent. : 2010.-160 b.

TIJORAT BANKLARIDA ISLOMIY MOLIYALASHTIRISH XIZMATLARINI SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Yo‘ldoshev Jamshid Nu’monovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21903893

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda islomiy moliyalashtirish xizmatlari bozorining 2025–2026-yillardagi holati va tijorat banklarining moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari empirik tahlil qilingan. Tahlil natijalari asosida sohaning uchta tarkibiy muammosi - mahsulot tarkibining bir xilligi, hududiy nomutanosiblik va kredit riskini boshqarishdagi uzilishlar - aniqlangan. Ushbu muammolarni bartaraf etishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilish imkoniyatlari asoslab berilgan va tijorat banklari uchun to'rt bosqichli qo'llash modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: islom moliyasi, sun'iy intellekt, tijorat banklari, murobaha, muzoraba, mashinali o'qitish, kredit skoringi, shariat muvofiqligi, raqamli transformatsiya.

Аннотация. В статье проведён эмпирический анализ состояния рынка исламского финансирования в Узбекистане в 2025–2026 годах и показателей финансовой эффективности коммерческих банков. На основе результатов анализа выявлены три структурные проблемы отрасли - однородность продуктовой структуры, региональная диспропорция и разрывы в управлении кредитным риском. Обоснованы возможности применения технологий искусственного интеллекта для решения этих проблем и предложена четырёхуровневая модель их внедрения в коммерческих банках.

Ключевые слова: исламские финансы, искусственный интеллект, коммерческие банки, мурабаха, мудараба, машинное обучение, кредитный скоринг, шариатское соответствие, цифровая трансформация.

Abstract. The article provides an empirical analysis of the state of the Islamic financing market in Uzbekistan in 2025–2026 and of the financial performance indicators of commercial banks. Based on the results, three structural problems of the sector are identified: the homogeneity of the product structure, regional disproportion, and gaps in credit risk management. The paper substantiates the applicability of artificial intelligence technologies to these problems and proposes a four-level implementation model for commercial banks.

Keywords: Islamic finance, artificial intelligence, commercial banks, murabaha, mudarabah, machine learning, credit scoring, Shariah compliance, digital transformation.

Kirish. Jahon miqyosida islom moliyasi tizimi so'nggi o'n yilliklarda barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. 2024-yilda global islom moliyasi aktivlari 5,98 trillion AQSh dollariga yetib, yillik o'sish sur'ati 21 foizni tashkil etdi; 2029-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 9,7 trillion dollarga yetishi prognoz qilinmoqda [3. 2025:B.24]. Ayni paytda islom moliyasi 105 dan ortiq mamlakatda faoliyat yuritmoqda va aksariyat davlatlar qonunchiligida mazkur soha uchun me'yoriy-huquqiy baza shakllantirilmoqda.

O'zbekistonda islomiy moliyalashtirishning huquqiy asoslari 2024-yilda yakuniy shakllandi: Markaziy bankning 2024-yil 26-iyuldagi qarori bilan mikromoliya tashkilotlariga murobaha, islomiy ijara, salam, muzoraba va mushoraka instrumentlari asosida xizmat ko'rsatish tartibi belgilandi [5. 2024:B.2]. Bu esa qisqa vaqt ichida bozorning jadal kengayishiga turtki berdi.

Biroq bozorning miqdoriy o'sishi uning tarkibiy yetukligini anglatmaydi. Quyida keltirilgan tahlil ko'rsatishicha, soha bir vaqtning o'zida uchta tarkibiy cheklovga duch kelmoqda: mahsulot tarkibining bir xilligi, xizmatlarning hududiy jihatdan notekis taqsimlanishi hamda tijorat banklarida kredit riskini boshqarish tizimining zaifligi. Fikrimizcha, ushbu cheklovlarning har biri an'anaviy tashkiliy usullar bilan emas, balki ma'lumotlarga asoslangan avtomatlashtirish, ya'ni sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari orqali samarali bartaraf etilishi mumkin.

Maqolaning maqsadi - O'zbekistonda islomiy moliyalashtirish bozori va tijorat banklari faoliyatining empirik tahlili asosida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va amaliy qo'llash modelini ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Sun'iy intellektning islom moliyasidagi o'rni bo'yicha ilmiy adabiyotlar so'nggi besh yilda sezilarli darajada kengaydi. Sarea va hammualliflar SI texnologiyalarining islomiy bank sektoridagi asosiy

qo'llanish yo'nalishlari sifatida kredit bahosini avtomatlashtirish, mijozlar bilan muloqotni raqamlashtirish va shariat muvofiqligini skrining qilishni ajratib ko'rsatadi [6. 2021:B.112].

Hamadou va boshqalar Indoneziyaning Bank Syariah Indonesia misolida SI asosidagi chatbotlar mijozlarni qo'llab-quvvatlash va mahsulot tavsiya etish jarayonlarida sezilarli samara berishini empirik tarzda tasdiqlaydi [2. 2024:B.138]. Shalhoob esa Saudiya Arabistonining beshta hududida o'tkazilgan so'rov natijalariga tayanib, SI shariat muvofiqligi va shaffoflikni yaxshilashda kuchli ta'sir ko'rsatishini, biroq operatsion samaradorlikka ta'siri cheklanganligini aniqlagan; asosiy to'siqlar sifatida joriy etish xarajatlarining yuqoriligi va tarkiblashtirilgan shariat ma'lumotlar bazasining yetishmasligi qayd etilgan [7. 2025:B.9].

Ali va Aysan tomonidan islomiy banklar bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotda SI asosidagi sentiment tahlili bank moliyaviy natijalari bilan statistik jihatdan bog'liq ekanligi ko'rsatilgan [1. 2025:B.960].

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotlarning asosiy qismi islom moliyasi yetuk bosqichga chiqqan mamlakatlar (Malayziya, Indoneziya, Saudiya Arabistoni, BAA) tajribasiga bag'ishlangan. Islom moliyasi endigina shakllanish bosqichida bo'lgan mamlakatlar, xususan O'zbekiston sharoitida SI texnologiyalarini qo'llash yo'nalishlari, milliy bozorning empirik ma'lumotlari asosida deyarli o'rganilmagan. Mazkur maqola ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mikromoliya tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan islomiy moliyalashtirish xizmatlari bo'yicha 2025-yil va 2026-yil I chorak ma'lumotlari hamda islom moliyasi elementlarini joriy etgan to'rtta tijorat banki - "Hamkorbank" ATB, ATB "Biznesni rivojlantirish banki", "Ipak Yo'li" AITB va "Xalq banki"ning 2017–2024-yillardagi moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanilgan.

Ma'lumotlar bazasining tarkibi mavjud rasmiy hisobotlar bilan cheklangan: ayrim banklar bo'yicha 2019 va 2021-yillar ko'rsatkichlari, shuningdek kredit riski xarajati (COR) bo'yicha 2021-yildan keyingi ma'lumotlar to'liq oshkor etilmagan. Shu bois tahlil mavjud yillar kesimida olib borildi va ma'lumotlar to'liq bo'lmagan holatlar alohida izohlandi.

Tahlil jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi: tarkibiy-dinamik tahlil (mahsulot va hududlar kesimida ulushlar o'zgarishini baholash), qiyosiy tahlil (banklararo solishtirish), moliyaviy koeffitsientlar tahlili (ROE, ROA, COR, sof foyda marjasi, qarzning kapitalga nisbati) hamda mantiqiy umumlashtirish.

Tahlil va natijalar. Birinchi muammo - mahsulot tarkibining bir xilligi. 2025-yilning yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan islomiy moliyalashtirish xizmatlari hajmi atigi 3,9 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, uning barchasi murobaha xizmatiga to'g'ri kelgan. 2026-yilning I choragida esa xizmatlar hajmi 11,2 mlrd so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8 barobar oshgan [4. 2026:B.1].

1-jadval. Islomiy moliyalashtirish xizmatlarining mahsulotlar kesimidagi tarkibi (mln so'm)

Yillar	Murobaha	Ulushi, %	Islomiy ijara	Ulushi, %	Muzoraba	Ulushi, %
2025	1 407	99,9	2	0,1	–	–
2026	7 720	69,0	1 379	12,0	2 129	19,0

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari [4. 2026:B.1].

Jadval ma'lumotlari ko'rsatishicha, bir yil ichida bozor 7,97 barobarga kengaydi va deyarli to'liq monomahsulot tarkibidan (murobaha 99,9%) nisbatan diversifikatsiyalashgan tarkibga (murobaha 69%, muzoraba 19%, ijara 12%) o'tdi. Shunga qaramay, savdo-sotiqqa asoslangan murobaha instrumenti hamon ustunlik qilmoqda. Bunga asosiy sabab - foyda va zararni taqsimlashga asoslangan muzoraba hamda mushoraka instrumentlari sherikning moliyaviy natijalarini uzluksiz kuzatib borishni talab qiladi, an'anaviy qo'lda bajariladigan monitoring esa xarajatlar jihatidan qimmatga tushadi.

Ikkinchi muammo - hududiy nomutanosiblik. 2026-yilning yanvar-mart oylarida xizmatlarning hududiy taqsimoti keskin nomutanosib bo'lgan.

2-jadval. Islomiy moliyalashtirish xizmatlarining hududlar kesimidagi taqsimoti (2026-yil I chorak)

Hudud	Mahsulot turi	Hajmi, mln so'm	Ulushi, %
Toshkent shahri	Murobaha	7 050	67
	Islomiy ijara	1 379	20
	Muzoraba	2 129	13
	Jami	10 588	100

Hudud	Mahsulot turi	Hajmi, mln so'm	Ulushi, %
Namangan viloyati	Murobaha	670	100
	Jami	670	100

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari [4. 2026:B.2].

Toshkent shahrida xizmatlar hajmi nafaqat 15,8 barobar yuqori, balki mahsulot tarkibi ham diversifikatsiyalashgan: murobahadan tashqari instrumentlar jami hajmning 33 foizini tashkil etadi. Namangan viloyatida esa xizmatlar to'liq (100%) murobaha shartnomalari hisobiga shakllangan, ya'ni hudud hali yakka instrumentli dastlabki bosqichda qolmoqda. Bunday tafovutning iqtisodiy sababi - viloyatlarda murakkabroq instrumentlar bo'yicha malakali xodimlarni saqlash va mijozni baholash xarajatlarining nisbatan yuqoriligidir.

Uchinchi muammo - kredit riskini boshqarishdagi uzilishlar. Tahlil qilingan banklarning samaradorlik koeffitsientlari dinamikasi bu jihatdan ayniqsa ko'rsatkichli hisoblanadi.

3-jadval. Tijorat banklari samaradorlik ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili (foiz)

Bank	ROE 2022	ROE 2024	ROA 2024	COR 2024	Marja 2024
"Hamkorbank" ATB	28,61	27,64	4,97	2,12	0,12
ATB "BRB"	1,76	-6,94	-51,94	6,40	-0,43
"Ipak Yo'li" AITB	3,63	3,93	25,38	1,66	0,16

Manba: banklarning moliyaviy hisobotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Eng keskin holat ATB "Biznesni rivojlantirish banki"da kuzatiladi: 2023-yilda 0,53 foizni tashkil etgan kredit riski xarajati 2024-yilda 6,40 foizga, ya'ni bir yil ichida qariyb 12 barobarga oshgan, ROA esa 7,42 foizdan -51,94 foizga tushgan. Bunday keskin va bir yillik gorizontda ro'y bergan yomonlashuv kredit portfelining sifati bosqichma-bosqich pasayib borganini, biroq mavjud monitoring tizimi buni o'z vaqtida aniqlay olmaganini ko'rsatadi.

"Xalq banki"da esa 2021-yildan boshlab COR ko'rsatkichi bo'yicha ma'lumotlarning oshkor etilmasligi kredit riski boshqaruvidagi shaffoflik muammosidan dalolat beradi. "Hamkorbank" ATB barqaror ijobiy dinamikani saqlab kelayotgan bo'lsa-da, sof foyda marjasining sakkiz yil davomida 0,12–0,18 oralig'ida qotib qolishi an'anaviy instrumentlar doirasida daromadlilikni oshirish imkoniyatlari cheklanganligini bildiradi.

Yuqoridagi uchta muammo bir umumiy xususiyatga ega: ularning barchasi ma'lumotlarni qayta ishlash va uzluksiz monitoring qilish xarajatlari bilan bog'liq. Aynan shu sohada sun'iy intellekt texnologiyalari eng katta iqtisodiy samara berishi mumkin. Quyida taklif etilayotgan to'rt bosqichli qo'llash modeli har bir bosqichni yuqorida aniqlangan aniq muammo bilan bog'laydi.

4-jadval. Tijorat banklarida sun'iy intellektni qo'llashning to'rt bosqichli modeli

Bosqich	Yo'nalish	SI texnologiyasi	Hal etiladigan muammo
I	Old ofis va mijozlar bilan ishlash	Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) asosidagi chatbot, ovozli yordamchi, mahsulot tavsiya tizimi	Hududiy nomutanosiblik, aholining islomiy moliya bo'yicha savodxonligi pastligi
II	Moliyalashtirish qarori	Mashinali o'qitishga asoslangan skoring, muqobil ma'lumotlar (to'lov tarixi, tranzaksiya oqimi) tahlili	Mahsulot tarkibining bir xilligi, mijozni baholash xarajatlarining yuqoriligi
III	Risk va monitoring	Erta ogohlantirish tizimlari, COR prognozi, muzoraba sherigining moliyaviy natijalarini avtomatik kuzatish	Kredit riskini boshqarishdagi uzilishlar, PLS instrumentlarining monitoring xarajati

Bosqich	Yo'nalish	SI texnologiyasi	Hal etiladigan muammo
IV	Shariat boshqaruvi va muvofiqlik	Shartnoma va tranzaksiyalarni NLP orqali skrining qilish, avtomatlashtirilgan shariat auditi va hisoboti	Shaffoflik yetishmasligi, muvofiqlik nazoratining mehnat sig'imi yuqoriligi

Manba: muallif ishlanmasi.

Modelning I bosqichi hududiy nomutanosiblikni bartaraf etishga qaratilgan: raqamli kanallar orqali xizmat ko'rsatishning marjinal xarajati filial ochishga nisbatan bir necha barobar past bo'lgani uchun, Namangan, Farg'ona, Andijon kabi viloyatlarda malakali xodim yetishmasligi muammosi qisman texnologik yechim bilan qoplanadi.

II bosqich murobaha ustunligini kamaytirishga xizmat qiladi. Muqobil ma'lumotlarga asoslangan skoring modeli rasmiy kredit tarixiga ega bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarni ham baholash imkonini beradi - mazkur segment 2026-yilning I choragida 20 barobarli o'sish qayd etib, sohaning eng istiqbolli drayveriga aylandi.

III bosqich, fikrimizcha, eng katta amaliy ahamiyatga ega. ATB "BRB" misolida ko'rilganidek, kredit riskining keskin oshishi statik hisobot ko'rsatkichlari orqali faqat fakt yuz berganidan keyin qayd etiladi. Mashinali o'qitishga asoslangan erta ogohlantirish tizimlari esa tranzaksiya darajasidagi anomaliyalarni bir necha oy oldin aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, ushbu bosqich muzoraba va mushoraka instrumentlarining monitoring xarajatini keskin kamaytirib, ularning keng miqyosda joriy etilishiga yo'l ochadi.

IV bosqich shariat muvofiqligini ta'minlashning mehnat sig'imini kamaytiradi. Shu bilan birga, bu bosqichda alohida ilmiy-amaliy muammo yuzaga keladi: SI modellarining "qora quti" tabiati shariat huquqidagi noaniqlikdan (g'arar) qochish va qaror asoslarining oshkoraligi talabiga zid kelishi mumkin. Shu bois islomiy moliyalashtirishda faqat izohlanuvchan (explainable AI) modellardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Amaliyotga joriy etishning asosiy to'siqlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: joriy etish xarajatlarining yuqoriligi, tarkiblashtirilgan shariat ma'lumotlar bazasining yetishmasligi [7. 2025:B.11], banklar ma'lumotlar sifatining pastligi hamda SI yechimlarini qo'llash bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazaning shakllanmaganligi.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tahlil natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, O'zbekistonda islomiy moliyalashtirish bozori 2025–2026-yillarda 7,97 barobar o'sib, monomahsulot bosqichidan ko'p instrumentli bosqichga o'tdi, biroq murobaha ulushi hamon 69 foizni tashkil etadi. Ikkinchidan, xizmatlarning 94 foizdan ortig'i Toshkent shahriga to'g'ri kelib, hududiy nomutanosiblik yaqqol namoyon bo'lmoqda. Uchinchidan, tahlil qilingan banklarning bir qismida kredit riskini boshqarish tizimi portfel sifatining yomonlashuvini o'z vaqtida aniqlay olmagan.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish yuzasidan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Tijorat banklarida muzoraba va mushoraka instrumentlari bo'yicha sherikning moliyaviy natijalarini avtomatik kuzatuvchi SI monitoring modulini joriy etish - bu foyda-zararni taqsimlash asosidagi instrumentlar ulushini oshirishning texnologik sharti hisoblanadi.

2. Mashinali o'qitishga asoslangan, muqobil ma'lumatlardan foydalanuvchi skoring modelini ishlab chiqish va uni birinchi navbatda yakka tartibdagi tadbirkorlar segmentida sinovdan o'tkazish.

3. Hududiy filiallarda malakali xodim yetishmasligini qoplash maqsadida o'zbek tilida ishlovchi, islomiy moliya instrumentlari bo'yicha maslahat beruvchi NLP asosidagi chatbot xizmatini joriy etish.

4. Kredit riski bo'yicha erta ogohlantirish tizimini yaratish va uni Markaziy bankka hisobot berish tartibi bilan uyg'unlashtirish, shu jumladan COR ko'rsatkichini oshkor etish amaliyotini tiklash.

5. Islomiy moliyalashtirishda faqat izohlanuvchan SI modellaridan foydalanish talabini me'yoriy hujjatlarda mustahkamlash va shariat kengashlari uchun SI qarorlarini tekshirish tartibini belgilash.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish O'zbekiston tijorat banklarida islomiy moliyalashtirish xizmatlarining nafaqat miqdoriy, balki tarkibiy va hududiy jihatdan ham mutanosib rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ali H., Aysan A.F. Decoding digital signals: AI sentiment and financial performance at Islamic banks // Borsa Istanbul Review. – 2025. – Vol. 25, No. 5. – P. 953–971.

2. Hamadou I., Yumna A., Hamadou H., Jallow M.S. Unleashing the power of artificial intelligence in Islamic banking: A case study of Bank Syariah Indonesia (BSI) // Modern Finance. – 2024. – Vol. 2, No. 1. – P. 131–144.

3. Islamic Financial Services Board. Islamic Financial Services Industry Stability Report 2025. – Kuala Lumpur: IFSB, 2025. – 180 p.

4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Mikromoliya tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar to'g'risida ma'lumot. – Toshkent, 2026. – www.cbu.uz

5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2024-yil 26-iyuldagi qarori (ro'yxat raqami 3536). – Toshkent, 2024.

6. Sarea A.M., Elsayed A.H., Alam M.S. Artificial intelligence (AI) applications in Islamic finance and banking sector // Artificial Intelligence and Islamic Finance. – London: Routledge, 2021. – P. 108–121.

7. Shalhoob H. The role of AI in enhancing Shariah compliance: Efficiency and transparency in Islamic finance // Journal of Infrastructure, Policy and Development. – 2025. – Vol. 9, No. 1. – Article 11239.

O‘QUVCHILAR MOTIVATSIYASINING FIKRLASH JARAYONLARINI RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI

Samarova Shoxista Rabidjanovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti psixologiya kafedrasi, dotsenti
Orcid ID: 0009-0004-1235-4970 Email: shohista.samarova71@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21904001

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilar motivatsiyasining o‘smirlik davrida fikrlash jarayonlari rivojlanishidagi o‘rni pedagogik-psixologik jihatdan tahlil qilingan. O‘smirlik davri shaxsning kognitiv, emotsional-irodaviy va motivatsion sohalari faol shakllanadigan murakkab rivojlanish bosqichi bo‘lib, bu davrda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, sababiy tahlil qilish qobiliyati, refleksiv baholashi, tizimli va prognozli fikrlashi motivatsiyaning tarkibiy, harakatlantiruvchi va yo‘naltiruvchi omil sifatidagi o‘rni bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Maqolada motivatsiya fikrlash jarayoniga tashqaridan ta'sir etuvchi omil sifatida emas, balki uning ichki tarkibiy qismi va rivojlanish mexanizmi sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, fikrlash jarayonlari, motivatsiya, o‘quv motivi, bilishga qiziqish, refleksiya, tizimli fikrlash, sababiy tahlil, prognozlash, psixodiagnostika, psixokorreksiya, motivatsiyaning o‘rni, tayanch omil.

Аннотация: В данной статье с педагогико-психологической точки зрения анализируется роль мотивации учащихся в развитии мыслительных процессов в подростковом возрасте. Подростковый возраст – это сложный этап развития, в котором активно формируются познавательная, эмоционально-волевая и мотивационная сферы личности, и в этот период развиваются самостоятельное мышление учащихся, способность к причинно-следственному анализу, рефлексивная оценка, систематическое и прогностическое мышление, неразрывно связанные с ролью мотивации как структурного, движущего и направляющего фактора. В статье мотивация рассматривается не как фактор, влияющий на мыслительный процесс извне, а как его внутренняя составляющая и механизм развития.

Ключевые слова: подростковый возраст, мыслительные процессы, мотивация, мотив обучения, интерес к знаниям, рефлексия, систематическое мышление, причинно-следственный анализ, прогнозирование, психодиагностика, психокоррекция, роль мотивации, поддерживающий фактор.

Abstract: This article analyzes the role of students' motivation in the development of thinking processes in adolescence from a pedagogical and psychological perspective. Adolescence is a complex stage of development in which the cognitive, emotional-volitional and motivational spheres of a person are actively formed, and during this period, students' independent thinking, the ability to make causal analysis, reflexive assessment, systematic and predictive thinking develop inextricably linked to the role of motivation as a structural, driving and guiding factor. The article considers motivation not as a factor influencing the thinking process from the outside, but as its internal component and development mechanism.

Keywords: adolescence, thinking processes, motivation, learning motive, interest in knowledge, reflection, systematic thinking, causal analysis, forecasting, psychodiagnostics, psychocorrection, the role of motivation, supporting factor.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida o‘quvchilarning bilimlarni mexanik tarzda o‘zlashtirishi emas, balki ularni mustaqil tahlil qilishi, sabab-oqibat bog‘liqliklarini anglay olishi, yangi vaziyatlarda qo‘llay bilishi va o‘z fikrini asoslay olishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda fikrlashning rivojlanishi faqat intellektual imkoniyatlar bilan emas, balki o‘quvchining motivatsion sohasi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, bilim olishga qiziqishi, muvaffaqiyatga intilishi va o‘zini namoyon qilish ehtiyoji bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Shu o‘rinda motivatsiyani shunchaki fikrlashga hamroh bo‘luvchi tashqi shart emas, balki uning rivojlanish jarayonida markaziy o‘rin egallovchi ichki tayanch sifatida ko‘rish zarurati yuzaga keladi.

O‘smirlik davri 7–9-sinf o‘quvchilari hayotida shaxsiy o‘zlikni anglash, mustaqillikka intilish, tengdoshlar orasida o‘z o‘rnini topish, kelajak haqida o‘ylash va o‘z imkoniyatlarini baholash kuchayadigan davrdir. Mazkur bosqichda o‘quvchining fikrlash jarayonlari yanada murakkablashib, oddiy eslab qolish va takrorlashdan tahlil qilish, umumlashtirish, dalillash, prognozlash va refleksiv baholashga o‘tadi. Biroq

bunday fikrlash jarayonlari o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi, balki kuchli ichki motivlar, ijobiy ta'limiy muhit, pedagogik qo‘llab-quvvatlash va shaxsiy faollik asosida shakllanadi. Aynan shu nuqtada motivatsiya fikrlash rivojlanishining nafaqat harakatlantiruvchi kuchi, balki uning tarkibiy asosi sifatidagi o‘rni namoyon bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan o‘quvchilar motivatsiyasining fikrlash jarayonlari rivojlanishidagi o‘rnini o‘rganish yosh va pedagogik psixologiyaning dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqotning maqsadi o‘quvchilar motivatsiyasining o‘smirlik davrida fikrlash jarayonlari rivojlanishidagi o‘rnini pedagogik-psixologik jihatdan tahlil qilish hamda o‘quvchilarda mustaqil, tizimli, refleksiv va prognozli fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqotda o‘smirlarning fikrlash jarayonlari rivojlanishida motivatsiyaning tutgan o‘rnini aniqlash, o‘quv motivatsiyasi va bilishga qiziqishning fikrlash rivojlanishidagi o‘rnini ochib berish, muvaffaqiyatga intilish va o‘zini namoyon qilish ehtiyojining tizimli hamda refleksiv fikrlashdagi o‘rni va mexanizmini asoslash, 7–9-sinf o‘quvchilarida fikrlash jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik-psixologik mexanizmlarni aniqlash vazifalari belgilandi.

Nazariy-metodologik asoslar. Psixologiya fanida motivatsiya shaxs faoliyatini harakatga keltiruvchi, unga yo‘nalish beruvchi va uning barqarorligini ta'minlovchi ichki psixologik kuch sifatida talqin qilinadi. Motivlar shaxsning ehtiyojlari, qiziqishlari, maqsadlari, qadriyatlari va ijtimoiy tajribasi bilan bog‘liq holda shakllanadi. O‘quv faoliyatida motivatsiya o‘quvchining bilim olishga munosabati, darsdagi faolligi, mustaqil izlanishi, savol berishga intilishi, xatolarini tuzatishi va yangi bilimlarni egallashga bo‘lgan ichki ehtiyoji orqali namoyon bo‘ladi.

L.S. Vigotskiy bolaning intellektual rivojlanishini ijtimoiy muhit, nutq, muloqot va ta'limiy ta'sir bilan bog‘liq holda izohlagan. A.N. Leontyev faoliyat nazariyasida motiv va maqsad o‘rtasidagi munosabatni shaxs rivojlanishining asosiy psixologik mexanizmlaridan biri sifatida talqin etgan. S.L. Rubinshteyn esa tafakkur inson faoliyatida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonida shakllanishini ta'kidlagan. Ushbu nazariy yondashuvlarni umumlashtirib aytish mumkinki, motivatsiya fikrlash jarayoniga tashqaridan qo‘shiladigan qo‘shimcha omil emas, balki uning tarkibiy qismi va rivojlanish manbai sifatida markaziy o‘rin tutadi — o‘quvchining fikrlash jarayoni uning motivatsion holatidan ajralgan holda mavjud bo‘la olmaydi.

O‘smirlik davrida motivatsion soha murakkab va ko‘p qatlamli xarakterga ega bo‘ladi. Bu davrda o‘quvchi uchun faqat baho olish yoki o‘qituvchi talabini bajarish emas, balki o‘zini namoyon qilish, tengdoshlari orasida e'tirof etilish, mustaqil fikrga ega bo‘lish, kelajakdagi maqsadlarini aniqlash, o‘zining qobiliyatlarini sinab ko‘rish kabi motivlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli o‘smirlarning fikrlash jarayonlarini rivojlantirishda motivlarning tutgan o‘rnini va ularning ichki tuzilishini hisobga olish zarur.

Motivatsion omillarning fikrlash jarayonlariga ta’siri. O‘smirlarning fikrlash jarayonlarida markaziy o‘rin tutuvchi omillardan biri bilishga qiziqish hisoblanadi. Bilishga qiziqish mavjud bo‘lgan o‘quvchi yangi ma'lumotni faqat yodlab olishga emas, balki uning mazmunini tushunishga, sabablarini izlashga, boshqa bilimlar bilan bog‘lashga va mustaqil xulosa chiqarishga intiladi. Bunday o‘quvchilarda tizimli fikrlash, integrativ yondashuv va sababiy tahlil qilish qobiliyati nisbatan faol rivojlanadi.

Muvaffaqiyatga erishish motivi ham fikrlash jarayonlarida muhim o‘rin egallaydi. Agar o‘quvchi o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ysa, natijaga erishishga intilsa va o‘z mehnati natijasini qadrlasa, u murakkab topshiriqlardan qochmaydi, aksincha, ularni tahlil qilishga, yechim izlashga va o‘z fikrini asoslashga harakat qiladi. Bunday holatda fikrlash jarayoni faol, izchil va maqsadga yo‘naltirilgan tus oladi.

O‘zini namoyon qilish ehtiyoji o‘smirlik davrida kuchli namoyon bo‘ladigan motivlardan biri bo‘lib, bu ehtiyojning fikrlash rivojlanishidagi o‘rni ijodiy va mustaqil fikrlashni faollashtirishda namoyon bo‘ladi. O‘smir tengdoshlari, o‘qituvchilari va ota-onalari oldida o‘zining qobiliyatini ko‘rsatishga, mustaqil fikr bildirishga va ijtimoiy jihatdan e'tirof etilishga intiladi. Agar ta'lim jarayonida bunday ehtiyoj ijobiy yo‘naltirilsa, u o‘quvchining ijodiy fikrlashi, muloqotdagi faolligi va tahliliy yondashuvining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy motivlarning o‘rni ham o‘smirlarning fikrlash rivojlanishida kam emas. Guruhda ishlash, bahs-munozaralarda ishtirok etish, tengdoshlar fikrini eshitish va o‘z pozitsiyasini himoya qilish o‘quvchining mantiqiy dalillash, tanqidiy baholash va refleksiv tahlil ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois dars jarayonida hamkorlikka asoslangan metodlardan foydalanish o‘quvchilarning fikrlash faolligini oshiradi.

O‘zini o‘zi rivojlantirish motivi esa fikrlash jarayonlarining eng yuqori darajada rivojlanishida alohida, ustuvor o‘rin tutadi. Bunday motivga ega o‘quvchi o‘z bilimlaridagi kamchiliklarni anglaydi, xatolarini tahlil qiladi, qo‘shimcha ma'lumot izlaydi va o‘z fikrlash uslubini takomillashtirishga harakat qiladi. Bu esa refleksiya, mustaqil fikrlash va prognozlash qobiliyatining rivojlanishiga bevosita bog‘liq bo‘lib qoladi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan motiv turlarini umumlashtirsak, ularning har biri fikrlash jarayonining alohida bir bosqichida yoki komponentida o‘ziga xos o‘rin egallaydi: bilishga qiziqish — tushunish va tahlilda, muvaffaqiyatga intilish — izchillik va maqsadga yo‘nalganlikda, o‘zini namoyon qilish — ijodkorlik va mustaqillikda, ijtimoiy motivlar — dalillash va tanqidiy fikrlashda, o‘zini-o‘zi rivojlantirish motivi esa — refleksiya va prognozlashda namoyon bo‘ladi. Demak, motivatsiya fikrlash jarayonining yagona, bir xil ta'sir ko‘rsatuvchi omili emas, balki uning turli komponentlarida turlicha o‘rin tutuvchi ko‘p qirrali tizim hisoblanadi.

Xulosa. O‘smirlik davrida fikrlash jarayonlarining rivojlanishi motivatsiyaning markaziy o‘rin tutgan murakkab pedagogik-psixologik jarayon hisoblanadi. Bilishga qiziqish, muvaffaqiyatga intilish, o‘zini namoyon qilish ehtiyoji, ijtimoiy e'tirofga intilish va o‘zini o‘zi rivojlantirish motivlari o‘zlarining fikrlash tizimidagi o‘rniga ko‘ra o‘quvchilarning tizimli, sababiy, integrativ, refleksiv va prognozli fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli ta'lim jarayonida o‘quvchilarning motivatsion sohasini rivojlantirish fikrlash jarayonlarini faollashtirishning muhim sharti sifatida qaralishi lozim. Motivatsiyaning fikrlash rivojlanishidagi bunday markaziy o‘rnini hisobga olib, o‘smirlarning fikrlash jarayonlarini rivojlantirish uchun ta'lim jarayoni motivatsion qo‘llab-quvvatlash, muammoli o‘qitish, refleksiv tahlil, hamkorlikdagi faoliyat va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vigotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – Moskva: Pedagogika, 1982.
2. Leontyev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – Moskva: Politizdat, 1975.
3. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Moskva: Pedagogika, 1989.
4. Bojovich L.I. Shaxs va uning bolalik davrida shakllanishi. – Moskva: Prosveshcheniye, 1968.
5. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 1950.
6. Elkonin D.B. Yosh davrlari psixologiyasi. – Moskva: Akademiya, 2001.
7. G‘oziyev E.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
8. Davletshin M.G. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
9. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
10. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. – Toshkent: TDPU, 2017.

PSYCHOLOGICAL DIAGNOSIS OF TEACHER PERSONALITY TYPES FOR MENTORING AND PROFESSIONAL DEVELOPMENT

Mirzayeva Mavluda Akramovna
Chirchik State Pedagogical University, Department of Psychology
Basic doctoral student
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0004-3782-3788
e-mail: Mavludaxonakramovna@gmail.com
Phone number: +998 94 606-79-90
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21904203

Annotation: The article presents a conceptual framework for describing the typological characteristics of modern school teachers’ personalities in the context of increasing educational complexity, digitalization, and heightened emotional demands. Relying on contemporary personality psychology and teacher effectiveness research, the paper argues that “teacher personality” should be analyzed not as a single set of traits but as a stable configuration of (a) core personality factors, (b) motivational–value orientation, (c) emotional–regulatory resources, and (d) pedagogical role preferences. The study systematizes typological criteria for practical psychological diagnosis in schools and teacher education: Big Five-related dispositions, teacher self-efficacy, emotional regulation, communication style, and stress vulnerability. On this basis, a five-type model is proposed: the Reflective-Analytical Teacher, the Structured-Organizational Teacher, the Empathic-Facilitative Teacher, the Innovative-Transformational Teacher, and the Stress-Vulnerable Teacher. The typology is not presented as a rigid labeling tool; rather, it is offered as a developmental map that helps identify strengths, professional risks (burnout, conflict escalation, motivational decline), and individualized support trajectories. Practical implications include guidance for mentoring, in-service training, psychological services, and school leadership in designing targeted interventions that strengthen professional sustainability and educational quality.

Keywords: teacher personality, typology, Big Five, teacher self-efficacy, emotional regulation, communication style, professional sustainability, burnout risk, school psychology, teacher development.

Аннотация: В статье представлена концептуальная основа для описания типологических характеристик личности современных школьных учителей в контексте возрастающей сложности образования, цифровизации и повышенных эмоциональных требований. Опираясь на современную психологию личности и исследования эффективности учителей, в работе утверждается, что «личность учителя» следует анализировать не как единый набор черт, а как устойчивую конфигурацию (а) основных личностных факторов, (б) мотивационно-ценностной ориентации, (в) эмоционально-регуляторных ресурсов и (г) предпочтений в педагогической роли. В исследовании систематизированы типологические критерии для практической психологической диагностики в школах и педагогическом образовании: диспозиции, связанные с «Большой пятеркой», самоэффективность учителя, эмоциональная регуляция, стиль общения и стрессоустойчивость. На этой основе предлагается пятитиповая модель: рефлексивно-аналитический учитель, структурированно-организационный учитель, эмпатично-фасилитативный учитель, инновационно-трансформационный учитель и стрессоустойчивый учитель. Типология представлена не как жесткий инструмент классификации; Скорее, она предлагается в виде карты развития, которая помогает выявить сильные стороны, профессиональные риски (выгорание, эскалация конфликтов, снижение мотивации) и индивидуальные траектории поддержки. Практические последствия включают в себя руководство по наставничеству, повышению квалификации, оказанию психологических услуг и разработке целенаправленных мер со стороны школьного руководства, направленных на укрепление профессиональной устойчивости и качества образования.

Ключевые слова: личность учителя, типология, Большая пятерка, самоэффективность учителя, эмоциональная регуляция, стиль общения, профессиональная устойчивость, риск выгорания, школьная психология, развитие учителя.

Annotatsiya: Maqolada ta'limning murakkabligi ortib borishi, raqamlashtirish va hissiy talablarning ortishi sharoitida zamonaviy maktab o'qituvchilari shaxsiyatining tipologik xususiyatlarini tavsiflash uchun kontseptual asos keltirilgan. Zamonaviy shaxsiyat psixologiyasi va o'qituvchi samaradorligi tadqiqotlariga tayanib, maqolada "o'qituvchi shaxsiyati" yagona xususiyatlar to'plami sifatida emas, balki (a) asosiy shaxsiyat omillari, (b) motivatsion-qadriyat yo'nalishi, (c) hissiy-tartibga solish resurslari va (d) pedagogik

rol afzalliklarining barqaror konfiguratsiyasi sifatida tahlil qilinishi kerakligi ta'kidlangan. Tadqiqot maktablar va o'qituvchilarni tayyorlashda amaliy psixologik diagnostika uchun tipologik mezonlarni tizimlashtiradi: Katta beshlik bilan bog'liq moyilliklar, o'qituvchining o'ziga ishonchi, hissiy tartibga solish, muloqot uslubi va stressga zaiflik. Shu asosda besh turdagi model taklif qilingan: Refleksiv-tahliliy o'qituvchi, Strukturaviy-tashkiliy o'qituvchi, Empatik-yordamchi o'qituvchi, Innovatsion-transformatsion o'qituvchi va Stressga zaif o'qituvchi. Tipologiya qat'iy yorliqlash vositasi sifatida taqdim etilmaydi; aksincha, u kuchli tomonlar, professional xavflar (charchoq, mojarolarning kuchayishi, motivatsiya pasayishi) va individual qo'llab-quvvatlash traektoriyalarini aniqlashga yordam beradigan rivojlanish xaritasi sifatida taqdim etiladi. Amaliy oqibatlarga ustozlik, malaka oshirish mashg'ulotlari, psixologik xizmatlar va professional barqarorlik va ta'lim sifatini mustahkamlaydigan maqsadli aralashuvlarni ishlab chiqishda maktab rahbariyati bo'yicha ko'rsatmalar kiradi.

Kalit so'zlar: o'qituvchi shaxsiyati, tipologiya, Katta beshlik, o'qituvchining o'ziga ishonchi, hissiy tartibga solish, muloqot uslubi, professional barqarorlik, charchoq xavfi, maktab psixologiyasi, o'qituvchilarni rivojlantirish.

Introduction: Modern schooling increasingly places teachers at the intersection of academic demands, socio-emotional support, digital tools, and public accountability. In such conditions, the teacher’s personality is not a “background” factor but a central psychological resource that shapes classroom climate, student motivation, communication with families, and the teacher’s own professional sustainability. The present article addresses a practical and scientific question: how can we describe typological characteristics of teachers’ personality in a way that supports diagnosis, mentoring, and professional development without reducing individuals to simplistic labels?

The aim of the paper is to propose a structured typological model of modern teachers’ personality grounded in well-established psychological constructs and applicable to school contexts. The objectives are: (1) to clarify the conceptual meaning of “teacher personality” as a multi-component configuration; (2) to systematize typological criteria relevant to educational practice; (3) to propose a five-type model that highlights strengths and risk zones; (4) to outline implications for school psychology services and teacher education.

Theoretical background: In personality psychology, the Five-Factor Model (Big Five) has been widely used as a parsimonious framework for describing stable individual differences (e.g., emotional stability/neuroticism, extraversion, openness, agreeableness, conscientiousness). This model has accumulated evidence across cultures and settings and is frequently linked to work outcomes and professional behavior. At the same time, teacher effectiveness research suggests that personality traits alone do not fully explain educational outcomes; motivational and self-regulatory constructs, such as teacher self-efficacy (the belief in one’s ability to influence student learning), are strongly associated with persistence, instructional quality, and student engagement.

Theoretical background: Another key domain concerns emotional resources and professional stress. Teaching is recognized as emotionally demanding; chronic overload can increase the risk of burnout (emotional exhaustion, depersonalization/cynicism, reduced professional efficacy). Therefore, typological analysis must include not only traits but also regulation patterns and stress vulnerability.

A school-based typology should be practice-oriented. It must support: (a) early identification of risk trajectories (conflict escalation, rigid communication, emotional exhaustion), (b) personalization of mentoring and training, and (c) constructive feedback language that protects dignity and encourages growth. For this reason, the present model treats types as “dominant configurations” rather than fixed categories.

Typological model and criteria: The proposed typology is built on four groups of criteria.

Criterion A — Core personality dispositions (stable): These include conscientiousness (organization, responsibility), emotional stability (stress tolerance), openness (innovation readiness), agreeableness (cooperation, empathy), and extraversion (social energy, classroom presence). In applied settings, these dispositions can be approximated with validated Big Five measures (e.g., NEO-based instruments or shorter inventories).

Criterion B — Motivational–value orientation: This component reflects what the teacher sees as “the core mission” (achievement/results, care/relationships, discipline/order, creativity/innovation, civic/moral formation). Values guide daily choices: feedback style, classroom management, and responses to student diversity.

Criterion C — Emotional and self-regulatory resources: This includes emotion regulation, reflection, coping style, and the capacity to recover after setbacks. Emotional regulation is essential for maintaining a supportive climate and preventing escalation.

Criterion D — Pedagogical role preference: Teachers differ in dominant roles: instructor-expert, facilitator, mentor, coach, organizer, innovator, mediator, etc. Role preference influences interaction patterns and the design of learning activities.

Typological model and criteria: Based on these criteria, five teacher personality types are proposed.

Type 1 — Reflective-Analytical Teacher: Dominant strengths include careful planning, evidence-oriented thinking, fairness, and structured feedback. Such teachers tend to analyze learning difficulties and prefer clear criteria. Typical risks include over-intellectualization, reduced emotional expressiveness, and delayed decision-making under uncertainty. Development focus: communication warmth, flexible improvisation, and rapid formative assessment routines.

Type 2 — Structured-Organizational Teacher: This type is defined by high conscientiousness, strong classroom management, and stable routines. Strengths include discipline, predictability, and responsibility. Risks include rigidity, lower tolerance for ambiguity, and conflict when students need flexible accommodation. Development focus: differentiated instruction, autonomy-supportive discipline, and constructive negotiation skills.

Type 3 — Empathic-Facilitative Teacher: Strengths include emotional sensitivity, supportive communication, trust-building, and inclusive climate. Such teachers are often effective in motivating anxious or struggling students. Risks include emotional over-involvement, difficulty setting boundaries, and fatigue from “constant caring.” Development focus: boundary management, self-care protocols, and structured workload planning.

Type 4 — Innovative-Transformational Teacher: Strengths include openness, creativity, readiness to experiment with digital tools, and the ability to inspire learners. Risks include inconsistency in routines, difficulty maintaining documentation, and frustration in rigid institutional settings. Development focus: balancing innovation with structure, teamwork skills, and sustainable implementation planning.

Type 5 — Stress-Vulnerable Teacher: This is not a “personality defect,” but a configuration in which emotional exhaustion and limited recovery resources dominate over time. Signs may include irritability, reduced empathy, cynicism, or avoidance. Risk factors can include chronic overload, lack of support, and repeated conflict cycles. Development focus: psychological support, workload redesign, restoration of self-efficacy, and targeted stress management. The role of teacher self-efficacy is especially important because it predicts persistence and professional motivation.

Discussion and implications for school practice: The typology can be applied in three ethically safe formats: (1) self-reflection and coaching (teachers identify “closest type” and growth goals), (2) mentoring programs (matching mentor strategies to teacher configuration), (3) school psychological services (early risk detection and support planning). Importantly, types should never be used for punitive evaluation or public labeling; they are tools for supportive development.

For mentoring, recommended strategies include: for reflective-analytical teachers—micro-practices for emotional expressiveness and interactive dialogue; for structured-organizational teachers—methods of flexible differentiation; for empathic-facilitative teachers—boundary-setting and time management; for innovative-transformational teachers—implementation discipline and evidence tracking; for stress-vulnerable teachers—restoration plans and professional support networks.

In teacher education, the model suggests that training should combine (a) personality-informed feedback, (b) self-efficacy strengthening through mastery experiences and guided practice, and (c) emotional competence and coping skills. Such integration is consistent with the idea that professional quality is not only knowledge-based but also resource-based and developmental.

Conclusion: Teacher personality typology is most useful when conceptualized as a dynamic configuration of traits, values, regulatory resources, and role preferences. The proposed five-type model provides a practical language for diagnosing strengths and risk zones and for designing individualized support trajectories. The model can be used as a foundation for school-based psychological services, mentoring systems, and in-service teacher training aimed at professional sustainability and educational quality. Future work may include empirical validation of the model in specific school contexts and the development of culturally sensitive diagnostic packages for Uzbekistan’s educational environment.

List of used literature:

1. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. – New York: W. H. Freeman, 1997.

2. John O. P., Srivastava S. The Big-Five Trait Taxonomy: History, Measurement, and Theoretical Perspectives // Handbook of Personality: Theory and Research (2nd ed.). – New York: Guilford Press, 1999.
3. Costa P. T., McCrae R. R. Revised NEO Personality Inventory (NEO-PI-R) and NEO Five-Factor Inventory (NEO-FFI) Professional Manual. – Odessa, FL: Psychological Assessment Resources, 1992.
4. Goldberg L. R. An Alternative “Description of Personality”: The Big-Five Factor Structure // Journal of Personality and Social Psychology. – 1990. – Vol. 59(6). – P. 1216–1229.
5. Digman J. M. Personality Structure: Emergence of the Five-Factor Model // Annual Review of Psychology. – 1990. – Vol. 41. – P. 417–440.
6. Barrick M. R., Mount M. K. The Big Five Personality Dimensions and Job Performance: A Meta-Analysis // Personnel Psychology. – 1991. – Vol. 44(1). – P. 1–26.
7. Tschannen-Moran M., Woolfolk Hoy A. Teacher Efficacy: Capturing an Elusive Construct // Teaching and Teacher Education. – 2001. – Vol. 17(7). – P. 783–805.
8. Maslach C., Leiter M. P. Understanding the Burnout Experience: Recent Research and Its Implications for Psychiatry // World Psychiatry. – 2016. – Vol. 15(2). – P. 103–111.
9. Maslach C., Jackson S. E., Leiter M. P. Maslach Burnout Inventory Manual (3rd ed.). – Palo Alto, CA: Consulting Psychologists Press, 1996.
10. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009.
11. Darling-Hammond L. Teacher Quality and Student Achievement: A Review of State Policy Evidence // Education Policy Analysis Archives. – 2000. – Vol. 8(1).
12. Goleman D. Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 1995.
13. Mayer J. D., Salovey P., Caruso D. R. Emotional Intelligence: New Ability or Eclectic Traits? // American Psychologist. – 2008. – Vol. 63(6). – P. 503–517.
14. OECD. TALIS 2018 Results (Volume I): Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. – Paris: OECD Publishing, 2019.
15. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

THE INTERCONNECTION OF REFLECTION AND METACOGNITION IN ADOLESCENTS' COGNITIVE GROWTH

Shoxista Rabidjanovna Samarova
Associate Professor, Department of Psychology, Faculty of Pedagogy
Chirchik State Pedagogical University
Orcid ID: 0009-0004-1235-4970 Email: shohista.samarova71@gmail.com
Phone Number: +998 90 914 90 64
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21904293

Abstract: This article analyzes the importance of reflection and metacognitive processes in the cognitive development of adolescents from a psychological and pedagogical perspective. Adolescence is a sensitive period in which thinking processes, self-awareness, self-regulation, learning motivation, and independent decision-making abilities develop intensively. Reflection and metacognition play a central role in this process because they allow students to understand their own thinking, evaluate learning strategies, identify mistakes, and consciously plan further intellectual development. The article examines how reflection and metacognition are not merely parallel processes but are functionally interconnected, each supplying the conditions necessary for the other to operate effectively during adolescent cognitive growth.

Keywords: adolescence, cognitive development, reflection, metacognition, thinking processes, self-regulation, self-assessment, systematic thinking, causal analysis, forecasting, psychodiagnostics, psycho-correction, reflective-metacognitive cycle, interconnection.

Аннотация: В данной статье анализируется важность рефлексии и метакогнитивных процессов в когнитивном развитии подростков с психологической и педагогической точек зрения. Подростковый возраст — это чувствительный период, в котором интенсивно развиваются мыслительные процессы, самосознание, саморегуляция, мотивация к обучению и способность к самостоятельному принятию решений. Рефлексия и метакогниция играют центральную роль в этом процессе, поскольку позволяют учащимся понимать собственное мышление, оценивать стратегии обучения, выявлять ошибки и сознательно планировать дальнейшее интеллектуальное развитие. В статье рассматривается, как рефлексия и метакогниция являются не просто параллельными процессами, а функционально взаимосвязаны, каждый из которых обеспечивает условия, необходимые для эффективного функционирования другого в процессе когнитивного роста подростков.

Ключевые слова: подростковый возраст, когнитивное развитие, рефлексия, метакогниция, мыслительные процессы, саморегуляция, самооценка, системное мышление, причинно-следственный анализ, прогнозирование, психодиагностика, психокоррекция, рефлексивно-метакогнитивный цикл, взаимосвязь.

Ключевые слова: рабочая память, центральные исполнительные функции, письменная деятельность, планирование, внимание, долговременная память.

Kirish. Yozuv rejalashtirish, g‘oyalarni lingvistik kodga o‘tkazish va tahrirlash kabi bir-biriga qaytuvchi va taqazo etuvchi (rekursiv) murakkab tizimli kognitiv jarayon hisoblanadi [1]. Yozma nutq shakllanishining birinchi bosqichi ongimizda shakllangan g‘oyalar bilan bog‘liqdir. Xotiradagi xaotik tabiatga ega fikrlarni grafik shaklga keltirishdan oldin ular ustida rejalashtirish, tashkillashtirish yoki tartiblash amallari bajariladi. Yozuvning ushbu ko‘p bosqichli murakkab xususiyati uni boshqa nutq faoliyati turlaridan ko‘ra nisbatan sekin rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Shunday ekan, yozuvni o‘rganish va uni samarali o‘qitish ehtiyoji hozirda chet tili ta’limi tizimida dolzarb masalalardan biri ekan, uning yuzaga kelishida va rivojlanishida ishtirok etadigan kognitiv mexanizmlarni tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Biz tadqiqot doirasida o‘rganib chiqqan yozuv faoliyatini ishga tushirishda qatnashadigan eng faol kognitiv mexanizmlar sifatida quyidalarni tahlilga tortdik (1-rasm).



1-rasm. Yozma nutq faoliyatini ishga tushiruvchi asosiy kognitiv mexanizmlar.

Mazkur mexanizmlardan biri ishchi xotiraning vazifasi uzoq muddatli xotiradagi statik axborotning dinamikasini ta’minlashdan iborat. Masalan, biror mavzuda yozma matn tayyorlash topshirig‘i berilgan bo‘lsin, bu vaqtda birinchi bo‘lib ishchi xotira uzoq muddatli xotiraga “murojaat qiladi”, ya’ni uzoq muddatli xotiradagi mavzuga taaluqli har qanday ma’lumotni o‘z “ish stolida” (operativ xotirada) faollashtiradi.

Batafsilroq aytadigan bo‘lsak, ishchi xotira – bu joriy topshiriq (vazifa) jarayonida axborotni bir vaqtning o‘zida manipulatsiya qilish (qayta ishlash), vaqtincha saqlash va uni faol holatda saqlab turishni ta’minlovchi muhim kognitiv mexanizmdir [2].

O‘z navbatida, ishchi xotira faollashtirgan g‘oyalar ustida ongda bir nechta amallar bajarilishi ehtiyoji tug‘iladi. Xususan, ma’lumotlarni filtrlash amaliyoti shular jumalasidandir. Bu funksiya esa, markaziy ijro funksiyalasi amaliyotiga taalluqli. Ijro funksiyalari (executive functions, executive control, cognitive control) – maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat jarayonida fikrlash va harakatlarni boshqarish imkonini beruvchi yuqori darajadagi kognitiv mexanizmdir [3].

Markaziy ijro funksiyalari o‘z o‘rnida uchta funksiyaviy komponentdan tashkil topgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Markaziy ijro funksiyalari turlari va ularning ishlash mexanizmlari

Markaziy ijro funksiyalari		TORMOZLOVCHI NAZORAT (INHIBITORY CONTROL)	*Amalga oshirish mexanizmlari*	- nomuvofiq yoki keraksiz javoblar va impulslarni rad etish yoki bostirish funksiyasi
		ISHCHI XOTIRA REPREZENTATSIYASINI YANGILASH (UPDATING)		- ishchi xotiradagi ma’lumotlarni kuzatib borish va eskirgan axborotni yangisi bilan almashtirish qobiliyati
		KOGNITIV MOSLASHUVCHANLIK (COGNITIV FLEXIBILITY)		- vazifalar, strategiyalar yoki fikrlash yo‘nalishlari o‘rtasida mos ravishda almashish qobiliyatini ifodalaydi

Izoh: jadval tadqiqotchi olim Athina Pitta klassifikatsiya asosida tuzilgan [4].

Xususan, *(1) tormozlovchi nazorat* g‘oyalar va til birliklarini tanlashga; *(2) ishchi xotirani yangilash* matn mazmunini nazorat qilish va yangi axborotni integratsiyalashga; *(3)kognitiv moslashuvchanlik* esa yozuv matnini shakllantiruvchi turli g‘oyalar hamda strategiyalar o‘rtasidagi bosqichlarni bosib o‘tishga xizmat qiladi.

Endigi o‘rinlarda, yozma nutq faoliyatida diqqatning funksional ahamiyatini alohida ko‘rib chiqish zarur. F.Ritterning diqqat mexanizmi haqidagi yana bir qimmatli fikriga murojaat qilishimiz o‘rinli bo‘lib, u diqqatni yo‘naltirish darajasi insonning ma’lumotni o‘rganish va uni eslab qolish qobiliyati bilan yaqindan bog‘langan deb ta’kidlaydi [5].

Bu holat, diqqat funksional jihatdan xotira mexanizmlari bilan aloqadorlikda ishlashini izohlaydi. Diqqatning boshqa kognitiv mexanizmlar bilan faol interaksiyasi haqida gap ketar ekan, uning nazorat funksiyasi bevosita markaziy ijro funksiyalari faoliyati zimmasida ekanligini ham ta’kidlash joiz. Bu fikrimizni isboti sifatida Marijke Keus van de Poll va Patrik Sörqvistlar tomonidan diqqatning tashqi omillar ta’siridagi mexanizmi yuzasidan o‘tkazgan tajribalarini misol qilib keltirishimiz joiz. Olimlar keltirgan namunaga ko‘ra, yozuv faoliyati davomida orqa fondagi suhbat talabalarni asosiy yozuv

topshirig‘idan chalg‘itib, diqqatni aftomatik tortish (attention capture) mexanizmi ishga tushadi. Bu holat tashqi stimuli foni tiniq bo‘lganda yozuv ravonligi sifatida tushishi bilan izohlanadi. Bu jarayonida ijro funksiyalarining diqqatni qayta tiklash funksiyasi ahamiyatlidir, ya’ni tashqi stimuli diqqatni asosiy topshiriqdan uzilishiga olib kelganda diqqatni qayta tiklash va vazifani davom ettirish ijro funksiyalarining nazorat mexanizmlari orqali amalga oshiriladi [6].

Xulosa. Ishchi xotira, uzoq muddatli xotira, ijro funksiyalari va diqqat kabi kognitiv mexanizmlar yozma nutq faoliyati jarayonida alohida holda emas, balki o‘zaro bog‘langan yaxlit kognitiv tizim sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Chet tilida yozish (EFL writing) sharoitida mazkur kognitiv tizim yanada katta yuklama ostida faoliyat yuritadi. Xorijiy til bo‘yicha bilimlarning yetarli darajada shakllanmaganligi ishchi xotiraga tushadigan yukni oshiradi, janr sxemalarinining yetarlicha rivojlanmaganligi uzoq muddatli xotira tomonidan ta’minlab beriladigan imkoniyatlarni cheklaydi, ijro funksiyalari va diqqat resurslari esa bir vaqtning o‘zida til shakli, mazmun va matnni tashkillashtirish o‘rtasida taqsimlanishga majbur bo‘ladi. Natijada, yozuv faoliyatida quyi pog‘onali darajadagi til o‘rganuvchilarida tez-tez ortiqcha kognitiv yuklanish sodir bo‘ladi, bu esa o‘z o‘rnida yozma matn sifatining pasayishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Linda Flower, & John R. Hayes (1981). *A cognitive process theory of writing*. College Composition and Communication, 32(4), 365–387. https://doi.org/10.2307/356600

2. Li, S. (2023). Working memory and second language learning: A critical and synthetic review. In Godfroid & H. Hopp (Eds.), The Routledge handbook of second language acquisition and psycholinguistics (pp. 348–360). Routledge.

3. Friedman, Naomi & Miyake, Akira. (2016). Unity and Diversity of Executive Functions: Individual Differences as Window on Cognitive Structure. Cortex. 86. 10.1016/j.cortex.2016.04.023.

4. Pitta A (2026) Executive functions in research and practice: a multimethod review of behavioral, subjective, and neurobiological assessment tools. Front. Psychol. 17:1713652. doi: 10.3389/fpsyg.2026.1713652

5. Ritter, F. E., Baxter, C., Kim, J. W., & Srinivasmuthy, S. (2013). Learning and retention. In J. D. Lee & A. Kirlik (Eds), The Oxford handbook of cognitive engineering (1-25). Oxford Handbooks Online. Retrieved November 23, 2020, from Oxford Library of Psychology, pp.13-14.

6. Keus van de Poll, M., and Sörqvist, P. (2016) Effects of Task Interruption and Background Speech on Word Processed Writing. *Appl. Cognit. Psychol.*, 30: 430–439. doi: 10.1002/acp.3221

RADIKALIZMNING PAYDO BO‘LISH TARIXI VA UNING IJTIMOIY-SIYOSIY XAVFI

Jo‘rayev Akram Namozovich
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21912406

Annotatsiya. Ushbu maqolada radikalizm tushunchasining tarixiy shakllanish jarayoni va uning ijtimoiy-siyosiy xavfi tahlil qilinadi. Atamaning lotincha o‘zagidan XVIII asr oxiri Britaniya siyosiy leksikoniga kirib kelishi, XIX asr davomida ma’noviy o‘zgarishga uchrashi hamda XX asrda siyosiy zo‘ravonlik bilan bog‘lanib qolishi bosqichma-bosqich ko‘rsatib beriladi. Maqolada radikal talabning islohotchilik shaklidan zo‘ravonlik shakliga o‘tish mexanizmi, bu jarayonning ijtimoiy sabablari hamda uning siyosiy tizim barqarorligiga yetkazadigan zarari yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy ilmiy adabiyotda “radikallashuv” tushunchasi atrofida yuzaga kelgan tushunchaviy chalkashlik masalasi muhokama qilinadi.
Tayanch so‘zlar: radikalizm, radikallashuv, siyosiy zo‘ravonlik, ijtimoiy harakatlar, terrorizm to‘lqinlari, siyosiy tarix, qutblanish, murosa, siyosiy institutlar, ijtimoiy falsafa.

Аннотация. В данной статье анализируется процесс исторического формирования понятия радикализма и его социально-политическая опасность. Последовательно показано вхождение термина из латинской основы в британский политический лексикон конца XVIII века, его смысловая трансформация в течение XIX века, а также его закрепление за политическим насилием в XX столетии. В статье раскрывается механизм перехода радикального требования от реформистской формы к насильственной, социальные причины этого процесса и ущерб, наносимый им стабильности политической системы. Кроме того, обсуждается проблема концептуальной путаницы, возникшей вокруг понятия «радикализация» в современной научной литературе.
Ключевые слова: радикализм, радикализация, политическое насилие, общественные движения, волны терроризма, политическая история, поляризация, компромисс, политические институты, социальная философия.

Annotation. This article analyses the historical formation of the concept of radicalism and its socio-political danger. It traces step by step the entry of the term from its Latin root into the British political vocabulary of the late eighteenth century, its semantic transformation during the nineteenth century, and its association with political violence in the twentieth century. The article examines the mechanism by which a radical demand shifts from a reformist to a violent form, the social causes of this process, and the damage it inflicts on the stability of the political system. It also discusses the conceptual confusion surrounding the notion of “radicalisation” in contemporary scholarship.
Keywords: radicalism, radicalisation, political violence, social movements, waves of terrorism, political history, polarisation, compromise, political institutions, social philosophy.

Kirish. Radikalizm bugungi ijtimoiy-siyosiy muhokamalarda eng ko‘p tilga olinadigan, ayni paytda eng noaniq talqin qilinadigan tushunchalardan biridir. U ko‘pincha ekstremizm va terrorizm bilan bir qatorda, hatto ularning sinonimi sifatida ishlatiladi. Holbuki, bu uch tushuncha bir xil emas va ularni farqlamaslik ilmiy tahlilga ham, amaliy chora-tadbirlarga ham putur yetkazadi.

“Radikal” so‘zining o‘zagi lotincha radix – “ildiz” so‘ziga borib taqaladi. Etimologik ma’nosiga ko‘ra radikallik muammoni yuzaki ko‘rinishida emas, ildizida hal qilishga intilishni bildiradi. Bu intilishning o‘zi hali zo‘ravonlik degani emas: tarixda tubdan islohot talab qilgan ko‘plab harakatlar qonuniy siyosiy doirada faoliyat yuritgan. Radikalizm zo‘ravonlikka aylanadigan chegara — aynan shu maqolada aniqlanishi lozim bo‘lgan masaladir.

Maqolaning maqsadi – radikalizm hodisasining tarixiy shakllanish jarayonini o‘rganish va uning ijtimoiy-siyosiy xavfini nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mavzuga oid o‘zbek ilmiy adabiyotida bir necha yo‘nalish shakllangan. J.S.Muxtorov, B.F.Alimov va S.B.Xo‘jaqulovlarning ma’ruzalar kursida terrorizm va ekstremizmning ijtimoiy xavfi hamda tarixiy ildizlari profilaktika nuqtai nazaridan tahlil qilingan; unda hodisaning tarixiy evolyutsiyasi bosqichma-bosqich ko‘rsatib berilgani alohida ahamiyatga ega [1]. M.Lafasov va hammualliflarning metodik qo‘llanmasida radikal markazlarning yoshlar ongini nishonga olish amaliyotiga e’tibor qaratilgan [2].

J.T.Yuldashov terrorizmning ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar mavjud muhitda ildiz otishini asoslaydi [3]. H.E.Mamatqulov xalqaro terrorizmning huquqiy tabiatini o‘rganib, unga yagona universal-huquqiy

ta’rif berilmaganini muammo sifatida ko‘rsatadi [4]. O.O.Olimjonov zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlarning katta qismi yosh avlod tomonidan sodir etilayotganini qayd etadi [5], U.M.Hoshimov esa terrorizmning siyosiy va jinoiy ko‘rinishlarini farqlaydi [6].

Xorijiy adabiyotda D.Rapoportning “to‘rt to‘lqin” konsepsiyasi zamonaviy siyosiy zo‘ravonlikni davrlashtirishning eng keng tarqalgan modeli hisoblanadi [7]. M.Sedgvik esa “radikallashuv” atamasining turli sohalarda turlicha qo‘llanishi ilmiy chalkashlikka olib kelayotganini asoslab bergan [8]. Tadqiqotda tarixiylik va mantiqiylik birligi tamoyili, qiyosiy-tarixiy hamda genetik yondashuvlar, shuningdek semantik tahlil usuli qo‘llanildi.

Muhokama. Tahlilni tushunchaviy chegaralarni aniqlashdan boshlash lozim. Radikalizm bu mavjud ahvolni tubdan, murosasiz tarzda o‘zgartirishga intilish. Ekstremizm (lotincha extremus – “haddan tashqari”) jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid keskin qarash va harakatlarni bildiradi. Terrorizm esa bu qarashlarning zo‘ravonlik amaliyotiga aylangan yakuniy shaklidir. Uchala tushuncha bitta uzluksiz chiziqda joylashgan bo‘lsa-da, ular bir xil emas. E.Mamatqulov ta’kidlaganidek, hatto terrorizmning o‘ziga ham bugungacha yagona universal-huquqiy ta’rif berilmagan [4].

Radikalizmning tarixiy ildizlari chuqur. Muxtorov va hammualliflar terrorizmni “uzoq tarixga ega hodisa bo‘lib, uning ildizlari insoniyatning qadimgi tarixiga borib taqaladi” deb baholaydilar [1]. Yuldashov bu fikrni to‘ldiradi: jamiyat azaldan ijtimoiy va iqtisodiy kelishmovchiliklarga ega bo‘lgani uchun zo‘ravon harakatlar o‘ziga mos muhitni topgan va aynan tafovutlar mavjud joylarda faollashgan [3]. Bundan muhim xulosa kelib chiqadi, ya’ni radikalizm bo‘shliqda emas, muayyan ijtimoiy ziddiyat zaminida shakllanadi.

Radikal harakatlarning tarixiy taraqqiyoti chiziqli bo‘lmagan. Muxtorov va hammualliflar bu jarayonning bosqichlarini quyidagicha umumlashtiradilar: avvalo muayyan usul va vositalar shakllangan; so‘ngra harakat o‘z mafkurasini yaratgan va uning so‘l va o‘ng, ijtimoiy va siyosiy, millatchilik hamda inqilobiy yo‘nalishlari paydo bo‘lgan. Keyin ijtimoiylashuv yuz bergan, ya’ni harakat marginal guruhlardan yuqori tabaqagacha o‘z bazasiga ega bo‘lgan; to‘rtinchi bosqichda institutsionallashuv sodir bo‘lib, doimiy tashkilotlar tuzilgan va faoliyat xalqaro tus olgan. Beshinchi bosqichda ommaviylashuv kuzatilgan, ya’ni nihoyat, internet va ommaviy axborot vositalari faol qo‘llanila boshlagan [1]. Ushbu ketma-ketlik radikalizmning g‘oyadan tashkilotga, tashkilotdan tarmoqqa aylanish mantiqini ko‘rsatadi.

Zamonaviy siyosiy zo‘ravonlikni davrlashtirishda Rapoportning “to‘rt to‘lqin” konsepsiyasi keng qo‘llanadi [7]. Unga ko‘ra, har bir to‘lqin taxminan bir avlod umriga teng vaqt davomida amal qiladi, o‘z mafkuraviy asosi va texnologiyasiga ega bo‘ladi hamda yangi avlod eski g‘oyalarni qabul qilmaganda so‘nadi. Bundan muhim xulosa kelib chiqadi, ya’ni radikalizm abadiy emas, u tarixan o‘tkinchi hodisadir.

Statistik ma’lumotlar hodisaning miqyosi barqaror emasligini tasdiqlaydi. Muxtorov va hammualliflar keltirgan raqamlarga ko‘ra, 1968–1980-yillarda dunyo bo‘yicha 6700 ga yaqin terrorchilik harakati qayd etilgan; 1981-yilda ularning soni 2700 taga yetgan, 1987-yilda esa 832 taga tushgan; 2000–2011-yillarda 500 ga yaqin tashkilot tomonidan 10 mingga yaqin harakat sodir etilib, 26 mingdan ortiq kishi halok bo‘lgan va jarohatlangan [1]. Raqamlarning notekisligi radikalizmning avj olishi tasodifiy emasligini ko‘rsatadi.

Tushunchaviy noaniqlik alohida muammo sifatida qaralmoqda. Sedgvik “radikallashuv” atamasining xavfsizlik sohasida, integratsiya siyosatida va ilmiy tadqiqotlarda uch xil ma’noda qo‘llanishini ko‘rsatib bergan [8]. Bu holat o‘zbek adabiyotiga ham taalluqli. Radikalizm, ekstremizm va terrorizm atamalari ko‘pincha farqlanmasdan ishlatiladi.

Radikalizmning ijtimoiy-siyosiy xavfi bir necha darajada namoyon bo‘ladi. Muxtorov va hammualliflar bu xavfni ijtimoiy hayotning iqtisodiy, ma’naviy, siyosiy va boshqaruv sohalariga salbiy ta’sir o‘tkazish, faoliyatning uyushgan tarzda amalga oshirilishi, murosasizlik zaminida millatlararo nizolarni keltirib chiqarish hamda jamiyat a’zolarida ishonchsizlik uyg‘otish orqali tavsiflaydilar [1].

Bu tavsifni kengaytirish mumkin. Birinchidan, radikalizm murosa imkoniyatini yo‘qqa chiqaradi. U ijtimoiy muammoni “hal qilinishi” emas, “tugatilishi” kerak bo‘lgan holat deb qaraydi. Ikkinchidan, u jamiyatni qutblaydi – ijtimoiy makon “biz” va “ular”ga bo‘linadi, betaraflik esa xiyonat sifatida talqin qilinadi. Uchinchidan, radikalizm zo‘ravonlikni oddiy holga aylantiradi. Dastlab istisno sifatida oqlangan harakat vaqt o‘tishi bilan me’yorga aylanadi. To‘rtinchidan, u siyosiy institutlarga ishonchni yemiradi.

Alohida e’tiborni radikalizmning yosh avlodga yo‘naltirilganligi talab qiladi. Olimjonov zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshgacha bo‘lgan shaxslar tomonidan sodir etilayotganini qayd etadi [5]. Muxtorov va hammualliflar ekstremizm yoshlarni “kollektivistik va maksimalistik qarorlar” hamda ideal sarobi bilan o‘ziga tortishini, bunda yolg‘izlikdan va ma’naviy bo‘shliqdan qochish istagi

muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydilar [1]. Lafasov va hammualliflar radikal markazlarning yoshlardan “konveyer” usulida ijrochi tayyorlash amaliyotini alohida xavf sifatida ko‘rsatadilar [2]. Hoshimov esa terrorizmning siyosiy ko‘rinishi jinoiy ko‘rinishidan xavfliroq ekanini qayd etadi [6]. Demak, radikalizmning eng jiddiy xavfi uning stixiyaliligida emas, uyushganligidadir.

Xulosa. O‘tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

Birinchidan, radikalizm o‘z mohiyatiga ko‘ra mavjud ahvolni tubdan o‘zgartirishga intilishni bildiradi va bu intilishning o‘zi hali zo‘ravonlik degani emas. Radikal talabning ekstremistik, so‘ngra terroristik shaklga o‘tishi alohida jarayon bo‘lib, u muayyan ijtimoiy shart-sharoitlarda yuz beradi.

Ikkinchidan, radikal harakatlar tarixi bosqichli xarakterga ega: usul va vositalarning shakllanishi, mafkuraning yaratilishi, ijtimoiylashuv, institutsionallashuv, ommaviylashuv va zamonaviy texnologiyalarning o‘zlashtirilishi. Har bir bosqichga mos ravishda profilaktika usullari ham o‘zgarishi lozim.

Uchinchidan, radikalizmning asosiy ijtimoiy xavfi zo‘ravonlikning o‘zida emas, balki u tayyorlaydigan tafakkur tarzida — murosani inkor etish, jamiyatni qutblash va siyosiy institutlarga ishonchni yemirishda namoyon bo‘ladi.

To‘rtinchidan, radikalizmning asosiy nishoni yosh avlod hisoblanadi. Shu sababli profilaktika ishi taqiqlovchi choralar bilan cheklanmasligi, yoshlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondiruvchi ijobiy muqobilni taklif eta olishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мухторов Ж.С., Алимов Б.Ф., Хўжақулов С.Б. Терроризм ва экстремизмга қарши кураш тактика ва методикаси (Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти мутахассислиги учун): маърузалар курси. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2016. – 100 б.

2. Lafasov M., Jumaniyozov X.S., Masharipova G.K., Xoliqov E., Mallaeva E.M. Diniy ekstremizm, missionerlik va xalqaro terrorizmga qarshi kurash: metodik qo‘llanma. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 66 b.

3. Yuldashov J.T. Terrorizm jinoyatining tarixi, jamiyatga solayotgan xavf-xatarlar hamda murosasiz kurashishning zamonaviy usullari. – 2022. – 8 b. https://doi.org/10.5281/zenodo.7366546

4. Mamatqulov H.E. Xalqaro terrorizm xalqaro jinoyat sifatida // Central Asian Journal of Academic Research. – 2025. – Vol. 3, Issue 11. – B. 178–183.

5. Olimjonov O.O. Terrorizm – umumbashariy global muammo // Uzbek Scholar Journal. – 2024. – Vol. 27. – B. 60–63.

6. Hoshimov U.M. Bugungi kunda xalqaro terrorizmning turlari va maqsadi // Development of Pedagogical Technologies in Modern Sciences: xalqaro ilmiy-onlayn konferensiya materiallari. – 2024. – B. 10–13.

7. Rapoport D.C. The Four Waves of Modern Terrorism // Attacking Terrorism: Elements of a Grand Strategy / Eds. A.K.Cronin, J.M.Ludes. – Washington, D.C.: Georgetown University Press, 2004. – P. 46–73.

8. Sedgwick M. The Concept of Radicalization as a Source of Confusion // Terrorism and Political Violence. – 2010. – Vol. 22, No. 4. – P. 479–494.

XORAZM VILOYATIDA SUG‘ORILADIGAN YERLAR MAYDONINING UZOQ YILLIK O‘ZGARISHLARINI KORRELYATSION-REGRESSION TAHLIL ASOSIDA BAHOLASH

Zaripboyeva Maftuna Umidjon qizi
“O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti, doktoranti [0009-0003-2908-6872]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21912444

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm viloyatida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan sug‘oriladigan yerlar maydonining 2012–2025-yillardagi uzoq yillik o‘zgarish dinamikasi statistik va korrelyatsion-regression tahlil asosida baholangan. Tadqiqot davomida sug‘oriladigan yerlar maydonining yillar kesimidagi o‘zgarishlari tahlil qilinib, tumanlar bo‘yicha hududiy tafovutlar aniqlangan. Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti hamda determinatsiya koeffitsiyenti yordamida vaqt omili bilan sug‘oriladigan yerlar maydoni o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi baholangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 2012–2025-yillar davomida sug‘oriladigan yerlar maydoni 4 108 gektarga qisqargani hamda vaqt omili bilan sug‘oriladigan yerlar maydoni o‘rtasida o‘rtacha darajadagi manfiy bog‘liqlik (r = –0,606) mavjudligi aniqlangan. Shuningdek, regressiya modeli asosida sug‘oriladigan yerlar maydonining o‘zgarish tendensiyasi baholanib, statistik va geoinformatsion tahlillarni integratsiyalashga asoslangan kompleks baholash mexanizmi taklif etilgan. Ishlab chiqilgan mexanizm sug‘oriladigan yerlarning uzoq yillik o‘zgarishlarini ilmiy asosda baholash, hududlarni funksional zonalash hamda istiqbolga mo‘ljallangan yer tuzish chizmalarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Sug‘oriladigan yerlar, yer resurslari, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar, korrelyatsion tahlil, regressiya modeli, Pearson korrelyatsiyasi, determinatsiya koeffitsiyenti, GIS, geoma’lumotlar bazasi, kompleks baholash, funksional zonalash, yer tuzish chizmalari, Xorazm viloyati.

Abstract. This article evaluates the long-term dynamics of changes in the area of irrigated agricultural land in the Khorezm Region during 2012–2025 based on statistical and correlation-regression analysis. The study analyzes annual changes in the area of irrigated land and identifies territorial differences across districts. The strength of the relationship between the time factor and the area of irrigated land was assessed using the Pearson correlation coefficient and the coefficient of determination. The results indicate that during 2012–2025, the area of irrigated land decreased by 4,108 hectares, and a moderate negative correlation (r = –0.606) was identified between the time factor and the area of irrigated land. In addition, the trend of changes in irrigated land area was assessed using a regression model, and a comprehensive assessment mechanism based on the integration of statistical and geoinformation analyses was proposed. The developed mechanism has practical significance for the scientifically grounded assessment of long-term changes in irrigated land, functional zoning of territories, and the development of prospective land-use planning schemes.

Keywords: irrigated land, land resources, agricultural land, correlation analysis, regression model, Pearson correlation, coefficient of determination, GIS, geodatabase, comprehensive assessment, functional zoning, land-use planning schemes, Khorezm Region.

Аннотация. В данной статье на основе статистического и корреляционно-регрессионного анализа оценена многолетняя динамика изменения площади орошаемых земель сельскохозяйственного назначения Хорезмской области за 2012–2025 годы. В ходе исследования проанализированы изменения площади орошаемых земель по годам и выявлены территориальные различия в разрезе районов. С помощью коэффициента корреляции Пирсона и коэффициента детерминации оценена степень взаимосвязи между временным фактором и площадью орошаемых земель. По результатам исследования установлено, что за период 2012–2025 годов площадь орошаемых земель сократилась на 4 108 гектаров, а между временным фактором и площадью орошаемых земель существует умеренная отрицательная корреляционная связь (r = –0,606). Кроме того, на основе регрессионной модели оценена тенденция изменения площади орошаемых земель и предложен механизм комплексной оценки, основанный на интеграции статистического и геоинформационного анализа. Разработанный механизм имеет практическое значение для научно обоснованной оценки многолетних изменений орошаемых земель, функционального зонирования территорий и разработки перспективных схем землеустройства.

Ключевые слова: орошаемые земли, земельные ресурсы, земли сельскохозяйственного назначения, корреляционный анализ, регрессионная модель, корреляция Пирсона, коэффициент

детерминации, ГИС, база геоданных, комплексная оценка, функциональное зонирование, схемы землеустройства, Хорезмская область.

Kirish. Yer resurslari mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, oziq-ovqat xavfsizligi hamda ekologik barqarorligini ta’minlovchi eng muhim tabiiy boyliklardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan sug‘oriladigan yerlar agrar ishlab chiqarishning asosiy ishlab chiqarish vositasi bo‘lib, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Dunyo miqyosida aholi sonining ortishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, sanoat va transport infratuzilmasining kengayishi natijasida sug‘oriladigan yer maydonlariga bo‘lgan ehtiyoj tobora kuchayib bormoqda. Shu sababli sug‘oriladigan yerlarning miqdoriy va sifat holatini muntazam monitoring qilish, ularning uzoq yillik o‘zgarish dinamikasini baholash hamda ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda ham yer resurslaridan oqilona foydalanish, sug‘oriladigan yerlarni muhofaza qilish hamda ularning asossiz ravishda qisqarishining oldini olish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, yangi aholi punktlari va sanoat hududlarini barpo etish, transport hamda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish natijasida ayrim sug‘oriladigan yer maydonlari boshqa yer fondi toifalariga o‘tkazilmoqda. Mazkur jarayonlar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning tarkibi va maydonida muayyan o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois sug‘oriladigan yerlarning uzoq yillik dinamikasini statistik usullar asosida tahlil qilish, ularning o‘zgarish tendensiyalarini aniqlash hamda istiqboldagi holatini prognozlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda sug‘oriladigan yerlarning o‘zgarishini baholash bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, ularning aksariyatida faqat statistik ko‘rsatkichlar yoki geoinformatsion tahlillar bilan cheklanilgan. Statistik tahlil, korrelyatsion-regression usullar hamda geoinformatsion texnologiyalarni yagona ilmiy yondashuv asosida integratsiyalash orqali sug‘oriladigan yerlar maydonining uzoq yillik o‘zgarishlarini kompleks baholash masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur tadqiqotda Xorazm viloyatining 2012–2025-yillardagi sug‘oriladigan yerlar maydoni bo‘yicha statistik ma’lumotlar asosida uzoq yillik o‘zgarish dinamikasi tahlil qilindi. Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti va regressiya modeli yordamida vaqt omili bilan sug‘oriladigan yerlar maydoni o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi baholandi hamda o‘zgarish tendensiyalari aniqlandi. Shuningdek, statistik tahlil natijalari geoinformatsion ma’lumotlar bilan uyg‘unlashtirilib, sug‘oriladigan yerlar maydonining o‘zgarishini kompleks baholash hamda istiqbolga mo‘ljallangan yer tuzish yechimlarini ishlab chiqishga xizmat qiluvchi ilmiy-uslubiy mexanizm taklif etildi. Mazkur tadqiqot natijalari sug‘oriladigan yer resurslarining uzoq yillik o‘zgarishlarini ilmiy asosda baholash, yer fondini boshqarish samaradorligini oshirish, hududlarni funksional zonalash hamda istiqbolga mo‘ljallangan yer tuzish chizmalarini ishlab chiqishda uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot obyekti va uslublari. Tadqiqotda Xorazm viloyatining 2012–2025-yillarga oid qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan sug‘oriladigan yer maydonlari bo‘yicha statistik ma’lumotlari tahlil qilindi (1-jadval). Tadqiqotning asosiy maqsadi sug‘oriladigan yerlar maydonining uzoq yillik o‘zgarish dinamikasini baholash, vaqt omili bilan bog‘liqligini aniqlash hamda istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini statistik usullar asosida baholashdan iborat. Tahlillar natijasiga ko‘ra, 2012-yilda Xorazm viloyatida sug‘oriladigan yerlar maydoni 205 386 gektarni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda ushbu ko‘rsatkich 201 436 gektarga teng bo‘lgan. Natijada tahlil qilinayotgan davr mobaynida sug‘oriladigan yerlar maydoni 4 108 gektarga yoki 2,0 foizga qisqargani aniqlandi. Dinamik qatorlarni tahlil qilish natijasida 2014–2023-yillar davomida sug‘oriladigan yerlar maydoni nisbatan barqaror saqlanib kelgani, biroq 2024-yildan boshlab keskin kamayish kuzatilgani aniqlandi. Mazkur holat viloyatda yer fondi tarkibidagi o‘zgarishlar, sug‘oriladigan yerlarning boshqa yer fondi toifalariga o‘tkazilishi hamda yangi qurilish loyihalarini amalga oshirish bilan bog‘liq jarayonlar natijasi sifatida baholandi.

1-jadval

Xorazm viloyati qishloq xo‘laligiga mo‘ljallangan sug‘oriladigan yerlarning tumanlar kesimida 2012-2025-yillar davomida o‘zgarishlari tahlili (ga).

T/r	Hududlar nomi	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2025 y.	farqi
1	Bog‘ot	16269	16269	16275	16274	16274	16269	16261	16260	16260	16260	16260	16 260	15899	15899	-370
2	Gurlan	25206	25206	25331	25488	25483	25480	25478	25478	25478	25478	25478	25478	24753	24753	-453
3	Qo‘shko‘pir	23987	23987	24315	24195	24186	24174	24167	24336	24336	24336	24336	24336	23833	23853	-134
4	Urganch	22707	22707	22643	22972	22887	22655	22632	22608	22608	22608	22608	22579	22011	22 081	-626
5	Xazorasp	26366	26366	26353	26242	26241	26237	26228	26224	26224	26224	26224	26338	26392	26 524	158
6	Xonqa	22110	22110	22204	22204	22195	21870	21863	21859	21858	21861	21849	21839	21217	21237	-873
7	Xiva	13671	13671	13745	13717	13700	13616	13584	13579	13579	13579	13579	13579	13453	13434	-237
8	Shovot	22499	22499	22459	22508	22478	22487	22470	22467	22467	22467	22467	22467	22171	22288	-211
9	Yangiariq	13230	13230	13388	13388	13377	13373	13365	13362	13362	13362	13351	13351	12989	12992	-238
10	Yangibozor	19341	19341	19341	19328	19324	19324	19157	19156	19156	19156	19156	19156	18356	18375	-966
	Jami:	**205386**	**205386**	**206054**	**206316**	**206145**	**205485**	**205205**	**205329**	**205328**	**205331**	**205308**	**205383**	**201074**	**201436**	-4 108

Sug‘oriladigan yerlar maydonining eng katta qisqarishi: Yangibozor (-966 ga), Xonqa (-873 ga), Urganch (-626 ga), Gurlan (-453 ga) hamda Bog‘ot (-370 ga) hududlarida aniqlandi. O‘rtacha darajada kamayish esa Xiva (-237 ga), Yangiariq (-238 ga), Shovot (-211 ga), Qo‘shko‘pir (-134 ga) hudulariga to‘g‘ri keldi.

Xorazm viloyatining qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan sug‘oriladigan yer maydonlari bo‘yicha 2012–2025-yillar ma’lumotlari asosida korrelyatsion-regression tahlil amalga oshirildi.

Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti quyidagi formula yordamida hisoblandi:

$r=\Sigma(x_i-\bar{x})(y_i-\bar{y}) / \sqrt{\Sigma(x_i-\bar{x})^2\ \Sigma(y_i-\bar{y})^2}$ (1)

bu yerda:

- r –korrelyatsiya koeffitsiyenti
- x_i – vaqt (2012–2025-yillar);
- y_i – sug‘oriladigan yer maydoni (ga);
- $\bar{x}$ va $\bar{y}$ – mos ravishda o‘rtacha qiymatlar.
- n – kuzatilgan yillar soni

$\bar{x} = \Sigma x_i/n$ $\bar{y} = \Sigma y_i/n$ n=14 (2)

$\bar{x}$=(1+2+3+4+5+6+7+8+9+10+11+12+13+14)/14=7.5

$\bar{y}$=(205386+205386+206054+206316+206145+205485+205205+205329+205328+205331+205308+205383+201074+201436)/14= 205654,71 ga

2-jadval. Formula bo‘yicha x_i hamda y_i har bir yil uchun aniqlangan qiymati.

Yil	(x_i)	(y_i)	($x_i-\bar{x}$)	($y_i-\bar{y}$)	($x_i-\bar{x}$) ($y_i-\bar{y}$)
2012	1	205386	-6,5	-268,71	1746,62
2013	2	205386	-5,5	-268,71	1477,91
2014	3	206054	-4,5	399,29	-1796,80
2015	4	206316	-3,5	661,29	-2314,51
2016	5	206145	-2,5	490,29	-1225,73
2017	6	205485	-1,5	-169,71	254,56
2018	7	205205	-0,5	-449,71	224,86
2019	8	205329	0,5	-325,71	-162,86
2020	9	205328	1,5	-326,71	-490,07
2021	10	205331	2,5	-323,71	-809,29
2022	11	205308	3,5	-346,71	-1213,49
2023	12	205383	4,5	-271,71	-1222,70
2024	13	201074	5,5	-4580,71	-25193,91
2025	14	201436	6,5	-4218,71	-27421,62

Endi oxirgi ustundagi barcha qiymatlarni qo‘shamiz:

1746,62+1477,91−1796,80−2314,51−1225,73+254,56+224,86−162,86−490,07−809,29−1213,49−1222,70−25193,91−27421,62

$\Sigma(x_i-\bar{x})\ (y_i-\bar{y})$= −58146,03

3-jadval. Formula bo‘yicha $(x_i- \bar{x})$ hamda $(y_i- \bar{y})$ har bir yil uchun aniqlangan qiymati. Yil $(x_i- \bar{x})$ $(x_i- \bar{x})^2$ $(y_i- \bar{y})$ $(y_i- \bar{y})^2$

Yil	$(x_i- \bar{x})$	$(x_i- \bar{x})^2$	$(y_i- \bar{y})$	$(y_i- \bar{y})^2$
2012	-6,5	42,25	-268,71	72 205,06
2013	-5,5	30,25	-268,71	72 205,06
2014	-4,5	20,25	399,29	159 432,50
2015	-3,5	12,25	661,29	437 304,46
2016	-2,5	6,25	490,29	240 384,28
2017	-1,5	2,25	-169,71	28 801,48
2018	-0,5	0,25	-449,71	202 239,08
2019	0,5	0,25	-325,71	106 087,00
2020	1,5	2,25	-326,71	106 739,42
2021	2,5	6,25	-323,71	104 788,16
2022	3,5	12,25	-346,71	120 208,82
2023	4,5	20,25	-271,71	73 825,96
2024	5,5	30,25	-4580,71	20 982 904,10
2025	6,5	42,25	-4218,71	17 797 515,98

$\Sigma(x_i- \bar{x})^2$ = 42,25+30,25+⋯+42,25=227,50

$\Sigma(y_i- \bar{y})^2$=72 205,06+72 205,06+…+17 797 515,98=40504641,36

r = −58146,03/(√227,50*40504641,36)= −0,606

Korrelyatsiya koeffitsiyenti −0,606 ga tengligi aniqlandi endi Determinatsiya koeffitsiyenti aniqlan olamiz.

$R^2=r^2$ (3)

bu yerda:

R−Determinatsiya koeffitsiyenti

R^2=(−0,606)2=0,367

Hisob-kitoblar natijasida Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti r=−0,606 ga teng bo‘ldi. Bu vaqt omili bilan sug‘oriladigan yer maydoni o‘rtasida o‘rtacha-sezilarli darajadagi manfiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Ya’ni, vaqt o‘tishi bilan sug‘oriladigan yer maydonlarining kamayish tendensiyasi kuzatiladi. Determinatsiya koeffitsiyenti R^2=36,7% bo‘lib, sug‘oriladigan yer maydonlaridagi o‘zgarishlarning 36,7 foizi vaqt omili bilan, qolgan 63,3 foizi esa boshqa iqtisodiy, tashkiliy va tabiiy omillar bilan izohlanishini ko‘rsatadi.

Yuqorida keltirilgan jadval ma’lumotlari asosida amalga oshirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, viloyat hududida so‘nggi 14 yil davomida jami 4108 gektar sug‘oriladigan yer maydonlari qisqargan. Mazkur holat hududiy kesimda o‘rganilganda, sug‘oriladigan yerlarning kamayishi ayrim tumanlarda nisbatan yuqori ko‘rsatkichni tashkil etgani aniqlangan. Xususan, Bog‘ot tumanida sug‘oriladigan yer maydonlari 370 gektarga kamaygan bo‘lib, bu ko‘rsatkich mazkur hududda yer resurslaridan foydalanish jarayonini chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Tahlillar natijasiga ko‘ra, sug‘oriladigan yer maydonlarining qisqarishiga asosiy sabab sifatida ushbu yer uchastkalaridan qishloq xo‘jaligiga oid bo‘lmagan boshqa maqsadlarda foydalanish, shuningdek, ularning belgilangan tartibda boshqa yer fondi toifalariga o‘tkazilishi bilan bog‘liq jarayonlar qayd etildi. Natijada qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan, meliorativ va agrotexnik jihatdan shakllangan hamda barqaror hosildorlikni ta’minlab kelayotgan yer maydonlari tarkibiy jihatdan kamayib bormoqda. Jumladan, Bog‘ot tumani I. Do‘sov massivida joylashgan 334q, 335q, 336q, 339, 340, 341q, 342q, 343q, 344q va 345-konturlarda joylashgan jami 16 gektar sug‘oriladigan yer maydonlarining “Yangi O‘zbekiston” massivini tashkil etish uchun ajratilgani ushbu jarayonning amaliy misoli sifatida keltiriladi (1-rasm). Mazkur yer uchastkalarining ball bonitet ko‘rsatkichi 37 balldan 68


ballgacha baholangan bo‘lib, bu ularning o‘rtacha va yuqori unumdorlikka ega ekanini anglatadi. Ushbu maydonlardan bugungi kunga qadar qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtirishda samarali foydalanib kelingan.

1-rasm. Bog‘ot tumani sug‘oriladigan yerlarning kamayishi sabablaridan biri keltirilgan.

Shu nuqtai nazardan, yuqori hosildorlikka ega bo‘lgan sug‘oriladigan yer maydonlarini aholi punktlari yerlariga yoki boshqa toifadagi yerlarga o‘tkazishda har tomonlama asoslantirilgan, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan puxta tahlil qilingan qarorlar qabul qilinishi lozim. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini barqaror saqlab qolish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash hamda yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanish maqsadida bunday yer maydonlarini imkon qadar saqlab qolish va ularning maqsadli foydalanish yo‘nalishini o‘zgartirmaslik maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, Bog‘ot tumanining boshqa hududlarida ham sug‘oriladigan yer maydonlaridan foydalanish holatini tanqidiy qayta ko‘rib chiqish, yer ajratish jarayonlarida shaffoflik va asoslanganlik tamoyillarini kuchaytirish, yer toifalarini o‘zgartirish masalalarida qishloq xo‘jaligi manfaatlarini ustuvor etib belgilash zarur. Shuningdek Gurlan tumanida 453 gektar sug‘oriladigan yer maydoni kamaygan. Yuqorida aytganimizdek sug‘oriladigan yerlarning kamayishiga asosiy sabablardan biri bo‘lgan yer toifasini o‘zgartirish yani sug‘oriladigan yerlardan boshqa maqsadlarda foydalanish, bu tumanning Chinobod massivida ham shu holatni ko‘rishimiz mumkin. Bunda Chinobod massiving 156q-158-konturlarida joylashgan ball baniteti 40.9 bo‘lgan 8.7 gektar sug‘oriladigan yer maydoni “Paxtani saqlash va qayta ishlash punkti” tashkil qilish uchun toifasi o‘zgartirilgan.

Tahlillar natijalariga ko‘ra, Qo‘shko‘pir tumanida 134 gektar, Xiva tumanida 237 gektar, Yangiariq tumanida 238 gektar hamda Shovot tumanida 211 gektar sug‘oriladigan yer maydonlari qisqargani aniqlangan. Mazkur qisqarish holatlari asosan sug‘oriladigan yer maydonlarining aholi punktlari yerlariga, sanoat zonalariga hamda “Yangi O‘zbekiston” massivlarini barpo etish maqsadlariga ajratilishi bilan izohlanadi. Hududlar kesimidagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim hollarda yuqori agroiqtisodiy salohiyatga ega bo‘lgan yer maydonlari ham boshqa toifalarga o‘tkazilgan. Bunday yerlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda muhim resurs hisoblanadi hamda ularning saqlab qolinish darajasi hududning agrar salohiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Sug‘oriladigan, yuqori bonitet ko‘rsatkichiga ega yer maydonlarining boshqa maqsadlarda foydalanishga o‘tkazilishi yer resurslaridan oqilona foydalanish tamoyillariga to‘liq mos kelmaydi. Chunki sug‘oriladigan yerlar cheklangan va qayta tiklanishi murakkab bo‘lgan tabiiy resurs hisoblanadi. Ularning tarkibiy qisqarishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish hajmining kamayishiga, ekin maydonlari balansining o‘zgarishiga hamda uzoq muddatli istiqbolda hududning oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, yer toifalarini o‘zgartirish bilan bog‘liq qarorlar qabul qilinayotganda, avvalo, yerning bonitet ko‘rsatkichi, meliorativ holati, mavjud infratuzilma bilan ta’minlanganlik darajasi hamda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidagi ahamiyati chuqur ilmiy-iqtisodiy tahlil asosida baholanishi zarur. Ayniqsa, yuqori unumdor sug‘oriladigan yer maydonlarini muqobil, past bonitetli yoki qishloq xo‘jaligi aylanmasiga kam jalb etilgan yerlar hisobiga qoplash mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.Yer resurslaridan barqaror va samarali foydalanish

Xorazm viloyati Bog‘ot tumani I.Do‘sov massividan “YANGI O‘ZBEKISTON” massivi tashkil etish uchun tanlangan 16,0 gektar yer maydonlarining qishloq xo‘jaligi hamda “Google Earth” xaritasidan ko‘chirma



T/r	Xudud nomi	Yerdan foydalanuvchi nomi	Kontur raqami	Jami yer maydoni	Shundan		Ball baniteti
					Sug‘oriladigan yerlar, ga	Boshqa yerlar, ga	
1	I.Do‘sov	Bog‘ot Agra Pilla MCHJ	334q,335q,336q,339,340,341q,342q,343q,344q,345q	16,0	16,0		58/67
Xudud bo‘yicha jami			10	16,0	16,0		38/67


tamoyillarini yanada takomillashtirish, sug‘oriladigan yerlarning asossiz ravishda qisqarishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda hududning agrar salohiyatini saqlab qolish bugungi kunda yer resurslarini boshqarishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini ta’minlash, yerlarning unumdorligini saqlash, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oziq-ovqat tanqisligining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2-rasm. Shovot tumani sug‘oriladigan yerlarning kamayishi sabablaridan biri keltirilgan.

Sug‘oriladigan, yuqori unumdor yer maydonlaridan boshqa maqsadlarda foydalanish holatlari so‘nggi yillarda tizimli tus olayotgani kuzatilmoqda. O‘tkazilgan tahlillar natijasiga ko‘ra, 2012–2025-yillar oralig‘ida sug‘oriladigan yerlarning umumiy maydoni 205 386 gektardan 201 436 gektargacha qisqargan, ya’ni 4 108 gektar sug‘oriladigan yer maydonlari qishloq xo‘jaligi aylanmasidan chiqarilgan. Mazkur qisqarish asosan ushbu yerlarning boshqa maqsadlarga ajratilgani bilan izohlanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sug‘oriladigan yerlarning kamayishiga asosiy omil sifatida unumdor qishloq xo‘jaligi yerlarining aholi punktlari, sanoat zonalari hamda “Yangi O‘zbekiston” massivlarini barpo etish uchun ajratilishi xizmat qilgan. Natijada yuqori ball bonitet ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan yer maydonlarida dehqonchilik faoliyati cheklanib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish hajmiga salbiy ta’sir ko‘rsatish xavfi yuzaga kelmoqda. Sug‘oriladigan yerlar cheklangan va strategik ahamiyatga ega resurs bo‘lib, ularning qisqarishi uzoq muddatli istiqbolda oziq-ovqat xavfsizligi barqarorligiga bevosita ta’sir etadi.

Mazkur salbiy tendensiyalarning oldini olish maqsadida sug‘oriladigan yerlar maydonining o‘zgarishini kompleks baholash va istiqbolga mo‘ljallangan yer tuzish yechimlarini ishlab chiqish mexanizmi ishlab chiqildi 3-rasmga qarang:

3-rasm. Sug‘oriladigan yerlar maydonining o‘zgarishini kompleks baholash va istiqbolga mo‘ljallangan yer tuzish yechimlarini ishlab chiqish mexanizmi.



Mexanizmning birinchi bosqichida tadqiqot uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ich ma’lumotlar yig‘iladi. Bunda 2012–2025-yillarga oid sug‘oriladigan yerlar maydoni bo‘yicha statistik ma'lumotlar, yer fondi materiallari, kartografik ma'lumotlar hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar tizimlashtiriladi. Ikkinchi bosqichda yig‘ilgan ma'lumotlar asosida geoma'lumotlar bazasi shakllantiriladi. Bunda barcha statistik va kartografik ma'lumotlar yagona GIS muhitiga kiritilib, ularning fazoviy va atribut ma'lumotlari o‘zaro bog‘lanadi. Natijada keyingi tahlillarni amalga oshirish imkonini beruvchi raqamli geoma'lumotlar bazasi yaratiladi. Uchinchi bosqichda sug‘oriladigan yerlarning 2012–2025-yillardagi uzoq yillik dinamikasi tahlil qilinadi. Ushbu bosqichda dinamik qatorlar asosida o‘zgarish miqdori, o‘sish va kamayish sur'atlari aniqlanib, tumanlar kesimida hududiy farqlar baholanadi. To‘rtinchi bosqichda sug‘oriladigan yerlar maydonining o‘zgarishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi va tizimlashtiriladi. Bunda mavjud statistik va fazoviy ma'lumotlar asosida o‘zgarishlarga sabab bo‘luvchi asosiy omillar guruhlanib, ularning keyingi statistik baholash uchun axborot bazasi shakllantiriladi. Beshinchi bosqichda sug‘oriladigan yerlar maydonining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi korrelyatsion tahlil yordamida baholanadi. Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti hisoblanib, o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi hamda uning statistik ahamiyati aniqlanadi. Oltinchi bosqichda regressiya modeli quriladi. Regressiya tenglamasi, determinatsiya koeffitsiyenti (R^2) hamda trend modeli yordamida sug‘oriladigan yerlar maydonining o‘zgarish qonuniyatlari aniqlanib, istiqboldagi rivojlanish tendensiyasi baholanadi. Yettinchi bosqichda statistik va geoinformatsion tahlil natijalari o‘zaro integratsiyalash orqali kompleks baholash amalga oshiriladi. Bunda hududlarning nisbiy holati baholanib, ularni ustuvorlik darajasiga ko‘ra guruhlash imkoniyati yaratiladi. Sakkizinchi bosqichda kompleks baholash natijalariga asoslanib hududlarni funksional zonalash amalga oshiriladi. Hududlarning yer resurslaridan foydalanish darajasi, rivojlanish salohiyati va mavjud holati hisobga olinib, funksional zonalar ajratiladi. To‘qqizinchi bosqichda funksional zonalash natijalari asosida istiqbolga mo‘ljallangan yer tuzish yechimlari ishlab chiqiladi. Ushbu bosqichda yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer fondini optimallashtirish hamda hududlarni barqaror rivojlantirishga qaratilgan yer tuzish chizmalari shakllantiriladi.

Natijada taklif etilgan mexanizm statistik tahlil, korrelyatsion-regression baholash va geoinformatsion texnologiyalarni yagona tizimga birlashtirish orqali sug‘oriladigan yerlar maydonining uzoq yillik o‘zgarishlarini ilmiy asosda baholash, hududlarni funksional zonalash hamda istiqbolga mo‘ljallangan yer tuzish yechimlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida Xorazm viloyatida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan sug‘oriladigan yerlar maydonining 2012–2025-yillardagi uzoq yillik o‘zgarish dinamikasi statistik hamda korrelyatsion-regression tahlil usullari asosida kompleks baholandi. Tahlillar natijasida sug‘oriladigan yerlar maydoni 205 386 gektardan 201 436 gektarga kamayib, jami 4 108 gektarga qisqargani aniqlandi. Hududlar kesimida o‘zgarishlarning bir xil emasligi, eng katta qisqarish Yangibozor, Xonqa va Urganch tumanlarida kuzatilgani, Xazorasp tumanida esa ijobiy dinamika qayd etilgani aniqlandi. Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti ($r = –0,606$) hamda determinatsiya koeffitsiyenti ($R^2 = 0,367$) sug‘oriladigan yerlar maydonining vaqt omili bilan o‘rtacha darajadagi manfiy bog‘liqligini hamda o‘zgarishlarga boshqa tashkiliy va hududiy omillar ham sezilarli ta'sir ko‘rsatishini isbotladi. Shuningdek, statistik tahlil natijalarini geoinformatsion ma'lumotlar bilan integratsiyalash asosida sug‘oriladigan yerlar maydonining o‘zgarishini kompleks baholash va istiqbolga mo‘ljallangan yer tuzish yechimlarini ishlab chiqishning ilmiy-uslubiy mexanizmi taklif etildi. Mazkur mexanizm sug‘oriladigan yerlarning uzoq yillik o‘zgarish tendensiyalarini aniqlash, hududlarni funksional zonalash hamda yer resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari istiqbolga mo‘ljallangan yer tuzish chizmalarini ishlab chiqishda, yer fondini boshqarish samaradorligini oshirishda hamda sug‘oriladigan yerlarni muhofaza qilishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni belgilashda uslubiy asos sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi (01.07.1998-y.).
2. O‘zbekiston Respublikasi yer resurslarining holati to‘g‘risida Milliy hisobot. – Toshkent: Kadastr agentligi, (2012-2025).
3. O‘zbekiston Respublikasi yer fondi (1-yanvar holatiga). – Toshkent: Kadastr agentligi, (2012-2025).
4. Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 4 martdagi “Qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi tumanlarning 2025 — 2030-yillarga mo‘ljallangan yer tuzish chizmalarini ishlab chiqish to‘g‘risida”gi 111 sonli Qarori.

5. Turayev R.A., Davronov O.O‘., Babajanov A.R., Inamov A.N., Xojiyev K.M., Xayitova K.M., Alimaxamatova Sh.O. “Tuman yer tuzish chizmasi” Uslubiy-qo‘llanma. – Toshkent: “Publishing high future” OK nashriyoti, 2024 y. 24 b.
6. Turayev R.A. Yer monitoringi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Lesson Press” MChJ, 2022-yil. - B 161.
7. Avezbayev S., Volkov S.N. “Yer tuzishni loyihalash” darslik. Toshkent. “Yangi asr avlodi” -2004, B. 780.
8. Avezbayev S., Volkov S.N., Sharipov S.R. “Yer tuzishni loyihalash” o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2022-yil. B-230.
9. Inamov B.N. “Ekin yer maydonlaridan unumli foydalanishda yer tuzish loyihalarini ishlab chiqish”. Dissertatsiya avtoreferati. Toshkent-2022-yil. B-45
10. https://lex.uz/docs/-6377150

O‘RMON FONDI YERLARINING MAVJUD HISOB YURITISH TIZIMIDAGI MUAMMOLAR VA NOMUTANOSIBLIKLAR

Abdirimov Rustambay Raximberganovich
“O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti mustaqil tadqiqotchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21912573

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘rmon fondi yerlarining mavjud hisob yuritish tizimi tahlil qilinib, unda uchrayotgan asosiy muammolar va nomutanosibliklar ilmiy jihatdan baholangan. Xususan, davlat yer kadastri, davlat o‘rmon kadastri, inventarizatsiya materiallari, dala kuzatuvlari hamda masofadan zondlash ma’lumotlari o‘rtasidagi tafovutlar aniqlanib, ularning o‘rmon fondi yerlarining miqdoriy hisobini yuritishga ta'siri yoritilgan. Xorazm davlat o‘rmon xo‘jaligi misolida o‘tkazilgan xatlov natijalari asosida yer turlarining tarkibi, yerlardan foydalanish holati hamda mavjud qonun buzilishlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kadastr ma’lumotlarini muntazam yangilash, geodezik koordinatalar asosida chegaralarni aniqlashtirish, masofadan zondlash texnologiyalarini keng joriy etish va barcha ma’lumotlarni yagona GIS platformasida integratsiyalash o‘rmon fondi yerlari hisobini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘rmon fondi yerlari, davlat yer kadastri, davlat o‘rmon kadastri, yer hisobi, inventarizatsiya, GIS, masofadan zondlash, monitoring, elektron kartografik baza, geofazoviy ma’lumotlar, nomutanosiblik.

Abstract. This article analyzes the existing land accounting system for forest fund lands and provides a scientific assessment of its key problems and inconsistencies. In particular, discrepancies between the State Land Cadastre, the State Forest Cadastre, inventory materials, field observations, and remote sensing data are identified, and their impact on the quantitative accounting of forest fund lands is examined. Based on the results of an inventory conducted in the Khorezm State Forestry, the composition of land categories, the current state of land use, and existing legal violations are analyzed. The research findings demonstrate that regular updating of cadastral data, clarification of land boundaries based on geodetic coordinates, extensive application of remote sensing technologies, and integration of all data into a unified GIS platform are the main directions for improving the accounting system of forest fund lands.

Keywords: forest fund lands, State Land Cadastre, State Forest Cadastre, land accounting, inventory, GIS, remote sensing, monitoring, electronic cartographic database, geospatial data, discrepancies.

Аннотация. В данной статье проанализирована существующая система учета земель лесного фонда и дана научная оценка основным проблемам и несоответствиям, возникающим при его ведении. В частности, выявлены расхождения между данными Государственного земельного кадастра, Государственного лесного кадастра, материалами инвентаризации, полевыми наблюдениями и данными дистанционного зондирования, а также рассмотрено их влияние на ведение количественного учета земель лесного фонда. На основе результатов инвентаризации, проведенной на примере Хорезмского государственного лесного хозяйства, проанализированы состав категорий земель, состояние их использования и имеющиеся нарушения законодательства. По результатам исследования обосновано, что регулярное обновление кадастровых данных, уточнение границ на основе геодезических координат, широкое внедрение технологий дистанционного зондирования и интеграция всех данных в единую ГИС-платформу являются основными направлениями совершенствования системы учета земель лесного фонда.

Ключевые слова: земли лесного фонда, Государственный земельный кадастр, Государственный лесной кадастр, учет земель, инвентаризация, ГИС, дистанционное зондирование, мониторинг, электронная картографическая база, геопространственные данные, несоответствия.

Kirish. O‘rmon fondi yerlari mamlakatning ekologik barqarorligini ta’minlash, biologik xilma-xillikni saqlash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu yerlarning miqdoriy va sifat holati to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘lish ularni samarali boshqarish, muhofaza qilish va ulardan foydalanishni rejalashtirishning asosiy shartlaridan biridir [2]. Shu sababli o‘rmon fondi yerlarini hisobga olish tizimini takomillashtirish davlat yer siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda respublikada yer hisobi va davlat kadastrini raqamlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, o‘rmon fondi yerlarini hisobga olish tizimida qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, kadastr ma’lumotlarining

eskirganligi, o‘rmon fondi yerlarining chegaralari yetarli darajada aniqlashtirilmaganligi, inventarizatsiya natijalarining o‘z vaqtida yangilanmasligi hamda davlat yer kadastri, davlat o‘rmon kadastri va masofadan zondlash ma’lumotlari o‘rtasida integratsiyaning yetarli emasligi hisob yuritish sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada kadastr ma’lumotlari bilan yerlarning haqiqiy holati o‘rtasida sezilarli tafovutlar yuzaga kelmoqda.

Tadqiqot obyekti va uslublari. O‘rmon fondi yerlarini hisobga olish tizimi davlat yer resurslarini boshqarishning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, o‘rmon resurslarining miqdoriy va sifat holatini ishonchli baholash, ulardan oqilona foydalanish hamda muhofaza qilish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai vazifasini bajaradi. Mavjud hisob yuritish tizimi davlat yer kadastri, davlat o‘rmon kadastri, o‘rmon inventarizatsiyasi, yer tuzish hujjatlari, kartografik materiallar, dala kuzatuvlari, masofadan zondlash ma’lumotlari va elektron kartografik bazalarga tayanadi. Mazkur ma’lumot manbalari o‘zaro bog‘liq bo‘lishiga qaramay, ularning alohida yuritilishi hamda yagona geofazoviy platformada to‘liq integratsiyalashmaganligi hisob yuritishda qator muammolarni yuzaga keltirmoqda 1-jadval.

1-jadval. O‘rmon fondi yerlarining mavjud hisob yuritish tizimidagi asosiy muammolar

T/r	Muammo turi	Mazmuni	Hisob yuritishga ta’siri
1	Kadastr ma’lumotlarining eskirishi	Ayrim yer uchastkalari bo‘yicha ma’lumotlar o‘z vaqtida yangilanmagan bo‘lishi mumkin	O‘rmon fondi yerlarining real maydoni va kadastrdagi maydoni o‘rtasida tafovut yuzaga keladi
2	Chegaralarning aniqlashtirilmaganligi	O‘rmon fondi yerlarining ayrim konturlari aniq geodezik koordinatalar asosida belgilanmagan	Yer toifalari o‘rtasida ustma-ust tushish yoki noto‘g‘ri ajratish holatlari paydo bo‘ladi
3	O‘rmon bilan qoplangan va qoplanmagan maydonlarning aralash hisobga olinishi	Daraxtzorlar mavjud bo‘lgan maydonlar bilan o‘rmon xo‘jaligi ehtiyoji uchun ajratilgan, biroq daraxtzor bilan qoplanmagan yerlar aniq ajratilmaydi	O‘rmon resurslarining real holatini baholash qiyinlashadi
4	Inventarizatsiya ma’lumotlarining yetarli darajada yangilanmasligi	O‘rmon taksatsiyasi, dala kuzatuvlari va inventarizatsiya ishlari muntazam olib borilmasa	Daraxt turlari, yosh tarkibi, zichligi va tabiiy tiklanish holati bo‘yicha aniqlik pasayadi
5	Raqamli ma’lumotlar bazasining to‘liq shakllanmaganligi	Ayrim ma’lumotlar qog‘oz shaklida yoki alohida tashkilotlar bazasida saqlanishi mumkin	Tezkor tahlil, solishtirish va monitoring qilish imkoniyatlari cheklanadi
6	Masofadan zondlash ma’lumotlaridan yetarlicha foydalanilmasligi	Sun’iy yo‘ldosh va dron tasvirlari tizimli ravishda hisobga olinmaydi	O‘rmon fondi yerlaridagi o‘zgarishlarni tezkor aniqlash qiyinlashadi
7	Tashkilotlararo axborot almashinuvi sustligi	Yer kadastri, o‘rmon xo‘jaligi va ekologik monitoring ma’lumotlari yagona tizimda uyg‘unlashmagan	Qaror qabul qilishda turli manbalardagi ma’lumotlar o‘rtasida farqlar yuzaga keladi

Izoh: Muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, o‘rmon fondi yerlarining hisobini yuritishda asosiy muammolar ma’lumotlarning eskirishi, chegaralarning aniq belgilanmaganligi, inventarizatsiya va monitoring ishlarining yetarli darajada integratsiyalashmagani bilan bog‘liq. Bu esa o‘rmon fondi yerlarining miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini aniq baholashga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot obyekti sifatida Xorazm davlat o‘rmon xo‘jaligi hududlari tanlandi. Hududda 2025-yilda amalga oshirilgan xatlov ishlari o‘rmon fondi yerlarining amaldagi holatini aniqlash, elektron raqamli xaritalarni yangilash hamda yer turlarini konturlar kesimida baholash imkonini berdi. Xatlov natijalariga ko‘ra, Xorazm davlat o‘rmon xo‘jaligining umumiy yer maydoni 68 808,31 gektarni tashkil etib, 675 ta kontur bo‘yicha hisob yuritilgan. Yer turlarining tarkibida o‘rmonzorlar 53 263,50 gektar, yaylovlar 10 689,57 gektar, haydaladigan yerlar 1 095,70 gektar, suv osti yerlari 908,02 gektar, bo‘z yerlar 158,97

gektar, ko‘p yillik daraxtzorlar 1,66 gektar va boshqa yerlar tegishli ulushni egallagan 2-jadval. Ushbu ma’lumotlar hududda o‘rmonzorlar asosiy yer turini tashkil etishini hamda yer fondining katta qismi bevosita o‘rmon xo‘jaligi faoliyatiga xizmat qilishini ko‘rsatadi.


2-jadval. Xorazm davlat o‘rmon xo‘jaligi bo‘yicha xatlov natijalarining umumiy ko‘rsatkichlari

T/r	Ko‘rsatkich nomi	Miqdori, ga	Izoh
1	Umumiy yer maydoni	68 808,31	Xorazm davlat o‘rmon xo‘jaligi bo‘yicha jami maydon
2	Konturlar soni	675 ta	Hududlar kesimida hisoblangan konturlar
3	O‘rmonzorlar	53 263,50	Umumiy maydonning asosiy qismini tashkil etadi
4	Haydaladigan yerlar	1 095,70	Qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan maydonlar
5	Ko‘p yillik daraxtzorlar	1,66	Bog‘zor va boshqa ko‘p yillik ekinlar
6	Bo‘z yerlar	158,97	Foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lgan yerlar
7	Yaylovlar	10 689,57	Chorvachilik va tabiiy yem-xashak resurslari uchun muhim
8	Suv osti yerlari	908,02	Suv obyektlari bilan band yerlar
9	Yo‘llar va mol haydab o‘tish joylari	341,59	Infratuzilma yer maydonlari
10	Ko‘chalar, qurilishlar, saroy va maydonlar	156,00	Qurilish va xo‘jalik obyektlari joylashgan yerlar
11	O‘rmon xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar	2 193,32	Zaxira yoki boshqa maqsadlarda turgan maydonlar

O‘rmon fondi yerlari hisobini yuritishda uchraydigan asosiy muammolar — kadastr ma’lumotlarining eskirishi, chegaralarning aniqlashtirilmaganligi, inventarizatsiya ma’lumotlari yetishmasligi, monitoring sustligi va raqamli ma’lumotlar bazasining to‘liq shakllanmaganligi bloklar ko‘rinishida aks ettiriladi (1-rasmga qarang).

1-rasm. O‘rmon fondi yerlarining mavjud hisob yuritish tizimidagi muammolar sxemasi

O‘rmon fondi yerlari hisobini yuritishda uchraydigan asosiy muammolar — kadastr ma’lumotlarining eskirishi, chegaralarning aniqlashtirilmaganligi, inventarizatsiya ma’lumotlarining



yetarli darajada yangilanmasligi, monitoring ishlarining sustligi hamda raqamli ma’lumotlar bazasining to‘liq shakllanmaganligi bilan bog‘liq. Ushbu muammolar o‘rmon fondi yerlarining miqdoriy va sifat holatini ishonchli baholashni murakkablashtirib, boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini pasaytiradi. Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish uchun monitoring tizimini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda o‘rmon fondi yerlarining ekologik va xo‘jalik holatini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlarni muntazam kuzatib borish zarur. Jumladan, o‘rmon bilan qoplangan maydonlar, to‘qayzorlar, saksovulzorlar, ihota daraxtzorlari, tuproq sho‘rlanishi, yerlarning degradatsiyasi, yong‘inlar hamda noqonuniy daraxt kesish holatlari monitoring qilinishi lozim bo‘lgan asosiy ko‘rsatkichlar hisoblanadi 2-rasmga qarang. Ushbu ko‘rsatkichlar o‘rmon fondi yerlarining amaldagi holatini baholash, ulardagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash va zarur boshqaruv choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.


2-rasm. Xorazm viloyati o‘rmon fondi yerlarida monitoring ko‘rsatkichlari sxemasi.

Mavjud hisob yuritish tizimidagi muammolarni bartaraf etishda zamonaviy geofazoviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. GIS, masofadan zondlash, dron tasvirlari, elektron kadastr xaritalari va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari o‘rmon fondi yerlarining maydoni, chegarasi, tarkibi va ekologik holatini aniq baholash imkonini beradi. Ayniqsa, Xorazm viloyati sharoitida Amudaryo bo‘yidagi to‘qayzorlar, cho‘l hududlaridagi saksovulzorlar va qishloq xo‘jaligi maydonlari atrofidagi ihota daraxtzorlarini raqamli xaritalarda alohida qatlamlar sifatida yuritish zarur 3-jadval.

3-jadval. Mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha taklif etiladigan ilmiy-amaliy yechimlar.

T/r	Muammo	Taklif etiladigan yechim	Kutiladigan natija
1	Kadastr ma’lumotlarining eskirishi	Ma’lumotlarni yillik monitoring asosida yangilash	Hisob ma’lumotlarining dolzarbligi oshadi
2	Chegaralarning noaniqligi	GNSS va GIS asosida chegaralarni aniqlashtirish	O‘rmon fondi yerlarining aniq konturlari shakllanadi
3	O‘rmon bilan qoplangan maydonlar noto‘g‘ri baholanishi	Sun’iy yo‘ldosh va dron tasvirlari asosida tasniflash	Real o‘rmon qoplami aniqlanadi
4	Ma’lumotlarning tarqoqligi	Yagona elektron geofazoviy baza yaratish	Tashkilotlararo axborot almashinuvi yaxshilanadi
5	Monitoring tizimining sustligi	Masofadan monitoring va mobil nazorat tizimlarini joriy etish	Noqonuniy kesish, yong‘in va degradatsiya tez aniqlanadi
6	Sho‘rlanish va degradatsiya ma’lumotlari yetishmasligi	Tuproq va ekologik monitoring qatlamlarini shakllantirish	Rekultivatsiya ishlari ilmiy asosda rejalashtiriladi
7	Boshqaruv qarorlarining yetarlicha asoslanmasligi	Tahliliy xaritalar, dinamik grafiklar va indikatorlar tizimini joriy etish	Qaror qabul qilish samaradorligi oshadi

O‘rmon fondi yerlarining miqdoriy hisobini yuritishda an’anaviy kadastr va inventarizatsiya ma’lumotlarini zamonaviy geofazoviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirishga asoslanadi. Mazkur yondashuv orqali o‘rmon fondi yerlarining mavjud holatini aniqlash, kadastr ma’lumotlarini real holat bilan solishtirish, nomutanosibliklarni bartaraf etish va monitoring jarayonlarini tizimli tashkil etish imkoniyati yaratiladi (3-rasmga qarang).



3-rasm. O‘rmon fondi yerlarining hisobini takomillashtirish bo‘yicha taklif etiladigan model.

Kadastr ma’lumotlari → inventarizatsiya → dala kuzatuvlari → masofadan zondlash → GIS tahlili → elektron kartografik baza → monitoring indikatorlari → boshqaruv qarorlari.

Xorazm davlat o‘rmon xo‘jaligi bo‘yicha o‘tkazilgan xatlov natijalari o‘rmon fondi yerlarining miqdoriy hisobini yuritishda raqamli texnologiyalar, konturli hisob, deshifrovka va elektron xaritalash usullarining ahamiyatini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarni shakllantirish mumkin:

Xorazm davlat o‘rmon xo‘jaligi yerlarining umumiy maydoni 68 808,31 gektarni tashkil etib, uning asosiy qismi o‘rmonzorlar hissasiga to‘g‘ri keladi. O‘rmonzorlar 53 263,50 gektarni yoki jami maydonning 77,41 foizini tashkil etishi hududda o‘rmon fondi yerlarining ekologik muhofaza va tabiiy resurs sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Yaylovlar maydoni 10 689,57 gektar bo‘lib, bu o‘rmon xo‘jaligi hududlarida chorvachilik bilan bog‘liq yer resurslaridan foydalanish mavjudligini bildiradi. Tuproqqal’a tumani o‘rmon fondi yerlarining eng katta qismiga ega bo‘lib, viloyat bo‘yicha jami maydonning 80,12 foizi ushbu hududga to‘g‘ri keladi. O‘rmon xo‘jaligi hududidagi o‘zga yerdan foydalanuvchilar maydoni 1 114,81 gektarni tashkil etib, bu yerlarning huquqiy maqomini aniqlashtirish va kadastr ma’lumotlari bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Xatlov jarayonida 9,81 gektar maydonda yerdan foydalanish borasida qonun buzilishi holatlari aniqlangan bo‘lib, bu o‘rmon fondi yerlarida doimiy monitoring mexanizmini kuchaytirishni talab etadi. Elektron raqamli o‘rmon xo‘jaligi xaritalarini yangilash o‘rmon fondi yerlarining miqdoriy hisobini yuritishda aniqlik, tezkorlik va shaffoflikni oshiradi. Olingan natijalar Xorazm viloyati misolida o‘rmon fondi yerlarining miqdoriy hisobini yuritish uslubini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-metodik asos sifatida foydalanilishi mumkin.

Xulosa. Xorazm viloyati yer fondi tarkibida o‘rmon fondi yerlari muhim o‘rin egallaydi. Viloyat umumiy yer maydoni 608 158 gektarni tashkil etgan holda, o‘rmon fondi yerlari 88 755 gektar yoki umumiy maydonning 14,59 foiziga teng. Bu ko‘rsatkich o‘rmon fondi yerlarining ekologik barqarorlikni ta’minlash, cho‘llanish, shamol eroziyasi va tuproq degradatsiyasining oldini olishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Xorazm viloyatida o‘rmon fondi yerlari asosan to‘qayzorlar, saksovulzorlar, ihota daraxtzorlari, ko‘chatxonalar, o‘rmon bilan qoplanmagan fond yerlari hamda xo‘jalik foydalanishidagi maydonlardan tashkil topgan. Ushbu tarkibiy qismlarning har biri alohida ekologik va xo‘jalik vazifasini bajaradi hamda ularni alohida hisobga olish o‘rmon fondi yerlarining miqdoriy hisobini aniqlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Mavjud hisob yuritish tizimida kadastr ma’lumotlarining eskirishi, chegaralarning aniqlashtirilmaganligi, o‘rmon bilan qoplangan va qoplanmagan maydonlarning aralash hisobga olinishi, inventarizatsiya ma’lumotlarining yetarlicha yangilanmasligi hamda tashkilotlararo ma’lumot almashinuvi sustligi kabi muammolar mavjud. Ushbu muammolar o‘rmon fondi yerlarining real holatini baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda nomutanosibliklarni yuzaga keltiradi. O‘rmon fondi yerlarining hisobini yuritishda davlat yer kadastri, davlat o‘rmon kadastri, inventarizatsiya, dala kuzatuvlari, masofadan zondlash va elektron kartografik ma’lumotlarni yagona tizimda integratsiyalash zarur. Bunday yondashuv kadastr ma’lumotlarini real holat bilan solishtirish, mavjud tafovutlarni aniqlash

va monitoring jarayonlarini tizimli tashkil etish imkonini beradi. Xorazm viloyati sharoitida o‘rmon fondi yerlarining miqdoriy hisobini takomillashtirish uchun GIS, masofadan zondlash, dron tasvirlari, elektron xaritalar va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Bu esa o‘rmon fondi yerlarining tarkibi, joylashuvi, maydoni va sifat holatini aniq baholash, ekologik muammolarni erta aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi. – Toshkent, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Kadastr agentligi. Davlat yer fondining 2025-yil 1-yanvar holatiga yer hisobi ma’lumotlari. – Toshkent, 2025.
3. O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi. Davlat o‘rmon fondi hisobi va o‘rmon kadastrini yuritish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar. – Toshkent.
4. orazm viloyati hokimining 2025-yil 3-dekabrdagi 484-12-0-Q/25-son qarori. Xorazm davlat o‘rmon xo‘jaligi hududlarida yer maydonlarini deshifrovka qilish, yerdan foydalanuvchilarni xatlovdan o‘tkazish hamda elektron raqamli o‘rmon xo‘jaligi xaritalarini yangilash to‘g‘risida.
5. FAO. Global Forest Resources Assessment 2025. – Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2025.
6. Xorazm davlat o‘rmon xo‘jaligi hududlarida yer maydonlarini xatlovdan o‘tkazish va elektron raqamli o‘rmon xo‘jaligi xaritalarini yangilash bo‘yicha hisobot materiallari. – Urganch, 2025.
7. Congalton R.G., Green K. Assessing the Accuracy of Remotely Sensed Data: Principles and Practices. – 3rd ed. – Boca Raton: CRC Press, 2019.
8. Lillesand T.M., Kiefer R.W., Chipman J.W. Remote Sensing and Image Interpretation. – 8th ed. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2023.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQIY SAVODXONLIGINI IJODIY TOPSHIRIQLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

Orazbaeva Gozzal Usnaddin kızı
Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21912729

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy savodxonligini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarning didaktik imkoniyatlari, ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda nutqiy savodxonlikning tarkibiy komponentlari aniqlanib, ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ijodiy topshiriqlar alohida ko‘rsatiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini boyitish, mustaqil fikrlash, muloqot madaniyati hamda kreativ kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: nutqiy savodxonlik, boshlang‘ich ta’lim, ijodiy topshiriqlar, kommunikativ kompetensiya, kreativ fikrlash, og‘zaki nutq, yozma nutq, ta’lim metodikasi.

Аннотация. В данной статье анализируются дидактические возможности творческих заданий в развитии речевой грамотности учащихся начальных классов, их влияние на эффективность обучения и интеграция с современными педагогическими технологиями. В исследовании определены структурные компоненты речевой грамотности и отдельно показаны творческие задания, служащие их развитию. Также освещаются методические подходы, направленные на обогащение устной и письменной речи учащихся, формирование самостоятельного мышления, культуры общения и креативных компетенций.

Ключевые слова: речевая грамотность, начальное образование, творческие задания, коммуникативная компетенция, креативное мышление, устная речь, письменная речь, методика обучения.

Abstract. This article analyzes the didactic possibilities of creative tasks in developing the speech literacy of primary school students, their impact on educational effectiveness, and their integration with modern pedagogical technologies. The study identifies the structural components of speech literacy and highlights creative tasks that serve their development. It also highlights methodological approaches aimed at enriching students' oral and written speech, independent thinking, communication culture, and the formation of creative competencies.

Keywords: speech literacy, primary education, creative tasks, communicative competence, creative thinking, oral speech, written speech, educational methodology.

Kirish. Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki kundalik hayotda samarali muloqot qilish, fikrni ravon va mantiqiy ifodalash, axborotni tahlil qilish hamda mustaqil xulosa chiqarish kompetensiyalarini rivojlantirishni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilamoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida nutqiy savodxonlikni shakllantirish keyingi ta’lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatning muhim omili hisoblanadi.

Nutqiy savodxonlik faqatgina grammatik qoidalarga rioya qilish emas, balki o‘quvchining tinglash, tushunish, gapirish, o‘qish va yozish faoliyatlarini yagona kommunikativ tizim sifatida egallashini anglatadi. Ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirishda ijodiy topshiriqlar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ular o‘quvchini tayyor bilimni takrorlash emas, balki yangi g‘oyalarni ilgari surish, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va shaxsiy nuqtai nazarini asoslab berishga undaydi.

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim amaliyotida nutqni rivojlantirishga oid mashqlar mavjud bo‘lsa-da, ularning aksariyati reproduktiv xarakterga ega, yaniy tayyor bilimlarni eslab qolish va takrorlash mazmunida qolmoqda. Natijada o‘quvchilar grammatik topshiriqlarni bajarsalar-da, erkin fikr bildirish, matn yaratish va muloqot olib borishda qiyinchiliklarga duch kelishlari kuzatiladi. Shu bois nutqiy savodxonlikni rivojlantirishning kreativ metodlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, ilmiy manbalarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish hamda pedagogik tajriba metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida qo‘llanilayotgan topshiriqlar mazmuni o‘rganilib, ularning nutqiy savodxonlikni rivojlantirish imkoniyatlari baholandi.

Nutqiy savodxonlik lug‘at boyligi, grammatik to‘g‘rilik, mantiqiy izchillik, fikrning aniqligi, ijodkorlik darajasi, kommunikativ faollik kabi mezonlar asosida tahlil qilindi. Mazkur mezonlar asosida ijodiy topshiriqlarning ta’lim samaradorligiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslandi.

Natijalar va muhokama. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini faollashtirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. An’anaviy mashqlar ko‘proq tayyor bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilsa, ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarni yangi mazmun yaratishga undaydi.

Rossiyalik pedagog S.A.Shapoval adabiy ta’limdagi o‘quv topshiriqlarining filologik mohiyatiga e’tibor qaratib: “O‘quvchi uchun haqiqiy o‘quv jarayoni tahlil natijasida tushunishga olib keladigan maxsus filologik topshiriqlar orqali ro‘y beradi”, - deydi. Bu fikr o‘quv topshiriqlarining faqat bilim berish emas, balki o‘quvchining fikrlash, tahlil qilish va o‘z fikrini asoslash qobiliyatini shakllantiruvchi vosita ekanligini ko‘rsatadi.[2]

L.S.Vygotskiyning ta’kidlashicha, bolaning nutqi ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. U ishlab chiqqan “Yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchi kattalar yoki tengdoshlari yordamida mustaqil bajara olmaydigan vazifalarni bajarish orqali yuqori rivojlanish bosqichiga ko‘tariladi. Bunday vazifalar rasm asosida hikoya tuzish, matnni davom ettirish, dialog yaratish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, rolli o‘yinlar kabi ijodiy topshiriqlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu topshiriqlar o‘quvchilarning nutqiy savodxonligi, kreativ tafakkuri va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Demak, Vygotskiyning bunday ijtimoiy-konstruktivistik yondashuvi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy savodxonligini rivojlantirishda hamkorlikdagi ijodiy faoliyatning muhimligini asoslaydi. [3]

Og‘zaki nutqni rivojlantirish o‘quvchilarning fikrini erkin ifodalash, suhbatdoshni tinglash, savollarga mazmunli javob berish va muloqot jarayonida adabiy til me’yorlariga amal qilish kompetensiyalarini shakllantiradi. Rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar, savol-javoblar va ijodiy suhbatlar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlab, kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yozma nutqni rivojlantirish o‘quvchilarning fikrlarini mantiqiy ketma-ketlikda bayon etish, matnning mazmuniy yaxlitligini ta’minlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Rasmlar asosida hikoya tuzish, matnni davom ettirish, yangi yakun yaratish, sarlavha tanlash hamda qisqa ijodiy matn yozish kabi topshiriqlar o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning tasavvuri va ijodiy fikrlashini ham faollashtiradi. Xalqaro tadqiqotlarda ham yozma ijodkorlik o‘quvchilarning samarali muloqot kompetensiyasini rivojlantiruvchi muhim omil sifatida baholanadi.

Mustaqil fikrlashni rivojlantirish o‘quvchining ma’lumotni shunchaki eslab qolishi emas, balki uni tahlil qilishi, taqqoslashi, umumlashtirishi va yangi xulosalar chiqarishini nazarda tutadi. Shu bois ochiq javobli savollar, muammoli vaziyatlar va bir nechta yechimga ega bo‘lgan ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning tahliliy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. Bunday yondashuv o‘quvchining o‘z fikrini asoslay olish, dalillar keltirish va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantiradi.

Professor S.Matchonov o‘quv jarayonini o‘zlikni anglash konsepsiyasi bilan bog‘lab, ajdodlarimiz asrlar davomida intilib kelgan ma’naviy barkamollikni o‘quv topshiriqlari orqali shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, o‘quv topshiriqlari nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish vositasi, balki shaxsning ichki dunyosi, his-tuyg‘ulari va estetik dunyoqarashini tarbiyalovchi pedagogik mexanizm hisoblanadi. Bu esa o‘quvchilarning o‘z faoliyatida sog‘lom madaniyatli muloqot olib bora olishiga xizmat qiladi.[1]

Muloqot madaniyatini shakllantirish nutqiy savodxonlikning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u o‘quvchilarning suhbatdoshga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, tinglash madaniyatiga rioya qilishi, fikrini aniq va ravon ifodalashi hamda hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Guruhli va juftlikda bajariladigan ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning o‘zaro muloqot qilish, fikr almashish va hamkorlikda muammolarni hal qilish kompetensiyalarini mustahkamlaydi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda ijodiy topshiriqlarning o‘ziga xos pedagogik afzalliklarini alohida sanab o‘tamiz. Birinchidan, ular o‘quvchilarning lug‘at boyligini tabiiy ravishda kengaytiradi. O‘quvchi hikoya, dialog yoki tavsif yaratish jarayonida yangi leksik birliklarni faol qo‘llaydi. Ikkinchidan, grammatik me’yorlarni amaliy nutq jarayonida qo‘llash imkoniyati yuzaga keladi. Grammatik bilimlar sun’iy mashqlar emas, balki real kommunikativ vaziyatlarda mustahkamlanadi. Uchinchidan, ijodiy topshiriqlar tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantiradi. O‘quvchi bir nechta yechimlarni izlaydi, ularni taqqoslaydi va eng maqbul variantni tanlaydi. To‘rtinchidan esa, muloqot madaniyati shakllanadi. Juftlik va guruh shaklidagi topshiriqlar tinglash, fikr almashish hamda bahs-munozara olib borish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tahlillar natijasida, nutqiy savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ijodiy topshiriqlarni o‘quvchilarda qanday kompetensiyalarni rivojlantirishiga qarab bir nechta guruhlarga ajratib ko‘rsatish mumkin. “Hikoya tuzish” – izchil nutqni, “rasm asosida matn yaratish” – tafakkur va tasviriy nutqni, “dialog qilish” – komunikativ kompetensiyani, “ertakni yoki hikoyani davom ettirish” – kreativ fikrlashni, “muammoli vaziyatlar yechimi” – tanqidiy fikrlashni, “rolli o‘yinlar” - og‘zaki nutqni, “sarlavha yaratish yoki matnni yakunlash” – umumlashtirish, xulosa qilish kabi mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, ijodiy topshiriqlar muntazam qo‘llanilganda o‘quvchilarning darsdagi faolligi ortadi, nutqning grammatik to‘g‘riligi yaxshilanadi hamda mustaqil matn yaratish, erkin muloqot ko‘nikmalari rivojlanadi.

Shuningdek, ijodiy topshiriqlarni raqamli ta’lim vositalari bilan integratsiyalash samaradorlikni yanada oshiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun raqamli ta’lim vositalari asosida rasmlar ketma-ketligidan hikoya tuzish, gaplarni to‘ldirish, ertak yoki hikoyaning davomini yaratish, so‘zlardan gap va matn tuzish, dialogni yakunlash, rasmga mos sarlavha topish, tinglangan matn asosida ijodiy javob yozish hamda berilgan vaziyat yuzasidan qisqa og‘zaki yoki yozma fikr bildirish kabi ijodiy topshiriqlar samarali hisoblanadi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy savodxonligini rivojlantirish uzluksiz ta’limning muhim vazifalaridan biridir. Tadqiqot natijalari ijodiy topshiriqlardan tizimli va maqsadli foydalanish o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nutqini rivojlantirish, lug‘at boyligini kengaytirish, mantiqiy fikrlash va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi.

Shuningdek, ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi motivatsiyasini oshirib, ularni bilimning faol subyektiga aylantiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtirilgan ijodiy topshiriqlar boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Kelgusida nutqiy savodxonlikni rivojlantirishning sun’iy intellekt, adaptiv ta’lim va raqamli pedagogika imkoniyatlari bilan integratsiyalashgan metodik modelini ishlab chiqish hamda ta’lim amaliyotida barcha pedagoglar tomonidan samarali qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan, ilmiy asoslangan ijodiy topshiriqlar tizimini yaratish ushbu yo‘nalishdagi istiqbolli ilmiy tadqiqot vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matchonov S. va boshq. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – 605-b.
2. Shapoval S.A. *Ponimaniye tekstov kak rezul'tat resheniya uchebnykh filologicheskikh zadach.* Avtorefeerat dissertatsii kandidata psikhologicheskikh nauk). Moskva. 2006. https://nauka-pedagogika.com/psihologiya-19-00-07/dissertaciya-ponimanie-tekstov-kak-rezultat-resheniya-uchebnyh-filologicheskih-zadach?utm_source
3. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.* Harvard University Press. 1978. 86-87-b. https://www.hup.harvard.edu/books/9780674576292

THE ROLE OF COGNITIVE LINGUISTICS IN THE STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS

Mustafayev Elyor Odil o‘g‘li,
Independent Researcher at the Andijan State Institute of Foreign Languages
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21912890

Abstract. This article highlights the role of cognitive linguistics in the study of phraseological units in English and Uzbek. It examines the key concepts of cognitive phraseology, including the importance of categories such as concept, conceptual metaphor, conceptual metonymy, frame, and gestalt in the analysis of phraseological units. It also analyzes the relationship between phraseology and cognitive linguistics, the connection of phraseological units with human thinking, the conceptual system, and the national-cultural worldview.
Keywords: cognitive linguistics, phraseological unit, concept, conceptual metaphor, conceptual metonymy, frame, gestalt
Annotatsiya. Ushbu maqolada kognitiv tilshunoslikning ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarni o‘rganishdagi o‘rni yoritiladi. Unda kognitiv frazeologiyaning asosiy tushunchalari, jumladan, konsept, konseptual metafora, konseptual metonimiya, freym va geshtalt kabi kategoriyalarning frazeologik birliklar tahlilidagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, frazeologiya va kognitiv tilshunoslikning o‘zaro aloqasi, frazeologik birliklarning inson tafakkuri, konseptual tizimi hamda milliy-madaniy dunyoqarash bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: kognitiv tilshunoslik, frazeologik birlik, konsept, konseptual metafora, konseptual metonimiya, freym, geshtalt
Аннотация. В данной статье освещается роль когнитивной лингвистики в изучении фразеологизмов в английском и узбекском языках. В ней рассматриваются основные понятия когнитивной фразеологии, в том числе значение таких категорий, как концепт, концептуальная метафора, концептуальная метонимия, фрейм и гештальт в анализе фразеологических единиц. Также анализируется взаимосвязь фразеологии и когнитивной лингвистики, связь фразеологических единиц с человеческим мышлением, концептуальной системой и национально-культурным мировоззрением.
Ключевые слова: когнитивная лингвистика, фразеологическая единица, концепт, концептуальная метафора, концептуальная метонимия, фрейм, гештальт

The study of the cognitive properties of phraseological units is one of the leading directions in modern linguistics, and the volume of research in this area continues to grow steadily. This is due to the fact that cognitive phraseology still encompasses a number of issues requiring further investigation: mechanisms of imagery formation, the correlation between universal and national-specific elements in idiomatic systems, the role of human bodily experience in motivating phraseological meaning, among others. Studying phraseological units from a cognitive perspective makes a significant contribution not only to linguistics but also to related fields—cognitive psychology, linguaculturology, and translation theory—as phraseology most vividly demonstrates the interplay among language, thought, and culture.

There are several core concepts that explain the cognitive properties of phraseological units: *concept, conceptual metaphor and metonymy, frame,* and *gestalt.* Before unpacking the link between phraseological units and cognitive linguistics, it is essential to answer what cognitive linguistics itself represents. In Cognitive Linguistics: An Introduction, it is defined as follows:

“Cognitive linguistics is the enterprise of cognitive science dedicated to describing and explaining the mental structures and processes associated with linguistic knowledge. Cognitive linguistics is not a single, unified theory, but rather a flexible framework encompassing various theories of language” [1. 2013: p. 14].

The main objective of cognitive linguistics is the study of mental processes taking place in the human mind in connection with linguistic activity [2. 2006: p. 53].

The importance of the cognitive approach in phraseology lies in the fact that phraseological units, as products of human thought, reflect the processes of perception, categorization, and conceptualization of reality. They serve not only as a means of figurative expression of thought, but also as units that code the cultural experience, worldview, and knowledge system of a society in linguistic form. According to the cognitive approach, phraseological units form in the human mind as a result of conceptualization and mental

modeling processes that facilitate the expression of knowledge, experience, and perceptions of the world through language.

Cognitive linguistics emerged as an independent discipline in the early 1970s. Its emergence was closely linked to a growing interest in studying the processes of categorization, conceptualization, and processing of knowledge in human thought, as well as scientific views shaped by preceding linguistic and psychological research. Initial studies in this domain were conducted by a relatively small group of scholars throughout the 1970s and 1980s. However, by the early 1990s, scientific interest expanded significantly. As a result, in 1989–1990, the International Cognitive Linguistics Association (ICLA) was founded, and the international journal “Cognitive Linguistics” began publication. These events marked a crucial milestone in establishing cognitive linguistics as an autonomous scientific field.

Cognitive linguist Ronald Langacker noted that this development signified: “...the emergence of cognitive linguistics as a distinct intellectual movement with a broad research base and self-awareness” [3. 2002: p. 7].

Scholars in cognitive linguistics examine the systemic structure and functions of language, as well as the patterns of their manifestation. However, language itself is not treated as the ultimate end of investigation. Under this framework, language is a product of human cognition, perception, and conceptualizing mental activity, as well as the primary tool for their expression. Therefore, the study of language is recognized as a vital gateway to understanding human cognitive activity [4. 1998: p. 14].

S. Askoldov emphasized that language serves as a reflection of human cognitive activity, providing insight into the nature of thought, ideas, and their organization. According to the scholar, the main feature setting cognitive linguistics apart from other linguistic movements is that it interprets language as a system reflecting fundamental properties of human consciousness and cognitive mechanisms. Thus, cognitive linguistics studies language as a phenomenon inextricably bound to human cognitive capacities and treats it as a primary vehicle for expressing human cognitive endeavor [5. 1997: p. 14].

A “concept” is one of the main term of cognitive linguistics. It represents a basic unit of human knowledge and experience about the world stored in linguistic form. In phraseology, a concept acts as a condensed hub of cultural information around which the meaning of a fixed expression condenses.

According to the theory developed by G. Lakoff and M. Johnson, conceptual metaphor is not merely a stylistic trope, but a fundamental cognitive mechanism through which one conceptual domain (the target domain) is understood in terms of another, more concrete, and bodily experienced domain (the source domain) [6. 1980.]. Conceptual metaphor forms the foundation of a substantial portion of idiomatic language.

For example, the English idiom “to lose one’s head” and the Uzbek “esini yo‘qotmoq/boshini yo‘qotmoq” (to lose one’s mind/head) are built upon the shared metaphorical model “human is a container for the mind”, where losing control over one’s emotions is conceptualized as physically losing the body part responsible for rational thought.

Unlike metaphor, metonymy is not based on similarity across domains, but rather on contiguity within a single conceptual domain. In phraseology, metonymic transfer is often realized via the models “part for the whole” or “organ for function.” Thus, English “keep an eye on somebody” and Uzbek “ko‘z-quloq bo‘lib turmoq” (not letting out of one’s sight) rely on the metonymy “organ of sight for the function of observation”; English “to give a hand” and Uzbek “qo‘l uzatmoq/yordam bermoq” rely on “body part for the action of assistance”.

The following category is called “frame”. The concept of a frame, introduced into scientific discourse by Ch. Fillmore, denotes a structured schema of knowledge regarding a typical scenario that underlies the meaning of a linguistic unit [7. 1982: pp. 111–117]. A phraseological unit does not activate an isolated definition, but rather an entire frame encompassing participants, roles, and conventional circumstances. For example, the idiom “to break the ice” activates the “social acquaintance” frame with elements such as “tension,” “first step,” and “overcoming barriers,” while its Uzbek counterpart “muloqotni boshlamoq/gap boshlamoq” (to initiate conversation) activates a close yet distinct frame where emphasis shifts toward speech etiquette and traditional Eastern hospitality.

A gestalt as a cognitive structure represents a holistic, non-decomposable image of a situation whose overall meaning cannot be reduced to the sum of its individual components. It is precisely the gestalt nature of perception that accounts for the idiomatic character of set expressions: the meaning of “kick the bucket” or the Uzbek “ko‘z yummoq” cannot be derived by simply combining the meanings of the constituent words—it arises as an integrated image anchored in the collective linguistic consciousness of a culture.

In conclusion, the analysis demonstrates that cognitive linguistics opens up new avenues for examining phraseological units, enabling researchers to move beyond purely structural and semantic descriptions of idiomatic systems. Analyzing idioms through concepts such as concept, conceptual metaphor, conceptual metonymy, frame, and gestalt makes it possible to explain not only “what” a given phraseological unit means, but “why” it bears that specific meaning—thereby uncovering the deep cognitive mechanisms underlying phraseological meaning formation.

The comparative analysis of English and Uzbek phraseology confirms that despite their genetic and typological distance, a significant portion of their idiomatic repertoires relies on shared, universal cognitive models rooted in human bodily experience. At the same time, the national-specific dimension of phraseology remains a valuable source of insights into a people's culture, history, and worldview. Further exploration of this topic holds strong potential both for advancing cognitive phraseology theory and for practical applications in lexicography, translation, and language pedagogy.

References:

1. Askoldov, S. A. (1997). Kontsept i slovo. Moskva: Academia. S. 14.
2. Bednáriková, M. (2013). Introduction to Cognitive Linguistics. Kraków. p. 14.
3. Evans, V., & Green, M. (1988). Cognitive linguistics: an introduction. Edinburgh: Edinburgh University Press. p. 14.
4. Fillmore, Ch. (1982). Frame Semantics. In: Linguistics in the Morning Calm. Seoul: Hanshin Publishing. pp. 111–137.
5. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press.
6. Langacker, R. W. (2002). Concept, image, and symbol: The cognitive basis of grammar (2nd ed.). Berlin: Mouton de Gruyter.
7. Safarov, Sh. S. (2006). Kognitiv tilshunoslik. Jizzax: Sangzor nashriyoti. 53-b.

BILIMLAR IQTISODIYOTIDA KOLLABORATIV MADANIYATNING NAZARIY PEDAGOGIK VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI TAHLILI

Badalova Gulra’no Mirolimjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
gulirano15@list.ru
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21913058

Annotatsiya. Maqolada kollaborativ madaniyatning mazmuni, pedagogik mohiyati va bilimlar iqtisodiyotidagi funksional ahamiyati tahlil qilinadi. Kollaboratsiya hamda kooperatsiya tushunchalarining farqlari aniqlanib, ularning maqsadi, boshqaruv mexanizmlari, bilim almashinuvi, innovatsion salohiyati va natijaviy xususiyatlari qiyoslanadi. Kollaborativ faoliyat bilimni birgalikda yaratishning ijtimoiy mexanizmi sifatida asoslanib, talabalarning kommunikativ, refleksiv va ijodiy kompetensiyalari hamda hamkorlikni rivojlantirishi yoritiladi.

Kalit so‘zlar. Kollaborativ madaniyat, kollaboratsiya, kooperatsiya, bilimlar iqtisodiyoti, innovatsion sinergiya, pedagogik hamkorlik.

Аннотация. В статье анализируются содержание коллаборативной культуры, ее педагогическая сущность и функциональное значение в экономике знаний. Раскрываются различия между коллаборацией и кооперацией, сопоставляются их цели, механизмы управления, обмен знаниями, инновационный потенциал и результаты. Коллаборативная деятельность обосновывается как социальный механизм совместного конструирования знания, развивающий коммуникативные, рефлексивные и творческие компетенции и сотрудничество студентов.

Ключевые слова. Коллаборативная культура, коллаборация, кооперация, экономика знаний, инновационная синергия, педагогическое взаимодействие.

Abstract. The article analyzes collaborative culture, its pedagogical essence and significance within the knowledge economy. It distinguishes collaboration from cooperation by comparing their goals, management mechanisms, knowledge exchange, innovative potential, and outcomes. Collaborative activity is substantiated as a social mechanism for constructing knowledge and developing students’ communicative, reflective, and creative competencies.

Keywords. Collaborative culture, collaboration, cooperation, knowledge economy, innovative synergy, pedagogical interaction.

Zamonaviy globallashuv, raqamli transformatsiya va bilim iqtisodiyoti sharoitida “kollaborativ” tushunchasi nafaqat ta’limda, balki biznes, ilm-fan va ijtimoiy tizimlarda ham markaziy o‘rin egallamoqda. Kollaborativ faoliyat inson faoliyatining individual modelidan jamoaviy, hamkorlikka asoslangan modelga o‘tishini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, “kollaborativ madaniyat” esa ushbu hamkorlikning ijtimoiy-psixologik va institutsional asoslarini anglatadi.

“Kollaborativ” tushunchasi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy, pedagogik, tashkiliy jihatdan talqin qilinadi. “Kollaborativ” atamasi ingliz tilidagi *collaboration* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, umumiy maqsadga erishish uchun ikki yoki undan ortiq subyektlarning o‘zaro kelishuv, muloqot va faol hamkorlik asosida ish olib borishini anglatadi. Kollaborativlik oddiy yordam yoki vazifalarni bo‘lib bajarish holatidan farq qiladi, chunki bunda ishtirokchilar birgalikda ma’no yaratadi, muammoni birgalikda tushunadi va yakuniy natijani ham hamkorlikda shakllantiradi. P. Dillenbourg kollaborativ o‘rganish haqidagi mashhur tadqiqotida mazkur tushuncha yagona va qat’iy shakldagi definitsiyaga ega emasligini, balki u vaziyat, guruh tarkibi, faoliyat turi va o‘zaro ta’sir darajasiga qarab turlicha talqin qilinishini ko‘rsatadi. Olimning fikricha, kollaborativlikning markazida talabalar o‘rtasidagi nisbatan teng maqomli, birgalikdagi intellektual faoliyat turadi[1. 1999: B.9]. Bu yerda asosiy urg‘u tayyor bilimni uzatishga emas, balki bilimni birga qurishga qaratiladi. Shu sababli kollaborativlikni faqat tashkiliy shakl emas, balki bilishning o‘ziga xos ijtimoiy mexanizmi sifatida baholash mumkin.

J. Roschelle va S. Teasley kollaboratsiyani yanada aniqroq izohlab, uni “muammoni birgalikda hal etish jarayonida umumiy tushuncha maydonini yaratish” sifatida tavsiflaydi. Kollaborativ faoliyatning mohiyati shundaki, talabalar faqat vazifani bo‘lib olmaydi, balki umumiy muammo makonini yaratadi, maqsadlarni kelishadi, tushunchalarni muvofiqlashtiradi va qarorlarni birga ishlab chiqadi. Bu esa kollaborativlikni kooperatsiyadan ajratib turadi. Kooperatsiyada vazifalar ko‘pincha taqsimlanadi va keyin birlashtiriladi, kollaboratsiyada esa bilimning o‘zi hamkorlik jarayonida yuzaga keladi[2.1995: B.69].

Quyida „kollaboratsiya“ va „kooperatsiya“ o‘rtasidagi asosiy farqlar ilmiy yondashuv asosida jadval shaklida tahlil qilinadi. Mazkur jadval rus olimi O. V. Inshakov tadqiqotlari asosida shakllantirildi[3. 2013: B.38]. Olim „kollaboratsiya“ tushunchasini bilimlar iqtisodiyotiga mos bo‘lgan, ishtirokchilar o‘rtasida bilim almashuvi, o‘zaro o‘rganish va yangi intellektual mahsulot yaratishga qaratilgan kooperatsiyaning maxsus shakli deb izohlaydi. Olimga ko‘ra, kollaboratsiya oddiy birgalikdagi ish emas, balki innovatsion natija, ishonch va paritetga tayangan chuqur integratsion hamkorlikdir.

1.1 jadval. „Kooperatsiya“ va „kollaboratsiya“ tushunchalarining qiyosiy tahlili

Mezon	Kooperatsiya	Kollaboratsiya
Mohiyati	Faoliyat yoki resurslarni muayyan vazifa uchun taqsimlab, birgalikda ishlash shakli.	Bilim, tajriba va kreativ salohiyatni birlashtirib, yangi intellektual qiymat yaratishga yo‘naltirilgan murakkab hamkorlik shakli.
Asosiy maqsad	Vazifani samarali bajarish, faoliyat bosqichlarini kamaytirish, jarayonni muvofiqlashtirish.	Innovatsiya yaratish, yangi g‘oya yoki yangi bilim hosil qilish, kumulyativ samaradorlikka erishish.
Natija turi	Oldindan belgilangan, funksional va amaliy natija.	Yangi sifat darajasidagi, oldindan to‘liq bashorat qilib bo‘lmaydigan ijodiy natija.
Talabalar o‘rtasidagi aloqa	Rollar nisbatan aniq bo‘lingan, har kim o‘z funksiyasini bajaradi.	Rollar nisbatan moslashuvchan, talabalar bir-birining „bilim maydoniga kiradi“ va birgalikda qaror ishlab chiqadi.
Bilim almashuvi darajasi	Zarur minimum darajada axborot almashinuvi.	Bilim, tajriba, kompetensiya va g‘oyalar almashinuvi markaziy o’rinni egallaydi.
Faoliyatni boshqarish	Ko‘proq koordinatsiya va nazoratga asoslanadi.	O‘zaro ishonch, kelishuvga erishish, teng huquqli hamkorlik va faoliyatni birgalikda rejalashtirish tamoyillariga tayangan holda tashkil etiladi hamda talabalarning umumiy mas’uliyatini kuchaytiradi.
Innovatsion salohiyat	O‘rtacha; mavjud tizimni yaxshilashi mumkin.	Yuqori; yangi texnologiya, model yoki mahsulot tug‘dirishi ehtimoli kuchli.
Ishonch omili	Muhim, lekin har doim ham markaziy emas.	Hal qiluvchi omil; ishonchsiz kollaboratsiya samarali ishlamaydi.
Davomiylik	Qisqa yoki o‘rta muddatli bo‘lishi mumkin.	Odatda chuqurroq, strategik va ko‘proq uzoq muddatli bo‘ladi.
Qo‘llanish sohasi	Ishlab chiqarish, logistika, taqsimot, xizmat ko‘rsatish.	Ilm-fan, ta’lim, startaplar, kreativ industriya, yuqori texnologiyalar.

Kooperatsiya va kollaboratsiya bir-biriga yaqin tushunchalar bo‘lsa-da, ular aynan bir xil faoliyat emas. Kooperatsiya asosan faoliyatni muvofiqlashtirish va vazifalarni taqsimlash orqali samaradorlikka erishishni ko‘zlaydi. Bunda natija ko‘pincha oldindan aniqlangan bo‘ladi. Kollaboratsiya esa kooperatsiyaning yanada rivojlangan, bilimga tayangan shakli bo‘lib, unda ishtirokchilar faqat resurs yoki mehnatni emas, balki o‘z kompetensiyasi, tajribasi va ijodiy salohiyatini ham birlashtiradi. Shu sababli kollaboratsiyada “birga ishlash” emas, balki “birga yaratish” ustuvor hisoblanadi.

Ilmiy-nazariy jihatdan hamkorlik operatsion samaradorlik kategoriyasiga kirsa, kollaboratsiya innovatsion sinergiya kategoriyasiga mansubdir. Kooperatsiyada rollar qat’iyroq, vertikal boshqaruv kuchliroq bo’ladi. Kollaboratsiyada esa gorizontal aloqalar, o‘zaro ishonch va tenglik muhim hisoblanadi. Kollaboratsiya aynan bilimlar iqtisodiyoti sharoitida kuchayadi, chunki bunday muhitda ustunlik oddiy ishlab chiqarishdan emas, balki yangi bilim va yangi intellektual mahsulot yaratishdan kelib chiqadi. Kooperatsiya vazifani birga bajarish, kollaboratsiya esa yangi qiymatni birga yaratish modelidir. Amaliy nuqtai nazaridan standart jarayonlar uchun kooperatsiya yetarli bo‘lsa, noaniq, murakkab va innovatsion muammolarni ҳал qilishda kollaboratsiya samaraliroq hisoblanadi.

Bilimlar iqtisodiyati iqtisodiy rivojlanishda asosiy resurs sifatida moddiy boyliklar emas, balki bilim, axborot, innovatsiya va inson kapitali hal qiluvchi o‘rin tutadigan iqtisodiy tizimdir. Unda qiymat yaratish jarayoni ko‘proq yangi bilimlarni ishlab chiqish, ularni tarqatish, tijoratlashtirish va amaliyotga joriy etish bilan bog‘lanadi. Shu bois bilimlar iqtisodiyotida ilm-fan, ta’lim, raqamli texnologiyalar, intellektual

mehnat va innovatsion infratuzilma yetakchi omilga aylanadi. A.B. Kuzyura o’z maqolasida mazkur tushuncha bir necha muhim belgilar bilan tavsiflananishini keltirib o‘tadi: bilimning strategik resursga aylanishi; inson kapitalining ustuvorligi; innovatsion faoliyatning iqtisodiy o‘sish manbai bo‘lishi; axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo‘llanishi; ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi[4.2022:B.95]. Shu ma’noda bilimlar iqtisodiyati postindustrial jamiyatning iqtisodiy modeli sifatida ham talqin qilinadi. “Bilimlar iqtisodiyati” tushunchasi aynan jamiyat va xo‘jalik rivojida bilimning yetakchi ishlab chiqaruvchi kuchga aylanganini ifodalash uchun qo‘llanadi. Bu tushuncha bilimlarning ilmiy yutuqlarga va mutlaqo yangi yoki tubdan takomillashtirilgan mahsulot hamda texnologiyalarga aylanishi bilan bog‘lanadi.

Kollaborativ madaniyat bilimlar iqtisodiyoti sharoitida ta’lim subyektlarining teng huquqli muloqoti, o‘zaro ishonchi, umumiy mas’uliyati va intellektual resurslarini birlashtirishga asoslangan pedagogik hodisa hisoblanadi. Uning kooperatsiyadan asosiy farqi vazifalarni taqsimlash bilan cheklanmay, yangi bilim, innovatsion g‘oya va intellektual mahsulotni birgalikda yaratishga yo‘naltirilganidadir. Kollaborativ faoliyat davomida ishtirokchilar umumiy muammo maydonini shakllantiradi, qarorlarni muvofiqlashtiradi, tajriba va kompetensiyalarini o‘zaro boyitadi. Shu sababli mazkur madaniyatni rivojlantirish talabalarning kommunikativ, refleksiv, kreativ va jamoaviy kompetensiyalarini takomillashtiradi. U murakkab pedagogik muammolarni hal qilish, innovatsion sinergiyani ta’minlash va ta’lim samaradorligini oshirishning muhim institutsional omili bo‘lib xizmat qiladi. Natijada ta’limda barqaror hamkorlik muhiti, bilim almashinuvi va ijodiy tashabbuslarning uzluksiz rivoji ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Dillenbourg P. What do you mean by “collaborative learning”? In: P. Dillenbourg (Ed.), Collaborative-learning: Cognitive and Computational Approaches. Oxford: Elsevier,1999. -p. 9.

2. Roschelle J., Teasley S. D. The construction of shared knowledge in collaborative problem solving. In: C. O’Malley (Ed.), Computer-Supported Collaborative Learning. Berlin: Springer, 1995. -p. 69.

3. Иншаков О. В. Коллаборация как глобальная форма организации экономики знаний // Экономика региона. 2013. № 3(35). С. 38–45. 8.

4. Кузюра А. В. Понятие “экономики знаний”, ее основные черты и условия формирования // Вестник науки. 2022. № 10(55). С. 95–99.

INGLIZ TILIDA TIL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM AHAMIYATI

Yalg‘osheva Mohichehra Olimovna
Chirchiq davlat pedagogika univeriteti
mrsmohichehra.yalgasheva@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21916533

Annotatsiya: Ushbu maqola oliy ta’lim muassasalarida xorijiy til , ya’ni ingliz tilining mhim ahamiyatini ko ‘rsatadi. Ayniqsa xorijiy tilde til ko ‘nikmalarini rivojlantirishning oson va samalrali yollari hamda til kompetensiyalarining chet tilini o ‘zlashtirishdagi muhim ahamiyat kasb etishligi keng yoritilgan.
Kalit so‘zlar: til kompetensiyalari, o‘qish, yozish, gapirish va eshitish ko‘nikmalari, didaktika, pedagogika va psixologiya, individual yondashuv, demokratlashtiriligan ta’lim.
Abstract: This article shows the importance of a foreign language, namely English, in higher education institutions. In particular, easy and effective ways to develop language skills in a foreign language and the important role of language competencies in mastering a foreign language are widely covered.
Keywords: language competencies, reading, writing, speaking and listening skills, didactics, pedagogy and psychology, individual approach, democratized education.
Аннотация: В данной статье показана важность иностранного языка, а именно английского, в высших учебных заведениях. В частности, широко освещены простые и эффективные способы развития языковых навыков на иностранном языке, а также важная роль языковых компетенций в освоении иностранного языка.
Ключевые слова: языковые компетенции, чтение, письмо, навыки говорения и аудирования, дидактика, педагогика и психология, индивидуальный подход, демократизированное образование.

Jamiyat taraqqiyoti va inson kapitalining rivojlanishi ko‘p jihatdan ta’lim-tarbiya tizimining samaradorligiga bog‘liqdir. Ta’lim nafaqat mavjud ijtimoiy ongning mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi, balki uning mazmuni va yo‘nalishlarini belgilovchi, xalqning ma’naviy-intellektual salohiyatini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri ham hisoblanadi. Shu sababli jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish, fuqarolarning dunyoqarashini boyitish va ijtimoiy ongni yangilash ta’lim tizimini izchil takomillashtirish bilan uzviy bog‘liqdir. Zero, inson tafakkuridagi o‘zgarishlar avvalo ta’lim mazmuni, pedagogik jarayon sifati va tarbiyaviy ta’sir mexanizmlarining takomillashuvi orqali yuzaga keladi.

Tarixiy taraqqiyot tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xalqimizning ilm-fan, madaniyat va ma’naviyat sohalarida erishgan yutuqlari avloddan-avlodga uzatilgan ta’limiy qadriyatlar va samarali tarbiya tizimining natijasi hisoblanadi. Ajdodlarimiz yaratgan ilmiy meros, bunyodkorlik an’analari va yuksak madaniy qadriyatlar zamirida insonni har tomonlama kamol toptirishga xizmat qiluvchi ta’lim tizimi mujassam bo‘lgan. Bugungi kunda esa ta’limning asosiy vazifasi talabalarda nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, balki ularning shaxsiy manfaatlari bilan jamiyat ehtiyojlari o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash, mustaqil hayotiy pozitsiyani qaror toptirish hamda o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirishdan iboratdir.

Zamonaviy ta’lim siyosati ta’lim sifatini oshirishni uzluksiz monitoring qilish, o‘quv natijalarini ishonchli va xolis mezonlar asosida baholash hamda o‘quv jarayonining samaradorligini muntazam tahlil etishni talab etadi. Shu bilan birga, uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini yangilash, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirish va ta’lim jarayonini talaba ehtiyojlariga moslashtirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilayotgan o‘quv jarayonida bilimlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, axborotni saralash va mustaqil qaror qabul qilish kabi hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ayniqsa, til ta’limida ushbu vazifalarning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki zamonaviy jamiyat sharoitida xorijiy tillarni puxta egallash shaxsning akademik, kasbiy va ijtimoiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Shu bois ta’lim jarayonida til ko‘nikmalarini rivojlantirish talabaning kommunikativ faolligi, madaniyatlararo muloqotga tayyorligi hamda global axborot makonida samarali faoliyat yurita olish qobiliyatlarini shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq holda qaralmoqda.

Shaxs rivojlanishi murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u faqat ayrim sifatlarning shakllanishi bilan cheklanmaydi. Mazkur jarayon intellektual salohiyat, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy faollik, jismoniy

barkamollik va dunyoqarashning uzviy rivojlanishini qamrab oladi. Maxsus tashkil etilgan ta’lim muhiti esa talabaning yaxlit shaxs sifatida kamol topishini ta’minlaydi. Til kompetensiyalarini rivojlantirish ham aynan shunday murakkab pedagogik va psixologik mexanizmlar asosida amalga oshadi. Hozirgi davrda xorijiy til ta’limiga oid ilmiy konsepsiyalarda talaba shaxsining individual imkoniyatlari, insonparvarlik tamoyillari va o‘zini o‘zi rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan ko‘p komponentli yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning aksariyati talabaning mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, uning refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirish hamda o‘z-o‘zini takomillashtirish mexanizmlarini shakllantirish masalalariga qaratilgan.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, shaxs rivojlanishining har bir bosqichida uning ehtiyojlari, qobiliyatlari va bilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda maqsadli pedagogik ta’sirni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, talabalarning xorijiy til bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish masalasi bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Mavjud ilmiy yondashuvlar va metodik tavsiyalarga qaramasdan, ayniqsa oliy ta’limning dastlabki bosqichlarida tahsil olayotgan talabalar bilan individual ishlash asosida ularning til kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Yoshlarning intellektual va shaxsiy kamolotini ta’minlash zamonaviy ta’lim oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir. Ushbu vazifani samarali amalga oshirish esa ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvlarni tatbiq etishni, mavjud an’anaviy qarashlarni qayta ko‘rib chiqishni hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar imkoniyatlaridan oqilona foydalanishni talab qiladi. Shu ma’noda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan an’anaviy o‘qitish usullarining o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash orqali talabalarning til kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yaxlit tizimni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Bunday tizim talabalar tomonidan avval o‘zlashtirilgan bilimlar, ularning individual rivojlanish xususiyatlari va shaxsiy ehtiyojlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni hisobga olishi lozim. Chunki ta’lim samaradorligi nafaqat o‘quv materialining mazmuniga, balki talabaning o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishi, mustaqil ta’lim faoliyati va shaxsiy taraqqiyotiga ham bevosita bog‘liqdir. Shu sababli ta’lim jarayonida talabalar rivojlanishining ichki mexanizmlarini qo‘llab-quvvatlash hamda ularning o‘quv faoliyatidagi o‘sish dinamikasini ta’minlash muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarning bilim olish, kasbiy va shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish huquqlari qonuniy asoslarda kafolatlangan bo‘lib, bu holat ta’lim tizimining insonparvarlik va demokratik tamoyillar asosida rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mazkur jarayonda talabalarni individual xususiyatlarini hisobga olgan holda til ko‘nikmalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki individual yondashuv ta’lim muhitining barqarorligini ta’minlash, har bir talabaning ehtiyojlariga mos pedagogik yordam ko‘rsatish va ta’lim natijalarining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Amaliyot tahlillari ko‘rsatishicha, ko‘plab hollarda xorijiy tilni o‘qitish jarayonida til faoliyatining ayrim jihatlariga, xususan, og‘zaki muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yetarli darajada e’tibor qaratilmaydi. Natijada talabalar nazariy bilimlarni egallagan bo‘lsalar-da, ularni real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa til ta’limining amaliy yo‘nalishini kuchaytirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar talabalar til kompetensiyalarini rivojlantirish uchun yangi pedagogik imkoniyatlarni yaratdi. Aslida mazkur masala ilmiy adabiyotlarda o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘rganib kelinayotgan bo‘lsa-da, bugungi kunda unga kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmalari asosida yangicha mazmun berilmoqda. Dastlab sotsiologiya va psixologiya fanlari doirasida tadqiq etilgan ushbu muammo hozirgi davrda lingvodidaktika va pedagogika fanlarining muhim tadqiqot obyektlaridan biriga aylangan.

O‘tkazilgan kuzatuvlar va so‘rovlar natijalari ham o‘qituvchilarning aksariyati talabalarning xorijiy til bo‘yicha kommunikativ ko‘nikmalarini maqsadli rivojlantirish masalasi yuzasidan yetarli metodik tayyorgarlikka ega emasligini ko‘rsatdi. Ba’zi pedagoglar ushbu vazifani bevosita til o‘qituvchilari yoki murabbiylarning mas’uliyati sifatida baholaydilar. Shu bilan birga, talabalar orasida o‘tkazilgan o‘rganishlar ularning o‘z til imkoniyatlarini baholashga, mavjud bilimlarini amaliyotda qo‘llashga va xorijiy tilda muloqot qilish qobiliyatlarini takomillashtirishga qiziqish bildirayotganliklarini namoyon etdi. Talabalarning ma’lum qismi o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini anglay boshlaganligi ham kuzatildi.

Mazkur holatlar talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning til kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini

tasdiqlaydi. Ta’lim jarayonining mazmuni, shakli va metodlarida yuz berayotgan o‘zgarishlar talabaga nisbatan yangicha pedagogik munosabatni shakllantirishni talab etmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda talabaning individual imkoniyatlariga tayangan holda uning xorijiy til bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish oliy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida insonparvarlik va demokratik tamoyillarning ustuvor ahamiyat kasb etishi natijasida o‘quv jarayoni ishtirokchilariga nisbatan qadriyatga asoslangan munosabat pedagogik madaniyatning ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Ta’limning demokratlashuvi har bir talabaning shaxsiy qadr-qimmati, ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini e’tirof etishga asoslangan yangi pedagogik yondashuvlarning shakllanishiga xizmat qilmoqda. Natijada talaba shaxsini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, uning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish hamda individual rivojlanishi uchun qulay ta’lim muhitini yaratishga qaratilgan konseptual va metodologik asoslar takomillashib bormoqda. Buning natijasida esa xorijiy tilda til ko‘nikmalarini tez va samarali o‘rganish metodikalari ishlab chiqarilib o‘z natijalarini ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-4545884

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni ―Raqamli O‘zbekiston-2030‖ strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida‖ 5 oktabr 2020 yil, PQ-6079.

3.Allen H., Widdowson H.G. Teaching the Communicative Use of English. – London: Longman, 1974. – P. 1–13.

4.Allwright D. Perception and Second Language Acquisition // Applied Linguistics. – 1982. – Vol. 3, № 3. – P. 261–275.

5.Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам: лингводидактика и методика: учеб. пособие. – 6-е изд., стер. – М.: Академия, 2009. – 333 с.

6.Yulduz E. Nofilologik yo‘nalishdagi talabalarga lingvokulturologiyaga oid tushunchalarni o‘rgatishda innovatsion yondashuv // Qurilish va ta’lim. – 2023. – Vol. 4, № 4(1). – P. 815–823.

O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA FOIZ RISKINI STRESS-TESTLASH ASOSIDA BAHOLASH

Xakkulov Akbar Uralovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21916596

Annotatsiya. Tezisda O‘zbekiston tijorat banklarida foiz riskini stress-testlash asosida baholashning uslubiy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tahlil O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O‘zmilliybank va «Turonbank»ning 2020-2025 yillarga oid ma’lumotlari asosida amalga oshirilgan. Foizga sezgir aktivlar va majburiyatlar tafovuti aniqlanib, 200 va 400 bazis bandlik foiz shoklarining sof foizli daromadga ta’siri baholangan. Foiz riskini baholashda qayta narxlanish muddatlari, valyutalar, stavka turlari va mijozlar xulq-atvorini hisobga olish zarurligi asoslangan. Qayta narxlanish tafovuti tahlili, ichki limitlar, sof foizli daromad va kapitalning iqtisodiy qiymatini birgalikda baholash hamda stress-ssenariylarni kengaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, foiz riski, stress-test, foizga sezgir aktivlar, foiz tafovuti, sof foizli daromad, qayta narxlanish, kapitalning iqtisodiy qiymati.

Abstract. This thesis examines the methodological and practical aspects of assessing interest rate risk in Uzbekistan’s commercial banks through stress testing. The analysis is based on data from the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, the National Bank of Uzbekistan, and Turonbank for 2020–2025. The gap between interest-sensitive assets and liabilities was determined, and the effects of 200- and 400-basis-point interest rate shocks on net interest income were assessed. The findings indicate that a 200-basis-point decline in interest rates could reduce the net interest income of the National Bank of Uzbekistan and Turonbank by 8.9% and 6.7%, respectively. The study substantiates the need to consider repricing maturities, currencies, interest rate types, and customer behaviour when assessing interest rate risk. Recommendations are proposed for repricing gap analysis, internal limits, the integrated assessment of net interest income and the economic value of equity, and the expansion of stress-testing scenarios.

Keywords: commercial banks, interest rate risk, stress testing, interest-sensitive assets, interest rate gap, net interest income, repricing, economic value of equity.

Аннотация. В тезисе исследованы методические и практические аспекты оценки процентного риска в коммерческих банках Узбекистана на основе стресс-тестирования. Анализ проведён по данным Центрального банка Республики Узбекистан, Национального банка Узбекистана и АКБ «Туронбанк» за 2020–2025 годы. Определён разрыв между активами и обязательствами, чувствительными к изменению процентных ставок, а также оценено влияние процентных шоков величиной 200 и 400 базисных пунктов на чистый процентный доход. Результаты показали, что снижение процентных ставок на 200 базисных пунктов может сократить чистый процентный доход Национального банка Узбекистана и АКБ «Туронбанк» соответственно на 8,9% и 6,7%. Обоснована необходимость учитывать сроки переоценки, валюты, виды процентных ставок и поведение клиентов. Разработаны предложения по анализу разрыва переоценки, установлению внутренних лимитов, совместной оценке чистого процентного дохода и экономической стоимости капитала, а также расширению сценариев стресс-тестирования.

Ключевые слова: коммерческие банки, процентный риск, стресс-тестирование, чувствительные к процентным ставкам активы, процентный разрыв, чистый процентный доход, переоценка процентных ставок, экономическая стоимость капитала.

Kirish. Banklar moliyaviy vositachilik jarayonida turli muddat, valyuta va foiz stavkalariga ega aktivlar hamda majburiyatlarni shakllantiradi. Ularning qayta narxlanish muddatlari o‘rtasidagi nomutanosiblik bozor foiz stavkalari o‘zgarganda bankning daromadi va kapitaliga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli foiz riskini o‘z vaqtida aniqlash, baholash va cheklash tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Bank portfelidagi foiz riski foiz stavkalaridagi o‘zgarishlar natijasida bankning sof foizli daromadi va kapitalining iqtisodiy qiymati kamayishi ehtimolini ifodalaydi. Mazkur risk foizga sezgir aktivlar va majburiyatlarning qayta narxlanish muddatlari farqi, daromadlilik egri chizig‘i shaklining o‘zgarishi, turli moliyaviy vositalar stavkalari o‘rtasidagi bazis tafovuti hamda mijozlarning depozitlarni muddatidan oldin qaytarib olishi yoki kreditlarni oldindan so‘ndirishi natijasida yuzaga keladi [1].

Foiz stavkalarining o‘zgarishi banklarga bir xil ta’sir ko‘rsatmaydi. Agar muayyan muddat oralig‘ida foizga sezgir aktivlar miqdori foizga sezgir majburiyatlardan yuqori bo‘lsa, stavkalarning oshishi bank sof foizli daromadini ko‘paytirishi mumkin. Aksincha, foizga sezgir majburiyatlar ustun bo‘lgan sharoitda resurslar qiymatining tez o‘sishi sof foiz marjasini qisqartiradi. Shuning uchun foiz riskini faqat amaldagi daromad va xarajatlar dinamikasi asosida baholash bankning kelgusi foiz shoklariga sezgirligini to‘liq ifodalamaydi.

O‘zbekistonda inflyatsiya darajasi, Markaziy bank asosiy stavkasi, kreditlar va depozitlar bo‘yicha bozor stavkalarining o‘zgarishi tijorat banklarida foiz riskini boshqarish ahamiyatini oshirmoqda. Ayniqsa, uzoq muddatli qat’iy stavkadagi kreditlarni qisqa muddatda qayta narxlanadigan depozitlar va boshqa jalb qilingan mablag‘lar hisobiga moliyalashtirish bankning sof foizli daromadini foiz stavkalari oshishiga sezgir qiladi. Markaziy bank tomonidan banklar faoliyatining turli makroiqtisodiy va moliyaviy ssenariylar asosida muntazam stress-testdan o‘tkazilishi ham risklarni istiqbolli baholash zaruratini ko‘rsatadi [2].

Stress-test foiz stavkalaridagi mo‘tadil va keskin o‘zgarishlarning bank moliyaviy natijalariga ehtimoliy ta’sirini oldindan baholash imkonini beradi. Basel qo‘mitasining bank portfelidagi foiz riski bo‘yicha yondashuvida foiz stavkalarining parallel oshishi va pasayishi, qisqa muddatli stavkalar shoki, shuningdek, daromadlilik egri chizig‘ining tiklashishi va tekislanishi ssenariylaridan foydalanish nazarda tutilgan [3]. Bunday yondashuv foiz riskining ham daromad, ham iqtisodiy qiymatga ta’sirini baholashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. W. English foiz stavkalari o‘zgarishining bank sof foiz marjasiga ta’sirini 10 ta rivojlangan mamlakat bank tizimi ma’lumotlari asosida tadqiq etgan. Muallif foiz riskini daromad va iqtisodiy qiymat yondashuvlari bo‘yicha baholab, aktivlar daromadliligi uzoq muddatli, majburiyatlar qiymati esa qisqa muddatli stavkalarga tezroq moslashishini asoslagan. Tadqiqot natijalari daromadlilik egri chizig‘ining tiklashishi sof foiz marjasini oshirishi, foiz stavkalarining keskin ko‘tarilishi esa majburiyatlar qiymatining tez o‘sishi orqali uni qisqartirishi mumkinligini ko‘rsatgan [4]. Biroq tadqiqotda alohida banklar kesimidagi qayta narxlanish tafovutlari va stress-ssenariylar to‘liq hisobga olinmagan.

C. Borio, L. Gambacorta va B. Hofmann 14 ta rivojlangan mamlakatdagi 109 ta yirik bankning 1995-2012 yillarga oid ma’lumotlarini tahlil qilgan. Mualliflar qisqa muddatli foiz stavkalari darajasi va daromadlilik egri chizig‘i qiyaligi bilan bank aktivlari rentabelligi o‘rtasida ijobiy, ammo nochiziqli bog‘liqlik mavjudligini aniqlagan. Past foiz stavkalari va tekis daromadlilik egri chizig‘i uzoq vaqt saqlanganda banklarning sof foizli daromadi hamda rentabelligi pasayishi asoslangan [5]. Mazkur yondashuv makroiqtisodiy foiz muhitining bank daromadliligiga ta’sirini ochib bersa-da, foizga sezgir aktivlar va majburiyatlar tafovutini bevosita baholamaydi.

A. Abdymomunov, J. Gerlach va Y. Sakurai foiz stavkalari o‘zgarishining bank daromadi va kapitaliga ta’sirini birgalikda tadqiq etgan. Natijalarga ko‘ra, foiz stavkalarining 100 bazis bandga oshishi bank sof foiz marjasini ko‘paytirishi, ayni vaqtda kapitalning iqtisodiy qiymatini kamaytirishi mumkin. Mualliflar 2010-2021 yillardagi ma’lumotlar asosida 100 bazis bandlik parallel o‘sish AQSh bank tizimi kapitalining iqtisodiy qiymatini 8-18 foizga pasaytirishini aniqlagan. Shuningdek, kichik banklarning foiz shoklariga sezgirligi yirik banklarga nisbatan yuqori ekani ko‘rsatilgan [6]. Ushbu natijalar foiz riskini sof foizli daromad va kapitalning iqtisodiy qiymati bo‘yicha kompleks baholash zarurligini tasdiqlaydi.


S.S. Maksudova tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholashda tarixiy, gipotetik, bir omilli, ko‘p omilli, kompleks va teskari stress-testlardan foydalanish imkoniyatlarini o‘rgangan. Muallif stress-ssenariylar bankning risk xususiyatlariga muvofiq shakllantirilishi va kamida yilda bir marta qayta ko‘rib chiqilishi lozimligini ta’kidlagan. AT «Aloqabank» ma’lumotlari asosida kredit va likvidlilik risklari stress-testdan o‘tkazilgan [7]. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston banklari sharoitida stress-testdan foydalanish imkoniyatlarini ochib bergan, biroq foiz riski va sof foizli daromad sezgirligi alohida tadqiq etilmagan.

Basel qo‘mitasining bank portfelidagi foiz riski bo‘yicha standartida foiz riskini sof foizli daromad va kapitalning iqtisodiy qiymati asosida birgalikda baholash belgilangan. Standart banklardan foiz stavkalarining parallel oshishi va pasayishi, qisqa muddatli stavkalar shoki, daromadlilik egri chizig‘ining tiklashishi va tekislanishi ssenariylarini qo‘llashni talab qiladi [1;3]. Shuningdek, stress-testlarda qayta narxlanish muddatlari, valyutalar, talab qilib olinguncha depozitlarning xulq-atvor xususiyatlari va kreditlarni oldindan so‘ndirish ehtimoli hisobga olinishi lozim.

Adabiyotlar tahlili xorijiy tadqiqotlarda foiz riskini sof foizli daromad va kapitalning iqtisodiy qiymati orqali baholash usullari keng qo‘llanilishini ko‘rsatdi. O‘zbekiston banklari bo‘yicha tadqiqotlarda esa stress-testlar asosan kredit va likvidlilik risklariga nisbatan qo‘llangan. Foizga sezgir aktivlar va

majburiyatlar tafovuti hamda foiz shoklarining sof foizli daromadga ta’sirini banklar kesimida baholash yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur tadqiqot ushbu uslubiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar. O‘zbekistonda foiz riskining shakllanishi Markaziy bank asosiy stavkasi, banklararo pul bozori stavkalari hamda kredit va depozitlar qiymatidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Asosiy stavkaning o‘zgarishi dastlab banklararo qisqa muddatli stavkalarga, keyin esa tijorat banklarining kredit va depozit stavkalariga ta’sir ko‘rsatadi [8].



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki asosiy stavkasining dinamikasi, foizda.

Tahlil davrida asosiy stavka 13,5-15,0 foiz oralig‘ida shakllangan. Biroq yillar ichidagi o‘zgarishlar bundan yuqori bo‘lgan. Xususan, 2022 yil mart oyida asosiy stavka 14 foizdan 17 foizga oshirilgan, iyul oyida esa 15 foizga pasaytirilgan. 2024 yil iyul oyida stavka 14 foizdan 13,5 foizga tushirilgan. 2025 yil mart oyida esa u 0,5 foiz bandga oshirilib, 14 foiz darajasida belgilangan [8]. Mazkur o‘zgarishlar banklar foiz stavkalarining ham oshish, ham pasayish ssenariylariga tayyor bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi.

Foizga sezgir aktivlar tarkibiga boshqa banklardagi mablag‘lar, foiz daromadi keltiruvchi qimmatli qog‘ozlar, investitsiyalar hamda sof kredit va lizing operatsiyalari kiritildi. Foizga sezgir majburiyatlar muddatli depozitlar, Markaziy bank va boshqa banklardan jalb qilingan mablag‘lar, kredit majburiyatlari, chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar hamda subordinatsiyalangan qarzlardan shakllantirildi. Talab qilib olinguncha depozitlar bo‘yicha foizli xarajatlar O‘zmilliybankda juda past, «Turonbank»da esa nolga teng bo‘lgani uchun ular hisob-kitobda foizga sezgir majburiyatlarga kiritilmadi [9; 10].

Qayta narxlanish tafovuti quyidagi formula asosida aniqlandi:

$$GAP = RSA - RSL$$

Bu yerda:
RSA – foizga sezgir aktivlar;
RSL – foizga sezgir majburiyatlar.
Foiz stavkasi shokining sof foizli daromadga ta’siri quyidagicha hisoblandi:

$$\Delta NII = GAP \times \Delta r$$

Sof foizli daromadning nisbiy sezgirligi quyidagi formula orqali aniqlandi:

$$S_{NII} = \frac{|\Delta NII|}{NII_0}\ x\ 100$$

Bu yerda:
ΔNII – foiz stavkasi shoki natijasida sof foizli daromadning o‘zgarishi;
GAP – foizga sezgir aktivlar va foizga sezgir majburiyatlar o‘rtasidagi tafovut;
Δr – foiz stavkasi shoki;
NII_0 – stressdan oldingi sof foizli daromad;
S_{NII} – sof foizli daromadning foiz stavkasi shokiga nisbiy sezgirlik darajasi.

1-jadval

Tanlangan banklarning foizga sezgir pozitsiyalari, 2025 yil

Ko‘rsatkichlar	O‘zmilliybank	«Turonbank»

Foizga sezgir aktivlar, mlrd so‘m	128 533,4	18 100,5
Foizga sezgir majburiyatlar, mlrd so‘m	102 680,4	17 015,8
Foiz GAP, mlrd so‘m	25 853,1	1 084,7
Sof foizli daromad, mlrd so‘m	5 782,1	325,7
GAPning foizga sezgir aktivlarga nisbati, foizda	20,1	6,0

Har ikki bankda ham foiz GAP musbat qiymatga ega. O‘zmilliybankda foizga sezgir aktivlar foizga sezgir majburiyatlardan 25,9 trln so‘mga, «Turonbank»da esa 1,1 trln so‘mga yuqori bo‘lgan. GAPning foizga sezgir aktivlarga nisbati O‘zmilliybankda 20,1 foizni, «Turonbank»da 6,0 foizni tashkil etgan. Demak, soddalashtirilgan statik balans sharoitida O‘zmilliybankning foiz stavkalari o‘zgarishiga nisbiy sezgirligi yuqoriroq.

Stress-testda foiz stavkalarining 200 bazis bandga pasayishi, 200 bazis bandga oshishi va 400 bazis bandga oshishi ssenariylari qo‘llanildi. Aktivlar va majburiyatlar stavkalari bir xil darajada hamda bir vaqtda qayta narxlanishi qabul qilindi.

2-jadval

Foiz shoklarining banklar sof foizli daromadiga ta’siri

Banklar	Stavkaning 200 bazis bandga pasayishi	Stavkaning 200 bazis bandga oshishi	Stavkaning 400 bazis bandga oshishi
O‘zmilliybank, ΔNII, mlrd so‘m	-517,1	517,1	1 034,1
O‘zmilliybank, S_{NII}, foizda	-8,9	8,9	17,9
«Turonbank», ΔNII, mlrd so‘m	-21,7	21,7	43,4
«Turonbank», S_{NII}, foizda	-6,7	6,7	13,3

Stress-test natijalariga ko‘ra, foiz stavkalarining 200 bazis bandga pasayishi O‘zmilliybank sof foizli daromadini 517,1 mlrd so‘mga yoki 8,9 foizga kamaytirishi mumkin. «Turonbank»da ehtimoliy kamayish 21,7 mlrd so‘mni yoki sof foizli daromadning 6,7 foizini tashkil etadi. Demak, musbat GAP sharoitida banklar uchun foiz stavkalarining pasayishi daromad nuqtai nazaridan salbiy ssenariy hisoblanadi.

Stavkalar 200 bazis bandga oshganda O‘zmilliybank sof foizli daromadi 8,9 foizga, «Turonbank»niki esa 6,7 foizga ko‘payishi mumkin. 400 bazis bandlik shokda mazkur ta’sir mos ravishda 17,9 va 13,3 foizga yetadi. Bu natija foizga sezgir aktivlar hajmining majburiyatlardan yuqoriligi bilan izohlanadi.

Foiz riski darajasini guruhlash uchun sof foizli daromadning mutlaq sezgirligi bo‘yicha quyidagi ichki chegaralar taklif etildi:

S_{NII} darajasi	Risk bahosi
5 foizgacha	past
5,1-10,0 foiz	o‘rta
10,1-20,0 foiz	yuqori
20 foizdan yuqori	kritik

Ushbu mezon bo‘yicha 200 bazis bandlik shokda har ikki bankning foiz riski o‘rta darajada baholanadi. 400 bazis bandlik shokda esa ular yuqori risk toifasiga o‘tadi. O‘zmilliybankning sezgirlik darajasi «Turonbank»ka nisbatan 4,6 foiz bandga yuqori bo‘lgan.

Hisoblangan musbat GAP foiz stavkalari oshishi banklar uchun barcha holatlarda ijobiy bo‘lishini anglatmaydi. Amalda aktivlar va majburiyatlar stavkalari bir xil tezlikda o‘zgarmaydi. Muddatli depozitlar va banklararo mablag‘lar qiymati bozor stavkalariga tezroq moslashishi, uzoq muddatli qat’iy stavkadagi kreditlar daromadliligi esa shartnoma muddati tugaguncha o‘zgarmasligi mumkin. Bunday holatda resurslar qiymati aktivlar daromadliligidan tezroq o‘sib, hisoblangan musbat GAPning daromadga ijobiy ta’sirini kamaytiradi yoki uni salbiy holatga o‘zgartiradi.

Shu sababli banklarda foiz riskini baholashda balans qiymatlariga asoslangan umumiy GAP bilan cheklanish maqsadga muvofiq emas. Aktivlar va majburiyatlarni qayta narxlanish muddatlari bo‘yicha bir oygacha, bir oydan uch oygacha, uch oydan bir yilgacha, bir yildan besh yilgacha va besh yildan yuqori

oraliqlarga ajratish zarur. Har bir muddat oralig‘i bo‘yicha foiz GAP, jamlanma GAP va sof foizli daromad sezgirligi alohida hisoblanishi lozim.

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston tijorat banklarida foiz riski bank ko‘lami, resurslar tarkibi va aktivlar hamda majburiyatlarning qayta narxlanish xususiyatlariga qarab farqlanishini ko‘rsatdi. Shuning uchun stress-test ssenariylari barcha banklar uchun bir xil natijaviy chegaralarga emas, balki bankning biznes-modeli, valyuta pozitsiyasi, depozitlar barqarorligi va foiz stavkalari turiga muvofiq tabaqalashtirilishi zarur.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari foiz stavkalarining o‘zgarishi O‘zbekiston tijorat banklari sof foizli daromadi va moliyaviy barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatdi. 2020-2025 yillarda Markaziy bank asosiy stavkasining o‘zgarishi bank aktivlari va majburiyatlarini qayta narxlash, resurslar qiymati hamda kreditlar daromadliligini muvofiqlashtirish zaruratini kuchaytirgan.

2025 yil ma’lumotlari asosida O‘zmilliybankning shartli foiz GAPi 25,9 trln so‘mni, «Turonbank»niki esa 1,1 trln so‘mni tashkil etgan. Har ikki bankda ham foizga sezgir aktivlar foizga sezgir majburiyatlardan yuqori bo‘lib, musbat GAP shakllangan. Biroq GAPning foizga sezgir aktivlarga nisbati O‘zmilliybankda 20,1 foizni, «Turonbank»da 6,0 foizni tashkil etgan. Bu O‘zmilliybankning foiz stavkalari o‘zgarishiga nisbiy sezgirligi yuqoriroq ekanini ko‘rsatadi.

Stress-test natijalariga ko‘ra, stavkalarning 200 bazis bandga pasayishi O‘zmilliybank sof foizli daromadini 8,9 foizga, «Turonbank»nikini 6,7 foizga kamaytirishi mumkin. Stavkalarning 400 bazis bandga o‘zgarishi sharoitida sof foizli daromad sezgirligi mos ravishda 17,9 va 13,3 foizga yetadi. Taklif etilgan shartli mezonlar bo‘yicha 200 bazis bandlik shokda har ikki bank o‘rta, 400 bazis bandlik shokda esa yuqori risk toifasiga kiradi.

Musbat GAP foiz stavkalari oshishi bank daromadini barcha holatlarda ko‘paytirishini anglatmaydi. Amalda depozitlar va boshqa jalb qilingan mablag‘lar stavkalari bozor sharoitiga kreditlar stavkalaridan tezroq moslashishi mumkin. Ayniqsa, uzoq muddatli qat’iy stavkadagi kreditlar qisqa muddatda qayta narxlanadigan resurslar bilan moliyalashtirilganda foiz stavkalarining oshishi sof foiz marjasini pasaytiradi. Shu sababli foiz riskini baholashda balans qiymatlari bilan birga qayta narxlanish muddatlari, foiz stavkasi turi, valyutalar va mijozlar xulq-atvori hisobga olinishi lozim.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Qayta narxlanish GAP tahlilini joriy etish.

Tijorat banklari foizga sezgir aktivlar va majburiyatlarni bir oygacha, bir oydan uch oygacha, uch oydan bir yilgacha, bir yildan besh yilgacha va besh yildan yuqori muddat oraliqlari bo‘yicha guruhlashi lozim. Har bir oraliq uchun davriy va jamlanma GAP alohida hisoblanishi kerak. Hisob-kitoblar milliy va xorijiy valyutalar kesimida amalga oshirilishi zarur.

2. Foiz riski stress-testlarini kengaytirish.

Stress-testlarda stavkalarning 200 va 400 bazis bandga parallel oshishi hamda pasayishi bilan birga daromadlilik egri chizig‘ining tiklashishi, tekislanishi va qisqa muddatli stavkalar shoki qo‘llanilishi maqsadga muvofiq. Ssenariylar kamida har chorakda o‘tkazilib, bozorda keskin o‘zgarish kuzatilganda navbatdan tashqari qayta hisoblanishi lozim.

3. Sof foizli daromad sezgirligi bo‘yicha ichki limitlarni belgilash.

Sof foizli daromadning stress sharoitidagi o‘zgarishi uchun quyidagi ichki chegaralardan foydalanish taklif etiladi:

5 foizgacha, past risk;

5,1-10,0 foiz, o‘rta risk;

10,1-20,0 foiz, yuqori risk;

20 foizdan yuqori, kritik risk.

Sezgirlik 10 foizdan oshganda aktivlar va majburiyatlarni boshqarish qo‘mitasi tomonidan tuzatish choralari ishlab chiqilishi, 20 foizdan oshganda esa yangi foiz pozitsiyalarini cheklash lozim.

4. Sof foizli daromad va kapitalning iqtisodiy qiymatini birgalikda baholash.

Banklar qisqa muddatli ta’sirni sof foizli daromad, uzoq muddatli ta’sirni kapitalning iqtisodiy qiymati orqali baholashi kerak. Faqat daromad yondashuvidan foydalanish uzoq muddatli qat’iy stavkadagi aktivlar qiymati pasayishini to‘liq aks ettirmaydi. Mazkur ikki ko‘rsatkichni birgalikda qo‘llash Basel IRRBB tamoyillariga muvofiq keladi [1; 3].

5. Aktivlar va majburiyatlarning qayta narxlanishini muvofiqlashtirish.

Uzoq muddatli qat’iy stavkadagi kreditlar barqaror va o‘xshash muddatli resurslar bilan moliyalashtirilishi lozim. Qisqa muddatli resurslar hisobiga moliyalashtiriladigan uzoq muddatli

kreditlarda o‘zgaruvchan foiz stavkasi yoki davriy qayta ko‘rib chiqiladigan stavka qo‘llanilishi maqsadga muvofiq. Bu resurslar qiymati oshganda sof foiz marjasining keskin qisqarishini cheklaydi.

6. Foiz riskini ichki transfert narxlash tizimiga kiritish.

Kredit va depozit mahsulotlari narxini belgilashda resursning muddati, valyutasi, qayta narxlanish xususiyati va foiz riski qiymati hisobga olinishi kerak. Uzoq muddatli yoki qat’iy stavkadagi kreditlarga foiz riski uchun qo‘shimcha ustama belgilanishi bank bo‘linmalarini resurs qiymati va balans imkoniyatlarini hisobga olishga undaydi.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi tijorat banklarida foiz riskini erta aniqlash, sof foizli daromadning keskin o‘zgarishini cheklash va aktivlar hamda majburiyatlarni boshqarish qarorlarining asoslanganligini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Basel Committee on Banking Supervision. Interest Rate Risk in the Banking Book. Basel: Bank for International Settlements, 2016.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2025 yil uchun yillik hisobot. Toshkent, 2026.
3. Basel Committee on Banking Supervision. Recalibration of Shocks in the Interest Rate Risk in the Banking Book Standard. Basel: Bank for International Settlements, 2024.
4. English W.B. Interest Rate Risk and Bank Net Interest Margins // BIS Quarterly Review. 2002. December. P. 67-82.
5. Borio C., Gambacorta L., Hofmann B. The Influence of Monetary Policy on Bank Profitability. BIS Working Papers, No. 514. Basel: Bank for International Settlements, 2015.
6. Abdymomunov A., Gerlach J., Sakurai Y. Interest Rate Risk in the U.S. Banking Sector. Federal Reserve Bank of Richmond, 2023.
7. Maksudova S.S. Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta’minlashda stress-testni o‘tkazish amaliyoti va tahlili // «Xalqaro moliya va hisob» ilmiy elektron jurnali. 2024. № 1.
8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Asosiy stavka dinamikasi va pul-kredit siyosatiga oid ma’lumotlar, 2020-2025 yillar.
9. «O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki» AJ. 2025 yil yakuni bo‘yicha moliyaviy hisobot. Toshkent, 2026.
10. «Turonbank» ATB. 2025 yil yakunlari bo‘yicha yillik hisobot. Toshkent, 2026.

YOSHLAR TADBIRKORLIGI FAOLIYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATLARI

Gulomqodirova Ma’mura Saydumarxon qizi
Qo‘qon universiteti doktoranti
ORCID: 0009-0001-8174-9173
E-mail: mamurakokanduniversity@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21916662

Annotatsiya. Ushbu tezisda yoshlar tadbirkorligi faoliyatini boshqarishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etiladi. Tadbirkorlik nazariyalarining evolyutsiyasi hamda xorijiy, MDH va o‘zbek olimlarining qarashlari negizida yoshlar tadbirkorligini boshqarishning mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari va metodologik yondashuvlari asoslab beriladi. Boshqaruvning innovatsion, moslashuvchan, raqamli va inson kapitaliga yo‘naltirilgan tamoyillari tizimli tarzda umumlashtiriladi hamda muallif nuqtayi nazari bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: yoshlar tadbirkorligi, tadbirkorlik boshqaruvi, innovatsion boshqaruv, moslashuvchan boshqaruv, inson kapitali, risklarni boshqarish, raqamli iqtisodiyot, metodologik yondashuv.

Zamonaviy iqtisodiyotda yoshlar tadbirkorligi tez rivojlanayotgan, istiqbolli sohalardan biriga aylangan. Bu faqat yangi biznes g‘oyalarini amalga oshirish emas, balki yoshlarning ixtirosi, tashabbuskorlik ruhi, xavflarni oqilona baholash qobiliyati hamda bozordagi yangi imkoniyatlarni tez topish ko‘nikmasi bilan ham bog‘liq. Bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan birga, yoshlarning tadbirkorlikdagi ishtiroki iqtisodiy o‘sish, bandlikni oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va raqobat muhitini mustahkamlash jihatlari uchun ham ahamiyatli ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, ularning potensialidan to‘liq foydalanish nafaqat moliyaviy yordam yoki institutsional qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. Buning uchun ilmiy asoslangan boshqaruv yondashuvlari, zamonaviy boshqaruv vositalari hamda mexanizmlarini joriy etish zarur. Shu sababli ham yoshlar tadbirkorligini boshqarishning nazariy asoslari, metodologiyasi, mavjud tadqiqotlarning tizimli tahlili hamda amaliy yechimlarni takomillashtirish — zamonaviy ilm-fanda dolzarb masala sifatida qolmoqda.

Yoshlar tadbirkorligi-ma’lum yosh guruhiga mansub shaxslarning foyda olish,o‘z iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirish hamda jamiyat oldidagi muammolarga yangi yondashuv bilan yechim topishga qaratilgan faoliyat sifatida tushuniladi. Bu faqat tadbirkorlik qilish yoki daromad olishdan hamda undan ham muhimroq-yoshlarda iqtisodiy mustaqillik, yetakchilik qonbiliyati va boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat bo‘lgan kengaytirilgan jarayondir. Shunday ekan,yoshlar tadbirkorligini alohida ilmiy o‘rganish lozim bo‘lgan mustaqil soha sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Tadbirkorlik boshqaruvining nazariy poydevorlari iqtisodiy fan tarixida uzoq muddat rivojlanib kelgan. Birinchi marta XVIII asrda fransuz olimi R. Kantilon “tadbirkor” atamasini ilmiy aylanaga kiritdi — uni bozordagi noaniqlik va xavflar sharoitida faoliyat yurituvchi alohida iqtisodiy subyekt sifatida ta’rifladi. Bu yondashuv ayniqsa yoshlarning yangi biznes g‘oyalari bilan chiqishidagi jasoratli, tashabbuskor xatti-harakatlarini tushunish uchun muhim metodologik poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Keyinchalik J. B. Sey tadbirkorning ishlab chiqarish resurslarini birlashtirishdagi ahamiyatini alohida ta’kidladi. Lekin asosiy burilish nuqtasi XX asrda J. Shumpeter tomonidan yaratildi: u tadbirkorlikni innovatsiyalar, yangilik kiritish va “ijodiy vayronagarchilik” tushunchalari bilan bog‘lab, iqtisodiy rivojlanishning asosiy dvigateli sifatida ko‘rdi. Shunday qilib, tadbirkor nafaqat foyda olish uchun ishlaydi, balki tizimni o‘zgartiruvchi kuchga aylanadi.

P. Druker tadbirkorlikni o‘zgarishlarni aniqlash, ularni iqtisodiy foydaga aylantirish va yangi qiymat yaratishga qaratilgan tizimli jarayon sifatida tushungan. U shuningdek, “maqsadlar bo‘yicha boshqaruv” g‘oyasini keng joriy etishga hissa qo‘shdi — ya’ni tashkilotlar faoliyatini aniq natijalarga yo‘naltirish tamoyilini ilgari surdi. MDH mamlakatlari hamda O‘zbekiston olimlari tadbirkorlik boshqaruvini milliy iqtisodiyot rivojlanishi kontekstida o‘rganishga moyillik bildirishadi. Masalan, A. V. Busygin uni iqtisodiy javobgarlik va xavf-qurbonchilik bilan bog‘liq bo‘lgan mustaqil faoliyat sifatida ta’riflaydi. O. S. Vixanskiy esa tadbirkorlikni uzoq muddatli strategik maqsadlarga erishishga qaratilgan jarayon deb ko‘radi. Q. X. Abdurahmonov tadbirkorlikni aholini band qilish hamda inson kapitalini samarali ishlatish vositasi sifatida qaraydi. Bunga qo‘shimcha ravishda, A. O‘lmasov va Sh. Sh. Shodmonov tadbirkorlikni resurslarni oqilona boshqarish orqali foyda olishga intiluvchi xo‘jalik shakli deb tushunadi.

Barcha ushbu fikrlar birlashib, tadbirkorlik boshqaruvining asosiy mohiyatini — maqsadga yo‘naltirilganlik, inson omiliga e’tibor va resurslarni samarali taqsimlash — aks ettirishini ko‘rsatadi.

Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar tadbirkorligini boshqarish an’anaviy tadbirkorlik modellaridan bir nechta jihatlari bilan farq qiladi. Bu farqlar asosan yosh tadbirkorlarning ijtimoiy-demografik xususiyatlari, cheklangan moliyaviy imkoniyatlari, amaliy tajribaning kamligi hamda yuqori darajadagi innovatsion qobiliyati bilan bog‘liq. Bir tomondan, yoshlar yangi bilimlarni tez o‘zlashtirish, raqamli texnologiyalardan erkin foydalanish va noaniqlik sharoitida qaror qabul qilishdagi moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Boshqa tomondan, tajriba yetishmasligi, mablag‘larning cheklanganligi va tarmoq aloqalarining torligi ular uchun jiddiy to‘siqlarga aylanadi. Shu sababli ham yoshlar tadbirkorligi boshqaruv faoliyati bir vaqtning o‘zida katta iste’dod va imkoniyatlar, hamda aniq cheklovlar bilan bog‘liq bo‘lgan jarayon sifatida qaraladi. Bu esa boshqaruv yondashuvlarida innovatsionlik, moslashuvchanlik, raqamli vositalardan foydalanish, resurslarni samarali boshqarish hamda risklarni tizimli nazorat qilishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

Yoshlar tadbirkorligini boshqarishning metodologik asoslari bir nechta ilmiy yondashuvlarning uyg‘unligiga tayanadi. Tizimli yondashuv boshqaruvni o‘zaro bog‘langan elementlar tizimi sifatida qarashni, jarayoniy yondashuv esa rejalashtirish, tashkilotlash, rag‘batlantirish va nazorat qilish kabi bosqichlarning uzluksiz oqimini aks ettirishni nazarda tutadi. Vaziyatli yondashuv esa qaror qabul qilishda iqtisodiy, ijtimoiy va atrof-muhit sharoitlariga mos ravishda moslashuvchan yondashuvni ta’minlaydi. Bu asosiy yondashuvlarni yanada rivojlantirish uchun kompetensiyaviy hamda innovatsiyaga asoslangan yondashuvlar qo‘shiladi. Ularning mazmuni hamda yoshlar tadbirkorligi sohasida qo‘llanilishi 1-jadvalda batafsil keltirilgan.

1-jadval

Yoshlar tadbirkorligini boshqarishning metodologik yondashuvlari

№	Yondashuv	Asosiy mohiyati	Yoshlar tadbirkorligini boshqarishda qo‘llanilishi
1	Tizimli yondashuv	Boshqaruvni o‘zaro bog‘liq elementlar – maqsad, resurslar, jarayonlar va natija – majmui sifatida qarash.	Yosh tadbirkor biznesini yaxlit ekotizim sifatida ko‘rish; barcha resurs va aloqalarni yagona tizimga bog‘lash.
2	Jarayoniy yondashuv	Boshqaruvni rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya va nazorat funksiyalarining uzluksiz ketma-ketligi sifatida talqin qilish.	Biznes g‘oyadan natijaga qadar bosqichlarni izchil boshqarish; har bir funksiyaning uzviyligini ta’minlash.
3	Vaziyatli yondashuv	Boshqaruv qarorlarini yagona qolipga solmasdan, aniq iqtisodiy vaziyat va sharoitga moslashtirish.	Bozor o‘zgaruvchanligiga tezkor moslashish; noaniqlik sharoitida moslashuvchan qarorlar qabul qilish.
4	Kompetensiyaviy yondashuv	Boshqaruv samaradorligini inson kapitali – bilim, malaka va ko‘nikmalar orqali baholash.	Yosh tadbirkorlarning boshqaruv kompetensiyalari, mentorlik va ta’lim orqali rivojlantirilishi.
5	Innovatsion yondashuv	Boshqaruvni yangi g‘oyalar, texnologiyalar va biznes modellarini joriy etish jarayoni sifatida qarash.	Startaplar, raqamli xizmatlar va yangi biznes yechimlarini boshqaruvga tatbiq etish.

Yosh tadbirkorlarda amaliy tajriba etishmasligi boshqaruvda maslahat xizmatlari, mentorlik dasturlari hamda biznes inkubatorlarining ahamiyatini yanada oshiradi. Bu institutlar ular uchun nafaqat bilim manbai, balki tajriba, tarmoq hamda ishonchli qo‘llab-quvvatlash tizimi sifatida ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, moliyaviy hamda boshqa resurslarga cheklangan kirish ular uchun mavjud imkoniyatlarni

aniq hisob-asos bilan taqsimlash, qo‘shimcha mablag‘ manbalarini izlash va ulardan samarali foydalanishni boshqaruvning asosiy vazifalariga aylantiradi. Bunday sharoitlarda yoshlar tadbirkorligini samarali boshqarish — ochiq, integratsion va tarmoqli hamkorlikka asoslangan modelni talab qiladi. Bunda ta’lim muassasalari, davlat tashkilotlari, investorlar hamda biznes hamjamiyati yagona rivojlanish ekotizimida hamkorlik qiladi.

Muallif fikricha, yoshlar tadbirkorligi boshqaruvining samaradorligi to‘rtta asosiy omilga bog‘liq: innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi, inson kapitalining uzluksiz rivojlanishi hamda cheklangan resurslardan aqlli foydalanish. Bu omillarning uyg‘unligi yosh tadbirkorlarning moslashuvchanligi, raqobatbardoshligi hamda biznesning barqaror rivojlanishini mustahkamlaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yoshlar tadbirkorligini boshqarish tadbirkorlik nazariyalarining tarixiy rivojlanishiga tayanadi. Metodologik jihatdan esa u tizimli, jarayoniy hamda vaziyatga mos boshqaruv yondashuvlarining uyg‘unligini talab etadi.

Boshqaruvning innovatsion, moslashuvchan, raqamli texnologiyalarga asoslangan hamda inson kapitaliga e’tibor qaratuvchi tamoyillari yosh tadbirkorlarning raqobatbardoshligini oshirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli ham yoshlar tadbirkorligi uchun samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish nafaqat innovatsion iqtisodiyot shakllanishiga, balki aholi farovonligini oshirish hamda mamlakatning umumiy raqobatbardoshligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Shu tufayli bu soha zamonaviy ilm-fanda dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. – M.: Progress, 1982. – 455 s.
2. Druker P. F. Biznes va innovatsiyalar / tarj. – M.: Vilyams, 2007. – 432 s.
3. Busygin A. V. Predprinimatelstvo: uchebnik. – M.: Delo, 2003. – 640 s.
4. Vixanskiy O. S., Naumov A. I. Menejment: uchebnik. – M.: Ekonomistъ, 2006. – 670 s.
5. Abdurahmonov Q. X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. – T.: “O‘qituvchi”, 2019. – 592 b.
6. O‘lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2014. – 480 b.
7. Shodmonov Sh. Sh., G‘afurov U. V. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2010. – 728 b.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ МОТИВАЦИИ ЛИЧНОСТИ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

Мухамеджанова Римма Рашидовна
EMU UNIVERSITY Ассистент кафедры ’Общественных наук”
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21916805

Аннотация. В статье рассматриваются психологические факторы, определяющие формирование и развитие мотивации личности при обучении иностранному языку. Проведен анализ современных психологических концепций мотивации, раскрыто влияние внутренней и внешней мотивации, самоэффективности, языковой тревожности, академической самооценки и образовательной среды на успешность изучения иностранного языка. Представлены предварительные результаты эмпирического исследования, подтверждающие взаимосвязь между психологическими характеристиками обучающихся и уровнем их учебной мотивации. Сделан вывод о необходимости комплексного психолого-педагогического сопровождения процесса обучения иностранному языку.
Ключевые слова: мотивация личности, учебная мотивация, иностранный язык, психологические факторы, самоэффективность, языковая тревожность, внутренняя мотивация.

Актуальность исследования. Развитие международного сотрудничества, цифровизация образования и возрастающие требования рынка труда обусловливают необходимость высокого уровня владения иностранными языками. В этой связи особую актуальность приобретает проблема изучения психологических факторов, влияющих на мотивацию личности в процессе обучения иностранному языку. Несмотря на значительное количество исследований, посвященных мотивации учебной деятельности, вопросы комплексного влияния когнитивных, эмоциональных и личностных факторов на формирование устойчивой мотивации остаются недостаточно изученными.

Современная психология рассматривает мотивацию как динамическую систему внутренних и внешних побуждений, определяющих направленность, интенсивность и устойчивость деятельности. Именно мотивация обеспечивает активное включение личности в образовательный процесс, способствует преодолению трудностей и достижению высоких результатов обучения.

Особую научную значимость приобретает исследование мотивации в условиях изучения иностранного языка, поскольку данный процесс требует длительной познавательной активности, эмоциональной устойчивости, высокой степени саморегуляции и развитых коммуникативных способностей.

Теоретические основы исследования. Теоретической основой исследования послужили положения культурно-исторической теории Л. С. Выготского, деятельностного подхода А. Н. Леонтьева и С. Л. Рубинштейна, концепции самоэффективности А. Бандуры, теории самоопределения Э. Деси и Р. Райана, а также исследования мотивации изучения иностранного языка, представленные в работах Р. Гарднера и З. Дёрнеи.

Согласно теории самоопределения, наиболее устойчивые результаты обучения достигаются при преобладании внутренней мотивации, основанной на познавательном интересе, стремлении к саморазвитию и удовлетворении базовых психологических потребностей личности.

Концепция самоэффективности А. Бандуры объясняет влияние убежденности человека в собственных возможностях на успешность учебной деятельности. Высокая самоэффективность способствует постановке более сложных целей, настойчивости в их достижении и эффективному преодолению возникающих трудностей.

Исследования Р. Гарднера и З. Дёрнеи показывают, что успешность изучения иностранного языка определяется не только интеллектуальными способностями обучающегося, но и особенностями его мотивационной сферы, эмоционального состояния и социальной среды.

Основные психологические факторы мотивации. Проведенный теоретический анализ позволил выделить наиболее значимые психологические факторы формирования мотивации личности при обучении иностранному языку.

К ним относятся:

* внутренняя учебная мотивация;
* внешняя мотивация;
* самоэффективность личности;
* уровень языковой тревожности;
* академическая самооценка;
* эмоциональная устойчивость;
* поддержка преподавателя;
* психологический климат образовательной среды;
* профессиональная направленность обучения;
* осознание практической значимости иностранного языка.

Установлено, что наиболее устойчивую положительную связь с успешностью обучения имеют внутренняя мотивация и самоэффективность личности. Напротив, высокий уровень языковой тревожности отрицательно влияет на речевую активность, уверенность обучающихся и качество усвоения учебного материала.

Предварительные результаты исследования. В рамках диссертационного исследования проводится изучение психологических факторов мотивации личности при обучении иностранному языку среди обучающихся общеобразовательных школ и учреждений профессионального образования.

В исследовании приняли участие 236 респондентов. Предварительный анализ полученных данных свидетельствует о наличии статистически значимых взаимосвязей между уровнем учебной мотивации и такими психологическими характеристиками, как самоэффективность, внутренняя мотивация, уровень тревожности и академическая самооценка.

Полученные результаты позволяют предположить, что развитие внутренней мотивации и формирование позитивной учебной самооценки являются важнейшими условиями повышения эффективности обучения иностранным языкам.

Выводы. Результаты теоретического анализа и предварительных эмпирических исследований подтверждают, что мотивация личности при обучении иностранному языку формируется под воздействием комплекса взаимосвязанных психологических факторов. Наиболее существенное влияние оказывают внутренняя мотивация, самоэффективность личности, эмоциональное состояние обучающихся и особенности образовательной среды.

Полученные результаты могут служить научной основой для разработки психолого-педагогических программ, направленных на повышение учебной мотивации, снижение языковой тревожности и совершенствование образовательного процесса в условиях изучения иностранных языков.

Литература

1. Выготский Л. С. “Мышление и речь”.
2. Леонтьев А. Н. “Деятельность. Сознание. Личность”.
3. Рубинштейн С. Л. “Основы общей психологии”.
4. Bandura A. “Self-Efficacy: The Exercise of Control”. New York: Freeman, 1997.
5. Deci E. L., Ryan R. M. “Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior”. New York: Plenum Press, 1985.
6. Gardner R. C. “Social Psychology and Second Language Learning”. London: Edward Arnold, 1985.
7. Dörnyei Z. “The Psychology of the Language Learner”. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2005.

IQTISODIY O‘SISH VA UNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH YO‘NALISHLARI

Tursinbayev Azizbek Nabijon o‘g‘li
Iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi Namangan davlat universiteti Namangan, O‘zbekiston
https://orcid.org0009-0009-5300-9934
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21916897

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotning poydevori hisoblangan milliy boylik tushunchasi, uning tarkibiy qismlari va shakllanish manbalari atroflicha tahlil qilingan. Milliy hisoblar tizimi (MHT) doirasida Yalpi ichki mahsulotni (YIM) hisoblashning uchta asosiy usuli — ishlab chiqarish (qo‘shilgan qiymat), xarajatlar va daromadlar usullari yoritib berilgan. Shuningdek, iqtisodiy o‘sish tushunchasi, uning aholi farovonligidagi o‘rni va O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari, jumladan, investitsiyalarni jalb qilish va modernizatsiya jarayonlari bayon etilgan.
Kalit so‘zlar: Milliy boylik, Yalpi ichki mahsulot (YIM), milliy hisoblar tizimi, iqtisodiy o‘sish, investitsiya, iste’mol xarajatlari, sof eksport, modernizatsiya, makroiqtisodiy muvozanat.
Аннотация: В данной статье представлен подробный анализ концепции национального богатства, которое рассматривается как основа национальной экономики, его компонентов и источников формирования. В рамках Системы национальных счетов (СНС) выделены три основных метода расчета валового внутреннего продукта (ВВП) – производственный (добавленная стоимость), расходный и доходный методы. Также описана концепция экономического роста, его роль в благосостоянии населения и приоритетные направления обеспечения экономического роста в условиях Узбекистана, включая привлечение инвестиций и процессы модернизации.
Ключевые слова: национальное богатство, валовой внутренний продукт (ВВП), система национальных счетов, экономический рост, инвестиции, потребительские расходы, чистый экспорт, модернизация, макроэкономический баланс.
Abstract: This article provides a detailed analysis of the concept of national wealth, which is considered the foundation of the national economy, its components and sources of formation. Within the framework of the System of National Accounts (SNA), three main methods of calculating Gross Domestic Product (GDP) are highlighted - production (value added), expenditure and income methods. The concept of economic growth, its role in the well-being of the population and the priority areas for ensuring economic growth in the conditions of Uzbekistan, including investment attraction and modernization processes, are also described.
Keywords: National wealth, Gross Domestic Product (GDP), system of national accounts, economic growth, investment, consumer spending, net exports, modernization, macroeconomic balance.

KIRISH. Milliy boylik insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg‘arilgan moddiy, nomoddiy va intellektual hamda tabiiy boyliklardan iboratdir.

Milliy boylikni shartli ravishda quyidagi uchta yirik tarkibiy qismlarga ajratish mumkin[1]:

- Moddiy-buyumlashgan boylik,
- Nomoddiy boylik,
- Tabiiy boylik.

Moddiy-buyumlashgan boylik oxir-oqibatda ishlab chiqarishning, unumli mehnatning natijasi hisoblanadi. U ishlab chiqarish yaratilganda mahsulotlarning joriy iste’mol qilishdan ortiqcha qismini jamg‘arish oqibatida vujudga keladi va o‘sib boradi.

Ammo moddiy-buyumlashgan boylikni qator yillardagi yillik yalpi mahsulotlar yig‘indisi sifatida tasavvur qilish noto‘g‘ri bo‘lar edi. Chunki bu boylikning bir qismi har yili ishdan chiqarib, qaytadan yangilanib turadi (ishlab chiqarish vositalari, iste’mol buyumlari). Shu sababli ishlab chiqarish vositalarining o‘rnini qoplash bilan bir vaqtda yalpi mahsulotning faqat bir qismi moddiy-buyumlashgan boylik sifatida jamg‘arilib boriladi. Demak, qoplash fondi va moddiy buyumlashgan boylikning o‘sishi yalpi milliy mahsulot hisobiga amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish xarakteridagi asosiy kapital (fondlar). Bular butun milliy boylikning tarkibid a ancha katta salmoqqa ega bo`ladi, hamda o`zining texnikaviy darajasi bo`yicha yalpi milliy mahsu lotning o`sish imkoniyatini belgilab beradi: noishlab chiqarish xarakteridagi asosiy kapital (fondlar).

Asosiy kapitalning bu turiga mamlakatning uyjoy fondi,ijtimoiy madaniy xarakterdagi obyektlar kiradi aylanma kapital (fondlar). Milliy boylikning bu qismi mehnat predmetlarida

n iborat bo`lib,asosiy kapitalning taxminan 1/4 qismini tashkil qiladi[2]. Tugallanmagan ishlab chiqaris hning moddiybuyumlashgan qismi. Ular ishlab chiqarish bosqishida Mehnat jarayoni ta‘siri ostida b o`lib, potensial tayyor mahsulot hisoblanadi.

Moddiy zahiralar va ehtiyojlar. Bunga muomala bosqichdagi tayyor mahsulot, korxonalar va savdo tarmoqlaridagi moddiy zayiralar, davlat ehtiyojlari va rezerv fondlari ki radi. Moddiy zayiralar iqtisodiyotda ro`y berishi mumkin bo`lgan va oldindan bilib bo`lmaydigan fa vqulotda rolatlarda foydalanish maq-sadida ushlab turiladi.

Milliy hisoblar tizimi asosini yig’ma balanslar tashkil qiladi. Bunga daromad va xarajatlar balansi misol bo’lishi mumkin. Daromadlar xo’jalik birliklari va aholi umumiy daromadlari (ish haqi, foyda, daromadlarning boshqa turlari, amortizatsiya) summasini aks ettiradi. Xarajatlar to’rtta guruxdan iborat bo’ladi: iste’mol, investitsiyalar, davlat xaridi, sof eksport. Milliy hisoblar makroiqtisodiyotning me’yordagi - muvozanatli holatga erishish darajasini aniqlashga yordam beradi.

Ushbu milliy hisoblar tizimi asosida YIM uch xil usul bilan hisoblanishi mumkin:

Birinchi usul - bu YIMni hisoblashga qo’shilgan qiymatlar bo’yicha yondashuv Bunda milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bo’yicha yaratilgan qo’shilgan qiymatlar qo’shib chiqiladi (YIM tarmoq va ishlab chiqarishlar bo’yicha). Bu usul bilan hisoblangan YIM alohida tarmoqlarning shu mahsulotini yaratishdagi o’rnini va hissasini aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchi usul - bu YIMni hisoblashga sarf-xarajatlar bo’yicha yondashuv Bunda mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulot (xizmat)lar hajmini sotib olishga qilingan butun sarflar qo’shib chiqiladi. Milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan pirovard mahsulotlarni mamlakat ichida xo’jalikning uchta sub’ekti - uy xo’jaliklari, davlat, tadbirkorlar, hamda tashqaridan chet ellik iste’molchilar sotib olishi mumkin. Uy xo’jaliklarining iste’mol sarflari - bu kundalik ehtiyojdagi tovarlarga, xizmatlarga, uzoq muddat foydalaniladigan iste’mol buyumlariga va boshqalarga qilinadigan sarflardir.

Investitsion sarflar - tadbirkorlik sektorining asosiy kapitalni yalpi jamg’arishga qiladigan sarflaridir.

Investitsion sarflar asosan uchta qismdan iborat:

a) tadbirkorlar tomonidan mashina, uskuna va stanoklarning barcha xaridi;

b) barcha qurilishlar;

v) zahiralarning o’zgarishi.

Birinchi gurux elementlarning “investitsion sarflar” tarkibiga kiritilish sababi aniq; qurilishlarning bunday sarflar tarkibiga kiritilishi. yangi fabrika, ombor yoki elevator qurilishi investitsiyalar shakli hisoblanadi. YIM tarkibiga tovar zaxiralarnish ko’payishi, ya’ni ishlab chiqarilgan, lekin mazkur yilda sotilmagan barcha mahsulotlar kiritiladi. ya’ni YIM o’z ichiga yil davomidagi zahiralar va extiyotlar barcha o’sishining bozor qiymatini oladi. Zaxiralarning bu o’sishi YIMga joriy ishlab chiqarish hajmi ko’rsatkichi sifatida qo’shiladi. Zahiralar kamayganda, bu kamayish YIM hajmidan chiqarilishi zarur. Zahiralarning kamayishi yil davomida milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilgandan ko’proq mahsulot sotilganligini bildiradi. Boshqacha aytganda jamiyat mazkur yilda ishlab chiqarilgan barcha mahsulotni va bunga qo’shimcha oldingi yillardan qolgan zahiralarning bir qismini iste’mol qilgan bo’ladi.

Milliy hisoblar tizimida YIMni hisoblashda yalpi, xususiy va ichki investitsiyalar tushunchasidan foydalaniladi. Xususiy va ichki investitsiyalar mos ravishda xususiy va milliy kompaniyalar amalga oshiradigan investitsion sarflarni bildiradi. yalpi investitsiyalar o’z ichiga joriy yilda ishlab chiqarish jarayonida iste’mol qilingan mashina, uskuna va qurilmalarning o’rnini qoplash uchun mo’ljallangan barcha investitsion tovarlar ishlab chiqarishni, hamda iqtisodiyotda kapital qo’yilmalar hajmiga har qanday sof qo’shimchalarni oladi. yalpi investitsiyalar mohiyatiga ko’ra iste’mol qilingan asosiy kapitalni qoplash summasini va investitsiyalarning o’sgan qismidan iborat bo’ladi. Boshqa tomondan sof xususiy ichki investitsiyalar tushunchasi joriy yil davomida qo’shilgan investitsion tovarlar summasini tavsiflash uchun ishlatiladi. Davlat sarflari - bu mahsulotlarni va iqtisodiy resurslarni, xususan ishchi kuchini sotib olishga davlatning (boshqaruvning quyi va mahalliy organlari bilan birga) qilgan barcha sarflarini o’z ichiga oladi.

Chet elliklarning milliy iqtisodiyot tovarlariga sarflari xuddi mamlakat ichidagi iste’molchilik sarflari kabi milliy ishlab chiqarish darajasiga bog’liq. Shu sababli YIMni sarflar bo’yicha hisoblashda tovar va xizmatlarga chet elliklarning sarflari, ya’ni eksport qiymati ham qo’shiladi. Boshqa tomondan, iste’mol va investitsion sarflar hamda davlat mablag’larining bir qismi import qilingan, ya’ni chet elda ishlab chiqarilgan tovarlarga sarflanadi. Milliy ishlab chiqarishning umumiy hajmi asossiz oshib ketmasligi uchun import hajmi YIM tarkibidan chiqariladi. Eksport va import miqdorlari o’rtasidagi farq tovar va

xizmatlarning sof eksporti yoki oddiy qilib sof eksport deyiladi. Sof eksport ijobiy va salbiy bo’lishi mumkin. Agar eksport importdan ortiq bo’lsa ijobiy, import eksportdan ortiq bo’lsa salbiy bo’ladi.

Uchinchi usul - bu YIMni hisoblashga daromadlar bo’yicha yondashuv. Mazkur yilda ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot hajmidan olingan barcha daromadlar uy xo’jaliklari ixtiyoriga ish haqi, renta to’lovlari, foiz va foyda shaklida kelib tushadi. Shu sababli bu usulda YIM pirovard mahsulot hisobidan olingan ana shu barcha daromadlarni qo’shib chiqish orqali aniqlanadi. YIMni daromadlar bo’yicha hisoblashda uy xo’jaliklari, korxona va davlat muassasalarining dastlabki, ya’ni taqsimlangan daromadlarini mehnat haqi va yalpi foydaga (renta, ssuda foizi va tadbirkorlik foydasi va h.k.) ajratish mumkin. YAIMni mazkur usul bo’yicha hisoblashda daromadlarning barcha summasiga iste’mol qilingan asosiy kapital qiymati (amortizatsiya ajratmasi) va biznesga egri soliqlar summasi ham qo’shiladi.

Uchta qismdan iborat:

a) tadbirkorlar tomonidan mashina, uskuna va stanoklarning barcha haridi;

b) barcha qurilishlar;

v) zahiralarning o’zgarishi.

Milliy boylik — mamlakatning tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish va kishilar hayotini ta’minlash sharoitlarini belgilovchi resurelari majmui. Umuman, mamlakatning mulkiy holatini tavsiflashda qo‘llaniladigan Milliy boylik ko‘rsatikichi turli shaklda jamg‘arilgan kishilar mehnat mahsullari natijalari bilan birga iqtisodiy muomalaga kiritilgan tabiat resurelarini, shuningdek, xorijdagi moliyaviy aktivlar va hisobkitoblar saldosini ham o‘z ichiga oladi. Milliy boylikni hisoblash milliy hisoblar tizimi konsepsiyasiga asoslanadi, Milliy boylik har bir mamlakat xalqi hayoti va taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo‘lib, umumiy hayot darajasini, mamlakatning salohiyatini ifodalaydigan juda muhim makroiqtisodiy va umumiqtisodiy ko‘rsatkichdir.

Mamlakatimizda iqtisodiy o’sishning yuqori sur’atlarini ta’minlanish maqsadida quyidagi jarayonlarning amalga oshirilishiga katta e’tibor qaratildi:

- keng ko’lamdagi tizimli bozor islohotlarini izchil amalga oshirish;
- xorijiy investitsiyalarni jalb qilish chora-tadbirlarini kuchaytirish;
- iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o’zgarishlarni amalga oshirish;
- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash;
- eksportga ixtisoslashgan yangi tarmoq va korxonalarni barpo etish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga qaratilgan, har tomonlama puxta o’ylangan siyosatni amalga oshirish.

Iqtisodiy o‘sish — mamlakatda tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar yaratish hajmining oldingi yil (davr)larga nisbatan ko‘paygan miqdorda takrorlanishi. Iqtisodiy o‘sishni ta’minlash har qanday mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi hisoblanadi. Yildan yilga aholi sonining ko‘payishi, kishilar ehtiyojlarining mutassil ortib borishi iqtisodiy o‘sishni shart qilib qo‘yuvchi asosiy sabablardandir. Iqtisodiy o‘sish aholi turmush darajasini oshirishga, xalq farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi[4].

Iqtisodiy o‘sish negizida iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning rivojlanishi turadi. Iqtisodiy o‘sish ishlab chiqarishning ilg‘or tuzilmasiga, yuqori mehnat unumdorligi darajasiga, ichki va tashqi bozorda talab katta bo‘lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga, mahsulotni qulay bozorlarda sotishga tayanadi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy O‘sish mahsulot ishlab chiqarishning real hajmini muttasil qo‘paytirib borish va ayni paytda jamiyat taraqqiyotida texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarning yaxshilanib borishini anglatadi[5].

Iqtisodiy o‘sishni aniqlash va hisoblashda mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining eng umumiy ko‘rsatkichi bo‘lgan yalpi ichki mahsulot (YIM) asos bo‘lib xizmat qiladi va iqtisodiy o‘sishning muayyan davr mobaynida real YIM hajmining ijobiy tomonga o‘zgarishini ko‘rsatadi. Iqtisodiy o‘sish sur’atlari YIM o‘sish sur’atlarida o‘z aksini topadi[6]. Lekin, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini aniqlashda faqatgina YIM ko‘rsatkichi orqali aniqlanadi deyishlik to‘g‘ri hisoblanmaydi bunda boshqa tashqi va ichki omillarni hisobga olish kerak.

Xulosa sifatida quyidagi fikrlarni beramiz, milliy boylik muhim ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo’lib u ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining boshlang’ich va yakuniy holatini ifodalaydi. Milliy boylik hajmining ortishi iqtisodiy o’sishning muhim omili hisoblanadi. Shu bilan birga milliy boylikda ishlab chiqarish jarayonining natijalari mujassamlanadi. U ishlab chiqailgan mahsulot hisobiga to’ldiriladi va yangilanadi. Milliy boylik hajmi , uning tarkibi, dinamikasi va ulardan foydalanish darajasi davlat va xalqaro statistikada mamlakat ijtimoiy –iqtisodiy rivojlanishining muhim yakunlovchi ko’rsatkichlari sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ахмедов ДД. Ишмухдммедов А.Э., Жумаев К.Х., Джумаев З.А. Макроиктисодиёт. Укув кулланма. Т.: “Узбекистан ёзувчилар уюшмасининг Адабиёт жамгармаси нашриёт”, 2004. - 240 бет.
2. Абакумова О.Г. Макроэкономика: конспект лекций. М.: Приор, 2010г.
3. Mankiw N.Gregori. Macroeconomics. 7-thedition. Harvard University. NY.: Worth Publuthers
4. Tursinbayev , A., & Sirojiddinov , K. (2025). STATISTICAL ANALYSIS OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL (A CASE STUDY OF NAMANGAN REGION). *Innovation Science and Technology*, *1*(12). https://doi.org/10.5281/zenodo.17941533.
5. Tursinbayev, Azizbek. (2026). O‘ZBEKISTON XIZMAT KO‘RSATISH SOHALARINING MAMLAKAT YAIMINING O‘SISHIGA TA’SIRINING EMPIRIK TAHLILI. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 4. 204-212. 10.60078/2992-877X-2026-vol4-iss2-pp204-212.
6. Tursinbayev Azizbek Nabijon o’g’li. (2025). O’zbekistonda xizmat ko’rsatish sohalarining aholi faravonligi va iqtisodiy o’sishdagi roli. *SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, *3*(10), 135–140. Retrieved from https://innovativepublication.uz/index.php/jelsi/article/view/4138.

MAHDUMI A’ZAM TA’LIMOTIDA MAROMIYLIK HAMDA BAG‘RIKENGLIK G‘OYALARINING TASAVVUFIY-FALSAFIY TAHLILI

Uraqov Nodirbek Boboqulovich
Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti
Raqamli texnologiyalar, turizm va gumanitar fanlar kafedrasi assistenti
E-mail: u-nodirbek@yandex.com Tel: +998 946123479
ORCID: 0009-0006-0763-8279
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21916980

Annotatsiya. Maqolada Mahdumi A’zam ta’limotida maromiylik va bag‘rikenglik g‘oyalarining tasavvufiy-falsafiy mazmuni tahlil qilinadi. Mutafakkirning “Risolai Bitixiya”, “Odob us-solikin”, “Murshid us-solikin”, “Bayoni silsila” va boshqa risolalari asosida me’yor, qanoat, sabr, muruvvat va insonparvarlik tamoyillari yoritiladi. Shuningdek, mazkur g‘oyalarning “O‘zbekiston–2030” strategiyasi hamda “Maromiylik” umummilliy harakati bilan uyg‘un jihatlari ochib beriladi.
Kalit so‘zlar: Mahdumi A’zam, maromiylik, bag‘rikenglik, tasavvuf, Naqshbandiya, qanoat, sabr, komil inson, Yangi O‘zbekiston.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ma’naviy taraqqiyot, ijtimoiy birdamlik va iqtisodiy madaniyatni yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. “O‘zbekiston–2030” strategiyasida inson qadri, ma’naviy barkamollik, tejamkorlik va jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [1]. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda milliy ma’naviy meros, xususan, tasavvuf namoyandalarining qarashlari muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Movarounnahr tasavvuf maktabining yirik vakillaridan biri Mahdumi A’zam (1461–1542) hisoblanadi. Uning asarlarida insonning ichki va tashqi hayotidagi muvozanat, me’yor, qanoat, muruvvat va bag‘rikenglik masalalari keng yoritilgan [2]. Tasavvuf an’anasida maromiylik “i’tidol”, “vasatiylik”, “qanoat” va “sabr” tushunchalari bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Bu tushunchalar insonning nafsiy istaklari va ruhiy ehtiyojlari o‘rtasidagi muvozanatni ifodalaydi [6]. Naqshbandiya tariqatining mashhur “Dil ba yor, dast ba kor” tamoyili ham aynan me’yoriy hayot falsafasini ifodalaydi. Ushbu tamoyil insonning dunyodan uzilmagan holda ma’naviy kamolot sari intilishini anglatadi [7]. Mahdumi A’zamning “Risolai Bitixiya” asarida dunyo ne’matlaridan oqilona foydalanish zarurligini quyidagi ramziy ifoda orqali tushuntiradi: “این جهان مزرعه آخرت است” Transliteratsiya: “In jahon mazra‘ai oxirat ast”. Tarjimasi: “Bu dunyo oxirat hosilini yetishtiradigan ekinzordir” [3,409-425]. Mazkur fikr insonning moddiy boylikka mutlaq bog‘lanib qolmasligi, ayni paytda uni inkor ham etmasligi lozimligini anglatadi. Mutafakkir nazarida maromiylik dunyo va oxirat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlashdan iborat. Mutafakkir asarlarida qanoat komillikning muhim sharti sifatida talqin qilinadi. U qanoatni faqirlik emas, balki insonning ichki boyligi sifatida ko‘rsatadi [8]. “Risolai Bitixiya”da shunday deyiladi: قناعت گنجی است که هرگز فنا نپذیرد Transliteratsiya: “Qanoat ganji ast ki hargiz fano napazirad”. Tarjimasi: “Qanoat shunday xazinaki, u hech qachon yo‘q bo‘lmaydi” [3,409-424]. Bugungi kunda “Maromiylik” umummilliy harakati doirasida ilgari surilayotgan tejamkorlik, isrofgarchilikka qarshi kurashish va iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish g‘oyalari Mahdumi A’zamning mazkur qarashlari bilan uyg‘unlik kasb etadi. Mutafakkirning fikricha, insonning ortiqcha dabdababozlikka berilishi uning ma’naviy qashshoqligidan dalolat beradi. Shu bois qanoat va shukronalik nafaqat axloqiy, balki ijtimoiy barqarorlik omili ham hisoblanadi. Mahdumi A’zam qarashlarida bag‘rikenglik insoniy komillikning muhim mezoni sifatida namoyon bo‘ladi. Tasavvufda bag‘rikenglikning manbai muhabbat va ma’rifat hisoblanadi.

Mutafakkir insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda o‘zaro hurmat tamoyiliga ham katta ahamiyat beradi. “Bayoni silsila” risolasida quyidagi hikmat keltiriladi: مؤمن آینه مؤمن است Transliteratsiya: Mo‘min oyinayi mo‘min ast. Tarjimasi: Mo‘min mo‘minning oynasidir [4, 261–265]. Bu hikmat tasavvufiy axloqning muhim qoidalaridan biridir. Oyna insonning aybini yashirmaydi, biroq uni haqorat ham qilmaydi. Shuning uchun Mahdumi A’zam boshqalarning kamchiliklarini ko‘rishda adolat, muloyimlik va muruvvat bilan yondashishni tavsiya qiladi. Bunday yondashuv bugungi zamonaviy tolerantlik konsepsiyasining ma’naviy ildizlarini tashkil etadi. Risolasida insonlarni hurmat qilish va ularga mehr bilan munosabatda bo‘lish tariqat odobining asosiy shartlaridan biri sifatida ko‘rsatiladi. Mazkur hikmat insonning boshqalarga nisbatan adolatli va bag‘rikeng munosabatda bo‘lishini talab etadi. Tasavvufda insonning kamchiligini ko‘rish emas, balki uni tuzatishga ko‘maklashish muhim sanaladi. “Risolai

Bitixiya” asarida maromiylik g‘oyasi insonning nafsiy ehtiyojlari va ma’naviy ehtiyojlari o‘rtasidagi muvozanat sifatida talqin qilinadi. Mutafakkir inson hayotidagi barcha munosabatlar, jumladan, oilaviy, ijtimoiy va ma’naviy aloqalar me’yor asosida qurilgandagina komillik sari rivojlanishini ta’kidlaydi. Risolada nikohning mohiyati haqida so‘z yuritilar ekan, quyidagi fikr keltiriladi: « کشت دوست کردن کشت ظاهری و کشت باطنی» Transliteratsiya: “Kisht do‘st kardan kishti zohiriy va kishti botiniy”. Tarjimasi: “Do‘stlik ekini zohiriy ekin ham, botiniy ekin hamdir”. Mazkur fikr oila va nikohning nafaqat biologik yoki ijtimoiy institut, balki inson ma’naviy kamolotining muhim omili ekanligini ko‘rsatadi. Mutafakkir nazarida insonning ichki dunyosidagi muhabbat va mehr-oqibat jamiyatdagi bag‘rikenglikning ham asosini tashkil etadi [3,410-411]. Mahdumi A’zam maromiylikni qanoat va me’yor bilan bog‘laydi. Mutafakkir dunyoviy ne’matlarni inkor etmaydi, biroq ulardan foydalanish me’yor bilan cheklanishi lozimligini ta’kidlaydi. Asarda shunday deyiladi: «خزینه را نگاه داشتن و خوردن و دادن از روی ثواب در خود گرفتن» Transliteratsiya: “Xazīna-rā nigāh doshtan va xurdan va dodan az rūyi savāb dar xud giriftan”. Tarjimasi: “Boylikka nisbatan savob va mas’uliyat mezonida munosabatda bo‘lish kerak” [3,410-412]. Bu qarash zamonaviy iqtisodiyotdagi mas’uliyatli iste’mol konsepsiyasiga yaqin turadi. Risolada maromiylikning oilaviy hayotdagi ko‘rinishlari ham keng yoritiladi. Mahdumi A’zam nikohni nafaqat ijtimoiy zarurat, balki ma’naviy kamolot vositasi sifatida baholaydi. Mutafakkirning fikricha, nikohdagi maromiylik faqat moddiy ta’minot bilan emas, balki ruhiy va axloqiy muvozanat bilan ham belgilanadi. Shu bois oilada mehr, mas’uliyat va qanoatning mavjudligi jamiyatdagi barqarorlikning asosiy omillaridan biridir. Mazkur fikrda iqtisodiy faoliyatning uch bosqichi – jamg‘arish, iste’mol va taqsimot me’yor asosida tashkil etilishi zarurligi ilgari suriladi. Bu bugungi “Maromiylik” umummilliy harakatining tejamkorlik va iqtisodiy madaniyatga oid maqsadlari bilan to‘la uyg‘unlashadi. Mahdumi A’zam qanoatni iqtisodiy maromiylikning markaziy mezoni sifatida talqin qiladi. U boylikning o‘zi emas, balki unga munosabat insonning ma’naviy darajasini belgilashini qayd etadi. Ushbu qarash bugungi kunda targ‘ib etilayotgan iqtisodiy madaniyat va tejamkorlik konsepsiyasining tarixiy-falsafiy ildizlarini ko‘rsatadi. Mahdumi A’zam boylikni inkor qilmaydi, biroq uni maqsad emas, vosita sifatida talqin qiladi. Asarda maromiylikning yana bir muhim ko‘rinishi sifatida isrofdan tiyilish masalasi ko‘tariladi. Muallif ortiqcha dabdaba va me’yorning buzilishi insonni ma’naviy tanazzulga olib borishini qayd etadi. Mahdumi A’zam Kosoniyning “Risolai Bitixiya” asari maromiylik g‘oyasini tasavvufiy-antropologik va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan talqin qiluvchi muhim manbalardan biridir. Asarda maromiylik tushunchasi insonning ehtiyojlari, iqtisodiy faoliyati, oilaviy hayoti va ma’naviy kamoloti o‘rtasidagi muvozanat sifatida izohlanadi [3,410]. Mahdumi A’zam ta’limotida maromiylik va bag‘rikenglik bir-biridan ajralgan tushunchalar emas, balki komil insonni shakllantiruvchi yagona ma’naviy tizimning ikki muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. Mutafakkir nazarida inson avvalo o‘z nafsini me’yorlashtirishi, ehtiyoj va istaklarini nazorat qilishi, qalbini muhabbat va ma’rifat bilan poklashi lozim. Ana shundan keyingina unda boshqalarga nisbatan muruvvat, shafqat va bag‘rikenglik fazilatlari shakllanadi. Mahdumi A’zam tariqatning mohiyatini quyidagicha ifodalaydi: طریقت عبارت از محبت است Transliteratsiya: Tarīqat iborat az muhabbat ast. Tarjimasi: Tariqatning mohiyati muhabbatdir. [2, 418]. Ushbu fikr tasavvufiy antropologiyaning asosiy tamoyillaridan birini ifodalaydi. Maromiylikning ichki mexanizmi ham aynan muhabbat orqali shakllanadi. Chunki muhabbat mavjud bo‘lgan qalbda hasad, kibr va adovat kamayadi, ularning o‘rnini mehr, muruvvat va hamjihatlik egallaydi. Muhabbatning ma’naviy tabiati haqida mutafakkir shunday yozadi: این محبت آتشی است که در دل بندگان پیدا می‌شود Transliteratsiya: In muhabbat otash ast ki dar dili bandagān paydā meshavad. Tarjimasi: Bu muhabbat bandalar qalbida paydo bo‘ladigan ilohiy olovdir. [2,420-421]. Mutafakkir insonning ichki poklanishi va jamiyatdagi murosali munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ham alohida ko‘rsatadi. Naqshbandiya ta’limotidagi bag‘rikenglik konsepsiyasining markaziy g‘oyasini ifodalaydi. Muhabbat insonlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni yumshatadi, adovatni kamaytiradi va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlaydi. Mahdumi A’zam muhabbatni insonni yuksaltiruvchi, nafsni jilovlovchi va jamiyatda bag‘rikenglikni qaror toptiruvchi kuch sifatida baholaydi. Shu sababli mutafakkir nazdida bag‘rikenglik oddiy murosa emas, balki ma’rifat va muhabbatning amaliy natijasidir. “Odob us-solikin” risolasida muridning axloqiy fazilatlari haqida fikr yuritilar ekan, muruvvat va kechirimlilik eng muhim sifatlar qatorida ko‘rsatiladi. Mutafakkir quyidagicha yozadi: « طریق اهل الله بر شفقت و رحمت است» Transliteratsiya: “Tariqi ahlulloh bar shafqat va rahmat ast”. Tarjimasi: “Alloh do‘stlarining yo‘li shafqat va rahmat yo‘lidir” [5,528-533]. Ushbu fikr bag‘rikenglikning tasavvufiy mohiyatini yaqqol namoyon etadi. Tasavvuf ahlining asosiy vazifasi jamiyatda mehr-oqibat va insonparvarlik muhitini qaror toptirishdan iboratdir. Mahdumi A’zam ta’limotida maromiylik va bag‘rikenglik bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalar sifatida talqin qilinadi. Nafsini boshqara olmagan inson

boshqalarga nisbatan ham bag‘rikeng bo‘la olmaydi [14]. Shuning uchun mutafakkir avvalo ichki poklanish, keyinchalik esa ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish masalasini ilgari suradi. Bu jihatdan uning qarashlari zamonaviy axloq falsafasidagi o‘zini boshqarish va ijtimoiy mas’uliyat konsepsiyalariga yaqin turadi. Bag‘rikenglikning amaliy ko‘rinishi sifatida mutafakkir shafqat va rahmatni ko‘rsatadi. Mahdumi A’zam nazarida haqiqiy komillik insonning boshqalarga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi. Agar inson ko‘p ibodat qilsa-yu, ammo odamlarga nisbatan qo‘pol va murosasiz bo‘lsa, uning ma’naviy kamoloti to‘liq emas. Shu sababli tariqat ahlining asosiy vazifalaridan biri jamiyatda mehr-oqibat muhitini shakllantirishdan iborat. Mazkur jumla Mahdumi A’zamning bag‘rikenglik haqidagi qarashlarini umumlashtiradi. Muhabbat insonni nafs hukmronligidan ozod qiladi, maromiylik esa ushbu ichki erkinlikni amaliy hayotga tatbiq etadi. Natijada bag‘rikenglik insonning tashqi xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan ma’naviy fazilatga aylanadi. Shu jihatdan Mahdumi A’zam ta’limotida maromiylik va bag‘rikenglik o‘zaro sabab-oqibat munosabatida namoyon bo‘ladi. Maromiylik insonning ichki dunyosini tartibga solsa, bag‘rikenglik ushbu tartibning ijtimoiy munosabatlardagi ifodasi hisoblanadi. Bunday yondashuv bugungi Yangi O‘zbekistonda targ‘ib etilayotgan millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va ijtimoiy hamjihatlik g‘oyalari bilan hamohangdir. Mahdumi A’zam maromiylikni zohir va botin o‘rtasidagi uyg‘unlik orqali ham tushuntiradi. U quyidagi iborani keltiradi: «عبادت ظاهری و عبادت باطنی» Transliteratsiya: “Ibodat-i zohirī va ibodat-i botini”. Tarjimasi: “Zohiriy ibodat va botiniy ibodat” [3. 414-415]. Bu yerda mutafakkir inson faoliyatining tashqi ko‘rinishi bilan uning ichki niyatlari o‘rtasida uyg‘unlik bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Maromiylikning eng muhim belgisi ham aynan shu ichki va tashqi mutanosiblikdir. Asarda xizmat va mas’uliyat masalasiga ham alohida e’tibor qaratiladi. Mahdumi A’zamning fikricha, inson o‘z manfaatini emas, balki jamiyat manfaatini ham ko‘zlashi kerak [3.424-425]. Shu nuqtai nazardan maromiylik individual emas, balki ijtimoiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Risolaning muhabbatga bag‘ishlangan qismlarida maromiylikning ma’naviy asosi ochib beriladi. Muhabbat insonni haddan oshishdan, manmanlikdan va nafs hukmronligidan saqlaydi. Shu sababli tasavvufda muhabbat maromiylikning ichki mexanizmi sifatida qaraladi. Mahdumi A’zam yana shunday deydi: « این محبت آتشی است که در دل بندگان پیدا می‌شود» Transliteratsiya: “In muhabbat otashast ki dar dili bandagon paydo meshavad”. Tarjimasi: “Bu muhabbat bandalar qalbida paydo bo‘ladigan ilohiy olovdir” [3.420-421]. Mutafakkir nazarida ushbu muhabbat insonni qanoatga, muruvvatga va bag‘rikenglikka olib boradi. Shu sababli maromiylik faqat iqtisodiy emas, balki ma’naviy kategoriya ham hisoblanadi. Asarda me’yorning buzilishi insonning ma’naviy tanazzuliga sabab bo‘lishi qayd etiladi. Nafsning haddan tashqari kuchayishi isrof, dabdababozlik va manmanlikka olib keladi [3.412-413]. Shu bois Mahdumi A’zam insonni o‘z ehtiyojlarini nazorat qilishga, har bir ishda mo‘tadillikni saqlashga da’vat etadi.

Demak, “Risolai Bitixiya”da maromiylik va bag‘rikenglik bir-biri bilan uzviy bog‘langan tushunchalar sifatida namoyon bo‘ladi. Maromiylik insonning nafsiy mayllarini me’yorlashtirsa, bag‘rikenglik uning ijtimoiy munosabatlarini uyg‘unlashtiradi. “Risolai Bitixiya”da maromiylik qanoat va iqtisodiy mas’uliyat, boylikdan oqilona foydalanish, nikoh va oiladagi muvozanat, zohir va botin uyg‘unligi, xizmat va ijtimoiy mas’uliyat, muhabbat va muruvvat, nafsni me’yorlashtirish kabi tarkibiy qismlar orqali talqin qilinadi. Mazkur tamoyillar bugungi Yangi O‘zbekistonda ilgari surilayotgan iqtisodiy madaniyat, tejamkorlik, ijtimoiy birdamlik va inson qadrini ulug‘lash g‘oyalari bilan to‘liq hamohangdir. “O‘zbekiston–2030” strategiyasida ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, yoshlar tarbiyasi, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan Mahdumi A’zamning: qanoat, me’yor, sabr, muruvvat, bag‘rikenglik, komil inson haqidagi qarashlari ushbu strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun muhim ma’naviy manba hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlar orasida iste’molchilik kayfiyatining kuchayishi, ijtimoiy tarmoqlarda namoyishkorona hayot tarzining ommalashishi sharoitida mutafakkirning maromiylik haqidagi g‘oyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Mahdumi A’zam ta’limotida maromiylik va bag‘rikenglik g‘oyalari komil inson konsepsiyasining muhim tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo‘ladi. Mutafakkirning qanoat, me’yor, sabr va muruvvat haqidagi qarashlari bugungi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi hamda “Maromiylik” umummilliy harakati maqsadlari bilan uyg‘unlashadi. Shu sababli Mahdumi A’zam merosidan ta’lim-tarbiya tizimida, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda, isrofgarchilikka qarshi kurashishda hamda bag‘rikeng fuqarolik jamiyatini shakllantirishda samarali foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. *O‘zbekiston–2030 strategiyasi*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. Mahdumi A’zam Dahbediy. *Majmua ar-rasoil*. – Toshkent: Qamar-media, 2020.

3. Mahdumi A’zam. *Risolai Bitixiya* // Majmua ar-rasoil. – Toshkent: Qamar-media, 2020. – B. 409–425.
4. Mahdumi A’zam. *Bayoni silsila* // Majmua ar-rasoil. – Toshkent: Qamar-media, 2020. – B. 261–265.
5. Mahdumi A’zam. *Odob us-solikin* // Majmua ar-rasoil. – Toshkent: Qamar-media, 2020. – B. 528–533.
6. Komilov N. *Tasavvuf va komil inson*. – Toshkent: Yozuvchi, 1997.
7. Valixonov A. *O‘zbek tasavvuf tafakkuri tarixi*. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
8. Hasanov B. *Naqshbandiya ta’limotining ma’naviy-falsafiy asoslari*. – Toshkent, 2018.

SIROJIDDIN SAYID SHE’RLARIDA SINONIMIK VOSITALARNING USLUBIY IMKONIYATLARI

Qo‘shaqova Gulnora Abdurahmonovna
Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 38-maktabining ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21917036

Annotatsiya: Ushbu tezisda O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid she’riyatida sinonimik vositalarning uslubiy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shoirning “Vatan qolar ekan, Vatan abadiy...”, “Navoiyni o‘qish”, “Bu — sening uyingdir...”, “Dehqon madhiyasi”, “Vatan desam...” she’rlari hamda “Olis ishq sog‘inchi yoxud Vatan surati” essesi misolida sinonimlarning badiiy-estetik vazifasi, emotsional-ekspressiv xususiyatlari va muallif uslubini shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqotda sinonimik vositalarning ma’no nozikliklarini ifodalash, obrazlilikni kuchaytirish, takrorning oldini olish, she’riy matnning musiqiyligi va ta’sirchanligini oshirishdagi uslubiy imkoniyatlari ilmiy asosda tahlil etiladi.

Аннотация. В данной статье анализируются стилистические возможности синонимических средств в поэзии народного поэта Узбекистана Сироджиддина Саййида. На материале стихотворений «Пока существует Родина, Родина вечна...», «Читать Навои», «Это твой дом...», «Ода дехканину», «Когда говорю: Родина...», а также эссе «Тоска по далёкой любви, или Образ Родины» рассматриваются художественно-эстетические функции синонимов, их эмоционально-экспрессивные особенности и роль в формировании авторского стиля. В исследовании на научной основе анализируются стилистические возможности синонимических средств в передаче смысловых оттенков, усилении образности, предотвращении неоправданных повторов, а также в повышении музыкальности и выразительности поэтического текста.

Abstract. This article examines the stylistic possibilities of synonymous devices in the poetry of the People's Poet of Uzbekistan, Sirojiddin Sayyid. Based on the poems “As Long as the Motherland Remains, the Motherland Is Eternal…”, “Reading Navoi”, “This Is Your Home…”, “Ode to the Farmer”, “When I Say ‘Motherland’…”, as well as the essay “The Longing of a Distant Love, or the Image of the Motherland”, the study explores the artistic and aesthetic functions of synonyms, their emotional and expressive features, and their role in shaping the poet’s individual style. The research analyzes how synonymous devices convey subtle shades of meaning, enhance imagery, avoid unnecessary repetition, and increase the musicality and expressiveness of poetic language. It also highlights the importance of synonymy as a stylistic tool in enriching the semantic and aesthetic value of literary texts.

Kirish. Badiiy adabiyot tilining ta’sirchanligi va estetik qimmati, avvalo, unda qo‘llanilgan til birliklarining uslubiy imkoniyatlariga bog‘liq. Tilning leksik boyligini tashkil etuvchi sinonimlar badiiy nutqda muhim o‘rin egallab, muallif fikrini nozik ma’no qirralari bilan ifodalash, obraz yaratish, emotsional-ekspressiv ta’sirni kuchaytirish hamda takrorning oldini olishga xizmat qiladi. Ayniqsa, she’riyatda sinonimik vositalardan mahorat bilan foydalanish ijodkorning individual uslubini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid o‘zbek she’riyatida badiiy tafakkuri, til boyligi va obrazli ifodasi bilan alohida o‘rin tutadi. Uning she’rlarida Vatan, inson, tabiat, mehnat, ma’naviyat va milliy qadriyatlar yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan bo‘lib, bu jarayonda sinonimik vositalar muhim uslubiy vazifani bajaradi. Shoir bir ma’noga yaqin bo‘lgan leksik birliklardan o‘rinli foydalanish orqali poetik matnning mazmunini chuqurlashtiradi, badiiy-estetik ta’sirini oshiradi hamda o‘quvchi qalbida kuchli emotsional taassurot uyg‘otadi.

Sinonimlar she’rda takrorlash uchun ishlatilishi bilan birga, ta’kidlash va emotsional kuch berish uchun ham xizmat qiladi. Masalan, bir fikrni yoki tuyg‘uni turli so‘zlar bilan takrorlash, o‘quvchi yoki tinglovchida qiziqish va diqqatni saqlashga yordam beradi. Rang-baranglik, boylik va estetik ta’sir yaratish uchun sinonimlar orasida rang, harakat yoki fikrni ifodalovchi so‘zlar tanlanadi. Bu usul she’rga muhit, rang, harakat va sezgi ranglarini kengaytiradi. Ushbu vositalar yordamida she’rda stilistik ta’sir kuchayadi, so‘zlarning ma’no va uslub bilan bog‘lanishi ta’minlanadi. Bu bilan she’rda muhit va ruhiyat yanada ochiq va chuqur ifodalanadi. Sinonimik vositalar she’rga estetik va ma’no boyligini qo‘shadi. Ular orqali she’rda takrorlash va ta’kidlash kuchliroq bo‘ladi, o‘quvchi yoki tinglovchi she’rning mazmuni va ruhiyatiga chuqurroq kirib boradi.

Shuningdek, sinonimlar yordamida she’rda rang-baranglik, muhit va sezgi boyligi hosil qilinadi. Bu vositalar she’rga nafaqat estetik, balki psixologik kuch va ta’sir ham qo‘shadi. Sirojiddin Sayid she’rlarida sinonimik vositalar keng qo‘llaniladi va ular she’rlarning uslubiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Ular yordamida she’rga rang-baranglik, estetik kuch, ma’no va muhit boyligi qo‘shiladi. Sinonimik vositalar she’r san’atida muhim uslubiy vosita bo‘lib, ularning ishlatilishi she’rga chuqur ma’no va estetik ta’sir olib keladi. Sayid ijodida bu vositalar orqali she’rlar nafaqat mazmunli, balki estetik jihatdan ham boy bo‘ladi.

Sirojiddin Sayid she’rlarida sinonimik vositalar keng qo‘llanilib, ularning yordamida she’r mazmuni va uslubi boyitiladi. Misollar orqali bu vositalarning ishlatilishiga to‘xtalamiz.

Dil porasi, ko‘z qorasi sen o‘zingdirsan,
Mening ko‘nglim sen aslida, sen ko‘zimdirsan.

Bu misolda “dil” va “ko‘z” so‘zlari bilan bog‘liq sinonimlar yordamida, vatanni ifodalashda yurak va ko‘z hamda, ma’naviy va sezgi jihatidan, muhim vositalar sifatida ishlatiladi. Bu sinonimlar bilan she’rda muhit va ruhiyat kengayadi, vatanning mazmuni chuqurlashadi.

Yoshlar, yoshlar, maktablar, bog‘lar,
O‘smalar, o‘smalar, yoshlar, bog‘lar,
Yoshlik, yoshlik, shoirning dilida,
Mening yuragimda, yoshlar, bog‘lar.

Bu misolda “yoshlar” va “bog‘lar” so‘zlari bilan bog‘liq sinonimlar takrorlanib, she’rda muhit va ruhiy holat ta’kidlash uchun ishlatilgan. She’rda sinonimik vositalar yordamida muhit, ruhiyat va fikrlar kengayadi. Sayid ijodida sinonimik vositalarni ishlatish she’r san’atining rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Misol uchun, quyidagi she’r parchasida sinonimlarning o‘ziga xosligi va ularning uslubiy imkoniyatlari ko‘rsatiladi.

"Oltin soatlar, nurli tonglar,
Qalblar, yuraklar, qalblar,
Ko‘ngil, ruh, dil, jon,

Boshqacha, lekin ma’no bir. Bu yerda “qalb” va “yurak,” “dil” va “jon” so‘zlari bilan bog‘liq sinonimlar ishlatilgan bo‘lib, ular she’rda muhit va ruhiyatni boyitadi, fikr va tuyg‘ularni kengroq ifodalash imkonini beradi.

Sinonimlar yordamida she’rda muhit, ruhiyat va fikrlar kengayadi, yanada boyroq ifodalanadi. Ular yordamida she’rda muhit va tafakkur kengayadi, o‘quvchi yoki tinglovchining ruhiyatiga chuqur ta’sir o‘tkaziladi.Muhim fikr yoki tuyg‘u ayniqsa, sinonimlar yordamida ta’kidlanadi, bu bilan she’rda muhimlik kuchayadi.

Masalan, uning she’rlarida quyidagicha ishlatiladi:

Ko‘zimda nur, yulduzlar,
Ko‘nglimda shodliklar,
Ruhimda quvonch, mehr,

Tinchlik, osmonlar. Bu misrada “nur,” “yulduzlar,” “shodliklar” va “quvonch” so‘zlari bilan bog‘liq sinonimlar yordamida muhit va ruhiyat boyitiladi. Sirojiddin Said she’rlarida sinonimlar yordamida she’rlar nafaqat mazmunli, balki estetik jihatdan ham boyitiladi. Ular yordamida she’rda muhit, rang, sezgi va fikrlar kengayadi, shuningdek, she’rda o‘quvchi bilan kuchli emotsional bog‘lanish o‘rnatiladi.

Sirojiddin Sayyid she’riyati o‘zining badiiy mukammalligi, sermazmun obrazlari va til boyligi bilan ajralib turadi. Shoir she'rlarida sinonimik vositalardan unumli foydalanish orqali badiiy ifoda kuchaytiriladi, matnning emotsional-ekspressiv ta'siri oshiriladi hamda Vatan, inson, tabiat va mehnat kabi muqaddas tushunchalar yanada ta’sirchan ifodalanadi.

“Vatan qolar ekan, Vatan abadiy...” she’rida sinonimlar vatan timsolini turli qirralarda tasvirlashga xizmat qiladi. Jumladan, *osmon, zangor osmonlar, ko‘klar* birliklari bir-biriga ma’nodosh bo‘lib, yurtning cheksizligi va ulug‘vorligini ifodalaydi. Shuningdek, *harir, pariru, husnu malohat* kabi sinonimik ifodalar Vatanning go‘zalligini badiiy jihatdan yanada boyitadi. Shoir “sheryurak, arslonyurak” sinonimlari orqali jasorat va mardlikni kuchli emotsional bo‘yoqda ifodalaydi. Ushbu sinonimlar mazmunni takrorlamay, balki uni bosqichma-bosqich kuchaytirish vazifasini bajaradi.

“Navoiyni o‘qish” she’rida sinonimik vositalar ma'rifat va komillik g‘oyalarini yoritishga xizmat qiladi. “Har bir kalla, har bir bosh” misralarida *kalla* va *bosh* so‘zlari sinonimik munosabat hosil qilib, umumlashtirish va ta'kid ma'nosini kuchaytiradi. Shuningdek, “bola”, “yosh”, “farzand”, “nabira” birliklari avlod tushunchasining turli ko‘rinishlarini ifodalab, she’rning tarbiyaviy ruhini mustahkamlaydi.

“Bu — sening uyingdir...” she'rida sinonimlar insoniyatning birdamligi va umumiy mas'uliyatini ifodalash uchun qo‘llangan. Xususan, *olam, zamin, Yer shari* kabi birliklar bir semantik maydonga mansub bo‘lib, inson yashayotgan umumiy makon obrazini yaratadi. Bundan tashqari, *uka-singil, qon-qardosh* kabi ma'nodosh birliklar insonlar o‘rtasidagi yaqinlik va hamjihatlik g‘oyasini kuchaytiradi.

“Dehqon madhiyasi” she’rida mehnatning ulug‘vorligi sinonimik vositalar yordamida yuksak badiiy darajada ifodalanadi. Shoir *zahmat, mehnat, og‘irlik, tashvish* kabi ma'nodosh birliklarni ketma-ket qo‘llash orqali dehqonning mashaqqatli hayotini yorqin tasvirlaydi. “Yer”, “dala”, “paykal” leksemalari ham umumiy semantik yaqinlik hosil qilib, dehqon mehnatining asosiy makonini turli badiiy qirralarda namoyon etadi.

“Vatan desam...” she'rida esa Vatan tushunchasi bilan bog‘liq sinonimik vositalar alohida uslubiy ahamiyat kasb etadi. Shoir *diyor, Vatan, ona yurt* kabi ma’nodosh birliklardan foydalanib, Vatan obrazini turli emotsional ranglarda ochib beradi. Shuningdek, *shon, sharaf, or-nomus* singari sinonimik tushunchalar milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini yanada kuchaytiradi.

Sirojiddin Sayyidning “Olis ishq sog‘inchi yoxud Vatan surati” essesi ham sinonimik vositalarga boy asarlardan biridir. Unda *sog‘inch, hijron, firoq, ayriliq* kabi ma’nodosh birliklar inson qalbidagi kechinmalarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirib beradi. Muallif *Vatan, ona yurt, tug‘ilgan tuproq, el, yurt* kabi sinonimik birliklarni qo‘llash orqali vatanga muhabbat g‘oyasini ta’sirchan ifodalaydi.

Umuman, Sirojiddin Sayyid she’riyatida sinonimik vositalar faqat nutqni bezash vositasi emas, balki muallifning badiiy niyatini ochishga xizmat qiluvchi muhim uslubiy omildir. Shoir sinonimlardan takrorning oldini olish, ma'no nozikliklarini ifodalash, obrazlarning ta’sirchanligini oshirish, emotsional-ekspressivlikni kuchaytirish va she’rning musiqiyligini ta’minlash maqsadida mohirona foydalanadi. Natijada sinonimik vositalar shoir individual uslubining muhim belgilaridan biri sifatida namoyon bo‘lib, uning she’riy tiliga o‘ziga xos badiiy joziba bag‘ishlaydi.

Xulosa. Sirojiddin Said she’rlarida sinonimlar so‘zlarining o‘ziga xosligi ularning uslubiy imkoniyatlarida namoyon bo‘ladi. Bu vositalar yordamida she’rga rang, muhit va fikrlarni kengaytirish, ta’kidlash va estetik boylik qo‘shish imkoniyati yaratiladi. She’rda sinonimlarning ijodiy ishlatilishi, nafaqat, mazmun va estetik kuchni oshiradi, balki o‘quvchi va tinglovchining ruhiyatiga chuqur ta’sir qiladi. Shoir she’rlarida badiiy-tasviriy vositalar ijodiy jarayonning ajralmas qismi bo‘lib, ular she’r estetikasi va mazmunini boyitishda muhim rol o‘ynaydi. San’atkorning mohirona tasvir vositalarini qo‘llash mahorati, uning ijodiy tafakkurining yuksakligini ko‘rsatadi. She’r san’atlarining rang-barangligi va mazmun boyligi adabiyotimiz tarixida har doim e’tibor markazida bo‘lib kelgan. Bu vositalar nafaqat bezak vazifasini bajaradi, balki asarning g‘oyasini konkretlashtirishda realistik vosita hisoblanadi. Natijada, she’r san’atlari ijodkorning badiiy salohiyatini, ijtimoiy-axloqiy g‘oyalarni ifoda etishdagi imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Сирожиддин, Саййид. Дил фасли: Шеърлар/Саййид Сирожиддин/— Т.: «Ўзбекистон» НМИУ.— 2007.— 240 б.

2. Rahmatullayev Sh. Hoirgi adabiy o‘zbek tili. –T.: Universitet. 2006. – 476 b.

3. Йўлдошев Б. Бадиий матн ва лингвопоетик таҳлил асослари. -Т.: Фан, 2007. – Б.31.

4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Т.: “Ўзбекистон миллий энсиклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007.

5. Uz.m. wiktionary.org.

TIJORAT BANKLARIDA LIKVIDLILIK RISKINI ERTA ANIQLASH

Yangiboev Rustam Berdiyarovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21917374

Annotatsiya. Tezisda tijorat banklarida likvidlilik riskini prudensial me’yorlar buzilishidan oldin aniqlash usullari tadqiq etilgan. O‘zbekiston bank tizimining 2020-2025 yillardagi ma’lumotlari asosida likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsienti (LCR), sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsienti (NSFR), kredit-depozit nisbati, yuqori likvidli aktivlar ulushi, depozitlarning muddat tarkibi va valyuta tafovuti baholangan. Natijalar operatsion likvidlilik ko‘rsatkichlari me’yoriy talablardan yuqori saqlanganini, biroq kredit-depozit nisbatining yuqoriligi va xorijiy valyuta segmentidagi moliyalashtirish tafovuti tarkibiy riskni saqlab qolayotganini ko‘rsatgan. Sof va jamlanma likvidlilik tafovuti, yirik omonatchilar konsentratsiyasi, garovga qo‘yilmagan likvid aktivlar hamda tashqi qarzlarni qayta moliyalashtirishni qamrab oluvchi erta ogohlantirish tizimi taklif etilgan.
Kalit so‘zlar: tijorat banklari, likvidlilik riski, erta ogohlantirish tizimi, likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsienti, sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsienti, kredit-depozit nisbati, likvidlilik tafovuti, depozitlar konsentratsiyasi.
Abstract. This thesis examines methods for identifying liquidity risk in commercial banks before prudential requirements are breached. Based on data from Uzbekistan’s banking system for 2020-2025, the study assesses the Liquidity Coverage Ratio (LCR), Net Stable Funding Ratio (NSFR), loan-to-deposit ratio (LDR), share of high-quality liquid assets, maturity structure of deposits, and foreign currency funding gap. The results indicate that operational liquidity indicators remained above the regulatory minimums. However, the high loan-to-deposit ratio and the funding gap in the foreign currency segment continue to generate structural liquidity risk. The study proposes an early warning system incorporating net and cumulative liquidity gaps, large depositor concentration, unencumbered liquid assets, and external debt refinancing.
Keywords: commercial banks, liquidity risk, early warning system, Liquidity Coverage Ratio, Net Stable Funding Ratio, loan-to-deposit ratio, liquidity gap, deposit concentration.
Аннотация. В тезисе исследованы методы выявления риска ликвидности в коммерческих банках до нарушения пруденциальных требований. На основе данных банковской системы Узбекистана за 2020-2025 годы оценены коэффициент покрытия ликвидности (LCR), коэффициент чистого стабильного фондирования (NSFR), соотношение кредитов и депозитов (LDR), доля высококачественных ликвидных активов, срочная структура депозитов и валютный разрыв фондирования. Результаты показали, что показатели операционной ликвидности сохранялись выше установленных нормативных требований. Однако высокий уровень соотношения кредитов и депозитов, а также разрыв фондирования в иностранной валюте продолжают формировать структурный риск ликвидности. Предложена система раннего предупреждения, включающая чистый и совокупный разрывы ликвидности, концентрацию крупных вкладчиков, необременённые ликвидные активы и рефинансирование внешнего долга.
Ключевые слова: коммерческие банки, риск ликвидности, система раннего предупреждения, коэффициент покрытия ликвидности, коэффициент чистого стабильного фондирования, соотношение кредитов и депозитов, разрыв ликвидности, концентрация депозитов.

Kirish. Bank likvidliligi bankning aktivlarini qabul qilib bo‘lmaydigan darajadagi yo‘qotishlarsiz pul mablag‘lariga aylantirish va o‘z majburiyatlarini belgilangan muddatda bajarish qobiliyatini ifodalaydi. Tijorat banklari qisqa muddatga jalb qilingan depozitlar va boshqa resurslarni nisbatan uzoq muddatli kreditlar hamda investitsiyalarga joylashtiradi. Aktivlar va majburiyatlar muddatlari o‘rtasidagi mazkur nomutanosiblik banklarni likvidlilik riskiga doimiy ravishda sezgir qiladi.

Likvidlilik riski bankda mavjud pul mablag‘lari va kiruvchi pul oqimlari majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarish uchun yetarli bo‘lmaganida yuzaga keladi. Bunda bank aktivlarni zarar bilan sotish, yuqori foiz stavkasida mablag‘ jalb qilish yoki tashqi moliyalashtirish manbalariga murojaat qilishga majbur bo‘lishi mumkin. Likvidlilik taqchilligi qisqa vaqt davom etsa ham, bankning to‘lov qobiliyati, daromadliligi va mijozlar ishonchiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Alohida bankdagi likvidlilik muammosi banklararo bozor, to‘lov tizimi va omonatchilar xulq-atvori orqali butun bank tizimiga tarqalishi mumkin.

Likvidlilik riskining asosiy manbalariga talab qilib olinguncha depozitlarning keskin chiqib ketishi, moliyalashtirish manbalarining yirik omonatchilarda to‘planishi, aktivlar va majburiyatlar muddatlarining nomutanosibligi, tashqi qarzlarni qayta moliyalashtirish imkoniyatining cheklanishi, garovga qo‘yilmagan likvid aktivlarning yetarli emasligi hamda xorijiy valyutalar bo‘yicha pul oqimlari tafovuti kiradi. Balansdan tashqari majburiyatlarning ishga tushishi, kredit liniyalaridan foydalanishning ko‘payishi va aktivlar bozor qiymatining pasayishi ham bankning likvidlilikka bo‘lgan ehtiyojini oshiradi.

Bazel qo‘mitasining likvidlilik riskini samarali boshqarish va nazorat qilish tamoyillarida banklar likvidlilik riski bo‘yicha aniq risk-appetit belgilashi, pul oqimlarini muntazam baholashi, likvid aktivlar zaxirasini saqlashi, stress-testlar o‘tkazishi va favqulodda moliyalashtirish rejasiga ega bo‘lishi zarurligi belgilangan [1]. Mazkur tamoyillar likvidlilik riskini faqat majburiy koeffitsientlar orqali emas, balki bankning moliyalashtirish tuzilmasi, pul oqimlari va stress sharoitidagi barqarorligi asosida baholashni talab qiladi.

Bazel III doirasida likvidlilik riskini baholash uchun ikkita asosiy prudensial ko‘rsatkich joriy etilgan. Likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsienti (LCR) bankning yuqori sifatli likvid aktivlari 30 kunlik stress davridagi sof pul chiqimlarini qoplash imkoniyatini ko‘rsatadi [2]. Sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsienti (NSFR) esa bankning bir yillik davrdagi aktiv operatsiyalari barqaror moliyalashtirish manbalari bilan qay darajada ta’minlanganini ifodalaydi [3]. Ushbu koeffitsientlarning kamida 100 foiz bo‘lishi bankning qisqa va uzoq muddatli likvidlilik talablariga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Biroq likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsienti (LCR) va sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsienti (NSFR) bankda likvidlilik riski mavjud emasligini to‘liq kafolatlamaydi. Koeffitsientlar hisobot sanasidagi umumiy holatni ifodalaydi, ammo depozitlar konsentratsiyasi, mablag‘larning chiqib ketish tezligi, likvid aktivlarni sotish imkoniyati, garov ta’minoti va valyutalar bo‘yicha nomutanosiblikni to‘liq aks ettirmasligi mumkin. Shu sababli majburiy koeffitsientlar belgilangan minimal darajadan yuqori bo‘lgan sharoitda ham alohida bankda likvidlilik bosimi yuzaga kelishi ehtimoli saqlanib qoladi.

2023 yildagi xalqaro bank inqirozlari likvidlilik riski juda qisqa vaqt ichida kuchayishi mumkinligini ko‘rsatdi. Raqamli bank xizmatlari, masofaviy to‘lovlar va axborotning tez tarqalishi omonatchilarga mablag‘larni qisqa vaqtda boshqa banklarga o‘tkazish imkonini berdi. Bazel qo‘mitasi ushbu inqirozlar tahlilida foiz riski, likvidlilik riski va moliyalashtirish konsentratsiyasining o‘zaro ta’siri, shuningdek, bank rahbariyati va nazorat organlarining o‘z vaqtida chora ko‘rmaganini asosiy muammolar qatorida qayd etgan [4]. Bu holat likvidlilik riskini majburiy normativ buzilganidan keyin emas, balki uning dastlabki belgilari shakllanayotgan bosqichda aniqlash zarurligini tasdiqlaydi.

Likvidlilik riskini erta aniqlash tizimi bank moliyaviy holati yomonlashishidan oldin ogohlantiruvchi ko‘rsatkichlarni kuzatishga asoslanadi. Bunday ko‘rsatkichlarga likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsienti (LCR) va sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsienti (NSFR) bilan birga kredit-depozit nisbati, yuqori likvidli aktivlar ulushi, sof va jamlanma likvidlilik tafovuti, yirik omonatchilar konsentratsiyasi, talab qilib olinguncha depozitlar ulushi, garovga qo‘yilmagan aktivlar hamda xorijiy valyutadagi likvidlilik pozitsiyasi kiritilishi lozim. Ko‘rsatkichlarning har biri bo‘yicha ogohlantirish chegaralarini belgilash bankka likvidlilik taqchilligi yuzaga kelishidan oldin tuzatish choralarini ko‘rish imkonini beradi.

O‘zbekiston bank tizimida likvidlilik ko‘rsatkichlari belgilangan minimal talablardan yuqori saqlanmoqda. 2025 yil yakunida bank tizimi bo‘yicha likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsienti (LCR) 208 foizni, sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsienti (NSFR) esa 120 foizni tashkil etgan [5]. Ushbu natijalar bank tizimining agregat likvidlilik holati barqarorligini ko‘rsatadi. Biroq tizim bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlar alohida banklardagi depozitlar konsentratsiyasi, muddat nomutanosibligi va valyutalar bo‘yicha likvidlilik tafovutini yashirib qolishi mumkin.

Shu sababli O‘zbekiston tijorat banklarida likvidlilik riskini baholash majburiy koeffitsientlarga rioya etilishini tekshirish bilan cheklanmasligi kerak. Bankning biznes modeli, resurs bazasi, yirik omonatchilar ulushi, tashqi moliyalashtirishga bog‘liqligi va stress sharoitida likvid aktivlardan foydalanish imkoniyatlari birgalikda baholanishi zarur. Likvidlilik riskining dastlabki belgilarini aniqlash uchun ko‘rsatkichlar dinamikasi, ularning belgilangan chegaralarga yaqinlashishi va bir vaqtda bir nechta ko‘rsatkichning yomonlashishi nazorat qilinishi lozim.

Adabiyotlar sharhi. Bazel qo‘mitasining likvidlilik riskini samarali boshqarish va nazorat qilish tamoyillarida bank likvidliligiga ta’sir qiluvchi barcha balans va balansdan tashqari pozitsiyalarni qamrab oladigan boshqaruv tizimini shakllantirish zarurligi asoslangan. Bank kuzatuv kengashi likvidlilik riski bo‘yicha risk-appetitni tasdiqlashi, rahbariyat esa pul oqimlarini muntazam nazorat qilishi, stress-testlar o‘tkazishi va favqulodda moliyalashtirish rejasini ishlab chiqishi lozim [1]. Mazkur tamoyillarning muhim

jihati likvidlilik riskini majburiy koeffitsientlar buzilganidan keyin emas, balki moliyalashtirish tarkibi, aktivlar sifati va pul oqimlari yomonlasha boshlagan bosqichda aniqlashga qaratilganidir. Biroq hujjatda erta ogohlantirish ko‘rsatkichlari uchun yagona miqdoriy chegaralar belgilanmagan. Ularni bankning biznes-modeli va risk xususiyatlariga muvofiq belgilash banklar va milliy nazorat organlariga qoldirilgan.

Bazel III doirasida ishlab chiqilgan likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsienti (LCR) bankning 30 kalendar kunlik stress davridagi sof pul chiqimlarini yuqori sifatli likvid aktivlar bilan qoplash imkoniyatini baholaydi [2]. Mazkur koeffitsient bankning qisqa muddatli likvidlilik bosimiga bardosh berish qobiliyatini ko‘rsatadi. Likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsientining (LCR) 100 foizdan pastlashishi bankning yuqori sifatli likvid aktivlari stress sharoitidagi sof pul chiqimlarini to‘liq qoplay olmasligini anglatadi. Shu bilan birga, koeffitsientning 100 foizdan yuqori bo‘lishi likvidlilik riski mavjud emasligini kafolatlamaydi. Chunki unda depozitlar konsentratsiyasi, mablag‘larning chiqib ketish tezligi, aktivlarni sotishdagi ehtimoliy diskont va banklararo moliyalashtirish imkoniyatining yomonlashishi to‘liq aks etmasligi mumkin.

Sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsienti (NSFR) bank aktivlari va balansdan tashqari operatsiyalarini bir yillik davrda barqaror resurslar bilan moliyalashtirish darajasini ifodalaydi [3]. Ushbu koeffitsient uzoq muddatli va past likvidli aktivlarni qisqa muddatli hamda barqaror bo‘lmagan resurslar hisobiga moliyalashtirishni cheklashga qaratilgan. Sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsientining (NSFR) 100 foizdan yuqori bo‘lishi mavjud barqaror moliyalashtirish manbalari talab etiladigan barqaror moliyalashtirish miqdoridan yuqori ekanini ko‘rsatadi. Biroq mazkur koeffitsient qisqa vaqt ichida yirik depozitlarning chiqib ketishi yoki muayyan valyutadagi likvidlilik taqchilligini to‘liq ifodalamaydi. Shu sababli sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsienti (NSFR) qisqa muddatli pul oqimlari va moliyalashtirish konsentratsiyasi ko‘rsatkichlari bilan birgalikda qo‘llanilishi lozim.

Bazel qo‘mitasining 2023 yilgi bank inqirozlari bo‘yicha hisobotida likvidlilik riskining tez kuchayishiga sabab bo‘lgan omillar tahlil qilingan. Hisobotda moliyalashtirish manbalarining muayyan omonatchilar guruhida to‘planishi, depozitlarning barqarorligi noto‘g‘ri baholanishi, foiz riski va likvidlilik riskining o‘zaro ta’siri hamda bank rahbariyatining o‘z vaqtida chora ko‘rmagani asosiy kamchiliklar sifatida ko‘rsatilgan [4]. Raqamli bank xizmatlari depozitlarni qisqa vaqt ichida ko‘chirish imkoniyatini kengaytirgani sababli an’anaviy stress-ssenariylardagi pul chiqimi farazlari amaldagi riskni past baholashi mumkin. Mazkur natijalar likvidlilik riskini erta aniqlashda depozitlar konsentratsiyasi, kunlik pul chiqimlari, garovga qo‘yilmagan likvid aktivlar va bozordan mablag‘ jalb qilish qiymatini doimiy kuzatish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi nizomida bank likvidliligini boshqarish va nazorat qilishning milliy mezonlari belgilangan [6]. Nizomga muvofiq, banklar likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsienti (LCR) va sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsientini (NSFR) kamida 100 foiz darajasida ta’minlashi lozim. Mazkur talablar barcha valyutalar, milliy valyuta va xorijiy valyutalar bo‘yicha alohida bajarilishi kerak. Shuningdek, yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi tijorat banklarida kamida 10 foiz bo‘lishi belgilangan.

Milliy nizomda likvidlilikni erta nazorat qilish uchun muhim bo‘lgan qo‘shimcha ko‘rsatkichlar ham nazarda tutilgan. Bank hisobotlarida moliyaviy resurslarning eng yirik manbalari, resurslarning tarmoq va hududlar bo‘yicha jamlanganligi, aktivlar va majburiyatlarni to‘lash jadvali, likvidli aktivlar va depozitlar dinamikasi, balansdan tashqari majburiyatlar hamda keyingi 30 kunlik likvidlilik prognozi aks ettirilishi lozim. Banklar likvidlilik holatini har chorakda kamida bir marta stress-testdan o‘tkazishi va natijalar asosida ko‘zda tutilmagan moliyalashtirish rejasini ishlab chiqishi kerak.

Nizomda kreditlar va depozitlar nisbatining 80 foizdan yuqori qiymati yoki uning o‘sishi barqarorligi past resurslarga bog‘liqlik kuchayishining dastlabki belgisi sifatida baholangan. Bu yondashuv likvidlilik riskini majburiy koeffitsientlar bilan birga balans tarkibi va moliyalashtirish manbalari asosida aniqlash zarurligini ko‘rsatadi. Biroq amaldagi ko‘rsatkichlarning ogohlantiruvchi, yuqori va kritik risk darajalari yagona tizimda birlashtirilmagan.

Adabiyotlar tahlili likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsienti (LCR) qisqa muddatli, sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsienti (NSFR) esa tarkibiy moliyalashtirish riskini baholashini ko‘rsatdi. Depozitlar konsentratsiyasi, kredit-depozit nisbati, likvidlilik tafovuti, valyutalar bo‘yicha pozitsiyalar va garovga qo‘yilmagan aktivlar mazkur koeffitsientlarni to‘ldiruvchi erta ogohlantirish ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Biroq ilmiy va me’yoriy manbalarda ushbu ko‘rsatkichlarni yagona risk darajasiga

birlashtirish hamda har bir daraja uchun aniq boshqaruv choralarini belgilash masalasi to‘liq yechilmagan. Mazkur tadqiqot ushbu uslubiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar. Tijorat banklarida likvidlilik riskini erta aniqlash faqat amaldagi prudensial me’yorlarga rioya etilishini tekshirish bilan cheklanmasligi lozim. Chunki likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsienti (LCR) va sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsienti (NSFR) belgilangan talablardan yuqori bo‘lgan sharoitda ham depozitlar konsentratsiyasi, muddatlar nomutanosibligi yoki tashqi moliyalashtirishga qaramlik likvidlilik bosimini yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun tahlilda joriy, tarkibiy, konsentratsion va valyuta likvidliligi ko‘rsatkichlari kompleks baholandi.

1-jadval

O‘zbekiston bank tizimi likvidliligining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi, foizda

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsienti (LCR)	224,5	189,6	211,6	164,8	193,8	207,5
Sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsienti (NSFR)	109,9	115,4	115,6	111,8	115,3	119,9
Kredit-depozit nisbati (LDR)	241,4	209,0	180,0	195,0	172,7	144,8
Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi	14,2	17,7	19,4	14,9	17,3	21,1

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsienti (LCR) 2020-2025 yillarda Bazel III va milliy prudensial talablarda belgilangan 100 foizlik minimal darajadan yuqori saqlangan [2;6]. Ko‘rsatkich 2020 yilda 224,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023 yilda 164,8 foizgacha pasaygan. Ayni vaqtda yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi 19,4 foizdan 14,9 foizgacha kamaygan. Ushbu ikki ko‘rsatkichning bir vaqtda pasayishi 2023 yilda bank tizimining qisqa muddatli likvidlilik buferiga bosim kuchayganini ko‘rsatuvchi erta ogohlantirish signali hisoblanadi.

2024-2025 yillarda yuqori likvidli aktivlarning ko‘payishi natijasida likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsienti (LCR) 207,5 foizgacha tiklangan. Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi esa 21,1 foizga yetgan. Mazkur natija bank tizimida 30 kunlik stress sharoitidagi sof pul chiqimlarini qoplash imkoniyati mustahkamlanganini ko‘rsatadi. Biroq koeffitsientning yuqori bo‘lishi likvidlilik riski to‘liq bartaraf etilganini anglatmaydi. Uni depozitlar konsentratsiyasi, aktivlarning garovga qo‘yilgan qismi va valyuta kesimidagi pul oqimlari bilan birgalikda baholash zarur.

Sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsienti (NSFR) tahlil davrida 109,9-119,9 foiz oralig‘ida shakllangan. Demak, bank tizimida mavjud barqaror moliyalashtirish hajmi talab etiladigan barqaror moliyalashtirish miqdoridan yuqori saqlangan. Biroq 2023 yilda ko‘rsatkichning 111,8 foizgacha pasayishi uzoq muddatli aktivlar o‘sishi barqaror resurslar o‘sishidan tezlashganini anglatadi. Shu sababli sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsienti (NSFR) 100 foizdan yuqori bo‘lgan holatda ham uning pasayish tendensiyasi alohida ogohlantirish signali sifatida qabul qilinishi lozim.

Kredit-depozit nisbati (LDR) 2020 yildagi 241,4 foizdan 2025 yilda 144,8 foizgacha pasaygan. Bu depozit bazasi kredit portfeliga nisbatan tezroq o‘sganini va kreditlarni ichki resurslar bilan qoplash darajasi yaxshilanganini ko‘rsatadi. Shunga qaramasdan, 2025 yilda har 100 so‘mlik depozitga 144,8 so‘mlik kredit to‘g‘ri kelgan. Demak, kredit portfelining muayyan qismi kapital, banklararo mablag‘lar, tashqi kredit liniyalari va boshqa qarz resurslari bilan moliyalashtirilgan.

Kredit-depozit nisbatining 2022 yildagi 180,0 foizdan 2023 yilda 195,0 foizgacha ko‘tarilishi, likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsienti (LCR) va yuqori likvidli aktivlar ulushining pasayishi bilan bir vaqtda yuz bergan. Mazkur holat alohida ko‘rsatkichlarga emas, balki ularning o‘zaro harakatiga asoslangan erta ogohlantirish tizimini joriy etish zarurligini tasdiqlaydi.

Talab qilib olinguncha depozitlarning jami depozitlardagi ulushi 2020 yildagi 46,9 foizdan 2025 yilda 30,9 foizgacha pasaygan. Jamg‘arma va muddatli depozitlar ulushi esa 53,1 foizdan 69,1 foizgacha oshgan. Bu passivlar tarkibining barqarorlashganini va depozitlarning kutilmagan chiqib ketish riski kamayganini ko‘rsatadi. Biroq talab qilib olinguncha depozitlarning umumiy ulushi ularning barqarorligini to‘liq ifodalamaydi. Yirik omonatchilarga tegishli talab qilib olinguncha mablag‘lar qisqa vaqt ichida chiqib ketishi mumkinligi sababli ular omonatchilar konsentratsiyasi bilan birgalikda baholanishi kerak.

2023 yilgi xalqaro bank inqirozlari raqamli bank xizmatlari va ijtimoiy axborot kanallari ta’sirida depozitlarning chiqib ketish tezligi keskin oshishi mumkinligini ko‘rsatdi [4]. Shu sababli banklarda eng yirik o‘nta omonatchining jami depozitlardagi ulushini ifodalovchi konsentratsiya koeffitsientini hisoblash taklif etiladi:

$$DC_{10,t} = \frac{\sum_{i=10}^{10} D_{i,t}}{D_t} \; x \; 100$$

Bu yerda:
$DC_{10,t}$ – yirik o‘nta omonatchi mablag‘larining konsentratsiya darajasi;
$D_{i,t}$ – tegishli yirik omonatchining depozit mablag‘lari;
D_t – bankdagi jami depozitlar.

Mazkur koeffitsientning o‘sishi yoki yirik omonatchilar mablag‘larining chiqib ketishi natijasida likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsientining (LCR) ichki minimal chegaradan pasayishi erta ogohlantirish signali sifatida qabul qilinishi lozim.

Aktivlar va passivlar muddatlari o‘rtasidagi nomutanosiblikni aniqlash uchun har bir muddat oralig‘i bo‘yicha sof va jamlanma likvidlilik tafovuti hisoblanadi:

$$GAP_i = CF_i^{in} - CF_i^{out}$$

$$CGAP_i = \sum_{j=1}^{i} GAPj$$

Bu yerda:
CF_i^{in} – tegishli muddat oralig‘ida kutilayotgan pul tushumlari;
CF_i^{out} – tegishli muddat oralig‘ida kutilayotgan pul chiqimlari;
GAP_i – sof likvidlilik tafovuti;
$CGAP_i$ – jamlanma likvidlilik tafovuti.

Bir kunlik, yetti kunlik, o‘ttiz kunlik, uch oylik va bir yillik muddat oraliqlarida jamlanma likvidlilik tafovutining salbiylashishi bankning qo‘shimcha moliyalashtirishga ehtiyojini ko‘rsatadi. Ayniqsa, o‘ttiz kunlik salbiy jamlanma tafovutning bank ichki limitidan oshishi aktivlar o‘sishini cheklash, likvid aktivlarni ko‘paytirish yoki qo‘shimcha resurs jalb qilish choralarini ishga tushirishi kerak.

Valyutalar kesimidagi tahlil bank tizimida tarkibiy risk yuqori ekanini ko‘rsatadi. Xorijiy valyutadagi kredit-depozit nisbati 2020 yilda 279,4 foizni, 2025 yilda esa 271,1 foizni tashkil etgan. Xorijiy valyutadagi kreditlar va depozitlar o‘rtasidagi moliyalashtirish tafovuti 2020 yilda 88,7 trln so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2025 yilda 149,4 trln so‘mga yetgan. Bu xorijiy valyutadagi kreditlarni moliyalashtirishda tashqi kredit liniyalari va boshqa jalb qilingan resurslarning ahamiyati yuqori ekanini ko‘rsatadi.

Mazkur ko‘rsatkich xorijiy valyutadagi likvidlilik tafovutining bilvosita indikatori hisoblanadi. To‘liq baholash uchun har bir asosiy valyuta bo‘yicha kutilayotgan pul tushumlari va chiqimlari alohida hisoblanishi lozim:

$$FXGAP_{i,C} = FXCF_{i,C}^{in} - FXCF_{i,C}^{out}$$

Bu yerda *c* tegishli xorijiy valyutani anglatadi. Salbiy valyuta tafovutining o‘sishi, tashqi resurslar muddatining qisqarishi yoki tegishli valyutadagi likvid aktivlarning kamayishi bank likvidliligining tashqi moliyalashtirish sharoitlariga sezgirligini oshiradi.

Likvidlilik zaxirasini baholashda aktivlarning faqat yuqori likvidli deb tasniflanishi yetarli emas. Ularning garovga qo‘yilmagan va favqulodda vaziyatda tez pulga aylantirilishi mumkin bo‘lgan qismi alohida hisobga olinishi kerak. Buning uchun quyidagi qoplash koeffitsientidan foydalanish mumkin:

$$ULC_t = \frac{UHLA_t}{SNCO_{30,t}} \; x \; 100$$

Bu yerda:
$UHLA_t$ – garovga qo‘yilmagan yuqori likvidli aktivlar;
$SNCO_{30,t}$ – stress sharoitidagi 30 kunlik sof pul chiqimi;
ULC_t – garovga qo‘yilmagan likvid aktivlar bilan qoplash koeffitsienti.

Koeffitsientning 100 foizdan pasayishi bankning qisqa muddatli stressni faqat erkin tasarruf etiladigan aktivlar bilan qoplay olmasligini ko‘rsatadi.

Tashqi qarzlarni qayta moliyalashtirish riskini baholashda kelgusi o‘n ikki oyda so‘ndiriladigan tashqi majburiyatlarni tasdiqlangan moliyalashtirish manbalari bilan qoplash darajasi aniqlanishi lozim:

$$RFC_{12,t} = \frac{CFS_{12,t}}{EDM_{12,t}}\ x\ 100$$

Bu yerda:

$CFS_{12,t}$ – keyingi o‘n ikki oy uchun tasdiqlangan moliyalashtirish manbalari;

$EDM_{12,t}$ – shu davrda so‘ndiriladigan tashqi qarzlar;

$RFC_{12,t}$ – tashqi qarzlarni qayta moliyalashtirishni qoplash koeffitsienti.

Koeffitsientning 100 foizdan past bo‘lishi bankning tashqi majburiyatlarni so‘ndirishda yangi resurslarni jalb qilishga qaramligini ko‘rsatadi. Tashqi kreditorlar, valyutalar yoki so‘ndirish muddatlarining yuqori konsentratsiyasi mazkur riskni yanada kuchaytiradi.

2-jadval

Erta ogohlantirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha 2025 yilgi baholash

Ko‘rsatkich	2025 yilgi holat	Baholash
Likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsienti (LCR)	207,5%	Barqaror
Sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsienti (NSFR)	119,9%	Barqaror
Kredit-depozit nisbati (LDR)	144,8%	Nazorat talab etadi
Yuqori likvidli aktivlar ulushi	21,1%	Barqaror
Talab qilib olinguncha depozitlar ulushi	30,9%	Maqbul
Xorijiy valyutadagi kredit-depozit nisbati	271,1%	Yuqori risk
Xorijiy valyutadagi moliyalashtirish tafovuti	149,4 trln so‘m	Yuqori risk
Sof va jamlanma likvidlilik tafovuti	Bank ichki ma’lumoti talab etiladi	Doimiy monitoring zarur
Yirik omonatchilar konsentratsiyasi	Bank ichki ma’lumoti talab etiladi	Stress-test zarur
Garovga qo‘yilmagan likvid aktivlar	Bank ichki ma’lumoti talab etiladi	Qoplash koeffitsienti hisoblanishi zarur
Tashqi qarzlarni qayta moliyalashtirish	Bank ichki ma’lumoti talab etiladi	Muddat va valyuta kesimida baholanishi zarur

Tahlil natijalariga ko‘ra, 2025 yilda O‘zbekiston bank tizimining umumiy operatsion likvidliligi barqaror bo‘lgan. Likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsienti (LCR), sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsienti (NSFR) va yuqori likvidli aktivlar ulushi me’yoriy talablardan yuqori shakllangan. Depozitlar muddat tarkibining yaxshilanishi ham likvidlilik riskini kamaytiruvchi omil bo‘lgan.

Biroq kredit-depozit nisbatining 144,8 foiz darajasida saqlanishi va xorijiy valyutadagi kredit-depozit nisbatining 271,1 foizga yetishi tarkibiy likvidlilik riski hali ham yuqori ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa, xorijiy valyuta segmentida tashqi moliyalashtirishga qaramlik asosiy erta ogohlantirish omili sifatida namoyon bo‘lgan.

Shu asosda har bir ko‘rsatkichga 1 dan 4 gacha risk darajasini berish va bankning umumiy holatini eng zaif ko‘rsatkich bo‘yicha belgilash taklif etiladi:

$Rt = max(r_{LCR,t}; r_{NSFR,t}; r_{LDR,t}; r_{HLA,t}; r_{GAP,t}; r_{DC,t}; r_{DD,t}; r_{FX,t}; r_{ULA,t}; r_{RFC,t})$

Bu yerda 1 yashil, 2 sariq, 3 to‘q sariq va 4 qizil risk darajasini ifodalaydi. Eng zaif ko‘rsatkich tamoyili likvidlilikni qoplash me’yori koeffitsienti (LCR) yoki sof barqaror moliyalashtirish me’yori koeffitsienti (NSFR)ning yuqori qiymati boshqa yo‘nalishdagi likvidlilik xavfini yashirib qolishining oldini oladi. Natijada likvidlilik muammosini prudensial me’yor buzilishidan oldin aniqlash va tegishli tuzatish choralarini o‘z vaqtida qo‘llash imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for Sound Liquidity Risk Management and Supervision. Basel: Bank for International Settlements, 2008. 44 p.
2. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: The Liquidity Coverage Ratio and Liquidity Risk Monitoring Tools. Basel: Bank for International Settlements, 2013. 75 p.
3. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: The Net Stable Funding Ratio. Basel: Bank for International Settlements, 2014. 17 p.
4. Basel Committee on Banking Supervision. Report on the 2023 Banking Turmoil. Basel: Bank for International Settlements, 2023. 36 p.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2025 yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhi. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026.
6. Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizom: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori, 2015 yil 13 avgust, ro‘yxat raqami 2709, amaldagi tahrirda.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Markaziy bankning statistik byulleteni: 2025 yil. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026.

БАСТАУЫШ БІЛІМ БЕРУ ЖҮЙЕСІНДЕ ЛЕКСИКАЛЫҚ ДАҒДЫЛАРДЫ ҚАЛЫПТАСТЫРУДЫҢ ӨЗЕКТІ МӘСЕЛЕЛЕРІ

Ғанибаева Байян Шарипбай қызы
Шыршық мемлекеттік педагогикалық университетің PhD докторанты
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21917460

Аннотация: Мақалада бастауыш сынып оқушыларының лексикалық дағдыларын қалыптастырудың теориялық және практикалық негіздері қарастырылған. Лексикалық дағдылардың оқушылардың тілдік құзыреттілігін дамытудағы рөлі айқындалып, бастауыш білім беру жүйесіндегі сөздік жұмысының ерекшеліктері талданды.
Кіліт сөздер: бастауыш білім беру, лексикалық дағдылар, сөздік қор, тілдік құзыреттілік, түсіндірме сөздік, оқу сауаттылығы, сөздік жұмысы.
Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические основы формирования лексических навыков у учащихся начальных классов. Определена роль лексических навыков в развитии языковой компетенции обучающихся, а также проанализированы особенности словарной работы в системе начального образования.
Ключевые слова: начальное образование, лексические навыки, словарный запас, языковая компетенция, толковый словарь, читательская грамотность, словарная работа.
Abstract: The article examines the theoretical and practical foundations of developing lexical skills in primary school students. It identifies the role of lexical skills in the development of students' language competence and analyzes the characteristics of vocabulary instruction in the primary education system.
Keywords: primary education, lexical skills, vocabulary, language competence, explanatory dictionary, reading literacy, vocabulary instruction.

Бастауыш білім беру кезеңінде оқушылардың тілдік құзыреттіліктерін, яғни тыңдалым, айтылым, оқылым және жазылым дағдыларын қалыптастыру ерекше маңызға ие. Себебі осы кезеңде оқушылар күнделікті қолданыстағы сөздер мен алғашқы әдеби сөздерді меңгеру арқылы өздерінің сөздік қорын қалыптастыра бастайды. Лексикалық дағдыларды дамыту оқушылардың ауызша және жазбаша тілін байытып қана қоймай, олардың ойлау қабілетіне, қарым-қатынас мәдениетіне және білімді меңгеру үдерісіне тікелей әсер етеді. Сондықтан бастауыш сынып сабақтарында сөздік қорды молайту және лексикалық бірліктерді орынды қолдану дағдыларын қалыптастыру маңызды әдістемелік міндеттердің бірі болып саналады.

Қазіргі таңда білім беру үдерісінде бастауыш сынып оқушыларының лексикалық дағдыларын дамыту мақсатында түрлі әдістер мен педагогикалық технологиялар тиімді қолданылып келеді. Атап айтқанда, көрнекі құралдарды пайдалану арқылы жаңа сөздерді меңгерту, орфографиялық сөздікпен жұмыс жүргізу, әліппе және оқу сабақтарындағы мәтіндерді талдау арқылы оқушылардың сөздік қоры жүйелі түрде кеңейтілуде. Сонымен қатар бастауыш сынып оқушыларына үйретілетін лексикалық бірліктердің көлемін арттыруға бағытталған жұмыстар жүргізілуде. Өйткені бастауыш мектепте қалыптасқан лексикалық дағдылар жоғары сыныптарда меңгерілетін білімнің берік іргетасы болып табылады.

Бастауыш білім беру жүйесінде Мемлекеттік білім беру стандарты мен оқу бағдарламалары оқушылардың білімді кезең-кезеңімен және жүйелі түрде меңгеруін көздейді. Осы стандартқа сәйкес бастауыш сынып оқушылары А1 деңгейіндегі тілдік құзыреттілікті игеруі тиіс, ал ана тілін тереңдетіп оқытатын және мамандандырылған сыныптардың оқушылары А1+ деңгейіне жетуі қажет.

Бастауыш сынып оқушыларында қалыптастырылатын негізгі және пәндік (тілдік және сөйлеу) құзыреттіліктердің ішінде тыңдалым, айтылым, оқылым және жазылым дағдылары лексикалық дағдылармен тығыз байланысты. А1 және А1+ деңгейлеріне қойылатын талаптарды толық меңгеру оқушылардың сөздік қорын байытуға және сөз мағынасын дұрыс түсінуіне тікелей тәуелді. Сондықтан лексикалық дағдыларды мақсатты түрде дамыту оқушылардың аталған деңгейлерге қол жеткізу мүмкіндігін айтарлықтай арттырады.

Кейбір тілтанушы ғалымдар оқылым мен тыңдалымды пассивті (рецептивті), ал жазылым мен айтылымды белсенді (продуктивті) дағдылар ретінде қарастырады. Алайда Ф. Смит оқуды белсенді когнитивтік үдеріс деп есептейді. Оның пікірінше, оқушы баспа мәтінінен мағына шығарып,

тақырыпты мәтін мазмұнымен байланыстырады, алынған ақпаратты талдайды және түсіндіреді. Ал айтылым мен жазылым арқылы өз ойын басқаларға жеткізеді. Сондықтан тілдік әрекеттің барлық түрлері бір-бірімен өзара тығыз байланыста дамиды.

C. Lee мен D. Pulido жүргізген зерттеулер сөздік қордың оқып түсіну дағдысының дамуына елеулі ықпал ететінін дәлелдейді. Ал С. М. Камалованың пікірінше, оқушылар сөздік қорын ерте жастан бастап күнделікті қарым-қатынас барысында қалыптастырады. Бұл кезеңде олар жаңа сөздерді меңгеріп қана қоймай, оларды түрлі жағдаяттарда орынды қолдануға дағдыланады.

Л. С. Выготский жаңа меңгерілетін сөздердің оқушылардың жас ерекшелігі мен даму деңгейіне сәйкес келуі қажеттігін атап көрсетеді. Сонымен қатар бастауыш мектеп жасындағы балаларды оқытуда ойын технологиялары мен көрнекілікке негізделген әдістердің жоғары тиімділігін негіздейді.

Ана тілі мен оқу сауаттылығы сабақтарында оқушылар түрлі мәтіндер, өлеңдер мен әңгімелер арқылы жаңа сөздермен танысады. Бұл үдерісте мұғалімнің міндеті тек сөздің лексикалық мағынасын түсіндірумен шектелмей, оны әртүрлі тілдік жағдаяттарда қолданудың жолдарын көрсету болып табылады. Себебі жаңа сөздердің ұзақ мерзімді жадта сақталуы үшін олар бірнеше рет әртүрлі контексте қайталанып қолданылуы қажет.

Зерттеу барысында бастауыш сынып оқулықтарына талдау жүргізіліп, ондағы лексикалық бірліктерді меңгертудің мазмұны қарастырылды. Талдау нәтижелері оқулықтарда жаңа сөздердің мағынасын түсіндіруге белгілі бір деңгейде көңіл бөлінгенімен, оларды бекітуге арналған жүйелі жаттығулардың жеткіліксіз екенін көрсетті. Кейбір мәтіндердің соңында жаңа сөздердің түсіндірмесі берілгенімен, оларды оқушылардың белсенді сөздік қорына енгізуге бағытталған тапсырмалар өте сирек кездеседі.

Мысалы, 1-сыныпқа арналған «Оқу сауаттылығы» оқулығында әр тақырып негізінен 4–5 тапсырмадан тұрады және олардың басым бөлігі мәтіннің мазмұнын түсінуге бағытталған. Ал түсіндірме сөздіктегі жаңа сөздермен жұмыс жасауға, оларды сөйлем мен мәтін құрамында қолдануға арналған жаттығулардың саны шектеулі. Бұл жағдай оқушылардың лексикалық дағдыларын терең әрі жүйелі қалыптастыруға кері әсерін тигізуі мүмкін.

Зерттеу нәтижелері бастауыш сынып оқулықтарында күрделі және әдеби сөздердің саны салыстырмалы түрде аз екенін көрсетті. Сондықтан қолданыстағы сөздерді түрлі контексте үйретіп, оларды арнайы жаттығулар арқылы бекіту қажет. Мәселен, Т.Ғаффорова, Ш.Нуруллаева және З.Мирзахакимова авторлығымен жарық көрген 2018 жылғы 2-сыныпқа арналған «Оқу кітабы» атты оқулығында жаңа сөздер оқулықтың соңында әліпби ретімен берілген сөздік түрінде ұсынылған. Ал У.Б.Айдарова авторлығымен дайындалған 2023 жылғы «Оқу сауаттылығы» атты оқулығында сөздік тек мәтін немесе өлеңнен кейін ғана беріліп, оқулық соңында жинақталған сөздік кездеспейді. Сонымен қатар оқулықта меңгерілген барлық лексикалық бірліктерді қайталауға арналған тұтас сөздік пен жүйелі жаттығулар жеткіліксіз. Ал ана тілі оқулықтарында түсіндірме сөздік мүлде берілмеген. Ғалымдардың пікірінше, бастауыш сынып оқушыларына бір сабақ барысында 4–6 жаңа сөзді меңгерту тиімді болып табылады. Жаңа сөздермен жүйелі жұмыс жүргізілмеуі оқушылардың сөздік қорының жұтаң болуына және мәтінді түсіну деңгейінің төмендеуіне әкелуі мүмкін. Себебі сөздік қор тек коммуникативтік қызметті ғана емес, сонымен бірге оқылым, жазылым және тыңдалым дағдыларының дамуын қамтамасыз етеді.

Жүргізілген салыстырмалы талдау нәтижелері бастауыш сынып оқушыларының лексикалық дағдыларын қалыптастыру мәселелері тек өзбек тілін ғана емес, басқа тілдерді оқыту үдерісінде де өзекті екенін көрсетті. Мысалы, қазақ тілін оқыту барысында мұғалімдер негізінен «Әдебиеттік оқу» және «Ана тілі» оқулықтарын басшылыққа алады. Тілді меңгеру кіріктірілген үдеріс болғандықтан, басқа пәндердің мүмкіндіктерін де жоққа шығаруға болмайды. Дегенмен, дәл осы оқулықтар бастауыш сынып оқушыларының лексикалық дағдыларын қалыптастырудың негізгі оқу құралдары болып табылады.

«Әдебиеттік оқу» оқулығында мәтіндер мен өлеңдермен қатар олардың авторлары жөнінде қысқаша мәліметтер мен сызбалар берілген. Бұл оқушыларға көркем сөздерді меңгерумен бірге жазушылардың шығармашылығымен танысуға мүмкіндік береді. Балалар әдебиетінің көрнекті өкілдерінің еңбектерін оқу оқушылардың оқу-танымдық қызығушылығын арттырып, тәрбиелік және білімдік мақсаттардың тиімді жүзеге асуына ықпал етеді. Сонымен қатар әрбір тақырыпта 6–7 тапсырманың берілуі оқушылардың тақырып бойынша тереңірек жұмыс істеуіне жағдай жасайды. Мәтіндердегі немесе өлеңдердегі әдеби сөздердің түсіндірмесі тақырып соңында ұсынылады.

«Әдебиеттік оқу» пәні Қазақстанда 2-сыныптан бастап оқытылады. Б.Т.Қабатай, Б.Қ.Қалиева және Ұ.К.Зейнетоллина авторлығымен жарық көрген 2022 жылғы «Атамұра» баспасының 2-сынып оқулығында оқушыларды «Сөз әлеміне саяхат» тұжырымдамасы негізінде оқыту көзделген. Бұл тұжырымдама оқушылардың көркемдік ойлауын қалыптастыруға және сөз өнерін меңгерудің алғашқы баспалдағы ретінде маңызды рөл атқарады.

Ал «Ана тілі» оқулығы 1-сыныптан бастап оқытылады. Бұл оқулықта грамматикалық материалмен қатар сөздік жұмысы да жүйелі ұйымдастырылған. Әр сабақ белгілі бір тақырып пен үш тапсырмадан тұрады. Мәтін құрамындағы жаңа сөздер түсіндірме сөздік арқылы беріліп, оқулық соңында әліпби ретімен орналасқан қосымша түсіндірме сөздік ұсынылған.

Өзбекстанның жалпы орта білім беретін мектептеріне арналған 1-сыныптың «Ана тілі» оқулығында түсіндірме сөздік жүйесі жеткілікті деңгейде қалыптаспаған. Дегенмен, оқулықта оқушылар меңгеруі тиіс әдеби сөздер кездеседі. Мысалы, «Сөйлеу. Мәтін. Сөйлем» тақырыбындағы мәтінде *e‘zozlaydilar* (қадірлейді), *qiyoslaydilar* (салыстырады), *ko‘rk* (көрік), *rizq-ro‘zimiz* (несібеміз) сияқты сөздер берілген. Бұл сөздерге оқушылардың назарын аударып, оларды түрлі контексте қолдануға арналған жаттығулар ұйымдастыру жаңа сөздерді белсенді сөздік қорға енгізуге мүмкіндік береді. Нәтижесінде оқушылар осы сөздерді өз сөзінде орынды қолданып, ойын нақты әрі сауатты жеткізу дағдысын қалыптастырады.

2-сыныпқа арналған У. Б. Айдарова авторлығындағы «Оқу сауаттылығы» оқулығы төрт бөлімнен тұрады, әр бөлім үш тарауға бөлінген. Оқулықпен бірге әзірленген жұмыс дәптері оқушылардың оқу жетістіктерін арттыруға бағытталған. Ондағы тапсырмалар оқулық мазмұнымен тығыз байланысты және оқушылардың тақырыпты тереңірек меңгеруіне мүмкіндік береді. Сонымен қатар оқулықта қоршаған орта туралы түсініктерді кеңейтуге, оқу, жазу, тыңдалым және ауызша сөйлеу сияқты негізгі тілдік құзыреттерді дамытуға ерекше назар аударылған. Бұл мазмұн Мемлекеттік білім беру стандартының талаптарына толық сәйкес келеді.

Сонымен бірге зерттеу барысында жұмыс дәптерлерінде жаңа сөздерді бекітуге арналған жаттығулардың жеткіліксіз екендігі анықталды. Мысалы, «Өзбек ұлттық қолөнері» тақырыбынан кейін түсіндірме сөздікте mohir (шебер), hunarmand (қолөнерші), ko‘nchilik (тері өңдеу кәсібі) сөздерінің анықтамалары берілген. Ал жұмыс дәптерінде тек «Қолөнер – алтын, жаттығу – гауһар» тақырыбымен *«Қолөнерші» сөзінің мағынасын түсіндіріңіз* деген бір ғана тапсырма ұсынылған. Мұндай тапсырма сөздің мағынасын толық меңгеруге және оны әртүрлі жағдаятта қолдану дағдысын қалыптастыруға жеткіліксіз. Сонымен қатар басқа жаңа сөздерге арналған жаттығулар мүлде берілмеген. Бұл жағдай бастауыш сынып оқушыларының лексикалық дағдыларын қалыптастыруда жүйелі әдістемелік жұмыстың қажеттілігін көрсетеді.

Сөз – тек қарым-қатынасты жүзеге асыратын негізгі тілдік бірлік қана емес, сонымен қатар оқушылардың танымдық қабілеттерін дамытудың маңызды құралы. Білім беру де, тәрбие беру де сөз арқылы жүзеге асады. Сондықтан лексикалық бірліктермен жүйелі жұмыс жүргізу және оқушылардың лексикалық дағдыларын жетілдіру оқу-тәрбие үдерісінің сапасын арттырудың маңызды шарты болып табылады.

Жаңа сөздердің оқушылардың белсенді сөздік қорына енуі үшін олар әртүрлі контексте бірнеше рет қайталанып қолданылуы тиіс. Осы тұрғыдан алғанда, жаңа сөздердің мағынасын «Өзбек тілінің түсіндірме сөздігі» арқылы түсіндіру тиімді әдістердің бірі болып табылады. Себебі түсіндірме сөздік сөз мағынасын нақты әрі дәл меңгеруге мүмкіндік береді. Мысалы:

- mohir – жоғары шеберлікке ие, ісмер;
- hunarmand – қолөнермен айналысатын шебер;
- ko‘nchilik – мал терісінен былғары дайындаумен айналысатын қолөнер саласы.

Сонымен қатар зерттеу барысында мәтіндерде кездесетін басқа да бірқатар сөздерді оқушыларға арналған түсіндірме сөздік құрамына енгізу ұсынылады. Бұл оқушылардың сөздік қорын байытып, жаңа сөздерді белсенді қолданысқа енгізуге мүмкіндік береді.

Демек, бастауыш білім беру жүйесінде лексикалық дағдыларды қалыптастыруға бағытталған әдістемелік жұмысты жетілдіру, оқулықтардың мазмұнын жүйелі сөздік жұмыстарымен толықтыру және оқытудың тиімді технологияларын енгізу оқушылардың коммуникативтік құзыреттілігін арттырып, білім сапасын жақсартудың маңызды факторларының бірі болып табылады.

ӘДЕБИЕТТЕР ТІЗІМІ

1. F, Smith.”Learning to read by reading”. Language Arts, (1976). 297-322.

2. Lee, S., and Pulido, D. The impact of topic interest, L2 proficiency, and gender on EFL incidental vocabulary acqui-sition through reading. Language Teaching Research, (2017). 118-135.
3. Vygotsky L.S. Mind in Society-Harvard UniversityPress,1978.-85 p
4. B.T. Qabatay, B.Q.Qaliyeva, U.K.Zeynetollina “Әдебиеттік оқу” 2 sinf. Almati “Atamura” 2022.
5. U. B.Aydarova “O‘qish savodxonligi” darsligi 2-sinf 1-qism. Toshkent-2023.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARDA UMUMIYLIK VA XUSUSIYLIK

Abdujalilova Ruxshona Abdug‘afforzoda
Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali mustaqil tadqiqotchisi
E-mail:ruxshonaabdujalilova9418@gmail.com Tel: +998 919769094
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21917672

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi kriminalingvistik birliklarning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Kriminalingvistik birliklarning tilshunoslik, huquqshunoslik hamda sud-ekspertiza amaliyotidagi ahamiyati yoritilib, ularning semantik, pragmatik va diskursiv jihatlari tadqiq etiladi. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillarida uchraydigan kriminal leksika, huquqiy terminlar hamda jinoiy matnlarning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinib, ularning o‘xshash va farqli tomonlari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: kriminalingvistika, ingliz tili, o‘zbek tili, qiyosiy tilshunoslik, huquqiy diskurs, jinoiy matn, lingvistik ekspertiza, semantik tahlil.

Аннотация. В статье проводится сопоставительный анализ криминолингвистических единиц английского и узбекского языков, выявляются их общие и специфические особенности. Рассматривается значение криминолингвистических единиц в лингвистике, юриспруденции и судебно-лингвистической экспертизе. Особое внимание уделяется семантическим, прагматическим и дискурсивным характеристикам криминальной лексики, юридической терминологии и текстов уголовно-правовой направленности, а также определяются сходства и различия между исследуемыми языками.

Ключевые слова: криминолингвистика, английский язык, узбекский язык, сопоставительное языкознание, юридический дискурс, криминальный текст, лингвистическая экспертиза, семантический анализ.

Abstract. This article presents a comparative analysis of criminal linguistic units in the English and Uzbek languages, identifying their common and distinctive features. It examines the role of criminal linguistic units in linguistics, law, and forensic linguistic expertise. The study focuses on the semantic, pragmatic, and discursive characteristics of criminal vocabulary, legal terminology, and crime-related texts, highlighting both similarities and differences between the two languages.

Keywords: criminal linguistics, English language, Uzbek language, comparative linguistics, legal discourse, crime-related text, forensic linguistics, semantic analysis.

Globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va xalqaro huquqiy hamkorlikning kengayishi natijasida til va huquq o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish zarurati ortib bormoqda. Xususan, kriminologik tilshunoslikning rivojlanishi jinoyatchilikning yangi shakllari, onlayn va ijtimoiy tarmoqlarda sodir etilgan jinoyatlar, elektron yozishmalar, tahdidlar, tuhmatlar, haqoratlar, firibgarlik va ekstremistik matnlarni lingvistik tahlil qilish zarurati bilan bog‘liq. Fanning ushbu sohasi tilshunoslik, huquq, kriminologiya va sud tibbiyoti kesishmasida paydo bo‘ldi va jinoyatlar bilan bog‘liq nutq birliklarini ilmiy o‘rganishga qaratilgan. Kriminalingvistika hozirda jinoyatchilikka oid matnlarni, og‘zaki va yozma nutq namunalarini lingvistik mezonlar asosida baholashda, muallifni aniqlashda, nutqning kommunikativ maqsadini aniqlashda va huquqiy nizolarni hal qilishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Xususan, ingliz tilida ushbu sohadagi tadqiqotlar sud nutqi, jinoyat lug‘ati, tahdid va haqoratlarni ifodalovchi lingvistik birliklar, anonim matnlarni aniqlash va raqamli ommaviy axborot vositalarida nutqni tahlil qilish kabi masalalarga qaratilgan. O‘zbek tilshunosligida kriminalingvistika mustaqil ilmiy soha sifatida endigina shakllana boshlamoqda va dolzarb vazifalardan biri uning nazariy asoslarini rivojlantirish, terminologiyasini takomillashtirish va qiyosiy tadqiqotlarni kengaytirishdir[1].

Ingliz va o‘zbek tillari turli til oilalariga mansub bo‘lishiga qaramay, jinoyat huquqida qo‘llaniladigan ko‘plab lingvistik birliklar kommunikativ funksiya, semantik mazmun va pragmatik xususiyatlar jihatidan umumiy xususiyatlarga ega. Shu bilan birga, har bir tilning milliy va madaniy xususiyatlari, huquqiy tizimi, tarixiy rivojlanishi va ijtimoiy-madaniy omillari kriminalingvistik birliklarning shakllanishi va qo‘llanilishida o‘ziga xos farqlarni yaratadi. Bu farqlarni qiyosiy o‘rganish nafaqat nazariy tilshunoslik, balki tarjimashunoslik, sud-tibbiyot fanlari, huquqiy kommunikatsiya va xalqaro hamkorlik uchun ham katta ilmiy ahamiyatga ega. Kriminalingvistik birliklarga jinoyatlarni

bildiruvchi leksik birliklar, huquqiy atamalar, tahdid va haqoratlarni o‘z ichiga olgan nutq vositalari, firibgarlik va aldash bilan bog‘liq kommunikativ strategiyalar, sud jarayonlarida qo‘llaniladigan diskurs elementlari, shuningdek, jinoyat submadaniyati bilan bog‘liq jargon so‘zlar kiradi. Ularning semantik, strukturaviy va funksional xususiyatlarining qiyosiy tahlili bizga jinoyatga oid ma’lumotlarning turli tillarda qanday ifodalanishini aniqlash imkonini beradi[2].

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi ingliz va o‘zbek tillaridagi kriminalingvistik birliklarning umumiy va o‘ziga xos jihatlarini tizimli qiyosiy tahlil qilish, ularning lingvistik tabiati va funksional imkoniyatlarini aniqlash hamda sud-lingvistik ekspertizasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ilmiy xulosalarni ishlab chiqish zaruratidan kelib chiqadi. Tadqiqot natijalari sud-lingvistika nazariyasini boyitishga, huquqiy matnlarni lingvistik tahlil qilish metodologiyasini takomillashtirishga hamda ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi qiyosiy tadqiqotlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ingliz tilida jinoyat turlarini ifodalovchi terminlar tizimida giperonimik va giponimik munosabatlar keng kuzatiladi. Bir umumiy termin tarkibiga bir necha muayyan jinoyat nomlarining birlashishi terminologik tizimning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Masalan, AQSh huquq tizimida qo‘llaniladigan “index crime” termini qotillik, og‘irlashtiruvchi holatlarda tan jarohati yetkazish, uy-joyga qonuniy asossiz kirish, o‘t qo‘yish, avtotransport vositasini o‘g‘irlash hamda jinsiy tajovuz kabi jinoyatlarni birlashtiruvchi umumlashtiruvchi termin sifatida qo‘llaniladi. Demak, mazkur termin ushbu jinoyat nomlariga nisbatan giperonim, ular esa uning giponimlari sanaladi[3].

O‘zbek huquqiy terminologiyasida esa jinoyatlarni bunday umumlashtiruvchi terminlar nisbatan kam uchraydi. Milliy qonunchilikda asosiy e’tibor jinoyatning huquqiy tavsifiga, ijtimoiy xavfli darajasiga hamda jinoiy javobgarlikka qaratilgan. Shu sababli ingliz tilidagi “index crime” terminining to‘liq muqobili o‘zbek tilida mavjud emas. Unga yaqin mazmunda *jinoyatchilik darajasi, jinoyat holati, jinoyatchilik ko‘rsatkichi* kabi terminlar qo‘llaniladi. Biroq ular alohida jinoyat turlarini emas, balki jinoyatchilikning umumiy statistik holatini ifodalaydi[4].

O‘zbek tilidagi jinoyatga oid terminlarning lingvistik tahlili ularning aksariyati rasmiy-huquqiy uslubga xosligi, bir ma’nolilikka intilishi hamda emotsional-ekspressivlikdan xoli ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, *qotillik, talonchilik, bosqinchilik, firibgarlik, tamagirlik, poraxo‘rlik, tuhmat, haqorat, odam savdosi, terrorizm, ekstremizm* kabi terminlar muayyan jinoyat turini aniq ifodalab, ularning semantik chegarasi qonunchilikda belgilab qo‘yilgan. Shu jihatdan mazkur birliklarning ko‘p ma’nolilikka yo‘l qo‘ymasligi ularning muhim lingvistik belgisi hisoblanadi.

Bundan tashqari, o‘zbek tilida jinoyatga oid terminlarning morfologik tuzilishi ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ularning bir qismi sodda terminlar (*qotillik, firibgarlik, tamagirlik*), boshqa qismi esa qo‘shma yoki birikma terminlar (*xizmat vakolatini suiiste’mol qilish, lavozim vakolatini oshirib yuborish, qasddan odam o‘ldirish, mol-mulkni talon-toroj qilish*) shaklida uchraydi. Bu esa huquqiy terminlarning struktur jihatdan ham tasniflanishini namoyon etadi[5].

Ingliz huquqiy terminologiyasida qo‘llaniladigan “grave crime” termini ham bir nechta og‘ir jinoyat turlarini umumlashtiruvchi tushuncha hisoblanadi. O‘zbek qonunchiligida unga mazmunan yaqin *og‘ir jinoyat* hamda *o‘ta og‘ir jinoyat* terminlari mavjud bo‘lsa-da, ularning qamrovi ingliz huquq tizimidagi tasnif bilan to‘liq mos kelmaydi. Bu holat ikki xalq jinoyat qonunchiligi tizimidagi tasnif mezonlari turlicha ekanligi bilan izohlanadi[3].

Umuman olganda, ingliz va o‘zbek tillaridagi jinoyatga oid terminlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar ularning huquqiy mazmunini aniq ifodalashga qaratilganligi, farqli jihatlari esa milliy huquq tizimi, termin yasalish usullari hamda semantik qamrovining turlichaligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, ba’zi terminlarning bir tilda mavjud bo‘lib, ikkinchi tilda ularning to‘liq muqobili uchramasligi leksik lakunalarning mavjudligini ko‘rsatadi. Mazkur jihatlar kriminalingvistik birliklarni qiyosiy tadqiq etishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Crystal D. English as a Global Language. Cambridge University Press, 2003. – 352 p.
2. Isanova F. O‘zbek tilida xalqaro huquq sohasiga oid terminlar va ularning yasalishi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari., 5(2), 2022. – B. 46–52.
3. Ko‘chimov Sh. Huquqiy normalarni o‘zbek tilida ifodalashning ilmiy- nazariy muammolari: Filol. fan. d-ri. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2004. – 50 b.
4. Mo‘ydinov Q. O‘zbek tili sud nutqi leksikasi. Fil.f.f.d.diss. – Toshkent, 2019. – 136 b.
5. Saidov A., Ko‘chimov Sh. Qonunchilik texnikasi asoslari. – Toshkent: Adolat Publ., 2001. – 279 b.

MUTAXASSISLIK FANLARINI O‘QITISHDA TA’LIM METODLARINING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI

Umarjonova Nodira Abduxamid qizi
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Tayanch doktorant
nodira5655@gmail.com ORCID ID: 0009-0008-2458-2611
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21927591

Annotatsiya. Mazkur maqolada mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida qo‘llanilayotgan pedagogik metodlarning samaradorligi tizimli ravishda tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida talabalar kompetensiyalarini shakllantirish, ularning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari, kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, innovatsion va an’anaviy pedagogik metodlarning ta’lim samaradorligiga ta’siri baholanadi.
Kalit so‘zlar: pedagogik metodlar, texnologik ta’lim, mutaxassislik fanlari, ta’lim sifati samaradorligi, kasbiy kompetensiya.
Аннотация. В данной статье систематически анализируется эффективность педагогических методов, используемых в процессе обучения специализированным предметам. В современной системе образования актуальной проблемой считается формирование компетенций учащихся, развитие у них навыков самостоятельного и критического мышления, а также уровень профессиональной подготовки. С этой точки зрения оценивается влияние инновационных и традиционных педагогических методов на эффективность обучения.
Ключевые слова: педагогические методы, технологическое образование, специализированные дисциплины, качество и эффективность образования, профессиональная компетентность.
Abstract. This article systematically analyzes the effectiveness of pedagogical methods used in the process of teaching specialized subjects. In the modern education system, the formation of students’ competencies, their independent and critical thinking skills and the level of professional training are considered an urgent issue. From this perspective, the impact of innovative and traditional pedagogical methods on educational effectiveness is assessed.
Key words: pedagogical methods, technological education, specialized disciplines, educational quality and effectiveness, professional competence.

Oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o‘qitish sifatini oshirish, talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish hamda ta’lim jarayonini mehnat bozori talablariga moslashtirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o‘qitishda an’anaviy va innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish samaradorligini ilmiy-amaliy jihatdan asoslashga qaratilgan. Tadqiqotda an’anaviy va innovatsion pedagogik metodlarning ta’lim jarayoniga ta’siri qiyosiy tahlil qilinib, ularning talabalarning bilish faolligi, mustaqil ta’lim ko‘nikmalari, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, shu bilan bir qatorda, kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi o‘rni baholanadi. Mazkur metodlarning o‘zaro uyg‘unlashgan holda qo‘llanilishi ta’lim samaradorligini oshirishi, nazariy bilimlarni amaliyot bilan integratsiyalash hamda ta’lim natijalarining barqarorligini ta’minlashga xizmat qilishi asoslanadi. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga maqsadli joriy etish hamda talabalarning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun nazariy va metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda an’anaviy va innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish masalasi pedagogika fanining dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Ta’lim samaradorligini oshirish, talabaning faol o‘quv subyekti sifatidagi rolini kuchaytirish hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar bugungi kunda oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Xorijiy pedagogik tadqiqotlarda ta’lim jarayonini talaba faolligiga asoslangan holda tashkil etish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. John Dewey ta’limning samaradorligi nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘lash orqali ta’minlanishini asoslagan. Uning tajribaga asoslangan ta’lim konsepsiyasi talabaning mustaqil fikrlashi, muammoni tahlil qilishi va amaliy faoliyat orqali bilimni

egallashini ta’limning asosiy sharti sifatida talqin etadi. Lev Vygotsky tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-konstruktivistik yondashuvga ko‘ra, bilim ijtimoiy hamkorlik va muloqot jarayonida shakllanadi. Olimning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi o‘qituvchining pedagogik ko‘magi hamda hamkorlikdagi ta’lim faoliyati murakkab kasbiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslaydi. Jerome Brunerning kashfiyot orqali o‘qitish konsepsiyasi talabalarning bilimlarni mustaqil izlanish, tahlil va xulosalash asosida o‘zlashtirishini qo‘llab-quvvatlaydi. Mazkur yondashuv innovatsion pedagogik metodlarning nazariy poydevorlaridan biri bo‘lib, muammoli ta’lim, loyiha metodi, keys-stadi va tadqiqotga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarining rivojlanishiga metodologik asos yaratgan. Benjamin Blum ishlab chiqqan ta’lim maqsadlari taksonomiyasi esa o‘quv natijalarini faqat bilimni eslab qolish bilan cheklamasdan, uni tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yangi bilim yaratish bosqichlarida rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv zamonaviy oliy ta’limda qo‘llanilayotgan interfaol metodlarning didaktik samaradorligini baholashda muhim metodologik asos hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham oliy ta’lim tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish masalalari bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda interfaol metodlar, raqamli ta’lim vositalari va talaba markazli o‘qitish texnologiyalarining afzalliklari yoritilgan bo‘lsa-da, mutaxassislik fanlarini o‘qitishda an’anaviy va innovatsion metodlarning integratsiyalashgan holdagi samaradorligini kompleks baholash masalasi hali ham chuqur ilmiy tahlilni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot an’anaviy va innovatsion pedagogik metodlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi mutaxassislik fanlarini o‘qitish samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishini pedagogik jihatdan asoslash, ularni qo‘llashning didaktik shart-sharoitlarini aniqlash hamda oliy ta’lim amaliyoti uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Bugungi globallashuv, raqamli texnologiyalar va mehnat bozori talablarining tez o‘zgarishi sharoitida oliy ta’lim tizimi oldida yangi vazifalar paydo bo‘lmoqda. Ayniqsa, mutaxassislik fanlari — ya’ni talabaning kelajak kasbiy faoliyatini bevosita belgilovchi fanlarni o‘qitish jarayoni an’anaviy bilim berishdan kompetensiyaga yo‘naltirilgan, amaliy va moslashuvchan modelga o‘tishni talab etmoqda. Shu bois, mutaxassislik fanlarini o‘qitishni transformatsiya qilish zamonaviy ta’lim islohotlarining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi:

1. Ta’lim transformatsiyasi tushunchasi va uning mohiyati faqat o‘quv reja yoki texnologiyani almashtirish emas, balki ta’lim maqsadi, mazmuni, metodlari, baholash tizimi va o‘qituvchi–talaba munosabatlarini tubdan qayta ko‘rib chiqish jarayonidir.

2. Mutaxassislik fanlari kontekstida transformatsiya bilimni uzatishdan — bilimni yaratishga, nazariyani amaliy faoliyat bilan integratsiya qilishga, o‘qituvchini bilim manbai emas, balki yo‘naltiruvchi (fasilitator) sifatida ko‘rishga asoslanadi.

3. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda an’anaviy yondashuvning cheklovlari

An’anaviy yondashuvda ko‘pincha:

- ma’ruza markaziy o‘rinda bo‘ladi;
- talabalar passiv tinglovchi sifatida qatnashadi;
- baholash asosan yakuniy imtihon va testlar bilan cheklanadi;
- real kasbiy vaziyatlar yetarlicha modellashtirilmaydi.

Natijada:

- talabalarda amaliy ko‘nikmalar yetarli shakllanmaydi;
- mustaqil fikrlash va muammo yechish qobiliyatlari sust rivojlanadi;
- bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuvi qiyinlashadi.

Olib borilayotgan tadqiqotimizda, aynan yuqorida keltirilgan hamda sodir bo‘lishi ehtimoli yuqori bo‘lgan bir necha muammolarning yechimi sifatida integratsiyaviy yondashuvni taklif etdik. Bunda bo‘lajak mutaxassislarni axborot texnologiyalari bilan ishlay olish malakalarini shakllantirishga bo‘lgan ehtiyoj ham inobatga olinib, ta’lim-tarbiya jarayoniga yangi intellektual ta’lim resurslarini joriy etish va mutaxassislik fanlari bo‘yicha mustaqil tarzda innovatsion o‘qitish vositalarini ishlab chiqa olish qobiliyatiga egaligining ahamiyatiga ham e’tibor qaratilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mutaxassislik fanlarini o‘qitishda faqat an’anaviy yoki faqat innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish ta’lim jarayonining barcha didaktik maqsadlarini to‘liq ta’minlay olmaydi. An’anaviy metodlar nazariy bilimlarni tizimli va izchil o‘zlashtirish, fundamental tushunchalarni

shakllantirish hamda o‘quv materialini mantiqiy ketma-ketlikda bayon etishda yuqori pedagogik ahamiyat kasb etsa, innovatsion metodlar talabalarning bilish faolligini kuchaytirish, mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va kasbiy qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishda samaraliroq ekanligi pedagogik nazariyalarda asoslab berilgan. Shu bilan birga, pedagogik tahlil natijalari mutaxassislik fanlarining mazmuni, o‘quv maqsadi va shakllantiriladigan kasbiy kompetensiyalarni hisobga olmagan holda innovatsion metodlarni qo‘llash kutilgan natijani bermasligini ko‘rsatadi. Pedagogik metodning samaradorligi uning innovatsionligi bilan emas, balki o‘quv maqsadi, ta’lim mazmuni, talabalar tayyorgarlik darajasi hamda o‘quv jarayonining tashkiliy xususiyatlariga mos tanlanishi bilan belgilanadi.

Mazkur yondashuvning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, u mutaxassislik fanlarini o‘qitishda ta’lim mazmuni va pedagogik metodlar o‘rtasidagi didaktik uyg‘unlikni ta'minlash orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga hamda oliy ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni izchil amalga oshirishga metodik asos yaratadi.

Olib borilgan nazariy tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, mutaxassislik fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirish pedagogik metodlarning alohida qo‘llanilishi bilan emas, balki ularni ta’lim maqsadi, o‘quv mazmuni va kutilayotgan natijalarga mos ravishda integratsiyalash orqali ta’minlanadi. Aynan shu jihat tadqiqotning mualliflik yondashuvini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Biggs J., Tang C. *Teaching for Quality Learning at University*. 4th ed. Maidenhead: Open University Press, 2011. – 389 p.
2. Bloom B. S. *Taxonomy of Educational Objectives. Handbook I: Cognitive Domain*. New York: David McKay Company, 1956. – 207 p.
3. Bruner J. S. *The Process of Education*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. – 97 p.
4. Dewey J. *Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education*. New York: The Macmillan Company, 1916. – 434 p.
5. OECD. *The Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030*. Paris: OECD Publishing, 2019.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida: PF–60-son Farmon, 2022-yil 28-yanvar.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston–2030 strategiyasi to‘g‘risida: PF–158-son Farmon, 2023-yil 11-sentabr.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ–637-son. Toshkent, 2020-yil 23-sentabr.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida. Toshkent: amaldagi me’yoriy hujjat.
10. UNESCO. *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. Paris: UNESCO Publishing, 2017. – 63 p.
11. UNESCO. *Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education*. Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 184 p.
12. Vygotsky L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

УДК: 632.4:634.64:632.952

АНОРНИНГ АНТРАКНОЗ КАСАЛЛИГИГА ҚАРШИ ФУНГИЦИДЛАРНИНГ БИОЛОГИК САМАРАДОРЛИГИ

Туропов Нодиржон Хакимжон ўғли
Ўсимликлар карантини ва ҳимояси илмий тадқиқот институти кичик илмий ходим
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21927611

Аннотация: Мақолада анорнинг антракноз касаллигига қарши Алтис премиер сус.к (1,5 кг/га) ва Ридомил Стар н.кук. (2,5 кг/га) меёрларда синовдан ўтказилган. Ушбу фунгицидлар касалликнинг дастлабки белгилари пайдо бўлган даврда қўлланилган. Алтис премиер сус.к (1,5 кг/га) анорнинг антракноз касаллигига қарши қўлланилганда биологик самарадорлик баргларда– 87,6% ни, новдаларда– 89,3% ни ва меваларда– 87,9% ни, хосилдорлик 1 га майдонга 14,8 тоннани ташкил этган. Ридомил Стар н.кук. (2,5 кг/га) анорнинг антракноз касаллигига қарши қўлланилганда биологик самарадорлик баргларда – 89,5% ни, новдаларда - 87,2% ни ва меваларда – 89,3% ни хосилдорлик 1 га майдонга 15,4 тоннани ташкил этган.

Калит сўзлар: препарат, алътернариоз, касалланиш, касалликнинг ривожланиши, биологик самарадорлик, урожайностъ.

Анор (*Punica granatum L.*) – субтропик иқлимли худудларда етиштириладиган кўп йиллик бута. Шохлари ингичка, тиканли. 50 йилгача яшайди, баландлиги 5-6 м гача етади. Барглари овал, оч яшил, узунлиги 3 см ва ундан кўпроқ бўлиши мумкин. Гуллар қўнғироқ шаклида ёки ҳум шаклида, қўшалоқ ёки битта, тўқ сариқ-қизил, диаметри 4 см гача. Улар қобиқнинг этли қисми ва кўплаб сувли уруғлар билан шарсимон анор меваларини ҳосил қилади. Меваси йирикдан ўртача катталикгача, қобиғи тўқ сариқ-сариқдан жигарранг-қизил ранггача. Ҳар бир тупи учун ўртача хосилдорлик 50-60 кг [3,6].

Бутун дунё бўйлаб бир нечта замбуруғ турлари аниқланган, улар мева йиғим-теримдан олдин ва анорни ҳосилдан кейинги касалликлари хисобланади. Антракноз касаллиги анорнинг энг муҳум замбуруғли касалликларидан бири ҳисобланади, ҳам йиғимдан олдин, ҳам ҳосилдан кейин зарарлайди. Замбуруғли касалликлар катта молиявий йўқотишларга олиб келади, асосийси чириш белгилари туфайли меваларнинг нархи пасаяди, бу эса савдо сифатини пасайтиради ва меваларнинг тез бузулишига олиб келади [4,7].

Антракноз замбуруғлар томонидан келиб чиқадигин касаллик бўлиб, касалланган баргларда доғлар, дефоляция, куртакларнинг кучли зарарланиши, ўсимликни нобут бўлиши каби белгилар билан тавсифланади. Бу доим яшил дарахтлар, буталар, мевалар, сабзавотлар, турли дуккаклилар ва майсазор ўтларининг кенг доирасини қамраб олган *Colletotrichum* замбуруғларини турли турларидан келиб чиқадиган касаллик хисобланади. Антракноз касаллиги туфайли умумий ҳосилнинг 10-80% гача камайганлиги кузатилган [5,8].

Тадқиқот усуллари. Касалликнинг тарқалишини ҳисоб-китоб қилиш А.Е. Чумаков (1974) усулида [1] ва Давлат Кимё Комиссиясининг (2004) [2] услубий қўлланмаларига асосан бажарилди.

Тадқиқот натижалари. 2022 - йил анорнинг антракноз касаллигига қарши Алтис премиер (Азоксистробин + Пропиконозол) (1,5л/га), Ридомил Стар н.кук. (манкоцеб + металаксил М) (2,5 кг/га), Проксанил 45% сус.к. (Пропомокарб гидрохлорид) (2,0 л/га) фунгицидлари синалди.

Дори сепилмаган - назорат вариантда антракноз касаллиги билан касалланиш анор баргларида – 17,0% ни, новдаларда- 8,0% ни ва меваларида–26,3% ни, касалликнинг ривожи эса баргларда – 10,5% ни, новдаларда – 4,7% ни ва меваларида – 14,1% ни ташкил этди. Хосилдорлик 1 га майдонга 11,5 тоннани ташкил этди.

1-жадвал

Анорнинг антракноз касаллигига қарши фунгицидларнинг биологик самарадорлиги.
Фарғона вилояти Қува тумани Мухаббат фруитс ф/х анорнинг Улъфи нави, 2022 й.

№	Препаратлар	Сарф меъёри кг\га	Зарарланган аъзолар	Касалланиш %	Касалликнинг ривожланиши %	Биологик самарадорлик %	Хосилдорлик т\га
1.	Назорат – дори сепилмаган	-	Барг	17,0	10,5	-	11,5
			Новда	8,0	4,7	-	
			Мева	29,2	14,1	-	
2.	Алтис премиер сус.к (Азоксистробин+Пропиконозол)	1,0	Барг	3,3	1,3	87,6	14,8
			Новда	1,0	0,5	89,3	
			Мева	4,0	1,7	87,9	
3.	Ридомил Стар н.кук (манкоцеб + металаксил М)	2,5	Барг	2,3	1,1	89,5	15,4
			Новда	2,6	0,6	87,2	
			Мева	3,0	1,5	89,3	

Алтис премиер сус.к (1,5 кг/га) қўлланилган вариантда касалланиш баргларда -3,3% ни, новдаларда – 1,0% ни ва меваларда – 4,0% ни, касаллик ривожи эса баргларда - 1,3% ни, новдаларда – 0,5% меваларда–1,7% ни ташкил қилди. Биологик самарадорлик баргларда–87,6% ни, новдаларда–89,3% ни ва меваларда– 87,9% ни. Хосилдорлик 1 га майдонга 14,8 тоннани ташкил этди.

Ридомил Стар н.кук. (2,5 кг/га) фунгициди қўлланилганда касалланиш баргларда -2,3% ни, новдаларда -2,6% ни ва меваларда- 3,0% ни, касаллик ривожи эса баргларда 1,1% ни, новдаларда – 0,6% ни ва меваларда – 1,5% ни ташкил қилди. Биологик самарадорлик баргларда – 89,5% ни, новдаларда - 87,2% ни ва меваларда – 89,3% ни хосилдорлик 1 га майдонга 15,4 тоннани ташкил этди.

Хулоса. Антракноз касаллигига қарши Алтис премиер сус.к (1,5 кг/га) қўлланилган вариантда биологик самарадорлик баргларда–87,6% ни, новдаларда– 89,3% ни ва меваларда– 87,9% ни. Хосилдорлик 1 га майдонга 14,8 тоннани ташкил этди. Ридомил Стар н.кук. (2,5 кг/га) фунгициди қўлланилганда биологик самарадорлик баргларда – 89,5% ни, новдаларда - 87,2% ни ва меваларда – 89,3% ни хосилдорлик 1 га майдонга 15,4 тоннани ташкил этди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Чумаков А.Е., Минкевич И.И. и др. Основное методы фитопатологических исследований. // Научные труди ВАСХНИЛ.-М., «Колос», 1974. – С.57.

2. Хўжаев Ш.Т. ва б. Инсектицид, акарицид, биологик фаол моддалар ва фунгицидларни синаш бўйича услубий кўрсатмалар (2-нашр). – Тошкент, 2004. – 104б.

3. Bharate, A.A. and Shirdhonkar, M.S., 2017, December. A review on plant disease detection using image processing. In 2017 International Conference on Intelligent Sustainable Systems (ICISS) (pp. 103-109). IEEE.

4. Xavier K.V., Kc A.N., Peres N.A., Deng Z., Castle W., Lowett W and Wallad G.E. 2019. Charakterizatioin of *Colletotrichum* species causing anthracnose of pomegranate in the southeastern United States. Plant Dis. P.103:2771-2780

5. Ramesh S, Patil MB, Hegde YR. Etiology and control of anthracnose in pomegranate. Crop Protection,2018:34(1): pp. 45–51.

6. Turopov N., Raxmatov A. Sirdaryo viloyati anorzorlarida kasalliklarni tarqalishi. /Mevachilik va uzumchilikni rivojlanishida ilm fan yutuqlari. Toshkent, №3, 2022y. 3(1), 399-402 b.

7. Turopov N., Raxmatov A., Karimov R. Farg`ona viloyati anorzorlarida kasalliklarni tarqalishi. /Mevachilik va uzumchilikni rivojlanishida ilm fan yutuqlari. Toshkent, №3, 2022y. 3(1), 403-406 b.

8. Turopov N., Raxmatov A. Surxondaryo viloyati anorzorlarida kasalliklarni tarqalishi. //Agrokimyohimoya va o`simliklar karantini. Toshkent, 2023y. №3, 226-228 bet.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УЧЕТА И АНАЛИЗА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Холикова Дурдона Бунёджон кизи
Докторант 1 курса Ташкентский Государственный Экономический Университет
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21927631

Аннотация. В статье исследованы методические основы бухгалтерского учета и экономического анализа образовательных услуг в негосударственных высших образовательных организациях Республики Узбекистан. Обоснована необходимость совершенствования учетно-аналитического обеспечения в условиях расширения сектора негосударственного высшего образования и повышения требований к качеству управленческих решений. Установлено, что действующая практика учета ориентирована преимущественно на формирование финансовой отчетности и не в полной мере обеспечивает информационные потребности руководства при оценке эффективности образовательных услуг, доходности образовательных программ и рациональности использования ресурсов.
Ключевые слова: образовательные услуги, бухгалтерский учет, экономический анализ, учетно-аналитическое обеспечение, доходы, расходы, негосударственные высшие образовательные организации, управленческий учет, эффективность образовательных услуг.

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim xizmatlari hisobi va iqtisodiy tahlilining metodik asoslari tadqiq etilgan. Nodavlat oliy ta’lim sektori rivojlanishi hamda boshqaruv qarorlariga qo‘yilayotgan talablarning ortishi sharoitida hisob-tahliliy ta’minotni takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan. Amaldagi hisob amaliyoti asosan moliyaviy hisobotni shakllantirishga yo‘naltirilgani, ta’lim xizmatlari samaradorligi, ta’lim dasturlari rentabelligi hamda resurslardan foydalanish natijadorligini baholash uchun zarur axborotni to‘liq ta’minlamasligi aniqlangan.
Kalit so‘zlar: ta’lim xizmatlari, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, hisob-tahliliy ta’minot, daromadlar, xarajatlar, nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari, boshqaruv hisobi, ta’lim xizmatlari samaradorligi.

Abstract. The article examines the methodological foundations of accounting and economic analysis of educational services in non-state higher education institutions of the Republic of Uzbekistan. The study substantiates the need to improve accounting and analytical support in the context of the expansion of the non-state higher education sector and the increasing demand for effective managerial decision-making. It is established that the existing accounting practice is mainly focused on financial reporting and does not fully satisfy management's information needs related to evaluating the efficiency of educational services, the profitability of educational programs, and the effectiveness of resource utilization.
Keywords: educational services, accounting, economic analysis, accounting and analytical support, revenues, expenses, non-state higher education institutions, management accounting, educational service efficiency.

Развитие негосударственного сектора высшего образования является одним из важных направлений совершенствования системы подготовки кадров в Республике Узбекистан. Расширение сети негосударственных высших образовательных организаций, увеличение количества образовательных программ и рост числа обучающихся обусловливают необходимость повышения эффективности управления их деятельностью. В отличие от государственных образовательных организаций, негосударственные вузы осуществляют деятельность в условиях самостоятельного формирования доходов, управления расходами и ответственности за результаты финансово-хозяйственной деятельности.

Данная особенность определяет необходимость совершенствования системы бухгалтерского учета и экономического анализа образовательных услуг. Для руководства негосударственных высших образовательных организаций недостаточно иметь информацию только о полученных доходах и произведенных расходах. В процессе управления необходимо понимать, какие образовательные программы являются экономически эффективными, как формируется их себестоимость, насколько рационально используются трудовые, материальные и финансовые ресурсы.

Образовательная услуга как объект учета имеет особенности, отличающие ее от других видов услуг. Процесс ее оказания связан с длительным периодом обучения, участием различных категорий работников, использованием образовательной инфраструктуры и формированием значительного объема косвенных расходов. В связи с этим правильное распределение затрат, формирование аналитической информации и проведение объективного анализа становятся важными условиями эффективного управления деятельностью негосударственного вуза.

В настоящее время действующая практика учета в негосударственных высших образовательных организациях в основном ориентирована на выполнение требований бухгалтерского учета и составление финансовой отчетности. Однако такая направленность не всегда обеспечивает необходимый уровень детализации информации для внутренних пользователей. В частности, возникают сложности при определении фактических затрат на подготовку студентов по отдельным направлениям обучения, оценке эффективности образовательных программ и принятии решений по развитию образовательных услуг.

Следовательно, актуальной становится задача формирования такой системы учета и анализа образовательных услуг, которая обеспечит взаимосвязь между отражением хозяйственных операций и потребностями управления. Такая система должна позволять не только фиксировать результаты деятельности, но и предоставлять аналитическую информацию для оценки эффективности использования ресурсов и повышения конкурентоспособности негосударственных высших образовательных организаций.

Правовой основой развития негосударственного высшего образования в Республике Узбекистан являются Закон Республики Узбекистан «Об образовании» [Закон Республики Узбекистан «Об образовании» от 23 сентября 2020 года № ЗРУ-637, 14 сентября 2017 года № ПП-3276 «О мерах по дальнейшему развитию деятельности по оказанию негосударственных образовательных услуг], нормативные документы в области бухгалтерского учета, а также решения Президента Республики Узбекистан и Кабинета Министров Республики Узбекистан, направленные на развитие системы высшего образования и расширение участия негосударственного сектора. Реализация положений данных нормативных документов привела к увеличению роли негосударственных образовательных организаций и, соответственно, повысила требования к качеству управления их деятельностью.

Несмотря на развитие нормативной базы и рост количества исследований в области учета и анализа деятельности образовательных организаций, вопросы формирования методических основ учета и анализа именно образовательных услуг в негосударственных высших образовательных организациях остаются недостаточно разработанными. Большинство существующих подходов рассматривают образовательную деятельность в общем виде, без учета особенностей организаций, самостоятельно формирующих доходы и отвечающих за финансовую устойчивость.

Исходя из этого, возникает необходимость совершенствования методических подходов к учету и анализу образовательных услуг с учетом специфики деятельности негосударственных высших образовательных организаций Республики Узбекистан.

Цель исследования заключается в разработке методических основ учета и анализа образовательных услуг в негосударственных высших образовательных организациях Республики Узбекистан, обеспечивающих формирование достоверной и аналитически значимой информации для принятия управленческих решений.

Для достижения поставленной цели определены следующие задачи:

- исследовать особенности образовательных услуг как объекта бухгалтерского учета и экономического анализа;
- изучить действующие подходы к учету доходов и расходов образовательной деятельности;
- выявить проблемы формирования учетно-аналитической информации в негосударственных высших образовательных организациях;
- разработать предложения по совершенствованию учета образовательных услуг;
- определить направления развития методики анализа эффективности образовательных услуг.

Объектом исследования являются процессы формирования и использования учетно-аналитической информации в негосударственных высших образовательных организациях Республики Узбекистан.

Предметом исследования являются организационно-методические положения бухгалтерского учета и экономического анализа образовательных услуг.

Методологическая основа исследования включает общенаучные и специальные методы: системный подход, анализ и синтез, сравнение, группировку, обобщение, методы бухгалтерского учета и экономического анализа.

Научная новизна исследования заключается в развитии методических подходов к формированию учетно-аналитической информации об образовательных услугах, позволяющей повысить качество управления доходами, расходами и результатами деятельности негосударственных высших образовательных организаций.

Исследования в области бухгалтерского учета услуг в основном направлены на совершенствование учета доходов, расходов и формирования себестоимости. Ученые отмечают, что традиционная система учета, ориентированная преимущественно на подготовку финансовой отчетности, ограничивает возможности использования учетной информации в процессе внутреннего управления. В связи с этим в современных исследованиях большое внимание уделяется развитию управленческого учета, который позволяет детализировать информацию о затратах, оценивать эффективность отдельных направлений деятельности и принимать обоснованные управленческие решения.

Данный подход имеет особое значение для негосударственных высших образовательных организаций. В отличие от многих других организаций сферы услуг, образовательные организации одновременно выполняют социальную функцию и осуществляют хозяйственную деятельность [Нормативные документы Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан]. Поэтому учетная система должна учитывать не только факт получения дохода от оказания образовательных услуг, но и структуру затрат, связанных с подготовкой специалистов.

Вопросы экономического анализа деятельности образовательных организаций также получили развитие в научных исследованиях. Основное внимание в них уделяется оценке финансовой устойчивости, эффективности использования ресурсов, анализу доходов и расходов. Вместе с тем существующие методики анализа чаще применяются к образовательным учреждениям в целом и недостаточно раскрывают особенности анализа отдельных образовательных услуг и образовательных программ.

Для негосударственных высших образовательных организаций данный вопрос имеет особое значение, поскольку их финансовый результат непосредственно зависит от эффективности реализации конкретных образовательных программ. Например, изменение количества обучающихся, уровня оплаты за обучение, структуры расходов и загрузки преподавательского состава оказывает прямое влияние на результативность образовательной деятельности. Следовательно, система анализа должна обеспечивать возможность оценки не только общего финансового результата организации, но и эффективности отдельных направлений подготовки.

В Республике Узбекистан развитие негосударственного высшего образования осуществляется в рамках сформированной нормативно-правовой базы. Основным нормативным документом, определяющим правовые основы образовательной деятельности, является Закон Республики Узбекистан «Об образовании». Данный закон устанавливает общие принципы функционирования образовательных организаций независимо от формы собственности и создает условия для развития негосударственного сектора образования.

Развитие негосударственных образовательных услуг получило дополнительное регулирование через решения Президента Республики Узбекистан, направленные на расширение участия частного сектора в сфере образования, повышение качества подготовки кадров и создание конкурентной образовательной среды. В частности, Концепция развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года предусматривает увеличение роли негосударственных высших образовательных организаций, совершенствование механизмов управления и повышение эффективности деятельности вузов.

Одновременно деятельность негосударственных высших образовательных организаций регулируется нормативными документами в области бухгалтерского учета и финансовой отчетности. Требования законодательства о бухгалтерском учете определяют необходимость формирования достоверной информации о хозяйственной деятельности организации. Однако для целей управления образовательными услугами одной финансовой отчетности недостаточно, поскольку она не раскрывает детальную информацию о затратах и результатах отдельных образовательных направлений.

Таким образом, анализ научных исследований и нормативно-правовой базы показывает, что в настоящее время сформирована основа для развития системы учета и анализа деятельности негосударственных образовательных организаций. Однако остается нерешенным вопрос формирования методического подхода, который обеспечивал бы взаимосвязь бухгалтерского учета и экономического анализа образовательных услуг.

Выявленный недостаток заключается в том, что действующие подходы не в полной мере учитывают специфику образовательной услуги как объекта учета и анализа. В частности, недостаточно разработаны вопросы детализации доходов и расходов по образовательным программам, формирования аналитической информации для оценки их эффективности и использования результатов анализа в процессе управления деятельностью негосударственных вузов.

Именно это определяет необходимость разработки методических основ учета и анализа образовательных услуг, направленных на повышение качества информационного обеспечения управления негосударственными высшими образовательными организациями Республики Узбекистан.

Совершенствование учета и анализа образовательных услуг в негосударственных высших образовательных организациях должно основываться на понимании особенностей образовательной услуги как экономического объекта. В отличие от материального производства, где результат деятельности может быть непосредственно измерен количеством произведенной продукции, образовательная услуга формируется в процессе взаимодействия обучающегося и образовательной организации в течение определенного периода времени. Это определяет особенности формирования доходов, расходов и результатов деятельности.

В деятельности негосударственных высших образовательных организаций образовательная услуга является основным объектом хозяйственной деятельности, поскольку именно она формирует основной поток доходов и определяет структуру расходов. Поэтому организация учета должна обеспечивать не только отражение операций по получению платы за обучение, но и возможность определения фактических затрат, связанных с подготовкой студентов по отдельным направлениям образования.

В настоящее время в практике учета образовательных организаций часто используется общий подход к отражению расходов, при котором затраты распределяются между направлениями деятельности без достаточной детализации. Такой подход позволяет сформировать общие показатели финансовой отчетности, однако ограничивает возможности анализа эффективности отдельных образовательных программ.

Для решения данной проблемы предлагается рассматривать образовательную услугу как самостоятельный объект аналитического учета. В этом случае система учета должна формироваться не только по видам хозяйственных операций, но и по объектам управления: образовательным направлениям, формам обучения, уровням образования и отдельным образовательным программам.

Предлагаемый подход основан на последовательном формировании учетной информации по следующим направлениям:

1. Учет доходов от образовательных услуг.

Доходы негосударственных высших образовательных организаций в основном формируются за счет оплаты обучения студентами. Для повышения аналитичности учета целесообразно обеспечить детализацию доходов по следующим признакам:

- образовательная программа;
- направление подготовки;
- форма обучения;
- курс обучения;
- источник финансирования.

Такая детализация позволит определить объем доходов по каждому объекту учета и создать основу для последующего анализа результативности образовательных услуг.

2. Учет расходов образовательной деятельности.

Особенностью образовательного процесса является наличие значительной доли косвенных расходов, связанных с обеспечением деятельности вуза в целом. К ним относятся расходы на содержание зданий, информационные системы, административное управление, библиотечное обеспечение и другие элементы инфраструктуры.

В связи с этим необходимо совершенствовать порядок распределения расходов между образовательными услугами. Для этого предлагается использовать систему аналитического учета расходов, предусматривающую разделение затрат на:

- прямые расходы, непосредственно связанные с оказанием конкретной образовательной услуги;
- косвенные расходы, обеспечивающие функционирование образовательной организации в целом;
- расходы, связанные с развитием и повышением качества образовательной деятельности.

Такой подход позволит более объективно определить стоимость образовательной услуги и повысить точность анализа финансовых результатов.

3. Формирование аналитической информации для экономического анализа.

Бухгалтерский учет образовательных услуг должен рассматриваться не только как система регистрации хозяйственных операций, но и как источник информации для экономического анализа. В этой связи предлагается формирование системы аналитических показателей, включающей:

- доход на одного обучающегося;
- расходы на одного обучающегося;
- себестоимость подготовки одного специалиста;
- соотношение доходов и расходов по образовательным программам;
- уровень покрытия расходов доходами от обучения;
- динамику изменения затрат на образовательный процесс.

Использование данных показателей позволит перейти от анализа общих финансовых результатов к оценке эффективности отдельных образовательных услуг.

Таким образом, совершенствование учета и анализа образовательных услуг должно основываться на переходе от традиционной системы учета хозяйственных операций к учетно-аналитической системе, ориентированной на потребности управления. Такая система должна обеспечивать взаимосвязь между формированием учетной информации, проведением анализа и принятием управленческих решений.

Предлагаемый методологический подход позволяет повысить информативность бухгалтерского учета, обеспечить более обоснованное распределение расходов и создать условия для оценки эффективности образовательных услуг в негосударственных высших образовательных организациях Республики Узбекистан.

В настоящее время учет образовательной деятельности в негосударственных вузах преимущественно строится по общим объектам учета: доходы от обучения, расходы на содержание организации, административные расходы и другие хозяйственные операции. Такой подход соответствует требованиям финансового учета, однако не позволяет в полной мере определить экономическую эффективность конкретных образовательных программ.

Например, при наличии нескольких направлений подготовки одинаковое распределение части расходов может привести к искажению информации о фактической стоимости образовательной услуги. В результате руководство организации получает ограниченные возможности для оценки эффективности отдельных программ, определения оптимального уровня оплаты обучения и планирования расходов.

Для решения данной проблемы предлагается совершенствовать систему аналитического учета образовательных услуг путем формирования дополнительных объектов учета. В качестве таких объектов рекомендуется использовать:

- образовательную программу;
- направление подготовки;
- форму обучения;
- категорию обучающихся;
- период обучения.

Данная детализация позволит сформировать информацию о доходах и расходах не только на уровне образовательной организации в целом, но и на уровне конкретной образовательной услуги.

В предлагаемой системе учета доходы от образовательных услуг рекомендуется группировать по следующим аналитическим признакам:

Объект аналитического учета	Назначение информации
Направление подготовки	Определение доходности отдельных направлений образования

Образовательная программа	Оценка эффективности конкретной программы
Форма обучения	Анализ различий между очной, заочной и другими формами обучения
Курс обучения	Контроль изменения доходов в течение периода подготовки
Источник поступления средств	Анализ структуры финансирования

Обосновано, что образовательная услуга должна рассматриваться не только как объект учета доходов и расходов, но и как объект комплексного управленческого анализа. Такая позиция обусловлена особенностями образовательной деятельности, связанными с длительностью процесса оказания услуги, значительной долей косвенных расходов, использованием различных видов ресурсов и необходимостью оценки эффективности отдельных образовательных программ.

Список использованной литературы

1. Аткинсон А.А., Каплан Р.С., Мацумура Э.М., Янг С.М. Управленческий учет: информация для принятия решений и исполнения стратегии. — Москва: Вильямс, 2019.
2. Антони Р., Говиндараджан В. Системы управленческого контроля. — Москва: Инфра-М, 2018.
3. Друри К. Управленческий и производственный учет: учебник. — Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2020.
4. Закон Республики Узбекистан «О бухгалтерском учете» (новая редакция).
5. Закон Республики Узбекистан «Об образовании» от 23 сентября 2020 года № ЗРУ-637.
6. Каплан Р.С., Купер Р. Стоимость и эффект: использование интегрированных систем затрат для повышения эффективности бизнеса. — Москва: Олимп-Бизнес, 2018.
7. Керимов В.Э. Бухгалтерский управленческий учет: учебник. — Москва: Дашков и К, 2021.
8. Концепция развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года, утвержденная Указом Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП-5847.
9. Кондраков Н.П. Бухгалтерский учет: учебник. — Москва: ИНФРА-М, 2020.
10. Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО). — Лондон: IFRS Foundation.

XORAZM SHEVASHUNOSLIGIDA OSHPAZLIK LEKSIKASINING SEMANTIK TADQIQI
(Tuxum barak taomi misolida)

Sardorova Dilnoza Davronbek qizi
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti
O‘TA yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21927647

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm vohasining o‘ziga xos va qadimiy taomlaridan biri bo‘lgan “Tuxum barak” misolida oshpazlik leksikasining semantik xususiyatlari tadqiq etiladi. Maqolada “barak” terminining etimologiyasi, uning qadimiy turkiy ildizlari hamda o‘g‘uz lahjasiga xos lisoniy xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida taom tayyorlash jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan maxsus fe’llar va predmet otlarining semantik maydoni yoritib berilgan. Shuningdek, xalq oshpazlik terminologiyasining milliy madaniyat va dialektologiya bilan uzviy bog‘liqligi misollar asosida yoritilgan.
Tayanch so‘zlar: dialektologiya, Xorazm shevasi, oshpazlik leksikasi, semantika, Tuxum barak, etimologiya, o‘g‘uz lahjasi, lingvokulturologiya.

O‘zbek dialektologiyasi boy va rang-barang lisoniy qatlamlarni o‘z ichiga oladi. Xususan, Xorazm shevasi o‘zining qadimiy o‘g‘uz guruhiga mansubligi, fonetik va leksik o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Til va madaniyatning uzviyligini o‘rganishda xalqning turmush tarzi, ayniqsa, milliy taomlar nomlanishi (oshpazlik leksikasi) muhim manba hisoblanadi. Xorazm vohasining “tashrif qog‘ozi” sanalgan Tuxum barak taomi nafaqat pazandachilik durdonasi, balki o‘zida qadimiy turkiy qatlamlarni saqlab qolgan lisoniy obyektdir.

“Barak” terminining etimologik ildizlari.

Maqolaning semantik asosi sifatida “barak” so‘zini tahlil qilish lozim. Dialektologik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, bu so‘z o‘zbek tilining barcha shevalarida ham bir xil ma’noni anglatmaydi.

Tarixiy asos: Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida uchraydigan “bo‘rak” so‘zi "ichiga go‘sht solib tugilgan xamir" ma’nosini anglatgan. Xorazm shevasida bu so‘z fonetik o‘zgarishga uchrab, “barak” shakliga kelgan.

Semantik ko‘lami: Adabiy tildagi “chuchvara” yoki “varak” (somsa) tushunchalari bilan o‘zakdosh bo‘lsa-da, Xorazmda “barak” tushunchasi kengroqdir. U nafaqat taomni, balki “tugilgan xamirli qobiq” semasini ham tashiydi. Turlari: Shevada barakning bir necha turlari mavjud: go‘sht barak, tuxum barak, ko‘k barak, qovoq barak. Bu yerda “barak” so‘zi turdosh ot bo‘lib, uning oldidan kelgan so‘z taomning ichidagi asosiy masalliqni (semantik markazni) belgilab beradi.

Shuningdek, Xorazm oshpazlik an’analarida “barak” ning bir necha turlari uchraydi. Jumladan, “tuxum barak”,” qo‘tir barak”, “kadi barak”, “go‘k barak”, “kartoshka barak” hamda “qatiqa barak” kabi turlari mavjud bo‘lib, ular orasida eng mashhuri tuxum barak hisoblanadi. Ushbu nomlarning barchasida”barak” leksemasi umumiy semantik yadro vazifasini bajaradi, oldingi komponent esa taomning asosiy masallig‘ini ifodalaydi.



Qo‘tir barak tuxum barakka yaqin turdagi taom hisoblanadi. Uning tarkibiga tuxumli massa bilan birga oz miqdorda qiyma ham qo‘shiladi. Natijada ushbu taomning semantikasida “to‘yimlilik” hamda “murakkab tarkiblilik”ma’nolari yuzaga chiqadi.



Qatiqa barak shakliy jihatdan chuchvaraga o‘xshasa-da, iste’mol qilinish usuli bilan farqlanadi. U suvda qaynatilgandan so‘ng qatiq yoki ayron bilan aralashtirib tortiladi. Shu sababli ushbu taom nomida sut mahsulotlari bilan bog‘liq semantik belgi ustunlik qiladi.



Go‘k barakdagi “go‘k” leksemasi adabiy tildagi “ko‘k” so‘zining shevaga xos fonetik ko‘rinishidir. Ushbu taomga turli ko‘katlar, jumladan ismaloq, ukrop va boshqa yashil mahsulotlar solinadi. Bu esa nomning semantik jihatdan “yashillik” va “bahoriylik” ma’nolarini ifodalashiga xizmat qiladi.



Kadi barak ya’ni qovoq (kadi) asosida tayyorlanadigan barak turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu taomning pishirilish jarayoni ham o‘ziga xos texnologik bosqichlarga ega bo‘lib, u xalqning an’anaviy pazandachilik tajribasini aks ettiradi.

Avvalo, kadi (qovoq) tanlanadi, tozalanadi va po‘sti hamda urug‘laridan ajratiladi. So‘ngra qovoq mayda bo‘laklarga bo‘linib, qirg’ichdan chiqarilib piyoz bilan “taplanadi” ya’ni ozgina yog’da yumshatib qovuriladi. Yumshatilgan qovoq ezilib, bir xil massa holiga keltiriladi. Zaruratga ko‘ra unga tuz va oz miqdorda ziravorlar qo‘shiladi.

Keyingi bosqichda xamir tayyorlanadi. Un, suv va tuxum aralashtirilib, qattiqroq konsistensiyadagi xamir qoriladi va ma’lum vaqt dam oldiriladi. Dam olgan xamir mayda bo‘laklarga bo‘linib, yupqa qilib yoyiladi.

Yoyilgan xamir ichiga tayyorlangan qovoq (kadi) massasi solinadi va barak shaklida buklanadi. Xamirning chetlari mahkam yopishtirilib, ichki masalliq tashqariga chiqmasligi ta’minlanadi. Bu jarayon “bo‘g‘ish”bosqichi sifatida texnologik ahamiyatga ega bo‘lib, barakning shaklini mustahkamlaydi.

Tayyor kadi baraklar qaynab turgan suvga ehtiyotkorlik bilan tashlanadi va to‘liq pishguncha qaynatiladi. Pishish jarayonida baraklar suv yuzasiga qalqib chiqadi, bu ularning tayyor bo‘lganidan dalolat beradi. Tayyor mahsulot suzib olinib, biroz sovutilib ustiga ayron quygan holda dasturxonga tortiladi.

Kartoshka barak esa nisbatan keyingi davrlarda shakllangan taom turlaridan biri hisoblanadi. Unda qaynatilib ezilgan kartoshka asosiy masalliq sifatida ishlatiladi



Ushbu nom ham semantik jihatdan taomning asosiy tarkibiy qismini ifodalovchi nominativ birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Birinchi bosqichda kartoshka tozalanadi va suvda to‘liq yumshaguncha qaynatiladi. Qaynatilgan kartoshka ezilib, bir jinsli botqa holiga keltiriladi. Zaruratga ko‘ra unga tuz va ziravorlar qo‘shiladi.

Keyingi bosqichda barak xamiri tayyorlanadi. Un, suv va tuxum aralashtirilib, qattiq konsistensiyadagi xamir qoriladi va biroz dam oldiriladi. So‘ngra xamir kichik bo‘laklarga bo‘linib, yupqa qilib yoyiladi.

Yoyilgan xamir bo‘laklari ichiga tayyorlangan kartoshka massasi solinadi va barak shaklida buklanib, chetlari mahkam yopishtiriladi. Bu jarayon ham “bo‘g‘ish” texnologik bosqichi bilan ifodalanadi.



“Tuxum barak” tayyorlash jarayonining mikroleksikasi

Taomni tayyorlash jarayonida ishlatiladigan fe’llar va otlar shevaning semantik boyligini ochib beradi:

Xamirni “ochish” Adabiy tilda xamir “yoyiladi” Xorazm shevasida esa “ochish” fe’li qo‘llaniladi. Bu semantik jihatdan xamirni yupqalashtirish orqali yangi maydon hosil qilishni anglatadi.

Barakni “bo‘g‘ish” Bu termin barakning chetlarini yopishtirish jarayoniga nisbatan aytiladi. “Bo‘g‘ish” fe’li bu yerda masalliq (suyuq tuxum) chiqib ketmasligi uchun xamir devorlarini jipslashtirish, “nafas yo‘lini yopish” kabi metaforik ma’noda keladi.

“Zuvola” va “Kunda”: Xamir bo‘laklarini nomlashda ham o‘ziga xoslik bor. Kichik bo‘laklarning bir xil o‘lchamda bo‘lishi “me’yor”semasini beradi. Taom tarkibining semantik tahlili

Tuxum barakning ichki masallig‘i — suyuq tuxum, sut va yog‘ aralashmasidir. Bu yerda ham o‘ziga xos lingvistik birliklar uchraydi:

Bulon (yoki aralashma): Tuxumli massa shevada shunchaki “ich”emas, balki ma’lum bir tayyorgarlikdan o‘tgan “shira” yoki “massa” ma’nosida tushuniladi.

Dog‘langan yog‘: Taomga solinadigan yog‘ning “dog‘langan” (o‘ta qizdirilgan) bo‘lishi uning semantikasida “poklik” va “tayyorlik” belgisini beradi.

Frazeologik va metaforik bog‘lanishlar

Xorazm nutqiy madaniyatida tuxum barak bilan bog‘liq iboralar uchraydi. Masalan, taomning juda nozikligi va tez pishishiga ishora qilib, “Barakdek yumshoq” yoki oshpazning mahoratiga nisbatan “Barakni suvdan butun oladigan” (ya’ni tuxumni oqizmay pishiradigan usta) kabi iboralarni uchratish mumkin.

Bu taomning semantikasi shuningdek “tezkorlik” bilan ham bog‘liq. Sababi, suv qaynab turganda barakni tezda tugib, ichiga suyuqlikni quyib, darhol qozonga tashlash kerak. Bu jarayon lisoniy jihatdan “chaqqonlik” va “diqqat” semalarini o‘z ichiga oladi.

“Barakni bo‘g‘ish”: Bu eng muhim terminologik birlikdir. Xamir bo‘laklarining uch tomoni yopishtirilib, “xaltacha” hosil qilinadi. “Bo‘g‘ish” fe’li bu yerda kognitiv jihatdan "ma’lum bir bo‘shliqni tashqi muhitdan ajratish" semasini anglatadi.

Pishirish dinamikasi: “Suvga tashlash” va “Qalqib chiqish”

Taom pishish jarayonida o‘zining jismoniy holatini o‘zgartiradi, bu esa lisoniy tasvirda aks etadi:

“Suvga solish”emas, “Tashlash”: Bu yerda “tashlash” fe’li jarayonning tezkorligini ifodalaydi. Suyuq tuxum xamirdan oqib ketmasligi uchun barak qaynayotgan suvga juda tez fursatda “tashlanishi” shart.

Afsona ana shu milliy dunyo tasvirining eng qadimiy va barqaror ifodachilaridan biridir. Unda xalqning olam haqidagi tasavvurlari, tabiat va inson munosabatlari, ezgulik va yovuzlik haqidagi qarashlari, diniy e'tiqodlari hamda axloqiy mezonlari badiiy obrazlar vositasida ifodalanadi. Shu jihatdan afsona nafaqat folklor matni, balki xalqning madaniy xotirasini saqlovchi va milliy identifikatsiyasini mustahkamlovchi lingvomadaniy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Lingvokulturologiyada madaniyat til orqali namoyon bo'ladigan va avloddan avlodga uzatiladigan ijtimoiy tajriba sifatida talqin qilinadi. V.A. Maslova madaniyatni inson tafakkuri va tilining ajralmas tarkibiy qismi deb baholab, til birliklarida xalqning tarixiy xotirasi hamda milliy qadriyatlari mujassamlashishini ta'kidlaydi (Maslova, rus tilida, 2021, 34–36-b). Ushbu nazariya afsonalar tahlilida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki afsona matnida qo'llanilgan har bir obraz, ramz yoki nom xalqning madaniy tajribasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Masalan, o'zbek afsonalarida muqaddas buloq, chinor, tog', ziyoratgoh, ota-bobo ruhi, pir kabi obrazlar xalqning tabiatga, e'tiqodga va ajdodlarga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Bunday birliklar oddiy nominativ vazifani bajarmaydi; ular milliy madaniyatning ramziy kodlari sifatida namoyon bo'ladi. Har bir obraz xalqning asrlar davomida shakllangan qadriyatlari va dunyoqarashini o'zida mujassamlashtiradi. Britaniya afsonalarida esa Camelot, Excalibur, Avalon, Merlin kabi obrazlar milliy tarix, qirollik an'analari va qahramonlik idealining timsoli hisoblanadi. O'zbek afsonalaridagi muqaddas ziyoratgohlar qanday madaniy ahamiyat kasb etsa, ingliz afsonalaridagi muqaddas qilich yoki sehrgar obrazi ham ingliz xalqining tarixiy ongida shunday konseptual vazifani bajaradi. Bu esa turli xalqlarning afsonalari o'ziga xos bo'lishiga qaramay, ularning barchasi milliy dunyo tasvirini ifodalash vazifasini bajarishini ko'rsatadi.

Mashhur madaniyatshunos Jan Assmann madaniy xotirani jamiyatning o'z tarixini eslab qolish va kelajak avlodlarga uzatish mexanizmi sifatida izohlaydi. Uning fikricha, afsona, rivoyat va boshqa folklor janrlari kollektiv xotirani saqlovchi asosiy madaniy vositalardan biridir (Assmann, ingliz tilida, 2021, 73–77-b). Mazkur yondashuv afsonalarning nafaqat estetik, balki ijtimoiy va madaniy funksiyasini ham ochib beradi.

Shuningdek, zamonaviy lingvokulturologik tadqiqotlarda afsona madaniy kod sifatida talqin qilinmoqda. Madaniy kod deganda muayyan xalqning qadriyatlari, urf-odatlari, diniy tasavvurlari va tarixiy tajribasini ifodalovchi ramziy belgilar tizimi tushuniladi. Afsona ana shu kodlarning eng boy namoyon bo'lish shakllaridan biri hisoblanadi. Chunki unda milliy mentalitetni ifodalovchi konseptlar til vositasida badiiy shaklda mujassamlashadi.

Bundan tashqari, afsonalarda aks etuvchi milliy dunyo tasviri xalqning kommunikativ xulq-atvori va axloqiy idealini ham belgilaydi. Qahramonlarning jasorati, vatanparvarligi, halolligi, kattalarga hurmati yoki tabiatni asrashga oid motivlar jamiyatning ma'naviy qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli afsona nafaqat o'tmish haqida hikoya qiluvchi matn, balki xalqning kelajak avlodlariga yo'naltirilgan ma'naviy dasturi vazifasini ham bajaradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, afsona milliy dunyo tasvirining eng muhim lingvomadaniy manbalaridan biri bo'lib, unda til, tafakkur va madaniyat o'zaro uyg'unlashadi. Afsona xalqning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari va madaniy identifikatsiyasini badiiy shaklda saqlab qoluvchi hamda avloddan avlodga uzatuvchi noyob madaniy fenomen sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Beruniy, A. R. (2022). Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Toshkent: O‘zbekiston.
2. Imomov, K. (2010). O‘zbek xalq nasri poetikasi. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Karasik, V. I. (2002). Yazykovoy krug: lichnost, kontsepty, diskurs. Volgograd: Peremena.
4. Maslova, V. A. (2021). Lingvokulturologiya (6-nashr). Moskva: Yurayt.
5. Narshaxiy, A. B. (2011). Buxoro tarixi. Toshkent: Yangi asr avlodi.
6. Propp, V. Ya. (1968). Morphology of the Folktale (2nd ed.). Austin: University of Texas Press.
7. Dundes, A. (Ed.). (1984). Sacred Narrative: Readings in the Theory of Myth. Berkeley: University of California Press.
8. Meletinskiy, E. M. (1976). Poetika mifa. Moskva: Nauka.

9. Saidova, A. M., & Djalilova, Z. O. (2024). Comparative-analytical study of the magic motif in English and Uzbek legends: Cultural reflections and narrative structures. American Journal of Philological Sciences, 4(11), 121–124.
10. UNESCO. (2024). Legends and Stories of Uzbekistan.

SIROJIDDIN SAYYID SHE'RIYATIDA METAFORANING KOGNITIV-SEMANTIK TABIATI

Xurramova Aziza Shuhrat qizi,
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti magistranti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21929058

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining yorqin namoyandalaridan biri Sirojiddin Sayyid ijodidagi metaforalar kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda metafora an'anaviy uslubshunoslikdagidek shunchaki badiiy bezak vositasi sifatida emas, balki shoirning olamni idrok etish tarzini, milliy tafakkur xususiyatlarini ifodalovchi konseptual mexanizm sifatida o'rganiladi. Maqolada shoir she'riyatida faol qo'llanuvchi to'rtta konseptual metafora modeli — VATAN-ONA, TABIAT-INSON, VAQT-OQIM va QALB-MAKON — ajratib ko'rsatiladi hamda ularning manba va maqsad domenlari, milliy-madaniy asoslari yoritiladi.

Kalit so'zlar: kognitiv lingvistika, konseptual metafora, manba domen, maqsad domen, individual uslub, Sirojiddin Sayyid, poetik matn, milliy tafakkur.

Аннотация: В данной статье метафоры в творчестве Сирожиддина Саййида, одного из ярких представителей современной узбекской поэзии, анализируются с точки зрения когнитивной лингвистики. В исследовании метафора рассматривается не как простое стилистическое украшение, характерное для традиционной стилистики, а как концептуальный механизм, отражающий восприятие мира поэтом и особенности национального мышления. В статье выделяются четыре концептуальные модели метафоры, активно используемые в поэзии автора, — РОДИНА-МАТЬ, ПРИРОДА-ЧЕЛОВЕК, ВРЕМЯ-ПОТОК и СЕРДЦЕ-ПРОСТРАНСТВО, — а также освещаются их исходные и целевые домены и национально-культурные основы.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, концептуальная метафора, исходный домен, целевой домен, индивидуальный стиль, Сирожиддин Саййид, поэтический текст, национальное мышление.

Abstract: This article examines the metaphors in the poetry of the prominent contemporary Uzbek poet Sirojiddin Sayyid from the standpoint of cognitive linguistics. Rather than treating metaphor merely as a decorative stylistic device, the study approaches it as a conceptual mechanism that reflects the poet's perception of reality and features of national thinking. Four conceptual metaphor models frequently employed in the poet's work are identified — HOMELAND-AS-MOTHER, NATURE-AS-HUMAN-EXPERIENCE, TIME-AS-FLOW, and HEART-AS-SPACE — and their source and target domains, as well as their national-cultural grounding, are discussed.

Key words: cognitive linguistics, conceptual metaphor, source domain, target domain, individual style, Sirojiddin Sayyid, poetic text, national thinking.

Kirish. An'anaviy tilshunoslik va uslubshunoslikda metafora uzoq vaqt davomida faqat nutqni bezovchi, ta'sirchanligini oshiruvchi badiiy vosita sifatida qaralib kelindi. Ammo XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, xususan J.Lakoff va M.Jonsonning kognitiv metafora nazariyasi asosida, metaforaga munosabat tubdan o'zgardi: u endi inson tafakkurining ajralmas qismi, bir tushuncha sohasini (manba domen) boshqa tushuncha sohasi (maqsad domen) orqali idrok etish mexanizmi sifatida talqin qilina boshlandi [2. 1980].

Zamonaviy o'zbek tilshunosligida ham bu yo'nalish tobora chuqurlashib bormoqda; xususan N.Mahmudovning badiiy so'z va metafora munosabatiga bag'ishlangan tadqiqotlari bu boradagi muhim qadamlardan hisoblanadi [4. 2013]. Shunga qaramay, alohida shoirlar ijodini, jumladan xalq og'zaki ijodi an'analariga chuqur bog'liq bo'lgan Sirojiddin Sayyid she'riyatini kognitiv-konseptual nuqtai nazardan maxsus tadqiq etish yetarli darajada amalga oshirilmagan. Mazkur maqolaning dolzarbligi ham shundan kelib chiqadi.

Tadqiqotning maqsadi — Sirojiddin Sayyid she'riyatida qo'llangan metaforalarni konseptual asoslari nuqtai nazaridan tahlil qilish, ularning manba va maqsad domenlarini aniqlash hamda milliy-madaniy va individual-badiiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi: kognitiv metafora nazariyasining nazariy asoslarini yoritish; shoir ijodining lingvopoetik konteksti bilan tanishish; she'riy matnlardan konseptual metafora namunalarini aniqlash va tasniflash; ularning uslubiy-funksional ahamiyatini belgilash. Tadqiqotda tavsifiy, konseptual tahlil va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi.

Asosiy qism

1. Kognitiv metafora nazariyasining nazariy asoslari

Kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan metafora — bu shunchaki so'zning ko'chma ma'noda qo'llanishi emas, balki bir kontseptual soha (manba domen) xususiyatlarining boshqa, odatda mavhumroq sohaga (maqsad domen) ko'chirilishi jarayonidir. "Domen" atamasi (inglizcha domain — soha) ma'lum bir tushuncha maydonini anglatadi: manba domen — aniq, konkret va tanish soha (masalan, "ona", "oqim", "makon"), maqsad domen esa mavhum, boshqa vositalar bilan izohlash qiyin bo'lgan soha (masalan, "vatan", "vaqt", "qalb") bo'lib, metafora aynan shu ikki soha o'rtasida bog'lanish yaratadi. Masalan, "vaqt — bu harakatlanuvchi narsa" konseptual metaforasida jismoniy harakat sohasiga oid bilim vaqt kabi mavhum tushunchani anglash uchun ishlatiladi [2. 1980]. Bunday konseptual metaforalar kundalik nutqda ham, badiiy matnda ham faol qo'llaniladi, biroq badiiy — xususan she'riy — matnda ular individual muallif uslubi bilan boyib, yangi qirralar kasb etadi.

O'zbek tilshunosligida bu yondashuv N.Mahmudov tadqiqotlarida termin, badiiy so'z va metafora o'zaro munosabati doirasida rivojlantirilgan bo'lib, olim metaforani xalq tafakkurining o'ziga xos ifodasi sifatida baholaydi [4. 2013]. Shu asosda badiiy matndagi metaforalarni tahlil qilishda nafaqat ularning estetik vazifasini, balki ular ortida turgan konseptual modelni, ya'ni muallifning dunyoni qanday idrok etishini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Sirojiddin Sayyid ijodining lingvopoetik konteksti

Sirojiddin Sayyid — 1958-yilda Surxondaryo viloyatida tug'ilgan, o'zbek xalq shoiri unvoniga sazovor bo'lgan taniqli shoir. Uning ijodida o'zbek mumtoz she'riyati an'analari xalq og'zaki ijodiga xos xususiyatlar — xalqchillik, soddalik, tilning shiraligi — bilan uyg'unlashib ketadi, shu bilan birga Surxondaryo shevasiga xos leksik-musiqiy tovlanishlar shoir tilining o'ziga xos bo'yog'ini tashkil etadi [3. 2025:B.31]. Aynan shu xususiyatlar tufayli shoirning aksariyat she'rlari qo'shiqqa aylangan.

Shoir ijodida vatan, tabiat, insoniy kechinmalar, tarixiy xotira kabi mavzular yetakchilik qiladi. Bu mavzular ko'p hollarda an'anaviy xalq og'zaki ijodidan kelib chiquvchi obrazlar orqali, ammo individual-badiiy talqin bilan boyitilgan holda ifodalanadi; jumladan, shoir she'riy to'plamlarida antroponim, toponim va mifonimlar kabi onomastik birliklarning badiiy vosita sifatida faol qo'llanishi ham bu jihatni tasdiqlaydi [1. 2026]. Aynan shu jihat uning metaforalarini kognitiv nuqtai nazardan o'rganish uchun boy material yaratadi: an'anaviy konseptual model bilan individual uslub uyg'unligini kuzatish imkonini beradi.

3. She'riyatda faol qo'llanuvchi konseptual metafora modellari

3.1. VATAN — ONA / VATAN — MUQADDAS MAKON metaforasi

Sirojiddin Sayyid she'riyatida vatan tushunchasi ko'p hollarda ona, ajdodlar makoni, muqaddas hudud sifatida talqin etiladi [6. 2001]. Bunda tuproq, tosh, tog' jarliklari, qadim yodgorliklar kabi tabiiy va tarixiy-madaniy unsurlar vatanga bo'lgan chuqur mehr-muhabbatni ifodalash vositasiga aylanadi. Bu konseptual model o'zbek xalq og'zaki ijodidagi an'anaviy VATAN — ONA konseptiga tayanadi, biroq shoir uni tarixiy xotira va shaxsiy kechinma bilan boyitib, yangicha hissiy-badiiy ma'no qatlamlari bilan to'ldiradi.

3.2. TABIAT — INSON KECHINMASI metaforasi

Shoir she'rlarida tabiat unsurlari — tog', tosh, chinor, bulut, shamol, daryo — insoniy ruhiy holatni ifodalash uchun antropomorflashtiriladi: tabiat obyektlari "yig'laydi", "kuyadi", "sukut saqlaydi", inson kechinmalarining o'ziga xos ko'zgusiga aylanadi. Bu — tabiat va inson ruhiyati o'rtasidagi chegarani yuvuvchi kognitiv model bo'lib, o'zbek mumtoz she'riyati an'analaridan oziqlanadi, ammo zamonaviy hissiy-psixologik tovlanishlar bilan yangilanadi.

3.3. VAQT — OQIM / O'TKINCHILIK metaforasi

Shoir ijodida vaqt tushunchasi statik emas, balki harakatdagi obraz — oqar suv, o'tayotgan bulut, uchib ketayotgan qush — orqali beriladi [5. 2003]. Bu konseptual metafora orqali hayotning o'tkinchiligi, o'tmish bilan bog'liqlik, xotira va sog'inch motivlari yuzaga chiqadi. VAQT — OQIM modeli umuminsoniy xarakterga ega bo'lsa-da, shoir uni milliy-mintaqaviy obrazlar (masalan, tog' anhorlari, mavsumiy tabiat manzaralari) orqali individuallashtiradi.

3.4. QALB/YURAK — MAKON metaforasi

Sirojiddin Sayyid she'riyatida inson qalbi ichki fazoviy makon sifatida tasavvur etiladi: unda dard, sog'inch, armon "joylashadi", "yashaydi", "sig'maydi". Bu konseptual model klassik o'zbek va fors-tojik mumtoz she'riyatidan meros bo'lib, shoir uni zamonaviy hissiy til va shaxsiy kechinma bilan boyitadi, natijada an'anaviy obraz yangi individual-badiiy mazmun kasb etadi.

4. Metaforalarning uslubiy-funksional xususiyatlari

Sirojiddin Sayyid she'riyatidagi konseptual metaforalarning muhim xususiyati — ularning xalq og'zaki ijodiga xos soddalik va samimiylik bilan uyg'unlashishidir. Surxondaryo shevasiga xos leksik birliklar metaforik obrazlarga o'ziga xos mahalliy kolorit baxsh etadi, bu esa shoir uslubini boshqa zamondosh ijodkorlardan farqlab turuvchi asosiy belgilardan biriga aylanadi. Shu bilan birga, an'anaviy konseptual modellarning (VATAN-ONA, QALB-MAKON kabi) individual-muallif talqini orqali yangilanishi shoir ijodining o'ziga xos badiiy qimmatini ta'minlaydi: u xalq tafakkuriga yaqin turgan holda ham original poetik dunyoqarash yarata oladi.

Xulosa. O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, Sirojiddin Sayyid she'riyatidagi metaforalar nafaqat badiiy bezak vositasi, balki shoirning dunyoqarashini va milliy tafakkur xususiyatlarini ifodalovchi kognitiv modellar hisoblanadi. Tadqiqot davomida shoir ijodida faol qo'llanuvchi to'rtta asosiy konseptual metafora modeli — VATAN-ONA, TABIAT-INSON, VAQT-OQIM va QALB-MAKON — ajratib ko'rsatildi. Bu modellar o'zbek xalq badiiy tafakkuriga xos an'anaviy asosga ega bo'lsa-da, shoirning individual uslubi, Surxondaryo shevasi ta'siri va shaxsiy hissiy-badiiy kechinmalari orqali yangicha ma'no qirralariga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jovbo'riyeva U.T. Sirojiddin Sayyid she'riyatida onomastik birliklar tahlili // Multidisciplinary Journal: Fundamental Research Scientific Journal. — 2026.
2. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 1980.
3. Lolayeva G.B. Sirojiddin Said she'rlarining lingvopoetik tahlili // Portugal-Scientific Review of the Problems and Prospects of Modern Science and Education. — 2025. — Vol. 1, No. 7. — B. 31–33.
4. Mahmudov N. Termin, badiiy so'z va metafora // O'zbek tili va adabiyoti. — 2013.
5. Sirojiddin Sayyid. Ustimizdan o'tgan oylar. — Toshkent, 2003.
6. Sirojiddin Sayyid. Vatan abadiy. — Toshkent, 2001.

STYLISTIC MEANS OF EXPRESSING PERSONAL IDENTITY IN ENGLISH INTERNET DISCOURSE

Sharipov Ziyodjon Zafar ugli
Postgraduate student of Kokand State University, Uzbekistan
E-mail: ziyodjonsharipovielts@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21929115

Abstract. This thesis examines the stylistic means through which personal identity is constructed and represented in English-language internet discourse. The analysis focuses on profile names and biographical descriptions used on social media platforms. Particular attention is given to metaphorical nomination, creative nomination, unusual semantic combinations, graphic modification, and the use of titles, gender markers, and informal forms of address. The findings indicate that users frequently avoid direct self-identification and instead employ figurative, expressive, and visually distinctive forms to present their personality, emotional state, worldview, and desired online image. The study demonstrates that stylistic means enhance the expressiveness, semantic complexity, memorability, and individuality of digital self-presentation. Metaphorical and creative nomination are therefore identified as important mechanisms of personal identity construction in English internet discourse.

Keywords: personal identity, internet discourse, stylistic means, metaphorical nomination, creative nomination, profile names, online self-presentation, social media.

Аннотация. В данной работе рассматриваются стилистические средства, посредством которых личная идентичность конструируется и репрезентируется в англоязычном интернет-дискурсе. Анализ сосредоточен на именах профилей и биографических описаниях, используемых на платформах социальных сетей. Особое внимание уделяется метафорической номинации, креативной номинации, необычным семантическим сочетаниям, графической модификации, а также использованию титулов, гендерных маркеров и неофициальных форм обращения. Результаты исследования показывают, что пользователи нередко избегают прямой самоидентификации и вместо этого используют образные, экспрессивные и визуально отличительные формы для представления своей личности, эмоционального состояния, мировоззрения и желаемого онлайн-образа. Исследование демонстрирует, что стилистические средства усиливают выразительность, семантическую сложность, запоминаемость и индивидуальность цифровой самопрезентации. Таким образом, метафорическая и креативная номинации определяются как важные механизмы конструирования личной идентичности в англоязычном интернет-дискурсе.

Ключевые слова: личная идентичность, интернет-дискурс, стилистические средства, метафорическая номинация, креативная номинация, имена профилей, онлайн-самопрезентация, социальные сети.

Annotatsiya. Ushbu tezisda ingliz tilidagi internet diskursida shaxsiy identiklikni konstruksiyalash va ifodalashga xizmat qiluvchi stilistik vositalar tadqiq etiladi. Tahlil ijtimoiy tarmoq platformalarida qo‘llaniladigan profil nomlari va biografik tavsiflarga qaratilgan. Metaforik nominatsiya, kreativ nominatsiya, noodatiy semantik birikmalar, grafik modifikatsiya, shuningdek, unvonlar, gender markerlari va norasmiy murojaat shakllarining qo‘llanishiga alohida e’tibor beriladi. Tadqiqot natijalari foydalanuvchilar ko‘pincha o‘zlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri identifikatsiya qilishdan qochib, buning o‘rniga o‘z shaxsiyati, emotsional holati, dunyoqarashi va istalgan onlayn obrazini namoyon etish uchun obrazli, ekspressiv va vizual jihatdan ajralib turuvchi shakllardan foydalanishini ko‘rsatadi. Tadqiqot stilistik vositalar raqamli o‘zini taqdim etishning ifodaliligi, semantik murakkabligi, esda qoluvchanligi va individualligini kuchaytirishini namoyon etadi. Shu bois metaforik va kreativ nominatsiya ingliz tilidagi internet diskursida shaxsiy identiklikni konstruksiyalashning muhim mexanizmlari sifatida belgilanadi.

Kalit so‘zlar: shaxsiy identiklik, internet diskursi, stilistik vositalar, metaforik nominatsiya, kreativ nominatsiya, profil nomlari, onlayn o‘zini taqdim etish, ijtimoiy tarmoqlar.

The development of social media has created new opportunities for individuals to construct, modify, and publicly present their identities. In digital communication, users are not limited to direct statements about their names, professions, social roles, or personal characteristics. Identities are relationally constructed through several, often overlapping, aspects of the relationship between self and other, including similarity/difference, genuineness/artifice and authority/ delegitimacy; and (5) identity may be in part

intentional, in part habitual and less than fully conscious, in part an outcome of interactional negotiation, in part a construct of others' perceptions and representations, and in part an outcome of larger ideological processes and structures.[2; 2005:P.406]

Instead, they may construct an online identity through linguistic choices that are expressive, symbolic, imaginative, and visually distinctive. Profile names and biographical descriptions are especially important in this process because they often represent the first linguistic elements through which an online audience encounters the profile owner. Unlike ordinary personal names, social media profile names may contain metaphorical images, unusual lexical combinations, graphic signs, numbers, titles, and emotionally marked elements. These features allow users to present themselves indirectly and creatively. A profile name may communicate strength, mystery, emotional sensitivity, independence, ambition, or uniqueness without explicitly stating any of these qualities. Consequently, stylistic means perform not only an aesthetic function but also an identity-forming function in internet discourse.

The material analysed in this study demonstrates that metaphorical nomination and creative nomination are among the most productive stylistic strategies used in English profile names. Metaphorical nomination is based on the transfer of qualities from one semantic domain to the human personality. Creative nomination, by contrast, is broader and includes unconventional combinations of lexical units, graphic modification, and the construction of visually individualized names. Although these two strategies often overlap, they can be distinguished according to their dominant linguistic function. Metaphorical nomination primarily creates figurative meaning, while creative nomination emphasizes originality and formal innovation.

The aim of this study is to analyse the principal stylistic means used to express personal identity in English internet discourse and to determine how these means contribute to online self-presentation. The analysis is based on examples of English-language profile names and biographical expressions drawn from the provided corpus.

Metaphor is one of the most active stylistic means used in the formation of English-language profile names. In metaphorical nominations, the profile owner is represented not through a direct personal name, occupation, or social status, but through an image associated with an object, natural phenomenon, mythical being, emotional concept, or symbolic space. Metaphorical meaning arises when the qualities of one semantic domain are transferred to the human personality.

Such nominations make profile names more expressive and semantically layered. They also enable users to present qualities that may be difficult to express in a short literal description. Through metaphor, a user can appear mysterious, powerful, sensitive, dangerous, unusual, or emotionally complex.

The analysis shows that metaphorical identity construction in English internet discourse is mainly organized around several recurrent semantic models. One productive model presents the profile owner through objects or complex structures, as in Heart_hacker, Unsolved-puzzle, and harsh_pearl. In these examples, qualities associated with technology, puzzles, and valuable objects are transferred to the individual. As a result, the user is represented as emotionally influential, difficult to understand, valuable, strong, or psychologically complex.

Another important model is based on natural phenomena and images. Profile names such as Moonlight.soul, The lightning star, and Butterfly associate the user with calmness, mystery, brightness, power, freedom, beauty, and transformation. These metaphors enable users to present their inner world and personality through symbolic features of nature rather than through direct self-description.

Mythical, fantastic, and supernatural images also function as a productive source of metaphorical nomination. Examples such as Lost_angel, Angelface7878, and Mr.monster construct identity through culturally recognizable associations with innocence, beauty, emotional vulnerability, power, fear, or extraordinariness. The combination of positive and negative meanings often creates a more complex and memorable online persona.

A further group includes poetic and semantically contrasting profile names such as Queen of stars, Deathheaven, and Black clover. These forms rely on elevated, symbolic, or opposing concepts and therefore create idealized, mysterious, or internally contradictory identity images. In particular, the combination of semantically distant or opposite elements increases stylistic expressiveness and semantic depth.

Overall, the corpus demonstrates that metaphorical profile names in English internet discourse are formed through the transfer of qualities from objects, natural phenomena, mythical beings, and symbolic concepts to the human personality. These models allow users to express personal qualities, emotional states, aspirations, and desired self-images indirectly. Rather than providing factual descriptions, metaphorical

nominations construct identity through association, evaluation, and imagery, making online self-presentation more expressive and memorable.

The analysed examples show that metaphorical nomination in English internet discourse is formed through several semantic models. These include the comparison of a person with an object or structure, the transfer of qualities from natural phenomena, the use of mythical or supernatural beings, and the combination of poetic or semantically contradictory concepts. In each case, metaphor transforms direct nomination into figurative self-representation.

Creative nomination is another significant stylistic mechanism used to construct personal identity in English internet discourse. It involves the formation of original profile names through unexpected lexical combinations, visual modification, graphic segmentation, and the addition of titles, numbers, or socially meaningful markers.

The main feature of creative nomination is the transformation of existing linguistic elements into a new and individualized nominative structure. In many cases, the resulting profile name is also metaphorical. However, from the perspective of creative nomination, the central feature is not only figurative meaning but also the unusual formal combination of elements. Profile names such as Deathheaven, Heart_hacker, Moonlight.soul, Softcharm87, Unsolved-puzzle, and Mr.monster illustrate the productive role of semantic incompatibility or unexpected combination. In Heart_hacker, emotional and technological vocabulary are united in a single name. In Moonlight.soul, a natural phenomenon is combined with an abstract concept related to the inner self. In Deathheaven, two opposite concepts are merged into one lexical unit. These combinations attract attention because their components do not usually occur together in ordinary language. The originality of such profile names lies in the ability of users to connect different semantic fields. Technology, emotion, nature, spirituality, danger, and beauty may be combined within one compact expression. As a result, the profile name becomes a creative linguistic product rather than a simple identifier.

The use of capitalization may also contribute to identity representation. A capitalized personal name, as in Evil_Angelica, separates the individualizing component from the evaluative adjective. The contrast between Evil and the personal name Angelica, which itself resembles the word angel, creates additional semantic tension. Thus, graphic form and lexical meaning work together to produce a more complex identity image.

Titles, age markers, and relational elements may also be incorporated into English profile names. Examples such as Mr.monster, @youngraider, and @kingskid demonstrate how social or interpersonal components can be combined with imaginative lexical units. In Mr.monster, the formal title gives the fantastic noun a personified and socially recognizable form. In @youngraider, the adjective young foregrounds age identity, while raider creates an active, adventurous, or rebellious image. In @kingskid, the relational element kid is combined with king, presenting the user through symbolic association with authority or elevated status.

These examples indicate that creative nomination is not limited to semantic originality. It also includes the visual organization of the name and the combination of conventional social markers with unconventional imagery. Through these strategies, the user constructs an online identity that is individual, recognizable, and stylistically marked.

Metaphorical and creative nomination frequently overlap in English profile names. A unit such as Heart_hacker is metaphorical because technological action is transferred to the emotional sphere. At the same time, it is creative because two semantically distant lexical units are combined in an unusual structure. Similarly, Moonlight.soul is metaphorical because the qualities of moonlight are associated with the user’s inner world. It is also creatively formed through the combination of a natural image and an abstract noun, separated by a graphic marker. Deathheaven represents an oxymoronic metaphor while also functioning as a creatively constructed compound.

The analysed stylistic means perform several related functions in the expression of personal identity. First, they increase expressiveness. A metaphorical name such as Unsolved-puzzle communicates more emotional and psychological meaning than a direct name or simple descriptive label.

Second, stylistic means create semantic depth. Many profile names allow more than one interpretation. Lost_angel, for example, may suggest innocence, sadness, emotional displacement, or moral conflict. The profile name does not present a fixed explanation but invites the audience to interpret the user’s identity through association. Third, creative nomination contributes to individualization. Since social media platforms contain large numbers of users, profile owners need recognizable and memorable names.

Unusual combinations such as Heart_hacker and Deathheaven distinguish the user from profiles based only on ordinary personal names.

Fourth, these stylistic devices allow indirect self-presentation. Users may avoid explicit statements such as “I am mysterious,” “I am emotionally strong,” or “I am different.” Instead, they communicate these qualities through symbolic images. This indirectness can make self-presentation more attractive and less categorical. Finally, stylistic profile names may present an idealized or desired identity rather than a fully factual description. A user selecting Queen of stars may not claim literal authority but may project confidence, uniqueness, beauty, or aspiration. Digital identity is therefore not merely reflected through language; it is actively constructed through linguistic choice.

The analysis demonstrates that stylistic means play a central role in the expression of personal identity in English internet discourse. Profile names and biographical descriptions are not merely technical labels but important spaces of linguistic self-presentation. Through metaphorical and creative nomination, users transform ordinary lexical elements into expressive identity-bearing structures.

Metaphorical nomination allows personal identity to be represented through objects, natural phenomena, mythical beings, symbolic spaces, and contrasting concepts. Profile names such as Heart_hacker, Unsolved-puzzle, Moonlight.soul, Lost_angel, Mr.monster, Queen of stars, and Deathheaven express personality, emotional state, worldview, and desired image indirectly through figurative association.

Creative nomination is realized through unexpected semantic combinations, graphic markers, numbers, capitalization, titles, and other formal innovations. Examples such as Softcharm87, Dreamy4787, Maria.lessons, Evil_Angelica, and Angelface7878 show that the visual structure of a profile name can also contribute to the construction of individuality.

The findings further indicate that metaphorical and creative nomination often operate together. A single profile name may simultaneously contain semantic transfer, structural originality, and graphic differentiation. This interaction produces compact yet semantically rich forms of self-presentation.

Overall, stylistic means enable users to project identities that are expressive, memorable, symbolic, and open to interpretation. They make it possible to present the self not only as a factual social identity but also as an imaginative and carefully constructed digital persona. Therefore, metaphorical imagery, creative lexical combination, and graphic modification should be regarded as important linguistic mechanisms of personal identity construction in English internet discourse.

References:

1. Androutsopoulos, J. Introduction: Sociolinguistics and computer-mediated communication // Journal of Sociolinguistics. – 2006. – Vol. 10, No. 4. – P. 419–438. – https://doi.org/10.1111/j.1467-9841.2006.00286.x
2. Bucholtz, M., Hall, K. Identity and interaction: A sociocultural linguistic approach // Discourse Studies. – 2005. – Vol. 7, No. 4–5. – P. 585–614. – https://doi.org/10.1177/1461445605054407
3. Coupland, N. Style: Language Variation and Identity. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – 224 p. – https://www.cambridge.org/core/books/style/67340E9CCB0D3C10847654BD5A278FDC
4. Al Zidjaly, N. Society in digital contexts: New modes of identity and community construction // Multilingua. – 2019. – Vol. 38, No. 4. – P. 357–375. – https://doi.org/10.1515/multi-2018-0042
5. McEntee-Atalianis, L., Ateek, M., Gardner-Chloros, P. Multilingual repertoires and identity in social media: Syrian refugees on Facebook // International Journal of Bilingualism. – 2023. – Vol. 27, No. 4. – P. 538–556. – https://doi.org/10.1177/13670069221121491
6. Herring, S. C. Computer-mediated discourse analysis: An approach to researching online behavior // Designing for Virtual Communities in the Service of Learning / ed. by S. A. Barab, R. Kling, J. H. Gray. – New York: Cambridge University Press, 2004. – P. 338–376. – https://doi.org/10.1017/CBO9780511805080.016
7. Li, L., Huang, J. Online discourse and chronotopic identity work: A longitudinal digital ethnography on WeChat // New Media & Society. – 2025. – Vol. 27, No. 6. – P. 3596–3617. – https://doi.org/10.1177/14614448241228809
8. Sharipov, Z. Z. o‘g‘li. The linguistic construction of personal identity in internet discourse // International Scientific and Current Research Conferences. – 2026. – Vol. 1, No. 1. – P. 137–139. –

TOG‘AY MURODNING EPIK YO‘SINDAGI XALQONA NASRI

Temirova Nazira Akbayevna
Termiz shahar 26-maktab o‘qituvchisi
E-mail: nazirashuxrat1992@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21929164

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tog‘ay Murodning ijodiy faoliyati, badiiy adabiyotga kirib kelishi, o‘ziga xos uslubi, adib asarlaridagi xalqona ruh va milliy kolorit tushunchalarini o‘rganish nazarda tutilgan.
Kalit so‘zlar: Ijodkor maqsadi, qissachilik, roman va tarjima, xalqona udum, ko‘chim va o‘xshatishlar.
Аннотация: Данная статья посвящена изучению творческой деятельности Тогая Мурода, его вхождения в мир прозы, его уникального стиля, а также концепций народного духа и национального колорита в произведениях писателя.
Ключевые слова: Творческая цель, повествование, роман и перевод, народная традиция, перенос и аналогия.
Abstract: This article aims to study the creative activity of Togay Murod, his entry into fiction, his unique style, the concepts of the folk spirit and national color in the writer’s works.
Keywords: Creative purpose, storytelling, novel and translation, folk tradition, transfer and analogy.

Tog‘ay Murod XX asr o‘zbek adabiyotida biror ijodkorda hali uchramagan ijod uslubi, ifoda ohangi bilan ijod olamiga kirib kelgan yuksak iste’dod sohibidir. Adib Said Ahmad: «Nazarimda, Tog‘ay Murod qissa aytmaydi, bor ovozi bilan qo‘shiq aytadi. Bu qo‘shiqda avj pardalar bor, nolishlar bor, savt bor» deganlarida faqat Tog‘ay Murodgagina xos, yangi o‘zbek nasri mahsuli sifatida yuzaga kelgan ijodni nazarda tutgan edilar.

Tog‘ay Murodning «Sharq Yulduzi» jurnalida (1976 yilda) «Yulduzlar mangu yonadi» qissasi bosilib chiqdi-yu, uni butun el tanidi. Asar yilning eng yaxshi qissasi deb tan olindi. Bu haqida ijodkor shunday yozadi:

“Men o‘rta maktabni bitirib shunday niyat etdim: o‘ttiz-o‘ttiz besh yoshlargacha uylanmayman oila qurmayman, biror idorada faqat tarixchilik uchun ishlayman. Men faqat bir maqsadni ko‘zladim: faqat jahon adabiyotini o‘qish. Faqat o‘qish, o‘qish, o‘qish, qo‘l qotib qolmasini uchun mayda hikoyalar mashq etib turish. Men shu niyat yo‘lida imorat solmadim, mashina olmadim, mansab egallamadim, shon shuhrat qizg‘anmadim[1].

Nihoyatda... nihoyatda sanoqli kunlarda “Yulduzlar mangu yonadi” nomli birinchi qissamni yaratdim.

Men bu qissam bilan g‘animlarimga:

“Mana men kimman degan bo‘ldim”.

Qissa elga manzur bo‘ldi”.

Tog‘ay Murodning birin-ketin qissalari chop etila boshladi. 1979-yilda «Ot kishnagan oqshom», 1980-yilda «Oydinda yurgan odamlar», 1985-yilda «Momo er qo‘shig‘i» qissalari yaratildi. Barcha qissalarda Tog‘ay Murod tug‘ilib o‘sgan Surxon vohasi, Xo‘jasoat qishlog‘i Denov tumani xalqi hayoti tasvirlanadi. Bu qissalari uchun adib Respublika yozuvchilar uyushmasi Oybek nomidagi mukofoti bilan taqdirlandi.

Tog‘ay Murod 1986-1991-yillarda «Otamdan qolgan dalalar» romani ustida ishladi, asar 1993-yili yozilib tugatildi[2].

1994-yili istiqlol davri o‘zbek adabiyotining dastlabki sara asari sifatida Abdulla Qodiriy nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi.

«Adabiyotimizda shunday bir nochor ahvol borki,dunyoga chiqish uchun uchqunlanayotgan yozuvchilarni e’tiborga olmaymiz. Talantli yozuvchilar hech kimni oldiga arz qilib bormaydi, hech narsa so‘ramaydi, o‘z iste’dodiga ishonib yozaveradi.Yozgan narsalari dunyo u yoqda tursin, xalqimizga ham durustroq yetib kelmaydi. Mana shu Tog‘ay Murodning asarlari. O‘zbek tilidagi go‘zal o‘xshatishlarni, milliylikni adabiyotga olib kirdi. Olib kirganda ham tumtoq shaklda emas, go‘zal bir bezaklar bilan olib kirdi», – degan fikrlarni bildirgan edi adabiyotshunos Xolmuhammad Karim[4].

Tog‘ay Murod roman va qissalari mavzusi, badiiyati, qalamga olgan muammolari, asar qahramonlari tasviri jihatidan ham o‘ziga xosdir. Surxon vohasi, qolaversa, xalqimizning azaliy udumlari, mo‘tabar

an’analari, zahmatkash, sofdil, sodda odamlari, tiniq buloqlari-yu, so‘lim bog‘lari, bepoyon qir-adirlari, yaylovlari butunicha Tog‘ay Murod ijodiga xos tabiiylik asosida talqin etilgan.

«Yulduzlar mangu yonadi» qissasida Bo‘ri polvon, Maksim, Ismoil polvonlar misolida xalq kurashchi-polvonlari, «Ot kishnagan oqshom» qissasida chavandoz-uloqchilar hayoti haqida bahs yuritiladi. Tog‘ay Murod qaysi voqeani tasvirlamasin, uni shunchaki tashqaridan turib kuzatib, baholamaydi[3].

Balki butun borlig‘i bilan o‘zi qalamga olayotgan voqea-hodisalar ichiga kirib ketadi, polvonlar, chavandozlar bilan birgalikda harakatlanadi.

Tog‘ay Murod bu asarni yozishga kirishar ekan, o‘zining hayot haqidagi qarashlari, tasavvur va xulosalarini tanqidiy taftishdan o‘tkazadi. Xalq hayotiga, dehqonlarning turmush tarziga kirib boradi.

Adibning “Otamdan qolgan dalalar” asarida yozuvchi ijodiy niyatini ro‘yobga chiqaruvchi bosh qahramon Dehqonqul obrazidir. U qizil imperiya tuzumida dunyoqarashi shakllangan, sho‘rolar siyosati tarbiyasini olgan shaxs.

Dehqonqul jon-dili bilan ana shu hokimiyatga xizmat qiladi. U faqatgina tun-u kun mehnat qilishni biladi. Dehqonchilikning ustasi, bilimdoni. O‘zi, ayoli va bolalarini hech o‘ylamay, yog‘in-sochinlarga qaramasdan, har yili mo‘l hosil olishga harakat qiladi.

Adib Dehqonqul obrazi orqali o‘zbek xalqining, o‘zbek dehqonining o‘ziga xos haykalini yaratib berdi.

Tog‘ay Murod badiiy tarjima bilan ham shug‘ullangan. Jumladan, J.Londonning «Boyning qizi» dramasi va qator hikoyalarini, E.Seton-Tompsonning hayvonotlar olami haqidagi mashhur «Yovvoiy yo‘rg‘a» asarini o‘zbek tiliga mahorat bilan o‘girdi[5].

Xullas, Tog‘ay Murod o‘zbek adabiyotiga xalq og‘zaki ijodi janrlaridan-dostonlardagi nasriy ifoda, klassik adabiyotimizdagi saj san’ati, so‘zlarni o‘ziga xos takror qo‘llash, xalq tilining jozibali ko‘rinishlarini qayta kashf etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yangi o‘zbek adabiyoti. o‘quv-uslubiy majmua. Guliston, 2016. – 165 b.
2. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: «O‘qituvchi», 1999. – 203 b.
3. Murod T. «Otamdan qolgan dalalar. – T.: 1994. – 272 b.
4. «Men qaytib kelaman». Tog‘ay Murod zamondoshlari xotirasida. Nashrga tayyorlovchi: Ahmedova M. – Toshkent, 2012.
5. Tog‘ay Murod qissa va hikoyalari. https://www.ziyouz.com/

METAKOGNITIV YONDASHUVNING KREATIV FIKRLASH JARAYONLARINI BOSHQARISHDAGI PEDAGOGIK ASOSLARI

Nurmatov Sardor Sidikovich
Qo’qon universiteti Raqamli texnologiya va matematika kafedrasi katta o’qituvchisi
sardornurmatov900@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21929194

Annotatsiya. Mazkur maqolada metakognitiv yondashuvning kreativ fikrlash jarayonlarini boshqarishdagi pedagogik asoslari nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Bugungi ta’lim jarayonida talabalarning tayyor bilimlarni o‘zlashtirishi bilan bir qatorda, yangi g‘oyalarni ilgari surish, muammoli vaziyatlarga noodatiy yechim topish, o‘z fikrlash strategiyasini ongli boshqarish kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Metakognitiv yondashuv shaxsning “o‘z tafakkuri haqida tafakkur yuritishi”, ya’ni bilish jarayonlarini rejalashtirish, kuzatish, nazorat qilish va baholash mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Kreativ fikrlash esa muammoni turli nuqtai nazardan ko‘rish, original, moslashuvchan va samarali g‘oyalar ishlab chiqish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolada Flavell, Brown, Schraw, Guilford, Torrance, Sternberg, Amabile kabi olimlarning qarashlari asosida metakognitsiya va kreativ fikrlash o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yoritiladi. Tadqiqotda nazariy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Natijada kreativ fikrlashni metakognitiv boshqarishning rejalashtirish, monitoring, refleksiya va baholashdan iborat pedagogik modeli asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: metakognitiv yondashuv, kreativ fikrlash, pedagogik boshqaruv, refleksiya, metakognitiv monitoring, kreativ kompetensiya, ta’lim jarayoni, o‘z-o‘zini nazorat qilish.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida bilim berish jarayoni faqat tayyor axborotni uzatish bilan chegaralanib qolmay, balki o‘quvchi va talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish, muammoni tahlil qilish, nostandart qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilmoqda. Ayniqsa, oliy ta’limda bo‘lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi uning nafaqat bilim darajasi, balki mavjud bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llay olishi, muammoga turli tomondan yondasha olishi va o‘z fikrlash jarayonini boshqara olishi bilan belgilanadi.

Kreativ fikrlash insonning yangilik yaratishga qaratilgan intellektual faoliyati bo‘lib, u muammoni ko‘ra bilish, muqobil yechimlar ishlab chiqish, ilgari mavjud bo‘lmagan g‘oyalarni taklif etish va ularni amaliy jihatdan asoslay olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. J.P. Guilford kreativlikni tafakkurning divergent shakli bilan bog‘lab, uni bir muammoga bir nechta yechim topish imkoniyati sifatida talqin qilgan [4]. E.P. Torrance esa kreativ fikrlashni ravonlik, moslashuvchanlik, originallik va ishlab chiqilganlik mezonlari asosida baholash mumkinligini ko‘rsatgan [5].

Biroq kreativ fikrlash o‘z-o‘zidan, tartibsiz va tasodifiy yuzaga keladigan jarayon emas. U ma’lum darajada boshqarilishi, yo‘naltirilishi va rivojlantirilishi mumkin bo‘lgan murakkab psixologik-pedagogik hodisadir. Aynan shu nuqtada metakognitiv yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. J.H. Flavell metakognitsiyani insonning o‘z bilish jarayonlari haqidagi bilimlari va ularni nazorat qilish qobiliyati sifatida izohlaydi [1]. Boshqacha aytganda, metakognitiv yondashuv talabaning “men qanday fikrlayapman?”, “qaysi strategiya samarali?”, “muammoni yechishda qanday xatoga yo‘l qo‘ydim?”, “natijani qanday yaxshilash mumkin?” kabi savollar orqali o‘z tafakkurini boshqarishiga xizmat qiladi.

Kreativ fikrlash va metakognitiv boshqaruv o‘rtasidagi bog‘liqlik shundan iboratki, ijodiy g‘oya faqat xayoliy tasavvur mahsuli emas, balki rejalashtirilgan, kuzatilgan, baholangan va takomillashtirilgan bilish faoliyatining natijasidir. Talaba kreativ vazifani bajarishda avvalo muammoni tushunadi, maqsadni belgilaydi, turli strategiyalarni tanlaydi, o‘z fikrlash jarayonini kuzatadi, xatolarni aniqlaydi va yechimni qayta ishlab chiqadi. Bu bosqichlarning barchasi metakognitiv faoliyat bilan bevosita bog‘liq.

Shu sababli mazkur maqolaning maqsadi — metakognitiv yondashuvning kreativ fikrlash jarayonlarini boshqarishdagi pedagogik asoslarini aniqlash, uning nazariy tushunchalarini izohlash hamda ta’lim jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan pedagogik modelini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Metakognitsiya tushunchasi ilmiy muomalaga XX asrning ikkinchi yarmida J.H. Flavell tomonidan kiritilgan. Uning fikricha, metakognitsiya shaxsning o‘z bilish jarayonlari, bilimlari va strategiyalari haqida xabardor bo‘lishi hamda ularni boshqarish qobiliyatidir [1]. A.L. Brown metakognitsiyani o‘quv faoliyatida rejalashtirish, nazorat qilish va baholash jarayonlari bilan bog‘lab, uni o‘z-o‘zini boshqaruvchi ta’limning muhim omili sifatida talqin qiladi [2].

G. Schraw va D. Moshman metakognitsiyani ikki asosiy tarkibga ajratadi: metakognitiv bilim va metakognitiv nazorat. Metakognitiv bilim shaxsning o‘z bilish imkoniyatlari, vazifa xususiyatlari va strategiyalar haqidagi bilimlarini o‘z ichiga olsa, metakognitiv nazorat rejalashtirish, monitoring va baholash kabi faoliyatlarni qamrab oladi [3]. Ushbu yondashuv kreativ fikrlashni boshqarishda ham muhim ahamiyatga ega, chunki ijodiy topshiriqni bajarish jarayonida talaba o‘z imkoniyatlarini, topshiriqning murakkabligini va mos strategiyalarni anglay olishi zarur.

Kreativ fikrlash bo‘yicha tadqiqotlarda J.P. Guilford divergent tafakkur nazariyasini ilgari surgan. Unga ko‘ra, kreativlik birgina to‘g‘ri javobni topish emas, balki ko‘plab original, moslashuvchan va samarali javoblarni ishlab chiqish qobiliyatidir [4]. E.P. Torrance esa kreativ fikrlashni baholashda ravonlik, moslashuvchanlik, originallik va elaboratsiya mezonlarini ishlab chiqqan [5].

R. Sternberg va T. Lubart kreativlikni intellektual qobiliyat, bilim, tafakkur uslubi, motivatsiya, shaxsiy sifatlar va muhitning o‘zaro ta’siri natijasi sifatida izohlaydi [6]. T.M. Amabile esa kreativlikka ichki motivatsiya, sohaga oid bilim va kreativ ko‘nikmalar birligi sifatida yondashadi [7]. Bu qarashlar metakognitiv yondashuv bilan bevosita bog‘liq, chunki talabaning o‘z motivatsiyasini anglash, strategiyasini tanlash va natijasini baholashi kreativ faoliyat samaradorligini oshiradi.

Demak, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv yondashuv kreativ fikrlashni rivojlantirishda faqat yordamchi vosita emas, balki kreativ jarayonni ongli tashkil etish va boshqarishning muhim pedagogik mexanizmi hisoblanadi.

Metodologiya. Maqola nazariy-metodologik xarakterga ega bo‘lib, unda metakognitiv yondashuv va kreativ fikrlashga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Birinchidan, nazariy tahlil metodi orqali metakognitsiya, kreativ fikrlash, refleksiya, metakognitiv monitoring, o‘z-o‘zini baholash kabi tushunchalarning mazmuni aniqlashtirildi.

Ikkinchidan, taqqoslash metodi asosida metakognitiv yondashuv va an’anaviy pedagogik yondashuv o‘rtasidagi farqlar ko‘rsatildi. An’anaviy yondashuvda o‘qituvchi bilim beruvchi va nazorat qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo‘lsa, metakognitiv yondashuvda talaba o‘z o‘quv faoliyatini rejalashtiruvchi, kuzatuvchi va baholovchi faol subyektga aylanadi.

Uchinchidan, umumlashtirish metodi yordamida kreativ fikrlashni boshqarishda metakognitiv strategiyalarning pedagogik imkoniyatlari aniqlashtirildi.

To‘rtinchidan, pedagogik modellashtirish metodi asosida kreativ fikrlashni metakognitiv boshqarishning tarkibiy modeli ishlab chiqildi. Ushbu model rejalashtirish, monitoring, refleksiya va baholash bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot obyekti sifatida kreativ fikrlashni rivojlantirish jarayoni, predmeti sifatida esa mazkur jarayonni metakognitiv yondashuv asosida pedagogik boshqarish mexanizmlari belgilandi.

Natijalar. Tahlillar asosida metakognitiv yondashuvning kreativ fikrlash jarayonlarini boshqarishdagi pedagogik asoslari quyidagi tarkibiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishi aniqlandi.

1. Kreativ fikrlashni rejalashtirish

Metakognitiv yondashuvning birinchi muhim vazifasi — talabaning ijodiy faoliyatni boshlashdan avval maqsadni anglashiga yordam berishdir. Kreativ topshiriq bajarilishidan oldin talaba quyidagi savollarga javob topishi lozim: muammo nimadan iborat, uni hal qilish uchun qanday bilimlar zarur, qanday yechim variantlari bo‘lishi mumkin, qaysi strategiya samaraliroq?

Bu bosqichda o‘qituvchi tayyor javobni bermaydi, balki yo‘naltiruvchi savollar orqali talabaning mustaqil fikrlashini faollashtiradi. Masalan, “Bu masalani boshqa usulda hal qilish mumkinmi?”, “Yechimni hayotiy vaziyat bilan bog‘lash mumkinmi?”, “Qanday g‘oya odatiy javoblardan farq qiladi?” kabi savollar kreativ tafakkurni faollashtiradi.

2. Metakognitiv monitoring

Kreativ fikrlash jarayonida monitoring talabaning o‘z fikrlash faoliyatini kuzatishi, tanlangan strategiyaning samaradorligini tekshirishi va zarur holatda yo‘nalishni o‘zgartirishi bilan bog‘liq. Bu jarayonda talaba “men to‘g‘ri yo‘ldan boryapmanmi?”, “fikrim yetarlicha asoslimi?”, “boshqa muqobil g‘oya bormi?” kabi savollar orqali o‘z faoliyatini nazorat qiladi.

Metakognitiv monitoring kreativ fikrlashda yuzaga keladigan shoshma-shosharlik, birinchi topilgan javob bilan cheklanish, stereotip yondashuvga berilish kabi holatlarning oldini oladi. Natijada talaba g‘oyalarni chuqurroq tahlil qiladi, ularni solishtiradi va eng maqbulini tanlashga harakat qiladi.

3. Refleksiya

Refleksiya kreativ fikrlashning sifatini oshiruvchi muhim pedagogik mexanizmdir. Refleksiya orqali talaba bajarilgan ishga qayta nazar tashlaydi, o‘z fikrlash jarayonidagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlaydi.

Bu jarayon “nima uchun aynan shu yechimni tanladim?”, “qanday xatoga yo‘l qo‘ydim?”, “keyingi safar qanday strategiyadan foydalanaman?” kabi savollar orqali amalga oshiriladi.

Refleksiya kreativ fikrlashni tasodifiy faoliyatdan ongli boshqariladigan faoliyatga aylantiradi. Ayniqsa, muammoli ta’lim, loyiha ishlari, keys-stadi, munozara, aqliy hujum, konseptual xarita va ijodiy topshiriqlarda refleksiv tahlil muhim natija beradi.

4. O‘z-o‘zini baholash

Metakognitiv yondashuvda talaba faqat o‘qituvchi tomonidan baholanadigan obyekt emas, balki o‘z faoliyatini baholovchi subyekt sifatida shakllanadi. O‘z-o‘zini baholash kreativ fikrlashning mezonlarini anglashga yordam beradi. Bunda talaba o‘z g‘oyasini originallik, moslashuvchanlik, amaliy ahamiyat, mantiqiy asoslanganlik va yangilik darajasi bo‘yicha baholaydi.

Quyidagi jadvalda kreativ fikrlashni metakognitiv boshqarish bosqichlari umumlashtiriladi.

Bosqich	Metakognitiv faoliyat	Kreativ fikrlashdagi vazifasi	Pedagogik vositalar
Rejalashtirish	Maqsadni aniqlash, strategiya tanlash	Muammoni anglash va yechim yo‘nalishini belgilash	Muammoli savollar, aqliy hujum, klaster
Monitoring	Fikrlash jarayonini kuzatish	G‘oyalarni tekshirish va muqobil variantlarni izlash	Yo‘naltiruvchi savollar, kuzatuv varaqasi
Refleksiya	Natijaga qayta nazar tashlash	Xatolarni anglash va tajribani umumlashtirish	Refleksiv esse, “Men nimani o‘rgandim?” metodi
Baholash	O‘z natijasini mezonlar asosida baholash	G‘oyaning yangiligi va samaradorligini aniqlash	Rubrika, o‘z-o‘zini baholash jadvali

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv yondashuv kreativ fikrlash jarayonlarini pedagogik jihatdan boshqarishda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

birinchidan, talabaning o‘z fikrlash jarayoniga ongli munosabatini shakllantiradi;

ikkinchidan, ijodiy topshiriqlarni bajarishda maqsad, strategiya va natija o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi;

uchinchidan, talabaning mustaqil qaror qabul qilish va muqobil yechimlarni izlash qobiliyatini rivojlantiradi;

to‘rtinchidan, refleksiya va o‘z-o‘zini baholash orqali kreativ faoliyat sifatini oshiradi.

Muhokama

Metakognitiv yondashuvning kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi asosiy afzalligi shundaki, u talabani passiv bilim oluvchi emas, balki o‘z bilish faoliyatini boshqaruvchi faol subyekt sifatida shakllantiradi. An’anaviy ta’limda ko‘pincha natija birlamchi ahamiyat kasb etadi: talaba topshiriqni to‘g‘ri bajardimi yoki yo‘qmi, degan savol asosiy mezonga aylanadi. Metakognitiv yondashuvda esa jarayonning o‘zi ham muhim hisoblanadi. Ya’ni talaba qanday fikrladi, qanday strategiya tanladi, qanday xulosaga keldi, xatosini qanday tuzatdi — bularning barchasi pedagogik ahamiyatga ega.

Kreativ fikrlashni boshqarishda o‘qituvchining roli ham o‘zgaradi. O‘qituvchi tayyor yechimni beruvchi emas, balki fikrlash jarayonini tashkil etuvchi, muammoli vaziyat yaratib beruvchi, savollar orqali talabani izlanishga undovchi fasilitator sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa ta’lim jarayonida subyekt-subyekt munosabatini kuchaytiradi.

Metakognitiv yondashuv kreativ fikrlashning quyidagi mezonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi:

Ravonlik — talabaning ko‘plab g‘oyalar ishlab chiqish qobiliyati. Metakognitiv rejalashtirish bu jarayonda fikrlarni tartibga solishga yordam beradi.

Moslashuvchanlik — bir vaziyatga turli nuqtai nazardan yondashish qobiliyati. Monitoring va refleksiya orqali talaba bir xil fikrlash qolipidan chiqishga o‘rganadi.

Originallik — noodatiy, yangi va o‘ziga xos yechimlar ishlab chiqish qobiliyati. Metakognitiv savollar talabaning tayyor javob bilan cheklanib qolmasdan, yangi variantlarni izlashiga yordam beradi.

Elaboratsiya — g‘oyani asoslash, rivojlantirish va amaliy shaklga keltirish qobiliyati. O‘z-o‘zini baholash va refleksiya ushbu mezonni kuchaytiradi.

Shu bilan birga, metakognitiv yondashuvni amaliyotga joriy etishda ayrim pedagogik shartlarga amal qilish zarur. Avvalo, ta’lim jarayonida xato qilishdan qo‘rqmaydigan ijodiy muhit yaratilishi lozim. Chunki

kreativ fikrlash erkin izlanish, taxmin qilish, sinab ko‘rish va qayta ishlash orqali rivojlanadi. Ikkinchidan, o‘qituvchi talabalarni faqat yakuniy natija bo‘yicha emas, balki fikrlash jarayoni, strategiya tanlash va refleksiya sifati bo‘yicha ham baholashi kerak. Uchinchidan, kreativ topshiriqlar ochiq, muammoli va bir nechta yechimga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Demak, metakognitiv yondashuv kreativ fikrlashni shakllantirishda nazariy tushuncha emas, balki aniq pedagogik texnologiya sifatida qaralishi lozim. U talabaning ijodiy tafakkurini faollashtirish, mustaqil izlanishga yo‘naltirish va o‘z faoliyatini ongli boshqarishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Metakognitiv yondashuv kreativ fikrlash jarayonlarini boshqarishning muhim pedagogik asosi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kreativ fikrlash samaradorligi faqat talabaning tabiiy qobiliyati yoki tasavvur kuchiga bog‘liq emas. U maqsadni anglash, strategiya tanlash, fikrlash jarayonini kuzatish, natijani baholash va tajribani qayta tahlil qilish kabi metakognitiv faoliyatlar bilan bevosita bog‘liq.

Maqolada kreativ fikrlashni metakognitiv boshqarishning rejalashtirish, monitoring, refleksiya va baholashdan iborat modeli asoslab berildi. Ushbu model ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, muammoli vaziyatlarda muqobil yechim topishi va o‘z fikrlash jarayonini ongli boshqarishini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Metakognitiv yondashuvning pedagogik ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi: u talabaning o‘z tafakkurini anglashiga yordam beradi; kreativ topshiriqlarni ongli bajarishga yo‘naltiradi; refleksiv fikrlashni rivojlantiradi; o‘z-o‘zini baholash va o‘z-o‘zini tuzatish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu sababli oliy ta’limda kreativ fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda metakognitiv yondashuvdan tizimli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Flavell, J. H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry. American Psychologist, 1979, 34(10), 906–911.

2. Brown, A. L. Metacognition, executive control, self-regulation, and other more mysterious mechanisms. In: F. E. Weinert, R. H. Kluwe (Eds.), Metacognition, Motivation, and Understanding. Hillsdale: Lawrence Erlbaum Associates, 1987.

3. Schraw, G., Moshman, D. Metacognitive theories. Educational Psychology Review, 1995, 7(4), 351–371.

4. Guilford, J. P. Creativity. American Psychologist, 1950, 5(9), 444–454.

5. Torrance, E. P. Torrance Tests of Creative Thinking. Lexington, MA: Personnel Press, 1974.

6. Sternberg, R. J., Lubart, T. I. The concept of creativity: Prospects and paradigms. In: R. J. Sternberg (Ed.), Handbook of Creativity. Cambridge: Cambridge University Press, 1999.

7. Amabile, T. M. Creativity in Context. Boulder, CO: Westview Press, 1996.

8. Zimmerman, B. J. Becoming a self-regulated learner: An overview. Theory Into Practice, 2002, 41(2), 64–70.

9. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

10. Polya, G. How to Solve It: A New Aspect of Mathematical Method. Princeton: Princeton University Press, 1957.

11. Hargrove, R. A., Nietfeld, J. L. The impact of metacognitive instruction on creative problem solving. Journal of Experimental Education, 2015, 83(3), 291–318.

12. Runco, M. A., Acar, S. Divergent thinking as an indicator of creative potential. Creativity Research Journal, 2012, 24(1), 66–75.

13. Cropley, A. J. Creativity in Education and Learning: A Guide for Teachers and Educators. London: Routledge, 2001.

14. Pintrich, P. R. The role of metacognitive knowledge in learning, teaching, and assessing. Theory Into Practice, 2002, 41(4), 219–225.

15. Fisher, R. Teaching Children to Think. Cheltenha

SHUKUR XOLMIRZAYEV IJODIDA KOLORITNING BADIIY IFODASI

Temirova Nazira Akboyevna
Termiz shahar 26-maktab o‘qituvchisi
E-mail: nazirashuxrat1992@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21929233

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev asarlarida Surxon vohasidagi insonlarning turmush tarzi, xarakter xususiyati, insonlarning bir-biriga bo‘lgan sof-samimiy munosabatlari, eng og‘ir vaziyatlarda ham muloqatning to‘g‘ri shakllantirilishi kabi fazilatlarni ochib berish nazarda tutilgan.
Kalit so‘zlar: Hikoya, ruhiyat, urf-odat, ichki kechinma, oriyat, andisha, xotira.
Аннотация: Цель данной статьи – раскрыть в произведениях Шукура Холмирзаева образ жизни людей в Сурханском оазисе, черты характера, искренние взаимоотношения между людьми и правильное формирование коммуникации даже в самых сложных ситуациях.
Ключевые слова: Рассказ, психика, традиция, внутренний опыт, ария, мысль, память.
Abstract: This article aims to reveal the lifestyle of people in the Surkhan oasis, character traits, sincere relationships between people, and the correct formation of communication even in the most difficult situations in the works of Shukur Kholmirzayev.
Keywords: Story, psyche, tradition, inner experience, aria, thought, memory.

O‘zbek adabiyotidagi badiiy ifodaning xilma-xilligi, badiiy asarning g‘oyaviy va badiiy qiymatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Milliy kolorit nafaqat rang tasviri sifatida, balki ma’lum bir davr, makon, milliy ruh, personajning ichki kechinmalari va muallifning estetik qarashlarini ifodalashning badiiy vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shuning uchun o‘zbek nasrining yetakchi namoyandalaridan biri Shukur Xolmirzayev asarlarida koloritdan foydalanish masalalarini o‘rganish adabiy tanqidda dolzarb masala hisoblanadi.

Shukur Xolmirzayev yuqori badiiy mahorat bilan o‘z asarlarida xalq hayoti, milliy qadriyatlar, inson ruhiyati va tabiiy manzaralarni tasvirlaydi. Yozuvchining hikoyalari va ertaklarida Surxon vohasining o‘ziga xos tabiati, mahalliy urf-odatlar, xalq hayoti va insoniy xarakterlar o‘ziga xos tarzda ifodalangan. Yozuvchi ijodida kolorit nafaqat tashqi tasvir vositasi, balki personajlarning ma’naviy dunyosini ochib beruvchi, voqealar rivojiga badiiy ta’sir ko‘rsatuvchi va milliy mentalitetni aks ettiruvchi muhim poetik element hamdir. Xususan, tabiiy manzaralar va inson tajribasining uyg‘un tasviri, mahalliy lahja elementlaridan mohirona foydalanish, etnografik tafsilotlar Shukur Xolmirzayev uslubining o‘ziga xosligini belgilaydi.

Ta’kidlash lozimki, mahalliy kolorit badiiy matnning estetik ta’sirchanligini kuchaytirish bilan birga qahramonlarning ichki olamini chuqurroq anglash imkonini beradigan muhim poetik vosita sifatida xizmat qiladi.

Badiiy asarda mahalliy koloritning ta’sirchan chiqishi, avvalo, yozuvchining tabiat va xalq hayotiga qanchalik yaqinligiga bog‘liq. Shukur Xolmirzayev ijodida bu holat ayniqsa yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uning hikoyalarida ko‘pincha tog‘ odamlari, tabiat qo‘ynida yashovchi insonlar, ovchilar, sodda va rostgo‘y qishloq kishilari tasvirlanadi. Bu esa, tabiiyki, yozuvchining o‘z hayotiy tajribasi va fe’l-atvori bilan bevosita bog‘liq. Ma’lumki, adibning bolalik yillari Surxondaryoning Boysun tog‘lari bag‘rida o‘tgan. U keyinchalik bu muhitdan uzoqlashgan bo‘lsa-da, o‘sha yurt manzaralari, tabiat va odamlar obrazi uning ijodida doimiy ilhom manbai bo‘lib qolgan.

Yozuvchining o‘zi ham suhbatlaridan birida tabiat tasviriga murojaat etish sababini sodda va samimiy tarzda izohlaydi. Uning aytishicha, vaqt o‘tishi bilan ovchilikka bo‘lgan munosabati o‘zgargan, o‘zi ovlagan jonivorlarga nisbatan achinish hissi uyg‘ongan. Shu orqali u tabiatni o‘ziga yaqin, jonli va hamnafas mavjudot sifatida anglay boshlagan. Bu qarash yozuvchi ijodida tabiat va inson o‘rtasidagi nozik uyg‘unlikni teran ifodalashga zamin yaratadi[1].

Mahalliy kolorit Shukur Xolmirzayevning “Miltiq otildi”, “Bir guzar odamlari”, “Sog‘inch”, “Bahor o‘tdi” kabi dastlabki hikoyalaridan boshlab “Ozodlik” hikoyasigacha izchil davom etadi va uning ijodiy uslubining muhim belgilaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu o‘rinda aytish joizki, adabiyotda mahalliy kolorit bilan bir qatorda milliy kolorit tushunchasi ham mavjud. Agar mahalliy kolorit muayyan hududga xos xususiyatlarni ifodalasa, milliy kolorit butun bir

millatning boshqa xalqlardan ajralib turuvchi umumiy belgilarini anglatadi. Shu ma’noda, mahalliy koloritni milliy koloritning tarkibiy qismi sifatida baholash mumkin.

Yozuvchi tasvirlayotgan hududning koloritini yaratishda uning boshqa joylardan farq qiluvchi jihatlarini aniq ilg‘ay olishi muhim. Masalan, Surxon vohasi bilan Farg‘ona vodiysi aholisi o‘rtasida turmush tarzi, urf-odat va fe’l-atvor jihatidan sezilarli tafovutlar mavjud. Umarali Normatov ham bu farqlarni ta’kidlab, Surxon vohasi odamlarining soddaroq, bevosita va ortiqcha bezaksiz fikr bildirishga moyilligini qayd etadi[2].

Shukur Xolmirzayev “Miltiq otildi” hikoyasida aynan shu hududiy o‘ziga xosliklarni ishonarli badiiy tasvirlaydi. Asarda Farg‘ona va Surxondaryo vakillari bo‘lgan ikki qahramon misolida ularning yashash tarzi va qarashlaridagi farqlar ochib beriladi. Jumladan, Surxon vohasida ovchilikning muhim o‘rin tutishi, mehmonni ovga taklif etish an’anasi mavjudligi ko‘rsatiladi. Farg‘ona vodiysida esa mehmonnavozlikning yuksak ifodasi sifatida osh tortish odati ustuvor sanaladi.

Natijada, hikoyada mahalliy kolorit tabiiy ravishda milliy kolorit bilan uyg‘unlashib ketadi va umumiy o‘zbekona fazilatlarni yoritishga xizmat qiladi. Qahramonlarning o‘zaro mehr-oqibati, samimiyati va mehmondo‘stligi ana shu milliy xarakter belgilarini yaqqol namoyon etadi.

Umuman olganda, Shukur Xolmirzayev uchun o‘z yurtining tabiatini va odamlarini tasvirlash — bu nafaqat badiiy maqsad, balki ichki ehtiyoj, ma’naviy yaqinlik ifodasidir. Shu bois uning asarlaridagi obrazlar ko‘pincha umumlashma darajaga ko‘tarilib, butun xalq ruhiyatini aks ettira oladi[3].

Yozuvchi ta’kidlaganidek, inson va tabiat o‘rtasidagi aloqa uzviydir. Inson – Yerning bir bo‘lagi, tabiat esa unga begona emas, balki yaqin va qondosh mavjudlikdir. Shu qarash yozuvchining mahalliy koloritni tasvirlashdagi falsafiy asosini tashkil etadi[4].

Insoniyat tomonidan asrlar davomida yaratilgan madaniy-ma’naviy boyliklarga munosabat masalasiga qanday yondashish mumkin? Bu qadriyatlarga nisbatan qarashlar o‘zgarmay qolganmi yoki zamon bilan birga yangicha mazmun kasb etyaptimi? Folklor an’analari, an’anaviy badiiy shakl va usullarga bo‘lgan qiziqishning ortib borishini kuzatar ekanmiz, bu jarayonni kengroq ma’noda – tarixiy-madaniy merosga qaytish, uni qayta anglash ehtiyoji bilan izohlash mumkin. Bunday intilish ortida, shubhasiz, chuqur ichki qonuniyat – milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy ildizlarga tayanish zarurati mujassam.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Quronov D. “Adabiyotshunoslikka kirish”. – Toshkent: Meros, 2004. – B. 66-67.
2. Boboyev T. “Adabiyotshunoslik asoslari”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – B. 55.
3. Normatov U. Ijod sehri. –T.: “Sharq”, 2007. – 352 b.
4. Xolmirzayev Sh. Hikoyalar. 1-jild. – Toshkent, 2003.

METAKOGNITIVLIK TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY QISMLARI:
(*metakognitiv bilim, metakognitiv ko'nikmalar va metakognitiv tajriba)*

Nurmatov Sardor Sidikovich
Qo’qon universiteti Raqamli texnologiya va matematika kafedrasi katta o’qituvchisi
sardornurmatov900@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21929248

Annotatsiya. Mazkur maqolada metakognitivlik tushunchasining ilmiy-nazariy mohiyati va uning uch asosiy tarkibiy qismi - metakognitiv bilim, metakognitiv ko'nikmalar (tartibga solish) va metakognitiv tajriba - tahlil qilingan. Tadqiqot xorijiy psixologik-pedagogik adabiyotlarni tizimli tahlil qilish metodiga asoslangan holda amalga oshirilgan. J. Flavell, A. Braun, T. Nelson va L. Narens, G. Shro va D. Moshman, A. Shoenfeld, M. Veenman hamda I. Lebuda va M. Benedekning kreativ metakognitsiya (CMC) kontseptual modeli tahlil predmeti sifatida olingan. Tadqiqot natijasida metakognitivlikning uch komponentli tuzilishi asoslab berilgan va uning oliy ta'lim tizimida, xususan, talabalarning matematik ijodiy tafakkurini rivojlantirish jarayonida tutgan o'rni yoritilgan. Maqola oliy ta'lim muassasalarida matematika o'qitish metodikasi sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: metakognitsiya, metakognitiv bilim, metakognitiv ko'nikmalar, metakognitiv tajriba, o'z-o'zini tartibga solish, ijodiy tafakkur, oliy ta'lim.

Kirish. XXI asr ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri - shaxsni nafaqat ma'lum bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish, balki uning mustaqil fikrlash, o'z bilim faoliyatini anglash va boshqarish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Ushbu jarayonda markaziy o'rinni metakognitivlik (metakognitsiya) tushunchasi egallaydi. Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanida metakognitivlik shaxsning o'z kognitiv faoliyatini anglash, nazorat qilish va tartibga solish qobiliyati sifatida talqin etiladi [1]. Ayniqsa, matematik ta'lim jarayonida talabalarning muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, yechim strategiyasini tanlash, o'z fikrlash jarayonini kuzatib borish va zarur hollarda uni qayta ko'rib chiqish qobiliyati metakognitiv faoliyat bilan bevosita bog'liqdir [6].

Metakognitivlik tushunchasi birinchi marta amerikalik psixolog Jon Flavell tomonidan 1979-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u buni o'z kognitiv jarayonlari va mahsulotlari haqidagi bilim sifatida ta'riflagan [1]. Shundan buyon o'tgan qariyb yarim asr davomida bu tushuncha turli yo'nalishlarda - kognitiv psixologiya, ta'lim psixologiyasi va ijodkorlik psixologiyasida chuqur tadqiq etilib, uning tarkibiy tuzilishi va funksional mexanizmlari borasida bir qancha nazariy modellar ishlab chiqilgan.

Mazkur maqolaning maqsadi - metakognitivlik tushunchasining zamonaviy talqinlarini tizimlashtirish hamda uning uchta asosiy tarkibiy qismi, ya'ni metakognitiv bilim, metakognitiv ko'nikmalar va metakognitiv tajribaning mohiyati, o'zaro bog'liqligi va ta'lim jarayonidagi ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

1. Metakognitivlik tushunchasining mohiyati va tadqiq tarixi

"Metakognitsiya" atamasi yunoncha "meta" (ustidan, keyin) va lotincha "cognitio" (bilish, idrok etish) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, so'zma-so'z "bilish ustidan bilish" yoki "fikrlash haqida fikrlash" degan ma'noni anglatadi. J. Flavellning fikricha, metakognitsiya ikki asosiy jarayonni - metakognitiv bilim va metakognitiv tajribani (tartibga solishni) o'z ichiga oladi [1].

Amerikalik psixolog Enn Braun metakognitsiyaning ijroviy boshqaruv (executive control) tabiatiga alohida e'tibor qaratib, uni kognitiv faoliyatni rejalashtirish, kuzatish va baholash jarayonlari majmuasi sifatida talqin etadi [2]. Braunning yondashuvida metakognitsiya ko'proq protsessual, ya'ni faoliyatni boshqarish jihatiga urg'u beradi, Flavell esa bilim komponentiga ko'proq e'tibor qaratadi. Ushbu ikki yondashuvning uyg'unlashuvi natijasida zamonaviy adabiyotlarda metakognitsiyaning ikki asosiy tarkibiy qatlami umume’tirof etilgan: (a) metakognitiv bilim va (b) metakognitiv tartibga solish (regulation), so'nggisi o'z navbatida ko'nikmalar va tajriba jihatlarini birlashtiradi [4].

T. Nelson va L. Narens tomonidan taklif etilgan metaxotira modelida kognitiv faoliyat ikki sathga - obyekt sathi (object level) va meta-sath (meta-level)ga ajratiladi. Meta-sath obyekt sathini kuzatib boradi (monitoring) va unga ta'sir ko'rsatadi (control), bu esa metakognitiv jarayonlarning dinamik, ikki tomonlama xarakterini ko'rsatadi [3]. Ushbu model keyinchalik G. Shro va D. Moshman tomonidan

rivojlantirilib, metakognitiv nazariyalarning tipologiyasi ishlab chiqilgan: ular metakognitiv bilimni deklarativ, protsedural va shartli (konditsional) turlarga ajratadilar [4].

Matematik ta'lim metodikasi nuqtai nazaridan A. Shoenfeldning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. U masalalar yechishda metakognitsiyaning uchta jihatini - bilim, nazorat va e'tiqodlar (beliefs) tizimini ajratib ko'rsatadi hamda talabaning masala yechish jarayonida o'z strategiyasini qanchalik samarali kuzatib, zarur bo'lganda o'zgartira olishi uning matematik muvaffaqiyatining muhim ko'rsatkichi ekanligini ta'kidlaydi [6]. Bundan tashqari, D. Polyaning masala yechish bosqichlari (masalani tushunish, reja tuzish, rejani amalga oshirish, orqaga qaytib tekshirish) mohiyatan metakognitiv tartibga solish jarayonining amaliy ko'rinishi hisoblanadi [7].

M. Veenman va uning hamkasblari metakognitsiya va o'qitish o'rtasidagi bog'liqlikni tizimli tahlil qilib, metakognitiv ko'nikmalarning intellektual qobiliyatlardan mustaqil ravishda o'quv yutuqlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini empirik jihatdan asoslab berishgan [8]. Ularning fikricha, metakognitiv ko'nikmalar yosh bilan birga rivojlanadi va maqsadli pedagogik ta'sir orqali shakllantirilishi mumkin, bu esa metakognitivlikni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalarining dolzarbligini ko'rsatadi.

2. Metakognitivlikning tarkibiy qismlari

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda metakognitivlikning tarkibiy tuzilishi borasida turlicha yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, ularning aksariyati uchta asosiy komponentni - metakognitiv bilim, metakognitiv ko'nikmalar (tartibga solish) va metakognitiv tajribani ajratib ko'rsatadi [1, 4, 8]. Quyida ushbu komponentlar alohida-alohida ko'rib chiqiladi.

2.1. Metakognitiv bilim

Metakognitiv bilim - shaxsning o'z kognitiv jarayonlari, strategiyalari va imkoniyatlari haqidagi bilimlarini anglatadi. G. Shro va D. Moshman tasnifiga ko'ra, metakognitiv bilim uchta turga bo'linadi [4]: deklarativ bilim - shaxsning o'zi, boshqa insonlar va vazifalarning tabiati haqidagi bilimi (masalan, "men geometrik masalalarni algebraik masalalarga qaraganda yaxshiroq yechaman" degan anglash); protsedural bilim - turli kognitiv strategiya va usullarni qanday qo'llash haqidagi bilim; shartli (konditsional) bilim - qachon va nima uchun muayyan strategiyani qo'llash zarurligini anglash, ya'ni strategik bilimni muayyan vaziyatga moslashtirish qobiliyati.

Metakognitiv bilim talabaning o'z kuchli va zaif tomonlarini real baholashiga, shuningdek, vazifaning murakkabligiga mos strategiyani ongli tanlashiga asos yaratadi. Matematik ijodiy tafakkurni rivojlantirish nuqtai nazaridan, metakognitiv bilim talabaga nostandart masalalarni yechishda qaysi evristik usul (analogiya, orqaga qarab ishlash, yordamchi masala tuzish va h.k.) samaraliroq ekanligini oldindan bashorat qilish imkonini beradi.

2.2. Metakognitiv ko'nikmalar (metakognitiv tartibga solish)

Metakognitiv ko'nikmalar - shaxsning o'z kognitiv faoliyatini amalda boshqarish, ya'ni rejalashtirish, kuzatish va baholash jarayonlarini amalga oshirish qobiliyatidir [2, 8]. Ushbu ko'nikmalar odatda uchta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi: rejalashtirish - vazifani bajarishdan oldin maqsadni belgilash, zarur resurslarni aniqlash va harakatlar ketma-ketligini loyihalashtirish; monitoring (kuzatish) - vazifani bajarish jarayonida o'z tushunish darajasini va strategiyaning samaradorligini uzluksiz kuzatib borish; baholash va nazorat - vazifa yakunlangandan so'ng natijalarni tahlil qilish, xatolarni aniqlash va zarur hollarda strategiyani qayta ko'rib chiqish.

M. Veenman ta'kidlaganidek, aynan shu ko'nikmalar o'quvchining "nima bilishi"dan ko'ra "bilganini qanday qo'llashi"ni belgilaydi, shuning uchun ular akademik muvaffaqiyatning eng barqaror bashoratchilaridan biri hisoblanadi [8]. Matematika o'qitish jarayonida bu ko'nikmalarni rivojlantirish, xususan, talabalarni o'z yechim jarayonini og'zaki yoki yozma sharhlashga, xatolarni mustaqil topib tuzatishga hamda muqobil yechim yo'llarini qidirishga undash orqali amalga oshiriladi.


2.3. Metakognitiv tajriba

Metakognitiv tajriba - J. Flavell ta'rifiga ko'ra, kognitiv faoliyat jarayonida yuzaga keladigan ong ostidagi yoki ongli his-tuyg'ular, mulohazalar va baholardir [1]. Bunga, masalan, masalaning qiyinligini "sezish", yechim to'g'riligiga ishonch yoki shubha tuyg'usi, "bilaman-bilmayman" holatini his qilish kabi holatlar kiradi. Metakognitiv tajriba bilim va ko'nikmalar o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajaradi: aynan shu tajriba shaxsni o'z strategiyasini qayta ko'rib chiqishga undaydi.

I. Lebuda va M. Benedek tomonidan taklif etilgan kreativ metakognitsiya (Creative Metacognition, CMC) modelida metakognitiv tajriba ijodiy jarayonning barcha bosqichlarida - vazifadan oldin, vazifa davomida va vazifadan keyin - namoyon bo'ladigan baholovchi jarayonlar sifatida ko'rib chiqiladi [10]. Ularning fikricha, ijodiy g'oyalarni baholashda paydo bo'ladigan sub'ektiv "yaxshi g'oya" tuyg'usi hamda

bu tuyg'uni tanqidiy tahlil qilish qobiliyati ijodiy mahsuldorlikning muhim omili hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, E. Torrensning ijodiy tafakkurni tashxislash bo'yicha klassik testlarida (TTCT) qayd etilgan "moslashuvchanlik" va "originallik" ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'liqdir [9].

Yuqorida tavsiflangan uchta komponentning o'zaro bog'liqligi 1-rasmda sxematik tarzda ifodalangan.



1-rasm. Metakognitivlikning tarkibiy qismlari

2.4. Metakognitiv komponentlarni diagnostika qilish vositalari

Metakognitivlikning nazariy modeli amaliy tadqiqotlarda qo'llanilishi uchun uning tarkibiy qismlarini o'lchash imkonini beruvchi ishonchli diagnostik vositalar ishlab chiqilgan. Ushbu yo'nalishda G. Shro va R. Dennison tomonidan yaratilgan Metakognitiv anglash inventari (Metacognitive Awareness Inventory, MAI) alohida o'rin tutadi [5]. Ushbu so'rovnoma 52 ta bayonotdan iborat bo'lib, ular ikkita yirik faktorga - metakognitiv bilim (deklarativ, protsedural va shartli bilim subkomponentlarini birlashtiruvchi) va metakognitiv tartibga solish (rejalashtirish, axborotni boshqarish strategiyalari, kuzatish, tuzatish va baholashni birlashtiruvchi) faktorlariga guruhlangan [5]. MAI so'rovnomasining tarkibiy tuzilishi mazkur maqolada tavsiflangan uch komponentli modelga mos kelib, u metakognitiv bilim va ko'nikmalarni ajratilgan holda o'lchash imkonini beradi, biroq metakognitiv tajriba jihati ko'proq vaziyatga bog'liq (state-like) hodisa sifatida alohida, real vaqt rejimidagi o'lchov usullari yordamida tadqiq etiladi.

Matematik ta'lim sohasida bunday diagnostik vositalarni qo'llash talabaning metakognitiv profilini aniqlash, ya'ni uning qaysi komponenti (bilim, ko'nikma yoki tajriba) nisbatan zaif ekanligini aniqlash va shu asosda individuallashtirilgan pedagogik yordam ko'rsatish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, metakognitivlikni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim dasturlarining samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Yuqorida tavsiflangan uch komponentning qiyosiy tavsifi 1-jadvalda umumlashtirilgan.

Komponent	Ta’rifi	Asosiy funksiyasi	Namoyon bo’lish shakli
Metakognitiv bilim	O’z kognitiv imkoniyatlari, strategiyalari va vazifa tabiati haqidagi bilim [4]	Strategik tanlov uchun nazariy asos yaratish	Deklarativ, protsedural, shartli bilim
Metakognitiv ko’nikmalar	Kognitiv faoliyatni amalda boshqarish qobiliyati [2, 8]	Faoliyatni rejalashtirish, kuzatish va baholash	Rejalashtirish, monitoring, nazorat
Metakognitiv tajriba	Kognitiv faoliyat jarayonidagi his-tuyg’u va mulohazalar [1, 10]	Bilim va ko’nikmalar o’rtasida bog’lovchi signal berish	Ishonch/shubha tuyg’usi, qiyinlik hissi

1-jadval. Metakognitivlikning tarkibiy qismlari: qiyosiy tavsif

3. Tarkibiy qismlarning o’zaro bog’liqligi va ta’lim jarayonidagi ahamiyati

Metakognitivlikning uchta tarkibiy qismi bir-biridan mustaqil holda emas, balki uzluksiz o’zaro ta’sir jarayonida namoyon bo’ladi. Metakognitiv bilim 363ntellect tanlov uchun asos yaratadi, metakognitiv tajriba ushbu tanlovning samaradorligi haqida “signal” beradi, metakognitiv ko’nikmalar esa olingan signal asosida amaliy harakatni tuzatish yoki davom ettirish imkonini beradi. Ushbu uch komponentli aylanma tsikl T. Nelson va L. Narensning meta-sath - obyekt sathi modeliga mos keladi, unda monitoring va nazorat jarayonlari uzluksiz almashinib turadi [3].

Oliy ta’lim tizimida, xususan, matematika ta’limi jarayonida ushbu komponentlarni maqsadli rivojlantirish talabalarning nafaqat akademik ko’rsatkichlarini, balki ijodiy tafakkur salohiyatini ham oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, metakognitiv monitoring va nazorat jarayonlari divergent tafakkur samaradorligiga mustaqil hissa qo’shadi [10]. Bu esa metakognitiv komponentlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus 363ntellect strategiyalar (masalan, “ovoz chiqarib fikrlash” texnikasi, reflektiv kundaliklar yuritish, hamkorlikda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) ta’lim dasturlariga tizimli tarzda kiritilishi zarurligini ko’rsatadi.

Shuningdek, so’nggi yillarda 363ntellect363 sun’iy 363ntellect vositalarining ta’lim jarayoniga faol kirib kelishi metakognitiv monitoringning yangi shakllarini talab qilmoqda: talaba endi nafaqat o’z fikrlash jarayonini, balki sun’iy 363ntellect taklif etgan yechimning ishonchliligini ham tanqidiy baholashi lozim. Bu holat metakognitivlik tushunchasining amaliy dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Xulosa. Metakognitivlik - shaxsning o'z kognitiv faoliyatini anglash, nazorat qilish va tartibga solish qobiliyati bo'lib, u metakognitiv bilim, metakognitiv ko'nikmalar va metakognitiv tajriba kabi uchta o'zaro bog'liq tarkibiy qismdan iborat. J. Flavell, A. Braun, T. Nelson, L. Narens, G. Shro, D. Moshman, A. Shoenfeld, M. Veenman hamda I. Lebuda va M. Benedek kabi olimlarning tadqiqotlari ushbu tuzilmani nazariy va empirik jihatdan asoslab bergan. Oliy ta'lim tizimida, xususan, matematika o'qitish metodikasida ushbu uch komponentni maqsadli rivojlantirish talabalarning muammoli vaziyatlarni samarali tahlil qilish, o'z fikrlash jarayonini boshqarish va ijodiy yechimlar topish qobiliyatini shakllantirishning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu komponentlarni amaliy o'lchash va rivojlantirishga qaratilgan konkret metodik vositalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Amaliy nuqtai nazardan, o'quv jarayonini metakognitiv jihatdan boyitish uchun quyidagi yo'nalishlar dolzarb hisoblanadi: birinchidan, o'qituvchi tomonidan namunali metakognitiv xatti-harakatni namoyish etish (masalan, masala yechish jarayonida o'z fikrini ovoz chiqarib ifodalash); ikkinchidan, talabalarni reflektiv topshiriqlar - o'z yechim strategiyasini yozma tahlil qilish, xatolar tahlili va muqobil yechimlarni taqqoslashga jalb etish; uchinchidan, metakognitiv komponentlarni davriy ravishda diagnostika qilib borish va olingan natijalar asosida individual yordam ko'rsatish. Ushbu yondashuvlarning barchasi metakognitivlikning uch komponentli tuzilishiga - bilim, ko'nikma va tajribaga - bir vaqtning o'zida ta'sir ko'rsatishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Flavell J.H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry // American Psychologist. – 1979. – Vol. 34, No. 10. – P. 906-911.

2. Brown A.L. Metacognition, executive control, self-regulation, and other more mysterious mechanisms // Metacognition, Motivation, and Understanding / Ed. by F.E. Weinert, R.H. Kluwe. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1987. – P. 65-116.

3. Nelson T.O., Narens L. Metamemory: A theoretical framework and new findings // Psychology of Learning and Motivation. – 1990. – Vol. 26. – P. 125-173.

4. Schraw G., Moshman D. Metacognitive theories // Educational Psychology Review. – 1995. – Vol. 7, No. 4. – P. 351-371.

5. Schraw G., Dennison R.S. Assessing metacognitive awareness // Contemporary Educational Psychology. – 1994. – Vol. 19, No. 4. – P. 460-475.

6. Schoenfeld A.H. Learning to think mathematically: Problem solving, metacognition, and sense making in mathematics // Handbook of Research on Mathematics Teaching and Learning / Ed. by D. Grouws. – New York: Macmillan, 1992. – P. 334-370.

7. Polya G. How to Solve It: A New Aspect of Mathematical Method. – Princeton: Princeton University Press, 1945. – 253 p.

8. Veenman M.V.J., Van Hout-Wolters B.H.A.M., Afflerbach P. Metacognition and learning: Conceptual and methodological considerations // Metacognition and Learning. – 2006. – Vol. 1, No. 1. – P. 3-14.

9. Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking: Norms-technical manual. – Bensenville, IL: Scholastic Testing Service, 1974.

10. Lebuda I., Benedek M. A systematic framework of creative metacognition // Physics of Life Reviews. – 2023. – Vol. 46. – P. 161-181.

XX ASR IKKINCHI YARMI HINDIY NASRIDA “BEGONALASHUV” KONSEPSIYASINING BADIIY-FALSAFIY TALQINI

(Nirmal Varma hikoyalari misolida)

Tilovmurodova Shamsiqamar Furqat qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi 3-kurs tayanch doktoranti
tilovmurodovashamsqamar@gmail.com,
shamsiqamar_tilovmurodova@tsuos.uz
ORCID: 0009–0005–4388–3354
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21929275

Annotatsiya: Ushbu tezisda zamonaviy hindiy nasrida, xususan, taniqli yozuvchi Nirmal Varma hikoyalarida begonalashuv konsepsiyasining badiiy-falsafiy talqini tadqiq etiladi. Adib hikoyalarida inson ruhiyatidagi eksistensial inqirozlar, shaxs va jamiyat ziddiyati hamda begonalashuvning shakllanish bosqichlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: hindiy nasri, Nirmal Varma, begonalashuv konsepsiyasi, modernizm, eksistensializm, shaxs va jamiyat, badiiy talqin.

Аннотация: В данной тезисной работе исследуется художественно-философская интерпретация концепции отчуждения в современной прозе хинди, в частности, на примере рассказов известного писателя Нирмала Вармы. Анализируются экзистенциальные кризисы в человеческой психике, противоречия между личностью и обществом, а также этапы формирования отчуждения в рассказах автора.

Ключевые слова: проза хинди, Нирмал Варма, концепция отчуждения, модернизм, экзистенциализм, личность и общество, художественная интерпретация.

Abstract: This abstract examines the artistic and philosophical interpretation of the concept of alienation in modern Hindi prose, specifically through the stories of the prominent writer Nirmal Varma. It analyzes existential crises in human psychology, conflicts between the individual and society, and the stages of alienation depicted in the author's stories.

Keywords: Hindi prose, Nirmal Verma, concept of alienation, modernism, existentialism, individual and society, artistic interpretation.

XX asrning ikkinchi yarmida jahon adabiy jarayonida ro‘y bergan murakkab g‘oyaviy-estetik burilishlar va eksistensial izlanishlar milliy adabiyotlar, xususan, zamonaviy hindiy nasri rivojiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu davrda yaratilgan asarlarda inson ruhiyatining murakkab qatlamlari, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar hamda begonalashuv fenomeni markaziy tadqiq obyekti sifatida namoyon bo‘ldi. Bu borada hind modernistik va norealistik hikoyachiligining yorqin namoyandasi Nirmal Varma ijodi alohida ajralib turadi.

Nirmal Varmaning jahon adabiyoti va falsafasi bilan yaqindan tanishligi, shuningdek, Yevropada orttirgan tajribasi uning adabiy yo‘nalishlar chegarasini yorib o‘tib, o‘ziga xos ijodiy uslubga asos solishiga imkon berdi. Adib ijodini roman, esse va hikoyalar kabi turli nasriy janrlar boyitgan bo‘lsa-da, uning eng takrorlanmas va boy merosi hikoyachilik faoliyati hisoblanadi. Yozuvchi ijodining ilk bosqichidanoq modernistik g‘oyalarga tayanib yoritgan “begonalashuv” masalasi keyinchalik uning butun badiiy dunyosining markaziy mavzusiga aylandi.

“Begonalashuv” atamasi lotincha alienatio (o‘tkazish, taslim bo‘lish, ajratish, ajralish) so‘zidan olingan bo‘lib, umuman olganda, insonning o‘zidan va o‘zgalardan uzoqlashishi, yolg‘izlik hamda ajralish hissini anglatadi. Britannika ensiklopediyasida begonalashuvga “shaxsning o‘z atrof-muhitidan, mehnatidan, faoliyat natijasidan yoki o‘z-o‘zidan uzilgan va ajralgan holatini his qilish holati” deb ta’rif beriladi. Adabiyotda begonalashuv shaxsning unga qarama-qarshi yoki begona sharoitlarda (ijtimoiy tuzum, muhit, turmush tarzi, an’analar) rivojlanishi natijasida sodir bo‘ladi. Asarlarda bu hodisa insonning jamiyatdan, tabiatdan, moddiy olamdan, mehnat jarayonidan hamda o‘zligidan uzoqlashuvi shaklida namoyon bo‘lib, qahramonning ruhiy holatida chuqur inqirozlarni keltirib chiqaradi.

G‘arb va jahon adabiyotshunosligida begonalashuv mavzusi dastlab J.P. Sartr, E. Heminguey, A. Kamyu hamda V. Nabokov kabi ateistik ekzistensializm vakillari ijodida atrofli tahlil qilingan. G‘arb

adabiyotshunosi Nansi Grey Diaz o‘z tadqiqotlariga tayanib, begonalashuvning quyidagi 6 ta bosqichini ko‘rsatib o‘tadi:

1. Makondan begonalashuv (mamlakat, davlat, tabiatdan uzoqlashuv);
2. O‘z davridan begonalashuv;
3. Jamiyatdan begonalashuv;
4. Ma’lum bir jamoadan begonalashuv (oila, muayyan guruhlar);
5. O‘zlikdan begonalashuv (ruhiy holatlar va inqirozlar bilan bog‘liq);
6. Insonsizlikdan (borliqdan) chiqib ketish (o‘lim bilan yakunlanuvchi holat).

Nirmal Varma hikoyalarini tadqiq etish jarayonida begonalashuv tushunchasi uning asarlarining leytmotifiga aylangani ma’lum bo‘ldi. Adib begonalashuv hodisasiga o‘z falsafiy va milliy qarashlari orqali yondashib, shunday yozadi: “Insonning bu da’vosiz begonalashuvi va to‘liq emasligi – G‘arb tomonidan o‘ylab topilgan shunchaki zamonaviy ijod mahsuli emas. U insoniyat orasida bir qurt kabi mavjud bo‘lib, uning yer yuzidagi “borliq” tuyg‘usiga asoslangan. Insoniyatning butun afsonaviy tuzilmasi, diniy qonun-qoidalari, tasavvurlari va zamonamizdagi mutlaq inqilob orzusi ana shu la’nati yetimlikdan qutulish uchun qilingan ulug‘vor, fojiali va matonatli urinishdir.” Shu bois, Nirmal Varma ijodiy merosining eng muhim ahamiyati insonning ichki dunyosini butun koinotdagi eng ozod va erkin makon sifatida baholagandadir.

Yozuvchining shakllanishida G‘arb adabiyoti bilan yaqindan muloqot, bolaligidan buvasi ta’siri ostida o‘rgangan milliy adabiyoti hamda universitet yillarida egallagan falsafiy bilimlari asosiy manba bo‘lib xizmat qildi. Biroq ta’kidlash joizki, Varma asarlaridagi muhojirlik va ayriliq hissi shunchaki geografik vatandan uzoqda bo‘lishni anglatmaydi. Yozuvchi bu uslub orqali hindiy adabiyotida begonalashuv mavzusini badiiy-falsafiy jihatdan chuqur tahlil qiladi. Uning talqinida vatandan va zohiriy dunyodan yiroqlashish qahramonlar uchun ruhiy ozodlikka erishish imkoniyatini beradi, ya’ni insonning ichki olami eng erkin makon sifatida qabul qilinadi.

Adibning “जलती झाड़ी” (“Yonayotgan buta”, 1965), “पिछली गर्मियों में” (“O‘tgan yozda”, 1968) va “बीच बहस में” (“Munozara o‘rtasida”, 1973) nomli hikoya to‘plamlaridagi asarlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning barchasida begonalashuv masalasi o‘zining turli ko‘rinishlarida aks etgan. Begonalashuv konsepsiyasining 6 ta bosqichidan adibning “Bir kunlik mehmon” hamda “Zulmatda” hikoyalarida, ayniqsa, oiladan, jamiyatdan hamda borliqdan (insonsizlikdan) begonalashuv muammosi o‘ta ta’sirchan va teran ifodalangan.

Xulosa qilib aytganda, Nirmal Varmaning yangi uslubdagi hikoyalari intellektual jihatdan shakllangan, teran fikrlaydigan, shaxsiy ramzlar va yashirin ma’nolar qatlamini tushuna oladigan kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan. Nafaqat Hindiston, balki jahon adabiyotida ham munosib o‘ringa ega Nirmal Varmaning norealistik va eksistensial ruhdagi hikoyalari kitobxonda hayot mohiyatini anglash hamda har qanday murakkab va fojiali sharoitda ham insoniy qadriyatlarni saqlab qolish zarurligini targ‘ib etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurmuhamedov M.K. Adabiyot nazariyasi. 1–tom. – T.: Fan, 1978. – 272 b.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 1980. – 392 b.
3. Xodjayeva T.A. Hindiston xalqlari adabiyoti. – T.: ToshDSHI, 2010. – 204 b.
4. Xodjayeva T.A., Muxibova U.U. Hindiston adabiyoti. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. – 552 b.
5. Ulug‘bek H. Jahon adabiyoti: modernism va postmodernism. – T.: Akademnashr, 2020. – 288 b.
6. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. – T.: O‘zbekiston, 1997. – 415 b.
7. Цветкова С.О. Очерки истории литератур Индии: X–XX вв. – СПб.: Санкт–Петербургский Государственный Университет, 2014. – 320 с.
8. Серебряков И.Д. Литературы народов Индии. – М.: Высшая школа, 1969. – 303 с.
9. Чаухан Ш. Очерк истории литературы хинди. – М.: Издательство иностранной литературы, 1960. – 321 с.
10. Челышев Е.П. Избранные труды. В 3 т. Т. 1. Исследования новой и современной индийской литературы. – М.: Наука, 2001. – 788 с.
11. Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T.: O‘zbekiston nashriyoti, 2021. – 672 b.
12. Бескровный В.М. Хинди–русский словарь. – М.: Наука, 1959. – 907 с.

13. हरदेव ब. राजपाल हिंदी शब्दकोश. द.: राजपाल एन्ड सन्ज़, 2019. – 980 प.
14. द्विवेदी ह.प. हिन्दी साहित्य की भूमिका. द.: राजकमल प्रकाशन, 2017. – 245 प.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV QARORLARI TAMOYILLARINI JORIY QILISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI

Alisher Tillayev
“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti qoshidagi “International House-Tashkent” akademik litseyi direktori, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21929308

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim sifati va uni boshqarishda ta’lim tamoillar, ularning jarayondagi ahamiyati, bundan tashqari xorijiy tajribalarning ta’lim tizimiga joriy qilishning samaradorligi haqida ma’lumotlar keltiriladi.
Kalit so‘zlar: boshqaruv, tamoyillar, pedagogik tizim, ta’lim sifati, monitoring.
Аннотация. В статье представлена информация о качестве образования в высших учебных заведениях и его управлении, важности образовательных принципов в этом процессе, а также эффективности внедрения зарубежного опыта в систему образования.
Ключевые слова: управление, принципы, педагогическая система, качество образования, мониторинг.
Annotation. The article provides information on the quality of education in higher education institutions and its management, the importance of educational principles in this process, as well as the effectiveness of introducing foreign experience into the education system.
Keywords: management, principles, pedagogical system, quality of education, monitoring.

Yevropa davlatlari va boshqa rivojlangan mamlakatlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida shakllangan boshqaruv modellari oliy ta’lim sifatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Xalqaro YuNESKO tashkiloti tomonidan ta’limning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash bo‘yicha ishlab chiqilgan strategiyalarda ta’lim jarayonini raqamlashtirish va ta’limning ijodiy hamda mustaqil xususiyatlarini rivojlantirishni ta’kidlamoqda. Bu jarayonda, oliy ta’lim tashkilotlarining boshqaruv tizimiga zamonaviy platformalarni joriy qilish, pedagoglarning malakasini oshirish va mehnat bozoriga moslashuvchan kadrlarni tayyorlash dolzarb vazifa sifatida ko‘rilmoqda.

Yurtimiz olimlaridan ta’lim menejmenti, ta’lim tizimida strategik va funksional menejmentni integratsiyalash, rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy va boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, kasbiy faoliyatga tayyorlashning texnologik aspektlari bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar R.Djuraev, A.Musurmonova, A.Magrupov, Sh.Paxrutdinov, B.Xodjaev, M.Yuldashev, M.Mirsolieva va Ya.Ismadiyarovlarning ishlarida tadqiq etilgan.

Ta’lim sohasidagi asosiy jarayon – bu ta’lim jarayoni bo‘lib, u o‘qitish, tarbiya va rivojlanishning uzviy birligidan iboratdir. Ushbu jarayon doirasida pedagoglar, ta’lim tashkiloti rahbariyati, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar, mutaxassislar hamda o‘quvchilarning o‘z faoliyati amalga oshiriladi. Uning amalga oshirilishi manbalari kadr salohiyati, moddiy-moliyaviy ta’minlanganlik, ta’lim infratuzilmasi, metodikalar bilan ta’minlanganlik, amalga oshirilayotgan dasturlar, loyihalar, konsepsiyalarning mukammalligi va to‘liqligi, qo‘llaniladigan o‘qitish texnologiyalari shaklidagi resurslar hisoblanadi [1. 2019:B.33].

Zamonaviy ta’limni tartibga soluvchi xalqaro standartlar, jahon amaliyoti va O‘zbekistondagi islohotlar tahlili ta’lim sifatini ta’minlash faqat normativ-huquqiy asoslarga tayanadigan jarayon emasligini ko‘rsatmoqda. Bu-pedagogik jarayonlar, boshqaruv mexanizmlari va axborot tizimlarining ichki uyg‘unligini, ochiq muloqot va hamkorlik madaniyatini, natijalar tahliliga asoslangan qaror qabul qilishni talab etuvchi kompleks boshqaruv tizimidir.

Innovatsion boshqaruv modellari ta’lim tashkilotining strategik maqsadlarini amalga oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, jamoaviy boshqaruv, ta’lim sifatini real vaqtda monitoring qilish va jarayonning ochiqligini ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Bugungi tez o‘zgarayotgan mehnat bozori sharoitida an’anaviy, markazlashgan va byurokratik boshqaruv tizimlari samaradorligini yo‘qotmoqda. Shu bois avtonom, raqamlashtirilgan, fikr-mulohazaga (feedback) asoslangan va xususiy sektor ishtirokidagi moslashuvchan boshqaruv modellariga ehtiyoj ortib bormoqda.

Modellar rahbarlar, pedagoglar, tashkiliy tuzilmalar va ijtimoiy sheriklar hamkorligida amalga oshiriladi; inson kapitali, raqamli yechimlar, resurslarni samarali boshqarish, pedagogik innovatsiyalar va doimiy fikr-mulohaza (feedback) tizimi markaziy o‘rin tutadi. Tashkilotni “o‘rganuvchi tashkilot” sifatida

qayta yo‘naltirish va doimiy yaxshilanish jarayonlarini tizimlashtirish sifat boshqaruvini yangi bosqichga ko‘taradi [2. 2023:B.113].

Shu bilan birga, an’anaviy boshqaruvdagi kamchiliklar va mavjud muammolar ochib beriladi; har bir model kesimida maqsadlar, tarkibiy qismlar, qo‘llash mexanizmi, afzallik va cheklovlar, shuningdek, muvaffaqiyat sharoitlari (pedagogik va tashkiliy) mezonlar asosida baholanadi.

Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida Deming sikli tashkilot faoliyatida uzluksiz takomillashtirish tamoyilini amalga oshirishning eng samarali mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu modelning asosiy maqsadi — tizimli rejalashtirish, amaliy bajarish, nazorat va tahlil orqali sifatni doimiy oshirib borish, jarayonlarni optimallashtirish hamda natijadorlikni kafolatlashdir. PDCA atamasi to‘rt bosqichni anglatadi:

Plan — muammolarni tahlil qilish, maqsadlarni aniqlash va ularni amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish;

Do — rejalashtirilgan choralarni amaliyotga joriy etish;

Check-bajarilgan ishlarning natijalarini monitoring qilish, farqlarni aniqlash;

Act — aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, jarayonni yanada takomillashtirish.

Deming sikli o‘z mohiyatiga ko‘ra chiziqli jarayon emas, balki uzluksiz aylanma doira bo‘lib, u tashkilot faoliyatining barcha darajalarida sifatni oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa oliy ta’lim tizimida bu modelni joriy etish ta’lim sifatini boshqarishda yuqori natijalar beradi. PDCA sikli o‘quv jarayonini rejalashtirish, pedagogik faoliyatni amalga oshirish, baholash va takomillashtirish bosqichlarini yagona tizimga birlashtiradi. Masalan, “Plan” bosqichida ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha fan dasturlari va kompetensiyalar tahlil qilinadi; “Do” bosqichida auditoriyadagi laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar, treninglar va joriy nazorat ishlari o‘tkaziladi; “Check” bosqichida natijalar baholanadi, talabalarning yutuq darajasi tahlil qilinadi; “Act” bosqichida esa aniqlangan kamchiliklar asosida dasturlar qayta ko‘rib chiqiladi.

Shu tarzda, Deming sikli oliy ta’lim jarayonlarini boshqarishning uzluksiz rivojlanishga asoslangan mexanizmini yaratadi. U faqat nazorat vositasi emas, balki rahbarlar va boshqa ta’lim ishtirokchilari uchun o‘z faoliyatini doimiy yangilab borishga imkon beruvchi strategik yondashuv sifatida qaraladi.

Deming sikli – bu boshqaruv jarayonlari va ularni doimiy ravishda yaxshilashga yo‘naltirilgan tizimli mexanizm bo‘lib, u har bir tashkilotda, jumladan oliy ta’limda ham uzluksiz rivojlanish jarayonini ta’minlaydi. Mazkur model to‘rt asosiy bosqichdan iborat bo‘lib, ular o‘zaro mantiqiy bog‘liq bo‘lgan doira shaklida kechadi [3. 2026:B.41-45].

Rejalashtirish (Plan) bosqichi o‘zgarishlarni boshlashdan oldin puxta tahlil va tayyorgarlikni talab etadi. Bu jarayonda mavjud holat, mavjud kamchiliklar, imkoniyatlar va resurslar baholanadi. Rahbar yoki jamoa muammoning ildiz sabablarini aniqlab, uni bartaraf etish strategiyasini ishlab chiqadi va aniq amaliy reja tuzadi.

Amalga oshirish (Do) bosqichida ishlab chiqilgan reja amaliyotda sinovdan o‘tkaziladi. Dastlab kichik hajmda, pilot loyihalar ko‘rinishida tatbiq etilib, o‘zgarishlarning real samarasi kuzatiladi. Bu jarayonning muvaffaqiyati murakkab nazorat tizimlariga emas, balki aniq, sodda va qulay mexanizmlar orqali optimallashtirishga bog‘liq bo‘ladi.

Nazorat qilish (Check) bosqichida bajarilgan ishlarning natijalari tahlil qilinadi, sifat ko‘rsatkichlari baholanadi, o‘zgarishlar kutilgan natijaga qanchalik mos kelgani aniqlanadi. Bu bosqichda sifat standartlari bilan solishtirish, farqlarni tahlil qilish va ularning sabablarini aniqlash muhimdir.

Harakat (Act) bosqichi esa uzluksiz takomillashtirishni ta’minlaydi. Agar o‘zgarishlar ijobiy natija bergan bo‘lsa, ular doimiy amaliyotga joriy etiladi, yangi standartlar hujjatlashtiriladi va jarayonlar tizimlashtiriladi. Shu tariqa Deming sikli qayta-qayta takrorlanib, ta’lim jarayonini, boshqaruv sifatini va tashkilotning umumiy samaradorligini muntazam ravishda oshirishga xizmat qiladi.

Deming sikliga muvofiq boshqarish nazariyasida har qanday jarayonni tashkillashtirishda to‘rtta: maqsad komponenti: maqsad va vazifalarni belgilash, maqsadlarga erishish usullarini (strategiyalar yo‘llarini) belgilash; jarayon komponenti: o‘quv ishlarini bajarish; tashxislash komponenti: bajarilgan ishlar natijalarini tekshirish; natija komponenti: xatolarni to‘g‘rilash bo‘yicha tegishli boshqaruvchi ta’sirlarni amalga oshirish komponentlariga ajratiladi.

O‘qish orqali bilishga oid maqsadlarga tayangan holda va Deming siklidan foydalanib, oliy ta’limda ta’lim sifatini boshqarishning didaktik modelini loyihalash mumkin [4. 2022:B.55].

Oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv qarorlari tamoyillarini joriy qilish oliy ta’lim tizimining mazmuniy va metodologik erkinligini ta’minlovchi asosiy tamoyildir. Ushbu tamoyil akademik mustaqillik tamoyilidir. U universitetlarga ta’lim jarayonining mazmunini, shaklini va metodikasini mustaqil belgilash imkonini beradi. Xususan, ta’lim dasturlarini mustaqil ishlab chiqish akademik mustaqillikning eng muhim

ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, oliy ta’lim muassasasining intellektual salohiyati va innovatsion qobiliyatini namoyon etadi.

Ta’lim dasturlarini mustaqil ishlab chiqish, avvalo, o‘quv reja va fanlar mazmunini mehnat bozori talablari, ilmiy yangiliklar va ijtimoiy ehtiyojlarga mos ravishda shakllantirish imkonini beradi. Markazlashgan standartlashgan dasturlar ko‘pincha umumiy yo‘nalishni belgilab bersa-da, ular hududiy yoki sohaviy o‘ziga xosliklarni to‘liq inobatga olmaydi. Akademik mustaqillik sharoitida esa universitetlar o‘z ilmiy maktablari va ustuvor yo‘nalishlariga tayangan holda moslashuvchan o‘quv dasturlarini yaratishi mumkin.

Nazariy jihatdan bu jarayon universitetning ilmiy-pedagogik salohiyatiga asoslanadi. Tadqiqot va ta’lim birligini ilgari surgan gumboldtcha model, xususan Humboldt University of Berlin tajribasida ta’lim dasturlari professor-o‘qituvchilarning ilmiy izlanishlari bilan uzviy bog‘langan. Bu yondashuv talabalarni nafaqat tayyor bilim bilan, balki ilmiy fikrlash metodologiyasi bilan ham qurollantirishga xizmat qiladi. Demak, dasturlarni mustaqil ishlab chiqish ta’lim va tadqiqot integratsiyasini mustahkamlaydi.

Akademik mustaqillikning yana bir muhim jihati – kompetensiyaviy yondashuvni erkin joriy etish imkoniyatidir. Universitetlar ta’lim natijalarini (learning outcomes) mustaqil belgilash orqali bitiruvchilarning kasbiy, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan dasturlarni ishlab chiqadi. Bu esa ta’limning natijadorligini oshiradi hamda xalqaro me’yorlarga moslashuvchanlikni ta’minlaydi.

Xalqaro tajribalarga ko‘ra yuqori darajadagi akademik mustaqillik universitetlarga innovatsion va interdisiplinar dasturlarni yaratish imkonini beradi. Masalan, Garvard universiteti tajribasida fakultet va maktablar yangi yo‘nalishlar ochish, modul tizimini takomillashtirish va qo‘shma dasturlarni ishlab chiqishda keng vakolatlarga ega. Natijada ta’lim dasturlari tezkor yangilanadi va global tendensiyalarga moslashadi. Shu bilan birga, ta’lim dasturlarini mustaqil ishlab chiqish jarayoni sifat kafolati tizimi bilan uyg‘unlashishi zarur. Akademik mustaqillik sifatni pasaytirish emas, balki uni oshirishga xizmat qilishi lozim. Shu bois ichki ekspertiza, tashqi akkreditatsiya va doimiy monitoring mexanizmlari dasturlarni takomillashtirishning ajralmas qismi bo‘lishi kerak [5.2026:B.117].

Umumiy qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalari boshqaruvida institutsional mustaqillikning universal modeli mavjud emas. Klassik model barqarorlikni, liberal model raqobatbardoshlikni, osiyocha model esa strategik uyg‘unlikni ta’minlaydi. Shu bois, samarali institutsional mustaqillik milliy kontekst, boshqaruv madaniyati va rivojlanish bosqichlarini hisobga olgan holda gibrid yondashuv asosida shakllantirilishi lozim.

Oliy ta’limda boshqaruv sifatni ta’minlash tizimli va kompleks pedagogik muammo sifatida qaralishi lozim. Bu jarayon ta’lim mazmuni va metodlaridan tashqari, boshqaruv samaradorligi, pedagogik muhit imkoniyatlari va o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ilmiy asoslangan innovatsion yechimlarni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Апонченко Т.В. Коммуникационный менеджмент. Этика и культура управления / – Ростов-на-Дону: Феникс, -2019.
2. Alimova, S. The concept and tasks of a modern management system enterprise personnel. *Modern Science and Research, 2* (12), -2023. 1085-1090.
3. Ergashev N.E. Kasbiy ta’lim tashkilotlarida zamonaviy boshqaruv modellari asosida ta’lim sifatini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish // fan doktori diss. avtoreferati. -2026. Toshkent B.18-22
4. Бондаренко А.Б. Менеджмент организации. Введение в специальность / – Москва. Учитель. - 2021. С. 38-45
5. Мустафоева Д.А. (2022) Основы развития управленческой компетентности у педагогов // Innovative development in the global science. Boston, USA Abstracts of VIII International Scientific and Practical Conference, 6-part, 91-97 pages.
6. Soliyev I.I. Xalqaro standartlar asosida oliy ta’lim muassasalariga institutsional mustaqillik tamoyillarini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish // fan doktori diss. avtoreferati. -2026. Namangan. B.14-25

OROLBO‘YI EKSTREMAL EKOTIZIMLARIDAN OLINGAN MAGLARDA AZOT METABOLIZMI POTENSIALI: QIYOSIY GENOMIK TAHLIL

Alimov Jahongir Egamqul o‘g‘li
Xalqaro qishloq xo‘jaligi univeristeti O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori
O‘zbekiston milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi, jahongir.alimov@rau.ac.uk
Sultanov No‘monjon Nabi o‘g‘li
O‘zbekiston milliy universiteti tayanch doktoranti, nomonjonsultanov4@gmail.com
Abdusamatov Soxibjon Abdusamatovich
O‘zbekiston milliy universiteti dotsenti, sokhibjon.abdusamatov@gmail.com
Davranov Kahramon Davranovich
O‘zR FA Mikrobiologiya instituti bosh ilmiy xodimi, k_davranov@mail.ru
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21929335

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda Orolbo‘yi ekstremal ekotizimlaridan rekonstruksiya qilingan bakterial metagenomik yig‘ilgan genomlarda (MAG) azot almashinuvi bilan bog‘liq funksional genlarning tarqalishi qiyosiy genomik tahlil qilindi. Natijada atmosfera azotini fiksatsiyasi, nitratni qaytarish, DNRA hamda denitrifikatsiyaning ayrim bosqichlariga oid genlar faqat ayrim genomlarda aniqlanib, ularning notekis tarqalganligi kuzatildi. Shu bilan birga, to‘liq denitrifikatsiya (nosDZ), nitrifikatsiya va anammoks jarayonlariga oid genlar aniqlanmadi. Olingan natijalar Orolbo‘yi cho‘kindi mikrobiotasida azot almashinuvi asosan anaerob metabolik yo‘llar orqali amalga oshishini hamda ushbu jarayonlar mikroorganizmlar o‘rtasidagi funksional ixtisoslashuv asosida tashkil topganligini ko‘rsatadi.
Kalit so‘zlar: Orolbo‘yi, metagenomika, MAG, azot almashinuvi, denitrifikatsiya, DNRA, nitrifikatsiya, anammoks, qiyosiy genomika.
Аннотация. В настоящем исследовании проведён сравнительный геномный анализ функциональных генов азотного обмена в реконструированных бактериальных метагеномных геномах (MAG), полученных из экстремальных экосистем Приаралья. Установлено, что гены, связанные с фиксацией атмосферного азота, восстановлением нитрата, процессом DNRA и отдельными стадиями денитрификации, выявлены лишь в части исследованных геномов, что свидетельствует об их неравномерном распределении. При этом гены, ответственные за полную денитрификацию (nosDZ), нитрификацию и анаммокс, обнаружены не были. Полученные результаты показывают, что азотный обмен в донной микробиоте Приаралья осуществляется преимущественно посредством анаэробных метаболических путей и характеризуется функциональной специализацией микроорганизмов.
Ключевые слова: Приаралье, метагеномика, MAG, азотный обмен, денитрификация, DNRA, нитрификация, анаммокс, сравнительная геномика.
Abstract. This study presents a comparative genomic analysis of nitrogen metabolism-related functional genes in bacterial metagenome-assembled genomes (MAGs) reconstructed from the extreme ecosystems of the Aral Sea region. Genes involved in atmospheric nitrogen fixation, nitrate reduction, dissimilatory nitrate reduction to ammonium (DNRA), and several steps of denitrification were detected only in a limited number of genomes, indicating their uneven distribution among the analyzed MAGs. In contrast, genes responsible for complete denitrification (nosDZ), nitrification, and anammox were not identified. These findings suggest that nitrogen cycling in the sediment microbiota of the Aral Sea region is mainly driven by anaerobic metabolic pathways and is based on functional specialization among different microbial populations.
Keywords: Aral Sea region, metagenomics, metagenome-assembled genomes (MAGs), nitrogen metabolism, denitrification, DNRA, nitrification, anammox, comparative genomics.

Azot biosferadagi eng muhim biogen elementlardan biri bo‘lib, uning mikroorganizmlar ishtirokidagi aylanishi ekotizimlarning mahsuldorligi, modda almashinuvi va issiqxona gazlari emissiyasini boshqaruvchi asosiy biogeokimyoviy jarayonlardan hisoblanadi. So‘nggi yillarda metagenomika va metagenomik yig‘ilgan genomlar (metagenome-assembled genomes, MAG) asosidagi tadqiqotlarning rivojlanishi natijasida ilgari kultivatsiya qilib bo‘lmaydigan mikroorganizmlarning metabolik salohiyatini genom darajasida baholash imkoniyati yaratildi. Ayniqsa, azot almashinuvi bilan bog‘liq funksional genlarning MAGlar bo‘yicha taqsimlanishini aniqlash mikroorganizmlarning ekologik moslanish

strategiyalarini va biogeokimyoviy sikllardagi rolini tushunishda muhim ahamiyat kasb etmoqda [3. 2022: B.401–414; 4. 2021: B.1–12].

Denitrifikatsiya nitratning (NO_3^-) bosqichma-bosqich nitrit (NO_2^-), azot oksidi (NO), azot(I) oksidi (N_2O) va molekulyar azot (N_2) gacha qaytarilishi orqali amalga oshadigan murakkab anaerob respiratsiya jarayonidir. Zamonaviy genome-resolved metagenomika tadqiqotlari tabiiy ekotizimlarda denitrifikatsiya ko‘pincha qisman (partial yoki truncated denitrification) shaklida amalga oshishini ko‘rsatmoqda. Gao va hamkorlari denitrifikatsiyalovchi bioreaktordan rekonstruksiya qilingan MAGlar tahlili asosida mikroorganizmlarning aksariyati denitrifikatsiyaning faqat ayrim bosqichlarini bajarishini aniqlagan [2. 2019: B.297–306]. Keyinchalik Roothans va hamkorlari 1571 ta MAGni qamrab olgan qiyosiy genomik tahlilda tabiiy ekotizimlarda qisman denitrifikatorlar ustunligini ko‘rsatib, buni mikrobiomdagi metabolik mehnat taqsimoti bilan izohlagan [6. 2025: B. 1–10].


Denitrifikatsiyaning boshlang‘ich bosqichi narGHI yoki napAB genlari kodlaydigan nitrat reduktazalar yordamida amalga oshiriladi. Hosil bo‘lgan nitrit keyinchalik nirK/nirS genlari ishtirokida azot oksidiga qaytariladi yoki alternativ yo‘l – DNRA orqali nrfA va nirBD genlari yordamida ammoniyga aylantiriladi. Zamonaviy genomik va metatranskriptomik tadqiqotlar DNRA hamda denitrifikatsiya ko‘plab anaerob ekotizimlarda bir vaqtda kechishini ko‘rsatmoqda [8. 2021: B.6–8; 10. 2024: B. 4–12].

Denitrifikatsiyaning yakuniy bosqichlari norBC va nosZ genlari bilan bog‘liq. Ayniqsa, nosZ geni N_2O ni molekulyar azotgacha qaytaruvchi yagona fermentni kodlaydi va shu sababli N_2O emissiyasini cheklovchi muhim ekologik marker hisoblanadi. MAG asosidagi tadqiqotlarda nosZ genining genomlar bo‘yicha notekis tarqalishi qayd etilgan [7. 2025: B.7–14].

Orolbo‘yi dunyodagi eng yirik antropogen ekologik inqiroz hududlaridan biri bo‘lib, yuqori sho‘rlanish, organik moddalarning kamligi, kislorod tanqisligi va keskin iqlim sharoiti bilan tavsiflanadi. Bunday ekstremal sharoitlarda mikroorganizmlar murakkab metabolik moslanish strategiyalarini shakllantiradi. Shunga qaramay, Orolbo‘yi ekstremal ekotizimlaridan rekonstruksiya qilingan bakterial MAGlarda denitrifikatsiya va DNRA bilan bog‘liq funksional genlarning qiyosiy genomik tahlili hozirgacha yetarli darajada o‘rganilmagan.

Tadqiqotda Orolbo‘yi ekstremal ekotizimlaridan rekonstruksiya qilingan 34 ta bakterial metagenomik yig‘ilgan genom (MAG) qiyosiy genomik tahlil qilindi. Xom metagenomik ma’lumotlar yig‘ilib, binlash va sifat nazoratidan o‘tkazildi. MAGlarning funksional annotatsiyasi RASTtk, NCBI Prokaryotic Genome Annotation Pipeline (PGAP), KEGG hamda METABOLIC platformalari yordamida amalga oshirildi. Azot almashinuvi bilan bog‘liq napAB/narGH, nirK/nirS, nrfADH/nirBD, norBC va nosDZ genlarining genomlar bo‘yicha tarqalishi qiyosiy genomik tahlil asosida baholanib, natijalar issiqlik xaritasi ko‘rinishida vizualizatsiya qilindi [1. 2015:B.2–5; 5. 2021:B.1–10; 4. 2023:B.1–5; 9. 2022:B.2–12].

Qiyosiy genomik tahlil natijasida o‘rganilgan 34 ta bakterial MAGda azot almashinuvi genlarining notekis taqsimlanganligi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Orolbo‘yi ekstremal ekotizimlaridan rekonstruksiya qilingan bakterial metagenomik yig‘ilgan genomlarda (MAG) azot almashinuvi genlarining tarqalishi.

Nitratni qaytaruvchi napAB/narGH, DNRA jarayoniga oid nrfADH/nirBD, nitrit reduktaza nirK/nirS hamda azot oksidi reduktaza norBC genlarining faqat ayrim MAGlarda aniqlanishi azot almashinuvi funksiyalarining turli mikroorganizmlar o‘rtasida taqsimlanganligini ko‘rsatadi. Bunday funksional taqsimlanish ekstremal muhitlarda mikroorganizmlar o‘rtasidagi metabolik kooperatsiyani ta’minlovchi muhim ekologik moslanish mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Genlarning asosiy qismi Uz-K9 cho‘kindi namunasidan rekonstruksiya qilingan genomlarda aniqlangani ushbu hudud mikroorganizmlarining anaerob respiratsiyaga yuqori darajada moslashganligini ko‘rsatadi. Nitrat va nitritning terminal elektron akseptori sifatida ishlatilishi kislorod cheklangan cho‘kindi qatlamlarida energiya almashinuvining muqobil yo‘llaridan biri hisoblanadi. Shu sababli napAB/narGH va nirK/nirS genlarining aynan ushbu namunalarda uchrashi Orolbo‘yi cho‘kindilarida azot birikmalarining energiya almashinuvidagi muhim rolidan dalolat beradi.

Alohida e’tiborga loyiq jihatlardan biri nrfADH/nirBD genlarining aniqlanishidir. Ushbu genlar nitritning ammoniygacha dissimilyatsion qaytarilishini (DNRA) ta’minlaydi. Denitrifikatsiyadan farqli ravishda DNRA jarayonida azot gazsimon shaklda yo‘qotilmaydi, balki ammoniy ko‘rinishida ekotizimda saqlanib qoladi. Bu esa organik moddalarga boy va kislorod yetishmaydigan cho‘kindi muhitlarda azot resurslarining ichki aylanishini ta’minlovchi muhim metabolik strategiya hisoblanadi.

Tahlilda nosDZ genlarining birorta ham genomda aniqlanmaganligi tadqiqotning eng muhim natijalaridan biri bo‘ldi. nosZ geni denitrifikatsiyaning yakuniy bosqichini katalizlovchi nitrous oxide reductase fermentini kodlaydi. Ushbu genning yo‘qligi o‘rganilgan bakterial MAGlarda denitrifikatsiyaning to‘liq metabolik yo‘li shakllanmaganligini va azot almashinuvi asosan qisman denitrifikatsiya orqali amalga oshishini ko‘rsatadi. Natijada mikrobiom tarkibida ayrim bakteriyalar nitratni nitritgacha, boshqalari esa nitritni azot oksidi yoki azot(I) oksidigacha qaytarishi mumkin, biroq N_2O ning molekulyar azotgacha qaytarilishi kuzatilmaydi.

Orolbo‘yi cho‘kindi mikrobiotasida azot almashinuvi bir-birini to‘ldiruvchi metabolik yo‘llar kombinatsiyasi orqali amalga oshadi. Nitratni qaytarish, DNRA va qisman denitrifikatsiya jarayonlarining birgalikdagi mavjudligi ekstremal ekologik sharoitlarda mikroorganizmlar hamjamiyatining moslanish strategiyasini aks ettiradi hamda azot aylanishining funksional tashkil etilishi alohida mikroorganizmlar emas, balki butun mikrob hamjamiyati darajasida shakllanishini ko‘rsatadi.

Aniqlangan genlar Orolbo‘yi ekstremal cho‘kindi mikrobiotasining azot almashinuvidagi potensial funksional imkoniyatlarini tavsiflaydi. Genlarning turli MAGlar bo‘ylab notekis taqsimlanishi azot aylanishi alohida mikroorganizmlar emas, balki mikrob hamjamiyatining metabolik hamkorligi asosida amalga oshishini ko‘rsatadi.

Biroq ushbu natijalar genomik potensialni aks ettiradi. Aniqlangan genlarning faol ekspressiyasi va metabolik faolligini tasdiqlash uchun kelgusida metatranskriptomik yoki funksional tadqiqotlar o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

Orolbo‘yi ekstremal cho‘kindi ekotizimlaridan rekonstruksiya qilingan 34 ta bakterial MAGning qiyosiy genomik tahlili azot almashinuvi bilan bog‘liq genlarning genomlar bo‘ylab notekis tarqalganligini ko‘rsatdi. napAB/narGH, nrfADH/nirBD, nirK/nirS va norBC genlarining faqat ayrim genomlarda aniqlanishi nitratni qaytarish, DNRA hamda denitrifikatsiyaning ayrim bosqichlari mikrobiomning alohida funksional guruhlari tomonidan amalga oshirilishini ko‘rsatdi. nosDZ genining barcha genomlarda aniqlanmaganligi esa Orolbo‘yi cho‘kindi mikrobiotasida to‘liq denitrifikatsiya emas, balki qisman denitrifikatsiya ustunligini ko‘rsatadi. Olingan natijalar Orolbo‘yi ekstremal ekotizimlarida azot aylanishining genomik asoslarini ochib berib, ushbu hudud mikrobiomining funksional salohiyatini baholash hamda ekstremal muhitlarda biogeokimyoviy jarayonlarni tushunish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Brettin, T., Davis, J. J., Disz, T., Edwards, R. A., Gerdes, S., Olsen, G. J., ... & Xia, F. (2015). RASTtk: a modular and extensible implementation of the RAST algorithm for building custom annotation pipelines and annotating batches of genomes. *Scientific reports*, *5*(1), 8365.

2. Gao, H., Mao, Y., Zhao, X., Liu, W. T., Zhang, T., & Wells, G. (2019). Genome-centric metagenomics resolves microbial diversity and prevalent truncated denitrification pathways in a denitrifying PAO-enriched bioprocess. *Water research*, *155*, 275-287.

3. Hutchins, D. A., & Capone, D. G. (2022). The marine nitrogen cycle: new developments and global change. *Nature Reviews Microbiology*, *20*(7), 401-414.

4. Kanehisa, M., Furumichi, M., Sato, Y., Kawashima, M., & Ishiguro-Watanabe, M. (2023). KEGG for taxonomy-based analysis of pathways and genomes. *Nucleic acids research*, *51*(D1), D587-D592.

5. Li, W., O’Neill, K. R., Haft, D. H., DiCuccio, M., Chetvernin, V., Badretdin, A., ... & Thibaud-Nissen, F. (2021). RefSeq: expanding the Prokaryotic Genome Annotation Pipeline reach with protein family model curation. *Nucleic acids research*, *49*(D1), D1020-D1028.

6. Roothans, N., van Loosdrecht, M. C., & Laureni, M. (2025). Metabolic labour division trade-offs in denitrifying microbiomes. *The ISME journal*, *19*(1), wraf020.

7. Schacksen, P. S., & Nielsen, J. L. (2024). Unraveling the genetic potential of nitrous oxide reduction in wastewater treatment: insights from metagenome-assembled genomes. *Applied and environmental microbiology*, *90*(9), e02177-23.

8. Sun, X., & Ward, B. B. (2021). Novel metagenome-assembled genomes involved in the nitrogen cycle from a Pacific oxygen minimum zone. *ISME communications*, *1*(1), 26.

9. Zhou, Z., Tran, P. Q., Breister, A. M., Liu, Y., Kieft, K., Cowley, E. S., ... & Anantharaman, K. (2022). METABOLIC: high-throughput profiling of microbial genomes for functional traits, metabolism, biogeochemistry, and community-scale functional networks. *Microbiome*, *10*(1), 33.

10. Zhuang, J. L., Sun, X., Zhao, W. Q., Zhang, X., Zhou, J. J., Ni, B. J., ... & Li, W. (2022). The anammox coupled partial-denitrification process in an integrated granular sludge and fixed-biofilm reactor developed for mainstream wastewater treatment: performance and community structure. *Water research*, *210*, 117964.

MAMLAKATIMIZDA AN’ANAVIY VA EKOLOGIK TOZA TRANSPORTLARNING IQTISODIY HAMDA EKOLOGIK SAMARADORLIGINI KOMPLEKS TAQQOSLASH

Muxammadjonov Alijon Olimjonovich
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali (KIUT), katta o’qituvchi
e-mail: alijon19920929@gmail.com, +998 (95) 262 30 50,
ORCID: 0009-0000-9279-6138
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21929364

Annotatsiya: maqolada O‘zbekiston sharoitida an’anaviy ichki yonuv dvigatelli transport vositalari va ekologik toza transport vositalarining iqtisodiy hamda ekologik samaradorligi kompleks taqqoslama tahlil qilinadi. Tadqiqotda transport vositalarining yoqilg‘i va energiya sarfi, ekspluatatsiya xarajatlari, karbonat angidrid emissiyasi, atmosfera havosining ifloslanishiga ta’siri hamda umumiy egalik qiymati kabi asosiy ko‘rsatkichlar baholanadi. Shuningdek, ekologik toza transport vositalarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi va atrof-muhitga ijobiy ta’siri O‘zbekiston transport tizimi misolida tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: ekologik toza transport, an’anaviy transport, iqtisodiy samaradorlik, ekologik samaradorlik, taqqoslama tahlil, CO_2 emissiyasi, ekspluatatsiya xarajatlari,barqaror transport,

KIRISH. Transport sektori mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo’lib, aholi va xo’jalik subyektlarining harakatchanligini ta’minlash, hududlar o’rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish hamda xalqaro logistika tizimiga integratsiyalashuvda muhim o’rin egallaydi. Shu bilan birga, transport sohasi atmosfera havosini ifloslantiruvchi va issiqxona gazlari emissiyasini yuzaga keltiruvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Ichki yonuv dvigatelli transport vositalaridan ajralib chiqadigan karbonat angidrid (CO_2), azot oksidlari (NO_n), uglevodorodlar (HC) va qattiq zarrachalar (PM) ekologik muvozanatning buzilishiga, iqlim o’zgarishiga hamda aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda. Shu sababli transport tizimini ekologik jihatdan barqaror rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb ilmiy va amaliy masalalaridan biri hisoblanadi.

Jahon amaliyotida mazkur muammoning samarali yechimi sifatida elektr va boshqa ekologik toza transport vositalarini keng joriy etish, energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish hamda transport infratuzilmasini “yashil” transport tamoyillari asosida rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda nafaqat atmosfera ifloslanishini kamaytirish, balki yoqilg’i sarfini qisqartirish, ekspluatatsiya xarajatlarini optimallashtirish va transport tizimining umumiy iqtisodiy samaradorligini oshirish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi.

O’zbekistonda ham transport sohasini ekologik modernizatsiya qilish va “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini keng joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O’zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyot”ga o’tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi[1] qarori mamlakatda energiya samaradorligini oshirish, issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo’yicha muhim vazifalarni belgilab berdi. Mazkur hujjatda 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot birligiga to’g’ri keladigan issiqxona gazlari emissiyasini sezilarli darajada kamaytirish va “yashil” transportni rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida qayd etilgan. Shuningdek, ekologik barqarorlikni ta’minlash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan Prezident farmonlari mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta’minlashning institutsional asoslarini mustahkamladi. Ushbu hujjatlar transport sohasida ekologik toza texnologiyalarni joriy etish uchun ham muhim huquqiy zamin yaratmoqda. Bundan tashqari, Muhtaram Prezidentimiz tomonidan 2026-yil uchun belgilangan ustuvor vazifalar doirasida ekologik toza transport vositalari ulushini oshirish bo’yicha besh yillik dastur amalga oshirilishi, elektromobillar xaridini moliyaviy qo’llab-quvvatlash, zaryadlash infratuzilmasini kengaytirish va jamoat transportini bosqichma-bosqich elektrlashtirish rejalashtirilgan[2]. Bu chora-tadbirlar mamlakat transport tizimini dekarbonizatsiya qilish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilishi kutilmoqda. Shu bilan birga, ekologik toza transport vositalarining dastlabki xarid qiymati yuqoriligi, zaryadlash infratuzilmasining rivojlanish darajasi va elektr energiyasi manbalarining tarkibi kabi omillar ularning haqiqiy iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi O’zbekiston sharoitida an’anaviy va ekologik toza transport vositalarining iqtisodiy hamda ekologik samaradorligini kompleks taqqoslash, ularning ekspluatatsiya xarajatlari, energiya iste’moli, issiqxona gazlari emissiyasi va umumiy egalik qiymatini baholash hamda transport tizimini barqaror rivojlantirish bo’yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ekologik toza transport vositalarining iqtisodiy va ekologik samaradorligini baholash so’nggi yillarda transport muhandisligi, ekologiya va iqtisodiyot yo’nalishlarida eng dolzarb ilmiy tadqiqot mavzularidan biriga aylandi. Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda asosan elektr transport vositalarining energiya samaradorligi, issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirishdagi o’rni, ekspluatatsiya xarajatlari hamda transport infratuzilmasini rivojlantirish masalalari o’rganilgan. Mamlakatimizda mazkur yo’nalishdagi ilmiy tadqiqotlar asosan elektr transport vositalarini joriy etish istiqbollari, zaryadlash infratuzilmasini rivojlantirish va yashil transport tizimini shakllantirish masalalariga qaratilgan. Jumladan, F.Umerov elektr transport vositalarini rivojlantirish istiqbollarini tahlil qilib, yurtimizda elektromobillar bozorini rivojlantirish uchun davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash, zaryadlash infratuzilmasini kengaytirish va me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini asoslab bergan. Tadqiqotda ekologik afzalliklar bilan bir qatorda transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari ham ko’rsatib berilgan. Shuningdek, S.Asanov va F.Umerov tomonidan olib borilgan tadqiqotda 2018–2023-yillar davomida O’zbekistonda elektromobillar bozori va zaryadlash infratuzilmasining rivojlanish dinamikasi ko'p mezonli tahlil usuli asosida baholangan. Mualliflar elektromobillar sonining ortishi bilan birga zaryadlash stansiyalari tarmog’ini mutanosib rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydilar[5]. Sh.Karimova ekologik barqaror transportning iqtisodiyotga ta’sirini o’rganib, transport infratuzilmasiga yo’naltirilgan investitsiyalar hududiy rivojlanish, logistika samaradorligi va ekologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim omil ekanligini ko’rsatgan. Tadqiqotda ekologik transportni rivojlantirish faqat ekologik emas, balki iqtisodiy o’sishni rag’batlantiruvchi omil sifatida ham baholangan[6, 7]. U.Abdurazzoqov va S.O’taganov shahar jamoat transportida elektr avtobuslardan foydalanishning iqtisodiy va ekologik samaradorligini tahlil qilib, elektr avtobuslar dizel avtobuslarga nisbatan ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirishi, shovqin va zararli gazlar emissiyasini sezilarli darajada pasaytirishini ilmiy asoslab berganlar[7].

Xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa elektr transport vositalarining butun hayotiy sikli, energiya samaradorligi va karbon gazlar miqdorini baholash masalalari chuqur o’rganilgan.

So’nggi xalqaro tadqiqotlar elektr avtomobillar ekspluatatsiya davrida va butun hayotiy sikli davomida benzinli avtomobillarga nisbatan sezilarli darajada kamroq issiqxona gazlari chiqarishini tasdiqlaydi. Xususan, ICCT ma’lumotlariga ko’ra, Yevropadagi akkumulyatorli elektromobillar hayotiy sikli davomida benzinli avtomobillarga nisbatan o’rtacha 73 % kam issiqxona gazlari emissiyasini hosil qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqotda O’zbekiston sharoitida keng foydalanilayotgan an’anaviy ichki yonuv dvigatelli avtomobil (Chevrolet Cobalt) hamda ekologik toza transport vositasi (BYD Seagull elektromobili) iqtisodiy va ekologik ko’rsatkichlari taqqoslandi. Taqqoslashda transport vositalarining energiya sarfi, ekspluatatsiya xarajatlari, karbonat angidrid (CO_2) emissiyasi, texnik xizmat ko’rsatish xarajatlari hamda umumiy egalik qiymati asosiy baholash mezonlari sifatida qabul qilindi.

Xisob-kitoblar uchun quyidagi shartlarni belgilab oldik:

a) yillik bosib o’tiladigan masofa – 20 000 km;
b) benzin sarfi – 8 l/100 km;
c) elektromobil energiya sarfi – 13 kWh/100 km;
d) AI-92 benzini narxi – 12 000 so’m/l;
e) elektr energiyasi tarifi – 650 so’m/kWh;
f) benzin uchun CO_2 emissiyasi – 2,31 kg/l.


Energiya iste’moli va ekspluatatsiya xarajatlari tahlili. Transport vositalarining ekspluatatsiya xarajatlari, avvalo, energiya manbasi narxi va iste’moliga bog’liq. Tadqiqot natijalari elektromobillarning energiya sarfi ichki yonuv dvigatelli avtomobillarga nisbatan ancha iqtisodiy ekanligini ko’rsatdi(1-jadvlada keltirilgan).

1-jadval. Yillik energiya xarajatlarining taqqoslanishi

Ko’rsatkich	Chevrolet Cobalt	BYD Seagull

Yillik masofa, km	20 000	20 000
Sarf	1600 l	2600 kWh
Birlik narxi	12 700 so’m	650 so’m
Yillik energiya xarajati	20 320 000 so’m	1 690 000 so’m

Hisob-kitoblarga ko’ra, elektromobilning yillik energiya xarajati benzinli avtomobilnikidan qariyb *12 baravar kam* bo’lib, ekspluatatsiya xarajatlari *91,7 %* gacha qisqaradi.



1-rasm. Yillik energiya xarajatlari (mln so’m)

Energiya xarajatlaridagi ushbu farq elektromobillarni uzoq muddatli ekspluatatsiyada iqtisodiy jihatdan ancha samarali ekanligini ko’rsatadi.

Texnik xizmat ko’rsatish xarajatlari. *Ichki yonuv dvigatelli avtomobillarda dvigatel moyini almashtirish, filtrlar, shamlar, sovutish tizimi, uzatma mexanizmlariga xizmat ko’rsatish kabi muntazam xarajatlar mavjud. Elektromobillarda esa ushbu agregatlarning aksariyati mavjud emas.*

2-jadval

Yillik texnik xizmat xarajatlari

Xarajat turi	Cobalt	BYD
Motor moyi	✓	–
Moy filtrlari	✓	–
Havo filtri	✓	–
Shamlar	✓	–
Dvigatel ta’miri	✓	–
Tormoz tizimi	✓	✓
Osma qismlar	✓	✓
Jami	6,5 mln so’m	2,5 mln so’m

Natijalarga ko’ra elektromobillarda texnik xizmat xarajatlari taxminan 61 % kam ekanligi aniqlandi.

Umumiy ekspluatatsiya xarajatlari *Energiya va texnik xizmat xarajatlari birgalikda hisoblanganda elektromobillar iqtisodiy jihatdan sezilarli ustunlikka ega.*

3-jadval

Umumiy yillik ekspluatatsiya xarajatlari

Xarajat turi	Cobalt	BYD
Energiya	20,32 mln	1,69 mln
Texnik xizmat	6,50 mln	2,50 mln
Jami	26,82 mln	4,19 mln

Demak, bitta elektromobil yiliga o’rtacha 22,63 mln so’m ekspluatatsiya xarajatlarini tejashi mumkin.

Karbonat angidrid (CO_2) emissiyasi tahlili. *Transport vositalarining ekologik samaradorligi ularning atmosfera havosiga chiqaradigan zararli moddalari bilan baholanadi.*

4-jadval

CO_2 emissiyasining taqqoslanishi

Ko'rsatkich	Cobalt	BYD
Benzin sarfi	1600 l	0
Emissiya koeffitsienti	2,31 kg/l	0
CO_2 emissiyasi	3696 kg/yil	0 kg/yil*

** Ekspluatatsiya bosqichida to'g'ridan-to'g'ri chiqindi gaz chiqarmaydi.*

Xisob-kitoblarga ko’ra bitta elektromobil yiliga taxminan 3,7 tonna CO_2 emissiyasining oldini oladi. Agar 1000 ta avtomobil elektromobilga almashtirilsa:

3696 tonna CO_2/yil chiqindi atmosferaga chiqarilmaydi.

Mazkur natijalar elektromobillarni ommalashtirish shahar havosi sifatini yaxshilash va iqlim o’zgarishi bilan bog’liq salbiy ta’sirlarni kamaytirishda muhim omil ekanligini ko’rsatadi. Olingan natijalar shuni ko’rsatadiki, ekologik toza transport vositalari ekspluatatsiya xarajatlari va ekologik ta’sir nuqtai-nazaridan an’anaviy transport vositalariga nisbatan ustunlikka ega. Ayniqsa, energiya sarfi va texnik xizmat ko’rsatish xarajatlarining keskin kamayishi elektromobillarni uzoq muddatli foydalanishda iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq ekanligini tasdiqlaydi. Ekologik nuqtai-nazardan esa elektromobillarning ekspluatatsiya bosqichida to’g’ridan-to’g’ri CO_2, NO_n va PM emissiyalarini chiqarmasligi shahar havosining ifloslanishini kamaytirishga xizmat qiladi. Biroq elektromobillarning umumiy ekologik samaradorligi elektr energiyasini ishlab chiqarish manbalariga ham bog’liq. Elektr energiyasi qayta tiklanuvchi manbalardan olinishi ulushi ortgan sari elektromobillarning hayotiy sikl bo’yicha ekologik afzalligi yanada kuchayadi. Shu bilan birga, elektromobillarning dastlabki xarid narxining yuqoriligi, zaryadlash infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi va akkumulyatorlarni utilizatsiya qilish bilan bog’liq masalalar ularni keng joriy etishda asosiy cheklovchi omillar bo’lib qolmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun zaryadlash stansiyalari tarmog’ini kengaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni oshirish hamda elektromobillarni xarid qilishni rag’batlantiruvchi iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zarur.

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, transport tizimini ekologik toza texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki transport xarajatlarini kamaytirish va energiya resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlash nuqtai-nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Ekologik nuqtai-nazardan olib qaralganda, elektromobillar ekspluatatsiya bosqichida karbonat angidrid (CO_2), azot oksidlari (NO_n) va qattiq zarrachalar (PM) kabi zararli moddalarni deyarli chiqarmaydi. Natijada atmosfera havosining ifloslanishi kamayadi, issiqxona gazlari emissiyasi qisqaradi hamda aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi omillar kamayadi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, bitta benzinli avtomobilni elektromobil bilan almashtirish yiliga o’rtacha 3,7 tonnagacha CO_2 emissiyasining oldini olish imkonini beradi. Shu bilan birga, tadqiqot elektromobillarni keng joriy etishda ayrim cheklovchi omillar mavjudligini ham ko’rsatdi. Jumladan, elektromobillarning dastlabki xarid narxining yuqoriligi, zaryadlash infratuzilmasining barcha hududlarda yetarli darajada rivojlanmaganligi, akkumulyatorlarning xizmat muddati va ularni qayta ishlash bilan bog’liq masalalar transport tizimini elektrlashtirish jarayonida e’tibor qaratilishi lozim bo’lgan asosiy yo’nalishlar hisoblanadi. Tadqiqot davomida mamlakatimiz sharoitiga mos ravishda transport vositalarining iqtisodiy va ekologik samaradorligini baholash uchun kompleks taqqoslash yondashuvi qo’llanildi. Ushbu yondashuv energiya sarfi, ekspluatatsiya xarajatlari, texnik xizmat ko’rsatish xarajatlari, karbonat angidrid emissiyasi kabi asosiy ko’rsatkichlarni yagona tahlil tizimida baholash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- elektromobillar uchun zaryadlash stansiyalari tarmog’ini respublikaning barcha hududlarida bosqichma-bosqich kengaytirish;
- jamoat transportini elektrlashtirish dasturlarini jadallashtirish;
- elektromobillar xaridini rag’batlantiruvchi moliyaviy va soliq imtiyozlarini takomillashtirish;

- elektromobillarni qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan integratsiyalashgan zaryadlash tizimlarini rivojlantirish;
- akkumulyatorlarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish;
- transport vositalarining ekologik samaradorligini muntazam monitoring qilish va baholash tizimini yaratish.

Umuman olganda, ekologik toza transport vositalarini keng joriy etish yurtimizda transport tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish, atmosfera havosining ifloslanishini kamaytirish, energiya resurslaridan oqilona foydalanish hamda mamlakatning “yashil iqtisodiyot”ga o’tish strategiyasini amalga oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari transport siyosatini takomillashtirish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ilmiy-amaliy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ–436-son “2030-yilgacha O’zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyot”ga o’tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “PF–81-son “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni.
3. O’zbekiston Respublikasining “Atrof-muhitni muhofaza qilish to’g’risida”gi Qonuni. – Toshkent, 1992 (keyingi o’zgartirish va qo’shimchalar bilan).
4. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Yashil iqtisodiyotga o’tish strategiyasi” bo’yicha me’yoriy-huquqiy hujjatlar. – Toshkent, 2022.
5. Asanov,S., Umerov,F. O’zbekistonda elektromobillar infratuzilmasini rivojlantirishning ko’p mezonli tahlili. Acta Polytechnic Journal, 2024.
6. Karimova,Sh. Barqaror transport tizimini rivojlantirishning iqtisodiy omillari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnali, 2023.
7. Abdurazzoqov,U., O’taganov,S. Shahar jamoat transportida elektr avtobuslardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi. Global International Interdisciplinary Research Journal, 2024.
8. Abdullayeva, O.S., & Muhammadjonov, A.O. (2023, September). Modeling the Development of Department Activities in Higher Education Institutions: Enhancing the Management System with Quantum Communication and Cryptography%. In 2023 International Conference on Sustainable Emerging Innovations in Engineering and Technology (ICSEIET) (pp. 588-591). IEEE.
9. Abdullayeva O. S., Ismanova M. D. IMPROVING THE EFFICIENCY OF THE PROCESS OF PREPARATION FOR TEACHING ACTIVITIES OF THE UNIVERSITY STUDENTS //Теория и практика современной науки. – 2016. – №. 5. – С. 3-5.
10. Abdullaeva O. S. Pedagogical competence of a professional teacher (on the example of 5330200-Informatics and information technology) //Study guide. Publisher: LAP Lambert Academic publishing & Co. KG, Saarbrucken, Germany. – 2018. – С. 105.
11. Abdullaeva O. S. Technology enhance the educational process of professional colleges and academic lyceums (for example, studying the course of informatics and information technology) //Monograph. Publisher: Navruz.-Tashkent. – 2016. – С. 189.
12. Abdullayeva, O.S., Xusayinova, G.A., Muhammadjonov, A.O. Technology of projecting of management system for department activities.

KASBIY INGLIZ TILI YOZMA MULOQOTIDAGI O‘ZIGA XOS GRAMMATIK XATOLARNI ANIQLASH VA TUZATISH STRATEGIYALARI

Ganiyeva Dilfuzaxon Qodirjon qizi
PhD student of Gulistan State University
dilfuzaganiyeva57@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21929504

Annotatsiya. Ushbu maqolada nofilolog talabalarning yozma nutqida uchraydigan grammatik xatolar tahlil qilindi hamda ingliz tili grammatikasini nolisoniy talabalarga maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan yondashuv asosida interfaol o‘qitish tizimi ushbu xatolarni oldini olish va kamaytirish muammosiga yechim sifatida taklif etildi.

Kalit so‘zlar: grammatik xatolar, yozma muloqot, maxsus maqsadlarga yo‘maltirilgan ingliz tili, nolisoniy talabalar, interfaol metodlar.

Oliy ta’lim muassasalarida nofilologik yo‘nalish talabalariga chet tilini o‘rgatishda kasbga yo‘naltirilgan ingliz tili (ESP) ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Chet tilida, xususan ingliz tilida muloqot qilishda grammatik aniqlik tinglovchi bilan samimiy hamda tushunmovchiliklardan holi muloqot qilish garovidir. Yozma muloqotda aniqlik, xalqaro hamkorlar bilan shartnomlar tuzishda, o‘zaro yozishmalarda rasmiy uslubni namoyishida ahamaiyati yuqori hisoblanadi. Biroq, ko‘pincha talabalarda grammatik qoidalarni nazariy bilish va ularni jonli muloqotda hamda kasbiy yozishmada to‘g‘ri qo‘llay olish o‘rtasida uzilish kuzatiladi. Shu sababli, nofilolog talabalarda grammatik kompetensiyani interfaol usullar orqali rivojlantirish zamonaviy metodikaning dolzarb masalalaridan biridir.

Tadqiqot doirasida nofilologik yo‘nalish talabalaridan so‘rovnoma, kuzatish hamda o‘qituvchilar bilan suhbatlar amalga oshirildi. Ushbu tadqiqot natijalarini tahlil qilganimizda, talabalarning grammatik xatolarini quyidagicha tasnifladik(1.1- jadvalga qarang):

1.1- jadval

Asosiy Xatolar Klassifikatsiyasi (Error Taxonomy)

Xatolik Turi	Mazmuni	Misol (Xato va To‘g‘ri)
Ega-kesim moslashuvi (Subject-Verb Agreement)	Birlik va ko‘plik shakllarining kesim bilan moslashmasligi.	Xato: *The data show a decrease.* To‘g‘ri: *The data shows/show...* yoki *The company offer... -> offers...*
Vaqt va Nisbat (Tense & Voice)	Kasbiy matn va grafiklar tahlilida o'tgan va hozirgi zamonni aralashtirib yuborish.	Xato: *Sales increased last year and it is dropping now.* To‘g‘ri: Zamonlar izchilligiga rioya qilish.
Artikl va Predloglar	Iqtisodiy ko‘rsatkichlar va dinamikalarni tasvirlashda predloglarni nojo‘ya qo‘llash.	Xato: *Increase of 5% in 2025...* To‘g‘ri: *Increase by 5% / rise of $500...*
Gap Qurilishi (Sentence structure)	Murakkab gaplarni bog‘lovchisiz ulab yuborish yoki tugallanmagan gaplar tuzish.	Xato: *Because the market collapsed.* To‘g‘ri: *Because the market collapsed, prices dropped.*

Yuqoridagi tasniflanish, bizga tadqiqotimizda grammatik xatolarga yechim topishda qiymatli manba bo‘lib xizmat qildi. Har bir umumlashtirlgan xatolarga birma-bir yechim topishga harakat qildik. Yuqoridagi xatoliklarni bartaraf etish maqsadida uch bosqichli mashqlar tizimini ishlab chiqdik:

1) Tayyorlov bosqichi – bu bosqichda, talabalarning grammatik xatolari aniqlanadi va mavzuga tayyorlanadi. Bu bosqichda, shuningdek ularning grammatika o‘rganishga va xatolari ustida ishlashga bo‘lgan motivatsiyasi uyg‘otiladi. O‘qituvchi darsning faol subyekti va boshqaruvchisi vazifasini bajaradi.

2) Asosiy bosqich – bu bosqichda talabalar grammatik materialni mashq va vazifalar orqali mustahkamlaydilar. Asosan *axborot bo‘shlig‘i, tranformatsiya, xatolarni tuzatish* kabi mashqlar taqdim etiladi. Bu bosqichning alohida xususiyati, talabalar mashq va vazifalarni o‘zlari(self correction) yoki juflikda *(peer correction)* tekshiradilar va xatolarni to‘g‘irlaydilar. Talabalarga topshiriq topshirishdan oldin faqat eng ko‘p yo‘l qo‘yiladigan 5 ta xatolik *(Subject-verb, prepositions, tenses)* bo‘yicha nazorat ro‘yxatidan o‘tish imkonini beriladi. O‘qituvchi jarayonni passiv ishtirokchi sifatida boshqaradi.

3) Yakuniy bosqich – bu bosqich yuqoridagi ikkita bosqichdan eng muhimi hisoblanadi, sababi, bu bosqichda talabalar o‘rgangan grammatik materialni interfaol mashq va topshiriqlar yordamida erkin nutqda qo‘llaydilar va avtomatlashtiradilar. Interfaol topshiriqlardan keys-stadi, diktogloss, loyiha ishi, muammoli ta’lim kabilardan foydalaniladi. Bu bosqichda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi, fasilitator vazifasida dars jarayonini boshqaradi.

Asosiy natijalar. Grammatik ma’lumotlarni abstrakt qoidalar shaklida emas, balki kasbiy kontekstga ega bo‘lgan interfaol mashqlar orqali taqdim etish talabalarning analitik fikrlashini faollashtirgani aniqlandi. Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki:

1. Interfaol va kommunikativ grammatika metodikasi qo‘llanilgan guruhlarda talabalarning grammatik strukturadan to‘g‘ri foydalanish ko‘rsatkichi an’anaviy guruhlarga nisbatan sezilarli darajada oshdi.

2. Grammatik xatolar ustida ishlashda interfaol topshiriqlar talabalardagi “til g‘ovini” (language barrier) yengishga va nutqiy aniqlikni *(accuracy)* oshirishga xizmat qildi.

Yozma nutqdagi xatolarni shunchaki tuzatib berish emas, balki interfaol topshiriqlar orqali talabaning o‘z-o‘zini tuzatish *(self-correction)* ko‘nikmasini rivojlantirish grammatik aniqlikni *(accuracy)* va yozma muloqot sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Nunan D. Task-Based Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – 234 p.
2. Ellis R. Task-based language teaching and focus on form / R. Ellis. — Cambridge : Cambridge University Press, 2016. — 320 b.
3. Соловова Е. Н. Методика обучения иностранным языкам: базовый курс лекций. – Москва: Просвещение, 2002. – 239 с.
4. Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: «O‘qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 432 b.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA TALABALARNING O‘QUV-BILUV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Saydaxmedova Barno Batirovna
O’zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Email: *batirovna.b88@gmail.com* Tel.: +99894-94-617-69-78
ORCID: 0009-0000-4972-5246
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21929527

Annotatsiya. Mazkur tezisda raqamli ta’lim muhitida talabalarning o‘quv-biluv kompetensiyasini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar kompetensiyaviy, tizimli va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Pedagogik tadqiqotlar hamda zamonaviy raqamli ta’lim konsepsiyalarini qiyosiy o‘rganish natijasida o‘quv-biluv kompetensiyasini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar pedagogik, texnologik, shaxsiy va tashkiliy guruhlarga tizimlashtirildi. Mazkur omillarning o‘zaro integratsiyasiga asoslangan konseptual yondashuv taklif etilib, ularning o‘quv-biluv kompetensiyasining motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat va refleksiv komponentlarini rivojlantirishdagi o‘rni asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim muhiti, o‘quv-biluv kompetensiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli pedagogika, pedagogik omillar, texnologik omillar, shaxsiy omillar, tashkiliy omillar.*

Аннотация. В настоящих тезисах на основе компетентностного, системного и деятельностного подходов проанализированы факторы, влияющие на развитие учебно-познавательной компетентности студентов в условиях цифровой образовательной среды. По результатам сравнительного анализа педагогических исследований и современных концепций цифрового образования факторы, оказывающие влияние на развитие учебно-познавательной компетентности, систематизированы по четырём основным группам: педагогические, технологические, личностные и организационные. Предложен концептуальный подход, основанный на интеграции данных факторов, и обоснована их роль в развитии мотивационного, когнитивного, операционально-деятельностного и рефлексивного компонентов учебно-познавательной компетентности.

Ключевые слова: *цифровая образовательная среда, учебно-познавательная компетентность, компетентностный подход, цифровая педагогика, педагогические факторы, технологические факторы, личностные факторы, организационные факторы.*

Abstract. This paper analyzes the factors influencing the development of students' learning and cognitive competence in a digital learning environment based on competency-based, systemic, and activity-oriented approaches. Through a comparative analysis of pedagogical research and contemporary concepts of digital education, the factors affecting the development of learning and cognitive competence were classified into four groups: pedagogical, technological, personal, and organizational. A conceptual approach based on the integration of these factors is proposed, and their role in developing the motivational, cognitive, operational-activity, and reflective components of learning and cognitive competence is substantiated.

Keywords: *digital learning environment, learning and cognitive competence, competency-based approach, digital pedagogy, pedagogical factors, technological factors, personal factors, organizational factors.*

Dunyoda kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari ta’lim tizimining mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat ta’lim jarayonini avtomatlashtirish, balki talabalarda XXI asr kompetensiyalarini, xususan, mustaqil ta’lim olish, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish, muammolarni hal etish hamda kasbiy faoliyatda raqamli vositalardan samarali foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda [6.2017: B.578].

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ta’lim sifati ko‘proq o‘quv natijalari va shakllangan kompetensiyalar orqali baholanmoqda. Shu nuqtai nazardan, o‘quv-biluv kompetensiyasi talabaning bilimlarni mustaqil egallashi, ularni tahlil qilishi, amaliy vaziyatlarda qo‘llashi, o‘z faoliyatini baholashi va uzluksiz o‘zini rivojlantirishga tayyorligini ifodalovchi integrativ pedagogik xususiyat sifatida qaraladi [1.2003:B.60]. Mazkur kompetensiya motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat va refleksiv komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllanadi [2.2004:B.15].

Raqamli ta’lim muhiti ushbu komponentlarni rivojlantirish uchun keng didaktik imkoniyatlarni yaratadi. Elektron ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar, bulutli texnologiyalar, sun’iy intellektga asoslangan o‘quv vositalari hamda adaptiv ta’lim tizimlari talabalarning individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish, mustaqil o‘quv faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ta’lim natijalarini uzluksiz monitoring qilish imkonini beradi [3.2020:B.45]. Shu bilan birga, o‘quv-biluv kompetensiyasining rivojlanishi faqat raqamli vositalarning mavjudligi bilan emas, balki ularni samarali qo‘llashni ta’minlaydigan pedagogik, texnologik, shaxsiy va tashkiliy omillarning o‘zaro uyg‘unligi bilan belgilanadi [5.2023:B.22]. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mazkur omillarning birortasi yetarli darajada ta’minlanmasa, raqamli ta’lim muhitining didaktik imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish qiyinlashadi. Shu sababli ushbu omillarni yagona pedagogik tizim sifatida o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarning o‘quv-biluv kompetensiyasini rivojlantirish murakkab va ko‘p omilli pedagogik jarayon bo‘lib, uning samaradorligi pedagogik, texnologik, shaxsiy hamda tashkiliy omillarning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq. Mazkur omillar alohida emas, balki yagona didaktik tizimning tarkibiy qismlari sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Tadqiqot doirasida ushbu omillar o‘quv-biluv kompetensiyasining motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat va refleksiv komponentlariga ta'siri nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Pedagogik omillar o‘quv-biluv kompetensiyasini rivojlantirishning metodik asosini tashkil etadi. Kompetensiyaviy yondashuv, muammoli ta’lim, loyiha metodi, hamkorlikda o‘qitish va interfaol metodlardan foydalanish talabalarning bilish faoliyatini faollashtirib, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltiradi [4.2021:B.34]. Mazkur omillar, avvalo, motivatsion va kognitiv komponentlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. O‘qituvchining ta’lim jarayonini ilmiy asosda loyihalashi, individual yondashuvni qo‘llashi hamda refleksiv faoliyatni tashkil etishi talabalarning mustaqil fikrlashi va o‘z bilimini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi.


Texnologik omillar raqamli ta'lim muhitining didaktik salohiyatini belgilovchi asosiy omillardir. LMS platformalari, virtual laboratoriyalar, elektron ta’lim resurslari, bulutli servislar, sun’iy intellekt vositalari va adaptiv o‘qitish texnologiyalari ta’lim mazmunini individuallashtirish hamda uzluksiz teskari aloqani ta’minlash imkonini beradi.

Shaxsiy omillar talabaning ichki imkoniyatlari va o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi. Ichki motivatsiya, bilishga qiziqish, tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik, o‘z-o‘zini boshqarish va refleksiya o‘quv-biluv kompetensiyasining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy ichki omillar hisoblanadi [7.2012:B.1070]. Raqamli ta’lim muhiti talabaning mustaqil ta’lim olishiga, individual o‘quv trayektoriyasini tanlashiga hamda o‘z o‘quv natijalarini muntazam tahlil qilishiga imkon yaratadi. Natijada refleksiv komponentning rivojlanishi ta’minlanadi.

Tashkiliy omillar esa pedagogik va texnologik jarayonlarning samarali amalga oshirilishini ta’minlaydigan tashqi shart-sharoitlarni o‘z ichiga oladi. Raqamli infratuzilmaning rivojlanganligi, yuqori tezlikdagi internet, zamonaviy dasturiy ta’minot, elektron ta’lim platformalari, axborot xavfsizligi hamda o‘quv-metodik resurslarning yetarliligi ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, professor-o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini muntazam rivojlantirish ham mazkur omillarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida aniqlanishicha, mazkur omillar bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda faoliyat yuritadi. Pedagogik omillar ta’lim mazmuni va metodlarini belgilasa, texnologik omillar ularni raqamli vositalar orqali amalga oshirish imkonini yaratadi. Shaxsiy omillar talabaning bilish faoliyatini faollashtiruvchi ichki mexanizm vazifasini bajaradi, tashkiliy omillar esa ushbu jarayonning barqaror va samarali kechishini ta’minlaydi. Aynan ushbu integratsiya o‘quv-biluv kompetensiyasining barcha tarkibiy komponentlarini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, o‘quv-biluv kompetensiyasining rivojlanishi omillarning alohida ta’siri natijasida emas, balki ularning o‘zaro integratsiyalashgan didaktik tizim sifatida faoliyat ko‘rsatishi natijasida yuzaga keladi. Tadqiqot natijalari asosida talabalarning o‘quv-biluv kompetensiyasini rivojlantirish omillarining konseptual modeli ishlab chiqildi. Mazkur modelning metodologik asosini kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan va raqamli pedagogika yondashuvlari tashkil etadi. Modelga ko‘ra, pedagogik, texnologik, shaxsiy va tashkiliy omillar yagona didaktik tizim sifatida o‘zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi (1-rasm).



1-rasm. *Raqamli ta’lim muhitida talabalarning o‘quv-biluv kompetensiysini rivojlantirish omillarining konseptual modeli*

Pedagogik omillar ta’limning maqsadi, mazmuni, metodlari va baholash mexanizmlarini belgilaydi. Texnologik omillar mazkur pedagogik jarayonni raqamli vositalar yordamida amalga oshirish imkonini yaratadi. Shaxsiy omillar talabaning bilishga bo‘lgan ehtiyoji, ichki motivatsiyasi va mustaqil ta’lim faoliyatini faollashtiruvchi ichki mexanizm vazifasini bajaradi. Tashkiliy omillar esa pedagogik va texnologik jarayonlarning uzluksiz hamda samarali tashkil etilishini ta’minlaydi. Shunday qilib, o‘quv-biluv kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida omillarning ketma-ket emas, balki o‘zaro integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Mazkur konseptual model oliy ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim muhitini loyihalash va fanlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitishda foydalanish mumkin. Taklif etilgan konseptual model omillarning o‘zaro bog‘liqligini ilmiy jihatdan asoslab beradi hamda ularni yagona didaktik tizim sifatida qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim muhitini loyihalash, o‘quv jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish hamda fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish uchun ilmiy-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58–64.
2. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 42 с.
3. Полат Е.С. (ред.). Педагогические технологии дистанционного обучения: учебное пособие для вузов. – 3-е изд. – Москва: Юрайт, 2020. – 392 с.
4. Sharipov Sh.S. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim sifatini oshirish masalalari. – Toshkent, 2021. – 216 b.
5. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education – A Tool on Whose Terms? – Paris: UNESCO Publishing, 2023. – 434 p.
6. Van Laar E., van Deursen A.J.A.M., van Dijk J.A.G.M., de Haan J. The relation between 21st-century skills and digital skills: A systematic literature review // Computers in Human Behavior. – 2017. – Vol. 72. – P. 577–588.
7. Ng W. Can we teach digital natives digital literacy? // Computers & Education. – 2012. – Vol. 59, No. 3. – P. 1065–1078.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA NUTQ FE’LLARINING TADQIQI

G‘ofurova Nargizabonu Muzaffarjon qizi
Yozyovon tumani 3-maktab ingliz tili o‘qituvchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21929579

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi nutq fe’llarining lingvistik xususiyatlari qiyosiy aspektda tahlil qilinadi. Nutq fe’llari insonning kommunikativ faoliyatini ifodalovchi muhim leksik birliklar bo‘lib, ular nutq jarayonining mazmuni, maqsadi, usuli va emotsional holatini aks ettiradi. Tadqiqot davomida nutq fe’llarining paradigmatik munosabatlari, semantik guruhlari hamda ularning ikki tildagi o‘xshash va farqli jihatlari yoritiladi. Shuningdek, nutq fe’llarining badiiy matnlarda qo‘llanishi, ularning kommunikativ-pragmatik vazifalari ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek tillaridagi nutq fe’llarining semantik tizimi umumiy qonuniyatlarga ega ekanligini, biroq har bir tilning milliy-madaniy xususiyatlari sababli ularning qo‘llanish doirasi va paradigmatik munosabatlarida muayyan tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: nutq fe’llari, paradigmatik munosabat, semantika, qiyosiy tilshunoslik, ingliz tili, o‘zbek tili, kommunikativ faoliyat, leksik-semantik guruh.

Abstract. This article presents a comparative analysis of speech verbs in Uzbek and English. Speech verbs represent one of the most significant lexical groups reflecting human communicative activity. The study focuses on their semantic features, paradigmatic relations, and communicative functions in both languages. Particular attention is paid to similarities and differences in the lexical-semantic organization of speech verbs as well as their stylistic and pragmatic roles in discourse. The findings indicate that although Uzbek and English speech verbs share common semantic principles, they also demonstrate language-specific characteristics influenced by cultural and linguistic traditions.

Keywords: speech verbs, paradigmatic relations, semantics, comparative linguistics, discourse, communication, lexical-semantic group.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ глаголов речи в узбекском и английском языках. Глаголы речи представляют собой важную лексико-семантическую группу, отражающую коммуникативную деятельность человека. В исследовании рассматриваются семантические особенности, парадигматические отношения и функциональные характеристики глаголов речи, а также выявляются их сходства и различия в двух языках. Особое внимание уделяется их роли в художественном дискурсе, коммуникативно-прагматическим функциям и национально-культурной специфике.

Ключевые слова: глаголы речи, парадигматические отношения, семантика, сравнительное языкознание, узбекский язык, английский язык, коммуникативная деятельность, лексико-семантическая группа, дискурс, прагматика.

Kirish. Til inson tafakkurining mahsuli va jamiyatdagi asosiy aloqa vositasi hisoblanadi. Tilning kommunikativ vazifasi nutq orqali amalga oshiriladi. Nutq esa fikr almashish, axborot uzatish, his-tuyg‘ularni ifodalash va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishning muhim vositasidir. Mazkur jarayonda nutqni ifodalovchi fe’llar alohida o‘rin egallaydi. Ular insonning gapirish, so‘rash, javob berish, buyurish, maslahat berish, iltimos qilish, pichirlash, baqirish kabi turli kommunikativ harakatlarini ifodalaydi.

So‘nggi yillarda jahon tilshunosligida nutqiy faoliyatni ifodalovchi fe’llarni semantik, sintaktik, pragmatik hamda paradigmatik jihatdan o‘rganishga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada ortdi. Ayniqsa, turli tizimli tillar materiallari asosida olib borilgan qiyosiy-tipologik tadqiqotlar nutq fe’llarining universalligi va milliy xususiyatlarini aniqlash imkonini bermoqda.

Nutq fe’llari insonning kommunikativ faoliyatini ifodalash bilan birga, so‘zlovchining munosabati, hissiy holati, nutqning usuli va maqsadini ham aks ettiradi. Masalan, ingliz tilidagi *say, tell, speak, talk, whisper, shout, announce, reply* fe’llari hamda o‘zbek tilidagi *demoq, aytmoq, gapirmoq, pichirlamoq, baqirmoq, javob bermoq, e’lon qilmoq* fe’llari umumiy "nutq" semasiga ega bo‘lsa-da, ularning har biri o‘ziga xos semantik va pragmatik xususiyatlarni namoyon etadi.

Qiyosiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilda nutq fe’llari murakkab paradigmatik tizimni tashkil qiladi. Ular sinonimik, antonimik, giponimik hamda funksional munosabatlar asosida bir-biri bilan bog‘lanadi. Shu bois mazkur birliklarni qiyosiy o‘rganish nafaqat leksikologiya va semasiologiya, balki tarjimashunoslik, kognitiv tilshunoslik hamda diskurs tahlili uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Mazkur maqolaning maqsadi o‘zbek va ingliz tillaridagi nutq fe’llarining semantik va paradigmatik xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilish, ularning umumiy va milliy xususiyatlarini aniqlash hamda kommunikativ vazifalarini yoritishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot o‘zbek va ingliz tillaridagi nutq fe’llarining leksik-semantik, paradigmatik hamda funksional xususiyatlarini qiyosiy jihatdan o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik tilshunoslik tamoyillari asosida nutq fe’llarining semantik tuzilishi, paradigmatik munosabatlari va kommunikativ vazifalari tahlil qilindi. D.A.Ziyoyeva ta’kidlaganidek, nutqiy faoliyat fe’llarini o‘rganishda ularning nafaqat semantik va sintaktik xususiyatlari, balki diskursiv, kognitiv va paradigmatik jihatlarini ham hisobga olish muhimdir [Ziyoyeva,2025: B.13]. Bunday yondashuv turli tizimli tillarda nutq fe’llarining umumiy va milliy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, leksik-semantik tahlil metodi, paradigmatik tahlil metodi, kontekstual tahlil metodi, tavsifiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida zamonaviy ingliz va o‘zbek badiiy adabiyoti, lug‘atlar hamda nutq fe’llariga oid ilmiy tadqiqotlar xizmat qildi.

Mazkur metodologik yondashuv nutq fe’llarining til tizimidagi o‘rnini, ularning semantik maydondagi o‘zaro munosabatlarini hamda ikki tildagi kommunikativ funksiyalarini izchil yoritishga imkon berdi.

Nutq fe’llarining nazariy asoslari. Nutq fe’llari insonning kommunikativ faoliyatini ifodalovchi leksik birliklar bo‘lib, ular axborot yetkazish, fikr bildirish, savol berish, javob qaytarish, buyruq berish, iltimos qilish, maslahat berish, ogohlantirish, e’tiroz bildirish kabi turli nutq aktlarini ifodalaydi. Ushbu fe’llar tilning kommunikativ funksiyasini amalga oshirishda markaziy o‘rin tutadi va har bir tilda alohida leksik-semantik guruhni tashkil etadi.

Jahon tilshunosligida nutq fe’llarini o‘rganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab semantik va pragmatik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishiga aylandi. Zamonaviy lingvistik qarashlarga ko‘ra, nutq fe’llari faqat harakatni emas, balki so‘zlovchining kommunikativ maqsadi, emotsional holati, tinglovchiga munosabati va nutqning usulini ham ifodalaydi. Shu sababli ularni faqat grammatik emas, balki semantik, pragmatik, kognitiv va diskursiv nuqtayi nazardan ham tahlil qilish zarur.

D.A.Ziyoyevaning tadqiqotida nutqiy faoliyat fe’llari ingliz va o‘zbek tillarining paradigmatik tizimi doirasida tahlil qilinib, ularning leksik-semantik, sintagmatik va paradigmatik xususiyatlari qiyosiy jihatdan yoritiladi. Muallif nutq fe’llarini diskurs bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish, ularning kommunikativ vaziyatdagi funksional imkoniyatlarini aniqlash zamonaviy tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri ekanligini ta’kidlaydi.

Semantik nuqtayi nazardan nutq fe’llari umumiy "nutq jarayoni" semasi asosida birlashadi. Biroq har bir fe’l o‘ziga xos differensial semalarga ega. Masalan, *say* va *demoq* fe’llari nutqning umumiy faktini bildirsa, *whisper* (pichirlamoq) past ovozda gapirishni, *shout* (baqirmoq) esa baland ovozda murojaat qilishni anglatadi. *Ask* (so‘ramoq) fe’li axborot olish maqsadini, *reply* (javob bermoq) esa oldingi nutq aktiga javob reaksiyasini ifodalaydi.

Nutq fe’llari tilning leksik tizimida murakkab semantik va paradigmatik munosabatlarni hosil qiladi. Ularning qiyosiy o‘rganilishi nafaqat ikki tilning lug‘at boyligini tavsiflash, balki tarjima jarayonida semantik ekvivalentlarni aniqlash, pragmatik ma’no nozikliklarini ochib berish hamda milliy-madaniy xususiyatlarni yoritishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek va ingliz tillarida nutq fe’llarining paradigmatik tasnifi. Nutq fe’llari tilning leksik tizimida o‘zaro semantik va funksional munosabatlarni hosil qiluvchi birliklardir. Ular umumiy "nutq" semasi asosida birlashib, nutqning maqsadi, usuli va kommunikativ vaziyatiga ko‘ra turli paradigmatik guruhlarni tashkil etadi.

Qiyosiy tahlil natijasida nutq fe’llarini quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:

Leksik-semantik guruh	Ingliz tili	O‘zbek tili
Umumiy nutq fe’llari	say, speak, talk, tell	demoq, aytmoq, gapirmoq, so‘zlamoq
Savol-javob fe’llari	ask, answer, reply	so‘ramoq, javob bermoq, javob qaytarmoq

Nutq usulini bildiruvchi fe’llar	whisper, shout, scream	pichirlamoq, baqirmoq, qichqirmoq
Rasmiy nutq fe’llari	announce, declare, inform	e’lon qilmoq, bayon qilmoq, ma’lum qilmoq

Har ikki tilda mazkur fe’llar sinonimik va funksional munosabatlar orqali yagona paradigmatik tizimni hosil qiladi. Biroq ingliz tilida ayrim nutq fe’llarining qo‘llanishi grammatik jihatdan aniq chegaralangan (masalan, say va tell), o‘zbek tilida esa demoq va aytmoq kabi fe’llar ko‘plab nutq vaziyatlarida o‘zaro almashib qo‘llanishi mumkin. Bu esa ikki til paradigmatik tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi.

Nutq fe’llarining qiyosiy tahlili. Qiyoslash natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek tillaridagi nutq fe’llari mazmun jihatdan ko‘plab umumiy xususiyatlarga ega. Har ikki tilda ular insonning kommunikativ faoliyatini ifodalovchi asosiy leksik qatlamlardan biri sanaladi. Biroq ularning semantik chegaralari va qo‘llanish doirasi bir xil emas. Ingliz tilida *say* va *tell* fe’llari qat'iy grammatik farqqa ega. *Tell* odatda bevosita obyekt bilan qo‘llanadi (tell somebody), *say* esa ko‘proq aytilayotgan fikrni bildiradi (say something). O‘zbek tilida esa *demoq* va *aytmoq* fe’llari ko‘p hollarda o‘zaro almashib qo‘llanadi va bunday grammatik chegaralanish kuzatilmaydi. Ingliz tilida nutq usulini ifodalovchi fe’llar soni nisbatan ko‘proq bo‘lsa, o‘zbek tilida emotsional bo‘yoqdorlik ko‘pincha ravishlar yoki qo‘shimcha leksik vositalar orqali kuchaytiriladi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek va ingliz tillaridagi nutq fe’llari umumiy semantik maydonga mansub bo‘lsa-da, ularning paradigmatik tuzilishi va funksional qo‘llanishida ayrim farqlar mavjud. Har ikki tilda nutq fe’llari insonning kommunikativ faoliyatini ifodalovchi muhim leksik birliklar bo‘lib, ular axborot uzatish, fikr bildirish, savol berish, javob qaytarish, buyruq berish va hissiy munosabatni ifodalash kabi vazifalarni bajaradi. Nutqiy faoliyat fe’llarini qiyosiy o‘rganish ularning semantik va paradigmatik xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar natijasida ingliz tilida *say, tell, speak, talk* kabi fe’llar nutq jarayonining turli jihatlarini ifodalashi, ularning qo‘llanishi grammatik va kommunikativ mezonlar bilan farqlanishi aniqlandi. O‘zbek tilida esa *demoq, aytmoq, gapirmoq, so‘zlamoq* fe’llari umumiy nutq ma’nosini bildirsa-da, ularning uslubiy va funksional qo‘llanish doirasi kontekst orqali belgilanadi.

Nutq fe’llarining paradigmatik munosabatlari sinonimiya, giponimiya va funksional yaqinlik asosida shakllanishi kuzatildi. Ingliz tilida nutqning usuli va emotsional holatini ifodalovchi fe’llar (*whisper, murmur, scream, shout*) ko‘proq differensiallashgan bo‘lsa, o‘zbek tilida bunday ma’nolar ko‘pincha qo‘shimcha leksik vositalar yoki kontekst orqali aniqlashtiriladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- O‘zbek va ingliz tillaridagi nutq fe’llari umumiy semantik maydonga ega bo‘lib, kommunikativ faoliyatni ifodalovchi muhim leksik birliklar hisoblanadi.
- Har ikki tilda nutq fe’llari paradigmatik munosabatlar asosida tizimlashgan bo‘lib, sinonimik va funksional guruhlarni tashkil etadi.
- Ingliz tilida nutq fe’llarining semantik chegaralari va grammatik qo‘llanishi nisbatan aniqroq differensiallashgan, o‘zbek tilida esa ularning ma’nosi ko‘proq kontekst va uslubiy omillar orqali aniqlanadi.
- Nutq fe’llarining qiyosiy tahlili ularning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berish, tarjima jarayonida semantik muvofiqlikni ta’minlash hamda qiyosiy tilshunoslik tadqiqotlarini rivojlantirish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cruse D.A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986.
2. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
3. Levin B. English Verb Classes and Alternations: A Preliminary Investigation. – Chicago: University of Chicago Press, 1993.
4. Lyons J. Semantics. Vol. 1–2. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977.
5. Palmer F.R. Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981.
6. Saussure F.de. Course in General Linguistics. – London: Duckworth, 1983.

7. Арутюнова Н.Д. Предложение и его смысл. – Москва: Наука, 1976.
8. Зиёева, Д.А. Инглиз ва ўзбек тилларида нутқий фаолият феълларининг парадигматик таҳлили: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2025.
9. Кубрякова Е.С. Язык и знание. – Москва: Языки славянской культуры, 2004.
10. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Фан, 2010.
11. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
12. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология. – Тошкент: Университет, 2006.
13. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
14. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Университет, 2006.
15. Шмелёв Д. Н. Проблемы семантического анализа лексики. – Москва: Наука, 1973.

ELEKTRON TEZAURUS YARATISHNING LINGVISTIK ASOSLARI VA SINSET SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI

Muhammadjon Najmiddinov
Qo‘qon universiteti, DSc, dotsent
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21929637

Annotatsiya. Ushbu maqolada elektron tezaurus yaratishning lingvistik asoslari, xususan, tezaurus birliklarini tanlash va sinsetlarni shakllantirish metodologiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqot maqsadi elektron tezaurusning an'anaviy lug'atdan farqli tuzilish xususiyatlarini aniqlash hamda korpus statistikasi, distributiv semantika va BERT tipidagi transformer modellarni ekspert tekshiruvi bilan uyg'unlashtirgan olti bosqichli metodikani ishlab chiqishdan iborat. “O'zbek tilining ta'limiy korpusi” va ARANEUM_UZBEKICUM korpusi materiallari asosida 5 ta leksik-grammatik toifaga oid 77 ta sinset yaratildi. Natijalar elektron tezaurusni axborot-qidiruv va tabiiy tilni qayta ishlash tizimlariga integratsiya qilish uchun lingvistik zamin bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: elektron tezaurus, sinset, korpus lingvistikasi, semantik munosabatlar, BERT, deskriptor, sinonimiya, ontologiya, o'zbek tili.

Аннотация. В данной статье анализируются лингвистические основы создания электронного тезауруса, в частности, методология отбора тезаурусных единиц и формирования синсетов. Цель исследования состоит в выявлении структурных особенностей электронного тезауруса, отличающих его от традиционного словаря, а также в разработке шестиэтапной методики, объединяющей корпусную статистику, дистрибутивную семантику и трансформерные модели типа BERT с экспертной верификацией. На материале «Учебного корпуса узбекского языка» и корпуса ARANEUM_UZBEKICUM создано 77 синсетов, относящихся к 5 лексико-грамматическим категориям. Результаты служат лингвистической основой для интеграции электронного тезауруса в системы информационного поиска и обработки естественного языка.

Ключевые слова: электронный тезаурус, синсет, корпусная лингвистика, семантические отношения, BERT, дескриптор, синонимия, онтология, узбекский язык.

Abstract. This article analyses the linguistic foundations of electronic thesaurus construction, focusing on the methodology for selecting thesaurus units and forming synsets. The aim of the study is to identify the structural features that distinguish an electronic thesaurus from a traditional dictionary and to develop a six-stage methodology that integrates corpus statistics, distributional semantics and BERT-type transformer models with expert verification. Drawing on the “Uzbek Educational Corpus” and the ARANEUM_UZBEKICUM corpus, 77 synsets were constructed across 5 lexical-grammatical categories. The results provide a linguistic basis for integrating the electronic thesaurus into information-retrieval and natural-language-processing systems.

Keywords: electronic thesaurus, synset, corpus linguistics, semantic relations, BERT, descriptor, synonymy, ontology, Uzbek language.

Kirish. Raqamli axborot hajmining tobora ortib borishi va semantik veb texnologiyalarining rivojlanishi matnli manbalarni semantik jihatdan tizimlashtirishni zamonaviy tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biriga aylantirdi. An'anaviy, chiziqli tuzilgan lug'atlar katta hajmdagi matn to'plamlarining semantik mazmunini tizimlashtirish uchun yetarli emas [7. 1976:B.14]. Shu sababli lug'aviy birliklar o'rtasidagi semantik munosabatlarni izchil aks ettiruvchi raqamli lingvistik resurs — elektron tezaurus — semantik veb va sun'iy intellekt texnologiyalarining asosiy tarkibiy qismiga aylanmoqda [3. 2001:B.36].

Tezaurus yaratishning nazariy-metodologik asoslari G'arb va rus tilshunosligida keng ishlab chiqilgan: Yu.N. Karaulov va B.V. Dobrovning tezaurus modeli, shuningdek, G.A. Miller rahbarligida yaratilgan WordNet loyihasi zamonaviy tezaurus nazariyasining tayanch negizini tashkil etadi [10. 1995:B.39; 5. 1998:B.58]. Biroq o'zbek tili materialida elektron tezaurus yaratishning lingvistik asoslari, xususan, birliklarni tanlash va sinset shakllantirish metodologiyasi alohida monografik tadqiqot predmeti bo'lmagan.

O'zbek tili aglyutinativ til sifatida boy so'z yasalish tizimi, keng ko'p ma'nolilik va sistemali sinonimik-antonimik munosabatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlar hozirgacha raqamli shaklda izchil modellashtirilmagan. Mavjud izohli va sinonimlar lug'atlari leksik ma'noni qayd etadi, biroq tezaurus talab

qiladigan semantik munosabatlar tarmog'ini — sinonimiya, giperonimiya, giponimiya, meronimiya va assotsiativlikni — formallashtirmaydi.


Maqolaning maqsadi — elektron tezaurusning tuzilishi va tarkibini lingvistik-texnologik nuqtayi nazardan tavsiflash hamda BERT tipidagi transformer modellariga asoslangan, tezaurus birliklarini tanlash va sinsetlarni shakllantirish uchun bosqichma-bosqich metodikani ishlab chiqishdan iborat [4. 2019:B.4172; 13. 2017:B.5999].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning empirik materialini “O'zbek tilining ta'limiy korpusi” va ARANEUM_UZBEKICUM korpusi, shuningdek, o'zbek tilining izohli va sinonimlar lug'atlari tashkil etadi. Ushbu manbalardan predmet nomlari, belgi bildiruvchi sifatlar, harakat/holat fe'llari, holat sifatlari va ravishlarga oid 77 ta leksik birlik tanlab olindi.

Tadqiqotda tavsifiy, komponentli, ideografik, ontologik, onomasiologik va semasiologik, lingvostatistik, miqdoriy, distributiv hamda illyustrativ tahlil metodlaridan foydalanildi. So'zlar orasidagi ma'no munosabatlari qo'lda ekspert tahlili va so'z vektorlariga asoslangan avtomatik distributiv-semantik tahlilning uyg'unlashuvi orqali aniqlandi; nomzod sinonimlar o'rtasidagi kontekstual o'xshashlik BERT tipidagi kontekstual vektor tasvirlari orasidagi kosinusli o'xshashlik sifatida hisoblab chiqildi.

Ko'rib chiqilgan manbalar va korpus materiali asosida tezaurus birliklarini tanlash va sinsetlarni shakllantirishning olti bosqichli, mezonga asoslangan metodikasi ishlab chiqildi (1-jadval). Jarayon domenni tahlil qilishdan boshlanib, chastotaga asoslangan ekstraksiya, semantik bog'lanishlarni aniqlash, transformer asosidagi vektorli tahlil (kosinusli o'xshashlik chegarasi ≥ 0,75), ekspert tekshiruvi va yakuniy sinset shakllantirish bosqichlaridan iborat.


2-rasm. Tezaurus birliklarini tanlash va sinset shakllantirish metodikasi bosqichlari



1-rasm. Tezaurus birliklarini tanlash va sinset shakllantirishning olti bosqichli metodikasi

Elektron tezaurusda axborotni tashkil etishning uchta tuzilma modeli formallashtirildi: (1) turkum-tur va bo'lak-butun munosabatlarini ifodalovchi iyerarxik (daraxt) tuzilma; (2) giperonim-giponim munosabatlarini yo'naltirilgan semantik tarmoq sifatida ifodalovchi tarmoqli (graf) tuzilma; (3) meronimik va assotsiativ munosabatlarni deskriptorlar birgalikda uchrashining o'zaro jadvali sifatida ifodalovchi matritsa tuzilmasi (2-rasm).


1-rasm. Elektron tezaurusning ierarxik tuzilishi



2-rasm. Elektron tezaurusning iyerarxik tuzilishi: deskriptorlar katalogi, sinsetlar tizimi va semantik munosabatlar qatlami


TAHLIL VA NATIJALAR

Olti bosqichli metodikani qo'llash natijasida 5 ta toifaga oid 77 ta leksik birlik uchun sinsetlar shakllantirildi: 25 ta predmet nomi (32,5%), 18 ta belgi bildiruvchi sifat (23,4%), 15 ta harakat/holat fe'li (19,5%), 10 ta holat sifati (13,0%) va 9 ta ravish (11,6%). Predmet nomlari va belgi bildiruvchi sifatlar barcha shakllantirilgan sinsetlarning yarmidan ko'pini tashkil etib, ular umumiy leksikaning ideografik tashkil etilishida markaziy o'rin egallashini ko'rsatadi.



3-rasm. So'z turkumlari bo'yicha ishlab chiqilgan sinsetlar taqsimoti (jami 77 ta leksik birlik)

Metodikaning distributiv-semantik bosqichini (1-jadval, 4-bosqich) yoritish uchun inja sifatdoshi ARANEUM_UZBEKICUM korpusida kontekstual so'z vektorlariga asoslangan “o'xshash so'zlar” funksiyasi orqali tahlil qilindi. Natijada kosinusli o'xshashlik koeffitsiyenti 0,445 dan 0,537 gacha bo'lgan 12 ta semantik yaqin sifatdosh aniqlandi; eng yuqori ko'rsatkichga ega hazin, jilva, she'rxon va yanglig' so'zlari ekspert tekshiruvidan so'ng inja sinsetining a'zosi sifatida tasdiqlandi, past ko'rsatkichli nomzodlar esa qo'shni, ammo mustaqil ideografik quyi maydonlarga kiritildi.



4-rasm. “Inja” so'ziga ARANEUM_UZBEKICUM korpusida semantik yaqin so'zlarning kosinusli o'xshashlik ko'rsatkichlari

Ko'p ma'nolilik va omonimiya masalalari alohida ko'rib chiqildi. Ko'p ma'noli leksemalar uchun har bir alohida ma'no mustaqil sinsetga biriktirildi: masalan, qo'ralay so'zi “hayvon nomi” ideografik maydonida bitta sinset, “o'z” maydonida esa ko'chma ma'noli ikkinchi sinsetni hosil qiladi. Omonim leksemalar tarkibiy jihatdan mustaqil birliklar sifatida qaraldi: bog' so'zi (“bog'-rog'” / “bog'lash vositasi”) izohli lug'at ma'lumotlariga tayanib ikkita mustaqil sinsetga ajratildi, ular o'rtasida omonimlik munosabatini belgilovchi giperhavola orqali o'zaro bog'lanadi [1. 1974:B.112].

Sinonimik qatorlarning korpusdagi chastota tahlili sezilarli tarqoqlikni ko'rsatdi: “O'zbek tilining ta'limiy korpusi” bo'yicha eng past ko'rsatkich 132 marta (jozib), eng yuqori ko'rsatkich esa 7152 marta (teran) qayd etildi. Ushbu chastota nomutanosibligi sof chastota mezonining o'zi sinsetga a'zolikni belgilash

uchun yetarli emasligini, uni semantik o'xshashlik ko'rsatkichi va ekspert bahosi bilan uyg'unlashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari elektron tezaurusning axborot-qidiruv, mashina tarjimasi va tabiiy tilni qayta ishlash tizimlariga integratsiyalashuvi uchun amaliy ahamiyatga ega. Xususan, so'rovni kengaytirish (query expansion) mexanizmlarida sinonimlarni faqat xom chastota bo'yicha emas, balki semantik o'xshashlik ko'rsatkichini ham hisobga olgan holda tortishlantirish tavsiya etiladi, aks holda past chastotali, ammo semantik jihatdan markaziy birliklar qidiruv natijalarida yetarli darajada ifodalanmay qolishi mumkin.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot elektron tezaurusning an'anaviy lug'atdan nafaqat hajm, balki sifat jihatidan ham farqlanishini ko'rsatdi: uning belgilovchi xususiyati semantik munosabatlarning izchil, mashina tomonidan qayta ishlanadigan tarzda kodlashtirilishidir. Tezaurus birliklarini tanlash va sinsetlarni shakllantirishning olti bosqichli metodikasi — domenni tahlil qilish, korpus asosida ekstraksiya qilish, semantik bog'lanishlarni aniqlash, BERT asosida vektorli tahlil, ekspert tekshiruvi va sinset shakllantirish — o'zbek tilining 77 ta leksik birligiga nisbatan qo'llanildi va ko'p ma'nolilik hamda omonimiyani sinsetlarga ajratish va o'zaro bog'lash orqali formal ifodalash mumkinligini ko'rsatdi.

Ishlab chiqilgan metodika o'zbek tilida elektron tezauruslar yaratish, ularni qidiruv tizimlari va tabiiy tilni qayta ishlash tizimlariga integratsiya qilish uchun lingvistik zamin bo'lib xizmat qiladi. Kelgusi tadqiqotlarda metodikani boshqa leksik-semantik maydonlarga tatbiq etish, o'xshashlik chegarasini kengroq etalon to'plam asosida sinovdan o'tkazish hamda natijaviy tezaurusni boshqa tillarning WordNet tipidagi resurslari bilan ko'p tilli moslashtirish istiqbolli yo'nalish bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика: синонимические средства языка. – Москва: Наука, 1974. – 367 б.

2. Asadov T. Leksik-semantik guruhlarning tasnifi. – Toshkent: Fan, 2015. – 214 b.

3. Berners-Lee T., Hendler J., Lassila O. The Semantic Web // Scientific American. – 2001. – Vol. 284, No. 5. – P. 34–43.

4. Devlin J., Chang M.-W., Lee K., Toutanova K. BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding // Proceedings of NAACL-HLT. – 2019. – P. 4171–4186.

5. Fellbaum C. (ed.) WordNet: An Electronic Lexical Database. – Cambridge, MA: MIT Press, 1998. – 423 p.

6. Gruber T.R. A Translation Approach to Portable Ontology Specifications // Knowledge Acquisition. – 1993. – Vol. 5, No. 2. – P. 199–220.

7. Karaulov Yu.N. Общая и русская идеография. – Москва: Наука, 1976. – 356 б.

8. Kasares J. Diccionario ideológico de la lengua española. – Barcelona: Gustavo Gili, 1942. – 887 p.

9. Mikolov T., Chen K., Corrado G., Dean J. Efficient Estimation of Word Representations in Vector Space // arXiv:1301.3781. – 2013.

10. Miller G.A. WordNet: A Lexical Database for English // Communications of the ACM. – 1995. – Vol. 38, No. 11. – P. 39–41.

11. Najmiddinov M.G'. Tezauruslar yaratishning lingvistik asoslari: Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Andijon, 2026. – 69 b.

12. “O'zbek tilining ta'limiy korpusi”. Elektron resurs. Manzil: https://uzbekcorpus.uz

13. Vaswani A. et al. Attention Is All You Need // Advances in Neural Information Processing Systems. – 2017. – Vol. 30. – P. 5998–6008.

CHatGPT KABI GENERATIV SUN’IY INTELEKT TIZIMLARINING BOLALAR NUTQIY RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Davlatova Aziza Akmalovna
Navoiy innovatsiyalar universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrasi o‘qituvchisi f.f.f.d (PhD)
Akmalovna116@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-6924-1422
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21929654

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellekt dasturlarining (masalan, ChatGPT, Gemini) bolalar nutqiy va lingvistik rivojlanishiga ta’siri differentsial-yosh yondashuvi asosida ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda 3–7 yoshdagi maktabgacha yosh davri bolalarning lingvistik, kognitiv hamda psixollingvistik xususiyatlari alohida ko‘rib chiqilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intelekt ilovalari bolada passiv lug‘atni boyitish, interaktiv ifodali nutqni oshirish kabi ijobiy imkoniyatlarni yaratadi. Biroq, maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxslararo muloqot yetishmasligi sababli nutq kechikishi va pragmatik nutq uzilish xavfi kuzatiladi. Maqola yakunida ota-onalar uchun sun’iy intelekt ilovalaridan xavfsiz va metodologik to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt(SI), chatpt va gemini, interfeys, bolalar nutqi, psixollingvistika, maktabgacha yosh, nutqiy kechikish, lingvodidaktika, ijobiy va salbiy ta’sir.

Zamonaviy raqamli globallashuv asrida generativ sun’iy intellekt (Generative Artificial Intelligence - GAI) texnologiyalarining masalan, ChatGPT, Google geminilardan foydalanishning jadal o‘sishi va ta’lim hamda kundalik muloqot jarayonlariga kirib kelishi inson va raqamli texnologiyalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir shaklini tubdan o‘zgartirdi. Xususan, ma’lumotni qayta ishlash va ma’lumot tahlili, til modellariga asoslangan ushbu tizimlar faqat axborot qidirish vositasi bo‘lib qolmay, balki interaktiv suhbatdosh shuningdek, til o‘rgatuvchi sub’ekt funksiyasini ham faol bajarmoqda. Bu esa psixolingvistika, rivojlanish neyropsixologiyasi hamda lingvodidaktika hatto tilshunoslik sohalari oldida yangi hamda dolzarb tadqiqot muammolarini ko‘ndalang qilmoqda.

Bolalarning nutqiy rivojlanishi bu faqatgina leksik va grammatik birliklarni o‘zlashtirish emas, balki murakkab kognitiv, emotsional va ijtimoiy-pragmatik jarayon hamdir. Psixolingvistik nuqtai nazardan, nutq miya va atrof-muhit o‘rtasidagi interfaol aloqa va insonlararo ijtimoiy muloqot asosida shakllanadi. Biroq, tizimli va kodli sun’iy intelekt tizimlarining ta’siri barcha yosh guruhlari uchun ya’ni kichik bolalardan tortib, katta yoshlilargacha bir xil xarakterga ega emas. 3-7 yoshdagi maktabgacha yoshli bolalar uchun og’zaki verbal muloqot asosan senso-motor va noverbal signallar bilan bog‘liq bo‘lsa, keyingi 8-14 yoshli maktab yoshidagi o‘quvchilarda asosan bilim olish, diqqat, akademik yozuv, murakkab sintaksis hamda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga qaratilgan bo‘ladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi sun’iy intellekt tizimlarining bolalar nutqiy rivojlanishiga ko‘rsatadigan ijobiy va salbiy ta’sirlarini differentsial-yosh yondashuvi asosida 3-7 yosh guruhlari kesimida ilmiy tahlil qilish hamda ushbu texnologiyalardan lingvodidaktik, tilshunoslik va psixopedagogik jihatdan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha metodologik xulosalar berishdan iborat.

Maktabgacha yosh davri bolalarda jonli nutqiy muloqot modeli(shakli) shakllanadigan eng asosiy va fundamental bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda miya ma’lumotlarni qabul qilishi yuqori darajada bo‘lib, bola so‘zlarni faqat akustik signallar orqali emas, shu bilan birga muloqotdagi sherik suhbatdoshning yuz ifodasi (mimika), tana tili (jestlar) va artikulyatsion harakatlarini vizual kuzatish orqali o‘zlashtiradi hamda nutqda munosabat bildirish, noverbal muloqot tana harakatlari, kulish, xarxasha, yig’lash va yuz ifodasi, qo‘l, oyoq harakatlari orqali javob qaytaradi.

Sun’iy intellekt dasturlarining bolalar nutqi va muloqot qobiliyatlariga ta’siri bugungi kunda tilshunoslik, pedagogika va neyropsixologiya sohalarida eng ko‘p muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir. Bu ta’sirlar ijobiy (rivojlantiruvchi) va salbiy guruhlarga bo‘linadi:

Ijobiy ta’sirlarni ko‘rib o‘tsak:

1. Tizimlashtirilgan sun’iy intelekt dasturlari bolalar bilan cheklanmagan darajadagi sabr va moslashuvchanlik bilan odamlardan ko‘ra ko‘proq muloqot qila oladi. Bola undan o‘zi tushunmagan so‘zni so‘raganda, sun’iy intelekt uni savoliga ko‘ra bolaning yoshiga mos oddiy iboralar bilan tushuntirib beradi. Bu dasturlardan chat gpt, gemini bolalar bilan real vaqt rejimida dialoglar qurish, ularning savollariga yoshiga mos soddalashtirilgan tilda javob berish va birgalikda ertaklar yaratish imkoniyatiga ega. Bu

bolalarning konseptual tushunchalarini kengaytiradi va passiv lug‘at boyligini oshishida samarali xizmat qiladi[4. 2023: P.37-49.].

2.Bolada fonetik va leksik baza shakllanishi: Sun’iy intelekt dasturlarining ovozli funksiyalari masalan, ovozli interfeysga ega Chatgpt ilovalari orqali bola yangi so‘zlarni va to‘g‘ri talaffuzni takrorlash imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa bola bilan yana nutqiy muloqotning ko‘proq va uzoqroq olib borilishiga xizmat qiladi.

3.Bola nutqida fikrlari, voqealarni ifodalash shakllanishi: Bola sun’iy intelekt ilovasi bilan birgalikda ertaklar va kichik hikoyalar to‘qishi, ularni eshitishi va hatto ularni mustaqil topishi mumkin. Bunga misol sifatida google interfeysida ovozli qidiruv vazifasida sun’iy intelekt yuklangani va u orqali bolalar o‘zlari yoqtirgan multfilm, ovozli video yoki musiqalarni osongina topa oladilar. Bu bolaning tasavvurini va matn mazmunini mantiqiy ketma-ketlikda tushunish ko‘nikmasini oshiradi. Bolada nutqiy murojaat buyruq berish munosabatini shakllantiradi[5. 2023:P. 2137–2140.].

Salbiy ta’sirlar:

1.Bolada pragmatik nutq va artikulatsiyaning ortda qolishi: 3-5 yoshli bolalar so‘zlarni faqat eshitib emas, so‘zlovchining lab harakati (artikulatsiya) va mimikasi, tana harakatlarini ko‘rib nutqiga o‘zlashtiradi[3. 2019:P.244-250.]. Sun’iy intelekt orqali muloqotda bola bilan shaxslararo jonli vizual muloqot zanjiri uziladi. Bola hechqanday muloqotdagi noverbal tajribani egallolmaydi.

2.Ekrandagi animatsiyalar va sun’iy intelekt bog‘liqligi sababli bolada nutq kechikishi: Jonli muloqot o‘rnini sun’iy intelekt egallashi bolalarda nutq rivojlanishining kechikishiga olib kelishi mumkin[2. 2023: P. 115-125.]. Ekranga mukkasidan ketish bolada nutqiy talaffuzlarni chegaralanishi, muloqotdan uzilish hamda ko‘z kasalliklari, fikrlash rivojlanishini cheklashiga olib kelishi mumkin.

3. Bola nutqida noverbal signallar yetishmovchiligi: Bola suhbatdoshining xafa bo‘lishi, xursandchiligi yoki kinoyasi, do‘qi, xafaligini tushunish tajribasidan mahrum bo‘ladi[3. 2019:P.244-250.].

4. Ifodali nutq kechikishi: Raqamli dasturlar va sun’iy intelekt bilan haddan ortiq ko‘p foydalanish hamda u SI bilan nazoratsiz muloqot ota-ona va bola o‘rtasidagi “tabiiy muloqot” zanjirini uzadi. Bu esa nutq rivojlanishida 3-5 yoshli bolalarda ekspressiv nutq kechikishining asosiy sabablaridan biriga aylanib bormoqda[1.2021:P.250-252.].

Ushbu ta’sirlardan kelib chiqib bola nutqi rivojlanishida shaxslararo jonli muloqot almashish zarurligi va muloqot jarayonida bola bilan o‘zaro individual tarzda fikr almashish muhimligiga guvoh bo‘lamiz.

3-5 yoshli maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlanishida ijobiy va salbiy ta’sirlar va tavsiyalar jadvali.

Rivojlanish ko‘rsatkichi	Maktabgacha yosh (3–7 yosh)
Nutqiy diqqat	Artikulyatsiya, fonetika, emotsional va jonli muloqot
Asosiy sun’iy intelekt salbiy ta’sirlari	Nutq kechikishi, pragmatik va noverbal muloqot zayıflashi
Sun’iy intelekt yaratuvchi imkoniyatlari	Ertaklar orqali tasavvur va passiv lug‘atni oshirish
Tavsiya	Juda cheklangan (faqat ota-ona nazorati va insoniy muloqot bilan)

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt bolalar nutqini rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni yaratadigan innovatsion vosita hisoblanibgina qolmay, uning samaradorligi texnologiyaning o‘ziga emas, balki undan qanday lisoniy, pedagogik maqsadlarda, qanday metodika asosida va qanday nazorat ostida foydalanilishiga bog‘liqlikni tashkil etadi. Shu bois bugungi kunda sun’iy intellekt bolalar nutqiy rivojlanishida insonlararo muloqotni o‘rnini bosuvchi yoki almashtiruvchi emas, balki uni to‘ldiruvchi, ruvojlantiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi lisoniy, didaktik vosita sifatida qo‘llanilishi eng maqbul yondashuv hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hirsh-Pasek, K., & Golinkoff, R. M. (2021). Becoming brilliant: What science tells us about raising successful children. American psychological association. P. 250-252.

2. Kasneci, E., et al. (2023). ChatGPT for education: Educational applications and challenges in early assessment. Educational technology & Society, 26(2), 115–125.
3. Madigan, S., Browne, D., Racine, N., Mori, C., & Tough, S. (2019). Association between screen time and children’s performance on a developmental screening test. JAMA Pediatrics, 173(3), 244–250.
4. OECD. *Empowering young children in the digital age*. Paris: OECD Publishing, 2023. – P. 37–49.
5. Zhai, X. (2023). ChatGPT for next-generation education: Opportunities and challenges. Journal of chemical education, 100(6), 2137–2140.

TELEVIDENIYEDA NUTQ MADANIYATI MASALALARI (“ZO‘R TV” TELEKANALI MISOLIDA)

Shirinova Mexrigiyo Shokirovna,
Buxoro davlat universiteti doktoranti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21929708

Annotatsiya. Mazkur maqolada televideniyeda nutq madaniyati masalalari Zo‘r TV telekanali misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda teleboshlovchilar va jurnalistlar nutqining adabiy til me’yorlariga muvofiqligi, talaffuz, urg‘u, intonatsiya, so‘z boyligi hamda uslubiy aniqlik kabi jihatlar ilmiy-nazariy va amaliy asosda o‘rganiladi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarida nutq madaniyatining jamiyat ma’naviy hayoti va yoshlar dunyoqarashiga ta’siri yoritiladi. Tahlil jarayonida telekanal dasturlaridan olingan namunalar asosida nutqdagi ijobiy jihatlar va ayrim kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari televideniye sohasida faoliyat yuritayotgan ijodkorlar, jurnalistlar hamda nutq madaniyati masalalarini o‘rganuvchi tadqiqotchilar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: televideniye, nutq madaniyati, adabiy til me’yorlari, teleboshlovchi nutqi, talaffuz, uslub, intonatsiya, ommaviy axborot vositalari, Zo‘r TV, jurnalistika.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы культуры речи на телевидении на примере телеканала «Zo‘r TV». В исследовании на научно-теоретической и практической основе изучаются такие аспекты, как соответствие речи телеведущих и журналистов нормам литературного языка, произношение, ударение, интонация, словарный запас и стилистическая точность. Также освещается влияние культуры речи в средствах массовой информации на духовную жизнь общества и мировоззрение молодежи. В процессе анализа на основе примеров из передач телеканала выявляются положительные стороны и отдельные недостатки в речи, а также разрабатываются рекомендации по их устранению. Результаты исследования имеют практическое значение для специалистов, работающих в сфере телевидения, журналистов и исследователей, изучающих вопросы культуры речи.

Ключевые слова: телевидение, культура речи, нормы литературного языка, речь телеведущего, произношение, стиль, интонация, средства массовой информации, Zo‘r TV, журналистика.

Abstract. This article analyzes issues of speech culture on television using the example of the "Zo‘r TV" channel. On a scientific-theoretical and practical basis, the study examines aspects such as the compliance of TV presenters' and journalists' speech with literary language norms, pronunciation, stress, intonation, vocabulary, and stylistic accuracy. It also highlights the impact of speech culture in mass media on the spiritual life of society and the worldview of young people. Based on examples from the channel's programming, the analysis identifies positive speech features along with certain shortcomings, proposing actionable recommendations for their resolution. The research findings are of practical value for media professionals, journalists, and researchers studying speech culture.

Keywords: television, speech culture, literary language norms, TV presenter speech, pronunciation, style, intonation, mass media, Zo‘r TV, journalism.

Kirish. Bugungi axborot makonida televideniye nafaqat ko‘ngilochar vosita, balki jamiyat nutq madaniyatini shakllantiruvchi muhim omillardan biridir. Ayniqsa, yoshlar dunyoqarashi va til madaniyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan ommaviy axborot vositalaridan biri – telekanallardir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, so‘nggi yillarda tomoshabinlar e’tiborini tortib kelayotgan Zo‘r TV telekanali faoliyati savol tug‘diradi: bu kanalda ko‘rsatilayotgan ko‘rsatuvlar nutq madaniyati talablariga qanchalik mos? Mazkur savolga javob berishdan oldin telekanal tarixiga biroz to‘xtalsak: Telekanalga 2016-yil 1-iyunda O‘zbekiston Respublikasi hududida efirga chiqish uchun litsenziya olingan. 2017-yil 1-fevralda DVB T1 va DVB T2 ochiq raqamli formatlarda FHD formatida sinov tariqasida texnik efirga uzatish boshlangan. Shu yilning 1-martidan esa Zo‘r TV ko‘ngilochar dasturlari bilan to‘liq ishga tushadi [5]. Mazkur sana O‘zbekiston Respublikasi hududida va qo‘shni davlatlarning chegara hududlarida 24 soat davomida to‘liq efirga chiquvchi birinchi xususiy telekanal tashkil topgan sana sifatida tarixda qoldi. Ishga tushirilishidan oldin sayyod.com internet sahifasida e’lon berilgan. E’londa Zo‘r TV “Tasvir” gazetasi va “Vodiy sadosi” radiosi rahbariyati tomonidan ochilayotganligi, sobiq (TVM) “Markaz TV” kabi yoshlarbop va musiqiy

kanal bo‘lishi, “Navo” va “My5” telekanallari uchun munosib raqobatchi bo‘lishi haqida aytib o‘tilgan. Shuningdek, “Navo” telekanalida namoyish qilinayotgan kliplar-u qo’shiqlarning “sifat”i pastligi, efirni “ijodiy” axlatxonaga aylantirilayotgani tanqid ostiga olingan hamda “Zo‘r TV”da ham efirga mos ko’rinish va eng asosiysi efirda havaskor o‘smir yoshlar emas, professional ijodkorlar bo‘lishini istashlari auditoriya talabi sifatida qayd etilgan. Bundan ko‘rinadiki, tomoshabin har bir telekanalga, har bir ko‘rsatuvga befarq emas. Namoyish etiladigan har bir dastur omma chig‘irig‘idan o‘tadi va o‘ziga munosib bahosini oladi.

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi:

Kuzatish metodi – telekanalning turli janrdagi (ko‘ngilochar, axborot, musiqiy) dasturlari muntazam kuzatildi.

Lingvistik tahlil – boshlovchilar nutqi fonetik, leksik va uslubiy jihatdan o‘rganildi.

Qiyosiy tahlil – aniqlangan nutqiy birliklar adabiy til me’yorlari bilan solishtirildi.

Kontent-tahlil – dasturlarda uchraydigan tipik nutqiy xatolar va ijobiy ko‘rsatkichlar statistik jihatdan umumlashtirildi.

Tahlil uchun ma’lum vaqt oralig‘ida efirga uzatilgan dasturlar tanlab olinib, ularning audioyozuvlari asosida nutqiy birliklar yozma shaklga ko‘chirildi va ilmiy mezonlar asosida o‘rganildi.

Media tili, nutqi, uslubi va uning nutq madaniyatiga ta’siri borasida bir qator ishlar olib borilgan. Shulardan so‘nggi yillarda chop etilgan ayrim ishlar xususida to‘xtalib o‘tamiz. I.Sotvoldiyevaning “*O‘zbek mediatilining lingvistik xususiyatlari va nutq madaniyatiga ta’siri”* nomli maqolasida O‘zbekiston televideniye, radio va internet mediatilining lingvistik xususiyatlari hamda ularning nutq madaniyatiga ta’siri tahlil qilingan. Unda mediatilning leksik, sintaktik, uslubiy jihatlari ko‘rib chiqiladi va adabiy me’yorlar bilan ishlashning dolzarbligi ta’kidlanadi. X.Burxonovning *“Televideniye orqali ommaviy axborot vositalarida til madaniyati va uning rivoji”* maqolasida esa televideniye til madaniyatining shakllanishi, rivojlanishi va teleekrandagi adabiy til me’yorlari muammolari ochib berilgan. L.Po‘latovaning *“O‘zbekiston MTRK axborot dasturlarida boshlovchining nutq madaniyati va uning auditoriyaga ta’siri” maqolasida* teleboshlovchilarning nutq madaniyati, leksik-uslubiy me’yorlar va auditoriyaga ta’siri masalalari yoritilgan. Ammo ma’lum bir telekanal misolida yoritilgan ishlar juda ozchilikni tashkil etadi. Biz Zo‘r TV telekanalida namoyish etiladigan ko‘rsatuvlar nutqidan kelib chiqqan holda tahlil qilishga harakat qildik.

Natijalar. Tahlil natijasida quyidagi holatlar aniqlandi:

Boshlovchilarning aksariyatida nutq ravonligi va auditoriyani jalb etish mahorati yuqori darajada.

Ayrim hollarda shevaga xos talaffuz elementlari hamda urg‘u noto‘g‘ri qo‘yilishi kuzatildi.

Chet tilidan kirib kelgan so‘zlardan ortiqcha foydalanish nutqning soddaligi va tushunarliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ko‘ngilochar dasturlarda emotsional-ekspressiv vositalar faol qo‘llanadi, biroq ba’zan bu holat adabiy uslub me’yoridan chetlanishga olib keladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, telekanalda nutq madaniyatining ijobiy jihatlari ustun bo‘lsa-da, ayrim fonetik va uslubiy kamchiliklar mavjud.

Muhokama. Telekanalning kunlik dasturlarini kuzatar ekanmiz, asosiy dasturlar kino, musiqani tashkil qilib, faqatgina 5-6 tagina dastur ma’lum mavzu doirasida tomoshabinga qaratilgan. Jumladan, “Ertalabdan salom”, “Bu kun” yangiliklar jonli efir, “O‘zimizda” tok-shousi, “Uxlamaysizmi?” jonli efirdagi dasturlar deyarli har kuni namoyish etiladi. “Bu kun” dasturi yangiliklar ulashuvchi jonli efir bo’lganli hamda hayotimizda ro’y berayotgan voqea-hodisalarni to’g’ridan to’g’ri efirga uzatayotgani bois teleboshlovchilar boshqa efirlarga qaraganda nutq madaniyati, adabiy til me’yorlariga ko‘proq amal qilishi kuzatildi. “Ertalabdan salom” va “Uxlamaysizmi?” dasturlarida esa nutq madaniyatidan og‘ish holatlari ko‘proq uchraydi. Olingan natijalar televideniyeda nutq madaniyatini tizimli ravishda nazorat qilish zarurligini ko‘rsatadi. Teleboshlovchilar uchun muntazam ravishda nutq texnikasi, adabiy til me’yorlari va talaffuz bo‘yicha treninglar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, tahririyat qoshida filolog-mutaxassislar ishtirokida nutq monitoringini yo‘lga qo‘yish samarali natija berishi mumkin.

Televideniye keng auditoriyaga ta’sir etuvchi kuchli kommunikativ vosita ekanini inobatga olsak, undagi har bir nutqiy birlik jamiyat til madaniyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli telekanallarda, jumladan, Zo‘r TV faoliyatida nutq madaniyatini yuksaltirish masalasi doimiy e’tiborda bo‘lishi lozim.

Zo‘r TV asosan yoshlar auditoriyasiga yo‘naltirilgan bo‘lib, undagi ko‘rsatuvlar erkin, jonli va zamonaviy uslubda olib boriladi. Bu jihat, albatta, kanalning mashhurligini oshirmoqda. Biroq aynan shu “erkinlik” ba’zan nutq madaniyatining sustlashishiga olib kelayotgani ham sir emas. Ayrim

boshlovchilarning shevaga moyil nutqi, adabiy til me’yorlariga to‘liq rioya qilmasligi, chet tillaridan o‘rinsiz foydalanishi tomoshabinni o‘ylantiradi.

Boshqacha qilib aytganda, televideniye minbar bo‘lsa, unda yangrayotgan har bir so‘z mas’uliyat bilan aytilishi lozim. Zo‘r TVdagi ayrim dasturlarda so‘z boyligi yetarli bo‘lmay, takroriy iboralar, kundalik og‘zaki nutqqa xos so‘zlar ko‘p uchraydi. Bu esa adabiy tilning sayqallanishiga emas, balki soddalashib borishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga, kanalda ijobiy jihatlar ham yo‘q emas. Ba’zi madaniy-ma’rifiy ko‘rsatuvlar, suhbatlar va musiqiy dasturlarda boshlovchilarning ravon, tushunarli va ta’sirchan nutqini ko‘rish mumkin. Bu esa Zo‘r TVda nutq madaniyatiga befarq qaralmayotganidan dalolat beradi. Muammo umumiy emas, balki ayrim dasturlar va ayrim ijrochilar faoliyati bilan bog‘liq. Birgina kuzatishimizni siz bilan o‘rtoqlashamiz: Hammaga ma’lumki, bugungi axborotlashgan va raqamli jamiyatimizda har bir telekanalning onlayn transliteratsiyasi mavjud. Unda istalgan inson istalgan paytda televizor qarshisida o‘tirmay ham efirni kuzatishi mumkin. 2025-yilning 31-dekabr sanasida telekanallar kesimida onlayn tomoshabinlarning miqdorini solishtirdik. Tan olish lozimki, Zo‘r TVda kuzatuvchilar soni eng miqdorni tashkil etdi. Ajablanarlisi shundaki, ko‘rsatuv tipi bir xil bo‘lsa ham mazkur miqdor boshqa telekanallarga qaraganda 10-12 barobar ortiq. Demak, Zo‘r TVdagi dasturlar saviyasi, mazmuni tomoshabinlarga ko‘proq manzur bo‘lyapti. Shu o‘rinda Alan Korenning quyidagi so‘zlarini keltiramiz: *“Televideniye odamlarga qaraganda qiziqroq. Aks holda uyimiz to‘rida televizor emas, odamlar turgan bo‘lardi”*. Bu bilan nima demoqchimiz?! Zo‘r TV – juda katta kuch, juda katta jamoa. Uning mazkur imkoniyatidan tilimizdagi adabiy me’yorlarni saqlashga, uni ommaga tarqatishga foydalanilsa, nur ustiga a’lo nur bo‘lardi. Bizningcha, sayqallangan nutq bilan olib borilgan efirlar telekanal reytingining tushishiga sabab bo‘la olmaydi. Aksincha, auditoriyasi ko‘p telekanallar orqali tilimiz rivojiga hissa qo‘shish – o‘zbek tilida so‘zlovchi har bir fuqaroning insoniylik burchidir.

Xulosa qilib aytganda, Zo‘r TV mazmunan “zo‘r” bo‘lishi bilan birga, nutq madaniyati borasida ham yetuklikka intilishi zarur. Chunki televideniye — millionlab tomoshabinlar uchun til maktabidir. Agar efirda adabiy til me’yorlari, so‘zlash madaniyati va nutq mas’uliyati ustuvor bo‘lsa, Zo‘r TV nafaqat nomi bilan, balki nutqi bilan ham haqiqatan zo‘r bo‘la oladi.

Adabiyotlar:

Sotvoldiyeva, I. X. (2025). *O‘zbek mediatilining lingvistik xususiyatlari va nutq madaniyatiga ta’siri. Innovations in Science and Technologies.*

Burxonov, X. (2025*). Televideniye orqali ommaviy axborot vositalarida til madaniyati va uning rivoji. Zenodo.* DOI: 10.5281/zenodo.15812111

Po‘latova, L. (2026). *O‘zbekiston MTRK axborot dasturlarida boshlovchining nutq madaniyati va uning auditoriyaga ta’siri. Yangi Davr Ilm-fani: Inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar*. DOI: 10.47390/ydif-y2026v2i1/n06

http://www.zortv.uz/

https://uz.wikipedia.org/wiki/Zo%CA%BBr_TV

IQTISODIYOT YO’NALISHI TALABALARIDA TADQIQOTCHILIK KO’NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING FAOL METODLARI

Yaxshimuratova Sevara Rustam qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti
Email:yaxshimuratovasevar@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21929739

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiyot yo’nalishi talabalarida tadqiqotchilik ko’nikmalarini rivojlantirishning faol metodlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Ilgari ishlab chiqilgan pedagogik model asosida muammoli o’qitish, case-study, loyiha metodi, brainstorming, ilmiy tadqiqot metodi va portfolio metodi tadqiqotchilik kompetensiyasining tarkibiy komponentlarini rivojlantirishdagi o’rni bo’yicha ko’rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu metodlarni amalga oshirish shakllari, vositalari va samaradorligini baholash mexanizmi yoritiladi.

Kalit so’zlar: faol metodlar, tadqiqotchilik ko’nikmalari, muammoli o’qitish, case-study, loyiha metodi, iqtisodiyot ta’limi.

Аннотация. В данной статье теоретически и практически анализируются активные методы развития исследовательских умений у студентов экономического направления. На основе ранее разработанной педагогической модели рассматривается роль проблемного обучения, кейс-стади, метода проектов, мозгового штурма, метода научного исследования и метода портфолио в формировании структурных компонентов исследовательской компетенции. Также освещаются организационные формы, средства реализации данных методов и механизм оценки их эффективности.

Ключевые слова: активные методы, исследовательские умения, проблемное обучение, кейс-стади, метод проектов, экономическое образование.

Abstract. This article provides a theoretical and practical analysis of active methods for developing research skills among economics students. Based on a previously developed pedagogical model, the role of problem-based learning, case-study, the project method, brainstorming, the scientific research method, and the portfolio method in forming the structural components of research competence is examined. The organizational forms, tools for implementing these methods, and the mechanism for evaluating their effectiveness are also addressed.

Keywords: active methods, research skills, problem-based learning, case-study, project method, economics education.

Kirish. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida bilim uzatishga qaratilgan an’anaviy paradigma o’z o’rnini talabani faol subyekt sifatidagi tadqiqot jarayoniga jalb qiluvchi yondashuvga bo’shatib bermoqda. Bu tendensiya J. Dyui tomonidan ilgari surilgan ta'lim falsafasiga borib taqaladi - unga ko’ra bilim faqat tayyor holda uzatilmaydi, balki shaxsning faol tajriba va tadqiqot orqali qayta quriladigan jarayonidir [1].

Iqtisodiyot yo’nalishi o’ziga xos xususiyatga ega: bu yerda talaba nafaqat nazariy tushunchalarni o’zlashtirishi, balki statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va xulosalarni ilmiy asoslash ko’nikmalariga ega bo’lishi kerak. Biroq amaliyot shuni ko’rsatadiki, A. Kalmaning tadqiqotida qayd etilganidek, biznes va iqtisodiyot yo’nalishi talabalarining katta qismida ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilish va tadqiqot natijalarini ilmiy asoslash ko’nikmalari yetarli darajada shakllanmagan [2].

O’zbek tadqiqotchilaridan S.N. Allayarova ham talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalb etishda professor-o’qituvchining pedagogik mahorati hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini, biroq bu jarayonning ko’pincha tizimli va faol metodlarga emas, balki alohida tashabbuslarga tayangan holda amalga oshirilayotganini ta’kidlaydi [3]. Bu holat ko’p jihatdan o’qitish jarayonida qo’llaniladigan metodlarning passiv-reproduktiv xarakterda qolib ketayotgani bilan bog'liq.

Shu bois talabalarda tadqiqotchilik ko’nikmalarini rivojlantirishning faol metodlarini ilmiy asoslash, ularni tizimlashtirish va amaliyotga tatbiq etish yo’llarini ishlab chiqish nazariy va amaliy ahamiyatga ega dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Pedagogika fanida “faol metod” tushunchasi ta'lim oluvchining passiv tinglovchidan bilim va ko’nikmalarni mustaqil izlash, tahlil qilish hamda amaliyotga tatbiq etish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishini anglatadi. O’zbek olimi A.A. Abduqodirov pedagogik texnologiyalarni tahlil qilar ekan, faol metodlarning mohiyatini ta'lim oluvchining bilish faoliyatini tashkil etish shakli sifatida emas, balki uning

mustaqil fikrlash, muammoni ko’ra bilish va yechim topish qobiliyatini rivojlantiruvchi vosita sifatida talqin qiladi [4].

R.A. Kutbiddinova va uning hammualliflari oliy ta’lim muassasalarida interaktiv metodlarning qo’llanilishini o’rganib, bunday metodlar an'anaviy ma'ruza-seminar tizimidan farqli o’laroq talabaning bilim olish jarayonidagi rolini tubdan o’zgartirishini - u tayyor ma'lumotni qabul qiluvchidan bilim yaratuvchiga aylanishini asoslab beradi [5]. Ularning fikricha, interaktiv va faol metodlarning samaradorligi, avvalambor, talabaning fikrlash faoliyatini rag’batlantirish, guruhda hamkorlikda ishlash va olingan natijalarni tanqidiy baholash imkoniyatini yaratishida namoyon bo’ladi.

Faol metodlarni tadqiqotchilik ko’nikmalari kontekstida ko’rib chiqqanda, ularning vazifasi shunchaki bilim uzatishni jonlantirish emas, balki talabada tadqiqotchilik faoliyatining barcha bosqichlariga xos bo’lgan komponentlarni - motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-amaliy va refleksiv-baholash komponentlarini - bir vaqtning o’zida shakllantirishdan iborat.

Shu nuqtai nazardan, faol metodlarni tanlash va qo’llashda ular quyidagi ikki talabga javob berishi lozim:

-birinchidan, talabani real yoki realga yaqin muammoli vaziyat bilan yuzma-yuz qo’yishi;

-ikkinchidan, uning bu vaziyatni mustaqil tahlil qilish, dalillash va natijani taqdim etish jarayonini nazorat qilish imkonini berishi.

Ishlab chiqilgan modelning “Faoliyat metodlari” komponentiga muvofiq, iqtisodiyot yo’nalishi talabalarida tadqiqotchilik ko’nikmalarini rivojlantirishda quyidagi faol metodlar tizimli tarzda qo’llaniladi.

Muammoli o’qitish metodi

Muammoli o’qitish talabani tayyor yechimi bo’lmagan real yoki real vaziyatga yaqinlashtirilgan iqtisodiy muammo bilan yuzlashtirishga asoslanadi. A.A. Tawfik va hammualliflari muammoli o’qitishning turli ta'lim bosqichlarida qo’llanilishini tahlil qilib, uning eng muhim afzalligi - ta’lim oluvchida muammoni mustaqil formulalash, mumkin bo’lgan yechim yo’llarini izlash va tanlangan yechimni dalillash ko’nikmalarini bir vaqtda rivojlantirishida ekanligini ko’rsatadilar [6]. Iqtisodiyot yo’nalishida bu metod, masalan, talabaga real makroiqtisodiy statistika asosida “nima uchun inflyatsiya darajasi kutilganidan yuqori bo’ldi” kabi ochiq savolni taqdim etish va uni mustaqil tahlil qildirish orqali amalga oshiriladi.

Case-study (aniq vaziyatlarni tahlil qilish) metodi

Case-study metodi talabalarga real kompaniya, tarmoq yoki makroiqtisodiy vaziyatga oid keys materiallarini tahlil qilish, muammoni aniqlash va asoslangan qaror qabul qilishni taklif etadi. V. Seshan va hammualliflarining tadqiqotida ko’rsatilishicha, keys-tahlil ta’lim oluvchilarda nafaqat nazariy bilimni amaliyotga tatbiq etish, balki bir nechta mumkin bo’lgan yechimlarni qiyoslab, ular orasida eng asoslangan variantni tanlash ko’nikmasini shakllantiradi [7]. Bu metod iqtisodiyot ta'limida ayniqsa qimmatli, chunki u talabani real biznes yoki makroiqtisodiy qarorlar ortidagi murakkab ko’p omilli mantiqqa duch keltiradi.

Loyiha metodi

Loyiha metodi talabalarning ma’lum bir muddat davomida mustaqil yoki guruh holida tadqiqot loyihasini rejalashtirish, amalga oshirish va natijalarni taqdim etish faoliyatini nazarda tutadi. D. Kokotsaki, V. Menzies va A. Vigginsning adabiyotlar tahliliga ko’ra, loyihaviy ta'lim ta'lim oluvchilarda o’z-o’zini boshqarish, vaqtni rejalashtirish, hamkorlikda ishlash hamda yakuniy natijaga mas'uliyat bilan yondashish kabi tadqiqotchilikka xos fazilatlarni rivojlantiradi [8]. Iqtisodiyot yo’nalishida bu metod, masalan, talabaga mahalliy bozor yoki tarmoq bo’yicha mustaqil tadqiqot loyihasini bajarish va uni ilmiy hisobot shaklida taqdim etish topshirig'i orqali amalga oshiriladi.

Brainstorming (fikrlar hujumi) metodi

Brainstorming metodi talabalar guruhida qisqa vaqt ichida iqtisodiy muammoga oid mumkin bo’lgan barcha g’oya va gipotezalarni erkin taklif qilish jarayonini tashkil etishga xizmat qiladi. Bu metod tadqiqot mavzusini tanlash va gipotezalarni shakllantirish bosqichida talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini faollashtiradi, shuningdek ularda o’z fikrini ochiq bildirish va boshqalarning g’oyalarini konstruktiv baholash ko’nikmasini rivojlantiradi.

Ilmiy tadqiqot metodi

Ilmiy tadqiqot metodi talabani to’liq ilmiy izlanish sikliga - muammoni asoslashdan tortib, ma'lumot yig’ish, tahlil qilish va xulosalarni rasmiylashtirishgacha - bevosita jalb qilishni nazarda tutadi. Bu metod talabalar ilmiy to’garaklari, kurs va bitiruv malakaviy ishlari doirasida amalga oshiriladi hamda modelning barcha to’rtta komponentini (motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyatli-amaliy, refleksiv-baholash) yaxlit tarzda rivojlantiradi.

Portfolio metodi

Portfolio metodi talabaning butun o’quv davri mobaynidagi tadqiqot faoliyati natijalarini (maqolalar, tezislar, loyiha hisobotlari, taqdimotlar) tizimli to’plash va ularni davriy ravishda tahlil qilishga asoslanadi. Bu metod, birinchi navbatda, refleksiv-baholash komponentini rivojlantirishga xizmat qiladi - talaba o’z tadqiqotchilik faoliyatidagi o’sishni vaqt davomida kuzatish va baholash imkoniyatiga ega bo’ladi.

Sanab o’tilgan metodlarning barchasi bir-biridan ajralgan holda emas, balki modelning “Tashkiliy shakllar” (seminar, ilmiy to’garak, konferensiya) va “Vositalar va resurslar” (LMS-platformalar, ilmiy bazalar, tahliliy dasturlar) komponentlari bilan uzviy bog'liq holda, yaxlit pedagogik jarayon doirasida qo’llaniladi.

Faol metodlarning samaradorligi ko’p jihatdan ularning qanday tashkiliy shakllar doirasida va qanday vositalar yordamida amalga oshirilishiga bog’liq. Ishlab chiqilgan modelga muvofiq, bu ikki komponent faoliyat metodlari bilan uzviy o’zaro ta’sirda bo’ladi.

Tashkiliy shakllar. An’anaviy ma’ruza va seminar mashg’ulotlari faol metodlarni joriy etish uchun boshlang’ich maydon bo’lib xizmat qiladi - bu yerda muammoli savollar va qisqa keyslar orqali talaba tadqiqotchilik faoliyatiga bosqichma-bosqich jalb etiladi. Ilmiy to’garaklar va ilmiy konferensiyalar esa talabaning mustaqil tadqiqot natijalarini kengroq ilmiy muhitda sinovdan o’tkazish, muhokama qilish va himoya qilish imkonini beradi. Startap va loyiha faoliyati, o’z navbatida, tadqiqotchilik ko’nikmalarini amaliy-tadbirkorlik kontekstiga olib chiqadi - talaba o’z tadqiqot natijalarini nafaqat ilmiy, balki amaliy-tijorat nuqtai nazaridan ham asoslashga o’rganadi.

Vositalar va resurslar. Zamonaviy sharoitda faol metodlarning samarali qo’llanilishi raqamli vositalarsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Moodle kabi LMS-platformalar o’qituvchi va talaba o’rtasidagi tadqiqot topshiriqlari, fikr-mulohaza va baholash jarayonini uzluksiz kuzatib borish imkonini beradi. Google Scholar, Scopus va Web of Science kabi ilmiy bazalar talabani ishonchli va dolzarb ilmiy adabiyot bilan ishlashga, manbalarni tanqidiy tahlil qilishga o’rgatadi. Statistik va tahliliy dasturlar (masalan, Eviews, Stata, SPSS) esa iqtisodiy ma’lumotlarni qayta ishlash va ekonometrik tahlil o’tkazish ko’nikmasini shakllantiradi.

Shunday qilib, faol metodlar tegishli tashkiliy shakl va zamonaviy vositalar bilan uyg'unlashgandagina to’liq samara beradi: metod - “nima qilish kerakligini”, tashkiliy shakl - “qayerda va qanday tashkil etilishini”, vosita esa - “qanday texnik imkoniyat bilan ta’minlanishini” belgilaydi.

Faol metodlarning tadqiqotchilik ko’nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlash uchun uzluksiz qayta aloqa (feedback) mexanizmi zarur bo’ladi. Bu mexanizm uch bosqichni - monitoring, tahlil va jarayonni takomillashtirishni - o’z ichiga oladi va o’qituvchiga qo’llanilayotgan metodlarni talabaning haqiqiy ehtiyojlariga moslab borish imkonini beradi.

Xalqaro tajribada bu borada J. Willison va K. O’Reganning Research Skill Development (RSD) freymvorki keng tan olingan. Ushbu freymvork tadqiqotchilik ko’nikmalarini talabaning mustaqillik darajasiga qarab bosqichma-bosqich rivojlanadigan jarayon sifatida ko’rib chiqishni, shu bilan birga har bir bosqichda aniq baholanadigan ko’rsatkichlarni belgilashni taklif etadi [9]. Bu yondashuv faol metodlarni tasodifiy emas, balki talabaning mustaqillik darajasi oshib borishiga mos ravishda izchil qo’llash zaruratini asoslaydi.

Ishlab chiqilgan modelga muvofiq, baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi: tadqiqot metodlarini bilish darajasi, axborot manbalari bilan ishlash ko’nikmasi, ilmiy maqola va tezis yozish ko’nikmasi, ma'lumotlarni tahlil qilish ko’nikmasi, natijalarni taqdim etish ko’nikmasi hamda refleksiya va o’z-o’zini baholash ko’nikmasi. Ushbu mezonlar bo’yicha talabaning ko’rsatkichlari past, o’rta, yetarli va yuqori darajalarga ajratiladi, bu esa har bir talaba uchun individual rivojlanish traektoriyasini kuzatib borish imkonini yaratadi.

Qayta aloqa mexanizmining amaliy ahamiyati shundaki, u faqat yakuniy natijani emas, balki butun jarayonni - muammoni qo’yishdan tortib xulosa chiqarishgacha bo’lgan har bir bosqichni - nazorat qilish va zarur hollarda tuzatish imkonini beradi. Shu tariqa baholash tizimi nafaqat nazorat vositasi, balki faol metodlarning o’zini takomillashtirib boruvchi uzluksiz mexanizmga aylanadi.

XULOSA

O’tkazilgan tahlil shuni ko’rsatadiki, iqtisodiyot yo’nalishi talabalarida tadqiqotchilik ko’nikmalarini rivojlantirish faqat nazariy bilim hajmini oshirish orqali emas, balki talabani faol, mustaqil izlanuvchi subyekt sifatida tadqiqot jarayoniga jalb qiluvchi metodlar tizimi orqali samarali amalga oshiriladi.

Faol metodlar - muammoli o’qitish, case-study, loyiha metodi, brainstorming, ilmiy tadqiqot metodi va portfolio metodi - har biri tadqiqotchilik kompetensiyasining muayyan komponentini rivojlantirishga

xizmat qiladi, biroq ularning to’liq samarasi faqat tegishli tashkiliy shakllar va zamonaviy vositalar bilan uyg'unlashgandagina namoyon bo’ladi.

Faol metodlarni qo’llash jarayoni tasodifiy emas, balki talabaning mustaqillik darajasi oshib borishiga mos ravishda izchil va bosqichma-bosqich tashkil etilishi, shuningdek uzluksiz qayta aloqa mexanizmi orqali monitoring qilinishi va takomillashtirilishi lozim. Aynan shu yondashuv iqtisodiyot yo’nalishi talabalarida barqaror va amaliyotga tayyor tadqiqotchilik ko’nikmalarining shakllanishini ta’minlaydi.

Kelgusi tadqiqotlar faol metodlar tizimini aniq o’quv jarayonida sinovdan o’tkazish, ularning ta'sirini miqdoriy ko’rsatkichlar orqali baholash hamda har bir metodning turli mustaqillik darajasidagi talabalar uchun optimal qo’llanilish shartlarini aniqlashtirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Dewey J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. — New York: Macmillan, 1916. — 434 p.

2. Calma A. Using assurance of learning data to assess business students' research skills // Quality Assurance in Education: An International Perspective. — 2023. — Vol. 31, № 4. — P. 586-599. — DOI: 10.1108/QAE-01-2023-0003.

3. Allayarova S.N. Talabalarni ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalb etishda professor-o’qituvchi pedagogik mahoratining ahamiyati // Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире: халқаро конференция материаллари. — 2023. — Т. 1, № 3.

4. Abduqodirov A.A. Pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. — 160 b.

5. Kutbiddinova, R.A., Eromasova, A.A. & Romanova, M.A. The Use of Interactive Methods in the Educational Process of the Higher Education Institution // International Journal of Environmental & Science Education. — 2016. — Vol. 11, № 14. — P. 6557-6572.

6. Tawfik A.A. et al. How K-12 Teachers Adapt Problem-Based Learning // Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning. — 2021. — Vol. 15, Issue 1.

7. Seshan V., Matua G.A., Raghavan D., Arulappan J., Al Hashmi I., Roach E.J., Sunderraj S.E., Prince E.J. Case Study Analysis as an Effective Teaching Strategy: Perceptions of Undergraduate Nursing Students From a Middle Eastern Country // SAGE Open Nursing. — 2021. — Vol. 7.

8. Kokotsaki D., Menzies V., Wiggins A. Project-based learning: A review of the literature // Improving Schools. — 2016. — Vol. 19, Issue 3. — P. 267-277.

9. Willison J., O’Regan K. Research Skill Development Framework. — Adelaide: University of Adelaide, 2018. — URL: https://www.adelaide.edu.au/rsd/

TUSHUNTIRILADIGAN SUN’IY INTELLEKT IZCHILLIGIGA ASOSLANGAN MOSLASHTIRILGAN KO‘P MEZONLI BAHOLASH MODELI

Yuldashev Nodirbek Abdumannob o‘g‘li
p.f.f.d., (PhD), Andijon davlat texnika instituti
nodirbek4405979@gmail.com Tel: +99897 1640396
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21929800

Annotatsiya. Mashinaviy o‘rganish modellari qaror qo‘llab-quvvatlash tizimlarida yuqori bashorat aniqligini ta’minlasa-da, «qora quti» xarakteri yakuniy tavsiyani himoya qilishni qiyinlashtiradi. Mavjud yondashuvlarda tushuntiriladigan sun’iy intellekt (TSI) ko‘pincha baholash siklidan tashqaridagi post-hoc modul bo‘lib qoladi, mezon vaznlari esa statik qabul qilinadi. Maqolada TSI tushuntirishlarining izchillik (faithfulness) ko‘rsatkichi orqali mezon vaznlarini iterativ moslashtiruvchi matematik model taklif etiladi. Entropiya usuli va ekspert baholari kombinatsiyasidan hosil bo‘lgan boshlang‘ich vaznlar atributsiya vektorlarining normallashtirilgan qaror matritsasi bilan rang korrelyatsiyasi asosida yangilanadi hamda birlik simpleksga proyeksiya orqali barqarorlashtiriladi. O(t·m·n) murakkablikdagi ATSI-MCDM algoritmi klassik TOPSIS va statik TSI–MCDM sxemalaridan farqli ravishda rang barqarorligi bilan tushuntirish izchilligini bir vaqtda hisobga oladi. Model yuqori mas’uliyatli sohalarda shaffof, auditga tayyor qaror qo‘llab-quvvatlashiga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: tushuntiriladigan sun’iy intellekt (TSI), ko‘p mezonli qaror qabul qilish, moslashuvchan vaznlash, entropiya usuli, rang korrelyatsiyasi, qaror qo‘llab-quvvatlash tizimi.

Аннотация. Модели машинного обучения в системах поддержки принятия решений достигают высокой точности прогнозирования, однако их «черноящичный» характер затрудняет обоснование окончательных рекомендаций. В существующих подходах объяснимый искусственный интеллект (XAI) обычно остается модулем, выполняемым постфактум вне цикла оценки, в то время как весовые коэффициенты критериев считаются статическими. В данной статье предлагается математическая модель, которая итеративно адаптирует весовые коэффициенты критериев в зависимости от достоверности объяснений XAI. Начальные весовые коэффициенты, полученные путем сочетания метода энтропии и экспертных оценок, обновляются в соответствии с ранговой корреляцией между векторами атрибуции и нормализованной матрицей решений и стабилизируются путем проекции на единичный симплекс. Полученный алгоритм AXAI-MCDM со сложностью O(t·m·n), в отличие от классического TOPSIS и статических схем XAI–MCDM, одновременно учитывает стабильность ранга и согласованность объяснений. Модель обеспечивает прозрачную, готовую к аудиту поддержку принятия решений в областях с высокими ставками.

Ключевые слова: объяснимый искусственный интеллект, многокритериальное принятие решений, адаптивное взвешивание, метод энтропии, ранговая корреляция, система поддержки принятия решений.

Abstract. Machine learning models in decision support systems achieve high predictive accuracy, yet their black-box nature hampers the justification of final recommendations. In existing approaches, explainable AI (XAI) typically remains a post-hoc module outside the evaluation cycle, while criterion weights are assumed static. This paper proposes a mathematical model that iteratively adapts criterion weights through the faithfulness of XAI explanations. Initial weights obtained from a combination of the entropy method and expert judgments are updated according to the rank correlation between attribution vectors and the normalized decision matrix and stabilized by projection onto the unit simplex. The resulting AXAI-MCDM algorithm of O(t·m·n) complexity, unlike classical TOPSIS and static XAI–MCDM schemes, jointly accounts for rank stability and explanation consistency. The model serves transparent, audit-ready decision support in high-stakes domains.
Keywords: explainable artificial intelligence, multi-criteria decision making, adaptive weighting, entropy method, rank correlation, decision support system.

1. KIRISH. Sun’iy intellekt tizimlari tibbiyot, moliya, energetika va muhandislik loyihalash kabi qarorlarning narxi yuqori bo‘lgan sohalarga chuqur kirib bordi. Mashinaviy o‘rganish modellari katta hajmdagi ma’lumotlardan murakkab bog‘liqliklarni ajratib olishda inson ekspertidan kam bo‘lmagan aniqlik ko‘rsatadi. Biroq amaliyot ko‘rsatishicha, bashorat aniqligining o‘sishi yagona yetarli mezon emas: model qanday xulosaga kelganini tushuntira olmasa, uning tavsiyasiga tayanib qaror qabul qilish

institutsional jihatdan himoyasiz qoladi. Xususan, qaror natijasi inson salomatligi, moliyaviy barqarorlik yoki infratuzilma xavfsizligiga bevosita ta’sir etadigan vaziyatlarda shaffoflik talab qilinadi.

Shu ehtiyojdan tushuntiriladigan sun’iy intellekt (TSI) yo‘nalishi shakllandi va so‘nggi yillarda uning usullari, taksonomiyasi hamda baholash amaliyoti bo‘yicha yetuk sharhlar paydo bo‘ldi [14, 15, 18, 19]. Ammo so‘nggi tadqiqotlar tushuntirishning o‘zi ham ishonchlilik muammosidan xoli emasligini ko‘rsatdi: Thuy va Benoit [20] neyron tarmoqlarda noaniqlik baholari bilan tushuntirishlar uzviy bog‘lanmaganini, Bayer va hamkasblari [4] esa soha ekspertizasining TSI tavsiyalariga ishonchda hal qiluvchi rol o‘ynashini empirik asosda ko‘rsatdi. Demak, tushuntirishning mavjudligi yetarli emas uning qaror mezonlari bilan izchilligini miqdoriy baholash zarur.

Parallel ravishda ko‘p mezonli qaror qabul qilish (MCDM) apparati TOPSIS, AHP, VIKOR va ularning entropiyaviy modifikatsiyalari muqobillarni o‘zaro zid mezonlar bo‘yicha reytinglashning yetuk usullarini taklif qiladi. Chen [8] entropiya vaznining TOPSIS natijalariga ta’sirini tizimli tahlil qildi, Chen [7] entropiya-AHP kombinatsiyasi orqali subyektiv va obyektiv vaznlarni muvozanatladi, Zhang va hamkasblari [21] ulrang axborot entropiyasiga asoslangan umumlashtirilgan modelni taklif etdi. Ushbu yo‘nalishdagi tub cheklov vaznlar bir marta aniqlangach, baholash jarayonining qolgan qismida o‘zgarmas qoladi.

TSI va MCDM kesishmasida ham muhim ishlar mavjud: moliyaviy MCDM da TSI qo‘llanilishi sharhlangan [9], noaniq mantiq asosidagi MCDM LIME bilan birlashtirilgan [2], GIS va noaniq to‘plamlar XAI bilan integratsiyalangan [1], turizm iqtisodiyotida TSI–MCDM kombinatsiyasi sinovdan o‘tkazilgan [10], TSI usulining o‘zini MCDM orqali tanlash taklif qilingan [13], surrogat modellarni ko‘p maqsadli optimallashtirishda MCDM qadami kiritilgan [16], tushuntirishlar ranglar agregatsiyasi orqali birlashtirilgan [6]. Shunga qaramay, ushbu ishlar to‘rtta umumiy cheklovni saqlab qoladi: (i) mezon vaznlari tushuntirish natijalaridan qat’iy nazar statik; (ii) TSI moduli baholash sikliga kiritilmay, tashqi ilova bo‘lib qoladi; (iii) tushuntirish izchilligi bilan mezon ahamiyati o‘rtasidagi teskari aloqa formal matematik model ko‘rinishida ifodalanmagan; (iv) gibrid sxemalarning hisoblash murakkabligi va rang barqarorligi tahlil qilinmaydi.

Ushbu bo‘shliqlarni yopish maqsadida tushuntirish izchilligini mezon vaznlarining iterativ moslashuvi bilan uzviy bog‘lovchi integratsiyalashgan matematik model va unga mos ATSI-MCDM algoritmi ishlab chiqildi. Ishning ilmiy hissasi: (1) izchillik F_j ni mezon vazni w_j ga endogen ta’sir qiluvchi o‘zgaruvchi sifatida kirituvchi, vaznlar fazosi birlik simpleksda belgilangan formal model; (2) izchillikning o‘rtacha qiymatidan og‘ishga proporsional, simpleks proyeksiyasi bilan barqarorlashtirilgan ko‘paytiruvchi vazn yangilanish qoidasi; (3) bazaviy modelni qayta o‘qitishni talab qilmaydigan O(t·m·n) murakkablikdagi algoritm; (4) rang barqarorligi va izchillik dinamikasini birga baholovchi metrikalar majmui.

2. ASOSIY QISM

2.1. Adabiyotlar tahlili: mavjud yondashuvlar va ularning cheklovlari

Mavjud tadqiqotlarni uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh — sof MCDM yo‘nalishi: entropiya, AHP va ularning gibridlari obyektiv vaznlashni takomillashtiradi [7, 8, 21], biriktirilgan XAI komponenti esa mavjud emas. Ikkinchi guruh —TSAI uslubiyoti: atributsiya usullari (LIME, SHAP), ularning taksonomiyasi va baholash mezonlari yetuk darajada sharhlangan [14, 15, 18, 19], ammo bu ishlar tushuntirishni yakuniy mahsulot deb biladi, uni keyingi qaror sikliga qaytarmaydi. Uchinchi guruh — yaqin yillardagi integratsiyaviy ishlar [1, 2, 6, 10, 13, 16]: ularda TSI va MCDM bir tizimda uchraydi, lekin o‘zaro ta’sir bir tomonlama qoladi — tushuntirish faqat hisobot beradi, vaznlarga ta’sir etmaydi. 1-jadvalda vakillik tadqiqotlarning qiyosiy tahlili keltirilgan.


1-jadval. TSI va MCDM integratsiyasiga oid vakillik tadqiqotlarning qiyosiy tahlili

Manba	Qo‘llanish sohasi	XAI roli	Vaznlash sxemasi	Moslashuvchan vazn
Chen (2020, 2021) [7, 8]	Yetkazuvchi tanlash; usul tahlili	qo‘llanmaydi	entropiya-AHP; entropiya	yo‘q
Černevičienė, Kabašinskas (2022) [9]	Moliyaviy MCDM sharhi	sharh obyekti	klassik MCDM	yo‘q

Manba	Qo‘llanish sohasi	XAI roli	Vaznlash sxemasi	Moslashuvchan vazn
Albahri va boshq. (2024) [2]	Tibbiy triaj (autizm)	LIME — hisobot	noaniq MCDM	yo‘q
Al Awadh, Mallick (2024) [1]	Chiqindi maydoni (GIS)	atributsiya — hisobot	noaniq + GIS	yo‘q
Aliyeva, Mehdiyev (2024) [3]	XAI baholash (sog‘liq)	baholanuvchi obyekt	Z-sonli WSM	qisman (noaniqlik)
Ciano, Ferrara (2025) [10]	Turizm iqtisodiyoti	SHAP — hisobot	klassik MCDM	yo‘q
Matejová, Paralič (2025) [13]	XAI usulini tanlash	baholanuvchi obyekt	ketma-ket MCDM	yo‘q
Taklif etilgan model	Umumiy QQ tizimlari	vaznlashga endogen	entropiya + ekspert + izchillik	bor (iterativ)

2.2. Taklif etilgan model: arxitektura va matematik formulirovka

A = {a_1, …, a_m} — muqobillar, C = {c_1, …, c_n} — baholash mezonlari to‘plami bo‘lsin; X = (x_ij) qaror matritsasi. Masala beshlik sifatida qo‘yiladi: ⟨A, C, X, f, E⟩, bu yerda f — oldindan o‘qitilgan bashorat modeli (ŷ_i = f(x_i)), E — har bir muqobil uchun atributsiya vektorini qaytaruvchi post-hoc tushuntirish moduli. Atributsiyalarni jamlash Φ = (φ_ij) matritsasini beradi, φ_ij esa c_j mezonining a_i bashoratiga kiritgan hissasini bildiradi. Maqsad — shunday w = (w_1, …, w_n) topishki, u ma’lumotlarning axborot tarkibini va ekspert bilimini aks ettirish bilan birga, agregat reyting S_i(w) bilan tushuntirish tuzilmasi Φ o‘rtasidagi izchillikni maksimallashtirsin. Modelning konseptual arxitekturasi 1-rasmda ko‘rsatilgan: qaror matritsasi, bashorat modeli va tushuntirish moduli bitta moslashtirish yadrosiga ulanadi, yadro chiqishi esa teskari aloqa konturi orqali vaznlarni qayta hisoblaydi.



1-rasm. Konseptual arxitektura: qaror matritsasi, ML modeli, tushuntirish moduli, boshlang‘ich vaznlar bloki, moslashtirish yadrosi va teskari aloqa konturi

Matematik formulirovka to‘rt blokdan tashkil topadi. Birinchidan, fizik o‘lchovlari turlicha mezonlar vektor usulda normallashtiriladi (foyda mezonlari uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri, xarajat mezonlari uchun teskari qiymat orqali):

$$r_{ij} = x_{ij} / \sqrt{(\Sigma_i\, x_{ij}^2)} \quad yoki \quad r_{ij} = (1/x_{ij}) / \sqrt{(\Sigma_i\, (1/x_{ij})^2)} \qquad (1)$$

Ikkinchidan, har bir mezonning axborot sig‘imi Shennon entropiyasi bilan baholanib, obyektiv vaznlar hosil qilinadi; entropiya qancha past bo‘lsa, mezon baholashga shuncha ko‘proq farqlanuvchi axborot kiritadi:

$$H_j = -(1/\ln m)\cdot\Sigma_i\, p_{ij} \ln p_{ij},\quad p_{ij} = r_{ij} / \Sigma_i\, r_{ij};\quad w_j^{e} = (1 - H_j) / \Sigma_l\,(1 - H_l) \qquad (2)$$

Boshlang‘ich vazn obyektiv va subyektiv (ekspert, w_j^s) komponentlarning kombinatsiyasidan olinadi [7]:

$$w_j^{(0)} = \alpha\cdot w_j^{e} + (1 - \alpha)\cdot w_j^{s},\quad \alpha \in [0, 1] \qquad (3)$$

Uchinchidan, modelning markaziy elementi — tushuntirish izchilligi. Atributsiya vektori φ_·j ning mezon qiymatlari r_·j bilan muqobillar kesimidagi tartib mosligi Spirmen rang korrelyatsiyasi orqali o‘lchanadi:

$$F_j = \rho(\varphi_{\cdot j}, r_{\cdot j}) = 1 - 6\cdot\Sigma_i\, d_i^2 / (m(m^2 - 1)),\quad F_j \in [-1, 1] \qquad (4)$$

F_j → 1 bo‘lishi model e’tibori mezonning real ahamiyat tartibi bilan izchil ekanini bildiradi. To‘rtinchidan, vaznlar izchillikning o‘rtacha qiymati $\bar{F}$ dan og‘ishga proporsional ko‘paytiruvchi qoida bilan yangilanadi va birlik simpleksga proyeksiyalanadi:

$$\tilde{w}_j^{(t+1)} = w_j^{(t)}(1 + \lambda(F_j^{(t)} - \bar{F}^{(t)})),\quad w^{(t+1)} = \tilde{w}^{(t+1)} / \Sigma_j\, \tilde{w}_j^{(t+1)} \qquad (5)$$


Quyi chegara ε har qanday mezonning jarayondan butunlay chiqib ketishini istisno qiladi — institutsional jihatdan majburiy mezonlarni saqlash uchun muhim. Yakuniy baho vaznli yig‘indi, reyting esa TOPSIS paradigmasida ijobiy (D_i+) va salbiy (D_i−) ideal yechimlarga nisbiy yaqinlik orqali aniqlanadi:

$$S_i(w) = \Sigma_j\, w_j\, r_{ij};\quad C_i = D_i^{-} / (D_i^{+} + D_i^{-}) \qquad (6)$$

Butun sxema min_w D(w) = 1 − ρ(S(w), ŷ) cheklovli masalasining gradiyentsiz yechim algoritmi sifatida talqin qilinadi: (5) ning har qadami izchillik o‘lchoviga moslab vaznlar fazosida kichik, nazorat qilinadigan harakatdir. Barqarorlik sharti oddiy: |λ(F_j − $\bar{F}$)| ≤ 2λ bo‘lgani uchun λ < 1/2 da har bir vazn komponenti (1 − 2λ, 1 + 2λ) intervalidan chiqmaydi, proyeksiya esa ketma-ketlikni simpleks ichida chegaralaydi; Σ_j(F_j − $\bar{F}$) = 0 tenglik vaznlar yig‘indisining og‘ishini ikkinchi tartibli kichik kattalikka tushiradi, demak ‖w^(t+1) − w^(t)‖₂ → 0.

2.3. AXAI-MCDM algoritmi

Algoritm sakkiz bosqichda amalga oshiriladi (2-rasm): (1) X ni (1) bo‘yicha normallashtirish; (2) entropiya vaznlari va (3) kombinatsiyasi orqali w^(0) ni shakllantirish; (3) ŷ_i bashoratlari va Φ atributsiya matritsasini olish; (4) har bir mezon uchun F_j (4) va $\bar{F}$ ni hisoblash; (5) to‘xtatish sharti — max_j |F_j − $\bar{F}$| ≤ ε yoki ‖Δw‖₂ < δ; (6) vaznlarni (5) qoidasi bilan yangilash va simpleksga proyeksiyalash; (7) zarurat bo‘lsa Φ ni qayta tekshirib 4-bosqichga qaytish; (8) S_i(w), C_i (6) va mezonlar kesimidagi izchillik xaritasi {F_j} ni chiqarish.



2-rasm. AXAI-MCDM algoritmining ish jarayoni (workflow): sakkiz bosqich, to‘xtatish sharti va vazn yangilash sikli

Hisoblash murakkabligi: normallashtirish va entropiya O(m·n); atributsiya matritsasi SHAP tipidagi usullar uchun bir marta O(m·n·p) (p - surrogat namunalar soni); har iteratsiya korrelyatsiya O(m·n), ranglash O(m log m), yangilash O(n). Umumiy murakkablik O(m·n·p + t·(m·n + m log m)) ≈ O(t·m·n). Muhim xossa algoritm f ni qayta o‘qitishni talab qilmaydi, shuning uchun mavjud tizimlarga minimal aralashuv bilan joylashtiriladi; u model-agnostik bo‘lib, E sifatida LIME, SHAP yoki integratsiyalashgan gradientlarning istalganni qabul qiladi [14, 19].

2.4. Qiyosiy tahlil va ilmiy muhokama

Taklif etilgan sxema uch bazaviy yondashuv bilan klassik TOPSIS (statik ekspert vaznlari), entropiya-TOPSIS [8] hamda statik TSI–MCDM ([2] uslubida, tushuntirish faqat hisobot uchun) konstruktiv xossalari bo‘yicha qiyoslandi (2-jadval). Baholash metrikalari sifatida to‘rt o‘lchov qabul qilindi: agregat reyting bilan model bashoratlari tartibining mosligi (Spirmen ρ), rang juftliklarining konkordantligi (Kendall τ), o‘rtacha izchillik F̄ hamda vazn barqarorligi σ_w = ‖w^(t+1) − w^(t)‖₂birinchi juftlik reyting sifatini, ikkinchisi moslashtirish siklining ichki dinamikasini aks ettiradi.

2-jadval. Yondashuvlarning konstruktiv xossalari bo‘yicha qiyosiy tahlili

Yondashuv	Vazn moslashuvchanligi	Izchillik hisobga olinishi	Murakkablik	Rang barqarorligi
Klassik TOPSIS	yo‘q (statik ekspert)	yo‘q	O(m·n)	ma’lumot siljishiga sezgir
Entropiya-TOPSIS [8]	yo‘q (statik obyektiv)	yo‘q	O(m·n)	taqsimotga bog‘liq
Statik XAI–MCDM [2]	yo‘q	faqat hisobotda	O(m·n·p)	bazaviy sxema kabi
AXAI-MCDM (taklif)	bor (iterativ, teskari aloqali)	vaznlashga endogen	O(t·m·n)	ε va λ orqali boshqariladi

Qiyoslashning asosiy xulosasi — izchillikning roli haqida. Statik sxemalarda tushuntirish reytingga ta’sir etmaydi: u faqat inson o‘qiydigan ilova. Taklif etilgan modelda esa F_j vazn dinamikasining kiruvchi kattaligi bo‘lib, reyting model f ishonch bilan tayana oladigan mezonlarga tortiladi; buning evaziga murakkablik t omiliga o‘sadi, ammo $\lambda < 1/2$ shartda tez yaqinlashuv kutiladiganidan t kichik qoladi. Aliyeva va Mehdiyev [3] noaniqlikni Z-sonlar orqali modellashtiradi; bizning sxemada esa u izchillik og‘ishlari orqali vazn fazosiga o‘tkaziladi — ikki yondashuv bir-birini to‘ldiruvchi tabiatga ega. Modelning kuchli tomonlari: model-agnostiklik, har bir vazn o‘zgarishining aniq sababi ko‘rsatilishi (audit talabiga javob), ε orqali majburiy mezonlarning saqlanishi. Zaif tomonlari ham bor: natija E moduli sifatiga meros bo‘lib qoladi — past sifatli atributsiyalar vaznni xato yo‘nalishga siljitishi mumkin; α va λ tanlovi sezgirlik tahlilini talab qiladi; korrelyatsiya esa sababiylik emas, F_j yuqoriligi mezonning haqiqiy sababiy ahamiyatini kafolatlamaydi.

3. XULOSA. Maqolada qaror qo‘llab-quvvatlash tizimlari uchun TSI tushuntirishlarining izchilligini mezon vaznlariga endogen bog‘lovchi matematik model va AXAI-MCDM algoritmi taklif etildi. Asosiy natijalar: entropiya va ekspert vaznlarining kombinatsiyasi obyektiv axborot bilan subyektiv bilimni muvozanatlaydi; Spirmen korrelyatsiyasiga asoslangan izchillik o‘lchovi tushuntirish sifatini vazn fazosiga miqdoriy kiritadi; ko‘paytiruvchi yangilanish qoidasi bilan simpleks proyeksiyasi birgalikda $\lambda < 1/2$ shartda barqaror moslashtirishni kafolatlaydi; algoritm O(t·m·n) murakkablikda ishlaydi va bazaviy modelni qayta o‘qitmaydi.

Ilmiy hissa — TSI va MCDM adabiyotlaridagi tushuntirish izchilligi bilan mezon ahamiyati o‘rtasidagi teskari aloqa yo‘qligi bo‘shlig‘ining formal yopilishidadir: avvalgi integratsiyalardan farqli ravishda tushuntirish statik hisobot vositasidan baholash siklining faol komponentiga aylanadi. Amaliy ahamiyat uch yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: yuqori mas’uliyatli sohalarda reytinglar izchillik baholari bilan birga taqdim etilib, auditga tayyor hujjatli asos yaratiladi; mavjud ML quvurlariga alohida qatlam sifatida o‘rnatiladi; izchillik xaritasi modelning qaysi mezonlarga ishonchsiz tayanayotganini ko‘rsatib, ma’lumot yig‘ish strategiyasini tuzatishga xizmat qiladi.

Kelgusi tadqiqotlar: izchillik o‘lchovini Z-sonlar yoki ikkilanuvchi noaniq to‘plamlar tiliga kengaytirish; inson ishtirokidagi tajribalar orqali ekspertlarning moslashtirilgan reytinglarga ishonchini o‘lchash; ochiq benchmark ma’lumotlarida statik sxemalar bilan miqdoriy solishtiruvchi eksperimentlar hamda α, λ parametrlarining Bayesian optimallashtirish orqali avtomatik kalibrlanishini tadqiq etish rejalashtirilgan.

Adabiyotlar

[1] Al Awadh, M., & Mallick, J. (2024). A decision-making framework for landfill site selection in Saudi Arabia using explainable artificial intelligence and multi-criteria analysis. Environmental Technology & Innovation. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2352186423004601

[2] Albahri, A. S., Joudar, S. S., Hamid, R. A., Zahid, I. A., et al. (2024). Explainable artificial intelligence multimodal of autism triage levels using fuzzy approach-based multi-criteria decision-making and LIME. International Journal of Fuzzy Systems. https://link.springer.com/article/10.1007/s40815-023-01597-9

[3] Aliyeva, K., & Mehdiyev, N. (2024). Uncertainty-aware multi-criteria decision analysis for evaluation of explainable artificial intelligence methods: A use case from the healthcare domain. Information Sciences. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0020025523015724

[4] Bayer, S., Gimpel, H., & Markgraf, M. (2022). The role of domain expertise in trusting and following explainable AI decision support systems. Journal of Decision Systems. https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/12460125.2021.1958505

[5] Charmet, F., Tanuwidjaja, H. C., Ayoubi, S., et al. (2022). Explainable artificial intelligence for cybersecurity: A literature survey. Annals of Telecommunications. https://link.springer.com/article/10.1007/s12243-022-00926-7

[6] Chatterjee, S., Colombo, E. R., et al. (2025). Multi-criteria rank-based aggregation for explainable AI. In Proceedings of the 2025 International Joint Conference. IEEE. https://ieeexplore.ieee.org/abstract/document/11228222/

[7] Chen, C. H. (2020). A novel multi-criteria decision-making model for building material supplier selection based on entropy-AHP weighted TOPSIS. Entropy, 22(2), 259. https://www.mdpi.com/1099-4300/22/2/259

[8] Chen, P. (2021). Effects of the entropy weight on TOPSIS. Expert Systems with Applications. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0957417420309209

UZLUKSIZ MUSIQIY TA’LIM TIZIMIDA MUMTOZ VA MAQOM MUSIQASINI O‘QITISHNI PEDAGOGIK LOYIHALASH MEXANIZMLARI

Qudratova Elnoza Ismatillayevna
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Musiqiy ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21929840

ANNOTATSIYA: Maqolada umumta’lim maktablari musiqa madaniyati darslarida mumtoz musiqa mavzusida darslarni tashkil etishdagi mavjud muammolar hamda ularning yechimi yo‘lida pedagogika oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini mumtoz musiqa bo‘yicha maktab ta’limiga tayyorlash borasidagi darslarni texnologik loyihalashning afzalliklari haqida fikr yuritilgan.
Kalit so‘zlar: maktab, musiqa madaniyati, mumtoz musiqa, tashkil etish, texnologiya, loyihalash, bo‘lajak o‘qituvchi, afzallik
ABSTRACT: This article considers the benefits of organizing music lessons on the basis of technological designing on the topics of classical music in secondary schools, describes the existing problems in preparation of future music teachers in higher educational institutions.
Key words: school, music culture, classical music, organization, technology, design, future teacher, advantage.
АННОТАЦИЯ: В статьерассмотрено преимущество организации уроков музыки по принципу технологического проектирования по темам классической музыки в общеобразовательных школах, описаны имеющиеся проблемы по подготовке будущих учителей музыки в высших педагогических учебных заведениях.
Ключевые слова: школа, музыкалная культура, классическая музыка, организация, технология, проектирование, будущий учитель, преимущество.

Har qanday jamiyatning mavjudligi, yashovchanligi va mustaqilligini belgilovchi ma’naviy, madaniy omillari bo‘lgani kabi o‘zbek xalqining g‘oyat ulkan va teran ildizlariga ega bo‘lgan milliy qadriyatlari mamlakatimiz mustaqilligining ma’naviy-madaniy va mafkuraviy asoslarini mustahkamlaydigan eng muhim omildir. Bu haqiqat O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning respublikamiz mustaqil rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy istiqboli yo‘lida yaratgan asarlari hamda qator qaror va farmonlarida har tomonlama asoslab berildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2017-yil 17-noyabr, PQ-3391-son) hamda “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (2018-yil 28-noyabr, PQ-4038-son) qarorlari ushbu alohida strategik yo‘nalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Respublikamizda amal qilayotgan uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlaridagi kabi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining musiqa fani va darsliklarida xalq musiqa merosi namunalariga keng o‘rin berilgan. Ta’limning ilk davridan boshlab o‘quvchilarni o‘zbek xalq kuy-qo‘shiqlari, ayniqsa o‘zbek xalqining tarixiy-madaniy qadriyati — mumtoz va maqom san’ati bilan yaqindan tanishtirib borish, namunalarni tinglash va kuylash jarayonida ularning badiiy ruhiyatidan foydalangan holda o‘quvchilarda musiqa madaniyati namunalari vositasida milliy o‘zlikni anglash, badiiy-estetik dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan.

O‘zbek xalq musiqiy merosi tarkibida mumtozlik kasb etuvchi asarlar o‘zining yuksak ijod namunasi ekanligi, keng diapozonga egaligi, kuyning rivojlanganlik xususiyati, murakkab usullari hamda, asosan, mumtoz she’riyat namunalariga bastalanganligi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Mumtoz musiqa asarlarini tinglash, o‘rganish, kuylash, ular haqidagi nazariy ma’lumotlarni o‘zlashtirish o‘quvchilardan muayyan musiqiy bilim, ko‘nikma va amaliy ijrochilik malakalarini, musiqa o‘qituvchilaridan esa maxsus kasbiy tayyorgarlik va pedagogik mahoratni talab qiladi. O‘quvchilarning mumtoz asarlar bilan yaqindan tanishishlari jarayonida ulardagi badiiy obrazlar orqali tasvirlangan voqelik, ijodkorning badiiy tasavvur va kechinmalarini anglash, hissiy idrok etish, asarning badiiy qimmatini farqlash, baholash va unga o‘z munosabatini bildira olishlariga erishish ta’limning mazmuni, sifat va samaradorligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi[3]. Mumtoz musiqaning yana bir muhim jihati uning ustoz-shogird an’anasiga asoslanganligidir. Mumtoz musiqaga oid darslarda musiqa asarlarini tinglash va tahlil qilishga ustuvor e’tibor qaratiladi. She’riy matnlardagi o‘xshatishlar, solishtirishlar, tashbehlar, ruhiy holatlar, obraz

va voqelikka xos sifatlarni ijodkor ichki kechinmalari, hissiyotlari bilan bog‘lab, bo‘rttirib tasvirlanishi, kuy tuzilishining murakkab kompozitsiyasi, ohang ijrosidagi o‘ziga xos nola, qochirimlar, avjlar, ayrim tuzilmalarning takrorlanib kelishi, milliy ijrochilikka xos bezaklar haqida beriladigan bilim va tushunchalar dars jarayonida eng muhim jihatlar sanaladi.

Mumtoz, maqom va xalq ashulalarining ko‘pchiligi mumtoz she’r va maqom g‘azallar bilan ijro etilib, ularda bugungi kunda nutqimizda iste’molda bo‘lmagan ko‘plab so‘zlar, atamalar, joy nomlari, sharq mumtoz she’riyatiga xos tashbehlar mavjudligi ularning ma’no va mazmunini anglab olishda ayrim muammoli vaziyatlarni yuzaga келтирадики, ularni chuqur anglamasdan, his qilmasdan asarning mazmuni, badiiy qiymati, badiiy asar sifatidagi darajasini to‘la idrok etib bo‘lmaydi.

Umumta’lim maktablarining musiqa darslarida aynan mumtoz musiqa mavzusida (asosan 6–7-sinflarda) darslarning o‘tilishida ta’kidlab o‘tilgan jihatlarga e’tiborning sustligi fan o‘qituvchilarining mumtoz asarlar bo‘yicha darslarni pedagogik va metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilishlari uchun kasbiy-malakaviy tayyorgarliklarining talab darajasida emasligi natijasidir. Bu esa, birinchi galda, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida mumtoz musiqa darslarini Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi talablari darajasida bo‘lishiga erishish uchun oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini maktab faoliyatiga tayyorlash ishlarini uzluksiz takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Pedagogika oliy o‘quv yurtlaridagi “Musiqiy ta’lim” yo‘nalishi o‘quv rejasidagi “An’anaviy va xalq qo‘shiqchiligi” hamda “O‘zbek mumtoz qo‘shiqchiligi” (2011-yilgacha o‘quv rejasida bo‘lgan, hozirda ko‘pgina oliy o‘quv yurtlarida tanlov fani sifatida o‘tiladi) fanlari mashg‘ulotlari jarayonida mumtoz asarlarni o‘rganishda talabalarni mashhur hofizlarning ijro uslublari, tajribalari bilan muntazam tanishtirib borish, nazariy bilim va tushunchalarga keng o‘rin berish, darslarni o‘ziga xos texnologik yondashuvlar asosida tashkil etish talabalarni maktab musiqa ta’limiga tayyorlash uchun puxta zamin yaratilishiga xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan xususiyatlarning ilmiy-metodik yechimiga yo‘naltirilgan tadqiqotlar natijalari bir necha mumtoz ashulalarni dars jarayonida o‘rganishning texnologik loyihalarini ishlab chiqish imkonini berdi.

Texnologik loyihalashtirilgan darslardan biri musiqa san’atimizning gultojlaridan bo‘lgan “Samarqand ushshoqi” (“Injost”) qo‘shig‘iga tegishli bo‘ldi. Sof ishqiy muhabbatni tarannum etuvchi bu ashulaning g‘azali fors tilida yozilganligiga qaramay, uni o‘zbek, tojik san’atkorlarining juda ko‘plab atoqli vakillari mahorat bilan ijro etishgan va bugungi kunda ham ko‘plab iste’dodli xonandalar repertuaridan keng o‘rin olgan. Ushbu asarni dars jarayonida o‘rganishda quyidagi texnologik loyiha qo‘l keladi[1]:

Ashulaning talabalar (o‘quvchilar)ning ijrochilik malakasi va ovoz imkoniyatlariga mosligini o‘rganish;
Ashulaning fors tilidagi va o‘zbek tiliga o‘girilgan matn yozuvini tayyorlash;
Auditoriyada qo‘shiqqa mos muhitni, talaba (o‘quvchilar)da shunga monand kayfiyatni vujudga keltirish;
Ashulaning she’riy matni va musiqa muallifi haqidagi ma’lumotlarni keltirish;
Qo‘shiqning mohir ijrochilari haqidagi ma’lumotlar taqdim etish;
Asar she’riy matnini ifodali o‘qish (fors va o‘zbek tiliga o‘girilgan matnlarni);
Asar g‘oyaviy-badiiy mazmunini tahlil qilish, tushunish qiyin bo‘lgan so‘zlarga izoh berish;
Oldindan bir-ikki talaba (o‘quvchi)ni ashula ijrosiga tayyorlash;
Asarning mashhur san’atkorlar ijrosidagi musiqiy yozuvini tinglash;
Asarni musiqiy-badiiy tahlil qilish;
Ashulani qismlarga bo‘lib o‘rganish (necha soatga mo‘ljallanganiga ko‘ra vaqtni taqsimlash);
Asar o‘rganilgach, uning yozuvini qayta eshitdirish;
Badiiy ijro ustida ishlash;
Izoh: *Loyihaning umumta’lim maktablari musiqa darslari uchun mo‘ljallangan variantida asosiy e’tibor tinglash va tahlil qilishga qaratilishi maqsadga muvofiq*[1].

Mazkur darsga qo‘shimcha sifatida quyidagi ma’lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi. Ashulaning mashhur san’atkorlar ijrosidagi yozuvlari — Munojot Yo‘lchiyeva, Malohat Dadaboyeva, Dilnura Qodirjonova, O‘ktam Ahmedov ijrolari tanlab olinib, qiyasiy tahlil qilinishi musiqiy ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Asar va uning mohir ijrochilari haqidagi ma’lumotlarda xalqimizning ardoqli va mashhur san’atkori, Xalq artisti Halima Nasirovaning bu ashulaga mehri va uni qanday o‘rganganligi haqidagi esdaliklaridan parchalar o‘qib eshitirildi [5].

Qo‘shiq mualliflari haqida quyidagi ma’lumotlarga to‘xtalib o‘tildi: “Samarqand ushshoqi” (“Injost”) qo‘shig‘i XVI asrda yashab ijod etgan shoira Zebinisoning “Injost” (“Kelmedi”) radifli g‘azaliga bastalangan. Ulug‘ shoir va shoh Bobur avlodidan bo‘lgan Zebiniso Sharq adabiyotida ma’lum iz qoldirgan Rbiya Balkhi, Mahsatiy, Iffatiy, Ismatiy, Samarqandiy kabi ijodkorlar qatorida turuvchi shoiradir. Uningsh ishqni ulug‘lovchi, insoniy fazilatlarni madh etuvchi “Injost”, “Nashut” singari maqom kuylariga solib aytuvchi g‘azallari mashhurdir. Bu ashulani o‘zbek va tojik san’atkorlarining bir qancha avlodi qiyomiga yetkazib ijro etishgan. Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Levi Babaxanov, Shohista Mullajonova, Barno Isxoqova, Berta Davidova, Munojot Yo‘lchiyeva, Malohat Dadaboyeva, Dilnura Qodirjonova shular jumlasidandir.

Asarni o‘rganish jarayonida she’riy matndagi tushunilishi qiyin bo‘lgan *“Shahid”, “Karbalo”, “Ka’ba”, “Zakot”, “Karashma”, “Mustahiq”, “Zulf”* kabi so‘zlar leksik va filosofik tomondan izohlanadi.

Musiqiy-pedagogik ta’limda dars jarayonini texnologik loyihalash shunchaki konspekt tuzish yoki mashg‘ulot rejasini tuzishdan iborat emas. Pedagogik loyihalash — bu kutilayotgan ta’lim natijalariga erishish uchun o‘quv materialini saralash, faoliyat turlarini mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish, interfaol usullar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini muvofiqlashtirishning kompleks didaktik tizimidir.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini mumtoz musiqani o‘qitish bo‘yicha loyihalash faoliyatiga tayyorlash quyidagi uchta uzviy bosqichda amalga oshiriladi:

1. Diagnostik-analitik bosqich: Bo‘lajak o‘qituvchi maktab o‘quvchilarining yosh, fiziologik, emotsional va musiqiy idrok etish imkoniyatlarini o‘rganadi. Mumtoz asarning (masalan, maqom va mumtoz ashulalar) musiqiy tili, diapazoni va matnidagi lisoniy murakkabliklarni baholaydi.

2. Konstruktiv-loyihalash bosqich: Bunda o‘qituvchi mashg‘ulotning har bir daqiqasini muayyan didaktik maqsaddan kelib chiqib rejalashtiradi. Mumtoz musiqaning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, *musiqa tinglash, kuylash, musiqiy-nazariy tahlil, badiiy-she’riy talqin* hamda *tarixiy-biografik kontekst* o‘zaro integratsiya qilinadi.

3. Refleksiv-baholash bosqich: Texnologik xarita asosida o‘tkazilgan darsning samaradorligi baholanadi, o‘quvchilarning emotsional taassurotlari va o‘zlashtirish darajasi tahlil qilinadi, zarur hollarda loyihaga korreksiya kiritiladi.

Mumtoz musiqani o‘qitishda texnologik loyihalashning didaktik samaradorligini oshirish uchun fanlararo integratsiyaga (musiqa + adabiyot + tarix + tasviriy san’at) tayanish lozim. Misol uchun, “Samarqand ushshoqi” ashulasini o‘rganishda adabiyot fani bilan integratsiya g‘azal sharhini chuqurroq anglashga xizmat qilsa, tarix fani bilan integratsiya XVI asrdagi Movarounnahr hamda Boburiylar davri madaniy hayotini ko‘z oldiga keltirish imkonini beradi.

Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilar dars loyihasini tuzishda zamonaviy multimediya vositalaridan (audio va video qiyosiy prezentatsiyalar, raqamli fonotekalar, vizual-grafik ko‘rgazmalar) unumli foydalana olishi zarur. Taniqli xonandalar ijrosini qiyosiy tahlil qilish orqali talabalar va o‘quvchilarda tanqidiy eshitish (critical listening) va musiqiy-estetik baholash kompetensiyalari rivojlanadi. Bu esa yengil-elpi, saviyasiz musiqiy mahsulotlarga nisbatan estetik immunitetni shakllantirishning eng samarali yo‘lidir[4].

Olib borilgan tadqiqotlar va amaliy-metodik izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, mumtoz kuy-qo‘shiqlar va maqom san’ati namunalari yoshlar tarbiyasida, ularning ma’naviy-estetik dunyoqarashini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Biroq ularni umumta’lim maktablarida o‘qitish samaradorligi ko‘p jihatdan pedagogika oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini ushbu murakkab jarayonga tayyorlash sifati bilan belgilanadi.

Dars jarayonlarini texnologik loyihalash vositasida tashkil etish quyidagi pedagogik afzalliklarga ega:

- Darsning mantiqiy ketma-ketligi, vaqt taqsimoti va didaktik maqsadlarga erishish kafolatlanadi;
- Mumtoz she’riyat matnlaridagi murakkab va arxaik so‘zlarni leksik-semantik tahlil qilish orqali o‘quvchilarning badiiy tafakkuri va lisoniy madaniyati yuksaltiriladi;
- Turli ijrochilar mahoratini qiyosiy tahlil etish orqali o‘quvchilarda eshitish, anglash va estetik baholash ko‘nikmalari shakllantiriladi;
- Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-metodik mahorati, loyihalash (proyektlash) va innovatsion-pedagogik kompetensiyalari rivojlanadi.

Umuman olganda, mumtoz musiqaga oid darslarni texnologik loyihalash yo‘nalishida ilmiy-metodik izlanishlarni doimiy ravishda olib borish va ilg‘or tajribalarni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish uzluksiz musiqiy ta’lim sifatini oshirishning muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdukarimova E.I. Texnologik loyihalash — musiqa mashg‘ulotlarida samarali ta’lim // *Ilim ham jamiyet* jurnali. — Nukus: Nukus DPI, 2019. — №1. —61-63-b.
2. Fayzullayev E. *Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari badiiy didini shakllantirishda o‘zbek mumtoz musiqasi imkoniyatlaridan foydalanish.* — Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi bosmaxonasi, 2008. — 128 b.
3. Hasanov A. *Musiqa va tarbiya.* — Toshkent: O‘qituvchi, 1993. — 96 b.
4. Kudratov I. *Talabalarni xalq qo‘shiqlari vositasida estetik tarbiyalash.* — Toshkent: Fan, 2009. — 112 b.
5. Nasirova H. *Men o‘zbek qiziman.* — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1968. — 215 b.
6. Romanova S.E. *Qoraqalpoq milliy musiqiy an’analari asosida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini ma’naviy tarbiyalashning pedagogik asoslari:* Ped. fan. nomz. ... diss. avtoref. — Toshkent, 2005. — 22 b.

THE ROLE OF STYLISTIC DEVICES IN ENHANCING ENGLISH LANGUAGE LEARNING AND TEACHING

Adilbaeva Gozzal Baxramovna
Trainee Teacher, Department of English Philology
Karakalpak State University
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21929872

Abstract. This thesis examines the role of stylistic devices in enhancing English language learning and teaching from a philological perspective. It highlights the significance of metaphor, simile, personification, irony, hyperbole, and repetition in developing learners' communicative competence, vocabulary, and analytical thinking. The study emphasizes that integrating stylistic analysis into English language instruction improves language awareness, reading comprehension, and creative expression. The findings suggest that stylistic devices should be considered an essential component of modern English language teaching.

Keywords: stylistic devices, English language teaching, stylistics, communicative competence, figurative language, vocabulary development, discourse analysis.

Annotatsiya. Mazkur tezis ingliz tilini o‘qitishda stilistik vositalarning ahamiyatini filologik nuqtai nazardan yoritadi. Tadqiqotda metafora, o‘xshatish, jonlantirish, kinoya va boshqa stilistik vositalarning o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, lug‘at boyligi hamda matnni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Stilistik tahlilni dars jarayoniga qo‘llash tilni samarali o‘zlashtirishga xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: stilistik vositalar, stilistika, ingliz tilini o‘qitish, kommunikativ kompetensiya, badiiy matn, lug‘at boyligi.

Аннотация. В данной работе рассматривается роль стилистических средств в обучении английскому языку. Анализируется влияние метафоры, сравнения, олицетворения, иронии и других стилистических средств на развитие коммуникативной компетенции, словарного запаса и навыков анализа текста. Сделан вывод о том, что использование стилистического анализа способствует повышению эффективности обучения английскому языку.

Ключевые слова: стилистические средства, стилистика, обучение английскому языку, коммуникативная компетенция, художественный текст, словарный запас.

In recent years, the growing importance of English as an international language has increased the need for effective language teaching methods that develop learners' communicative and linguistic competence [4. 2007: p. 13]. Modern English language education aims not only to improve grammatical accuracy but also to help learners understand how language is used in different communicative contexts [6. 2002: p. 4]. In this regard, stylistic devices play an essential role in enriching speech, expressing emotions, and conveying ideas more effectively.

Stylistics, as a branch of linguistics, studies the expressive means and functional use of language in different types of discourse [2. 1977: pp. 25–31]. Stylistic devices such as metaphor, simile, personification, irony, hyperbole, and repetition are widely used in literary and non-literary texts to achieve specific communicative purposes [2. 1977: pp. 139–176]. Understanding these devices enables learners to interpret texts more accurately and use language more creatively.

The relevance of this study lies in the increasing need to integrate stylistic analysis into English language teaching. Although grammar and vocabulary remain fundamental components of language learning, the study of stylistic devices contributes to the development of language awareness, critical thinking, and communicative competence [7. 1993: pp. 15–18]. Therefore, this thesis aims to examine the role of stylistic devices in enhancing English language learning and teaching and to identify their practical significance in the educational process.

Stylistics is one of the most important branches of modern linguistics that studies the expressive use of language in different communicative situations [2. 1977: p. 9]. According to Galperin, stylistic devices are conscious and intentional language patterns used to achieve a particular communicative or aesthetic effect [2. 1977: pp. 25–27]. They enable speakers and writers to express ideas more vividly, emphasize important information, and influence the reader or listener.

Leech states that stylistic devices establish a close relationship between linguistic form and meaning [3. 1969: pp. 10–18]. Through figurative language, authors not only transmit information but also convey emotions, attitudes, and cultural values. Therefore, understanding stylistic devices is essential for interpreting literary texts and authentic English discourse.

Among the most frequently used stylistic devices are metaphor, simile, personification, irony, hyperbole, repetition, alliteration, and rhetorical questions [2. 1977: pp. 123–246]. Each of these devices performs a specific communicative function. For example, metaphors create implicit comparisons that enrich meaning, while repetition strengthens emphasis and improves the emotional impact of speech. These expressive means make language more attractive, memorable, and persuasive.

For learners of English as a Foreign Language (EFL), knowledge of stylistic devices contributes not only to language proficiency but also to the development of analytical and interpretative skills. Students become more capable of understanding hidden meanings, recognizing the author's intention, and producing more expressive oral and written communication.

Stylistic devices have become an important component of contemporary English language teaching because they enable learners to understand how language functions in authentic communication [4. 2007: pp. 69–72]. Modern language instruction emphasizes not only grammatical accuracy but also the ability to interpret and produce meaningful discourse. In this context, stylistic devices help learners recognize expressive language and develop communicative competence.

The integration of stylistic devices into English language classrooms contributes to vocabulary enrichment and reading comprehension [6. 2002: pp. 75–81]. When students analyze metaphors, similes, or personification in literary texts, they learn new lexical items in context and understand how figurative meanings differ from literal ones 7. 1993: pp. 24–30]. This approach also improves students' ability to interpret authentic materials such as novels, poems, speeches, newspaper articles, and media texts.

Furthermore, stylistic analysis develops learners' critical thinking skills [5. 1994: pp. 15–22]. Instead of simply identifying grammatical structures, students are encouraged to explain why a particular stylistic device is used and what effect it creates. Such activities promote deeper text analysis and increase learners' awareness of language functions in different communicative situations.

The successful application of stylistic devices depends largely on the teacher's methodology. Interactive techniques such as literary text analysis, classroom discussions, role-play activities, creative writing tasks, and project-based learning provide learners with opportunities to identify, interpret, and apply stylistic devices in meaningful contexts. Such learner-centered approaches increase motivation and encourage active participation in the learning process.

Stylistic devices play a vital role in improving the quality of English language learning and teaching. They enrich learners' vocabulary, develop communicative competence, and enhance reading, writing, speaking, and analytical skills. The study of stylistics enables learners to understand the relationship between language form and meaning, which is essential for interpreting authentic English texts and producing effective communication.

From a philological perspective, stylistic analysis contributes to a deeper understanding of literary language and discourse. It also helps learners recognize the cultural and emotional aspects of language that cannot be explained through grammar alone. Therefore, the integration of stylistic devices into English language instruction should be regarded as an important element of modern language education.

In conclusion, the effective use of stylistic devices not only increases students' language proficiency but also promotes creativity, critical thinking, and intercultural awareness. Consequently, English language teachers should incorporate stylistic analysis into classroom practice to create a more engaging and productive learning environment.

References

1. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press.
2. Galperin, I. R. (1977). Stylistics. Moscow: Higher School Publishing House.
3. Halliday, M. A. K. (1994). An Introduction to Functional Grammar (2nd ed.). Edward Arnold.
4. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching (4th ed.). Pearson Education.
5. Leech, G. N. (1969). A Linguistic Guide to English Poetry. Longman.
6. Leech, G., & Short, M. (2007). Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose (2nd ed.). Pearson Longman.
7. Lazar, G. (1993). Literature and Language Teaching. Cambridge University Press.

8. Thornbury, S. (2002). How to Teach Vocabulary. Pearson Education.
9. Widdowson, H. G. (1975). Stylistics and the Teaching of Literature. Longman.
10. Carter, R., & McCarthy, M. (2006). Cambridge Grammar of English. Cambridge University Press.

MODALLIK PRAGMATIKASINING PUBLITSISTIK NUTQDA IFODALANISHI

Xayrulloyeva Gulasal Fayzullo qizi
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti,
O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi o‘qituvchisi.
Tel.: +998919759495
E-mail: gulasalxayrulloyeva@gmail.com; korporativ e-mail: g.f.xayrulloyeva@buxdu.uz;
ORCID: 0000-0001-9891-967X
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21929943

Annotatsiya. Ushbu maqolada modallik kategoriyasining publitsistik nutqda pragmatik voqelanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Publitsistik matnda modal birliklarning muallif pozitsiyasini ifodalash, axborotning ishonchlilik darajasini belgilash, o‘quvchini muayyan fikrga ishontirish, zarurat, ehtimollik va baholash ma’nolarini yuzaga chiqarishdagi vazifalari yoritiladi. Tadqiqot materiali sifatida “Buxoronoma” hamda “Buxoro universiteti” gazetalarining 2026-yildagi sonlarida chop etilgan publitsistik matnlardan foydalanildi. Gazeta materiallaridan olingan iqtiboslar asosida epistemik va deontik modallikning pragmatik funksiyalari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: modallik, pragmatika, publitsistik nutq, epistemik modallik, deontik modallik, modal birlik, kommunikativ intensiya, baholash, zarurat, ehtimollik.

Аннотация. В статье анализируются особенности прагматической реализации категории модальности в публицистической речи. Рассматриваются функции модальных единиц в выражении авторской позиции, степени достоверности информации, убеждения адресата, а также значений необходимости, вероятности и оценки. Материалом исследования послужили публицистические тексты из газет «Buxoronoma» и «Buxoro universiteti», опубликованные в 2026 году. На основе цитат из газетных материалов раскрываются прагматические функции эпистемической и деонтической модальности.

Ключевые слова: модальность, прагматика, публицистическая речь, эпистемическая модальность, деонтическая модальность, модальная единица, коммуникативная интенция, оценка, необходимость, вероятность.

Abstract. The article examines the pragmatic realization of modality in journalistic discourse. It focuses on the functions of modal units in expressing the author’s position, marking the degree of certainty, persuading the addressee, and conveying necessity, probability and evaluation. The research material consists of journalistic texts published in the 2026 issues of the newspapers “Buxoronoma” and “Buxoro universiteti”. Quotations from the newspapers are used to reveal the pragmatic functions of epistemic and deontic modality.

Keywords: modality, pragmatics, journalistic discourse, epistemic modality, deontic modality, modal unit, communicative intention, evaluation, necessity, probability.

Kirish. Publitsistik nutq jamiyat hayotidagi voqea-hodisalarni yoritish, ularni baholash va jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltirilgan funksional nutq ko‘rinishidir. Unda faktik axborot bilan bir qatorda muallifning voqelikka, xabar mazmuniga va adresatga munosabati ham ifodalanadi. Shu jihatdan modallik publitsistik matnning muhim semantik-pragmatik qatlamlaridan biri sanaladi. Modallik orqali so‘zlovchi yoki muallif fikrning haqqoniylik darajasi, ehtimolligi, zarurati, majburiyligi, maqsadga muvofiqligi hamda bahosini namoyon etadi [5. 2024:B.112].

Modallikning pragmatik xususiyati til birligining lug‘aviy yoki grammatik ma’nosidangina emas, balki uning muayyan kommunikativ vaziyatda nima maqsadda qo‘llanganidan kelib chiqadi. Masalan, mumkin shakli semantik jihatdan imkoniyatni bildirishi mumkin, biroq publitsistik matnda u muallifning ehtiyotkor prognozi, fikrni yumshatish yoki qarorning kategorikligini pasaytirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Kerak, lozim, zarur kabi birliklar esa deontik ma’noni yuzaga chiqarish bilan birga, adresatni muayyan harakat, munosabat yoki ijtimoiy pozitsiyaga yo‘naltiradi. Shuning uchun publitsistik diskursda modallikni muallif intensiyasi, kontekst va kommunikativ ta’sir bilan bog‘liq holda tahlil qilish muhimdir [6. 2026:B.381].

Mazkur tadqiqotning maqsadi “Buxoronoma” va “Buxoro universiteti” gazetalaridagi publitsistik matnlar asosida modal birliklarning pragmatik imkoniyatlarini yoritishdan iborat. Tahlilda tavsifiy,

kontekstual va pragmatik tahlil usullaridan foydalanildi. Misollar gazeta matnidan aynan iqtibos shaklida olinib, ulardagi modal vositaning semantik turi hamda kommunikativ vazifasi izohlandi.

Publitsistik nutqda epistemik modallikning pragmatik xususiyatlari. Epistemik modallik so‘zlovchining xabar mazmuniga ishonch darajasini, uning ehtimoliy yoki aniq deb baholanishini ifodalaydi. Publitsistik matnda epistemik modal birliklar muallifga bir tomondan dalil va xulosaning kuchini belgilash, ikkinchi tomondan esa o‘quvchini ma’lum nuqtayi nazarga ishontirish imkonini beradi. “Buxoronoma” gazetasining “Tanlov oldida: inson yoki algoritm?” maqolasida sun’iy intellektning til taraqqiyotiga ta’siri muhokama qilinar ekan, imkoniyat va ehtimollik ma’nolari faol qo‘llangan.

“Sun’iy intellekt — imkoniyat ham, sinov hamdir. U o‘zbek tilining rivojiga katta hissa qo‘shishi mumkin, ammo bu faqat insonning ongli yondashuvi bilan amalga oshadi.” [7. 2026:B.2]. Mazkur iqtibosda mumkin birligi epistemik imkoniyatni ifodalab, muallifning qat’iy hukm emas, shartli va ehtiyotkor prognoz berayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, imkoniyat ham, sinov hamdir konstruksiyasi aksiologik baholashni yuzaga chiqarib, hodisaning ikki tomonlama tabiatini o‘quvchi ongida muvozanatli tarzda shakllantiradi.

Epistemik modal ma’no publitsistik matnda faqat mumkin, ehtimol, balki kabi maxsus birliklar bilangina emas, balki qat’iy ishonchni bildiruvchi modal so‘zlar orqali ham yuzaga chiqadi. Bunday vositalar muallif xulosasini kuchaytirib, adresatni bayon etilgan fikrning ishonchliligiga ishontirishga xizmat qiladi. “Buxoro universiteti” gazetasida o‘zbek alifbosini takomillashtirish masalasiga bag‘ishlangan maqola xulosasida shunday deyiladi:

“Agar mazkur islohot ilmiy asosda, puxta tayyorgarlik va bosqichma-bosqich yondashuv asosida amalga oshirilsa, u o‘zbek tilining XXI asrdagi barqaror rivojlanishi va raqamli transformatsiyasini ta’minlovchi muhim omillardan biriga aylanishi shubhasiz.” [4. 2026:B.7]. Bu yerda shubhasiz modal so‘zi yuqori darajadagi epistemik ishonchni ifodalaydi. Pragmatik jihatdan u maqola davomida ilgari surilgan dalillarni yakuniy xulosa sifatida mustahkamlaydi va o‘quvchida muallif pozitsiyasining asoslanganligi haqidagi tasavvurni kuchaytiradi.

Epistemik modallikning pragmatik tabiati muallifning axborotga masofasini boshqarishida ham ko‘rinadi. Qat’iy ishonch birliklari o‘quvchiga ta’sir kuchini oshirsa, ehtimollik vositalari fikrni ehtiyotkor bayon qilishga xizmat qiladi. Shu bois publitsistik matnda modal birlikni tanlash axborotning o‘zi bilan birga, uni qanday qabul qildirish strategiyasini ham belgilaydi.

Deontik modallik va publitsistik da’vat pragmatikasi. Deontik modallik zarurat, majburiyat, ruxsat, talab va ijtimoiy me’yor ma’nolarini ifodalaydi. Publitsistik diskursda ayniqsa kerak, lozim va zarur birliklari faol bo‘lib, ular muallifning muayyan holatni nafaqat tasvirlashi, balki unga nisbatan normativ pozitsiya bildirishiga imkon beradi. “Buxoronoma” gazetasidagi “Kitob targ‘ibotida yangicha yondashuv kerak” sarlavhasining o‘ziyoq deontik modal ma’noni yuzaga chiqaradi [1. 2026:B.4]. Bu yerda kerak birligi sarlavhada qo‘llanib, mavjud holatni o‘zgartirish zaruratini markaziy tezisga aylantiradi. Natijada sarlavha axborot berish bilan cheklanmay, o‘quvchini yangicha yondashuvni ma’qullashga undaydi.

Xuddi shunday, “Tanlov oldida: inson yoki algoritm?” maqolasida sun’iy intellektdan foydalanishning me’yoriy yo‘nalishi quyidagi iqtibos orqali beriladi:

“Tilni rivojlantirish uchun sun’iy intellektdan to‘g‘ri foydalanish zarur.” [7. 2026:B.2]. Zarur predikativi kuchli deontik modal ma’noni ifodalaydi. Mazkur birlik orqali muallif sun’iy intellektdan foydalanishni shunchaki imkoniyat sifatida emas, til taraqqiyoti uchun mas’uliyatli va maqsadga muvofiq yo‘l sifatida talqin qiladi.

“Buxoro universiteti” gazetasida alifbo va raqamlashtirish masalasini yoritgan maqolada lozim hamda kerak birliklarining publitsistik-pragmatik imkoniyatlari yaqqol ko‘rinadi:

“Tilning grafik tizimi ham zamon talablariga javob berishi lozim.” [4. 2026:B.6]. Lozim modal predikativi bu gapda zamon talabi bilan bog‘langan obyektiv zaruratni yuzaga chiqaradi. Muallif alifbo masalasini ixtiyoriy tanlov emas, davr taraqqiyoti taqozo etayotgan vazifa sifatida o‘quvchiga taqdim etadi.

“Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini takomillashtirish bo‘yicha taklif etilayotgan o‘zgarishlar nafaqat imlo masalasi, balki raqamlashtirish siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida baholanishi kerak.” [4. 2026:B.6]. Kerak birligi bu o‘rinda muallifning hodisani qanday talqin qilish lozimligi haqidagi konseptual pozitsiyasini ifodalaydi. Pragmatik ta’sir shundan iboratki, adresatga alifbo islohotini tor imloviy masala emas, keng texnologik jarayonning bir qismi sifatida qabul qilish yo‘nalishi taklif etiladi.

Deontik modallik ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik burchini ifodalashda ham samarali vosita hisoblanadi. “Buxoro universiteti” gazetasidagi “Yoshlar — Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining tayanchi” maqolasida muallif yoshlar nomidan quyidagi fikrni ilgari suradi:

“Biz — yoshlar, davlatimiz tomonidan yaratilayotgan ulkan imkoniyatlarni chuqur anglab, ulardan samarali foydalanishimiz, ilm-fan, innovatsiya, zamonaviy texnologiyalar va halol mehnat orqali Yangi O‘zbekistonning yanada qudratli va taraqqiy etgan davlatga aylanishiga munosib hissa qo‘shishimiz lozim.” [2. 2026:B.4]. Iqtibosdagi lozim shakli zarurat bilan birga ijtimoiy burch, mas’uliyat va da’vat ma’nolarini mujassamlashtiradi. Biz — yoshlar birikmasi esa muallif va adresat o‘rtasidagi kommunikativ masofani qisqartirib, individual fikrni umumiy guruh pozitsiyasiga aylantiradi.

Baholash, ritorik savol va modal ta’sir. Publitsistik nutqda modallik ko‘pincha baholash va ritorik savol bilan birikib keladi. Bunday hollarda muallif o‘quvchiga tayyor xulosa berish bilan cheklanmay, uni muammoni ichki dialog asosida idrok etishga undaydi. “Tanlov oldida: inson yoki algoritm?” maqolasining o‘z sarlavhasi muqobil tanlov modelini yaratib, o‘quvchini inson va texnologiya o‘rtasidagi munosabat haqida mushohada qilishga yo‘naltiradi [7. 2026:B.2]. Maqola matnidagi “Ammo savol tug‘iladi: sun’iy intellekt o‘zbek tilining rivojiga xizmat qiladimi yoki aksincha, uning tabiiy taraqqiyotiga xavf tug‘diradimi?” mazmunidagi ritorik savol ham muallifning problematik pozitsiyasini kuchaytiradi. Bunday so‘roq shakli javob talab qiluvchi oddiy sintaktik konstruksiya emas; u o‘quvchini muallif bilan birgalikda muammoni baholashga jalb etuvchi pragmatik vositadir.

Baholovchi modallikda ijobiy yoki salbiy aksiologik birliklar xabar mazmuniga muallifning subyektiv munosabatini qo‘shadi. Masalan, imkoniyat, sinov, muhim, zarur, to‘g‘ri, ulkan kabi leksemalar publitsistik matnda faktning o‘zidan tashqari uning ijtimoiy qiymatini ham belgilaydi. Shu tariqa modal-baholovchi vositalar o‘quvchida kerakli emotsional va intellektual reaksiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlil qilingan materiallar shuni ko‘rsatadiki, publitsistik nutqda epistemik va deontik modallik ko‘pincha bir-birini to‘ldiradi. Muallif avval mumkin, shubhasiz kabi birliklar orqali hodisaning ehtimollik yoki ishonchlilik darajasini belgilaydi, keyin esa kerak, lozim, zarur vositalari orqali undan kelib chiqadigan normativ xulosani ilgari suradi. Bu ketma-ketlik publitsistik argumentatsiyaning muhim pragmatik mexanizmi bo‘lib, fakt → baho → da’vat modelini yuzaga keltiradi.

Xulosa. Publitsistik nutqda modallik semantik kategoriya bo‘lish bilan birga, muallif va adresat o‘rtasidagi kommunikativ munosabatni boshqaruvchi pragmatik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. “Buxoronoma” va “Buxoro universiteti” gazetalaridan olingan misollar epistemik modallikning ehtimollik, imkoniyat va qat’iy ishonchni, deontik modallikning esa zarurat, ijtimoiy burch, tavsiya hamda normativ talabni ifodalashini ko‘rsatdi.

Mumkin shakli publitsistik matnda hukmning kategorikligini yumshatib, ehtiyotkor prognoz yaratadi; shubhasiz muallif ishonchini maksimal darajada kuchaytiradi; kerak, lozim va zarur esa adresatni muayyan qarash yoki harakatga yo‘naltiradi. Ritorik savol va baholovchi leksika bu modal ma’nolar bilan birikib, publitsistik ta’sirni yanada kuchaytiradi. Demak, publitsistik diskursdagi modallikni tahlil qilishda nafaqat grammatik shakl va semantik tur, balki muallif intensiyasi, adresat, kontekst va kommunikativ strategiya ham hisobga olinishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ergasheva O. Kitob targ‘ibotida yangicha yondashuv kerak // Buxoronoma. – Buxoro, 2026-yil 8-may. – №35. – B.4.

2. Jo‘rayev F. Yoshlar — Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining tayanchi // Buxoro universiteti. – Buxoro, 2026-yil 21-iyul. – B.4.

3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.

4. Toirova G. O‘zbek alifbosi islohoti // Buxoro universiteti. – Buxoro, 2026-yil 21-iyul. – B.6–7.

5. Xayrulloyeva G.F. Modallikni ifodalashning semantik asoslari // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – Buxoro, 2024. – 10-son. – B.112.

6. Xayrulloyeva G.F. Communicative and pragmatic features of modality in Uzbek language // International Journal of Literature and Language Studies. – 2026. – Vol. 5, Issue 6. – P.381.

7. Xayrulloyeva G.F. Tanlov oldida: inson yoki algoritm? // Buxoronoma. – Buxoro, 2026-yil 8-may. – №35. – B.2.

BO‘LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA’LIM PLATFORMALARI VA RAQAMLI TA’LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Avliyakulov Abdurashit Karimovich
Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti “Ta’limda boshqaruv” kafedrasi professori
Karimov Madamin Gulmurodovich
Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti mustaqil izlanuvchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21930005

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion ta’lim platformalari va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishning pedagogik asoslari tahlil qilingan. Zamonaviy raqamli ta’lim muhitida innovatsion platformalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalari, kasbiy bilim va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek,pedagogik yondashuvlarning uyg‘unligi asosida bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning samarali modeli asoslab berilgan.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические основы использования инновационных образовательных платформ и цифровых инструментов обучения в развитии профессиональной компетентности будущих инженеров. В современной цифровой образовательной среде подчеркиваются возможности развития у студентов навыков самостоятельного обучения, профессиональных знаний и практических компетенций посредством интеграции инновационных платформ в образовательный процесс. Также обосновывается эффективная модель подготовки будущих инженеров к профессиональной деятельности, основанная на сочетании педагогических подходов.

Abstract: This article analyzes the pedagogical foundations of the use of innovative educational platforms and digital learning tools in the development of professional competence of future engineers. In a modern digital educational environment, the possibilities of developing students' independent learning skills, professional knowledge and practical competencies through the integration of innovative platforms into the educational process are highlighted. Also, an effective model of preparing future engineers for professional activity based on the combination of pedagogical approaches is substantiated.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak muhandis, kasbiy kompetentlik, innovatsion ta’lim platformalari, raqamli ta’lim vositalari, pedagogik yondashuv,raqamli ta’lim muhiti, kasbiy ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, mustaqil ta’lim, ta’lim texnologiyalari, ta’lim samaradorligi.

Ключевые слова: инженер будущего, профессиональная компетентность, инновационные образовательные платформы, цифровые инструменты обучения, педагогический подход,цифровая среда обучения, профессиональное образование, компетентностный подход, самостоятельное обучение, образовательные технологии, эффективность образования.

Keywords: future engineer, professional competence, innovative educational platforms, digital learning tools, pedagogical approach,digital learning environment, professional education, competency-based approach, independent learning, educational technologies, educational effectiveness.

Kirish. Jahonda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi ta’lim tizimiga, xususan, muhandislik ta’limiga nisbatan yangi talablarni shakllantirmoqda. Sanoatning raqamlashtirilishi, sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan tizimlar hamda masofaviy ta’lim platformalarining keng joriy etilishi bo‘lajak muhandislardan nafaqat chuqur kasbiy bilimlarni, balki raqamli kompetensiyalar, mustaqil ta’lim olish, innovatsion fikrlash va murakkab muammolarni samarali hal etish ko‘nikmalarini ham talab qilmoqda. Shu bois bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion ta’lim platformalari va raqamli ta’lim vositalaridan samarali foydalanish zamonaviy ta’limning dolzarb ilmiy-amaliy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim muhitida innovatsion ta’lim platformalari o‘quv jarayonini moslashuvchan, interaktiv va individuallashtirilgan shaklda tashkil etish imkonini bermoqda. Raqamli ta’lim vositalari esa nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, ta’lim oluvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda kasbiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, muhandislik yo‘nalishlarida virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, raqamli ta’lim

resurslari va onlayn platformalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biriga aylanmoqda.

Biroq innovatsion ta’lim platformalari va raqamli ta’lim vositalarining samaradorligi faqatgina texnologik imkoniyatlarga emas, balki ularni pedagogik va andragogik yondashuvlar asosida to‘g‘ri loyihalash hamda amaliyotga samarali joriy etishga ham bog‘liqdir. Pedagogik yondashuv ta’lim oluvchilarda zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni tizimli shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, andragogik yondashuv katta yoshdagi ta’lim oluvchilarning mustaqil o‘qish tajribasi, shaxsiy rivojlanish ehtiyoji va kasbiy faoliyat bilan bog‘liq amaliy tajribasini hisobga olishga asoslanadi.

Muhandislik ta’limida mazkur ikki yondashuvning integratsiyasi bo‘lajak mutaxassislarning moslashuvchan, barqaror va raqobatbardosh kasbiy kompetentligini shakllantirish imkonini beradi. Bunda pedagogik yondashuv bazaviy ilmiy-nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va kasbiy malakalarni rivojlantirishga xizmat qilsa, andragogik yondashuv raqamli vositalarni ongli, mustaqil hamda amaliyotga yo‘naltirilgan holda o‘zlashtirish orqali mutaxassislarning Sanoat 4.0 sharoitidagi texnologik o‘zgarishlarga uzluksiz moslashuvini ta’minlaydi.

Shu nuqtai nazardan, innovatsion ta’lim platformalari va raqamli ta’lim vositalari asosida bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik hamda andragogik asoslarini tadqiq etish, mazkur jarayonning samarali metodik mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunda muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Innovatsion ta’lim platformalari va raqamli ta’lim vositalarining bo‘lajak muhandislar kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi o‘rni. Innovatsion ta’lim platformalari va raqamli ta’lim vositalari zamonaviy muhandislik ta’limining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonini raqamli muhitda tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish va tahlil etish imkonini beruvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta’lim resurslaridir. Ushbu vositalarning asosiy maqsadi bo‘lajak muhandislarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda kasbiy kompetentligini zamonaviy ishlab chiqarish talablari asosida shakllantirishdan iborat.

Muhandislik ta’limida innovatsion platformalar o‘quv materiallarini elektron shaklda taqdim etish, videoma’ruzalar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, 3D modellar, interaktiv topshiriqlar va multimedia resurslaridan foydalanish imkonini yaratadi. Bunday raqamli vositalar o‘quvchilarga murakkab texnik jarayonlarni vizual tarzda o‘rganish, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash hamda muhandislik masalalarini mustaqil hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Natijada, ta’lim jarayoni interfaol, moslashuvchan va amaliyotga yo‘naltirilgan tus oladi.

Shuningdek, innovatsion ta’lim platformalari o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida uzluksiz muloqotni tashkil etish, jamoaviy loyihalar ustida ishlash, masofaviy maslahatlar o‘tkazish hamda kasbiy muammolarni birgalikda muhokama qilish imkoniyatini kengaytiradi. Forumlar, videokonferensiyalar, onlayn seminarlar va bulutli hamkorlik vositalari o‘quvchilarning kommunikativ, jamoada ishlash va loyiha faoliyati bo‘yicha kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, zamonaviy platformalar o‘quv faoliyatini monitoring qilish va baholashning samarali mexanizmlarini ham taqdim etadi. Onlayn testlar, elektron portfoliolar, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, topshiriqlarni elektron qabul qilish hamda o‘quv analitikasi (Learning Analytics) vositalari o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini muntazam kuzatish, ularning individual rivojlanish dinamikasini tahlil qilish va shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa kasbiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion ta’lim platformalari va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish muhandislik ta’limining moslashuvchanligi, individuallashuvi va amaliy yo‘naltirilganligini ta’minlab, bo‘lajak muhandislarning raqamli kompetensiyalari, innovatsion fikrlashi hamda kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik va andragogik asoslari. Bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’limning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, bu jarayonda pedagogik va andragogik yondashuvlarning uyg‘unligi muhim metodologik asos hisoblanadi. Pedagogik yondashuv ta’lim mazmunini tizimli tashkil etish, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qilsa, andragogik yondashuv o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyati, shaxsiy ehtiyojlari, mavjud tajribasi hamda o‘zini rivojlantirish motivatsiyasini hisobga oladi. Ushbu yondashuvlarning integratsiyasi innovatsion ta’lim platformalari va

raqamli ta’lim vositalaridan samarali foydalanish orqali bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish imkonini yaratadi.

Muhandislik ta’limida pedagogik va andragogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni quyidagi tarkibiy komponentlarni o‘z ichiga oladi:

1. Maqsadli komponent – bo‘lajak muhandislarning kasbiy, raqamli va kommunikativ kompetensiyalarini, muhandislik tafakkuri, innovatsion fikrlash hamda mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish.
2. Mazmunli komponent – o‘quv materiallarini modulli tamoyil asosida tashkil etish, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, multimedia resurslari, amaliy loyihalar va muammoli vaziyatlar orqali kasbiy bilimlarni shakllantirish.
3. Texnologik komponent – masofaviy va aralash (blended learning) ta’lim, loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning), muammoli ta’lim (Problem-Based Learning), virtual laboratoriyalar hamda raqamli ta’lim vositalaridan kompleks foydalanish.
4. Nazorat va baholash komponenti – elektron testlar, elektron portfoliolar, kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlar, loyiha ishlari va o‘quv analitikasi (Learning Analytics) asosida kasbiy kompetentlikni baholash.

Innovatsion ta’lim platformalari sun’iy intellekt elementlari, adaptiv o‘qitish texnologiyalari va o‘quv analitikasi vositalari yordamida har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasini monitoring qilish, individual tavsiyalar ishlab chiqish va shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi. Bundan tashqari, loyiha asosida o‘qitish, jamoaviy hamkorlik, elektron portfoliolar va amaliy topshiriqlardan foydalanish bo‘lajak muhandislarning texnik, analitik, kommunikativ va loyiha boshqaruvi kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik va andragogik yondashuvlarning integratsiyasi natijasida o‘qituvchi bilim beruvchi emas, balki ta’lim jarayonini loyihalashtiruvchi, konsultant va mentor sifatida faoliyat yuritadi, o‘quvchilar esa bilimlarni mustaqil egallovchi, tahlil qiluvchi va amaliyotda qo‘llovchi faol subyektga aylanadi. Bunday yondashuv innovatsion ta’lim platformalari va raqamli ta’lim vositalarining didaktik imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishga, bo‘lajak muhandislarning kasbiy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, raqamli kompetensiyalari va innovatsion fikrlashini tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh va yuqori malakali muhandis kadrlarni tayyorlash samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Xulosa. Bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion ta’lim platformalari va raqamli ta’lim vositalaridan samarali foydalanish zamonaviy muhandislik ta’limining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli ta’lim muhitining imkoniyatlari ta’lim jarayonini moslashuvchan, interaktiv va amaliyotga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish, o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ularning kasbiy va raqamli kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion ta’lim platformalari va raqamli ta’lim vositalarini pedagogik hamda andragogik yondashuvlar asosida qo‘llash ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Pedagogik yondashuv kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni tizimli shakllantirishni ta’minlasa, andragogik yondashuv o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyati, amaliy tajribasi va individual ehtiyojlarini hisobga olish orqali ularning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Mazkur yondashuvlarning integratsiyasi bo‘lajak muhandislarda tanqidiy va innovatsion fikrlash, muammolarni hal etish, jamoada ishlash hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, ta’lim tashkilotlarida innovatsion ta’lim platformalari va raqamli ta’lim vositalarini ilmiy asoslangan pedagogik hamda andragogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning samarali mexanizmi hisoblanadi. Mazkur yondashuv ta’lim sifatini oshirish, mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh muhandis kadrlarni tayyorlash hamda muhandislik ta’limining raqamli transformatsiyasini jadallashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi “2022 — 2026 yillarda O‘zbekiston respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-165-son Farmoni

2. Avliyaqulov A.K. O‘zgaruvchan iqtisodiy sharoitda ta’lim sifatini oshirishda xorijiy platformalarni joriy etish. European science international conference:.2025 y.
3. Dilova N.G. Ta’lim muassasalarida innovatsion ta’lim jarayonini tashkil etish yullari. Scientific progress volume 2 | issue 7 | 2021y.
4. Raximov Z.T. Innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining o‘quv-bilish kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi. Avtoreferat. T.:2021y.
5. D.Raxmatullayeva, M.Karimov “Kasbiy ta’lim tashkiloti o‘quvchilarida integrativ yondoshuv asosida kasbiy-texnik qobilyatlarini shakllantirish texnologiyasi” / Ta’lim, fan va innovatsiya jurnali. - T.:2025 -B. 125-129.

ADABIY OBZOR – JAHON ILMIY TAFAKKURINING TAHLILIY VA NAZARIY MEXANIZMI

Jamolova Zilola Nizomovna,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Buxoro tumani 13-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi
E-mail: zilolajamolova92gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21932153

Annotatsiya. Maqolada adabiy obzor (literary review) tushunchasining jahon ilmiy tafakkuridagi o‘rni, shakllanish bosqichlari va nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. G‘arb adabiyotshunosligida XVIII asrdan boshlab rivojlangan bu janrning tahliliy, nazariy va metodologik yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

Shuningdek, adabiy obzorning ilmiy tadqiqotdagi funksiyasi — mavjud manbalarni tanqidiy o‘rganish, nazariy asos yaratish va yangi ilmiy g‘oyalar uchun konseptual poydevor tayyorlash jarayoni sifatida izohlanadi. Maqolada “The Monthly Review”, “The Critical Review”, “Modern Language Review”, “PMLA” kabi nashrlarda shakllangan obzor an’analari misolida janrning ilmiy tafakkurdagi ahamiyati ko‘rsatilgan. Xulosa sifatida adabiy obzor jahon adabiyotshunosligida ilmiy fikrni rivojlantiruvchi, tahlilni chuqurlashtiruvchi va metodologik izchillikni ta’minlovchi asosiy mexanizm sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: adabiy obzor, nazariy asos, metodologiya, ilmiy tafakkur, tahlil, G‘arb adabiyotshunosligi.

Аннотация В статье рассматривается понятие литературного обзора (literary review), его место в мировой научной мысли, этапы формирования и теоретико-методологические основы. Анализируются аналитическое, теоретическое и методологическое направления жанра, развивавшегося в западном литературоведении с XVIII века. Особое внимание уделено функции литературного обзора в научном исследовании — критическому изучению источников, формированию теоретической базы и созданию концептуального фундамента для новых научных идей. На примере журналов “The Monthly Review”, “The Critical Review”, “Modern Language Review”, “PMLA” показано значение жанра в развитии научного мышления. В заключение литературный обзор трактуется как основной механизм, обеспечивающий развитие научной мысли, углубление анализа и методологическую последовательность в мировой литературоведческой практике.

Ключевые слова: литературный обзор, literary review, теоретическая основа, методология, научное мышление, анализ, западное литературоведение.

Annotation. The article examines the concept of the literary review and its role in global scholarly thought, outlining its stages of development and theoretical-methodological foundations. The analytical, theoretical, and methodological dimensions of the genre, which emerged in Western literary studies in the eighteenth century, are analyzed. The study highlights the function of the literary review as a critical examination of sources, the establishment of a theoretical basis, and the creation of a conceptual foundation for new scientific ideas. Using journals such as “*The Monthly Review”*, “*The Critical Review”*, “*Modern Language Review”* and “*PMLA”* as examples, the article demonstrates the genre’s significance in shaping scholarly reasoning. In conclusion, the literary review is interpreted as a key mechanism that fosters the development of scientific thought, deepens analytical practice, and ensures methodological consistency in world literary scholarship.

Keywords: literary review, theoretical foundation, methodology, scientific thought, analysis, Western literary studies.

Dunyo adabiyotida *adabiy obzor* (literary review) tushunchasi asosan g‘arb adabiyotshunosligida shakllangan. Biroq mazmun jihatidan — ya’ni adabiy jarayonni umumlashtirish, yozuvchilar ijodiga nazariy yoki tanqidiy baho berish vazifasida — u deyarli barcha mamlakatlarda mavjud. Faqat atamaning nomlanishi va qo‘llanilish shakli turlicha.

Turli davlatlarda adabiy obzor atamalarini jadvalda keltirish bu tushunchaning mazmunini tez va aniq solishtirish imkonini beradi, ilmiy ish va dissertatsiyalarda rasmiylik hamda izchillikni ta’minlaydi. *Quyida “Literary Review” atamasi turli tillarda qanday nomlanishi berilgan:*

Til / Mamlakat	Atama	Mazmuni va qo‘llanilishi

Ingliz (UK/US)	*Literary review* / *Literature review*	1) Adabiy jarayon yoki asarlarni umumlashtiruvchi tanqidiy obzor. 2) Ilmiy maqola va dissertatsiyalarda “adabiyotlar sharhi” qismi sifatida ham ishlatiladi.
Fransuz	*Revue littéraire* / *Critique littéraire*	“Adabiy obzor” va “adabiy tanqid” ma’nosida. “La Revue Littéraire” kabi jurnallar mavjud.
Nemis	*Literaturübersicht* / *Literaturkritik* / *Literarische Rezension*	“Adabiy obzor”, “adabiy tanqid” va “kitob sharhi” ma’nosida qo‘llanadi. Akademik matnlarda ham, jurnallarda ham keng ishlatiladi.
Rus	*Литературный обзор* / *Обзор литературы*	XIX asrdan boshlab Belinskiy, Dobrolyubov, Chernyshevskiylar ijodida mustaqil tanqidiy janr sifatida shakllangan.
Turk	*Edebî inceleme* / *Edebî eleştiri* / *Edebî değerlendirme*	“Adabiy tahlil”, “adabiy tanqid”, “adabiy baholash” ma’nosida qo‘llanadi.
O‘zbek	*Adabiy obzor*	Adabiyotshunoslik va tanqidning muhim janri sifatida qabul qilingan.
Arab	*Al-naqd al-adabī* (النقد الأدبي) / *al-murāja ʿa al-adabiyya* (المراجعة الأدبية)	“Adabiy tanqid” yoki “adabiy obzor” ma’nosida qo‘llanadi. Taha Husayn kabi olimlar amalda bu janrda ijod qilgan.
Fors	*Naqd-e adabī* (نقد ادبی) / *Barrasi-ye adabī* (بررسی ادبی)	“Adabiy tanqid”, “adabiy tahlil” tushunchalarida qo‘llanadi.
Hind (Hindi/Urdu)	*Adabī jaiza* (ادبی جائزہ) / *Sāhityik samīkṣā* (साहित्यिक समीक्षा)	“Adabiy obzor”, “adabiy sharh” ma’nosida keng ishlatiladi.

Turli tillarda nomlanish farq qilsa-da, mazmun bir xil: *literary review* — xalqaro ilmiy muomalada eng ko‘p ishlatiladigan atama. U adabiyotshunoslikdagi tahliliy va tadqiqot yondashuvlarini belgilaydi hamda ilmiy jarayon uchun nazariy poydevor yaratadi.

Adabiy obzor (literary review) — bu ilmiy manbalarni tanqidiy o‘rganish, ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash va muammoning hozirgi holatini baholashga qaratilgan tahliliy jarayon. G‘arbda bu tushuncha XVIII asrdan boshlab shakllana boshlagan va bugun har bir dissertatsiya, maqola yoki monografiyaning ajralmas qismi sifatida tan olingan.

G‘arbda adabiy obzor dastlab jurnalistik tanqid shaklida vujudga keldi. XVIII asrda Angliyada nashr etilgan “*The Monthly Review*” va “*The Critical Review*” jurnallari kitoblarni tanqidiy tahlil qilish orqali obzor janrining dastlabki shaklini yaratdi. Shu davrda adabiy obzor yozuvchilar, o‘quvchilar va olimlar o‘rtasida ilmiy muloqotni yo‘lga qo‘yuvchi vosita sifatida qaraldi.

XIX asrda bu janr yanada mukammallashdi. Fransiyada *Sainte-Beuve,* Angliyada *Matthew Arnold*, AQShda *Edgar Allan Poe*, Germaniyada *Goethe va Schiller* atrofidagi tanqidiy maktablar adabiy obzorda nazariy tafakkurni ustuvor o‘ringa chiqardilar. Bu davrda obzor faqat asar tahlili emas, balki madaniy fikrni shakllantiruvchi jarayon sifatida qaraldi.

Jahon ilmiy tajribasida adabiy obzor — bu o‘ziga xos ilmiy yo‘l xaritasidir. Adabiy obzor orqali tadqiqotchi bir qator muhim ilmiy maqsadlarga erishadi. Avvalo, u mavjud manbalarni sinchiklab o‘rganish orqali tanlangan mavzuning qanchalik o‘rganilganini, qaysi jihatlar yetarlicha tahlil qilinganini va qaysilari esa e’tibordan chetda qolganini aniqlaydi. Bu jarayon orqali tadqiqotchi o‘z oldiga qo‘yilgan muammoning ilmiy tarixini, ya’ni shu mavzu yuzasidan ilgari qanday yondashuvlar mavjud bo‘lganini tushunib oladi.

Shuningdek, adabiy obzor ilgari yozilgan ishlarning natijalarini tahlil qilishga imkon beradi. Tadqiqotchi turli mualliflarning fikrlarini solishtiradi, ularning nazariy yondashuvlari, tahlil uslublari va xulosalarini baholaydi. Bu esa ilmiy muloqotni chuqurlashtirib, mavjud qarashlar orasidagi o‘xshashlik va tafovutlarni aniqlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, adabiy obzor orqali ilmiy bo‘shliqlar — ya’ni hali yetarlicha o‘rganilmagan yoki e’tibordan chetda qolgan masalalar — aniqlanadi. Shu tariqa tadqiqotchi o‘z ishining dolzarbligini asoslab, yangi yo‘nalish yoki yondashuv taklif qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Eng muhimi, adabiy obzor o‘z tadqiqoti uchun mustahkam nazariy asos yaratishga xizmat qiladi. Tadqiqotchi ilgari mavjud nazariyalar, metodlar va ilmiy yondashuvlardan foydalanib, o‘z ishini ilmiy mantiqqa tayanadi. Natijada, obzor ilmiy ishning poydevori, tadqiqotning mantiqiy yo‘nalishini belgilovchi va uni ilmiy jihatdan asoslovchi bosqich sifatida namoyon bo‘ladi. Adabiy obzorning mohiyati shundaki, u faqat manbalarni sanab chiqish emas, balki ularni o‘zaro solishtirib, tahlil asosida yangi tushuncha va konsepsiyalarni shakllantirishdir.

Adabiy obzor G‘arb adabiyotshunosligi tarixida mustaqil tanqidiy tafakkur shakllanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. U dastlab XIX asrda shakllanib, adabiy jarayonni tahlil qilish, yozuvchi ijodini baholash va zamon ruhi bilan bog‘lashning ilmiy-uslubiy shakliga aylandi.

XIX asr rus adabiyotida V. G. Belinskiy bu janrni shakllantirgan asosiy shaxslardan biridir. U obzorni “adabiy tafakkurning laboratoriyasi” deb atab, unda adabiyot, ijtimoiy muhit va falsafiy g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatgan. Belinskiyning obzorlari faqat bir asar yoki muallifni emas, balki butun davr adabiy tendensiyalarini yoritish, ularni xalq hayoti va ijtimoiy ong bilan bog‘lashga qaratilgan edi. Bu yondashuv g‘arbda obzorni tahliliy va ijtimoiy mazmunli janr sifatida qarash an’anasini mustahkamladi.

Yevropa mamlakatlarida, xususan, Angliyada adabiy obzor XIX asr oxiri — XX asr boshlarida jurnalistik tanqid orqali rivoj topdi. T. S. Eliotning “The Function of Criticism” (“Tanqidning asosi”) (1919) maqolasi bu borada muhim nazariy asos bo‘ldi [5.1919:B.134]. Eliot tanqidchi va obzorchi o‘rtasidagi chegarani belgilab, obzorni “mavjud bilimni tahlil qilish orqali yangi ilmiy qarashlar yaratish vositasi” sifatida talqin etgan. Unga ko‘ra, obzor yozuvchi yoki asar haqidagi fikrlarni takrorlash emas, balki ularni yangi badiiy-estetik kontekstda qayta o‘ylash jarayonidir.

XX asrda adabiy obzor ilmiy shaklga ega bo‘lib, universitetlar va ilmiy jurnallar doirasida keng rivojlandi. “Modern Language Review”, “PMLA” (Publications of the Modern Language Association), “The Times Literary Supplement”, “The Review of English Studies” kabi nufuzli nashrlar G‘arb adabiyotshunosligida obzor janrining uslubiy, strukturaviy va metodologik standartlarini belgilab berdi.

Bu jurnallarda chop etilgan obzorlar, odatda:

- mavjud ilmiy manbalarni tanqidiy tahlil qiladi;
- nazariy yondashuvlar o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklarni ko‘rsatadi;
- yangi ilmiy yo‘nalishlar uchun metodologik asos yaratadi;
- adabiy asarni zamonaviy nazariyalar — psixoanaliz, strukturalizm, postmodernizm, feministik tanqid — kontekstida qayta ko‘rib chiqadi.

Bugungi kunda G‘arb adabiyotshunosligida adabiy obzor nafaqat ilmiy maqolaning kirish qismi, balki mustaqil tahliliy janr sifatida qaraladi. U tadqiqotchidan keng nazariy bilim, tanqidiy fikrlash va manbalarni kompleks tahlil qilishni talab etadi. Shu bois, adabiy obzor G‘arb ilmiy an’analarida ilmiy tafakkur va ijodiy izlanishlar o‘rtasidagi bog‘lovchi ko‘prik sifatida baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, G‘arbdagi klassik obzor an’analari adabiy tanqidni yangi bosqichga olib chiqdi — u oddiy sharhdan ilmiy tahlilga, individual fikrdan konseptual nazariyaga o‘tish jarayonini ta’minladi. Shu sababli, bugungi kunda ham bu an’analar jahon adabiyotshunosligining nazariy va metodologik asoslarini tashkil etishda muhim o‘rin tutadi.

Adabiy obzor G‘arb ilmiy tafakkurida nafaqat ilmiy ishning kirish qismi, balki mustaqil tahliliy va nazariy faoliyat sifatida qaraladi. U ilmiy izlanishning mantiqiy poydevorini yaratadi, mavjud manbalarni tanqidiy baholaydi hamda yangi ilmiy g‘oyalar uchun konseptual asos tayyorlaydi. Shu bois adabiy obzorning nazariy asoslari uch yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: tahliliy, nazariy va metodologik.

Tahliliy asosda tadqiqotchi mavjud ilmiy manbalarni tanqidiy o‘rganadi, ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlaydi, o‘xshashlik va tafovutlarini tahlil qiladi. Bu jarayon oddiy bibliografik sharhdan farq qiladi, chunki obzor manbalarni faqat sanab o‘tmay, ularning o‘zaro bog‘liqligi va ilmiy ahamiyatini ochib beradi. Masalan, bir asarni turli nazariy yondashuvlar — sotsiologik, psixoanalitik yoki postkolonial tahlil asosida o‘rganish orqali obzor ilmiy tafakkurdagi oqimlarning rivojlanish darajasini ko‘rsatadi.

Nazariy asos esa tadqiqot uchun konseptual poydevor yaratadi. Obzorda muallif o‘z mavzusi doirasida qanday nazariy modelni tanlashini, qaysi ilmiy yondashuvni qo‘llashini belgilaydi. Bu bosqichda obzor tadqiqot mavzusiga oid nazariy tushunchalar, badiiy-estetik tamoyillar va tanqidiy qarashlarni yoritadi. Nazariy obzor mavjud adabiy fikrlarni qayta talqin etish, turli nazariy maktablar o‘rtasida muloqot yaratish imkonini beradi. Shu jihatdan obzor tadqiqotchining ilmiy pozitsiyasini aniqlaydi va uning konseptual yondashuvini mustahkamlaydi.

Metodologik asos obzorning uchinchi, lekin eng muhim qatlamidir. U ilmiy yondashuvlar orasidagi bog‘liqlikni, ularning tadqiqot jarayonidagi o‘rni va samaradorligini aniqlaydi. Metodologik tahlil orqali muallif qaysi metodlar tadqiqot uchun eng to‘g‘ri ekanini, ularning amaliy natijalari qanday bo‘lishini ko‘rsatadi. Masalan, bir mavzuni strukturaviy, intertekstual yoki komparativ yondashuv orqali o‘rganishdagi farqlarni tahlil etish obzorni ilmiy yo‘l xaritasiga aylantiradi.

Chris Hart o‘zining “*Doing a Literature Review*” (“Adabiy obzorning bajarilishi”) (2018) asarida adabiy obzorni “tadqiqot tafakkurini harakatga keltiruvchi mexanizm” [6. 2018:B.111] deb ta’riflaydi. Uning fikricha, obzor — bu mavjud fikrlar o‘rtasidagi muloqot bo‘lib, yangi ilmiy qarashlar aynan shu dialog jarayonida paydo bo‘ladi. Hartning yondashuvida obzor oddiy axborot yig‘indisi emas, balki ilmiy tafakkurni shakllantiruvchi ijodiy jarayon sifatida qaraladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiy obzorning nazariy asoslari — bu ilmiy tafakkurning tahliliy, nazariy va metodologik uyg‘unligidan tashkil topgan murakkab tizimdir. U tahlil orqali mavjud bilimni tartibga soladi, nazariya orqali konseptual asos yaratadi va metodologiya orqali ilmiy izlanishning yo‘nalishini belgilaydi. Shu tariqa adabiy obzor ilmiy fikrni rivojlantiruvchi, yangi g‘oyalar uchun zamin yaratadigan jarayon sifatida adabiyotshunoslikdagi muhim nazariy asosga aylanadi.

G‘arb tajribasida adabiy obzor bir necha shakllarda uchraydi:

- Narrativ obzor — asar yoki davr haqida umumiy, hikoya shaklidagi tahlil;
- Tizimli obzor — manbalarni mezonlar asosida saralab, ularni qiyosiy tahlil qilish;
- Integrativ obzor — turli yondashuvlarni birlashtiruvchi shakl;
- Metaanalitik obzor — ko‘plab tadqiqotlar natijasini statistik asosda umumlashtirish.

Bu turlar har biri ilmiy tadqiqot maqsadiga qarab tanlanadi. Dissertatsiyalar odatda tizimli va integrativ obzor turiga tayanadi.

Bugungi jahon adabiyotshunosligida adabiy obzor ko‘plab nazariy paradigmalarga asoslanadi:

- Postkolonial tahlil (E. Said, H. Bhabha) – adabiyotdagi madaniy hukmronlik va mustaqillik masalalarini ochib beradi.
- Gender yondashuvi (V. Woolf, E. Showalter) – ayol tajribasining adabiy ifodasini o‘rganadi.
- Postmodern yondashuv (L. Hutcheon, J. Derrida) – matnlararo aloqalar, ironik tafakkur va ko‘plik tushunchasini markazga qo‘yadi.
- Sotsiologik yondashuv (P. Bourdieu) – adabiyotning ijtimoiy maydondagi o‘rnini tahlil qiladi.

Bu yondashuvlar obzor janrini faqat tarixiy emas, balki nazariy-tahliliy asosda boyitadi.

Bugungi kunda adabiy obzor (literature review) ilmiy izlanishning ajralmas qismi sifatida tan olingan. U nafaqat tadqiqot uchun ma’lumot to‘plash, balki ilmiy tafakkurni shakllantirish, yangi g‘oya va yo‘nalishlarni belgilash vositasidir. Shu sababli, G‘arb universitetlarida adabiy obzor yozish *maxsus ilmiy ko‘nikma* sifatida o‘qitiladi.

Jo Ekkel — “*StudyCrumb”* ta`limiy platformasi asoschisi — bu borada shunday deydi: “Sifatli adabiy obzor — bu ilmiy ishning yuragi”. Ya’ni, agar ilmiy ish inson tanasiga o‘xshatilsa, uning yuragi aynan obzor bo‘ladi, chunki u butun tadqiqotga hayot baxsh etadi. Obzor mavjud ilmiy manbalarni o‘rganish bilan birga, tadqiqotchi uchun yangi savollarni paydo qiladi, ilmiy muammoni aniqlashtiradi va unga yo‘nalish beradi.

Shu sababli, har bir ilmiy ishda adabiy obzor quyidagi uchta muhim vazifani bajaradi:

1) Tadqiqot mavzusining dolzarbligini isbotlaydi

Adabiy obzor orqali tadqiqotchi o‘z mavzusining qanchalik o‘rganilganini, qaysi jihatlar hali ochilmaganini aniqlaydi. Bu esa tanlangan mavzu zamonaviy ilmiy muhitda dolzarb ekanini asoslash imkonini beradi. Masalan, ilgari o‘rganilmagan yoki turlicha talqin qilingan masalalarni tahlil qilib, tadqiqotchi o‘z ishining yangiligini ko‘rsatadi.

2). Nazariy asosni shakllantiradi

Obzor tadqiqotning ilmiy poydevorini yaratadi. U orqali muallif o‘z ishida qanday nazariy yondashuv va metodlardan foydalanishini belgilab oladi. Boshqacha aytganda, adabiy obzor ilmiy fikrni tizimga soladi, muallifning izlanish yo‘nalishini aniq qiladi va tadqiqotning mantiqiy asosini mustahkamlaydi.

2) . Ilmiy yangilikka yo‘l ochadi

Eng muhim jihatlardan biri — adabiy obzor yangi ilmiy g‘oyalar uchun zamin yaratadi. Tadqiqotchi mavjud adabiyotlarni tahlil qilib, ulardagi kamchilik yoki bo‘shliqlarni ko‘radi va shu asosda yangi savol yoki yo‘nalish taklif etadi. Shu tarzda obzor oddiy sharh emas, balki yangilik sari yetaklovchi ilmiy bosqichga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, adabiy obzor — bu ilmiy ishning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. U tadqiqot mavzusini asoslaydi, nazariy asosni belgilaydi va ilmiy yangilikni yuzaga keltiradi. Shu sababli, zamonaviy ilmiy amaliyotda obzor yozish nafaqat texnik topshiriq, balki mustaqil fikrlash va ilmiy tahlil madaniyatining eng muhim ko‘rinishi hisoblanadi.

Jahon adabiyotida adabiy obzor — bu nafaqat ilmiy ishning tarkibiy qismi, balki ilmiy tafakkurning markaziy shakli, tanqid va nazariyaning uyg‘unlashgan ko‘rinishidir. U adabiyotshunoslikni faqat asarlarni tahlil qilish darajasida emas, balki g‘oyalar, konsepsiyalar va ilmiy yondashuvlar o‘rtasidagi muloqot sifatida talqin etadi. Shu bois adabiy obzor tadqiqotchi uchun yo‘l xaritasi, nazariy poydevor va fikrlash metodiga aylanadi.

G‘arb ilmida bu janr XVIII asrdan boshlab shakllangan bo‘lib, dastlab tanqidiy maqola yoki jurnalistik tahlil shaklida namoyon bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan u mustaqil ilmiy yo‘nalishga aylandi — manbalarni tahlil qilish, fikrlarni solishtirish, yangi g‘oyalarni ishlab chiqishning ilmiy asosiga aylandi. XIX–XX asrlarda esa adabiy obzor ilmiy metodologiya darajasiga ko‘tarilib, ilmiy tadqiqotning ajralmas qismiga aylandi.

Bugungi kunda adabiy obzor *global ilmiy tafakkurda markaziy o‘rin* tutadi. U ilmiy izlanishlarni tartibga solish, manbalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochish, ilmiy bo‘shliqlarni aniqlash va yangi yo‘nalishlarni belgilash vazifalarini bajaradi. Shu orqali u adabiyotshunoslikni doimo yangilanishga undaydi, tanqidiy fikrlash madaniyatini rivojlantiradi va ilmiy ijodning sifatini belgilaydi.

Adabiy obzor — bu ilmiy tafakkurning yuragi, tadqiqotning asosiy mexanizmi va adabiyotshunoslikning nazariy hamda amaliy harakatlantiruvchi kuchidir. U har bir tadqiqotchi uchun yo‘l ko‘rsatkich, nazariy tayanch va yangi g‘oyalar sari yo‘naltiruvchi vosita sifatida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, zamonaviy adabiyotshunoslikda adabiy obzor yozish madaniyati — bu ilmiy fikr yetukligining, metodologik savodxonlikning va ijodiy tafakkurning eng muhim ko‘rsatkichidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Arnold, M. (1865). *Essays in Criticism*. London: Macmillan and Co.
2. Belinsky, V. G. (1953). *Selected Philosophical Works* (Vol. 1–2). Moscow: Foreign Languages Publishing House.
3. Bourdieu, P. (1993). *The Field of Cultural Production: Essays on Art and Literature*. Cambridge: Polity Press.
4. Derrida, J. (1976). *Of Grammatology*. Baltimore: Johns Hopkins University Press.
5. Eliot, T. S. (1919). *The Function of Criticism*. London: Faber & Faber.
6. Hart, C. (2018). *Doing a Literature Review: Releasing the Social Science Research Imagination*. London: SAGE Publications.
7. Hutcheon, L. (1988). *A Poetics of Postmodernism: History, Theory, Fiction*. New York: Routledge.
8. Poe, E. A. (1846). *The Philosophy of Composition*. Graham’s Magazine, 28(4), 163–167.
9. Sainte-Beuve, C. A. (1851). *Causeries du lundi* (Vol. 1–15). Paris: Garnier Frères.
10. Said, E. W. (1978). *Orientalism*. New York: Pantheon Books.
11. Showalter, E. (1985). *The New Feminist Criticism: Essays on Women, Literature, and Theory*. New York: Pantheon Books.

12. Woolf, V. (1929). *A Room of One’s Own*. London: Hogarth Press.
13. *The Monthly Review* (1749–1845). London: R. Griffiths.
14. *The Critical Review* (1756–1817). London: Archibald Hamilton.
15. *Modern Language Review* (1905–present). Cambridge: Modern Humanities Research Association.
16. *PMLA: Publications of the Modern Language Association of America* (1884–present). New York: MLA.
17. *The Times Literary Supplement* (1902–present). London: The Times.
18. *The Review of English Studies* (1925–present). Oxford: Oxford University Press.

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI BOSHQARUVIDAGI NAZARIY ASOSLARI

Abduxamidova Muyassar Xalimjon qizi
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instuti tayanch doktoranti
+998909058219 muyassar022387@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21932346

Annotatsiya. Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarini boshqarishda sun’iy intellektdan foydalanishning nazariy asoslari tahlil qilingan. Sun’iy intellekt tushunchasining ilmiy talqinlari, uning turlari va maktab boshqaruvidagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv, tizimli yondashuv va prognozli boshqaruv konsepsiyalarining mazmuni ochib berilgan hamda xorijiy va mahalliy tadqiqotlar asosida maktab boshqaruvida sun’iy intellektdan foydalanishning zamonaviy tendensiyalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, maktab boshqaruvi, prognozlash, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv, tor sun’iy intellekt, raqamli transformatsiya, boshqaruv qarorlari, ta’lim sifati.

Аннотация. В статье проанализированы теоретические основы применения искусственного интеллекта в управлении общеобразовательными школами. Рассмотрены научные подходы к определению понятия искусственного интеллекта, его основные виды и возможности использования в системе школьного управления. Особое внимание уделено концепциям управления на основе данных, системного подхода и прогнозного управления.

Ключевые слова: искусственный интеллект, управление школой, прогнозирование, управление на основе данных, узкий искусственный интеллект, цифровая трансформация, управленческие решения, качество образования.

Abstract. This article examines the theoretical foundations of the application of artificial intelligence (AI) in the management of general secondary schools. It analyzes scientific approaches to defining artificial intelligence, its main types, and its potential applications in school management. The study also discusses the concepts of data-driven management, systems thinking, and predictive management as methodological foundations for improving managerial decision-making

Keywords: artificial intelligence, school management, forecasting, data-driven management, narrow artificial intelligence, digital transformation, managerial decision-making, educational quality.

Bugungi kunda umumta’lim muassasalari boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etish jarayoni tobora murakkablashib bormoqda. O‘quvchilar kontingentining dinamik o‘zgarishi, o‘qituvchilar malakasini uzluksiz monitoring qilish zarurati, moddiy va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish talabi hamda ta’lim natijalarini oldindan bashorat qilish ehtiyoji maktab rahbariyati oldiga an’anaviy boshqaruv usullari yordamida to‘liq hal etib bo‘lmaydigan metodologik muammolarni qo‘ymoqda. Bunday sharoitda ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, ya’ni boshqaruv jarayonlarini ilmiy tahlil va prognozlash asosida tashkil etish zaruriyati yuzaga keladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim sohasini isloh qilish va boshqaruv tizimini takomillashtirishga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilmoqda. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’lim tizimini boshqarishda davlat va jamoat boshqaruvining uyg‘unligi hamda ta’lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik asosiy tamoyillar sifatida belgilangan[1]. Bu tamoyillarning amaliyotga tatbiqi maktab boshqaruvida aniq, ishonchli va tahlilga asoslangan axborot tizimini shakllantirishni taqozo etadi - bu esa o‘z navbatida ma’lumotlarga asoslangan boshqaruvga zamin yaratadi.

Davlat siyosatining keyingi bosqichida raqamli texnologiyalar va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruvni joriy etishga ustuvor ahamiyat berildi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida barcha davlat muassasalarida, jumladan ta’lim tashkilotlarida raqamli transformatsiyani amalga oshirish va katta hajmdagi ma’lumotlarni intellektual tahlil qilish, shu jumladan bashoratli modellashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish vazifa sifatida qo‘yilgan[2]. Maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturda esa ta’lim muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy boshqaruv modellarini barpo etish va ilg‘or xorijiy tajribani joriy etish yo‘nalishlari belgilab qo‘yilgan [3].

Ushbu islohotlarning izchilligi maktab xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan choralarda ham o‘z aksini topgan [4]. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarda

belgilangan vazifalar majmui maktab boshqaruvida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish davlat siyosati darajasida asoslanganligini ko‘rsatadi.

Sun’iy intellekt tushunchasi zamonaviy fan va texnologiyaning eng ko‘p muhokama qilinadigan yo‘nalishlaridan biriga aylangan bo‘lsa-da, uning ilmiy mohiyatini to‘liq va aniq ifodalovchi yagona ta’rif hali-hamon shakllanish jarayonida davom etmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, sun’iy intellekt bir vaqtning o‘zida ham ilmiy-texnologik soha, ham amaliy vosita, ham falsafiy tushuncha sifatida namoyon bo‘lib, uning mazmun-mohiyati turli ilmiy paradigmalar doirasida har xil talqin etiladi.

O'zbek tadqiqotchilari sun'iy intellekt tushunchasini asosan ta'lim va pedagogik texnologiyalar kontekstida talqin etishgan. Xususan, S.A. Normatov o'zining maktab ta'limida sun'iy intellekt elementlarini o'qitishga bag'ishlangan tadqiqotida SI'ni “nutqni aniqlash, vizual idrok etish, mustaqil qaror qabul qilish va boshqa shu kabi odatda inson intellektini talab qiladigan vazifalarni bajarishga qodir kompyuter tizimi” [11].

Ushbu ta’rifda sun’iy intellektning funksional imkoniyatlari - ya’ni nima qila olishi - birinchi o‘ringa chiqarilgan. O.Abdualimov esa sun'iy intellektga ikki darajali yondashuv taklif etadi: keng ma'noda — “murakkab muammolarni o'rganish va hal qilishga qodir bo'lgan tahliliy tizimlarni ishlab chiqish fanining tarmog'i”, tor ma'noda esa - “kompyuterning inson tafakkuriga asoslangan o'rgatish texnologiyasi”dir [5]. Bu ikki darajali ta'rif sun'iy intellektni ham nazariy fan, ham amaliy vosita sifatida bir vaqtda ko'rib chiqish imkonini beradi.

Sun’iy intellektning nazariy poydevori 20-asrning o‘rtalarida shakllana boshladi. Britaniyalik matematik Alan Turing 1950-yilda “Hisoblash mashinasi va intellekt» nomli fundamental maqolasida mashinalar fikrlay oladimi, degan savolni ilmiy muammo sifatida birinchi marta ko‘tardi va «taqlid o‘yini” konsepsiyasi orqali mashinaning intellektual qobiliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqdi [13]. Sun’iy intellekt mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida 1956-yilda Dartmouth kollejida rasman e'lon qilindi. Ushbu konferensiyaning tashabbuskorlaridan biri John McCarthy “sun’iy intellekt” atamasini ilmiy muomalaga kiritdi va uni «aqlli mashinalar yaratish ilmi va muhandisligi» sifatida ta’rifladi [9]. Stuart Russell va Peter Norvig esa sun’iy intellektga yanada keng va tizimli yondashuv taklif etib, uni to‘rtta paradigma doirasida ko‘rib chiqdilar: insonlarcha fikrlaydigan, ratsional fikrlaydigan, insonlarcha harakat qiladigan va ratsional harakat qiladigan tizimlar [12]. Maktab boshqaruvi kontekstida aynan ratsional agent sifatidagi yondashuv amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki boshqaruv jarayonlarida muhim bo‘lgan narsa tizimning “inson kabi” fikrlashi emas, balki ma’lumotlar asosida to‘g‘ri va o‘z vaqtida qaror qabul qila olishidir. UNESCO tomonidan 2021-yilda ta'lim siyosatchilari uchun tayyorlangan qo'llanmada sun'iy intellekt ta'rifiga asoslanib, “idrok etish, o'rganish, mulohaza yuritish, muammo yechish, til orqali muloqot qilish va hatto ijodiy ish yaratish kabi inson intellektining muayyan funksiyalarini taqlid qila oladigan mashinalar” sifatida ta'riflanadi [14]. Ushbu ta’rif, ayniqsa, maktab boshqaruvida prognozlash vazifalariga nisbatan qo‘llanilganda o‘zining amaliy qiymatini namoyon etadi.

Keltirilgan ta’riflarni qiyosiy tahlil qilish quyidagilarni ko‘rsatadi: mahalliy olimlar sun’iy intellektni asosan taqlid qilish va muammolarni hal etish nuqtai nazaridan talqin etsa, xorijiy olimlar unga ratsional agent va tizimli yondashuv orqali qaraydi (1-jadval). Ushbu farqlar sun’iy intellektning turli ilmiy an’analar doirasida har xil tushunilishidan kelib chiqadi va ularning birortasi ham mutlaq to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri deb bo‘lmaydi - har bir ta’rif o‘z kontekstida asoslidir.

1- jadval

Sun’iy intellekt ta’riflarining qiyosiy tahlili

Muallif	Ta’rifdagi asosiy urg‘u	Yo‘nalish
Abdualimov O.	Tahliliy tizim+xulosalar chiqarish	Amaliy
Normatov S.A.	Funksional imkoniyatlar	Texnologik
Turing A.	Intellektual qobiliyatni baholash	Nazariy
McCarthy J.	Aqlli mashinalar yaratish	Muhandislik
Russel&Norvig	Ratsional agent	Tizimli

UNESKO	Ta’lim natijalarini yaxshilash	Pedagogik

Ushbu tadqiqot maqsadidan - ya’ni maktab boshqaruvida prognozlash mexanizmini ishlab chiqishdan - kelib chiqqan holda quyidagi ishchi ta’rif taklif etiladi:

“Sun'iy intellekt - ma'lumotlarga asoslanib tahlil qilish, prognozlash va qaror qabul qilishni amalga oshiruvchi, tajriba asosida o'z faoliyatini moslashtirib boruvchi mashina asosidagi (dasturiy-texnik) tizimlar majmuidir.”

Ushbu ta’rifda uchta asosiy element ajralib turadi: ma’lumotlarga asoslanganlik, moslashuvchanlik va boshqaruv jarayonlariga yo‘naltirilganlik - bular maktab boshqaruvida prognozlash mexanizmini loyihalashda metodologik tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Sun’iy intellekt tushunchasining ilmiy mohiyatini to‘liq anglash uchun uning turlarini metodologik jihatdan tasniflash zarur. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda sun’iy intellekt tizimlari funksional qamrovi va intellektual moslashuvchanlik darajasiga ko‘ra uchta asosiy toifaga ajratiladi: tor sun’iy intellekt (Narrow AI), umumiy sun’iy intellekt (General AI) va superintellekt (Superintelligent AI) [12]. Ushbu tasnif maktab boshqaruvida qaysi turdagi sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish mumkinligi va maqsadga muvofiqligini aniqlash uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tor sun’iy intellekt (Narrow AI). Tor sun’iy intellekt - bugungi kunda amaliyotda keng qo‘llanilayotgan va texnologik jihatdan etuk bo‘lgan yagona SI turidir. U aniq belgilangan vazifalar doirasida - masalan, tasvirni aniqlash, matnni tahlil qilish, prognoz modellari yaratish yoki tavsiyalar berish - yuqori samaradorlik ko‘rsatadi, biroq ushbu doiradan tashqariga chiqolmaydi [10]. Russell va Norvig ta'kidlashicha, bugungi kunda mavjud barcha tijorat va ilmiy SI tizimlari tor sun’iy intellekt toifasiga mansub bo‘lib, ular muayyan muhit va vazifalar bilan chegaralangan holda faoliyat yuritadi [12].

Maktab boshqaruvi uchun ahamiyati: aynan tor sun’iy intellekt maktab boshqaruvida hozirgi kunda qo‘llash mumkin bo‘lgan real vositadir. O‘quvchilar davomati, akademik ko‘rsatkichlar, o‘qituvchilar ish faoliyati va moliyaviy resurslar bo‘yicha prognozlar tuzish, anomaliyalarni aniqlash, boshqaruv qarorlarini qo‘llab-quvvatlash - bularning barchasi tor SI imkoniyatlari doirasida amalga oshirilishi mumkin. Shu sababli, ushbu tadqiqotda ishlab chiqilayotgan prognozlash mexanizmi aynan tor sun’iy intellekt vositalariga asoslanadi.

Umumiy sun’iy intellekt (General AI). Umumiy sun’iy intellekt - inson darajasidagi bilish, o‘rganish va moslashuvchanlik qobiliyatlariga ega bo‘lgan, turli kontekstlarda bilimlarni mustaqil qo‘llay oladigan tizimni anglatadi. Margaret Boden ta'kidlashicha, bunday tizim turli vaziyatlarga mustaqil moslasha olish xususiyatiga ega bo‘lishi lozim, biroq hozirgi texnologik rivojlanish bosqichida bunday tizimlar hali mavjud emas [6]. Umumiy sun’iy intellekt ilmiy-strategik maqsad sifatida qaraladi va uning ta’lim boshqaruvida qo‘llanilishi uzoq muddatli istiqbol masalasi hisoblanadi.

Generativ sun'iy intellekt (Generative AI). Generativ SI - matn, tasvir yoki boshqa kontentni mustaqil yaratishga qodir, allaqachon amaliyotda qo'llanilayotgan tor SI turi hisoblanadi. Xususan, D.I. Kulmuradov o'z tadqiqotida generativ sun'iy intellekt (ChatGPT, Midjourney va maxsus neyron tarmoqlar) modellaridan foydalangan holda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-loyihalash kompetensiyalarini shaxsiylashtirilgan (adaptiv) tarzda rivojlantirishning pedagogik-didaktik tizimini asoslab bergan [8].

Superintellekt. Superintellekt tushunchasi inson aqlidan ustun bo‘lgan intellekt shaklini anglatib, u hozirgi bosqichda faqat nazariy va falsafiy munozaralar doirasida o‘rganiladi [7].

Yuqorida keltirilgan tasnifdan ko‘rinib turibdiki, maktab boshqaruvida SI vositalarini joriy etishda tor sun’iy intellekt yagona amaliy va texnologik jihatdan tayyor yondashuv hisoblanadi. Quyidagi jadval uchta SI turini maktab boshqaruvi talablari nuqtai nazaridan qiyosiy tarzda ifodalaydi:

2-jadval

Sun’iy intellekt turlarining maktab boshqaruviga mosligi

SI turi	Texnologik yetukligi	Maktab boshqaruvida qo‘llanilishi	Tadqiqotdagi o‘rni
Tor SI(narrow AI)	Yuqori	Prognozlash,monitoring,tahlil	Asosiy vosita
Umumiy SI (General AI)	Rivojlanmoqda	Istiqbolda kompleks boshqaruv	Strategik istiqbol
Superintellekt	Mavjud emas	Amaliy ahamiyati yo‘q	Tadqiqot doirasida tashqari

Shunday qilib, maktab boshqaruvida prognozlarni shakllantirish mexanizmi tor sun’iy intellekt vositalari - xususan, mashinaviy o‘rganish (machine learning) va ma’lumotlar tahlili (data analytics) - asosida quriladi. Bu metodologik tanlov nafaqat texnologik etukligi, balki O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim maktablarining hozirgi raqamli infratuzilmasi va boshqaruv imkoniyatlariga muvofiqligi bilan ham asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni: O‘RQ–637-son, 2020-yil 23-sentabr. – URL: https://lex.uz/docs/5013007
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: PF–6079-son Farmoni, 2020-yil 5-oktabr. – URL: https://lex.uz/docs/5030957
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni: PF–134-son, 2022-yil 11-may. – URL: https://lex.uz/docs/6008663
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tiziminitakomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori: PQ–231-son Qarori. – Toshkent, 2024-yil 21-iyun.
5. Abdualimov O. *The use of artificial intelligence in educational technology platforms // Journal of Social Research in Uzbekistan*. – 2025. – Vol. 5, № 4. – P. 59. – DOI: 10.37547/supsci-jsru-05-04-10.
6. Boden M.A. *AI: Its Nature and Future*. – Oxford: Oxford University Press, 2016. – 192 p.
7. Bostrom N. *Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies*. – Oxford: Oxford University Press, 2014. – 352 p.
8. Kulmuradov D.I. *Generativ sun’iy intellekt yordamida bo‘lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish:* pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2025.
9. McCarthy J. *What Is Artificial Intelligence?* – Stanford: Stanford University, 2007. – URL: https://www-formal.stanford.edu/jmc/whatisai.pdf
10. Nilsson N.J. *The Quest for Artificial Intelligence: A History of Ideas and Achievements*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 578 p.
11. Normatov S.A. *Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida sun’iy intellekt elementlarini o‘qitish metodikasi*. – Toshkent, 2025. – 59 b.
12. Russell S., Norvig P. *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. – 4th ed. – Hoboken: Pearson, 2021. – 1136 p.
13. Turing A.M. *Computing Machinery and Intelligence // Mind*. – 1950. – Vol. 59, № 236. – P. 433–460. – DOI: 10.1093/mind/LIX.236.433.
14. UNESCO. *Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policymakers*. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 64 p. – URL: https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000376709

INGLIZ VA O‘ZBEK NASRIDA ARXETIP OBRAZLARNING QIYOSIY TAHLILI (E. TOMSON VA T. MUROD ASARLARI MISOLIDA)

Nazarova Lobar Maxmataminovna
Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: lobarnazarova195@icloud.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21932395

Annotatsiya: Maqolada Ernest Seton-Tompson va To‘g‘ay Murod asarlaridagi arxetipik obrazlar qiyosiy tahlil qilinadi. Karl Gustav Yung nazariyasi asosida donishmand chol, ona, qahramon va hayvoniy arxetiplarning badiiy talqini o‘rganiladi. Ingliz va o‘zbek adabiy an’analarida arxetipik obrazlarning ifodalanishidagi o‘xshashlik va farqli jihatlar, ularning milliy-madaniy xususiyatlar vositasida o‘zgarishi hamda estetik-falsafiy funksiyalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: arxetip obraz, Ernest Seton-Tompson, To‘g‘ay Murod, qiyosiy adabiyotshunoslik, Yung nazariyasi.

Аннотация: В статье проводится сравнительный анализ архетипических образов в произведениях Эрнеста Сетон-Томпсона и Тогая Мурада. На основе теории Карла Густава Юнга исследуется художественная интерпретация таких универсальных образов, как мудрый старец, мать, герой и животные архетипы. Освещаются сходства и различия в выражении архетипических образов в английской и узбекской литературных традициях, их трансформация посредством национально-культурных особенностей, а также их эстетические и философские функции.

Ключевые слова: архетипический образ, Эрнест Сетон-Томпсон, Тогай Мурад, сравнительное литературоведение, теория Юнга.

Abstract: The article provides a comparative analysis of archetypal images in the works of Ernest Seton-Thompson and Togay Murod. Based on Carl Gustav Jung‘s theory, the artistic interpretation of universal images such as the wise old man, mother, hero, and animal archetypes is examined. The similarities and differences in the expression of archetypal images in English and Uzbek literary traditions, their transformation through national-cultural characteristics, as well as their aesthetic and philosophical functions are highlighted.

Keywords: archetypal image, Ernest Seton-Thompson, Togay Murod, comparative literary studies, Jung‘s theory.

Arxetip tushunchasi adabiyotshunoslikda markaziy o‘rinlardan birini egallab, turli madaniyatlar va davrlar adabiyotida takrorlanuvchi universal obrazlar, motivlar va syujetlarni tushunishga imkon beradi. Shveytsariyalik psixolog Karl Gustav Yung ta’rifiga ko‘ra, arxetiplar “kollektiv ongsizlik”ning universal tuzilmalari bo‘lib, ular insoniyatning umumiy tajribasini aks ettiradi [1]. Adabiyotda arxetipik obrazlar avloddan-avlodga o‘tib, milliy-madaniy xususiyatlarga mos ravishda o‘zgaradi va yangi mazmun kasb etadi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda arxetipik tahlil nafaqat Yung nazariyasi, balki uning izdoshlari - Nortrop Fray va boshqa olimlarning ishlari asosida rivojlanib, turli milliy adabiyotlarni qiyosiy o‘rganishning muhim metodiga aylangan.

Ernest Seton-Tompson (1860-1946) - ingliz-kanada yozuvchisi, hayvonot dunyosi haqidagi hikoyalar muallifi sifatida jahon adabiyotida tanilgan. Uning asarlari hayvonlar hayotini chuqur psixologik tahlil qilishi, hayvon obrazlarining ramziy-ma’naviy yuklamaga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi. To‘g‘ay Murod (1948-2003) - o‘zbek nasrining yirik vakili bo‘lib, “Otamdan qolgan dalalar”, “Ot kishnagan oqshom” kabi asarlari milliy-falsafiy chuqurligi bilan mashhur. To‘g‘ay Murod Ernest Seton-Tompson asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilganligi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bu ikki adabiy an’ana o‘rtasidagi badiiy-estetik aloqani mustahkamlagan [2].

Seton-Tompson asarlarida tabiat va hayvonot dunyosi tasviri markaziy o‘rin tutadi. Uning hayvon qahramonlari - bo‘rilar, ayiqlar, qushlar - nafaqat biologik xususiyatlari, balki psixologik kechinmalari bilan tasvirlanadi. “Lobo - qirol bo‘ri” hikoyasida bo‘ri obrazi erkinlik va mustaqillik ramzi sifatida talqin etiladi, “Silverspot - qarg‘a” hikoyasida esa qarg‘a donolik ramzi sifatida gavdalanadi. Seton-Tompson asarlari “ma’jozlarga asoslangan, teran insoniy tuyg‘ularni tarannum etsa-da, ularda obrazlarning ruhiy kechinmalari alohida tasvir yo‘siniga ega” [3].

To‘g‘ay Murod asarlarida arxetipik obrazlar milliy-madaniy kontekstda talqin etiladi. “Ot kishnagan oqshom” qissasida ot obrazi nafaqat bosh mavzu, balki “milliy ong, tarixiy xotira va insoniyat ruhiyatining

chuqur qatlamlarini yorituvchi ramziy vosita darajasiga ko‘tarilgan” [4]. Qissadagi Ziyodulla chavandoz obrazi “halollik va mardlikni tarannum etadi” [4]. Tadqiqotchi Muminova (2023) ta’kidlaganidek, “Tog‘ay Murodning barcha qissalarida folklordan foydalanish, uning materiallarini qayta ishlash yozuvchining ijodiy uslubini belgilovchi bir omil sifatida ko‘zga tashlanadi” [4].

To‘g‘ay Murodning Seton-Tompson ijodiga bergan bahosi alohida e’tiborga loyiq: “Seton-Tompson: jonivorlarga toza ko‘ngil, toza ko‘z bilan qaradi. Jonivorlardan o‘zining qing‘ir, falsafiy fikrlarini aytish uchun foydalanmadi. Jonivorlarning ichki dunyosini halol, xolisona ochib berdi. Hayotga jonivorlar ko‘zi bilan boqdi” [4]. Bu fikrlar ikki yozuvchi o‘rtasidagi badiiy uslubiy yaqinlikni ko‘rsatadi.

Seton-Tompson va Tog‘ay Murod asarlaridagi arxetipik obrazlarni qiyosiy tahlil qilish quyidagi o‘xshashlik va farqli jihatlarni aniqlash imkonini beradi.

O‘xshashliklar jihatidan, ikkala muallif ham tabiat va hayvonot dunyosiga alohida e’tibor qaratib, ular orqali universal insoniy qadriyatlarni aks ettiradi. Tabiat ular asarlarida nafaqat badiiy fon, balki qahramonlar taqdiri va ruhiy holatini shakllantiruvchi faol tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkala yozuvchi ham qahramonlarning psixologik dunyosiga chuqur kirib boradi, ularning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va ma’naviy izlanishlarini badiiy tahlil qiladi. Bu jihat ularni nafaqat tabiat va hayvonot tasviri, balki inson ruhiyati bilan bog‘liq chuqur falsafiy masalalarni ko‘tarishga undaydi. Shuningdek, ikkala asarda ham arxetipik obrazlar falsafiy-estetik yuklamaga ega bo‘lib, ular oddiy syujet vositasi emas, balki asarning g‘oyaviy-mazmuniy poydevorini tashkil etadi. Seton-Tompson va Tog‘ay Murod o‘z arxetiplari orqali hayot va o‘lim, erkinlik va qullik, sadoqat va xiyonat kabi abadiy falsafiy mavzularni ko‘tarib chiqadi.

Farqli jihatlar esa ularning badiiy uslubi va dunyoqarashidagi o‘ziga xosliklarni ko‘rsatadi. Seton-Tompson asarlarida hayvonlar arxetipi biologik va psixologik tahlilga asoslangan bo‘lib, u hayvonlarning tabiiy hayotini, instinktlarini, omon qolish kurashini ilmiy aniqlik va psixologik chuqurlik bilan tasvirlaydi. Uning hayvon qahramonlari o‘zlarining biologik tabiatiga sodiq holda harakat qiladi, biroq shu bilan birga ular insoniy fazilatlar - jasorat, aql-zakovat, sadoqat kabi xususiyatlar bilan ham tasvirlanadi. Tog‘ay Murod asarlarida esa hayvon obrazi falsafiy-ramziy xususiyatga ega bo‘lib, u ko‘proq milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ma’naviy tushunchalarni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Seton- Tompson arxetiplari universal xarakterga ega bo‘lib, ular milliy chegaralardan tashqariga chiqib, butun insoniyatga xos tushunchalarni aks ettirsa, Tog‘ay Murod asarlarida bu arxetiplar milliy-madaniy kontekstda talqin etiladi, ya’ni ular o‘zbek xalqining mentaliteti, an’analari va dunyoqarashi bilan uyg‘unlashgan holda tasvirlanadi. Tog‘ay Murod asarlarida ona, donishmand chol kabi an’anaviy arxetiplar markaziy o‘rin tutib, ular milliy xarakter va qadriyatlarning timsoli sifatida gavdalansa, Seton-Tompson asarlarida hayvoniy arxetiplar, ya’ni bo‘ri, qarg‘a, ayiq, kiyik kabi obrazlar ustunlik qilib, ular orqali muallif tabiat qonunlari va insoniyatning universal psixologik to‘qnashuvlarini aks ettiradi[2].

Shuningdek, Seton-Tompson asarlarida arxetipik obrazlar ko‘proq realistik va naturalistik uslubda, hayvonlarning haqiqiy hayotiy tajribalari asosida yaratilgan bo‘lsa, Tog‘ay Murod asarlarida ular ko‘proq poetik, ramziy va falsafiy xususiyat kasb etadi. Seton-Tompson asarlaridagi hayvon qahramonlari o‘z muhti va tabiiy qonuniyatlar doirasida harakat qiladi, ularning taqdiri ko‘pincha tabiiy tanlanish va omon qolish qonuniyatlari bilan belgilanadi. Tog‘ay Murod asarlarida esa hayvon obrazi, xususan ot obrazi, inson taqdiri, vatanparvarlik, erkinlik va milliy g‘urur kabi tushunchalar bilan bog‘lanib, ramziy ma’no kasb etadi. Bu farqli jihatlar ikki muallifning badiiy metodlari va estetik tamoyillaridagi tafovutni, shuningdek, ingliz va o‘zbek adabiy an’analarining o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Seton-Tompson va To‘g‘ay Murod asarlaridagi arxetipik obrazlar turli milliy adabiyotlarda o‘ziga xos tarzda talqin etilsa-da, ularning asosiy funksiyalari - inson tabiatining universal tomonlarini aks ettirish, axloqiy-falsafiy masalalarni qo‘yish va badiiy-estetik ta’sir kuchini oshirish - o‘xshashligicha qoladi. To‘g‘ay Murodning Seton-Tompson asarlarini tarjima qilganligi ikki adabiy an’ana o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni kuchaytirib, arxetipik obrazlarning madaniyatlararo translyatsiyasiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jung C. G. The archetypes and the collective unconscious (R. F. C. Hull, Trans.). Princeton University Press. 1959.
2. Buronova D. B. Comparative methodological approach of translation. Sayhun ilmiy axborotnomasi, (3), 2023. – P. 103-107.
3. Oqmamatova M. Semantic features of phraseological units (in the example of Togay Murad’s translation). O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari. 2024.

4. Bolikulova M. A. qizi, & Pardayeva I. M. Tog‘ay Murod ijodida ot tasviri. Ustozlar ilmiy jurnali. 2025.
5. Muminova F. J. Tog‘ay Murod qissalarida folklor an’analari. “Involta” Innovation Scientific Journal, 2(3), 2023. – B.90-93.
6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Adabiyot (o‘qish) darsligi, 6-sinf. – Toshkent, 2023.

ANTROPONIMLARDA ETNIK BELGILARNING AKS ETISHI

Islomov Sardor Sanjarovich
Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21932420

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilida mavjud etnoantroponimlar tahlilga tortilgan. Antroponimlarning o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlar aosida o‘rganilib, etnik jihatlarning nomlarda aks etish masalasi yoritilgan. Etnoantroponimlarning tuzulishi, semantik xususiyatlar misollar asosida tahlil qilinib, etimologik jihatlari ham aniqlangan.
Kalit so‘zlar: *etnonim, etnik belgi, etnoantroponim, laqab, tahallus, o‘zbek tarixiy antroponimikasi, konsept.*

Nomshunoslik ilmining yuzaga kelishi insoniyat tomonidan atab qo‘yilgan jamiyki nomlarni o‘rganish, tahlil qilsh imkoniyatini berdi. Mazkur sohaning ichki qonuniyatlari, ma’lumotlarni o‘rganish ko‘lami dunyo tilshunosligida ko‘plab olim va tadqiqotchilarning izlanishlari samarasi o‘laroq aniq tartibga keltirilgan. Taniqli tilshunos olim V.N.Nikonov ta’kidlaganidek: “Bir-biridan ajralmas, amaliy va nazariy vazifalarining mavjudligi bilan antroponimika baxtlidir”. Shuning uchun ham antroponimlarga qiziqish, uni o‘rganish qadimiy tarixga ega. Yuz yillar davomida unga bag‘ishlab minglab asarlar yozildi. Natijada kishi ismlarini o‘rganuvchi tilshunoslikning alohida bir sohasi antroponimiya paydo bo‘ldi. Bu ilm xuddi toponimika, etnonimika, zoonimika, kosmonimika singari onomastikaning tarkibiy bir qismini tashkil qiladi. Antroponimikaning yuqoridagi onomastik sathlardan farqi shuki, kishi ismlari qolgan onimlardan nom o‘zlshtirish bo‘yicha eng faoli hisoblanadi. Xususan, *Qo‘chqor, Arslon, Qumri* kabi antroponimlar zoonimlardan, *Zuxro, Yulduz* kabilar kosmonimlardan, *Qo‘ng‘irot, Arab* kabilar etnonimlardan antroponimga ko‘chgan.

E.Begmatov o‘zbek tilshunosligida antroponimikaning o‘rganilishi borasida fikr yuritar ekan, mazkur sohaning nazariy tomonlarini o‘rganishda bir qancha muammolar mavjudligini qayd etgan edi. Olim o‘zining “O‘zbek tili antroponimikasi” nomli fundamental asarida quyidagi jihatlarni keltirib o‘tadi: antroponimlar semantikasi va motivatsiyasi, antroponimlarni tasnif qilishning ilmiy motivlari, antroponimlarni qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar bilan qiyosiy o‘rganish, antroponimiya fondiga ijtimoiy-lisoniy, milliy-madaniy, falsafiy-etnik jihatdan yondashish masalalari, tarixiy yozma obidalar tilidagi antroponimlarni o‘rganish kabi bir qator muammolar o‘z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Atoqli otlarni o‘rganish uzoq tarixga ega bo‘lib, uning davriy taraqqiyoti davomida tadqiqotchilar ismlar ontologiyasi hamda ularning vazifalanish masalalariga e’tibor qaratganlar. Ilmiy bilimlarning turli sathlari vakillarining ismga bo‘lgan qiziqishi alohida shaxs ongida va jamiyat hayotining turli bosqichlarida ismlarga katta hurmat bilan yondashilishiga sabab bo‘lgan. S.G.Vorkachevning ta’kidlashicha, tilshunoslikning bugungi kundagi taraqqiyoti yoki antropotsentrik paradigma insonga “barcha narsalarning o‘lchovini” berdi va uning dunyoqarashini ma’lum markazga yo‘naltirdi. Albatta, bu markaz insonning madaniyati, tafakkur tarzi va etnik xoslanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu jihat har bir atoqli otning yuzaga kelishida insonning etnik va madaniy konseptosferasida mavjud ko‘nikmalar hamda bilimlarning namoyon bo‘lishi bilan o‘z isbotini topadi.

Dastlab faqatgina belgi ifodalagan so‘z o‘ziga boshqa bir mazmunni yuklagan holda nom hosil qiladi. Bunda ma’lum bir belgini qay holatda tushunish, ayni zamonda, unga qanday munosabatda bo‘lish muhimdir. Insonning bunday qabul qilish mexanizmi, shubhasiz, u yashayotgan muhit, ajdodlarining kimligi, qaysi madaniyat vakili ekanligi, jamiyatdagi maqomi, ruhiyati va tasavvur olami bilan belgilanadi. Shunday ekan, antropotsentrik paradigma tarkibiga kiruvchi bir qancha sohalar: etnolingvistika, areal lingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik kabilar nom yaratish jarayonini o‘z tadqiq doirasida o‘rganadi, baholaydi. Xususan, ismlarning etnolingvistik va lingvomadaniy jihatlari etnomadaniy tasavvurlar zamirida vujudga kelgan ma’noni izohlaydi. Kishilik jamiyatining vujudga kelishi va rivojlanishida etnik o‘ziga xoslik: *milliy kognitiv, milliy diskurs, milliy stereotip, milliy realiya va milliy ramz* kabi tushunchalar majmuasi bevosita etnik madaniyat – etnomadaniyatni belgilaydi, ifodalaydi. Bu kabi tushunchalar, abatta, antroponimlarda o‘z aksini topadi. Shunga ko‘ra, nomshunoslikda etnik onomastika ham farqlanib, millat nomlarining kelib chiqishini, etnonimlarning evolyutsiyasini, toponimlar, antroponimlar, zoonimlarning yaratilishida etnik belgilarning o‘rni, etnonimlarning til nomlari (lingvonimlar) bilan o‘zaro bog‘liqligini o‘rganadi.

Umuman olganda, nom shunchaki so‘z emas, ko‘pqirrali tushuncha – konsept hamdir. Fikrlarimizga asos sifatida E.Begmatovning antroponimiya, xususan, tarixiy antroponimiya haqidagi quyidagi xulosalarini keltirmoqchimiz: “O‘zbek tarixiy antroponimiyasi deyarli tadqiq qilinganicha yo‘q. Tarixiy yozma obidalar tilidagi matnlarda saqlanib qolgan antroponim materiallarini sinchiklab to‘plash va o‘rganish, bunday tadqiq antroponomik materialga nafaqat lisoniy jihatdan, balki etnolingvistik, etnoomadaniy, ruhshunoslik, sotsiolingvistik, estetik, tarixiy-diniy nuqtayi nazardan ham yondashishni talab qiladi.

Xalqimiz orasida oilada yangi tug‘ilgan farzand uchun ism tanlash bilan bog‘liq turli an’analar mavjud. Shunday odatlardan biri oilaning yangi a’zosi uchun o‘tgan ajdodlar nomlari orasidan ism tanlashdir. Ushbu an’ana juda qadimiy odatlardan ekanligi ma’lum. XVI asr o‘zbeklari hayotidan hikoya qiluvchi Zahiriddin Muhammad Bobur qizi Gulbadanbegimning “Humoyunnoma” asarida ism qo‘yish an’anasi bilan bog‘liq voqea haqida quyidagicha hikoya qilinadi: “Hazrat Bobur Badaxshonga ketgan vaqtlarida Shohi Chuchukbegim qiz tug‘dilar. Shu kecha hazrat tush ko‘ribdilar. Tushida Faxriniso momom bilan Davlat Baxt ikkalalari eshikdan kirib, bir narsa olib kelib mening oldimga qo‘yibdilar. Hazrat bu tushning ta’biri nima bo‘lar ekan deb ko‘p o‘yladilar. So‘ng qizning tug‘ilganligi to‘g‘risida xabar eshitgach, ularning har ikkalalari ismlaridan, ya’ni bittalaridan “baxt”, bittalaridan “niso” so‘zini olib unga Baxtinisobegim deb ism qo‘ydilar”. Ko‘rinadiki, ism tanlash milliy tafakkur va madaniy dunyoqarash bilan birga ism qo‘yuvchining bu boradagi savodxonligi ham qo‘shilgan holda yuzaga keladigan jarayondir.

O‘zbek tilida mavjud antroponimlar (bu yerda kelib chiqishi boshqa tillarga oid bo‘lsada, tilimizga moslashib, faol bo‘lgan ismlar ham nazarda tutilmoqda) tarkiban ko‘p turli bo‘lib, gular, o‘simliklar, hayvonlar, osmon jismlari, mashhur shahar yoki boshqa joy nomlari, sonlar, kabi ko‘plab nomlarga asoslanadi. Xuddi shuningdek, etnik belgilar yoki etnik nomlar – etnonimlar ham antroponimlar hosil qilishda ishtirok etadi. Etnik belgilar asosida ism qo‘yish ajdodlarga hurmat, qaysi urug‘ yoki xalqqa mansublikni ko‘rsatish kabi jihatlarga asoslanadi. Tadqiqotchi S.Kenjayeva o‘z tadqiqot ishida etnonimlarga nisbat berilgan antroponimlar haqida ham fikrlar yuritib, quyidagilarni ta’kidlaydi: Ba’zi hollarda bolaga ota-onasi mansub bo‘lgan urug‘, qabila, ajdodlar nomini nisbatlovchi ism berilgan. Bunda bolaning nazarda tutilgan etnik guruhga mansubligini, o‘sha etnos farzandi ekanini, uning o‘tmish ajdodlari shu urug‘ yoki qabilaga mansub bo‘lishganini, chaqaloq ularning davomchisiligini ta’kidlash ko‘zda tutiladi. Etnonimlardan yasalgan ismlar etnoantroponimlar deb yuritiladi. Masalan, Abdal, Abdolniyoz, Arg‘inboy, Barlos, Batosh, Bahrin, Baxmal, Boymoq, Boyqo‘ng‘ir, Bo‘ronboy, Bo‘ronali, Bo‘rongul, Bo‘ronoy, Bo‘ronniyoz, Do‘rmon, Jaloyir, Jag‘alboy, Kaltatoy, Kenagas, Lochin, Mang‘it, Mang‘itoy, Marqa, Nayman, Saroy, Qipchoq, Qirg‘iz, Qo‘ng‘irot kabilar.

Tilshunos olim E.Begmatov bunday nomlarga, xususan, qabila va elat nomlari asosida xosil bo‘lgan antroponimlarga: *Argin, Barlos, Jagalboy, Kaltaboy, Kenagasxon, Laqaygul, Mang‘itoy, Mang‘itqiz, Xalajboy, Qangliboy, Qipchoqqul, Qirg‘iz, Qirg‘izboy, Qozoqboy, Qutchi // Quchchi, Qo‘ngirot* kabi kishi ismlarini kiritadi. Bularga qo‘shimcha sifatida *O‘zbek, Arab, Jaloyir, Marqa, Oyli* kabi nomlarni ham keltirishimiz mumkin. Bu antroponimlar bugungi kunda nomlanishda faol tanlanmayotgan bo‘lishi mumkin, biroq til tizimida mavjud bo‘lgan va hozirda ham qo‘llanilmoqda.

Etnik tarkibli nomlar tahlilga nazar soladigan bo‘lsak, ismga asos qilib olingan etnonimlarning ayrimlari boshqa oddiy so‘z yoki birikmalar bilan ma’nodosh bo‘lishi mumkin. Misol uchun, *Qo‘ng‘irot* ismining asosi bu qo‘ng‘ir rangli ot emas, balki, qo‘ng‘irot etnonimi – o‘zbeklarning keng tarqalgan va qadimiy urug‘laridan biriga bog‘liq. Yana bir misol, *Oylar, Oyli* ismi bir nechta oy – osmon jismi, yoki oyga ega ma’nosida emas qo‘ng‘irot urug‘ining bosh tarmoqlaridan biri oyinli etnonimiga bog‘langan. Izlanishlarimiz jarayonia Surxondaryo vohasida aynan *qo‘ng‘irot* urug‘ining *oyinni//oyinli* tarmog‘i vakillari bo‘lgan bir nechta momolarning ismi *Oylar, Oyli* ekanligi va ular urug‘iga ishora qilib qo‘yilganining guvohi bo‘ldik. Bizningcha, *Oyli* antroponimi *oyinli* etnonimining fonetik o‘zgarishga uchragan shakli bo‘lishi ham mumkin. Mazkur etnonim bo‘yicha ilmiy manbalarda quyidagicha ma’lumotlar keltiriladi: Tamg‘asining shakliga ko‘ra nomlangan yana bir urug‘ nomi *oyinni* bo‘lib, *oyinli* tarzida ham yuritiladi. *Oyinni* etnonimining asosi *“oy”* bo‘lib, *“oyli”* degan ma’noni ifodalagan. Ushbu fikrimizni tarixiy manbalar ham asoslaydi. Xususan, B.X.Karmishevaning ta’kidlashicha, *“oyinni”, “oyinli”, “oyin”, “ayn”* yoki *“oyli”* nomlarining negizida *“oy”* so‘zi yotadi. Shu urug‘ning tamg‘asi yarim oyga o‘xshatilib, taqa sifatida tasvirlangan. Yuqorida qayd etilgan beshta so‘z ham *“oyga ega bo‘lmoq”*, oytamg‘ali esa *“oy shaklidagi tamg‘aga ega”* ma’nosini anglatadi. Ko‘rinib turibdiki, *Oylar, Oyli* ismlari etnonimga asoslangan antroponimlardir.

O‘zbek, Arab, Qozoqboy kabi antroponimlar ham etnonimga asoslanganligini yuqorida aytib o‘tgan edik. Bu nomlar orasida O‘zbek antroponiminig etimologiyasi biroz bahsli. Xususan, ayrimlar mazkur nomni antroponimdan etnonimga o‘tgan, yani *O‘zbekxon* nomi bilan bog‘liq deb hisoblaydilar. Ammo boshqa manbalarda bu etnonimning hosil bo‘lishi O‘zbekxonga aloqador emasligi ta’kidlanadi. Bizningcha ham mazkur nom antroponimdan etnonimga emas, etnonimdan antroponimga ko‘chgan.

Etnik belgi asosida vujudga kelgan antroponimlar sirasiga *Eshon, To‘ra, Xo‘ja, Said* kabi nomlarni ham kiritishimiz mumkin. Mazkur tushunchalar ma’lum bir xalq nomini ifodalamasa-da, kelib chiqishi jihatidan shu etnik birlashmaga kiruvchi kishilarning shajaraviy tarkibiga mansublikni ifodalaydi. Xalqimiz orasida keng qo‘llaniladigan *eshonlardan, xo‘janing qizi, to‘ra avlodi* kabi birikmalarda ham bu nomlar ma’lum bir etnik jamoani nomlashini ko‘rishimiz mumkin.

Janubiy Surxondaryo qipchoq lahjasi antroponimlarini o‘rgangan M.Qobilov etnonimlar antroponimlarni hosil qilishda ishtirok etishini ta’kidlaydi va etnonimlardan hosil bo‘lgan eponimik antroponimlarga *Qipchoq, Qo‘ng‘irot, Norin, Olchin, O‘g‘lon, O‘tagan, Qoraxon, Turkman, Qozoq, Qozoqboy, O‘zbek, Qirg‘izboy, Qirg‘iz* kabi misollarni keltirib o‘tadi. Ushbu qipchoq shevasiga oid ismlar faqat o‘zbek urug‘i vakillarigagina tegishli bo‘lmasdan, qadimiy shakllanish jarayoni bilan bog‘laganda umumturkiydir deya o‘z fikriga yakun yasaydi.

Umuman olganda, etnoantroponimlar, bir tomondan, o‘tmish ajdodlarga hurmatni, bola o‘sha ajdodlar davomchisi ekanligini anglatsa, ikkinchidan, tug‘ilgan bola shu etnosga mansubligini ifodalaydi. Bunday ismlarda bolani o‘tmish ajdodlar, ota-bobolar ruhi qo‘llaydi, asraydi degan ishonch ham mavjud. Shuningdek, urug‘ yoki boshqa etnik jamoaning nomini saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish maqsadi ham mavjud bo‘ladi. Etnik belgili bunday antroponimlarni o‘rganish xalqimizga xos etnomilliy, etnomadaniy tasavvurlarni o‘rganish va bu tafakkur mahsulining qaysi so‘z vositasida yuzaga chiqishini aniqlash imkonini beradi. Bu esa tilshunoslikda so‘z anglatadigan yangi bir tushuncha – semaning konseptlashuv jarayonini aniqlaydi va baholaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 260.
2. Ибрахимова Д. Инглиз ва ўзбек тилларида антропонимик бирликларнинг лингвистик хусусиятлари. Филол.фан.бўйича фалс.док.дисс. – Термиз, 2022. – В. 16.
3. Kurbanazarova N. O‘zbek tilida etnonimlar etimologiyasining lingvomadaniy asoslari (qo‘ng‘irot urug‘i misolida). Filol.fan.dok.diss. – Qarshi, 2026. – B. 19.
4. Ҳамроева М. Тоҳир Маликнинг бадиий асарларида антропонимлар. Filol.fan. bo‘yicha fals.dok.diss. – Buxoro, 2022. – B. 22.
5. Djurayeva Y. O‘zbek tilida xotin-qizlar ismlarining lingvistik xususiyatlari. Filol.fan. bo‘yicha fals.dok.diss. – Qarshi, 2025. – B. 17.
6. Кенжаева С. Ўзбек тили антропонимларининг номинацион-мотивацион асослари ва тавсифи. Филол.фан. бўйича фалс.док.дисс. – Қарши, 2019. – В. 17.
7. Qobilov M. Janubiy Surxondaryo qipchoq lahjasi antroponimikasi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz. 2026. – B. 91.

AFRIKA TARIG‘IDA UCHRAYDIGAN SHIRA BITIGA QARSHI QO’LLANILGAN PREPARATLARNING BIOLOGIK SAMARADORLIGINI

Mamashayeva Shoxsanam Rovshan qizi
Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodim
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21932450

Annotatsiya: Ushbu maqolada Afrika tarig’I ekinida uchraydiga shira biti haqida so’z yuritiladi. Shira bitining o’simlikni zararlashi hamda insektitsidlar qo’llanilganda ta’siri 7,14,21 kunda kuzatilib biologik samaradorligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: Afrika tarig’i, biologik samaradorlik, insektitsid, shira biti, zararkunanda, Breyk, Stilet, Borey Neo, Karate, kimyoviy kurash.

Аннотация: В данной статье рассматриваются тля, обнаруженная на посевах африканского проса. Наблюдались повреждения, причиняемые тлей растению, и влияние инсектицидов на 7, 14 и 21 день, а также определялась биологическая эффективность.

Ключевые слова: африканское просо, биологическая эффективность, инсектицид, тля, вредитель, Break, Stiletto, Borey Neo, Karate, химический контроль.

Abstract: This article discusses the aphids found in African millet crops. The damage caused by aphids to the plant and the effect of insecticides on 7,14,21 days were observed and the biological effectiveness was determined.

Keywords: African millet, biological effectiveness, insecticide, aphid, pest, Break, Stiletto, Borey Neo, Karate, chemical control.

Kirish. Shira bitlari (Aphididae) qishloq xo‘jaligi ekinlarida eng keng tarqalgan va iqtisodiy jihatdan muhim zararkunandalardan hisoblanadi. Ular o‘simlikning barg, poya va yosh novdalaridan sharbat so‘rib oziqlanadi, natijada o‘simlikning o‘sishi susayadi, hosildorligi pasayadi va ko‘plab virus kasalliklarini tarqatadi. Afrika tarig‘i ekinida uchraydigan shira bitlari qisqa muddatda katta koloniya hosil qilib, ekinlarga jiddiy iqtisodiy zarar etkazishi mumkin. Shira bitlari qulay iqlim sharoitida juda tez ko‘payadi. Asosiy ko‘payish usuli partenogenetik tirik tug‘ish bo‘lib, urg‘ochilari erkaklar ishtirokisiz yangi avlod hosil qiladi. Bir urg‘ochi hayoti davomida o‘rtacha 40–80 ta lichinka tug‘ishi mumkin. Harorat 20–28°S bo‘lganda bir avlodning rivojlanishi 6–10 kun davom etadi. Vegetasiya davomida o‘nlab avlodlar rivojlanishi mumkin. Shira bitlari asosan o‘simlikning yosh barglari, novdalari va o‘sish nuqtalarida to‘planadi. Ular hujayra sharbatini so‘rib oziqlanishi natijasida: barglar buralib qoladi, barg yuzasi sarg‘ayadi, fotosintez jarayoni susayadi, o‘simlikning o‘sishi sekinlashadi, dukkaklar soni va urug‘ og‘irligi kamayadi, hosil sifati yomonlashadi. Shira bitlari ajratadigan shirin suyuqlik (asalshira) barg yuzasida qora qurumsimon zamburug‘lar rivojlanishi uchun qulay muhit yaratadi. Bundan tashqari, ular ko‘plab virus kasalliklarining asosiy tashuvchilari hisoblanadi.

Afrika tarig’ida uchratdigan shira bitiga qarshi qo’llanilgan preparatlarning biologik samaradorligi.

				Shira biti, (Aphis narida F.)						
				1 p/m olingan o‘simliklarda zararkunandalar soni, dona						
				Ishlov berilgunicha, dona	7- kundan so‘ng	Biologik samaradorlik, %	14- kundan so‘ng	Biologik samaradorlik, %	21- kundan so‘ng	Biologik samaradorlik, %
Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti Qarshi agrouchastka tajriba maydoni										
1	Nazorat	0	1	75	82	-	89	-	97	-
2	Karate (etalon)	50 g/l lyambda-tsigalotrin	1	74	54	27,0	35	52,7	14	81,1
3	Borey Neo	Alfa-tsipermetrin, 125 g/l, imidakloprid, 100 g/l i klotianidin, 50 g/l	1	73	52	28,8	31	57,5	11	84,9
4	Breyk	Lyambda-tsigalotrin, 100 g/l	1	79	37	53,2	14	82,3	4	94,9
5	Stilet	Indoksakarb, 100 g/l + abamektin, 40 g/l	1	72	34	52,8	13	81,9	4	94,4
Jo‘rayev Sherali Ro‘ziyevich f/x										
1	Nazorat	0	2	74	77	-	82	-	91	-
2	Karate (etalon)	50 g/l lyambda-tsigalotrin	2	73	52	28,8	32	56,2	14	80,8
3	Borey Neo	Alfa-tsipermetrin, 125 g/l, imidakloprid, 100 g/l i klotianidin, 50 g/l	2	78	53	32,1	32	59,0	10	87,2
4	Breyk	Lyambda-tsigalotrin, 100 g/l	2	76	31	59,2	14	81,6	3	96,1
5	Stilet	Indoksakarb, 100 g/l + abamektin, 40 g/l	2	78	34	56,4	15	80,8	4	94,9
Choriyev Mardon Nomozovich f/x										
1	Nazorat	0	3	77	82	-	86	-	91	-
2	Karate (etalon)	50 g/l lyambda-tsigalotrin	3	74	52	29,7	16	78,4	10	86,5
3	Borey Neo	Alfa-tsipermetrin, 125 g/l, imidakloprid, 100 g/l i klotianidin, 50 g/l	3	73	44	39,7	19	74,0	11	84,9
4	Breyk	Lyambda-tsigalotrin, 100 g/l	3	72	31	56,9	11	84,7	3	95,8
5	Stilet	Indoksakarb, 100 g/l + abamektin, 40 g/l	3	75	33	56,0	13	82,7	4	94,7

Material va tadqiqot uslublari. Ushbu jadvalimizda Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutining Qarshi agrouchastka tajriba maydonida navbatdagi uchragan zararkunadalardan biri shira biti (*Aphis narida* F.)ga qarshi turli insektitsidlarning biologik samaradorligi baholandi. Tajribada nazorat varianti, etalon sifatida Karate preparati hamda Borey Neo, Breyk va Stilet preparatlari sinovdan o‘tkazildi. Biologik samaradorlik ishlov berilganidan keyingi 7, 14 va 21 kunlarda aniqlandi.

Olingan natijalar va muhokamasi. Nazorat variantida himoya choralari qo‘llanilmaganligi sababli shira bitlari soni tajriba davomida muntazam ortib bordi. Dastlab 75 dona bo‘lgan zararkunanda soni 7-kunda 82 donaga, 14-kunda 89 donaga va 21-kunda 97 donaga etdi. Bu natija afrika tarig‘i maydonlarida shira bitining qisqa muddat ichida jadal ko‘payish xususiyatiga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Etalon sifatida qo‘llanilgan Karate preparatida biologik samaradorlik 7-kunda 27,0%, 14-kunda 52,7% va 21-kunda 81,1% ni tashkil qildi. Bu preparat shira bitlari sonini sezilarli darajada kamaytirgan bo‘lsa-da, uning samaradorligi boshqa sinov preparatlariga nisbatan pastroq bo‘ldi’

Borey Neo preparati qo‘llanilgan variantda zararkunanda soni 73 tadan 11 tagacha kamaydi. Biologik samaradorlik 7-kunda 28,8%, 14-kunda 57,5% va 21-kunda 84,9% ni tashkil etdi. Tarkibidagi imidakloprid va klotianidin kabi neonikotinoid moddalarning sistemali ta’siri preparatning shira bitlariga qarshi yuqori samaradorligini ta’minlaganligi tajribalarimiz davomida aniqlandi.

Breyk preparati tajribada eng yuqori natijani qayd etdi. Ishlovdan oldin 79 dona bo‘lgan shira biti soni 21 kundan keyin 4 donagacha kamaydi. Biologik samaradorlik 7-kunda 53,2%, 14-kunda 82,3% va 21-kunda 94,9% ni tashkil qildi. Bu ko‘rsatkich preparatning tez va uzoq muddat saqlanuvchi himoya ta’siriga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Stilet preparati ham yuqori samaradorlikni namoyon qildi. Dastlabki hisobda 72 dona bo‘lgan shira bitlari soni tajriba yakunida 4 donagacha qisqardi. Biologik samaradorlik mos ravishda 52,8%, 81,9% va 94,4% ni tashkil qildi. Garchi Stilet preparatining tarkibi asosan barg kemiruvchi zararkunandalar va kanalarga qarshi mo‘ljallangan bo‘lsa-da, tajriba natijalari uning shira bitlari populyasiyasini ham samarali darajada kamaytirishini ko‘rsatdi.

Navbatdagi tadqiqotimiz Jo‘rayev Sherali Ro‘ziyevich fermer xo‘jaligida o‘tkazilgan dala tajribalarida afrika tarig‘ida tarqalgan shira biti (*Aphis narida* F.)ga qarshi turli insektisidlarning biologik samaradorligi baholangan ko‘rsatkichlar keltirilgan bo‘lib, nazorat variantda shira biti soni ishlov berilmaganligi sababli izchil o‘sib borib, 74 tadan 91 tagacha ko‘paydi. Bu esa afrika tarig‘ida shira bitining qisqa vaqt ichida ommaviy ko‘payish xususiyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Etalon sifatida qo‘llanilgan Karate preparatida zararkunanda soni 73 tadan 14 tagacha kamaydi. Biologik samaradorlik 7-kunda 28,8%, 14-kunda 56,2% va 21-kunda 80,8% ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich preparatning shira bitlari sonini kamaytirishda ma’lum darajada samarali ekanligini ko‘rsatdi.

Borey Neo preparatida himoya samaradorligi Karatega nisbatan yuqoriroq bo‘ldi. Dastlabki hisobda 78 dona bo‘lgan shira biti soni 21 kundan keyin 10 donagacha qisqardi. Biologik samaradorlik 7-kunda 32,1%, 14-kunda 59,0% va 21-kunda 87,2% ni tashkil qildi. Bu holat preparat tarkibidagi sistemali ta’sirga ega neonikotinoid komponentlar shira bitlari populyasiyasini uzoq muddat davomida samarali nazorat qilganini ko‘rsatdi.

Eng yuqori samaradorlik Breyk preparatida qayd etildi. Ishlovdan oldin 76 dona bo‘lgan zararkunanda soni 21 kundan keyin 3 donagacha kamaydi. Biologik samaradorlik 7-kunda 59,2%, 14-kunda 81,6% va 21-kunda 96,1% ga etdi. Bu ko‘rsatkichlar mazkur preparatning shira bitiga qarshi yuqori insektisid faolligi va himoya ta’sirining uzoq vaqt saqlanishini ko‘rsatdi.

Stilet preparati ham yuqori natija ko‘rsatdi. Zararkunanda soni 78 tadan 4 tagacha qisqarib, biologik samaradorlik mos ravishda 56,4%, 80,8% va 94,9% ni tashkil qildi. Ayniqsa, 14 va 21 kunlik kuzatuvlarda uning samaradorligi Breyk preparati natijalariga juda yaqin bo‘lganligi qayd etildi.

Afrika tarig‘ida tarqalgan shira biti (*Aphis narida* F.)ga qarshi turli insektisidlarning biologik samaradorligi Choriyev Mardon Nomozovich fermer xo‘jaligida o‘tkazilgan dala tajribalarida o‘rganilishi natijalariga ko‘ra, nazorat variantida hech qanday kimyoviy ishlov qo‘llanilmaganligi sababli zararkunanda soni tajriba davomida muntazam oshib bordi. Xususan, ishlovdan oldin 77 dona bo‘lgan shira biti soni 7-kunda 82 donaga, 14-kunda 86 donaga va 21-kunda 91 donaga etdi.

Etalon sifatida qo‘llanilgan Karate preparatida shira biti soni 74 tadan 10 tagacha kamaydi. Biologik samaradorlik ishlovdan keyingi 7-kunda 29,7%, 14-kunda 78,4% va 21-kunda 86,5% ni tashkil qildi.

Borey Neo preparati qo‘llanilgan variantda ishlov oldidan 73 dona bo‘lgan zararkunanda soni tajriba yakunida 11 tagacha qisqardi. Biologik samaradorlik 7-kunda 39,7%, 14-kunda 74,0% va 21-kunda 84,9% ni tashkil etdi. Dastlabki haftada ushbu preparat Karatega nisbatan yuqoriroq samara ko‘rsatgan bo‘lsa-da,

21 kunlik kuzatuv yakunida uning umumiy samaradorligi etalon preparatdan biroz past bo‘lganligi qayd etildi.

Xulosa.Eng yuqori natija Breyk preparati qo‘llanilgan variantda kuzatildi. Ishlovdan oldin 72 dona bo‘lgan shira biti soni 21 kundan keyin atigi 3 donagacha kamaydi. Biologik samaradorlik 7-kunda 56,9%, 14-kunda 84,7% va 21-kunda 95,8% ni tashkil qildi. Bu preparat barcha kuzatuv muddatlarida yuqori himoya samaradorligini namoyon etib, shira biti populyasiyasini eng samarali darajada cheklanganligi aniqlandi.

Stilet preparati ham yuqori biologik samaradorlik ko‘rsatdi. Dastlabki hisobda 75 dona bo‘lgan shira biti soni 21 kundan keyin 4 donagacha kamaydi. Biologik samaradorlik mos ravishda 56,0%, 82,7% va 94,7% ni tashkil qildi. Ushbu ko‘rsatkichlar Stilet preparatining ham zararkunanda populyasiyasini barqaror ravishda kamaytirish xususiyatiga ega ekanligini tasdiqladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Atanov A. va boshq. O‘zbekistonda makkajo‘xori zararkunandalari va ularga qarshi kurash choralari // Agroilm. – 2021. – №3. – B. 45–52.
2. B.A.Sulaymonov, A.R.Anorboyev va boshqalar. “Qishloq xo‘jaligi ekinlari zararli organizmlari rivojlanishini oldindan aniqlash”, Toshkent - 2020 yil.
3. D.N.Nurmuxamedov, U.D. Ortiqov, A.M.To‘rayev, K. Axmedjanova. “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida o‘simlik zararkunandalari, kasalliklariga va begona o‘tlarga qarshi foydalanish uchun ruxsat etilgan kimyoviy va biologik himoya vositalari, defoliantlar hamda o‘simliklarning o‘sishini boshqaruvchi vositalar ro‘yxati”. Toshkent – 2022.
4. Muxammadiyev B.Q., Xolmurodov E.A. Hasharotlar ekologiyasi va tur tarkibining sistematik tahlili. – Toshkent, 2015 y. – B. 95-96.

INGLIZ VA O‘ZBEK NASRIDA OILA KONSEPTI

Tosheva Mamlakat Rustamovna
Mustaqil tadqiqotchi
E-mail: mamlakattosheva7@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21932490

Annotatsiya. Ushbu tezisda o‘zbek va ingliz nasriy asarlarida “oila” konseptining lisoniy va madaniy xususiyatlari qiyosiy-lingvomadaniy tahlil asosida tadqiq etilgan. Ikki xil madaniyatga mansub badiiy matnlarda oila tushunchasining semantik tarkibi, gender rollari va konseptual metaforalari ochib berilgan. Tahlillar natijasida o‘zbek nasrida oila ko‘proq jamoaviylik va an’analar timsoli, ingliz nasrida esa shaxsiy erkinlik hamda psixologik muhit sifatida namoyon bo‘lishi ilmiy asoslangan.
Kalit so‘zlar: oila konsepti, lingvomadaniyat, o‘zbek nasri, ingliz nasri, qiyosiy tahlil, kollektivizm, individualizm, gender rollari.
Аннотация. В данных тезисах на основе сравнительно-лингвокультурологического анализа исследуются языковые и культурные особенности концепта «семья» в узбекской и английской прозе. Раскрываются семантическое наполнение, гендерные роли и концептуальные метафоры понятия семьи в художественных текстах двух разных культур. В результате анализа научно обосновано, что в узбекской прозе семья в большей степени выступает символом коллективизма и традиций, тогда как в английской прозе она проявляется как пространство личной свободы и психологической среды.
Ключевые слова: концепт семьи, лингвокультурология, узбекская проза, английская проза, сопоставительный анализ, коллективизм, индивидуализм, гендерные роли.
Annotation. In this thesis, the linguistic and cultural features of the concept of "family" in Uzbek and English prose are investigated based on a comparative linguacultural analysis. The semantic content, gender roles, and conceptual metaphors of the family notion in literary texts of two distinct cultures are revealed. As a result of the analysis, it is scientifically substantiated that while family in Uzbek prose is depicted more as a symbol of collectivism and traditions, in English prose it appears as a domain of personal freedom and psychological environment.
Keywords: family concept, linguacultural study, Uzbek prose, English prose, comparative analysis, collectivism, individualism, gender roles.

Hozirgi globallashuv va madaniyatlararo muloqot jadallashgan davrda turli xalqlar adabiyoti va til tizimidagi universal tushunchalarni lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish milliy tafakkur, dunyoqarash hamda qadriyatlar tizimini yoritishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ana shunday universal va ijtimoiy-madaniy jihatdan eng muhim tushunchalardan biri “oila” konseptidir. Oila har bir jamiyatning asosiy birligi bo‘lib, uning badiiy adabiyotdagi, xususan, nasriy asarlardagi ifodasi o‘sha xalqning tarixiy taraqqiyoti, axloqiy-me’yoriy tizimi, ijtimoiy tuzilmasi va milliy mentaliteti bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslik kesishmasida o‘rganiladigan “konsept” tushunchasi shunchaki lisoniy birlik bo‘lmay, inson ongida til, hayotiy tajriba, emotsiya hamda ijtimoiy-madaniy omillar ta’sirida shakllanadigan, avloddan-avlodga o‘tadigan chuqur ma’naviy-mafkuraviy mental birlik hisoblanadi. Har xil tillarda va madaniyatlarda “oila” konsepti umumiy semantik asosga ega bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, ularning madaniy yuklamasi, oila a’zolari o‘rtasidagi ierarxik munosabatlar, gender rollari va qadriyatlar tizimidagi o‘rni har bir millatning o‘ziga xos lisoniy olam manzarasida keskin farqlanadi. Mazkur tadqiqotda o‘zbek va ingliz nasrining yetakchi vakillari yaratgan badiiy matnlar materialida ushbu konseptning strukturaviy, emotsional va madaniy-axloqiy komponentlari qiyosiy-lingvomadaniy metodlar yordamida tahlil qilinadi[2].

O‘zbek adabiyoti boy tarixiy va madaniy an’analarga ega bo‘lib, unda oila nafaqat shaxsiy hayotning markazi, balki butun jamiyat barqarorligi, ma’naviyati hamda muqaddas urf-odatlar muhofazachisi bo‘lgan muassasa sifatida talqin etiladi. O‘zbek nasrida, ayniqsa, XX asr realizmi va undan keyingi davr badiiy tafakkurida oila konsepti ko‘proq kollektivistik dunyoqarash, jamoaviylik, ota-ona so‘ziga bo‘ysunish, kattalarga hurmat va oilaning avlodlar davomiyligini ta’minlashdagi roli orqali ifodalangan. Bu borada o‘zbek nasrining cho‘qqisi hisoblangan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani xarakterlidir. Asarda oilaning shakllanishi jarayonida individual istaklar va patriarxal ijtimoiy bosim o‘rtasidagi ziddiyatlar, Komil va Otabek obrazlari misolida ota-onaning tanlovi hamda farzand burchi o‘rtasidagi munosabatlar

lingvomadaniy jihatdan yuksak mahorat bilan koʻrsatilgan. Mahzum buvaning oila an’analari va ajdodlar oldidagi mas’uliyat haqidagi soʻzlari oʻzbek oilasining shaxsiy manfaatdan koʻra urf-odatlarni, sulola sha’nini ustun qoʻyishidan dalolat beradi. Oybekning “Ufq” romanida esa yangi davr ijtimoiy-iqtisodiy islohotlari, ayolning oiladagi pozitsiyasining oʻzgarishi kabi dinamik komponentlar oila tushunchasini yangicha ijtimoiy birlik sifatida taqdim etadi. Said Ahmadning “Hayotdan saboq” toʻplami va “Buvimning xotirasi” kabi hikoyalarida esa oila eng avvalo tarbiya maktabi, mehr-oqibat va ma’naviy merosni uzatuvchi muassasa sifatida talqin qilingan. Erkin A’zam nasrida esa oilaning ichki hissiy dunyosi, psixologik munosabatlar va ruhiy anglashuv kechinmalari birinchi planga chiqadi. Umumlashtirib aytganda, oʻzbek nasridagi oila tasviri milliy mentalitetga xos boʻlgan jamoaviylik va oʻzaro gʻamxoʻrlik prinsiplari asosida mustahkam ijtimoiy-axloqiy negizga ega[4].

Gʻarb madaniy an’analari, protestant etikasi va individualistik dunyoqarash zaminida shakllangan ingliz adabiyotida esa “oila” konsepti butunlay boshqacha semantik urgʻularga ega boʻlib, unda koʻpincha shaxsiy erkinlik, hissiy individualizm hamda jamiyat belgilagan rollar oʻrtasidagi ziddiyatlar yetakchilik qiladi. Ingliz nasrida shaxsning oʻz taqdirini oʻzi belgilash huquqi oilaviy majburiyatlardan ustun qoʻyilishi holatlari koʻp kuzatiladi. Jane Austenning “Pride and Prejudice” (Andisha va gʻurur) romanida oilaviy munosabatlar sevgi, ijtimoiy mavqe, pragmatik moliyaviy manfaatlar va shaxsiy baxt omillari kesishtirilgan murakkab tarmoq sifatida chiziladi[3]. Elizabeth Bennet va Mr. Darcy munosabatlari ingliz madaniyatida oilaning mustahkam poydevori uchun eng avvalo shaxsiy qaror, teng huquqlilik va hissiy muvofiqlik zarurligini uqtiradi. Charles Dickensning “Great Expectations” (Buyuk umidlar) asarida esa sanoat jamiyatining insoniy munosabatlarga salbiy ta’siri, bolalik travmalari va an’anaviy oilaviy iliqlikdan mahrum boʻlgan Pip obrazi orqali oilaning gʻamxoʻrlik va himoya maskani sifatidagi qadri teskari planda, ya’ni uning yoʻqligi keltirgan fojialar orqali dalillanadi. Virginia Woolfning modernistik yoʻnalishdagi “To the Lighthouse” (Mayoq sari) romanida esa oila ijtimoiy tuzilmadan koʻra koʻproq subyektiv kechinmalar, ichki psixologik muhit va ruhiy izlanishlar maydoniga aylanadi. Mrs. Ramsay obrazi orqali an’anaviy ayollik va ona gʻamxoʻrligi ulugʻlansa-da, Woolf ayni paytda oiladagi patriarxal hukmronlik va ierarxiyani keskin tahlil ostiga oladi. Koʻrinadiki, ingliz nasrida oilaviy munosabatlar koʻpincha sinfiy tafovutlar, shaxsiy erkinlik inqirozlari va gender tengligi masalalari bilan bogʻliq holda, chuqur psixologizm asosida tasvirlanadi[1].

Xulosa oʻrnida ta’kidlash lozimki, oʻzbek va ingliz nasrida “oila” konseptining lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish ikki xalqning tub dunyoqarashi va mentalitetidagi farqlarni yaqqol ochib beradi. Oʻzbek nasriy asarlarida oila koʻproq jamiyat madaniy merosini asrovchi, shaxs manfaatini jamoaga boʻysundiruvchi va an’analarga tayanuvchi barqaror ijtimoiy tuzilma sifatida talqin etilsa, ingliz nasrida u shaxsiy tanlov erkinligi, individual baxtga erishish yoʻlidagi psixologik muhit hamda hissiy uygʻunlik makoni sifatida yoritiladi. Oʻzbek yozuvchilari asarlarida oiladagi munosabatlar “mehr-oqibat”, “hurmat” va “tarbiya” kabi tushunchalar atrofida kollektivizm yuzi bilan namoyon boʻlsa, ingliz adiblari ijodida “individualizm”, “ijtimoiy bosim” va “gender tengligi” muammolari pragmatik va psixologik kurashlar kontekstida tahlil qilinadi. Shunga qaramay, har ikki adabiyotda ham oila insonning ma’naviy kamoloti va ruhiy osoyishtaligini belgilovchi eng muhim hayotiy institut sifatida e’tirof etilishi konseptning universal qimmatga ega ekanligidan dalolat beradi. Ushbu oʻxshashlik va farqlarni chuqur anglash madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, tarjima nazariyasi muammolarini hal etish va badiiy matnlarni milliy kontekstda toʻgʻri talqin qilish uchun mustahkam nazariy asos boʻlib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Qodiriy A. Oʻtkan kunlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
2. Oybek. Ufq. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2018.
3. Said Ahmad. Jimjitlik (va hikoyalar). – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2008.
4. Erkin Aʻzam. Yolgʻizlik. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2010.
5. Austen J. Pride and Prejudice. London: Penguin Classics. 2003.
6. Dickens C. Great Expectations. London: Wordsworth Editions. 2004.
7. Woolf V. To the Lighthouse. London: Oxford University Press. 1996.
8. Lakoff G., & Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press. 1980.

TARLON OBRAZI JAHON NASRI KONTEKSTIDA (L.TOLSTOY “XOLSTOMER”, E.SETON-TOMPSON “YOVVOYI YO‘RG‘A”, CHINGIZ AYTMATOVNING “ALVIDO, GULSARI” ASARLARI MISOLIDA)

Xuramova Dilorom Xamroqulovna
Surxondaryo viloyati, Qumqo‘rg‘on tumani 25-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
E-mail: xuramova.dilorom@bk.ru
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21932518

Annotatsiya. O‘zbek adabiyotida ot obrazini eng yuksak darajada tasvirlagan va obraz sifatida yorqin aks ettirgan, o‘zbekona udumlari-yu ko‘pkarisi bilan birga adabiyotni titratgan asar Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” asaridagi Tarlon ot obrazidir.
Kalit so‘zlar: obraz, Tog‘ay Murod, ot, Tolstoy, Tarlon, yozuvchi.
Аннотация. В узбекской литературе образ лошади, наиболее ярко и художественно воплощённый как литературный персонаж, представлен в образе коня Тарлона из произведения Тогая Мурода *«Вечер, когда заржал конь»*. Благодаря изображению национальных узбекских традиций и игры купкари это произведение оставило глубокий след в литературе.
Ключевые слова: образ, Тогай Мурод, лошадь, Толстой, Тарлон, писатель.
Abstract. In Uzbek literature, the horse image that has been depicted at the highest artistic level and vividly reflected as a literary character is Tarlon, the horse in Togay Murod’s novel *“The Evening When the Horse Neighed”.* Through its portrayal of national Uzbek traditions and the game of kupkari, this work has left a profound impact on literature.
Keywords: image, Togay Murod, horse, Tolstoy, Tarlon, writer.

Ot obrazni yaratish uchun yozuvchidan katta mahorat, bilim, ot parvarishi va xususiyatlariga doir chuqur ko‘nikmalar zarurdir. Bundan tashqari yozuvchi bu asarni yaratishdan oldin, o‘zi o‘qigan va tarjima qilgan asarlardan poydevor sifatida foydalangan. Xususan, Tolstoyning “Xolstomer‘” asari, E.Seton-Tompson “Yovvoyi yo‘rg‘a” asari, Chingiz Aytmatovning “Alvido, Gulsari” asarlari. Bu to‘rt fundamental asarlar mavzu jihatidan ot obrazini markazda ushlab tursa-da, g‘oyaviy va adiblarning asarlarida obrazga yondashuv hamda qarashlari turlichadir.

Adabiyotshunos Nurislom To‘xliyevning “Armon” maqolasida Tarlon obrazining boshqa asarlardagi ot obrazlari bilan mahurat bilan yaratilganlik darajasi juda yorqin ifodalanadi: “Ot kishnagan oqshom” dagi Tarlon laqabli otning jonli, serjilva tasvirlaridan behad ta’sirlangan edim. Adib ot obrazini shu qadar hayajon va mehr bilan, ishonarli qilib yozganki, beixtiyor Tolstoy asaridagi Xolstomer, Aytmatovning Gulsarisi yodingizga keladi. O‘shanda o‘zimizda ham Aytmatovlar yetishib chiqyabdi ekan, deb ko‘nglim g‘ururga to‘lgan edi”. Yana bir adabiyotshunos Vafo Sayfulloh yozganidek: “…Aytmatov ijodiga xos go‘zal ko‘ngil, samimiy mehr, insonparvarlik, jonivorsevarlik Tog‘ay Murod ijodida ham yorqin ko‘zga tashlanib, kishi qalbini zabt etadi, tuyg‘ularini sel qiladi. Odamiylikdan saboq beradi. Mana uning “Ot kishnagan oqshom” qissasi. Otga munosabat insonga qadrdon bir jihat. Ming yillardan buyon buyuk ko‘chish-u har xil zafarli-zafarsiz yurishlar, umuman, tirikchiligi otsiz o‘tmagan turkiylar, o‘zidan olislashib borayotgan do‘sti-hamkorini o‘ylaganda, otga mehribonlik bilan yondashib keladi. Shu jihatdan Tog‘ay Murodning bu mavzuga murojaati tasodif ham emas, yangilik deb ham bo‘lmaydi, o‘ziga xosligi esa shu mavzudagi asarlar misolida ko‘rinadi. Kanada adibi Ernest Seton-Tompsonning “Yovvoyi yo‘rg‘a” asari va qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning “Alvido, Gulsari” qissalarini dunyoning million-million kitobxonlari mutolaa qilishgan, taqdirlashgan”[1].

Buyuk rus adibi, dunyoga mashhur asarlar yaratuvchisi Lev Tolstoyning “Xolstomer” asari chin ma’noda yangi davr adabiyotidagi ot obrazlariga o‘z ta’siri o‘tkazgan, o‘zgacha uslubi va tili bilan yangi yo‘nalishni boshlab bergan adabiy-badiiy namunalardan biridir. Asarning undan oldingi va keying hayvonlar obrazlari aks etgan asarlardan asosiy farqi u otning o‘z tilidan hikoya qilinadi. Uning hayvon sifatidagi tuyg‘ulari, yuksalish-u evrilishlari, boshidan o‘tkazgan barcha voqealar, to navqiron otligidan keksa otligiga qadar bari o‘zi tomonidan xotiralar tarzida yod etiladi. Uning qari va qoqsuyak tanasi, osilgan terisi ham bir vaqtlar bo‘ydor, chopog‘on va o‘zgacha ko‘rinishga ega otligidan darak berardi. Uning otlar uyuridagi xokisor, beziyon turishi yosh tulporlarning g‘ashini keltirar, uning ustidan kalaka qilgandek yosh va navqiron harakatlari esa qari Xolstomerga o‘z yoshligini eslatardi. Ayniqsa o‘z o‘g‘liga qarab, osmondagi yulduzni ko‘zlab yugurgilagan vaqtlari esiga tushardi. Uning yosh otlarga hikoyasi oddiy

dehqon ot naslidan yaratganligi bilan boshlangan edi. Uning g‘ayritabiiy ko‘rinishi: yorqin jigarrang tusdagi uchta oq yo‘llik dog‘i borligi insonlarga yoqmasa, o‘zi kabi hayvonlarni hayratlantirar, e’tiborini tortardi. Bu ko‘rinishidan tashqari dehqon naslli otlarga xos bo‘lmagan o‘zgacha xususiyatga chopog‘onlik, tezkorlikka ega edi. Hayoti davomida ko‘p egalarni ko‘rgan Xolstomer, o‘zining o‘zidan boshqa hech kimni yoqtirmaydigan egasi harbiy ofitserni juda yoqtiradi, undagi mag‘rurlik, qaytmaslik, o‘zini sevish hislatlari otni o‘ziga tortar edi[2].

Bundan tashqari u otga mehribon bo‘lmasa, yomonlik ham qilmagan, og‘ir jazolamagan edi. Lekin u umri davomida shunday qonxo‘r insonlarni ko‘rganki, shuncha mehnatlari evaziga oddiy xato uchun ayovsiz sazolashgan, hatto oyoqlarini sindirishgan edi. Uning tilidan insonlardagi meshchanlik, o‘sha davr jamiyatiga xos illatlar ochiq-oydin aytiladi: “…insonlar meniki degan so‘zni yoqtiradilar, lekin hayronmanki ular meniki degan mutlaqo ularniki emas, yoki ularga mutloq notanish: yirik yer egalari bu yer meniki deyishadi, lekin bu yer qanday yer, kimlar ishlaydi xabarlari yo‘q, bu ayol meniki deyishadi, u ayol esa aslida boshqasiga ko‘ngil qo‘ygan, bu uy meniki deydilar, lekin unda yashamaydilar, mulk sifatidagina saqlab turadilar”. Ot qariligi va kuni tugaganligi tufayli oxiri terisi olinib, qolgan qismi itlar va bo‘rilarga ozuqa bo‘ldi. Undan faqat katta bosh suyagi va ikki suyak qoldi. Uni ham dehqon zarur bo‘ladi, deya o‘zi bilan olib ketdi. Yozuvchi otning o‘lishi holatini keltirar ekan uning hatto o‘ligi ham xorlanmasdan, oxirigacha insonlarga nafi tekkanligi haqida hikoya qiladi. Otning o‘limiga zid ravishda bir paytlar uning xo‘jayini bo‘lgan Serpuxovskiyning o‘limi ko‘rsatiladi[4].

Yer yuzida ortiqcha bo‘lgan bu tana, boshqalarga ham kerakmasdek edi, uni faqat amali va nasliga ko‘ra amaldorlardan bo‘lgani uchungina hurmat bilan dafn etishlari zarur edi. Aslida esa, undan chirigan teri va suyakdan boshqa biror narsa qolmagan edi, deb yozadi yozuvchi. Bu bilan Alloh yaratgan yaratiqning kimligi emas, qanday yashagani muhim degan azaliy g‘oyani ilgari surgandek bo‘ladi.

Xolstomer o‘z hayotida baxtli onlarni juda kam ikki yilgina davom etdi degan bo‘lsa-da, u ot sifatida butun umr o‘z egalariga sodiq xizmat qildi, o‘z taqdiriga yozilgan kechmishda yashadi. Qadr-qimmatga yetarlicha ega bo‘lmagan bo‘lsa-da, haqiqiy otga xos eng yaxshi xususiyatlarga ega ot sifatida umrini o‘tkazdi. Xolstomer obrazi orqali yozuvchi munosib hayot, munosib o‘lim kabi o‘sha davr va makon kishilari uchun eng muhim jihatni ko‘rsatadi, hayvonlarga bo‘lgan asl munosabatni ochib beradi[2].

Kanadalik taniqli yozuvchi, hayvonlar haqidagi asarlari bilan mashhur bo‘lgan E. Seton-Tompsonning “Yovvoyi yo‘rg‘a” qissasida otni to‘laqonli jonivor sifatida bilib olamiz. E.Seton-Tompsonning olim aqli va adib qalbi o‘quvchini ruhlantirib saboq beradi. Qissada yozuvchi ozodlik va erk uchun kurash, hatto bular uchun jonidan kechgan yovvoyi ot-mustang haqida hikoya qilinadi[3].

Umuman aytganda, zikr qilingan asarlarda tarlon obrazi nafaqat hayvon, balki inson taqdiri, erkinlik, sadoqat, mehnat va ezgulik g‘oyalarini ifodalovchi badiiy timsol sifatida talqin etiladi. Har uchala adib ot obrazi orqali jamiyatning axloqiy-ijtimoiy muammolarini yoritib, inson va tabiat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqur badiiy mahorat bilan aks ettirgan. Asarlar qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, tarlon obrazi jahon nasrida umuminsoniy qadriyatlarni ifodalovchi universal badiiy obraz darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, har bir yozuvchi uni o‘z milliy dunyoqarashi va estetik tamoyillari asosida o‘ziga xos tarzda gavdalantirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aytmatov Ch. Alvido, Gulsari! – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
2. Tolstoy L.N. Xolstomer: Hikoyalar va qissalar. – Moskva: Xudojestvennaya literatura, 1986.
3. Seton-Tompson E. Yovvoyi yo‘rg‘a (Mustang Peyser). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
4. Qosimov B., Yo‘ldoshev Q., Valixo‘jayev B. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
5. Karimov N. Qiyosiy adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2012.
6. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Искусство, 1979.
7. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – Москва: Искусство, 1970.

G‘ARB ADABIYOTIDA JEYN OSTIN IJODI

Tosheva Mamlakat Rustamovna
Mustaqil tadqiqotchi
E-mail: mamlakattosheva7@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21932580

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr ingliz adabiyotining yorqin vakili, jahon romanchilik maktabining yetakchi namoyandalaridan biri Jeyn Ostin hayoti va uning boy ijodiy merosi keng ko‘lamda tahlil qilinadi. Adibaning asarlarida aks etgan ijtimoiy-psixologik muammolar, davr tabaqalanishi, ayollar huquqlari va oila institutining badiiy talqini uning asosiy romanlari misolida ochib berilgan. Ostin ijodining o‘ziga xos xususiyatlari, xususan, nozik yumor, satira, ichki dramatizm va realistik tasvir mahorati adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yoritilgan.
Kalit so‘zlar: Jeyn Ostin, ingliz adabiyoti, realizm, romanchilik, satira, ijtimoiy tahlil, ayollar timsoli, oilaviy munosabatlar.

Аннотация. В данной статье всесторонне анализируются жизнь и творческое наследие Джейн Остин, яркой представительницы английской литературы XIX века и одного из ведущих мастеров мирового романа. На примере её ключевых произведений раскрываются социально-психологические проблемы, классовое расслоение, права женщин и художественная интерпретация института семьи. С литературоведческой точки зрения освещаются отличительные особенности творчества Остин, в частности, тонкий юмор, сатира, внутренний драматизм и мастерство реалистического изображения.
Ключевые слова: Джейн Остин, английская литература, реализм, роман, сатира, социальный анализ, женские образы, семейные отношения.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the life and literary heritage of Jane Austen, a prominent figure in 19th-century English literature and one of the leading representatives of the world novelistic tradition. Through her major novels, the socio-psychological issues, class divisions, women's rights, and the artistic interpretation of the institution of family reflected in her works are explored. The distinctive characteristics of Austen's writing, particularly her subtle humor, satire, internal dynamism, and realistic depiction skills, are highlighted from a literary perspective.
Keywords: Jane Austen, English literature, realism, novel writing, satire, social analysis, female characters, family relations.

Jeyn Ostin (Jane Austen) XIX asr jahon adabiyoti xazinasini o‘zining betakror asarlari bilan boyitgan, ingliz realistik romanchilik maktabining tamal toshini qo‘ygan buyuk adibalardan biridir. U 1775-yil 16-dekabrda Xempshir grafligining Stiventon qishlog‘ida, parish ruhanisi oilasida dunyoga keldi. Ostin yashagan davr Yevropada, xususan, Buyuk Britaniyada ulkan ijtimoiy-siyosiy evrilishlar, Napoleon urushlari, sanoat to‘ntarishi va romantizm oqimining gullab-yashnagan pallasiga to‘g‘ri keladi. Biroq, uning ijodiy yo‘nalishi o‘sha davrdagi keng tarqalgan hayosiz sarguzashtlar yoki bo‘rttirilgan romantik hissiyotlardan yiroq bo‘lib, ko‘proq kundalik hayot haqiqatlari, inson xarakteri va jamiyat qatlamlari o‘rtasidagi nozik munosabatlarni aks ettirishga qaratildi. Oilada sakkiz farzandning biri bo‘lgan Jeyn, o‘zining to‘ng‘ich opasi Kassandra bilan juda yaqin bo‘lib, uning hayoti va ijodiy izlanishlarida oilaviy muhit eng muhim poydevor vazifasini o‘tadi. Uning otasi keng dunyoqarashga ega bo‘lgan ziyoli inson sifatida qizlarining ta’lim olishiga va kitob mutolaasiga alohida e’tibor qaratgan bo‘lib, bu Jeynning yoshligidanoq badiiy didining shakllanishiga kuchli turtki berdi.

Adibaning dastlabki ijodiy namunalari o‘smirlik davridanoq boshlangan bo‘lib, keyinchalik ular adabiyotshunoslikda “Juvenilia” (Yoshlik asarlari) nomi ostida jamlangan. Bu asarlarda yosh qizaloqning o‘tkir zehnli hajvchi sifatidagi tabiati, o‘sha davr urf bo‘lgan sentimental va gotik romanlarga nisbatan parodiya qilish qobiliyati yaqqol namoyon bo‘ladi. Ostin ijodining yetuklik davri uning eng sara asarlari dunyoga kelishi bilan xarakterlanadi. Uning birinchi nashr etilgan asari "Andisha va andishasizlik" (Sense and Sensibility, 1811) romani bo‘lib, unda Elinor va Marianna ismli opa-singillarning qarama-qarshi xarakterlari orqali hissiyot va aql, his-tuyg‘u va reallik o‘rtasidagi doimiy kurash tasvirlangan. Bu asar orqali yozuvchi inson hayotida muvozanat naqadar muhimligini, faqatgina ko‘r-ko‘rona hissiyotlarga berilish yoki haddan tashqari sovuqqon hisob-kitob bilan yashash baxtsizlikka yetaklashi mumkinligini badiiy jihatdan isbotlab berdi. Muallif jamiyatning qat’iy qoliplari ichida yashashga majbur bo‘lgan

ayollarning moddiy va ma’naviy qiyinchiliklarini haqqoniy tasvirlash orqali realistik adabiyotning go‘zal namunasini yaratdi.

Jeyn Ostin ijodining cho‘qqisi va jahon adabiyoti tarixidagi eng mashhur asarlardan biri, shubhasiz, “Mag‘rurlik va andisha” (Pride and Prejudice, 1813) romanidir. Ushbu asar dastlab "Birinchi taassurotlar" deb nomlangan bo‘lib, unda bosh qahramonlar Elizabet Bennet va burstsuyer janob Darsi o‘rtasidagi munosabatlar dinamikasi orqali jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish, takabburlik va yanglish xulosalar mavzusi yoritiladi. Elizabet obrazi adabiyot tarixidagi eng jonli, mustaqil fikrli va jozibador ayol qahramonlardan biri hisoblanadi. Ostin ushbu romanda ijtimoiy kelib chiqishi turlicha bo‘lgan insonlarning o‘zaro tushunishga erishish yo‘lidagi psixologik to‘siqlarni nozik psixologizm va o‘tkir ironiya bilan ochib beradi. Roman mutolaasi davomida kitobxon nafaqat ikki yoshning segi qissasiga, balki o‘sha davr ingliz provinsial hayotining mukammal chizilgan ijtimoiy panoramasiga ham guvoh bo‘ladi. Yozuvchining satirik tili, dialoglarni qurish mahorati va xarakterlar psixologiyasini chuqur his qilishi asarning asrlar osha o‘z qiymatini yo‘qotmay kelishini ta’minladi.

Yozuvchining keyingi yirik asarlari qatoriga “Mensfild parki” (Mansfield Park, 1814) va “Emma” (Emma, 1815) romanlarini kiritish mumkin. “Mensfild parki” adibaning boshqa asarlariga qaraganda birmuncha jiddiyroq va axloqiy muammolarga boy bo‘lib, unda tarbiya, vijdon erkinligi va ijtimoiy mavqe kabi masalalar bosh qahramon Fanni Prays hayoti orqali ko‘rsatib beriladi. “Emma” romanida esa Ostin o‘ziga to‘q, biroz xudbin, ammo samimiy qiz Emma Vudxaus obrazini yaratadi. Emma atrofdagilarning taqdirini hal qilish, ularni nikohlash ishlariga aralashishni yaxshi ko‘radi, biroq bu jarayonda o‘zining shaxsiy his-tuyg‘ulari va hayot haqiqatlarini anglab yetishda ko‘plab xatolarga yo‘l qo‘yadi. Ushbu asar o‘zining psixologik mukammalligi va komik vaziyatlarni tasvirlash mahorati bilan ajralib turadi. Adiba ushbu asarlarida inson tabiati doim ham mukammal emasligini, uning shakllanishida muhit va tarbiyaning roli beqiyos ekanligini ta’kidlaydi.

Jeyn Ostin hayotining so‘nggi yillari og‘ir xastalik bilan o‘tdi, biroq u ijod qilishdan to‘xtamadi. Uning vafotidan so‘ng akasi va opasi sa’y-harakati bilan nashr etilgan “Nortenger abbatligi” (Northanger Abbey, 1817) va “Ishonch” (Persuasion, 1817) romanlari uning badiiy merosini yanada boyitdi. “Nortenger abbatligi” romani o‘sha davrda ommalashgan daxshatli gotik romanlar ustidan kuluvchi ajoyib parodiya bo‘lsa, “Ishonch” uning eng lirik va yetuk falsafiy asari sifatida baholanadi. Unda yoshlikdagi xatolar, yo‘qotilgan imkoniyatlar va vaqt sinovidan o‘tgan haqiqiy muhabbat mavzusi juda mayin va ta’sirchan ohanglarda tasvirlangan. Ostin asarlarining umumiy xususiyati shundaki, u hech qachon global siyosiy voqealarni, jang maydonlarini yoki buyuk tarixiy shaxslarni tasvirlamagan. U o‘zi yaxshi bilgan kichik provinsial shaharchalar hayotini, bir nechta oilalar o‘rtasidagi munosabatlarni tasvirlash orqali butun boshli insoniyat jamiyatining universal qonuniyatlarini ochib bera olgan. Uning tili g‘oyat boy, aniq, ironiyaga yo‘g‘rilgan va metaforalardan xali bo‘lib, realistik nasrning eng yuqori namunasini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, Jeyn Ostin 1817-yil 18-iyulda Vinchester shahrida 41 yoshida vafot etgan bo‘lsa-da, u qoldirgan adabiy meros abadiyatga daxldor bo‘lib qoldi. O‘z davrida asarlari anonim (muallif nomi ko‘rsatilmagan holda, shunchaki “Bir xonim tomonidan”) chop etilgan bo‘lsa, bugungi kunda uning nomi jahon adabiyotining eng yirik namoyandalari bilan bir qatorda turadi. Ostin ijodi shunchaki ko‘ngilochar qissalar emas, balki chuqur ijtimoiy tahlil, ayol shaxsining jamiyatdagi o‘rni va erkinligi, axloqiy poklik va insoniy qadr-qimmatni ulug‘lovchi buyuk falsafiy asarlardir. Uning romanlari asosida o‘nlab badiiy filmlar, seriallar yaratilgan bo‘lib, ular hozirgi kunda ham butun dunyo bo‘ylab millionlab kitobxonlar va tomoshabinlar qalbidan chuqur joy olib kelmoqda. Adibaning hayoti va ijodini o‘rganish, uning asarlaridagi ijtimoiy-psixologik qatlamlarni tahlil qilish zamonaviy adabiyotshunoslikning hamisha dolzarb bo‘lib qoladigan yo‘nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Austen, Jane. Pride and Prejudice. - London: T. Egerton, 1813. (and modern editions).
2. Southam, B. C. Jane Austen: The Critical Heritage. - London: Routledge & Kegan Paul, 1968.
3. Kelly, Gary. English Fiction of the Romantic Period 1789-1830. - London: Longman, 1989.
4. Tuite, Clara. Romantic Austen: Sexual Politics and the Literary Market. - Cambridge University Press, 2002.
5. Qodirova, M. G‘arb adabiyoti tarixi (XIX asr). - Toshkent: Universitet, 2012.
6. Honan, Park. Jane Austen: Her Life. - London: Weidenfeld and Nicolson, 1987.

XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARIDAGI HAYVONLAR OBRAZLARI TASNIFI

Xuramova Dilorom Xamroqulovna
Surxondaryo viloyati, Qumqo‘rg‘on tumani 25-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
E-mail: xuramova.dilorom@bk.ru
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21932635

Annotatsiya. O‘zbek adabiyotida jonivorlar obrazining yaratilishida o‘zbek folklori-xalq og‘zaki ijodi namunalarining o‘rni beqiyosdir. Kichik janrlardan tortib, eposlargacha hayvonot olami, uning ramziylik va didaktikaga yo‘g‘rilgan qiyofasi aks etadi.
Kalit so‘zlar: hayvonot olami, maqol, masal, ertak, Semurg‘, Anqo, Humo, Burgut.
Аннотация. Роль узбекского фольклора и устного народного творчества в создании образов животных в узбекской литературе трудно переоценить. От малых жанров до эпических произведений широко отражается мир животных, а также его образ, наполненный символизмом и дидактическим содержанием.
Ключевые слова: животный мир, пословица, басня, сказка, Симург, Анка, Хумо, орёл.
Abstract. The role of Uzbek folklore and oral folk literature in the creation of animal characters in Uzbek literature is invaluable. From minor genres to epic works, the animal world and its image imbued with symbolism and didactic meaning are widely reflected.
Keywords: animal world, proverb, fable, fairy tale, Simurgh, Anqa, Huma, eagle.

O‘zbek adabiyotida jonivorlar obrazining yaratilishida o‘zbek folklori-xalq og‘zaki ijodi namunalarining o‘rni beqiyosdir. Kichik janrlardan tortib, eposlargacha hayvonot olami, uning ramziylik va didaktikaga yo‘g‘rilgan qiyofasi aks etadi. Maqol, masal janri namunalari-yu, hayvonlar haqidagi ertaklargacha barcha janrlarga jonzotlar obrazimiz yorqin va jonli, insonlar teng ravsihda ishtirok etganligiga guvoh bo‘lamiz. Bunda qush obrazlaridan boshlab, yovvoyi va uy jonivor obrazlari tasviri o‘ziga xos badiiyati bilan yaxshilik va yomonlik kabi zid tushunchalarning xalqimiz ongidagi jonli ifodasi bo‘lib namoyon bo‘ladi.

Folklor asarlarda mifologik qush obrazlariga Semurg‘, Anqo, Humo, Burgut, Qaldirg‘och, G‘oz, Laylak kabi misol bo‘la oladi. Mifologik qushlar folklor asarlar kompozitsiyasida turli xil vazifalarni bajardi: homiy kuch, yaratuvchi, ilohiy qudrat timsoli bo‘lib, ular ertak va dostonlarda ko‘p vazifalarni ado etadi. Qushlarning vazifaviy harahatida insonga yordam berish, uni himoya qilish, qahramonning jasorat ko‘rsatishiga va maqsadiga erishishida ko‘maklashuvchi ezgulik namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalq ertaklari orasida kabutar, musicha, qarg‘a, kaklik, bulbul kabi kichik qushlarning ham mifik asosga ega obrazlari nisbatan kamroq bo‘lsa-da uchraydi. Ular ertaklarda kelajakdan xabar beruvchi, ogohlantiruvchi, muammolarga qanday qilsa yechim topilishidan darak beruvchi sifatida tasvirlanadi. Xususan, “Ovchi, Ko‘kcha va Dono” yoki bo‘lmasam ertaklarda an’anaviy boshlanmalardagi “…qarg‘a qaqimchi ekan, chunchuq chaqimchi, g‘oz karnaychi ekan, o‘rdak surnaychi ekan…” kabilarni misol keltirishimiz mumkin[1].

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining deyarli barcha janr namunalarida ot obraziga duch kelamiz. Ushbu janrlarning har birining tabiatiga ko‘ra ot obrazi ham turli mazmun va ma’no kasb etadi. Maqol, ibora, qo‘shiq, naql, ertaklar va dostonlardagi ot obrazi, ularning asar tarkibidagi badiiy funktsiyalari o‘zaro qiyos qilinsa, bu farq va o‘ziga xoslik aniq namoyon bo‘ladi. Fikrimizni bevosita bir qator misollar bilan tasdiqlab ko‘rishimiz mumkin. Masalan: ot obrazi ishtirok etuvchi ushbu maqollarga diqqat qiling:

El qo‘ngan yerin bilar,
Ot to‘ygan yerda tinar
Ot oyog‘idan topar,
Odam qo‘lidan.
Ot bo‘lari qulunligidan belgili,
Er bo‘lari lo‘laligidan belgili.

Keltirilgan maqollardagi ot obrazi bilan bog‘liq fikr xalqning bevosita bilim va tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan falsafiy xulosalarini ifodalashda xizmat qilmoqda[2].

“Dostonlarda ot juda muhim o‘rin egallaydi. U qahramonning muvaffaqiyatga erishuvi yo‘lida xizmat qilib, g‘oyat mushkul vazifalarni bajaradi, qahramonga katta yordam beradi. Qahramon otga ega bo‘lganligi tufayli istagiga erishadi. Shu narsa xarakterliki, epik ot qatnashmagan bironta qahramonlik

dostonini topish qiyin. Ot qahramonning safari va kurashlarida doimiy yo‘ldoshi, ishonchli o‘ldoshi va yaqin do‘stidir”[4].

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida go‘rda tug‘ilgan chaqaloqning jinsini aniqlash uchun egardan foydalaniladi. “Sinab bilayin, shu bola o‘g‘ilmikin, qizmikin”, deb egar bilan uch oshiqni bir yoqqa qo‘ydi. Ikki qo‘g‘irchoq bilan ro‘molni go‘rning bir yog‘iga qo‘ydi. Poylab yotdi. Go‘ro‘g‘li... egarni minib, “chuv-ha, chuv-ha, ot qo‘y, qaytma, boxabar bo‘linglar”, – deb egarni asta-asta qimirlatib, go‘rdan ancha uzoqlab ketdi”[1].

Alpomish va Boychibor, Go‘ro‘g‘li va G‘irko‘k dostonlarda bosh qahramon sifatida yonma-yon ishtirok etar ekan, Alpomish va Go‘ro‘g‘lining qahramonlik sifatlari, tashqi qiyofasi, ichki ruhiy olami Boychibor va G‘irko‘k vositasida yuksak badiiy mohiyat kasb etadi. Ba’zi o‘rinlarda baxshi asar syujet va kompozitsiyasidan ot timsoli tavsifiga shu qadar keng o‘rin beradiki, asarning bosh qahramoni ot emasmikin, degan mulohazalar ham paydo bo‘ladi. Chunki, Boychibor, G‘irko‘k har bir dostonda o‘z raqiblariga, nasl jihatdan yaqinlariga ega bo‘libgina qolmasdan, balki ular bilan munosabatga kirishadi. Baxshi ot obrazini mukammal suvratda yuksak pafosda namoyon etish jarayonida tinimsiz ishlaydi, boshqa baxshilarning tajribalarini o‘rganadi va ayni choqda o‘zining individual yo‘nalishi bilan maydonga chiqadi. Baxshi ot obrazini yaratishda xalq og‘zaki ijodidagi mavjud an’analarga amal qiladi. Dostonning bosh qahramoni nechog‘lik murakkab holatlarni boshidan kechirsa, uning oti ham shu vaziyatlarda sinovdan muvaffaqiyatli o‘tkaziladi. Aksari holatlarda haqiqiy tulpor otning tashqi qiyofasi ko‘rimsiz tasvirlanishi ham mumkin. Bu holat ham o‘ziga xos an’anaga ega[2].

“Alpomish” dostonida Hakimbek ot to‘dasiga uch marta to‘riq otganda har safar to‘riq Boychiborga tushadi. Savol tug‘iladi: Alpomish nima uchun ikkinchi va uchinchi marta to‘riq tashladi? Javob: Alpomish Boychiborning haqiqiy tulpor ekanligini aniqlay olmagan edi. Ayni shu holat “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida ham ko‘zga tashlanadi. Sinchi Ravshan holvachining ko‘rinishidan qirchang‘i ko‘ringan oti deb ko‘r qilinadi. (Bu o‘rinda Ko‘kaldoshning sinchisi taqdirini yana bir bor esga olish mumkin). Ammo Ravshan qo‘lga kiritgan ot G‘irko‘k emas edi. G‘irko‘k paydo bo‘lguniga qadar butun bir avlod taqdiri o‘tib ketadi. Fikrimizcha, xalq eposida ot obrazining yaratilishi va ishlanishi bosh qahramonning xarakterini mukammallashtirish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. zbek xalq qahramonlik eposi uchun xos bo‘lgan bir hodisa borki, ba’zan qahramon otini uning do‘sti minadi[3].

Masalan, “Alpomish”dagi poygada Alpomish nomidan poygada Boychibor bilan Qorajon qatnashadi. To‘g‘ri, bu tinglovchi uchun biroz g‘ayritabiiy tuyulishi, nega endi Alpomishning o‘zi poygada qatnashmaydi, kabi savollarga sabab bo‘lishi mumkin. Bu lavhani “chin do‘stlikning badiiy talqini” tarzda izohlash esa juda jo‘n bo‘lar edi. Biz etnografiyaga doir ma’lumotlarda qadim ajdodlarimiz ot va egasini birgalikda ko‘mgani, ot va turkning bir-biriga naqadar yaqinligi haqidagi fikrlarni keltirgan edik. Chunonchi, ot to‘g‘risidagi mifik tasavvurlarga ko‘ra, ot va qahramon bir-biriga teng, bir-biridan ajralmasdir. Otning g‘alabasi egasining g‘alabasidir.

Xulosa qilib aytganda, xalq og‘zaki ijodi namunalarida hayvonlar obrazlari xalqning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va hayotiy tajribasini badiiy ifodalovchi muhim vosita hisoblanadi. Ularning tasnifi hayvonlarning ramziy, tarbiyaviy va estetik vazifalarini ochib berishga xizmat qiladi. Ertak, masal va dostonlarda hayvonlar obrazi ezgulik, mardlik, ayyorlik, sadoqat kabi umuminsoniy fazilatlarni ifodalab, xalq og‘zaki ijodining g‘oyaviy-badiiy qimmatini yanada boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi. Aytuvchi: Po‘lkan shoir. – Toshkent, 1967. – B. 54.
2. Imomov K. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
3. O‘zbekiston xalq ijodi. O‘zbek xalq ertaklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
4. Zarifov H.T. O‘zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari bo‘yicha tekshirishlar. Jangovar otning qadimiy asoslariga doir // O‘zbek xalq og‘zaki ijodi bo‘yicha tadqiqotlar. 4-kitob Po‘lkan shoir. – Toshkent: Fan, 1967. – B. 65.

THE CONCEPT OF CULTURE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Razoqova Kumush Sadriddinovna
BSU, 2nd year doctoral student
k.s.razoqova@buxdu.uz
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21932705

Annotation. The concept of culture is complex and varied. When we define culture in English and Uzbek, each language reflects its own historical, social, and cultural traits. This thesis provides an academic look at how culture is understood in both languages. The Concept of Culture: Definitions and Differences in English and Uzbek
Key words: concept, culture, Uzbek culture, heritage, cultural norms, cultural views
Аннотация. Понятие культуры является сложным и многогранным. Когда мы определяем культуру на английском и узбекском языках, каждый язык отражает свои исторические, социальные и культурные особенности. В данной статье представлен академический взгляд на то, как понимается культура в обоих языках. Понятие культуры: определения и различия в английском и узбекском языках
Ключевые слова: понятие, культура, узбекская культура, наследие, культурные нормы, культурные взгляды

1. Introduction. Culture includes all the values, customs, traditions, language, art, architecture, science, and other social activities which have developed throughout the years in the history of humanity. It captures the essence of the worldview, legacy, and life of a nation. Evaluating the concept of culture is important to grasp the collective psyche of every nation along with its interactions with other countries.

The meaning of culture in English and Uzbek has its unique features. This thesis will look at the definitions and differences of culture in both languages.

2. The concept of culture in English

The English word ‘culture’ comes from the Latin ‘cultūra,’ which means to nurture or cultivate. It mainly refers to the values and systems that appear in all social structures. The English term ‘culture’ has several meanings:

Artistic and intellectual expression: In English, culture often connects to areas like art, music, literature, and film. For example, phrases like ‘the culture of the Renaissance’ or ‘modern cultural trends’ illustrate this connection.

Lifestyle: Culture describes people’s day-to-day activities and their place in society. For instance, ‘the culture of a nation’ represents a nation's culture, while ‘youth culture’ focuses on young people's culture.

Social norms and values: Culture includes social systems, customs, and moral standards. In English, expressions like ‘cultural norms’ and ‘cultural diversity’ are commonly used.

There are also other related concepts in English. Terms such as ‘high culture’ and ‘low culture’ generally highlight differences in cultural expression across different social groups.

3. The concept of culture in the Uzbek language

In Uzbek, the term ‘culture’ (madaniyat) mainly refers to customs, traditions, moral values, art, and the results of people’s labor. Uzbek culture is founded on national values and historical traditions, containing many unique aspects. The concept of culture in Uzbek is commonly expressed in these forms:

National customs and traditions: Uzbek culture is often rooted in family and social traditions. The phrase ‘Uzbek national culture’ refers to the traditional lifestyle of the people, highlighting values like hospitality, respect, childrearing, and mutual support.

Aesthetic and artistic expression: In Uzbek, culture is also linked to art and literature. Phrases like ‘Uzbek literary culture’ or ‘Uzbek musical culture’ represent people’s aesthetic vision and artistic values.

Social and moral values: Uzbek culture includes traditional elements and embodies social norms and moral values. The term ‘civilized person’ usually describes someone who is respectful, polite, and morally upright toward others.

4. Comparison of the concept of culture in English and Uzbek

Similarities:

- In both languages, culture includes values, customs, art, and social norms.

- Both cultures shape society's development and how its members interact.

Differences:

- In English, culture is more linked to modern life and global connections. It highlights the interplay between values and cultural expressions on an international level.

- In Uzbek, culture is rooted in national, historical, and traditional values. Its uniqueness is closely tied to the social system and religious values of Central Asia.

5. Conclusion

Culture represents the relationships and values among various social structures in humanity. Although the definitions of culture in English and Uzbek have similarities, each nation’s cultural traits connect closely to its historical, social, and religious backgrounds. While culture in English is explored in a global and modern context, in Uzbek, it is more aligned with traditional, national, and social values.

While both English and Uzbek cultures value family, community involvement, and respect for tradition, they differ mainly in their focus on individualism in English culture and collectivism in Uzbek culture. They also differ in how religion is part of daily life and their views on national identity and global influence. English culture emphasizes individualism and a more secular perspective. In contrast, Uzbek culture is more traditional, influenced by Islam, and centered around family. Despite these differences, both cultures add to the rich diversity of the world.

Bibliography:

1. Hall, Edward T.”*The Dance of Life: The Other Dimension of Time”.* Anchor Books, 1983.
2. Hofstede, Geert.”*Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions, and Organizations across Nations”.* Sage Publications, 2001.
3. Kymlicka, Will.”*Multicultural Citizenship: A Liberal Theory of Minority Rights”.* Oxford University Press, 1995.
4. Eisenstadt, S. N.”*The Sociology of Multiple Modernities: Tradition and Innovation”.* Brill, 2002.
5. Tayfur, Emin.”*Uzbek Culture and Heritage: A Historical Perspective”.* Tashkent University Press, 2008.
6. Mazur, James.”*Cultural Geography: A Critical Introduction”.* Wiley-Blackwell, 2010.

MINERAL O‘G‘ITLARNING “DAULET” OQ JO'XORI NAVINING BARG SATHI VA BARG VAZNI NISBATIGA TA’SIRI

Latipova Ro‘zajon Shavkatovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
06.01.08 – O‘simlikshunoslik ixtisosligi tayanch doktoranti
Djumaniyazova Yulduzoy Abdusharipovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Biologiya kafedrasi dotsenti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21932751

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda Xorazm viloyati sharoitida yetishtirilgan “Daulet” oq jo‘xori navida mineral o‘g‘itlar me'yorlarining barg sathi nisbati (BSN) va barg vazni nisbati (BVN) ko‘rsatkichlariga ta’siri o‘rganildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, vegetatsiya davomida barg sathi nisbati kamaygan, barg vazni nisbati esa mineral oziqlanish me'yorining ortishi bilan oshgan. Olingan natijalar oq jo‘xori yetishtirishda mineral o‘g‘it me'yorlarini optimallashtirish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.
Kalit so`zlar: oq jo‘xori, Daulet navi, mineral o‘g‘itlar, barg sathi nisbati, barg vazni nisbati.
Аннотация. В данном исследовании изучено влияние различных норм минеральных удобрений на показатель отношения площади листьев (ОПЛ) и отношения массы листьев (ОМЛ) сорта белого сорго «Даулет», выращенного в условиях Хорезмской области. Установлено, что в течение вегетации показатель ОПЛ постепенно снижался, тогда как показатель ОМЛ увеличивался с повышением норм минерального питания. Полученные результаты могут служить научной основой для оптимизации системы минерального питания белого сорго.
Ключевые слова: белое сорго, сорт Даулет, минеральные удобрения, отношение площади листьев, отношение массы листьев.
Abstract. This study investigated the effects of different mineral fertilizer rates on leaf area ratio (LAR) and leaf weight ratio (LWR) in the white sorghum cultivar “Daulet” under the conditions of the Khorezm region. The results showed that LAR gradually decreased during the growing season, whereas LWR increased with increasing fertilizer rates. These findings provide a scientific basis for optimizing mineral fertilizer management in white sorghum cultivation.
Keywords: white sorghum, Daulet cultivar, mineral fertilizers, leaf area ratio, leaf weight ratio.

Kirish. O‘simliklarning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligi ko‘p jihatdan barglarning fiziologik ko‘rsatkichlariga bog‘liq. Barg sathi nisbati (BSN) va barg vazni nisbati (BVN) o‘simlikning biomassa hosil qilishi, quruq modda to‘planishi hamda assimilatsiya mahsulotlarining vegetativ va generativ organlar o‘rtasida taqsimlanishini tavsiflovchi muhim fiziologik ko‘rsatkichlar hisoblanadi [1. 2002:B. 137–151]. Ushbu ko‘rsatkichlar o‘simlikning vegetatsiya davridagi o‘sish jadalligi, mineral oziqlanishga javob reaksiyasi va hosildorlikni shakllantirishdagi fiziologik jarayonlarni baholash imkonini beradi [2. 2002:B.87-98].

Mineral oziqlanish, ayniqsa azot, fosfor va kaliyning qo‘llanilishi barglarning o‘sishi, quruq modda to‘planishi hamda fiziologik jarayonlarning jadalligiga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi [3. 2022:B.1-23]. Mineral elementlar bilan yetarli darajada ta'minlangan o‘simliklarda barglarning rivojlanishi yaxshilanadi, biomassa hosil bo‘lishi jadallashadi va hosildorlikni shakllantirish uchun qulay fiziologik sharoit vujudga keladi. Shu bilan birga, mineral o‘g‘it me'yorlarining barg sathi nisbati va barg vazni nisbatiga ta'siri nav xususiyati hamda tuproq-iqlim sharoitiga qarab farqlanishi mumkin [4. 2021:B.1-18].

Xorazm viloyati sug‘oriladigan tuproqlari sharoitida oq jo‘xori navlarining barglarning fiziologik ko‘rsatkichlariga mineral o‘g‘itlar me'yorlarining ta'siri bo‘yicha ilmiy ma'lumotlar yetarli emas. Shu bois mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar oq jo‘xori yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish va mineral oziqlanish tizimini ilmiy asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi [5.2021:B.1-18].

Mazkur tadqiqotning maqsadi Xorazm viloyati sharoitida yetishtirilgan “Daulet” oq jo‘xori navida turli me'yorlardagi mineral o‘g‘itlarning barg sathi nisbati va barg vazni nisbati ko‘rsatkichlariga ta'sirini baholash hamda ushbu fiziologik ko‘rsatkichlar asosida mineral oziqlanishning samaradorligini aniqlashdan iborat.

Asosiy qism

Tadqiqot davomida mineral o‘g‘itlarning turli me'yorlari “Daulet” oq jo‘xori navining barg sathi nisbati (BSN) va barg vazni nisbati (BVN) ko‘rsatkichlariga ta'siri o‘rganildi. Olingan natijalar mineral

oziqlanish o‘simlikning barglarga oid fiziologik ko‘rsatkichlarining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

2024-yilda mineral o‘g‘it me'yorlarining “Daulet” navi barg sathi nisbatiga ta'siri o‘simlikning barcha rivojlanish bosqichlarida kuzatildi (1-jadval). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, barg sathi nisbati (BSN) vegetatsiya davomida izchil kamayib bordi.

1-jadval

Mineral o‘g‘itlar me’yorlarini “Daulet” navining barg sathi nisbati dinamikasiga ta’siri, 2024 yil

V ar. t/r	Mineral o‘g‘itlar me’yori, kg/ga	O‘suv fazalari bo‘ylab o‘simlik barg sathi nisbati, sm^2/g				
		S2	S3	S5	S6	S8
1	$N_0P_0K_0$ (nazorat)	123,24	118,62	105,98	62,96	36,88
2	$N_{160}P_{100}K_{80}$	115,56	109,68	96,46	61,53	36,95
3	$N_{200}P_{120}K_{100}$	113,49	105,41	82,81	60,92	37,25
4	$N_{240}P_{140}K_{120}$	112,42	103,58	78,03	60,26	37,56

Nazorat variantida ($N_0P_0K_0$) barg sathi nisbati S2 fazasida 123,24 sm^2/g ni tashkil etgan bo‘lsa, S3 fazasida 118,62 sm^2/g, S5 fazasida 105,98 sm^2/g, S6 fazasida 62,96 sm^2/g va S8 fazasida 36,88 sm^2/g gacha kamaydi. Demak, vegetatsiya davomida ushbu ko‘rsatkich dastlabki qiymatga nisbatan 70,1 % ga pasaydi [6.2018:B.224-233].


Mineral o‘g‘itlar qo‘llanilgan variantlarda ham xuddi shunday qonuniyat kuzatildi. $N_{160}P_{100}K_{80}$ variantida BSN mos ravishda 115,56; 109,68; 96,46; 61,53 va 36,95 sm^2/g ni tashkil etdi. Ushbu variantda S2 bosqichidagi ko‘rsatkich nazoratga nisbatan 6,2 % past bo‘lib, vegetatsiya oxiriga kelib deyarli bir xil darajaga (36,95 sm^2/g) yetdi [7. 2020:B.2020-224].

Mineral oziqlanish me'yori oshirilganda barg sathi nisbati yanada pasayishi kuzatildi. Jumladan, $N_{200}P_{120}K_{100}$ variantida S2, S3, S5, S6 va S8 bosqichlarida BSN mos ravishda 113,49; 105,41; 82,81; 60,92 va 37,25 sm^2/g ni tashkil etdi. Eng yuqori oziqlanish fonida ($N_{240}P_{140}K_{120}$) ushbu ko‘rsatkichlar 112,42; 103,58; 78,03; 60,26 va 37,56 sm^2/g ga teng bo‘ldi.

Rivojlanish fazalari kesimida tahlil qilinganda, variantlar o‘rtasidagi eng katta tafovut S5 fazasida kuzatildi. Mazkur bosqichda nazorat variantidagi 105,98 sm^2/g ko‘rsatkich $N_{160}P_{100}K_{80}$ variantida 96,46 sm^2/g, $N_{200}P_{120}K_{100}$variantida 82,81 sm^2/g, $N_{240}P_{140}K_{120}$ variantida esa 78,03 sm^2/g ni tashkil etdi. Bu yuqori mineral oziqlanish sharoitida barg yuzasiga nisbatan umumiy quruq biomassa jadalroq shakllanganligini ko‘rsatadi.

Vegetatsiyaning yakuniy bosqichi (S8) da esa barcha variantlarda barg sathi nisbati 36,88–37,56 sm^2/g oralig‘ida qayd etilib, variantlar o‘rtasidagi farq sezilarli darajada kamaydi.

Barg vazni nisbati (BVN) o‘simlik umumiy quruq biomassasida barglarning ulushini ifodalovchi muhim fiziologik ko‘rsatkich hisoblanadi. Tadqiqot natijalari mineral oziqlanish me'yorining ortishi “Daulet” navida barg vazni nisbatiga sezilarli ta'sir ko‘rsatganligini aniqladi (1-rasm).



1-rasm. Mineral o‘g‘it me’yorlarining “Daulet” oq jo‘xori navining BVN ko‘rsatkichiga ta’siri

Vegetatsiyaning dastlabki bosqichi (S2) da barg vazni nisbati 0,62–0,66 g oralig‘ida bo‘lib, eng yuqori qiymat $N_{240}P_{140}K_{120}$ variantida (0,66 g), eng past qiymat esa nazorat variantida (0,62 g) kuzatildi. Mineral oziqlanish darajasining oshishi barg biomassasining jadal shakllanishiga yordam berganligi sababli barglarning umumiy biomassa tarkibidagi ulushi ham ortgan.

Vegetatsiyaning yakuniy bosqichi (S8) ga kelib barcha variantlarda barg vazni nisbati keskin kamaydi va 0,19–0,29 g oralig‘ida qayd etildi.

Ushbu kamayish o‘simlik rivojlanishining tabiiy fiziologik jarayoni bo‘lib, generativ organlarning shakllanishi davrida assimilyatsiya mahsulotlarining barglardan don va poyaga yo‘naltirilishi bilan izohlanadi. Shunga qaramay, yuqori mineral oziqlanishda yetishtirilgan o‘simliklarda barg vazni nisbati nazorat variantiga nisbatan yuqoriroq saqlanib qoldi

Xulosa. Xorazm viloyati sharoitida o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, mineral o‘g‘itlar me'yorlari “Daulet” oq jo‘xori navining barglarning fiziologik ko‘rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Vegetatsiya davomida barg sathi nisbati (BSN) barcha variantlarda bosqichma-bosqich kamaygan bo‘lib, bu o‘simlik rivojlanishi jarayonida quruq modda to‘planishi va assimilatsiya mahsulotlarining generativ organlarga yo‘naltirilishi bilan bog‘liq ekanligi kuzatildi. Aksincha, barg vazni nisbati (BVN) mineral oziqlanish me'yorining ortishi bilan oshib bordi. Eng yuqori ko‘rsatkichlar $N_{240}P_{140}K_{12}$variantida qayd etildi.

Tadqiqot natijalari mineral oziqlanishning maqbul me'yorlarini qo‘llash barglarning fiziologik rivojlanishini yaxshilashi, biomassa to‘planishini jadallashtirishi hamda oq jo‘xorining o‘sishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishini ko‘rsatdi. Shu sababli Xorazm viloyati tuproq-iqlim sharoitida “Daulet” navini yetishtirishda $N_{240}P_{140}K_{120}$ me'yoridagi mineral o‘g‘itlarni qo‘llash barglarning fiziologik ko‘rsatkichlarini yaxshilash nuqtai nazaridan eng samarali variant sifatida tavsiya etiladi.

Bu xulosalar oq jo‘xori yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish va mineral oziqlanish tizimini optimallashtirish bo‘yicha keyingi ilmiy tadqiqotlar hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lafarge T.A., Hammer G.L. Predicting plant leaf area production: shoot assimilate accumulation and partitioning, and leaf area ratio are stable for a wide range of sorghum population densities // Field Crops Research. – 2002. – Vol. 77, No. 2–3. – P. 137–151.

2. Lafarge T.A., Broad I.J., Hammer G.L. Tillering in grain sorghum over a wide range of population densities: Identification of a common hierarchy for tiller emergence, leaf area development and fertility // Annals of Botany. – 2002. – Vol. 90, No. 1. – P. 87–98.

3. Abreha K.B., Enyew M., Carlsson A.S., Vetukuri R.R., Feyissa T. Sorghum in dryland: Morphological, physiological and molecular responses of sorghum under drought stress // Planta. – 2022. – Vol. 255. – Article 20. P. 1–23.

4. Prasad P.V.V., Djanaguiraman M., Perumal R., Ciampitti I.A. Drought and High Temperature Stress in Sorghum: Physiological, Genetic and Molecular Insights and Breeding Approaches // International Journal of Molecular Sciences. – 2021. – Vol. 22, No. 18. – Article 9826. P. 1–18.

5. Rizvi A., Ahmed B., Khan M.S., Umar S., Lee J. Sorghum–Phosphate Solubilizers Interactions: Crop Nutrition, Biotic Stress Alleviation and Yield Optimization // Frontiers in Plant Science. – 2021. – Vol. 12. – Article 746780 P. 87–98.

6. Pollo R., Sitompul S.M., Guritno B., Tyasmoro Y.S. () Crop growth parameters of grain sorghum varieties (Sorghum Bicolor (l.) Moench) at different crop spacing // Russian Journal of Agricultural and Socio-Economic Sciences, Issue 2(74), February 2018 P. 224-233

7. Nadhem A. Sayer and Faisal M.M. Al-Tahir (2020). Effect of clipping date and plant density on some traits of four Sorghum Bicolor varieties // Plant Archives V.20, No. 1. P. 220-224.

8. Storkey J. (2004). Modelling Seedling Growth Rates of 18 Temperate Arable Weed Species as a Function of the Environment and Plant Traits // Annals of Botany, 93(6):681–689.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Norova Nargiza Xalmamat qizi
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21932821

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va o‘qitish samaradorligini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Unda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini boshlang‘ich sinf darslariga integratsiya qilish, o‘quvchilarning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi, ijodkorligi hamda amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar, STEAM, muammoli va loyihaviy ta’lim kabi innovatsion yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Innovatsion texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish orqali ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning darsga qiziqishini kuchaytirish hamda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, innovatsion ta’lim, ta’lim texnologiyalari, innovatsion metodlar, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, STEAM, loyihaviy ta’lim, muammoli ta’lim, o‘quvchi faolligi, kompetensiya, ta’lim sifati.

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогические возможности использования инновационных образовательных технологий в процессе начального образования и их значение для повышения эффективности обучения. Анализируются вопросы интеграции современных образовательных технологий в уроки начальной школы, развития познавательной активности учащихся, самостоятельного мышления, креативности и практических компетенций. Также рассматриваются возможности использования инновационных подходов, таких как интерактивные методы, информационно-коммуникационные и цифровые технологии, STEAM-образование, проблемно-ориентированное и проектно-ориентированное образование. Разработаны рекомендации по повышению качества образования путем организации уроков на основе инновационных технологий, повышения интереса учащихся к учебным занятиям и формирования современных компетенций.

Ключевые слова: начальное образование, инновационное образование, образовательные технологии, инновационные методы, интерактивные методы, цифровые технологии, информационно-коммуникационные технологии, STEAM-образование, проектно-ориентированное образование, проблемно-ориентированное образование, активность учащихся, компетенция, качество образования.

Abstract: This article discusses the pedagogical possibilities of using innovative educational technologies in the process of primary education and their importance in increasing the effectiveness of teaching. It analyzes the issues of integrating modern educational technologies into primary school lessons, developing students’ cognitive activity, independent thinking, creativity, and practical competencies. It also considers the possibilities of using innovative approaches such as interactive methods, information and communication and digital technologies, STEAM, problem-based and project-based education. Recommendations are developed to improve the quality of education by organizing lessons based on innovative technologies, increasing students’ interest in the lesson, and forming modern competencies.

Keywords: primary education, innovative education, educational technologies, innovative methods, interactive methods, digital technologies, information and communication technologies, STEAM, project-based education, problem-based education, student activity, competence, quality of education.

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quv jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish hamda ta’lim sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini samarali shakllantirishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur texnologiyalar o‘quvchini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirib, uning mustaqil va tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish hamda ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llash darslarning samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini kuchaytirish va ta’lim mazmunini zamonaviy talablar

asosida tashkil etish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish, STEAM yondashuvi va boshqa innovatsion vositalardan samarali foydalanish o‘qituvchidan yuqori kasbiy kompetentlikni talab etadi.

Innovatsion ta’lim texnologiyalari ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik yondashuvlar, metodlar va vositalar majmui hisoblanadi. Mazkur texnologiyalar ta’limning an’anaviy shakllarini takomillashtirish, o‘quvchilarni faol bilim oluvchi subyekt sifatida shakllantirish hamda o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Pedagogik adabiyotlarda innovatsion ta’lim texnologiyasi ta’lim mazmuni, metodlari, shakllari va vositalarini yangilash orqali ta’lim sifatini oshirishni ta’minlaydigan tizim sifatida talqin etiladi.

Innovatsion ta’lim texnologiyalarining asosiy maqsadi ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy va ijodiy tafakkur, muammolarni hal etish, muloqot qilish hamda hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalar o‘quvchilarning individual qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etish, ularning o‘quv motivatsiyasini oshirish hamda zamonaviy jamiyat talablariga mos bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion ta’lim texnologiyalarining muhim vazifalari qatoriga ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish, interfaol metodlardan samarali foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiyalash, o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish hamda ta’lim natijalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida baholash kiradi. Ushbu vazifalarning izchil amalga oshirilishi ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi.

Boshlang‘ich ta’limda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning bilish faolligini rivojlantirish hamda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarini dars jarayoniga tatbiq etish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va amaliy faoliyatga tayyorligi rivojlanadi.

Interfaol metodlar boshlang‘ich ta’limda keng qo‘llaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalardan biridir. Ushbu metodlar o‘quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi hamda ularning muloqot, hamkorlik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Jumladan, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “BBB”, “Venn diagrammasi”, “Sinkveyn”, “Fishbone” kabi interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga, o‘z fikrini erkin bayon etishiga va muammolarni mustaqil hal etishiga yordam beradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalardan foydalanish zamonaviy dunyoda ta’lim sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Boshlang‘ich ta’limda multimedia vositalaridan foydalanish bolalarning diqqatini jalb qilishda samarali hisoblanadi. Elektron darsliklar va o‘yinlar bolalarning mavzuni oson va qiziqarli tarzda o‘zlashtirishiga yordam beradi. Masalan, “Khan Academy Kids” kabi mobil ilovalar orqali bolalar matematikadan murakkab masalalarni o‘rganishlari mumkin. Interaktiv doskalar esa o‘quvchilarning darsda faol qatnashish imkoniyatini beradi, bu orqali murakkab mavzularni vizual tarzda tushuntirish osonlashadi [1. 2025:B. 155]

Shunday qilib, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, STEAM yondashuvi hamda loyiha va muammoli ta’lim texnologiyalaridan kompleks foydalanish boshlang‘ich ta’lim jarayonining sifat va samaradorligini oshirishga, o‘quvchilarda XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirishga hamda zamonaviy ta’lim maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

Ta’lim sifatini oshirish va o‘quv jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun, avvalo, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini takomillashtirish zarur. Innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayoniga samarali tatbiq etish o‘qituvchining metodik mahorati, ijodkorligi va kasbiy tayyorgarligi bilan bevosita bog‘liqdir. Ularning barchasi mavzularni tahlil qilish, ularning shaxsiy tasavvurlarini shakllantirish va maqsadlarni belgilashga yordam beradi. Shuningdek, u o‘qish va o‘z fikrlarini ifoda etishga muhabbat uyg‘otadi, talabalarning nutqini boyitadi va ularni o‘z asarlarini yaratishga yordamlashadi [2. 2017:B.56].

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi innovatsion ta’lim texnologiyalarini muvaffaqiyatli qo‘llashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagog nafaqat o‘z fanini chuqur bilishi, balki innovatsion metodlarni tanlash va ulardan maqsadga muvofiq foydalanish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi lozim. Shu bois o‘qituvchilarning malakasini oshirish kurslari, ilmiy-amaliy seminarlar, treninglar, vebinarlar va tajriba almashish platformalarida muntazam ishtirok etishi

ularning kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Innovatsion ta’lim texnologiyalarini muvaffaqiyatli qo‘llashda zamonaviy ta’lim vositalaridan oqilona foydalanish alohida ahamiyatga ega. Interaktiv doskalar, multimedia taqdimotlari, elektron darsliklar, ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar, mobil ilovalar va sun’iy intellekt asosidagi ta’lim resurslari o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Ushbu vositalar yordamida o‘quv materiallari ko‘rgazmali tarzda taqdim etiladi, murakkab tushunchalarni sodda va tushunarli shaklda izohlash imkoniyati yaratiladi. Innovatsion texnologiyalar o‘qituvchiga har bir o‘quvchining bilim darajasini kuzatib, unga mos mashqlar berish imkonini yaratadi. Bu esa o‘zlashtirish darajasida tengsizlikni kamaytiradi [3. 2025:B.234].

Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy vositalardan foydalanish o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, tabaqalashtirilgan ta’limni tashkil etish va mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tabiiy fanlarni o‘qitishda elektron tajribalar, animatsiyalar, videodarslar va interaktiv topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning kuzatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada o‘quvchilar ta’lim jarayonida faol ishtirok etib, olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish har bir o‘quvchining individual qobiliyati va qiziqishlarini inobatga olgan holda tabaqalashtirilgan ta’limni tashkil etish imkonini yaratadi. Bu esa o‘quvchilarning intellektual salohiyati, kommunikativ madaniyati hamda mustaqil ta’lim olish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Darslar jarayonida bolani qalban yuksak, ma’naviy boy qilib tarbiyalashda ajdodlarimiz yaratgan betakror asar durdonalaridan foydalangan holda bilim berish hamda odob axloq qoidalariga o„rgatish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun birinchi navbatda, o‘quvchini o„qish, bilim olishga ishtiyoqini o‘stirish, ularning ma’naviy dunyosini boyitishi zarur. Shundagina ertangi kunning ishonchli egasi bo‘lgan farzandlarini munosib tarbiyalagan bo‘lamiz [4. 2023:B.93].

Boshlang‘ich ta’limda innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llash o‘quv jarayonini takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish hamda o‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, STEAM yondashuvi hamda loyiha va muammoli ta’lim usullaridan samarali foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi, bilish faolligi va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois boshlang‘ich ta’limda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, pedagoglarning innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda ilg‘or pedagogik tajribalarni amaliyotga tatbiq etish ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Mazkur yo‘nalishdagi ishlarni izchil davom ettirish boshlang‘ich ta’limning samaradorligini oshirish va raqobatbardosh, kreativ hamda mustaqil fikrlovchi yosh avlodni tarbiyalash uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdumajitova Maftuna. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion usullardan foydalanish // Science and Education. 2025. №1. 155-b.
2. Лызенцова Л. А. Краснова Гульнара Равилевна Инновационные технологии в начальной школе // Интерактивная наука. 2017. №11. Ст. 56.
3. Tursunova, Sarvinoz. (2025). Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalar / “Boshlang‘ich ta’lim tabiiy fanlarining zamonaviy tendensiyalari: muammolari, yechimlari, o‘qitishning innovatsion yondoshuvlari” mavzusidagi respublika ilmiy anjumani materiallari to‘plami. 2025. 233-235-b.
4. Xoliqulova Mohinur Qahramon qizi. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo‘llari // So‘nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 13.04.2023. №9. 93-b.

OZIQ-OVQAT TEXNOLOGIYASI TALABALARINING LABORATORIYA VA AMALIY MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHNI OPTIMALLASHTIRISH

Xakimov Sardorbek Maxmud o'g'li
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21932846

Annotatsiya. Ushbu maqolada oziq-ovqat texnologiyasi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish hamda boshqarishni takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, Teaching Factory, muammoli ta'lim (Problem-Based Learning) va peer-review metodlarining samaradorligi xalqaro tajribalar asosida yoritilgan. Shuningdek, laboratoriya menejmentining rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va baholash funksiyalari ilmiy dalillar bilan asoslangan. Maqolada ta'lim sifatini oshirish maqsadida amaliy tavsiyalar ham keltirilgan.
Kalit so'zlar: oziq-ovqat texnologiyasi, laboratoriya menejmenti, amaliy mashg'ulotlar, muammoli ta'lim, Teaching Factory, kompetensiyaviy yondashuv, optimallashtirish.
Abstrac: This article analyzes issues related to improving the organization and management of laboratory and practical training sessions for students majoring in food technology. The effectiveness of modern pedagogical technologies, including Teaching Factory, Problem-Based Learning, and peer-review methods, is examined based on international experience. Furthermore, the planning, organizing, controlling, and evaluating functions of laboratory management are substantiated with scientific evidence. The article also provides practical recommendations aimed at improving the quality of education.
Keywords: food technology, laboratory management, practical training, problem-based learning, Teaching Factory, competency-based approach, optimization.
Аннотация: В данной статье анализируются вопросы совершенствования организации и управления лабораторными и практическими занятиями студентов, обучающихся по направлению пищевых технологий. На основе международного опыта освещена эффективность современных педагогических технологий, в том числе Teaching Factory, проблемного обучения (Problem-Based Learning) и методов peer-review. Также научно обоснованы функции лабораторного менеджмента — планирование, организация, контроль и оценка. В статье приведены практические рекомендации, направленные на повышение качества образования.
Ключевые слова: пищевая технология, лабораторный менеджмент, практические занятия, проблемное обучение, Teaching Factory, компетентностный подход, оптимизация.

Kirish. Oziq-ovqat sanoatining jadal rivojlanishi, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi va xalqaro sifat standartlarining (masalan, HACCP, ISO 22000) keng joriy etilishi malakali muhandis-texnolog kadrlarga bo'lgan talabni keskin oshirmoqda. Zamonaviy oziq-ovqat sanoati korxonalari nafaqat nazariy bilimga ega, balki amaliy ko'nikmalarni ham puxta egallagan mutaxassislarni talab qiladi. Bunday sharoitda oliy ta'lim tizimida nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash dolzarb pedagogik muammoga aylanmoqda.

Ta'lim sohasidagi islohotlar doirasida kompetensiyaviy yondashuvning kengroq joriy etilishi talabalarning nafaqat bilim, balki ko'nikma va malakalarni ham amaliy sharoitda namoyish eta olishini talab qiladi. Ushbu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalarida oziq-ovqat texnologiyasi talabalarining laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish sifati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu mashg'ulotlar davomida talabalar nazariy bilimlarini real texnologik jarayonlarga tatbiq etishni o'rganadilar.

Muammoning dolzarbligi shundaki, an'anaviy laboratoriya mashg'ulotlari ko'pincha faqat ko'rsatma-bajarish (demonstration-based) formatida tashkil etiladi, bu esa talabalarning mustaqil tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish ko'nikmalarini yetarlicha rivojlantirmaydi. Shu sababli, laboratoriya jarayonlarini ilmiy asoslangan menejment tamoyillari asosida qayta ko'rib chiqish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Laboratoriya menejmentining beshta asosiy funksiyasi ta'lim menejmenti nazariyasida quyidagicha izohlanadi:

1. Rejalashtirish – mashg'ulot maqsadlari, jihozlar ehtiyoji va moddiy resurslarni oldindan belgilash. Bu bosqichda o'quv dasturi talablari, talabalar sonining guruhlarga taqsimlanishi va mavjud jihozlar imkoniyati o'zaro muvofiqlashtiriladi.

2. Tashkil etish – talabalar guruhlarini shakllantirish, topshiriqlarni taqsimlash, ish o'rinlarini jihozlash va xavfsizlik qoidalarini belgilash.

3. Amalga oshirish – laboratoriya ishlarini bajarish jarayonini yo'lga qo'yish, professor-o'qituvchi tomonidan uzluksiz metodik yo'naltirish.

4. Nazorat – xavfsizlik qoidalari va metodik ko'rsatmalarga rioya etilishini kuzatish, jarayon davomida yuzaga keladigan og'ishlarni o'z vaqtida bartaraf etish.

5. Baholash – natijalarni tahlil qilish va qayta aloqani ta'minlash, olingan natijalar asosida keyingi mashg'ulotlar sifatini yaxshilash.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu funksiyalarning to'liq va izchil amalga oshirilishi laboratoriya mashg'ulotlari samaradorligini sezilarli darajada, taxminan 35–40% ga oshirishi mumkin. Biroq, amaliyotda ko'plab laboratoriyalarda quyidagi to'siqlar mavjud: amaliy mashg'ulot qo'llanmalarining yo'qligi, mashg'ulot vaqtining cheklanganligi, inson resurslari nisbatining optimal emasligi, laboratoriya jihozlari sifat va miqdorining yetarli darajada emasligi. Ushbu omillar laboratoriya mashg'ulotining samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi.Teaching Factory kontseptsiyasi ta'lim jarayonini real ishlab chiqarish muhitiga yaqinlashtirishga qaratilgan. Ushbu yondashuvda talabalar nafaqat laboratoriya sharoitida, balki ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikda tashkil etilgan o'quv-ishlab chiqarish markazlarida amaliyot o'tashadi. Bu model talabalarga sanoat standartlariga mos texnologik jarayonlarni bevosita o'zlashtirish imkonini beradi va bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuvini tezlashtiradi.

Muammoli ta'lim – talabalarni real hayotiy vaziyatlar bilan yuzlashtirish orqali ularning mustaqil izlanishi va bilim olishiga asoslangan yondashuvdir. Oziq-ovqat texnologiyasida bu usul ayniqsa samarali hisoblanadi, chunki mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi omillar ko'p qirrali va o'zaro bog'liq bo'ladi. Bu yondashuvning afzalligi shundaki, talabalar oddiy jarayonlarni takrorlashdan tashqari, nima uchun aynan shunday jarayon sodir bo'lishi, qanday omillar mahsulot sifatiga ta'sir etishi kabi savollarga javob izlaydilar. Natijada ularning tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi va nazariy bilimlar amaliyot bilan mustahkam bog'lanadi.

Muammoli ta'lim metodologiyasini laboratoriya mashg'ulotlariga tatbiq etishda quyidagi bosqichlar muhim ahamiyat kasb etadi: muammoli vaziyatni taqdim etish, talabalar tomonidan gipoteza ilgari surish, tajriba orqali gipotezani tekshirish va natijalarni guruh bo'lib muhokama qilish. Ushbu jarayon talabalarning nafaqat texnik ko'nikmalarini, balki jamoada ishlash va kommunikatsiya qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Peer-review (tengdoshlar tomonidan baholash) metodi laboratoriya hisobotlarini baholashda talabalarning bir-birining ishlarini tanqidiy tahlil qilish orqali chuqurroq tushunishga erishishlarini ta'minlaydi. Bu metod talabalarda mas'uliyat hissini kuchaytiradi, chunki ular nafaqat o'z ishlarini, balki hamkurslari ishlarini ham ilmiy mezonlar asosida baholashni o'rganadilar. Bundan tashqari, peer-review jarayoni o'qituvchining baholash yukini qisman kamaytirib, tezkor qayta aloqa berish imkonini yaratadi.

Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni optimallashtirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Moddiy-texnika bazasini mustahkamlash doirasida quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

Laboratoriya jihozlarining soni va turi cheklanganligi muammosini bosqichma-bosqich hal qilish;

Zamonaviy jihozlar turlari va sonini izchil oshirib borish;

Professor-o'qituvchilar tarkibini malaka oshirish kurslari orqali kuchaytirish;

Mashg'ulot vaqtlarini oqilona qayta taqsimlash;

Kichik guruhlarda trening modelini joriy etish.

Ushbu yondashuv talabalarning laboratoriya jihozlaridan foydalanish samaradorligini oshiradi va ularning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Zamonaviy jihozlar bilan ta'minlashning o'zi yetarli emas – ulardan foydalanish samaradorligini oshiruvchi mexanizmlarni ham joriy etish kerak. Kichik guruhlarda trening, navbatma-navbat foydalanish jadvallari, jihozlarning ish holatini monitoring qilish tizimlari resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Yangi metodlarni joriy etishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

6. Talabalarni baholash metodikasiga oldindan tayyorlash;

7. Aniq va tushunarli baholash mezonlarini ishlab chiqish (rubrikalar asosida);

8. Onlayn vositalar va virtual laboratoriya simulyatsiyalaridan foydalanish;

9. Doimiy monitoring va qayta aloqani ta'minlash.

Laboratoriya mashg'ulotlarini tizimli tashkil etishda baholash tizimi muhim o'rin tutadi. An'anaviy baholash usullari, ko'pincha faqat yakuniy natijaga qaratilganligi bois, talabalarning chuqur bilim olish jarayonini to'liq ta'minlay olmaydi. Shu bois, zamonaviy pedagogik yondashuvlarda baholashning

innovatsion shakllari – jarayonli baholash (formative assessment), portfolio asosidagi baholash va kompetensiyaviy testlar qo'llaniladi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, laboratoriya menejmentining samaradorligi faqat moddiy-texnik ta'minot bilan emas, balki pedagogik metodologiya va tashkiliy jarayonlarning uyg'unligi bilan belgilanadi. Teaching Factory, muammoli ta'lim va peer-review metodlarining birgalikda qo'llanilishi talabalarda nazariy bilim, amaliy ko'nikma va ijtimoiy kompetensiyalarning uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ushbu metodlarni milliy ta'lim tizimi sharoitiga moslashtirish, resurslar taqchilligini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

Oziq-ovqat texnologiyasi talabalarining laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarini optimallashtirish bo'yicha olib borilgan tahlillar quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

Laboratoriya menejmentining rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirish, nazorat va baholash funksiyalarini izchil amalga oshirish mashg'ulotlar samaradorligini sezilarli darajada oshiradi;

Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar talabalarni real ishlab chiqarish jarayonlariga tayyorlashda eng samarali yondashuvlardan biri bo'lib, sanoat standartlari asosida tashkil etilgan laboratoriyalar orqali amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi;

Guruhiy loyihalar va innovatsion pedagogik metodlar (muammoli ta'lim, peer-review) talabalarning tanqidiy fikrlashi, o'zaro hamkorligi va mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi;

Moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish bilan bir qatorda, mavjud resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini joriy etish katta ahamiyatga ega.

Kelgusi tadqiqotlarda ushbu yondashuvlarning aniq ta'lim muassasalarida amaliy sinovdan o'tkazilishi va olingan natijalarning miqdoriy tahlili muhim ilmiy qiziqish uyg'otishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Namangan muhandislik-texnologiya institutida yangi laboratoriya markazi ish boshladi. (2024). Yangi O'zbekiston.

2. Santoso, M. T., Setyowati, S., & Nurhayati, N. (2024). Effectiveness of Laboratory Management in Efforts to Improve the Quality of Practical Work in the Food Processing Laboratory. JMSP (Jurnal Manajemen Dan Supervisi Pendidikan).

3. POLIJE Strengthens Practical-Based Learning Through TEFA Learning Centre Implementation with HAFL. (2025). Politeknik Negeri Jember.

4. Chen, J., et al. (2025). Lessons Learned From a Food Engineering REEU Program in Collaboration With the Food Industry. IFT FIRST Annual Event & Expo.

5. Dunne, J. L. (2024). Peer-teaching Food Chemistry Laboratory Model. National Forum Teaching and Learning Scholarship Database.

6. Nyström, L., & Erzinger, M. (2019). Case study – Peer Review Food Chemistry Laboratory – Writing reports. ETH Zürich Educational Development and Technology Blog.

7. Team project (A422S1_4B). (2023). Slovak University of Technology in Bratislava, Faculty of Chemical and Food Technology.

FANTASTIK ADABIYOT NAZARIYASINING ZAMONAVIY TALQINI: G'ARB VA SHARQ AN'ANALARINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI

Tursunova Mohira Ilxomjanovna
Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: mohiratursunova1105@gmail.com
ORCID: 0009-0007-6629-2068
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21932892

Annotatsiya. Ushbu maqolada fantastik adabiyotni nazariylashtirishning jahon adabiyotshunosligidagi asosiy yo‘nalishlari, strukturalistik-formal, sotsial-kognitiv, psixoanalitik-subversiv va taksonomik-tipologik maktablar qiyosiy tahlil qilinadi. Alohida bo‘lim sifatida G‘arb nazariyalarida deyarli e‘tiborga olinmagan Sharq mumtoz adabiyotidagi tasavvufiy-ramziy fantastika hodisasi va o‘zbek adabiyotshunosligida bu sohaning nazariy holati ko‘rib chiqiladi. Tahlil natijasida ontologik, funksional-kognitiv va milliy-madaniy zaminga asoslangan uch bosqichli sintetik model taklif etiladi va uning amaliyotdagi qo‘llanilishi Gerbert Uells, J.R.R. Tolkien, J.K. Rouling, Alisher Navoiy va Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlari misolida ko‘rsatiladi.
Kalit so‘zlar: fantastik adabiyot, ikkilanish nazariyasi, kognitiv begonalashtirish, arxetip, tasavvufiy fantastika, qiyosiy adabiyotshunoslik, tipologik model.

Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ основных направлений теоретического осмысления фантастической литературы в мировом литературоведении: структуралистско-формального, социально-когнитивного, психоаналитико-субверсивного и таксономическо-типологического подходов. В отдельном разделе рассматриваются феномен суфийско-символической фантастики в классической литературе Востока, практически не получивший должного освещения в западных теориях, а также современное состояние теоретического изучения данной области в узбекском литературоведении. По результатам анализа предлагается трёхуровневая синтетическая модель, основанная на онтологическом, функционально-когнитивном и национально-культурном уровнях. Практическое применение данной модели демонстрируется на материале произведений Герберта Уэллса, Дж. Р. Р. Толкина, Дж. К. Роулинг, Алишера Навои и Худайберди Тухтабаева.
Ключевые слова: фантастическая литература, теория колебания, когнитивное остранение, архетип, суфийская фантастика, сравнительное литературоведение, типологическая модель.

Abstract. This article provides a comparative analysis of the principal approaches to the theorization of fantastic literature in international literary scholarship, including the structuralist-formalist, socio-cognitive, psychoanalytic-subversive, and taxonomic-typological schools. A separate section examines the phenomenon of Sufi-symbolic fantasy in classical Eastern literature, which has received little attention in Western theoretical frameworks, as well as the current state of its theoretical study in Uzbek literary scholarship. Based on the analysis, a three-level synthetic model grounded in ontological, functional-cognitive, and national-cultural dimensions is proposed. Its practical application is demonstrated through selected works by H. G. Wells, J. R. R. Tolkien, J. K. Rowling, Alisher Navoi, and Khudoyberdi Tukhtaboyev.
Keywords: fantastic literature, theory of hesitation, cognitive estrangement, archetype, Sufi fantasy, comparative literature, typological model.

Kirish. Fantastik adabiyotni nazariy jihatdan o‘rganishga kirishar ekanmiz, birinchi navbatda tan olishimiz kerak bo‘lgan haqiqat shuki, mazkur soha jahon adabiyotshunosligida hozirgacha yagona, umume’tirof etilgan tushunchalar tizimiga ega emas. “Fantastika” (fantasy), “ilmiy fantastika” (science fiction), “sehrli realism” (magic realism), “spekulyativ fantastika” (speculative fiction), “g‘ayritabiiy adabiyot” (the fantastic) kabi atamalar ko‘pincha bir-birining o‘rnida, ba‘zan esa bir-biriga qarama-qarshi ma‘noda qo‘llaniladi. Bu tartibsizlik tasodifiy emas: u fantastik adabiyotning tabiatan chegaralanmagan, ko‘p qatlamli va tarixiy jihatdan turlicha shakllangan hodisa ekanligidan kelib chiqadi.

Muammoning yana bir muhim qirrasi shundaki, “fantastika” tushunchasi kundalik-ommaviy nutqda ko‘pincha “xayoliy”, hatto “jiddiy bo‘lmagan” adabiyot ma‘nosida qo‘llaniladi. Bu esa uni ilmiy tahlil predmeti sifatida jiddiy qabul qilishga to‘sqinlik qiluvchi uzoq davom etgan madaniy stereotipni keltirib chiqargan. Shu sababli ushbu maqolaning boshlang‘ich metodologik pozitsiyasi sifatida fantastik adabiyot

“eskapistik ko‘ngilxushlik” emas, balki insoniyatning borliq, bilim va ijtimoiy tuzum haqidagi eng chuqur savollarini ifodalovchi to‘liq huquqli badiiy-falsafiy tafakkur shakli sifatida qaraladi.

Maqolaning maqsadi mavjud nazariy yondashuvlarni shunchaki sanab o‘tish emas, balki ularni qiyosiy-tanqidiy tahlil qilish, har birining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, hamda ular asosida o‘zbek va jahon fantastik adabiyotini tipologik jihatdan qiyoslash uchun zarur bo‘lgan ishchi apparatni yaratishdan iborat.

G‘arb adabiyotshunosligida fantastik adabiyotni nazariylashtirish jarayoni taxminan uch asosiy oqim doirasida rivojlandi: strukturalistik-formal (Todorov, Frey), sotsial-kognitiv (Suvin, Skoulz) va psixoanalitik-subversiv (Jekson, Hyum). Quyida ularning har birini juftlab, qiyosiy tarzda ko‘rib chiqamiz.

Fantastik adabiyot nazariyasidagi eng ta‘sirli va bahsli konsepsiyalardan biri fransuz-bolgar strukturalisti Tsvetan Todorovga tegishli. Uning “The Fantastic: A Structural Approach to a Literary Genre” (1970) asarida taklif etilgan “ikkilanish” (hesitation) nazariyasiga ko‘ra, g‘ayritabiiylikning o‘zi emas, balki o‘quvchining matn oldida his qiladigan qisqa muddatli epistemologik holati, ya'ni voqeani tabiat qonunlari asosida izohlash kerakmi, yoki g‘ayritabiiy sabab bilanmi, degan ikkilanish fantastikaning belgisi hisoblanadi [21. 1975:B.25]. Todorov bu ikkilanish tugagan zahoti asar “g‘aroyib” (uncanny) yoki “mo‘jizaviy” (marvelous) toifasiga o‘tib ketishini ta‘kidlaydi.

Todorov nazariyasining metodologik qimmati shundaki, u fantastikani mavzu yoki motivlar ro‘yxati orqali emas, balki o‘quvchi-matn munosabati orqali belgilaydi. Biroq bu nazariyaning jiddiy cheklovi ham shundaki, u asosan XIX asr Yevropa gotik-fantastik adabiyoti (Po, Gogol, Mopassan) materialida ishlab chiqilgan bo‘lib, J.R.R. Tolkienning “Uzuklar Hukmdori” singari “yuqori fantastika” (high fantasy) asarlariga qo‘llanilganda ishlamay qoladi. Bu romanning birinchi sahifalaridanoq o‘quvchi O‘rta yerning g‘ayritabiiy borlig‘ini shubhasiz haqiqat sifatida qabul qiladi, hech qanday “ikkilanish” yuzaga kelmaydi [23. 2021:Muqaddima]. Xuddi shunday, o‘zbek xalq ertaklarida ham dev, jin yoki parilarning mavjudligi boshidanoq shubhasiz qabul qilinadi. Demak, Todorov modeli fantastik adabiyotning faqat bitta “ikkilanish fantastikasi” deb nomlanuvchi tipologik qatlamini izohlay oladi, xolos.

Nortrop Freyning “Anatomy of Criticism” (1957) asari fantastikani janr emas, balki adabiy “rejim” (mode) sifatida ko‘rish imkonini beradi. Frey barcha adabiyotni qahramonning voqelikka nisbatan kuch-qudrati darajasi bo‘yicha besh rejimga ajratadi: mif, roman, yuqori mimetik, past mimetik va ironiya [6. 1957:B.33-34]. Uning fikricha, fantastik adabiyot ko‘pincha “roman” rejimiga mansub bo‘lib, unda qahramon oddiy inson darajasidan yuqori turadi, ammo mif qahramonlaridan farqli o‘laroq hali ilohiy emas. Freyning arxetiplar nazariyasi, xususan “qahramon safari” strukturasi (keyinchalik Jozef Kempbell tomonidan “monomif” sifatida rivojlantirilgan) [4. 1949:B.23,30], qiyosiy tahlil uchun ayniqsa qimmatli. Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sirli xazina” asaridagi Foteh obrazi ham, J.K. Rouling romanidagi Garri Potter obrazi ham garchi ikkala asar mutlaqo turli madaniy zaminda yaratilgan bo‘lsa-da, xuddi shu "oddiy dunyo – chaqiriq – sinovlar – g‘alaba – qaytish” dan iborat monomifik chizmaga mos keladi [22. 1978:B.12-14].

Darko Suvin o‘zining “Metamorphoses of Science Fiction” (1979) asarida ilmiy fantastikani “kognitiv begonalashtirish” (cognitive estrangement) tushunchasi orqali ta‘riflaydi. Bu o‘quvchini tanish voqelikdan uzoqlashtirib, yangi, “novum” asosida qurilgan olamni aql-idrok nuqtayi nazaridan qabul qilishga undovchi badiiy usuldir [20. 1979:B.7-8]. Bu mezon ilmiy fantastikani sof “ertak” yoki “sehrli fantastika”dan ajratib turadi. Ilmiy fantastikada g‘ayrioddiylik doim ratsional asoslashga muhtoj. Masalan, Gerbert Uellsning “Vaqt mashinasi” romanida vaqt bo‘ylab sayohat qilish g‘oyasi (garchi zamonaviy fizika nuqtayi nazaridan bahsli bo‘lsa-da) mexanik qurilma va nazariy asoslash orqali “ilmiylashtiriladi”, bu esa asarni sof ertak fantastikasidan ajratib turadigan aynan shu kognitiv mezondir [25. 1895:B.3-9].

Suvin konsepsiyasining muhim tanqidiy jihati shundaki, u marksistik-formalistik pozitsiyadan turib fantastika (fantasy) janrini “kognitiv bo‘lmagan”, demak “estetik jihatdan quyi” hodisa sifatida qarashga moyil bo‘ladi. Bu qarash keyingi o‘n yilliklarda ko‘plab tanqidchilar, xususan Brayan Atteberi va Farah Mendleson, tomonidan asossiz deb rad etildi, chunki u fantastika yo‘nalishidagi ichki mantiqiy izchillikni (masalan, Tolkien ilgari surgan “ikkilamchi ishonch” (secondary belief) tamoyilini) e‘tibordan chetda qoldiradi [2. 1992:B.12]. Shunga qaramay, Suvin nazariyasi Gerbert Uells va Xojiakbar Shayxov ilmiy fantastikasini qiyosiy baholash uchun bugungacha ishonchli mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Robert Skoulz Suvin g‘oyasini rivojlantirib, ilmiy fantastikani “strukturaviy fabulyatsiya”, ya‘ni zamonaviy fan yutuqlaridan ilhomlangan, ammo ularga qat‘iy ergashmaydigan hikoyachilik shakli sifatida ta‘riflaydi [18. 1975:B.29]. Bu nuqtayi nazardan Xojiakbar Shayxovning ilmiy-fantastik qissalari ham xuddi shunday strukturaviy fabulyatsiya namunasi sifatida talqin qilinishi mumkin. Unda ilmiy g‘oya syujet

quruvchi asos vazifasini bajaradi, biroq muallif uni qat‘iy ilmiy nazariyaga emas, balki badiiy-tasavvuriy erkinlikka bo‘ysundiradi [19. 1985:B.22-25].

Rozmari Jekson “Fantasy: The Literature of Subversion” (1981) asarida fantastikani freyd-lakanchi psixoanaliz va Bahtin nazariyasi asosida talqin qiladi. Uning fikricha, fantastika jamiyat tomonidan bostirilgan istak va qo‘rquvlarning simvolik “qaytishi: (the return of the repressed) hisoblanadi hamda mavjud ijtimoiy-madaniy tartibni subversiv tarzda savol ostiga oladi [9. 1981:B.3-4]. Bu yondashuv, masalan sehrli realizm uslubida yozilgan “Sariq devni minib” qissasidagi bosh qahramonning ichki-ruhiy o‘zgarishini [24. 1980:B.5-8] hamda ingliz yozuvchisi Devid Almondning “Skellig” romanidagi qahramon Maykl bilan sirli mavjudot Skellig o‘rtasidagi munosabatni [1. 1998:B.15-20] tushunish uchun samarali metodologik asos beradi. Ikkala asarda ham g‘ayritabiiy unsur qahramonning bostirilgan qo‘rquvi (yaqinini yo‘qotish, yolg‘izlik) bilan bevosita bog‘liq holda paydo bo‘ladi.

Ketrin Hyum “Fantasy and Mimesis” (1984) asarida yanada kengroq pozitsiyani egallaydi. U fantastikani mustaqil janr emas, balki barcha badiiy adabiyotning tarkibiy qismini “konsensual voqelikdan chetga chiqish impulsi” sifatida ta‘riflaydi, bu impuls mimezis bilan doimiy dialektik munosabatda bo‘ladi [7. 1984:B.21]. Hyum konsepsiyasining ahamiyati shundaki, u “realistik” va “fantastik” adabiyot o‘rtasidagi qat‘iy chegarani inkor etadi. Bu ayniqsa sehrli realizm kabi ikki registrni sintez qiluvchi janrlarni tahlil qilishda metodologik jihatdan qulay pozitsiya yaratadi.

Farah Mendlesoning “Rhetorics of Fantasy” (2008) asari fantastika yo‘nalishini to‘rt retorik-strukturaviy toifaga ajratadi: portal-quest fantasy (qahramon eshik/portal orqali boshqa olamga o‘tadi), immersive fantasy (o‘quvchi va qahramon boshidanoq to‘liq fantastik olamda yashaydi), intrusion fantasy (g‘ayritabiiylik tanish voqelikka “bostirib kiradi”) va liminal fantasy (g‘ayritabiiylik va tabiiylik chegarasi ataylab noaniq qoldiriladi) [11. 2008:B.xiv-xv]. Bu klassifikatsiya amaliy jihatdan juda qulay: masalan, Tolkienning “Uzuklar Hukmdori” klassik portal-quest namunasi, Rouling romanlari portal va immersiv unsurlarning gibridi (Xogvorts maktabi “boshqa olam”, ammo aslida bosh qahramon dunyosining yashirin qismi)[17. 1997:B.1-5], Uellsning “Vaqt mashinasi” intrusion fantasyning texnik-ilmiy varianti, “Sariq devni minib” va “Skellig” esa liminal fantasy namunalari, chunki ularda g‘ayritabiiylik oxirigacha tasdiqlanmay qoladi.

Brayan Atteberi “Strategies of Fantasy” (1992) asarida fantastikani qat‘iy chegaralangan janr emas, balki “loyqa to‘plam” (fuzzy set) sifatida ko‘rishni taklif qiladi. Bunda Tolkienning “Uzuklar Hukmdori” markaziy, prototipik a‘zo bo‘lsa, undan “markazdan uzoqlashgan” sari boshqa asarlar, jumladan sehrli realizm namunalari, shu to‘plamning periferiyasida joylashadi. Bu yoki fantastika, yoki fantastika emas degan qat‘iy binar klassifikatsiyadan voz kechib, gradual, spektr asosidagi tahlilni taklif etadi. Bu yondashuv “Sariq devni minib” va “Skellig” asarlarini sehrli realizm spektrida joylashtirishda metodologik jihatdan qo‘l keladi.

Rus formalisti Vladimir Proppning “Морфология сказки” (1928) asari, garchi bevosita “fantastika nazariyasi” sifatida yozilmagan bo‘lsa-da, fantastik-ertak strukturasini tahlil qilishning eng ta‘sirchan vositalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Propp rus xalq ertaklarida qat‘iy ketma-ketlikda takrorlanuvchi o‘ttiz bir funksiyani (taqiq, taqiqni buzish, qahramonning yo‘lga chiqishi, sinovchi bilan uchrashuv, sehrli vositaning qo‘lga kiritilishi va h.k.) aniqlagan edi [28. 1928:B.23-24]. Ushbu morfologik model o‘zbek ertaklari, jumladan “Shirin qovunlar mamlakati” ertagi, va Rouling romanlarining syujet strukturasini funksional darajada qiyoslashda universal tahlil vositasi bo‘la oladi. Ular mustaqil madaniy zaminlarda shakllangan bo‘lsa-da ikkala matnda ham “taqiq”, “sinovchi bilan uchrashuv” va “sehrli vositaning qo‘lga kiritilishi” funksiyalari deyarli bir xil ketma-ketlikda takrorlanadi.

Jon Klut va Jon Grantning “The Encyclopedia of Fantasy” (1997) nashri fantastika nazariyasiga entsiklopedik-taksonomik yondashuvni olib kirdi, unda janr o‘nlab kichik toifalar (dying earth, portal fantasy, wainscot, crosshatch va h.k.) orqali tasniflanadi [5. 1997:B.viii-ix]. Ushbu taksonomiya juda tafsilotli bo‘lsa-da, uning zaif tomoni shundaki, u deyarli butunlay anglo-amerika fantastika materialiga asoslangan bo‘lib, turkiy va sharq xalqlari fantastik an‘analarini (masalan, doston, tasavvufiy allegoriya) o‘z tizimiga umuman kiritmaydi. Xuddi shu kamchilik, quyida ko‘rsatilganidek, deyarli barcha G‘arb nazariyalariga xosdir.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan G‘arb va rus-slavyan nazariyalarining muhim kamchiligi shundaki, ular Sharq, xususan turkiy-forsiy mumtoz adabiyotidagi fantastik-ramziy tafakkurni butunlay e‘tibordan chetda qoldiradi. Ushbu bo‘shliqni to‘ldirish uchun tasavvuf falsafasidagi ramziy til (til ar-ramz) nazariyasiga murojaat qilish zarur. Ibn Arabiy va undan keyingi tasavvuf mutafakkirlari ishlab chiqqan “vahdat ul-

vujud” ta‘limotida moddiy va g‘ayritabiiy olam o‘rtasidagi chegara G‘arb dualistik tafakkuridagidek qat‘iy emas, barcha mavjudot yagona haqiqatning turli tajalliylari sifatida qaraladi.

Bu falsafiy zamin Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” [3. 1997:B.45-47] va uning o‘zbek tilidagi ijodiy talqini bo‘lgan Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarlarida [12. 2000:B.210-215] fantastik-allegorik syujetning chuqur falsafiy asosini tashkil etadi. Qushlarning Simurg‘ qidirib chiqqan sayohati oxir-oqibat o‘z-o‘zini anglashga aylanishi “Simurg‘ o‘zing o‘zingsan”) shunchaki badiiy metafora emas, balki vahdat ul-vujud ta‘limotining bevosita badiiy ifodasidir. Bunday “tasavvufiy fantastika” modeli Todorovning “ikkilanish” nazariyasidan tubdan farq qiladi. Bu yerda o‘quvchidan hech qanday “ikkilanish” talab qilinmaydi, chunki g‘ayritabiiy va tabiiy o‘rtasidagi chegaraning o‘zi ontologik jihatdan shartli hisoblanadi. Shu bilan birga, bu model Mendleson “immersive fantasy” toifasiga ham to‘liq mos kelmaydi, chunki tasavvufiy fantastikada asosiy maqsad dunyo qurish (worldbuilding) emas, balki botiniy haqiqatni ramziy til orqali ifodalashdir.

Shuni ham qo‘shimcha qilish lozimki, mumtoz Sharq adabiyotidagi fantastik unsur yagona tasavvufiy-allegorik shakl bilan cheklanmaydi. Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar” va “Iskandarnoma” dostonlarida uchraydigan sehrli saroylar, jodugarlik va g‘ayritabiiy sayohat motivlari [14. 1985:B.88-91], shuningdek xalq orasida keng tarqalgan “Chor darvesh” turkumidagi qissalar barchasi diniy-irfoniy yukdan ko‘ra ko‘proq estetik zavq va syujet murakkabligiga yo‘naltirilgan alohida, “dunyoviy-romanesk fantastika” qatlamini tashkil etadi. Bu irfoniy-ramziy va dunyoviy-romanesk kabi ikki qatlam o‘rtasidagi farqni aniq ajratish o‘zbek fantastik-sarguzasht an‘anasining, jumladan Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodining, chuqur tarixiy ildizlarini to‘g‘ri tipologik joyiga qo‘yish uchun zarurdir.

Yelizar Meletinskiyning “Поэтика мифа” (1976) asari fantastik adabiyot ildizlarini mif va folklorning tarixiy-tipologik evolyutsiyasi orqali tushuntiradi [27. 1976:B.14-16]. Bu nazariya, xususan, kontakt bo‘lmagan (nokontakt) tipologik o‘xshashliklarni, ya‘ni turli xalqlar mifologiyasida mustaqil ravishda paydo bo‘ladigan umumiy motivlarni (qahramonning g‘ayritabiiy tug‘ilishi, sinovlar yo‘li, o‘lim-tirilish sikli) tushuntirishda alohida qimmatga ega bo‘lib, o‘zbek va ingliz fantastikasi o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri adabiy ta‘sirdan mustaqil bo‘lgan parallellarni ilmiy asoslash imkonini beradi. Bunga qo‘shimcha ravishda, Mixail Baxtinning xronotop nazariyasi [26. 1975:B.234-236] ham fantastik dunyo qurilishini qiyosiy baholashda ishchi termin sifatida qo‘llaniladi. Masalan, Navoiy “Lison ut-tayr”idagi qushlar safari makoni bilan Tolkien O‘rta yeridagi geografik-tarixiy izchillikni olaylik, ikkalasi ham o‘ziga xos “fantastik xronotop” namunasi bo‘lib, ammo birinchisida makon ramziy-botiniy, ikkinchisida esa deskriptiv-worldbuilding xarakteriga ega.

O‘zbek adabiyotshunosligida fantastik adabiyot nazariyasi mustaqil, tizimli tadqiqot predmeti sifatida deyarli shakllanmagan. Botir Nazarovning “O‘zbek sovet adabiyoti tarixi” (1977) asarida fantastik unsurlar faqat boshqa mavzular (masalan, ijtimoiy tanqid, satira) doirasida, epizodik tarzda tilga olinadi, fantastikaning o‘ziga xos poetik-tipologik xususiyatlari nazariy jihatdan umuman ochib berilmaydi [13. 1977:B.45]. Naim Karimovning “XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi” (2006) asarida ham fantastik-falsafiy nasr haqida qimmatli kuzatishlar mavjud, biroq ular tipologik tizimga solinmagan, tavsifiy xarakterda qoladi [10. 2006:B.312]. Begali Qosimov esa jadidchilik davri adabiyotidagi utopik tasavvurlarni ijtimoiy-siyosiy kontekstda tahlil qiladi, ammo bu tasavvurlarni jahon fantastika nazariyasi (masalan, Tomas Mor yoki Uellsning utopik-distopik an‘analari) bilan tipologik bog‘lamaydi [15. 1994:B.118-120].

Qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, Todorov yoki Suvin kabi G‘arb nazariyotchilari ma‘lum bir asarni aniq operatsional mezon (“ikkilanish”, “kognitiv begonalashtirish”) orqali tipologiyalashga intilgan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotshunosligida bu vazifa ko‘pincha "badiiy shartlilik" yoki “xalq og‘zaki ijodi ta‘siri” kabi umumiy, operatsional aniqlikka ega bo‘lmagan tushunchalar orqali hal qilingan. Bu holat, bir tomondan, sovet davri adabiyotshunosligining mafkuraviy cheklovlaridan (fantastika “jiddiy bo‘lmagan”, “xalq ommasiga mo‘ljallangan” yo‘nalish sifatida qaralgani), ikkinchi tomondan, mustaqillik davridagi adabiyotshunoslikning ko‘proq milliy-tarixiy va falsafiy-axloqiy tahlilga yo‘naltirilganidan kelib chiqadi. Natijada, o‘zbek fantastikasi hozirgacha G‘arb nazariy apparati bilan tizimli qiyoslanmagan.

Shu bilan birga, H. Yo‘ldoshevning o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi fantastik-mifologik motivlarga bag‘ishlangan tadqiqotlari hamda M. Qo‘shjonovning o‘zbek nasridagi badiiy shartlilik muammosiga oid kuzatishlari ushbu sohada dastlabki, garchi tizimlashtirilmagan bo‘lsa-da, qimmatli urinishlar sifatida baholanishi kerak. Biroq ularning tavsifiy, nazariy jihatdan formallashtirilmagan xarakteri G‘arb nazariyalaridagi “kognitiv begonalashtirish” yoki “ikkilanish” kabi aniq operatsional mezonlar bilan hali ham to‘la qiyoslanmaganini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, mavjud nazariy maktablarning har biri fantastik adabiyot hodisasining muayyan qirrasini muvaffaqiyatli izohlaydi, biroq hech biri, alohida olinganda, o‘zbek va ingliz fantastik adabiyotini qiyosiy-tipologik tahlil qilish vazifasini to‘liq qondira olmaydi. Buning kamida uch sababi bor: birinchidan, mavjud nazariyalarning aksariyati yevropasentrik empirik materialga asoslangan; ikkinchidan, mavjud tipologiyalar (Mendleson, Klut-Grant) sinxron-statik xususiyatga ega bo‘lib, diaxron (tarixiy) rivojlanish dinamikasini tushuntirish uchun mo‘ljallanmagan; uchinchidan, mavjud nazariyalarning hech biri kontakt va nokontakt o‘xshashliklarni farqlash mezonini o‘z ichiga olmaydi.

Shu asosda quyidagi uch bosqichli ishchi tipologik model taklif etiladi:

1) Ontologik mezon g‘ayritabiiy unsurning matn ichidagi maqomi (Todorov bo‘yicha "ikkilanish", Mendleson bo‘yicha portal/immersiv/intruziv/liminal tip) aniqlanadi.

2) Funksional-kognitiv mezon Suvin va Jekson nazariyalari sintezi asosida g‘ayritabiiy unsurning kognitiv-tanqidiy, subversiv-psixologik yoki mifopoetik-arxetipik vazifasi aniqlanadi.

3) Milliy-madaniy zamin mezoni fantastik unsurning kelib chiqishi qaysi milliy-mifologik, diniy-falsafiy yoki tarixiy-ijtimoiy zaminga borib taqalishi va bu zaminning kontakt yoki nokontakt xarakterga ega ekanligi belgilanadi.

Modelning amaliy qo‘llanilishini ko‘rgazmali qilish uchun quyidagi misolni keltirish mumkin. Gerbert Uellsning “Vaqt mashinasi” asariga birinchi bosqichni qo‘llasak, asar Mendleson tipologiyasi bo‘yicha "intrusion fantasy"ga yaqin, ammo ilmiy-texnik asoslanish tufayli o‘ziga xos gibrid shaklga ega ekanligi aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda uning badiiy vazifasi Suvin ma‘nosidagi kognitiv-tanqidiy, ya‘ni Viktoriya davri sinfiy tabaqalanishini (Eloi va Morlok obrazlari orqali) bashoratli tanqid qilish ekanligi ko‘rsatiladi. Uchinchi bosqichda esa bu asarning german-yevropa ilm-fan taraqqiyoti falsafasi va darvinizm bilan bog‘liq milliy-madaniy zamini belgilanadi.

Xuddi shu uch bosqichli tahlil Xojiakbar Shayxov asarlariga qo‘llanilganda, birinchi bosqichda asarning intrusion-gibrid tipologiyasi, ikkinchi bosqichda uning kognitiv-tarbiyaviy vazifasi tasdiqlanadi, uchinchi bosqichda esa o‘zbek ilmiy fantastikasining sovet mafkuraviy nazorati va milliy pedagogik an‘ana bilan bog‘liq o‘ziga xos zamini ochib beriladi. Shu tariqa Uells va Shayxov asarlari o‘rtasidagi o‘xshashlik (ikkalasida ham ilmiy-kognitiv asoslash mavjud) va farq (turli mafkuraviy-madaniy zaminlar) bir vaqtning o‘zida aniq ko‘rsatilishi mumkin bo‘ladi. Bu esa modelning qiyosiy adabiyotshunoslikdagi amaliy qimmatini tasdiqlaydi. Yuqorida ko‘rib chiqilgan nazariy maktablarni umumlashtirish maqsadida quyidagi jadval taklif etiladi. Jadval har bir nazariyaning asosiy tahlil birligini, kuchli tomonini va ushbu tadqiqot nuqtayi nazaridan asosiy cheklovini ko‘rsatadi.

Nazariyotchi	Tahlil birligi	Kuchli tomoni	Cheklovi
Todorov	O‘quvchi reseptsiyasi (ikkilanish)	Aniq, operatsional mezon	Immersiv fantastikaga qo‘llanmaydi
Suvin	Kognitiv begonalashtirish	Ilmiy fantastikani aniq belgilaydi	Fantastikani "past" janr deb qaraydi
Frey	Arxetip va rejim	Keng tarixiy-tipologik qamrov	Mavhum, matn darajasida amaliy emas
Jekson	Psixoanalitik subversiya	Ijtimoiy-siyosiy funksiyani ochadi	Freyd-lakanchi asosga bog‘liqlik
Hyum	Mimezis-fantastika dialektikasi	Qattiq janr chegaralarini yumshatadi	Tipologik aniqlik yetishmaydi
Mendleson	Retorik-strukturaviy tip	Amaliy, matn tahliliga qulay	Faqat anglofon materialga asoslangan
Atteberi	"Loyqa to‘plam" (spektr)	Gradual tahlilga imkon beradi	Markaz-periferiya tanlovi subyektiv
Propp	Syujet funksiyalari	Universal morfologik model	Faqat sintagmatik strukturani qamraydi
Meletinskiy	Mifopoetik chuqur struktura	Nokontakt o‘xshashliklarni asoslaydi	Tarixiy-madaniy o‘ziga xoslikni kamroq hisobga oladi
Tasavvufiy-irfoniy model	Ramziy til (til ar-ramz)	Sharq materialiga adekvat	G‘arb terminologiyasida hali formallashmagan

Xulosa. O‘tkazilgan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, fantastik adabiyot nazariyasi hozirgi kunga qadar bir qancha qisman, ko‘pincha bir-biriga zid nazariy modellar orqali ifodalangan bo‘lib, ularning hech biri alohida holda o‘zbek va ingliz fantastik adabiyotini qiyosiy-tipologik tahlil qilish vazifasini to‘liq qondira olmaydi. Todorov, Suvin, Frey, Jekson, Hyum, Mendleson, Atteberi, Klut-Grant, Meletinskiy va Baxtin nazariyalarining tanqidiy sintezi, shuningdek Sharq tasavvufiy-ramziy an‘anasining alohida tipologik toifa sifatida kiritilishi asosida ishlab chiqilgan uch bosqichli (ontologik – funksional-kognitiv – milliy-madaniy) tipologik model fantastik adabiyotni qiyosiy o‘rganishning yangi, madaniy jihatdan inklyuziv metodologik negizini tashkil etadi.

Ushbu model, Uells va Shayxov, Tolkien va Navoiy, Rouling va To‘xtaboyev asarlari misolida ko‘rsatilganidek, nafaqat matn ichidagi tipologik xususiyatlarni, balki asarlar orasidagi kontakt yoki nokontakt o‘xshashliklarni ham aniqlash imkonini beradi, bu esa keyingi qiyosiy-adabiyotshunoslik tadqiqotlari uchun amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Almond, David. Skellig. Hodder Children's Books, 1998. – P. 15–20.
2. Attebery, Brian. Strategies of Fantasy. Indiana University Press, 1992. – P. 12.
3. Attor, Farididdin. Mantiq ut-tayr / rus./o‘zb. tarj. Toshkent: G‘afur G‘lom, 1997. – B. 45–47.
4. Campbell, Joseph. The Hero with a Thousand Faces. Pantheon Books, 1949. – P. 23, 30.
5. Clute, John, and John Grant, editors. The Encyclopedia of Fantasy. St. Martin's Press, 1997. – P. viii–ix.
6. Frye, Northrop. Anatomy of Criticism: Four Essays. Princeton University Press, 1957. – P. 33–34.
7. Hume, Kathryn. Fantasy and Mimesis: Responses to Reality in Western Literature. Methuen, 1984. – P. 21.
8. Irwin, W. R. The Game of the Impossible: A Rhetoric of Fantasy. University of Illinois Press, 1976. – P. 9.
9. Jackson, Rosemary. Fantasy: The Literature of Subversion. Methuen, 1981. – P. 3–4.
10. Karimov, Naim. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. Akademiya, 2006. – B. 312.
11. Mendlesohn, Farah. Rhetorics of Fantasy. Wesleyan University Press, 2008. – P. xiv–xv.
12. Navoiy, Alisher. Lison ut-tayr. Toshkent: Fan, 2000. – B. 210–215 ("Simurg‘ o‘zing o‘zingsan" bo‘limi).
13. Nazarov, Botir. O‘zbek sovet adabiyoti tarixi. O‘qituvchi nashriyoti, 1977. – B. 45.
14. Nizomiy Ganjaviy. Haft paykar. Toshkent: G‘afur G‘lom, 1985. – B. 88–91.
15. Qosimov, Begali. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Sharq, 1994. – B. 118–120.
16. Rabkin, Eric S. The Fantastic in Literature. Princeton University Press, 1976. – P. 8.
17. Rowling, J.K. Harry Potter and the Philosopher's Stone. Bloomsbury, 1997. – P. 1–5.
18. Scholes, Robert. Structural Fabulation: An Essay on Fiction of the Future. University of Notre Dame Press, 1975. – P. 29.
19. Shayxov, Xojiakbar. Sirli kristall (ilmiy-fantastik qissalar). Toshkent: Yosh gvardiya, 1985. – B. 22–25.
20. Suvin, Darko. Metamorphoses of Science Fiction: On the Poetics and History of a Literary Genre. Yale University Press, 1979. – P. 7–8.
21. Todorov, Tzvetan. The Fantastic: A Structural Approach to a Literary Genre. Cornell University Press, 1975. – P. 25.
22. To‘xtaboyev, Xudoyberdi. Sirli xazina. Toshkent: G‘afur G‘lom nomidagi nashriyot, 1978. – B. 12–14.
23. Tolkien, J.R.R. Uzuklar Hukmdori. Toshkent: tarj. nashr, 2021. I jild, Muqaddima.
24. Umarbekov, Ulmas. Sariq devni minib (ssenariy asosidagi qissa). Toshkent: Yosh gvardiya, 1980. – B. 5–8.
25. Wells, H.G. The Time Machine. Heinemann, 1895. – P. 3–9.
26. Бахтин, Михаил. Вопросы литературы и эстетики. Художественная литература, 1975. – С. 234–236.
27. Мелетинский, Елеазар. Поэтика мифа. Наука, 1976. – С. 14–16.
28. Пропп, Владимир. Морфология сказки. Academia, 1928 (2-nashr: Наука, 1969). – С. 23–24.

RAQAMLI TA’LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISHDA PEDAGOGIK ETIKA VA DEONTOLOGIK ME’YORLAR

Gilishtaganova Ogultagan Meretbayevna
“Umumiy pedagogika” kafedrasi tayanch doktoranti
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21932950

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish jarayonida pedagogik etika va deontologik me’yorlarga rioya etishning nazariy hamda amaliy jihatlari, pedagogning raqamli muhitdagi kasbiy mas’uliyati, axborotdan foydalanish madaniyati, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, akademik halollik, raqamli muloqot etikasi hamda o‘quvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishda pedagogik-deontologik kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari aniqlanib, ularni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim resurslari, pedagogik etika, deontologiya, pedagogik deontologiya, raqamli kompetensiya, akademik halollik, axborot xavfsizligi, raqamli madaniyat.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты соблюдения педагогической этики и деонтологических норм в процессе использования цифровых образовательных ресурсов, профессиональная ответственность педагога в цифровой среде, культура использования информации, защита персональных данных, академическая честность, этика цифрового общения, а также вопросы защиты прав и интересов учащихся. Также определены основные компоненты педагогико-деонтологической компетенции в использовании цифровых образовательных ресурсов и освещены приоритетные направления их развития.

Ключевые слова: цифровые образовательные ресурсы, педагогическая этика, деонтология, педагогическая деонтология, цифровая компетенция, академическая честность, информационная безопасность, цифровая культура.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of adhering to pedagogical ethics and deontological norms in the process of using digital educational resources, the professional responsibility of a teacher in a digital environment, information usage culture, personal data protection, academic integrity, digital communication ethics, and issues regarding the protection of students' rights and interests. The main components of pedagogical-deontological competence in using digital educational resources are also defined, and priority areas for their development are highlighted.

Keywords: digital educational resources, pedagogical ethics, deontology, pedagogical deontology, digital competence, academic integrity, information security, digital culture.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi pedagogik faoliyatning mazmuni va shakllarini tubdan o‘zgartirmoqda. Elektron darsliklar, ta’lim platformalari, videodarslar, virtual laboratoriyalar, sun’iy intellekt vositalari, onlayn test tizimlari va boshqa raqamli resurslar ta’limning samaradorligi hamda individuallashuvini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Raqamli texnologiyalarning pedagogik jarayonga integratsiyasi o‘qituvchidan texnologik vositalarni fan mazmuni va pedagogik metodlar bilan uyg‘unlashtirishni talab etadi [4].O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar, jumladan, ta’lim oluvchilarning huquqlari, ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim jarayonining insonparvarlik xususiyati belgilangan [1]. Shuningdek, “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunda pedagogning kasbiy faoliyati, huquq va majburiyatlari hamda uning kasbiy mas’uliyatiga oid qoidalar mustahkamlangan [2]. Biroq raqamli ta’lim muhitining kengayishi pedagog oldiga faqat texnologik bilim va ko‘nikmalarni emas, balki yuqori darajadagi axloqiy va deontologik mas’uliyatni ham qo‘yadi. Chunki raqamli muhitda pedagog o‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlari, ta’lim natijalari, ijodiy ishlari va raqamli faoliyati bilan ishlaydi. Mazkur jarayonda pedagogning har bir harakati o‘quvchining huquqlari, sha’ni, qadr-qimmati va ta’lim olish manfaatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Pedagogik etika pedagogning kasbiy faoliyatida amal qilishi lozim bo‘lgan axloqiy tamoyillar majmuini ifodalasa, pedagogik deontologiya o‘qituvchining kasbiy burchi, mas’uliyati va majburiyatlarini belgilaydi. Raqamli ta’lim sharoitida ushbu tushunchalar yangi mazmun bilan boyib, “raqamli pedagogik etika” va “raqamli deontologik mas’uliyat” kabi yo‘nalishlarning shakllanishiga zamin yaratmoqda.

Raqamli ta’lim resurslari – ta’lim maqsadlariga erishishga xizmat qiluvchi elektron, multimedia va interaktiv vositalar majmuasidir. Ularga elektron darsliklar, ta’lim platformalari, raqamli kutubxonalar, videomateriallar, simulyatorlar, virtual laboratoriyalar, elektron testlar, mobil ilovalar va sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalarini kiritish mumkin.

Mazkur resurslardan oqilona foydalanish: ta’lim mazmunini individuallashtirish; o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish; tezkor qayta aloqa o‘rnatish; ta’lim natijalarini monitoring qilish; multimediaviy va interaktiv ta’lim muhitini yaratish; o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli resurslardan foydalanish pedagogdan ularning mazmuni, manbasi, ishonchliligi va o‘quvchilarga ta’sirini baholashni talab qiladi. Demak, texnologik kompetensiya pedagogik-axloqiy kompetensiya bilan uyg‘unlashgandagina raqamli ta’lim kutilgan natijani beradi.

Raqamli ta’lim muhitida pedagogik etikaning mazmuni bir necha fundamental tamoyillar asosida namoyon bo‘ladi.

Insonparvarlik tamoyili. Pedagog raqamli vositalardan foydalanishda o‘quvchining shaxsini, qadr-qimmatini va individual xususiyatlarini hurmat qilishi lozim. Raqamli platformalardagi baholash, fikr bildirish yoki muloqot jarayonida o‘quvchini kamsituvchi, tahqirlovchi yoki shaxsiyatiga tegadigan ifodalardan foydalanish pedagogik etikaga zid hisoblanadi. Ta’lim jarayonining insonparvarlik xususiyati O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi qonunchiligida ham muhim prinsip sifatida qaraladi [1].

Adolatlilik tamoyili. Raqamli texnologiyalardan foydalanish barcha o‘quvchilar uchun imkon qadar teng ta’lim sharoitlarini yaratishga xizmat qilishi kerak. Texnik imkoniyatlari cheklangan o‘quvchilarni ta’lim jarayonidan chetda qoldirmaslik, baholashda texnik muammolarni hisobga olish pedagogning kasbiy mas’uliyatidir.

Maxfiylik tamoyili. O‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlari, baholari, fotosuratlari, videolari va boshqa raqamli ma’lumotlaridan foydalanishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Pedagog o‘quvchining shaxsiy ma’lumotlarini asossiz ravishda tarqatmasligi va undan faqat pedagogik maqsadlarda foydalanishi kerak.

Akademik halollik tamoyili. Raqamli muhitda tayyor materiallarni o‘zlashtirish, plagiat, mualliflik huquqini buzish, nazorat ishlarida noqonuniy yordam vositalaridan foydalanish kabi muammolar kuchayishi mumkin. Shu bois pedagog o‘quvchilarda manbadan to‘g‘ri foydalanish, iqtibos keltirish va mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirishi zarur [6].

Mas’uliyat tamoyili. Pedagog raqamli resursni o‘quv jarayoniga joriy etishdan avval uning mazmuni, xavfsizligi, pedagogik maqsadga muvofiqligi va o‘quvchiga ta’sirini baholashi lozim.

“Deontologiya” tushunchasi lotin tilidagi “deontos” – burch, majburiyat va “logos” – ta’limot ma’nolarini anglatuvchi so‘zlardan tarkib topgan [5]. Mazkur tushuncha o‘qituvchining kasbiy faoliyati davomida rioya etishi lozim bo‘lgan axloqiy me’yorlar, tamoyillar va kasbiy burchlarni o‘rganishga qaratilgan.

Pedagogik deontologiya o‘qituvchining kasbiy burch va majburiyatlarini o‘rganadigan yo‘nalish sifatida raqamli ta’lim sharoitida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli muhitda pedagogning deontologik majburiyatlarini quyidagi yo‘nalishlarda ko‘rish mumkin:

Yo‘nalish	Majburiyatlari
axborot bilan ishlash,	ishonchli va tekshirilgan axborotdan foydalanish
shaxsiy ma’lumotlar	O‘quvchi ma’lumotlarini himoya qilish
Raqamli muloqot	Hurmatli va madaniyatli muloqotni ta’minlash
Baholash	Xolis, shaffof va adolatli baholash
Mualliflik huquqi	Mualliflik huquqi va intellektual mulkka hurmat
Akademik halollik	Plagiat va akademik insofsizlikka yo‘l qo‘ymaslik
Raqamli xavfsizlik	Xavfsiz raqamli muhit yaratish
Sun’iy intellekt	AI vositalaridan mas’uliyatli va shaffof foydalanish

1-rasm: Pedagogning deontologik majburiyatlari

Bundan ko‘rinadiki, zamonaviy pedagogning kasbiy burchi faqat dars berish bilan chegaralanmaydi. U raqamli axborot muhitida o‘quvchi uchun axloqiy namuna vazifasini ham bajaradi.

Raqamli ta’lim muhitida pedagogik etika va deontologiya bilan bog‘liq bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi masalasi dolzarbdir. O‘quvchilar haqida

ma’lumotlarni turli platformalarga joylashtirishdan avval ularning xavfsizligi va foydalanish shartlari baholanishi kerak.Ikkinchidan, axborotning ishonchliligi muammosi mavjud. Internetdagi barcha ma’lumotlar ham ilmiy va pedagogik jihatdan ishonchli emas. Shuning uchun pedagog o‘quvchilarga axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishi lozim. Uchinchidan, sun’iy intellektdan foydalanish etikasi yangi masalalarni yuzaga keltirmoqda. AI vositalari ta’lim mazmunini yaratish, topshiriqlar tayyorlash va individual ta’limni tashkil etishda katta imkoniyatlar beradi [3]. Biroq uning natijalarini tekshirmasdan qabul qilish, o‘quvchi ishini to‘liq sun’iy intellektga topshirish yoki AI yordamidan foydalanishni yashirish akademik halollik bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. To‘rtinchidan, raqamli muloqot madaniyati muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi messenjerlar, elektron pochta va ta’lim platformalarida ham kasbiy odob qoidalariga amal qilishi kerak. Beshinchidan, raqamli tengsizlik muammosi mavjud. Barcha o‘quvchilarda bir xil internet, qurilma yoki dasturiy ta’minot imkoniyati bo‘lmasligi mumkin. Shu sababli raqamli resurslardan foydalanishda pedagog ijtimoiy va texnologik tenglikni hisobga olishi zarur.

Raqamli ta’lim sharoitida pedagogik deontologiyani ta’minlash uchun o‘qituvchida maxsus kompetensiyalar majmuini shakllantirish maqsadga muvofiq. Ularni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

1. Axborot-axloqiy komponent – axborotni izlash, tanlash, tekshirish va undan etik foydalanish ko‘nikmalari.
2. Raqamli-kommunikativ komponent – raqamli muhitda o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan madaniyatli muloqot qilish qobiliyati.
3. Huquqiy-deontologik komponent – shaxsiy ma’lumotlar, mualliflik huquqi, akademik halollik va pedagogning kasbiy majburiyatlariga oid me’yorlarni bilish.
4. Refleksiv komponent – pedagogning o‘z raqamli xatti-harakatlarini tahlil qilishi va uning o‘quvchilarga ta’sirini baholay olishi.
5. Mas’uliyatli-texnologik komponent – raqamli vositalarni pedagogik maqsadga muvofiq, xavfsiz va mas’uliyatli tanlash hamda qo‘llash qobiliyati.

Mazkur komponentlarning uyg‘un rivojlanishi pedagogning raqamli muhitdagi kasbiy faoliyatini yanada samarali va etik jihatdan barqaror tashkil etish imkonini beradi.

Ta’lim tashkilotlarida raqamli pedagogik etika va deontologik me’yorlarni shakllantirish uchun quyidagi mexanizmlardan foydalanish mumkin: pedagoglar uchun “Raqamli pedagogik etika” bo‘yicha maxsus treninglar tashkil etish; raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning etik kodeksini ishlab chiqish; pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini muntazam baholab borish; real pedagogik vaziyatlar asosida keys-stadilar tashkil etish; akademik halollik bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish; shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlik bo‘yicha seminarlar tashkil etish; sun’iy intellektdan foydalanishning mas’uliyatli tamoyillarini o‘rgatish; pedagoglarning o‘z faoliyatini refleksiv baholash mexanizmlarini joriy etish. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida pedagogik etika va deontologiya masalalarini raqamli ta’lim kompetensiyalari bilan integratsiyalash muhimdir.

Raqamli ta’lim resurslarining ta’lim jarayoniga keng joriy etilishi pedagogning kasbiy faoliyatiga qo‘yiladigan talablarni sezilarli darajada kengaytirmoqda. Endilikda pedagog nafaqat o‘z fanini va zamonaviy texnologiyalarni yaxshi bilishi, balki raqamli muhitda axloqiy va deontologik me’yorlarga qat’iy rioya qilishi ham zarur.

Raqamli ta’lim sharoitida pedagogik etikaning asosiy yo‘nalishlari insonparvarlik, adolatlilik, maxfiylik, akademik halollik, mas’uliyat, hurmat va axborot xavfsizligi tamoyillariga asoslanadi. Pedagogik deontologiya esa ushbu tamoyillarni kasbiy burch va mas’uliyat darajasida amalga oshirishni taqozo etadi.Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy pedagogni tayyorlash tizimida raqamli-deontologik kompetensiyani shakllantirish istiqbolli ilmiy-pedagogik yo‘nalishlardan biri sifatida qaralishi mumkin. Mazkur kompetensiya pedagogning raqamli texnologiyalardan nafaqat samarali, balki mas’uliyatli, axloqiy va o‘quvchi manfaatlariga yo‘naltirilgan holda foydalanishini ta’minlaydi. Umuman olganda, raqamli texnologiyalarning ta’limdagi samaradorligi faqat ularning texnik imkoniyatlari bilan emas, balki ulardan foydalanayotgan pedagogning kasbiy madaniyati, axloqiy pozitsiyasi va deontologik mas’uliyati bilan ham belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi 23.09.2020 O‘RQ – 637 – son Qonuni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020., 03/20/637/1313-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi O‘RQ – 901 – son Qonuni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.02.2024.
3. Floridi L. The Ethics of Information. – Oxford: Oxford University Press, 2013. – 357 p.
4. Mishra P., Koehler M. J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. 2006. Vol. 108, No. 6. P. 1017–1054.
5. Safarova R.G, Gaipov D.J. Pedagogik deontologiya va kompetentlik. – Nókis: «AVANGARD-BASPA» , 2025. – 120 bet.
6. Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. – London: Bloomsbury, 2017. – 216 p.

ME’MORIY OBIDALAR BEZAKLARINI RAQAMLI VOSITALARDA QAYTA YARATISH: “TRADIGITAL” YONDASHUV

Xudoyberdiyeva Xulkar Zoxid qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: xudoyberdiyevaxulkar6@gmail.com
ORCID: 0009-0006-7050-7562
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21933030

Annotatsiya. Maqolada me’moriy obidalar bezaklari asosida talabalarda naqsh kompozitsiyasini tuzishga oid kompetensiyani rivojlantirishning metodlari va vositalari tahlil qilinadi. Konstruktiv idrok etish yetakchi metod sifatida asoslanadi hamda an’anaviy va raqamli vositalarni uyg‘unlashtiruvchi “Tradigital” konsepsiya yoritiladi. Muallif tomonidan Adobe Illustrator dasturida bajarilgan Oqsaroy, Go‘ri Amir va Ulug‘bek madrasasi naqsh rekonstruksiyalari misolida metodikaning amaliy natijalari ko‘rsatiladi.
Kalit so‘zlar: naqsh kompozitsiyasi, me’moriy obida, girih, konstruktiv idrok, “Tradigital” konsepsiya, Adobe Illustrator, kompetensiya.
Аннотация. В статье анализируются методы и средства развития у студентов компетенции по составлению орнаментальной композиции на основе декора архитектурных памятников. Обосновывается метод конструктивного восприятия, раскрывается концепция “Традиджитал”. На примере реконструкций орнаментов Аксарая, Гур-Эмира и медресе Улугбека, выполненных автором в Adobe Illustrator, показаны практические результаты методики.
Ключевые слова: орнаментальная композиция, архитектурный памятник, гирих, конструктивное восприятие, “Традиджитал”, Adobe Illustrator, компетенция.
Abstract. The article analyses the methods and tools for developing students' competence in composing ornamental patterns based on the decoration of architectural monuments. The method of constructive perception is substantiated and the “Tradigital” concept is presented. The practical results are demonstrated through reconstructions of the ornaments of Aksaray, Gur-e-Amir and the Ulugbek Madrasah, created by the author in Adobe Illustrator.
Keywords: ornamental composition, architectural monument, girih, constructive perception, “Tradigital” concept, Adobe Illustrator, competence.

Kirish. Zamonaviy oliy ta’lim talabalarda bilimni ijodiy amaliyotda qo‘llay olish kompetensiyasini shakllantirishni talab etadi. An’anaviy ta’limning asosiy kamchiligi shundaki, talaba tarixiy naqshni ko‘pincha mexanik nusxalash darajasida o‘zlashtirib, uning ichki geometrik-kompozitsion mantig‘ini anglamaydi. Mazkur maqolada ushbu muammoni bartaraf etuvchi metodlar, vositalar hamda ularning muallif tomonidan bajarilgan amaliy natijalari yoritiladi.


Konstruktiv idrok etish – yetakchi metod. Metodikaning o‘zagini me’moriy obida bezagini konstruktiv idrok etish metodi tashkil etadi. U talabani naqshning tashqi ko‘rinishidan uning ichki tuzilish qonuniyatiga – yashirin geometrik to‘r, simmetriya o‘qlari, rapport va ritm tizimiga – o‘tishga yo‘naltiradi. L.I. Rempel ta’kidlaganidek, har qanday naqshning qurilishi doimo muayyan geometrik tarmoqqa – kvadratlar, uchburchaklar yoki oltiburchaklar to‘riga tayanadi va aynan shu tarmoq kompozitsiyaning asosiy sxemasini belgilaydi [1. 1961:B.17]. Demak, konstruktiv idrok – bu naqshni «ko‘rish»dan uni «o‘qish» va «qayta qurish»ga o‘tishdir.


An’anaviy va raqamli vositalar. Tadqiqotda vositalar an’anaviy va raqamli guruhlarga ajratildi. Dastur tanlash naqsh turiga bog‘liq: geometrik girih qat’iy handasaviy qonuniyatlarga tayanadi va aniq qurishni talab etsa, islimiy naqsh egri chiziqli, plastik tabiatga ega. Girih naqshini qurishda AutoCAD, islimiy naqshda esa Adobe Illustrator, CorelDRAW kabi vektor muharrirlari qo‘llaniladi. Adobe Illustrator dasturining Эллипс, Многоугольник, Поворот (aylanma takrorlash) va Узор (rapport) vositalari girihning geometrik asosini yuqori aniqlikda qurish imkonini beradi. B.V. Nig‘monov ta’kidlaganidek, geometrik naqshlarni chizishni har bir talabaga o‘rgatish mumkin, ammo yangi girih kompozitsiyalarini ijod qilish bilim, ko‘nikma va ijod qobiliyatini talab etadi [3. 2010:B.17].

“Tradigital” konsepsiya va amaliy natijalar. An’anaviy va raqamli vositalarni yagona didaktik tizimda uyg‘unlashtirish metodikaning o‘zak g‘oyasi – “Tradigital” (an’anaviy + raqamli) konsepsiyasini tashkil etadi. Konsepsiyaga ko‘ra, talaba avval naqshning geometrik asosini an’anaviy yo‘l bilan qurib, uning qonuniyatini his etadi, so‘ngra ayni shu qonuniyatni raqamli muhitda qayta tiklaydi. Mazkur

metodika asosida muallif tomonidan bir qator me’moriy obidalar bezaklari Adobe Illustrator dasturida qayta yaratildi.

Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasi bezagida oktogonal (sakkiz nurli) girih tizimi qo‘llanilgan. Uning geometrik asosi muntazam sakkizburchak va kvadratlar to‘rini 45° burchakda aylanma takrorlash orqali quriladi (1-rasm). Shahrisabzda Oqsaroy me’moriy obidasida esa, geksagonal (olti nurli) tizim yetakchilik qiladi: markaziy rozetka atrofida oltiburchak kataklar 60° burchakda joylashtiriladi (2-rasm).






1-rasm Ulug‘bek madrasasi girihi (oktogonal tizim). Adobe Illustratorda muallif tomonidan qayta yaratilgan

2-rasm. Shahrisabz, Oqsaroy me’moriy obidasidagi girih (geksagonal tizim). Adobe Illustrator

Konstruktiv idrok etish metodining mohiyati peshtoq qismdagi girihini qayta yaratish jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Talaba avval obida fotosurati asosida naqshning markazi va simmetriya o‘qlarini aniqlaydi, so‘ngra yashirin geometrik to‘r – yulduzsimon girih karkasini raqamli muhitda qayta quradi (3-rasm). Bunda tarixiy bezakning murakkab koshin qatlamlari ostidagi qat’iy geometrik qonuniyat ochib beriladi; bu esa naqshni mexanik nusxalashdan uni ongli qayta qurishga o‘tishning amaliy isbotidir.



3-rasm. Go‘ri Amir maqbarasidagi gulli girih: obida fotosurati (chapda) va uning Adobe Illustratordagi geometrik rekonstruksiyasi (o‘ngda)

Mazkur amaliy natijalar G.A. Pugachenkova [4. 2021:B.12] va M.S. Bulatov asoslab bergan tarixiy-handasaviy qonuniyatlarning bugungi kunda raqamli dasturlarda aniq takrorlanishini, ya’ni an’anaviy ilmiy merosning zamonaviy ta’limdagi dolzarbligini namoyon etadi [2. 1988:B.190]. Bunday ishlar «Amaliy bezak san’ati» o‘quv qo‘llanmasi va mobil ilovasi bilan quvvatlanadi [5. 2026:B.5]; islom geometrik naqshlarini raqamli vositalarda qurish samaradorligi xalqaro tadqiqotlarda ham asoslangan [6. 2017:B.45].

Xulosa. Talabalarda me’moriy obidalar bezaklarining naqsh kompozitsiyasini tuzishga oid kompetensiyani rivojlantirishning metodlari va vositalari yaxlit tizimni tashkil etadi. Uning o‘zagini konstruktiv idrok etish metodi tashkil etib, u an’anaviy va raqamli vositalarni «Tradigital» konsepsiya asosida uyg‘unlashtiradi. Oqsaroy, Go‘ri Amir va Ulug‘bek madrasasi naqshlarining muallif tomonidan bajarilgan raqamli rekonstruksiyalari mazkur metodikaning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi hamda bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini yangi sifat bosqichiga ko‘taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ремпель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана: история развития и теория построения. – Ташкент: Госиздат художественной литературы, 1961. – 606 с.

2. Булатов М.С. Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии IX–XV вв. – 2-е изд. – Москва: Наука, 1988. – 362 с.

3. Nig‘monov B.V., Ermatova A.B. Naqshi nigoralar (naqqoshlikdan kompozitsiya fani): metodik qo‘llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2010.

4. Pugachenkova G.A. Iskusstvo zodchix Uzbekistana. – Toshkent, 2021.

5. Soxibov A.R., Xudoyberdiyeva X.Z. Amaliy bezak san’ati: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Ta’lim innovatsiyalari, 2026. – 266 b.

6. Bonner J. Islamic Geometric Patterns: Their Historical Development and Traditional Methods of Construction. – New York: Springer, 2017.

BINOMIAL KONSTRUKSIYA TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI VA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINLARI

Nematullayev Nodirbek Muzaffar o‘g‘li
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi
E-mail: nodirbeknm2704@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21933082

Annotatsiya. Ushbu tezisda binomial konstruksiya tushunchasining tilshunoslikda shakllanishi hamda uning zamonaviy talqinlari tahlil qilinadi. Turli tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar komponentlarning grammatik va sintaktik munosabati, semantik bog‘liqligi, joylashish tartibi, komponentlar tartibining almashuvchanligi va formulaviylik xususiyatlari nuqtayi nazaridan qiyoslanadi. Tahlil natijasida binomial konstruksiyalarni tavsiflashda strukturaviy va semantik munosabatlarni asosiy mezon sifatida belgilovchi, komponentlar tartibining qat’iyligi hamda formulaviylikni esa barcha binomiallar uchun majburiy mezon sifatida belgilamaydigan yondashuvning maqbulligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *binomial konstruksiya, komponentlar tartibi, sintaktik tenglik, semantik munosabat, almashuvchanlik, komponentlar tartibining qat’iyligi, formulaviylik, korpus tahlili.*

Аннотация. В тезисе рассматриваются становление понятия биномиальной конструкции в лингвистике и его современные интерпретации. Подходы, предложенные различными исследователями, сопоставляются с точки зрения грамматических и синтаксических отношений между компонентами, их семантической связи, порядка расположения, обратимости порядка компонентов и формульности. По результатам анализа обосновывается целесообразность подхода, согласно которому структурные и семантические отношения рассматриваются как основные критерии описания биномиальных конструкций, тогда как необратимость порядка компонентов и формульность не признаются обязательными признаками всех биномиальных конструкций

Ключевые слова: *биномиальная конструкция, порядок компонентов, синтаксическое равноправие, семантическая связь, обратимость, необратимость, формульность, корпусный анализ.*

Abstract. This thesis examines the development of the concept of binomial constructions in linguistics and its contemporary interpretations. Approaches proposed by different scholars are compared in terms of the grammatical and syntactic relations between components, their semantic relationship, ordering, reversibility of component order, and formulaicity. The analysis substantiates the suitability of an approach that treats structural and semantic relations as the primary criteria for characterizing binomial constructions, while not regarding the irreversibility of component order and formulaicity as obligatory criteria for all binomials.

Keywords: *binomial construction, component order, syntactic equivalence, semantic relation, reversibility, irreversibility, formulaicity, corpus analysis.*

Kirish. Til birliklarining shakllanishi va qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganish tilshunoslikning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ikki komponentning o‘zaro grammatik va semantik munosabat asosida birikishi natijasida yuzaga keladigan birliklar til tizimida alohida o‘rin tutadi. Ana shunday til birliklari sirasiga binomial konstruksiyalar ham kiradi. Ular turli davrlarda tadqiqotchilar tomonidan strukturaviy, semantik va funksional jihatdan o‘rganib kelingan. Binomial konstruksiyalarning tarkibiy tuzilishi, komponentlar o‘rtasidagi munosabat hamda ularning joylashish tartibiga doir qarashlarning turlicha ekanligi ushbu tushunchaning ilmiy talqinlarini qiyosiy ko‘rib chiqishni talab etadi.

Binomial konstruksiyalarga xos xususiyatlar *binomial* termini keng ilmiy muomalaga kirishidan oldin ham so‘z juftliklari doirasida o‘rganilgan. Jumladan, E.Leisi 1947-yilda Caxtonning *Eneydos* asari materialida tautologik so‘z juftliklarini tadqiq etgan [4.1947]. Biroq binomial konstruksiyalarni alohida lingvistik hodisa sifatida o‘rganishda Y.Malkielning 1959-yilda e’lon qilingan *Studies in Irreversible Binomials* nomli tadqiqoti muhim o‘rin tutadi.

Y.Malkiel binomialni bir xil grammatik sinfga mansub, sintaktik ierarxiyaning bir xil darajasida joylashgan va odatda muayyan leksik aloqa orqali bog‘langan ikki so‘z ketma-ketligi sifatida ta’riflaydi [5.1959.B.113]. Ushbu ta’rifda binomial konstruksiyani belgilashda komponentlarning grammatik jihatdan bir xilligi, sintaktik teng mavqei va ular o‘rtasidagi leksik bog‘lanish asosiy mezon sifatida ko‘rsatilgan.

Y.Malkielning qarashlari keyingi tadqiqotlarda turli jihatlardan rivojlantirildi. M.Gustafsson binomial konstruksiyalarni o‘rganishda komponentlar tartibi bilan bir qatorda ularning formulaviy xususiyatiga ham e’tibor qaratadi. Tadqiqotchi Malkielning formulaviylik va reversibility (komponentlar tartibining almashuvchanligi)ni binomiallarning ikki alohida xususiyati sifatida ajratishini qayd etadi [2.1976.B.630]. Shuningdek, u o‘z materialida binomiallarning ikki xil tartibda qo‘llanish holatlarini chastota nuqtayi nazaridan tahlil qiladi.

A. Siyanova-Chanturia, K. Conklin va W. J. B. van Heuven binomiallarni bir xil leksik sinfga mansub ikki mazmunli so‘zning bog‘lovchi yordamida birikishi hamda mumkin bo‘lgan ikki tartibdan birining ikkinchisiga nisbatan ko‘proq qo‘llanishi bilan tavsiflaydi [7.2011.B.777]. Mazkur yondashuvda komponentlar tartibining qo‘llanish chastotasi alohida mezon sifatida namoyon bo‘ladi.

J. Kopaczyk va H. Sauer binomialni bir xil so‘z turkumiga mansub, koordinativ munosabat asosida birikkan va o‘zaro semantik aloqaga ega ikki til birligidan tashkil topgan konstruksiya sifatida izohlaydi [3.2017.B.3]. Mualliflar irreversibility, ya’ni komponentlar tartibining nisbiy qat’iyligi, hamda formulaviylikni core binomiallar (yadro binomiallar)ning tipik xususiyatlari sifatida e’tirof etadilar. Biroq ular mazkur belgilarni binomial tushunchasining umumiy ta’rifiga majburiy mezon sifatida kiritmaydilar.

Keltirilgan qarashlarni qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, Malkiel hamda Kopaczyk va Sauer yondashuvlarida komponentlarning bir xil grammatik sinf yoki so‘z turkumiga mansubligi va sintaktik jihatdan teng munosabatda bo‘lishi umumiy mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda Malkiel komponentlar o‘rtasidagi leksik aloqani, Kopaczyk va Sauer esa semantik munosabatni alohida ta’kidlaydi. Siyanova-Chanturia va hammualliflar yondashuvida esa komponentlarning muayyan tartibda ko‘proq qo‘llanishi ham muhim mezon sifatida qaraladi.

Bizningcha fikrimizcha, binomial konstruksiyalarni kengroq doirada o‘rganishda Kopaczyk va Sauer tomonidan taklif qilingan yondashuv maqbulroqdir. Chunki ushbu ta’rif strukturaviy va semantik munosabatlarni asosiy mezon sifatida saqlagan holda, komponentlar tartibining qat’iyligi yoki formulaviylikni barcha binomial konstruksiyalar uchun majburiy shart qilib qo‘ymaydi.

Keyingi tadqiqotlarda binomial konstruksiyalarni o‘rganishda korpus ma’lumotlaridan foydalanishga ham alohida e’tibor qaratila boshlandi. S.Mollin ingliz tilidagi binomiallarni korpus asosida tahlil qilib, komponentlar tartibining almashuvchanlik darajasi, komponentlar tartibiga ta’sir qiluvchi lingvistik omillar hamda ushbu xususiyatning tarixiy rivojlanishini o‘rganadi [6.2014].

Tadqiqotda komponentlar tartibining almashuvchanligi qat’iy ikkilik xususiyat sifatida emas, balki turli darajada namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan murakkab belgi sifatida qaraladi. Bu yondashuv binomiallarni faqat turg‘un va turg‘un bo‘lmagan guruhlarga ajratish bilan cheklanmay, ularning korpusdagi qo‘llanish chastotasi va tartibiy xususiyatlarini ham hisobga olish imkonini beradi.

O‘zbek tilshunosligida binomial konstruksiyalarni maxsus tadqiq etishga qaratilgan ishlardan biri Sh.Ermatovning ingliz va o‘zbek tillaridagi binomial hosilalarning struktur-semantik, funksional-stilistik va pragmatik jihatlariga bag‘ishlangan tadqiqotidir. Unda ingliz va o‘zbek tillaridagi binomial hosilalarning struktur-semantik xususiyatlari, funksional-stilistik vazifalari va pragmatik imkoniyatlari qiyosiy asosda tahlil qilinib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari yoritilgan. Shuningdek, binomial hosilalarning barqarorlik va idiomatiklik darajalari hamda o‘zbek tilidagi qo‘llanish chastotasiga e’tibor qaratilgan [1.2026].

Xulosa. Binomial konstruksiya tushunchasining shakllanishi va keyingi talqinlarini tahlil qilish ushbu hodisaning turli davrlarda turli mezonlar asosida izohlanganini ko‘rsatadi. Dastlabki tadqiqotlarda komponentlarning grammatik va sintaktik tengligi hamda ularning o‘zaro leksik aloqasi asosiy mezon sifatida qaralgan bo‘lsa, keyingi ishlarda komponentlar tartibi, uning almashuvchanlik darajasi, formulaviylik va qo‘llanish chastotasi kabi jihatlarga ham e’tibor kuchaygan.

Ko‘rib chiqilgan yondashuvlar orasida J. Kopaczyk va H. Sauerning talqini binomial konstruksiyalarni kengroq doirada tavsiflash imkonini berishi bilan ajralib turadi, chunki unda strukturaviy va semantik munosabatlar asosiy mezonlar sifatida saqlanib, komponentlar tartibining qat’iyligi yoki formulaviylik barcha binomiallar uchun majburiy shart sifatida belgilanmaydi. Shu bois mazkur yondashuv binomial konstruksiyalarni keyingi tadqiqotlarda tahlil qilish uchun maqbul nazariy asoslardan biri sifatida qabul qilinishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ermatov, Sh. R. Ingliz va o‘zbek tillarida binomial hosilalarning struktur-semantik, funksional-stilistik va pragmatik jihatlari: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Andijon: Andijon davlat chet tillari instituti, 2026.

2. Gustafsson, M. The Frequency and “Frozenness” of Some English Binomials // Neuphilologische Mitteilungen. – 1976. – Vol. 77. – P. 623–637.
3. Kopaczyk, J., Sauer, H. Defining and Exploring Binomials // Binomials in the History of English: Fixed and Flexible / eds. J. Kopaczyk, H. Sauer. – Cambridge: Cambridge University Press, 2017. – P. 1–24. DOI: 10.1017/9781316339770.001.
4. Leisi, E. Die tautologischen Wortpaare in Caxton’s Eneydos: Zur synchronischen Bedeutungs- und Ursachenforschung. – Cambridge, Mass.: The Murray Printing Company, 1947. – 139 p.
5. Malkiel, Y. Studies in Irreversible Binomials // Lingua. – 1959. – Vol. 8. – P. 113–160. DOI: 10.1016/0024-3841(59)90018-X.
6. Mollin, S. The (Ir)reversibility of English Binomials: Corpus, Constraints, Developments. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2014. – 254 p.
7. Siyanova-Chanturia, A., Conklin, K., van Heuven, W. J. B. Seeing a Phrase “Time and Again” Matters: The Role of Phrasal Frequency in the Processing of Multiword Sequences // Journal of Experimental Psychology: Learning, Memory, and Cognition. – 2011. – Vol. 37, No. 3. – P. 776–784. DOI: 10.1037/a0022531.

YUQORI MALAKALI KURASHCHILARDA MITOXONDRIYA FUNKSIYALARINING INTEGRATIV BAHOSI VA METABOLIK ADAPTATSIYA

Navro'zov G.R.[1],
Mirzakulov S.O.[2]
[1]tayanch doktorant; [2]b.f.f.d., dotsent
[12]Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti, Biologiya va ekologiya fakulteti, Odam va hayvonlar fiziologiyasi kafedrasi, Toshkent, O'zbekiston
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21933182

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotning maqsadi yuqori va o'rta malakali kurashchilarda mitoxondriya funksional holatini va metabolik adaptatsiyalarni qiyosiy baholashdan iborat.
Kalit so'zlar: kurash, mitoxondrial biogeneza, PGC-1α, energiya almashinuvi, oksidativ stress, sport fiziologiyasi.
Аннотация: Целью данного исследования является сравнительная оценка функционального состояния митохондрий и метаболической адаптации у высококвалифицированных и среднеквалифицированных борцов.
Ключевые слова: борьба, митохондриальная биогенеза, PGC-1α, энергетический обмен, окислительный стресс, спортивная физиология.
Abstract: The aim of this study is to comparatively evaluate the functional state of mitochondria and metabolic adaptations in highly qualified and moderately qualified wrestlers.
Keywords: wrestling, mitochondrial biogenesis, PGC-1α, energy metabolism, oxidative stress, sports physiology.

Materiallar va metodlar

Tadqiqotda yuqori malakali kurashchilar (n=30) va o'rta malakali sportchilar (n=30) ishtirok etdi. Asosiy ko'rsatkichlar sifatida maksimal kislorod iste'moli (VO_2 max), laktat porogi, mitoxondrial DNK (mtDNK) kopiya soni, elektron transport zanjiri (ETC) komplekslari faolligi va oksidativ stress markerlari baholandi.

Natijalar

Yuqori malakali kurashchilarda VO_2 max ko'rsatkichi sezilarli yuqori bo'ldi (58.4±4.2 va 49.7±3.8 ml/kg/min; $p<0.001$). Shuningdek, mitoxondrial biogeneza markeri PGC-1α mRNK ekspressiyasi yuqori bo'ldi (2.34±0.41 va 1.56±0.29; $p<0.001$). ETC kompleks IV faolligi ham yuqori malakali sportchilarda sezilarli oshganligi aniqlandi (56.2±6.8 va 41.3±5.4 nmol/min/mg; $p<0.001$). Versen buferi yordamida krioprezervatsiya qilingan hujayralarda jonlilik darajasi 85–88% saqlanib qoldi.

Xulosa

Yuqori malakali kurashchilarda mitoxondrial biogeneza va energiya almashinuvi ko'rsatkichlarining yaxshilanishi sport samaradorligining muhim bioenergetik asosini tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hood DA. Mechanisms of exercise-induced mitochondrial biogenesis in skeletal muscle. Appl Physiol Nutr Metab. 2009;34(3):465–472.
2. Perry CGR, Lally J, Holloway GP, et al. Repeated transient mRNA bursts precede increases in transcriptional and mitochondrial proteins during training. J Physiol. 2010;588(23):4795–4810.
3. Granata C, Jamnick NA, Bishop DJ. Training-induced changes in mitochondrial content and respiratory function. Sports Med. 2018;48(8):1809–1828.

STRUCTURAL MODELS OF ENGLISH BINOMIAL CONSTRUCTIONS AND THEIR CHARACTERISTICS

Nematullayev Nodirbek Muzaffar o‘g‘li
Lecturer at Termez University of Economics and Service
E-mail: nodirbeknm2704@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21933361

Annotatsiya. Ushbu tezisda ingliz tilidagi binomial konstruksiyalarning asosiy strukturaviy modellari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor komponentlarning grammatik kategoriyalariga hamda ot, fe’l, sifat, ravish va predloglardan tashkil topuvchi strukturaviy modellarga qaratiladi. Avvalgi lingvistik tadqiqotlarga tayangan holda ushbu modellarning qo‘llanish chastotasi va taqsimoti ham ko‘rib chiqiladi. Tahlil natijalari umumiy materialda otli binomiallar eng katta guruhni tashkil etishini, yuqori chastotali binomiallarda esa ravishli va predlogli modellar nisbatan faolroq namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Shuningdek, strukturaviy modellarning taqsimoti janrga ko‘ra farqlanishi mumkinligi hamda binomial konstruksiyalarning shakllanishida bog‘lovchi elementlarning o‘rni qisqacha yoritiladi. Tadqiqot natijalari grammatik tuzilish, qo‘llanish chastotasi va bog‘lovchi elementlar ingliz tilidagi binomial konstruksiyalarning strukturaviy tashkil topishini tavsiflashda muhim omillar ekanini ko‘rsatadi.
Kalit so‘zlar: binomial konstruksiya, strukturaviy model, grammatik kategoriya, otli binomial konstruksiya, fe’lli binomial konstruksiya, chastota, bog‘lovchi element, koordinatsiya.

Аннотация. В работе рассматриваются основные структурные модели английских биномиальных конструкций и их характерные особенности. Основное внимание уделяется грамматической принадлежности компонентов, а также структурным моделям, образованным существительными, глаголами, прилагательными, наречиями и предлогами. На основе предшествующих лингвистических исследований также анализируются частотность и распределение данных моделей. Результаты показывают, что в общем материале наиболее многочисленную группу составляют биномиальные конструкции с существительными, тогда как среди часто употребляющихся биномиальных конструкций возрастает доля наречных и предложных моделей. Кроме того, отмечается, что распределение структурных моделей может варьироваться в зависимости от жанра, а также кратко рассматривается роль связующих элементов в образовании биномиальных конструкций. Полученные результаты показывают, что грамматическая структура, частотность употребления и связующие элементы являются важными факторами при описании структурной организации английских биномиальных конструкций.
Ключевые слова: биномиальная конструкция, структурная модель, грамматическая категория, именной биномиал, глагольный биномиал, частотность, связующий элемент, координация.

Abstract. This paper examines the main structural models of English binomial constructions and their characteristic features. Particular attention is given to the grammatical categories of the components and the structural patterns formed by nouns, verbs, adjectives, adverbs, and prepositions. Drawing on previous linguistic studies, the analysis also considers the frequency and distribution of these models and shows that noun binomials constitute the largest group in the overall material, while adverbial and prepositional patterns become more prominent among frequently occurring binomials. The study further notes that the distribution of structural models may vary across genres and briefly considers the role of linking elements in the formation of binomial constructions. The findings demonstrate that grammatical structure, frequency, and linking elements are important factors in describing the structural organization of English binomials.
Keywords: binomial construction, structural model, grammatical category, noun binomial, verb binomial, frequency, linking element, coordination.

Introduction. Binomial constructions are a type of coordinated word combination in English in which two elements are linked, usually by conjunctions such as *and* and *or*. Expressions such as *bread and butter, safe and sound,* and *come and go* illustrate how words belonging to the same grammatical category can form a coordinated structure. Although binomials have been studied from semantic, pragmatic, and phraseological perspectives, their structural organization is also important for understanding how these constructions are formed and used in English.

One of the main ways of describing binomial constructions is to classify them according to the grammatical category of their components. On this basis, English binomials may occur as combinations of nouns, verbs, adjectives, adverbs, and prepositions. These structural patterns differ in their frequency and distribution, with some models occurring more commonly than others. A clear description of these models provides a useful basis for understanding the grammatical organization of binomial constructions in English. Therefore, the present study examines the main structural models of English binomial constructions and discusses their characteristic features, drawing on previous linguistic studies.

Structural classification of binomial constructions

One of the main criteria for classifying binomial constructions is the grammatical structure of their components. Malkiel’s early definition provides an important structural basis for this approach: he describes a binomial as a sequence of two words belonging to the same form-class and placed at the same level of syntactic hierarchy, usually connected by a lexical link [5.1959.B.113]. A similar structural principle is found in later studies. Siyanova-Chanturia, Conklin, and van Heuven similarly characterize the structural composition of binomials as involving two content words from the same lexical class connected by a conjunction [6.2011.B.777]. Thus, membership of the components in the same grammatical category can be regarded as one of the central structural features of binomial constructions.

Kopaczyk and Sauer develop this principle further by defining a binomial as a coordinated pair of linguistic units belonging to the same word class and having a semantic relationship [4.2017.B.3]. They also regard structural repetition as a defining feature of binomials, since one member of a grammatical category is coordinated with another member of the same category [4.2017.B.16]. For descriptive purposes, this structure can be represented as X + conjunction + Y, where X and Y normally belong to the same word class. Malkiel uses A and B to represent the two members of a binomial and l to represent the link between them [5.1959.B.114]. He later presents A + l + B as the basic frame of a binomial [5.1959.B.134].

Biber, Conrad, and Leech also illustrate four structural types of binomial expressions: verb + verb, noun + noun, adverb + adverb, and adjective + adjective [1.2002.B.448–449].

According to the grammatical category of their components, English binomial constructions can be divided into several major structural patterns. Kopaczyk and Sauer note that noun pairs are the most frequent, followed by verb and adjective pairs, while combinations of adverbs and prepositions are less common [4.2017.B.3].

1. Noun + Noun (N + N).
This model consists of two coordinated nouns. Examples include *bread and butter*, *man and wife*, and *heaven and earth* [4.2017.B.3].

2. Verb + Verb (V + V).
Verb binomials consist of two coordinated verbs. Examples include *to have and to hold*, *hit and run*, and *divide and conquer* [4.2017.B.3].

3. Adjective + Adjective (Adj + Adj).
This pattern consists of two coordinated adjectives. Examples include *hot and spicy* and *dead or alive* [4.2017.B.3].

4. Adverb + Adverb (Adv + Adv).
This model consists of two coordinated adverbs. An example is *loud and clear* [4.2017.B.3].

5. Preposition + Preposition (Prep + Prep).
This model consists of two coordinated prepositions. An example is *in and out* [4.2017.B.3].

Frequency and distribution of structural models

The structural models of English binomials are not equally represented in actual language use. Gustafsson’s corpus-based analysis demonstrates considerable differences in the distribution of binomials according to the grammatical category of their components. In her overall material, noun binomials constituted the largest group, accounting for 50.18% of all occurrences. They were followed by verb binomials at 17.67% and adjective binomials at 12.75%, while adverbial and prepositional binomials represented 7.78% and 5.82%, respectively [2.1976.B.630].

These figures support the observation of Kopaczyk and Sauer that nouns represent the most frequent word class in binomial constructions. However, Gustafsson’s results also show that the distribution changes considerably when only frequently occurring binomials are considered. In this group, noun binomials account for 36.80%, while adverbial binomials rise to 34.13% and prepositional binomials to 16.27%. By contrast, verb and adjective binomials constitute only 5.47% and 1.73%, respectively [2.1976. B.630].

This contrast suggests that the numerical dominance of a structural model in the overall material does not necessarily mean that the same model will dominate among highly recurrent expressions. Noun binomials are clearly the largest structural category in the complete dataset, whereas adverbial and prepositional patterns become much more prominent among frequently repeated binomials. Gustafsson herself notes that approximately half of the frequent occurrences in her material consist of adverbial and prepositional binomials, including expressions such as *here and there*, *more and more*, *sooner or later*, and *up and down* [2.1976.B.629].

These findings show that grammatical classification and frequency distribution describe different aspects of binomial constructions. Structural models identify the word-class composition of binomials, while frequency data show how prominently each model is represented in actual use.

The distribution of structural models may also vary across genres. Gustafsson’s later study shows that the proportion of particular word classes differs in different types of English prose. In legal texts, for instance, adjective and adverb binomials occur less frequently than in the overall material, indicating that genre may influence the distribution of particular structural patterns [3.1984.B.132].

Linking elements in binomial constructions

The components of binomial constructions are commonly linked by conjunctions. Kopaczyk and Sauer note that *and* is used most frequently, while *or* and other connectors also occur [4.2017.B.3]. Malkiel shows that the link may also be a preposition [5.1959.B.129–130]. Thus, the linking element forms an important part of the structural organization of binomial constructions.

Conclusion

The analysis shows that English binomial constructions are primarily based on the coordination of two components belonging to the same grammatical category. The main structural models include N + N, V + V, Adj + Adj, Adv + Adv, and Prep + Prep, with noun binomials forming the most prominent group in the overall material. At the same time, the frequency of particular models may change when highly recurrent expressions or different genres are considered. The structural organization of binomials also involves linking elements: *and* occurs most frequently, while *or* and other linking elements also occur. Therefore, the structural classification of binomial constructions provides a clear basis for describing their grammatical organization and patterns of use in English.

References

1. Biber, D., Conrad, S., Leech, G. *Longman Student Grammar of Spoken and Written English*. – Harlow: Longman, 2002.
2. Gustafsson, M. The Frequency and “Frozenness” of Some English Binomials // *Neuphilologische Mitteilungen*. – 1976. – Vol. 77, No. 4. – P. 623–637.
3. Gustafsson, M. The Syntactic Features of Binomial Expressions in Legal English // *Text*. – 1984. – Vol. 4, No. 1–3. – P. 123–142. DOI: 10.1515/text.1.1984.4.1-3.123.
4. Kopaczyk, J., Sauer, H. Defining and Exploring Binomials // *Binomials in the History of English: Fixed and Flexible* / eds. J. Kopaczyk, H. Sauer. – Cambridge: Cambridge University Press, 2017. – P. 1–24. DOI: 10.1017/9781316339770.001.
5. Malkiel, Y. Studies in Irreversible Binomials // *Lingua*. – 1959. – Vol. 8. – P. 113–160. DOI: 10.1016/0024-3841(59)90018-X.
6. Siyanova-Chanturia, A., Conklin, K., van Heuven, W. J. B. Seeing a Phrase “Time and Again” Matters: The Role of Phrasal Frequency in the Processing of Multiword Sequences // *Journal of Experimental Psychology: Learning, Memory, and Cognition*. – 2011. – Vol. 37, No. 3. – P. 776–784. DOI: 10.1037/a0022531.

HIF-1α ORQALI METABOLIK REPROGRAMMLASH VA OKSIDATIV STRESS ADAPTATSIYASI

Navro'zov G.R.[1],
Mirzakulov S.O.[2]
[1]tayanch doktorant
[2]b.f.f.d., dotsent
[12]Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti, Biologiya va ekologiya fakulteti, Odam va hayvonlar fiziologiyasi kafedrasi, Toshkent, O'zbekiston
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21933412

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotning maqsadi gipoksik mashg'ulot sharoitida yuqori malakali kurashchilarda HIF-1α signal yo'llari orqali amalga oshiriladigan metabolik reprogrammlash va oksidativ stressga adaptiv javoblarni baholashdan iborat.
Kalit so'zlar: HIF-1α, gipoksiya, eritropoetin, oksidativ stress, antioksidant fermentlar, kurashchilar.
Аннотация: Целью данного исследования является оценка метаболического репрограммирования и адаптивных ответов на окислительный стресс через сигнальные пути HIF-1α у высококвалифицированных борцов в условиях гипоксической тренировки.
Ключевые слова: HIF-1α, гипоксия, эритропоэтин, окислительный стресс, антиоксидантные ферменты, борцы.
Abstract: The aim of this study is to evaluate metabolic reprogramming and adaptive responses to oxidative stress via HIF-1α signaling pathways in highly qualified wrestlers under hypoxic training conditions.
Keywords: HIF-1α, hypoxia, erythropoietin, oxidative stress, antioxidant enzymes, wrestlers.

Materiallar va metodlar

Tadqiqotda yuqori malakali erkin kurashchilar (n=24) va normoksik nazorat guruhi (n=24) ishtirok etdi. Simulyatsiyalangan gipoksiya (FiO_2 = 15.5%, 2500 m balandlik ekvivalenti) sharoitida HIF-1α oqsil ekspressiyasi, eritropoetin (EPO), gematokrit, reaktiv kislorod turlari (RKT), superoksid dismutaza (SOD), glutation peroksidaza (GPx) va katalaza faolligi baholandi.

Natijalar

Gipoksik mashg'ulot HIF-1α stabilizatsiyasini sezilarli oshirdi (3.45±0.52 va 1.08±0.15 nisbiy birlik; $p<0.001$), EPO darajasini ko'tardi (18.4±2.6 va 12.1±1.8 mIU/ml; $p<0.001$) va gematokritni oshirdi (46.8±3.2% va 42.3±2.8%; $p<0.001$). Shu bilan birga antioksidant fermentlar faolligi ham ortdi: SOD (+25.8%), GPx (+29.0%) va katalaza (+18.4%). Biroq, uzoq davom etgan gipoksiya (>4 hafta) MDA miqdorining oshishiga (6.8±0.9 va 4.2±0.6 μmol/l; $p<0.01$) hamda mitoxondriya membrana potensialining pasayishiga olib keldi.

Xulosa

O'rta muddatli gipoksik mashg'ulotlar HIF-1α orqali eritropoezik va antioksidant adaptatsiyalarni kuchaytiradi hamda kurashchilarning bioenergetik imkoniyatlarini optimallashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Semenza GL. Hypoxia-inducible factors in physiology and medicine. Cell. 2012;148(3):399–408.
2. Bailey DM, Davies B. Physiological implications of altitude training. Sports Med. 1997;24(6):385–395.
3. Powers SK, Jackson MJ. Exercise-induced oxidative stress. Physiol Rev. 2008;88(4):1243–1276.

ILMIY MAQOLA ANNOTATSIYASINING JAHON, MDH VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI

Eshchanova Mavjuda Xudayorovna
Urganch davlat universiteti filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21933464

Annotatsiya. Maqolada ilmiy maqola annotatsiyasining alohida janr sifatida jahon, MDH va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilish holati qiyosiy-tahliliy nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning asosiy e’tibori annotatsiyada axborotni strukturalash (retorik move-tuzilma) hamda mualliflik identifikatsiyasining (muallif ovozi, o‘zlik-ifoda) ifodalanishiga qaratilgan. Mavjud adabiyotlar tahlili asosida o‘zbek tilshunosligida ushbu masalaning qiyosiy va korpusga asoslangan tarzda yetarlicha o‘rganilmaganligi dolzarb ilmiy bo‘shliq sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: ilmiy annotatsiya, janr tahlili, retorik move-struktura, metadiskurs, mualliflik identifikatsiyasi, qiyosiy tilshunoslik, korpus lingvistikasi.

Аннотация. В статье в сравнительно-аналитическом аспекте рассматривается степень изученности аннотации научной статьи как особого жанра в мировом, СНГ-овском и узбекском языкознании. Основное внимание уделено структурированию информации (риторическая move-структура) и выражению авторской идентификации (авторский голос, самоупоминание) в аннотации. На основе анализа имеющейся литературы обосновывается актуальный научный пробел — недостаточная сравнительная и корпусная изученность данного вопроса в узбекском языкознании.

Ключевые слова: научная аннотация, жанровый анализ, риторическая move-структура, метадискурс, авторская идентификация, сопоставительное языкознание, корпусная лингвистика.

Annotation. The article provides a comparative-analytical review of how the research article abstract, as a distinct genre, has been studied in world, CIS and Uzbek linguistics. The focus is placed on the structuring of information (rhetorical move structure) and the expression of authorial identity (authorial voice, self-mention) in the abstract. Based on a review of the existing literature, the study substantiates a relevant research gap: the insufficient comparative and corpus-based study of this issue in Uzbek linguistics.

Key words: research article abstract, genre analysis, rhetorical move structure, metadiscourse, authorial identity, contrastive linguistics, corpus linguistics.

KIRISH. Zamonaviy ilmiy kommunikatsiyada ilmiy maqola annotatsiyasi (abstrakt) tadqiqot mazmunini ixcham, standartlashgan va konvensional shaklda taqdim etuvchi mustaqil janr sifatida shakllangan. Annotatsiya ko‘p hollarda maqolaning eng avval – ba’zan yagona – o‘qiladigan qismi bo‘lib, u nafaqat tadqiqotning asosiy natijalarini xabar qiladi, balki uni muayyan ilmiy hamjamiyatga “taqdim etadi” va o‘quvchini to‘liq matnni o‘qishga undaydi [16. 1990:B.179]. Aynan shu vazifa annotatsiyada ikki o‘zaro bog‘liq jihatning uyg‘unlashuvini taqozo etadi: axborotni retorik-funksional strukturalash (kompozitsion tuzilma) hamda muallifning matndagi ko‘rinuvchanligi, ya’ni mualliflik identifikatsiyasi. Mazkur maqolada ilmiy annotatsiyaning janr sifatida o‘rganilish holati jahon, MDH va o‘zbek tilshunosligi an’analari kesimida qiyosiy-tahliliy tarzda ko‘rib chiqilib, hozirgacha yechilmagan ilmiy masala aniqlanadi.

Jahon tilshunosligida ilmiy annotatsiyaning o‘rganilishi. Annotatsiyaning ilmiy tadqiqot ob’ekti sifatida shakllanishi janr tahlili (genre analysis) an’anasi bilan bevosita bog‘liq. J.Swales ilmiy matnni tahlil qilishda “kommunikativ maqsad” va “retorik harakat” (move) tushunchalarini kiritib, akademik janrlarni funksional-semantik bo‘laklarga ajratib o‘rganish metodologiyasini asosladi [16. 1990]. V.Bhatia bu apparatni professional va institutsional janrlarga tatbiq etib, janrning ijtimoiy-kommunikativ tabiatini yanada chuqurlashtirdi [1. 1993]. E.Ventola esa annotatsiyani alohida lingvistik tadqiqot ob’ekti sifatida ajratib ko‘rsatgan dastlabki tadqiqotchilardan biri bo‘ldi [18. 1994].

Keyingi tadqiqotlarda annotatsiyaning move-strukturasi tizimli o‘rganildi. M.Santos ilmiy maqola annotatsiyasining kompozitsion-retorik modelini ishlab chiqdi [15. 1996], F.Salager-Meyer tibbiy annotatsiyalarda move’lar bilan fe’l zamoni va modallik taqsimoti o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatdi [14. 1992], R.Lorés esa retorik strukturadan tematik tashkillanishga o‘tish masalasini tahlil qildi [6. 2004]. K.Hyland metadiskurs nazariyasini ishlab chiqib, ilmiy matnda muallif va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro

ta’sirni ifodalovchi vositalar tizimini asosladi [5. 2005] hamda turli sohalar diskursida muallif ovozining namoyon bo‘lishini o‘rgandi [4. 2000].

Sohaviy va tillararo qiyos yo‘nalishi ham rivojlandi. P.Pho aynan annotatsiyada retorik struktura bilan mualliflik pozitsiyasi (authorial stance) o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq etib, o‘zlik-ifoda (self-mention) vositalarining move’lar bo‘yicha notekis taqsimlanishini aniqladi [12. 2008:B.231]. Qiyosiy-tillararo tadqiqotlarda P.Martín-Martín ingliz va ispan tilidagi ijtimoiy fanlar annotatsiyalari strukturasini qiyosladi [8. 2003], I.Vassileva esa ingliz, nemis, fransuz, rus va bolgar akademik diskursida mualliflik ishtirokini qiyosiy tahlil qilib, mualliflik identifikatsiyasi madaniy-lisoniy jihatdan o‘zgaruvchan hodisa ekanligini ko‘rsatdi [17. 2000]. Shunday qilib, jahon tilshunosligida annotatsiya ham struktura, ham mualliflik jihatidan puxta o‘rganilgan, biroq o‘zbek tili materiali bu tadqiqotlar doirasiga deyarli jalb etilmagan.

MDH tilshunosligida ilmiy annotatsiya va uni o‘rganish an’analari. MDH (rus) tilshunosligida annotatsiya avvalo ilmiy nutq funksional stilistikasi doirasida o‘rganilgan. M.Kozhina ilmiy uslubning nutqiy tizimliligi va uning asosiy stilistik belgilarini nazariy asoslab berdi [20. 1993], M.Kotyurova ilmiy nutq stilistikasini, jumladan ilmiy matnning kompozitsion-mazmuniy tuzilishini tadqiq etdi [21. 2010]. V.Chernyavskaya ilmiy matnni interpretatsiya qilish va uning diskursiv tabiatini o‘rganib, matn ortidagi mualliflik pozitsiyasiga e’tibor qaratdi [22. 2007]. Referatlash va annotatsiyalash amaliyoti bo‘yicha A.Veyze ishlari annotatsiyani matnni siqish (kompressiya) mahsuli sifatida ko‘rib chiqib, uning axborot tuzilishiga oid muhim kuzatishlarni berdi [19. 1985]. Biroq bu an’anada annotatsiya asosan uslubiy-me’yoriy va kompressiv jihatdan tahlil qilinib, uni korpusga asoslangan move-tahlil hamda mualliflik identifikatsiyasi nuqtai nazaridan tizimli o‘rganish nisbatan kam uchraydi.

O‘zbek tilshunosligida holat. O‘zbek tilshunosligida ilmiy matn va uning lingvistik xususiyatlari salmoqli darajada o‘rganilgan. M.Hakimov o‘zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlarini maxsus tadqiq etib, ilmiy matn pragmatikasi bo‘yicha nazariy asos yaratdi [3. 2001]. S.Muhamedova va M.Saparniyozovalarning matn lingvistikasiga oid ishlarida matn birliklari, ularning bog‘lanishi va pragmatik mazmuni yoritilgan [9. 2011]. A.Mamatovning zamonaviy lingvistikaga bag‘ishlangan ishlarida antroposentrik va kommunikativ yondashuvlar, shu jumladan korpus va kognitiv tilshunoslik yo‘nalishlari tavsiflangan [7. 2020]. O‘zbek leksikologiyasi va dialektologiyasi ham faol rivojlanmoqda: xususan, Xorazm shevalari leksikasi eskirgan so‘zlar hamda substrat asosli birliklar tahlili nuqtai nazaridan o‘rganilgan [10. 2025; 11. 2026]. Mualliflik ifodasining pragmatik-funksional jihatlariga oid dastlabki zamin sifatida evfemizmlarni semantik, pragmatik va funksional yondashuvlar asosida tasniflash tajribasini ham qayd etish mumkin [2. 2025]. Bundan tashqari, tarjima jarayonida badiiy-ekspressiv vositalarni qayta yaratish muammolari o‘zbek tarjimashunosligida tadqiq etilmoqda [13. 2025]; bu jihat parallel (tarjima) annotatsiyalarni tahlil qilishda alohida e’tiborga loyiqdir. Shu bilan birga, o‘zbek tilshunosligida ilmiy maqola annotatsiyasi alohida yo’nalish sifatida – ayniqsa axborotni strukturalash va mualliflik identifikatsiyasining birgalikda, qiyosiy va korpusga asoslangan tahlili – yetarlicha maxsus tadqiqot ob’ektiga aylanmagan.

XULOSA. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jahon tilshunosligida ilmiy annotatsiyaning funksional-kommunikativ bosqichlari hamda mualliflik pozitsiyasining ifodalanishi masalalari yetarlicha chuqur tadqiq etilgan, biroq mazkur tadqiqotlarda o‘zbek tili materiali deyarli qamrab olinmagan. Ikkinchidan, MDH tilshunosligida annotatsiya asosan funksional stilistika va lingvistik kompressiya doirasida tahlil qilingan bo‘lib, korpusga asoslangan kommunikativ bosqichlar hamda mualliflik pozitsiyasining ifodalanishi nisbatan kam tadqiq etilgan. Uchinchidan, o‘zbek tilshunosligida ilmiy matn va matn lingvistikasi rivojlangan bo‘lsa-da, annotatsiya alohida janr sifatida, axborotni strukturalash va mualliflik identifikatsiyasini birlashtirgan qiyosiy-korpus yondashuvida deyarli o‘rganilmagan. Ana shu uch omil o‘zbek va ingliz tilidagi ilmiy annotatsiyalarni qiyosiy korpus asosida – axborot strukturasi va mualliflik identifikatsiyasi birligida – tadqiq etishning dolzarbligini va ilmiy yangiligini asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bhatia V.K. Analysing Genre: Language Use in Professional Settings. – London: Longman, 1993. – 246 p.
2. Eshchanova M. Classical classifications of euphemisms: semantic, pragmatic and functional approaches // O‘zbekiston–2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – 2025. – № 1.4. – B. 113–115.
3. Hakimov M. O‘zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari: Filologiya fanlari doktori diss. – Toshkent, 2001. – 262 b.

4. Hyland K. Disciplinary Discourses: Social Interactions in Academic Writing. – London: Longman, 2000. – 211 p.
5. Hyland K. Metadiscourse: Exploring Interaction in Writing. – London: Continuum, 2005. – 230 p.
6. Lorés R. On R.A. abstracts: from rhetorical structure to thematic organisation // English for Specific Purposes. – 2004. – Vol. 23, No. 3. – P. 280–302.
7. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020. – 168 b.
8. Martín-Martín P. A genre analysis of English and Spanish research paper abstracts in experimental social sciences // English for Specific Purposes. – 2003. – Vol. 22, No. 1. – P. 25–43.
9. Muhamedova S., Saparniyozova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent, 2011. – 120 b.
10. Norbayeva Sh. Xorazm shevalaridagi ayrim eskirgan so‘zlar tahlili // Conferences. – 2025. – Vol. 1, № 1.
11. Norbayeva Sh. Xorazm shevalari leksikasida substrat asosli birliklar // Conferences. – 2026. – Vol. 1, № 1.
12. Pho P.D. Research article abstracts in applied linguistics and educational technology: a study of linguistic realizations of rhetorical structure and authorial stance // Discourse Studies. – 2008. – Vol. 10, No. 2. – P. 231–250.
13. Radjapova I.E. Tarjimada badiiy tasvir vositalarini qayta yaratish muammolari // O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari. – 2025. – B. 736–738.
14. Salager-Meyer F. A text-type and move analysis study of verb tense and modality distribution in medical English abstracts // English for Specific Purposes. – 1992. – Vol. 11, No. 2. – P. 93–113.
15. Santos M.B.D. The textual organization of research paper abstracts in applied linguistics // Text. – 1996. – Vol. 16, No. 4. – P. 481–499.
16. Swales J.M. Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 260 p.
17. Vassileva I. Who is the Author? A Contrastive Analysis of Authorial Presence in English, German, French, Russian and Bulgarian Academic Discourse. – Sankt Augustin: Asgard, 2000. – 261 p.
18. Ventola E. Abstracts as an Object of Linguistic Study // Writing vs Speaking: Language, Text, Discourse, Communication. – Tübingen: Gunter Narr, 1994. – P. 333–352.
19. Вейзе А.А. Чтение, реферирование и аннотирование иностранного текста. – Москва: Высшая школа, 1985. – 127 с.
20. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. – Москва: Просвещение, 1993. – 224 с.
21. Котюрова М.П. Стилистика научной речи. – Москва: Академия, 2010. – 240 с.
22. Чернявская В.Е. Интерпретация научного текста. – Москва: Издательство ЛКИ, 2007. – 128 с.

PROBATSIYA TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING TASHKILIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

R.Z.Qayumov
IIV profilaktika inspektori
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21933507

Annotatsiya. Mazkur tezisda probatsiya tizimida psixologik xizmatning tashkiliy va metodologik asoslari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda psixologik xizmatni tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari, uning asosiy funksional yo‘nalishlari hamda probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan ishlashdagi ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Xususan, psixologik xizmat faoliyatida individual yondashuv, kompleks reabilitatsiya hamda ilmiy asoslangan modellardan foydalanishning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, psixologik xizmatni samarali tashkil etish orqali shaxslarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash va retsidiv xulq-atvorni kamaytirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: probatsiya tizimi, psixologik xizmat, tashkiliy asoslar, metodologik yondashuvlar, ijtimoiy moslashuv, reabilitatsiya, retsidiv xulq-atvor, psixologik diagnostika, “xavf–ehtiyoj–moslashuv modeli”, “sifatli (mazmunli) hayotga yo‘naltirilgan reabilitatsiya modeli”, shaxsiy resurslarga asoslangan reabilitatsiya.

Kirish. So‘nggi yillarda probatsiya tizimini takomillashtirish, uni jazolashga yo‘naltirilgan mexanizmdan ijtimoiy reabilitatsiya va profilaktikaga asoslangan tizimga aylantirish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasining “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonunida probatsiya nazoratidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirish, ularning huquqbuzarlik sodir etishining oldini olish hamda jamiyatga qayta integratsiya qilish asosiy vazifalar sifatida belgilangan [1]. Bu esa probatsiya tizimida psixologik xizmatni samarali tashkil etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu bilan birga, “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonun psixologik xizmatning shaxsning ruhiy holatini barqarorlashtirish, uning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash hamda psixologik muammolarini bartaraf etishdagi muhim o‘rnini belgilab beradi [2]. Mazkur huquqiy asoslar psixologik xizmat faoliyatini institutsional jihatdan tashkil etish va uning metodologik asoslarini shakllantirish uchun muhim zamin yaratadi.

Bundan tashqari, probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan ishlash tartibini belgilovchi normativ hujjatlarda psixologik ta’sir choralarini qo‘llash, shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olish va uning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish zarurligi alohida qayd etilgan [3]. Bu esa psixologik xizmatni nafaqat amaliy, balki ilmiy asoslangan metodologik yondashuvlar asosida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, probatsiya tizimida psixologik xizmatning tashkiliy va metodologik asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Probatsiya tizimida psixologik xizmatni samarali tashkil etish masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda evidence-based yondashuvlar asosida keng o‘rganilmoqda. Xususan, “xavf–ehtiyoj–moslashuv (RNR) modeli” probatsiya faoliyatining metodologik asoslaridan biri sifatida e’tirof etilib, unda shaxsning xavf darajasini baholash, kriminogen ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos individual ta’sir choralarini qo‘llash zarurligi asoslanadi [4]. Tadqiqotlar ushbu model asosida ishlab chiqilgan dasturlar retsidiv darajasini kamaytirishda samarali ekanligini ko‘rsatadi .

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda probatsiya tizimida RNR modelini amaliyotga joriy etishda muayyan muammolar mavjudligi ham qayd etiladi. Xususan, ayrim tadqiqotlar probatsiya xodimlari tomonidan risk va ehtiyojlarni baholash natijalari yetarli darajada amaliy qarorlar qabul qilishda qo‘llanilmasligini ko‘rsatadi . Bu esa psixologik xizmatni tashkil etishda metodologik yondashuvlarning to‘liq integratsiyalashmaganligini anglatadi.

Zamonaviy yondashuvlardan yana biri – “sifatli (mazmunli) hayotga yo‘naltirilgan reabilitatsiya modeli (GLM)” bo‘lib, u shaxsning ijobiy resurslarini rivojlantirish orqali ijtimoiy moslashuvni ta’minlashga qaratilgan. Ushbu model RNR yondashuvini to‘ldiruvchi mexanizm sifatida qaralib, reabilitatsiya jarayonida shaxsning hayot sifati va subyektiv farovonligini oshirishga alohida e’tibor qaratadi [5].

Bundan tashqari, probatsiya tizimida psixologik xizmat samaradorligini oshirishda shaxsiy resurslarga asoslangan reabilitatsiya yondashuvi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaxsning ijobiy sifatlari va mavjud resurslariga tayanish uning ijtimoiy moslashuv jarayonini tezlashtiradi hamda retsidiv xavfini kamaytiradi [11].

Shuningdek, probatsiya tizimida psixologik xizmatni samarali tashkil etish uchun xodimlarning kasbiy tayyorgarligi va metodik kompetensiyalarini rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar psixologik tayyorgarlik dasturlari probatsiya xodimlarining reabilitatsion yondashuvlarga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartirishini ko‘rsatadi [6].

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar probatsiya tizimida psixologik xizmatni samarali tashkil etish uchun uning aniq metodologik asoslarini belgilash, zamonaviy ilmiy modellardan foydalanish hamda amaliyot bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot nazariy-analitik yo‘nalishda olib borilib, probatsiya tizimida psixologik xizmatning tashkiliy va metodologik asoslarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida psixologik xizmatning strukturaviy elementlari, uning funksional yo‘nalishlari hamda probatsiya amaliyotidagi o‘rni kompleks tarzda tahlil qilindi.

Ilmiy izlanishda kontent-tahlil, qiyosiy tahlil va konseptual modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Xususan, probatsiya tizimida psixologik xizmatni tashkil etish bo‘yicha xorijiy tajriba va ilmiy yondashuvlar tahlil qilinib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlashtirildi [8]. Shu bilan birga, psixologik xizmatni tashkil etishda institutsional va individual darajadagi omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ham o‘rganildi [9].

Tadqiqot jarayonida psixologik xizmat faoliyatining asosiy komponentlari — diagnostik, profilaktik, korreksion va reabilitatsion yo‘nalishlar tizimli ravishda modellashtirildi. Ushbu yondashuv probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan ishlashda individual yondashuvni ta’minlash hamda retsidiv xulq-atvorni kamaytirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni aniqlash imkonini berdi [7].

Bundan tashqari, tadqiqot metodologiyasining muhim jihati sifatida psixologik xizmatni tashkil etishda evidence-based yondashuv tamoyillari asos qilib olindi. Ilmiy manbalarda ta’kidlanganidek, psixologik xizmat samaradorligi uning ilmiy asoslangan metodlar va standartlarga tayanib tashkil etilishiga bevosita bog‘liqdir [5].

Natija. Tadqiqot natijasida probatsiya tizimida psixologik xizmatni samarali tashkil etishning asosiy tashkiliy va metodologik komponentlari aniqlashtirildi. Xususan, psixologik xizmatning samaradorligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- ❖ psixologik xizmatni aniq institutsional tuzilma asosida tashkil etish;
- ❖ shaxsning individual xususiyatlarini hisobga oluvchi diagnostik va differensial yondashuvlarni qo‘llash;
- ❖ psixologik ta’sir choralarini ilmiy asoslangan metodlar asosida amalga oshirish;
- ❖ reabilitatsiya jarayonini ta’minlovchi kompleks (diagnostik–korreksion–reabilitatsion) tizimni shakllantirish.

Aniqlanishicha, psixologik xizmatni mazkur yo‘nalishlarda tizimli tashkil etish probatsiya nazoratidagi shaxslarning ijtimoiy moslashuvini oshirish va retsidiv xulq-atvor xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, metodologik jihatdan asoslangan yondashuvlarning amaliyotga integratsiyasi psixologik xizmat samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [8–11].

Muhokama. Olingan natijalar probatsiya tizimida psixologik xizmatni tashkil etish nafaqat tashkiliy choralar, balki ilmiy asoslangan metodologik yondashuvlar bilan ham bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Xususan, zamonaviy tadqiqotlarda probatsiya faoliyatining samaradorligi institutsional tashkil etish va individual yondashuvning uyg‘unlashuvi bilan belgilanadi [8]. Bu esa psixologik xizmatni tizimli ravishda rejalashtirish va uni aniq strukturaga ega mexanizm sifatida ko‘rib chiqish zarurligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda reabilitatsiya jarayonining samaradorligi shaxsning individual ehtiyojlarini hisobga olish va unga mos psixologik ta’sir choralarini qo‘llash bilan bog‘liqligi ta’kidlanadi [9]. Bu jihat psixologik xizmat faoliyatida diagnostika va differensial yondashuvning muhimligini yana bir bor ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, psixologik xizmatni tashkil etishda evidence-based yondashuvlardan foydalanish uning natijadorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, ilmiy asoslangan metodlar va standartlarni amaliyotga joriy etish psixologik xizmat faoliyatining sifatini oshiradi hamda reabilitatsiya jarayonining barqarorligini ta’minlaydi [10].

Bundan tashqari, psixologik xizmatning samaradorligi uning kompleks xarakteriga bog‘liq bo‘lib, bunda diagnostik, korreksion va reabilitatsion yo‘nalishlarning o‘zaro integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi [5]. Shu jihatdan, probatsiya tizimida psixologik xizmatni rivojlantirish uni yagona metodologik tizim asosida tashkil etishni talab etadi.

Umuman, olingan natijalar probatsiya tizimida psixologik xizmatni samarali tashkil etish uchun uning tashkiliy va metodologik asoslarini uyg‘un holda rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot probatsiya tizimida psixologik xizmatning tashkiliy va metodologik asoslari uning samaradorligini belgilovchi muhim omil ekanligini ko‘rsatdi. Tahlillar natijasida psixologik xizmatni samarali tashkil etish uchun aniq institutsional tuzilma, ilmiy asoslangan metodologik yondashuvlar hamda shaxsga yo‘naltirilgan kompleks tizim zarurligi asoslab berildi.

Shuningdek, psixologik xizmat faoliyatida diagnostik, profilaktik, korreksion va reabilitatsion yo‘nalishlarning o‘zaro integratsiyasi uning natijadorligini ta’minlovchi asosiy shartlardan biri ekanligi aniqlandi. Mazkur yondashuvlar psixologik xizmatni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham samarali tashkil etish imkonini beradi.

Xulosa o‘rnida, probatsiya tizimida psixologik xizmatni takomillashtirish, uni zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida rivojlantirish hamda evidence-based metodlarni amaliyotga keng joriy etish ijtimoiy moslashuvni ta’minlash va retsidiv xulq-atvorni kamaytirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi “Probatsiya to‘g‘risida” gi Qonuni: O‘RQ-938-son, 2024-yil 7-avgust // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonuni: O‘RQ-989-son, 2024-yil 5-noyabr. – Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining “Probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash” to‘g‘risidagi buyrug‘i, 2025-yil 19-iyul, № 403 // O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2025-yil 20-avgustda 3670-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
4. Andrews, D. A., Bonta, J., & Wormith, J. S. (2011). The Risk-Need-Responsivity (RNR) model: Does adding the Good Lives Model contribute to effective crime prevention? *Criminal Justice and Behavior*, 38(7), 735–755. https://doi.org/10.1177/0093854811406356
5. Bourgon, G., & Bonta, J. (2014). Reconsidering the responsivity principle: A way to move forward. *Federal Probation*, 78(2), 3–10.
6. McNeill, F., Farrall, S., Lightowler, C., & Maruna, S. (2012). How and why people stop offending: Discovering desistance. *Institute for Research and Innovation in Social Services*. https://doi.org/10.13140/RG.2.1.2008.9442
7. Polaschek, D. L. L. (2012). An appraisal of the risk–need–responsivity model of offender rehabilitation. *Legal and Criminological Psychology*, 17(1), 1–17. https://doi.org/10.1111/j.2044-8333.2011.02038.x
8. Raynor, P., & Robinson, G. (2009). Why help offenders? Arguments for rehabilitation as a penal strategy. *European Journal of Probation*, 1(1), 3–20. https://doi.org/10.1177/206622030900100102
9. Taxman, F. S. (2014). Second generation of RNR: The importance of systemic responsivity in expanding core principles of responsivity. *Federal Probation*, 78(2), 32–38.
10. Tuncer, A. E., Erdem, G., & de Ruiter, C. (2020). The impact of RNR-based training on probation officers. *Journal of Community Psychology*, 48(3), 921–931. https://doi.org/10.1002/jcop.22310.
11. Ward, T., & Maruna, S. (2007). *Rehabilitation: Beyond the Risk Paradigm*. London: Routledge.

O‘ZBEKISTONDA BARQAROR INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA YASHIL SUKUK MEXANIZMLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI

D.A.Ochilova
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
"Loyiha boshqaruvi" yo‘nalishi magistranti
Email: diyoraanvarovna22@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21933570

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda barqaror investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda yashil sukuk mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Yashil sukukning iqtisodiy mohiyati, ekologik loyihalarni moliyalashtirishdagi ahamiyati hamda uni milliy moliya bozoriga joriy etish istiqbollari yoritiladi.
Kalit so‘zlar: yashil sukuk, barqaror investitsiya, islomiy moliya, yashil iqtisodiyot, investitsiya loyihalari, moliyalashtirish.
Аннотация: В статье анализируются возможности использования механизмов зеленых сукук для финансирования устойчивых инвестиционных проектов в Узбекистане. Рассматриваются экономическая сущность зеленых сукук, их значение в финансировании экологических проектов и перспективы внедрения на национальном финансовом рынке.
Ключевые слова: зеленые сукук, устойчивые инвестиции, исламские финансы, зеленая экономика, инвестиционные проекты, финансирование.
Abstract: This article analyzes the opportunities for using green sukuk mechanisms to finance sustainable investment projects in Uzbekistan. It examines the economic essence of green sukuk, their role in financing environmental projects, and the prospects for their introduction into the national financial market.
Keywords: green sukuk, sustainable investment, Islamic finance, green economy, investment projects, financing.

Zamonaviy globallashuv va iqlim o‘zgarishi sharoitida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda faqatgina tijoriy samara va moliyaviy daromadchilikka tayanish o‘zini oqlamayapti. Jahon amaliyotida investitsiya resurslarini jalb qilish va joylashtirishda ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat va korporativ boshqaruv shaffofligini ta'minlovchi ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlariga talab tobora ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O‘zbekiston — 2030" strategiyasida "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini jadal joriy etish, suv resurslaridan tejamkor foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini sezilarli darajada oshirish hamda uglerod neytralligiga erishish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu keng ko‘lamli infratuzilmaviy va ekologik loyihalarni amalga oshirish uchun uzoq muddatli va barqaror moliyaviy resurslar talab etiladi.

Biroq bugungi kunda milliy iqtisodiyotda investitsiyalarni moliyalashtirishning asosiy manbai bo‘lib qolayotgan an'anaviy tijorat banklari kreditlari o‘zining yuqori foiz stavkalari, qisqa muddatliligi hamda garov ta'minotiga bo‘lgan qat'iy talablari sababli uzoq muddatda o‘zini oqlaydigan ekologik va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish ehtiyojini to‘liq qoplay olmayapti. Shuningdek, an'anaviy korporativ obligatsiyalar ham barcha toifadagi, ayniqsa axloqiy va islomiy moliya tamoyillariga tayanuvchi investorlar resurslarini qamrab olish imkoniyatiga ega emas.

Shu munosabat bilan, xalqaro moliya bozorlarida o‘zining yuqori samaradorligini ko‘rsatgan hamda ESG mezonlari va Shariat maqsadlari (Maqasid al-Shariah) mushtarakligiga asoslangan muqobil moliya instrumenti — Yashil Sukuk (Green Sukuk) qimmatli qog‘ozlarini O‘zbekiston kapital bozoriga tatbiq etish masalasi o‘ta dolzarb ahamiyat kashf etadi.

Tadqiqot jarayonida mantiqiy va qiyosiy tahlil, sintez, ekspertlik baholash, tizimli yondashuv hamda induktiv va deduktiv umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Nazariy va amaliy tahlillarni shakllantirishda xalqaro moliya institutlari (Islom taraqqiyot banki — IsDB, AAOIFI, IFSB) standartlari hamda barqaror moliyalashtirish bo‘yicha chet el va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari asos qilib olindi.

Yashil Sukuk instrumentining iqtisodiy mohiyatini tushunish uchun avvalo uning an'anaviy moliyalashtirish vositalari bo‘lmish an'anaviy obligatsiyalar hamda standart Islomiy Sukuklar bilan qiyosiy mutanosibligini o‘rganish talab etiladi.

1-jadval. An'anaviy obligatsiyalar, standart Sukuk va Yashil Sukukning qiyosiy tahlili.

Taqqoslash mezonlari	An'anaviy korporativ obligatsiya	Standart Sukuk instrumenti	Yashil Sukuk (Green Sukuk)
Iqtisodiy va huquqiy mohiyati	Qarz majburiyati (foizli majburiyat)	Aktivga egalik ulushi (shirkat/ijara)	Real yashil aktivga egalik ulushi
Daromad manbai	Belgilangan qat'iy foiz (ribo)	Aktivdan keladigan haqiqiy foyda ulushi	Yashil loyiha daromadidan ulush
Mablag‘lardan foydalanish yo‘nalishi	Istalgan qonuniy biznes faoliyati uchun	Shariatga zid bo‘lmagan tijorat faoliyati	Faqat sertifikatlangan ESG va yashil loyihalar
Tavakkalchilik (risk) taqsimoti	Emittent zimmasida (investor risk qilmaydi)	Investor va emittent o‘rtasida adolatli	Investor va emittent o‘rtasida adolatli
Investorlar qamrovi	An'anaviy institutsional investorlar	Islomiy va institutsional investorlar	Islomiy, an'anaviy va ESG/yashil fondlar

Jadval tahlilidan ko‘rinadiki, Yashil Sukuk vositasi uch karra filtratsiyadan o‘tadi: u faqatgina tijoriy daromadli bo‘lib qolmay, balki bir vaqtning o‘zida Shariatning axloqiy mezonlariga hamda ESG ekologik va ijtimoiy standartlariga qat'iy javob beradi.

Yashil Sukuk — bu tushumlari faqat va faqat ekologik va ijtimoiy jihatdan barqaror bo‘lgan loyihalarni (qayta tiklanuvchi energiya, resurs tejamkor infratuzilma, chiqindisiz texnologiyalar, suv resurslarini muhofaza qilish) moliyalashtirish va qayta moliyalashtirish uchun ishlatiladigan aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog‘ozdir.

Jahon amaliyotida Yashil Sukuk bozorining shakllanishi va rivojlanishi bo‘yicha bir nechta muvaffaqiyatli modellar mavjud. Jumladan, Malayziya tajribasi: 2017-yilda dunyoda birinchi bo‘lib Yashil Sukukni emissiya qilgan mamlakat bo‘lib, Qiymatli qog‘ozlar komissiyasi tomonidan "Barqaror va mas'uliyatli investitsiyalar" (SRI Sukuk) ramkaviy konsepti ishlab chiqilgan va soliq imtiyozlari taqdim etiladi. Indoneziya tajribasi: 2018-yilda dunyoda birinchi bo‘lib Soveren (Davlat) Yashil Sukukini xalqaro bozorga chiqargan. Islom taraqqiyot banki (IsDB) tajribasi: IsDB tomonidan chiqarilgan Green Sukuk instrumentlari orqali rivojlanayotgan a'zo mamlakatlarda infratuzilma va suv ta'minoti loyihalari moliyalashtirilmoqda.

Xalqaro tajribaning ijobiy ko‘rsatkichlariga qaramay, O‘zbekiston sharoitida investitsiya loyihalarini Yashil Sukuk orqali moliyalashtirish tizimini yo‘lga qo‘yishda bir qator tizimli va institutsional to‘siqlar ko‘zga tashlanmoqda: normativ-huquqiy bazaning mukammal emasligi (Fuqarolik kodeksi va qimmatli qog‘ozlar qonunchiligida SPV va Sukuk tushunchalarining to‘liq aks etmagani), yashil taksonomiya va standartlarning yetishmasligi, kapital bozorining ikkilamchi likvidligi pastligi hamda ESG va Shariat auditini birga olib bora oladigan kadrlar tanqisligi.

Investitsiya Investitsiya loyihalarida Yashil Sukuk mexanizmini qo'llash va ularning amaliy nazoratini yo'lga qo'yish uchun quyidagi 3 bosqichli amaliy ketma-ketlik taklif etiladi:

1. Loyiha va aktivlarni saralash: Dastlab loyiha tashabbuskori (korxona yoki tijorat banki) investitsiya taklifining ekologik hamda ijtimoiy ko'rsatkichlarini shakllantiradi. Loyihaning yashil iqtisodiyot mezonlariga mosligi Ekologiya vazirligi va sohaga oid normativlar bo'yicha baholanadi. Bir vaqtning o'zida Shariat kengashi tomonidan loyihadan olinadigan daromad manbalarining pokligi hamda aktivlar xarakteri ko'rib chiqiladi.

2. Emissiya va kapitalni jamlash: Emittent loyiha aktivlariga egalik qiluvchi Maxsus maqsadli kompaniya (SPV) tashkil etadi. SPV fond birjasi orqali Yashil Sukuk sertifikatlarini muomalaga chiqaradi va investorlardan (jumladan, Islom taraqqiyot banki va xususiy investitsiya fondlaridan) maqsadli sarmoyalarni jalb qiladi.

3. Amaliy monitoring va daromadlar taqsimoti: Jalb qilingan mablag'larning faqat belgilangan infratuzilmaviy va ekologik maqsadlarga sarflanishi AAOIFI (GS 11) standartlari asosida har chorakda

audit qilinadi. Loyihani ekspluatatsiya qilishdan tushgan amaliy daromadlar (masalan, qayta tiklanuvchi energiya yoki resurs tejamkorlikdan olingan tushum) hisobidan investorlarga shartnomaga muvofiq foyda ulushi to'lab boriladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarini kengaytirishda Yashil Sukuk qimmatli qog'ozlaridan foydalanish bir qator iqtisodiy va ijtimoiy afzalliklarga ega. Ushbu mexanizmni amaliyotga tatbiq etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchilikka Islomiy moliya instrumentlari hamda SPV kompaniyalari faoliyatini tartibga soluvchi normativlarni kiritish;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Ekologiya vazirligi hamkorligida milliy Yashil Taksonomiyani tasdiqlash;

Energetika va infratuzilma sohasida IsDB ko'magida dastlabki tajriba (pilot) Sukuk emissiyalarini amalga oshirish;

Yashil Sukuk emissiyasi bilan shug'ullanuvchi emittentlar va investorlar uchun soliqiy rag'batlantirish tizimini yaratish;

Tijorat banklari va loyiha menejerlarining ESG hamda Islomiy moliya yo'nalishidagi kadrlar salohiyatini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

AAOIFI. (2024). Governance and Sustainability Standards for Islamic Financial Institutions (GS 11). Manama: Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions.

Dusuki, A.W. (2020). Corporate Social Responsibility and ESG Integration in Islamic Finance. *ISRA International Journal of Islamic Finance*, 12(2), 180–195.

IFSB. (2025). Islamic Financial Services Industry Stability Report 2025: Sustainability and ESG Standards. Kuala Lumpur: Islamic Financial Services Board.

IsDB. (2023). Green Sukuk and Sustainable Infrastructure Development. Jeddah: Islamic Development Bank.

Mohsin, M.I.A., Dinar, A.M., & Magda, A. (2020). Financing Sustainable Development: Green Sukuk and ESG Integration. Springer.

Olimov, A.B. (2024). Sanoat klasterlarida investitsiya loyihalarini monitoring qilishning zamonaviy usullari. *Bozor, pul va kredit*, (1), 72–79.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2023). "O‘zbekiston — 2030" strategiyasi to‘g‘risida. PF-158-son. Toshkent.

Rahmonov, Sh. (2025). Hududiy investitsiya loyihalarini baholashda ESG indikatorlarini qo‘llash va risklarni boshqarish. *Moliya va bank ishi*, (1), 88–95.

Umar, M., Ji, X., & Kirikkaleli, D. (2021). Carbon Neutrality and Green Investments: The Role of Sustainable Islamic Finance. *Journal of Environmental Management*, 295, 113123.

Vahobov, A.V., & Malikov, T.S. (2021). Moliya va investitsion loyihalarni baholash. Toshkent: "Iqtisod-Moliya".

OGAHIY LIRIKASIDAGI “VAFO” KATEGORIYASINING FALSAFIY TAHLILI

Sherali Shavkatovich Shavkatov
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tadqiqotchisi
Email: *sheradonis2022@gmail.com* https://orcid.org/0009-0001-1130-4419
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21933893

Annotatsiya. Mazkur maqolada Muhammad Rizo Ogahiy ijodida vafo va sadoqat tushunchalarining axloqiy, falsafiy va ijtimoiy mazmuni tahlil qilinadi. Shoirning g‘azal, ruboiy, qit’a va boshqa janrlardagi asarlari asosida vafo konsepsiyasining oshiq-ma’shuq munosabatlari, insonlararo munosabatlar hamda dunyoning o‘tkinchiligi bilan bog‘liq jihatlari ochib beriladi. Ogahiy ijodida vafo, avvalo, insonning yuksak axloqiy fazilati, muhabbat va sadoqatning muhim mezoni sifatida talqin qilinishi, bevafo-lik esa salbiy axloqiy hodisa sifatida qoralangani ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, sadoqat tushunchasining do‘stlik, insoniy munosabatlar, ijtimoiy-siyosiy hayot va komil inson konsepsiyasi bilan bog‘liqligi yoritiladi. Tadqiqotda Ogahiy qarashlari Forobiy, Navoiy, Jomiy va Attor kabi mutafakkirlarning axloqiy qarashlari bilan qiyosiy jihatdan mushohada qilinadi. Tahlil natijasida Ogahiy merosida vafo va sadoqat shaxsiy fazilat doirasidan tashqariga chiqib, insoniylik, ishonch, ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy kamolotning muhim mezoni sifatida namoyon bo‘lishi asoslanadi. Mazkur axloqiy qadriyatlarning bugungi yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasidagi ahamiyati ham ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Muhammad Rizo Ogahiy, vafo, sadoqat, bevafo-lik, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy-falsafiy qarashlar, insoniylik, muhabbat, do‘stlik, komil inson, ma’naviy kamolot, axloq, falsafiy-estetik qarashlar.

Аннотация. В данной статье анализируется этическое, философское и социальное содержание понятий «верность» и «преданность» в творчестве Мухаммада Ризы Огахи. На основе газелей, рубаи, кытъа и других произведений поэта раскрываются различные аспекты концепта верности, связанные с отношениями влюблённых, межличностными отношениями, а также с философским осмыслением бренности и непостоянства мира. Показано, что в творчестве Огахи верность прежде всего рассматривается как высокое нравственное качество человека, важнейший критерий любви и преданности, тогда как неверность осуждается как отрицательное нравственное явление. Особое внимание уделяется взаимосвязи понятия преданности с дружбой, человеческими отношениями, общественно-политической жизнью и концепцией совершенного человека. В статье взгляды Огахи рассматриваются в сопоставлении с этическими воззрениями таких мыслителей, как аль-Фараби, Алишер Навои, Абдурахман Джами и Фарид ад-Дин Аттар. В результате анализа обосновывается, что в наследии Огахи верность и преданность выходят за рамки индивидуального нравственного качества и выступают важными критериями человечности, доверия, социальной стабильности и духовно-нравственного совершенствования. Также раскрывается значение данных нравственных ценностей для духовно-нравственного воспитания современной молодёжи.

Ключевые слова: Мухаммад Риза Огахи, верность, преданность, неверность, нравственные ценности, социально-философские взгляды, человечность, любовь, дружба, совершенный человек, духовное совершенствование, этика, философско-эстетические взгляды.

Abstract. This article analyzes the ethical, philosophical, and social meanings of the concepts of fidelity and loyalty in the works of Muhammad Riza Agahi. Based on the poet’s ghazals, rubai, qit’a, and other literary works, the study explores various aspects of the concept of fidelity in relation to the relationships between lovers, interpersonal relations, and the philosophical understanding of the transience and instability of the world. The article demonstrates that in Agahi’s works, fidelity is primarily interpreted as a high moral virtue and an essential criterion of love and loyalty, whereas infidelity is condemned as a negative moral phenomenon. Particular attention is paid to the relationship between loyalty and friendship, human relations, socio-political life, and the concept of the perfect human being. Agahi’s views are also examined comparatively in relation to the ethical ideas of such thinkers as al-Farabi, Alisher Navoi, Abdurahman Jami, and Farid al-Din Attar. The analysis demonstrates that in Agahi’s intellectual and literary heritage, fidelity and loyalty extend beyond the sphere of individual moral qualities and function as important criteria of humanity, trust, social stability, and spiritual and moral development. The article also highlights the significance of these moral values for the spiritual and ethical education of contemporary youth.

Keywords: Muhammad Riza Agahi, fidelity, loyalty, infidelity, moral values, socio-philosophical views, humanity, love, friendship, perfect human being, spiritual development, ethics, philosophical and aesthetic views.

Muhammad Rizo Ogahiy ijodida insonning ma’naviy-axloqiy qiyofasini belgilovchi vafo, sadoqat, ahd, rostgo‘ylik, ishonch va mas’uliyat kabi tushunchalar o‘zaro uzviy aloqador holda namoyon bo‘ladi. Shoirning mazkur kategoriyalarga munosabati faqat ishqiy munosabatlar doirasi bilan cheklanmay, insonlararo munosabatlar, axloqiy tanlov, ijtimoiy ishonch va shaxsning ma’naviy mas’uliyati kabi masalalarni ham qamrab oladi. Shu jihatdan Ogahiy ijodida vafo tushunchasi insonning so‘zi va amali birligi, o‘z ahdiga sodiqligi hamda boshqa inson oldidagi ma’naviy majburiyatini anglash bilan bog‘liq yaxlit axloqiy-falsafiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Shoirning:

“E’timod etma bevafo so‘ziga,
Do‘stlik birla boqmagil yuziga.
Shum erur hay’ati diydori,
Mayl ko‘rguzmagil oning sori.” [9.2023:B.438]

baytlarida vafo tushunchasi, avvalo, ishonch kategoriyasi bilan bog‘lanadi. Bu yerda “e’timod” – ishonch tushunchasi markaziy o‘rin egallab, uning qarama-qarshi qutbida “bevafo” inson obrazi turadi. Shoir bevafo kishining so‘ziga ishonmaslik, u bilan do‘stona munosabat o‘rnatishda ehtiyotkor bo‘lish zarurligini ta’kidlaydi. Mazkur fikr zamirida insonning boshqa shaxsga ishonishi uning axloqiy sifatlarini anglash va baholash bilan bog‘liq ekanligi haqidagi qarash mujassam.Falsafiy nuqtayi nazardan, ishonch insonlararo munosabatlarning barqarorligini ta’minlovchi muhim ma’naviy omillardan biridir. Biroq ishonch o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi; u rostgo‘ylik, va’daga sodiqlik va amaliy xatti-harakatlar orqali shakllanadi. Shu sababli Ogahiy talqinida vafo ishonchning axloqiy asosi, bevafo-lik esa ishonchning yemirilishiga olib keluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holatda shoir insonning tashqi qiyofasidan ko‘ra uning ichki axloqiy mohiyatiga e’tibor qaratadi. Demak, insonni baholashning asosiy mezoni uning mavqei yoki tashqi ko‘rinishi emas, balki so‘zining ustidan chiqishi va o‘zgalarga nisbatan sadoqatli munosabatda bo‘lishidir. Ogahiyning:

“Ko‘ngulni bog‘lama nomard va’dasida dame –
Ki, va’dasida aning bo‘lmag‘ay vafo hargiz.” [9.2023:B.440]

baytida esa vafo va’da va axloqiy mas’uliyat bilan bevosita bog‘lanadi. Shoir insonni nomard kishining va’dasiga ko‘ngil bog‘lamaslikka chaqiradi. Bu yerda va’da oddiy og‘zaki bayonot emas, balki inson zimmasiga muayyan axloqiy majburiyat yuklovchi hodisa sifatida talqin qilinadi.

Va’da berish orqali inson kelajakdagi xatti-harakatini ma’lum darajada o‘z zimmasiga oladi. Shuning uchun va’daning bajarilishi insonning axloqiy yaxlitligini namoyon etsa, uning buzilishi so‘z va amal o‘rtasidagi ziddiyatni yuzaga keltiradi. Ogahiy “va’dasida ... vafo hargiz” bo‘lmasligini ta’kidlar ekan, insonning ma’naviy qadr-qimmati uning aytgan so‘zlari bilangina emas, balki o‘z so‘zini amaliy faoliyatida tasdiqlay olishi bilan belgilanadi, degan falsafiy xulosaga keladi.

Shu nuqtayi nazardan, “nomard” tushunchasi ham muhim mazmun kasb etadi. U shunchaki salbiy shaxsiy sifat emas, balki so‘z va amal birligini ta’minlay olmaydigan, o‘z majburiyatiga sodiq qolmaydigan shaxsning axloqiy tipini ifodalaydi. Mardlik esa, aksincha, o‘z so‘ziga egalik qilish, va’dasiga turish va o‘zgalarning ishonchini oqlash bilan tavsiflanadi. Demak, Ogahiyda vafo insonning axloqiy qadr-qimmatini belgilovchi mezonlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Shoirning quyidagi misralarida esa chin va soxta vafo o‘rtasidagi farq yanada aniq ifodalanadi:

“Chunki da’voyi vafo qilg‘un muhabbat rasmida,
Gar jafo etsa falakdin bo‘lma g‘amgin, ey ko‘ngul.”

Mazkur baytda “da’voyi vafo” tushunchasining qo‘llanishi alohida falsafiy ahamiyatga ega. Chunki “da’vo” va “haqiqat” o‘rtasidagi tafovut shoirning axloqiy qarashlarida muhim o‘rin tutadi. Inson o‘zini vafodor deb e’lon qilishi mumkin, biroq uning haqiqiy vafodorligi so‘zda emas, balki amaliy xatti-harakatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, Ogahiy poetik tafakkurida axloqiy fazilatni uning tashqi ifodasi bilan emas, balki real mazmuni bilan baholash tamoyili ilgari suriladi. Bu esa so‘z va amal birligi masalasini yuzaga chiqaradi. Agar insonning so‘zi va amali bir-biriga mos kelmasa, uning vafo haqidagi da’vosi o‘zining axloqiy mazmunini yo‘qotadi. Shu ma’noda vafo — insonning o‘zini qanday ta’riflashi emas, balki uning qanday yashashi va qanday munosabatda bo‘lishi orqali namoyon bo‘ladigan fazilatdir.

Mazkur g‘oya quyidagi misralarda yanada ochiq ifodalanadi:

“Bevafo-lar qilsalar har va’dakim, yolg‘on erur,
Bas, anga aldanmagil, fahm aylabon chin, ey ko‘ngul.” [9.2023:B.202]

Bu misralarda vafo, rostlik va ishonch tushunchalari o‘zaro bog‘langan. Bevafo insonning va’dasi “yolg‘on” sifatida baholanadi. Demak, vafo va rostgo‘ylik o‘rtasida bevosita aloqadorlik mavjud: rostgo‘ylik so‘zning haqiqatga muvofiqligini, vafo esa o‘sha so‘zning amalda tasdiqlanishini anglatadi. Shu jihatdan ularni birgalikda insonning axloqiy ishonchliligini tashkil etuvchi mezonlar sifatida ko‘rish mumkin.

“Aldanmagil” murojaati esa Ogahiy qarashlarida axloqiy hushyorlik masalasini yuzaga chiqaradi. Shoir insonni faqat o‘zi vafodor bo‘lishga emas, balki soxta va’dani chin va’dadan farqlay olishga ham chaqiradi. Bu jihat vafo konsepsiyasining faol va passiv tomonlarini ko‘rsatadi: inson bir tomondan o‘z ahdiga sodiq bo‘lishi, ikkinchi tomondan esa o‘zgalarning soxta va’dalariga ko‘r-ko‘rona ishonmasligi lozim.

Ogahiy ijodida vafo muammosi shaxslararo munosabatlar bilan cheklanmay, dunyoning beqarorligi va adolat muammosi bilan ham bog‘lanadi. Buni quyidagi baytlarda kuzatish mumkin:

“Harob o‘lsun, ilohi, gunbazi davvori charxi dun,
Ki doim davri kajdur, tavri shum-u hay’ati vojun.
Aning kajravligi ta’sirindur bu jahon ichra,
Jafo ahli hamisha xurramu ahli vafo mahzun.” [9.2023:B.255]

Bu misralarda shoirning borliq va jamiyatdagi adolat muammosiga munosabati namoyon bo‘ladi. “Charxi dun”ning “kajravligi” orqali dunyo tartibidagi beqarorlik, nomutanosiblik va adolatsizlik ramziy tarzda ifodalanadi. Ayniqsa, “jafo ahli hamisha xurramu ahli vafo mahzun” degan qarama-qarshilik axloqiy fazilat va real hayotdagi natija o‘rtasidagi ziddiyatni ochib beradi.

Mazkur qarama-qarshilik falsafiy jihatdan muhim savolni yuzaga keltiradi: nega ezgulik va vafo sohibi har doim ham ijtimoiy yoki hayotiy jihatdan mukofotlanmaydi, aksincha, ba’zan jafokor inson muvaffaqiyatga erishadi? Ogahiy ushbu holatni “charxi dun”ning “kajravligi” bilan izohlaydi. Biroq shoir bundan vafo va ezgulikning qadrsizligi haqidagi xulosaga kelmaydi. Aksincha, mazkur ziddiyat fonida vafo va axloqiylikning haqiqiy qiymati yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan “jafo ahli” va “ahli vafo” o‘rtasidagi qarama-qarshilikni faqat ishqiy munosabatlar doirasida emas, balki axloqiy qadriyatlar va real ijtimoiy voqelik o‘rtasidagi ziddiyat sifatida ham baholash mumkin. Agar jamiyatda vafodor va halol insonlar qadrsizlanib, xiyonatkor va manfaatparast shaxslar ustunlikka ega bo‘lsa, bunday holat ijtimoiy munosabatlarda ishonchning zaiflashishiga olib keladi. Shu ma’noda Ogahiy tasvirlagan “kajravlik”ni insonlararo va ijtimoiy munosabatlardagi axloqiy nomutanosiblikning poetik ifodasi sifatida ham talqin qilish mumkin.

Ogahiy ijodida vafo konsepsiyasining eng aniq axloqiy-imperativ ifodalaridan biri quyidagi baytda mujassam:

“Chu ahd etding vafo, albatta, qilg‘il,
Va lekin bo‘lma ul ahdingga noqis.” [9.2023:B.81]

Ushbu baytda vafo shunchaki ma’naviy fazilat emas, balki axloqiy burch va majburiyat darajasida talqin qilinadi. “Ahd” insonning o‘z irodasi bilan zimmasiga olgan majburiyatini bildirsa, “vafo” ana shu majburiyatni bajarishning axloqiy ifodasidir. Shu sababli mazkur baytni Ogahiy axloqiy qarashlarining muhim tamoyillaridan biri sifatida baholash mumkin.

Baytdagi “albatta, qilg‘il” shaklidagi qat’iy buyruq ohangi vafo tushunchasining imperativ xarakterini ko‘rsatadi. Ya’ni inson ahd qilganidan keyin uni bajarish ixtiyoriy yoki vaziyatga bog‘liq hodisa emas, balki uning zimmasidagi axloqiy majburiyatdir. “Ahdingga noqis bo‘lma” mazmuni esa insonning so‘zi, niyati va amali o‘rtasida yaxlitlik bo‘lishini talab etadi. Mazkur qarashni ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan yanada kengaytirish mumkin. Chunki insonlararo munosabatlarning aksariyati muayyan ahd, kelishuv va o‘zaro majburiyatlarga asoslanadi. Do‘stlik, oila, hamkorlik, jamiyat va davlat bilan bog‘liq munosabatlarda ham ishonch va va’daga sodiqlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois Ogahiy talqinidagi “ahdga vafo” individual axloqdan ijtimoiy axloq darajasiga ko‘tariladigan tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi. Yuqoridagi baytlarning falsafiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, Ogahiy ijodida vafo konsepsiyasi ko‘p qatlamli axloqiy-falsafiy mazmunga ega. Shoir vafo tushunchasini faqat oshiq va ma’shuq o‘rtasidagi munosabat bilan cheklamaydi. Unda vafo ishonch, rostgo‘ylik, ahd, mas’uliyat, sadoqat, do‘stlik, insoniylik va ijtimoiy barqarorlik bilan uzviy aloqada talqin qilinadi.

Ogahiy poetik tafakkurida vafo va bevafo-lik bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki axloqiy holatni ifodalaydi. Vafo — so‘z va amal birligi, ahdga sodiqlik, o‘zgalarning ishonchini oqlash va axloqiy

mas’uliyatni anglash; bevafo-lik esa va’daning buzilishi, ishonchning yemirilishi va insoniy munosabatlarning izdan chiqishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, shoirning “jafo ahli” va “ahli vafo”ni qarama-qarshi qo‘yishi vafo muammosini ijtimoiy adolat masalasi bilan bog‘laydi. Bunda insonning axloqiy fazilati har doim ham moddiy yoki ijtimoiy mukofot bilan o‘lchanmasligi, biroq uning ma’naviy qimmati saqlanib qolishi ta’kidlanadi. Shu jihatdan Ogahiy uchun vafo insonning ichki ma’naviy mezoni bo‘lib, uning shaxsiy qadr-qimmati va jamiyatdagi munosabatlarning axloqiy sifatini belgilovchi omillardan biridir.

Umuman, mazkur baytlar asosida Ogahiyda vafo konsepsiyasini quyidagi falsafiy tizimda ifodalash mumkin: Ahd → va’da → vafo → ishonch → sadoqat → axloqiy mas’uliyat → insoniylik → ijtimoiy barqarorlik. Shu bilan birga, uning aksi bo‘lgan: Bevafolik → yolg‘on va’da → ishonchsizlik → xiyonat → munosabatlarning buzilishi → axloqiy inqiroz zanjiri yuzaga keladi.

Demak, Ogahiy falsafiy-estetik tafakkurida vafo insonning shaxsiy fazilati bo‘lish bilan birga, insonlararo munosabatlarni tartibga soluvchi va jamiyatning ma’naviy-axloqiy barqarorligini ta’minlovchi universal qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jihat shoir merosining nafaqat adabiy-estetik, balki ijtimoiy-falsafiy va axloqiy ahamiyatini ham belgilaydi.

Sadoqat tushunchasi vafo bilan ma’nodosh bo‘lib, ko‘proq chuqur fidoyilik, samimiy sodiqlik ma’nolarini qamrab oladi. Ogahiy asarida sadoqat masalasi do‘stlikda, oshna-og‘aynichilikda va shoh-xalq munosabatlarida aks etadi. U “sadoqat” so‘zini bevosita kam qo‘llagan bo‘lsa-da, sodiq yor, sodiq do‘st, vijdon va sadoqat mavzulari she’rlarida badiiy ifodasini topgan. Ayniqsa, Ogahiy ruboiy va qit’alarida sadoqatli do‘st va bevafo, xiyonatkor kimsalarning qiyosiy tavsifi berilgan. Misol uchun, quyidagi pand-nasihat ruhidagi qit’a buni yaqqol ko‘rsatadi:

“Ey ko‘ngul, kimsaki seni sevmagay – qoch oning tegrasiga, aylanma.
Nasihat qildilar o‘tganlar: ‘Sevmaganga suykanma’.” [9.2023:B.438]

Ushbu hikmatli satrlarning mazmuni: “Ey dil, kim seni sevmaydi (ya’ni senga sadoqat ko‘rsatmaydi), uning atrofida parvona bo‘lib aylanishni bas qil. O‘tganlar nasihat qilib aytganlar: ‘Seni sevmaganga yuz suqma (mehrini majburan singdirmoqchi bo‘lma)’.” Bu o‘git zamirida sadoqatga doir muhim fikr yotibdi – sadoqatsiz odam bilan do‘st tutinma. Zero, seni chin dildan sevmaydigan, yaxshiligingni istamaydigan kimsa senga xiyonat qilishi hech gap emas. Demak, sadoqat o‘zaro munosabatlarda hal qiluvchi mezon: sevgi yoki do‘stlik bir tomonlama bo‘lmasligi lozim, aks holda, u aldamchi. “Sevmaganga suykanma” – bu maqol darajasiga yetgan hikmat bo‘lib, xalq orasida ham mashhur (Navoiyning mashhur “Gar ul kim seni sevmadi, dushmaningdir” mazmunidagi bayti ham shunga yaqin). Ogahiy ushbu nasihatni o‘z nigohidan qayta ifodalab, sadoqatning ikki tomonlama bo‘lishini uqtarmoqda. Ogahiy do‘stlik va sadoqat mavzusida bir qator dostoniy asarlarni ham o‘zbekchaga tarjima qilgan (masalan, “Yusuf va Zulayho”, “Guliston” tarjimalari). Ularda sadoqatli do‘st, vafodor yor obrazlari ko‘zga tashlanadi. Xususan, Ogahiy Komil inson sifatlari haqida gapirar ekan, “mard sadoqat va vijdon bilan ish ko‘rar” deya ta’kidlaydi. U sadoqatsiz, makkor odamlarni qattiq tanqid qiladi: “bevafo, be-iltifot sipohiylar saltanatga yaqinlashtirilmadi” kabi satrlar bilan tarixiy asarlarida sadoqatsizlikni qoralaydi. Keltirilgan qit’aga ko‘ra, sadoqatni Ogahiy quyidagicha talqin qilmoqda: sadoqat – ikki tomonlama sevgiga asosdir, bir tomonlama fidoyilik o‘zini haqoratlashga aylanadi. Ko‘ngulga (dilga) murojaat qilingan bu satrlarda poetik didaktika yaqqol: agar kimdir seni sevmayotgan bo‘lsa, unga o‘z muhabbatingni majburlab yuklama, unga yaqin yurmagin. Chunki bu – natijasiz va o‘zingga zulmdir. Bu pand aslida sadoqat chegarasini bildiradi: sadoqat loyiq bo‘lganga, qadrlaydiganga ko‘rsatilishi kerak. Agar bir kishi senga yaxshilik ravo ko‘rmasa, seni sevmasa – demak, u sadoqatga noloyiq. Unga sadoqat ko‘rsatish – suvni qumga quyish kabidir, behuda. Bu – Ogahiy chiqargan xulosa.

Bu pandnoma kengroq ma’noda ham qo‘llanadi: jamiyatda ham sadoqatga noloyiq unsurlar bo‘ladi – xiyonatkor, sotqin kishilar. Ulardan uzoq yurgan ma’qul. Zero, Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” asarida ham qushlarga pand o‘laroq: “Dilda sadoqat bo‘lmasa, ul do‘st emas” degan jumla bor. Ogahiy ham shu ma’noni o‘z tilida qaytaradi. Farobiy hikmatlarida ham sadoqat alohida ta’kidlanadi: “Har kim ilm va hikmat egallamoqchi bo‘lsa, axloq-odobli bo‘lsin, so‘zining ustidan chiqsin, xiyonat va hiyladan yiroq bo‘lsin”. Bu erda “so‘zining ustidan chiqsin” – vafo, “xiyonatdan yiroq bo‘lsin” – sadoqat ko‘rsatkichidir. Demak, Farobiy ham sadoqatni komil inson fazilati deb bilgan. Ogahiy keltirgan qit’adagi “sevmaganga suykanma” nasihati ham aslida “xiyonatkor bilan yaqin bo‘lma” deganidir.

Ogahiy devonida bevosita “sadoqat” so‘zi ishlatilgan satrlarga ham ishora qilish mumkin. Ba’zi murabba’ va muxammaslarida shoir yorga nisbatan sadoqatini izhor etadi: “Sanam, senga sadoqatimni har lahza isbotladim” kabi ohanglar uchraydi. U hatto Olloqulixon davrida siyosiy faoliyat yuritib, Feruzxon

taxtga chiqanda ham, o‘zining xonga sadoqatli mulozim bo‘lib qolishini dil bayoni orqali ifoda etgan. Masalan: “Ogahiy ko‘ngli sulton ravnaqini istar, xon fidoyisi bo‘ldi” singari misralar uning vatanga va xonlikka sadoqatini ko‘rsatadi. Demak, sadoqat tushunchasi Ogahiyda faqat oshiqona emas, balki ijtimoiy-siyosiy sadoqat ma’nosida ham kelgan. Sadoqat arabcha “sidq” (rostlik, chinlik) so‘zidan bo‘lib, Rostgo‘ylik va samimiyat bilan hamohang tushunchadir. Qur’onda siddiqlik – payg‘ambarlardan keyin ikkinchi yuksak martaba: “Kim Alloh va Rasuli bilan birga bo‘lishni istasa – siddiqlardan bo‘lsin” (Niso, 69-oyat). Payg‘ambarimizning eng yaqin sahobasi Hazrati Abu Bakrga “as-Siddiq” (eng sodiq) laqabi berilgani ham sadoqat fazilatining Islomdagi ulug‘ o‘rni belgisidir. Hadislardan birida: “So‘zdangda rostgo‘y bo‘l, sadoqat ezgulikka, ezgulik jannatga yetaklaydi”, yana birida: “Bandaning Allohga eng mahbub sifati – sodiq (samimiy) bo‘lishidir” deyilgan. Navoiy “Mahbub ul-qulub”da do‘stning sadoqati haqida shunday yozadi: “Do‘st sadoqat ichra do‘stdir, sadoqatsiz do‘st – dushman mansabidadur”. Bu fikr Ogahiy qit’asidagi nasihat bilan aynan bir xil: sadoqatsiz kishi do‘st emas, balki dushmandir. Demak, Ogahiy buyuk mutafakkirlar poyida qadam olib, sadoqatni hal qiluvchi mezon sifatida qaraydi. Jomiy “Silsilat uz-zahab” asarida sadoqatni komil insonning uch belgisidan biri deydi (boshqalari ilm va shijoat). Buni u: “Komil kishi so‘zida rost, ishda sobit, do‘stga sadoqatlidir” tarzida bayon etadi. Ogahiy ham devonida adabiy an’ana bo‘yicha shu fazilatlarni tarannum etgan – masalan, uning ayrim qit’alarida ilm, odob, sadoqat birga tilga olinib, matlabi shuki, haqiqiy fazilatli inson – ilmli va sodiq insondir. Ijtimoiy nuqtai nazardan, Ogahiy yashagan muhitga nazar solsak: Xiva xonligi saroy hayotida turli fitna va xiyonatlar bo‘lgan – shoirning tarixiy asarlarida bu qayd etiladi. Masalan, uning “Riyoz ud-davla” tarixida ayrim amaldorlar xoinligi qoralangan. Ogahiy o‘sha asarda Xiva xoni Feruzning “bevafo va sadoqatsiz sipohiylarni o‘ziga yaqinlashtirmagani”ni qayd etadi. Bu faktning o‘zi ham sadoqatning qanchalik qadrlanganini ko‘rsatadi. Feruz kabi xon adiblarni, jumladan Ogahiyni qadrlar edi – bunga sabab, shubhasiz, Ogahiyning halolligi va sadoqati edi.

Ogahiy sadoqatni insoniylik mezonlaridan biri sifatida talqin etadi. U sadoqatli do‘stlarni olqishlab, sadoqatsizlardan ogohlantiradi. Shoir do‘st tanlash borasida aniq pand-nasihat beradi: “Seni sevuvchi bilan do‘st bo‘lgin, sevmagan (sadoqatsiz) kishidan uzoq yurgin”. Bu hikmat bugun ham har birimiz uchun qo‘llanma bo‘la oladi. Axir, hozir ham “sodiq do‘st – boshdosh, nosodiq do‘st – boshqosh” deganlariday, inson sadoqatsiz kimsadan ko‘ra yolg‘iz yurgani afzaldir. Ogahiy merosidan olingan ushbu saboq – yoshlar tarbiyasida ham, umuman ma’naviyat targ‘ibotida ham juda foydali manba bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Zubdatu-t-tavorix // Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi, izoh va ko‘rsatkichlar muallifi N. Jabborov. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009.

2. Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy Zubdatu-t-tavorix // Nashrga tayyorlovchi: N. Jabborov. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009.

3. Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy Asarlar. I jild. // Nashrga tayyorlovchi: G‘ulom Karim, muharrir: Subutoy Dolimov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1971.

4. Muhammad Riza Mirab Agahi. Jami‘al-vaqi’at-i sultani. Ed. by N. Tashev. – Samarkand-Tashkent: IICAS, 2012.

5. Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy Asarlar. II jild. // Nashrga tayyorlovchi: G‘ulom Karim, Mas’ul muharrir: Subutoy Dolimov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.

6. Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy Asarlar. V jild. // Nashrga tayyorlovchi: Subutoy Dolimov, muharrir: G‘ulom Karim. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.

7. Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy Asarlar. VI jildlik. Nashrga tayyorlovchi: G‘ulom Karim, muharrir: Subutoy Dolimov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1971-80.

8. Muhammad Rizo Ogahiy Ta’vizul oshiqin. – Toshkent: O‘zSSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1960.

9. Muhammad Rizo Ogahiy Taviz ul-oshiqin. Devon // Nashrga tayyorlovchi: Rafiddinov S. – Toshkent: Adabiyot, 2023.

THE ROLE OF THE SOCIOCULTURAL APPROACH IN DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF PHILOLOGY STUDENTS

Shodiyeva Nasiba Nurtosh qizi
PhD Student, Uzbekistan State World Languages University
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21933943

Abstract This article examines the role of the sociocultural approach in developing the communicative competence of philology students learning English as a foreign language. Drawing on Vygotsky's theory of mediated learning and the Zone of Proximal Development, the study argues that communicative competence is not merely an individual cognitive achievement but a socially constructed capacity that emerges through collaborative interaction, scaffolding, and culturally embedded language use. The article synthesizes theoretical positions from sociocultural theory and communicative competence models, and proposes pedagogical implications for organizing English language instruction at the higher education level. The findings suggest that classroom environments structured around peer collaboration, dialogic mediation, and authentic communicative tasks contribute significantly to learners' linguistic, sociolinguistic, discourse, and strategic competence.

Keywords: communicative competence, sociocultural approach, Zone of Proximal Development, scaffolding, philology students, English language teaching, mediation.

Annotatsiya Ushbu maqolada ingliz tilini chet tili sifatida o’rganayotgan filologiya talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda sotsiomadaniy yondashuvning o’rni tahlil qilinadi. Vygotskiyning vositachilik orqali o’rganish nazariyasi va Yaqin rivojlanish zonasi (YRZ) kontseptsiyasiga tayangan holda, tadqiqotda kommunikativ kompetensiya shaxsning yakka o’zi erishadigan kognitiv yutuq emas, balki hamkorlikdagi muloqot, skaffolding (tayanch ko’rsatish) va madaniy jihatdan shartlangan til qo’llanilishi orqali shakllanadigan ijtimoiy qurilgan qobiliyat ekanligi asoslanadi. Maqolada sotsiomadaniy nazariya va kommunikativ kompetensiya modellariga oid nazariy qarashlar sintez qilinib, oliy ta’lim bosqichida ingliz tili o’qitishni tashkil etishga oid pedagogik xulosalar taklif etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, o’quvchilar (tinglovchilar) o’rtasidagi hamkorlik, dialogik vositachilik va haqiqiy (autentik) kommunikativ topshiriqlar asosida tashkil etilgan sinf muhiti talabalarning lingvistik, sotsiolingvistik, diskurs va strategik kompetensiyalarini rivojlantirishga sezilarli darajada hissa qo’shadi.

Kalit so’zlar: kommunikativ kompetensiya, sotsiomadaniy yondashuv, Yaqin rivojlanish zonasi, skaffolding, filologiya talabalari, ingliz tili o’qitish, vositachilik.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль социокультурного подхода в развитии коммуникативной компетенции студентов-филологов, изучающих английский язык как иностранный. Опираясь на теорию опосредованного обучения Л.С. Выготского и концепцию зоны ближайшего развития (ЗБР), в исследовании утверждается, что коммуникативная компетенция представляет собой не только индивидуальное когнитивное достижение, но и социально конструируемую способность, формирующуюся посредством совместного взаимодействия, скаффолдинга (педагогической поддержки) и культурно обусловленного использования языка. В статье синтезируются теоретические положения социокультурной теории и моделей коммуникативной компетенции, а также предлагаются педагогические выводы по организации обучения английскому языку на уровне высшего образования. Результаты исследования показывают, что учебная среда, построенная на основе взаимодействия между учащимися, диалогического опосредования и аутентичных коммуникативных заданий, вносит значительный вклад в развитие лингвистической, социолингвистической, дискурсивной и стратегической компетенций обучающихся.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, социокультурный подход, зона ближайшего развития, скаффолдинг, студенты-филологи, обучение английскому языку, опосредование.

Introduction The development of communicative competence remains one of the central goals of foreign language education, particularly within philological programs where students are expected to achieve near-professional command of English for both academic and communicative purposes. Traditional approaches to language teaching have often prioritized grammatical accuracy over the socially situated nature of communication, resulting in learners who possess linguistic knowledge but struggle to use

language appropriately in authentic social contexts. In response to this limitation, the sociocultural approach, rooted in the work of Lev Vygotsky, has gained increasing attention as a theoretical and pedagogical framework capable of bridging the gap between linguistic knowledge and communicative performance.

The sociocultural approach reconceptualizes language learning as a fundamentally social process, in which higher mental functions, including language, are first experienced interpersonally before being internalized intrapersonally (Vygotsky, 1978). Within this framework, communicative competence is not simply the possession of grammatical rules but the ability to negotiate meaning collaboratively, to use language appropriately according to context, and to participate meaningfully in social interaction. This article aims to explore how the principles of the sociocultural approach can be applied to the development of communicative competence among philology students, and to outline the pedagogical conditions under which this development is most effectively realized.

Literature Review

The Concept of Communicative Competence

The notion of communicative competence was first introduced by Hymes as a corrective to Chomsky's narrow focus on linguistic competence, arguing that speakers require not only grammatical knowledge but also the sociolinguistic knowledge of when, where, and how to use language appropriately (Hymes, 1972). This foundational insight was later elaborated by Canale and Swain, who proposed a model comprising grammatical, sociolinguistic, discourse, and strategic competence (Canale & Swain, 1980). Bachman and Palmer subsequently expanded this model to include organizational and pragmatic knowledge, emphasizing the dynamic interaction between language ability and communicative context (Bachman & Palmer, 1996). These models collectively established that communicative competence is inherently social and contextual, a premise that aligns closely with sociocultural theory.

Sociocultural Theory and Language Learning

Sociocultural theory, as developed by Vygotsky and extended by later scholars, holds that learning occurs first on the social plane through interaction with more knowledgeable others, and only subsequently on the individual plane (Vygotsky, 1978). Central to this theory is the concept of the Zone of Proximal Development (ZPD), defined as the distance between what a learner can achieve independently and what they can achieve with guidance or collaboration (Vygotsky, 1978). Applied to second language acquisition, Lantolf argued that language development is mediated through social interaction, tools, and signs, with the teacher or peer acting as a mediating agent who scaffolds the learner's emerging abilities (Lantolf, 2000). Swain further extended this framework through the concept of collaborative dialogue, demonstrating that learners co-construct linguistic knowledge when engaged in meaningful, jointly negotiated tasks (Swain, 2000).

Integrating Sociocultural Theory with Communicative Competence

The convergence of sociocultural theory and communicative competence models suggests that competence is best developed not through isolated drills but through authentic, socially mediated communication. Kramsch emphasized that language and culture are inseparable, and that communicative competence necessarily includes the ability to interpret and negotiate cultural meaning (Kramsch, 1993). Byram extended this position by proposing the notion of intercultural communicative competence, arguing that effective communicators must be able to mediate between their own cultural frame of reference and that of their interlocutors (Byram, 1997). Savignon similarly stressed that communicative competence develops dynamically through use, is relative rather than absolute, and depends on the cooperation of all participants in an interaction (Savignon, 2002). Taken together, these perspectives support the argument that sociocultural, interactive classroom environments provide the most favorable conditions for developing genuine communicative competence.

Methodology

This article adopts a theoretical-analytical approach, synthesizing scholarly literature on sociocultural theory and communicative competence to derive pedagogical principles applicable to the teaching of English at philological faculties. The analysis draws on primary theoretical sources, including Vygotsky's original formulations of mediated learning, subsequent applications of sociocultural theory to second language acquisition, and established models of communicative competence. Based on this synthesis, the article identifies a set of pedagogical conditions and classroom practices consistent with a sociocultural orientation to language teaching.

Results and Discussion

The synthesis of sociocultural theory and communicative competence models yields several pedagogical implications for the teaching of English to philology students. First, instruction should prioritize collaborative tasks over individual, decontextualized exercises. Because competence develops through interaction within the learner's Zone of Proximal Development, classroom activities such as pair and group discussions, role-plays, and collaborative problem-solving tasks provide the interactional scaffolding necessary for internalization of communicative skills (Lantolf, 2000).

Second, scaffolding should be deliberately structured and gradually withdrawn. Teachers and more capable peers should provide graduated support, ranging from direct modeling to indirect prompting, allowing learners to progressively assume greater responsibility for their own language production. This aligns with Vygotsky's assertion that what a learner can do with assistance today, they will be able to do independently tomorrow (Vygotsky, 1978).

Third, communicative tasks should be authentic and culturally embedded. Given that communicative competence includes sociolinguistic and pragmatic dimensions (Canale & Swain, 1980; Bachman & Palmer, 1996), classroom materials should expose learners to genuine sociocultural contexts of language use, including register variation, discourse conventions, and intercultural communication strategies (Byram, 1997; Kramsch, 1993).

Fourth, assessment should evaluate the ability to negotiate meaning collaboratively, not merely grammatical accuracy in isolation. Consistent with Swain's concept of collaborative dialogue, learners' capacity to co-construct meaning with interlocutors should be treated as a core indicator of communicative competence (Swain, 2000).

Collectively, these findings indicate that the sociocultural approach offers not merely a theoretical justification but a set of concrete pedagogical practices capable of enhancing communicative competence among philology students in a manner consistent with contemporary understandings of language as a socially situated phenomenon.

Conclusion

The sociocultural approach provides a robust theoretical foundation for understanding and developing communicative competence among philology students. By reconceptualizing language learning as a socially mediated process grounded in collaborative interaction, this approach addresses the limitations of purely cognitive or grammar-centered instructional models. The integration of Vygotskian principles, particularly the Zone of Proximal Development and scaffolded mediation, with established models of communicative competence offers language educators a coherent framework for designing instruction that fosters authentic, contextually appropriate, and socially responsive language use. Future research should further explore the empirical outcomes of sociocultural-based interventions in philological education, particularly with respect to long-term gains in learners' discourse and intercultural competence.

References

1. Bachman, L. F., & Palmer, A. S. (1996). *Language testing in practice: Designing and developing useful language tests*. Oxford University Press.
2. Byram, M. (1997). *Teaching and assessing intercultural communicative competence*. Multilingual Matters.
3. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics, 1*(1), 1–47.
4. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics: Selected readings* (pp. 269–293). Penguin Books.
5. Kramsch, C. (1993). *Context and culture in language teaching*. Oxford University Press.
6. Lantolf, J. P. (Ed.). (2000). *Sociocultural theory and second language learning*. Oxford University Press.
7. Savignon, S. J. (2002). Communicative language teaching: Linguistic theory and classroom practice. In S. J. Savignon (Ed.), *Interpreting communicative language teaching: Contexts and concerns in teacher education* (pp. 1–27). Yale University Press.
8. Swain, M. (2000). The output hypothesis and beyond: Mediating acquisition through collaborative dialogue. In J. P. Lantolf (Ed.), *Sociocultural theory and second language learning* (pp. 97–114). Oxford University Press.
9. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.

EKOLOGIK NOSOG‘LOMLIK SHAROITIDA RUHIY KASALLIKLARNING ZAMONAVIY EPIDEMIOLOGIYASI: JAHON TENDENSIYALARI VA QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Niyazimbetova Umida Yusupbayevna
Shifokor Psixiatr Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazi ruhiy salomatlik bo‘yicha psixiatriya
Qoraqalpog‘iston Respublikasi xizmatida, Nukus shahri, O‘zbekiston
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934008

Annotatsiya. Maqolada ruhiy kasalliklar epidemiologiyasining zamonaviy jahon tendensiyalarining tahliliy sharhi keltirilgan bo‘lib, unda jiddiy texnogen va ekologik yuklamaga ega hududlarga alohida e’tibor qaratilgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi (Janubiy Orolbo‘yi) misolida Orol dengizi ekologik halokatining aholi ruhiy salomatligiga kompleks ta’siri ko‘rib chiqilgan. Tuz-chang aerozollari va toksikantlar ta’siridan tortib, ijtimoiy-iqtisodiy stress va solastalgiya sindromigacha bo‘lgan asosiy xavf omillari tahlil qilindi. Somatik patologiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan chegara astenik, xavotirli-depressiv va somatoform buzilishlar ustunlik qiladigan kasallanish tuzilmasi ochib berilgan. Hududda tibbiy-psixologik yordamni sog‘liqni saqlashning birlamchi bo‘g‘iniga integratsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.
Tayanch iboralar: ruhiy buzilishlar epidemiologiyasi, ekologik inqiroz, Orolbo‘yi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, xavf omillari, astenik sindrom, solastalgiya, toksik-ekologik stress.
Phraseological units constitute an important part of the lexical and semantic system of a language. Their linguistic specificity is determined by the interaction of structural stability and semantic integrity. According to A.P.Cowie, phraseology encompasses a broad range of fixed and semi-fixed combinations whose meanings and functions are determined not only by their lexical components but also by their conventional patterns of use [1. 1998: P. 1-10]. This approach makes it possible to consider phraseological units as flexible elements of communication rather than merely fixed combinations reproduced without semantic variation. One of the significant characteristics of phraseological units is their ability to develop multiple meanings. Polysemy in phraseology may emerge through semantic extension, metaphorical or metonymic transfer, generalization, specialization, and other processes of semantic change. R.Moon emphasizes the importance of contextual variation in the interpretation of fixed expressions and idioms, demonstrating that their meanings may be closely connected with patterns of actual usage [2. 1998: P. 1-25]. Consequently, the semantic structure of a polysemantic phraseological unit should be examined not only through dictionary definitions but also through its contextual realizations.

Polysemantic phraseological units are particularly relevant to stylistic analysis because different meanings can become prominent in different communicative situations. A phraseological unit may have a conventional meaning in one context and a more specific, evaluative, ironic, or metaphorically extended meaning in another. The stylistic value of the expression is therefore closely connected with the interaction between its established semantic structure and the particular context in which it occurs.

The relationship between phraseology and stylistic variation has also been discussed in the works of V.N.Telia, who emphasizes the expressive and evaluative dimensions of phraseological meaning [3. 1996: P. 80-103]. Phraseological units frequently contain connotative elements associated with emotion, evaluation, intensity, informality, or figurativeness. These characteristics make them particularly effective in discourse where the speaker or writer seeks not merely to communicate information but also to express an attitude towards the subject of communication. The stylistic potential of phraseological units becomes even more visible in contemporary digital discourse. Social media communication is characterized by brevity, immediacy, informality, interaction, and a strong orientation towards audience response. Online publications, while differing in degree of formality, increasingly employ expressive language in headlines, opinion pieces, commentaries, and feature articles in order to attract attention and encourage reader engagement. Phraseological units are highly compatible with these communicative requirements.

The digital environment can also facilitate contextual reinterpretation. A familiar phraseological expression may be used in a headline or social media post in such a way that its conventional meaning interacts with a new contextual meaning. This interaction can create ambiguity, humour, irony, or evaluative emphasis. Polysemantic phraseological units are particularly suitable for such stylistic manipulation because several related meanings are already available within their semantic structure. Thus, the stylistic potential of a polysemantic phraseological unit can be understood as its capacity to realize different semantic and expressive possibilities according to communicative context. In digital discourse, this potential may be activated through contextual specification, semantic extension, deliberate ambiguity, metaphorical reinterpretation, and interaction with visual or verbal elements surrounding the expression.

Polysemantic phraseological units are widely used in contemporary online journalism. Their main stylistic advantage is that they can express an idea in a concise, vivid, and easily recognizable form. Depending on the context, the same phraseological unit may acquire different shades of meaning and perform different stylistic functions. A clear example is the phraseological unit “keep an eye on”, which

means "to watch or monitor something carefully". In "*The Guardian"* journal article "Starwatch: a gloriously brilliant Venus and a young crescent moon" *(24 February 2025)*, the author writes:

- *"Keep an eye on the western sky for the pairing".*

Here, the phrase means "*watch the western sky carefully*" in the context of observing celestial bodies. The expression makes the text more natural and reader-friendly than a neutral form such as observe the western sky. Its use also creates a conversational tone. Thus, the phraseological unit performs an expressive and communicative function. The same expression appears in another article about navigation:

- *"...allows you to keep an eye on the wider landscape for navigational clues..."* (Those who prefer a map to an app abound in the age of GPS, *2 May 2025*).

Here, the phraseological unit on means "*to observe the surrounding landscape carefully*". The different contexts demonstrate the semantic flexibility of the expression.

The polysemantic phraseological unit "hit the nail on the head" provides another example. It means "to describe or identify something exactly." In the article "One of the most disgusting meals I've ever eaten: AI recipes tested" *(31 July 2024)*, the journalist writes:

- *"Rosson has hit the nail on the head there".*

The expression is used to say that Rosson has correctly identified the problem with AI-generated recipes. Here, the phraseological unit has an evaluative function. Instead of the neutral expression Rosson is exactly right, the journalist uses a vivid idiom. This makes the evaluation stronger and the text more expressive. The same phraseological unit is used in the article "Donald Trump embodies a collective madness in America" *(10 November 2024):*

- *"Simon Tisdall has hit the nail on the head..."*

In this context, the expression evaluates a political argument as accurate. Thus, the same phraseological unit can be transferred from one thematic field to another while preserving its semantic core. These examples demonstrate several important stylistic functions of polysemantic phraseological units in online publications. They can make texts more expressive, concise, evaluative, and attractive to readers. Context determines which meaning or semantic shade becomes prominent. In headlines, phraseological units can also create wordplay by bringing their figurative meaning into contact with the literal meaning of their components. Therefore, polysemous phraseological units should be regarded as active stylistic resources of contemporary digital discourse. Their semantic flexibility allows journalists to adapt familiar expressions to different topics while maintaining their visibility and expressive force.

A particularly important feature of digital discourse is the interaction between conventional and contextual meanings. This interaction is especially effective in headlines, where a familiar phraseological unit can attract attention and create additional associations.

Used literatures

1. Cowie A. P. Phraseology: Theory, analysis and applications. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – P. 1-10.

2. Moon R. Fixed expressions and idioms in English: A corpus-based approach. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – P. 1-25.

3. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: «Языки русской культуры», 1996. – P. 80-103.

4. https://www.theguardian.com/science/2025/feb/24/starwatch-a-gloriously-brilliant-venus-and-a-young-crescent-moon

5. https://www.theguardian.com/lifeandstyle/2025/may/02/those-who-prefer-a-map-to-an-app-abound-in-the-age-of-gps

6. https://www.theguardian.com/food/article/2024/jul/31/one-of-the-most-disgusting-meals-ive-ever-eaten-ai-recipes-tested

7. https://www.theguardian.com/theobserver/2024/nov/10/donald-trump-embodies-a-collective-madness-in-america

ADABIY TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING HAYOTIY KO‘NIKMALARINI GEYMIFIKATSIYA ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI.

Bobir Tojiboyev
Namangan davlat pedagogika instituti
Filologiya kefedrasi o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi
Email: boburjontojiboyev6998@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934208

Annotatsiya. Maqolada adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning funksional hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishda adabiyot fanining imkoniyatlari, geymifikatsiyaga asoslangan ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan va integrativ yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, Montessori, Reggio Emilia, HighScope va Waldorf o‘quv dasturlarining hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinib, milliy o‘quv dasturi mazmuni bilan qiyosiy baholangan. Muallif adabiy ta’lim orqali o‘quvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlash, muloqot, hamkorlik, muammolarni hal etish hamda hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligini asoslaydi. Shuningdek, o‘quv dasturlarini zamonaviy ijtimoiy muammolarni hisobga olgan holda takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Funksional hayotiy ko‘nikmalar, adabiy ta’lim, o‘quv dasturi, geymifikatsiya, adabiy kompetensiya, Milliy o‘quv dasturi, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, kommunikativ kompetensiya, integrativ yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, hayotiy vaziyat, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, o‘quvchi.

Аннотация. В данной статье с научно-методической точки зрения рассматривается проблема формирования функциональных жизненных навыков учащихся в процессе литературного образования. Обосновано значение жизненных навыков для социализации личности, развития самостоятельного мышления, культуры общения, умения решать проблемы и принимать правильные решения в различных жизненных ситуациях. В исследовании проанализированы возможности игровых (геймификационных) образовательных технологий, а также международных образовательных программ Montessori, Reggio Emilia, HighScope и Waldorf в развитии жизненных навыков обучающихся. Освещена роль содержания предмета «Литература» и учебных программ в формировании креативного и критического мышления, коммуникативной компетентности, сотрудничества, ответственности, инициативности и социально-эмоциональных навыков учащихся. Проведена оценка подходов к развитию жизненных навыков, представленных в Национальной учебной программе, выявлены существующие недостатки и предложены пути их устранения. В частности, разработаны научно-практические рекомендации по интеграции содержания литературных текстов с современными социальными проблемами, ориентации вопросов и заданий на реальные жизненные ситуации, а также усилению практической направленности литературного образования.

Ключевые слова: Функциональные жизненные навыки, литературное образование, учебная программа, геймификация, литературная компетенция, Национальная учебная программа, креативное мышление, критическое мышление, коммуникативная компетентность, интегративный подход, личностно-ориентированное обучение, жизненные ситуации, социально-эмоциональное развитие, учащийся.

Abstract. This article examines the development of students’ functional life skills in the process of literature education from a scientific and methodological perspective. It substantiates the importance of life skills for students’ socialization, independent thinking, communication culture, problem-solving abilities, and informed decision-making in real-life situations. The study analyzes the potential of gamification-based teaching technologies as well as the international educational approaches of Montessori, Reggio Emilia, HighScope, and Waldorf in fostering life skills. It also highlights the role of literature curricula in developing creativity, critical thinking, communicative competence, collaboration, responsibility, initiative, and socio-emotional skills. Furthermore, the article evaluates the approaches to life skills development reflected in the National Curriculum, identifies existing shortcomings, and proposes ways to improve them. In particular, it offers practical recommendations for integrating literary texts with contemporary social issues, designing learning tasks based on real-life contexts, and strengthening the

practical orientation of literature education to enhance students’ readiness for successful participation in modern society.

Keywords: Functional life skills, literature education, curriculum, gamification, literary competence, National Curriculum, creative thinking, critical thinking, communicative competence, integrated approach, learner-centered education, real-life situations, socio-emotional development, student.

Funksional hayot ko‘nikmalari insonga baxtli va qoniqarli hayot kechirishga yordam berish maqsadiga qaratilgani bilan bugungi kunda dolzarbdir. Bunday ko‘nikmalar oila va jamoada xotirjam yashash va muloqot qilish sharoitini kengaytiradi. Funksional hayot ko‘nikmalari odatda karyeraga erishish va uni saqlab qolish uchun zarur sanaladi. Masalan, ishga kirish uchun tayyorgarlik ko‘rish, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish, professional kiyinishni o‘rganish va yashash xarajatlarini hisoblash – bularning barchasi keng tarqalgan amaliy hayotiy ko‘nikmalarga misollardir. Biroq, ish ko‘nikmalari hayotning maktabda o‘rgatilishi mumkin bo‘lgan yagona jihati emas.

Hayotiy ko‘nikmalar o‘quvchilarning jamiyatda to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri, yaxshi yoki yomon, muhim yoki ahamiyatsiz deb hisoblagan fikrlarni shakllantirishga ham hissa qo‘shadi. Muhim sanalgan turli xil hayotiy ko‘nikmalarga diqqat qilish va o‘zini boshqarish, hamkorlik, qiyinchiliklarga munosabatini bildirish va tashabbus kabilar xos. Hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish o‘quvchilarda o‘z-o‘zini hurmat qilish, bezorilik va xurofot kabi hayotdagi muhim o‘zgarishlar va qiyinchiliklarni boshqarishga yordamlashadi. Bu ularga maktabda, jamoa yoki umuman jamiyatda o‘z fikrini bildirishga imkon beradi. Shuningdek, o‘z huquqlarini talab qilish va majburiyatlarini tan olish uchun zarur bo‘lgan bilim va tajribani taqdim etish orqali ularni qiyinchiliklarni yengishga tayyorlaydi.

O‘quvchilar hayotiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirganda faollashadi, o‘zlari va jamoalari uchun mas’uliyatni zimmalariga olishga qodir bo‘ladilar. Hayotiy ko‘nikmalar rivoji sog‘lom jamiyat taraqqiyoti uchun mas’ullikni his etadigan, o‘z huquq va majburiyatlarini hurmat qiladigan, o‘zgalarning xotirjamligi va farovonligi uchun qayg‘uradigan, fikrlarini dalillar bilan aniq ifodalaydigan fuqarolarga har tomonlama bog‘liq. Bu ko‘nikmalar o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi, ularni o‘zlashtirish yo‘llarini tanlash lozim. Ba’zi hayotiy ko‘nikmalar uyda yoki ishda kundalik tajribalar orqali rivojlantirilishi mumkin bo‘lsa-da, ular odamlarni bugungi dinamik va xilma-xil jamiyatda o‘ynashlari kutilgan faol rollarga tayyorlash uchun yetarli emas. Bunda adabiy ta’lim jarayonida o‘quv dasturlarining ahamiyatini alohida ta’kidlash joiz.

Adabiyotdan o‘quv dasturlari hayotiy ko‘nikmalar rivojiga ijobiy va jiddiy ta’sir ko‘rsatadigan me’yoriy hujjat bo‘lib, texnik ko‘nikmalardan ko‘proq narsalarni taklif etadi. Ular o‘quvchilarni tez rivojlanayotgan dunyoda muvaffaqiyatga erishishga tayyor, novator va o‘ziga ishongan shaxslarga aylantirishga xizmat qiladi. Adabiyot darslarida geymifikatsiya elementlari singdirilgan o‘quv dasturlari imkoniyatlaridan o‘z o‘rnida foydalanish kreativlik va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali o‘quvchilarni kelgusi hayotga tayyorlaydi. O‘quvchilar adabiyotni hayotga yo‘llovchi vosita sifatida o‘z biznesini tashkil qilish, kuchli san’at portfelini yaratish yoki adabiy hamjamiyatga mazmunli hissa qo‘shishni maqsad qilganlaridan qat’i nazar, o‘quv dasturlari professional va shaxsiy muvaffaqiyat uchun zamin yaratadi.

Kuzatishlarimizda jahon ta’lim tizimida hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning tizimli usullari sifatida o‘quv dasturlari tilga olinadi. Ularda quyidagi ta’lim falsafalari va o‘qitish amaliyotiga asoslangani ayonlashdi:

1. Montessori o‘quv dasturi. Ushbu dasturda o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan va o‘z-o‘zini boshqarishga qaratilgan ta’limga urg‘u beriladi. O‘quvchilar amaliy materiallar bilan ishlash orqali diqqatini jamlash qobiliyatini rivojlantiradilar. O‘qituvchilar mazkur jarayonda ma’ruzachi emas, balki fasilitatorlardir, chunki ular kashfiyot qilish, muammolarni topish va estetik rivojlanishga foyda keltiradigan tayyor muhit yaratadilar. Dastur qiziqish, innovatsiya va butun hayot davomida o‘rganishni rag‘batlantiradi, erkinlik va individual ta’limni targ‘ib qilish orqali muayyan xulq-atvorni tarkib toptiradi.

2. Reggio Emilia o‘quv dasturi tajribaga va loyihaga asoslangan o‘qitishdir. Bunda o‘quv dasturi va o‘quv jarayoni ta’lim subyektlari ishtirokini o‘z ichiga olgan holda ularning faol ishtirokiga asoslanadi. Ushbu dastur o‘quvchilarni ijobiy o‘quv muhiti orqali tadqiqot, muloqot va muammolarni hal qilish ko‘nikmalrini ishga solishni talab etadi.

*3. HighScope o‘quv dastur*ida hamkorlikdagi ta’limga katta e’tibor berilgan. O‘quvchilarning kundalik mashg‘ulotlari rejalashtirilgan bo‘lib, ular mustaqil bo‘lish, muammolarni hal etish va qaror qabul qilishga undash uchun bajariladi. Bunda dars jadvallari, kuzatish va baholash turlaridan foydalaniladi. O‘qituvchi jarayonda vositachi sifatida ishtirok etib, o‘zaro ta’sir va fikrlashni rivojlantiradi. Dastur real

hayot tajribalari va amaliy bilimlarga asoslangan kognitiv, ijtimoiy, hissiy va jismoniy rivojlanish maqsadiga qaratilgan.

4. Waldorf ta’lim o‘quv dasturi. Waldorf falsafasi o‘quvchilarning intellektual, badiiy va amaliy rivojlanishini o‘z ichiga olib, ularni kompleks rivojlantirishni nazarda tutadi. Ijodiy o‘rganish tasavvur, hikoya qilish, musiqa va san’atdan foydalanadigan tajribalarni anglatadi. O‘quv dasturi xronologik va yoshga qarab baholanadi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan mustahkam aloqa o‘rnatishni nazarda tutadi, bu esa ularni qiziquvchan, o‘zlarini erkin ifodalash, do‘stona va qulay muhitda axloqiy-estetik rivojlanishiga yordamlashadi.

Geymifikatsiyaga asoslangan hayotiy ko‘nikmalar kognitiv rivojlantirishni ifodalab, o‘quvchida mustaqil fikrlashni shakllantirish, g‘oyalarni tushunish va sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yish uchun yetarlicha mulohaza yuritish imkonini beradi. Adabiyot darslarida geymifikatsiya o‘quvchilarga so‘z boyligi, grammatika va tilni tushunishga xizmat qiladi. Ular og‘zaki va yozma til ko‘nikmalarini hikoya qilish, munozaralar, qo‘shiqlar va o‘qish mashg‘ulotlari orqali rivojlantiradilar. Til qobiliyatlari yaxshi muloqot o‘rnatish, o‘qishga tayyorgarlik ko‘rish, fikr va his-tuyg‘ularni ifodalashni ta’minlaydi. Bu esa shaxslararo ko‘nikmalar rivojida juda muhimdir.

O‘quv dasturlarida ko‘zda tutilgan adabiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali o‘quvchilar tengdoshlari va o‘qituvchilari bilan dialoglar qurish, bahslar uyushtirish, tinglash, gapirish va og‘zaki bo‘lmagan muloqot usullarini egallash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Fikrlarni to‘g‘ri ifodalashga ishonchni oshiradigan mashg‘ulotlar guruh ishi, rol o‘ynash va taqdimotlar hisoblanadi. O‘quvchilarning fikrlarini to‘g‘ri bayon etishi, hamkorlikda ishlash kabi ijobiy munosabatlarni o‘rnatishiga olib keladi. Savodxonlik, hisoblash va ijtimoiy ko‘nikmalar dunyosidagi asosiy tushunchalar bilan tanishtirish o‘quvchilarni hayotga tayyorlashi nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. O‘quv faoliyatiga jalb qilish ularni maktab sharoitiga moslashish, ko‘rsatmalarga bo‘ysunishga individual tarzda odatlantiradi.

Ijodkorlik va innovatsion fikrlashni rag‘batlantiruvchi o‘quv dasturiga asoslangan mashg‘ulotlar san’at, musiqa, dramatik o‘yinlarni oqilona qo‘llashni o‘zida mujassam etadi. Ijodiy tajribalar kognitiv moslashuvchanlikni, hissiy ifodani va odatiy bo‘lmagan fikrlashni rivojlantiradi, bu esa umumiy rivojlanish va umrbod o‘rganishda foydalidir. Ijtimoiy rivojlanishda hamkorlik, o‘zaro fikr almashish, hamdardlik va jamoaviy ishlar ajralib turadi. Guruh faoliyati, tengdoshlar bilan muloqot va hamkorlik o‘quvchilarga jamiyat qoidalarini o‘rganish va munosabatlar o‘rnatishga qo‘l keladi. Ijtimoiy rivojlanish o‘ziga ishonch va boshqa shaxslar bilan ijobiy aloqa o‘rnatish qobiliyatini oshiradi, bu esa shaxsning jamiyatda muvaffaqiyat qozonishi va farovon turmush tarzini yaratish va amal qilishga asos yaratadi.

Faol izlanish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kognitiv, ijtimoiy va hissiy muvozanatni qo‘llab-quvvatlaydigan o‘quv jarayonida o‘quvchilarning yaxlit rivojlanishi amalga oshadi. Bunda quyidagilar ajralib turadi:

1. Geymifikatsiyaga asoslangan o‘rganish o‘quvchilarni mazmunli o‘yinlardan foydalangan holda tadqiqotchi, tajriba o‘tkazuvchi va muammolarni hal qiluvchi rolini ijro etish asosida hayotga tayyorlash vazifalari amalga oshadi. Bu kognitiv, ijtimoiy, hissiy va jismoniy rivojlanishni kuchaytiradi hamda mavzuga qiziqishni oshiradi va tasavvurni rivojlantiradi. O‘yinga asoslangan o‘rganish orqali bolalar tanqidiy fikrlashni, narsa-hodisalarni tabiiy holda kuzatishlari, interaktiv muhitida o‘ziga ishonchni shakllantirishi mumkin.

2. Integrativ yondashuv kognitiv, ijtimoiy, hissiy va jismoniy rivojlanishni muvofiqlashtiradi. Butun tajribalar mavzuviy yoki loyihaga asoslangan o‘rganish mashqlari shaklida bo‘ladi. O‘qitish nafaqat mavzular o‘rtasida mazmunli munosabatlarni shakllantiradi, balki bilimlarni real hayotda qo‘llash, yaxlit tushunishga erishishni ta’minlaydi. Bu o‘rganishni o‘zaro bog‘liq, dolzarb va samarali qiladilar.

3. Inklyuziv va moslashuvchan o‘quv dasturlari. Moslashuvchan o‘quv dasturi o‘quvchilarning ehtiyojlari, qobiliyatlari va kelib chiqishini hisobga oladi. U ishtirok etishga asoslangan, maxsus ehtiyojli bolalarni qamrab oluvchi va madaniy xilma-xillikni o‘z ichiga oladi. Har bir o‘quvchining individual o‘qishi, optimal rivojlanishini yaxshilashdan tashqari, tegishlilik, tenglik va ijtimoiy-emotsional o‘rganishni ham osonlashtiradi.

4. Faoliyatga asoslangan o‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘rganishni amalda ishlash orqali o‘zlashtiradilar. Badiiy asarlar, san’at, musiqa va harakat uyg‘unligidagi ish turlari bolalar ishtirokida yanada faollashadi. Bu nafaqat o‘quvchining bilish qobiliyati, xotirasi, muammolarni yechish va amaliy qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki o‘rganish jarayonini yoqimli, mazmunli va samarali qiladi hamda umumiy rivojlanishi va ijodkorligiga ta’sir qiladi.

5. Muvozanatli baholash. Bu o‘quvchilarning o‘rganishi va rivojlanishini doimiy kuzatish orqali qayd etish va miqdoriy baholashni o‘z ichiga oladi. U o‘quvchining umumiy rivojlanganlik darajasi bo‘yicha dinamikani kuzatib borish, ko‘rsatmalardan xabardor qilish va talablarga javob berish uchun summativ va shakllantiruvchi baholashlarni birlashtiradi. Akademik rivojlanishdan farqli o‘laroq, masalaga yaxlit yondashishga urg‘u berish orqali u o‘qituvchilarga konstruktiv fikr-mulohazalar bildirish, o‘ziga ishonch va umrbod o‘rganish ko‘nikmalariga e’tibor qilishni ko‘zda tutadi.

6. Individual yondashuv. Adabiy ta’limda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini e’tiborga olgan holda ish ko‘rish o‘rinlidir. Mazkur yondashuv o‘quvchilarni kelgusi hayotda o‘quv-biluv jarayonini tabaqalashtirishga zamin hozirlaydi, bunda o‘quvchi va jamiyat talablari e’tibor markazida turadi. Tabaqalashtirilgan topshiriqlar, mustaqil o‘zlashtirilgan va idrok etilgan bilimlar orqali o‘quvchilar o‘quv faoliyatiga ijodiy yondashadilar. Tadqiqotchi F.Yusupovaning qayd etishicha, “Individula o‘qitish bilimlarni yaxshi o‘zlashtirmaydigan o‘quvchiga o‘qituvchining yangi vazifasi oldidagi qo‘rquvni yengish, doimiy ravishda o‘zlashtirgan va o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan bilimlar doirasiga murojaat qilish imkonini beradi. Individual yondashish jarayonida o‘quvchini qiynaydigan narsalarga katta e’tibor bilan qarash kerak, chunki o‘quvchining bilmasligi faqat uning aybi emas, ko‘pincha, bu o‘qituvchiga ham bog‘liq”.

Adabiy ta’lim o‘quvchilarning dinamik va xilma-xil dunyoda ijtimoiy-shaxsiy jihatdan muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradigan puxta o‘quv dasturlariga muhtoj. Biz tajriba-sinov ishlari davomida adabiyotdan o‘quv dasturlari mazmuniga e’tibor berib, ularda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish yoki bilim olishga qiziqtirish bo‘yicha me’yoriy hujjatlarni tahlil qildik. Unga ko‘ra, loyiha sifatida e’lon qilingan adabiyotdan “Milliy o‘quv dasturi”ning “Umumiy o‘rta ta’limda adabiyot fanini o‘qitishni rivojlantirish konsepsiyasi”da masalaga quyidagicha yondashilgan:

“adabiyot predmetining boshqa umumta’lim fanlari bilan integratsiyasi orqali o‘quvchilarni hayotning turli holatlariga tayyorlash imkoniyatini oshirish; adabiyot o‘quv fanining mazmuni o‘quvchilar o‘z hayotida qo‘llashlarini hisobga olib belgilanishiga erishish; adabiyot o‘qitishning barcha bosqichlarida o‘quvchilarda hayotning har bir hodisasi hamda odamlarning har bir xatti-harakatiga mustaqil va asosli baho bera olish ko‘nikmasini shakllantirish”

Yuqoridagi fikrlardan ayonlashadiki, hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishda milliy va ta’lim tizimi rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasiga tayanilgan, adabiyot o‘qitish mazmunini yangilash hamda xalqimizga xos milliy xususiyatlardan bu borada o‘rinli foydalanish yo‘llari belgilangan. Dasturning “Adabiy ta’lim asoslari” bandida adabiyot o‘qitishdan ko‘zlangan maqsadga erishishda “o‘qilgan badiiy asarni tushunish, undan hayotiy xulosalar chiqarish, badiiy asar o‘qishni hayotiy ehtiyoj hisoblash tuyg‘ularini tarbiyalash” muhim vazifalardan biri sifatida qayd etilgani ham bejiz emas. Bu amalda aynan shu jihatlarni ko‘zda turib ish ko‘rishni taqozo etadi.

“Adabiyot o‘qitishdagi mavjud muammolar” bandi tahlil qilinganda, mazmun-mundarija, metodik va kadrlar bilan bog‘liq muammolar tilga olinadi, lekin egallangan bilimlarni amalga tatbiq etish bilan bog‘liq masalalar yetarlicha yoritilmagani ham ko‘zga tashlanadi.

Adabiyot o‘quv fanidan rivojlantirladigam adabiy kompetensiyalar “AK5: asardagi obrazlarni tahlil qiladi, ularga munosabat bildiradi hamda munosabatini matn, boshqa manbalar va hayotdan olingan misollar yordamida asoslab beradi” tarzidagi talabdan boshqalari faqat bilimlarini badiiy asarlar tahliliga qo‘llashni nazarda tutadi. Bunda asosiy e’tibor asardan topish, munosabat bildirish, tushuntirish, tahlil qilish usullariga qaratilganini ta’kidlash joiz.

Hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, bizningcha, faqat mavzu doirasida muayyan bilimlarni va sifatlarnigina tarkib toptirish emas. Bunda aynan bola hayotda duch kelishi mumkin bo‘lgan turli muammolarga yondashish masalasi ham mavjud. Jumladan, bugungi kunda yoshlar o‘rtasida keng tarqalayotgan giyohvand moddalar, tabletkalar (“Vello” kabi til tagiga qo‘yib shimadigan modda), elektron sigaretlarga ruju qo‘yish, OITS, erta homiladorlik, buzg‘unchilik g‘oyalariga berilish oqibatida yuzaga keladigan salbiy oqibatlarning oldini olish masalasi ham kun tartibida turadi. Bu muammoga yechim topish yo‘llari ham juda dolzarbdir. O‘quv dasturlariga aynan shunday muammolar aks etgan adabiy matnlarni kiritish yoki darsliklarda qo‘yilayotgan savol-topshiriqlarni hayot bilan bog‘lashga yo‘naltiradigan yo‘sinda tuzish orqali ham muayyan natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдуллаев К. Алишер Навоий ижодини ўргатиш жараёнида фанлараро интеграциядан фойдаланиш. –Тошкент: Нодирабегим, 2021. –110 б.

2. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 1-qism. Q.Yo‘ldoshev va boshq. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 88 b.
3. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 2-qism. Q.Yo‘ldoshev va boshq. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 128 b.
4. Adabiyot [Matn]: 6-sinf uchun darslik / Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.
5. Форобий, Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 224 б.

КОММУНИКАТИВНЫЕ ФУНКЦИИ ДИАГНОСТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В МЕДИЦИНСКОМ ОБЩЕНИИ

Тураев Алишер Анваржон угли
Преподаватель кафедры обучения языкам в медицине Андижанского филиала Кокандского университета E-mail: alisherturayev2509@gmail.com
ORCID: 0009-0003-6613-3121
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934245

Аннотация. В статье рассматриваются коммуникативные функции диагностических терминов в медицинском общении. Диагностический термин анализируется не только как средство профессиональной номинации, но и как инструмент передачи клинической информации, аргументации врачебного решения, объяснения состояния пациента и регулирования взаимодействия между врачом и больным. На материале медицинского дискурса выделяются информативная, классифицирующая, аргументативная, регулятивная, объяснительная и психологически воздействующая функции диагностических терминов. Особое внимание уделяется различию между профессиональным и пациент-ориентированным употреблением терминов.

Ключевые слова: *медицинский дискурс, диагностический термин, медицинское общение, врач, пациент, коммуникация, прагматика, терминология.*

Введение. Медицинское общение представляет собой особый вид институциональной коммуникации, в котором языковые средства подчинены задаче сохранения здоровья, постановки диагноза, выбора лечения и объяснения медицинского решения пациенту. В исследованиях медицинского дискурса подчеркивается, что его стратегическими направлениями являются диагностика, лечение, медицинская консультация, оценка степени заболевания, рекомендации и контроль состояния пациента (Йорова, 2024, с. 39). Поэтому диагностические термины занимают в таком дискурсе центральное место: через них врач фиксирует клинический факт, соотносит жалобы пациента с медицинской нормой и формулирует профессиональное заключение.

Актуальность темы определяется тем, что один и тот же диагностический термин по-разному функционирует в разных коммуникативных условиях. В общении врача с врачом термин служит средством точной профессиональной передачи информации. В общении врача с пациентом он требует разъяснения, поскольку избыточная терминологическая плотность может привести к непониманию, тревоге или коммуникативному сбою. В медицинском дискурсе важна не только точность термина, но и его понятность для адресата.

Методы. В работе использованы описательный, семантико-прагматический и функционально-коммуникативный методы. Описательный метод позволил определить место диагностических терминов в структуре медицинского общения. Семантико-прагматический анализ применялся для выявления значения термина и его воздействия на адресата. Функционально-коммуникативный подход дал возможность рассмотреть термин как средство реализации речевой цели врача.

Материалом для анализа послужили диагностические единицы типа *диагноз, предварительный диагноз, окончательный диагноз, клиническое обследование, анализ, лабораторный результат, ультразвуковое исследование, рентгенологическое исследование, хронический панкреатит, гемоглобин, воспаление, недостаточность*. При интерпретации учитывались работы по медицинскому дискурсу и медицинской терминологии, в которых отмечается необходимость точного выражения медицинского понятия и правильной организации врачебно-пациентского общения (Косимов, 2003; Йорова, Хасанова, 2024).

Результаты. Анализ показал, что диагностические термины выполняют в медицинском общении несколько взаимосвязанных функций.

Первая функция – информативная. Диагностический термин передает сведения о состоянии пациента, выявленном признаке или результате обследования. Например, выражения *повышенное артериальное давление, снижение гемоглобина, воспалительный процесс, наличие камней в желчном пузыре* сообщают не просто отдельные факты, а клинически значимую информацию. В этой функции термин обеспечивает точность медицинского сообщения.

Вторая функция – классифицирующая. Диагностический термин относит состояние пациента к определенной группе заболеваний, симптомов или клинических состояний. Так, термины *острый гастрит*, *хронический панкреатит*, *железодефицитная анемия*, *сердечная недостаточность* не только называют заболевание, но и указывают на его тип, течение, причину или локализацию. Благодаря этому врач получает возможность включить конкретный случай в систему медицинских знаний.

Третья функция – аргументативная. Врач использует диагностические термины для обоснования своих решений: назначения дополнительных анализов, госпитализации, изменения лечения или консультации узкого специалиста. Например, фраза *«по результатам анализа выявлены признаки воспаления»* служит аргументом для назначения дальнейшего обследования. Таким образом, термин становится частью логической цепочки: жалоба – обследование – результат – диагноз – лечение.

Четвертая функция – регулятивная. Диагностический термин управляет дальнейшими действиями участников медицинского общения. После формулировки диагноза пациент получает рекомендации, направление на обследование или лечение. Например, термин *подозрение на пневмонию* предполагает рентгенологическое исследование, контроль температуры, анализ крови и наблюдение врача. Следовательно, термин организует поведение врача и пациента.

Пятая функция – объяснительная. Врач должен переводить профессиональную информацию на понятный пациенту язык. В работе С. Йоровой и Ф. Хасановой приводится показательный диалог: врач употребляет термин *«хронический панкреатит»*, после чего пациент спрашивает: *«Это что значит?»*, и врач вынужден дать пояснение в более простой форме (Йорова, Хасанова, 2024, с. 70). Этот пример показывает, что диагностический термин в пациент-ориентированной коммуникации нуждается в интерпретации.

Шестая функция – психологически воздействующая. Некоторые диагностические слова вызывают у пациента тревогу: *опухоль, подозрение, хронический, осложнение, недостаточность*. Поэтому врач должен учитывать эмоциональную реакцию адресата. Терминологическая точность не должна превращаться в коммуникативную резкость. В медицинском общении важны этичность, доброжелательность и учет социально-психологического состояния пациента.

Обсуждение. Коммуникативная эффективность диагностических терминов зависит от адресата, ситуации и жанра общения. В горизонтальной коммуникации, то есть между врачами, допустимы краткие и профессионально насыщенные формы: *дифференциальный диагноз, клиническая картина, лабораторный показатель*. В вертикальной коммуникации, то есть между врачом и пациентом, термин должен сопровождаться пояснением. М. Асронова отмечает, что медицинский дискурс может реализовываться как вертикально – от врача к пациенту, так и горизонтально – от врача к врачу или от ученого к ученому (Асронова, 2024, с. 276–279). Это различие напрямую влияет на выбор диагностической лексики.

Проблема заключается в том, что профессиональный термин может быть точным для специалиста, но непрозрачным для пациента. Если пациент не понимает значения диагноза, он не всегда правильно воспринимает рекомендации и не всегда осознает необходимость лечения. Поэтому диагностический термин должен выполнять не только номинативную, но и адаптационную функцию. Врач обязан соотнести термин с уровнем медицинской грамотности пациента, его возрастом, эмоциональным состоянием и ситуацией общения.

В медицинской терминологии также важна проблема единообразия. А. Косимов подчеркивает, что медицинский термин должен точно выражать определенное понятие, поскольку в профессиональной коммуникации неясность термина может привести к ошибкам и разночтениям (Косимов, 2003, с. 3–8). Это особенно значимо для диагностических терминов, так как они лежат в основе медицинского решения.

Заключение. Диагностические термины в медицинском общении выполняют не только функцию называния заболевания или состояния. Они передают информацию, классифицируют клинические факты, аргументируют врачебное решение, регулируют дальнейшие действия, объясняют пациенту медицинскую ситуацию и оказывают психологическое воздействие. Главным условием их эффективного употребления является сочетание терминологической точности и коммуникативной доступности. В профессиональном общении термин должен быть кратким и стандартизированным, а в общении с пациентом – понятным, этичным и при необходимости

разъясненным. Именно это обеспечивает успешность медицинского дискурса и повышает доверие пациента к врачу.

Список использованной литературы

1. Асронова М. Tibbiy diskurs tavsifi: yondashuv va tasniflar // *O‘zMU xabarlari*. – 2024. – Т. 1. – № 1.4. – С. 276–279.
2. Йорова С. *Ingliz va o‘zbek tibbiy nutqining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari*. – Самарканд: Fan bulog‘i, 2024. – 112 с.
3. Йорова С. К., Хасанова Ф. О. Tibbiy diskursga xos bo‘lgan kasbiy va kommunikativ kompetensiya // *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*. – 2024. – Vol. 1. – Issue 8. – С. 68–71.
4. Косимов А. *Tibbiy terminlar izohli lug‘ati*. 1-жилд. – Тошкент: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003. – 472 с.
5. Сафаров Ш. *Pragmalingvistika*. – Тошкент, 2008. – 318 с.

TAN JAROHATLARI YETKAZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA MAXSUS BILIMLARDAN FOYDALANISHNING AMALIYOTI

Ibadova Anjelika Ismatulloyevna
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi,
Samarqand viloyati IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi o'ta muhim ishlar bo'yicha tergovchisi podpolkovnik
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934296

Annotatsiya: Mazkur maqolada tan jarohatlari yetkazish bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish jarayonida maxsus bilimlardan foydalanishning amaliy jihatlari tahlil qilingan. Jinoyatlarni tergov qilishda sud-tibbiyot ekspertizasi, kriminalistika, biologiya va boshqa maxsus fanlar yutuqlaridan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, tergov harakatlari davomida ekspert va mutaxassislarning ishtiroki, ularning protsessual maqomi hamda maxsus bilimlarning dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashdagi o‘rni ko‘rib chiqilgan. Amaldagi tergov amaliyotida uchraydigan muammolar, xususan ekspertiza tayinlashdagi kechikishlar, tergovchi va ekspert o‘rtasidagi hamkorlikning ayrim kamchiliklari hamda zamonaviy kriminalistik texnologiyalarni qo‘llash bilan bog‘liq masalalar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: tan jarohati, maxsus bilimlar, sud-tibbiyot ekspertizasi, kriminalistika, tergov amaliyoti, ekspert, mutaxassis, dalillar, jinoyat protsessi

Аннотация: В данной статье проанализированы практические аспекты использования специальных знаний при расследовании преступлений, связанных с причинением телесных повреждений. Освещается значение применения достижений судебно-медицинской экспертизы, криминалистики, биологии и других специальных наук в процессе расследования уголовных дел. Кроме того, рассмотрены участие экспертов и специалистов в проведении следственных действий, их процессуальный статус, а также роль специальных знаний при собирании, проверке и оценке доказательств. Проанализированы проблемы, возникающие в современной следственной практике, в частности задержки при назначении судебных экспертиз, отдельные недостатки взаимодействия между следователем и экспертом, а также вопросы, связанные с применением современных криминалистических технологий. Сделан вывод о том, что системное и эффективное использование специальных знаний способствует более оперативному, объективному и качественному расследованию преступлений, а также обеспечивает научную обоснованность судебных решений.

Ключевые слова: телесные повреждения, специальные знания, судебно-медицинская экспертиза, криминалистика, следственная практика, эксперт, специалист, доказательства, уголовный процесс.

Abstract: This article analyzes the practical aspects of using specialized knowledge in the investigation of crimes involving bodily injuries. It highlights the importance of applying the achievements of forensic medicine, criminalistics, biology, and other specialized sciences during criminal investigations. The study also examines the participation of experts and specialists in investigative activities, their procedural status, and the role of specialized knowledge in the collection, verification, and evaluation of evidence. Furthermore, the article discusses the challenges encountered in investigative practice, including delays in the appointment of forensic examinations, shortcomings in cooperation between investigators and experts, and issues related to the application of modern forensic technologies. The study concludes that the systematic and effective use of specialized knowledge contributes to more efficient, objective, and high-quality criminal investigations while ensuring the scientific reliability of judicial decisions.

Key words: bodily injuries, specialized knowledge, forensic medical examination, criminalistics, investigative practice, expert, specialist, evidence, criminal procedure.

O‘zbekiston Respublikasida insonning hayoti, sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmati eng oliy ijtimoiy qadriyat sifatida e'tirof etiladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat ekani, demokratik huquq va erkinliklar esa Konstitutsiya hamda qonunlar bilan himoya qilinishi belgilangan. Shuningdek, Konstitutsiyaning 54-moddasiga ko‘ra, insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadi hisoblanadi. Mazkur konstitutsiyaviy normalar fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi qaratilgan jinoyatlarni o‘z vaqtida aniqlash, ularni har tomonlama va xolisona tergov qilish zarurligini belgilaydi.

Tan jarohati yetkazish bilan bog‘liq jinoyatlar amaliyotda eng ko‘p uchraydigan jinoyatlardan biri bo‘lib, ularni tergov qilishda hodisaning sodir etilish mexanizmini, jarohatning kelib chiqish sabablarini, og‘irlik darajasini hamda aybdor shaxsning harakatlari bilan yuzaga kelgan oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘liqlikni aniqlash alohida ahamiyatga ega. Mazkur holatlarni faqat tergovchining huquqiy bilimlari asosida aniqlash har doim ham mumkin emas. Shu sababli sud-tibbiyot, kriminalistika, biologiya, kimyo va boshqa fanlar yutuqlariga asoslangan maxsus bilimlardan foydalanish zarurati yuzaga keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida ekspert va mutaxassislarning jinoyat ishlarini yuritishda ishtirok etishi, ekspertiza tayinlash tartibi hamda maxsus bilimlardan foydalanishning protsessual asoslari belgilab qo‘yilgan. Ekspert tomonidan berilgan xulosa ko‘plab hollarda jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish, aybdor shaxsning javobgarlik darajasini belgilash hamda ish bo‘yicha qonuniy va asosli qaror qabul qilishda muhim dalillardan biri hisoblanadi [1].

Tergov amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, tan jarohati yetkazish jinoyatlari bo‘yicha hodisa joyini ko‘zdan kechirish, biologik izlarni aniqlash, qon namunalarini olish, jarohat yetkazilgan qurolni tekshirish va jabrlanuvchini sud-tibbiy ekspertizadan o‘tkazish jarayonlarida mutaxassislarning ishtiroki jinoyatni fosh etish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, amaliyotda mushtlashuv natijasida jabrlanuvchining vafot etgani yuzasidan dastlab ehtiyotsizlik oqibatida sodir bo‘lgan hodisa degan taxmin ilgari surilgan. Biroq sud-tibbiyot ekspertizasi bosh suyagi sinishi va kuchli mexanik zarba oqibatida miya shikastlanganini aniqlagan, kriminalistik ekspertiza esa hodisa joyidan topilgan metall buyumdagi qon izlari jabrlanuvchiga tegishli ekanligini tasdiqlagan. Natijada jinoyatning haqiqiy sodir etilish mexanizmi aniqlanib, ish to‘g‘ri kvalifikatsiya qilingan.

Insonning hayoti va sog‘lig‘i davlat tomonidan muhofaza qilinadigan eng muhim ijtimoiy qadriyatlardan biridir. Shu bois tan jarohati yetkazish bilan bog‘liq jinoyatlarni o‘z vaqtida aniqlash va har tomonlama tergov qilish huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Mazkur toifadagi jinoyatlarni tergov qilish jarayonida hodisaning sodir bo‘lish mexanizmi, jarohatning og‘irlik darajasi, uning qanday vosita bilan yetkazilgani hamda jabrlanuvchining sog‘lig‘iga yetkazilgan zarar darajasini aniqlash ko‘p hollarda maxsus bilimlardan foydalanishni talab qiladi. Shu sababli sud-tibbiyot ekspertlari, kriminalistlar va boshqa mutaxassislarning xulosalari tergovning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [1].

Jinoyat-protsessual qonunchiligiga muvofiq ekspert va mutaxassislar jinoyat ishi bo‘yicha haqiqatni aniqlashga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan xulosalarni taqdim etadilar. Ayniqsa, tan jarohati yetkazish jinoyatlarida sud-tibbiyot ekspertizasi natijalari jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish uchun asosiy dalillardan biri bo‘ladi. Masalan, jabrlanuvchining bosh qismiga zarba berilgan holatda dastlab tergovchi ushbu jarohatni yengil tan jarohati deb baholashi mumkin. Biroq sud-tibbiyot ekspertizasi bosh suyagi yorilishi va miya chayqalishini aniqlasa, ushbu holat og‘ir tan jarohati sifatida baholanadi va jinoyatning huquqiy kvalifikatsiyasi o‘zgaradi [2].

Amaliyotda uchraydigan yana bir holatda ikki fuqaro o‘rtasidagi janjal oqibatida jabrlanuvchi qo‘lida kesilgan yara bilan shifoxonaga murojaat qiladi. Gumon qilinuvchi jarohat tasodifan singan shisha bo‘lagi tufayli yuzaga kelganini ta'kidlaydi. Sud-tibbiyot eksperti jarohatning shakli, chuqurligi va yo‘nalishini tahlil qilib, uning o'tkir tig‘li pichoq bilan yetkazilganini aniqlaydi. Kriminalistik ekspertiza esa hodisa joyidan topilgan pichoqdagi qon izlari jabrlanuvchining biologik namunalariga mos kelishini tasdiqlaydi. Natijada gumon qilinuvchining ko‘rsatmalari rad etilib, ilmiy dalillar asosida jinoyat isbotlanadi [3].

Maxsus bilimlardan foydalanish faqat ekspertiza tayinlash bilangina cheklanmaydi. Hodisa joyini ko‘zdan kechirishda kriminalist mutaxassislarning ishtiroki ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, mushtlashuv sodir bo‘lgan joyda ko‘zga tashlanmaydigan qon tomchilari maxsus kimyoviy reaktivlar yordamida aniqlanishi mumkin. Ushbu izlarning joylashuvi va yo‘nalishi hodisaning qanday kechganini tiklash, jabrlanuvchi va gumon qilinuvchining harakatlarini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, kiyimdagi qon izlari, barmoq izlari yoki biologik namunalar keyinchalik DNK ekspertizasida muhim dalil bo‘lib xizmat qiladi [4].

So‘nggi yillarda tergov amaliyotida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kengaymoqda. Jumladan, ayrim murakkab jinoyatlarda hodisa joyi uch o‘lchamli (3D) formatda modellashtiriladi. Bu usul tergovchi va sudga hodisa qanday sodir bo‘lganini vizual tarzda ko‘rsatish imkonini beradi. Bundan tashqari, videokuzatuv kameralari yozuvlarini raqamli ekspertiza qilish, mobil telefonlar va boshqa elektron qurilmalardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish ham jinoyatni fosh etishda muhim vositaga aylanmoqda.

Biroq tergov amaliyotida ayrim muammolar ham mavjud. Ba'zan ekspertiza tayinlanishi kechiktiriladi, natijada biologik izlarning bir qismi yo‘qolishi yoki o‘z xususiyatini yo‘qotishi mumkin.

Masalan, hodisa sodir bo‘lgan joy o‘z vaqtida ko‘zdan kechirilmasa yoki qon namunalari belgilangan tartibda saqlanmasa, keyinchalik DNK ekspertizasini o'tkazish qiyinlashadi. Bundan tashqari, ayrim hollarda tergovchi ekspert oldiga aniq va to‘liq savollar qo‘ymagani sababli ekspert xulosasi ishning barcha holatlarini qamrab olmaydi. Bu esa qo‘shimcha yoki takroriy ekspertiza tayinlanishiga olib keladi va tergov muddatining uzayishiga sabab bo‘ladi [5].

Yuqoridagi misollar shuni ko‘rsatadiki, tan jarohati yetkazish jinoyatlarini tergov qilishda maxsus bilimlardan foydalanish jinoyatni tezkor va xolisona fosh etishning eng muhim omillaridan biridir. Sud-tibbiyot ekspertizasi, kriminalistik tadqiqotlar, biologik va raqamli ekspertizalar bir-birini to‘ldirib, jinoyatning haqiqiy holatini aniqlashga xizmat qiladi. Shu sababli tergovchi va ekspertlarning o‘zaro hamkorligini mustahkamlash, zamonaviy ekspertiza usullarini amaliyotga keng joriy etish hamda mutaxassislarning malakasini muntazam oshirib borish tergov samaradorligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
2. O‘zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to‘g‘risida"gi Qonuni. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2024.
3. Belkin R.S. *Kriminalistika: problemy, tendensii, perspektivy*. – Moskva: Norma, 2001. – 768 b.
4. Saferstein R. *Criminalistics: An Introduction to Forensic Science*. 13th ed. – New York: Pearson, 2023. – 560 p.
5. Jackson A.R.W., Jackson J.M. *Forensic Science*. 3rd ed. – Harlow: Pearson Education, 2011. – 536 p.

QUOTATION AS AN INTERTEXTUAL SIGNAL: COGNITIVE LOSS AND CULTURAL SUBSTITUTION IN THE TRANSLATION OF JOYCE’S *ULYSSES*

Noraliyeva Kumush Murodkulovna
Teacher, department of foreign language and literature, national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (NUUz),Tashkent
DOI: https://doi.org/ 10.5281/zenodo.21934387

Keywords: intertextuality, quotation, literary translation, cultural substitution, Ulysses, uzbek translation, russian translation, cognitive lost.

Fizika ta’limida sun’iy intellektni qo‘llash ayniqsa laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Fizika fanining eksperimental xususiyati laboratoriya ishlarida o‘lchash natijalarini qayta ishlash, grafiklar qurish, matematik modellashtirish va eksperimental xatolarni tahlil qilishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan virtual laboratoriyalar, raqamli simulyatsiyalar va generativ sun’iy intellekt vositalari laboratoriya mashg‘ulotlarini interaktiv, moslashuvchan hamda xavfsiz tashkil etish imkonini beradi [11. 2021], [7.2021].

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, generativ sun’iy intellekt vositalari fizika ta’limida uch asosiy yo‘nalishda qo‘llanilmoqda: o‘quvchilarning individual o‘quv yordamchisi sifatida murakkab fizik tushunchalarni izohlash va masalalarni yechishga ko‘maklashish; o‘qituvchining metodik yordamchisi sifatida laboratoriya topshiriqlari, yo‘riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqishda ishtirok etish; hamda o‘quv analitikasi vositasi sifatida ta’lim natijalarini tahlil qilish va individual tavsiyalarni shakllantirish.

Shuningdek, tadqiqotlarda ChatGPT va boshqa generativ sun’iy intellekt tizimlari laboratoriya mashg‘ulotlarida eksperiment rejasini tuzish, natijalarni sharhlash va hisobotlarni tayyorlashda samarali yordamchi bo‘lishi mumkinligi qayd etilgan. Biroq sun’iy intellekt tomonidan taqdim etilgan natijalarni ilmiy nuqtai nazardan tanqidiy baholash hamda ularni o‘qituvchi nazorati ostida qo‘llash zarurligi alohida ta’kidlanadi [12. 2019].

Milliy tadqiqotlarda ham fizika ta’limini raqamlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va laboratoriya mashg‘ulotlarini zamonaviylashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [4. 2018], [13. 2017], [2. 2022], [6. 2023: B.45-52]. Biroq fizika laboratoriya mashg‘ulotlarini sun’iy intellekt asosida takomillashtirishning yagona nazariy-metodik modeli, baholash mezonlari hamda metodik yondashuvlari hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Mazkur tadqiqot nazariy xarakterga ega bo‘lib, sun’iy intellekt texnologiyalarining fizikadan laboratoriya mashg‘ulotlarini takomillashtirishdagi didaktik imkoniyatlarini ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, qiyosiy tahlil, pedagogik sintez, umumlashtirish va mantiqiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan va raqamli ta’lim yondashuvlari tashkil etdi [1.1997].

Tahlillar natijasida sun’iy intellekt texnologiyalarini fizika laboratoriya mashg‘ulotlariga integratsiya qilishning asosiy didaktik tamoyillari, pedagogik afzalliklari hamda laboratoriya mashg‘ulotlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi konseptual yondashuvlar tizimlashtirildi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv hamda raqamli pedagogika tamoyillari tashkil etdi. Ushbu yondashuvlar laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘zaro bog‘liq didaktik komponentlardan iborat yaxlit pedagogik tizim sifatida o‘rganish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tizimli tahlil qilish;
- qiyosiy tahlil metodi;
- kontent tahlili;
- konseptual modellashtirish;
- mantiqiy umumlashtirish va sintez;
- induktiv hamda deduktiv tahlil.

Adabiyotlarni tanlashda sun’iy intellekt, generativ sun’iy intellekt, fizika ta’limi, laboratoriya mashg‘ulotlari, virtual laboratoriyalar, adaptiv ta’lim va o‘quv analitikasi yo‘nalishlaridagi zamonaviy ilmiy ishlar tahlil qilindi. Asosiy e’tibor so‘nggi yillarda nashr etilgan, ta’lim va fizika metodikasi bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlarga qaratildi.

Tadqiqot jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalarining laboratoriya mashg‘ulotlariga ta’siri quyidagi mezonlar asosida baholandi: laboratoriya ishlarini rejalashtirish, eksperimentlarni tashkil etish, ma’lumotlarni qayta ishlash, natijalarni vizuallashtirish, baholash jarayonini avtomatlashtirish, individual teskari aloqa yaratish va o‘quvchilarning eksperimental kompetensiyalarini rivojlantirish.

Shuningdek, tadqiqotda konseptual model ishlab chiqish usulidan foydalanildi. Model laboratoriya mashg‘ulotlarini takomillashtirishning beshta asosiy komponentini o‘z ichiga oladi: pedagogik maqsad, sun’iy intellekt vositalari, laboratoriya faoliyati, baholash mexanizmi va kutilayotgan ta’lim natijalari. Mazkur model sun’iy intellektni laboratoriya mashg‘ulotlariga ilmiy asoslangan holda integratsiya qilish uchun nazariy asos vazifasini bajaradi.

Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalarini fizika fanidan laboratoriya mashg‘ulotlariga integratsiya qilish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Nazariy tahlillar asosida aniqlanishicha, sun’iy intellekt o‘quvchilarning individual o‘zlashtirish darajasini aniqlash, laboratoriya topshiriqlarini moslashtirish hamda o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan tamoyillar asosida tashkil etish imkonini beradi.

Laboratoriya mashg‘ulotlarida sun’iy intellektga asoslangan virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va aqlli baholash tizimlaridan foydalanish natijasida o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog‘lash imkoniyatlari kengayadi. Ayniqsa, real sharoitda bajarilishi murakkab yoki xavfli bo‘lgan tajribalarni virtual muhitda takroran bajarish orqali o‘quvchilarning eksperimental ko‘nikmalari bosqichma-bosqich rivojlanadi. Bu esa laboratoriya mashg‘ulotlarining ilmiy-metodik sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt texnologiyalari o‘qituvchining faoliyatini to‘liq almashtirmaydi, aksincha uning metodik faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Sun’iy intellekt yordamida laboratoriya ishlarini rejalashtirish, o‘quvchilarning xatolarini tezkor aniqlash, individual tavsiyalar ishlab chiqish hamda baholash jarayonini avtomatlashtirish mumkin.

Shuningdek, sun’iy intellekt asosida shakllantirilgan tahliliy ma’lumotlar o‘qituvchiga har bir o‘quvchining rivojlanish dinamikasini kuzatish, bilimlardagi bo‘shliqlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan individual ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Bu esa kompetensiyaviy yondashuv talablariga mos ravishda o‘quvchilarning ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish quyidagi pedagogik afzalliklarni ta’minlaydi:

- laboratoriya mashg‘ulotlarining interfaolligi va vizualligini oshiradi;
- murakkab fizik jarayonlarni modellashtirish imkonini yaratadi;
- o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi;
- individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirishga xizmat qiladi;
- baholashning shaffofligi va obyektivligini ta’minlaydi;
- o‘qituvchining vaqtini tejaydi hamda metodik faoliyat samaradorligini oshiradi.

Biroq sun’iy intellekt texnologiyalarini amaliyotga joriy etishda ayrim cheklovlar ham mavjud. Jumladan, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, internet tezligining pastligi, zamonaviy texnik vositalarning yetishmasligi hamda pedagoglarning sun’iy intellekt bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati ushbu texnologiyalarni samarali qo‘llashga ma’lum darajada ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bilan bir qatorda pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish va ta’lim muassasalarining texnik bazasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, olib borilgan nazariy tahlillar sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish fizika fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish, o‘quvchilarning eksperimental kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta’lim sifatini oshirish uchun muhim metodik asos bo‘lib xizmat qilishini tasdiqlaydi.

XULOSA

Olib borilgan nazariy tadqiqotlar asosida sun’iy intellekt texnologiyalarini fizika fanidan laboratoriya mashg‘ulotlariga integratsiya qilish ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri ekanligi aniqlandi. Sun’iy intellekt laboratoriya mashg‘ulotlarini shaxsga yo‘naltirilgan, interaktiv va moslashuvchan ta’lim muhiti asosida tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tahlillar natijasida sun’iy intellekt texnologiyalari laboratoriya mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, eksperimental

ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda muhim pedagogik vosita ekanligi asoslandi.

Shuningdek, sun’iy intellekt yordamida laboratoriya ishlarini modellashtirish, virtual tajribalarni tashkil etish, avtomatlashtirilgan baholash tizimlarini qo‘llash va individual tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatlari ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Kelgusida sun’iy intellekt texnologiyalarini fizika ta’limida samarali qo‘llash uchun quyidagi yo‘nalishlarda tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- sun’iy intellekt asosidagi laboratoriya platformalarini ishlab chiqish va ularning pedagogik samaradorligini tajriba-sinov asosida baholash;
- fizika o‘qituvchilarining sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;
- laboratoriya mashg‘ulotlari uchun moslashtirilgan aqlli baholash tizimlarini yaratish;
- sun’iy intellektning o‘quvchilarning ilmiy tafakkuri, kreativligi va tadqiqotchilik kompetensiyalariga ta'sirini eksperimental jihatdan o‘rganish.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalarini fizika fanidan laboratoriya mashg‘ulotlariga joriy etish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirish hamda raqamli ta’lim muhitini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Mazkur yondashuv fizika ta’limini xalqaro standartlar talablariga mos ravishda takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish va ta’lim jarayonining samaradorligini izchil oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arons, A. B. (1997). Teaching Introductory Physics. New York: John Wiley Sons.
2. Egamberdiyev, X., Xudoyberdiyev, B. (2022). Fizika o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Holmes, W., Bialik, M., Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston: Center for Curriculum Redesign.
4. Ishmuhamedov, R., Abduqodirov, A., Pardayev, A. (2018). Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Iste’dod.
5. Luckin, R. (2018). Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. London: UCL IOE Press.
6. Musayev, A., Karimov, B. (2023). Fizika ta’limida raqamli texnologiyalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari. Ta’lim texnologiyalari, 3(2), 45–52.
7. OECD. (2021). Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots. Paris: OECD Publishing.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). PF–6079-son Farmon. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). PF–60-son Farmon. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2021). Sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar va dasturlar.
11. Russell, S., Norvig, P. (2021). Artificial Intelligence: A Modern Approach (4th ed.). Pearson.
12. Serway, R. A., Jewett, J. W. (2019). Physics for Scientists and Engineers (10th ed.). Boston: Cengage Learning.
13. Tolipov, O‘. Q., Usmonboyeva, M. (2017). Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan.
14. UNESCO. (2021). AI and Education: Guidance for Policy-makers. Paris: UNESCO.
15. UNESCO. (2023). Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO.

KELAJAK O‘QITUVCHISI VA SUN’IY INTELLEKT: MULOQOTNING DEONTOLOGIK MUAMMOLARI

Kurbanbayeva Mukaddas Kozibayevna,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti o‘qituvchisi, Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
To‘rtko‘l sh., O‘zbekiston respublikasi
https://orcid.org/0009-0005-7245-273X
qurbanbayevamuqaddas9@gmail.com +998 97 355 75 40
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934544

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi sharoitida o‘qituvchi va sun’iy intellekt (AI) o‘rtasidagi muloqotning deontologik (kasbiy odob-axloq) muammolari tadqiq etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi neyrotarmoqlar va generativ chatbotlarning ta’lim jarayoniga shiddat bilan kirib kelishi natijasida yuzaga kelgan etika va pedagogik mas’uliyat o‘rtasidagi ziddiyatlar bilan belgilanadi. Maqolada asosiy e’tibor o‘qituvchining raqamli muhitdagi yangi qiyofasi — AI bilan hamkorlik qiluvchi moderator va mentor sifatidagi roliga qaratilgan. Muallif tomonidan AI-savodxonligi shunchaki texnik ko‘nikmalar majmuasi emas, balki zamonaviy raqamli madaniyatning ajralmas qismi ekanligi asoslab beriladi.
Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, AI etika, kelajak ta’limi, raqamli transformatsiya, deontologiya, pedagogik etika.
Abstract: This article explores the deontological (professional ethical) challenges of interaction between future teachers and Artificial Intelligence (AI) within the context of the digital transformation of education. The relevance of the study is driven by the rapid integration of neural networks and generative chatbots into the educational process, creating a tension between technological efficiency and pedagogical responsibility. The focus is placed on the evolving role of the teacher as a moderator and mentor who collaborates with AI. The author argues that AI literacy is not merely a technical skill set but a fundamental component of modern digital culture.
Key words: Artificial intelligence, AI ethics, future education, digital transformation, deontology, pedagogical ethics.
Аннотация: В данной статье рассматриваются деонтологические (профессиональные этические) проблемы коммуникации между преподавателем и искусственным интеллектом (ИИ) в контексте цифровой трансформации современной системы образования. Актуальность исследования определяется конфликтами между этикой и педагогической ответственностью, возникшими в результате быстрого внедрения нейронных сетей и генеративных чат-ботов в образовательный процесс. В статье рассматривается новый образ преподавателя в цифровой среде – его роль как модератора и наставника, сотрудничающего с ИИ. Автор утверждает, что грамотность в области ИИ – это не просто набор технических навыков, а неотъемлемая часть современной цифровой культуры.
Ключевые слова: Искусственный интеллект, этика ИИ, образование будущего, цифровая трансформация, деонтология, педагогическая этика.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim sohasi ulkan o‘zgarishlar ostonasida turibdi. Neyrotarmoqlar va chatbotlar (ChatGPT, Claude, Gemini) ta’lim jarayoniga shunchaki yordamchi vosita emas, balki "subyekt" sifatida kirib kelmoqda. Bu jarayonda o‘qituvchining kasbiy odob-axloqi — deontologiyasi yangi mazmun kasb etmoqda. Kelajak o‘qituvchisi oldida turgan asosiy savol shundan iborat: Mashina bilan muloqotda insoniy qadriyatlarni qanday saqlab qolish mumkin? Insoniyat sivilizatsiyasi bugun To‘rtinchi sanoat inqilobining eng cho‘qqisiga — sun’iy intellekt (AI) kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan davrga qadam qo‘ydi. Ta’lim tizimi ushbu texnologik shiddatdan chetda qolgani yo‘q; aksincha, u raqamli transformatsiyaning asosiy poligoniga aylandi. Bugungi kunda neyrotarmoqlar va chatbotlar (ChatGPT, Claude, Gemini kabi) shunchaki axborot qidirish vositasi emas, balki ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi an’anaviy muloqotga uchinchi "subyekt" bo‘lib kirib kelmoqda. Biroq, texnologik imkoniyatlarning kengayishi bilan bir qatorda, pedagogik faoliyatning ma’naviy-axloqiy asosi bo‘lgan deontologiya (kasbiy burch va odob-axloq haqidagi ta’limot) yangi va murakkab muammolar bilan to‘qnash kelmoqda. Kelajak o‘qituvchisi uchun muloqotning deontologik jihatlari endi faqat "ustoz-shogird" munosabatlari bilan cheklanib qolmay, "inson-mashina-inson" zanjiridagi axloqiy mas’uliyatni

ham o‘z ichiga oladi. Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, sun’iy intellekt o‘qituvchining intellektual mehnatini yengillatgani holda, uning kasbiy o‘ziga xosligi va pedagogik etikasi oldiga qator savollarni qo‘ymoqda: Mashina tomonidan taqdim etilgan ma’lumotning xolisligi uchun kim javobgar? AI yordamida tayyorlangan dars ishlanmasida o‘qituvchining shaxsiy pedagogik mahorati qanchalik aks etadi? Eng muhimi, ta’limning asosi bo‘lgan "tarbiya" va "insoniy mehr" tushunchalari raqamli algoritmlar soyasida qolib ketmaydimi? Mazkur maqolada kelajak o‘qituvchisining AI bilan muloqot qilish madaniyati, ushbu jarayonda yuzaga keladigan etik to‘siqlar va raqamli savodxonlikni deontologik burch sifatida shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Bizning asosiy g‘oyamiz — sun’iy intellektni o‘qituvchi o‘rnini bosuvchi kuch emas, balki pedagogik etikani saqlagan holda ta’lim sifatini oshiruvchi hamkor sifatida talqin etishdan iboratdir.

1. Neyrotarmoqlar bilan muloqotda pedagogik etika

O‘qituvchi va AI muloqoti ikki tomonlama etik mas’uliyatni yuklaydi. Bir tomondan, o‘qituvchi neyrotarmoqdan foydalanganda ma’lumotlarning aniqligi va xolisligi uchun javobgar bo‘lsa, ikkinchi tomondan, u o‘quvchilarga AI bilan ishlashning "madaniy chegaralarini" ko‘rsatib berishi lozim. Mualliflik huquqi va akademik halollik: AI yordamida yaratilgan kontentni o‘zlashtirib olish pedagogik etika tamoyillariga ziddir. Kelajak o‘qituvchisi AI bergan ma’lumotni tanqidiy tahlil qilishi va uni tahrirlovchi "filtr" vazifasini bajarishi kerak.

Empatiya va algoritmlar: Hech bir chatbot o‘qituvchining o‘quvchi ko‘zidagi hayajonni yoki tushunmovchilikni his qilish qobiliyatini (empatiyani) o‘rnini bosa olmaydi. Deontologik muammo shundaki, o‘qituvchi dars tayyorlashni to‘liq mashinaga topshirib qo‘ysa, ta’limning "jonli" ruhi yo‘qoladi.

2. AI-savodxonligi raqamli madaniyatning bir qismi sifatida

AI-savodxonligi — bu shunchaki neyrotarmoqqa buyruq (prompt) yozish emas. Bu raqamli madaniyatning yuqori bosqichi bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Algoritmik shaffoflik: AI qanday qaror qabul qilishini tushunish.
2. Ma’lumotlar xavfsizligi: Shaxsiy va pedagogik ma’lumotlarni neyrotarmoqlarga kiritishda ehtiyotkorlik.
3. Kognitiv mustaqillik: Mashina tavsiyalariga ko‘r-ko‘rona ishonmaslik.

3. Istiqbolli qarashlar: Kelajak o‘qituvchisining qiyofasi

Kelajakda o‘qituvchi "bilim beruvchi" funksiyasidan "moderator" va "mentor" funksiyasiga o‘tadi. AI texnik ishlarni (test tuzish, reja yozish, ma’lumot izlash) o‘z zimmasiga olgan bir paytda, o‘qituvchining asosiy vazifasi talabalarda tanqidiy fikrlash va axloqiy qarashlarni shakllantirish bo‘lib qoladi. "Sun’iy intellekt o‘qituvchining o‘rnini bosa olmaydi, ammo sun’iy intellektdan foydalana oladigan o‘qituvchi, undan foydalana olmaydigan hamkasbining o‘rnini egallaydi."

Xulosa

Raqamli transformatsiya davrida pedagogik deontologiya — bu texnologiya va inson o‘rtasidagi oltin muvozanatdir. Kelajak o‘qituvchisi AI bilan muloqotda o‘zining kasbiy etikasini saqlashi, neyrotarmoqlarni intellektual hamkor sifatida ko‘rishi, lekin qaror qabul qilishda hamisha insoniy omilni ustun qo‘yishi shart. AI-savodxonligi esa nafaqat zamon talabi, balki yangi davr pedagogining ma’naviy-madaniy qiyofasini belgilovchi asosiy mezonga aylanadi. Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, sun’iy intellektning ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi shunchaki texnologik yangilanish emas, balki pedagogik paradigmaning o‘zgarishidir. Kelajak o‘qituvchisi uchun AI bilan muloqot qilish — bu shunchaki qulaylik emas, balki katta deontologik mas’uliyatdir. Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi yakuniy xulosalarga kelish mumkin:

Inson omilining ustuvorligi: Har qanday mukammal algoritm yoki neyrotarmoq o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ma’naviy-ruhiy aloqani, tarbiyaviy ta’sirni va shaxsiy namunani almashtira olmaydi. AI — bu samarali "instrument", o‘qituvchi esa—"ustoz" (mentor) bo‘lib qolishi shart.

Raqamli etika — yangi davr savodxonligi: AI-savodxonligi endilikda nafaqat kompyuter tugmalarini bosishni bilish, balki axborotning etik jihatdan to‘g‘riligini farqlash, intellektual mulkni hurmat qilish va algoritmlar tomonidan berilishi mumkin bo‘lgan noto‘g‘ri (bias) qarashlarni filtrlay olish madaniyatidir. Mas’uliyatli hamkorlik: Kelajak o‘qituvchisi AI bergan tayyor javoblardan foydalanishda "ijodiy dangasalik"ka yo‘l qo‘ymasligi, aksincha, mashina imkoniyatlarini o‘quvchining individual qobiliyatlarini ochishga yo‘naltirishi kerak. Bu jarayonda "Inson — AI — Inson" zanjiri buzilmasligi, ya’ni yakuniy xulosa va baho har doim inson tomonidan nazorat qilinishi lozim.

Istiqbolli qarash:

Kelajakda pedagogik deontologiya faniga "Raqamli axloq" bo‘limining kiritilishi va o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashda ularning AI bilan ishlashdagi etik tamoyillarga sodiqligi asosiy mezonlardan biri bo‘ladi. Biz sun’iy intellektni inson aqliga raqib emas, balki insoniyatning intellektual salohiyatini kengaytiruvchi, ta’limni yanada inkluziv va individual qiluvchi hamkor sifatida qabul qilishimiz kerak. Texnologiyalar qanchalik rivojlanmasin, ta’limning asosi bo‘lgan "Inson qadri" va "Axloqiy tarbiya" tushunchalari o‘qituvchi faoliyatining bosh mezoni bo‘lib qolaveradi. Raqamli transformatsiya davrida bizga "aqlli" texnologiyalardan ko‘ra ko‘proq "donishmand" o‘qituvchilar kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2017. (Raqamli transformatsiya bo‘limi).

2. Begimqulov U.Sh. "Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari". – Toshkent, "Fan", 2007.

3. Ziyodullayev M.S. Ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy va etik masalalari // "Raqamli iqtisodiyot va ta’lim" jurnali. –Toshkent, 2023.

4. Ismoilova M.N. Raqamli pedagogika: O‘qituvchi va talaba muloqoti. – Toshkent, O‘qituvchi, 2022.

5. UNESCO. Guidance for generative AI in education and research. – Paris, 2023. (AI etikasi bo‘yicha eng asosiy xalqaro hujjat).

6. Holmes W., Bialik M., Fadel C. "Artificial Intelligence In Education: Promises and Implications for Teaching and Learning". – Boston, Center for Curriculum Redesign, 2019.

7. Luckin R. "Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century". – London, UCL Press, 2018.

8. Selwyn N. Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education. – Cambridge, PolityPress, 2019.

9. European Commission. Ethical guidelines on the use of artificial intelligence and data in teaching and learning for educators. ec.europa.eu.

10. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2023: Technology and Education transformation. weforum.org.

SIYOSIY PARTIYALAR – FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

Kurbanbayeva Munavvara Kozibayevna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti “Siyosatshunoslik” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934584

Annotatsiya. Mazkur tezisda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishda siyosiy partiyalarning o‘rni hamda ahamiyati tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalarning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi, ularning fuqarolik jamiyati institutlari tizimidagi o‘rni, davlat va jamiyat o‘rtasidagi vositachilik funksiyasi hamda demokratik islohotlarni amalga oshirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, siyosiy partiyalarning fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish, jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan parlament nazoratini ta'minlashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.
Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, siyosiy partiya, demokratiya, siyosiy institut, siyosiy ishtirok, jamoatchilik nazorati, parlament, siyosiy plyuralizm, davlat fuqarolik xizmati, siyosiy islohotlar.

Kirish. Fuqarolik jamiyatini barpo etish demokratik huquqiy davlat qurishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy demokratik jamiyatda fuqarolik jamiyati institutlari davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni muvozanatlashtirish, fuqarolarning manfaatlarini ifodalash hamda ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Ana shunday institutlar orasida siyosiy partiyalar alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy va siyosiy islohotlar siyosiy partiyalarning jamiyat hayotidagi rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, siyosiy plyuralizmni ta’minlash hamda davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini kuchaytirish bo‘yicha muhim huquqiy asoslar yaratilgan. Bu esa siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat o‘rtasidagi samarali muloqotni ta’minlovchi institut sifatidagi ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Siyosiy partiyalar fuqarolarning siyosiy irodasini shakllantirish, ularning manfaatlarini ifodalash, saylovlar orqali davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda ishtirok etish hamda davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga, ular fuqarolik jamiyatining siyosiy instituti sifatida jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini uyg‘unlashtirish va demokratik boshqaruv tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Mazkur tezisning maqsadi O‘zbekiston sharoitida siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi o‘rni va funksiyalarini ilmiy tahlil qilish, ularning demokratik islohotlar hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini yoritishdan iborat. Tezisda konstitutsiyaviy-huquqiy asoslar, siyosatshunoslik nazariyalari hamda milliy tajriba asosida siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyati tizimidagi o‘rni baholanadi.

Asosiy qism. Konstitutsiyamizning tegishli moddalarida siyosiy partiyalar haqida quyidagi normalar belgilangan:

74-modda. Siyosiy partiyalar turli ijtimoiy tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o‘zlarining demokratik yo‘l bilan saylab qo‘yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o‘z faoliyatining moliyalashtirilishi manbalari haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga yoki u vakolat bergan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar taqdim etadilar” [1].

Fuqarolik jamiyati instituti sifatida siyosiy partiyalarning har qanday davlat va jamiyatdagi o‘rni beqiyosdir. Sobiq SSSR tuzumi davrida yagona, hukmron birgina partiya bo‘lganligining o‘zi ham sobiq totalitar tuzumning demokratiya prinsiplariga umuman yot bo‘lganligini ko‘rsatadi. Mustaqillik qo‘lga kiritilishi bilanoq huquqiy demokratik davlat qurishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan O‘zbekiston siyosiy partiyalar shakllanishiga jiddiy e’tibor bilan qaradi. Siyosiy partiyalarning tashkiliy-huquqiy asoslarini qonun darajasida belgilash va tartibga solish maqsadida qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Eski tahrirdagi, 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga jami 13 ta (10, 12, 32, 34, 56, 57, 58, 60, 62, 106, 108, 112, 120) moddasida siyosiy partiyalar bilan bog‘liq qoidalar kiritilganligi mamlakatimizda siyosiy partiyalarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi muhim rolini teran his

qilinganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida” hamda “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi va boshqa bir qator qonun hujjatlari aholining turli qatlamlari manfaatlarini ifoda etuvchi jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar tashkil etilishi hamda ularning erkin rivojlanishi uchun mustahkam huquqiy asos bo‘ldi. Siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash va ularning moliyaviy mustaqilligini ta’minlashda 2004 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Ushbu Qonunning 7-moddasiga ko‘ra, siyosiy partiyalarning ustavda nazarda tutilgan faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirish nazarda tutilgan bo‘lib, unda “Siyosiy partiya, agar u O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylov yakunlari bo‘yicha “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuniga muvofiq Qonunchilik palatasida siyosiy partiya fraksiyasini tuzish uchun zarur miqdorda deputatlik o‘rinlarini olgan bo‘lsa, o‘zining ustavda nazarda tutilgan faoliyatini moliyalashtirish uchun davlat mablag‘larini olish huquqiga ega bo‘ladi” deb belgilangan.

Mamlakatimizda siyosiy partiyalar rolini oshirishda 2007 yil 11aprelda qabul qilingan “Davlat boshqa¬ruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi kons¬titutsiyaviy qonuni muhim o‘rin tutdi. Mazkur qonun parlament faoliyatini samarali tashkil etish, ijro hokimiyati organlarini shakllantirish hamda ular faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirishning huquqiy asoslarini belgilab berdi [2]. Jumladan, “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonun 1-moddasida “siyosiy partiya” tushunchasiga ta’rif berildi: “Siyosiy partiya O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro‘yobga chiqarishga intiluvchi hamda o‘z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko‘ngilli birlashmasidir” [3].

Ushbu Qonunning “Siyosiy partiyalar faoliyatining kafolatlari” nomli 5-moddasida shunday deyilgan: “Davlat siyosiy partiyalar huquqlari va qonuniy manfaatlari muhofaza etilishini kafolatlaydi, ustavda belgilangan o‘z maqsadlari va vazifalarini bajarishlari uchun ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi”. Ko‘rib turganimizdek, yangi partiyalar tuzishdan tortib siyosiy partiyalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, davlat darajasida qonuniy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasida yetarlicha qonunchilik asoslari mavjud. Bugungi kunda mamlakatimizda 5ta siyosiy partiya mavjud: O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi, O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O‘zbekiston xalq demokratik partiyasi, O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi, O‘zbekiston ekologik partiyasi. “Bugun mamalakatimizda mavjud siyosiy partiyalarning umumiy a’zolari soni 3 million 423 ming 981 nafarni tashkil qilmoqda” [4].

Ushbu partiyalar tobora siyosiy jarayonlarda va mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol pozitsiyaga ega bo‘lib bormoqda. Buni 2024 yil 27 oktyabrda bo‘lib o‘tgan muhim siyosiy jarayon – Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga, viloyat va tuman Kengashlari deputatligiga bo‘lib o‘tgan saylovlardagi ishtiroki, partiyalarning siyosiy debatlar, ochiq munozaralar va saylovchilar bilan uchrashuvlar, partiya saylavoldi programmasi tashviqotlaridagi ishtiroklaridan ko‘rish mumkin. O‘zbekistondagi siyosiy partiyalarning qay darajada xalq ishonchiga sazovor bo‘lganligini quyidagi raqamlardan ko‘rsak bo‘ladi: Markaziy saylov komissiyasining 29 oktyabr kuni bo‘lib o‘tgan majlisida saylovda 74,72 foiz saylovchi ishtirok etgani, siyosiy partiyalarning har biri 7 foizdan ko‘p ovoz to‘plagani sababli Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga deputatlar saylovi o‘tgan va haqiqiy deb topilgani ma’lum qilindi.

Shuningdek, hududiy saylov komissiyalarining siyosiy partiyalarga berilgan ovozlarni aniqlash to‘g‘risidagi bayonnomalariga asosan yagona saylov okrugi bo‘yicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylov natijalari belgilandi va deputatlik mandatlari siyosiy partiyalar o‘rtasida taqsimlandi.

Yagona saylov okrugi bo‘yicha Qonunchilik palatasining 75 ta deputatlik o‘rni siyosiy partiyalar o‘rtasida quyidagicha taqsimlandi:

- O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasi — 26;
- «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi — 14;
- Xalq demokratik partiyasi — 13;
- «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi — 12;
- Ekologik partiya — 10 [5].

Siyosiy partiyalar eng muhim siyosiy jarayon – saylovlardagi ishtiroki natijasida yuqoridagi natijalarga erishdilar. Partiyalarning mazkur saylovlar va saylavoldi kampaniyasidagi ishtiroklari avvalgi saylov kampaniyalaridagi ishtirokiga qaraganda jonlanishlar, qizg‘in bahs-munozaralar, o‘z programmasini

mukammallashtirishga urinishlar katta bo‘lgani bilan farq qilganini qayd etmoq lozim. Lekin bu hali siyosiy partiyalarning xalq hayoti, tafakkur tarziga faol va mustahkam kirib bordi degani emas. Siyosiy partiyalar fuqarolarda qat’iy, faol ijtimoiy-siyosiy pozitsiya, faol sog‘lom siyosiy qarashlarni, xalqning davlat organlari ustidan ongli nazoratni amalga oshira olish darajasidagi siyosiy-huquqiy bilimi, tafakkurini hosil qilishga erishganlarida haqiqiy siyosiy partiya maqomi va maqsadiga erishgan bo‘ladilar. Buning uchun ular nafaqat saylavoldi davrda, balki uzluksiz ravishda xalq bilan birga bo‘lishlari, maxsus loyihalar, grantlar doirasida fuqarolarning siyosiy va huquqiy bilimlarini oshirib borishlari kerak bo‘ladi. Aholining barcha qatlamlari bilan bevosita muloqotning oson va hech qanday to‘siqlarsiz, tezda amalga oshirish mumkin bo‘lgan shakllarini amaliyotga tatbiq qilish orqali O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida e’tirof etilgan siyosiy normalar va g‘oyalarni ularga faol singdirib borish muhim hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining rolini yanada oshirish maqsadida Konstitutsiyaning 122-moddasi 1, 2, 3-bandlariga shunday normalar kiritildi: “Xalq deputatlari Kengashlarining vakolatlari quyidagilardan iborat:

1) tegishli mahalliy budjetlarni ko‘rib chiqish va qabul qilish, ularning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

2) hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini tasdiqlash;

3) hokimni lavozimga tasdiqlash, uning faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlarni eshitish”. Bu normalar orqali vakillik organlarining boshqaruvdagi roli oshadi, shu bilan birga davlat budjeti ochiqlik prinsipini ta’minlashga xizmat qiladi.

2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ham fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishi sifatida belgilangandi. Sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida Prezidentimizning 2021 yil 3 martdagi “Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ularning faoliyati erkinligi, huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori va 2021 yil 4 martdagi “2021–2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning yangi bosqichi sifatida huquqiy demokratik davlat barpo etishdagi muhim sa’y-harakatlarning yangi to‘lqinini boshlab berdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, shaxs erkinligi oliy qadriyat sifatida qonun bilan mustahkamlangan va bir shaxs erkinligi boshqalarning haq-huquqi va erkinligiga daxl qilmaydigan, har bir fuqaro so‘z va vijdon erkinligi kabi huquqlaridan hech bir cheklovlarsiz foydalana oladigan, fuqarolarga munosib turmush darajasini kafolatlaydigan, ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarish mahsulining adolatli taqsimlanishida o‘zini o‘zi nazorat qila oladigan, hokimiyatlarning uchga bo‘linish prinsipi o‘rnatilgan davlat boshqaruvi hukm surgan, fuqarolar ixtiyoriy birlashmalar, tashkilotlar orqali o‘z manfaatlarini himoya qila oladigan, ehtiyojlarini qondira oladigan, o‘zini namoyon qila oladigan, siyosiy institutlar va nosiyosiy fuqarolik institutlari, davlat boshqaruvida ishtirok qilishni muayyan kelishuvlar va qonunlar orqali ro‘yobga chiqaradigan, boshqaruvda adolat bosh mezon bo‘lgan, doimiy ravishda takomillashib boruvchi tizim fuqarolik jamiyati deyiladi. Fuqarolik jamiyatining asosini inson va insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar tashkil qiladi. Odamlar ijtimoiy munosabatlarga turli ixtiyoriy birlashmalar, tashkilotlar orqali kirishadilar. Bular fuqarolik jamiyati institutlaridir.

O‘zbekiston sharoitida fuqarolik jamiyati institutlarining tashkiliy-huquqiy asoslari, huquq va majburiyatlari, faoliyat doirasi tegishli qonun hujjatlari, farmon va qonunlar, huquqiy-me’yoriy hujjatlar, hatto Oliy Bosh Qomusimiz bo‘lgan Konstitutsiya darajasida e’tirof etilgan va belgilab berilgan. Endi ularni hayotga to‘g‘ri tatbiq etishning amaliy mexanizmlarini ishga tushirish lozim. Bu ijtimoiy davlat sharoitida davlat fuqarolik xizmatchilari sog‘lom siyosiy tafakkurining rivojlanganlik darajasiga ham bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 73-74-moddalar. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.

2. X.Mamatov.Davlat va jamiyat qurilishida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish. https://buxoro.adliya.uz/ 09.10.2014.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi 337-I-son Qonuni. 1996-yil 26-dekabr. https://lex.uz/ ma’lumotlar bazasi.

4. Nozimjon ERGASHEV. Demokratik jarayonlarda siyosiy institutlarning o‘rni va roli qanday? ANDIJONNOMA.UZ. 19.12.2023
5. Yagona saylov okrugi bo‘yicha saylov natijalari tasdiqlandi. 29.10.2024. https://kun.uz/kr/news/2024/10/29/yagona-saylov-okrugi-boyicha-saylov-natijalari-tasdiqlandi

TERMINOLOGY OF THE ONEIROSPHERE IN THE ENGLISH LANGUAGE

Zafar Allayev
Department of Foreign Languages of Termez University of Economics and Service
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934629

Abctrakt. This article analyzes the linguistic features of terms related to the Oneirosphere in English and Uzbek, as well as their usage within cultural and national contexts. The Oneirosphere is a set of concepts encompassing the world of human dreams and related notions, and the terms used in this field include not only scientific terminology but also colloquial expressions, mythological concepts, and religious terms. In the course of the study, terms were collected from sources in both languages, and their semantic fields, etymological origins, and stylistic features were examined. It was also found that English terminology is dominated by scientific terms related to psychology and psychoanalysis, whereas Uzbek contains a greater number of terms associated with dream interpretations rooted in folklore, religious sources, and historical traditions. Ushbu tahlil natijalari lingvokulturologiya, tarjimashunoslik hamda madaniyatlararo muloqot sohalarida qo‘llash uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.
Keywords: Oneirosphere, dream interpretation, terminology, linguoculturology, intercultural communication.

Introduction. Dreams have long fascinated humanity, seen as enigmatic phenomena that mirror both individual experiences and the broader religious, cultural, and social views of societies. Over centuries, their study has engaged scientific, philosophical, and religious thought, giving rise to a distinct set of concepts and terms. The Oneirosphere—representing the semantic space of human dreams and related ideas shaped by the interplay of language, culture, and consciousness—has emerged as a recognized research domain. Growing interest in this area within linguoculturology, cognitive linguistics, and intercultural communication highlights the need for comparative analysis of dream-related terminology across languages. This research addresses that need by examining the linguistic, cultural, and associative features of Oneirosphere terms in English and Uzbek.

Methodology

This study employs a comparative-descriptive approach to analyze Oneirosphere-related terminology in English and Uzbek.

The research was conducted in three stages:

- Data collection – Terminological units were selected from reliable dream interpretation dictionaries, linguistic corpora, and scholarly sources in both languages. Additional examples were drawn from folklore, literary works, and contemporary mass media texts to capture both traditional and modern usage.
- Linguistic analysis – The collected terms were examined in terms of their etymology, morphological structure, and semantic features, with particular attention to their cultural connotations, symbolic associations, and metaphorical extensions that reflect national worldviews.
- Comparative interpretation – English and Uzbek data were systematically compared to identify similarities, differences, and culture-specific aspects. The analysis incorporated elements of conceptual analysis, componential analysis, and associative mapping to reveal the deeper layers of cultural codes.

The methodological framework integrates principles from linguoculturology, cognitive linguistics, and intercultural communication theory, enabling a multifaceted interpretation of dream-related terminology.

Results and discussion

A review of scholarly literature on the realm of dreams shows that the term *oneirosphere* is often used to denote the field that studies dreams from a scientific perspective and examines the meanings of events occurring within them. The word derives from the Greek *oneiron (“dream”)* and *sphaire (“sphere, domain”*) and, as noted above, refers to a branch of knowledge concerned with phenomena experienced in dreams and how they are interpreted. This term appeared in early 20th century, appearing in the works of the Austrian polymath Sigmund Freud and other scholars. “*Онейросфера не является механической суммой онейротопов, как не является ею онейротопика, которая соотносится с онейротопом так же, как метафора – с метафорикой”.* (Meaning: Oneyrosoha — oneyrotoplarning oddiy yig‘indisi emas. Xuddi shuningdek, oneyrotopika ham oneyrotoplarning mexanik qo‘shilmasi sifatida qaralmaydi.

Oneyrotopika va oneyrotop o‘rtasidagi munosabat, metaforika va metafora o‘rtasidagi bog‘liqlikka o‘xshaydi). Kanadalik olim Roberto King Ong 1981-yilda yozgan “Qadimgi Xitoyda Tush Ta’biri” nomli ilmiy ishida *“dream incubation”* (tush inkubatsiyasi) atamasi tilga olinganini uchratish mumkin. *In some cultures, dream incubation was institutionalized, and techniques of dream incubation consist of praying, fasting and sleeping in these temples*. (Meaning: In the culture of certain peoples, dream calling has developed as a custom or tradition, and the methods of inducing dreams include praying, fasting, and sleeping in temples.) L. S. Chardonne’s book “Dream Divination in Manuscripts and Early Printed Books” is a work that encompasses the English people’s views on dream interpretation from the earliest times, and in many parts of the work, the term *“oneironics”* is used.

Additionally, the same book introduces another term, “oraculum”, which refers to events experienced in dreams that are believed to have predictive significance in real life. The term *oraculum* was borrowed from Latin into English. Historical sources indicate that the Ancient Romans paid special attention to dreams and their interpretation. From very early times, they compiled nearly 3,000 dream interpretations across a 15-volume collection, in which dreams thought to possess divine prophetic qualities were designated with the term oraculum. The Latin root *oracle* literally means “prophecy” and was used specifically for interpreting dreams considered to have a divine, predictive nature. These divinatory dreams may be prompted by external agents and are thus closely related to prophetic visions, such as the oraculum.

It is well known that sometimes dreamers perceive themselves speaking in a foreign language within their dreams. In dream studies, this phenomenon is referred to as *xenoglossy*. The term derives from the Greek words xenos (ξένος) meaning *“foreign”* and *glossa (γλῶσσα)* meaning *“language,”* thus literally signifying a “foreign language”. The concept was first introduced by the renowned psychologist Charles Richet in 1905 and has since been used within the Oneirosphere framework to describe instances of speaking in an unfamiliar language during dreams. It is well known that interest in dreams and their interpretation has fascinated peoples across the world since ancient times, representing a remarkable linguocultural phenomenon. When examining dream dictionaries from different nations, numerous similarities can be observed. For instance, certain symbols or signs may carry the same meaning across multiple cultures, indicating the existence of universal symbols that convey similar messages to all peoples. In English, the term used to describe these universal symbols in dreams is “archetype.” This term originates from the Latin *archetyupum*, meaning “form,” “sign,” or “image on a seal,” and refers to recurring symbols and forms that appear widely and independently across different cultures.

The terms discussed above are among the most frequently encountered in scholarly literature on dream interpretation, and all are used to represent concepts within the Oneirosphere. Each of these terms has been explained in detail above, including their meanings and etymological origins.

The findings of this study provide a comprehensive basis for comparing the linguistic and cultural characteristics of Oneirosphere-related terminology in English and Uzbek. The analysis revealed that English terminology predominantly draws on psychological and psychoanalytic frameworks, whereas Uzbek terms are largely rooted in religious sources, oral folk traditions, and historical customs. This highlights the distinctiveness of dream interpretation within each culture and its deep connection to the respective national context.

For instance, terms such as archetype, xenoglossy, and oraculum in English serve to describe the general psychological or prophetic dimensions of dreams. These concepts illuminate universal symbols encountered in human dreams and their underlying psychological foundations. In contrast, Uzbek terminology tends to emphasize socio-cultural, religious, and traditional aspects, including practices such as dream incubation or folk interpretations of specific dream scenarios.

The study further demonstrates that the associative fields of these terms reveal notable intercultural differences. While dreams in English are generally interpreted as individual psychological experiences, in Uzbek culture, they are closely intertwined with social and religious contexts. This underscores how Oneirosphere terminology adapts to the unique mentalities and cultural frameworks of each society.

At the same time, there are also significant cross-cultural similarities. Universal symbols, such as archetypes or divinatory dreams, exemplified by oraculum, are present in both cultures, reflecting shared psychological processes across humanity. Thus, the study of Oneirosphere terminology is relevant not only at the national level but also in a transnational, cross-cultural perspective.

Overall, the findings enhance our understanding of the linguistic, semantic, and cultural dimensions of Oneirosphere terminology in English and Uzbek, offering valuable insights that can inform research in linguistics, psychology, and cultural studies.

References:

1. Chardonness, L. S. Dream Divination. – Manchester: Manchester University Press, 2018. P-24-25.
2. Фёдоровна Т. Поэтика сновидений в античном эпосе.(на материале поэм Гомера, Аполлония Родосского, Вергилия, Лукана). Филол.фан. д-ри...дисс.автореф. Москва – 2008. С-10.
3. Ong, R. The interpretations of dreams in Ancient China. – The University of British Columbia – 1981. P. 45.
4. https://en.wikipedia.org/wiki/Oneirosphere.
5. https://www.google.com/search?sca_esv=566055515&q=the+etymology+of+Xenoglossy&spell=1&sa=X&ved=2ah
6. https://www.etymonline.com/word/archetype.

YOSH ERKIN KURASHCHILARNING SPORT QOBILIYATINI BAHOLASHDA GENETIK OMILLAR

Sobirova Asalxon Muzaffarovna
Urganch davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
sobirovaasalxon504@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934699

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarning sportga genetik moyilligini baholash va ularni erkin kurash sport turiga saralash masalalari yoritilgan. Tadqiqotda zamonaviy sport genetikasining asosiy yo’nalishlari, xususan ACTN3, ACE, IGF-1 kabi genetik markerlarning sportchi organizmidagi jismoniy imkoniyatlarni belgilashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Erkin kurash sport turining o’ziga xos xususiyatlari inobatga olinib, kuch, tezkorlik, chaqqonlik va chidamlilik kabi sifatlarni shakllanishida irsiy omillarning roli ko’rsatib berilgan. Shuningdek, bolalarni saralash jarayonida genetik, morfologik, funksional va psixofiziologik mezonlarni kompleks qo’llash zarurligi asoslangan. Tadqiqot natijalari yosh sportchilarni erta aniqlash, individual tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish va sport natijadorligini oshirishda genetik yondashuvning muhimligini tasdiqlaydi.

Kalit so’zlar: Erkin kurash, sport seleksiyasi, genetik markerlar, ACTN3 geni, ACE geni, sport genetikasi, irsiy moyillik, yosh sportchilar, jismoniy qobiliyat, morfologik ko’rsatkichlar, funksional tayyorgarlik, sport iste’dodi, sport saralash mezonlari, individual yondashuv.

Ключевые слова: вольная борьба, спортивный отбор, генетические маркеры, ген ACTN3, ген ACE, спортивная генетика, наследственная предрасположенность, юные спортсмены, физические способности, морфологические показатели, функциональная подготовленность, спортивный талант, критерии спортивного отбора, индивидуальный подход.

Keywords: freestyle wrestling, sports selection, genetic markers, ACTN3 gene, ACE gene, sports genetics, hereditary predisposition, young athletes, physical abilities, morphological indicators, functional fitness, sports talent, selection criteria in sports, individual approach.

Kirish. Hozirgi kunda O’zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport tizimini rivojlantirish, sog’lom avlodni tarbiyalash hamda iqtidorli yosh sportchilarni erta aniqlash va ularni maqsadli tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo’nalishda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar sport seleksiyasi tizimini takomillashtirish, sport zaxirasini shakllantirish va yuqori malakali sportchilarni tayyorlashning ilmiy asoslarini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF–6099-son Farmoni “Sog’lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” deb nomlanadi. Farmon O’zbekistonda ommaviy sportni rivojlantirish va sog’lom turmush tarzini shakllantirishning strategik hujjati bo’lib, u sport seleksiyasi tizimi uchun ham muhim asosiy bosqich hisoblanadi. Ushbu farmon orqali sportga iqtidorli yoshlarni jalb qilish va ularning tabiiy imkoniyatlarini erta aniqlash uchun keng ijtimoiy baza yaratiladi [1]. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ–5279-son qarori sport ta’limi muassasalari faoliyatini zamonaviy talablarga mos ravishda qayta tashkil etish, olimpiya va paralimpiya sport turlari bo’yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish hamda seleksiya jarayonlarini takomillashtirishga yo’naltirilgan [2].

Adabiyotlar tahlili. Yosh sportchilarni saralash va ularning sport qobiliyatini baholash masalasi sport fanining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu boradagi tadqiqotlarda mualliflar sport natijadorligini belgilashda irsiy, morfologik, funksional va psixologik omillarning o‘zaro ta’siriga alohida e’tibor qaratganlar. Xususan, zamonaviy ilmiy manbalarda genetik omillar sport seleksiyasining istiqbolli yo‘nalishi sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Platonov V. N. va Bompa T. O. kabi olimlar sportchilarni uzoq muddatli tayyorlash tizimida individual yondashuv muhim ekanligini ta’kidlaydi. Ularning ishlarida sport natijadorligi ko‘p omilli jarayon sifatida talqin qilinib, irsiy imkoniyatlar bazaviy asos sifatida ko‘rsatilgan. Bu yondashuv yosh kurashchilarni erta bosqichda to‘g‘ri yo‘naltirish zarurligini asoslaydi [3].

Biologik va genetik omillar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda Bouchard C. va hammualliflar inson jismoniy qobiliyatining 40–70% qismi irsiy omillarga bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatgan. Bu esa sport seleksiyasida genetik markerlardan foydalanishning ilmiy asosini tashkil etadi [4].


Yurtimiz olimlarining tadqiqotlarida (Sh. T. Muxamedov, J. A. Ibragimov, S. S. Tajibaev) yosh sportchilarni saralashda morfofunksional testlar, pedagogik kuzatuv va tibbiy ko‘rsatkichlar asosiy mezon sifatida qo‘llanilgan. Biroq so‘nggi yillarda genetik omillarni qo‘shish zarurligi ta’kidlanmoqda. Shuningdek, F. A. Kerimovning “Sportda prognozlash va modellashtirish” kitobida sport nazariyasi va tayyorgarlik jarayonini ilmiy asosda rejalashtirishga bag’ishlangan muhim ilmiy manbalardan biri hisoblanadi. Sportchilarning kelajakdagi natijalarini oldindan bashorat qilish (prognozlash) va ularning tayyorgarlik jarayonini ilmiy model asosida qurish masalalari yoritiladi. Muallif sport mashg’ulotlarini tasodifiy emas, balki aniq matematik, biologik va pedagogik ko’rsatkichlar asosida boshqarish zarurligini ta’kidlaydi.

S. S. Tajibaev o‘zining erkin kurash nazariyasiga bag‘ishlangan ishlarida sportchilarni tayyorlashda individual xususiyatlarni hisobga olish muhimligini ta’kidlaydi. Uning metodikasida sportchining morfofunksional imkoniyatlari va ularning texnik-taktik harakatlar bilan uyg‘unligi seleksiya jarayonining asosiy mezoni sifatida talqin qilinadi

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti standartlarida bolalarning jismoniy rivojlanishini baholashda antropometrik ko‘rsatkichlar asosiy o‘rin tutadi. Bu ma’lumotlar genetik tahlil natijalari bilan birga qo‘llanilganda yanada aniq prognoz qilish imkonini beradi.Yosh erkin kurashchilarning sport qobiliyatini baholashda genetik omillar zamonaviy sport genetikasida eng muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, u sportchining tabiiy imkoniyatlarini erta aniqlash va uni to‘g‘ri sport turiga yo‘naltirish imkonini beradi. Erkin kurash yuqori darajada kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik, reaksiya tezligi va ruhiy barqarorlikni talab qiladigan sport turi bo‘lgani uchun, ushbu sifatlarning shakllanishida irsiy omillar muhim ahamiyatga ega.

Muhokama. Genetik omillar inson organizmidagi muayyan genlar orqali jismoniy va funksional imkoniyatlarni belgilaydi. Sport genetikasida eng ko‘p o‘rganiladigan genlar qatoriga ACTN3, ACE, IGF-1, MSTN va COL1A1 genlari kiradi. ACTN3 geni tezkor mushak tolalari faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, uning RR va RX genotiplari kuch va tezlikka moyillikni oshiradi, bu esa erkin kurash uchun juda muhim hisoblanadi. ACE geni esa qon aylanish tizimi va chidamkorlik qobiliyatini belgilaydi, uning DD varianti portlovchi kuchga, II varianti esa uzoq muddatli chidamkorlikka moyillikni ko‘rsatadi. IGF-1 geni mushak to‘qimalarining o‘sishi va regenerasiya jarayonlarini tezlashtiradi, bu sportchining tez tiklanishi va kuch imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. MSTN (miostatin) geni mushak o‘sishini cheklovchi omil bo‘lib, uning faolligi past bo‘lgan shaxslarda mushak massasi yaxshi rivojlanadi. COL1A1 geni esa pay va bog‘lamlarning mustahkamligiga ta’sir qilib, jarohatlarga chidamlilik darajasini belgilaydi.

Yosh erkin kurashchilarni baholashda genetik omillar bilan birga morfologik ko‘rsatkichlar ham muhim ahamiyatga ega. Bo‘y uzunligi, tana vazni, mushak massasi, suyak tizimi tuzilishi va proporsionallik sport natijadorligini belgilaydi. Shuningdek, funksional ko‘rsatkichlar, ya’ni yurak-qon tomir tizimi holati, maksimal kislorod iste’moli (VO_2max), nafas olish samaradorligi va umumiy chidamkorlik ham baholanadi. Psixofiziologik xususiyatlar ham genetik omillar bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi. Sportchining stressga bardoshi, tez qaror qabul qilish qobiliyati, raqobat sharoitida ruhiy barqarorligi va motivasiya darajasi uning kelajak natijalarini belgilaydi. Kurashchining tana tuzilishi ham genetik omillar bilan belgilanadi. Baholashda quyidagilarga e’tibor qaratiladi: Oyoq va qo‘llarning uzunligi, past og‘irlik markaziga ega bo‘lgan (oyoqlari baquvvat va kaltaroq) kurashchilarni yiqitish qiyinroq. Uzun qo‘llar esa masofadan hujum qilishda ustunlik beradi. Mezomorf tana tipi bu mushak massasi tez rivojlanuvchi bolalar kurash uchun eng maqbul nomzodlar hisoblanadi.



1-rasm. Inson tana tuzilishining asosiy tiplari.

Genetik omillarni aniqlash molekulyar-genetik usullar orqali amalga oshiriladi. Bolalardan olingan biologik namuna (qon, so‘lak yoki bukkal epiteliy) asosida DNK ajratiladi va PZR (polimeraz zanjir reaksiyasi) usuli yordamida tahlil qilinadi. Olingan natijalar asosida sportchining genotipi aniqlanadi va uning kuch, tezkorlik yoki chidamkorlikka bo‘lgan tabiiy moyilligi baholanadi. Shu bilan birga, genetik omillar sport seleksiyasida yagona mezon sifatida qaralmaydi. Chunki sport natijadorligi ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u irsiyat, mashg‘ulot jarayoni, ovqatlanish, muhit, psixologik holat va trenerlik tizimi bilan uzviy bog‘liqdir. Shuning uchun zamonaviy yondashuvda genetik, antropometrik, funksional va psixologik ko‘rsatkichlar kompleks ravishda tahlil qilinadi. Genetik omillardan foydalanish yosh sportchilarni erta aniqlash, ular uchun individual mashg‘ulot dasturlarini tuzish, ortiqcha yuklamalardan saqlash, jarohatlar xavfini kamaytirish va sport natijalarini oshirish imkonini beradi. Bu esa erkin kurash sport turida yuqori malakali sportchilarni tayyorlashda ilmiy asoslangan seleksiya tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Erkin kurash sport turi yuqori jismoniy yuklama va murakkab texnik-taktik harakatlarni talab qilishi sababli, ushbu sport turiga bolalarni saralashda genetik moyillikni hisobga olish sport natijadorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Genetik, morfologik, funksional va psixofiziologik ko’rsatkichlarni kompleks baholash sportchining istiqbolini aniq prognoz qilish va individual tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Umuman olganda, sport seleksiyasida genetik yondashuvni joriy etish yosh sportchilarni erta aniqlash, ularning tabiiy imkoniyatlarini to’liq ro’yobga chiqarish hamda milliy sport zaxirasini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–6099-son Farmoni. “Sog’lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”. – 2020-yil 30-oktabr.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5279-son Qarori. “Sport ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo’yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”. – 2021-yil 5-noyabr.
3. Platonov V. N. Sportchilarni tayyorlashning umumiy nazariyasi. – Kiev: Olimpiyskaya literatura, 2004. – 584 b.
4. Bompa T. O., Haff G. G. Periodization: Theory and Methodology of Training. – Human Kinetics, 2009.
5. F. A. Kerimov. Sport mashg’ulotlarida modellashtirish va prognozlash. – Toshkent: o’quv qo’llanma.
6. Muxamedov Sh. T. Sport genetikasi va seleksiya asoslari. – Toshkent, 2020.
7. Tajibaev S. S. Erkin kurash nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2019.

ERKIN KURASH SPORT TURIGA BOLALARNI SARALASHDA MORFOFUNKSIONAL VA TIBBIY-BIOLOGIK MEZONLARNING ILMIY TAHLILI

Sobirova Asalxon Muzaffarovna
Urganch davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
sobirovaasalxon504@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934762

Annotatsiya. Mazkur maqolada bolalarni erkin kurash sport turiga saralash jarayonida qo‘llaniladigan morfofunksional va tibbiy-biologik mezonlarning ilmiy-nazariy jihatlari tahlil qilingan. Insonning asosiy morfofunksional belgilari va harakat sifatlarining nasliylik darajasi, ularning sport qobiliyatlari shakllanishidagi o‘rni ilmiy manbalar asosida ko‘rib chiqilgan. Erkin kurashga dastlabki saralashda faqat jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlariga tayanishning cheklangan jihatlari hamda tibbiy-biologik mezonlarni kompleks hisobga olish zarurati asoslangan. Maqolada mavjud ilmiy qarashlar umumlashtirilib, bolalarni erkin kurashga saralash tizimida morfofunksional va tibbiy-biologik mezonlardan foydalanishning ilmiy-metodik imkoniyatlari yuzasidan xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: erkin kurash, sport saralashi, dastlabki saralash, morfofunksional ko‘rsatkichlar, tibbiy-biologik mezonlar, antropometriya, jismoniy rivojlanish, funksional imkoniyatlar, aerob imkoniyat, anaerob imkoniyat, nasliylik.

Ключевые слова: вольная борьба, спортивный отбор, начальный отбор, морфофункциональные показатели, медико-биологические критерии, антропометрические показатели, физическое развитие, функциональные возможности, аэробные возможности, анаэробные возможности, наследуемость.

Keywords: freestyle wrestling, sports selection, initial selection, morphofunctional indicators, medical and biological criteria, anthropometric indicators, physical development, functional capabilities, aerobic capacity, anaerobic capacity, heritability.

Kirish. Davlatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgach, hayotni uzaytirish, uning sifatini yaxshilash, sport mashg‘ulotlarini targ‘ib qilish orqali sog‘lom avlodni tarbiyalash, professional sportchilar hamda butun mamlakat aholisi uchun ham sport bilan shug‘ullanishlari uchun sharoit yaratish masalalari ustuvor yo‘nalishlar bo‘lib qolmoqda. Respublikamizning sport tashkilotlari va assosiatsiyalari tashabbusi bilan va bevosita Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish dasturi tasdiqlandi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston sportchilarini 2024 yilda Parij shahrida (Fransiya) o‘tkaziladigan XXXIII Olimpiya o‘yinlariga va XVII Paralimpiya o‘yinlariga tayyorlash to‘g‘risida” gi Farmoni qabul qilindi[1]. Chiqarilgan bir qator muhim davlat qarorlari jismoniy tarbiya va sportni, shu jumladan, kurash turlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan. Sport yakkakurashlarining zamonaviy turlari, sportchilardan texnik va taktik mahoratni egallash va aniqlikni talab qiluvchi, oshib boruvchi jismoniy yuklamalar bilan boyitilgan mashg‘ulot jarayonini jadallashtirish bilan tavsiflanadi. Jahon sportida yutuqlarning jadal o‘sishi barobarida sport zaxiralarini tayyorlashning yangi, yanada samarali vositalari, usullari va tashkiliy shakllarini tinimsiz izlashni talab qiladi. Bu borada sport maktablari kabi sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi ko‘plab omillar mavjud. Ilmiy tadqiqotlar natijalari bir qator yirik ilmiy nashrlarda o‘z aksini topgan: bu birinchi navbatda V.P. Filinning O‘smirlar sporti nazariyasi va uslubiyati (1987) kitobi, L.V. Volkov – “Yosh sportchini o‘qitish va tarbiyalash”, V. M. Volkov, V.P. Filin “Sportga saralash”, M.Ya.Nabatnikova (1982)ning umumiy tahriri ostida “Yosh sportchilar” va boshqalar tomonidan ilmiy jihatdan ko‘p ishlar qilingan. O‘smirlar sporti sohasidagi ilmiy - tadqiqot ishlarining ma’lum ijobiy natijalarini qayd etgan holda, bir qator muhim kamchiliklarga ham e’tibor qaratish lozim. Sport zaxiralarini tayyorlashning dolzarb masalalari bo‘yicha malakali tahliliy sharhlar juda kamdan-kam hollarda tuziladi, ilmiy-uslubiy tavsiyalar ham yetarlicha joriy qilinmagan.

Hozirgi vaqtda sportga samarali yo‘naltirish va yosh sportchilarni saralab olishni faqat pedagogik test natijalari asosida amalga oshirish mumkin emas. Afsuski, sport natijasi barqaror emas, shuning uchun u yoki bu sportchining istiqbollari aldamchi bo‘lib chiqadi. Bularning barchasi yetarlicha barqaror va bashoratga ega yanada ishonchli mezonlarni izlashni talab etadi. Sportga saralab olishni takomillashtirish maqsadida, so‘nggi yillarda, tug‘ma (irsiy) barqaror xususiyatlar - genetik markerlardan foydalanishga asoslangan yangi tadqiqot usullariga tobora ko‘proq kiritilmoqda. O‘tgan o‘n yilliklar davomida olib

borilgan ko‘p sonli tadqiqotlar, nasl va tashqi muhit ta’siri ostida shakllangan organizm xususiyatlari sifatidagi sportchi fenotipining shakllanishiga genotip katta ta’sir o‘tkazishini ko‘rsatadi. Insonning morfofunksional belgilari va harakat sifatlarining nasldan-naslga o‘tishi to‘g‘risidagi umumiy tasavvurlarni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Belgi	Nasliylik
Tana, qo‘l va oyoqlar uzunligi	Yuqori
Gavda, yelka va yelka oldi uzunligi	Yuqori
Yelka va tos kengligi	Katta
Bo‘yin, yelka, yelka oldi, son, boldirning aylanasi	O‘rta
Tana vazni	Katta
Mushaklarning BS- va MS-to‘qimalari nisbati	Yuqori
Anaerob ishlab chiqarish	Katta
Aerob ishlab chiqarish	Katta

Ushbu ma’lumotlarni sportchi funksional salohiyatining bir qator muhim ko‘rsatkichlariga nisbatan nasliy meros va oilaviy o‘xshashlikni tajribaviy baholash natijalari bilan to‘ldirish mumkin (2-jadval).

2-jadval

Belgi	Nasliylik
Oddiy harakat ta’sirchanligi vaqti	Yuqori
Oddiy harakatlar vaqti	Katta
Maksimal statik kuch	Katta
Maksimal dinamik kuch	O‘rta
Tezlik kuchi	Katta
Koordinatsiya	O‘rta
Egiluvchanlik	Katta
Lokal mushak chidamliligi	Katta
Global mushak chidamliligi	Yuqori

Monozigot va dizigot egizaklar, ota-onalar va bolalar, aka-uka va opa-singillar ishtirokida o‘tkazilgan tajribalar sport uchun muhim bo‘lgan belgilarga nasliy meros va oilaviy o‘xshashlikning ta’siri mavjudligini aniqlashga imkon beradi. Turli tadqiqotchilar tomonidan keltiriladigan natijalarda anchagina mos kelmasliklar mavjud bo‘lishiga qaramasdan, VO_2max ning oqilona mashg‘ulot sharoitida 20–25 % gacha o‘zgarishi sportchining genotipi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu ma’lumotlarga nasliy merosning kislorod pulsi ko‘rsatkichi va yurak urishiga ta’siri ham mos keladi. Oilaviy o‘xshashlikning sportdagi yutuqlarga ta’siri ota-onalar va bolalari, aka-uka va opa-singillarning ko‘p marotaba sportda muvaffaqiyatlarga erishganliklari bilan tasdiqlanadi. Sportning istalgan turida bunga misol topish mumkin. Lekin bunda oilaviy o‘xshashliklarning ta’siri nafaqat genlarga, balki bir-biriga o‘xshash oila a’zolarida mavjud bo‘lgan umumiy oilaviy muhitga ham bog‘liqligini e’tiborda tutish kerak. Xususan, bunga sportga munosabat, ba’zi oila a’zolari o‘rtasidagi raqobat va boshqa omillar kiradi.

3-jadval

Ko‘rsatkich	Nasliylik	Oilaviy o‘xshashlik
Maksimal kislorod iste’moli	Katta	Katta
Yurak hajmi	Katta	Yuqori
Sistolik hajm va yurak tashlashi	Yuqori	Yuqori
Mushak to‘qimalari tarkibi	Katta	Yuqori
Mushakning oksidlash salohiyati	Katta	Yuqori
Lipid substratlarning oksidlanishi	Yuqori	Yuqori
Lipidlarning jalb qilinishi	Yuqori	Yuqori

Genotip ma’lum ma’noda sportchining qanday darajada tayyorlanganligiga sabab bo‘ladi. Masalan, yoshi, jinsi va boshlang‘ich tayyorgarlik darajasi bir xil bo‘lgan shaxslar standart trening dasturlariga turlicha ta’sirlanadi: sportchining aerob imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli tayyorgarlik ayrimlarda VO_2max ko‘rsatkichining 1 l/min gacha keskin ko‘payishiga sabab bo‘lsa, boshqalarda umuman o‘zgarishlar kuzatilmasligi mumkin. Shu bilan birga, monozigot egizaklar o‘rtasida 20 hafta davomida o‘tkazilgan tadqiqotlar har bir monozigot juftlikda adaptiv natijalarning yuqori darajadagi o‘xshashligini ko‘rsatdi.

Umuman olganda, tayyorgarlik darajasiga genetik ta’sirning tabiati hali ham to‘liq o‘rganilmagan. Lekin ishonch bilan ta’kidlash mumkinki, kuch, tezlik, aerob va anaerob yo‘nalishdagi mashg‘ulotlarga adaptatsion ta’sir genetik omillar bilan ma’lum darajada bog‘liqdir. Ayrim shaxslar mashg‘ulotlar ta’siri ostida tez ko‘nikmalar hosil qilishi mumkin, boshqalarda bu jarayon o‘rtacha, uchinchilarda esa sust kechishi mumkin[2].

Sport tanlovining pedagogik va tibbiy biologik mezonlari sosiogen ta’sir vositasi sifatida. Mutaxassislarning fikricha “organizmning morfologik, fiziologik, psixologik va boshqa xususiyatlari katta yoki kichik darajada tug‘ma (irsiy) o‘zgaruvchanlikni namoyon qilganligi sababli, sport faoliyatini amalga oshirish organizmning reaksiya bildirish me’yori bilan cheklangan [3]. Aytilganlarning barchasi sportdagi tibbiy-biologik muammolar tarkibida genetik tadqiqotlar o‘rnini aniqlashga imkon beradi. Sportga qobiliyatli” shaxslarni saralab olish, sport turlari bo‘yicha yo‘naltirish, sport yutuqlarini bashoratlash, ayrim tug‘ma (irsiy) sport uchun muhim fiziologik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lish. Sportga yo‘naltirish – individual morfofunksional va psixofiziologik xususiyatlarga ega bo‘lgan aniq bir shaxs uchun optimal faoliyat turini tanlashdir. Tanlov ham, yo‘naltirish ham inson omili haqida qayg‘urish bilan bog‘liq, ammo yetakchi rolni, birinchi navbatda, atrof- muhit sharoitlarini hisobga olgan holda professional yoki sport), ikkinchidan – shaxsning ehtiyojlar egallaydi. Sport morfologlarining tanlov va yo‘naltirish masalalariga qarashlari o‘zgarishlarga uchradi. Morfologik kuzatuvlar nuqtai nazaridan kam samara beradigan pedagoglardan olingan tanlov shakllarining tasnifi, original tasnif bilan almashtirildi. U tanlovning ta’kidlovchi va bashoratlovchi shakllarini ajratib ko‘rsatadi.

Inson qobiliyatlari faoliyat davomida shakllanadi, bu ularning paydo bo‘lish muddatini belgilaydi. Biroq, bashoratli tanlovda genetik markerlardan foydalanish, potensiyaning ba’zi belgilari uchun ularning real paydo bo‘lishidan ancha oldin oshkor bo‘lishini oldindan baholashga imkon beradi. Ta’kidlovchi tanlov uslubiyati bashoratli tanlov bilan mos kelmaydi. Birinchi holatda, inson – ishlab chiqaruvchining, faoliyat sub’yektining umumiy morfofunksional ko‘rinishi hisobga olinadi. Ikkinchi holatda, alohida belgilar yoki sifatlar aniqlanadi, ularning ushbu insonda namoyon bo‘lish salohiyati ancha yuqori. Bunday shaxslar haqiqatan mavjud va ularning har bir alohida belgi bo‘yicha ko‘payishdagi ulushi 2-3% ni tashkil qiladi.

Somatotipga ko‘ra, tananing rivojlanish sur’atlarini, xususan, balog‘atga yetish vaqtini taxmin qilish mumkin. Somatotipga bog‘liq ravishda bir qator morfo-funksional tizimlar faoliyatida o‘ziga xos xususiyatlar mavjud bo‘lib, ular sport morfologlarining ma’lumotlarida aks etgan [4]. Somatotip toifasiga qarab mushak tizimini o‘rganish natijasida, mushak qisqarish kuchining uning anatomik yoki fiziologik kesishmasi – nisbiy kuchga nisbati individual o‘ziga xos va boshqa omillar qatorida gavda tuzilishi va jinsga bog‘liqligi aniqlandi. Nisbiy kuchning kattaligi ektomorfik vakillarda yuqori, endomorfik somatotipda esa pastroq. Agar nisbiy kuchning qiymatlarini mediomorfik somatotip bilan 100 dan ortiq qabul qilingan darajasining foizi sifatida ifodalasak, ektomorfik gavda tuzilishiga ega bo‘lgan shaxslarning ushbu sifat bo‘yicha mediomorfik somatotip egalariga nisbatan afzalliklari unchalik katta emasligi ma’lum bo‘ldi. - Ushbu farqlarning sabablari ham anatomik (mushaklar shakli, uning g‘ovakliligi, biriktiruvchi to‘qima tarkibining namoyon bo‘lish xususiyatlari), ham neyrofiziologik xususiyatga ega bo‘lishi

mumkinMa’lumotlarga ko‘ra genetik markerlarni identifikatsiyalash insonning jismoniy sifatlarini rivojlanishini bashoratlash imkonini beradi, bu sport va ekstremal jismoniy yuklamalar bilan bog‘liq boshqa faoliyat turlarida yanada samarali professional tanlov uchun katta ahamiyatga ega. Mutlaq genetik markerlarga dermatoglifika va odontoglifikaning ba’zi belgilari, qon guruhlari, HLA immunogenetik tizimi va ba’zi serologik ko‘rsatkichlar kiradi. Shartli genetik markerlarga somatotip, temperament, asab faoliyat turi, fyenotip asyetillash kiradi.

Xulosa. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bolalarni erkin kurash sport turiga saralashda morfofunksional va tibbiy-biologik mezonlarni kompleks hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Tana tuzilishi va proporsiyalari, tana vazni, mushak tizimining rivojlanishi, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining funksional imkoniyatlari, aerob va anaerob ish qobiliyati sportga istiqbollilikni tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Shuningdek, ayrim morfofunksional va harakat ko‘rsatkichlarining nasliylik darajasi sport qobiliyatlarining individual namoyon bo‘lishiga ta’sir etishi mumkin. Biroq sport istiqbolini faqat nasliy xususiyatlar bilan belgilash to‘g‘ri emas; ularning namoyon bo‘lishi tashqi muhit va mashg‘ulot jarayoni bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli erkin kurashga dastlabki saralashda tibbiy-biologik ko‘rsatkichlarni yosh va individual rivojlanish xususiyatlari bilan uyg‘un holda baholash ilmiy jihatdan maqbul yondashuv hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “O‘zbekiston sportchilarini 2024-yilda Parij (Fransiya) shahrida bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga har tomonlama tayyorlash to‘g‘risida”gi PQ-5281-son qarori.

2. Kerimov F.A., Umarov M.N. *Sportda prognozlashtirish va modellashtirish.* Darslik. Toshkent: O‘zDJTI nashriyot-matbaa bo‘limi, 2005. 279 b.

3. Volkov V.M., Filin V.P. *Sportga saralash.* Moskva: Jismoniy tarbiya va sport, 1983. -176 b.

4. Shvars V.B., Xrushchyov S.V. *Sportga yo‘naltirish va saralashning tibbiy-biologik jihatlari.* Moskva: Jismoniy tarbiya va sport, 1984. -151 b.

5. Filin V.P. *O‘smirlar sporti nazariyasi va uslubiyati.* Moskva: Jismoniy tarbiya va sport, 1987. 127 b.

PROMPT MUHANDISLIGINING TA’LIMDAGI DOLZARB VAZIFALARI

Kon Oleg Viktorovich
p.f.n., "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti (TIFT)
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934817

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy oliy ta’lim tizimida Prompt muhandisligining (prompt engineering) dolzarb vazifalari va uni innovatsion pedagogik texnologiya sifatida qo‘llash imkoniyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada prompt muhandisligining nazariy asoslari, uning turlari va sifatli promptlarni ishlab chiqish tamoyillari tizimli ravishda yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish dasturlari kontekstida prompt muhandisligi oliy ta’lim muassasalarida raqamli transformatsiyaning muhim omili sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: prompt muhandisligi, generativ sun’iy intellekt, raqamli kompetensiya, pedagogik dizayn, oliy ta’lim, o‘quv-uslubiy materiallar, baholash, raqamli transformatsiya.

Abstract. This article is devoted to the analysis of the current tasks of Prompt Engineering in the modern higher education system and the possibilities of its application as an innovative pedagogical technology. The article systematically covers the theoretical foundations of prompt engineering, its types and principles for developing high-quality prompts. In the context of the “Digital Uzbekistan — 2030” strategy of the Republic of Uzbekistan and programs for the development of artificial intelligence technologies, prompt engineering is considered an important factor in digital transformation in higher education institutions.

Keywords: prompt engineering, generative artificial intelligence, digital competency, pedagogical design, higher education, educational materials, assessment, digital transformation.

Kirish. Global ta’lim makoni XXI asrning birinchi uchdan bir qismida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi tufayli misli ko‘rilmagan transformatsiyani boshdan kechirmoqda. Oliy ta’limning fundamental asoslariga ta’sir ko‘rsatayotgan tizimli o‘zgarishlar akademik institutlarni postindustrial axborot jamiyati sharoitlariga moslashtirish zaruriyati bilan bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’limning raqamli transformatsiyasi endilikda axborot-kommunikatsiya vositalarini oddiy joriy etish jarayoni sifatida emas, balki ta’lim ekotizimlarini kompleks qayta konfiguratsiyalash, didaktik tamoyillarni qayta ko‘rib chiqish va professor-o‘qituvchining kasbiy profilini modernizatsiyalash xarakteriga ega bo‘lmoqda [3]. Neyrotarmoq modellarining yuqori sifatli matnli, dasturiy va multimedia kontentini yaratish, tuzilmagan ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish va ijodiy vazifalarni hal qilish jarayonida intellektual hamkor sifatida ishlash qobiliyati akademik faoliyat uchun tubdan yangi sharoitlar yaratdi [6].

Generativ sun’iy intellektni oliy ta’limga integratsiyalash o‘qituvchining kasbiy faoliyatini tubdan o‘zgartirishga olib keladi. Bilim tarjimoni va nazorat qiluvchi subyektning an’anaviy funktsiyalari ta’lim tajribasi arxitektori, raqamli axborot muhitida navigator va intellektual tizimlar bilan o‘zaro hamkorlik bo‘yicha ekspert funktsiyalari bilan to‘ldirilmoqda va qisman almashtirilmoqda. Bunday sharoitda pedagogik va ilmiy-tadqiqot vazifalarini hal qilish uchun AI imkoniyatlaridan samarali va axloqiy foydalanish imkonini beruvchi yangi raqamli kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi [8].

Zamonaviy oliy ta’lim pedagogining eng talab qilinadigan va istiqbolli kasbiy kompetensiyalaridan biri Prompt muhandisligi (Prompt Engineering) ga aylanmoqda. Ushbu fan yirik lingvistik modellarning ishini yo‘naltirish va maksimal darajada aniq, dolzarb va mazmunli natijalarni olish uchun tuzilgan kirish so‘rovlarini shakllantirish san’ati va texnologiyasini ifodalaydi.

O‘qituvchining generativ AI bilan o‘zaro hamkorlik sifati prompt muhandisligi texnikalarini egallash darajasi bilan bevosita bog‘liq: vazifani to‘g‘ri qo‘yish, kontekstni hisobga olish va chiqish parametrlarini belgilashdan muntazam jarayonlarni avtomatlashtirish, o‘quv materiallarini ishlab chiqish va ta’limni shaxsiylashtirish samaradorligi bog‘liq [11].

O‘zbekiston Respublikasida ta’limni raqamlashtirish va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari qatoriga ko‘tarilgan. 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni hamda 2024-yilda qabul qilingan “2030-yilgacha sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish

strategiyasi” oliy ta’limni tizimli modernizatsiyalash uchun mustahkam normativ-huquqiy baza yaratmoqda. Davlat rahbarining 2025-yil 21-oktabrdagi yig‘ilishida bergan topshiriqlariga muvofiq, AI ni ta’lim jarayoniga jadallashtirilgan holda joriy etish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va inson kapitali sifatining garovi sifatida qaralmoqda [14].

Biroq, siyosiy iroda va texnologik infratuzilma mavjudligiga qaramay, O‘zbekiston universitetlarida generativ AI ni joriy etish jarayoni jiddiy muammo - professor-o‘qituvchilarni uslubiy tayyorlashning yetishmasligi bilan to‘qnashmoqda [15]. Intellektual tizimlarning potentsial imkoniyatlari va ularni o‘quv jarayonida qo‘llashning real amaliyoti o‘rtasida sezilarli tafovut kuzatilmoqda. O‘qituvchilar ko‘pincha LLM ishlash mexanizmlari va prompt muhandisligi metodologiyasi haqida tizimli tushunchaga ega emaslar, bu esa AI dan parcha-parcha, ba’zan esa noto‘g‘ri foydalanishga olib keladi va uning rolini oddiy ma’lumot izlash yoki shablonli matnlarni generatsiyalash bilan chegaralaydi [16].

Shunday qilib, ushbu tadqiqotning dolzarbligi generativ AI texnologiyalarining jadal rivojlanishi va professor-o‘qituvchilarning ulardan samarali foydalanishga tayyorlik darajasi pastligi o‘rtasidagi ziddiyatni bartaraf etish zarurati bilan belgilanadi. Prompt muhandisligi sohasidagi kompetensiyalarni shakllantirishga ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish nafaqat ta’lim jarayoni sifatini oshirishga, balki O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimining sun’iy intellekt davrida texnologik suvereniteti va innovatsion rivojlanishini ta’minlashga imkon beradi [18].

Maqolaning maqsadi: Ushbu maqolaning maqsadi Prompt muhandisligining oliy ta’limdagi dolzarb vazifalarini innovatsion pedagogik texnologiya sifatida tahlil qilish va uning samarali qo‘llanish modelini asoslab berishdan iborat.

Metodlar. Ushbu maqola nazariy-uslubiy xarakterga ega bo‘lib, quyidagi ilmiy metodlar majmuasiga asoslanadi:

Tizimlashtirish - promptlarni qurish usullarini tasniflash, AI dan foydalanishning pedagogik stsenariylari tipologiyasini va ishlab chiqilayotgan so‘rovlar bankini tuzish uchun qo‘llanildi.

Modellashtirish - o‘qituvchining AI agentlari bilan o‘zaro hamkorligining konseptual modellarini yaratish, shuningdek, prompt muhandisligi asosida o‘quv jarayonlarini avtomatlashtirish algoritmlarini loyihalash uchun ishlatildi.

Pedagogik loyihalash - uslubiy tavsiyalar, o‘quv materiallari va promptlar banki strukturasini ishlab chiqishda qo‘llanilib, ularning didaktik tamoyillar va o‘qitish maqsadlariga muvofiqligini ta’minladi.

Natijalar. *1. Prompt muhandisligining mohiyati va pedagogik ahamiyati.*

Prompt muhandisligi (prompt engineering) - bu kompyuter lingvistikasi, kognitiv psixologiya va sun’iy intellekt nazariyasi kesishmasida vujudga kelgan fanlararo bilim sohasi bo‘lib, inson intellekti va yirik lingvistik modellar o‘rtasidagi kommunikatsiyani optimallashtirishga qaratilgan [9]. Tor texnik ma’noda bu - neyrotarmoq modelining ma’lum parametrlarini faollashtirish va belgilangan natijani olish uchun kirish matnli konstruksiyalarini iterativ ishlab chiqish va takomillashtirish jarayonidir [10]. Keng, ilmiy-pedagogik ma’noda esa Prompt muhandisligi o‘qituvchiga murakkab didaktik vazifalarni hal qilish uchun AI ning generativ qobiliyatlarini boshqarish imkonini beruvchi kognitiv interfeyslarni loyihalash metodologiyasi sifatida qaralishi kerak.

2. *Samarali promptning sakkiz komponentli modeli.* Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan samarali prompt modeli quyidagi sakkiz komponentni o‘z ichiga oladi:

1-komponent: Rol - lingvistik model ishlashi kerak bo‘lgan kognitiv profil va kasbiy kontekstni belgilash. Bu modelga tegishli ma’lumotlar klasterlari va uslubiy shakllarni faollashtirish imkonini beradi.

2-komponent: Kontekst - modelga natija qo‘llaniladigan muhit haqida zarur fon ma’lumotlarini taqdim etish. Pedagogik amaliyotda kontekst maqsadli auditoriya (talabalarning tayyorgarlik darajasi, ta’lim yo‘nalishi), ta’lim dasturining o‘ziga xos xususiyatlari va institutsional talablar haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

3-komponent: Maqsad - kerakli natija va generatsiya qilinadigan kontentning funktsional vazifasini aniqlash. Maqsadni aniq belgilash AI ga ma’lumotni shunday tuzishga imkon beradiki, u oddiy bilimlarni takrorlashdan tortib tanqidiy tahlil va sintezgacha bo‘lgan aniq kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilsin.

4-komponent: Dastlabki ma’lumotlar - modelga aniq faktlar, matnlar, statistik ma’lumotlar yoki nazariy qoidalarni taqdim etish. Akademik muhitda bu komponent faktologik xatolarning oldini olish uchun muhim ahamiyatga ega [10].

5-komponent: Cheklovlar - AI ning ruxsat etilgan xatti-harakatlari doirasini belgilash. Cheklovlar hajm, uslub, format, foydalaniladigan terminologiya, axloqiy me’yorlar, shuningdek, muayyan mavzular yoki iboralardan qochishga tegishli bo‘lishi mumkin.

6-komponent: Javob formati - kerakli natijaning tashqi ko‘rinishi va tuzilishini aniqlash. Bu ma’ruza rejasi, qiyosiy tahlil jadvali, imtihon savollari ro‘yxati, dasturiy kod yoki rolli o‘yin stsenariysi bo‘lishi mumkin.

7-komponent: Sifat mezonlari - generatsiya qilingan javobni baholash parametrlarini ko‘rsatish. Bu aniqlik, to‘liqlik, originalilik, mantiqiylik, akademik standartlarga muvofiqlik kabi mezonlarni o‘z ichiga oladi [9].

8-komponent: O‘z-o‘zini tekshirish - AI ga o‘z javobini yuqoridagi barcha komponentlarga muvofiqligini tahlil qilish yoki o‘qituvchiga aniqlashtiruvchi savollar berish bo‘yicha ko‘rsatma berish [11].

3. *Prompt turlari va ularning pedagogik qo‘llanilishi.* Prompt muhandisligining quyidagi asosiy turlari oliy ta’limda samarali qo‘llanilishi mumkin:

- *Zero-shot Prompting* - vazifani bajarish namunalarisiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘yish. Oddiy vazifalar uchun qo‘llaniladi, maksimal tezlik va universallikni ta’minlaydi.
- *One-shot Prompting* - bitta namunaviy misolni so‘rovga kiritish. Natija formatini nazorat qilishni sezilarli darajada yaxshilaydi.
- *Few-shot Prompting* - kontekstda o‘rganish uchun bir nechta (2-5) misollarni taqdim etish. Yuqori aniqlik va murakkab akademik uslubga moslashishni ta’minlaydi.
- *Chain-of-Thought* (CoT) - yakuniy xulosa chiqarishdan oldin oraliq fikrlash bosqichlarini generatsiyalash. Murakkab hisoblash va analitik vazifalarni hal qilishda samarali.
- *Persona Prompting* - modelga batafsil kasbiy va shaxsiy profil berish. Dialog trenajorlari va ishbilarmon o‘yinlarni yaratishda qo‘llaniladi.
- *Structured Prompting* - so‘rovni rasmiy belgilash yordamida tuzish. Natija formatining kafolatlanishi va tizimli integratsiya qulayligini ta’minlaydi.

4. *Prompt muhandisligini o‘quv-uslubiy materiallarni ishlab chiqishda qo‘llash.* Tadqiqot prompt muhandisligi quyidagi o‘quv-uslubiy materiallarni ishlab chiqishda samarali qo‘llanilishini ko‘rsatdi:

- *Ishchi o‘quv dasturlari* - generativ AI fan nomi, maqsadli auditoriya, soatlar soni va kerakli kompetensiyalarni o‘z ichiga olgan prompt orqali dastur tuzilmasini, ma’ruza va seminar mavzulari ro‘yxatini hamda tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxatini taklif qilishi mumkin [17].
- *O‘quv-uslubiy majmualar* - AI ma’ruza konspektlari, seminar mashg‘ulotlari rejalari, mustaqil ish uchun uslubiy ko‘rsatmalar, glossariy va boshqa yordamchi materiallarni generatsiyalashda yordam beradi [8].
- *Baholash vositalari fondi* - AI turli xil test topshiriqlarini (yopiq, ochiq, moslikni o‘rnatish) yaratish, amaliy topshiriqlar stsenariylarini ishlab chiqish va baholash mezonlarini detallashtirish imkonini beradi.
- *Nazorat topshiriqlari* - AI real yoki gipotetik vaziyatlarga asoslangan tematik masalalar, og‘zaki so‘rov uchun ochiq savollar va matnlarni tahlil qilish topshiriqlarini generatsiyalashi mumkin [10].
- *Imtihon savollari* - AI fanning asosiy bo‘limlarini qamrab oluvchi, turli darajadagi murakkablikdagi imtihon savollarini shakllantirish imkonini beradi [6].
- *Baholash rubrikalari* - AI topshiriq tavsifi va kutilayotgan o‘quv natijalari asosida tegishli baholash mezonlarini taklif qilishi va har bir mezon bo‘yicha erishish darajalari tavsiflarini ishlab chiqishi mumkin [7].

5. *Prompt muhandisligini ta’lim natijalarini baholashda qo‘llash.* Tadqiqot prompt muhandisligining ta’lim natijalarini baholashdagi quyidagi imkoniyatlarini aniqladi [18]:

- Ishlarni tekshirish - AI talabalar ishlarini rasmiy talablarga (tuzilma, hajm, havolalar mavjudligi, matn unikalligi) muvofiqligini tezkor tekshirish, asosiy dalillar va tushunchalarni aniqlash, mantiqiy bog‘liqlik va argumentatsiyani baholash imkonini beradi [9].
- Fikr-mulohaza shakllantirish - AI talabaning ishini tahlil qilish va belgilangan baholash mezonlari asosida individual sharhlar yaratishi, takomillashtirish yo‘llarini taklif qilishi va o‘z-o‘zini tahlil qilish uchun savollar shakllantirishi mumkin [10].
- Xatolarni tahlil qilish - AI talabalar xatolarini tasniflash, tizimli xatolarni aniqlash, ularning yuzaga kelish sabablarini taxmin qilish va xatolarni namunali javoblar bilan solishtirish imkonini beradi [6].

- Talabalarga tavsiyalar tayyorlash - AI individual natijalar va aniqlangan xatolar asosida shaxsiylashtirilgan rivojlanish rejasini taklif qilishi, qo‘shimcha ta’lim resurslarini tavsiya qilishi va akademik ko‘nikmalarni yaxshilash bo‘yicha maslahatlar berishi mumkin [11].

6. *O‘zbekiston oliy ta’limi kontekstida prompt muhandisligini joriy etish.* Tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida prompt muhandisligini joriy etishning quyidagi o‘ziga xos jihatlarini aniqladi:

- Til va madaniy moslashuv - model nafaqat global ingliz tilida, balki davlat (o‘zbek) va rus tillarida ham yuqori darajada bilimga ega bo‘lishi, milliy terminologiya, tarixiy-madaniy kontekst va ta’lim standartlari xususiyatlarini to‘g‘ri tushunishni ta’minlashi kerak [15].

- Milliy axborot tizimlari bilan integratsiya - O‘zbekiston oliy ta’limi kontekstida prompt komponenti HEMIS milliy axborot tizimi bilan integratsiyani, davlat ta’lim standartlari (DTS) talablarini va mintaqaning madaniy-tarixiy landshaftini hisobga olishi kerak [16].

- Kross-tilli prompt - so‘rov bir tilda (masalan, ingliz yoki rus tilida) javobning eng aniq mantiqiy tuzilmasini olish uchun shakllantiriladi, so‘ngra o‘zbek tiliga moslashtiriladi va tarjima qilinadi [17].

Muhokama. Olingan natijalari Prompt muhandisligi zamonaviy oliy ta’limda muhim innovatsion pedagogik texnologiya sifatida shakllanayotganligini ko‘rsatmoqda.

Nazariy ahamiyati. Ishlab chiqilgan sakkiz komponentli model (Rol → Kontekst → Maqsad → Dastlabki ma’lumotlar → Cheklovlar → Javob formati → Sifat mezonlari → O‘z-o‘zini tekshirish) Prompt muhandisligini tizimli pedagogik texnologiya sifatida konseptuallashtirishga xizmat qiladi [7]. Ushbu model ilgari taklif qilingan TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) ramkasini va DigCompEdu raqamli kompetensiyalar ramkasini to‘ldiradi va ularni generativ AI davri talablariga moslashtiradi.

Prompt muhandisligi an’anaviy pedagogik dizaynni yangi bosqich — intellektual interfeyslarni loyihalash bosqichi bilan to‘ldiradi. O‘qituvchi endilikda faqat bilim tarjimoni emas, balki ta’lim so‘rovlari arxitektori rolini o‘ynaydi. Bu pedagogik dizayn nazariyasini generativ AI davri talabalariga mos ravishda qayta ko‘rib chiqish zaruratini ko‘rsatadi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Prompt muhandisligi o‘qituvchining quyidagi faoliyat turlarini optimallashtirishga xizmat qiladi:

1. *Ma’ruza materiallarini tayyorlash* — AI yordamida ma’ruza tuzilmasini, mazmunini va taqdimotini ishlab chiqish.
2. *Amaliy mashg‘ulotlarni loyihalash* — interaktiv stsenariylar, mashqlar va vaziyatli topshiriqlarni yaratish.
3. *Baholash vositalarini ishlab chiqish* — turli darajadagi murakkablikdagi test topshiriqlarini generatsiyalash.
4. *Fikr-mulohaza shakllantirish* — talabalarga shaxsiylashtirilgan va konstruktiv fikr-mulohaza berish.
5. *O‘quv-uslubiy hujjatlarni tayyorlash* — ishchi o‘quv dasturlari va sillabuslarni yaratish.

O‘zbekiston kontekstida qo‘llash imkoniyatlari. O‘zbekiston Respublikasining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi va 2030-yilgacha sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi O‘zbekiston oliy ta’limida Prompt muhandisligini joriy etishning quyidagi yo‘nalishlarini belgilaydi:

- Professor-o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish dasturlariga Prompt muhandisligi modullarini kiritish;
- O‘zbek va rus tillarida samarali ishlaydigan promptlar bankini shakllantirish;
- Milliy axborot tizimlari (HEMIS) bilan integratsiyalashgan prompt stsenariylarini ishlab chiqish;
- O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida Prompt muhandisligi bo‘yicha o‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

Xulosa. Ushbu maqolada Prompt muhandisligining oliy ta’limdagi dolzarb vazifalari innovatsion pedagogik texnologiya sifatida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. Prompt muhandisligi zamonaviy oliy ta’limda muhim raqamli kompetensiya sifatida shakllanib, o‘qituvchining generativ sun’iy intellekt bilan samarali o‘zaro hamkorlik qilish imkoniyatini yaratadi.
2. Ishlab chiqilgan sakkiz komponentli samarali prompt modeli (*Rol → Kontekst → Maqsad → Dastlabki ma’lumotlar → Cheklovlar → Javob formati → Sifat mezonlari → O‘z-o‘zini tekshirish*) Prompt muhandisligini tizimli pedagogik texnologiya sifatida qo‘llash imkonini beradi [11].

3. Prompt muhandisligi o‘quv-uslubiy materiallarni (ishchi o‘quv dasturlari, o‘quv-uslubiy majmualar, baholash vositalari fondi, nazorat topshiriqlari, imtihon savollari, baholash rubrikalari) ishlab chiqishda samarali qo‘llanilishi mumkin.

4. Prompt muhandisligi ta’lim natijalarini baholashda (ishlarni tekshirish, fikr-mulohaza shakllantirish, xatolarni tahlil qilish, talabalarga tavsiyalar tayyorlash) muhim rol o‘ynaydi.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi va sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish dasturlari Prompt muhandisligini oliy ta’limda joriy etish uchun qulay normativ-huquqiy sharoit yaratadi.

6. Prompt muhandisligini O‘zbekiston oliy ta’limida joriy etish til va madaniy moslashuvni, milliy axborot tizimlari bilan integratsiyani va kross-tilli prompt texnikalarini egallashni talab qiladi.

Prompt muhandisligi pedagogik texnologiya sifatida oliy ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasida muhim omil bo‘lib, professor-o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini optimallashtirishga, ta’lim jarayoni sifatini oshirishga va O‘zbekiston oliy ta’limining xalqaro raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Brown T.B., Mann B., Ryder N., Subbiah M., Kaplan J., Dhariwal P., … Amodei D. Language Models are Few-Shot Learners // Advances in Neural Information Processing Systems. — 2020. — Vol. 33. — P. 1877–1901.

2. European Commission. DigCompEdu: The European Framework for the Digital Competence of Educators. — Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. — 57 p.

3. O‘Connor A. Generative AI in Higher Education: The Ethical and Pedagogical Imperative. — London: Routledge, 2024. — 215 p.

4. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. — Paris: UNESCO Publishing, 2023. — 54 p.

5. OpenAI. GPT-4 Technical Report // arXiv preprint arXiv:2303.08774. — 2023. — 105 p.

6. Liu P., Yuan W., Fu Y., Jiang Z., Hayashi H., Neubig G. Pre-train, Prompt, and Predict: A Systematic Survey of Prompt Engineering // ACM Computing Surveys. — 2023. — Vol. 55, No. 9. — P. 1–35.

7. Sysoev P.V. Kompetensiya sovremennogo pedagoga v oblasti iskusstvennogo intellekta: struktura i soderjanie // Vysshee obrazovanie v Rossii. — 2025. — T. 34, № 1. — URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kompetentsiya-sovremennogo-pedagoga-v-oblasti-iskusstvennogo-intellekta-struktura-i-soderzhanie (murojaat qilingan sanasi: 01.08.2026).

8. Nosova L.S., Leonova E.A., Belyakov A.V. Organizatsiya nauchno-issledovatelskoy raboty studentov v svete tehnologiy generativnogo iskusstvennogo intellekta // Pedagogika. Voprosy teorii i praktiki. — 2025. — T. 10, № 1. — URL: https://cyberleninka.ru/article/n/organizatsiya-nauchno-issledovatelskoy-raboty-studentov-v-svete-tehnologiy-generativnogo-iskusstvennogo-intellekta (murojaat qilingan sanasi: 01.08.2026).

9. Toktarova V.I., Rebko O.V. Prompt-injiniring kak cifrovaya kompetentsiya prepodavatelya vysshey shkoly // Vestnik nauki i obrazovaniya. — 2025. — № 1-2 (139). — URL: http://nesinods.ru/toktarova-v-i-2025 (murojaat qilingan sanasi: 01.08.2026).

10. Davlatova M.A. Prompt-injiniring kak klyuchevaya kompetentsiya v obrazovanii: sushchnost, osobennosti i podhody k otsenivaniyu // Vysshee obrazovanie v Rossii. — 2026. — T. 35, № 2. — URL: https://cyberleninka.ru/article/n/prompt-inzhiniring-kak-klyuchevaya-kompetentsiya-v-obrazovanii-suschnost-osobennosti-i-podhody-k-otsenivaniyu (murojaat qilingan sanasi: 01.08.2026).

11. White J., Fu Q., Hays S., Sandborn M., Olea C., Gilbert H., … Schmidt D.C. A Prompt Pattern Catalog to Enhance Prompt Engineering with ChatGPT // arXiv preprint arXiv:2302.11382. — 2023.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni, 2020-yil 5-oktabr, PF-6079-son. — URL: https://lex.uz/docs/5031048 (murojaat qilingan sanasi:01.08.2026).

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, 2024-yil 14-oktabr. — URL: https://lex.uz (murojaat qilingan sanasi: 01.08.2026).

14. President.uz. Vnedrenie tehnologiy iskusstvennogo intellekta budet uskoreno. — 2025. — URL: https://president.uz/ru/lists/view/8582 (murojaat qilingan sanasi: 01.08.2026).

15. Yuldashev B. Rol cifrovoy obrazovatelnoy platformy HEMIS v upravlenii obrazovatelnym protsessom // Lingvo Spektr. — 2025. — T. 1, № 1. — URL: https://lingvospektr.uz/index.php/lngsp/article/view/458 (murojaat qilingan sanasi: 01.08.2026).

16. Abdullaev M.Sh. Cifrovaya transformatsiya vysshego obrazovaniya: vyzovy i perspektivy dlya Respubliki Uzbekistan // Voprosy sovremennoy nauki i praktiki. — 2024. — № 2. — S. 45–58.

17. Radjabov T.T. Pedagogicheskiy dizayn v usloviyah cifrovizatsii vysshego obrazovaniya // Nauchnye trudy Tashkentskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta. — 2023. — № 3. — S. 88–95.

18. Nazarov F.K. Cifrovaya didaktika: teoriya i praktika primeneniya intellektualnyh sistem. — Tashkent: Universitet, 2024. — 210 s.

TOSHKENT YARMARKALARINING IQTISODIY, MADANIY VA IJTIMOIY-TARIXIY AHAMIYAT

Rajabov Vohid Muhammad o‘g‘li
Renessans ta’lim Universeteti Ijtimoiy -siyosiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21933950

Annotatsiya. Maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Toshkent yarmarkalarining iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy-tarixiy ahamiyati kompleks tahlil qilingan. Yarmarkalarning savdo-sotiq markazi sifatidagi faoliyati bilan bir qatorda, ularning madaniyatlararo muloqot, axborot almashinuvi, ijtimoiy integratsiya va ma’rifiy jarayonlardagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqotda Toshkent yarmarkalarining mahalliy hunarmandchilikni rivojlantirish, kitob savdosi va matbaa mahsulotlarini tarqatish, ko‘rgazmalar hamda ommaviy madaniy tadbirlarni tashkil etishdagi roli ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, yarmarkalarning turli etnik guruhlar o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarni mustahkamlash, shahar madaniy muhitining shakllanishi hamda Turkiston o‘lkasida bozor munosabatlarining rivojlanishiga ta’siri tahlil etilgan. Natijada Toshkent yarmarkalari iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlar kesishgan ko‘p funksiyali tarixiy institut sifatida baholangan.

Kalit so‘zlar: Toshkent yarmarkalari, Turkiston o‘lkasi, savdo munosabatlari, madaniy integratsiya, ijtimoiy aloqalar, hunarmandchilik, ko‘rgazma-yarmarkalar, axborot almashinuvi, shahar madaniyati, etnik guruhlar, ma’rifiy jarayonlar, bozor iqtisodiyoti.

Аннотация; В статье комплексно анализируется экономическое, культурное и социально-историческое значение ташкентских ярмарок конца XIX – начала XX века. Наряду с их деятельностью в качестве центров торговли рассматривается роль ярмарок в межкультурном взаимодействии, обмене информацией, социальной интеграции и просветительских процессах. В исследовании показано значение ташкентских ярмарок в развитии местного ремесленного производства, распространении книг и печатной продукции, организации выставок и массовых культурных мероприятий. Также анализируется влияние ярмарок на укрепление экономических и культурных связей между различными этническими группами, формирование городской культурной среды и развитие рыночных отношений в Туркестанском крае. В результате ташкентские ярмарки рассматриваются как многофункциональный исторический институт, находившийся на пересечении экономических, культурных и социальных процессов.

Ключевые слова: ташкентские ярмарки, Туркестанский край, торговые отношения, культурная интеграция, социальные связи, ремесленничество, выставки-ярмарки, информационный обмен, городская культура, этнические группы, просветительские процессы, рыночная экономика.

Abstract;This article provides a comprehensive analysis of the economic, cultural, and socio-historical significance of Tashkent fairs in the late nineteenth and early twentieth centuries. In addition to their function as centers of trade and commerce, the study examines the role of fairs in intercultural communication, information exchange, social integration, and educational processes. Particular attention is paid to the contribution of Tashkent fairs to the development of local handicrafts, the dissemination of books and printed materials, and the organization of exhibitions and public cultural events. The article also analyzes the impact of fairs on strengthening economic and cultural ties among various ethnic groups, shaping the urban cultural environment, and promoting market relations in Turkestan. As a result, Tashkent fairs are evaluated as multifunctional historical institutions situated at the intersection of economic, cultural, and social processes.

Keywords: Tashkent fairs, Turkestan, trade relations, cultural integration, social relations, handicrafts, fair exhibitions, information exchange, urban culture, ethnic groups, educational processes, market economy.

Toshkent yarmarsining iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlarga bir vaqtning o‘zida ta’sir ko‘rsatgani bilan izohlanadi. Shuningdek, ular orqali mustamlakachilik siyosati, bozor munosabatlari, madaniy almashinuv va ijtimoiy integratsiya kabi murakkab jarayonlar o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘lgan. Biroq, mavjud tadqiqotlarda yarmarkalar ko‘proq iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilingan bo‘lib, ularning madaniy-ma’rifiy va ijtimoiy-tarixiy ahamiyati yetarlicha kompleks yoritilmagan. Shu bois, Toshkent yarmarkalarini ko‘p funksiyali ijtimoiy institut sifatida tahlil qilish ilmiy zarurat sifatida namoyon bo‘ladi. Toshkent yarmarkasi nafaqat savdo-sotiq faoliyat markazi, balki iqtisodiy va madaniy hayot

uyg‘unlashgan ko‘p funksiyali ijtimoiy makon sifatida shakllangan. Turkiston general-gubernatorligi hududidagi o‘zbeklar, qozoqlar, qirg‘izlar, tojiklar, ruslar, tatarlar va boshqa etnik guruhlar yarmarkalarda faol qatnashib, mahsulot almashinuvi bilan bir qatorda urf-odat, turmush tarzi va madaniy qadriyatlar almashinuvini ham amalga oshirilgan. Shu jihatdan yarmarkalar mintaqadagi madaniyatlararo integratsiyaning amaliy maydoniga aylandi. “Turkestanskie vedomosti” gazetasining 1870-1890-yillardagi sonlarida Toshkent yarmarkalarida milliy kiyim namunalari, xalq musiqa chiqishlari, tomoshalar va an’anaviy hunarmandchilik mahsulotlari muntazam namoyish etilgani qayd etilgan.[1– №34. – C.2]. Yarmarkalarning iqtisodiy va madaniy uyg‘unligi ayniqsa XIX asr oxiridagi sanoat va qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmalari bilan birlashgan tadbirlarda yaqqol namoyon bo‘ldi. Jumladan, 1896 yilda Toshkentda tashkil etilgan yarmarka-ko‘rgazma doirasida yuzlab savdo rastalari faoliyat yuritib, mahalliy qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, paxta, ipak, hunarmandchilik buyumlari hamda Rossiya sanoat mahsulotlari birgalikda taqdim etilgan. Mazkur tadbirlarda iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda ma’rifiy yo‘nalish ham kuchaygan bo‘lib, kitob savdosi, bosma mahsulotlar tarqatilishi va yangi texnologiyalar namoyishi yo‘lga qo‘yilgan. Yarmarka kunlarida rus tilidagi ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan bir qatorda o‘zbek va fors-tojik tillarida chop etilgan diniy hamda dunyoviy asarlar savdoga chiqarilgan. Natijada Toshkent yarmarkalari bozor munosabatlarini rivojlantirish bilan birga, aholi o‘rtasida bilim, axborot va madaniy tajribaning tarqalishiga xizmat qilgan [2–C.142-147.]. Yarmarkalar shahar madaniyatining rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Yarmarka kunlarida teatr tomoshalari , musiqiy chiqishlar, xalq o‘yinlari tashkil etilgan. Xususan, Toshkentdagi xalq sayllari va ommaviy tomoshalar haqidagi gazeta xabarlarida yarmarka faqat savdo maydoni emas, balki shaharning madaniy hayoti markazi sifatida tasvirlangan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida e’lon qilingan materiallarda yarmarka kunlarida xalq cholg‘ulari jo‘rligidagi musiqiy chiqishlar, dorbozlar tomoshalari, kurash musobaqalari, milliy o‘yinlar hamda turli etnik guruhlar ishtirokidagi sayillar tashkil etilgani qayd etilgan [3–№112.–C.4].Yarmarkalar milliy hunarmandchilik madaniyatini ommalashtirishda ham muhim vosita bo‘lgan. Toshkent yarmarkalarida mahalliy kulollar sirlangan sopol buyumlar, misgarlar bezakli maishiy anjomlar, zargarlar milliy uslubdagi taqinchoqlar, to‘quvchilar esa atlas, adras va ipak mahsulotlarini namoyish etgan. Bu yerda mahsulot faqat sotilmagan, balki hunarmandlar tomonidan ishlov berish usullari ham ko‘rsatilib, tomoshabinlarda estetik did va madaniy qiziqish shakllantirilgan. 1890-yilda Toshkentda o‘tkazilgan Turkiston qishloq xo‘jaligi va sanoat ko‘rgazmasida ham mahalliy hunarmandchilik namunalari alohida bo‘lim sifatida taqdim etilgani yarmarkalarning madaniy-ma’rifiy vazifasini kuchaytirgan. Yarmarkalar shaharning ommaviy madaniy makonini shakllantirishga ham ta’sir ko‘rsatgan. Yarmarka hududlari atrofida choyxonalar, tomosha maydonlari, vaqtinchalik sahnalar va jamoaviy uchrashuv joylari vujudga kelgan. Mazkur holat Toshkent yarmarkalarining iqtisodiy va madaniy jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni yuzaga keltirgan murakkab ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritganini ko‘rsatadi. Chunki yarmarkalarda namoyish etilgan hunarmandchilik mahsulotlari oddiy iste’mol buyumi emas, balki milliy estetik qarashlar, mahalliy ishlab chiqarish an’analari va madaniy identitet tashuvchisi sifatida namoyon bo‘lgan. Mahsulotlarni tayyorlash usullarining omma oldida ko‘rsatilishi savdo jarayonini tomoshaviy va ma’rifiy tusga kiritib, iste’mol madaniyati hamda badiiy did shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Shu bilan birga, hunarmandchilik namoyishlari orqali mahsulotning bozor qiymati oshirilgan, yangi xaridorlar jalb etilgan va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy imkoniyatlari kengaygan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent yarmarkalari faqat savdo maydoni emas, balki turli etnik guruhlar o‘rtasidagi madaniy almashinuv markazi sifatida ham faoliyat yuritgan. 1886-yilda Toshkentda o‘tkazilgan Turkiston ko‘rgazmasi faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ko‘rgazmaning asosiy maqsadi iqtisodiy mahsulotlarni namoyish etish bo‘lsa-da, amalda u o‘lkaning etnografik va madaniy imkoniyatlarini ham ko‘rsatish maydoniga aylangan. Ko‘rgazma hisobotlarida mahalliy ustalar tomonidan tayyorlangan zardo‘zlik, kashtachilik, kulolchilik, yog‘och o‘ymakorligi va ipak mahsulotlari alohida pavilyonlarda joylashtirilgani qayd etilgan. Mahsulotlar faqat sotuv uchun emas, balki tashrif buyuruvchilarga ishlab chiqarish texnologiyasi va estetik xususiyatlarini ko‘rsatish maqsadida namoyish etilgan. Natijada hunarmandchilik iqtisodiy faoliyatdan tashqari madaniy meros sifatida ham qabul qilina boshlagan[4–C.31-39.].Ushbu jarayon Toshkent yarmarkalari va ko‘rgazmalarining iqtisodiy munosabatlar bilan cheklanmagan, balki madaniy mazmun ishlab chiqaruvchi makon sifatida ham shakllanganini anglatadi. Hunarmandchilik buyumlarining pavilyonlar bo‘yicha tizimli joylashtirilishi va ularning tayyorlanish jarayoniga e’tibor qaratilishi mahsulotni oddiy bozor obyekti emas, balki mahalliy jamiyatning estetik qarashlari, mehnat tajribasi va tarixiy xotirasini aks ettiruvchi madaniy hodisa darajasiga olib chiqqan. Shu orqali iqtisodiy faoliyat madaniy namoyish bilan uyg‘unlashib, hunarmandlar uchun yangi iste’mol bozori va ijtimoiy e’tirof maydoni yuzaga kelgan. Toshkentda tashkil

etilgan 1890-yilda Turkiston qishloq xo‘jaligi va sanoat ko‘rgazma-yarmarkasida o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, tojik, rus va tatar savdogarlari hamda hunarmandlari qatnashgan. Ko‘rgazma hududida mahalliy hunarmandchilik buyumlari – zardo‘zlik, kulolchilik, gilamchilik, misgarlik mahsulotlari bilan bir qatorda rus sanoat mahsulotlari, tatar bosmaxona mahsulotlari va qozoq chorvachilik xo‘jaligi namunalarining namoyish etilgani qayd etilgan [5№45 – C. 2-3]. Ko‘rgazma-yarmarka Toshkentning XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi iqtisodiy va madaniy integratsiya markazi sifatidagi o‘rnini yaqqol namoyon etadi. Chunki bir makonda turli etnik guruhlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning taqdim etilishi faqat savdo hajmini oshirishga emas, balki xo‘jalik yuritish tajribalari, estetik qarashlar va ishlab chiqarish madaniyatining o‘zaro almashinuviga ham xizmat qilgan. Mahalliy hunarmandchilik mahsulotlarining rus sanoat buyumlari va boshqa hududlardan keltirilgan namunalar bilan bir qatorda namoyish etilishi an’anaviy ishlab chiqarish va zamonaviy texnologik jarayonlarning qiyosiy idrok etilishiga sharoit yaratgan. Natijada ko‘rgazma iqtisodiy raqobat maydoni bilan birga madaniy identitetlarning namoyon bo‘lishi, o‘zaro tanilishi va yangi iste’mol madaniyatining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan ijtimoiy-madaniy makon vazifasini bajargan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent yarmarkalari va savdo maydonlarida matbaa mahsulotlari, kitoblar hamda diniy-ma’rifiy adabiyotlarning muomalaga kirishi shahar madaniy hayotining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, ayniqsa 1870–1890-yillardan boshlab Toshkentning eski shahar qismi va yarmarka hududlarida Qozon, Orenburg, Ufa hamda Istanbuldan keltirilgan bosma kitoblar sotilgan. Diniy mazmundagi Qur’on nusxalari, fiqh va aqoid kitoblari bilan bir qatorda tarix, geografiya va ma’rifiy mazmundagi asarlar ham aholiga taklif etilgan. Masalan, yarmarkada mahalliy hamda Rossiya hududlaridan olib kelingan bosma mahsulotlar, litografiya namunalari va o‘quv adabiyotlari alohida namoyish etilgani qayd etilgan. Ko‘rgazma-yarmarka tashrif buyuruvchilari ushbu nashrlarni xarid qilish va ular bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lgan.[6– C. 143-147.] XIX asr oxirida Toshkentda faoliyat yuritgan bosmaxonalar va kitob savdosi tarmoqlari yarmarka iqtisodiyoti bilan bevosita bog‘lan gan. Xususan, Porsev litografiyasi hamda keyinchalik mahalliy nashriyotlar orqali chop etilgan diniy va ma’rifiy adabiyotlar savdo yig‘inlari va yarmarka kunlarida keng tarqatilgan[7– C. 214-218.]. Toshkent yarmarkasida kitob rastalari mavjudligi, bu yerda ruscha, turkiy va tatarcha nashrlar savdoga chiqarilgan. Natijada yarmarkalar aholining moddiy ehtiyojlari bilan bir qatorda ma’naviy va ma’rifiy ehtiyojlarini qondiruvchi axborot almashinuvi maydoniga ham aylangan [8№12. – C.4.]. Yarmarkalarning ijtimoiy-tarixiy ahamiyati ularning jamiyatdagi turli qatlamlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashdagi ro‘li bilan ham belgilanadi. Yarmarkalar savdogarlar, hunarmandlar, dehqonlar, chorvadorlar va davlat amaldorlarini bir makonda birlashtirgan. Bu esa ijtimoiy integratsiya jarayonlarini jadallashtirgan. E. Dyurkgeym nazariyasiga ko‘ra, bunday ijtimoiy aloqalar jamiyatning yaxlitligini ta’minlovchi omillardan biridir. Yarmarkalarda nafaqat savdo bitimlari, balki turli ijtimoiy va iqtisodiy masalalar yuzasidan muzokaralar ham olib borilgan. Mazkur holat yarmarkalarni iqtisodiy almashinuv markazidan ko‘ra kengroq – jamiyat ichidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va turli guruhlar manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi institut sifatida baholash imkonini beradi. Bir hududda savdogar, hunarmand, ishlab chiqaruvchi, iste’molchi hamda ma’muriy vakillarning muntazam uchrashuvi iqtisodiy faoliyat bilan bir qatorda o‘zaro ishonch, hamkorlik va ijtimoiy bog‘liqlikni ham kuchaytirgan. Shu jihatdan yarmarkalar axborot almashinuvi, kelishuv va manfaatlar uyg‘unlashuvi sodir bo‘ladigan jamoaviy maydon vazifasini bajargan. Bu jarayon natijasida mahalliy xo‘jalik subyektlari o‘rtasida barqaror aloqalar shakllanib, hududiy bozorlar o‘rtasidagi integratsiya kuchaygan hamda ijtimoiy birlikni ta’minlovchi mexanizmlar mustahkamlangan. Toshkent yarmarkasi, shuningdek, axborot almashinuvi markazi sifatida ham faoliyat yuritgan. Turli hududlardan kelgan ishtirokchilar yangiliklar, narxlar, siyosiy va iqtisodiy vaziyat haqida ma’lumot almashganlar. Bu esa jamiyatda umumiy axborot makonining shakllanishiga xizmat qilgan. Shu nuqtai nazardan, yarmarkalarni XIX asr oxiridagi “norasmiy axborot tarmoqlari” sifatida baholash mumkin.Toshkent yarmarkalari shahar madaniyatining rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Mazkur jarayon Toshkent yarmarkalarining iqtisodiy faoliyat bilan cheklanmagan holda, axborot aylanishi va shahar ijtimoiy muhitining shakllanishida ham muhim o‘rin egallaganini ko‘rsatadi. Yarmarka kunlarida turli hududlardan kelgan savdogarlar, vositachilar va mahalliy aholi o‘rtasida tovar narxlari, hosildorlik holati, transport yo‘nalish lari, ma’muriy qarorlar hamda mintaqadagi siyosiy o‘zgarishlarga oid ma’lumotlar tez tarqalgan. Bu esa rasmiy boshqaruv tizimidan tashqarida faoliyat yurituvchi kommunikativ makon yuzaga kelishiga olib kelgan. Axborot almashinuvining muntazam tus olishi Toshkentning mintaqaviy markaz sifatidagi mavqeini kuchaytirib, shahar hayotida yangi ijtimoiy faollik, jamoaviy muloqot madaniyati va urbanistik munosabatlarning rivojlanishiga zamin yaratgan. Toshkent yarmarkasi va madaniy hayot o‘rtasidagi bog‘liqlik fotografiya va

vizual madaniyatning kirib kelishi orqali ham kuchaygan. XIX asr oxirida Toshkentdagi ko‘rgazmalarda Rossiyadan keltirilgan fotografik apparatlar va tayyor suratlar namoyish etilgan. Mahalliy aholi uchun bu yangi vizual tajriba hisoblangan. Ayrim hisobotlarda tashrif buyuruvchilar ko‘rgazma davomida suratga tushgani va tayyor fotografiyalar sotilgani qayd etiladi. Bu esa an’anaviy og‘zaki madaniyatdan vizual madaniyatga o‘tish jarayonining bir ko‘rinishi bo‘lgan[9– C. 74-76.]. Ushbu holat Toshkent yarmarkalari va ko‘rgazmalarining nafaqat iqtisodiy hamda savdo aloqalarini kengaytirganini, balki shaharda yangi madaniy amaliyotlarning shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi. Fotografik apparatlar va tayyor suratlarning namoyish etilishi mahalliy aholining yangi texnologik va estetik tajriba bilan tanishishiga imkon yaratgan. Ayniqsa, tashrif buyuruvchilarning suratga tushishi va fotografik tasvirlarning ommaviy muomalaga kirishi inson, makon va voqeani qabul qilish usullarida o‘zgarish yuzaga keltirgan. Natijada vizual tasvir kundalik hayotning muhim elementi sifatida shakllana boshlagan va madaniy xotirani yaratishning yangi vositasiga aylangan. XIX asr oxiridagi ko‘rgazma tavsiflarida Turkistonning turli hududlaridan kelgan savdogar va hunarmandlar mahsulot bilan birga o‘z milliy kiyimlari, kundalik turmush buyumlari va urf-odatlarini ham namoyon etgani yoziladi. Ayniqsa, rus matbuotida mahalliy aholi vakillarining atlas, chopon, salla, zardo‘z kiyimlarda ishtirok etishi alohida tasvirlangan[10– C. 90-94.]. Bu holat yarmarkani iqtisodiy emas, balki madaniy reprezentatsiya maydoniga aylantirib etnografik o‘zini namoyish qilish maydoni bo‘lganligini ifodalaydi. Shuningdek, Toshkent yarmarkasi madaniy jihatdan til va kommunikatsiya madaniyatining shakllanishi orqali ham ta’sir ko‘rsatgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent yarmarkalarida savdo jarayonlari bir necha tilda olib borilgan: turkiy (o‘zbek), qozoq, tojik, tatar va rus tillari amaliy muomala vositasiga aylangan. Ayrim savdogarlar bir necha tilda savdolashish va bitim tuzishga moslashgan. Natijada yarmarka turli etnik guruhlar o‘rtasida til vositachiligini kuchaytirib, ko‘p tilli shahar madaniyatining shakllanishiga xizmat qilgan[11– Б. 118-121]. Turkiston yarmarkalari madaniy hayotga kundalik turmush madaniyatining yangilanishi orqali ta’sir ko‘rsatgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yarmarkalarda mahalliy mahsulotlar bilan bir qatorda Rossiya va Yevropadan olib kelingan chinni idishlar, samovarlar, mebel buyumlari, oynalar va uy-ro‘zg‘or anjomlari sotila boshlagan. Bu buyumlar dastlab shaharlardagi badavlat qatlam orasida tarqalib, keyinchalik kundalik hayotning yangi estetik me’yorlarini shakllantirgan. Masalan, Toshkentdagi savdo-ko‘rgazma maydonlari orqali samovar va choy ichish madaniyatining yangi shakllari ommalashgani qayd etiladi[12–C.96-101.].Mazkur jarayon Turkiston yarmarkalarining iqtisodiy almashinuv maydoni sifatidagi funksiyasi bilan bir qatorda kundalik madaniyat transformatsiyasining ham muhim mexanizmlaridan biri bo‘lganini ko‘rsatadi. Yarmarkalar orqali kirib kelgan chinni idishlar, samovarlar, mebel va boshqa maishiy buyumlar avvalo yangi iste’mol bozori va savdo talabini shakllantirgan bo‘lsa, keyinchalik aholining turmush tarzi, estetik qarashlari va uy madaniyatiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, Toshkent yarmarkasi orqali samovar va choy iste’moli bilan bog‘liq yangi kundalik amaliyotlarning tarqalishi iste’mol madaniyatining iqtisodiy imkoniyatlar bilan uzviy bog‘liq holda o‘zgarib borganini namoyon etadi. Shu tariqa, yarmarkalar tovarlar aylanishini ta’minlovchi iqtisodiy institut bo‘lish bilan birga, yangi turmush me’yorlari va madaniy didni shakllantiruvchi ijtimoiy-madaniy makon sifatida ham faoliyat yuritgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro ‘yxati

1. Туркестанские ведомости. – 1878.
2. Лыкошин Н.С. Жизнь в Туркестане. – СПб., 1905
3 Туркестанские ведомости. – 1909
4. Обзор Туркестанской выставки 1886 года. – Ташкент, 1887.
5. Туркестанские ведомости, 1878.
6. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – Ташкент, 1927.
7. Остроумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы. – Ташкент, 1896.
8. Туркестанские ведомости, 1890.
9. Отчёт Туркестанской выставки 1886 года. – Ташкент, 1887.
10 Добросмыслов А.И. Города Сырдарьинской области. – Ташкент, 1912.
11 Наливкин В.П. Краткий очерк быта населения Ферганской долины. – Казань, 1886.
12. Обзор Сырдарьинской области за 1895 год. – Ташкент, 1896..

КОЛИЧЕСТВЕННАЯ ЛЕКСИКА КАК СРЕДСТВО ВЫРАЖЕНИЯ АНТИТЕЗЫ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ Ч. АЙТМАТОВА

Баймуханов Бауыржан
базовый докторант Узбекский государственный университет мировых языков
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21933990

Annotatsiya. Ilmiy ishda Ch.Aytmatov asarlarida antiteza ishtirok etgan gap tuzilmalarini qurishda miqdor leksemalarining funksional roli o‘rganilgan. Son va aniqlovchilar (bir, ko‘p, mingdan bir, yigirma million) qadriyatli qarama-qarshiliklar va falsafiy ziddiyatlar belgisiga aylanishi tahlil qilinadi. Miqdoriy elementlar matnni tashkil etish va sivilizatsiya inqirozi va an’anaviy qadriyatlarning yo‘qolishiga nisbatan mualliflik pozitsiyasini ifodalashda ikki tomonlama funksiyani bajarishi aniqlandi: struktura hosil qiluvchi va ma’no hosil qiluvchi.
Tayanch so‘zlar: antiteza, Ch.Aytmatov, miqdoriy ma’noli so‘zlar, funksional vazifa, badiiy matn.
Аннотация. В работе исследуется функциональная роль количественных лексем в конструировании структур предложений, содержащих антитезу в произведениях Ч.Айтматова. Анализируется, как числительные и определители (*один, много, тысячная, двадцать миллионов*) становятся маркерами ценностных противопоставлений и философских противоречий. Выявляется, что количественные элементы выполняют двойную функцию: структурообразующую и смыслообразующую, организуя текст и выражая авторскую позицию относительно цивилизационного кризиса и утраты традиционных ценностей.
Ключевые слова: антитеза, Ч.Айтматов, слова с количественным значением, функциональная роль, художественный текст.
Abstract. This paper examines the functional role of quantitative lexemes in constructing sentence structures containing antithesis in the works of Ch. Aitmatov. It analyzes how numerals and determiners (*one, many, thousandth, twenty million*) become markers of value oppositions and philosophical contradictions. It is revealed that quantitative elements perform a dual function: structuring and meaning-forming, organizing the text and expressing the author's position on the crisis of civilization and the loss of traditional values.
Keywords: antithesis, Ch.Aitmatov, words with quantitative meaning, functional role, literary text.

Антитеза как один из важнейших стилистических приемов занимает значимое место в творчестве Чингиза Айтматова, помогая выразить глубокие внутренние конфликты и противоречия, характерные для его героев в произведениях. Антитеза способствует созданию национально-культурного колорита и эмоциональной выразительности, выступая инструментом для раскрытия противостояния традиционного и современного в жизни героев Ч. Айтматова [Бахтикиреева, 1995] Этот прием структурно-семантически формирует художественный текст, усиливая философскую и социальную проблематику, что особенно заметно в противостоянии идей и образов, связывающих свет и тьму, жизнь и смерть, природу и цивилизацию [Джусупов Н, 2016, 2017; Джусупов М., 2021]. Г.Д. Гачев акцентирует значимость антитезы в контексте национальных образов мира и мифологических мотивов, что позволяет глубже понять культурологический аспект творчества писателя [Гачев, 1999]. В произведениях Ч.Айтматова антитеза часто используется для конкретизации внутренних переживаний героев и отражает диалектику традиционного и нового, что подчеркивает многослойность и философскую глубину его текстов. Соответственно, антитеза в текстах Ч. Айтматова является не только выразительным языковым средством, но и мощным инструментом смыслового и культурного осмысления действительности. Рассмотрим примеры:

Да, разумеется, от великого до смешного лишь один шаг. (Тавро Кассандры)

Композиционное решение текста строится на контрастном сопоставлении взаимоисключающих оценочных понятий – *великого* и *смешного*, которые разделяет минимальное расстояние, обозначаемое выражением *один шаг*. В этом контексте числовой показатель функционирует не как простой счётный элемент, а как показатель предельной зыбкости и относительности человеческих суждений. Лексема *шаг* приобретает метафорическое значение, обозначая ничтожное движение или промежуток времени, достаточный для радикального переворота в понимании события. Посредством этой пространственной метафоры раскрывается мысль о том, что разграничение между возвышенным и смешным пролегает по чрезвычайно тонкой

грани. Ч.Айтматов задействует это противопоставление для выражения философского недоверия к постоянству человеческих убеждений и ценностных систем. *Единственный шаг* преобразуется в символ капризности судьбы, когда торжество способно неожиданно превратиться в позор. Скромность количественного показателя (*один*) вступает в острое противоречие с огромностью качественного сдвига – перехода от одного полюса к диаметрально противоположному, порождая парадоксальное ощущение того, что противоположности находятся в непосредственной близости друг к другу.

Гульсары был иноходцем от рождения, и за его знаменитую иноходь выпало ему в жизни много хороших и много горьких дней. (Прощай Гульсары).

Текст организован на основе уравновешенного контрастного сопоставления формул много хороших – много горьких дней, где определитель *много* играет центральную роль как в построении структуры, так и в формировании смыслового содержания. Параллельное использование одной и той же лексемы порождает ритмическую гармонию и семантическое равновесие, акцентируя одинаковую значимость позитивных и негативных аспектов человеческого бытия. Подобный выбор не является произвольным стилистическим решением, но представляет собой целенаправленный творческий замысел, призванный артикулировать философскую идею о расколотости и противоречивости мирового порядка. Посредством противопоставления Ч. Айтматов демонстрирует непреложный закон существования: исключительность и уникальность (воплощенные в образе легендарного скакуна Гульсары) неминуемо сопровождаются как блаженством, так и мучением. Употребленное множественное число придает жизненному опыту грандиозные масштабы, возводя его в ранг общечеловеческого явления. Принцип зеркального соответствия в построении антитезы воплощает айтматовское видение существования как динамического взаимодействия противоположных сил, при котором количественная эквивалентность благ и страданий утверждается в качестве фундаментального принципа. Семантическая многозначность определителя много образно воплощает беспредельность и неподсчитываемость человеческих ощущений и переживаний, превращая судьбу коня Гульсары в универсальный прототип любого живого существа.

Магия двадцати миллионов долларов куда сильней экстатических камланий тысячной толпы шаманов. (Когда падают горы).

Численное противопоставление *двадцати миллионов* и *тысячи* порождает парадоксальный эффект: с позиции математики первая величина многократно превосходит вторую, однако они принадлежат качественно несоизмеримым измерениям – сфере материального и сфере метафизического. Конкретность числового обозначения *двадцать миллионов* вступает в резкое противоречие с размытостью и условностью выражения *тысячная* толпа, наглядно демонстрирует несоизмеримость исчисляемого материального богатства и неопределяемой по своему объёму духовной мощи. Ч. Айтматов задействует числовые обозначения в качестве индикаторов переориентации системы ценностей в современном обществе. *Двадцать миллионов* трансформируется в символическое воплощение господства финансового капитала, в образ современного магического культа денег, который вытесняет исторически укоренённые духовные практики и верования. *Тысячная* толпа, напротив, репрезентирует накопленную коллективную духовную силу, первозданную мощь общинного сакрального сознания. Развёрнутое противопоставление раскрывает драматическое напряжение современного момента: количественное господство материальных активов над качественным величием духовного наследия. Числительные при этом функционируют как маркеры цивилизационного сдвига, фиксируя критическую точку истории, когда магия накопления вытесняет многовековые духовные традиции и верования.

Таким образом, анализ функциональной роли слов с количественным значением в художественном тексте Ч. Айтматова демонстрирует, что числительные и определители являются не просто грамматическими элементами, но мощными средствами философского выражения. Через противопоставление числовых показателей (*один – много, тысячная – миллионы*) Ч. Айтматов представляет глубокие идеи о противоречивости современного существования, конфликте между материальным и духовным началами, утратой человеком связи с природой и традиционными ценностями.

Список литературы:

1. Бахтикиреева УМ. Художественные функции лексики с национально-культурным компонентом семантики в романе Ч. Айтматова «И дольше века длится день»: автореф. дис. ... кандидата филологических наук. М.: Российский университет дружбы народов, 1995.

2. Гачев Г.Д. Национальные образы мира. Евразия – космос кочевника, земледельца и горца. М.: Институт ДИ-. ДИК, 1999. -368 с.

3. Джусупов Н.М. Чингиз Айтматов: «Прощай, Гульсары» и/или «Жаныбарым Гулсарым» (два заголовка - два семантико-стилистических содержания)" Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика, №. 4, 2016, С. 141-150.

4. Джусупов Н.М. Ч. Айтматов: семантико-стилистический аспект выдвижения в переводах заголовка художественного текста (русский, киргизский, английский, немецкий) // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Вопросы образования: языки и специальность. 2017. Т. 14. № 4. С. 761-769.

5. Джусупов М. «Код слова» О.О. Сулейменова в электронно-рукописном и полиграфически изданном вариантах // Полилингвиальность и транскультурные практики. Т.1, 2021. №1. С. 103-117.

ADABIYOTSHUNOSLIKDA SATIRA JANRINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI VA KOMIK EFFEKT YARATISH USULLARI

Abdullayev Shavkatjon Shokirjon o‘g’li
Namangan davlat universiteti, O‘qituvchi
abdullayevshavkat1995@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934032

Annotatsiya: Mazkur maqolada satira janrining lingvopoetik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda lingvopoetika tushunchasining mazmun-mohiyati, uning badiiy matnni o‘rganishdagi ahamiyati hamda satirik asarlarda til birliklarining estetik vazifalari yoritilgan. Shuningdek, satirik va komik effektlarni yuzaga keltiruvchi lingvistik vositalar hamda ularning badiiy ta’sir mexanizmlari tahlil etilgan. Bundan tashqari, B. Dzemidok tomonidan ajratilgan komiklik yaratish usullari tavsiflanib, satiraning mazmuniy va uslubiy xususiyatlari ilmiy asosda ochib berilgan.
Kalit so‘zlar: satira, lingvopoetika, komik effekt, badiiy matn, estetik vazifa, komiklik, til birliklari, satirik ta’sir
Аннотация: В данной статье проводится научно-теоретический анализ лингвопоэтических особенностей жанра сатиры. В исследовании раскрываются содержание и сущность понятия лингвопоэтики, его значение в изучении художественного текста, а также эстетические функции языковых единиц в сатирических произведениях. Кроме того, анализируются лингвистические средства создания сатирического и комического эффектов, а также механизмы их художественного воздействия. Наряду с этим характеризуются способы создания комического эффекта, выделенные Б. Дземеидоком, и на научной основе раскрываются содержательные и стилистические особенности сатиры.
Ключевые слова: сатира, лингвопоэтика, комический эффект, художественный текст, эстетическая функция, комизм, языковые единицы, сатирическое воздействие.
Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the linguopoetic features of the satire genre. The study examines the concept of linguopoetics, its significance in the study of literary texts, and the aesthetic functions of linguistic units in satirical works. It also analyzes the linguistic devices that produce satirical and comic effects, as well as the mechanisms of their artistic impact. In addition, the methods of creating comic effects identified by B. Dzemidok are described, and the semantic and stylistic features of satire are examined on a scientific basis.
Keywords: satire, linguopoetics, comic effect, literary text, aesthetic function, comicity, linguistic units, satirical impact.

Adabiyotshunoslikda satira jamiyatdagi turli nuqson va kamchiliklarni tanqidiy ruhda aks ettiruvchi badiiy janr sifatida talqin etiladi. Mazkur janrning lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganish satirik matnlarning til birliklari hamda uslubiy qurilishidagi o‘ziga xos jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Shu sababli satiraga lingvopoetik nuqtayi nazardan yondashishda, avvalo, lingvopoetika tushunchasining mazmun-mohiyatini yoritib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Lingvopoetika lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo‘lib, badiiy asarlarda qo‘llanilgan lisoniy birliklar: fonetik, morfemik, leksik va boshqalarning badiiy estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o‘rganadi. Lingvopoetik tahlilda badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash muhim tamoyillardan ekanligini alohida ta’kidlanadi, chunki ―bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mexanizmlarini aniq tasavvur qilish mumkin[Xolmatova,2023:B.282-284]. Ya’ni, lingvopoetik tahlil badiiy matnda qo’llanilgan ifoda vositalarining estetik vazifalarini ochib beradi va asar mazmunini teranroq anglash uchun yo’l ko’rsatadi.

Shuningdek, V.V. Vinogradov badiiy asar tilini uning estetik jihati bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish zarurligini ta’kidlab, yozuvchi tomonidan qo‘llangan til vositalari badiiy maqsadga muvofiq tarzda birlashishi va estetik jihatdan asoslanishini qayd etadi [1954:B.5]. Ushbu sohaning predmeti badiiy matnda ishlatilgan til birliklarining majmui bo‘lib, ular yordamida yozuvchi o‘zining g‘oyaviy-badiiy fikrlarini namoyon etish uchun zarur bo‘lgan badiiy-estetik ta’sirni ta’minlaydi [Zadornova,1992:B.49]. Demak, satira janrining lingvopoetik jihatdan o’rganilishi uni estetik mazmuni, ishora etilayotgan

ma’nosini to’g’ri anglashda o’quvchiga yordam beradi. Biroq satirik matnlarda mazkur ma’nolarni yuzaga chiqaruvchi lingvistik vositalarning tabiati va xususiyatlari hanuzgacha yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Zamonaviy tilshunoslik adabiyotida satirik va komik elementlarni tadqiq qilishga uncha katta e’tibor berilmaydi. Shu boisdan, satira va komediyani tahlish qilish hozirgi davrga qadar chuqur o’rganilmagan soha bo’lib kelmoqda va u chuqur yondashuvni talab qilmoqda [Tsikusheva, 2008:B.100-103]. Kulgi effektini yaratishga xizmat qiladigan lingvistik vositalar tizimi hozirgacha ochiq masala bo’lib qolmoqda. Xususan, Aleksandr Nikolaevich Luk o’zining *“О чувстве юмора и остроумии”* kitobida til orqali komik effektni yaratadigan barcha vositalarni o’z ichiga oladigan yagona va umumiy tizimning hali ishlab chiqarilmaganlini yuqoridagi muammoning asosiy sababi sifatida keltiradi [Luk, 1968]. Ya’ni, yagona tizimning ishlab chiqilmaganligining asosiy omili sifatida komik effektni yuzaga keltirish hodisasi nafaqat til birliklariga, balki kontekst, nutq normalari va madaniy omillarga ham bog’liqdir. Demak satiraning asosiy belgisi uning shaklida emas, balki u o’z oldiga qo’ygan maqsad va mazmunida namoyon bo’ladi.

Komik effektning yuzaga kelishi ham satirik matnning lingvopoetik qurilishi bilan chambarchas bog‘liq hodisa hisoblanadi. Shunga qaramasdan, har qanday kulgili holatni satira sifatida baholab bo‘lmaydi. Komiklik ko‘pincha satirik mazmunni kuchaytiruvchi estetik mexanizm vazifasini bajaradi va muayyan ijtimoiy yoki axloqiy illatni fosh etish bilan birlashgandagina satirik yo‘nalish kasb etadi. Shu sababli satirik matnda komik effekt va tanqidiy mazmun o‘zaro uzviy aloqada namoyon bo‘ladi: komiklik o‘quvchida kulgi uyg‘otsa, uning zamiridagi nomuvofiqlik, qarama-qarshilik yoki bo‘rttirish muallifning tanqidiy munosabatini ochib beradi va o’quvchi mushohada qilishga undaydi. Demak, satiraning lingvopoetik xususiyatini belgilovchi asosiy jihatlardan biri kulgi va tanqidning bir badiiy tizimda uyg‘unlashuvidir.

Shunga qaramay, satira harakterini yuzaga chiqaruvchi xususiyatlarni aniqlash doirasida ko’plab izlanishlar olib borilgan. Xususan, mashhur satira tadqiqotchisi B. Dzemidok o’z asarlarida satira va komik effekt yaratishning beshta usulini ajratib ko’rsatgan:

1. Hodisani o’zgartirish va deformatsiya qilish orqali-ya’ni real voqea yoki obrazni maqsadli o’zgartirib, uni kulguli yoki tanqidiy ruhda ifodalash;
2. Kutilmagan effektlar-o’quvchilar yoki tinglovchilarda kutilmagan kulgu hosil qilish uchun ular kutmagan, to’satdan yuzaga keladigan vaziyat yoki natija orqali;
3. Hodisalar o’rtasidagi nomutanosiblik-katta va kichik, sabab va natija o’rtasidagi nisbatning buzilishi orqali komik xususiyat yaratish;
4. Mutlaqo o’xshash bo’lmagan hodisalarni hayoliy ravishda birlashtirish-ya’ni aslida bog’liq bo’lmagan narsa va hodisalarni bir-biriga tenglashtirish yoki qiyoslash orqali kulgu effektini yaratish;
5. Mantiqiy yoki amaliy me’yorlarga to’g’ri kelmaydigan hodisalarni yaratish-sog’lom fikrlovchi inson me’yorlariga zid keluvchi vaziyatlarni tasvirlash orqali komik effekt yaratish [1993:B.53-57].

Yuqoridagi tansiflardan xulosa qilish mumkinki, asar yaratilish jarayonida unga satirik xususiyat bag’ishlashda turlicha omillar ahamiyat kasb etadi va hayotiy normalarga zid keluvchi hodisalar, to’satdan yuzaga chiquvchi manzaralar komik va satirik effektlarni yuzaga chiqarishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dziemidok, B. The Comical: A Philosophical Analysis. — Dordrecht: Kluwer Academic Publishers, 1993. — pp. 53–57.
2. Luk, A. N. O chuvstve yumora i ostroumii. — M.: Iskusstvo, 1968.
3. Tsikusheva, I. V. Lingvisticheskie sredstva sozdaniya komicheskogo effekta v skazkakh. // Vestnik Adygeyskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya 2: Filologiya i iskusstvovedenie. — 2008. — Vyp. 10. — S. 100–103.
4. Vinogradov, V. V. Yazyk khudozhestvennogo proizvedeniya. // Voprosy yazykoznaniya. — M.: Nauka, 1954. — № 5. — S. 29–38.
5. Xolmatova, A. Q. Q. Tilshunoslikda lingvopoetika va lingvopoetik vositalarning o‘rganilishi tarixi. // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. — 2023. — 3(7). — B. 282–284.
6. Zadornova, V. Ya. Slovesno-khudozhestvennoe proizvedenie na raznykh yazykakh kak predmet lingvopoeticheskogo issledovaniya.1992. — 49 s.

RASMIY VA NORASMIY TELEGRAM MULOQOTIDA MULTIMODAL BIRLIKLARNING DIFFERENSIAL XUSUSIYATLARI

Choriyeva Charos Salomovna,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti,
0009-0004-3478-1930
choriyeva1994@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934085

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilining raqamli segmenti, xususan, Telegram ijtimoiy tarmog‘idagi rasmiy va norasmiy muloqotda multimodal birliklarning (emoji, stiker, GIF) differensial va lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilingan. Internet tilshunosligi doirasida an’anaviy matn yaratish me’yorlarining o‘zgarishi, emotsional va hissiy bo‘shliqlarni to‘ldirishda vizual vositalarning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, foydalanuvchilarning yosh toifasi hamda o‘zbek milliy mentalitetidan kelib chiqib, vizual vossitalarning semantikasi tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: internet tilshunosligi, raqamli diskurs, multimodal birliklar, lingvopragmatika, rasmiy muloqot, norasmiy muloqot, Telegram.

Dastlab foydalanuvchilar uchun o‘zaro ma’lumot almashish zarurati natijasi o‘laroq yaratilgan Telegram platformasining qo‘llanish ko‘lami va maqsadlar doirasi hozirgi kunga kelib sezilarli darajada kengayganini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek tili raqamli segmentida, xususan, millionlab foydalanuvchilarga ega bo‘lgan “Telegram” ijtimoiy tarmog‘ida muloqotning pragmatik tabiati an’anaviy muloqotdan o‘zining quyidagi xususiyatlari bilan keskin farq qiladi:

— sinxronlik va asinxronlikning uyg‘unligi: foydalanuvchilar real vaqt rejimida suhbatlashishlari (chat) yoki xabarni qoldirib, unga istalgan payt javob olishlari mumkin;

— nutqning maksimal darajada erkinligi. Odatda qat’iy yozma normalarga amal qilinmaydi, nutq imkon qadar tejamkorlashtiriladi. Ayniqsa, yoshlar nutqida ko‘pincha nuqtni tejash maqsadida so‘zdagi unli harflarni tushirib qoldirish, slenglardan foydalanish holatlarining (*sz, kk, univer,davay, ponyatka, tg, qalesz, pls, kirb, challenj, share, profil, istoriya, privetik vsem, hello*) keng qo‘llanishini kuzatishimiz mumkin;

— kontekstual bo‘shliq. Yuzma-yuz muloqotda mavjud bo‘lgan hududiy, vaqt va ijtimoiy kontekstlarning virtual olamda yo‘qolishi. Aynan mana shu uchinchi xususiyat — yuzma-yuz muloqotdagi ohang, mimika, imo-ishora (paralingvistik vositalar)ning virtual matnda yozilishi imkonsizligi kommunikativ jarayonda jiddiy bo‘shliqni yuzaga keltirdi. Sof matnli xabarlarda emotsiyaning yetishmasligi suhbatdosh niyatining noto‘g‘ri tushunilishiga, kinoya va hazilning farqlanmasligiga olib keldi. Raqamli diskurs ishtirokchilari muloqotning emotsional, ekspressiv va fatik (aloqani ushlab turish) vazifalarini bajarish, shu bilan birga lingvopragmatik ta’sir kuchini oshirish uchun og‘zaki nutqdagi noverbal vositalarning o‘rnini bosuvchi yangi, vizual birliklarga ehtiyoj seza boshladilar. Ushbu ehtiyoj natijasida raqamli nutqqa multimodal birliklar kirib keldi va tilshunoslik tadqiqotlari uchun yangi qirralarni ochdi.

Internet tilshunosligi sohasidagi yetakchi olimlardan biri D.Crystal ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotning asosiy vaziyatlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatadi:

— E-mail (elektron pochta);
— Chat guruhlari;
— Virtual dunyo;
— butunjahon o'rgimchak to'ri (WWW).[1,272]


Ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar asosan norasmiy xarakterga ega. Masalan, postga fikr bildirishda rasmiy til birliklaridan, kirish so‘zlardan, iboralardan, bosh harflardan, tinish belgilaridan, emojilardan, qisqartmalardan foydalanish qat’iy me’yorlar bilan tartibga solinmagan. An’anaviy tilshunoslikda matn yaratishning ma’lum bir me’yorlari mavjud, internet va ijtimoiy tarmoq yozishmalarini yaratishda esa ishlab chiqilgan qat’iy me’yorlar ishlab chiqilmagan, internet tili yo‘l-yo‘riqsiz bo‘lganligi sababli bo‘shliq hosil qildi. Bu holat foydalanuvchilarga keng imkoniyatlar yaratishi bilan birgalikda turli tartibsizliklarni, uslubiy, grammatik, sintaktik va semantik xatoliklarni, tushunmovchiliklarni keltirib chiqardi. Bu kabi xatoliklar an’anaviy tilshunoslikka ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi.[2,35]

Norasmiy muloqotda ishtirokchilar uchun qat’iy belgilangan qonun-qoidalar tizimi yo‘q, shu sababli ham multimodal birliklar asosan ekspressiv va fatik funksiyalarni bajaradi. Foydalanuvchilar o‘zlarining hissiy holatini ifodalash, gapning ohangini belgilash uchun ko‘p ma’noli stikerlar, kinoyali memlar va stikerlar, GIFlardan erkin foydalanishadi. Norasmiy diskursda multimodal birliklar kuchli kontekstuallikka ega bo‘lib, vaziyatga qarab turli xil ma’nolarda kelishi mumkin. Masalan, do‘stlar guruhida oddiygina kulayotgan emoji 🙂 ba’zan samimiylikni emas, balki kinoyani yoki umuman teskari g‘azab ma’nosini bildirishi mumkin. *(1-rasmda Rasmiy va norasmiy Telegram muloqotining eng asosiy differensial xususiyatlari keltirilgan).*

Rasmiy yozishmalarda esa muloqot qatnashchilaridan ijtimoiy masofani saqlashlari hamda odob-axloq qoidalariga qat’iy amal qilishlari talab etiladi. Shuning uchun ham vizual birliklar emotsiya bildirish uchun emas, balki vazifa bajarilganini tasdiqlash (masalan, bosh barmoq reaksiyasi), xabarni o'qiganligini bildirish yoki matnning alohida tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatish (✅, ➕, 🆗, 💯, 👍, 🤝, 📊, 📌) uchun standart va ma’noviy jihatdan betaraf emojilar ishlatiladi.



Bu yerda ➕, 💯 va 👍 emojilari to‘g‘ridan-to‘g‘ri pragmatik akt – “xabarni o‘qidim va bajaraman” degan ma'noni qisqa va aniq vizuallashtiradi, vaqtni tejaydi. Rasmiy yozishmalarda multimodal birliklar bir ma’noli xususiyatga ega bo‘lishi, xabar hamma uchun tushunarli tilda bayon qilinishi va har xil kinoyaviy ma’nolardan holi tarzda tuzilishi maqsadga muvofiq.



1.-rasm. Rasmiy va norasmiy Telegram muloqotining differensial mezonlari

Ijtimoiy tarmoq yozishmalarida shaxs ruhiy holatini ifodalovchi til birliklari borasida tadqiqot olib borgan L.Rahimqulova esa bugungi kunga kelib ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot shakllarining taraqqiyoti rasmiy va norasmiy muloqot uslublarining aralashuviga sabab bo‘layotganini e’tirof etadi. Jumladan, rasmiy muloqotlarda ham hissiy holatni ifodalovchi emojilardan foydalanish holatlari kuzatilmoqda. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, bu hodisa “stilistik kod almashtirish” deb ataladi, ya’ni foydalanuvchi kontekstga qarab tilning uslubiy elementlarini o‘zgartiradi. [2,53]

X adresant: Hurmatli tadqiqotchilar, bugun hisobot topshrishning oxirgi kuni soat 16:00 gacha yarim yillik monitoring hisobotlarini va nashr etilgan maqolalar nusxasini ilmiy bo‘limga taqdim etishingiz shart. Hisobotlarni o‘z vaqtida topshirmagan tadqiqotchilar faoliyati yuzasidan universitet kengashiga bildirish kiritiladi.

Y adresat: Assalomu alaykum. Mening hisobotim va nashr qilingan maqoalarim asoslari tayyor, hozir dekanatga tasdiqlatib olib boraman. Biroz kuttirib qo‘yganim uchun uzr so‘rayman 😔🙏

Mazkur suhbat rasmiy guruhda olib borilgan va unda hech qanday rasmiy muloqot qoidalarini buzish holatlari yo‘q. Adresantning qat’iy buyruq mazmunida yozilgan xabariga javoban adresat 😔 emojisi orqali o‘zining kechikayotganidan xijolat ekanligini va 🙏 belgisi bilan mavjud keskin vaziyatni yumshatishga urinishga harakat qilishga urinish ma’nosini bera olgan. Rasmiy nutq oxirida ishlatilgan mazkur ikkita emoji orqali foydalanuvchi kontekstga bog‘liq holda qat’iy mazmundagi rasmiyatchilikni vizual vositalar orqali yumshatishga urinish bilan stilistik kodni almashtirgan.

Norasmiy Telegram muloqotining o‘zbek segmenti foydalanuvchilari orasida juda faol qo‘llanuvchi kesatiq, ya’ni vaziyatga qarab o‘zgaruvchi ma’no qachonki suhabtdoshlar orasida yagona pragmatik vaziyatni tushunish holatlari bo‘lganda keng foydalaniladi. Mazkur holatda qo‘llanayotgan multimodal birlikning ma’nosi siz yozayotgan matnning ruhiyatiga qarab umuman boshqa tomonga o‘zgarib ketishi mumkin. Ko‘pincha so‘zning to‘g‘ri ma’nosini “teskarisiga” aylantirish (sarkazm) uchun emojilardan qurol sifatida foydalaniladi. *Ertalabdan beri internetim yo‘q, hamma ishlarim ham “zo‘r” ketyapti* 🙃 *Sizni atigi ikki soat kutdim, vaqtida kelganingiz uchun katta rahmat* 👍

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Telegram ijtimoiy tarmog‘idagi muloqotning rasmiy yoki norasmiy maqomda bo‘lishi muhim pragmatik ahamiyat kasb etadi. Rasmiy muloqot doirasida multimodal birliklar asosan informativ-faktik ahamiyat kasb etib, xolislik va ijtimoiy masofani saqlashga xizmat qiladi. Norasmiy muloqotda esa vizual birliklar emotsional-ekspressiv maqsadlarni amalga oshiradi va kuchli kontekstuallikka ega bo‘ladi. Zamonaviy o‘zbek internet tilshunosligida vizual birliklarning adresatga aniq va to‘g‘ri yetib borishi ularning kontekstga mos tanlanishiga, shuningdek, foydalanuvchilarning yosh va milliy-madaniy xususiyatlariga bevosita bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. 14–272 p.
2. Rahimqulova L. Ijtimoiy tarmoq yozishmalarida shaxs ruhiy holatini ifodalovchi til birliklarining lingvistik ekspertizasi. Filol. fan. fals. dok. (PhD) diss. Toshkent-2025.
3. Латипова А. Л. Лингвистическая специфика интернет-дискурса в разносистемных языках. – М.: Нальчик, 2020. – 26 с.
4. Нашхоева М. Р. Взаимодействие пунктуационных знаков и эмотиконов в текстах форумов // Вестник ЧГПУ. 2011. С. 321–327.
5. Abdurayimova D. Ijtimoiy tarmoq yozishmalarida o‘zbek tili imkoniyatlarining yoshga ko‘ra xoslanishi. Filol. fan. fals. dok. diss. Toshkent – 2026.
6. Derks D., Fischer A.H., Bos A.E.R. The role of emotion in computer-mediated communication: A review // Computers in Human Behavior. – 2008. – Vol. 24(3). – P. 766-785.

YANGI O‘ZBEKISTONDA KITOB MUTOLAASI MADANIYATI: MA’NAVIY YUKSALISH YO‘LI

Husainova Nargiza Muminovna
Samarqand viloyati, Samarqand shahri, 44-maktab Kutubxona mudirasi
nargizahusayinova@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934117

Annotatsiya. Maqolada Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari asosida Yangi O‘zbekistonda kitob mutolaasi madaniyatini yuksaltirish masalalari tahlil qilinadi. Xalqimizning boy yozma merosi, zamonaviy axborot davrida yuzaki bilim iste’mol qilish tendentsiyasining xavfi va yosh avlodda mutolaaga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish yo‘llari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, kitob mutolaasi, kitobxonlik madaniyati, ma’naviy meros, ommaviy madaniyat, Yangi O‘zbekiston.

Аннотация. В статье на основе произведения Ислама Каримова «Высокая духовность – непобедимая сила» анализируются вопросы повышения культуры чтения книг в Новом Узбекистане. Освещается богатое письменное наследие народа, опасность поверхностного потребления информации в современную эпоху и пути формирования у молодого поколения потребности в чтении.

Ключевые слова: духовность, чтение книг, культура книгочтения, духовное наследие, массовая культура, Новый Узбекистан.

Abstract. Based on Islam Karimov’s work “High Spirituality – an Invincible Force,” the article analyzes issues of enhancing the culture of reading in New Uzbekistan. It highlights the nation’s rich written heritage, the risk of superficial information consumption in the digital age, and ways of cultivating a genuine love of reading among the younger generation.

Keywords: spirituality, reading culture, book culture, spiritual heritage, mass culture, New Uzbekistan.

Har qanday millatning kelajagi, avvalo, uning ma’naviy salohiyati bilan belgilanadi. Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ta’kidlanganidek, ma’naviyat inson va jamiyat hayotida hech qachon o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan ulkan boylikdir [2. 2008:B.3]. Ana shu boylikni asrab-avaylash va yanada yuksaltirishning eng ishonchli vositalaridan biri – bu kitobxonlik, ya’ni mutolaa madaniyatidir.

Ajdodlarimiz meros qoldirgan bitiklar. O‘zbek xalqi jahon sivilizatsiyasiga ulkan ilmiy-ma’naviy meros qoldirgan xalqdir. Kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo‘lyozmalar – tarix, adabiyot, san’at, siyosat, falsafa, tibbiyot, matematika, astronomiya va boshqa sohalarga oid noyob asarlar – xalqimizning buyuk ma’naviy boyligidir [2. 2008:B.19]. Imom Buxoriyning hadislar to‘plami asrlar davomida millionlab insonlar qalbiga ma’naviy nur bag‘ishlab kelmoqda [2. 2008:B.24]. Ahmad Farg‘oniyning “Astronomiya asoslari haqida kitob” nomli asari XII asrdayoq lotin va ibroniy tillariga tarjima qilingani bu merosning jahon ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi [2. 2008:B.26]. Muallif shaxsiy tajribasidan misol keltirib, “Temur tuzuklari” kabi asarlarga qayta-qayta murojaat qilish inson uchun ruhiy kuch-quvvat manbai bo‘lishini yozadi [2. 2008:B.28]. Bu – kitobning shunchaki bilim manbai emas, balki inson ma’naviyatini shakllantiruvchi, unga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi hamroh ekanini anglatadi.

Bugungi kunning xavf-xatarlari

Ayni paytda mafkuraviy bo‘shliqdan foydalanib kirib kelishi mumkin bo‘lgan “ommaviy madaniyat” – axloqiy va ma’naviy tubanlik illatlarini o‘z ichiga olgan yengil-yelpi oqim – ayniqsa yoshlar ongi va qalbiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi asarda alohida ta’kidlanadi [2. 2008:B.73]. Zamonaviy elektron axborot vositalari, xususan, televidenie, radio va internet insonga bir vaqtning o‘zida ham axborot, ham ma’naviy-ma’rifiy minbar vazifasini bajarayotgani bois, ularning xalqning madaniy saviyasini yuksaltirishga xizmat qilishi zarurligi qayd etiladi [2. 2008:B.83]. Shu bilan birga, matbuot va so‘z erkinligi tamoyillarini amalda ta’minlash, jamiyatda tanqid ruhini kuchaytirish eng muhim maqsadlardan biri sifatida belgilanadi [2. 2008:B.84].

Mutolaa madaniyatini shakllantirishda milliy pedagogik meros

Kitobxonlikni yuksaltirish masalasi bugungi kun mahsuli emas – u xalqimizning azaliy ma’rifiy an’analaridan boshlanadi. XX asr boshlarida yashab ijod etgan ma’rifatparvar Abdulla Avloniy yoshlarni bekorchi va mazmunsiz suhbatlar bilan umr o‘tkazmasdan, turli kitob, gazeta va jurnallarni o‘qib fikrni

charxlashga, zehnni kuchaytirishga chaqirgan edi [1. 1992:B.31]. Bu fikr bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q: bola va o‘smirlarda kitobga bo‘lgan ehtiyoj aynan oilada, erta yoshdanoq shakllantirilishi kerak. Adabiyotshunos olim Safo Matjon kitobxonlikni ijodiy mehnat sifatida ta’riflab, uning shakli va darajasi tanlangan asarning turiga, kitobxonning tayyorgarligiga qarab o‘zgarib borishini ta’kidlaydi [3. 1993:B.26]. Demak, mutolaa – passiv jarayon emas, balki inson tomonidan ongli ravishda amalga oshiriladigan intellektual mehnat turidir.

Yangi O‘zbekistonda mutolaa madaniyatini tiklash

So‘nggi yillarda mamlakatimizda kitobxonlikni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani bejiz emas – bu, aslida, yuqorida ta’kidlangan ma’naviy xavfsizlik g‘oyasining amaliy davomidir. Mustaqillik yillarida adabiyotni rivojlantirish, ijodkorlarning ezgu mehnatini qadrlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar o‘z hosilini berayotgani, badiiy adabiyot mavzular ko‘lami va janrlar nuqtai nazaridan rang-barang bo‘lib borayotgani kitobxon xalqni albatta quvontiradi [2. 2008:B.85]. Kutubxonalar tarmog‘ini yangilash, elektron kutubxonalarni yo‘lga qo‘yish, ta’lim muassasalarida mutolaa madaniyatini singdirish – bularning barchasi xalqni, ayniqsa yosh avlodni, qayta kitobga qaytarishga qaratilgan sistemali harakatlardir. Bunda oilaviy kutubxona tashkil etish, farzandlarni yoshiga mos adabiyot bilan tanishtirib borish, ular bilan o‘qilgan asar yuzasidan fikr almashish kabi oddiy, ammo samarali usullar alohida ahamiyat kasb etadi [3. 1993:B.25]. Biroq bu jarayonning muvaffaqiyati faqat tashkiliy tadbirlarga bog‘liq emas: ma’naviy tarbiya – oila, ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilikning hamjihatligini talab qiladigan uzluksiz jarayondir.

Xulosa. Yangi O‘zbekistonda kitob mutolaasi madaniyatini yuksaltirish – nafaqat savodxonlik yoki ma’lumotdorlik masalasi, balki millatning ma’naviy immunitetini mustahkamlash vazifasidir. Ajdodlarimiz bizga qoldirgan ulkan yozma meros bugungi avlod uchun ibratdir. Zamonaviy axborot xurujlari kuchayib borayotgan bir davrda aynan kitob – inson qalbini yuzakilashtirmaydigan, aksincha, uni chuqur fikrlashga, mustaqil xulosalar chiqarishga o‘rgatadigan eng ishonchli vositaligicha qolmoqda. Shu boisdan oila, ta’lim tizimi va jamiyat bo‘lib, yosh avlodda mutolaaga muhabbatni tarbiyalash uchun mas’uliyatni his etishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992. – 31 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008. – 176 b.
3. Matjon S. Kitob o‘qishni bilasizmi? – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1993. – 128 b.

MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTLARIDA INKILYUZIV MUHITDA BOLALARGA TA`LIM TARBIYA BERISH

Nosirova Mastura
Namangan Davlat Pedagogika Inistituti
Maktabgacha ta`lim yo`nalishi 4- bosqich talabasi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934170

Annotatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv ta’limning nazariy va amaliy asoslari, uning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati hamda maxsus ehtiyojli bolalarni umumiy ta’lim muhitiga integratsiya qilish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, inklyuziv muhitda ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning zamonaviy metodlari va pedagogik yondashuvlari tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, integratsiya, maxsus ehtiyojli bolalar, differensial yondashuv, pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy moslashuv.
Аннотация. В данной статье освещены теоретические и практические основы инклюзивного образования, его социально-педагогическая значимость, а также механизмы интеграции детей с особыми потребностями в общеобразовательную среду. Кроме того, анализируются современные методы эффективной организации учебно-воспитательного процесса в инклюзивной среде и педагогические подходы.
Ключевые слова: инклюзивное образование, интеграция, дети с особыми потребностями, дифференцированный подход, педагогические технологии, социальная адаптация.
Annotation. This article highlights the theoretical and practical foundations of inclusive education, its socio-pedagogical significance, and the mechanisms for integrating children with special needs into the general education environment. Additionally, modern methods of effectively organizing the educational process in an inclusive environment and pedagogical approaches are analyzed.
Keywords: inclusive education, integration, children with special needs, differential approach, pedagogical technologies, social adaptation.

Kirish. Inklyuziv ta’lim-bu imkoniyati cheklangan bolalarni (jismonan, psixik ravishda yoki nutqida cheklovi bor bolalar) umumta’lim (yoki maktabgacha) ta’lim muhitiga jalb qilish, ular uchun teng imkoniyatlar, jamoada o‘z o‘rnini topish sharoitlarini yaratishdir.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida inklyuziv guruhlarning o‘rni juda muhim: bu bolalarning jamiyatga “dastlabki qadam”ini belgilaydi, boshqa bolalar bilan birga o‘qishi, o‘yinda qatnashishi, jamoada bo‘lishi ijtimoiy moslashuv va hamjamiyatga integratsiyalashuv bo‘yicha yordam beradi. Tushuntirish ishlari faqat pedagoglarga emas, balki otaonalarga, jamoatchilikka, mahalla (fuqarolar)ga bo‘lib, ularni inklyuziv ta’limning maqsadlari, vazifalari, afzalliklari bilan tanishtirish, salbiy stereotiplar, diskriminatsiyaga qarshi yondashuvni o‘zgartirish lozim.

Shuningdek, inklyuziv muhitni yaratishda ota-onalar, tarbiyachilar, bolalar, jamoatchilik faol qatnashishi- bu muhitning samaradorligini oshiradi.

Mamlakatimizda alohida ehtiyoji bo‘lgan bolalar bilan ishlash ular bilan yakka individual ishlar olib borish, inklyuziv-korreksion ta’lim-tarbiyani rivojlantirish, ta’lim muassasalarida inklyuziv GURUHLAR tashkil qilish va bunday o‘quvchilardan jamiyatga ijtimoiy moslashuvini shakllantirishda muhim ahamiyatli ishlarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar sog‘lom muhitda, sog‘lom bolalar qatorida teng ta’lim olishlari uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish bizning har kungi “HARAKAT MEZONIMIZ” bo‘lib xizmat qilishi kerak.

Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – har bir bolaning sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlashdir.

Bugungi kunda inklyuziv ta’lim nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlash vositasi sifatida ham qaralmoqda.

Inklyuziv ta’limning nazariy asoslari Inklyuziv ta’lim konsepsiyasi quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

Tenglik va kamsitmaslik – har bir bola ta’lim olish huquqiga ega Individuallashtirish – ta’lim jarayonini bolaning ehtiyojiga moslashtirish Integratsiya – barcha bolalarni umumiy muhitga jalb etish Hamkorlik – pedagog, ota-ona va mutaxassislarning birgalikdagi faoliyati Inklyuziv ta’limning nazariy

asoslari pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Inklyuziv muhitning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati Inklyuziv muhit yaratish quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi: jamiyatda bag‘rikenglik va hurmatni shakllantiradi bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi

nogironligi bo‘lgan bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi sog‘lom bolalarda empatiya va yordam berish hissini kuchaytiradi Shuningdek, inklyuziv ta’lim jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta’minlashning muhim vositasidir.

Inklyuziv ta’limni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari Inklyuziv muhitni samarali tashkil etish uchun quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

1. Moddiy-texnik baza maxsus jihozlar (ramplar, moslashtirilgan partalar) didaktik materiallar va texnologiyalar axborot-kommunikatsiya vositalari

2. Pedagogik tayyorgarlik o‘qituvchilarning malakasini oshirish maxsus pedagogika va psixologiya bilimlariga ega bo‘lish individual yondashuvni qo‘llay olish

3. Psixologik muhit do‘stona va qo‘llab-quvvatlovchi atmosfera bolalar o‘rtasida ijobiy munosabatlarni shakllantirish diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik Ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy metodlar

Inklyuziv ta’limda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi: Differensial ta’lim Har bir bolaning bilim darajasi va imkoniyatiga mos topshiriqlar berish orqali o‘quv jarayonini individuallashtirish.

Interfaol metodlar “Aqliy hujum” “Kichik guruhlarda ishlash” “Rol o‘ynash” usullari Bu metodlar bolalarning faol ishtirokini ta’minlaydi.

Multisensor yondashuv Ko‘rish, eshitish va harakat orqali o‘rganishni birlashtiradi. Ayniqsa, maxsus ehtiyojli bolalar uchun samarali hisoblanadi. Individual ta’lim dasturi (ITD) Har bir bola uchun alohida o‘quv reja tuzilib, uning rivojlanish dinamikasi kuzatiladi.Pedagogning kasbiy kompetensiyalari Inklyuziv ta’limda pedagog quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak: kommunikativ ko‘nikmalar sabr-toqat va empatiya muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati innovatsion texnologiyalarni qo‘llay olish Pedagogning professional yondashuvi inklyuziv ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Inklyuziv ta’lim bu - birgina tarbiyalanuvchidan iborat jarayon emas. U butun jamiyatning hamjihatlikdagi harakati, tushunish va qo‘llab-quvvatlashini talab qiladi. Inklyuziv ta’limni samarali joriy etish uchun targ‘ibot-tushuntirish ishlari:

Rejali, maqsadli va moslashuvchan bo‘lishi kerak; Ijtimoiy sheriklik va muloqotga asoslanishi lozim; Nazariy va amaliy jarayonlarni uyg‘unlashtirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga oid qarorlar

O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2020.

To‘xtaxodjaeva M.X. Maxsus pedagogika asoslari. – Toshkent, 2018.

Shodmonov Sh. Inklyuziv ta’lim metodikasi. – Toshkent, 2020.

Yusupova N. Maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash metodikasi. – Toshkent, 2019.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi materiallari (inklyuziv ta’lim bo‘yicha metodik qo‘llanmalar).

UNICEF rasmiy sayti – inklyuziv ta’lim materiallari

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ

Усманов Бехруз Шовкат угли
младший научный сотрудник Центра исследований проблем приватизации и управления государственными активами при Агентстве по управлению государственными активами Республики Узбекистан.
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934212

Аннотация. В статье рассматривается современное состояние цифровизации управленческих процессов на предприятиях с государственным участием в Республике Узбекистан на основе сравнительного анализа четырёх цифровых проектов: «Автоматизированная система взыскания задолженности» АКБ «Алокабанк», «Единая платформа химической отрасли» АО «Узкимёсаноат», TashBusTravel АО «Тошшахартрансхизмат» и информационная система выявления и мониторинга средств индивидуальной защиты с использованием искусственного интеллекта АО «Узметкомбинат».

Ключевые слова: цифровизация, предприятия с государственным участием, управленческие процессы, цифровые платформы, искусственный интеллект, интеграция данных, государственные активы, цифровая зрелость.

Цифровая трансформация предприятий с государственным участием приобретает в Узбекистане прикладное значение как инструмент повышения прозрачности, управляемости и качества корпоративных процессов. Для государственного собственника цифровые решения важны не только как средство автоматизации отдельных операций, но и как механизм получения сопоставимой информации о деятельности предприятия, контроля исполнения решений, управления рисками и последующей оценки результативности. Такой подход соответствует международной логике корпоративного управления государственными предприятиями, в которой государство должно выступать информированным и активным собственником, обеспечивать прозрачность и подотчётность, а органы управления предприятий располагать своевременной и качественной информацией для принятия решений.

В Узбекистане цифровизация крупных государственных предприятий в последние годы всё чаще связывается с задачами снижения затрат, совершенствования финансового управления и повышения эффективности. Официальные материалы Счётной Палаты Республики Узбекистан указывают на развитие цифровых инструментов управления затратами, казначейскими операциями, финансовым моделированием и мониторингом бизнес-планов на крупных предприятиях [1]. Это позволяет рассматривать цифровизацию не как самостоятельную ИТ-задачу, а как часть более широкой трансформации корпоративного управления и внутренней контрольной среды.

Методической основой исследования является сравнительный кейс-анализ. В качестве единицы анализа использован цифровой проект, зарегистрированный в Едином реестре информационных систем и ресурсов электронного правительства [2]. Для каждого проекта сопоставлялись организация-инициатор, назначение, функциональный контур, предусмотренные интеграции, нормативное или организационное основание, заявленная стадия развития и потенциальные показатели управленческой эффективности.

Проект «Автоматизированная система взыскания задолженности» (далее –АСВЗ) зарегистрирован в Едином реестре информационных систем и ресурсов электронного правительства как проект АКБ «Алокабанк» [3]. По данным паспорта, его функциональная логика охватывает полный цикл работы с просроченной задолженностью: выявление просрочки, сегментацию должников, выбор сценария взаимодействия, коммуникации, подготовку и сопровождение документов, а также юридическую и исполнительную стадии. Для управленческого анализа принципиально важно, что система проектируется не как отдельный справочник или канал связи, а как единый процессный контур, связывающий операции, контроль исполнения и аналитику. В паспорте проекта предусмотрены интеграции с PlayMobile, CTI, Hybrid Mail, E-Auksion и XSUD. Такое сочетание внутренних и внешних сервисов потенциально позволяет уменьшить повторный ввод информации, сократить разрывы между коммуникационным, юридическим и исполнительным этапами, а также повысить прослеживаемость действий сотрудников. Однако сам паспорт проекта

не подтверждает, что внедрение уже привело к снижению доли проблемных кредитов или росту возвратности. На момент проверки карточка Реестра не давала достаточных оснований считать эти экономические эффекты доказанными. Для последующей оценки АСВЗ целесообразно использовать набор измеримых показателей: среднее время от возникновения просрочки до первого контакта; долю операций, выполняемых без ручного ввода; стоимость взыскания на единицу задолженности; коэффициент возврата по сегментам; длительность юридической стадии; динамику NPL с учётом сопоставимости портфеля. Такой подход позволит отделить технический факт запуска системы от её фактического влияния на управленческие и финансовые результаты.

Вторым типом цифровой трансформации является создание централизованной отраслевой платформы. В Едином реестре зарегистрирован проект «Единая платформа химической отрасли» (краткое наименование – «ХимПлатформа») АО «Узкимёсаноат» [4]. Разработчиком проектно-технической документации и системы обозначено АО «Узкимёсаноат», а плановый период реализации с 1 октября 2025 года по 30 декабря 2026 года. Поскольку документ имеет отметку «дсп», в статье корректно ссылаться именно на сведения официального паспорта проекта, а не воспроизводить неподтверждённые положения закрытого акта. Функционально «ХимПлатформа» представляет более сложную модель цифровизации, чем автоматизация одного процесса её назначение связано с формированием единого пространства отраслевых данных, автоматизацией отчётности и поддержкой аналитики для различных уровней управления. Для холдинговой или отраслевой структуры это потенциально создаёт основу для сопоставления показателей предприятий, мониторинга отклонений и сокращения временных затрат на консолидацию отчётности. Вместе с тем именно масштаб платформы усиливает требования к единой нормативно-справочной информации, методикам расчёта показателей, качеству первичных данных и межсистемной интеграции. На момент проверки в Реестре система не была обозначена как функционирующий ресурс, поэтому утверждения о фактически достигнутом снижении затрат, ускорении отчётности или росте эффективности были бы преждевременными. Для объективной оценки после ввода платформы в эксплуатацию целесообразно измерять срок подготовки консолидированной отчётности, долю автоматической загрузки данных, число ручных корректировок, полноту обязательных реквизитов, количество расхождений между источниками и долю управленческих решений, основанных на данных платформы.

Третий кейс «Информационная система и её мобильное приложение по оказанию онлайн-услуг по предоставлению автотранспортных средств физическим и юридическим лицам» (TashBusTravel), зарегистрированный в Реестре за АО «Тошшахартрансхизмат» [5]. Проект ориентирован на цифровизацию клиентского и операционного контура: поиск и бронирование транспортных услуг, оплату, управление заказами, тарифами, расписаниями и транспортным парком. В паспорте предусмотрены интеграции с платёжным шлюзом Global Pay Gate и SMS-сервисом ESKIZ MEDIA GROUP. Управленческая ценность такого проекта заключается прежде всего в снижении количества ручных операций и повышении прозрачности маршрута заявки от её формирования до исполнения и оплаты. Цифровой канал также создаёт структурированный массив данных о спросе, заказах, загрузке и отменах, который при соответствующей аналитической настройке может использоваться для управления транспортными ресурсами. Однако сама по себе наличие мобильного приложения не свидетельствует о повышении производительности или доходности, эти результаты должны подтверждаться фактическими показателями эксплуатации. В паспорте был указан плановый срок завершения проекта 28 февраля 2026 года, однако на момент проверки Реестр не обозначал систему как функционирующую. Поэтому в статье корректно говорить о предусмотренной функциональности и ожидаемых эффектах, а не о достигнутой цифровой зрелости. Для последующей оценки TashBusTravel предлагаются следующие KPI: доля заказов, оформленных полностью онлайн; среднее время обработки заявки; доля заявок без участия оператора; коэффициент использования транспортных средств; доля отмен; число обращений по ошибкам оформления и платежей; время урегулирования спорной операции. Отдельного внимания требует управление данными. В паспорте присутствует указание на отсутствие использования персональных данных, тогда как описание интеграций предполагает работу с телефонными номерами и платёжными реквизитами. Это само по себе не доказывает нарушение законодательства, однако для промышленной эксплуатации целесообразно формально определить состав обрабатываемых данных, цели обработки, роли оператора и внешних поставщиков сервисов, а также режим хранения и доступа.

Четвёртый кейс относится к интеллектуальному производственному контролю. В Реестре представлен проект информационной системы по выявлению и мониторингу средств индивидуальной защиты с использованием искусственного интеллекта АО «Узметкомбинат» [6]. В паспорте в качестве основания указан пункт 22 приложения № 2 к Постановлению Президента Республики Узбекистан от 16 сентября 2025 года № ПП-286 «О мерах по дальнейшему ускорению внедрения цифровых технологий в регионах, сферах и отраслях республики» [7]. Функциональная идея системы состоит в анализе видеопотока и автоматическом выявлении отсутствия либо неправильного использования касок, масок, очков, перчаток и специальной одежды, формировании уведомлений и отчётности, а также передаче данных в корпоративные системы. В карточке проекта краткое наименование отображается как «Al-SHIVAM», с управленческой точки зрения проект интересен тем, что переводит контроль охраны труда из периодического и выборочного формата в потенциально непрерывный цифровой мониторинг. Он может повысить скорость фиксации событий, обеспечить накопление статистики по зонам и типам нарушений и создать более объективную базу для профилактических решений. Однако такие преимущества являются ожидаемыми, пока отсутствует подтверждённый массив эксплуатационных данных. Реестр также не обозначал систему как функционирующую на момент проверки. Для оценки реального эффекта «Al-SHIVAM» необходимы не только показатели количества обнаруженных событий, но и метрики качества самой модели: точность распознавания, доля ложных срабатываний, полнота выявления нарушений, среднее время от события до уведомления, доля повторных нарушений, динамика нарушений по подразделениям и зонам. Дополнительно требуется оценивать качество организационной реакции: сколько сигналов было обработано, какие корректирующие меры приняты и как изменилась повторяемость нарушений.

Сопоставление четырёх проектов показывает, что цифровизация предприятий с государственным участием развивается не по единой технологической модели, а по нескольким функциональным траекториям. «АСВЗ» представляет сквозную автоматизацию специализированного финансового процесса, «ХимПлатформа» отраслевую платформу консолидации данных, TashBusTravel цифровизацию клиентского сервиса и операционного управления, «Al-SHIVAM» применение искусственного интеллекта для производственного контроля. Это различие важно учитывать при оценке зрелости, количество интеграций или глубина аналитики не могут сравниваться механически без учёта назначения системы. Во всех четырёх случаях прослеживается общий принцип: цифровое решение способно повысить качество управления только при условии, что оно встроено в целевой бизнес-процесс, получает достоверные данные и имеет измеримый набор результатов. Если цифровизация сводится к переносу существующей процедуры в электронную форму без реинжиниринга, единых справочников и ответственности за данные, она может ускорить отдельные операции, но не обязательно улучшит конечный управленческий результат. Второе общее ограничение – интеграционная зрелость. Система, использующая данные нескольких подразделений или внешних организаций, становится зависимой от интерфейсов обмена, качества идентификаторов, синхронизации справочников и устойчивости каналов. Поэтому при проектировании необходимо заранее закреплять владельцев данных, правила валидации, периодичность обновления и механизм разрешения расхождений. Особенно критично это для «ХимПлатформы», где сопоставимость отраслевых показателей является предпосылкой аналитики, и для «АСВЗ», где управленческий маршрут пересекает коммуникационный, банковский, юридический и исполнительный контуры.

Третье ограничение связано с кадровой и организационной готовностью. Даже технически завершённая система не создаёт эффекта автоматически, пользователи должны изменить практику работы, руководители использовать цифровые показатели при принятии решений, а внутренние регламенты закрепить новый порядок ответственности. Для Al-SHIVAM это означает формализацию реакции на цифровой сигнал, для TashBusTravel переход от ручного сопровождения к управлению исключениями, для ХимПлатформы дисциплину загрузки и валидации, для АСВЗ единый процесс взаимодействия подразделений. Четвёртым ограничением является кибербезопасность и правовая устойчивость. Чем глубже цифровая система встроена в критические процессы, тем выше цена ошибки, сбоя или неправомерного доступа. Поэтому оценка цифрового проекта должна включать не только функциональную готовность, но и результаты экспертиз, разграничение доступа, журналирование действий, резервирование и документированные процедуры реагирования на инциденты.

Проведённый анализ позволяет предложить единый подход к оценке цифровых проектов предприятий с государственным участием. На первом этапе необходимо фиксировать базовую линию до внедрения: длительность процесса, число ручных операций, количество ошибок, стоимость выполнения функции, уровень просрочек или нарушений, загрузку ресурсов и иные показатели, непосредственно связанные с целью проекта. Без такой базовой линии последующая оценка эффекта превращается в описательную констатацию. На втором этапе следует разделять технические и управленческие KPI. К техническим относятся доступность системы, скорость отклика, доля успешных интеграционных запросов, точность алгоритма и количество инцидентов. Управленческие KPI должны отражать изменения процесса: срок принятия решения, скорость реакции, сокращение ручных операций, улучшение качества данных, снижение количества нарушений, повышение возвратности, рост коэффициента использования ресурса и т.п. Только совместный анализ двух групп показывает, стала ли система реально полезной для управления. На третьем этапе необходима обязательная оценка после завершения проекта с сопоставлением фактических результатов с паспортными целями. Для государственных предприятий такая оценка может стать частью корпоративной отчётности собственнику и наблюдательному совету. На четвёртом этапе целесообразно формировать отраслевой реестр эффектов цифровизации. Он должен включать не рекламные описания проектов, а сопоставимые показатели: стоимость проекта, достигнутую экономию, изменение времени процесса, качество данных, уровень автоматизации, показатели надежности и эксплуатационные риски. Такая база позволит государственному собственнику сопоставлять проекты, выявлять типовые решения и предотвращать повторное финансирование малоэффективных инициатив.

Исследование четырёх цифровых проектов показывает, что предприятия с государственным участием в Узбекистане переходят от локальной автоматизации к более сложным моделям цифрового управления. АСВЗ демонстрирует сквозную цифровизацию финансово-долгового процесса, ХимПлатформа формирование отраслевого пространства данных, TashBusTravel перевод клиентского сервиса и операционного управления в цифровой формат, AI-SHIVAM использование искусственного интеллекта в производственном контроле. Тем самым цифровизация охватывает разные уровни корпоративной деятельности от внешнего сервиса до внутренних контрольных и аналитических функций.

Вместе с тем анализ официальных паспортов не позволяет автоматически сделать вывод о достигнутой экономической эффективности. Для ряда проектов Реестр на момент проверки не подтверждал статус функционирующей системы, а открытые источники не содержали сопоставимых показателей «до/после». Поэтому научно корректный вывод состоит не в утверждении о безусловной результативности цифровизации, а в признании её значительного управленческого потенциала при наличии организационных, информационных и контрольных условий.

Практический приоритет дальнейшего этапа цифровой трансформации должен заключаться в переходе от оценки «факта внедрения» к оценке управленческого результата. Для этого необходимо закреплять базовые показатели до запуска, устанавливать KPI цифровых проектов, стандартизировать данные, обеспечивать межсистемную интеграцию и проводить обязательную итоговую оценку после ввода системы в эксплуатацию. Только при таком подходе цифровые технологии становятся не самостоятельной ИТ-инфраструктурой, а инструментом повышения эффективности государственного собственника и предприятия.

Список использованных источников

1. Счётная Палата Республики Узбекистан. «К эффективности через цифровизацию: в государственных предприятиях начался новый этап». 08.12.2025. – URL: https://ach.gov.uz/ru/events-nav/news/detail/6937c3f5988dc4a86b82e4ab

2. Единый реестр информационных систем и ресурсов электронного правительства. – URL: https://reestr.uz/

3. Единый реестр информационных систем и ресурсов электронного правительства. Проект «Автоматизированная система взыскания задолженности» (АСВЗ), ID 2595. – URL: https://reestr.uz/ru/projects/2595?type=passport

4. Единый реестр информационных систем и ресурсов электронного правительства. Проект «Единая платформа химической отрасли» (ХимПлатформа), ID 2507. – URL: https://reestr.uz/ru/projects/2507?type=passport

5. Единый реестр информационных систем и ресурсов электронного правительства. Проект (TashBusTravel), ID 2654. – URL: https://reestr.uz/ru/projects/2654?type=passport

6. Единый реестр информационных систем и ресурсов электронного правительства. Информационная система выявления и мониторинга средств индивидуальной защиты с использованием искусственного интеллекта, АО «Узметкомбинат», ID 2797. – URL: https://reestr.uz/projects/2797?type=passport

7. Постановление Президента Республики Узбекистан от 16 сентября 2025 года № ПП-286 «О мерах по дальнейшему ускорению внедрения цифровых технологий в регионах, сферах и отраслях республики». – URL: https://lex.uz/ru/docs/7730359

KO‘ZI OJIZ BOLALAR MUSIQA TA’LIMIDA INKLYUZIV TA’LIM SHART-SHAROITLARINING MAZMUN-MOHIYATI

Astanova Zumradxon toxirovna
ADPI Doktoranti
zumradastanova@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934256

*Annotasiya:*Ushbu maqolada ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilarning Bolalar musiqa va san’at maktablaridagi inklyuziv ta’limi va uning shart-sharoitlari, muammolari va yechimlari haqida fikrlar bayon etiladi.

Аннотация: В статье представлены представления об инклюзивном образовании слепых и слабовидящих учащихся в детских музыкальных и художественных школах, его условиях, проблемах и решениях.

Abstract: This article presents ideas about the inclusive education of blind and visually impaired students in Children's Music and Art Schools, its conditions, problems, and solutions.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta’lim, integratsiya, ko‘zi ojiz, zaif ko‘ruvchi, musiqa savodxonligi, Bolalar musiqa va san’at maktabi.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, интеграция, незрячие, слабовидящие, музыкальная грамотность, Детская школа музыки и искусств.

Keywords: Inclusive education, integration, blind, visually impaired, music literacy, Children's School of Music and Art.

Kirish: Bugungi kunda Respublikamizning har bir shahar va tumanlarida Bolalar musiqa va san’at maktablari faoliyat yuritmoqda. Ushbu ta’lim muassalari iqtidorli o‘g‘il-qizlarga san’at sohasining turli yo‘nalishlari bo‘yicha boshlang‘ich talim-tarbiyani amalga oshirib kelmoqda. 2014 yildan boshlab tegishli qarorlar asosida yurtimizdagi barcha Bolalar musiqa va san’at maktablari qaytadan ta’mirlanib, yetarlicha moddiy-texnik bazasiga ega bo‘ldi, zamonaviy ta’limni tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Jumladan: yangi cholg‘u asboblar, texnik jihozlar, mebellar, darslik va adabiyotlar va hokazolar.

Tadqiqotimiz davomida ushbular orasida darsliklar masalasiga alohida to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Hozirda Bolalar musiqa va san’at maktablarining musiqa yo‘nalishlari bo‘yicha yakka cholg‘u, jamoa ijrochiligi hamda nazariy fanlardan qo‘llanma va darsliklar yetarlicha chop etilgan. Biroq mazkur darsliklar faqatgina yassi yozuvda, ya’ni, ko‘rish bo‘yicha sog‘lom o‘quvchilarga mo‘ljallangan bo‘lib, Bolalar musiqa va san’at maktablarida ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilarning ham ta’lim olishi e’tibordan chetda qolgan. Natijada ko‘rish imkoniyati cheklangan bolalarning musiqa ta’limida qator muammolar haligacha o‘z yechimini topmaganligi, bu borada ularning sog‘lom tengdoshlaridan bir muncha ortda qolayotganligi kuzatilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi: O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 22-iyulda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 11-sentabrda ma’qullangan O’RQ-641-sonli “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi” qonunining 8, 38, 40-moddalari asosida bugungi kunda ko‘zi ojiz bolalar ta’lim-tarbiyasiga davlatimiz tomonidan katta e’tibor va imkoniyatlar berilmoqda. Shuningdek, bu qonunning 8-moddasida qayd etilgan “Nogironligi bo‘lgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va o‘z individualligini saqlab qolish huquqini hurmat qilish prinsipi” [1.] dan kelib chiqib nogironligi bo’lgan bolalarni har tomonlama va uyg’un rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, mehnatga bo’lgan qiziqishiga ko’maklashish, ta’limga, ilm-fanga, texnikaga, san’at va sportga jalb etish maqsadida nogironligi bo’lgan bolalar manfaatlari, ularga nisbatan bajariladigan barcha harakatlarda ustuvorlik yaqqol seziladi.

Ushbu qonunning 38, 40-moddalarida yozilihicha, davlat organlari nogironligi bo‘lgan shaxslarning har biri uchun mosroq bo‘lgan tillarni, muloqot qilish usullari va vositalarini rivojlantirish, Brayl alifbosini, muqobil harflarni, nutq va og‘zaki muomala ko‘nikmalarini o‘zlashtirish, shuningdek o‘qituvchilarni va maktab xodimlarini inklyuziv ta’lim masalalarida o‘qitish, imo-ishora tilini va Brayl alifbosini biladigan nogironligi bo‘lgan o‘qituvchilarni ta’lim muassasalariga ishga joylashtirish yordamida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ko‘makdosh bo‘lgan loyihalar tahsinga sazovordir.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohaning barcha tarmoqlari kabi xalq ta’limining chet mamlakatlar ta’lim muassasalari bilan hamkorligi uchun keng imkoniyatlar ochildi.

Ayniqsa, Germaniya ta’lim vazirligi va o‘quv tarbiya jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro aloqalar tobora rivojlanib bordi. “Garchi vazirliklar darajasida bitimlar imzolanmagan bo‘lsa-da, «Nemis xalqaro rivojlanish fondi», «Adenauer jamg‘armasi», «Gyote instituti» bilan munosabatlarning o‘rnatilishi Respublikamiz istiqloli bilan tengdoshdir. Shu munosabatlar doirasida seminarlar, konferensiyalar, darsliklar, ko‘rgazmalar, o‘zaro ta’lim sohasida tajriba almashtirishlar bo‘lib o‘tmoqda. Ayni paytda bu hamkorlikning yangi-yangi shakllari izlanmoqda” [2.]. “Germaniyada BMTning nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konventsiyasi kuchga kirganiga 10 yil bo‘ldi. Bu davr mobaynida Germaniya nogiron kishilarni qamrab olishni kuchaytirdi va ularning maktab orqali jamiyatga yanada integratsiyalashuvi yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etdi” [3.347].

Ayni vaqtda O‘zbekistonda ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilar o‘rta ta’limni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi ijtimoiy himoya milliy agentligi tasarrufidagi “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarida oladilar. “O‘zbekistondagi bunday maktablar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 1929-yil Yo‘ldosh Oxunboboyev boshchiligida 1-ko‘zi ojiz bolalar uchun Parkent ko‘chasida 6-uyda maktab tashkil qilindi. Bundan so‘ng ketma-ket boshqa viloyatlarda ham maktablar ochildi. Buxoro viloyatida esa ko‘zi ojizlar bilim maskani 1953-yilda tashkil qilingan. Hozirgi vaqtda nogironligi bo‘lgan bolalarning 26,8 foizi ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarga qamrab olingan. Qabul qilingan inklyuziv ta‘limni rivojlantirish konsepsiyasida 2025-yilgacha maktab-internatdagi bolalar sonini bosqichma-bosqich 16%ga qisqartirish va umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘qiyotgan nogironligi bo‘lgan bolalarning ulushini hozirgi 16,5% dan 40% gacha oshirish ko‘zda tutilgan” [4.55].

Davlatimiz rahbari ko‘zi ojiz yoshlarning ta`lim-tarbiyasiga alohida e`tibor qaratib, bu borada bir nechta qarorlar imzolaganlar. Jumladan, 18.04.2022-sanadagi “Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta’lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-209-sonli qarorida: “Madaniyat vazirligi (O.Nazarbekov), Xalq ta’limi vazirligi (B.Saidov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda “Nurli maskan” maktablarida san’at (musiqa) yo‘nalishini rivojlantirish, o‘quvchilarning san’at yo‘nalishidagi iqtidorlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida ularni hududlardagi musiqa va san’at maktablariga biriktirsin” [5.] deya ko‘rsatma berganlar. Mazkur qarorning ijrosiga binoan, Nurli maskan ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar yaqin hududlarda joylashgan Bolalar musiqa va san’at maktablari bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar darsdan bo‘sh vaqtlarda ushbu musiqa va san’at maktablarida ham tahsil oladilar. O‘quvchilarning musiqa maktablariga borib kelishlariga bog‘liq muammolarni hal etish, ularga bu borada qulaylik yaratish maqsadida maktab-internatlarning o‘zida maxsus xonalar ajratilib, tegishli mutaxassis o‘qituvchilar jalb etilgan. Masalan: Toshkent shahridagi 77-son Nurli maskanda 17-BMSMning, Andijon viloyati Asaka tumanidagi 16-son Nurli maskanda 22-BMSMning, Farg‘ona shahridagi 1-son Nurli maskanda 3-BMSMning ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilar uchun maxsus sinflari tashkil etilgan.

Bugungi kunda ko‘rish imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning Bolalar musiqa va san’at maktablaridagi ta’limi “inklyuziv ta’lim” ko‘rinishidadir. “Inklyuziv ta’lim bu – davlat siyosati bo‘lib, nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat’iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo‘shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir” [6. 7].

Muhokama va natijalar: Bolalar musiqa va san’at maktablaridagi ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchikar uchun maxsus sinflarda ta’lim oluvchi o‘quvchilarning dars jarayonlarida bir qancha muammolar mavjud bo‘lib, jumladan, Brayl yozuvida qo‘llanma va darsliklarning mavjud emasligi, o‘qituvchilarning Brayl yozuvini bilmasligi, nota savodxonligi hamda nazariy bilimlarni o‘quvchilarga o‘rgatishda maxsus tiflopedagogik metodlarni joriy etilmaganligi kabilar tadqiqotimizning dolzarbligi doirasidagi masalalardir. Yuqorida qayd etilgan muammolar natijasida ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilar sog‘lom o‘quvchilardan o‘rtda qolib ketmoqdaki, ularning musiqa nazariyasi va solfedjio, cholg‘u ijrochiligi kabi fanlardan ko‘pincha og‘zaki metod orqali ta’lim olayotganligi zamonaviy ta’lim sifati va talablariga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi. Izlanishlarning tahliliy natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning 70% o‘g‘zaki, 20% notalarni harf bilan yozish orqali, 10% yassi yoki Brayl notadan foydalangan holda dars mavzularini o‘zlashtirmoqdalar. Ma’lumki og‘zaki metodga asoslangan ta’lim uchun kuchli xotira egasi bo‘lish zarur. Inson xotirasi qanchalik kuchli bo‘lmasin unga yuklangan ma’lumotlar bazasi

kengaygani sari uni uzoq vaqt esda saqlash murakkablashadi, yani, asta-sekin unutiladi. Yozuvda muhrlangan ma’lumot esa takroran o‘qib turish natijasida mustahkamlanib boradi. Nota yozuvining harflarga asoslanishi esa tovushlarning cho‘zimlarini ifodalashning imkonsizligini isbotlaydi. Tovush cho‘zimlatining noaniqligi hech qanday kuy jumlasini hosil qilmaydi. Shuning uchun ham o‘quvchi o‘zi yozgan harflar asosidagi tovushlarning ohangini tushuna olmaydi. Bu esa o‘sha notalarni yozmagan va xatto umuman o‘rganmagan bilan tengdir. Yassi yozuvdagi besh chiziqli nota yo‘li tizimidan foydalanish zaif ko‘ruvchi o‘quvchilar uchun bir muncha foydalidir, biroq ko‘zi ojiz o‘quvchilar uchun mutlaqo imkonsiz. Brayl nota yozuvi ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi o‘quvchilar uchun birdek qulay bo‘lib, mazkur yozuvda ham musiqiy savodxonlikdagi barcha belgi va alomatlarni ifodalash hamda ularni oson o‘zlashtirish mumkin. Brayl nota yozuvini o‘rgatuvchi metodlarning joriy qilinishi va uni respublika miqiyosida amaliyotga tatbiq etilishi ko‘zi ojizlarning musiqiy ta’limini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishi shubhasizdir.

Bugungi kunda ko‘zi ojiz o‘quvchilar Bolalar musiqa va san’at maktablarida musiqa sohasining turli yo‘nalishlari bo‘yicha tahsil olar ekan, u yerdagi inklyuziv ta’lim sharoitini tubdan yo‘lga qo‘yish dolzarblihicha qolmoqda. Chunki ko‘zi ojiz bolaning ta’lim olishida muammolar talaygina. Dars jarayonida, sinfda va sinfdan tashqari faoliyatlarda ularga qiyinchilik tug‘diruvchi omillarning mavjudligi, ta’limning bu turi bo‘yicha mutaxassis pedagoglarning jalb etilmaganligi, pedagoglarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish kabi vazifalarning amalga oshirilmayotganligi inklyuziv ta’lim imkoniyatlarini ochib bera olmayapti. Natijada ko‘zi ojiz bola sog‘lom tengdoshlaridan, ko‘zi ojiz talaba sog‘lom kursdoshlaridan, ko‘zi ojiz mutaxassis so‘lim hamkasblaridan qaysidir nuqtada bilim va malakasining yetishmasligidan aziyat chekmoqda. Muammoning yechimini topish uchun quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- Bolalar musiqa va san’at maktablarida ta’lim oluvchi ko‘zi ojiz o‘quvchilar uchun musiqa nazariyasi fani bo‘yicha darslikni Brayl yozuviga o‘girish;
- Ko‘zi ojiz o‘quvchilarga Brayl nota yozuvini o‘rgatish uchun tiflopedagogik metodlarni ishlab chiqish va ommalashtirish;
- Bolalar musiqa va san’at maktablarida inklyuziv ta’limni qaytadan isloh qilish, rivojlantirish, zarur mutaxassis pedagoglarni jalb etish.

Xulosa. yosh avlodni estetik jihatdan tarbiyalashda musiqaning o‘rni beqiyos. Yurtimizda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimida ko‘plab Bolalar musiqa va san’at maktablari faoliyat ko‘rsatadi. Iqtidorli o‘g‘il-qizlar umumta’lim maktablari bilan birgalikda ushbu san’at maktablarida ham tahsil oladilar. Ijodkor bolalar o‘zlarining xulq-atvori, odobi, xushfe’lligi bilan boshqa bolalardan ajralib turadilar. Ulardagi ushbu ijobiy fazilatlarni musiqa va san’at maktablaridagi jonkuyar o‘qituvchilari shakllantiradi. Mazkur ta’lim muassasasidagi ustozlar samimiyligi, nafis qalb egasi ekanligi bilan boshqa soha ustozlaridan farq qiladilar. Shuningdek bu yerda ham boshqa ta’lim muassasalari kabi dars mashg‘ulotlarida samarali natijalarga erishish uchun zamonaviy, noan’anaviy, innovatsion metodlarga ehtiyoj seziladi. Amaliyotga tatbiq etilishi ko‘zda tutilgan yangi metodlar dars jarayonida pedagogik tajribadan o‘tkazilgandagina uning samaradorligi aniqlanadi. Ana shunday metodlardan biri Tiflopedagogik metodlar bo‘lib, uning tatbiq etilishi bugungi kunda zamon talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘RQ-641-sonli “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”. 22.07.2020 www.lex.uz
2. Germaniyada ta’lim tizimlari va uning turlari haqida ma’lumot. (abiturtest.uz)
3. Shcherbakova T. “Germanitafa inklyuziv ta’lim: natijalar va ishlab chiqarishlar”. Zugriff am 17. Aprel 2019. 347-b.
4. Ochilova M.O. “Ko‘zi ojiz bolalarga ta’lim-tarbiya berishning pedagogik asoslari”. PEDAGOGIK MAHORAT‖ ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, № 5. 55-b. https://buxdu.uz
5. Mirziyoyaev Sh..M. “Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta’lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-209-son. 18.04.2022. https://lex.uz/docs/-5966089
6. Hamidova M.U. “Maxsus pedagogika”. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. o‘quv qo‘llanma. T – 2018 7-b

КОРХОНАЛАРДА МЕНЕЖМЕНТНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Валижонов Акмалжон Рахимович
и.ф.н. Хусусийлаштириш ва давлат активларини бошқариш муаммоларини тадқиқ этиш маркази
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934321

Аннотация. Ушбу мақолада корхоналарда менежментнинг қонунчилик асослари, унинг ҳуқуқий меъёрлар билан тартибга солиниши ва замонавий бошқарув тизимидаги аҳамияти ёритилган. Менежмент фаолиятининг Конституция, Фуқаролик кодекси, Меҳнат кодекси, Солиқ кодекси, рақобат ва корпоратив бошқарув соҳасидаги қонунчилик билан боғлиқ жиҳатлари таҳлил қилинган. Мақолада қонунчилик талабларига риоя қилиш самарали бошқарувни таъминлаш, ҳуқуқий ва молиявий хавфларни камайтириш ҳамда ташкилотларнинг барқарор ривожланишида муҳим омил эканлиги асосланган.

Калит сўзлар: менежмент, бошқарув, қонунчилик, ҳуқуқий асослар, корхона, тадбиркорлик, меҳнат муносабатлари, корпоратив бошқарув, солиқ қонунчилиги, рақобат, менежер, ҳуқуқий жавобгарлик, самарали бошқарув.

Аннотация. В статье рассматриваются законодательные основы менеджмента на предприятиях, особенности его правового регулирования и значение законодательства в современной системе управления. Анализируются основные правовые нормы, регулирующие управленческую деятельность, включая положения Конституции, Гражданского кодекса, Трудового кодекса, Налогового кодекса, а также законодательства в сфере конкуренции и корпоративного управления. Обосновывается, что соблюдение требований законодательства является важным фактором обеспечения эффективного управления, снижения правовых и финансовых рисков и устойчивого развития предприятий.

Ключевые слова: менеджмент, управление, законодательство, правовые основы, предприятие, предпринимательство, трудовые отношения, корпоративное управление, налоговое законодательство, конкуренция, менеджер, юридическая ответственность, эффективное управление.

Abstract. The article examines the legislative foundations of management in enterprises, the specifics of its legal regulation, and the importance of legislation in the modern management system. The study analyzes the main legal provisions governing management activities, including the Constitution, Civil Code, Labor Code, Tax Code, as well as legislation in the areas of competition and corporate governance. The article substantiates that compliance with legal requirements is an important factor in ensuring effective management, reducing legal and financial risks, and achieving sustainable enterprise development.

Keywords: management, governance, legislation, legal framework, enterprise, entrepreneurship, labor relations, corporate governance, tax legislation, competition, manager, legal liability, effective management.

Менежмент замонавий ташкилот ва корхоналар фаолиятини самарали ташкил этишнинг муҳим таркибий қисми ҳисобланади. Бошқарув самарадорлиги нафақат раҳбарнинг касбий маҳорати, тўғри қарор қабул қилиши ва замонавий бошқарув усулларидан фойдаланишига, балки амалдаги қонунчилик талабларига риоя қилишига ҳам боғлиқ.

Ўзбекистонда менежментнинг ҳуқуқий асослари Конституция, кодекслар, қонунлар, Президент фармон ва қарорлари, Вазирлар Маҳкамаси қарорлари ҳамда бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар орқали белгиланади. Ушбу ҳужжатлар корхоналарни ташкил этиш ва бошқариш, меҳнат муносабатлари, солиққа тортиш, корпоратив бошқарув, рақобат, тадбиркорлик ва раҳбарларнинг жавобгарлиги каби муҳим соҳаларни тартибга солади.

Бугунги кунда Ўзбекистонда иқтисодий ислоҳотларнинг жадал давом этаётгани сабабли менежерлардан нафақат иқтисодий ва ташкилий билимлар, балки ҳуқуқий билимларга эга бўлиш ҳам талаб этилмоқда.

Менежментнинг қонунчилик асослари деганда ташкилотни бошқариш жараёнида юзага келадиган муносабатларни тартибга солувчи ҳуқуқий нормалар мажмуи тушунилади.

Менежер ўз фаолияти давомида ходимларни ишга қабул қилиш, меҳнат жараёнини ташкил этиш, шартномалар тузиш, молиявий маблағларни бошқариш, ресурсларни тақсимлаш ва стратегик

қарорлар қабул қилиш каби вазифаларни амалга оширади. Бу қарорларнинг аксарияти муайян ҳуқуқий талаблар билан боғлиқ.

Шу сабабли самарали менежментни қонунчиликдан алоҳида тасаввур қилиш мумкин эмас. Раҳбар ҳар бир қарорнинг нафақат иқтисодий, балки ҳуқуқий оқибатларини ҳам ҳисобга олиши керак.

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси мамлакатдаги барча ҳуқуқий муносабатларнинг асосини ташкил этади. Конституцияда мулк дахлсизлиги, иқтисодий фаолият эркинлиги, меҳнат ҳуқуқлари ва фуқароларнинг қонун олдида тенглиги каби муҳим тамойиллар белгилаб қўйилган [1].

Менежмент нуқтаи назаридан мулк ҳуқуқининг ҳимоя қилиниши алоҳида аҳамиятга эга. Корхона раҳбари ташкилот мулкидан қонун доирасида фойдаланиши ва унинг сақланишини таъминлаши лозим.

Шунингдек, тадбиркорлик ва иқтисодий фаолият эркинлиги корхоналарга ўз фаолиятини мустақил равишда ташкил этиш ва ривожлантириш имконини беради. Бироқ бу эркинлик қонунчиликда белгиланган талабларга риоя қилиш мажбурияти билан бирга амал қилади.

Менежментнинг муҳим ҳуқуқий манбаларидан бири фуқаролик қонунчилигидир. Фуқаролик қонунчилиги мулкий муносабатлар, шартномалар, мажбуриятлар, юридик шахслар ва мулк ҳуқуқи билан боғлиқ масалаларни тартибга солади [2].

Корхона фаолияти давомида турли хил шартномалар тузилади. Масалан, маҳсулот етказиб бериш, хизмат кўрсатиш, ижара, кредит ва бошқа шартномалар корхонанинг кундалик фаолиятида муҳим ўрин тутади.

Шунинг учун менежер шартномаларни тузиш ва бажаришнинг ҳуқуқий талабларини яхши билиши керак. Шартнома шартларига риоя қилмаслик корхона учун молиявий зарар ва ҳуқуқий жавобгарликка олиб келиши мумкин.

Ўзбекистонда корхоналар турли ташкилий-ҳуқуқий шаклларда фаолият юритиши мумкин. Улар орасида масъулияти чекланган жамият ва акциядорлик жамиятлари кенг тарқалган.

Ташкилий-ҳуқуқий шакл корхонани бошқариш тизимига бевосита таъсир қилади. Масалан, акциядорлик жамиятида акциядорлар умумий йиғилиши, кузатув кенгаши ва ижро этувчи органлар ўртасида ваколатлар тақсимланади.

Масъулияти чекланган жамиятда эса иштирокчиларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари, устав капитали, бошқарув органлари ҳамда фойдани тақсимлаш тартиби қонунчилик асосида белгиланади.

Шу сабабли менежер корхонанинг ташкилий-ҳуқуқий шаклини ва унга тегишли бошқарув талабларини яхши билиши зарур.

Менежментнинг энг муҳим йўналишларидан бири инсон ресурсларини бошқаришдир. Бу соҳада Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси муҳим ҳуқуқий асос ҳисобланади [3].

Меҳнат қонунчилиги ишга қабул қилиш ва ишдан бўшатиш, меҳнат шартномаси, иш вақти, дам олиш вақти, иш ҳақи, меҳнат таътили, меҳнатни муҳофаза қилиш ва ходимларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш каби масалаларни тартибга солади.

Раҳбар ходимлар билан меҳнат муносабатларини қонун талаблари асосида ташкил қилиши лозим. Ходимларнинг ҳуқуқларини бузиш ёки меҳнат шартномаларини нотўғри расмийлаштириш корхона учун ҳуқуқий ва молиявий хавфларни юзага келтириши мумкин.

Замонавий менежер ходимларни фақат меҳнат ресурслари сифатида эмас, балки ташкилотнинг асосий стратегик бойлиги сифатида кўриши керак. Шу билан бирга, ходимларни бошқариш жараёнида уларнинг қонуний ҳуқуқ ва манфаатлари таъминланиши зарур.

Корхона фаолиятини самарали бошқаришда молиявий менежмент муҳим ўрин эгаллайди. Корхона раҳбари даромад ва харажатларни режалаштириши, молиявий ресурслардан оқилона фойдаланиши ва солиқ мажбуриятларини ўз вақтида бажариши керак.

Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси солиқларни ҳисоблаш ва тўлаш тартибини, солиқ тўловчиларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини ҳамда солиқ соҳасидаги бошқа муносабатларни тартибга солади [4].

Менежер учун солиқ қонунчилигини билиш муҳим аҳамиятга эга, чунки қабул қилинаётган иқтисодий қарорларнинг солиқ оқибатлари бўлиши мумкин. Масалан, инвестиция киритиш, янги лойиҳани амалга ошириш ёки корхона харажатларини режалаштиришда солиқ мажбуриятларини ҳисобга олиш зарур.

Корпоратив бошқарув корхона эгалари ва бошқарув органлари ўртасидаги муносабатларни самарали ташкил этишга хизмат қилади.

Корпоратив бошқарувнинг асосий вазифаларига акциядорлар ва иштирокчиларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, бошқарув органлари ваколатларини аниқ белгилаш, қарорлар қабул қилиш жараёнининг шаффофлигини таъминлаш ва корхона фаолиятининг самарадорлигини ошириш киради.

Ўзбекистонда корпоратив бошқарувни такомиллаштиришга қаратилган ислоҳотлар давом этмоқда. Бу жараён замонавий менежерлардан корпоратив ҳуқуқ, ички назорат, ҳисобдорлик ва шаффофлик тамойилларини яхши билишни талаб қилади.

Бозор иқтисодиёти шароитида корхона муваффақияти кўп жиҳатдан рақобат муҳитига боғлиқ. Ўзбекистонда рақобат муносабатлари махсус қонунчилик билан тартибга солинади.

Рақобат тўғрисидаги қонун корхоналарнинг бозордаги ҳаракатларини тартибга солиш, рақобатни чекловчи ҳаракатларнинг олдини олиш ва истеъмолчиларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилишга қаратилган.

Менежер нарх белгилаш, рақобатчилар билан муносабатлар, реклама, бозор улушини кенгайтириш ва бошқа маркетинг қарорларини қабул қилишда рақобат қонунчилиги талабларини ҳисобга олиши керак.

Корхонанинг бозордаги мавқеини мустаҳкамлаш мақсади қонун билан тақиқланган рақобат усулларидан фойдаланишга сабаб бўлмаслиги лозим.

Менежернинг қарорлари корхона ва унинг ходимлари манфаатларига бевосита таъсир қилади. Шунинг учун қонунчилик раҳбарлар ва мансабдор шахслар учун муайян жавобгарлик чораларини белгилайди.

Қонунбузарликнинг хусусиятига қараб фуқаролик-ҳуқуқий, маъмурий, меҳнат ёки бошқа турдаги жавобгарлик юзага келиши мумкин.

Шу нуқтаи назардан, раҳбар қарор қабул қилишдан олдин унинг иқтисодий самарадорлиги билан бир қаторда ҳуқуқий оқибатларини ҳам баҳолаши зарур.

Ҳуқуқий билимга эга бўлган менежер корхона фаолиятидаги хавфларни камайтириши, ходимлар ва ҳамкорлар билан муносабатларни тўғри ташкил этиши ҳамда ташкилотнинг барқарор ривожланишини таъминлаши мумкин.

Қонунчилик менежмент тизимида бир нечта муҳим вазифани бажаради.

Биринчидан, у иқтисодий ва бошқарув фаолиятининг ҳуқуқий чегараларини белгилайди.

Иккинчидан, қонунчилик корхона эгалари, ходимлар, истеъмолчилар ва бошқа иштирокчиларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилади.

Учинчидан, ҳуқуқий нормалар корхона фаолиятининг шаффофлиги ва ҳисобдорлигини таъминлашга ёрдам беради.

Тўртинчидан, қонунчилик тадбиркорлик субъектлари ўртасидаги низоларни ҳал қилиш ва бузилган ҳуқуқларни тиклаш механизмларини белгилайди.

Бешинчидан, қонунчиликнинг мунтазам такомиллашиб бориши менежмент тизимининг замонавий иқтисодий шароитларга мослашишига имконият яратади.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистонда менежментнинг қонунчилик асослари корхона ва ташкилотларни самарали бошқариш учун муҳим аҳамиятга эга. Конституция, Фуқаролик кодекси, Меҳнат кодекси, Солиқ кодекси, рақобат ва корпоратив бошқарув соҳасидаги қонунлар менежмент фаолиятининг асосий ҳуқуқий пойдеворини ташкил этади.

Замонавий менежер нафақат иқтисодиёт ва бошқарув соҳасида, балки ҳуқуқ соҳасида ҳам етарли билимга эга бўлиши керак. Қонунчилик талабларига риоя қилиш корхонанинг ҳуқуқий ва молиявий хавфларини камайтиради, ходимларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилади ва ташкилотнинг барқарор ривожланишига хизмат қилади.

Ўзбекистонда амалга оширилаётган иқтисодий ислоҳотлар натижасида менежментнинг ҳуқуқий асослари ҳам мунтазам такомиллашиб бормоқда. Шу сабабли раҳбар ва менежерлар амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлардаги ўзгаришларни доимий равишда кузатиб боришлари зарур.

Демак, қонунчилик менежмент учун тўсиқ эмас, балки самарали, шаффоф ва барқарор бошқарувни таъминловчи муҳим воситадир.

Фойдаланилган асосий адабиётлар

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. https: //lex.uz.

Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. https://lex.uz.
Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси. https://lex.uz.
Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси. https://lex.uz.

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕДУР НЕПЛАТЁЖЕСПОСОБНОСТИ - ОСНОВНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАВОВОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ

Галкин Вадим Юрьевич
старший научный сотрудник Центра исследований Агентства госактивов Республики Узбекистан, кандидат экономических наук
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934431

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы цифровой трансформации процедур неплатёжеспособности в стране. Анализируются основные направления совершенствования национального законодательства в данной сфере, а также проблемы, возникающие при использовании традиционных форм администрирования дел о неплатёжеспособности. Обосновывается необходимость формирования единой цифровой среды, обеспечивающей электронное взаимодействие суда, кредиторов, судебных управляющих и других участников процедур. Особое внимание уделено положениям Указа Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию института неплатёжеспособности» от 6 мая 2026 года № УП-78, предусматривающего развитие цифровых механизмов управления процедурами неплатёжеспособности и совершенствование соответствующей институциональной инфраструктуры. Рассматривается потенциал применения электронных платформ, аналитических инструментов и технологий искусственного интеллекта для обработки информации о финансовом состоянии должников, выявления признаков кризисных ситуаций и повышения оперативности принимаемых решений. Сделан вывод о том, что цифровизация способна повысить прозрачность и эффективность процедур неплатёжеспособности, сократить административные издержки, снизить коррупционные риски и создать условия для более своевременного финансового оздоровления субъектов предпринимательства.

Ключевые слова: цифровая трансформация, неплатёжеспособность, электронная платформа, электронное правосудие, искусственный интеллект, судебное управление, цифровизация, финансовое оздоровление, правовая инфраструктура.

Аннотация. Tezisda O‘zbekiston Respublikasida to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarini raqamli transformatsiya qilish masalalari ko‘rib chiqiladi. Mazkur sohada milliy qonunchilikni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari, shuningdek, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi ishlarni an’anaviy shakllarda yuritishda yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinadi. Sud, kreditorlar, sud boshqaruvchilari va boshqa ishtirokchilar o‘rtasidagi elektron hamkorlikni ta’minlaydigan yagona raqamli muhitni shakllantirish zarurligi asoslanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 6-maydagi «To‘lovga qobiliyatsizlik institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-78-son Farmoni bilan belgilangan vazifalarga alohida e’tibor qaratiladi. Mazkur hujjatda to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarini boshqarishning raqamli mexanizmlarini rivojlantirish hamda tegishli institutsional infratuzilmani takomillashtirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Qarzdorlarning moliyaviy holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qayta ishlash, inqiroz holatlarining belgilarini aniqlash va qarorlar qabul qilish tezkorligini oshirishda elektron platformalar, tahliliy vositalar va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Raqamlashtirish to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining shaffofligi va samaradorligini oshirish, ma’muriy xarajatlarni kamaytirish, korrupsiya xavflarini pasaytirish hamda tadbirkorlik subyektlarini o‘z vaqtida moliyaviy sog‘lomlashtirish uchun sharoit yaratishga xizmat qilishi mumkin degan xulosaga kelinadi.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, to‘lovga qobiliyatsizlik, elektron platforma, elektron odil sudlov, sun’iy intellekt, sud boshqaruvi, raqamlashtirish, moliyaviy sog‘lomlashtirish, huquqiy infratuzilma.

Abstract. The theses examine the digital transformation of insolvency procedures in the Republic of Uzbekistan. The main directions of improving national legislation in this area are considered, along with the problems associated with the traditional administration of insolvency proceedings. The paper substantiates the need to establish a unified digital environment that would facilitate electronic interaction between courts, creditors, insolvency administrators and other participants in the proceedings. Particular attention is paid to Presidential Decree No. UP-78 of May 6, 2026, “On measures for further improvement of the insolvency institution”, which provides for the development of digital mechanisms for administering insolvency procedures and the improvement of the relevant institutional infrastructure. The potential use of

electronic platforms, analytical tools and artificial intelligence technologies for processing information on the financial condition of debtors, identifying signs of financial distress and improving the efficiency of decision-making is considered. It is concluded that digitalization can increase the transparency and effectiveness of insolvency procedures, reduce administrative costs and corruption risks, and create conditions for more timely financial rehabilitation of business entities.

Keywords: digital transformation, insolvency, electronic platform, electronic justice, artificial intelligence, judicial administration, digitalization, financial rehabilitation, legal infrastructure.

Современное развитие экономики сопровождается активным распространением цифровых технологий в различных сферах общественной и государственной деятельности. Цифровая трансформация затрагивает не только предпринимательство и государственное управление, но и правовую систему, включая сферу отправления правосудия. Для нашей страны данный процесс имеет особое значение в условиях проводимых экономических и институциональных реформ, направленных на совершенствование механизмов регулирования предпринимательской деятельности и формирование современной правовой инфраструктуры.

Одним из важных элементов рыночной экономики является институт неплатёжеспособности. Его назначение состоит в обеспечении правовых механизмов урегулирования финансовых затруднений хозяйствующих субъектов и граждан. Эффективность процедур неплатёжеспособности оказывает влияние на защиту интересов кредиторов и должников, деловой климат, доверие к судебной системе и инвестиционную привлекательность государства. Поэтому совершенствование данного института предполагает не только развитие законодательства, но и поиск более эффективных способов практического администрирования соответствующих процедур.

Значимым этапом формирования современной системы регулирования неплатёжеспособности в Узбекистане стало принятие 12 апреля 2022 года Закона Республики Узбекистан «О неплатёжеспособности» № ЗРУ-763 [1]. Закон комплексно регулирует отношения, возникающие в связи с финансовой несостоятельностью, и распространяет соответствующие процедуры на юридических лиц, индивидуальных предпринимателей и граждан. В нормативном акте закреплены механизмы досудебной и судебной реабилитации, внешнего управления и ликвидации, а также предусмотрены категории преднамеренной и фиктивной неплатёжеспособности.

Вместе с совершенствованием законодательной базы возникает необходимость повышения эффективности практической реализации предусмотренных законом процедур. Традиционное ведение дел о неплатёжеспособности предполагает участие большого количества субъектов, между которыми необходимо обеспечить своевременный обмен документами и информацией. Суд, кредиторы, должники, судебные управляющие и другие участники должны взаимодействовать на различных стадиях процесса. При отсутствии единой цифровой среды такое взаимодействие может сопровождаться дублированием информации, увеличением временных затрат и возникновением дополнительных организационных сложностей.

Проблема приобретает особую актуальность с учётом того, что действующая система неплатёжеспособности в Узбекистане, согласно рассматриваемым в работе положениям, в значительной степени ориентирована на ликвидационные процедуры. При этом возможности восстановления деятельности субъектов предпринимательства используются ограниченно, а механизмы санации не обеспечивают необходимого результата. Слабая координация между участниками процедур и недостаточный уровень цифровизации дополнительно осложняют осуществление контроля и мониторинга.

В связи с этим важное значение имеет Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию института неплатёжеспособности» от 6 мая 2026 года № УП-78 [5]. Документ предусматривает дальнейшее развитие системы государственного управления в рассматриваемой сфере, совершенствование институциональной инфраструктуры и внедрение современных цифровых механизмов. Одним из направлений реформирования является сокращение бюрократических процедур, повышение прозрачности процессов и развитие механизмов досудебной санации хозяйствующих субъектов.

Цифровизация процедур неплатёжеспособности позволяет рассматривать данный институт не только с позиции технологического обновления, но и как самостоятельное направление

совершенствования правоприменения. Создание единой электронной платформы способно объединить основные процессы, связанные с рассмотрением и администрированием дел. В цифровой форме могут осуществляться подача заявлений и документов, обмен информацией между участниками, ведение реестров, организация взаимодействия кредиторов и иные предусмотренные процедуры. Отдельное значение имеет использование электронных торгов при реализации активов должников.

Формирование единой цифровой среды позволяет обеспечить более последовательное и прозрачное прохождение процедур. Электронная фиксация действий участников создаёт возможность отслеживания процесса и уменьшает зависимость от исключительно бумажного документооборота. Это, в свою очередь, может способствовать сокращению временных и административных издержек. Кроме того, повышение прозрачности процедур рассматривается как один из факторов снижения коррупционных рисков.

Особое место в цифровой трансформации института неплатёжеспособности может занимать аналитическая обработка информации. Финансовое состояние должника характеризуется значительным объёмом данных, которые могут содержаться в финансовой отчётности, налоговой информации, банковских данных и материалах судебной практики. Использование цифровых аналитических инструментов позволяет систематизировать такие сведения и создавать условия для более оперативной оценки финансового состояния субъекта.

Дополнительные возможности связаны с использованием технологий искусственного интеллекта. Их применение потенциально позволяет анализировать большие массивы информации и выявлять определённые признаки финансового неблагополучия. В рамках такой модели цифровые инструменты могут использоваться для выявления аномалий в отчётности, автоматизированной проверки финансовых расчётов и анализа имеющихся данных. При этом искусственный интеллект может рассматриваться именно как инструмент поддержки принятия решений, а не как замена субъектов, уполномоченных принимать юридически значимые решения.

Применение аналитических технологий имеет значение прежде всего для перехода от преимущественно реактивного подхода к финансовым проблемам к более своевременному выявлению признаков кризиса. Если информация о финансовом состоянии хозяйствующего субъекта становится доступной и может оперативно анализироваться, создаются предпосылки для своевременного применения предусмотренных законодательством механизмов финансового оздоровления. В результате цифровизация может способствовать тому, чтобы процедуры неплатёжеспособности использовались не только для завершения деятельности проблемного предприятия, но и для поиска возможностей его восстановления.

Развитие цифровых механизмов в сфере неплатёжеспособности соответствует общему направлению цифровой трансформации государственного управления в Республике Узбекистан. В рамках Стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» предусматривается развитие электронного правительства и цифровых государственных услуг [2]. Проводимая модернизация судебной системы также связана с внедрением электронного документооборота, онлайн-заседаний и дистанционных форм взаимодействия. Наличие уже формирующейся цифровой инфраструктуры создаёт основу для развития специализированных решений в сфере неплатёжеспособности.

Согласно упомянутому Указу Президенту №78, дальнейшее совершенствование института неплатёжеспособности предполагает в том числе интеграцию информационных систем государственных органов, развитие электронного документооборота и совершенствование механизмов мониторинга финансового состояния должников [5]. Реализация этих направлений может создать условия для формирования взаимосвязанной цифровой среды, в которой сведения, необходимые для проведения процедур, будут обрабатываться и передаваться более оперативно.

Перспективная цифровая система администрирования неплатёжеспособности может включать несколько взаимосвязанных компонентов: единый электронный реестр дел, механизм подачи документов в цифровом формате, средства коммуникации между участниками процедур, аналитический модуль и систему электронных торгов. Такое объединение позволяет рассматривать цифровизацию как комплексное изменение способа организации процедур, а не как простую замену бумажных документов электронными.

При этом создание подобной системы требует согласованного взаимодействия различных государственных и профессиональных структур. В её реализации могут участвовать судебные органы, Министерство юстиции, налоговые и финансовые институты, судебные управляющие и

представители национального ИТ-сектора. Необходимость такого взаимодействия обусловлена тем, что эффективное цифровое сопровождение процедур требует не только технической платформы, но и совместимости используемых информационных систем.

Экономический эффект цифровизации процедур неплатёжеспособности может выражаться в сокращении сроков и административных издержек, повышении качества контроля и улучшении взаимодействия между участниками. Более прозрачная система также способна положительно влиять на деловую среду и доверие к институтам правосудия. Эффективный механизм разрешения финансовых проблем хозяйствующих субъектов имеет значение и для инвестиционной привлекательности, поскольку инвесторам важна предсказуемость правовых процедур и возможность эффективной защиты экономических интересов.

Вместе с тем цифровая трансформация данной сферы не может ограничиваться только внедрением программных решений. Использование цифровых платформ требует обеспечения кибербезопасности, защиты персональных данных, надёжности информационной инфраструктуры и подготовки квалифицированных специалистов. Существенное значение имеет и правовое регулирование электронных документов и цифровых процедур. Следовательно, технологические преобразования должны сопровождаться соответствующими организационными и правовыми мерами.

Важным направлением остаётся дальнейшая интеграция государственных информационных систем и расширение межведомственного обмена данными. Такая интеграция способна повысить оперативность получения информации о финансовом состоянии должника и сократить необходимость многократного представления одних и тех же сведений различным участникам процедуры. В результате цифровая среда может стать инструментом повышения качества и своевременности контроля.

Международная практика также показывает перспективность применения цифровых технологий в сфере неплатёжеспособности. В странах Европейского союза, Южной Корее и Сингапуре используются электронные реестры дел, цифровая подача документов и электронные системы реализации активов. Данный опыт свидетельствует о возможности применения цифровых решений для повышения прозрачности и сокращения издержек при проведении процедур неплатёжеспособности.

Для Узбекистана цифровизация данного института особенно важна в связи с необходимостью повышения результативности механизмов финансового оздоровления. Единая электронная платформа, объединяющая необходимые сведения и процедуры, может обеспечить более высокий уровень координации между участниками. Одновременно аналитические инструменты способны повысить качество обработки финансовой информации и обеспечить более своевременное выявление проблемных ситуаций.

Таким образом, цифровая трансформация процедур неплатёжеспособности представляет собой важную составляющую дальнейшего совершенствования соответствующего института в Республике Узбекистан. Принятие Закона Республики Узбекистан «О неплатёжеспособности» и последующее принятие Указа Президента Республики Узбекистан № УП-78 формируют нормативную основу для дальнейшего развития данной сферы. При этом цифровизация должна рассматриваться во взаимосвязи с совершенствованием институциональных механизмов, повышением прозрачности и развитием процедур финансового оздоровления.

Внедрение единой электронной среды, электронного документооборота, цифровых реестров, аналитических инструментов и технологий искусственного интеллекта способно повысить эффективность администрирования процедур неплатёжеспособности. При правильной организации цифровые решения могут сократить временные и административные издержки, улучшить контроль за действиями участников, повысить прозрачность и снизить коррупционные риски.

Следовательно, дальнейшее развитие цифровых механизмов в сфере неплатёжеспособности является не только технологической задачей, но и частью институциональной реформы. Оно соответствует общему курсу Республики Узбекистан на цифровизацию государственного управления и судебной системы. Последовательное внедрение соответствующих решений способно сформировать более современную, прозрачную и эффективную систему регулирования неплатёжеспособности, ориентированную не только на завершение проблемных процедур, но и на своевременное реагирование на финансовые трудности и создание условий для восстановления жизнеспособных субъектов предпринимательства.

Список использованной литературы:

Закон Республики Узбекистан «О неплатёжеспособности» от 12 апреля 2022 г. № ЗРУ-763 // Lex.uz.

Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Стратегии “Цифровой Узбекистан – 2030” и мерах по её эффективной реализации» от 5 октября 2020 г. № ПП-6079 // Lex.uz.

Шавкат Мирзиёев. Выступление на видеоселекторном совещании, 22 сентября 2020 г. // President.uz.

Президент Республики Узбекистан. Обсуждены вопросы совершенствования института неплатёжеспособности, 3 апреля 2026 г. // President.uz.

Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию института неплатёжеспособности» от 6 мая 2026 г. № УП-78 // Lex.uz.

QADIMIY ME’MORIY YODGORLIKLAR XORIJLIKLAR NIGOHIDA: MADANIY MEROS VA MUSTAMLAKA NIGOHI (1867-1917-YY.)

Muminov Azizbek Boxodir o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
+998909114321 Email: amuminov337@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934475

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasiga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar va tadqiqotchilarning qadimiy me’moriy yodgorliklarga bo‘lgan munosabati tahlil qilinadi. Manbalar asosida xorijliklarning sharqona me’morchilik san’ati durdonalari oldidagi estetik hayrati va yevropotsentrik (Yevropa madaniyatini ustun qo‘yuvchi) imperatorlik mafkurasi ta’siridagi kamsituvchi, oriyentalistik yondashuvlari o‘rtasidagi ziddiyat ochib berilgan. Obidalarni “madaniyat tarqatish” (sivilizatorlik) missiyasi vositasida g‘ayritabiiy qilib ko‘rsatish hamda arxeologik boyliklarni o‘g‘irlab ketishni oqlash jarayonlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Turkiston o‘lkasi, me’moriy yodgorliklar, oriyentalizm, mustamlakachilik, xorijiy sayyohlar, vizual stereotiplar, sivilizatorlik missiyasi.

Аннотация: В данной статье анализируется отношение иностранных путешественников и исследователей, посетивших Туркестанский край во второй половине XIX – начале XX вв., к древним архитектурным памятникам. На основе источников раскрывается противоречие между эстетическим восхищением иностранцев шедеврами восточного зодчества и их уничижительными, ориенталистскими подходами, обусловленными европоцентристской имперской идеологией. Освещаются процессы экзотизации памятников через призму «цивилизаторской миссии» и оправдания вывоза археологических ценностей.

Ключевые слова: Туркестанский край, архитектурные памятники, ориентализм, колониализм, иностранные путешественники, визуальные стереотипы, цивилизаторская миссия.

Abstract: This article analyzes the attitude of foreign travelers and researchers who visited the Turkestan region in the second half of the 19th and early 20th centuries towards ancient architectural monuments. Based on historical sources, the contradiction between the aesthetic admiration of foreigners for the masterpieces of Eastern architecture and their derogatory, orientalist approaches influenced by Eurocentric imperial ideology is revealed. The processes of exoticization of monuments through the prism of the “civilizing mission” and the justification for the removal of archaeological treasures are highlighted.

Keywords: Turkestan region, architectural monuments, orientalism, colonialism, foreign travelers, visual stereotypes, civilizing mission.

KIRISH. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasi hamda unga tutash hududlarni tadqiq qilgan xorijiy sayyohlar, diplomatlar va harbiylarning asarlarida mintaqaning boy o‘tmishi va qadimiy shaharlari qiyofasi turlicha tasvirlangan. Uzoq vaqt davomida G‘arb dunyosi uchun yopiq bo‘lgan bu o‘lkaning eshiklari Rossiya imperiyasi bosqinidan so‘ng ochildi. Natijada, Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo‘qon kabi qadimiy shaharlarning me’moriy mo‘jizalari ko‘plab xorijlik sayyohlarni o‘ziga jalb etdi.

Ularning me’moriy obidalar, masjid va madrasalar hamda diniy-marosimiy qadriyatlar haqidagi taassurotlari o‘ta murakkab va ziddiyatli xarakterga ega edi. Bir tomondan, xorijliklarning yozishmalarida sharqona me’morchilikning mahobati va islom madaniyatining asriy an’analariga nisbatan chinakam hayrat namoyon bo‘ladi. Ikkinchi tomondan esa, G‘arb imperializmi, mustamlakachilikning “madaniyat tarqatish” missiyasi va yevropotsentrik kibr ta’siridagi kamsituvchi, ekzotiklashtiruvchi hamda o‘z manfaati yo‘lidagi yondashuvlar doimiy ravishda hukmronlik qilgan. Xorijliklar obidalarning go‘zalligini tan olgan holda, ayrim hollarda mahalliy xalqni bu merosga munosib emasdek ko‘rsatishga harakat qilganlar.

ADABIYOTLAR SHARHI. Chet ellik tadqiqotchilar asarlarida Turkiston obrazining yaratilishi bevosita taniqli olim Edvard Saidning “Oriyentalizm” nazariyasi doirasida shakllangan bilish va boshqarish qurollari tizimi orqali ochib beriladi [13: 518]. J. Kerzon, A. Mozer, D. Karruters, A. Mikin kabi yevropaliklarning sayohatnomalari obidalarning o‘sha davrdagi holatini o‘rganishda birlamchi manba bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, mahalliy tarixchilar A. Muhammadjonov va T. Ne’matov ta’kidlaganidek, Rossiya va O‘rta Osiyo munosabatlarida ishtirok etgan ko‘plab tadqiqotchilar hamda sayyohlar imperiya

ma’muriyati vakillari yoki ularning ta’siridagi shaxslar bo‘lganligi sababli, ularning xulosalari bosqinchilik siyosati mafkurasi bilan to‘liq sug‘orilgan edi [11: 21].

Mustamlaka ma’murlari, jumladan, Nikolay Ostroumov kabi sharqshunoslar, o‘lka aholisi va obidalarini o‘rganishdan ko‘zlangan asosiy maqsad ijtimoiy nazoratni kuchaytirish va hukmronlikni osonlashtirish ekanligini ochiq bayon etganlar. G‘arb sayyohlari ham asosan shu nazariya ta’sirida bo‘lishgan bo‘lib, o‘z asarlarida mahalliy xalqni ko‘pincha geografik jihatdan qoloq va ratsional tafakkurdan uzoq deb kamsitish tendensiyalarini ilgari surganlar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Xorijiy sayyohlar ijodida mintaqadagi qadimiy obidalar dunyo me’morchiligining tengsiz durdonalari sifatida chuqur hayrat bilan tasvirlangan. Tabiatshunos olim Duglas Karruters Amir Temur maqbarasini “tengsiz va bebaho javohir” deb atab, uning oddiy va muhtasham arxitekturasini Hindistondagi dabdabali maqbaralardan ancha ustun ekanligini ta’kidlaydi [2: 3-4]. Taniqli sayyoh Annett Mikin Go‘ri Amir maqbarasining moviy-yashil koshinlari ertalabki quyosh nurida qanday yorqin tovlanishini hamda peshtoqdagi Isfahondan bo‘lgan me’mor Mahmud ibn Muhammad yozuvini alohida hayrat va e’tibor bilan qayd etgan [9: 241].

Mashhur siyosatchi Jorj Kerzon Registon maydonini ko‘rganda uning mahobatiga qoyil qolib, uni “dunyodagi eng mahobatli jamoat maydoni” deb e’tirof etgan [4: 192]. Yana bir sayyoh Genri Lensdell Tillakori madrasasidagi oltin suvi yugurtirilgan mehrobni va madrasa peshtoqlaridagi ajoyib bezaklarni ulug‘vor “estetik san’at asari” deb ta’riflagan [7: 580]. Bu kabi dalillar xorijliklarning sharq san’atiga bo‘lgan sof estetik ehtiyojlari va hayratini ko‘rsatadi.

Biroq, ushbu badiiy e’tirof asnosida doimiy ravishda “mustamlakachilik kibr-havosi” ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Xorijliklar obidalarning yemirilishi va xarobaga aylanishida mustamlakachilik sharoitidagi og‘ir iqtisodiy inqirozni emas, balki mutlaqo mahalliy xalqni va diniy ulamolarni aybladilar. Shveysariyalik diplomat Anri Mozer va Uilyam Kyortis me’moriy yodgorliklarning qulashini bevosita “mullalarning loqaydligi va beparvoligi” bilan tushuntirishib, mahalliy aholida “na g‘urur, na dindorlik va na vatanparvarlik” qolmagan deya haqoratli va asossiz xulosalar berdilar [3: 226; 10: 78].

Fransuz sayyohi Kraft o‘z yozuvlarida Temuriylardan keyin qurilgan mahalliy musulmon me’morchiligini kamsitib, uni “ko‘chmanchi ota-bobolarining oddiy didi va cheklangan madaniyatini aks ettiruvchi qoloq san’at” deb baholadi [6: 58]. Genri Lensdell Xivadagi Madaminxon madrasasini yevropacha chizmachilik andozalari qolipiga solib, bino me’morchiligini “zerikarli, bitmagan va yuzsiz” deya ta’rifladi [7: 287-288]. Bu xulosalar binolarning islomiy-falsafiy ma’nosini tushunmaslik va yevropacha standartlarni majburan tiqishtirish oqibati edi.

Me’moriy merosga nisbatan manfaatlilik ayniqsa xorijiy arxeologik ekspeditsiyalarda o‘z tasdig‘ini topdi. Nemis arxeologlari Sharqiy Turkistondan tonnalab tarixiy freska va yodgorliklarni, xususan, Turfondan 360 kg og‘irlikdagi noyob topilmalarni qazib olib ketishdi. Ular bu bosqinchilikni “universal ilm-fanga xizmat qilish” nomi bilan oqlaganlar [8: 338]. O‘g‘irlangan osori-atiqalarni ifodalash uchun asarlarda “o‘lja” hamda qadimiy ibodatxonalarni “tozalash” kabi agressiv harbiy so‘zlardan foydalanilgan. Buni xalqaro maydonda oqlash uchun esa “mahalliy xalq baribir bu merosning qadriga yetmaydi” degan bahonani ro‘kach qilishgan [8: 339].

Tarixiy obidalarni kamsitish vizual oriyentalizm – ya’ni fotografiya va sahnalashtirilgan otkritkalar orqali ham keng targ‘ib qilindi. Sankt-Yevgeniya hamjamiyati nashr etgan otkritkalarda “Sartlar masjid darvozasi oldida choy ichmoqda” kabi soxta tasvirlar orqali obidalar o‘zining asil ruhiy va tarixiy mohiyatidan ajratilib, Yevropa tomoshabinlari uchun shunchaki g‘alati “ekzotik manzara” darajasiga tushirildi. Keyinchalik, mashhur rus fotografi S. Prokudin-Gorskiy 1907-yilda mahalliy fotograflar tomonidan chiqarilgan bunday otkritkalarning o‘ta soxta, didsiz va karikatura (kulgili) ekanligini keskin tanqid qilib chiqqan [12: 234].

XULOSA. Tarixiy manbalar va xorijiy sayohatnomalarning qiyosiy-tanqidiy tahlili shuni isbotlaydiki, 1867-1917-yillarda yevropalik tadqiqotchilar va sayyohlar ko‘p hollarda Turkiston me’moriy obidalarini o‘rganishda xolis va ob’ektiv san’atshunoslik nuqtai nazaridan yondasha olmadilar. Ular obidalarning ulug‘vorligini tan olish asnosida, mahalliy xalqni ushbu qadimiy merosga nomunosib voris, dindorlarni esa loqayd va “mutaassib” qilib ko‘rsatishga urindilar. Albatta, ularning bunday qarashlariga Rossiya imperiyasi ma’murlarining kuchli nazorati va xorijiy sayyohlarga noto‘g‘ri ma’lumot berishlari sabab bo‘ldi. Bu bilan ular o‘zlarining hududdagi geosiyosiy, arxeologik bosqinchilik va madaniy ustunlik siyosatini dunyo hamjamiyati oldida oqlashga xizmat qilganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Burnaby F. A Ride to Khiva: Travels and Adventures in Central Asia. – London: Cassell, Petter & Galpin, 1876. 487 p.
2. Carruthers D. Unknown Mongolia: A Record of Travel and Exploration in North-West Mongolia and Dzungaria. Vol. I-II. – London: Hutchinson & Co., 1913. 659 p.
3. Curtis W. E. Turkestan: The Heart of Asia. – New York: Hodder & Stoughton, 1911. 344 p.
4. Curzon G. N. Russia in Central Asia in 1889 and the Anglo-Russian Question. – London: Longmans, Green, and Co., 1889. 477 p.
5. Graham S. Through Russian Central Asia. – New York: The Macmillan Company, 1916. 298 p.
6. Krafft H. A travers le Turkestan Russe. – Paris: Hachette, 1902. 228 p.
7. Lansdell H. Russian Central Asia, including Kuldja, Bokhara, Khiva and Merv. Vol. I-II. – London: Sampson Low, Marston, Searle, and Rivington, 1885. 684 p.
8. Le Coq A. V. Buried Treasures of Chinese Turkestan. – London: Allen & Unwin, 1928. 252 p.
9. Meakin A. M. B. In Russian Turkestan: A Garden of Asia and Its People. – London: George Allen, 1903. 316 p.
10. Moser H. A travers l’Asie Centrale. – Paris: E. Plon, Nourrit et Cie, 1885. 463 p.
11. Муҳаммаджонов А., Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихи. – Тошкент: Фан, 1995. 150 б.
12. Прокудин-Горский С. М. О фотографировании памятников старины и искусства // Фотограф-любитель. – СПб., 1907. № 6. С. 165-172.
13. Said E. Orientalism. – New York: Pantheon Books, 1979. 368 p.
14. Schuyler E. Turkistan: Notes of a Journey in Russian Turkistan, Khokand, Bukhara, and Kuldja. Vol. I-II. – New York: Scribner, Armstrong & Co., 1876. 463 p.

O‘ZBEKISTONDA JURNALISTIKA TA’LIMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TASHKILOTLAR FAOLIYATINING TARIXI (1991–2026)

Abdusamadova Sarvinoz Anvar qizi,
Toshkent,O‘zbekiston
Tel: +998900290518 Email: sarvinozabdusamadova6@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934538

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda jurnalistika ta’limini rivojlantirishda xalqaro tashkilotlar faoliyatining 1991–2026 yillar oralig‘idagi tarixi tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi ushbu jarayonni davrlashtirish va har bir bosqichning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Muallif tasdiqlangan tarixiy manbalar asosida besh bosqichli davrlashtirishni taklif etadi: faol xalqaro hamkorlik davri (1991–2004), cheklovlar davri (2004–2006), bosqichma-bosqich institutsional hamkorlik davri (2007–2016), faol integratsiya davri (2017–2022) va chuqur institutsional hamkorlik davri (2023–2026). Tadqiqot natijalariga ko‘ra, xalqaro tashkilotlarning O‘zbekiston jurnalistika ta’limi rivojiga ta’siri chiziqli emas, balki davlat siyosati va xalqaro munosabatlar konteksti bilan bog’liq holda notekis kechgan murakkab jarayon bo‘lgan. Maqola natijalari O‘zbekiston-xalqaro tashkilotlar hamkorligi tarixini o‘rganuvchi keyingi tadqiqotlar uchun ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: xalqaro tashkilotlar, jurnalistika ta’limi, YUNESKO, YEXHT, texnik yordam, davrlashtirish, O‘zbekiston.

Аннотация. В статье проанализирована история деятельности международных организаций в развитии журналистского образования в Узбекистане в период с 1991 по 2026 год. Цель исследования заключается в периодизации данного процесса и раскрытии особенностей каждого этапа. На основе достоверных исторических источников автор предлагает пятиэтапную периодизацию: этап активного международного сотрудничества (1991–2004 гг.), этап ограничений (2004–2006 гг.), этап постепенного институционального сотрудничества (2007–2016 гг.), этап активной интеграции (2017–2022 гг.) и этап углублённого институционального сотрудничества (2023–2026 гг.). Согласно результатам исследования, влияние международных организаций на развитие журналистского образования в Узбекистане носило нелинейный характер и было тесно связано с государственной политикой и контекстом международных отношений. Результаты статьи имеют значение для дальнейших исследований истории сотрудничества Узбекистана с международными организациями.

Ключевые слова: международные организации, журналистское образование, ЮНЕСКО, ОБСЕ, техническое содействие, периодизация, Узбекистан.

Abstract. This article analyzes the history of international organizations’ activities in developing journalism education in Uzbekistan between 1991 and 2026. The aim of the study is to periodize this process and reveal the characteristics of each stage. Based on verified historical sources, the author proposes a five-stage periodization: the active international cooperation stage (1991–2004), the restriction stage (2004–2006), the gradual institutional cooperation stage (2007–2016), the active integration stage (2017–2022), and the deep institutional cooperation stage (2023–2026). The findings show that the influence of international organizations on the development of journalism education in Uzbekistan was non-linear and closely tied to state policy and the context of international relations. The results are relevant for further research into the history of Uzbekistan’s cooperation with international organizations.

Key words: international organizations, journalism education, UNESCO, OSCE, technical assistance, periodization, Uzbekistan.

KIRISH. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikni kengaytirish, jumladan jurnalistika ta’limi va media sohasini rivojlantirishda xalqaro tashkilotlarning tajribasidan foydalanish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu hamkorlik jarayoni 35 yildan ortiq davr mobaynida turli bosqichlarni bosib o‘tdi – faol hamkorlikdan tortib, cheklovlar davrigacha va yana chuqur institutsional integratsiyagacha.

Ushbu jarayonni tarixiy nuqtai nazardan o‘rganish O‘zbekiston tashqi siyosati va ta’lim tizimi tarixi uchun katta ahamiyat kasb etadi, chunki u davlatning xalqaro munosabatlaridagi umumiy tendensiyalarni media va ta’lim sohasi misolida aniq ko‘rsatib beradi.

Tadqiqot ob’ekti – 1991–2026 yillarda O‘zbekistonda jurnalistika ta’limini rivojlantirishga qaratilgan xalqaro tashkilotlar faoliyati. Tadqiqot predmeti – ushbu faoliyatning tarixiy dinamikasi, uning bosqichlari va har bir bosqichni belgilovchi omillar.

Tadqiqotning maqsadi – xalqaro tashkilotlarning O‘zbekiston jurnalistika ta’limi rivojiga qo‘shgan hissasi tarixini davrlashtirish hamda har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Vazifalar: xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi asosiy voqealarni xronologik tartibga solish; jarayonni bosqichlarga ajratish; har bir bosqichning siyosiy-institutsional kontekstini aniqlash; zamonaviy hamkorlik shakllarini tahlil qilish.

ADABIYOTLAR SHARHI VA TAHLILI. Sh.B. Uzakova jurnalistika ta’limi shakllanishida OAVning o‘rnini tahlil qilar ekan, xalqaro dasturlarning milliy ta’lim standartlariga ta’sirini alohida ko‘rsatib o‘tadi [7]. YUNESKOning rasmiy hisobot va loyiha materiallari Markaziy Osiyo mintaqasida, jumladan O‘zbekistonda, jurnalistika ta’limini rivojlantirish bo‘yicha tashkilotning strategik yondashuvini aks ettiradi [3; 4; 5]. Committee to Protect Journalists (CPJ), Reporters Without Borders (RSF) va OMCT/FIDH kabi xalqaro tashkilotlarning hisobotlari 2004–2005 yillarda O‘zbekistonda xorijiy media-tashkilotlar faoliyatiga nisbatan qo‘llanilgan cheklov choralari haqida batafsil ma’lumot beradi [2; 8; 9]. Institute for War and Peace Reporting (IWPR) va Eurasianet tahliliy materiallari ushbu davrdagi voqealarning kengroq siyosiy kontekstini, jumladan xalqaro tashkilotlar va davlat organlari o‘rtasidagi munosabatlarni yoritadi [10; 6]. O‘zbekiston-OBSE hamkorligiga oid tahliliy material esa 2007 yildan boshlab OBSE Loyihalar muvofiqlashtiruvchisi ofisi orqali amalga oshirilgan institutsional hamkorlikning miqdoriy ko‘rsatkichlarini keltiradi [1].

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda xalqaro tashkilotlarning O‘zbekiston jurnalistika ta’limi rivojiga qo‘shgan hissasi yaxlit tarixiy davrlashtirish nuqtai nazaridan, ayniqsa 1991–2016 yillar davri bo‘yicha, tizimli tahlil qilinmagan. Ushbu bo‘shliq mazkur maqolaning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqotda tarixiy-xronologik, qiyosiy-tahliliy hamda kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. Manba sifatida xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari, xalqaro jurnalistik tashkilotlarning monitoring materiallari, sud qarorlariga oid ochiq ma’lumotlar, shuningdek YUNESKO va OBSEning loyiha hujjatlari jalb qilindi. Davrlashtirish mezoni sifatida xalqaro tashkilotlar faoliyatining institutsional maqomi va hajmidagi tub o‘zgarishlar asos qilib olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. I. Faol xalqaro hamkorlik davri (1991–2004 yy.)

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik o‘rnatdi. 1992 yilda mamlakat Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotiga (OBSE) a’zo bo‘ldi, bu esa keyinchalik media va jurnalistika sohasidagi hamkorlikning institutsional asosini yaratdi.

Ushbu davrda AQSh Xalqaro Rivojlanish Agentligi (USAID) tomonidan moliyalashtirilgan "Internews" tarmoq tashkilotining O‘zbekiston vakolatxonasi mamlakatda o‘n yildan ortiq faoliyat yuritdi. Tashkilot televidenie va radio jurnalistlarini o‘qitish, jurnalistlarga huquqiy maslahat berish hamda media islohotlarini targ’ib qilish bilan shug’ullandi [2]. Bundan tashqari, Ochiq jamiyat instituti (Soros jamg’armasi) ham media ta’limi sohasida faoliyat yuritgan tashkilotlardan biri edi.

II. Cheklovlar davri (2004–2006 yy.)

Ikkinchi bosqich xalqaro media-tashkilotlar faoliyatiga nisbatan qo‘llanilgan cheklov choralari bilan tavsiflanadi. 2004 yil aprelida Ochiq jamiyat instituti O‘zbekistondagi ofisini yopdi [6]. 2004 yil avgustida “Internews-Uzbekistan”ning bank hisoblari muzlatildi, sentyabr oyida esa Toshkent sudi tashkilot faoliyatini olti oyga to‘xtatdi – rasmiy sabab sifatida logotipni ro‘yxatdan o‘tkazmaslik va manzil o‘zgarishi haqida xabar bermaslik kabi qonun buzilishlari ko‘rsatildi [2; 6].

2005 yil 9 sentyabrda Toshkent sudi “Internews-Uzbekistan” faoliyatini butunlay to‘xtatish to‘g’risida qaror qabul qildi, 11 oktyabrda esa apellyatsiya sudi ushbu qarorni kuchda qoldirdi [8; 9]. Xalqaro jurnalistik tashkilotlar, jumladan “Chegarasiz reportyorlar” (RSF), ushbu qarorni o‘sha yilning may oyida Andijonda yuz bergan voqealardan keyingi umumiy siyosiy vaziyat konteksti bilan bog’liq deb baholadi [8], davlat organlari esa buni tashkilotning amaldagi qonunchilikni buzganligi bilan izohladi [6]. Ushbu bosqich O‘zbekistonda xorijiy media-tashkilotlarning mustaqil faoliyat yuritish imkoniyatlari sezilarli darajada torayganini ko‘rsatadi.

III. Bosqichma-bosqich institutsional hamkorlik davri (2007–2016 yy.)

Uchinchi bosqichda xalqaro hamkorlik shakli tubdan o‘zgardi – mustaqil NNTlar faoliyati o‘rniga davlat organlari bilan institutsional loyihaviy hamkorlik ustuvor yo‘nalishga aylandi. O‘zbekiston hukumati va OBSE o‘rtasida OBSE Loyihalar muvofiqlashtiruvchisi lavozimini ta’sis etish to‘g’risida memorandum imzolandi, bu OBSE faoliyatini O‘zbekiston tomoni uchun ustuvor loyihalarni amalga oshirishga

yo‘naltirish imkonini berdi [1]. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2007 yilda vazirliklar va idoralar bilan hamkorlikda OBSEning barcha uch o‘lchovi bo‘yicha 18 ta loyiha, 2008 yilda – 15 ta, 2009 yilda – 14 ta, 2010–2011 yillarda – 12 tadan, 2012–2013 yillarda – 11 tadan loyiha amalga oshirildi [1]. Ushbu davrda hamkorlik ko‘lami avvalgi davrga nisbatan torroq, biroq barqarorroq va institutsional jihatdan tartibga solingan xarakterga ega bo‘ldi.

IV. Faol integratsiya davri (2017–2022 yy.)

To‘rtinchi bosqich 2016 yildan keyin boshlangan davlat siyosatidagi erkinlashuv jarayoni bilan bog’liq holda xalqaro hamkorlikning sezilarli faollashuvi bilan tavsiflanadi. Bu davrda YUNESKO va OBSE tomonidan raqamli vositalar, media-huquq va jurnalistika xavfsizligi bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etildi, ta’lim muassasalari bilan hamkorlik kengaydi [4]. Xalqaro tashkilotlarning faoliyati endilikda nafaqat davlat organlari, balki oliy ta’lim muassasalari va nodavlat media-tashkilotlari bilan ham amalga oshirila boshlandi.

V. Chuqur institutsional hamkorlik va standartlashtirish davri (2023–2026 yy.)

Beshinchi, so‘nggi bosqich xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning yanada chuqurlashuvi va institutsionalizatsiya qilinishi bilan tavsiflanadi. 2023–2026 yillarda amalga oshirilgan AIM (Access to Information and Media Development) dasturi doirasida YUNESKO ishtirokida media savodxonligini rivojlantirish, davlat institutlari faoliyatining ochiqligini oshirish va jurnalistika sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi, jumladan axborotga kirish huquqi to‘g’risidagi qonunchilik bo‘yicha onlayn-kurs (MOOC) ishga tushirildi [3].

2025 yil iyun oyida YUNESKO O‘zbekistonga jurnalistika ta’limi bo‘yicha Milliy malaka standartini qayta ko‘rib chiqish va yangilashda ko‘maklashdi [5] – bu xalqaro tashkilot va milliy ta’lim tizimi o‘rtasidagi hamkorlikning institutsional chuqurligini ko‘rsatuvchi muhim ko‘rsatkichdir. Bundan tashqari, BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) va Yevropa Ittifoqi qo‘llab-quvvatlashi ostida jurnalistlar va blogerlar uchun raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha treninglar tashkil etildi.

Xalqaro tashkilotlar faoliyatining davrlashtirilishi (1991–2026), jadval

Bosqich	Yillar	Asosiy voqealar	Manba
Faol hamkorlik	1991–2004	OBSEga a’zolik (1992); Internews va OSI faoliyati	[2; 6]
Cheklovlar	2004–2006	OSI yopilishi, Internews-Uzbekistan sud orqali yopilishi	[6; 8; 9]
Institutsional hamkorlik	2007–2016	OBSE Loyihalar muvofiqlashtiruvchisi – yiliga 11–18 loyiha	[1]
Faol integratsiya	2017–2022	YUNESKO/OBSE raqamli kurslari kengayishi	[4]
Chuqur institutsional hamkorlik	2023–2026	AIM dasturi, Milliy malaka standarti yangilanishi	[3; 5]

XULOSA. O‘tkazilgan tarixiy tahlil O‘zbekistonda jurnalistika ta’limini rivojlantirishda xalqaro tashkilotlar faoliyatining 1991–2026 yillar mobaynida besh aniq bosqichni bosib o‘tganligini ko‘rsatdi: faol hamkorlik (1991–2004), cheklovlar (2004–2006), bosqichma-bosqich institutsional hamkorlik (2007–2016), faol integratsiya (2017–2022) va chuqur institutsional hamkorlik (2023–2026) bosqichlari.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xalqaro tashkilotlarning ta’siri chiziqli rivojlanish emas, balki davlat siyosati va xalqaro munosabatlar konteksti bilan uzviy bog’liq bo‘lgan murakkab, ba’zan qarama-qarshi jarayondir. Agar dastlabki bosqichda hamkorlik asosan mustaqil nodavlat tashkilotlari orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda u davlat institutlari va rasmiy ta’lim tizimi bilan institutsionalizatsiya qilingan shaklga o‘tdi.

So‘nggi, beshinchi bosqichda kuzatilayotgan chuqur institutsional hamkorlik – xususan milliy ta’lim standartlarining xalqaro tashkilotlar ishtirokida yangilanishi – O‘zbekiston jurnalistika ta’limi tizimining xalqaro andozalarga integratsiyalashuv jarayoni izchil davom etayotganidan dalolat beradi.

Ushbu tadqiqot natijalari O‘zbekiston tashqi siyosati va ta’lim tizimi tarixini, xususan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik tarixini o‘rganuvchi keyingi ilmiy izlanishlar uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Сотрудничество Узбекистана и Организации по безопасности и сотрудничеству в Европе (ОБСЕ) // https://www.uzbekistan.org.ua/ru/152-vneshnyaya-politika/uzbekistan-i-mezhdunarodnye-

organizatsii/1718-sotrudnichestvo-uzbekistana-i-organizatsii-po-bezopasnosti-i-sotrudnichestvu-v-evrope-obse.html, 12.08.2026.

2. Authorities launch criminal inquiry of Internews // CPJ. https://cpj.org/2005/04/authorities-launch-criminal-inquiry-of-internews/, 12.08.2026.

3. UNESCO. AIM Program: Enhancing access to information, media freedom and digital literacy in Uzbekistan. 2023–2026.

4. UNESCO. Журналистское образование в Центральной Азии // unesco.org, 2023.

5. UNESCO supports Uzbekistan in reviewing and updating the National Qualification Standard for Journalism Education // unesco.org, June 2025.

6. Uzbek Authorities Crack Down on Another Foreign NGO in Tashkent // Eurasianet. https://eurasianet.org/uzbek-authorities-crack-down-on-another-foreign-ngo-in-tashkent, 12.08.2026.

7. Uzakova Sh.B. The role of the media in shaping journalism education in Uzbekistan // East European Scientific Journal. 2024.

8. Uzbek authorities shut down international organization Internews // RSF. https://rsf.org/en/uzbek-authorities-shut-down-international-organization-internews, 12.08.2026.

9. Uzbekistan: Closure of the Uzbek branch of Internews Network // OMCT. https://www.omct.org/en/resources/urgent-interventions/uzbekistan-closure-of-the-uzbek-branch-of-internews-network, 12.08.2026.

10. Uzbekistan: Internews "Victim of Media Purge" // IWPR. https://iwpr.net/global-voices/uzbekistan-internews-victim-media-purge, 12.08.2026.

XALQARO TA’LIM PARADIGMALARINING VA BUTUN HAYOT DAVOMIDA TA’LIM OLISH KONSEPSIYASINING DIDAKTIK JARAYON MAZMUNINI BOYITISHDAGI ROLI

Hakimova Nargiza Supxonovna
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934566

Annotatsiya :Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimidagi tub islohotlar, xususan, an’anaviy ta’limdan innovatsion va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmalariga o‘tish masalalari tahlil qilinadi. Didaktik jarayonning mazmunini boyitishda xalqaro tajribalar, raqamli texnologiyalar va kognitiv yondashuvlarning ahamiyati ochib berilgan. Maqolaning asosiy qismi "Lifelong learning" (Umrbod ta’lim) konsepsiyasining nazariy va amaliy jihatlariga bag‘ishlangan
Kalit so‘zlar: Didaktika, ta’lim paradigmasi, Lifelong learning, umrbod ta’lim, ta’lim mazmuni, kognitiv yondashuv, kompetentsiya, kreativlik, raqamli ta’lim, andragogika, inson kapitali, uzluksiz ta’lim.
Аннотация:В данной статье анализируются фундаментальные реформы в современной системе образования, в частности, переход от традиционного образования к инновационным и личностно-ориентированным образовательным парадигмам. Раскрывается важность международного опыта, цифровых технологий и когнитивных подходов в обогащении содержания дидактического процесса. Основная часть статьи посвящена теоретическим и практическим аспектам концепции «непрерывного обучения».
Ключевые слова: Дидактика, образовательная парадигма, непрерывное обучение, содержание образования, когнитивный подход, компетентность, креативность, цифровое образование, андрагогия, человеческий капитал, повышение квалификации.
Abstract. This article analyzes the fundamental reforms in the modern education system, in particular, the transition from traditional education to innovative and person-oriented educational paradigms. The importance of international experience, digital technologies and cognitive approaches in enriching the content of the didactic process is revealed. The main part of the article is devoted to the theoretical and practical aspects of the concept of "Lifelong learning"
Keywords: Didactics, educational paradigm, Lifelong learning, lifelong learning, educational content, cognitive approach, competence, creativity, digital education, andragogy, human capital, continuing education.

Kirish. Didaktik jarayon mazmunini boyitishda xalqaro ta’lim paradigmalari va lifelong learning (umrbo‘yi ta’lim) konsepsiyasi fundamental ahamiyatga ega bo‘lib, ular an’anaviy ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan, moslashuvchan va kompetensiyaviy yondashuvga aylantiradi. Zamonaviy dunyoda bilim tez eskirayotgan sharoitda, mazkur yondashuvlar ta’lim mazmunini faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki hayotiy ko‘nikmalar (soft skills) va funksional savodxonlik bilan boyitishni ta’minlaydi. Bugungi kunda axborotlar, shu jumladan, ta’limga doir axborotlar hajmi juda tez sur’atlar bilan oshib bormoqda. Ushbu axborotlar okeanida zarur ma’lumotlarni o‘z vaqtida izlab topish va ulardan kasbiy faoliyat jarayonida foydalanish pedagog xodimlar uchun alohida ahamiyat kasb etadi.[1] Zero, zamonaviy ta’lim jarayonlari o‘qituvchidan o‘z fani yo‘nalishidagi yangiliklardan barvaqt boxabar bo‘lish va ulardan dars jarayonida foydalanishni taqozo qilmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizda uzoq yillar davomida amalda bo‘lgan va 3-5 yillik davriylikka asoslangan pedagoglarning malaka oshirish tizimi “hayot davomida o‘qish” tamoyiliga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimiga transformatsiya qilindi. Insonning faoliyatidao`qitish  har doim judamuhim ahamiyatgaegabo`lgan. Xalqaro ta’lim paradigmalari — ta’lim tizimining maqsadi, mazmuni va o‘qitish uslublarini belgilovchi asosiy yondashuvlardir. Bugungi kunda an’anaviy yodlash tizimidan zamonaviy, insonparvar, kompetensiyaga asoslangan va raqamli ta’lim modellariga o‘tish jarayoni jadal bormoqda. [2]

Xalqaro miqyosda quyidagi asosiy ta’lim paradigmalari ajratib ko'rsatiladi:

1. An’anaviy (Bilimga yo‘naltirilgan) paradigma

Mohiyati: Ta’limning asosiy maqsadi — o‘quvchiga tayyor bilimlarni yetkazib berish va ularni o‘zlashtirishdan iborat.

Xususiyatlari: O‘qituvchi jarayonning markaziy subyekti (yetakchi), o‘quvchi esa obyekt hisoblanadi. Asosiy e'tibor nazariyaga qaratilib, reproduktiv (yodlab aytib berish) usullar ustunlik qiladi.

2. Insonparvarlik (Gumanistik / Fenomenologik) paradigma

Mohiyati: Ta’lim jarayonining markazida o‘quvchining shaxsi, uning qobiliyatlari, qiziqishlari va psixologik xususiyatlari turadi.

Xususiyatlari: O‘qituvchi tayyor bilim beruvchi emas, balki o‘quvchining shaxsiy rivojlanishiga ko‘maklashuvchi (fasilitator) va yo‘naltiruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

3. Kompetensiyaga asoslangan paradigma (Natijaga yo‘naltirilgan)

Mohiyati: Egallangan bilimlarni shunchaki yodda saqlash emas, balki ularni kundalik hayotda va professional faoliyatda amaliy muammolarni hal qilish uchun qo‘llay olish (funksional savodxonlik).

Xususiyatlari: O‘quvchi tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash va ijodkorlik kabi ko‘nikmalarni (Soft Skills) rivojlantiradi.

4. Texnokratik paradigma

Mohiyati: Iqtisodiyot va zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan, texnologik va aniq fanlar bo‘yicha chuqur ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislarni tarbiyalash.

Xususiyatlari: Ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalari, innovatsiyalar va aniq standartlashtirilgan o‘lchovlarni tatbiq etishga katta e’tibor qaratiladi.

5. Raqamli va sun’iy intellektga asoslangan paradigma

Mohiyati: Global raqamlashtirish davrida ta’limni istalgan vaqtda va istalgan joyda (masofaviy/aralash ta'lim) olish imkoniyati.

Xususiyatlari: Sun’iy intellekt (AI) yordamida o‘quv jarayonini har bir talabaning individual xususiyatlariga moslashtirish (personalizatsiya) va ma'lumotlarni tahlil qilish keng qo‘llaniladi.

6. Hayot davomida ta’lim olish (Lifelong learning)

Mohiyati: Ta’lim faqat maktab yoki universitet bilan cheklanib qolmasligi kerak. Shaxs o‘zining butun hayoti davomida o‘rganishi va malakasini oshirib borishi zarur.

Xususiyatlari: Tez o‘zgarayotgan dunyoda mutaxassislarga yangi sharoitlarga tez moslashish (adaptatsiya) imkoniyatini beradi. Zamonaviy ta’lim tizimlarini boshqarish jarayoni xalqaro miqyosda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Boshqaruv paradigmalari davlat siyosati, oliy ta’lim muassasalarining samaradorligi va ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Turkiya oliy ta’lim tizimi so‘nggi yillarda jadal rivojlanib, xalqaro standartlarga mos boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali katta yutuqlarga erishmoqda.Oliy ta’lim tizimidagi boshqaruv paradigmalari ta’lim sifatini yaxshilash, akademik avtonomiya, moliyaviy barqarorlik va raqobatbardoshlikni oshirish kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Turkiya oliy ta’lim boshqaruvining asosiy paradigmalariTurkiya oliy ta’lim tizimi quyidagi boshqaruv paradigmalari asosida rivojlanmoqda:

•Akademik avtonomiya: Turkiyada oliy ta’lim muassasalari keng avtonomiyaga ega bo‘lib, o‘quv dasturlarini mustaqil ravishda ishlab chiqadi va moliyaviy resurslarni boshqaradi.

•Innovatsion ta’lim texnologiyalari: Ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali masofaviy va raqamli ta’lim tizimi rivojlanmoqda.

•Xalqaro hamkorlik: Turkiya oliy ta’lim muassasalari xalqaro universitetlar bilan hamkorlikni kuchaytirib, akademik almashinuv dasturlarini kengaytirgan.

•Ta’lim sifatini baholash tizimi:

Ta’lim sifatini doimiy monitoring qilish maqsadida milliy va xalqaro akkreditatsiya standartlari joriy etilgan.[4]

Bugungi kunda jahon ta’lim maydonida "bilim berish" emas, balki "bilim olishni o‘rgatish" ustuvor vazifaga aylandi. An’anaviy (konservativ) paradigma o‘z o‘rnini quyidagi zamonaviy yondashuvlarga bo‘shatib bermoqda:

Kognitiv paradigma: O‘quvchining fikrlash jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Kompetentsiyaviy yondashuv: Nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish.

Gumanistik paradigma: Ta’lim markaziga shaxsning ehtiyojlari va qobiliyatlarini qo‘yish.

Lifelong Learning: Ehtiyoj va Zaruriyat

"Lifelong learning" konsepsiyasi — bu insonning beshikdan qabrgacha bo‘lgan intellektual faolligidir. Bu jarayon didaktik mazmunni quyidagicha boyitadi:

Moslashuvchanlik (Flexibility): Ta’lim mazmuni mehnat bozoridagi o‘zgarishlarga tezkor javob berishi kerak.

Mustaqil ta’lim (Self-directed learning): Shaxs o‘zi uchun kerakli resurslarni topish va o‘zlashtirishni o‘rganadi.

Texnologik integratsiya: Masofaviy va gibrid ta’lim shakllari orqali ta’lim olish imkoniyatlarining kengayishi.

Didaktik Jarayonni Boyitish Omillari

Xalqaro tajribalar ko‘rsatishicha, didaktik jarayonni mazmunan boyitish uchun quyidagi komponentlar integratsiya qilinishi lozim:

Komponent	Vazifasi
STEM/STEAM	Fanlararo bog‘liqlikni va loyihaviy tafakkurni rivojlantirish.
Soft Skills	Muloqot, jamoada ishlash va emotsional intellektni shakllantirish.
Andragogik tamoyillar	Kattalar ta’limida tajribaga tayanish va amaliy natijadorlikka e’tibor.

Xulosa. Tadqiqot va tahlillar natijasida quyidagi umumlashtirilgan xulosalarga kelish mumkin:

Paradigmalar almashinuvi davr talabi: Didaktik jarayon endi faqat maktab yoki universitet auditoriyasi bilan cheklanib qolmaydi. Xalqaro ta’lim paradigmalari ta’limni ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida, shaxsning doimiy o‘zgarib turuvchi dunyoda o‘z o‘rnini topish vositasi sifatida talqin etmoqda.

LLL (Lifelong Learning) — iqtisodiy barqarorlik garovi: Inson kapitalining sifatini oshirish uchun ta’lim mazmuniga "o‘z-o‘zini rivojlantirish" mexanizmlari kiritilishi shart. Bu jarayonda ta’lim oluvchi passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylanadi.

Mazmun modernizatsiyasi: Ta’lim dasturlari nafaqat fundamental bilimlar, balki raqamli savodxonlik va kreativ fikrlash kabi zamonaviy ko‘nikmalarni (21-asr ko‘nikmalari) o‘z ichiga olishi lozim.

Integratsiyalashgan yondashuv: Didaktik mazmunni boyitishda milliy qadriyatlar va xalqaro standartlarning uyg‘unligi ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. "Umrbod ta’lim" konsepsiyasi esa jamiyatda "o‘rganuvchi millat" modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, didaktik jarayonni xalqaro paradigmalar asosida qayta ko‘rib chiqish — bu shunchaki o‘quv rejalarini yangilash emas, balki ta’limning falsafasini va uning jamiyat taraqqiyotidagi missiyasini o‘zgartirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Умникова Е.Л. Профессиональное развитие педагогов в системе непрерывного образования // Образование и наука. 2009. № 6 (63), т 2.

Кеспиков В.Н. Непрерывное профессиональное развитие педагогических работников: современные подход // Научно-теоретический журнал. 2018. Выпуск 3 (36).

M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika darslik.T.: O‘zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.

OECD. (2019). Higher Education Management: Trends and Practices. OECD Publishing.Turkish Council of Higher Education (YÜK). (2020). Annual Report on Higher Education in Turkey. YÜK Publications.

Maxmudaliyeva, M., & Shodmonov, R. (2024). XALQARO GRANTLAR YUTISH VA ULARNING AHAMIYATI. Nordic_Press, 3(0003).

RETHINKING ENGLISH LANGUAGE INSTRUCTION FOR GRADUATING STUDENTS THROUGH THE LAB ROTATION MODEL

Tojiddinova Aziza Akmal qizi
Doctoral Researcher, Uzbekistan State World Languages University
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934613

Abstract. Contemporary secondary education increasingly requires language instruction to combine classroom interaction with flexible forms of independent digital learning. This paper explores how the Lab Rotation model may be used to reorganize English language instruction for graduating students in general secondary schools. The analysis is based on the Grade 11 curriculum and teaching plan for the 2025–2026 academic year, the B1-level requirements for school graduates, and the content of the Prepare coursebook. Rather than treating the coursebook as a fixed sequence of classroom activities, the study considers how its components can be redistributed between teacher-supported and digitally mediated learning.

The findings indicate that the coursebook offers a sound basis for communicative language development: learners work with listening, speaking, reading and writing, while project activities, discussion prompts and opinion-based tasks create opportunities for meaningful language use. At the same time, the analysis points to practical constraints related to lesson duration, class size, repeated practice, individualized feedback and the systematic use of digital resources. The Lab Rotation model is therefore discussed as a way of restructuring, rather than replacing, existing classroom practice. It can move selected repetitive or individual tasks into a digital space and reserve contact time for interaction, collaboration, feedback and productive language use.

Keywords: Lab Rotation, hybrid language education, graduating students, Grade 11, English language teaching, B1 proficiency, communicative competence, digital learning, learner autonomy.

1. Background and Purpose

Preparing students for the final stage of general secondary education requires more than the accumulation of grammatical and lexical knowledge. At the B1 level, learners are expected to use English for a range of communicative purposes, including understanding spoken and written information, participating in conversations, presenting ideas and producing connected written texts. The Grade 11 English curriculum consequently places learners at a point where previously developed skills need to be consolidated and applied in increasingly purposeful contexts.

The material examined in this study suggests that the Prepare coursebook already contains many of the elements needed for such development. Its units combine vocabulary and grammar with receptive and productive skills, while topics connected with everyday life, social interaction, media, education and future plans provide contexts for communication. The research question is therefore not whether digital learning should replace the coursebook, but how the existing material can be reorganized so that limited classroom time is used more effectively.

2. Approach

The study used qualitative content and methodological analysis. Three sources were considered together: the requirements for foreign-language proficiency at the end of general secondary education, the Grade 11 teaching plan for 2025–2026, and the Prepare coursebook. The analysis considered the distribution of language skills, grammar and vocabulary work, communicative tasks, project activities and opportunities for learner reflection and independent work.

The third and fourth terms were used as the practical frame of the analysis. The teaching plan assigns 20 academic hours to the third term and 16 hours to the fourth, with six and four thematic units respectively. This structure was examined in relation to the amount and variety of work expected from learners within conventional classroom time.

3. Key Findings

One notable feature of the coursebook is the progression from controlled language work toward more communicative use. Vocabulary and grammar are generally introduced before learners encounter them in listening, reading, speaking or writing activities. Unit-ending speaking and project tasks further create opportunities for learners to use language for a purpose rather than only demonstrate knowledge of individual forms.

The material also incorporates activities that ask learners to express viewpoints, justify opinions and interact with peers. Writing activities are supported by models and useful language, while project-oriented tasks encourage learners to gather and organize information. These features make parts of the coursebook suitable for independent digital preparation and practice.

However, the analysis indicates a mismatch between the breadth of activities and the amount of face-to-face time available. When vocabulary, grammar, listening, reading, writing and speaking are expected to be addressed within a limited lesson period, opportunities for extended interaction and individualized support may be reduced. In larger classes, this issue becomes more visible because the teacher has less time to monitor each learner and provide immediate feedback.

4. Lab Rotation as a Possible Reorganization

The Lab Rotation model provides a practical framework for responding to this imbalance. Tasks that mainly require individual repetition—such as vocabulary consolidation, selected grammar practice, reading preparation or repeated listening—can be completed through a digital learning environment. Classroom sessions can then give greater attention to activities that benefit from teacher and peer interaction.

Under this arrangement, the teacher’s role can shift from delivering all stages of instruction within one lesson toward coordinating different learning modes and responding to learners’ specific needs. Face-to-face time can be used for discussion, speaking, presentations, collaborative problem-solving, project work and feedback, while digital activities provide additional opportunities for practice at an individual pace.

Such organization is particularly relevant to graduating students because it combines the development of communicative competence with greater learner responsibility. It also creates possibilities for monitoring task completion and learning progress through digital tools, although the effectiveness of this approach depends on appropriate technological conditions and purposeful instructional design.

5. Conclusion

The analysis suggests that the main value of applying Lab Rotation to Grade 11 English instruction lies in the redistribution of learning time. The model does not require abandoning the existing coursebook; instead, it offers a framework for deciding which activities are more productive in a digital environment and which require direct classroom interaction.

For graduating students, this combination can create additional space for speaking, collaboration, feedback and purposeful communication while supporting independent practice outside the classroom. Accordingly, Lab Rotation represents a promising direction for developing a more flexible and learner-centred approach to English language education at the final stage of general secondary schooling.

References

1. Horn, M. B., & Staker, H. (2014). Blended: Using Disruptive Innovation to Improve Schools. Jossey-Bass.

2. Staker, H., & Horn, M. B. (2012). Classifying K–12 blended learning. Innosight Institute.

3. Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment – Companion volume. Council of Europe Publishing.

4. Joseph, N., & Chilton, H. Prepare: Grade 11 Student’s Book. Prepared for the education system of Uzbekistan with the support of USAID.

5. Republic of Uzbekistan. State Educational Standard for Foreign Languages in the Continuous Education System. LexUZ. https://lex.uz/docs/-2165717

6. University of Calgary, Taylor Institute for Teaching and Learning. Blended Learning: Rotational Model. Resource Library.

ENERGETIKA VA NEFT-GAZ SOHASINI XUSUSIYLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

Abdusalomov Abdusamad Bahodirovich
Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi ilimiy tadqiqotlar markazi katta ilmiy xodim.
Iqtisodiyot fanlari falsafa doktoris (Phd)
abdusalomov440@mail.ru
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934642

Annotatsiya. Mazkur tezisda energetika hamda neft-gaz sohasida davlat ishtirokini qisqartirish, xususiy kapitalni jalb etish va raqobat muhitini shakllantirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilinadi. Xususan, Buyuk Britaniya, Norvegiya, Turkiya va Saudiya Arabistonida amalga oshirilgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlari, xususiylashtirish mexanizmlari va ularning iqtisodiy samaralari o‘rganiladi. Tahlil natijasida O‘zbekiston uchun energetika va neft-gaz korxonalarini to‘liq sotishdan ko‘ra bosqichma-bosqich xususiylashtirish, aksiyalarni ommaviy taklif qilish, strategik investorlarni jalb etish, davlatning strategik nazoratini saqlab qolish va mustaqil tartibga solish tizimini kuchaytirish maqsadga muvofiqligi asoslanadi.
Kalit so‘zlar: xususiylashtirish, energetika, neft-gaz, davlat aktivlari, xususiy kapital, raqobat, strategik investor, davlat ulushi, korporativ boshqaruv, energiya bozori.

Kirish. Energetika va neft-gaz tarmoqlari iqtisodiyotning strategik sohalaridan hisoblanadi. Ushbu tarmoqlarda davlat ishtirokining yuqori darajada bo‘lishi, bir tomondan, energiya xavfsizligini ta’minlash imkonini bersa, ikkinchi tomondan, boshqaruv samaradorligining pastligi, investitsiya yetishmasligi, texnologik eskirish va raqobatning cheklanishi kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

1990-yillardan boshlab ko‘plab mamlakatlarda energetika bozorlarini liberallashtirish, davlat korxonalarini restrukturizatsiya qilish, xususiy investorlarni jalb etish va mustaqil regulyatorlarni tashkil etish jarayonlari amalga oshirildi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda 1990-yillardan boshlab elektr energetikasiga xususiy sektorning kirib kelishi, mustaqil regulyatorlarning tashkil etilishi va raqobatli bozorlarni shakllantirish asosiy islohot yo‘nalishlariga aylangan.

Shu sababli energetika va neft-gaz sohasidagi xususiylashtirishni faqat davlat aktivlarini sotish jarayoni sifatida emas, balki bozor institutlarini shakllantirish, raqobatni rivojlantirish va korxonalarni samarali boshqarish tizimiga o‘tkazish jarayoni sifatida ko‘rib chiqish zarur.

Buyuk Britaniya tajribasi - Energetika sohasini xususiylashtirishning eng mashhur namunalaridan biri Buyuk Britaniya tajribasidir. Mamlakatda 1980-yillardan boshlab davlat korxonalarini xususiylashtirish va bozorlarni liberallashtirish siyosati amalga oshirildi.

Britaniya energetika sektorida British Gas 1986-yilda, elektr energetikasi esa 1990-yilda xususiylashtirildi. Keyinchalik elektr va gaz bozorlarida raqobat bosqichma-bosqich kengaytirildi.

Elektr energetikasida davlat monopoliyasi o‘rniga ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va yetkazib berish bo‘g‘inlari ajratildi. 1990-yilda elektr kompaniyalarining aksiyalari ommaviy ravishda sotila boshlandi. National Power va PowerGen kompaniyalarining aksiyalari ham bosqichma-bosqich xususiy investorlarga taklif qilindi.

Britaniya tajribasining asosiy jihati shundaki, xususiylashtirish bilan bir qatorda:
mustaqil tartibga solish tizimi yaratildi;
monopol faoliyat turlari tartibga solindi;
ishlab chiqarish va yetkazib berish bozorlarida raqobat rivojlantirildi;
iste’molchilarga yetkazib beruvchini tanlash imkoniyati berildi;
davlat korxonalari korporativ boshqaruv tamoyillariga o‘tkazildi.

Biroq Britaniya tajribasi xususiylashtirishning o‘zi yetarli emasligini ham ko‘rsatadi. Energetika kabi tabiiy monopoliyaga yaqin sohalarda kuchli regulyator bo‘lmasa, davlat monopoliyasi o‘rniga xususiy monopoliya shakllanishi mumkin.

Norvegiya tajribasi: qisman xususiylashtirish modeli - Norvegiya tajribasi energetika va neft-gaz sohasini xususiylashtirishda alohida ahamiyatga ega. Norvegiya davlat sektori ustidan nazoratni saqlab qolgan holda xususiy kapital va fond bozori imkoniyatlaridan foydalanish modelini shakllantirdi.

Mamlakatning davlat neft kompaniyasi Statoil 2001-yilda qisman xususiylashtirilib, Oslo va Nyu-York fond birjalarida ro‘yxatga olindi. Hozirgi Equinor kompaniyasida Norvegiya davlatining ulushi 67 foizni tashkil etadi.

Mazkur modelda davlat strategik nazoratni saqlab qolgan, biroq kompaniyaga xususiy investorlar, fond bozori va xalqaro kapital bozorlarining intizomi ta’sirini kuchaytirgan.

Norvegiya tajribasining asosiy afzalligi quyidagilardan iborat:

Strategik aktiv ustidan davlat nazorati saqlanib qoladi.

Xususiy investorlar orqali qo‘shimcha kapital jalb qilinadi.

Kompaniya fond bozori talablari asosida faoliyat yuritadi.

Korporativ boshqaruv va moliyaviy shaffoflik kuchayadi.

Davlat va xususiy investor manfaatlari muvozanatlashtiriladi.

Shu jihatdan Norvegiya modeli strategik ahamiyatga ega energetika va neft-gaz korxonalarini to‘liq xususiylashtirishdan ko‘ra qisman xususiylashtirish O‘zbekiston uchun ham muhimroq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Saudiya Arabistoni tajribasi - Neft-gaz sektorida qisman xususiylashtirishning zamonaviy namunalaridan biri Saudiya Arabistonining Saudi Aramco kompaniyasi bilan bog‘liq.

Saudiya Arabistoni neft sektorida davlat nazoratini saqlab qolgan holda kompaniyaning aksiyalarini fond bozoriga chiqarish orqali xususiy va xalqaro kapitalni jalb qilish strategiyasidan foydalandi. 2019-yildagi IPOdan keyin ham davlat kompaniyada nazorat paketini saqlab qoldi. Keyingi yillarda kompaniya aksiyalarining qo‘shimcha qismi investorlar uchun taklif qilindi; 2024-yildagi ikkilamchi aksiyalar savdosi orqali taxminan 11,2 mlrd dollar jalb qilingan.

Saudiya modeli neft-gaz kabi strategik tarmoqlarda:

davlat nazoratini saqlab qolish;

xalqaro kapitalni jalb qilish;

kompaniyaning bozor qiymatini oshirish;

korporativ boshqaruvni kuchaytirish;

davlat byudjeti uchun qo‘shimcha daromad yaratish

imkoniyatlarini namoyish etadi.

Xorij tajribasini qiyosiy tahlil qilish

Mamlakat	Asosiy yo‘nalish	Xususiylashtirish modeli	Asosiy natija
Buyuk Britaniya	Elektr va gaz	To‘liq xususiylashtirish va liberallashtirish	Raqobat va xususiy sektor ulushi oshdi
Norvegiya	Neft-gaz	Qisman xususiylashtirish	Davlat nazorati va xususiy kapital uyg‘unlashdi
Turkiya	Elektr energetikasi va gaz	Xususiylashtirish + bozorni liberallashtirish	Xususiy sektor ishtiroki kengaydi
Saudiya Arabistoni	Neft-gaz	IPO va qisman xususiylashtirish	Xalqaro kapital jalb qilindi
O‘zbekiston uchun	Energetika va neft-gaz	Bosqichma-bosqich xususiylashtirish	Samaradorlik, investitsiya va raqobatni oshirish imkoniyati

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, mamlakatlar energetika va neft-gaz sohasini bir xil usulda xususiylashtirmagan. Rivojlangan mamlakatlarda to‘liq xususiylashtirish va bozor liberallashuvi keng qo‘llangan bo‘lsa, tabiiy resurslari strategik ahamiyatga ega mamlakatlarda davlat nazoratini saqlab qolgan holda qisman xususiylashtirish modeli ko‘proq uchraydi.

O‘zbekiston uchun xorij tajribasining ahamiyati:

O‘zbekiston energetika sektorida ham so‘nggi yillarda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy investitsiyalarni jalb qilish va raqobatli bozorlarni shakllantirish bo‘yicha islohotlar olib borilmoqda.

Xalqaro energetika agentligi O‘zbekistonning 2019-yildan boshlab davlat tomonidan boshqariladigan va subsidiyalanadigan energetika modelidan raqobatbardosh gaz, neft va elektr bozorlariga, shuningdek xususiy sektorning sezilarli ishtirokiga o‘tish jarayonini boshlaganini qayd etadi.

Jahon banki ham O‘zbekistonda energetika tariflarini isloh qilish, xususiy investitsiyalarni jalb qilish va qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarishida xususiy sektor ishtirokini kengaytirishni muhim yo‘nalish sifatida ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, 2025-yilgi islohotlar doirasida elektr energiyasini taqsimlash sektorini xususiy ishtirok uchun ochish va mustaqil qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqaruvchilariga elektr energiyasini iste’molchilarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotish imkoniyatini kengaytirish yo‘nalishlari belgilangan.

Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston uchun quyidagi modelni taklif etish mumkin:

Energetika va neft-gaz korxonalarini inventarizatsiya qilish, aktivlarni baholash, qarzdorlikni qayta ko‘rib chiqish va korporativ boshqaruvni takomillashtirish;

Monopol va raqobatli faoliyat turlarini ajratish, mustaqil regulyatorning vakolatlarini kuchaytirish va bozorga yangi ishtirokchilar kirishini ta’minlash;

Strategik investorlar, davlat-xususiy sheriklik, IPO/SPO va xalqaro moliya institutlari orqali investitsiyalarni jalb qilish;

Strategik korxonalarda davlatning nazorat paketini saqlagan holda aksiyalarning bir qismini xususiy investorlar va aholi o‘rtasida joylashtirish;

Texnik va iqtisodiy imkoniyat mavjud bo‘lgan segmentlarda xususiy kompaniyalar uchun teng sharoit yaratish.

Xulosa. Energetika va neft-gaz sohasini xususiylashtirish bo‘yicha xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli xususiylashtirish faqat davlat aktivlarini sotish bilan belgilanmaydi. Uning samaradorligi, avvalo, raqobat muhitining yaratilishi, mustaqil tartibga solish tizimining mavjudligi, korporativ boshqaruvning takomillashishi, tariflarning iqtisodiy asoslanganligi va xususiy investorlar uchun barqaror huquqiy muhitning shakllanishiga bog‘liq.

Buyuk Britaniya tajribasi to‘liq xususiylashtirish va liberallashtirish modelini, Norvegiya tajribasi strategik davlat nazoratini saqlagan holda qisman xususiylashtirish modelini, Turkiya tajribasi bozorni qayta tashkil etish va xususiy sektorni keng jalb qilish modelini, Saudiya Arabistoni esa neft-gaz kompaniyasining aksiyalarini fond bozoriga chiqarish orqali kapital jalb qilish modelini namoyish etadi.

O‘zbekiston sharoitida esa energetika va neft-gaz kabi strategik sohalarda Norvegiya va Saudiya Arabistoni tajribalariga yaqin bo‘lgan bosqichma-bosqich va qisman xususiylashtirish modeli maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda davlat strategik nazoratni saqlab qolishi, xususiy investorlar esa kapital, texnologiya va zamonaviy boshqaruv tajribasini olib kirishi mumkin.

Natijada energetika va neft-gaz korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish, investitsiya hajmini ko‘paytirish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va davlat byudjetiga tushumlarni oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

World Bank. *Rethinking Power Sector Reform in the Developing World*. Washington, D.C., 2019.

International Energy Agency. *Uzbekistan 2022 – Energy Policy Review*. Paris, IEA, 2022.

World Bank. *Assessing Turkey’s Energy Transition*. Washington, D.C.

U.S. Energy Information Administration. *Privatization and the Globalization of Energy Markets*. 1996.

UK National Archives. *Electricity Privatisation*. UK Government.

Ofgem. *Review of Electricity Trading Arrangements: Background – England and Wales*.

Equinor. *The Norwegian State as Shareholder*.

Equinor. *Our Shareholders*.

World Bank. *Uzbekistan to Invest in Modernizing its Energy Sector to Meet Growing Demand with Private Sector Participation*. 2023.

World Bank. *Uzbekistan’s Reforms for Private Sector Growth, Social Protection, and Climate Action*. 2024.

World Bank. *Advancing Global Integration and Market Transition in Uzbekistan*. 2025.

“ИНСОН ҚАДРИ”НИ УЛУҒЛАШГА ҚАРАТИЛГАН ҲОКИМИЯТ ФАОЛИЯТИНИНГ ФАЛСАФИЙ НЕГИЗЛАРИ

Раҳмонов Шерзод Толибович
Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Халқ депутатлари Бухоро вилояти Кенгаши котибияти мудири
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934677

Аннотация: Ушбу мақолада инсон қадрини улуғлашга қаратилган ҳокимият фаолиятининг фалсафий негизлари таҳлил қилинади. Инсон ҳуқуқ ва эркинликларининг устуворлиги, адолат, шаффофлик, институционал ишонч ва фуқаролар иштироки каби омиллар маҳаллий вакиллик ҳокимияти фаолияти мисолида кўриб чиқилади. Мақолада Кант, Гегель, Ролз, Руссо, Хабермас каби файласуфларнинг ғояларига таянган ҳолда, инсонпарварлик парадигмасининг амалий аҳамиятини очиб берилади.

Калит сўзлар: инсон қадри, ҳокимият, маҳаллий вакиллик органлари, адолат, шаффофлик, институционал ишонч, фуқаролар иштироки.

Аннотация: В статье анализируются философские основы деятельности власти, направленной на утверждение человеческого достоинства. На примере деятельности местных представительных органов власти рассматриваются такие факторы, как приоритет прав и свобод человека, справедливость, прозрачность, институциональное доверие и участие граждан. Опираясь на идеи Канта, Гегеля, Ролза, Руссо, Хабермаса, автор раскрывает практическое значение гуманистической парадигмы.

Ключевые слова: человеческое достоинство, власть, местные представительные органы, справедливость, прозрачность, институциональное доверие, участие граждан.

Annotation: The article analyses the philosophical foundations of the activity of authorities aimed at asserting human dignity. Using the example of local representative bodies, it examines factors such as the priority of human rights and freedoms, justice, transparency, institutional trust and civic participation. Drawing on the ideas of Kant, Hegel, Rawls, Rousseau and Habermas, the author reveals the practical significance of the humanistic paradigm.

Key words: human dignity, authority, local representative bodies, justice, transparency, institutional trust, civic participation.

Инсон қадрини улуғлаш ғояси замонавий давлат ва жамият тараққиётининг марказий тамойилларидан бири сифатида шаклланган бўлиб, у ҳокимият фаолиятининг мазмун-моҳиятини қайта кўриб чиқишни талаб этади. Мазкур ёндашувда давлат институтлари, айниқса маҳаллий вакиллик ҳокимияти органлари ўз фаолиятини фуқаролар манфаатлари, ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлашга қаратган ҳолда ташкил этиши зарур. Инсон қадрини эътироф этиш фақат декларатив тушунча эмас, балки амалий сиёсат, бошқарув ва ижтимоий муносабатларда намоён бўладиган комплекс фалсафий категория ҳисобланади.

Инсон қадри тушунчасининг фалсафий негизлари илк бор антик давр мутафаккирлари томонидан ишлаб чиқилган бўлиб, инсонни олам маркази сифатида кўриш ғояси билан боғлиқ. Бу йўналиш кейинчалик гуманизм фалсафаси доирасида янада ривожлантирилди. Иммануэл Кант инсонни мақсад сифатида кўриш зарурлигини таъкидлаб, уни ҳеч қачон восита сифатида ишлатмаслик ғоясини илгари сурган. [3. 1999:B.67] Бу фикр замонавий демократик давлат қурилишида асосий меъёрлардан бирига айланган. Ушбу ёндашув маҳаллий вакиллик ҳокимияти фаолиятида фуқароларга хизмат қилиш, уларнинг муаммоларини ҳал этиш ва манфаатларини ҳимоя қилиш каби вазифалар орқали амалга оширилади.

Ўзбекистонда сўнгги йилларда амалга оширилаётган ислоҳотлар инсон қадрини улуғлаш тамойилига асосланган ҳолда шакллантирилмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси томонидан қабул қилинаётган қонунлар, маҳаллий кенгашлар фаолиятини такомиллаштиришга қаратилган чора-тадбирлар бу борада муҳим аҳамият касб этади. Маҳаллий вакиллик органлари фуқароларнинг эҳтиёжларини аниқлаш, ижтимоий муаммоларни ҳал қилиш ва ҳудудий ривожланиш стратегияларини ишлаб чиқишда фаол иштирок этмоқда. Инсон қадрини улуғлашга қаратилган ҳокимият фаолиятининг яна бир муҳим жиҳати — адолат принципини таъминлашдир.

“Инсон қадри”ни улуғлашга қаратилган ҳокимият фаолияти қуйидаги асосий омиллари орқали намоён бўлади

№	Асосий омил	Мазмуни
1	Инсон ҳуқуқ ва эркинликларининг устуворлиги	Ҳокимиятнинг барча қарорлари инсоннинг конституциявий ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини таъминлашга хизмат қилади. Инсон давлат учун эмас, давлат инсон учун деган тамойил устувор бўлади.
2	Халқ манфаатларига хизмат қилувчи давлат бошқаруви	Давлат органлари аҳоли эҳтиёжлари ва муаммоларини ўрганиш, уларни тезкор ҳал қилиш ҳамда сифатли давлат хизматларини кўрсатишга йўналтирилади.
3	Адолат ва қонун устуворлигини таъминлаш	Барча фуқароларнинг қонун олдида тенглиги, суд мустақиллиги, коррупцияга қарши кураш ва давлат қарорларининг қонунийлиги инсон қадрини ҳимоя қилишнинг асосий шарти ҳисобланади.
4	Очиқлик, шаффофлик ва ҳисобдорлик	Давлат органлари фаолиятининг очиқлиги, жамоатчилик назорати, фуқаролар билан мулоқот ва ҳисобдорлик инсоннинг давлат бошқарувидаги иштирокини таъминлайди.
5	Ижтимоий ҳимоя ва тенг имкониятлар	Таълим, соғлиқни сақлаш, ижтимоий ҳимоя, муносиб меҳнат ва муносиб турмуш шароитларини яратиш орқали ҳар бир инсоннинг муносиб ҳаёт кечириш ҳуқуқи кафолатланади.
6	Фуқаролар иштирокини кенгайтириш ва делибератив бошқарув	Қарор қабул қилиш жараёнига аҳоли, маҳалла, фуқаролик жамияти институтлари ва нодавлат ташкилотларни жалб қилиш инсон қадрини эътироф этишнинг муҳим механизми ҳисобланади.

3.1.1-жадвал. “Инсон қадри”ни улуғлашга қаратилган ҳокимият фаолиятининг асосий омиллари.

Бу омиллар замонавий демократик бошқарув, ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамияти тамойилларига мос келади. Адолат фалсафий категория сифатида жамиятдаги барча муносабатларнинг мувозанатли ва тенг асосда ташкил этилишини англатади. Бу борада Жоҳн Райлснинг адолат назарияси муҳим аҳамиятга эга бўлиб, у ижтимоий тенглик ва имкониятлар баробарлигини таъминлаш зарурлигини асослаб беради. [6. 1995:B.128] Маҳаллий ҳокимият органлари фаолиятида бу принцип ижтимоий хизматлардан фойдаланишда тенглик, аҳолига давлат хизматларини кўрсатишда шаффофлик ва ҳисобдорлик орқали намоён бўлади. Шу билан бирга, инсон қадрини улуғлаш фуқаролик жамияти институтларининг ривожланиши билан ҳам чамбарчас боғлиқ.

Фуқаролик жамияти институтлари, жумладан нодавлат нотижорат ташкилотлар, оммавий ахборот воситалари ва жамоат бирлашмалари маҳаллий ҳокимият фаолияти устидан жамоатчилик назоратини амалга оширади. Бу эса ҳокимият органларининг самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Transparency International каби халқаро ташкилотлар тадқиқотлари ҳам шаффофлик ва ҳисобдорликнинг инсон қадрини таъминлашдаги аҳамиятини кўрсатади.

Инсон қадрини улуғлашнинг амалий ифодаси сифатида аҳоли билан мулоқот механизмларини такомиллаштириш муҳим ўрин тутади. Жойларда “халқ қабулхоналари” тизимининг жорий этилиши фуқаролар муаммоларини бевосита ўрганиш ва ҳал этиш имконини яратди. Бу тизим орқали фуқаролар ўз мурожаатларини билдириш, муаммоларини ҳал этишда ҳокимият органлари билан тўғридан-тўғри мулоқот қилиш имконига эга бўлмоқда. Бу эса давлат ва жамият ўртасидаги ишончни мустаҳкамлашга хизмат қилади. Инсон қадри тушунчаси нафақат

ҳуқуқий ва сиёсий, балки маънавий-ахлоқий жиҳатларни ҳам қамраб олади. Бу борада миллий қадриятлар, урф-одатлар ва анъаналар муҳим аҳамиятга эга. Ўзбекистонда инсонга ҳурмат, катталарни эъзозлаш, кичикларга меҳр-шафқат кўрсатиш каби қадриятлар жамият ҳаётининг ажралмас қисми ҳисобланади. Ушбу қадриятлар маҳаллий ҳокимият фаолиятида ҳам инобатга олиниши зарур.

Инсон қадрини улуғлашга қаратилган ҳокимият фаолиятида яна бир муҳим масала — инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини кафолатлашнинг институционал механизмларини шакллантиришдир. Бу жараёнда маҳаллий вакиллик ҳокимияти органлари фақат ижро этувчи эмас, балки ташаббускор ва назорат қилувчи субъект сифатида ҳам намоён бўлади. Ҳудудий даражада қабул қилинаётган қарорлар аҳоли манфаатларига қанчалик мос келаётгани, уларнинг ҳаёт сифатига қандай таъсир кўрсатаётгани доимий таҳлил этиб борилиши талаб этилади. Бу эса инсон қадрини амалда таъминлашнинг энг муҳим шартларидан бири ҳисобланади. Маҳаллий вакиллик ҳокимияти фаолиятида инсон қадрини таъминлашнинг фалсафий асосларидан бири — шахс ва жамият ўртасидаги мувозанатни топишдир. Фалсафа тарихида бу масала доимо долзарб бўлиб келган. Георг Вильгелм Фридрих Гегел жамият ва давлатни “объектив руҳ” сифатида талқин қилиб, шахс эркинлиги айнан ижтимоий муносабатлар тизимида рўёбга чиқишини таъкидлаган. [1. 1990:B.89] Бу ғоядан келиб чиқиб, маҳаллий ҳокимият органлари фуқароларнинг шахсий манфаатларини жамият манфаатлари билан уйғунлаштиришга хизмат қилиши лозим.

Ўзбекистон шароитида инсон қадрини улуғлашга қаратилган сиёсатнинг муҳим йўналишларидан бири — аҳолининг ижтимоий ҳимоясини кучайтиришдир. Кам таъминланган оилалар, ногиронлиги бўлган шахслар, ёшлар ва аёлларни қўллаб-қувватлаш бўйича амалга оширилаётган дастурлар бунинг ёрқин мисоли ҳисобланади. Маҳаллий кенгашлар ушбу дастурларни амалга оширишда фаол иштирок этиб, бюджет маблағларининг мақсадли ва самарали сарфланишини таъминлашга ҳаракат қилади. Бу эса инсон қадрини фақат назарий эмас, балки амалий жиҳатдан ҳам таъминлашга хизмат қилади.

Инсон қадрини таъминлашда ахборот очиқлиги ва шаффофлик тамойиллари алоҳида аҳамиятга эга. Замонавий ахборот технологияларининг ривожланиши маҳаллий ҳокимият органларига ўз фаолиятини кенг жамоатчиликка очиқ тақдим этиш имконини бермоқда.

Давлат хизматлари порталлари, электрон мурожаат тизимлари ва очиқ маълумотлар базалари орқали фуқаролар ҳокимият фаолияти ҳақида тўлиқ маълумот олиш имконига эга бўлмоқда. Бу эса фуқароларнинг давлат бошқарувидаги иштирокини оширишга, уларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишга хизмат қилади. Инсон қадрини улуғлашнинг яна бир муҳим жиҳати — қарор қабул қилиш жараёнида фуқаролар иштирокини таъминлашдир. Демократик бошқарув тизимида фуқароларнинг фикри ва манфаатлари инобатга олиниши шарт. Маҳаллий кенгашлар йиғилишлари, жамоатчилик эшитувлари, референдумлар ва сўровномалар орқали аҳоли ўз фикрини билдириш имконига эга бўлади. Бу жараёнда фуқароларнинг фаоллиги қанчалик юқори бўлса, қабул қилинаётган қарорлар шунчалик самарали ва адолатли бўлади.

Алехис де Токуевилле демократик жамиятда маҳаллий ўзини ўзи бошқариш институтларининг аҳамиятини алоҳида таъкидлаган. [8. 1992:B.75] Унинг фикрича, маҳаллий даражада фуқароларнинг фаол иштироки жамиятда эркинлик ва тенгликни таъминлашнинг муҳим шарти ҳисобланади. Бу ғоя Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислоҳотлар билан ҳамоҳанг бўлиб, маҳаллий вакиллик ҳокимияти органларининг ролини янада кучайтиришга хизмат қилмоқда.

Инсон қадрини улуғлаш фақат давлат органлари фаолияти билан чекланиб қолмайди, балки жамиятнинг барча қатламларини қамраб олади. Таълим, соғлиқни сақлаш, маданият ва спорт соҳаларида амалга оширилаётган ислоҳотлар инсоннинг ҳар томонлама ривожланишига хизмат қилади. Бу эса ўз навбатида жамиятнинг барқарор тараққиётини таъминлайди. Маҳаллий ҳокимият органлари ушбу соҳалардаги сиёсатни амалга оширишда муҳим роль ўйнайди. Шу билан бирга, инсон қадрини таъминлашда маънавий тарбия ва ахлоқий қадриятларни шакллантириш ҳам муҳим аҳамиятга эга. Жамиятда инсонга ҳурмат, адолат, ҳалоллик ва масъулият каби қадриятлар устувор бўлса, ҳокимият фаолияти ҳам самарали бўлади. Бу жараёнда оила, таълим муассасалари ва оммавий ахборот воситалари муҳим ўрин тутади.

Инсон қадрини улуғлашга қаратилган ҳокимият фаолиятини чуқур англашда яна бир муҳим фалсафий жиҳат — эркинлик ва масъулият ўртасидаги ўзаро боғлиқликни таҳлил қилишдир. Эркинлик инсоннинг табиий ҳуқуқи сифатида қаралади, аммо у мутлақ эмас, балки муайян ижтимоий ва ҳуқуқий чегаралар доирасида амалга оширилади. Шу нуқтаи назардан маҳаллий

вакиллик ҳокимияти органлари фуқароларга кенг имкониятлар яратиш билан бирга, уларда ижтимоий масъулият ҳиссини ҳам шакллантиришга хизмат қилиши зарур. Бу эса жамиятда барқарорлик ва уйғунликни таъминлашнинг муҳим шарти ҳисобланади. Эркинлик ва масъулият мувозанати фалсафада кенг ёритилган масалалардан бири бўлиб, Jean-Jacқues Rousseaунинг ижтимоий шартнома назариясида алоҳида ўрин тутади. [7. 2000:B.23] Унинг фикрича, инсон ўз эркинлигининг бир қисмини жамият манфаатлари йўлида ихтиёрий равишда чеклайди ва шу орқали умумий фаровонликка эришилади. Маҳаллий ҳокимият органлари фаолиятида бу тамойил аҳоли манфаатларини ҳисобга олган ҳолда қарор қабул қилиш, жамоат тартибини таъминлаш ва ижтимоий барқарорликни сақлаш орқали намоён бўлади.

Маҳаллий вакиллик ҳокимиятининг инсон қадрини таъминлашдаги роли, айниқса, ижтимоий адолатни қарор топтиришда яққол кўринади. Ижтимоий адолат фақат тенг тақсимотни эмас, балки имкониятлар тенглигини ҳам англатади. Бу борада ҳудудлар ўртасидаги иқтисодий ва ижтимоий тафовутларни камайтириш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади. Қишлоқ ва шаҳар аҳолиси ўртасидаги инфратузилма, таълим ва тиббиёт хизматлари сифатидаги фарқларни бартараф этиш маҳаллий ҳокимият органларининг устувор вазифаларидан бири бўлиб қолмоқда.

Инсон қадрини улуғлашга қаратилган сиёсатда ижтимоий шериклик механизмининг ўрни ҳам катта. Давлат, хусусий сектор ва фуқаролик жамияти ўртасидаги ҳамкорлик жамиятдаги муаммоларни ҳал этишда самарали восита сифатида хизмат қилади. Маҳаллий даражада бу ҳамкорлик турли лойиҳалар, ижтимоий дастурлар ва ташаббуслар орқали амалга оширилади. Тадбиркорликни ривожлантириш, янги иш ўринлари яратиш ва аҳоли бандлигини таъминлашга қаратилган лойиҳалар инсон қадрини оширишга хизмат қилади.

Инсон қадрини таъминлашда ҳуқуқий маданиятни ошириш ҳам муҳим омил ҳисобланади. Фуқаролар ўз ҳуқуқ ва бурчларини яхши билсалар, улар ҳокимият органлари билан самарали мулоқот қилиш имконига эга бўлади. Бу эса ўз навбатида давлат бошқарувининг самарадорлигини оширади. Маҳаллий вакиллик ҳокимияти органлари аҳоли ўртасида ҳуқуқий тарғибот ишларини олиб бориш, ҳуқуқий билимларни оширишга қаратилган тадбирларни ташкил этиш орқали бу жараёнга ҳисса қўшади. Шу билан бирга, инсон қадрини улуғлашда иқтисодий омиллар ҳам муҳим аҳамиятга эга. Аҳолининг даромадлари, яшаш шароити ва иқтисодий имкониятлари қанчалик юқори бўлса, инсон қадри шунчалик таъминланган бўлади. Маҳаллий ҳокимият органлари ҳудудий иқтисодиётни ривожлантириш, инвестицияларни жалб қилиш ва кичик бизнесни қўллаб-қувватлаш орқали аҳолининг турмуш даражасини оширишга хизмат қилади.

Бу жараёнда Жаҳон банки каби халқаро ташкилотлар тадқиқотлари ҳам аҳамиятли бўлиб, улар иқтисодий ривожланиш ва инсон фаровонлиги ўртасидаги узвий боғлиқликни илмий асосда исботлаб берган. Ушбу тадқиқотлардан келиб чиқиб, маҳаллий ҳокимият органлари ўз фаолиятида иқтисодий самарадорлик ва ижтимоий адолатни уйғунлаштиришга интилади.

Инсон қадрини улуғлашнинг яна бир муҳим жиҳати — экологик масъулиятни таъминлашдир. Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш ва экологик барқарорликни таъминлаш инсоннинг соғлом ва хавфсиз ҳаёт кечириш ҳуқуқи билан бевосита боғлиқ.

Маҳаллий ҳокимият органлари бу борада турли дастурлар ва чора-тадбирларни амалга ошириб, аҳолининг экологик онгини оширишга хизмат қилади. Шу тарзда инсон қадрини улуғлашга қаратилган ҳокимият фаолияти кўп қиррали ва мураккаб жараён бўлиб, у фалсафий, ҳуқуқий, иқтисодий ва маънавий омилларнинг ўзаро уйғунлигига асосланади. Бу жараёнда маҳаллий вакиллик ҳокимияти органлари марказий ўрин эгаллаб, жамият тараққиётининг муҳим ҳаракатлантирувчи кучига айланади.

Инсон қадрини улуғлашга қаратилган ҳокимият фаолиятининг мазмун-моҳиятини янада чуқурроқ таҳлил қилишда давлат бошқарувида “инсонпарварлик парадигмаси”нинг шаклланишига алоҳида эътибор қаратиш зарур. Бу парадигмага кўра, давлат ўз фаолиятида иқтисодий кўрсаткичлар ёки формал самарадорликдан кўра, аввало инсоннинг ҳаёт сифати, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қадр-қиммати ва ижтимоий ҳимоясига устувор аҳамият қаратиши лозим. Маҳаллий вакиллик ҳокимияти органлари айнан шу парадигманинг амалдаги ифодаси сифатида фаолият юритади, чунки улар фуқароларга энг яқин бўлган бошқарув бўғини ҳисобланади.

Инсонпарварлик тамойилини амалга оширишда бошқарув маданияти муҳим ўрин тутади. Бошқарув маданияти фақатгина маъмурий қобилиятлар билан чекланиб қолмай, балки ахлоқий меъёрлар, мулоқот маданияти ва фуқароларга нисбатан ҳурмат билан муносабатда бўлишни ҳам

қамраб олади. Шу нуқтаи назардан маҳаллий кенгаш депутатлари ва мансабдор шахслар ўз фаолиятида юксак ахлоқий мезонларга амал қилиши зарур. Бу эса жамиятда ишонч муҳитини шакллантиришга хизмат қилади.

Маҳаллий ҳокимият фаолиятида инсон қадрини таъминлашнинг яна бир муҳим жиҳати — қарорларни қабул қилишда илмий ёндашувдан фойдаланишдир. Замонавий бошқарув назариясида “далилларга асосланган сиёсат” тушунчаси кенг қўлланилмоқда. Бу ёндашувга кўра, ҳар қандай қарор аниқ статистик маълумотлар, таҳлиллар ва илмий тадқиқотлар асосида қабул қилиниши керак. Бу эса қабул қилинаётган қарорларнинг самарадорлигини оширишга ва инсон манфаатларини тўлиқ ҳисобга олишга имкон беради. Аҳолининг эҳтиёжларини ўрганиш мақсадида ижтимоий сўровлар ўтказиш, демографик ва иқтисодий кўрсаткичларни таҳлил қилиш маҳаллий ҳокимият органларига тўғри қарор қабул қилишда ёрдам беради. Бу жараёнда замонавий технологиялар, жумладан рақамли платформалар ва маълумотлар базаларидан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Шу орқали фуқароларнинг реал эҳтиёжлари аниқланади ва уларга мос ечимлар ишлаб чиқилади.

Инсон қадрини улуғлашда самарадорликни баҳолаш мезонларини белгилаш ҳам муҳим масалалардан бири ҳисобланади. Анъанавий бошқарувда самарадорлик кўпинча иқтисодий кўрсаткичлар билан ўлчанган бўлса, замонавий ёндашувда инсоннинг ҳаёт сифати, ижтимоий хизматлардан қониқиш даражаси, фуқароларнинг давлатга бўлган ишончи каби кўрсаткичлар устувор аҳамият касб этади. Бу эса маҳаллий ҳокимият органларининг фаолиятини янада инсонпарвар ва адолатли қилишга хизмат қилади. Бу борада БМТ томонидан ишлаб чиқилган инсон ривожланиши индекси (HDI) муҳим кўрсаткич сифатида қўлланилади. Ушбу индекс аҳолининг умр давомийлиги, таълим даражаси ва даромадларини ҳисобга олган ҳолда инсон ривожланишини баҳолайди. Маҳаллий даражада ҳам шунга ўхшаш кўрсаткичлардан фойдаланиш ҳокимият фаолиятининг самарадорлигини аниқлашга ёрдам беради.

Инсон қадрини таъминлашда инновацион ёндашувлардан фойдаланиш ҳам муҳим аҳамиятга эга. Рақамли трансформация жараёнлари маҳаллий ҳокимият органларига ўз фаолиятини модернизация қилиш имконини бермоқда. “Ақлли шаҳар” концепцияси доирасида жорий этилаётган технологиялар шаҳар инфратузилмасини самарали бошқариш, транспорт тизимини оптималлаштириш ва коммунал хизматларни яхшилашга хизмат қилади. Бу эса аҳолининг ҳаёт сифатига бевосита ижобий таъсир кўрсатади.

Шу билан бирга, инсон қадрини улуғлашда таълим тизимининг роли ҳам катта. Таълим инсоннинг интеллектуал ва маънавий салоҳиятини ривожлантиришга хизмат қилади.

Маҳаллий ҳокимият органлари таълим муассасаларини қўллаб-қувватлаш, уларнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш ва таълим сифатини ошириш орқали инсон капитали ривожига ҳисса қўшади. Инсон капитали тушунчаси замонавий иқтисодий ва фалсафий назарияларда муҳим ўрин тутади. Бу тушунча инсоннинг билим, кўникма ва қобилиятларини иқтисодий ва ижтимоий ривожланишнинг асосий ресурси сифатида қарашни англатади. Маҳаллий ҳокимият органлари инсон капиталини ривожлантиришга қаратилган сиёсатни амалга ошириш орқали жамият тараққиётини таъминлайди.

Инсон қадрини улуғлашга қаратилган ҳокимият фаолиятида стратегик режалаштириш ҳам муҳим аҳамият касб этади. Ҳудудларни ривожлантириш дастурлари узоқ муддатли мақсадларга асосланган ҳолда ишлаб чиқилиши лозим. Бу жараёнда иқтисодий, ижтимоий ва экологик омиллар комплекс тарзда ҳисобга олинади. Шу орқали барқарор ривожланишга эришиш мумкин бўлади. Шу тарзда инсон қадрини улуғлашга қаратилган маҳаллий ҳокимият фаолияти замонавий давлат бошқарувининг энг муҳим йўналишларидан бири сифатида намоён бўлади. Ушбу жараёнда фалсафий ёндашувлар, илмий тадқиқотлар ва амалий тажрибалар уйғунлиги муҳим аҳамиятга эга бўлиб, жамиятнинг барқарор ва адолатли ривожланишини таъминлашга хизмат қилади.

Инсон қадрини улуғлашга қаратилган маҳаллий ҳокимият фаолиятини янада чуқур англашда институционал ишонч тушунчаси алоҳида ўрин тутади. Институционал ишонч фуқароларнинг давлат органлари, жумладан маҳаллий вакиллик ҳокимиятига бўлган ишончи даражасини англатади. Агар фуқаролар ҳокимият органларига ишонса, уларнинг қарорларини қўллаб-қувватлайди, ижтимоий жараёнларда фаол иштирок этади ва жамиятда барқарорлик таъминланади. Шу боис маҳаллий ҳокимият органлари ўз фаолиятида очиқлик, адолат ва масъулият тамойилларига қатъий амал қилиши зарур.

Институционал ишончнинг фалсафий асослари ижтимоий муносабатлар назарияси билан боғлиқ бўлиб, жамиятдаги барча субъектлар ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг сифатини белгилайди. Бу борада Никлас Луҳманн ишончни ижтимоий тизимларнинг барқарор фаолият юритишида ҳал қилувчи омил сифатида талқин қилган. [4. 2001:B.34] Унинг фикрича, ишонч мураккаб ижтимоий муносабатларни соддалаштиради ва қарор қабул қилиш жараёнини енгиллаштиради. Маҳаллий ҳокимият органлари фаолиятида бу тамойил аҳоли билан самарали мулоқот қилиш, уларнинг мурожаатларига тезкор жавоб бериш ва шаффоф қарорлар қабул қилиш орқали намоён бўлади.

Инсон қадрини таъминлашда жамоатчилик назоратининг ўрни ҳам катта аҳамиятга эга. Жамоатчилик назорати ҳокимият органлари фаолияти устидан фуқаролар ва фуқаролик жамияти институтлари томонидан амалга ошириладиган назорат шакли бўлиб, у давлат бошқарувининг шаффофлиги ва ҳисобдорлигини таъминлайди. Маҳаллий кенгашлар фаолиятида жамоатчилик назоратини кучайтириш инсон қадрини ҳимоя қилишнинг самарали воситаларидан бири ҳисобланади. Бу жараёнда оммавий ахборот воситалари алоҳида ўрин тутади. Ахборот эркинлиги ва сўз эркинлиги фуқароларнинг ўз фикрларини эркин билдиришига, ҳокимият фаолиятини танқидий баҳолашига имконият яратади. Бу эса ўз навбатида ҳокимият органларининг масъулиятини оширади ва уларни янада самарали ишлашга ундайди. Маҳаллий ҳокимият органлари ОАВ билан ҳамкорлик қилиш орқали ўз фаолиятини кенг жамоатчиликка етказиши ва аҳоли билан ишончли мулоқот ўрнатиши мумкин.

Инсон қадрини улуғлашда коррупцияга қарши курашиш масаласи ҳам муҳим ўрин тутади. Коррупция инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини бузади, ижтимоий адолатни заифлаштиради ва давлатга бўлган ишончни пасайтиради. Шу боис маҳаллий ҳокимият органлари коррупцияга қарши қатъий чоралар кўриши, шаффофликни таъминлаши ва ҳисобдорликни кучайтириши лозим. Бу борада халқаро тажриба ва стандартлардан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга. Аёллар ва эркаклар учун тенг имкониятлар яратиш, уларнинг жамиятдаги ролини кучайтириш инсон қадрини улуғлашнинг муҳим шарти ҳисобланади. Маҳаллий ҳокимият органлари гендер сиёсатини амалга ошириш, аёлларнинг сиёсий ва иқтисодий фаоллигини оширишга қаратилган дастурларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш орқали бу жараёнга ҳисса қўшади.

Шу билан бирга, ёшлар сиёсати ҳам инсон қадрини таъминлашда муҳим ўрин тутади. Ёшлар жамиятнинг келажаги сифатида қаралади ва уларнинг таълим олиши, касб-ҳунар эгаллаши ва ижтимоий фаоллиги учун шароит яратиш маҳаллий ҳокимият органларининг устувор вазифаларидан бири ҳисобланади. Ёшларни қўллаб-қувватлаш орқали жамиятнинг барқарор ривожланиши таъминланади. Инсон қадрини улуғлашга қаратилган сиёсатда маданий ривожланиш ҳам муҳим аҳамиятга эга. Маданият инсоннинг маънавий дунёси, қадриятлари ва дунёқарашини шакллантиради. Маҳаллий ҳокимият органлари маданий тадбирларни қўллаб-қувватлаш, миллий анъаналарни сақлаш ва ривожлантириш орқали жамиятда маънавий муҳитни яхшилашга хизмат қилади. Шу тарзда инсон қадрини улуғлашга қаратилган маҳаллий ҳокимият фаолияти кўп қиррали ва комплекс жараён бўлиб, у ижтимоий, сиёсий, иқтисодий ва маънавий омилларнинг уйғунлигига асосланади. Бу жараёнда ишонч, шаффофлик, адолат ва иштирок тамойиллари ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлиб, жамиятнинг барқарор ва самарали ривожланишини таъминлайди.

Инсон қадрини улуғлашга қаратилган маҳаллий ҳокимият фаолиятини янада кенг қамровда таҳлил қилишда ижтимоий капитал тушунчасига мурожаат қилиш мақсадга мувофиқ. Ижтимоий капитал жамият аъзолари ўртасидаги ишонч, ҳамкорлик ва ўзаро ёрдам муносабатларининг йиғиндиси бўлиб, у жамият барқарорлиги ва тараққиётининг муҳим омили ҳисобланади. Маҳаллий вакиллик ҳокимияти органлари ушбу ижтимоий капитални шакллантириш ва мустаҳкамлашда муҳим роль ўйнайди. Фуқаролар ўртасида ишонч муҳитини яратиш, жамоавий ташаббусларни қўллаб-қувватлаш ва ҳамкорликни рағбатлантириш инсон қадрини амалда таъминлашга хизмат қилади.

Ижтимоий капитал назарияси замонавий ижтимоий-фалсафий тадқиқотларда кенг ёритилган бўлиб, Роберт Путнам уни демократик институтларнинг самарадорлиги билан бевосита боғлайди. [5. 1996:B.212] Унинг фикрича, жамиятда ишонч ва ҳамкорлик қанчалик юқори бўлса, давлат бошқаруви шунчалик самарали бўлади. Бу ғоя маҳаллий ҳокимият органлари фаолиятида аҳоли билан ҳамкорликни кучайтириш, жамоатчилик ташаббусларини қўллаб-қувватлаш ва фуқаролар иштирокини кенгайтириш орқали амалга оширилади.

Инсон қадрини таъминлашда ҳудудий идентичлик ва маҳаллий ўзликни англаш масаласи ҳам муҳим аҳамият касб этади. Ҳар бир ҳудуд ўзининг тарихи, маданияти ва анъаналари билан ажралиб туради. Маҳаллий ҳокимият органлари ушбу хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда сиёсат юритиши лозим. Бу эса аҳолининг ўз ҳудудига бўлган муҳаббатини оширади, ижтимоий бирликни мустаҳкамлайди ва жамиятда барқарорликни таъминлайди. Шу билан бирга, инсон қадрини улуғлашда инклюзивлик тамойилига алоҳида эътибор қаратиш зарур. Инклюзивлик жамиятнинг барча аъзолари, жумладан имконияти чекланган шахслар, кам таъминланган аҳоли қатламлари ва бошқа ижтимоий гуруҳлар учун тенг имкониятлар яратишни англатади. Маҳаллий ҳокимият органлари инклюзив сиёсат юритиш орқали ҳар бир фуқаронинг жамият ҳаётида фаол иштирок этишини таъминлаши керак.

Инсон қадрини таъминлашда хавфсизлик масаласи ҳам муҳим ўрин тутади. Хавфсизлик нафақат жиноятчиликдан ҳимоя, балки иқтисодий, ижтимоий ва экологик хавфлардан муҳофаза қилишни ҳам қамраб олади. Маҳаллий ҳокимият органлари аҳолининг хавфсизлигини таъминлаш, жамоат тартибини сақлаш ва фавқулодда ҳолатларга тайёргарлик кўриш орқали инсон қадрини ҳимоя қилади. Бу борада БМТ Тараққиёт дастури томонидан илгари сурилган “инсон хавфсизлиги” концепцияси муҳим аҳамиятга эга. Ушбу концепцияга кўра, инсон хавфсизлиги кенг маънода қаралиб, у инсоннинг иқтисодий, озиқ-овқат, соғлиқ, экологик ва сиёсий хавфсизлигини қамраб олади. Маҳаллий даражада ушбу концепцияни амалга ошириш аҳолининг фаровонлигини оширишга хизмат қилади.

Инсон қадрини улуғлашда инновацион фикрлаш ва креатив ёндашувлар ҳам муҳим аҳамият касб этади. Замонавий жамиятда муаммоларни анъанавий усуллар билан ҳал этиш доимо самара бермаслиги мумкин. Шу боис маҳаллий ҳокимият органлари янги ғоялар, инновацион лойиҳалар ва креатив ечимларни жорий этишга интилиши лозим. Бу эса жамият ривожига янги суръат бағишлайди. Шу билан бирга, инсон қадрини таъминлашда вақт омилини ҳам ҳисобга олиш зарур. Қарорларни ўз вақтида қабул қилиш, муаммоларга тезкор жавоб бериш ва аҳоли эҳтиёжларига оператив равишда муносабат билдириш маҳаллий ҳокимият органларининг самарадорлигини оширади. Бу эса фуқароларнинг давлатга бўлган ишончини мустаҳкамлайди.

Инсон қадрини улуғлашга қаратилган маҳаллий ҳокимият фаолиятида мониторинг ва баҳолаш тизимини такомиллаштириш ҳам муҳим аҳамиятга эга. Қабул қилинган қарорлар ва амалга оширилган дастурларнинг натижаларини мунтазам равишда таҳлил қилиш орқали уларнинг самарадорлигини ошириш мумкин. Бу жараёнда фуқароларнинг фикри ва баҳолари ҳам инобатга олиниши лозим. Шу тарзда инсон қадрини улуғлашга қаратилган маҳаллий вакиллик ҳокимияти фаолияти кўп қиррали, тизимли ва узлуксиз жараён бўлиб, у фалсафий, ижтимоий ва амалий ёндашувларнинг уйғунлигига асосланади. Бу жараёнда ижтимоий капитал, инклюзивлик, хавфсизлик ва инновация каби омиллар ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлиб, жамиятнинг барқарор тараққиётини таъминлашга хизмат қилади.

Инсон қадрини улуғлашга қаратилган маҳаллий вакиллик ҳокимияти фаолиятини янада чуқурлаштириб таҳлил қилишда “қадриятлар иерархияси” тушунчасига мурожаат қилиш муҳим аҳамият касб этади. Жамиятдаги барча қарорлар ва сиёсий жараёнлар муайян қадриятларга таянади ва уларнинг устуворлиги ҳокимият фаолиятининг йўналишини белгилайди. Агар инсон қадри энг юқори қадрият сифатида эътироф этилса, барча бошқарув қарорлари айнан шу мезон асосида қабул қилиниши лозим. Бу эса маҳаллий ҳокимият органларидан ҳар бир қарорда инсон манфаатларини биринчи ўринга қўйишни талаб этади. Қадриятлар иерархияси фалсафада кенг ўрганилган масала бўлиб, Макс Келер уни инсон ахлоқий танловларининг асоси сифатида талқин қилган. [10. 1994:B.99] Унинг фикрича, инсон ўз қарорларини турли қадриятлар ўртасида танлов қилиш орқали қабул қилади ва бу танлов жамият тараққиётига таъсир кўрсатади. Маҳаллий ҳокимият органлари ҳам ўз фаолиятида иқтисодий манфаатлар, ижтимоий эҳтиёжлар ва маънавий қадриятлар ўртасида мувозанатни таъминлаши лозим.

Инсон қадрини улуғлашда коммуникация маданияти ҳам муҳим ўрин тутади. Давлат ва фуқаролар ўртасидаги мулоқот қанчалик очиқ, самимий ва самарали бўлса, ҳокимият фаолияти шунчалик ишончли ва самарали бўлади. Маҳаллий ҳокимият органлари фуқаролар билан доимий мулоқотда бўлиши, уларнинг фикр ва таклифларини эшитиши ва уларга муносиб жавоб қайтариши зарур. Бу эса инсон қадрини амалий жиҳатдан таъминлашнинг муҳим кўринишидир. Коммуникация жараёнида замонавий ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш алоҳида аҳамиятга эга. Ижтимоий тармоқлар, электрон платформалар ва онлайн хизматлар орқали фуқаролар билан

тезкор ва самарали мулоқот ўрнатиш мумкин. Бу эса ҳокимият фаолиятининг очиқлиги ва шаффофлигини оширади, аҳолининг давлат бошқарувидаги иштирокини кенгайтиради. Инсон қадрини таъминлашда конфликтларни бошқариш масаласи ҳам муҳим аҳамият касб этади. Жамиятда турли манфаатлар тўқнашуви табиий ҳол бўлиб, уларни тўғри бошқариш барқарорликни таъминлашнинг асосий шартларидан бири ҳисобланади. Маҳаллий ҳокимият органлари конфликтларни ҳал этишда адолатли ва холис ёндашувни таъминлаши, барча томонларнинг манфаатларини ҳисобга олиши лозим.

Бу борада Юрген Ҳабермаснинг коммуникатив амал назарияси муҳим аҳамиятга эга. [9. 2022:B.156] Унинг фикрича, ижтимоий келишувга эришиш очиқ мулоқот ва ўзаро тушуниш орқали амалга оширилади. Маҳаллий ҳокимият органлари ушбу ёндашувдан фойдаланган ҳолда жамоатчилик билан самарали диалог ўрнатиши мумкин. Инсон қадрини улуғлашда психологик омилларни ҳам инобатга олиш зарур. Фуқароларнинг давлатга бўлган муносабати, ишонч даражаси ва фаоллиги кўп жиҳатдан уларнинг психологик ҳолатига боғлиқ. Агар фуқаролар ўзларини ҳимояланган, қадрланган ва эшитилган деб ҳис қилса, улар жамият ҳаётида фаол иштирок этади. Маҳаллий ҳокимият органлари фуқаролар билан муносабатларда инсонпарварлик ва ҳурмат тамойилларига амал қилиши орқали бу ҳолатни таъминлайди.

Инсон қадрини таъминлашда вақт ва макон омиллари ҳам муҳим аҳамиятга эга. Ҳар бир ҳудуднинг ўзига хос хусусиятлари, ижтимоий-иқтисодий шароитлари ва маданий анъаналари мавжуд бўлиб, уларни ҳисобга олмасдан самарали бошқарувни амалга ошириш мумкин эмас. Шу боис маҳаллий ҳокимият органлари ўз фаолиятини ҳудудий хусусиятларга мос равишда ташкил этиши лозим.

Инсон қадрини улуғлашга қаратилган сиёсатда барқарорлик ва узлуксизлик тамойиллари ҳам муҳим ўрин тутади. Қабул қилинган қарорлар ва амалга оширилаётган дастурлар узоқ муддатли натижаларга йўналтирилган бўлиши, уларнинг барқарорлиги таъминланиши лозим. Бу эса жамият тараққиётининг узлуксизлигини таъминлайди. Шу тарзда инсон қадрини улуғлашга қаратилган маҳаллий вакиллик ҳокимияти фаолияти фалсафий жиҳатдан чуқур асосланган, ижтимоий жиҳатдан кенг қамровли ва амалий жиҳатдан самарали бўлиши лозим. Бу жараёнда қадриятлар иерархияси, коммуникация маданияти, конфликтларни бошқариш ва психологик омиллар муҳим аҳамиятга эга бўлиб, улар жамиятнинг барқарор ва адолатли ривожланишини таъминлашга хизмат қилади.

Инсон қадрини улуғлашга қаратилган маҳаллий вакиллик ҳокимияти фаолиятини янада мукаммал англашда стратегик бошқарув ва институционал ривожланиш ўртасидаги ўзаро боғлиқликни таҳлил қилиш муҳим аҳамиятга эга. Стратегик бошқарув фақатгина мақсадларни белгилаш эмас, балки ушбу мақсадларга эришиш учун ресурсларни оқилона тақсимлаш, устувор йўналишларни аниқлаш ва натижаларни баҳолашни ҳам ўз ичига олади. Агар бу жараён инсон қадрини улуғлаш тамойилига асосланса, маҳаллий ҳокимият органлари ўз фаолиятида янада самарали ва адолатли бўлади. Институционал ривожланиш эса давлат органларининг ташкилий тузилмаси, қонунчилик базаси ва бошқарув механизмларининг такомиллашувини англатади. Бу жараёнда инсон қадрини таъминлашга қаратилган меъёрлар ва стандартлар жорий этилиши лозим. Давлат хизматчилари учун этика кодекслари, фуқаролар билан мулоқот стандартлари ва ҳисобдорлик механизмлари жорий этилиши маҳаллий ҳокимият фаолиятининг сифатини оширади.

Инсон қадрини улуғлашда лидерлик омили ҳам муҳим ўрин тутади. Самарали раҳбар фақат бошқарув қобилиятига эга бўлиб қолмай, балки инсонпарварлик, адолат ва масъулият каби фазилатларга ҳам эга бўлиши лозим. Маҳаллий кенгашлар ва ижро органларидаги раҳбарлар ўз шахсий намунаси орқали жамиятда ижобий муҳит яратиши мумкин. Бу эса фуқароларнинг давлатга бўлган ишончини мустаҳкамлайди. Лидерлик назариясида Петер Друскер раҳбарнинг асосий вазифаси инсонларнинг салоҳиятини очиш ва уларни умумий мақсадларга йўналтиришдан иборат эканлигини таъкидлаган. [2. 2019:B.45] Бу ғоя маҳаллий ҳокимият органлари фаолиятида ҳам долзарб бўлиб, раҳбарлар фуқароларнинг фаоллигини рағбатлантириши ва уларни жамият ривожига жалб қилиши зарур.

Инсон қадрини таъминлашда таълим ва қайта тайёрлаш тизимининг аҳамиятини ҳам алоҳида таъкидлаш лозим. Давлат хизматчилари ва маҳаллий кенгаш депутатлари доимий равишда ўз билим ва кўникмаларини ошириб бориши керак. Замонавий бошқарув усуллари, ахборот технологиялари ва коммуникация кўникмаларини ўзлаштириш уларнинг фаолияти самарадорлигини оширади. Бу эса ўз навбатида инсон қадрини таъминлашга хизмат қилади. Шу билан бирга, инсон қадрини

улуғлашда ресурсларни адолатли тақсимлаш масаласи ҳам муҳим аҳамият касб этади. Бюджет маблағлари ва бошқа ресурслар аҳолининг реал эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда тақсимланиши лозим. Бу жараёнда шаффофлик ва жамоатчилик назорати муҳим ўрин тутади. Маҳаллий кенгашлар бюджетни тасдиқлаш ва унинг ижросини назорат қилиш орқали бу вазифани амалга оширади.

Инсон қадрини таъминлашда глобал ва маҳаллий жараёнлар ўртасидаги ўзаро таъсирни ҳам ҳисобга олиш зарур. Глобаллашув шароитида халқаро стандартлар, тажрибалар ва инновациялар маҳаллий бошқарув тизимига таъсир кўрсатмоқда. Маҳаллий ҳокимият органлари ушбу тажрибалардан фойдаланган ҳолда ўз фаолиятини такомиллаштириши мумкин. Бу борада OECD томонидан ишлаб чиқилган “яхши бошқарув” стандартлари муҳим аҳамиятга эга. Ушбу стандартлар шаффофлик, ҳисобдорлик, самарадорлик ва иштирок каби тамойилларни ўз ичига олади. Маҳаллий даражада ушбу тамойилларни жорий этиш инсон қадрини таъминлашга хизмат қилади. Инсон қадрини улуғлашда ижтимоий инновациялар ҳам муҳим роль ўйнайди. Ижтимоий инновациялар жамиятдаги муаммоларни ҳал этишга қаратилган янги ёндашувлар ва ечимлардир. Ижтимоий тадбиркорлик, краудфандинг платформалари ва жамоавий ташаббуслар маҳаллий даражада инсон қадрини оширишга хизмат қилади.

Шу билан бирга, инсон қадрини таъминлашда барқарор ривожланиш тамойили ҳам муҳим аҳамиятга эга. Барқарор ривожланиш иқтисодий ўсиш, ижтимоий адолат ва экологик мувозанатни таъминлашни англатади. Маҳаллий ҳокимият органлари ушбу тамойилларни ўз фаолиятида қўллаган ҳолда жамиятнинг узоқ муддатли тараққиётини таъминлайди. Шу тарзда инсон қадрини улуғлашга қаратилган маҳаллий вакиллик ҳокимияти фаолияти стратегик, институционал ва шахсий омилларнинг уйғунлигига асосланади. Бу жараёнда лидерлик, таълим, ресурсларни тақсимлаш ва глобал тажрибалардан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга бўлиб, жамиятнинг барқарор ва адолатли ривожланишини таъминлашга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Гегель Г.В.Ф. Философия права. – М.: Мысль, 1990. – 524 б.
2. Друкер П. Эффектив раҳбар. – М.: Манн, Иванов ва Фербер, 2019. – 240 б.
3. Кант И. Ахлоқ метафизикасининг асослари. – М.: Мысль, 1999. – 310 б.
4. Луман Н. Ҳокимият. – М.: Праксис, 2001. – 256 б.
5. Патнэм Р. Демократиянинг ишлашини таъминлаш учун. – М.: Ad Marginem, 1996. – 287 б.
6. Ролз Ж. Адолат назарияси. – Новосибирск: Новосибирск университети нашриёти, 1995. – 536 б.
7. Руссо Ж.Ж. Ижтимоий шартнома ҳақида. – М.: Терра-Канон-Пресс, 2000. – 416 б.
8. Токвиль А. де. Америкада демократия. – М.: Прогресс, 1992. – 559 б.
9. Ҳабермас Ю. Коммуникатив амал назарияси. – М.: Весь мир, 2022. – 880 б.
10. Шелер М. Этикада формализм ва материал қадриятлар этикаси // Танланган асарлар. – М.: Гнозис, 1994. – Б. 259–338.

UDK 37.016:57:37.091.26:004.8

BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARINI PISA TOPSHIRIQLARINI SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA LOYIHALASHGA TAYYORLASH

Niyozov Qahramon Adashaliyevich
Namangan davlat universiteti Anatomiya va fiziologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi.
niyozovqahramon@gmail.com
https://orcid.org/0009-0006-8692-3886
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21934829

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini PISA uslubidagi topshiriqlarni sun’iy intellekt ko‘magida loyihalashga tayyorlash uchun zarur metodik shartlar adabiyotlar tahlili asosida yoritildi. Manbalarni qiyoslash shuni ko‘rsatdiki, generativ vositalar kontekst, ma’lumot, savol asosi va distraktorlarning dastlabki variantlarini tez tayyorlashga yordam beradi. Biroq ular topshiriqning konstrukt validligi va biologik aniqligini o‘z-o‘zidan ta’minlamaydi. Shu sababli o‘qituvchi nazorati saqlanadigan olti bosqichli sikl taklif qilindi: topshiriq parametrlarini oldindan belgilash, ishonchli manbalarni tanlash, tuzilmali so‘rov tuzish, ekspert tekshiruvi, kichik sinov va refleksiya. Ushbu sikl metodik tavsiya bo‘lib, uning samaradorligi keyingi empirik tadqiqotda sinovdan o‘tkazilishi lozim.
Kalit so‘zlar: PISA, bo‘lajak biologiya o‘qituvchisi, sun’iy intellekt, topshiriq loyihalash, baholash savodxonligi, ekspert nazorati.

Аннотация. В статье на основе анализа научной литературы рассматриваются методические условия, необходимые для подготовки будущих учителей биологии к проектированию заданий в формате PISA с использованием искусственного интеллекта. Сопоставление источников показало, что генеративные инструменты позволяют быстрее разрабатывать первоначальные варианты контекста, данных, основы задания и дистракторов. Однако сами по себе они не обеспечивают конструктную валидность задания и биологическую точность его содержания. В связи с этим предложен шестиступенчатый цикл, предусматривающий обязательный контроль со стороны преподавателя: предварительное определение параметров задания, отбор надёжных источников, составление структурированного запроса, экспертную проверку, апробацию на малой выборке и рефлексию. Предложенный цикл носит рекомендательный методический характер, поэтому его эффективность должна быть проверена в ходе последующего эмпирического исследования.
Ключевые слова: PISA, будущий учитель биологии, искусственный интеллект, проектирование заданий, оценочная грамотность, экспертный контроль.

Abstract. Drawing on a review of the scientific literature, this article examines the methodological conditions required to prepare pre-service biology teachers to design PISA-style tasks with the support of artificial intelligence. A comparative analysis of the sources showed that generative tools can accelerate the drafting of contexts, data, item stems, and distractors. However, these tools alone cannot ensure the construct validity or biological accuracy of the resulting tasks. Accordingly, a six-stage teacher-supervised cycle is proposed: defining the task parameters in advance, selecting reliable sources, constructing a structured prompt, conducting an expert review, carrying out a small-scale pilot, and reflecting on the results. The proposed cycle is offered as a methodological recommendation, and its effectiveness should be examined in a subsequent empirical study.
Keywords: PISA, pre-service biology teacher, artificial intelligence, task design, assessment literacy, expert oversight.

KIRISH. PISAning tabiiy fanlar yo‘nalishida o‘quvchidan biologik faktni shunchaki eslab aytish emas, ilmiy hodisani izohlash, tadqiqot qanday tuzilganini baholash, ma’lumot va dalillarni talqin qilish hamda ishonchli axborot asosida qaror chiqarish talab etiladi [12. 2023: B. 8–22]. Demak, PISA uslubidagi topshiriq oddiy test savoliga qo‘shimcha murakkablik kiritish bilan yaratilmaydi. Unda baholanadigan kompetensiya, bilim turi, hayotiy vaziyat, kognitiv talab, javob formati va baholash mezoni bir maqsadga xizmat qilishi kerak. Bunday topshiriqni tuzish uchun bo‘lajak biologiya o‘qituvchisi PISA tabiiy fanlar baholashining qamrov doirasini tushunishi va biologik mazmunni dalil bilan ishlashga undaydigan vaziyatga aylantira olishi zarur.

Mahalliy metodik adabiyotlarda tabiiy-ilmiy savodxonlikning tarkibiy qismlari hamda PISA topshiriqlarini biologiya ta’limiga kiritish mezonlari yoritilgan [1. 2024: B. 1–6; 5. 2019: B. 18–67]. O‘quvchilar savodxonligini monitoring qilish metodikasida topshiriqni bajarish, natijani tahlil etish va olingan xulosani dars jarayoniga qaytarish o‘zaro bog‘liq amallar sifatida qaraladi [3. 2023: B. 35–96]. Muallifning avvalgi ishlarida bu tayyorgarlik bo‘lajak biologiya o‘qituvchisining alohida kasbiy malakasi sifatida asoslangan; multimedia vositalari va biologik kontekstli topshiriqlarning metodik imkoniyatlari ham ko‘rsatib berilgan [9. 2024: B. 402–406; 10. 2025: B. 963–966; 11. 2026: B. 1006–1017]. Endi shu izlanishlarning mantiqiy davomi sifatida generativ sun’iy intellektning mazkur malakani rivojlantirishdagi o‘rni va undan foydalanish chegaralarini aniqlash zarur.

O‘zbekistonning sun’iy intellektni 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasida aholi bilimini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy-amaliy faoliyat uchun zarur infratuzilmani yaratish ustuvor yo‘nalishlar qatoriga kiritilgan [13. 2024]. Ammo sun’iy intellekt vositasining ta’limga kirib kelishi uning har bir holatda didaktik jihatdan to‘g‘ri qo‘llanayotganini bildirmaydi. Baholash topshirig‘idagi kichik faktik xato, noaniq shart yoki javob kalitidagi mantiqiy uzilish hatto o‘lchanayotgan kompetensiyani o‘zgartirib yuborishi mumkin. Shu muammodan kelib chiqib, maqolaning maqsadi bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini PISA uslubidagi topshiriqlarni sun’iy intellekt ko‘magida loyihalashga tayyorlashning ilmiy-metodik shartlarini adabiyotlar sintezi asosida belgilashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI METODIKASI

Tadqiqot maqsadli integrativ adabiyotlar sharhi usulida olib borildi. Manbalar uch yo‘nalish bo‘yicha saralandi: PISA tabiiy fanlar baholashining qamrov doirasi va biologik topshiriqlarni loyihalash; savol hamda baholash topshiriqlarini avtomatik yaratish; bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorgarligida generativ sun’iy intellektdan foydalanishning pedagogik va etik shartlari. Tahlilda 2019–2026-yillarda e’lon qilingan taqrizli maqolalar, xalqaro tashkilotlarning rasmiy hujjatlari, O‘zbekistonning tegishli normativ hujjati va mavzuga bevosita aloqador milliy metodik ishlar ustuvor olindi. Faqat avtomatik baholashga bag‘ishlangan, topshiriq yaratish yoki o‘qituvchi tayyorlash masalasiga daxldor bo‘lmagan ishlar tanlovga kiritilmadi.

Tahlil uchun jami 16 manba tanlandi. Har bir manba to‘rtta savol nuqtayi nazaridan o‘rganildi: sun’iy intellekt loyihalashning qaysi ishlarini tezlashtiradi; PISA talablariga muvofiqlik qanday saqlanadi; biologik va psixometrik xatolar qanday aniqlanadi; qaysi qarorlar albatta bo‘lajak o‘qituvchining o‘zi tomonidan qabul qilinishi kerak. Tahlil statistik meta-tahlilni ko‘zlamaydi. Uning vazifasi turli metodlarda olingan dalillarni dissertatsiya mavzusidagi muayyan metodik muammo atrofida mantiqan birlashtirishdir.

TAHLIL NATIJALARI VA MUHOKAMA

Manbalarni qiyoslash avtomatik generatsiyaning eng foydali tomoni bir urinishdayoq tayyor va valid topshiriq berish emasligini ko‘rsatdi. Uning amaliy yutug‘i – ko‘rib chiqish uchun bir nechta qoralama variantni qisqa vaqtda yaratishidir. Kurdi va hammualliflar 93 tadqiqotni qamrab olgan sharhida avtomatik savol generatsiyasi katta topshiriq banklarini tezroq shakllantirishga yordam berishini qayd etgan. Shu bilan birga, tadqiqotlarda savol turlari, kirish ma’lumotlari va sifatni baholash usullari bir-biridan keskin farq qilgan [7. 2020: B. 121–204]. Circi, Hicks va Sikali qirqdan ortiq ishni ko‘rib chiqib, vaqt va xarajatni tejash imkoniyati borligini, ammo keng ko‘lamli qo‘llashda topshiriq sifati hamda uni tekshirish usuli hal qiluvchi bo‘lib qolishini ta’kidlaydi [2. 2023: 858273]. Shu bois samaradorlikni yaratilgan variantlar soni bilan emas, ekspert tekshiruvidan muvaffaqiyatli o‘tgan topshiriqlar ulushi bilan baholash to‘g‘riroqdir.

Katta til modellari bo‘yicha yangi tadqiqotlar ham shu fikrni tasdiqlaydi. Tan va hammualliflar yetti ma’lumotlar bazasidan olingan 60 tadqiqotni tahlil qilib, bunday modellar turli fan, til va formatlarda topshiriq yaratishga moslasha olishini ko‘rsatgan. Biroq ko‘p ishlarda yaratilgan topshiriqlarning sifati va pedagogik asosi yetarlicha tekshirilmagan [14. 2025: B. 317–340]. Biologiyaga oid PISA topshirig‘ida bu kamchilik jiddiy oqibatga olib keladi: savol ravon yozilgan bo‘lsa-da, kerakli kompetensiyani o‘lchamasligi, matnda eskirgan ilmiy ma’lumot berilishi, “to‘g‘ri” javob dalil bilan asoslanmasligi yoki distraktorlar juda sodda bo‘lishi mumkin. Demak, sun’iy intellekt yaratgan matnni tayyor topshiriq emas, ekspert ko‘rib chiqishi kerak bo‘lgan qoralama sifatida qabul qilish lozim.

Generativ vositaning umumiy ta’limiy foydasi PISA topshirig‘ining validligini o‘z-o‘zidan ta’minlamaydi. Tadqiqotlarda undan g‘oya topish, individual yordam ko‘rsatish, tezkor teskari aloqa berish va o‘quv materialini moslashtirish uchun foydalanish mumkinligi qayd etilgan [6. 2023: 102274; 8. 2023: 410]. Ayni paytda noto‘g‘ri axborot, tarafkashlik, maxfiylik, mualliflik huquqi va vositaga ortiqcha tayanish bilan bog‘liq xavflar ham mavjud [4. 2024: B. 460–474; 6. 2023: 102274]. Biologik matndagi bunday xato organizm, ekologik tizim yoki sog‘liq bilan bog‘liq sabab-oqibatni buzib talqin etishi mumkin.

Baholashda esa ortiqcha ishora javobni osonlashtiradi, murakkab til o‘quvchining dalil bilan ishlashiga to‘sqinlik qiladi yoki topshiriq rejalashtirilmagan boshqa bilimni o‘lchay boshlaydi.

Yana bir muhim xulosa shuki, bo‘lajak o‘qituvchiga faqat yaxshi so‘rov yozishni o‘rgatish kifoya emas. UNESCO o‘qituvchining sun’iy intellekt bo‘yicha kompetensiyasini besh yo‘nalishda – inson markazli yondashuv, etika, texnologiyaning asoslari va qo‘llanilishi, sun’iy intellekt pedagogikasi hamda kasbiy rivojlanish doirasida tavsiflaydi [16. 2024: B. 15–39]. UNESCO qo‘llanmasida ma’lumotlar maxfiyligini saqlash, inson qarorining ustuvorligi va vositani pedagogik hamda etik jihatdan tekshirish zarurligi ham alohida ta’kidlangan [15. 2023: B. 13–34]. PISA topshirig‘ini loyihalashda bu talablar biologik manbani qayta tekshirish, o‘lchanadigan kompetensiyani aniq belgilash, model matnidagi yashirin stereotipni sezish, shaxsiy ma’lumotni kiritmaslik va yakuniy qaror uchun mas’uliyatni o‘qituvchida qoldirish orqali amalga oshadi.

Shunday qilib, sun’iy intellekt bo‘lajak o‘qituvchining metodik fikrlashini ham sustlashtirishi, ham rivojlantirishi mumkin. Talaba tayyor matnni tekshirmasdan qabul qilsa, o‘zining loyihalash vazifasini vositaga topshirib qo‘yadi. Aksincha, bir necha variantni PISA mezonlari bo‘yicha solishtirsa, biologik da’volarni asl manba bilan tekshirsa, kognitiv talabni asoslab bersa va aniqlangan xatolarni tuzatsa, sun’iy intellekt tanqidiy tahlil uchun foydali qarama-qarshi namuna bo‘lib xizmat qiladi. Bunday yondashuvda asosiy natija ko‘p savol yaratish emas, yaxshi topshiriqni sifatsizidan ajratish va har bir tahrir qarorini dalillash malakasidir.

TAKLIF ETILAYOTGAN METODIK SIKL

O‘rganilgan manbalar asosida o‘qituvchi nazorati saqlanadigan olti bosqichli metodik sikl ishlab chiqildi. Dastlab talaba topshiriqning asosiy parametrlarini – PISA kompetensiyasi, bilim turi, kontekst, kognitiv talab, javob formati va baholash mezonini – sun’iy intellektga murojaat qilishdan oldin belgilaydi. Masalan, topshiriqni faqat “ekotizim” mavzusi deb ko‘rsatish yetarli emas. Uning maqsadi “mahalliy suv havzasidagi kislorod miqdori haqidagi jadvaldan foydalanib, organizmlar nobud bo‘lishiga doir ikki izohni dalil asosida baholash” tarzida aniq ifodalanishi kerak. Shunda topshiriqni umumiy mavzu emas, o‘quvchi bajarishi lozim bo‘lgan fikrlash faoliyati boshqaradi.

Keyingi bosqichda ishonchli manbalar majmui tayyorlanadi. Talaba darslik, ilmiy maqola, ochiq statistik ma’lumot yoki rasmiy hisobotdan tekshirilgan matn va raqamlarni ajratib oladi. Modeldan umumiy bilimiga tayangan holda javob yozish emas, aynan shu manbalar asosida variant yaratish so‘raladi. Uchinchi bosqichda tuzilmali so‘rov tuziladi: unda auditoriya yoshi, biologik mazmun, PISA kompetensiyasi, kognitiv talab, kontekst hajmi, ma’lumot ko‘rinishi, javob turi, baholash rubrikasi va cheklovlar aniq ko‘rsatiladi. Qiyosiy tahlil uchun bitta javob o‘rniga mazmuni bir xil, ammo dalil tuzilishi yoki kognitiv talabi farq qiladigan uchta variant olish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchi bosqichda topshiriq ikki yo‘nalishda ekspertizadan o‘tkaziladi. Biologik tekshiruv faktlar, terminlar, o‘lchov birliklari, sabab-oqibat bog‘lanishlari va ma’lumotlarning o‘zaro mosligiga qaratiladi. Baholash ekspertizasida esa savolning PISA kompetensiyasiga mosligi, muammoni berilgan dalillar yordamida yechish mumkinligi, kognitiv talab darajasi, javob kaliti va distraktorlar sifati, tilning xolisligi hamda ortiqcha ishoralarning mavjud emasligi tekshiriladi. Har bir tahrir “qaysi mezon buzildi – nima o‘zgartirildi – bu o‘zgarish nimani yaxshiladi” ketma-ketligida qayd etiladi. Natijada talabaning metodik fikrlash jarayoni ham baholash mumkin bo‘lgan dalilga aylanadi.

Beshinchi bosqich kichik sinov va kognitiv suhbatdan iborat. Topshiriqni bir necha tengdosh yoki o‘quvchi bajaradi; suhbat davomida ular javobga qaysi ma’lumot orqali kelgani, savolni qanday tushungani va qayerda noaniqlikka duch kelgani aniqlanadi. Shu yo‘l bilan ekspert ko‘rmay qolishi mumkin bo‘lgan til, kontekst va dalil muammolari ochiladi. Oltinchi bosqichda talaba sun’iy intellekt yaratgan dastlabki variantni, ekspert tahriridan o‘tgan shaklni va sinovdan keyingi topshiriqni o‘zaro solishtiradi. U vosita qaysi ishda foydali bo‘lgani va qaysi nuqtada xatoga moyillik ko‘rsatganini yozma ravishda izohlaydi. Ana shundan keyingina topshiriq o‘quv bankiga kiritiladi.

Olti bosqichli siklni “Biologiya o‘qitish metodikasi”, “Ta’limda baholash”, “Raqamli ta’lim texnologiyalari” fanlari yoki pedagogik amaliyot tarkibiga alohida modul sifatida kiritish mumkin. Talaba portfoliosida faqat yakuniy topshiriq emas, balki konstrukt xaritasi, foydalanilgan manbalar, so‘rovning turli variantlari, sun’iy intellekt javobi, ekspertiza varag‘i, sinov qaydi va refleksiya ham saqlanishi kerak. Bunda ish tezligi asosiy mezon bo‘la olmaydi. Baholash PISA qamrov doirasi talablariga muvofiqlik, biologik ishonchlilik, dalil bilan javob o‘rtasidagi bog‘lanish, tilning xolisligi, tahrir qarorining asoslanganligi va sun’iy intellektdan foydalanishning shaffofligiga tayanishi lozim. Multimedia bilan

ishlash bo‘yicha milliy tajriba portfolioda matn, jadval, grafik va vizual dalillarni uyg‘unlashtirish uchun amaliy asos beradi [10. 2025: B. 963–966].

Taklif qilinayotgan siklning imkoniyatlari bilan birga chegaralarini ham hisobga olish zarur. Til modelining versiyasi yoki so‘rov shakli o‘zgarsa, bir xil natijani qayta olish qiyinlashishi mumkin. Ekspert ma’qullagan topshiriq ham darhol psixometrik jihatdan valid bo‘lib qolmaydi: uning qiyinligi, ajratuvchanligi va turli guruhlar uchun xolisligi yetarli ishtirokchi qatnashgan sinovda aniqlanadi. Mahalliy biologik vaziyat topshiriqni hayotga yaqinlashtiradi, ammo faqat bir hududga oid ma’lumotni bilmagan o‘quvchiga sun’iy to‘siq yaratmasligi kerak. Shu sababli yechim uchun zarur axborot topshiriqning o‘zida beriladi, mahalliy kontekst esa ilmiy dalilni talqin qilishga xizmat qiladi. Siklning haqiqiy samaradorligini nazorat va tajriba guruhlarida topshiriq sifati, ekspertlararo kelishuv va talabalar refleksiyasi asosida tekshirish keyingi tadqiqotning vazifasidir.

XULOSA

Tahlil qilingan manbalarga ko‘ra, generativ sun’iy intellekt PISA uslubidagi biologiya topshiriqlari uchun kontekst, ma’lumot, savol va distraktorlarning bir necha variantini tez tayyorlay oladi. Ammo vositaning o‘zi topshiriq kerakli kompetensiyani o‘lchashini, biologik ma’lumotlar aniq ekanini va savol barcha o‘quvchilarga nisbatan xolis tuzilganini kafolatlamaydi. Shu sababli undan tayyor topshiriq muallifi yoki avtomatik baholovchi sifatida emas, qoralama yaratish va variantlarni qiyoslash vositasi sifatida foydalanish maqsadga muvofiq.

Bo‘lajak biologiya o‘qituvchisini bunday ishga tayyorlash uchun olti bosqichli sikl tavsiya etildi: topshiriq parametrlarini belgilash, ishonchli manbalarni tanlash, tuzilmali so‘rov tuzish, biologik va baholash ekspertizasini o‘tkazish, kichik sinov tashkil etish hamda natijalar ustida refleksiya qilish. Bu jarayon sun’iy intellekt bilan ishlashni PISA talablari, biologik dalillilik va baholash savodxonligi bilan bog‘laydi. Kutiladigan natija ko‘proq savol yaratish emas. Asosiy maqsad – sun’iy intellekt taklifini aniq mezonlar asosida tekshirish, asosli tahrir qilish va yakuniy metodik qaror uchun mas’uliyatni saqlash malakasini rivojlantirishdir. Tavsiya etilgan model hozircha nazariy-metodik xususiyatga ega bo‘lib, keyingi bosqichda empirik sinovdan o‘tkazilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bozorova U. B. Biologiya fanidan PISA topshiriqlarini tuzish metodikasi. Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi, 2024, 5(2), 1–6. https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1336.

2. Circi R., Hicks J., Sikali E. Automatic Item Generation: Foundations and Machine Learning-Based Approaches for Assessments. Frontiers in Education, 2023, 8, 858273. https://doi.org/10.3389/feduc.2023.858273.

3. Ergasheva M., Niyozov Q. A. O‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligi monitoringida baholash dasturlari va topshiriqlaridan foydalanish metodikasi. Toshkent: A. Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti, 2023. 160 b.

4. Farrokhnia M., Banihashem S. K., Noroozi O., Wals A. A SWOT Analysis of ChatGPT: Implications for Educational Practice and Research. Innovations in Education and Teaching International, 2024, 61(3), 460–474. https://doi.org/10.1080/14703297.2023.2195846.

5. Ismailov A. A., Tog‘ayeva G. O., Akbarova S., Asqarova D. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini baholash. Toshkent: Sharq, 2019. 112 b.

6. Kasneci E., Sessler K., Küchemann S., Bannert M., Dementieva D., Fischer F. va boshq. ChatGPT for Good? On Opportunities and Challenges of Large Language Models for Education. Learning and Individual Differences, 2023, 103, 102274. https://doi.org/10.1016/j.lindif.2023.102274.

7. Kurdi G., Leo J., Parsia B., Sattler U., Al-Emari S. A Systematic Review of Automatic Question Generation for Educational Purposes. International Journal of Artificial Intelligence in Education, 2020, 30(1), 121–204. https://doi.org/10.1007/s40593-019-00186-y.

8. Lo C. K. What Is the Impact of ChatGPT on Education? A Rapid Review of the Literature. Education Sciences, 2023, 13(4), 410. https://doi.org/10.3390/educsci13040410.

9. Niyozov Q. A. Methodology for Developing the Skills of Working with the PISA in Future Biology Teachers. Pedagogical Cluster: Journal of Pedagogical Developments, 2024, 2(5), 402–406. https://doi.org/10.5281/zenodo.11402525.

10. Niyozov Q. A. Bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarida xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish malakalarini rivojlantirishda multimedia vositalaridan foydalanish. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2025, 3, 963–966.

11. Niyozov Q. A. PISA uslubidagi biologik kontekstli topshiriqlar asosida o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish metodikasi. 2026, 1006–1017. https://journal.namspi.uz/articleview/834.

12. OECD. PISA 2025 Science Framework. Second Draft. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development, 2023. https://pisa-framework.oecd.org/science-2025/assets/docs/PISA_2025_Science_Framework.pdf.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PQ-358-son qaror, 14.10.2024. https://lex.uz/uz/docs/-7158604.

14. Tan B., Armoush N., Mazzullo E., Bulut O., Gierl M. A Review of Automatic Item Generation Techniques Leveraging Large Language Models. International Journal of Assessment Tools in Education, 2025, 12(2), 317–340. https://doi.org/10.21449/ijate.1602294.

15. UNESCO. Ta’lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatida generativ sun’iy intellekt bo‘yicha qo‘llanma. Mualliflar: Miao F., Holmes W. Parij: UNESCO, 2023. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000393796_uzb.

16. UNESCO. AI Competency Framework for Teachers. Authors: Miao F., Cukurova M. Paris: UNESCO, 2024. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000391104_eng.

ЎЗБЕКИСТОНДА АГРОБИЗНЕСНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ ВА ТЎЛОВ ҚОБИЛИЯТИНИ ТИКЛАШ

Адилов Шерзот Шамильевич
Ўзбекистон Республикаси Давлат активларини бошқариш агентлиги ҳузуридаги хусусийлаштириш ва давлат активларини бошқариш муаммоларини тадқиқ этиш марказининг катта илмий ходими
ТДИУ тадқиқотчиси
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21935008

Аннотация. Мақолада Ўзбекистонда агробизнесни молиялаштиришнинг замонавий ҳолати, молиявий барқарорлик омиллари ва банкротлик хавфини камайтириш масалалари таҳлил қилинган. Молиялаштиришнинг уй хўжаликлари, агробизнес субъектлари ва ҳудудий тизим даражаларидаги таъсири баҳоланган. Кредитлаш, инвестициялаш, давлат қўллаб-қувватлаши ва молиявий соғломлаштириш механизмлари ёритилган. Агробизнес субъектларининг тўлов қобилиятини тиклашга қаратилган беш босқичли модель таклиф этилган. Натижалар самарали молиялаштириш ва молиявий мониторинг банкротлик хавфини камайтириш, бандлик ва аҳоли даромадларини сақлашга хизмат қилишини кўрсатди.

Калит сўзлар: агробизнес, аграр молиялаштириш, молиявий барқарорлик, тўлов қобилияти, банкротлик, молиявий соғломлаштириш, кредитлаш, инвестициялар, қарз юки, бандлик.

Abstract. The article analyzes the current state of agribusiness financing in Uzbekistan, factors of financial stability, and mechanisms for reducing bankruptcy risks. The impact of financing at the household, agribusiness entity and regional levels is assessed. Lending, investment, state support and financial recovery mechanisms are considered. A five-stage model for restoring the solvency of agribusiness entities is proposed. The results show that effective financing and financial monitoring can reduce bankruptcy risks and contribute to maintaining employment and household incomes.

Keywords: agribusiness, agricultural finance, financial stability, solvency, bankruptcy, financial recovery, lending, investment, debt burden, employment.

Аннотация. В статье анализируется современное состояние финансирования агробизнеса в Узбекистане, факторы финансовой устойчивости и механизмы снижения риска банкротства. Оценено влияние финансирования на уровне домохозяйств, субъектов агробизнеса и региональной системы. Рассмотрены механизмы кредитования, инвестирования, государственной поддержки и финансового оздоровления. Предложена пятиэтапная модель восстановления платежеспособности субъектов агробизнеса. Результаты показывают, что эффективное финансирование и финансовый мониторинг способствуют снижению риска банкротства, сохранению занятости и доходов населения.

Ключевые слова: агробизнес, аграрное финансирование, финансовая устойчивость, платежеспособность, банкротство, финансовое оздоровление, кредитование, инвестиции, долговая нагрузка, занятость.

1. Кириш. Аграр тармоқ Ўзбекистон иқтисодиётининг муҳим соҳаси бўлиб, озиқ-овқат хавфсизлиги, аҳоли бандлиги, қишлоқ ҳудудларини ривожлантириш ва экспорт салоҳиятини оширишда муҳим ўрин тутади. Шу боис агробизнес субъектларини самарали молиялаштириш иқтисодий сиёсатнинг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади.

Сўнгги йилларда кредитлаш, инвестициялар, субсидиялар ва имтиёзли молиялаштириш имкониятлари кенгайган бўлса-да, юқори қарз юки, айланма маблағлар етишмаслиги, ишлаб чиқаришнинг мавсумийлиги ва бозор нархларининг ўзгарувчанлиги айрим субъектларда молиявий қийинчиликларни юзага келтирмоқда. Бу ҳолат тўлов қобилиятининг пасайиши ва банкротлик хавфининг ортишига олиб келиши мумкин.

Тадқиқотнинг мақсади Ўзбекистонда агробизнесни молиялаштириш ҳолатини баҳолаш, молиявий барқарорлик ва банкротлик хавфига таъсир этувчи омилларни аниқлаш ҳамда тўлов қобилиятини тиклаш механизмларини ишлаб чиқишдан иборат. Тадқиқотда иқтисодий-статистик, қиёсий, тизимли таҳлил ва молиявий коэффициентлар усулларидан фойдаланилди.

2. Агробизнесни молиялаштиришнинг назарий ва амалий асослари

Агробизнесни молиялаштириш корхоналарнинг ишлаб чиқариш, инвестиция ва айланма маблағларга бўлган эҳтиёжини қоплашга хизмат қилувчи молиявий муносабатлар тизими бўлиб, кредит, инвестиция, лизинг, субсидия ва бошқа молиявий инструментлар орқали амалга оширилади.

Хорижий тадқиқотларда корхоналарнинг молиявий ҳолати ва банкротлик хавфини баҳолаш масалалари кенг ўрганилган. W. Beaver молиявий коэффициентлардан фойдаланиш корхоналарда молиявий қийинчиликларни эрта аниқлаш имконини беришини асослаган [6. 1966: P.71]. E. Altman эса молиявий коэффициентлар асосида корхоналарнинг банкротлик эҳтимолини баҳолаш имконини берувчи Z-score моделини таклиф этган [5. 1968: Б.589].

Altman ёндашувида ликвидлик, рентабеллик, қарз юки ва активлардан фойдаланиш самарадорлиги корхонанинг молиявий барқарорлигини баҳолашда муҳим кўрсаткичлар сифатида қаралади. Мазкур ёндашувни агробизнес субъектларига мослаштириш молиявий қийинчиликларни эрта аниқлаш имконини беради.

T. Beck ва A. Demirgüç-Kunt молиявий ресурсларга кириш имконияти корхоналарнинг иқтисодий фаоллиги ва ривожланишида муҳим омил эканлигини таъкидлайди [7. 2006: Б.2931]. Бу ёндашув агробизнес субъектларининг кредит ва инвестиция ресурсларидан фойдаланиш имкониятларини кенгайтириш зарурлигини кўрсатади.

Аграр соҳада молиявий рисклар табиий-иқлимий шароитлар, ҳосилдорлик, маҳсулот нархлари ва ташқи иқтисодий омилларга боғлиқлиги билан ажралиб туради. Шунинг учун агробизнесда молиялаштириш билан бир қаторда молиявий рискларни бошқариш ва банкротликни эрта аниқлаш механизмларини ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга.

3. Агробизнесни молиялаштиришнинг замонавий ҳолати

Тадқиқотда агробизнесни молиялаштиришни баҳолаш учун уй хўжаликлари, агробизнес субъектлари ва ҳудудий тизимни қамраб олган уч даражали ёндашув таклиф этилди.

Агробизнесни молиялаштиришни баҳолаш даражалари.

Жадвал-1.

Даража	Объект	Асосий кўрсаткичлар
I	Уй хўжаликлари	Даромадлар, активлар, қарз юки, молиявий хизматлар
II	Агробизнес субъектлари	Ликвидлик, тўлов қобилияти, рентабеллик, кредитлар
III	Ҳудудий тизим	Бандлик, ишлаб чиқариш, инвестициялар, даромадлар

Уй хўжаликлари даражасида даромадларнинг мавсумийлиги молиявий хизматларга бўлган эҳтиёжни оширади. Агробизнес субъектларида кредит ва инвестиция ресурсларидан фойдаланиш ишлаб чиқаришни кенгайтириш имконини берса-да, юқори қарз юки молиявий барқарорликка салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

Ҳудудий даражада агробизнеснинг молиявий ҳолати бандлик, ишлаб чиқариш ва аҳоли даромадлари билан узвий боғлиқ. Шу сабабли агробизнес субъектларининг молиявий муаммолари алоҳида корхона доирасидаги масала эмас, балки ҳудудий иқтисодий фаолликка таъсир этувчи омил сифатида баҳоланиши лозим.

4. Агробизнес субъектларининг молиявий соғломлаштириш воситалари

Молиявий соғломлаштириш агробизнес субъектларининг тўлов қобилиятини тиклаш, қарз юкини камайтириш ва банкротлик хавфини пасайтиришга қаратилган молиявий, ташкилий ва иқтисодий чора-тадбирлар мажмуидир.

Тадқиқотда қуйидаги асосий воситалар ажратилди:

Молиявий соғломлаштириш воситалари.

Жадвал-2.

№	Восита	Асосий мазмуни
1	Қарзларни реструктуризация қилиш	Тўлов муддатларини қайта кўриб чиқиш
2	Харажатларни оптималлаштириш	Ортиқча харажатларни қисқартириш
3	Инвестиция жалб қилиш	Инвестиция, субсидия ва грантлардан фойдаланиш

4	Модернизация	Технология ва меҳнат унумдорлигини ошириш
5	Рақамли бошқарув	Электрон ҳисоб ва молиявий мониторинг
6	Рискларни бошқариш	Суғурта ва форвард механизмларидан фойдаланиш

Молиявий соғломлаштиришда асосий эътибор муаммони бартараф этишдан кўра, банкротлик хавфини эрта аниқлаш ва профилактика қилишга қаратилиши лозим. Бунда ликвидлик, қарз юки, рентабеллик, молиявий мустақиллик ва пул оқимларини мунтазам мониторинг қилиш мақсадга мувофиқ.

Ўзбекистонда молиявий соғломлаштиришнинг ҳуқуқий асосини “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги Қонун [1. 2022] ва “Қишлоқ хўжалиги корхоналарини санация қилиш тўғрисида”ги Қонун ташкил этади [2. 1997]. Ушбу ҳужжатларда тўлов қобилиятини тиклаш, санация ва қарздорликни тартибга солишга қаратилган механизмлар белгиланган.

5. Агробизнес субъектларининг тўлов қобилиятини тиклаш модели

Тадқиқотда агробизнес субъектларининг молиявий ҳолатини тиклашга қаратилган беш босқичли модель таклиф этилди.

Тўлов қобилиятини тиклаш модели.

Жадвал-3.

Босқич	Номи	Асосий чоралар
1	Молиявий диагностика	Ликвидлик, қарзлар ва банкротлик хавфини баҳолаш
2	Антикризис стратегия	Тикланиш ва молиялаштириш манбаларини белгилаш
3	Ликвидликни тиклаш	Қарзларни реструктуризация қилиш, пул оқимларини оптималлаштириш
4	Барқарорликни мустаҳкамлаш	Инвестиция, модернизация ва харажатларни оптималлаштириш
5	Мониторинг ва назорат	KPI асосида молиявий ҳолатни баҳолаш

Моделнинг асосий хусусияти молиявий муаммоларни банкротлик босқичига етказмасдан эрта аниқлашдан иборат. Шу асосда субъектларни шартли равишда барқарор, хавф остидаги ва инқироз ҳолатидаги гуруҳларга ажратиш мумкин.

Барқарор субъектлар учун профилактик мониторинг, хавф остидаги субъектлар учун қарзларни реструктуризация қилиш ва харажатларни оптималлаштириш, инқироз ҳолатидаги субъектлар учун эса комплекс молиявий соғломлаштириш чораларини қўллаш мақсадга мувофиқ.

Мазкур ёндашув Altman [5. 1968: Б.589] ва Beaver [6. 1966: Б.71] томонидан асосланган молиявий коэффициентлар асосида эрта огоҳлантириш тамойилларини агробизнес шароитига мослаштириш имконини беради.

6. Молиявий соғломлаштиришнинг ижтимоий-иқтисодий самараси

Агробизнес субъектларининг молиявий барқарорлиги нафақат корхона фаолиятига, балки қишлоқ ҳудудларининг ижтимоий-иқтисодий ҳолатига ҳам таъсир кўрсатади. Молиявий соғломлаштириш натижасида тўлов қобилияти тикланади, ишлаб чиқариш ва бандлик сақланади, аҳоли даромадлари барқарорлашади, инвестиция фаоллиги ошади ва банкротлик хавфи камаяди.

Мазкур жараён Ўзбекистонда камбағалликни қисқартириш ва аҳоли бандлигини таъминлаш сиёсати билан узвий боғлиқ. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 мартдаги ПФ-5975-сон “Иқтисодиётни ривожлантириш ва камбағалликни қисқартиришга оид давлат сиёсатини тубдан янгилаш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармонида аҳоли даромадлари ва бандлигини оширишга қаратилган вазифалар [3. 2020], шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида бўлиб ўтган 2026 йил 23 январдаги видеоселектор йиғилишида камбағалликни қисқартириш ва бандликни таъминлаш бўйича устувор вазифалар белгиланди [4. 2026].

Шу боис молиявий соғломлаштиришни нафақат корхонани тиклаш воситаси, балки қишлоқ ҳудудларида бандлик, даромадлар ва иқтисодий фаолликни сақлаш механизми сифатида ҳам баҳолаш мақсадга мувофиқ.

7. Муҳокама

Тадқиқот натижалари агробизнес субъектларининг молиявий барқарорлигини таъминлаш фақат кредит ажратиш билан чекланмаслигини кўрсатди. Молиялаштириш самарадорлиги ажратилган маблағлар ҳажми билан эмас, балки уларнинг ишлаб чиқариш, рентабеллик ва тўлов қобилиятига таъсири билан баҳоланиши лозим.

Аграр соҳанинг табиий-иқлимий ва бозор хавфларига боғлиқлиги кредитлаш билан бир қаторда суғурта, форвард шартномалари, лизинг ва бошқа рискларни бошқариш воситаларини ривожлантиришни талаб этади.

“Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги Қонун ва “Қишлоқ хўжалиги корхоналарини санация қилиш тўғрисида”ги Қонун агробизнес субъектларининг молиявий қийинчиликларини бартараф этиш учун ҳуқуқий асос яратади. Давлат томонидан имтиёзли кредит, субсидия ва кафиллик механизмларидан фойдаланиш эса молиявий барқарорликни қўллаб-қувватлаши мумкин.

Шунингдек, рақамли молиявий мониторинг муаммоларни эрта аниқлаш ва ўз вақтида бошқарув қарорларини қабул қилиш имконини беради. Мазкур ёндашувлар иқтисодиётни ривожлантириш, камбағалликни қисқартириш ва бандликни таъминлаш бўйича давлат сиёсати устуворликларига мос келади.

8. Хулоса

Тадқиқот натижалари Ўзбекистонда агробизнес субъектларининг молиявий барқарорлигини таъминлаш самарали молиялаштириш, молиявий соғломлаштириш ва банкротлик хавфини эрта аниқлаш механизмларини комплекс қўллашни талаб этишини кўрсатди. Асосий молиявий хавфлар юқори қарз юки, айланма маблағлар етишмаслиги, харажатлар самарадорлигининг пастлиги ва инвестиция ресурсларига чекланган кириш имкониятлари билан боғлиқ.

Агробизнес субъектларининг барқарорлигини ошириш учун қарзларни реструктуризация қилиш, харажатларни оптималлаштириш, инвестиция жалб этиш, ишлаб чиқаришни модернизациялаш, рақамли молиявий бошқарув ва рискларни суғурталаш механизмларини кенгайтириш мақсадга мувофиқ. Бунда ликвидлик, қарз юки, рентабеллик, молиявий мустақиллик ва пул оқимларини мунтазам мониторинг қилиш банкротлик хавфини эрта аниқлаш имконини беради.

Тадқиқотда таклиф этилган беш босқичли модель — молиявий диагностика → антикризис стратегия → ликвидликни тиклаш → молиявий барқарорликни мустаҳкамлаш → мониторинг ва назорат — агробизнес субъектларининг тўлов қобилиятини тиклаш ва молиявий барқарорлигини оширишга қаратилган.

Шу билан бирга, тўловга қобилиятсизлик, санация ва давлат томонидан қўллаб-қувватлашга оид ҳуқуқий механизмларни молиявий интизом ва иқтисодий самарадорлик билан уйғунлаштириш муҳимдир. Бу ёндашув давлат ресурсларидан самарали фойдаланиш, агробизнес субъектларининг рақобатбардошлигини ошириш ва банкротлик хавфини камайтириш имконини беради.

Умуман, агробизнесни молиялаштириш тизимини такомиллаштириш корхоналарнинг молиявий барқарорлиги ва рақобатбардошлигини ошириш, банкротлик хавфини камайтириш, ишлаб чиқариш ва бандликни сақлаш, аҳоли даромадларини барқарорлаштириш ҳамда қишлоқ ҳудудларининг барқарор иқтисодий ривожланишини таъминлашнинг муҳим шарти ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 12 апрелдаги ЎРҚ-763-сон “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 2022.

2. Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 25 декабрдаги ЎРҚ-535-I-сон “Қишлоқ хўжалиги корхоналарини санация қилиш тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 1997.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 мартдаги ПФ-5975-сон “Иқтисодиётни ривожлантириш ва камбағалликни қисқартиришга оид давлат сиёсатини тубдан янгилаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. – Тошкент, 2020.

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида камбағалликни қисқартириш ва аҳоли бандлигини таъминлаш соҳасидаги устувор вазифаларга бағишланган видеоселектор йиғилиши. – Тошкент, 2026 йил 23 январь.

5. Altman E.I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy // The Journal of Finance. – 1968. – Vol. 23, No. 4. – P. 589–609.

6. Beaver W.H. Financial Ratios as Predictors of Failure // Journal of Accounting Research. – 1966. – Vol. 4. – P. 71–111.

7. Beck T., Demirgüç-Kunt A. Small and Medium-Size Enterprises: Access to Finance as a Growth Constraint // Journal of Banking & Finance. – 2006. – Vol. 30, No. 11. – P. 2931–2943.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QUVCHILARNI INDIVIDUAL RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

A.A.Alimov
Karakul International school NTMda o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari
https://orcid.org/0009-0008-3864-2048
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21935028

Annotatsiya.Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim sharoitida raqamli texnologiyalar asosida o‘quvchilarni individual rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ta’lim jarayonini raqamlashtirish sharoitida o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish sur’ati, qiziqishi, individual ta’lim ehtiyojlari va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish uchun yangi pedagogik imkoniyatlar yuzaga kelayotganligi asoslangan. Raqamli ta’lim platformalari, adaptiv ta’lim texnologiyalari, elektron portfolio, ta’lim analitikasi, sun’iy intellekt elementlari va raqamli teskari aloqa vositalarining o‘quvchi individual rivojlanishiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanishda pedagogning roli, o‘quvchi faolligi, raqamli kompetentlik, axborot xavfsizligi va pedagogik maqsadga muvofiqlik masalalariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, individual rivojlanish, raqamli ta’lim, adaptiv ta’lim, ta’lim analitikasi, elektron portfolio, sun’iy intellekt, raqamli kompetentlik, individual ta’lim trayektoriyasi, umumiy o‘rta ta’lim.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimiga jadal kirib kelishi o‘qitish va o‘rganish jarayonining mazmuni, shakllari hamda metodlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Avval ta’lim jarayonida o‘quvchi uchun yagona o‘quv mazmuni va umumiy topshiriqlar tizimi ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, raqamli muhit har bir o‘quvchining imkoniyati, qiziqishi, tayyorgarlik darajasi va o‘zlashtirish sur’atini hisobga olish uchun kengroq sharoit yaratmoqda. Ayniqsa, raqamli ta’lim platformalarining rivojlanishi o‘quvchining individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish, uning rivojlanish dinamikasini kuzatish va ta’lim mazmunini ehtiyojga qarab moslashtirish imkonini bermoqda.

UNESCO tomonidan ta’limda texnologiyalardan foydalanish masalasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar ta’limga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi bilan birga, ularning samarasi texnologiyaning o‘zidan ko‘ra, undan qanday pedagogik maqsadda va qanday sharoitda foydalanilishiga bog‘liqligi ta’kidlangan. Demak, raqamlashtirishning asosiy vazifasi o‘qituvchini texnologiya bilan almashtirish emas, balki pedagogik jarayonning imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli texnologiyalar asosida o‘quvchilarni individual rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘quvchining individual rivojlanishi uning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarining miqdoriy o‘sishi bilan cheklanmaydi. Individual rivojlanish o‘quvchining bilish faoliyati, mustaqil fikrlashi, motivatsiyasi, ijodkorligi, kommunikativ qobiliyati, o‘zini o‘zi boshqarishi va refleksiv ko‘nikmalaridagi ijobiy o‘zgarishlarni ham qamrab oladi.

Raqamli texnologiyalar ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlash uchun bir necha muhim imkoniyatlarni yaratadi. Birinchidan, o‘quv materiallarini turli shakllarda taqdim etish mumkin. Matn, audio, video, animatsiya, interaktiv topshiriq va virtual modellar o‘quvchilarning turli o‘rganish ehtiyojlarini hisobga olishga yordam beradi. Ikkinchidan, o‘quvchi materialni o‘zlashtirish tezligini ma’lum darajada mustaqil belgilashi mumkin. Uchinchidan, raqamli platformalar o‘quvchining faoliyati haqida muntazam ma’lumot to‘plash va uning rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

OECDning raqamli ta’lim bo‘yicha tadqiqotlarida raqamli vositalar ta’limni individuallashtirish, o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos ta’lim resurslarini tanlash va ta’lim jarayonida tezkor teskari aloqa tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirishi qayd etilgan.

Shu sababli raqamli texnologiyalar individual rivojlanishning bevosita maqsadi emas, balki ushbu maqsadga erishishni ta’minlovchi pedagogik vosita sifatida qaralishi lozim.

O‘quvchilarni individual rivojlantirishda adaptiv ta’lim texnologiyalari alohida ahamiyatga ega. Adaptiv ta’lim tizimlari o‘quvchining avvalgi natijalari, topshiriqlarni bajarish tezligi va xatolari asosida keyingi o‘quv materiallarini moslashtirish imkonini beradi.

Masalan, muayyan mavzuni o‘zlashtirishda yuqori natija ko‘rsatgan o‘quvchiga murakkabroq va ijodiy topshiriqlar taqdim etilishi mumkin. Aksincha, o‘quvchi asosiy tushunchalarni egallashda

qiyinchilikka duch kelsa, tizim unga qo‘shimcha tushuntirish, namunaviy topshiriqlar yoki soddalashtirilgan mashqlarni taklif qilishi mumkin. Bunday yondashuv o‘quvchilarning bir xil o‘quv materialini bir xil tezlikda o‘zlashtirishini kutishdan ko‘ra, ularning individual rivojlanish sur’atlarini hisobga olish imkonini beradi.

Adaptiv ta’limning pedagogik qiymati ayniqsa diagnostika va rivojlantirish jarayonlarining bir-biri bilan bog‘lanishida namoyon bo‘ladi. O‘quvchining xatosi tizim tomonidan qayd etiladi, xatoning xarakteri tahlil qilinadi va unga mos keyingi topshiriq tanlanadi. Natijada “diagnostika – moslashtirish – o‘rganish – qayta diagnostika” sikli shakllanadi.

O‘quvchilar individual rivojlanishini ta’minlashda elektron portfolio ham samarali vosita bo‘lishi mumkin. Elektron portfolio o‘quvchining ma’lum vaqt davomida bajargan ishlari, loyihalari, ijodiy mahsulotlari, sertifikatlari, refleksiv yozuvlari va boshqa ta’limiy natijalarini tizimli ravishda jamlash imkonini beradi.

An’anaviy baho ko‘pincha o‘quvchining ma’lum vaqtdagi natijasini ifodalaydi. Elektron portfolio esa o‘quvchining rivojlanish jarayonini dinamik ko‘rinishda aks ettiradi. Masalan, o‘quvchining dastlabki yozma ishlaridan boshlab keyingi ijodiy ishlargacha bo‘lgan materiallarni taqqoslash orqali uning yozma nutqi, mustaqil fikrlashi yoki ijodiy yondashuvidagi o‘zgarishlarni aniqlash mumkin.

Bundan tashqari, elektron portfolio o‘quvchining o‘z rivojlanishini anglashiga ham yordam beradi. O‘quvchi avvalgi va keyingi natijalarini taqqoslab, qaysi jihatlarda rivojlanganini va qaysi yo‘nalishlarda qo‘shimcha ishlashi zarurligini tushunadi. Bu esa refleksiv kompetensiyaning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli texnologiyalarning muhim imkoniyatlaridan biri ta’lim analitikasi bilan bog‘liq. Ta’lim analitikasi o‘quvchilarning raqamli muhitdagi faoliyati haqida to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilish orqali ularning o‘rganish jarayoni va natijalarini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

O‘quvchining platformaga kirish chastotasi, topshiriqlarni bajarish vaqti, qayta urinishlar soni, xatolar xarakteri, o‘quv materiallaridan foydalanish ketma-ketligi kabi ma’lumotlar uning ta’lim faoliyati haqida qo‘shimcha tasavvur hosil qiladi. Mazkur ma’lumotlar o‘qituvchiga o‘quvchining qaysi mavzularda qiyinchilikka duch kelayotganini yoki qaysi topshiriqlarni yuqori darajada bajarayotganini aniqlash imkonini beradi.

Biroq raqamli ma’lumotlarni pedagogik talqinsiz qo‘llash noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Masalan, o‘quvchining platformaga kam kirishi uning ta’limga qiziqishi pastligini anglatmasligi mumkin. U boshqa manbalardan foydalanayotgan yoki texnik imkoniyatlari cheklangan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Shu sababli ta’lim analitikasi natijalari o‘qituvchining kuzatuvi, suhbat va boshqa diagnostik usullar bilan birgalikda talqin qilinishi kerak.

Sun’iy intellektning ta’lim jarayoniga kirib kelishi o‘quvchilarni individual rivojlantirishning yangi imkoniyatlarini yuzaga keltirmoqda. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar o‘quvchilarning javoblarini tahlil qilish, individual tavsiyalar berish, o‘quv materiallarini moslashtirish va tezkor teskari aloqa taqdim etish kabi funksiyalarni bajarishi mumkin.

Bunday texnologiyalardan foydalanish, ayniqsa, katta sinflarda o‘quvchilarning individual rivojlanishini kuzatish imkoniyatlarini kengaytiradi. O‘qituvchi barcha o‘quvchilarning har bir topshirig‘ini chuqur tahlil qilishga vaqt jihatidan qiynalishi mumkin. Raqamli tizim esa dastlabki analitik ishlovni bajarib, o‘qituvchiga qaysi o‘quvchilarga ko‘proq e’tibor qaratish kerakligi haqida ma’lumot berishi mumkin.

UNESCO generativ sun’iy intellekt va ta’lim masalalariga bag‘ishlangan tavsiyalarida sun’iy intellektdan foydalanishda pedagogik maqsad, inson nazorati, ma’lumotlar xavfsizligi va ta’lim oluvchilarning manfaatlarini himoya qilish tamoyillariga amal qilish zarurligini ta’kidlaydi.

Shu sababli sun’iy intellekt o‘qituvchining o‘rnini egallovchi vosita sifatida emas, balki o‘qituvchining diagnostik va metodik faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi texnologiya sifatida qaralishi lozim.

O‘quvchining individual rivojlanishini ta’minlashda individual ta’lim trayektoriyasi alohida ahamiyatga ega. Individual ta’lim trayektoriyasi o‘quvchining mavjud tayyorgarligi, qiziqishlari, rivojlanish ehtiyojlari va istiqboldagi maqsadlari asosida tashkil etiladigan ta’limiy harakatlar tizimini anglatadi.

Raqamli muhit bunday trayektoriyani shakllantirishni ancha qulaylashtiradi. O‘quvchiga turli darajadagi topshiriqlar, qo‘shimcha elektron resurslar, mustaqil ta’lim materiallari va individual rivojlanish vazifalarini taqdim etish mumkin. Bunda o‘quvchi o‘zining ta’lim faoliyatida nisbatan faol subyektga aylanadi.

Individual trayektoriyaning samaradorligi uchta asosiy jarayonning uzviy bog‘liqligiga asoslanadi: o‘quvchining diagnostik holatini aniqlash, mos ta’lim mazmunini tanlash va rivojlanish natijasini monitoring qilish. Raqamli texnologiyalar ushbu uch jarayonni yagona tizimda birlashtirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalarning mavjudligi o‘z-o‘zidan individual rivojlanishni ta’minlamaydi. Texnologiyadan samarali foydalanish uchun muayyan pedagogik shartlar yaratilishi zarur. Avvalo, raqamli vosita aniq pedagogik maqsadga xizmat qilishi kerak. O‘qituvchi “qaysi texnologiyadan foydalanaman?” degan savoldan oldin “o‘quvchining qaysi rivojlanish ehtiyojini hal qilaman?” degan savolni qo‘yishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, o‘qituvchining raqamli kompetentligini rivojlantirish zarur. Raqamli vositalardan foydalanish texnik ko‘nikma bilan cheklanmasdan, raqamli ma’lumotlarni pedagogik jihatdan talqin qilish va ular asosida ta’limni moslashtirish qobiliyatini ham qamrab olishi kerak.

Uchinchidan, o‘quvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish zarur. O‘quvchi raqamli vositalardan faqat tayyor javob olish uchun emas, balki ma’lumot izlash, tahlil qilish, ijodiy mahsulot yaratish, muloqot qilish va o‘z ta’limini boshqarish uchun foydalanishi lozim.

To‘rtinchidan, raqamli xavfsizlik va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish masalalariga e’tibor berish kerak. O‘quvchilarning shaxsiy va ta’limiy ma’lumotlari bilan ishlashda maxfiylik tamoyillariga rioya qilinishi zarur.

Raqamli texnologiyalar umumiy o‘rta ta’limda o‘quvchilarni individual rivojlantirish uchun keng pedagogik imkoniyatlarni yaratmoqda. Raqamli ta’lim platformalari, adaptiv ta’lim tizimlari, elektron portfolio, ta’lim analitikasi va sun’iy intellekt vositalari o‘quvchining individual ta’lim ehtiyojlarini aniqlash, ta’lim mazmunini moslashtirish, tezkor teskari aloqa berish va rivojlanish dinamikasini kuzatish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Biroq raqamli texnologiyalarni ta’limga joriy etishning o‘zi individual rivojlanishni kafolatlamaydi. Texnologiya pedagogik maqsad bilan uyg‘unlashgan, o‘quvchining yosh va individual xususiyatlariga mos hamda o‘qituvchining professional faoliyati bilan birlashtirilgan taqdirdagina yuqori natija berishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli texnologiyalar asosida o‘quvchilarni individual rivojlantirishni “texnologiya – o‘quvchi” munosabati doirasida emas, balki “diagnostika – raqamli tahlil – individual ta’lim mazmuni – teskari aloqa – refleksiya – monitoring” kabi o‘zaro bog‘liq pedagogik jarayonlar tizimi sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Kelgusida ushbu yo‘nalishda o‘quvchilarning individual rivojlanish profilini shakllantiruvchi raqamli diagnostika modeli, individual rivojlanish indikatorlari va raqamli pedagogik monitoring mexanizmlarini ishlab chiqish umumiy o‘rta ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education – A Tool on Whose Terms? Paris: UNESCO, 2023.

OECD. Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. Paris: OECD Publishing, 2023.

UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023.

OECD. Education at a Glance 2024: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing, 2024.

Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.

Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.

Luckin R., Holmes W., Griffiths M., Forcier L. B. Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. London: Pearson, 2016.

Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. 2nd ed. London: Bloomsbury Academic, 2017.

Siemens G., Long P. Penetrating the Fog: Analytics in Learning and Education. EDUCAUSE Review, 2011. Vol. 46, No. 5. P. 30–32.

World Bank. Reimagining Human Connections: Technology and Education. Washington, DC: World Bank, 2023.

UDK 37.013.42:316.4.051.63

KATTA AVLOD TAJRIBASI ASOSIDA O‘QUVCHILAR TA’LIM-TARBIYASINING INNOVATSION PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Niyozova Nilufarxon Abdulhamidovna
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: nilufarniyozova793@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-3560-8150
Science ID: MNM-0526-0243
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21935061

Annotatsiya. Maqolada xalqaro, MDH va milliy manbalar asosida katta avlodning hayotiy hamda kasbiy tajribasini o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasiga kiritish shartlari tahlil qilindi. Integrativ tahlil asosida tajribani saralash, avlodlararo hamkorlikni tashkil etish, refleksiya va natijani baholashni birlashtiruvchi to‘rt komponentli mexanizm taklif etildi. Katta avlod tajribasi avtomatik ravishda tarbiyaviy mazmunga aylanmasligi, u pedagogik maqsad, yoshga moslik, daliliy ishonchlilik va o‘zaro hurmat mezonlari asosida vositalanishi zarurligi asoslandi. Model maktab, oila va mahalla hamkorligida mentorlik, hayotiy hikoya, qo‘shma loyiha hamda raqamli hikoyachilikni tizimli qo‘llashga yo‘naltirilgan.

Kalit so‘zlar: katta avlod tajribasi, avlodlararo ta’lim, pedagogik mexanizm, mentorlik, refleksiya, maktab-oila-mahalla hamkorligi.

Аннотация. В статье на основе международных, национальных источников и публикаций стран СНГ проанализированы условия включения жизненного и профессионального опыта старшего поколения в обучение и воспитание учащихся. Интегративный анализ позволил предложить четырехкомпонентный механизм, объединяющий отбор опыта, организацию межпоколенческого сотрудничества, рефлексию и оценивание результатов. Обосновано, что жизненный опыт приобретает воспитательное значение только после педагогического опосредования с учетом цели, возраста учащихся, достоверности и взаимного уважения. Модель ориентирована на системное использование наставничества, жизненных историй, совместных проектов и цифрового сторителлинга во взаимодействии школы, семьи и махалли.

Ключевые слова: опыт старшего поколения, межпоколенческое обучение, педагогический механизм, наставничество, рефлексия, сотрудничество школы, семьи и махалли.

Abstract. Drawing on international, CIS, and national sources, the article examines the conditions for integrating older generations’ life and professional experience into student education. An integrative analysis informed a four-component mechanism combining experience selection, intergenerational cooperation, reflection, and outcome assessment. The analysis shows that lived experience does not become educational content automatically; it requires pedagogical mediation based on a clear purpose, age appropriateness, factual reliability, and mutual respect. The proposed model supports the systematic use of mentoring, life stories, collaborative projects, and digital storytelling through school-family-mahalla cooperation.

Keywords: older generations’ experience, intergenerational learning, pedagogical mechanism, mentoring, reflection, school-family-mahalla cooperation.

KIRISH. Jamiyatning tez o‘zgarishi avlodlar o‘rtasidagi bilim almashuvini murakkablashtirmoqda. O‘quvchi raqamli axborotni tez topishi mumkin, biroq mehnat madaniyati, mas’uliyat, muammoli vaziyatda qaror qabul qilish, sabr va ijtimoiy hamjihatlik kabi hayotiy sifatlar tayyor ma’lumot shaklida o‘zlashtirilmaydi. Ular real tajriba, kuzatish, muloqot va shaxsiy xulosa chiqarish orqali shakllanadi. Shu nuqtada katta avlod vakillarining oilaviy, kasbiy va fuqarolik tajribasi maktab tarbiyasini hayot bilan bog‘laydigan muhim ijtimoiy-pedagogik resursga aylanadi.

O‘zbekistonda masalaning me’yoriy asosi izchil shakllangan. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi oila, ta’lim muassasasi va mahalla hamkorligi, milliy tarbiyaviy merosni avloddan avlodga yetkazish hamda natijani indikatorlar asosida baholashni belgilaydi [15. 2019:5, 7, 67 va 69-bandlar]. Vazirlar Mahkamasining 816-son qarorida nuroniylarning boy hayotiy tajribasi, amaliy bilim va ko‘nikmalarini umumta’lim maktablaridagi uchrashuvlar va tarbiyaviy soatlar orqali yoshlarga yetkazish nazarda tutilgan [14. 2019:13-band]. PQ–92-son qaror esa “Bir nuroniy o‘n yoshga mas’ul” tamoyilini va

tajribali nuroniylarni ta’lim muassasalariga biriktirishni joriy etgan [13. 2023:4-band]. Demak, institutsional imkoniyat mavjud; muammo uni bir martalik tadbirdan maqsad, hamkorlik faoliyati, refleksiya va baholashga tayangan pedagogik tizimga o‘tkazishdadir.

Xalqaro adabiyotlarda avlodlararo dasturlar yoshlar va katta avlod vakillarini umumiy maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatda birlashtiradigan tizimli tashabbuslar sifatida izohlanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar maktablaridagi tajribalar bunday faoliyatni ijtimoiy xizmat, o‘quv mazmuni va mahalliy hamjamiyat ehtiyojlari bilan bog‘lash mumkinligini ko‘rsatadi [1. 2003:B.151–165]. Maktabga asoslangan dasturlar o‘quv mazmunini boyitishi, o‘quvchining shaxsiy rivojlanishiga xizmat qilishi va jamoa bilan aloqani kuchaytirishi mumkin [7. 2002:B.305–334]. Avvalgi sharhlarda o‘quvchilarning katta avlod haqidagi tasavvuri, ijtimoiy ko‘nikmalari va muloqotida ijobiy siljishlar qayd etilgan, ammo dasturlar davomiyligi, mazmuni va baholash vositalari bir xil emas [5. 2019:B.363–376; 6. 2018:B.451–468]. Shu sabab yangi tizimli sharhlar ijobiy xulosalarni ehtiyotkorlik bilan talqin qilishni talab etadi: o‘quvchilarning keksalik va qarish haqidagi tasavvurlari bo‘yicha dalillar umidli bo‘lsa-da, ruhiy farovonlikka ta’sirni ko‘rsatadigan yuqori sifatli tadqiqotlar hali kam [2. 2024:B.2–3, 20]. Demak, muammo katta avlod tajribasidan foydalanishning zarurligini e’lon qilishda emas, balki uni ilmiy asoslangan pedagogik jarayonga aylantirishdadir.

Milliy va MDH tadqiqotlari masalaning mintaqaviy xususiyatlarini ochadi. Niyozova avlodlar muloqoti, ustoz-shogird modeli, hayotiy tajribaga asoslangan loyiha hamda oila va maktab hamkorligini asosiy vositalar sifatida ko‘rsatadi [12. 2025:B.122–128]. Rossiyadagi 125 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ishtirok etgan tadqiqotda 76,8 foiz bolada eyjizm belgilari aniqlangani maqsadli gerontologik ta’lim zarurligini ko‘rsatadi [9. 2023:B.337–347]. Boshqa tadqiqotda katta avlodga ijobiy munosabat real muloqot cheklanganda deklarativ bo‘lishi mumkinligi qayd etilgan [10. 2019:B.124–126]. Qozog‘iston tajribasi esa avlodlar dialogini o‘zaro tushunish, bag‘rikenglik va empatiya asosida, har ikki tomon o‘rganadigan jarayon sifatida qurish zarurligini tasdiqlaydi [17. 2022:B.24–32]. Biroq ko‘rib chiqilgan mintaqaviy manbalarda tajribani pedagogik saralashdan kechiktirilgan baholashgacha bo‘lgan funksional zanjir yaxlit mexanizm sifatida yetarli aniqlashtirilmagan. Ushbu dalillar teng sheriklik va refleksiyani modelning majburiy komponentlari sifatida ajratishga asos beradi.

Maqolaning maqsadi – katta avlod tajribasini o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasiga kiritishning tarkibiy-mantiqiy mexanizmlarini aniqlash va maktab-oila-mahalla hamkorligida qo‘llashga mo‘ljallangan konseptual modelni asoslash.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqot nazariy-konseptual xarakterga ega bo‘lib, tuzilmali integrativ tahlil usulida bajarildi. PubMed/PMC, WHO, UNESCO, SpringerLink, Frontiers, Wiley, PsyJournals va CyberLeninka ochiq ilmiy resurslari hamda LexUZ bazasida “intergenerational learning”, “intergenerational programs in schools”, “older adults and children”, “intergenerational contact”, “katta avlod tajribasi” va “uzluksiz ma’naviy tarbiya” tayanch iboralari bo‘yicha manbalar ko‘rib chiqildi. Tahlil korpusiga 2002–2026-yillarda e’lon qilingan, maktab yoshidagi bolalar yoki avlodlararo dasturlarni loyihalashga bevosita aloqador taqrizli maqolalar, tizimli sharhlar, xalqaro metodik qo‘llanmalar, MDH nashrlari hamda O‘zbekistonning ilmiy va rasmiy manbalari kiritildi. Klinik mazmunga tor yo‘naltirilgan va pedagogik o‘zaro faoliyatni ochib bermaydigan materiallar asosiy tahlildan chiqarildi.

Manbalar besh analitik belgi bo‘yicha qiyoslandi: dastur maqsadi; ishtirokchilarning o‘zaro roli; tajribani uzatish shakli; pedagog-fasilitator vazifasi; natijani baholash usuli. Mazkur mezonlar asosida takrorlanuvchi g‘oyalar tematik sintez qilinib, mexanizm komponentlari ishlab chiqildi. Maqola empirik samaradorlikni isbotlamaydi; taklif etilgan model keyingi tajriba-sinov tadqiqoti uchun nazariy asos vazifasini bajaradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Katta avlod tajribasining pedagogik resursga aylanishi. Hayotiy tajriba – voqea va xotiralar yig‘indisi emas. Unda amaliy bilim, qadriyat, qaror oqibati, hissiy kechinma va muayyan tarixiy sharoit birlashadi. Shu bois har qanday tajribani tayyor tarbiyaviy haqiqat sifatida o‘quvchiga uzatish metodik jihatdan to‘g‘ri emas. Ayrim qarashlar davrga xos, subyektiv yoki daliliy jihatdan bahsli bo‘lishi mumkin. Pedagogning vazifasi katta avlod vakilining fikrini mutlaqlashtirish emas, balki undagi tarbiyaviy mazmunni ajratish, tarixiy kontekstni ko‘rsatish va o‘quvchini mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltirishdir.

Shu asosda maqolada “pedagogik vositalangan tajriba” ishchi tushunchasi taklif etiladi. U katta avlod vakilining pedagogik maqsadga muvofiq saralangan, o‘quvchi yoshiga moslashtirilgan, zarur hollarda daliliy tekshirilgan hamda birgalikdagi faoliyat va refleksiya orqali o‘quvchi uchun shaxsiy ma’no kasb etgan hayotiy-kasbiy tajribasini anglatadi. Bunday yondashuv avlodlararo ta’limni bir tomonlama

nasihatdan ikki tomonlama o‘rganishga o‘tkazadi. Newman va Hatton-Yeo avlodlararo o‘rganishning asosiy belgilari sifatida o‘zaro manfaat, bilim va ko‘nikmalar almashuvi hamda ishtirokchilarning subyektligini kuchaytirishni ko‘rsatadi [11. 2008:B.32–33]. Zamonaviy tadqiqotlarda ham katta avlod tajribasi bilan yoshlarning raqamli va texnologik imkoniyatlari bir-birini to‘ldiradigan hamkorlik modeli sifatida talqin qilinmoqda [4. 2026:B.1–3].

Mexanizmning tarkibi. Tahlil natijasida jarayonning quyidagi mantiqiy zanjiri aniqlandi:

TAJRIBA → PEDAGOGIK SARALASH → HAMKORLIK FAOLIYATI → REFLEKSIYA → QADRIYATLI QAROR VA XULQ

Mazkur zanjir bir-birini shartlaydigan to‘rtta mexanizm orqali ishlaydi. Ularning har biri alohida tadbir emas, balki maqsad, ishtirokchi, vosita va kutiladigan natijani bog‘lovchi pedagogik funksiyadir.

1-jadval. Innovatsion pedagogik mexanizmlarning tarkibi

Mexanizm	Mazmuni, vositalari va kutiladigan natijasi
1. Motivatsion-qadriyatli	O‘quvchi va katta avlod vakilida uchrashuvning shaxsiy va ijtimoiy ma’nosini anglatadi. Dastlabki savolnoma, kutilmalar xaritasi, muammoli savol va hayotiy vaziyat qo‘llanadi. Natija – qiziqish, hurmat va faol ishtirokka tayyorlik.
2. Mazmuniy-selektiv	Tajriba maqsadga muvofiqlik, yoshga moslik, daliliy ishonchlilik, axloqiy xavfsizlik va o‘quv dasturi bilan bog‘liqlik mezonlarida saralanadi. Natija – hayotiy voqeaning tushunarli pedagogik keys, hikoya yoki topshiriqqa aylanishi.
3. Kommunikativ-faoliyatli	Tinglash bilan cheklanmay, mentorlik, intervyu, hunar ustaxonasi, qo‘shma loyiha, mahalla tadqiqoti va raqamli hikoya orqali teng sheriklik yaratiladi. Natija – tajribani amalda sinash, muloqot va hamkorlik kompetensiyalari.
4. Refleksiv-baholash	“Nimani bildim – nimaga munosabatim o‘zgardi – qanday amal qilaman?” savollari, refleksiv kundalik, kuzatuv rubrikasi, o‘zaro fikr va kechiktirilgan qayta o‘lchash qo‘llanadi. Natija – shaxsiy xulosa, qadriyatli tanlov va kuzatiladigan xulqiy harakat.

Motivatsion-qadriyatli mexanizm. Avlodlararo muloqotning boshlanishida ikki tomon ham nima uchun uchrashayotganini bilishi kerak. O‘quvchi katta avlod vakilini faqat “o‘tmish haqida gapiruvchi shaxs”, katta avlod vakili esa o‘quvchini faqat “nasihat tinglovchi” sifatida ko‘rsa, teng hamkorlik yuzaga kelmaydi. Dastlabki bosqichda tomonlarning qiziqishi va ehtiyoji aniqlanib, umumiy muammo tanlanadi. Masalan, “Mahallamizdagi halol mehnat tarixi”, “Suvni tejash bo‘yicha kecha va bugun” yoki “Kasbiy xatodan olingan saboq” mavzulari suhbatni mavhum pand-nasihatdan aniq bilish vazifasiga aylantiradi.

Mazmuniy-selektiv mexanizm. Pedagog suhbatdan oldin katta avlod vakili bilan qisqa tayyorgarlik o‘tkazadi: hikoyaning asosiy g‘oyasi, davomiyligi, o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan savollar va nozik ma’lumotlardan foydalanish chegarasi kelishib olinadi. Tarixiy faktlar, sog‘liq, huquq yoki xavfsizlikka oid maslahatlar zarur manbalar bilan tekshiriladi. Bu saralash katta avlod ovozini cheklash emas; aksincha, uning tajribasini o‘quvchi uchun aniq, ishonchli va zarar yetkazmaydigan mazmunga aylantirishdir.

Kommunikativ-faoliyatli mexanizm. Eng samarali shakl – birga bajariladigan mazmunli ish. O‘quvchi intervyu olib oilaviy yoki mahalla tarixini raqamlashtirishi, katta avlod vakili bilan qadimiy hunar bosqichlarini hujjatlashtirishi, ekologik odatlarning avvalgi va hozirgi ko‘rinishini qiyoslashi yoki mahalla muammosiga yechim loyihalashi mumkin. Maktab dasturlarida katta avlod vakillari mentor va tutor sifatida qatnashganda o‘quv mazmuni, shaxsiy o‘sish va jamoaviy aloqalar bir vaqtda qo‘llab-quvvatlanadi [7. 2002:B.305–334]. Tizimli sharhlar esa dastur samaradorligi puxta protokol, fasilitator tayyorgarligi, mashg‘ulotlarni qayd etish va oldindan belgilangan baholash ko‘rsatkichlariga bog‘liqligini ko‘rsatadi [3. 2017:B.8–9].

Refleksiv-baholash mexanizmi. Tajriba o‘quvchi uni qayta fikrlab, o‘z qarori bilan bog‘lagandagina tarbiyaviy natijaga aylanadi. Shu sabab har bir faoliyat yakunida uch bosqichli refleksiya o‘tkaziladi: faktni anglash, qadriyatni izohlash va amaliy harakatni belgilash. Baholash faqat “tadbir yoqdimi?” savoli bilan cheklanmasligi kerak. O‘quvchining savol berish sifati, dalil bilan fikrlashi, boshqa avlod nuqtayi nazarini

tushunishi, hamkorlikdagi mas’uliyati va keyingi xulqiy harakati kuzatiladi. WHO avlodlararo loyihalarda ichki monitoringni tashqi yoki nisbatan mustaqil baholash bilan to‘ldirish, maqsad, metod, o‘zgarish va muammolarni ochiq qayd etishni tavsiya qiladi [19. 2023:B.42–44].

Modelni amalga oshirish shartlari. Birinchi shart – maktab, oila va mahalla o‘rtasida aniq vazifa taqsimoti. Maktab pedagogik maqsad va xavfsizlikni, oila rozilik va kontekstni, mahalla esa munosib ishtirokchilar hamda real faoliyat maydonini ta’minlaydi. Ikkinchi shart – o‘zaro hurmat va ixtiyoriylik. Katta avlod vakili “ko‘rgazmali vosita”, o‘quvchi esa passiv tinglovchi maqomiga tushirilmasligi kerak. Uchinchi shart – davomiylik: bir martalik tadbirdan ko‘ra kamida bir necha uchrashuv, qo‘shma mahsulot va yakuniy taqdimot barqaror munosabat yaratadi. To‘rtinchi shart – inklyuzivlik va etik himoya: shaxsiy hikoyani yozib olish, tasvirga olish va ommaga tarqatishdan oldin rozilik olinadi; salomatlik, harakatlanish va raqamli savodxonlikdagi farqlar hisobga olinadi. Jamoa miqyosidagi tadqiqotlar ham ishtirokchilarni tanlash, ularning ehtiyojini eshitish va har ikki avlodga mazmunli rol berish dastur barqarorligi uchun muhimligini ko‘rsatadi [8. 2021:B.14–18].

WHO tahliliga ko‘ra, ta’limiy hamda avlodlararo muloqotga asoslangan intervensiyalar yoshga oid stereotiplarni kamaytirishning samarali yo‘llari qatoriga kiradi; bevosita hamkorlik tashvishni kamaytirib, boshqa guruh nuqtayi nazarini tushunish va empatiyani kuchaytirishi mumkin [18. 2021:B.126–131]. Biroq muloqotning o‘zi doimo ijobiy natija bermaydi. Noto‘g‘ri rejalangan faoliyat stereotipni mustahkamlashi yoki bir tomonni qaram va zaif sifatida ko‘rsatishi mumkin [19. 2023:B.2–3]. Shuning uchun taklif etilgan mexanizm muloqotni maqsadli saralash, teng rol, fasilitatsiya va refleksiya bilan himoyalaydi.

Modelning innovatsionligi faqat raqamli vositada emas. Uning yangiligi katta avlod tajribasini tayyor nasihat sifatida emas, o‘quvchi bilan birgalikda qayta ishlanadigan pedagogik resurs sifatida talqin etishdadir. Raqamli hikoyachilik, videointervyu yoki onlayn uchrashuv geografik masofani qisqartirishi mumkin, ammo ular yuzma-yuz muloqotning oddiy o‘rnini bosuvchi vosita emas. Gibrid shakl tanlanganda ham umumiy vazifa, rollarning tengligi, xavfsiz muloqot va natijani baholash saqlanishi zarur [3. 2017:B.8–9].

Baholash indikatorlari. Keyingi tajriba-sinovda model samaradorligini to‘rtta mezonda tekshirish taklif etiladi: motivatsion-qadriyatli mezon – boshqa avlodga qiziqish va hurmat; kognitiv mezon – hayotiy voqeadan sabab-oqibat va dalilni ajratish; kommunikativ-faoliyatli mezon – tinglash, savol berish, hamkorlik va mas’uliyat; refleksiv-xulqiy mezon – olingan saboqni shaxsiy qaror va amaliy harakatga ko‘chirish. Dastlabki va yakuniy diagnostika bilan birga kechiktirilgan o‘lchash qo‘llansa, qisqa taassurot bilan barqaror o‘zgarishni farqlash mumkin. Bu ayniqsa muhim, chunki mavjud tadqiqotlarda kichik tanlama, nazorat guruhining yo‘qligi va kuzatuv muddatining qisqaligi ko‘p uchraydi [3. 2017:B.8; 16. 2021:104356; 2. 2024:B.19–20].

XULOSA. Katta avlod tajribasi o‘quvchilar tarbiyasini hayot bilan bog‘laydigan kuchli resursdir, ammo uning pedagogik qiymati yoshi kattalikning o‘zidan kelib chiqmaydi. Tajriba maqsadli saralanganda, daliliy va axloqiy jihatdan tekshirilganda, o‘quvchi bilan teng hamkorlikda qayta ishlanganda hamda refleksiya orqali shaxsiy ma’noga aylantirilganda ta’lim-tarbiyaviy ta’sir yuzaga keladi.

Taklif etilgan motivatsion-qadriyatli, mazmuniy-selektiv, kommunikativ-faoliyatli va refleksiv-baholash mexanizmlari “maktab-oila-mahalla-katta avlod” hamkorligini alohida tadbirlar yig‘indisidan izchil pedagogik tizimga o‘tkazadi. Modelda katta avlod vakili tajriba sohibi va hamkor, o‘quvchi faol tadqiqotchi, pedagog esa mazmunni vositalovchi va jarayonni xavfsiz boshqaruvchi fasilitator sifatida qatnashadi.

Keyingi bosqichda modelning umumiy o‘rta ta’lim sharoitidagi samaradorligini tajriba va nazorat guruhlari, oldingi-yakuniy-kechiktirilgan diagnostika hamda sifat ma’lumotlarini birlashtirgan aralash metodlar orqali tekshirish zarur. Shunda katta avlod tajribasidan foydalanishning qaysi komponentlari o‘quvchi qadriyati, muloqoti va xulqiy qaroriga real ta’sir ko‘rsatayotgani aniq dalillar bilan baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brown R., Ohsako T. A Study of Inter-Generational Programmes for Schools Promoting International Education in Developing Countries through the International Baccalaureate Diploma Programme. Journal of Research in International Education, 2003, 2(2), B.151–165. https://doi.org/10.1177/14752409030022002

2. Campbell F., Whear R., Rogers M., Sutton A., Barlow J., Booth A., Tattersall A., Wolstenholme L., Thompson-Coon J. What Is the Effect of Intergenerational Activities on the Wellbeing and Mental Health of Children and Young People? A Systematic Review. Campbell Systematic Reviews, 2024, 20(3), e1429. https://doi.org/10.1002/cl2.1429

3. Canedo-García A., García-Sánchez J.-N., Pacheco-Sanz D.-I. A Systematic Review of the Effectiveness of Intergenerational Programs. Frontiers in Psychology, 2017, 8, 1882. https://doi.org/10.3389/fpsyg.2017.01882

4. Chiang W.-W., Chiu K.-I., Shih Y.-H., Pang P., Wu C.-C. STEM and Intergenerational Learning between Older Adults and Young Children in Taiwan: Challenges and Opportunities. Frontiers in Education, 2026, 11, 1708939. https://doi.org/10.3389/feduc.2026.1708939

5. Giraudeau C., Bailly N. Intergenerational Programs: What Can School-Age Children and Older People Expect from Them? A Systematic Review. European Journal of Ageing, 2019, 16(3), B.363–376. https://doi.org/10.1007/s10433-018-00497-4

6. Gualano M.R., Voglino G., Bert F., Thomas R., Camussi E., Siliquini R. The Impact of Intergenerational Programs on Children and Older Adults: A Review. International Psychogeriatrics, 2018, 30(4), B.451–468. https://doi.org/10.1017/S104161021700182X

7. Kaplan M.S. Intergenerational Programs in Schools: Considerations of Form and Function. International Review of Education, 2002, 48(5), B.305–334. https://doi.org/10.1023/A:1021231713392

8. Kenning G., Ee N., Xu Y., Luu B.L., Ward S.A., Goldwater M.B. va boshq. Intergenerational Practice in the Community–What Does the Community Think? Social Sciences, 2021, 10(10), 374, B.1–30. https://doi.org/10.3390/socsci10100374

9. Melnichenko A.A., Gorelik S.G., Kucherenko N.N., Bogat S.V., Musienko S.K. Izuchenie urovnya gerontologicheskikh znaniy mladshikh shkolnikov. Sovremennye problemy zdravookhraneniya i meditsinskoy statistiki, 2023, 2, B.337–347. https://doi.org/10.24412/2312-2935-2023-2-337-347

10. Miklyaeva A.V., Postnikova M.I. Sotsialno-psikhologicheskaya struktura mezhpokolencheskikh otnosheniy studencheskoy molodezhi. Sotsialnaya psikhologiya i obshchestvo, 2019, 10(2), B.114–126. https://doi.org/10.17759/sps.2019100209

11. Newman S., Hatton-Yeo A. Intergenerational Learning and the Contributions of Older People. Ageing Horizons, 2008, 8, B.31–39. https://riolis.ipleiria.pt/files/2011/03/Intergenerational-Learning-and-the-Contributions-of-Older-People.pdf

12. Niyozova N. Katta avlod tajribasidan foydalanib o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Innovation in the Modern Education System, 2025, 6(56), B.122–128. https://interoncof.com/index.php/USA/article/view/16170

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida: PQ–92-son qaror. Toshkent, 2023-yil 11-mart. https://lex.uz/docs/-6404992

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: 816-son qaror. Toshkent, 2019-yil 27-sentabr. https://lex.uz/docs/-4532381

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: 1059-son qaror. Toshkent, 2019-yil 31-dekabr. https://lex.uz/docs/-4676839

16. Peters R., Ee N., Ward S.A., Kenning G., Radford K., Goldwater M.B. va boshq. Intergenerational Programmes Bringing Together Community Dwelling Non-Familial Older Adults and Children: A Systematic Review. Archives of Gerontology and Geriatrics, 2021, 94, 104356. https://doi.org/10.1016/j.archger.2021.104356

17. Teslenko A.N. Sotsialno-pedagogicheskie aspekty problemy mezhpokolennogo vzaimodeystviya (na primere Respubliki Kazakhstan). Severny region: nauka, obrazovanie, kultura, 2022, 1(49), B.24–32. https://doi.org/10.34822/2312-377X-2022-1-24-32

18. World Health Organization. Global Report on Ageism. Geneva: WHO, 2021. https://www.who.int/publications/i/item/9789240016866

19. World Health Organization. Connecting Generations: Planning and Implementing Interventions for Intergenerational Contact. Geneva: WHO, 2023. https://www.who.int/publications/i/item/9789240070264

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI TAYYORLASHDA AI TEXNOLOGIYALARINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI VA MUAMMOLARI

Alixanov Olimjon Odiljon o‘g’li,
Namangan davlat universiteti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21935122

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining oliy ta’lim tizimida, xususan, bo‘lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Muallif AI vositalarining ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘qituvchi mehnatini optimallashtirish, pedagogik amaliyotni modellashtirish kabi imkoniyatlarini yoritish bilan bir qatorda, ularni joriy etishda yuzaga keladigan metodik, axloqiy va texnologik muammolarni ham ko‘rib chiqadi. Tadqiqot natijasida bo‘lajak pedagoglarni AI texnologiyalari bilan ishlashga tayyorlashning uzviy tizimi zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, pedagogik ta’lim, bo‘lajak o‘qituvchi, raqamli kompetentsiya, individuallashtirilgan ta’lim, ta’lim texnologiyalari, chatbot, adaptiv o‘qitish tizimlari.

Аннотация. В статье анализируется роль технологий искусственного интеллекта (ИИ) в системе высшего образования, в частности в профессиональной подготовке будущих педагогов. Наряду с раскрытием таких возможностей средств ИИ, как индивидуализация образовательного процесса, оптимизация труда преподавателя и моделирование педагогической практики, рассматриваются методические, этические и технологические проблемы их внедрения. По результатам исследования обосновывается необходимость целостной системы подготовки будущих педагогов к работе с технологиями ИИ.

Ключевые слова: искусственный интеллект, педагогическое образование, будущий учитель, цифровая компетентность, индивидуализированное обучение, образовательные технологии, чат-бот, адаптивные системы обучения.

Annotation. This article analyzes the role of artificial intelligence (AI) technologies in higher education, particularly in the professional training of future teachers. Alongside outlining the pedagogical opportunities offered by AI tools, such as personalization of the learning process, optimization of teacher workload, and modeling of pedagogical practice, the article examines the methodological, ethical, and technological challenges of their implementation. The study substantiates the need for a coherent system of preparing future teachers to work with AI technologies.

Key words: artificial intelligence, teacher education, future teacher, digital competence, personalized learning, educational technologies, chatbot, adaptive learning systems.

Kirish. Zamonaviy jamiyat rivojlanishining raqamli bosqichi ta’lim tizimiga jiddiy o‘zgarishlar olib kirmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalari - matnni avtomatik tahlil qiluvchi va yaratuvchi tizimlar, adaptiv o‘qitish platformalari, virtual assistentlar va intellektual baholash vositalari - endilikda nafaqat texnik soha, balki pedagogika fanining ham dolzarb tadqiqot ob’ektiga aylandi. O‘zbekiston Respublikasida “Sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish konsepsiyasi” va ta’lim sohasini raqamlashtirishga oid me’yoriy hujjatlar qabul qilinishi bu jarayonning davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanayotganidan dalolat beradi [1. 2022:B.14]. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, jahonning yetakchi ta’lim tizimlarida sun’iy intellekt texnologiyalari nafaqat o‘quv jarayonini boyitish vositasi, balki pedagog kadrlar tayyorlash strategiyasining ajralmas qismiga aylanmoqda. Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarni ushbu texnologiyalardan samarali va mas’uliyatli foydalanishga tayyorlash masalasi hali yetarlicha o‘rganilmagan bo‘lib, mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning dolzarbligi, birinchidan, pedagogik oliy ta’lim standartlarining tobora raqamli kompetentsiyalarga yo‘naltirilayotgani bilan, ikkinchidan, ta’lim bozorida AI vositalaridan foydalana oladigan, ularni tanqidiy baholay oladigan va pedagogik maqsadlarga moslay oladigan mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojning ortib borayotgani bilan izohlanadi. Uchinchidan, sun’iy intellektning jadal rivojlanishi pedagogika fanining nazariy-metodologik apparatini ham yangilashni taqozo etadi: an’anaviy didaktik yondashuvlar endi AI-vositalar ishtirokidagi ta’lim modeli bilan uyg‘unlashtirilishi lozim.

Maqolaning maqsadi - bo‘lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlash jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlarini tizimli tahlil qilish, ularni joriy etishdagi mavjud muammo va xavflarni aniqlash hamda ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi: AI texnologiyalarining pedagogik

mohiyatini ochib berish; bo‘lajak pedagoglar tayyorgarligida AI vositalaridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlarini tavsiflash; joriy etish jarayonidagi metodik, axloqiy va texnologik muammolarni tizimlashtirish; hamda pedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun amaliy tavsiyalar shakllantirish.

Mavzuning ilmiy-nazariy asoslari va o‘rganilganlik darajasi

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimidagi o‘rni bo‘yicha xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Xususan, adaptiv o‘qitish tizimlarining didaktik imkoniyatlari, intellektual repetitorlik dasturlarining o‘quvchi bilimini baholashdagi samaradorligi, shuningdek pedagogik mutaxassislar tayyorlashda raqamli vositalarning integratsiyasi masalalari alohida tadqiqot predmetiga aylangan [2. 2019:B.27]. Mahalliy pedagogika fanida esa bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetentsiyasini shakllantirish muammolari yetarlicha yoritilgan bo‘lsa-da, aynan sun’iy intellekt texnologiyalari kontekstida bu masala kompleks tarzda kam o‘rganilgan.

Nazariy jihatdan, AI texnologiyalarining pedagogik salohiyatini tushunish uchun konstruktivistik ta’lim nazariyasi, individuallashtirilgan ta’lim kontseptsiyasi hamda raqamli pedagogika (digital pedagogy) yondashuvlariga tayanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu nazariy asoslar sun’iy intellektni shunchaki texnik vosita emas, balki ta’lim jarayonini qayta loyihalashtiruvchi omil sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Shu bilan birga, tadqiqotchilar orasida AI texnologiyalarining pedagogik jarayonga ta’siri borasida ikki xil qarash mavjud: bir guruh olimlar uni ta’lim sifatini tubdan oshiruvchi vosita sifatida baholasa, boshqa guruh esa uning haddan tashqari qo‘llanilishi pedagogik muloqot va inson omilining kamayishiga olib kelishi mumkinligidan ogohlantiradi.

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda AI texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari

Ta’lim jarayonida sun’iy intellektdan foydalanish bo‘lajak pedagoglar tayyorgarligi sifatini bir necha yo‘nalishda oshirishga xizmat qiladi. Birinchidan, AI asosidagi platformalar ta’lim mazmunini talabaning bilim darajasi, o‘zlashtirish sur’ati va individual xususiyatlariga moslab beradi, bu esa individuallashtirilgan (personalized) ta’lim g‘oyasini amalda tatbiq etish imkonini yaratadi [2. 2019:B.27]. Ikkinchidan, intellektual baholash tizimlari o‘quv topshiriqlarini avtomatik tahlil qilib, talabaga tezkor qayta aloqa (feedback) berish orqali o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Uchinchidan, virtual pedagogik simulyatorlar bo‘lajak o‘qituvchiga real sinf sharoitini modellashtirgan holda, turli pedagogik vaziyatlarni xavfsiz muhitda mashq qilish imkonini beradi, bu esa kasbiy amaliyotgacha bo‘lgan tayyorgarlik sifatini oshiradi [3. 2021:B.63].

Bundan tashqari, AI texnologiyalari o‘qituvchining ma’muriy va rutinaviy vazifalarga sarflaydigan vaqtini qisqartirib, uni bevosita pedagogik-metodik faoliyatga yo‘naltirish imkonini beradi: dars ishlanmalarini loyihalashtirish, o‘quv materiallarini moslashtirish, test va topshiriqlar bankini shakllantirish kabi jarayonlar avtomatlashtiriladi. Chatbot va til modellariga asoslangan virtual yordamchilar talabalarga tushunarsiz mavzular bo‘yicha istalgan vaqtda maslahat olish, mustaqil ta’lim traektoriyasini qurish imkonini yaratadi [4. 2020:B.41]. Shunday qilib, AI texnologiyalari bo‘lajak pedagoglarni nafaqat raqamli vositalardan foydalanuvchi, balki ularni pedagogik maqsadlarga muvofiq loyihalashtiruvchi mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak pedagoglar tayyorgarligida AI vositalaridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida bo‘lajak pedagoglar tayyorgarligida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin: birinchi yo‘nalish - o‘quv-metodik ta’minotni yaratishda AI vositalaridan foydalanish, ya’ni dars ishlanmalari, taqdimotlar, test topshiriqlari va didaktik materiallarni avtomatlashtirilgan tarzda loyihalashtirish; ikkinchi yo‘nalish - pedagogik amaliyotni simulyatsiya qilish, bunda talaba virtual sinf muhitida turli xil o‘quvchilar (turli temperament, motivatsiya darajasi, maxsus ehtiyojlarga ega bolalar) bilan ishlash ko‘nikmalarini mashq qiladi; uchinchi yo‘nalish - talabalarning o‘zlashtirish natijalarini AI yordamida diagnostika qilish va individual rivojlanish xaritasini tuzish; to‘rtinchi yo‘nalish - kasbiy-refleksiv faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, ya’ni bo‘lajak pedagogning o‘z pedagogik faoliyatini AI tahlili asosida baholashi va takomillashtirishi [8. 2021:B.34].

Beshinchi yo‘nalish sifatida til va nutq texnologiyalarini pedagogik maqsadlarda qo‘llashni ko‘rsatish mumkin: chet tili o‘qitish metodikasida talaffuzni avtomatik tahlil qiluvchi dasturlar, matnni soddalashtiruvchi yoki murakkablashtiruvchi vositalar bo‘lajak pedagogga differensial yondashuvni amalga oshirishda katta yordam beradi. Oltinchi yo‘nalish - ta’lim jarayonini boshqarish tizimlarida (LMS) AI-analitika vositalaridan foydalanish bo‘lib, bu orqali o‘qituvchi guruh dinamikasini, o‘zlashtirish tendensiyalarini va potensial qiyinchiliklarni oldindan bashorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ushbu

yo‘nalishlarning barchasi bo‘lajak pedagogdan nafaqat texnik ko‘nikma, balki pedagogik-metodik fikrlash va tanqidiy baholash qobiliyatini ham talab qiladi.

Bo‘lajak pedagoglarni AI texnologiyalariga tayyorlashda xorijiy tajriba

Jahon pedagogik ta’lim tizimlarida sun’iy intellekt texnologiyalarini bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorgarligiga integratsiya qilish borasida turlicha yondashuvlar shakllangan. Yevropa Ittifoqiga a’zo bir qator davlatlarning pedagogik universitetlarida “raqamli pedagogik kompetentsiya” (digital pedagogical competence) tushunchasi rasman ta’lim standartlariga kiritilgan bo‘lib, unga muvofiq bo‘lajak o‘qituvchi nafaqat AI vositalaridan foydalanish, balki ularning didaktik cheklovlarini ham tushunishi talab etiladi [8. 2021:B.34]. Shimoliy Amerika oliy ta’lim muassasalarida esa AI-savodxonlik (AI literacy) modullari umumkasbiy fanlar tarkibiga kiritilib, talabalar semestr davomida amaliy loyihalar orqali AI vositalarini o‘z fan sohalariga moslashtirish ko‘nikmasini shakllantiradilar.

Osiyo mintaqasi davlatlarida, xususan, Janubiy Koreya va Singapur ta’lim tizimlarida sun’iy intellekt texnologiyalari pedagogik ta’limga bosqichma-bosqich, ya’ni avval o‘qituvchilarni qayta tayyorlash kurslari orqali, so‘ngra bakalavriat dasturlariga to‘liq integratsiya qilish orqali joriy etilmoqda. Bunday bosqichma-bosqich yondashuv nafaqat texnik infratuzilmani, balki pedagog jamoatchiligining psixologik tayyorligini ham hisobga olishga imkon beradi. Postsovet mamlakatlari, jumladan Qozog‘iston va Rossiya pedagogik oliy ta’lim muassasalarida so‘nggi yillarda AI texnologiyalari bo‘yicha maxsus fakultativ kurslar va sertifikatlashtirilgan dasturlar joriy etilayotgani ham diqqatga sazovordir.

O‘zbekiston misolida esa oliy pedagogik ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt texnologiyalari bo‘yicha alohida fanlar hali barcha yo‘nalishlarda tizimli joriy etilmagan, biroq bir qator universitetlarda tashabbuskorlik asosida elective (tanlov) kurslar va loyihaviy faoliyat shakllari sinovdan o‘tkazilmoqda. Xorijiy tajribani tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli integratsiya uch omilga bog‘liq: birinchisi - davlat darajasidagi me’yoriy-huquqiy baza va standartlar, ikkinchisi - professor-o‘qituvchilar salohiyatini oshirishga qaratilgan uzluksiz dasturlar, uchinchisi - texnik infratuzilma va raqamli resurslarga teng kirish imkoniyatini ta’minlash [9. 2021:B.52]. Ushbu uch omilni uyg‘unlashtirmasdan turib, AI texnologiyalarining pedagogik salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarib bo‘lmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi va natijalarning tahlili

Tadqiqot jarayonida ilmiy-nazariy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-tipologik metod, shuningdek pedagogik oliy ta’lim muassasalari tajribasini umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tahlil davomida bo‘lajak pedagoglarning AI texnologiyalariga munosabatini o‘rganish maqsadida so‘rovnoma va suhbat metodlari ham qo‘llanildi, unga bir nechta pedagogika yo‘nalishi talabalari jalb etildi. So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning katta qismi sun’iy intellekt vositalaridan kundalik o‘quv faoliyatida (matn tahrirlash, ma’lumot izlash, taqdimot tayyorlash) faol foydalanadi, biroq ularning aksariyati bu vositalarni pedagogik maqsadlarda - dars ishlanmasi loyihalash yoki o‘quvchi bilimini diagnostika qilishda - qanday qo‘llashni tizimli tarzda bilmasligini ta’kidladi.

Bu holat AI texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasi bilan ularni pedagogik jarayonga metodik jihatdan moslashtira olish kompetentsiyasi o‘rtasida sezilarli farq mavjudligini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, talabalar texnologik jihatdan “foydalanuvchi” darajasida bo‘lsalar-da, pedagogik jihatdan “loyihalovchi” darajasiga hali yetarlicha ega emaslar. Tadqiqot natijalari, shuningdek, talabalarning AI texnologiyalaridan foydalanishga nisbatan umumiy munosabati ijobiy ekanligini, biroq ularning katta qismida akademik halollik va ma’lumotlar xavfsizligi bo‘yicha bilim darajasi yetarli emasligini ham namoyon etdi. Bu esa oliy ta’lim dasturlarida ushbu jihatlarga alohida e’tibor qaratish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

AI texnologiyalarini joriy etishdagi pedagogik muammolar va xavflar

AI texnologiyalarining ochiq imkoniyatlariga qaramay, ularni pedagogik ta’lim tizimiga joriy etish bir qator muammolar bilan bog‘liq. Birinchi muammo - o‘qituvchi kadrlarning raqamli-pedagogik kompetentsiyasi yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog‘liq; ko‘pchilik professor-o‘qituvchilar AI vositalaridan foydalanish metodikasini mustaqil o‘zlashtirishga majbur bo‘lmoqda [5. 2018:B.95]. Ikkinchidan, AI tizimlaridan foydalanish jarayonida talabaning mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil qilish qobiliyati zaiflashishi xavfi mavjud, chunki tayyor javoblarga ortiqcha tayanish o‘quv mustaqilligini pasaytirishi mumkin. Uchinchidan, akademik halollik masalasi dolzarblashadi: sun’iy intellekt yordamida yaratilgan matnlarni talaba ijodiy mahsuloti sifatida taqdim etish holatlari aniqlash va baholash tizimlariga jiddiy sinov bo‘lib turibdi [6. 2023:B.118].

Alohida ta’kidlash lozimki, AI texnologiyalarini qo‘llashda axloqiy-huquqiy jihatlar ham murakkab muammolar qatoriga kiradi: talabalar va o‘qituvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish,

algoritmik xolislik (bias) muammosi, shuningdek AI tizimlari tomonidan berilgan pedagogik tavsiyalarning ilmiy-metodik asoslanganligini tekshirish zarurati kabi masalalar hal etilishi lozim [7. 2022:B.7]. Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi va infratuzilmaviy imkoniyatlari hududlar kesimida notekis rivojlangan bo‘lib, bu AI texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarida tengsizlikni keltirib chiqarishi mumkin [9. 2021:B.52]. Yana bir muhim jihat - AI vositalarining tez sur’atlar bilan yangilanib borishi natijasida o‘quv dasturlari va metodik qo‘llanmalarning texnologik jihatdan “eskirish” xavfi yuzaga keladi, bu esa doimiy yangilanib turuvchi kurikulum va moslashuvchan ta’lim dasturlarini talab qiladi.

Shuningdek, psixologik-pedagogik nuqtai nazardan, talabalarning AI vositalariga haddan tashqari bog‘liq bo‘lib qolishi (texnologik bog‘liqlik) muammosi ham e’tiborga molik. Bunday holat bo‘lajak pedagogning mustaqil pedagogik qaror qabul qilish, improvizatsiya va kreativ yondashuv ko‘nikmalarini susaytirishi mumkin. Shu bois AI vositalaridan foydalanishni cheklovchi va uni pedagogik maqsadlarga bo‘ysundiruvchi metodik yo‘riqnomalar ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi [10. 2023:B.29]. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bo‘lajak pedagoglar tayyorgarligi tizimiga maxsus o‘quv fanlari, malaka oshirish kurslari va amaliy trening dasturlarini kiritish maqsadga muvofiqdir.

Bo‘lajak pedagoglarni AI texnologiyalariga tayyorlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar

Yuqorida keltirilgan tahlil asosida bo‘lajak pedagoglarni sun’iy intellekt texnologiyalari bilan samarali va mas’uliyatli ishlashga tayyorlash uchun quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Birinchidan, pedagogika yo‘nalishidagi o‘quv rejalariga “Ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalari” nomli maxsus fanni kiritish, unda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy loyihalar (masalan, AI yordamida dars ishlanmasi tuzish, adaptiv test yaratish) ustuvor o‘rin egallashi lozim. Ikkinchidan, professor-o‘qituvchilar uchun uzluksiz malaka oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish, bunda ular AI vositalarini o‘z fanlariga integratsiya qilish metodikasini o‘zlashtiradilar [8. 2021:B.34].

Uchinchidan, oliy ta’lim muassasalarida AI-savodxonlik markazlari yoki laboratoriyalarini tashkil etish, bu yerda talabalar amaliy trening va konsultatsiya olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. To‘rtinchidan, akademik halollikni ta’minlash maqsadida AI vositalaridan foydalanishning aniq me’yoriy-huquqiy tartib-qoidalarini ishlab chiqish va ularni talabalar ongiga singdirish zarur. Beshinchidan, baholash tizimlarini qayta ko‘rib chiqish - ya’ni faqat yakuniy natijaga emas, balki talabaning fikrlash jarayoniga, tanqidiy tahlil qobiliyatiga baho beruvchi metodlarni joriy etish tavsiya etiladi. Oltinchidan, AI texnologiyalarini qo‘llashda inklyuziv ta’lim tamoyillariga rioya qilish, ya’ni maxsus ehtiyojli talabalar uchun ham teng imkoniyatlarni ta’minlovchi vositalardan foydalanishni kengaytirish lozim [9. 2021:B.52].

Yettinchidan, pedagogik amaliyot davomida bo‘lajak o‘qituvchilarni mentor-o‘qituvchilar bilan birgalikda AI vositalarini real sinf sharoitida sinab ko‘rish imkoniyati bilan ta’minlash maqsadga muvofiq, chunki nazariy bilim amaliy tajriba bilan mustahkamlanmaguncha barqaror kompetentsiyaga aylanmaydi. Sakkizinchidan, universitetlararo va xalqaro hamkorlik dasturlari orqali ilg‘or tajribani almashish, qo‘shma ta’lim kurslari va onlayn platformalar orqali bo‘lajak pedagoglarni global AI-ta’lim tendensiyalari bilan tanishtirib borish zarur. To‘qqizinchidan, talabalarning o‘zida AI texnologiyalariga nisbatan tanqidiy-analitik pozitsiyani shakllantirish, ya’ni ularni har qanday AI tavsiyasini so‘zsiz qabul qilmasdan, pedagogik maqsadga muvofiqligini mustaqil baholay olishga o‘rgatish tavsiya etiladi. Ushbu tavsiyalarning kompleks tarzda amalga oshirilishi bo‘lajak pedagoglarni raqamli davr talablariga mos, mustaqil fikrlaydigan va texnologik jihatdan savodli mutaxassislar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalari bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida ta’limni individuallashtirish, pedagogik amaliyotni modellashtirish va kasbiy faoliyatni optimallashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ayni paytda ushbu texnologiyalarni joriy etish metodik, axloqiy va texnologik xususiyatga ega bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bo‘lajak pedagoglarning AI vositalaridan texnik foydalanuvchi sifatidagi tayyorgarligi ularning pedagogik loyihalovchi sifatidagi kompetentsiyasidan sezilarli darajada yuqori bo‘lib, bu farqni bartaraf etish maxsus uzluksiz tayyorlash tizimini talab qiladi.

Shu sababli oliy pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning AI-savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz va bosqichma-bosqich tayyorlash tizimini yaratish, shuningdek AI vositalaridan foydalanishning pedagogik-axloqiy me’yorlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Kelgusi tadqiqotlar uchun bo‘lajak pedagoglarning AI-kompetentsiyasini baholovchi mezonlar tizimini ishlab chiqish, shuningdek turli pedagogika yo‘nalishlari (aniq fanlar, gumanitar fanlar,

boshlang‘ich ta’lim) kesimida AI texnologiyalarini joriy etishning o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur o‘rganish istiqbolli yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva D.T. Raqamli ta’lim va sun’iy intellekt: nazariya va amaliyot. - Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2022. - 184 b.

2. Karimova N.SH. Ta’limni individuallashtirish texnologiyalari. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019. - 212 b.

3. Rashidov A.O. Pedagogik amaliyotni modellashtirishning zamonaviy vositalari. - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. - 156 b.

4. Yusupova M.R. Virtual yordamchi tizimlar va ta’lim jarayoni. - Toshkent: “Ilm-ziyo”, 2020. - 128 b.

5. Tosheva G‘.I. Oliy ta’lim o‘qituvchilarining raqamli kompetentligi. - Toshkent: “O‘qituvchi”, 2018. - 176 b.

6. Nazarov B.K. Akademik halollik va zamonaviy raqamli vositalar. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2023. - 142 b.

7. Ergasheva SH.M. Ta’limda axloqiy-huquqiy masalalar va sun’iy intellekt. - Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2022. - 98 b.

8. Mirzayeva D.S. Pedagogik amaliyotda raqamli texnologiyalarning integratsiyasi. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. - 164 b.

9. Sultonov J.A. Ta’limda raqamli tengsizlik va uni bartaraf etish yo‘llari. - Farg‘ona: FarDU nashriyoti, 2021. - 132 b.

10. Xolmatova Z.R. Talabalarning texnologik bog‘liqligi: psixologik-pedagogik tahlil. - Toshkent: “Ilm-ziyo”, 2023. - 110 b.

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISH

Tashmatov Rustam Xusanovich
O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi bo‘lim mudiri, i.f.d., professor,
Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali professori
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21935585

Annotatsiya. Maqolada ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) tamoyillarini korporativ boshqaruv tizimiga integratsiya qilishning tashkiliy, institutsional va axborot mexanizmlari tadqiq etilgan. O‘zbekiston Respublikasida barqaror rivojlanish, “yashil” iqtisodiyot va ESG tamoyillarini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, ZRU-1036-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-16-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 561-son va 221-son qarorlari asosida ESGning korporativ boshqaruvdagi o‘rni asoslangan. Shuningdek, IFRS S1, IFRS S2, G20/OECD korporativ boshqaruv tamoyillari hamda Yevropa Ittifoqining CSRD direktivasi asosida xalqaro tajriba tahlil qilingan. ESG risklarini korporativ risk-menejment tizimiga integratsiya qilish, “yashil” loyihalarni milliy “yashil” taksonomiya asosida baholash, ikki tomonlama muhimlikni aniqlash, ESG-KPIlarni strategik rejalashtirish bilan bog‘lash va barqarorlik axborotlarini ishonchli oshkor etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ESG, korporativ boshqaruv, barqaror rivojlanish, “yashil” iqtisodiyot, “yashil” taksonomiya, ESG risklari, Kuzatuv kengashi, ESG-KPI, ikki tomonlama muhimlik, IFRS S1, IFRS S2.

Аннотация. В статье исследованы организационные, институциональные и информационные механизмы интеграции экологических, социальных и управленческих (ESG) принципов в систему корпоративного управления. Рассмотрены нормативно-правовые документы Республики Узбекистан в сфере устойчивого развития и «зеленой» экономики, включая Закон № ЗРУ-1036, Указ Президента Республики Узбекистан № УП-16, а также постановлений Кабинета Министров №561 и №221. Проанализирован международный опыт на основе IFRS S1, IFRS S2, G20/OECD Principles of Corporate Governance и Директивы ЕС CSRD. Предложены меры по интеграции ESG-рисков в корпоративный риск-менеджмент, оценке «зеленых» проектов на основе национальной «зеленой» таксономии, определению двойной существенности, формированию ESG-KPI и повышению качества раскрытия информации.

Ключевые слова: ESG, корпоративное управление, устойчивое развитие, «зеленая» экономика, «зеленая» таксономия, ESG-риски, Наблюдательный совет, ESG-KPI, двойная существенность, IFRS S1, IFRS S2.

Abstract. The article examines organizational, institutional and information mechanisms for integrating environmental, social and governance (ESG) principles into corporate governance. The regulatory framework of the Republic of Uzbekistan for sustainable development and the green economy is considered, including Law No. ZRU-1036, Presidential Decree No. PF-16, and Cabinet Resolutions No. 561 and No. 221. International practices based on IFRS S1, IFRS S2, the G20/OECD Principles of Corporate Governance and the EU Corporate Sustainability Reporting Directive are analyzed. Proposals are developed for integrating ESG risks into corporate risk management, assessing green projects under the national green taxonomy, determining double materiality, establishing ESG KPIs and improving sustainability-related disclosures.

Keywords: ESG, corporate governance, sustainable development, green economy, green taxonomy, ESG risks, Supervisory Board, ESG KPIs, double materiality, IFRS S1, IFRS S2.

Zamonaviy korporativ boshqaruv tizimida kompaniyaning uzoq muddatli qiymatini shakllantirish jarayoni faqat moliyaviy natijalar bilan cheklanmay, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarini ham hisobga olishni talab qilmoqda. ESG konsepsiyasining rivojlanishi natijasida barqaror rivojlanish masalalari korporativ ijtimoiy mas’uliyatning alohida yo‘nalishidan strategik boshqaruv, risk-menejment, ichki nazorat, investitsiya siyosati va axborotni oshkor etish tizimining tarkibiy qismiga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasida mazkur jarayonning huquqiy asoslari izchil shakllanib, ekologik xavfsizlik, “yashil” iqtisodiyot, barqaror rivojlanish va ESG tamoyillarini korporativ boshqaruv amaliyotiga integratsiya qilish uchun zarur institutsional sharoitlar yaratilmoqda.

O‘zbekistonda ekologik risklarni boshqarish va korporativ qarorlar qabul qilish jarayonida atrof-muhit omillarini hisobga olishning muhim huquqiy asosi 2025-yil 24-fevraldagi O‘RQ-1036-son “Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta’sirni baholash va strategik ekologik baholash to‘g‘risida”gi Qonun hisoblanadi [1]. Mazkur qonun ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta’sirni baholash va strategik ekologik baholash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish bilan bir qatorda, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, ekologik jihatdan asoslangan qarorlar qabul qilish, ochiqlik va jamoatchilik ishtiroki kabi prinsiplarni mustahkamlaydi. Korporativ boshqaruv nuqtayi nazaridan ushbu talablar investitsiya va ishlab chiqarish loyihalarini baholashda ularning moliyaviy samaradorligi bilan bir qatorda ekologik oqibatlarini ham hisobga olish zarurligini anglatadi. Shu sababli yirik investitsiya loyihalarini tasdiqlash jarayonida Kuzatuv kengashi va ijro etuvchi organ ekologik risklarni oldindan aniqlashi, ularning kompaniyaning uzoq muddatli moliyaviy holatiga ta’sirini baholashi va tegishli boshqaruv choralarini belgilashi lozim.

Barqaror rivojlanish va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”da amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmonida ham o‘z ifodasini topgan [2]. Mazkur hujjat atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va barqaror rivojlanish bilan bog‘liq vazifalarni tizimli ravishda amalga oshirish uchun asos yaratadi. Korporativ boshqaruv nuqtayi nazaridan ushbu strategik yo‘nalish kompaniyalarning biznes strategiyasini ekologik samaradorlik, resurslardan foydalanish samaradorligi, energiya tejamkorligi va iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq risklarni hisobga olgan holda shakllantirishni talab qiladi. Bunda ekologik ko‘rsatkichlar faqat operatsion faoliyatning texnik ko‘rsatkichlari sifatida emas, balki kompaniyaning raqobatbardoshligi, investitsion jozibadorligi va uzoq muddatli qiymatini belgilovchi omillar sifatida qaralishi lozim [2].

O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning moliyaviy va investitsion mexanizmlarini shakllantirishda Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktabrdagi 561-son qarori muhim ahamiyatga ega [4]. Milliy “yashil” taksonomiya iqtisodiy faoliyat va loyihalarni ularning ekologik mezonlarga muvofiqligi nuqtayi nazaridan tasniflash imkonini beradi. Bu esa korporativ boshqaruv organlari uchun investitsiya loyihalarini tanlash va baholashda qo‘shimcha mezonlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Xususan, Kuzatuv kengashi va ijro etuvchi organ investitsiya loyihalarini ko‘rib chiqishda kutilayotgan moliyaviy daromadlilik bilan bir qatorda loyihaning ekologik samaradorligi, resurslardan foydalanish darajasi, emissiyalarni kamaytirish imkoniyati va uzoq muddatli ESG risklarini ham hisobga olishi maqsadga muvofiq.

ESG tamoyillarini korporativ boshqaruv tizimiga bevosita integratsiya qilishning institutsional asoslari Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 4-maydagi 221-son qarori bilan yanada rivojlantirildi [3]. Mazkur qaror ESG tamoyillarini tashkilotlar faoliyatiga joriy etish, barqaror rivojlanish masalalarini boshqaruv jarayonlariga integratsiya qilish va ESGga oid axborotni shakllantirish hamda oshkor etish mexanizmlarini rivojlantirish uchun muhim huquqiy asos yaratadi. Korporativ boshqaruv nuqtayi nazaridan ESG masalalari kompaniyaning alohida bo‘linmasi yoki faqat hisobot tayyorlash vazifasi sifatida emas, balki Kuzatuv kengashi, ijro etuvchi organ, risk-menejment, ichki nazorat va boshqa funksional bo‘linmalarning o‘zaro bog‘liq faoliyati sifatida tashkil etilishi kerak.

ESGning korporativ boshqaruvdagi institutsional mexanizmini shakllantirishda Kuzatuv kengashining strategik roli alohida ahamiyatga ega. Kuzatuv kengashi ESG bo‘yicha strategik maqsadlarni belgilashi, ularning kompaniyaning umumiy rivojlanish strategiyasi bilan muvofiqligini ta’minlashi, ESG risklari va imkoniyatlarini muntazam ravishda ko‘rib chiqishi hamda ijro etuvchi organ faoliyatini tegishli ko‘rsatkichlar asosida baholashi lozim. ESG masalalarini boshqarish uchun mas’uliyat markazlarini aniq belgilash, zarur hollarda ixtisoslashtirilgan ESG qo‘mitasi yoki tegishli funksional tuzilmani tashkil etish kompaniyaning barqaror rivojlanish maqsadlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi.

ESG boshqaruvining muhim elementi ESG risklarini korporativ risk-menejment tizimiga integratsiya qilishdir. Ekologik risklar qatoriga iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi, ekologik talablarning kuchayishi, atrof-muhitga salbiy ta’sir va ishlab chiqarish jarayonlarining ekologik xavflari kiradi. Ijtimoiy risklar inson kapitali, mehnat xavfsizligi, xodimlarning huquqlari, iste’molchilar manfaatlari va manfaatdor tomonlar bilan munosabatlar bilan bog‘liq. Governance risklari esa korporativ nazorat, manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqaruv, shaffoflik va axborotni oshkor qilish sifatiga taalluqlidir [3; 7]. ESG risklari kompaniyaning umumiy risklar reyestriga kiritilishi va strategik, moliyaviy hamda operatsion risklar bilan birgalikda baholanishi lozim.

Mazkur yondashuv xalqaro korporativ boshqaruv amaliyotiga ham mos keladi. G20/OECD Principles of Corporate Governance 2023 hujjatida barqarorlik va chidamlilik korporativ boshqaruvning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan [7]. Mazkur tamoyillarga ko‘ra, korporativ boshqaruv tizimi kompaniyalarga barqarorlik bilan bog‘liq risk va imkoniyatlarni strategiya, risk-menejment, ichki nazorat va axborotni oshkor qilish jarayonlarida hisobga olish imkonini berishi kerak [7]. Bu yondashuv O‘zbekiston korporativ sektorida ESGni boshqaruvning alohida yo‘nalishi sifatida emas, balki kompaniyaning strategik boshqaruv tizimining tarkibiy elementi sifatida shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

ESG risklarini moliyaviy boshqaruv bilan bog‘lash IFRS S1 – “General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information” standartining konseptual yondashuviga ham mos keladi [5]. IFRS S1 tashkilotning istiqbollariga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan barqarorlik bilan bog‘liq risk va imkoniyatlar to‘g‘risida moliyaviy hisobot foydalanuvchilariga qaror qabul qilish uchun foydali axborot taqdim etishga qaratilgan [5]. Standart boshqaruv, strategiya, risklarni boshqarish, ko‘rsatkichlar va maqsadlar bo‘yicha axborotni tizimli ravishda ochib berishga asoslanadi. Shu jihatdan IFRS S1 korxonalarda ESG axborotlarini strategik va moliyaviy boshqaruv jarayonlari bilan bog‘lash uchun xalqaro metodologik asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Iqlim risklari bo‘yicha IFRS S2 – “Climate-related Disclosures” standarti alohida ahamiyatga ega [6]. IFRS S2 IFRS S1 bilan birgalikda qo‘llanadi va tashkilotning iqlim bilan bog‘liq muhim risklari hamda imkoniyatlari, jumladan fizik va o‘tish risklarini boshqarish va ular to‘g‘risida axborot ochib berish talablarini belgilaydi. O‘zbekiston korxonalarida ushbu yondashuvdan foydalanish iqlim risklarini strategik rejalashtirish, investitsiya qarorlari, ishlab chiqarish jarayonlari va ta’minot zanjirini boshqarish bilan bog‘lash imkonini beradi.

ESG axborotining muhimligini aniqlashda ikki tomonlama muhimlik konsepsiyasi muhim metodik vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv ESG mavzusining kompaniyaga moliyaviy ta’sirini hamda kompaniya faoliyatining jamiyat va atrof-muhitga ta’sirini birgalikda baholash imkonini beradi [5; 6; 8]. Mazkur mexanizm kompaniya uchun eng muhim ekologik, ijtimoiy va boshqaruv masalalarini aniqlash, ularni ustuvorlashtirish va tegishli boshqaruv choralarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Yevropa Ittifoqining Directive (EU) 2022/2464 – Corporate Sustainability Reporting Directive ham korporativ barqarorlik hisobotlarini takomillashtirish va barqarorlik bilan bog‘liq axborotni tizimli ravishda oshkor qilishga qaratilgan [8]. Shu sababli CSRD tajribasi O‘zbekiston kompaniyalarida ESG axborotlarini standartlashtirish va uning taqqoslanuvchanligini oshirish uchun metodik yo‘nalish sifatida foydalanilishi mumkin.

ESG tizimining samaradorligini ta’minlashda ESG-KPIlarning kompaniyaning strategik maqsadlari bilan bog‘lanishi muhim. ESG-KPIlar energiya sarfi, issiqxona gazlari emissiyasi, chiqindilar hajmi, suv resurslaridan foydalanish, mehnat xavfsizligi, xodimlarni rivojlantirish, ijtimoiy mas’uliyat, korporativ boshqaruv sifati, korrupsiyaga qarshi choralar va boshqa muhim ko‘rsatkichlarni qamrab olishi mumkin [2; 3; 5; 6]. Bunday ko‘rsatkichlar nafaqat hisobot maqsadida, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilish, rahbariyat faoliyatini baholash va kompaniyaning uzoq muddatli strategik maqsadlariga erishish darajasini monitoring qilish uchun ham qo‘llanilishi lozim.

ESG-KPIlarni shakllantirishda milliy “yashil” taksonomiya bilan uyg‘unlikni ta’minlash ham muhim. 561-son qaror [4] bilan tasdiqlangan milliy “yashil” taksonomiya mezonlari asosida “yashil” loyihalar va investitsiyalarni aniqlash kompaniyaning ekologik yo‘nalishdagi kapital qo‘yilmalarini tizimli ravishda hisobga olish imkonini beradi. Bunday yondashuv investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun kompaniyaning “yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonidagi real hissasini baholash imkoniyatini kengaytiradi.

O‘zbekiston korporativ sektori uchun ESGni joriy etishning bosqichma-bosqich modeli taklif etiladi. Birinchi bosqichda kompaniyaning amaldagi korporativ boshqaruv, risk-menejment, ichki nazorat va axborot tizimlari bo‘yicha GAP-tahlili o‘tkazilishi lozim. Ikkinchi bosqichda ESGning ustuvor yo‘nalishlari va muhim ESG mavzulari aniqlanib, ESG risklar reyestri shakllantiriladi. Uchinchi bosqichda kompaniyaning investitsiya loyihalari milliy “yashil” taksonomiya mezonlari asosida baholanadi [4]. To‘rtinchi bosqichda ESG-KPIlar, maqsadlar va mas’uliyat markazlari belgilanadi. Beshinchi bosqichda ekologik risklar O‘RQ-1036-son Qonunida [1] nazarda tutilgan ekologik baholash mexanizmlari bilan muvofiqlashtiriladi. Oltinchi bosqichda IFRS S1 va IFRS S2 talablariga mos ravishda barqarorlik va iqlimga oid axborotlarni ochib berish tizimi rivojlantiriladi [5; 6].

Mazkur modelning muhim afzalligi ESGni alohida hisobot tayyorlash vazifasidan korporativ boshqaruvning uzluksiz jarayoniga aylantirishidadir. PF-16-son Farmon bilan belgilangan “yashil” iqtisodiyot va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha davlat siyosati [2], 561-son qaror bilan shakllantirilgan “yashil” faoliyatni tasniflash mexanizmi [4], 221-son qaror bilan ESG tamoyillarini joriy etish bo‘yicha belgilangan institutsional mexanizmlar [3] hamda O‘RQ-1036-son Qonun bilan mustahkamlangan ekologik baholash prinsiplari [1] korxonalar uchun o‘zaro bog‘langan boshqaruv tizimini shakllantirish imkonini beradi.

Xalqaro tajriba ham mazkur yondashuvning samaradorligini ko‘rsatadi. G20/OECD Principles of Corporate Governance 2023 barqarorlik masalalarini korporativ boshqaruv, strategiya va risk-menejment bilan bog‘laydi [7]. IFRS S1 va IFRS S2 barqarorlik hamda iqlim risklari to‘g‘risidagi moliyaviy jihatdan muhim axborotni ochib berish uchun xalqaro asos yaratadi [5; 6]. Yevropa Ittifoqining CSRD direktivasi esa korporativ barqarorlik hisobotlarini tizimlashtirish va ularning ishonchliligini oshirishga yo‘naltirilgan [8].

Shunday qilib, ESG tamoyillarini korporativ boshqaruvga joriy etish barqarorlik omillarini qarorlar qabul qilish jarayoniga integratsiya qilish, ESG risklarini boshqarish va boshqaruv organlarining javobgarligini kuchaytirishni nazarda tutadi. Milliy va xalqaro yondashuvlarni uyg‘unlashtirish esa korporativ boshqaruv shaffofligi, ekologik va iqlim risklariga chidamlilik hamda uzoq muddatli qiymat yaratish uchun yaxlit asosni shakllantiradi. Bunday yondashuv kompaniyalarning manfaatdor tomonlar oldidagi mas’uliyatini oshirib, investitsion jozibadorligi va barqaror rivojlanishini ta’minlovchi strategik vositaga aylanadi va kompaniyaning raqobatbardoshligi va bozor qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi 24.02.2025-yildagi “Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta’sirni baholash va strategik ekologik baholash to‘g‘risida”gi O‘RQ-1036-son Qonuni. URL.: https://lex.uz/uz/docs/-7397280
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025-yildagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-son Farmoni. URL.: https://lex.uz/uz/docs/-7369703
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 04.05.2026-yildagi “Barqaror rivojlanish va atrof-muhit, ijtimoiy hamda korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 221-son qarori. URL.: https://lex.uz/uz/docs/-8171367
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.10.2023-yildagi “Milliy “yashil” taksonomiyani tasdiqlash to‘g‘risida”gi 561-son qarori. URL.: https://lex.uz/docs/-6644013
5. IFRS S1 General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information. London: IFRS Foundation, 2023. URL.: https://www.ifrs.org/issued-standards/ifrs-sustainability-standards-navigator/ifrs-s1-general-requirements/?utm_source=chatgpt.com
6. IFRS S2 Climate-related Disclosures. London: IFRS Foundation, 2023. URL.: https://www.ifrs.org/issued-standards/ifrs-sustainability-standards-navigator/ifrs-s2-climate-related-disclosures/
7. European Parliament and Council of the European Union. Directive (EU) 2022/2464 as regards corporate sustainability reporting. Official Journal of the European Union, 2022. URL.: https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2022/2464/oj/eng?utm_source=chatgpt.com
8. OECD. G20/OECD Principles of Corporate Governance 2023. Paris: OECD Publishing, 2023. DOI: 10.1787/ed750b30-en. URL.: https://www.oecd.org/en/publications/2023/09/g20-oecd-principles-of-corporate-governance-2023_60836fcb/full-report.html?utm_source=chatgpt.com

MILLIY XOSLANGAN LISONIY BIRLIKLARNI TIL KORPUSIDA TEGLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Yorkulov Zafarjon Bakirovich
mustaqil tadqiqodchi
Ёркулов Зафаржон Бакирович
независимий исследователь
Yorkulov Zafarjon Bakirovich
independent researcher
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21935189

Korpus tilning real kommunikativ amaliyotdagi holatini namoyon etishi lozim. Korpus reprezentativ bo‘lishi uchun u tilning turli registrlari, janrlari, kommunikativ vaziyatlari va funksional uslublarini mutanosib ravishda qamrab olishi shart. Ya’ni korpusning reprezentativlik darajasi tanlovning sifat ko‘rsatkichlariga bevosita bog‘liqdir – millionlab so‘zlardan iborat korpus ham noto‘g‘ri tanlangan material asosida tuzilgan bo‘lsa, reprezentativ hisoblanmaydi. Aksincha, metodologik jihatdan puxta tanlangan nisbatan kichik korpus ishonchli natijalar berishi mumkin. Korpus tarkibiga kiritiladigan matnlar maqsadli tanlov, sathli tanlov, tasodifiy tanlov yoki kombinatsiyalashgan tanlov usullari asosida shakllantirilishi mumkin. Sathli tanlov usulo matnlarni oldindan belgilangan parametrlar janr, davr, muallif, auditoriya, kommunikativ vazifa, geografik hudud va boshqa mezonlar asosida mutanosib taqsimlash imkonini berishi statistik jihatdan aniq xulosalar shakllantirishda muhim xususiyat hisoblanadi. Korpus tarkibidagi turli tipdagi matnlarning nisbiy ulushi ilmiy asoslangan mezonlarga muvofiq taqsimlanishi uning muvozanatliligini anglatadi. Shakllantirilgan bazada muayyan janr yoki uslub haddan tashqari ustunlik qilsa, ayrim leksik, grammatik yoki pragmatik birliklarning chastotasi sun'iy ravishda ortib ketadi va shu bois tadqiqot natijalari obyektivligini yo‘qotadi. Muvozanatlilikni ta'minlashda quyidagi parametrlar hisobga olinishi lozim:

turli uslublar qamrovi (badiiy, ilmiy, publitsistik, rasmiy, so‘zlashuv);
turli kommunikativ janrlar qamrovi;
yozma va og‘zaki nutq nisbatida mutanosiblik;
matn yaratilgan davrlar qamrovi;
nutq mualliflarning ijtimoiy-demografik xususiyatlari (jins, yosh, kasb va boshqalar);
geografik hudud va dialektal variantlar qamrovi;

Takidlash joizki, korpusning sifat jihatdan to‘g‘ri shakllantirilishi uning hajmidan muhimroq. T. McEnery va A. Hardie korpusning ilmiy qiymati tadqiqot maqsadiga mos ravishda tanlangan materiallar tizimi bilan belgilanishini qayd etadilar. Shuning uchun maxsus korpuslarda hajm nisbatan kichik bo‘lsa ham, reprezentativlik va muvozanatlilik tamoyillari to‘liq ta'minlangan taqdirda ular yuqori ilmiy samaradorlikka ega bo‘lishi muqarrar. Milliy-madaniy xoslangan lisoniy birliklarni jamlovchi korpusni shakllantirishda ham ushbu metodologik tamoyillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zotan, ushbu korpus turli janr va diskurslarga mansub autentik matnlarni qamrab olishi, erkak va ayol nutqi namunalarining mutanosib taqsimlanishini ta'minlashi, shuningdek, yozma hamda og‘zaki nutq materiallarini o‘z ichiga olishi zarur. Korpus uchun til materialini to‘plashda autentiklik, obyektivlik hamda reproduktivlik tamoyillariga ham tayanish shart. Ushbu tamoyillar korpusdagi til materialining ishonchliligini, tadqiqot natijalarining xolisligini va ularning boshqa tadqiqotchilar tomonidan qayta tekshirilish imkoniyatini ta’minlab, empirik tadqiqotlarning metodologik poydevori bo‘ladi.

Milliy xoslangan leksemalarni korpusda teglashda yuqorida ko‘rsatilgan reprezentativlik, muvozanatlilik, autentiklik, obyektivlik va reproduktivlik tamoyillari bevosita teglashning o‘ziga emas, balki leksemalarni tanlash, ularning milliy xoslanganligini aniqlash va tegni izchil qo‘llash jarayonlariga xizmat qiladi. Buni quyidagicha tizimlashtirish mumkin.

Reprezentativlik tamoyili milliy xoslangan leksemalarning korpusda turli mavzu, uslub, janr, davr va kommunikativ vaziyatlarda yetarli darajada aks etishini ta’minlaydi. Masalan, do‘ppi leksemasi faqat badiiy matnlardan emas, publitsistik, ilmiy-ommabop, tarixiy va boshqa matnlardan ham tanlanishi kerak. Shunda uning milliy-madaniy mazmuni va qo‘llanish xususiyatlari to‘liqroq namoyon bo‘ladi.

Muvozanatlilik milliy xoslangan leksemalarning turli semantik-madaniy guruhlari korpusda mutanosib aks etishini nazarda tutadi. Ya’ni korpus faqat milliy taom nomlaridan iborat bo‘lib qolmasligi,

unda milliy kiyim-kechak, marosim, qarindoshlik, uy-ro‘zg‘or, kasb-hunar, diniy tushunchalar va boshqa ma’no guruhlari ham mavjud bo‘lishi kerak.

Masalan:
MILLIY_TAOM
MILLIY_KIYIM
MAROSIM
URF_ODAT
QARINDOSHLIK
UY_RO‘ZG‘OR
KASB_HUNAR
DINIY_QADRIYAT

Korpusni shakllantirishda autentiklik eng muhim mezonlardan biri. Milliy xoslangan leksema sun’iy tuzilgan gap asosida emas, real nutqdagi qo‘llanishi asosida teglanishi shart. Obyektivlik tamoyili milliy xoslangan leksemalarni subyektiv taxmin asosida emas, oldindan belgilangan mezonlar asosidateglashni talab qiladi. Masalan, har qanday o‘zbekcha leksemani milliy xoslangan deb belgilash mumkin emas. Uy, non, bola, suv kabi birliklar o‘zbek tilida faol qo‘llansa-da, ularning o‘zi muntazam milliy xoslangan leksema bo‘lmaydi, Milliy xoslanishni belgilashda leksema → milliy referent → milliy-madaniy sema → madaniy funksiya → kontekst tekshirilishi lozim. Masalan: iroqi → o‘zbek milliy bosh kiyimi → milliy-madaniy sema mavjud → kiyim-kechak madaniyatiga mansub → MILLIY_KIYIM.

5. Reproduktivlik tamoyili teglashning bir xil holatlarda bir xil natija berishini ta’minlaydi. Ya’ni bir annotator do‘ppiga MILLIY_KIYIM tegini bersa, boshqa annotator ham ayni mezon asosida shu tegni berishi kerak.

Buning uchun teglashning quyidagi yo‘riqnomasiga amal qilinadi. Unda:
milliy xoslangan leksema nima;
qaysi birliklar teglanadi;
qaysi birliklar teglanmaydi;
har bir tegning chegarasi;
bir leksema bir nechta kategoriyaga tegishli bo‘lsa, qaysi teg tanlanishi;
kontekstda milliy ma’no qanday aniqlanishi
aniq ko‘rsatiladi.

Ma’lumki, ayrim leksemalar nutqda umumiy ma’noda ham, milliy-madaniy xoslangan ma’noda ham qo‘llanishi mumkin. Agar leksema boshqa kontekstda umumlashgan yoki ko‘chma ma’noda ishlatilsa, uning milliy xoslanganlik darajasi qayta tekshiriladi. Bu yondashuv kontekstuallik tamoyili bilan shartlangan.

Shunday qilib, tamoyillar asosida korpusda birlikni teglashda quyidagi ketma-ketlik shakllanadi:

Dasturxonga palov tortildi.

Teg strukturasi	Natija
Leksema	palov
Milliy xoslanganlik	mavjud
Referent	milliy taom
Madaniy soha	oziq-ovqat / milliy taom
Kontekst	to‘y marosimi
Asosiy teg	MILLIY_TAOM
Qo‘shimcha teg	MAROSIM_TO‘Y

Milliy xoslangan birliklarning real nutqdagi qo‘llanish xususiyatlarini obyektiv aks ettirish uchun korpus materiallari turli funksional uslub va kommunikativ janrlarni qamrab olishi zarur, degan xulosaga kelindi. Bunda badiiy, publitsistik, rasmiy, ilmiy-ommabop va so‘zlashuvga xos materiallarning mavjudligi birliklarning turli kontekstdagi qo‘llanishini qiyoslash imkonini beradi. Yozma va og‘zaki nutq, turli davrlar hamda hududiy variantlarning hisobga olinishi milliy xoslangan birliklarning qo‘llanish doirasini to‘liqroq ifodalashga xizmat qiladi. Muayyan lisoniy birlikning faqat boshqa tillarda muqobili mavjud yoki mavjud emasligi sababli milliy xoslanganlikni belgilashda birlikning o‘zbek madaniyati bilan bog‘liq referenti, tarkibidagi milliy-madaniy semantik komponent va muayyan ijtimoiy-madaniy tajribani aks

ettirish darajasi kompleks ravishda hisobga olinishi lozim. Milliy xoslangan birlikni faqat lug‘aviy shakli asosida belgilash ayrim hollarda noto‘g‘ri natijaga olib keladi. Birlikning milliy-madaniy mazmuni uning konkret matndagi qo‘llanishi orqali aniqlanishi sababli kontekst teglashning majburiy komponenti sifatida belgilanadi. Shu asnoda bir xil lisoniy shaklning umumiy ma’noda yoki milliy-madaniy ma’noda qo‘llangan holatlarini farqlash imkonini beruvchi kontekstual mezon ishlab chiqildi. Lisoniy birliklarni marosim va urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlar, qarindoshlik, milliy taomlar, kiyim-kechak, uy-ro‘zg‘or, kasb-hunar, diniy tushunchalar va qadriyatlar kabi mazmuniy guruhlarga ajratish maqsadga movofiq. Bunday tasnif keyingi bosqichlarda muayyan kategoriyalarning chastotasi va funksional taqsimotini aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Abjalova M. O‘zbek tili milliy korpusida so‘zshaklni leksikografik baza asosida qidiruv imkoniyatlari // “Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar” Respublika I ilmiy-texnikaviy konferensiyasi. – 2021. – B. 12–17.
2. Biber D. Representativeness in Corpus Design // Literary and Linguistic Computing. – 1993. – Vol. 8, No. 4. – P. 243–257.
3. McEnery T., Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. – 294 p.
4. Po‘latov A. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – 160 b.
5. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. – Oxford: Oxford University Press, 1991. – 179 p.
6. Zaxarov V., Mengliyev B., Xamroyeva Sh., Xoliyorov O‘. Korpus lingvistikasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2021. – 164 b.

INKLYUZIV TA’LIMDA TYUTORLIK XIZMATINI INDIVIDUALLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Ramazonova Ruxsora Rashid qizi
Buxoro davlat texnika universiteti Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi mutaxassisi
E-mail: ruxsoraramazonova55@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21992174

Annotatsiya: Mazkur tezisda inklyuziv ta’lim sharoitida tyutorlik xizmatini individuallashtirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Unda talabalarning individual ta’limiy ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda pedagogik qo‘llab-quvvatlashni tashkil etish masalalari tahlil qilingan. Tyutorlik xizmatini individuallashtirishning shaxsga yo‘naltirilganlik, diagnostiklik, hamkorlik, variativlik, uzluksizlik va refleksivlik tamoyillari asoslangan. Shuningdek, diagnostika, individual maqsadni belgilash, ta’lim trayektoriyasini loyihalash, pedagogik qo‘llab-quvvatlash, monitoring va refleksiyaga asoslangan model taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, oliy ta’lim, tyutorlik xizmati, individuallashtirish, individual ta’lim trayektoriyasi, pedagogik qo‘llab-quvvatlash, tyutor

Abstract. This thesis examines the pedagogical foundations of individualized tutoring services in inclusive education. It analyzes the organization of pedagogical support based on students’ individual educational needs, interests, abilities, and capabilities. The principles of student-centeredness, diagnostics, cooperation, variability, continuity, and reflection are substantiated. A tutoring individualization model based on diagnosis, individual goal setting, educational trajectory design, pedagogical support, monitoring, and reflection is proposed.

Keywords: inclusive education, higher education, tutoring service, individualization, individual educational trajectory, pedagogical support, tutor

Аннотация. В тезисе рассматриваются педагогические основы индивидуализации тьюторской службы в условиях инклюзивного образования. Анализируются вопросы педагогической поддержки студентов с учетом их индивидуальных образовательных потребностей, интересов, способностей и возможностей. Обоснованы принципы личностной направленности, диагностичности, сотрудничества, вариативности, непрерывности и рефлексивности тьюторского сопровождения. Предложена модель, включающая диагностику, постановку индивидуальных целей, проектирование образовательной траектории, педагогическую поддержку, мониторинг и рефлексию.

Ключевые слова: инклюзивное образование, высшее образование, тьюторская служба, индивидуализация, индивидуальная образовательная траектория, педагогическая поддержка, тьютор

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida inklyuziv muhitni shakllantirish ta’lim oluvchilarning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishni talab etmoqda. Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi nafaqat turli ehtiyojlarga ega talabalarni oliy ta’limga jalb qilish, balki ularning ta’lim jarayonida teng va faol ishtirok etishi uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratishdan iborat.

Inklyuziv ta’lim sharoitida barcha talabalar uchun bir xil pedagogik yondashuvdan foydalanish har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Chunki talabalarning bilim darajasi, qiziqishlari, o‘quv motivatsiyasi, psixologik xususiyatlari, kommunikativ imkoniyatlari va ta’limiy ehtiyojlari bir-biridan farq qiladi. Shu sababli ta’lim jarayonini individuallashtirish va talabaga mos pedagogik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifalardan biridir.

Mazkur jarayonda tyutorlik xizmati talabaning individual ta’limiy ehtiyojlarini aniqlash, ta’limiy maqsadlarini belgilash, individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish va ta’lim jarayonidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga ko‘maklashuvchi muhim pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Tyutorlik xizmatini individuallashtirish deganda talabaning individual ta’limiy ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, mavjud bilim va ko‘nikmalari hamda rivojlanish maqsadlarini hisobga olgan holda pedagogik qo‘llab-quvvatlashning mazmuni, shakllari va metodlarini moslashtirish jarayoni tushuniladi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida tyutorning faoliyati “barcha talabalar uchun bir xil yondashuv” tamoyiliga emas, balki “har bir talaba uchun ehtiyojiga mos pedagogik qo‘llab-quvvatlash” tamoyiliga

asoslanishi lozim. Bunda tyutor talaba o‘rniga qaror qabul qiluvchi emas, balki uning mustaqil ta’limiy qarorlar qabul qilishiga yordam beruvchi pedagogik hamkor sifatida faoliyat yuritadi.

Tyutorlik xizmatini individuallashtirishning asosiy pedagogik tamoyillari quyidagilardan iborat:

A. Shaxsga yo‘naltirilganlik tamoyili – talabaning shaxsiyati, ehtiyojlari, qiziqishlari va ta’limiy maqsadlarini pedagogik jarayonning markaziga qo‘yishni nazarda tutadi.

B. Diagnostiklik tamoyili – talabaning ta’limiy ehtiyojlari, qobiliyatlari, bilim darajasi va ta’lim jarayonida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarini aniqlashni talab qiladi.

C. Hamkorlik tamoyili – tyutor va talaba o‘rtasidagi munosabatni subyekt-subyekt asosida tashkil etishni nazarda tutadi.

D. Variativlik tamoyili – talabaning individual xususiyatlariga mos ravishda turli pedagogik metod, shakl va vositalardan foydalanishni ta’minlaydi.

E. Uzluksizlik tamoyili – tyutorlik qo‘llab-quvvatlashining muntazam va tizimli tashkil etilishini anglatadi.

F. Refleksivlik tamoyili – talabaning o‘z ta’limiy faoliyati va erishgan natijalarini mustaqil tahlil qilishini ta’minlaydi.

Tyutorlik xizmatini individuallashtirish jarayonini quyidagi ketma-ketlik asosida tashkil etish mumkin:

Diagnostika → individual maqsadni belgilash → individual ta’lim trayektoriyasini loyihalash → pedagogik qo‘llab-quvvatlash → monitoring → refleksiya → korreksiya.

Mazkur jarayonning dastlabki bosqichida talabaning ta’limiy ehtiyojlari aniqlanadi. Keyingi bosqichda talaba bilan birgalikda individual maqsadlar belgilanadi va ushbu maqsadlarga erishish uchun individual ta’lim trayektoriyasi ishlab chiqiladi.

Amaliy bosqichda tyutor individual maslahat, yo‘naltirish, ta’lim faoliyatini rejalashtirish, mustaqil ta’limni tashkil etish va ta’lim resurslarini tanlashda ko‘maklashadi. Monitoring jarayonida talabaning rivojlanish dinamikasi kuzatiladi. Refleksiya va korreksiya bosqichida esa erishilgan natijalar tahlil qilinib, zaruratga ko‘ra individual ta’lim trayektoriyasiga o‘zgartirishlar kiritiladi.

Nazariy tahlil natijasida inklyuziv ta’lim sharoitida tyutorlik xizmatini individuallashtirishning yettita asosiy komponenti aniqlandi:

- Diagnostik komponent – talabaning individual ta’limiy ehtiyojlarini aniqlash;

- Maqsadli komponent – individual ta’limiy maqsadlarni belgilash;

- Loyihalash komponenti – individual ta’lim trayektoriyasini ishlab chiqish;

- Amaliy komponent – individual pedagogik qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish;

- Monitoring komponenti – ta’limiy rivojlanish dinamikasini kuzatish;

- Refleksiv komponent – talabaning o‘z ta’limiy faoliyatini tahlil qilishi;

- Korreksion komponent – pedagogik yordam mazmunini natijalarga muvofiq qayta moslashtirish.

Natijalar asosida tyutorlik xizmatini individuallashtirishning quyidagi modeli taklif etildi:

Diagnostika → individual maqsad → individual ta’lim trayektoriyasi → pedagogik qo‘llab-quvvatlash → monitoring → refleksiya → korreksiya.

Mazkur model talabaning ta’lim jarayonidagi subyektlik mavqeini kuchaytirish, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish va individual ta’limiy ehtiyojlariga mos pedagogik yordam ko‘rsatishga yo‘naltirilgan.

Olingan natijalar tyutorlik xizmatini inklyuziv ta’limda oddiy maslahat berish faoliyati sifatida emas, balki tizimli pedagogik qo‘llab-quvvatlash mexanizmi sifatida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Ayniqsa, diagnostika bosqichining mavjudligi tyutorlik xizmatining samaradorligi uchun muhim hisoblanadi. Chunki talabaning real ta’limiy ehtiyojlari va qiyinchiliklari aniqlanmasdan turib, individual pedagogik yordamni to‘g‘ri tashkil etish qiyin.

Tyutorlik xizmatini individuallashtirish talabaning mustaqilligini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Tyutorning asosiy vazifasi tayyor yechimlarni berish emas, balki talabani mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish, qaror qabul qilish va o‘z faoliyatini baholashga yo‘naltirishdan iborat.

Inklyuziv ta’lim sharoitida tyutorlik xizmatini individuallashtirish talabaning individual ta’limiy ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda pedagogik qo‘llab-quvvatlashni tashkil etishning samarali mexanizmi hisoblanadi.

Tadqiqot natijasida tyutorlik xizmatini individuallashtirishning asosiy pedagogik tamoyillari **shaxsga yo‘naltirilganlik, diagnostiklik, hamkorlik, variativlik, uzluksizlik va refleksivlik** ekanligi aniqlandi.

Mazkur yondashuvni oliy ta’lim amaliyotiga joriy etish talabalarning ta’lim jarayonidagi faolligi va mustaqilligini oshirish, individual ta’limiy ehtiyojlarini samarali qondirish hamda inklyuziv ta’lim muhitining pedagogik imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ainscow, M. (2020). Promoting inclusion and equity in education: Lessons from international experiences. *Nordic Journal of Studies in Educational Policy*, 6(1), 7–16.
2. Florian, L. (2014). What counts as evidence of inclusive education? *European Journal of Special Needs Education*, 29(3), 286–294.
3. UNESCO. (2020). *Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and Education – All Means All*. Paris: UNESCO.
4. United Nations. (2006). *Convention on the Rights of Persons with Disabilities*. New York: United Nations.
5. Qodirova, F.U., Pulatova, D.A. (2024). *Inklyuziv ta’lim*. Toshkent.
6. Qodirova, F.U., Pulatova, D.A. (2022). *Inklyuziv ta’lim: nazariya va amaliyot*. Chirchiq.
7. Lock, R. H., Layton, C. A. (2009). The impact of tutoring attendance on the GPAs of postsecondary students with learning disabilities. *Learning Disabilities: A Multidisciplinary Journal*, 15(2).
8. Moloney, M., et al. (2022). Specific learning difficulty tutors: Direct supports for navigating disabilities and the university environment. *Disability & Society*.
9. Lochtie, D., McIntosh, E., Stork, A., Walker, B. W., Alberts, N., Raby, A. (2026). *Effective Personal Tutoring and Academic Advising in Higher Education*. Routledge.
10. Samsonova, E. V., et al. (2023). Research on tutors’ readiness for inclusive educational practices. *Psychological-Educational Studies*, 15(4).

O‘ZBEK ADABIYOTIDA MILLIY O‘ZLIK VA ZAMONAVIYLIK KONSEPSIYASINING BADIIY TALQINI

Nurmaxammatova Shoxinur Murodjon qizi
Andijon viloyati Baliqchi tumani 50-IDUM ingliz tili fani o‘qituvchisi
shinierwiley@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22006115

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek adabiyotida milliy o‘zlik va zamonaviylik konsepsiyalarining badiiy tafakkur tizimidagi o‘zaro munosabati hamda ularning tarixiy-madaniy xotira, milliy kod, lisoniy identifikatsiya, qahramon konsepsiyasi va poetik transformatsiya orqali namoyon bo‘lish mexanizmlari tadqiq etildi. Milliy o‘zlik statik etnomadaniy belgi emas, balki tarixiy va ijtimoiy o‘zgarishlar ta’sirida qayta semantizatsiyalanadigan dinamik badiiy kategoriya sifatida talqin qilindi. Germenevtik, semiotik, narratologik, konseptual va komparativ-tipologik metodlarni birlashtiruvchi Milliy o‘zlik va zamonaviylikning badiiy integratsiyasi — MOZBI modeli ishlab chiqildi. Model milliy-madaniy kod, tarixiy xotira, lisoniy identifikatsiya, zamonaviy tafakkur va badiiy transformatsiyaning funksional munosabatlarini tizimli baholash imkonini beradi. O‘zbek nasrining turli davrlariga mansub reprezentativ asarlar strukturaviy-interpretativ kodlash asosida qiyoslandi. Natijada milliy o‘zlik va zamonaviylik munosabatining konfliktli, adaptiv, sintetik va transformativ badiiy tiplari differensiallashtirildi. Taklif etilgan model adabiy identitetni sifat va formalizatsiyalangan mezonlarni uyg‘unlashtirgan holda tadqiq etishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: milliy o‘zlik, zamonaviylik, identitet, milliy-madaniy kod, tarixiy xotira, badiiy tafakkur, narrativ, transformatsiya, modernizm, MOZBI modeli.

Аннотация. В статье исследуется взаимодействие концепций национальной идентичности и современности в художественной системе узбекской литературы, а также механизмы их репрезентации посредством культурно-исторической памяти, национального кода, языковой идентификации и художественной трансформации. Национальная идентичность рассматривается не как статическая этнокультурная характеристика, а как динамическая художественная категория, подвергающаяся ресемантизации в условиях исторических и социальных изменений. Разработана авторская модель художественной интеграции национальной идентичности и современности — MOZBI, объединяющая герменевтический, семиотический, нарратологический и сравнительно-типологический подходы. Модель включает пять компонентов: национально-культурный код, историческую память, языковую идентификацию, современное мышление и художественную трансформацию. На материале репрезентативных произведений узбекской прозы определены конфликтный, адаптивный, синтетический и трансформативный типы взаимодействия национального и современного. Предложенный интегральный индекс позволяет систематизировать качественные литературоведческие наблюдения без сведения художественной ценности произведения к количественному рейтингу.

Ключевые слова: национальная идентичность, современность, культурная память, национальный код, художественная трансформация, нарратив, узбекская литература, идентичность, модернизм, модель MOZBI.

Abstract. This article investigates the interaction between national identity and modernity within the artistic system of Uzbek literature and examines the mechanisms through which they are represented by cultural-historical memory, national codes, linguistic identification, narrative structure, and artistic transformation. National identity is interpreted not as a static ethnocultural characteristic but as a dynamic literary category continuously resemanticized under changing historical and social conditions. The study proposes an original Model of Artistic Integration of National Identity and Modernity (MOZBI) combining hermeneutic, semiotic, narratological, conceptual, and comparative-typological approaches. The model consists of five components: national-cultural code, historical memory, linguistic identification, modern consciousness, and artistic transformation. Its diagnostic application to representative Uzbek prose reveals conflictual, adaptive, synthetic, and transformative patterns of interaction between national identity and modernity. A new integral index is proposed to systematize qualitative literary interpretation while preserving the aesthetic specificity of literary texts. The model may also provide a methodological basis for broader corpus-based and digital-humanities studies of Uzbek literary identity.

Keywords: national identity, modernity, cultural memory, national-cultural code, artistic transformation, narrative, Uzbek literature, identity, modernism, MOZBI model.

KIRISH. Milliy o‘zlik adabiyotda muayyan xalqning etnografik belgilari yoki tarixiy o'tmishini tasvirlash bilangina cheklanadigan tushuncha emas. U kollektiv xotira, til, qadriyat, makon, tarixiy tajriba va shaxsning o‘zini muayyan madaniy hamjamiyatga mansub deb anglashini birlashtiruvchi murakkab badiiy-estetik kategoriya hisoblanadi. O‘zbek adabiy tafakkurining XX–XXI asrlardagi rivojlanishi bu kategoriyaning doimiy harakatda ekanligini ko‘rsatadi. Jadid adabiyotidagi milliy uyg‘onish va yangilanish ehtiyoji, sovet davri adabiyotidagi tarixiy xotira va milliy kanonning qayta tashkil etilishi, mustaqillik davridagi o‘zlikni qayta anglash hamda zamonaviy nasrdagi individual ong va global madaniy ta’sirlar milliylikning badiiy mazmunini murakkablashtirdi. Zamonaviy tadqiqotlar ham jadidchilikni milliy identitet shakllanishi va modernizatsiyaning o‘zaro aloqador jarayoni sifatida talqin qilmoqda.

Mavjud adabiyotshunoslik tadqiqotlarida milliy o‘zlik ko‘pincha tarixiy xotira, vatan, til, milliy xarakter, urf-odat yoki tarixiy shaxs obrazlari orqali o‘rganilsa, zamonaviylik modernizm, individualizm, yangilangan poetik tafakkur, global ta’sir, begonalashuv va yangi narrativ shakllar bilan bog‘lanadi. So‘nggi tadqiqotlarda o‘zbek sonet an’anasining o‘zida ham milliy identitet, kollektiv xotira va mahalliy madaniyatning tashqi ta’sir bilan munosabati markaziy mavzulardan biri ekanligi qayd etilgan. Shu bilan birga, postsovet va zamonaviy o‘zbek nasri tahlilida milliy identitetning shakllanishi, tarixiy xotira, axloqiy noaniqlik va modernistik ifoda vositalari masalasi alohida yo‘nalishlarga ajratib o‘rganilmoqda.

Mazkur tadqiqotlardagi asosiy metodologik bo‘shliq shundaki, milliy o‘zlik va zamonaviylik ko‘p hollarda parallel hodisalar sifatida tavsiflanadi, biroq ularning badiiy matn ichida bir-birini qanday o‘zgartirishi va natijada qanday yangi identitet konfiguratsiyasini vujudga keltirishi yagona tahliliy mexanizm asosida yetarlicha formalizatsiya qilinmagan. Milliy mazmunning mavjudligi hali badiiy milliy o‘zlikning yuqori darajasini anglatmagani kabi, modernistik shaklning mavjudligi ham avtomatik ravishda zamonaviy tafakkur ustuvorligini anglatmaydi. Asosiy masala ushbu elementlarning asar semantik markazi, qahramon tafakkuri, konflikt, xronotop va narrativ struktura bilan funksional aloqasini aniqlashdir.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi o‘zbek adabiyotida milliy o‘zlik va zamonaviylik konsepsiyalarining badiiy integratsiyalashuv mexanizmlarini aniqlash, ularni tizimli tahlil qilish mezonlarini shakllantirish va mazkur munosabatni ifodalovchi yangi analitik model yaratishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi milliy-madaniy kod, tarixiy xotira, lisoniy identifikatsiya, zamonaviy tafakkur va badiiy transformatsiyani yagona tizimda birlashtirgan MOZBI — Milliy o‘zlik va zamonaviylikning badiiy integratsiyasi modelining ishlab chiqilgani, shuningdek, ushbu model asosida milliylik va zamonaviylik munosabatining konfliktli, adaptiv, sintetik hamda transformativ tiplarini farqlash imkonini beruvchi integral indeks taklif etilgani bilan belgilanadi.

METODIKA

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari. Tadqiqotning metodologik konsepsiyasi milliy o‘zlikni tayyor, tarixan o‘zgarmaydigan mohiyat sifatida emas, balki madaniy xotira, til, tarixiy tajriba, makon va kollektiv tasavvurlarning doimiy ravishda qayta talqin qilinishi natijasida yuzaga keluvchi badiiy konstruksiya sifatida tushunishga asoslanadi. Bunday yondashuv identitet nazariyasidagi konstruktivistik qarashlar, madaniy xotira konsepsiyasi hamda adabiy narrativning o‘zlik yaratishdagi funksiyasi bilan uyg‘unlashadi.

O‘zbek adabiyoti misolida mazkur jarayonning tarixiy murakkabligi alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, Alisher Navoiy obrazining XX asrda milliy adabiy kanon markaziga aylanishi adabiy meros, tarixiy xotira va millat yaratish diskursining o‘zaro aloqadorligini ko‘rsatadi. B. Shin tadqiqotida Navoiy merosining sovet davrida milliylashtirilishi va kanonlashtirilishi tarixiy-madaniy identitet yaratish mexanizmlaridan biri sifatida ko‘rsatilgan. 2026-yilda e’lon qilingan tadqiqotda esa Oybek, Odil Yoqubov va Pirimqul Qodirov tarixiy romanlarining keyingi o‘zbek milliy identiteti shakllanishiga ta’siri alohida qayd etiladi.

Mazkur tadqiqotda “zamonaviylik” tushunchasi faqat asarning yaratilgan sanasi bilan emas, balki shaxsning individual tanlovi, an’anaviy qadriyatlarning qayta baholanishi, psixologik murakkablashuv, urbanistik yoki global madaniy ta’sirlar, yangi narrativ shakllar, fragmentarlik va badiiy eksperiment kabi belgilar bilan belgilanadi. Shunday qilib, “milliylik — zamonaviylik” munosabati “eski — yangi” oppozitsiyasiga keltirib qo‘yilmaydi.

Tadqiqotda germenevtik, semiotik, narratologik, komparativ-tipologik va strukturaviy-konseptual metodlardan kompleks foydalanildi. Ularning natijalari mualliflik indikatorlari asosidagi formalizatsiyalangan kodlash bilan birlashtirildi.

Tadqiqot korpusi. Modelning diagnostik imkoniyatlarini tekshirish uchun turli adabiy-estetik bosqichlarni ifodalovchi besh asar tanlandi:

1. Abdulla Qodiriy — “O‘tkan kunlar”;
2. Oybek — “Navoiy”;
3. Odil Yoqubov — “Ulug‘bek xazinasi”;
4. Pirimqul Qodirov — “Yulduzli tunlar”;
5. Nazar Eshonqul — “Maymun yetaklagan odam”.

Bunday tanlov bir xil estetik tizimdagi asarlarni emas, balki milliy o‘zlikning turli tarixiy bosqichlarda qanday badiiy mexanizmlar orqali ifodalanganini qiyoslash imkonini beradi.

1-jadval. Tadqiqot korpusining analitik tavsifi

T/r.	Asar	Asosiy identitet markazi	Zamonaviylikni ifodalovchi dominant	Yetakchi poetik mexanizm
1.	“O‘tkan kunlar”	millat taqdiri, ijtimoiy uyg‘onish	yangicha shaxs va ijtimoiy islohot ehtiyoji	tarixiy-realistik konflikt
2.	“Navoiy”	madaniy xotira va ma’rifat	tarixni zamonaviy milliy tafakkurda qayta qurish	tarixiy-biografik narrativ
3.	“Ulug‘bek xazinasi”	ilm, tarixiy meros, ma’rifat	shaxs va dogmatik muhit konflikti	intellektual-psixologik konflikt
4.	“Yulduzli tunlar”	tarixiy xotira, vatan va davlatchilik	transhududiy identitet va shaxsiy tanlov	tarixiy-psixologik narrativ
5.	“Maymun yetaklagan odam”	buzilgan xotira va individual o‘zlik	begonalashuv, axloqiy noaniqlik, modernistik ong	ramziy-modernistik narrativ

1-jadvaldan ko‘rinadiki, korpusdagi asarlar milliy o‘zlikni bir xil badiiy formula orqali shakllantirmaydi. Tarixiy romanlarda o‘zlik asosan xotira, ma’rifat va tarixiy shaxs orqali qayta qurilsa, Nazar Eshonqul nasrida identitetning parchalanishi, begonalashuv va individual xotira markazga chiqadi. Eshonqul ijodini so‘nggi tadqiqotlarda postmodern begonalashuv, xotira va modernistik narrativ bilan bog‘lab o‘rganish tendensiyasi ham ayni farqni tasdiqlaydi.


MOZBI konseptual modeli. Tadqiqotning asosiy metodologik yangiligi sifatida MOZBI — Milliy o‘zlik va zamonaviylikning badiiy integratsiyasi modeli ishlab chiqildi.

Model besh bazaviy komponentdan iborat:

$$\mathbf{X}=(M,T,L,Z,B) \tag{1}$$

bu yerda:
(M) — milliy-madaniy kod;
(T) — tarixiy xotira;
(L) — lisoniy identifikatsiya;
(Z) — zamonaviy tafakkur;
(B) — badiiy transformatsiya.

1-rasm. MOZBI konseptual modeli





1-rasmdagi konseptual struktura milliy o‘zlikni yopiq tizim sifatida emas, zamonaviylik bilan semantik muloqotda bo‘lgan dinamik tuzilma sifatida ko‘rsatadi. Modelda (B) komponenti ayniqsa muhim: u milliy mazmunning shunchaki mavjudligini emas, uning qanday yangi poetik shaklda qayta ishlab chiqilganini ifodalaydi.

Indikatorlar tizimi. Har bir komponentni operatsionallashtirish uchun uchta indikator belgilandi.

2-jadval. MOZBI komponentlari va indikatorlari

Komponent	1-indikator	2-indikator	3-indikator
M — milliy-madaniy kod	qadriyatlar tizimi	milliy ramz/arxetip	madaniy makon
T — tarixiy xotira	o'tmishga murojaat	avlodlar xotirasi	tarixiy meros/travma
L — lisoniy identifikatsiya	milliy leksika	nutq individualligi	madaniy-lisoniy marker
Z — zamonaviy tafakkur	individual tanlov	qadriyatlar qayta baholanishi	tashqi/global ta’sir
B — badiiy transformatsiya	narrativ yangilanish	xronotop transformatsiyasi	ramziy qayta kodlash

2-jadvalda milliylikni faqat urf-odat yoki tarixiy obraz bilan tenglashtirishdan voz kechilgan. Masalan, milliy ramz faqat dekorativ detal bo‘lib qolsa, u modelda yuqori ball olmaydi. Bunda ramzning konflikt, obraz, narrativ yoki konseptual yakun yaratishdagi funksiyasi hal qiluvchi hisoblanadi.

Kodlash uchun 0–4 balli ordinal shkala ishlab chiqildi:

$$
s_{ij}\in{0,1,2,3,4}
\tag{2}
$$

3-jadval. Indikatorlarni baholash shkalasi

T/r.	Ball		Daraja	Tavsifi
1.	0		mavjud emas	indikator semantik jihatdan faol emas
2.	1		periferik	epizodik yoki dekorativ
3.	2		funksional	ayrim obraz yoki konfliktga ta’sir qiladi
4.	3		dominant	asar semantikasida barqaror vazifaga ega
5.	4		tizim hosil qiluvchi	asarning konseptual strukturasini belgilaydi

Har bir komponent normallashtiriladi:

$$
C_i=\frac{\sum_{j=1}^{3}s_{ij}}{12},
\qquad 0\leq C_i\leq1
\tag{3}
$$

Shu orqali barcha komponentlar yagona 0–1 diapazoniga keltiriladi.

Milliy o‘zlik yadrosi. Milliy o‘zlikning uch bazaviy komponenti — madaniy kod, tarixiy xotira va lisoniy identifikatsiya — quyidagi formula orqali birlashtiriladi:

$$
N=\frac{w_MM+w_TT+w_LL}{w_M+w_T+w_L}
\tag{4}
$$

Bazaviy modelda komponentlarga teng vazn berilganda:

$$
N=\frac{M+T+L}{3}
$$

$$\tag{5}$$

Milliy o‘zlik va zamonaviylik o‘rtasidagi semantik masofa:

$$D=|N-Z| \tag{6}$$

muvozanat koeffitsiyenti esa:

$$Q=1-D=1-|N-Z| \tag{7}$$

formula orqali aniqlanadi.

(Q) ning 1 ga yaqinlashishi milliy o‘zlik va zamonaviylik o‘rtasidagi yuqori muvozanatni, 0 ga yaqinlashishi esa kuchli semantik nomutanosiblikni bildiradi.

Integratsiya intensivligi. Milliylik va zamonaviylikning bir tomoni haddan tashqari yuqori bo‘lganda oddiy arifmetik o‘rtacha integratsiyani sun’iy oshirib yuborishi mumkin. Shu sababli geometrik o‘rtacha qo‘llanildi:

$$G=\sqrt{NZ} \tag{8}$$

Yakuniy integral indeks quyidagicha ishlab chiqildi:

$$\boxed{MOZBI=\sqrt{NZ},[\alpha Q+(1-\alpha)B]} \tag{9}$$

bunda:
(MOZBI) — badiiy integratsiya indeksi;
(N) — milliy o‘zlik yadrosi;
(Z) — zamonaviy tafakkur;
(Q) — semantik muvozanat;
(B) — badiiy transformatsiya;
(\alpha) — muvozanat va poetik transformatsiya o‘rtasidagi vazn koeffitsiyenti.
Bazaviy holatda:

$$\alpha=0.5 \tag{10}$$

qabul qilindi.
Shunda formula:

$$MOZBI=\sqrt{NZ}\left[0.5(1-|N-Z|)+0.5B\right] \tag{11}$$

ko‘rinishga ega bo‘ladi.

2-rasm. MOZBI hisoblash algoritmi



▼
SEMANTIK SEGMENTATSIYA
|
▼
15 TA INDIKATORNI ANIQLASH
|
▼
0–4 BALLI KODLASH
|
▼
M, T, L, Z, B NI NORMALLASHTIRISH
|
▼
N = (M+T+L)/3
|
▼
Q = 1-|N-Z|
|
▼
G = √NZ
|
▼
MOZBI INDEKSI
|
▼
BADIIY TIPOLOGIYALASH

2-rasm metodning ikki tabiatini ko‘rsatadi: dastlabki bosqichlar adabiyotshunoslik interpretatsiyasiga, keyingi bosqichlar esa natijalarni formalizatsiya qilishga asoslanadi. Matematik model germenevtik tahlil o‘rnini egallamaydi; uning vazifasi interpretativ xulosalarni qiyoslanadigan shaklga keltirishdir.

Tipologik tasnif


4-jadval. Milliy o‘zlik–zamonaviylik integratsiyasining tipologik mezonlari

T.r.	Tip	Asosiy mezon	Badiiy xususiyati
1.	Konfliktli	(D\geq0.40)	milliylik va zamonaviylik o‘rtasida keskin semantik qarama-qarshilik
2.	Adaptiv	(D<0.40,\ B<0.50)	yangilik mavjud milliy struktura doirasida o‘zlashtiriladi
3.	Sintetik	(D<0.25,\ B\geq0.50)	milliy va zamonaviy kodlar barqaror birikadi
4.	Transformativ	(MOZBI\geq0.70,\ B\geq0.70)	o‘zaro ta’sir yangi badiiy identitetni hosil qiladi

Mazkur chegaralar universal adabiy qonun sifatida emas, modelning operatsion chegaralari sifatida taklif qilinadi. Keng ko‘lamli korpus tadqiqotlarida ular ekspertlararo kelishuv va sezgirlik tahlili asosida qayta kalibrlanishi mumkin.

3-rasm. Milliy o‘zlikning transformatsiya arxitekturasi.

TARIXIY-MADANIY MEROS
|
┌──────┬──────┬──────┐
| | | |
XOTIRA TIL   QADRIYAT
| | | |
└──────┴──────┴──────┘
▼
MILLIY O‘ZLIK
|



3-rasmga muvofiq, milliy o‘zlik zamonaviylik ta’sirida yo‘qolishi shart emas. Aksincha, tarixiy xotira yoki an’anaviy ramz yangi narrativ, psixologik yoki falsafiy vazifa olganda transformativ identitet yuzaga keladi.

NATIJALAR

Modelning diagnostik imkoniyati tanlangan besh asar misolida strukturaviy-interpretativ kodlash orqali tekshirildi. Quyidagi qiymatlar ijtimoiy-statistik eksperiment ma’lumotlari emas; ular 2–3-jadvallarda belgilangan badiiy-funksional mezonlarni asarlarning dominant poetik xususiyatlariga qo‘llash natijasida shakllantirilgan normallashtirilgan analitik baholar hisoblanadi.

5-jadval. Tanlangan asarlar bo‘yicha MOZBI komponentlarining analitik qiymatlari.

Asar	M	T	L	Z	B	N	MOZBI	Tip
“O‘tkan kunlar”	0.92	0.83	0.83	0.75	0.67	0.86	0.64	sintetik
“Navoiy”	0.92	1.00	0.92	0.58	0.58	0.95	0.51	adaptiv
“Ulug‘bek xazinasi”	0.83	1.00	0.75	0.75	0.67	0.86	0.63	sintetik
“Yulduzli tunlar”	0.92	1.00	0.83	0.75	0.67	0.92	0.63	sintetik
“Maymun yetaklagan odam”	0.50	0.75	0.58	0.92	0.92	0.61	0.65	transformativga yaqin

5-jadval natijalari bir necha muhim tendensiyani ko‘rsatdi. Birinchidan, milliy o‘zlik yadrosining yuqori bo‘lishi avtomatik ravishda MOZBI qiymatining eng yuqori bo‘lishini ta’minlamaydi. Masalan, “Navoiy”da (N=0.95) bo‘lsa-da, zamonaviy tafakkurning nisbatan pastroq funksional intensivligi sababli integratsiya ko‘rsatkichi 0.51 darajasida qoldi.

Ikkinchidan, “O‘tkan kunlar”, “Ulug‘bek xazinasi” va “Yulduzli tunlar”da milliy o‘zlik bilan yangilanish paradigmasi o‘rtasida nisbatan muvozanatli munosabat kuzatiladi. Bu asarlarda tarixiylik zamonaviylikning inkori sifatida emas, millatning keyingi rivoji uchun ma’rifiy va axloqiy tajriba sifatida ishlaydi.

Uchinchidan, “Maymun yetaklagan odam”da klassik milliy-madaniy markerlar tarixiy romanlardagidek yuqori bo‘lmasa-da, zamonaviy tafakkur va badiiy transformatsiya ko‘rsatkichlari keskin yuqori. Bu identitetning “milliy ramzlarni ko‘paytirish” emas, tarixiy va individual xotiraning inqirozini tasvirlash orqali ham ifodalanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

4-rasm. Asarlar kesimida milliy o‘zlik yadrosi va zamonaviy tafakkur nisbati



Yulduzli tunlar	[redacted] 0.92	[redacted]	0.75
Maymun yetaklagan odam	[redacted] 0.61	[redacted]	0.92

4-rasmdagi qiyosiy nisbat ikki xil badiiy yo‘nalishni aniqlash imkonini beradi. Tarixiy romanlarda (N>Z) modeli ustun bo‘lsa, Nazar Eshonqul asarida (Z>N) konfiguratsiyasi kuzatiladi. Demak, o‘zbek adabiyotidagi zamonaviylashuvni milliy identitetning chiziqli susayishi sifatida talqin qilish metodologik jihatdan yetarli emas.

5-rasm. MOZBI bo‘yicha badiiy evolyutsiyaning konseptual trayektoriyasi

MILLIY UYG‘ONISH
“O‘tkan kunlar”
▼
TARIXIY-MADANIY REKONSTRUKSIYA
“Navoiy”
▼
ILM – XOTIRA – SHAXS KONFLIKTI
“Ulug‘bek xazinasi”
▼
TARIXIY SHAXS VA TRANSREGIONAL O‘ZLIK
“Yulduzli tunlar”
▼
INDIVIDUAL XOTIRA VA IDENTITET INQIROZI
“Maymun yetaklagan odam”
▼
TRANSFORMATIV ZAMONAVIY BADIIY O‘ZLIK

5-rasm tarixiy taraqqiyotni qat’iy chiziqli periodizatsiya sifatida emas, badiiy o‘zlikni yaratish strategiyalarining o‘zgarishi sifatida aks ettiradi. Dastlab milliy o‘zlik ijtimoiy uyg‘onish va ma’rifat bilan chambarchas bog‘lansa, tarixiy romanlarda kollektiv xotirani rekonstruksiya qilish kuchayadi. Zamonaviy nasrda esa mazkur masala individning ichki inqirozi, xotira buzilishi va axloqiy noaniqlik orqali ifodalanadi.

NATIJALAR TAHLILI

Tadqiqot natijalarining birinchi muhim jihati milliy o‘zlikning badiiy strukturada bir xil poetik shaklda mavjud bo‘lmasligi bilan bog‘liq. “O‘tkan kunlar”da milliy o‘zlik jamiyatning ichki holatini tanqidiy baholash, taraqqiyot va ma’rifat masalasini ko‘tarish orqali yuzaga keladi. Shu sababli asardagi milliylik konservativ qaytish emas, o‘zligini saqlagan holda o‘zgarishga ehtiyoj sezuvchi tafakkur modeli sifatida namoyon bo‘ladi.

“Navoiy”da asosiy semantik markaz tarixiy-madaniy xotirani tiklashdan iborat. Navoiy obrazi shoir yoki tarixiy shaxs darajasidan chiqib, til, ma’rifat, adolat va madaniy merosni birlashtiruvchi identifikatsion timsolga aylanadi. Navoiy merosining keyinchalik milliy kanon yaratish jarayonidagi roli haqidagi xalqaro tadqiqotlar ham bunday talqinning tarixiy asoslari mavjudligini ko‘rsatadi.

“Ulug‘bek xazinasi”da esa tarixiy shaxsning badiiy funksiyasi bir oz o‘zgaradi. Ulug‘bek faqat milliy tarixning buyuk vakili sifatida emas, ilmiy tafakkur, erk va dogmatik muhit o‘rtasidagi konflikt markazi sifatida gavdalanadi. Shu sababli tarixiy xotira zamonaviy intellektual muammo bilan tutashadi. Asarning MOZBI ko‘rsatkichi “Navoiy”ga qaraganda yuqoriroq chiqishining sababi ham milliy-tarixiy mazmunning shaxsiy va falsafiy konflikt bilan faolroq integratsiyalashganidir.

“Yulduzli tunlar”da Bobur shaxsining geografik jihatdan turli makonlarga mansubligi o‘zlik masalasiga murakkablik olib kiradi. Vatan, davlat, ayriliq, xotira va madaniyat o‘rtasidagi munosabat milliy o‘zlikni faqat ma’lum hududga bog‘langan identitet sifatida emas, tarixiy-madaniy xotira orqali saqlanadigan transhududiy hodisa sifatida ko‘rsatadi. 2026-yilgi tadqiqotlar “Yulduzli tunlar”, “Ulug‘bek

xazinasi” va “Navoiy” kabi tarixiy romanlar keyingi milliy tarixiy tasavvurning shakllanishida muhim o‘rin egallaganini ko‘rsatmoqda.

“Maymun yetaklagan odam” esa mazkur evolyutsiyada prinsipial boshqa bosqichni ifodalaydi. Asarda milliy o‘zlik tayyor tarixiy ramzlar orqali emas, buzilgan shaxsiy va ijtimoiy xotira, axloqiy mezonlarning yemirilishi va begonalashgan individual ong orqali ochiladi. So‘nggi xalqaro tadqiqotlarda Nazar Eshonqul nasri moral ambiguity, postmodern alienation, genealogical memory va modernistik-magik realist shakllar bilan bog‘liq holda talqin qilinayotgani bu kuzatuv bilan uyg‘unlashadi.

Demak, tahlil qilingan korpus milliy o‘zlikning poetik evolyutsiyasini quyidagi semantik ketma-ketlik orqali ifodalash imkonini beradi:

[
\text{uyg‘onish}
\rightarrow
\text{tarixiy rekonstruksiya}
\rightarrow
\text{intellektual refleksiya}
\rightarrow
\text{individualizatsiya}
\rightarrow
\text{transformativ o‘zlik}
\tag{12}
]

Ushbu formula adabiy tarixning qat’iy xronologik qonuni emas, o‘rganilgan korpusdan kelib chiqadigan badiiy-semantik tendensiyani ifodalaydi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar milliy o‘zlik va zamonaviylik o‘rtasidagi munosabatni antagonistik sxema asosida tushuntirishning cheklanganligini ko‘rsatadi. O‘zbek adabiyoti misolida zamonaviylik ko‘pincha milliylikni yo‘q qiluvchi kuch emas, aksincha, milliy xotira va qadriyatlarning qanday shaklda qayta talqin qilinishini belgilovchi estetik mexanizm bo‘lib xizmat qiladi.

Bu jihatdan tadqiqot an’anaviy mavzuviy yondashuvlardan farqlanadi. Asarda tarixiy shaxs, mahalla, milliy kiyim, urf-odat yoki milliy leksikaning mavjudligi o‘z-o‘zidan yuqori milliy identitet ko‘rsatkichi sifatida baholanmaydi. MOZBI modelida ularning funksional vazifasi markazga chiqariladi. Masalan, tarixiy xotira qahramon qarorini, konfliktni yoki asarning falsafiy xulosasini belgilasa, u tizim hosil qiluvchi komponent sifatida baholanadi.

Ikkinchi farq zamonaviylikni vaqt kategoriyasidan chiqarib, poetik-kognitiv kategoriya sifatida talqin qilishdir. Shu sababli XX asr boshidagi “O‘tkan kunlar”dagi islohotchi tafakkur zamonaviylikning muhim ko‘rinishi bo‘lishi mumkin, XXI asrda yozilgan asarda esa shaklan yangicha bo‘lsa-da, chuqur transformativ tafakkur mavjud bo‘lmasligi mumkin.

Uchinchi metodologik farq sifat va formalizatsiyalangan tahlilning integratsiyasidir. Adabiyotshunoslikda matematik ko‘rsatkichlardan foydalanish badiiy asarning estetik tabiatini raqamlarga qisqartirish degani emas. MOZBI indeksining vazifasi “qaysi asar yaxshiroq?” degan reyting yaratish emas. U turli asarlardagi identitet konfiguratsiyasini yagona analitik mezonda qiyoslash imkonini beradi.

Mazkur yondashuv zamonaviy xalqaro adabiyotshunoslikdagi postkolonial va transmadaniy identitet tadqiqotlari bilan ham muayyan nuqtalarda tutashadi. Markaziy Osiyo va Kavkaz adabiyotlariga bag‘ishlangan 2025-yilgi Oxford University Press tadqiqoti postsovet makonidagi adabiy identitetlarning madaniy gibridlik, til va dominant diskurs bilan muzokara orqali yuzaga kelishini ko‘rsatadi. O‘zbek adabiyoti misolida ham zamonaviy o‘zlikni milliy va tashqi komponentlardan birini tanlash emas, ular o‘rtasidagi murakkab semantik munosabat sifatida o‘rganish samaraliroqdir.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati MOZBI modelidan o‘zbek adabiyoti tarixini qiyosiy o‘rganishda, magistrlik va doktorlik tadqiqotlarida, alohida adib poetikasini tahlil qilishda, adabiyot fanlari uchun analitik topshiriqlar ishlab chiqishda hamda katta matn korpuslarini raqamli gumanitar tadqiqot metodlari bilan o‘rganish uchun kodlash sxemasi sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Modelning ayrim cheklovlari ham mavjud. Birinchidan, adabiy indikatorlarni baholashda interpretator subyektivligini mutlaqo yo‘q qilish mumkin emas. Ikkinchidan, beshta asardan iborat korpus butun o‘zbek adabiyotiga statistik generalizatsiya qilish uchun yetarli emas. Uchinchidan, 0–4 shkala va tipologik chegaralar dastlabki metodologik kalibrlash sifatida taklif qilinmoqda. Keng ko‘lamli tadqiqotda

ikki yoki undan ortiq mustaqil ekspert kodlashidan foydalanish va ekspertlararo kelishuvni Cohen kappa koeffitsiyenti orqali tekshirish maqsadga muvofiq:

$$\kappa=\frac{P_o-P_e}{1-P_e} \tag{13}$$

bu yerda (P_o) — real kuzatilgan kelishuv, (P_e) — tasodifiy kelishuv ehtimoli.

Kelgusida tadqiqot korpusini 50–100 ta nasriy asargacha kengaytirish, indikatorlar vaznini ekspert baholash yoki faktor tahlili yordamida aniqlash, shuningdek, o‘zbek tilidagi raqamlashtirilgan badiiy korpuslar asosida semantik markerlarni avtomatik aniqlash istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

XULOSA

Tadqiqot natijasida o‘zbek adabiyotida milliy o‘zlik va zamonaviylik munosabatini faqat “an’ana va yangilik”, “milliylik va globallashuv” yoki “tarix va bugun” kabi binar oppozitsiyalar orqali izohlash mazkur hodisaning badiiy murakkabligini to‘liq ochib bera olmasligi aniqlandi.

Maqolada milliy o‘zlikni tarixiy xotira, madaniy kod va lisoniy identifikatsiya, zamonaviylikni esa individual tanlov, yangilangan qadriyatlar va yangi poetik tafakkur bilan funksional munosabatda tahlil qiluvchi MOZBI modeli ishlab chiqildi. Model beshta asosiy komponent — (M), (T), (L), (Z) va (B) ni yagona strukturaga birlashtirdi.

Milliy o‘zlik yadrosi, semantik muvozanat va badiiy transformatsiyani birlashtiruvchi:

$$MOZBI=\sqrt{NZ}\left[0.5(1-|N-Z|)+0.5B\right]$$

integral formulasi taklif etildi. Ushbu matematik konstruktsiya milliylik va zamonaviylikning oddiy yig‘indisini emas, ularning muvozanati va poetik transformatsiya darajasini hisobga olishi bilan farqlanadi.

Tanlangan asarlar tahlili milliy o‘zlikning o‘zbek adabiyotida statik mazmun emasligini ko‘rsatdi. “O‘tkan kunlar”da u milliy uyg‘onish va islohot ehtiyoji, “Navoiy”da tarixiy-madaniy xotira, “Ulug‘bek xazinasi”da ilm va dogmatik tafakkur konflikti, “Yulduzli tunlar”da tarixiy va transhududiy o‘zlik, “Maymun yetaklagan odam”da esa individual xotira, begonalashuv va identitet inqirozi shaklida badiiylashadi.

Shu asosda milliy o‘zlikning zamonaviy adabiy tafakkurdagi rivoji merosni takrorlashdan merosni qayta semantizatsiyalashga o'tish jarayoni sifatida baholandi. Tadqiqotning asosiy ilmiy natijasi milliylik va zamonaviylik o‘rtasidagi munosabat konfliktli, adaptiv, sintetik va transformativ tiplar orqali namoyon bo‘lishini nazariy-metodologik jihatdan differensiallashtirishdan iborat.

Taklif etilgan modelning amaliy ahamiyati o‘zbek adabiyotidagi identitet masalalarini tizimli qiyoslash, badiiy matnlarni formalizatsiyalangan mezonlar orqali kodlash va kelgusida raqamli gumanitar metodlar bilan integratsiya qilish imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Keyingi tadqiqotlarda korpus hajmini kengaytirish, ekspertlararo validatsiya o‘tkazish va MOZBI indikatorlarini avtomatik matn tahlili algoritmlariga integratsiya qilish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Anderson, B. Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism. Revised ed. London: Verso, 2006.

2. Assmann, J. Cultural Memory and Early Civilization: Writing, Remembrance, and Political Imagination. Cambridge: Cambridge University Press, 2011.

3. Hall, S. Cultural Identity and Diaspora. In: Rutherford, J. (ed.). Identity: Community, Culture, Difference. London: Lawrence & Wishart, 1990. P. 222–237.

4. Shin, B. Inventing a National Writer: The Soviet Celebration of the 1948 Alisher Navoi Jubilee and the Writing of Uzbek History. International Journal of Asian Studies. 2017. Vol. 14, No. 2. P. 117–142. DOI: 10.1017/S1479591417000031.

5. Koplatadze, T. Postcolonial Identities in Central Asian and Caucasian Literature. Oxford: Oxford University Press, 2025.

6. Kaumen, A. M. et al. Literary Nationalism in Central Asia: The Role of Soviet Uzbek Writers in the Creation of Post-Soviet National Identity of Uzbekistan. RUDN Journal of Philosophy. 2026. Vol. 30, No. 1.

7. Hamzaoğlu, H. Jadidism and the Formation of Uzbek National Identity: An Analytical Historical Perspective. Journal of Muslim Minority Affairs. 2026. DOI: 10.1080/19448953.2026.2633660.

8. Ochilov, U. Moral Ambiguity and the Collapse of Ethical Certainty in Nazar Eshonqul’s *Maymun yetaklagan odam* and Other Stories. Cogent Arts & Humanities. 2026. DOI: 10.1080/23311983.2026.2642627.

9. Ochilov, U. Genealogies of Memory and Inherited Dislocation in Nazar Eshonqul’s Fiction. Genealogy. 2026. Vol. 10, No. 3. Article 87.

10. Ochilov, U. Transcultural Magical Realism: A Comparative Analysis of Contemporary Narrative Strategies in Nazar Eshonqul’s Fiction. Cogent Arts & Humanities. 2026. DOI: 10.1080/23311983.2026.2628406.

11. Kayumova, N. Form, Rhythm, and Cultural Identity in Literature Education: A Comparative Study of Sonnet Traditions in English and Uzbek Contexts. Frontiers in Education. 2026. DOI: 10.3389/feduc.2026.1817164.

12. Khairi, A. Linguistic Revivalism and National Identity in Uzbekistan. International Studies. 2018. DOI: 10.1177/0020881718760355.

13. Qodiriy, A. O‘tkan kunlar. Toshkent: turli nashrlar.

14. Oybek. Navoiy. Toshkent: turli nashrlar.

15. Yoqubov, O.; Qodirov, P.; Eshonqul, N. Tanlangan nasriy asarlar: “Ulug‘bek xazinasi”, “Yulduzli tunlar”, “Maymun yetaklagan odam”. Toshkent: turli nashrlar.

UDC: 611.4:616.24-053.31

ADRENAL CORTICAL IMMATURITY: A MORPHOLOGICAL KEY TO FATAL NEONATAL RDS

Khoshimov Bobur Lukmonovich
DSc (Medicine), Associate Professor
Head of the Department of Clinical Sciences, Alfraganus University
ORCID: https://orcid.org/0009-0009-6127-7656
Khatamov Rustamjon Islomjonovich
Independent Researcher, Fergana Institute of Public Health
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-7529-6040
Email: dr.rustamjon@mail.ru
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22006151

Annotatsiya. Muddatidan oldin tug‘ilgan chaqaloqlarda buyrak usti bezining to‘liq shakllanmaganligi va timusning giperplaziya ko‘rinishida kattalashuvi, stressor omillarga ekstremal adaptatsiya reaksiyalarining pastligi bilan davom etib, o‘tkir respirator distress-sindromning og‘ir kechishi va chaqaloqlarda bevosita buyrak usti bezi gormoni — kortizolning yetishmasligi bilan namoyon bo‘lishini tasdiqlaydi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘pkalarning kengayishi va surfaktantning to‘liq sintezi buzilishiga olib keladi. Buyrak usti bezida morfologik jihatdan yetilmaganlik koptokchalarning deyarli hali kurtak ko‘rinishida bo‘lishi, spongiotsitlarning mayda, yirik yadroli, sitoplazmasida lipidli kiritmalarning kamligi, to‘rsimon qavat epiteliylarining mayda yadroli, och sitoplazmali ko‘rinishda bo‘lishi bilan xarakterlanadi.
Kalit so‘zlar: muddatidan oldingi tug‘ruq, respirator distress-sindrom, buyrak usti bezi, morfologiya.
Аннотация. У недоношенных новорождённых неполное формирование надпочечников и увеличение тимуса в виде гиперплазии сопровождаются сниженной способностью к экстремальным адаптационным реакциям на стрессовые факторы. Это подтверждается тяжёлым течением острого респираторного дистресс-синдрома и недостаточностью гормона надпочечников — кортизола. Дефицит кортизола, в свою очередь, приводит к нарушению расширения лёгочной ткани и полноценного синтеза сурфактанта. Морфологически в надпочечниках выявляются признаки незрелости: клубочковая зона преимущественно сохраняется в виде зачатков, спонгиоциты мелкие, с крупными ядрами и скудными липидными включениями в цитоплазме, клетки сетчатого слоя характеризуются мелкими ядрами и светлой цитоплазмой.
Ключевые слова: преждевременные роды, респираторный дистресс-синдром, надпочечники, морфология.
Abstract. In preterm neonates, incomplete adrenal cortical development together with compensatory thymic enlargement is associated with a diminished capacity for adaptive responses to extreme stress. This is reflected clinically in the severe course of acute respiratory distress syndrome (RDS) and a direct deficiency of the adrenal hormone cortisol, which in turn impairs pulmonary expansion and complete surfactant synthesis. Morphological examination of the adrenal glands reveals characteristic signs of immaturity: glomerular zones remain largely in a primordial state, fascicular spongiocytes are small with large nuclei and scarce cytoplasmic lipid inclusions, and the epithelial cells of the reticular layer display small nuclei with pale cytoplasm.
Keywords: preterm birth, respiratory distress syndrome, adrenal glands, morphology.

Introduction.

Respiratory distress syndrome (RDS) remains one of the leading causes of neonatal morbidity and mortality worldwide, with hyaline membrane disease representing its most severe pathological form. According to World Health Organization data, RDS complicates approximately 750,000 of the 3 million premature births recorded annually, and survival among affected infants averages only 50%, falling to as low as 25% even under intensive care [1. 2024:B.101374; 6. 2025:B.235]. Mortality attributable to RDS varies considerably by region: reported rates range from 11–15 per 1,000 births in the United States and the European Union to 15–17 per 1,000 in Turkey, Canada, South Korea and Japan, 20–30 per 1,000 in the Russian Federation, and 30–50 per 1,000 across the Commonwealth of Independent States, occasionally exceeding 70 per 1,000 during the early neonatal period.

The severity of RDS is inseparable from the maturity of the hypothalamic–pituitary–adrenal (HPA) axis. Functional maturation of the adrenal cortex is not complete until approximately 30 weeks of gestation,

leaving infants born before this threshold transiently unable to mount an adequate cortisol response to the stress of extrauterine life [4. 2022:B.e328; 5. 2021:B.369]. This relative adrenal insufficiency of prematurity directly compromises terminal alveolar differentiation and surfactant phospholipid synthesis, linking adrenal hypofunction mechanistically, rather than coincidentally, to the severity of respiratory failure [7. 2023:B.1804]. The thymus, in turn, is highly sensitive to circulating glucocorticoids, and its compensatory enlargement in infants who die of RDS has been proposed as an indirect marker of an inadequate stress-adaptive response [2. 2022:B.714]. Antenatal corticosteroid administration remains the most effective intervention for accelerating fetal lung maturation, though its efficacy continues to be refined and appears to depend on the inflammatory context of the pregnancy [3. 2024:B.479; 8. 2020:B.e139452].

Despite this evidence base, the histomorphological substrate of adrenal insufficiency in infants who die with RDS remains insufficiently studied, particularly with regard to its integral relationship with thymic pathology in determining fatal outcome — a gap that defines the relevance of the present study.

Results and discussion.

Morphological examination of adrenal glands obtained from preterm infants of 26–32 weeks’ gestation who died with a clinical and morphological diagnosis of RDS revealed consistent signs of structural immaturity. The capsule was of irregular thickness, with anatomical zonation almost undefined and histoarchitecture resembling that of the embryonic period. The glomerular zone was predominantly in a primordial, bud-like state. Spongiocytes of the fascicular zone were small, with large nuclei and pale eosinophilic cytoplasm containing few or no lipid inclusions, while the reticular layer consisted of small, immature secretory epithelial cells with large nuclei and light cytoplasm. Venous plethora was present across all cortical zones; the medullary layer additionally showed foci of hemorrhage, a pronounced degree of catecholamine synthesis, interstitial stromal edema, and a high proportion of necrobiotic cells. In infants of 30–32 weeks, subcapsular hemorrhage and ingrowth of fibrous capsular tissue into the parenchyma were additionally observed, together with strangulated, scarred cortical foci, indicating a further decline in morphofunctional capacity superimposed on arrested embryonic development.

At the organ level, these histological changes were paralleled by measurable alterations in weight and clinical status. In neonates who died of RDS, adrenal gland weight averaged 1.6 g, while thymic weight exceeded the age-appropriate norm by approximately 30.5%, consistent with compensatory thymic hyperplasia in the setting of inadequate cortisol output. The combination of blunted stress-induced respiratory excitation and impaired surfactant production was associated with a marked increase in mortality, reaching 70–80% among affected neonates; clinically, these infants were assessed at 1–1a points on the Apgar scale. Pathophysiologically, the deficiency of cortisol required to adequately induce respiratory stimulation was reflected in pronounced plethora and diapedetic hemorrhage within small-caliber vessels of both the cortex and medulla, a marked reduction in lipid inclusions within fascicular spongiocytes, and interstitial edema — findings consistent with hemodynamic disturbance secondary to adrenal cortical insufficiency [2. 2022:B.714; 4. 2022:B.e328].

These findings are consistent with the broader clinical literature on relative adrenal insufficiency of prematurity, in which vasopressor-resistant hypotension and impaired cardiovascular adaptation in extremely preterm infants are frequently attributable to an adrenal gland structurally incapable of the demanded output [4. 2022:B.e328; 5. 2021:B.369]. The concurrent thymic enlargement observed in this study is a notable structural counterpart to adrenal hypofunction: because glucocorticoids are the principal negative regulator of thymic mass under stress, insufficient cortisol output may permit relative thymic hyperplasia rather than the involution ordinarily seen with an intact stress response [2. 2022:B.714]. This pattern parallels the elevated cortisol-precursor-to-cortisol signature described in preterm infants who go on to develop bronchopulmonary dysplasia, suggesting axis activation that fails to meet peripheral demand rather than simple axis quiescence [7. 2023:B.1804]. From a therapeutic standpoint, these morphological findings reinforce the rationale for antenatal corticosteroid administration to accelerate fetal lung and adrenal maturation, while underscoring that the effectiveness of such therapy depends on gestational timing and the inflammatory context of the pregnancy [3. 2024:B.479; 8. 2020:B.e139452].

Conclusion.

Preterm neonates who die with respiratory distress syndrome demonstrate a consistent pattern of adrenal cortical immaturity — undifferentiated glomerular zones, lipid-depleted spongiocytes, immature reticular epithelium, and venous plethora with hemorrhage — accompanied by compensatory thymic hyperplasia, reduced Apgar scores, and markedly elevated mortality. These results indicate that adrenal structural competence, rather than respiratory pathology in isolation, constitutes a key morphological

determinant of survival in extremely preterm infants, supporting the integration of morphological and endocrine assessment, together with timely antenatal corticosteroid therapy, into the management of neonates at risk of fatal RDS.

References:

1. Berger D.S., Garg B., Penfield C.A., Caughey A.B. Respiratory distress syndrome is associated with increased morbidity and mortality in late preterm births. American Journal of Obstetrics & Gynecology MFM. 2024;6(6):101374.

2. Bhat V., Saini S.S., Sachdeva N., Walia R., Sundaram V., Dutta S. Adrenocortical dysfunctions in neonatal septic shock. Indian Journal of Pediatrics. 2022;89(7):714–716.

3. Gosavi A., Amin Z., Carter S.W.D., Choolani M.A., Fee E.L., Milad M.A., Jobe A.H., Kemp M.W. Antenatal corticosteroids in Singapore: a clinical and scientific assessment. Singapore Medical Journal. 2024;65(9):479–487.

4. Gutierrez C.E., De Beritto T. Relative adrenal insufficiency in the preterm infant. NeoReviews. 2022;23(5):e328–e334.

5. Holmstrom L.E., Jnah A.J. Relative adrenal insufficiency: crisis averted? Neonatal Network. 2021;40(6):369–376.

6. Ma Y.J., Sun Y., Zhang C.H. Adverse perinatal outcomes associated with respiratory distress syndrome in preterm infants: a retrospective analysis. Italian Journal of Pediatrics. 2025;51(1):235.

7. Romijn M., Onland W., van Keulen B.J., Heijboer A.C., Rotteveel J., van Kaam A.H., Finken M.J.J. Glucocorticoid signature of preterm infants developing bronchopulmonary dysplasia. Pediatric Research. 2023;94(5):1804–1809.

8. Schmidt A.F., Kannan P.S., Bridges J., Presicce P., Jackson C.M., Miller L.A., Kallapur S.G., Chougnet C.A., Jobe A.H. Prenatal inflammation enhances antenatal corticosteroid-induced fetal lung maturation. JCI Insight. 2020;5(24):e139452.

10-11-SINF O'QUVCHILARIDA INGLIZ TILI GRAMMATIK INTERFERENSIYASINI ANIQLASH VA BARTARAF ETISHNING DIAGNOSTIK-METODIK ASOSLARI

Amirqulova Dilnoza Bahriddin qizi
Navoiy davlat universiteti
PhD tadqiqotchi
wdilnoz1994@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22006191

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada umumta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilarida ingliz tilini o'zlashtirish jarayonida ona tili - o'zbek tili - grammatik tizimining salbiy ta'siri natijasida yuzaga keladigan grammatik interferensiya hodisasi diagnostik-metodik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi interferensiv xatolarni aniqlashning ishonchli diagnostik mezonlarini ishlab chiqish va ularni bartaraf etishning samarali korreksion metodikasini ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqot uch bosqichda - dastlabki diagnostika, sakkiz haftalik korreksion ta'sir va yakuniy nazorat tarzida olib borildi; olingan natijalar tajriba va nazorat guruhlari o'rtasida statistik jihatdan taqqoslandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, qiyosiy-kontrastiv tahlilga va ongli qiyoslash (consciousness-raising) tamoyiliga asoslangan mashqlar tizimi grammatik interferensiya xatolarini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi. Maqolada taklif etilgan diagnostika mezonlari va korreksion metodika umumta'lim maktablari ingliz tili o'qituvchilari uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: grammatik interferensiya, til transferi, diagnostik test, korreksion mashqlar, qiyosiy-kontrastiv tahlil, ikkinchi til o'zlashtirish.

АННОТАЦИЯ

В данной статье с диагностико-методической точки зрения анализируется явление грамматической интерференции, возникающее у учащихся 10-11-х классов общеобразовательных школ в процессе освоения английского языка вследствие негативного влияния грамматической системы родного языка - узбекского языка. Цель исследования заключается в разработке надежных диагностических критериев выявления интерферентивных ошибок и научном обосновании эффективной коррекционной методики их устранения. Исследование проводилось в три этапа: первичная диагностика, восьминедельное коррекционное воздействие и итоговый контроль; полученные результаты подвергались статистическому сравнению между экспериментальной и контрольной группами. Результаты показывают, что система упражнений, основанная на сравнительно-контрастивном анализе и принципе осознанного сопоставления (consciousness-raising), способствует значительному снижению количества грамматических интерферентивных ошибок. Предложенные в статье диагностические критерии и коррекционная методика имеют практическую значимость для учителей английского языка общеобразовательных школ.

Ключевые слова: грамматическая интерференция, языковой трансфер, диагностический тест, коррекционные упражнения, сравнительно-контрастивный анализ, усвоение второго языка.

ANNOTATION

This article analyzes the phenomenon of grammatical interference from a diagnostic and methodological perspective. It focuses on grammatical interference arising among 10th-11th grade students of general secondary schools during the process of learning English as a result of the negative influence of the grammatical system of their native language, Uzbek. The aim of the study is to develop reliable diagnostic criteria for identifying interference-related errors and to provide a scientific basis for an effective corrective methodology for eliminating such errors. The study was conducted in three stages: initial diagnosis, an eight-week corrective intervention, and final assessment. The obtained results were statistically compared between the experimental and control groups. The findings demonstrate that a system of exercises based on contrastive analysis and the principle of consciousness-raising contributes to a significant reduction in grammatical interference errors. The diagnostic criteria and corrective methodology proposed in the article are of practical significance for English language teachers in general secondary schools.

Keywords: *grammatical interference, language transfer, diagnostic test, corrective exercises, contrastive analysis, second language acquisition.*

I. KIRISH

Mavzuning dolzarbligi

Xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'qitish sifatini oshirish O'zbekiston ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston — 2030» strategiyasida ta'lim sohasidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida bevosita belgilab qo'yilganidek: «Yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga o'qitish tizimini yaratish» va shu doirada «maktab bitiruvchilari kamida 2 ta xorijiy til va 1 ta kasb egallashini ta'minlash» maqsadli ko'rsatkich sifatida qat'iy belgilangan. Ushbu strategik vazifani amalga oshirish, o'z navbatida, umumta'lim maktablarida chet tili — xususan ingliz tili - o'qitish sifatini tubdan yaxshilashni, shu jumladan o'quvchilar nutqidagi barqaror grammatik xatolarni ilmiy asoslangan tarzda bartaraf etishni taqozo etadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar leksik boyligi va nutqiy faolligi jihatidan ma'lum darajaga erishsa-da, grammatik jihatdan barqaror va me'yoriy nutq shakllantirishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bu qiyinchiliklarning katta qismi tasodifiy emas, balki ona tili grammatik tizimining tizimli ta'siri - grammatik interferensiya natijasida yuzaga Konferensiya materiallari 2 keladi. 10-11-sinf bosqichi bu masalada alohida ahamiyatga ega: aynan shu davrda o'quvchilarda ilgari to'g'ri tuzatilmagan xatolar barqarorlashib, «qotib qolgan» (fossilized) ko'nikmalarga aylanish xavfi yuqori bo'ladi. Shu bois interferensiv xatolarni aynan shu bosqichda diagnostika qilish va tizimli korreksiyalash metodikasini ishlab chiqish - davlat strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishishga xizmat qiluvchi dolzarb pedagogik-metodik vazifa sanaladi.

Grammatik interferensiya muammosi

Grammatik interferensiya - ona tili grammatik qoidalari va modellarining maqsadli til (ingliz tili) grammatik tizimiga noto'g'ri ko'chirilishi natijasida yuzaga keladigan xatolar majmui sifatida tushuniladi. O'zbek va ingliz tillari tipologik jihatdan turlicha tillar guruhiga mansub bo'lganligi sababli (agglyutinativ va analitik-flektiv tizimlar), bu ikki til grammatikasi o'rtasidagi struktaviy farqlar - artikl kategoriyasining yo'qligi, predloglar tizimining nomutanosibligi, zamon-aspekt shakllarining farqlanishi, so'z tartibining boshqacha bo'lishi - o'quvchida barqaror interferensiv xatolar manbaiga aylanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi

Til transferi va interferensiya nazariyasi xorijiy tilshunoslikda R. Lado (kontrastiv tahlil gipotezasi), L. Selinker (interlanguage nazariyasi), T. Odlin (til transferi nazariyasi) hamda R. Ellisning ikkinchi til o'zlashtirish konsepsiyalarida chuqur yoritilgan. Mahalliy metodika fanida grammatik ko'nikmalarni shakllantirish, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish va xatolar tahlili masalalari bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, aynan 10-11-sinf bosqichida grammatik interferensiyani diagnostika qilishning yagona, ilmiy asoslangan mezonlar tizimi va unga mos korreksion metodika hozircha yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bu - mavzuning ilmiy yangiligini belgilovchi asosiy omildir.

Tadqiqot muammosi

Amaliyotda ingliz tili o'qituvchilari o'quvchi xatolarini ko'pincha tasodifiy yoki individual kamchilik sifatida baholaydi, ularning tizimli, ona tili ta'siriga bog'liq tabiatini e'tiborga olmaydi. Natijada tuzatish ishi nuqtali (bitta xatoni tuzatish) tarzda olib boriladi, xatoning kelib chiqish sababi - interferensiya manbai - bartaraf etilmaydi va xato qayta-qayta takrorlanadi. Demak, tadqiqot muammosi quyidagicha shakllantiriladi: interferensiv xatolarni tizimli diagnostika qilish va ularning manbaiga yo'naltirilgan korreksion ta'sir ko'rsatish metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Maqsad va vazifalar

Tadqiqotning maqsadi - 10-11-sinf o'quvchilarida ingliz tili grammatik interferensiyasini aniqlashning diagnostik mezonlarini ishlab chiqish hamda uni bartaraf etishning samarali korreksion-metodik tizimini ilmiy asoslashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

grammatik interferensiyani aniqlovchi diagnostik test tuzish;

interferensiv xatolarni tasniflash mezonlarini ishlab chiqish;

o'quvchilarda eng ko'p uchraydigan interferensiya turlarini aniqlash;

interferensiya manbaiga yo'naltirilgan korreksion mashqlar tizimini yaratish;

tajriba-sinov ishi orqali ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini statistik tekshirish.

Tadqiqot savollari

N1: 10-11-sinf o'quvchilari nutqida qanday grammatik interferensiya turlari eng ko'p uchraydi?

N2: Ona tili grammatik tizimi ingliz tili grammatikasini o'zlashtirish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatadi?

N3: Ishlab chiqilgan korreksion mashqlar tizimi interferensiv xatolar sonini kamaytirishda qay darajada samarali?

II. METODLAR

Tadqiqot ishtirokchilari

Tadqiqotda Respublikaning 3 ta viloyatidan 10-11-sinf o'quvchilari ishtirok etdi (N = 283). Ishtirokchilar tasodifiy tanlov asosida ikki guruhga - tajriba guruhi (n = 144) va nazorat guruhi (n = 139) ga ajratildi. Guruhlar boshlang'ich til tayyorgarligi bo'yicha teng darajada bo'lishi diagnostik test yordamida oldindan tekshirildi.

Diagnostik test

Diagnostik test to'rt blokdan iborat qilib tuzildi: 1) grammatik tanlov topshiriqlari; 2) o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima topshiriqlari; 3) matndagi xatoni topish va tuzatish topshiriqlari; 4) erkin gap tuzish topshiriqlari. Test tarkibiga o'zbek va ingliz tili grammatikasi o'rtasida eng ko'p farqlanish kuzatiladigan mavzular kiritildi: artikllar, predloglar, zamon shakllari (xususan Present Perfect va Past Simple farqi), so'z tartibi, ot-sifat kelishuvi hamda modal fe'llar.

Interferensiv xatolarni tasniflash mezonlari

Xatolarni tasniflashda ikki asosiy mezon qo'llanildi: 1) til darajasi bo'yicha - morfologik, sintaktik va leksik-grammatik xatolar; 2) kelib chiqish manbai bo'yicha - L. Selinkerning interlanguage nazariyasiga tayangan holda, to'g'ridan-to'g'ri til transferi natijasidagi xatolar va ortiqcha umumlashtirish (overgeneralization) natijasidagi xatolar ajratildi. Har bir xato shu ikki mezon asosida kodlashtirilib, statistik tahlil uchun jadvalga kiritildi.

Tajriba va nazorat guruhlari

Tajriba guruhida ishlab chiqilgan korreksion mashqlar tizimi qo'llanildi, nazorat guruhida esa an'anaviy o'quv dasturi bo'yicha ta'lim davom ettirildi. Ikkala guruhda ham dars soati va mavzular hajmi bir xil saqlandi, faqat mashqlar tizimi va metodik yondashuvda farq qilindi.

Korreksion mashqlar

Korreksion mashqlar tizimi quyidagi turlarni o'z ichiga oldi:

qiyosiy-kontrastiv mashqlar - o'zbek va ingliz tili grammatik hodisalarini yonma-yon taqqoslash;

xato tahlili mashqlari (error analysis tasks) - o'quvchining o'zi xato sababini izohlashi;

ongli qiyoslash (consciousness-raising) mashqlari - grammatik qoidani o'quvchi mustaqil kashf etishiga yo'naltirilgan topshiriqlar;

maqsadli takrorlanuvchi mashqlar (focused drilling) - aniq interferensiya nuqtasiga qaratilgan mashqlar;

kommunikativ mashqlar - o'zlashtirilgan qoidani erkin nutqda qo'llash topshiriqlari.

Ma'lumotlarni tahlil qilish usullari

To'plangan ma'lumotlar miqdoriy tahlil usullari yordamida qayta ishlandi: har bir xato turi bo'yicha foiz nisbati va o'rtacha ko'rsatkichlar hisoblandi, tajriba va nazorat guruhlari natijalari Student t-testi yordamida statistik jihatdan taqqoslandi ($p < 0,05$ ishonchlilik darajasida). Hisob-kitoblar Microsoft Excel / SPSS dasturida amalga oshirildi.

III. NATIJALAR

Dastlabki diagnostika natijalari

Dastlabki diagnostika bosqichida ikkala guruh o'quvchilarining grammatik bilim darajasi deyarli teng ekanligi aniqlandi. Umumiy natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

Ko'rsatkich	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Ishtirokchilar soni	144	139
O'rtacha to'g'ri javoblar (%)	54,2%	55,1%
Interferensiv xatolar ulushi (%)	61,3%	60,7%

Interferensiya turlari

Diagnostika natijalari asosida quyidagi asosiy interferensiya turlari aniqlandi: Fe'l zamonlari, so‘z tartibi, modal fe'llar, artikl va predloglar, ko‘plik shakli Ularning nisbiy taqsimoti 2-jadvalda aks ettirilgan.

Interferensiya turi	Xatolar ulushi (%)	Daraja

Fe'l zamonlari	78	yuqori
So‘z tartibi	69	yuqori
Modal fe'llar	61	yuqori
Artikl va predloglar	74	yuqori
Ko‘plik shakli	58	o’rta

Eng ko'p uchraydigan xatolar

Tahlil natijalariga ko'ra, eng barqaror va tez-tez takrorlanuvchi xatolar fe'l zamonlari va so‘z tartibi, qo'llanishida kuzatildi. Bu holat o'zbek tilida grammatik artikl kategoriyasi umuman mavjud emasligi hamda predloglar tizimi ingliz tilidan tubdan farq qilishi bilan izohlanadi. Zamon shakllari bo'yicha xatolar, xususan Present Perfect o'rniga Past Simple shaklining qo'llanishi, ona tilida grammatik jihatdan alohida ifodalanmagan aspekt-natija farqining ingliz tilida majburiy ekanligi bilan bog'liq.

Korreksion bosqich natijalari

Sakkiz haftalik korreksion ta'sir davomida tajriba guruhida barcha interferensiya turlari bo'yicha xatolar ulushi izchil kamayib bordi, nazorat guruhida esa o'zgarish sezilarli bo'lmadi. Haftalik monitoring natijalari korreksion mashqlar ta'siri kümulyativ tarzda ortib borganini ko'rsatdi.

Pre-test/post-test taqqoslash

Yakuniy nazorat natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

Guruh	Pre-test (%)	Post-test (%)	Farq
Tajriba guruhi	68,7	24.0	+44,7
Nazorat guruhi	68,3	63.0	+5,3%

Ikki guruh o'rtasidagi post-test farqi statistik jihatdan ahamiyatli bo'ldi ($t = 11,4$, $p < 0,05$), bu esa ishlab chiqilgan korreksion metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi.

IV. MUHOKAMA

Olingan natijalarning lingvistik izohi

Aniqlangan interferensiya turlari o'zbek va ingliz tili grammatik tizimlari o'rtasidagi struktaviy nomutanosiblik bilan bevosita bog'liq. Artikl kategoriyasining o'zbek tilida yo'qligi, predloglar tizimining kelishik qo'shimchalari orqali ifodalanishi, zamon-aspekt farqlarining ona tilida grammatik jihatdan majburiy emasligi - barchasi o'quvchi ongida ona tili modelining ingliz tiliga avtomatik ko'chirilishiga sabab bo'ladi.

Ona tili ta'sirining roli

Qiyosiy-kontrastiv tahlil shuni ko'rsatadiki, xatolarning katta qismi tasodifiy emas, balki bashorat qilinadigan, tizimli xarakterga ega. Bu R. Lado va T. Odlin ilgari surgan kontrastiv tahlil gipotezasini tasdiqlaydi: ikki til o'rtasidagi struktaviy farq qanchalik katta bo'lsa, interferensiya ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi.

Korreksion metodlarning samaradorligi

Tajriba guruhida qo'llanilgan qiyosiy-kontrastiv va ongli qiyoslashga asoslangan mashqlar tizimining yuqori samaradorligi shuni ko'rsatadiki, o'quvchiga interferensiya manbaini ongli ravishda anglatish - xatoni shunchaki tuzatishdan ko'ra samaraliroq natija beradi. Bu L. Selinkerning interlanguage nazariyasidagi «ongli e'tibor» (noticing) tamoyili bilan ham mos keladi.

Natijalarning ilmiy tadqiqotlar bilan muhokamasi

Olingan natijalar R. Lado, L. Selinker va T. Odlin tadqiqotlarida ilgari surilgan asosiy qoidalarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi: til transferi ikkinchi tilni o'zlashtirishning muhim, ammo yagona bo'lmagan omili hisoblanadi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari mahalliy sharoit - o'zbek tili grammatik tizimi va milliy ta'lim dasturi doirasida - ushbu nazariy qoidalarning amaliy tasdig'ini beradi.

Pedagogik ahamiyati

Tadqiqot natijalari ingliz tili o'qituvchilariga interferensiv xatolarni oldindan bashorat qilish, ularni maqsadli diagnostika qilish va manbaga yo'naltirilgan tarzda tuzatish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi va xatolarning barqarorlashib qolishining oldini oladi.

V. XULOSA

Asosiy xulosa

O'tkazilgan tadqiqot 10-11-sinf o'quvchilarida ingliz tili grammatik interferensiyasi tizimli, bashorat qilinadigan hodisa ekanligini va uni ilmiy asoslangan diagnostika hamda manbaga yo'naltirilgan korreksion metodika orqali sezilarli darajada kamaytirish mumkinligini ko'rsatdi. Tajriba guruhida qo'llanilgan qiyosiy-kontrastiv va ongli qiyoslashga asoslangan mashqlar tizimi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli yuqori natija berdi.

Amaliy tavsiyalar

ingliz tili darslarida grammatik mavzularni o'tishdan oldin ona tili bilan qiyosiy tahlil o'tkazish tavsiya etiladi;

o'quv yili boshida diagnostik test orqali o'quvchilarning interferensiya profilini aniqlash maqsadga muvofiq;

korreksion ishni nuqtali xato tuzatishdan emas, balki interferensiya manbaini anglatishdan boshlash lozim.

Ingliz tili o'qituvchilari uchun metodik takliflar

dars rejalariga qiyosiy-kontrastiv mashqlarni muntazam kiritish;
artikl va predloglar bo'yicha alohida maqsadli mashqlar blokini ishlab chiqish;
o'quvchi xatolarini davriy ravishda kodlashtirib, monitoring jadvalini yuritish;
korreksion ishni bosqichma-bosqich, kamida 16 haftalik davrda amalga oshirish.

Eng muhim tavsiya

Interferensiv xatoni tuzatishdan ko'ra, uning ona tili grammatik tizimi bilan bog'liq manbaini o'quvchiga ongli ravishda anglatish ustuvor vazifa bo'lishi lozim - aynan shu yondashuv barqaror va uzoq muddatli natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston - 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni // lex.uz.

2. Lado R. Linguistics Across Cultures: Applied Linguistics for Language Teachers. Ann Arbor: University of Michigan Press, 1957.

3. Selinker L. Interlanguage // International Review of Applied Linguistics in Language Teaching. - 1972. - Vol. 10, No. 3. - P. 209–231.

4. Odlin T. Language Transfer: Cross-Linguistic Influence in Language Learning. - Cambridge: Cambridge University Press, 1989.

5. Ellis R. The Study of Second Language Acquisition. - 2nd ed. - Oxford: Oxford University Press, 2008.

6. Ellis R., Shintani N. Exploring Language Pedagogy through Second Language Acquisition Research. - London: Routledge, 2014.

7. Swan M., Smith B. Learner English: A Teacher's Guide to Interference and Other Problems. - 2nd ed. - Cambridge: Cambridge University Press, 2001.

KAPITAL BOZORIDA ISLOMIY QIMMATLI QOG'OZLAR MUOMALASINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Mirmahmudova Nozima Xusniddinovna
Iqtisodchi, Bank-Moliya akademiyasi bitiruvchisi (Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar bozori yo'nalishi magistri) e-mail: nozimamirmahmudova@gmail.com, ORCID: 0009-0006-9170-6480
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22006231

Annotatsiya. Ushbu tezisda O‘zbekistonda ishlab chiqilayotgan yangi tahrirdagi "Kapital bozori to‘g‘risida"gi qonun loyihasi doirasida islomiy qimmatli qog‘ozlar (sukuk) muomalasini tashkil etish masalalari tahlil qilinadi. 2026-yilda Prezident tomonidan e’lon qilingan suveren islom obligatsiyalari (sukuk) dasturi, Markaziy bankning shariat standartlarini joriy etish rejalari hamda kapital bozori infratuzilmasini isloh qilish choralari ko‘rib chiqiladi. Tezisda Malayziyaning islomiy kapital bozorini rivojlantirish tajribasi bilan qiyosiy tahlil o‘tkazilib, sukuk turlari (sherikchilik, ijara, savdo, agentlik), shariat boshqaruvi tizimi va investorlar bazasini kengaytirish masalalari yoritiladi. Tahlil natijalari asosida O‘zbekistonda islomiy qimmatli qog‘ozlar bozorini tashkil etishni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.
Kalit so'zlar: islom moliyasi, sukuk, kapital bozori, qimmatli qog'ozlar, shariat standartlari, Islom moliyasi kengashi, investorlar, Malayziya tajribasi.
Abstract. This thesis analyzes the organization of Islamic securities (sukuk) circulation within the framework of Uzbekistan's new draft Law "On the Capital Market". It examines the sovereign sukuk program announced by the President in 2026, the Central Bank's plans to adopt Sharia standards, and measures to reform capital market infrastructure. A comparative analysis is conducted with Malaysia's experience in developing its Islamic capital market, covering sukuk types (musharakah, ijarah, murabahah, agency), Sharia governance systems, and investor base expansion. Based on the findings, practical recommendations are developed for improving the organization of Islamic securities circulation in Uzbekistan.
Keywords: Islamic finance, sukuk, capital market, securities, Sharia standards, Islamic Finance Council, investors, Malaysian experience.

Kirish. 2026-yil iyun oyida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida investitsiya oqimini diversifikatsiya qilish maqsadida suveren islom obligatsiyalari — sukuk dasturini amalga oshirish boshlanishini e’lon qildi [1]. Xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan, 16 ta bob va 123 ta moddadan iborat yangi tahrirdagi "Kapital bozori to‘g‘risida"gi qonun loyihasida ilk bor sherikchilik, ijara, savdo va agentlik sukuki kabi islom moliyasi turlarini o‘z ichiga olgan "sukuk" qimmatli qog‘ozlarini chiqarish shartlari belgilanmoqda [2]. Shuningdek, 2026-yil 29-iyundan kuchga kirgan islomiy bank faoliyatini joriy etish to‘g‘risidagi qonun mamlakatda dual bank tizimini — to‘liq islomiy bank va an’anaviy bank tarkibidagi islomiy darchani — yaratmoqda [3]. Markaziy bank huzurida ikki pog‘onali shariat boshqaruvi tizimi joriy etilib, milliy darajada Islom moliyasi kengashi tashkil etilmoqda, u AAOIFI shariat standartlariga tayanib joriy yilda taxminan yettita milliy standartni qabul qilishni rejalashtirmoqda [3]. Bunday institutsional islohotlar fonida sukukning huquqiy tabiati, emissiya tartibi va ikkilamchi bozorda muomalasini samarali tashkil etish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, sukuk bozorining muvaffaqiyati faqat huquqiy bazaning mavjudligi bilan emas, balki bozor infratuzilmasi, shariat boshqaruvi sifati va investorlar ishonchi bilan belgilanadi. O‘zbekistonda 2025-yilda "Toshkent" fond birjasining Nasdaq texnologiyalari bilan modernizatsiya qilinishi, Franklin Templeton bilan hamkorlikda davlat aktivlarini boshqarish fondi tashkil etilishi hamda bozor kapitalizatsiyasining taxminan 18 milliard AQSh dollariga yetishi [4] sukuk kabi yangi moliyaviy vositalarni joriy etish uchun zarur infratuzilma zaminini shakllantirmoqda. Shu bilan birga, Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysining vakolatlari kengaytirilib, unga dividendlarni markazlashgan holda to‘lash va xorijiy banklarda vakillik hisobvaraqlari ochish huquqi berilmoqda [2], bu esa sukuk bo‘yicha daromad to‘lovlarini samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Xorijiy tajriba. Global sukuk bozori 2025-yilda 1,37 trillion AQSh dollariga baholanib, 2034-yilga borib 4,19 trillion dollarga yetishi, o‘rtacha yillik 12,5 foizga o‘sishi kutilmoqda [5]. Ushbu bozorning qariyb 57 foizi Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasiga to‘g‘ri kelib, bunda Malayziya yetakchi o‘rinni egallaydi.

Malayziya Qimmatli qog‘ozlar komissiyasi (SC) ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatning islomiy kapital bozori 2020-yildagi 2,2 trillion ringgitdan 2025-yil oxiriga kelib 2,7 trillion ringgitga yetgan bo‘lib, bu Malayziyaning umumiy kapital bozori hajmining qariyb 64 foizini tashkil etadi; shundan 1,4 trillion ringgiti aynan sukukka to‘g‘ri keladi [6]. Malayziya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyat uzoq muddatli kapital bozori strategiyasi (Capital Market Masterplan), aniq shariat boshqaruvi tizimi va soliq imtiyozlari kabi rag‘batlantiruvchi choralarning uyg‘unligiga bog‘liq. Xususan, barqaror rivojlanish (SRI) sukuklari hajmi 2020-yildagi 5,3 milliard ringgitdan 2025-yil oxiriga kelib 52,3 milliard ringgitgacha o‘sgan [6], bu esa ESG yo‘nalishidagi sukuklarning investorlar orasida ortib borayotgan talabini aks ettiradi.

O‘zbekiston uchun Malayziya modelidan olinishi mumkin bo‘lgan asosiy saboq — sukuk turlarining xilma-xilligini (sherikchilik, ijara, murobaha, agentlik) huquqiy jihatdan aniq tartibga solish, ikkinchi darajali (ikkilamchi) bozorni rivojlantirish va institutsional hamda xorijiy investorlar bazasini kengaytirishdir. Shu bilan birga, O‘zbekiston o‘z milliy sharoitidan kelib chiqib — davlat qimmatli qog‘ozlari bozorining allaqachon shakllangan infratuzilmasidan (auksion savdolari, O‘zbekiston Respublika valyuta birjasi tizimi) [7] foydalangan holda, sukukni mavjud tizimga bosqichma-bosqich integratsiya qilishi maqsadga muvofiqdir.

1-jadval

O‘zbekiston va Malayziyada islomiy qimmatli qog‘ozlar bozorini tashkil etishning qiyosiy tahlili

Ko'rsatkich	Malayziya	O'zbekiston (2026)
Huquqiy asos	Capital Market Masterplan 3 (CMP3), rivojlangan shariat qonunchiligi	Yangi "Kapital bozori to'g'risida"gi qonun loyihasi (16 bob, 123 modda) [2]
Shariat boshqaruvi	Milliy Shariat Kengashi (SAC), uzoq yillik tajriba	Markaziy bank huzuridagi Islom moliyasi kengashi, tashkil etilmoqda [3]
Bozor hajmi	Islomiy kapital bozori — 2,7 trln ringgit (2025) [6]	Sukuk dasturi endigina boshlanmoqda [1]
Sukuk turlari	Murobaha, ijara, musharaka, hibrid va boshq.	Sherikchilik, ijara, savdo, agentlik sukuki nazarda tutilmoqda [2]

Manba: [1; 2; 3; 6] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O'zbekiston sharoitidagi imkoniyatlar va tavsiyalar. Yuqoridagi tahlil asosida O‘zbekistonda kapital bozorida islomiy qimmatli qog‘ozlar muomalasini tashkil etishni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

— sukuk turlari (sherikchilik, ijara, savdo, agentlik) bo‘yicha alohida emissiya va muomala reglamentlarini "Kapital bozori to‘g‘risida"gi qonun asosida ishlab chiqish;

— Markaziy bank huzuridagi Islom moliyasi kengashi va institutsional shariat kengashlari o‘rtasidagi vakolatlar taqsimotini aniq belgilash, bu orqali sukuk emissiyasida shariatga muvofiqlikni tezkor tasdiqlash tizimini yaratish;

— sukuk bo‘yicha ikkilamchi bozorni rivojlantirish maqsadida Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi va O‘zRVB savdo tizimi infratuzilmasidan foydalangan holda sukukni mavjud auksion va listing mexanizmlariga integratsiya qilish;

— xorijiy institutsional investorlarni jalb etish uchun nominal saqlovchilar tartibini soddalashtirish va xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

— Malayziya tajribasidan kelib chiqqan holda, "yashil" va ESG sukuklarni alohida yo‘nalish sifatida rivojlantirish, bu O‘zbekistonning barqaror rivojlanish maqsadlariga ham xizmat qiladi.

Xulosa. O‘zbekistonda kapital bozorini isloh qilish, jumladan suveren sukuk dasturini joriy etish va islom moliyasi standartlarini qabul qilish bo‘yicha huquqiy va institutsional islohotlar faol olib borilmoqda. Biroq xorijiy tajriba, xususan Malayziyaning ko‘p yillik muvaffaqiyati shuni ko‘rsatadiki, sukuk bozorining barqaror rivojlanishi faqat qonunchilik bazasi bilan emas, balki aniq shariat boshqaruvi tizimi, rivojlangan bozor infratuzilmasi va keng investorlar bazasi bilan belgilanadi. Shu sababli, qabul qilinayotgan qonunchilik islohotlari bilan bir qatorda sukuk muomalasi bo‘yicha amaliy reglamentlarni ishlab chiqish va ularni mavjud kapital bozori infratuzilmasiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O‘zbekiston suveren islom obligatsiyalarini chiqarishni boshlaydi // Spot.uz, 2026-yil, 17-iyun.
2. Sukuk, opsion va fyucherslar: O‘zbekiston kapital bozorini qanday rivojlantirmoqchi? // Spot.uz, 2026-yil, 23-iyun.
3. Markaziy bank islom moliyasi bo‘yicha 7 ta standartni qabul qilishni rejalashtirmoqda // Spot.uz, 2026-yil, 16-iyun.
4. O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishning xalqaro strategik yo‘nalishlari // CyberLeninka, 2026.
5. IMARC Group. Sukuk Market Size, Share, Growth & Industry Forecast 2034, 2025.
6. Securities Commission Malaysia. Capital Market Masterplan 2026–2030 (KLSE Screener sharhi asosida), 2026.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Davlat qimmatli qog‘ozlarini joylashtirish bo‘yicha e’lon, 2026-yil, 4-avgust.

JINOYAT KODEKSI MATNLARINI SHAKLLANTIRUVCHI LISONIY BIRLIKLAR

Raxmatova Bahora Ibodulla qizi
Oriental Universiteti, “Tillar-2” kafedrasi katta o‘qituvchisi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil izlanuvchisi
raxmatovabahorai@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22006264

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada Jinoyat kodeksi matnini shakllantiruvchi lingvistik omillar huquqiy diskursning o‘ziga xosligi bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Jinoyat kodeksi matnining mazmuni, shakli va kommunikativ vazifasini ta’minlovchi informativlik, vaqt, modallik va shaxsiylik kategoriyalarining funksional xususiyatlari ochib beriladi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi hamda Serious Crime Act matnlaridan olingan misollar asosida ushbu kategoriyalarning leksik, grammatik va pragmatik ifodalanishi ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: *Jinoyat kodeksi, huquqiy diskurs, yuridik matn, lingvistik omil, informativlik, vaqt kategoriyasi, modallik, shaxsiylik, normativlik.*

АННОТАЦИЯ. В статье исследуются лингвистические факторы, формирующие текст Уголовного кодекса. Анализируются категории информативности, темпоральности, модальности и персональности, обеспечивающие содержание, структуру и коммуникативную функцию юридического текста. На материале Уголовного кодекса Республики Узбекистан и Serious Crime Act рассматриваются лексические, грамматические и прагматические средства выражения указанных категорий.

Ключевые слова: *Уголовный кодекс, юридический дискурс, юридический текст, лингвистический фактор, информативность, темпоральность, модальность, персональность, нормативность.*

ABSTRACT. This article examines the linguistic factors shaping the text of a Criminal Code. It focuses on informativeness, temporality, modality and personality as text-forming categories that determine the content, structure and communicative function of legal texts. Examples from the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan and the Serious Crime Act are analyzed to identify lexical, grammatical and pragmatic means of expressing these categories.

Keywords: *Criminal Code, legal discourse, legal text, linguistic factor, informativeness, temporality, modality, personality, normativity.*

Huquq ijtimoiy hodisalardan biri bo‘lib, o‘z tabiatiga ko‘ra ijtimoiy munosabatlar tizimining tarkibiy qismi sifatida insonlar muloqoti sharoitida shakllanadi va amal qiladi. Huquqiy faoliyatning asosiy shakllari til orqali amalga oshirilgani sababli huquqni aloqa vositasi sifatida ham ko‘rish mumkin. Zamonaviy yuridik tilshunoslik huquqiy sohada tildan maxsus maqsadlarda foydalanish, huquqiy kommunikatsiya va yuridik matnlarning lisoniy tuzilishini o‘rganishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Jinoyat kodeksi matnini shakllantiruvchi vositalar deganda uning mazmuni, shakli va kommunikativ vazifasini ta’minlovchi til hamda struktur birliklar tushuniladi. Bunday birliklar qatoriga informativlik, vaqt, makon, modallik va shaxsga daxldorlikni ifodalovchi vositalarni kiritish mumkin. Mazkur kategoriyalar Jinoyat kodeksi matnining amal qilish doirasini, vaqt chegarasini, adresatini va bildirilayotgan huquqiy talabning kuchini aniqlashga xizmat qiladi.

Maqolada asosiy e’tibor informativlik, vaqt, modallik va shaxsiylik kategoriyalariga qaratiladi. Tadqiqot materiali sifatida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (keying o‘rinlarda O‘RJK deb ataladi) hamda qiyosiy material sifatida Serious Crime Act matnlaridan foydalanildi. Tahlilda tavsifiy, kontekstual, qiyosiy va funksional-semantik usullar qo‘llandi.

Informativlik matnning yetakchi kategoriyalaridan biri bo‘lib, I.R. Galperin uni matnning mazmuniy dominantini shakllantiruvchi xususiyat sifatida baholaydi [1. 1981:C.140]. T.V. Gubayeva informativlikni matnda mujassamlangan ma’lumot miqdori bilan bog‘laydi [2. 1986:C.232]. D. Ashurova esa informativlik barcha matn turlari uchun majburiy bo‘lsa-da, uning namoyon bo‘lish shakli matn turiga bog‘liqligini ta’kidlaydi [3. 2022:C.73–97]. Huquqiy matnda bu kategoriya ayniqsa muhim, chunki norma noaniq yoki yetarli darajada axborot bermaydigan shaklda ifodalansa, uning talqini turlicha bo‘lishi mumkin.

Galperin matndagi axborotni mazmunan-faktual, mazmunan-konseptual, mazmunan-podtekst va implitsit axborot turlariga ajratadi [4. 1981:C.140]. Jinoyat kodeksi matnida mazmunan-faktual axborot eng

faol ko‘rinishlardan biridir. U jinoyat tarkibi, shartlari va huquqiy oqibatlarini eksplisit tarzda ifodalaydi. Masalan: *“A person who commits an offence under section 69 is liable—(a) on summary conviction, to imprisonment for a term not exceeding 12 months or to a fine not exceeding the statutory maximum or to both; (b) on conviction on indictment, to imprisonment for a term not exceeding two years or to a fine or to both*” (Serious Crime Act, Part 3, Section 70(1)). Mazkur konstruksiyada qilmish va unga nisbatan qo‘llanadigan jazo aniq ko‘rsatilgan.

O‘RJKdagi *“Bezorilik, ya’ni jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do‘pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o‘zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish ancha zarar yetkazish bilan bog‘liq holda sodir etilsa ... jazolanadi”* (O‘RJK, 277-modda) normasi ham faktual axborotning aniq va shartlangan shaklda berilishiga misoldir. Demak, Jinoyat kodeksi matnidagi informativlik huquqiy fakt, shart va oqibatlarni maksimal darajada aniq yetkazish vazifasini bajaradi.

Huquqiy matnlarda ham implitsit axborot ham mavjud. Masalan, O‘RJKning 32-moddasidagi “*Agar shaxs ilgari sodir etgan qilmishi uchun javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilingan bo‘lsa, jinoyat takroran sodir etilgan deb topilmaydi”* normasi bevosita takroriylikning huquqiy shartini ifodalasa, uning mazmunida insonparvarlik prinsipiga oid kontekstual ma’no ham anglashiladi. D. Ashurova implitsit ma’lumotning lingvistik, kommunikativ-pragmatik, kognitiv va sotsiokultural kontekst bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi [5. 2016:P.21].

Retrospektiv axborot ham Jinoyat kodeksi matnining muhim vositasidir. Bunda avval bayon qilingan normaga havola orqali qo‘shimcha ma’lumot beriladi. Masalan, O‘RJKning 244-moddasida boshqa moddadagi jinoyat alomatlariga havola qilinishi huquqiy mazmunning oldingi normaga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Serious Crime Act matnida ham *“section 4(5), 49(6) or 63(4)”* kabi havolalar normativ axborotni boshqa qoidalarga bog‘laydi. Shunday qilib, asosiy va retrospektiv axborot o‘zaro bog‘lanib, kodeksning yaxlitligini ta’minlaydi.

Vaqt kategoriyasi Jinoyat kodeksi matnining muhim semantik va normativ belgilaridan biridir. A.V. Bondarko vaqtni til birliklari orqali ifodalanuvchi semantik kategoriya sifatida tavsiflaydi [8. 2001:C.66]. O.I. Moskalskaya vaqtni predikativlik bilan bog‘liq majburiy belgilar qatorida ko‘radi [9. 1981:C.98]. Huquqiy matnda esa vaqt oddiy grammatik zamon ma’nosidan kengroq bo‘lib, huquqiy harakatning boshlanishi, davomiyligi, tugashi, takrorlanishi va ketma-ketligini belgilaydi.

O‘RJKda *“Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlarga ... qonunda uch yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish ... nazarda tutilgan jinoyatlar ... kiradi”* (O‘RJK, 15-modda) kabi norma jazo muddatini jinoyatning huquqiy tasnifi bilan bog‘laydi. Serious Crime Act matnida esa “*imprisonment for a term not exceeding 12 months”, “not exceeding five years”* kabi birliklar jazoning vaqt chegarasini belgilaydi.

Huquqiy vaqtning davomiylik xususiyati O‘RJKning *“Sinov muddati bir yildan uch yilgacha belgilanib, hukm chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi”* (O‘RJK, 72-modda) normasida yaqqol ko‘rinadi. Serious Crime Actda ham *“any period of 40 days”* kabi birliklar muayyan huquqiy muddatni chegaralaydi. G.I. Petrov yuridik matnlarda sanalar, huquqiy harakatlarning davomiyligi, takroriyligi va voqealar izchilligini vaqtning muhim ko‘rinishlari sifatida ko‘rsatadi [10. 1982:C.46–52]. P.M. Rabinovich esa vaqtning huquqiy tartibga solishdagi funksiyasini, xususan, muddatlarni belgilash va vazifalarning o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash bilan bog‘laydi [11. 1990:C.19–27].

Shuningdek, Jinoyat kodeksi matnida retrospektiv va prospektiv vaqt munosabatlari ham uchraydi. *“Besh yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo‘lgan qasddan yangi jinoyat sodir etish ... retsidiv jinoyat deb topiladi*” (O‘RJK, 34-modda) normasida yangi jinoyatning oldingi huquqiy holat bilan ketma-ket munosabati vaqt orqali belgilanadi. Demak, vaqt kategoriyasi jinoyatning kvalifikatsiyasi va huquqiy oqibatlarini aniqlashda muhim mezondir.

Jinoyat kodeksi rasmiy-normativ matn bo‘lganligi sababli unda subyektiv baholash cheklangan, obyektiv va deontik modallik esa ustun hisoblanadi. Bunda modal ma’no normaning majburiyligi, zaruriyligi, taqiq yoki ruxsatini belgilaydi. O‘zbek tilida “shart”, “lozim”, “zarur”, “majbur” kabi vositalar hamda fe’l mayllari modal mazmunni yuzaga chiqaradi. Ingliz qonunchiligida esa “must” kabi modal birliklar majburiyatni bevosita ifodalaydi. Masalan: *“In its application for an order under this section, the enforcement authority must nominate a suitably qualified person for appointment as a receiver”* (Serious Crime Act, s.83(4)).

Shaxsiylik kategoriyasi matnda harakat subyekti va nutq ishtirokchilarining ifodalanishi bilan bog‘liq. Yuridik matnda ushbu kategoriya badiiy matndan farqli ravishda obyektivlik va betaraflik

talablariga bo‘ysunadi. Shaxs kategoriyasining grammatik ifodasi shaxs-son shakllari, olmoshlar va kesim vositasida yuzaga keladi

Jinoyat kodeksi matnlarida uchinchi shaxs shaklining ustunligi kuzatiladi. Buning sababi qonun muayyan bir shaxsning individual fikrini emas, balki noma’lum doiradagi adresatlar uchun umumiy huquqiy qoidani belgilashidir. Masalan, O‘RJKning 89-moddasidagi *“O‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan sodir etgan jinoyati uchun ... hukm qilingan shaxsga nisbatan jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish tartibi qo‘llanilishi mumkin”* normasi umumlashtirilgan subyektni ifodalaydi. Serious Crime *Actdagi “A person subject to service law commits an offence if he encourages or assists the commission of a service offence”* konstruksiyasi ham muayyan shaxsni emas, huquqiy jihatdan aniqlangan shaxslar guruhini nazarda tutadi.

Birinchi va ikkinchi shaxs olmoshlarining deyarli ishlatilmasligi qonun matnining rasmiy va obyektiv tabiatini kuchaytiradi. “Men”, “sen”, “biz”, “siz” kabi birliklar o‘rniga “shaxs”, “fuqaro”, “sud”, “organ”, “mansabdor shaxs” singari huquqiy jihatdan umumlashtirilgan nominativ birliklar qo‘llanadi. Bundan tashqari, majhul nisbatli “ko‘rib chiqiladi”, “bajariladi”, “jazo tayinlanadi” kabi konstruksiyalar harakat bajaruvchisini ikkinchi planga surib, huquqiy harakatning o‘zini markazga chiqaradi. Shu jihatdan uchinchi shaxs va majhul qurilmalar Jinoyat kodeksi matnining neytralligi, rasmiyligi va normativligini ta’minlovchi vositalardir.

Jinoyat kodeksi matnini shakllantiruvchi informativlik, vaqt, modallik va shaxsiylik kategoriyalari alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq tizim sifatida faoliyat yuritadi. Informativlik norma mazmunini yetkazadi; vaqt huquqiy harakatning chegarasini belgilaydi; modallik normaning majburiylik yoki ruxsat kuchini ifodalaydi; shaxsiylik esa huquqiy munosabat subyektlarini obyektiv tarzda nominatsiya qiladi. Mazkur kategoriyalar birlashib, Jinoyat kodeksi matnining kommunikativ-pragmatik modelini yuzaga keltiradi.

O‘RJK va Serious Crime Act misollarining qiyosi mazkur kategoriyalarning funksional maqsadi umumiy ekanini, biroq ularning lisoniy ifodasi tilning grammatik tizimi va huquqiy an’analariga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu sababli Jinoyat kodeksi matnini lingvistik jihatdan o‘rganishda faqat alohida so‘z yoki gaplarni emas, balki ularning matnning normativ va pragmatik vazifasini shakllantirishdagi o‘zaro aloqasini hisobga olish zarur.

XULOSA. Jinoyat kodeksi matnini shakllantiruvchi lingvistik omillarni tahlil qilish natijasida informativlik, vaqt, modallik va shaxsiylik kategoriyalari uning asosiy matn shakllantiruvchi vositalari ekanligi aniqlandi. Informativlik huquqiy fakt, shart va oqibatlarni aniq yetkazishni; vaqt kategoriyasi huquqiy harakatlarning boshlanishi, davomiyligi, tugashi va ketma-ketligini belgilashni; modallik normativ kuch, majburiyat, taqiq va ruxsatni ifodalashni; shaxsiylik esa huquqiy subyektlarni umumlashtirilgan va betaraf shaklda ifodalashni ta’minlaydi.

Demak, Jinoyat kodeksi matnining lingvistik tuzilishi uning huquqiy tabiatidan kelib chiqadi. Mazkur kategoriyalarni kompleks o‘rganish o‘zbek va ingliz tillaridagi jinoyat qonunchiligi matnlarining kommunikativ, pragmatik va struktur xususiyatlarini qiyosiy tadqiq etish uchun asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. – Москва: Наука, 1981. – 140 с.

2. Губаева Т. В. Практический курс русского языка для юристов. – Казань: Университет, 1986. – 232 с.

3. Ашурова Д. У. Категория информативности английского художественного текста // Иностранные языки в Узбекистане. – 2022. – № 2 (43). – С. 73–97.

4. Дмитревская И. В. Текст как система: понимание, сложность, информативность: учебное пособие. – 1985. – 84 с.

5. Ашурова Д. У. Text Linguistics. – Toshkent: TURON-IQBOL, 2016. – 21 p.

6. Рыбакова Л. В. Категория информативности в прагматическом аспекте (на материале англоязычных информационно-рекламных текстов): дис. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 1998. – 192 с.

7. Бондарко А. В. Основы функциональной грамматики: Языковая интерпретация. – СПб.: Изд-во СПГУ, 2001. – 66 с.

8. Москальская О. И. Грамматика текста. – Москва: Высшая школа, 1981. – 98 с.

9. Петров Г. И. Фактор времени в советском праве // Правоведение. – 1982. – № 6. – С. 46–52.

10. Рабинович П. М. Время в правовом регулировании (философско-юридические аспекты) // Правоведение. – 1990. – № 3. – С. 19–27.
11. Виноградов В. В. Исследования по русской грамматике. – Москва: Наука, 1975. – 55 с.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA’LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Ismoilova Gulnoza Olimboy qizi
UrDPI Pedagogika fakulteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
gulnozaismoilova758@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22006305

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Zamonaviy raqamli ta’lim muhitida pedagogning samarali muloqot qilishi, o‘z fikrini aniq va izchil ifodalashi, axborotni turli shakllarda yetkazishi, tinglash, fikr almashish va hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada videokonferensiya, ta’lim platformalari, onlayn munozaralar, multimedia vositalari, elektron portfolio va hamkorlikka asoslangan raqamli texnologiyalarning kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishda kommunikativ faoliyat, qayta aloqa va refleksiya jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi asoslangan. Raqamli vositalarni pedagogik maqsadga muvofiq qo‘llash bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning muhim sharti sifatida qaraladi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak pedagog, kommunikativ kompetensiya, raqamli ta’lim, raqamli ta’lim vositalari, raqamli kommunikatsiya, pedagogik muloqot, 4K kompetensiyalar, hamkorlik, refleksiya, ta’lim texnologiyalari.

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические возможности использования цифровых образовательных средств в развитии коммуникативной компетентности будущих педагогов. В условиях цифровой образовательной среды особое значение приобретают способность педагога эффективно взаимодействовать с участниками образовательного процесса, ясно и последовательно выражать свои мысли, воспринимать и анализировать информацию, осуществлять обратную связь и организовывать совместную деятельность. Анализируется роль видеоконференций, образовательных платформ, онлайн-дискуссий, мультимедийных средств, электронного портфолио и цифровых инструментов совместной работы в формировании коммуникативных навыков будущих педагогов. Обоснована необходимость интеграции цифровых средств с коммуникативными заданиями, дискуссиями, проектной деятельностью и рефлексией. Подчеркивается, что целенаправленное использование цифровых образовательных ресурсов способствует развитию профессиональной и цифровой коммуникативной компетентности будущего педагога.

Ключевые слова: будущий педагог, коммуникативная компетентность, цифровое образование, цифровые образовательные средства, цифровая коммуникация, педагогическое общение, компетенции 4К, сотрудничество, рефлексия, образовательные технологии.

Abstract. The article examines the pedagogical potential of using digital educational tools to develop the communicative competence of future teachers. In the context of a digital learning environment, the ability of teachers to communicate effectively, express ideas clearly and coherently, process and exchange information, provide feedback, and organize collaborative activities has become increasingly important. The article analyzes the role of videoconferencing, educational platforms, online discussions, multimedia tools, electronic portfolios, and digital collaboration tools in developing the communicative skills of future teachers. Particular attention is paid to the integration of digital tools with communicative tasks, discussions, project-based activities, feedback, and reflection. The study emphasizes that purposeful and pedagogically appropriate use of digital educational resources contributes to the development of future teachers’ professional and digital communication competence.

Keywords: future teacher, communicative competence, digital education, digital educational tools, digital communication, pedagogical communication, 4C competencies, collaboration, reflection, educational technologies.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi pedagog kasbiy faoliyatining mazmuni va unga qo‘yiladigan kompetensiyaviy talablarning o‘zgarishiga olib kelmoqda.

Zamonaviy pedagogdan nafaqat o‘z fanini chuqur bilish, balki ta’lim oluvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, axborotni turli raqamli vositalar orqali yetkazish, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish va raqamli muhitda pedagogik muloqot madaniyatiga rioya qilish talab etiladi. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan o‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha kompetensiyalar tizimida ham pedagoglarning raqamli texnologiyalardan ta’lim jarayonida maqsadli foydalanishiga alohida e’tibor qaratilgan[1;20-b]. Shu jihatdan bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetensiyani raqamli ta’lim vositalari bilan uyg‘un holda rivojlantirish dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

Kommunikativ kompetensiya bo‘lajak pedagogning kasbiy faoliyatida o‘z fikrini aniq, izchil va tushunarli ifodalashi, suhbatdoshni tinglashi, savol-javob olib borishi, fikr almashishi, pedagogik vaziyatlarda tegishli muloqot usullarini tanlashi va hamkorlikni tashkil eta olishi bilan namoyon bo‘ladi. Pedagogik muloqotning mazmuni raqamli texnologiyalar rivoji bilan yanada kengayib, an’anaviy yuzma-yuz muloqot bilan bir qatorda videokonferensiya, elektron pochta, ta’lim platformalari, forumlar, virtual doskalar va boshqa raqamli vositalar orqali amalga oshiriladigan kommunikatsiyani ham qamrab olmoqda. Yevropa Komissiyasining DigCompEdu doirasida pedagogning raqamli kompetensiyasi tarkibida tashkilot ichidagi kommunikatsiya, professional hamkorlik, raqamli muloqot va hamkorlikni tashkil etish kabi yo‘nalishlarning alohida belgilanishi ushbu jarayonning zamonaviy ta’limdagi ahamiyatini ko‘rsatadi[2;20-b].

Raqamli ta’lim vositalari bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ faolligini oshirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Bunda talaba tayyor axborotni qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki axborotni izlash, qayta ishlash, yaratish, taqdim etish va boshqalar bilan muhokama qilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Masalan, videokonferensiya vositalari orqali talabalar pedagogik mavzular bo‘yicha taqdimotlar o‘tkazishi, munozaralarda qatnashishi va savollarga javob berishi mumkin. Bunday faoliyat og‘zaki nutqni rivojlantirish bilan bir qatorda fikrni qisqa va mazmunli ifodalash, tinglovchilar bilan aloqa o‘rnatish va tezkor javob qaytarish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Onlayn forumlar va ta’lim platformalarida tashkil etiladigan munozaralar esa yozma kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi. Talaba muayyan pedagogik muammo bo‘yicha o‘z nuqtayi nazarini yozma ravishda bayon qiladi, boshqa talabalar fikrlarini o‘rganadi va ularga asoslangan munosabat bildiradi. Bunday faoliyatda talabaning fikrni dalillar bilan asoslash, boshqa qarashlarni tahlil qilish va konstruktiv fikr-mulohaza bildirish ko‘nikmalari shakllanadi. DigCompEdu modelida ham ta’lim oluvchilarga raqamli texnologiyalar orqali kommunikatsiya va hamkorlik qilish imkonini beradigan o‘quv faoliyatlarini tashkil etish pedagogning muhim raqamli kompetensiyalaridan biri sifatida ko‘rsatilgan [2;45-b]. Raqamli ta’lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning yana bir muhim jihati hamkorlikka asoslangan faoliyatni tashkil etish bilan bog‘liq. Bo‘lajak pedagoglar raqamli platformalar orqali guruhli loyihalar ishlab chiqishi, taqdimotlar tayyorlashi, umumiy muammolarni muhokama qilishi va o‘zaro fikr almashishi mumkin. Bunda kommunikatsiya va hamkorlik bir-birini to‘ldiruvchi kompetensiyalar sifatida shakllanadi.

4K kompetensiyalarining kommunikatsiya, hamkorlik, kreativlik va tanqidiy fikrlashdan tashkil topishi zamonaviy ta’limda mazkur ko‘nikmalarning o‘zaro integratsiyalashgan holda rivojlantirilishi zarurligini ko‘rsatadi [3,594–597-b]. Raqamli vositalardan foydalanishda multimedia texnologiyalarining imkoniyatlari ham muhimdir. Bo‘lajak pedagogning video, audio, elektron taqdimot yoki interaktiv material tayyorlashi axborotni turli kommunikativ kanallar orqali yetkazish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Masalan, talaba muayyan pedagogik mavzuda videodars tayyorlash jarayonida nafaqat mavzuning mazmunini o‘zlashtiradi, balki uni auditoriyaga qanday tushuntirish, qanday nutqiy vositalardan foydalanish, qaysi vizual materiallarni tanlash va tinglovchilar e’tiborini qanday jalb qilish haqida ham mustaqil qaror qabul qiladi.

Bunday faoliyat kommunikativ kompetensiyaning amaliy xarakterini kuchaytiradi. Chunki kompetensiya faqat nazariy bilimga ega bo‘lish emas, balki mavjud bilim va ko‘nikmalarni real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llay olish orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli oliy pedagogik ta’limda raqamli vositalardan foydalanish jarayoni oddiy axborot uzatish bilan cheklanmasdan, talabaning faol kommunikativ faoliyatini ta’minlaydigan topshiriqlar bilan boyitilishi lozim.

Raqamli ta’lim muhitida qayta aloqa mexanizmining mavjudligi ham kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun muhim shartlardan biridir. Talaba bajargan topshirig‘i, taqdimoti yoki videomateriali bo‘yicha o‘qituvchi va tengdoshlaridan fikr-mulohaza oladi. Olingan fikrlar asosida o‘zining nutqiy faoliyati, muloqot uslubi va axborotni yetkazish sifatini tahlil qiladi. Shu tariqa raqamli muhitda

kommunikativ faoliyat refleksiya bilan uyg‘unlashadi. DigCompEdu doirasida ham pedagogning o‘z raqamli-pedagogik faoliyatini muntazam refleksiv baholashi va takomillashtirishi muhim kompetensiya sifatida qaraladi [2, 23–24-b].

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning mavjudligi o‘z-o‘zidan kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishini ta’minlamaydi. Asosiy masala raqamli vositaning mavjudligida emas, balki undan qanday pedagogik maqsadda foydalanilishidadir. Agar ta’lim platformalari faqat ma’lumot joylashtirish va tayyor materialni taqdim etish vositasi sifatida ishlatilsa, talabaning kommunikativ faolligi cheklangan holda qolishi mumkin. Aksincha, raqamli vositalar muammoli vaziyatlar, munozaralar, loyihalar, guruhli topshiriqlar, taqdimotlar va refleksiv faoliyat bilan uyg‘unlashtirilsa, kommunikativ kompetensiyaning shakllanish imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi.

Bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish jarayonini “raqamli vosita – kommunikativ topshiriq – hamkorlikdagi faoliyat – qayta aloqa – refleksiya” izchilligi asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Mazkur ketma-ketlikda raqamli vosita maqsad emas, balki kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik vosita sifatida qaraladi. Talaba esa ushbu vosita yordamida fikr bildiradi, savol beradi, javob qaytaradi, boshqa ishtirokchilar bilan hamkorlik qiladi va o‘z kommunikativ faoliyatini baholaydi.

Raqamli kommunikatsiya jarayonida pedagogik madaniyat masalasiga ham e’tibor qaratish zarur. Bo‘lajak pedagog elektron muloqotda axborotni to‘g‘ri va aniq yetkazish, suhbatdoshlarning fikrini hurmat qilish, raqamli muhitda axloqiy me’yorlarga rioya qilish, mualliflik huquqini hisobga olish va shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim. DigCompEdu modelida ham raqamli texnologiyalardan kommunikatsiya va hamkorlik maqsadida samarali hamda mas’uliyatli foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [2, 44–46-b].

Shuningdek, kommunikativ kompetensiyaning boshqa 4K kompetensiyalari bilan o‘zaro aloqasi ham muhim metodik ahamiyatga ega. Talaba yangi pedagogik g‘oyani yaratish jarayonida kreativlikni namoyon etsa, uni baholash va dalillar asosida himoya qilishda tanqidiy fikrlashdan foydalanadi, o‘z qarashlarini boshqalarga yetkazishda kommunikatsiyaga, umumiy natijaga erishishda esa hamkorlikka tayanadi. Shu sababli raqamli ta’lim muhitida kommunikativ kompetensiyani alohida holda emas, balki 4K kompetensiyalari bilan integratsiyalashgan holda rivojlantirish bo‘lajak pedagogning kompleks kasbiy kompetentligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi ta’lim jarayonida sun’iy intellekt, interaktiv platformalar va boshqa raqamli texnologiyalarning rivojlanishi kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Biroq texnologiyadan foydalanish insonlararo muloqotning o‘rnini egallamasligi kerak. Aksincha, raqamli vositalar real pedagogik muloqotni boyitishi, turli kommunikativ vaziyatlarni modellashtirishi, talabaning o‘z faoliyatini tahlil qilishi va individual rivojlanish yo‘nalishini belgilashiga yordam berishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, raqamli ta’lim vositalarini kommunikativ topshiriqlar bilan uyg‘unlashtirish bo‘lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning muhim shartlaridan biri bo‘lib, mazkur yondashuv asosida kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlarini aniqlash, ularning rivojlanish mezonlarini ishlab chiqish va raqamli ta’lim muhitida samarali metodik mexanizmlarni belgilash masalalari yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi.

Xulosa. Raqamli ta’lim muhitining rivojlanishi bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasiga qo‘yiladigan talablarni kengaytirmoqda. Zamonaviy pedagog o‘z fikrini aniq va izchil ifodalash, ta’lim oluvchilarni tinglash, fikr almashish, hamkorlikni tashkil etish bilan bir qatorda, raqamli platformalar va kommunikatsiya vositalaridan pedagogik maqsadlarda samarali foydalana olishi zarur. Videokonferensiyalar, onlayn munozaralar, ta’lim platformalari, multimedia vositalari, elektron portfolio va hamkorlikka asoslangan raqamli vositalar talabalarning og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va o‘z fikrini asoslash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Raqamli vositalardan foydalanish jarayonida kommunikativ topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, loyiha faoliyati, guruhli ish, qayta aloqa va refleksiyaning uyg‘un tashkil etilishi alohida ahamiyatga ega. Bunday yondashuv talabaning faqat texnologik ko‘nikmalarini emas, balki pedagogik muloqot madaniyati, hamkorlik, tinglash, fikr bildirish va o‘z faoliyatini tahlil qilish qobiliyatlarini ham shakllantiradi. Kommunikativ kompetensiyaning kreativlik, tanqidiy fikrlash va hamkorlik bilan integratsiyasi esa bo‘lajak pedagoglarning 4K kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. *ICT Competency Framework for Teachers. Version 3.0*. Paris: UNESCO, 2018. — 68 p.

2. Redecker C. *European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu*. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. — 95 p. DOI: 10.2760/159770.

3. Jumaeva M. *Developing Collaboration, Communication, Critical Thinking, and Creativity within the Framework of the 4C Model* // *International Multidisciplinary Journal of Research and Development*. 2025. -Vol. 4, No. 7. - P. 594–597.

4. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // *Teachers College Record*. 2006. - Vol. 108, No. 6. — P. 1017–1054.

5. Anderson T. *The Theory and Practice of Online Learning*. -2nd ed. - Athabasca: Athabasca University Press, 2008.

ENGLISH–KARAKALPAK LEGAL TERMINOLOGY: ISSUES OF MEANING, EQUIVALENCE AND TRANSLATION

Patullaeva Gulmiyra
KSU
patullaevagulmira9696@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22006378

Abstract: This study examines the intricate relationship between English Common Law and the Civil Law tradition represented in Karakalpak legal discourse, focusing on the underlying causes of semantic discrepancies and suggesting functional approaches to facilitate accurate and effective cross-cultural legal communication.

Keywords: *legal linguistics, semantic discrepancy, functional equivalence, adequacy, comparative jurisprudence*.

The translation of legal texts between English and Karakalpak is not merely a linguistic exercise but a complex confrontation between two fundamentally different legal architectures, where English represents the pre-established Common Law tradition and Karakalpak functions within a post-Soviet Civil Law framework that is deeply rooted in statutory codes.

The primary challenge in achieving an adequate translation lies in the "system-bound" nature of legal terms, which means that a word’s meaning is derived entirely from its specific position within a national legal hierarchy, making direct word-for-word substitution a dangerous path toward legal ambiguity. Semantic discrepancies arise when the English source text contains concepts like *"Equity"* or *"Estoppel,"* which have no historical or procedural roots in Karakalpak law, forcing the translator to move beyond literalism toward the doctrine of Functional Equivalence.

Adequacy in this context is defined as the ability of the Karakalpak text to trigger the same legal consequences as the English original, regardless of the linguistic differences. One major discrepancy is found in the terminology of criminal law, where the English distinction between a *"Felony"* and a *"Misdemeanor"* does not align neatly with the Karakalpak classification of *"Jinayat"* (Crime) based on *"awırlıq dárejesi"* (degree of gravity). For example, translating the English term *"Arraignment"* into Karakalpak requires more than a dictionary; it requires a Descriptive Solution, such as *"ayıplanıwshıǵa rásmiy túrde ayıplawdıń daǵaza etiliwi"* (the formal announcement of the charge to the accused), because the specific procedural step of an arraignment does not exist as a single-word concept in the Karakalpak Code of Criminal Procedure.

Another critical area of semantic divergence is seen in Contract Law, specifically regarding the English term *"Consideration"*. In English law, a contract is not binding without *"consideration"* (something of value exchanged), whereas Karakalpak law focuses on the "kelisim" (agreement). A literal translation of *"consideration"* as *"itibar"* or *"oylanıw"* would be a catastrophic error; instead, the Adequate Solution is to use a functional description like *"shártnamanıń nızamlı kúshke iye bolıwı ushın zárúrli bolǵan táreplerdiń óz-ara minnetlemeleri"* (mutual obligations of parties necessary for the contract to have legal force). Furthermore, the modal force of the English word *"Shall"* poses a significant risk to adequacy; in English contracts, *"shall"* denotes a mandatory duty, but if translated into the Karakalpak future tense as *"etedi"* (will do), it loses its imperative power.

The Solution here is to use the Karakalpak imperative-legal forms such as *"tiyis"*, *"minnetli"*, or *"shárt"*, ensuring that the *"obligatory"* semantic weight is preserved. We also encounter *"False Friends"* such as the English word *"Advocate"*, which in a general sense means a supporter, but in the Karakalpak legal system, an *"Advokat"* is a specific professional status governed by the Law on the Legal Profession (Advokatura haqqındaǵı Nızam).

If an English text mentions a *"Patient Advocate,"* a naive translator might use "*patsiyent advokatı*", which would mistakenly imply that the person is a licensed lawyer, when the Adequate Translation should be *"patsiyent huqıqların qorǵawshı"* (protector of patient rights). The strategy of Transliteration is often used for modern international terms like *"Lizing"* (Leasing) or *"Franchayzing"* (Franchising) which have been adopted directly into Karakalpak statutes, but even here, the translator must ensure that the semantic scope in the Karakalpak Civil Code matches the English source. Ultimately, the quest for adequacy between English and Karakalpak requires the translator to act as a comparative jurist, identifying the Functional

Equivalent—for instance, matching the English *"Power of Attorney"* with the Karakalpak *"Isenim xat"*- while acknowledging that while the words differ, the legal *"power"* they grant is identical.

Through the rigorous application of descriptive expansion, functional substitution, and the careful avoidance of literalism, the translator can bridge the semantic chasm between these two languages, ensuring that justice is not lost in translation. The exploration of semantic discrepancies must extend into the realm of Procedural Law, where the English *"adversarial"* system contrasts sharply with the *"inquisitorial*" roots of the Karakalpak judicial process, creating a vacuum for terms such as "Cross-examination".

In English trials, this is a specific, aggressive phase of questioning a witness by the opposing party; however, a literal translation into Karakalpak as *"qarsı tergew"* is insufficient because it lacks the cultural weight of the English courtroom. The Adequate Solution requires a nuanced expansion such as *"qarsı táreptiń gúwasınan soraw-juwap arqalıanıqlıq kiritiw procesi"* (the process of gaining clarity by questioning the opposing party's witness), which captures the function rather than just the action. Furthermore, the concept of *"Evidence"* in English law is subdivided into *"Admissible"* and *"Inadmissible"* evidence, governed by complex rules. In Karakalpak, the term *"Dálil"* is used, but the semantic discrepancy arises when discussing the "Exclusionary Rule" (which prevents evidence gathered illegally from being used).

Translating this necessitates a descriptive bridge like *"nızamsız jollar menen alınǵan dálillerdiń huqıqıy kúshke iye emesligi"* (the lack of legal force of evidence obtained through illegal means), ensuring the Karakalpak legal practitioner understands the consequence, not just the label. Another linguistic trap is found in the English term "Indemnity". In Karakalpak, one might be tempted to use "*tólemler"* (payments), but this misses the legal essence of "*protection against loss."*

The Adequate Translation is *"shıǵınlardı qaplaw yamasa zıyannıń ornın toltiriw boyınsha kepillik"* (a guarantee regarding the covering of expenses or compensation for damage). Moving into Administrative Law, the English term *"Due Process"* is perhaps the most difficult to translate into Karakalpak because it is a philosophical pillar of the US/UK constitutions.

A literal translation is impossible; therefore, the Adequate Solution is to use the functional phrase *"nızamlı sud talqılawı hám huqıqıy tártip-qaidalarǵa ámel etiliwi"* (adherence to legal court proceedings and legal procedures/rules), which emphasizes the fairness and legality required by the system.

Conclusion

In the end, we can see that translating legal terms between English and Karakalpak is not about matching words, but about matching legal powers. Because the English and Karakalpak legal systems grew from different histories, a translator must be very careful not to lose the "legal force" of the original document. We have seen that using a dictionary is often not enough; instead, the translator must use strategies like Functional Equivalence to find a word that does the same job in the other country. Whether it is turning the English command *"shall"* into the Karakalpak *"shárt"* or explaining a unique idea like *"Trust"* through a short description, the goal is always the same: to make sure the law is understood correctly. This study shows that a good translator must understand both the language and the law of both nations. By doing this, they protect the rights of everyone involved and make sure that a contract or a court paper stays valid and powerful even after it is translated. As the world becomes more connected, these skills are more important than ever to prevent legal mistakes and to help people from different backgrounds work together fairly under the rule of law.

References

1.Alcaraz, E., & Hughes, B. Legal Translation Explained. Routledge. 2014

2. Bhatia, V. K. Analysing Genre: Language Use in Professional Settings. Longman. 1993

3. Cao, D. Translating Law. Multilingual Matters. 2007

4.Garner, B. A. Black's Law Dictionary (11th ed.). Thomson Reuters. 2019

5. Karakalpakstan Republic. Civil Code of the Republic of Karakalpakstan. 2020

6. Mattila, H. E. S. Comparative Legal Linguistics: Language of Law, Latin and Modern Lingua Francas. Ashgate Publishing. 2013

7. Newmark, P. A Textbook of Translation. Prentice Hall.

8. Šarčević, S. New Approach to Legal Translation.

RAQAMLI REKLAMA DISKURSIDA VERBAL VA VIZUAL MODALLIKLARNING O‘ZARO MUNOSABATI: INGLIZ VA O‘ZBEK MATERIALLARI QIYOSIDA

Mo‘minova Maftuna Alijonovna.
Nizomiy nomidagi O‘zMPU Filologiya fakulteti,
ITNM kafedrasi v.b dotsenti, PhD.
90-955-30-15. mmaftun0709@mail.com
UO`K: 811.111`276
https://orcid.org/0009-0001-0991-5413
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22006547

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada raqamli reklama diskursida verbal va vizual modalliklarning o‘zaro munosabati ingliz va o‘zbek materiallari, xususan, Apple Pay va Click SuperApp reklamalari misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda multimodal diskurs, lingvopragmatik, vizual-semiotik va chog‘ishtirma tahlil metodlaridan foydalanilib, verbal birliklar, vizual kompozitsiya va semiotik resurslarning pragmatik funksiyalariga e’tibor qaratiladi. Natijalar Apple Pay diskursida soddalik, xavfsizlik va maxfiylik, Click SuperApp materiallarida esa qulaylik, funksionallik, manfaat va ijtimoiy yaqinlik semantikasi ustuvorligini ko‘rsatadi. Tadqiqot verbal va vizual modalliklarning integratsiyasi reklamaning pragmatik ta’sirini kuchaytirish hamda lingvomadaniy ma’nolarni shakllantirishga xizmat qilishini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: raqamli reklama diskursi, multimodallik, verbal modallik, vizual modallik, multimodal diskurs, lingvopragmatika, vizual semiotika, pragmatik ta’sir, adresat, lingvomadaniy ma’no.

ABSTRACT. This article provides a comparative analysis of the interaction between verbal and visual modalities in English and Uzbek digital advertising discourse, with particular reference to Apple Pay and Click SuperApp advertisements. The study employs multimodal discourse analysis, linguopragmatic, visual-semiotic, and comparative methods, focusing on the pragmatic functions of verbal units, visual composition, and semiotic resources. The findings reveal that the Apple Pay discourse foregrounds simplicity, security, and privacy, whereas Click SuperApp materials emphasize convenience, functionality, benefit, and social connectedness. The study demonstrates that the integration of verbal and visual modalities enhances the pragmatic impact of advertising and contributes to the construction of linguocultural meanings.

Keywords: digital advertising discourse, multimodality, verbal modality, visual modality, multimodal discourse, linguopragmatics, visual semiotics, pragmatic impact, addressee, linguocultural meaning.

АННОТАЦИЯ. В данной статье проводится сравнительный анализ взаимодействия вербальной и визуальной модальностей в англоязычном и узбекоязычном цифровом рекламном дискурсе на примере рекламных материалов Apple Pay и Click SuperApp. В исследовании применяются методы мультимодального дискурс-анализа, лингвопрагматического, визуально-семиотического и сопоставительного анализа с особым вниманием к прагматическим функциям вербальных единиц, визуальной композиции и семиотических ресурсов. Результаты показывают, что в дискурсе Apple Pay доминируют семантические компоненты простоты, безопасности и конфиденциальности, тогда как в материалах Click SuperApp на первый план выдвигаются удобство, функциональность, выгода и социальная близость. Исследование показывает, что интеграция вербальной и визуальной модальностей способствует усилению прагматического воздействия рекламы и формированию лингвокультурных смыслов.

Ключевые слова: цифровой рекламный дискурс, мультимодальность, вербальная модальность, визуальная модальность, мультимодальный дискурс, лингвопрагматика, визуальная семиотика, прагматическое воздействие, адресат, лингвокультурный смысл.

KIRISH

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi zamonaviy reklama diskursining mazmuni va ifoda vositalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. An’anaviy reklamada verbal komponent asosiy axborot vositalaridan biri bo‘lgan bo‘lsa, raqamli kommunikatsiyada ma’no matn, tasvir, rang, tipografika, grafik belgilar va raqamli interfeys kabi turli semiotik resurslarning o‘zaro uyg‘unligi orqali shakllanadi. Bunday integratsiya reklama diskursining multimodal xususiyatini belgilaydi [1]. Shu bois zamonaviy reklamalarni

faqat verbal matn doirasida emas, balki verbal va vizual modalliklarning o‘zaro munosabati asosida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Multimodal yondashuvda verbal va vizual vositalar yagona kommunikativ maqsadni amalga oshiruvchi o‘zaro bog‘liq semiotik resurslar sifatida qaraladi. G. Kress va T. van Leeuwen vizual kommunikatsiyada kompozitsiya, rang, rakurs, masofa va boshqa elementlarning ma’no yaratishdagi rolini ko‘rsatib, tasvirni mustaqil semiotik tizim sifatida talqin qiladilar [2]. Reklama diskursida esa mazkur vositalar adresat e’tiborini jalb qilish, ijobiy munosabat shakllantirish va uni muayyan harakatga undash kabi pragmatik vazifalarni bajaradi [3].

Raqamli to‘lov xizmatlari reklamasi verbal-vizual munosabatlarni o‘rganish uchun muhim material hisoblanadi. Bunday reklamalarda tezkorlik, qulaylik, xavfsizlik va ishonchlilik kabi tushunchalar verbal birliklar bilan bir qatorda smartfon, raqamli karta, mobil interfeys va boshqa vizual belgilar orqali ifodalanadi. Natijada reklamaning pragmatik ta’siri turli semiotik resurslarning o‘zaro integratsiyasi asosida yuzaga keladi.

Ingliz va o‘zbek raqamli reklama materiallarini qiyoslash verbal-vizual munosabatlarning lingvomadaniy jihatlarini ham aniqlash imkonini beradi. Turli auditoriyalarga yo‘naltirilgan reklamalarda verbal birliklar, vizual obrazlar va pragmatik strategiyalarning tanlanishi muayyan kommunikativ hamda madaniy omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan turli lingvomadaniy muhitlarda bir xil funksional sohaga mansub reklama materiallarini chog‘ishtirish multimodal ma’no yaratishning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi [4]. Mazkur tadqiqotda ingliz tilidagi Apple Pay va o‘zbek tilidagi Click SuperApp reklama materiallari qiyosiy tahlil obyekti sifatida tanlandi. Tadqiqotning maqsadi raqamli reklama diskursida verbal va vizual modalliklarning o‘zaro munosabatini aniqlash, ularning pragmatik funksiyalarini ochib berish hamda tanlangan ingliz va o‘zbek materiallaridagi lingvomadaniy semantik dominantlarni qiyoslashdan iborat. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati esa raqamli reklama diskursida multimodal ma’no yaratishning verbal, vizual, pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini kompleks yoritish bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI VA NAZARIY ASOSLAR

Multimodal diskurs zamonaviy tilshunoslikda kommunikativ ma’noning bir nechta semiotik resurslar orqali shakllanishini o‘rganuvchi yo‘nalish sifatida rivojlanmoqda. Uning nazariy manbalaridan biri M.A.K. Hallidayning tizimli-funksional tilshunoslik konsepsiyasi bo‘lib, olim tilni ijtimoiy-semiotik tizim sifatida talqin qiladi hamda ma’noning ideatsion, interpersonal va matniy metafunksiyalarini ajratadi [1]. Ushbu yondashuv keyinchalik verbal bo‘lmagan semiotik vositalarni ham kommunikativ ma’no yaratish jarayonining tarkibiy qismi sifatida o‘rganishga asos bo‘ldi.

Multimodallikning ijtimoiy-semiotik nazariyasini rivojlantirgan G. Kress va T. van Leeuwen vizual tasvirni o‘ziga xos ma’no yaratish imkoniyatiga ega semiotik tizim sifatida tavsiflaydi. Ularning Reading Images: The Grammar of Visual Design asarida kompozitsiya, nigoh, rakurs, ijtimoiy masofa, rang va axborot qiymati kabi vizual vositalarning kommunikativ funksiyalari asoslab berilgan [2]. G. Kressning keyingi tadqiqotlarida esa multimodal kommunikatsiyada verbal va vizual resurslar bir-birini takrorlash bilangina cheklanmasdan, o‘zaro to‘ldirish va semantik kuchaytirish orqali yaxlit ma’no hosil qilishi ta’kidlanadi [3].

C. Jewitt multimodal kommunikatsiyada ma’no turli modalliklar o‘rtasida taqsimlanishini qayd etadi [4]. Mazkur tamoyil raqamli reklama diskursini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega, chunki reklama xabarida matn, tasvir, rang, tipografika, logotip va raqamli interfeys kabi resurslar bir vaqtning o‘zida ishtirok etadi. Demak, reklamaning umumiy mazmuni faqat verbal matn orqali emas, balki turli semiotik vositalarning o‘zaro integratsiyasi orqali yuzaga keladi.

Verbal va vizual komponentlar munosabatini izohlashda R. Barthes tomonidan taklif etilgan anchorage va relay tushunchalari ham muhimdir [5]. Anchorage verbal matnning vizual tasvir talqinini muayyan semantik yo‘nalishga solishini anglatsa, relay holatida verbal va vizual komponentlar bir-birini to‘ldirib, yaxlit kommunikativ ma’no yaratadi. Bu mexanizmlar reklamada vizual obrazni izohlash, asosiy xabarni aniqlashtirish va adresatga pragmatik ta’sirni kuchaytirish imkonini beradi.

Reklama diskursining pragmatik tabiati ham verbal-vizual munosabatlarni o‘rganishda muhim hisoblanadi. G. Cook reklama diskursini til, tasvir va kommunikativ kontekstning o‘zaro aloqasi asosida shakllanuvchi murakkab diskursiv hodisa sifatida ko‘rib chiqadi [6]. Reklamada imperativ konstruksiyalar, baholovchi leksika, qisqa sintaktik tuzilmalar va adresatga bevosita murojaat qilish kabi vositalar e’tiborni jalb etish hamda iste’molchini muayyan harakatga undash vazifasini bajaradi. Vizual komponentlar esa mazkur verbal ma’nolarni konkretlashtirishi yoki ularning ta’sir kuchini oshirishi mumkin.

Reklama diskursining lingvomadaniy jihati verbal va vizual tanlovlarning muayyan kommunikativ muhit bilan bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. Bir xil funksional sohaga mansub xizmatlar turli auditoriyalarga taqdim etilganda, reklamada oldingi planga chiqariladigan qadriyatlar, baholash vositalari va vizual obrazlar farqlanishi mumkin. Shu sababli ingliz va o‘zbek reklama materiallarini qiyosiy o‘rganish nafaqat verbal-vizual modalliklarning umumiy funksiyalarini, balki ularda aks etadigan lingvomadaniy semantik dominantlarni ham aniqlash imkonini beradi.

Mazkur nazariy qarashlardan kelib chiqib, ushbu tadqiqotda Apple Pay va Click SuperApp reklama materiallari verbal modallik, vizual modallik, pragmatik strategiya va lingvomadaniy ma’no mezonlari asosida tahlil qilinadi. Verbal qatlamda leksik-semantik birliklar, imperativ konstruksiyalar va baholash vositalari, vizual qatlamda esa kompozitsiya, raqamli interfeys va ikonografik belgilar e’tiborga olinadi. Shu asosda verbal va vizual komponentlarning bir-birini to‘ldirishi, aniqlashtirishi va semantik jihatdan kuchaytirishi ingliz va o‘zbek reklama materiallari qiyosida aniqlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek raqamli reklama diskursida verbal va vizual modalliklarning o‘zaro munosabatini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks qiyosiy-multimodal yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqot materiali sifatida bir xil kommunikativ sohaga — raqamli to‘lov xizmatlariga mansub Apple Pay va Click SuperApp reklama materiallari tanlandi. Ushbu materiallarning funksional va tematik jihatdan yaqinligi ikki xil lingvistik muhitda verbal va vizual vositalarning qo‘llanish xususiyatlarini qiyoslash imkonini beradi. Tadqiqotda multimodal diskurs tahlili, lingvopragmatik, vizual-semiotik, leksik-semantik va chog‘ishtirma tahlil metodlari qo‘llanildi.

Vizual-semiotik tahlilda G. Kress va T. van Leeuwenning vizual grammatika tamoyillariga tayangan holda kompozitsiya, axborot markazi, rang, smartfon, raqamli karta va mobil interfeys kabi elementlarning kommunikativ funksiyalari tahlil qilindi. Verbal va vizual komponentlar o‘rtasidagi munosabatni aniqlashda R. Barthesning anchorage va relay tushunchalari ham hisobga olindi.

Chog‘ishtirma tahlil Apple Pay va Click SuperApp materiallaridagi verbal vositalar, vizual reprezentatsiya, pragmatik strategiyalar va semantik dominantlarning umumiy hamda farqli jihatlarini aniqlashga qaratildi. Aniqlangan lingvomadaniy xususiyatlar butun ingliz yoki o‘zbek madaniyatiga xos qat’iy belgilar sifatida emas, balki aynan tanlangan reklama materiallarida oldingi planga chiqarilgan kommunikativ tendensiyalar sifatida talqin qilindi. Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi verbal modallik – vizual modallik – pragmatik ta’sir – lingvomadaniy ma’no o‘rtasidagi munosabatni kompleks qiyosiy tahlil qilishga asoslanadi.

NATIJALAR VA QIYOSIY TAHLIL

Apple Pay va Click SuperApp reklama materiallarining tahlili har ikki raqamli reklama diskursida verbal va vizual modalliklar yagona pragmatik maqsad — adresat e’tiborini jalb qilish, xizmatning afzalliklarini ko‘rsatish va undan foydalanishga undashga yo‘naltirilganligini ko‘rsatdi. Biroq ushbu maqsadni amalga oshirishda qo‘llaniladigan verbal birliklar, vizual reprezentatsiya va semantik dominantlarda muayyan farqlar kuzatiladi.

Apple Pay reklamasida verbal va vizual modallik

Apple Pay reklama diskursida verbal vositalarning asosiy xususiyati qisqalik, aniqlik va harakatga yo‘naltirilganlik bilan belgilanadi. “Tap to pay” kabi konstruksiyada tap fe’li imperativ mazmun kasb etib, adresatni bevosita harakatga undaydi. Bitta sodda harakat orqali to‘lov jarayonining ifodalanishi xizmatdan foydalanishning osonligini pragmatik jihatdan kuchaytiradi. Apple’ning rasmiy kommunikatsiyasida simple, safe, secure, private kabi ijobiy baholovchi birliklarning qo‘llanishi esa xizmat atrofida soddalik, xavfsizlik va maxfiylik semantikasini shakllantiradi.

Vizual qatlamda smartfon, raqamli karta va kontaktsiz to‘lov jarayoni markaziy semiotik belgilar sifatida namoyon bo‘ladi. Kompozitsiyaning minimalistik tashkil etilishi verbal xabarning ixchamligi bilan uyg‘unlashadi. Bunda vizual tasvir verbal mazmunni shunchaki takrorlamaydi, balki to‘lovning qanday amalga oshirilishini ko‘rsatib, uni konkretlashtiradi. Natijada verbal va vizual modalliklarning o‘zaro integratsiyasi TO‘LOV – SODDALIK – XAVFSIZLIK – TEXNOLOGIYA konseptual modelini yuzaga keltiradi.

Click SuperApp reklamasida verbal va vizual modallik

Click SuperApp materiallarida ham imperativ konstruksiyalar faol qo‘llanadi. “Pul o‘tkazing”, “Xarid va xizmatlarga to‘lang”, “CASHBACK oling” kabi birliklar adresatni muayyan harakatlarni bajarishga undash bilan birga, ilovaning funksional imkoniyatlarini ketma-ket ochib beradi. Apple Pay’dagi ixcham kommunikativ strategiyadan farqli ravishda, Click diskursida xizmatning ko‘p funksiyaliligi va

amaliy manfaati verbal jihatdan faolroq ifodalanadi. Click reklama diskursidagi e’tiborga molik jihatlardan biri “oila” va “yaqinlar” semantikasining raqamli xizmat bilan birlashtirilishidir. Oila a’zolariga pul o‘tkazish va yaqinlar hisoblarini to‘lash kabi imkoniyatlarning ta’kidlanishi moliyaviy xizmatni faqat individual operatsiya sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq faoliyat sifatida ham konseptuallashtiradi.

Vizual qatlamda smartfon va mobil ilova interfeysi asosiy o‘rin egallaydi. Interfeys tasvirlari verbal shaklda berilgan xizmatlarni konkretlashtirib, foydalanuvchiga ilova orqali bajarilishi mumkin bo‘lgan operatsiyalarni ko‘rgazmali tarzda namoyish etadi. Shunday qilib, Click SuperApp diskursida verbal va vizual modalliklarning integratsiyasi TO‘LOV – QULAYLIK – MANFAAT – OILA – IJTIMOIY ALOQA semantik modelini shakllantiradi.

Har ikki reklama diskursida imperativlik, adresatga yo‘naltirilganlik, ijobiy baholash va smartfonning markaziy vizual obraz sifatida qo‘llanishi umumiy xususiyat hisoblanadi. Shu bilan birga, Apple Pay materiallarida soddalik, xavfsizlik va maxfiylik semantikasi oldingi planga chiqarilsa, Click SuperApp materiallarida qulaylik, ko‘p funksiyalilik, iqtisodiy manfaat va ijtimoiy yaqinlik semantikasi kuchliroq namoyon bo‘ladi.

TAHLIL MEZONI	APPLE PAY	CLICK SUPERAPP
Verbal strategiya	Qisqa, minimalistik	Informativ, funksional
Yetakchi konstruksiya	Imperativ	Imperativ
Semantik dominant	Soddalik, xavfsizlik, maxfiylik	Qulaylik, manfaat, funksionallik
Vizual dominant	Smartfon, raqamli karta	Smartfon, mobil interfeys
Pragmatik yo‘nalish	Ishonch va xavfsizlik hissini yaratish	Foydalanish va faol operatsiyaga undash
Ijtimoiy semantika	Individual foydalanuvchi	Oila va yaqinlar
Konseptual model	TO‘LOV–XAVFSIZLIK–TEXNOLOGIYA	TO‘LOV–QULAYLIK–MANFAAT–OILA

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, bir xil funksional sohaga mansub raqamli xizmatlar reklamasida verbal va vizual modalliklar o‘xshash pragmatik vazifani bajarsa-da, ma’noning foregrounding qilinishi, ya’ni muayyan semantik komponentlarning oldingi planga chiqarilishida farqlar mavjud. Apple Pay reklamasida individual foydalanuvchining xavfsiz va sodda texnologik tajribasi markazlashtirilsa, Click SuperApp materiallarida xizmatning kundalik amaliy imkoniyatlari va ijtimoiy munosabatlarga integratsiyasi faolroq namoyon bo‘ladi. Mazkur farqlar tanlangan ingliz va o‘zbek reklama materiallarida verbal-vizual vositalarning pragmatik hamda lingvomadaniy xususiyatlarini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘tkazilgan qiyosiy tahlil raqamli reklama diskursida verbal va vizual modalliklar mustaqil emas, balki o‘zaro bog‘langan semiotik resurslar sifatida faoliyat ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Bu holat G. Kress va T. van Leeuwenning multimodal kommunikatsiyada ma’no turli semiotik vositalarning integratsiyasi orqali shakllanishi haqidagi qarashlariga mos keladi. Apple Pay va Click SuperApp materiallarida verbal komponent reklamaning asosiy pragmatik yo‘nalishini belgilasa, vizual komponent ushbu ma’noni konkretlashtiradi va kuchaytiradi.

Tahlilda har ikki reklama diskursida imperativ konstruksiyalarning faol qo‘llanishi aniqlandi. Apple Pay’dagi “Tap to pay” hamda Click SuperApp’dagi “Pul o‘tkazing”, “Xarid va xizmatlarga to‘lang”,

“CASHBACK oling” kabi birliklar adresatni passiv axborot qabul qiluvchidan bevosita harakat bajaruvchi subyektga aylantiradi. Biroq ularning kommunikativ strategiyasida farq mavjud: Apple Pay diskursida qisqalik va minimalizm orqali soddalik hamda xavfsizlik foregrounding qilinsa, Click SuperApp’da xizmatning funksional imkoniyatlari va amaliy manfaati kengroq verbal ifodalanadi.

Vizual modallik ham ushbu semantik farqlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Apple Pay’da smartfon va raqamli karta minimalistik kompozitsiya asosida berilib, texnologik soddalik va shaxsiy nazorat obrazini yaratadi. Click SuperApp’da esa mobil interfeys va xizmatlarning vizual namoyishi funksionallik va kundalik foydalanish imkoniyatlarini oldingi planga olib chiqadi. Demak, verbal va vizual komponentlar o‘rtasidagi munosabat R. Barthes ta’riflagan anchorage va relay mexanizmlari orqali reklama xabarining talqinini yo‘naltirish va boyitishga xizmat qiladi. Lingvomadaniy jihatdan esa tanlangan materiallarda Apple Pay diskursida xavfsizlik, maxfiylik va individual foydalanuvchi, Click SuperApp diskursida esa qulaylik, manfaat, oila va yaqinlar semantikasi kuchliroq namoyon bo‘ladi. Ushbu farqlarni butun ingliz va o‘zbek madaniyatining qat’iy belgisi sifatida emas, balki tahlil qilingan reklama materiallarida oldingi planga chiqarilgan kommunikativ va lingvomadaniy tendensiyalar sifatida baholash maqsadga muvofiq.

XULOSA

Ingliz va o‘zbek raqamli reklama materiallarining qiyosiy tahlili verbal va vizual modalliklarning o‘zaro integratsiyasi reklama diskursining pragmatik samaradorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri ekanligini ko‘rsatdi. Har ikki reklamada imperativ konstruksiyalar, ijobiy baholash vositalari hamda smartfon va raqamli interfeys kabi vizual belgilar adresatni xizmatdan foydalanishga undash vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, Apple Pay va Click SuperApp reklama diskurslarida ma’noning tashkil etilishida muayyan farqlar aniqlandi. Apple Pay materiallarida qisqalik, minimalizm, soddalik, xavfsizlik va maxfiylik yetakchi semantik-pragmatik belgilar sifatida namoyon bo‘lib, TO‘LOV–XAVFSIZLIK–TEXNOLOGIYA konseptual modelini shakllantiradi. Click SuperApp materiallarida esa qulaylik, funksionallik, iqtisodiy manfaat, oila va ijtimoiy yaqinlik semantikasi faol bo‘lib, TO‘LOV–QULAYLIK–MANFAAT–OILA modeli yuzaga keladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli reklamada verbal vosita asosiy kommunikativ va pragmatik ma’noni ifodalasa, vizual vosita uni konkretlashtiradi, kuchaytiradi va qo‘shimcha assotsiativ ma’no bilan boyitadi. Shu tariqa verbal va vizual modalliklarning o‘zaro munosabati nafaqat mahsulot yoki xizmatni targ‘ib qilish, balki muayyan lingvomadaniy ma’nolarni shakllantirish vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Umuman, ingliz va o‘zbek raqamli reklama diskursini multimodal yondashuv asosida qiyosiy o‘rganish turli lingvomadaniy muhitlarda verbal va vizual vositalarning ma’no yaratish, adresatga ta’sir ko‘rsatish hamda kommunikativ strategiyalarni amalga oshirishdagi umumiy va o‘ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Halliday, M. A. K., Matthiessen, C. M. I. M. An Introduction to Functional Grammar. 3rd ed. London: Arnold, 2004.
2. Kress, G. Multimodality: A Social Semiotic Approach to Contemporary Communication. London: Routledge, 2010.
3. Kress, G., van Leeuwen, T. Reading Images: The Grammar of Visual Design. 3rd ed. London–New York: Routledge, 2021.
4. Jewitt, C. (Ed.). The Routledge Handbook of Multimodal Analysis. 2nd ed. London–New York: Routledge, 2014.
5. Barthes, R. Rhetoric of the Image // Image, Music, Text. Essays selected and translated by S. Heath. London: Fontana Press, 1977.
6. Forceville, C. Pictorial Metaphor in Advertising. London–New York: Routledge, 1996.
7. Cook, G. The Discourse of Advertising. 2nd ed. London–New York: Routledge, 2001.
8. van Leeuwen, T. Introducing Social Semiotics. London–New York: Routledge, 2005.
9. Apple Inc. Apple Pay: Security and Privacy Overview. Apple Support. Rasmiy elektron manba. Apple Pay tranzaksiyalarining xavfsizlik va maxfiylik tamoyillariga oid material.
10. Apple Pay Security and Privacy Overview
11. Apple Inc. Apple Pay. Rasmiy elektron manba. Apple Pay xizmatining soddalik, xavfsizlik va maxfiylik xususiyatlariga oid material.
12. Apple Pay official page
13. Click. Click SuperApp — naqdsiz to‘lovlarning yangi darajasi. Rasmiy elektron manba. Click SuperApp funksiyalari, to‘lov, pul o‘tkazmalari va “Mening oilam” xizmatiga oid material.

14. Click SuperApp rasmiy sayti
15. Click. Cashback for Payments via CLICK. Rasmiy elektron manba. Click SuperApp’da cashback va raqamli to‘lov imkoniyatlariga oid material.
16. Click Cashback rasmiy sahifasi

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY REZILYENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Atayeva Guli Shuxratovna
Urganch davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22006778

ANNOTATSIYA.Maqolada raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy rezilyentligini rivojlantirish muammosi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot muammosi — bo‘lajak pedagoglarning texnologik o‘zgarishlar va kasbiy yuklama sharoitida barqarorligini ta’minlovchi mexanizmlarning yetarli darajada o‘rganilmaganligidan iborat. Maqolaning maqsadi kasbiy rezilyentlik tushunchasini raqamli ta’lim kontekstida ilmiy asoslash va uning rivojlantirish modelini taklif etishdir. Tadqiqotda xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tahliliga asoslangan nazariy-analitik yondashuvdan foydalanilgan. Natijada kasbiy rezilyentlikning o‘nta o‘zaro bog‘liq komponenti aniqlanib, ularni rivojlantirishning kontseptual modeli ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash dasturlarini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: kasbiy rezilyentlik, bo‘lajak pedagog, raqamli ta’lim muhiti, pedagogik kompetensiya, raqamli kompetensiya, kasbiy moslashuv, refleksiya, kasbiy barqarorlik.

АННОТАЦИЯ. В статье анализируется проблема развития профессиональной резильентности будущих педагогов в условиях цифровой образовательной среды. Проблема исследования заключается в недостаточной изученности механизмов, обеспечивающих устойчивость будущих педагогов в условиях технологических изменений и профессиональной нагрузки. Цель статьи — научное обоснование понятия профессиональной резильентности в контексте цифрового образования и разработка модели её развития. В исследовании использован теоретико-аналитический подход, основанный на анализе зарубежных и отечественных научных источников. В результате выявлены десять взаимосвязанных компонентов профессиональной резильентности и разработана концептуальная модель их развития. Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования программ подготовки будущих педагогов в высших педагогических учебных заведениях.

Ключевые слова: профессиональная резильентность, будущий педагог, цифровая образовательная среда, педагогическая компетентность, цифровая компетентность, профессиональная адаптация, рефлексия, профессиональная устойчивость.

ABSTRACT. The article examines the problem of developing professional resilience among future teachers within a digital educational environment. The research problem lies in the insufficient theoretical elaboration of mechanisms ensuring future teachers' stability under technological change and professional workload. The article aims to substantiate the concept of professional resilience in the context of digital education and to propose a model for its development. A theoretical-analytical approach based on the synthesis of foreign and domestic scholarly sources was employed. As a result, ten interrelated components of professional resilience were identified, and a conceptual model for their development was elaborated. The findings hold practical value for improving future-teacher training programs at pedagogical higher education institutions.

Keywords: professional resilience, future teacher, digital educational environment, pedagogical competence, digital competence, professional adaptation, reflection, professional stability.

KIRISH. Zamonaviy jamiyatning raqamlashtirilishi ta’lim tizimiga chuqur ta’sir ko‘rsatib, pedagog faoliyatining mazmuni va vositalarini tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi bilan bir qatorda, pedagogdan yangi turdagi kasbiy kompetensiyalar — texnologik savodxonlik, moslashuvchanlik, uzluksiz o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyati talab etilmoqda. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan Pedagoglar uchun AKT kompetentligi doiraviy hujjatida ta’kidlanganidek, raqamli davr pedagogidan an’anaviy metodik bilimlardan tashqari, texnologik o‘zgarishlarga tezkor moslashish qobiliyati talab etiladi [16].

Ushbu jarayon, bir tomondan, ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan, pedagog kasbiy faoliyatida qo‘shimcha stress omillari, axborot yuklamasi va professional beqarorlik holatlarini keltirib chiqarmoqda. Bo‘lajak pedagoglar — hali kasbiy tajribaga ega bo‘lmagan,

ammo tez orada murakkab raqamli ta’lim muhitiga kirib boradigan toifa — ushbu sinovlarga eng ko‘p duch keladigan guruh hisoblanadi.

Xalqaro tadqiqotlarda kasbiy rezilyentlik tushunchasi pedagoglarning kasbiy barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida keng o‘rganilgan[6]. Biroq mavjud tadqiqotlarning katta qismi rezilyentlikni umumiy psixologik yoki umumkasbiy hodisa sifatida ko‘rib chiqadi; uni maxsus ravishda raqamli ta’lim muhiti kontekstida, xususan bo‘lajak pedagoglar tayyorgarligi jarayonida tahlil qiluvchi ishlar hali yetarli emas.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari, jumladan “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi [11] va “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonun [12] doirasida pedagog kadrlarning raqamli kompetentligini oshirish davlat siyosati darajasida belgilangan. Shu bois bo‘lajak pedagoglarda raqamli ta’lim muhitiga moslashuv va kasbiy barqarorlikni ta’minlovchi rezilyentlik sifatlarini rivojlantirish nazariy-amaliy jihatdan dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

Ushbu maqolaning maqsadi — raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy rezilyentligi tushunchasini ilmiy jihatdan asoslash, uning tarkibiy komponentlarini aniqlash va ularni rivojlantirishning kontseptual modelini taklif etishdan iborat.

ASOSIY QISM. Kasbiy rezilyentlik tushunchasining ildizlari rivojlanish psixologiyasidagi rezilyentlik nazariyasiga borib taqaladi. N.Garmezi tomonidan boshlangan tadqiqotlar bolalarning noqulay sharoitlarga qaramay ijobiy rivojlanish qobiliyatini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib [5], keyinchalik M.Rutter tomonidan himoyalovchi omillar nazariyasi bilan boyitildi [14]. E.Verner va R.Smitning Kauai orolidagi uzoq muddatli tadqiqoti rezilyentlikni nafaqat individual xususiyat, balki muhit bilan o‘zaro ta’sir mahsuli sifatida talqin qilish zaruratini ko‘rsatdi [19]. A.Masten esa bu jarayonni “oddiy sehr” (ordinary magic) metaforasi orqali izohlab, rezilyentlikni istisno emas, balki inson rivojlanishining tabiiy mexanizmi sifatida talqin qildi [9].

Psixologik rezilyentlikdan farqli o‘laroq, kasbiy rezilyentlik muayyan kasbiy muhit — bizning holatimizda pedagogik faoliyat — talablariga nisbatan shakllanadigan moslashuvchan sifat sifatida qaraladi. Q.Gu va K.Deyning tadqiqotlari pedagogik rezilyentlikni statik xususiyat emas, balki vaqt o‘tishi bilan kasbiy sharoitlar ta’sirida dinamik tarzda o‘zgaruvchi jarayon sifatida ko‘rsatadi [6]. S.Beltman, K.Mensfild va E.Praysning keng ko‘lamli tahlili pedagogik rezilyentlikni shaxsiy, kasbiy va institutsional omillar o‘rtasidagi dinamik o‘zaro ta’sir natijasi sifatida talqin qiladi [2]. R.Le Kornu esa yosh pedagoglar rezilyentligida kasbdoshlar va murabbiylar bilan o‘rnatiladigan munosabatlarning hal qiluvchi rolini ta’kidlaydi [7], bu esa kasbiy rezilyentlikning ijtimoiy-munosabat komponentini ochib beradi.

M.Ungarning ijtimoiy-ekologik nazariyasiga ko‘ra, rezilyentlik shaxsning ichki resurslari bilan uni o‘rab turgan ijtimoiy va institutsional resurslar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik natijasida shakllanadi [17]. Ushbu yondashuv raqamli ta’lim muhitini tahlil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bo‘lajak pedagogning rezilyentligi nafaqat uning shaxsiy sifatlariga, balki u faoliyat yurituvchi raqamli-institutsional muhitning imkoniyatlariga ham bog‘liq bo‘ladi.

“Kasbiy rezilyentlik”, “psixologik rezilyentlik” va “kasbiy moslashuvchanlik” tushunchalari o‘zaro yaqin, ammo mazmunan farqlanadi. Psixologik rezilyentlik shaxsning har qanday og‘ir vaziyatlarga nisbatan chidamliligini anglatsa, kasbiy rezilyentlik aynan kasbiy faoliyat jarayonidagi qiyinchiliklarga (yuklama, ziddiyatlar, texnologik o‘zgarishlar) nisbatan barqarorlik va rivojlanishni ifodalaydi. Kasbiy moslashuvchanlik esa ko‘proq tashqi o‘zgarishlarga passiv moslashishni anglatsa, rezilyentlik faol, rivojlanuvchi va reflektiv jarayonni nazarda tutadi — ya’ni shaxs nafaqat moslashadi, balki qiyinchiliklardan kasbiy tajriba sifatida foydalanib, yangi sifat darajasiga chiqadi [9].

Shu nuqtai nazardan, mualliflik yondashuvimizga ko‘ra, raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagogning kasbiy rezilyentligi quyidagi kompleks sifat sifatida talqin qilinishi mumkin: bu — texnologik o‘zgarishlarga moslashish, raqamli kompetensiyalarni muntazam egallash, kasbiy vaziyatlarni reflektiv tahlil qilish, pedagogik muammolarni konstruktiv hal etish, emotsional o‘zini boshqarish hamda kasbiy rivojlanishni uzluksiz davom ettirish qobiliyatlarini o‘zida mujassam etuvchi integrativ kasbiy-shaxsiy sifatdir. Bunday talqin G.Bonanno tomonidan asoslangan rezilyentlikning “ko‘p yo‘lli” (multiple pathways) tabiati haqidagi qarashlar bilan ham uyg‘unlashadi, unga ko‘ra rezilyentlikka erishishning yagona universal yo‘li mavjud emas, balki turli shaxslar turlicha strategiyalar orqali barqarorlikka erishadi [3].

Zamonaviy xalqaro hujjatlar ham ushbu kompleks talqinni bilvosita tasdiqlaydi. UNESCO ning “Ta’lim 2030” doirasidagi Inchon deklaratsiyasida pedagoglarning o‘zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladigan, kasbiy jihatdan barqaror bo‘lishi zarurligi ta’kidlanadi [15]. Yevropa Komissiyasi tomonidan

ishlab chiqilgan DigCompEdu doiraviy hujjati pedagoglarning raqamli kompetentligini bir necha sohaga ajratib, ular orasida kasbiy o‘zaro hamkorlik va uzluksiz kasbiy rivojlanishni alohida ajratib ko‘rsatadi [18]. OECD TALIS tadqiqoti natijalari ham pedagoglarning kasbiy barqarorligi ularning kasbiy hamjamiyat ichidagi hamkorlik darajasi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi [10].

Yuqoridagi nazariy tahlil asosida raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagogning kasbiy rezilyentligini tashkil etuvchi o‘zaro bog‘liq o‘n komponentni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ularning har biri alohida emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida namoyon bo‘ladi: shaxsiy-emotsional daraja (emotsional o‘zini boshqarish, kasbiy motivatsiya), texnologik daraja (raqamli kompetensiya, texnologik moslashuvchanlik), ijtimoiy daraja (hamkasbiy qo‘llab-quvvatlash) va rivojlanish darajasi (refleksiya, uzluksiz kasbiy rivojlanish, innovatsion tayyorlik, muammo yechish va qaror qabul qilish qobiliyati). Ushbu komponentlar orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqroq tasavvur etish uchun quyidagi kontseptual model taklif etiladi.

Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy rezilyentligini rivojlantirishning asosiy komponentlari

Komponent	Mazmuni	Rivojlantirish vositasi	Kutiladigan natija
Raqamli kompetensiya	Raqamli vositalar va platformalarni pedagogik maqsadda qo‘llash qobiliyati	Amaliy trening, mikro-modul kurslar	Texnologik ishonch va samarali foydalanish
Texnologik moslashuvchanlik	Yangi vositalarga tez va ijobiy moslashish qobiliyati	Simulyatsiya mashqlari, loyihaviy topshiriqlar	O‘zgarishlarga ochiqlik
Refleksiv kompetensiya	O‘z faoliyatini tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyati	Refleksiv kundalik, portfolio	Kasbiy o‘z-o‘zini anglash
Emotsional o‘zini boshqarish	Stress va yuklama sharoitida emotsional barqarorlikni saqlash	Emotsional intellekt bo‘yicha trening, konsultatsiya	Psixologik barqarorlik
Muammolarni hal qilish qobiliyati	Pedagogik vaziyatlarda konstruktiv yechim topish	Keys-stadi, muammoli vaziyatlar tahlili	Moslashuvchan fikrlash
Kasbiy motivatsiya	Kasbga bo‘lgan ichki qiziqish va intilishni saqlash	Mentorlik, muvaffaqiyat tajribalarini almashish	Kasbiy sadoqat
Hamkasbiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash	Kasbdoshlar bilan hamkorlik va o‘zaro yordam tarmog‘i	Hamkorlik guruhlari, professional hamjamiyatlar	Ijtimoiy resurslarga ega bo‘lish
Uzluksiz kasbiy rivojlanish	Bilim va ko‘nikmalarni muntazam yangilash	Onlayn kurslar, malaka oshirish dasturlari	Kasbiy o‘sish
Innovatsion faoliyatga tayyorlik	Yangi pedagogik g‘oya va usullarni qabul qilish	Innovatsion loyihalarda ishtirok	Ijodiy pedagogik faoliyat
Noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish	Tezkor va asosli qarorlar qabul qilish qobiliyati	Vaziyatli o‘yinlar, qaror qabul qilish trenagi	Kasbiy ishonch va tezkorlik

Taqdim etilgan model shuni ko‘rsatadiki, kasbiy rezilyentlikni rivojlantirish bir martalik tadbir emas, balki uzluksiz, ko‘p bosqichli pedagogik jarayondir. Modelning texnologik komponentlari (raqamli

kompetensiya, texnologik moslashuvchanlik) raqamli ta’lim muhitiga xos yangi talablarni aks ettirsa, shaxsiy-emotsional va ijtimoiy komponentlar rezilyentlik nazariyasining klassik yadrosini tashkil etadi. Bu esa kasbiy rezilyentlikni raqamli davr kontekstida rivojlantirish uchun yaxlit, ko‘p qirrali yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA / TAHLIL

Ko‘rib chiqilgan nazariy yondashuvlarni qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, Q.Gu va K.Dey, shuningdek S.Beltman, K.Mensfild va E.Praysning modellari kasbiy rezilyentlikni ko‘proq shaxs va kasbiy muhit o‘rtasidagi munosabatlar darajasida, individual-relyatsion nuqtai nazardan tahlil qiladi. M.Ungarning ijtimoiy-ekologik yondashuvi esa e’tiborni kengroq institutsional va tizimli resurslarga qaratadi. Ushbu ikki yo‘nalish bir-birini istisno etmaydi, balki bir-birini to‘ldiradi: birinchisi rezilyentlikning shaxsiy-kasbiy mexanizmlarini, ikkinchisi esa uni ta’minlovchi tashqi shart-sharoitlarni ochib beradi.

Raqamli ta’lim muhiti klassik rezilyentlik modellariga nisbatan qo‘shimcha o‘lchov — texnologik-raqamli komponentni kiritishni taqozo etadi. An’anaviy tadqiqotlarda bu jihat alohida ajratilmagan, biroq zamonaviy sharoitda pedagogning texnologik o‘zgarishlarga moslasha olishi uning umumiy kasbiy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois raqamli ta’lim muhitida kasbiy rezilyentlikni faqat psixologik chidamlilik sifatida emas, balki texnologik-pedagogik moslashuvchanlik bilan uyg‘unlikda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Bunda ta’kidlash joizki, ushbu tahlil mavjud nazariy manbalarning sintezi asosida shakllantirilgan mualliflik talqini bo‘lib, kelgusi tadqiqotlarda empirik tekshiruvni talab qiladi.

XULOSA. O‘tkazilgan nazariy tahlil natijalari quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

1) raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagogning kasbiy rezilyentligi kompleks, ko‘p komponentli kasbiy-shaxsiy sifat bo‘lib, u psixologik chidamlilikdan tashqari texnologik moslashuvchanlik va raqamli kompetentlikni ham o‘z ichiga oladi;

2) kasbiy rezilyentlik psixologik rezilyentlik va kasbiy moslashuvchanlikdan farqli, faol, reflektiv va rivojlanuvchan jarayon sifatida talqin qilinishi lozim;

3) kasbiy rezilyentlikning shakllanishida shaxsiy-emotsional, texnologik, ijtimoiy va rivojlanish darajalari o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi;

4) taklif etilgan o‘n komponentli model bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash dasturlarini loyihalashda yo‘naltiruvchi asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin;

5) raqamli ta’lim muhitiga xos texnologik-raqamli komponentning kiritilishi klassik rezilyentlik nazariyalarini zamonaviy sharoitga moslashtirish zaruratini ko‘rsatadi;

6) O‘zbekiston ta’lim tizimidagi raqamlashtirish siyosati ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni davlat ahamiyatiga molik ilmiy-amaliy vazifa darajasiga ko‘taradi;

7) taqdim etilgan model va xulosalar keyingi bosqichda empirik tadqiqot orqali sinovdan o‘tkazilishi va aniqlashtirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Antonovsky A. Unraveling the Mystery of Health: How People Manage Stress and Stay Well. San Francisco: Jossey-Bass, 1979.

2. Beltman S., Mansfield C., Price A. Thriving not just surviving: A review of research on teacher resilience // Educational Research Review. — 2011.

3. Bonanno G.A. Loss, trauma, and human resilience: Have we underestimated the human capacity to thrive after extremely aversive events? // American Psychologist. — 2004.

4. Day C., Gu Q. Variations in the conditions for teachers' professional learning and development: Sustaining commitment and effectiveness over a career // Oxford Review of Education. — 2007.

5. Garmezy N. Resiliency and vulnerability to adverse developmental outcomes associated with poverty // American Behavioral Scientist. — 1991.

6. Gu Q., Day C. Teachers resilience: A necessary condition for effectiveness // Teaching and Teacher Education. — 2007.

7. Le Cornu R. Building early career teacher resilience: The role of relationships // Australian Journal of Teacher Education. — 2013.

8. Luthar S.S., Cicchetti D., Becker B. The construct of resilience: A critical evaluation and guidelines for future work // Child Development. — 2000.

9. Masten A.S. Ordinary magic: Resilience processes in development // American Psychologist. — 2001.

10. OECD. TALIS 2018 Results (Volume I): Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. Paris: OECD Publishing, 2019.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030 strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, PF-6079, 2020-yil 5-oktyabr.
12. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-901, 2024-yil.
13. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-637, 2020-yil 23-sentyabr.
14. Rutter M. Resilience in the face of adversity: Protective factors and resistance to psychiatric disorder // British Journal of Psychiatry. — 1985.
15. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. Paris: UNESCO, 2015.
16. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers, Version 3. Paris: UNESCO, 2018.
17. Ungar M. Resilience across cultures // British Journal of Social Work. — 2008.
18. European Commission, Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.
19. Werner E.E., Smith R.S. Vulnerable but Invincible: A Longitudinal Study of Resilient Children and Youth. New York: McGraw-Hill, 1982.
20. Zhang L., Luo H. Teacher resilience in the digital era // Frontiers in Psychology. — 2023.

TALABALARNING UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIGINING FUTBOL SPORT TURI VOSITALARI ORQALI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI

Botirov Anvarbek Omonboy o‘g‘li
Urganch davlat pedagogika instituti doktoranti
O‘zbekiston, Urganch shahri
E-mail: anvarbekbotirov07@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22006886

Annotatsiya. Futbolda harakat malakasi faqat jismoniy mahorat yoki texnik mahorat bilan belgilanmaydi. Futbol sport turi vositalari, mashqlari orqali ham harakat malakalarini sezilarli darajada shakllantirish mumkin. Shuningdek, talabalarda harakat malakalarini shakllantirish sport ta'limining muhim jihati bo'lib, o'quvchining kasbiy imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi. O'zining muhimligiga qaramay, an'anaviy o'quv dasturlarida futbol ta'limining bu jihatiga ko'pincha e'tibor berilmaydi.

Annotation. In football, movement skills are not determined only by physical skills or technical skills. Movement skills can also be significantly developed through the tools and exercises of the football sport. Also, the formation of movement skills in students is an important aspect of sports education, significantly increasing the professional opportunities of the student. Despite its importance, this aspect of football education is often ignored in traditional curricula.

Аннотация. В футболе двигательные навыки определяются не только физическими навыками или техническими навыками. Двигательные навыки также могут быть значительно развиты с помощью инструментов и упражнений футбольного вида спорта. Кроме того, формирование двигательных навыков у студентов является важным аспектом спортивного образования, значительно увеличивая профессиональные возможности студента. Несмотря на свою важность, этот аспект футбольного образования часто игнорируется в традиционных учебных программах.

Kalit so‘zlar: Sport vazirligi, olimpiya va milliy sport turlari, mahorat maktablari, konusli mashqlar, zarba berish, fintlar, aerobik, anaerobic, laktat chegara.

Key words: Ministry of Sports, Olympic and national sports, skill schools, cone exercises, hitting, tricks, aerobic, anaerobic, lactate threshold.

Ключевые слова: Министерство спорта, олимпийские и национальные виды спорта, школы мастерства, упражнения с конусами, удары, трюки, аэробные, анаэробные, порог лактата.

Mavzuning dolzarbligi.

Mamlakatimizda 2026-yil 24-martda tasdiqlangan yangi tahrirdagi 1123-son “Jismoniy tarbiya va sport” to‘g‘risidagi qonunda Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, sportchilarning sport tadbirlarida, shu jumladan sport musobaqalari va o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlarida ishtirok etishini ta’minlash kabi bir qator o’zgartirishlar kiritilib mamlakatimizda sportning ommoviyligini oshirish va aholini sog’lom turmush tarzini yanada yaxshilash bo’yicha ham muhim yangiliklar qayd qilingan.

Bugungi kunda jahon ta’lim tizimida talabalarning harakatsizligi (gipodinamiya) va salomatlik ko‘rsatkichlarining pasayishi global muammo bo‘lib qolmoqda. Oliy ta’lim jarayonida jismoniy tarbiya darslarini faqat an’anaviy mashqlar bilan cheklash talabalarning qiziqishini pasaytiradi. Futbol -jamoaviy sport turi sifatida nafaqat jismoniy sifatlarni (tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik), balki psixologik barqarorlik va ijtimoiy adaptatsiyani ham ta’minlaydi. Shu sababli, futbol vositalari orqali jismoniy qobiliyatlarni takomillashtirishning yangi uslubiyatlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. . Jismoniy tarbiya darslarida sport turlaridan biri – futbol vositalaridan samarali foydalanish talabalarning tezlik, kuch, chidamlilik, chaqqonlik va muvofiqlashtirish qobiliyatlarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Futbolning ommaviyligi, qiziqarli va hissiy jihatdan jozibadorligi uni jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirishda samarali vosita sifatida ko‘rsatadi. Shu sababli, futbol vositalari orqali talabalarning umumiy jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan uslubiyatni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Futbol o‘yini o‘zining serqirraligi, yuqori dinamikasi va hissiy boyligi bilan ajralib turadi. Ushbu sport turi vositalari yordamida talabalarda jismoniy qobiliyatlarni (tezkorlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik va chaqqonlik) kompleks tarzda rivojlantirish imkoniyati mavjud.

Oliy ta’lim tizimida talabalar salomatligini mustahkamlash va ularning umumiy jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kunning muhim pedagogik muammolaridan biridir. Jismoniy tarbiya

darslarida sport turlaridan biri – futbol vositalaridan samarali foydalanish talabalarning tezlik, kuch, chidamlilik, chaqqonlik va muvofiqlashtirish qobiliyatlarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Futbolning ommaviyligi, qiziqarli va hissiy jihatdan jozibadorligi uni jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirishda samarali vosita sifatida ko‘rsatadi. Shu sababli, futbol vositalari orqali talabalarning umumiy jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan uslubiyatni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Mavzuning o‘rganilganligi.

Jismoniy tarbiya va sport metodikasi sohasida L.P.Matveyev L.P [1,20-b] , V.N.Platonov [2,36-b] , kabi olimlar umumiy tayyorgarlik nazariyasini asoslagan bo‘lsa, futbol vositalaridan foydalanish masalalari mahalliy olimlardan R.I.Nurimov [3,101-b] va shuningdek, sport fiziologiyasi mutaxassislari tomonidan tadqiq etilgan. Biroq, aynan ixtisoslashmagan oliy ta’lim muassasalari talabalarining jismoniy imkoniyatlarini futbol orqali tizimli rivojlantirish metodikasi hamon takomillashtirishni talab etadi. Futbolning o‘yin sifatidagi ta'siri talabaning mantiqiy fikrlash, tez qaror qabul qilish va strategik yondashuvlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu o‘z navbatida talabalarni nafaqat jismoniy, balki intellektual ravishda ham o‘stiradi. Futbol o‘yinlari jarayonida talabalar jamoaviy ish, muammolarni hal qilish, stressni boshqarish kabi psixologik ko‘nikmalarni ham o‘rganadilar. Futbol jamoaviy sport turi sifatida talabalar orasida bir-biriga bo‘lgan ishonchni, hamkorlikni va muloqotni rivojlantiradi. Oliy ta’lim tizimida futbol o‘ynash orqali talabalar turli madaniy va ijtimoiy qatlamlardan bo‘lgan hamkasblar bilan aloqalar o‘rnatib, ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini oshiradilar. Bu talabalar uchun katta ahamiyatga ega, chunki ular kelajakda nafaqat ish, balki ijtimoiy hayotda ham muvaffaqiyatli bo‘lishlari kerak. Futbolni oliy ta’lim muassasalarida yuqori sifatli sport faoliyatlariga aylantirish uchun bir qator muhim omillar mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sportni rivojlantirishga oid qarorlari va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish bo‘yicha davlat dasturlarida yoshlar orasida jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish muhim yo‘nalish sifatida belgilangan. Bu esa talabalar bilan ishlashda zamonaviy, ilmiy asoslangan uslubiyatni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Futbol mashg'ulotlarining jismoniy sifatlarini shakillantirishni ko'rsatib bergan. Futbolchilarning jismoniy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan muhim ilmiy izlanishlar olib borgan mualliflar: A.M.Achilov [4] , "Futbol nazariyasi va uslubiyati" o‘quv qo‘llanmasi, A.A.Artikov [5] , "Sport pedagogik mahoratini oshirishda o‘quv" uslubiy ishlanmalar, bundan tashqari U.Jalilov [6], I.Kimsanboyev [7], D.Yursunaliyev [8], Yosh futbolchilarning mashg‘ulotlarini tashkil etish va jismoniy sifatlarni rivojlantirishning boshlang‘ich bosqichlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Chet el adabiyotlari tahlili.So‘nggi 3-5 yil ichida chop etilgan nufuzli ingliz tilidagi manbalar tahlili (masalan, “Journal of Sports Sciences” va “International Journal of Environmental Research and Public Health”) Bangsbo. [7] va boshqalar (2022) Futbolga asoslangan kichik o‘yinlar (Small-Sided Games - SSG) talabalarning aerob va anaerob imkoniyatlarini an’anaviy yugurish mashqlariga qaraganda 20% ga samaraliroq oshirishini isbotlagan. F.M.Clemente [8] (2023),Uning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, 3x3 va 4x4 formatdagi o‘yinlar yurak urish tezligini (HR) optimal darajada ushlab turadi va umumiy chidamlilikni rivojlantiradi.

“Recreational Soccer” (ko‘ngilochar futbol) konsepsiyasi talabalarning stress darajasini pasaytirib, metabolik salomatligini yaxshilashini ilmiy asoslab bergan.

Tadqiqotning maqsadi. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining jismoniy qobiliyatlarini futbol vositalari (kichik hajmli o‘yinlar va maxsus mashqlar) orqali rivojlantirishning samarali metodikasini ishlab chiqish va uni amaliyotda sinash.

Tadqiqotning vazifalari.

1. Talabalarning jismoniy tayyorgarlik holatini tahlil qilish.
2. Xalqaro tajribadagi futbolga yo‘naltirilgan zamonaviy mashqlar majmuasini saralab olish.

Tadqiqot ishni tashkil qilish uslublari: talabalar jismoniy tayyorgarligini futbol sport turi vosita va uslublari yordamida rivojlantish maqsadida bir nechta uslublarni ko’rsatib o’tamiz.

1. Zarba berish, to'pni to’xtatish, to'pni olib yurish, aldash harakatlari (fintlar), to'pni olib qo'yish.
2. Qo’lda bajariladigan spetsifik usul - yon chiziqning nariyog'idan to'pni tashlab berish ham to'pni boshqansh texnikasiga kiradi.

Tadqiqot ishning natijasi va muhokamasi: tezlik va chaqqonlik futbolda juda muhim, bunda o'yinchilar tez tezlashishi, sekinlashishi va yo'nalishini o'zgartirishi kerak. Bu fazilatlar maxsus mashqlar orqali o'tkirlashadi.

Sprint treningi: Qarshilik bilan sprintlar, uchish sprintlari va tezlashtirish mashqlari kabi sprint mashqlari o'yinchilarga tez yuqori tezlikka erishish va uni qisqa masofalarda ushlab turish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, bu o'yin sharoitida juda muhimdir.

Chaqqonlik mashqlari: konusli matkaplar, zinapoyalar va moksimon yugurishlari o'yinchining yo'nalishni tez va samarali o'zgartirish qobiliyatini yaxshilashga qaratilgan. Mudofaa manyovirlari, dribling va raqiblardan qochish uchun chaqqonlik mashqlari juda muhimdir.

Reaktiv chaqqonlik treningi: Bu usul tez qaror qabul qilishni va ogohlantiruvchilarga reaktsiyani talab qiladigan mashqlarni o'z ichiga oladi, masalan, murabbiyning signaliga yoki raqibning harakatiga javob berish. Reaktiv chaqqonlik mashg'ulotlari o'yinga o'xshash stsenariylarda kognitiv ishlov berish tezligi va jismoniy chaqqonlikni oshiradi.

Chidamlilik mashg'ulotlari: barqaror yuqori samaradorlik futbolda juda muhim, bunda o'yinchilar 90 daqiqalik o'yin davomida yuqori ko'rsatkichlarni saqlab qolishlari kerak. Chidamlilik mashqlari aerob va anaerob qobiliyatlarni yaxshilaydi.

Aerobik konditsionerlik: uzoq masofaga yugurish, velosipedda yurish va suzish yurak-qon tomir tizimining mushaklarga kislorod yetkazib berish qobiliyatini rivojlantiradi, bu o'yin davomida harakat qilish uchun zarurdir.

Anaerobik konditsionerlik: yuqori intensivlikdagi intervalli mashg'ulotlar va takroriy sprint mashg'ulotlari o'yinchining o'tish va qarshi hujumlar paytida futbolda tez-tez uchraydigan yuqori intensivlikdagi takroriy harakatlarni bajarish qobiliyatini yaxshilaydi.

Xulosa.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning umumiy jismoniy tayyorgarligining futbol sport turi vositalari va mashqlari yordamida takomillashtirishda dars jarayonlarida Sprint mashqlari va tezlanish mashqlari, konusli mashqlar va narvonsimon mashqlar kabi muhim mashqlar komponentlaridan foydalangan holda tashkil etilsa talabalar jismoniy tayyorgarligi sezilarli darajada oshirish mumkin. Shuning uchun Oliy ta’lim muassasalari o’quv rejasidagi Jismoniy tarbiya va sport fani o’quv dasturida futbol sport turi uchun ajratilgan yuklamadan unumli foydalanish maqsadida vosita va uslublarni to’g’ri tanlash, ularni dars jarayonlarida talabalarga to’g’ri bajartirish orqali amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1). L.P.Matveyev “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” darslik (2006).
2). V.N.Platonov “Olimpiya o’yinlariga sportchilarni tayyorlash tizimi” (2004).
3). R.I. Nurimov “Futbol nazariyasi va uslubiyati" darslik (2015).
4). A.M.Achilov “Futbol nazariyasi va uslubiyati" o‘quv qo‘llanmasi (2021).
5).A.A.Artikov "Sportda pedagogik mahoratini oshirish”da o‘quv uslubiy ishlanmalar.
6).U.Jalilov, I.Kimsanboyev, D,Yursunaliyev “Yosh futbolchilarning mashg‘ulotlarini tashkil etish va jismoniy sifatlarni rivojlantirishning boshlang‘ich bosqichlari” bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan.
7). Bangsbo. J, “Football for Health”, The Science of Using Football as Medicine Journal of Sports Science (2022).

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA IJODIY FIKRLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA METOD, SHAKL VA VOSITALARNI INTEGRATSIYALASHNING AMALIY MEXANIZMLARI

Ollaberganova Nilufar Quvondiqovna
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi
e-mail: nilufar2026@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22007273

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’lim tizimida bo‘lajak pedagoglarda ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish muammosi, uni hal etishning metod, tashkiliy shakl va o‘qitish vositalarini integratsiyalashga asoslangan amaliy mexanizmlari yoritilgan. Ijodiy fikrlash kompetensiyasining tarkibiy komponentlari (muammoni sezish, g‘oyalar generatsiyasi, loyihalash va refleksiya) tahlil qilinib, ularning har biriga mos metod-shakl-vosita uyg‘unligi asoslangan. Tadqiqot natijasida ijodiy fikrlash bosqichlariga muvofiq integratsion matritsa ishlab chiqilgan bo‘lib, u pedagogika oliy ta’lim muassasalarida amaliy mashg‘ulotlarni loyihalashtirishda qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak pedagog, ijodiy fikrlash, kompetensiya, o‘qitish metodlari, tashkiliy shakllar, o‘qitish vositalari, integratsiya, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar.

Аннотация. В статье рассматривается проблема развития компетенции творческого мышления у будущих педагогов в системе высшего образования, а также практические механизмы её решения на основе интеграции методов, организационных форм и средств обучения. Проанализированы структурные компоненты компетенции творческого мышления (осознание проблемы, генерация идей, проектирование и рефлексия) и обоснована интеграционная матрица, соответствующая этапам творческого мышления.

Ключевые слова: будущий педагог, творческое мышление, компетенция, методы обучения, организационные формы, средства обучения, интеграция, педагогическая технология.

Abstract. The article examines the problem of developing creative thinking competence in future teachers within the higher education system, along with practical mechanisms for addressing it through the integration of teaching methods, organizational forms, and instructional tools. The structural components of creative thinking competence - problem awareness, idea generation, design, and reflection - are analyzed, and an integration matrix corresponding to the stages of creative thinking is proposed.

Key words: future teacher, creative thinking, competence, teaching methods, organizational forms, teaching tools, integration, pedagogical technology.

Kirish. Bo‘lajak pedagoglarda ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish ikki tomonlama pedagogik jihatga ega: bir tomondan, o‘quv jarayonining tashkiliy-didaktik tomonini – metod, shakl va vositalarni tanlash va qo‘llash bilan bog‘liq; ikkinchi tomondan, psixologik-pedagogik tomonini – talabalarning kognitiv jarayonlari, motivatsiyasi va kreativligini faollashtirish bilan bog‘liq. Ushbu ikkala jihatning uyg‘unlashuvi pedagogika fanlarini o‘qitishda ijodiy fikrlash kompetensiyasini muvaffaqiyatli rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Metod, shakl va vositalar – ta’lim jarayonining asosiy instrumental tuzilmasini tashkil etuvchi kategoriyalardir. V.P.Bespalko pedagogik texnologiya nazariyasida ta’kidlaydi: didaktik vositalar majmuasini tizimli tanlash va qo‘llash o‘quv natijalari sifatini belgilaydigan hal qiluvchi pedagogik omil hisoblanadi[1]. Pedagogika fanlarini o‘qitishda ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish uchun faqat alohida metod yoki shaklni qo‘llash yetarli emas – ularning maqsadga yo‘naltirilgan integratsiyasi zarur.

Ijodiy fikrlash kompetensiyasi — bu shaxsning muammoli vaziyatni mustaqil anglashi, unga nisbatan bir nechta muqobil g‘oyalarni generatsiya qilishi, ulardan eng maqbulini tanlab amaliy yechimga aylantirishi va o‘z faoliyatini tahlil qila olishi qobiliyatlarining yaxlit majmuidir. Pedagogik adabiyotlar tahliliga ko‘ra, ushbu kompetensiya to‘rtta o‘zaro bog‘liq komponentdan iborat: 1) muammoni sezish va anglash; 2) g‘oyalarni generatsiya qilish (divergent fikrlash); 3) g‘oyani loyihalash va amaliy sinovdan o‘tkazish (konvergent fikrlash); 4) natijani taqdim etish va refleksiya qilish. Har bir komponent o‘ziga xos didaktik vositalar va tashkiliy shakllarni talab etadi, shu bois ularni bir xil metod-shakl-vosita to‘plami bilan rivojlantirib bo‘lmaydi — bu integratsiyalashgan, bosqichma-bosqich yondashuvni taqozo etadi.

Pedagogika fanlarini o‘qitish amaliyotida metod, shakl va vositalarni maqsadga yo‘naltirilgan integratsiyalash o‘qituvchidan aniq metodologik sxemaga amal qilishni talab etadi. N.V.Bordovskaya va A.A.Rean zamonaviy ta’lim texnologiyalari darsligida bunday integratsiyani “didaktik uchburchak” modeli

orqali tushuntiradi: pedagogik maqsad – metod – natija uchligi uzluksiz halqa hosil qilishi lozim[2]. Agar metod, shakl va vosita pedagogik maqsaddan ajralib qolsa, ta’lim jarayoni texnik harakatlar yig‘indisiga aylanib, ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning real ta’siriga ega bo‘lmaydi.

P.I.Pidkasisty va N.A.Vorobyova talabalarni ijodiy pedagogik faoliyatga tayyorlash bo‘yicha tadqiqotida pedagogika fanlarini o‘qitishda metod, shakl va vositalarning integratsiyalashgan qo‘llanilishini ta’minlovchi amaliy shartlarni belgilaydi[3]. Birinchi shart: o‘qituvchi har bir mashg‘ulot uchun “Nima uchun aynan shu metod?” savoliga aniq pedagogik javob bera olishi lozim. Ikkinchi shart: tanlangan metod va shakl talabalarda ishtirok etishga intrinsik motivatsiya uyg‘otishi zarur. Uchinchi shart: qo‘llaniladigan vosita pedagogik maqsaddan chalg‘itmasdan, uni kuchaytirishi lozim. Bu uch shartga rioya qilish pedagogika fanlarini o‘qitishda ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning metodologik sifatini ta’minlaydi.

G.V.Gayfullin ta’kidlaganidek, pedagogika fanlarini o‘qitishda ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda metodlarning ichki mantiqiga – ya’ni, bir metoddan ikkinchisiga o‘tish tartibiga – alohida e’tibor qaratish zarur[4]. Masalan, aqliy hujum metodi (g‘oya generatsiyasi) evristik suhbatdan (tahlil) avval qo‘llanilganda, talabalar muammo yuzasida ko‘proq nostandart g‘oyalar taklif etadi. Aksincha, avval tahlil, so‘ng g‘oya generatsiyasi qo‘llanilganda talabalar standart va kutilgan yechimlarga moyil bo‘ladilar. Bu qonuniyat pedagogika fanlarini o‘qitishda metodlar ketma-ketligini loyihalashda hisobga olinishi lozim.

Sh.A.Amonashvili insonparvar pedagogika tamoyillari asosida pedagogika fanlarini o‘qitishda ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning eng muhim metodologik shartini quyidagicha ifodalaydi: talaba o‘quv jarayonida ijodiy mahsulot yaratishidan quvonch va mamnuniyat his etishi lozim[6]. Bu his – ichki muvaffaqiyat hissi – keyingi ijodiy faoliyat uchun kuchli motivatsion zamin bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois pedagogika fanlarini o‘qitishda metodlar, shakllar va vositalar nafaqat samarali, balki qiziqarli va ilhom beruvchi bo‘lishi zarur.

Pedagogik fanlarni o‘qitishda ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantiruvchi vositalarning tasnifi

Vosita turi	Vakillar	Ijodiy fikrlashga ta’siri	Qo‘llanish joyi
Audiovizual vositalar	Multimedia prezentatsiyalar, videoroliklar	Ko‘rgazmali tafakkur, obraz yaratish	Dars tushuntirishi, muammo vizualizatsiyasi
Raqamli platformalar	Moodle, Google Classroom, Padlet	Hamkorlikda ishlash, bilim almashish	Masofaviy topshiriqlar, portfolio
Kreativ dasturlar	Canva, MindMeister, Miro, Jamboard	Vizual g‘oya generatsiyasi, tizimli tafakkur	Fikrlar xaritasi, ijodiy loyiha
Pedagogik simulyatorlar	Virtual dars, rol o‘yini, simulyatsiya	Kasbiy ijodiy faoliyat	Pedagogik amaliyotga tayyorgarlik
Baholash vositalari	Rubrik, portfolio, refeksiya jurnali	O‘z-o‘zini tahlil, metakognitsiya	Formativ baholash, kreativlik mezoni
Metodik qo‘llanmalar	Darslik, elektron resurs, atlas	Bilish aktivligi, mustaqil izlanish	Mustaqil ish, tadqiqot vazifasi

G.T. Kuttibekova badiiy ijodning innovatsion texnologiyalarini o‘rganib, ta’lim jarayonida kreativ vositalardan foydalanish talabalarning ijodiy fikrlash kompetensiyasini bitta dars doirasida ham sezilarli darajada oshirishi mumkinligini eksperimental yo‘l bilan isbotladi[5]. Pedagogika fanlarini o‘qitishda badiiy, vizual va raqamli ijodiy vositalardan integratsiyalashgan tarzda foydalanish bu ta’sirni yanada kuchaytiradi.

Bo‘lajak pedagoglarda ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida metod, shakl va vositalarni integratsiyalashning quyidagi beshta amaliy mexanizmi ishlab chiqildi.

1. Ijodiy fikrlash bosqichiga mos triadani loyihalashtirish. Mashg‘ulot dastlab qaysi komponentni (muammoni anglash, g‘oya generatsiyasi, loyihalash yoki refleksiya) rivojlantirishga qaratilganligi aniqlanadi, so‘ngra shu komponentga eng samarali xizmat qiluvchi metod, shakl va vosita birgalikda tanlanadi.

2. Divergent va konvergent metodlarni tashkiliy shakl orqali muvozanatlashtirish. G‘oyalar ko‘pligini talab qiluvchi bosqichlarda (beyn-storming, sinektika) erkin, baholovsiz guruh muhiti tashkil etiladi; g‘oyani sinash bosqichida esa aniq mezonlarga asoslangan individual yoki kichik guruh shakli qo‘llaniladi — bu ijodiy erkinlik bilan tanqidiy tahlilni bir jarayonda uyg‘unlashtiradi.

3. Raqamli va vizual vositalarni ijodiy faoliyatga xizmat qildirish. Mind-map, klaster, video-keys kabi vositalar shunchaki axborot uzatish emas, balki talabani muqobil yechimlar izlashga undovchi “ijodiy topshiriq maydoni” sifatida loyihalashtiriladi.

4. Loyiha va keys-texnologiyalar orqali nazariya-amaliyot integratsiyasi. Bo‘lajak pedagoglar real yoki simulyatsiya qilingan pedagogik vaziyatlar asosida mustaqil pedagogik loyiha yaratadi, bu esa ijodiy g‘oyani konkret metodik mahsulotga (dars ishlanmasi, tarbiyaviy tadbir stsenariysi va h.k.) aylantirish ko‘nikmasini shakllantiradi.

5. Refleksiv baholash orqali teskari aloqa. Ijodiy mahsulotni himoya qilish, o‘zaro baholash va portfolio yuritish integratsiyaning yakuniy bosqichi sifatida qaraladi — bu talabaga o‘z ijodiy jarayonini anglash va keyingi faoliyatini takomillashtirish imkonini beradi.

Yuqoridagi mexanizmlarning amaliyotga tatbiq etilishini ijodiy fikrlash bosqichlari asosida quyidagi integratsion matritsada ko‘rish mumkin:

Ijodiy fikrlash bosqichi	Metod	Tashkiliy shakl	Vosita	Kutilayotgan natija
Muammoni sezish va anglash	Beyn-storming, muammoli savol	Frontal, kichik guruh	Video-keys, interfaol taxta	Muammoga nisbatan qiziqish va noaniqlikni qabul qilish
G‘oyalarni generatsiya qilish	Sinektika, “6 shlyapa”, assotsiatsiya	Kichik guruh, juftlik	Klaster, mind-map dasturi	Ko‘p variantli, original g‘oyalar hosil qilish
G‘oyani loyihalash va sinash	Loyiha metodi, keys-stadi	Guruh loyihasi	Elektron konstruktor, portfolio	G‘oyani amaliy yechimga aylantirish
Taqdimot va refleksiya	Himoya, o‘zaro baholash	Individual va jamoaviy	Prezentatsiya, refleksiya varaqasi	Ijodiy mahsulotni asoslash va tahlil qilish ko‘nikmasi

Integratsiyalashda uchraydigan qiyinchiliklar

• O‘qituvchilarning ijodiy fikrlashni rivojlantirishni alohida mavzu emas, balki barcha mashg‘ulotlarga singdirilgan uzluksiz jarayon sifatida loyihalashtira olmasligi;

• Baholash tizimining ko‘pincha to‘g‘ri javobni emas, ijodiy jarayonning o‘zini baholashga moslashtirilmaganligi;

• Guruhlardagi talabalar sonining ko‘pligi va vaqt cheklovi tufayli g‘oya generatsiyasi bosqichiga yetarli vaqt ajratilmasligi;

• Raqamli ijodiy vositalar (mind-map dasturlari, virtual konstruktorlar)dan foydalanish bo‘yicha o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetishmasligi.

Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun o‘qituvchilarni ijodiy-pedagogik texnologiyalar bo‘yicha metodik tayyorlash, mashg‘ulot ishlanmalarini ijodiy fikrlash bosqichlariga mos integratsion matritsa asosida loyihalashtirish hamda baholash mezonlariga ijodiy mahsulot sifatini o‘lchovchi rubrikalarni joriy etish tavsiya etiladi.

Xulosa. Bo‘lajak pedagoglarda ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metod, shakl va vositalarni ijodiy jarayonning har bir bosqichiga muvofiq integratsiyalashni talab etadigan murakkab pedagogik vazifadir. Maqolada taklif etilgan besh bosqichli amaliy mexanizm va integratsion matritsa modeli pedagogika oliy ta’lim muassasalarida mashg‘ulotlarni ilmiy asoslangan tarzda loyihalashtirish, talabalarda divergent va konvergent fikrlashni muvozanatli rivojlantirish imkonini beradi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu modelning turli pedagogik fanlar va amaliyot turlari (pedagogik amaliyot, kurs ishi, magistrlik tadqiqoti) doirasida sinovdan o‘tkazilishi dolzarbligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.
2. Бордовская Н.В., Реан А.А. Современные образовательные технологии. – СПб.: Питер, 2011. – 432 с.
3. Пидкасистый П.И., Воробьёва Н.А. Подготовка студентов к творческой педагогической деятельности. – М.: Педагогическое общество России, 2007. – 192 с.
4. Гайфуллин В.Г. Развитие мышления школьников и студентов. – Казань: КГУ, 1998. – 210 с.
5. Kuttibekova G.T. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini estetik tarbiyalashda badiiy ijodning innovatsion texnologiyalari: PhD diss. – Jizzax, 2021. – 146 b
6. Амонашвили Ш.А. Личностно-гуманная основа педагогического процесса. – Минск: Университетское, 1990. – 560 с.

TALABALARDA HUQUQIY ONGNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ayakulov Ulug‘bek Abdug‘affor o‘g‘li
Guliston davlatpedagogika universiteti o‘qituvchisi
ayakulovulugbek@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22007342

Annotatsiya. Maqolada talabalik davrida huquqiy ongning shakllanish jarayoni yuridik psixologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Huquqiy ong shaxsning huquqiy bilim, huquqiy e'tiqod va huquqqa mos xulq-atvorni birlashtiruvchi murakkab psixologik hodisa sifatida ko'rib chiqiladi. Uning kognitiv, emotsional-baholovchi va xulq-atvor komponentlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda rivojlantirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari asoslanadi.

Аннотация. В статье с позиций юридической психологии анализируется процесс формирования правового сознания в студенческом возрасте. Правосознание рассматривается как сложное психологическое образование, объединяющее правовые знания, правовые убеждения и правомерное поведение личности. Раскрывается взаимосвязь когнитивного, эмоционально-оценочного и поведенческого компонентов правосознания, обосновываются психолого-педагогические условия его развития.

Annotation. From the standpoint of legal psychology, the article analyzes the process of legal consciousness formation during the student period. Legal consciousness is examined as a complex psychological phenomenon uniting legal knowledge, legal convictions, and law-abiding behavior. The interrelation of its cognitive, emotional-evaluative, and behavioral components is revealed, and the psychological-pedagogical conditions for its development are substantiated.

Kalit so'zlar: huquqiy ong, yuridik psixologiya, huquqiy e'tiqod, huquqqa mos xulq-atvor, talabalar, huquqiy sotsializatsiya.

Ключевые слова: правосознание, юридическая психология, правовые убеждения, правомерное поведение, студенты, правовая социализация.

Keywords: legal consciousness, legal psychology, legal convictions, law-abiding behavior, university students, legal socialization.

Kirish. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurilishining muhim shartlaridan biri fuqarolarda, ayniqsa yoshlarda, yuksak huquqiy ongni shakllantirishdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning huquq va erkinliklari, ular oldidagi burch va majburiyatlari belgilab qo'yilgan [4. 2023:B.5], biroq bu me'yorlarning haqiqiy ijtimoiy amaliyotga aylanishi ko'p jihatdan fuqarolarning huquqiy ongi darajasiga bog'liq. Talabalik davri shaxsning ijtimoiy-huquqiy pozitsiyasi faol shakllanadigan bosqich bo'lib, aynan shu davrda huquqqa nisbatan barqaror ichki munosabat, huquqiy bilim va huquqqa mos xulq-atvor ko'nikmalari yuzaga keladi. Huquqiy ongning yetarli darajada shakllanmaganligi huquqiy nigilizm, huquqbuzarliklarga moyillik va ijtimoiy-huquqiy passivlik kabi salbiy hodisalarga zamin yaratishi mumkin, bu esa masalani yuridik psixologiya nuqtayi nazaridan chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Huquqiy ong muammosi psixologiya va huquqshunoslik fanlari kesishmasida o'rganiladi. L.S. Vygotskiyning oliy psixik funksiyalarning ijtimoiy shartlanganligi haqidagi kontseptsiyasiga ko'ra, shaxsning ongi, jumladan huquqiy ongi, ijtimoiy-madaniy muhit va o'zaro ta'sir jarayonida shakllanadi [6. 1978:B.56]. A.N. Leontyevning faoliyat nazariyasi huquqiy ongning mavhum bilim emas, balki shaxsning bevosita faoliyati jarayonida amalga oshuvchi psixik hodisa ekanligini asoslaydi [3. 1975:B.94]. Yuridik psixologiyaning klassik vakili A.R. Ratinov huquqiy ongni shaxsning huquqiy bilimlari, huquqiy baholari va huquqiy o'z-o'zini anglashi birligidan iborat murakkab tizim sifatida ta'riflaydi hamda uning tarkibida bilim, e'tiqod va irodaviy komponentlarni ajratadi [5. 1979:B.112]. E. Desi va R. Ryanning o'z-o'zini belgilash nazariyasi huquqqa nisbatan ichki (avtonom) munosabat bilan tashqi majburlashga asoslangan itoatkorlik o'rtasidagi tub farqni ochib beradi — faqat birinchisi barqaror huquqqa mos xulq-atvorni ta'minlaydi [1. 2017:B.24]. A.V. Karpov tadqiqotlarida refleksivlik darajasi yuqori shaxslarda o'z xatti-harakatlarini huquqiy me'yorlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish qobiliyati ham yuqori ekanligi ko'rsatilgan [2. 2004:B.201]. Ushbu nazariy manbalar asosida huquqiy ong tuzilishida uchta o'zaro bog'liq komponent — kognitiv (huquqiy bilim), emotsional-baholovchi (huquqiy e'tiqod va qadriyatlar) hamda xulq-atvor (huquqqa mos harakatlar) — ajratib ko'rsatildi va tadqiqot ushbu uch komponentli tuzilma asosida olib borildi.

Natijalar va muhokama. Talabalarda huquqiy ongni shakllantirish faqat huquqiy bilim berish bilan cheklanmasligi, balki huquqqa nisbatan ichki e'tiqod va shaxsiy javobgarlik hissini rivojlantirishga qaratilishi lozim. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, huquqiy bilimga ega bo'lish o'z-o'zidan huquqqa mos xulq-atvorni kafolatlamaydi — bilim bilan xulq-atvor o'rtasidagi bog'liqlik aynan emotsional-baholovchi komponent, ya'ni huquqqa ichki e'tiqod orqali amalga oshadi. Kognitiv komponent (huquqiy bilim) zaruriy, ammo yetarli shart emas; u faqat emotsional-baholovchi komponent bilan uyg'unlashgandagina barqaror xulq-atvor motivatsiyasiga aylanadi. Shu sababli oliy ta'lim jarayonida faqat huquqiy fanlarni nazariy o'qitish emas, balki refleksiv muhokama, amaliy vaziyatlar tahlili va interfaol usullardan foydalanish huquqiy ongning barcha komponentlarini uyg'un rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv talabada huquqni tashqi majburlash sifatida emas, balki shaxsiy qadriyat sifatida qabul qilinishini ta'minlaydi, bu esa o'z navbatida ijtimoiy-huquqiy faollikning barqaror asosini yaratadi.

Xulosa. Talabalarda huquqiy ongni shakllantirish yuridik psixologiyaning dolzarb va amaliy ahamiyatga ega yo'nalishlaridan biridir. Huquqiy ongning kognitiv, emotsional-baholovchi va xulq-atvor komponentlarini uzviy bog'liqlikda rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik dastur oliy ta'lim muassasalarida tatbiq etilishi tavsiya etiladi. Kelgusi tadqiqotlarda huquqiy ong darajasi bilan shaxsning boshqa ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (jumladan, ijtimoiy javobgarlik, o'z-o'zini nazorat qilish va kasbiy yo'nalganlik) o'rtasidagi bog'liqlikni empirik tekshirish istiqbolli yo'nalish bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Deci E.L., Ryan R.M. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness. – New York: Guilford Press, 2017. – 756 p.

2. Карпов А.В. Психология рефлексивных механизмов деятельности. – М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2004. – 424 с.

3. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1975. – 304 с.

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023. – 76 b. // lex.uz.

5. Ратинов А.Р. Психология личности и преступное поведение. – М.: Юридическая литература, 1979. – 192 с.

6. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

PARALLEL KORPUSLAR VOSITASIDA SO‘Z MA’NOLARINI BIR QIYMATLI AJRATISH (WSD) METODOLOGIYASI

Vasliddinova Kamola
PhD talabasi, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22007426

Annotatsiya. Ushbu maqolada tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va amaliy lingvistikaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan ko‘p ma’noli so‘zlarning matndagi aniq ma’nosini aniqlash (Word Sense Disambiguation – WSD) jarayonida parallel korpuslarning o‘rni hamda samaradorligi tahlil qilinadi. O‘zbek tili leksik qatlamidagi polisemik va omonimik birliklarni mashinali tarjima hamda axborot qidiruv tizimlarida to‘g‘ri modellashtirish uchun parallel matnlar qiyosiy bazasidan foydalanish usullari yoritilgan. Tadqiqot doirasida kontekstual semantik tahlil va avtomatik leksik moslashtirish algoritmlarining nazariy-amaliy asoslari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *amaliy lingvistika, parallel korpus, Word Sense Disambiguation (WSD), semantik tahlil, polisemiya, mashina tarjimasi, kontekstual moslashtirish.*

Аннотация. В данной статье анализируются роль и эффективность параллельных корпусов в процессе разрешения лексической многозначности (Word Sense Disambiguation – WSD), являющегося одним из ключевых направлений компьютерной лингвистики и обработки естественного языка (NLP). Освещаются методы использования сравнительной базы параллельных текстов для корректного моделирования полисемических и омонимических единиц узбекского языка в системах машинного перевода и информационного поиска. Разработаны теоретические и практические основы контекстуального семантического анализа и алгоритмов автоматического лексического выравнивания.

Ключевые слова: *прикладная лингвистика, параллельный корпус, устранение неоднозначности (WSD), семантический анализ, полисемия, машинный перевод, контекстуальное выравнивание.*

Abstract. This paper examines the role and efficiency of parallel corpora in Word Sense Disambiguation (WSD), a fundamental task in Natural Language Processing (NLP) and applied linguistics. It explores methods for leveraging cross-lingual alignment in parallel corpora to resolve polysemy and homonymy in the Uzbek language for machine translation and semantic search systems. The study outlines the theoretical and algorithmic framework for context-aware lexical disambiguation and cross-lingual sense projection.

Keywords: *computational linguistics, parallel corpus, Word Sense Disambiguation (WSD), semantic analysis, polysemy, machine translation, contextual alignment.*

KIRISH

Raqamli lingvistika va sun’iy intellekt tizimlarining jadallik bilan rivojlanishi tabiiy til resurslarini mashinaviy tushunish va qayta ishlash darajasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishni taqozo etmoqda. Tabiiy tillarning barchasiga xos bo‘lgan eng murakkab hodisalardan biri bu – so‘zlarning ko‘p ma’noliligi (polisemiya) va shakldoshligi (omonimiya) hisoblanadi. Matn tarkibidagi ko‘p ma’noli leksemaning aynan qaysi semantik ma’noda qo‘llanilganini kompyuter tomonidan avtomatik aniqlash muammosi kompyuter lingvistikasida WSD (Word Sense Disambiguation — so‘z ma’nosini bir qiymatli ajratish) deb ataladi [1. 2009:B.12].

Bilingval leksikon uchun WSD (Word Sense Disambiguation) texnologiyasini qo‘llash borasida olib borgan izlanishlarimizda texnologiyaning bir nechta metodologik turlari taqqoslandi. Quyida u haqida batafsil ma’lumotlarni ketma-ketlikda tadqiq qilib beriladi [:

1. Lesk algoritmi ya’ni klassik tarjima lug‘atiga asoslangan WSD texnologik metdologiya turi;
2. Supervised WSD – kontekst xususiyatlariga asoslangan tizimli o‘qitish yondashuvi;
3. Vektor o‘lchamlar asosida ishlovchi kontekstual embedding WSD metodologiyasi;
4. Statistik ma’lumotlar va tarjimaga asoslangan WSD texnologik metodologiyasi.

WSD tizimlarini yaratishda an’anaviy qoidaga asoslangan (rule-based) yoki yopiq lug‘atli (dictionary-based) usullar barcha kontekstual holatlarni to‘liq qamrab ololmaydi. Shu sababli, zamonaviy tadqiqotlarda ko‘p tilli parallel korpuslar vositasida semantik axborotni ajratib olish va maqsadli tildagi

tarjima ekvivalentlari orqali manba tildagi so‘z ma’nosini diskretlashtirish eng samarali yondashuvlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda [2. 2013:B.45]. Ushbu maqola o‘zbek tili materiallari asosida parallel korpuslar yordamida WSD jarayonini amalga oshirish mexanizmlari, qiyosiy semantik moslashtirish usullari va ularning lingvistik modellarini tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

ASOSIY QISM VA METODOLOGIYA

1. WSD muammosi va parallel korpuslarning semantik salohiyati

So‘z ma’nolarini ajratishda parallel korpuslar o‘ziga xos kross-lingvistik semantik ko‘zgu vazifasini o‘taydi. Muayyan tilda ko‘p ma’noli bo‘lgan leksema boshqa tilga tarjima qilinganda ko‘pincha turli xil leksemalar vositasida ifodalanadi. Masalan, o‘zbek tilidagi “tutmoq” fe’lining polisemik tuzilishi ingliz tiliga quyidagicha proyeksiyalanadi:

• qo‘lda ushlab turmoq → to hold / to catch (“U qushni tutdi” – “He caught the bird”);

• bino qilmoq, o‘zini olib bormoq → to behave / to keep (“O‘zini bosiq tutdi” – “He kept his temper”);

• ro‘za amalini bajarmoq → to fast / to observe (“Ro‘za tutmoq” – “To observe fasting”).

Agar tizim bitta tildagi kontekst orqali ma’noni ajratishga qiynalsa, parallel korpusdagi mos tarjima birligi (T_target) orqali manba tildagi leksema ma’nosi (S_source) to‘g‘ri leksik klasterga avtomatik biriktiriladi.

2. Kross-lingvistik semantik moslashtirish bosqichlari

Parallel korpuslar asosida WSD modelini qurish quyidagi bosqichli strukturaga tayanadi:

1. Jumlalar va so‘zlar darajasida moslashtirish (Sentence & Word Alignment): Parallel korpusdagi manba va tarjima matnlari avval gaplar, so‘ngra statistik (masalan, IBM Models 1–5) yoki neyron vositalar (awesome-align, fast_align) yordamida tokenlar darajasida leksik bog‘lanadi [3. 2017:B.88].

2. Kontekstual vektorlarni shakllantirish (Contextual Embeddings): Ko‘p ma’noli leksema atrofidagi kontekst darchasi (masalan, C = ±5 token) tahlil qilinib, sintagmatik munosabatlar belgilanadi.

3. Klasterlash va ma’no belgilash (Sense Clustering & Annotation): Tarjima tilidagi mos so‘zlarning taqsimotiga qarab manba leksemaning semantik maydonlari klasterlarga ajratiladi. Natijada qo‘lda belgilash (manual tagging) talab qilinmaydigan o‘z-o‘zini nazorat qiluvchi (weakly supervised) WSD ma’lumotlar bazasi shakllanadi.

3. Natijalar va qiyosiy tahlil

O‘zbek-ingliz parallel korpusi matnlari (ijtimoiy-siyosiy, badiiy va ilmiy diskurs) doirasida o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, parallel korpuslar orqali amalga oshirilgan WSD tizimi sof statistik usullarga nisbatan leksik tanlov aniqligini sezilarli darajada oshiradi (1-jadval).

1-jadval. Turli yondashuvlarning WSD samaradorligi bo‘yicha qiyosiy ko‘rsatkichlari

Metod turi	Aniqlik darajasi (Accuracy)	Kam resursli tillarga moslashuvchanlik	Qo‘l mehnati sarfi
Lug‘atga asoslangan (Lesk algoritmi)	58.4%	O‘rta	Yuqori
Monolingval statistika (N-gram)	66.2%	Past	O‘rta
Parallel korpusga asoslangan WSD	84.7%	Yuqori	Kam

XULOSA

Parallel korpuslar amaliy lingvistikada nafaqat mashina tarjimasi sifatini oshirish, balki semantik noaniqliklarni (WSD) bartaraf etuvchi mustahkam lingvistik platforma vazifasini bajaradi. O‘zbek tili uchun boyitilgan parallel korpuslarning shakllantirilishi milliy tilimizning semantik ontologiyalarini, xususan, ko‘p ma’noli leksemalarning kontekstual distributsiyasini avtomatik modellashtirish imkonini beradi. Mazkur yo‘nalishdagi izlanishlar milliy qidiruv tizimlari, aqlli elektron lug‘atlar va tabiiy tilni tushunuvchi generativ sun’iy intellekt modellarining lingvistik poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Navigli R. Word sense disambiguation: A survey // ACM Computing Surveys (CSUR). – New York: ACM, 2009. – Vol. 41. – No. 2. – P. 1–69.

2. Ide N., Véronis J. Multilingual Corpus Resources and Tools for Word Sense Disambiguation // Word Sense Disambiguation: Algorithms and Applications. – Dordrecht: Springer, 2013. – P. 35–64.

3. Och F. J., Ney H. A Systematic Comparison of Various Statistical Alignment Models // Computational Linguistics. – Cambridge: MIT Press, 2017. – Vol. 29. – No. 1. – P. 79–110.

КОММУНИКАТИВНЫЕ ФУНКЦИИ ДИАГНОСТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В МЕДИЦИНСКОМ ОБЩЕНИИ

Тураев Алишер Анваржон угли
Преподаватель кафедры обучения языкам в медицине Андижанского филиала Кокандского университета E-mail: alisherturayev2509@gmail.com
ORCID: 0009-0003-6613-3121
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22007569

Аннотация. В статье рассматриваются коммуникативные функции диагностических терминов в медицинском общении. Диагностический термин анализируется не только как средство профессиональной номинации, но и как инструмент передачи клинической информации, аргументации врачебного решения, объяснения состояния пациента и регулирования взаимодействия между врачом и больным. На материале медицинского дискурса выделяются информативная, классифицирующая, аргументативная, регулятивная, объяснительная и психологически воздействующая функции диагностических терминов. Особое внимание уделяется различию между профессиональным и пациент-ориентированным употреблением терминов.

Ключевые слова: *медицинский дискурс, диагностический термин, медицинское общение, врач, пациент, коммуникация, прагматика, терминология.*

Введение. Медицинское общение представляет собой особый вид институциональной коммуникации, в котором языковые средства подчинены задаче сохранения здоровья, постановки диагноза, выбора лечения и объяснения медицинского решения пациенту. В исследованиях медицинского дискурса подчеркивается, что его стратегическими направлениями являются диагностика, лечение, медицинская консультация, оценка степени заболевания, рекомендации и контроль состояния пациента (Йорова, 2024, с. 39). Поэтому диагностические термины занимают в таком дискурсе центральное место: через них врач фиксирует клинический факт, соотносит жалобы пациента с медицинской нормой и формулирует профессиональное заключение.

Актуальность темы определяется тем, что один и тот же диагностический термин по-разному функционирует в разных коммуникативных условиях. В общении врача с врачом термин служит средством точной профессиональной передачи информации. В общении врача с пациентом он требует разъяснения, поскольку избыточная терминологическая плотность может привести к непониманию, тревоге или коммуникативному сбою. В медицинском дискурсе важна не только точность термина, но и его понятность для адресата.

Методы. В работе использованы описательный, семантико-прагматический и функционально-коммуникативный методы. Описательный метод позволил определить место диагностических терминов в структуре медицинского общения. Семантико-прагматический анализ применялся для выявления значения термина и его воздействия на адресата. Функционально-коммуникативный подход дал возможность рассмотреть термин как средство реализации речевой цели врача.

Материалом для анализа послужили диагностические единицы типа *диагноз, предварительный диагноз, окончательный диагноз, клиническое обследование, анализ, лабораторный результат, ультразвуковое исследование, рентгенологическое исследование, хронический панкреатит, гемоглобин, воспаление, недостаточность*. При интерпретации учитывались работы по медицинскому дискурсу и медицинской терминологии, в которых отмечается необходимость точного выражения медицинского понятия и правильной организации врачебно-пациентского общения (Косимов, 2003; Йорова, Хасанова, 2024).

Результаты. Анализ показал, что диагностические термины выполняют в медицинском общении несколько взаимосвязанных функций.

Первая функция – информативная. Диагностический термин передает сведения о состоянии пациента, выявленном признаке или результате обследования. Например, выражения *повышенное артериальное давление, снижение гемоглобина, воспалительный процесс, наличие камней в желчном пузыре* сообщают не просто отдельные факты, а клинически значимую информацию. В этой функции термин обеспечивает точность медицинского сообщения.

Вторая функция – классифицирующая. Диагностический термин относит состояние пациента к определенной группе заболеваний, симптомов или клинических состояний. Так, термины *острый гастрит*, *хронический панкреатит*, *железодефицитная анемия*, *сердечная недостаточность* не только называют заболевание, но и указывают на его тип, течение, причину или локализацию. Благодаря этому врач получает возможность включить конкретный случай в систему медицинских знаний.

Третья функция – аргументативная. Врач использует диагностические термины для обоснования своих решений: назначения дополнительных анализов, госпитализации, изменения лечения или консультации узкого специалиста. Например, фраза *«по результатам анализа выявлены признаки воспаления»* служит аргументом для назначения дальнейшего обследования. Таким образом, термин становится частью логической цепочки: жалоба – обследование – результат – диагноз – лечение.

Четвертая функция – регулятивная. Диагностический термин управляет дальнейшими действиями участников медицинского общения. После формулировки диагноза пациент получает рекомендации, направление на обследование или лечение. Например, термин *подозрение на пневмонию* предполагает рентгенологическое исследование, контроль температуры, анализ крови и наблюдение врача. Следовательно, термин организует поведение врача и пациента.

Пятая функция – объяснительная. Врач должен переводить профессиональную информацию на понятный пациенту язык. В работе С. Йоровой и Ф. Хасановой приводится показательный диалог: врач употребляет термин *«хронический панкреатит»*, после чего пациент спрашивает: *«Это что значит?»*, и врач вынужден дать пояснение в более простой форме (Йорова, Хасанова, 2024, с. 70). Этот пример показывает, что диагностический термин в пациент-ориентированной коммуникации нуждается в интерпретации.

Шестая функция – психологически воздействующая. Некоторые диагностические слова вызывают у пациента тревогу: *опухоль, подозрение, хронический, осложнение, недостаточность*. Поэтому врач должен учитывать эмоциональную реакцию адресата. Терминологическая точность не должна превращаться в коммуникативную резкость. В медицинском общении важны этичность, доброжелательность и учет социально-психологического состояния пациента.

Обсуждение

Коммуникативная эффективность диагностических терминов зависит от адресата, ситуации и жанра общения. В горизонтальной коммуникации, то есть между врачами, допустимы краткие и профессионально насыщенные формы: *дифференциальный диагноз, клиническая картина, лабораторный показатель*. В вертикальной коммуникации, то есть между врачом и пациентом, термин должен сопровождаться пояснением. М. Асронова отмечает, что медицинский дискурс может реализовываться как вертикально – от врача к пациенту, так и горизонтально – от врача к врачу или от ученого к ученому (Асронова, 2024, с. 276–279). Это различие напрямую влияет на выбор диагностической лексики.

Проблема заключается в том, что профессиональный термин может быть точным для специалиста, но непрозрачным для пациента. Если пациент не понимает значения диагноза, он не всегда правильно воспринимает рекомендации и не всегда осознает необходимость лечения. Поэтому диагностический термин должен выполнять не только номинативную, но и адаптационную функцию. Врач обязан соотнести термин с уровнем медицинской грамотности пациента, его возрастом, эмоциональным состоянием и ситуацией общения.

В медицинской терминологии также важна проблема единообразия. А. Косимов подчеркивает, что медицинский термин должен точно выражать определенное понятие, поскольку в профессиональной коммуникации неясность термина может привести к ошибкам и разночтениям (Косимов, 2003, с. 3–8). Это особенно значимо для диагностических терминов, так как они лежат в основе медицинского решения.

Заключение. Диагностические термины в медицинском общении выполняют не только функцию называния заболевания или состояния. Они передают информацию, классифицируют клинические факты, аргументируют врачебное решение, регулируют дальнейшие действия, объясняют пациенту медицинскую ситуацию и оказывают психологическое воздействие. Главным условием их эффективного употребления является сочетание терминологической точности и коммуникативной доступности. В профессиональном общении термин должен быть кратким и стандартизированным, а в общении с пациентом – понятным, этичным и при необходимости

разъясненным. Именно это обеспечивает успешность медицинского дискурса и повышает доверие пациента к врачу.

Список использованной литературы

6. Асронова М. Tibbiy diskurs tavsifi: yondashuv va tasniflar // *O‘zMU xabarlari*. – 2024. – Т. 1. – № 1.4. – С. 276–279.
7. Йорова С. *Ingliz va o‘zbek tibbiy nutqining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari*. – Самарканд: Fan bulog‘i, 2024. – 112 с.
8. Йорова С. К., Хасанова Ф. О. Tibbiy diskursga xos bo‘lgan kasbiy va kommunikativ kompetensiya // *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*. – 2024. – Vol. 1. – Issue 8. – С. 68–71.
9. Косимов А. *Tibbiy terminlar izohli lug‘ati*. 1-жилд. – Тошкент: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003. – 472 с.
10. Сафаров Ш. *Pragmalingvistika*. – Тошкент, 2008. – 318 с.

GLOBAL IQTISODIY BEQARORLIK SHAROITIDA MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISH: O‘ZBEKISTON BANK SEKTORINING EMPIRIK TAHLILI VA JANUBIY KOREYA TAJRIBASI BILAN QIYOSI

Zoxirova Dinara Rifkat qizi
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, "Moliya" mutaxassisligi magistratura bosqichi tinglovchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22007677

Annotatsiya: Ushbu tezisda global iqtisodiy beqarorlik sharoitida O‘zbekiston bank sektoridagi moliyaviy risklarni boshqarish masalalari panel ma’lumotlar asosidagi empirik tahlil orqali o‘rganiladi. 2022-2026-yillar oralig‘ida faoliyat yuritgan 31 ta tijorat bankining besh vaqt kesimi (jami 155 kuzatuv) bo‘yicha shakllantirilgan balanslashgan panel ma’lumotlar bazasida Fixed Effects regressiya modeli qo‘llanildi, bunda bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida muammoli kreditlar (NPL) ulushi, mustaqil o‘zgaruvchi sifatida FED bazaviy stavkasi va nazorat o‘zgaruvchisi sifatida bank aktivlarining logarifmi tanlab olindi. Natijalar FED stavkasi va bank hajmining NPL darajasiga statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Olingan xulosalar Janubiy Koreyaning "katta beshlik" tijorat banklari bo‘yicha 2023-2026-yillardagi NPL va kapital yetarliligi (CAR) ko‘rsatkichlari bilan qiyoslandi. Tahlil natijalari O‘zbekiston bank tizimida makroprudensial nazoratni, xususan bank hajmiga va tashqi omillarga tayanuvchi differensial yondashuvni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy risklarni boshqarish, panel regressiya, muammoli kreditlar (NPL), kapital yetarliligi (CAR), Janubiy Koreya, makroprudensial siyosat, O‘zbekiston bank sektori.

Abstract: This thesis examines financial risk management in Uzbekistan's banking sector under conditions of global economic instability through an empirical panel-data analysis. Using a balanced panel of 31 commercial banks observed across five time points between 2022 and 2026 (155 observations), a Fixed Effects regression model was estimated with the non-performing loan (NPL) ratio as the dependent variable, the FED policy rate as the key independent variable, and the logarithm of bank assets as a control. The results confirm that both the FED rate and bank size have a statistically significant effect on NPL levels. The findings are compared with NPL and capital adequacy ratio (CAR) dynamics of South Korea's five largest commercial banks over 2023-2026. The analysis indicates a need to strengthen macroprudential oversight in Uzbekistan, particularly through a size-differentiated regulatory approach.

Keywords: financial risk management, panel regression, non-performing loans (NPL), capital adequacy ratio (CAR), South Korea, macroprudential policy, Uzbekistan banking sector.

KIRISH

Global iqtisodiyotning o‘zaro bog‘liqligi kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda milliy bank tizimlarining barqarorligi tashqi omillarga ya’ni xalqaro foiz stavkalari dinamikasi va global siyosiy noaniqlikka tobora ko‘proq bog‘liq bo‘lib bormoqda [1]. Ushbu yo‘nalishda avvalgi tadqiqotlarimizda Janubiy Koreyaning institutsional va makroprudensial siyosat tajribasi tavsifiy-tahliliy metodologiya asosida o‘rganilgan edi. Mazkur tezisning farqli tomoni shundaki, unda O‘zbekiston bank sektorining bank darajasidagi asl statistik ma’lumotlari asosida shakllantirilgan panel ma’lumotlar bazasidan foydalanib, miqdoriy (ekonometrik) tahlil taqdim etiladi va olingan natijalar Koreya banklarining yangilangan 2023-2026-yillardagi ko‘rsatkichlari bilan bevosita qiyoslanadi.

Tadqiqotning maqsadi — global omillar (FED bazaviy stavkasi) hamda bank hajmining O‘zbekiston tijorat banklaridagi muammoli kreditlar (NPL) darajasiga ta'sirini panel regressiya modeli yordamida empirik baholash va olingan natijalarni Janubiy Koreya bank sektori tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma’lumotlari (cbu.uz) asosida shakllantirilgan panel ma’lumotlar bazasi qo‘llanildi [2]. Tahlil davri sifatida 2022-2026-yillar oralig‘idagi besh vaqt kesimi (2023, 2024, 2025, 2026-yil 1-yanvar holatlari hamda 2026-yil 1-iyun holati) olindi. Tanlanmaga barcha besh vaqt kesimida uzluksiz faoliyat yuritgan 31 ta tijorat banki kiritildi (balanslashgan panel), natijada jami 31 bank × 5 davr = 155 ta kuzatuvdan iborat ma’lumotlar bazasi shakllantirildi. Bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida bank kesimidagi NPL ulushi (%), mustaqil o‘zgaruvchi sifatida

FED bazaviy stavkasi (FRED, fred.stlouisfed.org ma’lumotlari asosida) [3], nazorat o‘zgaruvchisi sifatida esa bank aktivlarining logarifmi (ln(Aktivlar)) qo‘llanildi. Bank darajasidagi kuzatilmaydigan individual xususiyatlarni nazorat qilish maqsadida Fixed Effects (Within estimator) modeli baholandi.

TAHLIL NATIJALARI

Tavsifiy statistika. 1-jadvalda keltirilgan natijalarga ko‘ra, bank tizimi bo‘yicha o‘rtacha NPL ulushi 2022-yilda 8,72% ni tashkil etgan bo‘lib, keyingi yillarda izchil pasayish tendensiyasini namoyon etgan: 2023-yilda 6,10%, 2024-yilda 4,31%, 2025-yilda 3,59% darajasigacha kamaygan. 2026-yil o‘rtasiga kelib ko‘rsatkich birmuncha ortib, 4,24% ni tashkil etdi.

Davr	Bank soni	O‘rtacha NPL (%)	Minimal NPL (%)	Maksimal NPL (%)	Standart og‘ish (%)
2022 (01.01.2023)	31	8,72	0,00	96,29	20,71
2023 (01.01.2024)	31	6,10	0,00	85,23	15,19
2024 (01.01.2025)	31	4,31	0,00	24,15	5,13
2025 (01.01.2026)	31	3,59	0,00	24,40	4,34
2026 (1-iyun)	31	4,24	0,00	13,91	3,18

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari (cbu.uz) asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2022-yilgi yuqori standart og‘ish (20,71%) va ekstremal maksimal qiymat (96,29%) asosan hajmi kichik alohida banklar hisobidan yuzaga kelgan bo‘lib, tizimning umumiy tendensiyasini emas, balki alohida holatlarni aks ettiradi.

Panel regressiya natijalari. Fixed Effects modeli natijalariga ko‘ra (2-jadval), FED stavkasi koeffitsienti statistik jihatdan ahamiyatli, ammo manfiy chiqdi (-3,18; p=0,037). Bu holat, ehtimol, tadqiqot davrida kredit portfelining tez o‘sishi NPL nisbatini "suyultirgani" yoki FED stavkasi ta'sirining milliy pul-kredit siyosati orqali kechiktirilgan holda uzatilishi bilan izohlanishi mumkin. ln(Aktivlar) o‘zgaruvchisi barcha modellarda statistik jihatdan yuqori ahamiyatli va manfiy chiqdi (-10,99; p<0,001) — bu kattaroq banklarning nisbatan past NPL darajasiga ega ekanligini, ya'ni bank kattaligi bilan kredit sifati o‘rtasida kuchli manfiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi.

O‘zgaruvchi	Koeffitsient	P>|t|	Ahamiyatlilik
FED bazaviy stavkasi, %	-3,1769	0,0366	p < 0,05
ln(Aktivlar)	-10,9914	0,0000	p < 0,01
R-kvadrat	0,2206	--	--
Kuzatuvlar soni (N)	155	--	31 bank × 5 davr

Manba: muallif tomonidan Markaziy bank ma’lumotlari va FED stavkasi (FRED) asosida hisoblab chiqilgan.

Janubiy Koreya tajribasi bilan qiyosiy tahlil. O‘zbekiston bank sektoridan olingan empirik natijalar Janubiy Koreyaning eng yirik beshta tijorat banki ("katta beshlik") bo‘yicha 2023-2026-yillardagi ko‘rsatkichlar bilan qiyoslandi [4; 5]. Ushbu davrda Koreya banklarining o‘rtacha NPL ulushi 0,21% dan 0,41% gacha ko‘tarilgan bo‘lsa-da, mutlaq qiymat jihatidan xalqaro standartlar bo‘yicha juda past darajada qolmoqda; shu bilan birga kapital yetarliligi ko‘rsatkichi (CAR) o‘rtacha 16,94% dan 15,52% gacha pasaygan bo‘lsa-da, xalqaro BIS talabi (8%) va O‘zbekiston me'yoridan (13%) ancha yuqori bo‘lib qolmoqda [6]. 3-jadvalda ikki mamlakat bank sektorining asosiy ko‘rsatkichlari umumlashtirilgan.

Ko‘rsatkich	O‘zbekiston (2023-2026)	Janubiy Koreya, "katta beshlik" (2023-2026)

NPL, %	3-8	0,4-0,6
CAR (BIS), %	12-14	15-17
Risk boshqaruvi vositalari	LTV, DSTI	LTV, DTI/DSR, FX cheklovlar
Umumiy natija	Risklar nisbatan yuqori	Risklar past, barqarorlik yuqori

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, FRED, BIS va Koreya moliya bozori hisobotlari (Aju Business Daily, 2026) asosida muallif tomonidan tayyorlandi [7].

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda NPL ko‘rsatkichi Koreyaga nisbatan 6-15 baravar yuqori, CAR esa 2-3 foiz punktga past. Bu farq Koreyaning 2002-2005-yillardan buyon izchil qo‘llab kelayotgan LTV, DTI/DSR hamda valyutaga oid maxsus makroprudensial choralarining [8] samaradorligini tasdiqlaydi va O‘zbekiston uchun bank hajmiga differensiallashtirilgan nazorat tizimini joriy etish zaruriyatini asoslaydi — bu xulosa panel regressiyada ln(Aktivlar) o‘zgaruvchisining statistik ahamiyatliligi bilan ham mos keladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

O‘tkazilgan empirik tahlil shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston bank sektorida muammoli kreditlar darajasi bank hajmi va global omillar (FED stavkasi) bilan statistik jihatdan bog‘liq. Janubiy Koreya tajribasi bilan solishtirish ushbu bog‘liqlikning amaliy ahamiyatini yanada yaqqol namoyon etadi. Shu asosda quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

1) Markaziy bank tomonidan bank hajmiga differensiallashtirilgan (proportsional) makroprudensial nazorat mexanizmi ishlab chiqilishi, chunki empirik natijalar kichik banklarda NPL riski sezilarli yuqori ekanini tasdiqladi;

2) Koreya tajribasidagi kabi xorijiy valyutadagi operatsiyalarga yo‘naltirilgan maxsus (FX-related) makroprudensial choralarning bosqichma-bosqich joriy etilishi;

3) NPL va CAR ko‘rsatkichlarini muntazam panel tahlil asosida monitoring qilish tizimining Markaziy bank amaliyotiga joriy etilishi, bu global omillar ta'sirini erta aniqlash imkonini beradi;

4) Kelgusi tadqiqotlarda tanlanma davrini kengaytirish va qo‘shimcha makroiqtisodiy o‘zgaruvchilarni (masalan, GEPU indeksi) modelga kiritish orqali natijalarning barqarorligini tekshirish tavsiya etiladi.

Ushbu tavsiyalarning amalga oshirilishi O‘zbekiston bank tizimining tashqi iqtisodiy shoklarga chidamliligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni uzoq muddatli ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. International Monetary Fund [IMF]. (2024). Global Financial Stability Report, October 2024: Steadying the Course.

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Moliyaviy barqarorlik va statistik ma’lumotlar. Available at: https://cbu.uz.

3. Federal Reserve Bank of St. Louis [FRED]. FRED Economic Data. Available at: https://fred.stlouisfed.org.

4. Sayaseng, S. (2020). Evidence of Effective Financial Crisis Management from South Korea: An Example for Other Regions. Society and Economy, 42(1).

5. Bruno, V., & Shin, H. S. (2013). Assessing Macroprudential Policies: Case of Korea. NBER Working Paper No. 19084.

6. Kim, K., & Lee, J. Y. (2017). Estimating the effects of FX-related macroprudential policies in Korea. International Review of Economics & Finance, 50, 23-48.

7. Aju Business Daily. (2026). Korean banks' preliminary Q2 2026 financial indicators. Available at: https://www.ajupress.com/view/20260331090070642.

8. An, S., Kang, T. S., Kim, K., & Kang, E. (2021). Korea's Macroprudential Policies for Capital Flows: Accomplishments and Road to Improvement. KIEP Research Paper, World Economy Brief 21-06.

9. International Monetary Fund and World Bank [FSAP]. (2025). Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program — Financial System Stability Assessment.

TURKIY TILLAR XALQ MAQOLLARI MATNIDA ONA VA ONALIK KONSEPTINING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI

Yunusova Sayyoraxon Mo‘minjon qizi
Andijon shahar 46- maktab o‘qituvchisi
E-mail: Sa25051999@icloud.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22080299

Annotatsiya: Ushbu maqolada turkiy tillarda onalik konsepti va onalik konseptining xalq maqollarida ifodalanishi yotirilgan. Onalikni ifodalovchi konseptlar va ularning lingvistik manzarasi semantik, kognitiv va lingvokulturologik jihatdan tahlilga tortilgan. Maqola tadqiqot maqsadi sifatida xalq maqollari orqali turkiy tillar tilshunosligidagi onalik konseptlarini o‘rganishga qaratilgan. Onalik konseptining til va madaniyat o‘rtasidagi munosabati ochib berilgan.

Ushbu tadqiqot natijalari o‘zbek va turk, turkman, ozar, qozoq, qirg‘iz xalq madaniyatida onalikni ifodalovchi konseptlarning ijtimoiy ahamiyatini tushunishga yordam beradi. Turkiy tillar tilshunosligida onalik konseptini o‘rganishga qaratilganligi bilan dolzarb hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: konsept, kognitiv yondashuv, onalik konsepti, maqollar, lingvistika, lingvokognitiv, lingvokulturologiya

Аннотация: В данной статье рассматривается концепт материнства в тюркских языках и его репрезентация в народных пословицах. Концепты, выражающие материнство, а также их языковая картина мира анализируются с семантической, когнитивной и лингвокультурологической точек зрения. Основной целью исследования является изучение концептов материнства в тюркском языкознании посредством анализа народных пословиц. В работе также раскрывается взаимосвязь языка и культуры в концептуализации материнства.

Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию социальной и культурной значимости концептов, репрезентирующих материнство, в узбекской, турецкой, туркменской, азербайджанской, казахской и кыргызской народных культурах. Актуальность исследования обусловлена его направленностью на изучение концепта материнства в тюркском языкознании, а также его анализом с позиций взаимосвязи языка, когнитивных процессов и культуры.

Ключевые слова: концепт, концепт материнства, когнитивный подход, народные пословицы, паремиология, тюркские языки, лингвистика, лингвокогнитивистика, лингвокультурология, языковая картина мира.

Annotation: This article examines the concept of motherhood in Turkic languages and its representation in folk proverbs. The concepts expressing motherhood and their linguistic worldview are analyzed from semantic, cognitive, and linguocultural perspectives. The primary aim of the study is to investigate the concepts of motherhood in Turkic linguistics through the analysis of folk proverbs. The study also explores the relationship between language and culture in the conceptualization of motherhood.

The findings of this study contribute to a better understanding of the social and cultural significance of concepts associated with motherhood in the Uzbek, Turkish, Turkmen, Azerbaijani, Kazakh, and Kyrgyz folk cultures. The relevance of the study lies in its focus on the concept of motherhood within Turkic linguistics and its analysis through the interconnected perspectives of language, cognition, and culture.

Keywords: concept, cognitive approach, concept of motherhood, proverbs, linguistics, linguocognition, linguoculturology.

Maqollar — xalq og‘zaki ijodining qadimiy, ixcham va chuqur mazmunga ega janrlaridan biri bo‘lib, hayotiy tajriba, axloqiy me’yorlar, odob-axloq, dunyoqarash va turmushga oid umumlashgan fikrni ifodalaydi. Ular asosan ikki qismlik, qisqa, qofiyali va ritmik shaklda bo‘ladi.

1. Maqolning asosiy xususiyatlari:

Ixchamlik – maqollar odatda bir yoki ikki misradan iborat bo‘ladi.

Hikmatli mazmun – hayotiy tajribadan kelib chiqqan umumlashma fikrni o‘z ichiga oladi.

Obrazlilik – majoz, tashbih, ramzli ifodalar orqali fikr bildiradi.
Didaktiklik – odatda axloqiy, tarbiyaviy, o‘rgatuvchi xarakterga ega.
Qofiyadorlik va ohangdorlik – maqollar ritmik va yodda saqlash uchun qulay tuzilgan.
2. Maqollarning vazifalari:
Tarbiyaviy – axloq-odob, insoniylik, halollik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni targ‘ib qiladi.
Estetik – tilda go‘zallik, ifoda kuchi yaratadi.
Didaktik – o‘quvchilarga hayotiy saboq beradi.
Ijtimoiy – xalq dunyoqarashi, urf-odatlari, qadriyatlarini aks ettiradi.
Kommunikativ – nutq jarayonida fikrni ta’sirli yetkazish vazifasini bajaradi.
3. Maqollar va boshqa janrlar:
Maqol va matal: Matallar ko‘proq kinoya, istehzo bilan aytiladi, maqollar esa jiddiy va axloqiy mazmunga ega.
Maqol va aforizm: Aforizm adabiy-badiiy shaklda bo‘lsa-da, maqollar xalq orasida yuzaga kelgan va ko‘proq ommaviydir.
Maqollar va folklor: Maqollar xalqning og‘zaki ijodi mahsuli sifatida folklor tarkibiga kiradi.
4. Maqollarni tasniflash:
Mazmuniga ko‘ra: axloqiy, ijtimoiy, mehnatga oid, oila, do‘stlik, ilmga oid va boshqalar.
Shakliga ko‘ra: bir qismlik, ikki qismlik (shartli va natijaviy), dialog shaklidagi maqollar.
Maqollar – xalq donishmandligi, hayotiy tajriba va milliy tafakkurning qisqa, ammo chuqur ifodasidir. Ular nafaqat og‘zaki nutqda, balki badiiy adabiyotda ham obrazni chuqurlashtirish, g‘oyani kuchaytirish vositasi sifatida keng qo‘llaniladi. Shu sababli, maqollar tilshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida o‘rganilishga loyiq muhim lingvokulturologik birliklardir.
Bolani qo‘li shilinsa onani ko‘ngli shilinadi.
Ona allasi dunyoni tebratar.
Onaga berma baho, Ona o‘zi bebaho.

O‘zbek xalq maqollari orasida ona to‘g‘risidagi maqollar talaygina. Ularning barchasi mehr – muhabbat, sadoqat, matonat ramzi sifatida ayollarni, onalarni ta’riflaydi. Maqollarda onalarning farzandiga bo‘lgan mehri, yurtga bo‘lgan sadoqati aks ettiriladi.

Ona oilaning asosiy tayanchi, u bola tarbiyasida muhim rol o‘ynaydigan inson hisoblanadi. O‘zbek madaniyatida onalik, odatda, qadr-qimmat va hurmat bilan bog‘liq bo‘lib, ona sifatida ayollarning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati beqiyos.

Shuningdek, onalik, faqatgina o‘z farzandlariga emas, balki jamiyatga nisbatan ham mas’uliyatni anglatadi, bu esa onalarning ta’sirini kengaytiradi. O‘zbek an’analari va qadriyatlarida onaning roli va ahamiyati yuksak baholanadi.Onalik konsepti insoniyat tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u nafaqat biologik ona bo‘lish, balki tarbiyalash, parvarish qilish va hissiy bog‘lanish jarayonini ham o‘z ichiga oladi.

Konsept mental tuzilishga ega bo‘lib, insonlarning ongida bir-biriga o‘xshamagan turli xil tushuncha va so‘zlar bilan birga saqlanib turadi. Onalik va ona konspeti bilan bog‘liq so‘zlar ham o‘zbek tilida mehribon, jannatim, xokisor, duogo‘y, mushtipar, ona vatan, ona yer, aziz, mo‘tabar ayol, turk tilida esa cennetim, fedakar, direğim, sultanım, emek, fedakar, şefkatlim, sabırlı kabi so‘zlar bilan assotsiativ bog‘liqlikni yuzaga keltiradi. Ushbu bog‘liqliklarni o‘zbek, turkman, tojik, turk, ozarbayjon, qirg‘iz, qozoq va boshqa turkiy tillardagi maqollar orqali ko‘rib chiqamiz.

O‘zbek tilida: Ona kabi yor, vatan kabi diyor bo‘lmas.
Turk tilida : Ana gibi yar, vatan gibi diyar olmaz.
Ozarbayjon tilida: Ana kimi yar olmaz – vətən kimi dövlət-var.

Ushbu maqollar ona va onalik konseptining vatan tushunchasi bilan bir ma’noda kelishini ko‘rishimiz mumkin. Barcha turkiy xalqlarda onaning va vatanning inson hayotidagi beqiyos ahamiyatini ifodalaydi. Maqolarda ko‘rsatilganidek, ona va vatan – insonning eng aziz va qadrli boyliklaridir. Hech narsa, hatto eng yaqin do‘st yoki eng yaxshi joy, onaning mehrini va vatanning muhabbatini o‘rnini bosolmaydi.

O‘zbek tilida: Ona - uyning tayanchi.
Turk tilida : Ana evin direğidir.
Qozoq tilida: Anasyz üi — panasyz.

Yuqorida keltirilgan matnlarda onalik konseptining tayanch, suyanch, tirgak, himoya kabi ma’nolarni bildiradi.

O‘zbek tilidagi maqol onaning oiladagi asosiy va muhim rolini ifodalaydi. Tayanch so‘zi biror narsaning mustahkam asosi yoki tayanch nuqtasi degan ma’noni anglatadi. Ona, o‘z farzandlari uchun nafaqat jismoniy, balki ma'naviy tayanch bo‘lib, ularning tarbiyasiga, rivojlanishiga va xulqiga ta'sir qiladi. Shuningdek, uyda ona bo‘lmasa, oilaning tinchligi va barqarorligi buzilishi mumkin, chunki ona oilaning haqiqiy jipsligi va qulayligini ta'minlaydi.

Turk tilidagi maqolda ham onaning oiladagi o‘rni ta’kidlanadi. Direk so‘zi, uy qurilishida poydevor yoki ustun bo‘lib, binoning asosi va mustahkamligini ta'minlaydi. Shunday qilib, ona, oilaning ustuni sifatida, uning barqarorligi va farovonligi uchun muhim ahamiyatga ega. Ona oilaning ruhi, asosiy tayanchi, shuning uchun onasiz uy, ustunlarsiz bino kabi bo‘ladi.

Qozoq tilida keltirilgan maqol ham o‘xshash ma’noni anglatadi. Panasyz so‘zi panohsiz, himoyasiz degan ma’noni bildiradi. Bu maqol onaning o‘rni oiladagi himoya, yaxlitlik va farovonlikni ta'minlashda ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Agar uyda ona bo‘lmasa, u oilaning himoyasiz bo‘lishini bildiradi, chunki ona o‘z farzandlari uchun himoya va mehrning manbaidir.

Uch tilda berilgan maqollar barcha turkiy tillarda onaning oila va uyda mustahkam asos, tayanch va himoya bo‘lishini ta’kidlaydi. Ona o‘z farzandlariga nafaqat sevgi, balki barqarorlik va xavfsizlikni ham ta'minlaydi. Maqollar, shuningdek, onasiz oilaning haqiqiy farovonlik va baxtga erisha olmaydiganligini ifodalaydi.

Ma’lumki, turkiy xalqlar madaniyati, urf- odati bir-biriga yaqin. Barcha turkiy xalqlarda ona va qiz munosabati borasida o‘xshash qarashlar mavjud. Shu jihatlari turkiy xalqlar maqollarida ham o‘z ifodasini topgan.

O‘zbek tilida: Onasini ko‘rib, qizini ol. Onasiz qiz — qiz emas. Qizi borning nozi bor.

Qozoq tilida: Anasyz qız — qız emes. Qızı bardıŋ nazy bar.

Ozarbayjon tilida: Anasına bax qızını al, qırağına bax bezini al.

Bu maqollar tilshunoslikda ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni ifodalovchi va farzand tarbiyasining ahamiyatini ta'kidlovchi misollar sifatida tahlil qilinadi. Onaning o‘rni ko‘p madaniyatlarda (shu jumladan turkiy tillarda) markaziy rolga ega bo‘lib, uning tarbiyaviy va axloqiy ta'siri farzandning kelajagiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Qiz farzandning tarbiya topishi va hayoti davomidaotadan ko‘ra ona muhim sanaladi. Ona qizi uchun, nafaqat, onalik maqomida, balki sirdosh, dugona rollarini ham bajaradi.

Onalik konsepti barcha tillarda muqaddas va hurmatga sazovor bo‘lib, oila ichidagi o‘zaro munosabatlarda, ayniqsa farzandning tarbiyasida, ona asosiy mas'uliyatni o‘z zimmasiga oladi.

Onalik konsepti O‘zbek tilida chuqur ma’noga ega bo‘lib, u faqat biologik ona bo‘lish bilan cheklanmaydi. Onalik – bu farzandni tarbiyalash, ularga mehr-muhabbat, sabr-toqat va mas’uliyat bilan yondashish jarayonidir.

Yuqoridagi maqollarda ona konseptining ona vatan, uy, tug‘ilgan yurt, ona yer kabi ma’nolari keltirilgan. Bu bog‘liqlik odamlarning o‘z vataniga, madaniyatiga va urf-odatlariga bo‘lgan muhabbatini ifodalaydi. Ona yurt – bu har bir insonning kelib chiqishi, tarbiyasi va hayotining asosiy qadriyatlari demakdir.

Onalik konsepti turkiy tillarda ko‘plab diniy mavzular bilan bog‘liq maqollarni o‘z ichiga oladi, chunki onalik, o‘zbek, turk, qozoq, qirg‘iz va boshqa turkiy xalqlarda faqat ijtimoiy emas, balki diniy jihatdan ham juda ulug‘lanadi.

Quyida turli turkiy tillarda onalik va din bilan bog‘liq maqollarni ko‘rib chiqamiz:

1. O‘zbek tilidagi maqollar:

Ona suti jannatga yo‘l.

Bu maqol, onaning o`zi bergan mehr-shafqati, tarbiyasi va suti jannatga olib borishini ta’kidlaydi. Hadisda ham *Ona oyog‘ining ostida jannat* degan ma’no mavjud.

Onaning duosi qabul bo‘ladi.

Onaning duosi, musulmonlikda, haqiqatan ham kuchli va qabul qilinadigan duolardan hisoblanadi. Bu maqol onaning diniy ahamiyatini ko‘rsatadi.

2. Turk tilidagi maqollar:

Ananın duası geri çevrilmez.

Bu maqol, onaning duosi qabul bo‘lishini, uning qalbidan chiqadigan so‘zlar Alloh tomonidan eshitilishini anglatadi. Islomda onaning duosi ajrini olish uchun muhim hisoblanadi.

Ana duası, Cennet kapısını açar.

Ona duosi jannat eshigini ochadi. Bu maqol musulmonlikda onaning roli va duosining ahamiyatini ko‘rsatadi. Hadisda *Onaning duosi jannatga yo‘l ochadi* degan ma’nolar mavjud.

3. Qozoq tilidagi maqollar:

Ана – жер бетінің жәннаты.

Bu maqol, musulmon madaniyatida onaning o‘rni va ulug‘ligini ta’kidlaydi. Hadisda, onaning muqaddasligi va uning roli jannat bilan taqqoslanadi.

Ана жүрегінің жарқырағаны Құдайға жақын.

Bu maqol, onaning qalbi va uning mehr-muhabbati, Allohning sevgisi bilan yaqinligini ifodalaydi.

4. Ozarbayjon tilidagi maqollar:

Anası olmayanın duası kabul olmaz.

Bu maqol, onaning duosi qabul qilinmaydi degan diniy tushunchani anglatadi. Onaning duosi, xususan musulmonlikda juda qadrli hisoblanadi va uning ibodatlari Alloh tomonidan eshitiladi.

Ana duası, Allahın rahmetidir.

Bu maqol, onaning duosining Allohning rahmati va barakasi bilan birga bo‘lishini bildiradi. Islomda onaning duosi kutilgan javobni olishda muhim omil hisoblanadi.

5. Qirg‘iz tilidagi maqollar:

Анасынын дуосу – Аллахтын кулу.

Bu maqol, onaning duosining diniy ahamiyatini va uning Allohga bo‘lgan yaqinligini ifodalaydi. Hadisda ham onaning duosi juda e'tiborga loyiq deb aytilgan.

Анасүткөжегенбала, жәннәткәбарат.

Bu maqol, onaning suti jannatga olib borishini bildiradi, va musulmonlikda ona uchun katta hurmat borligi ko‘rsatiladi.

Yuqorida turkiy tillarda ona va onalik konsepti diniy maqollarda duogo‘y, xokisor, muqaddas kabi ifodalanadi. Bu maqollar onaning dunyodagi roli va ahamiyatini, uning duosining qadrini va Allohning rahmatiga yaqinligini ta’kidlaydi. Onaning roli har bir musulmon mamlakatda va madaniyatda ulug‘lanadi, chunki u bolalarning tarbiyasidagi muhim shaxs va oilaning mustahkam tayanchidir. Diniy maqollar ona va uning mehr-shafqatiga bo‘lgan chuqur hurmatni, uning haqiqiy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Onalik konseptining sabrli, mehribon, tarbiyalovchi sifatlari quyidagi maqollarda o‘z aksini topgan:

1.Turk tilida. Annenin sabrı dağdan yüksektir. Ana sabır ve merhametin kaynağıdır. Ananın sabrı, çocuğun geleceğini şekillendirir.

2. O`zbek tilida. Onaning sabri tog‘dan balanddir. Ona sabrning, mehrning manbaidir.

3.Qozoqtilida. Ана сабыр менен бала тарбиялайды. Ана деген сүйіспеншілік пен сабырдың ең үлкен үлгісі.

4.Turkman tilida. Ana sabr bilen balasini ulaldyrar. Ana – balanyň iň gowy terbiýeçisi.

O‘zbek va boshqa turk tillar bir til oilasiga mansub tillar hisoblanganligi sababli bu millatlarning madaniyati, dini, e’tiqodi, tili o‘xshash bo`lgani uchun ushbu tillarda onalikni ifodalovchi konseptlarning ifodalanishi ham bir-biriga yaqin.

Turkiy tillardagi xalq maqollarida Onalik konseptining quyidagi jihatlari e’tiborlidir:

1. Biologik va hissiy jihatlar. Onalik - bu nafaqat farzand tug‘ish, balki ularni tarbiyalash va hissiy qo‘llab-quvvatlashdir.

2. Mas’uliyat. Ona farzandining rivojlanishi, tarbiyasi va shaxsiyati uchun mas’uldir. Bu mas’uliyat hayotning har tomonida aks etadi.

3. Madaniy ahamiyat. Har bir madaniyatda onalik alohida e’tiborga ega. O‘zbek va turk madaniyatlarida ham onalarga nisbatan yuqori hurmat va qadr-qimmat mavjud.

4. Tarbiya va an’analar. Onalar o‘z farzandlariga milliy qadriyatlar va an’analarni yetkazishda muhim rol o‘ynaydi.

5. Jamiyatdagi roli. Onalik nafaqat oilada, balki jamiyatda ham ijtimoiy mas’uliyat va mehnatni anglatadi.

Xulosa. Onalik konsepti insonning hayotida va jamiyatda muhim o‘rin tutadi, chunki u avlodlar o‘rtasidagi bog‘lanishni mustahkamlaydi va jamiyatni shakllantiradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, onalik konsepti ongda turlicha voqelanadi. Ona va onalik konseptini maqollardan misollar keltirish orqali kognitiv, semantik va lingvokulturologik jihatdan tahlindi. Misollardan ma’lum bo‘ldiki, ushbu konseptga doir assotsiativlar kengligi bois, unga nuqtiy vaziyat, muhitdan kelib chiqqan holda yondashish zarur bo‘ladi. Shularni e’tiborga olgan holda, onalik konseptni tahlil qilishda, til va madaniyatni uzviy bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aksoy, Ö. A. (1995). Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, İnkilâp Kitabevi, İstanbul.
2. Dilçin, D. (2018). Edebiyatımızda Atasözleri, Türk Dil Kurumu Yayınları. 751, 3.bsk. Ankara.
3. Ergashev, R. (2023). *Kognitiv lingvistika: nazariya va amaliyot*. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.
4. Iskandarova, M. (2021). *Lingvomadaniyatshunoslik va uning tadqiqot usullari*. Andijon: Andijon Davlat Universiteti.
5. Kadyrova, N. (2015). *Madaniyat va til: o‘zaro ta’sir*. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti.
6. Lakoff, G. (1987). *Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal About the Mind*. Chicago: University of Chicago Press.
7. Langacker, R. (1987). *Foundations of Cognitive Grammar*. Stanford: Stanford University Press.
8. Shomurodova, S. (2019). *O‘zbek tilshunosligida madaniy konseptlar: masalalar va yechimlar*. Farg‘ona: Farg‘ona Davlat Universiteti.
9. Vereshchagin, E. M., & Kostomarov, V. G. (1990). *Linguistic Landscape: Theoretical and Practical Aspects of Linguistic Personality*.

ВОЛЕВЫЕ КАЧЕСТВА СТУДЕНТОВ В КОНТЕКСТЕ LIFELONG LEARNING: SMART-ЦЕЛИ КАК ИНСТРУМЕНТ ИХ РАЗВИТИЯ

Ф.Т.Хусаинова
доцент, Ташкентский государственный юридический университет,
г. Ташкент, Республика Узбекистан
E-mail: fayruzakhusainova@gmail.com
Тел.: +998(90) 317-96-95
DOI: https://doi.org/ 10.5281/zenodo.22127216

Аннотация: в тезисе рассматривается роль волевых качеств студентов в контексте концепции Lifelong Learning. Особое внимание уделяется волевой регуляции самостоятельной образовательной деятельности и использованию SMART-целей и планирования «если–то» как практических инструментов организации обучения.

Ключевые слова: волевые качества, волевая регуляция, студенты, Lifelong Learning, самостоятельная образовательная деятельность, SMART-цели, планирование «если–то».

В условиях стремительных изменений в профессиональной и социальной сферах человеку необходимо постоянно обновлять знания, осваивать новые навыки и самостоятельно определять направления личностного и профессионального развития. Концепция Lifelong Learning предполагает не только наличие мотивации к обучению, но и способность человека самостоятельно организовывать образовательную деятельность, преодолевать возникающие трудности и сохранять целенаправленность на протяжении всей жизни. В связи с этим волевые качества – самодисциплина, настойчивость, смелость, целеустремлённость, ответственность, выдержка и самоконтроль – выступают важнейшими психологическими условиями реализации концепции Lifelong Learning.

Исследование Д.Д.Барабанова «Развитие волевой регуляции студентов» подчёркивает значимость волевой регуляции в организации учебной деятельности студентов. Особое значение развитию волевых качеств придаётся в студенческом возрасте, который рассматривается как переходный период от поздней юности к ранней зрелости. Именно на данном этапе происходит существенная перестройка учебной деятельности и возрастает степень самостоятельности личности. В отличие от школьного обучения, студент получает большую автономию в организации образовательной деятельности, самостоятельно принимает решения, связанные с выбором образовательной и профессиональной траектории, и несёт большую ответственность за результаты собственного обучения. В этих условиях возрастает необходимость волевой регуляции, обеспечивающей возможность самостоятельно ставить цели, организовывать деятельность, преодолевать возникающие трудности и сохранять направленность на достижение результата.

Важность преодоления трудностей как результата волевой регуляции подчёркивается в исследовании А.В.Быкова «Генезис волевой регуляции». Волевые усилия проявляются не только в достижении человеком конкретных внешних результатов деятельности, но и во внутренних личностных изменениях. Преодоление трудностей и достижение поставленных целей способствует развитию волевых качеств, повышению собственной компетентности и профессионализма, формированию эмоциональной устойчивости и изменению отношения человека к самому себе. Таким образом, успешное преодоление препятствий посредством волевой регуляции выступает не только условием достижения результата, но и механизмом личностного развития и самореализации.

В данном контексте особый интерес представляет технология постановки SMART-целей, которая может рассматриваться как практический инструмент организации деятельности и создания условий для проявления и развития волевых качеств студентов. Формулирование конкретных, измеримых, достижимых, значимых и ограниченных во времени целей позволяет студенту структурировать собственную образовательную деятельность, определить последовательность действий и контролировать продвижение к запланированному результату. Регулярное применение данной технологии создаёт условия для проявления и развития целеустремлённости, самодисциплины, ответственности и самоконтроля, поскольку требует от студента не только постановки цели, но и последовательного выполнения намеченных действий, преодоления возникающих трудностей и оценки полученного результата.

Технология SMART-целей может выступать одним из инструментов организации образовательной деятельности, в процессе которой формируются и закрепляются волевые качества, необходимые для самостоятельного обучения. Её применение в студенческом возрасте позволяет создавать условия для постепенного перехода от внешней организации учебной деятельности к самостоятельной регуляции и управлению собственным образовательным маршрутом. Постановка SMART-целей определяет направление образовательной деятельности, а волевая регуляция позволяет студенту сохранять целенаправленность, проявлять настойчивость, выдержку и самодисциплину, преодолевать препятствия и доводить начатое до результата.

В материале Кендалл Терри «From SMART Goals to SMART Habits: A Neuroscience-Informed Framework for Teacher Growth», опубликованном Southern Association of Independent Schools (SAIS), подчёркивается, что постановка цели сама по себе не гарантирует её достижения. Автор обращает внимание на разрыв между намерением и его реализацией и отмечает необходимость перехода от общей цели к конкретным действиям и устойчивым привычкам. В данном подходе SMART-цель рассматривается как средство определения направления деятельности, тогда как систематические действия и повторяющиеся поведенческие практики обеспечивают последовательное продвижение к запланированному результату.

К.Терри также рассматривает планирование по принципу «если–то» (if–then planning), которое связывает поставленную цель с конкретной ситуацией и заранее определённым действием. Такой способ планирования позволяет перевести намерение в конкретную поведенческую последовательность – если возникает определённая ситуация, то человек выполняет заранее выбранное действие. Например, применительно к студенту это может быть сформулировано следующим образом:

«Если после занятий я прихожу домой и отдыхаю 30 минут, то затем в течение 40 минут работаю с профессиональной литературой» или

«Если при выполнении учебного задания возникает желание его отложить, то я выполняю ещё один запланированный этап работы, прежде чем сделать перерыв».

Таким образом, конкретная ситуация становится сигналом для заранее определённого действия. Применение данного подхода в студенческом возрасте имеет особое значение, поскольку самостоятельная образовательная деятельность требует способности самостоятельно организовывать время, контролировать выполнение учебных задач и преодолевать возникающие трудности.

В контексте развития волевых качеств студентов данный подход может рассматриваться как практический инструмент организации образовательной деятельности, создающий условия для их проявления и постепенного закрепления.

Таким образом, между постановкой SMART-цели и её достижением целесообразно выделить промежуточный механизм – конкретный план действий. SMART-цель определяет, чего студент стремится достичь; план «если–то» конкретизирует, когда и каким образом он будет действовать; волевая регуляция обеспечивает устойчивость и последовательность этих действий. В результате создаются условия для проявления и развития самодисциплины, настойчивости, смелости, целеустремлённости, ответственности, выдержки и самоконтроля, что соответствует основным принципам концепции Lifelong Learning.

В качестве практического вывода можно отметить, что развитие волевых качеств студентов целесообразно осуществлять не только посредством формирования мотивации к обучению, но и через организацию образовательной деятельности, требующей самостоятельной постановки целей, планирования, самоконтроля и последовательного выполнения намеченных действий. В данном контексте преподаватель может выступать не только источником знаний, но и организатором образовательных условий, способствующих проявлению и развитию самодисциплины, настойчивости, смелости, целеустремлённости, ответственности, выдержки и самоконтроля.

Практические аспекты развития волевых качеств студентов:

- использовать SMART-технологию для обучения студентов постановке конкретных, реалистичных и достижимых образовательных целей;
- помогать студентам переводить долгосрочную цель в последовательность небольших конкретных действий;
- использовать планирование по принципу «если–то», связывая образовательную цель с конкретными ситуациями повседневной учебной деятельности;

- создавать ситуации, в которых студенту необходимо самостоятельно принимать решения, преодолевать трудности и доводить начатое до результата;
- при оценивании учитывать не только конечный результат, но и проявление самодисциплины, настойчивости, смелости, целеустремлённости, ответственности, выдержки и самоконтроля в процессе выполнения задания;
- использовать краткую рефлексию, позволяющую студенту анализировать собственное продвижение – что было запланировано, что выполнено, какие трудности возникли и какие волевые качества помогли их преодолеть.

Таким образом, развитие волевых качеств студентов может рассматриваться как важное условие формирования готовности к Lifelong Learning. Практическая задача преподавателя заключается не только в передаче знаний, но и в создании условий для развития волевых качеств. Использование SMART-целей в сочетании с планированием «если–то», поэтапным выполнением задач и рефлексией результатов позволяет переводить образовательные намерения студентов в конкретные действия. При этом преподавателю важно постепенно переходить от внешней организации деятельности к её самостоятельной регуляции студентом. Такой подход создаёт психологическую основу для непрерывного самообразования и профессионального развития на протяжении всей жизни.

Литература:

1. Барабанов Д.Д. Развитие волевой регуляции студентов: дис. ...канд. психол. наук: 19.00.01. – Москва, 2015. – 188 с.
2. Быков А.В. Генезис волевой регуляции: монография. – М., 2003. – 248 с.
3. Terry K. From SMART Goals to SMART Habits: A Neuroscience-Informed Framework for Teacher Growth [Электронный ресурс]. – SAIS. – https://sais.org/resource/from-smart-goals-to-smart-habits-a-neuroscience-informed-framework-for-teacher-growth/

FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘QITISH (INGLIZ TILI) YO‘NALISHI TALABALARIDA INGLIZ TILIDA GAPIRISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY HOLATI

Qoxxorova Madinaxon Abdukodir qizi,
Namangan Davlat Universiteti
E-mail: kohhorovamadinahon@gmail.com
Tel: (88) 002 18 21
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22127312

Abstract. The article analyzes the current state of developing English-speaking competence in students of the Philology and Language Teaching (English language) program. It examines contemporary requirements for speaking, the impact of artificial intelligence technologies, and factors related to age and the educational environment.

Keywords: speaking competence, communicative competence, artificial intelligence, CEFR, willingness to communicate, language anxiety, digital environment.

Аннотация. В статье анализируется современное состояние развития компетенции говорения на английском языке у студентов направления «Филология и обучение языкам (английский язык)». Рассматриваются современные требования к говорению, влияние технологий искусственного интеллекта, а также факторы возраста и образовательной среды.

Ключевые слова: компетенция говорения, коммуникативная компетенция, искусственный интеллект, CEFR, готовность к общению, языковая тревожность, цифровая среда.

Annotatsiya. Maqolada filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) yo‘nalishi talabalarida ingliz tilida gapirish kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy holati tahlil qilinadi. Gapirishning zamonaviy talablari, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’siri hamda yosh va ta’lim muhiti omillari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: gapirish kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya, sun’iy intellekt, CEFR, muloqotga tayyorlik, til xavotiri, raqamli muhit.

Bugungi globallashuv sharoitida ingliz tili xalqaro muloqotning asosiy vositasiga aylandi. O‘zbekistonda chet tillarni o‘rganishga davlat siyosati darajasida alohida e’tibor qaratilmoqda: 2012-yilda qabul qilingan PQ-1875-son qaror asosida ingliz tili mamlakatning barcha hududlarida o‘qitila boshlandi va Umumevropa til kompetensiyalari doirasi (CEFR) standarti joriy etildi [1], 2021-yildagi PQ-5117-son qaror esa chet tillarni o‘rganishni ommalashtirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tardi [2]. Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) yo‘nalishi talabalari uchun gapirish kompetensiyasi — nafaqat o‘quv natijasi, balki bo‘lajak kasbiy faoliyatning markaziy ko‘nikmasidir. Shu bois ushbu kompetensiyani rivojlantirishning zamonaviy holatini tahlil qilish dolzarb ahamiyatga ega.

Gapirish kompetensiyasi zamonaviy metodikada kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. D. Hymes til bilimidan tashqari uni real muloqot vaziyatlarida qo‘llash qobiliyatini ham nazarda tutuvchi “kommunikativ kompetensiya” tushunchasini ilgari surgan [3]. M. Canale va M. Swain esa uni grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalarga ajratgan [4]. CEFR hujjatida gapirish alohida “og‘zaki o‘zaro ta’sir” (spoken interaction) va “og‘zaki ishlab chiqarish” (spoken production) sifatida tavsiflanadi [5]. Demak, zamonaviy talab talabadan faqat grammatik to‘g‘rilikni emas, balki nutq ravonligini, o‘zaro muloqotga kirisha olishni, fikrini vaziyatga mos va maqsadga muvofiq ifodalay olishni taqozo etadi. Ta’lim paradigmasi shaklga (form) yo‘naltirilgan yondashuvdan ma’no va muloqotga yo‘naltirilgan yondashuvga o‘tdi.

Shu bilan birga, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab talabalar grammatika va leksikani yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lsa-da, erkin gapirishda qiynaladi. Bu “bilim va uni qo‘llash” o‘rtasidagi tafovut sifatida namoyon bo‘ladi. Uning asosiy sabablaridan biri — chet tili xavotiri (foreign language anxiety): E. Horwitz va hamkasblari talabalarning xato qilishdan qo‘rquvi hamda baholanish tashvishi nutqiy faollikni sezilarli pasaytirishini aniqlagan [6]. Ikkinchi omil — muloqotga tayyorlik (willingness to communicate)ning pastligi: P. MacIntyre va hamkasblari talabaning gapirishga ichki tayyorligi til bilimidan kam ahamiyatga ega emasligini ko‘rsatgan [7]. Shu sababli zamonaviy metodika til xavotirini kamaytirish va muloqotga tayyorlikni oshirishga qaratilmog‘i lozim.

So‘nggi yillarda ushbu sohadagi eng katta o‘zgarish sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari bilan bog‘liq. Generativ SI vositalari, xususan ChatGPT, til o‘rgatishda yangi imkoniyatlarni ochdi: shaxsiylashtirilgan tezkor izohlar berish, muloqot vaziyatlarini modellashtirish va o‘quvchining til

sezgirligini oshirish [8]. Ovozli muloqot funksiyasi talabaga vaqt va joydan qat’i nazar mustaqil ravishda talaffuz va nutq ravonligini mashq qilish imkonini beradi [9]. Muhimi shundaki, SI bilan muloqotda talaba inson tomonidan baholanish tashvishini his qilmaydi — bu esa til xavotirini kamaytirib, muloqotga tayyorlikni oshiradi. Tadqiqotlar SI vositalaridan foydalanish gapirish ko‘nikmalarini ijobiy rivojlantirishini tasdiqlaydi [8; 9]. Biroq bu texnologiyaning cheklovlari ham bor: SI talaffuz va kontekstual nozikliklarni to‘liq aniq baholay olmaydi, ba’zan noto‘g‘ri ma’lumot berishi hamda o‘quvchida haddan ortiq bog‘liqlik keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois SI inson o‘qituvchisining o‘rnini bosmaydi, balki uni to‘ldiradi; undan samarali foydalanish esa raqamli savodxonlikni talab qiladi [8].

Gapirish kompetensiyasini rivojlantirishga yosh va muhit omillari ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Yosh jihatidan tilni egallashning “sezgir davri” (critical period) nazariyasiga ko‘ra, til erta yoshda tabiiyroq o‘zlashtiriladi [10]. Universitet talabalari (18–22 yosh) bu optimal davrdan o‘tgan bo‘lsalar-da, mos shart-sharoit yaratilganda yuqori darajaga erishishlari mumkin; C. Muñoz tadqiqotlari o‘rganish sur’ati va sharoitning ahamiyatini ta’kidlaydi [11]. Muhit jihatidan esa til kiritmasi (input) va uni qo‘llash imkoniyatlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi: S. Krashenning tushunarli kiritma nazariyasiga ko‘ra, til yetarli va tushunarli material ta’sirida o‘zlashtiriladi [12]. Bugungi yoshlar ingliz tiliga to‘yingan raqamli muhitda — ijtimoiy tarmoqlar, video o‘yinlar, striming platformalari orqali — yashaydi. Bu norasmiy raqamli ta’lim (informal digital learning) motivatsiya va til bilan aloqa shakllarini o‘zgartirmoqda. Ayni paytda, qo‘llab-quvvatlovchi va past xavotirli o‘quv muhiti talabaning gapirishga tayyorligini yanada oshiradi [7; 13].

Xulosa qilib aytganda, filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) yo‘nalishi talabalarida gapirish kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy holati bir necha yo‘nalishning uyg‘unlashuvini talab qiladi: kommunikativ yondashuvni izchil qo‘llash, sun’iy intellekt vositalaridan (o‘rin bosuvchi emas, to‘ldiruvchi sifatida) oqilona foydalanish, til xavotirini kamaytirish va muloqotga tayyorlikni oshirish, hamda yoshlarning raqamli odatlariga mos boy til muhitini yaratish [14]. Davlat siyosatining qo‘llab-quvvatlashi va texnologik yutuqlar qulay shart-sharoit yaratmoqda; endi bu imkoniyatlarni samarali metodik yechimlar — jumladan interaktiv va sahnalashtirishga asoslangan texnologiyalar — bilan to‘ldirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-son qarori. — Toshkent, 2012.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori. — Toshkent, 2021.

3. Hymes D. On Communicative Competence // Sociolinguistics: Selected Readings / ed. by J. B. Pride, J. Holmes. — Harmondsworth: Penguin, 1972. — P. 269–293.

4. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. — 1980. — Vol. 1, No. 1. — P. 1–47.

5. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. — Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. — 278 p.

6. Horwitz E. K., Horwitz M. B., Cope J. Foreign Language Classroom Anxiety // The Modern Language Journal. — 1986. — Vol. 70, No. 2. — P. 125–132.

7. MacIntyre P. D., Clément R., Dörnyei Z., Noels K. A. Conceptualizing Willingness to Communicate in a L2: A Situational Model of L2 Confidence and Affiliation // The Modern Language Journal. — 1998. — Vol. 82, No. 4. — P. 545–562.

8. Kohnke L., Moorhouse B. L., Zou D. ChatGPT for Language Teaching and Learning // RELC Journal. — 2023. — Vol. 54, No. 2. — P. 537–550.

9. Üstünbaş Ü. Hey, GPT, Can We Have a Chat?: A Case Study on EFL Learners’ AI Speaking Practice // International Journal of Modern Education Studies. — 2024. — Vol. 8, No. 1. — P. 91–107.

10. Lenneberg E. H. Biological Foundations of Language. — New York: Wiley, 1967. — 489 p.

11. Muñoz C. (ed.) Age and the Rate of Foreign Language Learning. — Clevedon: Multilingual Matters, 2006. — 280 p.

12. Krashen S. D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. — Oxford: Pergamon Press, 1982. — 202 p.

13. Thornbury S. How to Teach Speaking. — Harlow: Pearson Longman, 2005. — 156 p.

14. Lightbown P. M., Spada N. How Languages Are Learned. 4th ed. — Oxford: Oxford University Press, 2013. — 256 p.

О НЕОБХОДИМОСТИ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ ДЛЯ ФИНАНСОВЫХ РЫНКОВ

Каюмов Равшан Исмаилович
заведующий отделом Центра исследований Агентства госактивов Республики Узбекистан,
кандидат экономических наук
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22127373

Аннотация. В тезисе рассматриваются особенности применения технического и фундаментального анализа на финансовых рынках. Показано, что сочетание указанных методов позволяет повысить обоснованность торговых решений и своевременно выявлять формирование новых трендов. Раскрываются требования к подготовке специалистов по техническому и фундаментальному анализу, включая владение экономико-математическими методами, инструментами графического анализа, навыками обработки рыночной и макроэкономической информации. Особое внимание уделяется необходимости специализации аналитиков по отдельным финансовым рынкам, валютам, видам ценных бумаг и отраслям экономики. Обосновывается значение развития финансового образования, подготовки квалифицированных кадров и повышения уровня знаний рядовых инвесторов для формирования эффективного финансового рынка и укрепления экономического потенциала республики.

Ключевые слова: финансовый рынок, технический анализ, фундаментальный анализ, прогнозирование трендов, финансовые инструменты, подготовка специалистов, рыночное ценообразование, ценные бумаги, валютный рынок, финансовая грамотность.

Annotatsiya. Tezisda moliyaviy bozorlarda texnik va fundamental tahlilni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Ko‘rsatilgan usullarning kombinatsiyasi savdo qarorlarining asoslanganligini oshirish va yangi trendlarning shakllanishini o‘z vaqtida aniqlash imkonini berishi ko‘rsatilgan. Texnik va fundamental tahlil bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashga qo‘yiladigan talablar, jumladan, iqtisodiy-matematik usullarni, grafik tahlil vositalarini, bozor va makroiqtisodiy ma’lumotlarni qayta ishlash ko‘nikmalarini egallash ochib beriladi. Tahlilchilarning alohida moliya bozorlari, valyutalar, qimmatli qog‘ozlar turlari va iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha ixtisoslashuvi zarurligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Samarali moliya bozorini shakllantirish va respublikaning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash uchun moliyaviy ta’limni rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash va oddiy investorlarning bilim darajasini oshirishning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: moliya bozori, texnik tahlil, fundamental tahlil, trendlarni bashorat qilish, moliyaviy vositalar, mutaxassislarni tayyorlash, bozor narxlari, qimmatli qog‘ozlar, valyuta bozori, moliyaviy savodxonlik.

Abstract. This thesis examines the specifics of applying technical and fundamental analysis in financial markets. It demonstrates that combining these methods allows for more robust trading decisions and the timely identification of emerging trends. It discusses the training requirements for specialists in technical and fundamental analysis, including mastery of economic and mathematical methods, graphical analysis tools, and skills in processing market and macroeconomic information. Particular attention is given to the need for analysts to specialize in specific financial markets, currencies, types of securities, and economic sectors. The article substantiates the importance of developing financial education, training qualified personnel, and improving the knowledge of ordinary investors for the development of an effective financial market and strengthening the republic's economic potential.

Keywords: financial market, technical analysis, fundamental analysis, trend forecasting, financial instruments, specialist training, market pricing, securities, foreign exchange market, financial literacy.

Расширение международных экономических связей неразрывно взаимосвязано с развитием международных финансовых рынков. Предстоящее членство Узбекистана в ВТО ставит перед нашей страной задачи по созданию инфраструктуры финансовых рынков, которая соответствовала бы международным стандартам и была укомплектована подготовленными для работы на таких рынках специалистами.

В целом инфраструктура финансовых рынков в Узбекистане сформирована, однако для повышения эффективности ее функционирования необходимо создание в республике финансового центра. На первом этапе это будет региональный центр, а в процессе успешной деятельности может преобразоваться в международный. Для реализации этой идеи, в первую очередь необходимо

решить вопрос с качественной подготовкой кадров, владеющих всеми приемами и методами анализа и прогнозирования изменения конъюнктуры цен на рынках.

В настоящее время для прогнозирования рынков используются в основном два метода анализа: фундаментальный и технический, каждый из которых имеет свою специфику. Фундаментальный анализ предполагает оценку динамики рынка на основе экономических показателей, политических событий , слухов и информационного настроения участников рынка. Технических анализ производится на основе изучения графических и математических закономерностей в движении цен и объемов сделок.

Как показывает практика, наибольший эффект достигается при сочетании обоих методов, когда выводы полученные при применении одного метода, служат подтверждающим сигналом для прогнозов, полученных другим методом. Неподтверждение выводов будет сдерживать трейдоров от принятия поспешных решений по началу осуществления сделок. Обычно при обособленном использовании каждого метода трейдеры начинают операции после прохождения новым трендом от 1/3 до 1/2 своего цикла, когда получают дополнительный сигнал в виде продолжения изменения цены в направлении нового тренда, а проводить контрсделки рекомендуется на уровне 2/3 или 3/4 жизненного цикла тренда. Сочетание прогнозов, полученных на основе фундаментального и технического анализа, позволяет начать сделки на более ранних стадиях зарождения тренда и, за счет этого, получить большую прибыль.

Технический анализ, благодаря своей универсальности, может быть использован для любого рынка. Поэтому подготовка специалистов данного направления может быть осуществлена по единой программе. Основные требования к специалистам этого направления – умение использовать экономико-математические методы и хорошее знание основных фигур классического графического анализа, а также комбинаций трендовых моделей. Для обучения и практическиой работы необходимы компьютер с сетевым подключением для получения информации о движении рынка (цен, объемов заключенныхсделок и объемов открытых позиций по сделкам) и программное обеспечение к нему (в настоящее время разработано множество различных программ для анализа на основе скользящих средних и осцилляторного метода прогнозирования). Знание основных специфических особонностей конкретного рынка (валютный, фондовый, товарный или рынок срочных сделок) позволяет легко адаптироваться техническому аналитику для работы на этом рынке

Более сложной представляется проблема подготовки специалистов, способных производить фундаментальный анализ. Данный анализ строится на знаниях всех особенностей конкретного рынка и умении выявлять главные (решающие) факторы, под воздействием которых происходят ценовые колебания и формируются новые тренды. Фундаментальный анализ предполагает узкую специализацию не только в разрезе отдельных рынков, но и внутри каждого. К примеру, работая на валютном рынке, трейдеры специализируются на одной или нескольких взаимосвязянных валютах (американский и канадский доллары; британский и ирландский фунты; евро и швейцарские франки; российский рубль, казахское тенге и киргизский сом и т.д.), так как качественный фундаментальный анализ требует учета внутренних (для страны, с валютой которой работает трейдер) и внешних макроэкономических факторов.

Работа на фондовом рынке может быть эффективной при специализации трейдеров не только на видах ценных бумаг, но и в отраслевом разрезе (при работе с корпаративными акциями и облигациями). Для правильной оценки рыночной стоимости акции, трейдеру необходимо проанализировать макроэкономические, отраслевые факторы и оценить финансовые показатели конкретного эмитента. Такая работа предполагает обработку огромного количества статистической и другой необходимой информации, которая собирается из официальных и неофициальных источников.

К сожалению, в вузах республики студентов обучают только видам ценных бумаг, и очень мало внимания придается вопросам их рыночного ценообразования, расчетам уровня капитализации акций и расчетам эффекта сенергии. Знание этих вопросов на профессиональном уровне необходимо не только трейдерам, но и специалистам рейтинговых компаний, без которых финансовый рынок является неполноценным.

Успешное и более быстрое вхождение республики в ВТО возможно при создании финансовых рынков, а на их базе финансовых центров с последующим приданием им статуса

международных. Для этого необходимо уже сейчас осуществлять подготовку кадров в этом направлении.

Знание основ анализа финансовых рынков необходимо не только специалистам, но и рядовым инвесторам, к числу которых потенциально относится каждый человек, имеющий даже временно свободные средства. Операции на финансовых рынков являются не столько средством защиты от обесценения денег под воздействием различных рисков, они также позволяют получить дополнительные доходы.

Список использованной литературы:

1. Авдокушин Е. Ф. Международные финансовые отношения (основы финансономики). – М.: ИТК «Дашков и К°», 2012. – 132 с.

2. Адамбекова А. А. Центральный банк страны как мегарегулятор финансового рынка // Деньги и кредит. – 2012. – № 10. – С. 68–69.

3. Андрюшин С. Московский международный финансовый центр: стратегия формирования / С. Андрюшин, В. Кузнецова // Экономист. – 2011. – № 10. – С. 63–69.

3. Декларация саммита по финансовым рынкам и мировой экономике [Электронный ресурс] // Официальный сайт председательства Российской Федерации в «Группе двадцати». [2008].

4. Кожурин П. Е. Финанциализация как фактор развития мировой экономики // Вестник российского государственного гуманитарного университета. – 2010. – № 6. – С. 260–265.

5. Красавина Л. Н. Финансовый рынок как фактор инновационного развития экономики: системный подход // Банковское дело. –2008. – № 8 – С. 12–18.

O‘ZBEK ZARGARLIK TERMINLARINING SEMANTIK TARAQQIYOTI VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Yakubova Oybibi Atabekovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: oybibiyakubova@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22127396

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot o‘zbek zargarlik terminlarining semantik taraqqiyoti, tematik tasnifi va lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashga bag‘ishlangan. Zargarlik terminlari o‘zining nominativ vazifasi bilan bir qatorda xalqning tarixiy xotirasi, estetik qarashlari, urf-odatlari, oilaviy qadriyatlari va diniy-mifologik tasavvurlarini ifodalovchi muhim lingvomadaniy birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda zargarlik terminlari semantik va funksional xususiyatlariga ko‘ra taqinchoqlar, qimmatbaho metallar, qimmatbaho toshlar, bezak elementlari va marosim buyumlari kabi tematik guruhlarga ajratildi. Shuningdek, terminlarning semantik kengayishi, metaforizatsiya va ramziylashuv jarayonlari tahlil qilindi. Natijalar oltin, gavhar, javohir, marvarid kabi birliklarning bevosita predmet ma’nosidan tashqari ko‘chma va baholovchi ma’nolarda ham faol qo‘llanishini ko‘rsatdi. Tumor, tillaqosh, zebigardon, isirg‘a kabi milliy terminlar esa xalqning marosimiy va etnomadaniy tajribasi bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqot zargarlik terminologiyasini xalqning moddiy va ma’naviy madaniyatini aks ettiruvchi yaxlit lingvomadaniy tizim sifatida baholash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: zargarlik terminlari, semantik taraqqiyot, lingvomadaniyat, etnolingvistika, metaforizatsiya, ramziylashuv, tematik tasnif, milliy qadriyat, madaniy konsept.

Kirish. Til va madaniyat o‘zaro chambarchas bog‘liq hodisalar bo‘lib, xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatlari til birliklarida o‘z aksini topadi. Ayniqsa, kasb-hunar leksikasi muayyan xalqning moddiy madaniyati bilan bir qatorda uning ma’naviy olamini ham aks ettirishi bilan alohida ahamiyatga ega.

O‘zbek zargarlik terminlari shu jihatdan o‘ziga xos lingvistik qatlamni tashkil etadi. *Uzuk, sirg‘a, bilaguzuk, marjon, tillaqosh, zebigardon, tumor, gavhar, javohir, oltin* kabi birliklar bevosita zargarlik buyumlari va materiallarini nomlash bilan birga, tarixiy-madaniy tajriba, estetik qarashlar, oilaviy qadriyatlar va marosimiy tasavvurlarni ham ifodalaydi.

Zargarlik terminlarining semantik xususiyatlarini o‘rganishda ularning faqat lug‘aviy ma’nosi bilan chegaralanib qolmasdan, *konnotativ, ramziy va metaforik mazmunlarini* ham aniqlash muhimdir. Chunki ayrim terminlar vaqt o‘tishi bilan o‘zlarining dastlabki kasbiy ma’nolaridan tashqari umumxalq tilida ko‘chma ma’nolarda ham faol qo‘llana boshlagan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek zargarlik terminlarining semantik tuzilishi, tematik guruhlari, ma’no taraqqiyoti va lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari:

- zargarlik terminlarini tematik jihatdan tasniflash;
- ularning semantik munosabatlarini aniqlash;
- terminlarning ko‘chma va ramziy ma’nolarini tahlil qilish;
- zargarlik terminlarining marosim va urf-odatlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatish;
- terminlarning metaforizatsiya va semantik kengayish jarayonlarini aniqlash;
- zamonaviy zargarlik terminologiyasining rivojlanish tendensiyalarini tavsiflash.

Metodologiya. Tadqiqotda zargarlik terminlarining semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash uchun semantik, tavsifiy, tizimli va lingvomadaniy tahlil metodlari qo‘llanildi.

Tadqiqot materiali o‘zbek tilining izohli lug‘ati, etimologik manbalar, terminologik materiallar hamda zargarlik terminlarining amaliy qo‘llanishiga oid ma’lumotlardan tashkil topdi.

Dastlab terminlar ularning referensial ma’nosiga ko‘ra guruhlarga ajratildi. Keyingi bosqichda har bir guruh tarkibidagi birliklarning semantik munosabatlari o‘rganildi. Terminlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi esa metaforizatsiya va semantik kengayish nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

Lingvomadaniy tahlil jarayonida terminlarning urf-odatlar, oilaviy marosimlar, diniy tasavvurlar, estetik qarashlar va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq mazmunlari aniqlashtirildi.

Mazkur yondashuv zargarlik terminlarini faqat kasbiy leksika sifatida emas, balki milliy madaniyatning til orqali ifodalangan komponenti sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari o‘zbek zargarlik terminlarini besh asosiy tematik guruhga ajratish mumkinligini ko‘rsatdi:

Tematik guruh	Asosiy terminlar
Taqinchoqlar	uzuk, sirg‘a, bilaguzuk, marjon, zebigardon
Qimmatbaho metallar	oltin, kumush, platina
Qimmatbaho toshlar	yoqut, zumrad, feruza, gavhar, marvarid
Bezak elementlari	naqsh, filigran, emal, o‘ymakorlik
Marosim buyumlari	tumor, nikoh uzugi, kelin taqinchoqlari

Ushbu tasnif zargarlik terminologiyasining ichki tizimga ega ekanligini ko‘rsatadi. Guruhlar bir-biridan alohida mavjud bo‘lmay, semantik jihatdan o‘zaro bog‘langan. Masalan, qimmatbaho metall va toshlar taqinchoqlar tarkibiga kiradi, ayrim taqinchoqlar esa marosimiy vazifa bajaradi.

Semantik kengayish. Zargarlik terminlarining muhim xususiyatlaridan biri ularning semantik doirasi kengayib borishidir. Javohir termini dastlab qimmatbaho toshni anglatgan bo‘lsa, zamonaviy nutqda “bebaho boylik”, “eng qimmatli narsa” va “ma’naviy xazina” kabi ma’nolarda ham qo‘llanadi.

Oltin termini esa predmet ma’nosidan tashqari yuqori baholash konseptini ifodalaydi. Masalan: oltin yurak, oltin qo‘l, oltin davr, oltin imkoniyat.

Bu birikmalarda “oltin” moddiy metall emas, balki qadr, mukammallik, bebaho qiymat semalarini ifodalaydi.

Lingvomadaniy mazmun. Zargarlik terminlarining lingvomadaniy mazmuni ayniqsa marosimiy birliklarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Tumor termini bunga yorqin misoldir. Uning nominativ ma’nosi taqinchoq turi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, xalq madaniyatida u himoya, ezgulik, baraka va yomon ta’sirlardan asrash kabi tushunchalarni ham ifodalaydi. Chaqaloqlar va kelinlarga tumor taqish an’anasi terminning semantik tarkibida diniy, mifologik va etnomadaniy qatlamlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Tillaqosh, zebigardon, isirg‘a va marjon kabi terminlar ham ayolning estetik qiyofasi bilan chegaralanmay, uning oiladagi mavqei, ijtimoiy maqomi va marosimiy holatini ifodalovchi madaniy belgilar sifatida namoyon bo‘ladi. Kelin taqinchoqlarida yangi oilaga kirish, farovonlik va avlodlar davomiyligi kabi madaniy konseptlar mujassamlashadi.

Terminlarning struktur-semantik xususiyatlari. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘zbek zargarlik terminlari yasalish jihatidan ham xilma-xildir.

Sodda terminlar: uzuk, sirg‘a, munchoq, marjon.

Qo‘shma terminlar: tillaqosh, zebigardon, ko‘zmunchoq.

Terminologik birikmalar: nikoh uzugi, oltin bilaguzuk, kumush sirg‘a, marvarid marjon.

Bu holat o‘zbek zargarlik terminologiyasining ichki strukturaviy imkoniyatlari kengligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy semantik taraqqiyot. Bugungi zargarlik sanoati va raqamli kommunikatsiya yangi terminlarning paydo bo‘lishiga hamda mavjud terminlarning yangi kontekstlarda qo‘llanishiga sabab bo‘lmoqda.

3D dizayn, lazer o‘ymakorligi, rodiy qoplama, zirkon, kubik sirkoniy, eksklyuziv kolleksiya, mualliflik zargarligi kabi birliklar zamonaviy zargarlik nutqining faol qatlamiga kirib bormoqda. Internet-do‘konlar, reklama matnlari va ijtimoiy tarmoqlar esa bunday terminlarning keng jamoatchilik tiliga tezroq tarqalishini ta’minlamoqda.

Olingan natijalar zargarlik terminlarining semantik tabiati ularning nominativ vazifasidan ancha keng ekanligini ko‘rsatadi. Terminlar dastlab muayyan buyum yoki materialni nomlash uchun xizmat qilgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan ular xalqning baholash tizimi va madaniy konseptlarini ifodalovchi birliklarga aylangan.

Ayniqsa, oltin, gavhar, javohir, marvarid kabi birliklarning ko‘chma ma’nolarda qo‘llanishi zargarlik leksikasida “qimmat”, “bebaho”, “go‘zal”, “aziz” kabi semantik komponentlarning faol ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, zargarlik terminlarining semantik rivojlanishi metaforizatsiya va ramziylashuv jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Predmetning moddiy xususiyati — qimmatligi, yaltiroqligi, nafisligi yoki noyobligi — keyinchalik insonning ma’naviy va axloqiy sifatlarini baholash uchun metaforik asos vazifasini bajargan.

Lingvomadaniy jihatdan esa zargarlik terminlari xalqning tarixiy xotirasini saqlovchi birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, *tumor* kabi terminlarda diniy-mifologik tasavvurlar, kelin taqinchoqlari bilan bog‘liq birliklarda esa oilaviy va marosimiy qadriyatlar mujassamlashgan.

Shu sababli zargarlik terminlarini faqat terminologik lug‘at doirasida emas, balki lingvomadaniy birliklar tizimi sifatida ham o‘rganish zarur.

Xulosa. Tadqiqot natijalari o‘zbek zargarlik terminlari semantik jihatdan murakkab, tizimli va lingvomadaniy mazmunga boy birliklar ekanligini ko‘rsatdi.

Birinchidan, zargarlik terminlari taqinchoqlar, qimmatbaho metallar, qimmatbaho toshlar, bezak elementlari va marosim buyumlari kabi asosiy tematik guruhlarga ajraladi.

Ikkinchidan, ayrim terminlar o‘zining dastlabki nominativ ma’nosidan tashqari ko‘chma va ramziy ma’nolarni ham hosil qilgan. Oltin, gavhar, javohir, marvarid kabi birliklarning metaforik qo‘llanishi buning yaqqol dalilidir.

Uchinchidan, tumor, tillaqosh, zebigardon, isirg‘a kabi terminlar xalqning marosimlari, diniy tasavvurlari, oilaviy qadriyatlari va estetik qarashlari bilan bevosita bog‘langan. Shu sababli ular etnolingvistik va lingvomadaniy tadqiqotlar uchun muhim material hisoblanadi.

To‘rtinchidan, zamonaviy texnologiyalar, zargarlik sanoati va raqamli kommunikatsiya yangi terminlarning paydo bo‘lishi hamda mavjud birliklarning yangi semantik kontekstlarda qo‘llanishiga olib kelmoqda.

Umuman olganda, o‘zbek zargarlik terminologiyasi xalqning moddiy va ma’naviy madaniyatini o‘zida mujassamlashtirgan dinamik lingvistik tizimdir. Uning semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etish o‘zbek tilshunosligida terminologiya, tarixiy leksikologiya, etnolingvistika va lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. / A. Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020.
2. Pardayeva I. Zargarlik terminlarining tematik tasnifi // Journal of Universal Science Research. – 2023. – Vol. 1, № 5. – B. 266–270.
3. Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. – Тошкент: Фан, 1956. – 455 б.
4. Norbayeva, S. (2026, July). XORAZM SHEVALARI LEKSIKASIDA SUBSTRAT ASOSLI BIRLIKLAR: 10.52773/tsuull. conf. 2026.23. 05/EMTE8289. In *Conferences* (Vol. 1, No. 1).
5. Турсунов Т. Ўзбек тили амалий санъат лексикаси. – Тошкент: Фан, 1978. – 138 б.
6. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. – 615 б.
7. Shukurjon, N. (2016). Names of substances belonging to professional lexis in Khorezmian dialects borrowed from Iranian languages. *European journal of Literature and Linguistics*, (2), 14-16.
8. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.
9. Madvaliyev A. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.
10. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 91 b.

O‘SMIRLIK DAVRIDA AGRESSIV XULQ-ATVORNING BIOPSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Aminbayeva Bayansulu Maxsetbay qizi
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22127442

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘smirlik davrida kuzatiladigan agressiv xulq-atvorning biologik va psixologik yondashuv nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Ushbu maqolaning maqsadi o‘smirlik davridagi agressiv xulq-atvorni belgilovchi biopsixologik omillar ularning - neyroanatamik, neyromediator , gormonal, genetik-irsiy va psixofiziologik reaktivlik omillarini tizimli tahlil qilish va ularning ijtimoiy-psixologik muhit bilan o‘zaro ta’sirini ko‘rsatishdan iborat.
Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, agerssiv xulq-atvor, biopsixologik mexanizmlar, testosterone, limbik tizim, prefrontal koteks, kortizol, genetik.
Аннотация: В данной статье анализируется агрессивное поведение в подростковом возрасте с биологической и психологической точек зрения. Цель статьи - провести систематический анализ биопсихологических факторов (в частности, нейроанатомических, нейромедиаторных, гормональных, генетико-наследственных и факторов психофизиологической реактивности), определяющих агрессивное поведение подростков, а также продемонстрировать их взаимодействие с социально-психологической средой.
Ключевые слова: подростковый возрост, агрессивное поведение, биопсихологические механизмы, тестостерон, лимбическая система, префронтальная кораб, кортизол, генетические фактор.
Abstract: This article analyzes aggressive behavior during adolescence from both biological and psychological perspectives. The aim of the article is to systematically analyze the biopsychological factors determining aggressive behavior in adolescents—specifically neuroanatomical, neurotransmitter, hormonal, genetic/hereditary, and psychophysiological reactivity factors-and to elucidate their interaction with the socio-psychological environment.
Key words: adolescence, aggressive behavior, biopsychological mechanisms, testosterone, limbic system, prefronal cortex, cortisol, genetic.

Kirish. O‘smirlik inson ontogenezining biologik, psixologik va ijtimoiy jihatdan eng faol o‘zgarishlar kuzatiladigan davrlaridan biridir. Ushbu davrda organizmning fiziologik yetilishi bilan bir qatorda shaxsning o‘zini anglash, mustaqillikka intilish, tengdoshlar bilan munosabatlarini qayta tashkil etish va emotsional tajribalarni boshqarish jarayoni ham jadallashadi. Mazkur o‘zgarishlar ayrim hollarda xulq-atvorda keskinlik, impulsivlik, nizolarga moyillik va agressiv reaksiyaning kuchayishi bilan namoyon bo‘lishi mumkin.

Agressiya psixologiyada boshqa shaxsga, guruhga yoki obyektga zarar yetkazishga yo‘naltirilgan xatti-harakat, hissiy holat yoki xulqiy tendensiya sifatida o‘rganiladi. Biroq agressiyani faqat tashqi tajovuzkor xatti-harakat bilan chegaralash to‘g‘ri emas. Uning tarkibida g‘azab, dushmanlik, frustratsiyaga javob, imoulsiv reaksiya, o‘zini himoya qilish va maqsadga erishish uchun boshqalarga bosim o‘tkazish kabi turli psixologik mexanizmlar mavjud.

Zamonaviy tadqiqotlarda agressiyaning kelib chiqishi birgina sabab bilan izohlanmasligi ta’kidlanadi. Genetik moyillik, asab tizimining xususiyatlari, garmonal jarayonlar, temperament, emotsiyalarni bsohqarish , kognitiv nazorat va atrof-muhit omillari bir-biri bilan o‘zaro ta’sirlashadi. Genetik tadqiqotning tizimli sharhlari ham agressiyaning shakllanishida genetik omillar muhim bo‘lishi mumkinligini, biroq genlarning ta’siri muhit bilan o‘zaro munosbatda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, o‘smiragressiyasini o‘rganishda biopsixologik yondashuv alohida ahamiyatga ega. Chunki mazkur yondoshuv biologik va psixologik jarayonlarni bir biridan ajratmasdan, ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish imkonini beradi.

1. Neyroanatomik omillar

Zamonaviy neyrovizualizatsiya tadqiqotlari (funksional MRT) shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlik davrida miyaning turli qismlari bir xilda emas, balki noteks su’ratda rivojlanadi.Hissiyotlarni, xavf-xatarni idrok etishni va tezkor reaksiyalarni boshqaruvchi limbik tizim, xususan amigdala, bu davrda allaqachon yetuklashgan bo‘ladi. Ammo xulq-atvorni ongli nazorat qilish, oqibatlarni boshorat qilish, impulslarni tormozlash uchun javobgar bo‘lgan prefrontal konteks o‘zining to‘liq morfologik va funksional yetukligiga

faqat 22-25 yoshlarga kelib erishadi. Ushbu ikki tizim o‘rtasidagi rivojlanish nomutanosibligi “amigdala-prefrontal disbalansi” model deb ataladi. Natijada o‘smir kuchli emotsional qo‘zg‘alish holatida (jahl, xafagarchilik, tahdid hissi) bo‘lganida, uning miyasi kattalarnikiga qaraganda ko‘proq darajada limbic tizim, ya’ni “hissiy miya” boshqaruvi ish yuritadu, prefrontal konteksning tormozlovchi nazorati esa yetarli darajada ishga tushmaydi. Bu holat impulsive, o‘ylab ko‘rilmagan, ba’zan haddan tashqari kuchli agressiv reaksiyalarning paydo bo‘lishiga zamin yaratadi [1. 2006:B.296-312].

Bundan tashqari, bosh miya oq moddasining mielinlanish jarayoni ham o‘smirlik davrida davom etadi, bu esa nerv impulslarining tezligi va nervoyu tarmoqlar o‘stasidagi muvofiqlashuv sifatida bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mielinlanishning tugallanmaganligi trufayli miyaning turli bo‘limlari – ayniqsa hissiy va nazorat markazlari – o‘rtasidagi “aloqa” sekinroq va samarasizroq kechadi, bu ham o‘z navbatida xulqni tez va oqilona bsohqarishni qiyinlashtiradi.

2. Neyromediator tizimining roli

Agressiv xulq-atvorning kimyoviy asosini neyromediatorlar – miya hujayralari o‘rtasida signal uzatuvchi moddalar belgilaydi. Ilmiy adabiyotlarda eng ko‘p o‘rganilgan uch tizim quyidagilar hisoblanadi.

Serotonin tizimi. Serotonin darajasining pasayishi impulsive-agressiv xulqning eng barqaror biologik korrelyatlaridan biri sifatida tan olingan. Serotonin odatda tormozlovchi vazifani bajaradi – u impulslarni jilovlaydi va emotsional barqarorlikni ta’minlaydi. O‘smirli davrida gormonal o‘zgarishlar fonida serotoninergic tizim faoliyatining beqarorlashishi impulsiv tajovuzkorlik xavfini oshiradi.

Dofamin tizimi. Dofamin mukofat va motivatsiya tizimi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘smirlik davrida bu tizim ayniqsa faol ishlaydi. Yuqor dofaminergik faollik xavf-xatarga moyillikni, yangi va kuchli hissiy tajribalargas (shu jumladan tajovuzkor xatti-harakatlar orqali olinadigan “qoniqish”ga) intilishni kuchaytirishi mumkin.

GABA (gama-aminomoy kislotasi) tizimi. GABA markaziy asab tizimining asosiy tormozlovchi mediatori bo‘lib, uning yetishmovchiligi neyron qo‘zg‘alishining nazoratsiz kuchayishiga, natijada tashqi ta’sirlarga nisbatan haddan tashqari keskin va agressiv reaksiyalarga olib kelishi mumkin [2. 2008:B.111-126].

3.Gormonal omillar

O‘smirlik davri jinsiy balog‘atga yetish (pubertat) bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu davrda organizmda tub gormonal qayta qurish yuz beradi. Testosteron darajasining oshishi, ayniqsa o‘g‘il bolalarda, ijtimoiy dominantlik uchun kurash, raqobatbardoshlilik va ba’zi holatlarda jismoniy tajovuzkorlik darajasi bilan bog‘liqlikda bo‘lishi ko‘plab tadqiqtlarda qayd etilgan. Biroq bu bog‘liqlik chiziqli emas – testosterone ta’siri ko‘p jihatdan shaxsning ijtimoiy maqomiga, hurmatga bo‘lgan intilishi va muhitdagi normalar bilan o‘zaro ta’sirlashadi.

Stress gormoni – kortizolning roli ham muhim ahamiyat kasb etadi. Surunkali stress yoki bolalikdagi og‘ir tajribalar natijasida gipotalamus-gipofiz-buyrak usti bezi o‘qining(GGBO‘) faoliyati buzulishi mumkin. Bundan kortizol darajasining doimiy yuqori yoki, aksincha, g‘ayrioddiy past bo‘lishi agressiv va antisosial xulq bilan bog‘liqligi aniqlangan – past bazaal kortizol darajasi ba’zan xavf-xatarga past sezuvchanlik va jazodan qo‘rqmaslik bilan izohlanadi [4. 2010:B.216].

Qizlarda estrogen va progesterone garmoni darajasining tsiklik o‘zgarishi hissiy beqarorlikka, ba’zi davrda esa asabiylashuv va tajovuzkorlik ko‘rinishlarining kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin, garchi bu ta’sir individual xususiyatga ko‘ra sezilarli darjada farqlanadi.

4.Genetik va irsiy omillar

Egizaklar va asrab olingan bolalar ustidan o‘tkazilgan tadqiqtlar agressiv xulq-atvrorda irsiy omilning ma’lum darajadagi hissasini tasdiqlaydi. Xususan, MAOA geni (monoamine oksidaza A fermintini kodlovchi gen) faolligining pastligi bilan bog‘liq variant “jangari gen” nomi bilan mashhur bo‘lib, u bolalikda zoravonlik yoki e’tiborsizlikka duch kelgan shaxslarda agressiv-antisosial xulq rivojlanishi xavfini sezilarli darajada oshirishi ko‘rsatilgan. Bu misol “gen-muhit o‘zaro ta’siri” tamoyilining yorqin namunasi hisoblanadi: gen yakka holda taqdirini belgilamaydi, balki noqulay muhit sharoitida moyillikni kuchaytiradi.

Shu bilan birga, temperamentning irsiy asoslangan xususiyatlari –past frustratsiyaga chidamlilik, yuqori qozgaluvchanlik, sensatsiyaga(kuchli tassurotlarga) intilish- o‘smirlik davrida agressiv reaksiyalarniing namoyon bo‘lishini osonlashtiruvchi zamin yaratadi [3. 2002:B.851].

Xulosa

O‘smirlardagi agressiv xulq-atvor murakkab biopsixologik hodisa bo‘lib, uning shakllanishini bitta sabab bilan izohlash mumkin emas. Agressiya rivojida biologic yetilish, miya tizimining rivojlanish

xususiyatlari, genetik moyillik, gormonal o‘zgarishlar, temperament va psixologik nazorat mexanizmlari bilan chambarchas bog‘liq. Tahlil natijalariga ko‘ra, agressiv xulq-atvorning neyroanatomik asoslarida, avvalo, emotsional reaksiyalarni shakllantirishda ishtirok etuvchi limbik tizim va xatti-harakatlarni ongli ravishda boshqarish, impulslarni tormozlash hamda vaziyatning ehtimoliy oqibatlarini baholash bilan bog‘liq prefrontal korteksning rivojlanish xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. O‘smirlik davrida ushbu tizimlarning yetilish sur’atlari o‘rtasidagi nomutanosiblik kuchli emotsional qo‘zg‘alish sharoitida impulsiv reaksiyalarning yuzaga kelish ehtimolini oshirishi mumkin. Shu sababli o‘smirning agressiv javobi ayrim vaziyatlarda uzoq muddatli oqibatlarni yetarlicha baholamagan holda yuzaga keladigan tezkor emotsional reaksiya shaklida namoyon bo‘ladi.

Alohida ta’kidlash joizki, biologik omillar va ijtimoiy-psixologik muhitni bir-biridan mustaqil holda ko‘rib chiqish o‘smir agressiyasining mohiyatini to‘liq tushuntirib bera olmaydi. Oilaviy munosabatlar, tengdoshlar muhiti, ta’lim sharoiti, stressli vaziyatlar va shaxslararo nizolar biologik jihatdan sezuvchan o‘smirlarning agressiv reaksiyalarini kuchaytirishi yoki aksincha, ularning namoyon bo‘lishini cheklashi mumkin. Shu sababli agressiv xulq-atvorni biologik determinizm asosida emas, balki biologik predispozitsiya va psixologik-ijtimoiy tajribaning o‘zaro ta’siri nuqtayi nazaridan baholash ilmiy jihatdan asosliroqdir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Blakemore S.J., Choudhury S. Development of the adolescent brain: implications for executive function and social cognition // Journal of Child Psychology and Psychiatry. 2006. -Vol. 47, No. 3–4. - P. 296–312.
2. Casey B.J., Jones R.M., Hare T.A. The adolescent brain // Annals of the New York Academy of Sciences. - 2008. - Vol. 1124. - P. 111–126.
3. Caspi A. va boshq. Role of genotype in the cycle of violence in maltreated children // Science. — 2002. — Vol. 297. — P. 851–854.
4. Steinberg L. A dual systems model of adolescent risk-taking // Developmental Psychobiology. — 2010. — Vol. 52, No. 3. — P. 216–224.

MUSIQIY TA'LIMIDA SUN'IY INTELLEKT: IMKONIYATLAR, CHEKLOVLAR VA ISTIQBOLLAR (FORTEPIANO MISOLIDA)

Normurodova Lobar Mamasoliyevna
Navoiy davlat universiteti 2-kurs tayanch doktoranti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22127471

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining musiqa ta'limi jarayoniga integratsiyalashuvi xalqaro ilmiy adabiyotlar tahlili asosida ko'rib chiqiladi. Maqolada SI'ning musiqiy ta'limidagi asosiy qo'llanilish sohalari, ularning pedagogik imkoniyatlari, amaliyotda uchraydigan texnik cheklovlar, hamda sohaning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, SI texnologiyalari o'quv jarayonini individuallashtirish, real vaqtda fikr-mulohaza berish va o'qituvchining pedagogik yukini kamaytirish imkonini beradi, biroq hissiy-badiiy ifodani baholash, madaniy moslashuvchanlik va shaffoflik borasida jiddiy cheklovlarga ega. Xulosa qilib aytganda, SI'ni musiqa ta'limida inson o'qituvchisini almashtiruvchi emas, balki uni to'ldiruvchi hamkor sifatida integratsiyalashgan gibrid modellar eng samarali yondashuv hisoblanadi.
Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, musiqa ta'limi, fortepiano ta'limi, pedagogik innovatsiya, raqamli ta'lim texnologiyalari, individuallashtirilgan ta'lim.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматривается интеграция технологий искусственного интеллекта в процесс музыкального образования на основе анализа международной научной литературы. В статье анализируются основные направления применения ИИ в музыкальном образовании, их педагогические возможности, технические и этические ограничения, встречающиеся на практике, а также перспективы дальнейшего развития данной области. Результаты исследования показывают, что технологии ИИ позволяют индивидуализировать учебный процесс, обеспечивать обратную связь в режиме реального времени и снижать педагогическую нагрузку преподавателя, однако имеют существенные ограничения в оценке эмоционально-художественной выразительности, культурной адаптивности и прозрачности алгоритмов. В заключение отмечается, что наиболее эффективным подходом является внедрение гибридных моделей, в которых ИИ выступает не заменой, а дополняющим партнёром преподавателя-человека в музыкальном образовании.
Ключевые слова: искусственный интеллект, музыкальное образование, фортепианное образование, педагогическая инновация, цифровые образовательные технологии, индивидуализированное обучение.

ABSTRACT. This article examines the integration of artificial intelligence technologies into music education based on an analysis of international scientific literature. The article reviews the main areas of AI application in music education, their pedagogical opportunities, the technical and ethical limitations encountered in practice, and the future prospects of the field. The findings indicate that AI technologies enable the personalization of the learning process, real-time feedback, and a reduction in teachers' pedagogical workload, yet they face significant limitations in assessing emotional-artistic expression, cultural adaptability, and transparency. In conclusion, hybrid models that integrate AI as a complementary partner to, rather than a replacement for, the human teacher represent the most effective approach in music education.
Keywords: artificial intelligence, music education, piano education, pedagogical innovation, digital learning technologies, personalized learning.

So'nggi yillarda zamonaviy dunyoyimizda sun'iy intellekt texnologiyalari ta'limning turli sohalarida, jumladan musiqiy ta'limida ham tobora kengroq qo'llanilmoqda. Bu texnologiyalar ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quvchilarga real vaqtda fikr-mulohaza berish va o'qitish samaradorligini oshirish imkonini yaratmoqda [Mazlan va boshq., 2026. 12]. Xalqaro tadqiqotlar suniy intellektning musiqiy ta'limidagi qo'llanilish doirasini bir necha yo'nalishga ajratadi: ta'limni individuallashtirish, aqlli repetitorlik tizimlari, kompozitsiya yordamchilari, avtomatik baholash tizimlari, interaktiv eshitish va musiqa nazariyasi tizimlari, virtual hamkorlik vositalari, hamda nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun yordamchi texnologiyalar [Merchán Sánchez-Jara va boshq., 2024. 15]. Ayniqsa, ijro texnikasini (masalan, barmoqlarning holati, ritm, dinamika) tahlil qiluvchi tizimlarning aniqligi ba'zi tadqiqotlarda 90 foizdan yuqori ko'rsatkichlarga erishgani qayd etilgan.Shu bilan birga, AI’ning musiqa ta'limiga integratsiyasini

nazariy jihatdan asoslash borasida ham izlanishlar olib borilmoqda xususan, Texnologik-Pedagogik-Mazmuniy Bilim (TPACK) modeli, Almashtirish Kengaytirish O'zgartirish Qayta belgilash (SAMR) taksonomiyasi va Blumning yangilangan taksonomiyasi kabi pedagogik ramkalar suniy intellekt vositalarining o'qitish dizayni, o'quvchi jalb qilinishi va kognitiv rivojlanishga ta'sirini tushunish uchun qo'llanilmoqda Rui, Syawal Amran va Mohamad Nasri [2026.8] tomonidan Web of Science, IEEE Xplore, Scopus va ACM Digital Library bazalaridan 368 ta manbani skrining qilib, 33 tasini tahlil qilgan scoping-sharhida SI va raqamli texnologiyalarning aynan fortepiano ta'limida (xususan, notalarni ko'rib ijro etish ko'nikmasini rivojlantirishda) qo'llanilishining besh turi aniqlangan: aqlli repetitorlik tizimlari, kompyuter ko'rish va optik nota tanib olish, chuqur o'rganishga asoslangan patternlarni aniqlash, virtual/kengaytirilgan reallik ilovalari, hamda mobil yechimlari. Ushbu tahlil SI'ning tahliliy murakkabligi bilan o'quvchilar uchun qulayligi o'rtasida asosiy ziddiyat mavjudligini ko'rsatadi: yuqori samarali tizimlar katta hisoblash resurslarini talab qiladi, mobil yechimlar esa qulay bo'lsa-da, tahliliy salohiyati ancha zaifroq bo'ladi.Xuddi shu sharhda keltirilgan alohida empirik tadqiqotlar orasida ikkitasi bevosita amaliy platformalarga bag'ishlangan. Ruan [2024. 6] Current Psychology jurnalida chop etilgan tadqiqotida "Soft Mozart" nomli sun'iy intellekt asosidagi mustaqil fortepiano o'rganish ilovasining o'quvchilar motivatsiyasiga ta'sirini o'rgangan va bunday ilovalarning zamonaviy raqamli vositalar yordamida o'z-o'zini o'qitish jarayonini qanday rag'batlantirishini asoslab bergan. Shuningdek, Ng, Lui va Kwok [2015] tomonidan taqdim etilgan "Easy-to-learn piano" mobil ilovasi musiqa nazariyasi asoslari va fortepiano ijro ko'nikmalarini birlashtirgan holda o'qitishga qaratilgan tizim sifatida tavsiflangan.Bundan tashqari, xuddi shu ilmiy yo'nalishda fortepiano ijrosini chuqur o'rganish modellari orqali tahlil qiluvchi va baholovchi bir qator tadqiqotlar ham mavjud jumladan, Li [2022.18] va Liao [2022.21] tomonidan taklif qilingan neyron tarmoq modellari ijro texnikasini avtomatik tarzda baholash imkonini beradi, Huang va Ding [2022.24] esa SI bilan o’qitish jarayonida fortepiano musiqiy ta'limning umumiy transformatsiyasini tahlil qiladi. Bu ishlarning barchasi shuni tasdiqlaydi: fortepiano ta'limida SI qo'llanilishi endi nazariy taxmin emas, balki ko'plab mustaqil empirik tadqiqotlar bilan tasdiqlangan, faol rivojlanayotgan ilmiy yo'nalishdir.Tahlil qilingan adabiyotlar sun’iy intellekt texnologiyalarining musiqiy ta’limidagi eng muhim afzalliklaridan biri o‘quv jarayonini individuallashtirish imkoniyati ekanligini ko‘rsatadi. An’anaviy musiqiy ta’limida o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida bir nechta o‘quvchining individual ehtiyojlarini to‘liq nazorat qilishi qiyin. Ayniqsa, cholg’u ijrochiligi (fortepiano) kabi amaliy mashg‘ulotlarga asoslangan fanlarda har bir talabaning texnik tayyorgarligi, ijro tezligi, ritmni his qilishi, artikulyatsiyasi, dinamikasi va mustaqil mashq qilish darajasi bir-biridan sezilarli farq qiladi. Suniy intellekt asosidagi tizimlar talabaning bajarilgan topshiriqlari va ijro natijalarini tahlil qilib, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda keyingi mashqlarni individual ravishda tavsiya qilish imkonini beradi. Bunday yondashuv adaptiv ta’lim tamoyiliga mos keladi. Natijada talaba faqat umumiy topshiriqlarni bajarish bilan cheklanmay, aynan o‘zida mavjud muammolarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan mashqlarni bajarishi mumkin.

Cholg’u sozlari ta’limi jarayonida bunday imkoniyat, ayniqsa, o‘qituvchi bilan individual mashg‘ulotlar soni cheklangan sharoitlarda muhim ahamiyatga ega. Suniy intellekt o‘qituvchining o‘rnini egallamaydi, balki darsdan tashqari mustaqil mashg‘ulot vaqtida talabaga qo‘shimcha pedagogik yordam ko‘rsatadi.

Sun’iy intellektning yana bir istiqbolli yo‘nalishi musiqiy ijroni avtomatik tahlil qilishdir. Zamonaviy kompyuter ko‘rishi, audio signalni qayta ishlash va mashinali o‘rganish texnologiyalari yordamida ijroning ayrim parametrlarini avtomatik ravishda aniqlash imkoniyati kengayib bormoqda.Xususan, tizimlar nota tozaligi, ritmik aniqlik, temp, pauzalar, tovush balandligi, dinamika va ayrim hollarda artikulyatsiya kabi ko‘rsatkichlarni tahlil qilishi mumkin. Bu esa o‘quvchiga mashg‘ulot jarayonida tezkor fikr-mulohaza olish imkonini beradi.

An’anaviy cholg’u sozlari mashg‘ulotlarida o‘qituvchi ijroni tinglab, xatolarni aniqlaydi va tuzatish bo‘yicha tavsiyalar beradi. AI asosidagi vositalar esa ushbu jarayonning ayrim qismlarini avtomatlashtirish imkonini yaratadi. Masalan, talaba asarni mustaqil ijro etganidan so‘ng tizim ritmik xatolar yoki nota balandligidagi nomuvofiqliklarni aniqlab, ularni qayta mashq qilish uchun tavsiya berishi mumkin.Biroq avtomatik baholashni to‘liq pedagogik baholash bilan tenglashtirish mumkin emas. Chunki musiqiy ijroning badiiyligi faqat texnik aniqlik bilan belgilanmaydi. Musiqiy obraz, emotsional ifoda, jumlalarning tugashi, uslubiy talqin va ijrochining individual interpretatsiyasi kabi jihatlarni algoritm yordamida to‘liq baholash hali ham murakkab masala bo‘lib qolmoqda.Suniy intellekt texnologiyalarining musiqa ta’limidagi muhim yo‘nalishlaridan biri aqlli repetitorlik tizimlaridan foydalanishdir. Bunday tizimlar talabaning faoliyatini kuzatish, xatolarini aniqlash va keyingi o‘quv harakatlarini tavsiya qilish

imkoniyatiga ega.chlog’u sozlari ta’limi jarayonida xususan fortepiano ijro etishda aqlli repetitorlik tizimlaridan foydalanish o‘quvchining mustaqil mashg‘ulotlarini tashkil etishda ayniqsa foydali bo‘lishi mumkin. Masalan, tizim ma’lum bir asarning qaysi qismlarida xatolar ko‘p takrorlanayotganini aniqlashi va o‘quvchiga aynan shu fragmentlarni sekin tempda qayta mashq qilishni tavsiya qilishi mumkin.Bunday yondashuv talabaning o‘z-o‘zini nazorat qilish va refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Talaba o‘z ijrosini faqat o‘qituvchining bahosiga tayanib emas, balki raqamli tahlil natijalari asosida ham kuzatishi mumkin bo’ladi. Shu bilan birga, haddan tashqari texnologik nazorat o‘quvchining mustaqil musiqiy qaror qabul qilish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli ham mavjud. Agar talaba har bir ijro qarorini algoritm tavsiyasiga bog‘lab qo‘ysa, uning ijodiy mustaqilligi va individual ijrochilik uslubi cheklanishi mumkin. Shu sababli aqlli repetitorlik tizimlari pedagogik rahbarlik bilan uyg‘unlashtirilishi maqsadga muvofiq bo’ladiZamonaviy musiqa o‘qituvchisi nafaqat cholg‘u ijrochiligi va pedagogik metodikani, balki raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga maqsadli integratsiya qilish ko‘nikmalarini ham egallashi lozim bo’lmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi suniy intellekt yordamida o‘quvchining ijrosini tahlil qilish, raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish, individual mashg‘ulotlarni rejalashtirish va texnologiya yordamida qayta aloqa tashkil etish imkoniyatlarini bilishi muhim. Shu nuqtai nazardan, SI savodxonligi bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining raqamli pedagogik kompetensiyasining tarkibiy qismiga aylanishi mumkin. Biroq texnologiyadan foydalanishning o‘zi yetarli emas. O‘qituvchi qaysi holatda SI vositasidan foydalanish, qaysi vaziyatda esa an’anaviy pedagogik yondashuvni qo‘llash samaraliroq ekanligini ham bilishi lozim bo’ladi.

Adabiyotlar tahlili SI texnologiyalaridan foydalanish bilan bog‘liq qator muammolar mavjudligini ham ko‘rsatadi. Birinchi muammo algoritmlarning natijani shakllantirish mexanizmining har doim ham tushunarli emasligidir. Bu holat pedagog uchun algoritm tomonidan berilgan bahoning pedagogik asoslarini tushunishni qiyinlashtirishi mumkin.Ikkinchi muammo esa ma’lumotlar bazasining madaniy va uslubiy bir tomonlamaligi. Agar algoritm ma’lum musiqa madaniyatlari, ijro maktablari yoki musiqiy janrlar asosida ko‘proq o‘qitilgan bo‘lsa, boshqa madaniy muhitga mansub musiqiy materiallarni baholashda xatolik yuzaga kelish ehtimoli baland. Uchinchi muammo musiqaning badiiy va emotsional jihatlarini avtomatik baholash bilan bog‘liq. Texnik jihatdan mukammal ijro har doim ham yuqori darajadagi badiiy ijroni anglatmaydi. Shu sababli SI tomonidan berilgan texnik baho pedagogning professional-estetik bahosi bilan to‘ldirilishi kerak bo’ladi. Bundan tashqari, texnologik vositalardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan texnik infratuzilma, internet sifati, zamonaviy qurilmalar va dasturiy ta’minotga ega bo‘lish imkoniyati barcha ta’lim muassasalarida bir xil emas. Bu esa raqamli tengsizlik muammosini yuzaga keltirishi mumkin. O‘zbekiston musiqiy ta’lim sharoitida SI texnologiyalaridan foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri fortepiano va boshqa cholg‘u fanlarida mustaqil mashg‘ulotlarni qo‘llab-quvvatlash tizimlarini yaratishdir. Kelajakda o’zbek tilidagi pedagogik interfeysga ega, mahalliy o‘quv dasturlari asosida ishlaydigan hamda o‘zbek bastakorlarining asarlarini tahlil qila oladigan SI platformalarini ishlab chiqish muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot natijalari musiqiy ta’limida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonini individuallashtirish, musiqiy ijroni texnik jihatdan tahlil qilish, tezkor fikr-mulohaza berish va o‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlarini qo‘llab-quvvatlash uchun katta imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, cholg’u sozlari ta’limi jarayonida SI asosidagi avtomatik tahlil va aqlli repetitorlik tizimlari talabaning individual ehtiyojlarini aniqlash hamda mashg‘ulot jarayonini moslashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, SI texnologiyalarining imkoniyatlarini mutlaq pedagogik yechim sifatida baholash to‘g‘ri bo’lmaydi. Algoritmik baholashning cheklanganligi, musiqiy badiiylik va emotsional ifodani to‘liq anglashdagi qiyinchiliklar, ma’lumotlar bazasidagi bir tomonlamalik hamda raqamli tengsizlik kabi muammolar ushbu texnologiyalardan ehtiyotkorlik bilan foydalanishni talab etadi.

Shu sababli musiqiy ta’limida eng maqbul yondashuv SI va o‘qituvchi faoliyatini qarama-qarshi qo‘yish emas, balki ularni o‘zaro to‘ldiruvchi tizim sifatida tashkil etishdan iborat. Bunda SI texnik tahlil, monitoring va individual tavsiyalarni taqdim etuvchi vosita sifatida, o‘qituvchi esa musiqiy-badiiy talqin, pedagogik qaror qabul qilish, motivatsiya va shaxsiy rivojlanishni boshqaruvchi asosiy subyekt sifatida faoliyat yuritishi mumkin.O‘zbekiston sharoitida esa ushbu yo‘nalishdagi keyingi tadqiqotlar mahalliy musiqa ta’limi dasturlari, milliy repertuarlar va talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda SI asosidagi pedagogik modellarni ishlab chiqishga qaratilishi maqsadga muvofiq. Xususan,cholg’u sozlari (fortepiano) ta’limi jarayonida SI vositalaridan foydalanishning bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga ta’sirini tajriba-sinov asosida o‘rganish istiqbolli ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Cui, K. Artificial intelligence and creativity: piano teaching with augmented reality applications // Interactive Learning Environments. 2023. Vol. 31, No. 10. P. 7017–7028. https://doi.org/10.1080/10494820.2022.2059520

2.Huang, N., Ding, X. Piano music teaching under the background of artificial intelligence // Wireless Communications and Mobile Computing. 2022. Vol. 2022. Art. 5816453. https://doi.org/10.1155/2022/5816453

3.Li, W. Analysis of piano performance characteristics by deep learning and artificial intelligence and its application in piano teaching // Frontiers in Psychology. 2022. Vol. 12. Art. 751406. https://doi.org/10.3389/fpsyg.2021.751406

4.Liao, Y. Educational evaluation of piano performance by the deep learning neural network model // Mobile Information Systems. 2022. Vol. 2022. Art. 6975824. https://doi.org/10.1155/2022/6975824

6.Mazlan, C. A. N., Hanafi, H. F., Sarifin, M. R., Md Noor, A. R., Sadykova, S. A., Hidayatullah, R., Jamnongsarn, S. Artificial intelligence applications and pedagogical challenges in music education // Discover Education. 2026. Vol. 5. Art. 140. https://doi.org/10.1007/s44217-026-01127-3

7.Merchán Sánchez-Jara, J. F., González Gutiérrez, S., Cruz Rodríguez, J., Syroyid Syroyid, B. Artificial Intelligence-Assisted Music Education: A Critical Synthesis of Challenges and Opportunities // Education Sciences. 2024. Vol. 14, No. 11. P. 1171. https://doi.org/10.3390/educsci14111171

8.Ng, S. C., Lui, A. K., Kwok, A. C. Easy-to-learn piano: A mobile application for learning basic music theory and piano skill // International Conference on Technology in Education. Berlin, Heidelberg: Springer, 2015. P. 103–112. https://doi.org/10.1007/978-3-662-48978-9_10

9.Ruan, W. Increasing student motivation to learn the piano using modern digital technologies: independent piano learning with the soft Mozart app // Current Psychology. 2024. Vol. 43. P. 33998–34008. https://doi.org/10.1007/s12144-024-06924-3

UO‘K: 632.76:631.563(575.1)

MAGNOFOS 66% TABL. FUMIGANTINING *SURINAM UNXO‘RI (ORYZAEPHILUS SURINAMENSIS L.)* **ZARARKUNANDASIGA** QARSHI SAMARADORLIGI

Avazov Sanjar Salimjonovich
O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti
https://orcid.org/0009-0005-1131-1386
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22127527

Annotatsiya: Ushbu maqolada *surinam unxo‘ri (Oryzaephilus surinamensis L.)* zararkunandasiga qarshi qishloq xo‘jalik mahsuloti yuklanmagan fumigatsiya kamerasini Magnofos 66% tabl. (fumigant) kimyoviy preparatlari bilan zararsizlantirish tajribasi ma’lumoti berilgan.
Kalit so‘zlar: mahsulot, degazatsiya, zararsizlantirish, zaxira, fumigant.
Аннотация: В данной статье против вредителя мукоедки суринамской (Oryzaephilus surinamensis L.) в фумигационной камере без загрузки сельскохозяйственной продукции применяется Магнофос 66% табл. Приведены сведения об опыте обеззараживания химическими препаратами (фумигантами).
Ключевые слова: продукт, дегазация, обезвреживание, запас, фумигант.
Abstract: In this article, Magnofos 66% tablets are used against the Surinam flour beetle pest (Oryzaephilus surinamensis L.) in a fumigation chamber without loading agricultural products. Information is provided on the experience of disinfection with chemical preparations (fumigants).
Keywords: product, degassing, decontamination, stock, fumigant.

Kirish. G.Marina va boshqalar tadqiqot ishlarida fosfin asosli fumigantlarning ombor zararkunanda (Surinam unxo‘ri, don parmalovchisi, to‘g‘nog‘ichsimon mo‘ylovli kichik un mitasi va kichik un mitasi)larining tuxum bosqichiga ta’sirini o‘rgangan. Zararkunandalarning tuxumlari 50-1000 ppm oralig‘idagi fosfin konsentratsiyalarida 1 kundan 7 kungacha bo‘lgan muddatda fumigatsiya qilingan. Tuxumlarning lichinka chiqish darajasi aniqlanib, fosfin konsentratsiyasi va ta’sir davomiyligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi prognoz modellari tuzilgan. Fosfin asosli fumigantlarg rezistentligini boshqarishda tuxum bosqichining ahamiyati juda katta ekanligini tasdiqlaydi. Fosfinning optimal konsentratsiyasi va ta’sir davomiyligini to‘g‘ri tanlash ombor zararkunandalariga qarshi kurash samaradorligini oshirishda muhim hisoblanishini ta’kidlagan [1; 294-b.].

A.Radek va boshqalar ta’kidlashicha fosfin (PH_3) butun dunyoda saqlanayotgan mahsulot zararkunandalariga qarshi kurashda keng tarqalgan fumigant hisoblanagan. Chexiyada don omborlaridan yig‘ilgan 56 tur ombor zararkunandalari (*Sitophilus oryzae*, *Oryzaephilus surinamensis* va *Rhyzopertha dominica*) ustida o‘tkazilgan tadqiqotlar quyidagi natijalarni bergan: Umumiy holat: Tekshirilgan populyatsiyalarning qariyb 43 foizi fosfinga nisbatan chidamlilik belgilarini namoyon etgan [2; 1162-b.].

S.A.Sayeda va boshqalar *Oryzaephilus surinamensis* va *Tribolium confusum* imagolariga qarshi karbonat angidiritli muhiti va fosfin aralashmalarining samaradorligi o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan. Modifikatsiyalangan muhitdan (MA) foydalanish ekologik jihatdan xavfsiz bo‘lsada, zararkunandalarni to‘liq yo‘q qilish uchun uzoq vaqt talab etishi uning asosiy kamchiligi hisoblangan. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatganki, CO_2 gazi va fosfinning (PH_3) past dozalari (tavsiya etilgan dozaning 50% miqdori) kombinatsiyasi ushbu muammoni bartaraf etish imkonini bergan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, CO_2 va fosfin (0,5 mg/l) birgalikda qo‘llanilganda, *Oryzaephilus surinamensis* va *Tribolium confusum* imago bosqichlarining 100% nobud bo‘lishi 6 soat ichida qayd etilgan. Taqqoslash uchun: 85% konsentratsiyali CO_2 gazi alohida qo‘llanilganda bunday natijaga erishish uchun kamida 36 soat talab etilgan [3; 1933–1941-b.].

Ombor zararkunandalarini yo‘qotishda, ko‘chat va meva maxsulotlarini zararsizlantirish ishlari olib borilgan. Ombor mahsulotlari saqlanish va tashishdan oldin zaxarli moddalarning bug‘i yoki gazlari bilan dimlanadi. Yaxshi ta’sir qiladigan, maxsulotlarga juda kam singadigan va gazi tez shamollaydigan fumigantlardan quyidagi maxsulotlarni fumigatsiya kilish uchun tavsiya etilgan (Ro‘yxat, 2010): Kvikfos - 5 g/m^3, Fosfoktin - 3 g/m^3, Depos - 5 g/m^3. Zararsizlantirish ishlari maxsus fumigatsiya guruxlari tomonidan (shaxsiy va jamoat xavfsizligi choralariga rioya kilgan xolda) bajarilgan [4; 318-319-b.].

Omborlarda zararkunandalarga qarshi kurashishda kimyoviy usullar ham keng qo’llaniladi. Bular zararsizlantirish (fumigatsiya) fumigantlar bilan ishlov berishni o’z ichiga oladi. Fumigantlar mahsulotga chuqur kirib borib zararkunandaning turli bosqichlariga ta’sir qiladi. Shu bilan birga omborlarda mahsulotlarni saqlash jarayonida muntazam monitoring olib boorish, yangi hosilni qabul qilishdan oldin binolarni tozalash, asbob-uskunalar, dasgohlarni zararsizlantirish orqali mahsulot sifatini saqlash hamda iqtisodiy zararlarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega [5; 34-36-b.].

Omborlarda zararkunandalarga qarshi kurashishda kimyoviy usullar ham keng qo‘llaniladi. Bular zararsizlantirish (fumigatsiya) fumigantlar bilan ishlov berishni o‘z ichiga oladi. Fumigantlar mahsulotga chuqur kirib borib zararkunandaning turli bosqichlariga ta’sir qiladi. Shu bilan birga omborlarda mahsulotlarni saqlash jarayonida muntazam monitoring olib boorish, yangi hosilni qabul qilishdan oldin binolarni tozalash, asbob-uskunalar, dasgohlarni zararsizlantirish orqali mahsulot sifatini saqlash hamda iqtisodiy zararlarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqot umumiy entomologiya hamda qishloq xo‘jaligi entomologiyasida keng qo‘llaniladigan kuzatish, taqqoslash va matematik statistik tahlil usullari yordamida bajarildi.

Fumigantlarni ishlatish qonun qoidalari xalqaro fitosanitar zararsizlantrish 43-standarti asosida bajarildi [6]. Surinam unxo’riga qarshi kurash choralari bo’yicha zararsizlantirish tajribalari Ya.B.Mardkovich uslubidan foydalanildi [7]. Pestisidlarni samaradorligini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar Sh.T.Xo‘jayev tomonidan tavsiya etilgan uslubiy qo‘llanmalar asosida olib borildi [8]. Tajribalardan olingan natijalar B.A.Dospexovning uslubiy qo‘llanmasi yordamida matematik tahlil qilindi [9]. Kimyoviy preparatlarning biologik samaradorligi W.Abbott formulasi yordamida hisoblandi [10].

Surinam unxoriga qarshi kimyoviy kurash choralarini olib borish maqsadida O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot institutida mahsulot yuklanmagan 3 metr^3 hajmdagi fumigasiya kamerasida surinam unxo‘rga qarshi zararsizlantirish laboratiorya tajribasini olib bordik.

Surinam unxo‘rga qarshi kurashda Magnofos 66% tabl. *(Magniy fosfid)* preparatini 2,0-3,0 g/m^3 sarf me’yorlarda qo‘llab tajriba davom ettirdik. Fumigatsiya kamerasini ichki hajmi 3 metr kub. Fumigatsiya kamerasida surinam unxo‘ri *(O.surinamensis*) zararkunandasiga qarshi kurashda Magnofos 66% tabl. (*Magniy fosfid*) preparati bilan ishlov berildi.

Andozada Magtoksin 56% tabl. *(Magniy fosfid)* preparati olindi. Tajribalar 3 metr kubli fumigatsiya kameralarida o‘tkazildi. Birinchi variant tajriba, ikkinchi varianti tajriba, uchinchi varianti (andoza) va to‘rtinchi variant nazorat (ishlovsiz)lar uchun har biriga 35 donadan surinam unxo‘ri zararkunandasini imagolaridan 0,3 litr plastik bonkaga solib mato bilan berkitildi.

Barcha variantlarda fumigatsiya kamerasiga surinam unxo‘ri zararkunandalari solingan plastik bonkalar joylashtirildi.

Fumigatsiya kameralarida surinam unxo‘r zararkunandasiga qarshi Magnofos 66% tabl. preparatini 2,0-3,0 g/m^3 sarf-me’yorlarda qo‘llab biologik samaradorligini o‘rganish uchun tajribalar olib borildi. Degazatsiyadan keyin 1-3-5-kunlari fumigatsiya kamerasiga qo‘yilgan zararkunandalar ko‘rildi. Tajribaga qo‘yilgan zararkunandalar tirik va nobud bo‘lganlari hisob qilindi.

Yuqoridagi surinam unxo‘ri (*O.surinamensis*) zararkunandasiga qarshi birinchi variant (tajriba) Magnofos 66% tabl. (*Magniy fosfid*) preparatidan 1 metr kub uchun 2,0 g/m^3 dan qo‘llanildi. Ikkinchi variant (tajriba) Magnofos 66% tabl. (*Magniy fosfid*) preparatidan 1 metr kub uchun 3,0 g/m^3 dan qo‘llanildi. Uchinchi variant (andoza) Magtoksin 56% tabl. *(Magniy fosfid)* preparatidan 1 metr kub uchun 3,0 g/m^3 dan qo‘llanildi. Ya’ni, fumigatsiya kamerasida surinam unxo‘ri zararkunandasiga qarshi Magnofos 66% tabl. preparatini samaradorligini o‘rganish uchun tajribalar olib borildi.

Tadqiqot natijalari. Tajriba natijalariga ko‘ra, surinam unxo‘ri zararkunandasiga qarshi Magnofos 66% tabl. preparati 2,0 g/m^3 sarf-me’yorda tajriba o‘tkazilgandan keyin samaradorlik degazatsiyadan keyin 85,7%, 1-kuni 94,3%, 3-kuni 100%, 3,0 g/m^3 sarf-me’yorda esa degazatsiyadan keyin 91,4%, 1-kuni 100%, Magtoksin 56% tabl. (*Magniy fosfid*) 3,0 g/m^3 sarf-me’yorda samaradorlik degazatsiyadan keyin 88,6%, 1-kuni 91.4%, 3-kuni 100% samaradorlik kuzatildi.

Jadval¶

Mahsulot·yuklanmagan·bo‘sh·fumigatsiya·kamerasida·Magnofos·66%·tabl.·(fumigant)·kimyoviy·preparatini·surinam·unxo‘ri·*(Oryzaephilus·surinamensis·L.)*·qarshi·biologik·samaradorligi¶

(Toshkent·viloyati,·Qibrau·tumani,·O‘simliklar·karantinin·va·himoyasi·ilmiy·tadqiqot·instituti·3·m³·fumigatsiya·kamerasi·ekspozisiya·3·sutka,·+10·°C·dan·past·bo‘lmagan·haroratda,·2023-2025·yy.)¶

T/r¤	Tajriba·variantlari¤	Ta’sir·etuvchi·modda¤	Prepa-ratlar·sarf-me’yori,·g/m³¤	3·m³·dagi·zararkunanda·soni,·dona¤					Biologik·samaradorlik,·%¤			
				Ishlov-gacha¤	Ishlovdan·keyingi·kunlar¤				Degazatsiyadan·keyin¤	Degazatsiyadan·keyingi·kunlar¤		
					Degazatsiyadan·keyin¤	1¤	3¤	5¤		1¤	3¤	5¤
1.¤	Magnofos·66%·tabl.¤	Magniy·fosfid¤	2,0¤	35,0¤	5,0¤	2,0¤	-º¤	-¤	85,7¤	94,3¤	100¤	100¤
2.¤			3,0¤	35,0¤	3,0¤	º-¤	-º¤	-¤	91,4¤	100¤	100¤	100¤
3.¤	Magtoksin·56%·tabl.·(andoza)¤	Magniy·fosfid¤	3,0¤	35,0¤	4,0¤	º3,0¤	-º¤	-¤	88,6¤	91,4¤	100¤	100¤
4.¤	Nazorat·(ishlovsiz)¤	-¤	-¤	35,0¤	37,1¤	38,6¤	39,2¤	40,2¤	-¤	-¤	-¤	-¤

Xulosa. Tadqiqotlar olib borilgan qishloq xo‘jalik mahsuloti yuklanmagan fumigatsiya kamerasida surinam unxo‘riga qarshi kimyoviy kurashda Magnofos 66% tabl. *(Magniy fosfid)* fumigantidan 3,0 g/m^3 sarf-me’yorda degazatsiyadan keyingi 1-kuni 100% biologik samaradorlik qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Marina G., Maria K.S., Evmorfia P.B., Carolin G., Christos T.N. and Christos G.A. Modeling the Efficacy of Phosphine on Eggs of Major Stored-Product Insect Species: Investigating Strains with Varying Susceptibility Levels. Agriculture; Volume 15, Edition 3, - 2025. – P. 294.
2. Radek Aulicky, Vaclav Stejskal, Barbora Frydova and Christos Athanassiou Evaluation of Phosphine Resistance in Populations of Sitophilus oryzae, Oryzaephilus surinamensis and Rhyzopertha dominica in the Czech Republic. Insects 2022, 13(12), – P. 1162;
3. Sayeda S. Ahmed, Magda H. Naroz, Mohsen A. El-Mohandes. Use of modified atmospheres combined with phosphine in controlling stored date fruit pests, Oryzaephilus surinamensis and Tribolium confusum, and effect on the fruit chemical properties Original Research Article Published: 13 January 2022 Volume 42. – P. 1933-1941.
4. Sulaymonov O.A. Umumiy va qishloq xo‘jalik entomologiyasi hamda uyg‘unlashgan himoya qilish tizimining asoslari. Toshkent OOO «Yangi Nashr Nashriyoti» (IV-Nasr). –2019. – B. 318-319.
5. **Maxmudxo‘jaev N.M.** Zaxira mahsulotlari zararkunandalari va ularga qarshi kurash. Qo‘llanma – Toshkent, 2016 y. – B. 34-36.
6. Требования к использованию фумигации в качестве фитосанитарной меры. Секретариатом Международной конвенции по карантину и защите растений. Международный стандарт по фитосанитарным мерам № 43. Рим. Опубликован ФАО от имени. Секретариата Международной конвенции по карантину и защите растений (МККЗР). – С. 9-11.
7. Мардкович Я.Б. Методически указания по фумигация (обеззараживанию) подкарантинной продукции, складиких и производственных помещений смесью бромистого метила и препаратов фосфина. Москва, 2006. – С. 11-14.
8. Хўжаев Ш.Т. Инсектицид, акарицид, фунгицид ва биологик фаол моддаларни синаш бўйича услубий кўрсатмалар (II-нашр).–Тошкент: «Ком-ДАР», 2004. – Б. 61-63.
9. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. – М.: Агропромиздат, 1985. – С. 251.
10. Abbot W.S. A method of computing the effectiveness of an insecticide // J.Econ. Entomol. 1925. -№18. – Б. 265-267.

BETON QORISHMALARI UCHUN PLASTIKLASHTIRUVCHI QO’SHIMCHALARDAN FOYDALANISH ENG SAMARALI USULDIR

Bekmurodov Azamat Alisher o’g’li,
azamatbekmurodov26@gmail.com
Ismailov Feruz Sabirovich
t.f.f.d., katta ilmiy xodim,
ismoilovferuz54@gmail.com +998912102555
Karimov Mas’ud Ubaydulla o’g’li
t.f.d.prof
Toshkent Kimyo texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22127612

Abstract. The plasticizing effect of polycarboxylates lasts 3-4 times longer compared to sulfomelanin, sulfonated naphthalene formaldehyde, or lignosulfonates. The superiority of polycarboxylate superplasticizers over superplasticizers based on sulfonated naphthalene formaldehyde and lignosulfonates, as well as other analogues, is clearly demonstrated by their main performance indicators. This not only allows for an increase in the workability of the concrete mix in the initial stages but also helps maintain it for an extended period. This, in turn, has a positive impact by extending the transportation time of concrete mixes from plants to construction sites.
Keywords: plasticizing additives, polycarboxylate superplasticizers, steric effect, air penetration, melting, water reducing effect.
Annotatsiya. Polikarboksilatlarning plastifikatsiyalovchi ta’siri sulfomelanin, sulfolangan naftalin formaldegid yoki lignosulfonatlarga nisbatan 3-4 marta uzoqroq davom etadi. Polikarboksilatli superplastifikatorlarning sulfatlangan naftalin formaldegid va lignosulfonatlar hamda boshqa analoglar asosidagi superplastifikatorlardan ustunligi ularning asosiy ko‘rsatkichlari bilan yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu nafaqat dastlabki bosqichlarda beton qorishmasining qo‘zg‘aluvchanligini oshirishga imkon beradi, balki uni uzoq vaqt saqlashga ham yordam beradi. Bu esa, o‘z navbatida, beton qorishmalarini zavodlardan qurilish maydonchalarigacha tashish vaqtini uzaytirish orqali ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.
Tayanch so‘zlar: plastifikatsiyalashtiruvchi qo‘shimchalar, polikarboksilat superplastifikatorlar, sterik ta’sir, havo kirishi, suyuqlanishi, suvni kamaytiruvchi ta’siri.

Sement kompozitsiyalarining sifatini oshirish uchun yuqori samarali plastiklashtiruvchi qo’shimchalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Qurilish sanoatida xomashyo aralashmalarining harakatchanligi va tayyor mahsulotlarning xususiyatlarini maqsadli ravishda o’zgartirish imkonini beradigan kontsentratsiyali suspenziyalarning tuzilish jarayonlari va reologik xususiyatlarini tartibga solish uchun superplastifikatorlar-organik kimyoviy qo’shimchalardan foydalaniladi. Faza ajratish yuzasini o’zgartirish va dispersiyalarning reologik xususiyatlarini o’zgartirishga imkon beradigan yangi samarali qo’shimchalarni izlash dolzarb vazifadir.

Hozirgi vaqtda tsement beton asosiy konstruktiv material bo’lib qolmoqda, shuning uchun uning texnologik mustahkamligi va mustahkamligini yaxshilash muammolari dolzarbdir. Beton va temir-beton ishlab chiqarishda eng ko’p qo’llaniladigan qo’shimchalardan birinchi navbatda plastifikatsiyalashtiruvchi qo’shimchalar bo’lib, ular orasida mutaxassislar va olimlarning alohida e’tiborini polikarboksilat asosidagi superplastifikatorlar (giperplastifikatorlar) jalb qiladi. Beton ishlab chiqarish texnologiyasida superplastifikatsiya qiluvchi qo'shimchalarni ishlatishning tasnifi va mexanizmi, ijobiy va ayni paytda salbiy tomonlari berilgan. Zamonaviy qurilishda murakkab loyihalarni amalga oshirish samarali va yuqori sifatli betonlarni ishlab chiqishni talab qiladi, ularni beton texnologiyasida plastifikatsiyalashtiruvchi qo’shimchalarsiz hal qilib bo’lmaydi. Plastifikatsiyalash qo’shimchalari yuqori samaradorlik bilan ajralib turadi va plastifikatsiya qiluvchi qo’shimchalar beton va armaturaga salbiy ta’sir ko’rsatmaydi. Beton va temir-beton mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligi va sifatini oshirish vazifasi juda dolzarb bo’lib va beton qorishmalariga kimyoviy qo’shimchalardan foydalanmasdan to’liq muvaffaqiyatli hal etib bo’lmaydi. Kimyoviy qo’shimchalar bilan beton qorishmasining xususiyatlarini yaxshilashning eng oddiy va eng qulay texnologik usullaridan biri bo’lib, ishlab chiqarish birligiga xarajatlar darajasini sezilarli darajada kamaytirishi, temir-beton konstruktsiyalarning keng assortimenti sifati va samaradorligini oshirishi va xizmat ko’rsatish darajasini oshirishi mumkin. So‘nggi yillarda yuqori

samarali va o‘z-o‘zidan zichlanadigan betonlarni ishlab chiqishga superplastifikatorlar, ayniqsa polikarboksilat superplastifikatorlari qo’shish orqali erishildi. Beton tayyorlashning zamonaviy texnologiyasida qo’shimcha modifikatorlar beton qorishmasining bog’lovchilar, to’ldiruvchilar va suv bilan bir qatordagi majburiy komponenti hisoblanadi. Betondagi qo’shimchalar betonning sifatini yaxshilash, unga o’ziga xos xususiyatlar berish, qurilish ishlarini tezlashtirish, qurilish jarayonini narxini kamaytirish maqsadida ishlatiladi[1]. Bu qo‘shimchalar beton tarkibidagi suv miqdorini (40% gacha) an’anaviy lignosulfonat, melamin yoki naftalin asosidagi superplastifikatorlarga nisbatan sezilarli darajada kamaytiradi. Suv miqdorining kamayishi g‘ovaklikning pasayishiga olib keladi, bu esa betonning mexanik mustahkamligi va chidamliligini oshiradi. Ushbu qo‘shimchalar betonning harakatchanligi va reologik xususiyatlarini yaxshilaydi, yetib borish qiyin bo‘lgan joylarga quyishni osonlashtiradi hamda armaturani yanada samarali qoplash imkonini beradi [2]. Polikarboksilat qo‘shimchalarining tuzilishi karboksilat va efir guruhlari yon zanjirlari bo‘lgan chiziqli uglevodorod asosidan iborat. Ularning sement zarrachalariga karboksilat guruhlari vositasida adsorbsiyalanishi uzun efir guruhlari zanjirlari hosil qilgan sterik itarilish natijasida sement donachalarini tarqatadi. Shunga qaramay, superplastifikatorlardan foydalanish ko‘p hollarda sement-qo‘shimcha nomuvofiqligi tufayli oquvchanlik, nazoratsiz qotish, anomal reologik xatti-harakatlar va boshqalar nuqtai nazaridan muammolar tug‘dirishi mumkin[3-5].

Polikarboksilat birikmalarining tuzilishiga qarab sement toshlarining harakatchanligining o’zgarishini tahlil qilishda PK-7 polikarboksilat superplastifikatori sintez qilindi. Ushbu maqolada mahalliy hom ashyolar asosida sintez qilingan naftalin-sulfonat-formaldegid NFS-1 superplastifikatori bilan qiyosiy sinovlari natijalari keltirilgan. Sement toshini yoyilishini aniqlash konus cho’kmasi orqali amalga oshirildi. Beton aralashmalarining yoyiluvchanligi 30 va 60 nimutdan keyin kuzatildi. Kuch ko’rsatkichlarini aniqlash 3,7 va 28 kunlarda presslash sharoitida amalga oshirildi. Sinov uchun o’lchamlari 10×10×10 mmli namuna qoliplariga tayyorlangan. Betonning kontsentratsiyasi, suv-sement nisbati, reologik va mustahkamlik xususiyatlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Superplastifikatorlar qo’shilgan betonning mustahkamlik xususiyatlarini o’rganish.

	Superplastifikator nomi	Qo’shimcha miqdori,%	Suv/Sement nibati	Konus cho’kmasi,sm			ichlik kg/sm^3	Mustaxkamlik, MPa		
				daq	30 daq	60 daq		3 kunlik	7 kunlik	28 kunlik
	PK-7	1%	0.43	18	19	17	2520	18.50	24.20	36.40
	NSF-1	1%	0.43	17	12		2240	19.02	15.6	10.5

PK-7 polikarboksilatli superplastifikatorning sintez qilinishi suv-sement nisbati va harakatchanlikni oshirish sifatli beton maxsulotlarini olish imkonini beradi. NFS-1 superplastifikator 1 % qo’shilgan beton oquvchanligi konus cho’kmasi 17 sm ni tashkil qiladi, PK-7 superlastifikatori 1% qo’shilgan beton qorishmasini konus cho’kmasida yoyiliuvchanligi 28 sm gacha oshirishga imkon berdi. Beton qorishmasida suv-sement nisbati 0,43 bo’lganda, PK-7 polikarboksilatli superplastifikator qo’shilgan beton qorishmaning saqlash muddati 60 daqiqa davomida konus cho’kmasi 28 dan 17 sm gacha kamayadi, NFS-1 superplastifikatori qo’shilgan beton qorishmasi esa 30 daqiqadan keyin yoyilmadi. Superplastifikatorlar qo’shilganda suv sarfini kamaytirish orqali betonning mustahkamlik darajasini oshirishga yordam beradi. Mustaxkamlikning o’sishi suv/sement 0,43 da o’rganildi va 3, 7 va 28 kunlikdan keyin PK-7 (18,50 MPa dan 36.50 MPa gacha) va NFS-1 (19,02 MPa dan 10,5 MPa) ni tashkil qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, PK-7 superplastifikator qo’shimchasini qo’shish orqali mustahkamlikni kunlik oshib boradi mustaxkamlik PK-7da bosim kuchi 6,7 MPa, NFS-1 esa - 4,7 MPani tashkil etadi. Qurilish sanoatida iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun sintez qilingan PK-7 polikarboksilat superplastifikatori suvda eruvchan qo’shimcha sifatida, boshqa superplastifikatorlarning oddiy suvda eruvchan qo’shimchalarga qaraganda yaxshiroq suvda eruvchan ta’sirga ega. Beton aralashmasining suyuqlanishi polikarboksilat miqdorini bilan yaxshilanadi. Suv-sement nisbati, superplastifikator qo’shimchasining ma’lum konsentratsiyasida konusning dastlabki joylashishi P4-P5 ga to’g’ri keladi.

Xulosa

Polikarboksilatli superplastifikatorlarning molekulyar tuzilishining beton qorishmalarning harakatchanligi va mustahkamligiga ta’sirini o‘rganish natijasida ularning naftalin-formaldegid superplastifikatorga nisbatan yuqori samaradorligi aniqlandi. Beton sifati, uni ishlab chiqarishning texnologik parametrlari, suv sement nisbati, hisobga oladigan kompleks baholashda polikarboksilatning narxiga qaramay, polikarboksilatdan foydalangan holda betonning narxi ko’pincha arzonroq eski avlod superplastifikatorlaridan foydalanishga qaraganda past bo’ladi.

Adabiyotlar

1. Ismoilov F.S. Karimov M.U., Djalilov A.T., Mo’minov B. S. // Polikarboksilatli superplastifikator sintez qilish va uning samaradorligi. // QarDU xabarlari Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. KIMYO 2024 4(2). https: //qarshidu. uz/oz/page/ ilmiy-jurnal-NEW 128-132 bet.

2. Spiratos N, Page M, Mailvaganam NP, Malhotra VM, Jolicoeur C.//Superplasticizers for concrete fundamentals, technology and practice. //Handy Chemicals, Canada; 2006.

3. Ohta A, Sugiyama T, Tanaka Y. Fluidizing mechanism and application of polycarboxylate-based superplasticizers. In: 5th CANMET/ACI sp 173-19; 1997. p. 359–78.

4. Uchikawa H, Hanehara S, Sawaki D. The role of steric repulsive force in the dispersion of cement particles in fresh paste prepared with organic admixuture. Cem Concr Res 1997; 27:37–50.

5. Yamada K, Takahashi T, Hanehara S, Matsuhisa M. Effects of the chemical structure on the properties of polycarboxylate-type superplasticizer. Cem Concr Res 2000; 30:197–207.

UO‘T: 633:11+631:1+631+55

EKISH MUDDATI VA ME’YORLARINI MAXSAR NAVLARINING O‘SIMLIK BO‘YI VA BARG SONIGA TA’SIRI

M.M.Urakov
Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22127672

Annotatsiya Ushbu maqolada 2023-2025 yillarda Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining tajriba maydonida maxsarning «Jizzax-1» va «G‘allaorol» navlarida turli ekish muddatlari (11–20 mart, 21–30 mart, 01–10 aprel) hamda meyorlarining (450, 500, 550 ming dona/ga) o‘simlik bo‘yi va barglar sonining shakllanishiga ta’siri o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Maxsar, lalmikor dehqonchilik, ekish muddati, ekish meyori, Jizzax-1 navi, G‘allaorol navi, o‘simlik bo‘yi, barg soni, biometrik ko‘rsatkichlar, gullash fazasi, qurg‘oqchilikka chidamlilik, moyli ekinlar,

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16 fevraldagi «Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to‘g‘nsida»gi PF-36-sonli farmonida - moyli ekinlar yetishtirish hajmini oshirish va ularning umumiy ekin maydonidagi ulushini 2024 yilda 4,5% ga, 2025 yilda 5,1% ga, 2026 yilda esa 5,7% ga yetkazish belgilangan [1].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 13 martdagi «Moyli urug'larni qayta ishlovchi korxonalarning eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 130-son qarorida xo'jalik yurituvchi sub’ektlarga o'zlari import qilgan moyli ekinlar (paxta, kungaboqar, maxsar va soya) urug'larini qayta ishlashdan olingan o'simlik yog'larini belgilangan miqdorlarda eksport qilishga ruxsat berilgan. Shuningdek, maxsar, kungaboqar va paxta yog'i hamda aralash yog'lardan tashqari boshqa o'simlik va meva urug'lari yog'larini eksport qilish bo'yicha cheklovlar bekor qilingan [2].

Maxsar (*Carthamus tinctorius* L.) — dunyoda va ayniqsa O'zbekiston kabi qurg'oqchilikka moyil hududlarda ahamiyatli yog'li ekin sifatida keng yetishtiriladi [3]. Maxsar yog'i oziq- ovqat sanoatida va tibbiyotda muhim o'rin tutadi (орипов). Qurg'oqchilikka chidamliligi sababli maxsarni iqlim o'zgarishi sharoitida barqaror hosil yetishtirish texnologiyalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi [4].

Maxsar mahsuldorligiga ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biri ekish muddati hisoblanadi [5]. Erta ekish o'simliklarga ko'proq o'sish vaqti va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini beradi, bu hosildorlikni oshirishga xizmat qiladi. Kechikib ekish esa o'sish muddatining qisqarishi, hosilning pasayishiga olib keladi. Shu bois turli iqlim sharoitlarida maxsarning ekish muddatini aniqlash katta ahamiyatga ega [6].

Shuningdek, urug'larning ekish miqdori ham o'simliklarning unuvchanlik darajasiga va tuproq namligidan unumli foydalanishiga ta’sir ko'rsatadi. Juda kam urug' miqdori hosil darajasini tushiradi, lekin juda yuqori ekish me’yori ham o'simliklar o'rtasida raqobatni kuchaytirib, resurslarning samarasiz sarflanishiga sabab bo'ladi [7]. Maxsarning turli navlari ekish miqdoriga nisbatan har xil reaksiya beradi, shuning uchun mahalliy sharoitga mos nav va ekish miqdorini tanlash muhimdir [8].

O'zbekiston sharoitida maxsar navlarining biometrik xususiyatlari va ekish muddatiga nisbatan munosabati ustidan kam tadqiqotlar olib borilgan. Jizzax-1 va G'allaorol navlari mahalliy iqlimga moslashgan bo'lib, ularning mahsuldorligini oshirish uchun ekish muddati va ekish miqdorini optimallashtirish zarurligi kelib chiqmoqda. Bunday tadqiqotlar mahsuldorlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish hamda mahalliy dehqonchilikni rivojlantirishga hissa qo'shadi [9].

Shu munosabat bilan ushbu tadqiqotning maqsadi - maxsar navlari biometrik parametrlarini ekish muddati va ekish miqdorining ta’siriga ko'ra tahlil qilish hamda yuqori hosildorlikni ta’minlovchi eng maqbul ekish sharoitlarini aniqlashdir.

Materiallar va uslublar. Tadqiqot ishi Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutida 2023-2025 yillarda amalga oshirildi. Fenologik kuzatishlar, hosildorlikni aniqlash “Методика государственного сортоиспытания селскохозяйственных культур” (выпуск третий - Масличные, эфиромасличные, лекарственные и технические культуры, шелковитса, тутовый шелкопряд) bo'yicha olib borildi [10].

Tadqiqot ob’ekti sifatida mahalliy sharoitlarga moslashgan ikkita maxsar navi - Jizzax-1 va

G'allaorol navlari tanlandi. Ushbu navlar mahalliy iqlimga mos bo'lib, ularning mahsuldorligi va barqarorligi yuqori bo'lganligi bilan farqlanadi.

Eksperiment 3 xil ekish muddatida (I-muddat - 23 mart, II- muddat - 30 mart, III-muddat - 5 aprel) va 3 xil ekish me’yorida (450, 500, 550 ming dona/ga) tashkil qildi. Har bir variant 3 takrorda sinovdan o'tkazildi. Har bir takror 50 m^2 maydonni tashkil etdi. Tadqiqot davomida quyidagi biometrik va hosildorlik ko'rsatkichlari o'lchandi. Barcha o'lchashlar standart laboratoriya va dala usullari asosida amalga oshirildi.

Olingan natijalar. 2023-2025 yillar davomida Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti tajriba maydonida o‘tkazilgan tadqiqotlarda maxsarning «Jizzax-1» va «G‘allaorol» navlarida ekish muddati hamda meyorlarining o‘simlik bo‘yi va barglar soni shakllanishiga ta’siri tahlil qilindi.

O‘simlik bo‘yi va bargning hajmi, fotosintez yuzasini, umumiy biomassa to‘planishini hamda noqulay lalmikor sharoitga chidamlilikni belgilovchi asosiy morfologik ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu ikki ko‘rsatkichning vegetatsiya fazalari bo‘yicha ortib borishi muayyan qonuniyatlarga ega bo‘lib, tajriba omillari ta’sirida sezilarli darajada o‘zgardi.

O‘simlik bo‘yining o‘sish sur’ati vegetatsiya fazasiga qarab turlicha namoyon bo‘ldi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, eng jadal bo‘y o‘sishi poya hosil qilish va gullash fazalari oralig‘ida kuzatildi.

Ekish muddati (21–30 mart) bo‘lganda o‘simlik bo‘yining maksimal darajada o‘sishini ta’minladi. Ushbu muddatda «Jizzax-1» navida pishish davrida o‘simlik bo‘yi 66,0–70,2 sm ni, «G‘allaorol» navida esa 78,2–83,2 sm ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich I muddatga (11–20 mart) nisbatan o‘rtacha 1,0–1,8 sm ga balandroqdir.

Ekish muddati (01–10 aprel) bo‘lganda esa o‘simlik bo‘y o‘sishining keskin sekinlashishi va kamayishi qayd etildi. Masalan, «Jizzax-1» navida (500 ming dona/ga) II muddatda pishish davrida bo‘y 70,2 sm bo‘lgani holda, III muddatda bu ko‘rsatkich 62,5 sm gacha (7,7 sm ga yoki 11,0% ga) kamaydi. «G‘allaorol» navida esa tegishlicha 83,2 sm dan 74,1 sm gacha (9,1 sm ga yoki 10,9% ga) qisqardi. Bu kechiktirib ekilganda tuproqdagi zahira namlikning kamayishi va haroratning ko‘tarilishi munosabati bilan poyaning bo‘yiga o‘sish davri qisqarishi bilan izohlanadi.

Ekish meyorlari ichida 500 ming dona/ga ekish soni o‘simlik bo‘yining eng yuqori ko‘rsatkichga erishishini ta’minladi. 550 ming dona/ga meyorda ekilganda esa o‘simliklarning haddan tashqari zichligi, yorug‘lik va ozuqa maydoni uchun o‘zaro raqobatning ortishi sababli bo‘y o‘sishi susayadi. Masalan, II muddatda «G‘allaorol» navida 500 ming dona/ga meyorda gullash davrida o‘simlik bo‘yi 82,4 sm ni tashkil etgan bo‘lsa, 550 ming dona/ga meyorda bu ko‘rsatkich 77,4 sm gacha (5,0 sm ga) pasaydi. 450 ming dona/ga (nazorat) meyorida esa bu ko‘rsatkich 78,8 sm ni tashkil etdi.

Barglar soni va ularning rivojlanishi o‘simlikning assimilyatsiya maydonini belgilaydi. Tadqiqotda barglar soni poya hosil qilish davridan gullash fazasigacha maksimal darajaga yetgani va pishish davrida qurishi hamda to‘qilishi hisobiga bir oz kamaygani kuzatildi.

Maksimal barg soni barcha variantlarda eng ko‘p barg soni gullash davriga to‘g‘ri keldi. Eng yuqori ko‘rsatkich II ekish muddatida (21–30 mart) va 500 ming dona/ga meyorida qayd etildi. Ushbu optimal variantda gullash davrida barglar soni «Jizzax-1» navida 123,3 dona ni, «G‘allaorol» navida esa 145,1 dona ni tashkil etdi.

Ekish muddatlari bo‘yicha barglar sonining o‘zgarishi kechki muddatda (III muddat) barglar sonining keskin qisqarishi namoyon bo‘ldi. Masalan, 500 ming dona/ga meyorda gullash fazasida «Jizzax-1» navida barglar soni II muddatdagi 123,3 dona dan III muddatda 109,8 dona gacha (13,5 donaga yoki 11,0% ga) kamaydi (1-jadval).

«G‘allaorol» navida esa II muddatdagi 145,1 dona dan III muddatda 129,2 dona gacha (15,9 donaga yoki 11,0% ga) qisqardi. Bu holat bahorgi qurg‘oqchilik ta’sirida o‘simlikning yangi barg bo‘g‘inlarini shakllantirish imkoniyati cheklanishini ko‘rsatadi.

Ekish meyorining barg soni shakllanishiga ta’siri bo‘yicha ekish meyori 500 ming dona/ga dan 550 ming dona/ga gacha oshirilganda, maydondagi ozuqa va suv yetkazib berish tanqis sharoitga tushgani sababli bitta o‘simlikdagi barglar soni qisqardi. II ekish muddatida «G‘allaorol» navida gullash davrida 500 ming dona/ga meyorda 145,1 dona barg shakllangan bo‘lsa, 550 ming dona/ga meyorda bu ko‘rsatkich 136,4 dona ni tashkil etdi (8,7 donaga kamaygan). 450 ming dona/ga nazorat variantida esa barg soni 138,8 dona bo‘ldi.

Navlarning o‘simlik bo‘yi va barg soni bo‘yicha tahlil qilinganda o‘rganilgan ikki nav o‘rtasida biometrik ko‘rsatkichlar (bo‘y va barg soni) bo‘yicha sezilarli farqlar namoyon bo‘ldi. «G‘allaorol» navi barcha ekish muddatlari va meyorlarida «Jizzax-1» naviga nisbatan ustunlik ko‘rsatdi. O‘simlik bo‘yi bo‘yicha pishish davrida (II muddat, 500 ming dona/ga) «G‘allaorol» navining bo‘yi 83,2 sm ni tashkil

etgan bo‘lsa, «Jizzax-1» navida bu ko‘rsatkich 70,2 sm ni tashkil etdi. Barglar soni bo‘yicha gullash davridagi maksimal barg soni bo‘yicha «G‘allaorol» navi (145,1 dona) «Jizzax-1» naviga (123,3 dona)

1-jadval

Ekish muddati va me’yorlarini maxsar navlarining o‘simlik bo‘yi va barg soniga ta’siri, G‘allaorol 2023-2025 yyy.

№	Navlar nomi	Ekish muddati	Ekish me’yori, ming dona/ga	Poya hosil qilish davrida		Gullash davrida		Pishish davrida	
				O‘simlik bo‘yi, sm	Barg soni, dona	O‘simlik bo‘yi, sm	Barg soni, dona	O‘simlik bo‘yi, sm	Barg soni, dona
1	Jizzax-1	11-20.03	450 ming dona *(nazorat)*	30,6 ± 1,6	39,2 ± 2,1	68,1 ± 3,6	112,1 ± 5,9	68,8 ± 3,6	84,1 ± 4,4
2			500 ming dona	39,1 ± 2,1	41,0 ± 2,2	71,1 ± 3,7	117,1 ± 6,2	71,9 ± 3,8	87,9 ± 4,6
3			550 ming dona	36,8 ± 1,9	38,5 ± 2,0	66,9 ± 3,5	110,1 ± 5,8	67,5 ± 3,6	82,6 ± 4,3
4		21-30.03	450 ming dona	36,6 ± 1,9	41,3 ± 2,2	66,5 ± 3,5	118,0 ± 6,2	67,2 ± 3,5	88,5 ± 4,7
5			500 ming dona	38,2 ± 2,0	43,2 ± 2,3	69,5 ± 3,7	123,3 ± 6,5	70,2 ± 3,7	92,5 ± 4,9
6			550 ming dona	36,0 ± 1,9	40,6 ± 2,1	65,4 ± 3,4	115,9 ± 6,1	66,0 ± 3,5	86,9 ± 4,6
7		01-10.04	450 ming dona	32,6 ± 1,7	36,8 ± 1,9	59,3 ± 3,1	105,1 ± 5,5	59,9 ± 3,2	78,8 ± 4,1
8			500 ming dona	34,1 ± 1,8	38,4 ± 2,0	61,9 ± 3,3	109,8 ± 5,8	62,5 ± 3,3	82,4 ± 4,3
9			550 ming dona	32,0 ± 1,7	36,1 ± 1,9	58,2 ± 3,1	103,2 ± 5,4	58,8 ± 3,1	77,4 ± 4,1
10	G‘allaorol	11-20.03	450 ming dona *(nazorat)*	36,3 ± 1,9	46,2 ± 2,4	80,6 ± 4,2	131,9 ± 6,9	81,4 ± 4,3	98,9 ± 5,2
11			500 ming dona	37,9 ± 2,0	48,2 ± 2,5	84,3 ± 4,4	137,8 ± 7,3	85,1 ± 4,5	103,4 ± 5,4
12			550 ming dona	35,6 ± 1,9	45,3 ± 2,4	79,2 ± 4,2	129,5 ± 6,8	80,0 ± 4,2	97,2 ± 5,1
13		21-30.03	450 ming dona	35,5 ± 1,9	48,6 ± 2,6	78,8 ± 4,1	138,8 ± 7,3	79,6 ± 4,2	104,1 ± 5,5
14			500 ming dona	37,1 ± 2,0	50,8 ± 2,7	82,4 ± 4,3	145,1 ± 7,6	83,2 ± 4,4	108,8 ± 5,7
15			550 ming dona	34,8 ± 1,8	47,7 ± 2,5	77,4 ± 4,1	136,4 ± 7,2	78,2 ± 4,1	102,3 ± 5,4
16		01-10.04	450 ming dona	31,6 ± 1,7	43,3 ± 2,3	70,2 ± 3,7	123,6 ± 6,5	70,9 ± 3,7	92,7 ± 4,9
17			500 ming dona	33,0 ± 1,7	45,2 ± 2,4	73,3 ± 3,9	129,2 ± 6,8	74,1 ± 3,9	96,9 ± 5,1
18			550 ming dona	31,0 ± 1,6	42,5 ± 2,2	68,9 ± 3,6	121,4 ± 6,4	69,6 ± 3,7	91,1 ± 4,8

nisbatan 21,8 donaga (17,7% ga) ko‘p barg shakllantirdi.

Xulosa. 2023–2025 yillar davomida o‘tkazilgan 3 yillik tadqiqotlar asosida maxsar o‘simligining bo‘y o‘sishi va bargining shakllanishi bo‘yicha quyidagi ilmiy va amaliy xulosalar chiqarildi:

- Maxsar o‘simligida maksimal bo‘y va eng ko‘p barg sonini shakllantirish uchun eng qulay ekish muddati mart oyining uchinchi o‘n kunligi (21–30 mart) hisoblanadi.
- O‘simliklarning alohida rivojlanishi va morfologik ko‘rsatkichlarining maqbul darajada bo‘lishi uchun gektariga 500 ming dona ekish meyori optimal deb topildi.
- Lalmikor sharoitda poya bo‘yi va barg shakllantirish hajmi bo‘yicha «G‘allaorol» navi «Jizzax-1» naviga qaraganda bo‘yi 18,5% ga balandroq va barglar soni 17,7% ga ko‘proq bo‘lganligi kuzatildi.
- Lalmikor maydonlarda «G‘allaorol» navini 21–30 mart kunlari gektariga 500 ming dona ekish meyorida ekish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16 fevraldagi «Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-36-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 13 martdagi «Moyli urug'larni qayta ishlovchi korxonalarning eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 130-son qarori.
3. Oripov Sh., Haydarov B. “Lalmikor erlarda moyli ekinlar etishtirish agrotexnologiyasi”. Amaliy qo'llanma, Jizzax-2017 yil 7-8 b.
4. Oripov Sh.X., Usarov Z.I., Amanov F.B., Karimova S. Lalmikor maydonlarda moyli ekinlarni etishtirish agrotexnologiyasi bщyicha tavsiyanoma. Jizzax-2022, 4-5 b.
5. Темирбеков, С.К. Сафлор как сидерат, предшественник и кормовая культура. Интродукция и особенности возделывания Журнал «Аграрное обозрение», №5, - 2014.
6. Сафина, Н.В. Урожайност маслосемян сафлора красилного в условиях Среднего Поволжя / Н.В.Сафина, Т.В. Килянова // В сборнике: Материалы V Международной научно - практической конференции «Методы и технологии в селекции растений и растениеводстве» - Киров, - 2019- С. 123-126.
7. Норов, М.С. Научное обоснование технологии вы ращивания сафлора на богаре Централного Таджикистана. Автореф. дисс. докт. с.-х. наук / М.С. Норов. - Москва, - 2006. - С. 41.
8. Рябцева, Н.А. Совершенствование элементов технологии возделывания сафлора в Ростовской области // Научно-практический журнал «Селское, лесное и водное хозяйство». - №3. -

2015.

9. Lalmikor maydonlarda maxsar yetishtirish agrotexnologiyasi. Toshkent, 2009 yil 32 b.

10. “Методика государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур” (выпуск третий-Масличные, эфиромасличные, лекарственные и технические культуры, шелковитса, тутовый шелкопряд) М.1983. S, 8-15.

UDK:633:11+631:1+633.9

MAXSAR NAVLARINING HOSIL ELEMENTLARIGA EKISH MUDDATI VA ME’YORLARINING TA’SIRI

[1]M.M.Urakov
mustaqil tadqiqotchi
[2]A.L.Sanaqulov
q.x.f.d., professor
[1]Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti
[2]Samarqand davlat universiteti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22127725

Annotatsiya. Ushbu maqolada maxsarning "Jizzax-1" va "G‘allaorol" navlari hosildorligiga ekish muddatlari va me’yorlarining ta’siri 2023-2025 yillardagi tadqiqotlar natijalariga ko‘ra tahlil qilindi. Ikkala nav uchun ham eng maqbul ekish muddati 21-30 mart, yuqori mahsuldorlikni ta’minlovchi maqbul ekish me’yori esa gektariga 500 ming dona urug‘ ekanligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: maxsar, "Jizzax-1", "G‘allaorol", lalmikorlik, ekish muddati, ekish me’yori, hosil elementlari, mahsuldorlik.

Kirish. Moyli ekinlar oziq-ovqatda, qishloq xo‘jaligi hayvonlarini boqishda, sanoat, qurilish, tibbiyot va parfyumeriyada keng qo‘llaniladi. Ularning urug‘laridan moy ajratib olish jarayonida hosil bo‘lgan kunjara va shrot yuqori oqsilli, qimmatbaho mahsulot hisoblanadi [2].

Maxsarning urug‘larida och sariq rangli, yarim quriydigan moy mavjud bo‘lib, u ozuqaviy qiymati bo‘yicha kungaboqar moyidan qolishmaydi. Maxsar moyi ta’mi jihatidan ham kungaboqar moyidan ustun turadi. Maxsar moyining yog‘ kislotalari tarkibi 90% gacha bo‘lgan linol kislotasini o‘z ichiga oladi. Bu juda muhim ahamiyatga ega, chunki u inson organizmida ishlab chiqarilmaydi va uni oziq-ovqat mahsulotlari orqali iste’mol qilish kerak. To‘yinmagan yog‘ kislotalari inson organizmidagi sog‘lom xolesterin almashinuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun yshbu kislotalar miqdori yuqori bo‘lgan ovqatlar билан, ayniqsa, ateroskleroz bilan og‘riganlar, yosh bolalar hamda ionlashtiruvchi nurlanish sharoitida ishlaydigan odamlar ko‘proq ovqatlanishi zarur. Buning eng yaxshi manbai maxsar moyidir [6].

Bir qator Osiyo mamlakatlarida sariyog‘ o‘rnida foydalanish maqsadida maxsar, kunjut va yeryong‘oq moylari aralashmasidan tayyor mahsulotlar tayyorlanadi [1, 4]. Moyini linoleum tayyorlashda ham ishlatish mumkin. Maxsar kunjarasi tarkibida qobiqlar mavjudligi tufayli biroz achchiq ta’mga ega, ammo chorva hayvonlarini boqishda oz miqdorda foydalanish mumkin. Maxsar kunjarasi tarkibiga quyidagilar kiradi: moy - 7% gacha, oqsil - 19% gacha (agar urug‘lar tozalanmagan bo‘lsa) va 38% gacha (urug‘lar tozalangan bo‘lsa), kraxmal - 25% gacha. Maxsar kunjarasining 100 kg tarkibida 55 ozuqa birligi mavjud. Bundan tashqari, maxsar kunjarasidan o‘g‘it sifatida ham foydalanish mumkin. Maxsar urug‘lari qushlar uchun ham yaxshi ozuqa hisoblanadi [5, 6].

Ayni paytda dunyoning bir qator mamlakatlarida bioyoqilg‘i ishlab chiqarishda maxsar moyidan keng foydalanilmoqda.

Yuqoridagi muammo va holatlardan kelib chiqib, Jizzax viloyati G‘allaorol tumanining nam bilan yarim ta’minlangan mintaqasida maxsar hosildorligiga ekish muddati va me’yorlarining ta’sirini aniqlash yuzasidan dala tajribalari o‘tkazildi.

Tadqiqot materiallari va usullari. Dala tajribalarida tadqiqot ob’ekti sifatida lalmikorlikning nam bilan yarim ta’minlangan, o‘rtacha qumoqli, eroziyaga o‘rtacha darajada chalingan, organik moddalar (gumus) hamda azotli va fosforli oziq moddalar bilan kam ta’minlangan tipik lalmi bo‘z tuproqlari, shuningdek, maxsarning "Jizzax-1" va "G‘allaorol" navlari olindi.

Dala tajribalarida fenologik kuzatishlar, biometrik ko‘rsatkichlar va hosil elementlari “Методика проведения полевых и агротехнических опытов с масличными культурами” [3] bo‘yicha olib borildi.

Natijalar va ularning tahlili. 2023 yildagi tadqiqot ma’lumotlariga ko‘ra: ekish muddatlarining ta’siri bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich 21–30 mart muddatida ekilgan variantda kuzatildi. "Jizzax-1" navida 500 ming dona/ga me’yorda ekilganda, 1 m^2 maydondagi urug‘ og‘irligi maksimal 230,2 g ni, "G‘allaorol" navida esa 228,8 g ni tashkil etdi. 01-10 aprel muddatida ekilgan variantda hosil elementlari sezilarli

darajada pasaydi. "Jizzax-1" navida 450 ming dona/ga me’yorda urug‘ og‘irligi 177,1 g gacha, "G‘allaorol" navida esa 150,3 g ni tashkil qildi.

Ekish me’yorlarining ta’siri bo‘yicha barcha muddatlarda ekish me’yori 450 dan 550 ming dona/ga ga oshirib borilishi bilan 1 m^2 maydondagi o‘simliklar soni ortib bordi, lekin bitta o‘simlikdagi savatchalar soni va bitta o‘simlikdagi urug‘ og‘irligi kamaydi. Masalan, 21–30 martda "Jizzax-1" navida bitta o‘simlikdagi urug‘ og‘irligi 500 ming me’yorda 8,4 g bo‘lgan bo‘lsa, 550 ming me’yorda 6,9 g ni tashkil etdi. Mahsuldorlik 1 m^2 maydonda urug‘ og‘irligi bo‘yicha eng maqbul ekish me’yori 500 ming dona/ga ekanligi namoyon bo‘ldi (1-jadval).

1-jadval

Maxsar navlarining hosil elementlariga ekish muddati va me’yorlarining ta’siri, G‘allaorol 2023 yil.

№	Nav nomi	Ekish muddati	Ekish me’yori, ming dona/ga	1 m^2 maydonda o‘simliklar soni, dona	Bitta o‘simlikda				1 m^2 maydonda urug‘ og‘irligi, gr
					Savatchalar soni, dona	Savatchadagi urug‘ soni, dona	Urug‘lar soni, dona	Urug‘lar og‘irligi, gr	
1	Jizzax-1	11-20.03	450 (nazorat)	23,9	12	22,1	265,2	7,8	186,4
2			500	26,9	11	24,0	264,0	7,9	212,5
3			550	30,8	11	23,5	258,5	7,1	218,7
4		21-30.03	450	24,4	12	23,1	277,2	7,9	192,8
5			500	27,4	11	27,4	301,4	8,4	230,2
6			550	30,5	10	24,2	242,0	6,9	210,5
7		01-10.04	450	22,7	10	18,7	187,0	7,8	177,1
8			500	25,8	9	21,3	191,7	7,5	193,5
9			550	28,4	9	19,5	175,5	6,9	196,0
10	G‘allaorol	11-20.03	450 (nazorat)	23,7	12	23,2	278,4	8,1	192,0
11			500	25,8	11	25,1	276,1	7,8	201,2
12			550	29,4	11	22,4	246,4	7,3	214,6
13		21-30.03	450	22,8	12	23,1	277,2	8,1	184,7
14			500	26,6	11	26,2	288,2	8,6	228,8
15			550	28,8	11	24,1	265,1	7,3	210,2
16		01-10.04	450	22,1	10	19,8	198,0	6,8	150,3
17			500	25,0	9	23,2	208,8	7,5	187,5
18			550	27,0	9	21,5	193,5	7,2	194,4

2024 yilda hosildorlik va ko‘rsatkichlari 2023 yilga nisbatan yuqoriroq ko‘rsatkichlarni namoyon qildi. Jumladan: ekish muddatlarining ta’siri maqbul muddat 21-30 mart ekanligi kuzatildi. Ushbu muddatda 500 ming dona/ga meyor ishlatilganda "Jizzax-1" navi bo‘yicha 1 m2 maydondan eng yuqori urug‘ og‘irligi - 304,2 gr, "G‘allaorol" navida esa 291,9 gr, kechki 01-10 aprel muddatida ekilganda mahsuldorlik keskin kamayib, "G‘allaorol" navida (450 ming/ga) 1 m2 maydondagi urug‘ og‘irligi 202,8 gr ni qayd etdi. Ekish meyorlarining ta’siri bitta o‘simlikdagi savatchalar soni va urug‘ vazni ekish meyori oshishi bilan kamayishi saqlanib qoldi. 21-30 martda ekilgan "Jizzax-1" navida 500 ming dona/ga meyorda

bitta o‘simlikda urug‘ og‘irligi 8,2 gr ni tashkil etgan bo‘lsa, 550 ming dona/ga meyorda bu ko‘rsatkich 6,9 gr ni tashkil qildi (2-jadval).

2-jadval

Maxsar navlarining hosil elementlariga ekish muddati va me’yorlarining ta’siri, G‘allaorol 2024 yil.

№	Nav nomi	Ekish muddati	Ekish me’yori, ming dona/ga	1 m² maydonda o‘simliklar soni, dona	Bitta o‘simlikda				1 m² maydonda urug‘ og‘irligi, gr
					Savatchalar soni, dona	Savatchadagi urug‘ soni, dona	Urug‘lar soni, dona	Urug‘lar og‘irligi, gr	
1	Jizzax-1	11-20.03	450 (nazorat)	28,1	13	22,2	288,6	8,1	227,6
2			500	32,5	12	23,6	283,2	7,8	253,5
3			550	40,6	12	23,2	278,4	7,0	284,2
4		21-30.03	450	32,7	13	23,9	310,7	8,3	271,4
5			500	37,1	12	27,2	326,4	8,2	304,2
6			550	41,7	10	24,5	245,0	6,9	287,7
7		01-10.04	450	30,2	11	19,7	216,7	7,5	226,5
8			500	34,7	10	21,5	215,0	7,1	246,4
9			550	38,6	10	20,1	201,0	6,4	247,0
10	G‘allaorol	11-20.03	450 (nazorat)	31,6	12	23,1	277,2	8,0	252,8
11			500	34,7	12	24,2	290,4	7,7	267,2
12			550	40,1	11	22,5	247,5	7,2	288,7
13		21-30.03	450	30,4	13	23,5	305,5	8,0	243,2
14			500	35,6	12	26,4	316,8	8,2	291,9
15			550	39,1	10	24,5	245,0	7,1	277,6
16		01-10.04	450	27,4	11	19,7	216,7	7,4	202,8
17			500	33,5	10	24,1	241,0	7,3	244,6
18			550	37,3	10	22,1	221,0	7,1	264,8

2025 yilgi olib borilgan tadqiqot ekish muddatlarining ta’siri 21–30 mart muddatida eng yuqori natijalarni bergan 500 ming dona/ga meyorda 1 m2 maydondagi urug‘ og‘irligi "Jizzax-1" navida 216,3 gr, "G‘allaorol" navida esa 194,6 gr ni tashkil etdi.

Aprel oyining boshida 01–10 aprelda ekilganda eng past natijalar qayd etilgan "Jizzax-1" navida 450 ming meyorda 1 m2 maydonda urug‘ og‘irligi 137,0 gr ni tashkil qildi.

Ekish meyorlarining ta’siri meyor 500 ming dona/ga bo‘lganda bitta o‘simlikdagi urug‘ og‘irligi maksimal ko‘rsatkichga erishgan 21–30 martda "Jizzax-1"da 8,1 gr, "G‘allaorol"da 7,6 gr ekanligi aniqlandi.

Ekish meyori 550 ming dona/ga oshirilganda o‘simliklar orasidagi farq ortishi hisobiga bitta savatchadagi urug‘ soni va bitta o‘simlikdagi urug‘ og‘irligi (5,9–6,9 gr) sezilarli kamaydi (3-jadval).

3-jadval

Maxsar navlarining hosil elementlariga ekish muddati va me’yorlarining ta’siri, G‘allaorol 2025yil.

№					Bitta o‘simlikda				

	Nav nomi	Ekish muddati	Ekish me’yori, ming dona/ga	1 m^2 maydonda o‘simliklar soni, dona	Savatchalar soni, dona	Savatchadagi urug‘ soni, dona	Urug‘lar soni, dona	Urug‘lar og‘irligi, gr	1 m^2 maydonda urug‘ og‘irligi, gr
1	Jizzax-1	11-20.03	450 (nazorat)	23,3	11	21,1	232,1	7,4	172,4
2			500	25,4	10	22,0	220,0	7,2	182,9
3			550	28,5	9	21,5	193,5	6,3	179,6
4		21-30.03	450	23,7	11	22,1	243,1	7,8	184,9
5			500	26,7	10	25,4	254,0	8,1	216,3
6			550	29,2	9	22,1	198,9	6,9	201,5
7		01-10.04	450	22,1	10	18,8	188,0	6,2	137,0
8			500	24,9	9	19,3	173,7	6,0	149,4
9			550	27,3	9	18,9	170,1	5,9	161,1
10	G‘allaorol	11-20.03	450 (nazorat)	23,0	11	21,3	234,3	7,4	170,2
11			500	24,2	10	23,7	237,0	7,1	171,8
12			550	28,2	9	20,4	183,6	6,4	180,5
13		21-30.03	450	22,3	10	22,1	221,0	7,4	165,0
14			500	25,6	10	24,2	242,0	7,6	194,6
15			550	27,6	9	22,3	200,7	6,3	173,9
16		01-10.04	450	21,6	10	19,7	197,0	6,8	146,9
17			500	24,2	9	22,3	200,7	6,6	159,7
18			550	26,5	9	20,1	180,9	5,9	156,4

3 yillik (2023–2025 yy.) tadqiqot natijalari tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

- Maxsarning "Jizzax-1" va "G‘allaorol" navlari uchun eng maqbul ekish muddati 21–30 mart hisoblanadi.

- Maxsar navlari uchun eng yuqori va sifatli hosil elementlarini ta’minlaydigan ekish meyori gektariga 500 ming dona urug‘ ekanligi aniqlandi.

- Ekish meyori 550 ming dona/ga gacha oshirilganda 1 m2 maydonda o‘simliklar soni ko‘paysa-da, oziqlanish maydoni va yorug‘lik uchun raqobat sababli bitta o‘simlikdagi savatchalar soni va urug‘ og‘irligi sezilarli darajada kamaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Дружинин, В.Г., Прахова. Т.Я. (2022). Фотосинтетическая деятельность сафлора красильного в зависимости от применения микроудобрений. *Международный сельскохозяйственный .журнал, том 65,* 4(338). 367-370. Doi: 10.55186/25876740_2022_65_4_367

2. Кшникаткина, А.Н., Прахова. Т.Я., Крылов, Л.П. (2018). Фотосинтетическая деятельность и продуктивность масличных культур в условиях Средневолжского региона. *Нива Поволжья.* 65-69.

3. *Методика проведения полевых и агротехнических опытов с масличными культурами.* Краснодар: ВНИИМК, 2010. -323 с.

4. Мусынов. К.М., Аринов, Б.К., Утсльбаев, Е.А., Базарбаев. Б.Б. (2014). Фотосинтез и урожайность семян сафлора. *Вестник науки Казахского агротехнического университета им. С.Сейфуллина.* 7(80). 86-91.

5. Poliakov, O.I., Aliicva, O.Yu. (2021). Photosynthetic activity and yield of safflower under the influence of additional nutrition. *Collquiuin-jonnull.* 10(97), 23-25. https://doi.orH/10.24412/252O-699O-2Q21-1097-23-25

6. Турина ЕЛ. (2020). Значение сафлора красильною *(Cart ham us tinctorius* L.) и обоснование актуальности исследований с ним в Центральной степи Крыма (Обзор). *Таврический вестник аграрной науки. 1(21).* 100-121.

FORTEPIANO IJROCHILIGINING SHAXS EMOTSIONAL-PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Sodiqova Nodira Karimjon qizi
14 – sonli Bolalar Musiqa va San’at maktabi o’qituvchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22136985

Annotatsiya. Mazkur maqolada fortepiano ijrochiligining shaxs emotsional-psixologik rivojlanishiga ta’siri musiqa psixologiyasi va pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Fortepiano ijrosi jarayonida diqqat, xotira, musiqiy tafakkur, tasavvur, emotsional idrok, sensor-harakat muvofiqligi hamda o‘zini boshqarish mexanizmlarining o‘zaro aloqadorligi yoritiladi. Musiqiy asarni o‘zlashtirish jarayoni faqat texnik-ijrochilik harakatlari majmui emas, balki kognitiv, emotsional va irodaviy komponentlar integratsiyasiga asoslangan murakkab psixologik faoliyat ekanligi asoslanadi. Shuningdek, fortepiano mashg‘ulotlarida individual-psixologik xususiyatlarni hisobga olish, ijro motivatsiyasini shakllantirish, sahna hayajonini boshqarish va refleksiv faoliyatni rivojlantirishning ahamiyati ochib beriladi. Fortepiano ta’limida psixologik yondashuvlardan maqsadli foydalanish ijrochining nafaqat musiqiy mahoratini, balki uning emotsional barqarorligi, mustaqilligi, ijodiy tafakkuri va o‘z faoliyatini nazorat qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: fortepiano ijrochiligi, musiqa psixologiyasi, emotsional rivojlanish, musiqiy idrok, diqqat, xotira, musiqiy tafakkur, refleksiya, sahna hayajoni, psixologik barqarorlik.

Аннотация. В статье анализируется влияние фортепианного исполнительства на эмоционально-психологическое развитие личности с позиций психологии музыки и педагогической психологии. Рассматривается взаимосвязь внимания, памяти, музыкального мышления, воображения, эмоционального восприятия, сенсомоторной координации и механизмов саморегуляции в процессе фортепианного исполнительства. Обосновывается положение о том, что освоение музыкального произведения представляет собой не только совокупность технических исполнительских действий, но и сложную психологическую деятельность, основанную на интеграции когнитивных, эмоциональных и волевых компонентов. Особое внимание уделяется учёту индивидуально-психологических особенностей обучающихся, формированию исполнительской мотивации, управлению сценическим волнением и развитию рефлексивной деятельности. Подчёркивается значение психологически ориентированного подхода в фортепианном обучении для развития эмоциональной устойчивости, самостоятельности и творческого мышления исполнителя.

Ключевые слова: фортепианное исполнительство, психология музыки, эмоциональное развитие, музыкальное восприятие, внимание, память, музыкальное мышление, рефлексия, сценическое волнение, психологическая устойчивость.

Abstract. The article examines the influence of piano performance on the emotional and psychological development of the individual from the perspectives of music psychology and educational psychology. Particular attention is paid to the interaction of attention, memory, musical thinking, imagination, emotional perception, sensorimotor coordination and self-regulation mechanisms during piano performance. The process of mastering a musical composition is considered not merely as a set of technical performing actions but as a complex psychological activity integrating cognitive, emotional and volitional components. The paper also discusses the importance of considering learners’ individual psychological characteristics, developing performance motivation, managing performance anxiety and fostering reflective activity. A psychologically oriented approach to piano education is viewed as an important condition for supporting the development of emotional stability, independence, creative thinking and conscious self-regulation in musical performance.

Keywords: piano performance, music psychology, emotional development, musical perception, attention, memory, musical thinking, reflection, performance anxiety, psychological stability.

Kirish. Zamonaviy ilmiy qarashlarda musiqiy faoliyat insonning faqat estetik ehtiyojlarini qondiruvchi san’at hodisasi sifatida emas, balki uning kognitiv, emotsional va ijtimoiy-psixologik rivojlanishi bilan o‘zaro bog‘langan murakkab faoliyat turi sifatida ham o‘rganilmoqda. Musiqani tinglash, idrok etish va ijro qilish jarayonlarida insonning eshitish tajribasi, emotsional munosabati, xotirasi, diqqat jarayonlari, tasavvuri va harakat faoliyati o‘zaro uyg‘unlashadi. Shu jihatdan cholg‘u ijrochiligi, xususan,

fortepiano ijrochiligi shaxs psixologiyasini o‘rganish uchun muhim ilmiy-pedagogik maydon hisoblanadi. Fortepianoda ijro etish tashqi jihatdan klaviaturadagi muayyan harakatlar ketma-ketligi sifatida namoyon bo‘lsa-da, mazkur faoliyatning ichki psixologik tuzilishi ancha murakkabdir. Ijrochi nota matnini ko‘radi, uning ritmik va intonatsion tuzilishini anglaydi, tovush natijasini oldindan tasavvur qiladi, qo‘l va barmoqlar harakatini muvofiqlashtiradi, real ijroni eshitish orqali nazorat qiladi hamda musiqiy obrazning emotsional mazmunini ifodalashga intiladi. Demak, birgina musiqiy jumlaning ijrosida ham idrok, diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur, emotsiya va motor faoliyat bir-birini to‘ldiruvchi mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur masalaning dolzarbligi shundaki, fortepiano ta’limida ko‘pincha ijrochilik texnikasini rivojlantirish, nota matnini o‘zlashtirish, ritmik aniqlik va musiqiy ifodaga asosiy e’tibor qaratiladi. Biroq o‘quvchining musiqiy natijasiga uning psixologik holati, motivatsiyasi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, emotsional ta’sirchanligi, sahna oldidagi xavotiri va o‘z faoliyatini baholash qobiliyati ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun fortepiano ijrochiligini psixologik jihatdan tadqiq etish musiqa ta’limi samaradorligini oshirish bilan bir qatorda shaxsning emotsional-psixologik rivojlanish mexanizmlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Fortepiano ijrochiligi murakkab psixologik faoliyat sifatida

Annotatsiya. Ta’lim texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda Web 3.0/4.0 vositalarining xilma-xillashuvi chet tili o‘qitishda an’anaviy Ta’limni Boshqarish Tizimlari (LMS) tarkibidagi iyerarxik va o‘qituvchiga yo‘naltirilgan tuzilmalarni savol ostiga qo‘ymoqda. Simensning Konnektivizm nazariyasi hamda Ettvellning Shaxsiy Ta’lim Muhiti (PLE) konsepsiyasiga tayanadigan ushbu paradigmal o‘zgarish ta’lim jarayonini sinf xonasining jismoniy chegaralaridan tashqariga olib chiqib, ta’lim oluvchini o‘zining raqamli ta’lim tarmog‘i markaziga joylashtiradi. Natijada, til o‘qituvchilari an’anaviy "bilim uzatuvchi" rolidan uzoqlashib, chuqur transformatsiyani boshdan kechirmoqdalar. Ushbu nazariy tadqiqot Turk tilini xorijiy til sifatidagi o‘qitish (TTXTO‘) kontekstida o‘qituvchilarning shakllanayotgan "PLE Kuratori" rolini tahlil qilishga qaratilgan. Unda o‘qituvchining raqamli infratuzilma me’mori, pedagogik ko‘mak (scaffolding) tashkilotchisi, raqamli mentor hamda harakatga yo‘naltirilgan topshiriqlar loyihachisi kabi ko‘p qirrali yangi funksiyalari o‘rganiladi. Buning ustiga, maqolada ushbu kasbiy evolyutsiya bilan bog‘liq bo‘lgan pedagogik qarshilik, raqamli savodxonlik talablari va uzluksiz kasbiy rivojlanish ehtiyojlari kabi asosiy muammolar ko‘rib chiqiladi.
Kalit so‘zlar: Konnektivizm, Shaxsiy Ta’lim Muhiti (PLE), PLE Kuratorligi, O‘qituvchi roli, Turk tilini xorijiy til sifatida o‘qitish.

Аннотация. Стремительное развитие образовательных технологий и диверсификация инструментов Web 3.0/4.0 ставят под сомнение иерархические, учителецентрированные структуры, традиционно присущие системам управления обучением (LMS) в преподавании иностранных языков. Данная смена парадигмы, опирающаяся на теорию коннективизма Сименса и концепцию персональной обучающей среды (PLE) Эттвелла, выводит учебный процесс за пределы физических границ аудитории, помещая обучающегося в центр его собственной цифровой образовательной сети. В результате преподаватели иностранных языков переживают глубокую трансформацию, отходя от своей традиционной роли «трансляторов знаний». Настоящее теоретическое исследование посвящено анализу формирующейся роли «PLE-куратора» для преподавателей турецкого языка как иностранного (ТКИ). В работе рассматриваются многогранные новые функции преподавателя, включая его роль как архитектора цифровой инфраструктуры, фасилитатора педагогической поддержки (scaffolding), цифрового ментора и разработчика деятельностно-ориентированных заданий. Кроме того, в статье освещаются ключевые трудности, связанные с этой профессиональной эволюцией, такие как педагогическое сопротивление, требования к цифровой грамотности и потребности в непрерывном профессиональном развитии.
Ключевые слова: Коннективизм, Персональная обучающая среда (PLE), Кураторство PLE, Роль преподавателя, Преподавание турецкого языка как иностранного.

INTRODUCTION

The integration of digital technologies into educational contexts has brought about a radical shift in how knowledge is produced, circulated, and accessed. Traditional language pedagogy positioned the teacher as the primary source of authority, the main provider of knowledge, and the sole executor of the curriculum [1. 2007]. Corporate Learning Management Systems (LMS)—such as Moodle or Blackboard—replicated this paradigm within digital environments, operating as rigid, closed "walled gardens" due to their hierarchical and inflexible structures [4. 2012]. However, today's digitally native learners navigate complex, interconnected networks where information is no longer centrally distributed, but remains dynamic and fluid [6. 2005].

George Siemens' Connectivism theory (2005) and Graham Attwell's Personal Learning Environment (PLE) framework (2007) represent a major philosophical departure, shifting control over the learning process from institutions to the learners themselves [1. 2007; 6. 2005]. Within this emerging framework, learners become autonomous agents who construct customized digital ecosystems tailored to their individual goals, interests, and proficiency levels. Yet, fostering learner autonomy does not imply that educators become obsolete. Instead, the teacher's role undergoes a qualitative evolution—transitioning from a traditional "knowledge transmitter" into a "PLE Curator" who shapes, guides, and orchestrates these digital networks [1. 2007; 3. 2020].

This study aims to theoretically unpack the concept of "PLE Curation" within connectivist language pedagogy, discuss its pedagogical implications for Teaching Turkish as a Foreign Language (TTFL), and highlight the key functions educators must adopt during this professional transformation.

1. FROM KNOWLEDGE TRANSMISSION TO CURATION: THE TEACHER’S ROLE IN THE NETWORK AGE

In traditional foreign language classrooms, the teacher served as the primary authority responsible for delivering grammatical rules, presenting vocabulary lists, and evaluating student performance. However, the vast ecosystem of authentic online content alongside AI-driven language learning tools has dismantled the instructor's monopoly over information.

Originating from museum and archival studies, the term *curation* refers to the art of selecting, organizing, and contextualizing meaningful items from extensive collections to build thematic exhibitions. Applied to an educational setting, a language teacher acting as a PLE Curator sifts through the overwhelming and unstructured flow of digital content to curate "digital tool and content menus" tailored to learners' proficiency levels, affective needs, and professional interests [1. 2007; 3. 2020]. Rather than delivering pre-packaged information, the educator designs structured pathways that empower students to navigate and access knowledge effectively.

2. CORE PEDAGOGICAL FUNCTIONS OF THE PLE CURATOR

In a connectivist language teaching model, an instructor serving as a PLE Curator operates across four main pedagogical dimensions:

2.1. Digital Scaffolding Architecture

Vygotsky's "Zone of Proximal Development" and the "Scaffolding" principles developed by Wood et al. (1976) evolve into the teacher's most critical instrument within a PLE environment [7. 1976]. Novice language learners (A1–A2) run the risk of experiencing anxiety and digital disorientation when confronted with the vast abundance of online Turkish content [5. 1982]. The PLE Curator constructs digital safeguards tailored to learners' proficiency levels. While providing structured and controlled digital content lists at the A1 level, the instructor gradually withdraws these scaffolds toward B1–C1 levels, progressively transferring control to the learner's autonomy [3. 2020].

2.2. Digital Mentorship and Self-Regulation Guidance

Learner autonomy does not equate to leaving students entirely to their own devices [2. 1977]. The PLE Curator provides mentorship that enables students to set their own learning goals and transform RSS aggregators (such as Feedly), digital note-taking platforms (e.g., Notion, Google Keep), and AI assistants into autonomous learning tools. By lowering learners' affective filters, the curator encourages them to navigate and engage with the digital ecosystem without the fear of making mistakes [5. 1982].

2.3. "Social Actor"-Oriented Task Design

In alignment with the Council of Europe's (2020) Action-Oriented Approach, the language learner is conceptualized as a "Social Actor" performing communicative tasks within society [3. 2020]. Shifting away from conventional paper-and-pencil assignments, the PLE Curator designs authentic digital tasks

where students author target-language blog posts, produce podcast series, or participate in global language exchange networks such as Tandem or Discord [3. 2020].

2.4. Process-Oriented Assessment and E-Portfolio Advising

Evaluating learning within a decentralized, highly personalized, and open-ended PLE ecosystem renders traditional multiple-choice testing inadequate. The PLE Curator tracks student growth and digital artifacts through e-portfolio systems and analytic rubrics, delivering continuous qualitative formative feedback throughout the learning journey.

3. BARRIERS AND POINTS OF RESISTANCE IN THE TRANSFORMATION PROCESS

The transition from traditional knowledge transmission to PLE Curation is by no means seamless. Several structural and pedagogical obstacles hinder this evolution:

Pedagogy-Driven Resistance and Habitual Patterns: For educators accustomed to teacher-centered instructional methods over many years, relinquishing classroom authority and ceding control to learners can be perceived as a loss of professional status.

Digital Literacy and Techno-Stress: A lack of familiarity with Web 3.0/4.0 tools, AI algorithms, and connectivist instructional design can foster feelings of technological inadequacy (techno-stress) among language teachers throughout this process.

Curricular and Institutional Pressures: Rigid curricula in higher education institutions, mandatory LMS usage, and standardized test-driven evaluation systems constrain instructors' ability to construct flexible, personalized PLE environments.

CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

Digitalization in language instruction extends far beyond installing smartboards in classrooms or uploading PDF materials onto an LMS platform. The true transformation takes place within the philosophical foundation of the learning ecosystem and the redefined role of the educator navigating it. Grounded in Siemens' Connectivism theory and Attwell's PLE framework, PLE Curation elevates the instructor from a passive curriculum implementer to a visionary educational architect who builds autonomous language networks for learners [1. 2007; 6. 2005].

To successfully realize this professional role transition across institutions and centers specializing in Teaching Turkish as a Foreign Language (TTFL), the following strategic steps should be taken:

In-Service Training: Hands-on workshops focusing on "Connectivist Language Pedagogy" and "Digital PLE Curation" should be organized for language instructors.

Curricular Flexibility: Institutional curricula need to be redesigned with sufficient flexibility to enable learners to construct their own personalized digital learning networks.

Assessment Reform: Rather than relying solely on product-oriented standardized testing, PLE-based e-portfolio systems and digital performance assessment models should be officially endorsed and promoted.

REFERENCES

1. Attwell, G., The Personal Learning Environments: The future of education?, Elearning Papers, 2(1), 2007.
2. Bandura, A., Self-efficacy: Toward a unifying theory of behavioral change, Psychological Review, 84(2), 1977.
3. Council of Europe, Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment – Companion volume, Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.
4. Downes, S., Connectivism and connective knowledge: Essays on meaning and learning networks, Ottawa: National Research Council Canada, 2012.
5. Krashen, S., Principles and practice in second language acquisition, Oxford: Pergamon Press, 1982.
6. Siemens, G., Connectivism: A learning theory for the digital age, International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2(1), 2005.
7. Wood, D., Bruner, J. S., & Ross, G., The role of tutoring in problem solving, Journal of Child Psychology and Psychiatry, 17(2), 1976.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INGLIZ TILIDA OG‘ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI

Mutalliyeva Malika Boxodirovna
Namangan Davlat Universiteti tayanch doktoranti
Email: malikamutalliyeva89@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22137272

Annotatsiya. Ushbu tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilida og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik tamoyillar ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilingan. Kommunikativ yo‘naltirilganlik, onglilik va faollik, ko‘rgazmalilik, yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish, tizimlilik va izchillik, ta’limning hayot bilan bog‘liqligi hamda interfaollik tamoyillarining mazmuni ochib berilgan. Mazkur tamoyillarning CEFR talablari, boshlang‘ich ta’lim mazmuni va zamonaviy kommunikativ metodlar bilan o‘zaro aloqasi asoslangan. Shuningdek, ingliz tili darslarida og‘zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni tanlash va tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijasida didaktik tamoyillarni alohida emas, balki o‘zaro bog‘langan yaxlit metodik tizim sifatida qo‘llash zarurligi asoslangan.
Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, ingliz tili, og‘zaki nutq, didaktik tamoyil, kommunikativ kompetensiya, dialogik nutq, monologik nutq, interfaol metod, CEFR.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini amaliy egallash jamiyatning muhim ijtimoiy va ta’limiy talablaridan biriga aylandi. Chet tilini bilish faqat grammatik qoidalar va lug‘aviy birliklarni o‘zlashtirish bilan belgilanmaydi. O‘quvchi o‘rgangan til materialidan real muloqot vaziyatlarida foydalana olishi, savol berishi, suhbatdoshining fikriga munosabat bildirishi va o‘z fikrini sodda, tushunarli shaklda ifodalashi lozim.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi ingliz tilida dastlabki kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish uchun muhim davr hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda taqlid qilish qobiliyati, obrazli tafakkur, harakat va o‘yin orqali o‘rganishga moyillik nisbatan kuchli bo‘ladi. Shu sababli ingliz tili darslarida og‘zaki nutqni rivojlantirish jarayoni o‘quvchilarning yosh, psixologik va lingvistik imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etilishi zarur [1; 2].

J.Jalolov chet tilini o‘qitishning amaliy maqsadi o‘quvchida til vositalaridan kommunikativ faoliyatda foydalana olish malakasini shakllantirishdan iboratligini ta’kidlaydi [3]. CEFRda ham til o‘rganuvchining kompetensiyasi uning ma’lum kommunikativ vaziyatda qanday nutqiy harakatni bajara olishi bilan baholanadi [4]. Demak, boshlang‘ich sinflarda ingliz tilida og‘zaki nutqni rivojlantirish darsning alohida qismi emas, balki barcha metod, mashq va vositalarni birlashtiruvchi asosiy yo‘nalish bo‘lishi kerak.

Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich ta’limda ingliz tilida og‘zaki nutqni rivojlantirishning asosiy didaktik tamoyillarini aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligini yoritish va amaliy qo‘llash shartlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi umumdidaktik va xususiy-metodik tamoyillar o‘zaro bog‘langan yagona tizim sifatida tavsiflanadi hamda ularning kommunikativ mashqlarni tashkil etishdagi vazifalari aniqlashtiriladi.

Boshlang‘ich ta’limda og‘zaki nutqni rivojlantirishning asosiy didaktik tamoyillari:

Kommunikativ yo‘naltirilganlik tamoyili. Kommunikativ yo‘naltirilganlik ingliz tilini o‘qitishning asosiy metodik tamoyillaridan biri hisoblanadi. Ushbu tamoyilga ko‘ra, til birliklari o‘quvchiga alohida va vaziyatdan tashqari holatda emas, balki muayyan muloqot ehtiyojini ifodalash vositasi sifatida o‘rgatiladi. O‘quvchi so‘z va grammatik shaklni nima uchun ishlatayotganini anglashi hamda undan amaliy vaziyatda foydalana olishi zarur.

Boshlang‘ich sinflarda “My family”, “My school”, “My day”, “Food”, “Animals” va “Hobbies” kabi mavzular o‘quvchilarning hayotiy tajribasiga yaqin bo‘lgani uchun tabiiy muloqot muhitini yaratadi. Masalan, o‘qituvchi “What do you do after school?” deb savol berganda o‘quvchi “I play football”, “I do my homework” yoki “I help my mother” shaklida javob berishi mumkin. Keyingi bosqichda javob “I play football after school because it is fun” ko‘rinishida kengaytiriladi.

CEFRning boshlang‘ich darajalarida o‘quvchidan tanish mavzularda oddiy savol-javobda ishtirok etish, o‘zi, oilasi, kundalik mashg‘ulotlari va qiziqishlari haqida sodda gaplar bilan fikr bildirish talab etiladi [4]. Shuning uchun darsdagi topshiriqlar ham aynan shunday nutqiy harakatlarga yo‘naltirilishi kerak.

Onglilik va o‘quvchi faolligi tamoyili. Og‘zaki nutq ko‘nikmasi o‘qituvchining tushuntirishini passiv tinglash orqali emas, balki o‘quvchining faol nutqiy ishtiroki jarayonida shakllanadi. O‘quvchi yangi so‘z yoki nutqiy qolipning ma’nosini anglashi, uni qaysi vaziyatda qo‘llash mumkinligini tushunishi va mustaqil nutqda ishlatishga harakat qilishi kerak. Bu tamoyil savol – javob, juftlikda ishlash, rolli o‘yin, axborot almashish, hikoya tuzish va kichik taqdimotlar orqali amalga oshiriladi. Masalan, “At the shop” rolli o‘yinida bir o‘quvchi sotuvchi, ikkinchisi xaridor vazifasini bajaradi:

- Can I have an apple, please?
- Yes, here you are.
- How much is it?
- It is two thousand soums.

Bunday vaziyatlarda o‘quvchi tayyor til materialini shunchaki takrorlamaydi, balki undan muayyan kommunikativ maqsadda foydalanadi. T. A. Mugo va A. Bwire interfaol strategiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining darsdagi ishtiroki va og‘zaki faolligini oshirishini ta’kidlaydi [5]. O‘qituvchining vazifasi esa barcha nutqni o‘zi bajarish emas, o‘quvchilar uchun ko‘proq gapirish imkoniyatini yaratishdan iborat.

Ko‘rgazmalilik va multimodallik tamoyili. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda ko‘rgazmali – obrazli tafakkur ustun bo‘lganligi sababli rasmlar, o‘yinchoqlar, real buyumlar, kartochkalar, mimika, harakat, audio va videomateriallar ingliz tilida og‘zaki nutqni rivojlantirishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Ko‘rgazmali vosita so‘zning ma’nosini tarjimasiz anglash, eslab qolish va nutqda qo‘llash imkoniyatini oshiradi. Masalan, hayvonlar tasvirlangan rasm asosida o‘quvchilarga quyidagi tayanch savollar beriladi:

- What animal is it?
- What colour is it?
- Where does it live?
- What can it do?

O‘quvchi dastlab “It is a tiger. It is orange and black” kabi ikki gapdan foydalanadi. Keyinchalik o‘qituvchi kalit so‘zlar va nutqiy tayanchlar yordamida javobni besh-olti gapli kichik monologga aylantiradi. Ko‘rgazmalilik bu o‘rinda faqat darsni qiziqarli qilish emas, balki mustaqil nutq yaratishni qo‘llab-quvvatlovchi didaktik vosita hisoblanadi.

Yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish tamoyili. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining diqqatini uzoq vaqt bir faoliyatga jalb etish qiyin. Ular harakatli, qisqa, hissiy va tez almashib turadigan topshiriqlarga ehtiyoj sezadilar. Shu sababli dars davomida tinglash, takrorlash, juftlikda ishlash, o‘yin, rasm asosida gapirish va harakatli mashqlar o‘zaro almashtirib borilishi zarur. Barcha o‘quvchilarning til o‘zlashtirish sur’ati bir xil emas. Ayrim o‘quvchilar yangi nutqiy qolipni tez egallasa, boshqalarga rasm, kalit so‘z, gap boshlanishi yoki namunaviy dialog shaklidagi qo‘shimcha yordam kerak bo‘ladi. Differensial yondashuvda barcha o‘quvchilar uchun umumiy kommunikativ maqsad saqlanadi, ammo topshiriqning murakkabligi va yordam darajasi o‘zgartiriladi. Masalan, “My family” mavzusida:

- boshlang‘ich darajadagi o‘quvchiga: “This is my … . His/Her name is …” qolipi beriladi;
- o‘rta darajadagi o‘quvchiga rasm va kalit so‘zlar taklif qilinadi;
- yuqoriroq darajadagi o‘quvchiga oilasi haqida mustaqil ravishda besh-olti gap tuzish vazifasi topshiriladi.

Bunday tashkil etish inkluziv ta’lim talablariga mos keladi va har bir bolaning darsda muvaffaqiyatni his etishiga yordam beradi [6].

Tizimlilik, izchillik va bosqichma – bosqichlik tamoyili. Og‘zaki nutq bir yoki ikki marta bajarilgan mashq natijasida shakllanmaydi. U muntazam, izchil va bosqichma-bosqich tashkil etilgan nutqiy faoliyat mahsulidir. Mashqlar oddiy taqlid va takrorlashdan boshlab, boshqariladigan nutq, yarim erkin muloqot va mustaqil gapirishga tomon rivojlantirilishi lozim.

Og‘zaki nutq mashqlarini quyidagi uch bosqichda tashkil etish maqsadga muvofiq:

1. Tayyorlov bosqichi – tovush, so‘z, ibora va nutqiy qoliplarni tinglash, taqlid qilish hamda takrorlash.
2. Shakllantirish bosqichi – tayanch so‘zlar, rasmlar va namunalar asosida savol-javob hamda kichik dialoglar tuzish.

3. Rivojlantirish bosqichi – mustaqil monolog, rolli o‘yin, axborot almashish va ijodiy hikoya yaratish.

Masalan, “Daily routines” mavzusida o‘quvchilar dastlab “I get up”, “I have breakfast”, “I go to school” birliklarini o‘zlashtiradi. Keyin “What time do you get up?” savoli asosida juftlikda suhbatlashadi. Yakuniy bosqichda esa “My day” mavzusida bog‘langan kichik monolog tuzadi.

Bizning fikrimizcha, og‘zaki nutq mashqlarining samaradorligi ularning soni bilan emas, balki o‘zaro metodik bog‘liqligi, takroriy qo‘llanishi va har safar yangi kommunikativ vaziyatda murakkablashib borishi bilan belgilanadi.

Ta’limning hayot bilan bog‘liqligi va funksionallik tamoyili. O‘quvchi darsda o‘rgangan nutqiy birliklarning real hayotdagi vazifasini tushunishi lozim. Shu sababli til materiali o‘quvchining kundalik ehtiyojlari, qiziqishlari va muloqot vaziyatlariga muvofiq tanlanadi. Salomlashish, tanishish, yordam so‘rash, minnatdorlik bildirish, buyumning joylashuvini so‘rash va yoqtirgan narsasi haqida gapirish boshlang‘ich bosqich uchun funksional nutqiy vazifalardir. Bu tamoyli grammatik bilimni inkor etmaydi. Aksincha, grammatik vositalar muayyan fikrni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, “can” modal fe’li qoidani yodlash uchungina emas, “I can swim”, “A bird can fly”, “Can you ride a bike?” kabi kommunikativ vazifalarni bajarish uchun o‘rgatiladi.

Interfaollik va hamkorlik tamoyili

Og‘zaki nutq tabiatan ikki yoki undan ortiq shaxsning o‘zaro hamkorligiga asoslanadi. Shuning uchun ingliz tili darsida faqat o‘qituvchi va bitta o‘quvchi o‘rtasidagi savol-javob bilan cheklanib qolish maqsadga muvofiq emas. Juftlik, kichik guruh, “Think–Pair–Share”, rolli o‘yin, intervyu va information gap mashqlari barcha o‘quvchilarning bir vaqtda nutqiy faoliyatga kirishishini ta’minlaydi. Masalan, axborot almashish mashqida ikki o‘quvchiga bir-biridan farq qiluvchi dars jadvali beriladi. Ular bir-biriga savol berib, yetishmayotgan ma’lumotlarni to‘ldiradi:

- What do we have on Monday?
- We have English and Maths.
- What time is English?
- It is at nine o’clock.

Bunda o‘quvchilar o‘rtasida haqiqiy axborot ehtiyoji paydo bo‘ladi. Bu esa dialogning sun’iy emas, mazmunli bo‘lishini ta’minlaydi.

Didaktik tamoyillarni amalga oshirishning metodik shartlari

Yuqoridagi tamoyillar o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanilgandagina kutilgan natijani beradi. Ularni amalga oshirish uchun ingliz tili darslarida quyidagi metodik shartlar ta’minlanishi lozim:

- har bir darsda o‘quvchilarning gapirishiga yetarli vaqt ajratish;
- xatoga nisbatan qo‘rqituvchi emas, qo‘llab-quvvatlovchi munosabatni shakllantirish;
- til materialini real yoki shartli-real muloqot vaziyatlarida qo‘llash;
- tinglab tushunish va gapirish faoliyatini o‘zaro bog‘lash;
- nutqiy tayanchlarni o‘quvchining rivojlanishiga qarab bosqichma-bosqich kamaytirish;
- barcha o‘quvchilarni juftlik va guruh faoliyatiga jalb etish;
- raqamli vositalardan pedagogik maqsadga muvofiq foydalanish.

Raqamli va multimodal vositalar alohida didaktik tamoyil emas, balki ko‘rgazmalilik, differensiallash, faollik va mustaqil mashq qilish imkoniyatlarini kuchaytiruvchi ta’lim vositasi sifatida qo‘llanishi maqsadga muvofiq. Audioyozuvlar, qisqa videolar, interaktiv o‘yinlar va ovoz yozish dasturlari o‘quvchiga o‘z nutqini tinglash, talaffuzini tahlil qilish va qayta mashq qilish imkonini beradi [7].

Xulosa

Boshlang‘ich ta’limda ingliz tilida og‘zaki nutqni rivojlantirish kommunikativ yo‘naltirilganlik, onglilik va faollik, ko‘rgazmalilik, yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish, tizimlilik va izchillik, funksionallik hamda interfaollik tamoyillarining o‘zaro uyg‘unligiga asoslanadi. Ushbu tamoyillardan birining e’tibordan chetda qolishi nutqiy faoliyatning to‘liq shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Kommunikativlik darsning maqsadini, interfaollik faoliyat shaklini, ko‘rgazmalilik til materialini tushunish vositasini, differensial yondashuv individual yordam darajasini, tizimlilik esa mashqlarning ketma-ketligini belgilaydi. Raqamli vositalar mazkur jarayonni qo‘llab – quvvatlaydi, biroq o‘qituvchi rahbarligi va mazmunli muloqotning o‘rnini egallamaydi.

Bizning yondashuvimizga ko‘ra, boshlang‘ich sinflarda og‘zaki nutqni rivojlantirishning eng maqbul yo‘li nutqiy materialni tayyor shaklda yodlatish emas, balki o‘quvchini tayanchli mashqlardan mustaqil

kommunikativ faoliyatga bosqichma – bosqich olib chiqishdir. Bunday yondashuv o‘quvchilarda nafaqat talaffuz, lug‘at va grammatik ko‘nikmalarni, balki fikrni tushunarli ifodalash, suhbatni boshlash, davom ettirish va unga munosabat bildirish qobiliyatini ham shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bessarab, N. Formation of Communication Skills in Primary School Students in Foreign Language Lessons in the New Ukrainian School. – 2023.
2. Zhao, Z. Implications of the Critical Period Hypothesis for Oral English Instruction in Primary Schools in China. – 2024.
3. Jalolov, J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
4. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. – Strasbourg, 2020.
5. Mugo, T. M., Bwire, A. Strategies Used in Teaching English Language Oral Skills and Effects on Primary School Learner Participation in Embu County, Kenya. – 2024.
6. Liu, Y., Fisher, L., Forbes, K., Evans, M. The Knowledge Base of Teaching in Linguistically Diverse Contexts: Grounded Principles of Multilingual Classroom Pedagogy for EAL. – 2017.
7. Kalbergenova, Sh. V. et al. Integration of Adapted Podcasts and Digital Media into English Language Teaching for Primary School Children: Developing Creative Speech Skills. – 2026.
8. Dagarin-Fojkar, M., Grahut, M., Skubic, D. Teacher Competences for Teaching English as a Foreign Language in the First Educational Cycle of Primary Education. – 2022.
9. Puspita, D. R., Nuruddin, N., Rafli, Z. A Model of Speaking Lesson Plan Based on Contextual Learning for Primary School Teacher Education Students. – 2022.
10. Dobinson, K. L., Dockrell, J. Universal Strategies for the Improvement of Expressive Language Skills in the Primary Classroom: A Systematic Review. – 2021.
11. Savnik, U. B. English Drama as an Activity for Promoting Speaking Skills in a Foreign Language at Primary School Level. – 2025.
12. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi tizimi uchun ingliz tili fanidan Milliy o‘quv dasturi. – Toshkent.

FACTORS AFFECTING YOUNG LEARNERS’ SPEAKING ANXIETY IN ENGLISH CLASSROOMS

Malika Mutalliyeva
PhD Student of Namangan State University
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22137291

Abstract: Speaking anxiety is one of the main barriers preventing young learners from participating actively in English lessons. The purpose of this paper is to identify the major factors affecting young learners’ speaking anxiety and suggest effective ways of reducing it. The study is based on a review of recent research published between 2018 and 2025. The findings indicate that speaking anxiety is caused by psychological, linguistic, classroom-related, teacher-related, and social factors. Low self-confidence, fear of mistakes, limited vocabulary, pronunciation difficulties, public speaking, teacher correction, and peer judgment are among the most common causes. Preparation time, pair and group work, visual support, communicative activities, positive feedback, and gradual speaking practice can help reduce anxiety. The study concludes that creating a supportive classroom environment is essential for developing young learners’ speaking confidence.
Keywords: speaking anxiety, young learners, English classroom, self-confidence, speaking skills, classroom environment.

Introduction

Speaking is one of the most important skills in foreign language learning. It enables learners to express ideas, exchange information, ask and answer questions, and participate in communication. However, many learners experience anxiety when they are required to speak English in front of teachers and classmates.

Speaking anxiety may appear in the form of hesitation, silence, nervousness, forgetting familiar words, speaking too quietly, or avoiding classroom participation. An anxious learner may possess sufficient vocabulary and grammatical knowledge but still be unable to demonstrate these abilities during oral activities. This problem requires particular attention in young learner classrooms. Children’s willingness to speak is closely connected with their self-confidence, emotional security, teacher support, and relationships with classmates. A negative experience, such as being criticized or laughed at, may reduce a learner’s willingness to participate in future speaking activities.

Research shows that speaking anxiety is rarely caused by one factor. It usually results from the interaction of psychological, linguistic, instructional, and social influences (Hanifa, 2018; Fındıklı, 2023; Paraguas, 2025). Therefore, identifying these factors is important for organizing effective speaking instruction. The purpose of this paper is to identify the main factors affecting young learners’ speaking anxiety in English classrooms and discuss teaching strategies that can reduce it.

Research Methodology

The study employed a narrative literature review method. Academic studies published between 2018 and 2025 were analyzed. The selected sources discussed the causes, forms, levels, and reduction of speaking anxiety in English as a Foreign Language classrooms.

The findings were classified into four main groups:

1. psychological and linguistic factors;
2. classroom and task-related factors;
3. teacher-related factors;
4. peer and social factors.

Psychological and linguistic factors

Low self-confidence is one of the most common causes of speaking anxiety. Learners who do not believe in their own abilities often avoid answering questions or participating in discussions. They may compare themselves with stronger classmates and consider their English insufficient for communication.

Shyness and nervousness also reduce young learners’ participation. Some children can speak successfully with a partner but become silent when they are asked to speak in front of the whole class. This shows that speaking performance depends not only on language knowledge but also on the learner’s emotional condition.

Fear of making mistakes is another major factor. Learners may worry that grammatical or pronunciation errors will lead to criticism or embarrassment. Consequently, they monitor every word, pause frequently, and lose fluency. When mistakes are treated as failures, learners become more concerned with accuracy than communication.

Limited vocabulary also causes speaking anxiety. Learners may understand the topic but fail to find suitable words quickly. This problem is especially noticeable in spontaneous speaking because learners have little time to organize their responses.

Weak grammatical control creates similar difficulties. Learners may hesitate because they are unsure about word order, verb forms, or sentence structure. Pronunciation problems may also cause embarrassment and fear of being misunderstood.

Psychological and linguistic factors are closely related. Limited language knowledge can reduce confidence, while anxiety can make it more difficult to remember familiar words. Therefore, learners need both language support and emotional encouragement.

Classroom and task-related factors

The classroom environment strongly influences speaking anxiety. Formal and highly competitive classrooms may make learners feel that every response is being evaluated. A supportive environment, in contrast, allows learners to use English without excessive fear of mistakes. Public speaking, individual presentations, oral tests, and unexpected questions are especially anxiety-provoking. These tasks require learners to produce language immediately while being observed by others.

Young learners may experience mental blocking when they are given no preparation time. They must generate ideas, choose words, construct sentences, and pronounce them correctly at the same time. This cognitive pressure often results in hesitation or silence. Speaking tasks should therefore progress gradually. Learners may first listen to a model, practise key expressions, work with a partner, participate in a small group, and only later speak in front of the whole class.

Test pressure is another important factor. When every speaking activity is graded, learners may focus more on possible failure than on communication. Speaking practice should not always be treated as formal assessment.

Teacher-related factors

The teacher plays an important role in increasing or reducing speaking anxiety. Immediate correction can interrupt learners and make them afraid of continuing. Although correction is necessary, its timing should depend on the purpose of the activity. During fluency activities, teachers should allow learners to complete their ideas before correcting errors. Common mistakes can be discussed after the activity without identifying individual learners. This approach protects learners from embarrassment.

Harsh criticism, sarcasm, and comparison with stronger classmates may seriously damage young learners’ confidence. Children often depend strongly on teacher approval, so negative comments can influence their future participation. Unclear instructions can also create anxiety. Learners need to understand what they should say, how long they should speak, and which expressions they can use. Teachers should demonstrate the task and provide an example before asking learners to perform.

Positive feedback has the opposite effect. Teachers should acknowledge the learner’s effort and successful communication before correcting language errors. For example, instead of saying, “Your answer is wrong,” the teacher can say, “Your idea is clear; let us improve this sentence.

Young learners are often afraid of being laughed at or judged by classmates. Fear of peer reaction may prevent them from speaking even when they know the answer. Negative comparison with more fluent learners can also reduce self-confidence. Nevertheless, classmates can become an important source of support. Pair and group activities reduce public pressure and give learners more opportunities to practise speaking. In cooperative tasks, attention is focused on completing a shared activity rather than evaluating one learner. Teachers should establish rules of respectful communication. Learners should not laugh at mistakes or interrupt one another. They can be taught supportive expressions such as “Good idea,” “Please continue,” and “Take your time.”

The main factors affecting young learners’ speaking anxiety can be summarized as follows:

Figure1.

Recurring factors affecting speaking anxiety in EFL classrooms.

Factor	How It Raises Anxiety	Example Evidence

Low self-confidence	Reduces willingness to speak and increases self-doubt	Rajendran, 2025
Fear of mistakes	Makes learners avoid speaking or over-monitor speech	Suparlan, 2021
Limited vocabulary and grammar	Creates difficulty forming sentences in real time	Alazeer, 2023
Pronunciation problems	Increases embarrassment and fear of misunderstanding	Suparlan, 2021
Peer judgment	Produces fear of ridicule or negative comparison	Agustin, 2025
Teacher correction and evaluation	Heightens fear of negative evaluation	Paraguas, 2025
Test and performance pressure	Intensifies anxiety during speaking tasks	Rasyida, 2023

These factors are interconnected. For example, pronunciation difficulties may lead to negative peer reactions, which then reduce self-confidence. Therefore, speaking anxiety requires a comprehensive pedagogical approach.

Pedagogical Implications

Speaking anxiety can be reduced through appropriate task design and classroom management. Learners should be given sufficient preparation time before speaking. Teachers can provide pictures, vocabulary lists, sentence starters, dialogue models, and question cards. Pair work and small-group activities are particularly effective because they reduce public pressure and increase speaking time. Role plays, information-gap activities, interviews, picture descriptions, guessing games, and storytelling are suitable for young learners. Visual support is also important. Pictures, flashcards, toys, and real objects help learners generate ideas and remember vocabulary.

Teachers should create a classroom environment in which mistakes are considered a natural part of language learning. Learners should not be interrupted constantly during communicative tasks. Feedback should be encouraging and limited to the most important errors. Technology-supported practice can also be useful. Learners may record short audio or video responses and repeat them before presenting their work. Such activities allow children to practise at their own pace.

Speaking assessment should include task completion, fluency, comprehensibility, interaction, vocabulary, and accuracy. Assessment based only on grammatical correctness may increase anxiety and discourage communication.

Conclusion

Young learners’ speaking anxiety is caused by a combination of psychological, linguistic, instructional, and social factors. Low self-confidence, fear of mistakes, limited vocabulary, grammatical and pronunciation difficulties, public performance, teacher correction, test pressure, and peer judgment are the most common causes.

Speaking anxiety should not be considered only an individual learner problem. Classroom activities, correction techniques, teacher behavior, and peer relationships may also influence learners’ willingness to communicate.

Teachers can reduce speaking anxiety by providing preparation time, visual and linguistic support, pair and group work, communicative activities, positive feedback, and gradual speaking practice. Learners should understand that mistakes are a normal part of language learning.

A supportive and respectful classroom environment enables young learners to feel safe, participate actively, and develop confidence in English communication.

References

1. Agustin, A. G., Sulistyo, T., & Sholeh, A. (2025). Investigating speaking anxiety in Indonesian young learner classrooms: A qualitative descriptive study. *Journal of Language and Literature Studies*.

2. Alazeer, A. N. M., & Ahmed, Z. A. (2023). Students’ speaking anxiety in EFL classrooms. *International Journal of English Literature and Social Sciences*.

3. Fındıklı, S. (2023). Factors affecting students’ speaking anxiety in the English language classroom. *Focus on ELT Journal*.
4. Hanifa, R. (2018). Factors generating anxiety when learning EFL speaking skills. *Studies in English Language and Education*.
5. Hidayat, M. (2021). Contributing factors to EFL students’ speaking anxiety. *English Education and Applied Linguistics Journal*.
6. Nurilahi, R., & Suhartono, L. (2022). An analysis of the causes of students’ speaking anxiety in EFL classrooms. *Journal of English Education Program*.
7. Paraguas, A. S. (2025). Exploring the causes and factors of speaking anxiety among EFL students: A systematic literature review. *Canadian Journal of Educational and Social Studies*.
8. Prameswari, N. P., Wahjuningsih, E., Imamyartha, D., & Puspa, A. (2025). Exploring EFL speaking anxiety among junior high school students. *Journal of Research on English and Language Learning*.
9. Rajendran, M., Srinivasan, V., Ilangovan, A., Singh, A. B., & Bakhromdjanovna, M. Z. (2025). Exploring anxiety among English learners: A comprehensive literature review. *Multidisciplinary Reviews*.
10. Rasyida, T., & Kusuma, P. C. (2023). Young English learners’ anxiety: The case of an Indonesian elementary classroom. *Proceedings of Konferensi Linguistik Tahunan Atma Jaya*.

DETEKTIV ASARLARDA JINOYAT VA TERGOV LEKSIKASINING KONNOTATIV VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

(Agata Kristi qalamiga mansub “The A.B.C. Murders” asari misolida)

Shoxidova Mashxura Kobuljonovna
Namangan davlat universiteti, Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22137320

Annotatsiya: Ushbu maqolada detektiv diskurs doirasida jinoyat va tergov leksikasining konnotativ hamda pragmatik xususiyatlari Agata Kristinining mashhur "The A.B.C. Murders" romani matni asosida tahlil qilinadi. Detektiv asarlardagi maxsus leksik birliklarning kontekstual ma’nolari, ularning o‘quvchi hamda qahramonlar kognitiv faoliyatiga ko‘rsatadigan ta’siri lingvopragmatik va stilistik nuqtayi nazardan ochib berilgan. Asardan olingan aniq parchalar lingvistik tahlil etilib, muallif qo‘llagan pragmatik manipulyatsiya vositalari va leksik birliklarning emotsional-ekspressiv bo‘yoqlari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: detektiv diskurs, jinoyat leksikasi, tergov, lingvopragmatika, konnotatsiya, "The A.B.C. Murders", nutqiy akt, kognitiv tilshunoslik.

KIRISH

Detektiv adabiyot diskursi nafaqat o‘zining kompozitsion murakkabligi, balki o‘ziga xos lingvistik tabiati bilan ham tilshunoslikda alohida o‘rin egallaydi. Detektiv diskursning markazida jinoyat va uning tergov jarayonini ifodalovchi maxsus leksika turadi. Jinoyat va tergov leksikasi asarda shunchaki nominativ vazifani bajarmaydi, balki kuchli konnotativ va pragmatik yukka ega bo‘ladi [4]. Agata Kristi ijodida til vositalaridan foydalanish mahorati o‘quvchining diqqatini chalg‘itish, lisoniy tuzoqlar yaratish va tergov jarayonidagi psixologik taranglikni ifodalashga qaratilgan [1]. Romanlaridagi har bir muloqot va monolog ma’lum bir pragmatik maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, qahramonlarning lisoniy portretini shakllantirishda xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Detektiv diskurs va sud-tergov leksikasini lingvistik jihatdan o‘rganish pragmatika, kognitiv tilshunoslik va stilistika chorrahasida amalga oshiriladi. Lisoniy birliklarning pragmatik tabiati J.Ostin[2] va J.Sörl [5] tomonidan ishlab chiqilgan nutqiy aktlar nazariyasiga borib taqaladi. Detektiv diskursda tahdid xatlari, guvohlik ko‘rsatmalari va tergovchining savol-javoblari o‘ziga xos pragmatik funksiyalarni bajaruvchi illokutiv aktlar hisoblanadi.G.P.Grays muloqot prinsiplari va implikatura nazariyasi[3] ham detektiv matnlarni tahlil qilishda muhim asbob hisoblanadi. Chunki detektiv muloqotda qahramonlar ko‘pincha Grays maksimasini ataylab buzadilar (masalan, noto‘g‘ri ma’lumot berish yoki keragidan ortiq gapirish orqali) [4]. O‘zbek va jahon tilshunosligida detektiv asarlar matnini lingvopoetik va stilistik tadqiq etish yuzasidan qator ishlar qilingan. Xususan, badiiy matn pragmatikasi va konnotativ ma'no ko‘chishi masalalari o‘zbek tilshunosligida, masalan, M. Yo‘ldoshev asarlarida ham keng yoritilgan[6]. Biroq, Agata Kristi asarlarida jinoyat va tergov leksikasining sof pragmatik manipulyatsiya vositasi sifatidagi o‘rni hamda ushbu birliklarning konnotativ semantikasini asar matnidagi aniq parchalar asosida tadqiq etish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Kontekstual tahlil metodi – matndagi jinoyat va tergovga oid so‘zlarning individual-avtorlik va vaziyatga bog‘liq semantik o‘zgarishlarini aniqlashda qo‘llandi [4].
2. Pragmatik tahlil – muloqot ishtirokchilarining nutqiy niyatlari (illokutiv maqsadlari) va lisoniy manipulyatsiyani ochish uchun xizmat qildi [4].
3. Semantik-stilistik tahlil – leksik birliklarning emotsional, ekspressiv va baholovchi konnotatsiyalarini tadqiq etishda ishlatildi [4].

Tadqiqot materiali sifatida Agata Kristinining "The A.B.C. Murders" asarining original ingliz tilidagi matni [4] va undagi jinoyat ssenariylari olindi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Asar tahlili davomida ma’lum bo‘ldiki, jinoyat leksikasining konnotativ tabiati muloqot ishtirokchisining ijtimoiy va professional maqomiga qarab turlicha namoyon bo‘ladi[4]. Masalan, Hercule

Poirot uchun jinoyat so‘zi estetik va intellektual ob’ekt sifatida namoyon bo‘lsa, Japp yoki Kroum kabi politsiyachilar uchun bu professional vazifa, jinoyatchi uchun esa o‘z shaxsiyatini tasdiqlash vositasidir [4].

"The A.B.C. Murders" asarida tergov leksikasining konnotativ va pragmatik tabiatini bir necha guruhga bo‘lib tahlil qilish mumkin:

1. "Jinoyat" tushunchasining individual-stilistik konnotatsiyasi

Asarning birinchi bobidayoq Poirot va Hastings o‘rtasidagi suhbatda jinoyat leksikasining odatiy denotativ ma’nosidan (qonunbuzarlik, mudhish voqea) uzoqlashib, individual-subektiv konnotatsiyalar kasb etishini ko‘ramiz [4]. Poirot o‘z kasbiy faoliyatining o‘ziga xosligini va jinoyatga intellektual yondashuvini quyidagicha ifodalaydi [4]: *“Precisely. I pick and choose. For Hercule Poirot nowadays only the cream of crime.”* [4,5] Bu parchada “*cream of crime*” (*jinoyatning qaymog‘i*) iborasi o‘ta murakkab, noan’anaviy jinoyatlarni ifodalovchi ijobiy, estetik va individual-stilistik konnotatsiyaga ega birlik sifatida namoyon bo‘ladi [4]. Andoverdagi qotillik haqida gap ketganda esa, Poirot va Hastings o‘rtasidagi dialogda jinoyatni idrok etishdagi pragmatik tafovut yaqqol ko‘rinadi [4]. Poirot o‘g‘irlik sodir bo‘lgan taqdirda asabiy taranglik pasayishini nazarda tutib, buni "taskin" deb atasada, Hastings bunga quyidagicha e’tiroz bildiradi [4]: *“A robbery may be a thrill but it can hardly be a comfort!”* [4,8] Ushbu parchada “*thrill*” (hayajon/hayrat) va “*comfort*” (taskin/tinchlik) leksemalarining to‘qnashuvi orqali Hastings uchun jinoyat psixologik qo‘rquv va hayajon manbayi bo‘lsa, Poirot uchun u kognitiv yengillik yoki tizimli tartib (comfort) asosi ekanligi ochib berilgan [4].

2. "*Hoax*" (Hazil, chalg‘itish) va "*Madman*" (Telba) leksemalarining pragmatik qarama-qarshiligi

Tergovchilarning jinoyatchi yuborgan dastlabki xatga nisbatan munosabati ularning keyingi harakatlarini belgilaydi [4]. Inspector Japp maktubni jiddiy qabul qilmay, uni chalg‘ituvchi vosita sifatida baholaydi [4]: “*He was of the same opinion as you – a stupid hoax – that was the expression he used.*” [4,7] "*Stupid hoax*" (ahmoqona hazil/yolg‘on) iborasi vaziyatni va xat yuboruvchining niyatini devalvatsiyaga uchratish pragmatik vazifasini bajaradi [4]. Biroq Poirot unga qarshi ogohlantiruvchi leksikadan foydalanadi [4]: “*A madman, mon ami, is to be taken seriously. A madman is a very dangerous thing.*” [4] Bu yerda "*hoax*" va "*madman*" so‘zlarining kontekstual to‘qnashuvi tergov boshlanishidagi ikki xil konseptual yondashuvni ko‘rsatadi [4]. Poirot jinoyatchining xat yuborish ortidagi pragmatik maqsadini (tahdid solish va e’tibor qozonish) to‘g‘ri idrok etadi [4].

MUNOZARA

Asarda A.B.C. tomonidan yuborilgan maktublar jinoyat diskursining eng yorqin pragmatik namunalaridir [4]. Janevchi tomonidan yozilgan ushbu matnlar shunchaki ma'lumot uzatish emas, balki qabul qiluvchining (Poirot) his-tuyg‘ulari bilan o‘ynashishga qaratilgan manipulyativ va provokatsion nutqiy aktlardir [4].

1-parcha tahlili (Tahdid va Chaqiriq xati):

“*Mr Hercule Poirot, - You fancy yourself, don't you, at solving mysteries that are too difficult for our poor thick-headed British police? Let us see, Mr Clever Poirot, just how clever you can be. Perhaps you'll find this nut too hard to crack. Look out for Andover, on the 21st of the month. Yours, etc., ABC.”* [4]

Lisoniy va pragmatik tahlil:

“*Fancy yourself*” (o‘zingizga bino qo‘ygansiz) va "Mr Clever Poirot" (Aqlli janob Poirot) iboralari kesatish va istehzo konnotatsiyasiga ega bo‘lib, tergovchining professional obro‘sini shubha ostiga olish orqali uning g‘ururiga ta’sir etish maqsadini ko‘zlaydi [4].

“*Poor thick-headed British police*” (kallasi qalin Britaniya politsiyasi) birikmasi orqali yozuvchi rasmiy idoralarni kamsitadi va o‘zining intellektual ustunligini ta’kidlaydi [4].

“*Look out for Andover*” iborasi pragmatik jihatdan ogohlantirish va deklarativ tahdid kuchiga ega bo‘lib, kelgusi jinoyat vaqtini va joyini ko‘rsatib, tergovchini faol harakatga undaydi [4].

2-parcha tahlili (Tergov jarayonidagi psixologik suhbatlar):

Guvohlar va gumondorlar bilan suhbat jarayonida ham tergov leksikasi o‘ziga xos pragmatik vazifalarni bajaradi [4]. Masalan, asardagi gumondorlardan biri Bert Riddell bilan muloqotda uning agressiv himoya reaksiyasi tilda quyidagicha aks etadi [4]: “*Trying to fasten it on me, are you? Well, you won't succeed. What reason had I got to do a thing like that? Think I wanted to pinch a tin of her bloody tobacco? Think I'm a bloody homicidal maniac as they call it?”* [4]

Bert Riddell nutqidagi “*fasten it on me*” (buni menga to‘nkash), "pinch" (o‘g‘irlamoq), va "*bloody homicidal maniac*" (qonxo‘r manyak) kabi ekspressiv-vulgar va so‘zlashuv nutqiga xos leksika uning ruhiy tarangligi va politsiya bosimidan qo‘rqishini ifodalaydi [4]. Bu tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tergov muloqoti

jarayonida qo‘llaniladigan lisoniy birliklar sub'ektning ichki holatini va aybsizlik mudofaasini ko‘rsatuvchi lingvopsixologik markerlar vazifasini o‘taydi [4].

Shuningdek, asar syujeti markazidagi "*ABC railway guide*" (ABC temir yo‘l ko‘rsatkichi) shunchaki jismoniy dalil emas, balki asar davomida har bir jinoyat joyida qoldiriladigan ramziy marker (kognitiv ramz) hisoblanadi [4].

XULOSA

Agata Kristinining "The A.B.C. Murders" asari matnini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, detektiv asarlarda jinoyat va tergov leksikasi faqatgina voqelikni tasvirlovchi neytral birliklar emas [4]. Ular kuchli konnotativ yukka ega bo‘lib, quyidagi pragmatik funksiyalarni bajaradi:

1. Qahramonlarning psixologik portretini va ularning voqelikka individual munosabatini ochib berish [4].
2. O‘quvchini kognitiv chalg‘itish va asar syujetidagi intellektual keskinlikni oshirish [4].
3. Jinoyat sodir etuvchi sub'ektning manipulyativ va provokatsion niyatlarini lingvistik jihatdan ro‘yobga chiqarish [4].
4. Asar tahlili detektiv diskursda lisoniy manipulyatsiya va kontekstual semantikani o‘rganish tilshunoslikning eng jozibador va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi [4].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

The fourth mechanism, symbolic compression, can be illustrated by Golding’s Lord of the Flies. The title is striking but semantically underdetermined before the novel is read. It does not transparently identify a central character, location or event in the ordinary way. Within the narrative, however, the phrase becomes connected with the symbolic vocabulary of fear, violence, moral collapse and the attraction of destructive power. As the symbolic network becomes clearer, the title compresses a substantial part of the novel’s ethical conflict into a short verbal form. The reader’s final interpretation is therefore conceptually much denser than the first lexical encounter.

Symbolic compression differs from semantic expansion because the title’s final role depends on a network of recurrent narrative associations rather than on the broadening of one literal reference. It also differs from allegorical redirection because the symbolic meaning does not replace one stable domain with another; instead, several thematic relations converge on the title. Recent research on hidden meaning confirms the importance of such context-dependent metaphorical and symbolic patterns in literary interpretation [3. 2024:B.82].

Taken together, the four cases demonstrate that contextual decoding is best treated as a process rather than as a label attached to a particular class of titles. The same title may participate in several operations at once: it can name, evaluate, symbolize, misdirect and retrospectively summarize. What distinguishes an implicit title is not obscurity for its own sake but a structured delay in interpretive completion. The text

supplies the evidence that allows the reader to move from the initial hypothesis to a more developed meaning.

This conclusion is consistent with current scholarship that views titles as semantically and functionally active textual units [1. 2025:B.184] and with recent arguments that the title can contribute directly to the production of hidden meanings in literary works [2. 2025:B.4]. It also clarifies the relation between semantics and stylistics. Semantics identifies the change in meaning; stylistics explains how imagery, contradiction, symbolic association or narrative framing motivates that change. Neither level is sufficient alone. A purely lexical analysis stops too early, while a purely symbolic reading risks attributing meanings that the text does not support.

The results have practical relevance for literary interpretation, stylistics and translation. In classroom analysis, the title can be examined twice: once before reading and once after the complete text, with the differences between the two interpretations explicitly compared. In translation, the same procedure can reveal whether a target-language title preserves not only referential content but also the possibility of later reinterpretation. Remonato notes that literary titles combine formal, semantic and cultural functions and may therefore present particular difficulties in translation [7. 2022:B.38]. A context-sensitive analysis can help distinguish which part of the title’s meaning must remain open and which part must be immediately accessible.

CONCLUSION

The study has shown that implicit meaning in English literary titles is reconstructed through a gradual interaction between lexical form and textual context. A title may be understandable at the surface level from the first moment of reading, yet its final conceptual value frequently depends on information that appears later in the work. The selected examples demonstrate four principal mechanisms of this change: semantic expansion, allegorical redirection, lexical-semantic contradiction and symbolic compression.

These mechanisms confirm that the title should be analyzed as a dynamic interpretive unit. In Another Country expands a spatial expression into a sign of estrangement; Animal Farm redirects a literal setting into an allegorical model of power; The Invisible Man develops a lexical contradiction into a problem of identity and social detachment; and Lord of the Flies condenses a network of symbolic and ethical meanings. In every case, the implicit layer is supported by textual evidence and becomes most visible through retrospective reading.

Accordingly, an effective analysis of literary titles should proceed from the title to the text and then return from the text to the title. This two-directional procedure reduces arbitrary interpretation and makes it possible to explain not only what hidden meaning is inferred but also how the text licenses that inference. For further research, the same model may be tested on larger corpora, different genres and translated titles in order to determine which decoding mechanisms remain stable across linguistic and cultural contexts.

References

1. Babayeva Iroda. Semantic and Structural Analysis of Titles in Journalism and Literature // Spanish Journal of Innovation and Integrity. - Spain: Indexed Research Publishing Group, 2025. - Vol. 39. - P. 184-187.

2. Clayton Douglas. Rethinking the Model of Translation of the Literary Text as Creative Interpretation and Examining the Translation of the Literary Title as a Problem of “Hidden Meanings” // Forum for Contemporary Issues in Language and Literature. - Siedlce: University of Siedlce, 2025. - No. 6. - P. 4-16.

3. Dudáková Eva. Identifying “Hidden Meanings” in Vanda Rozenbergová’s Book Freedom for Pheasants // Forum for Contemporary Issues in Language and Literature. - Siedlce: University of Siedlce, 2024. - No. 5. - P. 82-90.

4. Genette Gérard. Paratexts: Thresholds of Interpretation. - Cambridge: Cambridge University Press, 1997.

5. Ozola Diāna. The Pragmatics of Paratextual Apparatus of Contemporary Latvian and American Travelogues // Respectus Philologicus. - Vilnius: Vilnius University Press, 2023. - No. 44 (49). - P. 106-119.

6. Palvannazirova Zilola Mansurbek qizi. Semantic and Stylistic Aspects of the Category of Implicitness in the Titles of Literary Texts: Master’s Dissertation. - Tashkent: Uzbekistan State World Languages University, 2023.

7. Remonato Ilaria. Poetics of Titles: Some Observations on Literary Translations from Russian into Italian // Translation Studies: Theory and Practice. - Yerevan: Yerevan State University, 2022. - Vol. 2, No. 1 (3). - P. 38-57.

8. Wasel Esam. Title and Intertextual Practice // Humanities and Educational Sciences Journal. - Taiz: Taiz University, 2025. - No. 50. - P. 820-844.

ALISHER NAVOIY SHE’RIYATINING IBROHIM HAQQULOV TALQINIDAGI BADIIY-IRFONIY QATLAMLARI

Tolibova Farida Farhodovna
Navoiy davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22138840

Annotatsiya. Maqolada Ibrohim Haqqulovning Alisher Navoiy kichik lirik janrlarini, xususan, ruboiy va qit’alarni o‘rganishdagi ilmiy yondashuvi hamda Navoiy matnlarini sharhlash tamoyillari tahlil qilinadi. Haqqulovning ruboiy poetikasida shakl va mazmun birligi, vazn-qofiya munosabati, badiiy timsollarning irfoniy semantikasi, qit’alarda esa komil inson va oriflik masalalarini ochish usuli ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, olimning sharh metodida lug‘aviy izoh, istilohiy ma’no, tarixiy-madaniy kontekst, matnshunoslik va botiniy talqinning o‘zaro bog‘liqligi yoritiladi.
Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Ibrohim Haqqulov, ruboiy, qit’a, sharh, matnshunoslik, tasavvuf, irfoniy talqin, poetika, komil inson.
Аннотация. В статье анализируются научные подходы Ибрагима Хаккулова к изучению малых лирических жанров Алишера Навои, прежде всего рубаи и кыта, а также принципы комментирования текстов поэта. Рассматриваются единство формы и содержания, соотношение метра и рифмы, ирфанская семантика художественных образов, проблема совершенного человека и особенности текстологического подхода исследователя.
Ключевые слова: Алишер Навои, Ибрагим Хаккулов, рубаи, кыта, комментарий, текстология, суфизм, поэтика, совершенный человек.
Abstract. The article examines Ibrohim Haqqulov’s scholarly approach to Alisher Navoi’s minor lyrical genres, especially rubai and qit'a, and his principles of textual interpretation. Particular attention is paid to the unity of form and meaning, metre and rhyme, the Sufi-irfani semantics of poetic images, the concept of the perfect human being, and the interaction of lexical explanation, historical context, textual criticism and inner interpretation.
Keywords: Alisher Navoi, Ibrohim Haqqulov, rubai, qit'a, commentary, textual criticism, Sufism, poetics, perfect human.

Kirish. Mumtoz adabiyot matnini zamonaviy o‘quvchi va tadqiqotchiga yetkazishda ikki vazifa bir-biri bilan uzviy bog‘lanadi: avvalo, janrning tarixiy-poetik qonuniyatlarini aniqlash, so‘ng esa matnning ko‘pqatlamli ma’nosini to‘g‘ri sharhlash. Alisher Navoiy merosida ruboiy, qit’a, fard va tuyuq singari kichik janrlar shoirning falsafiy, axloqiy-estetik hamda tasavvufiy qarashlarini ixcham, lekin teran shaklda ifodalagan. Ibrohim Haqqulovning izlanishlari aynan shu janrlarning ichki badiiy imkoniyatlarini ochish, ularni an’anaviy tavsif bilan cheklamasdan zamonaviy adabiyotshunoslik mezonlari asosida qayta o‘qish bilan ahamiyatlidir. Tadqiqotchining “O‘zbek adabiyotida ruboiy”, “Tasavvuf va she’riyat”, “Kamol et kasbkim”, “Navoiyga qaytish” turkumidagi asarlari uning navoiyshunoslikdagi metodologik qarashlarini bir butun holda kuzatish imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi. Haqqulov uchun Navoiyga “qaytish” mavjud xulosalarni takrorlash emas, balki matnga qayta murojaat qilib, uning ilgari yetarli darajada ochilmagan ma’no qatlamlarini anglashdir. Shu bois olim Navoiy asarlarini targ‘ib qilishdan oldin ularning ma’no-mohiyatini to‘g‘ri anglash zarurligini ta’kidlaydi va “Navoiyni bilish” bilan “uni anglay olish” o‘rtasidagi farqni metodologik masala darajasiga ko‘taradi [1, 8-b.]. Mazkur maqolaning maqsadi Haqqulovning kichik lirik janrlarni tadqiq etish va Navoiy matnlarini sharhlashdagi usulini o‘zaro bog‘liq ikki yo‘nalish sifatida tahlil qilish, ruboiy va qit’a misollarida uning ilmiy qarashlarining o‘ziga xosligini ko‘rsatishdan iborat.

Tadqiqotning amalga oshirilishi. Turkiy adabiyotshunoslikda ruboiy janri Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asaridayoq she’rning muhim turlaridan biri sifatida qayd etilgan [2, 32-b.]. Haqqulov ruboiyni oddiy to‘rt misralik she’r deb emas, balki maxsus vazn, tugal mazmun va kompozitsion yaxlitlikka ega mustaqil janr sifatida ko‘radi. Uning fikricha, ruboiy poetikasini anglash ta’rifdan boshlanishi kerak, chunki ta’rif predmet mohiyatining umumiy manzarasini beradi [3, 6-b.]. Bu qarash janrni faqat tashqi shakl orqali emas, uning badiiy-falsafiy vazifasi bilan birga o‘rganishga olib keladi.

Haqqulov ruboiy nazariyasini yoritishda Navoiy, Bobur, turkiy va fors-tojik adabiyotshunosligi tajribasini qiyoslaydi. Navoiy “Mezon ul-avzon”da ruboiy vaznlarini hazaj bahrining axram va axrab shajaralari bilan bog‘laydi; Yoqubjon Is’hoqov esa ruboiy bo‘lish uchun to‘rtlikda tugal mazmun va ruboiy

shakli bilan birga maxsus vazn ham bo‘lishi shartligini ta’kidlaydi [4]. Haqqulov mazkur qarashlarni qo‘llab-quvvatlagan holda vaznni janrning mexanik belgisi sifatida emas, poetik fikrning ritmik tashkil topish omili sifatida baholaydi. Shu sabab u ruboiy vaznlarining kelib chiqishini faqat diniy-afsonaviy izohlar bilan tushuntiruvchi qarashlarni biryoqlama deb hisoblaydi va masalani adabiy-estetik taraqqiyot qonuniyatlari asosida sharhlashga intiladi.

Olingan natijalar tahlili. Navoiyning “G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish...” ruboiysi Haqqulov ilmiy usulini ko‘rsatadigan xarakterli misoldir. An’anaviy talqinlarda ruboiy ko‘proq vatan sog‘inchi, g‘urbat va shoir biografiyasi bilan bog‘langan. Y. Is’hoqov ham “oltun qafas” va “qizil gul” timsollarini vatan va g‘urbat qarama-qarshiligi doirasida sharhlab, inson uchun o‘z yurtining bir siqim tuprog‘i har qanday boylikdan azizligini qayd etadi [5, 133–134-b.]. Haqqulov bu talqinni butunlay inkor etmaydi; aksincha, uning ruboiy semantikasini to‘liq qamrab olmasligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, olimning yangiligi oldingi qarashni rad etishda emas, matnning qo‘shimcha, botiniy qatlamlarini dalillar bilan ochishda namoyon bo‘ladi.

Haqqulov “g‘urbat”, “g‘arib”, “qafas”, “bulbul”, “gul” singari obrazlarni tasavvuf poetikasining ramziy tizimi bilan bog‘laydi. Uning talqinida “qafas” inson vujudi va foniy mavjudlik chegarasini, “g‘arib” esa bu chegaradan ruhiy ozodlikka, Haqqa yaqinlashishga intilgan shaxs holatini ifodalaydi [6, 121-b.]. Bobomurod Erali talqinida ham ruboiy zohiriy vatanparvarlik mazmunidan irfoniy-falsafiy qatlamga ko‘tariladi, biroq u “g‘urbat”ni Odam Ato qismati va insoniyatning foniy dunyodagi musofirligi orqali izohlashga ko‘proq e’tibor beradi. Haqqulov esa matnning ichki semantikasini markazga qo‘yib, g‘ariblikni tasavvufiy ruhiy maqom sifatida sharhlaydi. Qiyos natijasida bir xil irfoniy mohiyat ikki tadqiqotchida ikki xil ilmiy yo‘l bilan ochilgani ko‘rinadi.

Haqqulov Navoiy badiiy tafakkurini ruboiy bilangina cheklamay, qit’alar orqali ham tahlil qiladi. Agar ruboiyda falsafiy mushohada nihoyatda siqiq va umumlashgan shaklda ifodalansa, qit’alarda axloqiy tajriba, ma’rifat, oriflik va inson kamoloti bilan bog‘liq masalalar aniq poetik vaziyat va timsollar orqali ochiladi. “Kamol et kasbkim” hamda keyingi tadqiqotlarida olim qit’alarni nasihatning sodda ifodasi sifatida emas, insonning ichki tarbiyasi va ruhiy maqomini badiiy umumlashtiruvchi janr sifatida talqin etadi.

“Erur orifqa ganji fayz yetsa, / Ishi dam urmayin ani yoshurmoq. / Quyosh aksi tushib daryo ichinda, / Ne mumkindur aning suyin toshurmoq” qit’asida “ganji fayz”, “quyosh”, “daryo” va “suv” obrazlari orifning ma’naviy qiyofasini ochishga xizmat qiladi [7, 262-b.]. Haqqulov talqinida orifga yetgan fayz tashqi da’vo emas, botiniy boylikdir. Quyoshning daryoda aks etishi suvni toshirmagani kabi, ilohiy ma’rifatdan bahramand bo‘lish ham haqiqiy orifni manmanlikka olib bormaydi. Qit’adagi tashbeh shu tariqa axloqiy hukm bilan irfoniy mazmunni birlashtiradi: ma’rifatning belgisi ko‘z-ko‘z qilish emas, sukut, ichki vazminlik va ruhiy yetuklikdir.

Haqqulovning Navoiy asarlarini sharhlash usuli kichik janrlar tahlilidagi kuzatishlar bilan uzviy bog‘liq. Uning uchun sharh murakkab so‘zning zamonaviy muqobilini berish yoki baytni nasriy bayon qilish bilan tugamaydi. Tadqiqotchi matnning zohiriy qatlamidan botiniy ma’nosiga, so‘zdan istilohga, istilohdan badiiy timsol va ruhiy holatga, undan esa Navoiy konsepsiyasiga qarab harakat qiladi. Shartli ravishda bu yo‘lni “so‘z – istiloh – timsol – ruhiy holat – irfoniy mazmun – konsepsiya” modeli bilan ifodalash mumkin. Bu modelda lug‘aviy aniqlik zarur, ammo u yakuniy maqsad emas.

Najmiddin Komilovning “Ma’nolar olamiga safar” asaridagi sharh tajribasi bilan qiyos bu xususiyatni yanada ravshanlashtiradi. Komilov sharhning vazifasini hozirgi kitobxon uchun qiyin so‘zlarni tushuntirish, baytlarning nasriy bayonini berish va so‘ng g‘azalning umumiy mazmuni hamda badiiy xususiyatlarini izohlash tarzida belgilaydi [9, 4–5-b.]. Uni shartli ravishda “lug‘at – nasriy bayon – yaxlit badiiy talqin” modeli deyish mumkin. Haqqulovda esa lug‘aviy ma’no ko‘pincha tahlilning boshlanish nuqtasi bo‘lib, undan keyin istilohiy, ramziy, ruhiy va irfoniy qatlamlar izchil ochiladi. Ikki modelni qarama-qarshi qo‘yish emas, ularning vazifasini farqlash muhim: Komilov o‘quvchidan matnga tomon yo‘l ochsa, Haqqulov matnning ichki semantik strukturasiga chuqurlashadi.

Haqqulov uslubining muhim xususiyatlaridan biri sharhni matnshunoslikdan ajratmasligidir. Uningcha, noto‘g‘ri o‘qilgan yoki noto‘g‘ri tiklangan birgina leksema butun baytning badiiy va falsafiy mazmunini boshqa yo‘nalishga burib yuborishi mumkin. “Ma’no boshqa-yu, da’vo boshqa...” maqolasida Navoiy asarlari nashrlaridagi ayrim matniy tafovutlarni ilmiy-tanqidiy matn, qo‘lyozma va badiiy mantiq asosida tekshirishi bunga misoldir. V. Rahmonovning “qalbgoh”, “tuganlardur”, “sham’i tiroz” kabi birliklarga doir e’tirozlariga javob berar ekan, Haqqulov bahsni shaxsiy munosabatga aylantirmay, so‘zning matndagi shakli, kontekstdagi ma’nosi va poetik mantiqini birgalikda tekshiradi [10, 159–166-b.].

Xulosa. Tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, Ibrohim Haqqulov ruboiy va qit’a kabi kichik lirik janrlarni shakliy tavsif doirasida emas, janr poetikasi, badiiy-falsafiy mazmun va irfoniy semantika birligida o‘rganadi. Ikkinchidan, ruboiy tahlilida vazn va qofiya mazmunni tashkil etuvchi faol poetik vosita sifatida baholanadi; “G‘urbatda g‘arib...” singari matnlarda esa an’anaviy biografik talqin inkor qilinmasdan, uning botiniy-irfoniy qatlamlari kengaytiriladi. Uchinchidan, qit’a tahlilida oriflik, sukut, ma’rifat va komil inson tushunchalari badiiy timsollar tizimi orqali ochiladi. To‘rtinchidan, Haqqulov sharhi lug‘aviy izohdan boshlanib istiloh, timsol, ruhiy holat va irfoniy mazmunga tomon chuqurlashadi; bunda matnshunoslik, tarixiy-madaniy manbalar va qiyosiy tahlil muhim tayanch vazifasini bajaradi. Beshinchidan, olimning metodini Navoiy matnini to‘g‘ri o‘qish, ko‘pqatlamli anglash va zamonaviy kitobxon tafakkuriga ilmiy asosda yaqinlashtirishga qaratilgan kompleks navoiyshunoslik modeli sifatida baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haqqul I. Navoiyga qaytish // Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi. O‘ttiz jildlik. 11-jild. – Toshkent, 2022.
2. Shayx Ahmad Taroziy. Funun ul-balog‘a. – Toshkent: Xazina, 1996.
3. Haqqulov I. O‘zbek adabiyotida ruboiy. – Toshkent: Fan.
4. Is’hoqov Y. Navoiy ijodida ruboiy janri // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. – 1968. – № 9.
5. Is’hoqov Y. Navoiyning ilk lirikasi. – Toshkent, 1965.
6. Haqqulov I. Tasavvuf va she’riyat. – Toshkent.
7. Haqqul I. Kasbi kamol o‘zni tanishdir. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2021.
8. Haqqul I. Haqiqati: adabiy o‘ylar, hikmatlar, lutflar. – Toshkent: Ibook, 2023.
9. Komilov N. Ma’nolar olamiga safar: Alisher Navoiy g‘azallariga sharhlar. – Toshkent: Tamaddun, 2012.
10. Haqqul I. Navoiyga qaytish. 4-kitob. – Toshkent: Tafakkur, 2021.
11. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
12. Shamsiyev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972.

TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING MUSTAQIL TA’LIM KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Mamadaliyeva Nargiza Abdurasulovna
Namangan davlat chet tillari instituti doktoranti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22138881

Annotatsiya. Ushbu tezisda ta’limni raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining (BIO‘) mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirish muammosi nazariy-metodologik jihatdan yoritilgan. Mustaqil ta’limning pedagogik hodisa sifatidagi mohiyati, uning BIO‘ kasbiy shakllanishidagi ikki tomonlama xarakteri (tilni mustaqil egallash va uni o‘qitish metodikasini mustaqil o‘zlashtirish) hamda motivatsion, kognitiv, texnologik-amaliy va reflektiv komponentlardan iborat tuzilishi asoslangan. Raqamli ta’lim muhitining mustaqil ta’limni individuallashtirish, avtonomiyani kuchaytirish va yangi pedagogik xavflarni (axborot ortiqchaligi, sun’iy intellektga bog‘liqlik) keltirib chiqarishdagi o‘rni tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini dialektik, tizimli, kompetensiyaga asoslangan, faoliyatga asoslangan, shaxsga yo‘naltirilgan va muhitli yondashuvlar tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: mustaqil ta’lim, ta’limni raqamlashtirish, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi, o‘quvchi avtonomiyasi, metakognitsiya, raqamli kompetensiya.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim jarayonining barcha subyektlari — jumladan, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari (bundan buyon — BIO‘) — o‘rtasidagi mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etishga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi [1. 2020] zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta’lim oluvchilarning mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilamoqda. Shu bois BIO‘ mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini raqamlashtirish sharoitida ilmiy asoslash dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotimizning ilmiy yangiligi shundan iboratki, mustaqil ta’lim umumiy pedagogik hodisa sifatida emas, balki aynan BIO‘ning kasbiy shakllanishi kontekstida, uning o‘ziga xos ikki tomonlama xarakterini hisobga olgan holda tahlil qilinadi. Birinchidan, BIO‘ chet tilini mustaqil ravishda egallashi — leksik, grammatik, fonetik va nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishi lozim. Ikkinchidan, kelajakda o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritishi sababli, u tilni qanday o‘rgatishni ham mustaqil o‘rganishi zarur. Ushbu ikki jihatning uyg‘unligi — tilni mustaqil egallash va uni o‘qitish metodikasini mustaqil o‘zlashtirish — BIO‘ mustaqil ta’limining o‘ziga xosligini tashkil etadi. M. Noulzning mustaqil ta’limni shaxsning ehtiyojni aniqlash, maqsad belgilash va natijani baholashdan iborat jarayon sifatidagi ta’rifiga [2. 1975:B.18] tayanib, biz BIO‘ mustaqil ta’limini quyidagicha ta’riflashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: bu — talabaning tashqi nazoratsiz, ichki motivatsiyasi asosida chet tilini va uni o‘qitish metodikasini birgalikda, uzluksiz ravishda o‘zlashtirish, takomillashtirish va amaliyotga tatbiq etish jarayoni.

BIO‘ mustaqil ta’limining tarkibiy tuzilishi to‘rt komponentni o‘z ichiga oladi: motivatsion komponent (mustaqil o‘rganishga ichki ehtiyoj va kasbiy autonomiyaga intilish), kognitiv komponent (til va metodik bilimlarni mustaqil egallash), texnologik-amaliy komponent (raqamli resurslar va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish ko‘nikmalari) hamda reflektiv-baholovchi komponent (o‘z faoliyatini mustaqil tahlil qilish va baholash qobiliyati). Bunda P.I. Pidkasistiyning mustaqil ish — ta’limni tashkil etish shakli emas, balki talabalarni mustaqil faoliyatga jalb qilish vositasi ekanligi haqidagi qarashlariga [3. 1980:B.26] tayanamiz. Ushbu komponentlar asosida talabalarning mustaqil ta’lim ko‘nikmalari rivojlanish darajasiga ko‘ra uch bosqichga bo‘linadi: past (reproduktiv/qaram), o‘rta (variativ-izlanuvchan/qisman avtonom) va yuqori (ijodiy-kasbiy/professional avtonom) darajalar.

Raqamli ta’lim muhiti sharoitida mustaqil ta’lim mohiyati “o‘qituvchisiz o‘qish”dan ancha kengroq tushunchaga aylanadi: u maqsad belgilash, raqamli resurslarni tanlash, o‘quv faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish, o‘z-o‘zini baholash va natijalarni tahlil qilishni qamrab oluvchi yaxlit pedagogik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. H. Xolek va P. Bensonning o‘quvchi avtonomiyasi kontseptsiyasiga [4. 1981:B.3; 5. 2001:B.47] ko‘ra, talaba o‘z ta’lim jarayoni uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oluvchi subyektga aylanadi. Tadqiqotda BIO‘ mustaqil ta’limining raqamlashtirish sharoitidagi asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilar ajratib ko‘rsatildi: kasbiy-pedagogik yo‘naltirilganlik (“o‘rganish — qo‘llash — tahlil qilish — kelajakdagi pedagogik faoliyatga transfer qilish” zanjiri orqali namoyon bo‘lishi); individual

ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkoniyati (diagnostika — rejalashtirish — individual rivojlanish bosqichlari asosida); ingliz tilini o‘zlashtirishning kommunikativ-raqamli xarakteri; B. Zimmermanning self directed-learning nazariyasi [6. 1990:] va J. Flavellning metakognitsiya kontseptsiyasiga [7. 1979:B.906] tayanuvchi o‘z-o‘zini boshqarish va metakognitiv refleksivlik; hamda mustaqil faoliyatning raqamli hamkorlik va qayta aloqa bilan uyg‘unligi.

Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayoni bir qator pedagogik muammolarni ham keltirib chiqaradi: axborotning haddan tashqari ko‘pligi va uni tanqidiy baholash zarurati, raqamli chalg‘ituvchilar sababli o‘z-o‘zini boshqarishning yetarli emasligi, generativ sun’iy intellekt vositalaridan tayyor natija olish maqsadida foydalanishning salbiy oqibatlari, shuningdek mustaqil ta’limni pedagogik boshqarish zarurati. Shu sababli tadqiqotda “to‘liq erkinlik” emas, balki “yo‘naltirilgan mustaqillik” tamoyili asos qilib olindi, unga ko‘ra o‘qituvchi tashkilotchi, maslahatchi va fasilitator sifatidagi rolini kuchaytiradi.

Tadqiqotning metodologik asosini dialektik, tizimli, kompetensiyaga asoslangan, faoliyatga asoslangan, shaxsga yo‘naltirilgan va muhitli yondashuvlar tashkil etadi. Ularni amalga oshirishda pedagogik nazariya va amaliyotning o‘zaro ta’siri, baholashning obyektivligi, madaniy muvofiqlik, raqamli texnologiyalarni pedagogik jihatdan integratsiyalash, pedagogik etika, ta’limning mustaqilligi va pedagogik usullarning to‘g‘riligi tamoyillariga tayanildi; analiz-sintez, induksiya-deduksiya, modellashtirish va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta’limni raqamlashtirish sharoitida BIO‘ mustaqil ta’limi shaxsning kasbiy va til kompetensiyalarini integratsiyalashuvchi murakkab pedagogik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Uning samaradorligi talabaning mustaqilligi, raqamli resurslarning pedagogik imkoniyati va o‘qituvchining metodik yo‘naltirishi omillarining uyg‘unligiga bog‘liq. BIO‘larning mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirish ularga o‘zlari uchun qulay vaqtda ta’limni mustaqil tashkil etish imkonini beradi hamda Davlat ta’lim standartlari talablariga mos keladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning muhim shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2020.

2. Knowles M.S. Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers. – Chicago: Follett Publishing Company, 1975. – 135 p. – B.18.

3. Пидкасистый П.И. Самостоятельная познавательная деятельность школьников в обучении: теоретико-экспериментальное исследование. – М.: Педагогика, 1980. – 240 с. – B.26.

4. Holec H. Autonomy and Foreign Language Learning. – Oxford: Pergamon Press / Council of Europe, 1981. – B.3.

5. Benson P. Teaching and Researching Autonomy in Language Learning. – Harlow: Longman/Pearson Education, 2001. – 260 p. – B.47.

6. Zimmerman B.J. Self-Regulated Learning and Academic Achievement: An Overview // Educational Psychologist. – 1990. – Vol. 25, No. 1. – P. 3-17.

7. Flavell J.H. Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive-Developmental Inquiry // American Psychologist. – 1979. – Vol. 34, No. 10. – P. 906-911. – B.906.

QADIMGI AXSEKINT VA UNING TARIXI

Kamolov Shahzod Baxtiyor O‘g‘li
Namangan davlat pedagogika insitituti Tarix yo‘nalishi 4 – bosqich talabasi
E-mail: shahzodkamolov045@gmail.com Tel:+998976708419
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22138925

Annotatsiya: Ushbu maqolada Axsekint va uning qadimiy tarixi hamda evolyutsiya jarayoni bayon etilgan bo‘lib, shu bilan birga harbiy-mudofa tizimi ham yoritib o‘tilgan. Shuningdek Axsekintning davlatchilik tizimi ham keltrtib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: Dovon, Ibn Xurdodbeh, korizlar, Istahriy, dorulimorat, Al-Muqaddasiy, Yangi Axsi, „Damashq po‘lati“, N. Veselovskiy,

Axsikent (Axsikat) shahri qadimiy va o‘rta asrlar Markaziy Osiyo davlatchiligi tizimida strategik ma’muriy, iqtisodiy va harbiy-mudofaa markazi vazifasini o‘tagan. U uzoq asrlar davomida Farg‘ona vodiysining bosh poytaxti hamda Buyuk Ipak yo‘lidagi eng yirik sivilizatsiya o‘choqlaridan biri bo‘lib keldi.Quyida birlamchi (klassik va memuar) hamda ikkilamchi (arxeologik va zamonaviy tadqiqotlar) manbalar asosida Axsikentning davlatchilik tarixidagi o‘rni va evolyutsiyasi tahlil qilinadi. [1.] Birlamchi manbalarda Axsikentning tavsifi„Boburnoma“ ma’lumotlari Zahiriddin Muhammad Boburning klassik asari Axsikentning Temuriylar davri mudofaa, ma’muriy va iqtisodiy salohiyatini o‘rganishda eng birinchi manbadir. Bobur Farg‘ona viloyatining 8 ta asosiy shahrini sanab o‘tar ekan, Axsi haqida alohida to‘xtaladi:Siyosiy maqomi: „Andijondin so‘ngra Farg‘ona viloyatida Axsidin ulug‘roq shahar yo‘qtur. Otam Umarshayx Mirzo uni poytaxt (rezidensiya) qilgan edi“. Qazishmalar davomida Axsikent eramizdan avvalgi II asrda tashkil topganligi va Qadimgi Farg‘onaning – Dovon davlatining eng yirik shaharlaridan biri bo‘lganligi aniqlangan. Ma’lumki, 103-yilda Axsikent 60 ming kishilik Xitoy qo‘shinini mag‘lub qilishga harakat qilgan. Ular shaharni qirq kun qamalda ushlab, aholini suv va oziq-ovqat manbalaridan mahrum qilganlar.

Axsikentning maydoni 30 gektarga yaqin bo‘lib, shahar qal’a, asosiy shahar qismi (shahriston), hunarmandchilik markazlari joylashgan hudud (rabod)dan iborat edi. Bu yaxshi rivojlangan va mudofa qilingan shahar edi. U qal’adan katta devor bilan ajratilgan va tashqi devor atrofida chuqur xandaq oqib bo‘lgan. Axsikentda savdo va hunarmandchilik rivojlangan, kosibchilik taraqqiy etgan edi. Bundan tashqari, shaharda tigel po‘lat ishlab chiqaruvchi mashhur markaz bo‘lgan. Axsikentda o‘zining sulolasi hukmronlik qilgan va u miloddan avvalgi VI asrgacha hokimiyat tepasida bo‘lgan. Keyinchalik arablar tomonidan bosib olingan, ammo arablar kelganidan so‘ng ham shahar eng yirik savdo va hunarmandchilik markazi bo‘lib qolavergan.

Harbiy-mudofaa tizimi: „Qal’asi baland jarliklar ustida joylashgan, chuqur xandaklar bilan o‘ralgan. Farg‘onada hech bir shahar bunchalik mustahkam emas“. Undagi yer osti suv inshootlari (korizlar) shaharni uzoq muddatli qamalga chidamli qilgan.Iqtisodiyot va dehqonchilik: Bobur shahar chetidagi keng bog‘lar, xususan, Axsi qovunlarining ta’mi betakrorligi va oq kiyiklar ovlanadigan hudud ekanligini yozadi.Ilk o‘rta asr arab-fors manbalari Axsikent („Axsikat“) nomi ilk bor arab geograflari va sayyohlari asarlarida qayd etilgan:Ibn Xurdodbeh va Istahriy: Shaharni Farg‘ona vodiysining eng muhim va markaziy shahri (shaxristoni) sifatida tilga olgan. Al-Muqaddasiy (X asr): Axsikatni ichki qal’a (ark), dorulimorat (saroy), jome masjidi va qamoqxonaga ega bo‘lgan, rabodlari hunarmandchilik do‘konlari bilan to‘la juda ulug‘vor shahar sifatida ta’riflaydi.

Axsikentning davlatchilik tizimidagi evolyutsiyasiAxsikent shahri o‘zining deyarli ikki ming yillik tarixi davomida uchta asosiy evolyutsion bosqichni bosib o‘tdi (arxeologiyada Eski Axsi va Yangi Axsi yodgorliklari):

Qadimgi davr (Mil. avv. III–II asrlar – Milodiy VI asr)Dovon (Dayuan) davlati tarkibida: Arxeologik qazishmalar shahar miloddan avvalgi III-II asrlarda vujudga kelganini ko‘rsatadi. U qadimgi Farg‘onaning yirik siyosiy markazlaridan biri bo‘lib, miloddan avvalgi 103-yilda Xitoyning Xan sulolasi qo‘shinlariga (60 ming kishilik armiyaga) qarshi mudofaada muhim tayanch nuqtasi bo‘lgan.[2] Ilk va Rivojlangan o‘rta asrlar (IX–XIII asrlar) Somoniylar va Qoraxoniylar davri: IX-X asrlarda shahar ravnaq topib, rasman Farg‘ona vodiysining poytaxti darajasiga ko‘tarildi. Bu davrda u Markaziy Osiyodagi eng yirik po‘lat va qurol ishlab chiqaruvchi metallurgiya markaziga aylandi. „Damashq po‘lati“ deb atalgan noyob metall aynan Axsikent tig‘lari uchun asos bo‘lgani ilmiy isbotlangan.

Mo‘g‘ullar bosqini: 1219-yilda Chingizxon sarkardasi Jebe noyon boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinlari shiddatli janglardan so‘ng shaharni butkul vayron qilgan. Natijada Eski Axsi o‘z faoliyatini to‘xtatgan.Temuriylar va undan keyingi davr (XIV–XVII asrlar)Yangi Axsi yuksalishi: Mo‘g‘ul vayronagarchiligidan so‘ng, eski shahardan 5-7 km g‘arbda Yangi Axsi shahri qad ko‘tardi.

Umarshayx Mirzo poytaxti: XV asrda Temuriylar davlatining parchalanishi jarayonida Farg‘ona ulusi mustaqil bo‘lgach, Umarshayx Mirzo aynan Axsikentni o‘z qarorgohiga aylantirdi. Bu esa shaharning Markaziy Osiyo davlatchiligidagi geosiyosiy nufuzini qayta tikladi. [3] Ikkilamchi manbalar va Zamonaviy Arxeologik Tadqiqotlar XIX asr oxiridan boshlab N. Veselovskiy va I. Kastanye, keyinchalik XX asrda akademik Ya. G‘ulomov hamda I. Ahrorov tomonidan olib borilgan qazishmalar Axsikent sivilizatsiyasini fan dunyosiga ochib berdi.Tadqiqot yo‘nalishi Aniqlangan tarixiy faktlar va xulosalar Shaharsozlik strukturasi Shahar uch qismdan: Ark (hukmdor saroyi), Shahriston (ichki shahar) va Raboddan (hunarmandlar mahallasi) iborat bo‘lgan.Noyob hunarmandchilik Axsikentda yuqori sifatli shishasozlik, sirlangan kulolchilik (firuza rangli idishlar) va metall eritish pechlari topilgan.[4] Ipak yo‘li aloqalari Xitoy, Eron va Arab xalifaligi tangalari topilgani uning xalqaro tranzit savdodagi bosh hakamlik rolini tasdiqlaydi.

Arxeologik izlanishlar

Axsikent xarobalarini arxeologik jihatdan o‘rganish ishlari XIX asr oxirlari XX asr boshlaridan boshlangan. 1885-yil Nikolay Veselovskiy, 1914-yili I. A. Kastane shaharda arxeologik qazilma va qidiruv ishlarini olib boradi. Sho‘rolar davrida Mixail Masson (1939) va A. Bernshtamlar (1948) shahar ustida tekshiruv ishlarini amalga oshirishadi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida shaharning ark, Shahriston va rabotdan iborat bo‘lgani, uchala qismi ham alohida devorlar bilan o‘ralganligi, arkda hokim saroyi, zindon, shahristonda ichki bozor, jome masjidi, pishiq g‘ishtdan ishlangan hovuz va ariqlar, rabotda hunarmandlar mahallalari va tashqi bozor mavjud bo‘lgani aniqlangan. Shuningdek, Axsikent shahri Namangan o‘lkashunoslik muzeyi xodimlari tomonidan ham o‘rganilgan (1957—1959).

1960-yilda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Tarix va arxeologiya instituti tomonidan uyushtirilgan maxsus ekspeditsiya Axsikent rabotidan XI asr ga oid ko‘hna hammom o‘rnini aniqlagan. Hammomdan sopol idish, quvur, chaqa tanga va shisha buyumlar topilgan. Bundan tashqari, xarobalarning g‘arbiy qismida o‘rta asrlarga oid yana bir shahar xarobalari borligi ham aniqlangan. Akademik Yahyo G‘ulomov va arxeolog I. Ahrorov mazkur tadqiqotlar asosida bu yerda turli davrlarga oid ikki shahar bo‘lganini, ulardan biri qadimgi Axsikent va ikkinchisi Bobur tug‘ilgan Axsi shahri ekanligini birinchi bo‘lib isbotlashgan. 1967-yil rassom I. Smirnov shahar xarobalaridan yig‘ib olingan sopol idish, jez buyum va zeb-ziynatlar majmuasini Moskvadagi Sharq xalqlari davlat muzeyiga taqdim etgan. Axsikent yodgorligi o‘zbek xalq madaniyati tarixida muhim o‘rin tutganligi uchun 1950-yildan davlat muhofazasiga olingan.

2002-yilda London Universiteti kollejining Arxeologiya instituti professori Tilo Rehren Axsikentda o‘tkazilgan Britaniya-O‘zbekiston arxeologik ekspeditsiyasiga rahbarlik qiladi. Olimlar bu yerda mustahkam, ammo bukiladigan va parchalanishga chidamli Damashq po‘lati ishlab chiqarilganiga oid dalillarni topadilar.[5] Shuningdek, ular 1300 gradusgacha bo‘lgan haroratga bardosh beradigan kaolindan yasalgan, yong‘inga chidamli tigellarni topadilar. Bunday yuqori harorat archa yog‘ochi va Tyan-Shan tog‘lari yaqinidagi karbonli temir rudasini eritish yo‘li bilan hosil qilingan.

Xulosa. Yuqoridagi tadqiqotlardan shuni xulosa qilish mumkinki;

- Birlamchi manbalarda Axsikentning tavsifi„Boburnoma“ ma’lumotlari Zahiriddin Muhammad Boburning klassik asari Axsikentning Temuriylar davri mudofaa, ma’muriy va iqtisodiy salohiyatini o‘rganishda eng birinchi manbadir;

- Ilk o‘rta asr arab-fors manbalari Axsikent („Axsikat“) nomi ilk bor arab geograflari va sayyohlari asarlarida qayd etilgan:Ibn Xurdodbeh va Istahriy: Shaharni Farg‘ona vodiysining eng muhim va markaziy shahri (shaxristoni) sifatida tilga olgan;

- Umarshayx Mirzo poytaxti: XV asrda Temuriylar davlatining parchalanishi jarayonida Farg‘ona ulusi mustaqil bo‘lgach, Umarshayx Mirzo aynan Axsikentni o‘z qarorgohiga aylantirdi;

Umumiy xulosa qilib aytkanda Axsekint tarixi qisqacha yoritib o‘tilgan bo‘lib, uni hozirgacha olimlar o‘z tadqiqotlarida o‘rganish ishlarini olib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobur Z.M; "Boburnoma"
2. Istaxriy ; "Kitob masolik val-mamolik"
3. Ibn Xurdodbeh; "Kitob al-masolik val-mamolik"
4. Al-Muqaddasiy ; "Ahsan at-taqosim fi ma'rifat al-aqolim"
5. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA SI VA GIS TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Azzamov Ulug‘bek Azim o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika universiteti, mustaqil tadqiqotchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22138979

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining metodik kompetensiyasini oshirishda sun’iy intellekt (SI) va GIS texnologiyalarining didaktik salohiyati asoslangan. Ilmiy tahlillar negizida raqamli vositalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilishning tarkibiy-funksional modeli (maqsadli-tashkiliy, mazmunli-korreksion, natijaviy-baholash bloklari) taklif etilgan. Ushbu mexanizm innovatsion ta’lim muhitida individual hamda differensial-korreksion yondashuvlarni samarali qo‘llashni ta’minlaydi.
Kalit so‘zlar: kasbiy-metodik layoqat, geofazoviy axborot tizimlari (GIS), neyrotarmoqli didaktik vositalar, tarkibiy-funksional arxitektonika, kognitiv-vizual modellashtirish, differensial-korreksion strategiyalar, raqamli didaktik integratsiya.
Аннотация: В данной статье обоснован дидактический потенциал технологий искусственного интеллекта (ИИ) и ГИС в повышении методической компетентности будущих учителей биологии. На основе научного анализа предложена структурно-функциональная модель интеграции цифровых инструментов в образовательный процесс (включающая целевой-организационный, содержательно-коррекционный и результативно-оценочный блоки). Данный механизм обеспечивает эффективное применение индивидуального и дифференциально-коррекционного подходов в инновационной образовательной среде.
Ключевые слова: профессионально-методическая компетентность, геопространственные информационные системы (ГИС), нейросетевые дидактические средства, структурно-функциональная архитектоника, когнитивно-визуальное моделирование, дифференциально-коррекционные стратегии, цифровая дидактическая интеграция.
Abstract: This article substantiates the didactic potential of artificial intelligence (AI) and GIS technologies in enhancing the methodological competence of future biology teachers. Based on scientific analyses, a structural-functional model for integrating digital tools into the educational process (comprising target-organizational, content-correctional, and result-evaluative blocks) is proposed. This mechanism ensures the effective application of individual and differential-correctional approaches in an innovative educational environment.
Keywords: professional-methodological competence, geospatial information systems (GIS), neural network didactic tools, structural-functional architectonics, cognitive-visual modeling, differential-correctional strategies, digital didactic integration.

Bugungi zamonaviy uzluksiz ta’lim tizimida, xususan bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kasbiy-metodik layoqatini rivojlantirish, oliy ta’lim pedagogikasi va raqamli didaktika sohasida dolzarb va muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu masala talabalarning o‘quv-kognitiv ehtiyojlarini hisobga olgan holda samarali ta’lim jarayonini tashkil etish, ularning kasbiy, innovatsion va intellektual salohiyatini ta’minlash nuqtai nazaridan katta ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda raqamli transformatsiya va faoliyatli o'qitish bilan bog‘liq tadqiqotlar, shuningdek, sun'iy intellekt (SI) va geofazoviy axborot tizimlari (GIS) texnologiyalari, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda asosiy vositalardan biri sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Shu bilan birga, biologiya ta'limida talabalarning konstruktiv-loyihalash, vizualizatsiya va gnoseologik ko‘nikmalarini rivojlantirishda individual, differensial hamda korreksion-pedagogik yondashuvlarni o'zida jamlagan tarkibiy-funksional modellarni qo‘llashning samaradorligi ilmiy jihatdan isbotlanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini raqamlashtirish va takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” hujjatida oliy ta’lim jarayonida o'qitishning zamonaviy usullari va raqamli texnologiyalarini joriy etish, talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni har tomonlama rivojlantirish va raqobatbardosh kadrlar qilib tayyorlash muhim vazifa sifatida belgilangan [2. 2019].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PQ–4805-son qarori – “Biologiya ta’limi yo‘nalishida ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hujjatida o‘quv jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, xususan, biologik jarayonlarni vizualizatsiya qiluvchi ilg‘or dasturiy mahsulotlarni keng joriy etish orqali ta’lim va ilmiy-tadqiqot sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan [3. 2020].

Mazkur farmon va qarorlarda belgilangan vazifalar oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislar bilan ishlashda innovatsion pedagogik va raqamli yondashuvlarni qo‘llash zaruratini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, biologiya fanining o‘ziga xos ko‘p o‘lchovli tuzilishini (mikro va makroekotizimlar) hisobga olgan holda, bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini rivojlantirishda sun’iy intellekt hamda GIS texnologiyalarining didaktik imkoniyatlaridan, shuningdek, amaliyotga yo'naltirilgan tarkibiy-funksional modellardan foydalanish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Biologiya fani o‘qitish metodikasidagi murakkabliklar — bu talabalarda mavhum biologik jarayonlarni tasavvur qilishning yetarli darajada barqaror emasligi hamda dars loyihalashdagi reproduktiv xatti-harakatlar bilan namoyon bo‘ladigan pedagogik holat bo‘lib, u ko‘pincha an’anaviy o‘qitish tizimining cheklovlari doirasida o‘rganiladi. Ushbu holat, ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olish davrida yaqqol namoyon bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rivojlanishiga, innovatsion muhitga moslashuviga va mustaqil o‘quv faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilari odatda mikrodarajadagi (molekulyar-genetik) va makrodarajadagi (ekotizimlar) axborotlarni yaxlit tizimga solishda qiynaladilar, ularni o‘quvchilarga yetkazishda izchillikni oxiriga yetkazmaydilar va ko‘pincha o‘z dars loyihalarini nazorat qilishda qiyinchilikka duch keladilar. Bu esa ularning zamonaviy ta’lim jarayonini tashkil etishida ham muammolarni yuzaga keltiradi. Shu sababli, oliy ta’lim professor-o‘qituvchilari tomonidan amaliyotga yo‘naltirilgan, individual yondashuvni qo‘llash zarurati yuzaga keladi [6. 2011:B.28].

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilar bilan ishlashda an’anaviy metodlardan tashqari, faol va qiziqarli usullardan, xususan, sun’iy intellekt (SI) va geofazoviy axborot tizimlari (GIS) texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki raqamli didaktik muhitda ishlash bugungi avlod uchun tabiiy ehtiyoj bo‘lib, u orqali ular ilmiy qonuniyatlarni anglaydi, dars jarayonini modellashtiradi va kasbiy tajriba orttiradi. SI va GIS texnologiyalari ayniqsa talabalarning diqqatini jamlash, kognitiv energiyasini ijobiy yo‘naltirish hamda metodik xulq-atvorini tartibga solishda samarali vosita hisoblanadi.

Raqamli didaktik vositalar – talabaning faol ishtirokini talab qiladigan, o‘zaro aloqaga asoslangan o‘quv va amaliy faoliyat shakli bo‘lib, unda talabaning fazoviy tahlil, psixologik va kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus loyihaviy vazifalar mavjud. Ular nafaqat talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi, balki konstruktiv-loyihalash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi [6. 2011:B.130–133]. SI va GIS vositalari odatiy axborot manbalaridan farqli ravishda quyidagi xususiyatlarga ega:

- ✓ *Faol ishtirok (kognitiv faollik):* Talaba jarayonda passiv tinglovchi emas, balki o‘quv jarayonining faol ishtirokchisi va mustaqil izlanish subyekti sifatida ishtirok etadi [1. 1995:B.9].
- ✓ *O‘zaro aloqalar (interaktivlik):* Talaba sun’iy intellekt algoritmlari bilan muloqot qiladi, o‘quv materialini qayta ishlaydi va o‘zaro kasbiy munosabatlarni rivojlantiradi.
- ✓ *Ma’lum qoidalarga asoslanganlik:* Tizim ishlash maqsadi aniq, didaktik qoidalari tizimli va talaba ularni o‘zlashtirishi orqali o‘z darsini qolipga soladi.

Kasbiy-rivojlantiruvchi funksiya: axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning bilish faolligini kuchaytirish, topshiriqlarni bajarishga intilishini oshirish va shaxs sifatida rivojlanish imkoniyatini yuzaga keltiradi [6. 2011:B.131].

Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kasbiy-metodik layoqatini takomillashtirishda zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt (SI) va geofazoviy axborot tizimlarining (GIS) didaktik imkoniyatlari masalasi bir qator nufuzli mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, biologik ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish va o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini boshqarish nazariyasiga asos solgan olimlardan biri I.N.Ponomaryova bo‘lib, u biologiya fanini o‘qitishda tizimli-ekologik yondashuvning ustuvorligini ta’kidlaydi. I.N. Ponomaryova biologiya ta’limida ekologik tushunchalar tizimi va ularni izchil rivojlantirishni alohida metodik masala sifatida yoritadi [4. 2008:B.116–126]. Mazkur tizimli-ekologik yondashuvni ushbu tadqiqotda GIS vositalari orqali fazoviy tahlil va virtual xaritalash bilan kengaytirish taklif etiladi.

Pedagogik texnologiyalar va ta’lim sifatini boshqarish sohasida fundamental tadqiqotlar olib borgan xorijiy olim M.V.Klarin o‘quv jarayonini shunchaki tayyor bilimlarni uzatish jarayoni emas, balki o‘quvchining subyektiv-tadqiqotchilik faoliyati sifatida talqin etadi. Uning innovatsion didaktikaga oid qarashlarida ta’lim jarayonida muammoli-izlanishli modellar va interaktiv simulyatsiyalarning o‘rni yuqori baholanadi.

Murakkab o‘quv materialini o‘zlashtirishda bir vaqtning o‘zida ko‘p elementlarni qisqa muddatli xotirada ushlab turish zarurati kognitiv yuklamaning ortishiga olib kelishi mumkin [5. 1988:B.265].

Klarinning muammoli-izlanishli ta'lim konsepsiyasiga tayangan holda, ushbu didaktik muammoning eng maqbul yechimi sifatida sun’iy intellektga asoslangan neyrotarmoqli didaktik vositalar va virtual laboratoriyalardan foydalanish ko‘rsatiladi. Bu vositalar kognitiv yuklamani quyidagi mexanizmlar orqali optimallashtiradi:

Biologiya ta’limida kognitiv yuklamani optimallashtirishning raqamli didaktik mexanizmlari (M.V.Klarin yondashuvi asosida)

Raqamli didaktik mexanizm	SI va virtual vositalarning ta'limiy funksiyasi	Kognitiv yuklamani optimallashtirishdagi amaliy natijasi (Biologiya misolida)
1. Dinamik vizualizatsiya orqali idrokni yengillashtirish	SI algoritmlari mikrodarajadagi (ko‘zga ko‘rinmas) obyektlarning aniq va interaktiv 3D modellarini generatsiya qiladi.	O‘quvchi mavhum obyektlarni tasavvur qilishga sarflaydigan aqliy energiyani tejaydi va diqqatini mantiqiy qonuniyatlarni (masalan, RNK transkripsiyasini) anglashga qaratadi.
2. *Evristik (izlanishli) aralashuv imkoniyati*	Virtual laboratoriyalar o'quvchiga atrof-muhit parametrlarini (harorat, muhit, DNK tarkibi) o'zgartirib, izlanish olib borish imkonini beradi.	O'quvchi oddiy kuzatuvchidan faol "eksperimentator"ga aylanadi. Parametrlar o'zgarishining oqibatlarini (genotipik/fenotipik) real vaqtda ko'rish orqali evristik mushohada shakllanadi.
3. Adaptiv (moslashuvchan) o'qitish	Neyrotarmoqlar o'quvchining materialni o'zlashtirish tezligini va xatolarini tahlil qilib, o'quv kontentini avtomatik moslashtiradi.	Axborot miqdori o'quvchining individual qabul qilish darajasiga moslashadi, axborotning ortiqcha zo'riqishi (informatsion stress) va diqqat chalg'ishining oldi olinadi.

Klarinning innovatsion ta'lim modellari haqidagi qarashlariga asoslanib ta'kidlash mumkinki, bo'lajak biologiya o'qituvchilarining metodik kompetensiyasi — aynan mana shunday sun'iy intellekt va interaktiv simulyatsiyalar yordamida o'quvchilarning kognitiv yuklamasini yengillashtiruvchi hamda ularni tadqiqotchilikka undovchi dars loyihalarini yarata olish qobiliyati bilan belgilanadi.

A.V. Xutorskiy ta’lim mazmunida alohida fanlar doirasidan tashqariga chiqadigan metapredmet komponentlarning ahamiyatini asoslaydi [7. 2007:B.159–182]. Ushbu tadqiqotda biologiya, geografiya va axborot texnologiyalarining integratsiyasini amalga oshirish vositalaridan biri sifatida GIS texnologiyalaridan foydalanish taklif etiladi.

Respublikamizda biologiya o‘qitish metodikasining konseptual asoslarini yaratgan va uni nazariy-amaliy jihatdan boyitgan olima J.O. Tolipova axborot texnologiyalari va animatsiyalar yordamida hujayraviy-molekulyar jarayonlar, fotosintez va oqsil biosintezi kabi bevosita kuzatish qiyin bo‘lgan biologik jarayonlarni vizuallashtirish o‘quvchilarning abstrakt hamda ko‘rgazmali-obrazli tafakkurini rivojlantirishini ko‘rsatadi [6. 2011:B.131–133]. Mazkur tadqiqotda ushbu yondashuv SI yordamida generatsiya qilinadigan dinamik 3D modellar va interaktiv simulyatsiyalar bilan kengaytiriladi.

Ta’lim jarayonini individuallashtirishda o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olish zarur [6. 2011:B.28].

Biologiyani o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quv motivlarini rivojlantirish, tabaqalashtirilgan ta’limni tashkil etish, bilimlarni nazorat qilish va baholash, shuningdek mustaqil hamda ijodiy izlanishlarni tashkil etishga xizmat qiladi [6. 2011:B.130–133].

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining metodik kompetensiyasini shakllantirishda sun’iy intellekt (SI) va GIS texnologiyalari samarali pedagogik vosita sifatida katta ahamiyatga ega. Jadvalda keltirilgan raqamli didaktik mexanizmlar — kognitiv yuklamani optimallashtirish, idrok etishni yengillashtirish va metapredmet ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Neyrotarmoqli dinamik modellar talabalarning mavhum biologik jarayonlarni vizual loyihalash qobiliyatini mustahkamlaydi, virtual laboratoriyalar va fazoviy xaritalash esa evristik-izlanishli dars muhitini yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кларин М. В. Инновации в мировой педагогике: обучение на основе исследования, игры и дискуссии (анализ зарубежного опыта). – Рига: НПЦ «Эксперимент», 1995. – 176 с. – ISBN 5-87474-011-2.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 09.10.2019-y. – 06/19/5847/3887-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4805-son Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 13.08.2020-y. – 07/20/4805/1174-son.
4. Пономарева И. Н., Соломин В. П., Сидельникова Г. Д. Общая методика обучения биологии: учебное пособие для студентов педагогических вузов / под ред. И. Н. Пономаревой. – 3-е изд., стер. – М.: Издательский центр «Академия», 2008. – 280 с. – ISBN 978-5-7695-5459-9.
5. Sweller J. Cognitive Load During Problem Solving: Effects on Learning // Cognitive Science. – 1988. – Vol. 12, No. 2. – P. 257–285. – DOI: 10.1207/s15516709cog1202_4.
6. Tolipova J. O. Biologiyani o‘qitishda pedagogik texnologiyalar: oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik / mas’ul muharrir A. T. G‘ofurov. – T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 160 b. – ISBN 978-9943-05-401-1.
7. Хуторской А. В. Современная дидактика: учебное пособие. – 2-е изд., перераб. – М.: Высшая школа, 2007. – 639 с.: ил. – ISBN 978-5-06-005706-5.

РЕСТРУКТУРИЗАЦИЯ И ПРИВАТИЗАЦИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ОТРАСЛИ: ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ, ПРЕИМУЩЕСТВА И РИСКИ

Кадыров Тохиржан Аманович
старший научный сотрудник Центр исследований проблем приватизации и управления государственными активами при Агентстве по управлению государственными активами Республики Узбекистан
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22139036

Аннотация. Железнодорожный транспорт является стратегически важным элементом национальной экономики, обеспечивающим территориальную связанность, перемещение грузов и пассажиров, развитие внешней торговли и функционирование производственных цепочек. В условиях роста требований к качеству транспортных услуг, необходимости модернизации инфраструктуры и ограниченности государственных финансовых ресурсов особое значение приобретают реструктуризация и приватизация железнодорожной отрасли. Реструктуризация направлена на изменение организационной и экономической модели функционирования отрасли. Приватизация, в свою очередь, предполагает расширение участия частного капитала в собственности и управлении предприятиями. В статье рассматриваются экономические предпосылки реструктуризации и приватизации железнодорожного сектора, анализируются потенциальные преимущества и основные риски, а также определяются условия эффективного проведения реформ.

Ключевые слова: железнодорожный транспорт, реструктуризация, приватизация, реформа, государственная собственность, частный капитал, естественная монополия, конкуренция, инфраструктура, инвестиции, государственно-частное партнерство.

Аннотация. Темир йўл транспорти миллий иқтисодиётнинг стратегик муҳим элементи бўлиб, ҳудудий боғлиқлик, юк ва йўловчилар ҳаракати, ташқи савдонинг ривожланиши ва ишлаб чиқариш занжирларининг ишлашини таъминлайди. Транспорт хизматлари сифатига қўйилаётган талабларнинг ўсиши, инфратузилмани модернизация қилиш зарурати ва давлат молиявий ресурсларининг чекланганлиги шароитида темир йўл тармоғини қайта қуриш ва хусусийлаштириш алоҳида аҳамият касб этмоқда. Реструктуризация тармоқ фаолиятининг ташкилий ва иқтисодий моделини ўзгартиришга қаратилган. Хусусийлаштириш, ўз навбатида, хусусий капиталнинг корхоналарга эгалик қилиш ва уларни бошқаришда иштирокини кенгайтиришни назарда тутади. Мақолада темир йўл соҳасини қайта қуриш ва хусусийлаштиришнинг иқтисодий шарт-шароитлари кўриб чиқилади, потенциал афзалликлар ва асосий хатарлар таҳлил қилинади, шунингдек, ислоҳотларни самарали амалга ошириш шартлари белгиланади.

Калит сўзлар: темир йўл транспорти, реструктуризация, хусусийлаштириш, ислоҳот, давлат мулки, хусусий капитал, табиий монополия, рақобат, инфратузилма, инвестициялар, давлат-хусусий шериклик.

Abstract. Rail transport is a strategically important component of the national economy, ensuring territorial connectivity, the movement of goods and passengers, the development of foreign trade, and the functioning of production chains. Amid growing demands for the quality of transport services, the need to modernize infrastructure, and limited public financial resources, the restructuring and privatization of the railway sector are becoming increasingly important. Restructuring is aimed at transforming the organizational and economic model of the sector, while privatization involves expanding the role of private capital in the ownership and management of railway enterprises. This article examines the economic prerequisites for the restructuring and privatization of the railway sector, analyzes their potential benefits and major risks, and identifies the key conditions for implementing these reforms effectively.

Keywords: railway transport, restructuring, privatization, railway sector, private capital, infrastructure, economic reform, investment.

Железнодорожный транспорт занимает особое место в экономической системе государства. Его значение определяется не только объемом перевозок, но и влиянием на промышленное производство, внешнюю торговлю, развитие регионов и устойчивость национальной логистической системы. Наличие развитой железнодорожной инфраструктуры позволяет обеспечивать

перемещение значительных объемов грузов на большие расстояния, снижать транспортные издержки предприятий и формировать устойчивые экономические связи между регионами.

Государственно-акционерная компания «Узбекистон темир йуллари» была организована Указом Президента Республики Узбекистан от 7 ноября 1994 года №УП-982 «Об образовании государственно-акционерной железнодорожной компании «Узбекистон темир йуллари» на базе подразделений, предприятий и организаций железнодорожной системы, находящихся на территории Республики Узбекистан [1]. Указом Президента Республики Узбекистан от 24 апреля 2015 года №УП-4720 «О мерах по внедрению современных методов корпоративного управления в акционерных обществах» компания была преобразована в АО «Узбекистон темир йуллари» [2].

В соответствие с Указом Президента Республики Узбекистан от 27 октября 2020 года №УП-6096 «О мерах по ускоренному реформированию предприятий с участием государства и приватизации государственных активов», АО «Узбекистон темир йуллари» вошло в перечень крупных государственных предприятий и хозяйственных объединений, подлежащих трансформации [3].

Традиционная модель управления железнодорожной отраслью, основанная на доминирующей роли государства, сталкивается с рядом проблем. К ним относятся высокая капиталоемкость инфраструктуры, необходимость постоянного обновления основных фондов, недостаточная гибкость управления, ограниченность бюджетного финансирования и слабые стимулы к повышению эффективности отдельных подразделений.

В таких условиях возникает необходимость структурных преобразований, которые могут включать организационное разделение видов деятельности, акционирование предприятий, развитие конкуренции, передачу отдельных функций частному сектору и привлечение инвестиций на основе государственно-частного партнерства.

Реструктуризация и приватизация при этом являются взаимосвязанными, но не идентичными процессами. Реструктуризация может осуществляться без изменения формы собственности, тогда как приватизация предполагает изменение структуры собственности. На практике именно последовательное проведение реструктуризации перед приватизацией позволяет снизить риски реформирования и повысить эффективность последующих преобразований.

Одной из основных предпосылок реформирования является высокая степень износа основных фондов. Железнодорожные пути, станции, локомотивы, вагоны и системы сигнализации требуют постоянного обновления. Недостаток инвестиций приводит к снижению качества услуг, увеличению эксплуатационных расходов и росту рисков аварий.

Общая протяженность железнодорожной сети составляет – 7 395,1 км, из них: - основные пути – 5 239,3 км; - станционные пути – 1 769,8 км; - подъездные пути – 386,0 км; пути с максимальной скоростью до 160 км/час – 731,9 км; пути с максимальной скоростью до 250 км/час – 243,5 км. Общая протяженность участков, оснащенных устройствами сигнализации – 4 757 км, из них: общая протяженность электрифицированных участков – 3 528,1 км. Общая протяженность участков, оснащенных устройствами автоматической блокировки – 1 302,2 км [4].




Рис. 1 Анализ состояния срока службы инвентарного парка локомотивов АО «Узбекистон темир йуллари» [4]

Локомотивный парк (рис.1) имеет выраженную тенденцию к старению: почти 73 % локомотивов эксплуатируются свыше 30 лет. Наиболее обновлённым является парк электровозов, где около половины машин имеют срок службы менее 10 лет. Тепловозный парк находится в неудовлетворительном состоянии, поскольку более 90 % тепловозов имеют возраст свыше 30 лет, а новые локомотивы отсутствуют. Маневровый парк полностью состоит из локомотивов старше 30 лет, что требует разработки программы их поэтапной замены или модернизации.

В целом возрастная структура свидетельствует о необходимости реализации долгосрочной инвестиционной программы по обновлению тягового подвижного состава, ориентированной прежде всего на тепловозы и маневровые локомотивы, что позволит повысить надёжность перевозочного процесса, сократить эксплуатационные затраты и улучшить экологические показатели железнодорожного транспорта.




Рис. 2 Анализ состояния срока службы пассажирских вагонов
АО «Узбекистон темир йуллари» [4]

Возрастная структура (рис 2) подвижного состава характеризуется значительным старением: почти 63 % единиц имеют срок службы свыше 29 лет.

Относительно новый подвижной состав (до 10 лет эксплуатации) составляет лишь 27,7 % парка, что свидетельствует о недостаточных темпах обновления.

Подвижной состав старше 20 лет занимает 66,9 % общего количества, что может негативно влиять на надёжность перевозочного процесса, увеличивать эксплуатационные расходы и снижать эффективность использования ресурсов.

Наличие 207 единиц техники возрастом до 10 лет показывает, что процесс модернизации уже осуществляется, однако для достижения сбалансированной возрастной структуры требуется продолжение инвестиционной политики, направленной на приобретение нового подвижного состава и постепенное списание наиболее изношенных единиц.

Возрастная структура парка свидетельствует о сохраняющейся высокой степени износа подвижного состава при наличии положительной тенденции к его обновлению. В долгосрочной перспективе приоритетными направлениями должны стать ускорение темпов модернизации, внедрение современных энергоэффективных технологий и формирование более равномерной возрастной структуры, обеспечивающей устойчивое и экономически эффективное функционирование транспортной системы.

Таблица. Технико-экономические показатели АО «Узбекистон темир йуллари» [5]

№	Показатели	2000г.	2010г.	2020г.	2025г.	Отношение 2025г. / 2000г. %
1	Объем отправленных грузов железнодорожным транспортом (годовая) млн.т	42,4	56,9	70,6	76,0	179,3

2	Объем грузооборота железнодорожного транспорта (годовая) млрд. т-км	15	22,3	23,6	27,9	186,2
3	Пассажирооборот железнодорожного транспорта (годовой) млрд. пасс-км	2,2	2,9	1,8	4,3	195,5
4	Количество отправленных пассажиров железнодорожным транспортом (годовая) млн. человек	14,6	14,5	6,2	10,1	69,4

В целом из таблицы прослеживается долгосрочная динамика железнодорожного транспорта за 2000–2025 годы и отражает два разных тренда: устойчивый рост в грузовых перевозках и более нестабильную ситуацию в пассажирских перевозках.

Грузовой сектор развивается поступательно. Объём отправленных грузов увеличился с 42,4 млн тонн в 2000 году до 76,0 млн тонн в 2025 году, то есть почти в 1,8 раза. Рост был наиболее заметен в 2000–2010 и 2010–2020 годах, после чего темпы увеличения несколько замедлились, но всё равно остались положительными. Это говорит о расширении роли железной дороги в перевозке грузов и общем росте логистических потоков.

Грузооборот также демонстрирует рост — с 15 млрд т-км до 27,9 млрд т-км за тот же период. Однако динамика здесь более неоднородная: сильный рост до 2010 года, затем почти стагнация в 2010–2020 годах и новый подъём после 2020 года. Это может указывать на изменения в структуре перевозок, например увеличение дальности маршрутов или перестройку транспортных потоков.

Пассажирские перевозки развиваются менее стабильно. Пассажирооборот вырос с 2,2 до 4,3 млрд пасс-км, то есть почти вдвое, но динамика здесь прерывистая: рост до 2010 года, резкое падение в 2020 году и сильное восстановление к 2025 году.

При этом количество перевезённых пассажиров снизилось относительно 2000 года: с 14,6 млн до 10,1 млн человек в 2025 году. Особенно заметно падение в 2020 году до 6,2 млн (возможно снижение связано с пандемией), после чего последовало частичное восстановление. Это означает, что несмотря на рост пассажирооборота, общее число пассажиров остаётся ниже прежнего уровня, вероятно за счёт увеличения дальности поездок или изменения структуры спроса.

Таким образом, можно сделать общий вывод: железнодорожный транспорт демонстрирует устойчивое развитие в грузовых перевозках и постепенный рост в пассажирских.

Реструктуризация предполагает комплексное изменение организационной, финансовой и производственной структуры железнодорожной отрасли. Ее главная задача заключается в создании такой модели управления, которая обеспечивает прозрачность, эффективность и устойчивость деятельности предприятий.

Приватизация является следующим возможным этапом реформирования отрасли. Ее основная предпосылка заключается в необходимости привлечения частного капитала и повышения эффективности управления предприятиями.

Другой предпосылкой является необходимость формирования коммерческих стимулов. Частный собственник непосредственно заинтересован в повышении доходности предприятия, сокращении затрат, повышении производительности труда и эффективном использовании активов.

Однако приватизация не должна рассматриваться как универсальное решение всех проблем отрасли. Передача государственной собственности частному инвестору сама по себе не гарантирует повышения эффективности. Если отсутствует конкуренция, независимый регулятор и прозрачная система тарифообразования, государственная монополия может быть заменена частной монополией.

Поэтому приватизация должна рассматриваться в рамках более широкой программы структурной реформы.

Одним из ключевых преимуществ реструктуризации является повышение прозрачности деятельности железнодорожных предприятий.

Вторым преимуществом является повышение инвестиционной привлекательности отрасли.

Третьим преимуществом может стать повышение эффективности управления.

Приватизация дополнительно создает возможности для привлечения долгосрочного частного финансирования. Инвесторы могут участвовать в обновлении подвижного состава, строительстве логистических терминалов, модернизации сервисных предприятий и развитии цифровой инфраструктуры.

Еще одним преимуществом является развитие конкуренции.

В свою очередь реструктуризация и приватизация также может сопровождаться следующими определенными рисками, связанными с:

увеличением административных расходов. Создание множества самостоятельных организаций может потребовать дополнительных управленческих ресурсов;

возникновением частной монополии. Если приватизированная компания сохранит доминирующее положение и получит возможность самостоятельно определять тарифы или условия доступа к инфраструктуре, преимущества приватизации могут быть сведены к минимуму;

возможным увеличением стоимости социально значимых услуг;

сокращением нерентабельных маршрутов. Частный оператор может отказаться от перевозок, которые не обеспечивают достаточной прибыли. Особенно актуальна эта проблема для пассажирских перевозок в отдаленных регионах.

сокращением занятости. Оптимизация предприятий после приватизации может привести к уменьшению численности персонала, автоматизации отдельных операций и закрытию нерентабельных подразделений;

краткосрочной ориентацией инвесторов. Некоторые частные инвесторы могут быть заинтересованы преимущественно в получении прибыли от уже существующих активов, а не в долгосрочной модернизации инфраструктуры;

потерей государством контроля над стратегически важными активами. Железнодорожная сеть имеет значение для экономической и национальной безопасности, поэтому вопрос собственности должен рассматриваться с учетом долгосрочных государственных интересов.

Учитывая вышеизложенное, рациональная реформа железнодорожной отрасли может включать несколько последовательных этапов.

Первый этап — диагностика. Проводится оценка технического состояния инфраструктуры, финансового положения предприятий, структуры расходов и доходов, инвестиционных потребностей.

Второй этап — реструктуризация. Осуществляется разделение видов деятельности, формирование самостоятельных бизнес-единиц и повышение прозрачности финансовых потоков.

Третий этап — создание конкурентной среды. Формируются правила доступа частных операторов к инфраструктуре, внедряются прозрачные тарифные механизмы и антимонопольные ограничения.

Четвертый этап — привлечение частного капитала. В зависимости от особенностей конкретного сегмента используются акционирование, концессии, государственно-частное партнерство или приватизация.

Пятый этап — государственный контроль и мониторинг. Государство оценивает результаты реформы по показателям инвестиций, качества услуг, тарифов, безопасности, производительности труда и финансовой устойчивости.

Реструктуризация и приватизация железнодорожной отрасли представляют собой сложный комплекс экономических и институциональных преобразований. Их необходимость обусловлена потребностью в модернизации инфраструктуры, повышении эффективности управления, привлечении инвестиций и создании конкурентной среды.

Таким образом, реструктуризация должна рассматриваться как фундамент реформы, а приватизация — как один из возможных инструментов ее реализации. Только при наличии эффективного регулирования, прозрачных правил конкуренции и механизмов защиты общественных интересов участие частного капитала способно обеспечить долгосрочное повышение эффективности железнодорожной отрасли.

Список использованной литературы

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 7 ноября 1994 года №УП-982 «Об образовании государственно-акционерной железнодорожной компании «Узбекистон темир йуллари»

2. Указ Президента Республики Узбекистан от 24 апреля 2015 года №УП-4720 «О мерах по внедрению современных методов корпоративного управления в акционерных обществах»
3. Указ Президента Республики Узбекистан от 27 октября 2020 года №УП-6096 «О мерах по ускоренному реформированию предприятий с участием государства и приватизации государственных активов»
4. Бизнес план – 2023 АО «Узбекистон темир йуллари»
5. Сайт Национального комитета Республики Узбекистан по статистике stat.uz

БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ ҲИСОБОТИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ УЧУН РЕСПУБЛИКА КОРХОНАЛАРИНИ ТАНЛАБ ОЛИШ МЕЗОНЛАРИ

Бўтабаев Меҳриддин Шахобидинович
ф.-м.ф.н., к.и.х., Давлат активлари агентлиги Тадқиқот маркази етакчи илмий ходими
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22139085

Аннотация. “Ўзбекистон – 2030” стратегияси доирасида турли тармоқларда кенг қамровли “яшил трансформация”ни амалга ошириш режалаштирилган. Бунинг учун республика корхоналари экологик, ижтимоий ва корпоратив бошқарув ёндашуви асосида ESG ҳисоботларини тайёрлаш амалиётини жорий қилишга тайёрлик даражасини аниқлаш лозим.

Аннотация. В рамках стратегии «Узбекистан – 2030» планируется осуществить комплексную «зеленую трансформацию» в различных секторах. Для этого необходимо определить уровень готовности предприятий республики к внедрению практики подготовки ESG-отчетов, основанных на принципах экологического, социального и корпоративного управления.

Annotation. As part of the "Uzbekistan – 2030" strategy, plans are in place to implement a comprehensive "green transformation" across various sectors. To do this, it is necessary to determine the level of readiness of the republic’s enterprises to adopt the practice of preparing ESG reports based on environmental, social, and corporate governance principles.

Калит сўзлар: яшил трансформация, барқарор ривожланиш ва ESG ҳисоботи, ҳисоботнинг ҳалқаро стандартларини жорий қилиш.

Ключевые слова: зеленая трансформация, отчет об устойчивом развитии и ESG, внедрение международных стандартов отчетности.

Key words: green transformation, sustainability and ESG report, implementation of international reporting standards.

“Ўзбекистон – 2030” стратегиясининг асосий мақсадлари қаторида мамлакатимизнинг жаҳон ҳамжамияти олдидаги мажбуриятларини бажарган ҳолда, турли тармоқ ва соҳаларда кенг қамровли “яшил трансформация”ни амалга ошириш ҳамда иқтисодий ўсишни янги “яшил” ривожланиш моделига ўтказиш киради [1]. Хусусан, йирик стратегик корхоналар томонидан экологик, ижтимоий ва корпоратив бошқарув тамойиллари (ESG) асосида корпоратив дастурларнинг ишлаб чиқилиши, миллий ESG ҳисоботларини тайёрлаш ва ошкор қилиш амалиётининг жорий қилиниши ҳамда ESG рейтингларини олинишини таъминланиши вазифаси қўйилмоқда. Шунинг учун, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 04.05.2026 йилдаги 221-сон қарорининг алоҳида иловаси қилиб “Атроф-муҳит, ижтимоий ва корпоратив бошқарув (ESG) тамойиллари асосида «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари ва барқарор ривожланиш тўғрисидаги маълумотларни ошкор қилиш стандартлари»ни жорий этиш ва ушбу стандартлар асосида ҳисобот тайёрлаш” қоидалари ва “Трансформация жараёнидаги давлат иштирокидаги корхоналар учун барқарор ривожланиш ва ESG ҳисоботи стандартларини жорий этиш бўйича тадбирлар” дастури тасдиқланган эди [2]. ВМҚ-221нинг 4 бандига биноан Давлат активларини бошқариш агентлигига Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан ҳамкорликда барқарор ривожланиш ва ESG ҳисоботини тайёрлаш ҳамда ошкор қилишни босқичма-босқич ва ихтиёрий равишда жорий этиш бўйича режалаштирилаётган камида 50 та маҳаллий корхонани танлаб олиш мезонларини барқарор ривожланиш ва ESG ҳисоботини тайёрлаш ҳамда барқарор ривожланиш ва ESG соҳасида ахборотни ошкор этиш бўйича методик тавсиялар ишлаб чиқиш вазифаси юклатилган эди. Ушбу мақоланинг вазифаси барқарор ривожланиш ҳисоботини жорий этиш учун республика корхоналарини танлаб олиш мезонлари ишлаб чиқиш юзасидан муаллифлик таклифларини мериш ҳисобланади.

Барқарор ривожланиш ва ESG ҳисоботини тайёрлаш ҳамда ошкор қилишни босқичма-босқич ва ихтиёрий равишда жорий этиш бўйича корхонани танлаб олиш мезонлари (кейинги ўринларда – Мезонлар) қуйидаги ўн икки мезон йиғиндисидан иборат бўлиши мумкин:

1. Корхона трансформация жараёнидаги давлат иштирокидаги корхона бўлиши лозим (банк-молия сектори ташкилотларидан ташқари) [2].

2. Корхона устав фондида (устав капиталида) давлат улуши эллик фоиздан ортиқ бўлган ёки устав фондида (устав капиталида) давлат улуши хўжалик жамиятининг бошқа ҳар бир акциядори (иштирокчиси) улушидан кўп бўлган хўалик жамиятлари жумласидан бўлиши керак.

3. Корхона барқарор ривожланиш ва ESG ҳисоботини тайёрлаш ҳамда ошкор қилишни ихтиёрий равишда жорий этишга қарор қилган бўлиши керак. Корпоратив корхонада барқарор ривожланиш ва ESG ҳисоботини тайёрлаш ҳамда ошкор қилишни ихтиёрий равишда жорий этишга қарор кам деганда кузатув кенгаши томонидан қабул қилиниши лозим.

4. Корпоратив бошқарув даражаси етарли бўлиши керак. Бунда Давлат активлари агентлигида қўлланилаётган “Корпоратив бошқарув тизими самарадорлигини баҳолаш” кўрсаткичи “Қониқарли” деб ёки ундан юқорироқ баҳоланган бўлиши керак.

5. Корхона қимматли қоғозларининг «Тошкент» Республика фонд биржаси савдоларида иштироки фаол бўлиши лозим. Бунда оҳирги беш йил ичида корхона қимматли қоғозлари билан қилинган биржа операциялари ҳажми унинг устав фондига нисбатан камида 10 фоизни ташкил қилиши керак.

6. Ошкор қилиниши мажбурий бўлган ахборотларнинг лозим даражада ошкор қилиниши амалиёти. Корхона оҳирги ҳисобот йилида қимматли қоғозлар бозорини тартибга солишга ваколатли давлат органи (Истиқболли лойиҳалар миллий агентлиги) томонидан ахборот ошкор қилиш соҳасида аниқланган қоидабузарликлар учун маъмурий жавобгарликка тортилиши сони икки мартадан ортиқ бўлмаслиги керак.

7. Корхонанинг биржа котировка рўйҳатида туриши. Корхона қимматли қоғозлари оҳирги икки йил ичида "Тошкент" РФБ листингида барқарор равишда турган бўлиши керак.

8. Корхонанинг эркин муомаладаги акциялари улуши оҳирги уч йил давомида унинг устав фондининг камида бир фоизини ташкил қилиши керак.

9. Корхона молия ҳисоботини аудит қилган аудитор ташкилоти даражаси. Баҳолаш учун аудиторлик ташкилоти нуфузи ва хизмат кўрсатиш даражаси эътиборга олинади. Корхонанинг оҳирги йиллик молиявий ҳисоботи аудиторлик ташкилоти томонидан МҲХС (IFRS) асосида тасдиқланган бўлиши лозим.

10. Корхонада ишлаб чиқариш чиқиндилари, экологик жарималар ёки атроф-муҳитни муҳофаза қилиш бўйича ички Сиёсат (Environmental Policy) мавжудлиги. Агар бундай сиёсат қабул қилинган ва амал қилинаётган бўлса корхона ушбу мезонни қаноатлантирган ҳисобланади.

11. Корхона ходимлари манфаатларини муҳофаза қилиш сиёсатларининг мавжудлиги. Ушбу кўрсаткич учун қуйидагича стандартлар ёки амалиётлардан бирининг қўлланилаётгани етарли деб ҳисобланади:

- ходимлар хавфсизлиги ва меҳнат муҳофазаси бўйича халқаро стандартлар (масалан, ISO 45001) жорий этилганлиги;
- ходимларнинг қўнимсизлиги (turnover rate), гендер баланси (аёллар улуши) ва иш ҳақи тенглиги бўйича аниқ статистиканинг юритилиши;
- Инсон ҳуқуқлари сиёсати (Human Rights Policy) ёки Дискриминацияга қарши ички низомларнинг мавжудлиги.

12. Корхона жараёнларининг рақамлаштирилиш даражаси. Баҳоланиш учун корхонада қўлланиладиган корпоратив хужжат айланишида рақамлаштирилган қисми улуши 25 фоиздан кам бўлмаслиги керак.

Корхона барқарор ривожланиш ва ESG ҳисоботини тайёрлаш ҳамда ошкор қилишни босқичма-босқич ва ихтиёрий равишда жорий этишга танланиши учун юқоридаги 12 мезонларнинг ихтиёрий 10 тасини қаноатлантириши етарли ҳисобланиши тавсия қилинади.

Барқарор ривожланиш ва ESG ҳисоботини тайёрлаш ҳамда ошкор қилишни босқичма-босқич ва ихтиёрий равишда жорий этиш учун корхона танланиши уч босқичда амалга оширилиши мумкин:

1. Устав фондида давлат улуши мавжуд бўлган корхоналар 12 мезонлар бўйича баҳоланиш учун зарур асослантирувчи хужжатларни Давлат активларини бошқариш агентлигига тақдим этади.

2. Корхоналарнинг барқарор ривожланиш ва ESG ҳисоботини тайёрлашни жорий қилишга таёргарлик даражаси мезонлар тизими асосида баҳоланади.

3. Мезонлар тизимини энг кўп даражада қаноатлантирган корхоналар асосида “Барқарор ривожланиш ва ESG ҳисоботини тайёрлаш ҳамда ошкор қилишни босқичма-босқич ва ихтиёрий равишда жорий этиш бўйича танланган маҳаллий корхоналар рўйҳати” шакллантирилади.

Мезонлар Давлат активларини бошқариш агентлиги томонидан корхоналар танловини ўтказиш учун тайинланган масъул шахс ёки махсус танлов комиссия томонидан қўлланилиши мумкин. Шу билан бирга, Мезонлар Барқарор ривожланиш ва ESG ҳисоботини тайёрлашни жорий қилишдан манфаатдор бўлган ҳар қандай корхона учун унинг ушбу тизимга ўтишга тайёргарлик даражасини мустақил равишда таҳлил қилиш учун ҳам қўлланилиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “«Ўзбекистон — 2030» стратегиясини «Атроф-муҳитни асраш ва «яшил иқтисодиёт» йилида амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида” Фармони, 30.01.2025 йилдаги ПФ-16-сон, https://lex.uz/uz/docs/7369703.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Барқарор ривожланиш ва атроф-муҳит, ижтимоий ҳамда корпоратив бошқарув (ESG) тамойилларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори, 04.05.2026 йилдаги 221-сон, https://lex.uz/uz/docs/8171367.

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING ‘‘QORA KAMAR’’ DRAMASIDA MILLIY OZODLIK HARAKATINING BADIIY IFODASI

Damirova Diyora Dilshod qizi
Buxoro davlat universiteti magistranti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22139126

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning “Qora kamar” dramasida milliy ozodlik harakatining qurolli va mafkuraviy kurashlar kesishmasidagi badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Milliy ozodlik harakati yetakchilari o‘rtasidagi ichki parokandalik, sho‘ro mafkurasining so‘z va targ‘ibot orqali xalq ongini shakllantirishdagi roli hamda uning yosh avlod taqdiriga ta’siri tadqiq etiladi. Milliy ozodlik kurashining fojeaviy yakuni, avvalo, jismoniy emas, balki ruhiy sifatida ochib beriladi.
Kalit so‘zlar: ‘‘Qora kamar’’ dramasi, milliy ozodlik harakati, qo‘rboshi, bosmachi.
Аннотация. В данной статье анализируется художественное изображение национально-освободительного движения в драме Шукура Холмирзаева ‘‘Qora kamar’’ на пересечении вооружённой и идеологической борьбы. Исследуются внутренняя разобщённость лидеров национально-освободительного движения, роль советской идеологии в формировании общественного сознания посредством слова и пропаганды, а также её влияние на судьбу молодого поколения. Трагический исход национально-освободительной борьбы раскрывается прежде всего как поражение духовное, а не физическое.
Ключевые слова: Драма ‘‘Qora kamar’’, национальное освободительное движение, курбаши, басмачи.
Abstract. This article analyzes the artistic representation of the national liberation movement in Shukur Kholmirzaev’s drama “Black Belt” at the intersection of armed and ideological struggles. The internal disunity among the leaders of the national liberation movement, the role of Soviet ideology in shaping public consciousness through words and propaganda, and its impact on the fate of the younger generation are examined. The tragic outcome of the national liberation struggle is revealed primarily as a spiritual, rather than physical, defeat.
Keywords: The drama ‘‘Qora kamar’’, national liberation movement, kurbashi, Basmachi.

O‘zbek adabiyotida yaqin o‘tmishimizning qora kunlari bo‘lgan qo‘rboshilarning milliy ozodlik yo‘lidagi fidoyiliklari va ularning ayanchli taqdirining badiiy ifodasi turli janr va shakllarda o‘z aksini topgan. Xususan, Shukur Xolmirzayevning ‘‘Qora kamar’’ asari orqali milliy ozodlik harakatlari badiiy-dramatik yo‘sinda yuksak mahorat bilan tasvirlanganki, undagi voqealarning sahnaviy ta’sirchanligi har bir kitobxonni o‘tmishning qora kunlariga bevosita guvohdek his qildiradi. Tahlilidan avval asar sarlavhasi har qanday kitobxonning diqqatini tortishi mumkin. Asarga birgina munosib sarlavha qo‘yishning o‘zi yozuvchidan yuksak badiiy mahorat talab qiladi. Nega aynan qora kamar? qora rang? Yozuvchi nega oq kamar yoki qizil kamar emas, aynan qora rang bilan nomlagan? Bu yerda sarlavhaning o‘zi dramaning mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qilayotgan ramziy ma’noni tashiyotgandek. Aksariyat holatlarda qora rang yovuzlik, yomonliklarning timsoli sifatida talqin etiladi. Tarixdan ma’lumlki, sho‘ro hukumati asl yurt fidoyilari bo‘lgan qo‘rboshilarni o‘z xalqiga, jigarlariga hattoki farzandlariga ham yuzlariga qora tortib ‘‘Bosmachi’’ deb tanitgan. Asarda Qora kamar Surxon vohasidagi joy nomi bo‘lib, uyerni qo‘rboshilar o‘zlariga manzilgoh qilib olishgan edi. Asar nomidagi ‘‘Qora kamar’’ bir tomondan voqealar kechadigan makonni anglatsa, ikkinchi tomondan milliy ozodlik kurashchilarining tarixiy qiyofasiga tortilgan mafkuraviy ‘‘Qora tamg‘a’’ning ramziy ifodasi sifatida talqin etish mumkin.

Drama voqealari Xurrambek ismli qo‘rboshining qarorgohi (Qora kamar)da bo‘lib o‘tadi. Drama davomida Xurrambek obrazi yurt ozodligini har qanday narsadan, hattoki o‘z oilasidan ham ustun qo‘yadigan haqiqiy vatanparvar inson sifatida gavdlanadi. Sho‘ro hukumati Turkistonning deyarli barcha yerlaridagi qo‘rboshilarni bostirgan, faqatgina Surxon vohasigina qolgan edi. Aniqrog‘i, Xurrambekday jasur millatparvar sabab Surxon hali qo‘ldan ketmagan edi. Biroq u ham oxir-oqibat bu ashaddiy jangda yengiladi. Mag‘lubiyatning asosiy sababi qo‘rboshilar orasida birdamlikning yo‘qligi va sho‘ro hukumati qo‘llagan mafkuraviy qurol edi. Muallif qo‘rboshilar mag‘lubiyatini faqat harbiy kuchlar tengsizligi bilan izohlamaydi. Asarda milliy ozodlik harakatining tanazzuliga olib kelgan eng muhim omil sifatida qo‘rboshilar o‘rtasidagi birlikning yo‘qligi ko‘rsatiladi. Bir maqsad yo‘lida kurashayotgan qo‘rboshilar shaxsiy kelishmovchiliklar sabab birlasha olmaydilar. Natijada ozodlik harakatining kuchi tashqi dushman

tomonidan emas, avvalo ichki parokandalik tufayli zaiflashadi. Drama ham aynan mana shu kelishmovchiliklardan ya’ni, mag‘lubiyatga uchrab Afg‘onga qochgan, keyinchalik oti Tangriqashqa uchun qaytgan sobiq qo‘rboshi Ostonning Qora kamarga kelishi bilan boshlanadi. Ostonning qo‘rboshilarni bosmachi, qonxo‘r deb yosh avlodning ongiga singdirish, yurtni ulardan tozlash kerakligni uqtirishga kelgan Abdulla Nabiyevning qochishiga yordam berishi uning ulkan xiyonati bo‘ldi. Yana bir Ibrohimbek ismli qo‘rboshining Xurrambek bilan bo‘lgan kelishmovchilik sabab Afg‘onga o‘tib ketgani, u yerdan turib qurol yarog‘ga muhtoj Qora kamar lashkarlariga yordam bermasligi, Xurrambekning yalinib kechirim so‘rab kelishini kutib turishi ular orasida birdamlik bo‘lmaganini ko‘rsatadi. Shu o‘rinda Qoraxo‘ja eshonning:‘‘Bul turkiy xalqlarning boshi birikmaydi! Ul biriksa, bu yorug‘ olam oyoqlarimiz ostida bo‘lurdi. Naqadar haq gaplar! Xudo qarg‘agan xalq ekanmiz’’, – deya ta’kidlashi muallifning milliy ozodlik harakatining fojiaviy yakunini, avvalo, ichki parokandalik va birlikning yo‘qligi bilan izohlash g‘oyasini ilgari surganini anglatadi. Mag‘lubiyatning ikkinchi sababi sho‘ro mafkurasining quroli bosmachilar qurolidan o‘tkirroq ekanligida edi. Millatparvarlar qo‘lda qurol tutib jangga shaylanishgan bo‘lsa, sho‘ro asosiy qurol sifatida ‘‘So‘z’’dan foydalandi. Dramaning g‘oyaviy-badiiy tizimida qurolli kurash va mafkuraviy kurash o‘rtasidagi qarama-qarshilik alohida o‘rin tutadi. Qo‘rboshilar ozodlik uchun qurol bilan kurashayotgan bir paytda, sho‘ro mafkurasi inson ongi va xalq tafakkurini egallashga qaratilgan boshqa bir kurashni olib boradi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, asarda qurol va so‘z ikki xil kurash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Xurrambek va uning safdoshlari dushmanga qarshi qurol bilan kurashishga tayyor turgan bir paytda sho‘ro mafkurasi o‘z ta’sirini qurol bilangina emas, balki targ‘ibot, tashviqot va so‘z orqali kengaytiradi. Buning yorqin isboti Boysunga kelgan qo‘qonlik shoir Abdulla Nabi obrazi orqali namoyon bo‘ladi. Uning asosiy maqsadi yoshlarning ongiga yangi tuzum aqidalarini singdirish, hududlarda sho‘ro hokimiyatining ta’sirini kuchaytirish, oxir-oqibat Xurrambekni bu yurtdan badarg‘a qilish yoki qo‘lga olib, sho‘ro sudiga topshirishdan iborat edi. U yangi tuzumni madh etuvchi she’rlar yozib, ularni yosh avlodga yod oldirtiradi

Yasha Sho‘ro, yasha Sho‘ro!
Sen yashaydurg‘on zamon.
Ishchi o‘g‘li shuhratingdan
Bolqisin ro‘yi jahon!
Yasha Sho‘ro, yasha Sho‘ro!..

Mazkur she’rni ibtidoiy maktab bolalariga Abdulla Nabi o‘rgatgan bo‘lib, uni yod olganlar orasida Xurrambekning o‘g‘li Umidjon ham bor edi. Bolalar sho‘roni madh etuvchi ushbu she’rni aytib, Qora kamar tomon keladilar. Ular qarorgohga yaqinlashgan paytda Umidjon otasini ko‘rib qoladi. Ota-o‘g‘il suhbatidan bolaning dunyoqarashidagi o‘zgarish namoyon bo‘la boshlaydi va bu Xurrambekni xavotirga soladi. Umidjonning yod olgan shiorlari, gap so‘zlaridan uning va tengdoshlarining yangi tuzum mafkurasi ostida tarbiyalanayotgani ayon bo‘ladi. Endi otaning farzand tarbiyasi va tahsili haqidagi orzu va o‘ylari chipakka chiqib bo‘lgan edi. Xurrambek o‘g‘lini Boysun madrasasiga qo‘yishni, keyinchalik Buxoroda, so‘ngra Istambulda o‘qitishni orzu qilardi Ammo, buni Umidjonga aytganda bolalarning Abdulla Nabi aytgandek Moskvada, Leningradda o‘qishlari kerakligini aytishi Xurrambekni yosh avlodning ong-u shuuri allaqachon egallab bo‘lingani va ularning qalbiga begona g‘oyalar singib ulgurganiga amin qildiradi. Drama so‘nggida Abdulla Nabini qo‘lga olib Qora kamarga, Xurrambekning oldiga olib kelishadi. Biroq uning tili kesib tashlangani Xurrambek uchun u bilan suhbatlashish chog‘ida noqulaylik tug‘dirdi:‘‘ Xo‘sh, bu yurtga... o‘z ixtiyoring bilan keldingmi? Yoki Sho‘rolar buyurdimi? (Abdulla to‘lg‘anadi. Iyagini ko‘ksiga tegizadi.) A-aa, o‘z ixtiyoring bilan? Bay-bay-bay!.. Qo‘rqmadingmi? (Abdulla rad ma’nosida bosh chayqaydi.) O‘-o‘o‘! Botir ekan. O‘risning tarbiyasini olgan-da?.. (Yana tutaqib ketib.) Bu yer – Surxonku?! Toshkent allaqachon Sho‘roniki bo‘ldi! Xorazm ham o‘risga qo‘l ko‘tardi! Junayid ham oblo akbar bo‘ldi! Seni... Farg‘onang ham... senga o‘xshagan maraz-sotqinlarning orqasida o‘ris mulkiga aylandi! Faqat shu yer, shu yurt qolgan edi... (Sukut.) Shu yerda tiriklar qolgan edi! Fidoyilar qolgandi... (Abdullaga.)’’. Chindan ham o‘sha davrda Abdullaga o‘xshagan sho‘roga sotilgan, xoin kimsalar ko‘p edi. Eng achinarlisi ham bunday kimsalarning millat orasidan yetishib chiqqanligi edi. Bunday paytda Xurrambekday fidoyi insonlarning yurt uchun qayg‘urishi va kurash olib borishi behudadek edi. Sababi xalq, yosh avlod va ular orasidagi o‘g‘li Umidjon ham yangi tuzum g‘oyalariga ergasha boshlagani, hattoki Xurrambekning qo‘l ostidagi ayrim qo‘rboshilarning xiyonati uni bu kurashda behudaga chiranayotgan inson qilib ko‘rsatadi. Asar so‘nggida Abdullaning o‘ldirilganini ko‘rgan Umidjon otasidan nafratlanadi. Atrofdagilar Abdullaning jasadini ko‘mish uchun Xurrambekdan izn so‘rashganda Umidjonning: ‘‘Ota, bering... (Birdan uning yengiga yopishadi.) Bering, qonxo‘r!’’, deyishi otani g‘azablantiradi va u ham

beixtiyor: ‘‘Yo‘qol! Itvachcha...’’, deb o‘g‘lini o‘tirgan yeridan tepib yuboradi. Shundan so‘ng Umidjon tomoshabinlarga qarab tiz cho‘kadi va qo‘llarini fotihaga ochib: ‘‘Men itvachchaman... shuning uchun sizday... otam yo‘q. Oblohu akbar’’, deyishi drama kulminatsiyasini belgilovchi fojeaviy nuqtaga aylanadi. Ushbu so‘zlardan so‘ng Xurrambek butkul mag‘lub bo‘lganini anglaydi. Sababi farzandining so‘nggi so‘zlari o‘tkir tig‘ga aylanib otaning yuragiga sanchiladi. Xurrambek hech qanday dushman tomonidan qurol bilan o‘ldirilmadi yoki hibsga olib mag‘lub etilgani yo‘q edi. Biroq uning qalban va ruhan o‘lgani mana shu nuqtada namoyon bo‘ladi. Bu shunchaki ota va o‘g‘il o‘rtasidagi oddiy oilaviy konflikt emas, balki butun bir millatning fojeasi desak ham bo‘ladi. Sababi birgina Xurrambekning o‘g‘li emas, balki butun millat bolalarining ongi zaharlanib bo‘lgan edi.

E’tiborli tomoni shundaki, drama 1987-yilda yozilgan bo‘lib, Shukur Xolmirzayev ushbu asari orqali milliy ozodlik kurashiga mustaqillikdan keyingi davrda emas, balki hali sho‘ro mafkurasi hukmron bo‘lgan sharoitning o‘zidayoq badiiy munosabat bildira olgan. Sovet mafkurasi hali hukmron yillari bunday mavzuda asar yaratishning o‘zi bir jasoratdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, g‘oyaviy jihatdan pishiq, o‘qishli asar avvalo zamon sinovidan o‘ta olishi kerak. ‘‘Qora kamar’’ aynan shunday tipdagi asardir. Sababi, undagi mavzu bugungi kun uchun ham dolzarb. Yurtimiz mustaqilligi va milliy davlatchilgimiz yo‘lida jon fido qilgan millatparvarlarni unutishga haqqimiz yo‘q. Chunki, ular kutgan, orzu qilgan Vatanda bugun bizlar tinch va osuda yashayapmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xolmirzayev Sh. Qora kamar // Sharq yulduzi. — 1990. — № 9. — B. 125

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA MEDIA-KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MEDIA-TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH.

Davletova Xosiyat Sapavoy qizi
Urganch davlat pedagogika instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi, institut mustaqil izlanuvchisi.
davletovaxosiyat907@gmail.com, +998888586727
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22139186

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarda media-kompetentlikni rivojlantirishda media-topshiriqlardan foydalanishning pedagogik va metodik imkoniyatlari yoritilgan. Zamonaviy ta’lim sharoitida bo‘lajak pedagoglarning media-axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, tanqidiy baholash, verifikatsiya qilish, media kontent yaratish hamda undan pedagogik maqsadlarda samarali foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish zarurati asoslangan. Media-topshiriq tushunchasining pedagogik mohiyati ochib berilib, uning oddiy axborot yoki texnologik topshiriqdan farqli jihatlari aniqlashtirilgan. Maqolada media-topshiriqlarni qo‘llash mexanizmi taklif etilgan.
Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim muhiti, media-kompetentlik, bo‘lajak pedagog, media-topshiriq, media savodxonlik, media ta’lim, media axborot, media loyiha, refleksiya.
Аннотация: В данной статье освещены педагогические и методические возможности использования медиа-заданий в развитии медиакомпетентности будущих педагогов в цифровой образовательной среде. Обоснована необходимость формирования у будущих педагогов компетенций по поиску, отбору, анализу, критической оценке, верификации медиаинформации, созданию медиаконтента, а также его эффективному использованию в педагогических целях в условиях современного образования. Раскрыта педагогическая сущность понятия медиа-задания, уточнены его отличительные особенности от обычного информационного или технологического задания. В статье предложен механизм применения медиа-заданий.
Ключевые слова: цифровая образовательная среда, медиакомпетентность, будущий педагог, медиа-задание, медиаграмотность, медиаобразование, медиаинформация, медиапроект, рефлексия.
Abstract: This article highlights the pedagogical and methodological possibilities of using media tasks in developing the media competence of future teachers in a digital learning environment. The necessity of developing future teachers’ competencies in searching, selecting, analyzing, critically evaluating, verifying media information, creating media content, as well as effectively using it for pedagogical purposes in modern educational conditions is substantiated. The pedagogical essence of the concept of a media task is revealed, and its distinctive features from an ordinary information or technological task are clarified. The article proposes a mechanism for the application of media tasks.
Keywords: digital learning environment, media competence, future teacher, media task, media literacy, media education, media information, media project, reflection.

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga jadal kirib kelishi pedagogning kasbiy faoliyatiga qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartirmoqda. Ta’lim jarayonida elektron ta’lim resurslari, videoplatformalar, ijtimoiy tarmoqlar, podkastlar, raqamli taqdimotlar, infografikalar va boshqa media vositalaridan foydalanish kengayib borayotgan bir sharoitda pedagogning faqat texnologik vositalardan foydalana olishi yetarli emas. U media-axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish, tanqidiy baholash, yaratish va pedagogik maqsadlarda qo‘llash kompetensiyasiga ham ega bo‘lishi lozim.

UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan Media va axborot savodxonligi bo‘yicha o‘qituvchilar uchun o‘quv dasturida media va axborot muhitining kengayishi sharoitida o‘qituvchilarning ushbu jarayondagi muhim roli alohida ta’kidlangan [1]. Media-kompetentlikning rivojlanishi, ayniqsa, bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash bosqichida muhim ahamiyatga ega. Chunki oliy ta’lim muassasasida shakllangan media bilan ishlash madaniyati keyinchalik pedagogning kasbiy faoliyatida namoyon bo‘ladi. D. Buckingham media ta’limning asosiy vazifalaridan biri ta’lim oluvchini media xabarlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki ularni anglaydigan, tahlil qiladigan va yaratadigan faol subyektga aylantirish ekanligini ta’kidlaydi [2].

Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak pedagoglarda media-kompetentlikni rivojlantirish jarayonini faqat nazariy ma’lumotlarni o‘zlashtirish asosida tashkil etish yetarli emas. Talabalar real media axborot bilan ishlashi, uning ishonchliligini tekshirishi, turli media manbalarni taqqoslashi, media mahsulot yaratishi va

o‘z faoliyatini baholashi zarur. Bunday faoliyatni tashkil etishda media-topshiriqlar samarali didaktik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Media-topshiriq tushunchasining pedagogik mohiyati. Pedagogik jarayonda topshiriq ta’lim oluvchini muayyan faoliyatni mustaqil yoki hamkorlikda bajarishga yo‘naltiruvchi didaktik vosita hisoblanadi. Media-topshiriq esa mazkur faoliyatni media axborot va media vositalari bilan bog‘laydi.

Bizningcha, media-topshiriq-bo‘lajak pedagogning media axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, tanqidiy baholash, tekshirish, qayta ishlash, yaratish va pedagogik faoliyatda qo‘llash kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, aniq ta’limiy maqsad asosida ishlab chiqilgan amaliy topshiriqdir.

Media-topshiriqning muhim jihati shundaki, unda media vositasining mavjudligi asosiy mezon hisoblanmaydi. Masalan, talabaga videoni tomosha qilish topshirig‘ini berishning o‘zi to‘liq media-topshiriq hisoblanmaydi. Agar talaba videodagi axborotning manbasini aniqlasa, uning maqsadi va auditoriyasini belgilasa, keltirilgan dalillarni boshqa manbalar bilan taqqoslasa, manipulyativ jihatlarni aniqlasa va pedagogik xulosa chiqarsa, bunday faoliyat media-topshiriqning mazmunini tashkil etadi. Media savodxonlikning zamonaviy talqinlarida ham media xabarlarni anglash, tanqidiy tahlil qilish, baholash va media kontent yaratish qobiliyatlari muhim o‘rin egallaydi [2; 4].

Media-topshiriqlarning bo‘lajak pedagoglar media-kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari. Media-topshiriqlarning asosiy pedagogik imkoniyati shundaki, ular bo‘lajak pedagogni real media faoliyatga jalb etadi. Ushbu jarayonda talaba tayyor axborotni o‘zlashtirishdan ko‘ra, axborot bilan mustaqil ishlashga o‘tadi.

Birinchidan, media-topshiriqlar media axborotni izlash va saralash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Talaba muayyan pedagogik muammo yuzasidan turli manbalardan axborot izlaydi, ularni taqqoslaydi va maqsadga muvofiq manbalarni tanlaydi. Bu kerakli va ishonchli ma’lumotni ajratib olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ikkinchidan, media-topshiriqlar tanqidiy media tahlilini shakllantirishga xizmat qiladi. Talabaga bir mavzuga oid turli media materiallari taqdim etilib, ularning mazmuni, muallif pozitsiyasi, maqsadi, auditoriyasi va ta’sir vositalarini aniqlash topshiriladi.

Media-topshiriqlarning turlari. Bo‘lajak pedagoglarda media-kompetentlikni kompleks rivojlantirish uchun media-topshiriqlarni mazmuni va bajariladigan faoliyat turiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin.

1. Media-axborotni izlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar

Bunda talabalar muayyan pedagogik mavzu bo‘yicha internet, elektron kutubxona, ta’lim platformalari va boshqa raqamli manbalardan axborot izlaydi

3. Media-verifikatsion topshiriqlar

Mazkur topshiriqlarda axborotning ishonchliligini aniqlash asosiy maqsad hisoblanadi. Talaba xabarning manbasini aniqlaydi, boshqa manbalar bilan taqqoslaydi, fakt va fikrni ajratadi hamda xabarning ishonchliligi haqida xulosa chiqaradi.

5. Media-loyihaviy topshiriqlar

Media-loyihaviy topshiriqlar muammoni aniqlash, axborot yig‘ish, media mahsulotni rejalashtirish, yaratish va taqdim etish jarayonlarini qamrab oladi. Bunday topshiriqlar talabaning mustaqilligi, ijodkorligi va hamkorlikda ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

6. Refleksiv media-topshiriqlar

Talaba bajarilgan media faoliyatini tahlil qiladi va o‘z faoliyatiga baho beradi. Masalan: “Yaratgan media mahsulotingizning kuchli va zaif tomonlarini aniqlang. Auditoriyaga ta’sirini baholang va uni takomillashtirishning uchta yo‘lini ko‘rsating.”

Media-topshiriqlar va media-kompetentlik komponentlari. Bo‘lajak pedagoglarda media-kompetentlikni rivojlantirishda media-topshiriqlarni uning tarkibiy komponentlari bilan uzviy bog‘lash maqsadga muvofiq.

Media-kompetentlik komponenti	Rivojlantiriladigan jihatlar	Mos media-topshiriqlar
Motivatsion-qadriyatli	Media bilan ishlashga qiziqish, mas’uliyat, media axborotga ongli munosabat	Muammoli media vaziyat, media muhokama
Bilim-kognitiv	Media tushunchalari, manbalar, media tahlil mezonlarini bilish	Media tahlil, manbalarni taqqoslash

Faoliyat-amaliy	Axborotni izlash, tekshirish, qayta ishlash, media mahsulot yaratish	Media loyiha, video, infografika, podkast
Refleksiv-baholash	O‘z media faoliyatini tahlil qilish va baholash	Refleksiv hisobot, portfolio, o‘z-o‘zini baholash

Mazkur bog‘liqlik media-topshiriqning bitta ko‘nikmani emas, balki media-kompetentlikning bir nechta tarkibiy komponentlarini kompleks rivojlantirish imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Media-topshiriqlarni tashkil etishning metodik bosqichlari.

Media-topshiriqlarni samarali qo‘llash uchun ularni tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etish zarur. Bizningcha, ushbu jarayonni to‘rtta o‘zaro bog‘liq bosqich asosida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Birinchi bosqich-motivatsion-diagnostik bosqich.

Mazkur bosqichda talabalarning mavjud media bilimlari, media vositalaridan foydalanish tajribasi, qiziqishlari va media axborotga munosabati aniqlanadi.

Ikkinchi bosqich-bilim-nazariy bosqich

Ushbu bosqichda media-kompetentlikning nazariy asoslari, media matn xususiyatlari, media manbalar, axborotning ishonchlilik mezonlari, media manipulyatsiya, media etikasi va mualliflik huquqi kabi masalalar o‘rganiladi.

Uchinchi bosqich-faoliyat-amaliy bosqich

Mazkur bosqich media-topshiriqlardan foydalanishning asosiy amaliy bosqichidir. Talabalar real media axborot bilan ishlaydi, uni tahlil qiladi, tekshiradi, qayta ishlaydi va pedagogik media mahsulot yaratadi.

To‘rtinchi bosqich-refleksiv-baholash bosqichi

Yakuniy bosqichda talaba bajarilgan media-topshiriq natijalarini baholaydi. Bunda o‘z-o‘zini baholash, o‘zaro baholash, portfolio, refleksiv kundalik va mezonli baholashdan foydalanish mumkin.

Past darajada talaba media axborotni asosan tayyor ko‘rinishda qabul qiladi va uning ishonchliligini mustaqil baholashda qiynaladi. O‘rta darajada u axborotni izlash, tahlil qilish va oddiy media mahsulot yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Yuqori darajada esa talaba media axborotni mustaqil izlaydi, tanqidiy tahlil qiladi, tekshiradi, media mahsulot yaratadi va uning pedagogik samaradorligini refleksiv baholay oladi.

Media-topshiriqlarning TPACK yondashuvi bilan aloqasi. Media-topshiriqlardan foydalanish bo‘lajak pedagogning texnologik, pedagogik va mazmuniy bilimlarini integratsiyalash imkonini beradi. P. Mishra va M. Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK modeli pedagogik mazmun bilimlari, texnologik bilimlar va pedagogik bilimlarning o‘zaro integratsiyasini ta’lim jarayonida samarali texnologik faoliyatning muhim sharti sifatida ko‘rsatadi [3].

Shu jihatdan media-topshiriqni bajarishda talaba faqat media vositasidan foydalanishni emas, balki “nima yarataman?”, “kim uchun yarataman?”, “qaysi texnologik vositadan foydalanaman?”, “bu vosita qanday pedagogik maqsadga xizmat qiladi?” kabi savollarga javob topishi lozim.

Media-topshiriqlarni qo‘llashning pedagogik shart-sharoitlari.

Media-topshiriqlarning samaradorligi bir qator pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq.

Birinchidan, media-topshiriqlar kasbiy yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Talaba topshiriqni bajarish jarayonida uning kelajakdagi pedagogik faoliyatida qanday qo‘llanishini anglab yetishi zarur.

Ikkinchidan, topshiriqlar oddiydan murakkabga tamoyili asosida tuzilishi lozim. Dastlab axborotni topish va saralashga yo‘naltirilgan topshiriqlar, keyinchalik tahliliy, verifikatsion, ijodiy va loyihaviy topshiriqlar berilishi maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, topshiriqlar talabaning mustaqil faoliyatini ta’minlashi zarur. Pedagog tayyor javobni bermasdan, talabaga izlanish, taqqoslash, tahlil qilish va qaror qabul qilish imkoniyatini yaratishi kerak.

To‘rtinchidan, media-topshiriqlarni baholashning aniq mezonlari oldindan belgilanadi. Bu talabaning o‘z faoliyatini mustaqil nazorat qilishiga yordam beradi.

Beshinchidan, har bir media-topshiriq imkon qadar refleksiya bilan yakunlanishi lozim. Chunki media-kompetentlik media mahsulot yaratish bilangina cheklanmaydi, balki ushbu faoliyatni anglash, baholash va takomillashtirishni ham nazarda tutadi.

Muhokama. Media-kompetentlikni rivojlantirishga oid zamonaviy ilmiy-metodik yondashuvlarni tahlil qilish mazkur kompetensiyaning oddiy texnik ko‘nikmalardan kengroq ekanligini ko‘rsatadi. Media-kompetent pedagog axborotni shunchaki qabul qilmaydi, balki uning manbasi, maqsadi, mazmuni, auditoriyasi va ta’sir mexanizmlarini ham tahlil qiladi.

Media-topshiriqlar ushbu jarayonda nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga aylantiruvchi didaktik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ular talabaning mustaqil izlanishi, tanqidiy fikrlashi, ijodiy faoliyati va refleksiyasini birlashtiradi.

Media-topshiriqlarni media savodxonlik va raqamli kompetentlik bilan aynanlashtirib yubormaslik ham muhim. Media savodxonlik ko‘proq media xabarlarni tushunish, tahlil qilish va baholashga yo‘naltirilsa, media-kompetentlik mazkur bilim va ko‘nikmalarni kasbiy faoliyatda maqsadli qo‘llash, media mahsulot yaratish, pedagogik vaziyatga mos media vositasini tanlash va o‘z faoliyatini refleksiv baholashni ham qamrab oladi.

Shu sababli bo‘lajak pedagoglarda media-kompetentlikni rivojlantirishning metodik tizimida media-topshiriqlarni alohida texnologik vosita sifatida emas, balki motivatsiya-bilim-faoliyat-refleksiya uzviyligi asosida tashkil etiladigan metodik mexanizm sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Xulosa. Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarda media-kompetentlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini media vositalari bilan boyitishdan ko‘ra kengroq jarayon bo‘lib, talabaning media axborot bilan mustaqil, tanqidiy, ijodiy va refleksiv faoliyatini tashkil etishni talab qiladi.

Media-topshiriqni bo‘lajak pedagogning media axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, tekshirish, qayta ishlash, yaratish va pedagogik maqsadda qo‘llash faoliyatini tashkil etuvchi didaktik birlik sifatida talqin qilish mumkin. Media-topshiriqlarni motivatsion-diagnostik, bilim-nazariy, faoliyat-amaliy va refleksiv-baholash bosqichlari asosida tashkil etish bo‘lajak pedagoglarda media-kompetentlikning motivatsion-qadriyatli, bilim-kognitiv, faoliyat-amaliy va refleksiv-baholash komponentlarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi.

Media-topshiriqlardan foydalanishning metodik samaradorligi topshiriqlarning kasbiy yo‘naltirilganligi, muammoliligi, mustaqil faoliyatga yo‘naltirilganligi, ijodiy xarakterga egaligi va aniq baholash mezonlari bilan belgilanadi.

Mazkur yondashuv bo‘lajak pedagogning raqamli ta’lim muhitida nafaqat media vositalaridan foydalanuvchi, balki media axborotni tanqidiy baholovchi, pedagogik media kontent yaratuvchi va o‘z media faoliyatini refleksiv boshqara oluvchi mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wilson C., Grizzle A., Tuazon R., Akyempong K., Cheung C.K. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. – Paris: UNESCO, 2011. – 192 p.

2. Buckingham D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. – Cambridge: Polity Press, 2003.

3. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108. – No. 6. – P. 1017–1054.

4. Potter W.J. Media Literacy. – 9th ed. – Thousand Oaks: SAGE Publications, 2019.

5. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 95 p.

6. Hobbs R. Digital and Media Literacy: A Plan of Action. – Washington, DC: Aspen Institute, 2010.

7. Fedorov A.V. Media Education and Media Literacy. – Moscow: ICO “Information for All”, 2014.

8. Jenkins H. Confronting the Challenges of Participatory Culture: Media Education for the 21st Century. – Cambridge: MIT Press, 2009.

9. UNESCO. Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines. – Paris: UNESCO, 2013.

10. O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun. – Toshkent, 2020.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga oid Farmoni. – Toshkent.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga oid Farmoni. – Toshkent.

ОСОБЕННОСТИ РАСКРЫТИЯ ИНФОРМАЦИИ В СФЕРЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ И ESG В ПРЕДПРИЯТИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ

Бутабаев Мехриддин Шахобидинович
к.ф.-м.н., с.н.с., ведущий научный сотрудник Центра исследований Агентства госактивов
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22139252

Аннотация. Ўзбекистон корхоналарида ESG ҳисоботини жорий қилиш учун ушбу соҳадаги ҳалқаро стандартларига риоя қилишдан ташқари республика корпоратив ҳуқуқи талаблари асосида ҳам иш тутиш керак. Акциядорлик жамиятлари кузатув кенгашлари ESG ҳисоботини жорий қилишда локомотив ролини ўташи мумкин.

Аннотация. Для внедрения ESG-отчетности на предприятиях Узбекистана необходимо не только придерживаться международных стандартов в этой сфере, но и действовать в соответствии с требованиями национального корпоративного права. Наблюдательные советы акционерных обществ могут сыграть ключевую роль во внедрении ESG-отчетности.

Annotation. To implement ESG reporting at enterprises in Uzbekistan, it is necessary not only to adhere to international standards in this area but also to act in accordance with the requirements of national corporate law. Supervisory boards of joint-stock companies can play a key role in the implementation of ESG reporting.

Калит сўзлар: барқарор ривожланиш ва ESG ҳисоботи, ҳисоботнинг ҳалқаро стандартларини жорий қилиш, кузатув кенгаши.

Ключевые слова: отчет об устойчивом развитии и ESG, внедрение международных стандартов отчетности, наблюдательнқй совет.

Key words: sustainability and ESG report, implementation of international reporting standards, supervisory board.

В число важнейших задач Стратегии «Узбекистан – 2030» входит осуществление комплексной «зеленой трансформации» отраслей и сфер при выполнении обязательств нашей страны, взятых на себя перед глобальным обществом в рамках Киотского протокола к Рамочной конвенции Организации Объединенных Наций об изменении климата и Парижского соглашения, обеспечения их конкурентоспособности и ресурсосбережения, а также смягчения последствий изменения климата и адаптации к нему, улучшения качества жизни населения и перехода экономического роста на новую «зеленую» модель развития [1]. В частности, «в целях трансформации крупных предприятий с государственным участием и сокращения до 15-20 процентов их производственных расходов на основе принципа «бережливость и устойчивость» ставится задача обеспечения разработки крупными стратегическими предприятиями корпоративных программ на основе принципов экологического, социального и корпоративного управления (ESG), внедрение практики формирования и раскрытия общественности национального отчета ESG на крупных промышленных предприятиях, а также получения ESG-рейтинга на такими гигантами, как АО «Узбекнефтегаз», АО «Навоийский горно-металлургический комбинат», АО «Алмалыкский горно-металлургический комбинат», АО «Uzbekistan Airports», АО «Uzbekistan Airways».

Экологическое, социальное и корпоративное управление (environmental, social, and corporate governance, ESG) – это совокупность характеристик управления компанией, при котором достигается вовлечение данной компании в решение экологических, социальных и управленческих проблем. ESG – это набор стандартов деятельности компании, которые социально ответственные инвесторы используют для проверки потенциальных инвестиций. Экологические критерии определяют, как компания выступает в роли хранителя природы. Социальные критерии исследуют, как она управляет отношениями с сотрудниками, поставщиками, клиентами и обществом. Корпоративное управление касается руководства компанией, оплаты труда руководителей, аудита, внутреннего контроля и прав акционеров. ESG – три параметра, в соответствии с которыми компании обеспечивают управление устойчивым развитием.

Во многих пособиях рекомендуется следующая структура ESG-отчетности, которая состоит в раскрытии информации о деятельности компании по следующим направлениям:

Е. Раскрытие экологической (Е) информации.

E.1. Климатические и атмосферные выбросы.
E.1.1. Выбросы парниковых газов (в эквиваленте CO_2).
E.1.2. Объем потребляемой энергии.
E.1.3. Доля возобновляемых источников энергии в потребляемой энергии.
E.2. Использование природных ресурсов.
E.2.1. Использование водных ресурсов и мероприятия по его сбережению.
E.2.2. Эффективность использования сырья и иных ресурсов.
E.2.3. Объем отходов производства и уровень их переработки.
E.3. Экологическое управление.
E.3.1. Экологическая политика.
E.3.2. Система управления экологическими рисками.
E.3.3. Экологические проекты и инвестиции.
S. Раскрытие социальной (S) информации.
S.1. Трудовые отношения.
S.1.1. Численность и состав персонала.
S.1.2. Показатели охраны труда.
S.1.3. Статистика несчастных случаев на рабочих местах.
S.1.4. Программы подготовки и повышения квалификации сотрудников.
S.2. Социальная ответственность.
S.2.1. Социальные программы для сотрудников.
S.2.2. Вклад компании в социальное развитие региона.
S.2.3. Отношения с местным населением.
S.3. Права человека.
S.3.1. Политика против дискриминации.
S.3.2. Меры защиты трудовых прав человека.
S.3.3. Социальные стандарты в цепи обеспечения.
G. Раскрытие информации корпоративного управления.
G.1. Система управления.
G.1.1. Структура наблюдательного совета и исполнительного органа.
G.1.2. Процесс назначения руководителей.
G.1.3. Соответствие кодексу корпоративного управления.
G.2. Этическое управление.
G.2.1. Антикоррупционная политика.
G.2.2. Механизмы управления конфликтами интересов.
G.2.3. Система внутреннего контроля.
G.3. Управление корпоративными рисками.
G.3.1. Основные корпоративные риски.
G.3.2. Система оценки рисков ESG.
G.3.3. Учет факторов ESG при стратегическом планировании.

Но международные стандарты ESG-отчетности подчеркивают, что единого стандартного набора тем раскрытия информации не существует, и темы раскрытия могут быть разными у предприятий из различных отраслей.

В отечественной научной литературе мало рассмотрен вопрос этапности и логистики внедрения ESG-отчетности. Исходя из мирового опыта и реалий корпоративного права Республики Узбекистан [2], предлагается следующая последовательность внедрения системы раскрытия информации в области устойчивого развития и ESG, которое может проходить через осуществление следующих рекомендуемых шагов:

1) Предприятие должно принять решение о добровольном внедрении подготовки и раскрытия отчетности по устойчивому развитию и ESG. Решение о добровольном внедрении отчетности по устойчивому развитию и ESG в корпоративном предприятии должно приниматься как минимум наблюдательным советом.

2) Создание при наблюдательном совете общества Комитета ESG и утверждение Положения Комитета ESG при наблюдательном совете общества. Состав Комитета ESG формируется из членов наблюдательного совета. По необходимости к работе Комитета ESG могут привлекаться специалисты предприятия и сторонние консультанты-эксперты ESG.

3) Организация работы проектной команды по внедрению отчетности по устойчивому развитию и ESG в компании. Вся дальнейшая работа по внедрению системы ESG должна выполняться проектной командой.

4) Организация наблюдательным советом разработки и принятия стратегий, и приоритетных направлений ESG.

5) Определение круга лиц, заинтересованных в внедрении отчетности по устойчивому развитию и ESG (акционеры, сотрудники, государственные органы, общественные организации и т.д.).

6) Опрос мнения представителей заинтересованных лиц об их ожиданиях от внедрения ESG-отчетности в компании.

7) Разработка и принятие следующих политик, стандартов, процедур и должностных инструкций компании в области ESG-отчетности:

- Экологическая политика компании;
- Антидискриминационная политика;
- Антикоррупционная политика;
- Кодекс корпоративного управления с учетом Принципов корпоративного управления предприятия с государственным участием ОЭСР и требований стандартов ESG;
- Стратегия управления ESG-рисками;
- должностные инструкции ответственных за ESG-отчетность;

8) Внесение изменений в штатное расписание компании и создание штатных единиц для ответственных за ESG-отчетность.

9) Назначение ответственных лиц за качественное формирование и своевременное раскрытие ESG-отчетности. В частности,

- экологического риск-менеджера;
- ответственного за антидискриминационную политику;
- ответственного за антикоррупционную политику.

10) Разработка и принятие должностных инструкций ответственных лиц за качественное формирование и своевременное раскрытие ESG-отчетности.

11) Переподготовка или повышение квалификации ответственных за ESG-отчетность.

12) Организация системы сбора ESG-показателей.

13) Анализ ESG-показателей.

14) Реализация процедур подготовки ESG-отчетности.

15) Реализация процедур раскрытия и обнародования ESG-отчетности.

16) Организация контроля над деятельностью ответственных лиц в области ESG-отчетности;

17) Организация внешнего аудита системы ESG-отчетности;

18) Учет факторов ESG при стратегическом планировании и пересмотр бизнес-плана компании.

19) Принятие и реализация плана мероприятий по получению компанией ESG-рейтинга от независимых рейтинговых компаний.

Для подготовки и публикации отчетности по устойчивому развитию в соответствии с стандартами SASB рекомендуется руководствоваться требованиями стандартами SASB, отраженные в официальном сайте Фонда МСФО (IFSR) [3]:

Стандарты SASB – это не один документ. Это 77 отдельных отраслевых стандартов, каждый из которых представляет собой самостоятельный документ объемом примерно 20–50 страниц.

Официальная классификация SASB Standards включает 77 отраслевых стандартов (Industry Standards), сгруппированных по следующим 11 секторам (табл. 1).

Каждый отраслевой стандарт обычно включает следующие разделы:

1. Область применения (Scope of the Standard);
2. Темы раскрытия информации (Disclosure Topics);
3. Показатели бухгалтерского учета (Accounting Metrics);
4. Технические протоколы (Technical Protocols);
5. Показатели деятельности (Activity Metrics).

Таблица 1

Распределение отраслевых стандартов SASB по экономическим секторам (разработано автором на основе SASB)

Сектор	Кол-во стан-дартов	Примеры отраслевых стандартов
1. Потребительские товары	10	Производство одежды, обуви и аксессуаров; Производство бытовых товаров; Электронная коммерция; Игрушки; Продукты питания и др.
2. Добыча и переработка полезных ископаемых	7	Угольная промышленность; нефтегазовая промышленность; нефтегазовый транспорт; переработка нефти и газа; металлургия; горнодобывающая промыш. и др.
3. Финансовый сектор	7	Упр. активами и депозитарная деятельность; коммерческие банки; потребительское кредитование и др.
4. Продовольствие и напитки	7	Сельхозпродукция; алког.напитки; безалкогольные напитки; переработка пищевых продуктов; рестораны и др.
5. Здравоохранение	6	Биотехнологии и фармацевтика; мед. оборудование; медицинские услуги; медицинское страхование и др.
6. Инфраструктура	11	Электроэнергетика; газоснабжение; водоснабжение; строительство; недвижимость; телеком-ции и др.
7. Возобновляемые ресурсы и альтер. энергетика	5	Биотопливо; лесное хозяйство; солнечная энергетика; топливные элементы; аккумуляторы и др.
8. Трансформация ресурсов	9	Химическая промыш.; произв. строит.материалов; электротех. оборудование; промышленное машиностроение и др.
9. Услуги	13	Реклама; казино; образование; гостиницы; развлекательные услуги; СМИ; розничная торговля и др.
10. Технологии и коммуникации	8	Программное обеспечение и ИТ-услуги; полупроводники и др.
11. Транспорт	6	Авиакомпании; железнодорожный транспорт; морской транспорт и др.

Для того, чтобы подготовить отчетность в соответствии с Стандартами SASB рекомендуется зарегистрироваться на официальном сайте Навигатора SASB Фонда МСФО [3], подобрать отраслевой стандарт из 77 и руководствоваться только им, так как, деятельность любой компании имеет свою специфику, которая учтена в соответствующем отраслевом стандарте. В соответствии с каждым стандартом должны учитываться показатели и метрики присущие только к данному стандарту. Ошибочное рассмотрение показателей и метрик не присущих для компании в соответствии с отраслевым SASB ведет к некачественной подготовке ESG-отчетности.

Например, стандарт Commercial Banks (Коммерческие банки) содержит такие показатели оценки как:

- защита данных (Data Security);
- финансовая доступность (Financial Inclusion);
- учет ESG-факторов при кредитовании;
- деловая этика;
- управление системными рисками.

Стандарт Automobiles (Автомобильная промышленность) охватывают широкий спектр предприятий автомобильной промышленности, которые производят легковые автомобили, легкие грузовики и мотоциклы. Компании данного отраслевого стандарта разрабатывают, производят и реализуют транспортные средства, использующие различные виды традиционного и

альтернативного топлива, а также разнообразные силовые установки. Они продают эту технику дилерам для последующей розничной реализации, а также осуществляют прямые продажи корпоративным клиентам, включая компании, занимающиеся прокатом и лизингом автомобилей, владельцев коммерческих автопарков и государственные структуры. Данный стандарт содержит такие показатели оценки как:

- доля моделей автомобилей, получивших общую оценку безопасности «5 звезд» по результатам испытаний NCAP (New Car Assessment Program – Программа оценки безопасности новых автомобилей);
- количество жалоб на дефекты, влияющие на безопасность автотранспорта, доля расследованных жалоб;
- количество отозванных транспортных средств;
- средневзвешенный по объему продаж показатель топливной экономичности парка легковых автомобилей;
- количество проданных (1) транспортных средств с нулевым уровнем выбросов (ZEV), (2) гибридных автомобилей и (3) подзаряжаемых гибридных автомобилей;
- обсуждение стратегии управления автопарком с учетом рисков и возможностей, связанных с топливной экономичностью и выбросами;
- средний показатель пригодности к переработке проданных транспортных средств.

Свой набор имеет и метрика показателей стандарта Building Products & Furnishings (Строительные материалы и предметы обстановки) охватывающая компании производства строительных материалов и предметов обстановки, которые разрабатывают и производят товары для обустройства жилья, мебель и предметы интерьера для дома и офиса, а также конструкционные пиломатериалы и изделия из древесины (напольные покрытия, потолочные плиты и др. пиломатериалы). Стандарт рекомендует таким компаниям в ESG-отчетности отражать и оценивать такие показатели как:

- доля соответствующих требованиям продуктов, отвечающих нормам по выбросам и содержанию летучих органических соединений (ЛОС);
- описание мер по управлению воздействием на протяжении жизненного цикла продукции и удовлетворению спроса на экологически устойчивые товары;
- (1) общий вес закупленных материалов из древесного волокна, (2) доля материалов, полученных из сертифицированных лесов сторонних поставщиков, (3) доля по стандартам и (4) доля, сертифицированная по другим стандартам в отношении древесного волокна, (5) доля по стандартам.

Как видно из вышеприведенных примеров не существует единого шаблона подготовки ESG-отчетности, и ответственные за ее подготовку должны добросовестно руководствоваться отраслевыми стандартами SASB.

После публикации отчетности по устойчивому развитию в соответствии с стандартами SASB, должна производиться Оценка пробелов для обеспечения соответствии стандартам ISSB.

Использованная литература

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 30.01.2025 г. № УП-16 «О Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан – 2030» в «Год охраны окружающей среды и «зеленой экономики», https://lex.uz/uz/docs/7369703.

2. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 04.05.2026 г. № 221 «О мерах по внедрению принципов устойчивого развития и экологического, социального и корпоративного управления (ESG)», https://lex.uz/uz/docs/8171367.

3. https://navigator.sasb.ifrs.org.

YOZMA NUTQ FAOLIYATINI O‘QITISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY TA’LIM YONDASHUVLARI

Ortiqova Tursunoy Jumanazar qizi
Guliston davlat universiteti tayanch doktaranti
ortiqovatursunoy66@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22139288

Annotatsiya. Mazkur maqolada yozuv ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan bir qator ommaviy yondashuvlar tahlil qilingan. Tadqiqot yetakchi sifatida jarayonli-janr yondashuvining o‘ziga xos xususiyatlari alohida ko‘rsatilgan.
Kalit so‘zlar: jarayonga asoslangan yondashuv, natijaga asoslangan yondashuv, jarayonli-janr yondashuvi, yozish ko‘nikmasi, rejalashtirish, lingvistik kodlash, tahrirlash
Abstract. This article analyzes several common approaches in teaching writing. Within those approaches, specific peculiarities of the process-genre approach were particularly mentioned as leading one in the research.
Keywords: process-oriented approach, product-oriented approach, process-genre approach, writing skill, planning, linguistic coding, revising

Kirish. Xoorijiy tilni chet tili sifatida o‘rganayotgan talabalarning yozma nutq faoliyatini rivojlantirish uchun mazkur faoliyatni o‘qitishga mo‘ljallangan metodik yondashuvlarni tahlil qilish zarurdir. Yozma nutqni o‘qitishda jahon va milliy tajribalarda keng qo‘llaniladigan qator yondashuvlar mavjud. Ulardan ma’lum va mashxurlari: *natija asosli yondashuv*, *jarayon asosli yodashuv*, *janr asosli yondashuv* va *kollaborativ yoki hamkorlikdagi yondashuv*lardir.

Adabiyotlar tahlili. Eronlik olimlar Reza Bagheri Nevisi va Zahra Adibrad yozma nutqni o‘qitishning yozuvga yondashuvning *maxsulotga/natijaga yo‘naltirilgan (product-oriented approach)* turi talabalardan faqat matn shaklini tayyorlashiga asoslangan bo‘lib, ushbu yakuniy mahsulotga baho va fikr bildiriladi deb ta’kidlaydilar. Natijaga asoslangan yondashuv yozuvning mahsuliga, grammatik to‘g‘rilik va strukturaviy aniqlikka e’tibor qaratadi ya’niyki, faqat yozma matnning texnik tayyorlik mezoni ustun qo‘yiladi, va ushbu yondashuv ayrim manbalarda *matnga asoslangan yondashuv (text-oriented approach)* nomi bilan ham yuritiladi [1].

Natijaga asoslangan yondashuvdan farqli ravishda, *jarayon asosli yondashuvda (process- oriented approach)* asosiy e’tibor yozishning bosqichlariga yo‘naltiriladi, ya’ni unda g‘oya yaratishdek boshlang‘ich bosqichdan tayyor matnni tahrirlashgacha bo‘lgan yakuniy faoliyatlar nazarda tutiladi va kognitiv yondashuv ham deb yuritiladi. Mazkur yondashuv, uning asoschilari taniqli yevropalik olimlar Linda Flower va John Hayeslar tomonidan asosiy uchta bosqichga bo‘lib tasniflanadi. Mazkur bosqichlardan birinchisi matnni *rejalashtirish* ya’ni *planning* bosqichi bo‘lib bu bosqich matn yozish faoliyatini boshlashdan avval amalga oshiriladigan mavzuga aloqador g‘oyalar yig‘ish, ularni tashkillashtirish umuman olganda yozilajak matn “arxitekturasi”ni tuzish bilan xarakterlanadi va u inglizcha boshqa boshqa termin bilan aytganda *“text outlining”* deb ham yuritiladi.

Navbatdagi kognitiv jarayon bosqichi aqliy faoliyat maxsuli bo‘lgan g‘oyalarni *lingvistik kodlash orqali matnga aylantirish* inglizcha*“translating”* termini bilan ifodalanadi. Va yozuvning so‘nggi kognitiv bosqichi *matnni qayta ko‘rib chiqish – “revising”* etapida avvalgi bosqichda yozilgan matn qoralamasi *(written draft)* ning xatolari ustida ishlaniladi, tahrirlash faoliyati amalga oshadi [2].

Yozuvni o‘qitishga qaratilgan navbatdagi asosiy yondashuv bu – janrga asoslangan yondashuvdir (genre-based approach). Janrga asoslangan yondashuvga ko‘ra yozma nutq ma’lum bir kommunikativ maqsad va ijtimoiy konteks orqali belgilanadi [3]. I Wayan Dirgeyasa janrga asoslangan yondashuv yozuvni o‘qitish metodikasiga yangi kirib kelayotganligini ta’kidlab, bu yondashuvda asosiy e’tibor yozilajak matn turiga (report, article, informal letter), uning qaysi ijtimoiy doirada mo‘ljallanganligi (audience) va unda qo‘llaniladigan til birliklari xususiyatlariga qaratiladi deb xulosa qiladi [4].

Tadqiqotimiz markazidagi navbatdagi tahlilga olingan yondashuv nisbatan yangi va yozma nutqni o‘qitishda zamonaviy yo‘nalish sifatida tanilayotgan jarayoniy-janr yondashuvidir *(process-genre approach)*. Mazkur yondashuv jarayon asosli yondashuv va janrli yondashunlarning yozuv faoliyatini o‘qitishdagi mavjud kamchiliklari zamirida o‘zaro bir birini to‘ldiruvchi ikkita yo‘nalishning birikishidan paydo bo‘lgan. Ushbu tamoyil asoschilari Richard Badger va Goodith White bu yondashuvni jarayonli o‘qitishdagi yozilayotgan matn turi haqida bilim (input), matnda qo‘llaniladigan maxsus lingvistik birliklarga bo‘lgan e’tiborning kamligi, janriy o‘qitishda esa o‘quvchilarning ko‘proq matn qoliplariga tayanib qolgan passiv yozuvchiga aylanib qolishi kabi noustuvor taraflariga barham berish ehtiyojidan vujudga kelgan yo‘nalish sifatida ta’riflaydilar [5].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jarayoniy-janrli yondashuv yozuv kompetensiyasini shakllantirishda yozuv matnining strukturaviy talabalari va yozuv jarayonining kognitiv bosqichlarini birlashtiruvchi samarali metodik yo‘nalish hisoblanar ekan. Metodik adabiyotlarda yozma nutqni rivojlantirishning yana bir keng tarqalgan shakli sifatida jamoaviy yoki hamkorlikdagi yozish yondashuvi (collaborative writing approach) ham alohida ajratilib ko‘rstailadi. Neomy Storchning nazariy yondashuviga asoslanib, Tomas Kos va Friedrich Loe Lara hamkorlikdagi yozishni bir nechta yozuvchining o‘zaro interaksiya va kelishuv orqali bitta matnni birgalikda yaratish jarayoni sifatida izohlaydilar. Bu jarayon fikr almashish, mazmun va tuzilmani birgalikda belgilash hamda o‘zaro yordam ko‘rsatish orqali amalga oshadi [6]. Ushbu yondashuv yuqoridagi yondashuvlardan farqli ravishda, ikki yoki undan ko‘proq shaxsning faoliyati mahsuli sifatida namayon bo‘ladi va hattoki bu jarayonda yozma matnning paydo bo‘lishida o‘qituvchi ham bevosita ishtirok etadi. Quyida tahlilga olingan yondashuvlarning o‘ziga xos xususiyatlari aks etgan jadval namunasi aks ettirilgan *(1-jadvalga qarang).*

1.2-jadval.

Yozma nutqni o‘qitish yondashuvlarining o‘ziga xos xususiyatlari tavsifi

Yondashuvlar	Asosiy e’tibor	Yozuvga munosabat	O‘qituvchining roli	O‘quvchining roli
Natija asosli yondashuv	Yakuniy matn sifati, grammatik va	Matn yozish – chiziqli	Tayyor namuna ko‘rsatuvchi, matn	Tayyor namulardan o‘rganuvchi,

	leksik to‘g‘rilik (accuracy)	(linear) jarayon	sifatini nazoart qiluvchi va baholovchi, (Pattern presentor, error corrector and evaluator)	lingvistik qoidalarni o‘zlashtiruvchi (imitator producer)
Jarayon asosli yondashuv	Yozuv faoliyatining kognitive bosqichlari: rejalashtirish, qoralama, tahrirlash (planning, drafting, revising	Matn yozish – rekursiv (recursive) ya’ni siklik takroriy jarayon	Jarayonni boshqaruvchi, metodik tirgak beruvchi (Monitor of writing stages,	Kognitiv yozuv jarayonini boshqaruvchi, mantiqiy fikrlaovchi (independent writer, recursive thinker
Janr asosli yondashuv	Ijtimoiy kontekst, kommunikativ maqsad, janr tuzilmasi, lingvistik xususiyatlar (social context, communicative purpose, genre structure, linguistic features)	Matn yozish – auditoriya, matn turiga asoslangan lingvistik birliklar va tayyor qoliplarga asoslangan (social-situational) jarayon	Janr qoliplarini ko‘rsatuvchi, janr xususiyatlarini tushuntiruvchi (Scaffolder, Provider of genre patterns)	Janr qoliplariga tayanuvchi, janr xususiyatlariga monand yozuvchi (Guided writer, apprentice writer)
Jarayoniy-janrli yondashuv	Matnning retorik strukturasi (janr talabalari) va	Matn yozish – ijtimoiy-kognitiv	Kognitiv jarayon tashkilotchisi, retorik tirgak	Bosqichma-bosqich va tartib bilan matn yaratuvchi, janr

	yozuvning kognitiv bosqichlari	jarayon (socio-cognitive)	bruvchi vositalar modellashtiruvchi (Cognitive writing process organizer, creator of rhetoric scaffolding tools)	talablariga mos matnni mustaqil yaratuvchi (Neat writer, independent rhetoric writer, self-reviewer)
Hamkorlikdagi yondashuv	Hamkorlikda bilim qurish va o‘zaro ta’sir (co-construction of knowledge and interaction)	Matn yozish – hamkorlikdagi faoliyat jarayoni (co-operative)	Guruh dinamikasini boshqaruvchi, jamoaviy tahrirga yo‘naltiruvchi (Facilitator& mediator)	Hamkor yozuvchi, fikrlarini ulashuvchi (co-writer, knowledge contributor)

Xulosa Yuqorida yozuv faoliyatini ifodalavchi terminlar, yozma nutqni tashkil etuvchi maxsus komponentlar, va ushbu faoliyatni o‘qitishga bo‘lgan yondashuvlarni lingvodidaktik tomondan o‘rganib chidqik.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Bagheri Nevisi, R. and Adibrad, Z. (2024). Exploring L2 Product/Process-Based Writing Instruction, Self-Efficacy, Writing Autonomy, Language Proficiency, and Strategy Use: A SEM Analysis. *Applied Research on English Language*, *13*(1), 1-28. doi: 10.22108/are.2024.139817.2191

2. Linda Flower, & John R. Hayes (1981). *A cognitive process theory of writing*. College Composition and Communication, 32(4), 365–387. https://doi.org/10.2307/356600

3. Cheung (Nanyang Technological University), Yin Ling & Ng, Hong & Lim, Donna & Jang, Hari. (2019). THE "SOCIO-COGNITIVE APPROACH TO WRITING" INTERVENTION PROGRAMME. 10.13140/RG.2.2.17345.30562.

4. Dirgeyasa, I. W. Genre-Based Approach: What and How to Teach and to Learn Writing / I. W. Dirgeyasa // English Language Teaching. – 2016. – Vol. 9, No. 9. – P. 45–51. – DOI: 10.5539/elt.v 9n9p45.

5. Badger, Richard & White, Goodith. (2000). A process genre approach to teaching writing. ELT Journal. 54. 10.1093/elt/54.2.153.

6. Kos, T., and F. Z.Lara. 2026. “Collaborative Writing and Learning of Reported Speech During Mixed-Age Peer Interactions in English as a Foreign Language Classroom.” International Journal of Applied Linguistics36, no. 1: 819–834. https://doi.org/10.1111/ijal.12810

BIRINCHI JAHON URUSHIDA TURKISTONGA OLIB KELINGAN HARBIY ASIRLARNING RO’YXATGA OLINISHI

Oralov Dostonbek Rustam o’g’li
Qarshi Davlat Universiteti tayanch doktoranti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22139334

Annotatsiya: Ushbu maqolada birinchi jahon urushida Turkiston o’lkasiga olib kelingan harbiy asirlarning ro’yxatga olinishi haqida so’z yuritiladi. Asirlar rus-afg’on, rus-fors chegaralari orqali o’z mamlakatlariga ketishmoqchi bo’lgani va chegarada ushlab turilgani manbalarda keltirilgan. Ro’yxatga olishda qaysi dinga mansubligi alohida hisobga olingan.
Kalit so‘zlar: Rus-afg’on, rus-fors, chorjo’y, zobit, qo’riqchi, Buxoro amirligi, vengerlar, chexlar, slovaklar, serblar va xorvatlar, slovinlar, ukrainlar, ruminlar, italyanlar.
Аннотация: В данной статье рассматривается регистрация военнопленных, доставленных в Туркестан во время Первой мировой войны. Источники указывают, что военнопленные пытались покинуть страну через русско-афганскую и русско-персидскую границы и были задержаны на границе. При регистрации учитывалась их религиозная принадлежность.
Ключевые слова: русско-афганцы, русско-персидские, хорьой, офицер, охранник, Бухарский эмират, венгры, чехи, словаки, сербы и хорваты, словенцы, украинцы, румыны, итальянцы
Annotation: V dannoy state rassmatrivaetsya registration voennoplennyx, dostavlennyx v Turkestan vo vremya Pervoy mirovoy voyny. Istochniki ukazyvayut, chto voennoplennye pytalis pokinut stranu through Russian-Afghan and Russian-Persian granites and byli zaderjany na granitse. Pri registratsii uchityvalas ix religioznaya prinadlejnost.
Key words: Russko-Afghantsy, Russko-Persidskie, Khoroi, Officer, Okhrannik, Bukhara Emirate, Hungarian, Czech, Slovak, Serbian and Croatian, Sloventsy, Ukrainian, Romanian, Italian

Kirish. Birinchi jahon urushi yillarida asirlar rus-afg‘on, rus-fors chegaralari orqali Afg‘oniston va Eronga qochib o‘tib, so‘ngra o‘z mamlakatlariga ketishmoqchi bo‘lishgan. Ularda Afg‘oniston va Eron davlatlariga olib boruvchi maxsus xaritalar bo‘lgan. Biroq, Rossiya imperiyasi ayg‘oqchiligi asirlarning Turkistondagi afg‘on va fors fuqarolari bilan aloqalari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lib, ularni chegarada imkon qadar ushlab turishgan. Asirlarni afg‘on va fors hukumati o‘z armiyasiga zobit, qo‘riqchi hamda tibbiy xodim sifatida xizmat qilishga chorlagani manbalarda keltirilgan.

Asosiy qism. Arxiv manbalarida 1915-1916-yillarda birgina Chorjo‘y shahrida rus harbiy qismlari 800 nafar harbiy asirni hibsda saqlab turishgan. Ular 1915-yil noyabr - dekabr oylarida ikki bor qochib ketmoqchi bo‘lganida, 2 nafari otib o‘ldirilgan, 14 nafari ushlab olingan. Ikkinchi bor qochib ketgan 20 nafar asirdan 13 nafari ushlangan,7 nafari qumlik orasida g‘oyib bo‘lgan. Harbiy asirlarni fors va afg‘on fuqarolari bilan uchrashishiga yo‘l qo‘ymaslik, ular ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida Yangi Chorjo‘y harbiy garnizoniga 600 nafar qochoq bo‘lgan sobiq asirlar ko‘chirib olib kelingan. Xullas, Buxoro amirligi rus manzilgohlarida majburan ko‘chirilgan va turli yumushlarga jalb etilgan, tutqunlikda saqlangan bo‘lsada, Yevropa millatlarining vakillari ham ancha sonli bo‘lib yashagan.

1917-yil boshiga kelib, mintaqada 41285 mahbus qolgan edi. Shundan 37720 nafari Avstriya-Vengriya (36006 askar va 1714 ofitser). Turkistonda mahbuslar sonining kamayishining yana bir sababi bor edi – o’lim darajasi yuqori edi. F. Beylining yozishicha, 1914-yildan 1918-yil boshigacha Turkistonda 40-50 mingga yaqin harbiy asir halok bo‘lgan. Bu hisob Sibir Sovet Ensiklopediyasida Turkiston 45 ming harbiy asirning qabriga aylangani haqidagi ma’lumotlarga to‘g‘ri keladi.

Mahbuslarni ro’yxatga olishda Rossiya harbiy ma’murlari, birinchi navbatda, ularning dushman qo’shinlaridan biriga va diniga tegishli ekanligini ta’kidladilar. Shuning uchun Turkistondagi mahbuslarning milliy tarkibini aniq belgilash juda qiyin. Gabsburg monarxiyasi harbiy asirlarining milliy tarkibi imperiyaning o’zi kabi xilma-xil edi. Birinchi jahon urushi yillarida Avstriya-Vengriya Qurolli Kuchlarida faol harbiy xizmatda bo’lganlar orasida taxminan 25% avstriyaliklar va nemislar, 23 - vengerlar, 13 - chexlar, 4 - slovaklar, 9 - serblar va xorvatlar, 2-slovenlar, 3 - ukrainlar , 7 - ruminlar va 1% - italyanlar edi.

Jahon urushi qiyinchiliklari, Rossiyadagi 1917-yil voqealari Turkiston, umuman, O’rta Osiyo xalqlari hayotiga jiddiy ta’sir ko’rsatdi.

Ularni moddiy jihatdan ta’minlash tub aholining zimmasiga tushgandi. Turkiston ma’muriyati rus aholini o’lkaga yoppasiga joylashtirishdan tashqari, rus armiyasiga yordam uchun mahalliy aholidan oziq-ovqat, arava, qo’y, ot, tuyalarni zo’rlab tortib olib, ilgarigi soliqlar miqdorini oshirdi, yangi soliqlarni, jumladan, harbiy soliqni joriy etdi.

1917-yil iyul-avgust oylarida Toshkent, Samarqand, Yangi Buxoro (Kogon) Qo‘qon, Andijon va boshqa shaharlarda asosan yevropa millatiga mansub aholining miting va namoyishlari bo‘ldi.

1917-yil 12-sentabrda Toshkentdagi Aleksandrovskiy bog‘ida (hozirgi Temiryo‘lchilar xiyoboni) 7 mingga yaqin namoyishchilar mitingga to‘plandilar. Ular asosan yevropa millatiga mansub bo‘lib, Toshkent temiryo‘l va boshqa korxonalaming ishchilari, birinchi va ikkinchi Sibir polklarining askarlari edilar. Turkiston Okrugi qo‘mondoni Cherkes mitingni tarqatishga buyruq berdi. Ammo askarlar bu buyruqni bajarmadilar. Miting qatnashchilari 13 kishidan iborat.

O’lkada yuz bergan oziq-ovqat tansiqligidan bolsheviklar foydalanib,1917-yil kuzida Sovetlar hokimiyatni qo’lga olishi masalasini ilgari surdilar. Ular ishchi va soldatlarboshdan kechirgan qiyinchiliklar, noroziliklarni o’z manfaatlariga qaratib bordilar. Bolsheviklarga boshqaso’l guruhlar, harbiy asirlar, frontdagi kornmunistlar qo’shildilar.

Oktabr oyining ikkinchi yarmida Toshkentda norozilik yig’ilishlari va mitinglar avj olib ketdi. Petrogradda qurolli to’ntarish ro’y bergani, Muvaqqat hukumat ag’darilgani, hokimiyatni bolsheviklar qo’lga olgani to’g’risidagi xabar Toshkentga yetib keldi. Turkiston bolsheviklari rahbarlik qilgan Toshkent soveti ishchi va soldatlarni qo’zg’olon ko’tarishga da’vat qildi. Lekin general Korovichenkoga sodiq qolgan qismlar bunga qarshilik ko’rsatdilar. 1917-yil 28-oktabrda Toshkentning yangi shaharida qurolli to’qnashuvlar avj oldi. Qo’zg’olonchilar general qismlaridan ustun keldilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, asirga olingan nemis, avstro-venger askarlarini qirib o’ldirib yuborganda foyda yo’qligini bilgan rus vakillari ularni uzoq o’lkalarga surgun qilish eng to’g’ri qaror deb bildi. Buni amalga oshirish uchun katta kuch ham sarflanmadi. Shunchaki, “bo’lib tashla, hukmronlik qil ” qabilasida ish qilindi. Mahalliy xalqlarni boshqarish uchun yuborilgan vakillarga asirlarni ham boshqarish vakolati yuklatildi. Ularning oziq-ovqat ta’minoti mahalliy aholi zimmasiga yuklatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Fayziyeva F. Buxoro amirligida rus manzilgohlaridagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot (1868-1920 yy.)- Buxoro-2022. 44-bet

2.Матвеев А.М. Зарубежные выходсы в Туркестане на путях к Великому октябрю (1914 – октябрь 1917 г.). Ташкент, ФАН, 1977. 115 с

3.Котюкова Т.В Положение военнопленных германской и австро-венгерской армий в Туркестане в 1914-1916 гг. (по материалам доклада генерала М. М. Манакина)-Санкт-Петербург - 2002. С. 61.

4.Гергилева А.И. «Многие миллионы людей были вырваны войной из привычной для них обстановки». Чехословаский корпус и военнопленные Первой мировой войны на территории России // Военно-исторический журнал. 2013. № 2. С. 54..

5.G‘offorov Sh. Tarix va taqdir Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko‘chirilganlar – Toshkent. Uzbekistan Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti -2006.132-bet.

FARMATSEVTIK TERMINOLOGIYANING LINGVISTIK TABIATI

Safarova Olima Mustafo qizi
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: olimasafarova06@gmail.com
https://orcid.org/0009-0008-1868-3571
Tel:+99893774-44-14
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22140195

Annotatsiya. Mazkur maqolada farmatsevtik terminlarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning o‘zbek tilidagi shakllanishi va terminologik tizimda tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Farmatsevtik terminlarning ma’no aniqligi, bir ma’nolilik, nominativlik, tizimlilik va standartlashuv kabi semantik belgilari yoritiladi. Shuningdek, farmatsevtik leksikaning semantik tarkibi, terminlar o‘rtasidagi ma’noviy munosabatlar, yangi terminlarning yuzaga kelishi hamda ilmiy-texnik taraqqiyot va yangi dori vositalarining yaratilishi bilan bog‘liq terminologik jarayonlar tahlil etiladi. Farmatsevtik terminlarning o‘zlashishi, ma’no taraqqiyoti va terminologik tizimda qo‘llanish xususiyatlariga ham alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: farmatsevtik terminologiya, farmatsevtik termin, lingvistik xususiyat, semantik xususiyat, terminologik tizim, leksik qatlam, o‘zlashma terminlar, so‘z yasalishi, termin semantikasi, nominatsiya, bir ma’nolilik, terminologik standartlashuv, farmatsevtik diskurs, dori vositalari.

Аннотация. В статье анализируются лексико-семантические особенности фармацевтических терминов, процессы их формирования в узбекском языке и их место в терминологической системе. Раскрываются такие семантические признаки фармацевтических терминов, как точность значения, однозначность, номинативность, системность и стандартизация. Особое внимание уделяется семантической структуре фармацевтической лексики, смысловым отношениям между терминами, возникновению новых терминологических единиц, а также терминологическим процессам, обусловленным научно-техническим прогрессом и созданием новых лекарственных средств. Кроме того, рассматриваются особенности заимствования фармацевтических терминов, развития их значений и функционирования в терминологической системе.

Ключевые слова: фармацевтическая терминология, фармацевтический термин, лингвистические особенности, семантические особенности, терминологическая система, лексический пласт, заимствованные термины, словообразование, семантика термина, номинация, однозначность, терминологическая стандартизация, фармацевтический дискурс, лекарственные средства.

Abstract. This article analyzes the lexical-semantic features of pharmaceutical terms, their formation in the Uzbek language, and their role within the terminological system. Particular attention is paid to such semantic characteristics of pharmaceutical terms as precision of meaning, monosemy, nominative function, systematicity, and standardization. The study also examines the semantic structure of pharmaceutical vocabulary, semantic relationships between terms, the emergence of new terminological units, and terminological processes associated with scientific and technological development and the creation of new medicinal products. In addition, the article considers the processes of borrowing pharmaceutical terms, semantic development, and the specific features of their functioning within the pharmaceutical terminological system.

Keywords: pharmaceutical terminology, pharmaceutical term, linguistic features, semantic features, terminological system, lexical layer, borrowed terms, word formation, term semantics, nomination, monosemy, terminological standardization, pharmaceutical discourse, medicinal products.

O‘zbek tilidagi farmatsevtik terminologiya tibbiyot va farmatsevtika sohalarida ilmiy-professional kommunikatsiyani ta’minlovchi, muayyan tushunchalarni aniq va tizimli ifodalashga xizmat qiluvchi maxsus leksik qatlamlardan biridir. Mazkur terminologik tizim dori vositalari, ularning tarkibi, farmakologik xususiyatlari, ta’sir mexanizmi, qo‘llanish sohasi, dozalash tartibi, dori shakllari hamda davolash jarayoniga oid tushunchalarni nomlash va ifodalashni ta’minlaydi. Shu jihatdan farmatsevtik terminlar nafaqat muayyan predmet, hodisa va jarayonlarning nominativ ifodasi, balki farmatsevt, shifokor, tibbiyot xodimi va bemor o‘rtasidagi professional kommunikatsiyaning mazmuniy aniqligini ta’minlovchi muhim lingvistik birliklar sifatida namoyon bo‘ladi.

Farmatsevtik terminologiyaning lingvistik tabiati uning umumxalq leksikasidan farqlanuvchi strukturaviy, semantik, nominativ va funksional xususiyatlari orqali belgilanadi. Termin, avvalo, muayyan fan yoki kasbiy sohaga oid maxsus tushunchani ifodalovchi til birligi sifatida shakllanadi. Shu sababli farmatsevtik terminlarning asosiy vazifasi narsa, hodisa va jarayonlarni nomlash bilangina cheklanmay, ular haqida aniq, ixcham va bir xil mazmundagi ilmiy axborotni yetkazishdan iboratdir. Farmatsevtik terminlarning ma’noviy chegarasi qanchalik aniq belgilansa, mutaxassislar o‘rtasidagi kasbiy muloqotning samaradorligi ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida terminologiyaning lingvistik tabiatini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, A. Madvaliyev terminlarni muayyan fan, texnika va kasb-hunar sohalariga oid tushunchalarni aniq ifodalovchi maxsus nomlar sifatida baholab, ularning terminologik tizim doirasida ma’lum tushunchani boshqa birliklardan farqlash va nomlash vazifasini bajarishini ta’kidlaydi. Olimning terminologiyaga oid qarashlari farmatsevtik terminlarning ham o‘ziga xos nominativ va tizimiy xususiyatlarini belgilashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Farmatsevtik terminologiyaning lingvistik tabiatini belgilovchi muhim jihatlardan biri uning tizimlilik xususiyatidir. Farmatsevtik terminlar alohida-alohida birliklar yig‘indisidan iborat bo‘lmay, o‘zaro semantik va funksional munosabatlar asosida shakllangan yaxlit terminologik tizimni tashkil etadi. Masalan, *tabletka, kapsula, eritma, surtma, suspenziya, sirop* kabi terminlar dori shakllarini; *antibiotik, analgetik, antiseptik, antidepressant* kabi birliklar esa farmakologik guruhlarni ifodalab, o‘zaro ma’noviy munosabatga kirishadi.

Shuningdek, farmatsevtik terminlarning lingvistik tabiati ularning nominativlik, aniqlik, bir ma’nolilik, ixchamlik, standartlashuv va sohaga xoslik kabi belgilari orqali ham namoyon bo‘ladi. Terminlar mazmunining aniq va barqaror bo‘lishi dori vositalari bilan bog‘liq ilmiy va amaliy axborotni noto‘g‘ri talqin qilishning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli farmatsevtik terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishi tilning ichki imkoniyatlari bilan bir qatorda, tibbiyot va farmatsevtika fanlarining taraqqiyoti, yangi dori vositalari va texnologiyalarning paydo bo‘lishi bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Demak, farmatsevtik terminologiyaning lingvistik tabiati uning maxsus tushunchalarni nomlash, ilmiy axborotni aniq ifodalash, kasbiy kommunikatsiyani ta’minlash hamda farmatsevtika sohasidagi bilimlarni tizimlashtirishga xizmat qiluvchi terminologik birliklar tizimi sifatidagi mohiyatida namoyon bo‘ladi. Bu xususiyatlarni lingvistik jihatdan tadqiq etish o‘zbek farmatsevtik terminologiyasining shakllanish qonuniyatlari, strukturaviy modeli va semantik tizimini yanada chuqurroq ochib berish imkonini beradi.

Farmatsevtik terminologiyaning lingvistik tabiati, avvalo, uning maxsus tushunchalarni aniq nomlash va ifodalash xususiyati orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, *tabletka, kapsula, sirop, eritma, suspenziya, malham* kabi terminlar dori vositalarining turli shakllarini ifodalaydi. Mazkur birliklar umumxalq leksikasidagi boshqa so‘zlardan farqli ravishda farmatsevtika sohasida muayyan ilmiy tushunchani anglatadi. Masalan, “tabletka” termini dori moddasining maxsus texnologik usulda tayyorlangan qattiq dori shaklini bildiradi, “kapsula” esa dorivor moddaning maxsus qobiq ichiga joylashtirilgan shaklini anglatadi. Demak, terminlarning asosiy vazifasi muayyan tushunchani aniq nomlashdan iborat.

Farmatsevtik terminlarning tizimlilik xususiyati ham ularning lingvistik tabiatini belgilovchi muhim omildir. Masalan, *antibiotik, analgetik, antiseptik, antipiretik* kabi terminlar farmakologik ta’siriga ko‘ra muayyan guruhni tashkil etadi. Antibiotik bakterial infeksiyalarga qarshi qo‘llanadigan dori vositalarini, analgetik og‘riqni kamaytiruvchi vositalarni, antipiretik esa tana haroratini tushiruvchi preparatlarni anglatadi. Bu birliklarning umumiy semantik komponenti — dori vositasining farmakologik ta’siri bo‘lib, ular o‘zaro tizimli munosabatda shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, farmatsevtik terminologiyaning lingvistik tabiati uning muayyan farmatsevtik tushunchalarni aniq, ixcham va tizimli ifodalashga xizmat qiluvchi maxsus leksik birliklar majmui ekanligida namoyon bo‘ladi. *Tabletka, kapsula, sirop, eritma, antibiotik, analgetik, antiseptik, antipiretik* kabi terminlar dori vositalari, ularning shakli va farmakologik xususiyatlarini nomlash orqali farmatsevtik kommunikatsiyaning mazmuniy aniqligini ta’minlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, farmatsevtik terminlar nominativlik, aniqlik, tizimlilik, sohaga xoslik, standartlashuv va bir ma’nolilikka intilish kabi muhim lingvistik belgilarga ega. Ularning sodda, yasama va terminologik birikma shakllarida qo‘llanishi esa farmatsevtik terminologiyaning strukturaviy jihatdan rang-barangligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, *antibiotik, antiseptik, analgetik, farmakokinetika,*

farmakodinamika kabi o‘zlashma terminlarning faol qo‘llanishi o‘zbek farmatsevtik terminologiyasining xalqaro ilmiy terminologik tizim bilan uzviy aloqadorligini namoyon etadi.

Umuman, farmatsevtik terminologiyani lingvistik jihatdan o‘rganish uning leksik, semantik, morfologik va funksional imkoniyatlarini aniqlash, terminlarni tizimlashtirish hamda o‘zbek tilidagi farmatsevtik terminologik bazani takomillashtirish uchun muhim nazariy va amaliy asos yaratadi. Mazkur terminologik tizimning izchil rivojlanishi tibbiyot va farmatsevtika sohalaridagi ilmiy-professional kommunikatsiyaning aniqligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dadaboyev H. O‘zbek Terminologiyasi: o’quv qo’llanma. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020

3. Israilova M.N. Lotin tili va tibbiy farmatsevtik terminologiya asoslari. –Toshkent: Barkamol fayz mediya, –2016. 193b

4. Герд А. С. Значение термина и научное знание // Научно-техническая информация. Серия 2. – М., 1991. – № 10. – С. 124.

5.Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlami. -Toshkent: Fan, 1985.B-13-18

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA VAQTNI BOSHQARISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Norova Nargiza Xalmamat qizi
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22140249

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vaqtni boshqarish kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Unda vaqtni boshqarish kompetensiyasining mazmuni, tarkibiy komponentlari hamda uning boshlang‘ich ta’lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan. O‘quvchilarda vaqtni rejalashtirish, topshiriqlarni belgilangan muddatda bajarish, faoliyatni nazorat qilish va natijalarni baholash ko‘nikmalarini shakllantirishda fanlararo integratsiya, amaliy topshiriqlar, interfaol metodlar va raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, matematika, ona tili va o‘qish savodxonligi, tabiiy fanlar hamda tarbiyaviy mashg‘ulotlar mazmunini o‘zaro bog‘lash orqali vaqtni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali pedagogik shartlari asoslangan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, vaqtni boshqarish, vaqtni boshqarish kompetensiyasi, pedagogik imkoniyatlar, integrativ yondashuv, fanlararo integratsiya, rejalashtirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, mustaqil faoliyat, interfaol metodlar, ta’lim jarayoni.

Аннотация: в данной статье рассматриваются педагогические возможности развития навыков управления временем у учащихся начальной школы. Анализируются содержание и структурные компоненты навыков управления временем, а также их значение в процессе начального образования. Рассматриваются возможности использования междисциплинарной интеграции, практических заданий, интерактивных методов и цифровых инструментов для развития у учащихся навыков планирования времени, выполнения заданий в установленные сроки, мониторинга деятельности и оценки результатов. Также обосновываются эффективные педагогические условия для развития навыков управления временем путем взаимосвязи содержания математики, родного языка и чтения, естественных наук и учебной деятельности.

Ключевые слова: начальное образование, учащиеся начальной школы, управление временем, навыки управления временем, педагогические возможности, интегративный подход, междисциплинарная интеграция, планирование, самоконтроль, самостоятельная деятельность, интерактивные методы, учебный процесс.

Abstract: this article highlights the pedagogical possibilities of developing time management competencies in primary school students. It analyzes the content, structural components of time management competencies and their importance in the primary education process. The possibilities of using interdisciplinary integration, practical tasks, interactive methods and digital tools in developing students' time planning, completing tasks within a specified time frame, monitoring activities and evaluating results are considered. Also, effective pedagogical conditions for developing time management competencies by interlinking the content of mathematics, native language and reading literacy, natural sciences and educational activities are based.

Keywords: primary education, primary school students, time management, time management competence, pedagogical opportunities, integrative approach, interdisciplinary integration, planning, self-control, independent activity, interactive methods, educational process.

Bugungi kunda ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, o‘quvchilarda nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalarni, balki kundalik hayot va kelgusidagi faoliyatida zarur bo‘ladigan kompetensiyalarni shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchining o‘z faoliyatini mustaqil tashkil etishi, belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida bajarishi, kun tartibini rejalashtirishi va vaqtdan unumli foydalanishi uning keyingi ta’lim bosqichlaridagi muvaffaqiyati uchun muhim zamin yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vaqtni boshqarish kompetensiyalarini shakllantirish ta’lim mazmunini takomillashtirishning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Vaqtni boshqarish kompetensiyasi o‘quvchining o‘z vaqtini maqsadli va oqilona taqsimlashi, o‘quv vazifalarini ustuvorligiga ko‘ra belgilashi, faoliyatini rejalashtirishi, belgilangan vaqt oralig‘ida topshiriqlarni bajarishi hamda o‘z faoliyati natijalarini nazorat qilishi bilan bog‘liq qobiliyatlarni qamrab oladi. Boshlang‘ich sinf davrida mazkur kompetensiyalarni shakllantirish o‘quvchilarda mas’uliyat,

intizom, mustaqillik, o‘z-o‘zini nazorat qilish va maqsadga intilish kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda vaqtni boshqarish kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bunda oddiy kun tartibini tuzishdan boshlab, o‘quv vazifalarini rejalashtirish, topshiriqlarni bajarish uchun vaqt belgilash, bajarilgan ish natijasini baholash va zarur hollarda rejani qayta ko‘rib chiqish kabi murakkabroq faoliyatlarga o‘tish maqsadga muvofiqdir. Vaqtni boshqarish - bu qimmatbaho vaqtingizni samarali foydalanishga yordam beradigan ko‘nikma va strategiyalar to‘plamidir [1. 2024:B.40].

Shu bois boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vaqtni boshqarish kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, ularni ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etish usullarini belgilash hamda o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish bugungi boshlang‘ich ta’limning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Vaqtni boshqarish kompetensiyasining mazmunini bir necha o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlar asosida yoritish mumkin. Birinchidan, motivatsion komponent o‘quvchining vaqtni qadrlashi, o‘z oldiga maqsad qo‘yishi va topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarishga intilishini ifodalaydi. Ikkinchidan, kognitiv komponent vaqt birliklari, vaqt oralig‘i, ketma-ketlik, davomiylik kabi tushunchalarni bilish va ulardan amaliy faoliyatda foydalanishni nazarda tutadi. Uchinchidan, faoliyatli komponent o‘quvchining kun tartibini tuzish, vazifalarni rejalashtirish, bajarish muddatini belgilash va faoliyatni tartibga solish qobiliyatini qamrab oladi. To‘rtinchidan, refleksiv komponent bajarilgan ishni tahlil qilish, sarflangan vaqtni baholash va keyingi faoliyatni takomillashtirishga xizmat qiladi. Vaqtni to‘g‘ri rejalashtirish va boshqarish ko‘nikmalari har qanday inson hayotida barqarorlik, o‘sish va muvaffaqiyatga erishish uchun zaruriy omildir [3. 2026:B.30].

Mazkur komponentlarni shakllantirishda boshlang‘ich ta’lim fanlarining mazmunidan foydalanish katta pedagogik imkoniyat yaratadi. Jumladan, matematika fanida vaqt birliklari, soat, daqiqa, sutka, hafta va oy bilan bog‘liq masalalarni yechish orqali o‘quvchilarning vaqtni hisoblash va rejalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Masalan, “Dars soat 8:00 da boshlandi va 45 daqiqa davom etdi. Dars qachon tugaydi?” kabi topshiriqlar o‘quvchini vaqt oralig‘ini aniqlashga o‘rgatadi. Bunday topshiriqlarni kundalik hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash esa bilimlarning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarida ham vaqtni boshqarish kompetensiyalarini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. O‘quvchilarga “Mening kun tartibim”, “Bir kunim qanday o‘tadi?”, “Vaqtdan qanday foydalanaman?” kabi mavzularda matn tuzdirish, kunlik faoliyatini ketma-ketlikda bayon qilish, muayyan vazifalarni bajarish rejasini yozdirish orqali rejalashtirish va o‘z faoliyatini nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida vaqt tushunchasini tabiat hodisalari bilan bog‘lash samarali hisoblanadi. Kun va tun almashinuvi, fasllarning o‘zgarishi, o‘simliklarning o‘sish jarayoni, ob-havoning kundalik kuzatuvlari kabi faoliyatlar o‘quvchilarda vaqtning izchilligi va davomiyligi haqidagi tasavvurlarni boyitadi. Masalan, o‘quvchilarga bir hafta davomida ob-havoni kuzatish va natijalarni jadvalga qayd etish topshirig‘ining berilishi ularni muntazam faoliyat olib borish, belgilangan muddatga rioya qilish va natijalarni tahlil qilishga o‘rgatadi.

Shuningdek, boshlang‘ich sinflarda vaqtni boshqarish kompetensiyalarini shakllantirish uchun interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. “Vaqt jadvali”, “Kun tartibim”, “Vazifalar piramidasi”, “Vaqtni to‘g‘ri taqsimla”, “Rejani tuz va bajar” kabi topshiriqlar o‘quvchilarni faol fikrlashga va mustaqil qaror qabul qilishga undaydi. Guruhli va juftlikdagi faoliyatlar orqali o‘quvchilar berilgan topshiriqlarni bajarish uchun vaqtni o‘zaro taqsimlashni ham o‘rganadilar.

Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vaqtni boshqarish kompetensiyalarini shakllantirish fanlararo mazmun, amaliy topshiriqlar, interfaol metodlar, raqamli vositalar va refleksiv faoliyatni o‘zaro uyg‘unlashtirish asosida tashkil etilganda samarali natija beradi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning nafaqat vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, balki mustaqil ishlash, mas’uliyatni his qilish, maqsad qo‘yish va o‘z faoliyatini nazorat qilish kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vaqtni boshqarish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik imkoniyatlarni tahlil qilish natijasida mazkur kompetensiya o‘quvchilarning nafaqat o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishi, balki mustaqillik, mas’uliyat, intizom va o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga ham xizmat qilishi aniqlandi. Vaqtni to‘g‘ri taqsimlashga o‘rgatilgan o‘quvchi berilgan topshiriqning mazmunini anglash, uni bajarish ketma-ketligini belgilash va ajratilgan vaqt doirasida yakunlashga intiladi.

Muhokama jarayonida vaqtni boshqarish kompetensiyasini rivojlantirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarurligi aniqlandi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga murakkab va uzoq muddatli rejalarni berishdan ko‘ra, qisqa muddatli va aniq maqsadli topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, “10 daqiqada topshiriqni bajarish”, “Bugungi uchta muhim vazifamni belgilash” yoki “Dars oxirigacha bajarilishi kerak bo‘lgan ishlarni aniqlash” kabi topshiriqlar o‘quvchining vaqtni anglash va uni nazorat qilish ko‘nikmasini bosqichma-bosqich rivojlantiradi.

Interfaol metodlardan foydalanish ham ijobiy pedagogik imkoniyat sifatida baholandi. “Vaqtni to‘g‘ri taqsimla”, “Kun tartibim”, “Vazifalar ketma-ketligi”, “Bir kunimning vaqt xaritasi” kabi topshiriqlar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlab, vaqtni boshqarishni nazariy tushunchadan amaliy ko‘nikmaga aylantirishga yordam beradi. Ayniqsa, o‘quvchining o‘zi reja tuzishi va uning bajarilishini mustaqil baholashi kompetensiyaning barqaror shakllanishi uchun muhimdir.

Umuman olganda, natijalar va muhokamalar boshlang‘ich ta’lim jarayonida vaqtni boshqarish kompetensiyalarini shakllantirish alohida bir fan doirasida emas, balki integrativ va amaliy yondashuv asosida olib borilganda yanada samarali bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil ta’lim olishga, o‘z faoliyatini rejalashtirishga va kundalik vazifalarni mas’uliyat bilan bajarishga tayyorlashda muhim pedagogik imkoniyat yaratadi. Vaqtni yaxshi va samarali boshqarish - bu barchamizga hozirgi ishimizni bajarish va martaba istiqbollarini mustahkamlash va yaxshilash uchun zarur bo‘lgan asosiy va professional ko‘nikma [2. 2022:B.4].

Shu asosda, boshlang‘ich ta’lim jarayonida vaqtni boshqarish kompetensiyalarini shakllantirishni tizimli, integrativ va amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan holda tashkil etish o‘quvchilarning nafaqat ta’lim samaradorligini, balki mustaqillik, mas’uliyat, intizom va o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi muhim kompetensiyalarini ham rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Fayziyev Mirzaali Asfandiyorovich. Vaqtni boshqarish texnologiyasi va uning ahamiyati “Pedagogs” international research journal. May-2024. 40 b
2. Форсайт Патрик. Управление временем. Как стать организованным, продуктивным и достигать целей. - Москва : 2022. -224 с.
3. Kalonova M.B. Zamonaviy jamiyatda vaqtni boshqarish muammosi // JMBM. 2025. №11. 20.08.2026

FIZIKA DARSLARIDA CLIL TEXNOLOGIYASI VA 5E MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Jumamuratova Nawbahar Saatbaevna
Ajiniyoz nomidagi NDPI magistri
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22140309

Annotatsiya. Mazkur tezisda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitishda CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasi va 5E modelidan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. CLIL yondashuvi orqali fizik mazmunni ingliz tili bilan integratsiyalash, 5E modelining o‘quvchilarning darsdagi faol ishtirokini ta’minlash masalalari tahlil qilingan. CLIL va 5E modelining uyg‘unligi fizika ta’limini o‘quvchi markazli, tadqiqotga yo‘naltirilgan va kommunikativ jarayonga aylantirish imkonini beruvchi istiqbolli metodik yondashuv sifatida baholangan.

Kalit so‘zlar: CLIL, 5E modeli, fizika ta’limi, umumiy o‘rta ta’lim, ingliz tili, fanlararo integratsiya, fizik terminologiya, tadqiqotchilik kompetensiyasi, ilmiy kommunikatsiya, o‘quvchi markazli ta’lim.

Аннотация. В данном тезисе освещены возможности использования технологии CLIL (Content and Language Integrated Learning) и модели 5E в преподавании физики в общеобразовательных школах. Проанализированы вопросы интеграции физического содержания с английским языком посредством CLIL-подхода, обеспечения активного участия учащихся на уроке по модели 5E. Сочетание CLIL и модели 5E оценивается как перспективный методический подход, позволяющий превратить физическое образование в учащегося-ориентированный, исследовательский и коммуникативный процесс.

Ключевые слова: CLIL, модель 5E, физическое образование, общее среднее образование, английский язык, междисциплинарная интеграция, физическая терминология, исследовательская компетенция, научная коммуникация, обучение, ориентированное на учащегося.

Abstract. This thesis highlights the possibilities of using CLIL (Content and Language Integrated Learning) technology and 5E models in teaching physics in general education schools. Issues of integrating physical content with the English language through the CLIL approach and ensuring students' active participation in the lesson according to the 5E model are analyzed. The combination of CLIL and the 5E model is evaluated as a promising methodological approach that allows for transforming physical education into a student-oriented, research-based, and communicative process.

Keywords: CLIL, 5E model, physical education, general secondary education, English language, interdisciplinary integration, physical terminology, research competence, scientific communication, student-centered learning.

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtirish bilan bir qatorda, ularning xorijiy tilda ilmiy axborotni tushunish va ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, fizika fanini ingliz tili bilan integratsiyalash o‘quvchilarning fizik terminologiyani o‘zlashtirishi, ilmiy axborot bilan ishlashi va fizik hodisalarni xalqaro ilmiy atamalar asosida tushuntirish imkoniyatlarini kengaytiradi. 5E modeli Engage, Explore, Explain, Elaborate va Evaluate bosqichlaridan tashkil topib, o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki kuzatish, tajriba, tahlil va xulosa chiqarish orqali bilimni faol shakllantiruvchi subyekt sifatida qarashga imkon beradi.

CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasi fan mazmunini xorijiy til bilan integratsiyalashgan holda o‘qitishga asoslanadi. Fizika ta’limida ushbu yondashuvdan foydalanish o‘quvchilarga fizik tushuncha va qonuniyatlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda, tegishli ilmiy terminlarni ingliz tilida anglash va qo‘llash imkonini beradi. Bunda ingliz tili alohida o‘quv predmeti sifatida emas, balki fizik mazmunni o‘rganish va ilmiy muloqotni amalga oshirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. CLIL yondashuvining muhim jihati fan mazmuni, kommunikatsiya va kognitiv faoliyatning o‘zaro uyg‘unligidir. Fizika darsida, masalan, force, velocity, acceleration, energy, pressure, voltage, current kabi terminlarning ingliz tilida qo‘llanilishi o‘quvchilarning ilmiy lug‘atini kengaytiradi. Shu bilan birga, fizik hodisani kuzatish, tajriba natijalarini qayd etish va xulosa chiqarish jarayonida ushbu terminlardan foydalanish o‘quvchilarning ilmiy kommunikatsiyasini rivojlantiradi.

Tagnin va Ní Ríordáin CLIL sinflarida savollardan foydalanish orqali o‘quvchilarning ilmiy bilimni shakllantirish jarayonidagi ishtirokini o‘rgangan va ilmiy muloqotning muhimligini ta’kidlagan [1].

Fizika fanida CLIL texnologiyasidan foydalanish, ayniqsa, tajribaviy va muammoli topshiriqlar bilan birlashtirilganda samarali bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘quvchilarga elektr zanjiri bilan bog‘liq tajriba berilib, “Build the circuit”, “Measure the current”, “Record the results”, “Explain the relationship” kabi qisqa ko‘rsatmalar beriladi. Natijada o‘quvchi bir vaqtning o‘zida fizik tajribani amalga oshiradi, olingan ma’lumotlarni tahlil qiladi va ilmiy terminlardan ingliz tilida foydalanadi.

Shunday qilib, CLIL texnologiyasi fizika ta’limida fizik mazmun + ingliz tili + ilmiy fikrlash + kommunikativ faoliyatni yagona ta’lim jarayonida birlashtirish imkonini beradi. Bu esa keyingi bosqichda CLIL yondashuvini 5E modeli bilan uyg‘unlashtirish uchun metodik asos yaratadi.

5E modeli o‘quvchilarning bilimni tayyor holda qabul qilishidan ko‘ra, uni faol izlanish, kuzatish, tajriba va muhokama orqali shakllantirishiga asoslangan konstruktivistik ta’lim modelidir. Model Engage, Explore, Explain, Elaborate va Evaluate bosqichlaridan tashkil topib, fizika darsini mantiqiy va izchil tashkil etish imkonini beradi. 5E modelining fizika ta’limidagi samaradorligi bo‘yicha 2013–2023-yillarda olib borilgan tadqiqotlarni qamrab olgan 2024-yilgi meta-tahlilda modelning fizikani o‘rganish natijalariga yuqori darajadagi ijobiy ta’siri aniqlangan [2]. Engage (qiziqtirish) bosqichida o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha avvalgi bilimlari faollashtiriladi va ularda yangi fizik hodisaga nisbatan qiziqish uyg‘otiladi. Masalan, “Yorug‘likning qaytishi” mavzusida o‘qituvchi o‘quvchilarga kundalik hayotdan olingan savol yoki vizual vaziyatni taqdim etib, ularning dastlabki taxminlarini aniqlashi mumkin. Explore (tadqiq qilish) bosqichida o‘quvchilar tajriba, kuzatish, o‘lchash va ma’lumotlarni qayd etish orqali fizik hodisani mustaqil o‘rganadilar. Bu bosqichda o‘qituvchi tayyor xulosani bermaydi, balki o‘quvchilarning izlanish faoliyatini yo‘naltiradi. Masalan, elektr zanjirlarini o‘rganishda o‘quvchilar kuchlanish va tok kuchini o‘lchab, ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashlari mumkin. Explain (tushuntirish) bosqichida o‘quvchilar Explore jarayonida olgan natijalarini izohlaydilar, o‘qituvchi esa ularni ilmiy tushunchalar, qonunlar va formulalar bilan bog‘laydi. Shu bosqichda CLIL yondashuvi bilan integratsiya qilish ayniqsa qulay: o‘quvchilar force, energy, voltage, current, resistance kabi fizik terminlardan foydalanib, o‘z kuzatuvlarini ingliz tilida sodda shaklda ifodalashlari mumkin. Elaborate (kengaytirish) bosqichida o‘quvchilar egallagan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo‘llaydilar. Masalan, Ohm qonunini o‘rgangan o‘quvchiga boshqa elektr zanjiri bo‘yicha masala berish yoki real hayotdagi elektr energiyasi sarfini tahlil qilish topshirig‘i berilishi mumkin. Bu bosqich fizik bilimlarni amaliy vaziyatlarga ko‘chirish va muammoli masalalarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Evaluate (baholash) bosqichida o‘quvchilarning fizik bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va mavzuni tushuntirish qobiliyati aniqlanadi. Baholash test, tajriba natijalarini tahlil qilish, og‘zaki javob, qisqa yozma xulosa yoki muammoli topshiriq orqali amalga oshirilishi mumkin. 5E modelining fizika darsidagi amaliy imkoniyatlarini Ozden Sengulning 2023-yildagi tadqiqoti ham ko‘rsatadi. Tadqiqotda yuqori sinf o‘quvchilariga ketma-ket va parallel elektr zanjirlari hamda Ohm qonunini o‘rgatishda 5E modeli qo‘llanilgan. O‘quvchilar bashorat qilish, fikr almashish, ma’lumot to‘plash va tahlil qilish orqali dalillarga asoslangan ilmiy tushuntirishlar ishlab chiqqanlar [3].

. Shunday qilib, 5E modeli fizika darsini qiziqish → tadqiqot → ilmiy tushuntirish → amaliy qo‘llash → baholash ketma-ketligida tashkil etishga imkon beradi. Bu esa modelni CLIL texnologiyasi bilan integratsiyalash uchun qulay metodik asos yaratadi.

CLIL texnologiyasi va 5E modelining integratsiyasi fizika darsida fan mazmuni, xorijiy til va o‘quvchining faol tadqiqotchilik faoliyatini yagona jarayonga birlashtirish imkonini beradi. Bunda CLIL fizik mazmunni ingliz tili bilan bog‘lashni ta’minlasa, 5E modeli ushbu mazmunni o‘zlashtirish jarayonining pedagogik ketma-ketligini belgilaydi. Shu jihatdan integratsiyalashgan yondashuvni “fizik mazmun + ingliz tili + kognitiv faoliyat + tajriba” birligi sifatida qarash mumkin. Maktab fan ta’limida CLILni amalga oshirish bo‘yicha tadqiqotlar o‘qituvchilar uchun metodik va lingvistik resurslarning yetarli bo‘lishi muhimligini ko‘rsatadi. Masalan, Goodman va hammualliflarning 2023-yilgi tadqiqotida maktablarda fanlarni ingliz tilida o‘qitishda CLIL pedagogikasini qo‘llash va o‘qituvchilarni metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash zarurligi ta’kidlangan [4].

CLIL + 5E integratsiyasini fizika darsida quyidagi ketma-ketlikda tashkil etish mumkin:

5E bosqichi	Fizika faoliyati	CLIL elementi
Engage	Muammoli savol,rasm yoki hodisa	Inglizcha savol va terminlar
Explore	Tajriba,kuzatish, o‘lchash	Inglizcha ko‘rsatmalar
Explain	Qonun va formulani tushuntirish	Fizik terminlar va ilmiy gaplar
Elaborate	Yangi masala va real vaziyat	Ingliz tilida muhokama

Evaluate	Test, xulosa, refleksiya	Fizik va kommunikativ baholash

Amaliy misol: “Om qonuni”

1. Engage — qiziqtirish.O‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi savolni beradi: What happens to the current if we increase the voltage? O‘quvchilar o‘z taxminlarini bildiradilar. Shu jarayonda voltage, current, resistance kabi asosiy terminlar faollashtiriladi.

2. Explore — tadqiq qilish. O‘quvchilar oddiy elektr zanjirini yig‘adilar va kuchlanish hamda tok kuchini turli qiymatlarda o‘lchaydilar. O‘qituvchi quyidagi qisqa inglizcha ko‘rsatmalardan foydalanishi mumkin: Build the circuit,measure the voltage,measure the current,record the results. O‘quvchilar natijalarni jadvalga kiritib, kuchlanish va tok kuchi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlaydilar.

3. Explain — tushuntirish. O‘quvchilar o‘z kuzatuvlarini izohlaydilar. O‘qituvchi Ohm qonunini: V = IR formulasi orqali tushuntiradi. O‘quvchilar esa:

Current increases when voltage increases kabi sodda ilmiy gaplardan foydalanib, o‘z xulosalarini ifodalaydilar.

4. Elaborate — kengaytirish. O‘quvchilarga yangi elektr zanjiri yoki real hayot bilan bog‘liq muammo beriladi. Masalan: How can we reduce electricity consumption at school? O‘quvchilar guruhlarda fizik bilimlardan foydalanib, muammoning yechimini ishlab chiqadilar va uni qisqa inglizcha taqdimot orqali himoya qiladilar.

5. Evaluate — baholash. Yakuniy bosqichda o‘quvchilarning fizik bilimlari va ilmiy kommunikatsiyasi baholanadi. Bunda test, masala, tajriba natijalarini tahlil qilish yoki qisqa xulosa yozishdan foydalanish mumkin.

Bu modelning afzalligi shundaki, o‘quvchi fizik qonunni faqat yodlab qolmaydi, u hodisani kuzatadi, tajriba o‘tkazadi, natijani tahlil qiladi, fizik qonun bilan izohlaydi va o‘z xulosasini ingliz tilida ifodalashga harakat qiladi.

Shuningdek, 2024-yilda fizika darslarida CLIL va muammoli ta’limni birgalikda qo‘llash bo‘yicha tadqiqot ham e’lon qilingan bo‘lib, unda ushbu yondashuvlarning o‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan [5].

Demak, CLIL + 5E modeli fizika darsini quyidagi mantiqiy zanjir asosida tashkil etishga imkon beradi: Qiziqish → Tadqiqot → Tushuntirish → Qo‘llash → Baholash. Bu jarayonning har bir bosqichida esa: Fizika mazmuni → Ingliz tili → Ilmiy fikrlash → Amaliy faoliyat o‘zaro uyg‘unlashadi.

CLIL texnologiyasi va 5E modelining integratsiyasi asosida tashkil etilgan fizika darslari o‘quvchilarning fizik bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash, ilmiy fikrlash va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda o‘quvchilarda fizik terminlarni ingliz tilida qo‘llash, tajriba natijalarini tahlil qilish, muammoli vaziyatlarga yechim topish va ilmiy xulosalarni ifodalash ko‘nikmalari shakllanadi. Samarali natijaga erishish uchun o‘qituvchiga vizual materiallar, tayanch so‘zlar, qisqa inglizcha ko‘rsatmalar va sentence starters kabi scaffolding vositalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

CLIL texnologiyasi va 5E modelini integratsiyalash fizika ta’limida fan mazmuni, ingliz tili va o‘quvchi faoliyatini yagona jarayonda birlashtirish imkonini beradi. 5E modelining Engage, Explore, Explain, Elaborate va Evaluate bosqichlari orqali o‘quvchilarning faol ishtiroki ta’minlanib, CLIL yondashuvi ularning fizik terminologiya va ilmiy kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, CLIL + 5E modeli umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitishning zamonaviy va istiqbolli metodik yondashuvlaridan biri sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tagnin, L., & Ní Ríordáin, M. (2021). Building science through questions in Content and Language Integrated Learning (CLIL) classrooms. International Journal of STEM Education, 8, 34. DOI: 10.1186/s40594-021-00293-0.

2. Salam, S., Prasetyo, Z. K., Mundilarto, Kuswanto, H., & Putri, S. A. (2024). Meta-analysis of the Effect of Learning Cycle 5E Model on Physics Learning. EDUSAINS, 16(1), 83–96. DOI: 10.15408/es.v16i1.36339

3. Sengul, O. (2023). Three-Dimensional Learning in 5E Learning Cycle: Electric Circuits. European Journal of Physics Education, 14(1), 35–60.

4. Goodman, B., Nam, A., Yembergenova, A., & Malone, K. (2023). Teaching Science in English in Secondary Schools in Kazakhstan: Policy and Practice Perspectives. In Mapping Educational Change in Kazakhstan, pp. 59–74. Cambridge University Press. DOI: 10.1017/9781009070515.007

5. Kasymova, A. G., Tuktubayeva, S. A., & Kurmangalieva, A. A. (2024). Внедрение проблемного обучения и CLIL на уроках физики как средство развития исследовательских навыков у учащихся. Kostanay Regional University named after Akhmet Baitursynov.

TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA “ELEKTROMAGNETIZM” BO‘LIMI FAN DASTURINI LOYIHALASHNING DIDAKTIK MODELI

Karimov Xasan Narzullayevich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU katta o‘qituvchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22140435

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnika oliy ta’lim muassasalarida fizika fanining “Elektromagnetizm” bo‘limi bo‘yicha fan dasturini zamonaviy ta’lim talablari asosida loyihalashning didaktik asoslari yoritilgan. Kredit-modul ta’lim tizimida fan dasturini ishlab chiqishda ta’lim mazmunini kasbiy kompetensiyalar bilan uyg‘unlashtirish, o‘quv natijalarini aniq belgilash, auditoriya va mustaqil ta’lim yuklamalarini muvofiqlashtirish, laboratoriya mashg‘ulotlarini amaliy-kasbiy faoliyat bilan bog‘lash hamda diagnostik va formativ baholash mexanizmlaridan foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. “Elektromagnetizm” bo‘limi fan dasturini loyihalashning maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-metodik, diagnostik va natijaviy komponentlardan tashkil topgan didaktik modeli taklif etilgan. Modelning asosiy xususiyati talabaning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat, muammoli vaziyatlarni hal qilish va mustaqil ta’lim bilan integratsiyalashdan iborat. Taklif etilayotgan model texnika oliy ta’lim muassasalarida fizika ta’limining kasbiy yo‘naltirilganligi va ta’lim natijadorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: elektromagnetizm, fan dasturi, didaktik model, kredit-modul tizimi, texnika oliy ta’limi, o‘quv natijalari, kompetensiya, mustaqil ta’lim, laboratoriya mashg‘ulotlari, baholash.

Аннотация: В статье рассматриваются дидактические основы проектирования рабочей программы по разделу «Электромагнетизм» физики в технических высших образовательных учреждениях. Особое внимание уделяется согласованию содержания образования с профессиональными компетенциями, определению измеримых результатов обучения, координации аудиторной и самостоятельной учебной нагрузки, интеграции лабораторных занятий с профессиональной деятельностью, а также применению диагностического и формирующего оценивания в условиях кредитно-модульной системы. Предлагается дидактическая модель проектирования рабочей программы по разделу «Электромагнетизм», включающая целевой, содержательный, организационно-методический, диагностико-оценочный и результативный компоненты. Основной особенностью модели является интеграция теоретических знаний с практической деятельностью, решением проблемных задач, лабораторными исследованиями и самостоятельной работой студентов. Предлагаемая модель может способствовать повышению профессиональной направленности и эффективности обучения физике в технических высших образовательных учреждениях.

Ключевые слова: электромагнетизм, рабочая программа, дидактическая модель, кредитно-модульная система, техническое высшее образование, результаты обучения, компетенция, самостоятельная работа, лабораторные занятия, оценивание.

Abstract: This article examines the didactic foundations of designing a syllabus for the “Electromagnetism” section of physics in technical higher education institutions. Particular attention is paid to aligning educational content with professional competencies, defining measurable learning outcomes, coordinating classroom and independent learning workload, integrating laboratory activities with professional practice, and applying diagnostic and formative assessment mechanisms within the credit-module system. A didactic model for designing the “Electromagnetism” syllabus is proposed, consisting of target, content, organizational-methodological, diagnostic, and outcome components. The main feature of the model is the integration of theoretical knowledge with practical activities, problem solving, laboratory research, and independent learning. The proposed model can contribute to increasing the professional orientation and educational effectiveness of physics instruction in technical higher education.

Keywords: electromagnetism, syllabus, didactic model, credit-module system, technical higher education, learning outcomes, competence, independent learning, laboratory activities, assessment.

Bugungi kunda texnika oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlash jarayonining mazmuni va tashkil etilishiga qo‘yilayotgan talablar sezilarli darajada o‘zgarmoqda. Zamonaviy muhandisdan faqat nazariy bilimlarni egallash emas, balki ularni amaliy va kasbiy faoliyatda qo‘llay olish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish, axborot va raqamli texnologiyalardan samarali

foydalanish kabi kompetensiyalar ham talab etiladi. Mazkur jarayonda fundamental fanlar, xususan, fizikaning “Elektromagnetizm” bo‘limi alohida ahamiyatga ega. Chunki elektromagnetizm qonunlari elektrotexnika, radioelektronika, telekommunikatsiya, axborot texnologiyalari, energetika, avtomatika va boshqa ko‘plab texnik yo‘nalishlarning nazariy asosini tashkil etadi. Shu sababli “Elektromagnetizm” bo‘limini o‘qitish mazmunini shunchaki mavzular ketma-ketligi sifatida emas, balki talabaning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan yaxlit didaktik tizim sifatida loyihalash zarur.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi esa fan dasturlarini ishlab chiqishga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Bunda fan mazmuni, kredit hajmi, auditoriya mashg‘ulotlari, mustaqil ta’lim, o‘quv natijalari va baholash mezonlari o‘zaro uzviy bog‘langan holda loyihalanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, texnika oliy ta’lim muassasalarida “Elektromagnetizm” bo‘limi fan dasturini loyihalashning didaktik modelini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-metodik muammolardan biri hisoblanadi.

Kredit tizimida fan dasturi professor–o‘qituvchi bayon qiladigan mavzular ro‘yxati emas, balki talabaning semestr davomida qanday natijaga erishishi, bu natijaga erishish uchun qanday faoliyatlarni bajarishi, qancha vaqt sarflashi, qanday mahsul taqdim etishi va o‘zlashtirish qaysi dalillar asosida baholanishini belgilovchi didaktik boshqaruv hujjatidir. Kreditning mazmuni auditoriya soati yoki baho bilan aynanlashtirilmaydi chunki u belgilangan o‘quv natijasiga erishish uchun zarur bo‘lgan jami talaba mehnat hajmini ifodalaydi [*1. 2015: B.10–12*]. Shu sababli fan dasturini loyihalash “mavzu – soat – nazorat” ketma-ketligidan “o‘quv natijasi – faoliyat – mehnat hajmi – baholash dalili – qayta aloqa” tizimiga o‘tishni talab qiladi. Konstruktiv muvofiqlik yondashuvida rejalashtirilgan natija, o‘qitish faoliyati va baholash topshirig‘i bitta didaktik maqsadga xizmat qilishi lozim [*2. 2023. B. 95–110*].

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining “Fizika I” fan dasturida fan 180 soat va 6 kredit hajmida belgilangan. Shundan 40 soat ma’ruza, 20 soat amaliy mashg‘ulot, 10 soat laboratoriya va 110 soat mustaqil ta’limga ajratilgan [*3. 2023. B. 2–8*]. Fan uchun bir kreditga 30 soatlik umumiy talaba mehnati to‘g‘ri keladi. Bu nisbat mustaqil ta’limning kursdagi ulushi 61,1 foiz ekanini ko‘rsatadi.

Mazmunni modullashtirishda uch mezon hisobga olindi: tushunchalar orasidagi mantiqiy bog‘lanish; auditoriya va mustaqil faoliyatning yakunlangan mahsulga olib kelishi; keyingi maxsus fan yoki texnik vaziyat bilan bog‘lanish. Natijada rasmiy fan dasturidagi o‘nta bevosita mavzu oltita yirik mazmuniy modulga birlashtirildi. EM-1 elektr maydonning vektor va energetik tavsiflarini, EM-2 moddaning elektr maydondagi xossalari va sig‘imni, EM-3 tok va elektr zanjirlarini, EM-4 magnit maydon hamda kuchlarni, EM-5 elektromagnit induksiyani, EM-6 esa elektromagnit tebranishlar va to‘lqinlarni qamrab oladi. 1 - jadvalda ko‘rsatilgan modul chegaralari fan dasturi mavzularini almashtirmaydi; ular tadqiqotning metodik rejalashtirish birligidir. Masalan, fan dasturidagi M12–M14 alohida uchta ma’ruza mavzusi bo‘lsa-da, ularning barchasi magnit maydon, kuch va moddaning magnit xossalarini tushuntiruvchi EM-4 modulida yagona natija va baholash daliliga bog‘lanadi. Aksincha, A5 kabi bir amaliy mavzu EM-1 va EM-2ga xizmat qilishi mumkin. Shu sababli mashg‘ulotning tashkiliy birligi bilan metodik modul chegarasi har doim bir xil bo‘lishi shart emas; muhim jihat talaba mahsuli va baholash mezonining qaysi natijani tasdiqlashidir.

1-jadval. Fan dasturi mavzularining EM-1–EM-6 mazmuniy modullariga mosligi

Modul	Asosiy mazmun	Fan dasturidagi ma’ruza kodi	Amaliy/laboratoriya bog‘lanishi	Kasbiy kontekst	Modul yakunidagi asosiy mahsul
EM-1	Elektr zaryad, Kulon qonuni, elektr maydon, Gauss teoremasi, potensial va maydon energiyasi	M8–M9	A5ning elektr maydon qismi; L3 potensial taqsimoti	Kabel izolyatsiyasi, elektr xavfsizligi, sig‘imli datchikning maydon modeli	Vektor va ekvipotensial xarita, izohli konseptual yechim
EM-2	Dielektrik qutblanishi, o‘tkazgich, elektr sig‘imi, kondensator va maydon energiyasi	M10	A5ning dielektrik va sig‘im qismi; virtual kondensator	Filtr, vaqt zanjiri, energiya saqlash elementi	Kondensator parametrini asoslash va qisqa hisob
E	Tok kuchi,	M11	A6; L3	Quvvat	Sxema

M-3	qarshilik, Om va Joule–Lens qonunlari, EYuK, Kirxgof qoidalari		qarshilikni aniqlash varianti	manbai, kuchlanish bo‘luvchi, sensor zanjiri	tahlili, hisob-kitob va natijani tekshirish
E M-4	Biot–Savar–Laplas qonuni, magnit induksiya, Amper va Lorens kuchlari, Xoll effekti, moddaning magnit xossalari	M12–M14	A7ning magnit maydon qismi; L3 Amper/Tangens-Bussol varianti	Elektr yuritma, rele, Xoll datchigi, elektromagnit xalaqit	Vektor yo‘nalishi, B(I) yoki F(I) grafigi va texnik izoh
E M-5	Faradey va Lens qonunlari, o‘zinduksiya, induktivlik, transformator, magnit maydon energiyasi	M15	A7ning induksiya qismi; virtual induksiya tajribasi	Generator, transformator, induktiv sensor, simsiz uzatish	Induksiya EYuK hisobi va qurilma ishlash prinsipi tahlili
E M-6	So‘nuvchi va majburiy elektromagnit tebranishlar, rezonans, elektromagnit to‘lqin va Poynting vektori	M17, M20; M16, M18–M19 tayanch	A9–A10; virtual LC-kontur va to‘lqin modeli	Radioaloqa, antenna, rezonans zanjiri, elektromagnit moslashuv	LC/rezonans hisobi, signal tarqalishi bo‘yicha kasbiy vaziyatli topshiriq

Modullar orasidagi o‘tish ham shartli nazoratga ega. EM-1da elektr maydon va potensial orasidagi bog‘lanish anglanmasa, EM-2dagi sig‘im va energiya formulalari formal qoladi. EM-3da zanjir modeli va Kirxgof qoidalari egallanmasa, EM-6dagi LC-kontur tahlili qiyinlashadi. EM-4dagi magnit oqim va vektor yo‘nalishi to‘g‘ri shakllanmasa, EM-5dagi Lens qoidasining ma’nosi noto‘g‘ri talqin qilinadi. Shu bois fan yakunidagi qisqa diagnostik topshiriq keyingi fanga tayyorgarlik dalili sifatida ishlatiladi; u kreditni alohida berish uchun emas, korreksion yo‘lni tanlash uchun xizmat qiladi. “Fizika I” fan dasturidagi umumiy ta’lim natijalari fizik qonunlarning mazmunini bilish, elektromagnetizmga oid fundamental tushunchalarni egallash, fizik kattaliklarni baholash, masala yechish, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish va bilimni kasbiy faoliyatga tatbiq etishni qamrab oladi. Tadqiqotda ushbu umumiy natijalar elektromagnetizm mazmuniga mos ravishda operatsionlashtirildi. Bunda natija faqat bilim obyekti bilan emas, bajariladigan faoliyat, sharoit va dalil bilan birga ifodalandi.

Fan dasturidagi har bir modul uchun o‘quv manbalari va vositalari ro‘yxati ham maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Tadqiqotda ishlab chiqilgan “Elektromagnetizm” elektron o‘quv qo‘llanmasi, laboratoriya mashg‘ulotlari uchun elektron qo‘llanma, fizik formulalar va elektromagnetizm formulalari ma’lumotlar bazalari hamda fizika mobil ilovasi mazmuniy va texnologik o‘quv vositasi vazifasini bajarishi mumkin [*4. 2022.; 5. 2023.; 6. 2022.; 7. 2022.; 8. 2025*]. Biroq o‘quv vositasining davlat ro‘yxatidan o‘tganligi uning qaysi natijani qanday shakllantirishini avtomatik isbotlamaydi. Shu sababli fan dasturida har bir o‘quv vositasiga “qaysi modulda, qaysi topshiriq uchun, qanday mahsul yaratish maqsadida va qancha vaqt foydalaniladi?” degan izoh beriladi. Raqamli faoliyatni muntazam kuzatishda raqamli tizimga kirish soni yoki ekranda sarflangan vaqt bilimning bevosita o‘lchovi sifatida olinmaydi. Bu ko‘rsatkichlar topshiriqni bajarish jarayoni haqida qo‘shimcha ma’lumot beradi, xolos. Asosiy dalil talabaning javobi, yechimi, laboratoriya protokoli, grafik, izohi yoki qayta urinishdagi mazmuniy o‘zgarishdir. Raqamli tizim talabaning xatosiga mos o‘quv vositasini tavsiya qilish, topshirish muddatini eslatish, qayta testni tashkil etish va professor–o‘qituvchiga guruhdagi umumiy qiyinchiliklarni ko‘rsatish uchun yordamchi mexanizm sifatida ishlaydi [*9. 2023. B. 471–475; 10. 2024. B. 128–135*]. Fan dasturining tashkiliy barqarorligi uchun minimal shartlar ham ochiq ko‘rsatiladi: real laboratoriya uchun jihoz va xavfsizlik; virtual faoliyat uchun qurilma yoki tarmoqsiz foydalaniladigan muqobil vosita; topshiriqlarni tekshirish uchun professor–o‘qituvchi vaqti; katta guruhda tengdosh tekshiruvi yoki avtomatlashtiriladigan qismlar; talaba ma’lumotlarini anonimlashtirish; qayta topshirish va apellyatsiya tartibi. Mazkur shartlar ko‘rsatilmasa, metodika turli OTM va guruhlarda turlicha bajarilib, natijalar o‘zaro qiyoslab bo‘lmaydigan holatga keladi.

Xulosa. Texnika oliy ta’lim muassasalarida “Elektromagnetizm” bo‘limi fan dasturini loyihalashda ta’lim mazmunining kasbiy yo‘naltirilganligi, o‘quv natijalarining aniqligi, mustaqil ta’limning tizimliligi, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarning integratsiyasi hamda baholashning diagnostik xususiyati muhim didaktik talablar sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijasida taklif etilgan didaktik model maqsadli,

mazmuniy, tashkiliy-metodik, diagnostik-baholash va natijaviy komponentlarning o‘zaro bog‘liqligiga asoslanadi. Mazkur modelning amaliy ahamiyati shundan iboratki, undan texnika oliy ta’lim muassasalarida “Elektromagnetizm” bo‘limi bo‘yicha fan dasturlarini ishlab chiqish va takomillashtirishda, o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda hamda talabalarning o‘quv natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Shuningdek, modelni tajriba-sinov ishlari orqali amaliyotda tekshirish va uning talabalarning bilim, amaliy ko‘nikma hamda kompetensiyalariga ta’sirini statistik jihatdan aniqlash kelgusidagi tadqiqotlarning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. European Commission. ECTS Users’ Guide 2015. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2015. – DOI: 10.2766/87192.
2. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. – 4th ed. – Maidenhead: Open University Press, 2011.
3. “Fizika I” fan sillabusi. – Toshkent: Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, 2023–2024-o‘quv yili. – 180 soat; 6 kredit.
4. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. BGU 00839-son guvohnoma: “Fizika fanidan formulalarning elektron bazasi”. – 13.12.2022.
5. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. BGU 00984-son guvohnoma: “Elektromagnetizm bo‘limidan formulalar to‘plami”. – 18.03.2023.
6. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. DGU 20352-son guvohnoma: “ELEKTROMAGNETIZM” nomli elektron o‘quv qo‘llanma. – 14.12.2022.
7. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. DGU 20353-son guvohnoma: “Elektromagnetizm” nomli laboratoriya mashg‘ulotlari uchun elektron o‘quv qo‘llanma. – 14.12.2022.
8. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. DGU 58390-son guvohnoma: “Fizika fanidan mobil ilova dasturi”. – 29.12.2025.
9. Karimov X.N. Methods of Self-Education in Teaching Students Physics Using ICT-Information and Computer Technologies // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Vol. 11, Issue 2. – P. 471–475.
10. Axmedov Ya.A., Karimov X.N. Fizika darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanib talabalar bilimlarini baholash // Management and Future Technologies. – 2024. – Vol. 1, Issue 1. – B. 128–135.

FIZIKA FANINI O‘QITISHDA TALABALARNING O‘QUV-LOYIHA FAOLIYATINI STEAM YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH

Abdullayeva Shoira Isajanovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22140505

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnika oliy ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitish jarayonida STEAM yondashuv asosida o‘quv-loyiha faoliyatini tashkil etishning nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Zamonaviy texnik ta’limda talabalarning nafaqat fundamental fizik bilimlarni egallashi, balki ularni muhandislik, texnologik va amaliy masalalarni hal qilishda qo‘llay olishi muhim hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, STEAM yondashuvining fanlararo integratsiyaga asoslangan imkoniyatlari tahlil qilingan hamda fizika ta’limida o‘quv-loyiha faoliyatini tashkil etishning bosqichlari ishlab chiqilgan. Taklif etilayotgan metodika muammoli vaziyatni aniqlash, loyiha maqsadini belgilash, fizik va texnik yechimni loyihalash, tajriba va modellashtirish, loyiha mahsulotini yaratish, natijalarni taqdim etish va baholash bosqichlarini o‘z ichiga oladi. STEAM asosidagi o‘quv-loyiha faoliyati talabalarning fizik bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash, muhandislik tafakkuri, ijodkorlik, tadqiqotchilik, jamoada ishlash va muammolarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslangan.
Kalit so‘zlar: STEAM, fizika ta’limi, texnika oliy ta’limi, o‘quv-loyiha faoliyati, fanlararo integratsiya, muhandislik tafakkuri, loyiha metodi, amaliy faoliyat, kompetensiya, raqamli texnologiyalar.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и методические основы организации проектной деятельности на основе STEAM-подхода в процессе обучения физике в технических высших образовательных учреждениях. В условиях современного технического образования от студентов требуется не только овладение фундаментальными физическими знаниями, но и умение применять их для решения инженерных, технологических и практических задач. В связи с этим проанализирован междисциплинарный потенциал STEAM-подхода и разработаны этапы организации учебно-проектной деятельности при обучении физике. Предлагаемая методика включает выявление проблемной ситуации, определение целей проекта, проектирование физического и инженерного решения, проведение экспериментов и моделирования, создание проектного продукта, презентацию результатов, а также их оценивание. Учебно-проектная деятельность на основе STEAM способствует интеграции физических знаний студентов с практической деятельностью, а также развитию инженерного мышления, творческих способностей, исследовательских навыков, умения работать в команде и компетенций по решению проблем.
Ключевые слова: STEAM, обучение физике, техническое высшее образование, проектная деятельность, междисциплинарная интеграция, инженерное мышление, проектный метод, практическая деятельность, компетенция, цифровые технологии.

Abstract: This article discusses the theoretical and methodological foundations of organizing project-based learning through the STEAM approach in physics education at technical higher education institutions. In modern technical education, students are expected not only to acquire fundamental physics knowledge but also to apply it to engineering, technological, and practical problems. From this perspective, the interdisciplinary potential of the STEAM approach is analyzed, and stages for organizing project-based activities in physics education are developed. The proposed methodology includes identifying a problem situation, defining project objectives, designing a physical and engineering solution, conducting experiments and simulations, developing a project product, presenting results, and evaluating outcomes. STEAM-based project activities contribute to connecting students’ physics knowledge with practical activities and developing engineering thinking, creativity, research skills, teamwork, and problem-solving competencies.
Keywords: STEAM, physics education, technical higher education, project-based learning, interdisciplinary integration, engineering thinking, project method, practical activity, competence, digital technologies.

Bugungi kunda texnika oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash mazmuniga qo‘yilayotgan talablar ta’lim jarayonini an’anaviy bilim berish modelidan faol, amaliy va kompetensiyaga yo‘naltirilgan modelga o‘tkazishni talab qilmoqda. Zamonaviy muhandisdan faqat nazariy bilimlarni egallash emas, balki real muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish, texnik yechim ishlab chiqish, tajriba

o‘tkazish va o‘z yechimini asoslab bera olish qobiliyati ham talab etiladi. Bunday kompetensiyalarni shakllantirishda tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikaning o‘zaro integratsiyasiga asoslangan STEAM yondashuvi muhim pedagogik imkoniyatlarga ega.

Fizika fani texnika oliy ta’limida fundamental fanlardan biri bo‘lib, uning mazmuni ko‘plab muhandislik va texnologik fanlar uchun nazariy asos vazifasini bajaradi. Mexanika, molekulyar fizika, termodinamika, elektromagnetizm, optika, atom va yadro fizikasi kabi bo‘limlarda o‘rganiladigan qonuniyatlarni amaliy va texnik masalalar bilan bog‘lash talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularning kasbiy kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Shu sababli fizika ta’limida o‘quv-loyiha faoliyatini STEAM yondashuv asosida tashkil etish talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan integratsiyalash imkonini beruvchi samarali metodik vosita sifatida qaralishi mumkin.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitish mazmuni talabaning kelgusidagi muhandislik, axborot-kommunikatsiya, energetika, elektronika va texnologik loyihalash faoliyatiga tayanch bo‘lishi kerak. Shu sababli mazkur paragrafda fizika kursining alohida mavzularini qayta bayon qilish emas, balki mexanika, termodinamika, elektr toki, optika va kvant optikasi bo‘limlari mazmunini talabalarda texnik ijodkorlikni rivojlantiruvchi yagona o‘quv-loyiha tizimiga keltirish metodikasi ishlab chiqiladi. Oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasida STEAM yo‘nalishlarini rivojlantirish, mustaqil ta’lim ulushini oshirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish zarurligi alohida qayd etilganligi bu masalaning me’yoriy-metodik asosini belgilaydi [*1. 2022. PF-60-son*]. Fizika fanining didaktik imkoniyati shundaki, unda har bir nazariy qonun real texnik obyekt yoki texnologik jarayon bilan bog‘lanishi mumkin. Masalan, Nyuton qonunlari transport xavfsizligi, robototexnika va mexanik qurilmalar; termodinamika qonunlari energetik samaradorlik, sovitish tizimi va kompressor; elektr toki qonunlari elektron sxema, sensor va elektr xavfsizligi; optika qonunlari filtr, kamera, ekran va optik aloqa; kvant optikasi esa fotoelement, fotodatchik va quyosh paneli ishini tushuntirish imkonini beradi. Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirishga oid qarorlarda fan mazmunini amaliyot, eksperiment va zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘lash zarurati ko‘rsatilgani ham mazkur yondashuvni metodik jihatdan asoslaydi [*2. 2020. O‘RQ-637-son*].


STEAM yondashuv bu paragrafda fanlar nomini ketma-ket sanash sifatida emas, balki har bir mavzuni o‘rganish ichidagi o‘quv harakati sifatida tushuniladi. Science fizik qonunni tushuntirishni, Technology o‘lchash va raqamli vositalardan foydalanishni, Engineering sxema, qurilma yoki texnik model yaratishni, Art vizual model, dizayn, ergonomika va taqdimot madaniyatini, Mathematics esa formula, grafik, o‘lchash xatoligi va statistik tahlilni bildiradi. Shunday qilib, STEAM elementlari fizika darsiga tashqi bezak sifatida qo‘shilmaydi, balki mavzuning o‘z ichki metodik mexanizmiga aylantiriladi.

1-jadval. Umumiy fizika bo‘limlari bo‘yicha STEAM integratsiya xaritasi

Fizika bo‘limi	Yetakchi metodik yondashuv	STEAM integratsiyasi	Talaba yaratadigan mahsulot
Mexanika	5E modeli, keys-stadi, grafik tahlil va tadqiqotli laboratoriya	Science – Nyuton qonunlari; Technology – dinamometr, sensor, videoanaliz; Engineering – mexanik model; Art – kuchlar xaritasi; Mathematics – grafik va tenglama	Erkin jism diagrammasi, Atvud tajribasi bayonnomasi, mexanik mini-loyiha
Termodinamika	Energiya auditi va real texnik tizimdan fizik qonunga o‘tish modeli	Science – issiqlik, ish, ichki energiya; Technology – termometr, manometr; Engineering – sovitish tizimi, termos, kompressor; Art – p–V diagramma; Mathematics – energiya balansi	Energiya auditi jadvali, p–V diagramma, energiya yo‘qotishini kamaytirish taklifi
Elektr toki	Loyiha asosida o‘qitish, sxema konstruksiyalash va tadqiqotli o‘lchash	Science – tok, kuchlanish, qarshilik; Technology – multimetr, breadboard, sensor; Engineering – zanjir sxemasi; Art – sxema dizayni; Mathematics – Om va Kirxgof tenglamalari	Elektr zanjiri sxemasi, Uitson ko‘prigi protokoli, xavfsiz va tejamkor elektr yechim

Optika	Vizual-kognitiv modellashtirish va dizayn-fikrlash	Science – dispersiya, qutblanish; Technology – prizma, polyaroid, optik sensor; Engineering – filtr yoki optik tizim; Art – rang, tasvir, vizual dizayn; Mathematics – Malyus qonuni grafigi	Optik filtr modeli, Malyus laboratoriya grafigi, ekran himoyasi yoki filtr loyihasi
Kvant optikasi	Raqamli simulyatsiya, tadqiqotli o‘qitish va Predict–Simulate–Explain modeli	Science – foton va fotoeffekt; Technology – virtual laboratoriya, fotodatchik; Engineering – fotoelement; Art – grafik va infografika; Mathematics – Eynshteyn tenglamasi va Plank doimiysi	Fotoeffekt grafigi, virtual laboratoriya protokoli, fotodatchik yoki quyosh paneli loyihasi

1-jadvaldan ko‘rinadiki, har bir bo‘limda boshqa yetakchi metodik yondashuv qo‘llanadi. Bu farqlanish tasodifiy emas: mexanikada ko‘rinadigan harakat va kuchlarni tahlil qilish, termodinamikada energiya almashinuvi va samaradorlikni baholash, elektr tokida sxema yig‘ish va o‘lchash, optikada vizual hodisani modellashtirish, kvant optikasida esa ko‘z bilan bevosita kuzatib bo‘lmaydigan mikrodunyo jarayonlarini simulyatsiya orqali o‘rganish ustuvor bo‘ladi. Shu tariqa fizika bo‘limlari texnik ijodkorlikning bosqichma-bosqich murakkablashuvchi maydoniga aylanadi.



1-rasm. Umumiy fizika bo‘limlari orqali texnik ijodkorlikning rivojlanishi

1-rasmda fizika bo‘limlari orqali texnik ijodkorlikning rivojlanishi ko‘rsatilgan. Mantiq shuni anglatadiki, talaba har bir bo‘limda avvalgi tajribasini yo‘qotmaydi, balki uni yangi mazmun bilan boyitadi. Mexanikada o‘zlashtirilgan “muammoni fizik modelga aylantirish” ko‘nikmasi termodinamikada energiya auditiga, elektr tokida sxema loyihalashga, optikada vizual model yaratishga, kvant optikasida esa virtual tajriba va grafik tahlilga o‘tadi. Bunday bosqichlilik STEAM loyihalarida ta’kidlangan fanlararo va faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim prinsiplariga mos keladi [*3. 2026. B. 778-784*].

Mexanika bo‘limi talabalarda texnik ijodkorlikni rivojlantirishning boshlang‘ich, ammo eng zarur bosqichidir. Chunki har qanday texnik qurilma, robot, transport vositasi yoki mexanik tizim harakat, kuch, massa, tezlanish, ishqalanish, deformatsiya va energiya tushunchalari bilan bog‘liq. Mazkur bo‘limda talaba avval fizik hodisani ko‘radi, keyin kuchlar diagrammasi orqali vaziyatni tahlil qiladi, Nyuton qonunlari asosida tenglama tuzadi, natijani grafikda ifodalaydi va tajriba orqali tekshiradi. Mexanika dars ishlanmasida ma’ruza uchun 5E modeli, amaliy mashg‘ulot uchun keys-stadi va grafik tahlil, laboratoriya uchun esa tadqiqotli o‘qitish tanlanganligi bu bo‘limning metodik yo‘nalishini belgilaydi.

5E modeli mexanika mavzulari uchun ayniqsa qulaydir: Engage bosqichida real muammo qo‘yiladi, Explore bosqichida talaba hodisani kuzatadi yoki tajriba qiladi, Explain bosqichida fizik qonun bilan izohlaydi, Elaborate bosqichida bilimni texnik vaziyatga ko‘chiradi, Evaluate bosqichida esa natijani baholaydi. Masalan, “avtomobil keskin tormozlanganda yo‘lovchi nima uchun oldinga intiladi?” yoki “lift yuqoriga tezlanganda odam nima uchun og‘irroq seziladi?” kabi savollar Nyuton qonunlarini yodlatish

uchun emas, balki ularni texnik xavfsizlik, transport va mexanik tizimlar bilan bog‘lash uchun xizmat qiladi.

2.-jadval. Mexanika bo‘limida 5E modeli, keys-stadi va tadqiqotli laboratoriya orqali texnik ijodkorlikni rivojlantirish

Mashg‘ulot turi	Metodik texnologiya	Talaba faoliyati	Texnik ijodkorlik mahsuloti
Ma’ruza	5E modeli va muammoli savol	Harakat sababi, inersiya, kuch, massa va tezlanish orasidagi bog‘lanishni real holat asosida izohlaydi.	Kuchlar xaritasi, konseptual savolga javob, qisqa refleksiya varaqasi.
Amaliy mashg‘ulot	Keys-stadi, grafik tahlil, erkin jism diagrammasi	Transport, lift, robot-aravacha, tormozlanish kabi keyslar bo‘yicha tenglama tuzadi va grafikni tahlil qiladi.	Yechim varaqasi, grafik, texnik xulosa.
Laboratoriya	Tadqiqotli o‘qitish, o‘lchash va xatolik tahlili	Atvud mashinasi yoki shunga yaqin qurilmada tezlanishni o‘lchaydi, nazariy va tajriba natijasini solishtiradi.	Laboratoriya bayonnomasi, o‘lchash jadvali, xatolik va refleksiya.
Mini-loyiha	Loyiha asosidagi faoliyat	Mexanik qurilma, robot-aravacha, amortizator yoki tormozlanish modeli bo‘yicha taklif ishlab chiqadi.	Konseptual sxema, prototip yoki loyiha taqdimoti.

Mexanika bo‘limi bo‘yicha o‘quv faoliyatining didaktik zanjirda asosiy urg‘u formulani tayyor qo‘llashga emas, balki fizik vaziyatni modellashtirishga qaratiladi. Talaba “qaysi kuch harakatni o‘zgartirmoqda?”, “qaysi kuch qarshilik qilmoqda?”, “tenglama natijasi real holatga mosmi?” kabi savollarga javob izlaydi. Shu orqali u mexanik hodisani texnik muammo sifatida ko‘rishga o‘rganadi. Mexanika o‘quv fani misolida innovatsion texnologik rivojlanish bo‘yicha tadqiqotlar ham aynan real vaziyat, model va tajriba birligini ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi. Mexanika bo‘limidagi o‘quv-loyiha faoliyati uch darajada tashkil qilinadi. Birinchi darajada talaba tayyor chizma va ma’lumot asosida kuchlarni ajratadi. Ikkinchi darajada u mustaqil ravishda erkin jism diagrammasi tuzadi, koordinata o‘qlarini tanlaydi va tenglamani yozadi. Uchinchi darajada esa real texnik obyekt – masalan, tormoz tizimi, lift, robot-aravacha, prujinali amortizator yoki ishqalanishli mexanizm bo‘yicha kichik loyiha taklif qiladi. Bu bosqichda talabaning texnik ijodkorligi tayyor yechimni takrorlashdan yangi yechim variantini asoslashga ko‘tariladi.

Termodinamika bo‘limi texnik ijodkorlikni energiya samaradorligi va muhandislik tahlili bilan bog‘lash imkonini beradi. Mexanikada kuch va harakat ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, termodinamikada issiqlik, ish, ichki energiya, issiqlik sig‘imi, adiabatik jarayon, izojarayonlar va energiya yo‘qotishlari asosiy didaktik birlikka aylanadi. Termodinamika dars ishlanmasida “energiya auditi” yetakchi yondashuv sifatida tanlangan; unda tizimga kirgan energiya, bajarilgan ish, ichki energiya o‘zgarishi va tashqi muhitga ketgan yo‘qotishlar fizik-matematik hamda muhandislik nuqtayi nazaridan baholanadi.

Energiya auditi talabaning termodinamikani faqat formulalar yig‘indisi sifatida emas, real texnik tizimlarni tahlil qilish vositasi sifatida qabul qilishiga xizmat qiladi. Masalan, “nima uchun muzlatkich ichkarini sovitadi, lekin orqa qismi qiziydi?”, “nima uchun yozda avtomobil shinasi bosimi ortadi?”, “nima uchun termos issiqlikni uzoq vaqt saqlaydi?” kabi savollar termodinamik sistema, tashqi muhit, energiya oqimi, ish va issiqlik almashinuvi tushunchalarini real obyekt bilan bog‘laydi. Bunday yondashuv talabaning kuzatuvchanligi, tahliliy fikrlashi va texnik yechim ishlab chiqish qobiliyatini faollashtiradi.

Metodik jihatdan muhim xulosa shundan iboratki, STEAM yondashuv asosidagi o‘quv-loyiha faoliyati professor-o‘qituvchining rolini ham o‘zgartiradi. U tayyor bilimni uzatuvchi emas, balki muammoni qo‘yuvchi, savol beruvchi, tajribani tashkil etuvchi, sxema va modelni muhokama qiluvchi, xavfsizlikni nazorat qiluvchi, refleksiyani boshqaruvchi fasilitator vazifasini bajaradi. Talaba esa passiv tinglovchi emas, balki kuzatuvchi, hisoblovchi, o‘lchovchi, loyihalovchi, himoya qiluvchi va

takomillashtiruvchi faol subyektga aylanadi. Mazkur paragrafda taklif etilgan metodika dissertatsiyaning ilmiy yangiligini amaliy mazmun bilan boyitadi. Chunki unda texnik ijodkorlik umumiy nazariy tushuncha sifatida emas, balki besh fizika bo‘limi misolida aniq metodik harakatlarga ajratildi: mexanikada kuchlar diagrammasi va tajriba, termodinamikada energiya auditi, elektr tokida sxema konstruksiyalash, optikada vizual-kognitiv modellashtirish, kvant optikasida virtual simulyatsiya va grafik asosida texnik yechim [*4. 2013. B. 206*]. Bu esa talabalarning fizik bilimni kasbiy-amaliy va ijodiy faoliyatga aylantirish imkoniyatini kengaytiradi. Paragraf bo‘yicha yakuniy xulosa shuki, umumiy fizika bo‘limlari mazmuniga STEAM yondashuvni singdirish talabalarda texnik ijodkorlikni rivojlantirish uchun quyidagi shartlarni ta’minlaydi: nazariya real texnik muammo bilan bog‘lanadi; har bir mavzu o‘quv-loyiha mahsuloti bilan yakunlanadi; laboratoriya ishlari tadqiqot va baholash madaniyatiga aylantiriladi; raqamli vositalar mustaqil tahlil va modellashtirishga xizmat qiladi; baholash esa bilim, tajriba, loyiha va refleksiyani birgalikda qamrab oladi [*5. 2013. B. 78*]

Xulosa. Texnika oliy ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitishda STEAM yondashuv asosida o‘quv-loyiha faoliyatini tashkil etish talabalarning fundamental bilimlarini amaliy, texnologik va muhandislik faoliyati bilan integratsiyalash imkonini beradi. Tadqiqot natijasida o‘quv-loyiha faoliyatini tashkil etishning yetti bosqichli metodikasi ishlab chiqildi: muammoli vaziyatni aniqlash, loyiha maqsadini belgilash, tadqiqot va loyihalash, tajriba va modellashtirish, loyiha mahsulotini yaratish, taqdimot va himoya, baholash hamda refleksiya.

Taklif etilgan metodikaning didaktik qiymati shundaki, u talabaning tayyor bilimni o‘zlashtirishidan bilimni amaliy vaziyatlarda qo‘llash va yangi texnik yechim yaratish darajasiga o‘tishini ta’minlaydi. STEAM asosidagi loyiha faoliyati orqali talabalarda fizik bilimlar bilan bir qatorda muhandislik tafakkuri, ijodkorlik, tadqiqotchilik, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. Kelgusida mazkur metodikaning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov asosida tekshirish, tajriba va nazorat guruhlarining natijalarini statistik jihatdan taqqoslash hamda talabalarning kompetensiyalaridagi o‘zgarishlarni aniqlash tadqiqotning keyingi bosqichi sifatida belgilanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni.
3. Abdullayeva Sh.I. Texnik oliy ta’lim muassasalarida fizika o‘qitishning dolzarbligi // “Sun’iy intellektni pedagogik ta’limga tatbiq etishning ustuvor yo‘nalishlari” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Namangan, 2026. – B. 778–784.
4. Bybee, R. W. (2013). The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. NSTA Press.
5. Kelley, T. R., & Knowles, J. G. (2016). A conceptual framework for integrated STEM education. International Journal of STEM Education, 3, 11.

MOSH NAVLARINI SUG'ORISHDA TUPROQ NAMLIGINING O'ZGARISHI VA UNING AHAMIYATI

Safarova Xilola Xolmatovna
Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22140605

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2021 yilda o'tkazilgan tajriba natijalari asosida "Marjon" va "Durdona" mosh navlarini turli sug'orish usullari (egatlab sug'orish nazorat va egat oralatib sug'orish) hamda uchta namlik rejimi (65-65-65%, 70-70-65% va 75-75-65% ChDNS ga nisbatan) sharoitida sug'orish oldi tuproq namligining o'zgarish dinamikasi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sug'orish oldi tuproq namligi yuqori bo'lgan variantlarda tuproqda namlik yaxshiroq saqlanishi va sug'orishlar samaradorligining ortishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: mosh, tuproq namligi, sug'orish tartibi, egatlab sug'orish, egat oralatib sug'orish, ChDHC (cheklangan dala nam sig'imi), "Marjon" navi, "Durdona" navi, sug'orish me'yori, suv tejash.

Kirish Qishloq xo'jaligida sug'orish tartibini ilmiy asoslash, ayniqsa dukkakli ekinlar jumladan mosh yetishtirishda hosildorlikni oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Navbatdagi sug'orishdan oldin tuproq namligini aniq bilish sug'orish me'yorini to'g'ri belgilashga, shu orqali o'simlikning oziqa, havo va issiqlik rejimlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada 2021 yilda o'tkazilgan tajriba natijalari asosida "Marjon" va "Durdona" mosh navlarining turli sug'orish usullari va namlik rejimlarida tuproq namligining o'zgarish dinamikasi tahlil qilinadi.

Tadqiqot uslubiyati Tajriba dalasida ikkita mosh navi — "Marjon" va "Durdona" ikki xil sug'orish usuli (egatlab sug'orish — nazorat, va egat oralatib sug'orish) hamda uchta namlik rejimi (65-65-65%, 70-70-65% va 75-75-65% ChDNS ga nisbatan) bo'yicha o'rganildi. Har bir sug'orishdan oldin tuproq namligi vazn og'irligiga va ChDNS (cheklangan dala nam sig'imi)ga nisbatan foizda hisoblab chiqildi.

Natijalar va muhokama : 1-variant (nazorat rejimi, 65-65-65%) "Marjon" navini yetishtirishda nazorat variantida sug'orish oldi tuproq namligi ChDNSga nisbatan 63,2–63,9% atrofida, tuproq og'irligiga nisbatan esa 13,7–13,8% ni tashkil etdi. Bu sharoitda sug'orishlar iyul oyining oxiri va avgust oyida amalga oshirildi.

Mosh navlarini sug'orishlardan oldingi tuproq namligi tuproqning quruq vazni va ChDNS ga nisbatan,% ta'siri, 2021 yil

	Mosh navi	Variantlar	Sug'orish oldi tuproq namligi (ChDNSga nisbatan %)	Ko'rsatkichlar	Sug'orish oldi tuproq namligi		
					1	2	3
1	Marjon	Egatlab sug'orish (nazorat)	65-65-65	Nam.ol.vaqt Vazn.nisbatan ChDNS.nisbat	23.07 13,7 63,2		22.08 13,8 63,9
2		Egat oralatib sug'orish		Nam.ol.vaqt Vazn.nisbatan ChDNS.nisbat	22.07 13,7 63,5		17.08 13,8 63,7
3	Durdona	Egatlab sug'orish (nazorat)		Nam.ol.vaqt Vazn.nisbatan ChDNS.nisbat		24.07 13,7 63,4	
4		Egat oralatib sug'orish		Nam.ol.vaqt Vazn.nisbatan ChDNS.nisbat		24.07 13,8 63,8	
5	Marjon	Egatlab sug'orish (nazorat)	70-70-65	Nam.ol.vaqt Vazn.nisbatan ChDNS.nisbat	19.07 14,7 68,2	14.08 14,9 68,9	

6		Egat oralatib sug'orish		Nam.ol.vaqt Vazn.nisbatan ChDNS.nisbat	20.07 14,8 68,4		10.08 15,0 69,3
7	Durdona	Egatlab sug'orish (nazorat)		Nam.ol.vaqt Vazn.nisbatan ChDNS.nisbat	21.07 14,9 68,9		20.08 13,7 63,3
8		Egat oralatib sug'orish		Nam.ol.vaqt Vazn.nisbatan ChDNS.nisbat	21.07 14,8 68,4		14.08 13,7 63,2
9	Marjon	Egatlab sug'orish (nazorat)	75-75-65	Nam.ol.vaqt Vazn.nisbatan ChDNS.nisbat	14.07 15,8 73,1	4.08 15,9 73,5	8.09 13,7 63,2
10		Egat oralatib sug'orish		Nam.ol.vaqt Vazn.nisbatan ChDNS.nisbat	13.07 15,9 73,4	27.07 15,9 73,8	21.08 15,9 73,6
11	Durdona	Egatlab sug'orish (nazorat)		Nam.ol.vaqt Vazn.nisbatan ChDNS.nisbat	15.07 15,9 73,5	3.08 15,8 73,3	
12		Egat oralatib sug'orish		Nam.ol.vaqt Vazn.nisbatan ChDNS.nisbat	13.0 15,8 73,0	28.07 15,9 73,6	24.08 13,8 63,7

Egat oralatib sug'orish usulida ko'rsatkichlar deyarli yaqin bo'lib, tuproq namligi 63,5–63,7% oralig'ida saqlandi bu esa sug'orish muddatlarini biroz oldinga surish imkonini berdi. "Durdona" navida ham shu namlik darajasida tuproq namligi 63,4–63,8% oralig'ida bo'lib, ko'rsatkichlar "Marjon" naviga yaqin natijalarni berdi. 2-variant (70-70-65%) Namlik rejimi kuchaytirilgan ushbu variantda "Marjon" navida tuproq namligi 68,2–68,9% gacha oshgani kuzatildi, tuproq og'irligiga nisbatan esa 14,7–15,0% ni tashkil etdi.Egat oralatib sug'orishda bu ko'rsatkichlar 68,4–69,3% gacha yetib, sug'orish ishlari nazorat variantiga nisbatan 4–5 kun oldin amalga oshirildi bu usulning namlikni uzoqroq saqlash xususiyatini ko'rsatadi. "Durdona" navida ham o'xshash holat kuzatilib, tuproq namligi dastlab yuqori bo'lib, keyingi kuzatuvlarda 63% gacha pasaygani qayd etildi. 3-variant (75-75-65%) Yuqori namlik sharoitidagi bu variantda "Marjon" navida tuproq namligi 73,1–73,8% gacha yetdi. Egat oralatib sug'orish usulida namlik nisbatan barqaror saqlanib, sug'orishlar muntazam ravishda amalga oshirildi. "Durdona" navida esa tuproq namligi 73,0–73,6% atrofida bo'lib, ayrim kuzatuvlarda mavsum oxiriga kelib 63–64% gacha kamaygani aniqlandi.

Xulosa: O'tkazilgan tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki:Sug'orish oldi tuproq namligi yuqori bo'lgan variantlarda (70-70-65% va 75-75-65%) tuproqda namlik yaxshiroq saqlanadi va sug'orishlar samaradorligi ortadi.Egat oralatib sug'orish usuli ayrim hollarda namlikni barqaror saqlash va sug'orish muddatlarini 4–5 kunga qisqartirish imkonini berdi — bu usul suv resurslaridan tejamkorroq foydalanishga xizmat qiladi.Nazorat variantlarida tuproq namligi tezroq kamayib, ko'proq sug'orish suvi sarfi talab etilgani kuzatildi.Ikkala mosh navi "Marjon" va "Durdona" o'xshash namlik dinamikasini namoyon etdi, biroq "Durdona" navida mavsum oxiriga kelib namlikning nisbatan keskinroq pasayishi qayd etildi. Shunday qilib, mosh ekinini yetishtirishda tuproq namligini muntazam nazorat qilish va egat oralatib sug'orish usulini qo'llash sug'orish tartibini optimallashtirish, suvni tejash va o'simlikning normal rivojlanishini ta'minlashning muhim yo'lidir.

Adabiyotlar.

1. Abdurahmonov I. Kuzgi bug'doydan keyin ekilgan takroriy ekinlarni tuproqni suv-fizik xususiyatlariga ta'siri. "Qishloq xo'jaligida yangi tejamkor agrotexnologiyalarni joriy etish" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ma'ruzalari to'plami. Toshkent. 2011. B.85-86.

2. Avliyaqulov M.A. Sug'oriladigan yerlardan yil davomida samarali foydalanishning ilmiy asoslari. Qishloq xo'jaligi fanlari doktori DSc dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018 yil, 28-b.

3. Abdisolomova I., G'.Uzoqov, A.Shoymurodov. Moshning hosil strukturasiga oziqlantirish usullari va me'yorlarining ta'siri // Agrokimyo himoya va o'simliklar karantini ilmiy amaliy jurnali. Toshkent. 2024, maxsus son № 1. B.83-85.

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIGA YOSH RAHBAR KADRLARNI SARALAB OLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH BOSQICHLARI

Isroilov Islomiddin Kamoliddin o‘g‘li
Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tayanch doktoranti
Email: humanability189@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22140776

Annotatsiya: ushbu maqolada davlat fuqarolik xizmatida yosh va istiqbolli rahbar kadrlarni saralab olish mexanizmlarini tizimli ravishda takomillashtirishning konseptual bosqichlari tadqiq etilgan. Muallif tomonidan yosh boshqaruvchilarni aniqlash, ularning kompetensiyalarini baholash va strategik lavozimlarga joylashtirish jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan bosqichma-bosqich model ishlab chiqilgan. Maqolada xalqaro ilg‘or tajribalar va milliy amaliyot o‘rtasidagi mutanosiblik tahlil qilinib, seleksiya jarayonida shaffoflik hamda meritokratiya prinsiplarini kuchaytirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot yakunida yosh rahbarlar zaxirasini boshqarishning huquqiy-institutsional asoslarini rivojlantirish hamda saralashning har bir bosqichiga raqamli innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: davlat fuqarolik xizmati, yosh rahbarlar, saralash mexanizmlari, takomillashtirish bosqichlari, meritokratiya, kadrlar seleksiyasi, boshqaruv kompetensiyasi, raqamli transformatsiya.

Kirish

Zamonaviy globallashuv va iqtisodiy-ijtimoiy transformatsiyalar davrida davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi bevosita kadrlar salohiyatiga, ayniqsa, tizimga kirib kelayotgan yosh, kreativ fikrlaydigan va innovatsion boshqaruv qobiliyatiga ega rahbar kadrlarga bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatini modernizatsiya qilish, sohaga meritokratiya va shaffoflik prinsiplarini chuqur joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Biroq, bugungi kun amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, yosh rahbar kadrlarni saralab olish va ularni strategik lavozimlarga tayyorlash mexanizmlarida hanuzgacha subyektiv yondashuvlar, an’anaviy saralash usullarining ustunligi va jarayonlarning to‘liq raqamlashmaganligi kabi qator muammolar ko‘zga tashlanmoqda. Bu esa yosh kadrlarning intellektual salohiyatidan samarali foydalanish hamda davlat xizmatida “kadrlar defitsiti” yetishmasligi muammosini tezkor hal etish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bois, davlat fuqarolik xizmatiga yosh rahbar kadrlarni saralab olish mexanizmlarini bosqichma-bosqich takomillashtirish modelini ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb ilmiy va amaliy vazifalaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19-iyundagi “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-95-son Farmonida belgilanishicha, 2026-yil 1-yanvardan boshlab davlat xizmatini rivojlantirishda xodimni faqat ishga qabul qilish bilan cheklanib qolmay, uning keyingi kasbiy shakllanishi va kompetensiyalarini muntazam rivojlantirishga yo‘naltirilgan tizimli yondashuv yo‘lga qo‘yilishi keltirib o‘tilgan. Mazkur yondashuvning muhim jihati davlat xizmatiga birinchi marta kirayotgan xodim faoliyatini dastlabki davrda baholash va uning keyingi xizmat faoliyatini natijadorlik mezonlari asosida davom ettirish mexanizmining joriy etilishidir.Yangi tartibning prinsipial jihatlaridan biri — davlat xizmatchilarining kasbiy kompetensiyalarini kompleks diagnostika qilishdir. Bunda xodimning faqat lavozimiga oid bilimlari emas, balki hujjatlar bilan ishlash, davlat tilida ish yuritish, tahliliy va kommunikativ qobiliyatlari, rahbarlik salohiyati, raqamli savodxonligi, qonunchilikdagi yangiliklarni o‘zlashtirishi, xorijiy tillarni bilishi hamda umumiy intellektual salohiyati kabi kompetensiyalar majmuaviy ravishda baholanadi. Bu esa davlat xizmatida kadrlar salohiyatini baholashni tor kasbiy bilimlardan kompetensiyaga asoslangan kompleks baholash modeliga o‘tkazish imkonini beradi. Shuningdek, diagnostika natijalarining xodim faoliyati samaradorligini ifodalovchi KPI ko‘rsatkichlari bilan integratsiyalashuvi alohida ahamiyatga ega. Bunday mexanizm xodimning nazariy tayyorgarligi va amaliy natijadorligini yagona monitoring tizimida baholash imkonini yaratadi. Natijada xodimning mavjud kompetensiyalari, rivojlantirilishi zarur bo‘lgan jihatlari va xizmat faoliyatidagi natijalari asosida individual kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash imkoniyati kengayadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-78-son “Istiqbolli kadrlarni maqsadli tayyorlash hamda ularni davlat boshqaruvi va xizmatiga samarali jalb etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida 2025-yil 1-oktyabrdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat

siyosati va boshqaruvi akademiyasida davlat xizmatidagi rahbarlar, rahbarlikka nomzodlar va boshqaruv kadrlari malakasini oshirish bo‘yicha qisqa muddatli kurslar joriy etilishi belgilangan edi. Yuqoridagi farmonlarda keltirib o‘tilgan vazifalar davlat fuqarolik xizmati tizimini yanada takomillashtirish, mazkur xizmatda yosh salohityatli rahbar kadrlarni aniqlash,saralash hamda ularning rahbarlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish sharoitida davlat fuqarolik xizmatiga yuqori salohiyatli, yosh va progressiv fikrlaydigan rahbar kadrlarni jalb etish va ularning zaxirasini shakllantirish muammosi zamonaviy ilmiy jamoatchilik diqqat-markazida turibdi. Ushbu yo‘nalishda saralash jarayonlarining innovatsion hamda raqamli texnologiyalarga asoslangan modellarini amaliyotga joriy etish masalalari mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning fundamental izlanishlarida o‘zining konseptual ifodasini topgan.

Xususan, xorijiy olimlar tomonidan davlat xizmatiga yosh rahbarlarni saralash va ularning kompetensiyalarini baholash tizimi bir-birini to‘ldiruvchi fundamental nazariyalar va konseptual yondashuvlar doirasida tadqiq etib kelinmoqda. Liu, Y. va uning hammualliflari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, raqamli transformatsiya sharoitida rahbar kadrlar saralab olish an’anaviy tor-texnik ko‘nikmalardan ko‘ra ko‘proq chuqur tahliliy malaka, adaptivlik hamda shaxsiy mas’uliyat ko‘rsatkichlariga tayanishi lozim. Olimlar yuqori bo‘g‘in boshqaruvchilari uchun raqamli kompetensiyalarning o‘ta yuqori darajada shakllangan bo‘lishi strategik barqarorlikning asosiy kafolati ekanligini isbotlaydilar. Cornell, A. va Lapuente, V. (2014) o‘zlarining davlat boshqaruvida kadrlar siyosatiga oid izlanishlarida ma’muriy apparatni shakllantirishda nepotizm va siyosiy aloqalardan mutloq voz kechish, saralab olishni faqat ochiq tanlov hamda meritokratik imtihonlar orqali amalga oshirish zarurligini asoslaydi. Bu yondashuv yosh kadrlarning tizimga adolatli kirib kelishini ta’minlaydi. Zamonaviy fransuz boshqaruv maktabi vakillaridan Distel, B. va uning hamkasblari (2019) e-hukumat muhitida davlat xizmatchilarining professional portretini ikki yirik guruhga ajratadi: professional raqamli malakalar (IS/IT skills) hamda tug‘ma shaxsiy fazilatlar (analitik fikrlash, psixologik barqarorlik. Ushbu model zamonaviy portfolios tizimlarining konseptual asosi hisoblanadi. Boshqaruv sotsiologiyasi va davlat xizmati mutaxassislari Kovaleva, T. va Litvintseva, E. (2021) davlat xizmatida avtomatlashtirilgan kadrlar monitoringi va raqamli platformalar algoritmlarining o‘rnini tadqiq etgan. Ularning fikricha, yosh kadrlarni rahbarlik zaxirasiga olishda inson omilini kamaytirish va sun’iy intellektga asoslangan diagnostika tizimlarini qo‘llash shaffoflikni keskin oshiradi.

O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini isloh qilish va yosh rahbarlar zaxirasini shakllantirish va ularni saralab olish masalalari bir nechta olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan Sh.G‘.Asadov o‘zining ilmiy izlanishlarida rivojlangan mamlakatlar (Singapur, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya) tajribasini tahlil qilib, milliy davlat xizmatida kompetensiya modellarini joriy etish zarurligini asoslaydi. Muallif kadrlar salohiyatini faqatgina bilim darajasi bilan emas, balki qadriyatlar va yetakchilik klasterlari uyg‘unligida baholash lozimligini ta’kidlaydi. X. A.Azizov esa davlat xizmatining jozibadorligini oshirish va yoshlarni jalb etish masalalarini o‘rganadi. U rahbar kadrlarning ijobiy imijini yaratish jarayonini sun’iy intellekt hamda raqamli monitoring imkoniyatlari bilan integratsiya qilish kadrlar siyosatining ustuvor mezoni bo‘lishi lozimligini ko‘rsatib o‘tgan. A. A. Ismoilov kadrlarning kasbiy moslashuvi va “Lifelong Learning” prinsipiat xizmatiga birinchi marta qabul qilinayotgan yosh xodimlarning kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz oshirib borish tizimini tadqiq etgan. Tadqiqotchi “hayot davomida ta’lim olish” tamoyilining raqamli platformalar orqali monitoring qilinishi yosh kadrlar orasidan strategik rahbarlarni seleksiya qilish samaradorligini keskin oshirishini ilmiy jihatdan yoritib beradi.

Yuqorida olimlar tomonidan keltirilgan tariflar va yondashuvlar davlat fuqarolik xizmatini sifatli tashkil etish, va mazkur xizmatga munosib yosh salohiyatli rahbar kadrlarni saralab olish jarayonlarini ifodalaydi.

Tadqiqot metadologiyasi

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini davlat fuqarolik xizmati, kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmatiga eng munosib yosh rahbar kadrlarni saralab olish mexanizmlarini takomillashtirish sohasidagi fundamental nazariyalar hamda O‘zbekiston va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari tashkil etadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning davlat fuqarolik xizmatini modernizatsiya qilish, kadrlar siyosatini takomillashtirish va yosh rahbar kadrlarni jalb qilishga oid farmonlari tadqiqotning normativ-huquqiy jihatlarini tashkil etadi..

Tadqiqot doirasida davlat fuqarolik xizmatida yosh rahbar kadrlarni saralab olish jarayoni va uning rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi. Tadqiqot metodlaridan sifatli va miqdoriy yondashuvlar, jumladan: tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, kontent tahlil, analiz va sintez, institutsional va funksional tahlil usullari samarali tarzda qo‘llandi.

Tadqiqot natijalari amaliy jihatdanr davlat fuqarolik xizmatiga yosh va salohiyatli rahbar kadrlarni tanlash jarayonlarini loyihalash, optimallashtirish, shaffof tanlov muhitini yaratish hamda kadrlar salohiyatini kompetensiyalar kesimida baholashda qo‘llanilishi mumkin.


Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati tadqiqotda ilgari surilgan konseptual yondashuv va ilmiy tavsiyalar davlat fuqarolik xizmatida raqobatbardosh va malakali yosh rahbar kadrlar korpusini shakllantirishning institutsional va me’yoriy asoslarini boyitadi.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda davlat fuqarolik xizmatini samarali tashkil etishda davlat va jamiyat manfaatlariga sodiq, salohiyatli yosh rahbar kadrlarni tanlash, ularni sohaga jalb etish hamda faoliyat samaradorligini oshirish mamlakatning barqaror rivoji va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘tkazilgan tadqiqotlar va xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, davlat fuqarolik xizmatiga yosh rahbar kadrlarni saralash samaradorligini oshirish uchun jarayonni uzluksiz va tizimli bosqichlarga ajratish lozim. Muallif tomonidan taklif etilayotgan 4 bosqichli model va uning mazmuni quyidagi jadvalda batafsil aks ettirilgan.


Bosqich	Nomlanishi	Asosiy mexanizmlar va raqamli vositalar	Kutilayotgan natija
1-bosqich	Digital Sourcing (Raqamli qidiruv va jalb etish)	OTM bitiruvchilari, ilmiy doira va xususiy sektor vakillarini “Yagona milliy mehnat tizimi” orqali integratsiya qilish	Salohiyatli yoshlar bazasini (Talent Pool) shakllantirish
2-bosqich	Competence Assessment (Kompleks diagnostika)	Zamonaviy psixometrik testlar, Assessment Center uslubiyoti va amaliy Keyslar (Case study)	Nomzodlarning rahbarlik va intellektual salohiyatini obyektiv baholash
3-bosqich	Individual Development (Maqsadli rivojlantirish)	Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasining qisqa muddatli strategik kurslari, Kasbiy rivojlanish portfoliosi	Har bir kadr uchun uning ehtiyojlariga moslashtirilgan individual ta'lim traektoriyasi
4-bosqich	Meritocracy and KPI (Tayinlov va monitoring)	Shaffof ochiq tanlovlar, faoliyat samaradorligini doimiy baholash tizimi	Subyektivizm va nepotizm xavfini kamaytirish, natijadorlikni oshirish

Davlat fuqarolik xizmatida yosh rahbar kadrlarni boshqarishning uzluksiz sikli



Ushbu model doirasida an’anaviy baholash tizimidan voz kechilib, PF-95-son Farmon talablariga mos ravishda xodimning faqat lavozim majburiyatlari emas, balki uning tahliliy kommunikativ va raqamli kompetensiyalari majmuaviy ravishda monitoring qilib boriladi. Davlat fuqarolik xizmatida yosh rahbar kadrlarni aniqlash, saralash va ular natijalarini baholash muhim mezonlardan biri hisoblanib, ushbu jarayon boshqaruv tizimining samaradorligi va barqarorligini ta’minlashda strategik ahamiyatga egadir. Quyidagi rasmda baholash jarayonining asosiy bosqichlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Baholash jarayonining asosiy bosqichlari



Izoh: Ushbu bosqichlar uzviy bog‘langan bo‘lib, baholash jarayoni uzluksiz sikl sifatida takomillashtirib boriladi.

Taqdim etilgan infografikada davlat fuqarolik xizmati tizimida yosh rahbar kadrlarni aniqlash, saralash va ularning salohiyatini baholashga qaratilgan kompleks va ko‘p bosqichli boshqaruv modeli aks ettirilgan. Ushbu model oddiy chiziqli tanlov jarayoni bo‘lmay, balki strategik maqsadlarni belgilashdan boshlab, yakuniy natijalarni doimiy tahlil qilish va tizimni muttasil yangilab borishni ko‘zda tutuvchi siklik (aylanma) tuzilmaga egadir.Jarayonning boshlang‘ich bosqichi aniq maqsadlarni belgilash hamda lavozim talablaridan kelib chiqqan holda strategik yo‘nalishlarni shakllantirishni qamrab oladi. Shundan so‘ng, bo‘lajak yosh rahbarning kasbiy, yetakchilik, kommunikativ va raqamli ko‘nikmalarini qamrab oluvchi kompetensiyalar modeli yaratiladi. Baholash jarayonining xolisligi va aniqligini ta’minlash maqsadida barcha ko‘rsatkichlar SMART tamoyillariga muvofiq ravishda o‘lchanadigan indikatorlar ko‘rinishiga keltiriladi hamda zamonaviy metodlar (testlar, amaliy keyslar, Assessment Centre) tanlab

olinadi.Ma’lumotlarni yig‘ish va kompleks tahlil qilish bosqichida nomzodlar haqidagi turli manbalardan olingan ma’lumotlar integratsiya qilinadi. Inson omili va subyektiv yondashuvlarni minimallashtirish uchun yakuniy integral baho ballar hamda ularning vazn koeffitsiyentlari asosida, statistik tahlillar yordamida hisoblab chiqiladi. Yakuniy bosqichda nafaqat nomzodni lavozimga tayinlash yoki zaxiraga olish masalasi hal qilinadi, balki uning kelgusi individual rivojlanish trayektoriyasi uchun aniq tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tizimning o‘ziga xosligi shundaki, qayta baholash va uzluksiz takomillashtirish mexanizmi orqali har bir sikldan olingan tajriba butun baholash zanjirini yangilash va takomillashtirishga xizmat qiladi.Ushbu jarayonning mustahkam poydevorini adolat, shaffoflik, obyektivlik, kompetensiyaviy yondashuv hamda dalillarga asoslangan (evidensga asoslangan) qarorlar qabul qilish kabi metodologik prinsiplar tashkil etadi. Mazkur tizimli yondashuvning amaliyotga joriy etilishi davlat fuqarolik xizmatida yuqori salohiyatli yosh rahbar kadrlarni to‘g‘ri saralash, ishonchli kadrlar zaxirasini yaratish va pirovardida, davlat boshqaruvi samaradorligini tubdan oshirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar

Xulosa o‘rnida shuni qayd etish joizki, davlat fuqarolik xizmatida yosh va salohiyatli rahbar kadrlarni saralab olish va ularni joy-joyiga qo‘yish davlat fuqarolik xizmati va kadrlar siyosatida muhim strategigik jarayonlardan biridir. Yuqoridagi nazariya va yondashuvlardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni ilgari surishimiz mumkin:

Birinchidan, baholash mezonlarini o‘lchanadigan shaklga keltirish uchun “Smart” tizimini normativ darajada majburiy etib belgilash. Yosh rahbar kadrlar faoliyatini va salohiyatini baholashda mavhum, subyektiv ta’riflardan butunlay voz kechib, har bir lavozim xususiyatidan kelib chiqqan holda aniq, o‘lchanadigan va vaqt bilan chegaralangan indikatorlar (Smart tamoyili) tizimini huquqiy-me’yoriy hujjatlar bilan mustahkamlash zarur.

Ikkinchidan, baholash vositalarining ishonchliligini (validligini) ta’minlash maqsadida xalqaro “Assessment Centre” (Baholash markazi) metodologiyasini milliylashtirish zarur. Bunda faqat an’anaviy test yoki suhbat bilan cheklanib qolmasdan, nomzodlarning strategik fikrlashi va inqirozli vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyatini tekshiruvchi maxsus simulyatsion keyslar va vaziyatli o‘yinlar blokini amaliyotga keng joriy etish lozim.

Uchinchidan, integrallashgan baholash tizimida har bir kompetensiyaning vazn koeffitsiyentlarini differensial (tabaqalashtirilgan) tartibda joriy etish. Yakuniy qaror qabul qilishda barcha ko‘rsatkichlarga bir xil yondashmasdan, muayyan rahbarlik lavozimining xususiyatiga qarab (masalan, strategik boshqaruv yoki operatsion menejment) professional, kommunikativ va yetakchilik fazilatlarining salmoq vaznini (koeffitsiyentini) matematik-statistik modellar asosida hisoblab chiqish tizimini yo‘lga qo‘yish kerak.

To‘rtinchidan, saralash jarayonini yakuniy nuqta deb emas, balki "individual rivojlanish trayektoriyasi"ni belgilovchi boshlang‘ich nuqta sifatida qayta ko‘rib chiqish. Baholash natijalari bo‘yicha lavozimga tavsiya etilmagan, biroq yuqori salohiyatga ega yosh kadrlarni chetda qoldirmasdan, ularning zaif va kuchli jihatlari tahlili asosida individual o‘sish rejalari (IDP) va maqsadli mentorlik dasturlarini ishlab chiqish tizimini shakllantirish zarur.

Beshinchidan, baholash zanjirining barqarorligini ta’minlash uchun "qayta baholash va uzluksiz takomillashtirish" (feedback loop) mexanizmini institutsionalizatsiya qilish. Saralab olingan yosh rahbarlarning keyingi amaliy faoliyati samaradorligini doimiy monitoring qilib borish va olingan natijalar asosida dastlabki baholash mezonlari hamda metodlarini har yili tahliliy yangilab boruvchi teskari aloqa tizimini yaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 19-iyundagi “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-95-son Farmoni

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-78-son “Istiqbolli kadrlarni maqsadli tayyorlash hamda ularni davlat boshqaruvi va xizmatiga samarali jalb etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni

3. Liu, Y., Bell, R., & Zhang, X. (2022). Digital Leadership and Competency Frameworks in Public Administration: A Systematic Review. ScienceDirect: Journal of Digital Leadership, Vol. 14, No. 2, pp. 110–125

4.Cornell, A., & Lapuente, V. (2014). Meritocracy, Merit-based Recruitment and the Quality of Government in Europe. Public Management Review, Vol. 16, No. 1, pp. 38–57

5. Distel, B., Becker, J., & Knackstedt, R. (2019). Digital Transformation of Bureaucracy: Competency Mapping for the E-Government Era. European Journal of Information Systems, Vol. 28, No. 4, pp. 85–102.

6. Kovaleva, T. V., & Litvintseva, E. A. (2021). Digital Platforms and Automated Personnel Monitoring in Public Civil Service / Цифровые платформы и автоматизированный мониторинг персонала на государственной гражданской службе. Voprosy Upravleniya (Management Issues), Vol. 69, No. 2, pp. 71–83

7. Asadov, Sh. G‘. (2026). Davlat fuqarolik xizmatida kompetensiya modellari: xorijiy davlatlar tajribasi tahlili. Davlat boshqaruvi jurnali, 2-son, 42–55-betlar

8. Azizov, X. A. (2024). Yangi O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatchilari imijining bugungi holati va uning jamoatchilik ishonchiga ta’siri. Jamiyat va boshqaruv, Jild 3, 4-son, 108–119-betlar

9. Ismoilov, A. A. (2026). Davlat xizmatchilarining kasbiy kompetensiya ko‘rsatkichlarining mazmun-mohiyati va ularni baholash tizimi. Toshkent: “Akademiya” nashriyoti, monografiya, 160-bet

DAVLAT ISHTIROKINI QISQARTIRISHNING MUQOBIL MEXANIZMI: QO‘SHIMCHA AKSIYALAR EMISSIYASI VA KAPITAL BOZORI IMKONIYATLARI

Husainov G‘ulom Luqmonovich
Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi katta ilmiy xodimi
E-mail: gulom25@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22140825

ANNOTATSIYA. Maqolada O‘zbekistonda davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarida davlat ulushini qisqartirishning muqobil mexanizmi sifatida qo‘shimcha aksiyalar emissiyasidan foydalanish masalasi tahlil qilingan. Mavjud davlat aksiyalarini sotish va qo‘shimcha emissiyaning davlat ulushi, aksiyadorlik jamiyati kapitali hamda xususiy investitsiyalarni jalb qilishga ta’siri qiyoslangan. Qo‘shimcha emissiya orqali davlatning nisbiy ulushini kamaytirish va jalb qilingan mablag‘larni aksiyadorlik jamiyati kapitaliga yo‘naltirish imkoniyati asoslangan. Tadqiqot yakunida mazkur mexanizmni IPO/SPO bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: davlat ulushi, xususiylashtirish, qo‘shimcha emissiya, aksiyadorlik jamiyati, kapital bozori, xususiy kapital, IPO, SPO.

АННОТАЦИЯ. В статье анализируется дополнительная эмиссия акций как альтернативный механизм сокращения государственной доли в акционерных обществах Узбекистана. Сопоставлены продажа существующих государственных акций и дополнительная эмиссия с точки зрения их влияния на государственную долю, капитал акционерного общества и привлечение частных инвестиций. Обоснована возможность снижения относительной доли государства и направления привлеченных средств непосредственно в капитал акционерного общества. Разработаны предложения по сочетанию дополнительной эмиссии с механизмами IPO/SPO.

Ключевые слова: государственная доля, приватизация, дополнительная эмиссия, акционерное общество, рынок капитала, частный капитал, IPO, SPO.

ABSTRACT. The article analyzes additional share issuance as an alternative mechanism for reducing state ownership in joint-stock companies in Uzbekistan. The effects of selling existing state-owned shares and additional issuance on state ownership, corporate capital, and private investment attraction are compared. The study substantiates the possibility of reducing the relative state ownership share while directing attracted funds to the capital of the joint-stock company. Recommendations are proposed for combining additional issuance with IPO/SPO mechanisms.

Keywords. state ownership, privatization, additional share issuance, joint-stock company, capital market, private capital, IPO, SPO.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor institutlarini chuqurlashtirish jarayoni davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish, davlat aktivlarini samarali boshqarish hamda xususiy sektorning investitsion faolligini kengaytirish bilan uzviy bog‘liq holda kechmoqda. Mazkur transformatsiya jarayonida xususiylashtirishning mazmun-mohiyati ham o‘zgarib, davlat aktivlarini bir martalik sotishdan tashqari, korporativ boshqaruvni takomillashtirish, aksiyadorlik kapitalini diversifikatsiya qilish, xususiy va institutsional investorlarni jalb etish hamda kapital bozorining likvidligi va chuqurligini oshirishga yo‘naltirilgan kompleks yondashuv shakllanmoqda.

O‘zbekistonda davlat aktivlarini xususiylashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar mazkur yo‘nalishning institutsional ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. 2025-yil 27-mart kuni davlat aktivlarini xususiylashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2021–2024-yillarda qiymati 47 trln so‘mlik davlat aktivlari xususiylashtirilgan, bu oldingi o‘n yillikdagi natijadan qariyb 30 barobar yuqori ko‘rsatkichni tashkil etgan. Shu davrda davlat ishtirokidagi korxonalar soni ikki barobar qisqargan, iqtisodiyotda davlat ulushi 13 foiz bandga kamaygan. 2025-yil uchun esa davlat aktivlarini 30 trln so‘mlik hajmda sotish va budjetga kamida 10 trln so‘m tushum ta’minlash maqsadlari belgilangan [1]

Shu bilan birga, xususiylashtirish siyosati faqat davlat aktivlarini sotish bilan cheklanmasdan, davlat ishtirokidagi yirik aksiyadorlik jamiyatlarini transformatsiya qilish va ularni kapital bozoriga olib chiqish yo‘nalishini ham qamrab olmoqda. 2026-yil 15-iyunda davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish va IPOga tayyorlash masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan taqdimotda Milliy investitsiya jamg‘armasi (UzNIF) xalqaro bozorda 690 mln AQSh dollarlik aktivlarni joylashtirgani qayd etildi. Joylashtirish jarayonida investorlar talabi taklif hajmidan 4 barobar yuqori bo‘lib, yirik investorlar

tomonidan berilgan buyurtmalar hajmi qariyb 3 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan. Shuningdek, jamg‘arma portfelidagi 13 ta yirik aksiyadorlik jamiyatini transformatsiya qilish va ularni IPOga tayyorlash vazifasi belgilangan [2].

Ushbu jarayon davlat ishtirokini kamaytirishda kapital bozori instrumentlarining ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi. Biroq davlat ulushini qisqartirishning iqtisodiy natijasi faqat mavjud aksiyalarni sotish bilan belgilanmaydi. Korporativ moliya nuqtayi nazaridan, qo‘shimcha aksiyalar emissiyasi aksiyadorlik jamiyati ustav kapitali hajmini kengaytirish, davlatning undagi nisbiy ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish hamda xususiy investitsiyalarni jalb qilish imkonini beruvchi muqobil moliyaviy mexanizm hisoblanadi.

Bunday mexanizmda davlat o‘z ixtiyoridagi aksiyalarni bevosita sotmasdan, yangi aksiyalarni chiqarish va ularni xususiy investorlarga joylashtirish orqali aksiyadorlik jamiyatidagi nisbiy mulkchilik ulushini kamaytirishi mumkin. Bunda investorlar tomonidan kiritilayotgan mablag‘lar davlat budjetiga emas, balki emitent aksiyadorlik jamiyatining o‘z kapitaliga yo‘naltiriladi. Shu tariqa, qo‘shimcha emissiya bir vaqtning o‘zida davlat ishtirokini qisqartirish va aksiyadorlik jamiyatining kapital bazasini kengaytirish vazifalarini bajarishi mumkin.

Mazkur mexanizmni mavjud davlat aksiyalarini sotishga asoslangan xususiylashtirishdan konseptual jihatdan farqlash zarur. Qo‘shimcha aksiyalar emissiyasida yangi aksiyalar emitent tomonidan chiqariladi va jalb qilingan mablag‘lar aksiyadorlik jamiyati kapitaliga kiritiladi. Aksincha, davlatga tegishli mavjud aksiyalarning investorlarga sotilishida yangi kapital yaratilmaydi; operatsiyadan tushgan mablag‘ aksiyalarni sotuvchi tomonga yo‘naltiriladi. Shu sababli mazkur ikki mexanizmning aksiyadorlik jamiyati kapitallashuvi, davlat budjeti, korporativ nazorat va investitsiya oqimlariga ta’siri bir xil emas.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekistonning institutsional va kapital bozori sharoitida qo‘shimcha aksiyalar emissiyasi orqali davlat ulushini kamaytirishning moliyaviy samaradorligi, korporativ nazoratga ta’siri va xususiy kapitalni jalb qilish imkoniyatlarini baholashdan iborat.

Davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarini xususiylashtirish va davlat kapitalining iqtisodiyotdagi ulushini qisqartirish masalalari zamonaviy korporativ moliya, institutsional iqtisodiyot va kapital bozori tadqiqotlarining muhim yo‘nalishlaridan biridir. So‘nggi ilmiy tadqiqotlarda xususiylashtirish davlat aktivlarini oddiy sotish jarayonidan tashqari, mulkchilik tarkibini diversifikatsiya qilish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xususiy kapitalni jalb etish mexanizmi sifatida talqin qilinmoqda.

Eckbo (2019) davlat ishtirokining aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga ta’sirini tahlil qilib, davlat ulushi, korporativ boshqaruv sifati va kapital bozori rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Muallifning yondashuvi davlatning aksiyador sifatidagi ishtiroki bozor qiymati va korporativ moliyalashtirish qarorlariga ta’sir qilishi mumkinligini ko‘rsatadi [3].

Boubakri, Guedhami, Kwok va Wang (2019) xususiylashtirish jarayonining korporativ boshqaruv va axborot shaffofligiga ta’sirini o‘rganib, xususiylashtirish samaradorligi nafaqat davlat ulushining kamayishi, balki yangi aksiyadorlarning korporativ boshqaruvdagi real ishtiroki bilan ham bog‘liqligini ta’kidlaydi [4].

Boubakri va Saffar (2018) davlat mulkchiligi va korporativ moliyalashtirish o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, davlat ishtirokining o‘zgarishi korxonalarning moliyaviy qarorlariga ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv davlat ulushini qisqartirishni faqat mulkchilik tarkibidagi o‘zgarish emas, balki korporativ moliyalashtirish tizimidagi transformatsiya sifatida ko‘rish imkonini beradi [4].

Boubakri va boshqa mualliflar (2020) davlat mulkchiligi va aksiyalar likvidligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq qilib, xususiylashtirish va aksiyalarni kengroq investorlar doirasiga joylashtirish fond bozori likvidligiga ta’sir qilishi mumkinligini asoslaydi. Bu holat davlat ishtirokini qisqartirish bilan bir qatorda, kapital bozorining rivojlanishiga ham xizmat qilishi mumkin [5].

Davlat korxonalarini isloh qilishda OECD va Jahon bankining tadqiqotlari ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlarda davlatning mulkdor sifatidagi funksiyasini tartibga soluvchi va xo‘jalik yurituvchi subyekt sifatidagi funksiyalaridan ajratish, korporativ boshqaruv mustaqilligi hamda investorlar huquqlarini kuchaytirish davlat korxonalarini bozor tamoyillariga moslashtirishning muhim shartlari sifatida qaraladi.

Rossiyalik tadqiqotchilar Malginov va Radyginning ishlarida davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish jarayonlarining zamonaviy tendensiyalari tahlil qilingan. Xususan, Rossiya amaliyotida ayrim yirik aksiyadorlik jamiyatlarida qo‘shimcha aksiyalar emissiyasi orqali moliyaviy resurslarni jalb qilish va davlatning nazorat ulushini saqlab qolish imkoniyatlari kuzatilgan. Ushbu tajriba qo‘shimcha

emissiyani davlat ulushini qisqartirishning potensial mexanizmi sifatida ko‘rib chiqish uchun qiyosiy asos yaratadi [6].

Rivojlanayotgan bozorlar tajribasi davlat ulushini qisqartirishda aksiyalarni ommaviy joylashtirish, free-float hajmini oshirish va institutsional investorlarni jalb etish kapital bozori rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq bunday mexanizmlarning samarasi kapital bozorining likvidligi, investorlar bazasi va minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish darajasiga bog‘liq.

Mazkur tadqiqot uchun mavjud adabiyotlarning asosiy ahamiyati shundaki, davlat ishtirokini qisqartirishni faqat davlat aksiyalarini sotish orqali emas, balki yangi xususiy kapitalni jalb etish orqali ham amalga oshirish mumkinligi ko‘rinadi. Qo‘shimcha emissiyaning muhim jihati shundaki, bunda davlatning mavjud aksiyalari saqlanib qoladi, biroq yangi aksiyalar chiqarilishi natijasida uning nisbiy ulushi kamayadi va jalb qilingan mablag‘lar aksiyadorlik jamiyatining kapital bazasini kengaytirishga yo‘naltiriladi.

O‘zbekiston sharoitida ushbu yo‘nalishda qo‘shimcha empirik va moliyaviy tahlillarga ehtiyoj mavjud. Ayniqsa, qo‘shimcha aksiyalar emissiyasi orqali davlat ulushini kamaytirishning aksiyadorlik jamiyati kapitali, davlat nazorati darajasi va jalb qilinadigan xususiy investitsiyalar hajmiga ta’sirini kompleks baholash muhimdir. Shu asosda ushbu tadqiqotda mazkur mexanizm davlat ishtirokini qisqartirishning muqobil vositasi sifatida korporativ-moliyaviy model yordamida tahlil qilinadi.

Qo‘shimcha aksiyalar emissiyasi orqali davlat ishtirokini qisqartirish mexanizmining iqtisodiy samaradorligini baholashda davlat ulushining o‘zgarishi bilan bir qatorda, aksiyadorlik jamiyati kapitalining hajmi va jalb qilinadigan investitsiyalar miqdorini ham hisobga olish zarur.

Mavjud aksiyalarni sotishdan farqli ravishda, qo‘shimcha emissiya natijasida yangi aksiyalar chiqariladi va investorlar tomonidan kiritilgan mablag‘lar bevosita aksiyadorlik jamiyatining o‘z kapitaliga yo‘naltiriladi. Shuning uchun mazkur mexanizmni davlat aktivlarini sotish emas, balki davlatning nisbiy ulushini kamaytirish bilan bir vaqtda aksiyadorlik jamiyatining kapital bazasini kengaytiruvchi moliyaviy instrument sifatida baholash mumkin.

Shartli ravishda aksiyadorlik jamiyatining emissiyadan oldingi qiymati 1 mlrd so‘m va davlat ulushi 100 foiz deb olinadi. Davlatning mavjud aksiyalari soni o‘zgarmagan holda yangi aksiyalar xususiy investorlarga joylashtirilsa, davlatning nisbiy ulushini 75 foizgacha kamaytirish mumkin.

Bunda yangi investorlar aksiyadorlik jamiyatining 25 foiz ulushiga ega bo‘ladi, jalb qilingan mablag‘ esa aksiyadorlik jamiyatining kapitaliga yo‘naltiriladi. Xuddi shu tamoyil asosida davlat ulushini 51 foiz yoki 25 foizgacha kamaytirish bo‘yicha ham alohida moliyaviy ssenariylar ishlab chiqish mumkin.

Bunda davlatning ulushi quyidagi umumiy formula orqali aniqlanadi:

$D_1 = D_0 / (D_0 + Y)$

bu yerda:

D_0 - emissiyadan oldingi davlat aksiyalari soni;

Y - qo‘shimcha emissiya orqali chiqarilgan yangi aksiyalar soni;

D_1 - emissiyadan keyingi davlatning nisbiy ulushi.

Masalan, davlat ulushini 75 foizga tushirish uchun yangi aksiyalar hajmi davlatning mavjud aksiyalari sonining uchdan bir qismiga teng bo‘lishi lozim. Davlat ulushini 51 foizga kamaytirishda esa yangi investorlar tomonidan sotib olinadigan aksiyalar hajmi davlatning dastlabki aksiyalariga nisbatan sezilarli darajada ko‘proq bo‘ladi. 25 foizlik davlat ulushiga erishish esa aksiyadorlik kapitalining katta qismini yangi investorlar hisobidan shakllantirishni talab qiladi.

Mazkur mexanizmning asosiy iqtisodiy afzalligi shundaki, davlat o‘zidagi mavjud aksiyalarni sotmasdan turib, aksiyadorlik jamiyatiga xususiy kapitalni jalb qilishi mumkin. Natijada davlatning nominal aksiyalari saqlanib qoladi, biroq umumiy aksiyalar sonining ko‘payishi hisobiga uning nisbiy ulushi kamayadi.

Shu bilan birga, qo‘shimcha emissiya korporativ nazoratning o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Davlat ulushi 75 foizdan yuqori bo‘lgan holatda u aksiyadorlik jamiyatida kuchli nazoratni saqlab qoladi. 51 foizlik ulushda ham davlat qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi mavqega ega bo‘lishi mumkin. 25 foizlik darajaga tushilganda esa davlatning bevosita nazorat imkoniyatlari sezilarli darajada qisqaradi. Shu sababli emissiya hajmini belgilashda nafaqat jalb qilinadigan kapital, balki davlatning strategik nazorat darajasi ham hisobga olinishi kerak.

Bunday mexanizmning yana bir muhim jihati aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy salohiyati bilan bog‘liq. Qo‘shimcha emissiyadan olingan mablag‘lar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnologik yangilash, yangi investitsion loyihalarni moliyalashtirish va moliyaviy barqarorlikni oshirishga

yo‘naltirilishi mumkin. Demak, davlat ulushining kamayishi korxonaning rivojlanish uchun qo‘shimcha moliyaviy resurslar olishi bilan bir vaqtda amalga oshadi.

Biroq mazkur mexanizmning ayrim cheklovlari ham mavjud. Birinchidan, aksiyadorlik jamiyatining aksiyalariga yetarli bozor talabi bo‘lmasa, qo‘shimcha emissiyani muvaffaqiyatli joylashtirish qiyinlashadi. Ikkinchidan, katta hajmdagi yangi aksiyalar taklifi aksiyalar bozor narxiga bosim o‘tkazishi mumkin. Uchinchidan, yangi aksiyadorlarning kirib kelishi mavjud aksiyadorlar manfaatlari va korporativ boshqaruv muvozanatiga ta’sir qilishi mumkin.

Shu sababli O‘zbekiston sharoitida qo‘shimcha emissiyani bosqichma-bosqich amalga oshirish, investorlar talabini oldindan baholash va aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy holatidan kelib chiqib individual emissiya strategiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

O‘tkazilgan tahlil asosida davlat ishtirokini qisqartirish va aksiyadorlik jamiyatlarining kapital bazasini kengaytirish bo‘yicha quyidagi taklif qilish mumkin:

Birinchidan, qo‘shimcha aksiyalar emissiyasini davlat aktivlarini xususiylashtirishning muqobil mexanizmi sifatida qo‘llash maqsadga muvofiq. Bunda mavjud davlat aksiyalarini sotish va yangi aksiyalar chiqarishning huquqiy hamda moliyaviy natijalari alohida baholanishi lozim.

Ikkinchidan, emissiya hajmini davlat nazoratining strategik chegaralari asosida belgilash zarur. Xususan, 75, 51 va 25 foizlik davlat ulushlari bo‘yicha alohida moliyaviy ssenariylar ishlab chiqish davlat ishtirokini bosqichma-bosqich optimallashtirish imkonini beradi.

Uchinchidan, qo‘shimcha emissiyadan jalb qilingan mablag‘lardan maqsadli foydalanish mexanizmini kuchaytirish lozim. Mablag‘larning asosiy qismini modernizatsiya, texnologik yangilash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va investitsion loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, minoritar aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Qo‘shimcha emissiya jarayonida axborot shaffofligi, aksiyalarni joylashtirish shartlarining ochiqligi va mavjud aksiyadorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish ta’minlanishi kerak.

Beshinchidan, emissiya jarayonini kapital bozori imkoniyatlariga mos ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim. Bu aksiyalar taklifining bozor talabidan keskin oshib ketishi va natijada aksiyalar narxiga salbiy bosim yuzaga kelishining oldini olishga xizmat qiladi.

Oltinchidan, davlat ishtirokidagi yirik aksiyadorlik jamiyatlari uchun individual emissiya strategiyalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunda aksiyadorlik jamiyatining bozor qiymati, investitsion ehtiyojlari, mavjud qarz majburiyatlari, davlatning strategik manfaatlari va potensial investorlar talabi birgalikda baholanishi lozim.

Yettinchidan, qo‘shimcha emissiya va IPO/SPO mexanizmlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq. Davlat ulushini qisqartirish jarayonida yagona moliyaviy instrumentga tayanish o‘rniga, aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy holati, investitsion ehtiyojlari va bozor kon’yunkturasidan kelib chiqib, mavjud aksiyalarni joylashtirish hamda qo‘shimcha aksiyalar emissiyasini uyg‘unlashtirish mumkin. Bunday yondashuv davlat ulushini bosqichma-bosqich optimallashtirish bilan birga, xususiy kapitalni jalb qilish va aksiyadorlik jamiyatining kapital bazasini kengaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari davlat ishtirokini qisqartirish jarayonida mavjud davlat aksiyalarini sotish bilan bir qatorda, qo‘shimcha aksiyalar emissiyasidan ham foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi. Mazkur mexanizmning asosiy afzalligi shundaki, davlat o‘zidagi mavjud aksiyalarni bevosita sotmasdan turib, yangi aksiyalarni xususiy investorlarga joylashtirish orqali aksiyadorlik jamiyatidagi nisbiy ulushini kamaytirishi mumkin.

Shu bilan birga, qo‘shimcha emissiya universal mexanizm emas. Uning samaradorligi aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy holati, bozor qiymati, investorlar talabi, kapital bozorining likvidligi va davlatning strategik manfaatlariga bog‘liq. Shu sababli O‘zbekistonda mazkur instrumentni bosqichma-bosqich, individual yondashuv asosida hamda IPO/SPO kabi kapital bozori mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirgan holda qo‘llash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://www.gazeta.uz/ru/2025/04/23/privatization-program/
2. https://www.spot.uz/oz/2025/04/23/privatization-2025/
3. Eckbo B.E. Corporate finance and ownership structure: State ownership and capital market development. – 2019.
4. Boubakri N., Saffar W. State Ownership and Debt Choice: Evidence from Privatization // Journal of Financial and Quantitative Analysis. – 2018. – Vol. 53.

5. Boubakri N., Guedhami O., Kwok C.C.Y., Wang H. The effect of privatization on corporate governance and firm performance: Evidence from developing countries. – 2019.
6. Boubakri N., Chen R., El Ghoul S., Guedhami O., Nash R. State ownership and stock liquidity: Evidence from privatization // Journal of Corporate Finance. – 2020. – Vol. 65. – Article 101763.
7. Мальгинов Г.Н., Радыгин А.Д. Динамика приватизации и состояние имущественных отношений: актуальные тенденции // Экономическое развитие России. – 2021. – Т. 28. – № 8. – С. 47–57.
8. OECD. OECD Guidelines on Corporate Governance of State-Owned Enterprises 2024. – Paris: OECD Publishing, 2024.

FOYDA TUSHUNCHASINING LINGVOMADANIY TIZIMDA QADRIYAT SIFATIDA SHAKLLANISHI

Divanova Mohira Husanovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti stajor-o‘qituvchi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22160576

Annotatsiya. Maqolada “foyda” tushunchasining o‘zbek lingvomadaniy tizimda qadriyat sifatida shakllanishi ingliz tili bilan qiyosda tahlil qilinadi. “Foyda” konseptining qadriyatli qatlami axloqiy-diniy asosda (halol foyda, baraka, savob) mustahkamlanishi va bu jarayonda o‘zlashma leksikaning o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: “foyda” konsepti, qadriyat, lingvomadaniyat, aksiologiya, konseptning qadriyatli qatlami, axloqiy-diniy freym, qiyosiy tahlil.

Аннотация. В статье в сопоставлении с английским языком анализируется формирование концепта “выгода” (foyda) как ценности в узбекской лингвокультуре. Раскрывается закрепление ценностного слоя концепта на морально-религиозной основе и роль заимствованной лексики.

Ключевые слова: концепт “выгода”, ценность, лингвокультура, аксиология, ценностный слой концепта, морально-религиозный фрейм.

Abstract. The article examines, in comparison with English, the formation of the concept “benefit” (foyda) as a value within the Uzbek linguoculture. It shows how the value layer of the concept is consolidated on a moral-religious basis (lawful benefit, baraka, savob) and reveals the role of borrowed lexis in this process.

Keywords: concept of benefit, value, linguoculture, axiology, value layer of the concept, moral-religious frame, comparative analysis.

Kirish. Har qanday madaniyatning o‘zagida qadriyatlar tizimi yotadi. Qadriyatlar til orqali kodlashadi va konseptlarning eng chuqur – qadriyatli qatlamida saqlanadi. V.I. Karasik konseptni notional, obrazli va qadriyatli qatlamlardan tashkil topgan mental birlik sifatida ta’riflar ekan, aynan qadriyatli qatlamni konseptning markaziy belgisi deb hisoblaydi [9. 2002:B.129]. V.A. Maslova ham lingvomadaniyat birliklari etnosning qadriyatlar tizimini o‘zida jamlashini ta’kidlaydi [10. 2001:B.47]. Shu nuqtai nazardan “foyda” shunchaki iqtisodiy tushuncha emas, balki o‘zbek lingvomadaniy tizimida shakllangan muhim qadriyat-konseptdir.

Ushbu maqolaning maqsadi – “foyda” tushunchasining lingvomadaniy tizimda qadriyat sifatida shakllanish mexanizmlarini aniqlash va uni ingliz tilidagi muqobili bilan qiyoslashdan iborat. Tadqiqotda konseptual, komponent va qiyosiy-lingvokulturologik tahlil metodlari qo‘llanildi.

Asosiy qism. “Foyda” konseptining leksik ifodasi o‘zbek tilida keng maydonni qamrab oladi: foyda, naf, manfaat, daromad, baraka, savob. Bu birliklarning muhim qismi – foyda, naf, manfaat – arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, ular o‘zlashish jarayonida axloqiy va diniy semantik yukni ham olib kelgan [5. 2023:B.1185]. Aynan shu o‘zlashma qatlam “foyda”ning qadriyatga aylanishida asosiy lisoniy poydevor vazifasini o‘tagan.

“Foyda”ning qadriyatlashuvi bir necha mexanizm orqali kechadi. Birinchidan, axloqiy-diniy asos: o‘zbek dunyoqarashida foyda halollik bilan chambarchas bog‘lanadi – “halol foyda”, “baraka”, “savob” tushunchalari bu bog‘liqlikni mustahkamlaydi. Foyda faqat moddiy emas, balki ma’naviy o‘lchamga ega qadriyat sifatida qaraladi. Ikkinchidan, mehnat etikasi: qadrlanadigan foyda – halol mehnat evaziga topilgan foyda. Uchinchidan, me’yor tamoyili: isrofgarchilik va ochko‘zlik qoralanib, o‘lchovli foyda ma’qullanadi.

To‘rtinchidan, jamoaviylik: foyda ko‘pincha shaxsiy emas, oila va jamoa manfaati doirasida qadriyatlashadi.

Ingliz lingvomadaniyatida esa “benefit / profit” konsepti asosan utilitar va individual qadriyat sifatida shakllangan bo‘lib, u shaxsiy muvaffaqiyat, samaradorlik va foydalilik (utility) tushunchalari bilan bog‘lanadi. “Foyda / benefit” konseptining ikki tildagi semantik maydoni va uning madaniy shartlanganligi qiyosiy tadqiqotda ko‘rsatib berilgan [4. 2026]. Shunday qilib, bir xil bazaviy tushuncha ikki madaniyatda turli aksiologik asosda – o‘zbekchada axloqiy-jamoaviy, inglizchada utilitar-individual qadriyat sifatida qadriyatlashadi.

Konseptning qadriyatli mazmuni til sathida turli vositalar orqali namoyon bo‘ladi. Baholovchi leksika, jumladan qiymatni ifodalovchi sifatlar, foydaning ijobiy bahosini kuchaytiradi [3. 2025:B.223]. Evfemistik ifodalar foydani yumshoq va ijtimoiy maqbul shaklda taqdim etadi [6. 2025:B.113]. Frazeologik va paremiologik birliklar esa foyda haqidagi xalq qadriyatlarini ixcham kodlaydi; bunday birliklarni bir tildan ikkinchisiga o‘girish ularning madaniy mazmunini saqlashni talab qiladi [8. 2021:B.89]. Diskursda foyda haqidagi muloqot ishtirokchilararo munosabat – tenor orqali ham voqelanadi [7. 2024:B.138], madaniyatlararo qiyosiy pragmatika esa bu qadriyatning nutqiy xatti-harakatdagi milliy o‘ziga xosligini ochadi [1. 2023:B.122; 2. 2023:B.96].

Xulosa. Tahlil quyidagi xulosalarga olib keladi. “Foyda” o‘zbek lingvomadaniy tizimda bazaviy qadriyat-konsept sifatida shakllangan bo‘lib, uning qadriyatli qatlami axloqiy-diniy asosda (halol foyda, baraka, savob) mustahkamlangan. Bu qadriyatlashuvda arab tilidan o‘zlashgan leksika muhim lisoniy poydevor bo‘lib xizmat qilgan. Ingliz tilidagi “benefit” konsepti bilan qiyos esa “foyda” qadriyatining o‘ziga xos milliy-madaniy tabiatini yaqqol ko‘rsatadi: o‘zbekchada u axloqiy-jamoaviy, inglizchada utilitar-individual asosda voqelanadi. Ushbu natijalar aksiologik konseptlarni lingvomadaniy jihatdan qiyosiy o‘rganish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abidova R.K. A cross-cultural study of the speech act of gratitude in English and Uzbek // Aktual’nye voprosy sovremennoy nauki i obrazovaniya. – 2023. – B. 122–124.

2. Abidova R.K. The structure of SMS language (Short Message Service) in expressing gratitude // Sovremennye nauchnye issledovaniya: aktual’nye voprosy, dostizheniya i innovatsii. – 2023. – B. 96–97.

3. Bahramovna M.G. Ingliz tilida qiymat, jismoniy xususiyat, inson hatti-harakatlarini ifodalovchi sifatlar // Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2025. – №1. – B. 223–229.

4. Divanova M. A comparative semantic field analysis of “benefit” across English and Uzbek cultures // Innovation Science and Technology. – 2026. – Vol. 2, No. 6.

5. Divanova M.H. Lexical semantic characteristics of Arabisms in Uzbek and English languages // Science and Education. – 2023. – Vol. 4, No. 1. – B. 1185–1187.

6. Eshchanova M. Classical classifications of euphemisms: semantic, pragmatic and functional approaches // O‘zbekiston–2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari: IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – 2025. – №1.4. – B. 113–115.

7. Matnazarova K. Types of tenor in discourse linguistics // Builders of the Future. – 2024. – Vol. 4, No. 4. – B. 138–141.

8. Rokhatoy A. Semantic and idiomatic features of interpreting phraseological units from English into Uzbek // Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT). – 2021. – Vol. 12, No. 4. – B. 89–92.

9. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.

10. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие. – М.: Академия, 2001. – 208 с.

11. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. 2-е изд. – М.: Академический проект, 2001. – 990 с.

TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHI TANLOV ERKINLIGINI PEDAGOGIK BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

Davlatova Go‘zalaxon Davlatjonovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti magistranti
Farg‘ona shahar 23-o‘rta ta’lim maktabi matematika o‘qituvchisi
E-mail: gozalaxondavlatova@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22160649

Annotatsiya. Ushbu tezisda ta’lim jarayonida o‘quvchi tanlov erkinligini pedagogik boshqarishning nazariy asoslari yoritilgan. O‘quvchining mustaqil tanlov qilishi, mas’uliyatini oshirish va ta’lim motivatsiyasini rivojlantirishda pedagogik boshqaruvning o‘rni tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: ta’lim jarayoni, o‘quvchi, tanlov erkinligi, pedagogik boshqaruv, mustaqillik, mas’uliyat, ta’lim motivatsiyasi, individual yondashuv.
Аннотация. В тезисе раскрываются теоретические основы педагогического управления свободой выбора учащегося в образовательном процессе. Анализируется роль педагогического управления в развитии самостоятельности, ответственности и учебной мотивации учащихся.
Ключевые слова: образовательный процесс, учащийся, свобода выбора, педагогическое управление, самостоятельность, ответственность, учебная мотивация, индивидуальный подход.
Abstract. The thesis examines the theoretical foundations of pedagogical management of students’ freedom of choice in the educational process. The role of pedagogical management in developing students’ independence, responsibility, and learning motivation is analyzed.
Keywords: educational process, student, freedom of choice, pedagogical management, independence, responsibility, learning motivation, individual approach.

Kirish**.** Bugungi ta’lim tizimida o‘quvchini faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi subyekt sifatida emas, balki ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, ta’lim resurslarining ko‘payishi va individual ta’lim ehtiyojlarining xilma-xillashuvi o‘quvchiga muayyan darajada tanlov imkoniyatini berishni pedagogik zaruratga aylantirmoqda. Bunday sharoitda ta’limning samaradorligi faqat pedagog tomonidan belgilangan faoliyat bilan emas, balki o‘quvchining o‘z ta’lim faoliyatiga nisbatan munosabati, mustaqil qaror qabul qilishi va natija uchun mas’uliyatni his etishi bilan ham belgilanadi. O‘quvchi tanlov erkinligi tushunchasi pedagogik nuqtayi nazardan o‘quvchining ta’lim jarayonida mavjud muqobil variantlar orasidan maqsadga muvofiq qaror qabul qilish imkoniyatini anglatadi. Bunda erkinlik mutlaq mustaqillik shaklida emas, balki pedagogik maqsad, ta’lim mazmuni va o‘quvchining yosh hamda individual xususiyatlari bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi.

Shu jihatdan, o‘quvchi tanlovini pedagogik boshqarish masalasi zamonaviy pedagogikaning muhim nazariy muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki pedagogning haddan tashqari nazorati o‘quvchining tashabbuskorligini pasaytirishi mumkin bo‘lsa, boshqaruvning yetarli darajada tashkil etilmasligi esa ta’lim jarayonining maqsadga yo‘naltirilganligini susaytiradi.

Pedagogik nazariyada ta’lim oluvchining shaxsiy faolligi va mustaqilligini rivojlantirish g‘oyasi uzoq tarixiy ildizlarga ega. J.J. Russo, J.Dyui, M.Montessori kabi pedagog va mutafakkirlarning qarashlarida ta’lim oluvchining tabiiy qiziqishi, mustaqil faoliyati va individual imkoniyatlarini hisobga olish muhim tamoyil sifatida qaralgan. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda esa ushbu g‘oyalar o‘quvchining subyektlik pozitsiyasi, avtonomligi va ta’lim jarayonidagi faol tanlovi bilan bog‘lanmoqda.

O‘quvchi tanlov erkinligini pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish, avvalo, “erkinlik” tushunchasining mazmunini aniqlashtirishni talab etadi. Pedagogik erkinlik o‘quvchining xohlagan faoliyatni hech qanday chegarasiz amalga oshirishi emas. Aksincha, u belgilangan ta’limiy maqsad doirasida mavjud imkoniyatlar orasidan o‘ziga maqbul variantni tanlash, tanlovini asoslash va uning natijasi uchun mas’uliyatni qabul qilish imkoniyatidir. Masalan, o‘qituvchi biror mavzuni o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchiga topshiriqni yozma ish, taqdimot, loyiha, jadval yoki og‘zaki izoh shaklida bajarish imkoniyatini yaratishi mumkin. Bu holatda ta’lim maqsadi umumiy bo‘lib qoladi, biroq unga erishish usuli

o‘quvchining qiziqishi va imkoniyatlariga mos ravishda tanlanadi. Natijada o‘quvchi o‘z faoliyatining muayyan qismini mustaqil belgilaydi. Tanlov erkinligini pedagogik boshqarishning muhim jihati tanlov chegaralarini oqilona belgilashdir. Pedagog o‘quvchiga haddan tashqari ko‘p variant taqdim etsa, tanlovning o‘zi qo‘shimcha psixologik yuklamaga aylanishi mumkin. Aksincha, tanlov imkoniyatining juda tor bo‘lishi o‘quvchining mustaqil qaror qabul qilish ehtiyojini qondirmaydi. Shuning uchun pedagogik boshqaruv “erkinlik - chegaralanganlik - mas’uliyat” o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashi lozim. Mazkur muammoni tushuntirish uchun tanlovni pedagogik boshqarishning uch bosqichli modelini taklif etish mumkin.

Birinchi bosqich - **yo‘naltirilgan tanlov**. Ushbu bosqichda pedagog o‘quvchiga cheklangan miqdordagi muqobil variantlarni taqdim etadi va ularning har biri haqida qisqa tavsif beradi. Bu usul, ayniqsa, mustaqil qaror qabul qilish tajribasi yetarli bo‘lmagan o‘quvchilar uchun muhimdir.

Ikkinchi bosqich - **mustaqil tanlov**. O‘quvchi mavjud imkoniyatlarni tahlil qilib, o‘z maqsadi va qiziqishiga mos variantni mustaqil ravishda belgilaydi. Pedagog bu jarayonda nazoratchidan ko‘ra maslahatchi va fasilitator vazifasini bajaradi.

Uchinchi bosqich - **refleksiv tanlov**. Bu bosqichda o‘quvchi nafaqat tanlov qiladi, balki tanlovining sabablarini, natijalarini va kelgusida qanday takomillashtirish mumkinligini tahlil qiladi. Mazkur bosqich o‘quvchining metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega.

O‘quvchi tanlov erkinligini pedagogik boshqarishda o‘qituvchining roli ham o‘zgaradi. An’anaviy ta’lim modelida o‘qituvchi asosan axborot beruvchi va nazorat qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo‘lsa, tanlovga asoslangan ta’lim muhitida u ta’lim jarayonini loyihalovchi, yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va refleksiyani tashkil etuvchi pedagog sifatida faoliyat yuritadi. Bunda pedagogning vazifasi o‘quvchining o‘rniga qaror qabul qilish emas, balki uning to‘g‘ri qaror qabul qilishi uchun zarur pedagogik sharoitni yaratishdan iborat. Jumladan, o‘quvchiga maqsadni tushuntirish, tanlov variantlarini aniq ifodalash, mezonlarni belgilash, zarur axborot bilan ta’minlash, xatolardan qo‘rqmaslik muhitini yaratish va tanlovdan keyingi refleksiyani tashkil etish muhim hisoblanadi. Tanlov erkinligi o‘quvchining ichki motivatsiyasi bilan ham bevosita bog‘liq. O‘quvchi o‘z faoliyatining muayyan qismini mustaqil belgilash imkoniga ega bo‘lganida, unda “mening tanlovim” degan subyektiv munosabat shakllanadi. Bu esa o‘quv faoliyatiga mas’uliyat bilan yondashish, topshiriqni bajarishga qiziqish va natijani yaxshilashga intilish uchun motivatsion asos yaratadi. Biroq tanlov erkinligi pedagogik nazoratsizlik bilan tenglashtirilmasligi kerak. Ta’lim jarayonida o‘quvchining erkinligi umumiy pedagogik maqsadlar, davlat ta’lim standartlari, axloqiy me’yorlar va o‘quvchining rivojlanish darajasi bilan muvofiqlashtiriladi. Shu sababli pedagogik boshqaruvning mohiyati tanlovni bekor qilishda emas, balki uni maqsadli, ongli va mas’uliyatli faoliyatga aylantirishda namoyon bo‘ladi.

Mazkur jarayonda baholash tizimi ham muhim ahamiyatga ega. Agar pedagog faqat yakuniy natijani baholasa, o‘quvchining tanlov jarayoni, qaror qabul qilish mantig‘i va mustaqil faoliyati yetarlicha e’tiborga olinmasligi mumkin. Shu sababli tanlovga asoslangan topshiriqlarda jarayonni baholash, o‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchi tanlovini boshqarishning yana bir muhim sharti - individual yondashuvdir. Bir xil darajadagi erkinlik barcha o‘quvchilar uchun bir xil natija bermaydi. Mustaqil ishlash ko‘nikmasi rivojlangan o‘quvchiga kengroq tanlov imkoniyatlari berilishi mumkin. Qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoji yuqori bo‘lgan o‘quvchiga esa dastlab tanlov variantlarini kamaytirish, namunalar ko‘rsatish va qo‘shimcha yo‘riqnoma berish talab etiladi. Shunday qilib, pedagogik boshqaruvni “o‘quvchini boshqarish” emas, balki “o‘quvchining mustaqil faoliyatini boshqariladigan pedagogik muhit orqali qo‘llab-quvvatlash” sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuvda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabat subyekt-subyekt xarakteriga ega bo‘ladi.

Xulosa

Ta’lim jarayonida o‘quvchi tanlov erkinligini pedagogik boshqarish zamonaviy ta’limning shaxsga yo‘naltirilganlik, individuallashtirish va faoliyatga asoslanganlik tamoyillari bilan uzviy bog‘liqdir. Tanlov imkoniyatining mavjudligi o‘quvchining mustaqilligi, mas’uliyati, motivatsiyasi va refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, samarali pedagogik boshqaruv o‘quvchi erkinligini cheklashga emas, balki uni maqsadli faoliyatga yo‘naltirishga qaratilishi lozim. Bunda pedagog tanlov variantlarini ishlab chiqadi, ularning chegaralarini belgilaydi, o‘quvchini qaror qabul qilishga tayyorlaydi va tanlov natijasini refleksiv tahlil qilishga yo‘naltiradi. Shu asosda o‘quvchi tanlov erkinligini pedagogik boshqarishning samarali modeli **“maqsad - muqobil variantlar - mustaqil tanlov - faoliyat - natija - refleksiya”** ketma-ketligi asosida tashkil etilishi mumkin. Mazkur model o‘quvchining ta’lim

jarayonidagi subyektlik maqomini mustahkamlash bilan birga, pedagogik boshqaruv va o‘quvchi avtonomligi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash imkonini beradi. Demak, zamonaviy pedagog uchun asosiy vazifa o‘quvchiga shunchaki tanlash imkoniyatini berish emas, balki uni ongli tanlov qilishga, o‘z qarorini asoslashga va uning natijasi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga o‘rgatishdan iborat. Aynan shunday yondashuv ta’lim jarayonida mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor va mas’uliyatli shaxsni shakllantirishning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanboyev J., To‘raqulov X.A., Alqarov I.Sh., Usmanov N.O‘. **Pedagogika**. Toshkent: Fan va texnologiya, 2011.
2. Mavlonova R.A., To‘rayeva O.T., Holiqberdiyev K.H. **Pedagogika**. Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. **Pedagogik texnologiya asoslari**. Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
4. Sayidahmedov N.S. **Yangi pedagogik texnologiyalar**. Toshkent: Moliya, 2003.
5. Azizxo‘jayeva N.N. **Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat**. Toshkent: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
6. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. **Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari**. Toshkent: Fan, 2006.
7. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. **Ta’limda innovatsion texnologiyalar**. Toshkent: Iste’dod, 2008.
8. Deci E.L., Ryan R.M. **Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior**. New York: Plenum Press, 1985.
9. Ryan R.M., Deci E.L. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being // **American Psychologist**. 2000. Vol. 55. No. 1. P. 68–78.
10. Vygotsky L.S. **Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes**. Cambridge: Harvard University Press, 1978.

THE ROLE OF MYTHOLOGICAL AND SYMBOLIC IMAGES IN REVEALING ADOLESCENT CHARACTER IN LITERATURE

Dilnavozxon Yokubjonova Serobjon qizi
Kokand University, Independent Researcher
Gmail: yokubjonovadilnavoz@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22160738

ABSTRACT. The present study investigates the role of mythological and symbolic images in revealing adolescent character in literary works. Mythological archetypes and symbolic representations serve as significant artistic devices through which authors portray psychological development, emotional conflicts, and identity formation during adolescence. The research applies qualitative literary analysis to examine how mythological motifs and symbolic systems contribute to the construction of adolescent protagonists and enrich the aesthetic value of literary narratives. The findings demonstrate that mythological and symbolic imagery not only deepens characterization but also transforms individual experiences into universal representations of human growth and self-discovery. Furthermore, these artistic elements establish a connection between personal psychological development and broader cultural meanings, allowing readers to interpret adolescent experiences on multiple levels. The study concludes that mythology and symbolism remain essential literary tools for representing the complexities of adolescent consciousness and development.

Keywords: mythology, symbolism, adolescent character, archetypes, identity formation, literary imagery, psychological development, aesthetic function.

INTRODUCTION

Throughout the history of literature, mythological and symbolic images have occupied a central position in the artistic representation of human experience. From ancient myths and legends to contemporary literary narratives, writers have employed symbolic systems to communicate ideas that transcend literal meaning. These artistic devices enable authors to explore psychological realities, cultural values, and existential questions that cannot always be expressed through direct narration. As a result, mythology and symbolism have become fundamental components of literary creativity and interpretation. The significance of mythological and symbolic imagery becomes particularly evident in literary works that focus on adolescence. Adolescence represents one of the most complex stages of human development, characterized by emotional instability, psychological transformation, social adaptation, and the search for personal identity. During this transitional period, young individuals encounter numerous challenges that shape their understanding of themselves and the world around them. Consequently, writers often utilize myths, archetypes, and symbols as effective means of portraying the inner struggles and developmental processes of adolescent protagonists. Mythological images provide a framework through which individual experiences can be connected to universal patterns of human behavior. Through archetypal figures such as heroes, mentors, tricksters, and seekers, adolescent characters become participants in timeless narratives of growth and transformation. These archetypes enable readers to recognize common aspects of human development while simultaneously appreciating the unique circumstances of individual characters.

Similarly, symbolic imagery serves as a powerful medium for expressing emotional and psychological realities. Symbols often function as bridges between the external world and the internal experiences of characters. Images such as roads, forests, rivers, birds, mountains, and mirrors frequently appear in literary works as representations of personal growth, uncertainty, freedom, self-discovery, and identity formation. Through these symbolic structures, authors create multidimensional portrayals of adolescent consciousness thatIn modern literary criticism, mythology and symbolism are no longer viewed merely as decorative literary devices. Instead, they are understood as structural and interpretative elements that shape readers’ understanding of texts. Scholars increasingly recognize that mythological and symbolic systems contribute significantly to character development, thematic coherence, and aesthetic complexity. This perspective is especially relevant in the study of adolescent literature, where psychological depth and identity formation constitute central concerns. The purpose of this article is to investigate the role of

mythological and symbolic images in revealing adolescent character in literary works. The study seeks to identify the major functions performed by mythological archetypes and symbolic representations in character construction and to evaluate their contribution to the artistic and psychological dimensions of literary narratives.

LITERATURE REVIEW

The relationship between mythology and literature has attracted the attention of scholars from various academic disciplines, including literary studies, psychology, anthropology, and cultural studies. One of the most influential theoretical approaches was developed by Carl Gustav Jung, whose concept of the collective unconscious provides an important framework for understanding mythological imagery. According to Jung (1968), archetypes are universal psychological patterns inherited through the collective unconscious and manifested in myths, dreams, and literary texts. These archetypes serve as symbolic representations of fundamental human experiences and developmental processes. Among the most prominent archetypes identified by Jung are the Hero, the Shadow, the Wise Old Man, the Mother, and the Self. In literary narratives, adolescent protagonists frequently embody aspects of the Hero archetype as they embark on journeys of self-discovery and personal transformation. Their struggles often reflect universal psychological conflicts associated with maturation and identity formation. Joseph Campbell further expanded the study of mythological structures through his theory of the Hero's Journey. In The Hero with a Thousand Faces, Campbell (2008) argues that myths from diverse cultures share a common narrative pattern consisting of departure, initiation, and return. This model closely parallels the developmental experiences of adolescence, during which individuals leave the security of childhood, confront challenges and uncertainties, and emerge with a more mature understanding of themselves and society. Northrop Frye (1957) contributed significantly to the study of symbolism in literature by emphasizing the structural role of symbolic imagery. According to Frye, symbols operate within larger systems of meaning that connect individual texts to broader cultural and literary traditions. Symbolic images allow authors to create thematic unity while simultaneously enriching the interpretative possibilities available to readers. Contemporary research has increasingly focused on the interaction between mythological archetypes and symbolic imagery in adolescent literature. Scholars argue that these artistic devices provide powerful means of representing psychological complexity and emotional development. Through mythological and symbolic structures, authors transform individual experiences into narratives that resonate across cultural and historical boundaries.

METHODOLOGY

This research employs a qualitative literary analysis approach based on descriptive, interpretative, and comparative methods. The study examines selected literary texts featuring adolescent protagonists in order to identify recurring mythological motifs and symbolic patterns associated with character development. The analysis proceeds through three interconnected stages. First, mythological archetypes are identified and examined in relation to adolescent identity formation. Second, symbolic images are analyzed to determine their Third, the relationship between imagery and characterization is explored in order to evaluate how artistic devices contribute to the overall meaning and aesthetic value of literary narratives. The methodological framework combines elements of archetypal criticism, symbolic analysis, and psychological literary criticism. This interdisciplinary approach allows for a comprehensive understanding of the functions performed by mythological and symbolic systems within adolescent characterization.psychological and emotional significance. extend beyond simple characterization.

RESULTS

The analysis demonstrates that mythological and symbolic images play a fundamental role in revealing the psychological and emotional dimensions of adolescent characters. The findings indicate that literary authors employ mythological archetypes to transform individual experiences into universal narratives of growth, struggle, and self-discovery. One of the most significant findings concerns the presence of archetypal patterns within adolescent characterization. Many protagonists experience developmental journeys that resemble the mythological hero's quest. Similar to archetypal heroes, adolescent characters leave the familiar world of childhood, encounter various challenges, and gradually achieve a deeper understanding of themselves and their surroundings. This narrative structure enables

readers to perceive adolescent development as both a personal and universal experience.The study also reveals that symbolic imagery functions as a powerful mechanism for expressing emotional complexity. Literary symbols often represent psychological conditions that cannot easily be communicated through direct description. For instance, roads frequently symbolize personal journeys and life choices, forests represent uncertainty and self-exploration, while rivers symbolize change and transformation. Through these symbolic structures, readers gain access to the internal worlds of adolescent characters. Furthermore, mythological and symbolic systems contribute significantly to identity formation within literary narratives. Adolescent protagonists often confront symbolic obstacles that mirror real psychological conflicts associated with maturity. These conflicts include the search for belonging, the desire for independence, and the struggle to establish a coherent sense of self.

Another important finding concerns the aesthetic function of symbolic imagery. Recurrent symbols create thematic unity and enhance narrative coherence. Through repeated images and motifs, authors establish connections between individual scenes and broader thematic concerns. Consequently, symbolic systems enrich both characterization and artistic expression.

DISCUSSION

The results of this study confirm that mythological and symbolic images are not merely decorative elements within literary texts. Instead, they function as essential components of characterization and narrative construction. Their importance lies in their ability to communicate psychological experiences in a manner that transcends literal representation. From a psychological perspective, mythological archetypes provide a framework through which adolescent development can be understood. Jung's theory of archetypes suggests that certain symbolic patterns recur across cultures because they reflect universal aspects of human experience. The appearance of heroic journeys, transformational quests, and symbolic trials within adolescent literature supports this theoretical perspective. Such archetypes enable authors to connect individual developmental experiences with broader patterns of human growth. The symbolic dimension of adolescent literature also deserves particular attention. Adolescence is often characterized by emotional ambiguity, uncertainty, and internal conflict. Symbols provide an effective means of representing these experiences because they allow multiple interpretations simultaneously. A single image may express fear, hope, transformation, and self-discovery depending on its narrative context. This interpretative flexibility contributes to the richness and complexity of literary texts. Moreover, the findings suggest that mythological and symbolic systems enhance reader engagement. Readers actively participate in the interpretation of symbols and archetypes, creating deeper intellectual and emotional connections with literary narratives. This interactive process contributes to the lasting impact of adolescent literature and explains why many works continue to resonate across generations. The study also highlights the cultural significance of mythological and symbolic imagery. Although myths originate within specific historical and cultural contexts, many symbolic patterns possess universal relevance. Consequently, adolescent literature often transcends cultural boundaries by addressing fundamental questions of identity, belonging, and personal transformation.

Another important aspect concerns the relationship between symbolism and aesthetic value. Literary symbols create artistic depth by extending meaning beyond literal events. Through symbolic imagery, ordinary experiences acquire broader philosophical and psychological significance. This transformation contributes substantially to the artistic quality of literary works and reinforces the importance of symbolism as a literary device.

CONCLUSION

The present study has examined the role of mythological and symbolic images in revealing adolescent character in literature. The findings demonstrate that mythological archetypes and symbolic representations serve as essential tools for portraying psychological development, emotional complexity, and identity formation.

Mythological structures enable authors to connect individual experiences with universal patterns of human growth, while symbolic imagery provides insight into the inner worlds of adolescent protagonists. Together, these artistic devices contribute to the creation of multidimensional characters whose experiences resonate with readers across different cultural and historical contexts. The study further confirms that

mythology and symbolism perform both aesthetic and psychological functions within literary narratives. They enrich characterization, strengthen thematic coherence, and enhance readers' understanding of adolescent development. Their ability to transform personal experiences into universal representations of human existence explains their enduring significance in literary art.

In conclusion, mythological and symbolic images remain indispensable components of adolescent literature. Their integration into literary narratives not only deepens artistic expression but also provides valuable insight into the complexities of human growth, self-discovery, and identity formation. Future research may further investigate the role of symbolic systems in contemporary adolescent fiction and explore how mythological archetypes continue to evolve within modern literary traditions.

REFERENCES

1. Abrams, M. H. (1999). A Glossary of Literary Terms. Heinle & Heinle.
2. Bettelheim, B. (1976). The Uses of Enchantment. Vintage Books.
3. Booker, C. (2004). The Seven Basic Plots: Why We Tell Stories. Continuum.
4. Campbell, J. (2008). The Hero with a Thousand Faces. New World Library.
5. Eagleton, T. (2008). Literary Theory: An Introduction. University of Minnesota Press.
6. Eliade, M. (1963). Myth and Reality. Harper & Row.
7. Frye, N. (1957). Anatomy of Criticism. Princeton University Press.
8. Jung, C. G. (1968). The Archetypes and the Collective Unconscious. Princeton University Press.
9. Langer, S. (1957). Problems of Art. Charles Scribner's Sons.
10. Lotman, Y. M. (1990). Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture. Indiana University Press.
11. Ricoeur, P. (1976). The Symbolism of Evil. Beacon Press.
12. Tyson, L. (2015). Critical Theory Today. Routledge.
13. Barry, P. (2017). Beginning Theory: An Introduction to Literary and Cultural Theory. Manchester University Press.
14. Bennett, A., & Royle, N. (2016). An Introduction to Literature, Criticism and Theory. Routledge.
15. Guerin, W. L. (2010). A Handbook of Critical Approaches to Literature. Oxford University Press.

XITOY TAJRIBASIDA TARBIYALANUVCHILARNING KOGNITIV RIVOJLANISHINI QO‘LLAB-QUVVATLASHGA XIZMAT QILUVCHI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi
University of Business and Science oliy ta’lim muassasasi, Maktabgacha-Boshlang‘ich ta’lim va sport faoliyati kafedrasi o‘qituvchisi
e.mail: shaxnozaxojimirzayeva@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22160816

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xitoy maktabgacha ta’limi tajribasida maktabgacha tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalarning mazmuni, pedagogik xususiyatlari va amaliy imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda kognitiv rivojlanish ishchi xotira, diqqat, rejalashtirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, muammo yechish, nutqiy tafakkur, ijtimoiy hamkorlik va bilishga bo‘lgan motivatsiya kabi o‘zaro bog‘liq komponentlar majmuasi sifatida talqin etilgan.samaradorligi empirik va nazariy manbalar asosida yoritilgan. Xitoy tajribasida keng qo‘llaniladigan o‘yin asosidagi ta’lim, Anji Play, Conceptual Play World, metakognitiv yondashuv, tadqiqotga asoslangan faoliyat, konstruktiv faoliyat hamda ilmiy izlanishga yo‘naltirilgan kitob o‘qish texnologiyalarining rivojlantiruvchi imkoniyatlari umumlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: Xitoy maktabgacha ta’limi, maktabgacha tayyorlov guruhi, kognitiv rivojlanish, pedagogik texnologiya, o‘yin asosidagi ta’lim, Anji Play, Conceptual PlayWorld, metakognitiv yondashuv, ijro funksiyalari, tadqiqot faoliyati, muammoli vaziyat, refleksiya, maktabga tayyorgarlik, integrativ ta’lim, xorijiy tajriba, ta’lim muhiti.

Maktabgacha tayyorlov bosqichidagi bolalarni zamonaviy talablar darajasida umumiy o‘rta ta’limga tayyorlash hamda ularda dastlabki o‘quv motivatsiyasini shakllantirish jahon pedagogikasi oldida turgan eng dolzarb strategik vazifalardan biri sanaladi. Bola shaxsining kelgusida maktab muhitiga oson moslashishi, fan asoslarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi hamda mustaqil, kreativ fikrlash qobiliyatlarining shakllanish darajasi bevosita maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘llaniladigan o‘qitish texnologiyalarining maqsadli yo‘naltirilganligiga bog‘liq. Shu sababli, dars jarayonlarini tashkil etayotgan pedagog-tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish metodikasi nazariyasini chuqur bilishi bilan birga, jahon miqyosida o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsatgan Xitoy Xalq Respublikasining muvaffaqiyatli pedagogik yondashuvlarini milliy ta’lim standartlariga unumli adaptatsiya qila olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari lozim.

Ayniqsa, 6-7 yoshli bolalarni maktab hayotiga tayyorlash davrida ularning aqliy faolligini oshirish, mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish va ta’limiy refleksiyani yuzaga keltirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ushbu munosabat bilan, tadqiqotimiz doirasida xalqaro maktabgacha ta’lim amaliyotining eng ilg‘or tendensiyalarini o‘z ichiga olgan hamda milliy “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi talablariga to‘liq javob beradigan muvofiqlashtirilgan pedagogik jarayon modeli loyihalashtirildi.

Tayyorlov guruhlarida xorijiy ilg‘or tajribalar asosida o‘qitishning yaxlit pedagogik jarayon modelini yaratish va uni amaliyotga tatbiq etish zaruriyati quyidagi ilmiy-amaliy omillar bilan izohlanadi:

a) Bolalardagi intellektual va refleksiv o‘sishni kompleks qo‘llab-quvvatlash: Tayyorlov guruhidagi bolalarning yosh va ruhiy xususiyatlariga mos keluvchi xorijiy ta’lim texnologiyalari ularning ixtiyoriy diqqatini samarali jalb qilishga, mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirishga hamda yangi axborotlarni tizimli o‘zlashtirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

b) O‘quv jarayonida izchillik, uzviylik va mantiqiylikni ta’minlash: Pedagogik faoliyatning aniq modelini ishlab chiqish xorijiy metodlarni milliy tizimga integratsiyalashda uzviylik zanjirini kafolatlaydi. Bunda har bir mashg‘ulot va ta’limiy o‘yinda o‘quv ko‘nikmalarini soddadan murakkabga qarab, tizimli ravishda rivojlantirish maqsad qilinadi.

c) O‘quv faoliyatidagi toliqish va qiyinchiliklarning oldini olish: Ko‘pincha tayyorlov guruhi bolalari o‘quv topshiriqlarini bajarishda yoki jamoaviy loyihalarda o‘ziga xos murakkabliklarga duch kelishadi. Biz taklif etayotgan model xorijiy texnologiyalarning variativlik xususiyatidan foydalangan holda, har bir bolaning individual imkoniyatlarini inobatga olish va unga mos individual ko‘mak berish imkonini taqdim etadi.

Xitoy maktabgacha ta’limi tajribasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, tayyorlov guruhida kognitiv rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi texnologiyalar mazmunan kompleks, pedagogik jihatdan esa jarayonga yo‘naltirilgan xarakterga ega. Bu texnologiyalarda o‘yin, tadqiqot, savol, muloqot, harakat, konstruksiya, refleksiya va baholash yagona rivojlantiruvchi siklga birlashadi. Ularning asosiy xususiyati shundaki, bolaga bilim tashqi talab sifatida yuklanmaydi, balki u bilan amal qilish, fikr yuritish va muloqot qilish orqali o‘zlashtiriladi. Bunday texnologiyalarda kognitiv rivojlanish ham tor ma’nodagi intellektual ko‘rsatkichlar bilan emas, balki ishchi xotira, diqqat, rejalashtirish, monitoring, muammo yechish, nutqiy bayon, ijtimoiy hamkorlik va o‘qishga yondashuvlar kabi o‘zaro bog‘liq komponentlar orqali tushuniladi. Xitoy tajribasining eng muhim ilmiy-amaliy jihati ham ana shunda: u tayyorlov guruhini kichik maktab sinfiga aylantirmaydi, balki bolani keyingi maktab ta’limi uchun zarur bo‘lgan umumiy bilish mexanizmlari bilan qurollantirishga intiladi. Demak, mazkur tajriba maktabgacha ta’lim nazariyasi uchun ham, amaliy metodika uchun ham shuni isbotlaydiki, kognitiv rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi haqiqiy pedagogik texnologiya – bolaning harakati, hissi, nutqi va tafakkurini bir butun rivojlanish tizimiga aylantira olgan texnologiyadir.

Shu ma’noda, Xitoy tajribasidagi tayyorlov guruhi texnologiyalarining mazmuni va pedagogik xususiyatlarini umumlashtirganda, ularning markazida bolaning o‘zi, uning o‘yini, uning savoli va uning fikrlash jarayoni turganini ko‘rish mumkin. Anji o‘yinida muhit va material bolani tadqiqotga chorlasa, metakognitiv dasturlar uni o‘z fikrlashini anglashga olib boradi; «Conceptual PlayWorld» kabi yondashuvlar savol orqali fazoviy va matematik fikrlashni chuqurlashtirsa, ilmiy izlanishga asoslangan kitob o‘qish faoliyatlari til va tafakkurni uyg‘un rivojlantiradi; ijro funksiyalariga doir tadqiqotlar esa motorika, jismoniy harakat va aqliy rivojlanishning o‘zaro bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Oila va pedagog hamkorligiga oid natijalar bolaning kognitiv o‘sishi bog‘cha va uy o‘rtasidagi mazmunli aloqalar bilan kuchayishini anglatsa, rasmiy sifat baholash hujjatlari bunday jarayonni natija emas, asosan ta’lim sifati va muhitni tashkil etish orqali tushunish lozimligini belgilaydi. Shu bois, Xitoy tajribasi doirasida maktabgacha tayyorlov guruhini o‘qitish texnologiyalarini tahlil qilish bolalarni erta akademiklashtirish yo‘li bilan emas, balki ularning kognitiv tayyorligini mustahkamlaydigan, bilishga qiziqishni saqlaydigan va maktabga o‘tishni tabiiylashtiradigan integrativ pedagogik modelni anglash demakdir.

Yuqoridagi tahlildan ko‘rinadiki, Xitoy tajribasida tarbiyalanuvchilarning kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi texnologiyalar bolaga tayyor bilimni beruvchi emas, balki uning o‘yin, izlanish, mulohaza, savol-javob va refleksiya orqali bilish faolligini uyg‘otuvchi tizim sifatida shakllangan. Xitoyning 3–6 yoshli bolalar rivojlanishiga doir yo‘riqnomalari va keyingi rasmiy izohlarida bola o‘qishi bevosita tajribaga tayanishi, o‘yin asosiy faoliyat bo‘lishi, boy ta’lim muhiti yaratilishi va bolaning tabiat, amaliy harakat hamda shaxsiy tajriba orqali faol o‘rganishi qo‘llab-quvvatlanishi kerakligi ta’kidlangan. Shu asosda Anji o‘yini, Conceptual PlayWorld va metakognitiv treninglarga oid tadqiqotlar o‘yinni faqat erkin faoliyat emas, balki rejalashtirish, kuzatish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, fazoviy fikrlash, muammo yechish va mulohaza yuritishga olib boruvchi rivojlantiruvchi pedagogik texnologiya sifatida talqin qiladi.

Yangi O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimi uchun mazkur tajribani moslashtirish masalasi bevosita dolzarbdir, chunki amaldagi davlat talablari maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va maktab ta’limiga tayyorlashni belgilaydi, o‘yin kompetensiyasini o‘quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos deb qaraydi, “bilish jarayonining rivojlanishi” sohasida esa 6–7 yoshli bola bilim olishga faol qiziqish bildirishi, axborotni mustaqil topishi, oddiy aloqalarni anglashi, raqam va hisobni hayotda qo‘llashi, makon-shakl-vaqt munosabatlariga muvofiq ish tutishi hamda atrof-muhitni kuzatib tadqiq qilishi kutilgan natija sifatida belgilangan. Shuningdek, O‘zbekistonda o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish

integratsiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik tamoyillariga tayanishi, kun tartibida o‘yin, bo‘sh vaqt va pedagog rejalashtirgan faoliyatlar navbatma-navbat amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan. Demak, Xitoy tajribasini moslashtirish uchun konseptual asos allaqachon milliy me’yoriy maydonda mavjud.

Bundan tashqari, 2024-yil 30-sentyabrda qabul qilingan qaror bilan maktabgacha ta’limning davlat ta’lim dasturini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, maktabga tayyorlov guruhlari va boshlang‘ich ta’lim o‘quv dasturlarining o‘zaro uzviyligi va muvofiqligini ta’minlash, 2025-2026 o‘quv yilidan takomillashtirilgan dasturlarni bosqichma-bosqich joriy etish, pedagoglar uchun xalqaro standartlar asosida o‘quv-metodik majmualar yaratish va xorijiy o‘quv-metodik majmualarni mahalliylashtirish vazifalari belgilab qo‘yildi. Shuningdek, davlat ta’lim dasturi doirasida elektron resurslar, audiovizual mahsulotlar va o‘quv-metodik materiallarni axborot tizimiga joylashtirib, ulardan erkin foydalanish imkonini yaratish ham nazarda tutilgan. Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish va xorijda malaka oshirish yo‘nalishlari ham normativ asosda qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu holat Xitoy tajribasida sinovdan o‘tgan kognitiv rivojlantiruvchi texnologiyalarni Yangi O‘zbekiston sharoitiga moslashtirishni faqat nazariy emas, balki amaliy-tashkiliy jihatdan ham asoslaydi.

Shu asosda taklif etilayotgan moslashtirish metodikasi integrativ-adaptiv xarakterga ega bo‘lib, uning markazida tarbiyalanuvchining bilish kompetensiyasi, o‘qishga ichki tayyorligi va metakognitiv faolligi turadi. Metodikaning mohiyati shundaki, Xitoy tajribasidagi o‘yin–kuzatuv–refleksiya sikllari O‘zbekiston davlat talablarida belgilangan bilish, nutq, ijtimoiy-hissiy va ijodiy rivojlanish sohalari bilan bir butun pedagogik jarayonga birlashtiriladi. Bu yerda mexanik ko‘chirish emas, balki mazmunan moslashtirish ustuvor bo‘ladi: Anji o‘yinidagi katta hajmli erkin materiallar mahalliy sharoitda yog‘och bo‘laklari, qutilar, ip-arqon, qum, suv, gil, dona, tayoqcha, milliy qurilish elementlari yoki maishiy xavfsiz qayta ishlanuvchi vositalar bilan almashtiriladi; Conceptual PlayWorlddagi dramalashtirilgan syujetlar esa milliy ertak, mahalla hayoti, bozor, hunarmandchilik, tabiat va oilaviy turmushga yaqin mazmun bilan boyitiladi. Bu taklif mantiqan O‘zbekistondagi integrativ rejalashtirish talablari hamda Xitoydagi o‘yinga tayangan, muhit orqali o‘rgatuvchi yondashuv o‘rtasidagi uyg‘unlikdan kelib chiqadi.

O‘zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida Xitoy tajribasidagi ilg‘or texnologiyalarni joriy etishda ularni milliy qadriyatlar, davlat ta'lim standartlari va **"Ilk qadam"** davlat o‘quv dasturi bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Xususan, maktabga tayyorlov guruhlarida o‘yin asosida ta'lim, STEAM elementlari, loyiha faoliyati va reflektiv o‘yinlarni keng qo‘llash bolalarning kognitiv rivojlanishini yanada samarali qo‘llab-quvvatlaydi. Xitoy maktabgacha ta'lim tizimida qo‘llanilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar tarbiyalanuvchilarning kognitiv rivojlanishini ta'minlashda yuqori samaradorlikka ega. Anji Play, STEAM, loyiha asosida ta'lim, mental arifmetika va raqamli pedagogik vositalar bolalarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil, ijodkorlik, diqqat va xotirani rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalarni O‘zbekiston maktabgacha ta'lim tizimiga ilmiy asosda moslashtirish bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarligini kuchaytirish, ta'lim sifatini oshirish hamda kompetensiyaviy yondashuvni samarali amalga oshirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xitoy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, maktab ta’limiga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining kognitiv rivojlanishi mantiqiy o‘yinlar, milliy-vizual vositalar va erta STEM texnologiyalarining oqilona integratsiyasi orqali samarali kechadi. Ushbu pedagogik texnologiyalarni milliy maktabgacha ta’lim tizimiga tatbiq etish bolalarning maktab ta’limiga kognitiv hamda psixologik tayyorlik darajasini sezilarli darajada oshiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jackson I., Geng Y. (ed.). Rethinking Childhood in Modern Chinese History. – Taylor & Francis, 2025.

2. Cheng, X. Cultivating young children's positive emotions and cognitive agency: Based on Anji Play. Journal of Early Childhood Education Research, 18(2), p. 45–58, 2023.

3. Ministry of Education of the People's Republic of China. (2012). 3–6 Years Old Children Development Guidelines [3–6岁儿童学习与发展指南]. People's Education Press, 2012.

4. Pio, A. C. V., & Zhang, Y. Crossing borders in early childhood education through Anji Play: Supporting self-regulation and problem-solving in school-readiness groups. Cultural Psychology & Education, 32(1), p.112–126, 2026.
5. Tungalag, O., & Wang, L. Research on metacognitive strategies of children's self-regulated learning: The role of "Draw-and-Tell" reflection in preschool settings. Health Psychology & Educational Research,12(3), p.204–218, 2024.
6. Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA O‘QITISH TEXNOLOGIYALARINING ILMIY-NAZARIY MANBALARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: XITOY MAKTABGACHA TA’LIMI MISOLIDA | Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar. b.81-84, 2026.

MALAKALI GANDBOLCHILARNING HIMOYA TEXNIK HARAKATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR

Zaribboyev Zafarbek Farxod o‘g‘li
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
“Gandbol, regbi, chim ustida xokkey nazariyasi va uslubiyati kafedrasi” o‘qituvchisi
Chirchiq shahri, O‘zbekiston
G-mail: zaribboyevzafarbek444@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22160898

Annotatsiya: Mazkur tezisda malakali gandbolchilarning himoya texnik harakatlarini takomillashtirish jarayonida uchraydigan asosiy muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va o‘yin faoliyatiga ta’siri tahlil qilingan. Himoyada joylashish, raqib harakatini oldindan baholash, to‘pni egallash, to‘sish, siljish va qarshi harakatlarni bajarish samaradorligini belgilovchi omillar yoritilgan. Himoya texnik harakatlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulot vositalarini maqsadli va kompleks qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: malakali gandbolchi, himoya, himoya texnikasi, texnik harakatlar, himoyaviy harakatlanish, to‘sish, to‘pni egallash, raqib harakati, koordinatsiya, mashg‘ulot jarayoni.

Аннотация: В тезисе анализируются основные проблемы, возникающие в процессе совершенствования защитных технических действий квалифицированных гандболистов, причины их возникновения и влияние на игровую деятельность. Рассматриваются факторы, определяющие эффективность перемещений, выбора позиции, блокирования, отбора мяча и противодействия атакующим действиям соперника. Разработаны практические рекомендации по целенаправленному и комплексному применению тренировочных средств для совершенствования техники защитных действий.

Ключевые слова:. квалифицированный гандболист, защита, техника защиты, технические действия, защитные перемещения, блокирование, овладение мячом, действия соперника, координация, тренировочный процесс.

Annotation: This thesis analyzes the main problems encountered in improving defensive technical actions of skilled handball players, their causes and influence on competitive performance. The study highlights the factors determining the effectiveness of defensive positioning, movement, blocking, ball interception and counteracting the opponent’s attacking actions. Practical recommendations are proposed for the targeted and integrated use of training means to improve defensive technical skills.

Keywords: skilled handball player, defense, defensive technique, technical actions, defensive movements, blocking, ball interception, opponent actions, coordination, training process.

Kirish. Gandbolning bugungi kundagi shiddat bilan rivojlanayotgani bois texnologiyalar, metodlar, mashg‘ulotlar va tahlillarni qo‘llanilishiga ko‘ra turli mintaqalarda turlicha rivojlanib bormoqda. So‘nggi yillardagi jahon chempionatlari va Olimpiya o‘yinlari natijalari shuni ko‘rsatadiki, erkaklar gandbolida Daniya, Fransiya va Shvetsiya jamoalari dunyo miqyosida eng yuqori pog‘onadagi uchlikni egallab kelmoqda [2; 326-329-b.]. Ayollar gandbolida esa Norvegiya, Fransiya va Daniya jamoalari doimiy ravishda jahonda yetakchilik qilmoqda [3; 51-54-b.]. Bunga esa ularning doimiy tarizda yangicha izlanishlari,tadqiqotlari, mashg‘ulotlarning shiddati, jamoaning har bir a’zosiga qolaversa darvozabonlarni tayyorlashda ham individual yondashuv qilinayotgani, yuklama monitoringi va video-tahlil imkoniyatlaridan to‘liq foydalanayotganligi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda .

Osiyo mintaqasida esa gandbol jadal rivojlanib, raqobat darajasi sezilarli Respublikamizda ko‘plab sport turlari kabi gandbolni ham rivojlantirishga davlat siyosatida muhim e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-dekabrdagi PQ-421-son qarorida jamoaviy sport turlarini ommalashtirish va iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini raqamlashtirish jarayonini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Tadqiqotning maqsadi malakali gandbolchilarning himoya texnik harakatlarini takomillashtirishda uchraydigan asosiy muammolarni aniqlash, ularning samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan usul va vositalarni asoslash hamda mashg‘ulot jarayonida qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifari qyudagilardan iborat:

1. Malakali gandbolchilarning himoya texnik harakatlarini ilmiy-uslubiy adabiyotlar asosida o‘rganish.

2. Himoya harakatlarini bajarishda uchraydigan asosiy texnik kamchiliklarni aniqlash

Tadqiqotning uslullari. Tadqiqot quydagicha usulllarda tashkil etilgan.

Tadqiqot jarayonida **ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash va pedagogik tajriba** usullaridan foydalanildi. Darvozabonlarning chaqqonlik sifatini baholashda reaksiya tezligi, harakat yo‘nalishini o‘zgartirish tezligi, muvozanat, koordinatsion qobiliyat hamda qisqa masofadagi tezkor harakatlanish ko‘rsatkichlari o‘rganildi.

Tadqiqotning natijalari va muhokamasi. Tadqiqot davomida malakali gandbolchilarning himoya texnik harakatlarida uchraydigan asosiy muammolar himoyaviy pozitsiyani egallash, raqib harakatini oldindan baholash, yo‘nalishni tez o‘zgartirish va to‘sish harakatlarini bajarish bilan bog‘liqligi aniqlandi. Himoyachi tomonidan texnik harakatning o‘z vaqtida bajarilmasligi raqibga bo‘sh hudud yaratib, hujumning samarali yakunlanishiga olib kelishi mumkin. (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Malakali gandbolchilarning himoya texnik harakatlarini belgilovchi asosiy muammolar

Muammo	Baholash usuli	Asosiy ko‘rsatkich	Takomillashtirish bo‘yicha tavsiya
Himoyaviy pozitsiyani noto‘g‘ri egallash	Pedagogik kuzatuv	To‘g‘ri pozitsiyani egallash vaqti va xatolar soni	Himoyaviy holatni saqlash, raqibga nisbatan optimal masofani tanlash va pozitsiyani tez egallash mashqlarini qo‘llash
Harakat yo‘nalishini kech o‘zgartirish	Yo‘nalishni o‘zgartirish testi	Harakatni boshlash va yo‘nalishni almashtirish vaqti	Yonlama siljish, oldinga-orqaga harakatlanish va signal asosida yo‘nalishni o‘zgartirish mashqlarini bajarish
Raqib harakatini oldindan baholashning sustligi	Juftlikdagi himoya testi	Raqib harakatiga to‘g‘ri javob berish foizi	Fint, aldov va kutilmagan yo‘nalish o‘zgarishlariga javob berish mashqlarini ko‘paytirish
To‘sish harakatining samarasizligi	Maxsus to‘sish testi	To‘g‘ri bajarilgan to‘sishlar soni	To‘sish texnikasini turli masofa va tezliklarda takrorlash, raqib qarshiligini bosqichma-bosqich oshirish
To‘pni egallashdagi texnik xatolar	To‘pni olib qo‘yish testi	Muvaffaqiyatli egallashlar soni va xatolar	To‘pga chiqish, qo‘l bilan to‘sish va raqib harakatiga mos ravishda to‘pni egallash mashqlarini kompleks qo‘llash

Ayniqsa, tezkor hujumlar vaqtida himoyachining koordinatsiyasi va harakat reaksiyasi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli mashg‘ulotlarda himoya texnikasini alohida mashq qildirish bilan bir qatorda, uni o‘yin vaziyatlariga yaqin sharoitlarda kompleks takomillashtirish zarur. Maxsus mashqlarni raqib qarshiligi, signal, vaqt cheklovi va yo‘nalish o‘zgarishi asosida tashkil etish himoya harakatlarining amaliy samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari malakali gandbolchilarning himoya texnik harakatlarini takomillashtirishda tizimli va maqsadli yondashuv zarurligini ko‘rsatdi. Himoyadagi asosiy muammolar pozitsiyani noto‘g‘ri egallash, harakat yo‘nalishini kech o‘zgartirish, raqib harakatini oldindan baholashdagi kamchiliklar va to‘sish texnikasining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog‘liq. Ushbu kamchiliklarni aniqlash uchun pedagogik kuzatuv va maxsus nazorat mashqlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Himoyaviy harakatlarni takomillashtirishda yonlama siljish, yo‘nalishni o‘zgartirish, to‘sish va raqib harakatiga javob berish mashqlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Mashqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish texnik harakatlarning barqarorligini ta’minlaydi. Raqibning faol qarshiligi sharoitida bajariladigan mashqlar himoyachining musobaqa faoliyatiga moslashuvini yaxshilaydi. Himoya texnikasi va taktik harakatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish o‘yin samaradorligini oshiradi. Umuman olganda, aniqlangan muammolarni kompleks bartaraf etishga yo‘naltirilgan mashg‘ulot metodikasi malakali gandbolchilarning himoyadagi texnik mahoratini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-dekabrdagi “Jamoaviy sport turlarini rivojlantirish va iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-421-son.
2. Habibjanova.X.M., To‘g‘onboyev.G‘.A. Yuqori malakali gandbolchilarning mashg‘ulot jarayonini tashkil etish muammolari // Sport menejmenti va marketingi: “Muammolar, tendensiyalar va istiqbollari” mavzusidagi Xalqaro anjumani. Chirchiq, 2022. - B. 326-329.
3. Habibjonova.X.M., B.N.Xayitov. Yuqori malakali gandbolchilarni kuch sifatlarini rivojlantirish va nazorat qilish // “FAN-SPORTGA” ilmiy nazarbaiy jurnal 2023/8. - B.51-54
4. Isroilov.R.I., Z.E..Yusupova., X.M..Habibjonova. Yosh gandbolchilarning chidamliligini rivojlantirish vosita usullarini optimallashtirish // EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Innovative Academy Research Support Center 2023. -134-140.
5. Mo‘minov.A., Rozibayev.M., Tursunov.I. 14-15 yoshli gandbolchilarda tezkor kuchini rivojlantirish vositalari va usullari // International scientific conference “prospect for the natoinal sport development of-kurash”. 2022. - P. 349-352
Pavlov.Sh.K., X.M.Habibjonova. Tayyorlov davrida yosh gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini nazorat qilish // “Olimpiya sportida zamonaviy ilm-fan” Xalqaro ilmiy amaliy onlayn anjuman to‘plami. Toshkent, 2020. - B.303-305.

MALAKALI GANDBOLCHI DARVOZABONLARDA CHAQQONLIK SIFATINI OSHIRISH USULLARI

Zaribboyev Zafarbek Farxod o‘g‘li
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
“Gandbol, regbi, chim ustida xokkey nazariyasi va uslubiyati kafedrasi” o‘qituvchisi
Chirchiq shahri, O‘zbekiston
G-mail: zaribboyevzafarbek444@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22161104

Annotatsiya: Mazkur tezisda malakali gandbolchi darvozabonlarda chaqqonlik sifatini rivojlantirishning mazmuni, asosiy tarkibiy komponentlari va samarali usullari yoritilgan. Darvozabonlarning reaksiya tezligi, harakat yo‘nalishini tez o‘zgartirish, muvozanat, koordinatsiya va qisqa masofadagi tezkor harakatlanish imkoniyatlarini baholash mezonlari asoslangan. Chaqqonlikni kompleks rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus mashqlarni mashg‘ulot jarayoniga joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: malakali gandbolchi, darvozabon, chaqqonlik, reaksiya tezligi, koordinatsiya, muvozanat, tezkor harakatlanish, maxsus mashqlar, mashg‘ulot jarayoni

Аннотация: В тезисе раскрыты содержание, основные компоненты и эффективные методы развития ловкости у квалифицированных гандбольных вратарей. Обоснованы критерии оценки скорости реакции, быстроты изменения направления движения, равновесия, координации и скоростного перемещения на коротких дистанциях. Разработаны практические рекомендации по внедрению специальных упражнений, направленных на комплексное развитие ловкости, в тренировочный процесс.

Ключевые слова: квалифицированный гандболист, вратарь, ловкость, скорость реакции, координация, равновесие, скоростное перемещение, специальные упражнения, тренировочный процесс.

Annotation: This thesis examines the content, key components and effective methods for developing agility in skilled handball goalkeepers. Assessment criteria for reaction speed, rapid changes of movement direction, balance, coordination and short-distance speed performance are substantiated. Practical recommendations are developed for integrating special exercises aimed at comprehensive agility development into the training process.

Keywords: skilled handball player, goalkeeper, agility, reaction speed, coordination, balance, speed movement, special exercises, training process.

Kirish

Gandbolning bugungi kundagi shiddat bilan rivojlanayotgani bois texnologiyalar, metodlar, mashg‘ulotlar va tahlillarni qo‘llanilishiga ko‘ra turli mintaqalarda turlicha rivojlanib bormoqda. So‘nggi yillardagi jahon chempionatlari va Olimpiya o‘yinlari natijalari shuni ko‘rsatadiki, erkaklar gandbolida Daniya, Fransiya va Shvetsiya jamoalari dunyo miqyosida eng yuqori pog‘onadagi uchlikni egallab kelmoqda [2; 326-329-b.]. Ayollar gandbolida esa Norvegiya, Fransiya va Daniya jamoalari doimiy ravishda jahonda yetakchilik qilmoqda [3; 51-54-b.]. Bunga esa ularning doimiy tarizda yangicha izlanishlari,tadqiqotlari, mashg‘ulotlarning shiddati, jamoaning har bir a’zosiga qolaversa darvozabonlarni tayyorlashda ham individual yondashuv qilinayotgani, yuklama monitoringi va video-tahlil imkoniyatlaridan to‘liq foydalanayotganligi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda .

Osiyo mintaqasida esa gandbol jadal rivojlanib, raqobat darajasi sezilarli Respublikamizda ko‘plab sport turlari kabi gandbolni ham rivojlantirishga davlat siyosatida muhim e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-dekabrdagi PQ-421-son qarorida jamoaviy sport

turlarini ommalashtirish va iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini raqamlashtirish jarayonini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Tadqiqotning maqsadi malakali gandbolchi darvozabonlarda chaqqonlik sifatini rivojlantirishning samarali usullarini ilmiy-metodik jihatdan asoslash hamda mashg‘ulot jarayonida qo‘llaniladigan maxsus mashqlar va uslubiy yondashuvlar orqali darvozabonlarning tezkor harakatlanish, reaksiya tezligi, muvozanatni saqlash va to‘satdan yuzaga keladigan o‘yin vaziyatlariga moslashish qobiliyatini takomillashtirish yo‘llarini o‘rganish.

Tadqiqotning vazifari qyudagilardan iborat:

1. Malakali gandbolchi darvozabonlarda chaqqonlik sifatining rivojlanish xususiyatlarini ilmiy-metodik adabiyotlar asosida o‘rganish va tahlil qilish.

2. Darvozabonlarning chaqqonlik sifatini belgilovchi asosiy komponentlarni reaksiya tezligi, harakat yo‘nalishini tez o‘zgartirish, muvozanat, koordinatsiya va qisqa masofadagi tezkor harakatlanish imkoniyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning uslullari. Tadqiqot quydagicha usulllarda tashkil etilgan.

Tadqiqot jarayonida **ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash va pedagogik tajriba** usullaridan foydalanildi. Darvozabonlarning chaqqonlik sifatini baholashda reaksiya tezligi, harakat yo‘nalishini o‘zgartirish tezligi, muvozanat, koordinatsion qobiliyat hamda qisqa masofadagi tezkor harakatlanish ko‘rsatkichlari o‘rganildi.

Tadqiqotning natijalari va muhokamasi. Darvozabon chaqqonligi faqatgina tez harakatlanish bilan chegaralanmaydi. Uning samaradorligi **reaksiya tezligi, yo‘nalishni o‘zgartirish, muvozanat, koordinatsiya va qisqa masofadagi tezkor harakatlanishning o‘zaro uyg‘unligi** bilan belgilanadi. Shu sababli mashg‘ulotlarda ushbu besh komponentni alohida emas, balki **darvozabonning real o‘yin vaziyatlariga yaqinlashtirilgan kompleks mashqlar orqali rivojlantirish** maqsadga muvofiq (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Darvozabonlarda chaqqonlik sifatining asosiy komponentlarini baholash va takomillashtirish yo‘llari

Chaqqonlik komponenti	Baholash usuli	Baholashda asosiy ko‘rsatkich	Ijobiy hal etish bo‘yicha tavsiya
1. Reaksiya tezligi	Yorug‘lik yoki ovozli signalga javob berish testi	Signal berilgandan keyin harakatni boshlash vaqti, soniya	Turli yo‘nalishlardan beriladigan kutilmagan signallarga javob berish, to‘pni tezkor qaytarish va signal asosidagi maxsus mashqlarni qo‘llash
2. Harakat yo‘nalishini tez o‘zgartirish	3×10 m mokisimon yugurish va yo‘nalishni keskin o‘zgartirish testi	Belgilangan masofani bosib o‘tish vaqti, soniya	Oldinga-orqaga, o‘ng-chap va diagonal yo‘nalishlarda qisqa masofali harakatlarni ketma-ket bajarish, yo‘nalishni o‘zgartirish mashqlarini murakkablashtirish
3. Muvozanat	Bir oyoqda turish va harakatdan so‘ng muvozanatni saqlash testi	Muvozanatni saqlash davomiyligi, soniya; xatolar soni	Bir oyoqda turish, tayanchni tez almashtirish, sakrab qo‘nish va darvozabon holatida muvozanatni saqlash mashqlarini bajarish
4. Koordinatsiya	To‘p bilan koordinatsion harakatlar va turli yo‘nalishlarda harakatlanish testi	Harakatlarning aniqligi, bajarish vaqti, xatolar soni	Qo‘l va oyoq harakatlarini birlashtiruvchi mashqlar, turli balandlik va yo‘nalishdagi to‘plarga javob berish, koordinatsion kombinatsiyalarni qo‘llash

5. Qisqa masofadagi tezkor harakatlanish	5–10 m masofaga maksimal tezlanish testi	Masofani bosib o‘tish vaqti, soniya	5–10 m tezlanishlar, yonlama siljishlar, oldinga-orqaga yugurish, sakrash va darvozadagi himoya harakatlarini ketma-ket bajarish

Tadqiqot natijalari malakali gandbolchi darvozabonlarning chaqqonligi bir nechta o‘zaro bog‘liq komponentlar asosida shakllanishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, reaksiya tezligi va harakat yo‘nalishini tez o‘zgartirish darvozabonning to‘p yo‘nalishini oldindan baholashi va tezkor himoya harakatini amalga oshirishida muhim ahamiyat kasb etdi. Muvozanat va koordinatsiyaning yetarli darajada rivojlanganligi sakrash, yiqilish va qayta tayanch holatiga kelish jarayonlarining samaradorligini oshiradi. Qisqa masofadagi tezkor harakatlanishni maxsus mashqlar bilan muntazam rivojlantirish darvozabonning darvoza hududidagi harakat faolligini yaxshilaydi. Shu bois chaqqonlikni rivojlantirishda signalga javob, yo‘nalishni o‘zgartirish, muvozanat, koordinatsiya va tezkor siljish mashqlarini kompleks qo‘llash samarali usul sifatida tavsiya etiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari malakali gandbolchi darvozabonlarda chaqqonlik sifatini rivojlantirish tizimli va maqsadli yondashuvni talab qilishini ko‘rsatdi. Darvozabon chaqqonligining asosiy komponentlari reaksiya tezligi, harakat yo‘nalishini tez o‘zgartirish, muvozanat, koordinatsiya va qisqa masofadagi tezkor harakatlanishdan iborat ekanligi aniqlandi. Ushbu komponentlarni maxsus testlar yordamida muntazam baholash darvozabonlarning tayyorgarlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Signal asosidagi mashqlar reaksiya tezligini rivojlantirishda samarali vosita sifatida tavsiya etildi. Yo‘nalishni tez o‘zgartirishga qaratilgan mashqlar harakat tezligi va chaqqonlikni oshirishga xizmat qiladi. Muvozanat va koordinatsion mashqlar himoya harakatlarini aniq va barqaror bajarishga yordam beradi. Qisqa masofadagi tezkor harakatlanish mashqlarini muntazam qo‘llash darvozabonning o‘yin vaziyatlariga tez moslashishini ta’minlaydi. Umuman olganda, chaqqonlikning barcha tarkibiy qismlarini kompleks rivojlantirish malakali gandbolchi darvozabonlarning maxsus jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-dekabrdagi “Jamoaviy sport turlarini rivojlantirish va iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-421-son.
2. Habibjanova.X.M., To‘g‘onboyev.G‘.A. Yuqori malakali gandbolchilarning mashg‘ulot jarayonini tashkil etish muammolari // Sport menejmenti va marketingi: “Muammolar, tendensiyalar va istiqbollari” mavzusidagi Xalqaro anjumani. Chirchiq, 2022. - B. 326-329.
3. Habibjonova.X.M., B.N.Xayitov. Yuqori malakali gandbolchilarni kuch sifatlarini rivojlantirish va nazorat qilish // “FAN-SPORTGA” ilmiy nazarbaiy jurnal 2023/8. - B.51-54
4. Isroilov.R.I., Z.E..Yusupova., X.M..Habibjonova. Yosh gandbolchilarning chidamliligini rivojlantirish vosita usullarini optimallashtirish // EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Innovative Academy Research Support Center 2023. -134-140.
5. Mo‘minov.A., Rozibayev.M., Tursunov.I. 14-15 yoshli gandbolchilarda tezkor kuchini rivojlantirish vositalari va usullari // International scientific conference “prospect for the natoinal sport development of-kurash”. 2022. - P. 349-352
Pavlov.Sh.K., X.M.Habibjonova. Tayyorlov davrida yosh gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligini nazorat qilish // “Olimpiya sportida zamonaviy ilm-fan” Xalqaro ilmiy amaliy onlayn anjuman to‘plami. Toshkent, 2020. - B.303-305.

ZAMONAVIY INNOVATSION YONDASHUVLAR KONTEKSTIDA STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Yuldasheva Nilufar Abdullayevna
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti p.f.d., (DSc), professor
yuldashevanilufarabdullayevna@gmail.com
Tursunaliyeva Nazokat Toxir qizi
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti o’qituvchisi,
ORCID: 0009-0008-6312-4090 ntursunaliyeva1996@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22161178

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy innovatsion ta’lim yondashuvlari kontekstida STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) texnologiyalarining o‘quvchilar kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o‘rni tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida yuqori sinf o‘quvchilari ishtirokida pedagogik eksperiment o‘tkazilib, STEAM yondashuvi asosida ishlab chiqilgan metodika samaradorligi statistik jihatdan tahlil qilingan. Natijalar STEAM texnologiyalarini tizimli qo‘llash o‘quvchilarning kreativ tafakkuri, muammoni ijodiy hal qilish ko‘nikmalari va fanlararo bog’liqlikni tushunish darajasini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi.
Kalit so‘zlar: STEAM ta’lim, kreativ qobiliyat, innovatsion pedagogika, fanlararo integratsiya, loyihaviy o‘qitish, muammoli ta’lim, ijodiy tafakkur.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ STEAM-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННЫХ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ

Аннотация. В данной статье исследуется роль технологий STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) в развитии творческих способностей учащихся в контексте современных инновационных образовательных подходов. В ходе исследования был проведён педагогический эксперимент с участием учащихся старших классов, а эффективность методики, разработанной на основе STEAM-подхода, была подвергнута статистическому анализу. Результаты показали, что систематическое применение STEAM-технологий значительно повышает уровень творческого мышления учащихся, навыки творческого решения проблем и понимание междисциплинарных взаимосвязей.
Ключевые слова: STEAM-образование, творческие способности, инновационная педагогика, междисциплинарная интеграция, проектное обучение, проблемное обучение, творческое мышление.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS’ CREATIVE ABILITIES BASED ON STEAM EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE CONTEXT OF MODERN INNOVATIVE APPROACHES

Abstract. This article examines the role of STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) technologies in developing students’ creative abilities within the context of modern innovative educational approaches. A pedagogical experiment was conducted with the participation of high school students, and the effectiveness of the methodology developed on the basis of the STEAM approach was statistically analyzed. The results demonstrated that the systematic application of STEAM technologies significantly improves students’ creative thinking, creative problem-solving skills, and understanding of interdisciplinary connections.
Keywords: STEAM education, creative abilities, innovative pedagogy, interdisciplinary integration, project-based learning, problem-based learning, creative thinking.

KIRISH

Jahon ta’lim tizimida XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi dolzarblik kasb etmoqda. Iqtisodiyot va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, sun’iy intellekt va raqamlashtirish jarayonlari o‘quvchilardan nafaqat fan asoslarini bilishni, balki tanqidiy va kreativ tafakkur, muammoni ijodiy hal etish, jamoada ishlash hamda fanlararo bog’liqlikni ko‘ra olish qobiliyatini talab qilmoqda.

Ushbu talablarga javob beruvchi eng samarali yondashuvlardan biri STEAM ta’lim texnologiyasi hisoblanadi. STEAM — Science (Fan), Technology (Texnologiya), Engineering (Muhandislik), Arts (San’at) va Mathematics (Matematika) sohalarini o‘zaro integratsiyalashgan holda o‘rgatish tizimi bo‘lib, an’anaviy STEM modelidan farqli o‘laroq, unga San’at (Arts) komponentini qo‘shish orqali o‘quvchilarning badiiy-estetik va kreativ salohiyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi.

Muammoning dolzarbligi. An’anaviy o‘qitish metodikasida fanlar bir-biridan ajratilgan holda, ko‘pincha reproduktiv (takrorlash asosidagi) usullarda o‘rgatiladi. Bu esa o‘quvchilarda ijodiy tafakkurning sustlashishiga, o‘rganilgan bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llay olmaslikka olib keladi. Shu sababli STEAM texnologiyalari asosida kreativlikni rivojlantiruvchi ilmiy asoslangan metodika ishlab chiqish dolzarb pedagogik-ilmiy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi — zamonaviy innovatsion yondashuvlar asosida STEAM ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba-sinov yo‘li bilan asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

1. STEAM ta’lim texnologiyasining nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish;
2. Kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik mezonlari va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish;
3. STEAM asosida integratsiyalashgan loyihaviy mashg’ulotlar tizimini yaratish;
4. Ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini pedagogik eksperiment orqali tekshirish.

Tadqiqot ob’ekti — umumta’lim maktablarida STEAM texnologiyalari asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni.

Tadqiqot predmeti — o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va metodik vositalari.

Ilmiy farazi. Agar STEAM ta’lim texnologiyalari fanlararo integratsiya, loyihaviy-ijodiy topshiriqlar va muammoli vaziyatlar tizimi asosida izchil tashkil etilsa, u holda o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlari (originallik, moslashuvchanlik, muammoni ko‘ra bilish, ijodiy mahsuldorlik) sezilarli darajada oshadi.

Mavzu bo‘yicha J. Dewey, L.S. Vygotskiy, G. Yakman, hamda o‘zbek olimlaridan R.X. Djuraev, N.A. Muslimov, U.I. Ergashev kabi tadqiqotchilarning ishlarida ta’lim jarayonida ijodiy faoliyatni tashkil etish masalalari o‘rganilgan bo‘lsa-da, aynan STEAM texnologiyasi orqali kreativlikni rivojlantirishning kompleks metodikasi milliy ta’lim tizimi sharoitida yetarlicha ishlab chiqilmagan, bu esa tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

MATERIAL VA METODLAR

Tadqiqot dizayni. Tadqiqot 2025–2026-o‘quv yilida pedagogik eksperiment shaklida, uch bosqichda (aniqlovchi, shakllantiruvchi, nazorat) olib borildi.

Tadqiqot ishtirokchilari. Tajribaga umumta’lim maktabining 6–7-sinf o‘quvchilaridan iborat 64 nafar o‘quvchi jalb qilindi. Ular tasodifiy tanlov asosida ikki guruhga bo‘lindi: tajriba guruhi (TG) — 32 nafar (STEAM metodikasi asosida o‘qitildi) va nazorat guruhi (NG) — 32 nafar (an’anaviy metodika asosida o‘qitildi).

Tadqiqot metodlari:

- *Nazariy metodlar:* mavzuga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, qiyoslash;
- *Empirik metodlar:* pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma (anketa), test topshiriqlari, ekspert baholash;
- *Statistik metodlar:* Styudent t-mezoni yordamida natijalarning ishonchliligini tekshirish, foizli va o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichlarni hisoblash.

Kreativlikni baholash mezonlari. O‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini baholash uchun quyidagi to‘rtta asosiy ko‘rsatkich tanlab olindi (E.P. Torrensning ijodiy tafakkur nazariyasi asosida moslashtirilgan):

1. Originallik — g’oyaning betakrorligi, andozadan chetga chiqish darajasi;
2. Moslashuvchanlik (fleksibillik) — muammoni turli nuqtai nazardan yechish qobiliyati;
3. Mahsuldorlik (yuqumlilik) — berilgan vaqt ichida ilgari surilgan g’oyalar soni;
4. Ishlab chiqish (elaboratsiya) — g’oyani batafsil, tugallangan shaklga keltirish qobiliyati.

Har bir ko‘rsatkich 0–5 ballik shkala asosida baholandi, umumiy kreativlik indeksi shu to‘rt ko‘rsatkichning o‘rtacha yig’indisi sifatida hisoblab chiqildi.

Metodika mazmuni. Tajriba guruhida STEAM texnologiyasi quyidagi tarkibiy qismlar asosida tashkil etildi:

• Fanlararo loyihaviy topshiriqlar — matematika, fizika, texnologiya va tasviriy san’at fanlarini birlashtiruvchi real muammoga asoslangan loyihalar (masalan, “Ekologik shahar maketini yaratish”, “Quyosh energiyasi bilan ishlaydigan modelni loyihalash”);

• Dizayn-tafakkur (Design Thinking) modeli — Empatiya → Muammoni aniqlash → G’oyalash → Prototiplash → Sinash bosqichlari asosida ish yuritish;

• STEAM-laboratoriya mashg’ulotlari — haftasiga 2 soat, amaliy konstruksiyalash va raqamli vositalar (3D-modellashtirish, robototexnika elementlari) bilan ishlash;

• Ijodiy taqdimot va reflektiya — har bir loyiha yakunida o‘quvchilar o‘z ishlarini himoya qilish va o‘zaro baholash orqali tanqidiy-ijodiy fikrlashni rivojlantirdilar.

Eksperiment 4 hafta davom etdi. Aniqlovchi bosqichda ikkala guruhda ham dastlabki diagnostika o‘tkazildi, shakllantiruvchi bosqichda TGda STEAM metodikasi joriy etildi, nazorat bosqichida yakuniy diagnostika natijalari qiyoslandi.

NATIJALAR

Tadqiqotning aniqlovchi bosqichida ikkala guruh o‘rtasida kreativlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha sezilarli farq aniqlanmadi (TG = 2,41 ball; NG = 2,38 ball; $p > 0,05$), bu esa guruhlarning boshlang’ich holati bir xil ekanligini tasdiqladi.

1-jadval. Eksperimentgacha va eksperimentdan keyingi kreativlik ko‘rsatkichlari (o‘rtacha ball, 5 ballik shkala)

Ko‘rsatkich	TG (eksp. oldin)	TG (eksp. keyin)	NG (eksp. oldin)	NG (eksp. keyin)
Originallik	2,35	4,12	2,32	2,71
Moslashuvchanlik	2,48	4,05	2,41	2,68
Mahsuldorlik	2,40	3,98	2,36	2,55
Ishlab chiqish	2,42	4,10	2,44	2,60
Umumiy indeks	2,41	4,06	2,38	2,63

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhida umumiy kreativlik indeksi 2,41 balldan 4,06 ballga, ya’ni 68,5% ga oshgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich atigi 10,5% ga oshdi (2,38 balldan 2,63 ballgacha).

Styudent t-mezoni yordamida hisoblangan natijalar bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ishonchli ekanligi aniqlandi ($t = 8,74$; $p < 0,01$), bu esa qo‘lga kiritilgan natijalarning tasodifiy emasligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, o‘qituvchilar tomonidan o‘tkazilgan ekspert kuzatuvlari shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhi o‘quvchilarida:

• fanlararo bog’liqlikni mustaqil topa olish ko‘nikmasi 73% o‘quvchida yaxshi va yuqori darajaga yetdi (boshlang’ich bosqichda — 24%);

• guruhda ishlash va g’oyalarni erkin taqdim etish faolligi 65% ga oshdi;

• muammoli vaziyatlarda bir nechta yechim variantini taklif qila olish qobiliyati sezilarli darajada rivojlandi.

Nazorat guruhida bu ko‘rsatkichlar deyarli o‘zgarmadi yoki minimal darajada o‘sish kuzatildi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar STEAM texnologiyasining fanlararo integratsiyaga asoslangan tabiati o‘quvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning muhim omili ekanligini ko‘rsatadi. Bu natija J. Dewey va G. Yakmanning “amaliyot orqali o‘rganish” (learning by doing) hamda fanlararo integratsiya nazariyalari bilan mos keladi — bilim reproduktiv tarzda emas, balki real muammoni hal qilish jarayonida shakllanganda, o‘quvchining ijodiy salohiyati faollashadi.

Tajriba guruhida “Originallik” va “Moslashuvchanlik” ko‘rsatkichlarining eng yuqori o‘sish ko‘rsatishi, Dizayn-tafakkur modelining “G’oyalash” bosqichi o‘quvchilarni bir nechta muqobil yechim izlashga undashi bilan izohlanadi. San’at (Arts) komponentining kiritilishi esa o‘quvchilarga texnik-muhandislik topshiriqlarini estetik va nostandart nuqtai nazardan yechishga imkon berdi, bu STEM va STEAM modellari o‘rtasidagi asosiy farqni amaliyotda tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida bir qator qiyinchiliklar ham aniqlandi: o‘qituvchilarning fanlararo loyihalarni tashkil etishga metodik tayyorgarligining yetarli emasligi, moddiy-texnik baza (raqamli vositalar, laboratoriya jihozlari)ning cheklanganligi. Bu holatlar STEAM texnologiyasini keng joriy etishda o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari xorijiy tadqiqotchilarning (masalan, Amerika va Janubiy Koreya maktablarida o‘tkazilgan tadqiqotlarning) xulosalari bilan umumiy tendensiyada mos tushadi — STEAM yondashuvi qo‘llanilgan guruhlarda kreativlik ko‘rsatkichlarining an’anaviy guruhlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lishi bir qator xalqaro tadqiqotlarda ham qayd etilgan.

Tadqiqotning cheklovlari. Tadqiqot bitta hudud va cheklangan sonli o‘quvchilar namunasida o‘tkazilgani, natijalarni umumlashtirishda ehtiyot bo‘lishni talab qiladi. Kelgusi tadqiqotlarda namuna hajmini kengaytirish va uzoq muddatli (longitudinal) ta’sirni o‘rganish tavsiya etiladi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirishga imkon berdi:

1. STEAM ta’lim texnologiyasi fanlararo integratsiya, loyihaviy-ijodiy faoliyat va Dizayn-tafakkur modeli asosida tashkil etilganda, o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali vositasiga aylanadi.
2. Ishlab chiqilgan metodika qo‘llanilgan tajriba guruhida umumiy kreativlik indeksi 68,5% ga oshdi, bu nazorat guruhidagi ko‘rsatkichdan (10,5%) sezilarli darajada yuqori bo‘ldi (statistik ishonchlilik: $p < 0,01$).
3. Metodikaning samaradorligi San’at (Arts) komponentining texnik-muhandislik va aniq fanlar bilan uyg’unlashtirilishi hisobiga ta’minlanadi, bu o‘quvchilarga muammolarni nostandart va ko‘p qirrali tarzda hal qilish imkonini beradi.
4. STEAM texnologiyasini samarali joriy etish uchun o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va fanlararo o‘quv dasturlarini ishlab chiqish zarur.

Ishlab chiqilgan metodika umumta’lim maktablari amaliyotiga tatbiq etish uchun tavsiya etiladi, shuningdek pedagogik ta’lim yo‘nalishlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga integratsiya qilinishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dewey J. Experience and Education. — New York: Macmillan, 1938.
2. Yakman G. STEAM Education: an overview of creating a model of integrative education. — PATT-19 Conference, 2008.
3. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Harvard University Press, 1978.
4. Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. — Scholastic Testing Service, 1974.
5. Djo‘rayev R.X. Ta’lim sifatini boshqarishning pedagogik asoslari. — Toshkent: Fan, 2017.
6. Muslimov N.A. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta’limi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida"gi Farmoni.
8. Bybee R.W. The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. — NSTA Press, 2013.
9. Sanders M. STEM, STEM Education, STEMmania // The Technology Teacher, 2009.

10. Ergashev U.I. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: O‘qituvchi, 2021.

IMMERSIV TA’LIM MUHITI ASOSIDA O‘QUVCHILARNING ADABIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Umarov Mirzohid Baxromjon o‘g‘li
Oriental universiteti talabalar bandligi va amaliyoti bo‘limi bosh mutaxassisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22243343

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning adabiy kompetensiyasini rivojlantirishda immersiv ta’lim muhiti imkoniyatlaridan foydalanish masalalari tadqiq etilgan. Badiiy asar tahlilida o‘quvchilarni muvofiq muhitga to‘liq sho‘ng‘ish orqali ularning matnni tushunish, estetik idrok etish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llari ochib berilgan. Tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatdiki, immersiv texnologiyalar o‘quvchilarning adabiy-tahliliy faolligini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so‘zlar: immersiv ta’lim, adabiy kompetensiya, virtual reallik (VR), badiiy matn, raqamli pedagogika, interfaol muhit.

Аннотация. В данной статье исследуются вопросы использования возможностей иммерсивной образовательной среды в развитии литературной компетенции учащихся общеобразовательных школ. В анализе художественного произведения раскрыты способы формирования у учащихся навыков понимания текста, эстетического восприятия и творческого мышления путем полного погружения в соответствующую среду. Результаты эксперимента показали, что иммерсивные технологии значительно повышают литературно-аналитическую активность учащихся.

Ключевые слова: иммерсивное образование, литературная компетенция, виртуальная реальность (VR), художественный текст, цифровая педагогика, интерактивная среда.

Abstract. This article examines the issues of utilizing the capabilities of an immersive educational environment in developing the literary competence of secondary school students. In the analysis of a literary work, the ways of forming students' skills in understanding the text, aesthetic perception, and creative thinking through full immersion in the corresponding environment are revealed. The experimental results showed that immersive technologies significantly enhance the literary-analytical activity of students.

Keywords: immersive education, literary competence, virtual reality (VR), literary text, digital pedagogy, interactive environment.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim jarayonini raqamlashtirish va uni yangi bosqichga ko‘tarish ta’lim tizimining asosiy strategik vazifalaridan biridir. An’anaviy adabiyot darsliklari va matnli tushuntirishlar har doim ham o‘quvchining badiiy asar qahramonlari kechinmalarini, davr ruhini va asar voqealari sodir bo‘lgan makonni to‘laqonli tasavvur qilishini ta’minlay olmaydi. Bu esa o‘quvchilarning adabiy kompetensiyasini rivojlantirishda ma’lum bir metodik bo‘shliqlarni yuzaga keltiradi. Ushbu muammoni bartaraf etishda ta’lim oluvchini o‘quv jarayoniga to‘liq jalb qiluvchi immersiv ta’lim muhitini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda [1].

Pedagogikada immersiv texnologiyalar o‘quvchilarning kognitiv yuklamasini optimallashtirib, abstrakt tushunchalarni vizual va interfaol tarzda o‘zlashtirishiga yordam berishi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etilgan [3]. Adabiyot darslarida immersiv muhitdan foydalanish o‘quvchining estetik idrokini kuchaytirib, badiiy matn bilan ishlash ko‘nikmalarini yangi darajaga olib chiqadi [6].

Tadqiqotning maqsadi – umumta’lim maktablarida immersiv ta’lim muhiti yordamida o‘quvchilarning adabiy kompetensiyasini rivojlantirishning metodik tizimini ishlab chiqish va uning samaradorligini amalda sinovdan o‘tkazish.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli-tahliliy va qiyosiy-pedagogik tahlil, kuzatish, anketa-so‘rov, pedagogik tajriba-sinov hamda matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlari Toshkent shahridagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9–11-sinf o‘quvchilari ishtirokida tashkil etildi. Tajriba guruhlarida adabiyot darslariga VR, AR, 3D modellar, 360 virtual ekskursiyalar va **virtualmuseum.uz** platformasi asosidagi interfaol materiallar integratsiya qilindi. Jumladan, o‘quvchilar yozuvchi hayoti va ijodiy muhiti, asarda tasvirlangan makon hamda tarixiy-madaniy kontekstni virtual

muhitda kuzatib, keyinchalik badiiy matnni obrazlar, badiiy detallar va muallif g‘oyasi nuqtayi nazaridan tahlil qildilar. Nazorat guruhlarida esa ta’lim an’anaviy metodlar asosida olib borildi. O‘quvchilarning adabiy kompetensiyasi badiiy matnni tushunish, tahlil qilish, estetik idrok etish, mustaqil talqin va ijodiy fikrlash mezonlari asosida tajriba boshida va yakunida qiyosiy baholandi. Tadqiqotning nazariy asosini adabiyot o‘qitish metodikasi, raqamli pedagogika va immersiv texnologiyalarga oid O‘zbekiston hamda xorijiy tadqiqotchilarning 65 dan ortiq ilmiy manbalari tashkil etdi.

Natijalar. Pedagogik tajriba-sinov natijalari immersiv ta’lim muhitidan foydalanish o‘quvchilarning adabiy kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori samaradorlik berishini tasdiqladi. Olingan asosiy ilmiy natijalar quyidagilardan iborat:

1. Immersiv muhit orqali yozuvchining ijodiy laboratoriyasi va asar makoniga "sayohat qilgan" o‘quvchilar matndagi badiiy detal, obraz va muallif g‘oyasini nazorat guruhidagilarga qaraganda 36% ga chuqurroq angladilar.

2. O‘quvchilarning adabiy matn bo‘yicha tanqidiy fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish va ijodiy insho yozish ko‘rsatkichlari o‘rtacha 29% ga oshgani aniqlandi.

3. Immersiv texnologiyalarning qo‘llanilishi darsga bo‘lgan ijobiy motivatsiyani keskin kuchaytirib, o‘quvchilarning darsdagi ishtirok faolligini ta’minladi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, adabiy ta’limda immersiv muhit faqatgina ko‘rgazmali qurol vazifasini bajarib qolmay, balki o‘quvchining shaxsiy tajribasini boyituvchi kognitiv vosita hisoblanadi. H.Matovu ta’kidlaganidek, immersiv texnologiyalar o‘quvchiga passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylanish imkonini beradi [4]. Milliy metodikamizda Q.Yo‘ldoshev va N. Mahmudovlarning adabiy matnni talqin qilish g‘oyalari zamonaviy immersiv muhit bilan uyg‘unlashganda, ta’lim samaradorligi yanada ortishi tajribada o‘z tasdiqini topdi [2].

Xorijiy tadqiqotchi R.Mayerning multimediali o‘qitish nazariyasiga ko‘ra, vizual va audialkanallarning bir vaqtda to‘g‘ri ishlatilishi ma’lumotni uzoq muddatli xotiraga saqlashni kafolatlaydi [5]. Bizning tadqiqotimiz ham o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini o‘qitishda ushbu nazariyaning amaliy ahamiyatini yaqqol ko‘rsatib berdi.

Xulosa. Tadqiqot jarayonidan kelib chiqqan holda quyidagi aniq ilmiy natijalar shakllantirildi:

1. Immersiv ta’lim muhitini adabiyot darslariga joriy etish o‘quvchilarning badiiy matnni tushunish va tahlil qilish ko‘rsatkichini 30–35% ga yaxshilashi eksperimental jihatdan isbotlandi.

2. Adabiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan immersiv muhitning didaktik tamoyillari (interfaollik, vizuallikning adekvatligi, kognitiv muvozanat va emotsional ta’sirchanlik) nazariy jihatdan asoslandi.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar umumta’lim maktablari uchun mo‘ljallangan zamonaviy elektron darsliklar va o‘quv platformalariga tatbiq etish uchun tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Atamuratov R., Xushvaqtov A. Digital transformation in education: The beginning of a new era //Бюллетень науки и практики. – 2025. – Т. 11. – №. 1. – P. 294-300.

2. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o ‘qitish metodikasi //Toshkent: Barkamol fayz media. – 2018. – С. 28-31.

3. Kadırjanovich A. R. et al. Opportunities and Prospects for the Use of lmmersive Technologies in Education //2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK). – IEEE, 2024. – С. 1-6.

4. Matovu H. et al. Immersive virtual reality for science learning: Design, implementation, and evaluation //Studies in Science Education. – 2023. – Т. 59. – №. 2. – С. 205-244.

5. Mayer R. E. The past, present, and future of the cognitive theory of multimedia learning //Educational Psychology Review. – 2024. – Т. 36. – №. 1. – С. 8.

6. Southgate E. et al. Embedding immersive virtual reality in classrooms: Ethical, organisational and educational lessons in bridging research and practice //International Journal of Child-Computer Interaction. – 2019. – Т. 19. – С. 19-29.

BADIIY PSIXOLOGIZM: NAZARIY YONDASHUV VA “PUANKARE” HIKOYASI TALQINI

Rushana Zaripova
f.f.f.d. (PhD), Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi
E-pochta: rushanazaripova73@gmail.com
ORCID ID: 0009-0002-8207-2819
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22243449

Annotatsiya. Mazkur tezisda badiiy psixologizmning adabiyotshunoslikdagi nazariy talqinlari, psixologizm, psixologiklik, badiiy psixologizm va psixologik tahlil tushunchalarining o‘zaro munosabati hamda inson ruhiyatini badiiy ifodalashning asosiy tamoyillari tahlil qilinadi. A.Iezuitov, V. Kompaneets, N. Kodak, V. Fashchenko va A. Yesin qarashlari qiyosiy asosda ko‘rib chiqilib, psixologizmning badiiy asar mazmuni va uslubiy tizimidagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, nazariy qarashlar Abduqayum Yo‘ldoshning “Puankare” hikoyasi misolida talqin qilinib, qahramonning ilmiy izlanishlari, o‘zligini anglash jarayoni, ichki iztiroblari va ruhiy kurashlari psixologizmning uslubiy dominanta sifatidagi xususiyatlari bilan bog‘liq holda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *badiiy psixologizm, psixologiklik, psixologik tahlil, ruhiyat, ichki dunyo, badiiy obraz, uslubiy dominanta, ruhiy kechinma, qahramon, “Puankare”.*

Abstract. This thesis examines the theoretical interpretations of literary psychologism in literary studies, the interrelationship between the concepts of psychologism, psychologicality, literary psychologism, and psychological analysis, as well as the principal approaches to the artistic representation of the human psyche. The views of A. Iezuitov, V. Kompaneyets, N. Kodak, V. Fashchenko, and A. Yesin are examined from a comparative perspective, with particular attention given to the role of psychologism in the semantic and stylistic structure of a literary work. The theoretical approaches are further applied to Abduqayum Yo‘ldosh’s short story Puankare, where the protagonist’s scientific pursuits, the process of self-understanding, inner suffering, and psychological struggles are analyzed in relation to the specific features of psychologism as a stylistic dominant.

Keywords: *literary psychologism, psychologicality, psychological analysis, psyche, inner world, literary character, stylistic dominant, psychological experience, protagonist, Puankare.*

Kirish. Badiiy adabiyotning insonni anglash imkoniyatlari, avvalo, uning ruhiy olamini tasvirlash mahorati bilan belgilanadi. Insonning tashqi xatti-harakatlari, fikrlari, kechinmalari, ichki ziddiyatlari va ruhiy holatlarini badiiy ifodalash adabiyotning muhim estetik vazifalaridan biridir. Shu ma’noda badiiy psixologizm adabiy asarning inson shaxsiyatini ochib beruvchi muhim jihatlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Psixologizm orqali qahramonning nafaqat tashqi harakati, balki uning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, fikr va tuyg‘ularining murakkab o‘zaro munosabati ham badiiy ifodalanadi.

Adabiyotshunoslikda psixologizm tushunchasi turlicha talqin qilingan. Ayrim tadqiqotchilar uni badiiy ijodning tabiiy xususiyati sifatida ko‘rsatsa, boshqalari inson ruhiyatini ifodalashning ongli estetik tamoyili yoki badiiy tasvir usullari tizimi sifatida baholaydilar. Shu sababli “psixologizm”, “psixologiklik”, “badiiy psixologizm” va “psixologik tahlil” tushunchalarining mazmun-mohiyatini farqlash masalasi nazariy jihatdan muhimdir.

Badiiy psixologizm tushunchasining nazariy talqinlari

A.Iezuitov psixologizm va psixologik tahlil tushunchalarini farqlash orqali mazkur muammoning nazariy chegaralarini belgilashga e’tibor qaratadi [А.Иезуитов, 1970. 52-б.]. Uning qarashlarida psixologizm badiiy ijod mahsuli va inson ruhiy holatlarini ifodalashning estetik tamoyili sifatida namoyon bo‘ladi. Psixologik tahlil esa inson ruhiyati qatlamlarini anglash va ochib berishga qaratilgan usullar majmui sifatida talqin qilinadi.

V.Kompaneets Iezuitov qarashlarini rivojlantirib, psixologizm va psixologik tahlil o‘rtasidagi farqni yanada aniqlashtiradi [В.Компанеец, 1980. С.47]. Uning yondashuvida psixologizm adabiyotning inson ruhiyatini aks ettirish bilan bog‘liq umumiy xususiyati bo‘lsa, psixologik tahlil ushbu imkoniyatni ongli estetik tamoyil asosida amalga oshirish vositasi sifatida talqin qilinadi.

N.Kodak “psixologiklik”, “badiiy psixologizm” va “psixologik tahlil” tushunchalarini farqlaydi [Kodak, 1980.C.6-7]. “Psixologiklik” so‘z san’atining inson ruhiy olamini ifodalashga xos umumiy badiiy xususiyatini, “badiiy psixologizm” muayyan davrning badiiy-estetik qarashlari va ijtimoiy-psixologik talablarini mujassamlashtirgan hodisani, “psixologik tahlil” esa insonning ichki olamini anglashga qaratilgan chuqur idrok va tafakkur faoliyatini bildiradi.

Kodakning qarashlarida psixologizm tahlil va sintez jarayonlarining birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Bir tomondan, qahramonning ruhiy holati, ichki kechinmalari va psixik jarayonlari tahlil qilinadi; ikkinchi tomondan, mazkur kechinmalar umumlashgan estetik butunlikka olib kelinadi. Shu sababli badiiy psixologizm inson ruhiyatining alohida holatlarini qayd etish bilangina cheklanmay, ularni asarning umumiy g‘oyaviy-estetik tizimi bilan bog‘laydi.

V.Fashchenko psixologizmni badiiy ijodning universal xususiyati sifatida ko‘rib, inson va ijtimoiy guruhlarning psixik jarayonlari, ruhiy holatlari, kayfiyatlari hamda xulq-atvorining ichki birlikda aks ettirilishini uning asosiy mohiyati sifatida belgilaydi [Фащенко, 1981.C.279]. Shuningdek, u psixologizmni inson ruhiyatini yoritishning badiiy shakl va usullari tizimi sifatida talqin qiladi.

A. B.Yesin psixologik tahlilni psixologizmning konkret ifoda shakllaridan biri sifatida talqin qiladi [Есин, 2008. C.199,248] Uning qarashlariga ko‘ra, psixologizm har bir adabiy asarda bir xil ko‘rinishda namoyon bo‘lmaydi: ayrim asarlarda u alohida tasviriy vosita bo‘lsa, boshqa asarlarda butun badiiy tizimning uslubiy dominantasiga aylanishi mumkin.

Psixologizm va uslubiy dominanta

Badiiy psixologizmning muhim jihatlaridan biri uning asar uslubiy tizimidagi o‘rnidir. Ayrim badiiy asarlarda ruhiyat tasviri ikkilamchi vosita sifatida xizmat qilsa, ayrim asarlarda psixologizm asarning mazmuniy va uslubiy tuzilishini belgilovchi asosiy tamoyilga aylanadi. A. B.Yesinning uslubiy dominantalar haqidagi qarashlari aynan shu masalani tushuntirish uchun muhimdir.

Yesinning fikricha, uslubiy dominanta asarning mazmuniy dominantasi bilan belgilanadi. Muammolar tizimi, asarning pafosi va g‘oyaviy yo‘nalishi muayyan uslubiy vositaning yetakchi mavqega chiqishiga sabab bo‘ladi. Shunday ekan, psixologizmni asarda uslubiy dominanta sifatida o‘rganish uchun uni asarning g‘oyaviy-mazmuniy asosidan ajratib bo‘lmaydi.

Abduqayum Yo‘ldoshning “Puankare” hikoyasida ruhiyat tasviri

Mazkur nazariy qarashlarni Abduqayum Yo‘ldoshning “Puankare” hikoyasi misolida kuzatish mumkin. Hikoyada qahramonning ilmiy izlanishlari, o‘zligini anglash jarayoni va ichki kurashlari badiiy psixologizmning muhim ko‘rinishlari sifatida namoyon bo‘ladi. Asarda qahramon ruhiyatining tasviri voqealar bayonidan ajralgan holda emas, balki uning ilmiy izlanishlari va ichki ziddiyatlari bilan uzviy bog‘langan tarzda shakllanadi.

Hikoyadagi psixologik tasvirning asosiy xususiyati qahramonning tashqi harakatlari bilan ichki kechinmalari o‘rtasidagi bog‘liqlikda ko‘rinadi. Qahramonning ilmiy izlanishlari uning ichki dunyosidagi savollar, ikkilanishlar va iztiroblar bilan uyg‘unlashadi. Natijada ilmiy faoliyat oddiy syujet elementi bo‘lib qolmay, qahramonning o‘zligini anglash jarayonini ochib beruvchi vositaga aylanadi.

“Puankare” hikoyasida psixologizmning uslubiy dominanta sifatida shakllanishi, avvalo, qahramonning ichki dunyosi asarning mazmuniy markaziga aylanishi bilan izohlanadi. Qahramonning ilmiy izlanishlardagi iztiroblari, o‘zligini anglash jarayoni va ichki kurashlari asarning asosiy mazmuniy qatlamini tashkil etadi. Shu bois ruhiyat tasviri asarning alohida epizodlarida uchraydigan vosita emas, balki uning umumiy badiiy konsepsiyasini belgilovchi tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi.

Qahramonning ruhiy holati individual kechinmalar doirasida qolib ketmaydi. U ilm-fan, insonning o‘zligini anglash, shaxs va jamiyat munosabati kabi kengroq mazmuniy masalalar bilan bog‘lanadi. Shu jihatdan hikoyadagi psixologizm insonning ichki olamini tasvirlash bilan birga, uning mavjudlik mohiyatini anglashga qaratilgan badiiy vosita vazifasini ham bajaradi.

“Puankare” hikoyasida badiiy psixologizm qahramon xarakterini chuqurlashtirish bilan cheklanmaydi. U asarning g‘oyaviy mazmunini ochish, qahramonning ichki ziddiyatlarini asoslash va o‘quvchini uning ruhiy olamiga yaqinlashtirish vazifalarini ham bajaradi.

Xulosa

Badiiy psixologizm adabiyotning inson ruhiyatini anglash va tasvirlash imkoniyatlarini namoyon etuvchi murakkab estetik hodisadir. A. Iezuitov, V.Kompaneets, N. Kodak, V. Fashchenko va A. B. Yesin qarashlarini umumlashtirish orqali psixologizmni insonning ichki dunyosini badiiy ifodalashning umumiy xususiyati, estetik tamoyili va muayyan asarlarda uslubiy dominanta sifatida namoyon bo‘luvchi hodisa deb qarash mumkin.

Psixologizm va psixologik tahlilning farqlanishi ushbu tushunchalarning nazariy chegaralarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Psixologizm inson ruhiyatini badiiy aks ettirishning umumiy imkoniyati bo‘lsa, psixologik tahlil ushbu imkoniyatni amalga oshiruvchi ijodiy va estetik usullar tizimini ifodalaydi.

Abduqayum Yo‘ldoshning “Puankare” hikoyasi misolida psixologizmning uslubiy dominanta darajasiga ko‘tarilishi qahramonning ilmiy izlanishlari, ichki iztiroblari, o‘zligini anglash jarayoni va ruhiy kurashlari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Asarda qahramon ruhiyati badiiy tasvirning ikkilamchi elementi emas, balki hikoyaning mazmuniy va g‘oyaviy markazini tashkil etuvchi muhim omil sifatida yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlarn

1. Иезуитов А. Проблема психологизма в эстетике и литературе. – Ленинград: Наука, 1970. – С. 52.

2. Компанеец В.В. Художественный психологизм в советской литературе. (1920-е г.). – Ленинград: Наука, 1980. – С. 47.

3. Компанеец В.В. Художественный психологизм как проблема исследования // Русская литература. – 1974. – № 1. – С. 46–60.

4. Kodak M.P. Психологізм соціальної прози. – Київ: Наукова думка, 1980. – С. 6–7.

5. Фащенко В.В. У глибинах людського буття. Етюди про психологізм літератури. – Київ: Дніпро, 1981. – С. 279.

6. Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения. – Москва: Флинта, 2008. – С. 199, 248.

ABDUQAYUM YO‘LDOSH NASRIDA PSIXOLOGIK TASVIR VOSITALARI

Rushana Zaripova
f.f.f.d. (PhD), Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi
E-pochta: rushanazaripova73@gmail.com
ORCID ID: 0009-0002-8207-2819
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22243627

Annotatsiya. Mazkur tezisda Abduqayum Yo‘ldosh nasrida inson ruhiyati va qahramon ichki dunyosini badiiy ifodalash usullari tadqiq etiladi. Yozuvchining “Alvido, go‘zallik…”, “Parim bo‘lsa”, “Vijdon”, “Loy odamlar qavmi”, “Puankare”, “Quduq”, “Tushov” hikoyalari hamda “Sunbulaning ilk shanbasi”, “Timsohning ko‘z yoshlari” qissalari misolida ichki monolog, dialog, psixologik detal, ruhiy portret, nutqiy xarakteristika, xotira va orzu tasvirlarining badiiy funksiyasi tahlil qilinadi. Ayniqsa, ichki monolog vositasida qahramonning yashirin kechinmalari, ichki ziddiyatlari, hayrat, iztirob, afsus, norozilik kabi ruhiy holatlarning ifodalanishiga e’tibor qaratiladi. Yozuvchi psixologik tasvir orqali qahramon ruhiyatini ijtimoiy muhit, hayotiy tajriba va ichki konfliktlar bilan uzviy aloqada tasvirlashi ilmiy asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *Abduqayum Yo‘ldosh, badiiy psixologizm, psixologik tasvir, ichki monolog, ruhiyat, ichki kechinma, psixologik detal, ruhiy portret, ichki konflikt, qahramon.*

Abstract. This thesis examines the techniques of artistic representation of the human psyche and the inner world of characters in the prose of Abduqayum Yo‘ldosh. Based on the writer’s short stories *Alvido, go‘zallik…*, *Parim bo‘lsa*, *Vijdon*, *Loy odamlar qavmi*, *Puankare*, *Quduq*, and *Tushov*, as well as the novellas *Sunbulaning ilk shanbasi* and *Timsohning ko‘z yoshlari*, the study analyzes the artistic functions of interior monologue, dialogue, psychological detail, psychological portrait, speech characterization, memory, and dream imagery. Particular attention is paid to the representation of the characters’ hidden emotions and inner conflicts, including feelings of astonishment, suffering, regret, and protest through interior monologue. The study demonstrates that the writer employs psychological representation to portray the characters’ inner states in close connection with their social environment, life experience, and internal conflicts.

Keywords: *Abduqayum Yo‘ldosh, literary psychologism, psychological representation, interior monologue, psyche, inner experience, psychological detail, psychological portrait, inner conflict, character.*

Kirish. Badiiy adabiyotning muhim vazifalaridan biri insonning tashqi olamga munosabatini uning qalbi va ongidagi o‘zgarishlar orqali yoritishdan iborat. Shu jarayonda qahramon ruhiy dunyosini ochib beruvchi psixologik tasvir vositalari alohida ahamiyat kasb etadi. Badiiy psixologizm insonning nafaqat tashqi xatti-harakatlarini, balki uning ichki kechinmalari, fikrlari, hissiy holatlari va ruhiy ziddiyatlarini tasvirlash imkonini beradi. Shuning uchun ham qahramon ruhiyatini badiiy ifodalash masalasi adabiyotshunoslikning muhim nazariy va amaliy muammolaridan biri hisoblanadi.

Psixologik tasvir vositalari qahramonning ichki olamini ochishning turli shakllarini qamrab oladi. Ichki monolog, nutqiy xarakteristika, dialog, badiiy detal, psixologik tafsilot, ruhiy portret, xotira va orzu tasvirlari shular jumlasidandir. Mazkur vositalarning har biri qahramon ruhiyatini turli rakurslarda yoritishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ichki monolog qahramonning boshqalardan yashirin bo‘lgan tuyg‘u va kechinmalarini bevosita ifodalashi bilan psixologik tasvirning samarali shakllaridan biri hisoblanadi.

Abduqayum Yo‘ldosh nasrida psixologik tasvirning o‘rni

Bugungi o‘zbek nasrida inson ruhiyati, ichki konflikt va shaxsning ijtimoiy muhit bilan munosabatini yoritishga e’tibor kuchayib bormoqda. Abduqayum Yo‘ldosh ijodida ham ushbu tendensiya yaqqol namoyon bo‘ladi. Yozuvchi qahramonlarining xarakter xususiyatlari va ruhiy kechinmalarini turli poetik vositalar orqali jonli va ta’sirchan ifodalaydi. Uning hikoya va qissalarida inson ruhiyatining murakkab qirralari ichki kechinmalar, ziddiyatlar, orzu-umidlar va ruhiy iztiroblar vositasida ochib beriladi.

Adibning “Alvido, go‘zallik…”, “Parim bo‘lsa”, “Vijdon”, “Loy odamlar qavmi”, “Puankare”, “Quduq”, “Tushov” kabi hikoyalari hamda “Sunbulaning ilk shanbasi”, “Timsohning ko‘z yoshlari” qissalarida psixologik tasvirning turli shakllarini kuzatish mumkin. Yozuvchi qahramon ruhiyatini tashqi

harakatlar bilangina emas, balki uning ichki iztiroblari, shubhalari, xotiralari, hayotiy tajribasi va ijtimoiy muhit bilan munosabati orqali ochadi.

Shu jihatdan Abduqayum Yo‘ldosh nasrida psixologik tasvir alohida epizodik vosita emas, balki qahramon xarakterini shakllantiruvchi muhim poetik tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi. Qahramonning ruhiy holati uning hayotiy tajribasi va ijtimoiy muhitidan ajratilmaydi. Natijada tashqi voqea va ichki kechinma o‘rtasida uzviy badiiy aloqa yuzaga keladi.

Ichki monolog – ruhiyatni ochishning yetakchi vositasi

Ichki monolog badiiy psixologizmning qahramon ichki dunyosini bevosita ochib beruvchi muhim vositalaridan biridir [Й.Солижонов, 2013. 78-б.]. U qahramonning o‘z-o‘zi bilan ichki muloqoti, tafakkur tarzi, fikr va tuyg‘ularining ichki ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ichki monolog orqali qahramonning boshqalardan sir tutadigan, qalb tubida saqlaydigan kechinmalari ham o‘quvchiga oshkor etiladi.

N. Shodiyev ichki monologning ochiqligi va ruhiy holatlarni bevosita ifodalash xususiyatiga e’tibor qaratadi [Ҳ.Умуров 1995.4-5-б.]. Odatda ichki monolog qahramon hayotining keskin va dramatik vaziyatlarida faol qo‘llanadi. Chunki aynan shunday vaziyatlarda insonning ichki dunyosidagi ziddiyatlar, kuchli his-tuyg‘ular va ruhiy tug‘yonlar yaqqol namoyon bo‘ladi.

Abduqayum Yo‘ldosh ijodida ham ichki monolog qahramon psixik hayotining eng murakkab va dramatik holatlarini ifodalashga xizmat qiladi [Н.Шодиев, 1977. 6-б.]. Adib ichki monolog orqali qahramonning ayni paytdagi kayfiyati, ruhiy ahvoli, oniy fikri yoki kuchli hissiy kechinmasini ixcham, ammo ta’sirchan tarzda ifodalaydi.

Buning yorqin namunalaridan biri “Alvido, go‘zallik…” hikoyasidagi qahramonning Oysuluv yangani ko‘rib kechirgan ruhiy holatidir [А.Йўлдошев, 2023. 33-38-б.]. Qahramon bir yil avvalgi go‘zal va iboli Oysuluv bilan bugungi hayot tashvishlari ostida o‘zgargan ayol qiyofasini taqqoslaydi. Uning ichki monologida hayrat, ishonchsizlik, afsus, hamdardlik va norozilik kabi hissiy holatlar bir-birini to‘ldirib boradi.

Qahramonning “Nahot, nahot tirikchilik, bir burda non tashvishlari shunday suluv juvonni bir yil ichida kampirga aylantirgan bo‘lsa” tarzidagi ichki kechinmasida hayrat va ishonchsizlik ustuvorlik qiladi. “Qani men ko‘rgan Oysuluv yanganing suluvligi, ibosi?” degan savol esa yo‘qotilgan go‘zallik va o‘tgan kunlarga nisbatan hasratni ifodalaydi. “Kimlar bu ko‘yga soldi?” tarzidagi savol orqali esa shaxsiy kechinma ijtimoiy mazmun kasb etadi.

Demak, mazkur ichki monolog faqat qahramonning ruhiy holatini ifodalash bilan cheklanmaydi. Unda Oysuluv yanganing fojiaviy qismati, qashshoqlik, tirikchilik tashvishi va ijtimoiy muhitning inson hayotiga ta’siri ham mujassamlashadi. Shu tariqa individual ruhiy kechinma ijtimoiy muammo bilan birlashadi.

Psixologik tasvir va ijtimoiy muhit munosabati

Abduqayum Yo‘ldosh ijodida psixologik tasvirning muhim xususiyatlaridan biri qahramon ruhiyatining tashqi muhit bilan uzviy bog‘liqlikda berilishidir. Yozuvchi insonni ijtimoiy muhitdan ajratilgan holda tasvirlamaydi. Aksincha, uning ruhiy holati, xatti-harakati va qarorlarini hayotiy tajribasi, mavjud sharoit va atrof-muhit bilan bog‘liq holda ko‘rsatadi.

“Alvido, go‘zallik…” hikoyasidagi ichki monolog bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Oysuluv yanganing tashqi qiyofasidagi o‘zgarish qahramonning ichki kechinmalarini uyg‘otadi. Biroq bu kechinmalar faqat estetik hayrat yoki afsus bilan cheklanmay, jamiyatdagi qashshoqlik va tengsizlik muammolariga ulanadi. Demak, psixologik tasvir orqali ijtimoiy muhitning inson ruhiyatiga ta’siri ochib beriladi.

Bu xususiyat “Parim bo‘lsa”, “Tushov”, “Puankare”, “Quduq”, “Sunbulaning ilk shanbasi”, “Timsohning ko‘z yoshlari” kabi asarlarda ham turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Ularda qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va ichki ziddiyatlari ularning hayotiy tajribasi hamda ijtimoiy muhit bilan bog‘liq tarzda yoritiladi.

Qahramon xarakterini psixologik asoslash

Badiiy psixologizmning muhim vazifalaridan biri qahramon xarakterini ichki mantiq asosida asoslashdir. Abduqayum Yo‘ldosh asarlarida personajlarning ruhiy holati ularning hayotiy tajribasi va ichki kurashlari bilan uyg‘unlashadi. Shu sababli qahramonning xatti-harakati tasodifiy emas, balki uning ruhiy olamidan kelib chiqadigan tabiiy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

“Puankare” hikoyasida bosh qahramonning ichki tortinchoqligi, ilmiy izlanishlari va o‘zligini anglash jarayoni psixologik tasvir vositalari orqali yoritiladi. Ichki monolog va psixodialog qahramonning tashqi harakatlari ortida kechayotgan ruhiy jarayonlarni ochishga xizmat qiladi. Shu jihatdan yozuvchi

qahramon xarakterini tayyor xulosalar orqali emas, balki uning ichki kechinmalari va ruhiy holatlari orqali namoyon etadi.

“Timsohning ko‘z yoshlari” qissasida esa qahramonning axloqiy tanlovi va ichki dilemmasi ruhiy iztiroblar bilan uyg‘unlashadi. Yaxshi va yomon, qulay va noqulay tanlov o‘rtasidagi ichki ziddiyat qahramon xarakterining psixologik asosini tashkil etadi. Natijada tashqi voqea qahramonning ichki olamidagi murakkab jarayonlar bilan birlashadi.

Shu jihatdan Abduqayum Yo‘ldosh nasrida psixologik tasvir qahramon xarakterining hayotiy va mantiqiy asoslanganligini ta’minlovchi muhim poetik vosita vazifasini bajaradi. Yozuvchi ruhiy holatni shunchaki tasvirlamaydi, balki uning sabablarini ham badiiy jihatdan asoslaydi.

Xulosa. Abduqayum Yo‘ldosh nasrida psixologik tasvir qahramon ruhiyatini ochib berish, uning xarakterini chuqurlashtirish va asarning g‘oyaviy mazmunini yoritishning muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi ichki monolog, dialog, psixologik detal, ruhiy portret, nutqiy xarakteristika, xotira va orzu tasvirlaridan foydalanib, qahramonning ichki olamini turli rakurslarda ochadi.

Ayniqsa, ichki monolog qahramonning yashirin kechinmalarini bevosita ifodalash, uning ruhiy ziddiyatlarini ochish va o‘quvchini qahramonning ichki dunyosiga yaqinlashtirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. “Alvido, go‘zallik…” hikoyasidagi ichki monologda hayrat, hasrat, afsus va norozilik kabi kechinmalarning ijtimoiy muhit bilan bog‘lanishi yozuvchining psixologik tasvir mahoratini namoyon etadi.

“Puankare” va “Timsohning ko‘z yoshlari” kabi asarlarda esa psixologik tasvir qahramonning ichki konflikti, o‘zligini anglash va axloqiy tanlov jarayonlarini yoritishga xizmat qiladi. Umuman, Abduqayum Yo‘ldosh nasrida ruhiy tasvir tashqi voqelikdan ajralmagan holda, insonning hayotiy tajribasi va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liqlikda shakllanadi.

Shunday qilib, yozuvchi ijodida badiiy psixologizmni faqat tasviriy vositalar majmui sifatida emas, balki xarakter va voqea, shaxs va muhit, tashqi harakat va ichki kechinma o‘rtasidagi munosabatni belgilovchi muhim poetik tamoyil sifatida baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Матёқубов С. Бадиий психологизм қирралари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006. – № 4. – Б. 72–74.
2. Солижонов Й. Мўъжизалар сеҳри: таҳлил, талқин, ҳайрат ва адабий ўйлар. – Тошкент: Адиб, 2013. – Б. 78.
3. Умуров Ҳ. Қаҳрамон маънавий олами ва эпиклик. – Тошкент: Фан, 1995. – Б. 4–5.
4. Шодиев Н. Руҳият рассоми. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 6.
5. Йўлдошев А. Мубтало: ҳикоялар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2023. – Б. 136.
6. Йўлдошев А. Мубтало / Алвидо, гўзаллик. Ҳикоялар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2023. – Б. 33-38.
7. Yo‘ldoshev A. Mashaqqatlar osha yulduzlar sari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – B. 80.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA TERMIZIYLAR ILMIY MEROSINING O‘RGANILISH AHAMIYATI

Majidov Azim Kaxxarovich
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22245934

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv jarayonida Imom Termiziy va boshqa Termiziy allomalar ta’limotining o‘rganilish ahamiyati tahlil etilgan. Maqolada “Sunani Termiziy” asari asosida hadis ilmining metodologik ilmiy asosi, shu bilan birga mazkur merosning tarbiyaviy-ma’naviy hamda mafkuraviy jihati ochib berilgan. Bundan tashqari Termiziy allomalar ilmiy merosining zamonaviy falsafiy hamda ijtimoiy tadqiqotlar bilan uyg‘unligi, mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi ta’siri, globallashuv sharoitida ma’naviy-diniy barqarorlikning ta’minlanishidagi ahamiyati asoslab o‘tilgan. Termiziy allomalar qoldirgan ilmiy meros bugungi kun ilm-fanini boyitishda, milliy va diniy qadriyatlarni saqlashda hamda ularni xalqaro miqyosda integratsiya qilishda ahamiyatli manba ekani ta’kidlangan.

Kalit So‘z: Termiziylar ilmiy merosi, globallashuv, ma’naviy qadriyatlar, ma’naviy taraqqiyot, “Sunani Termiziy”, hadis, diniy bilim, radikal talqin, axloqiy barkamollik, inson kamoloti, radikalizm, zamonaviy ilm-fan, jamiyat taraqqiyoti.

Аннотация: В данной статье анализируется значение изучения учения Имама ат-Тирмизи и других учёных-алимов Термиза в условиях процесса глобализации. На основе произведения «Сунан ат-Тирмизи» раскрываются методологические и научные основы хадисоведения, а также воспитательно-нравственные и идеологические аспекты данного наследия. Кроме того, обосновывается взаимосвязь научного наследия термизийских учёных с современными философскими и социальными исследованиями, его влияние на формирование идеологического иммунитета и значение в обеспечении духовно-религиозной стабильности в условиях глобализации. Подчёркивается, что научное наследие, оставленное термизийскими учёными, является важным источником обогащения современной науки, сохранения национальных и религиозных ценностей, а также их интеграции в международное научно-культурное пространство.

Ключевые слова: научное наследие термизийских учёных, глобализация, духовные ценности, духовное развитие, «Сунан ат-Тирмизи», хадис, религиозные знания, радикальная интерпретация, нравственное совершенствование, совершенствование личности, радикализм, современная наука, развитие общества.

Abstract: This article analyzes the significance of studying the teachings of Imam al-Tirmidhi and other scholars of Termez in the context of globalization. Based on the work *Sunan al-Tirmidhi*, the methodological and scholarly foundations of Hadith studies are examined, along with the educational, moral, spiritual, and ideological dimensions of this intellectual heritage. Furthermore, the article substantiates the relevance of the scholarly legacy of the Tirmidhi scholars to contemporary philosophical and social research, its influence on the formation of ideological immunity, and its importance in ensuring spiritual and religious stability under conditions of globalization. It is emphasized that the scholarly heritage left by the scholars of Termez serves as an important source for enriching contemporary science, preserving national and religious values, and integrating them into the international intellectual and cultural space.

Keywords: scholarly heritage of the Tirmidhi scholars, globalization, spiritual values, spiritual development, *Sunan al-Tirmidhi*, Hadith, religious knowledge, radical interpretation, moral excellence, human development, radicalism, modern science, social development.

Insoniyat XXI asrga kelib globallashuvning xalqaro miqyosda madaniy integratsiya hamda ma’naviy qadriyatlar transformatsiyasi, shuningdek, axborot almashinuvini tezlashtirayotganiga guvoh bo‘lmoqda. Bunday paytda milliy va diniy ilmiy merosni chuqur o‘rganish va tadqiq etish, mazkur merosni zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish muhim xarakter kasb etadi. Shu nuqtai nazardan Imom Termiziy va Termiziy allomalar merosi nafaqat islom dini taraqqiyoti, balki zamonaviy ma’naviy taraqqiyot uchun ham nodir manba bo‘lib hisoblanadi. Jumladan, zamonaviy tadqiqotlar Imom Termiziyning ilmiy merosini,

ayniqsa, “Sunani Termiziy”da to‘plangan hadislarni ilmiy va ma’naviy barqarorlikning ta’minlanishida muhim omil ekanligini ta’kidlaydi. Bu esa, o‘z navbatida, globallashuv sharoitida hadislarning muhimligini yana bir ko‘rsatib bermoqda.

“Sunani Termiziy” asari asosida hadis ilmini tizimga keltirish va tahlilini amalga oshirishning ilmiy usullari shakllantirilgan bo‘lib, ushbu asar hadislarni jamlash bilan chegaralanib qolmay, balki ularni tasniflash, baholash hamda qiyosiy tahlil etish imkonini beradigan metodologik asosni ham yaratib beradi. Indoneziyaning UIN Sunan Gunung Djati Bandung universiteti Usuluddin fakulteti tadqiqotchisi V.Darmalaksana “Hadis tadqiqotida fan va texnologiya imkoniyatlari” (Science and technology opportunities in hadith research) nomli maqolasida hadis tadqiqotlarini zamonaviy ilm-fan bilan uyg‘un holda olib borish yangi ilmiy yondashuvlarning shakllanishiga olib kelganligini ta’kidlaydi. Mana shu kabi ilmiy fikrlardan ko‘rinib turibdiki, “Kutubi sitta” tarkibida e’tirof etilgan “Sunani Termiziy” asari Imom Termiziyning ilmiy merosi o‘laroq zamonaviy ilm-fan sohasida yangi ilmiy talqinlar majmuasining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. globallashuv sharoitida esa bu metodologiya diniy bilimlarni radikal talqinlardan muhofaza qilishda dolzarb ahamiyatga ega.

Ayni paytda Termiziylar ilmiy merosining ma’naviy-tarbiyaviy va mafkuraviy ahamiyati bugun har qachongidan ham ko‘ra dolzarb sanaladi. Termiziylar merosi insonning odob-axloqi, ma’naviy-ruhiy poklik hamda ijtimoiy adolat g‘oyalarini o‘zida singdirgan ta’limot hisoblanadi. bunga hadislarda insoniylik, poklik, mehr-oqibat va halollik singari qadriyatlar qamrab olinganini o‘rnak qilib keltirish mumkin. Olib borilgan tadqiqot ishlarida yoshlarning hadislarni to‘g‘ri anglashi, ularni tanqidiy tahlil qilishi va jamiyatda qo‘llay olishi ko‘nikmalari shakllanganda, axborot xurujlariga qarshi aqliy immunitet kuchayishi hamda diniy bilimlar sog‘lom va mu’tadil holda tarqalishi ta’kidlanadi. Bu g‘oyalar globallashuv sharoitida yoshlarda mafkuraviy immunitetning shakllanishida muhim xususiyat kasb etadi. Shunday ekan, “Sunani Termiziy”da rivoyat qilingan hadislarda ham insonni axloqan komillikka chorlovchi jihatlar ustuvorlikka ega.

Termiziylar merosi faqat diniy emas, balki falsafiy va insoniylik jihatidan ham muhim sanaladi. Xususan, Hakim Termiziy ilmiy merosi inson tabiati, uning ma’naviy kamoloti, shuningdek, anglash va bilish jarayoniga doir ahamiyatli g‘oyalarni targ‘ib etadi. Bu esa Hakim Termiziyning merosi global ilmiy yondashuvga muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega ekanini ko‘rsatishi, shubhasiz. Ayniqsa, global ma’naviy tanazzul vaqtida bu g‘oyalar shaxs kamoloti nazariyasini qayta tadqiq etishda asos manba sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy dunyoning globallashuvida diniy ekstremizm va ma’naviy bo‘shliq singari masalalar paydo bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadigan jihat – diniy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlashdir. Bunday vaziyatda Termiziylar merosi mo‘tadil, ilmiy hamda ma’naviy-ruhiy muvozanatni saqlab turishi bilan xarakterlanadi. Shu bois, Termiziylar merosini o‘rganish ilmiy ahamiyatga ega bo‘lish bilan bir qatorda ijtimoiy-siyosiy jihatdan ham dolzarb hisoblanib, o‘zaro bag‘rikenglik va barqarorlik omili sifatida o‘rtaga chiqadi.

Mamlakatimizda Termiziylar merosini o‘rganishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilib, uning amaliy ifodasi sifatida Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini ta’kidlab o‘tish mumkin. Markaz nafaqat mahalliy doirada, balki xalqaro miqyosda ham keng faoliyat olib borishni oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Unga ko‘ra o‘tgan davr mobaynida Imom Termiziy va Termiziy allomalar ilmiy merosi dunyo bo‘ylab targ‘ib etib kelinmoqda. Ushbu Markazning tashkil etilishi milliy ilmiy merosni global ilmiy doiraga olib chiqish, uni jahon ilm-fani bilan uyg‘unlashtirish fursatini beradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, globallashuv avj olgan davrda Termiziylar ilmiy merosini o‘rganish, tadqiq etish ilmiy metodologiyani takomillashtirish, ma’naviy-ruhiy va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, diniy radikallashuvga qarshi ilmiy baza yaratish, milliy meros sanalgan Termiziylar ta’limotini dunyo ilm-faniga muvofiqlashtirish kabi dolzarb vazifalarni amalga oshiradi. Shuning uchun Imom Termiziy va boshqa Termiziy allomalar merosini chuqur o‘rganish va tadqiq etish zamonaviy ilm-fan va jamiyat taraqqiyoti uchun dolzarb vazifa sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 14-fevraldagi PQ-2774-son qarori.

2. Imam Tirmizi. Sunen-I Tirmizi. Abdullah Parliyan. – Konya: 2004. s.773.
3. http://www.enfal.de/tirmizi/index1.htm (Edep bölümleri. 2753-h).
4. Solihin Ma’ruf, Tata Setiana, Muhammad Al Mighvar, Engkos Kosasih, Irvan Abdurrahman. Hadis Dalam Konteks Globalisasi: Peluang Dan Tantangan (Globallashuv konteksida hadis: imkoniyatlar va chaqiriqlar). AL-AFKAR: Journal for Islamic Studies. Vol. 9 No. 1 (2026).
5. Vahyudin Darmalaksana. Science and technology opportunities in hadith research (Hadis tadqiqotida fan va texnologiya imkoniyatlari). IJIK Vol. 11. No. 1.
6. Mut’ah Latifah, Yasmin Saibatul Aslamiyah. Critique and analysis of hadith in countering radicalism among youth (Yoshlar o‘rtasida radikalizmga qarshi kurashda hadisning tanqidiy tahlili). SEAJIS Southeast Asian Journal of Islamic studies. Vol. 1, No. 1, 2025.

OLIY O‘QUV YURTI TALABALARIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI ANIQLASH ME’ZONLARI TAXLILI
(Noiqtisodiy yo‘nalishi talabalari misolida)

Asqarov Abrorjon Hayitmirzaevich
Namangan davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi,
Abrorjonasqarov86@gmail.com Orsid-0009-0005-8505-3391
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22246013

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda jahonning yetakchi oliy ta’lim muassasalari tajribasi hamda ilmiy izlanishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, noiqtisodiy yo‘nalish (masalan, muhandislik, tibbiyot yoki ona-tili adabiyot) talabalari uchun moliyaviy savodxonlikni o‘qitishda faqatgina raqamlar va formulalarga asoslangan an’anaviy yondashuvlar yetarli samara bermaydi. Bunday auditoriya uchun o‘quv jarayonini hayotiy va amaliy ko‘nikmalarga bog‘lash talab etiladi. Ushbu maqola davomida Namangan davlat pedagogika instituti, Qo‘qon davlat pedagogika institutlari, Farg‘ona davlat universiteti va Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetlaridan jami 804 nafar respondent talabalari jalb etilgan holda ularni 9 ta yo‘nalish bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomada talabalardagi kognitiv, psixoemosional va stereotiplashtirish mezonlari birma-bir tahlil qilindi.

Аннотатsiя. В настоящем исследовании опыт ведущих мировых высших учебных заведений, а также наши научные исследования показали, что традиционные подходы, основанные только на числах и формулах, недостаточно эффективны в обучении финансовой грамотности студентов неэкономической направленности (например, инженерной, медицинской или литературы на родном языке). Для такой аудитории необходимо связать процесс обучения с жизненными и практическими навыками.В ходе опроса были проанализированы когнитивные, психоэмоциональные и стереотипные критерии у студентов.тута, Кокандского государственного педагогического института, Ферганского государственного университета и Hatsионального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека по 9 направлениям. В ходе опроса были проанализированы когнитивные, психоэмоциональные и стереотипные критерии у студентов.

Annotation. In this study, the experience of the world's leading higher education institutions as well as our scientific research showed that traditional approaches based solely on numbers and formulas in teaching financial literacy for students of non-economic orientation (e.g. engineering, medicine or Mother-Language Literature) do not have sufficient results. For such an audience, it is necessary to link the learning process to real-life and practical skills. During this study, a survey was conducted among 804 respondents from Namangan State Pedagogical Institute, Kokand State Pedagogical Institute, Fergana State University, and Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan, covering 9 areas. The questionnaire analyzed cognitive, psychoemotional, and stereotyping criteria in students one by one.

Kirish. Jahonda hozirgi globallashuv sharoitida aholini moliyaviy savodxonligini oshirish va fuqarolarning iqtisodiy madaniyatini shakllantirishning kreativ metodlari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu jarayon davlat, biznes va jamoat tashkilotlarining sa’y-harakatlarini birlashtirgan ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladigan keng qamrovli muammo hisoblanadi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) hujjatlarida ko‘rsatilganidek, moliyaviy savodxonlikka quyidagicha rasmiy ta’rif berilgan: “Moliyaviy savodxonlik – bu shaxsiy moliyaviy farovonlikka erishish uchun asosli moliyaviy qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi xabardorlik, bilim, ko‘nikma, qadriyatlar (hayotiy yo‘nalishlar) va xulq-atvor kabi elementlarning majmuidir”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilg‘or xorijiy o‘quv muassasalari va tadqiqot institutlari, moliya tashkilotlaridan yetakchi mutaxassislarni moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga oid ta’lim tadbirlariga keng jalb qilish samarali natija berishini alohida ta’kidlab o’tganlar. Shuningdek, noiqtisodiy yo‘nalishdagi oliy ta’lim tashkilotlari talabalari uchun «Moliyaviy savodxonlik» o‘quv kursini fan sifatida joriy etish, ushbu fan doirasida mablag‘larni to‘g‘ri boshqarish, oqilona moliyaviy qarorlar qabul qilish, jumladan moliyaviy instrumentlar bo‘yicha o‘qitish metodologiyasini ishlab chiqish hamda

«Moliyaviy savodxonlik olimpiadalari»ni tashkil etish orqali o‘quv kursining samaradorligini baholash eng ustuvor vazifalardan ekanligi ko‘rsatib o’tilgan.

Tahlil va muhokamalar. Ushbu tadqiqotda oliy ta’lim muassasalari talabalari orasida “Kredit” mavzusi bo‘yicha o‘tkazilgan moliyaviy savodxonlik so‘rovnomasi (1-ilovaga qarang) natijalari to‘g‘ri javoblar ulushi orqali hisoblanib, talabalarning kreditga oid bilimlari, munosabati va qaror qabul qilish xususiyatlaridagi barqaror tendensiyalar aniqlandi.

Birinchi navbatda, kognitiv mezon (cognitive criteria)-kredit tushunchasi, kredit stavkalari va imtiyozli foizlar haqidagi bilimlarni qamrab oldi. O‘rganishlarda 2-, 5- va 6-savollar natijalari tahlil qilinganda, umumiy to‘g‘ri javob ulushi past darajada ekani aniqlandi. Ayniqsa “kredit foizlari” va “imtiyozli kredit foizlari” haqida xabardorlik ko‘rsatkichlarining pasayishi talabalarda moliyaviy terminologiyani bilish bilan birga, moliyaviy mahsulotlarning amaliy mexanizmlarini tushunish yetarlicha shakllanmaganini anglatadi. Demak, kognitiv komponentdagi bo‘shliqlar talabalarning real hayotiy sharoitda to‘g‘ri moliyaviy qaror qabul qilish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ikkinchi yo‘nalish-psixoemosional mezon (psycho-emotional criteria) kredit mavzusiga qiziqish va ta’limiy muloqotning mavjudligini aks ettirdi. Mazkur mezon 1- va 3-savollar natijalariga tayanilgan holda baholandi: “o‘qituvchi bilan kredit haqida gaplashganlik” hamda “bank kreditlari borligi bilan qiziqish” indikatorlari umumiy hisobda o‘rtacha darajani ko‘rsatdi.

Bu holat talabalarda mavzuga nisbatan muayyan qiziqish va ijtimoiy-ta’limiy muhitda muloqot imkoni borligini anglatadi. Biroq OTMlar kesimida farq kuzatilib, ayrim guruhlarda (masalan, Namangan DPI) muloqot va qiziqishning nisbatan pastligi moliyaviy masalalarni muhokama qilish madaniyatini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Uchinchi komponent-stereotiplashtirish mezon (stereotyping criteria)-kredit tanlash va foiz stavkalarini qiyoslash kabi qaror nuqtalarida soddalashtirilgan “intuitiv” qoidalar (evristikalar) ta’sirini baholadi. Bu mezon 4- va 7-savollarga asoslandi. Tahlil natijalari ushbu mezonda to‘g‘ri javob ulushi eng past ekanini ko‘rsatdi. Ayniqsa “oylik 9%” va “yillik 24%” stavkalarini solishtirishga oid savolda to‘g‘ri javoblarning juda kamligi talabalarda foizni davriylikka (oy/yil) keltirib baholash, real qiymat va umumiy to‘lov yukini hisoblash kompetensiyasi zaifligidan dalolat beradi. Bu esa moliyaviy qarorlarda “kattalikni tashqi ko‘rinishga qarab baholash” kabi stereotiplashgan yondashuvlar ustunligini, natijada esa noto‘g‘ri kredit tanlovi va moliyaviy tavakkalchilik ehtimoli ortishini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, jadval ma’lumotlari talabalarda kredit mavzusiga qiziqish va muayyan muloqot borligini (psixoemosional mezon-o‘rtacha) ko‘rsatsa-da, kredit mahsulotlarining mazmuniy-amaliy bilimlari (kognitiv mezon-past) hamda stavkalarni qiyoslash va qaror qabul qilishdagi hisobiy savodxonlik (stereotiplashtirish mezon-past) yetarli emasligini tasdiqlaydi.

OECD/INFE yondashuviga ko‘ra, moliyaviy savodxonlik bilim (knowledge), munosabat (attitudes) va xulq-atvor, qaror (behaviour) komponentlarining uyg‘unligidan tashkil topadi. Shu bois baholashda faqat ta’rifiy bilim emas, balki qaror qabul qilishdagi amaliy kompetensiya ham hisobga olinadi[11]. Huston modellarida ham moliyaviy savodxonlik “bilish” bilan birga “qo‘llash” (application) qobiliyatini qamrab olishi ta’kidlanadi [12]. Lusardi & Mitchell tadqiqotlarida foiz, kompaund foiz kabi bazaviy tushunchalarni tushunish moliyaviy qarorlar sifatini belgilaydigan muhim omil sifatida qaraladi [13]. Qarz (debt) savodxonligi bo‘yicha Lusardi & Tufano ishida esa qarz shartlari va foizlarni to‘g‘ri anglamaslik ortiqcha qarzdorlik xavfini oshirishi ko‘rsatilgan [14]. Shuningdek, qaror qabul qilishdagi evristika va og‘ishlar (biases) (masalan, “foizning davriyligi”ni inobatga olmaslik) Tversky & Kahneman konsepsiyasi bilan izohlanadi, bu holat mazkur ishda “stereotiplashtirish mezoni”ni nazariy jihatdan asoslashga xizmat qiladi [15].

Moliyaviy savodxonlikni baholashda zamonaviy yondashuvlar uni ko‘p komponentli konstruksiya sifatida talqin qiladi. Moliyaviy (knowledge), munosabat (attitudes) va xulq-atvor (behaviours) komponentlari birgalikda moliyaviy qaror sifatiga ta’sir qiladi. Bu yondashuv OECD/INFE metodologiyasida ham asosiy mezon sifatida qabul qilingan.

Kognitiv mezon (Cognitive criteria)-sug‘urta bo‘yicha (2-ilovaga qarang) aniq tushuncha va amaliy tartib-qoidalarni bilish (sug‘urtaning imtiyozlari, turlari, tekshirish va murojaat mexanizmi) hisoblanadi. Bu komponent moliyaviy bilimni “inson kapitaliga investitsiya” sifatida tushuntiruvchi nazariyalar bilan ham uyg‘un hisoblanadi.

Psixoemotsional mezon (Psycho-emotional criteria)-sug‘urtaga nisbatan qiziqish, ichki motivatsiya va ijobiy munosabat (masalan, ma’lumot olish istagi, hayotni sug‘urta qilishga tayyorlik) bo‘lib, OECD/INFE yondashuvida “attitudes” moliyaviy qarorda muhim determinant sifatida qaraladi.

Stereotiplashtirish mezon (Stereotyping criteria)-moliyaviy qaror va tasavvurlarning ijtimoiylashuv kanallari (o‘qituvchi bilan muloqot, “ilk ma’lumot manbai”) orqali shakllanishini ko‘rishimiz mumkin. Bu kanallar ko‘pincha tayyor qolip tasavvurlarni mustahkamlaydi. Bizning fikrimizcha, moliyaviy ijtimoiylashuv nazariyasida oila, ta’lim muhiti, tengdoshlar va media moliyaviy bilim-munosabatlarning shakllanishida hal qiluvchi omil sifatida ko‘rsatiladi.

Kognitiv blokdagi savollar (sug‘urta imtiyozlari, turlari, tekshirish mexanizmi) bo‘yicha natijalar barcha OTMlarda 11–20% atrofida bo‘lib, ilmiy nuqtai nazardan bu quyidagilarni anglatadi. Jumladan, sug‘urta-riskni boshqarishning klassik instrumenti bo‘lib, uning turlari va amal qilish tartibini bilmaslik moliyaviy xavfsizlikni pasaytiradi. Sug‘urta savodxonligi past bo‘lgan aholi segmentlarida “noto‘g‘ri tanlov”, “kam sug‘urtalanish” va riskka tayyorgarlikning yetarli emasligi kuzatilishi haqida empirik dalillar aniqlandi.

Menimcha, sug‘urta bo‘yicha kognitiv komponentni rivojlantirish talabalar moliyaviy savodxonligining “yadro qismi” bo‘lib, u keyingi bosqichlarda moliyaviy qaror, riskni baholash, himoya strategiyasini belgilaydi.

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jadval ma’lumotlarining umumiy tahlili talabalarda sug‘urta mavzusiga nisbatan psixoemotsional tayyorlik nisbatan yuqori, biroq kognitiv bilimlar keskin yetarli emasligini ko‘rsatdi. Xususan, “sug‘urta haqida ma’lumot olish istagi” va “sug‘urta haqida ilk ma’lumot manbai” kabi indikatorlarda to‘g‘ri javoblar ulushi umumiy namunadan yuqori bo‘lib, bu talabalarda mavzuga qiziqish va axborot qabul qilishga tayyorlik mavjudligini anglatadi

Psixoemotsional ko‘rsatkichlar (ma’lumot olish istagi, hayotni sug‘urta qilishga tayyorlik) ayniqsa Farg‘ona DU, O‘zMU va Qo‘qon DPIda 70% yuqoriligi aniqlandi. Bu holatni ilmiy jihatdan “motivatsion tayyorlik” deb talqin qilish ham mumkin. Biroq, talabada qiziqish bor, demak to‘g‘ri pedagogik intervensiya bilan kognitiv bo‘shliqni tez to‘ldirish mumkin.

“O‘qituvchi bilan sug‘urta haqida gaplashganmisiz?” hamda “ilk ma’lumot”ga oid savollar bo‘yicha natijalar o‘rtacha (52–67%) tashkil qildi. Ilmiy tadqiqotchilardan Amos Tversky, Daniel Kahnemanlarning tadqiqotlarida Moliyaviy bilim va munosabatlar ko‘pincha ijtimoiylashuv agentlari (oila, maktab, o‘qituvchi, tengdoshlar, media) orqali shakllanadi, manba sifati va ishonchliligi keyingi qarorlar “qolipi”ni belgilaydi [17]. deb izohlaydilar. Biroq menimcha, stereotiplashtirish kognitiv psixologiyada “mental qisqa yo‘llar (heuristics)” bilan ham bog‘lanadi. Talaba murakkab moliyaviy mahsulotlarni baholashda tayyor shablonlarga tayanadi, bu ba’zan xatolarga olib keladi.

Bizning fikrimizcha, talabalarning sug‘urta mavzusida moliyaviy savodxonligida asosiy muammo kognitiv komponentning yetarli darajada shakllanmagani ekanini ko‘rsatdi. Bu esa sug‘urta kabi risklarni boshqarish instrumentlaridan samarali foydalanish, moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash va asosli qaror qabul qilish jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Sandra J. Huston o‘z tadqiqotlarida moliyaviy savodxonlikni o‘lchashda uning faqat “bilish” qismi emas, balki bilimni amalda qo‘llash va qaror qabul qilish sifatini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar muhimligi ta’kidlanadi. Moliyaviy bilim-xulq-atvor va qarorlar uchun “kirish resursi” hisoblanib, moliyaviy savodxonlikni bilim va uning qo‘llanishi bilan bog‘lab talqin qiladi, bilim past bo‘lsa, amalda to‘g‘ri qaror chiqishi ehtimoli pasayadi [18]. Menimcha bu sug‘urta shartnomalaridagi terminlar va protseduralar murakkabligi (polis shartlari, istisnolar, da’vo jarayoni) tushunish to‘sig‘ini oshiradi. Sharon L.Tennyson esa tadqiqotlarida iste’molchilar sug‘urta terminlari va tushunchalarini yetarli anglamasligi qaror sifatiga salbiy ta’sir qilishini ko‘rsatadi [19]. Oxirgi yillardagi empirik ishlar ham sug‘urta savodxonligi yuqori bo‘lsa, sug‘urta mahsulotlarida ishtirok etish, tanlash ehtimoli oshishini ko‘rsatadi [20].

Bizning fikrimizcha, bu yerda “motivatsiya bor, ammo aniq bilim yetishmaydi” disbalansi ko‘rinadi. Bunday disbalans ta’lim amaliyotida juda muhim signal hisoblanib, interaktiv, keys-asosli metodlar orqali talabalardagi qiziqishni aniq bilim va amaliyotga aylantirish mumkin.


Xulosa. Ta’lim jarayonida kognitiv bilimlarni chuqurlashtirish, psixoemosional qo‘llab-quvvatlash va stereotiplarni kamaytirishga qaratilgan kompleks metodik yondashuvni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

✓ Ta’lim amaliyotida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan modullarda: (a) kommunal va maishiy xarajatlar bo‘yicha amaliy hisob-kitob topshiriqlari, (b) tarif/narx ma’lumotlarini rasmiy manbadan topish va yangilash ko‘nikmalari, (v) kundalik byudjetni rejalashtirish va monitoring qilish instrumentlarini (jadval, chek-list, keys) joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Natijada psixoemotsional tayyorlik kognitiv kompetensiya bilan mustahkamlanib, stereotipik qaror qabul qilish o‘rniga dalilga asoslangan moliyaviy xulq-atvor shakllanishiga xizmat qiladi.


✓ O‘quv dasturiga (1) risk va daromadni hisoblashga qaratilgan amaliy masalalar, (2) investitsiya qarorlari algoritmi (maqsad–muddat–risk–likvidlik–diversifikatsiya) bo‘yicha keys-tahlillar, (3) shaxsiy budjet tuzish va xarajatni monitoring qilish bo‘yicha treninglar kiritish maqsadga muvofiq. Natijada kognitiv komponent mustahkamlanadi, psixoemosional tayyorlik amaliy ko‘nikmalar bilan qo‘llab-quvvatlanadi va stereotip sarf-odatlarini qisqartirishga xizmat qiladi.

✓ Ta’lim jarayonida sug‘urta bo‘yicha qisqa muddatli, ammo maqsadli “insurance literacy” modullarini joriy etish (sug‘urta turlari, polis shartlari, murojaat algoritmlari, avtosug‘urtani tekshirish amaliyoti) hamda interaktiv metodlar asosida psixoemotsional tayyorlikni kognitiv kompetensiyaga aylantirish tavsiya etiladi.

✓ Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish dasturlarida faqat ta’rifiy ma’lumotlar bilan cheklanmasdan, APR/samarali stavka, oylik-yillik stavkani ekvivalentlash, keys-stadi va simulyatsion hisob-kitobli topshiriqlar orqali qaror qabul qilish madaniyatini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



2-ilova. Oliy o‘quv yurti talabalarining orasida Kredit mavzusi bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnomada to‘g‘ri javob natijalari diagrammasi



2-ilova. Oliy o‘quv yurti talabalarining orasida Sug‘urta mavzusi bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnomada to‘g‘ri javob natijalari diagrammasi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”, Toshkent - 2021. 143, 226, 227-б

2. А.В.Борануков, Экономическая культура и финансовая грамотность населения, Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата социологических наук, Майкоп - 2014

3. N.Umarova “Sharq mutafakkirlarining iqtisodiy ijtimoiylashuv haqidagi qarashlari”, VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2021 Scientific Library of Uzbekistan, www.ares.uz 23-24 bet

4. Kurbonova Shaxrinoz “Iqtisodiyotni erkinlashtirish va diversifikatsiyalash sharoitida iqtisodiy tahlilning tutgan o‘rni” Iqtisodiyot va ta'lim / 2024-yil 2-son

5. Hikmat Sobirov, https://review.uz/uz/post/alisher-navoiy-va-bozor-iqtisodiyoti-masalalari, "Iqtisodiy sharh" jurnali №7/2023

6. Murod Muxammedov, Samarqand iqtisodiyot servis instituti, “Amir Temur saltanatining iqtisodiy poydevori” (https://review.uz/oz/post/amir-temur-saltanatining-iqtisodiy-poydevori), 29.05.2022, https://review.uz/oz/p8y

7. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995.

8. Повышение финансовой грамотности населения как условие эффективного развития экономики России на примере Республики Башкортостан, https://perm.hse.ru/editorial_publishing/financial_literacy1

9. Влияние уровня финансовой грамотности населения на инвестиционную привлекательность региона https://perm.hse.ru/editorial_publishing/financial_literacy1

10. Е.А.Сушко, Влияние финансовой грамотности населения на развитие экономики региона, Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Волгоград-2018
11. https://www.oecd.org/en/topics/sub-issues/financial-education.html
12. https://www.cambridge.org/core/journals/journal-of-financial-literacy-and-wellbeing/article/importance-of-financial-literacy-and-its-impact-on-financial-wellbeing
13. https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC5450829/
14. https://www.cambridge.org/core/journals/journal-of-financial-literacy-and-wellbeing/article/importance-of- financial-literacy-and-its-impact-on-financial-wellbeing/A5DBBF9D6F0696E5FD3733241EE28E66
15. https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1083664.pdf
16. https://digitalcommons.unl.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1126&context=journalismfac
17. https://www.inter-nauka.com/uploads/public/15495781868230.pdf

OLIY O‘QUV YURTI TALABALARIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI KOGNITIV, PSIXOEMOSIONAL VA STEREOTIPLASHTIRISH MEZONLARI ASOSIDA O ‘RGANISH NATIJALARI

(Noiqtisodiy yo‘nalishi talabalari misolida)

Namangan davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi,
Asqarov Abrorjon Hayitmirzaevich,
Abrorjonasqarov86@gmail.com Orsid-0009-0005-8505-3391
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22246123

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda jahonning yetakchi oliy ta’lim muassasalari tajribasi hamda ilmiy izlanishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, noiqtisodiy yo‘nalish (masalan, muhandislik, tibbiyot yoki ona-tili adabiyot) talabalari uchun moliyaviy savodxonlikni o‘qitishda faqatgina raqamlar va formulalarga asoslangan an’anaviy yondashuvlar yetarli samara bermaydi. Bunday auditoriya uchun o‘quv jarayonini hayotiy va amaliy ko‘nikmalarga bog‘lash talab etiladi. Ushbu maqola davomida Namangan davlat pedagogika instituti, Qo‘qon davlat pedagogika institutlari, Farg‘ona davlat universiteti va Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetlaridan jami 804 nafar respondent talabalari jalb etilgan holda ularni 9 ta yo‘nalish bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomada talabalardagi kognitiv, psixoemosional va stereotiplashtirish mezonlari birma-bir tahlil qilindi.

Annotatsiya. V nastoyaщem issledovanii opыt vedyщix mirovыx vыsshix uchebnыx zavedeniy, a takje nashi nauchnыe issledovaniya pokazali, chto traditsionnыe podxodы, osnovannыe tolko na chislax i formulax, nedostatochno effektivnы v obuchenii finansovoy gramotnosti studentov neekonomicheskoy napravlennosti (naprimer, injenernoy, meditsinskoy ili literaturы na rodnom yazыke). Dlya takoy auditorii neobxodimo svyazat protsess obucheniya s jiznennыmi i prakticheskimi navыkami.V xode oprosa bыli proanalizirovanы kognitivnыe, psixoemotsionalnыe i stereotipnыe kriterii u studentov.tuta, Kokandskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo instituta, Ferganskogo gosudarstvennogo universiteta i Natsionalnogo universiteta Uzbekistana imeni Mirzo Ulugbeka po 9 napravleniyam. V xode oprosa bыli proanalizirovanы kognitivnыe, psixoemotsionalnыe i stereotipnыe kriterii u studentov.

Annotation. In this study, the experience of the world's leading higher education institutions as well as our scientific research showed that traditional approaches based solely on numbers and formulas in teaching financial literacy for students of non-economic orientation (e.g. engineering, medicine or Mother-Language Literature) do not have sufficient results. For such an audience, it is necessary to link the learning process to real-life and practical skills. During this study, a survey was conducted among 804 respondents from Namangan State Pedagogical Institute, Kokand State Pedagogical Institute, Fergana State University, and Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan, covering 9 areas. The questionnaire analyzed cognitive, psychoemotional, and stereotyping criteria in students one by one.

Kirish. Jahonda hozirgi globallashuv sharoitida aholini moliyaviy savodxonligini oshirish va fuqarolarning iqtisodiy madaniyatini shakllantirishning kreativ metodlari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu jarayon davlat, biznes va jamoat tashkilotlarining sa’y-harakatlarini birlashtirgan ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladigan keng qamrovli muammo hisoblanadi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) hujjatlarida ko‘rsatilganidek, moliyaviy savodxonlikka quyidagicha rasmiy ta’rif berilgan: “Moliyaviy savodxonlik – bu shaxsiy moliyaviy farovonlikka erishish uchun asosli moliyaviy qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi xabardorlik, bilim, ko‘nikma, qadriyatlar (hayotiy yo‘nalishlar) va xulq-atvor kabi elementlarning majmuidir”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilg‘or xorijiy o‘quv muassasalari va tadqiqot institutlari, moliya tashkilotlaridan yetakchi mutaxassislarni moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga oid ta’lim tadbirlariga keng jalb qilish samarali natija berishini alohida ta’kidlab o’tganlar. Shuningdek, noiqtisodiy yo‘nalishdagi oliy ta’lim tashkilotlari talabalari uchun «Moliyaviy savodxonlik» o‘quv kursini fan sifatida joriy etish, ushbu fan doirasida mablag‘larni to‘g‘ri boshqarish, oqilona moliyaviy qarorlar qabul qilish, jumladan moliyaviy instrumentlar bo‘yicha o‘qitish metodologiyasini ishlab chiqish hamda

«Moliyaviy savodxonlik olimpiadalari»ni tashkil etish orqali o‘quv kursining samaradorligini baholash eng ustuvor vazifalardan ekanligi ko‘rsatib o’tilgan.

Tahlil va muhokamalar. Talabalarda “Investitsiya” mavzusi bo‘yicha (1-ilovaga qarang) o‘tkazilgan “Moliyaviy savodxonlik” so‘rovnomasi ma’lumotlari asosida kognitiv mezon talabaning investitsiya tushunchasini anglashi, risk va yo‘qotishni hisoblash, investitsiya qarorlariga oid bilimlar hamda jamg‘arma mablag‘larini oqilona yo‘naltirish kabi bilim-amaliyot komponentlarini ifodalaydi. Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, kognitiv mezon bo‘yicha to‘g‘ri javoblar ulushi Namanganda 43,3% va Qo‘qonda 38,3% atrofida bo‘lib, “o‘rtacha” darajani aks ettiradi; O‘zMUda esa 25,8% ko‘rsatkich “past” darajaga mos keladi. Bu holat investitsiyaga oid bazaviy tushunchalar qisman shakllangan bo‘lsa-da, ayniqsa riskni baholash va qaror qabul qilishga doir amaliy-hisobiy ko‘nikmalar zaifligini anglatadi. Xususan, “g‘oyadan qancha pul yo‘qotish mumkinligini hisoblaganmisiz?” savolida to‘g‘ri javoblar ulushi past (masalan, Namanganda 3/15; O‘zMUda 2/11; Qo‘qonda 3/21) bo‘lib, risk menejmentiga oid kompetensiyalarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, “investitsiya haqida qarorlarni bilasizmi?” savolida ham ko‘pchilik noto‘g‘ri javob bergani (O‘zMUda 1/11; Qo‘qonda 3/21) investitsiya qarorlarining mezonlari, diversifikatsiya, likvidlik va risk–daromad nisbati kabi tushunchalarni o‘quv jarayonida tizimli o‘rgatish talab etilishini asoslaydi.

Psixoemosional mezon talabaning moliyaviy faollikka tayyorligi, ishonch darajasi, motivatsiyasi va kelajakka yo‘naltirilgan qarorlar qabul qilishga moyilligini ifodalaydi. Ushbu mezonda “biznesga vaqt sarflashga tayyorlik”, “yakka yoki sherikchilikka munosabat”, “daromadning ta’limga ajratiladigan ulushi” hamda “jamg‘armaga oid bilim-ko‘nikmalarni olish istagi” kabi ko‘rsatkichlar tahlilga olindi. Natijalarga ko‘ra, Namanganda 38,3% “o‘rtacha”, Qo‘qonda 31,4% “past”, O‘zMUda 27,3% “past” daraja kuzatildi. Farg‘ona DUda 66,7% ko‘rsatkich nisbatan yuqoriroq ko‘rinsa-da, tanlanma hajmi 3 nafar ekanligi sababli bu natijani umumlashtirishda ehtiyotkorlik talab etiladi.

Umuman olganda, psixoemosional natijalar talabalarning moliyaviy o‘z-o‘zini rivojlantirishga qiziqishi mavjudligini, biroq bu qiziqishni aniq maqsad, rejalashtirish va barqaror odatlarga aylantirish uchun ta’limiy intervensiya (amaliy treninglar, keyslar, simulyatsion o‘yinlar) zarurligini ko‘rsatadi. Jumladan, “jamg‘arilgan mablag‘ni sarflash uchun bilim-ko‘nikmalar olishni xohlaysizmi?” savoli talabalarda ehtiyoj mavjudligini bildiradi, ammo to‘g‘ri javoblar ulushi barcha OTMlarda bir xil darajada yuqori emasligi motivatsiyaning barqaror emasligini anglatadi.

Stereotiplashtirish mezoni moliyaviy xulq-atvorda stereotip va odatiy (ratsional emas) sarf yo‘nalishlariga moyillikni baholaydi. Bu mezonda ovqat, telefon va transport xarajatlari ulushiga oid savollar asosiy indikator sifatida qaraldi. Natijalar stereotiplashtirish mezonida eng muammoli holat Namanganda (20,0% — “past”) ekanini ko‘rsatdi, O‘zMUda ham past daraja (30,3%) qayd etildi. Telefon va transport xarajatlariga nisbatan to‘g‘ri javoblar ayrim OTMlarda nisbatan o‘rtacha ko‘rinsa-da, ovqat xarajati ulushi bo‘yicha to‘g‘ri javoblar juda pastligi (Namanganda 1/15; O‘zMUda 1/11; Qo‘qonda 4/21) talabalarda budjetni tuzish, ustuvorliklarni belgilash va zarur–iqtisodiy maqsadli sarflar nisbatini anglash yetarli shakllanmaganini ko‘rsatadi.

Xulosa sifatida, ma’lumotlar talabalarda “investitsiya” mavzusidagi moliyaviy savodxonlik ko‘proq o‘rtacha-past darajada ekanini, ayniqsa riskni baholash, investitsiya qarorlarini tushunish hamda budjetda ratsional taqsimot (stereotip sarflarni kamaytirish) yo‘nalishlarida ta’limiy bo‘shliqlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Moliyaviy savodxonlik darajasi iqtisodiy qarorlar sifati, uzoq muddatli rejalash va moliyaviy farovonlik bilan uzviy bog‘liq ekani ko‘plab empirik ishlarda asoslangan. Masalan, Lusardi–Mitchell ishlarida moliyaviy savodxonlik past bo‘lsa, pensiyaga tayyorgarlik ham zaiflashishi va bu kelajakda jamg‘arma va farovonlikka salbiy ta’sir qilishi qayd etiladi [21]. Shuningdek, alohida tushuncha sifatida “pension literacy” (pensiya savodxonligi)-pensiya tizimi haqidagi bilim, munosabat, xulq-atvor va ko‘nikmalar yig‘indisi ekani, talabalar orasida bu yo‘nalishda “kuchli-kuchsiz joylar” farq qilishi mumkinligi ko‘rsatilgan[22].

Adabiyotlarda moliyaviy ta’lim dasturlari faqat bilimni oshirishga qurilsa, xulq-atvorni o‘zgartirish ta’siri cheklangan bo‘lishi mumkinligi ham ta’kidlanadi; shuning uchun amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvlar (keyc, simulyatsiya, odat/ko‘nikma shakllantirish) ko‘proq samara beradi[23].

Moliyaviy o‘z-o‘zini nazorat qilish, shaxsiy moliyaviy intizomni anglatuvchi xulqiy indikator hisoblanadi. Ko‘p holatlarda talabalarda moliyaviy bilim mavjud bo‘lsa ham, odat va amaliyot undan orqada qolishi o‘rganishlar davomida aniqlandi.

Shu ma’noda, o‘rganish natijalariga ko‘ra, (2-ilovaga qarang) talabalarda “pensiya haqida umumiy ma’lumot” borligini, ammo “shaxsiy moliyaviy nazorat” amaliyoti barcha OTMlarda bir xil darajada emasligini ko‘rsatdi. Masalan, stereotip ya’ni noaniq tasavvur orqali talabalar pensiya tushunchasini “ish hayoti tartibi” bilan mexanik bog‘lab, “pensioner ham albatta ishga boradi” degan ijtimoiy nazariyaga suyanayotgan bo‘lishi mumkin.

Talabalarda “nafaqa” bo‘yicha bilimlarini o‘rganish natijalari bo‘yicha ya’ni pensiyaga oid umumiy kognitiv bilim nisbatan shakllanganini, ammo amaliy moliyaviy mexanizmlar (soliq, to‘lov joyi) va shaxsiy moliyaviy xulq (xarajatni hisoblash) bo‘yicha bo‘shliqlar saqlanib qolayotganini aniqlandi. Bu borada, meni fikrimcha, dars mazmunida “pensiya tizimi”ni faqat ta’rif, yosh me’yorlari bilan cheklamasdan, keyslar orqali “pensiyadan soliq”, “to‘lovni olish kanallari”, “murojaat tartibi” kabi amaliy ssenariylar bilan o‘rgatish maqsadaga muvofiq bo‘ladi.

O‘rganishlar davomida psixoemosional mezon bo‘yicha (xarajatni hisoblab borish) bir qator OTMlarda o‘rtacha-past natija kuzatilishi talabalarda o‘z-o‘zini nazorat qilish, moliyaviy rejalashtirishga odat (habit) hali to‘liq shakllanmaganini anglatadi. Bu psixologik modellarda (munosabat va sub’ektiv me’yorlar niyatni, niyat esa xulqni belgilashi) bilan uyg‘un hisoblanadi. Bizning firkrimizcha, demak, ta’limda motivatsion va xulqiy mashqlar zarur bo‘ladi.

Talabalarining stereotiplashtirish mezoni bo‘yicha o‘rganliganda past natija aniqanib, ayniqsa 6-savolda-“pensiya”ga oid ijtimoiy rollar haqida avtomatik tasavvurlar kuchliligini yoki savolning “qopqon” xususiyati tufayli faktga emas, intuitsiyaga tayanish borligini ko‘rsatadi. Bu esa moliyaviy qarorlarda xatoga olib keluvchi kognitiv og‘ishlar xavfini oshiradi (ayniqsa, ijtimoiy to‘lovlar, imtiyozlar, huquqiy me’yorlar mavzusida).

O‘rganish natijalariga ko‘ra, talabalarda pensiya/nafaqaga oid umumiy qoida va atamalar bo‘yicha bilimlar nisbatan shakllanganini, ammo pensiya tizimining amaliy-institutsional mexanizmlari (soliq, to‘lov kanali, pensiya–mehnat munosabati) hamda shaxsiy byudjet nazorati kabi xulq-atvor ko‘nikmalarida sezilarli bo‘shliq mavjudligini ko‘rsatadi. Bu holat adabiyotlarda ta’kidlangan “moliyaviy savodxonlik — bilimdan tashqari xulq-atvor va ko‘nikmalar majmuasi” degan yondashuv bilan mos keladi.

Talabalarda moliyaviy savodxonlikning rivojlanish darajasini baholashda soliqqa oid bilimlar, munosabat va xulqiy stereotiplarni kompleks ko‘rish muhim hisoblanadi. Talabaning kognitiv mezon bo‘yicha soliq normalari va imtiyozlari haqidagi bilimi va xabardorlik darajalari, psixoemosional mezon bo‘yicha – soliq mavzusiga nisbatan ishonch, o‘rganishga tayyorlik va sub’ektiv qiyinchilik, stereotiplashtirish mezoni esa – soliqqa oid barqaror noto‘g‘ri tasavvurlar (miflar)ning mavjudligi aniqlandi.

Xulosa. Талабаларга real hayotiy keyslar (stipendiya, kontrakt to‘lovi, mikrokredit, soliq imtiyozlari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash), “mif vs fakt” debatlari va interaktiv viktorinalar tashkil qilish, qaror qabul qilishda evristikalarni anglatuvchi mashg‘ulotlar o‘tkazish tavsiya etiladi.

- ✓ Talabalarda psixoemosional resursni (mavjud odatni) kapitallashtirish uchun, telefon xarajati misolida boshlangan hisob-kitobni “shaxsiy byudjet”, “maqsadli jamg‘arma”, “qarz yuki” ssenariylariga ulashish tavsiya etiladi.
- ✓ Talabalarda kognitiv komponentni kuchaytirish uchun moliyaviy savodxonlik modullariga “qaysi ma’lumotnomani qaerdan olish”, “kabinet, portal, ilova orqali xizmat”, “ariza topshirish algoritmi” kabi bajariladigan ish tartibi bo‘yicha keyslarni kiritish (qadamma-qadam yo‘riqnoma, simulyatsiya, mini-laboratoriya) maqsadga muvofiq bo‘ladi.
- ✓ Bu “moliyaviy bilim + raqamli ma’muriy savodxonlik” integratsiyasida tizimli o‘qitish va amaliyot (keys, trenajyor, mygov.uz bilan ishlash) yetarli emasligini anglatadi.
- ✓ Талабаларни psixoemosional va stereotip mezonlari bo‘yicha ishonchli xulosa chiqarish uchun qo‘shimcha shkalalarni instrumentga kiritish zarur, shuning uchun mazkur ishda 3 mezonli indeks modeli taklif etmoqchiman. Soliq mavzusini o‘qitishda “qoida → keys → hisoblash algoritmi” zanjirini majburiy joriy etish (ayniqsa qimmatli qog‘oz, 60 kv.m imtiyoz bloklari) maqsadga muvofiq hisoblanadi.

✓ Psixoemosional jihatdan esa (jadval bevosita o‘lchamasa-da), kognitiv qiyinchiliklar yuqori bo‘lgan mavzular talabalarda ishonch pasayishi va o‘quv faolligi susayishiga olib kelishi mumkin, demak, ta’lim jarayonida “qonun normasi-amaliy, keys–hisoblash algoritmi”ni bog‘lovchi interfaol yondashuvlar (keys-stadi, simulyatsiya kartochkalari) zarur hisoblanadi.

✓ Ta’lim jarayonida kognitiv bilimlarni chuqurlashtirish, psixoemosional qo‘llab-quvvatlash va stereotiplarni kamaytirishga qaratilgan kompleks metodik yondashuvni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.


✓ Ta’lim amaliyotida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan modullarda: (a) kommunal va maishiy xarajatlar bo‘yicha amaliy hisob-kitob topshiriqlari, (b) tarif/narx ma’lumotlarini rasmiy manbadan topish va yangilash ko‘nikmalari, (v) kundalik byudjetni rejalashtirish va monitoring qilish instrumentlarini (jadval, chek-list, keys) joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Natijada psixoemotsional tayyorlik kognitiv kompetensiya bilan mustahkamlanib, stereotipik qaror qabul qilish o‘rniga dalilga asoslangan moliyaviy xulq-atvor shakllanishiga xizmat qiladi.

✓ O‘quv dasturiga (1) risk va daromadni hisoblashga qaratilgan amaliy masalalar, (2) investitsiya qarorlari algoritmi (maqsad–muddat–risk–likvidlik–diversifikatsiya) bo‘yicha keys-tahlillar, (3) shaxsiy budjet tuzish va xarajatni monitoring qilish bo‘yicha treninglar kiritish maqsadga muvofiq. Natijada kognitiv komponent mustahkamlanadi, psixoemosional tayyorlik amaliy ko‘nikmalar bilan qo‘llab-quvvatlanadi va stereotip sarf-odatlarini qisqartirishga xizmat qiladi.


✓ Ta’lim jarayonida sug‘urta bo‘yicha qisqa muddatli, ammo maqsadli “insurance literacy” modullarini joriy etish (sug‘urta turlari, polis shartlari, murojaat algoritmlari, avtosug‘urtani tekshirish amaliyoti) hamda interaktiv metodlar asosida psixoemotsional tayyorlikni kognitiv kompetensiyaga aylantirish tavsiya etiladi.

✓ Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish dasturlarida faqat ta’rifiy ma’lumotlar bilan cheklanmasdan, APR/samarali stavka, oylik-yillik stavkani ekvivalentlash, keys-stadi va simulyatsion hisob-kitobli topshiriqlar orqali qaror qabul qilish madaniyatini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

✓ Ta’lim jarayonida depozit mavzusini faqat nazariy tushuntirish bilan cheklanmasdan, keys-stadi, simulyatsiya (bank depozit shartnomasi modellash), “shaxsiy byudjet va jamg‘arma rejasi” kabi amaliy topshiriqlar orqali kognitiv bilimni psixoemosional motivatsiyaga va uning amaliyotdagi barqaror ko‘rinishiga aylantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



1-ilova. Oliy o‘quv yurti talabalarining orasida Investitsiya mavzusi bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnomada to‘g‘ri javob natijalari diagrammasi



1-ilova. Oliy o‘quv yurti talabalarining orasida Nafaqa mavzusi bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnomada to‘g‘ri javob natijalari diagrammasi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”, Toshkent - 2021. 143, 226, 227-б
2. А.В.Борануков, Экономическая культура и финансовая грамотность населения, Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата социологических наук, Майкоп - 2014
3. N.Umarova “Sharq mutafakkirlarining iqtisodiy ijtimoiylashuv haqidagi qarashlari”, VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2021 Scientific Library of Uzbekistan, www.ares.uz 23-24 bet
4. Kurbonova Shaxrinoz “Iqtisodiyotni erkinlashtirish va diversifikatsiyalash sharoitida iqtisodiy tahlilning tutgan o‘rni” Iqtisodiyot va ta'lim / 2024-yil 2-son
5. Hikmat Sobirov, https://review.uz/uz/post/alisher-navoiy-va-bozor-iqtisodiyoti-masalalari, "Iqtisodiy sharh" jurnali №7/2023
6. Murod Muxammedov, Samarqand iqtisodiyot servis instituti, “Amir Temur saltanatining iqtisodiy poydevori” (https://review.uz/oz/post/amir-temur-saltanatining-iqtisodiy-poydevori), 29.05.2022, https://review.uz/oz/p8y
7. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995.
8. Повышение финансовой грамотности населения как условие эффективного развития экономики России на примере Республики Башкортостан, https://perm.hse.ru/editorial_publishing/financial_literacy1
9. Влияние уровня финансовой грамотности населения на инвестиционную привлекательность региона https://perm.hse.ru/editorial_publishing/financial_literacy1
10. Е.А.Сушко, Влияние финансовой грамотности населения на развитие экономики региона, Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Волгоград-2018
11. https://www.oecd.org/en/topics/sub-issues/financial-education.html
12. https://www.cambridge.org/core/journals/journal-of-financial-literacy-and-wellbeing/article/importance-of-financial-literacy-and-its-impact-on-financial-wellbeing
13. https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC5450829/

14. https://www.cambridge.org/core/journals/journal-of-financial-literacy-and-wellbeing/article/importance-of- financial-literacy-and-its-impact-on-financial-wellbeing/A5DBBF9D6F0696E5FD3733241EE28E66
15. https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1083664.pdf
16. https://digitalcommons.unl.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1126&context=journalismfac
17. https://www.inter-nauka.com/uploads/public/15495781868230.pdf

MOLIYAVIY SAVODXONLIK TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY KOMPONENTLARI
(Oliy o‘quv yurtida noiqtisodiy yo‘nalish talabalari misolida)

Asqarov Abrorjon Hayitmirzaevich
Namangan davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi
Abrorjonasqarov86@gmail.com Orsid-0009-0005-8505-3391
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22246227

Annotatsiya. XXI asr boshlariga kelib, jahon iqtisodiyotida insoniyat taraqqiyotining avvalgi davrlariga xos bo‘lmagan yangi tendensiyalar vujudga keldi. Aniqrog‘i, iqtisodiyotning mazmuni va mohiyati tubdan o‘zgardi. Fikrimizcha, masalan maktablarda amaldagi ta’lim standartlari hamda o‘quv dasturlari asosan o‘quvchining ta’limning navbatdagi bosqichiga tayyorlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularni erkin fikrlash va mustaqil xayotga tayyorlash masalasi e’tibordan chetda qolmoqda. Jumladan, moliyaviy savodxonlikni o‘rgatuvchi alohida dasturlar yo‘q yoki u juda kam o‘qitilmoqda, o‘quvchilarga real hayotda qanday moliyaviy qarorlarni qabul qilish haqida ko‘proq o‘rganish lozim bo‘lsada, lekin ko‘p hollarda nazariy usullarga tayanib qolinyotganligi, hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar va moliyalashtirish usullari yaqqol rivojlangan, ammo bunday yangiliklar maktab kurslariga kiritilmaganligi, moliyaviy savodxonlik ko‘pincha oddiy bilim soha sifatida ko‘rilib, ammo yoshlar uchun interaktiv, qiziqarli va amaliyotlarga asoslangan o‘quv metodikalar hali-hanuz yaratilmaganligi muhim, shu bois ham Prezidentimiz oliy o‘quv yurti talabalari o‘quv jarayonida iqtisodiy bilimga, moliyaviy savodxonlikka ega bo‘lishlari muhimligiga barcha nutqlarida alohida e’tiborni qaratmoqdalar. Ushbu maqolada aynan talabalarni moliyaviy savodxonligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari haqida batafsil ma’lumotlar berilgan.

Аннотация. К началу XXI века в мировой экономике возникли новые тенденции, не свойственные предыдущим периодам развития человечества. Точнее, содержание и сущность экономики кардинально изменилисьчастности, отсутствуют отдельные программы, обучающие финансовой грамотности, или она преподается очень мало, хотя учащимся необходимо больше узнать о том, как принимать финансовые решения в реальной жизни, но во многих случаях они полагаются на теоретические методы, в настоящее время современные технологии и методы финансирования явно продвинуты, но такие инновации не включены в школьные курсы, финансовая грамотность часто рассматривается как простая область знаний. просмотр, но интерактивный для молодежиолагаются на теоретические методы, в настоящее время современные технологии и методы финансирования явно продвинуты, но такие инновации не включены в школьные курсы, финансовая грамотность часто рассматривается как простая область знаний. просмотр, но интерактивный для молодежи, Важно, что до сих пор не созданы интересные и практико-ориентированные методики обучения, поэтому во всех своих выступлениях наш Президент уделяет особое внимание важности того, чтобы студенты высших учебных заведений в процессе обучения приобретали экономические знания и финансовую грамотность. В данной статье подробно рассматриваются научно-теоретические основы повышения финансовой грамотности студентов.

Abstract. By the beginning of the 21st century, new trends had emerged in the world economy that were not characteristic of previous periods of human development. More precisely, the content and essence of the economy had changed fundamentally. We believe that, for example, the current educational standards and curricula in schools are mainly focused on preparing students for the next stage of education, while the issue of preparing them for free thinking and independent life is overlooked. In particular, there are no separate programs that teach financial literacy, or it is taught very little, although students need to learn more about what financial decisions to make in real life, but in many cases rely on theoretical methods, modern technologies and financing methods are now clearly developed, but the fact that such innovations are not included in school courses, financial literacy is often seen, It is important that interesting and practice-based teaching methods have not yet been developed, which is why our President emphasizes in all his speeches the importance of students of higher education institutions acquiring economic knowledge

and financial literacy in the learning process. This article contains a list of famous people who died as a result of an accident.

Kalit so‘zlar: moliyaviy savodxonlik, moliyaviy savodxonlikni rivojlanish evolyusiyasi, moliyaviy tafakkur, pul–mas’uliyati, iqtisodiy madaniyat, moliyaviy savodxonlik darajasi

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ““Har bir oila - tadbirkor” g‘oyasini izchillik bilan hayotga tatbiq etish, jamiyatda faol tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish, maktabdan boshlab oliy ta’lim muasassalarida ham tadbirkorlik to‘g‘risida darslar o‘tish, to‘garaklar tashkil etish, jumladan, Tadbirkorlar akademiyasi”ni, sohaga qiziqayotgan yoshlar uchun esa konsalting markazlarini tashkillashtirish hozirgi kundagi bizning dolzarb vazifalarimizdan biridir.”[1] deb ta’kidlagan.

Shu bilan birga, davlatimiz rahbari iqtisodiyotda yetakchi sinf yoki kuch bo‘lgan tadbirkorlikka bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish haqida fikr yuritar ekan “Maktablarda “vazir soati”, “tadbirkor va bankirlar sabog‘i” kabi dars amaliyotlarini joriy qilish lozim. Ularda ijro organlari rahbarlari, salohiyatli tadbirkorlar, malakali bank xodimlari dars o‘tishi kerak..” deb ta’kidladi va ushbu muammoni mamlakatimiz uchun o‘ta dolzarbligini qayd qilar ekan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev bugun maktablarda aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi murakkab tuzilgani, ularda nazariy bilimlar amaliyot bilan bog‘lanmagani, o‘quv dasturlarida uzviylik yo‘qligi, darsliklarning mazmuni va sifati qoniqarsiz ekanligini va bu haqli e’tirozlarga sabab bo‘layotganligi to‘g‘risida alohida urg‘u berib o‘tdilar.

D.Yu.Razumovskiy tadqiqotida moliyaviy qarorlar (uy xo‘jaligi resurslari tuzilmasi, qarz, jamg‘arma, investitsiya) uchun mexanizm va davlat, institutlar ta’siri modellashtirilishi haqida o‘z fikrini bildiradi. Shuningdek, talabalarda moliyaviy qaror qabul qilish yetarlicha shakllanmaganligi, moliyaviy savodxonlikka qo‘shimcha ravishda riskka moyillik, ishonch, haddan ortiq ishonch, tejamkorlik, isrofgarchilik kabi xususiyatlar ham hal qiluvchi ekanligini alohida ta’kidlab o‘tadi.Buning uchun xususiyatlar o‘zaro bog‘liqligi ochib berib va talabalarni klasterlarga (tiplarga) ajratadi, keyin ularga mos ta’lim-tarbiya choralarini taklif etadi.[4]

Umuman olganda, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish jarayonini ikki bosqichga bo‘lish mumkin — iqtisodiy savodsizlikni yo‘q qilish va iqtisodiy madaniyatni shakllantirish. Iqtisodiy savodxonlik iqtisodiy madaniyatning asosidir, shuning uchun uning shakllanishini mustahkam poydevordan, batafsil bilimlar bazasidan boshlash kerak, shuningdek, aholining barcha qatlamlari va yoshlarda moliyaviy-iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Iqtisodiy madaniyat - bu insonlar va jamiyatlarning moliyaviy resurslarni boshqarish, sarflash va ularni samarali boshqarish qobiliyati hisoblanadi. Bu, moliya bilan bog‘liq tushunchalar va odatlarni, xususan, pulni boshqarish, investitsiyalarni tushunish, qarzlarni qayta tiklash, budjet tuzish va moliyaviy yo‘nalishlarda sof qarorlar qabul qilish kabi masalalardagi bilim va ko‘nikmalarni qamrab oladi.

A.V.Boranukovning dissertatsiya ishida iqtisodiy madaniyat (qadriyat, axloqiy-me’yoriy me’yorlar, “pul–mas’uliyat” munosabati) moliyaviy qarorlarning poydevori sifatida qaraladi.[2]

Iqtisodiy madaniyat, shuningdek, insonning o‘z moliyaviy maqsadlariga erishish uchun to‘g‘ri qarorlar qabul qilish qobiliyatini ta’minlaydi. Bu-nafaqat shaxsiy, balki keng jamiyat uchun ham muhim. Moliyaviy madaniyatni oshirish, aholining iqtisodiy qobiliyatlarini yaxshilash va qarzlardan o‘z vaqtida foydalanishning ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

Fikrimizcha, ko‘pincha hayotda qiyin kombinatsiyalangan qarorlar qabul qilinishi kerak bo‘lgan holatlar mavjud bo‘ladi. Bu holatlarda har-bir inson uchun moliyaviy qarorlarni qabul qilish uchun zarur bo‘ladigan omillar konsentratsiyasi zarur bo‘ladi.

Adabiyotlar taxlili. Tarixga nazar tashlasak, buyuk mutafakkir va allomalarimiz tomonidan diniy va dunyoviy bilimlarga asoslangan holda yaratilgan bebaho asarlarda insondagi boylikka, mol-mulkka bo‘lgan munosabat hamda uning iqtisodiy tafakkurini shakllantirish masalasi yechimi – iqtisodiy ta’lim-tarbiyaning mahsuli ekanligi bayon qilingan.(1.1.1-jadvalga qarang)

Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Amir Temur, Abu Hamid al-G‘azoliy, Ibn Taymiyya va boshqa allomalarimiz asarlarida iqtisodiy

tafakkur jarayonini shakllanishida shaxs hayotida moddiy ne’mat va boylikning roli tushunarli, sodda tilda tushuntirib berilgan.

Masalan, Abu Nasr Farobiy har bir inson kishilik jamiyati taraqqiyotida mulkdor bo‘lishning xosiyati, xarajat va taqsimot to‘g‘risida muhim fikrlar bildirgan.[3]

1.1.1-jadval.

Moliyaviy savodxonlikni rivojlanish evolyusiyasi

№	Mutafakkirlar ismi va familiyasi, tug‘ilgan yillari	Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha bildirgan fikrlari	Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha hissalari
1	Aristotel (384–322 mil. avv.)	Boylikni ikki turga ajratgan: xrematistika (pul yig‘ish uchun pul) va iqtisodiyot (ehtiyojlarni qondirish uchun mablag‘ boshqarish). Pulni ayriboshlash vositasi sifatida tahlil qilgan. Sudxo‘rlikni tabiatga zid deb hisoblagan.	Pulning vazifasini ilk ilmiy tahlil qilgan, iqtisodiyot va axloqni birlashtirgan.
2	Abu Yusuf (731–798)	Soliq siyosatida proporsional (hosildan) soliqni ustun qo‘ygan. Davlat moliyasi, qishloq xo‘jaligi, soliq markazlashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashni ta’kidlagan. Daromadlarni ijtimoiy infratuzilmaga yo‘naltirishni taklif qilgan.	“Kitob al-Xaroj” asari orqali soliq siyosatining havasmandlashtiruvchi jihatlarini ilk o‘rgangan, import tariflari va o‘lim solig‘ini taklif qilgan.
3	Abu Nasr Farobiy (872–950)	Ehtiyojlar jamiyat shakllanishining asosiy sababi. Adolatli taqsimlash farovonlik asosi ekanligini ta’kidlagan. Inson kapitali va mehnatni iqtisodiy qiymat sifatida o‘rgangan.	“Fozil odamlar shahri” asari iqtisodiy hamkorlik nazariyasiga asos bo‘lgan.
4	Abu al-Hasan al-Movardiy (972–1058)	Davlatning iqtisodiy rolini ta’kidlagan. Iqtisodiyotda axloq ustuvor, din, iqtisod va siyosat munosabatlarini o‘rgangan. Tadbirkorlik ruhi va motivatsiyani muhim deb hisoblagan.	Farovonlik davlati konsepsiyasini ishlab chiqqan, daromad manbalarining yetti turini ajratib ko‘rsatgan.
5	Abu Ali ibn Sino (980–1037)	Tejamkorlik va uy xo‘jaligini boshqarish oila mustahkamligi garovi. Xarajatlarni rejalashtirish va daromadni to‘g‘ri taqsimlash zarur.	“Tadbiri manzil” asarida shaxsiy moliyaning ilk tavsiyalarini bergan.
6	Abu Hamid al-G‘azoliy (1058–1111)	Pul vosita, maqsad emas, qiymati ishonchga bog‘liq. Qalbaki pulni zulm deb hisoblagan. Bozorda axloqiy raftor tarafdori.	Iqtisodiyotni metafizika, etika va psixologiya bilan bog‘lagan. Gresham qonunining ilk versiyasini taklif qilgan. Islomiy moliyaga ta’sir qilgan.
7	Ibn Taymiyya (1263–1328)	Adolatli narxlar, bozor, foyda, ish haqi va pul almashinuvi konsepsiyalarini ishlab chiqqan. Pul savdosining barcha shakllariga qarshi. Inflyatsiya va pul massasini o‘rgangan.	Normativ yondashuvni ta’kidlagan; davlat moliyasida uch xil daromad turini ajratgan; pul qadrsizlanishi haqida ilk fikrlar.
8	Ibn Xaldun (1332–1406)	Iqtisodiy o‘sish aholi o‘sishi, mehnat taqsimoti va savdo bilan bog‘liq. Mehnat qiymati nazariyasi. Soliq yuqoriligi imperiya qulashiga olib keladi (Xaldun-Laffer egri chizig‘i). Ta’minot-talab narxlarni belgilaydi.	Iqtisodiyotning otasi, ozod bozor tarafdori, makroiqtisodiy kuchlarni (aholi, inson kapitali) ilk o‘rgangan.

9	Al-Maqriziy (1364–1442)	Pul miqdori nazariyasi bo‘yicha ortiqcha pul inflyatsiyaga olib keladi. Yaxshi pulni yomon pul haydaydi. Pulni faqat oltin-kumushga asoslashni taklif qilgan.	Iqtisodiy inflyatsiyani ilk tahlil qilgan va natijada pul siyosatiga ta’sir qilgan.
10	Amir Temur (1336–1405)	Soliq xalqni xonavayron qilmasligi kerak. To‘g‘ri byudjet nazorati va adolatli soliq tizimi davlat qudrati hisoblanadi.	“Temur tuzuklari”da differensial soliq tizimini joriy qilgan.
11	Alisher Navoiy (1441–1501)	Boylik butun xalq manfaati uchun xizmat qilgandagina ezgulikdir. Mehnat (ayniqsa dehqonchilik) boylikning halol manbai.	O‘z mablag‘larini vaqf orqali xayriya va ijtimoiy loyihalarga yo‘naltirgan.

Sharqning yana bir mutafakkir olimi Abu Rayxon Beruniy fikriga ko‘ra, kishilar o‘zlarining zaruriy ehtiyojlarini qondirish uchun uyushgan holda yashash va ishlashga majburdirlar. U davlatning paydo bo‘lishini ham ehiyojdan deb hisoblaydi. Barcha qimmatli narsalar inson mehnati bilan yaratiladi. Insonning qadr-qimmati uning avlod-ajdodlarining kim bo‘lganligi bilan emas, balki uning mehnati bilan belgilanadi.[3]

Bizning fikrimizcha, har bir zamonning o‘ziga hos qonun-qoidalari bor. Unga hamma rioya qilishi kerak, aks holda nizom va bir xillik yo‘qolsa, tartib ham yo‘q bo‘ladi. Bu borada, Abu Rayxon Beruniy o‘z ilmiy qarashlarida inson ehtiyojini faqat pul, mol-dunyo bilan emas, balki mehnat, izlanish, yaratish, qurish, bunyod qilish, ilm olish, bilish orqali qondirish lozimligini ta’kidlaydi.[4]

Alisher Navoiy ham shaxsda iqtisodiy tarbiya masalasi haqidagi qarashlari o‘ziga xos alohida ahamiyat kasb etadi. Allomaning iqtisodiy g‘oyalari “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub” va boshqa asarlarining mazmunida o‘z ifodasini topgan. Uning fikricha, mehnat – jamiyatning asosiy belgisi, uni ishlab chiqaruvchilar rivojlantiradi. Shuning uchun ularga ortiqcha soliqlar solinmasligi, savdo-sotiqning rivojlanishi uchun bozorlardagi mahsulotlar bahosi me’yorida bo‘lishni ta’minlash lozim. “Shahar olib sotarlari, – deb yozgan edi Alisher Navoiy, xiyonatchi, o‘z foydasini ko‘zlagan holda qahatchilik tilaydi”. Chunki qahatchilik bo‘lsa, uning ishi yurishadi, molini bekitib sotib, yuqori bahoda pullaydi, maqsadi elga ziyon yetkazish, orzusi arzon olib qimmatga sotishdir. U shoyini bo‘z deb kamsitadi, sotishda bo‘zni shoyi deb ataydi” [5]


Jadidlarning yetuk vakillaridan biri bo‘lgan, Abdulla Avloniy yoshlar tarbiyasiga, ayniqsa, iqtisodiyot ilmini o‘rganishga alohida diqqat qaratadi. Masalan, “Bolaga pulni tejash, halol mehnat qilish va yurt rivoji uchun foyda keltirishni o‘rgatmasak, vatan rivojlanmaydi.”, deb ta’kidlaydi, U iqtisod haqida shunday fikrlarni ilgari suradi: “Iqtisod deb pul va mol kabi nematlarning qadrini bilmakni aytilur. Mol qadrini biluvchi kishilar o‘rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o‘rni kelganda so‘mni ayamas. Saxovatning ziddi baxillik o‘ldigi kabi iqtisodning ziddi isrofdir.” Shundan ham ko‘rish mumkinki, meni fikrimcha, Abdulla Avloniy yoshlarni moliyaviy bilimi shaxsiy moliyasini tashkil etishi uchun juda muhim ekanligiga urg‘u bermoqda.

Har zamonda insoning maqsadi erkin va farovon yashashdir. Ayniqsa, “buzamonda maqsadga yetmak uchun, – deb yozadi Abdulla Avloniy, o‘z maishatiga xizmat qilmoq maqbul bo‘lmak uchun ilm va mol lozimdir.

Olamdagi millatlarning hol va qudratlari mol va boyliklardandir. Har yerda boy millatlar og‘ir kelib, faqirlarga yengil kelib qul va asir bo‘lib qoladir.”

Iqtisod ilmidan boxabar bo‘lgan kishilar har doim qiladigan sarf xarajatlarining samara berishini oldindan hisob-kitob qiladilar. Olimlar misol keltirib aytadiki, ilmdan yaxshi xabardor bo‘lgan amerikalik va yevropaliklar iqtisodiy bilimliligi tufayli, farovon to‘q yashaydilar. U “Bobolarimizning bo‘lsa bo‘lar, bo‘lmasa g‘ovlab ketar” zamonlari o‘tib, o‘rniga “bilg‘on bitar, bilmagan yutar” zamoni keldi. Amerikaliklar bir dona bug‘doy ekib, yigirma qadoq bug‘doy olurlar. Yevropaliklar o‘zimizdan olgan besh tiyinlik paxtani kelib, o‘zimizga 25 tiyinga sotadilar” deb ko‘rsatadi. Dunyoda moliyaviy savodxonlikni rivojlanishining asosiy bosqichlari va rivojlanish tendensiyalarini ilk bosqich (1914-

1920 yillar), rivojlanish bosqichi (1950-1990 yillar), zamonaviy bosqichi (2000 yillardan keyin) davrlarga to‘g’ri keladi. (1.1.1-rasm)



1-rasm. Moliyaviy savodxonlik rivojlanish bosqichlari

Metodlar. Keltirilgan fikrlar moliyaviy savodxonlikni rivojlanishining asosiy bosqichlari va rivojlanish tendensiyalarini bilan uzviy bog’liq hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlarda juda chuqur iqtisodiy ma’no yashiringan: birinchidan, muallif pulni ne’mat ya’ni mehnat bilan yaratilgan ma’lum qiymat, uning ifodasi, degan ilmiy fikrni bildirsa; ikkinchidan, pul tadbirkorni ishbilarmonni yoqtirishi, faqat ana shunday kishilar qo‘lida pul, mol-dunyo ko‘payishini tushuntiradi. Ushbu fikrlarni uning moliyaviy fikrlarini qanchalik teranligini ya’ni “Isrof insonni nochor qiladi. Har bir sarfning joyini bilish — ilmdir, tarbiyadir.” deb izohlaydi.

Amir Temur esa yashab, iqtisodiy faoliyat yuritib boshlaganidan keyin qariyb ikki asrcha vaqt o‘tgandan keyin “Siyosiy iqtisod” fani yuzaga keldi. Ushbu fan nomining ixtirochisi fransuz yozuvchisi Antuan Monkreten edi.

U “maxsus nazariy bilimlarga ega bo‘lmagan holda iqtisodiyotning o‘ta murakkab va ziddiyatli muammolarining to‘g‘ri yechimlarini topa bilish qobiliyati yaratganning Sohibqironga in’om etgan buyuk iqtisodiy tafakkurning amaliy hosilasidir.” deb ta’kidlaydi. Qolaversa, uning ibratga loyiq, puxta o‘ylangan, mukammal va dono iqtisodiy siyosati qudratli imperiyani barpo etishning va mustahkamlashning poydevori bo‘lib xizmat qildi. [6]

Talabalar yuqoridagi turli xil iqtisodiyot modellariga xos jarayonlarni o‘z dunyoqarashi va qobiliyatidan kelib chiqqan holda idrok qilishadi. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish davrida yuzaga keladigan sotsial-iqtisodiy shart-sharoitlar jarayonida ular o‘zlari uchun mutlaqo yangi bo‘lgan iqtisodiy voqeyliklar va muammolar bilan to‘qnash kelib, yangicha hayotiy faoliyat sharoitlariga ko‘nikma hosil qilish zaruratini anglab borishadi.

Masalan, moliyaviy madaniyat odamlarga tartibga solinmagan tashkilotlardan kredit olish xavfini tushunishga yordam beradi. ““Fishing” elektron pochta (bu kiberjinoyat bo‘lib, unda maqsadli elektron pochta, telefon yoki matnli xabar orqali qonuniy muassasa sifatida namoyon bo‘lgan shaxs tomonidan jismoniy shaxslarni shaxsiy identifikatsiyalash mumkin.) xabarlarining asosiy belgilarini bilish soxta havolalarni bosishdan qochadi.

Bizningcha yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, talabalarning moliyaviy savodxonligini oshirish firibgarlik harakatlarining oldini olish va barqaror moliyaviy tizimni yaratishda asosiy vositadir.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov “Odamlarning bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalarini bilishi, o‘z mablag‘larini to‘g‘ri yo‘naltira olishi mamlakat barqarorligining garovi ekanini ta’kidlagan.”[7]

Muhokama. Zamonaviy sharoitda barcha talabalar yoshi, jinsi, kasbi, ijtimoiy mansubligi va hokazolardan qat’i nazar, moliyaviy madaniyatga ega bo‘lishlari kerak. Biroq, hozirgi kunda talabalarining moliyaviy tafakkurini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Jumladan,



2-rasm. Talabalarining moliyaviy tafakkurini shakllantirish piramidasi

Talabalarining moliyaviy tafakkurining asosiy afzalliklarini alohida quyidagi tushunchalar orqali izohlashimiz mumkin (2-jadvalga qarang).

Dunyoda 800 milliondan ortiq kattalar hali ham o'qish va yozishni bilishmaydi. Savodsiz aholi mamlakatlarning rivojlanishiga sezilarli darajada to'sqinlik qilmoqda. Rossiya va boshqa MDX mamlakatlari olimlarining ilmiy tadqiqotlarida ta’lim tizimida moliyaviy savodxonlikni oshirish masalasiga alohida e‘tibor berilgan. Ularning umumiy tendensiyalari quyidagicha tahlil etiladi. Jumladan, tadqiqotchilardan A.I.Bulatova,[8] Ye.N.Lavrenchuk, D.A.Kirpishikovlar[9] (2020) o‘z tadqiqotlarida moliyaviy bilimni nafaqat iqtisodiy, balki kasbiy va shaxsiy rivojlanishning muhim qismi deb hisoblaydi. Qolaversa, aholining umumiy farovonligi, hududiy investitsiya jozibadorligi va mamlakat iqtisodiyotiga ta’sir ko‘rsatishiga alohida urg‘u berib o‘tilgan.

2-jadval.

Talabalarining moliyaviy tafakkurining asosiy afzalliklari

№	Omillar nomi	Natija
	Asoslarni tushunish	Moliyaviy bilimlar bilan talaba qanday kasb egasi bo‘lishidan qat’iy nazar biznes yuritish yoki samarali sarmoya kiritishning bir necha usullarini ko‘rishi ancha oson bo‘ladi.
	Farovonlikni yaxshilash	Talabada moliyaviy savodxonlik qanchalik mustahkam bo‘lsa, farovonlik shunchalik yuqori bo‘ladi. Bu marotaba o‘sishi yoki ish haqining oshishi bilan ifodalanishi shart emas
	Samaradorlikni oshirish	Talaba moliyaviy tizim qanday ishlashi haqida qancha ko‘p ma’lumotga ega bo‘lishi natijasida, qanday qadamlar nimaga olib kelishini tushunishi osonroq bo‘ladi. Ushbu yondashuv talabaga kamroq qaror qabul qilish yoki kamroq ma’lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi, lekin oxir-oqibat ko‘proq samaradorlikka erishadi
	Xarajatlarni kamaytirish	Moliyaviy jihatdan savodli talaba marketologlar va reklama beruvchilarning hiyla-nayranglariga kamroq duch keladi, uni shoshqaloq xarajatlarga jalb qilish qiyinroq bo‘ladi. Qanday qilib, samarali to‘plash va investitsiya qilishni biladigan talaba o‘zining barcha xarajat turlarini yaxshi biladi.
	Xatarlarni kamaytirish	Moliyaviy savodsizlik falsafiy til bilan izohlanganda yalang‘och ko‘z bilan ko‘rinadi. Agar talabaning shaxsiy moliyasiga kirish imkoniyatiga ega bo‘lgan har bir kishi undan foydalanishga harakat qiladi.

Masalan, AQShda savodxonlik darajasi past bo'lgan odamlar eng kam maosh oladigan odamlar guruhida, shuningdek, davlat yordamini olish ehtimoli 16,5 baravar ko'p (Federal mehnat statistikasi byurosi ma'lumotlari). Bu savodxonlik darajasi va moliyaviy farovonlik o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni ko'rsatadi.

So'nggi ikki asrda dunyoda savodxonlik darajasi sezilarli darajada oshdi. Har bir yangi avlod avvalgisiga qaraganda yaxshiroq ma'lumotga ega. Endi eng yomon vaziyat Afrika mamlakatlarida kuzatilmoqda.

Bu zamonaviy dunyoning jadal rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida moliyaviy savodxonlikni oshirishning milliy strategiyasini ishlab chiqish muammosini yanada dolzarblashtiradi.

Markaziy vazifa maktabgacha yoshdan boshlab boshlang'ich moliyaviy savodxonlik sifatini ta'minlash, shuningdek, moliyaviy bilimlar, munosabatlar, standartlar va ko'nikmalarning birligi sifatida moliyaviy vakolatli xatti-harakatlarning asoslarini shakllantirish va nihoyat, moliyaviy farovonlikka erishish hisolanadi.

Masalan, Ye.A.Sushko dissertatsiya ishida moliyaviy jarayonlarning “makro” oqibati sifatida hudud iqtisodiy barqarorligi va investitsiyaviy jozibadorligiga ta’sir masalasi qo‘yiladi. Muammo shundaki, aholi moliyaviy savodxonligi pastligi hudud iqtisodiyotida salbiy tendensiyalar keltirib chiqarayotgani izohlanib, shuning uchun ta’sirni teoretik-metodik jihatdan asoslash va amaliyotga tavsiya ishlab chiqishni taklif qiladi. Buning yechimi sifatida hududlarni moliyaviy savodxonlikni faollik bo‘yicha ranjirlash, hududning investitsiyaviy jozibadorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini taklif qilish kabi amaliy mexanizmlar bayon qilinadi[10] deb izohlaydi.

Menimcha vazifaning qiyinligi ta'limning o'ziga xos xususiyatlari, moliyaviy iqtisodiy munosabatlarning murakkab dunyosida birinchi qadamlarini qo'yadigan maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlari bilan bog'liq bo‘ladi. So'nggi yillarda biz jahonda moliyaviy-savodli munosabatlarning mustahkamlanishini, shuningdek, insonlarning moliyaviy arifmetika bo'yicha bilimlarini, moliyaviy mahsulotlarning tavakkalchilik va rentabellik nisbatlarini tushunishini ko'rdik.

Biroq, ulardan amaliy foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lmasdan, moliyaviy savodxonlik darajasini pasaytirish xavfi saqlanib qolmoqda. Shuning uchun ta'lim tashabbuslariga moliyaviy jihatdan malakali xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlashga va ulardan foydalanishning haqiqiy ta'sirini ko'rishga yordam beradigan turli xil amaliyotga yo'naltirilgan vazifalar spektri (keng assortiment)ni kiritish muhim hisoblanadi.

Moliyaviy savodxonlik tushunchasi moliyaviy qarorlar qabul qilishda asosiy rol o'ynaydigan murakkab va ko'p qirrali konsepsiya bo'lib, u shaxsiy moliyani boshqarish, iqtisodiy farovonlikka erishish va jamiyatdagi iqtisodiy faollikni ta'minlash bilan bog'liq.

O'zbek tilida "moliyaviy savodxonlik" deb tarjima qilinadigan bu atama xalqaro olimlar va tashkilotlar tomonidan turli jihatlardan ta'riflangan bo'lib, u nafaqat bilim, balki ko'nikmalar, munosabat va xatti-harakatlar majmuini o'z ichiga oladi. Quyida ushbu tushunchaning to'liq tahliliy ta'rifi keltirilgan bo'lib, u olimlarning fikrlari va tasdiqlangan manbalariga asoslangan.

Moliyaviy savodxonlikning eng keng tarqalgan va xalqaro miqyosda qabul qilingan ta'riflaridan biri Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OECD) tomonidan taklif etilgan. OECD ta'riflariga ko'ra, moliyaviy savodxonlik "moliyaviy kontseptsiyalar va xavflarni bilish va tushunish, shuningdek, bunday bilim va tushunchani qo'llash uchun ko'nikmalar va munosabatlar majmui bo'lib, u moliyaviy kontekstlar doirasida samarali qarorlar qabul qilish, shaxslar va jamiyatning moliyaviy farovonligini yaxshilash hamda iqtisodiy hayotda ishtirok etish imkonini beradi".[11] Bu ta'rif moliyaviy savodxonlikni faqat nazariy bilim bilan cheklab qo'ymay, uni amaliy qo'llash va ijtimoiy ta'sir bilan bog'laydi, chunki u shaxsiy qarorlardan tortib, jamiyatdagi iqtisodiy ishtirok etishgacha bo'lgan keng doirani qamrab oladi.[12]

Amerikalik olimlar ya’ni Stanford Universiteti (AQSh) Iqtisodiy siyosat bo'yicha tadqiqot institutida (SIEPR) katta ilmiy xodim va Moliyaviy qarorlar qabul qilish tashabbusi direktori Annamaria Lusardi va Pensilvaniya Universiteti (AQSh) Varton maktabida Xalqaro xodimlar imtiyozlari fondi professori, sug'urta va risklarni boshqarish, biznes iqtisodiyoti va siyosati professori Olivia S.Mitchell moliyaviy savodxonlikni "odamlarning iqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishlash va moliyaviy rejalashtirish, boylik to'plash, qarz va pensiya haqida ma'lumotli qarorlar qabul qilish qobiliyati" deb ta'riflaydilar.[13]

Ularning fikricha, bu tushuncha inson kapitaliga sarmoya kiritish shakli bo'lib, u umr bo'yi davom etadigan moliyaviy qarorlarning asosini tashkil etadi. Lusardi va Mitchellning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy savodxonlik darajasi past bo'lgan shaxslar murakkab moliyaviy vositalar (masalan, ipoteka yoki investitsiyalar) bilan ishlaganda ko'proq xatolarga yo'l qo'yishadi, bu esa iqtisodiy farovonlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.[14]

Hozirgi kunda talabalarda moliyaviy bilim va ko‘nikmalarini kamayishi yoki yo‘qotilishi kuzatilmoqda. Bu holat, moliyaviy boshqaruv va rejalashtirish sohasidagi noto‘g‘ri qarorlar, moliyaviy savodxonlikni o‘sishini cheklash yoki uning yo‘qolishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Natijada bu talabalarni ko‘pincha iqtisodiy muammolarga, kam ma’lumotga ega bo‘lishga yoki moliyaviy tahlil va

rejalashtirish qobiliyatlarining pasayishiga olib kelmoqda. Misol uchun, talabalar qarzlarni to‘g‘ri boshqara olmasliklari, uzoq muddatli moliyaviy rejalarni tuza olmasliklari yoki investitsiyalarning qanday ishlashini tushunmasliklari mumkin, bunday holatlarni Moliyaviy savodxonlik degradatsiyasi deb fanga yangi tushunchani kiritish mumkin bo‘ladi. Moliyaviy savodxonlik degradatsiyasi-bu raqamli iqtisodiyot va agressiv iste’mol madaniyati ta’sirida shaxsning moliyaviy resurslarni samarali boshqarish ko‘nikmalarini yo‘qotishi hamda iqtisodiy xavflarni baholash qobiliyatining tizimli ravishda pasayishi jarayonidir. Ilgari talabalar cheklangan resurs bilan yashashni mashq qilishgan bo‘lsa, hozirgi tezkor kreditlar va muddatli to‘lovlar davrida yoshlarda moliyaviy immunitet pasayib ketmoqda.

Degradatsiya natijasida talabalar o‘z moliyaviy muammolari uchun mas’uliyatni davlat, banklar yoki ota-onasiga yuklab qo‘yishadi bu jarayonni moliyaviy infantilizm deb ataladi. Talabalarning tanqidiy fikrlashining yo‘qolishi ularning marketing tuzoqlarini (masalan, «0% komissiya») moliyaviy foydadan ajrata olmaslik ko‘nikmalarini hosil qiladi. Natijada, degradatsiyaga uchragan ong uzoq muddatli (pensiya, investitsiya) rejalardan ko‘ra, bir lahzalik «shok-iste’mol»ni ustun qo‘yadi.

Boshqa Amerikalik olim Texas Tech Universiteti (AQSh) Shaxsiy moliyaviy rejalashtirish bo'limida professor va Personal Financial Planning (PFI) dasturi direktori Sandra J.Huston moliyaviy savodxonlikni "shaxsning shaxsiy moliya bilan bog'liq ma'lumotlarni qanchalik yaxshi tushunishi va undan foydalanishi mumkinligini o'lchovchi ko'rsatkich" deb izohlaydi.[14] Uning ta'kidlashicha, bu nafaqat bilim o'lchovi, balki qaror qabul qilishda qo'llaniladigan qobiliyat va ishonchni ham o'z ichiga oladi. Hustonning tahlillariga ko'ra, moliyaviy savodxonlik shaxsiy moliyani boshqarishda asosiy rol o'ynaydi, chunki u byudjetlashtirish, jamg'arma va qarzlarni samarali boshqarishga yordam beradi.

Oregon Universiteti (AQSh) jurnalistika va aloqa bo'limida (School of Journalism and Communication) professor va public relations bo'yicha yordamchi professori David L.Remund esa moliyaviy savodxonlikni "shaxsiy moliyani boshqarishda asosiy moliyaviy kontseptsiyalarni tushunish darajasi, qisqa muddatli qarorlar qabul qilish va uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishda qobiliyat va ishonchni o'z ichiga olgan o'lchov" deb ta'riflaydi.[15] Uning fikricha, bu tushuncha hayotiy voqealar (masalan, oila qurish yoki ish joyini o'zgartirish) va iqtisodiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda shakllanadi, bu esa uni dinamik va kontekstga bog'liq qiladi.

Komponentlar va olimlarning fikrlarini taxlillari shuni ko‘rsatmoqdaki, Moliyaviy savodxonlikning tahliliy ta'rifi uni quyidagi asosiy komponentlarga bo'lish mumkin.

Bilim va tushuncha moliyaviy savodxonlikning asosiy poydevori bo'lib, byudjet, foizlar, investitsiya va xavflarni tushunishni o'z ichiga oladi. Lusardi va Mitchellning modellari shuni ko'rsatadiki, bu komponent insonning umr bo'yi moliyaviy qarorlarida hump (bukri)-shaklida o'zgaradi: yoshlikda oshadi, pensiya yoshida pasayadi.[16] OECD ham bu jihatni ta'kidlab, moliyaviy xavflarni bilishni muhim deb hisoblaydi, chunki u shaxsiy va jamiyatdagi iqtisodiy farovonlikni yaxshilaydi.

Moliyaviy savodxonlikda faqat nazariy emas, balki ko'nikmalar va ularni qo'llay olish juda katta samarali bo‘ladi. Masalan, Presidents Advisory Council on Financial Literacy (PACFL) ga ko'ra, u "bilim va ko'nikmalarni umr bo'yi moliyaviy farovonlik uchun samarali boshqarish qobiliyati" deb ta'riflanadi.

Texas Tech Universiteti (AQSh) Shaxsiy moliyaviy rejalashtirish bo'limida (Personal Financial Planning Department) professori Sandra J. Huston va boshqalar bu komponentni qaror qabul qilishda ishonch bilan bog'laydilar, chunki past savodxonlik darajasi firibgarlikka va noto'g'ri investitsiyalarga olib kelishi mumkin.

OECD ta'rifida ta'kidlanganidek, moliyaviy savodxonlik munosabat va xatti-harakatlar orqali namoyon bo'ladi, bu esa ratsional qarorlar qabul qilish va moliyaviy maqsadlarga erishishga yordam beradi. Turin universiteti iqtisodiyot bo'limida dotsent (associate professor). G53 Financial Literacy and Personal Finance Network tadqiqotchisi Fornero va Lo Prete kabi olimlar bu jihatni fuqarolik va iqtisodiy islohotlarga bog'laydilar, chunki yuqori savodxonlik jamiyatdagi iqtisodiy ishtirokni oshiradi.

Lusardi va Mitchellning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy savodxonlik boylik tengsizligini kamaytiradi va iqtisodiy farovonlikni oshiradi, ayniqsa kam ta'minlangan guruhlarda (ayollar, past daromadlilar) juda katta samaradorligi yuqori bo‘ladi. Ularning modellarida moliyaviy savodxonlikka erta sarmoya kiritish (masalan, maktabda) jamiyat uchun iqtisodiy foyda keltiradi, chunki u pensiya tizimi va investitsiyalarni yaxshilaydi.

Yuqoridagi olimlarning fikrlariga asoslanib, moliyaviy savodxonlikni quyidagicha to'liq tahliliy ta'riflash mumkin:

Moliyaviy savodxonlik-bu shaxsiy va jamiyatdagi iqtisodiy farovonlikni ta'minlash uchun moliyaviy kontseptsiyalar, xavflar va vositalarni bilish, ularni qo'llash ko'nikmalari, ratsional qarorlar qabul qilish munosabati va xatti-harakatlar majmui bo'lib, u hayotiy voqealar va iqtisodiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda shaxsiy moliyani samarali boshqarishga asoslanadi.

Albatta, moliyaviy savodxonlik teng o'yin sharoitlari emas. Kam daromadli odamlar moliyaviy jihatdan kamroq savodli bo'lishadi va yuqori daromadli odamlar ko'proq moliyaviy savodxonlikka ega bo'lishadi-ammo bu hammasi emas. Moliyaviy savodxonlikka nisbatan geografik joylashuvga asoslangan juda katta tafovut mavjud. Standard and Poor Global moliyaviy savodxonlik tadqiqotidan moliyaviy jihatdan savodli mamlakatlarning o'ntaligiga va Qo'shma Shtatlardagi moliyaviy savodxonlikning tahlillarini kuzatamiz.

Moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga qaratilgan dasturlar, tushunchalar va strategiyalarni amalga oshirayotgan mamlakatlarning aksariyati, asosan, aholining yoshi kattalar qismining moliyaviy ta'limi iqtisodiyotda iste'mol va tejashni muvozanatlash va tadbirkorlik faoliyati darajasini oshirishga yordam beradi.

Hozirgi global iqtisodiy sharoitda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, aholining moliyaviy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish hamda shaxsiy moliyani samarali boshqarishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu sababli dunyoning ko‘plab davlatlarida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda bu jarayon maxsus milliy strategiyalar, ta’lim dasturlari va institutsional mexanizmlar orqali amalga oshirilmoqda.

1.1.3-jadval.

Xorijiy mamlakatlarda va O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy savodxonlikni oshirish bo‘yicha milliy strategiyalarning solishtirma tahlili

Davlat	Milliy strategiya qabul qilingan yil	Mas’ul tashkilotlar	Asosiy dasturlar	Maqsadli guruhlar	Asosiy yo‘nalishlar
Australia	2011yil (2014–2017 yil yangilangan)	Australian Securities and Investments Commission	Moneysmart, Start smart, $20 Boss, Moneyminded, Saver plus	O‘quvchilar, kattalar, ayollar, mahalliy aholi	Moliyaviy ta’limni maktablarda joriy qilish, jamg‘arish madaniyatini rivojlantirish
Xindiston	2012–2013 yil (NSFE)	Moliyaviy barqarorlik va rivojlanish kengashi	Moliyaviy savodxonlik qo‘llanmalari, Onlayn platformalar	Yoshlar, qishloq aholisi, pensionerlar	Aholini moliyaviy xizmatlarga jalb qilish
Angliya	2006 yil (2015 yil Financial Capability Strategy)	Money and Pensions Service	Learning money matters, Money doctors	O‘quvchilar, talabalar, ishchilar	Moliyaviy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish
Rossiya	2011 yil (2017–2023 strategiya)	Ministry of Finance of the Russian Federation	Moliyaviy savodxonlik haftaligi, Ta’lim o‘yinlari	Bolalar, yoshlar, kattalar	Byudjet rejalashtirish va moliyaviy madaniyat
Nederlandiya	2008 yil	Money Wise Platform	Managing Money, Moneymanager	Bolalar, kattalar	Qarzdorlikni kamaytirish

AQSh	2006-2011 yil	Financial Literacy and Education Commission	Money Smart, Money as You grow, Paying for college	Bolalar, talabalar, kattalar	Moliyaviy qaror qabul qilish ko‘nikmalari
Yaponiya	2008 yil (1946 yildan jamg‘arish siyosati)	Central Council for Financial Services Information, Japan Financial Services Agency	Agenda for Finance education	O‘quvchilar, talabalar, aholi	Jamg‘arish madaniyati
O‘zbekiston	2021-20230 yillar	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va inovatsiyalar vazirligi, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi	Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi (2025–2030 yillar), "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi, Markaziy bankning "Finlit.uz" ta’lim loyihasi, Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish milliy strategiyasi	O‘quvchilar, talabalar, aholi, ayollar	Moliyaviy qaror qabul qilish ko‘nikmalari, jamg‘arish madaniyati

Jumladan, Australia moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish sohasida yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda 2011 yilda Milliy moliyaviy savodxonlik strategiyasi qabul qilingan bo‘lib, uni amalga oshirishda Australian Securities and Investments Commission muhim rol o‘ynaydi. Ushbu strategiya aholining turli qatlamlari, xususan, o‘quvchilar, yoshlar, kattalar va mahalliy aholi uchun moliyaviy ta’limni rivojlantirishga qaratilgan. Maktablarda MoneySmart, Start Smart va $20 Boss kabi ta’lim dasturlarining joriy qilinishi yoshlarda moliyaviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga kattalar uchun MoneyMinded va Saver Plus kabi dasturlar amalga oshirilib, aholi o‘rtasida jamg‘arish madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Hindistonda esa moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha muhim qadamlardan biri sifatida Milliy moliyaviy ta’lim strategiyasi (NSFE- National Strategy for Financial Education) ishlab chiqilgan. Ushbu strategiya aholining katta qismini moliyaviy ta’lim bilan qamrab olishni maqsad qilgan bo‘lib, asosan yoshlar, qishloq aholisi va pensionerlarga qaratilgan. Dastur doirasida moliyaviy savodxonlik bo‘yicha qo‘llanmalar, ta’lim kitoblari va elektron platformalar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga davlat organlari, banklar va nodavlat tashkilotlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali moliyaviy ta’limning ommaviyligi ta’minlanmoqda.

Angliyada moliyaviy savodxonlikni oshirish bo‘yicha ilk milliy strategiya 2006 yilda qabul qilingan. Keyinchalik 2015 yilda Financial Capability Strategy ishlab chiqilgan bo‘lib, u aholining moliyaviy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu strategiya doirasida maktab o‘quvchilari uchun Learning Money Matters, talabalar uchun Money Doctors va ishchilar uchun moliyaviy maslahat seminarlari tashkil qilingan. Bu dasturlar aholining moliyaviy qaror qabul qilish qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

AQShda moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha milliy siyosat 2003 yilda qabul qilingan qonun asosida shakllangan. Ushbu qonun doirasida Financial Literacy and Education Commission tashkil etilgan bo‘lib, mamlakatda moliyaviy ta’lim dasturlarini muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi. AQShda bolalar, yoshlar va kattalar uchun alohida ta’lim dasturlari ishlab chiqilgan. Masalan, Money

Smart, Money as You Grow va Paying for College dasturlari aholining turli yosh guruhlari uchun mo‘ljallangan.

Yaponiya tajribasi ham moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Mamlakatda aholining jamg‘arish madaniyatini shakllantirish siyosati 1946 yildan boshlangan. Keyinchalik 2008 yildan boshlab moliyaviy ta’limni rivojlantirish bo‘yicha milliy strategiya amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda Central Council for Financial Services Information va Japan Financial Services Agency asosiy tashkilotlar hisoblanadi. Ular tomonidan maktab va universitetlarda moliyaviy ta’lim dasturlari joriy qilinib, aholi uchun turli o‘quv materiallari ishlab chiqilgan.

Shuningdek, Nedrlandiya va Kanada kabi mamlakatlarda ham moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturlar amalga oshirilmoqda. Niderlandiyada Money Wise Action Plan dasturi orqali aholining moliyaviy mas’uliyatini oshirish va qarzdorlik darajasini kamaytirish maqsad qilingan.


Yuqorida keltirilgan tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy savodxonlikni oshirishda bir qator umumiy yondashuvlar mavjud.

Birinchidan, moliyaviy ta’lim maktab va oliy ta’lim tizimiga integratsiya qilingan.

Ikkinchidan, aholining turli guruhlari uchun maqsadli ta’lim dasturlari ishlab chiqilgan.

Uchinchidan, davlat organlari, moliyaviy institutlar va nodavlat tashkilotlar o‘rtasida samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Moliyaviy savodli odam quyidagi hislatlarga ega bo‘ladi:



3-rasm. Moliyaviy savodli odamda paydo bo‘ladigan hislatlar

Buning uchun inson hayotiy maqsadlarini aniq shakllantirishi kerak bo‘ladi. Bizning nuqta nazarimizda talabalardagi moliyaviy savodhonlik yetishmasligini asosiy omillari quyidagilarni tashkil etadi.

1. Ota-onalar farzandlari bilan oilaviy budjetni rejalashtirmagan, ya’ni shirinliklar yoki rezavorlar misolida pulini nimaga ketayotganini ko‘rsatishni istashmaydi yoki bilishmaydi, shuning uchun mavhum tushunchalar bola uchun aniq bo‘lmagan. Farzandiga imkoniyatlar doirasidan tashqarida biror narsa sotib olishni so‘raganda, oy uchun budjetni birgalikda ajratganligini eslatib qo‘ymagan;

2. Ota-onalar farzandiga cho‘ntak pulini reja bilan ajratishmaydi, unga katta xaridlar uchun tejash imkoniyati haqida aytib berishmaydi. Pulni tejash uchun ularga o‘xshash mahsulotlarni arzonroq tanlashni o‘rgatishmaydi. Bolaning cho‘ntak pulini olib bo‘lmaydi yoki sen hali pul olishga yoshsan deb o‘rgatishadi. Shunday qilib, bola pulni boshqarish uchun hali yosh ekanligini tushunib yetadi. Bu bolani katta bo‘lganda moliyaviy vujudga keladigan muammolarni bartaraf etishida juda ko‘p qiyinchililarga duch kelishi zamin yaratiladi;

3. Ota-onalar farzandlari bilan "Monopoliya", "Cashflow" o‘yinlarni o‘ynamaydi, fikrimizcha monopol stol o‘yini bolaga pulning funksiyalari va imkoniyatlarini mukammal namoyish eta oladi;

4. Ota-onalar farzandlariga pul ishlashga o‘rgatishmaydi, lekin ota-onalar bolaning o‘z vazifalarini bajarish uchun unga pul to‘lashadi buni ularni rag‘bat uchun deb o‘ylashadi aslida bu shart emas. Ya’ni, ularning joylariga qo‘yilgan o‘yinchoqlar uchun pul to‘lash va tishlarini yuvish kerak emas. Bu bolaning nazarida ishonchni osongina yo‘qotishi mumkin. Boshqa pullik faoliyat bilan shug‘illanishlari mumkin. Masalan, rezavor mevalarni yig‘ish, turli-hil yumushlarni bajarish va boshqalar shular jumlasidandir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, naqd pulsiz to'lovlar va masofaviy xizmat ko'rsatish xizmatlariga yo'naltirilgan mijozlar moliyaviy savodxonlikni o'rgatishga ko'proq moyil. Ammo ularning ba'zilari ma'lumotni himoya qilish, ularning huquqlari yoki firibgarlikni aniqlashda boshqa fuqarolar singari moliyaviy savodsizlikni ko'rsatadilar.

Turli mamlakatlarda moliyaviy savodxonlikni o'rgatish nafaqat to'g'ridan – to'g'ri, balki bilvosita-seriallar, tok-shoular, dasturlar va hatto multfilmlar orqali ham amalga oshiriladi. Turli avlod fuqarolari uchun tematik konferentsiyalar o'tkaziladi, interaktiv loyihalar va o'yinlar yaratiladi. Bu usullar moliyaviy savodxonlikni o'rgatishda juda samarali natija beradi.

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 8 iyun “2020-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VM-365-sonli Qarori

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2025 yil 26-iyun “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 2024 yildagi faoliyati to‘g‘risidagi hisoboti haqida”gi SQ-148-V-sonli qarori

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2025 yil 18-martdagi “O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini 2024 yilda amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalarning ijrosi hamda 2025 yilda amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi SQ-102-V-sonli qarori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi ““Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston-2030” Strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-22-sonli Farmoni

Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

Mirziyoev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”, Toshkent - 2021. 143, 226, 227-б

Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari / 1-jild. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1992. – 298 b.

Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995.

A.Navoiy, Mahbub ul-qulub. – Toshkent: 1983. – B. 37–51.

A.Avloniy, Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.– 160 b.

Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” Yangi Asr Avlodi, 320 bet, 2016

Ал. Фаробий. Математические трактаты. Алма-ата: Илм, 1972, стр, 327, 328.

OECD/INFE International Survey of Adult Financial Literacy Competencies, © OECD 2016,

Gary Rabbior, Money and youth, Canadian Foundation for Economic Education 1997, 2002, 2006, 2012, 2015, 2016, 2018, E-mail: mail@cfee.org; Web: www.cfee.org +

D.Tojiboeva. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: «Fan va texnologiya», 2007. 541 bet.

Н.Э.Бровкина, И.А.Ризванова, Финансовая грамотност: проблемы и пути решения, Экономика и управление, www.Этл.фа.ру, Т.15, № 2022

А.Г.Худокормов, А.Ю.Ставнийчук, Новые исследования современной экономической мысли, Научные исследования экономического факултета. Электронный журнал. 2022. Том 14. Выпуск 2 (44)

Sh.Ibragimova, Moliyaviy savodxonlikning aholi farovonligiga ta’siri, Vestnik KGU im. Berdaxa. № 2(56) 2022, 57-62-bet

Yu.S.Tokareva, N.V. Kononenko, N.Yu.Zarechnov, G.D.Tonkix, Aktualnыe problemы obrazovaniya v vыsshey shkole, Uchyonыe zapiski ZabGU. 2022. Tom 17, № 3

M.R.Obilov Aholining moliyaviy savodxonligi: mazmuni, ahamiyati va asosiy jihatlari, E-mail: obilovmirkomil@mail.ru, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali, №1, yanvar-fevral, 2019

С.В.Бровчак, М.А.Селиванова, Е.Н.Сочнева, О.В.Фирсанова, А.А.Сыганов, В.Г.Шубаева, Вопросы повышения финансовой грамотности студентов высших учебных заведений финансово-экономической направленности, Интернационал Ссиентифис Элестронис Жоурнал, Перспективы Науки и Образования. 2019. 5 (41)

С.Д.Резник, О.А.Сазыкина, М.В.Черниковская “Повышение финансовой грамотности студентов: особенности и возможности региональных вузов”, Интеграция образования. Т. 27, № 3. 2023, http://edumag.mrsu.ru

A.Menberu, Technology-mediated financial education in developing countries: a systematic literature review, https://doi.org/10.1080/23311975.2023.2294879, Cogent Business & ManageMent 2024, VoL. 11, no. 1, 2294879

Белехова Г.В., Калачикова О.Н «Век живи – век учис»: консептуалный дискурс о финансовой грамотности населения, Экономические и сотсиалные перемены: факты, тенденсии, прогноз Том 11, № 6, 2018

Бляхман Л.С. “Перестройка экономического мышления”. – Издателства политика литературы, 1990 - Эconomics - 270 pages

Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

Е.А.Сушко, Влияние финансовой грамотности населения на развитие экономики региона, Автореферат диссертатсии на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Волгоград-2018

Д.Ю.Разумовский, Формирование решений финансового характера на основе профилей финансового поведения населения, Автореферат диссертатсии на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Екатеринбург-2022

Е.А.Салахова, Формирование сифровой финансовой грамотности студентов вузов, Автореферат диссертатсии на соискание ученой степени кандидата педагогических наук, Челябинск – 2022

N.Z.Sayfullaeva, Talabalarda iqtisodiy tafakkurni innovasion texnologiyalar asosida rivojlantirish, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertasiyasi avtoreferati, Samarqand – 2022

F.M.Sadriddinova, Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining intellektual-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlari, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertasiyasi avtoreferati, Jizzax – 2022

O.S.Dusmuxamedov, Aholi moliyaviy savodxonligini oshipishning ilmiy-uslubiy asoslapini takomillashtipish (Tijopat banklapi misolida), Toshkent – 2022

B.J.Urinov, Xorijiy tajribalar asosida talabalarga iqtisodiy fanlarni o‘qitish sifatini oshirish metodikasi, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertasiyasi avtoreferati, Namangan – 2023

Internet ma’lumotlari

https://www.cambridge.org/core/journals/journal-of-financial-literacy-and-wellbeing/article/importance-of-financial-literacy-and-its-impact-on-financial-wellbeing/

https://asic.gov.au/regulatory-resources/financial-literacy/national-financial-literacy-strategy, https://moneysmart.gov.au

https://asic.gov.au/regulatory-resources/financial-literacy/national-financial-literacy-strategy, https://moneysmart.gov.au

R.Kiyosakiyoshlar doim qiladigan xatolar- dan saboqlar, https://youtu.be/cZeemapRShE?si=zL_06S9prahunouI

OLIY O‘QUV YURTI TALABALARINING SOLIQ VA RAQAMLI IQTISODIYOT BO ‘YICHA MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI ANIQLASH ME’ZONLARI
(Noiqtisodiy yo‘nalishi talabalari misolida)

Asqarov Abrorjon Hayitmirzaevich
Namangan davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi
Abrorjonasqarov86@gmail.com Orsid-0009-0005-8505-3391
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22246305

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda jahonning yetakchi oliy ta’lim muassasalari tajribasi hamda ilmiy izlanishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, noiqtisodiy yo‘nalish (masalan, muhandislik, tibbiyot yoki ona-tili adabiyot) talabalari uchun moliyaviy savodxonlikni o‘qitishda faqatgina raqamlar va formulalarga asoslangan an’anaviy yondashuvlar yetarli samara bermaydi. Bunday auditoriya uchun o‘quv jarayonini hayotiy va amaliy ko‘nikmalarga bog‘lash talab etiladi. Ushbu maqola davomida Namangan davlat pedagogika instituti, Qo‘qon davlat pedagogika institutlari, Farg‘ona davlat universiteti va Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetlaridan jami 804 nafar respondent talabalari jalb etilgan holda ularni 9 ta yo‘nalish bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomada talabalardagi kognitiv, psixoemosional va stereotiplashtirish mezonlari birma-bir tahlil qilindi.

Аннотатsiя. В настоящем исследовании опыт ведущих мировых высших учебных заведений, а также наши научные исследования показали, что традиционные подходы, основанные только на числах и формулах, недостаточно эффективны в обучении финансовой грамотности студентов неэкономической направленности (например, инженерной, медицинской или литературы на родном языке). Для такой аудитории необходимо связать процесс обучения с жизненными и практическими навыками.В ходе опроса были проанализированы когнитивные, психоэмоциональные и стереотипные критерии у студентов.тута, Кокандского государственного педагогического института, Ферганского государственного университета и Hatsионального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека по 9 направлениям. В ходе опроса были проанализированы когнитивные, психоэмоциональные и стереотипные критерии у студентов.

Annotation. In this study, the experience of the world's leading higher education institutions as well as our scientific research showed that traditional approaches based solely on numbers and formulas in teaching financial literacy for students of non-economic orientation (e.g. engineering, medicine or Mother-Language Literature) do not have sufficient results. For such an audience, it is necessary to link the learning process to real-life and practical skills. During this study, a survey was conducted among 804 respondents from Namangan State Pedagogical Institute, Kokand State Pedagogical Institute, Fergana State University, and Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan, covering 9 areas. The questionnaire analyzed cognitive, psychoemotional, and stereotyping criteria in students one by one.

Kirish. Jahonda hozirgi globallashuv sharoitida aholini moliyaviy savodxonligini oshirish va fuqarolarning iqtisodiy madaniyatini shakllantirishning kreativ metodlari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu jarayon davlat, biznes va jamoat tashkilotlarining sa’y-harakatlarini birlashtirgan ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladigan keng qamrovli muammo hisoblanadi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) hujjatlarida ko‘rsatilganidek, moliyaviy savodxonlikka quyidagicha rasmiy ta’rif berilgan: “Moliyaviy savodxonlik – bu shaxsiy moliyaviy farovonlikka erishish uchun asosli moliyaviy qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi xabardorlik, bilim, ko‘nikma, qadriyatlar (hayotiy yo‘nalishlar) va xulq-atvor kabi elementlarning majmuidir”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilg‘or xorijiy o‘quv muassasalari va tadqiqot institutlari, moliya tashkilotlaridan yetakchi mutaxassislarni moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishga oid ta’lim tadbirlariga keng jalb qilish samarali natija berishini alohida ta’kidlab o’tganlar. Shuningdek, noiqtisodiy yo‘nalishdagi oliy ta’lim tashkilotlari talabalari uchun «Moliyaviy savodxonlik» o‘quv kursini fan sifatida joriy etish, ushbu fan doirasida mablag‘larni to‘g‘ri boshqarish, oqilona moliyaviy qarorlar qabul qilish, jumladan moliyaviy instrumentlar bo‘yicha o‘qitish metodologiyasini ishlab chiqish hamda

«Moliyaviy savodxonlik olimpiadalari»ni tashkil etish orqali o‘quv kursining samaradorligini baholash eng ustuvor vazifalardan ekanligi ko‘rsatib o’tilgan.

Tahlil va muhokamalar. Talabalarning (1-ilovaga qarang) “soliq” mavzusi bo‘yicha moliyaviy savodxonlik rivojlanishi (kognitiv komponent) asosan past diapazonda ekanligi, eng katta bilim bo‘shlig‘i maxsus holatlar va imtiyozlar bo‘yicha tushuncha va qo‘llash algoritmlarida ekanligi aniqlandi.

Moliyaviy bilim inson kapitaliga investitsiya sifatida talqin qilinib, uning farovonlik va xavflarni boshqarishga ta’siri nazariy-empirik jihatdan asoslangan. Annamaria Lusardi va Olivia S. Mitchell moliyaviy bilimni inson kapitali tarkibida tahlil qilib, past savodxonlik moliyaviy qarorlarda xatolar xavfini oshirishini ko‘rsatadi[25]. Olingan natijalar moliyaviy savodxonlikning kognitiv komponenti (soliq normalari bo‘yicha tushuncha va xabardorlik) yetarli darajada barqaror shakllanmaganini ko‘rsatadi. Bu holat moliyaviy savodxonlikni “bilim va uni qo‘llash qobiliyati” birligi sifatida ta’riflovchi Sandra J. Huston yondashuvi bilan uyg‘un hisoblanib, agar bilim fragmentar bo‘lsa, uni amaliy qarorga aylantirish ham cheklanadi[26]. Shuningdek, soliq mavzusidagi savollar mazmuni (imtiyoz, ozod etish, shartlar) talabalarda “oddiy qoida”ga suyanish va noto‘g‘ri umumlashtirish (miskonsepsiya) ehtimolini oshiradi. Yoshlar soliq mavzusida to‘liq tizimli tushunchaga emas, ayrim terminlarga tayanganda, stereotiplashtirish kuchayadi. Bunday holatlarni ta’lim jarayonida maxsus diagnostika qilish zarurligi ta’lim tadqiqotlarida ham asoslangan.[27]

Talabalarning “Raqamli iqtisodiyot” bo‘yicha (2-ilovaga qarang) bilimlarini kognitiv me’zon bo‘yicha tahlili etilganda (rasmiy raqamli xizmatga murojaat yo‘llari) natijalar o‘rtacha darajada, lekin OTMlar orasida farq borligi o‘rganishlar davomida aniqlandi. Masalan, Farg‘ona DU va O‘zMU natijalari biroz yuqoriroq, Qo‘qon DPI va Namangan DPI esa pastroq ekanligi aniqlandi.

Talabalarning moliyaviy savodxonligi psixoemosional me’zon bo‘yicha tahlili etilganda (o‘z xarajatini hisoblash odati) barcha OTMlarda nisbatan yaxshiroq ekanligi, talabalarda kundalik sarf-xarajatni kuzatish amaliyoti mavjudligi aniqlandi. Bu xulq-atvorni qo‘llab-quvvatlovchi motivatsiya, o‘zini nazorat qilishning mavjudligini ko‘rsatadi va uni kognitiv bilimlar bilan bog‘lab ketish samarali strategiya bo‘ladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shunchaki moliyaviy bilim berishning o'zi (masalan, inflyatsiya nimaligini bilish) har doim ham amaliy harakatga olib kelmaydi. TPB (attitudes va perceived behavioral control → intention → behavior) modeli esa bilimni haqiqiy harakatga aylantirish uchun qaysi "nuqtalar"ga ta'sir qilish kerakligini ko'rsatib beradi.[28]

Talabalarda stereotiplarni buzishga qaratilgan intervensiyani ya’ni kredit tarixi, soliq, pensiya, ijtimoiy dasturlar faqat kattalar uchun degan qarashni kamaytirish uchun quyidagi pedagogik texnologiyalarni jalb etish maqsadga muvoqib bo‘ladi.

Xulosa. Талабаларга real hayotiy keyslar (stipendiya, kontrakt to‘lovi, mikrokredit, soliq imtiyozlari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash), “mif vs fakt” debatlari va interaktiv viktorinalar tashkil qilish, qaror qabul qilishda evristikalarni anglatuvchi mashg‘ulotlar o‘tkazish tavsiya etiladi.

- ✓ Talabalarda psixoemosional resursni (mavjud odatni) kapitallashtirish uchun, telefon xarajati misolida boshlangan hisob-kitobni “shaxsiy byudjet”, “maqsadli jamg‘arma”, “qarz yuki” ssenariylariga ulashish tavsiya etiladi.
- ✓ Talabalarda kognitiv komponentni kuchaytirish uchun moliyaviy savodxonlik modullariga “qaysi ma’lumotnomani qaerdan olish”, “kabinet, portal, ilova orqali xizmat”, “ariza topshirish algoritmi” kabi bajariladigan ish tartibi bo‘yicha keyslarni kiritish (qadamma-qadam yo‘riqnoma, simulyatsiya, mini-laboratoriya) maqsadga muvofiq bo‘ladi.
- ✓ Bu “moliyaviy bilim + raqamli ma’muriy savodxonlik” integratsiyasida tizimli o‘qitish va amaliyot (keys, trenajyor, mygov.uz bilan ishlash) yetarli emasligini anglatadi.
- ✓ Талабаларни psixoemosional va stereotip mezonlari bo‘yicha ishonchli xulosa chiqarish uchun qo‘shimcha shkalalarni instrumentga kiritish zarur, shuning uchun mazkur ishda 3 mezonli indeks modeli taklif etmoqchiman. Soliq mavzusini o‘qitishda “qoida → keys → hisoblash algoritmi” zanjirini majburiy joriy etish (ayniqsa qimmatli qog‘oz, 60 kv.m imtiyoz bloklari) maqsadga muvofiq hisoblanadi.
- ✓ Psixoemosional jihatdan esa (jadval bevosita o‘lchamasa-da), kognitiv qiyinchiliklar yuqori bo‘lgan mavzular talabalarda ishonch pasayishi va o‘quv faolligi susayishiga olib kelishi mumkin,

demak, ta’lim jarayonida “qonun normasi-amaliy, keys–hisoblash algoritmi”ni bog‘lovchi interfaol yondashuvlar (keys-stadi, simulyatsiya kartochkalari) zarur hisoblanadi.

✓ Ta’lim jarayonida kognitiv bilimlarni chuqurlashtirish, psixoemosional qo‘llab-quvvatlash va stereotiplarni kamaytirishga qaratilgan kompleks metodik yondashuvni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.


✓ Ta’lim amaliyotida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan modullarda: (a) kommunal va maishiy xarajatlar bo‘yicha amaliy hisob-kitob topshiriqlari, (b) tarif/narx ma’lumotlarini rasmiy manbadan topish va yangilash ko‘nikmalari, (v) kundalik byudjetni rejalashtirish va monitoring qilish instrumentlarini (jadval, chek-list, keys) joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Natijada psixoemotsional tayyorlik kognitiv kompetensiya bilan mustahkamlanib, stereotipik qaror qabul qilish o‘rniga dalilga asoslangan moliyaviy xulq-atvor shakllanishiga xizmat qiladi.

✓ O‘quv dasturiga (1) risk va daromadni hisoblashga qaratilgan amaliy masalalar, (2) investitsiya qarorlari algoritmi (maqsad–muddat–risk–likvidlik–diversifikatsiya) bo‘yicha keys-tahlillar, (3) shaxsiy budjet tuzish va xarajatni monitoring qilish bo‘yicha treninglar kiritish maqsadga muvofiq. Natijada kognitiv komponent mustahkamlanadi, psixoemosional tayyorlik amaliy ko‘nikmalar bilan qo‘llab-quvvatlanadi va stereotip sarf-odatlarini qisqartirishga xizmat qiladi.


✓ Ta’lim jarayonida sug‘urta bo‘yicha qisqa muddatli, ammo maqsadli “insurance literacy” modullarini joriy etish (sug‘urta turlari, polis shartlari, murojaat algoritmlari, avtosug‘urtani tekshirish amaliyoti) hamda interaktiv metodlar asosida psixoemotsional tayyorlikni kognitiv kompetensiyaga aylantirish tavsiya etiladi.

✓ Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish dasturlarida faqat ta’rifiy ma’lumotlar bilan cheklanmasdan, APR/samarali stavka, oylik-yillik stavkani ekvivalentlash, keys-stadi va simulyatsion hisob-kitobli topshiriqlar orqali qaror qabul qilish madaniyatini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

✓ Ta’lim jarayonida depozit mavzusini faqat nazariy tushuntirish bilan cheklanmasdan, keys-stadi, simulyatsiya (bank depozit shartnomasi modellash), “shaxsiy byudjet va jamg‘arma rejasi” kabi amaliy topshiriqlar orqali kognitiv bilimni psixoemosional motivatsiyaga va uning amaliyotdagi barqaror ko‘rinishiga aylantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



1-ilova. Oliy o‘quv yurti talabalarining orasida Soliq mavzusi bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnomada to‘g‘ri javob natijalari diagrammasi



2-ilova. Oliy o‘quv yurti talabalarining orasida Raqamli iqtisodiyot mavzusi bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovnomada to‘g‘ri javob natijalari diagrammasi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”, Toshkent - 2021. 143, 226, 227-б
2. А.В.Борануков, Экономическая культура и финансовая грамотность населения, Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата социологических наук, Майкоп - 2014
3. N.Umarova “Sharq mutafakkirlarining iqtisodiy ijtimoiylashuv haqidagi qarashlari”, VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2021 Scientific Library of Uzbekistan, www.ares.uz 23-24 bet
4. Kurbonova Shaxrinoz “Iqtisodiyotni erkinlashtirish va diversifikatsiyalash sharoitida iqtisodiy tahlilning tutgan o‘rni” Iqtisodiyot va ta'lim / 2024-yil 2-son
5. Hikmat Sobirov, https://review.uz/uz/post/alisher-navoiy-va-bozor-iqtisodiyoti-masalalari, "Iqtisodiy sharh" jurnali №7/2023
6. Murod Muxammedov, Samarqand iqtisodiyot servis instituti, “Amir Temur saltanatining iqtisodiy poydevori” (https://review.uz/oz/post/amir-temur-saltanatining-iqtisodiy-poydevori), 29.05.2022, https://review.uz/oz/p8y
7. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995.
8. Повышение финансовой грамотности населения как условие эффективного развития экономики России на примере Республики Башкортостан, https://perm.hse.ru/editorial_publishing/financial_literacy1
9. Влияние уровня финансовой грамотности населения на инвестиционную привлекательность региона https://perm.hse.ru/editorial_publishing/financial_literacy1
10. Е.А.Сушко, Влияние финансовой грамотности населения на развитие экономики региона, Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Волгоград-2018
11. https://www.oecd.org/en/topics/sub-issues/financial-education.html
12. https://www.cambridge.org/core/journals/journal-of-financial-literacy-and-wellbeing/article/importance-of-financial-literacy-and-its-impact-on-financial-wellbeing
13. https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC5450829/
14. https://www.cambridge.org/core/journals/journal-of-financial-literacy-and-wellbeing/article/importance-of- financial-literacy-and-its-impact-on-financial-wellbeing/A5DBBF9D6F0696E5FD3733241EE28E66
15. https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1083664.pdf

16. https://digitalcommons.unl.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1126&context=journalismfac
17. https://www.inter-nauka.com/uploads/public/15495781868230.pdf

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MEHNAT FAOLIYATIDA O’Z O’ZINI ANGLASHGA O’RGATISH TEXNALOGIYALARI

Abdug’afforova Navbahor Botirjon qizi
Namangan davlat pedagogika inustituti Ta’lim va tarbiya nazaryasi va metodikasi [Maktabgacha ta’lim] mutaxasizligi 2-kurs magistranti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22246356

Annotatsiya: Mehnat fa'oliyati har bir bolaning yosh hususiyatidan kelib chiqib tashkil etiladi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat fa'oliyatida o’zini anglashga o’rgatish texnalogiyalari xaqida so’z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Mehnat, o'yin, munosabat, jismoniy o’yin, harakatli o'yin, ko'nikma, metod, o'yinchoqlar,

Yurtimizda Maktabgacha ta'lim soxasiga juda katta etibor ko'rsatilmoqda. Yosh tadbirkorlarga katta imkoniyatlar berilmoqda. yurtboshimiz tashabbuslari asosida yurtimizda maktabgacha ta’lim tizimida ko’plab qonun va farmonlar qabul qilindi. Shulardan,

Uzluksiz ta’lim tiziming birlamchi bo’g’ini hisoblanga maktabgacha ta’lim soxasi har tomonlama sog’lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g’oyat muhim axamiyat kasb etadi. Davlatimiz raxbari O’zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: “maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog’cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta’lim muassasasiga to’liq qamrab olishdan iborat’’ deb takidlagan.

Bolaning barkamol, har tomonlama yetuk shaxs bo'lib tarbiyalanishda maktabgacha ta’limning o’rni beqiyosdir. Bolalarni mehnatsevarlikka o'rgatish, o'z mehnatini qadrlash hissini uyg'otishda tarbiyachining mahoratiga bog'liq. Bolaninng har tomonlama bsrkamol bo'lib tarbiyalanishida mehnat faoliyatining o'rni katta. Insonning kundalik turmush tarzi mehnat fa'oliyati bilan bog’liqdir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Bolalar mehnatining muhim belgisi uning malum maqsadga qaratilganligidir. Bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib mehnat fa'oliyatlari tashkil qilinadi. Mehnat fa'oliyati o’yin bilan chanbarchas bog’liqdir. Bolalar qanchalik kichik bo’lsa, ularning ishi o’yinga aylanadi. Ular mehnatni o’yin kabi bajarishadi. Bolalarga mehnat faoliyatini tushuntirishda tarbiyachi turli o’yinlar orqali tushuntirishi kerak, aks holda bolalarda mehnatga nisbatan zerikish paydo bo’ladi.

Mehnat fa'oliyti bolalardan diqqat, o'tkir zehnlilik, topqirlik, bilib olgan malaka va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llay bilish, ijodkorlik qobiliyatlarini egallashni talab etadi. Mehnat faoliyati bolalar ayrim ish turlarini anglatuvchi bir qancha tushuncha va atamalardan foydalanishga, bajarilgan ishdagi izchillikni so'zlab berishga to'g'ri keladi. Bular bola nutqini yangi so'zlar bilan boyitadi, uning mantiqiy bog'liq ravishda grammatik jihatdan to'g'ri shakllanishiga imkon beradi va rivojlantiradi. Bolalarni mehnat fa'oliyatida o’zini anglashida tarbiyachining o’rni kata. Bolalarni mehnat faoliyatida o’zini anglab, o’zini boshqarishi to’g’ri shakllanmasa ular kelajakda turli oqibatlarga olib kelishi mumkun. Shuning uchun tarbiyachida kata mahorat talab qilinadi.

Xulosa.

Bolalarni mehnat fa'oliyatida o’zini anglashi bu o’zi ovqatlanishi, kiyimlarni kiyib yechishi, tarbiyachi biron ish qilsa unga taqlid qilib qaytarishi, ko’chada ko’rgan ishini qaytarishi [melitsiya, doktr, tarbiyachi, oshpaz] o’zini anglashning shaklidir. Bolalar hamma narsaga qizuquvcha hamda tez o’rganib tez uqub oladiga shaxs xisoblanadi. Shuning uchun bolaning yonida biron soz yoki biron harakatni bajarishdan oldin o’ylab qilsh kerak. Bolalarga mehnat fa'oliyati o’z hayotida bajaradiga barcha ishlari kiradi. Bolalar mehnat fa'oliyatini yosh hususiyatidan kelib chiqib o’rganishadi. Ularni to’g’ri yonaltirish biz va ota-onalarning muhum vazifasi hisoblana.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to’g’risida” 2020 yil 22 dekabrdagi 802-sonli qaroriga 1- ilova Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat Standarti.

2. “Илк қадам” Мактабгача таълим муассасасининг Давлат ўқув дастури. Toshkent. 2018-yil

3. Sh.M. Mirziyoyev-“Yangi O’zbekiston Strategiyasi”-Toshkent-2021.

4. Sodiqova Sh. "Maktabgacha pedagogika " Toshkent- 2013y

5. Qodirova F. Toshpolatova Sh. Kayumova N. Azamov M.”Maktabgacha pedagogika’’ o’quv qollanma. Toshkent, 2019y.

6. Tosheva Nurzoda Toshtemirovna. Methods and techniques of developing cognitive activities of primary school pupils //ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal, 2020. № 10.(7.13.) Стр 80-87

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Odilova Maftuna Sardin qizi
Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi o'qituvchisi
G-mail: abrorbekodilov095@mail.com Tel: +998 93 047 32 27
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22246515

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning mazmuni, pedagogik imkoniyatlari va amaliy samaradorligi yoritilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayonini zamonaviy metodlar asosida tashkil etish masalalari tahlil qilingan. Interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari, loyiha faoliyati, STEAM elementlari hamda raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishning bolalar bilish faolligi, nutqiy rivojlanishi, ijodkorligi, mustaqil fikrlashi va hamkorlik ko‘nikmalariga ta’siri asoslangan. Maqolada innovatsion texnologiyalarni tanlash va qo‘llashda pedagogik maqsadga muvofiqlik, yoshga moslik, faollik va individual yondashuv tamoyillariga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, innovatsion ta’lim, pedagogik texnologiya, interfaol metod, o‘yin texnologiyasi, loyiha metodi, STEAM, raqamli ta’lim, ijodkorlik, mustaqil fikrlash, kommunikativ kompetensiya.

Аннотация. В данной статье освещены содержание, педагогические возможности и практическая эффективность использования инновационных образовательных технологий в организациях дошкольного образования. Проанализированы вопросы организации образовательного и воспитательного процесса на основе современных методов с учётом возрастных и индивидуальных особенностей детей дошкольного возраста. Обосновано влияние использования интерактивных методов, игровых технологий, проектной деятельности, элементов STEAM, а также цифровых образовательных средств на познавательную активность, речевое развитие, творческие способности, самостоятельное мышление и навыки сотрудничества детей. В статье особое внимание уделено принципам педагогической целесообразности, соответствия возрасту, активности и индивидуального подхода при выборе и применении инновационных технологий.

Ключевые слова: дошкольное образование, инновационное образование, педагогическая технология, интерактивный метод, игровая технология, проектный метод, STEAM, цифровое образование, творчество, самостоятельное мышление, коммуникативная компетентность.

Abstract. This article examines the content, pedagogical potential, and practical effectiveness of using innovative educational technologies in preschool education organizations. It analyzes the issues of organizing the educational and upbringing process based on modern methods, taking into account the age-related and individual characteristics of preschool-aged children. The article substantiates the impact of interactive methods, play-based technologies, project-based activities, STEAM elements, and digital educational tools on children’s cognitive activity, speech development, creativity, independent thinking, and collaboration skills. Particular attention is paid to the principles of pedagogical appropriateness, age appropriateness, active participation, and an individualized approach in the selection and application of innovative technologies.

Keywords: preschool education, innovative education, pedagogical technology, interactive method, play-based technology, project method, STEAM, digital education, creativity, independent thinking, communicative competence.

Kirish. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti ta’lim tizimining mazmuni va uni tashkil etish usullarini muntazam ravishda takomillashtirib borishni talab etmoqda. Ayniqsa, inson shaxsining asosiy sifatlari shakllanadigan maktabgacha yosh davrida ta’lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bola aynan shu davrda atrof-muhitni kuzatish, savol berish, taqqoslash, xulosa chiqarish, o‘z fikrini ifodalash va boshqa insonlar bilan munosabatga kirishish kabi dastlabki ko‘nikmalarni egallaydi.

Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mashg‘ulotlarni faqat tayyor bilimni berishga asoslash emas, balki bolaning tabiiy qiziqishi, faol ishtiroki va mustaqil izlanishiga yo‘naltirish zarur. Bunda innovatsion ta’lim texnologiyalari tarbiyachiga ta’lim mazmunini bolalar uchun tushunarli, qiziqarli va amaliy faoliyat bilan bog‘langan holda tashkil etish imkonini beradi.

Innovatsion yondashuvning mohiyati faqat kompyuter, planshet yoki boshqa texnik vositalardan foydalanish bilan cheklanmaydi. Innovatsiya, avvalo, ta’lim jarayoniga yangicha fikrlash, samarali metodlarni tatbiq etish, bolaning imkoniyatlarini hisobga olish va kutilayotgan pedagogik natijaga erishish uchun maqbul sharoit yaratishni anglatadi.

Mavzuning dolzarbligi

Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish masalasi bugungi pedagogik amaliyotning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Zamonaviy bola axborotga boy muhitda ulg‘aymoqda. Shuning uchun uning e’tiborini jalb etadigan, faoliyatga undaydigan va fikrlashini rivojlantiradigan ta’lim usullaridan foydalanish zarur.

Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali tarbiyalanuvchining mashg‘ulotdagi faolligini oshirish, mavzuni yaxshiroq anglash, o‘z fikrini erkin bayon qilish va amaliy harakat orqali bilimni mustahkamlash imkoniyati yuzaga keladi. Shu jihatdan innovatsion texnologiyalarni maktabgacha ta’lim amaliyotiga pedagogik maqsad asosida joriy etish dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Tadqiqotning asosiy maqsadi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini ochib berish hamda ularni mashg‘ulot jarayonida samarali qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi: innovatsion ta’lim texnologiyalarining maktabgacha ta’limdagi o‘rnini aniqlash; bolalarning yosh xususiyatlariga mos metodlarni tahlil qilish; interfaol, o‘yin, loyiha va STEAM yondashuvlarining pedagogik imkoniyatlarini ko‘rsatish; tarbiyachining innovatsion faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari

Maqolani tayyorlashda pedagogik kuzatish, tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va ilmiy-metodik adabiyotlarni o‘rganish metodlaridan foydalanildi. Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatiga mos innovatsion texnologiyalarning afzalliklari va ularni qo‘llash shartlari pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilindi.

Asosiy qism

Innovatsion ta’lim texnologiyalari ta’lim jarayonining maqsadi, mazmuni, metodi va vositalarini o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali kutilayotgan natijaga erishishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’limda esa bunday texnologiyalar, eng avvalo, bolaning faoliyatini tabiiy tarzda tashkil etishga qaratilishi kerak. Chunki maktabgacha yoshdagi bola uchun o‘yin, muloqot, kuzatish, tajriba va ijodiy faoliyat eng samarali o‘rganish vositalaridan hisoblanadi.

Interfaol metodlardan foydalanish bolalarni mashg‘ulotning faol ishtirokchisiga aylantiradi. Masalan, tarbiyachi tabiat mavzusini o‘tayotganda bolalarga tayyor ma’lumotni aytib berish bilan cheklanmasdan, “Nima uchun yomg‘ir yog‘adi?”, “O‘simliklar suvga nima uchun muhtoj?” kabi savollar orqali ularni fikrlashga undashi mumkin. Bunday yondashuv bolaning kuzatuvchanligi va sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglashiga yordam beradi.

O‘yin texnologiyalari maktabgacha ta’limda alohida o‘rin tutadi. Didaktik va rolli o‘yinlar ta’limiy maqsadni bolaga sezilmaydigan, qiziqarli faoliyat shaklida amalga oshirish imkonini beradi. Masalan, “Do‘kon”, “Shifokor”, “Quruvchi”, “Sayohat” kabi rolli o‘yinlarda bolalar nafaqat mavzuga oid bilimlarni egallaydi, balki navbat kutish, suhbatlashish, kelishish, vazifani taqsimlash va hamkorlik qilishni ham o‘rganadi.

Loyiha asosida ta’lim berish ham maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishlarini ta’lim jarayoniga jalb etishning samarali usullaridan biridir. Kichik loyihalarni bolalarning yoshiga mos tarzda tashkil etish mumkin. Masalan, “Gullarni parvarish qilamiz”, “Tabiatni asraymiz”, “Sog‘lom ovqatlanish”, “Bizning kasblarimiz” kabi mavzularda kuzatish, suhbat, rasm chizish, tajriba va ijodiy topshiriqlarni birlashtirish

mumkin. Bunda bola o‘zi bajargan ishining natijasini ko‘rishi va uni boshqalarga tushuntirishi orqali o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

So‘nggi yillarda ta’lim amaliyotida STEAM yondashuviga ham qiziqish ortib bormoqda. Maktabgacha ta’limda STEAMning murakkab nazariy mazmunidan ko‘ra uning oddiy amaliy elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Qurish-yasash, o‘lchash, shakllarni farqlash, oddiy tajribalar o‘tkazish, rang va materiallar bilan ishlash orqali fanlararo bog‘liqlik yaratish mumkin. Masalan, “Ko‘prik quramiz” topshirig‘ida bolalar materiallarni tanlaydi, ularning xususiyatini kuzatadi, konstruksiya yaratadi va natijani muhokama qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ham mashg‘ulotlarni vizual va qiziqarli tashkil etishda yordamchi vosita bo‘la oladi. Elektron taqdimotlar, qisqa animatsiyalar, rasmlar va interaktiv topshiriqlar orqali bolaga murakkab tushunchalarni sodda ko‘rinishda tushuntirish mumkin. Biroq raqamli vosita pedagogning o‘rnini bosmasligi, balki uning metodik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi kerak. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda ekran orqali faoliyat bilan jonli muloqot, harakatli o‘yin, tajriba va ijodiy faoliyat muvozanatda bo‘lishi zarur.

Innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llash shartlari

Innovatsion texnologiyaning samaradorligi uni tanlash va qo‘llash jarayoniga bog‘liq. Birinchi navbatda, texnologiya bolaning yosh va individual xususiyatlariga mos bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, texnologiya aniq pedagogik maqsadga xizmat qilishi lozim. Uchinchidan, bola faoliyatning markazida bo‘lishi, ya’ni kuzatishi, fikrlashi, savol berishi, harakat qilishi va natijani izohlashi uchun imkoniyat yaratilishi zarur.

Shuningdek, innovatsion metodlarni tanlashda guruhdagi bolalarning rivojlanish darajasi, mavzuning mazmuni, mavjud didaktik vositalar va mashg‘ulot uchun ajratilgan vaqt ham hisobga olinishi lozim. Bir mashg‘ulotda juda ko‘p metodlardan foydalanish emas, balki maqsadga eng mos bo‘lgan metodni to‘g‘ri tanlash pedagogik jihatdan samaraliroqdir.

Tarbiyachining innovatsion faoliyati

Innovatsion ta’limni tashkil etishda tarbiyachining kasbiy mahorati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tarbiyachi yangilikni shunchaki qo‘llovchi emas, balki uni o‘z guruhidagi bolalarning ehtiyojiga moslashtira oladigan ijodkor pedagog bo‘lishi kerak. Buning uchun u o‘z faoliyatini muntazam tahlil qilishi, yangi metodlarni sinab ko‘rishi va ularning natijasini kuzatib borishi lozim.

Tarbiyachining bolaga munosabati ham innovatsion ta’limning muhim tarkibiy qismidir. Bolaning har bir savoliga e’tibor berish, xatosini keskin tanqid qilmaslik, mustaqil fikrini qo‘llab-quvvatlash va kichik yutug‘ini ham rag‘batlantirish uning ta’limga bo‘lgan ijobiy munosabatini mustahkamlaydi.

Amaliy tavsiyalar

• Mashg‘ulotni bolalarning kundalik hayoti va real tajribasi bilan bog‘lash.

• Har bir mashg‘ulotda bolalarning mustaqil fikrlashi uchun savol va muammoli vaziyatlardan foydalanish.

• O‘yin va amaliy topshiriqlarni ta’limiy maqsad bilan uyg‘unlashtirish.

• Kichik guruhlarda ishlash orqali hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish.

• Raqamli vositalardan me’yorida va faqat pedagogik maqsadga muvofiq foydalanish.

• Har bir bolaning individual imkoniyatini hisobga olish va natijani faqat boshqa bolalar bilan taqqoslamaslik.

• Tarbiyachilar o‘rtasida innovatsion tajriba almashinuvini yo‘lga qo‘yish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ta’lim-tarbiya jarayonining mazmuni va sifatini takomillashtirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari, loyiha faoliyati, STEAM elementlari va raqamli vositalardan maqsadli foydalanish bolaning ta’lim jarayonidagi faolligini oshiradi.

Bunda asosiy e’tibor texnologiyaning o‘ziga emas, undan foydalanish orqali qanday pedagogik natijaga erishilayotganiga qaratilishi kerak. Innovatsion yondashuv bola shaxsini hurmat qilish, uning qiziqishi va imkoniyatlarini hisobga olish, mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bilan uyg‘unlashgandagina samarali bo‘ladi.

Shu bois maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish bilan birga tarbiyachilarning metodik kompetensiyasini oshirish, ilg‘or tajribalarni o‘rganish va amaliyotga moslashtirish, ta’lim muhitini takomillashtirish muhim vazifa sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasiga oid davlat me’yoriy hujjatlari.
4. Maktabgacha pedagogika: oliy ta’lim muassasalari uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalar.
5. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratga oid ilmiy-metodik manbalar.
6. Maktabgacha ta’lim metodikasiga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlar.

ONLAYN PSIXOLOGIK MASLAHAT XIZMATI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Boyturayeva Nozima
Pedagogika fakulteti, psixologiya yo‘nalishi 3- bosqich talabasi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22246648

Annotatsiya. Mazkur maqolada onlayn psixologik maslahat xizmatining mazmuni, afzalliklari hamda amaliyotda uchraydigan muammolari tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu muammolarni bartaraf etishning samarali yechimlari haqida ilmiy mulohazalar bayon etilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, onlayn psixologik maslahat zamonaviy jamiyatda ruhiy salomatlikni qo‘llab-quvvatlashda muhim o‘rin tutadi, biroq samaradorlikni oshirish uchun normativ-huquqiy, texnik va metodik jihatlarni kuchaytirish zarur.

Kalit so‘zlar.Psixologik xizmat, onlayn psixologik maslahat, masofaviy yordam, muammo, yechim, ruhiy salomatlik, telepsixologiya

Kirish. *Psixologik yordam* — bu shaxsning ruhiy salomatligini mustahkamlash, stress va emotsional qiyinchiliklarni yengib o‘tishga ko‘maklashish, shaxsiy resurslarni safarbar etishga xizmat qiluvchi professional faoliyatdir. Zamonaviy davrda bu faoliyat masofaviy xizmatlar orqali kengayib bormoqda.

2024-yil 21-fevral kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston psixologlar uyushmasi bilan hamkorlikda “O‘zbekistonda aholiga psixologik yordam ko‘rsatishning huquqiy asoslari” mavzusidagi davra suhbati o‘tkazildi.Davra suhbatida sohani rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlar ko‘lamiga qaramasdan jamiyatda ijtimoiy-psixologik, jumladan, oilaviy muammolar, “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’sirlariga tobelik holatlari uchrab turganligi, shuningdek yetarlicha bilim-malakaga ega bo‘lmasdan turib, “psixolog” maqomini noqonuniy o‘zlashtirib olayotgan shaxslarning faoliyati ommalashib borayotganligi qizg‘in muhokama qilindi. Mutaxassislar tomonidan qayd etilganidek, ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘zini “psixolog” sifatida tanishtirayotgan va bu turdagi xizmatlarni taqdim etayotgan shaxslar avvalambor, mazkur yo‘nalishda oliy ta’limga ega bo‘lishi hamda psixologik yordam ko‘rsatish huquqini beruvchi tegishli hujjatga ega bo‘lishiga oid talabni qonunchilikda belgilash lozim. Bundan tashqari, “psixologik xizmat” tushunchasi huquqiy-normativ hujjatlar bilan belgilab qo‘yilmagani va amaliyotchi psixologlar reyestri mavjud emasligi ular faoliyatini nazorat qilishda qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, ayrim oliy ta’lim muassasalarida tashkil etilgan qisqa muddatli “Psixologlarni tayyorlash” kurslari tijoratga aylanib ketayotgani tanqid ostiga olindi. Tadbir ishtirokchilari psixolog-mutaxassislarni tayyorlash va litsenziyalash borasidagi xorijiy tajribani tahlil qilishdi. Xususan, Yevropa mamlakatlarida psixologik ta’lim davri 3 yildan 5 yilgacha bo‘lgan muddatni tashkil etishini qayd etishdi. Davra suhbatida, shuningdek, amaliyotchi-psixologlarning faoliyatini litsenziyalash masalasi ham qizg‘in muhokama etildi. Davra suhbatida aholiga malakali psixologik yordam ko‘rsatishga doir faoliyatni tartibga solishga qaratilgan qonunlarni ishlab chiqish yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar berildi.

Ruhiy salomatlikni mustahkamlash jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanar ekan, onlayn psixologik maslahat xizmatlariga talab ortib bormoqda. Onlayn formatning qulayliklari bilan bir qatorda u bir qator muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Har bir shaxs hayoti psixologik jarayonlardan iboratligi va hayoti moboynida psixologik xizmatga muhtojlik sezishini inobatga olgan holda va albatta har bir inson shaxs sifatida rivojlanishi va kamol topishi uchun, o'zini hamda jamiyatni anglashi uchun ham psixologik maslahatlar zarur. Ayni zamonamizning axborot - kammunikatsiya texnologiyalarining rivojlanayotganini , har bir shaxsning internet tarmoqlariga ehtiyojlari oshib borayotganligi onlayn psixologik xizmatga ham zarurat ortib borishidan dalolat beradi. Albatta hozzirgi kunda onlayn psixologik xizmat ko‘rsatishda bir qator muommolar mavjud. Ushbu muommolarni bartaraf etgan holda onlayn psixologik xizmatni yo'lga qo'yish jamiyatimizdagi har bir shaxs uchun ham o'sish va rivojlanishda munosib vosita bo'lib xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda insonlarning ruhiy salomatligi masalasi jahon miqyosida ham, O‘zbekiston miqyosida ham muhim dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Turli psixologik bosimlar, stress, oilaviy va ijtimoiy muammolar, ish joyidagi zo‘riqish insonlarning ruhiy barqarorligiga salbiy ta’sir

ko‘rsatmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ning ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha har 8 kishidan biri ruhiy salomatlik muammolariga duch keladi. Shu sababli psixologik yordam ko‘rsatishning samarali va ommabop shakllarini tashkil qilish zarurati ortib bormoqda.

COVID-19 pandemiyasi davrida yuzma-yuz muloqot cheklangani tufayli onlayn psixologik maslahat xizmatlari tezkor rivojlandi. Bu tajriba masofaviy psixologik yordamning samarali ekanligini ko‘rsatib berdi. Bugungi kunda internet texnologiyalari yordamida psixologik maslahat olish imkoniyati qishloq joylarda yashovchilar, vaqt va transport imkoniyatlari cheklangan shaxslar hamda anonim tarzda murojaat qilishni istaganlar uchun katta qulaylik yaratmoqda O‘zbekistonda ham psixologik xizmat sohasini rivojlantirish, shu jumladan, onlayn maslahatlarni huquqiy va metodik jihatdan tartibga solish masalalari dolzarb hisoblanadi. Prezidentimizning “Aholi ruhiy salomatligini mustahkamlash va psixologik xizmatlarni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu yo‘nalishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Demak, onlayn psixologik maslahat xizmati: keng omma uchun psixologik yordamning qulay shaklini yaratishi, hududiy tengsizlikni kamaytirishi, insonlarning ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlashda samarali mexanizm bo‘lib xizmat qilishi sababli dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Onlayn psixologik maslahat tushunchasi

Onlayn psixologik yordam — zamonaviy psixologiya amaliyotining muhim yo‘nalishidir. U an’anaviy psixoterapiyani to‘ldirib, ko‘plab insonlar uchun samarali qo‘llab-quvvatlash manbaiga aylanmoqda. Shu bois, kelgusida mazkur sohaning huquqiy, metodik va axborot xavfsizligi asoslarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biridir.

Onlayn psixologik maslahat – bu masofadan turib, internet orqali real vaqt rejimida yoki yozishmalar asosida psixologik yordam ko‘rsatish jarayonidir. U an’anaviy maslahatdan geografik chegarasizligi, tezkorligi va anonimlik imkoniyati bilan farqlanadi.

Onlayn xizmatlar bir necha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

Videokonferensiya orqali individual yoki guruhiy maslahat;

Chat va e-mail maslahat — yozma muloqot shaklida;

Mobil ilovalar asosidagi psixologik qo‘llab-quvvatlash;

Forum va onlayn hamjamiyatlar orqali tajriba almashish.

Onlayn psixologik yordamning nazariy poydevori quyidagi yondashuvlarga tayanadi

Gumanistik psixologiya: inson o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga qodir, psixolog kognitiv-behevioristi faqat yo‘naltiruvchi sifatida ishtirok etadi. Bu tamoyil onlayn maslahatlarda ham asosiy mezon hisoblanadi.

Kognitiv-behevioristik yondashuv: onlayn platformalar orqali kognitiv qayta tuzish mashqlari va o‘zini nazorat qilish topshiriqlari samarali qo‘llanadi.

Sotsial o‘rganish nazariyasi: internet orqali o‘zaro kuzatish, model olish va ijobiy tajriba almashish mexanizmlarini kuchaytiradi.

Psixologik xizmatning masofaviy shakllarini joriy etishning asosiy ijobiy ta'siri qanday va ulardan kim ko'proq foyda oladi? Uchta shubhasiz afzalliklarni aniqlash mumkin:

1. Psixologik yordamning mavjudligini oshirish. Psixologik xizmatlar geografiyasini kengaytirish va borish qiyin bo'lgan hududlar aholisiga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishdan tashqari, masofaviy psixologik yordam usullarini joriy etish etnik-madaniy omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, mijozlarning masofaviy yordam sifatini baholashlari ularning mutaxassis bilan to'g'ridan-to'g'ri o'zaro munosabatini baholashlaridan deyarli farq qilmaydi.

2. Resurslarni tejash va/yoki ularni malakali qayta taqsimlash. Xarajatlarning pasayishi borish qiyin bo'lgan hududlar va sub'ektlarning maxsus guruhlari uchun ham sezilarli bo'ladi. Mahalliy hamjamiyat tomonidan bunday ish shakllarini tashkil etishga qiziqish bo'lsa, iqtisodiy samara yanada yuqori bo’ladi. Umumiy amaliyot shifokori va mutaxassis o'rtasidagi o'zaro munosabatlar

Masofaviy psixologik ish sohasi ham psixologik yordamga muhtoj odamlarning oldini olish va erta aniqlashga yordam beradi.

3. Terapevtik jarayonda mijozning rolini oshirish. Psixologik yordam so'rash uchun nisbatan past motivatsiyaga ega bo'lgan yoki ma'lum sabablarga ko'ra an'anaviy yordam ko'rsatish jarayonida faol

ishtirok eta olmaydigan mijozlar bilan masofaviy psixologik ish qo'llanilishi mumkin. Masofaviy ish, shuningdek, ma'lum darajadagi maxfiylikni ta'minlaydi va psixologik yordam so'rash haqiqati tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy norozilik va stigmatizatsiya bilan bog'liq tashvishlardan qisman xalos bo'lishga imkon beradi, bu kichik shaharlarda yoki qishloq joylarida yashovchilar uchun muhim bo'lishi mumkin.

Afzalliklari

- Qulaylik va tezkorlik – istalgan joy va vaqtda psixolog bilan muloqot qilish imkoniyati.
- Anonimlik – shaxsiy noqulayliklarni kamaytiradi.
- Keng qamrovlilik – olis hududlardagi aholiga ham psixologik yordamni yetkazadi.
- Texnologik integratsiya – videoaloqa, mobil ilovalar va platformalar yordamida samaradorlik ortishi

-Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun keng imkoniyatlari

-Pandemiya sharoitida uzluksiz yordam ko‘rsatish kabilardan iborat.

Onlayn psixologik maslahatning paydo bo‘lish sabablari

1. Texnologiyalar rivoji

Internet va mobil qurilmalarning keng tarqalishi psixolog va mijoz o‘rtasida masofaviy muloqotni osonlashtirdi. Onlayn platformalar, mobil ilovalar va videokonferensiya dasturlari (Zoom, Skype, Google Meet va h.k.) masofaviy maslahatni amaliyotga olib kirdi.

2. Vaqt va masofa muammosi

Shaxsiy uchrashuvga vaqt ajratish yoki uzoq masofadan kelish imkoniyatining yo‘qligi ko‘plab insonlarni onlayn maslahatga murojaat qilishga undadi. Ayniqsa, chekka hududlarda yashovchilar uchun bu xizmat dolzarb bo‘ldi.

3. COVID-19 pandemiyasi

2020-yil pandemiya davrida karantin va cheklovlar natijasida psixologik xizmatlarning katta qismi onlayn shaklga o‘tdi. Bu davr onlayn maslahatning samaradorligini amalda ko‘rsatib berdi va keng qamrovda rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

4. Anonimlik va psixologik to‘siqlar

Ko‘plab odamlar yuzma-yuz psixologga borishdan uyaladi yoki jamiyatdagi stereotiplardan xavfsiraydi. Onlayn maslahat anonimlikni ta’minlab, ko‘proq mijozlarni jalb qilish imkonini berdi.

5. Globalizatsiya va tezkorlik

Raqamli davrda odamlar tezkor yordamga ehtiyoj sezadi. Onlayn maslahat real vaqt rejimida yordam berish imkoniyatini taqdim etdi.

6. Iqtisodiy omillar

Onlayn xizmatlar ko‘pincha arzonroq va qulayroq bo‘ladi. Psixolog uchun ofis ijarasi, tashkiliy xarajatlar kamayadi, mijoz uchun esa yo‘l va vaqt tejaladi.

Onlayn psixologik maslahatning kamchiliklari

1. Shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiylik – ma’lumotlarning uchinchi shaxslarga tarqalishi xavfi yuqori. Onlayn xizmatlarda mijozning shaxsiy ma’lumotlari internet orqali uzatiladi. Ma’lumotlar bazasi yoki platformaning yetarlicha himoyalanmaganligi maxfiylik buzilishiga olib kelishi mumkin.

2. Ishonch muammosi – psixolog va mijoz o‘rtasida yuzma-yuz muloqotning yetishmasligi ishonchni shakllantirishni qiyinlashtiradi. Psixolog va mijoz o‘rtasidagi ishonchni shakllantirish yuzma-yuz uchrashuvga qaraganda murakkabroq. Bunda tana tili, yuz ifodasi kabi noverbal signallar to‘liq qabul qilinmaydi.

3. Sifatni nazorat qilish – litsenziyasiz shaxslar tomonidan xizmat ko‘rsatish xavfi mavjud. Onlayn maslahat xizmatlari turli platformalarda, ko‘pincha maxsus litsenziyasiz mutaxassislar tomonidan ham ko‘rsatilmoqda. Bu esa xizmat sifatini nazorat qilishni murakkablashtiradi.

4. Texnik qiyinchiliklar – internet sifati, platforma muammolari jarayonni uzib qo‘yishi mumkin. Internet tezligi pastligi, platformaning texnik nosozligi yoki elektr energiyasi uzilishi onlayn maslahat jarayonini izdan chiqarishi mumkin.

5. Huquqiy asoslarning yetarli emasligi – milliy me’yoriy hujjatlarda telepsixologiya alohida tartibga olinmagan. O‘zbekistonda onlayn psixologik maslahat xizmatlari yangi yo‘nalish hisoblanadi. Shu sababli xizmat ko‘rsatishda huquqiy asoslar, axloqiy me’yorlar va xalqaro standartlarga moslik masalalari hali

to‘liq shakllanmagan. O‘zbekistonda ayollarga huquqiy va psixologik yordam ko‘rsatish bo‘yicha onlayn loyihalar amalga oshirilmoqda, biroq ushbu sohada yagona standart va metodika mavjud emas.

Yechimlar

1. Psixologik xizmatni litsenziyalash va standartlashtirish – mutaxassislar uchun alohida telepsixologiya talablari va sertifikatlash tizimini joriy etish. Psixologik xizmatlarning sifati va samaradorligini ta’minlash uchun litsenziyalash va milliy standartlarni ishlab chiqish zarur. Bunda mutaxassislarning malaka darajasi, etik qoidalar va onlayn formatga oid qo‘shimcha talablar alohida belgilanishi lozim

2. Maxfiylikni ta’minlash bo‘yicha qat’iy qoidalar – ma’lumotlarni shifrlash, maxsus rozilik shakllari va uchinchi tomon bilan cheklovlarni joriy etish.Onlayn psixologik maslahatda shaxsiy ma’lumotlar himoyasi eng muhim masalalardan biridir. Shu sababli ma’lumotlarni shifrlash, foydalanuvchi roziligini olish, uchinchi tomon bilan ma’lumot almashishni cheklash kabi qat’iy qoidalar ishlab chiqilishi kerak

3. Professional malaka oshirish va onlayn formatga moslashuv – telepsixologiya bo‘yicha treninglar, superviziya va malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Psixologlar uchun telepsixologiya bo‘yicha maxsus kompetensiyalarni egallash dolzarb. Shu sababli oliy ta’lim muassasalari va kasbiy uyushmalar telepsixologiya bo‘yicha sertifikatlashgan kurslar va malaka oshirish dasturlarini joriy etishi kerak

4. Maxsus platformalar va texnologik qo‘llab-quvvatlash – standartlariga mos platformalardan foydalanish, milliy dasturiy ta’minotni ishlab chiqish. Onlayn maslahatni samarali tashkil etishda maxsus platformalardan foydalanish muhim. Ular HIPAA/GDPR standartlariga javob berishi, shifrlash, identifikatsiya va xavfsiz server joylashuvi kabi texnik talablarga ega bo‘lishi kerak

Onlayn psixologik maslahat xizmatlari zamonaviy jamiyatda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u insonlarning ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlashda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, xavfsizlik, ishonch, sifat nazorati va texnik qiyinchiliklar kabi muammolar mavjud. Ularni bartaraf etish uchun litsenziyalash, maxfiylik qoidalarini kuchaytirish, mutaxassislarni tayyorlash va maxsus platformalarni qo‘llash zarur. Ushbu yechimlarni amalga oshirish orqali O‘zbekistonda onlayn psixologik maslahat xizmatlari samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Foydalanilgan manbaalar

1. Иванова, О. (2022). Психологическая помощь в онлайн-консультировании: возможности и ограничения. Вестник практической психологии образования, 19(3), 32–41. (cyberleninka.ru)
2. American Psychological Association. (2013). Guidelines for the practice of telepsychology.
3. Jurnal: Chuvashiya psixiatriya va psixologiyasi byulleteni. 2016. Xartfelder Denis maqolasi
4. Parliament.gov.uz sayti. Soxta "psixolog"lar faoliyatini tartibga solish zarurati, qo'mita va komissiya yig'ilishi.2024
5. Lex.uz sayti. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 577- son, 2019.
6. APA GUIDELINES for the Practce of Telepsychology. 2024. August.
7. Абдувалиева, Г. (2021). Psixologik maslahat va uning amaliy jihatlari. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.
8. Зокирова, М. (2020). Amaliy psixologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan va texnologiya.
9. Corey, G. (2017). Theory and Practice of Counseling and Psychotherapy. Cengage Learning, USA.
10. Kraus, R., Stricker, G., & Speyer, C. (2010). Online Counseling: A Handbook for Mental Health Professionals. Academic Press.
11. Barak, A., Hen, L., Boniel-Nissim, M., & Shapira, N. (2008). A Comprehensive Review and a Meta-Analysis of the Effectiveness of Internet-Based Psychotherapeutic Interventions. Journal of Technology in Human Services, 26(2-4), 109–160.
12. American Psychological Association (APA). (2021). Guidelines for the Practice of Telepsychology. Washington, DC.
13. World Health Organization (WHO). (2020). Mental health and COVID-19: Early evidence of the pandemic’s impact. Geneva: WHO Report.

TURLI SOMATOTIPDAGI O‘QUVCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI KO‘RSATKICHLARI

Izatullayev Alisher Muxtorjon o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti
O‘zbekiston, Namangan shahri
E-mail: alisherizatullayev11@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22246770

Kalit so‘zlar: somatotip, jismoniy tayyorgarlik, monitoring, tezkorlik va chidamlilik
Ключевые слова: соматотип, физическая подготовленность, мониторинг, быстрота и выносливость

Kirish. Jismoniy tarbiya darslaridan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biri o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun dars jarayonlarida turli hil vositalar, usullar va shakllardan foydalaniladi. Bugungi kunda fan texnikaning rivojlanishi va insonlarning turmush madaniyati o‘zgarishi natijasida ushbu komponentlarga turli hil talablar qo‘yilmoqda. Jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirish masalalari ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, tayyorgarlikning turli jihatlarini tadqiq etganlar. Biroq, shunga qaramay hozirga qadar darslarni o‘tkazishda o‘qituvchilar tomonidan ko‘plab kamchiliklarga yo‘l qo‘yilmoqda. Ayniqsa, o‘quvchilarning somatotip ko‘rsatkichlarini hisobga olish asosida darslarni tashkil etishda ko‘plab xatolarga duch kelinmoqda.

Tadqiqotimiz davomida umumta’lim maktablarida tahsil olayotgan 5-6 sinf o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini baholash va monitoring qilish maqsadida “Jismoniy tayyorgarlik darajasi” sport sinovlarining turlari va mezonlarida ko‘rsatilgan ushbu yosh toifasi uchun ishlab chiqilgan test mashqlari o‘tkazildi. Bunda jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari asosida har bir sinfdan saralab olingan 15 nafar ektomor, 15 nafar endomorf va 34 nafar mezomorf tana tipiga ega o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligi baholandi.

Baholashda 60 m. ga yugurish (soniya), 2000 m. ga yugurish (daqiqa, soniya), turnikda tortilish (marta), 150 gr. sport anjomi (tennis to‘pi)ni uloqtirish (m., sm.), kuraklarda yotgan holda oyoqlarni juftlashtirib tanani yuqoriga 90°ga ko‘tarish (marta), turgan joydan uzunlikka sakrash (sm.) kabi me’yorlardan foydalanildi. Bu testlar o‘quvchilarning barcha jismoniy sifatlarini rivojlanish darajasini qamrab olib, ularning umumiy jismoniy tayyorgarligi haqida xulosalar chiqarishimizga yordam berdi.

Quyida keltirilgan jadvallarda har bir somatotip bo‘yicha o‘quvchilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarning tajriba boshidagi natijalari ko‘rsatilgan.

1-jadval

Ektomorf tana tipidagi 5-6 sinf o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari dinamikasi

T/r	Nazorat mashqlari va o‘lchov birligi	Guruhi	Tajriba boshi		V, %
			$\overline{X}$	σ	
5-sinf (nazorat (n=15) va tajriba (n=15))					
1.	60 m. ga yugurish (soniya)	TG	11,05	1,39	12,58
		NG	11,22	1,36	12,13
2.	2000 m. ga yugurish (daqiqa, soniya)	TG	11,55	1,56	13,51
		NG	11,42	1,52	13,32
3.	Turnikda tortilish (marta)	TG	3,11	0,41	13,18
		NG	3,18	0,40	12,58
4.	150 gr. sport anjomi (tennis to‘pi)ni uloqtirish (m., sm,)	TG	19,33	2,40	12,42
		NG	19,76	2,43	12,30
5.		TG	27,15	3,97	14,63

	Kuraklarda yotgan holda oyoqlarni juftlashtirib tanani yuqoriga 90°ga ko‘tarish (marta)	NG	27,05	4,00	14,79
6.	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm.)	TG	147,42	17,70	12,01
		NG	148,39	17,61	11,87
6-sinf (nazorat (n=15) va tajriba (n=15))					
1.	60 m. ga yugurish (soniya)	TG	10,05	1,25	12,44
		NG	10,21	1,22	11,95
2.	2000 m. ga yugurish (daqiqa, soniya)	TG	10,74	1,34	12,48
		NG	10,69	1,31	12,26
3.	Turnikda tortilish (marta)	TG	3,40	0,43	12,65
		NG	3,46	0,41	11,85
4.	150 gr. sport anjomi (tennis to‘pi)ni uloqtirish (m., sm.)	TG	21,05	2,62	12,45
		NG	21,47	2,66	12,40
5.	Kuraklarda yotgan holda oyoqlarni juftlashtirib tanani yuqoriga 90°ga ko‘tarish (marta)	TG	28,13	3,74	13,30
		NG	28,29	3,76	13,30
6.	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm.)	TG	156,39	17,53	11,21
		NG	157,94	17,38	11,01

Izoh. TG-tajriba guruhi, NG-nazorat guruhi, t-student test, P-ishonchlilik qiymati, AO‘-absalyut o‘sish, NO‘-nisbiy o‘sish

Ushbu natijalarga ko’ra 5-sinfda tahsil oluvchi ektomorf tana tipidagi o‘quvchillarning tezkorlik sifati (60 m. ga yugurish (soniya)) bo‘yicha natijasi tajriba guruhlarida 11,05 soniyani nazorat guruhida esa o‘rtacha 11,22 soniyani tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkichlar 6-sinf o‘quvchilarida mos ravishda tajriba guruhida 10,05 soniyani, nazorat guruhida 10,21 soniyani tashkil etdi. Ushbu natijalar sinov meyorlarining umumiy natijalari ichida past ko‘rsatkichlar qatoriga kiradi.

Umumiy va maxsus chidamlilikni baholash uchun mo‘ljallangan 2000 m. ga yugurish (daqiqa, soniya) test mashqi natijalariga ko‘ra 5-sinf o‘quvchilarining tajriba guruhida 11,55 daqiqani, nazorat guruhida esa 11,42 daqiqani tashkil etdi. 6-sinflarda esa bu natijalar (TG) 10,74 va (TG) 10,69 daqiqadan iborat bo‘ldi.

Qo‘l va yelka mushaklarining kuchini baholovchi navbatdagi turnikda tortilish (marta) mashqi bo‘yicha natijalarni tahlil qilganimizda 5-sinfda tahsil oluvchi o‘quvchilarning natijalari TGda 3,11 martani, NGda esa 3,18 martani tashkil etdi. 6-sinfda esa o‘rtacha 3,40 va 3,46 martadan iborat bo‘ldi. Ushbu natijalar 11-12 yosh toifasidagi o‘quvchilar uchun qoniqarli hisoblanadi. Biroq, o‘quvchilarning tajriba uchun tanlab olingan qismi bo‘lganligi uchun, maktab miqiyosida olib qaralganda ushbu ko‘rsatkich yanada pasayishi mumkin.

O‘quvchilarni tezkor-kuch (portlovchi kuch) va koordinatsion qobiliyatlarini baholash uchun o‘tkazilgan test mashqi natijalariga ko‘ra tajriba guruhidagi 5-sinf o‘quvchilarida o‘rtacha 19,33 m., nazorat guruhidagi o‘quvchilarda 19,76 m. ni tashkil etdi. Bu ko‘rstakichlar bo‘yicha 6-sinf o‘quvchilarida 21,05 m. va 21,47 m. natijalar qayd etildi.

O‘quvchilarning qorin mushaklari kuch chidamliligini baholash bo‘yicha natijalar kuraklarda yotgan holda oyoqlarni juftlashtirib tanani yuqoriga 90°ga ko‘tarish tajriba guruhidagi 5-sinf o‘quvchilarida o‘rtacha 27,15 martani, 6-sinflarda esa 28,13 martani tashkil etdi. Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 27,05 marta va 28,29 martadan iborat bo‘ldi.

Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm.), ya’ni sakrovchanlik mashqi natijalari 5-sinfdagi tajriba guruhi o‘quvchilarida 147,42 sm., nazorat guruhida 148,39 sm. qayd etildi. 6-sinflarda esa tajriba guruhida 156,39 sm., nazorat guruhida 157,94 sm.ni tashkil etdi.2-jadval

Mezomorf tana tipidagi 5-6 sinf o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari dinamikasi

T/r	Nazorat mashqlari va o‘lchov birligi	Guruhi	Tajriba boshi	V, %

			$\overline{X}$	σ	
5-sinf (nazorat (n=34) va tajriba (n=34))					
1.	60 m.ga yugurish (soniya)	TG	11,70	1,52	12,99
		NG	11,92	1,50	12,58
2.	2000 m.ga yugurish (daqiqa, soniya)	TG	12,26	1,84	14,97
		NG	12,05	1,76	14,57
3.	Turnikda tortilish (marta)	TG	3,73	0,48	12,98
		NG	3,77	0,48	12,60
4.	150 gr. sport anjomi (tennis to‘pi)ni uloqtirish (m., sm.)	TG	22,78	3,18	13,96
		NG	23,31	3,16	13,56
5.	Kuraklarda yotgan holda oyoqlarni juftlashtirib tanani yuqoriga 90°ga ko‘tarish (marta)	TG	31,39	4,70	14,97
		NG	30,76	4,49	14,60
6.	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm.)	TG	141,88	19,84	13,98
		NG	144,37	19,59	13,57
6-sinf (nazorat (n=34) va tajriba (n=34))					
1.	60 m.ga yugurish (soniya)	TG	10,72	1,50	13,96
		NG	10,89	1,48	13,59
2.	2000 m.ga yugurish (daqiqa, soniya)	TG	11,28	1,69	14,98
		NG	11,14	1,62	14,58
3.	Turnikda tortilish (marta)	TG	3,94	0,51	12,99
		NG	4,03	0,51	12,56
4.	150 gr. sport anjomi (tennis to‘pi)ni uloqtirish (m., sm.)	TG	23,97	3,34	13,93
		NG	24,49	3,32	13,56
5.	Kuraklarda yotgan holda oyoqlarni juftlashtirib tanani yuqoriga 90°ga ko‘tarish (marta)	TG	33,19	4,64	13,98
		NG	32,63	4,42	13,55
6.	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm.)	TG	146,19	21,86	14,95
		NG	149,47	21,77	14,56

Izoh. TG-tajriba guruhi, NG-nazorat guruhi, t-student test, P-ishonchlilik qiymati, AO‘-absalyut o‘sish, NO‘-nisbiy o‘sish

Mezomorf tana tipidagi 5-6 sinf o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari 3.2.2-jadvalda berilgan bo‘lib, 34 nafar ushbu tana tipidagi o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarlik holati bo‘yicha ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan.

5-sinf o‘quvchilarida qisqa masofaga yugurishda tajriba guruhi 11,70 soniya, nazorat guruhi esa 11,92 soniya natija ko‘rsatdi. Bu TGning tezkorlikda biroz ustunligini anglatadi. Uzoq masofaga yugurishda esa TGning ko‘rsatkichi 12,26 daqiqa, NGda esa 12,05 daqiqa bo‘lib, NG chidamlilikda ozgina yaxshi natija ko‘rsatdi. Kuch mashqlaridan turnikda tortilish bo‘yicha TG 3,73 marta, NG esa 3,77 marta natija qayd etib, deyarli tenglik kuzatildi. Sport anjomlarini uloqtirishda TG 22,78 m, NG esa 23,31 m natija ko‘rsatib, NG kichik ustunlikka erishdi. Biroq, oyoqlarni juftlashtirib tanani yuqoriga ko‘tarish mashqida TG 31,39 marta, NG esa 30,76 marta ko‘rsatkich bilan tajriba guruhi ustunlik qildi. Turgan joydan uzunlikka sakrashda esa TG 141,88 sm, NG esa 144,37 sm natijaga erishib, NG ustunligi kuzatildi.

Tajriba guruhi tezkorlik va kuch mashqlarida yaxshi natijalar ko‘rsatgan bo‘lsa (masalan, tanani ko‘tarish – 31,39 marta), nazorat guruhi chidamlilik va sakrash mashqlarida biroz ustunlikka ega bo‘ldi (masalan, sakrash – 144,37 sm).

6-sinf natijalari qisqa masofaga yugurishda TG 10,72 soniya, NG esa 10,89 soniya ko‘rsatkich qayd etdi. Bu safar TGning tezkorlikdagi ustunligi yaqqol ko‘rindi. 2000 m.ga yugurishda TG 11,28 daqiqa, NG esa 11,14 daqiqa natija bilan chidamlilikda ustunlikni saqlab qoldi. Turnikda tortilish TGda 3,94 marta, NGda esa 4,03 marta bo‘lib, deyarli teng natija kuzatildi. Tennis to‘pi uloqtirish TGda 23,97 m, NGda

24,49 m bo‘lib, NG ustunligi saqlanib qoldi. Oyoqlarni juftlashtirib tanani ko‘tarishda esa TG 33,19 marta, NG 32,63 marta natijani qayd etib, TG kuch mashqlarida ustunlikni ko‘rsatdi. Sakrash mashqida esa TG 146,19 sm, NG esa 149,47 sm natijaga erishib, NG ustunlikni davom ettirdi.

5-sinfga qaraganda TGda tezkorlik (10,72 soniya) va mushak kuchi (33,19 marta) sezilarli rivojlandi. NG esa chidamlilik (11,14 daqiqa) va portlovchi kuch (sakrash – 149,47 sm) ko‘rsatkichlarini yuqori darajada saqlab qoldi.

3-jadval

Endomorf tana tipidagi 5-6 sinf o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari dinamikasi

T/r	Nazorat mashqlari va o‘lchov birligi	Guruhi	Tajriba boshi		V, %
			$\overline{X}$	σ	
5-sinf (nazorat (n=15) va tajriba (n=15))					
1.	60 m. ga yugurish (soniya)	TG	12,52	1,63	13,02
		NG	12,75	1,61	12,63
2.	2000 m. ga yugurish (daqiqa, soniya)	TG	13,24	1,99	15,03
		NG	13,01	1,90	14,60
3.	Turnikda tortilish (marta)	TG	3,80	0,50	13,15
		NG	3,85	0,49	12,72
4.	150 gr. sport anjomi (tennis to‘pi)ni uloqtirish (m., sm.)	TG	23,46	3,28	13,99
		NG	24,01	3,26	13,58
5.	Kuraklarda yotgan holda oyoqlarni juftlashtirib tanani yuqoriga 90°ga ko‘tarish (marta)	TG	30,45	4,56	14,98
		NG	29,84	4,36	14,61
6.	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm.)	TG	130,53	18,25	13,98
		NG	132,82	18,02	13,57
6-sinf (nazorat (n=15) va tajriba (n=15))					
1.	60 m,ga yugurish (soniya)	TG	11,46	1,61	14,05
		NG	11,64	1,60	13,74
2.	2000 m,ga yugurish (daqiqa, soniya)	TG	12,18	1,83	15,02
		NG	12,03	1,75	14,54
3.	Turnikda tortilish (marta)	TG	4,02	0,53	13,18
		NG	4,11	0,52	12,65
4.	150 gr, sport anjomi (tennis to‘pi)ni uloqtirish (m., sm.)	TG	24,69	3,44	13,94
		NG	25,22	3,42	13,56
5.	Kuraklarda yotgan holda oyoqlarni juftlashtirib tanani yuqoriga 90°ga ko‘tarish (marta)	TG	32,19	4,50	13,98
		NG	31,65	4,28	13,52
6.	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm.)	TG	134,49	20,12	14,96
		NG	137,51	20,04	14,57

Izoh. TG-tajriba guruhi, NG-nazorat guruhi, t-student test, P-ishonchlilik qiymati, AO‘-absalyut o‘sish, NO‘-nisbiy o‘sish

5-sinf bosqichida TG o‘quvchilari qisqa masofaga yugurishda 12,52 soniya, NG esa 12,75 soniya natija qayd etdi. Bu TGning tezkorlikda ustunligini anglatadi. Chidamlilik mashqi (2000 m.ga yugurish)da esa TG 13,24 daqiqa, NG esa 13,01 daqiqa natija ko‘rsatib, NGning chidamlilikda ustunligini ko‘rsatdi. Kuch mashqlaridan tanani yuqoriga ko‘tarishda TG 30,45 marta, NG esa 29,84 marta natija bilan TG ustunlik qildi. Shu bilan birga, uloqtirish TGda 23,46 m, NGda 24,01 m, sakrash TGda 130,53 sm, NGda 132,82 sm bo‘lib, NG koordinatsion mashqlarda ustunlikka ega bo‘ldi.

6-sinfda esa TG o‘quvchilarining natijalari yanada yaxshilandi. 60 m.ga yugurishda TG 11,46 soniya, NG esa 11,64 soniya natija qayd etib, TG sezilarli darajada tezkorlikda ustunlik qildi (5-sinfga nisbatan

1,06 soniyaga yaxshilanish). Tanani ko‘tarishda ham TG 32,19 marta, NG esa 31,65 marta ko‘rsatkich qayd etdi (o‘sish +1,74 marta). Shu bilan birga, chidamlilik mashqida NG 12,03 daqiqa, TG esa 12,18 daqiqa natija bilan nazorat guruhining ustunligi saqlanib qoldi. Sakrash TGda 134,49 sm, NGda esa 137,51 sm bo‘lib, NGda yaxshiroq natija qayd etildi. Uloqtirish mashqida ham NGning ko‘rsatkichi yuqoriroq bo‘lib, 25,22 m, TG esa 24,69 m natija qayd etdi.

Endomorf tana tipidagi o‘quvchilarda: tajriba guruhida (TG) tezkorlik va kuch mashqlarida yuqori dinamikaga erishdi. Masalan, 60 m.ga yugurishda 12,52 - 11,46 soniya, tanani ko‘tarishda 30,45 - 32,19 marta natijalar kuzatildi.

Nazorat guruhida (NG) chidamlilik (13,01 - 12,03 daqiqa), sakrash (132,82 - 137,51 sm) va uloqtirish (24,01 - 25,22 m) mashqlarida ustunlikni saqlab qoldi.

Variatsiya koeffitsientlari har ikki guruhda ham 12–15% oralig‘ida bo‘lib, o‘quvchilarning natijalari o‘rtacha barqarorlikni ko‘rsatdi.

Xulosa. Tadqiqot davomida 5–6-sinf o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligi somatotip xususiyatlari asosida baholandi. Ektomorf, mezomorf va endomorf tana tipiga mansub o‘quvchilarda tezkorlik, chidamlilik, kuch, portlovchi kuch va koordinatsion sifatlarni baholovchi testlar qo‘llanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, somatotip omili jismoniy sifatlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi: ektomorflarda tezkorlik nisbatan past, mezomorflarda kuch va tezkorlik yaxshiroq, endomorflarda esa chidamlilik va koordinatsion mashqlarda ustunlik kuzatildi. Umuman olganda, monitoring jarayonlari o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini individuallashtirish va darslarni samarali tashkil etishda somatotipni hisobga olish zarurligini tasdiqladi.

Adabiyot va manbalar ro‘yxati.

1. Usmonxodjayev T.S. Jismoniy tarbiya metodikasi: o‘quv-metodik qo‘llanma / Toshkent: Bilim va intellektual salohiyat, 2020. – 632 bet.

2. Абдуллаев А., Ханкельдиев Ш.Х. «Жисмоний маданият назарияси ва методикаси» Дарслик, (1-2-жилд) / Тошкент / «НАВРЎЗ» нашриёти, 2017-18. - 392 б.

3. Батт, С. Д. Формирование потребности в физическом совершенствовании старшеклассников как основа содержания школьной программы: автореф. дис. ... канд. пед. наук. - СПб., 1998. - 22 с.

4. Безруких, М. М., Филиппова, Е. В. Физиология развития детей и подростков: Учебник для студентов учреждений высшего образования / М. М. Безруких, Е. В. Филиппова. - 3-е изд., перераб. и доп. - М.: Академия, 2017. - 368 с.

5. Дорохов Р.Н., Петрухин В.Г. Методика соматотипирования детей и подростков. - Малаховка: Физкультура и спорт, 1991. - 30 с

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 16 июндаги ПҚ-5148-сон қарорига мувофиқ ишлаб чиқилган ёш тоифалари бўйича “Жисмоний тайёргарлик даражаси” спорт синовларининг турлари ва мезонлари

AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI O‘ZBEKISTON MEHNAT BOZORIDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH

Xasanova Shaxzoda
G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali,
«Mehnat iqtisodiyoti va strategik menejment» kafedrasi mustaqil izlanuvchisi
E-mail: sshakhzoda@yahoo.com ORCID: 0009-0000-4452-0073
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22246842

Annotatsiya. Mazkur tezisda O‘zbekiston mehnat bozorida ayollarning iqtisodiy faolligi nisbatan past bo‘lishining tizimli sabablari va bu muammoni bartaraf etishda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning strategik o‘rni tahlil qilinadi. Rasmiy statistik ma'lumotlar asosida so‘nggi o‘n yillikda ayollar ishsizligining erkaklarnikiga nisbatan ancha tezroq o‘sib borayotgani ko‘rsatib o‘tiladi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari tanqidiy tahlil qilinib, ularning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi, so‘ngra ushbu mexanizmlarni gender tengligini ta'minlashning samarali vositasi sifatida takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.
Kalit so‘zlar: gender tenglik, ayollar tadbirkorligi, mehnat bozori, ish bilan bandlik, ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya, inson kapitali.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА УЗБЕКИСТАНА ПОСРЕДСТВОМ РАЗВИТИЯ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Аннотация. В тезисах системно анализируются причины низкой экономической активности женщин на рынке труда Узбекистана и роль развития женского предпринимательства в преодолении данной проблемы. На основе официальных статистических данных показано, что за последнее десятилетие безработица среди женщин росла значительно быстрее, чем среди мужчин. Проведён критический анализ действующих механизмов государственной поддержки предпринимательства, выявлены их сильные и слабые стороны, предложены практические рекомендации по их совершенствованию как стратегического инструмента обеспечения гендерного равенства.
Ключевые слова: гендерное равенство, женское предпринимательство, рынок труда, занятость, социально-экономическая трансформация, человеческий капитал.

ENSURING GENDER EQUALITY IN UZBEKISTAN'S LABOR MARKET THROUGH THE DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP

Abstract. This thesis provides a systematic examination of the structural reasons behind women's limited economic activity in Uzbekistan's labor market and the role of women's entrepreneurship development in addressing this imbalance. Official statistics show that female unemployment has grown considerably faster than male unemployment over the past decade. Existing state mechanisms supporting entrepreneurship are critically reviewed to identify their strengths and shortcomings, and practical recommendations are proposed for strengthening them as a strategic tool for achieving gender equality in labor relations.
Keywords: gender equality, women's entrepreneurship, labor market, employment, socio-economic transformation, human capital.

Kirish

Jahon amaliyotida ayollarning ish bilan bandligi nafaqat oilaviy daromad manbai, balki mamlakat iqtisodiy o‘sishining muhim resursi hisoblanadi. Zamonaviy mehnat iqtisodiyoti nazariyasida ayollarning mehnat bozoridagi faolligi inson kapitalidan foydalanish samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sifatida qaraladi. O‘zbekiston mehnat bozorida esa ayollarning iqtisodiy faolligi hamon erkaklarnikidan

sezilarli darajada past bo‘lib qolmoqda; bu holat mamlakat inson kapitalidan to‘liq foydalanilmayotganidan dalolat beradi [1].

Davlat statistika qo‘mitasi ma'lumotlariga ko‘ra, 2013–2023-yillar mobaynida mamlakatdagi umumiy ishsizlar soni 14 foizga ortgan bo‘lsa, xotin-qizlar orasidagi ishsizlik shu davrda 24,5 foizga, ya'ni deyarli ikki barobar tezroq o‘sgan; bu ko‘rsatkich erkaklar ishsizligining o‘sish sur'atidan (2,3 foiz) sezilarli darajada yuqori [1]. Ushbu tendentsiya tasodifiy emas - u tizimli xarakterga ega bo‘lib, mehnat bozoridagi gender tengsizlikning chuqurlashib borayotganidan dalolat beradi va ayollarning mehnat bozoridagi mavqeini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada dolzarblashtiradi.

Muallifning fikricha, bu nomutanosiblikning asosiy sabablaridan biri - ayollarning uy xo‘jaligi va farzand tarbiyasi bilan bog'liq «ikki taraflama mehnat yuki»dir. Ushbu yuk ularning kasbiy salohiyatidan to‘liq foydalanishiga to‘sqinlik qiladi va ko‘pincha ularni norasmiy yoki qisman bandlik shakllariga yo‘naltiradi [2]. Shu bilan birga, ayollarning ta'lim darajasi erkaklarnikidan past emas, biroq ular mehnat munosabatlarida gender tengsizligiga duch kelishadi; natijada jamiyat tomonidan sarflangan ta'lim investitsiyalari to‘liq iqtisodiy samara bermay qolmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ayollar bandligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qonunchilik bazasi izchil shakllantirilmoqda. Xususan, «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish to‘g'risida»gi PF-81-son Farmoni, «Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g'risida»gi PQ-146-son Qarori hamda 2021–2030-yillarda aholi bandligiga ko‘maklashish Strategiyasi ushbu yo‘nalishdagi asosiy strategik hujjatlar hisoblanadi [3]. Ushbu hujjatlar doirasida tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yishni istagan ayollarga ro‘yxatdan o‘tishni soddalashtirish, kredit sug'urtasi va boshlang'ich subsidiyalar ko‘rinishida moliyaviy qo‘llab-quvvatlash ko‘zda tutilgan [3].

Ushbu chora-tadbirlarni dissertatsiya doirasida ishlab chiqilayotgan nazariy yondashuv - inson kapitali va mehnat bozori transformatsiyasi nazariyalari nuqtai nazaridan baholasak, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish nafaqat ijtimoiy adolat, balki iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan ham asoslangan xulosa bo‘lib chiqadi. Tadbirkorlik ayollarga ish vaqtini moslashtirish, oilaviy majburiyatlar bilan kasbiy faoliyatni muvozanatlashtirish imkonini beradi, shu bois u ayollarning mehnat bozoridagi barqaror ishtirokini ta'minlashning muqobil mexanizmiga aylanishi mumkin.

Davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi: tahlil

Amaldagi qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ularning aksariyati moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan, biroq ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy jihatlari - bolalarni parvarish qilish muassasalariga kirish imkoniyati, moslashuvchan ish jadvali, kasbiy maslahat va mentorlik xizmatlari - hali yetarlicha e'tibor qaratilmagan sohalar bo‘lib qolmoqda [4].

Bundan tashqari, qo‘llab-quvvatlash dasturlarining hududiy taqsimoti notekis bo‘lib, qishloq joylarida yashovchi ayollar uchun bunday imkoniyatlar shahar aholisiga nisbatan ancha cheklangan. Bu holat mintaqaviy nomutanosiblikni yanada chuqurlashtirish xavfini tug'diradi va dasturlarni ishlab chiqishda hududiy xususiyatlarni hisobga olish zaruratini ko‘rsatadi. Shuningdek, mavjud statistik hisobot tizimida ayollar tadbirkorligining sifat ko‘rsatkichlari - biznesning barqarorligi, o‘rtacha daromadlilik darajasi, ish o‘rinlari yaratish salohiyati - bo‘yicha ma'lumotlar yetarlicha tizimlashtirilmagan, bu esa qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning haqiqiy samaradorligini baholashni qiyinlashtiradi.

Xulosa

O‘tkazilgan tahlil natijalariga asoslanib, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan, ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash dasturlarini hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda tabaqalashtirish, xususan, qishloq joylarida yashovchi ayollar uchun qo‘shimcha imtiyozli shartlar joriy etish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, masofaviy va moslashuvchan ish shakllarini (frilanser faoliyati, uyda ishlash, qisman bandlik) rivojlantirish ayollarning ikki taraflama mehnat yukini yengillashtirishga xizmat qiladi va ularning mehnat bozoridagi ishtirokini kengaytirishga ko‘maklashadi.

Uchinchidan, ayollar tadbirkorligi samaradorligini muntazam kuzatib borish uchun yagona statistik monitoring mexanizmini joriy etish, shuningdek, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda kasbiy maslahat va mentorlik xizmatlarini ham dastur tarkibiga kiritish zarur.

To‘rtinchidan, bolalarni parvarish qilish infratuzilmasini (bolalar bog'chalari, kunduzgi parvarish markazlari) kengaytirish ayollarning tadbirkorlik faoliyati bilan oilaviy majburiyatlarni muvozanatlashtirishga bevosita ta'sir ko‘rsatadi.

Yuqorida keltirilgan chora-tadbirlar majmuasi O‘zbekiston mehnat bozorida gender tenglikni ta'minlashning uzoq muddatli strategiyasini tashkil etadi va inson kapitalidan foydalanish samaradorligini oshirishga, natijada mamlakat iqtisodiy o‘sishining barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nabixo‘jayeva D.S. O‘zbekiston Respublikasi mehnat bozorida ayollarning iqtisodiy faoliyatini oshirish // Science Technology & Digital Finance.2025. Vol. 3, Issue 4. B. 5–9.

2. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. Darslik. T.: Fan va texnologiya, 2012. B. 129–140.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi PF-81-son Farmoni; PQ-146-son Qarori; 2021–2030-yillarda aholi bandligiga ko‘maklashish Strategiyasi.

4. Irmatova A.B. Innovatsion iqtisodiyotda ayollar mehnatini tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. Toshkent, 2021. B. 17–18.

ПРИОРИТЕТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Абдурахманов Олим Каландарович
доктор экономических наук, профессор
Ташкент, Республика Узбекистан
В филиале образование тесно связано с научной деятельностью. Функционирует Диссертационный совет по присуждению степеней доктора наук (DSc) и доктора философии (PhD) по экономическим наукам [5. 2026]. Совет, научные школы и лаборатории создают среду для методологической подготовки молодых исследователей, экспертизы результатов и разработки рекомендаций для экономики. Участие студентов в исследованиях формирует навыки постановки проблемы, выбора методов и доказательного обоснования выводов.

В 2025 году в филиале создана Передовая инженерная школа искусственного интеллекта в экономике (ПИШ ИИ) — научно-образовательный центр, объединяющий экономическую теорию, программирование, анализ больших данных и машинное обучение [6. 2026]. ПИШ ИИ обеспечивает проектное обучение и взаимодействие с индустриальными партнёрами. Студент осваивает полный цикл решения задачи: от подготовки данных и построения модели до интерпретации результата и оценки его экономической эффективности.

Искусственный интеллект позволяет персонализировать задания, ускорять обратную связь, выявлять учебные трудности и моделировать экономические сценарии. Аналитические инструменты применимы для исследования рынка труда, финансовых потоков и инвестиционных проектов. Вместе с тем необходимы академическая добросовестность, защита данных и критическое мышление: студент обязан проверять источники и понимать ограничения алгоритма, а итоговое решение должно оставаться за преподавателем или ответственным специалистом.

Методологически цифровая образовательная среда должна включать четыре взаимосвязанных элемента: качественные данные, проверенные алгоритмы, педагогический сценарий и систему оценки результата. Эффект внедрения целесообразно измерять не количеством подключённых сервисов, а сокращением времени обратной связи, ростом качества проектных работ, освоением студентами прикладных компетенций и успешностью их профессиональной адаптации. Такой подход предупреждает формальное использование технологий и превращает искусственный интеллект в инструмент развития человеческого капитала.

Дополнительные возможности создаёт Эко-коворкинг зона АКБ «Капиталбанк», открытая в филиале как пространство для обучения, командной работы и молодёжных инициатив [7. 2026]. Совместное использование ПИШ ИИ и коворкинга формирует цепочку «идея — исследование — цифровая модель — проект — индустриальный партнёр». Мастер-классы, проектные сессии, стартапы и встречи с бизнесом усиливают практическую направленность обучения и способствуют развитию предпринимательских и коммуникационных компетенций.

Новые направления в области цифровой экономики, информационных систем, аналитики данных и искусственного интеллекта расширяют возможности трудоустройства выпускников. Работодателю необходим специалист, сочетающий фундаментальные знания, цифровые навыки и способность работать в команде. Поэтому эффективна модель «знания — практическая задача — цифровой инструмент — проект — работодатель». Стажировки, индустриальные партнёры и исследования сокращают разрыв между получением диплома и профессиональной деятельностью.

Научные и деловые отношения Ташкентского филиала с Наманганским государственным педагогическим институтом создают основу для совместных исследований цифровой трансформации образования, молодёжного рынка труда и педагогики искусственного интеллекта. В конференции участвуют более десяти научных соискателей и представителей профессорско-преподавательского состава филиала. Перспективны межвузовские проектные группы, школы молодых учёных, совместные публикации и наставничество.

Целесообразно сформировать межвузовскую программу «Наука и искусственный интеллект для регионального развития», включающую курсы для преподавателей, студенческие лаборатории и конкурс прикладных решений. Результаты следует оценивать по числу совместных исследований, доле студентов с цифровыми компетенциями, количеству стажировок, стартапов и трудоустроенных выпускников. Это соединит научную активность с измеримым вкладом в развитие регионов Узбекистана.

Таким образом, 35-летие независимости Узбекистана символизирует не только достигнутые результаты, но и ответственность науки за будущее страны. Подготовка к 120-летию Плехановского

университета и 30-летний путь его Ташкентского филиала подтверждают преемственность академических традиций и открытость инновациям. ПИШ ИИ и Эко-коворкинг зона АКБ «Капиталбанк» создают среду, где знания превращаются в исследование, исследование — в проект, а проект — в востребованную обществом инновацию. Пусть конференция станет началом новых научных партнёрств, раскрывающих интеллектуальный потенциал молодёжи во имя созидательного будущего Нового Узбекистана.

Использованная литература

1. Мирзиёев Ш.М. Выступление в Университете Нагои. Ташкент, 2019.
2. Мирзиёев Ш.М. Выступление на пятом Ташкентском международном инвестиционном форуме. Ташкент, 2026.
3. Российский экономический университет им. Г.В. Плеханова. О подготовке к 120-летию университета. Москва, 2026.
4. Ташкентский филиал РЭУ им. Г.В. Плеханова. Итоги 30-летней деятельности филиала. Ташкент, 2026.
5. Ташкентский филиал РЭУ им. Г.В. Плеханова. Диссертационный совет. Ташкент, 2026.
6. Ташкентский филиал РЭУ им. Г.В. Плеханова. Образование на стыке инженерии и экономики. Ташкент, 2026.
7. Ташкентский филиал РЭУ им. Г.В. Плеханова. Открытие Эко-коворкинг зоны АКБ «Капиталбанк». Ташкент, 2026.

BANK KREDIT SIYOSATINI RAQAMLI MOLIYAVIY VOSITALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Aliyev Ulug‘bek Mannonovich
G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali direktor o‘rinbosari, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
Kalandarxonov S.O., PhD
G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22251707

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston tijorat banklarida kredit siyosatini raqamli moliyaviy vositalar asosida takomillashtirishning nazariy-uslubiy va amaliy mexanizmlari tadqiq etilgan. Kredit qarorlarini “narx–miqdor–shartlar” arxitekturasi asosida standartlashtirish, onlayn arizalarning raqamli izini DF_BizPortal kompozit indeksi orqali baholash, o‘lchov–hisobot–tekshiruv (MRV) konturini risk va likvidlik boshqaruviga ulash hamda qoidalarni kod ko‘rinishida amalga oshirish yondashuvi asoslangan. Taklif etilgan model kredit qarorini qabul qilish muddatini qisqartirish, avtomatik qarorlar ulushini oshirish, muammoli kreditlar va operatsion xarajatlarni kamaytirish, shuningdek, Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 9 hamda Bazel III talablarini kredit siyosatiga avtomatik qaytma aloqa asosida integratsiyalash imkonini beradi.
Kalit so‘zlar: tijorat banki, kredit siyosati, raqamli moliyaviy vositalar, raqamli iz, kredit skoringi, muammoli kreditlar, kutilayotgan kredit yo‘qotishlari, MRV konturi, riskka mos narxlash, qoidalarni kod ko‘rinishida amalga oshirish.
Аннотация. В статье исследованы теоретико-методические и практические механизмы совершенствования кредитной политики коммерческих банков Узбекистана на основе цифровых финансовых инструментов. Обоснованы стандартизация кредитных решений в архитектуре «цена–объём–условия», оценка цифрового следа онлайн-заявок с применением композитного индекса DF_BizPortal, интеграция контура «измерение–отчётность–проверка» (MRV) в управление рисками и ликвидностью, а также реализация правил в виде программного кода. Предложенная модель позволяет сократить сроки принятия решений, повысить долю автоматизированных решений, снизить проблемные кредиты и операционные затраты, а также интегрировать требования Международного стандарта финансовой отчётности 9 и Базеля III в кредитную политику на основе автоматической обратной связи.
Ключевые слова: коммерческий банк, кредитная политика, цифровые финансовые инструменты, цифровой след, кредитный скоринг, проблемные кредиты, ожидаемые кредитные потери, контур MRV, риск-ориентированное ценообразование, правила в виде программного кода.
Abstract. The article examines theoretical, methodological and practical mechanisms for improving the credit policy of commercial banks in Uzbekistan through digital financial instruments. It substantiates the standardisation of lending decisions within a “price–quantity–conditions” architecture, the assessment of online application data trails by means of the DF_BizPortal composite index, the integration of a measurement–reporting–verification (MRV) loop into risk and liquidity management, and the implementation of rules as executable code. The proposed model can shorten decision-making time, increase the share of automated decisions, reduce non-performing loans and operating costs, and integrate International Financial Reporting Standard 9 and Basel III requirements into credit policy through an automatic feedback mechanism.
Keywords: commercial bank, credit policy, digital financial instruments, digital footprint, credit scoring, non-performing loans, expected credit losses, MRV loop, risk-based pricing, policy as code.

Kirish. Jahon moliya tizimida raqamli to‘lovlar, masofaviy bank xizmatlari, ochiq bankchilik va sun’iy intellektga asoslangan kredit skoringi kengayib borishi kredit siyosatining mazmunini tubdan o‘zgartirmoqda. Endilikda bank krediti faqat foiz stavkasi va garov bilan bog‘liq an’anaviy mahsulot emas, balki ma’lumotlarni yig‘ish, tekshirish, qayta ishlash, tavakkalchilikni prognozlash va qarorni avtomatik

ijro etishdan iborat uzluksiz boshqaruv tizimiga aylanmoqda. Raqamlashtirish bitim xarajatlarini kamaytiradi, xizmat ko‘rsatish tezligini oshiradi va ilgari yetarli moliyaviy tarixga ega bo‘lmagan mijozlarni ham rasmiy kredit bozoriga jalb etish imkonini beradi. Shu bilan birga, ma’lumot sifati, algoritmik xatolik, kiberxavf, uchinchi tomon xizmatlariga qaramlik va model natijalarini tushuntirish muammolari kuchayadi [Auer va boshq., 2021].

O‘zbekiston bank tizimida mazkur masala kreditlash ko‘lamining o‘sishi va moliyaviy barqarorlik talablarining kuchayishi bilan yanada dolzarbdir. 2024-yil yakunida bank tizimining kapital yetarliligi qariyb 17,0%, qisqa muddatli bardoshlilik koeffitsiyenti 194,0%, uzoq muddatli barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti esa 115,0%ni tashkil etgan. 2025-yil oktabr holatiga tijorat banklari kredit portfeli 582,2 trln so‘mga yaqinlashgan. Bunday sharoitda kredit siyosatidagi kichik metodik xato ham katta hajmdagi moliyaviy yo‘qotishlar, likvidlik bosimi yoki muammoli kreditlar o‘sishiga olib kelishi mumkin [O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli va institutsional tahlil, iqtisodiy-empirik baholash, stress-sinov, ssenariy modellashtirish, erta ogohlantirish indikatorlari, mustaqil validatsiya va algoritmlar sifatining pasayishini kuzatish usullaridan foydalanildi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 9 kredit yo‘qotishlarini oldindan baholashni, Bazel III esa kapital va likvidlik buferlarini tavakkalchilikka mos boshqarishni talab qiladi. Shu sababli raqamli kredit siyosati modelida qaror tezligi bilan bir qatorda uning ishonchliligi, izohlanishi, audit izi va qayta tekshirilishi ham asosiy mezon sifatida qabul qilindi [Basel Committee, 2013; IFRS Foundation, 2024].

Mualliflar yondashuvida kredit siyosati “narx–miqdor–shartlar” arxitekturasi sifatida talqin etiladi. Narx bloki kredit stavkasi, komissiyalar va tavakkalchilik uchun ustamani; miqdor bloki mijoz, tarmoq, hudud, valyuta va muddat bo‘yicha limitlarni; shartlar bloki esa ta’minot, kovennantlar, to‘lov jadvali, monitoring davriyligi va erta ogohlantirish mezonlarini qamrab oladi. Ushbu uch blok alohida emas, balki yagona ma’lumotlar konturi orqali boshqarilishi lozim. Masalan, qarzdorning pul oqimi yomonlashsa, tizim faqat “xavf oshdi” degan signal bermasligi, balki yangi arizalar limitini kamaytirishi, stavkani qayta ko‘rib chiqishi, qo‘shimcha ta’minot talab qilishi yoki to‘lov jadvalini moslashtirishi kerak.

Raqamli moliyaviy vositalarning ta’sir mexanizmi. Raqamli kredit konveyerining birinchi bo‘g‘ini elektron identifikatsiya, kredit tarixi, soliq va bojxona ma’lumotlari, bank hisobvaraqlaridagi pul oqimlari, davlat reyestrlari va qonun bilan ruxsat etilgan boshqa manbalarni birlashtirishdan iborat. Ikkinchi bo‘g‘inda ma’lumotlar tozalanadi, yangilanish vaqti, kelib chiqishi va ishonchlilik darajasi bo‘yicha belgilab chiqiladi. Uchinchi bo‘g‘inda skoring modeli va biznes qoidalari yordamida qarzdorning to‘lovga layoqatsizlik ehtimoli, defolt holatidagi yo‘qotish ulushi va defolt paytidagi talab miqdori baholanadi. To‘rtinchi bo‘g‘inda qaror inson nazorati, ikki bosqichli tasdiqlash, apellatsiya imkoniyati hamda audit izi bilan ijro etiladi.

Onlayn kredit arizalarini baholashda faqat ariza berilganligi yoki elektron hujjat mavjudligini hisobga olish yetarli emas. Shu maqsadda DF_BizPortal — Biznes portal raqamli izi kompozit indeksi taklif etiladi. Indeks arizadagi ma’lumotlarning to‘liqligi, ishonchliligi, davlat reyestrlari orqali tasdiqlanish qamrovi, yangilanish tezligi, pul oqimlarining kuzatuv chuqurligi va ma’lumotlar o‘rtasidagi mantiqiy muvofiqlikni umumlashtiradi. Indeks qiymati oshgan sari kredit qarori ko‘proq tekshirilgan raqamli dalillarga tayangan bo‘ladi. Bu esa skoring chegaralarini, kredit limitini, stavkani va kutilayotgan kredit yo‘qotishlari ko‘rsatkichini qayta kalibrlash imkonini beradi.

Mazkur yondashuv kichik biznes uchun alohida ahamiyatga ega. An’anaviy moliyaviy hisobotlari cheklangan tadbirkorning soliq tushumlari, elektron hisob-fakturalari, bank aylanmalari, shartnomalari va to‘lov intizomi birlashtirilsa, uning real pul oqimi va biznes barqarorligi aniqroq baholanadi. Natijada garovga haddan tashqari bog‘liq kreditlashdan pul oqimiga asoslangan kreditlashga bosqichma-bosqich o‘tish uchun metodik baza yaratiladi. Biroq muqobil ma’lumotlardan foydalanish mijoz roziligi, ma’lumotlarni himoya qilish, diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik va qarorni tushuntirish talablari bilan cheklanishi shart.

MRV konturi va avtomatik qaytma aloqa. Raqamli kredit siyosatining barqaror ishlashi uchun o‘lchov–hisobot–tekshiruv (MRV) konturi zarur. “O‘lchov” bosqichida muammoli kreditlar ulushi, kutilayotgan kredit yo‘qotishlari, to‘lov kechikishi, portfel konsentratsiyasi, kapital va likvidlik ko‘rsatkichlari doimiy

ravishda yangilanadi. “Hisobot” bosqichida indikatorlar bank boshqaruvi, risk qo‘mitasi va ichki audit uchun yagona axborot panelida aks ettiriladi. “Tekshiruv” bosqichida esa ma’lumotlar sifati, model aniqligi, qoidalar versiyasi, istisnolar va inson tomonidan o‘zgartirilgan qarorlar mustaqil nazoratdan o‘tkaziladi. Bunday kontur hisobotni oddiy statistik jarayondan kredit siyosatini qayta sozlaydigan boshqaruv mexanizmiga aylantiradi.

Qoidalarni kod ko‘rinishida amalga oshirish yondashuvi kredit siyosatidagi asosiy talablarni axborot tizimida bajariladigan aniq algoritmlarga aylantiradi. Masalan, qarzdorning daromadiga nisbatan qarz to‘lovi belgilangan chegaradan oshsa, tizim kredit miqdorini avtomatik kamaytiradi; portfelning muayyan tarmoqdagi konsentratsiyasi limitga yaqinlashsa, yangi kreditlar uchun yuqoriroq risk ustamasi yoki qo‘shimcha tasdiq talab etiladi; erta ogohlantirish indikatori ishga tushsa, qayta narxlash, restrukturizatsiya yoki qo‘shimcha monitoring chorasi avtomatik taklif etiladi. Shu tariqa kredit siyosati statik hujjatdan doimiy yangilanib turadigan boshqaruv tizimiga o‘tadi.

Miqdoriy natijalar va amaliy samaradorlik. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan mexanizmlarni joriy etish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar kredit qarorini qabul qilish siklini 30,0–50,0%ga qisqartirish, standart qoidalar asosidagi avtomatik qarorlar ulushini 60,0–80,0%ga yetkazish, erta ogohlantirish signallari hisobiga muammoli kreditlar o‘sishini 0,3–0,7 foiz punktga pasaytirish hamda operatsion xarajatlarni 10,0–20,0%ga kamaytirishni nazarda tutadi. DF_BizPortal indeksidan foydalanish onlayn arizalar ulushini 70,0–75,0%gacha oshirish, qaror muddatini 45,0–50,0%ga va operatsion xarajatlarni 15,0–20,0%ga qisqartirish, muammoli kreditlar ulushini 0,5–1,5 foiz punktga kamaytirish hamda kutilayotgan kredit yo‘qotishlarini baholash xatoligini 15,0–25,0%ga pasaytirish imkonini beradi [Kalandarxonov, 2025].

MRV konturini joriy etishda risk indikatorlarini haftalik yangilashdan kunlik yoki real vaqtga yaqin rejimga o‘tkazish, stress-sinovlar davriyligini choraklikdan oylik formatga yaqinlashtirish va hisobot siklini T+5 kundan T+1 kungacha qisqartirish taklif etiladi. Kengaytirilgan raqamli nazoratda risk ko‘rsatkichlarini yangilash davrini T+1 kundan 15–30 daqiqagacha qisqartirish, kritik axborot tizimlari bo‘yicha audit qamrovini 100,0%ga yetkazish, asosiy qoidalarning barchasini versiya nazorati va validatsiyadan o‘tkazish hamda model sifati pasayishini yetti kun ichida aniqlash maqsadga muvofiq. Ushbu choralar operatsion va kiberxatarlar bo‘yicha yo‘qotishlarni 15,0–30,0%ga qisqartirish salohiyatiga ega.

Mazkur raqamlar kafolatlangan natija sifatida emas, balki bankning boshlang‘ich raqamlashtirish darajasi, portfel tarkibi, ma’lumotlar sifati va ichki nazorat tizimiga bog‘liq maqsadli diapazonlar sifatida talqin qilinishi kerak. Har bir bank uchun “joriy holat–maqsadli holat–tafovut–chora-tadbir” mantiqida alohida yo‘l xaritasi ishlab chiqilishi lozim. Shu sababli yirik davlat banklari, tez rivojlanayotgan xususiy banklar va konservativ biznes modeliga ega banklar uchun bir xil normativ maqsad saqlangan holda, joriy etish tezligi va texnologik yechimlar farqlanishi mumkin.

O‘zbekiston bank tizimida joriy etish yo‘nalishlari. Birinchi bosqichda Markaziy bank darajasida raqamli kredit siyosati uchun minimal ma’lumotlar standarti, model tavakkalchiligi bo‘yicha talablar, tushuntiriladigan qaror mezonlari va yagona audit izi tamoyillari belgilanishi zarur. Ikkinchi bosqichda banklararo ma’lumot almashinuvi, ochiq bankchilik interfeyslari, kredit byurosi, Biznes portal va davlat reyestrlari bilan qonuniy integratsiya kuchaytiriladi. Uchinchi bosqichda bank ichida riskka mos narxlash, limitlar matritsasi, erta ogohlantirish indikatorlari va kutilayotgan kredit yo‘qotishlari modeli yagona biznes-qoidalar boshqaruvi tizimiga birlashtiriladi.

Amaliy jihatdan kredit siyosatini modernizatsiya qilish to‘rtta boshqaruv blokiga tayanishi maqsadga muvofiq. Birinchi blok portfel va riskni boshqarib, muammoli kreditlar, zaxiralar, defolt ehtimoli, yo‘qotish ulushi va defolt paytidagi talab miqdorini qamrab oladi. Ikkinchi blok likvidlik va moliyalashtirishni boshqarib, qisqa va uzoq muddatli barqarorlik, depozit bazasi va pul oqimlari uzilishini nazorat qiladi. Uchinchi blok narxlash va rentabellikni boshqarib, foiz marjasi hamda tavakkalchilikka mos kapital rentabelligini hisobga oladi. To‘rtinchi blok raqamlashtirishni boshqarib, elektron identifikatsiya, raqamli kredit konveyeri, ma’lumotlar ombori, anti-firibgarlik tizimi va model monitoringini birlashtiradi.

Raqamli transformatsiyani faqat kredit berish tezligini oshirish bilan baholash xato bo‘ladi. Agar tezkor qaror sifatsiz ma’lumot yoki nazoratsiz algoritmga tayansa, kelgusida muammoli kreditlar, kiberhodisalar va iste’molchilar huquqlarining buzilishi ko‘payishi mumkin. Shuning uchun samaradorlik ko‘rsatkichlari ikki guruhda baholanishi lozim: birinchi guruh — vaqt, xarajat, masofaviy xizmatlar ulushi va mijoz

qamrovi; ikkinchi guruh — muammoli kreditlar, kutilayotgan kredit yo‘qotishlari, kapital va likvidlik buferlari, model barqarorligi, kiberxavfsizlik va shikoyatlar dinamikasi. Faqat ushbu ikki guruhning muvozanati bank kredit siyosatining haqiqiy raqamli yetukligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari raqamli moliyaviy vositalar tijorat banki kredit siyosatini oddiy avtomatlashtirishdan ma’lumotga asoslangan, tavakkalchilikka sezgir va qayta sozlanadigan tizimga aylantirishini ko‘rsatadi. “Narx–miqdor–shartlar” arxitekturasi kredit qarorlarining iqtisodiy mazmunini saqlagan holda ularni limitlar, tarif xaritalari, kovennantlar va erta ogohlantirish indikatorlari orqali standartlashtirish imkonini beradi. DF_BizPortal indeksi kichik biznes va masofaviy mijozlarning raqamli izini sifat jihatidan baholash orqali kredit xavfi va kutilayotgan yo‘qotishlar parametrlarini aniqroq kalibrlashga xizmat qiladi.

MRV konturi va qoidalarni kod ko‘rinishida amalga oshirish bank rahbariyati uchun real vaqtga yaqin nazorat, avtomatik qaytma aloqa, mustaqil validatsiya va audit izini ta’minlaydi. O‘zbekiston sharoitida mazkur modelni Markaziy bankning prudensial talablari, Biznes portal, ochiq bankchilik, kredit byurosi va tijorat banklarining ichki axborot tizimlari bilan bosqichma-bosqich integratsiyalash maqsadga muvofiq. Natijada kredit resurslarining samarali taqsimlanishi, kichik biznesning moliyaviy resurslarga kirishi, banklar barqarorligi va mijozlar manfaatlarini himoya qilish bir vaqtning o‘zida kuchaytiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Auer R., Frost J., Gambacorta L., Monnet C., Rice T., Shin H.S. Central bank digital currencies: motives, economic implications and the research frontier. – Basel: Bank for International Settlements, 2021. – BIS Working Papers, No. 976.
2. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for effective risk data aggregation and risk reporting. – Basel: Bank for International Settlements, 2013.
3. Borio C. The financial cycle and macroeconomics: What have we learnt? // Journal of Banking & Finance. – 2014. – Vol. 45. – P. 182–198.
4. IFRS Foundation. IFRS 9 Financial Instruments. – London: IFRS Foundation, 2024.
5. Kalandarxonov S.O. O‘zbekiston bank-moliya tizimida raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish tendensiyalari // Muhandislik va iqtisodiyot. – 2024. – № 5. – B. 563–570.
6. Kalandarxonov S.O. Tijorat banklarining kredit siyosati transformatsiyasiga raqamli moliyaviy vositalarning ta’siri: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2026.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy barqarorlik sharhi. – Toshkent, 2025.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
10. World Bank. Global Findex Database 2025: Report. – Washington, DC: World Bank, 2025.

TURIZMDA ISH BILAN BANDLIK SIFATINI RAQAMLI INSTITUTSIONAL TARTIBGA SOLISH

Ishankhodjaeva Dildora Aleksandrovna
G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgor
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22251862

Annotatsiya. Mazkur tezisda raqamlashtirish sharoitida turizm sohasida ish bilan bandlik sifatini institutsional tartibga solishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Turistik oqim, xizmatlar hajmi va infratuzilmaning o‘sishini mehnat natijalaridan ajratib baholash yetarli emasligi asoslangan. Ish bilan bandlikning rasmiyligi, daromadlar barqarorligi, xodimlar qo‘nimsizligi, kasbiy o‘qitish qamrovi, raqamli kompetensiyalar va mehnat standartlariga rioya etishni yagona monitoring tizimida birlashtiruvchi yondashuv taklif etilgan. Raqamli identifikatsiya, elektron ishga qabul qilish, ko‘nikmalar marketpleysi, mikromalakalar platformasi, sun’iy intellekt asosidagi prognozlash, algoritmik audit va xodimlar murojaatlari reyestridan iborat raqamli kontur turizmda munosib mehnatni ta’minlash vositasi sifatida asoslangan.
Kalit so‘zlar: turizm, ish bilan bandlik sifati, institutsional tartibga solish, raqamlashtirish, munosib mehnat, raqamli kompetensiyalar, algoritmik audit, ijtimoiy-mehnat xatarlari.
Аннотация. В тезисе раскрыты теоретические и прикладные аспекты институционального регулирования качества занятости в туризме в условиях цифровизации. Обоснована недостаточность оценки отраслевого развития только по туристскому потоку, объёму услуг и инфраструктуре. Предложен подход, объединяющий в единой системе мониторинга формализацию занятости, устойчивость доходов, текучесть кадров, охват обучением, цифровые компетенции и соблюдение трудовых стандартов. Цифровой контур, включающий идентификацию работников, электронный найм, маркетплейс навыков, платформу микроквалификаций, прогнозирование на основе искусственного интеллекта, алгоритмический аудит и реестр обращений, рассматривается как инструмент обеспечения достойного труда в туризме.
Ключевые слова: туризм, качество занятости, институциональное регулирование, цифровизация, достойный труд, цифровые компетенции, алгоритмический аудит, социально-трудовые риски.
Abstract. The thesis examines theoretical and applied aspects of institutional regulation of job quality in tourism under digitalization. It argues that sectoral development cannot be adequately assessed only through tourist flows, service volumes and infrastructure growth. An integrated monitoring approach is proposed, combining employment formalization, income stability, staff turnover, training coverage, digital competencies and compliance with labour standards. A digital regulatory framework consisting of worker identification, e-onboarding, a skills marketplace, a micro-credentials platform, artificial-intelligence-based forecasting, algorithmic audit and an appeals register is substantiated as an instrument for promoting decent work in tourism.
Keywords: tourism, job quality, institutional regulation, digitalization, decent work, digital competencies, algorithmic audit, social and labour risks.

Kirish

Turizm O‘zbekiston iqtisodiyotining yuqori sur’atlarda kengayayotgan tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning rivojlanishi xizmatlar bozori, hududiy mobillik, kichik biznes va inson kapitali bilan bevosita bog‘liqdir. 2025-yilda mamlakatga turistik maqsadlarda 11,7 mln nafar xorijiy fuqaro tashrif buyurgan, yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi 226,9 trln so‘mga yetgan, ushbu segmentda faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni 26,1 mingtani tashkil etgan. 2025-yilning yanvar–iyun oylarida esa yana 3 574 ta yangi kichik tadbirkorlik subyekti tashkil etilgan [2. 2026]. Mazkur dinamik o‘sish turizmning makroiqtisodiy ahamiyatini kuchaytirish bilan birga, ish bilan bandlikning rasmiyligi, xodimlar malakasi, mehnat yuklamasi, mavsumiy daromadlar va mehnat huquqlarini himoya qilish bo‘yicha yangi talablarni ham yuzaga keltirmoqda.

Davlat siyosatida 2030-yilgacha turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 7,0% ga yetkazish, xorijiy turistlar oqimini yiliga 20 mln nafarga oshirish, turistik xizmatlar eksportini kengaytirish hamda Yagona milliy turizm platformasini joriy etish kabi vazifalar belgilangan [5. 2025; 6. 2025]. Shunday sharoitda tarmoqning muvaffaqiyatini faqat turistlar soni, xizmatlar hajmi yoki mehmonxona o‘rinlari bilan baholash metodologik jihatdan yetarli emas. Turistik o‘sishning haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy natijasi uning qanchalik barqaror, rasmiy, unumdor va sifatli ish bilan bandlikka aylanganligi bilan o‘lchanishi lozim.

Raqamlashtirish bu muammoni yanada murakkablashtirmoqda. Onlayn bronlash, mobil ilovalar, platformaviy vositachilik, katta ma’lumotlar tahlili, sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan boshqaruv turistik xizmatlarni tezlashtiradi, biroq ayni paytda xodimlarning funksiyalarini qayta taqsimlaydi, yangi kompetensiyalarni talab qiladi va algoritmik nazorat, yashirin mehnat intensivligi hamda raqamli tengsizlik xavfini kuchaytiradi. Shu sababli raqamlashtirishni faqat texnik modernizatsiya sifatida emas, balki mehnat mazmuni va ijtimoiy-mehnat munosabatlarini qayta tashkil etuvchi institutsional omil sifatida baholash zarur [3. 2025; 7. 2025].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda institutsional, mehnat iqtisodiyoti, tizimli, qiyosiy, iqtisodiy-statistik, klaster va grafik-tahliliy usullar qo‘llanildi. Institutsional yondashuv davlat organlari, ish beruvchilar, xodimlar, ta’lim tashkilotlari va kasbiy birlashmalar o‘rtasidagi vakolatlar hamda manfaatlarni aniqlashga xizmat qildi. Mehnat iqtisodiyoti yondashuvi ish bilan bandlik sifati, daromadlar barqarorligi, mehnat unumdorligi, kadrlar qo‘nimsizligi va malaka shakllanishini tarmoq natijalarining mustaqil mezonlari sifatida tahlil qilish imkonini berdi. Iqtisodiy-statistik tahlil rasmiy ma’lumotlar asosida turistik oqim va infratuzilma o‘sishi bilan mehnatni tartibga solish institutlarining rivojlanish sur’atlari o‘rtasidagi tafovutni aniqlashga yo‘naltirildi.

Mualliflik yondashuvining asosiy g‘oyasi turizm rivojlanishini ikki o‘zaro bog‘liq natijalar tizimida baholashdan iborat. Birinchi tizim tarmoqning iqtisodiy ko‘lamini ifodalaydi: turistlar oqimi, xizmatlar hajmi, turistik korxonalar, sotilgan turlar va joylashtirish vositalari soni. Ikkinchi tizim mehnat natijalarini ifodalaydi: rasmiy ish bilan bandlik ulushi, barqaror ish o‘rinlari, daromadlarning oldindan prognoz qilinishi, xodimlar qo‘nimsizligi, kasbiy o‘qitish qamrovi, raqamli kompetensiyalar, mehnatni muhofaza qilish va xodimlarning shikoyat qilish imkoniyati. Iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘sishi ikkinchi tizimdagi ijobiy o‘zgarishlar bilan birga kuzatilgandagina turistik rivojlanish institutsional jihatdan barqaror deb baholanadi.

Mazkur yondashuv “raqamli samaradorlik – mehnat sifati – institutsional javobgarlik” o‘zaro bog‘liqligiga asoslanadi. Raqamli samaradorlik xizmat ko‘rsatish tezligi va ma’lumotlar aniqligini oshiradi. Mehnat sifati ushbu samaradorlikning xodim daromadi, ish vaqti, malaka rivoji va xavfsizlikka ta’sirini ko‘rsatadi. Institutsional javobgarlik esa avtomatlashtirilgan qarorlarning tushuntirilishi, inson nazorati, apellyatsiya tartibi va ma’lumotlarni himoya qilish orqali texnologik natijalarni ijtimoiy maqbul shaklga keltiradi.

Natijalar va muhokama

Tahlillar 2020–2024-yillarda turizmning iqtisodiy ko‘lami juda tez kengayganini ko‘rsatadi. Muallif hisob-kitoblariga ko‘ra, ushbu davrda kiruvchi turistlar oqimi 429,0%, turistik firmalar soni 120,5%, ular xizmat ko‘rsatgan mijozlar soni 829,3%, sotilgan turlar hajmi 669,2%, mehmonxona va o‘xshash joylashtirish vositalari soni 106,1%, ularda joylashtirilgan shaxslar soni esa 307,6% ga oshgan [2. 2026]. Bunday tafovut xizmatlar yuklamasi, ish vaqti, xodimlar soni va malaka darajasini uzluksiz kuzatish zaruratini ko‘rsatadi. Chunki turistik talabning tez o‘sishi avtomatik ravishda munosib mehnat sharoitlarini yaratmaydi; aksincha, tegishli tartibga solish bo‘lmasa, norasmiy mehnat, ortiqcha yuklama va yuqori qo‘nimsizlik kuchayishi mumkin.

2024-yilda respublikada 743 ta turistik kompaniya va tashkilot faoliyat yuritib, ular 1 972,9 ming kishiga xizmat ko‘rsatgan va 601,5 ming tur sotgan. Shu davrda 2 383 ta mehmonxona hamda o‘xshash joylashtirish vositasida 2 864,3 ming kishi joylashtirilgan. Bir joylashtirish obyektiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yillik yuklama taxminan 608 nafardan 1 202 nafargacha, ya’ni qariyb 2 baravar oshgan. Bu natija turistik infratuzilma sonidan tashqari, xodimlar yuklamasi, smena davomiyligi, xizmat ko‘rsatish standartlari va kadrlarni ushlab qolish ko‘rsatkichlarini ham monitoring qilish zarurligini tasdiqlaydi.

Hududlar bo‘yicha turistik infratuzilmaning notekisligi yagona tartibga solish rejimining samaradorligini cheklaydi. 2024-yilda Samarqand viloyatida 144 ta turistik kompaniya va 361 ta mehmonxona, Buxoro viloyatida esa mos ravishda 44 ta kompaniya va 250 ta mehmonxona faoliyat yuritgan. Boshqa ayrim hududlarda bu ko‘rsatkichlar ancha past bo‘lgan. Shuning uchun institutsional tartibga solish respublika, hudud, turistik klaster va korxona darajalarini qamrab oluvchi ko‘p darajali arxitektura asosida tashkil etilishi lozim. Respublika darajasida yagona standartlar va ma’lumotlar formati belgilanadi; hududiy darajada mavsumiy talab va kadrlar ehtiyoji prognoz qilinadi; klaster darajasida ishchi kuchi harakatchanligi va o‘qitish dasturlari muvofiqlashtiriladi; korxona darajasida ish vaqti, yuklama, o‘qitish va mehnat xavfsizligi qayd etiladi.

Taklif etilayotgan raqamli institutsional kontur yettita o‘zaro bog‘liq moduldan iborat. Raqamli identifikatsiya va elektron ishga qabul qilish moduli xodimning shartnomasi, malakasi va ish tajribasini yagona profilga birlashtiradi. Ko‘nikmalar marketpleysi bo‘sh ish o‘rinlari bilan mavjud kompetensiyalarni moslashtiradi. Mikromalakalar platformasi qisqa modulli dasturlar orqali tez yangilanadigan kasbiy ko‘nikmalarni tasdiqlaydi. Sun’iy intellektga asoslangan prognozlash moduli turistik mavsum, hududiy oqim va xizmat turlari bo‘yicha kadrlar ehtiyojini oldindan aniqlaydi. Algoritmik audit avtomatlashtirilgan qarorlarning xolisligi va tushuntirilishini tekshiradi. Murojaatlar va apellyatsiyalar reyestri xodimga raqamli qaror ustidan shikoyat qilish imkonini beradi. Ijtimoiy-algoritmik korxona pasporti esa ish bilan bandlik sifati, o‘qitish, yuklama, qo‘nimsizlik va mehnat xavfsizligi ko‘rsatkichlarini birlashtiradi.

Mazkur kontur mavjud davlat raqamli infratuzilmasi bilan integratsiya qilinishi mumkin. my.gov.uz portalidagi xizmatlar sonining 218 tadan 765 taga, foydalanuvchilar sonining 0,38 mln nafardan 11 mln nafardan ortiq darajaga yetgani, internetdan foydalanuvchi aholi ulushining 94,2% ni tashkil etgani hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining 79,5 trln so‘mga yetgani bunday integratsiya uchun texnologik asos mavjudligini ko‘rsatadi [2. 2025; 2. 2026]. Biroq texnologik tayyorgarlik institutsional tayyorgarlikni avtomatik ravishda ta’minlamaydi. Raqamli tizimlarda ma’lumotlarning maqsadga muvofiq yig‘ilishi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, inson nazorati va qaror ustidan apellyatsiya qilish tartibi normativ hujjatlar bilan mustahkamlanishi zarur.

Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini mehnat natijalari bilan bog‘lash alohida amaliy ahamiyatga ega. Subsidiyalar, imtiyozlar, reklama dasturlari yoki infratuzilmaviy ko‘makdan foydalanayotgan turistik subyektlar mehnat shartnomalarini rasmiylashtirishi, xodimlarni o‘qitish dasturiga ega bo‘lishi, bazaviy mehnat xavfsizligi talablariga rioya etishi va raqamli monitoring uchun minimal ma’lumotlarni taqdim etishi kerak. Bu yondashuv davlat xarajatlarini faqat tarmoq hajmini kengaytirishga emas, balki barqaror va sifatli ish o‘rinlarini yaratishga yo‘naltiradi.

Ijtimoiy muloqot ham raqamli transformatsiyaning ajralmas qismi bo‘lishi lozim. Yangi platforma yoki algoritm joriy etilishidan oldin uning xodim funksiyalari, ish vaqti, daromad va mehnat yuklamasiga ta’siri baholanadi. Joriy etish davrida ish beruvchi, xodimlar vakillari, ta’lim tashkilotlari va tegishli davlat organlari ishtirokida o‘lchanadigan ko‘rsatkichlar kelishib olinadi. Keyingi bosqichda natijalar muntazam ko‘rib chiqilib, aniqlangan xatarlar asosida algoritm, ish jarayoni yoki malaka dasturi tuzatiladi. Shu tarzda ijtimoiy muloqot deklarativ maslahatlashuvdan takrorlanuvchi boshqaruv sikliga aylanadi.

Taklif etilayotgan modelning joriy etilishi dastlab Samarqand, Buxoro, Toshkent shahri va Xorazm kabi turistik yuklamasi yuqori hududlarda pilot rejimda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Pilotning birinchi bosqichida ma’lumotlar standarti va asosiy ko‘rsatkichlar belgilanadi. Ikkinchi bosqichda turistik korxonalar, ish bilan bandlik organlari va ta’lim tashkilotlari o‘rtasida ma’lumot almashinuvi yo‘lga qo‘yiladi. Uchinchi bosqichda ish bilan bandlikning rasmiyligi, xodimlar qo‘nimsizligi, o‘qitish qamrovi, ortiqcha yuklama, murojaatlar va mehnat xavfsizligi bo‘yicha natijalar baholanadi. To‘rtinchi bosqichda samarali yechimlar standartlashtirilib, boshqa hududlarga bosqichma-bosqich tatbiq etiladi.

Xulosa

Turizmning jadal iqtisodiy o‘sishi ijtimoiy-mehnat institutlarining xuddi shu sur’atda rivojlanishini kafolatlamaydi. Shu bois tarmoq rivojini turistlar oqimi, xizmatlar hajmi va infratuzilma bilan bir qatorda ish bilan bandlik sifati orqali baholash zarur. Rasmiy ish bilan bandlik, daromadlar barqarorligi, mehnat yuklamasi, qo‘nimsizlik, kasbiy o‘qitish, raqamli kompetensiyalar va mehnat standartlari turizm siyosatining majburiy natija ko‘rsatkichlariga aylanishi kerak.

Raqamli identifikatsiya, elektron ishga qabul qilish, ko‘nikmalar marketpleysi, mikromalakalar, sun’iy intellekt asosidagi kadrlar prognozi, algoritmik audit, apellyatsiyalar reyestri va ijtimoiy-algoritmik korxona pasportini birlashtiruvchi institutsional kontur turizmda ish bilan bandlik sifatini boshqarishning amaliy mexanizmini shakllantiradi. Uning hududiy klasterlarda pilot tarzda joriy etilishi, davlat qo‘llab-quvvatlashini mehnat standartlariga rioya etish bilan bog‘lash va raqamli qarorlarda inson nazoratini kafolatlash O‘zbekistonda turistik o‘sishni munosib mehnat, barqaror inson kapitali va uzoq muddatli raqobatbardoshlikka aylantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Turizm va investitsiya masalalari muhokama qilindi [Elektron manba]. – Toshkent, 2025. – 9-aprel. – URL: president.uz.
2. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. 11.7 million tourists visited Uzbekistan in 2025; Key indicators of the service sector in the Republic of Uzbekistan [Electronic resource]. – Tashkent, 2025–2026. – URL: stat.uz.
3. OECD. Building Strong and Resilient Tourism Destinations. – Paris: OECD Publishing, 2025.
4. Mooney S., Robinson R.N.S., Solnet D.J., Baum T. Introduction: A Critical Review of Sustainable Work and Employment in Tourism // A Sustainable Tourism Workforce: Current Issues. – Abingdon: Routledge, 2024. – P. 1–20.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PF-87-son “2025–2026-yillarda turistlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar hajmini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni [Elektron manba]. – URL: lex.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrdagi PQ-348-son turizm sohasini 2030-yilgacha jadal rivojlantirishga oid qarori [Elektron manba]. – URL: lex.uz.
7. World Economic Forum. Future of Travel and Tourism: Embracing Sustainable and Inclusive Growth. – Geneva: WEF, 2025.
8. World Travel & Tourism Council. Global Travel & Tourism is Strong Despite Economic Headwinds [Electronic resource]. – London: WTTC, 2025.

ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОЙ ЗАНЯТОСТИ В РЕГИОНАХ УЗБЕКИСТАНА

Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович
самостоятельный соискатель кафедры «Экономика труда и управление»
Ташкентского филиала Российского экономического университета им. Г.В. Плеханова
Ташкент, Узбекистан
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22251990

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston hududlarida unumli ish bilan bandlikni kompleks baholash metodikasi taklif etilgan. Metodika rasmiy ish bilan bandlik, ish o‘rnining barqarorligi, mehnat daromadliligi, ijtimoiy kafolatlar, malakaning ish joyiga mosligi, mehnat unumdorligi, mehnat xavfsizligi hamda ish bilan bandlikning kambag‘allikni qisqartirishga ta’sirini birlashtiradi. 2020–2025-yillardagi mehnat bozori ko‘rsatkichlari va 2025-yil bo‘yicha hududlar kesimidagi ochiq ma’lumotlar asosida indeksning sinov moduli hisoblangan. Indeksni hududiy dasturlar, kadrlar tayyorlash buyurtmasi va hokimliklar faoliyatini natijadorlik asosida baholashga joriy etish taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: unumli ish bilan bandlik, inson kapitali, hududiy mehnat bozori, ish o‘rni sifati, integral indeks, mehnat unumdorligi, daromad, norasmiy ish bilan bandlik.

Аннотация. В статье предложена методика комплексной оценки производительной занятости в регионах Узбекистана. Методика объединяет официальность занятости, устойчивость рабочего места, доходность труда, социальные гарантии, соответствие квалификации, производительность труда, безопасность условий труда и вклад занятости в сокращение бедности. На основе показателей рынка труда за 2020–2025 годы и открытых региональных данных за 2025 год рассчитан апробационный модуль индекса. Обоснованы направления внедрения индекса в региональные программы занятости, систему заказа на подготовку кадров и оценку результативности деятельности органов территориального управления.

Ключевые слова: производительная занятость, человеческий капитал, региональный рынок труда, качество рабочего места, интегральный индекс, производительность труда, доходы, неформальная занятость.

Abstract. The article proposes a methodology for the comprehensive assessment of productive employment across the regions of Uzbekistan. The methodology combines employment formality, job stability, labour income, social guarantees, skills matching, labour productivity, occupational safety, and the contribution of employment to poverty reduction. A pilot module of the index is calculated using labour market indicators for 2020–2025 and open regional data for 2025. Practical directions are substantiated for incorporating the index into regional employment programmes, skills planning, and performance assessment of territorial public authorities.

Keywords: productive employment, human capital, regional labour market, job quality, composite index, labour productivity, income, informal employment.

Современная политика рынка труда должна оцениваться не только по количеству трудоустроенных граждан, но и по качеству созданных рабочих мест. Формальное увеличение числа занятых может сочетаться с низкими доходами, сезонностью, отсутствием трудового договора, слабой социальной защищённостью и несоответствием квалификации выполняемой работе. Поэтому переход к производительной занятости является необходимым условием того, чтобы экономический рост трансформировался в повышение благосостояния населения и развитие человеческого капитала. В исследованиях экономики труда подчёркивается взаимосвязь инвестиций в знания и навыки, качества рабочих мест, доходов и производительности [1. 2026: С. 403–424]. Международные подходы также связывают достойную и продуктивную работу с устойчивым доходом, безопасностью труда, социальной защитой и возможностями профессионального развития [2. 2024]. Для Узбекистана эта проблема имеет выраженное региональное содержание. Территории различаются по демографической нагрузке, отраслевой специализации, инвестиционной активности, образовательной инфраструктуре, уровню заработной платы, масштабам самозанятости и неформальных трудовых отношений. Единый показатель занятости не отражает этих различий и может создавать ошибочное представление о результативности региональной

политики. Научная задача состоит в разработке инструмента, который позволит сопоставлять регионы не только по числу занятых, но и по способности рабочих мест обеспечивать официальный статус, устойчивый доход, использование квалификации, социальные гарантии и создание добавленной стоимости.

Анализ динамики рынка труда за 2020–2025 годы показывает существенное улучшение количественных показателей. Численность занятых в экономике увеличилась с 13 236,4 тыс. до 14 933,9 тыс. человек, или на 12,8 %. Уровень безработицы снизился с 10,5 % до 4,8 %, среднемесячная номинальная начисленная заработная плата выросла с 2 673,3 тыс. до 6 376,7 тыс. сумов, а уровень бедности к 2025 году составил 5,8 % [3. 2026]. Одновременно доля неформальной занятости, несмотря на снижение с 42,8 % в 2020 году до 37,1 % в 2025 году, остаётся высокой. Следовательно, положительная динамика занятости требует дополнительной оценки её официальности, доходности, устойчивости и производительности.

Производительную занятость предлагается определять как официальное и устойчивое участие человека в трудовой деятельности, при котором человеческий капитал используется в соответствии с профессиональной квалификацией, труд обеспечивает достаточный доход и социальные гарантии, создаёт возможности профессионального развития и формирует измеримый вклад в производительность и добавленную стоимость территории. Такое определение соединяет экономический, социальный, институциональный и человеческо-капитальный аспекты занятости.

Методика интегральной оценки строится на трёх уровнях. Первый уровень образуют статистические и административные показатели регионального рынка труда. Второй уровень включает частные индексы качества занятости. Третий уровень представляет сводный интегральный индекс производительной занятости региона. Нормативную основу практического применения методики формируют задачи создания стабильных рабочих мест, повышения доходов и сокращения бедности, предусмотренные постановлением Президента Республики Узбекистан № ПП-49 от 5 февраля 2026 года [5. 2026], а также меры по совершенствованию трудовых отношений, профессиональной подготовки и стимулированию работодателей, установленные Указом Президента № УП-126 от 4 августа 2025 года [6. 2025].

Таблица 1. Структура интегрального индекса производительной занятости региона

Частный блок	Вес	Экономическое содержание
Официальность занятости	0,20	Трудовой договор, регистрация в Единой национальной системе труда, социальные отчисления, снижение неформальности.
Устойчивость рабочего места	0,12	Постоянство занятости, продолжительность работы, текучесть кадров, обратный показатель безработицы.
Доходность занятости	0,16	Заработная плата, реальные трудовые доходы, их соотношение с минимальными потребительскими расходами.
Социальные гарантии	0,10	Социальное страхование, отпуск, пенсионные отчисления и пособия по временной нетрудоспособности.
Соответствие квалификации	0,10	Работа по специальности, профессиональная подготовка, закрытие вакансий квалифицированными кадрами.

Частный блок	Вес	Экономическое содержание
Производительность труда	0,14	Валовой региональный продукт на одного занятого, участие в отраслях с высокой добавленной стоимостью.
Безопасность условий труда	0,08	Производственный травматизм, соблюдение требований охраны труда, оценка условий труда.
Сокращение бедности	0,10	Рост доходов малообеспеченных семей, снижение работающей бедности, занятость уязвимых групп.

Для приведения показателей к единой измерительной шкале применяется нормирование от 0,0 до 100,0 баллов. Для стимулирующих показателей, рост которых улучшает качество занятости, используется формула:

$$Нрт = ((Хрт - Хmin) / (Хmax - Хmin)) \times 100,0.$$

Для дестимулирующих показателей, рост которых ухудшает качество занятости, применяется обратная формула:

$$Нрт = ((Хmax - Хрт) / (Хmax - Хmin)) \times 100,0.$$

К стимулирующим показателям относятся официальная занятость, заработная плата, производительность, охват социальными гарантиями и повышение квалификации. Дестимулирующими являются безработица, неформальная занятость, бедность, текучесть кадров и производственный травматизм. После расчёта частных индексов формируется сводный показатель:

$$ИИПЗрт = 0,20ИОрт + 0,12ИУрт + 0,16ИДрт + 0,10ИСГрт + 0,10ИКрт + 0,14ИПррт + 0,08ИБрт + 0,10ИСБрт.$$

Наибольший вес присваивается официальности занятости, поскольку без юридического оформления невозможно обеспечить полноценную социальную защиту, достоверный статистический учёт и устойчивость трудовых отношений. Доходность и производительность также имеют повышенные веса, так как отражают способность рабочего места повышать благосостояние и создавать экономический результат. Для интерпретации предлагается пятиуровневая шкала: 80,0–100,0 баллов — высокий уровень производительной занятости; 60,0–79,9 — стабильная занятость, требующая модернизации; 40,0–59,9 — переходный тип; 20,0–39,9 — повышенные риски низкодоходной и неформальной занятости; менее 20,0 балла — критически низкое качество занятости и необходимость приоритетного вмешательства.

Полный расчёт индекса требует интеграции данных Национального комитета по статистике, органов занятости, Налогового комитета, Единой национальной системы труда, систем социального страхования, профессионального образования и охраны труда. До формирования такой межведомственной базы может использоваться открытый модуль, включающий доступные показатели заработной платы, доходов и прироста занятости. Апробационный расчёт за 2025 год показал значительную территориальную дифференциацию.

Таблица 2. Выборочные результаты открытого модуля индекса, 2025 год

Регион	Прирост занятых к 2020 г., %	Индекс, баллов	Интерпретация открытого модуля
г. Ташкент	23,2	100,0	Лидер по открытым показателям
Навоийская область	18,4	56,1	Высокие доходы и промышленная специализация

Регион	Прирост занятых к 2020 г., %	Индекс, баллов	Интерпретация открытого модуля
Хорезмская область	17,3	29,4	Высокий прирост, но более низкие доходы
Андижанская область	15,1	23,2	Рост занятости требует повышения доходности
Наманганская область	8,1	4,7	Необходимы доходные и устойчивые рабочие места
Сурхандарьинская область	7,3	2,5	Приоритетная поддержка качества занятости

Максимальное значение открытого модуля получено для города Ташкента — 100,0 балла, что отражает концентрацию высокооплачиваемых рабочих мест, развитых услуг, финансов, управления и предпринимательства. Навоийская область получила 56,1 балла благодаря промышленной специализации и сравнительно высоким доходам. Хорезмская и Андижанская области демонстрируют значительный прирост занятости, однако уступают по заработной плате и доходам. Низкие показатели Наманганской и Сурхандарьинской областей не означают отсутствия трудового потенциала. Они показывают, что демографические и трудовые ресурсы ещё недостаточно преобразуются в устойчивые, доходные и производительные рабочие места.

Открытый модуль имеет диагностический, а не окончательный характер. Он не учитывает долю официальных трудовых договоров, охват социальным страхованием, квалификационное соответствие, безопасность труда и происхождение доходов. Поэтому рейтинг нельзя использовать как самостоятельную оценку деятельности региональных органов. Его задача состоит в выявлении территорий, где требуется углублённая диагностика и сбор ведомственных данных. Полный индекс должен рассчитываться после интеграции всех восьми блоков.

Практическое внедрение методики целесообразно осуществлять поэтапно. На первом этапе предлагается провести пилотный расчёт в регионах с различной специализацией, включая город Ташкент, Навоийскую и Наманганскую области. На втором этапе необходимо сформировать межведомственный электронный паспорт качества занятости по каждому району и городу. На третьем этапе индекс следует включить в мониторинг региональных программ, но использовать не для механического ранжирования, а для определения проблемного блока и выбора адресных мер.

Для Наманганской области приоритетное значение имеют расширение переработки сельскохозяйственной продукции, текстильных цепочек добавленной стоимости, современных услуг и малого производства; повышение официальности самозанятости; развитие дуального обучения; сертификация профессиональных навыков; привязка программ подготовки кадров к реальным вакансиям предприятий. Низкий индекс доходности должен приводить к стимулированию высокодоходных рабочих мест, а низкий индекс квалификационного соответствия — к корректировке регионального заказа на обучение. Такой подход превращает интегральный показатель из статистического рейтинга в инструмент управленческого решения.

Ежегодный расчёт рекомендуется проводить в два этапа: предварительно по итогам первого полугодия и окончательно по итогам года. Для каждого региона должна формироваться карта отклонений по восьми блокам, на основе которой определяются приоритеты инвестиционной, образовательной, социальной и налоговой политики. Оценка деятельности хокимиятов и органов занятости должна учитывать не только число трудоустроенных, но и долю работников,

сохранивших официальное рабочее место через 6 и 12 месяцев, рост трудовых доходов, снижение неформальности и бедности, а также повышение производительности.

Таким образом, интегральный индекс производительной занятости позволяет перейти от количественного учёта трудоустройства к доказательной оценке качества рабочих мест. Его научная новизна заключается в объединении официальности, устойчивости, доходности, социальных гарантий, квалификационного соответствия, производительности, безопасности труда и вклада занятости в сокращение бедности. Для экономики Узбекистана индекс может стать основой дифференцированной региональной политики, согласования подготовки кадров со спросом работодателей и направления ресурсов в те территории и механизмы, которые обеспечивают устойчивый рост доходов населения и человеческого капитала.

Список использованной литературы

1. Абдурахманов К.Х. Стратегия развития рынка труда: зелёная трансформация и искусственный интеллект // Лидерство и менеджмент. — 2026. — Т. 13, № 3. — С. 403–424. — DOI: 10.18334/lim.13.3.124610.
2. Международная организация труда. Производительность и достойный труд (Productivity and Decent Work). — Женева, 2024.
3. Национальный комитет Республики Узбекистан по статистике. Официальные статистические данные по рынку труда, заработной плате и доходам населения Республики Узбекистан за 2020–2025 годы. — Ташкент, 2026.
4. Организация экономического сотрудничества и развития. Создание рабочих мест и местное экономическое развитие — 2024 (Job Creation and Local Economic Development 2024). — Париж: OECD Publishing, 2024.
5. Постановление Президента Республики Узбекистан от 5 февраля 2026 года № ПП-49 «О мерах по увеличению доходов населения, созданию стабильных рабочих мест и сокращению бедности путем развития регионов на основе новых подходов в 2026 году». — Ташкент, 2026.
6. Указ Президента Республики Узбекистан от 4 августа 2025 года № УП-126 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы трудовых отношений и профессиональной подготовки, а также стимулированию работодателей». — Ташкент, 2025.

EVIDENCE-BASED COORDINATION OF UZBEKISTAN-SAUDI ARABIA STRATEGIC PARTNERSHIP

Kadyrov Alisher Kadyrovich
Independent Researcher
Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22275772

Annotatsiya. Mazkur tezisda O'zbekiston-Saudiya Arabistoni strategik sherikligini siyosiy bayonotlar va yirik investitsiya portfellaridan tasdiqlangan natijalarga o'tkazishning institutsional mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot iqtisodiy vositalarning siyosiy ahamiyati ularning nominal qiymati bilan emas, balki huquqiy rasmiylashtirish, moliyalashtirishni tasdiqlash, mas'ul institut, ijro nazorati, mahalliylashtirish va mintaqaviy ta'sir kanali bilan belgilanishini asoslaydi. Hukumatlararo komissiya huzuridagi paritet Muvofiqlashtiruvchi guruh, ikki tomonlama raqamli reyestr, xavflarni erta ogohlantirish tizimi va mintaqaviy filtrni birlashtiruvchi dalillarga asoslangan davlatlararo muvofiqlashtirish modeli taklif etiladi.
Kalit so'zlar: O'zbekiston, Saudiya Arabistoni, strategik sheriklik, iqtisodiy diplomatiya, davlatlararo muvofiqlashtirish, raqamli monitoring, Markaziy Osiyo.
Аннотация. В тезисе исследуются институциональные механизмы перехода узбекско-саудовского стратегического партнерства от политических заявлений и крупных инвестиционных портфелей к подтвержденным результатам. Обосновано, что политическое значение экономических инструментов определяется не их номинальной стоимостью, а юридическим оформлением, подтвержденным финансированием, ответственностью институтов, контролем исполнения, локализацией и доказуемым каналом регионального воздействия. Предлагается модель доказательной межгосударственной координации, объединяющая паритетную Координационную группу при Межправительственной комиссии, двусторонний цифровой реестр, раннее предупреждение рисков и региональный фильтр.
Ключевые слова: Узбекистан, Саудовская Аравия, стратегическое партнерство, экономическая дипломатия, межгосударственная координация, цифровой мониторинг, Центральная Азия.
Abstract. This thesis examines institutional mechanisms for moving the Uzbekistan-Saudi Arabia strategic partnership from political declarations and large investment portfolios towards verified results. It argues that the political significance of economic instruments is determined not by their nominal value, but by legal formalisation, confirmed financing, institutional responsibility, implementation control, localisation, and a demonstrable channel of regional impact. An evidence-based interstate coordination model is proposed, combining a parity Joint Coordination Group under the Intergovernmental Commission, a bilateral digital registry, an early-warning system for risks, and a regional filter.
Keywords: Uzbekistan, Saudi Arabia, strategic partnership, economic diplomacy, interstate coordination, digital monitoring, Central Asia.

Introduction

The contemporary international system is increasingly shaped by middle powers, regional formats and the use of economic resources for political purposes. Investment, infrastructure, energy agreements, sovereign funds, project finance and technology platforms create material assets, but they also establish long-term obligations, alter bargaining positions and generate repeated channels of diplomatic communication. This dual nature is captured by economic statecraft, which explains how economic means can support foreign-policy objectives [1, 1985]. Complex interdependence further demonstrates that political, financial, transport, energy and social links operate simultaneously and may create both mutual benefits and new vulnerabilities [6, 2012].

Uzbekistan and Saudi Arabia provide a relevant case for analysing this transformation. Since the establishment of diplomatic relations in 1992, bilateral interaction has evolved from a basic diplomatic, legal, consular and humanitarian framework into a multi-sector agenda. Relations were officially defined

as a full-scale partnership in 2022, while the Central Asia-Gulf Cooperation Council strategic dialogue created a broader interregional setting. The Joint Action Plan for 2023-2027 includes political dialogue, trade, investment, energy, transport, water, education, health and cultural cooperation [5, 2022: online].

The rapid expansion of the project agenda makes verification particularly important. In October 2025, official information referred to 56 projects with a combined value of USD 27.2 billion [4, 2025: online]. However, a project portfolio is not equivalent to realised foreign investment. A memorandum records an intention; a contract establishes obligations; financial closure confirms funding; construction demonstrates implementation; and commercial operation confirms only the relevant commissioned component. The Riverside battery energy storage system, whose commercial operation at 334 MW/501 MWh was officially announced in February 2026, illustrates the need to verify each component separately [7, 2026: online].

Accordingly, the research problem is not whether Uzbekistan-Saudi Arabia cooperation is large, but whether political decisions and economic instruments are converted into legally clear, financially secured, nationally embedded and regionally relevant outcomes. The purpose of this thesis is to formulate an evidence-based coordination mechanism capable of reducing the gap between high-level agreements and verified implementation.

Methodological Approach

The study combines institutional analysis, process tracing, comparative political analysis and case-study methods. Institutional analysis identifies the actors, competencies, rules and feedback mechanisms that sustain cooperation. Process tracing follows the causal sequence from political initiative to diplomatic agreement, legal formalisation, financing, implementation and result; it is especially suitable for determining whether an announced outcome can be attributed to a specific institutional chain [2, 2019]. Case studies are used for energy, transport, water and digital initiatives, while source triangulation compares legal documents, official government materials, corporate disclosures and academic studies.

The theoretical framework integrates economic statecraft, liberal institutionalism, complex interdependence, strategic partnership studies and interregionalism. Regional security complex theory emphasises that security and vulnerability are spatially interconnected [3, 2003], while interregionalism explains how a bilateral relationship may become part of a wider architecture between Central Asia and the Gulf [9, 2016]. Strategic partnership is treated not merely as an official diplomatic label, but as an empirically testable degree of institutional maturity, including long-term interests, regular coordination, legal certainty, diversification, implementation capacity and resilience [10, 2008: pp. 358-383].

Results and Discussion

The first result is a distinction between a political mechanism and an economic instrument. A political mechanism is a set of actors, rules, procedures and decisions through which political will is transformed into coordinated action and controlled implementation. An economic instrument is a financial, material, contractual, organisational or technological means used to achieve interstate objectives. Neither is sufficient alone. A political declaration without legal, financial and organisational support remains declarative, while a corporate project without a verifiable connection to the interstate agenda cannot automatically be classified as a foreign-policy instrument.

The second result is an eight-stage chain of institutional conversion: political initiative; diplomatic agreement; legal formalisation; designation of a responsible institution; confirmed financing; practical implementation; verified national result; and demonstrated regional effect. A break at any stage weakens the strategic value of the initiative. This chain replaces the logic of 'large announcements' with the logic of 'verified results'. It also prevents the methodological error of treating signed documents, planned investment, disbursed capital, construction progress and commissioned assets as interchangeable indicators.

The third result is the proposed Evidence-Based Interstate Coordination Model. At the political level, the heads of state provide the mandate and strategic priorities. Ministries of foreign affairs ensure diplomatic coordination. The Intergovernmental Commission converts priorities into a structured portfolio and assigns responsibilities. A parity Joint Coordination Group operating under the Commission should provide intersessional monitoring, preserve institutional memory, verify project stages, coordinate risk owners and prepare quarterly reviews. The Group should not replace authorised ministries, regulators, investors or project companies; its role is to connect their decisions and evidence.

A bilateral digital registry is the operational core of the model. Each agreement, institution and project should receive a unique identifier. The registry should record the parties, sector, legal status, financial model, responsible bodies, deadlines, milestones, current stage, reasons for delays, localisation, training obligations, environmental and social commitments, national result and potential regional channel. A restricted administrative layer would contain commercially sensitive, contractual and risk information, while a public layer would disclose permitted data on implementation stages, commissioned facilities and social, environmental and human-capital outcomes.

The registry must be linked to a standard evidence classifier. Recommended statuses are: 'initiative', 'memorandum', 'legally formalised', 'financing confirmed', 'under implementation', 'commissioned' and 'result verified'. A status may be changed only when a new document or observable fact is available. Evidence should be ranked by reliability: international treaties, legislation, official statistics, financial-closure documents and commissioning acts constitute the highest level; verifiable statements of public institutions, international organisations and companies form the second level; academic analysis, expert assessment and media materials form a supplementary level.

The fourth result is a regional filter that distinguishes bilateral success from regional impact. A national project should be recognised as having direct regional significance only when there is evidence of participation by another Central Asian state or an interregional institution, an effect on cross-border flows or common rules, operational continuity, additionality and the absence of conflict-generating consequences. Direct impact changes cross-border flows, standards or institutions. Indirect impact strengthens Uzbekistan's resilience and reduces wider regional vulnerability through a demonstrable transmission mechanism. Potential impact refers to a realistic but not yet operational scaling pathway.

This distinction is important because the political-diplomatic channel already has a direct interregional form through the Central Asia-GCC dialogue, whereas most energy projects currently produce primarily national and indirect regional effects. Renewable generation and storage can increase the reliability of Uzbekistan's power system, but direct regional impact requires cross-border electricity exchange, compatible technical standards or the participation of neighbouring states. Similarly, aviation cooperation may become regional when routes, carriers and transit functions extend beyond the two partner countries. Water, digital, educational and humanitarian initiatives remain largely potential regional channels until they are jointly financed and institutionally scaled.

The fifth result concerns risk management. Bilateral projects face interconnected political, geopolitical, legal, financial, environmental, social, technological and cyber risks. Delayed milestones, unconfirmed financing, excessive concentration in one sector or company, insufficient localisation, weak technology transfer and low public transparency can reduce both efficiency and political legitimacy. Every material risk should therefore have an owner, an indicator, a response threshold and a corrective plan. For example, a milestone delay exceeding ninety days or the absence of confirmed financing by an agreed date should trigger joint verification and formal consideration by the coordination mechanism.

Policy Priorities for 2027-2030

The proposed roadmap should concentrate on five mutually reinforcing priorities. First, energy and storage projects should be evaluated by commissioned capacity, grid contribution, localisation and specialist training rather than announced value alone. Second, transport and aviation cooperation should develop a sustainable Central Asia-Gulf route network and measurable transit functions. Third, water and environmental initiatives should begin with verifiable pilot projects, environmental assessment and potential regional replication. Fourth, digital infrastructure and human capital should combine data centres, artificial intelligence, cybersecurity, local skills development and independent data-governance audits. Fifth, bilateral projects should be connected to a limited, finance-ready pipeline within the Central Asia-GCC framework.

Implementation requires three practical safeguards. New major projects should include measurable local-content, supplier-development and technology-transfer plans. Portfolio monitoring should calculate concentration by sector and investor to identify systemic dependence at an early stage. Finally, universities and independent analytical centres from both countries should participate in periodic evaluation so that project organisations do not exclusively assess their own results. Recent scholarship confirms that

Uzbekistan-Saudi relations have entered a qualitatively new phase, but their long-term strategic value depends on institutional consolidation rather than diplomatic momentum alone [8, 2025: pp. 30-35].

Conclusion

Uzbekistan-Saudi Arabia relations have moved beyond episodic cooperation and now contain the political trust, legal foundations and investment scale necessary for strategic interaction. Nevertheless, strategic maturity cannot be inferred from the number of visits, documents or the nominal value of a project portfolio. It must be demonstrated through a complete institutional chain connecting political intent, legal obligations, financing, implementation, national embedding, risk management and regional transmission.

The Evidence-Based Interstate Coordination Model offers a practical method for achieving this transition without creating an excessive supranational bureaucracy. By strengthening the existing Intergovernmental Commission, establishing a parity Joint Coordination Group, introducing a digital registry, applying a unified evidence classifier, managing risks through early-warning procedures and testing projects through a regional filter, the two states can shift from quantitative expansion to qualitative consolidation. Such an approach would improve accountability, protect political trust and enable selected bilateral initiatives to become verifiable resources for connectivity, resilience and sustainable development in Central Asia.

References

1. Baldwin D. A. Economic Statecraft. Princeton: Princeton University Press, 1985. 424 p.
2. Beach D., Pedersen R. B. Process-Tracing Methods: Foundations and Guidelines. 2nd ed. Ann Arbor: University of Michigan Press, 2019. 328 p.
3. Buzan B., Wæver O. Regions and Powers: The Structure of International Security. Cambridge: Cambridge University Press, 2003. 564 p.
4. Government Portal of the Republic of Uzbekistan. 7th Meeting of the Intergovernmental Commission and 6th Meeting of the Business Council of Uzbekistan and Saudi Arabia, 14-16 October 2025. Available at: https://gov.uz/en/news/view/93551 (accessed 17 July 2026).
5. Gulf Cooperation Council. Joint Action Plan for Strategic Dialogue and Cooperation between Central Asian Countries and the GCC States for 2023-2027. Riyadh, 7 September 2022. Available at: https://www.gcc-sg.org/ (accessed 17 July 2026).
6. Keohane R. O., Nye J. S. Power and Interdependence. 4th ed. Boston: Longman, 2012. 368 p.
7. Saudi Exchange. ACWA Power Company Announces Commercial Operation of the Riverside BESS Project, 334 MW / 501 MWh. 12 February 2026. Available at: https://www.saudiexchange.sa/ (accessed 17 July 2026).
8. Shukurov A. Kingdom of Saudi Arabia and the Republic of Uzbekistan: A New Perspective on Relations. The American Journal of Political Science Law and Criminology. 2025. Vol. 7, No. 2. P. 30-35. DOI: 10.37547/tajpslc/Volume07Issue02-07.
9. Söderbaum F. Rethinking Regionalism. London: Palgrave Macmillan, 2016. 271 p.
10. Wilkins T. S. Russo-Chinese Strategic Partnership: A New Form of Security Cooperation? Contemporary Security Policy. 2008. Vol. 29, No. 2. P. 358-383. DOI: 10.1080/13523260802284365.

TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI UCHUN KASBIY TAYYORLASHNING MAQSADLI MODELI

Masharipov Farrux O‘tkir o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22277165

Annotatsiya. Maqolada tashqi mehnat migratsiyasi uchun o‘rta bo‘g‘in kadrlarini kasbiy tayyorlashni xorijiy ish beruvchilar talabi bilan bog‘laydigan maqsadli model asoslangan. Model xorijiy kasblar va malakalar monitoringi, Migratsiya agentligining maqsadli buyurtmasi, modulli kasbiy dasturlar, 600 soatlik xorijiy til tayyorgarligi, dual ta’lim, mustaqil malaka baholash, xalqaro tan olish, qonuniy ishga joylashtirish va natijalarni 6–24 oy davomida kuzatish bosqichlarini birlashtiradi. 51 482 nafar ish beruvchi so‘rovi, 34 mamlakatdagi 805 ta hamkor tashkilot orqali aniqlangan 192,3 mingta ish o‘rni va 2015–2025-yillar ma’lumotlari bo‘yicha ekonometrik baholash natijalari kasbiy ta’limni talab asosida rejalashtirish zarurligini tasdiqlaydi. Taklif etilgan model migratsiya oqimining miqdoridan ko‘ra malaka, qonuniy ish bilan bandlik va inson kapitalining qaytishini ustuvor natija sifatida belgilaydi.
Kalit so‘zlar: tashqi mehnat migratsiyasi, o‘rta bo‘g‘in kadrlari, kasbiy ta’lim, maqsadli buyurtma, xorijiy til, dual ta’lim, malakani tan olish, qonuniy ish bilan bandlik.
Аннотация. В статье обоснована целевая модель профессиональной подготовки кадров среднего звена для внешней трудовой миграции, связывающая содержание обучения с потребностями зарубежных работодателей. Модель объединяет мониторинг востребованных профессий и квалификаций, целевой заказ Агентства миграции, модульные профессиональные программы, 600-часовую языковую подготовку, дуальное обучение, независимую оценку квалификаций, международное признание, легальное трудоустройство и мониторинг результатов в течение 6–24 месяцев. Результаты опроса 51 482 работодателей, анализ 192,3 тыс. потенциальных рабочих мест, выявленных через 805 партнёрских организаций в 34 странах, и эконометрическая оценка данных за 2015–2025 годы подтверждают необходимость планирования профессионального образования на основе фактического спроса. В качестве приоритетного результата определяются квалификация, легальная занятость и возврат накопленного человеческого капитала в национальную экономику.
Ключевые слова: внешняя трудовая миграция, кадры среднего звена, профессиональное образование, целевой заказ, языковая подготовка, дуальное обучение, признание квалификаций, легальная занятость.
Abstract. The article substantiates a targeted model for vocational training of mid-level personnel for external labour migration by aligning training content with the actual demand of foreign employers. The model integrates monitoring of occupations and qualifications, a targeted training order of the Migration Agency, modular vocational curricula, 600 hours of language training, dual education, independent skills assessment, international recognition, legal job placement and 6–24-month outcome monitoring. Evidence from a survey of 51,482 employers, 192,300 potential jobs identified through 805 partner organisations in 34 countries, and an econometric assessment for 2015–2025 confirms the need for demand-driven vocational education planning. The model prioritises qualifications, formal employment and the productive return of accumulated human capital to the national economy rather than migration volumes alone.
Keywords: external labour migration, mid-level personnel, vocational education, targeted training order, language training, dual education, recognition of qualifications, formal employment.

Kirish

Tashqi mehnat migratsiyasi iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra ishchi kuchining hududiy ko‘chishigina emas, balki inson kapitaliga kiritilgan investitsiyaning boshqa mehnat bozorida daromad keltirish jarayonidir. Migratsiya qarori xarajat va kutilayotgan natijalarni taqqoslash asosida shakllanishi Sjaastad tomonidan asoslangan [Sjaastad, 1962: P. 80–93]. Biroq zamonaviy sharoitda migratsiyaning natijasi faqat yuqori ish haqi bilan belgilanmaydi. Kasbning qabul qiluvchi mamlakat standartlariga mosligi, xorijiy til darajasi,

malaka hujjatining tan olinishi, qonuniy mehnat shartnomasi va mehnat huquqlarining kafolatlanishi iqtisodiy samaradorlikning asosiy shartlariga aylanmoqda.

2024-yilda dunyodagi xalqaro migrantlar soni 304 mln nafarga yetgani global mehnat harakatchanligining barqaror tendensiyaga aylanganini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda 2025-yil yanvar–sentabr oylarida 2,36 mln fuqaroning mehnat migranti sifatida xorijga chiqishi kasbiy tayyorgarlik tizimiga katta miqdoriy va sifat talabini shakllantiradi. Fuqaroni kasbsiz yoki yetarli til tayyorgarligisiz tashqi mehnat bozoriga yuborish past haq to‘lanadigan, norasmiy va mutaxassislikka mos bo‘lmagan ishlarda qolib ketish xavfini kuchaytiradi. Bunday holat “malaka isrofi”, ya’ni mavjud bilim va ko‘nikmalardan to‘liq foydalanilmasligi orqali inson kapitalining iqtisodiy qaytimini pasaytiradi.

Jahon bankining Global malaka hamkorliklari yondashuvi jo‘natuvchi va qabul qiluvchi davlatlar, ta’lim muassasalari hamda xususiy sektor o‘rtasida kadr tayyorlash xarajatlari va natijalarini taqsimlashni nazarda tutadi [World Bank, 2025]. Mazkur yondashuv O‘zbekiston sharoitida xorijiy ish beruvchi talabi bilan kasbiy ta’lim taklifini bevosita bog‘laydigan, nomzodni tanlashdan boshlab qonuniy ish bilan bandlik va qaytganidan keyingi reintegratsiyagacha bo‘lgan yagona institutsional zanjirni shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, qiyosiy va statistik tahlil, dinamik qatorlar, ish beruvchilar so‘rovi hamda ekonometrik baholash usullaridan foydalanildi. Empirik bazani Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Migratsiya agentligi, Milliy statistika qo‘mitasi, kasbiy ta’lim tashkilotlari ma’lumotlari va 51 482 nafar xususiy sektor ish beruvchisi ishtirokidagi so‘rov natijalari tashkil etdi. Shuningdek, 34 mamlakatdagi 805 ta ish beruvchi va rekruting tashkiloti bilan hamkorlikda aniqlangan ish o‘rinlari kasb, tarmoq va malaka kesimida tahlil qilindi.

2015–2025-yillar ma’lumotlari asosida xorijda rasmiy ish bilan bandlikka ta’sir etuvchi omillar ekonometrik baholandi. Dastlabki model rasmiy ish bilan bandlikdagi o‘zgarishning 76,33%ini izohladi. Qoldiqlardagi avtokorrelyatsiyani Prais–Winsten usuli bilan tuzatishdan so‘ng determinatsiya koeffitsiyenti R^2=0,9480 darajaga yetdi. Xalqaro mehnat kelishuvlari sonining koeffitsiyenti 0,961 bo‘lib, u boshqa omillarga nisbatan eng kuchli ijobiy bog‘liqlikni ko‘rsatdi. Biroq kuzatuvlar soni 11 ta yillik qiymatdan iborat bo‘lgani sababli natijalar qat’iy sababiy ta’sir emas, balki siyosiy va institutsional qarorlar uchun analitik bog‘liqlik sifatida talqin qilindi.

Asosiy natijalar va muhokama

Xorijiy talab monitoringi 192,3 mingta potensial ish o‘rnini aniqladi. Shundan real buyurtmalar bilan tasdiqlangan 90,1 mingta vakansiyaning 44,8 mingtasi xizmatlar, 37,7 mingtasi qurilish va ishlab chiqarish, 7,6 mingtasi qishloq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi. Demak, kasbiy ta’limdagi qabul parametrlari va o‘quv dasturlarini umumiy prognozlar asosida emas, mamlakat–kasb–malaka–til kesimidagi tasdiqlangan talabga tayangan holda shakllantirish uchun yetarli axborot bazasi mavjud.

Ish beruvchilar so‘rovi ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi institutsional uzilishlarni ko‘rsatdi. Respondentlarning 38,3%i kadrlar tayyorlash ish beruvchi talabi yetarli hisobga olinmasdan tashkil etilishini, 44,2%i texnikumlar bilan barqaror hamkorlik yo‘qligini, 34,9%i ta’lim sifatini to‘liq qayta ko‘rib chiqish zarurligini, 31,9%i pedagoglarning kasbiy salohiyati yetarli emasligini qayd etdi. Shu bilan birga, 76,0% ish beruvchi yakuniy malaka baholashda hal qiluvchi ishtirok etishi lozimligini bildirdi. Bu natija kasbiy ta’lim samaradorligini o‘quvchilar soni yoki diplom berish bilan emas, ish beruvchi tasdiqlagan kompetensiyalar va keyingi rasmiy ish bilan bandlik bilan o‘lchash zarurligini anglatadi.

Amaliyotda xalqaro dasturlarni kengaytirish bo‘yicha muayyan natijalar mavjud. BTEC kvalifikatsiyalari 14 ta texnikumga joriy etilgan, Germaniya mehnat bozori uchun 15 ta kasbiy ta’lim tashkilotida 758 nafar hamshira tayyorlangan. Xalqaro va qo‘shma dasturlar doirasida 47 ta texnikumda 30 ta kasb va mutaxassislik bo‘yicha 4 ming nafardan ortiq yoshlar tahsil olmoqda. 495 ta texnikumda 8 063 nafar o‘quvchi sakkizta xorijiy til bo‘yicha qo‘shimcha kurslarga jalb qilingan. Dual ta’lim qamrovi 2024-yildagi 30,8 ming nafardan 2025-yilda 67,5 ming nafarga oshgan va 2026-yil uchun 100 ming nafar maqsad belgilangan.

Mazkur ko‘rsatkichlar infratuzilma va qamrov kengayayotganini ko‘rsatsa-da, miqdoriy o‘sishning o‘zi xorijda mutaxassislik bo‘yicha qonuniy ish bilan bandlikni kafolatlamaydi. An’anaviy 180 soatlik xorijiy

til tayyorgarligi ishlab chiqarish muhitida barqaror muloqot, texnika xavfsizligi yo‘riqnomalarini tushunish, kasbiy terminologiya va hujjatlar bilan ishlash uchun yetarli emas. Shu sababli boshlang‘ich va o‘rta maxsus kasbiy ta’limning migratsiyaga yo‘naltirilgan guruhlarida til tayyorgarligini kamida 600 soatga yetkazish, kasb xususiyatiga qarab B1 yoki B2 darajasini mustaqil sertifikat bilan tasdiqlash maqsadga muvofiq.

Maqsadli modelning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi

Taklif etilayotgan modelning birinchi bo‘g‘ini Migratsiya agentligi huzurida “Xorijiy kasblar va kvalifikatsiyalar monitoringi” raqamli modulini yaratishdir. Modul har chorakda mamlakat, kasb, kvalifikatsiya darajasi, ish haqi, til talabi, sertifikat, viza va mehnat shartlari bo‘yicha yangilanadi. Ma’lumotlar faqat e’lon qilingan vakansiyalar bilan cheklanmay, ish beruvchining tasdiqlangan buyurtmasi, rekruting hamkori, ish haqi diapazoni va ish bilan bandlik davomiyligi bilan verifikatsiya qilinishi lozim. Monitoring natijasida har yili “Tashqi mehnat migratsiyasi uchun ustuvor kasblar milliy ro‘yxati” va har bir kasb bo‘yicha ish beruvchi talablari pasporti tasdiqlanadi.

Ikkinchi bo‘g‘inda xorijiy talab Migratsiya agentligining kasbiy ta’lim tashkilotlariga joylashtiriladigan maqsadli buyurtmasiga aylantiriladi. Buyurtmada o‘quvchilar soni bilan birga kasb standarti, til darajasi, amaliyot bazasi, sertifikat turi, ishga qabul qiluvchi tashkilot va kutilayotgan ish bilan bandlik natijasi ko‘rsatilishi kerak. Qabul parametrlari demografik profilni ham hisobga olishi, ya’ni hudud, yosh, jins, dastlabki bilim, moliyaviy imkoniyat va migratsiya xavflari bo‘yicha nomzodlarga differensial ko‘mak mexanizmlarini nazarda tutishi lozim.

Uchinchi bo‘g‘in modulli o‘quv dasturidir. Unda kasbiy modul, 600 soatlik umumiy va kasbiy xorijiy til, mehnat huquqi, texnika xavfsizligi, madaniy moslashuv, raqamli ko‘nikmalar hamda moliyaviy savodxonlik yagona natijaga birlashtiriladi. Dual ta’limda amaliy tayyorgarlik ulushini kasb xususiyatiga qarab 60,0–70,0%ga yetkazish, o‘quvchining ish vaqti va mehnat stajini huquqiy hisobga olish, korxona ustozining malakasi va javobgarligini belgilash zarur. Bunday yondashuv o‘quvchining tajribasini rasmiy mehnat tarjimai holiga aylantiradi va ichki hamda tashqi mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi.

To‘rtinchi bo‘g‘in mustaqil malaka baholash va xalqaro tan olishdir. Yakuniy imtihon namoyish shaklida, xorijiy ish beruvchi yoki uning vakili ishtirokida o‘tkazilishi, natija esa maqsadli mamlakatda tan olinadigan sertifikat bilan tasdiqlanishi lozim. Xalqaro dastur nomining o‘zi tan olinishni kafolatlamaydi; buning uchun akkreditatsiya, davlatlararo kelishuv, kasbiy standartlarning qiyoslanishi va sertifikatni tekshirishning raqamli mexanizmi zarur.

Beshinchi bo‘g‘in natijaga yo‘naltirilgan ishga joylashtirish va monitoringdir. Bitiruvchi tasdiqlangan mehnat shartnomasi asosida uyushgan tartibda xorijga yuboriladi. Natijalar 6–24 oy davomida ish joyining barqarorligi, kasbga moslik, ish haqi, mehnat huquqlariga rioya etilishi, sertifikatdan foydalanish va qaytganidan keyingi ish bilan bandlik bo‘yicha kuzatiladi. “prof-emis.edu.uz”, “xorijdaish.uz” va “Onlayn mahalla” axborot tizimlarini integratsiya qilish nomzoddan boshlab o‘qish, sertifikat, shartnoma, xorijdagi ish bilan bandlik va reintegratsiyagacha bo‘lgan yagona raqamli trayektoriyani yaratadi.

Ixtisoslashgan kasbiy tayyorlash markazlarining samaradorligini ham qamrov bilan emas, natija bilan baholash lozim. 2021–2025-yillarda qurilish markazlarida 25 647 nafar shaxs o‘qitilgan bo‘lib, ularning 53,3%i ishga joylashgan va 17,3%i uyushgan tarzda xorijda ish bilan band qilingan. 2030-yilgacha umumiy ishga joylashish ulushini kamida 70,0%ga, uyushgan xorijiy ish bilan bandlikni esa kamida 30,0%ga yetkazish maqsadli ko‘rsatkich sifatida belgilanishi mumkin. Davlat-xususiy sheriklik shartnomalarida xususiy sherik va xorijiy ish beruvchining moliyaviy hissasi, sertifikatni tan olish, ishga qabul qilish majburiyati va xavflarni taqsimlash aniq ko‘rsatilishi, to‘lovning bir qismi sertifikat va barqaror rasmiy ish bilan bandlik natijasiga bog‘lanishi kerak.

Xulosa

Tashqi mehnat migratsiyasi uchun kasbiy tayyorlash tizimini takomillashtirishda asosiy metodologik o‘zgarish “qancha fuqaro o‘qitildi?” degan ko‘rsatkichdan “qancha bitiruvchi tan olingan malaka asosida mutaxassisligi bo‘yicha qonuniy va barqaror ish bilan band bo‘ldi?” degan natijaviy mezonga o‘tishdan iborat. Xorijiy talab monitoringi, maqsadli buyurtma, modulli kasbiy va til tayyorgarligi, dual ta’lim, mustaqil baholash, xalqaro tan olish va ish bilan bandlik monitoringi o‘zaro bog‘lanmasa, alohida tadbirlarning iqtisodiy qaytimi cheklangan bo‘lib qoladi.

Taklif etilgan modelni bosqichma-bosqich joriy etish kasbiy ta’lim resurslarini real talabga yo‘naltiradi, ish beruvchining mas’uliyatini kuchaytiradi, malaka isrofini va norasmiy migratsiya xavfini kamaytiradi. Natijada tashqi mehnat migratsiyasi pul o‘tkazmalarini ko‘paytiruvchi qisqa muddatli omildan fuqarolarning kasbiy salohiyati, mehnat daromadi va xalqaro tajribasini oshiruvchi, keyinchalik esa ushbu kapitalni O‘zbekiston iqtisodiyotiga qaytaruvchi uzoq muddatli inson kapitali siyosatiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3-nashr. – Toshkent: FAN, 2019. – 544 b.
2. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. – New York: Columbia University Press, 1964.
3. Lee E.S. A Theory of Migration // Demography. – 1966. – Vol. 3, No. 1. – P. 47–57.
4. OECD. International Migration Outlook 2025. – Paris: OECD Publishing, 2025. – DOI: 10.1787/ae26c893-en.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktabrdagi “Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-162-son Farmoni.
7. Ravenstein E.G. The Laws of Migration // Journal of the Statistical Society of London. – 1885. – Vol. 48, No. 2. – P. 167–235.
8. Sjaastad L.A. The Costs and Returns of Human Migration // Journal of Political Economy. – 1962. – Vol. 70, No. 5, Part 2. – P. 80–93.
9. World Bank. Global Skill Partnerships for Migration: Preparing Tomorrow’s Workers for Home and Abroad. – Washington, DC: The World Bank, 2025.

TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI KOMPETENSIYALARGA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Pulatov Dilshod Akmalyevich
G.V. Plekhanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali mustaqil izlanuvchisi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22280249

Annotatsiya. Maqolada tijorat banklari xodimlarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar natijadorligini baholash masalalari tadqiq etilgan. Raqamli kompetensiyalarning tarmoq modeli, talab etiladigan va amaldagi darajalarni taqqoslashga asoslangan kasbiy-kompetensiyaviy tafovutlar diagnostikasi hamda xarajat–natija zanjiri taklif etilgan. Muallifning hisob-kitob-senariy modeli asosida kompetensiyalar o‘sishi, ko‘nikmalarning ish joyida qo‘llanishi, operatsiyalar davomiyligi, xatolar soni, moslashuv davri va iqtisodiy manfaat o‘rtasidagi bog‘liqlik baholangan. Bazaviy ssenariyda 120 nafar xodimning o‘rtacha raqamli kompetensiya darajasini 2,2 balldan 2,7 ballga oshirish, ustuvor tafovutlarni 55,0% xodimda bartaraf etish, operatsiyalar davomiyligini 10,0%ga va xatolarni 15,0%ga qisqartirish imkoniyati asoslangan.
Kalit so‘zlar: inson kapitali, raqamli kompetensiya, kasbiy rivojlanish, tijorat banki, kasbiy-kompetensiyaviy tafovut, investitsiya, mehnat unumdorligi, iqtisodiy samara.
Аннотация. В статье исследуются вопросы оценки результативности инвестиций в развитие цифровых компетенций работников коммерческих банков. Предложены отраслевая модель цифровых компетенций, диагностика профессионально-компетентностных разрывов на основе сопоставления требуемого и фактического уровней, а также последовательная система «затраты — освоение — применение — трудовой результат — экономический результат». На основе авторской расчётно-сценарной модели обоснованы параметры повышения компетенций, сокращения времени операций, ошибок и периода адаптации, а также экономической отдачи инвестиций.
Ключевые слова: человеческий капитал, цифровые компетенции, профессиональное развитие, коммерческий банк, компетентностный разрыв, инвестиции, производительность труда, экономический эффект.
Abstract. The article examines the assessment of investment effectiveness in the development of digital competencies of commercial bank employees. It proposes a sectoral digital competency model, a diagnostic approach based on comparing required and actual proficiency levels, and a consistent chain linking costs, competency acquisition, workplace application, labor outcomes, and economic results. An author-developed scenario model is used to substantiate improvements in competency levels, operating time, error rates, employee adaptation, and investment returns.
Keywords: human capital, digital competencies, professional development, commercial bank, competency gap, investment, labor productivity, economic effect.

Kirish

Bank faoliyatining raqamli transformatsiyasi texnologik infratuzilmani yangilash bilangina cheklanmaydi. Mobil ilovalar, masofaviy identifikatsiya, avtomatlashtirilgan kreditlash, ochiq bank xizmatlari, katta ma’lumotlar, sun’iy intellekt va kiberxavfsizlik vositalari bank xodimlarining mehnat funksiyalari, javobgarligi va qaror qabul qilish usullarini tubdan o‘zgartirmoqda. Shu sababli tijorat bankining raqobatbardoshligi dasturiy mahsulotlar soni bilan bir qatorda, xodimlarning mazkur vositalarni samarali, mas’uliyatli va xavfsiz qo‘llash qobiliyatiga ham bog‘liq. Xalqaro tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar mehnat vazifalarini qayta taqsimlashi, murakkab tahliliy hamda moslashuvchan ko‘nikmalarga talabni kuchaytirishi qayd etilgan [2. 2019:B.3–30; 3. 2025:B.889–942].

Tijorat banklarida xodimlarni o‘qitish amaliyoti kengayib borayotgan bo‘lsa-da, uning natijadorligi ko‘pincha o‘tkazilgan kurslar, qatnashchilar, o‘quv soatlari va sertifikatlar soni bilan o‘lchanadi. Bunday ko‘rsatkichlar tashkiliy faollikni ifodalaydi, biroq egallangan kompetensiyaning mehnat funksiyasiga mosligi, ish joyida qo‘llanishi, operatsiyalar tezligi va sifati hamda bank uchun yaratilgan iqtisodiy manfaatni to‘liq ochib bermaydi. Natijada o‘quv byudjeti bilan mehnat natijasi o‘rtasidagi sabab-oqibat

bog‘liqligi zaiflashadi, takroriy yoki xodimning real vazifalariga bog‘lanmagan dasturlar moliyalashtirilishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning maqsadi tijorat banklari xodimlarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar natijadorligini mehnat va iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida baholashga qaratilgan metodik yondashuvni asoslashdan iborat. Tadqiqotda tizimli tahlil, mehnat funksiyalarini tahlil qilish, kompetensiyaviy yondashuv, taqqoslash, balli baholash, ekspert bahosi, “oldin–keyin” usuli hamda xarajat–natija tahlilidan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston bank sektoriga oid rasmiy ma’lumotlar, o‘nta tijorat banki amaliyotining qiyosiy tahlili, “Asia Alliance Bank” aksiyadorlik jamiyati va “Octobank” aksiyadorlik tijorat banki bo‘yicha chuqurlashtirilgan materiallar tashkil etdi.

Raqamli kompetensiya bank xodimining raqamli texnologiyalar, axborot tizimlari, ma’lumotlar bazalari, masofaviy bank xizmatlari, moliyaviy texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalaridan o‘z mehnat funksiyasini bajarishda natijador, mas’uliyatli va xavfsiz foydalanish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Ushbu tushuncha oddiy texnik savodxonlikdan kengroq bo‘lib, ma’lumotlarni tahlil qilish, algoritmik natijani tanqidiy baholash, raqamli xavflarni anglash, mijoz bilan raqamli muhitda muloqot qilish, qarorni asoslash va texnologik o‘zgarishlarga moslashishni qamrab oladi. Demak, bankning texnologik aktivlari xodim kompetensiyalari, mehnat jarayonlarini oqilona tashkil etish va inson nazorati bilan to‘ldirilgandagina barqaror iqtisodiy natija yaratadi [1. 2024:B.63–74; 6. 2020:103752].

Raqamli kompetensiyalarni baholashning metodik yondashuvi

Taklif etilgan tarmoq modeli raqamli kompetensiyalarni yettita o‘zaro bog‘liq mazmuniy blok, to‘rtta egallash darajasi va kasbiy-funksional guruhlar bo‘yicha tizimlashtiradi. Mazmuniy bloklar umumiy raqamli savodxonlik va bank axborot tizimlari bilan ishlash; ma’lumotlarni boshqarish va tahlil qilish; raqamli mijozlar bilan ishlash; moliyaviy texnologiyalar hamda masofaviy mahsulotlar; kiberxavfsizlik va maxfiylik; sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanish; raqamli o‘zgarishlarni boshqarishni qamrab oladi. Mazkur tuzilma kompetensiyani kurs nomi bilan emas, balki konkret mehnat funksiyasi, xato xavfi va kuzatiladigan ish natijasi bilan bog‘laydi.

To‘rt darajali shkala kompetensiyadan foydalanishning mustaqilligi va murakkabligini ifodalaydi. Bazaviy daraja umumiy raqamli vositalardan yo‘riqnoma asosida xavfsiz foydalanishni; kasbiy-funksional daraja muayyan bank jarayonida raqamli vositani mustaqil qo‘llashni; tahliliy daraja ma’lumotlar sifati, modellar va noodatiy vaziyatlarni tahlil qilishni; boshqaruv darajasi esa raqamli o‘zgarishlarni loyihalash, risklarni boshqarish va bo‘linmalararo hamkorlikni tashkil etishni anglatadi. Darajalarni lavozim iyerarxiyasi bilan tenglashtirish maqsadga muvofiq emas: masalan, ma’lumotlar tahlilchisi rahbar bo‘lmasa ham yuqori tahliliy darajaga, mijozlar bo‘linmasi rahbari esa texnik jihatdan chuqur mutaxassis bo‘lmagan holda raqamli o‘zgarishlarni boshqarish kompetensiyasiga ehtiyoj sezishi mumkin.

Kasbiy-kompetensiyaviy tafovut — bu mehnat funksiyasini sifatli bajarish uchun talab etiladigan kompetensiya darajasi bilan xodimning amaldagi darajasi o‘rtasidagi farqdir. Uni faqat xodimning o‘zini o‘zi baholashi asosida aniqlash bir tomonlama natija beradi. Shu bois kompleks baholash to‘rtta manbani birlashtiradi: o‘zini o‘zi baholash, amaliy topshiriq, bevosita rahbar bahosi va ekspert intervyusi. Zarur hollarda bu ma’lumotlar operatsiya davomiyligi, xatolar, qayta ishlash, mijoz murojaatlari va xizmat sifati kabi real mehnat ko‘rsatkichlari bilan tekshiriladi.

Baholash natijasida tafovutlarning to‘rtta turi ajratiladi. Defitsit tafovutda xodimning amaldagi darajasi talab etiladigan darajadan past bo‘ladi. Yashirin tafovutda bilim mavjud, lekin u ish jarayonida qo‘llanmaydi; bunga jarayon, rag‘bat yoki rahbarlik sharoitlari to‘sqinlik qilishi mumkin. Tarkibiy tafovutda mavjud ko‘nikma joriy mehnat funksiyasida talab qilinmaydi va xodimning salohiyati to‘liq foydalanilmaydi. Istiqbolli tafovut esa bugungi talab bajarilgan bo‘lsa-da, yangi mahsulot, texnologiya yoki tartibga solish talabi yaqin kelajakda yangi kompetensiya zaruratini yuzaga keltirishini anglatadi. Bunday tipologiya o‘qitish shakli va investitsiya ustuvorligini aniq tanlash imkonini beradi.

Har bir xodim uchun “kasbiy guruh — mehnat funksiyasi — raqamli kompetensiya — talab etiladigan daraja” matritsasi hamda raqamli kasbiy profil shakllantiriladi. Profil talab etiladigan va amaldagi kompetensiyalarni, tafovut turi va hajmini, individual rivojlanish trayektoriyasini, muddatni, mas’ul shaxsni va kutilayotgan mehnat natijasini birlashtiradi. Individual trayektoriya faqat kursdan iborat bo‘lmay, amaliy topshiriq, ustozlik, loyiha ishi, ish joyida rotatsiya, mikromodul va qayta baholashni

qamrab olishi mumkin. Bu yondashuv ta’limni xodimning real vazifasi va bank strategiyasi bilan bevosita bog‘laydi.

Investitsiyalar natijadorligini iqtisodiy baholash

Kasbiy rivojlanishga yo‘naltirilgan investitsiyalarning to‘liq qiymati faqat ta’lim xizmatiga to‘langan mablag‘ bilan cheklanmaydi. U dastur yoki platformaning bevosita qiymati, xodimning o‘qishga sarflagan haq to‘lanadigan ish vaqti, ichki ustozlar va ekspertlar vaqti, diagnostika, raqamli infratuzilma, baholash hamda tashkiliy kuzatuv xarajatlarini o‘z ichiga oladi. Xarajatlarning to‘liq hisobga olinishi turli dasturlarni xolis taqqoslash, yashirin xarajatlarni aniqlash va bir xodimning maqsadli kompetensiya darajasiga erishish qiymatini hisoblash imkonini beradi. Inson kapitaliga investitsiya sifatida qaralgan kasbiy rivojlanish kelgusida mehnat unumdorligi, xizmatlar sifati va bank barqarorligining o‘sishiga xizmat qilishi lozim [4. 2023:B.42–48; 8. 2019].

Natijadorlikni baholash beshta ketma-ket darajada amalga oshiriladi: investitsiya xarajatlari, kompetensiyani egallash, kompetensiyaning ish joyida qo‘llanishi, mehnat natijasining o‘zgarishi va iqtisodiy yoki ijtimoiy-kasbiy natija. Kursni tugatish kompetensiya egallanganini, test balining o‘sishi esa ko‘nikma ish joyida qo‘llanayotganini avtomatik ravishda isbotlamaydi. Shu sababli markaziy mezon — egallangan kompetensiyaning real mehnat funksiyasida qo‘llanishidir. Mehnat natijasi operatsiyalar davomiyligi, xatolar va takroriy ishlovlar, moslashuv davri, xizmat sifati va ichki kasbiy harakatchanlik orqali o‘lchanadi. Iqtisodiy natijaga faqat hujjatlar bilan tasdiqlangan manfaatlar kiritiladi.

Muallif modelida jami iqtisodiy manfaat ish vaqtini tejash, xatolarni tuzatish xarajatlarini qisqartirish, yangi yoki boshqa raqamli funksiyaga o‘tkazilgan xodimlar moslashuvini tezlashtirish, asoslanmagan o‘quv xarajatlarini bo‘shatish hamda ichki ustozlik va standart modullar hisobiga to‘g‘ridan to‘g‘ri xarajatlarni kamaytirishdan shakllanadi. Sof iqtisodiy natija jami iqtisodiy manfaat bilan to‘liq investitsiya o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Investitsiyalar qaytimi koeffitsiyenti jami iqtisodiy manfaatning jami investitsiyaga nisbati orqali, qoplanish muddati esa yillik hisob davrida manfaatning shakllanish tezligi asosida hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichlarni klassik moliyaviy daromadlilik bilan adashtirmaslik kerak: mazkur koeffitsiyent kasbiy rivojlanish dasturiga yo‘naltirilgan har bir so‘mga to‘g‘ri keladigan hujjatlashtirilgan manfaatni ifodalaydi.

Hisob-kitob-senariy modelining boshlang‘ich bazasi 120 nafar xodimdan, ya’ni ikki tayanch bankda 60 nafardan iborat pilot guruhni qamrab oladi. Xodimlar mijozlar bilan ishlash, kreditlash, risk-tahlil, nazorat, texnologik va boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi oltita guruhga ajratilgan. Yillik standartlashtiriladigan operatsiyalar hajmi 180 mingta, bitta operatsiyaning o‘rtacha boshlang‘ich davomiyligi 20 daqiqa, xato yoki takroriy ishlov talab qiladigan operatsiyalar ulushi 5,0%, bitta xatoni tuzatish mehnat sig‘imi 1,5 kishi-soat deb qabul qilingan. Yangi yoki raqamli funksiyaga o‘tkaziladigan xodimlar soni yiliga 30 nafar, pilot guruhning boshlang‘ich kasbiy rivojlanish byudjeti esa 1 440,0 mln so‘mni tashkil etadi. Mazkur qiymatlar faktik natija emas, balki iqtisodiy hisoblash mexanizmini sinash va joriy etish maqsadlarini belgilashga xizmat qiluvchi senariy parametrlaridir.

Bazaviy ssenariyda 120 nafar xodimning o‘rtacha raqamli kompetensiya darajasi 2,2 balldan 2,7 ballga oshishi, ustuvor kasbiy-kompetensiyaviy tafovutlarning 55,0% xodimda bartaraf etilishi va yangi ko‘nikmalarning 70,0% xodim tomonidan ish jarayonida qo‘llanishi nazarda tutiladi. Operatsiyalar davomiyligi 10,0%ga, xatolar va takroriy ishlovlar 15,0%ga kamayadi, yangi yoki raqamli funksiyaga o‘tkazilgan xodimlarning moslashuv davri 10 ish kuniga qisqaradi. O‘quv byudjetining 80,0%i hujjatlar bilan tasdiqlangan tafovutlarga yo‘naltiriladi, asossiz yoki takroriy xarajatlar 15,0%ga qisqartiriladi, dasturlarning 45,0%ida ichki ustozlardan foydalaniladi.

Ushbu parametrlar asosida bazaviy ssenariydagi to‘liq investitsiya 1 241,7 mln so‘mni tashkil etadi. Hisoblangan jami iqtisodiy manfaat 1 631,3 mln so‘mga, sof iqtisodiy natija 389,6 mln so‘mga teng bo‘ladi. Investitsiyalar qaytimi koeffitsiyenti 1,31 ni, hisoblangan qoplanish muddati 9,1 oyni tashkil etadi. Konservativ ssenariyda 828,2 mln so‘m investitsiya 830,6 mln so‘m manfaat va 2,3 mln so‘m sof natija yaratib, qoplanish muddati 12 oyga teng bo‘ladi. Maqsadli ssenariyda esa 1 655,1 mln so‘m investitsiya evaziga 2 498,7 mln so‘m jami manfaat, 843,6 mln so‘m sof iqtisodiy natija, 1,51 qaytim koeffitsiyenti va 7,9 oylik qoplanish muddati shakllanishi mumkin.

Senariylar o‘rtasidagi farq investitsiya hajmining oddiy ko‘payishi bilan emas, balki diagnostikaning aniqligi, o‘quv resurslarining tasdiqlangan tafovutlarga manzilli yo‘naltirilishi, ko‘nikmalarning ish joyiga ko‘chirilishi va natijalarni hujjatlashtirish darajasi bilan izohlanadi. Shu jihatdan eng katta iqtisodiy zaxira o‘qitish xarajatlarini shunchaki kamaytirishda emas, balki natija bermaydigan dasturlarni to‘xtatish, ichki ustozlikni kengaytirish, standart modullarni qayta ishlatish hamda mehnat jarayonidagi xatolar va ortiqcha vaqtni qisqartirishda namoyon bo‘ladi. Kasbiy rivojlanishga investitsiyaning iqtisodiy samarasi texnologiya, xodim kompetensiyasi va mehnat jarayonining yagona tizim sifatida boshqarilishiga bog‘liq [9. 2024:114393].

Xulosa va amaliy takliflar

Tadqiqot natijalari tijorat banklarida kasbiy rivojlanishni alohida o‘quv tadbirlari yig‘indisi emas, balki raqamli inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalar portfeli sifatida boshqarish zarurligini ko‘rsatdi. Bunda boshqaruv obyekti kurslar soni emas, balki bank strategiyasi va mehnat funksiyalari uchun muhim bo‘lgan aniq professional qobiliyatlar bo‘lishi lozim. Raqamli kompetensiyalar tarmoq modeli, kompleks diagnostika, individual rivojlanish trayektoriyasi, to‘liq qiymat hisobi va besh darajali natijadorlik bahosi o‘zaro bog‘langan yagona mexanizmni tashkil etadi.

Amaliyotda, avvalo, har bir tijorat bankida “Xodimlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish” nomli maqsadli byudjet yo‘nalishini joriy etish, mablag‘larni tasdiqlangan kasbiy-kompetensiyaviy tafovut, mehnat funksiyasining strategik ahamiyati, xato xavfi va kutilayotgan mehnat natijasi asosida taqsimlash maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, kompetensiyalar bahosini kadrlar bo‘linmasining ichki tadbiri sifatida emas, jarayon egasi, bevosita rahbar, raqamli yo‘nalish va risk-nazorat bo‘linmalari ishtirokidagi tizimli diagnostikaga aylantirish zarur. Uchinchidan, barcha dasturlar uchun “oldin–keyin” ko‘rsatkichlari, ko‘nikmaning ish joyida qo‘llanish dalillari va hujjatlashtirilgan iqtisodiy manfaat bo‘yicha yagona hisobot shakli qo‘llanishi kerak.

2027–2030-yillarda taklif etilgan yondashuvni bosqichma-bosqich joriy qilish banklarning o‘quv byudjeti manzilliligini oshiradi, takroriy va natijasiz xarajatlarni kamaytiradi, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish muddatini qisqartiradi hamda xodimlarning ichki kasbiy harakatchanligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, senariy natijalari reja ko‘rsatkichlari sifatida qabul qilinishi, har bir bankda faktik ish haqi, operatsiyalar hajmi, xatolar, moslashuv davri va dastur xarajatlari asosida qayta hisoblanishi lozim. Faqat hujjatlar bilan tasdiqlangan manfaatlarning hisobga olinishi kasbiy rivojlanish investitsiyalarining ishonchli iqtisodiy bahosini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurakhmanov K.X., Ismailov S.S. Raqamli transformatsiya sharoitida O‘zbekiston bank tizimi inson kapitalini rivojlantirishda strategik investitsiyalarning roli // Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali. – Toshkent, 2024. – T. 9, № 3. – B. 63–74.
2. Acemoglu D., Restrepo P. Automation and New Tasks: How Technology Displaces and Reinstates Labor // Journal of Economic Perspectives. – Nashville: American Economic Association, 2019. – Vol. 33, No. 2. – P. 3–30.
3. Brynjolfsson E., Li D., Raymond L.R. Generative AI at Work // The Quarterly Journal of Economics. – Oxford: Oxford University Press, 2025. – Vol. 140, No. 2. – P. 889–942.
4. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Annual Report 2025. – Tashkent: Central Bank of the Republic of Uzbekistan, 2026. – 86 p.
5. Goyipnazarov S.B. O‘zbekistonda inson kapitalining raqamli rivojlanish holati // Innovatsiyalar va investitsiyalar. – Moskva, 2023. – № 6. – B. 42–48.
6. International Labour Organization. Generative AI and Jobs: A Refined Global Index of Occupational Exposure. – Geneva: ILO, 2025.
7. Oberländer M., Beinicke A., Bipp T. Digital Competencies: A Review of the Literature and Applications in the Workplace // Computers & Education. – Amsterdam: Elsevier, 2020. – Vol. 146. – Article 103752.
8. OECD. OECD Skills Outlook 2025: Building the Skills of the 21st Century for All. – Paris: OECD Publishing, 2025.
9. Phillips J.J., Phillips P.P. ROI Basics. – 2nd ed. – Alexandria, VA: ATD Press, 2019.

10. Porfírio J.A., Carrilho T., Felício J.A., Jardim J. Factors Affecting Digital Transformation in Banking // Journal of Business Research. – Amsterdam: Elsevier, 2024. – Vol. 171. – Article 114393.
11. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2025. – Geneva: World Economic Forum, 2025.

KREATIV IQTISODIYOTDA BITIRUVCHILAR ISH BILAN BANDLIGINI TA’MINLASH MEXANIZMLARI

Xujayeva Vasilina Sergeyevna
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) izlanuvchisi
G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22280359

Annotatsiya. Mazkur tezisda inson kapitalini shakllantirish natijalarini bitiruvchilarning barqaror, mutaxassislikka mos va unumli ish bilan bandligiga aylantirish mexanizmlari tadqiq etilgan. Ish bilan bandlik inson kapitali kapitalizatsiyasining mustaqil bosqichi sifatida talqin qilinib, “ta’lim sifati – birinchi ish o‘rni – kasbiy moslashuv – kreativ iqtisodiyot natijalari” zanjiri asoslangan. 2018–2025-yillar ma’lumotlari bo‘yicha integral inson kapitali indeksi hamda raqamli-kreativ tarmoqlardagi ish bilan bandlik ko‘rsatkichlarining indikativ elastikligi baholangan. Natijalar raqamli-axborot segmentlari ta’lim bazasining kengayishiga ancha sezgir ekanini ko‘rsatdi. Yagona raqamli bitiruvchi trekeri, kompetensiyalar profili, dual ta’lim, amaliyot va hududiy kadrlar buyurtmasini uyg‘unlashtiruvchi ikki konturli mexanizm taklif etilgan.
Kalit so‘zlar: inson kapitali, bitiruvchilar ish bilan bandligi, kreativ iqtisodiyot, birinchi ish o‘rni, raqamli kompetensiyalar, elastiklik, dual ta’lim.
Аннотация. В тезисе исследованы механизмы преобразования результатов формирования человеческого капитала в устойчивую, профильную и продуктивную занятость выпускников. Занятость выпускников обоснована как самостоятельная стадия капитализации человеческого капитала и промежуточное звено между качеством образования и результатами креативной экономики. На основе данных за 2018–2025 годы оценена индикативная эластичность занятости в цифрово-информационных и культурно-досуговых сегментах. Предложен двухконтурный механизм, объединяющий качество подготовки кадров и сопровождение первого рабочего перехода посредством цифрового трекера выпускника, профиля компетенций, дуального обучения, стажировок и регионального кадрового заказа.
Ключевые слова: человеческий капитал, занятость выпускников, креативная экономика, первое рабочее место, цифровые компетенции, эластичность, дуальное обучение.
Abstract. The paper examines mechanisms that convert human capital formation into sustainable, field-related and productive graduate employment. Graduate employment is interpreted as an independent stage of human capital capitalization and as a mediating link between education quality and creative-economy outcomes. Using data for 2018–2025, the study estimates indicative employment elasticity in digital-information and cultural-leisure segments. The results demonstrate that digital and ICT activities respond more strongly to the expansion of the educational base. A two-contour mechanism is proposed, combining education quality with support for the first job transition through a unified graduate tracker, a digital competency profile, dual education, internships and regional workforce demand.
Keywords: human capital, graduate employment, creative economy, first job, digital competencies, elasticity, dual education.

Kirish

Jahon mehnat bozori raqamlashtirish, sun’iy intellektning keng joriy etilishi, platforma mehnati va nomoddiy aktivlar ulushining ortishi ta’sirida tubdan o‘zgarmoqda. Jahon iqtisodiy forumi baholariga ko‘ra, 2030-yilgacha ish o‘rinlarining 22,0% tarkibiy transformatsiyaga uchraydi, 170 mln yangi ish o‘rni yaratiladi, 92 mln ish o‘rni qisqaradi, amaldagi ko‘nikmalarning qariyb 39,0% o‘zgaradi va har 100 nafar xodimdan 59 nafari qayta tayyorlash yoki malaka oshirishga muhtoj bo‘ladi [5. 2025]. Shu bilan birga, kreativ iqtisodiyot ko‘plab mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 0,5–7,3% ini va jami ish bilan bandlikning 0,5–12,5% ini shakllantirmoqda, kreativ xizmatlar eksportining jahon xizmatlar eksportidagi ulushi esa 19,0% ga yaqinlashgan [4. 2024].

O‘zbekistonda muammo oliy ta’limning tez kengayishi bilan yanada dolzarb tus olmoqda. 2024/2025-o‘quv yili boshida mamlakatda 222 ta oliy ta’lim tashkiloti faoliyat yuritgan, talabalar soni 1 432,8 ming nafarga, qabul 381,7 ming nafarga, bitiruvchilar soni esa 211,2 ming nafarga yetgan [2. 2025]. Oliy ta’lim qamrovining o‘sishi inson kapitalini ko‘paytiradi, biroq diplomning o‘zi barqaror va yuqori unumli ish

bilan bandlikni avtomatik ta’minlamaydi. Asosiy ilmiy-amaliy masala ta’limda shakllangan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni birinchi ish o‘rni, kasbiy moslashuv va keyingi professional rivojlanish orqali iqtisodiy natijaga aylantirishdan iborat.

Inson kapitali nazariyasida ta’lim va kasbiy tayyorgarlik shaxsning kelgusidagi unumdorligi hamda daromadini oshiruvchi investitsiya sifatida qaraladi. Biroq zamonaviy mehnat iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan ushbu investitsiyaning haqiqiy qaytimi faqat mehnat bozorida namoyon bo‘ladi. Shu sababli bitiruvchilarning ish bilan bandligi ta’limning tashqi natijasi emas, balki inson kapitali kapitalizatsiyasining mustaqil bosqichidir [1. 2025:B. 5–18]. Kapitalizatsiya bu yerda to‘plangan bilim va kompetensiyalarning unumli mehnat, daromad, kasbiy barqarorlik va yangi iqtisodiy qiymatga aylanishini anglatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli, qiyosiy, institutsional, iqtisodiy-statistik va ekonometrik yondashuvlardan foydalanildi. Asosiy tahliliy model “inson kapitali sifati → bitiruvchilarning ish bilan bandligi → kreativ iqtisodiyot natijalari” ko‘rinishida shakllantirildi. Bunda bitiruvchilarning ish bilan bandligi vositachi bo‘g‘in sifatida qaraladi: oliy ta’limda shakllangan bilim, raqamli ko‘nikma va ijodiy salohiyat avvalo mehnat bozorida tekshiriladi, keyin esa axborot texnologiyalari, media, dizayn, muhandislik, tahliliy xizmatlar va boshqa bilimga asoslangan faoliyatlarda iqtisodiy qiymat yaratadi.

Integral inson kapitali indeksi oliy ta’lim qamrovi indeksi va talabalar soni indeksining geometrik o‘rtachasi sifatida hisoblandi, bunda 2018-yil 100,0 punkt deb qabul qilindi. Kreativ iqtisodiyotning ochiq statistikada kuzatiladigan natijalari sifatida “axborot va aloqa” sohasidagi ish bilan bandlar soni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yuridik shaxslar xodimlari soni hamda san’at, ko‘ngilochar va dam olish faoliyatidagi ish bilan bandlar soni tanlandi. Elastiklik koeffitsiyenti bir ko‘rsatkich 1,0% ga o‘zgarganda ikkinchi ko‘rsatkich necha % ga o‘zgarishini ifodalaydi. Ushbu ko‘rsatkichlar qisqa dinamik qator sharoitida indikativ baho bo‘lib, sabab-oqibat aloqasini mutlaq isbotlamaydi, biroq tarmoqlar sezgirligini taqqoslash imkonini beradi.

Asosiy natijalar

Hisob-kitoblar 2018–2025-yillarda O‘zbekistonda ta’lim bazasi va raqamli-kreativ tarmoqlar dinamikasi bir xil yo‘nalishda kechmaganini ko‘rsatdi. Integral inson kapitali indeksi 100,0 punktdan 442,6 punktgacha oshgan. Shu davrda “axborot va aloqa” sohasidagi ish bilan bandlar soni 62,7 ming nafardan 111,4 ming nafarga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yuridik shaxslar xodimlari soni 40 248 nafardan 97 337 nafarga ko‘paygan. Aksincha, san’at, ko‘ngilochar va dam olish faoliyatidagi ish bilan bandlar soni 65,6 ming nafardan 64,1 ming nafarga kamaygan.

1-jadval

Inson kapitali va kreativ iqtisodiyot ko‘rsatkichlarining indikativ dinamikasi

Ko‘rsatkich	2018	2025*	Elastiklik
Integral inson kapitali indeksi, punkt (2018 = 100,0)	100,0	442,6	—
“Axborot va aloqa” sohasida ish bilan bandlar, ming nafar	62,7	111,4	0,39
AKT sohasidagi yuridik shaxslar xodimlari, nafar	40 248	97 337	0,59
San’at, ko‘ngilochar va dam olish faoliyatida ish bilan bandlar, ming nafar	65,6	64,1	−0,01

Izoh: 2025-yil ko‘rsatkichlari yagona hisoblash mantig‘i asosida operativ ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan; elastiklik qiymatlari indikativ bahodir. Manba: muallif hisob-kitoblari.

Olingan 0,39 elastiklik “axborot va aloqa” sohasidagi ish bilan bandlik ta’lim bazasining kengayishiga ijobiy javob berayotganini ko‘rsatadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari korxonalaridagi xodimlar soni bo‘yicha 0,59 elastiklik yanada yuqori bo‘lib, inson kapitalining raqamli korporativ sektorda tezroq kapitalizatsiya qilinayotganini anglatadi. San’at, ko‘ngilochar va dam olish faoliyatida −0,01 qiymatning qayd etilishi esa ushbu segmentning o‘sib borayotgan bitiruvchilar oqimini yetarli darajada qabul qila olmayotganini va tarmoqda tarkibiy turg‘unlik mavjudligini bildiradi. Demak, kreativ iqtisodiyotning

rivojlanishi bitiruvchilar sonining oddiy ko‘payishidan emas, ularning bilim va kompetensiyalari talab yuqori bo‘lgan tarmoqlarda amaliy qo‘llanishidan kelib chiqadi.

2025-yilda yuz bergan institutsional o‘zgarishlar ushbu xulosani mustahkamlaydi. “Kelajakka qadam” markazlari 14 hududdagi 80 ta oliy ta’lim tashkilotida faoliyat yuritib, bitiruvchilarning 4 529 ta biznes loyihasini 202,1 mlrd so‘m miqdorida moliyalashtirishga ko‘maklashgan. Shu davrda IT Park rezidentlari soni 3 300 tadan oshib, bir yil davomida 10 000 ta yangi ish o‘rni yaratilgan. Ushbu jarayonlar oliy ta’lim, bitiruvchilarning ish bilan bandligi, raqamli tadbirkorlik va bilimga asoslangan xizmatlar eksportini yagona takror ishlab chiqarish zanjiriga birlashtirish zarurligini ko‘rsatadi [3. 2025].

Taklif etilayotgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm

Bitiruvchilar inson kapitalini samarali kapitalizatsiya qilish uchun davlat siyosatini ikki konturli tizim asosida tashkil etish taklif etiladi. Birinchi kontur oliy ta’lim sifati, ta’lim dasturlarining mehnat bozori talablariga mosligi, amaliy ko‘nikmalar va raqamli kompetensiyalarni shakllantirishni qamrab oladi. Ikkinchi kontur esa bitiruvchini birinchi ish o‘rniga olib chiqish, kasbiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlash, ish joyida mustahkamlanishini kuzatish hamda ish beruvchi bilan teskari aloqani ta’minlaydi. Mazkur ikki kontur uzviy bog‘lanmasa, ta’limga yo‘naltirilgan investitsiyalarning bir qismi mehnat bozorida yo‘qotiladi.

Birinchi amaliy vosita sifatida yagona raqamli bitiruvchi trekerini joriy etish maqsadga muvofiq. Treker bitiruvchining mehnat holatini o‘qishni tugatganidan keyin 6, 12 va 24 oyda qayd etishi kerak. Unda faqat ishga joylashgan yoki joylashmaganlik emas, balki birinchi ishni qidirish muddati, ishning mutaxassislikka mosligi, mehnat munosabatlarining rasmiyligi, ish joyining barqarorligi, daromad dinamikasi, kompetensiyalardan foydalanish darajasi, kasbiy o‘sish va tadbirkorlikka o‘tish holati ham aks ettirilishi lozim. Bunday tizim oliy ta’lim tashkilotlari, ish beruvchilar va davlat organlari uchun real vaqtga yaqin boshqaruv ma’lumotlarini yaratadi.

Ikkinchi vosita bitiruvchining raqamli kompetensiyalar profilidir. Profil an’anaviy bilimlarni takrorlash bilan cheklanmasdan, vazifani sun’iy intellekt tizimiga to‘g‘ri qo‘ya olish, olingan natijani tekshirish, ma’lumotlar ishonchliligini baholash, mualliflik huquqi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish talablariga rioya etish, loyiha jamoasida muloqot qilish hamda yangi texnologiyalarga moslashish qobiliyatlarini o‘lchashi zarur. Ushbu kompetensiyalar bazaviy, amaliy va ilg‘or darajalarda diagnostika qilinishi, natijalar esa raqamli portfolioda qayd etilishi kerak. Bu ish beruvchi uchun diplomdan tashqari aniq va tekshiriladigan kasbiy signalni shakllantiradi.

Uchinchi yo‘nalish oliy ta’lim va mehnat bozorini amaliy jihatdan yaqinlashtirishdir. Buning uchun dual ta’lim, haq to‘lanadigan stajirovkalar, “oliy ta’lim tashkiloti – ish beruvchi – talaba” uch tomonlama shartnomalari, loyiha asosidagi ta’lim va korxona mutaxassislari ishtirokidagi yakuniy baholash kengaytirilishi lozim. Hududiy kadrlar buyurtmasi uchta axborot manbaini: ish beruvchilarning joriy ehtiyojini, hududiy investitsiya loyihalarining kelgusi talabini va raqamli platformalardagi vakansiyalar dinamikasini birlashtirishi zarur. Yetishmayotgan kompetensiyalar mikromalakalar va qisqa qayta tayyorlash modullari orqali tezkor to‘ldirilishi mumkin.

To‘rtinchi yo‘nalish bitiruvchilarning loyiha va tadbirkorlik asosidagi ish bilan bandligini kengaytirishdir. “Kelajakka qadam” markazlari faqat kredit yoki grant ajratuvchi tuzilma emas, balki biznes g‘oyani tanlash, bozorni tekshirish, mentorlik, moliyaviy rejalashtirish, mahsulotni raqamli bozorlarga olib chiqish va dastlabki ish o‘rinlarini yaratishni kuzatuvchi integral platforma sifatida ishlashi kerak. Natijadorlik ajratilgan mablag‘ miqdori bilan emas, balki 12 va 24 oy davomida faoliyatini saqlab qolgan loyihalar, yaratilgan rasmiy ish o‘rinlari, daromad va eksport tushumi orqali baholanishi maqsadga muvofiq.

Xulosa

Tadqiqot natijalari inson kapitali bilan kreativ iqtisodiyot o‘rtasidagi bog‘liqlik bevosita emas, balki bitiruvchilarning ish bilan bandligi orqali shakllanishini ko‘rsatdi. Ta’lim qamrovi va talabalar sonining o‘sishi iqtisodiy natijaga faqat bilim va ko‘nikmalar birinchi ish o‘rni, mutaxassislikka mos mehnat, professional moslashuv, loyiha va tadbirkorlik faoliyati orqali kapitalizatsiya qilinganda aylanadi. 2018–2025-yillar bo‘yicha baholash raqamli-axborot va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari segmentlari inson kapitali kengayishiga eng sezgir ekanini, an’anaviy madaniy-ko‘ngilochar segment esa o‘sib borayotgan bitiruvchilar oqimini yetarli darajada qabul qilmayotganini aniqladi.

O‘zbekiston sharoitida amaliy ustuvorlik oliy ta’lim sifati va bitiruvchining birinchi ish o‘rniga o‘tishini yagona boshqaruv tizimiga birlashtirishdan iborat. Raqamli bitiruvchi trekeri, kompetensiyalar profili, dual ta’lim, stajirovka, hududiy kadrlar buyurtmasi va “Kelajakka qadam” mexanizmlarini uyg‘unlashtirish ta’lim investitsiyalarining qaytimini oshiradi, malaka nomuvofiqligini kamaytiradi hamda bitiruvchilarni kreativ iqtisodiyotning yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlariga yo‘naltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov Q.X., Zokirova N.K. Zamonaviy mehnat iqtisodiyoti. – Moskva: Delo, 2025. – 740 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim: statistik press-reliz. – Toshkent, 2025.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PQ-61-son “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2025.

4. UNCTAD. Creative Economy Outlook 2024. – Geneva: United Nations, 2024.

5. World Economic Forum. Future of Jobs Report 2025. – Geneva: World Economic Forum, 2025.

TOJIKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK UCHUN RAQAMLI SOLIQ SERVISI MODELI

Najmiddinov Munirchon Muzaffarovich
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasiga talabgor
Tojikiston Milliy fanlar akademiyasi
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22280480

Annotatsiya. Tezisda Tojikiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlariga soliq xizmati ko‘rsatishning raqamli modeli asoslangan. Jami soliq-ma’muriy yukni fiskal to‘lovlar, hisob va hisobot xarajatlari, tadbirkor vaqtining qiymati, raqamli xarajatlar hamda soliq xavflari orqali baholash yondashuvi qo‘llanilgan. Yagona raqamli kabinet, oldindan to‘ldirilgan deklaratsiya, risk-profillash va mobil mikrorejimni birlashtiruvchi modelning maqsadli ko‘rsatkichlari hamda hisob-kitob samaralari ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: kichik tadbirkorlik, soliqqa tortish, raqamli soliq servisi, soliq-ma’muriy yuk, risk-profillash, soddalashtirilgan rejim, elektron savdo.
Аннотация. В тезисе обоснована цифровая модель налогового обслуживания субъектов малого предпринимательства в Республике Таджикистан. Совокупная налогово-административная нагрузка оценивается с учётом фискальных платежей, расходов на учёт и отчётность, стоимости времени предпринимателя, цифровых затрат и налоговых рисков. Разработаны целевые показатели и расчётные эффекты модели, объединяющей единый цифровой кабинет, предварительно заполненную декларацию, риск-профилирование и мобильный микрорежим.
Ключевые слова: малое предпринимательство, налогообложение, цифровой налоговый сервис, налогово-административная нагрузка, риск-профилирование, упрощённый режим, электронная торговля.
Abstract. The thesis substantiates a digital tax service model for small business entities in the Republic of Tajikistan. The total tax-administrative burden is assessed by combining fiscal payments, accounting and reporting costs, the value of entrepreneurial time, digital expenses and tax risks. Target indicators and estimated effects are developed for a model integrating a unified digital account, pre-filled tax returns, risk profiling and a mobile micro-regime.
Keywords: small business, taxation, digital tax service, tax-administrative burden, risk profiling, simplified regime, e-commerce.

Kirish

Kichik va o‘rta tadbirkorlik ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish, raqobat muhitini rivojlantirish va soliq bazasini kengaytirishning muhim institutsional manbai hisoblanadi. Jahon miqyosida kichik va o‘rta korxonalar biznes subyektlarining qariyb 90,0%ini tashkil etib, ish bilan band aholining yarmidan ko‘pini qamrab oladi [7. 2024]. Shu sababli kichik biznesni soliqqa tortish faqat budjet tushumlarini shakllantiruvchi fiskal vosita sifatida emas, balki tadbirkorlikni rasmiylashtirish, norasmiy faoliyatni qisqartirish va davlat bilan biznes o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash mexanizmi sifatida baholanishi lozim.

Tojikiston Respublikasida 2024-yil 1-aprel holatiga 352,4 mingta faol xo‘jalik yurituvchi subyekt ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ularning 318,5 mingtasini yakka tartibdagi tadbirkorlar tashkil etgan [5. 2024]. Jahon bankining 2024-yilgi korxonalar so‘rovida soliq stavkalarini asosiy to‘siq sifatida barcha firmalarning 37,0%i va kichik firmalarning 38,0%i ko‘rsatgan [8. 2025:B.1]. Mazkur ko‘rsatkichlar soliq siyosatini faqat stavkalar nuqtayi nazaridan emas, balki rejimga kirish mezonlari, hisobot tartibi, soliq organlari bilan aloqalar soni, raqamli servislarning qulayligi va tadbirkorning vaqt xarajatlari bilan birgalikda takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Raqamlashtirish soliq organlari faoliyatini qog‘oz hisobot va ommaviy tekshiruvlardan ma’lumotlarga asoslangan servis hamda manzilli nazorat tizimiga o‘tkazish imkonini beradi. Biroq elektron xizmatlar sonining ko‘payishi o‘z-o‘zidan ma’muriy yukni kamaytirmaydi. Raqamli tizim tadbirkordan avvalgi ma’lumotlarni takroran talab qilsa, murakkab identifikatsiya jarayonlarini yuklasa yoki xatoni

tushuntirmasdan avtomatik sanksiya qo‘llasa, raqamlashtirish yangi tranzaksion xarajatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti soliq ma’murchiligining kelajak modeli biznes jarayonlariga integratsiyalashgan, uzluksiz va soliq to‘lovchi uchun kam xarajatli bo‘lishini ta’kidlaydi [3. 2020:B.11-19].

Jami soliq-ma’muriy yukni baholash yondashuvi

Kichik tadbirkorlikning real soliq bosimini aniqlash uchun soliq stavkasi yoki to‘langan soliq summasi yetarli ko‘rsatkich emas. Kichik biznes cheklangan moliyaviy va kadr resurslariga ega bo‘lgani sababli hisob yuritish, deklaratsiya tayyorlash, soliq organiga murojaat qilish, elektron platformalardan foydalanish va nazorat xavfiga moslashish xarajatlari uning daromadiga nisbatan yirik korxonalardagidan yuqori ulushni egallaydi. Shu bois tadqiqotda jami soliq-ma’muriy yuk quyidagi ko‘rinishda baholanadi:

$$JSMY = (ST + HH + VQ + RX + SX) / D \times 100$$

Bu yerda JSMY - jami soliq-ma’muriy yuk; ST - soliq to‘lovlari; HH - hisob va hisobot xarajatlari; VQ - tadbirkor vaqtining puldagi qiymati; RX - raqamli xarajatlar; SX - kutilayotgan soliq xavflari; D - yillik daromad yoki aylanma. Mazkur yondashuv soliq yukining ko‘rinmaydigan, ya’ni nefiskal qismini aniqlash va soliq islohotining natijasini stavka o‘zgarishidan tashqari vaqt, pul va nazorat aloqalari tejalishi bilan o‘lchash imkonini beradi. Soliq tizimining biznesni rasmiy sektorga jalb qilish qobiliyati aynan ushbu xarajatlarning mutanosibligiga bog‘liq [1. 2018:B.6-12].

Mualliflik model hisob-kitobida yillik daromadi 120,0 ming somoni bo‘lgan tadbirkor uchun 6,0% stavkadagi soliq 7,2 ming somonini tashkil etadi. Biroq yillik 120 soat ma’muriy vaqtning 6,0 ming somonilik qiymati va 3,6 ming somoni buxgalteriya xarajati qo‘shilganda jami yuk 16,8 ming somoniga yoki daromadning 14,0%iga yetadi. Bunda nefiskal xarajatlar 9,6 ming somoni, ya’ni jami yukning 57,1%ini tashkil qiladi. Demak, soliq stavkasini o‘zgartirmasdan ham hisobot va vaqt xarajatlarini kamaytirish orqali tadbirkor uchun sezilarli iqtisodiy samara yaratish mumkin.

Raqamli soliq servisi modelining tarkibi

Taklif etilayotgan raqamli soliq servisi modeli soliq to‘lovchini faqat nazorat obyekti emas, balki davlat xizmatining foydalanuvchisi sifatida ko‘rishga asoslanadi. Modelning markaziy elementi - kichik tadbirkorning yagona raqamli kabinetidir. Unda soliq rejimi, hisobot va to‘lov muddatlari, hisoblangan majburiyatlar, mavjud imtiyozlar, risk maqomi, xatolar haqidagi ogohlantirishlar va ularni tuzatish yo‘llari bir joyda aks ettiriladi. Kabinet tadbirkorni butun soliq davri davomida kuzatib borishi, majburiyat yuzaga kelishidan oldin eslatishi va murakkab normani oddiy tilda tushuntirishi kerak.

Ikkinchi element - oldindan to‘ldirilgan deklaratsiya. Bank tushumlari, onlayn-kassa, elektron hisobvaraq-faktura, davlat reyestrlari va elektron savdo platformalaridan olingan ma’lumotlar asosida hisobot avtomatik shakllantiriladi. Tadbirkor deklaratsiyani boshidan tuzmaydi, balki tayyor ma’lumotlarni tekshiradi, tasdiqlaydi yoki asoslangan tuzatish kiritadi. Elektron hisobvaraq-fakturalar va raqamli to‘lovlar soliq intizomini oshirish bilan birga ma’lumotlarning aniqligi va tekshiruvlarning manzilliligini kuchaytirishi xalqaro tadqiqotlarda ham qayd etilgan [2. 2019:B.4-18].

Uchinchi element - “raqamli signal - ogohlantirish - ixtiyoriy tuzatish - manzilli nazorat” ketma-ketligiga asoslangan risk-profillash tizimidir. Integral xavf koeffitsiyentida fiskal blokka 30,0%, hisobot va to‘lov bloklariga 20,0%dan, raqamli va xulq-atvor bloklariga 15,0%dan vazn beriladi. 0-30 ball olgan subyektlar past xavfli, 31-60 ball olganlar o‘rta xavfli, 60 balldan yuqori natijaga ega subyektlar yuqori xavfli guruhga kiritiladi. Past xavfli tadbirkorga servis va avtomatik tasdiqlash, o‘rta xavfli subyektga elektron tushuntirish hamda ixtiyoriy tuzatish, yuqori xavfli operatsiyalarga esa chuqur tahlil va manzilli nazorat qo‘llaniladi. Bunday tabaqalashtirish halol soliq to‘lovchilarga bosimni kamaytirib, soliq organlari resurslarini haqiqiy xavfga yo‘naltiradi.

Model maxsus raqamli kabinet, oldindan to‘ldirish, bank-kassa va davlat reyestrlari integratsiyasi hamda risk-profillash bosqichlarida joriy etiladi. Pilot loyiha Dushanbe shahri, Sug‘d viloyati va raqamli infratuzilmasi cheklangan bitta qishloq hududida o‘tkazilishi hududiy tafovutlarni aniqlash imkonini beradi.

1-jadval. Raqamli soliq servisi pilotining maqsadli ko‘rsatkichlari

Pilot ko‘rsatkichi	Maqsadli qiymat
Raqamli kabinet bilan qamrov	kamida 80%
Oldindan to‘ldirilgan deklaratsiyalar	kamida 70%
Elektron to‘lovlar ulushi	kamida 90%
100 ta deklaratsiyaga to‘g‘ri keladigan xatolar	kamida 30%ga kamayish
Ogohlantirishdan keyingi ixtiyoriy tuzatishlar	kamida 60%
Shaxsiy murojaatlar	kamida 40%ga kamayish

Manba: muallif taklifi.

Hisob-kitob samaralari va amaliy takliflar

Raqamli soddalashtirish ssenariysida hisobotga sarflanadigan vaqtni 120 soatdan 60 soatga, buxgalteriya xizmatlari xarajatini 3,6 ming somonidan 1,8 ming somoniga qisqartirish ko‘zda tutiladi. Soliq stavkasi 6,0% darajasida saqlangan holda jami yuk 16,8 ming somonidan 12,0 ming somoniga, ya’ni daromadning 14,0%idan 10,0%iga kamayadi. Bir tadbirkor uchun yillik iqtisod 4,8 ming somoni yoki 28,6%ni tashkil etadi. Amalda raqamli tasdiqlangan daromaddan 4,0% soliq undiriladigan mikrorejimda jami xarajat 7,4 ming somoniga yoki daromadning 6,2%iga tushib, amaldagi tartibga nisbatan 9,4 ming somoni, ya’ni 56,0% iqtisod yaratiladi.

Soddalashtirilgan rejimlar uchun uch bosqichli “soliq o‘sish zinasi” taklif etiladi: xodimsiz o‘zini o‘zi ish bilan band qilgan shaxslar va mikrotadbirkorlar uchun mikrorejim; yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda kichik yuridik shaxslar uchun bazaviy soddalashtirilgan rejim; umumiy rejimga yaqinlashayotgan subyektlar uchun kengaytirilgan soddalashtirilgan rejim. Belgilangan aylanma chegarasi 10-20%ga oshganda, aylanmaning raqamli shaffofligi ta’minlangan shartda, bir soliq davri davomida soddalashtirilgan tartibni saqlab turuvchi o‘tish koridori qo‘llanilishi lozim. Bu keskin soliq sakrashining oldini olib, biznesni daromadni yashirish yoki sun’iy ravishda bo‘linishga undaydigan rag‘batlarni kamaytiradi.

Tojikistonda xo‘jalik yurituvchi subyektlar tekshiruvlari soni 2016-yildagi 300,0 mingtadan 2024-yilda 42,0 mingtaga, ya’ni 86,0%ga qisqargan bir paytda, bir tekshiruvga to‘g‘ri keladigan qo‘shimcha hisoblangan summa 2020-2023-yillarda 0,37 mln somonidan 1,40 mln somoniga yoki qariyb 3,8 barobarga oshgan. Bu nazoratning ommaviyligi emas, manzilliligi samarali ekanini ko‘rsatadi. Past xavfli subyektlarga nisbatan tekshiruvlarni yana 20,0%ga qisqartirish 8,4 mingta ortiqcha nazorat aloqasini bartaraf etishi mumkin. Har bir aloqa 8 soat va tadbirkor vaqtining bir soati 50 somoni deb baholansa, biznes vaqtining minimal yillik tejalishi 3,36 mln somonini tashkil etadi.

Elektron savdoda ijtimoiy tarmoqlar, marketpleyslar va yetkazib berish xizmatlari orqali ishlaydigan mikrosotuvchilar uchun mobil ro‘yxatdan o‘tish, raqamli chek, avtomatik aylanma hisobi va soddalashtirilgan to‘lovga asoslangan alohida rejim zarur. 365,3 mingta faol soliq to‘lovchi bazasining qo‘shimcha 2,0%ini rasmiy sektorga jalb etish qariyb 7,3 mingta subyektni legallashtirishi mumkin. O‘rtacha yillik aylanma 120,0 ming somoni bo‘lganda 876,0 mln somoni rasmiy aylanma va 4,0% model stavkada qariyb 35,0 mln somoni qo‘shimcha soliq tushumi shakllanadi. Mazkur hisob-kitob stavkani oshirish emas, soliq bazasini xizmat va qulaylik orqali kengaytirish fiskal jihatdan samaraliroq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Xulosa

Kichik tadbirkorlikni soliqqa tortish samaradorligini baholashda bevosita soliq to‘lovlari bilan cheklanib qolish real iqtisodiy yukni to‘liq aks ettirmaydi. Hisob va hisobot xarajatlari, tadbirkor vaqtining qiymati, raqamli talablar va soliq xavflarini jami soliq-ma’muriy yuk tarkibiga kiritish soliq siyosatining biznes xulq-atvoriga ta’sirini aniqroq baholash imkonini beradi. Mualliflik hisob-kitobi nefiskal xarajatlar jami yukning 57,1%igacha yetishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Taklif etilayotgan raqamli soliq servisi modeli yagona kabinet, oldindan to‘ldirilgan deklaratsiya, bank va kassa ma’lumotlari integratsiyasi, elektron ogohlantirish, masofaviy maslahat, risk-profillash va mobil mikrorejimni yagona tizimga birlashtiradi. Pilot natijalari elektron xizmatlar soni bilan emas, hisobot vaqtining, xatolar va shaxsiy murojaatlarning kamayishi, ixtiyoriy tuzatishlarning ko‘payishi hamda tekshiruvlarning risk-profili asosida tanlanishi bilan baholanishi lozim.

Modelni amaliyotga joriy etishda ma’lumotlarni davlat organlariga bir marta taqdim etish tamoyili, avtomatik qarorning tushuntirilishi, risk maqomi ustidan shikoyat qilish huquqi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlik kafolatlari normativ jihatdan mustahkamlanishi zarur. Qishloq hududlari uchun mobil va oflayn yordam kanallari, soliq hamda raqamli savodxonlik dasturlari yaratilishi raqamli tengsizlikni kamaytiradi. Shu shartlar bajarilganda raqamlashtirish nazoratni kuchaytirish vositasidan kichik biznesning rasmiy o‘sishi va soliq bazasini kengaytiruvchi servis institutiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Awasthi R., Engelschalk M. Taxation and the Shadow Economy: How the Tax System Can Stimulate and Enforce the Formalization of Business Activities. - Washington, DC: World Bank, 2018. - 37 p.
2. Bellon M., Chang J., Dabla-Norris E., Khalid S., Lima F., Rojas E., Villena P. Digitalization to Improve Tax Compliance: Evidence from VAT E-Invoicing in Peru. - Washington, DC: International Monetary Fund, 2019. - 34 p.
3. OECD. Tax Administration 3.0: The Digital Transformation of Tax Administration. - Paris: OECD Publishing, 2020. - 60 p.
4. OECD. Tax Administration 2024: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies. - Paris: OECD Publishing, 2024. - 210 p.
5. Tojikiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Tojikistonda tadbirkorlik bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. - Dushanbe, 2024.
6. Tojikiston Respublikasi Soliq kodeksi: 2025-yil 11-fevral holatidagi rasmiy matn. - Dushanbe, 2025.
7. World Bank Group. SME Finance. - Washington, DC: World Bank Group, 2024.
8. World Bank. Enterprise Surveys: Tajikistan 2024 Country Profile. - Washington, DC: World Bank, 2025. - 2 p.

GREEN SCORING FOR ENERGY-EFFICIENCY PROJECT FINANCING IN UZBEKISTAN

Oripov Ilkhom Abdullaevich
PhD Applicant in Economics
Tashkent Branch of Plekhanov Russian University of Economics
Tashkent, Republic of Uzbekistan
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22280586

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energetika loyihalarini banklar tomonidan moliyalashtirish uchun yashil skoring metodikasi taklif etiladi. Metodika moliyaviy, energetik, ekologik, institutsional hamda ijtimoiy-hududiy ko‘rsatkichlarni yagona integral bahoga birlashtiradi. Loyihalarni 80–100, 65–79, 50–64 va 50 balldan past toifalarga ajratish kredit shartlari, kafolatlar va davlat ko‘magini erishilgan natija bilan bog‘lash imkonini beradi. Taklif etilgan yondashuv tijorat banklari kredit tavakkalchiligini kamaytirish, xususiy kapitalni jalb etish va energiya tejamkorligining o‘lchanadigan natijalarini ta’minlashga qaratilgan.
Kalit so‘zlar: yashil moliya, yashil skoring, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energetika, bank krediti, aralash moliyalashtirish, energiya auditi.
Аннотация. В статье предложена методика зелёного скоринга для банковского финансирования проектов энергоэффективности и возобновляемой энергетики в Узбекистане. Методика объединяет финансовые, энергетические, экологические, институциональные и социально-региональные показатели в единую интегральную оценку. Классификация проектов по диапазонам 80–100, 65–79, 50–64 и ниже 50 баллов позволяет увязать условия кредита, гарантии и государственную поддержку с подтверждённым результатом. Предлагаемый подход направлен на снижение кредитных рисков коммерческих банков, расширение участия частного капитала и обеспечение измеримого энергосберегающего эффекта.
Ключевые слова: зелёное финансирование, зелёный скоринг, энергоэффективность, возобновляемая энергетика, банковский кредит, смешанное финансирование, энергоаудит.
Abstract. The paper proposes a green scoring methodology for bank financing of energy-efficiency and renewable energy projects in Uzbekistan. The methodology combines financial, energy, environmental, institutional, and socio-regional indicators into a single composite assessment. Classification into the 80–100, 65–79, 50–64, and below-50 score ranges makes it possible to link loan terms, guarantees, and public support to verified project outcomes. The proposed approach is intended to reduce commercial-bank credit risks, mobilise private capital, and ensure measurable energy-saving results.
Keywords: green finance, green scoring, energy efficiency, renewable energy, bank lending, blended finance, energy audit.

Introduction

The transition to a green economy is increasingly determined not only by the availability of renewable energy technologies, but also by the capacity of financial institutions to identify, structure, and monitor projects that generate verifiable economic and environmental effects. Global energy investment was expected to reach approximately USD 3.3 trillion in 2025, with more than USD 2.2 trillion directed to clean-energy technologies, grids, storage, and energy efficiency [International Energy Agency, 2025]. At the same time, the financing gap remains substantial, especially in emerging economies where the cost of capital, currency risk, insufficient project preparation, and weak risk-sharing mechanisms limit private investment [Polzin, 2017: P. 529].

For Uzbekistan, the financing problem has a strategic character. Presidential Resolution No. PP-436 establishes targets to increase renewable-energy capacity to 15.0 GW by 2030, raise the share of renewable sources in electricity generation to more than 30.0%, improve industrial energy efficiency by at least 20.0%, and reduce the energy intensity of gross domestic product by 30.0% [President of the Republic of Uzbekistan, 2022]. Achieving these targets requires a shift from fragmented project support to a financial

architecture that combines bank lending, private investment, international financial resources, public guarantees, subsidies, leasing, energy-service contracts, and project monitoring.

The central research problem is that conventional bank credit analysis primarily assesses the borrower’s cash flow, credit history, debt burden, and collateral. These criteria remain necessary, but they are insufficient for green projects. An energy-efficiency project may repay a loan through lower electricity, natural-gas, heating, and operating costs rather than through additional sales revenue. A renewable-energy project also produces measurable public effects through lower fossil-fuel use, reduced emissions, and a more resilient energy balance. Therefore, the bank must assess both the borrower and the project’s capacity to generate an energy-related cash flow, meaning the monetary savings created by reduced resource consumption.

Research Methodology and Analytical Basis

The research applies systemic and comparative analysis, statistical generalisation, modelling, expert assessment, and investment-project evaluation. The proposed methodology is based on the principle that a green investment project differs from a conventional project because it must simultaneously provide a financial return, energy savings or clean generation, emission reduction, technological modernisation, and a socio-regional effect. This multidimensional nature requires a composite bank assessment rather than a single profitability or collateral indicator.

The analytical results reveal a contradiction in Uzbekistan’s investment structure. Investment in fixed capital increased from UZS 124.2 trillion in 2018 to UZS 507.5 trillion in 2024 and UZS 591.1 trillion in 2025. Investment in electricity, gas, steam supply, and air conditioning reached UZS 78.3 trillion in 2025, equal to 13.3% of total fixed-capital investment. However, the share of foreign investment and loans rose from 24.3% in 2018 to 69.4% in 2024, while the share of commercial-bank credit and other borrowed funds fell from 17.8% to 2.0% and amounted to only 1.9% in 2025 [National Statistics Committee, 2025]. This indicates that domestic banks have not yet become a mass channel for financing green modernisation.

At the same time, green projects already produce measurable outcomes. In 2025, solar and wind power plants generated 10.5 billion kWh of electricity, 2.1 times the 2024 level. Renewable-energy development saved approximately 3.2 billion cubic metres of natural gas and reduced harmful emissions by 4.7 million tonnes. These results demonstrate that energy and environmental effects can be quantified and incorporated into credit decisions rather than treated as non-financial declarations. This is consistent with the international view that the structure of finance influences technological trajectories and the scale of renewable-energy deployment [Mazzucato and Semieniuk, 2018: P. 12].

Proposed Green Scoring Methodology

Green scoring is defined as a composite banking methodology for assessing whether an energy-efficiency or renewable-energy project is financially viable, technically substantiated, environmentally credible, institutionally prepared, and socially relevant. The proposed model assigns a weighted score to five blocks. The financial block has a weight of 30.0%; the energy block, 25.0%; and the environmental, institutional, and socio-regional blocks, 15.0% each.

$$GS = 0.30F + 0.25E + 0.15ENV + 0.15I + 0.15SR$$

In this formula, GS is the integral green score; F is the financial block; E is the energy block; ENV is the environmental block; I is the institutional block; and SR is the socio-regional block. Each block is assessed on a normalised scale from 0 to 100, after which the weighted total is calculated.

The financial block evaluates the borrower’s cash flow, debt burden, payback period, share of own funds, availability of co-financing, and capacity to service debt from both operating income and energy-related savings. The energy block measures expected electricity and natural-gas savings, reduced heat losses, lower energy intensity, renewable electricity generation, and the presence of metering equipment. The environmental block assesses emission reduction, compliance with a green taxonomy, the absence of significant negative effects, and the possibility of external verification.

The institutional block verifies whether the project has an energy audit, a documented baseline, technical and design documentation, necessary permits, equipment-supply contracts, technical expertise, and a monitoring mechanism. The socio-regional block measures reductions in household or public-sector expenditure, job creation, benefits for small business, territorial significance, the modernisation of schools

and hospitals, and lower pressure on local grids and budgets. Thus, the model prevents the classification of a project as green solely because of its title or technology.

The resulting score is connected directly to the financing decision. Projects scoring 80–100 points are classified as priority green projects and may receive preferential interest rates, partial guarantees, faster credit assessment, or access to international credit lines. Projects scoring 65–79 points may be financed under standard green conditions with regular monitoring. Projects scoring 50–64 points require technical revision, an additional energy audit, stronger co-financing, or additional collateral. Projects scoring below 50 points should not obtain green-finance status, even when they formally belong to the energy-efficiency or renewable-energy sector.

Implementation Mechanism

Practical application of green scoring should cover the entire project cycle. First, the applicant prepares a green project passport containing the project type, region, investment volume, financing sources, baseline energy consumption, expected savings, payback period, emission effect, and number of beneficiaries. Second, an energy audit confirms the baseline and determines the technical measures required. Third, the bank calculates the five scoring blocks and the integral score. Fourth, financing is structured by combining the borrower’s funds, bank credit, international resources, subsidies, guarantees, leasing, or an energy-service contract. Finally, post-project monitoring compares expected and actual energy savings.

This sequence converts green financing from the logic of “funds disbursed” to the logic of “verified effect achieved.” The transition is important for public buildings because energy savings must reduce current budget expenditure. It is equally important for banks because future savings can be recognised as a source of loan repayment. Presidential Decree No. UP-63 provides an institutional basis for energy audits, energy-service companies, specialised support funds, and bank financing of energy-service projects [President of the Republic of Uzbekistan, 2025].

The scoring system should also be linked to a differentiated guarantee mechanism. For small enterprises, farms, housing and communal-service projects, and households with strong green scores but insufficient collateral, a partial guarantee of 30.0–50.0% of the loan amount is economically justified. The guarantee must not replace credit analysis; it should compensate only the part of risk that arises from limited collateral or the innovative nature of the technology. Projects with weak scores should not receive a public guarantee because this would create moral hazard and shift responsibility from the borrower and bank to the state.

A practical foundation for specialised products already exists. Uzbekistan’s mortgage refinancing institution reported a UZS 50.0 billion green bond issue used to refinance green-renovation loans. By 2025, payments under the green-renovation product reached UZS 71.2 billion, while total financing under the green-repair product amounted to UZS 247.6 billion [Uzbekistan Mortgage Refinancing Company, 2025]. Integrating such products into a standardised scoring framework would make their eligibility criteria, risk pricing, and monitoring more transparent.

Policy and Banking Recommendations

For commercial banks, the green score should become part of the credit memorandum and the automated loan-decision process. Interest rates, loan maturity, collateral requirements, and guarantee coverage should be differentiated according to the score. A high score should not automatically mean a low financial risk; rather, it should provide additional evidence that the project creates stable savings, has verified technology, and can generate a predictable energy-related cash flow. Traditional creditworthiness analysis and green scoring should therefore operate jointly.

For public authorities, the methodology should support a unified national register of green projects. The register should classify projects by region, sector, beneficiary, investment volume, payback period, financing structure, expected energy savings, and actual results. Subsidies and guarantees should be conditional on initial verification and subsequent monitoring. A portion of public support may be retained or adjusted when the project fails to achieve the agreed savings, except where the deviation is caused by objectively verified external factors.

Regional differentiation is also necessary. Industrial regions require priority financing for efficient machinery, waste-heat recovery, gas-saving technologies, and production modernisation. Agricultural regions require efficient pumps, solar systems, small hydropower, and lower energy consumption in

irrigation. Urban areas require building renovation, heating-system modernisation, efficient lighting, and digital metering. Areas with high solar and wind potential require distributed generation, storage, and grid infrastructure. The socio-regional block allows these differences to be incorporated into financing decisions.

The methodology has broader market implications. Transparent project classification can support the development of green credit lines, green leasing, energy-service finance, green bonds, and blended-finance facilities. It can also improve investor confidence by reducing the risk of greenwashing, which means presenting a project as environmentally beneficial without sufficient evidence. Green bonds, in particular, require transparent project selection and reporting to maintain investor trust [Flammer, 2021: P. 506].

Conclusion

The development of green finance in Uzbekistan requires more than an increase in available funding. It requires a banking technology that connects creditworthiness, energy savings, environmental credibility, institutional preparedness, and regional development. The proposed green scoring methodology provides such a technology by combining five assessment blocks and linking the composite score to specific financing decisions.

The practical effect of the methodology is expected to arise through better project selection, lower information asymmetry, more targeted public guarantees, wider participation of domestic banks, and stronger mobilisation of private capital. Most importantly, it links financial resources to measurable results: electricity and gas savings, lower operating and budget expenditure, reduced emissions, modernised infrastructure, and improved regional welfare. This result-oriented approach can become an operational element of Uzbekistan’s transition to a sustainable green economy.

References

Flammer C. Corporate green bonds // Journal of Financial Economics. - 2021. - Vol. 142. - Issue 2. - P. 499–516. - DOI: https://doi.org/10.1016/j.jfineco.2021.01.010.

International Energy Agency. World Energy Investment 2025. - Paris: IEA, 2025. - URL: https://www.iea.org/reports/world-energy-investment-2025/executive-summary.

International Renewable Energy Agency. World Energy Transitions Outlook 2025. - Abu Dhabi: IRENA, 2025. - URL: https://www.irena.org/.

Mazzucato M., Semieniuk G. Financing renewable energy: Who is financing what and why it matters // Technological Forecasting and Social Change. - 2018. - Vol. 127. - P. 8–22. - DOI: https://doi.org/10.1016/j.techfore.2017.05.021.

National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Statistical data on energy, investment and economic development of the Republic of Uzbekistan. - Tashkent, 2025. - URL: https://stat.uz/.

Polzin F. Mobilizing private finance for low-carbon innovation: A systematic review of barriers and solutions // Renewable and Sustainable Energy Reviews. - 2017. - Vol. 77. - P. 525–535. - DOI: https://doi.org/10.1016/j.rser.2017.04.007.

President of the Republic of Uzbekistan. Resolution No. PP-436 of 2 December 2022 “On measures to improve the effectiveness of reforms aimed at the transition of the Republic of Uzbekistan to a green economy until 2030”. - URL: https://lex.uz/ru/docs/6303233.

President of the Republic of Uzbekistan. Decree No. UP-63 of 27 March 2025 “On measures to improve public administration in the field of energy efficiency”. - URL: https://lex.uz/ru/docs/7455525.

Taghizadeh-Hesary F., Yoshino N. Sustainable solutions for green financing and investment in renewable energy projects // Energies. - 2020. - Vol. 13. - Issue 4. - Article 788. - DOI: https://doi.org/10.3390/en13040788.

Uzbekistan Mortgage Refinancing Company. Green Bond Report and green-renovation financing data. - Tashkent, 2025.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MEHNAT BOZORI BARQARORLIGINI TA’MINLASH MEXANIZMLARI

SATTAROVA BARNO SHUXRATOVNA
G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining
Toshkent shahridagi filiali mustaqil izlanuvchisi,
Toshkent, O‘zbekiston
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22280678

Annotatsiya. Tezisda O‘zbekiston mehnat bozori barqarorligini raqamli transformatsiyaga moslashtirish mexanizmlari asoslangan. “Raqamli tayyorgarlik - global integratsiya - institutlar sifati” integral yondashuvi asosida sun’iy intellekt ta’sirida kasblardan ko‘ra mehnat vazifalari tarkibi o‘zgarishi ko‘rsatilgan. 2030-yilgacha raqamli kadrlarga ehtiyoj ssenariylari baholanib, uzluksiz ta’lim, vazifalarga asoslangan monitoring, raqamli va “yashil” kompetensiyalar, dual ta’lim hamda davlat-ta’lim-biznes hamkorligini birlashtiruvchi mexanizm taklif etilgan.
Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, mehnat bozori, inson kapitali, ish bilan bandlik, raqamli kompetensiyalar, sun’iy intellekt, “yashil” ko‘nikmalar, uzluksiz ta’lim.
Аннотация. Обоснованы механизмы адаптации рынка труда Узбекистана к цифровой трансформации. На основе взаимосвязи «цифровая готовность - глобальная интеграция - качество институтов» показано, что искусственный интеллект прежде всего изменяет структуру трудовых задач. Оценены сценарии потребности в цифровых кадрах до 2030 года и предложен механизм, объединяющий непрерывное развитие человеческого капитала, мониторинг задач, цифровые и «зелёные» компетенции, дуальное образование и сотрудничество государства, образования и бизнеса.
Ключевые слова: цифровая трансформация, рынок труда, человеческий капитал, занятость, цифровые компетенции, искусственный интеллект, «зелёные» навыки, непрерывное образование.
Abstract. The thesis substantiates mechanisms for adapting Uzbekistan’s labour market to digital transformation. Based on the relationship between digital readiness, global integration and institutional quality, it shows that artificial intelligence primarily changes job tasks. Scenarios of demand for digital professionals up to 2030 are assessed, and a mechanism combining continuous human capital development, task-based monitoring, digital and green skills, dual education and cooperation among government, education and business is proposed.
Keywords: digital transformation, labour market, human capital, employment, digital skills, artificial intelligence, green skills, lifelong learning.

Raqamli transformatsiya mehnat bozorining faqat texnologik asoslarini emas, balki uning institutsional, demografik va ijtimoiy parametrlarini ham qayta shakllantirmoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda jahon miqyosida ishsizlik darajasi 5,0% atrofida saqlangan bo‘lsa-da, yoshlar ishsizligi 12,6% ni tashkil etdi. 2025-yil uchun global ish bilan bandlik o‘sishi prognozining 1,7% dan 1,5% gacha pasaytirilishi yangi ish o‘rinlari sonining 60 mln tadan 53 mln tagacha qisqarishi mumkinligini ko‘rsatadi [5. 2025]. Jahon iqtisodiy forumi baholashicha, 2030-yilgacha mavjud ish o‘rinlarining 22,0% qismi transformatsiyaga uchraydi, 170 mln yangi ish o‘rni yaratiladi, 92 mln ish o‘rni qisqaradi va sof o‘sish 78 mln tani tashkil etadi. Shu davrda asosiy ko‘nikmalarning 39,0% qismi yangilanishi kutilmoqda [9. 2025]. Mazkur tendensiyalar mehnat bozori barqarorligini ish o‘rinlari soni bilangina emas, balki ularning sifati, inson kapitalining moslashuvchanligi va institutlarning o‘zgarishlarga javob berish qobiliyati bilan baholash zarurligini kuchaytiradi.

Zamonaviy mehnat bozori klassik talab va taklif muvozanatidan ancha murakkab tizimdir. Ish haqi, ishchi kuchiga talab va ish bilan bandlik darajasi bozor signallari bilan bir qatorda ta’lim sifati, mehnat qonunchiligi, ijtimoiy himoya, axborot asimmetriyasi, hududiy mobillik, raqamli infratuzilma va ish beruvchilarning texnologik tayyorgarligiga bog‘liq. Shu sababli neoklassik, institutsional va inson kapitaliga asoslangan yondashuvlarni birlashtirish metodologik jihatdan maqsadga muvofiqdir. Inson

kapitali raqamli iqtisodiyotda faqat ma’lumot yoki diplom bilan o‘lchanmaydi; u raqamli savodxonlik, tahliliy fikrlash, ma’lumotlar bilan ishlash, innovatsion moslashuvchanlik, kommunikatsiya, ekologik mas’uliyat va butun hayot davomida o‘qishga tayyorlikni qamrab oluvchi kompleks salohiyatga aylanadi [2. 2025; 3. 2022:B.219-232; 4. 2024:B.75-88].

O‘zbekistonda raqamli va demografik jarayonlarning bir vaqtda kechishi mehnat bozori siyosatiga ikki tomonlama bosim bermoqda. 2025-yilda iqtisodiy o‘sish 6,2% darajasida prognoz qilingan, yilning birinchi yarmida yalpi ichki mahsulot o‘sishi 7,2% ni tashkil etgan. Ishga layoqatli yoshdagi aholiga nisbatan ish bilan bandlik darajasi 53,3% atrofida baholangan, norasmiy ish bilan bandlik esa ishchi kuchining qariyb 40,0% qismini qamrab olmoqda [8. 2025]. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi indeksida mamlakatning 86,5 ball olgani raqamli infratuzilmaning kengayayotganini anglatadi, biroq 2025-yil boshida doimiy aholi sonining 37,5 mln kishiga yetishi yangi ish o‘rinlari va zamonaviy malakalarga ehtiyojni oshiradi. BMT Aholishunoslik jamg‘armasi prognoziga ko‘ra, 2030-yilda O‘zbekiston aholisi 41 mln kishiga yetadi, aholining 55,0% qismi 30 yoshdan kichik bo‘lib qoladi, 65 yosh va undan kattalar soni esa 3,1 mln kishigacha ko‘payadi [7. 2025]. Demografik dividendni iqtisodiy natijaga aylantirish uchun yoshlarning zamonaviy kasblarga kirishini kengaytirish bilan birga, o‘rta va katta yoshdagi xodimlarni qayta tayyorlash zarur.

Tadqiqotda mehnat bozori barqarorligini baholashning “raqamli tayyorgarlik - global integratsiya - institutlar sifati” integral modeli ishlab chiqilgan. Raqamli tayyorgarlik iqtisodiyot va aholining raqamli infratuzilma, texnologiya hamda kompetensiyalardan foydalanish imkoniyatini ifodalaydi. Global integratsiya xizmatlar eksporti, xalqaro qiymat zanjirlari, mehnat mobilligi, xorijiy investitsiyalar va bilimlar almashinuvi orqali mehnatga bo‘lgan talabning tashqi manbalarini belgilaydi. Institutlar sifati esa ta’lim tizimi, kasbiy standartlar, mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish, ijtimoiy sheriklik, ma’lumotlar almashinuvi va xodimlarning huquqiy himoyasi samaradorligini qamrab oladi. Ushbu uch omil bir-birini to‘ldirmasa, texnologik investitsiyalar yangi va sifatli ish o‘rinlariga to‘liq aylanmaydi: raqamli infratuzilma mavjud bo‘lsa-yu, ko‘nikmalar yetarli bo‘lmasa, ish beruvchining talabini qondirish qiyinlashadi; kadrlar tayyorlangan bo‘lsa-yu, institutlar sust bo‘lsa, norasmiy ish bilan bandlik va malaka nomuvofiqligi saqlanib qoladi.

Sun’iy intellekt ta’sirini “qaysi kasb yo‘qoladi?” degan savol bilan cheklash ilmiy va amaliy jihatdan to‘liq emas. Ko‘plab kasblarda butun ish o‘rni emas, balki uning tarkibidagi takroriy, standartlashtiriladigan va ma’lumotni oddiy qayta ishlashga asoslangan vazifalar avtomatlashtiriladi. Xodimning roli qaror qabul qilish, nazorat, murakkab muammolarni hal etish, mijoz bilan muloqot, ijodiy faoliyat va texnologik tizimlarni boshqarishga ko‘proq yo‘naltiriladi. Shuning uchun milliy monitoring kasblar ro‘yxatini kuzatish bilan birga, har bir kasbdagi vazifalar tarkibi, avtomatlashtirish ehtimoli va yangi kompetensiyalar talabini ham baholashi kerak. Vazifalarga asoslangan yondashuv qayta tayyorlash dasturlarini aniq guruhlarga yo‘naltirish, ishsizlik xavfini oldindan aniqlash va davlat mablag‘larining manzilliligini oshirish imkonini beradi.

Muallif hisob-kitoblariga ko‘ra, 2030-yilgacha raqamli kadrlarga ehtiyojning ikki asosiy ssenariysi mavjud. Inersion ssenariyda ta’lim qamrovi kengayadi, biroq dasturlar sifati, ishlab chiqarish bilan integratsiya va hududiy imkoniyatlar sekin yaxshilanadi; natijada yuqori malakali raqamli kadrlar soni 200-230 ming nafar atrofida shakllanishi mumkin. Tezlashgan ssenariyda dual tayyorgarlik, amaliyotga yo‘naltirilgan dasturlar, o‘qituvchilar salohiyati, hududiy kampuslar va ish beruvchilar ishtiroki tizimli yo‘lga qo‘yilib, raqamli kadrlar soni 250-300 ming nafarga yetishi mumkin. Inklyuziv rivojlanish ssenariysida raqamli iqtisodiyotdagi ish o‘rinlarining umumiy ish bilan bandlikdagi ulushi 5,0-7,0% gacha ko‘tarilishi, texnik yo‘nalishlarda xotin-qizlar ulushi 40,0% ga yaqinlashishi mumkin. Ushbu natijaga erishish uchun bitiruvchilarning amaliy tayyorgarligi, ingliz tili, matematika, algoritmik va tizimli fikrlash sifati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Inson kapitalini yangi talablar asosida rivojlantirishning markaziy mexanizmi “ta’lim - qayta tayyorlash - malaka oshirish - ish joyida o‘qitish” uzluksiz zanjirini yaratishdan iborat. Bunda umumiy raqamli savodxonlik barcha kasblar uchun bazaviy kompetensiya bo‘lishi, tarmoq xususiyatiga mos raqamli ko‘nikmalar esa professional ta’lim va oliy ta’lim dasturlariga integratsiya qilinishi lozim. Qishloq xo‘jaligida aniq dehqonchilik va geoma’lumotlar, sanoatda avtomatlashtirilgan boshqaruv va texnik

diagnostika, transportda raqamli logistika, moliyada ma’lumotlar tahlili va kiberxavfsizlik, xizmatlarda platformalar bilan ishlash ko‘nikmalari ustuvor bo‘lishi kerak. OECD tahlillari ham O‘zbekiston xususiy sektorida raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun ta’lim dasturlarini korxonalar ehtiyojiga yaqinlashtirish, ichki o‘quv markazlari va maqsadli rag‘batlantirish instrumentlarini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi [6. 2023].

Raqamli kompetensiyalar “yashil” ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirilgandagina mehnat bozori uzoq muddatli barqarorlikka erishadi. Qayta tiklanadigan energetika, energiya samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik transport, suv tejovchi texnologiyalar va barqaror qishloq xo‘jaligi yangi kasbiy profillarni shakllantirmoqda. Tadqiqot doirasidagi hisob-kitoblarda 2030-yilgacha bazaviy to‘rtta tarmoqda qariyb 140 mingta “yashil” ish o‘rni yaratish imkoniyati baholangan. Biroq bu salohiyatni amalga oshirish uchun “yashil” kasblar va ish o‘rinlarining milliy reyestri, kasbiy standartlar, malaka talablari, sertifikatlash va statistik monitoring tizimi zarur. “Yashil” ko‘nikmalar ekologik soha mutaxassislarigagina emas, balki muhandis, agronom, logist, quruvchi, moliyachi va boshqaruvchilar uchun ham natijaviy modul sifatida joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Mehnat bozorini barqaror tartibga solishning institutsional modeli elektron mehnat munosabatlari, masofaviy va aralash ish, platformaviy ish bilan bandlik, milliy malaka tizimi, dual ta’lim, ijtimoiy sheriklik va raqamli inklyuziyani yagona mexanizmda birlashtiradi. Elektron mehnat shartnomasi va mehnat faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarning o‘zaro bog‘lanishi rasmiy ish bilan bandlikni kengaytiradi, bo‘sh ish o‘rinlari va ish izlovchilar haqidagi ma’lumotlarning aniqligini oshiradi. Masofaviy va platformaviy mehnat uchun ish vaqti, mehnat muhofazasi, ijtimoiy sug‘urta, daromadlarni rasmiylashtirish va algoritmik boshqaruv shaffofligiga doir kafolatlar belgilanishi lozim. Dual ta’limda ish beruvchi faqat amaliyot bazasi emas, balki o‘quv natijalarini belgilash, baholash va moliyalashtirishning hamkor subyekti bo‘lishi kerak.

Taklif etilayotgan amaliy arxitekturaning birinchi bo‘g‘ini vazifalarga asoslangan milliy monitoring va erta ogohlantirish tizimidir. Ushbu tizim vakansiyalar, ish haqi, kasbiy talablar, elektron mehnat shartnomalari, ta’lim bitiruvchilari, malaka sertifikatlari va hududiy demografik ma’lumotlarni integratsiya qilib, qaysi vazifalar avtomatlashtirish xavfi ostida ekanini, qaysi tarmoqlarda yangi kompetensiyalarga talab oshayotganini va qaysi guruhlar ko‘proq qo‘llab-quvvatlashga muhtojligini ko‘rsatadi. Ikkinchi bo‘g‘in sifatida mahalla, tuman va shahar kesimida mehnat bozori pasportlarini shakllantirish taklif etiladi. Ularda ishchi kuchi salohiyati, bo‘sh ish o‘rinlari, norasmiy ish bilan bandlik, migratsiya, qayta tayyorlash ehtiyoji, raqamli infratuzilma va daromad yaratish imkoniyatlari aks ettirilishi kerak. Bu yondashuv hududiy dasturlarni umumiy ko‘rsatkichlarga emas, real ehtiyojlarga asoslash imkonini beradi.

Amaliy arxitekturaning uchinchi bo‘g‘ini individual kompetensiyalarni boshqarishdir. Fuqaroning ta’limi, tajribasi, sertifikatlari va mikro-malakalari aks etadigan raqamli profil ish beruvchiga real ko‘nikmalarni ko‘rish, fuqaroga esa talab bilan o‘z malakasi o‘rtasidagi farqni aniqlash imkonini beradi. Qayta tayyorlash ta’lim vaucherlari, ish beruvchi mablag‘i, natijaga bog‘langan subsidiya va korporativ akademiyalar orqali moliyalashtirilib, davlat yordami sertifikat olish, rasmiy ishga joylashish va daromadning oshishi kabi natijalarga bog‘lanishi kerak.

Tadqiqotda taklif etilgan mexanizmlarning amaliy samarasi aniq natijaviy indikatorlar orqali baholangan. Integral metodologik yondashuv va kadrlarga ehtiyojni prognozlash ayrim tarmoqlarda raqamli kadrlar nomuvofiqligini 12,0-15,0% ga qisqartirish va yuqori malakali kadrlar ulushini 8,0% ga oshirish imkoniyatini yaratadi. Ssenariyli boshqaruv raqamli sohada ish bilan bandlik ulushini 5,0-7,0% ga, mehnat unumdorligini 6,0-8,0% ga oshirishga xizmat qilishi mumkin. Uzluksiz ta’lim mexanizmi raqamli ko‘nikmalarga ega ishchi kuchi ulushini 10,0-12,0% ga, yoshlarning ish bilan bandligini 4,0-5,0% ga oshirish imkonini beradi. Elektron mehnat xizmatlari va rasmiylashtirish jarayonlarini integratsiya qilish ishga joylashish muddatini 18,0-20,0% ga qisqartirish hamda rasmiy ish bilan bandlik ulushini 6,0-7,0% ga oshirish uchun sharoit yaratadi. Mazkur ko‘rsatkichlar maqsadli mo‘ljal sifatida muntazam monitoring va mustaqil baholash bilan tasdiqlanishi lozim.

Takliflarni 2026-2030-yillarda bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq. Dastlab ma’lumotlar standartlari, “yashil” kasblar tasnifi, vazifalar klassifikatori va mehnat bozori pasportlari metodikasi ishlab chiqiladi. So‘ng tanlangan hududlarda raqamli kompetensiyalar profili, erta ogohlantirish, dual ta’lim va natijaga bog‘langan vaucherlar sinovdan o‘tkazilib, samarali mexanizmlar respublika miqyosiga

kengaytiriladi. Monitoringning asosiy mezonlari rasmiy ishga joylashish, daromad, mehnat unumdorligi, ish joyining barqarorligi, yoshlar va xotin-qizlar ishtiroki hamda hududiy tenglik bo‘lishi kerak.

Shunday qilib, raqamli transformatsiya sharoitida mehnat bozori barqarorligi texnologiyalarni joriy etish sur’ati bilan emas, balki inson kapitalining moslashish tezligi, institutlarning muvofiqligi va yangi imkoniyatlarning aholi guruhlari hamda hududlar o‘rtasida adolatli taqsimlanishi bilan belgilanadi. O‘zbekiston uchun ustuvor vazifa raqamli va “yashil” o‘zgarishlarni inson kapitalini uzluksiz rivojlantirish, norasmiy ish bilan bandlikni qisqartirish, vazifalarga asoslangan monitoring, dual ta’lim va davlat-ta’lim-biznes hamkorligi bilan birlashtirishdan iborat. Mazkur mexanizm demografik bosimni iqtisodiy imkoniyatga aylantirish, yuqori unumli va rasmiy ish o‘rinlarini kengaytirish hamda mamlakat mehnat bozorining uzoq muddatli raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurakhmanov K. Labour Economics in the Era of Artificial Intelligence. - New York: Callagan Publication, 2025. - 584 p.
2. Abdurakhmanov K.H., Zokirova N.K. Sovremennaya ekonomika truda: uchebnik. - Moskva: Izdatelskiy dom «Delo» RANXiGS, 2025. - 740 s.
3. Abdurakhmanov K.H., Zokirova N.K., Shakarov Z.G. Upravlenie chelovecheskim kapitalom v usloviyax sifrovizatsii ekonomiki Respubliki Uzbekistan // Liderstvo i menejment. - 2022. - T. 9. - № 1. - S. 219-232. - DOI: 10.18334/lim.9.1.114285.
4. Goyipnazarov S.B. Methodological basis for assessing the state of digital development of human capital // Labor Economics and Human Capital. - 2024. - Vol. 3, No. 3. - P. 75-88.
5. International Labour Organization. World Employment and Social Outlook: Trends 2025. - Geneva: ILO, 2025.
6. OECD. Digital Skills for Private Sector Competitiveness in Uzbekistan. - Paris: OECD Publishing, 2023.
7. United Nations Population Fund. Country Programme Document for Uzbekistan (2026-2030). - New York: UNFPA, 2025.
8. World Bank. Uzbekistan Macro Poverty Outlook. - Washington, DC: World Bank, 2025.
9. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2025. - Geneva: World Economic Forum, 2025.

TIJORAT BANKLARINING UZOQ MUDDATLI MOLIYALASHTIRISHGA TAYYORLIGINI BAHOLASH METODIKASI

Sulaymanov Akrom Isamiddinovich
G.V. Plekhanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga talabgor
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22280778

Annotatsiya. Maqolada tijorat banklarining uzoq muddatli moliyalashtirishni jalb etishga tayyorligini baholash metodikasi taklif etilgan. Metodika moliyaviy barqarorlik, aktivlar sifati, likvidlik va resurslar tarkibi, bozor tayyorligi hamda moliyaviy xavflarga chidamlilikdan iborat beshta blok va 24 ta ko‘rsatkichni birlashtiradi. Chegaraviy normallashtirish, cheklovchi mezonlar va 85,0 foizlik axborot to‘liqligi qoidasi qo‘llanilgan. Ochiq ma’lumotlarga asoslangan dastlabki indeks to‘qqizta bankda sinovdan o‘tkazilib, moliyaviy instrumentlarni bankning real tayyorlik darajasiga muvofiq tanlash imkoniyati asoslangan.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, uzoq muddatli moliyalashtirish, tayyorlik indeksi, likvidlik, kapital yetarliligi, bozor tayyorligi, xedjirlash, Toshkent xalqaro moliya markazi.

Аннотация. Предложена методика оценки готовности коммерческих банков к привлечению долгосрочного финансирования. Она объединяет 24 показателя в пяти блоках: финансовая устойчивость, качество активов, ликвидность и структура ресурсов, рыночная готовность, устойчивость к финансовым рискам. Использованы пороговая нормализация, ограничивающие критерии и правило 85-процентной полноты информации. Предварительный индекс апробирован на открытых данных девяти банков Узбекистана и позволяет дифференцировать выбор финансовых инструментов в зависимости от фактической готовности банка.

Ключевые слова: коммерческий банк, долгосрочное финансирование, индекс готовности, ликвидность, достаточность капитала, рыночная готовность, хеджирование, Ташкентский международный финансовый центр.

Abstract. The paper proposes a methodology for assessing commercial banks’ readiness to attract long-term financing. It combines 24 indicators in five blocks: financial stability, asset quality, liquidity and funding structure, market readiness, and resilience to financial risks. Threshold normalization, limiting criteria, and an 85.0% data completeness rule are applied. A preliminary index based on public data was tested on nine banks in Uzbekistan, supporting a differentiated choice of financial instruments according to each bank’s actual readiness.

Keywords: commercial bank, long-term financing, readiness index, liquidity, capital adequacy, market readiness, hedging, Tashkent International Financial Centre.

Kirish

Jahon bank amaliyotida uzoq muddatli moliyalashtirishning barqarorligi faqat jalb etilgan resurs hajmi bilan emas, balki uning muddati, qiymati, valyutasi, qayta moliyalashtirish ehtimoli va kreditorlar konsentratsiyasi bilan belgilanadi. Ulgurji resurslarning beqarorligi bankni foiz stavkalarini oshirishga yoki kredit muddatlarini qisqartirishga majbur qilishi mumkin; natijada investitsiya va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish imkoniyati cheklanadi [3. 2025:B.1-5]. Xalqaro empirik tadqiqotlarda ham qisqa va uzoq muddatli resurslarning likvidlik yaratish hamda kredit faolligiga ta’siri bir xil emasligi ko‘rsatilgan [2. 2022:B.1453-1460].

O‘zbekiston bank tizimida ushbu masala uzoq muddatli kreditlashning yuqori ulushi va uni qoplaydigan barqaror bozor manbalarining nisbatan cheklanganligi bilan dolzarbdir. Muallif hisob-kitoblariga ko‘ra, 2026-yil boshida uzoq muddatli kreditlar 531,8 trln so‘mni yoki jami kredit portfelining 88,0%ini tashkil etgan, ularning kapital va bevosita aniqlanadigan barqaror manbalar bilan qoplanishi 64,2%dan oshmagan, tarkibiy tafovut esa 190,5 trln so‘mga yetgan. Uzoq muddatli manbalar bank tizimi majburiyatlarining qariyb 26,1%ini tashkil qilgan holda, chiqarilgan qarz qimmatli qog‘ozlari va subordinatsiyalangan majburiyatlar ulushi 6,2%dan oshmagan [4. 2026]. Bu holat bankning kapital bozoriga chiqishidan oldin uning nafaqat moliyaviy ko‘rsatkichlarini, balki bozor infratuzilmasi va xavflarni boshqarish salohiyatini ham kompleks baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Toshkent xalqaro moliya markazini shakllantirish bank obligatsiyalari, sindikatsiyalashgan kreditlar, yashil instrumentlar, sukuk va institutsional investorlar mablag‘larini jalb etish uchun yangi imkoniyat yaratadi. Biroq yangi institutning mavjudligi bankning avtomatik ravishda xalqaro kapitalga tayyorligini anglatmaydi. Bank kapitali va likvidligi yetarli, aktivlari sifatli, moliyaviy hisobotlari shaffof, kredit reytingi va qarz bozori tajribasi mavjud, valyuta hamda foiz xavflari boshqariladigan bo‘lishi kerak. Shu sababli tadqiqotning maqsadi tijorat bankining uzoq muddatli moliyalashtirishni jalb etishga tayyorligini yagona integral ko‘rsatkich orqali baholaydigan, zaif omillarni aniqlaydigan va mos moliyaviy instrumentni tanlashga xizmat qiladigan metodikani ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodikasi

Tadqiqotda bankning uzoq muddatli moliyalashtirishga tayyorligi uning bir yildan ortiq muddatga zarur hajm va valyutada resurs jalb etishi, bunda kapital va likvidlik me’yorlarini buzmasligi, moliyalashtirish qiymati va qayta moliyalashtirish xavfini maqbul darajada saqlashi imkoniyati sifatida talqin qilinadi. Mazkur tushuncha oddiy likvidlik bahosidan kengroq bo‘lib, bankning investorlar talablariga javob berish, axborotni ochiqlash, reyting va emissiya jarayonlarini tashkil etish hamda xatarlarni xedjirlash qobiliyatini ham qamrab oladi. Xedjirlash - valyuta kursi yoki foiz stavkasi o‘zgarishidan kelib chiqadigan zarar ehtimolini qarama-qarshi moliyaviy bitimlar orqali cheklash usulidir.

Mualliflik integral indeksi beshta blok va 24 ta ko‘rsatkichdan tashkil topgan. Bloklar vazni ko‘rsatkichning qarzga xizmat ko‘rsatish qobiliyatiga bevosita ta’siri, tartibga soluvchi ahamiyati va ma’lumotni tekshirish imkoniyati bo‘yicha ekspert ranjirlash asosida belgilangan. Indeksning umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

$I\_UTM = \Sigma(j=1…5)\ Wj \times Bj = \Sigma(i=1…24)\ wi \times zi$

Bu yerda I_UTM - uzoq muddatli moliyalashtirishga tayyorlik integral indeksi; Bj - j-blok bahosi; Wj - blok vazni; zi - i-ko‘rsatkichning normallashtirilgan qiymati; wi - ko‘rsatkich vazni. Vaznlar yig‘indisi 1,000 ga teng bo‘lib, ularni ±10,0% doirasida o‘zgartirish orqali natijaning sezgirligi tekshiriladi.

1-jadval. Integral indeksning bloklari va tarkibi

Blok va vazn	Asosiy ko‘rsatkichlar
Moliyaviy barqarorlik - 0,25	Regulyativ kapital yetarliligi, birinchi darajali kapital, aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE), sof foiz marjasi.
Aktivlar sifati - 0,20	Muammoli kreditlar ulushi, rezervlar bilan qoplash, yirik kredit xatarlari konsentratsiyasi, tarmoq diversifikatsiyasi.
Likvidlik va resurslar tarkibi - 0,25	Likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (LCR), sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti (NSFR), uzoq muddatli majburiyatlar, muddatlar tafovuti, manbalar konsentratsiyasi.
Bozor tayyorligi - 0,15	Xalqaro kredit reytingi, obligatsiya chiqarish tajribasi, axborotni ochiqlash sifati, MHXS/IFRS auditi, xalqaro moliya institutlari bilan aloqalar.
Moliyaviy xavflarga chidamlilik - 0,15	Ochiq valyuta pozitsiyasi, foiz xavfi, qayta moliyalashtirish xavfi, stress-test natijalari, xedjirlash instrumentlaridan foydalanish.

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ko‘rsatkichlar turli o‘lchov birliklariga ega bo‘lgani sababli ular 0 dan 1 gacha bo‘lgan yagona shkalaga keltiriladi. Chegaraviy normallashtirish - ko‘rsatkichni tanlanmadagi eng katta va eng kichik qiymatga emas, oldindan belgilangan maqsadli daraja Ti va kritik chegara Ci ga nisbatan baholash usulidir. Stimulyator, ya’ni qiymati oshishi tayyorlikni kuchaytiradigan ko‘rsatkich uchun maqsadli darajaga yetilganda zi=1, kritik chegaradan past bo‘lganda zi=0 bo‘ladi. Destimulyator, ya’ni qiymati oshishi tayyorlikni pasaytiradigan ko‘rsatkichda esa baholash teskari tartibda amalga oshiriladi. Masalan, kapital yetarliligi va NSFR stimulyator, muammoli kreditlar ulushi va manbalar konsentratsiyasi destimulyator hisoblanadi.

Metodikada kritik kamchiliklarni ikkinchi darajali ko‘rsatkichlarning yuqori bahosi bilan yashirib qo‘yishga yo‘l qo‘ymaydigan cheklovchi mezonlar qo‘llanadi. Kapital yetarliligi, birinchi darajali kapital, LCR yoki NSFR bo‘yicha majburiy me’yor buzilsa, ochiq valyuta pozitsiyasi limiti oshsa, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha auditdan o‘tgan hisobot mavjud bo‘lmasa yoki bazaviy stress ssenariyda asosiy me’yorlar buzilsa, bank yuqori tayyorlik guruhiga kiritilmaydi. Ikki va undan ortiq cheklovchi mezon mavjud bo‘lsa, yakuniy tasnif past tayyorlik darajasi bilan cheklanadi. Basel III doirasidagi NSFR uzoq muddatli aktivlar barqaror manbalar bilan qoplanishini baholovchi muhim ko‘rsatkichdir [1. 2014:B.1-14].

Yakuniy indeks faqat kritik ko‘rsatkichlar tasdiqlangan va umumiy vaznning kamida 85,0%ini qamrab olgan ma’lumotlar mavjud bo‘lganda ishonchli deb hisoblanadi. Axborot to‘liqligi qoidasi bankning muddati bo‘yicha tafovutlari, yirik kreditorlar, foiz xavfi, stress-test va xedjirlash holati kabi ochiq hisobotlarda ko‘pincha to‘liq berilmaydigan ma’lumotlar yo‘qligidan kelib chiqadigan noto‘g‘ri yuqori bahoni oldini oladi.

Natijalar va muhokama

Metodika O‘zbekistonning to‘qqizta tijorat banki ma’lumotlarida sinovdan o‘tkazildi. To‘liq I_UTM ichki boshqaruv va nazorat hisobotlarini talab qilgani sababli ochiq aprobatsiya uchun kapital/aktivlar, muammoli kreditlar, kreditlar/depozitlar nisbati, reyting, qarz chiqarish tajribasi, MHXS/IFRS hisoboti va xalqaro moliya institutlari bilan aloqalardan foydalanadigan dastlabki tashqi indeks shakllantirildi. Uning moliyaviy koeffitsiyentlari vazni 70,0%, bozor parametrlari vazni 30,0%ni tashkil etdi:

I_DT = 0,25Z_kapital + 0,25Z_NPL + 0,20Z_kredit/depozit + 0,15Z_reyting + 0,15Z_bozor

2-jadval. Banklar tayyorligining dastlabki tashqi bahosi

Bank	I_DT	Dastlabki guruh
Ipak Yo‘li Bank	0,90	Yuqori
Hamkorbank	0,84	Yuqori
Ipoteka-bank	0,83	Yuqori
Kapitalbank	0,80	Yuqori
O‘zmilliybank	0,73	Yetarli
Asakabank	0,69	Yetarli
Agrobank	0,68	Yetarli
O‘zsanoatqurilishbank	0,67	Yetarli
Mikrokreditbank	0,65	Yetarli

Manba: muallif hisob-kitoblari.

Natijalar banklarning tashqi kapitalga chiqish imkoniyati bir xil emasligini ko‘rsatdi. Yuqori dastlabki tayyorlikka ega banklar ichki stress-test ijobiy natija bergan taqdirda sindikatsiyalashgan kreditlar, ichki yoki xalqaro obligatsiyalar, subordinatsiyalangan resurslar va mavzuli instrumentlardan kengroq foydalanishi mumkin. Yetarli tayyorlik guruhidagi banklarda esa bozor qarzlarini xalqaro moliya institutlarining maqsadli kredit liniyalari, ta’minlangan instrumentlar hamda majburiyatlar muddatini bosqichma-bosqich uzaytirish bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, indeks bir xil instrumentni barcha banklarga tavsiya qilish amaliyotidan bankning real imkoniyatlariga mos differensial yondashuvga o‘tishni ta’minlaydi.

Mikrokreditbank misolida dastlabki indeks 0,65 bo‘lib, yetarli tayyorlik guruhiga mos kelgan. Asosiy cheklovlar kreditlar/depozitlar nisbatining 208,5% va muammoli kreditlar ulushining 4,4% darajasida ekanligi bilan bog‘liq. Ushbu ko‘rsatkichlar bank likvidligi avtomatik ravishda buzilganini anglatmaydi, chunki passivlarda kapital, xalqaro moliya institutlari liniyalari va boshqa nedepozit manbalar mavjud. Biroq ular qayta moliyalashtirishga bog‘liqlikni, kredit portfeli sifatini va majburiyatlar muddatini chuqurroq tahlil qilish zarurligini bildiradi. Shu sababli mazkur bank uchun xalqaro obligatsiyani

muddatidan oldin ommaviy joylashtirishdan ko‘ra maqsadli kredit liniyalari, kafolatlangan va ta’minlangan moliyalashtirish hamda islomiy instrumentlarni bosqichma-bosqich joriy etish ustuvor hisoblanadi.

Indeksdan qo‘shimcha prudensial me’yor sifatida emas, balki erta ogohlantirish va boshqaruv qarorini tayyorlash vositasi sifatida foydalanish taklif etiladi. Prudensial me’yor - bank tizimi barqarorligini saqlash uchun tartibga soluvchi organ belgilaydigan majburiy moliyaviy talabdir. Mualliflik indeksi esa mavjud majburiy talablarni almashtirmaydi; u bankning kapital bozoriga chiqishdan oldingi zaif jihatlarini ko‘rsatadi. Hisob-kitobni yiliga kamida bir marta va har bir yirik qarz bitimidan oldin aktivlar va passivlarni boshqarish, risk-menejment, g‘aznachilik, moliyaviy hisobot va xalqaro hamkorlik bo‘linmalari ishtirokida amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Amaliy jihatdan yakuniy indeks bilan birga 0,5 dan past baholangan ko‘rsatkichlar bo‘yicha cheklovlar xaritasi tuzilishi lozim. Mazkur xarita kapitalni mustahkamlash, muammoli kreditlarni kamaytirish, moliyalashtirish manbalari konsentratsiyasini pasaytirish, majburiyatlar muddatini uzaytirish, MHXS/IFRS bo‘yicha hisobotni takomillashtirish, reytingni oshirish yoki xedjirlash siyosatini joriy etish kabi aniq choralarni belgilaydi. Toshkent xalqaro moliya markazi doirasida banklar uchun “yagona darcha” tamoyili asosida bitim tayyorlash infratuzilmasi, standart moliyaviy anketa va raqamli ma’lumotlar to‘plamini yaratish ushbu metodikaning amaliy samaradorligini oshiradi [5. 2026].

Xulosa

Taklif etilgan metodika tijorat bankining uzoq muddatli moliyalashtirishga tayyorligini alohida koeffitsiyentlar yig‘indisi sifatida emas, balki kapital, aktivlar sifati, likvidlik, resurslar tarkibi, bozor infratuzilmasi va xavflarni boshqarishning o‘zaro bog‘langan tizimi sifatida baholaydi. Besh blok va 24 ta ko‘rsatkich, chegaraviy normallashtirish, cheklovchi mezonlar va 85,0 foizlik axborot to‘liqligi qoidasi baholashning diagnostik aniqligini oshiradi.

Metodikani Markaziy bankning strategik tahlil va erta ogohlantirish amaliyotiga, tijorat banklarining uch yillik uzoq muddatli moliyalashtirish strategiyasiga hamda Toshkent xalqaro moliya markazining investorlar bilan bitimlarni tayyorlash jarayoniga integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv barqaror resurslar ulushini oshirish, qayta moliyalashtirish xavfini kamaytirish va O‘zbekiston iqtisodiyotidagi investitsiya, infratuzilma, yashil, ijtimoiy hamda tadbirkorlik loyihalarini uzoq muddatli bank mablag‘lari bilan ta’minlash imkoniyatini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: The Net Stable Funding Ratio. Basel: Bank for International Settlements, 2014. 17 p.

2. Kladakis G., Chen L., Bellos S.K. Wholesale Funding and Liquidity Creation. Review of Quantitative Finance and Accounting. 2022. Vol. 59. P. 1453-1499.

3. Müller C., Ossandon Busch M., Sarmiento M., Pinzon-Puerto F. Fragile Wholesale Deposits, Liquidity Risk, and Banks’ Maturity Transformation. Basel: Bank for International Settlements, 2025. No. 1263. 51 p.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2026-yil 1-yanvar holatiga tijorat banklarining asosiy ko‘rsatkichlari. Toshkent, 2026. URL: https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/3326280/.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-martdagi “Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-48-son Farmoni. Toshkent, 2026.

ЦИФРОВАЯ ПЛАТФОРМА РЕГУЛИРОВАНИЯ МОЛОДЁЖНОГО РЫНКА ТРУДА УЗБЕКИСТАНА

Холмухамедов Мухсинжон Муродуллаевич
соискатель ученой степени доктора экономических наук (DSc),
Ташкентский филиал Российского экономического университета им. Г.В. Плеханова
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22280929

Аннотация. Обоснована цифровая платформенная модель регулирования молодёжного рынка труда Узбекистана, объединяющая индивидуальный цифровой профиль, профессиональную диагностику, обучение, вакансии, первое рабочее место, предпринимательские программы и мониторинг результата через 3, 6 и 12 месяцев. Предложен интегральный индекс эффективности регионального молодёжного рынка труда и раскрыты сценарные ориентиры до 2030 года. Практическая ценность модели состоит в переходе от учёта мероприятий к управлению устойчивой, официальной и доходной занятостью молодёжи.
Ключевые слова: молодёжный рынок труда, цифровая платформа, цифровой профиль, цифровая трудовая адаптивность, профессиональные компетенции, молодёжное предпринимательство, махалля, устойчивая занятость.
Аннотация (ўзбек тилида). Мақолада Ўзбекистон ёшлар меҳнат бозорини тартибга солишнинг индивидуал рақамли профиль, касбий диагностика, ўқитиш, вакансиялар, биринчи иш жойи, тадбиркорлик дастурлари ҳамда 3, 6 ва 12 ойдан кейинги натижалар мониторингини бирлаштирувчи рақамли платформавий модели асосланган. Ҳудудий ёшлар меҳнат бозори самарадорлигининг интеграл индекси ва 2030 йилгача бўлган сценарий мўлжаллари таклиф этилган. Моделнинг амалий аҳамияти тадбирларни ҳисобга олишдан ёшларнинг барқарор, расмий ва даромадли иш билан бандлигини натижа асосида бошқаришга ўтишда ифодаланади.
Калит сўзлар: ёшлар меҳнат бозори, рақамли платформа, рақамли профиль, рақамли меҳнат мослашувчанлиги, касбий компетенциялар, ёшлар тадбиркорлиги, маҳалла, барқарор иш билан бандлик.
Abstract. The paper substantiates a digital platform model for regulating Uzbekistan’s youth labour market. The model integrates an individual digital profile, occupational diagnostics, training, vacancies, first-job support, entrepreneurship programmes, and outcome monitoring after 3, 6 and 12 months. An integrated regional youth labour market efficiency index and scenario benchmarks to 2030 are proposed. The practical value of the model lies in shifting from counting activities to managing sustainable, formal and income-generating youth employment.
Keywords: youth labour market, digital platform, digital profile, digital labour adaptability, professional competencies, youth entrepreneurship, mahalla, sustainable employment.

Актуальность и постановка проблемы

Цифровая трансформация меняет не только технологическую структуру экономики, но и содержание труда, требования к квалификации, механизмы поиска работы и формы взаимодействия работников с работодателями. Молодёжь быстрее осваивает новые технологии, однако одновременно сильнее подвержена рискам нестабильной, неформальной и низкооплачиваемой занятости. По оценкам Международной организации труда, в 2025 году глобальный уровень молодёжной безработицы составил 12,4%, а доля молодых людей, не охваченных работой, образованием или профессиональной подготовкой, достигла 20,0% [7. 2026]. Всемирный экономический форум прогнозирует, что к 2030 году структурные изменения затронут 22,0% рабочих мест: создание 170 млн новых рабочих мест будет сопровождаться вытеснением 92 млн существующих, что требует масштабного обновления профессиональных и цифровых навыков [11. 2025].

Для Узбекистана проблема имеет особую стратегическую значимость. На 1 января 2026 года численность постоянного населения страны составила 38,236 млн человек. В 2025 году валовой

внутренний продукт увеличился на 7,7%, инвестиции в основной капитал достигли 591,1 трлн сумов, а число действующих предприятий и организаций - 474,9 тыс. единиц [4. 2026]. Одновременно моделируемый уровень безработицы среди молодёжи 15-24 лет в 2025 году составил 11,4% [10. 2025]. Следовательно, общий экономический рост сам по себе не обеспечивает автоматического согласования образовательной подготовки, профессиональных навыков молодёжи и реального спроса работодателей.

Научные исследования показывают, что искусственный интеллект и цифровые технологии прежде всего изменяют состав трудовых задач и ценность компетенций [1. 2023: С. 227-246; 6. 2025: P. 889-942]. Платформенная занятость расширяет доступ к заказам и гибким форматам труда, но одновременно создаёт риски алгоритмического контроля, нестабильности доходов и недостаточной социальной защиты [9. 2020: P. 273-294; 12. 2019: P. 56-75]. Поэтому регулирование молодёжного рынка труда должно выходить за пределы электронной регистрации безработных и простого размещения вакансий.

Цель и методический подход

Цель исследования состоит в научном обосновании цифровой платформенной модели, которая позволяет сопровождать молодого человека по всей трудовой траектории: от выявления риска и профессиональной ориентации до обучения, стажировки, трудоустройства, предпринимательской деятельности, получения устойчивого дохода и профессионального роста. Методологическую основу составили системный и институциональный анализ, индексный метод, сопоставление образовательного выпуска со структурой вакансий, прогнозно-сценарное моделирование и организационно-экономическое проектирование. Межсекторная логика модели соответствует современному подходу, объединяющему образование, навыки, занятость, предпринимательство и государственное управление [8. 2024].

В исследовании введена категория «цифровая трудовая адаптивность молодёжи». Под ней понимается способность молодого человека осваивать цифровые технологии, применять их в профессиональной деятельности и превращать цифровые навыки, профессиональные компетенции и предпринимательский потенциал в устойчивую занятость, доход и профессиональное развитие. Данная категория отличается от узкого понимания компьютерной грамотности, поскольку оценивает экономический результат использования цифровых навыков.

Авторская цифровая платформенная модель

Центральным элементом предлагаемой модели является единый цифровой профиль молодого человека. Он должен содержать сведения о возрасте, образовании, специальности, профессиональных и цифровых навыках, сертификатах, трудовом опыте, стажировках, профессиональных интересах, социальных ограничениях, предпринимательских намерениях, полученных мерах поддержки и фактических результатах занятости. Профиль необходимо регулярно обновлять, поскольку статичная информация быстро утрачивает управленческую ценность.

Функциональная архитектура платформы включает пять взаимосвязанных блоков. Первый блок обеспечивает цифровое профилирование и раннюю диагностику трудовых рисков. Второй связывает образование, навыки, профориентацию, курсы, стажировки и профессиональную сертификацию. Третий объединяет вакансии, требования работодателей, уровень оплаты, условия труда, наставничество и поддержку первого рабочего места. Четвёртый охватывает самозанятость, стартапы, гранты, льготное финансирование, бизнес-инкубацию, цифровые продажи и платформенную работу. Пятый осуществляет мониторинг трудоустройства, доходов, официальности и устойчивости занятости через 3, 6 и 12 месяцев, а также прогнозирует спрос на кадры.

Институциональная архитектура строится на интеграции данных махалли, школ, техникумов, вузов, карьерных центров, органов занятости, работодателей, банков, фондов, налоговых и статистических органов. Махалля выполняет функцию раннего выявления и первичного профилирования; образовательные организации оценивают и развивают компетенции; органы занятости формируют индивидуальную траекторию выхода на рынок труда; работодатели подтверждают реальный спрос;

банки и фонды обеспечивают финансовый канал предпринимательства; налоговые и статистические органы позволяют измерять доход, формализацию и устойчивость результата. Такая интеграция превращает платформу из информационной базы в механизм управления человеческим капиталом.

Интегральная оценка эффективности

Для сравнительной оценки регионов предложен интегральный индекс эффективности функционирования молодёжного рынка труда. Его расчёт представлен формулой:

ИЭРТМр = 0,25 × Б1 + 0,20 × Б2 + 0,20 × Б3 + 0,20 × Б4 + 0,15 × Б5

где Б1 характеризует занятость и безработицу молодёжи; Б2 - качество и устойчивость рабочих мест; Б3 - цифровые компетенции и цифровую занятость; Б4 - молодёжное предпринимательство; Б5 - махаллинско-региональную адресность поддержки. Все показатели нормируются по шкале от 0,0 до 1,0. Значение индекса от 0,80 до 1,00 отражает высокую эффективность; от 0,65 до 0,79 - устойчивую эффективность; от 0,50 до 0,64 - умеренную эффективность при наличии структурных проблем; ниже 0,50 - зону риска, требующую адресного вмешательства.

Методическое преимущество индекса состоит в том, что он соединяет традиционные показатели занятости и безработицы с качественными характеристиками: официальностью труда, устойчивостью рабочего места, уровнем дохода, профессиональным соответствием, цифровой включённостью и жизнеспособностью молодёжных бизнес-проектов. Это позволяет оценивать не число проведённых мероприятий, а социально-экономический результат государственной поддержки.

Сценарные результаты до 2030 года

Развитие межкультурной коммуникативной компетенции не должно ограничиваться усвоением сведений о традициях, обычаях и образе жизни представителей других культур. Полученные знания необходимо применять в реальных или моделируемых коммуникативных ситуациях. В этом отношении особую методическую ценность представляют аутентичные материалы, анализ конкретных ситуаций, ролевые игры, имитационное моделирование, проблемные задания, проектная деятельность, групповые дискуссии и рефлексивные упражнения. Например, в ходе имитационное моделирование студент может моделировать ситуации собеседования, международной встречи, академических переговоров, неформальной беседы или обслуживания клиентов, выбирая языковые стратегии с учётом социального статуса собеседника, коммуникативной цели и культурного контекста. Анализ конкретной ситуации позволяет анализировать реальные или реалистичные межкультурные ситуации, выявлять причины возникающих проблем и обсуждать альтернативные решения. Рефлексия также занимает важное место в данном процессе. Студент анализирует возникающие трудности, собственный коммуникативный выбор и культурные предположения, что позволяет переосмысливать полученный опыт. При оценивании межкультурной компетенции целесообразно сочетать наблюдение, интервью, самооценивание и анализ результатов деятельности, а не ограничиваться только тестированием.

Заключение

Развитие межкультурной коммуникативной компетенции студентов представляет собой актуальную социально-педагогическую задачу современного высшего образования. Глобализация, академическая мобильность, цифровая коммуникация и интернационализация профессиональной деятельности усиливают необходимость подготовки студентов к эффективному и уместному взаимодействию с представителями различных культур. Межкультурная коммуникативная компетенция предполагает не только знания о других культурах, но и способность понимать культурные различия, учитывать различные точки зрения, адаптировать коммуникативное поведение к ситуации, проявлять уважение и эмпатию, критически осмысливать собственные установки и применять соответствующие коммуникативные стратегии. Следовательно, обучение иностранному языку должно включать систематическую практико-ориентированную межкультурную деятельность. Использование аутентичных материалов, анализа конкретных ситуаций, ролевых игр, имитационного моделирования, проблемных заданий, межкультурных дискуссий и рефлексивных упражнений создаёт условия для переноса теоретических знаний в практическую коммуникацию и способствует формированию готовности студентов к эффективному взаимодействию в многообразном культурном и профессиональном пространстве.

Литература

1. Байрам М. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – 124 p.
2. Deardorff D. K. Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization // Journal of Studies in International Education. – 2006. – Vol. 10, No. 3. – P. 241–266. DOI: 10.1177/1028315306287002.

3. Hall E. T., Trager G. L. The Analysis of Culture. – Washington, D.C.: American Council of Learned Societies, 1953.
4. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe, 2020.
5. Zhou R., Samad A., Perinpasingam T. A systematic review of cross-cultural communicative competence in EFL teaching: insights from China // Humanities and Social Sciences Communications. – 2024. – Vol. 11. – Article 1750. DOI: 10.1057/s41599-024-04071-5.

REFLEKTIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Xumora Raximova
Namangan davlat universiteti, tayanch doktorant
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22303732

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda reflektiv yondashuvning imkoniyatlari yoritilgan. Reflektiv faoliyatning pedagogik tajribani tahlil qilish, o‘z kasbiy faoliyatini baholash, muammolar sabablarini aniqlash hamda keyingi faoliyatni takomillashtirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, reflektiv kundalik, o‘z-o‘zini baholash, kuzatish, qayta aloqa va reflektiv savollardan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil kasbiy rivojlanishiga xizmat qilishi asoslangan.

Kalit so‘zlar: reflektiv yondashuv, refleksiya, kasbiy kompetensiya, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi, reflektiv faoliyat, o‘z-o‘zini baholash, kasbiy rivojlanish.

Zamonaviy chet tili o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi nafaqat fan va metodikaga oid bilimlarni egallash, balki pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, o‘z faoliyatiga tanqidiy baho berish, qabul qilingan metodik qarorlarning samaradorligini aniqlash hamda zarur holatlarda o‘z pedagogik faoliyatiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish qobiliyatini ham nazarda tutadi. Shu jihatdan bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida reflektiv yondashuvdan foydalanish ularning kasbiy kompetensiyasini izchil rivojlantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Refleksiya pedagogik faoliyat jarayonida o‘qituvchining o‘z tajribasini anglash va tahlil qilishiga imkon beradi. D. Schön professional faoliyat kontekstida refleksiyaning ikki muhim ko‘rinishini: faoliyat jarayonidagi refleksiya (reflection-in-action) va faoliyatdan keyingi refleksiya (reflection-on-action)ni ajratib ko‘rsatadi. Birinchi holatda mutaxassis muayyan vaziyatning o‘zida o‘z harakatlarini tahlil qilib, zarur qarorlarni qabul qiladi; ikkinchi holatda esa amalga oshirilgan faoliyat natijalarini qayta ko‘rib chiqib, kelgusidagi faoliyat uchun tegishli xulosalar chiqaradi [1].

Mazkur yondashuv bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda alohida ahamiyatga ega. Ingliz tilini o‘qitish jarayoni turli kommunikativ vaziyatlar, o‘quvchilarning individual xususiyatlari, til o‘rganishdagi qiyinchiliklar hamda metod va vositalarni vaziyatga mos tanlash zarurati bilan tavsiflanadi. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchi faqat metodik tavsiyalarni bilishi emas, balki “Nima uchun aynan shu metodni tanladim?”, “U qanday natija berdi?”, “Talabalarning reaksiyasi qanday bo‘ldi?”, “Nimani o‘zgartirish kerak?” kabi savollar asosida o‘z faoliyatini tahlil qila olishi lozim.

T. Farrell reflektiv amaliyotni til o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishi bilan bog‘lab, refleksiyani faqat amalga oshirilgan darsni tahlil qilish bilan chegaralamaslikni taklif etadi. Uning reflektiv amaliyot modelida o‘qituvchining kasbiy qarashlari, prinsiplari, nazariy tasavvurlari, amaliy faoliyati hamda kasbiy faoliyatning kengroq ijtimoiy va axloqiy jihatlari o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinadi [2]. Mazkur yondashuv refleksiyani alohida topshiriq sifatida emas, balki o‘qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanish mexanizmi sifatida tushunishga imkon beradi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini reflektiv yondashuv asosida rivojlantirishda bir qator amaliy vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Jumladan, reflektiv kundalik yuritish talabaga o‘quv yoki pedagogik amaliyot davomida yuzaga kelgan vaziyatlarni muntazam qayd etish, o‘z harakatlari va natijalarini tahlil qilish imkonini beradi. Kundalikda faqat sodir bo‘lgan voqea tasvirlanmasdan, uning sabablari, natijasi, talabaning munosabati va kelgusida vaziyatni qanday yaxshilash mumkinligi ham tahlil qilinishi zarur.


O‘z-o‘zini baholash reflektiv faoliyatning yana bir muhim komponentidir. Talaba o‘zining metodik bilimlari, darsni rejalashtirish, kommunikativ faoliyatni tashkil etish, o‘quvchilar bilan ishlash va pedagogik muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini belgilangan mezonlar asosida baholashi mumkin. Bunday baholash talabaning kuchli va rivojlantirilishi lozim bo‘lgan jihatlarini anglashiga xizmat qiladi.

Shuningdek, o‘zaro kuzatish va qayta aloqa bo‘lajak o‘qituvchilarda reflektiv ko‘nikmalarni shakllantirish uchun samarali imkoniyat yaratadi. Talabalar bir-birining mikrodarslari yoki pedagogik amaliyotdagi faoliyatini kuzatib, oldindan belgilangan mezonlar asosida konstruktiv fikr bildirishi mumkin. Bunda qayta aloqa faqat kamchiliklarni ko‘rsatishga emas, balki muvaffaqiyatli metodik qarorlarni aniqlash va ularni asoslashga ham yo‘naltirilishi muhim.

Reflektiv savollardan tizimli foydalanish ham kasbiy rivojlanish jarayonini faollashtiradi. Masalan, *“Darsning qaysi qismi samarali bo‘ldi?”, “Nima kutilganidek amalga oshmadi?”, “Buning sababi nimada?”, “Boshqa qanday metoddan foydalanish mumkin edi?”, “Keyingi darsda nimani o‘zgartiraman?”* kabi savollar talabani oddiy tavsiflashdan tahlil, baholash va pedagogik qaror qabul qilish bosqichiga olib chiqadi.

Reflektiv faoliyatning muhim jihati shundaki, u nazariya bilan amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlashga yordam beradi. Bo‘lajak o‘qituvchi pedagogika, psixologiya va ingliz tilini o‘qitish metodikasi bo‘yicha egallagan nazariy bilimlarini real yoki modellashtirilgan pedagogik vaziyatlar bilan solishtiradi. Natijada metodik bilimlar tayyor qoidalar majmui sifatida emas, muayyan pedagogik muammoni hal qilish vositasi sifatida o‘zlashtiriladi. T. Farrell va M. Macapinlac tomonidan TESOL o‘qituvchilari bilan olib borilgan tadqiqotda ham reflektiv amaliyot o‘qituvchining kasbiy qarashlari, nazariy tasavvurlari va real pedagogik faoliyati o‘rtasidagi aloqalarni anglash imkonini berishi ko‘rsatilgan [3].

Shu nuqtayi nazardan, reflektiv yondashuv asosidagi kasbiy tayyorgarlik jarayoni 1-rasmdagi ketma-ketlik asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Mazkur jarayonda professor-o‘qituvchi tayyor yechimlarni beruvchi asosiy manba sifatida emas, balki talabaning o‘z faoliyatini tahlil qilishi va mustaqil professional qaror qabul qilishiga ko‘maklashuvchi fasilitator sifatida ishtirok etadi.



1-rasm. Kasbiy tayyorgarlikni tashkil etish jarayoni

Xulosa qilib aytganda, reflektiv yondashuv bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik tajribani ongli tahlil qilish, o‘z faoliyatini baholash, nazariya va amaliyotni integratsiyalash, metodik qarorlarni asoslash hamda individual kasbiy rivojlanish yo‘nalishini belgilash imkonini yaratadi. Reflektiv kundaliklar, o‘z-o‘zini baholash, o‘zaro kuzatish, konstruktiv qayta aloqa va reflektiv topshiriqlarning ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoniga tizimli kiritilishi talabalarning kelajakdagi pedagogik faoliyatiga ongli va mas’uliyatli munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. — New York: Basic Books, 1983. — 374 p.

2. Farrell T.S.C. Promoting Teacher Reflection in Second Language Education: A Framework for TESOL Professionals. — New York: Routledge, 2015. — 154 p.

3. Farrell T.S.C., Macapinlac M. Professional Development Through Reflective Practice: A Framework for TESOL Teachers // Canadian Journal of Applied Linguistics. — 2021. — Vol. 24, No. 1. — P. 1–25. DOI: 10.37213/cjal.2021.28999.

4. Farrell T.S.C. Reflective Practice in Language Teaching. — Cambridge: Cambridge University Press, 2022.

TALABALARNING MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASI: TARKIBIY KOMPONENTLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Nilufar Abdullayeva
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Namangan filiali o’qituvchisi
nilufarabdullaeva@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22303837

Annotatsiya: Maqolada talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’limning globallashuvi va madaniyatlararo aloqalarning kengayishi sharoitida mazkur kompetensiyaning mazmunini aniqlash hamda uning tarkibiy komponentlarini ilmiy jihatdan asoslash zarurati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: madaniyatlararo muloqot, madaniy bilim, munosabat, kommunikativ ko‘nikma.

Abstract: This article analyzes the theoretical and pedagogical foundations for developing students’ intercultural communicative competence. It highlights the need to define the content of this competence and to provide a scientific basis for its constituent components in the context of the globalization of education and the expansion of intercultural communication.

Keywords: intercultural communication, cultural knowledge, attitudes, communicative skills.

Kirish

Zamonaviy ta’lim makonining globallashuvi turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi aloqalarning jadallashuvi bilan birga ta’lim oluvchilardan yangi kommunikativ kompetensiyalarni talab etmoqda. Xalqaro akademik hamkorlik, talabalarning mobilligi, raqamli kommunikatsiya va transmilliy kasbiy aloqalarning kengayishi natijasida boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qila olish shaxsning ta’limiy va kasbiy tayyorgarligining muhim ko‘rsatkichlaridan biriga aylanmoqda. Bunday sharoitda xorijiy tilni bilishning o‘zi yetarli bo‘lmay, til vositalaridan muayyan ijtimoiy va madaniy kontekstga mos ravishda foydalanish, boshqa madaniyat vakillarining nuqtayi nazarini tushunish va kommunikativ xatti-harakatni vaziyatga muvofiq moslashtirish qobiliyati ham talab etiladi. Madaniyatlararo muloqotning mazmuni aynan shu jihat bilan tavsiflanadi. Muloqot jarayonida ishtirokchilar nafaqat til vositalaridan, balki turli qadriyatlar, ijtimoiy me’yorlar, madaniy tajriba va kommunikativ odatlardan foydalanadilar. Shu sababli kommunikativ muvaffaqiyat ko‘pincha tilning grammatik jihatdan to‘g‘ri qo‘llanishidan ko‘ra, uning muayyan madaniy vaziyatga qanchalik mos kelishiga bog‘liq bo‘ladi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya turli madaniyat vakillari bilan samarali va maqbul muloqot qilish imkonini beruvchi bilim, munosabat va ko‘nikmalarning integrativ majmui sifatida talqin qilinadi.

Adabiyotlar tahlili

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining tarkibiy tuzilishi masalasi xorijiy til ta’limi metodikasida turli nazariy yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan. Mazkur kompetensiya birgina madaniy ma’lumotlarni egallash bilan chegaralanmaydi. U shaxsning boshqa madaniyatni anglashga tayyorligi, madaniy farqlarni qabul qilishi, tegishli bilimlarni muloqot jarayonida qo‘llashi, madaniyatlararo vaziyatlarni talqin qilishi va zarur hollarda o‘z kommunikativ xatti-harakatini moslashtira olishini ham qamrab oladi.

Madaniyatlararo kompetensiyaning muhim modellaridan biri A. Knapp-Potthoff tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvdir. Mazkur modelda madaniyatlararo kompetensiya uch asosiy yo‘nalish: affektiv, kognitiv va strategik komponentlar orqali tavsiflanadi. Affektiv komponent tarkibiga boshqa madaniyat vakillariga nisbatan empatiya, ochiqlik va bag‘rikenglik kiradi. Kognitiv komponent o‘rganilayotgan til va madaniyatga oid bilimlarni, shuningdek, madaniyatlararo o‘zaro ta’sirning umumiy qonuniyatlarini anglashni nazarda tutadi. Strategik komponent esa kommunikativ, ta’limiy va tadqiqotchilik strategiyalaridan foydalanish bilan bog‘lanadi.

A. Knapp-Potthoff yondashuvida strategik tarkibning ahamiyati shundaki, madaniyatlararo muloqotda mavjud bilimlarni oddiy takrorlash emas, balki ularni vaziyatga moslashtirish va yangi kommunikativ muammolarni hal etishda qo‘llash talab etiladi. Keyingi tadqiqotlarda ushbu strategik

yo‘nalish refleksiya bilan ham bog‘lanib, shaxsning o‘z tajribasi va mavjud bilimlarini qayta ko‘rib chiqishi madaniyatlararo rivojlanishning muhim sharti sifatida talqin qilinadi.

Xorijiy til ta’limida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyaning eng ko‘p qo‘llanadigan modellaridan biri M. Byram tomonidan ishlab chiqilgan. Olimning konsepsiyasida kompetensiya beshta o‘zaro bog‘liq komponent orqali ifodalanadi: munosabatlar, bilim, talqin qilish va bog‘lash ko‘nikmalari, kashf etish va o‘zaro ta’sir ko‘nikmalari hamda tanqidiy madaniy anglash [1].

Munosabatlar (savoir être) boshqa madaniyat vakillariga nisbatan qiziqish, ochiqlik va o‘z madaniy qarashlarini mutlaq mezon sifatida qabul qilmaslikka tayyorlikni anglatadi. Talaba boshqa madaniyatni baholashdan avval uni tushunishga intilishi, o‘z madaniy tajribasining ham ma’lum darajada shartlanganligini anglay olishi lozim.

Bilim (savoir) o‘z va boshqa madaniyatdagi ijtimoiy guruhlar, ularning qadriyatlari, amaliyotlari va o‘zaro munosabat jarayonlari haqidagi tasavvurlarni qamrab oladi. Bunday bilim madaniy faktlarni yodlab olish bilan cheklanmay, ijtimoiy guruhlar va shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarning qanday shakllanishini tushunishni ham nazarda tutadi [1].

Talqin qilish va bog‘lash ko‘nikmalari (savoir comprendre) boshqa madaniyatga oid hodisa, matn yoki xatti-harakatni anglash, uning mazmunini izohlash va uni o‘z madaniyatidagi tegishli hodisalar bilan qiyoslash imkonini beradi. Mazkur komponent talabada madaniyatlararo farqlarni faqat qayd etish emas, balki ularning mazmunini tushuntirish va o‘zaro munosabatini aniqlash qobiliyatini shakllantiradi.

Kashf etish va o‘zaro ta’sir ko‘nikmalari (savoir apprendre/faire) yangi madaniy bilimlarni muloqot jarayonida mustaqil ravishda egallash va mavjud bilim, munosabat hamda ko‘nikmalarni real kommunikatsiyada qo‘llash bilan bog‘liq [1]. Tanqidiy madaniy anglash (savoir s’engager) esa o‘z va boshqa madaniyatlarning qarashlari, amaliyotlari hamda mahsulotlarini aniq mezonlar asosida tanqidiy baholashni anglatadi. Mazkur komponent talabani bir madaniyatni ikkinchi madaniyatga nisbatan ustun yoki mutlaq mezon sifatida qabul qilishdan saqlab, madaniy hodisalarga tahliliy yondashish imkonini beradi.

Shunday qilib, M. Byram modelida madaniyatlararo kompetensiya bilim, munosabat, talqin qilish, o‘zaro ta’sir va tanqidiy baholashning integrativ tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu modelning pedagogik ahamiyati talabaning madaniyatlararo muloqotga tayyorgarligini nafaqat bilim darajasi, balki muloqot jarayonidagi amaliy faoliyati va refleksiv pozitsiyasi bilan ham bog‘lash imkonini beradi [1].

G.Elizarova madaniyatlararo kompetensiyani xorijiy til kommunikativ kompetensiyasi bilan uzviy aloqada ko‘rib, uning har bir tarkibiy qismida madaniyatlararo jihatning mavjudligini asoslaydi. Ushbu modelda xorijiy til kommunikativ kompetensiyasi lingvistik, sotsiolingvistik, nutqiy, strategik, sotsiomadaniy va ijtimoiy komponentlar bilan ifodalanadi. Lingvistik komponent til birliklarining milliy-madaniy xususiyatlarini anglash va ularni tegishli kommunikativ ma’noda qo‘llash bilan bog‘liq. Bunda alohida leksik birliklarning milliy-madaniy semantikasi, realiyalar va boshqa madaniyatga xos tushunchalarni tushunish muhimdir.

Sotsiolingvistik komponent kommunikativ vaziyat, suhbatdoshlarning ijtimoiy maqomi va ular o‘rtasidagi munosabatlarga qarab til shakllarini tanlashni nazarda tutadi. Demak, bir xil kommunikativ mazmun turli ijtimoiy sharoitlarda turlicha ifodalanishi mumkin.

Nutqiy komponent turli madaniy kontekstlarda matnni yaratish va talqin qilishning tegishli strategiyalaridan foydalanishni qamrab oladi.

Strategik komponent muloqot davomida yuzaga keladigan til va madaniyatlararo qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun verbal va noverbal strategiyalarni tanlash bilan bog‘liq. Aynan shu komponent madaniyatlararo vositachilik uchun muhim metodik asos yaratadi.

Sotsiomadaniy komponent mahalliy so‘zlovchilar tomonidan qo‘llanadigan ijtimoiy-madaniy ifodalarni anglash, ularning kontekstual ma’nosini tushunish va vaziyatga mos shaklni tanlash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy komponent esa boshqa shaxslar bilan aloqa qilishga tayyorlik, motivatsiya, o‘ziga ishonch, empatiya va ijtimoiy vaziyatlarni boshqarish qobiliyatlari bilan tavsiflanadi.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish natijasida talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini quyidagi o‘zaro bog‘liq komponentlar asosida tavsiflash mumkin:

Kognitiv component: o‘z va boshqa madaniyatlar, qadriyatlar, urf-odatlar, ijtimoiy me’yorlar hamda kommunikativ xususiyatlar haqidagi bilimlarni qamrab oladi.

Affektiv component: ochiqlik, qiziqish, empatiya, bag‘rikenglik va madaniy farqlarni qabul qilishga tayyorlik bilan tavsiflanadi.

Kommunikativ-amaliy component: turli madaniy vaziyatlarda til va nutq vositalaridan vaziyatga mos foydalanish qobiliyatini ifodalaydi.

Sotsiolingvistik-sotsiomadaniy component: ijtimoiy maqom, munosabat, kontekst va madaniy me’yorlardan kelib chiqib kommunikativ vositalarni tanlash qobiliyatini anglatadi.

Strategik component: madaniyatlararo tushunmovchiliklarni bartaraf etish, muloqotni davom ettirish va moslashuv strategiyalaridan foydalanishni qamrab oladi.

Refleksiv-tanqidiy component: o‘z madaniy qarashlari va stereotiplarini tahlil qilish, boshqa madaniyatni tanqidiy va xolis baholash qobiliyatini ifodalaydi.

Mazkur tizim M.Byramning besh komponentli modelidagi munosabat, bilim, talqin qilish va bog‘lash, kashf etish va o‘zaro ta’sir hamda tanqidiy madaniy anglash jihatlari bilan, shuningdek, G.Elizarovaning kommunikativ kompetensiyaning lingvistik, sotsiolingvistik, nutqiy, strategik, sotsiomadaniy va ijtimoiy tarkibiy qismlariga bergan yondashuvi bilan uzviy bog‘lanadi [1; 6]. Bunday tizimlashtirish talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda bilim, munosabat, amaliy kommunikativ faoliyat, strategik moslashuv va refleksiya o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash imkonini beradi.

Talabalarda mazkur kompetensiyani shakllantirish uchun ta’lim mazmuni real va modellashtirilgan madaniyatlararo vaziyatlar bilan boyitilishi lozim. Autentik matnlar, videomateriallar, muloqot namunalarini tahlil qilish, case study, rolli o‘yinlar, simulyatsiyalar, madaniyatlararo munozaralar va muammoli vaziyatlar talabaning madaniy bilimlarini amaliy kommunikativ faoliyat bilan bog‘laydi. Bunday faoliyatlarda talaba nafaqat boshqa madaniyat haqida bilim oladi, balki kommunikativ vaziyatni tahlil qiladi, suhbatdoshning pozitsiyasini tushunishga harakat qiladi, muqobil kommunikativ strategiyalarni tanlaydi va faoliyat natijasini reflektiv baholaydi. Madaniyatlararo kompetensiyani baholashda faqat deklarativ bilimlarni tekshirish bilan cheklanmasdan, vaziyatli topshiriqlar, kuzatuv, o‘z-o‘zini baholash, refleksiv yozuvlar va kommunikativ faoliyat mahsulotlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Xulosa

Talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta’limning globallashuvi va xalqaro kommunikativ aloqalarning kengayishi bilan belgilanadigan muhim pedagogik vazifadir. Tahlil qilingan yondashuvlar madaniyatlararo kompetensiyani bir xil mazmundagi yagona tuzilma sifatida emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi bilim, munosabat, kommunikativ, sotsiolingvistik-sotsiokultural, strategik va refleksiv-tanqidiy komponentlarning integrativ tizimi sifatida talqin qilish imkonini beradi. A.Knapp-Potthoff yondashuvida affektiv, kognitiv va strategik jihatlar ustuvor bo‘lsa, M. Byram modelida munosabatlar, bilim, talqin va bog‘lash, kashf etish va o‘zaro ta’sir hamda tanqidiy madaniy anglash markaziy o‘rin egallaydi. G. Elizarova esa madaniyatlararo jihatni lingvistik, sotsiolingvistik, nutqiy, strategik, sotsiomadaniy va ijtimoiy kompetensiyalar tarkibida ochib beradi. Oliy ta’limda talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni madaniy bilimlarni berish, ijobiy munosabatlarni shakllantirish, kommunikativ va sotsiolingvistik ko‘nikmalarni rivojlantirish, madaniyatlararo muammolarni hal etish strategiyalarini o‘rgatish hamda refleksiv-tanqidiy faoliyatni tashkil etishning uzviy tizimi asosida qurilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997.

2. Deardorff D. K. Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization // Journal of Studies in International Education. – 2006. – Vol. 10, No. 3. – P. 241–266. DOI: 10.1177/1028315306287002.

3. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe, 2020.

4. Hall E. T., Trager G. L. The Analysis of Culture. – Washington, D.C.: American Council of Learned Societies, 1953.

5. Zhou R., Samad A., Perinpasingam T. A systematic review of cross-cultural communicative competence in EFL teaching: insights from China // Humanities and Social Sciences Communications. – 2024. – Vol. 11. – Article 1750. DOI: 10.1057/s41599-024-04071-5.

6. Елизарова Г. В. Культура и обучение иностранным языкам. – Санкт-Петербург: КАРО, 2005.

INGLIZ VA O‘ZBEK BIZNES MUZOKARALARIDA TAKLIF VA QARSHI TAKLIFNING KOMMUNIKATIV-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Ugilkhon Kakilova
Andijon davlat chet tillari instituti Mustaqil tadqiqotchisi,
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22626004

Annotatsiya. Mazkur tezisda ingliz va o‘zbek biznes muzokaralarida taklif va qarshi taklifning kommunikativ-funksional xususiyatlari qiyosiy-diskursiv nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Taklif muzokara predmetiga muayyan shart yoki yechimni olib kiruvchi kommunikativ harakat sifatida, qarshi taklif esa dastlabki taklifni to‘liq rad etmasdan, uning ayrim parametrlarini o‘zgartirish orqali muqobil variantni ilgari suruvchi harakat sifatida talqin etiladi. Tahlil taklif va qarshi taklif o‘rtasidagi funksional munosabat muzokaraning keyingi yo‘nalishini belgilashda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Ingliz va o‘zbek materiallarida mazkur kommunikativ harakatlarning umumiy funksional jihatlari bilan birga, ularning lisoniy ifodalanishida muayyan farqlar ham kuzatiladi.

Kalit so‘zlar: biznes diskursi, biznes muzokarasi, taklif, qarshi taklif, kommunikativ funksiya, qiyosiy tahlil, ingliz va o‘zbek tillari.

Kirish. Biznes muzokarasida tomonlarning maqsadi mavjud pozitsiyalar haqida axborot almashish bilangina cheklanmaydi. Muzokara davomida ishtirokchilar narx, miqdor, yetkazib berish muddati, to‘lov tartibi yoki boshqa tijoriy shartlarga oid muayyan variantlarni ilgari suradi va ularni suhbatdoshning munosabatiga qarab qayta shakllantiradi. Shu jihatdan taklif va qarshi taklif muzokara diskursining rivojlanishini ta’minlaydigan muhim kommunikativ harakatlar hisoblanadi.

Taklif va qarshi taklif masalasi turli ilmiy an’analarda muzokaraning muhim tarkibiy qismi sifatida o‘rganilgan. Rus tilshunosligidagi lingvopragmatik tadqiqotlarda biznes muzokarasining shartlarni muhokama qilish qismida taklif, aniqlashtirish, e’tiroz, qarshi taklif va argumentlash kabi o‘zaro bog‘liq nutqiy harakatlar ajratiladi. Bunda narx, chegirma, yetkazib berish sharti, miqdor, sifat va kafolat kabi tijoriy masalalar muzokara predmetiga aylanishi ko‘rsatiladi.

Malyuga (2009) biznes muzokaralarini madaniyatlararo biznes kommunikatsiyasining o‘ziga xos janri sifatida o‘rganib, unda professional leksika, diskursiv birliklar va boshqa lisoniy vositalarning kommunikativ vazifalariga e’tibor qaratadi. Osiyo biznes kommunikatsiyasi bo‘yicha Choi (2018) esa koreyalik xaridor va xitoylik yetkazib beruvchi o‘rtasidagi real biznes elektron xatlarini tahlil qilib, tijoriy manfaatlarni muvofiqlashtirish jarayonida lisoniy vositalar va muzokara strategiyalarining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Mazkur tezisning maqsadi ingliz va o‘zbek biznes muzokaralarida taklif va qarshi taklif qanday kommunikativ vazifalarni bajarishi hamda ular muzokara shartlarining qayta shakllanishiga qanday xizmat qilishini aniqlashdan iborat.

Muhokama. Taklif biznes muzokarasida tomonlardan birining muayyan tijoriy masala bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan variantni muhokamaga kiritishiga xizmat qiladi. U narx, miqdor, muddat yoki boshqa shartga muayyan mazmun beradi va ikkinchi tomonning ushbu variantga munosabat bildirishini taqozo etadi. Shu sababli taklifni faqat ma’lumot yetkazuvchi gap sifatida emas, balki suhbatdoshning keyingi kommunikativ harakatiga yo‘nalish beruvchi diskursiv harakat sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq.

Taklifga bildiriladigan munosabat turlicha bo‘lishi mumkin. U to‘liq qabul qilinsa, muhokama qilinayotgan shart tomonlar uchun nisbatan maqbul holatga keladi. Biroq taklif tomonlardan birining manfaatiga mos kelmasa, javob faqat rad etish bilan cheklanmasligi mumkin. Suhbatdosh dastlabki variantning ayrim elementlarini saqlagan yoki o‘zgartirgan holda yangi variantni ilgari suradi. Aynan shu holatda qarshi taklif muzokarani davom ettiruvchi kommunikativ vositaga aylanadi.

Ingliz tilidagi autentik savdo muzokarasi bunga misol bo‘la oladi. Xaridor mahsulot narxini so‘ragach, sotuvchi muayyan narxni bildiradi. Xaridor ushbu variantni maqbul deb topmaydi. Shundan so‘ng sotuvchi avvalgi narxni shunchaki takrorlamaydi, balki boshqa o‘lchamdagi mahsulotni va unga mos pastroq narxni taklif qiladi. Yangi variant maqbul topilgach, xaridor buyurtma miqdorini sakkiz quti (eight boxes) sifatida belgilaydi. Demak, dastlabki taklifga salbiy munosabat muloqotni to‘xtatmaydi; aksincha, mahsulot xususiyati va narxning qayta shakllantirilishi muzokarani davom ettirishga imkon beradi.

Qarshi taklifni oddiy e’tirozdan farqlash muhim. E’tiroz mavjud shartning maqbul emasligini ko‘rsatishi mumkin, biroq u har doim ham muqobil yechimni o‘z ichiga olmaydi. Qarshi taklif esa dastlabki variantga munosabat bildirish bilan birga uning o‘rniga yangi yoki o‘zgartirilgan variantni ilgari suradi. Natijada u ikki kommunikativ vazifani bajaradi: bir tomondan, mavjud taklifga munosabatni ifodalaydi, ikkinchi tomondan esa muzokaraning davom etishi uchun yangi asos yaratadi.

O‘zbek biznes materiallarida ham tijoriy shartlarni qayta ko‘rib chiqish imkonini ifodalovchi vositalar uchraydi. Masalan, shartnomaviy materialda mahsulot xususiyati, miqdori va narxiga oid o‘zgarishlar tomonlarning keyingi o‘zaro kelishuvi asosida amalga oshirilishi mumkinligi ko‘zda tutilgan. Bunday yozma shaklni og‘zaki muzokaradagi qarshi taklif bilan aynan tenglashtirib bo‘lmaydi. Biroq u ilgari belgilangan tijoriy shartni zarur vaziyatda o‘zgartirish va yangi variantni tomonlar o‘rtasida qayta kelishish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi.

Taklif va qarshi taklifning o‘zaro munosabati muzokaraning keyingi rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Dastlabki taklif tomonlardan birining shartlarini ifodalasa, qarshi taklif ushbu shartlarni qayta ko‘rib chiqish uchun muqobil variant yaratadi. Bunda qarshi taklif avvalgi taklifni butunlay bekor qilishdan ko‘ra, uning narx, miqdor, muddat yoki boshqa parametrlaridan birini o‘zgartirib, tomonlarning pozitsiyalarini yaqinlashtirishga xizmat qilishi mumkin. Shu jihatdan ingliz va o‘zbek biznes muzokaralarida taklif va qarshi taklifni alohida nutqiy birliklar sifatida emas, balki bir-birining mazmuni va kommunikativ yo‘nalishini o‘zgartirib boruvchi o‘zaro bog‘liq harakatlar sifatida tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Tahlil taklif va qarshi taklif biznes muzokarasida o‘zaro bog‘langan, biroq funksional jihatdan farqlanuvchi kommunikativ harakatlar ekanini ko‘rsatadi. Taklif muayyan tijoriy variantni muzokara maydoniga olib kirsa, qarshi taklif avvalgi variantga munosabat bildirish bilan birga uning o‘rniga o‘zgartirilgan yechimni ilgari suradi. Shu tariqa qarshi taklif kelishmovchilikni shunchaki qayd etmay, muzokaraning davom etishi uchun yangi kommunikativ asos yaratadi. Ingliz va o‘zbek biznes muzokaralarini qiyoslashda ushbu harakatlarning alohida lisoniy shakllaridan tashqari, ularning muzokara jarayonida bajaradigan kommunikativ vazifalarini ham hisobga olish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

Choi, T. H. (2018). Discourse Analysis of Business Chinese and the Comparison of Negotiation Culture between Korea and China: Focused on Business Emails Related to “Napkin Holder” Imports. Cross-Cultural Studies, 50, 103–130.

Malyuga, E. N. (2009). К вопросу о языке деловых переговоров как жанре межкультурной деловой коммуникации. Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Лингвистика, № 3, 52–60.

Charles, M. (1996). Business Negotiations: Interdependence between Discourse and the Business Relationship. English for Specific Purposes, 15(1), 19–36.

M. SAFAROVNING “OTA HUZURIDA” QISSASIDA OBRAZLAR POETIKASI

Feruza Hafizova
Termiz davlat univesiteti doktoranti
E–mail: fhafizova730@gmail.com Orcid:https://orcid.org/0009–0009–9786–6233
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22627575

Annotatsiya: Maqolada zamondosh o‘zbek yozuvchisi Mengziyo Safarovning “Ota huzurida” qissasi misolida obrazlar tizimining badiiy–psixologik tabiati tahlil qilingan. Boyqobil bobo, Sattor Polvonov va Sattorning otasi (Polvon) obrazlari orqali gunoh va tavba, xotira va haqiqat, yo‘qotish va sog‘inch mavzulari yangi ilmiy yondashuv asosida yoritilgan. Uch obraz o‘rtasidagi ichki aloqadorlik qiyosiy–psixologik tahlil qilinib, ular yaxlit badiiy konsepsiya — insonning o‘tmish bilan yarashishi va qalban poklanishi haqidagi umuminsoniy g‘oyani ifodalovchi tizim sifatida asoslangan.
Kalit so‘zlar: qissa, obraz, badiiy konsepsiya, xarakter, vijdon, xotira, psixologizm.
Аннотация: В статье на примере повести современного узбекского писателя Мензиё Сафарова «Ота ҳузурида» («В присутствии отца») анализируется художественно–психологическая природа системы образов. На основе образов Бойкобил–бобо, Саттора Полвонова и отца Саттора (Полвона) в рамках нового научного подхода раскрываются темы греха и покаяния, памяти и истины, утраты и тоски. Проведён сравнительно–психологический анализ внутренней взаимосвязи трёх образов, обосновано, что они образуют целостную художественную концепцию, выражающую общечеловеческую идею примирения человека с прошлым и духовного очищения.
Ключевые слова: повесть, образ, художественная концепция, характер, совесть, память, психологизм.
Abstract: This article analyzes the artistic and psychological nature of the system of characters in the novella «Ota huzurida» («In the Presence of the Father») by the contemporary Uzbek writer Mengziyo Safarov. Through the characters of Boyqobil–bobo, Sattor Polvonov, and Sattor's father (Polvon), the article, based on a new scholarly approach, examines the themes of sin and repentance, memory and truth, loss and longing. A comparative–psychological analysis of the inner connection among the three characters is carried out, demonstrating that together they form an integral artistic concept expressing the universal idea of a person's reconciliation with the past and spiritual purification.
Keywords: novella, character, artistic concept, personality, conscience, memory, psychologism.

Qissa poetikasida bosh qahramon obrazining shakllanishi va takomillashuvi asarning g‘oyaviy–badiiy mazmunini yuzaga chiqaruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki obraz orqali muallifning voqelikka munosabati, estetik ideali va badiiy konsepsiyasi namoyon bo‘ladi. Bu borada olim B. Sarimsoqovning fikricha, badiiy obraz ijodkor shuuri, estetik ideali, dunyoqarashi, maqsadi va g‘oyasi orqali sintezlashgan voqelikning inson ruhiyati muhim qirralarini muayyan narsa, tuyg‘u va kechinmalar timsolida betakror tarzda umumlashtirilgan, estetik qimmatga molik in’ikosidir [1]. Darhaqiqat, badiiy obraz voqelikning oddiy nusxasi emas, balki muallifning estetik tafakkuri va hayotiy tajribasi asosida qayta ishlangan badiiy umumlashma sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli qissa janrida qahramon xarakterining tadrijiy rivoji, uning ichki kechinmalari va ijtimoiy muhit bilan munosabatlari orqali asarning g‘oyaviy mohiyati hamda badiiy konsepsiyasi ochib beriladi.

Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan Mengziyo Safarov zamondosh ijodkorlar orasida munosib mavqega ega adiblardan biridir. Uning ijodida inson va tabiat munosabatlari masalasi turli rakurslarda hamda keng qamrovda badiiy talqin etilgan. Mazkur tezisda yozuvchining «Ota huzurida» qissasi misolida obrazlar tizimi va ularning badiiy–psixologik tabiati tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologik jihatdan qiyosiy–tipologik va psixologik tahlil usullariga tayanadi. Qissadagi har bir obraz alohida tarkibiy qism sifatida emas, balki bir–biri bilan uzviy bog‘liq badiiy butunlikning organik bo‘lagi sifatida o‘rganiladi. Bunday yondashuv obrazlar o‘rtasidagi ichki aloqadorlikni, ularning bir–birini to‘ldiruvchi vazifasini, shuningdek asar kompozitsiyasida tutgan o‘rnini yanada teranroq ochib berish imkonini yaratadi. Qissaning nisbatan tor hajmi, aksincha, obrazlar tabiatini yanada ixcham va ta’sirchan tarzda ifodalashga xizmat qilgani, muallifning har bir detalni maqsadli tanlagani tahlil jarayonida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

M. Safarovning «Ota huzurida» qissasi kichik hajmiga qaramay, inson qalbining eng chuqur qatlamlarini gunoh va tavba, yo‘qotish va sog‘inch, xotira va haqiqat orasidagi kurashni ochib beruvchi

murakkab ruhiy manzarani gavdalantiradi. Asar markazida ikki taqdir o‘zaro chatishib ketadi: yillar davomida vijdon azobida yashagan Boyqobil bobo va bolaligida otasidan judo bo‘lib, keyinchalik maktabning ilmiy mudiri lavozimigacha yetishgan Sattor Polvonov. Muallif ushbu ikki obraz vositasida insonning o‘z gunohi bilan yuzlashuvi naqadar og‘ir, ammo shu bilan birga naqadar zarur ekanini, shuningdek, yo‘qotilgan ota siymosining farzand qalbida qanday saqlanib qolishini nozik psixologik bo‘yoqlar bilan tasvirlaydi.

Boyqobil bobo qissadagi eng fojiali, shu bilan birga eng insoniy obrazlardan biri sifatida gavdalanadi. Qahramon ko‘p yillar davomida og‘ir sirni – Sattorning otasini o‘z qo‘li bilan halok qilganini ichida saqlab yashagan. O‘limi yaqinlashganini his qilgach, u bu og‘ir yukni yolg‘iz olib ketishga qodir emasligini anglaydi va nihoyat, titroq ovozda «bu gunohini o‘zi bilan go‘rga olib ketishni istamasligini» iqror bo‘ladi. Bobo o‘z qilmishini oqlamaydi, aksincha, ochiqchasiga tan oladi. Bu insonning o‘lim oldida haqiqat bilan yuzlashishga majbur bo‘lgan, ammo aynan shu jarayon orqali qalban yengillashgan qahramon obrazidir.

Diqqatga sazovor jihati shundaki, Boyqobil bobo Sattordan bevosita kechirim ham so‘ramaydi, u faqat o‘z gunohini bo‘yniga olganini bildirib, o‘zini Sattorning hukmiga, xoh xun olishi, xoh kechirishi mumkinligini bildirib topshiradi. Boyqobilning bu holati kechirim so‘rashdan ham og‘irroq mavqega ega, chunki u o‘zini oqlamay, jazoni ham qabul qilishga tayyor turadi. Shu bilan birga, uning yillar davomida Sattorni «shundoq odam» bo‘lib yetishishiga o‘z hissasini qo‘shgani, ya’ni yashirin tarzda unga homiylik qilib kelgani, obrazga ziddiyatli, ammo teran inson tabiatini yuklaydi: gunohkor bo‘lsa-da, u vijdonli va mas’uliyatli inson sifatida talqin etiladi. Aynan mana shu ichki ziddiyat – gunoh va mas’uliyat, o‘zini ayblash va boshqasiga g‘amxo‘rlik qilish obrazni sxematik salbiy qahramondan farqli, murakkab psixologik siymoga aylantiradi.

Badiiy,kompozitsion nuqtai nazardan Boyqobil bobo obrazi qissaning «tan olish» arxetipini gavdalantiradi. Uning e’tirofi asar syujetining burilish nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi: aynan shu lahzadan boshlab boshqa qahramonlarning ichki dunyosi, xotiralari va munosabatlari yangicha ma’no kasb eta boshlaydi. Muallif bu obraz orqali gunohning faqat jazolanishi emas, balki uning oqibatlarini yumshatishga qaratilgan sekin–astalik bilan amalga oshirilgan ma’naviy harakat yashirin xayr-ehson va g‘amxo‘rlik orqali qisman «yuvilishi» mumkinligi haqidagi falsafiy fikrni ilgari suradi. Shu tariqa Boyqobil bobo obrazi o‘quvchida bir vaqtning o‘zida qoralash va hamdardlik hissini uyg‘otadigan, milliy adabiyotimizga xos tavba–tazarru an’analarini o‘zida mujassam etgan murakkab xarakter sifatida shakllanadi.

Sattor Polvonov obrazi qissaning ruhiy o‘zagini tashkil etadi. U dastlab bobodan kelayotgan xabarni tushunmay, hayajon bilan yuzlanadi, go‘yo bu gaplarni tushida eshitayotgandek holatga tushadi. Ammo asar davomida u his-tuyg‘ularini boshqarishga qodir, dono va bosiq inson sifatida namoyon bo‘ladi, hatto shok holatida ham o‘zini tutib, boboga nega bu haqiqatni ilgariroq aytmaganini so‘raydi. Ushbu savolda na g‘azab, na o‘ch-alam bor: faqat achinish va tushunishga intilish mujassam.

Sattor Polvonov obrazining yana bir muhim qirrasi uning ijtimoiy mavqei bilan ichki ruhiy holati o‘rtasidagi nomutanosiblikdadir. Maktabning ilmiy mudiri sifatida jamiyatda obro‘- e’tibor qozongan, o‘ziga ishonchli va bilimdon inson bo‘lib tanilgan qahramon, aslida hamon bolalikdagi yetim qolgan bola qiyofasini o‘z ichida saqlab yuradi. Bu ikkilanish tashqi barqarorlik va ichki yaraning davom etishi obrazga psixologik hajm bag‘ishlaydi. Sattorning boboga bergan savoli, ya’ni haqiqatni nega ilgariroq aytmagani haqidagi murojaati, aslida o‘tmishga emas, balki o‘zining kechagi «ma’lumotsizlik» holatiga qaratilgan ichki savol sifatida ham talqin qilinishi mumkin. Shu nuqtai nazardan Sattor obrazi kechirim va tushunish, og‘riq va poklanish o‘rtasidagi murakkab psixologik yo‘lni bosib o‘tuvchi zamonaviy qahramon namunasi sifatida qissaga yangicha nafas baxsh etadi.

Qissada bevosita ishtirok etmasa-da, Sattorning otasi – Polvon asarning eng kuchli obrazlaridan biriga aylanadi, chunki u faqat xotira va tasavvur vositasida gavdalanadi. Bolalik xotiralarida u mard, mehribon va tajribali ovchi sifatida namoyon bo‘ladi: ov paytida qo‘rqib ketgan o‘g‘liga dalda berib, uni «sher bola» deb atagani, qo‘rqmaslikka chorlagani tasvirlangan. Uning nutqida hayotiy falsafa ham mujassam: shamol tinganda buni yaxshi alomat sifatida talqin qilishi orqali u o‘g‘liga sabr va matonatni o‘rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu uch obraz birgalikda insonning o‘tmish bilan yarashishi, haqiqatni qabul qilishi va shu orqali qalban tinchlanishi haqidagi umuminsoniy g‘oyani ifodalaydi. M. Safarov qissa poetikasida obrazlar tizimini psixologik teranlik, xarakterlar tadriji va falsafiy umumlashma asosida qurar ekan, bu bilan zamonaviy o‘zbek qissachiligida inson ruhiyatini badiiy tadqiq etishning yangi bir bosqichini namoyish etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. -Т.: 2004 – Б.22.
2. Сафаров М. Айришох. — Тошкент: 2008. – 286 бет.
3. Жўракулов У. Ҳудудсиз жилва – Т.:Фан, 2006 –Б.161.
4. Холмирзаев Ш. Муаммолар муаммоси – одам // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1986 йил. – 26 дек.
5. Сафаров М. Она тупроқ қўшиғи – Т: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. 225 бет.

INGLIZ VA O‘ZBEK BIZNES MUZOKARALARIDA TIJORIY SHARTLARNING LISONIY-SEMANTIK IFODASI

Ugilkhon Kakilova
Andijon davlat chet tillari instituti Mustaqil tadqiqotchi,
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.22628822

Annotatsiya. Mazkur tezisda ingliz va o‘zbek biznes muzokaralarida tijoriy shartlarning lisoniy-semantik ifodalanishi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor narx, miqdor, mahsulot xususiyati, to‘lov, yetkazib berish va sifat kabi tijoriy parametrlarning muayyan kommunikativ vaziyatda qanday konkret mazmun kasb etishiga qaratiladi. Ingliz tilidagi og‘zaki muzokara hamda o‘zbek tilidagi yozma shartnomaviy material tahlili tijoriy shartlarning konkretlashtirilishi ularning kommunikativ shakli va muzokaradagi vazifasi bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu sababli qiyoslashda lisoniy xususiyatlar bilan bir qatorda tahlil qilinayotgan materialning kommunikativ shaklini ham hisobga olish zarurligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: biznes diskursi, biznes muzokarasi, tijoriy shart, narx, miqdor, yetkazib berish, semantik mazmun, ingliz va o‘zbek tillari.

Kirish. Biznes muzokarasining mazmuniy asosini tomonlar o‘zaro kelishishi lozim bo‘lgan tijoriy shartlar tashkil etadi. Narx, miqdor, mahsulot xususiyati, to‘lov tartibi, yetkazib berish muddati yoki sifat kabi parametrlar biznes muloqotida faqat nomlanib qolmaydi. Ular muayyan qiymat, muddat, miqdor yoki talab bilan aniqlashtiriladi, boshqa tijoriy shartlar bilan bog‘lanadi va zarur vaziyatlarda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin. Shu sababli biznes muzokarasining semantik tahlilida tijoriy shartning mavjudligini aniqlash bilan cheklanmay, uning muayyan kommunikativ vaziyatda qanday mazmun kasb etishini ham o‘rganish zarur.

Biznes muzokaralariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda narx, yetkazib berish hajmi, to‘lov, muddat, sifat, kafolat va mahsulot xususiyatlari muzokara predmetini tashkil etuvchi muhim masalalar sifatida ko‘rsatiladi. Malyuga (2009) biznes muzokaralarini madaniyatlararo biznes kommunikatsiyasi doirasida o‘rganib, uning mazmunini ifodalashda professional leksika va boshqa diskursiv vositalarning ishtirokini ko‘rsatadi. Stan (2011) esa biznes muzokaralarida miqdor, narx, chegirma, yetkazib berish va to‘lov kabi tijoriy mazmunlarning o‘zaro bog‘lanishiga e’tibor qaratadi.

Mazkur tezisning maqsadi ingliz va o‘zbek biznes muzokaralari materiallarida tijoriy shartlarning lisoniy-semantik ifodalanishi, konkretlashtirilishi hamda o‘zaro mazmuniy munosabatga kirishishini aniqlashdan iborat.

Muhokama. Tijoriy shart bilan uning muayyan vaziyatdagi konkret mazmunini farqlash tahlil uchun muhimdir. Masalan, narx muzokara predmetini tashkil etuvchi umumiy tijoriy parametrdir. Muayyan pul miqdorining ko‘rsatilishi esa ushbu parametrni konkretlashtiradi. Xuddi shuningdek, miqdor umumiy parametr bo‘lsa, sakkiz quti (eight boxes) uning muayyan vaziyatdagi aniq ifodasidir. Demak, tijoriy parametr diskursga kiritilgach, muayyan qiymat bilan bog‘lanib, tomonlar muhokama qilishi mumkin bo‘lgan konkret mazmunga ega bo‘ladi.

